# FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA LUG‘AT

# DICTIONNAIRE FRANÇAIS-OUZBEK

www.ziyouz.com kutubxonasi

INSTITUT FRANÇAIS D’ÉTUDES SUR L’ASIE CENTRALE

SERVICE DE COOPÉRATION ET D’ACTION CULTURELLE
DE L’AMBASSADE DE FRANCE EN OUZBEKISTAN

# DICTIONNAIRE FRANÇAIS-OUZBEK

TACHKENT
2008

www.ziyouz.com kutubxonasi

MARKAZIY OSIYONI TADQIQ QILISH FRANSUZ INSTITUTI

O'ZBEKISTONDAGI FRANSIYA ELCHIXONASINING
MADANIYAT VA ILMIY-TEXNIKAVIY HAMKORLIK BO'LIMI

# FRANSUZCHA-O'ZBEKCHA LUG'AT

TOSHKENT
2008

www.ziyouz.com kutubxonasi

Deuxième édition revue
Qayta ko‘rilgan ikkinchi nashri

***Direktor***
***Directeur***
Bayram BALCI

***Tuzuvchilar***
***Auteurs***

Xudoyqul IBRAGIMOV (T, X)
Ahmadali MAMADALIYEV (L, M, N, O, P, Q, R S, W)
Ulug‘bek MANSUROV (V, Z)
Abdumannop NISHONOV (A, E, J, K U, Y)
Ergash SOATJONOV (B, F)
Nishon UMBAROV (C, D, G, H, I)

***Tahrir***
***Direction***

Xudoyqul IBRAGIMOV
Ulug‘bek MANSUROV
Muhabbat ABDUG‘AFUROVA
Javlon IBODULLAYEV

***Bosh muharrir***
***Correction - Révision***

Rémy DOR

© IFEAC, 2008

**www.ziyouz.com kutubxonasi**

### IKKINCHI NASHRGA SOʻZBOSHI

Mazkur fransuzcha-oʻzbekcha lugʻat, aslida, bir insonning izmi-ixtiyori mahsulidir: bu kishi, professor Pyer Shuvin, 1993-yilda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish fransuz institutiga (IFEAC) asos soldi va bu bilan Fransiya va Oʻzbekiston davlatlari orasida madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qoʻshdi.

Oʻsha 1993-yilning oʻzidayoq Shuvin bir guruh mutaxassislarni ushbu xayrli ishga safarbar etdi. Lugʻat shu jamoaning uzoq yillar davomida hamjihatlikda olib borilgan mashaqqatli mehnati samarasidir. Biz taqdim etayotgan qoʻllanma ilgari chigʻatoy tili deb atalgan bu turkiy tilni oʻrganishga bel bogʻlagan fransuz tilida gaplashuvchilarga ham, Molyer asarlarini oʻz aslida oʻqishni istagan oʻzbeklarga ham birday beqiyos xizmat qilishiga imonimiz komil.

Respublikadagi turli oʻquv muassasalari vakillari boʻlmish oʻzbek hamkasblarimizning ushbu ulkan ishni aʼlo darajada nihoyasiga yetkazishda koʻrsatgan sabr-toqati, talabchanligi va hafsalasiga, shuningdek, butun IFEAC hodimlarining qoʻlyozmani nihoyasiga yetkazib, nashr qilishda qoʻshgan hissasiga tasannolar aytamiz.

Lugʻatning ikkinchi nashri ham Toshkentdagi Fransiya elchixonasi Madaniyat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik boʻlimi (SCAC) koʻmagisiz amalga oshmagan boʻlar edi; shu oʻrinda ularga oʻz minnatdorchiligimizni bildirib oʻtamiz.

Pedagogik xarakterga ega boʻlgan mazkur lugʻatning mohiyati xususida gapirsak, odatda, bu turdagi asarlarda uchramaydigan uslubiy boʻyoqli soʻz va iboralarga lugʻatda keng joy ajratilgan. Soʻzlarni tabiatiga koʻra emas, balki ishlatilishiga koʻra soʻzlashuv tiliga xos, qoʻpol yoki vulgar deb ajratamiz. Qolaversa, “qoʻpol soʻzlar” ham “dabdabali soʻzlar”dan qolishmaydi: eng asosiysi ularni toʻgʻri qoʻllay bilishda. Shuning uchun ularni, shuningdek, jargon soʻz va iboralarni, hatto, shaharning chet mavzelarida qoʻllaniladigan yoshlar jargonlarini qayd etishda ikkilanilmagan.

Shu bilan birga, turli lugʻaviy kategoriyalar (ilmiy-texnikaviy atamalar, kundalik isteʼmoldagi soʻzlar) orasidagi muvozanatni oʻrnatish oʻta qiyin masala. Salkam 28 ming soʻzdan tashkil topgan bu lugʻat mukammallikni va bekamu-koʻstlikni daʼvo qilmaydi. Shunga qaramasdan lugʻat yetarli darajada soʻz boyligini qamrab olgan.

IFEAC jamoasi, xususan, Xudoyqul IBROHIMOV va Ulugʻbek MANSUROV qoʻlyozmani bir necha marta diqqat bilan oʻqib chiqib, tahrir qilishdi. Shunday boʻlsa ham, IFEAC maʼmuriyati mazkur ikkinchi nashrda noxos yoʻl qoʻyilgan xatolar va kamchiliklar uchun toʻliq masʼuliyatni boʻyniga oladi va loyihaning keyingi bosqichlarda sayqallanib borishini koʻzda tutgan holda oʻquvchilardan oʻz muruvvatlarini ayamasliklarini soʻrab qoladi.

Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransiya instituti bu lugʻatni chop ettirish orqali, oʻz ilmiy vakolati tasarrufiga kiruvchi hududlarda, aynan, Oʻzbekistonda tadqiqotlarni va ilmni targʻib qilish va ragʻbatlantirish sohasidagi vazifasini yana bir bor amalga oshirdi, shuningdek, tadqiqotchilar, talabalar va boy madaniyatlarimiz ishtiyoqmandlari uchun muloqot va hamkorlikning yana bir vositasini taqdim etdi.

Bayram BALCI
IFEAC direktori

### AVANT-PROPOS À LA DEUXIÈME ÉDITION

Ce dictionnaire français-ouzbek exprime la volonté d’un homme, le professeur Pierre Chuvin, qui, dès 1993, a développé des passerelles culturelles et scientifiques, entre la France et l’Ouzbékistan, grâce à une structure unique en son genre qu’il a lui-même fondée, l’Institut français d’études sur l’Asie centrale.

Dès 1993, il a mobilisé toute une équipe de spécialistes, sans la détermination desquels ce dictionnaire n’aurait pu voir le jour. Le présent ouvrage est le fruit de ce travail collectif qui a necessité plusieurs années d’efforts conjoints. Nous sommes convaincus que cet outil rendra d’éminents services aussi bien aux francophones qui de par le monde s’initient à cette langue turque, héritière du tchagatay, qu’aux Ouzbeks qui souhaitent se familiariser avec la langue de Molière.

Nous saluons la patience, la rigueur et la minutie dont nos collègues ouzbeks, enseignants dans différents établissements du pays, ont fait preuve pour mener à bien cette gigantesque entreprise de synthèse linguistique, sans oublier l’engagement à leurs côtés de tout le personnel de l’IFÉAC qui a compilé et réalisé le manuscrit final.

La publication de cette deuxième édition n’aurait pas été possible sans l’appui du Service de coopération et d’action culturelle (SCAC) de l’Ambassade de France à Tachkent que nous remercions très chaleureusement.

Dans l’esprit, ce dictionnaire, conçu comme un outil de travail à caractère pédagogique, accorde une large place à des registres de langue qui ne figurent pas souvent dans des ouvrages de cette nature. Les mots ne sont familiers, vulgaires, ou grossiers que par l’usage qu’il en est fait. Au demeurant, les “gros mots” valent bien les “grands mots”: le tout est de savoir les utiliser à bon escient. C’est la raison pour laquelle ils figurent dans ces pages ainsi que certaines tournures argotiques ou d’autres expressions et locutions du “parler-jeune” courant dans nos banlieues.

Par ailleurs, l’équilibre entre les différentes catégories de vocabulaire (scientifique, technique, courant) n’a pas toujours été aisé à établir. Ce dictionnaire ne prétend pas à la perfection et à l’exhaustivité. Son format d’environ 28 mille mots est loin d’être définitif, mais il permet d’accéder à un champ lexical déjà important.

L’équipe de l’IFÉAC, et tout particulièrement Xudoyqul Ibraguimov et Ulugbek Mansurov, ont procédé à plusieurs relectures scrupuleuses de l’ensemble du manuscrit. Toutefois, la direction de l’IFÉAC assume l’entière responsabilité des erreurs et des imperfections qui subsisteraient dans cette seconde édition et implore l’indulgence du lecteur quant à ce qui ne constitue qu’une des étapes d’un projet en perpétuel chantier.

Avec ce dictionnaire, l’Institut français d’études sur l’Asie centrale remplit sa mission de promotion et de diffusion de la recherche et du savoir sur sa zone de compétence et particulièrement sur l’Ouzbékistan, en même temps qu’il fournit un outil de dialogue et d’aide à la coopération à un nombre qu’il espère toujours plus croissant de chercheurs, universitaires, étudiants et amateurs de nos riches cultures.

Bayram BALCI
Directeur de l’IFÉAC

www.ziyouz.com kutubxonasi

## LUG‘ATDAN FOYDALANISH TARTIBLARI

Lug‘atning har ikkala tili: fransuz tili ham, o‘zbek tili ham lotin alifbosida bo‘lganligi sababli, foydalanish oson bo‘lishini ko‘zlagan holda fransuzcha matn (bosh so‘zlar, misollar, raqamlar) to‘q rangda, o‘zbekcha matn esa och rangda berildi; izohlar, grammatik va stilistik belgilar qiya harflar bilan berildi. Lug‘atning bosh so‘zlari matnda farqlanib turishi uchun biroz kattaroq shriftda berildi.

Bir so‘zning o‘zi bir vaqtning o‘zida ot yoki sifat va fe’l bo‘lib kelgan hollarda, shuningdek, omonimlar alohida lug’at maqolalarida berilib, bosh so‘zdan keyin satr usti arab raqamlari bilan ajratildi:

**manger**[1] *nm*
**manger**[2] *vt*

Bosh so‘zning turli grammatik kategoriyadagi ma’nolari (masalan, ot-sifat, o‘timli fe’l-o‘timsiz fe’l-olmoshli fe’l) bir-biridan rim raqamlari bilan ajratildi:

Agar bosh so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa, uning ma’nolari arab raqamlari bilan ajratildi:

Lug‘at maqolasida tarjimalar bir-biridan vergullar bilan, ma’no farqlanishlari bo‘lgan hollarda esa nuqtali vergullar bilan ajratildi. Shuningdek, misollar tarjimalaridan keyin ham nuqtali vergul ishlatildi:

Tarjimalarga aniqlik kiritilishi zarur bo‘lgan hollarda, izohlar tarjimadan keyin qavs ichida qiya harflar bilan berildi:

## COMMENT UTILISER CE DICTIONNAIRE

Comme les deux langues du dictionnaire bénéficient du même alphabet, pour faciliter la tâche de l’utilisateur les entrées, les exemples et les chiffres sont en caractères gras; les traductions en ouzbek en caractères réguliers; les indications (grammaticales, stylistiques, champs sémantiques) en caractères italiques. Les entrées sont d’une taille plus grande que le reste de l’article.

Lorsqu’un mot peut être utilisé en tant que nom/adjectif et en tant que verbe, il apparaît sous deux entrées différentes. De même avec les homonymes:

**cabot**[1] *nm*
**cabot**[2] *nm*
**cabot**[3] *nm*

Des chiffres romains sont utilisés pour indiquer un changement de catégorie grammaticale, du nom à l’adjectif par exemple, ou encore du verbe transitif au verbe intransitif, aussi bien qu’au verbe pronominal:

**cacher I.** *vt* ...; **II. se cacher** *vpr* ... .
**contre I.** *prép* ...; **II.** *nm* ...; **III.** *adv* ... .

Des chiffres arabes sont utilisés à l’intérieur de chaque catégorie grammaticale pour marquer un changement de sens:

**contre I.** *prép* **1.** ...; **2.** ...; **II.** *nm* ... .

Au sein des articles, les virgules séparent les traductions ayant le même sens ou le même emploi. Un point virgule séparant deux traductions indique une nuance de sens. De même les illustrations (groupes de mots, expressions, phrases) sont précédées et suivies de points virgules:

**vagabond, onde I.** *adj* **1.** *litt* ko‘chmanchi, ko‘chib yuradigan; daydi, sayoq, ...; **peuples vagabonds** ko‘chmanchi xalqlar; **2.** *fig* ....

Les explications servant à déterminer le sens du mot traduit et les exemples indiquant quel genre de combinaisons sont possibles avec une traduction, sont en italique et entre parenthèses:

**cahotant, ante** *adj* silkinishli (*avtomobilda*); o‘nqir-cho‘nqir, o‘ydim-chuqur, past-baland (*yo‘l*).
**nodosité** *nf* shish, g‘udda, bo‘qoq (*o‘simliklarda*).
**sarcome** *nm* sarkoma (*xavfli o‘smaning bir turi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

Rodlar faqat bosh so'zlardagina ko'rsatildi (*nm, nf*): har ikkala roddagi otlar uchun *n*, u yoki bu roddagi shakl uchun *m*, *f* (*adj m, adj f*):

Les genres sont donnés pour les entrées; *nm* – masculin, *nf* – féminin, *n* –masculin et féminin à la fois, *m* ou *f* pour désigner une forme masculine ou féminine (*adj m, adj f*):

**conjoncteur** *nm*
**élève** *n*
**ouvrable** *adj m*

**conjugaison** *nf*
**écolier, ière** *n*

So'zning ayrim sohalarga aloqadorligini bildiradigan yoki uslubiy bo'yoq olgan ma'nolari tegishli qisqartmalar bilan qiya harflarda berildi:

Les indications des champs sémantiques servant à déterminer le domaine d'utilisation de la traduction donnée et celles des niveaux de langue sont sous une forme abrégée et en italique:

**indice** *nm* ... **3.** *phys* ...; **4.** *math* ...
**cervelet** *nm anat* ...
**rancard** *nm* **1.** *arg* ...; **2.** *fam* ...

So'zlar yoki iboralarning turli shakllarini ko'rsatish uchun *ou* (yoki) so'zidan foydalanildi:

On a eu recours au mot *ou* pour donner les différentes variantes ou les versions possibles du même mot ou de la même locution:

**arobase ou arrobase** *nf* tijoriya (@).
**boîte** *nf* ...; **boîte de nuit** *ou ellipt* **boîte** ...
**flambant, ante** *adj* ...; **une voiture flambant neuf** *ou* **neuve** ...

## FRANSUZ ALIFBOSI

## ALPHABET FRANÇAIS

| | | | |
|---|---|---|---|
| **A a** | **G g** | **N n** | **U u** |
| **B b** | **H h** | **O o** | **V v** |
| **C c** | **I i** | **P p** | **W w** |
| **D d** | **J j** | **Q q** | **X x** |
| **E e** | **K k** | **R r** | **Y y** |
| **F f** | **L l** | **S s** | **Z z** |
| | **M m** | **T t** | |



www.ziyouz.com kutubxonasi

## SHARTLI QISQARTMA VA BELGILAR
## ABRÉVIATIONS

| | | |
|---|---|---|
| qisqartma | *abrév* | abréviation |
| sifat | *adj* | adjectif |
| ravish | *adv* | adverbe |
| qishloq xo'jaligiga oid | *agr* | terme d'agriculture |
| anatomiyaga oid | *anat* | terme d'anatomie |
| ingliz tilidan kirgan | *anglic* | anglicisme |
| me'morchilik | *archit* | terme d'architecture |
| jargon | *arg* | argot |
| artikl | *art* | article |
| astrologiyaga oid | *astrol* | terme d'astrologie |
| astronomiyaga oid | *astron* | terme d'astronomie |
| aviatsiyaga oid | *av* | terme d'aviation |
| biologiyaga oid | *biol* | terme de biologie |
| botanikaga oid | *bot* | terme de botanique |
| kimyoviy | *chim* | terme de chimie |
| jarrohlik | *chir* | terme de chirurgie |
| bog'lovchi | *conj* | conjonction |
| aniq | *déf* | défini |
| ko'rsatish | *dém* | démonstratif |
| yuridik | *dr* | terme de droit |
| iqtisodga oid | *écon* | terme d'économie |
| ellipsis | *ellipt* | elliptique |
| bolalar nutqiga xos | *enf* | langage enfantin |
| evfemizm | *euphém* | euphémisme |
| jenskij roddagi | *f* | féminin |
| so'zlashuv tiliga xos | *fam* | familier |
| futbol | *foot* | terme de football |
| ko'chma ma'no | *fig* | sens figuré |
| moliyaga oid | *fin* | finance |
| geografiyaga oid | *géog* | terme de géographie |
| geologiyaga oid | *géol* | terme de géologie |
| geometriyaga oid | *géom* | terme de géométrie |
| grammatikaga oid | *gram* | terme de grammaire |
| tarixiy, tarixga oid | *hist* | terme d'histoire |
| shaxssiz | *impers* | impersonnel |
| noaniq | *indéf* | indéfini |
| fe'lning noaniq shakli | *inf* | infinitif |
| informatikaga oid | *inform* | informatique |
| so'kish, koyishni ifodalaydigan | *injur* | injurieux |
| undov so'z | *intj* | interjection |
| so'roq | *intr* | interrogatif |
| o'zgarmas | *inv* | invariable |
| kesatiq, kinoya | *iron* | ironique |
| tilshunoslikka oid | *ling* | terme de linguistique |
| kitobiy so'z, ibora | *litt* | littéraire |
| adabiyotshunoslikka oid | *littér* | terme des études littéraires |
| ibora | *loc* | locution |
| mujskoy roddagi | *m* | masculin |

| | | |
|---|---|---|
| dengizchilikka oid | *mar* | marine |
| matematikaga oid | *math* | terme de mathématiques |
| tibbiyotga oid | *méd* | terme médical |
| harbiy | *mil* | terme militaire |
| mineralogiyaga oid | *minér* | terme de minéralogie |
| musiqaga oid | *mus* | terme de musique |
| mifologiyaga oid | *myth* | mythologie |
| ot | *n* | nom |
| jenskij roddagi ot | *nf* | nom féminin |
| mujskoy roddagi ot | *nm* | nom masculin |
| son | *numér* | numéral |
| taqlid so'z | *onomat* | onomatopée |
| kamsitishni ifodalovchi | *péj* | péjoratif |
| kishilik | *pers* | personnel |
| falsafaga oid | *phil* | terme de philosophie |
| fotografiyaga oid | *photo* | photographie |
| fizikaga oid | *phys* | physique |
| fiziologiyaga oid | *physiol* | terme de physiologie |
| ko'plik | *pl* | pluriel |
| hazil qilib aytilgan | *plais* | par plaisanterie |
| she'riyatda ishlatiladigan | *poét* | poétique |
| siyosatga oid | *polit* | terme de politique |
| oddiy xalq tilida | *pop* | populaire |
| egalik | *poss* | possessif |
| oldqo'shimcha | *préf* | préfixe |
| predlog | *prép* | préposition |
| olmosh | *pron* | pronom |
| masal | *prov* | proverbe |
| psixologiyaga oid | *psych* | terme de psychologie |
| nimadir | *qqch* | quelque chose |
| kimdir | *qqn* | quelqu'un |
| nisbiy | *rel* | relatif |
| dinga oid | *relig* | terme de religion |
| birlikda | *sing* | singulier |
| sportga oid | *sport* | terme de sports |
| texnikaga oid | *techn* | technique |
| teatrga oid | *th* | terme de théâtre |
| televideniyega oid | *tv* | terme de télévision |
| matbaachilikka oid | *typogr* | terme de typographie |
| fe'l | *v* | verbe |
| o'timsiz fe'l | *vi* | verbe intransitif |
| eskirgan so'z, ibora | *vieilli* | mot ou sens vieilli |
| olmoshli fe'l | *vpr* | verbe pronominal |
| o'timli fe'l | *vt* | verbe transitif |
| vulgar so'z, ibora | *vulg* | vulgaire |
| eski | *vx* | vieux (mot, sens de l'ancienne langue) |
| zoologiyaga oid | *zool* | terme de zoologie |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# A

**A, a** *nm* fransuz alifbosining birinchi harfi; **de A à Z** A-dan Z-gacha, boshidan oxirigacha, boshdan oyoq; **prouver par A+B** aniq dalillar, matematik aniqlik bilan isbotlamoq.

**à** *prép* **à** *va* **le** *ning qo'shilishi* **au**, **à** *va* **les** *ning qo'shilishi* **aux** *ni beradi.* **1. donner au peuple** xalqqa bermoq; **2. Louis plaît à tous** Lui hammaga yoqadi; **3. demeurer à Paris** Parijda yashamoq; **4. jeter à la mer** dengizga tashlamoq; **5. remettre à ce soir** kechqurungacha qoldirmoq; **6. tirer à la mitrailleuse** pulemyotdan otmoq; **7. se sauver à la nage** suzib qutulmoq; **8. décider au départ** jo'nashga jazm qilmoq; **9. penser aux enfants** bolalarni eslamoq; **10. porter à cinq mille hectares** 5000 gektarga yetkazmoq; **11. avoir à cœur** o'z burchi deb hisoblamoq; **aller aux informations** ma'lumot yig'moq; **II.** *fe'l + **à** + inf:* **1. travailler à sauvegarder la paix** tinchlikni saqlashga urinmoq; **2. autoriser à poursuivre** davom etishga ruxsat bermoq; **3. il a à répondre** u javob berishi kerak; **4. se mettre à rire** kula boshlamoq, kulib yubormoq; **5. rester à coudre** tikishda davom etmoq; **6. aimer à jouer** o'ynashni yaxshi ko'rmoq; **III.** *ot + **à** + ot* **1. la solidarité aux dockers** dokerlar bilan birdamlik; **2. professeur à la faculté d'histoire** tarix fakultetining professori; **3. visite au musée** muzeyga ekskursiya; **4. réseau à haute tension** yuqori kuchlanishli tarmoq; **charrette à bras** qo'l aravacha; **5. brosse à dents** tish cho'tkasi; **adjoint au secrétaire d'Etat** davlat kotibining yordamchisi; **6. essai à immersion totale** to'liq cho'mgan, cho'kkan holda sinash; **7. dessin au crayon** qalam bilan chizilgan rasm; **chauffage au mazout** mazut bilan isitish; **8. préparation à** -ga tayyorgarlik; **9. une maison à soi** o'z uyi; **la femme à Ernest** *fam* Ernestning xotini; **10. moulin à vent** shamol tegirmoni; **au jour le jour** bir amallab, amal-taqal qilib; *zool* **bête à bon Dieu** xonqizi, tugmacha qo'ng'iz; **IV.** *ot + **à** + inf* **aiguille à tricoter** to'r to'qish simi; **maison à louer** ijaraga beriladigan uy, ijara uy; **machine à coudre** tikuv mashinasi; **V.** *sifat + **à** + ot* **fidèle à son devoir** burchiga sodiq; **VI. à la fois** birdan, bir paytda; **à la dérobée** yashirincha; **à demeure** puxta, mustahkam; **à perte** zarariga, ziyoniga; **à peu près** taxminan, birmuncha yaqin, qariyb, deyarli; **à pied** yayov, piyoda; **à souhait** xohlaganicha, qanchalik ma'qul bo'lsa; **à contre-jour** yorug'likka qarshi; **VII.** *loc prép* **grâce à** tufayli; **jusqu'à** -gacha; **à coup de** yordamida, vositasida; **à la façon de** -ga o'xshatib, -ga o'xshab, -ga taqlidan, kabi; **à défaut de** yo'qligidan, ega bo'lmaslikdan; **à l'issue de** natijasida, oxirida; **à titre de** sifatida, huquqlilik asosida.

**abaissement** *nm* **1.** tushirish, pasaytirish, kamaytirish; **abaissement des eaux** suv sathini kamaytirish; **abaissement de la température** haroratning pasayishi; **abaissement des salaires** maoshning kamayishi; **abaissement d'un mur** devorning cho'kishi; *math* **abaissement des équations** tenglamaning darajasini tushirish, soddalashtirish; **2.** *fig* kamsitish, tobelik, mutelik, qaramlik; **3.** inqiroz, tanazzul (*madaniyatda*); axloqiy buzilish, razillik.

**abaisser I.** *vt* **1.** tushirmoq; pasaytmoq, kamaytmoq; **abaisser une perpendiculaire** tik chiziq tushirmoq; **abaisser les bras le long du corps** qo'lini pastga tushirmoq; **abaisser le prix du revient** tannarxni pasaytirmoq; **abaisser la pâte** xamir yoymoq; **2.** kamsitmoq, yerga urmoq; **II. s'abaisser** *vpr* **1.** pasaymoq, cho'kmoq, tinmoq; **2.** o'zini xo'rlamoq; tubanlashmoq, razillashmoq; **s'abaisser à** -gacha yetib bormoq **s'abaisser à mentir** yolg'onchilik qilishgacha yetib bormoq.

**abandon** *nm* **1.** tashlab ketish, tark etish; **2.** voz kechish (*huquqidan, mol-dunyodan*); **3.** qarovsizlik, xaroba; huvillab qolish; **abandon de soi-même** erkini yo'qotish; o'zini unutish, jon fido qilish; **mourir dans l'abandon** yolg'izlikda, uzlatda o'lmoq; **à l'abandon** qarovsiz, xarob, tashlandiq; **4.** erkinlik, bemalollik, o'zini erkin tutish; bemalol his etish; erkin harakat (*suhbat, yurish-turish*).

**abandonner I.** *vt* **1.** tashlab ketmoq, tark etmoq; qarovsiz qoldirmoq; **abandonner à** o'z holiga tashlab qo'ymoq, taqdir ixtiyoriga tashlamoq; **son courage l'abandonne** jasurlik uni tark etmoqda; **2.** voz kechmoq, bermoq, in'om etmoq; **abandonner ses prétentions** da'vosidan voz kechmoq; **abandonner la partie** chekinmoq, qochib qolmoq; taslim bo'lmoq; o'yindan chiqmoq; **II. s'abandonner** *vpr* **1.** (**à qqch**) berilmoq, berilib ketmoq; **2.** (**à qqn**) birovga batamom berilib, ishonib ketmoq, suyanmoq.

**abaque** *nm* **1.** abaka (*hisoblash asbobi*); **2.** grafik, diagramma, jadval; nomogramma (*matematikada, turli kattaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadigan va ularni topishni osonlashtiradigan grafik chizma*); **abaque des altitudes** balandlikning grafigi; **3.** shahmat taxtali stolcha.

**abasourdir** *vt* **1.** kar, garang qilmoq, quloqni bitirmoq, batang qilmoq; **2.** *fam* juda ham ajablantirmoq, hayratga solmoq, esankiratib, dovdiratib qo'ymoq; **être abasourdi**, **rester abasourdi** esankirab, dovdirab qolmoq, shoshib qolmoq, sarosimaga tushmoq, hang-mang bo'lmoq.

**abâtardir I.** *vt* **1.** zoti, nasli buzilishiga olib kelmoq; **2.** buzmoq, aynitmoq; zaiflashtirmoq, bo'shashtirmoq; **II. s'abâtardir** *vpr* nasli buzilmoq.

**abat-jour** *nm inv* **1.** abajur, chiroq qalpog'i; **2.** *archit* ichkarini yoritish uchun qiya qilib teshilgan tuynuk.

**abats** *nm pl* ichak-chovoq, kalla-pocha; **abats d'animaux de boucherie** so'yilgan hayvonlarning kalla-pochasi; **abats de volailles** uy parrandalarining ich-bag'ri (*kalla, bo'yin, qanot, oyoq, jigar, jig'ildon*).

**abattage** *nm* **1.** kesish (*daraxt*); **2.** so'yish (*hayvon*); **3.** qazish, qazib chiqarish; **abattage de la houille** ko'mir qazib chiqarish; **abattage rapide** jadal kovlab borish; **4.** *fam* qattiq gap, tanbeh, ta'zir, koyish.

**abattement** *nm* **1.** ruhi tushganlik, ezilganlik, ma'yuslik; toliqish, kuchsizlanish; **2.** cheklash, chegaralash, qisqartirish; pasaytirish, ushlab, chegirib qolish (*soliq, ish haqi*); **abattement d'âge** yoshiga qarab ish haqini qisqartirish, yosh bolalarga kam ish haqi berish.

**abatteur** *nm* **1.** daraxt, yog'och kesuvchi; o'tinchi; **2.** kon qazuvchi; **grand abatteur de besogne** chaqqon, epchil ishchi.

**abattis** *nm* **1.** kesilgan daraxt, shox-shabba uyumi; **2.** *pl* parrandalarning ichak-chovoqlari; *fam fig* qo'l va oyoqlar.

**abattoir** *nm* qushxona.

**abattre I.** *vt* **1.** kesmoq; yiqitmoq; buzmoq; urib tushirmoq; **abattre un avion** samolyotni urib tushirmoq; *sport* **abattre l'adversaire** raqibini yiqitmoq; **abattre une maison, une forteresse** uyni, qal'ani buzmoq; **abattre de la besogne** ishni bir yoqlik qilmoq, qutulmoq; **abattre cartes sur table, abattre son jeu** qartasini ochmoq; **2.** o'ldirmoq; **abattre un cheval blessé** yarador otni so'ymoq; **3.** yiqitmoq, zaiflashtirmoq, kuchsizlantirmoq, bo'shashtirmoq, yengmoq; **abattre la résistance des ennemis** dushman qarshiligini kuchsizlantirmoq; **le malheur l'a abattu** g'am uni holdan toydirdi; **se laisser abattre** taqdirga tan bermoq, umidsizlikka tushmoq; **4.** yakson qilmoq, tor-mor qilmoq; *mar* **faire abattre** yo'lni o'zgartirmoq; **II. s'abattre** *vpr* (**sur**) **1.** yiqilmoq, qulamoq, ag'darilmoq; **1.** hamla qilmoq (*o'ljasiga*); **3.** pasaymoq, tushmoq, cho'kmoq.

www.ziyouz.com kutubxonasi

**abattu, ue I.** *adj* **1.** ag'darilgan, qulagan, kesilgan, urib tushirilgan (*samolyot*); **2.** ezilgan, holsizlangan, ruhi tushgan, gangigan, ma'yus; **aller, courir à bride abattue** kuchi boricha chopmoq, yugurmoq; **II.** *nm* tepkining otish holatini tutib turuvchi qism (*o'q otish qurolida*).

**abbatial, iale, iaux I.** *adj* abbatga oid, monastirga oid; **II.** *nf* monastir cherkovi.

**abbaye** *nm* **1.** abbatlik; **2.** katoliklar cherkovi.

**abbé** *m.* abbat, katolik cherkovi boshlig'i.

**abbesse** *nf* abbat ayol, ayollar cherkovi boshlig'i.

**abc** *nm* **1.** alifbo; **2.** boshlang'ich ma'lumot, ibtido.

**abcès** *nm* chipqon, yara.

**abdiquer I.** *vt* **1.** voz kechmoq (*taxtdan*), mansabni bo'ynidan soqit qilmoq; **2.** voz kechmoq (*biror narsaga bo'lgan huquqidan*); **II.** *vi* **1.** hokimiyatdan voz kechmoq; **2.** chekinmoq, ojizlik qilmoq; **abdiquer devant les difficultés** qiyinchiliklardan chekinmoq.

**abdomen** *nm* **1.** qorin bo'shlig'i; qorin; **2.** qorincha, to'sh (*mayda hasharot va qushlarda*).

**abdominal, ale** *adj* qoringa oid; **cavité abdominale** qorin bo'shlig'i.

**abeille** *nf* asalari, bolari; **abeille ouvrière** ishchi bolari; **nid d'abeille** asalari ini.

**aberrant, ante** *adj* **1.** og'uvchi, chetga chiqadigan (*me'yordan*); **2.** xato, noto'g'ri, chalg'itadigan; **une idée aberrante** xato fikr.

**aberration** *nf* xato, yanglish; noto'g'rilik; buzilish, aynish; *méd* ruhiy faoliyatning buzilishi; me'yorning buzilishi; **aberration du goût** ta'm sezishning buzilishi.

**abêti, ie** *adj* aqldan ozgan, ovsar, tentak.

**abêtir I.** *vt* aqldan ozdirmoq; **II. s'abêtir** *vpr* aqldan ozmoq.

**abêtissement** *nm* aqldan ozish, es-hushini yo'qotish, tentaklik, ovsarlik.

**abhorrer** *vt* juda yomon ko'rmoq, nafrat bilan qaramoq; jirkanmoq.

**abîme** *nm* jar, choh, qa'r, dengiz qa'ri; jahannam; **être sur le bord de l'abîme** *fig* falokat, jahannam yoqasida bo'lmoq; **abîme de misère** qashshoqlikning eng oxirgi darajasi, o'ta qashshoqlik.

**abîmer I.** *vt* **1.** xarob qilmoq; ishdan chiqarmoq, buzmoq; **2.** *fam* ezib g'ijimlamoq; **3.** *fam* qattiq so'kmoq, haqoratlamoq; **II. s'abîmer** *vpr* **1.** aynimoq, buzilmoq, ishdan chiqmoq; xarob bo'lmoq; **s'abîmer les yeux** ko'zini ishdan chiqarmoq; **2.** qulab tushmoq, ag'darilmoq; **l'avion s'abîma dans la mer** samolyot dengizga qulab tushdi; **3.** *fig* ko'milmoq, cho'mmoq, butunlay berilib, sho'ng'ib ketmoq; **s'abîmer dans la solitude** o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolmoq.

**abject, ecte** *adj* qabih, razil, pastkash.

**abjection** *nf* qabihlik, razillik, pastkashlik; tubanlik.

**abjuration** *nf* dindan qaytish.

**abjurer** *vi* qaytmoq (*dindan*); tonmoq; **abjurer la religion** dindan qaytmoq; **abjurer une opinion** fikrdan qaytmoq.

**ablatif** *nm gram* lotin tilidagi kelishikning nomi.

**ablation** *nf méd* amputatsiya (*oyoq, qo'l yoki ularning bir qismini jarrohlik usuli bilan kesib tashlash*).

**ablette** *nm* ukleyka (*karpsimonlar oilasiga mansub kichik baliq*).

**ablution** *nf* **1.** *relig* yuvinish, tahorat qilish, tahorat; **2.** *pl fam* yuvish, yuvinish; **faire ses ablutions** yuvinmoq.

**abnégation** *nf* ixtiyoriy ravishda o'z manfaatidan, hamma narsadan voz kechish; tarki dunyo qilish.

**aboi** *nm* hurish, vovullash, akillash, uvillash; **être aux abois** it solib quvilmoq, tutilmoq; *fig* ilojsiz, chorasiz qolmoq.

**aboiement** *nm* **1.** vovullash, akillash, itning ovozi; **2.** *fig* akillash, so'kish, qarg'ash, haqorat.

**abolir** *vt* bekor qilmoq, tugatmoq, yo'q qilmoq; **abolir une loi** qonunni bekor qilmoq.

**abolition** *nf* bekor qilish, yo'q qilish, tugatish; to'xtatish.

**abolitionnisme** *nm* abolitsionizm (*qulchilikni bekor qilishni yoqlovchi ta'limot*).

**abolitionniste I.** *nm* abolitsionist (*qulchilik tuzumini bekor qilinishining tarafdori*); **II.** *adj* abolitsionizmga oid.

**abominable** *adj* jirkanch, qabih, juda xunuk, juda yomon; **crime abominable** qabih jinoyat.

**abominablement** *adv* juda yomon, qabihlarcha, jirkanchli.

**abomination** *nf* qabihlik, jirkanchlik; **avoir qqn, qqch en abomination** nafratlanmoq, jirkanmoq.

**abominer** *vt* nafratlanmoq, jirkanmoq, bezor bo'lmoq.

**abondamment** *adv* mo'l-ko'l, serob.

**abondance** *nf* mo'l-ko'lchilik, serobgarchilik; **abondance des récoltes** hosilning mo'lligi; **vivre dans l'abondance** mo'lchilikda yashamoq, to'q yashamoq.

**abondant, ante** *adj* mo'l, serob.

**abonder** *vi* (**en qqch**) mo'l bo'lmoq; serob bo'lmoq; **abonder dans le sens de qqn** biror kimsa bilan bir xil fikrda bo'lmoq.

**abonné, ée** *n* obunachi, obuna bo'lgan kishi, abonent; **abonné à l'électricité**, **au téléphone** elektr, telefon tarmog'i mijozi, foydalanuvchisi.

**abonnement** *nm* obuna qilish; obuna bo'lish, yozilish; abonement, obuna; oldindan pul to'lab qo'yish; **prendre un abonnement à un journal** gazetaga yozilmoq, obuna bo'lmoq.

**abonner I.** *vt* **(qqn à qqch**) obuna qilmoq; a'zo qilmoq; **abonner à un périodique** vaqtli matbuotga obuna qilmoq; **abonner au téléphone** telefon tarmog'iga a'zo qilmoq, telefon o'tkazmoq; **II. s'abonner** *vpr* yozilmoq, obuna bo'lmoq; **s'abonner à une revue** biror jurnalga obuna bo'lmoq.

**abonnir I.** *vt* yaxshilamoq, to'g'rilamoq; **abonnir un terrain** maydonni to'g'rilamoq, yaxshilamoq; **II. s'abonnir** *vpr* yaxshilamoq; kuchaymoq.

**abord** *nm* **1.** yaqinlashish, kelish; **2.** kelib to'xtash (*qirg'oqqa*); **3.** *pl* ostona, bo'sag'a; atrof, chet; **les abords d'une ville** shahar ostonasi; **aux abords de la ville** shahar bo'sag'asida; **4.** muomala, munosabat; qarash, nuqtai nazar; yondashish; *loc adv* **d'abord, tout d'abord** avvalo, oldin, eng avval; **au premier abord** bir qarashda; **de prime abord** boshdan.

**abordable** *adj* **1.** borib, yo'lab bo'ladigan; **2.** xushmuomala, ochiq yuz, mehribon; **3.** *fam* arzon, karmonga to'g'ri keladigan (*narx*).

**abordage** *nm* **1.** *mar* dushman kemalari yonma-yon kelganda jangchilarning kemadan kemaga o'tib jang qilishi; **2.** kemalarning to'qnashuvi; **3.** qirg'oqqa kelib to'xtash (*kemalar*); **4.** hujum.

**aborder I.** *vi* **1.** qirg'oqqa kelib to'xtamoq; **2.** to'qnashmoq (*kemalar*); **II.** *vt* **1.** o'z kemasini dushman kemasiga urib zarba bermoq; **2.** *mar* qattiq siquvga, iskanjaga olmoq; **3.** to'xtalib o'tmoq, tilga olmoq; **aborder une question** masalani muhokama qilishga o'tmoq; **4.** biron kishi bilan gaplashish uchun unga yaqinlashmoq.

**aborigène I.** *n* aborigen, biror joyning tub aholisi, tubjoy xalq; **II.** *adj* mahalliy; **plante aborigène** mahalliy o'simlik.

**abouchement** *nm* **1.** uchma-uch ulash, biriktirish; **2.** muzokara, uchrashuv; **3.** *méd* turli organ va to'qimalarning ulangan joyi.

**aboucher I.** *vt* **1.** ulamoq, biriktirmoq, kavsharlab, qalaylab ulamoq (*quvur, truba*); **2.** *fig* so'zlashish, gaplashish uchun uchrashtirmoq; **il faut les aboucher** ularni uchrashtirish va gaplashtirish kerak; **II. s'aboucher** *vpr* (**avec qqn**) kelishmoq, bitishmoq, bitimga kelmoq; gapni bir yerga qo'ymoq; til biriktirmoq; topishmoq, og'iz-burun o'pishmoq, iliqmoq.

**abouler** *arg* **I.** *vt* bermoq, cho'zmoq; **II.** *vi ou* **s'abouler** *vpr* kelmoq; **alors, tu t'aboules?** qani, kelasanmi, yo'qmi?

**aboulique** *adj* irodasi yo'q, bo'sh, irodasiz, qat'iyatsiz.

**about** *nm* **1.** uchma-uch, yonma-yon kelgan joy, birikish, tutashish joyi; **2.** narsaning ko'ndalang kesilgan joyi.

**abouter** *vt* tutashtirmoq; ulab uzaytirmoq.

**aboutir** *vi* **1.** tugamoq, oxiriga yetmoq, tamom bo'lmoq; **tous les rayons d'un cercle aboutissent au centre** aylananing hamma radiuslari markazga kelib tugaydi; **2.** (**à qqch**) *fig* olib bormoq, chiqmoq, tugamoq; **cette rue aboutit à une place** bu ko'cha maydonga olib boradi; **3.** erishmoq; **aboutir à ses fins** maqsadiga erishmoq; **4.** *méd* pishmoq, yetilmoq (*yara*).

**aboutissant, ante I.** *adj* tutashgan, tutash, yondosh bo'lgan; **II.** *nm pl* **savoir, connaître tous les tenants et les aboutissants** vaziyatning barcha jihatlarini, hamma sirini, past-balandini bilmoq.

**aboutissement** *nm* natija; **aboutissement d'un plan** rejaning natijasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**aboyer** *vi* **1.** vovullamoq, hurmoq, akillamoq; **aboyer à la lune** bekordan bekorga janjal ko‘tarmoq; bekordan harakat qilmoq; **2.** (**contre, après qqn**) birovga baqirmoq, o‘shqirmoq, o‘dag‘aylamoq.

**abracadabrant, ante** *adj fam* bema’ni, kelishmagan, kurakda turmaydigan, tuturiqsiz; haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, haqiqatdan uzoq, yolg‘on; **une idée abracadabrante** aqlga sig‘maydigan fikr; **une histoire abracadabrante** haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan voqea.

**abrasif, ive** *adj techn* abraziv; silliqlaydigan, jilo, pardoz beradigan.

**abrasif** *nm* abraziv, silliqlovchi, jilo, pardoz beradigan materiallar (*charxlash, silliqlash asboblari uchun ishlatiladigan mayda donador qattiq materiallar*).

**abrégé** *nm* qisqacha bayon, qisqacha tafsilot; **abrégé d’une conférence** konferensiyaning qisqacha bayoni; *loc adv* **en abrégé** qisqacha; **écrire en abrégé** qisqacha yozmoq, qisqa qilib yozmoq.

**abrégement** *nm* qisqartirish.

**abréger** *vt* **1.** qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq; **abréger son voyage** sayohat muddatini qisqartirmoq; **abréger sa vie, ses jours** o‘z hayotini qisqartirmoq; **2.** tashlab yubormoq; **abréger un mot** harflarning bir qismini tashlab yubormoq.

**abreuver I.** *vt* **1.** sug‘ormoq; suv ichirmoq; **abreuver un troupeau** podani sug‘ormoq; **2.** *fig* ko‘mib tashlamoq; g‘arq qilmoq; yog‘dirmoq; **abreuver d’injures** haqoratga ko‘mib tashlamoq; **II. s’abreuver** *vpr* to‘yib suv ichmoq, chanqog‘ini qondirmoq.

**abreuvoir** *nm* suvloq (*mollarni sug‘oradigan, hayvonlar, qushlar suv ichadigan joy*).

**abréviatif, ive** *adj* qisqartirilganni bildiruvchi (*shartli belgilar*); **signe abréviatif** qisqartma belgi.

**abréviation** *nf* qisqartma so‘z; qisqartirish.

**abri** *nm* **1.** pana joy; boshpana, turar joy, manzil, makon; **chercher abri sous un arbre** daraxt tagidan boshpana qidirmoq; **2.** chayla, kapa, chodir; **3.** bostirma, ayvon, shiypon, soyabon; **un abri de montagne** tog‘dagi boshpana; **4.** *mil* yerto‘la, blindaj (*dala istehkomi*); **abri antiatomique** atom bombasidan saqlanadigan joy; **abri antiaérien** bombapanoh, bombapanogoh; **5.** *fig* himoya; **abri contre le malheur** baxtsizlik, musibatdan himoya; **à l’abri** xavfsiz joyda; *loc prép* **à l’abri de** himoyasi ostida, panohi ostida, panohida; **être assis à l’abri d’un arbre** daraxt panasida o‘tirmoq; **se mettre à l’abri du danger** xavf-xatardan himoyalanmoq.

**abricot** *nm* o‘rik (*mevasi*).

**abricotier** *nm* o‘rik (*daraxti*).

**abrité, ée** *adj* shamoldan himoyalangan, shamolpana (*joy*).

**abriter I.** *vt* (**qqn de qqch, contre qqch**) **1.** boshpana bermoq; **2.** -dan himoya qilmoq, -dan asramoq; **II. s’abriter** *vpr* saqlanmoq; yashirinmoq.

**abrogation** *nf* bekor qilish, bekor qilinish (*urf-odat, qonunni*).

**abroger** *vt* bekor qilmoq; **abroger une loi** qonunni bekor qilmoq.

**abrupt, upte I.** *adj* **1.** tik, tikka; **rocher abrupt** tik qoya; **2.** *fig* qo‘pol, qo‘rs, bir so‘zli, cho‘rtkesar; **II.** *nm* tikka tushgan qiyalik.

**abruti, ie I.** *adj* aqldan ozdirgan, es-hushidan ayirgan; ovsar; **être abruti** aqlini yo‘qotmoq, esini yemoq; **II.** *n* ahmoq, telba, ovsar.

**abrutir** *vt* **1.** miyasini aynitmoq, gangitmoq; **2.** horitmoq, tinkasini quritmoq, holdan toydirmoq, qattiq charchatmoq; **abrutir qqn de travail** ishlatib holdan toydirmoq, ish bilan rosa charchatmoq.

**abrutissant, ante** *adj* **1.** miyani aynitadigan, gangitadigan; **2.** charchatadigan, holdan toydiradigan.

**abrutissement** *nm* **1.** esini yo‘qotish, gangish holati; uquvsizlik, no‘noqlik; **2.** esini yo‘qotadigan, gangitadigan harakat.

**abscisse** *nf math* absissa (*nuqtaning tekislikdagi yoki fazodagi vaziyatini aniqlovchi koordinatalardan biri*).

**abscons, onse** *adj* tushunarsiz, mavhum, noaniq, muhmal.

**absence** *nf* **1.** kelmaganlik, yo‘qlik, hozir emaslik; **constater l’absence** yo‘qligini qayd etmoq, tasdiqlamoq; **2.** yo‘qlik, yetishmaslik; **en l’absence de** yo‘qligida, yo‘q paytida; **en l’absence du directeur** direktor yo‘qligida, yo‘q paytida; **3.** parishon bo‘lish; **avoir des absences** parishon bo‘lmoq.

**absent, ente I.** *adj* **1.** kelmagan, yo‘q; **être absent** kelmay qolmoq; **qui est absent?** kim yo‘q? kim kelmadi?; **2.** loqayd, befarq, parishonxotir, e’tiborsiz; **regard absent** ma’nosiz boqish; **d’un air absent** e’tiborsizlik, parishonxotirlik bilan, e’tiborsiz, parishonxotir qiyofada, loqayd chehra bilan; **II.** *n* kelmaganlar, yo‘qlar, hozir bo‘lmaganlar, qatnashmaganlar; **y a-t-il des absents aujourd’hui?** bugun kelmaganlar bormi?

**absentéisme** *nm* **1.** absenteizm (*saylov, majlislardan bosh tortish, bo‘yin tovlash, qochish*); **2.** ishga, o‘qishga sababsiz kelmaslik.

**absentéiste** *nm* **1.** absenteist, bo‘yin tovlovchi (*saylov, majlis*); **2.** ishga, o‘qishga muntazam kelmaydigan odam.

**absenter (s’)** *vpr* biror yoqqa chiqmoq, vaqtincha yo‘q bo‘lmoq.

**abside** *nf archit* apsida (*cherkovning ruhoniylar va xor joylashgan tarafidagi yarim doira shaklida qurilgan chekka qismi*).

**absinthe** *nf* **1.** *bot* shuvoq; **2.** erman arog‘i (*erman yoki shuvoq nastoykasidan qilingan aroq*).

**absolu, ue I.** *adj* **1.** to‘liq, to‘la, butunlay, chegarasiz, mutlaq; **vérité absolue** mutlaq haqiqat; **majorité absolue** mutlaq ko‘pchilik, aksariyat; *math* **valeur absolue** absolut qiymat (*plus yoki minus ishorasiz olingan qiymat*); **2.** absolut, mutlaq, cheklanmagan (*hokimiyat*); **monarchie absolue** absolut monarxiya, chegaralanmagan monarxiya, mutlaq hokimiyat; **II.** *nm phil* **1.** butun mavjudotning azaliy va abadiy o‘zgarmas birlamchi asosi, ruh, ideya, xudo; **2.** har qanday mutlaq narsa, hodisa.

**absolument** *adv* mutlaqo, shak-shubhasiz, albatta.

**absolution** *nf* **1.** *dr* gunohini, aybini kechirish; **2.** *relig* gunohidan o‘tish, kechirish.

**absolutisme** *nm* absolutizm, hokimi mutlaqlik, cheklanmagan monarxiya.

**absolutiste I.** *adj* absolutizmga oid; **II.** *n* absolutizm tarafdori.

**absorbable** *adj* shimiladigan; yutiladigan (*suyuqlik, gaz kabilar*).

**absorbant, ante** *adj* **1.** shimadigan, o‘ziga singdiradigan; **2.** *fig* butunlay qamrab oladigan; **3.** *chim* absorbent, yutuvchi; yutadigan, shimadigan.

**absorber I.** *vt* **1.** shimib olmoq, o‘ziga singdirmoq; yutmoq; **2.** ichmoq, yemoq; **3.** *fig* yutib yubormoq; **absorber une fortune** boylikni yutib yubormoq; **4.** butunlay band qilmoq, qamrab olmoq; **II. s’absorber** *vpr* **1.** shimilmoq, singmoq, yutilmoq; **2.** *fig* botmoq, cho‘kmoq, cho‘mmoq, berilib ketmoq; **s’absorber dans son travail** ishiga berilib ketmoq; **s’absorber dans la méditation** o‘z fikriga butunlay g‘arq bo‘lmoq, o‘yga cho‘mmoq.

**absorption** *nf* **1.** shimib olish, o‘ziga singdirish; yutilish; **2.** ichish, yoyish, yutish; **3.** *fig* biror korxona, kompaniya kabilar bittasining manfaati uchun qo‘shilishi, qo‘shib olinishi.

**absoudre** *vt* **1.** *dr* oqlamoq, aybsiz deb topmoq; **2.** *relig* gunohidan o‘tmoq; **3.** kechirmoq.

**abstenir (s’)** *vpr* **1.** o‘zini tutmoq, o‘zini tiymoq; **2.** betaraf qolmoq (*saylovda*); **3.** o‘zini mahrum qilmoq; **s’abstenir de vin** vinodan o‘zini tiymoq.

**abstention** *nf* betaraf qolish, ovoz berishda qatnashmaslik.

**abstentionnisme** *nm* abstensionizm (*davlat organlariga saylovlarda qatnashishdan saylovchilarning ommaviy bosh tortishi*).

**abstentionniste** *nm* abstensionist (*saylovda betaraf qoluvchi, saylovda qatnashmaydigan*).

**abstinence** *nf* o‘zini tiyish (*xususan diniy maqsadlarda biror narsa tanovul qilishdan saqlanish*).

**abstraction** *nf* **1.** abstraksiya, abstraktlash; **faire abstraction des difficultés** qiyinchiliklarni e’tiborsiz qoldirmoq; **2.** abstraksiya, mavhum tushuncha, abstraktlash yo‘li bilan hosil qilingan nazariy xulosa, umumlashma; yolg‘on, uydirma; to‘qima; **ce n’est plus une abstraction, mais c’est la réalité** bu endi uydirma emas, balki haqiqatdir.

**abstractionnisme** *nm* abstraksionizm (*tasviriy san’atda: real narsalarni mavhum shakllar bilan tasvirlash tarafdori bo‘lgan formalistik oqim*).

**abstraire I.** *vt* abstraktlashtirmoq, mavhumlashtirmoq, abstraksiya qilmoq; fikran ajratmoq; **II. s’abstraire** *vpr* yaxshi fikrlash uchun tashqi dunyodan o‘zini ajratmoq.

**absurde I.** *adj* bema’ni, ma’nosiz, mavhum, uydirma, absurd, g‘ayrimantiqiy; noma’qul; **II.** *nm* bema’nilik, mavhumlik, mantiqsizlik.

**absurdement** *adv* bema’nilarcha, mavhumlik, mantiqsizlik bilan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**absurdité** *nf* bema'nilik, mavhumlik, mantiqsizlik, absurd; ahmoqlik, tentaklik, jinnilik.

**abus** *nm* **1.** suiiste'mol, suiiste'mol qilish, me'yorni buzish, haddan oshirib yuborish; **abus de pouvoir** o'z mansabini suiiste'mol qilmoq; **2.** qonunni buzish; adashish; **3.** xiyonat, jinoyat, yomonlik, adolatsizlik; **abus de confiance** ishonchga xiyonat.

**abuser I.** *vt* **1. (de)** suiiste'mol qilmoq, me'yoridan, haddan oshirib yubormoq; xiyonat qilmoq; **abuser d'une femme** ayolni yo'ldan ozdirmoq, ayolga zo'rlik qilmoq; **2.** aldamoq, adashtirmoq, laqqa tushirmoq; **II. s'abuser** *vpr* adashmoq, xato qilmoq; **c'était hier, si je ne m'abuse** adashmasam, bu kecha bo'lgan edi.

**abusif, ive** *adj* **1.** qonunga xilof; noto'g'ri; **2.** haddan tashqari, ortiq darajada, o'ta.

**abusivement** *adv* **1.** qonunga xilof ravishda, g'ayriqonuniy; noto'g'ri; **2.** juda, juda ham, haddan tashqari tez.

**abysse** *nm géog* qa'r, tubsizlik, chuqurlik, cho'kma (*dengizda*).

**abyssin, ine I.** *adj* habashlarga oid, habash; **II.** *n* habash, habashistonlik.

**acabit** *nm péj* yomon fazilat, xislat, xususiyat; **du même acabit** tuprog'i bir joydan olingan, bir toifadagi, bir turdagi.

**acacia** *nm* akas, akatsiya.

**académicien, ienne** *n* akademik.

**académie** *nf* **1.** akademiya; **l'Académie française** Fransuz akademiyasi; **Académie des Sciences** Fanlar akademiyasi; **2.** olimlar, musavvirlar, artistlar uyushmasi; ilmiy uyushma; **3.** akademiya (*oliy o'quv yurti*); **4.** o'quv okrugi (*Fransiyada*); **recteur de l'académie de Paris** Parij o'quv okrugining rektori; **5.** gavda bichimi, bo'y-bast, qaddi-qomat, jussa; yalang'och badan; yalang'och badanni tasvirlovchi rasm.

**académique** *adj* akademiyaga oid, akademiyaga qarashli; o'qish-o'qitishga oid.

**académiquement** *adv* akademiyaga oid an'ana, qonun-qoidalarni saqlagan holda.

**académisme** *nm* akademizm (***1.** quruq nazariyabozlik, quruq nazariyaga berilib ketish; **2.** fan va san'atda; belgili an'analarga rioya qilish; **3.** tasviriy san'atda: antik dunyo va uyg'onish davrining klassik uslub va qoidalariga ko'r-ko'rona rioya qiluvchi oqim*).

**acajou** *nm* qizildaraxt.

**acanthe** *nf bot* ayiqtovon; *archit* **feuille d'acanthe** akant bargi.

**acariâtre** *adj* ming'ir-ming'ir, mijg'ov; janjalkash.

**accablant, ante** *adj* **1.** og'ir, qiyin, mushkul, mashaqqatli; tashvishli, qayg'uli; **2.** charchatadigan, holdan toydiradigan, tinka-madorni quritadigan.

**accablé, ée** *adj* ruhan ezilgan, ruhi tushgan, ezilgan.

**accablement** *nm* **1.** ruhan ezilish, ma'yuslik; **2.** darmonsizlik, holdan toyish.

**accabler** *vt* **1.** egmoq, bukmoq, qayirmoq; qaddini bukmoq, bukchaytirmoq, qaddini bukib qo'ymoq; **être accablé sous le poids d'un fardeau, des ans, des responsabilités** og'ir yuk, yillar jabr-jafosi, mas'uliyat ostida qaddi bukilib qolmoq; **2.** ezmoq, og'ir ish yuklab qiynamoq, malollik keltirmoq, urintirmoq; **accabler de travail** ishga ko'mib tashlamoq; **être accablé d'impôts** soliqlar ostida ezilmoq; **être accablé de dettes** qulog'igacha qarzga botmoq; **3.** ezmoq, ko'nglini og'ritmoq; **être accablé de chagrin** g'amdan qaddi bukilmoq; **4.** toliqtirmoq, holdan toydirmoq; **accabler l'ennemi** dushmanni holdan toydirmoq; **5.** ko'mib tashlamoq, g'arq qilmoq, yog'dirmoq; **accabler de questions, de reproches, de sollicitations** savol, ta'na, iltimosga ko'mib tashlamoq.

**accalmie** *nf* jimjitlik, osoyishtalik, sukunat.

**accaparement** *nm* egallab olish; olib qo'yish; to'plash, yig'ish.

**accaparer** *vt* **1.** bosib olmoq, egallab olmoq; **accaparer le pouvoir** hokimiyatni egallamoq; **2.** sotib olmoq, sotib olib to'plamoq (*ko'p miqdorda yoki hammasini, odatda mahsulot taqchilligini keltirib chiqarib va natijada qimmatroq narxda sotish maqsadida*); **3.** *fig* **accaparer qqn** birovni izmiga solmoq, qo'lga, o'z ta'siriga olmoq.

**accapareur, euse** *n* **1.** bosqinchi, bosib oluvchi; **2.** olibsotar, chayqovchi.

**accéder** *vi* **1.** yetmoq, yetib bormoq; kira olmoq, o'ta olmoq; **accéder à la chambre par un escalier** xonaga zina orqali kirmoq, o'tmoq; **2.** *fig* kelmoq; erishmoq, ega bo'lmoq; **accéder au pouvoir** hokimiyatga kelmoq; **accéder à l'indépendance** mustaqillikka erishmoq; **3.** rozi bo'lmoq; qo'shilmoq; **accéder aux prières de qqn** birovning iltimosiga rozi bo'lmoq, qo'shilmoq.

**accélérateur, trice I.** *adj* tezlatadigan, tezlatishga xizmat qiladigan; **II.** *nm* **1.** *techn* akselerator (*dvigatel silindrlariga keladigan yonilg'i miqdorini rostlab turuvchi qurilma va uning tepkisi*); **2.** *photo* tezlatkich (*reaksiya jarayonini tezlashtiruvchi modda*).

**accélération** *nf* tezlatish, tezlashtirish, jadallashtirish; tezlashuv, jadallashuv.

**accélérer I.** *vt* tezlashtirmoq, jadalashtirmoq; tezlikni oshirmoq; **accélérer le pas** qadamini tezlatmoq; **II.** *vi av techn* gaz berib tezlikni oshirmoq.

**accent** *nm* **1.** talaffuz; **il a un bon accent** uning talaffuzi yaxshi; **2.** lahja; **3.** urg'u; gap ohangi; **4.** ohang; **accent plaintif** yurakni ezadigan, zorlangan, mungli ohang; **accent de sincérité** samimiylik, ochiq ko'ngillik ohangi; **5.** *fig loc* **mettre l'accent sur** alohida e'tibor bermoq; maxsus qayd etmoq; **6.** *pl* tovush, sado; **aux accents de la Marseillaise** Marseleza sadolari ostida.

**accentuation** *nf* **1.** urg'u, urg'u qo'yish tartibi; urg'ular sistemasi; **2.** kuchaytirish, oshirish; ta'kidlash, alohida e'tibor berish.

**accentué, ée** *adj* **1.** urg'uli (*bo'g'in*); **2.** ta'kidlangan, qayd etilgan, yorqin ifodalangan.

**accentuer** *vt* **1.** urg'u tushirmoq, urg'u qo'ymoq; **accentuer la voyelle finale** oxirgi unliga urg'u qo'ymoq; **2.** urg'u qo'yib ta'kidlamoq; **3.** kuchaytirmoq; **accentuer la lutte** kurashni kuchaytirmoq; **accentuer son effort** harakatini kuchaytirmoq; **s'accentuer 1.** urg'uli talaffuz qilinmoq; **2.** kuchaymoq, keskinlashmoq; yorqin ifodalanmoq.

**acceptable** *adj* ma'qul, maqbul.

**acceptation** *nf* qabul qilish (*taklifni*); rozilik, rizolik.

**accepter** *vt* **1.** qabul qilmoq; **accepter une invitation** taklifni qabul qilmoq; **accepter la bataille** jangga kirmoq; **2.** rozi bo'lmoq, rozilik bildirmoq; **accepter un contrat** shartnomaga rozi bo'lmoq, ko'nmoq; **3.** ko'nikmoq, tan bermoq; **accepter son sort** taqdiriga tan bermoq; **4. accepter de** *+inf* rozi bo'lmoq; **5. accepter que**, chidamoq, bardosh bermoq, toqat qilmoq; **Je n'accepte pas qu'on me parle sur ce ton** men bilan bunday ohangda gaplashishlariga toqat qilolmayman.

**acception** *nf* **1.** ma'no; **acception propre d'un mot** so'zning o'z ma'nosi, asl ma'nosi; **2. sans acception de** -ga bog'liq bo'lmagan; qaramasdan, yuz-xotir qilmasdan; **sans acception de fortune** boylikka qaramasdan; **sans acception de personne** yuz-xotir qilmasdan.

**accès** *nm* **1.** kirish, yaqinlashish; kiradigan joy; **2.** *pl* ostona, bo'sag'a, kirish va chiqish joylari; **les accès de Paris** Parij ostonalari; **3.** imkon, ijozat, ruxsat; **avoir accès auprès de qqn** biror kimsa oldiga kirish ruxsatiga ega bo'lmoq; **4.** xuruj, xuruj qilish, tutib qolish, tutish; jazava, talvasa; **un accès de fièvre** isitma xuruji; **un accès de colère** g'azab talvasasi, g'azab olovi; **par accès** vaqti-vaqtida, vaqti-vaqti bilan.

**accessibilité** *nf* kira olish, yaqinlasha olish huquqi, erisha olish; **accessibilité à un emploi** xizmatga erishish.

**accessible** *adj* **1.** kirish mumkin bo'lgan; yetib, erishib bo'ladigan; **2.** barchaga barobar, oddiy, odmi; **homme accessible à tous** barchaga baravar odam; **3.** tushunarli, yengil; hammabop, hammaning qo'lidan keladigan; **science accessible à chacun** hammaga tushunarli fan; **prix accessible** olsa bo'ladigan narx, arzon baho; **4.** ta'sirchan, beriluvchan; **accessible à la flatterie** maqtovga, xushomadga beriladigan, maqtovparast, xushomadparast.

**accession** *nf* **1.** kelish; **accession au pouvoir** hokimiyatga kelmoq; **accession au trone** taxtga o'tirish; **2.** *fig* erishmoq, yetishmoq; **accession à l'indépendance** mustaqillikka erishmoq; **accession à de hautes fonctions** yuqori lavozimga yetishmoq; **3.** qo'shilish; a'zo bo'lish; **accession à une organisation** biror tashkilotga a'zo bo'lish.

**accessit** *nm* maqtovnoma, maqtov qog'ozi.

**accessoire I.** *adj* **1.** ikkinchi darajali; qo'shimcha, yordamchi; **II.** *nm* **1.** asbob; buyum, jihoz; ashyo, narsa; *pl* qo'shimcha jihozlar; **2.** *pl* teatr sahna jihozlari yoki manzarasining ayrim qismi, qismlari; **3.** *pl techn* mashina yoki asbobning yordamchi uskunalari.

**accessoirement** *adv* qo'shimcha ravishda.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**accessoriste** *nm th* rekvizitor (*sahna jihozlari yoki kinofilmni suratga olishda foydalaniladigan narsalarni ixtiyoriga olgan kishi*).

**accident** *nm* **1.** ko'ngilsiz hodisa, halokat, falokat, avariya; hodisa, voqea; **accident d'automobile** avtomobil halokati; **les accidents de la route** yo'llardagi ko'ngilsiz hodisalar; **accident du travail** ishlab chiqarishdagi ko'ngilsiz hodisa; **2.** tasodif; **par accident** *loc adv* tasodifan; **3. accident de terrain** notekis, past-baland joy, joyning notekisligi.

**accidenté, ée I.** *adj* **1.** notekis; **un terrain accidenté** o'nqir-cho'nqir joy; **2.** jabrlangan; falokatga uchragan; **une voiture accidentée** falokatga, avariyaga uchragan mashina; **II.** *n* jabrlangan, jabr ko'rgan, falokatga uchragan odam; **secourir un accidenté** jabrlangan kishiga yordam bermoq.

**accidentel, elle** *adj* **1.** tasodifiy, kutilmagan; **une erreur accidentelle** tasodifiy xato; **2.** tasodif natijasi; baxtsiz voqea natijasi; **la mort accidentelle d'un coureur automobile** baxtsiz voqea natijasida avtomobil poygachisining o'limi.

**accidentellement** *adv* tasodifan, kutilmaganda, to'satdan.

**acclamation** *nf* tabrik, xitob bilan tabriklash, gulduros olqishlar.

**acclamer** *vt* xitob bilan, gulduros qarsaklar bilan tabriklamoq, olqishlamoq.

**acclimatation** *nf* akklimatizatsiya, iqlimlashish (*yangi iqlimga, yangi sharoitga ko'nikish, o'rganish; yangi iqlimga, yangi sharoitga ko'niktirish, moslashtirish*).

**acclimatement** *nm* boshqa joyga ko'nikish, o'rganish.

**acclimater I.** *vt* yangi iqlimga, sharoitga o'rgatmoq; **II. s'acclimater** *vpr* yangi joyga o'rganmoq, o'zlashib ketmoq; **cet usage s'est acclimaté dans cette région** bu odat bu joylarga singishib, o'zlashib ketdi.

**accointance** aloqa; muloqot; tanishlik; **il a des accointance avec des gens peu recommandables** uning shubhali kishilar bilan aloqasi, tanishligi bor.

**accolade** *nf* **1.** quchoqlash; **donner l'accolade** quchoqlamoq; **2.** katta qavs (*bir necha qatorni birlashtirishga xizmat qiladigan belgi*).

**accolé, ée** *adj* yonma-yon joylashgan, tutashgan; yopishtirilgan.

**accoler I.** *vt* **1.** yaqinlashtirmoq; **les bateaux étaient accolés bord à bord** kemalar bir-biriga yaqinlashtirilgan edi; **2.** qo'shmoq, bog'lamoq; yonma-yon qo'ymoq; **accoler la vigne** uzumni bog'lamoq, ilib qo'ymoq; **accoler deux noms sur une liste** ikki familiyani yonma-yon yozib qo'ymoq; **II. s'accoler** *vpr* birikmoq, qo'shilmoq.

**accommodant, ante** *adj* gapga ko'nadigan, muomalaga yuradigan, ko'ngilchan, qobil, yumshoq tabiatli; **homme accommodant** ko'ngilchan odam; **d'un caractère accommodant** ko'ngilchanlik bilan.

**accommodation** *nf* moslashish, ko'nikish, o'rganish; moslashtirish, ko'niktirish, o'rgatish; **accommodation de l'œil** ko'zning moslashuvi.

**accommodement** *nf* bitim, kelishuv; yarashish; **accommodement à l'amiable** do'stona kelishuv.

**accommoder I.** *vt* **1.** moslamoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq; **accommoder qqch aux circonstances** biror narsani sharoitga moslashtirmoq; **2.** tuzatmoq, yo'lga qo'ymoq; **accommoder une affaire** ishni yo'lga qo'ymoq; **accommoder un procès** o'zaro kelishuvga ko'ra ishni to'xtatmoq (*sudda*); **3.** tayyorlamoq (*ovqat*); **accommoder un repas** ovqat tayyorlamoq; **4.** yarashtirmoq; **accommoder deux personnes** ikki kishini yarashtirmoq; **5.** to'g'rilamoq, o'qtalmoq, mo'ljalga olmoq (*ko'z, optik asbob*); **accommoder sur l'infini, à l'infini** cheksizlikka to'g'rilamoq, cheksizlikni mo'ljallamoq; **II. s'accommoder** *vpr* **1.** (**à qqch**) moslashmoq, kelishmoq; **s'accommoder à la vie** hayotga moslashmoq; **2.** (**de qqch**) ko'nmoq; mamnun bo'lmoq.

**accompagnateur, trice** *n* **1.** *mus* jo'rlik qiluvchi sozanda; **2.** gid (*sayyohlarga tushuntirishlar beruvchi va ularga hamroh bo'luvchi kishi*).

**accompagnement** *nm* **1.** hamrohlik; **2.** *mus* akkompanement, jo'rlik; **3.** *mil* yordam, ko'mak berish; **4.** garnir (*go'sht yoniga qo'shiladigan sabzavot*).

**accompagner I.** *vt* **1.** hamrohlik qilmoq, kuzatib bormoq; **accompagner qqn à la porte** biron kishini eshikkacha kuzatib bormoq; **2.** jo'r bo'lmoq; **accompagner un violoniste au piano** skripkachiga pianinoda jo'r bo'lmoq; **II. s'accompagner** *vpr* bir vaqtda sodir bo'lmoq, baravar yuz bermoq; **l'expansion économique s'accompagne d'une élévation du niveau de vie** iqtisodiy yuksalish turmush darajasining ortishi bilan bir paytda sodir bo'lmoqda.

**accompli, ie** *adj* **1.** ro'y bergan, yuz bergan, sodir bo'lgan, tugallangan; **fait accompli** yuz bergan voqea, fakt; **il a vingt ans accomplis** u yigirmaga kirdi; **2.** ajoyib, a'lo darajadagi; **homme accompli** komil kishi.

**accomplir I.** *vt* **1.** amalga oshirmoq; **accomplir des réformes** islohotlarni amalga oshirmoq; **2.** bajarmoq, uddasidan chiqmoq; **accomplir une promesse** va'dasini bajarmoq; **3.** tugatmoq; **accomplir un travail** ishni tugatmoq; **II. s'accomplir** *vpr* amalga oshmoq, bajarilmoq, bo'lib o'tmoq, ro'y bermoq; **de grandes transformations se sont accomplies au cours de cette période** bu davrda katta o'zgarishlar ro'y berdi.

**accomplissement** *nm* ado etish, bajarish, bajarilish.

**accord** *nm* **1.** bitim, shartnoma, kelishish; **accord commercial** savdo shartnomasi; **arriver à un accord** bir bitimga kelmoq; **signer un accord** shartnoma tuzmoq; **2.** ittifoqlik, totuvlik, hamjihatlik; **vivre en bon accord** hamjihatlikda yashamoq; **3.** muvofiqlik, loyiqlik, munosiblik, moslik; **être en accord avec** -ga mos bo'lmoq; **4.** rozilik; **être d'accord** rozi bo'lmoq; **être d'accord avec** bir fikrda bo'lmoq; **demander l'accord de qqn** biron kishining roziligini so'ramoq; **avec son accord** uning roziligi bilan; **5.** *gram* moslashuv; **6.** *mus* akkord (*turli balandlikdagi bir necha tovushning hamohang birligi*).

**accordage** *nm mus* sozlash.

**accordailles** *nf pl* unashish.

**accordement** *nm voir* **accordage**.

**accordéon** *nm* akkordeon, garmon; **en accordéon** garmonga o'xshatib, qat-qat qilib.

**accordéoniste** *nm* akkordeonchi; garmonchi.

**accorder I.** *vt* **1.** yarashtirmoq, murosaga keltirmoq, kelishtirmoq; **2.** muvofiqlashtirmoq; **accorder la théorie avec la pratique** nazariyani amaliyot bilan muvofiqlashtirmoq; **3.** *mus* sozlamoq; **accorder un instrument** asbobni sozlamoq; **un piano bien accordé** yaxshi sozlangan pianino; **4.** *gram* moslashtirmoq; **accorder le verbe avec le sujet** fe'lni ega bilan moslashtirmoq; **5.** rozi bo'lmoq; bir xil fikrda bo'lmoq; **6.** bermoq; biror ish qilishga imkon yoki ruxsat bermoq; **accorder un congé, un droit** ta'til, huquq bermoq; **accordez-moi cinq minutes** menga besh minut ajrating; **accorder un crédit** qarz bermoq; **accorder son pardon** kechirmoq; **accorder sa confiance** ishonch bildirmoq; **accorder l'autorisation** ruxsat bermoq; **7.** ma'no, ahamiyat, e'tibor bermoq, deb qaramoq; **on lui accorde du talent** uni talantli deb qaramoqdalar; **II. s'accorder** *vpr* **1.** kelishmoq, bir fikrga kelmoq; **2.** o'zaro yaxshi munosabatda bo'lmoq; **3.** *mus* sozlanmoq, to'g'rilanmoq; **4.** *gram* moslashmoq; **l'adjectif s'accorde avec le substantif** sifat ot bilan moslashadi; **5.** to'g'ri kelmoq, mos kelmoq; **son témoignage s'accorde avec les faits** uning ko'rsatmalari faktlarga mos kelmoqda; **ces teintes s'accordent bien** bu ranglar bir-biriga juda mos keladi.

**accordeur** *nm* sozlovchi.

**accort, orte** *adj* yoqimtoy, xushmuomala, nazokatli; ochiq ko'ngil, shirin so'z; **une accorte jeune fille** yoqimtoy, nazokatli qiz; **une serveuse accorte** xushmuomala, shirin so'z ofitsiantka.

**accostage** *nm* **1.** yaqinlashish, xiralik qilish, kelib to'xtash; **2.** tutashtirish, tutashtirilish (*kosmik kemalar*).

**accoster I.** *vt* **1.** yaqinlashmoq, yaqiniga, yoniga kelmoq, bormoq; **2.** xiralik qila boshlamoq, shilqimlik qila boshlamoq; **accoster des jeunes filles** qizlarga shilqimlik qila boshlamoq; **3.** kelib to'xtamoq (*kemalar, qayiqlar*); **II.** *vi* tutashmoq; tutashtirilmoq (*kosmik kemalar*).

**accotement** *nm* yo'l cheti, yo'l qirg'og'i.

**accoter I.** *vt* suyab, tirab qo'ymoq; **accoter une échelle contre le mur** narvonni devorga suyab qo'ymoq; **II. s'accoter** *vpr* suyanmoq, tiranmoq; **s'accoter à un arbre** daraxtga suyanmoq.

**accotoire** *nm* suyanchiq, tirgak.

**accouchée** *nf* yangi tuqqan ayol.

**accouchement** *nm* tug'ish, ko'zi yorish; **accouchement avant terme**, **accouchement prématuré** muddatidan oldin, erta tug'ish; **avoir un accouchement difficile** qiynalib tug'moq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**accoucheur, euse I.** *n* akusher; akusherka, doya; **II.** *adj* **médecin accoucheur** akusher.

**accouder (s')** *vpr* (**à, sur qqch**) tirsak bilan tayanmoq tirsakka suyanmoq; tirsakka tayanib turmoq, oʻtirmoq, yonboshlamoq; **s'accouder à la fenêtre** deraza tokchasiga tayanib, tirsakni tirab turmoq.

**accoudoir** *nm* tirsakqoʻygʻich, suyanchiq.

**accouplement** *nm* **1.** juft qilib, ikkitadan qilib qoʻshish; **2.** qoʻshilish, qovushish, jinsiy aloqa qilish; qochish; qochirish; chopish, choptirish, juftlashish (*hayvonlar*); **3.** *techn* qoʻshish, ulash.

**accoupler I.** *vt* **1.** juft qilib, ikkitadan qilib qoʻshmoq; **accoupler des bœufs à la charrue** ikkita hoʻkizni omochga qoʻshmoq; **accoupler deux expressions dans cette phrase** bu gapda ikkita iborani qoʻshmoq; **2.** qoʻshmoq, qovushtirmoq; qochirmoq, choptirmoq (*hayvonlar*); **3.** *techn* qoʻshmoq, ulamoq; **II. s'accoupler** *vpr* qovushmoq, qoʻshilmoq, jinsiy aloqa qilmoq (*hayvonlar*).

**accourir** *vi* yugurib kelmoq, chopib bormoq; **accourir au secours de qqn** birovga yordam berish uchun shoshilmoq.

**accoutrement** *nm* kulgili, gʻalati, libos kiyim.

**accoutrer I.** *vt péj* gʻalati, kulgili qilib yasantirmoq, kiyintirmoq; **II. s'accoutrer** *vpr* kulgili, gʻalati kiyinib olmoq.

**accoutumance** *nf* **1.** moslashish, koʻnikish, akklimatizatsiya; **2.** odat, oʻrganish; **l'accoutumance au malheur** baxtsizlikka bardosh berish, chidash odati.

**accoutumé, ée** *adj* odatdagi, odatga aylangan, oʻrganib qolingan; *loc adv* **à l'accoutumé** odatdagidek.

**accoutumer I.** *vt* (**qqn à qqch**) biror narsaga oʻrgatmoq, odatlantirmoq, koʻniktirmoq, koʻnikma, malaka hosil qilmoq; **II. s'accoutumer** *vpr* (**à qqch**) odatlanmoq, koʻnikib qolmoq; kirishib ketmoq; havosini olmoq.

**accréditer** *vt* **1.** vakil qilib tayinlamoq, vakolat bermoq; **accréditer un ambassadeur** elchi qilib tayinlamoq, elchilik vakolatini bermoq; **2.** tarqatmoq, yoymoq; quvvatlamoq; **accréditer une nouvelle** yangilikni tarqatmoq, yoymoq; **II. s'accréditer** *vpr* tarqalmoq, yoyilmoq (*shov-shuv, duv-duv gap*).

**accréditif** *nm* akkreditiv (*koʻrsatuvchiga maʼlum miqdor pul berish haqida omonat kassa, bank kabi muassasalar tomonidan boshqa shunday muassasalarga koʻrsatma berilgan hujjat*).

**accroc** *nm* **1.** yirtiq, teshik; **faire un accroc à son pantalon** shimini yirtib olmoq; **2.** *fig* qiyinchilik; ogʻirlik, mushkullik, qiyinlik.

**accrochage** *nm* **1.** ilish, osish; **2.** ulash, tirkash (*vagon*); **3.** toʻqnashuv (*avtomobillar*); **4.** tortishuv, mojaro, bahslashuv; **5.** toʻqnashuv, jang; **accrochage entre deux patrouilles** ikki patrul oʻrtasidagi toʻqnashuv.

**accroche-cœur** *nm* jingalak, gajak.

**accrocher I.** *vt* **1.** osmoq, ilmoq; **accrocher un tableau au mur** devorga rasmni ilmoq; **2.** tirkamoq, ulamoq; **accrocher un wagon au train** vagonni poyezdga ulamoq; **3.** ildirib olmoq, yirtmoq; **elle a accroché sa jupe à un clou** u yubkasini mixga ildirib, yirtib oldi; **4.** tegib ketmoq, urib olmoq; **accrocher une voiture** mashinaga urib olmoq, mashina bilan toʻqnashib ketmoq; **5.** birovning diqqatini tortmoq, oʻziga jalb qilmoq; **une affiche qui accroche** diqqatni jalb qiladigan afisha; **II. s'accrocher** *vpr* (**à**) **1.** osilib qolmoq; ilinib qolmoq; **2.** yopishib olmoq; **s'accrocher à son passé** oʻtmishiga yopishib olmoq; **3.** yopishib olmoq, xiralik qilmoq, shilqimlik qilmoq; **4.** birlashmoq, birikmoq; **5.** toʻqnashmoq, bir-biriga tegib ketmoq (*avtomobillar*); **6.** bahslashmoq, bir-biri bilan tortishmoq.

**accrocheur, euse I.** *adj* **1.** oʻjar; qatʼiyatli, tirishqoq, qatʼiy; **2.** mana-man deb, koʻzga tashlanib turadigan, koʻzga yaqin; **une publicité accrocheuse** koʻzga tashlanib turadigan reklama; **II.** *n fam* soʻzini oʻtkazadigan, qatʼiyatli, oʻjar odam; yopishqoq odam.

**accroire** *vt faqat infinitiv formasida ishlatiladi*: **faire** (**laisser**) **accroire** ishonishga majbur qilmoq, ishontirmoq.

**accroissement** *nm* oʻsish, koʻpayish, ortib borish.

**accroître I.** *vt* koʻpaytirmoq, oshirmoq, orttirmoq, oʻstirmoq, kengaytirmoq; **accroître la production** mahsulotni koʻpaytirmoq; **accroître les possibilités** imkoniyatlarni kengaytirmoq; **II. s'accroître** *vpr* ortmoq, kuchaymoq, koʻpaymoq, oʻsmoq.

**accroupir (s')** *vpr* choʻqqayib oʻtirmoq, tiz choʻkib oʻtirmoq.

**accroupissement** *nm* choʻqqayib oʻtirish, choʻqqayish, tiz choʻkib oʻtirish.

**accus** *nm pl abrév fam voir* **accumulateur**.

**accueil** *nm* qabul, kutib olish marosimi; kutib olish, qarshi olish; **faire bon, mauvais accueil à qqn** biror kishini yaxshi, yomon kutib olmoq; **faire bon, mauvais accueil à qqch** biror narsaga ijobiy, salbiy munosabatda boʻlmoq; **centre d'accueil** kutib olish, qabul qilish uchun moslangan maxsus joy yoki bino.

**accueillant, ante** *adj* xushmuomala, ochiq yuz, ochiq koʻngil; mehmondoʻst.

**accueillir** *vt* **1.** kutmoq, qarshilamoq; kutib, qarshi olmoq, peshvoz chiqmoq; **accueillir qqn à bras ouverts** biror kishini quchoq ochib qarshi olmoq; **accueillir des réfugiés** qochoqlarni qabul qilmoq, qochoqlarga boshpana bermoq; **2.** maʼqullamoq, qarshi olinmoq, kutib olinmoq; **accueillir une proposition** taklifni maʼqullamoq; **ce projet a été bien accueilli** bu reja yaxshi kutib olindi, qarshi olindi.

**acculer** *vt* **1.** (**qqn à qqch**) siqmoq, siqib, qisib bormoq; **acculer un ennemi à la mer** dushmanni dengizga siqib bormoq; **2.** *fig* ilojsiz qoldirmoq; olib kelmoq; **la crise économique a acculé l'entreprise à la faillite** iqtisodiy buhron korxonani sinishga olib keldi.

**accumulateur, trice I.** *adj* toʻplaydigan, yigʻadigan; **II.** *nm* akkumulyator, toʻplagich.

**accumulation** *nf* **1.** toʻplash, yigʻish, jamgʻarish, toʻplanish, jamgʻarilish; **l'accumulation primitive du capital** dastlabki kapital jamgʻarma; **2.** *techn* akkumulyatsiya.

**accumuler I.** *vt* toʻplamoq, yigʻmoq, jamgʻarmoq; *techn* akkumulyatsiyalamoq; **accumuler du matériel de guerre** harbiy texnikani yigʻmoq; **accumuler les exemples** misol toʻplamoq; **II. s'accumuler** *vpr* yigʻilmoq, toʻplanmoq, jamgʻarilmoq; **les livres s'accumulent sur ma table** stolim ustida kitoblar yigʻilmoqda.

**accusateur, trice I.** *n* ayblovchi, qoralovchi; **accusateur public** jamoat qoralovchisi; **II.** *adj* ayblash bilan bogʻliq boʻlgan, ayblaydigan; **documents accusateurs** ayblovchi hujjatlar.

**accusatif** *nm gram* tushum kelishigi.

**accusation** *nf* **1.** ayblash, qoralash; **acte d'accusation** ayblash akti; ayblov fikri; **2.** prokuratura.

**accusatoire** *adj* ayblashga, qoralashga oid.

**accusé, ée** *n* **1.** aybdor, ayblanuvchi; sudlanuvchi; **2.** *nm* **accusé de réception** tilxat.

**accuser I.** *vt* **1.** ayblamoq, ayb qoʻymoq, kimsani aybdor deb hisoblamoq; **accuser de mensonge, accuser de mentir** aldoqchilikda ayblamoq; **2.** ayblamoq, koyimoq, taʼna qilmoq, qoralamoq; **accuser une habitude** odatni qoralamoq; **accuser le sort** taqdirni koyimoq; **3.** *dr* ayblamoq, ayblab, aybdor sifatida jazoga tortmoq; **4.** tasdiqlamoq; dalolat bermoq; **accuser réception d'une lettre** xat olganlikni tasdiqlamoq; **5.** koʻrsatmoq, namoyon qilmoq; **son visage accusait la fatigue** yuzidan charchaganligi koʻrinib turibdi; **6.** ajratib turmoq, ayirib koʻrsatmoq, alohida qilib koʻrsatmoq; **cette robe noire accuse sa pâleur** bu qora koʻylak uning rangsizligini boʻrttirib, ajratib koʻrsatmoqda; **II. s'accuser** *vpr* oʻzini aybdor deb hisoblamoq; aybini boʻyniga olmoq; **s'accuser d'un crime** jinoyatni boʻyniga olmoq.

**acéphale** *adj* boshsiz; **statut acéphale** boshsiz haykal.

**acerbe** *adj* **1.** nordon, taxir; **2.** *fig* dagʻal, qattiq (*gap, soʻz, muomala*).

**acéré, ée** *adj* **1.** oʻtkir, keskir; **2.** *fig* zaharli, istehzoli, achchiq, uzib oladigan; **des paroles acérées** achchiq, istehzoli soʻzlar.

**acétate** *nm* atsetat, sirkali nordon, gidro tuz.

**acétique** *adj* sirkaga oid, sirka; **acide acétique** sirka kislota.

**acétone** *nf* atseton (*lok-boʻyoq sifatida va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan organik birikma, erituvchi rangsiz suyuqlik*).

**acétylène** *nm* atsetilen (*rangsiz, hidsiz yonuvchi gaz*).

**achalandé, ée** *adj* xaridori, mijozi koʻp; moli moʻl-koʻl boʻlgan; **boutique bien achalandée** xaridori, mijozi koʻp, moli moʻl-koʻl, serob doʻkon.

**acharné, ée** *adj* **1.** shiddatli, keskin, qattiq; **un combat acharné** shiddatli jang; **2.** gʻazablangan, jahli chiqqan, ashaddiy, oʻjar, qatʼiyatli, tirishqoq; **un travailleur acharné** qatʼiyatli, tirishqoq ishchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**acharnement** *nm* qat'iylik; qattiq turish; jon-jahd, shiddat, g'azablantirish, jahlini chiqarish, g'azablanish, jahli chiqish.

**acharner (s')** *vpr* **1.** jon-jahd bilan tashlanmoq; **il s'acharne contre sa victime** u o'z qurboniga jon-jahdi bilan tashlandi; **2.** sabot-matonat ko'rsatmoq, qattiq turmoq; **s'acharner au travail** ishda sabot-matonat ko'rsatmoq.

**achat** *nm* **1.** sotib olish; **2.** sotib olingan narsa, xarid.

**acheminement** *nm* yuborish, jo'natish; jo'nash, jo'nab ketish.

**acheminer** *vt* **1.** jo'natmoq, yubormoq; **2.** jo'namoq, ketmoq, yo'l olmoq.

**achetable** *adj* sotuvda bo'lgan, sotib olsa bo'ladigan.

**acheter** *vt* **1.** sotib olmoq, xarid qilmoq; **acheter une voiture** mashina sotib olmoq; **acheter à crédit, au comptant, en gros** kreditga, naqd pulga, ko'tarasiga sotib olmoq; **acheter qqch dans un magasin, au marché, chez le pharmacien** biror narsani do'kondan, bozordan, dori tayyorlovchidan sotib olmoq; **2.** pul berib o'z tomoniga ag'darib olmoq, og'dirmoq; **acheter un fonctionnaire, des témoins** mansabdorni, guvohlarni og'dirib olmoq; **3.** *fig* biror narsa evaziga erishmoq; **acheter sa liberté au péril de sa vie** hayotini xavf ostiga qoldirib ozodlikka erishmoq.

**acheteur, euse** *n* **1.** xaridor, sotib oluvchi; **2.** sotib oluvchi, xaridchi (*savdo do'konlari, tayyorlov idoralari uchun*).

**achevé, ée** *adj* **1.** tugallangan, tamom bo'lgan; **2.** mukammal.

**achever I.** *vt* **1.** tugatmoq, tamomlamoq; **2.** halok qilmoq, o'ldirmoq; **achever un blessé** yaradorni o'ldirmoq; **3.** dilini vayron, siyoh qilmoq, tamom qilmoq, xarob qilmoq, o'ldirmoq; **ce dernier malheur l'a achevé** bu keyingi baxtsizlik uni adoyi tamom qildi; **II. s'achever** *vpr* tamom bo'lmoq, tugamoq, tugallanmoq.

**achèvement** *nm* tugatish, tamomlash, oxirigacha bajarish, yetqazish.

**achoppement** *nm* to'siq, to'sqinlik; **pierre d'achoppement** qiyin masala; qiyinchilik, to'sqinlik, xalaqit.

**achopper** *vi* biror to'siqqa qoqilmoq, qoqilib ketmoq; duch kelmoq, duchor bo'lmoq; **achopper à un problème** biron muammoga duch kelmoq.

**acide I.** *adj* **1.** achchiq, qimizak; **2.** *fig* zaharli, istehzoli, achchiq; **II.** *nm* kislota; **acide sulfurique** sulfat kislota.

**acidifier** *vt* oksidlamoq, kislotaga aylantirmoq, nordonlashtirmoq; kislota bilan ishlov bermoq.

**acidité** *nf* **1.** kislota, nordon ta'm; **2.** kislota miqdori, kislotalilik; **3.** *fig* achchiqlik (*gap, so'z, kinoya*).

**acidulé, ée** *adj* nordon.

**acier** *nm* **1.** po'lat; **en acier, d'acier** po'lat, po'latdan tayyorlangan; **un couteau en acier** po'latdan yasalgan pichoq; **2.** po'latdek qattiq; **des muscles d'acier** po'latdek mustahkam mushaklar.

**aciérie** *nf* **1.** po'lat erituvchi, quyish zavodi; **2.** *pl* po'lat quyish sanoati.

**acné** *nf* husnbuzar.

**acolyte** *nm péj* dum; malay, yugurdak; sherik, yordamchi.

**acompte** *nm* avans, bo'nak, bay puli (*to'lanishi kerak bo'lgan pulning oldindan to'langan bir qismi*).

**aconit** *nm* akonit, parpi (*dorivor o'simlik*).

**acoquiner (s')** *vpr péj* topishmoq, og'iz-burun o'pishmoq; til biriktirmoq, gapni bir yerga qo'ymoq, kelishmoq; **il s'est acoquiné avec un individu peu recommandable** u bir shubhali kishi bilan topishib oldi.

**à-côté** *nm* **1.** qo'shimcha sharoit, tomon, vaziyat; **c'est n'est qu'un à-côté de la question** masalaning qo'shimcha tomoni; **2.** *pl* qo'shimcha daromad, kirim; **il gagne tant, sans compter les à-côtés** qo'shimcha daromadini hisoblamasa ham u shunchalik ko'p maosh olmoqda.

**à-coup** *nm* harakatning notekisligi; notekis ishlash uzilish, to'xtash, to'xtab-to'xtab qolish (*mexanizm*); **il y a des à-coups dans le moteur** motor to'xtab-to'xtab ishlayapti; *loc adv* **par à-coups** to'xtab-to'xtab, notekis; **travailler par à-coups** notekis ishlamoq (*motor va shu kabi mexanizmlar*).

**acoustique I.** *adj* **1.** eshitishga oid, eshitish uchun xizmat qiladigan, eshitish; *anat* **nerf acoustique** eshitish nervi; **2.** akustikaga oid, akustik, akustika; **les phénomènes acoustiques** akustik hodisalar; **II.** *nf* akustika (*fizikaning tovush haqidagi bo'limi; binoning hamma yerida tovushning eshitilish-eshitilmaslik xususiyati*).

**acquéreur** *nm* xaridor, sotib oluvchi; **ce tableau n'a pas trouvé acquéreur** bu suratga xaridor topilmadi.

**acquérir I.** *vt* **1.** biror mulk, buyum egasi bo'lmoq (*sotib olish, meros orqali*); **2.** egallamoq, orttirmoq, qozonmoq; **acquérir des connaissances** ilm egallamoq; **acquérir de la gloire** shuhrat qozonmoq; **acquérir une expérience** tajriba orttirmoq, tajribali bo'lmoq; **II. s'acquérir** *vpr* orttirmoq, topmoq, o'ziga qaratmoq, qozonmoq; **s'acquérir de solides amitiés** sodiq do'stlar orttirmoq; **s'acquérir les bonnes grâces de qqn** biror kimsaning ixlosini qozonmoq.

**acquêts** *nm pl* mol-mulk (*er-xotin birga ishlab topgan mol-mulk*).

**acquiescement** *nm* rozilik, rizolik, ruxsat.

**acquiescer** *vt* **1.** rozi bo'lmoq, rizolik bermoq, ruxsat bermoq; **il acquiesça d'un signe de tête** bosh qimirlatib rozilik berdi, roziligini bildiradi; **2.** ko'nmoq, moyillik bildirmoq; **j'acquiesce à vos conditions** shartlaringizga ko'naman.

**acquis, ise** *adj* **1.** erishilgan, orttirilgan; qozonilgan; **le savoir acquis** orttirilgan bilim; **l'expérience acquise** orttirilgan tajriba; **2.** (**à qqn**) qo'lga kiritilgan, erishilgan; **le droit acquis** erishilgan qo'lga kiritilgan huquq; **3.** tan olingan e'tirof etilgan; **le fait acquis** tan olingan, e'tirof etilgan fakt; **4.** sodiq, tarafdor; **je vous suis tout acquis** men sizga juda sodiqman.

**acquisition** *nf* **1.** ega bo'lish, sotib olish; **faire l'acquisition d'une automobile** avtomobilga ega bo'lmoq, avtomobil sotib olmoq; **2.** xarid qilingan narsa.

**acquit** *nm* **1.** tilxat, kvitansiya; **2** *fig* **par acquit de conscience** vijdon sofligi, sof bo'lishi uchun, har ehtimolga qarshi.

**acquittement** *nm* **1.** to'lov; **acquittement d'une dette** qarzni to'lov; **2.** oqlash, aybsiz deb topish.

**acquitter I.** *vt* **1.** qarzini to'lamoq; **acquitter ses impôts** soliq to'lamoq; **2.** to'lov to'laganlik haqida imzo qo'ymoq; **3.** aybsiz deb topmoq, oqlamoq; **acquitter un accusé** aybdor, gunohkorni oqlamoq; **II. s'acquitter** (**de**) *vpr* **1.** to'lamoq, uzmoq; **s'acquitter de ses dettes** qarzini to'lamoq; **2.** bajarmoq, ijro etmoq, ado etmoq; **s'acquitter d'une mission** topshiriqni bajarmoq.

**âcre** *adj* o'tkir, achchiq, achishtiradigan; taxir, nordon (*hid va ta'm*); **l'odeur âcre de la fumée** tutunning achchiq hidi.

**âcreté** *nf* **1.** achchiqlik, o'tkirlik; taxirlik, nordonlik, achimsiqlik; **2.** *fig* achchiqlik, g'azablanganlik, achchiqlanganlik (*gap, so'z, kinoya*).

**acrimonie** *nf* achchiqlik, zaharxandalik; **avec acrimonie** g'azablanib, g'azab bilan, qahr-g'azabini, zahrini sochib.

**acrobate** *nm* **1.** akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi gimnastikachi yoki sirk artisti*); **2.** *péj* olg'ir, uddaburo, yulduzni benarvon uradigan; **3.** o'z ishiga mohir, usta odam.

**acrobatie** *nf* **1.** akrobatika (*akrobatlar bajaradigan murakkab gimnastika mashqlari*); **2.** *fig* epchillik, gapdastlik, chaqqonlik olg'irlik, uddaburolik.

**acrobatique** *adj* akrobatik, akrobatika; **exercice acrobatique** akrobatik mashqlar.

**acropole** *nf* akropol (*qadimgi yunon shaharlarining odatda tepalikda joylashgan va mustahkamlangan markaz qismi*); qasr, qal'a, shahriston.

**acrostiche** *nm* muvashshah (*satrlarining birinchi harflaridan biror so'z, ibora yoki ism hosil bo'ladigan she'r*).

**acte[1]** *nm* **1.** akt, biror ayrim harakat, ish, voqea, hodisa; **acte de bravoure** dadil harakat, jasorat; **2. faire acte de** namoyon qilmoq, ko'rsatmoq, harakat qilmoq; **faire acte d'autorité** huquqidan foydalanmoq; dadil harakat qilmoq.

**acte[2]** *nm* **1.** akt, rasmiy hujjat; **acte de naissance** tug'ilganlik haqida guvohnoma; **2.** *pl* bayonnomalar to'plami.

**acte[3]** *nm* **1.** *th* parda; **une pièce en trois actes** uch pardali pyesa; **2.** og'ir, jiddiy, fojeali davrning bir bo'lagi, qismi; **le dernier acte de la guerre** urushning hal qiluvchi davri.

**acteur, trice** *n* **1.** aktyor, teatr artisti; **2.** bosh qahramon, asosiy ishtirok etuvchi; **les acteurs et les témoins de ce drame** bu fojeaning asosiy ishtirokchilari va guvohlari.

**actif[1], ive 1** *adj* **1.** aktiv, faoliyatli, faol, serharakat, g'ayratli, ishchan, harakatchan; **un homme actif** faol harakatchan kishi; **un collaborateur actif** faol xodim, xizmatchi; **la population active** faol aholi, aholining ishga yaroqli qismi; **2.** aktiv, kuchli ta'sir qiluvchi; **un remède actif** ta'sirchan dori;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**3.** harakatdagi, ishlab turgan; rivojlanadigan, zo'rayadigan; **4.** *gram* **la voix active** aniqlik nisbati; **un verbe actif** aniqlik nisbatidagi fe'l.

**actif²** *nm* **1.** aktiv (*balansning kirim, daromad va moddiy boyliklar yoziladigan qismi*); **2.** *fig* yutuq, muvaffaqiyat; **avoir à son actif** hisobida bo'lmoq.

**actinie** *nf* aktiniya (*dengiz jonivori*).

**action¹** *nf* **1.** xatti-harakat; ish; muomala, qiliq; **une bonne action** yaxshi xatti-harakat; **une action d'éclat** jasorat; mardlik; **vos actions sont irréfléchies** siz tutgan ish o'ylanmagan (*noto'g'ri*); **2.** ta'sir, ta'sir etish, ko'rsatish; **l'action des vents sur le climat** shamolning ob-havoga ta'siri; **3.** harakat, faoliyat, ish; kurash; **il est temps de passer à l'action** harakat qilish vaqti yetdi, amalga oshirish payti keldi; **l'action clandestine** yashirin ish, faoliyat; **l'action culturelle** madaniy-oqartuv ishlari; **l'action revendicative** talablarni qondirish uchun kurash; **l'action ouvrière** ishchilar harakati; **programme d'action** harakat dasturi; **4.** voqea, hodisa (*adabiy asarlarda*); **l'action de cette pièce se passe en France** bu pyesadagi voqealar Fransiyada bo'lib o'tadi; **5.** parda (*dramatik asarlarda*); **6.** *mil* jang operatsiyasi, jang; **une action offensive** hujum harakati, hujum; **une action défensive** mudofaa; **7.** *dr* da'vo; ish; **obtenir une action en révision** da'vo qilib ishni qayta ko'rishga erishmoq.

**action²** *nf fin* aksiya, pay puli barobariga beriladigan va aksiyadorlar jamiyati ishida qatnashish, uning daromadidan hissa olish huquqini beradigan qimmatbaho qog'oz; **acheter des actions** aksiyalar sotib olish; **société par actions** aksiyadorlik, hissadorlik jamiyati.

**actionnaire** *nm* aksiyador, hissador.

**actionnement** *nm* harakatga keltirish, ishga tushirish; **actionnement à distance d'une machine** biror mashinani uzoqdan turib ishga tushirish, ishlatib yuborish.

**actionner** *vt* **1.** harakatga keltirmoq, harakatlantirmoq, ishlatib yubormoq, ishga solmoq (*mashina va mexanizmlar*); **2.** *dr* da'vo qilmoq, sud ishi qo'zg'atmoq.

**activement** *adv* aktiv ravishda, faol; g'ayrat bilan, jonbozlik ko'rsatib.

**activer I.** *vt* **1.** jonlantirmoq, faollashtirmoq; **activer le feu** o'tni jonlantirmoq, kuchaytirmoq; **2.** tezlatmoq, kuchaytirmoq aktivlashtirmoq; **activer le mouvement** harakatni tezlatmoq; **activer les préparatifs** tayyorgarlikni kuchaytirmoq; **II. s'activer** *vpr* shoshmoq, shoshilmoq, oshiqmoq; yugirib yelmoq, kuymanmoq; **elle s'active à préparer le repas** u ovqat tayyorlashga oshiqardi.

**activisme** *nm* ekstremizm (*siyosatda: keskin chora-tadbirlar ko'rishga tarafdorlik*).

**activiste I.** *n* **1.** ekstremist, ekstremizm tarafdori; **2.** faol, aktiv jamoatchi; biror tashkilotning aktiv, faol a'zosi; **II.** *adj* ekstremistik, ekstremizmga va ekstremistga oid.

**activité** *nf* **1.** faoliyat, ish, harakat, faollik, aktivlik; jo'shqinlik, g'ayrat; **une activité physique, intellectuelle** jismoniy, aqliy faoliyat, ish; **les activités industrielles** sanoat xizmati; **réduire ses activités** faoliyatini chegaralamoq, kamaytirmoq, kam ishlamoq; **les activités subversives** qo'poruvchilik faoliyati, harakati; **l'activité professionnelle** kasb mahorati; **cesser toute activité** faoliyatni butunlay to'xtatmoq; **contrôler l'activité d'un subordonné** tobe kishining faoliyatinni, ishini nazorat qilmoq; **2. en activité** ishlab turgan, harakatdagi (*zavod, korxona*); ishlayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan (*xodim, xizmatchi*); **une usine en activité** ishlayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan zavod; **en pleine activité** to'liq quvvat bilan ishlayotgan; **il n'est plus en activité** u endi ishlamayapti.

**actuaire** *nm* aktuariy, hisobchi (*sug'urta badallari, mukofotlarni to'lash bilan shug'ullanuvchi sug'urta mutaxassisi*).

**actualisation** *nf* **1.** *phil* imkoniyatdan voqelikka o'tish; amalga oshish; **2.** yangilanish, yangilash, yangi tusga, qiyofaga kiritish, kirish; **3.** *ling* til birligining nutqda reallashishi.

**actualiser** *vt* **1.** aktuallashtirmoq, zamonaviylashtirmoq, zamonga moslamoq, zamon talabiga muvofiqlashtirmoq; **2.** bajarmoq, amalga oshirmoq; **3.** *ling* aktuallashtirmoq (*til sistemasidagi biron elementni nutqga o'tkazmoq*).

**actualité** *nf* **1.** aktuallik, muhimlik; zamona, hozirgi kun; **souligner l'actualité d'un problème** masalaning muhimligini ta'kidlamoq; **2.** ijtimoiy sharoit, ahvol; **s'intéresser à l'actualité politique** siyosiy ahvolga qiziqmoq; **3.** *pl* kinoxronika, kinojurnal (*kinoda*); so'nggi axborot, oxirgi yangiliklar (*radio, televideniyeda*); **les actualités télévisées** televizion yangiliklar.

**actuel, elle** *adj* **1.** zamonaviy, aktual; hozirgi; mavjud; **à l'heure actuelle** hozirgi vaqtda; **les événements actuels** hozirgi voqealar; **l'état actuel du pays** mamlakatning hozirgi ahvoli; **le régime actuel** hozirgi, mavjud tizim; **2.** hozirgi kun, ayni payt uchun muhim, ahamiyatli, hammani, barchani qiziqtirayotgan aktual; **le sujet de cette pièce est très actuel** bu pyesaning mavzusi hozirgi kun uchun juda muhim.

**actuellement** *adv* hozir, hozirgi vaqtda; **les lois actuellement en vigueur** hozir amalda bo'lgan, amaldagi qonunlar; **actuellement il fait très froid** hozir havo juda sovuq.

**acuité** *nf* o'tkirlik, sezgirlik, kuchlilik, zo'rlik; **une bonne acuité visuelle** ko'zning o'tkirligi, yaxshi ko'rish; **l'acuité d'une douleur** g'amning kuchliligi, zo'rligi; **une grande acuité d'esprit** aqlning, zehnning g'oyat o'tkirligi; **l'acuité d'un son** tovushning kuchliligi.

**acuponcteur, trice** *nm méd voir* **acupuncteur**.

**acuponcture** *nf voir* **acupuncture**.

**acupuncteur, trice** *ou* **acuponcteur** *nm méd* igna sanchish bilan davolovchi mutaxassis.

**acupuncture** *ou* **acuponcture** *nf* ignaterapiya, igna sanchish bilan davolash.

**adage** *nm* xalq hikmati, maqol, hikmatli so'z.

**adagio** *mus* **I.** *adv mus* musiqa asarini sekin, shoshmasdan, cho'zib ijro etish haqidagi ko'rsatma; **II.** *nm* shunday xarakterda yozilgan musiqa asari.

**adaptabilité** *nf* moslashuvchanlik, moslashish, muvofiqlashish qobiliyati.

**adaptable** *adj* moslanuvchan; moslash mumkin bo'lgan.

**adaptateur, trice** *nm* **1.** sahnalashtiruvchi, sahnaga qo'yuvchi (*badiiy asarni sahnaga qo'yishi uchun moslab qayta ishlovchi*); **2.** *techn* adapter, moslagich (*biror apparat yoki mexanizmni boshqa maqsadda ishlatish uchun imkon beradigan moslagich*).

**adaptation** *nf* **1.** moslashish, muvofiqlashish, ko'nikish, o'rganish; **l'adaptation de l'organisme au milieu** organizmning muhitga moslashishi; **les possibilités d'adaptation de l'organisme** organizmning moslashish qobiliyati; **2.** moslashtirish, ko'niktirish, muvofiqlashtirish; **3.** sahnalashtirilgan asar, tomosha; ekranlashtirish.

**adapter I.** *vt* **1.** moslamoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq; **adapter ses dépenses à sa situation** xarajatlarni imkoniyatiga moslamoq; **2.** joyiga, o'ringa moslab tushirmoq, to'g'rilab o'rnashtirmoq; **adapter un robinet au tuyau d'eau** jo'mrakni vodoprovod quvuriga moslab o'rnatmoq; **3.** sahnalashtirmoq, ekranlashtirmoq; **adapter un roman pour le théâtre, pour le cinéma** romanni sahnalashtirmoq, ekranlashtirmoq; **II. s'adapter** *vpr* moslashmoq, muvofiqlashmoq; **l'organisme s'adapte aux microbes** organizm mikroblarga moslashmoqda; **il faut savoir s'adapter** vaziyatga moslashishga o'rganmoq lozim.

**addenda** *nm inv* ilova, qo'shimcha.

**additif** *nm* qo'shimcha, qo'shimcha bob, qo'shimcha modda; **un additif au budget** budjetga qo'shimcha modda.

**addition** *nf* **1.** qo'shimcha; ilova; **l'addition de cet article modifie le sens de la loi** bu qo'shimcha modda qonunning mazmunini o'zgartirib yubormoqda; **faire une addition de qqch à qqch** biron narsani boshqa narsaga qo'shmoq; **2.** *math* qo'shish, qo'shuv; **faire une addition** amalini bajarmoq; **3.** hisob (*restoran yoki kafeda to'lanadigan pul, summasi ko'rsatilgan hujjat*); **donnez-moi l'addition** hisobni keltiring, xarajat pulini hisoblab yuborsangiz; **régler, payer l'addition** hisob bo'yicha pulni to'lamoq.

**additionnel, elle** *adj* qo'shimcha; **l'article additionnel** qo'shimcha modda.

**additionner I.** *vt* **1.** qo'shmoq qo'shuv amalini bajarmoq; **additionner 2 et 3** ikkiga uchni qo'shmoq; **2.** qo'shmoq, aralashtirmoq; **additionner son vin d'un peu d'eau** vinoga ozgina suv qo'shmoq; **II. s'additionner** *vpr* qo'shilmoq, birikmoq; **toutes ces difficultés s'additionnent** bu barcha qiyinchiliklar bir-biriga qo'shilmoqda.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**adducteur I.** *adj* **1.** adduktor; *anat* **muscle adducteur** tana a'zolarini tana o'rtasiga yig'uvchi mushak; **2.** *techn* **canal adducteur** biror manbadagi suvni biror joyga to'plovchi kanal; **II.** *nm anat* adduktor, yig'uvchi mushak; **2.** *techn* yig'uvchi kanal; yig'uvchi quvur.

**adduction** *nf* **1.** *anat* tana a'zolariga yig'ish; **2.** *techn* suv yig'ish, suv to'plash; **adduction d'eau, de gaz** vodoprovod, gazoprovod.

**adepte** *n* tarafdor, izdosh, muxlis, ixlosmand; **les adeptes d'un parti** biror partiyaning tarafdorlari; **un adepte de la peinture moderne** zamonaviy rassomlik standartining muxlisi; **faire de nombreux adeptes** ko'plab tarafdorlar, muxlislar jalb qilmoq.

**adéquat, ate** *adj* **1.** aniq, mos keladigan, mutanosib; **une définition adéquate** aniq ta'rif; **une traduction adéquate** aniq tarjima; **2.** to'g'ri keladigan, loyiq, munosib, tegishli; **des mesures adéquates** tegishli choralar; **nous avons trouvé l'endroit adéquat** biz to'g'ri keladigan, loyiq joyni topdik; **être adéquat à qqch** biror narsaga mos, loyiq bo'lmoq.

**adéquation** *nf* moslik, loyiqlik, muvofiqlik, munosiblik; to'g'ri, mos kelish.

**adhérence** *nf* **1.** jipslik, yopishganlik; **2.** *méd* turli organ va to'qimalarning qo'shilgan joyi.

**adhérent, ente I.** *adj* yopishqoq; **matière adhérente à la peau** teriga yopishqoq material; **II.** *nm* a'zo (*biror gruppa, tashkilot, jamiyatga mansub yoki qarashli shaxs*); **carte d'adhérent** a'zolik bileti.

**adhérer** *vi.* **1.** yopishqoq, yopishib turmoq; **papier qui adhère mal au mur** devorga yaxshi yopishmaydigan qog'oz; **2.** kirmoq, a'zo bo'lmoq; **il a adhéré au parti il y a dix ans** u partiyaga o'n yil avval kirgan; **3.** qo'shilmoq, hamfikr bo'lmoq; **j'adhère à votre opinion** men sizning fikringizga qo'shilaman.

**adhésif, ive I.** *adj* yopishqoq, yopishuvchan; **II.** *nm* plastir (*yaraga yopishtirib qo'yiladiagn malhamli mato*); yopishqoq modda.

**adhésion** *nf* **1.** qo'shilish, kirish, a'zo bo'lish; **2.** rozilik, fikrga qo'shilish, madad berish, ko'mak; **donner son adhésion à un projet** biror rejaga qo'shilmoq (*biror rejani qo'llab-quvvatlamoq*); **recueillir l'adhésion de qqn** biror kishining ko'magini olmoq; **3.** a'zolik; a'zo bo'lib turish vaqti; staj, muddat; **20 ans d'adhésion au parti** 20 yillik partiya staji.

**ad hoc** *loc adj* shu vaqt uchun, alohida, maxsus; kerakli; **des arguments ad hoc** maxsus, alohida dalillar; **une commission ad hoc** maxsus komissiya.

**adieu I.** *intj* alvido! **dire adieu à qqn** birov bilan vidolashmoq; **II.** *nm* xayrlashish; **faire ses adieux à qqn** biror kishi bilan xayrlashmoq; **l'heure des adieux est arrivée** xayrlashish, ajralish vaqti yetdi.

**adipeux, euse** *adj* yog' bosgan, yog'li; *anat* **tissu adipeux** yog'li to'qima, charvi.

**adjacent, ente** *adj* **1.** yonma-yon joylashgan; qo'shni; **pays adjacents** qo'shni mamlakatlar; **une rue adjacente** qo'shni ko'cha; **2.** *math* tutash; **angles adjacents** tutash burchaklar.

**adjectif, ive I.** *nm gram* sifat; **adjectif qualificatif, possessif, démonstratif, indéfini** asliy, egalik, ko'rsatish, noaniq olmosh; **adjectif numéral cardinal, ordinal** sanoq, tartib son; **adjectif attribut** kesimning ot qismi, predikativ; **adjectif épithète** aniqlovchi; **II.** *adj* sifatga oid, sifatga xos; **locution adjective** sifatli ibora.

**adjoindre I.** *vt* **1.** muovin, yordamchi etib tayinlamoq; qo'shimcha ravishda kiritmoq; **il faudrait adjoindre quelques personnes au comité** qo'mitaga qo'shimcha bir necha kishini kiritish lozim edi; **2.** qo'shmoq, aralashtirmoq; **II. s'adjoindre** *vpr* yordamchi qilib olmoq; **s'adjoindre un collaborateur** hamkorlikka olmoq, hamkor, yordamchi qilib olmoq.

**adjoint, ointe** *n* muovin, yordamchi; **l'adjoint au maire** (**le maire adjoint**) hokim muovini; **l'adjoint du directeur** direktor muovini, o'rinbosari.

**adjonction** *nf* **1.** qo'shish; qo'shimcha qilish, kiritish; **l'adjonction d'un nom à une liste** ro'yxatga biror nomni, familiyani qo'shib qo'yish; **2.** qo'shimcha, qo'shilgan narsa; **faire des adjonctions dans un texte** matnga qo'shimcha qilmoq, kiritmoq.

**adjudant** *nm* adjudan (*havo va quruqlikdagi qo'shinlarda katta serjantdan yuqori bosh ofitserdan quyi lavozimdagi unter-ofitser*).

**adjudicataire** *nm* pudratchi; shartnomachi.

**adjudication** *nf* auksion, ochiq savdo, kimoshdi savdosi; ochiq savdo yo'li bilan pudratga berish yoki olish; **vente par adjudication** kimoshdi savdosi orqali sotish; **adjudication judiciaire** sud qaroriga asosan ochiq savdo yo'li bilan sotish; **l'adjudication de la construction d'un barrage** to'g'on qurilishini baylab, baholab olish yoki berish.

**adjuger I.** *vt* **1.** bermoq, berishga qaror qilmoq, belgilanmoq (*mukofot*); **adjuger une récompense à qqn** biror kishiga mukofot bermoq; **2.** auksion, ochiq savdo yo'li bilan sotmoq; pudratga berish; **une fois, deux fois, trois fois, adjugé!** bir, ikki, uch, sotildi! **II. s'adjuger** *vpr* o'zlashtirmoq, egallamoq, o'ziniki qilib olmoq.

**adjudication** *nf* yolvorish, yalinish, o'tinib so'rash.

**adjurer** *vt* yolvormoq, yalinmoq, o'tinib so'ramoq; **je vous adjure de dire toute la vérité** sizdan barcha haqiqatni aytishingizni o'tinib so'rayman.

**adjuvant** *nm* **1.** *méd* yordamchi dori-darmon qo'shimcha vosita; **2.** *techn* qo'shimcha, katalizator (*biror moddaning tarkibini yaxshilash uchun qo'shiladigan mahsulot*); **3.** *fig* stimulyator (*qo'zg'atuvchi, kuchaytiruvchi, tezlashtiruvchi narsa, sabab, omil*).

**ad libitum** *loc adv* xohishga qarab.

**admettre** *vt* **1.** qabul qilmoq, o'tkazmoq, olmoq; **admettre qqn dans un parti** biron kishini partiyaga qabul qilmoq; **2.** huzuriga kiritmoq, qo'ymoq; **les chiens ne sont pas admis dans les magasins** do'konga it bilan kirish taqiqlanadi; **3.** rozi bo'lmoq, ko'nmoq; ma'qul deb topmoq, qo'shilmoq; **je n'admets pas votre point de vue** men fikringizga qo'shilmayman; **4.** deb o'ylamoq, ehtimol tutmoq, faraz, gumon qilmoq; **admettons (que)** deb o'ylasak, faraz qilsak; **en admettant que cela soit vrai** buni to'g'ri deb faraz qilsak.

**administrateur, trice** *n* **1.** administrator, ma'mur, boshqaruvchi, mudir, boshliq; **administrateur d'un service** boshqarma boshlig'i, bo'lim, xizmat boshlig'i; **2.** boshqaruv a'zosi.

**administratif, ive** *adj* **1.** ma'muriyatga oid, ma'muriy; **prendre des mesures administratives** ma'muriy chora ko'rmoq; **2.** ishga, xizmatga aloqador bo'lgan, ish yuzasidan olib boriladigan; idora; **langue administrative** idora tili.

**administration** *nf* **1.** boshqarish, idora qilish; **l'administration d'une entreprise** korxonani boshqarish; **confier à qqn l'administration de ses biens** kimgadir o'z mol-mulkini boshqarishni topshirmoq, ishonmoq; **2.** boshqarma, idora; muassasa, mahkama, boshqaruv organlari; **l'administration communale** mahalliy boshqaruv organi; **l'administration des Douanes** bojxona; **3.** ma'muriyat; ma'murlar.

**administrativement** *adv* ma'muriy yo'sinda, ma'muriy tarzda.

**administré, ée** *n* bo'ysunadigan, itoat qiladigan odam; tobe, mute odam, bo'ysunuvchi.

**administrer I.** *vt* **1.** boshqarmoq, idora qilmoq, rahbarlik qilmoq; **administrer les affaires** ishni boshqarmoq; **administrer une entreprise** korxonani boshqarmoq, korxonaga rahbarlik qilmoq; **2.** *méd* ichirmoq, qabul qildirmoq (*dori va shu kabilar*); **administrer un médicament** dori bermoq, ichirmoq; **3.** *relig* o'layotgan yoki og'ir yotgan odamning badanini zaytun yog'i bilan moylamoq; **II. s'administrer** *vpr* o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq, o'zlashtirmoq.

**admirable** *adj* ajoyib, mo'jizakor, hayron qoldiradigan, maftunkor.

**admirablement** *adv* g'oyat go'zal, ajoyib, chiroyli, juda yaxshi, soz.

**admirateur, trice 1** *adj* zavqqa to'lgan, zavqlangan, maftun; **il posa sur elle un regard admirateur** u zavqqa to'lgan nigohini qizga tashladi; **2.** *n* muxlis, ixlosmand, ishqiboz.

**admiratif, ive** *adj* g'oyat zavqli; zavqqa to'lgan, quvonchli; o'zida yo'q xursand; **un regard admiratif** zavqqa to'lgan nigoh; **un auditoire admiratif** zavqlangan tinglovchilar.

**admiration** *nf* qoyil qolish; zavqlanish; hayratlanish; zavq-shavq, xursandlik; **il était en admiration devant ce tableau** bu surat oldida u zavqqa to'lgan edi.

**admirer** *vt* qoyil qolmoq, zavqlanmoq, hayratlanmoq, hayratga tushmoq; **admirer le coucher du soleil** quyosh botishidan zavqlanmoq; **admirer la sculpture grecque** grek haykaltaroshligidan hayratga tushmoq.

**admissibilité** *nf* ravolik, joyizlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**admissible I.** *adj* **1.** yo'l qo'yiladigan; ma'qul, maqbul, joyiz, ravo; **II.** *n* imtihonga, tanlovga qo'yilgan; **être admissible** (**au concours**) yozma imtihondan o'tib og'zaki imtihonga qo'yilgan bo'lmoq.

**admission** *nf* **1.** qabul qilish, qo'yish; **l'admission d'un pays aux Nations Unies** biror mamlakatni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilish; **2.** kirish, qabul qilinish; **son admission à l'école** uning maktabga kirishi, qabul qilinishi.

**admonestation** *nf* tanbeh, hayfsan.

**admonester** *vt* hayfsan bermoq.

**adobe** *nm* xom g'isht.

**adolescence** *nf* o'smirlik, o'spirinlik.

**adolescent, ente** *n* yigit, o'spirin; balog'atga yetgan qiz.

**adonis** *nm* **1.** chiroyli, xushro'y, kelishgan yigit; **2.** adonis (*kapalak*); **3.** *myth* Adonis (*Finikiyalik o'simliklar xudosi*).

**adonner (s')** *vpr* berilib, kirishib ketmoq; **s'adonner à la boisson** ichkilikka berilib ketmoq.

**adopter** *vt* **1.** bolalikka olmoq; asrab olmoq; **2.** taqlid qilib o'rganib olmoq; o'zlashtirib olmoq, odat qilib olmoq, odatlanmoq; **adopter un usage** biror urf-odatga odatlanmoq; **3.** qabul qilmoq, joriy qilmoq, ma'qullamoq, tasdiqlamoq (*biror qonun yoki rejani*); **adopter le projet de loi** qonun loyihasini ma'qullamoq.

**adoptif, ive** *adj* **1.** asrandi; **fils adoptif** asrandi o'g'il; **2.** asrab olgan; **parents adoptifs** asrab olgan ota-onalar.

**adoption** *nf* **1.** bolalikka olish, asrab olish; **patrie d'adoption** ikkinchi vatan; **2.** qabul qilish, ma'qullash, tasdiqlash (*biror qonun yoki rejani*); **adoption de la constitution** konstitutsiya qabul qilish; **adoption d'une proposition** taklifni qabul qilish, joriy qilish.

**adorable** *adj* juda go'zal, jozibali, maftunkor.

**adorablement** *adv* go'zal, ajoyib, hayratlantiradigan darajada.

**adorateur, trice** *n* **1.** topinuvchi, cho'qinuvchi, sig'inuvchi, sajda qiluvchi; **adorateurs du feu** olovga sig'inuvchi; **2.** jazman, oshiq, xushtor.

**adoration** *nf* **1.** *relig* sig'inish, sajda qilish, cho'qinish; **2.** juda yaxshi ko'rish, sidqidildan sevish, g'oyat, ortiq darajada berilganlik, zo'r muhabbat.

**adorer** *vt* **1.** *relig* sig'inmoq, sajda qilmoq; **adorer Dieu** xudoga sig'inmoq; **2.** g'oyat sevmoq, sidqidildan yaxshi ko'rmoq; **adorer son mari** erini g'oyat, ortiq darajada sevmoq; **3.** yoqtirmoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq; **adorer le chocolat** shokoladni yoqtirmoq.

**adosser I.** *vt* **1.** suyab qo'ymoq; **II.** *vpr* **s'adosser à la porte** eshikka suyanmoq.

**adoucir** *vt* **1.** biroz shirin qilmoq; qand qo'shmoq; **2.** jilo bermoq, silliqlamoq; **adoucir le métal** metallga jilo bermoq, metallni silliqlamoq; **3.** yumshatmoq, mayinlashtirmoq; **adoucir la peau** terini yumshatmoq; **4.** *fig* yengillashtirmoq, ozaytirmoq, yumshatmoq; **adoucir un mal** og'riqni qoldirmoq; **adoucir la condamnation** jazoni yengillashtirmoq.

**adoucissant, ante** *adj* yumshatadigan, mayinlashtiradigan.

**adoucissement** *nm* **1.** yumshash, mayinlashish; **2.** *fig* yengillashish, ozayish.

**adresse**[1] *nf* **1** adres, turar joy, manzilgoh; **2.** tabrik xati, adres.

**adresse**[2] *nf* chaqqonlik, epchillik, chapdastlik; **avec adresse** chaqqonlik bilan.

**adresser I.** *vt* **(qqch à qqn)** yubormoq, yo'llamoq; **adresser un colis à qqn** biron kishiga posilka yubormoq, jo'natmoq; **le médecin m'a adressé à un spécialiste** vrach meni mutaxassisga yubordi; **II. s'adresser** *vpr* **(à qqn)** murojaat qilmoq; mo'ljallanmoq, qaratilmoq.

**adroit, oite** *adj* **1.** epchil, mohir, chaqqon, abjir, chapdast; **2.** usta, uddaburo, ustamon, quv.

**adroitement** *adv* epchillik, chaqqonlik, chapdastlik bilan, chaqqon, mohirona.

**adulation** *nf* xushomad, tilyog'lama maqtov.

**aduler** *vt* **1.** xushomad, laganbardorlik qilmoq, tilyog'lamalik qilmoq, yaltoqlanmoq; **2.** sidqidildan yaxshi ko'rmoq, erkalatmoq.

**adulte I.** *adj* voyaga yetgan, kamolga yetgan, balog'at yoshidagi; **arriver à l'âge adulte** voyaga yetmoq, kamolga yetmoq, kamolot, balog'ot yoshiga yetmoq; **II.** *n* katta, voyaga yetgan bola, qiz.

**adultère I.** *nm* bevafolik, vafosizlik, xiyonat, er-xotinning bir-biriga xiyonati; **II.** *adj* vafosiz, bevafo, buzuq; **une femme adultère** bevafo ayol; **un époux adultère** bevafo er; **un amour adultère** ayol va erkakning nikohsiz jinsiy aloqasi.

**adultérin, ine** *adj* nikohsiz tug'ilgan; nikohdan tashqari, zinokor, zinoli.

**adultération** *nf* soxtalik, qalbakilik; **adultération de la vérité** haqiqatni buzib ko'rsatish.

**aduste** *adj* quyoshda qoraygan, toblangan.

**advenir** *v impers* bo'lmoq, voqe, sodir bo'lmoq, yuz, ro'y bermoq; **advienne que pourra!** nima bo'lsa bo'lar! nima sodir bo'lsa bo'lar!

**adventice** *adj* tasodifiy; **plante adventice** yovvoyi o'simlik.

**adverbe** *nm gram* ravish, **adverbe de quantité** miqdor ravishi.

**adverbial, ale** *adj gram* ravishlik xususiyatiga ega bo'lgan; **locution adverbiale** ravishlik xususiyatiga ega bo'lgan ibora.

**adversaire** *nm* dushman, raqib; **arrêter l'adversaire** dushmanni qo'lga olmoq; **dépasser l'adversaire** raqibidan, o'zib ketmoq.

**adverse** *adj* qarshi, zid, yov; **le pays est divisé en deux blocs adverses** mamlakat ikkita bir-biriga dushman lagerga bo'linib ketdi; **l'équipe adverse** raqib jamoasi.

**adversité** *nf* baxtsizlik, falokat; **il est tombé dans l'adversité** u baxtsizlikka duchor bo'ldi.

**aède** *nm* hofiz (*qadimgi Yunonistondagi o'zi she'r yozib, o'zi kuylaydigan kishilar*).

**aérateur** *nm* ventilyator.

**aéré, ée** *adj* shamollatilgan, havosi yangilangan.

**aérer** *vt* shamollatmoq, havoni tozalamoq.

**aération** *nf* shamollatish, havoni yangilash.

**aérien, ienne** *adj* havoda bo'ladigan, havodagi, fazoviy, havo; **combat aérien** havo jangi; **attaque aérienne** havo hujumi; **forces aériennes** harbiy-havo kuchlari.

**aéro-club** *nm* aeroklub, aviatsiya havaskorlari klubi.

**aérodrome** *nm* aerodrom, qo'nalg'a.

**aérodynamique I.** *nf* aerodinamika (*havo va gazlarning harakati hamda ularning duch kelgan qattiq jismlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan*); **II.** *adj* aerodinamikaga oid, aerodinamik, aerodinamika.

**aérogare** *nf* aerovokzal.

**aérolithe** *nm* aerolit (*qoya shaklidagi meteorit*).

**aéronaute** *nm* aeronavt.

**aéronautique I.** *adj* aviatsiyaga oid; **l'industrie aéronautique** aviatsiya sanoati; **les constructions aéronautiques** samolyotsozlik; **II.** *nf* **1.** aeronavtika, havoda suzish, uchish; **l'école d'aéronautique** aviatsiya maktabi, bilim yurti; **2.** aviatsiya, havo floti; **aéronautique civile** fuqaro aviatsiyasi; **aéronautique militaire** harbiy-havo kuchlari, harbiy aviatsiya.

**aéronaval, ale I.** *adj* havo va dengiz; **forces aéronavales** harbiy havo kuchlari aviatsiyasi; **une bataille aéronavale** aviatsiya va flotning birgalikdagi harbiy harakatlari; **II.** *nf* dengiz aviatsiyasi.

**aéroplane** *nm eski* samolyot.

**aéroport** *nm* aeroport.

**aéroporté, ée** *adj* desantcha, desant tushirishga oid, desant; havoda tashiladigan; **troupes aéroportées** havo desantchi qo'shinlari.

**aérosol** *nm* aerozol.

**aérostat** *nm* aerostat, havo shari.

**affabilité** *nf* ochiq yuzlilik, xushmuomalalik.

**affable** *adj* ochiq ko'ngilli, xushmuomala.

**affablement** *adv* ochiq yuz bilan, ochiq ko'ngil bilan.

**affabulation** *nf* **1.** fabula (*badiiy asarda tasvirlangan voqealar zanjiri*); **2.** yolg'on, uydirma, to'qima.

**affabuler** *vt* **1.** fantaziyaga, xayolparastlikka berilmoq, xayol surmoq; **2.** o'ylab, to'qib chiqarmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**affadir** *vt* **1.** ta'mini buzmoq, chuchuklantirmoq; ta'sirini, kuchini kamaytirmoq (*qalampir, qayla kabilar*); **2. s'affadir** ta'mi buzilmoq, ta'mini yo'qotmoq.

**affaiblir I.** *vt* **1.** bo'shashtirmoq, kuchsizlantirmoq, holdan toydirmoq; **une longue maladie a affaibli le malade** uzoq davom etgan kasallik bemorni holdan toydirdi; **2.** *fig* yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq (*tovush, yorug'lik, rang kabilar*); **II. s'affaiblir** *vpr* kuch-quvvatdan qolmoq, zaiflashmoq, darmonsizlanmoq; pasaymoq, xiralashmoq, susaymoq; **il s'affaiblit de jour en jour** u kun sayin zaiflashmoqda; **sa vue s'est affaiblie** uning ko'zi xiralashib qoldi.

**affaiblissement** *nm* bo'shashish, holdan toyish, yomonlashish; **il s'inquiète de l'affaiblissement de sa vue** u ko'zi xiralashayotganidan xavotirlanmoqda.

**affaire** *nf* **1.** ish, yumush; **c'est mon affaire et non la vôtre** bu mening ishim, sizniki emas; **ce n'est pas une petite affaire** bu mayda ish emas, bu hazil ish emas; **c'est une vilaine affaire** bu qabih ish; **étouffer l'affaire** ishni bosti-bosti qilmoq; **ne vous mêlez pas de mes affaires!** mening ishlarimga aralashmang! **tirer une affaire au clair** ishni oydinlashtirmoq; **vaquer à ses affaires** o'z ishi bilan band bo'lmoq; **l'affaire est dans le lac** ishlar pachava; **l'affaire est dans le sac** hamma narsa joyida; **avoir affaire à** kimdadir ishi bo'lmoq; **connaître son affaire** o'z ishini yaxshi bilmoq, o'z ishiga aqli yetmoq; **faire l'affaire** to'g'ri kelmoq; munosib, loyiq bo'lmoq; mos kelmoq; **cela ne fait pas l'affaire** bu to'g'ri kelmaydi; **tirer qqn d'affaire** biror kishini qiyin sharoitdan olib chiqmoq, birovga yordam bermoq; **se tirer d'affaire** qiyinchilikdan chiqmoq; **2.** masala, ish, gap; **une affaire d'honneur** or-nomus masalasi, duel; **c'est l'affaire d'une minute** bu bir daqiqali, masala, gap; **3.** *pl* narsa, kiyim-kechak; **ranger ses affaires** kiyim-kechaklarni tartibga keltirmoq; **donner ses affaires à nettoyer** kiyimlarni tozalatishga bermoq; **4.** jamoatga oid ishlar; **les affaires de l'Etat** davlat ishlari; **ministère des affaires étrangères** tashqi ishlar vazirligi; **5.** savdo yoki sanoat korxonasi; **une grosse affaire industrielle** katta sanoat korxonasi; **un homme d'affaires** ishbilarmon kishi; **faire des affaires avec qqn** biror kishi bilan savdo qilmoq; **6.** *dr* ish (*sudda ko'riladigan ish, sudlanish, sud jarayoni*); **plaider une affaire** sudda ishni himoya qilmoq; **7.** *mil* jang, urush; **8.** hiyla, nayrang.

**affairé, ée** *adj* **1.** band, mashg'ul; **2.** hovliqma; behalovat.

**affairement** *nm* hovliqmalik, behalovatlik.

**affairer (s')** *vpr* tinimsiz urinmoq, yugurib-yelmoq.

**affairiste** *nm* qallob, nayrangboz.

**affaissement** *nm* cho'kish, o'tirib qolish; **affaissement de terrain** yerning cho'kishi.

**affaisser (s')** *vpr* **1.** cho'kmoq, o'tirib qolmoq; **le sol s'est affaissé par endroits** tuproq har joy-har joyda cho'kib qolgan; **2.** sekin o'tirmoq, o'tirib qolmoq, cho'kkalamoq, yiqilmoq; **elle perdit connaissance et s'affaissa** u hushidan ketib o'tirib qoldi.

**affaler (s')** *vpr* tushmoq, yiqilmoq, o'zini tashlamoq; **accablé de fatigue, il s'affala sur le divan** charchoqdan holdan toyib u divanga yiqildi.

**affamé, ée I.** *adj* **1.** och, qorni ochgan; **2.** *fig* qattiq istovchi, orzumand, ishtiyoqmand, tashna; **II.** *n* och.

**affamer** *vt* och qoldirmoq, ochidan tirishtirmoq; **affamer un peuple** xalqni och qoldirib sillasini quritmoq.

**affameur, euse** *n* sun'iy ravishda ocharchilikni keltirib chiqaruvchi, xalqni och qoldiruvchi, oziq-ovqat tanqisligini keltirib chiqarish maqsadida chayqovchilik bilan shug'ullanuvchi odam.

**affect** *nm psych* affekt, jazava, qattiq hayajon (*ko'pincha sun'iy*).

**affectation**[1] *nf* **1.** atab qo'yish, ko'zda tutish, biror narsaga belgilanganlik, mo'ljallanganlik, atalganlik, biror narsaga ajratilgan pul, mablag'; **l'affectation d'une part importante du budjet aux dépenses militaires** harbiy xarajatlar uchun budjetning katta qismini ajratish, berish; **2.** tayinlash (*biror vazifa, mansab va shu kabilar*); **attendre une affectation à un poste** biron vazifaga tayinlanishni kutmoq.

**affectation**[2] *nf* yasamalik, yolg'ondakamlik, soxtalik.

**affecté, ée** *adj* qalbaki, soxta, yasama, sun'iy.

**affecter**[1] *vt* **1.** atab qo'ymoq, ko'zda tutmoq, biror narsaga belgilamoq, mo'ljallamoq, ajratmoq (*pul, mablag'*).

**affecter**[2] *vt* **1.** o'zini biror kuyga solmoq, mug'ombirlik qilmoq; **il affecte de l'ignorer** u o'zini bilmaslikka solmoqda; **2.** biror tus olmoq, biror holatga kelmoq.

**affecter**[3] **I.** *vt* **1.** ta'sir qilmoq, ta'sir ko'rsatmoq, xafa qilmoq, ko'nglini buzmoq, shikastlamoq, shikast yetkazmoq, qayg'uga solmoq; **ces événements l'ont sérieusement affecté** bu voqealar bunga jiddiy ta'sir ko'rsatdi; **2.** daxl qilmoq, tegmoq; **cette irrégularité affecte seulement quelques verbes** bu istisno bir necha fe'lga daxldor, daxl qiladi; **II. s'affecter** *vpr* ta'sirlanmoq, qiynalmoq, azob chekmoq.

**affectif, ive** *adj* ta'sirchan, ta'sirli, qattiq ta'sir qiladigan, his-tuyg'uga tez beriladigan, jo'shqin, hayajonli.

**affection** *nf* **1.** mehr, mehr qo'yish, mehribonlik; **l'affection paternelle** otalik mehri; **avoir de l'affection pour qqn** birovni sevmoq; **2.** kasallik, bemorlik; **affection nerveuse** asab kasalligi; **affection chronique** surunkali kasallik; **une affection de la vue** ko'z kasalligi.

**affectionné, ée** *adj* sevadigan, yaxshi ko'radigan, mehribon (*xat oxirida qo'llaniladi*); **votre affectionné** sizni sevadigan; **votre neveu affectionné** sizning sevuvchi jiyaningiz.

**affectionner** *vt* mehr qo'ymoq, sevmoq, e'zozlamoq, ehtirom ko'rsatmoq.

**affectivité** *nf psych* hissiyotlik, hayajonlilik, his-hayajon bilan, his-tuyg'u bilan to'lalik.

**affectueusement** *adv* erkalik bilan, erkalanib, xushmuomalik bilan, muloyim, ehtirom ila.

**affectueux, euse** *adj* yoqimli, yoqimtoy, suyumli, muloyim, mehribon, xushmuomala, samimiy; **un enfant affectueux** yoqimtoy bola; **un accueil affectueux** samimiy kutib olish; **votre fils bien affectueux** mehribon o'g'lingiz.

**afférent, ente** *adj* **1.** daxldor; **les renseignements afférents à cette affaire** bu ishga aloqador ma'lumotlar; **2.** *dr* berilishi, to'lanishi lozim bo'lgan; **les parts afférentes à chacun** har biriga berilishi lozim bo'lgan qism.

**affermir I.** *vt* mustahkamlamoq, mahkamlamoq, chiniqtirmoq; **la gymnastique affermit les muscles** gimnastika muskullarni mustahkamlaydi; **II. s'affermir** *vpr* mustahkamlanmoq, chiniqmoq; **sa santé s'est affermie** uning sog'ligi mustahkamlandi.

**affermissement** *nm* chiniqish, mustahkamlanish; **l'affermissement de la santé** sog'liqning mustahkamlanishi; **l'affermissement du pouvoir** hokimiyatning mustahkamlanishi.

**afféterie** *nf* noz-karashma, noz-istig'no (*o'zini tutishda*); jimjimadorlik, bejamdorlik (*tilda, adabiyotda*).

**affichage** *nm* e'lon, afishalarni yopishtirish.

**affiche** *nf* afisha, e'lon.

**afficher I.** *vt* **1.** osib qo'ymoq, yopishtirmoq (*e'lon, buyruq va shu kabilar*); **2.** ko'rgazmaga qo'ymoq; **II. s'afficher** *vpr* o'zini ko'rsatmoq, o'zini ko'z-ko'z qilmoq.

**affichette** *nf* varaqa.

**afficheur** *nm* afisha, e'lonlarni yopishtiruvchi kishi.

**affichiste** *nm* plakatchi rassom.

**affidé, ée** *n péj* dum, malay, yugurdak; sherik, yordamchi.

**affilé, ée** *adj* o'tkirlangan, qayrilgan, charxlangan.

**affilée (d')** *loc adv* to'xtovsiz, uzuliksiz; **travailler 8 heures d'affilée** 8 soat davomida to'xtovsiz ishlamoq.

**affiler** *vtr* qayramoq, o'tkirlamoq, charxlamoq; **affiler un rasoir** ustarani qayramoq; **il a la langue bien affilée** uning tili burro, o'tkir.

**affiliation** *nf* a'zo bo'lish, a'zolik; **demander son affiliation à un club** klubga qabul qilishni so'rab ariza bermoq; **l'affiliation à une association** biror jamiyatga a'zo bo'lish.

**affilié, ée** *n* a'zo, tarafdor.

**affilier I.** *vt* biror kimsani biror jamiyatga, partiya yoki guruhga a'zo qilmoq; **notre organisation est affiliée à la fédération internationale** bizning tashkilot xalqaro federatsiya a'zosi; **II. s'affilier** *vpr* a'zo bo'lmoq, kirmoq, qo'shilmoq; **s'affilier à un parti** partiyaga a'zo bo'lmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**affiloir** *nm* qayroq, qayroqtosh.

**affinage** *nm* **1.** tozalash, begona narsadan ajratish (*metall, oynani*); **2.** yetilish, tayyor bo'lish, ob-tobiga kelish (*pishloq*).

**affinement** *nm* noziklashish, nafislashish.

**affiner I.** *vt* **1.** tozalamoq, begona narsadan ajratmoq (*metall, oynani*); yetiltirmoq, tayyor holga, obi-tobiga keltirmoq (*pishloqni*); **3.** *fig* noziklashtirmoq, nafislashtirmoq; **II. s'affiner** *vpr* **1.** noziklashmoq, yupqalashmoq; **sa taille s'est affinée** uning gavdasi noziklashib ketdi; **2.** yetilmoq, tayyor bo'lmoq; **le fromage s'affine** pishloq yetildi, tayyor bo'ldi.

**affinité** *nf* **1.** yaqinlik, qarindoshlik, o'xshashlik, bir xillik; **il y a entre eux des affinités de goût** ularning didi, ta'bida o'xshashlik bor; **une affinité intellectuelle** ruhiy yaqinlik; **l'affinité entre la poésie et la musique** nazm va navo orasidagi o'xshashlik; **2.** *math* o'xshashlik; **3.** *chim* o'xshashlik (*moddalarning kimyoviy o'xshashligi*).

**affiquet** *nm iron asosan ko'plikda ishlatiladi* kichik taqinchoq yoki zeb-ziynat buyumlari; **elle a mis tous ses affiquets** u barcha zeb-ziynat buyumlarini taqdi.

**affirmatif, ive** *adj* tasdiqlaydigan, ijobiy, ma'qul; **une réponse affirmative** ijobiy javob; **d'un ton affirmatif** tasdiqlaydigan ohangda.

**affirmation** *nf* tasdiqlash, tasdiqlanish.

**affirmative** *nf* tasdiq, ijobiy javob; **je penche pour l'affirmative** men "ha" deb o'ylayman; **répondre par l'affirmative** ijobiy javob bermoq; **dans l'affirmative** ijobiy javob olgan taqdirda.

**affirmativement** *adv* tasdiqlab, ma'qullab, ijobiy ravishda.

**affirmer I.** *vt* **1.** tasdiqlamoq, tasdiq etmoq, ishontirmoq; **j'affirme qu'il a tort** men uning nohaqligini tasdiqlayman; **j'affirme sur l'honneur que** iftixor bilan ishontirib aytamanki; **2.** ko'rsatmoq, namoyon qilmoq; **affirmer son caractère** xarakterni namoyon qilmoq; **affirmer ses intentions** niyatlarini namoyon qilmoq; **II. s'affirmer** *vpr* tasdiqlanmoq, namoyon bo'lmoq, aniqlanmoq.

**affixe** *nm ling* affiks, qo'shimcha.

**affleurement** *nm* yuzaga chiqish, yuzada ko'rinish, yer yuziga chiqib qolish.

**affleurer I.** *vi* yuzaga chiqmoq, yuzada ko'rinmoq; **par endroits le rocher affleure** har joy-har joyda qoya jinslari yuzaga chiqqan; **sa tête affleurait la surface de l'eau** uning boshi suv yuzida zo'rg'a ko'rinardi; **II.** *vt* **1.** *techn* tenglashtirmoq; bir xil darajaga keltirmoq; **2.** tenglashmoq, yetmoq; **la rivière affleure ses bords** daryo qirg'og'iga tenglashdi.

**afflictif, ive** *adj dr* **peine afflictive** sud hukmi bo'yicha jazo.

**affliction** *nf* qayg'u, g'am, xafagarchilik.

**affligé, ée I.** *adj* xafa, ranjigan, dili siyoh, qayg'uli, qayg'uga tushgan; **II.** *n* motam tutuvchi, azador.

**affligeant, ante** *adj* qayg'uli, g'amgin, xafa, achinarli; **un spectacle affligeant** qayg'uli tomosha.

**affliger I.** *vt* **1.** qayg'uga solmoq, tashvishga solmoq, g'amga botirmoq, xafa qilmoq, gangitib qo'ymoq; **ce malheur l'a profondément affligé** bu baxtsizlik uni chuqur qayg'uga soldi; **ce spectacle m'afflige** bu tomosha meni gangitib qo'ydi; **2.** shikastlamoq, shikast yetkazmoq; **les maux qui affligent la terre** yerga shikast yetkazgan falokat; **II. s'affliger** *vpr* qayg'u, g'am chekmoq, tashvishga tushmoq.

**affluence** *nf* **1.** har tomondan yog'ilib kelish, yog'ilib kelib to'planish; **le match a attiré une grande affluence de spectateurs** o'yinga tomoshabinlar yog'ilib kelishdi; **heures d'affluence** tig'iz payt, yo'lovchilar ko'payadigan payt.

**affluent** *nm* irmoq, jilg'a; **les affluents de la rive gauche de la Loire** Luara daryosining chap irmoqlari.

**affluer** *vi* **1.** quyilmoq, qo'shilmoq; **le sang lui afflue à la tête** uning miyasiga qon quyilmoqda; **2.** *fig* juda ko'p miqdorda kelmoq, oqib kelmoq, quyilmoq, to'planmoq, yig'ilmoq; **les curieux affluent à l'exposition** ko'rgazmaga qiziquvchilar oqib kelardi.

**afflux** *nm* **1.** quyilish; **afflux du sang à la face** qonning yuzga tepchishi; **2.** yog'ilib, oqib kelish; **il y a eu un afflux de visiteurs** tomoshabinlar yog'ilib, oqib kelishardi.

**affolant, ante** *adj* qo'rqinchli, dahshatli, vahimali; **une nouvelle affolante** qo'rqinchli xabar.

**affolé, ée** *adj* jinni, telba, aqldan ozgan.

**affolement** *nm* sarosimalik, gangib, dovdirab, esankirab qolish; sarosima, vahima, hayajon, dahshat; **dans son affolement elle a oublié son sac à main** sarosimada u sumkachasini unutib qoldirdi.

**affoler I.** *vt* sarosimaga solmoq, gangitib, dovdiratib, esankiratib qo'ymoq, qo'rquvga solmoq, aqldan ozdirmoq; **cette nouvelle l'affola** bu xabar uni gangitib qo'ydi; **II. s'affoler** *vpr* o'zini yo'qotib qo'ymoq, gangib qolmoq, esankirab, dovdirab qolmoq, vahimaga tushmoq, aqldan ozmoq; **en voyant le taureau approcher, l'enfant s'affola** ho'kizning yaqinlashib kelayotganini ko'rib bola vahimaga tushdi; **ne vous affolez pas, tout va s'arranger** vahimaga tushmang, hamma narsa yaxshi bo'lib ketadi.

**affranchi, ie I** *adj* **1.** erkinlikka chiqarilgan, ozod bo'lgan (*qul*); **2. (de)** ozod qilingan (*soliq, o'lpon*); **3.** xurofot, bid'at va shu kabilardan xoli; **une femme affranchie** ozod ayol; **4.** jo'natish haqi to'langan, pochta markasi yopishtirilgan; **une lettre affranchie** yuborish uchun pul to'langan, pochta markasi yopishtirilgan xat; **II.** *n* ozod qilingan qul yoki krepostnoy dehqon.

**affranchir**[1] **I.** *vt* **1.** ozod qilmoq, ozodlikka chiqmoq; **affranchir les esclaves** qullarni ozodlikka chiqarmoq, ozod etmoq; **2.** *fig* ozod qilmoq; **affranchir d'un impôt** soliqdan ozod etmoq; **3.** *fam* xabardor qilmoq; **puisque tu ne sais rien, je vais t'affranchir** modomiki sen hech narsadan xabarsiz ekansan, men seni bundan xabardor qilaman; **II. s'affranchir** *vpr* ozod bo'lmoq, qutulmoq, yengib chiqmoq; **il est difficile de s'affranchir de ses habitudes** odatlaridan qutulishi qiyin.

**affranchir**[2] *vt* yuborish, jo'natish haqini to'lamoq (*pochta markasi yopishtirish yo'li bilan*).

**affranchissement**[1] *nm* **1.** ozod qilish, ozodlikka chiqarish (*qul va krepasnoy dehqon*); **2.** ozod qilish, qutultirish (*soliq, majburiyat kabilar*).

**affranchissement**[2] *nm* jo'natish haqini to'lash (*xat, jo'natma va shu kabilar*).

**affres** *nf pl litt* azob, qiynoq, talvasa; **les affres de la mort** o'lim talvasasi.

**affrètement** *nm* yuk tashish uchun kema yollash, kira qilish.

**affréter** *vt* yuk tashish uchun kema yollamoq, kira qilmoq.

**affréteur** *nm* kiraga transport vositasi oluvchi kishi.

**affreusement** *adv* **1.** vahimali, dahshatli; **2.** nihoyat darajada, nihoyatda, o'ta, g'oyat.

**affreux, euse** *adj* **1.** qo'rqinchli, dahshatli; **une blessure affreuse** qo'rqinchli yara, jarohat; **2.** jirkanch; **son visage est affreux à voir** uning yuziga qarash jirkanchli.

**affriolant, ante** *adj* o'ziga tortadigan, havas keltiradigan, qiziqtiradigan, jozibali, ehtirosni junbushga keltiradigan.

**affront** *nm* **1.** haqorat, tahqir, so'kish; **faire un affront à qqn** kimnidir haqorat qilmoq; **recevoir, subir, essayer un affront** so'kishga, haqoratga qolmoq; so'kish, haqorat eshitmoq; **2.** or, nomus, uyat, izza; **faire affront à qqn de sa conduite** birovni xulqi, yurish-turishi uchun izza qilmoq.

**affrontement** *nm* yuzma-yuz kelish, to'qnashish.

**affronter I.** *vt* **1.** yuzma-yuz kelmoq, tik bormoq; **affronter l'ennemi** dushmanga tik bormoq, dushmanni qo'rqmay qarshi olmoq; **affronter un danger, la mort** xavf-xatarga, o'limga tik bormoq; **2.** *sport* uchrashmoq, musobaqalashmoq; **aujourd'hui les athlètes français affrontent les athlètes américains** bugun fransuz sportchilari amerikalik sportchilar bilan musobaqalashadilar; **3.** yaqinlashtirmoq, yuzma-yuz qo'ymoq; **II. s'affronter** *vpr* to'qnashmoq, yuzma-yuz kelmoq, musobaqalashmoq; **deux thèse s'affrontaient** ikkita g'oya yuzma-yuz keldi.

**affublement** *nm* g'alati, alomat, kulgili kiyim.

**affubler I.** *vt* kulgili, alomat qilib yasantirmoq, kiyintirmoq; **affubler qqn d'un chapeau** birovga shlapani kiydirmoq, osmoq; **II. s'affubler** *vpr* yasanmoq, yasan-tusan qilmoq.

**affût** *n* pistirma; **à l'affût** pistirmada; **attendre le gibier à l'affût** pistirmada turib ov poylamoq.

**affûtage** *nm* charxlash, qayrash, o'tkirlash.

**affûter** *vt* charxlamoq, qayramoq, o'tkir qilmoq; uch chiqarmoq, yo'nmoq; **affûter des couteaux** pichoqlarni o'tkirlamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**affûteur, euse** *n* **1.** charxchi; **2.** *nf* charx.

**affûtiaux** *nm pl fam* ahamiyatsiz, arzimagan, arzonbaho taqinchoq.

**afghan, ane I.** *adj* Afg'oniston va Afg'onistonliklarga oid, afg'oncha; **II.** *n* **1.** afg'on, afg'onistonlik; **2.** *nm* afg'on tili.

**afin de** *loc prép*, **afin que** *loc conj* uchun, maqsadida, -cha; **il prit son carnet afin d'y noter une adresse** u manzilgohni yozib olish uchun daftarchasini oldi; **écrivez-lui afin qu'elle soit au courant** uni xabardor qilish uchun unga yozib yuboring.

**afortiori** *loc adv* ayniqsa, xususan, tag'in ham, buning ustiga.

**africain, aine I.** *adj* Afrika va afrikaliklarga oid; **II.** *n* afrikalik.

**africanisation** *nf* afrikalashtirish.

**africaniste** *n* afrikashunos (*Afrika tillari va madaniyatini o'rganuvchi mutaxassis*).

**afrikaner** *ou* **afrikander I.** *n* asli golland bo'lgan, oq tanli Janubiy Afrika fuqarosi; **II.** *adj* asli golland bo'lgan Janubiy Afrikaliklarga oid; **la culture afrikaner** asli golland bo'lgan Janubiy Afrikaliklar madaniyati.

**afro-asiatique** *adj* Afrika va Osiyoga oid; Afrika va Osiyo.

**agaçant, ante** *adj* jonga tegadigan, bezor qiladigan, qo'zg'atadigan, g'ashga tegadigan; **un bruit agaçant** bezor qiladigan, g'ashga tegadigan shovqin.

**agace** *nf* zag'izg'on.

**agacement** *nm* jahlini chiqarish, g'azablantirish, g'ashini keltirish; **provoquer l'agacement de qqn** birovning g'ashini keltirmoq.

**agacer** *vt* **1.** g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq, qo'zg'atmoq; **agacer les nerfs de qqn** birovning asabini qo'zg'atmoq; **cet homme m'agace** bu kishi mening asabimga tegyapti; **2.** qamashtirmoq; **le citron agace les dents** limon tishni qamashtiradi.

**agaceries** *nf pl* noz, noz-karashma qilish, qosh qoqish.

**agate** *nf* aqiq.

**agave** *nm bot* agava (*ziynat uchun ekiladigan va bargidan tola olinadigan katta-katta tropik o'simlik*).

**âge** *nm* **1.** yosh; **à mon âge** mening yoshimda; **différence d'âge** yoshidagi farq; **quel âge me donnez-vous?** menga necha yosh berasiz? **elle sera bientôt en âge de se marier** u yaqinda turmushga chiqadigan yoshga yetadi; **être vieux avant l'âge** barvaqt qarimoq; **2.** davr (*inson yoki hayvon hayotidagi bosqich, davr, umr*); **un enfant en bas âge** go'dak, chaqaloq, yosh bola; **dès son plus jeune âge** yoshlik chog'idanoq; **l'âge de raison** esni tanigan, aql to'lgan, tushunadigan vaqtdagi davr; **l'âge ingrat** balog'atga o'tish, yetish davri; **l'âge adulte** katta yosh; **un homme d'un âge avancé** yoshi o'tgan kishi; **au déclin de son âge** yoshi qaytgan davrda; **grand âge** qarilik, mo'ysafidlik; **groupe d'âge** yosh gruppasi; **3.** asr, davr; **l'âge du bronze, de la pierre** bronza, tosh davri.

**âgé, ée** *adj* **1.** mo'ysafid, yoshi qaytgan; **2.** yoshga kirgan, yoshli; **âgé de vingt ans** yigirma yoshga kirgan, yoshli; **le moins âgé des deux enfants** ikki bolaning yoshi kichigi; **le plus âgé de mes fils** o'g'illarimning eng kattasi.

**agence** *nf* **1.** agentlik; byuro (*ba'zi muassasalar, tashkilotlar nomi*); **agence de voyage** sayohat byurosi; **agence de presse** matbuot agentligi; **agence de publicité** reklamalar byurosi; **agence de renseignements** ma'lumotxona; **2.** bo'lim, filial; **l'agence d'une banque** bank bo'limi.

**agencement** *nm* tuzilish, joylashish; **l'agencement d'un appartement** xonadonning tuzilishi, joylashishi; **l'agencement d'une phrase** gapning qurilishi.

**agencer** *vt* tuzmoq, yig'moq, qurmoq; **agencer les éléments d'une armoire** shkafni yig'moq.

**agenda** *nm* yon daftar, kundalik daftar.

**agenouillé, ée** *adj* tiz cho'kkan; **être agenouillé** tiz cho'kib turmoq.

**agenouillement** *nm* tiz cho'kish.

**agenouiller (s')** *vpr* tiz cho'kmoq; **s'agenouiller devant qqn** birov oldida tiz cho'kmoq; **s'agenouiller pour ramasser qqch** biror narsani terib olish, yig'ishtirib olish uchun tiz cho'kmoq.

**agent[1]** *nm* **1.** faktor, ta'sir etuvchi kuch, narsa, modda; **agent moteur** harakatga keltiruvchi kuch; **agents radioactifs** radioaktiv moddalar; **2.** *gram* **complément d'agent** majhul darajadagi fe'l bilan qo'llanilgan to'ldiruvchi.

**agent[2]** *nm* **1.** agent, josus, ayg'oqchi, shpion; **agent secret** maxfiy agent, josus; **agent de renseignement** razvedkachi; **agent de la sûreté** qidiruv politsiyasining agenti; **2.** vakil, agent, xodim; **agent commercial** savdo agenti; **agent comptable** hisobchi; **agent diplomatique** elchixona xodimi, diplomatik vakil; **agent immobilier** ko'chmas mulk savdosi bilan shug'ullanuvchi agent; **agent maritime** kemadagi dallol; **agent matrimonial** nikohni rasmiylashtiruvchi vakil; **agent d'affaires** savdo agenti, firma vakili; **agent d'assurances** sug'urta agenti; **agent de change** birja dalloli; **agent des douanes** bojxona xodimi; **agent de l'Etat** amaldor, davlat xizmatchisi; **agent d'exécution** ijrochi; **agent du Trésor** moliya agenti, xazinachi; **agent de police** politsiyachi; **agent de la force publique** jandarm.

**agglomérant** *nm* bog'lovchi modda.

**agglomérat** *nm* **1.** *géol* aglomerat (*har xil tog' jinslari va minerallarning bir-biriga yopishuvidan hosil bo'lgan g'ovak to'plam*); **2.** turli toifadagi kishilar yoki narsalarning to'dasi, to'plami.

**agglomération** *nf* **1.** aholi punkti; **l'agglomération parisienne** Parij va uning atrofidagi aholi yashash punktlari; **2.** uyushma, ittifoq; **3.** birikish, qo'shilish (*turli moddalarning biriktiruvchi modda yordamida birikishi*).

**aggloméré** *nm* **I.** *nm* aglomerat, presslangan material; yaxlit qurilish materiali; **II.** *adj* zichlangan, presslangan, taxtakachlangan.

**agglomérer I.** *vt* zichlamoq, presslamoq, taxtakachlamoq; **II.** **s'agglomérer** *vpr* **1.** to'planmoq, yig'ilmoq; **les hommes s'agglomèrent dans les villes** odamlar shaharlarda yig'ilib, to'planib qolmoqdalar; **2.** presslanmoq, taxtakachlanmoq, bir-biriga yopishmoq; **le sucre s'est aggloméré** qand yopishib qoldi.

**agglutinant, ante** *adj* **1.** bog'laydigan, bog'lovchi; yopishqoq, shirador; **2.** *ling* agglutinativ, agglutinatsiyalanuvchi; **langues agglutinantes** agglutinativ tillar (*so'zlari so'z o'zagi yoki negiziga affikslar qo'shilishi natijasida yasaluvchi va o'zgaruvchi tillar*).

**agglutination** *nf* agglutinatsiya **1.** *ling* ayrim tillarning, shu jumladan o'zbek tilining grammatik qurilishiga xos xususiyat-grammatik shakl va yasama so'zlarning so'z o'zagi yoki negiziga affikslar qo'shilishi natijasida yasalishi; **2.** *biol* qizil va oq qon tanachalarining bir-biriga yopishib g'ujlanishi; yopishish, birikish, yopishtirish, biriktirish.

**agglutiner I.** *vt* biriktirmoq, yopishtirmoq, yig'moq; to'plamoq; **les grains de sable étaient agglutinés** qum donalari bir-biriga yopishgan edi; **II.** **s'agglutiner** *vpr* yopishmoq, birikmoq; **les mouches s'agglutinent sur la confiture** pashshalar murabboga yopishib qolardilar.

**aggravant, ante** *adj* kuchaytiradigan, chuqurlashtiradigan, jiddiylashtiradigan, og'irlashtiradigan; **une circonstance aggravante** aybni og'irlashtiruvchi holat.

**aggravation** *nf* **1.** kuchaytirish, yomonlashtirish, og'irlashtirish, yomonlashish, og'irlashish, kuchayish, ortish, battar bo'lish; **l'aggravation d'une maladie** kasallikning zo'rayishi; **l'aggravation de la situation** vaziyatning yomonlashuvi; **l'aggravation du conflit** ixtilof, nizo, mojaroning kuchayishi; **une aggravation de peine** jazoning og'irlashuvi; **l'aggravation du chômage** ishsizlikning ortishi; **2.** *dr* aybni og'irlashtirish.

**aggraver I.** *vt* yomonlashtirmoq, og'irlashtirmoq, kuchaytirmoq, murakkablashtirmoq, jiddiylashtirmoq, chuqurlashtirmoq, oshirmoq; **les circonstances aggravent son crime** vaziyat uning aybini og'irlashtirmoqda; **aggraver les difficultés** qiyinchiliklarni chuqurlashtirmoq; **aggraver l'état de qqch** biror narsaning holatini yomonlashtirmoq; **aggraver une maladie** kasallikni zo'raytirmoq; **aggraver la situation** vaziyatni murakkablashtirmoq; **II.** **s'aggraver** *vpr* kuchaymoq, og'irlashmoq, ortmoq, yomonlashmoq, chuqurlashmoq, murakkablashmoq, keskinlashmoq; **la situation s'aggrave d'heure en heure** soat sayin vaziyat yomonlashardi; **la maladie s'est aggravée** kasallik zo'raydi; **les oppositions s'aggravent** nizo, qarama-qarshilik keskinlashmoqda; **le chômage s'aggrave** ishsizlik ko'paymoqda.

**agile** *adj* **1.** epchil, chaqqon, ildam; **agile comme un chat** mushuk kabi chaqqon; **2.** *fig* tez, ildam ilg'ab oladigan, ziyrak; **un esprit agile** zo'r aql egasi, oqil, dono.

**agilement** *adv* epchillik bilan, chaqqon, ildam, chaqqonlik bilan.

**agilité** *nf* epchillik, ildamlik, chaqqonlik; **l'agilité d'un acrobate** akrobatning epchilligi; **avec agilité** epchillik bilan, chaqqonlik, ildamlik bilan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**agios** *nm pl* shirinkoma, vositachilik haqi.

**agiotage** *nm* ajiotaj (***1.*** *biror maqsadni ko'zlab sun'iy ravishda ko'tarilgan shov-shuv;* ***2.*** *spekulyativ maqsadlar bilan pul, qimmatbaho qog'oz, mol va shu kabilarning narxini sun'iy ravishda oshirib yoki kamaytirib yuborish*).

**agioteur** *nm* birja chayqovchisi.

**agir** *vi* **1.** harakat qilmoq, ish ko'rmoq; **le moment est venu d'agir** harakat qilish payti keldi; **agir avec précaution** ehtiyot bo'lib harakat qilmoq; **rester sans agir** harakatsiz turmoq; **agir en ami** o'rtoqlarcha ish ko'rmoq; **je n'aime pas sa manière d'agir** buning bunday ish tutishini yoqtirmayman; **2.** ta'sir qilmoq, amal qilmoq; **ce remède n'agit que lentement** dori asta-sekin ta'sir qilyapti; **agir sur les événements** voqealarga ta'sir ko'rsatmoq; **agir conformément à la loi** qonunga muvofiq ish ko'rmoq.

**agir (s')** *vpr impers* **il s'agit de** gap haqida borayotir; -ning muhimligi aytilayotir; **de quoi s'agit-il** nima gap o'zi, gap nima haqida borayotir? **il s'agit maintenant d'être sérieux** hozir jiddiy bo'lish haqida gap ketyapti.

**agissant, ante** *adj* **1.** muomaladagi, kuchga kirgan, ta'sir, kor qiladigan, ta'sirli, ta'sirchan; **un remède agissant** ta'sir, kor qiladigan dori-darmon; **2.** haqiqiy, namoyon bo'ladigan; **une amitié agissante** haqiqiy do'stlik, amalda namoyon bo'ladigan do'stlik.

**agissements** *nm pl* kirdikor, hiyla-nayrang, fitna, firibgarlik; **surveiller les agissements de qqn** birovning firibgarligini kuzatib turmoq.

**agitateur** *n* **1.** buzg'unchi, fitnachi, isyonkor, tinchlikni, osoyishtalikni buzuvchi; **2.** *techn* qorgich, aralashtirgich, chilcho'p.

**agitation** *nf* **1.** to'lqinlanish, mavj urish; to'lqin, mavj; **2.** iztirob, hayajon, tashvish, besaranjomlik, bezovtalik, g'ulg'ula; **l'agitation d'un malade** bemorning bezovtaligi; **3.** g'alayon, tug'yon, isyon, qo'zg'olon, alg'ov-dalg'ov, yugur-yugur, to'polon; **l'agitation de la rue** ko'chadagi qiy-chuv, to'polon; **l'agitation gagna toutes les usines** g'alayon barcha zavodlarni qamrab oldi.

**agité, ée** *adj* **1.** hayajonlangan, to'lqinlanib turgan; bezovtalangan, titragan, jahli chiqqan; **2.** og'ir, qattiq (*bemor*).

**agiter I.** *vt* **1.** qimirlatmoq, silkitmoq, tebratmoq, likillatmoq; **agiter un mouchoir** ro'molchani silkitmoq; **l'oiseau agite les ailes** qush qanotlarini qoqmoqda; **le chien agite la queue** it dumini likillatdi; **2.** aralashtirmoq, qormoq (*suyuq narsalar*); **agiter le médicament avant de s'en servir** iste'mol qilishdan avval dorini aralashtirmoq (*silkitib aralashtirmoq*); **3.** bezovta qilmoq, hayajonga solmoq, jahlini chiqarmoq; **j'étais agité par la curiosité** qiziqish menga tinchlik bermasdi; **la colère l'agite** g'azabdan u o'zini yo'qotib qo'ygan edi; **4.** muhokama qilmoq, ko'rib chiqmoq; **agiter un problème** masalani ko'rib chiqmoq; **II. s'agiter** *vpr* harakatga kelmoq, hayajonga tushmoq, qo'zg'almoq, yugurib yelmoq; **les branches s'agitent** shoxlar tebranmoqda; **la mer a commencé à s'agiter** dengiz to'lqinlana boshladi; **le restaurant était plein, les garçon s'agitaient** restoran odamlar bilan to'la, ofitsiantlar yugurib-yelardilar.

**agneau** *nm* **1.** qo'zichoq, qo'zi; **doux comme un agneau** qo'zichoqday yuvosh; **2.** qo'zi go'shti; **3.** qo'zi terisi; **manteau d'agneau** qo'zi terisidan tikilgan palto.

**agnosticisme** *nm* agnostitsizm (*obyektiv dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*).

**agnostique I.** *n* agnostik, agnostitsizm tarafdori; **II.** *adj* agnostik.

**agnus-dei** *nm inv relig* agnus-dei (*katolik cherkovlarda shu so'zlar bilan boshlanadigan ibodat*).

**agonie** *nf* **1.** o'lim, jon talvasasi; **être à l'agonie** o'lim, jon talvasasida bo'lmoq; **un cri d'agonie** o'lim oldidagi qichqiriq; **2.** *fig* inqirozga yuz tutish, inqiroz, tanazzul, tushkunlik, inqiroz; **l'agonie d'un régime politique** siyosiy tuzumning inqirozga yuz tutishi.

**agonir** *vt* **agonir d'injures, de reproches** haqoratga, o'pka-ginaga ko'mib tashlamoq.

**agonisant, ante I.** *adj* o'lim talvasasida bo'lgan; tugayotgan, o'chayotgan; **II.** *n* o'layotgan, jon taslim qilayotgan.

**agoniser** *vi* **1.** o'lim, jon talvasasiga tushmoq, jon talashmoq; **un soldat qui agonise sous nos yeux** ko'z o'ngimizda jon berayotgan askar; **2.** inqirozga yuz tutmoq, tanazzulga uchramoq; tugamoq; **l'empire romain agonisait** Rim imperiyasi tanazzulga uchramoqda edi.

**agoraphobie** *nf* agorafobiya (*jamoat joylari, ochiq maydonlar va kengliklarda paydo bo'ladigan patologik qo'rquv*).

**agrafe** *nf* **1.** bezakli ilmoq, ilgak, to'qa; **2.** qisqich, skrepka; **3.** *med techn* skoba, iskanja.

**agrafer** *vt* to'g'namoq, tugmalamoq, tugmalarni, ilgaklarni qadamoq, solmoq; **agrafer une robe, une ceinture** ko'ylakni, kamarni qadamoq; **2.** tutub, ushlab qolmoq, to'xtatib qolmoq, tutib olmoq, qo'lga tushirmoq, qamoqqa olib ketmoq; **il s'est fait agrafer par les flics** uni politsiyachilar qo'lga tushirdilar.

**agrafeuse** *nf* ilgaklovchi asbob.

**agraire** *adj* yer va undan foydalanish masalalariga, qishloq xo'jaligiga oid, agrar; **réforme agraire** agrar reforma, yer islohoti; **mesures agraires** yer maydoni o'lchovlari.

**agrandir I.** *vt* **1.** kattalashtirmoq, kengaytirmoq, ko'paytirmoq, orttirmoq; **agrandir une photo** suratni kattaytirmoq; **agrandir une ouverture** teshikni kengaytirmoq; **2.** kattalashtirmoq, kengaytirmoq, rivojlantirmoq; **agrandir une entreprise** korxonani kattalashtirmoq, kengaytirmoq; rivojlantirmoq; **II. s'agrandir** *vpr* kattalashmoq, kengaymoq; **la ville s'agrandit** shahar kattalashmoqda; **cette tache s'agrandit** bu dog' kengaymoqda, tarqalmoqda.

**agrandissement** *nm* kengaytirish, kengayish, kattalashtirish, kattalashish; **l'agrandissement continuel de Paris** Parijning to'xtovsiz kengayishi; **l'agrandissement d'une photo** rasmni kattalashtirish.

**agrandisseur** *nm* kattalashtirgich, yiriklashtirgich (*fotografiya va kinematografiyada tasvirni kattalashtiradigan asbob*).

**agréable** *adj* yoqimli, dilkash, ko'ngilli; **une odeur agréable** yoqimli hid; **un fruit agréable au goût** ta'mi yoqimli meva; **une nouvelle agréable à entendre** quloqqa yoqadigan yangilik; **c'est une personne de caractère agréable** tabiati dilkash, yoqimli kishi.

**agréablement** *adv* yoqimli, ko'ngilli, dilkashlik bilan.

**agréé, ée** *adj* tanilgan, shuhrat qozongan, manzur bo'lgan; **un représentant agréé** tanilgan vakil.

**agréer I.** *vi* yoqmoq, ma'qul bo'lmoq; **si cela vous agrée** agar bu sizga yoqsa, ma'qul bo'lsa; **II.** *vt* bajonidil qabul qilmoq, ma'qullamoq; **agréer une demande** iltimosni bajonidil qabul qilmoq; **veuillez agréer mes salutations distinguées** mening chuqur hurmat-ehtiromimni qabul qilgaysiz.

**agrégat** *nm* agregat; *géol* tog' jinsini tashkil etgan minerallar majmui.

**agrégatif, ive** *n* agreje darajasini olish uchun konkursga tayyorlanayotgan talaba (*agreje Fransiyadagi ilmiy daraja bo'lib, u litsey, tabiiy va ijtimoiy fanlarga dars berish huquqini beradi*).

**agrégation** *nf* **1.** agreje ilmiy darajasini olish uchun konkurs, tanlov; agreje ilmiy darajasi; **se présenter à l'agrégation de lettres** filologiya bo'yicha agreje ilmiy darajasini olish uchun tanlovga qatnashmoq; **il a son agrégation** agreje ilmiy darajasiga ega; **2.** *géol phys* qo'shilish, birikish, to'planish **une agrégation de molécules** molekulalarning qo'shilishi.

**agrégé, ée** *n* agreje (*agreje ilmiy darajasini olgan kishi*); **un agrégé d'histoire** tarix bo'yicha agreje.

**agréger I.** *vt* **1.** qo'shmoq, birlashtirmoq (*qattiq jismlar*); **2.** qo'shmoq, birlashtirmoq, biriktirmoq (*biror jamiyat, kompaniya kabilar*); **nous l'agrégerons à notre groupe** uni guruhimizga qo'shib olamiz; **II. s'agréger** *vpr* to'planmoq; qo'shilmoq; to'lmoq; **le groupe s'est agrégé quelques nouveaux membres** guruh bir necha yangi a'zolar bilan to'ldi.

**agrément[1]** *nm* rozi bo'lish, rozilik, ma'qullash; **donner son agrément à qqch** biror narsaga rozilik bermoq; **demander l'agrément pour** uchun roziligini so'ramoq; **obtenir l'agrément de qqn** birovning roziligini olmoq.

**agrément[2]** *nm* **1.** mamnun bo'lish, xursandchilik, o'yin-kulgi, huzur-halovat; **se donner de l'agrément** o'zini-o'zi xursand qilish; **2.** joziba, sehr, yoqimlilik, jozibalilik, dilbarlik, istarasi issiqlik; **l'agrément d'une maison de campagne** dala hovlining sehri, jozibasi.

**agrémenter** *vt* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq; **une nappe agrémentée de broderies** kashta bilan bezatilgan, kashta tikilgan ko'ylak; **agrémenter un discours de citations** sitatalar qo'shib nutqni chiroyli qilmoq.

**agrès** *nm pl* **1.** *mar* kema abzallari, arqonlari; **2.** *sport* gimnastika snaryadi, asbob, anjomlari.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**agresser** *vt* hujum qilmoq, tajovuz qilmoq; **agresser un passant** yo'lovchi, o'tkinchiga hujum qilmoq.

**agresseur** *nm* **1.** *polit* agressor, bosqinchi, bosib oluvchi; **2.** bosqinchi, yo'lto'sar, bandit, bosmachi; **il a pu reconnaître son agresseur** u o'ziga hujum qilgan kishini tanib qoldi.

**agressif, ive** *adj* tajovuzkor, agressiv; **une politique agressive** tajovuzkor siyosat; **un ton agressif** tajovuzkor ohang.

**agression** *nf* tajovuz, agressiya, bosqinchilik; **guerre d'agression** bosqinchilik urushi; **commettre une agression** tajovuz qilmoq, bosqinchilik qilmoq; **être victime d'une agression** tajovuz, bosqinchilik qurboni bo'lmoq.

**agreste** *adj* qishloqqa xos bo'lgan; qishloqdagi, qishloqlik, qishloqi, qishloq; **la vie agreste** qishloq hayoti.

**agricole** *adj* qishloq xo'jaligiga, dehqonchilikka oid; **un pays agricole** qishloq xo'jaligi, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan mamlakat, agrar mamlakat; **les travaux agricoles** qishloq xo'jalik ishlari, dehqonchilik; **les produits agricoles** qishloq xo'jalik mahsulotlari; **les problèmes agricoles** qishloq xo'jalik muammolari; **population agricole** dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi; **un ouvrier agricole** qishloq xo'jaligidagi ishchi; **un ingénieur agricole** muhandis-agronom.

**agriculteur, trice** *n* dehqon; qishloq xo'jalik xodimi; fermer.

**agriculture** *nf* qishloq xo'jaligi, dehqonchilik; **une école d'agriculture** qishloq xo'jaligi maktabi, qishloq xo'jalik bilim yurti; **le ministère de l'agriculture** qishloq xo'jaligi vazirligi.

**agripper I.** *vt* **1.** ushlamoq, tutmoq; **il agrippait la barrière pour ne pas tomber** u yiqilmaslik uchun to'siqni tutib turardi; **II. s'agripper** *vpr* ushlamoq, yopishmoq; tutmoq; ushlab, yopishib, tutib olmoq; chang solmoq, mahkam ushlab, yopishib olmoq; xippa yopishmoq; **s'agripper au bras de qqn** birovning qo'liga yopishib olmoq; **s'agripper d'une main à une branche** bir qo'li bilan shoxga xippa yopishmoq.

**agrologie** *nf* tuproqshunoslik.

**agronome** *nm* agronom.

**agronomie** *nf* agronomiya (*qishloq xo'jaligiga va ziroatchilikka oid fan*).

**agronomique** *adj* agronomiyaga oid, agronomlik; agronomiya.

**agrumes** *nm pl* sitruslar; sitrus o'simliklari; **la culture des agrumes** sitruskorlik, sitrus o'simliklari, sitrus o'simliklarini yetishtirish.

**aguerrir I.** *vt* **1.** chiniqtirmoq, toblamoq; chidamli qilmoq; **aguerrir un enfant aux difficultés de la vie** bolani hayot qiyinchiliklariga chiniqtirmoq; **le sport aguerrit l'homme contre la fatigue physique** sport kishini chidamli qiladi; **2.** *mil* jangovor holatga, jangga o'rgatmoq; mashq qildirmoq; **aguerrir ses troupes** qo'shinni jangga, jang qilishga o'rgatmoq; **II. s'aguerrir** *vpr* chiniqmoq; toblanmoq, chidamli bo'lmoq; **il s'aguerrit dans les épreuves** u sinovlarda toblandi; **s'aguerrir au froid** o'zini sovuqqa o'rgatmoq, chidamli qilmoq.

**aguets (aux)** *loc adv* tayyor, shay, hozir bo'lib, hushyor, sergak holda, qulog'i ding; shaylanib; **être aux aguets** hushyor, tayyor, shay, hozir, sergak bo'lib; shaylanib turmoq.

**aguichant, ante** *adj* havasni keltiradigan, yo'ldan ozdiradigan, o'ziga tortadigan; tannoz, ishvali, g'amzali.

**aguicher** *vt* havasni keltirmoq, o'ziga tortmoq; yo'ldan ozdirmoq (*ishva, g'amza, qichiq bilan*).

**aguicheur, euse I.** *adj* havasni keltiradigan, o'ziga tortadigan, ishvali, g'amzali; **II.** *n* o'ziga tortuvchi, yo'ldan ozdiruvchi, tannoz, ishvagar ayol.

**ah!** *intj* eh! ah! a! e! obbo! oho! voy! uf! o'! (*turli ma'nolarni ifodalab keladi*); **ah! que je suis content!** eh, men qanchalik xursandman! (*sevinch*); **ah, que c'est beau**! Oh-oh-oh! Bu qanday chiroylik! (*zavq*); **ah**, **que ça fait mal!** voy-voy, og'ritib yubordi! (*og'riq azobi*); **ah**, **comme c'est dommage**! eh, afsus, attang! (*achinish*).

**ahuri, ie I.** *adj* hayratga tushgan; esankiragan, dovdiragan; **l'air ahuri** esankiragan, dovdiragan qiyofa; **rester ahuri devant qqch** biror narsa oldida, biror narsani ko'rib dovdirab qolmoq; **II.** *n* kaltafahm, qovoqbosh, to'pori.

**ahurir** *vt* hayratlantirmoq, juda ham ajablantirmoq, hayratga solmoq, esankiratib, dovdiratib qo'ymoq; **cette déclaration nous a complètement ahuris** bu bayonot bizni esankiratib qo'ydi.

**ahurissant, ante** *adj* hayratga soladigan, hayratda qoldiradigan; esankiratib qo'yadigan; hayratomuz.

**ahurissement** *nm* juda hayron, qoyil, mahliyo bo'lish; qattiq hayrat, mahliyolik; sarosimalik, dovdirash, esankirash, shoshib qolish.

**aiche** *nf voir* **esche**.

**aide**[1] *nf* yordam, madad, ko'mak; **j'ai besoin de votre aide** men sizning yordamingizga muhtojman; **venir en aide** yordamga kelmoq; **aide précieuse** qimmatli yordam; **aide mutuelle** o'zaro yordam; **aide militaire** harbiy yordam; **aide technique** texnik yordam; **demander l'aide de qqn** birovdan yordam so'ramoq; **recevoir de l'aide** yordam olmoq; **à l'aide!** yordam beringlar! *loc prép* **à l'aide de** yordamida, ko'magida; **il a traduit cet article à l'aide d'un dictionnaire** u maqolani lug'at yordamida tarjima qildi.

**aide**[2] *n* yordamchi; **aide de camp** adyutant; **aide-comptable** yordamchi hisobchi.

**aide-mémoire** *nm* xotiranoma (*biror fan asoslari yoki dasturni unutmaslik uchun yozib olingan qisqacha ma'lumotlar*).

**aider I.** *vt* **1.** yordam bermoq, ko'mak bermoq, yordamlashmoq; **aider qqn dans son travail** birovga ishda yordam bermoq; **aider qqn de ses conseils** birovga maslahatlari bilan yordam bermoq; **aider qqn à se relever** birovga o'rnidan turishga yordam bermoq; **Dieu vous aide!** hormang! Xudo yor bo'lsin! **2. aider à qqch** osonlashtirmoq, imkon, imkoniyat tug'dirmoq, yordam bermoq, ko'rsatmoq, qilmoq; **ses conseils aidèrent à la réussite du projet** uning maslahatlari rejaning muvaffaqiyatiga yordam berdi; **II. s'aider** *vpr* **1.** foydalanmoq; ishlatmoq, yordamida harakat qilmoq; **s'aider d'un bâton** hassa yordamida yurmoq, hassadan foydalanmoq; **s'aider d'un dictionnaire** lug'atdan foydalanmoq; **2.** bir-biriga yordamlashmoq.

**aïe** *intj* ey! voy! voy-ey! oh! (*og'riqni bildiradi*).

**aïeul, eule** *n* bobo; buvi.

**aïeux** *nm pl* ota-bobolar, avlod-ajdodlar.

**aigle I.** *nm* burgut; **un bec d'aigle** burgut tumshuq; **des yeux d'aigles** *fig* burgut nigoh; **se prendre pour un aigle** o'zini boshqalardan yuqori qo'ymoq, hisoblanmoq; **II.** *nf* **1.** burgut (*urg'ochisi*); **2.** bayroq (*burgut shaklidagi harbiy bayroq*); **les aigles romaines** rimliklar bayrog'i.

**aiglon, onne** *n* burgut bolasi.

**aigre I.** *adj* **1.** achchiq, taxir, nordon, qimizak (*ta'm va hid*); **un goût, une odeur aigre** taxir ta'm, hid; **un vin aigre** taxir, nordon vino; **2.** achitadigan, sovuq; **vent aigre** achitadigan, sovuq shamol; **3.** dag'al, qattiq, qo'rs, keskin (*gap, so'z, muomala*); **des paroles un peu aigre** biroz qo'pol so'zlar; **II.** *nm* nordonlik, achchiqlik; nordon yoki achib ketgan narsa.

**aigre-doux, douce** *adj* nordon-shirin, qimizak.

**aigrelet, ette** *adj* nordonroq, achchiqroq.

**aigrefin** *nm* muttaham, razil; firibgar.

**aigrement** *adv* piching, zaharxandalik bilan; qo'pollik bilan, keskin.

**aigrette** *nf* **1.** toj (*qushlarda*); **2.** jig'a (*bosh kiyimiga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi*); egret (*bosh kiyimni bezash uchun uning old tomoniga yuqoriga qaratib taqiladigan qush pati yoki patlari*); toj; **3.** *zool* oq qo'ton, oq qarqara; **4.** *bot* popuk, uchar, to'zg'oq (*ba'zi urug'larning shamol orqali tarqalishiga moslashgan popuklari*).

**aigreur** *nf* nordonlik, achchiqlik; achchiq, nordon, ta'm; **l'aigreur des fruits verts** g'o'r mevaning nordonligi; **2.** *pl* me'da, jig'ildon qaynashi, zarda; achchiq kekirish; **avoir des aigreurs d'estomac** me'da qaynashini sezmoq; **3.** *fig* zaharxandalik, achchiqlik, keskinlik; **avec aigreur** zaharxandalik bilan; ranj bilan.

**aigri, ie** *adj* jahli chiqqan, g'azabi kelgan, darg'azab; janjalkash, mijg'ov; **une femme aigrie** janjalkash ayol.

**aigrir I.** *vi* achimoq, achib ketmoq; **le lait a aigri** sut achib qoldi; **II.** *vt* **1.** achitmoq, nordon qilmoq; **la chaleur aigrit le lait** issiq sutni achitib qo'yadi, issiqdan sut achib qoladi; **2.** *fig* buzmoq, yomonlashtirmoq, aynitmoq; achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq; **II. s'aigrir** *vpr* aynimoq, achimoq; **le vin s'aigrit si la bouteille reste débouchée** agar shisha ochiq qolsa, vino achib qoladi.

**aigu, uë I.** *adj* **1.** keskir, uchli, o'tkir; **oiseau au bec aigu** tumshug'i uchli, nayzali qush; **l'âme aiguë d'un poignard** xanjarning keskin tig'i; **angle aigu** o'tkir burchak; **2.** yuqori, qattiq, kuchli, chinqiriq, quloqni teshadigan; **note**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**aiguë** yuqori nota; **des voix aiguës** kuchli, chinqiroq ovozlar; **3.** qattiq, zo'r, og'ir, kuchli, dahshatli; **douleur aiguë** kuchli azob, og'riq; **4.** og'ir kechayotgan (*davrdagi*), avjidagi, og'ir (*kasallik*); **maladie aiguë** og'ir kasallik (*tez boshlanib tez kuchayib ketadigan kasallik*); **5.** yaxshi taraqqiy qilgan; **une intelligence aiguë** o'tkir zehn, aql; **II.** *nm* yuqori tovush; **passer du grave à l'aigu** past tovushdan yuqori tovushga o'tmoq.

**aigue-marine** *nf* akvamarin (*yashil havorang qimmatbaho tosh*).

**aiguière** *nf hist* ko'za, obdasta, qumg'on.

**aiguillage** *nm* **1.** strelkani almashtirish, strelkani bir yo'ldan ikkinchisiga o'tkazish; **erreur d'aiguillage** strelkani noto'g'ri qo'yish; **2.** strelka; **3.** *fig* yo'nalish; tutgan, tutilgan yo'l.

**aiguille** *nf* **1.** nina, igna; sim; **aiguille à coudre** tikuv mashinasining ignasi; **enfiler une aiguille** ignaga ip o'tkazmoq; *loc* **chercher une aiguille dans une botte de foin** somon ichidan nina qidirmoq, foydasiz ishga urinmoq; **aiguille à tricoter** spitsa, sim; **2.** strelka, mil; **les aiguilles d'une pendule** osma soat strelkasi; **la grande, la petite aiguille** minutni, soatni ko'rsatuvchi strelka; **aiguille de chemin de fer** temir yo'l strelkasi (*bir izni boshqa izga ulashga xizmat qiladigan, temir yo'lning harakatga keladigan bir qismi*); **3.** *bot* tikanak, igna; **aiguilles de pin** qarag'ay ignalari, igna barglari; **4.** *archit* shpil (*gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi*); **5.** *géol* cho'qqi, tog' cho'qqisi.

**aiguiller** *vt* **1.** strelkani bir yo'ldan boshqasiga o'tkazmoq, poyezdni bir yo'ldan boshqasiga o'tkazmoq, burib yubormoq; **2.** *fig* yo'naltirmoq; tushunishga yordam bermoq; biror maqsadga qaratmoq; **aiguiller la conversation sur un autre sujet** suhbatni boshqa temaga o'tkazmoq; **aiguiller un élève vers les mathématiques** o'quvchini matematikani o'rganishga yo'naltirmoq, qaratmoq.

**aiguillette** *nf* **1.** *pl* akselbant (*chor Rossiyasi va ba'zi chet el armiyalarida: harbiylarning unvoniga ko'ra yelkasiga taqiladigan zarbof shnurlar*); **2.** ip, bog'ich (*oyoq kiyimi*).

**aiguillette** *nf* go'sht bo'lakchalari.

**aiguilleur** *nm* strelkachi.

**aiguillon** *nm* **1.** uchli uzun tayoq, nayzasimon tayoq (*ho'kizni haydash uchun foydalaniladi*); **2.** *fig* rag'batlantiruvchi omil, qiziqtiradigan narsa; **3.** nish, nayza (*ari, chayon kabi chaqadigan hasharotlarda*); **4.** *bot* tikan (*ba'zi o'simliklar poyasida bo'ladigan*).

**aiguillonner** *vt* **1.** ho'kizni uchli tayoq yordamida haydamoq; **2.** *fig* qo'zg'atmoq, rag'batlantirmoq.

**aiguiser** *vt* **1.** o'tkirlamoq, uchlamoq; **aiguiser un couteau** pichoqni o'tkir qilmoq; **une pierre à aiguiser** qayroq, qayroq tosh; **2.** *fig* qo'zg'atmoq, harakatga keltirmoq, faollashtirmoq; **aiguiser l'appétit, la douleur** ishtahani, og'riqni kuchaytirmoq; **3.** sayqal bermoq, silliqlamoq, o'tkir, tez yetib boradigan, ifodali qilmoq; **aiguiser son style** o'z uslubiga sayqal bermoq.

**ail** *nm* sarimsoq, sarimsoqpiyoz; **une odeur d'ail** sarimsoq hidi; **saucisson à l'ail** sarimsoqli kolbasa; **une tête, une gousse d'ail** bir bosh, bir bo'lak sarimsoq.

**aile** *nf* **1.** qanot; **ailes d'un oiseau** qush qanoti; **aile d'un avion** samolyot qanoti; **battre les ailes** qanotlarini qoqmoq; *loc* **avoir des ailes** tez chopmoq; **avoir de plomb dans l'aile** qiyin ahvolda, sharoitda bo'lmoq; **voler de ses propres ailes** mustaqil bo'lmoq; **rogner les ailes à qqn** birovning popugini pasaytirib qo'ymoq; **donner des ailes** qanot bag'ishlamoq, ruhlantirmoq; **prendre qqn sous son aile** birovni o'z qanotiga, panohiga olmoq; **2.** kurak, parrak, qanot (*eshkak, suv parragi, havo vinti kabilarning qismi*); **ailes d'un moulin** tegirmon qanoti, parragi; **3.** *mil sport* qanot, flang, yon tomon; **4.** qanot (*g'ildirak tepasida*); **5.** qanot, tomon (*bino*); **ailes d'un pont** ko'prik qanotlari, tomonlari; **6.** *anat* **ailes du nez** burunning solinchagi.

**ailé, ée** *adj* **1.** qanotli, uchar; **des fourmis ailées** qanotli chumolilar; **2.** *fig* yengil, harakatchan; **un pas ailé** yengil qadam.

**aileron** *nm* **1.** qanotning cheti, qirg'og'i; qanotcha; **2.** suzg'ich, yuzg'ich (*suv hayvonlarining suzish organi*); **3.** *techn* parrak, kurak; kaft, qanot.

**ailette** *nf* **1.** qanot, qanotchalar; **2.** *techn* parrak (*turbinaning*); qirra, yon, qovurg'a (*radiatorning*).

**ailier** *nm* qanot hujumchisi; **ailier droit** o'ng qanot hujumchisi.

**ailler** *vt* sarimsoq qo'shmoq; sarimsoq surtmoq.

**ailleurs** *adv* boshqa joyda; **je n'ai vu cela nulle part ailleurs** men buni boshqa hech qayerda ko'rmadim; **partout ailleurs** barcha boshqa joylarda; **avoir la tête ailleurs, être ailleurs** xayolparast bo'lmoq, boshqa narsa haqida o'ylamoq; **d'ailleurs** (*gap boshida*) ammo, aytganday, biroq, shunday bo'lsa ham; buning ustiga, shu bilan birga; **d'ailleurs, il faut reconnaître que** shunday bo'lsa ham, bo'yinga olish kerak; **il a dit beaucoup de choses, fort intéressantes d'ailleurs** u ko'p narsa haqida gapirdi, shu bilan birga juda qiziq gapirdi; **par ailleurs** boshqa joyda; *fig* boshqa tomondan, shu bilan birga; **bien que très intelligent par ailleurs, il ne comprend pas les mathématiques** u juda aqlli bo'lsa ham, matematikani yaxshi bilmaydi.

**ailloli** *nm* sarimsoqli mayonez.

**aimable** *adj* xushmuomala, ochiq yuz, mehribon, shirin so'z; **il est aimable avec tout le monde** u hamma bilan xushmuomala; **je vous remercie, vous êtes très aimable** sizga minnatdorchilik bildiraman, siz juda mehribonsiz.

**aimablement** *adv* xushmuomalalik bilan, shirin so'z bilan, mehribonlik bilan.

**aimant[1], ante** *adj* aziz, mehribon, mehrli, sevuvchi; nozik, yoqimli, dilbar.

**aimant[2]** *nm* **1.** magnit, ohanrabo; **2.** *fig* o'ziga jalb etadigan, qiziqtiradigan narsa.

**aimantation** *nf* magnitlash; magnitlanish.

**aimanter I.** *vt* magnitlamoq; **l'aiguille aimantée** magnitlangan strelka; **II. s'aimanter** *vpr* magnitlanmoq.

**aimer I.** *vt* **1.** sevmoq, yaxshi ko'rmoq, mehr qo'ymoq, muhabbat bog'lamoq, ishqi tushmoq; **il l'a follement aimée** uni jondan ortiq sevadi; **2.** xush ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq, yoqtirmoq; **3.** xohlamoq, yoqtirmoq; **il aime qu'on le flatte** uni erkalatishlarini xohlaydi; **aimer danser** raqs tushishni, tushmoqni xohlamoq; **4. aimer mieux** afzal ko'rmoq; **j'aime mieux la voiture que le train** men poyezddan ko'ra avtomobilni afzal ko'raman; **II.** *vt* o'ch bo'lmoq, talab qilmoq; yoqtirmoq; **la betterave aime les terres profondes** lavlagi chuqur haydalgan yerlarda yaxshi o'sadi; **III. s'aimer** *vpr* **1.** o'zini yaxshi his qilmoq; o'ziga yoqmoq; **je ne m'aime pas dans cette robe** bu ko'ylakda o'zimni yaxshi his qilmayman; **2.** bir-birini sevmoq, yoqtirmoq.

**aine** *nf* chov, but, chot.

**aîné, ée I.** *adj* katta, yoshi katta, **le frère aîné** aka; **la sœur aînée** opa; **II.** *n* **1.** katta o'g'il; katta qiz; katta aka; katta opa; **mon aîné a 10 ans** katta o'g'lim 10 yoshda; **écoutez vos aînés** kattalarga quloq soling; **2.** katta (*yoshni taqqoslaganda*); **c'est mon aîné de 2 ans** u mendan 2 yosh katta.

**aînesse** *nf* to'ng'ichlik (*tug'ilish jihatidan aka-ukalar o'rtasidagi birinchilik, kattalik*); **droit d'aînesse** to'ng'ichlik huquqi.

**ainsi I.** *adv* shunday qilib, shunday; **les faits se sont déroulés ainsi** voqealar shunday rivojlandi; **ainsi va la vie** hayot shunday davom etyapti, hayot shunaqa; **ainsi soit-il!** mayli, shunday bo'la qolsin! **et ainsi de suite!** va hokazo, va shu kabi; **pour ainsi dire** go'yo-ki, shunday deyish mumkin bo'lsa; **II.** *conj* demak, binobarin, bas; **ainsi vous regarderez l'avenir avec confiance!** binobarin, siz kelajakka ishonch bilan qaraysiz! *loc conj* **ainsi que** -ganday, -gani kabi, singari, -ganicha, o'xshash; **cela s'est passé ainsi que je vous l'ai dit** bu men sizga aytganday bo'lib o'tdi.

**air[1]** *nm* **1.** havo; atmosfera; **on manque d'air ici** bu yerda havo yetishmayapti; **j'ai besoin de prendre l'air** men sayr qilishga chiqishim kerak; **le médecin lui a recommandé de changer d'air** vrachlar unga havo almashtirishni maslahat berdilar; **air comprimé** siqilgan havo; **air liquide** suyuq, suyultirilgan havo; **vivre au grand air** ochiq havoda yashamoq; **dormir en plein air** ochiq havoda, ochiqlikda uxlamoq; **l'armée de l'air** harbiy havo kuchlari; **2.** shamol; **le courant d'air** yelvizak.

**air[2]** *nm* ko'rinish, qiyofa; **prendre des airs** gerdaymoq, kerilmoq; **avoir l'air de** bo'lib ko'rinmoq; **il a l'air d'une fille** uning qiyofasi qizlarinikiga o'xshaydi; **elle a l'air sérieuse** u jiddiy ko'rinadi; **il a l'air de me détester** u meni yoqtirmayotgandek ko'rinadi; **n'avoir l'air de rien** foydasiz, oson, hech narsa ifodalamayotganday bo'lib ko'rinmoq (*aslida esa boshqacha bo'lishi mumkin*); **c'est un travail qui n'a l'air de rien** bu oson, ma'nisizdek ko'ringan ish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**air**[3] *nm* ariya, kuy.

**airain** *nm* **1.** bronza; **2.** *fig* **d'airain** qattiq, rahmsiz, tosh; **cœur d'airain** toshbag'ir, qahri qattiq.

**airbus** *nm* aerobus.

**aire** *nf* **1.** xirmon (*don, asosan bug'doy yanchish uchun ajratilgan joy*); **2.** tekis yer, maydon, yuza, ochiq joy, dala, maydoncha; **aire de lancement** start maydonchasi; **aire d'atterissage** qo'nish maydonchasi; **aire d'un bâtiment** bino egallagan joy; **aire ensemencée** ekin maydoni; **3.** yirtqich qushlar uyasi; **4.** *fig* **aire d'activité** faoliyat ko'lami; **aire d'influence** ta'sir doirasi.

**airelle** *nf bot* chernika (*brusnikalar oilasiga kiradigan mevasi shirin, qora-ko'kimtir rangli kichik buta o'simlik*).

**aisance** *nf* **1.** erkinlik, yengillik, xotirjamlik; **avec aisance** yengil, yengillik bilan; erkin, erkinlik bilan; **s'exprimer avec aisance** o'z fikrini erkin, qiynalmay izhor etmoq; **avoir de l'aisance** o'zini erkin tutmoq; **2.** boylik, badavlatlik; **être, vivre dans l'aisance** boy-badavlat yashamoq, bo'lmoq; **3.** *pl* **lieux d'aisances** hojatxona.

**aise**[1] *nf* **1.** mamnunlik, xursandlik, mamnuniyat; huzur-halovat, lazzat; xotirjamlik; **sourire d'aise** mamnunlikdan kulmoq; **soupirer d'aise** yengil nafas olmoq; **être à l'aise** o'zini qulay, erkin his qilmoq; bemalol joylashmoq; **être à l'aise dans ses vêtements** kiyimlarida o'zini qulay his qilmoq; **mettez-vous à l'aise, à votre aise** uyalmang, o'zingizni erkin, o'z uyingizdagidek his qiling; **quatre personnes sont à l'aise dans cette voiture** bu mashinaga to'rt kishi bemalol joylashadi; **2.** *pl* farovonlik, mo'l-ko'lchilik, qulaylik, qulaylik tug'diruvchi jihozlar; **aimer ses aises** qulaylik, farovonlikni sevmoq, yaxshi ko'rmoq.

**aise**[2] *adj litt* **bien aise, tout aise** mamnun, xursand; **je suis bien aise de vous rencontrer** men sizni uchratganimdan mamnunman.

**aisé, ée** *adj* **1.** yengil, oson, qulay; **un travail aisé** yengil ish; **c'est aisé à dire** bu aytishga oson; **il est aisé de faire qqch** biror narsani bajarish oson; **2.** erkin, bemalol, xotirjam, tabiiy; **un style aisé** erkin uslub; **avoir des manières aisées** o'rin tutmoq; **3.** boy-badavlat, davlatmand, farovon; **une famille aisée** farovon, yaxshi ta'minlangan oila.

**aisément** *adv* yengil, oson, qiyinchiliksiz; **je comprends cela aisément** buni tushunish oson.

**aisselle** *nf* qo'ltiq.

**ajonc** *nm bot* kapalakgullilar oilasiga mansub sariq gulli buta.

**ajouré, ée** *adj* nafis, pardadek yupqa; panjarasimon, to'rsimon ko'zli; ko'z-ko'z; **un drap ajouré** ko'z-ko'z gulli choyshab.

**ajourné, ée I.** *adj* kechiktirilgan, qoldirilgan; **un départ ajourné** kechiktirilgan jo'nab ketish; **II.** *n* muhlat olgan nomzod (*imtihon sessiyasini keyin topshirishga ruxsat olgan nomzod*) talaba.

**ajournement** *nm* keyinga qoldirish; keyinga surish.

**ajourner** *vt* keyinga qoldirmoq, keyinga surmoq; **ajourner les élections** saylovni keyinga surmoq.

**ajout** *nm* qo'shimcha, qo'shilgan narsa; ilova.

**ajouter I.** *vt* **1.** qo'shimcha qo'shmoq; ilova qilmoq; **ajouter qqch à la sauce** qaylaga biror narsa qo'shmoq; **sans rien ajouter ni retrancher** hech narsa qo'shmasdan, hech narsa olmasdan; **ajouter un mot** so'z qo'shmoq, ilova qilmoq; **2.** *litt* **ajouter foi à** biror narsaning mavjudligiga ishonmoq; **elle n'ajoute aucune foi à ces abominations** bu qabihliklarga u hech ishonmaydi; **3.** *vi* qo'shmoq, ko'paytirmoq, kuchaytirmoq; **en intervenant, il ne fait qu'ajouter à la pagaille** qo'shilishib, u faqat tartibsizlikni ko'paytirdi xolos; **II. s'ajouter** *vpr* qo'shilmoq, ko'paymoq, kuchaymoq.

**ajustage** *nm* joyiga moslab qo'yish, moslab o'rnatish; **atelier d'ajustage** slesarlik ustaxonasi.

**ajusté, ée** *adj* **1.** yopishib turadigan (*kiyim*); **une robe étroitement ajustée** badanga yopishib turadigan ko'ylak; **2.** mergan, mo'ljalga bexato uradigan (*tirda*).

**ajustement** *nm* **1** *techn* moslash, to'g'rilash, moslab tushirish, to'g'ri keltirish; yig'ish; **ajustement d'un tuyau** quvurni to'g'rilash; **2.** aniqlash, aniqlik kiritish, moslash, mos holatga keltirish; **le projet de la loi a subi quelques ajustements** qonun loyihasiga bir necha aniqliklar kiritildi.

**ajuster** *vt* **1.** moslamoq, sozlamoq; **ajuster un mécanisme** mexanizmni sozlamoq; **2.** yig'moq; moslab ulamoq; **ajuster les différentes parties d'un robinet** kran, jo'mrakning turli qismlarini bir-biriga ulamoq; **3.** moslashtirmoq, to'g'ri keltirmoq; **ajustez ce veston à ma taille** bu kurtkani menga moslashtirib bering; **4.** tartibga keltirmoq; to'g'rilab qo'ymoq; **ajuster sa coiffure, sa cravate** sochini, galstugini to'g'rilamoq; **5.** mo'ljalga olmoq.

**ajusteur** *nm* sozlovchi yig'uvchi usta; **ajusteur-mécanicien** slesar-mexanik; **ajusteur-monteur** slesar-montajnik, yig'uvchi.

**alaise** *nf* klyonka.

**alambic** *nm* kub (*suyuqliklarni distillash uchun ishlatiladigan berk idish*).

**alambiqué, ée** *adj* dabdabali, balandparvoz; g'alati, odam tushunmaydigan; jimjimador; **un style alambiqué** dabdabali uslub.

**alanguir I.** *vt* **1.** quvvatini ketkazmoq, darmonini quritmoq, zaiflashtirmoq; **II. s'alanguir** *vpr* bo'shashmoq, zaiflashmoq.

**alanguissement** *nm* kuchsizlik, zaiflik, kuchi, quvvati, madori yo'qlik; charchash.

**alarmant, ante** *adj* tashvishlantiradigan, vahimaga soladigan, vahimali, tashvishli, ayanchli; **des nouvelles alarmantes** tashvishli xabarlar; **son état de santé est alarmant** uning sog'ligi tashvishga soladigan.

**alarme** *nf* **1.** trevoga (*xavf-xatarni bildiruvchi signal*); **sonner, donner l'alarme** trevoga e'lon qilmoq; **signal d'alarme** to'xtatish krani (*temir yo'lda*); **2.** tashvish, vahima, xavotirlik; **être en alarme** vahimada bo'lmoq; **tenir en alarme** tashvish, vahimada tutib turmoq.

**alarmer I.** *vt* **1.** tashvishga solmoq, tashvishlantirmoq, xavotirlantirmoq, tashvishga, xavotir, vahimaga solmoq; qo'rqitmoq, cho'chitmoq; **ses paroles m'ont alarmé** uning so'zlari meni cho'chitib, tashvishga solib qo'ydi; **II. s'alarmer** *vpr* qattiq tashvishlanmoq, qattiq xavotirlanmoq, qattiq qo'rqmoq, qattiq vahimaga, tashvishga tushmoq.

**alarmiste I.** *n* vahimachi; **II.** *adj* vahimali, vahimaga, sarosimaga soladigan; **article, communiqué alarmiste** vahimali, vahimaga soladigan maqola, kommunike.

**albanais, aise I.** *adj* Albaniya va albanlarga oid, alban, albancha; **II.** *n* **1.** alban, albaniyalik; **2.** *nm* alban tili.

**albâtre** *nm* alebastr, ganch; **des vases d'albâtre** alebastrdan tayyorlangan vaza, ganch ko'za.

**albatros** *nm* albatros (*tumshug'i uzun, katta dengiz qushi*).

**albinisme** *nm méd* albinizm (*organizmda unga xos normal rang beruvchi pigment yetishmasligi*).

**albinos** *n* albinos (*albinizm belgilari bo'lgan kishi, o'simlik yoki jonivor*).

**album** *nm* albom; **un album de timbres** markalar uchun albom.

**albumine** *nf* oqsil, albumin (*suvda eriydigan eng sodda oqsil moddalar*).

**albuminoïde** *nm* protein (*tirik organizm yoki o'simlikning ayrim to'qimalarini tashkil etuvchi oddiy oqsil moddalar*).

**alcali** *nm chim* ishqor.

**alcalin, ine** *adj* ishqorga oid, ishqorli.

**alcaliniser** *vt* ishqorlamoq.

**alcalinité** *nf* ishqorlilik.

**alcaloïde** *nm* alkaloidlar (*azotli organik birikmalar*).

**alchimie** *nf* alximiya, alkimyo (*O'rta asrlarda: oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantiruvchi hikmat toshi – eliksir izlash bilan shug'ullangan xayoliy fan*).

**alchimiste** *nm* alximik, kimyogar.

**alcool** *nm* **1.** spirt; **alcool éthylique** etil spirti; **lampe à alcool** spirt lampasi; **2.** aroq, spirtli ichimlik.

**alcoolique I.** *adj* spirtli, spirt qo'shilgan; **les boissons alcooliques** spirtli ichimliklar; **II.** *n* ichkilikboz, aroqxo'r, piyonista.

**alcoolisation** *nf* **1.** spirt hosil qilish; **2.** spirt qo'shish; kuchini oshirish (*vinoning*).

**alcoolisé, ée** *adj* spirt qo'shilgan; kuchli, darajasi yuqori; **liqueur alcoolisée** spirt qo'shilgan likyor; **une bière fortement alcoolisée** juda kuchli pivo.

**alcoolisme** *nm* alkogolizm, aroqxo'rlik, ichkilikbozlik, piyonistalik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**alcooltest** *nm* ichimlik iste'mol qilinganini yoki qilinmaganini aniqlaydigan test; **faire subir une épreuve d'alcooltest à un automobiliste responsable d'un accident** falokatga sababchi bo'lgan haydovchini spirtli ichimlik iste'mol qilgan yoki qilmaganligini tekshirmoq.

**alcôve** *nf* **1.** xonaning karavot qo'yiladigan taxmonsimon qismi; **2.** *fig* shahvoniy munosabatlar uchun mo'ljallangan xufiya joy.

**aldéhyde** *nm* aldegid.

**aléa** *nm* **1.** kutilmagan hodisa, tasodif, tasodifiy hol; **2.** *pl* tavakkal; qaltislik.

**aléatoire** *adj* tasodifiy, tasodifga bog'liq; tavakkalchi; mustahkam emas; muammoli; qaltis; **son succès est bien aléatoire** uning muvvafaqiyati mustahkam emas.

**alentour I.** *adv* tevarak atrofda, tevarakda; **II.** *nm pl* atrof, tevarak; **les alentours de la ville** shahar atrofi, cheti.

**alerte I.** *adj* tetik, chaqqon, harakatchan; **un petit vieux alerte et gai** tetik va xushchaqchaq qariya; **II.** *nf* trevoga signali; **alerte aérienne** havo trevogasi; **donner l'alerte** trevoga ko'tarmoq.

**alerter** *vt* trevoga signalini bermoq; oyoqqa turg'izmoq; chaqirmoq; **alerter la police** politsiya chaqirmoq; **alerter les pompiers** o't o'chiruvchilarni chaqirmoq; **2.** *fig* safarbar qilmoq, jalb qilmoq; ogohlantirmoq; **alerter l'opinion publique** jamoat fikrini jalb qilmoq.

**alésage** *nm techn* **1.** parmalab teshish; teshilgan joy; **2.** avtomobil silindrining diametri.

**alèse** *nf voir* **alaise**.

**aléser** *vt techn* parmalab teshmoq, parmalab katta qilmoq, kengaytirmoq; ichdan yo'nmoq, yo'nib kengaytirmoq; **aléser un tuyau** quvurni ichidan yo'nib kengaytirmoq.

**aléseur** *nm* parmalovchi.

**aléseuse** *nf* parmalash stanogi.

**alevin** *nm* endigina tuxumdan chiqqan baliq, baliqcha.

**aleviner** *vt* baliqchalarni qo'ymoq, baliqchalarni tashlamoq (*daryo, hovuzlarga*).

**alexandrin** *nm* o'n ikki bo'g'inli she'r.

**alezan, ane I.** *adj* sariq rang (*asosan ot tusi*); **II.** *nm* qizg'ish malla tusli ot.

**alfa** *nm* alfa (*Shimoliy Afrika va Ispaniyada o'sadigan sariq gulli, dukkakli cho'l o'simligi*).

**algarade** *nf* qarshi chiqish, hujum, xuruj; janjal; g'avg'o.

**algèbre** *nf* **1.** algebra; **un problème d'algèbre** algebraik masala; **2.** *fig fam* qiyin, mushkul narsa; **pour moi c'est de l'algèbre** bu men uchun hech bir tushunib bo'lmaydigan, tushunilishi mushkul narsa, yozuv, xat va hokazo.

**algébrique** *adj* algebraik, algebraga oid; **une formule algébrique** algebraik formula.

**algébriquement** *adv* algebraik usulda, algebraik usul bilan.

**algérien, enne I.** *adj* Jazoyir va Jazoyir xalqiga oid; **2.** *n* jazoyirlik.

**algorithme** *nm* algoritm (*biror masalani yechish qoidalari yoki amallari majmui*).

**algue** suv o'tlari.

**alias**[1] *adv* boshqacha qilib aytganda; uning o'zi; **Arouet, alias Voltaire** Arue, Volterning o'zi (*Arue, boshqacha qilib aytganda Volter*).

**alias**[2] *nm anglic inform* psevdonim.

**alibi** *nm dr* alibi (*ayblanuvchining jinoyat sodir bo'lgan paytda boshqa joyda bo'lganligi, uning aybdor emasligiga dalil*).

**aliénation**[1] *nf* **1.** *dr* mulk yoki huquqni boshqalarga o'tkazish, berish, musodara qilish; **l'aliénation d'une propriété** mulkni birovga berish; **2.** mulk yoki huquqdan kechmoq, mulk yoki huquqning bahridan o'tmoq, bermoq, in'om qilmoq.

**aliénation**[2] *nf* ruhiy kasallik, telbalik.

**aliéné, ée** *n* ruhiy kasal, jinni, devona, telba; **un asile d'aliéné** jinnixona.

**aliéner** *vt* **1.** o'tkazmoq, bermoq, kechmoq, bahridan o'tmoq; *fam* sotmoq; **aliéner un domaine** mulkni sotmoq; **2.** *fig* mahrum bo'lmoq, yo'qotmoq; **aliéner son indépendance** mustaqilligini yo'qotmoq; **3. s'aliéner** mahrum bo'lmoq, yo'qotmoq, ayrilmoq, ajralmoq, qo'ldan chiqarmoq.

**aliéniste** *nm* psixiatr.

**alignement** *nm* **1.** qator, saf, chiziq, tizma; **être à l'alignement** bir safda turmoq; **2.** *mil* tekislanish to'g'rilanish; **alignement à droite!** o'ngga tekislaning! **3.** baravarlashtirish; muvofiq holga keltirish; tenglashtirish; **alignement monétaire** valuta, pulni baravarlashtirish.

**aligner I.** *vt* **1.** qatorga qo'ymoq, saflamoq; **aligner les chaises** kursilarni bir qatorga termoq; **2.** ketma-ket yozmoq yoki aytmoq; **aligner les chiffres, aligner des phrases** raqamlarni, gaplarni birin-ketin yozmoq, aytmoq; **3.** (**sur**) tenglashtirmoq, bir xil qilmoq; **aligner son pas sur celui de son voisin** qadamini sheriginikiga tenglashtirmoq; **II. s'aligner** *vpr* **1.** qator bo'lib turmoq, cho'zilib ketmoq; **les arbres s'alignent à l'infini** daraxtlar uzoq-uzoqlargacha cho'zilib ketgan; **2.** safga turmoq, saflanmoq; tekislanmoq; **alignez-vous!** saflaning!, safga turing!, tekislaning! **3.** *fig* moslashmoq.

**aliment** *nm* oziq-ovqat mahsulotlari; **les aliments** yegulik, yemish, taomlar, ovqatlar; *fig* **aliment pour l'esprit** fikr yuritish, mulohaza uchun material, manba.

**alimentaire** *adj* **1.** oziq-ovqatga oid, oziq-ovqat; oziq-ovqat tayyorlashga oid; **des produits alimentaires** oziq-ovqat mahsulotlari; **pâtes alimentaires** makaron, vermishel kabi mahsulotlar; **l'industrie alimentaire** oziq-ovqat sanoati; **2.** *dr* **pension alimentaire** aliment, nafaqa.

**alimentation** *nf* **1.** boqish, yedirish, ovqatlantirish; oziqlanish, ovqatlanish; **l'alimentation des troupes** qo'shinlarni ovqatlantirish, qo'shinlarning ovqatlanishi; **2.** oziq; taom, ovqat; **magasin d'alimentation** oziq-ovqat do'koni; **3.** ishlash uchun kerakli mahsulot bilan ta'minlash; **alimentation d'un marché** bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash; **alimentation en eau potable** ichimlik suv bilan ta'minlash; **alimentation d'un moteur en combustible** motorni yoqilg'i bilan ta'minlash.

**alimenter** *vt* **1.** oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlamoq; boqmoq; yedirmoq, oziqlantirmoq; **alimenter le malade** bemorni oziqlantirmoq; **2.** ishlash uchun kerakli mahsulotlar bilan ta'minlamoq; **alimenter une chaudière** qozonni ta'minlab turmoq; **alimenter en eau** suv bilan ta'minlamoq; **3.** *fig* biror narsaning rivojlanishiga asos bo'lmoq, qo'llab-quvvatlab turmoq, ma'naviy oziq bo'lmoq.

**alinéa** *nm* **1.** abzas, xat boshi, satr boshi; **commencer un nouvel alinéa** abzasdan, xat boshidan boshlamoq; **2.** abzas (*xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo'lgan matn*).

**aliquote I.** *adj math* karrali, qoldiqsiz bo'linadigan; **trois est une partie aliquote de douze** uch o'n ikkining qoldiqsiz bo'luvchisidir; **II.** *nf* karrali sonlar.

**alise** *nf* do'lana (*mevasi*).

**alisier** *nm* do'lana (*butasi*).

**aliter I.** *vt* bemorni yotqizmoq, joylamoq; **II. s'aliter** *vpr* yotib qolmoq, kasal bo'lmoq; og'rib, betob bo'lib yotmoq, to'shakka mixlanmoq.

**alizé I.** *adj* **un vent alizé** passat shamoli, quruq shamol (*tropiklardan ekvatorga tomon doim esib turadigan quruq shamol*); **II.** *nm pl* passat (*shamol*).

**allaitement** *nm* emizish; **l'allaitement naturel** tabiiy emizish.

**allaiter** *vt* emizmoq; **elle veut allaiter son enfant** u bolasini emizmoqchi.

**allant I.** *adj* harakatchan, g'ayratli, jo'shqin; **II.** *nm* qizg'inlik, jo'shqinlik, g'ayrat; g'ayratlilik, serharakatlilik; faollik; **il est plein d'allant** u g'ayratga to'lib turibdi.

**alléchant, ante** *adj* qiziqtiradigan, o'ziga tortadigan, qiziqarli; ishtahani ochadigan; **une proposition alléchante** qiziqarli taklif; **un odeur alléchante** o'ziga tortadigan, ishtahani ochadigan hid.

**allécher** *vt* o'ziga tortmoq, o'ziga jalb etmoq, o'ziga og'dirib olmoq, yo'ldan urmoq; qiziqtirmoq; **allécher les clients** xaridorlarni o'ziga og'dirmoq; **allécher qqn par des promesses** va'dalar berib birovni yo'ldan urmoq, o'ziga og'dirmoq.

**allée** *nf* **1.** tor yo'l, yo'lak; xiyobon; **une allée forestière** o'rmonda ochilgan yo'l; **2.** o'tish joyi, yo'li; **les allées d'une salle de spectacle** tomoshaxonadagi o'tish joylari; **3. les allées et venues** u yoqdan bu yoqqa yurish; **perdre son temps en allées et venues** u yoqdan bu yoqqa yurish bilan vaqtni o'tkazmoq.

**allégation** *nf* aytilgan fikr, da'vo; **il faudra prouver vos allégations** fikringizni da'vongizni tasdiqlashga to'g'ri keladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**allégement** *nm* **1.** yengillatish, ozaytirish; **un allégement de la douleur** qayg'uni yengillatish; **2.** kamaytirish, qisqartirish, ozaytirish, pasaytirish; **un allégement des programmes** dasturni qisqartirish; **un allégement d'impôts** soliqning kamayishi, pasayishi.

**allégorie** *nf* allegoriya, kinoya, qochirim, majoz.

**allégorique** *adj* allegoriyali, kinoyali, majoziy, allegorik; **un roman, une peinture allégorique** kinoyali, qochirimli roman, tasvir.

**allégoriquement** *adv* majoziy ma'noda, majozda.

**allègre** *adj* tetik, bardam, quvnoq, xushchaqchaq.

**allègrement** *adv* **1.** quvnoqlik bilan, tetiklik bilan, zavq-shavq bilan, ko'tarinki ruh bilan; **il part allègrement au travail** u ishga ko'tarinki ruh bilan jo'nab ketyapti; **2.** *péj* yengiltaklik bilan; o'ylamasdan; **il nous a allègrement ruinés** u bizni yengiltaklik bilan xarob qildi.

**allégresse** *nf* xursandchilik, shodlik, shod-xurramlik, quvonch; **un chant d'allégresse** shodlik qo'shig'i; **un jour d'allégresse** quvonchli kun.

**allegro I.** *nm mus* allegro (*tez, jadal ijro etiladigan musiqa asari yoki uning bir qismi*); **II.** *adv* allegro, tez, jadal; **jouer allegro** tez, jadal chalmoq (*musiqa, kuy*).

**allegretto I.** *nm mus* allegretto (*o'rtacha tezlikda allegroga nisbatan sekinroq ijro etiladigan musiqa asari yoki uning bir qismi*); **II.** *adv* allegretto, o'rtacha tezlikda allegroga nisbatan sekinroq.

**alléguer** *vt* dalil qilib keltirmoq, guvoh qilib ko'rsatmoq; **alléguer un texte de loi** qonundan dalil keltirmoq.

**alléluia** *nm* hamdu sano, madh (*nasroniy va iudaizm dinlarida ibodat vaqtida aytiladigan hamdu sano, madh*).

**allemand, ande I.** *adj* nemislarga oid, nemis; **I.** *n* **1.** nemis, nemis ayoli; **2.** *nm* nemis tili.

**aller**[1] **I.** *vi* **1.** yurmoq, siljimoq; **aller à pied** piyoda yurmoq; **aller en voiture** mashinada yurmoq; **aller en train** poyezdda yurmoq; **aller en bateau** kema, paroxodda suzmoq; **aller en avion** samolyotda uchmoq; **aller à bicyclette** velosipedda bormoq; **aller à Moscou** Moskvaga bormoq; **aller en France** Fransiyaga bormoq; **aller de Paris à Rome** Parijdan Rimga bormoq; **ce train va vite** bu poyezd tez yuradi; **2.** olib bormoq; **cette route va à Paris** bu yo'l Parijga olib boradi; **3.** jo'namoq, ketmoq; **aller au bureau** xizmatga, ishga ketmoq; **4.** -ga yetmoq; cho'zilmoq; yastanib yotmoq; **la forêt va jusqu'au lac** o'rmon ko'lgacha cho'zilib yotibdi; **5.** yashamoq, o'zini … his qilmoq; **le malade va mieux** bemor o'zini yaxshi his qilmoqda; **comment allez-vous? – merci, je vais bien** qalaysiz, ahvolingiz qalay? – rahmat, yaxshi yuribman, yaxshi yashab yuribman; **6.** ketmoq; **comment ça va? – merci, ça va bien!** ishlar qalay? – rahmat, ishlar yaxshi, ketyapti; **les affaires vont bien, mal** ishlar yaxshi, yomon ketyapti; **7.** yarashmoq, loyiq kelmoq (*kiyim*); **ce chapeau lui va** bu shlapa unga yarashadi; **8.** to'g'ri kelmoq, mos kelmoq; qanoatlantirmoq; **ça me va** bu menga to'g'ri keladi; **9.** *o'zidan keyingi infinitiv bilan birga yaqin kelasi zamonni yasaydi:* **nous allons rester ici** biz bu yerda qolamiz; **il va partir dans un instant** u hozir jo'nab ketadi; **10. je suis allé me promener** men sayr qilishga, sayr qilish maqsadida bordim; **11.** undov so'z; **allons! allez!** qani, boshladik! boshlang! **12. vous y allez fort!** siz juda oshirib yubordingiz; **il y va de notre vie** bizning hayotimiz haqida gap ketyapti; **13. depuis un an il laisse tout aller** bir yildan buyon u hamma narsani tashlab qo'ydi; **laisser aller ses affaires** ishlarini tashlab qo'ymoq; **ne la laisse pas aller là-bas** uni u yoqqa kiritma; **II. s'en aller** *vpr* **1.** ketmoq, ketib qolmoq; **il s'en va** u jo'nab ketyapti; **2.** tozalamoq; ketmoq, toza bo'lmoq; **les taches d'encre s'en vont avec ce produit** bu mahsulot siyoh dog'larini ham ketkizadi.

**aller**[2] *nm* **1.** bir tomonga yo'naltirilgan harakat, borish; **j'ai pris à l'aller le train du matin** borishda ertalabki poyezdga o'tirdim; **2.** poyezdning bir tomonga borish chiptasi; **un aller pour Marseille** Marselga borish uchun chipta bering; **un aller et retour** borish-kelish chiptasi; **au pis aller** juda bo'lmaganda, hech bo'lmasa, zo'r kelsa; **c'est un pis aller** bu ilojsiz holatdir.

**allergie** *nf* allergiya (*organizmda yot modda, mikrob yoki ularning mahsuli tufayli yuzaga keladigan, organizm reaksiyasining keskin susayishi, yoki kuchayishidan iborat kasallik*); **souffrir d'une allergie à qqch** biror narsaga allergiklikdan azoblanmoq.

**allergique** *adj* **1.** allergiyaga oid, allergiya tufayli yuzaga keladigan, allergik; **2.** allergik, allergiyasi bor; **il est allergique au blanc d'œuf** tuxumning oqiga allergiyasi bor; **3.** *fam* chidamsiz, chidash berolmaydigan, bardosh berolmaydigan; toqat qilolmaydigan.

**alliage** *nm* **1.** qotishma (*metall*); aralashma; **un alliage de cuivre et d'étain** mis va qalay qotishmasi; **2.** *fig* aralashma, qorishma; **un alliage de sentiments contradictoires** qarama-qarshi hislarning qorishmasi.

**alliance** *nf* **1.** ittifoq, birlik; **conclure, dénoncer une alliance** birlik haqida shartnoma tuzmoq, bekor qilmoq; **un traité d'alliance** ittifoq haqida shartnoma; **2.** birlashma, ittifoq, blok; **alliance défensive** mudofaa ittifoqi; **3.** *fig* birlashma, birikma, bog'lanish; **une alliance des couleurs** bo'yoqlarning birligi; xillangan bo'yoqlar; **4.** nikoh; er-xotinlik; uylanish; erga tegish; **une alliance heureuse** baxtli nikoh; **les parents par alliance** quda tomondan qarindoshlar; **c'est mon oncle par alliance** erimning, xotinimning amakisi, tog'asi; **5.** nikoh uzugi, ko'zsiz uzuk; **une belle alliance** chiroyli nikoh uzugi; **une alliance en or** tilla nikoh uzugi; **porter une alliance** nikoh uzugini taqib yurmoq.

**allié, ée I.** *adj* ittifoqqa oid, ittifoqchi; **les pays alliés** ittifoqchi mamlakatlar; **II.** *n* ittifoqdosh, ittifoqchi; **les alliés de la grande guerre** birinchi jahon urushidagi ittifoqchilar.

**allier I.** *vt* **1.** eritib ulamoq, qotishtirmoq; aralashtirmoq, qorishtirmoq; **allier l'or et l'argent** oltin va kumushni eritib aralashtirmoq; **2.** birlashtirmoq, qo'shmoq; **allier des peuples, des forces** xalqlarni, kuchlarni bir-biriga qo'shmoq, birlashtirmoq; **3.** *fig* qo'shmoq, bog'lamoq, birlashtirmoq; **allier la théorie à la pratique** nazariyani amaliyot bilan bog'lamoq; **4.** qarindosh-urug'ga aylantirmoq, yaqinlashtirmoq, bir-biriga yaqin qilmoq; **allier deux familles** ikkita oilani qarindosh-urug'ga aylantirmoq; qarindoshlik rishtalari bilan bog'lamoq; **II. s'allier** *vpr* **1.** ittifoqqa kirmoq; ittifoq tuzmoq; **ces deux pays se sont alliés** bu ikki davlat ittifoq tuzdilar; **2.** qotishmoq, qotishma hosil qilmoq; **ces deux métaux s'allient facilement** bu ikki metall oson qotishma hosil qiladi; **3.** to'g'ri, mos, muvofiq kelmoq; yopishib tushmoq, uyg'unlashmoq; **le jaune et le violet s'allient très bien** sariq va binafsha rang bir-biriga juda mos keladi; **4.** qarindosh-urug'ga aylanmoq, yaqinlashmoq; **ces deux familles se sont alliées** bu ikki oila qarindosh-urug'ga aylandilar.

**alligator** *nm* alligator (*Amerika va Sharqiy Osiyo timsohi*).

**allitération** *nf* alliteratsiya (*badiiy nutqda, she'rda bir xil yoki ohangdosh undoshlarning qaytarilishi, ketma-ket kelishi*).

**allo!** *intj* allo!

**allocation** *nf* **1.** mablag' ajratish, pul chiqarish; **2.** nafaqa, yordam pul; **une allocation de chômage** ishsizlar nafaqasi; **les allocations familiales** ko'p bolalilarga beriladigan yordam puli, nafaqa; **toucher une allocation** nafaqa olmoq.

**allocution** *nf* qisqa gap, qisqacha nutq; qisqacha tabrik nutqi; **une allocution d'ouverture** kirish so'zi, kirish nutqi; **prononcer une allocution à la radio** radio orqali qisqa nutq so'zlamoq.

**allogène I.** *adj* chetdan kelgan, kelgindi, musofir; **II.** *n* yerli, mahalliy bo'lmagan odam; **les allogènes** mahalliy bo'lmagan aholi.

**allongé, ée I.** *adj* uzaytirilgan, cho'zilgan, uzaygan, uzunchoq, cho'zinchoq; **II.** *nm pl* o'rinda yotadigan kasallar, og'ir kasallar.

**allongement** *nm* uzaytirish, cho'zish; tortish.

**allonger I.** *vt* **1.** uzaytirmoq, qo'shmoq; **allonger une jupe de quelques centimètres** yubkani bir necha santimetrga uzaytirmoq; **2.** uzatmoq, cho'zmoq; **allonger le cou** bo'ynini cho'zmoq; **allonger les jambes** oyoqni uzatmoq; **allonger le pas** qadamini tezlatmoq; **3.** *fam* urmoq, tepmoq; **allonger une gifle** shapati urmoq; **4.** suyultirmoq; **allonger une sauce** qaylani suyultirmoq; **II.** *vi* uzaymoq (*vaqt*); **les jours allongent** kunlar uzayib qoldi; **III. s'allonger** *vpr* **1.** uzaymoq, cho'zilmoq (*makon va zamonda*); **2.** cho'zilib yotmoq, uzala tushib yotmoq; **il s'est allongé une demi-heure après le dîner** tushlikdan so'ng u yarim soat cho'zilib yotdi.

**allopathie** *nf* allopatiya (*davolash usuli*).

**allouer** *vt* **1.** mablag' ajratmoq, pul ajratmoq; **2.** vaqt bermoq, vaqt ajratmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**allumage** *nm* **1.** yoqish, yondirish, yurgizish (*motor*); **2.** yoqish, yondirish (*yorug'lik manbasi*); **l'allumage d'une lampe** chiroqni yoqmoq.

**allume-feu** *nm* tutantiriq.

**allume-gaz** *nm* gazyoqqich (*gaz plitalari uchun*).

**allumer I.** *vt* **1.** yondirmoq, o't yoqmoq, alanga, o't oldirmoq; **allumer un briquet, une cigarette** zajigalka, sigaretni o't oldirmoq, yoqmoq; **2.** yoritmoq, yorug' qilmoq; **allumer l'escalier** zinani yoritmoq; **allumer le salon** salon, mehmonxonaning chirog'ini yoqmoq; **la chambre est allumée** xona yoritilgan; **3.** *fam* yoqmoq; buramoq (*radio, televizor, isitish vositalari*); **allumer la radio** radioni buramoq, ishga tushirmoq; **allumer la télévision** televizorni yoqmoq; **4.** *litt* **allumer la guerre** urush olovini yoqmoq; **5.** *litt* **allumer le désir de qqn** birovning yuragiga o't yoqmoq, birovni qiziqtirmoq; **II. s'allumer** *vpr* **1.** yonmoq, alanga olmoq; **le bois sec s'allume facilement** quruq o'tin oson yonadi, o't oladi; **2.** yonmoq, yaltiramoq; **ses yeux s'allument** ko'zlari yonardi.

**allumette** *nf* gugurt; **frotter une allumette** gugurt yoqmoq.

**allumeur** *nm* o't oldiruvchi, yondiruvchi; portlatuvchi moslama, portlatgich.

**allumeuse** *nf fam* tannoz, ishvagar ayol.

**allure** *nf* **1.** yurish, qadam tashlash, oyoq olish; **2.** tezlik, yurish; **accélérer l'allure** harakatni, qadamni tezlashtirmoq; **à cette allure** bu tezlikda; **rouler à allure modérée** o'rtacha tezlikda haydamoq; **3.** *fam* ko'rinish, qiyofa; **elle a une drôle d'allure, cette maison** bu uyning tashqi qiyofasi, ko'rinishi juda kulgilidir; **cette affaire prend une mauvaise allure** bu ish yomonlashib ketyapti.

**allusif, ive** *adj* imo-ishorali, kinoyali.

**allusion** *nf* imo-ishora, kinoya; **faire une allusion à** ishora qilmoq.

**alluvial, ale** *adj* o'tirindi, cho'kindi.

**alluvions** *nf pl* o'tirindi, cho'kindi (*oqar suv olib kelgan qum, tosh, balchiq*); **une terre d'alluvions** cho'kindi yer.

**almanach** *nm* **1.** almanax; **2.** kalendar (*oy-kunlarni ko'rsatadigan kitobcha jadval*).

**aloès** *nm* aloe, aloy, sabur.

**aloi** *nm* **1.** proba (*oltin, kumush kabilarning soflik darajasini ko'rsatuvchi raqam*); **2.** *fig* sifat; **de bon aloi** sifati yaxshi; **de mauvais aloi** sifati yomon, sifati past; **les marchandises de bon aloi** sifati yaxshi mahsulot.

**alors** *adv* u vaqtda, unda, u chog'da.

**alors que** *loc conj* xuddi shu vaqtda; **il fait beau chez vous, alors que chez moi on gèle** sizlarda havo yaxshi bo'lib turganda, bizda qattiq sovuq bo'lyapti.

**aloze** *nf* aloza (*seldga yaqin, o'xshash dengiz balig'i*).

**alouette** *nf* to'rg'ay, sufito'rg'ay.

**alourdir I.** *vt* **1.** og'irlashtirmoq, vazminlashtirmoq, og'irlashtirib qo'ymoq; **la pluie alourdit les vêtements** yomg'ir kiyimlarni vazminlashtiryapti; **2.** *fig* og'irlashtirmoq; murakkablashtirmoq, mushkullashtirmoq; **cette tournure alourdit la phrase** bu ibora gapni murakkablashtirmoqda; **II. s'alourdir** *vpr* og'irlashmoq, vazminlashmoq.

**alourdissement** *nm* **1.** og'irlashish, vazminlashish; **un alourdissement d'une démarche** og'ir qadam tashlash, og'ir, salmoqlanib qadam tashlash; **2.** og'irlashish, ortish, mushkullashish (*soliq*).

**aloyau** *nm* lahm go'sht bo'lagi.

**alpaga** *nm* alpaga (*ipak va jundan to'qilgan gazlama*).

**alpage** *nm* tog'dagi yaylovlar.

**alpestre** *adj* Alp tog'lariga oid.

**alpha** *nm* **1.** alfa grek alifbosining birinchi harfi; **l'alpha et l'oméga** avvali va oxiri, ibtido va intiho; **2.** *phys* alfa; **les rayons alpha** alfa-nurlar.

**alphabet** *nm* **1.** alifbo, alfavit; **l'alphabet phonétiqueinternational (A.P.I.)** xalqaro fonetik alifbo; **2.** alifbe (*kitob, darslik*).

**alphabétique** *adj* alifboga oid; **en ordre alphabétique** alifbo tartibida.

**alphabétiser** *vt* o'qish-yozishni o'rgatmoq, savodini chiqarmoq, savodsizlikni tugatmoq.

**alpin, ine I.** *adj* Alp tog'lariga oid; **les chasseurs alpins** Alp o'qchilari (*fransuz armiyasida*); **II.** *nm* Alp o'qchisi (*mergani*).

**alpinisme** *nm* alpinizm (*baland tog'larga, cho'qqilarga ko'tarilish sporti*).

**alpiniste** *n* alpinist, alpinist ayoli (*alpinizm bilan shug'ullanuvchi sportchi*).

**alpique** *adj* Alp tog'lariga va umuman baland tog'larga oid.

**alsacien, ienne I.** *adj* Elzasga oid, Elzas; **II.** *n* **1.** elzaslik kishi; elzaslik ayol; **2.** *nm* Elzas dialekti (*Elzasda gaplashiladigan german dialektlarining majmui*).

**altaïque** *adj* Oltoy o'lkasiga va oltoyliklarga oid.

**altération** *nf* **1.** o'zgartirish, o'zgarish (*asosan yomon tomonga*); **l'altération des couleurs, de la voix, de la santé** ranglar, ovoz, sog'liqning o'zgarishi; **2.** soxtalashtirish; **l'altération des monnaies** soxta pul ishlash; **3.** nurash (*shamol ta'sirida*); **4.** *mus* alteratsiya (*tovushning yarim ohang yoki butunlay bir ohang tushishi yoki ko'tarilishi*).

**altercation** *nf* aytishib qolish; janjal, araz.

**altérer**[1] **I.** *vt* **1.** o'zgartirmoq, o'zgartmoq (*asosan yomon tomonga o'zgartirish*); aynitmoq; **la chaleur altère les denrées** issiq oziq-ovqatni aynitadi (*issiqdan oziq-ovqat ayniydi*); **2.** buzmoq, noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq (*matn, haqiqat*); **altérer un texte** matnni noto'g'ri talqin qilmoq; **altérer la vérité** haqiqatni buzib ko'rsatmoq, aldamoq; **II. s'altérer** *vpr* yomonlashmoq, aynimoq; buzilmoq, o'zgarmoq, yomon bo'lib ketmoq.

**altérer**[2] *vt* **1.** chanqatmoq, tashna qilmoq; **2. altéré de** ishtiyoqmand, hirs qo'ygan; **il est altéré de gloire** u shuhratparast.

**alternance** *nf* **1.** almashinuv; **l'alternance des saisons** fasllarning almashinuvi; **2.** *ling* tovush almashinuvi; **l'alternance vocalique** unlilarning almashinuvi (*masalan:* **je meurs, nous mourons**).

**alternant, ante** *adj* almashinib keladigan; bir-birini almashtiradigan.

**alternatif, ive** *adj* o'zgaruvchan (*elektr quvvati*), almashlab ekiladigan (*ekin*), navbatma-navbat, galma-gal.

**alternative** *nf* **1.** *pl* biror narsaning navbatma-navbat almashinib turishi; **alternative de vent et de pluie** shamol va yomg'irning navbatlanib turishi; **2.** alternativa, tanlash (***1.*** *bir-biriga zid ikki yo'l, imkoniyatdan har biri;* ***2.*** *ishlardan birini tanlash imkoniyati*).

**alternativement** *adv* navbatma-navbat, birin-ketin.

**alterne** *adj* **1.** *géom* qarama-qarshi burchak; **2.** *bot* poya bo'ylab birin-ketin joylashgan (*barg, gul*).

**alterné, ée** *adj* almashinib turadigan, bir-birini almashtiradigan; **les cultures alternées** almashinib, almashlab ekiladigan ekinlar.

**alterner I.** *vi* navbatlashmoq; almashmoq, almashinmoq; **les beaux jours ont alterné avec les jours de pluie** quyoshli kunlar yomg'irli kunlar bilan almashindi; **II.** *vt agr* almashlab ekmoq.

**altesse** *nf* hazrati oliylari, zoti oliylari (*shahzoda va malikaga beriladigan faxriy unvon*).

**altier, ière** *adj* takabbur, kekkaygan; **un caractère altier** takabbur xarakter.

**altimètre** *nm* altimetr, balandlik o'lchagich.

**altitude** *nf* balandlik (*dengiz sathidan baland joy*); **prendre de l'altitude** yuqoriga ko'tarilmoq; **à l'altitude de 2000 mètres** 2000 metr balandlikda; **le vol à haute altitude** yuqorida uchish, baland uchish.

**alto**[1] *nf* kontralto (***1*** *ayollarning eng past ovozi;* ***2.*** *fam shunday ovozli ayol*).

**alto**[2] *nm* alt (*past ovozli qilib yoki puflab chalinadigan musiqa asbobi*).

**altruisme** *nm* altruizm (*o'z manfaatlaridan voz kechib boshqalarga yaxshilik qilish, g'amxo'rlik, saxovat ko'rsatish*).

**altruiste I.** *adj* altruizm prinsiplariga asoslangan, altruistik; **II.** *n* altruist, saxovatpesha, hotamtoy, boshqalarning g'amini yeydigan odam, o'zim bo'lay demasdan, boshqalarga yaxshilik qiluvchi, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi odam.

**aluminium** *nm* aluminiy; **des casseroles en aluminium** aluminiy kastrullar.

**alunir** *vi* oyga qo'nmoq; **les astronautes ont aluni en 1969** astronavtlar 1969 yilda oyga qo'ndilar.

**alunissage** *nm* oyga qo'nish.

**alvéole** *nm* **1.** katak, ko'z, uya (*ari*); **2.** *anat* alveola (*jag' suyaklarida tish ildizlari o'rnashgan uyalar*); **3.** pufakchalar (*o'pka pufakchalari*).

**amabilité** *nf* iltifot, mehribonlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**amadou** *nm* pilik, qov, qovuq (*chaqmoq uchqunidan tutab, o'*t *oladigan paxta kabi narsalar*); **prendre feu comme de l'amadou** jahli tez, jizzaki, qiziqqon bo'lmoq.

**amadouer** *vt* ko'nglini ovlamoq, ko'nglini ovlab yoki og'zini moylab yumshatmoq, tinchlantirmoq; xushomad qilmoq.

**amaigri, ie** *adj* ozib-to'zib ketgan, oriq, ozg'in, nimjon.

**amaigrir I.** *vt* ozdirmoq, ado, tamom qilmoq, oriqlatmoq, ozdirib yubormoq; qoq-suyak qilib qo'ymoq; **II. s'amaigrir** *vpr* oriqlamoq, ozmoq.

**amaigrissant, ante** *adj* ozdiradigan, oriqlatadigan; **suivre un régime amaigrissant** ozdiradigan rejim saqlamoq.

**amaigrissement** *nm* ozish, oriqlash, ozib-to'zish; **son amaigrissement m'inquiète** uning oriqlab ketishi meni xavotirlantirmoqda.

**amalgame** *n. n.* **1.** amalgama (*simobning biror metall bilan qotishmasi*); **2.** *fig* aralash-quralash narsa, qotishma, qurama, omixta; **3.** turli xil kishilar va narsalarning sun'iy qo'shilishi; plomba (*tishdagi kovakni to'ldirish uchun ishlatiladigan modda*).

**amalgamer I.** *vt* **1.** qo'shib aralashma hosil qilmoq; **amalgamer les œufs et la farine** tuxum va unni aralashtirmoq qo'shmoq; **2.** turli moddalarni aralashtirmoq, omixta qilmoq, qo'shmoq; **II. s'amalgamer** *vpr* erib qo'shilib ketmoq; *fig* qo'shilmoq, birlashmoq.

**aman** *nm* rahm, shafqat; omon; **demander l'aman** rahm-shafqat so'ramoq.

**amande** *nf* **1.** bodom (*danagi, mag'zi*); **une amande douce, amère** shirin, achchiq bodom; **2.** mag'iz (*har qanday danakli mevaning mag'zi*).

**amandier** *nm* bodom (*daraxti*).

**amanite** *nf* muxomor (*zaharli zamburug' turi*).

**amant, ante** *nm* o'ynash, jazman.

**amarante I.** *nf bot* amarant; **II.** *adj* to'q qizil, malina rang.

**amarrage** *nm* **1.** shvartov bilan bog'lab qo'yish; langar tashlash; **2.** tekis bog'lash, ulash; tutashtirish.

**amarre** *nf mar* shvartov (*kemani pristanga bog'lashda ishlatiladigan yo'g'on arqon, tros*); langar arqoni, zanjiri; **larguer les amarres** shvartovlarni yechib yubormoq.

**amarrer** *vt* **1.** *mar* shvartov bilan bog'lab qo'ymoq; **amarrer un cargo** yuk kemasini bog'lab qo'ymoq; **2.** mahkamlamoq, arqon, zanjir bilan bog'lab qo'ymoq; **amarrer les caisses sur un camion** mashina ustidagi yashiklarni arqon bilan bog'lab qo'ymoq.

**amas** *nm* uyum, to'plam, to'da.

**amasser I.** *vt* yig'moq, to'plamoq; **amasser de l'argent** pul to'plamoq; **amasser des connaissances** ilm to'plamoq; **II. s'amasser** *vpr* yig'ilmoq, to'plamoq; **la foule s'amasse devant l'immeuble** bino oldida xaloyiq to'planardi.

**amateur** *nm* **1.** ishqiboz, o'ch; **un amateur de peinture** tasviriy san'at, rassomlik ishqibozi; **2.** havaskor, shinavanda; **d'amateur, il est devenu professionnel** havaskorlikdan professional darajasiga yetdi; **3.** *fam* xaridor; **cette belle pièce n'a pas trouvé amateur** bu ajoyib tanganing xaridori topilmadi; **4.** *péj* xalturachi, pala-partish, chala-chulpa ish qiluvchi; yengil-yelpi ishlab pul topadigan odam; **travailler en amateur** yengil-yelpi, pala-partish ish qilmoq.

**amateurisme** *nm* **1.** havaskorlik, ishqibozlik; **2.** *péj* yuzakichilik, yuzaki ishqibozlik, shunchaki qiziqish.

**amazone** *nf* otliq ayol; **monter en amazone** egarga bir tomonlama o'tirmoq, oyoq'larini bir tomonga qilib o'tirmoq.

**ambages** *nf pl* **parler sans ambages** kinoyasiz gapirmoq; to'ppa-to'g'risini dangal, ro'y-rost aytmoq.

**ambassade** *nf* **1.** elchixona; **un conseiller d'ambassade** elchixona maslahatchisi; **2.** topshiriq, vazifa; **envoyer, aller en ambassade auprès de** nozik topshiriq, vazifa bilan jo'natmoq, bormoq.

**ambassadeur, drice** *n* **1.** elchi; **l'ambassadeur extraordinaire et plénipotentiaire** favqulodda va muxtor elchi; **madame l'ambassadeur** *ou* **madame l'ambassadrice** elchi janoblari, elchi xonim; **2.** *fig fam* vakil; **soyez mon ambassadeur auprès de lui** uning oldida mening vakilim bo'ling; **3.** *nf* elchining xotini.

**ambiance** *nf* **1.** muhit, atrof; atmosfera, iqlim; sharoit; **une ambiance de camaraderie** birodarlik muhiti; **ambiance joyeuse** xushchaqchaq vaziyat; **2.** o'yin-kulgi, xursandchilik, vaqtichog'lik, vaqtixushlik.

**ambiant, ante** *adj* o'rab turgan, o'rab turuvchi, o'rab olgan, atrofdagi, yon-veridagi; **la température ambiante** atrofdagi havo temperaturasi.

**ambigu, uë** *adj* ikki xil ma'noga, mazmunga ega bo'lgan ikki xil ma'noli; **une réponse ambiguë** ikki xil ma'noli javob.

**ambiguïté** *nf* ikki ma'nolilik; **sans ambiguïté** aniq, ochiq-oydin, mujmal qilmasdan.

**ambitieusement** *adv* izzatparastlik bilan, shuhratparastlik bilan.

**ambitieux, euse I.** *adj* **1.** shuhratparast, izzattalab, mulozamatni yaxshi ko'radigan; **une femme ambitieuse** shuhratparast, izzattalab ayol; **2.** o'ziga ortiq darajada ishongan; o'ziga juda bino qo'ygan; **II.** *n* shuhratparast, izzat talab odam; amalparast, mansabparast.

**ambition** *nf* **1.** shuhratparastlik; amalparastlik; **2.** kuchli xohish, orzu, ezgu tilak.

**ambitionner** *vt* ta'magir bo'lmoq, intilmoq, xohlamoq.

**ambivalence** *nf* **1.** ikkitaraflamalik, ikkiyoqlilik; **2.** ikkiyuzlamachilik; **3.** ikkilanish; **l'ambivalence de ses sentiments** his-tuyg'ularining ikkitaraflamaligi; ikki xil.

**ambivalent, ente** *adj* **1.** ikki xil, qarama-qarshi; **2.** ikki yuzlama; goh u yoqqa goh bu yoqqa og'ib turish; **3.** ikki taraflama, ikki taraf o'rtasidagi.

**amble** *nm* yo'rg'alash, yo'rg'alab yurish; **aller l'amble** yo'rg'alab yurmoq.

**ambre** *nm* **ambre gris** anbar; **ambre jaune** qahrabo; **collier d'ambre** qahrabodan qilingan munchoq.

**ambré, ée** *adj* **1.** anbar hid taratadigan; **2.** qahrabo rangli, oq sariq, tiniq sariq, qahrabo.

**ambroisie** *nf* **1.** yunon afsonalarida ilohlarning ovqati; **2.** *fig* lazzatli taom.

**ambulance** *nf* **1.** tez yordam mashinasi; **2.** *vx* harakatdagi gospital, dala gospitali.

**ambulancier, ière 1.** tez yordam mashinasining haydovchisi; **2.** sanitar; sanitarka.

**ambulant, ante I.** *adj* **1.** sayyor, ko'chma; **bibliothèque ambulante** ko'chma kutubxona; **2.** elma-el ko'chib yuruvchi; ko'cha-ko'ylarda yuradigan, sayoq; **II.** *nm* pochta vagonlarida xat, jo'natma kabilarni manzillari bo'yicha ajratadigan xodim.

**âme** *nf* **1.** jon, ruh; **union de l'âme et du corps** jon va tanning qo'shiluvi, birligi; **rendre l'âme** bandalikni bajo keltirmoq, o'lmoq, qazo, vafot qilmoq, jon bermoq; **2.** qalb, ko'ngil, yurak; **belle âme** ajoyib qalb; **âme noble** olijanob, oliyhimmat qalb; **âme pur** sof qalb, ko'ngil; **âme tendre** yumshoq ko'ngil; **âme sensible** sezuvchan, sezgir qalb; **de toute son âme** chin qalbdan; **jusqu'au fond de l'âme** yurak-yuragigacha; **chanter avec âme** chin qalbdan, berilib, zavq bilan kuylamoq; **3.** *fig* joni, jonu dili, yuragi; **4.** odam, kishi, jon; **ville de vingt mille âmes** yigirma ming aholi yashaydigan shahar; **il n'y a pas âme qui vive** biron tirik jon yo'q; **5.** *techn* o'zak; **âme d'un câble** kabel o'zagi; **6.** *mil* stvol kanali (*o'q otish qurollarida*).

**amélioration** *nf* **1.** sog'ayish, tuzalish, yaxshilanish; **amélioration de la santé d'un malade** bemor ahvolining yaxshilanishi; **2.** yaxshilash; takomillashtirish.

**améliorer I.** *vt* yaxshilamoq, sozlamoq; takomillashtirmoq; **améliorer sa situation** o'z sharoitini yaxshilamoq; **améliorer un texte, une traduction** matn, tarjimani takomillashtirmoq; **II. s'améliorer** *vpr* yaxshilanmoq, o'nglanmoq, takomillashmoq; **sa santé s'améliore de jour en jour** uning ahvoli kundan-kunga yaxshilanmoqda.

**amen I.** *nm* fotiha, omin; **II.** *adv* omin; **dire amen à, répondre amen** rozi bo'lmoq.

**aménagement** *nm* to'g'rilash, jihozlash, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, tartibga solish; **aménagement d'une maison** uyni jihozlash; **aménagement d'un paquebot**, **aménagement d'une usine** kema, zavodni jihozlash, asbob-uskuna bilan ta'minlash.

**aménager** *vt* to'g'rilamoq, tartibga solmoq; jihozlamoq, asbob-uskuna bilan ta'minlamoq; **le rez-de-chaussée avait été aménagé en laboratoire** birinchi qavat laboratoriyaga aylantirildi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**amende** *nf* jarima; **payer une amende** jarima to'lamoq; **il a été condamné à une amende de 100 euros** unga 100 evro jarima solindi; **mettre à l'amende** jazolamoq; **amende honorable** aybiga iqror bo'lish; uzr, tovba, o'kinish; **faire amende honorable** aybiga iqror bo'lmoq; qilmishiga pushaymon bo'lmoq, uzr so'ramoq.

**amendement** *nm* **1.** yaxshilanish, yaxshi tomonga o'zgarish, o'nglanish; **2.** *polit* o'zgartirish, tuzatish (*qonun loyihasi*); **3.** *agr* o'g'it, go'ng; yerni o'g'itlash, go'nglash, yerning hosildorligini oshirish.

**amender I.** *vt* **1.** yaxshilamoq, o'nglamoq, to'g'rilamoq; **2.** *polit* **amender un projet** loyihaga tuzatish kiritmoq; **3.** *agr* o'g'itlamoq, o'g'it, go'ng solmoq; **amender la terre** yerni o'g'itlamoq; **II. s'amender** *vpr* yaxshilanmoq, to'g'rilanmoq.

**amène** *adj* xushmuomala, ochiq yuz, ochiq ko'ngil, mehribon.

**amenée** *nf techn* suv uzatish; suv berish; **tuyau d'amenée** suv kiritadigan quvur, suv kiritishga mo'ljallangan quvur.

**amener I.** *vt* **1.** olib kelmoq, keltirmoq, boshlab olib kelmoq; **amener qqn chez qqn, à qqn** birovni birovninkiga, birov oldiga olib kelmoq; **amenez votre sœur** singlingizni, opangizni olib keling; **2.** tashimoq, tashib kelmoq; **amener des marchandises en bateau** tovarlarni kemada tashib kelmoq; **3.** olib bormoq yoki olib kelmoq; **le taxi vous amènera directement à la gare** taksi sizni to'g'ri vokzalga olib boradi; **amener l'eau dans la ville** shaharga suv keltirmoq; **on a amené le courant électrique jusqu'au village** qishloqqa elektr chirog'ini olib bordilar; **4.** (**sur qqch**) burmoq; **il a amené la conversation sur son sujet favori** u gapni o'zi yoqtirgan mavzuga burib yubordi; **5.** keltirib chiqarmoq, olib kelmoq; sabab bo'lmoq; **l'hiver amène des souffrances pour les sans-abri** qish uysizlarga tashvish olib keladi; **son métier l'amène à voyager** uning kasbi uni sayohat qilishiga sabab bo'lmoqda; **6.** *mar* tushirmoq; **amener les voiles** yelkanlarni tushirmoq; **II. s'amener** *vpr fam* kelmoq; **tu t'amènes?** kelyapsanmi?

**aménité** *nf* xushmuomalalik, ochiq yuzlik; mehribonlik; **répondre sans aménité** qo'pollik bilan javob bermoq; **échanger des aménités** bir-biriga shirin gaplar gapirishmoq.

**amenuisement** *nm* yupqarish, ingichkalashish, xipchalashish, ozayish, kamayish.

**amenuiser I.** *vt* **1.** ingichka qilmoq, ingichkalamoq, ingichkalashtirmoq; yupqa qilmoq, yupqalashtirmoq; **2.** kamaytirmoq, ozaytirmoq, qisqartirmoq; **amenuiser les chances de succès** muvaffaqiyatga bo'lgan imkoniyatni kamaytirmoq; **II. s'amenuiser** *vpr* kichraymoq, ozaymoq, kamaymoq; **tes chances de réussir s'amenuisent** uddasidan chiqish imkoniyating kamaymoqda; **ses ressources s'amenuisent** uning manbalari ozaymoqda.

**amer, ère** *adj* achchiq, taxir; **j'ai la bouche amère** og'zim taxir; **confiture d'oranges amères** taxir apelsin murabbosi; **2.** *fig* achchiq, alamli, hasratli; og'ir, qayg'uli; **sourire amer** achchiq kulgi; **douleur amère** kuchli og'riq; **verser des larmes amères** achchiq ko'z yoshi to'kmoq, zor-zor yig'lamoq.

**américain, aine I.** *adj* Amerika va amerikaliklarga oid; amerika; **le continent américain** Amerika; **II.** *n* **1.** Amerika Qo'shma Shtatlarining aholisi, amerikalik; **2.** *nm* ingliz tilining amerika varianti.

**américanisation** *nf* amerikanizatsiya.

**américaniser I.** *vt* amerikacha ko'rinish, xarakter, tus bermoq; **II. s'américaniser** *vpr* amerikacha ko'rinish, xarakter, tus olmoq; amerikacha tusga kirmoq; **l'Europe s'américanise** Evropa amerikacha tus olmoqda.

**américanisme** *nm ling* amerkanizm (*ingliz tilining Amerikaga xos leksik elementi yoki xususiyati*).

**amerrissage** *nm* suvga qo'nish.

**amerrir** *vi* suvga qo'nmoq.

**amertume** *nf* **1.** achchiq ta'm, taxir maza; **2.** *fig* alam, dog'; **il pensait avec amertume à toutes ces belles années perdues** u besamar o'tgan ajoyib yillar haqida alam bilan o'ylardi.

**améthyste** *nf* ametist (*safsar yoki ko'kish safsar rangli mineral, qimmatbaho tosh*).

**ameublement** *nm* yasog'lik mebellar, uy jihozlari; mebellar.

**ameublissement** *nm* chopish, haydab yoki ketmonlab yumshatish.

**ameublir** *vt* chopmoq, haydab yoki ketmonlab yumshatmoq; **ameublir la terre avant de la cultiver** ekishdan avval yerni chopmoq, yumshatmoq, boronalamoq.

**ameuter I.** *vt* **1.** shovqun-suron qilib yig'moq, to'plamoq; **ameuter la foule** xalqni yig'moq, to'plamoq; **2.** bir-biriga matashtirmoq (*itlarni, ov paytida*); **II. s'ameuter** *vpr* dushmanlik qilish maqsadida to'planmoq.

**ami, ie I.** *n* **1.** do'st, o'rtoq, oshno; dugona; **vieil ami** eski, qadrdon do'st; **amie d'école** maktabdosh dugona; **véritable ami** haqiqiy do'st; **ami fidèle** sodiq, vafodor do'st; **agir en ami** do'stlarcha harakat qilmoq, ish tutmoq; **être amis** do'st bo'lmoq; **2.** do'st, tarafdor, yoqlovchi, himoya qiluvchi; **ami de la vérité** haqiqat uchun kurashchi, haqiqat tarafdori; **les amis du livre** kitobsevarlar; **3.** o'ynash, jazman; **II.** *adj* **1.** do'stona, do'stlarcha, samimiy; do'stlik; do'stlar; o'rtoqlik; **main amie** do'stlik qo'li; **2.** do'st, ahil, inoq, totuv, do'stona munosabatdagi; **nations amies** do'st mamlakatlar; **troupes amies ou alliées** ittifoqdosh qo'shinlar.

**amiable (à l')** *loc adv* do'stona, do'stlarcha; **régler une question à l'amiable** masalani do'stona hal qilmoq.

**amiante** *nm* asbest, toshtaxta.

**amibe** *nf zool* amyoba.

**amibien, ienne** *adj* amyobaga oid, amyoba; **dysenterie amibienne** amyoba keltirib chiqargan dizenteriya.

**amical, ale I.** *adj* do'stona, samimiy; **sentiments amicaux** do'stona his-tuyg'u; **des relations amicales** do'stona munosabatlar; **II.** *nf* jamiyat, birlashma, uyushma; **amicale d'instituteurs** maktab o'qituvchilarining uyushmasi; **amicale sportive** sport jamiyati.

**amicalement** *adv* do'stlarcha, do'stona; **bien amicalement à vous** do'stona salom bilan.

**amide** *nm chim* amid (*karbon kislotalar tarkibidagi gidroksil OH aminogruppa* $NH_2$ *bilan almashingandan keyin hosil bo'lgan organik birikma, birikmalarni sintez qilishda erituvchi sifatida qo'llaniladi*).

**amidon** *nm* ohor, kraxmal.

**amidonnage** *nm* ohorlash, kraxmallash.

**amidonner** *vt* ohorlamoq, ohor bermoq, kraxmallamoq; **col amidonné** ohorlangan yoqa.

**amincir I.** *vt* ingichka qilib ko'rsatmoq; **sa robe noire l'amincissait** qora ko'ylagi uni ingichka qilib ko'rsatardi; **II.** *vi* ingichka bo'lmoq, yupqarmoq; **III. s'amincir** *vpr* ingichkalashmoq, yupqarmoq.

**amincissement** *nm* **1.** yupqarish, ingichkalanish; **2.** *techn* yeyilish, yeyilib ketish; siyqalanish.

**aminé, ée** *adj* **acide aminé** aminokislota.

**amiral I.** *nm* admiral; **II.** *adj* admiralga va admirallikka oid, admirallik, admiral; **vaisseau amiral** flagman kemasi, flagman turadigan kema.

**amirauté** *nf* **1.** Oliy Harbiy dengiz boshqarmasi; **2.** harbiy flot boshqarmasi joylashgan bino.

**amitié** *nf* **1.** do'stlik; **grande amitié** qadrdon do'stlik; **solide amitié** mustahkam do'stlik; **amitié désintéressée** manfaatni ko'zlamagan do'stlik; **amitié des peuples** xalqlar do'stligi; **amitié franco-ouzbek** fransuz-o'zbek do'stligi; **traité d'amitié** do'stlik bitimi; **se lier d'amitié avec qqn** birov bilan do'stlashmoq; **avoir de l'amitié pour qqn** birovni yaxshi ko'rmoq; **des relations d'amitié** do'stlik rishtalari; **vivre en amitié** inoq yashamoq; **2.** salom (*hurmat, tabrik kabi ma'nolarda*); **faites-lui toutes mes amitiés** unga mendan salom ayting.

**ammoniac** *nm chim* ammiak.

**ammoniaque** *nf* ammiak eritmasi, nashatir spirti.

**amnésie** *nf* amneziya, xotiraning susayishi yoki yo'qolishi.

**amnésique I.** *nm* butunlay yoki vaqtincha xotirasi susaygan yoki yo'qolgan kishi; **II.** *adj* butunlay yoki vaqtincha xotirasini qisman yoki butunlay yo'qotgan; **devenir amnésique** xotirasini qisman yoki butunlay yo'qotmoq.

**amnistie** *nf* amnistiya, umumiy afv; **accorder une amnistie** afv etmoq.

**amnistier** *vt* amnistiya qilmoq, amnistiya bo'yicha afv etmoq, gunohidan o'tmoq, jazodan ozod qilmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**amocher** *vt fam* **1.** buzmoq, aynitmoq; yomon ta'sir ko'rsatmoq; **2.** xunuk qilib yubormoq, dabdalasini chiqarmoq; **3.** mayib qilmoq, nogiron qilib qo'ymoq.

**amoindrir I.** *vt* pasaytirmoq, kamaytirmoq (*kuch, qiymat, ahamiyat*); **je ne cherche pas à amoindrir son mérite** men uning xizmatini kamaytirmoqchi emasman; **II. s'amoindrir** *vpr* ozaymoq, pasaymoq, kamaymoq.

**amoindrissement** *nm* ozayish, pasayish, kamayish.

**amollir I.** *vt* yumshatmoq, eritmoq; **la chaleur amollit le beurre** yog' issiqdan yumshab ketdi, issiq yog'ni yumshatib yubordi; **2.** *fig* bo'shashtirmoq, bo'shashtirib yubormoq; nozik qilib qo'ymoq; **II. s'amollir** *vpr* **1.** yumshamoq, erimoq; **2.** bo'shashmoq, noziklashmoq.

**amolissant, ante** *adj* bo'shashtiradigan.

**amollissement** *nm* **1.** bo'shashish, yumshash, erish; noziklashish; **2.** bo'shab ketganlik, yumshaganlik, yumshoqlik.

**amonceler I.** *vt* to'plamoq, yig'moq, to'dalamoq, uymoq, uyib qo'ymoq; **amonceler des documents** hujjatlarni yig'moq; **II. s'amonceler** *vpr* yig'ilmoq, to'planmoq; **les nuages s'amoncellent** bulutlar yig'ilmoqda.

**amoncellement** *nm* **1.** yig'ish, to'plash, uyish, uyib qo'yish; **2.** yig'ilganlik, to'planganlik.

**amont** *nm* oqimning yuqori tomoni (*daryoning suv kelayotgan va boshlanish joyigacha bo'lgan qismi*); **pays d'amont** daryoning yuqorisi, boshi va shu yerlarga yaqin joylar; **aller en amont** oqim bo'ylab yuqoriga ko'tarilmoq.

**amoral, ale** *adj* amoral, axloq qoidalariga xilof, axloqsiz.

**amoralisme** *nm* amoralizm, axloqsizlik (*axloq qoidalarini va umuman axloqni inkor etish, buzish*).

**amorçage** *nm* ishga tushirish; yurgizib yuborish; **amorçage d'une pompe** nasosga suv to'ldirish.

**amorce** *nf* **1.** xo'rak, yem (*qarmoqda*); **2.** zapan, pilta, piston (*porox yoki portlovchi moddani portlatish uchun*); **3.** boshlanish, debocha; **cette rencontre pourrait être l'amorce d'une négociation véritable** bu uchrashuv haqiqiy munozaralar uchun debocha bo'lishi mumkin.

**amorcer** *vt* **1.** xo'rak ilib qo'ymoq (*qarmoqqa*); xo'rak hidini taratib baliqni jalb etmoq; **2.** pilta, piston qo'ymoq (*portlovchi moddalar uchun*); **3.** harakatga keltirmoq, yurgizib yubormoq; ishga solmoq; **amorcer une pompe** nasosni ishga solmoq; **4.** jalb qilmoq, qiziqtirmoq; **5.** boshlamoq, kirishmoq; **amorcer une conversation** gap boshlamoq.

**amorphe** *adj* **1.** *minér* amorf, mo'rt, kristallanmagan, kristal tuzilishiga ega bo'lmagan; **2.** bo'shashgan, shalviragan; lanj, sust, so'ngan, xira, nursiz; **caractère amorphe** sust, shalviragan xarakter; **regard amorphe** so'nmoq, xira, nursiz nigoh.

**amortir** *vt* **1.** amortizatsiyalamoq (*amortizatsiya miqdorini belgilamoq va uni qoplash uchun mablag' ajratmoq yoki chegirmoq*); **2.** *techn* amortizatsiyalamoq, zarbni, urilishni yumshatmoq; **amortir un coup** zarbni yumshatmoq; **3.** qarzni to'lamoq, pulini qaytarib bermoq, uzmoq; **4.** *fig* **amortir une peine** jazoni yengillashtirmoq.

**amortissement** *nm* **1.** yumshatish, urilish zarbini kamaytirish, kuchini qirqish; **amortissement d'un choc** zarbani, urilishni yumshatish; **2.** asta-sekin qarzni to'lash; **3.** *fin* amortizatsiya (*bino, inshoot, mashina kabilar qimmatining eskirishi, to'zish natijasida kamayib borishi va uni qoplash uchun belgilangan chegirma*).

**amortisseur** *nm techn* amortizator.

**amour** *nm* **1.** sevgi, ishq, muhabbat; mehr; **amour de la patrie** vatanga muhabbat, vatanni sevish; **amour maternel** onalik mehri, ona mehri; **amour de l'humanité** insoniyatga muhabbat, insonlarni sevish; **pour l'amour de** sevganidan, mehr qo'yganidan; **avoir de l'amour pour qqn** sevmoq, muhabbat qo'ymoq; **faire l'amour** birov bilan jinsiy aloqada bo'lmoq; **2.** suyukli kishi; **mon amour** jonim, jonginam, azizim; **3.** *fam* go'zal, chiroyli, ajoyib; **cette fillette-là, c'est un amour** bu qizcha, u juda ajoyib; **vous avez un amour de chapeau** sizning shlapangiz juda ajoyib, chiroyli.

**amouracher (s')** *vpr* maftun bo'lmoq, shaydo bo'lmoq, yaxshi ko'rib qolmoq (*tez, birdaniga sevib qolish, o'tkinchi sevgi*); **il s'est amouraché d'une petite actrice** u bir kichik aktrisani birdaniga sevib qoldi.

**amourette**[1] *nf* o'tkinchi sevgi, muhabbat.

**amourette**[2] *nf bot* marvaridgul va ovqatga ishlatiladigan ba'zi o'tlarning nomi.

**amourettes** *nf pl* ilik, ilik ovqat.

**amoureusement** *adv* **1.** oshiqona, oshiqlardek; **2.** mehr bilan; **les objets d'art qu'il avait amoureusement rangés dans les vitrines** vitrinalarga u mehr bilan tergan san'at asarlari.

**amoureux, euse I.** *adv* **1.** sevib, oshiq bo'lib qolgan, oshifta; **être amoureux de** oshiq bo'lib qolmoq, sevmoq; **tomber amoureux de** sevib qolmoq; **2.** oshiqona, oshiqlardek; **regards amoureux** oshiqona qarash; **3.** ishqiboz bo'lib qolgan, shaydo, savdoyi; **devenir amoureux de la nature** tabiat shaydosi bo'lib qolmoq; **II.** *n* **1.** oshiq, xushtor; ma'shuqa; **2.** *pl* oshiq-ma'shuqlar.

**amour-propre** *nm* izzat-nafs, nafsoniyat, ta'bi noziklik, obro'talablik, izzattalablik, hurmattalablik; **blesser l'amour-propre de qqn** kimsaning nafsoniyatiga tegmoq; **il est pétri d'amour-propre** u juda izzattalab.

**amovibilité** *nf* almashinuvchanlik; o'zgaruvchanlik.

**amovible** *adj* **1.** almashinuvchan; o'zgarsa bo'ladigan, qayta saylanadigan; o'rniga boshqasini qo'ysa bo'ladigan; **un magistrat amovible** o'zgartirsa bo'ladigan, qayta saylasa bo'ladigan sudya; **2.** *techn* almashtirsa bo'ladigan; o'rniga boshqasini qo'ysa bo'ladigan; **roue amovible** almashinuvchan g'ildirak; **doublure amovible** yechiladigan astar.

**ampère** *nm phys* amper.

**amphi** *voir* **amphithéâtre**.

**amphibie I.** *adj* **1.** *zool bot* ham quruqlikda, ham suvda yashay oladigan (*hayvonlar va o'simliklar*); **la grenouille est un animal amphibie** baqa ham suvda, ham quruqlikda yashay oladigan jonivor; **2.** ham suvda, ham quruqlikda yura oladigan; **voiture amphibie** ham suvda, ham quruqlikda yura oladigan mashina; **II.** *nm* **1.** ham suvda, ham quruqlikda yashay oladigan jonivor; **2.** ham suvda yura oladigan; ham suvdan, ham quruqlikdan uchib, yana qayta qo'na oladigan mashina (*tank, avtomobil, samolyot*); **avion amphibie** samolyot-amfibiya.

**amphibologie** *nf* ikki ma'nolilik; qochirim, qochirimli, pichingli gaplar.

**amphibologique** *adj* ikki xil ma'noli; qochirimli, pichingli.

**amphithéâtre** *nm* amfiteatr (***1.*** *Yunoniston va qadimgi Rimda ochiq tomoshagoh va uning doiraviy va yarim doiraviy balandlab boruvchi o'rinlari;* ***2.*** *hozirgi tomosha zallarida porterdan keyingi, balandlab boruvchi o'rinlar;* ***3.*** *o'quv yurtlarida ma'ruza o'qiladigan keng, o'rindiqlari balandlab boruvchi o'quv xonalari*).

**amphitryon, onne** *n litt* ziyofat berayotgan mezbon.

**amphore** *nf* amfora, qo'shquloq sopol xum.

**ample** *adj* **1.** keng, to'kis (*kiyim*); **manteau ample** palto; **2.** *fig* mo'l-ko'l, serob; ancha, nisbatan ko'p; kuchli; **voix ample** kuchli, tebranish doirasi keng ovoz; **ample provision** mo'l-ko'l oziq-ovqat zaxirasi; **3.** keng, cheksiz, keng yoyilgan; har taraflama keng, ko'lami keng; mukammal.

**amplement** *adv* mukammal, mufassal, mo'l-ko'l.

**ampleur** *nf* **1.** kenglik, to'kislik; **donner de l'ampleur à une robe** ko'ylakni kengaytirmoq; **le veston manque d'ampleur aux épaules** kostumning yelkalari tor; **2.** *fig* kenglik; bepoyonlik, cheksizlik, har taraflamalik; jarangdorlik; tebranish kengligi; **grande ampleur de vues** qarashlarning kengligi; **ampleur de la voix** ovozning jarangdorligi; **3.** katta hajm, ko'lam; faoliyat doirasining kengligi, ko'lami, miqyos, keng yoyilish; **ampleur des moyens des informations** axborot vositalarining katta miqdori; **ampleur des dégâts** zararning hajmi; **manifestation d'une ampleur exceptionnelle** g'oyat keng quloch yoygan namoyish; **prendre de l'ampleur** keng yoyilmoq, keng quloch yoymoq.

**amplificateur** *nm* kuchaytirgich (*ovoz, elektr quvvati kabilarni*).

**amplification** *nf* **1.** kuchaytirish, kengaytirish; **amplification du son** ovozni kuchaytirish; **2.** bo'rttirib ko'rsatish; **amplification littéraire** badiiy bo'rttirib ko'rsatish (*tema, voqelik*); *péj* ortiqcha so'zlarning ko'pligi, cho'zilganlik, ezmalik.

**amplifier** *vt* **1.** kuchaytirmoq, ko'paytirmoq; kengaytirmoq; **amplifier un son** ovozni kuchaytirmoq; **amplifier les échanges commerciaux** savdo aloqalarini kengaytirmoq; **2.** bo'rttirib, oshirib ko'rsatmoq; **amplifier le**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**scandale** janjalni bo'rttirib ko'rsatmoq; **3.** *litt* rivojlantirmoq; **amplifier un thème** temani rivojlantirmoq, yoritmoq.

**amplitude** *nf* **1.** miqyos, ko'lam, daraja; o'lcham, katta-kichik; **amplitude d'un désastre** ofat, falokatning ko'lami; **2.** *phys* amplituda; **mesurer l'amplitude d'un son** ovoz amplitudasini o'lchamoq; **amplitude des oscillations** tebranish amplitudasi.

**ampoule** *nf* **1.** elektr lampa, lampochka; **l'ampoule est grillée, il faut la changer** lampochka kuyibdi, uni almashtirish kerak; **2.** ampula, shisha (*dori shu kabilar quyib og'zi payvandlangan naycha*); **3.** *anat* po'rsildoq, qavariq, g'urra (*turli organlarning naycha shaklidagi pufakchasi*); **des ampoules aux mains, aux pieds** qo'l, oyoqlardagi po'rsildoq.

**ampoulé, ée** *adj* balandparvoz, dabdabali (*stil, uslub, ifoda*).

**amputation** *nf* **1.** *med* amputatsiya, kesib tashlash; **faire une amputation** tananing biror azosini kesib tashlamoq; **2.** *fig* qisqartirish, kesish.

**amputé, ée I.** *adj* amputatsiya qilingan; **II.** *nm* nogiron.

**amputer** *vt* **1.** amputatsiya qilmoq, jarrohlik yo'li bilan kesib tashlamoq; **amputer une jambe** oyoqni kesib tashlamoq; **2.** *fig* tashlamoq, qisqartirmoq; **amputer un article** maqolani qisqartirmoq; **amputer les crédits de plusieurs millions de francs** kreditni bir necha million frankka qisqartirmoq, ozaytirmoq.

**amulette** *nf* tumor.

**amusant, ante** *adj* qiziq, qiziqarli, maroqli, g'alati; **jeu amusant** qiziqarli o'yin.

**amuse-gueule** *nm fam* yengil gazak; *fig* daromad, xamir uchidan patir.

**amusement** *nm* **1.** ko'ngil ochish, vaqtichog'lik, o'yin-kulgi, ermak; **résoudre un problème est pour lui un amusement** masala yechish uning uchun ermak, ko'ngil ochishdir; **par amusement** ko'ngil ochish uchun; **2.** ovunchoq, ermak.

**amuser I.** *vt* **1.** ko'ngil ochmoq, vaqtni chog' qilmoq, ovuntirmoq; **amuser les spectateurs** tomoshabinlarni vaqtini chog' qilmoq; **sa conversation m'amuse toujours** uni gaplari meni har doim ovuntiradi; **2.** diqqatini boshqa narsaga burmoq; alahsitmoq, chalg'itmoq; **II. s'amuser** *vpr* **1.** ko'nglini ochmoq, vaqtni chog' qilmoq; ovunmoq, o'ynamoq, ermak qilmoq; **les enfants s'amusent dans le jardin** bolalar bog'da o'ynamoqdalar, vaqtichog'lik qilmoqdalar; **le chat s'amuse avec la souris** mushuk sichqon bilan o'ynayapti; **il ne pense qu'à s'amuser** u faqat vaqtini chog' qilishni o'ylaydi; **il s'amuse au lieu de travailler** u ishlash o'rniga ko'ngil ochish bilan mashg'ul; **il s'amuse à dessiner** u jon-dili bilan rasm solmoqda; **les enfants s'amusent à lancer la balle contre le mur** bolalar koptokni devorga urib o'ynamoqdalar; **amusez-vous bien** vaqtni ko'ngilli o'tkazishingizni tilayman; **2.** (**de qqn**) ustidan kulmoq, masxara qilmoq; **3.** alahsimoq, chalg'ib ketmoq, shu tariqa vaqtini yo'qotmoq; **ne vous amusez pas en chemin** yo'lda alahsib qolmanglar.

**amusette** *nf* ermak, ovunchoq.

**amuseur, euse** *n* qiziqchi, kuldiruvchi, hazilkash.

**amygdale** *nf anat* bodomsimon bez.

**an** *nm* **1.** yil; **il y a 3 ans** uch yil burun; **au bout d'un an** bir yildan keyin; **dans deux ans** ikki yildan keyin; **depuis un an** bir yildan buyon; **en un an** bir yil ichida; **il est parti pour un an** u bir yilga ketdi; **un an après** bir yil keyin; **un an après la guerre** urush tugaganiga bir yil to'lganda; **tous les ans** har yili, har yili bir marta; **tous les deux ans** har ikki yilda, har ikki yilda bir marta; **Nouvel An, le jour de l'an** yangi yil; **bon an, mal an** o'rtacha yil; **je m'en moque comme de l'an quarante** menga bu bari bir, bir pul; **2.** yosh; **il a 30 ans** u o'ttiz yashar, o'ttiz yoshda.

**anachorète** *nm* tarki dunyo qilgan odam, zohid, tarki dunyochi; **mener une vie d'anachorète** tanho yashamoq, odamlardan uzoqda, yolg'izlikda yashamoq.

**anachronique** *adj* **1.** anaxronik, xronologiya jihatdan noto'g'ri, xronologiyaga to'g'ri kelmaydigan; **2.** o'z zamonasiga mos kelmaydigan, eskilikka mansub, eski.

**anachronisme** *nm* anaxronizm (***1.** yil hisobi yoki tarixiy sanani ko'rsatishda, xronologiyada yo'l qo'yilgan xatolik;* ***2.** bir davrni tasvirlashda boshqa bir davrga xos xususiyatlarni unga taalluqli deb ko'rsatish;* ***3.** o'z davriga mos kelmaydigan eski qarashlar, urf-odatlar; eskilik*).

**anacoluthe** *nf ling* anakoluf (*so'zlarning moslashuvi yoki gap bo'laklari o'rtasida grammatik normalarga zid holda ma'nolariga qarab birikishidan tashkil topgan stilistik o'brazli ibora*).

**anaconda** *nm* anakonda (*bo'g'ma ilon turi*).

**anaérobie I.** *adj biol* anaerob (*havosiz joylarda yashay oladigan*); **II.** *nm* anagerob (*kislorod va havo bo'lmagan joylarda yashab, ko'paya oladigan mikroorganizm*).

**anagramme** *nf* anagramma (*harflarning o'rin almashinuvidan boshqa so'z yasalishi*).

**anal, ale** *adj anat* orqa hojat yo'liga, orqa teshikka oid.

**analgésique I.** *adj* og'riq qoldiruvchi, og'riqni to'xtatuvchi, og'riqni bosadigan (*dori-darmon*); **II.** *nm* og'riqni qoldiradigan dori darmon.

**analogie** *nf* **1.** analogiya, o'xshashlik; **analogie de forme, de goûts** shakl, did o'xshashligi; **par analogie** o'xshashligi asosida, o'xshashligiga ko'ra asoslanib, o'xshashligidan foydalanib; **2.** *ling* analogiya (*bir grammatik shaklni boshqa bir grammatik shaklga monand o'zgartirish*).

**analogique** *adj* analogiya; o'xshatishga, qiyoslashga asoslangan; **raisonnement analogique** o'xshashlikka asoslangan mulohaza, fikr.

**analogiquement** *adj* o'xshash; singari, kabi.

**analogue I.** *adj* analog, o'xshash, xuddi shunday; **idée analogue** o'xshash g'oya, fikr; **II.** *nm* o'xshash, monand, mos keladigan narsa; **ce terme n'a pas d'analogue en français** bu atamaga mos keladigan, monand so'z fransuz tilida yo'q.

**analphabète I.** *adj* savodsiz, o'qish yozishni bilmaydigan; **II.** *nm* savodsiz kishi.

**analphabétisme** *nm* savodsizlik.

**analysable** *adj* analiz, tahlil qilsa bo'ladigan.

**analyse** *nf* analiz, tahlil; tahlil qilish; tekshirish; **soumettre à une analyse** analiz, tahlil qilmoq; **faire une analyse de sang** qonni, qon tarkibini analiz qilmoq, tekshirmoq; **procéder par voie d'analyse** analitik usulda yondoshmoq; **faire l'analyse d'un roman** romanni tahlil qilmoq; **avoir l'esprit d'analyse** tahlil qilish, mushohada qila olish qobiliyatiga ega bo'lmoq; **en dernière analyse** pirovardida, oqibatda, natijada; oxirida.

**analyser** *vt* analiz qilmoq, tahlil qilmoq; tekshirmoq; o'rganmoq; **il est difficile d'analyser la situation politique** siyosiy vaziyatni tahlil qilish qiyin; **analyser l'eau d'une source** buloq suvini tekshirmoq.

**analyste** *n* analitik, analiz bilan shug'ullanuvchi mutaxassis; aql-mulohaza yuritishga moyil va usta odam.

**analytique** *adj* **1.** analizga asoslangan, analitik, tahliliy; **géométrie analytique** analitik geometriya (*matematikaning geometrik masalalarini algebra va analiz metodlari bilan o'rganadigan bo'limi*); **2.** tahlil qilish yo'li bilan yondoshadigan; **esprit analytique** analiz qilish qobiliyati zo'r aql; **3.** analiz, tahlilni o'z ichiga olgan; **compte-rendu analytique d'une réunion** yig'ilish haqidagi hisobot.

**ananas** *nm* ananas.

**anaphore** *nf* anafora (*ketma-ket yoki yaqin satrlar, turoqlar, jumlalar boshida bir tovush, so'z yoki iborani qayta-qayta ishlatishdan iborat uslub*).

**anarchie** *nf* **1.** anarxiya, hokimiyatsizlik; **2.** beboshlik, boshboshdoqlik, tartibsizlik, har kim o'z boshiga xo'jayinlik qilishi, it egasini mushuk bekasini tanimasligi.

**anarchique** *adj* anarxizmga, anarxiyaga oid, anarxizm ruhidagi, anarxistik.

**anarchiquement** *adv* anarxistlarcha; tartibsiz holda; ayqash-uyqash, palapartish.

**anarchisme** *nm* anarxizm (*har qanday davlat hokimiyatini va siyosiy kurashni inkor etuvchi siyosiy qarash*).

**anarchiste I.** *adj* anarxistlarga oid; anarxistlar uchun xos bo'lgan, anarxist; **attentat anarchiste** anarxistlar suiqasdi; **II.** *n* anarxist, anarxizm tarafdori; anarxistlar tashkilotining a'zosi.

**anastomose** *nf anat* anastomoz (*tanadagi naysimon a'zolar, qon va limfatik tomirlar, nerv va muskul tolalari orasidagi bog'lanish, qo'shilish, ulanish*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**anathématiser** *vt* **1.** *relig* cherkovdan chetlatmoq; **2.** *fig* qarg'amoq, la'nat o'qimoq, la'natlamoq; nafrat yog'dirmoq.

**anathème** *nm* **1.** *relig* la'natlash, dindan chiqarish; murtad deb e'lon qilish; cherkovdan chetlatish; **2.** *fig* la'nat, nafrat, qarg'ish; **lancer l'anathème contre qqn** la'nat o'qimoq, la'natlamoq; **3.** *n* la'natga, qarg'ishga duchor bo'lgan, murtad.

**anatomie** *nf* **1.** anatomiya (*tirik organizmlarning tuzilishi haqidagi fan*); **anatomie humaine, végétale** odam, o'simliklar anatomiyasi; **anatomie pathologique** patalogik anatomiya; **anatomie comparée** qiyosiy anatomiya; **2.** tirik organizmlarning tuzilishi; **3.** *fam* tashqi ko'rinish, gavda bichimi, qaddi-qomat, bo'y-bast, jussa, bichim; **belle anatomie** kelishgan qaddi qomat.

**anatomique** *adj* anatomiyaga oid, anatomik, anatomiya.

**anatomiquement** *adv* anatomiya nuqtai nazaridan.

**anatomiste** *nm* anatom, anatomiya olimi.

**ancestral, ale** *adj* qadimiy; ota-bobolardan, ajdodlardan qolgan.

**ancêtre** *nm* **1.** ota-bobo, ajdod; biror urug' yoki avlodning eng birinchi otasi; **2.** *fig* asos soluvchi, asoschi, ota; **3.** *pl* avlod-ajdodlar; avval yashab o'tgan ajdodlar.

**anche** *nf mus* tilcha (*ba'zi musiqa asboblarining tovush zarbidan qimirlab turadigan qismi*); **un instrument à anche** tilchali musiqa asbobi (*klarnet, saksofon kabilar*).

**anchois** *nm* anchaus, hamsa, kilki (*mayda dengiz balig'i va undan tayyorlangan konserva*).

**ancien, ienne I.** *adj* burungi, avvalgi; qadimgi ibtidoiy; sobiq; **un monument ancien** qadimiy obida; **les peuples anciens** ibtidoiy, qadimgi xalqlar; **II.** *nm* **1.** *pl* qadimgilar, burungilar, qadimgi zamon odamlari; **2.** katta, yoshi kattalar; **il n'a pas de respect pour les anciens** u yoshi kattalarni hurmat qilmaydi.

**anciennement** *adv* burun, ilgari, ilgari vaqtlarda.

**ancienneté** *nf* **1.** qadimiylik, qadimgi zamon; **de toute ancienneté** qadimgi zamonlardan buyon; **l'ancienneté d'une coutume** biror odatning qadimiyligi; **2.** staj, xizmat faoliyati; **l'ancienneté de service** xizmat staji; **avoir dix ans d'ancienneté** o'n yil mehnat faoliyatiga ega bo'lmoq.

**ancillaire** *adj* **des amours ancillaires** o'z xizmatkori bilan ishqiy sarguzasht.

**ancolie** *nf bot* ayiqtovongullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklarning turi.

**ancrage** *nm mar* langar tashlab to'xtash.

**ancre** *nf mar* langar; **jeter l'ancre** langar tashlamoq (*to'xtash uchun*); **lever l'ancre** langarni ko'tarmoq (*jo'nash uchun*); **l'ancre de salut** oxirgi chora, so'nggi umid.

**ancrer I.** *vi mar* langar tashlamoq, langar tashlab turmoq; **II.** *vt* mustahkamlamoq; tomir ottirmoq; **ancrer une idée dans l'esprit de quelqu'un** biror g'oyani biror kimsaning ongiga singdirmoq; **III. s'ancrer** *vpr* joylashmoq, o'rnashmoq, joylamoq; **il s'est ancré ici** u bu joyga o'rnashdi.

**andante I.** *nm mus* andante (*sekin ravon tempdagi musiqa asari*); **II.** *adv* andante, sekin, ravon, (*musiqa asari ijrosining sur'ati, tempi*).

**andouille** *nf* **1.** cho'chqa va mol ichaklaridan tayyorlangan kolbasa; **2.** *fig fam* ahmoq, tentak; **faire l'andouille** ahmoqlik, tentaklik qilmoq; maynavozchilik, jinnilik qilmoq.

**andouillette** *nf* sosiska (*ichak-chavoqdan tayyorlangan kichik hasip*).

**androgyne I.** *adj biol* ikki jinsli (*ham erkak, ham urg'ochilik belgisi, organi bo'lgan*); **II.** *n* germofrodit, xunasa.

**âne** *nm* **1.** eshak; **une voiture à âne** eshak arava; **transporter à dos d'âne** eshakda tashimoq; **être comme l'âne de Buridan** sarosimaga tushmoq, ikkilanib qolmoq; **passer du coq à l'âne** bir bog'dan, bir tog'dan kelmoq; **têtu comme un âne** eshakdek qaysar; **2.** *fig* ahmoq, tentak; **traiter qqn d'âne** birovni ahmoq deb haqoratlamoq; **faire l'âne** o'zini tentaklikka solmoq; **espèce d'âne**! eshak! ahmoq!

**anéantir** *vt* **1.** qirib tashlamoq, yo'q qilib tashlamoq; vayron qilmoq; **anéantir des troupes** qo'shinni qirib tashlamoq; **2.** *fig* dilini vayron qilmoq, tamom qilmoq, o'ldirmoq; holdan toydirmoq; **cette nouvelle m'a anéanti** bu xabar meni xarob qildi; **je suis anéanti par la chaleur** issiq meni holdan toydirdi, jonimni oldi.

**anéantissement** *nm* **1.** qirib tashlash; yakson qilish; yo'q qilish, mahv etish; **l'anéantissement de l'ennemi** dushmanning yakson qilinishi; **2.** ezilganlik, ruhi tushganlik, dili vayron bo'lganlik.

**anecdote** *nf* kichik hikoya, matal, qissa, rivoyat.

**anecdotier, ière** *n* hikoyachi, matalchi, qissachi, roviy, rivoyatchi.

**anecdotique** *adj* **1.** kichik hikoya, matal, qissaga oid; **2.** *péj* kulgili, kulgidan boshqaga arzimaydigan; hech bo'lmagan.

**anémiant, ante** *adj* zaiflashtiradigan, holdan toydiradigan.

**anémie** *nf* anemiya, kamqonlik.

**anémier** *vt* **1.** kamqonlikka sabab bo'lmoq; **2.** *fig* kuchsizlantirmoq, zaiflashtirmoq, holdan toydirmoq.

**anémique** *adj* **1.** anemik, kamqon; **il était pâle et anémique** u rangsiz va kamqon, rangi zohil edi; **2.** *fig* bo'sh, lanj.

**anémone** *nf bot* anemonlar (*ayiqtovon gullar oilasiga mansub o'tlar*).

**ânerie** *nf* **1.** ahmoqlik, tentaklik; ahmoqona xatti-harakat, bema'nigarchilik, noma'qulchilik; **2.** *fam* nodonlik, bilimsizlik; beadablik; beadab xatti-harakat.

**ânesse** *nf* urg'ochi eshak, mocha.

**anesthésie** *nf* anesteziya (***1.*** *og'riq sezish qobiliyatini yo'qotish;* ***2.*** *behush qilish; og'riq sezmaydigan qilish, etni o'ldirish*).

**anesthésier** *vt* og'riqsizlantirmoq, og'riq sezmaydigan qilmoq; bemorni behush yoki og'riq sezmaydigan qilmoq.

**anesthésique I.** *adj* behush yoki og'riq sezmaydigan qiladigan; etni o'ldiradigan; **une piqûre anesthésique** og'riq qoldiradigan ukol; **II.** *nm* og'riqni qoldiradigan, behush qiladigan, etni o'ldiradigan vositalar.

**anesthésiste** *nm* anesteziolog, anesteziya bo'yicha mutaxassis vrach.

**aneth** *nm bot* ukrop, shivit.

**anévrisme** *nm méd* anevrizm (*arteriyaning bir yeridagi kengayishi*).

**anfractuosité** *nf* chuqur, chuqurlik, kamgak; **les anfractuosités des rochers** qoyalardagi chuqurliklar, chuqur joylar.

**ange** *nm* farishta, malak, hur, g'ilmon; **beau comme un ange** farishtaday go'zal, nihoyat go'zal; **un ange de beauté** go'zallik farishtasi; **travailler comme un ange** a'lo darajada ishlamoq; **être le bon, mauvais ange de qqn** birovning yaxshi, yomon homiysi bo'lmoq; **mon ange!** farishtam! malagim! azizim! jonim! *relig* **ange gardien** biror kishini qo'riqlovchi farishta, *péj* politsiya xizmatchilariga, jandarmlarga xalq tomonidan berilgan nom; **être aux anges** og'zi qulog'ida bo'lmoq, boshi ko'kka yetmoq.

**angélique I.** *adj* **1.** farishtalar, malaklarga oid; **2.** farishtalardek yumshoq, muloyim; nozik, yoqimli; **une douceur, un sourire angélique** farishtalardek yumshoqlik, muloyim, yoqimli kulgi; **II.** *nf bot* oyboltirg'on, oqsasir (*o'tsimon o'simlik*).

**angelot** *nm* diniy san'at asarlarida tasvirlangan kichik farishta.

**angélus 1.** nasroniylarda "Angelus" nomi bilan boshlanadigan ertalab, tushda va kechqurun qilinadigan ibodat; **2.** shu ibodatga chorlab chalingan qong'iroq zangi, tovushi.

**angine** *nf* angina; **angine de poitrine** yurak siqish kasali.

**anglais, aise I.** *adj* Angliya va inglizlarga oid; ingliz; **à l'anglaise** *loc adv* inglizcha, inglizlarga xos, o'xshab; **filer à l'anglaise** *loc* hech kimga bildirmasdan jo'nab qolmoq, xayr-xo'shni nasiya qilmoq; **II.** *n* **1.** ingliz, angliyalik; **2.** *nm* ingliz tili; **3.** *nf* o'ngga qiyshaytirib yozilgan yozuv; anglez (*eski ingliz raqsi*); *pl* jingalak soch, zulf, gajak.

**angle** *nm* **1.** burchak; **à angle droit** to'g'ri burchak; **un angle de 20°** yigirma gradusli burchak; **2.** burchak, muyulish, burilish joy; **les angles d'un meuble** mebelning burchagi; **à l'angle de la maison** uyning burchagida; **à l'angle de la rue** ko'chaning muyulishida; **3.** nuqtai nazar, qarash; **sous un certain angle** aniq bir nuqtai nazardan.

**anglican, ane I.** *adj* anglikan (*protestant dinining Angliyada ustun bo'lgan turiga oid*); **église anglicane** anglikan cherkovi; **II.** *n* anglikan (*anglikan cherkovi muxlisi, tarafdori*).

**anglicanisme** *nm* anglikanlik (*Angliyaning rasmiy dini*).

**angliciser** *vt* **1.** inglizlashtirmoq, inglizcha tus bermoq; **angliciser un mot** so'zni inglizcha tarzda talaffuz qilmoq; **2.** inglizlarga taqlid qilmoq, ergashmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**anglicisme** *nm* **1.** ingliz tiliga xos ibora; **2.** ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'z yoki ibora.

**angliciste** *n* ingliz tili va adabiyoti mutaxassisi.

**anglo-américain** *adj* ingliz-amerika.

**anglomane** *n* inglizparast.

**anglomanie** *nf* inglizparastlik.

**anglo-normand, ande I.** *adj* ingliz-normand; **II.** *nm* fransuz tili dialekti (*O'rta asrlarda Lamanshning ikki tomonida so'zlashilgan dialekt*).

**anglophile** *adj* Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlovchi odam.

**anglophilie** *nm* Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlash.

**anglophobe** *adj* Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam.

**anglophobie** *nf* Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi chiqish.

**anglo-saxon, onne I.** *adj* Britaniya xalqiga oid; **II.** *nm* qadimgi ingliz tili.

**angoisse** *nf* g'am-g'ussa, qayg'u, hasrat, nadomat, xavotirlik; **l'angoisse de la mort** o'limdan qo'rqish vasvasasi.

**angoissé, ée 1.** tashvishli, xavotirli, xavf-xatarli; **un regard angoissé** tashvishli, xavotirli nigoh; **2.** qo'rquv bosgan; tashvishda qolgan.

**angoissant, ante** *adj* tashvishlantiradigan, tashvishga, vahimaga soladigan, vahimali, qo'rqinchli, ayanchli; **une situation angoissante** tashvishlantiradigan vaziyat.

**angoisser** *vt* tashvishga solmoq, vahimaga solmoq; ayanchli ahvolga qo'ymoq.

**angora I.** *adj* angor, angoriy, uzun mayin junli; **chat angora** angora mushugi; **laine angora** angor juni, tiviti; **II.** *nm* angora mushugi; angor quyoni.

**anguille** *nf* ilonbaliq; **glisser comme une anguille** ilonbaliqdek sirg'alib o'tib, kirib ketmoq; **il y a anguille sous roche** bu yerda nimadir ko'ngildagidek emas.

**angulaire** *adj* burchakka oid, burchak hosil qilib turgan; burchakli; **pierre angulaire** asos, tub, negiz; asosiy g'oya, asosiy fikr; poydevor tosh.

**anguleux, euse** *adj* serqirra, u yer bu yeri turtib chiqqan, g'adir-budur; **un visage anguleux** yonoq suyaklari turtib chiqqan yuz; **un menton anguleux** qirrali iyak.

**anhydride** *nm* angidrid.

**anicroche** *nf* to'siq, qiyinchlik; ishkallik, chatoqlik, g'ov; **tout s'est passé sans anicroche** hamma narsa silliq, to'siqsiz, qiyinchiliksiz hal bo'ldi.

**animal[1], aux** *nm* **1.** hayvon; hayvonot; jonivor; **animal domestique** uy hayvonlari; **2.** *injur* moldan, hayvondan battar odam, mol, hayvon; **quel animal!** voy hayvoney!

**animal[2], ale, aux** *adj* **1.** hayvonga oid; hayvon; **règne animal** hayvonot olami; **2.** hayvoniy, hayvonlarcha, odamga nomunosib, razil, qabih, yaramas; vahshiyona, shafqatsiz; **un instinct, un regard animal** hayvoniy qarash, instinkt.

**animalcule** *nm* juda kichik, mikroskopda ko'rish mumkin bo'lgan jonivor.

**animalité** *nf* **1.** hayvoniy, hayvonlarga xos holat; **2.** yovuzlik, vahshiylik, yirtqichlik, shafqatsizlik; hayvoniylik, ifloslik.

**animateur, trice** *n* **1.** ilhomlantiruvchi, ilhom beruvchi; ruhlantiruvchi, otlantiruvchi; tashkilotchi; **2.** boshlovchi, olib boruvchi; **3.** kinoda tasvirlarni jonlantiruvchi texnik mutaxassis.

**animation** *nf* **1.** qizg'inlik, jonlilik, jo'shqinlik; ko'tarinki ruh, zavq-shavq, ilhom; **parler avec animation** zavq-shavq bilan gapirmoq; **2.** jonlanish, g'ovur-g'uvur; **l'animation d'une rue** ko'chada jonlanish; **mettre de l'animation** jonlanish kiritmoq; **une période d'animation de l'économie** iqtisodiy jonlanish davri; **cinéma d'animation** multiplikatsion kinematografiya; **3.** boshlovchilik kasbi (*konsert, teleko'rsatuv*).

**animé, ée** *adj* **1.** tirik, jonli; **un être animé** tirik jon; **2.** hayajonli, bezovta; g'ovur-g'uvur; **une rue animée** g'ovur-g'uvur ko'cha; **un ton animé** hayajonli ohang; **dessin(s) animé(s)** multiplikatsion film, multfilm.

**animer I.** *vt* **1.** tiriltirmoq, jon kiritmoq, jonini saqlab qolmoq; **le sculpteur a animé le marbre** haykaltarosh marmarga jon kiritdi; **l'arrivée du printemps a animé la nature** bahorning kelishi tabiatni jonlantirib yubordi; **2.** jonlantirmoq, qizitib yubormoq, qizg'in tus bermoq; boshqarmoq; **animer la conversation** suhbatni qizitib yubormoq; **3.** chiroyli, jozibali qilmoq, chiroy, ko'rk bermoq, bag'ishlamoq, bezamoq husnini ochmoq; **4.** dalda bermoq, ruhlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, tetiklantirmoq, g'ayratlantirmoq, g'ayrat bag'ishlamoq; **animer le courage des soldats** askarlarni ruhlantirmoq; **animer de la voix et du geste** ovozlar va imo-ishoralar bilan dalda bermoq; **5.** *fig* sabab, bois, sababkor bo'lmoq, biror ishga boshlamoq; undamoq; **l'espérance l'anime** umid uni undamoqda; **un seul désir l'anime** u birgina xohishi bo'lganligidan shunday qilyapti; **II. s'animer** *vpr* **1.** jonlanmoq, harakatga kelmoq; hayot bilan qaynamoq; **la statue parut s'animer** haykal jonlanganday bo'ldi; **le soir seulement la ville s'anime** faqat kechqurungina shaharda hayot qaynaydi; **2.** qizg'in, jo'shqin, jonli bo'lmoq; chaqnamoq, yonmoq; **la conversation s'est animée** suhbat qizidi; **ses yeux s'animèrent** uning ko'zlari chaqnab ketdi.

**animisme** *nm* animizm (*har bir narsaning ruhi, joni bor degan e'tiqod*).

**animiste I.** *adj* animizmga asoslangan, animistik; **II.** *nm* animizm tarafdori.

**animosité** *nf* ichi qoralik, birovga yaxshilikni ravo ko'rmaslik; dushmanlik; kek, adovat, xusumat; **avoir de l'animosité envers** (**à l'égard de**) **qqn** birovga kek saqlamoq; **avec animosité** ichi qoralik bilan; **sans animosité** keksiz, husumatsiz.

**anis** *nm bot* arpabodiyon; **des graines d'anis** arpabodiyon urug'i; **une liqueur à l'anis** arpabodiyonli likyor.

**anisette** *nf* arpabodiyonli likyor; anisovka (*arpabodiyon solingan aroq*).

**ankylose** *nf* bo'g'imlarning harakatsizligi.

**ankylosé, ée** *adj* **1.** harakatsizlangan, harakatdan to'xtagan, qotib, uvushib qolgan; **2.** qotib qolgan; qoloq, to'mtoq; orqada qolgan; **esprit ankylosé** to'mtoq aql.

**ankyloser I.** *vt* **1.** qotirib qo'ymoq, harakatdan qoldirmoq; **les rhumatismes lui ont ankylosé le genou** revmatizm asoratidan uning tizzalari bukilmaydigan bo'lib qolgan; **II. s'ankyloser** *vpr* **1.** harakatsiz bo'lib qolmoq; egiluvchanlikni yo'qotmoq; taxta bo'lib qolmoq; uvushib qolmoq; **ses jambes s'ankylosent** uning oyoqlari uvushib qoldi; **2.** *fig* qotmoq, kalimaga kelmay qolmoq.

**annales** *nf pl* **1.** solnoma, yilnoma; **les annales de l'Empire romain** Rim imperiyasining solnomasi; **2.** tarix; **les annales de la science** fan tarixi; **3.** to'plam, yilda bir marta chiqadigan to'plam; yillik; **annales de géographie** geografik to'plam.

**annaliste** *nm* solnomachi, solnoma tuzuvchi.

**anneau** *nm* **1.** halqa, chambar, gardish; **un anneau de rideau** parda osish uchun halqa; **l'anneau d'un porte-clefs** kalitlar taqiladigan halqa; **2.** *pl sport* halqa (*arqonlarga osilgan ikkita maxsus halqadan iborat sport asbobi*); **des exercices aux anneaux** gimnastika halqasida qilinadigan mashqlar; **3.** uzuk; **4.** *techn* zveno, halqa (*bir turdagi uzviy qism, detal*).

**année** *nf* **1.** yil; **année bissextile** kabisa yil; **bonne année** hosildor, hosil yaxshi bo'lgan yil; **mauvaise année** hosilsiz, kamhosil yil; **année pluvieuse** yomg'irli yil; **année sèche** qurg'oqchilik yili; **année scolaire** o'quv yili; **année agricole** qishloq xo'jalik yili; **année théâtrale** teatr mavsumi; **l'année s'écoule, passe, commence, s'envole** yil tugayapdi, o'tyapti, boshlanyapti, tez o'tib ketyapti; **souhaiter à qqn la bonne année** birovni yangi yil bilan tabriklamoq; **bonne année!** Yangi yilingiz bilan! Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin! **il y a quelques années** bir necha yil avval; **au commencement de l'année** yil boshida; **en fin d'année** yil oxirida; **d'année en année** yildan-yilga; **dans le courant de l'année** yil davomida; **en quelle année?** qaysi yilda? **en quelle année êtes vous né?** qaysi yilda tug'ilgansiz? **elle est dans sa dix-huitième année** u o'n sakkiz yoshga qadam qo'ydi; **l'année 1995** 1995 yil; **les années de guerre** urush yillari; **deux années de loyer** ikki yillik ijara haqi; **2.** o'quv yili, bosqich, sinf; **il est en première année** u birinchi kursda o'qiydi.

**annelé, ée** *adj* bo'g'im-bo'g'im (*botanika va zoologiya terminlari tarkibida*); **des vers annelés** bo'g'im-bo'g'im qurtlar, chuvalchanglar.

**annexe I.** *adj* qo'shimcha; qo'shimcha qilingan; **un bâtiment annexe** qo'shimcha qurilgan bino; **un document annexe** ilova; **les annexes d'un rapport** doklad, ma'ruzaga qo'shimcha; **II.** *nf* **1.** qo'shimcha, ilova (*hujjat*); **en**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**annexe à** -ga qo'shimcha sifatida; **2.** qo'shimcha qurilgan bino; omborxona; **l'annexe d'un hôtel** mehmonxonaning qo'shimcha binosi, korpusi; **les annexes d'une ferme** fermaning xo'jalik ishlariga mo'ljallab qurilgan binolar.

**annexer I.** *vt* **1.** ilova qilmoq, qo'shimcha qilmoq, qo'shmoq; **annexer une pièce à un dossier** ishga qo'shimcha hujjatlar ilova qilmoq; **2.** *polit* qo'shib olmoq, bosib olmoq, egallab olmoq, zabt qilmoq; **Hitler annexe l'Autriche à l'Allemagne en 1938** Gitler Avstriyani Germaniyaga 1938 yilda qo'shib olgan; **II. s'annexer** *vpr fam* o'zlashtirib olmoq, o'ziniki qilib olmoq; izmiga solmoq; **s'annexer le meilleur morceau** eng yaxshi bo'lakni o'ziga olmoq; **s'annexer qqn** birovni o'z izmiga solmoq, qo'lga, o'z ta'siriga olmoq.

**annexion** *nf* **1.** qo'shish, qo'shib olish; birga qo'shish; **2.** zabt etish; **l'annexion de la Savoie à la France** Savoyani Fransiyaga qo'shib olish.

**annihilation** *nf* **1.** yo'q qilish; tugatish; **2.** *dr* bekor qilish.

**annihiler** *vt* **1.** yo'qqa chiqarmoq, chippakka chiqarmoq; yo'q qilmoq; **le destin a annihilé ses efforts** taqdir uning urinishlarini yo'qqa chiqardi; **2.** bekor qilmoq; **annihiler un privilège** imtiyozni bekor qilmoq.

**anniversaire** *nm* yillik, yubiley, bayram, marosim; ma'lum yilga to'lish ma'rosimi; tug'ilgan kun; **aujourd'hui, c'est mon anniversaire** bugun men tug'ilgan kun; **leur cinquième anniversaire de mariage** to'ylarining besh yilligi; **célébrer le centième anniversaire d'un événement** biror voqeaning yuz yilligini nishonlamoq.

**annonce** *nf* **1.** e'lon, xabar; **l'annonce de sa mort prochaine n'étonnait personne** uning tez kunlarda o'lishi xabari hech kimni ajablantirmasdi; **2.** e'lon, xabar matni; **mettre une annonce dans un journal** gazetaga e'lon bermoq; **la page des petites annonces** e'lonlar bo'limi; **3.** darak, belgi, alomat, nishona; darakchi, oldindan xabar beruvchi, xabarchi; **les hirondelles sont revenues, c'est l'annonce du printemps** qaldirg'ochlar qaytib keldilar, bu bahor a'lomati; **ce succès était l'annonce d'un grand avenir** bu muvaffaqiyat yorqin kelajakning nishonasi, darakchisi bo'ldi.

**annoncer I.** *vt* **1.** xabar bermoq, bildirmoq, bildirib qo'ymoq, ma'lum qilmoq; ogoh qilmoq; **annoncer une nouvelle** yangilikni ma'lum qilmoq, e'lon qilmoq; **annoncer une victoire, une naissance, un événement, une réunion** g'alaba, tug'ilganlik, voqea, yig'ilish haqida xabar bermoq; **annoncer qqn** biror kishining kelayotganligini ma'lum qilmoq; **se faire annoncer** o'zi haqida ma'lumot bermoq, o'zini tanitmoqni buyurmoq; **2.** belgi, alomat, nishona bermoq; bildirmoq; ko'rsatmoq, ifodalamoq; **cette petite fleur annonce le printemps** bu kichik gul bahor belgisidir; **ce début n'annonce rien de bon** boshlanishi hech qanqay yaxshilikdan darak bermayapti; **II. s'annoncer** *vpr* **1.** kelayotganligi haqida xabar bermoq; **s'annoncer par téléphone** kelayotganligi haqida telefon orqali xabar bermoq; **2.** bo'lishidan darak bermoq, bo'lishini bildirmoq; bo'ladiganga o'xshamoq; **la saison s'annonce bien** fasl yaxshi bo'ladiganga o'xshaydi, yil serhosil bo'lishini bildirmoqda.

**annonceur** *nm* **1.** gazeta va shu kabilarga e'lon beruvchi; **2.** diktor, suxandon (*radio, televideniyada*).

**annonciateur, trice I.** *n* darakchi, xabarchi, oldindan aytuvchi; bashoratchi; **II.** *adj* darak beradigan, belgi beradigan; **signe annonciateur d'un changement politique** siyosiy o'zgarishdan darak beradigan belgi, alomat.

**annotation** *nf* izoh; izohlash, izoh berish.

**annoter** *vt* tavsiflamoq, tafsirlamoq, izohlamoq; izoh bermoq; sharhlamoq, tushuntirmoq; **exemplaire annoté par l'auteur** muallif tomonidan izohlangan nusxa.

**annuaire** *nm* yilda bir chiqadigan nashr; ma'lumotnoma; **consulter l'annuaire** ma'lumotnomadan ko'rib olmoq.

**annuel, elle** *adj* **I.** yillik, har yili bo'ladigan, har yilgi; **fête annuelle** har yilgi bayram; **les revenus annuels** yillik daromad; **cours annuel** bir yillik, bir yil davom etadigan kurs; **2.** *bot* bir yillik; **plante annuelle** bir yillik o'simlik.

**annuellement** *adv* har yilda, yil sayin, har yil.

**annuité** *nf* **1.** yil davomida to'lanadigan pul; yil davomida muhlati bilan bo'lib-bo'lib to'lash; **2.** xizmat yili (*bir yillik ishga teng davr*).

**annulaire** *nm* nomsiz barmoq (*jimjiloq bilan o'rta barmoq oralig'idagi barmoq*).

**annulation** *nf* **1.** bekor qilish; bekor qilinish; **l'annulation d'un contrat** shartnomani bekor qilish; shartnomaning bekor qilinishi; **2.** *phys* yo'q qilish, tugatish; **l'annulation d'un champs magnétique** magnit maydonini yo'q qilish.

**annuler I.** *vt* **1.** bekor qilmoq; yo'q qilmoq; kuchdan qoldirmoq; **annuler un jugement** sud qarorini bekor qilmoq; **annuler un contrat un traité** kontrakt, shartnomani bekor qilmoq; **annuler une invitation** taklifni qoldirmoq, bekor qilmoq; **2.** *sport* noto'g'ri deb hisoblamoq, hisobga olmaslik; **annuler un but** golni noto'g'ri deb hisoblamoq, golni hisobga olmaslik; **II. s'annuler** *vpr* bir-birini yo'q qilmoq; birini neytrallashtirmoq; **ces deux forces s'annulent** bu ikki kuch bir-birini yo'q qilmoqda, bir-birining kuchini yo'qotmoqda.

**anoblir** *vt* **1.** *hist* dvoryanlik unvonini bermoq; **2.** unvonini oshirmoq, yuqori darajaga ko'tarmoq.

**anoblissement** *nm* dvoryanlikka ko'tarish; dvoryanlikka ko'tarilish.

**anode** *nf* anod, musbat elektrod.

**anodin, ine** *adj* **1.** xavfsiz, xatarsiz, zararsiz; **une blessure tout à fait anodine** butunlay xavfsiz yara; **2.** ko'zga tashlanib turmaydigan, e'tibori yo'q; **une personne anodine** e'tibori yo'q shaxs.

**anomal, ale** *adj* anomal, normadan chetga chiqqan, anormal.

**anomalie** *nf* **1.** anomaliya, normadan chetga chiqish; **2.** odatdagidek emaslik; odatdagidan boshqachalik; g'alatilik, g'ayritabiiylik, g'ayrioddiylik.

**ânon** *nm* xo'tik, eshakning bolasi.

**ânonner** *vi* gapni chaynab, yutib, tushunib bo'lmaydigan qilib gapirmoq, ming'irlamoq.

**anonymat** *nm* nomini yashirib yurish; yashirin nom bilan yurish.

**anonyme** *adj* **1.** nomini yashirgan, nomsiz, anonim; **une lettre anonyme** anonim, yumaloq xat, anonimka; **2.** muallifi noma'lum, nomsiz; **l'auteur anonyme d'une chanson de geste** epik qo'shiqning nomsiz, nomi aniqlanmagan muallifi; **3.** o'z qiyofasiga ega bo'lmagan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lmagan, boshqalardan farqli, ajralib turadigan yeri yo'q; mujmal; **une foule anonyme** hammasi bir-biriga o'xshagan odamlar.

**anonymement** *adv* nomini yashirib, o'z nomini aytmay.

**anorak** *nm* qalpoqli kurtka, qalpoqli kalta kamzul.

**anormal, ale I.** *adj* anormal, odatdagidek emas, odatdagidan boshqacha, g'alati; noto'g'ri; **une température anormale** odatdagidan boshqacha harorat; **un enfant anormal** jismoniy yoki ruhiy kamchiligi, aybi, nuqsoni bo'lgan bola; nuqsonli bola; **II.** *n* **1.** *fam* jinni, telba, savdoyi, ruhiy kasal odam; **2.** g'ayrioddiy, normadan chetdagi, noto'g'ri narsa; **l'anormal devient la règle** normadan chetga chiqqan narsa qoidaga aylanib qolmoqda.

**anormalement** *adv* odatdan tashqari holda; risoladagidek emas.

**anse** *nf* band, sop, dasta, tutqich; **anse d'un panier** savat tutqichi; **anse d'une tasse** chashka tutqichi; **faire danser l'anse d'un panier** xo'jayinni aldamoq (*xo'jayin uchun sotib olingan narsalarning narxini ko'paytirib aytgan xizmatkor haqida*).

**antagonique** *adj* antogonistik, murosaga keltirib bo'lmaydigan, teskari, zid, murosasiz, qarama-qarshi; **intérêts antagoniques** qarama-qarshi manfaatlar.

**antagonisme** *nm* antagonizm, ziddiyat, kelishtirib bo'lmaydigan qarama-qarshilik.

**antagoniste I.** *adj* qarama-qarshi, tamoman bir-biriga zid, raqib; **des parties antagonistes** qarama-qarshi tomonlar; **II.** *n* antagonist, murosaga keltirib bo'lmaydigan raqib, dushman, muxolif.

**antan (d')** *loc adj* o'tgan, bo'lib o'tgan, o'tib ketgan; o'tmish, ilgari; **oublions les querelles d'antan** o'tgan, o'tmishdagi janjallarni unutaylik, o'tgan ishga salavot.

**antarctique** *adv* Antarktikaga oid; antarktik, Antarktika; Antarktikadagi.

**antécédent** *nm* **1.** *gram* oldingi bo'lak, oldinda kelgan gap bo'lagi; **l'antécédent du pronom relatif** nisbiy olmoshdan avval kelgan va nisbiy olmosh o'rniga qo'llanilayotgan so'z, gap bo'lagi; **2.** *pl* ilgarigi voqea, bo'lib o'tgan gaplar; ilgarigi faoliyat, o'tmish; **il a de bons antécédents** uni o'tmishi yaxshi.

**antéchrist** *nm relig* dajjol.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**antédiluvien, ienne** *adj* almisoqdan, daqqiyunusdan qolgan, allaqachon eskirgan, qadimiy; **des idées antédiluviennes** eskirgan g'oyalar; **une voiture antédiluvienne** almisoqdan qolgan mashina.

**antenne** *nf* **1.** *zool* mo'ylov (*bo'g'imoyoqli hayvonlarning boshidagi hid bilish, sezish organlari*); **2.** antenna; **une antenne de télévision** televizion antenna; **prendre l'antenne de Radio-France** Fransiya radiosini eshitmoq, tutmoq; Parij radiosini eshittirishlarini qabul qilishga o'tmoq; **garder l'antenne** eshittirishni davom ettirmoq; **rendre, passer l'antenne à qqn** birovga so'zni, mikrofonni bermoq; **sur notre antenne** bizning dasturimizda; **avoir des antennes** ichki his, sezgiga ega bo'lmoq; ma'lumot, axborot manbaiga ega bo'lmoq.

**antépénultième I.** *adj* oxiridan uchinchi; **II.** *nf* oxiridan uchinchi bo'g'in.

**antérieur, eure** *adj* **1.** oldingi, old tomondagi (*makonda*); **les pattes antérieures** oldingi oyoqlar, panjalar; **voyelle antérieure** old qator unlisi; **2.** o'tgan, oldin, oldin bo'lgan (*zamonda*); **à une époque antérieure** oldingi davr; **cela s'est passé à une date antérieure à la révolution** bu voqea revolutsiyagacha bo'lib o'tgan; **les événements antérieurs à la guerre** urushgacha bo'lib o'tgan voqealar; **être antérieur à** -dan avval bo'lmoq, -gacha bo'lmoq; **3.** *gram* ilgarigi, oldingi, oldin bo'lib o'tgan.

**antérieurement** *nf adv* oldin, ilgari, avval; avvallari, ilgarilari, burun.

**antériorité** *nf* **1.** birinchilik, birinchi o'rin; **2.** *gram* oldin bo'lib o'tganlik (*zamonda*).

**anthère** *nf bot* changdon.

**anthologie** *nf* bayoz, antologiya (*turli mualliflarning saylanma asarlari, ko'pincha she'rlar to'plami*).

**anthracite** *nf* yuqori navli, toza toshko'mir.

**anthrax** *nm méd* **1.** karbunkul, ho'ppoz, ko'k yara, chipqonning biyi; **2.** kuydirgi.

**anthropocentrique** *adj* antropotsentrizmga oid, xos.

**anthropocentrisme** *nm* antropotsentrizm (*inson olamning, yer-ko'kning markazi va eng so'nggi maqsadi deb talqin etadigan diniy dunyoqarash*).

**anthropoïde I.** *adj* odamsimon (*maymunlar*); **II.** *nm* odamsimon maymun; **le gorille est un anthropoïde** gorilla odamsimon maymundir.

**anthropologie** *nf* antropologiya (*odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, jismoniy tuzilishi va irqlarning paydo bo'lishi haqidagi fan*).

**anthropologique** *adj* antropologiyaga oid, antropologik; antropologiya.

**anthropologiste** *ou* **anthropologue** *nm* antropolog, antropologiya olimi, mutaxassisi.

**anthropométrie** *nf* antropometriya (*antropologiyada: odam tanasi va a'zolarini o'lchashga asoslangan tekshirish usuli*).

**anthropométrique** *adj* antropometriyaga oid, antropometrik, antropometriya.

**anthropomorphisme** *nm* antropomorfizm (*odamga xos psixik xususiyatlarni narsalar, jonivorlar va tabiat hodisalariga ham xos deb bilish, ularni odamga o'xshatish, shuningdek xudolarni ham odam obrazida tasavvur qilish*).

**anthropophage I.** *adj* odamxo'rlarga oid, xos, odamxo'r; **II.** *n* odam go'shtini yeyuvchi, odamxo'r.

**anthropophagie** *nf* odamxo'rlik.

**antiaérien, ienne** *adj* havo hujumiga qarshi; samolyotni urub tushiradigan, zenit; **la défense antiaérienne** havo hujumidan himoya qilish; **l'artillerie antiaérienne** zenit artilleriyasi; **un canon antiaérien** zenit to'pi.

**antialcoolique** *adj* alkogolga, alkogolizmga qarshi; ichkilikka, ichkilikbozlikka qarshi qaratilgan; **lutte antialcoolique** ichkilikbozlikka qarshi kurash.

**antibiotique** *nm méd* antibiotik (*ba'zi mikrob va bakteriyalarning ko'payishini to'xtatadigan yoki qiradigan organik moddalar, dorivorlar*).

**antibrouillard** *adj* **phares antibrouillards** tumanda ham yoritadigan faralar.

**anticancéreux, euse** *adj* rakka qarshi, rakka qarshi qaratilgan; rakka qarshi kurashga qaratilgan.

**antichambre** *nf* dahliz (*ichkariga kiraverishdagi birinchi xona*); qabulxona; **faire antichambre** qabulga kirish uchun uzoq kutmoq; **faire faire antichambre à qqn** birovni qabulxonada kuttirib qo'ymoq; **courir les antichambres** biror ish, iltimos bilan ko'p qatnamoq, kelmoq, bormoq; eshigining turumini buzmoq; **un pilier d'antichambre** doimiy iltimoschi; arzgo'y.

**antichar** *adj* tankka qarshi; tankka qarshi ishlatiladigan, tanklar hujumidan himoya qiladigan; **fosse antichar** tank o'tmasin deb qazilgan handaqlar.

**anticipation** *nf* **1.** boshqalardan oldin payqash, oldindan sezish, payqash, oldinroq bilib qolish; bashorat qilish; **les anticipations de Jules Verne** Jul Vernning bashoratlari; **2.** fantastika asosidagi adabiy asarlar; **un roman d'anticipation** ilmiy, fantastik roman; **3. par anticipation** oldin, avvalroq; ilgariroq; oldindan, barvaqt; muddatidan oldin; **un paiement par anticipation** muddatidan oldin to'lash; **répondre par anticipation** avvalroq javob bermoq.

**anticipé, ée** *adj* muddatidan avval bajarilgan; muddatidan ilgari; **remboursement anticipé** muddatidan ilgari to'lash, qaytarish.

**anticiper I.** *vt* biror narsani oldinroq bajarmoq; **anticiper un paiement** avvalroq to'lab qo'ymoq; **II.** *vi* **anticiper sur** oldinga o'tib olmoq; muddatidan oldin bajarmoq; **anticiper sur ses revenus** kelajakdagi daromadlari ustidan kun ko'rmoq, kelajak daromadlari hisobiga yashamoq.

**anticlérical, ale I.** *adj* klerikalizmga qarshi; klerikalizmga qarshi qaratilgan; antiklerikal; **II.** *nm* antiklerikal, klerikalizmga qarshi odam.

**anticléricalisme** *nm* antiklerikalizm (*jamiyatda cherkov va dinning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hukmronligiga qarshi ijtimoiy oqim*).

**anticolonialisme** *nm* antikolonializm (*kolonializm va mustamlakachilikka qarshi kurash, harakat*).

**anticolonialiste I.** *adj* kolonializmga, mustamlakachilikka qarshi qaratilgan, kolonializmga qarshi qaratilgan; **II.** *n* kolonializm, mustamlakachilik dushmani.

**anticommunisme** *nm* antikommunizm (*kommunizmga qarshi qaratilgan siyosat*).

**anticommuniste** *adj* antikommunizm (*kommunizmga qarshi qaratilgan*).

**anticonceptionnel, elle** *adj* homilador bo'lishdan saqlaydigan, homila bo'lishga qarshi.

**anticonformisme** *nm* jamiyatdagi odat, tartib kabilarni tan olmaslik.

**anticonformiste I.** *adj* jamiyatdagi odat, tartib kabilarni tan olmaydigan, ularga zid; **II.** *nm* jamiyatdagi odat, tartib kabilarni tan olmaydigan kishi.

**anticonstitutionnel, elle** *adj* konstitutsiyaga zid.

**anticorps** *nm* antijismlar (*organizmda antigenlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladigan va ularning ta'sirini yo'qotadigan moddalar*).

**anticyclone** *nm* antitsiklon (*siklonlar o'rtasida joylashgan, atmosfera bosimi baland bo'lgan joy*).

**antidater** *vt* o'tgan, o'tib ketgan sana bilan rasmiylashtirmoq (*xat, hujjat*).

**antidémocratique** *adj* demokratiyaga qarshi, demokratiyaga qarshi qaratilgan, antidemokratik.

**antidérapant, ante** *adj* sirg'anish, sirpanishdan saqlovchi, saqlaydigan; **pneus antidérapants** sirg'alishdan saqlovchi shina.

**antidiphtérique** *adj* bo'g'maga qarshi qo'llanadigan.

**antidote** *nm* **1.** zaharga qarshi dori; **2.** ruhiy, psixologik yomon holatlarga qarshi chora; **le travail est un antidote contre l'ennui** mehnat zerikishga qarshi choradir.

**antienne** *nf fig* **1.** antifon (*ikki xorning yoki xonanda va xorning navbatma-navbat kuylashi*); **2.** *fig vieilli* eski gap; eski tos, eski hammom; **chanter toujours la même antienne** bir narsani hadeb qaytarmoq, eski ashulasini boshlamoq.

**antiesclavagiste** *n* qulchilikni bekor qilish tarafdori.

**antifasciste I.** *adj* fashizmga qarshi qaratilgan, antifashistik; **II.** *n* fashizm dushmani, fashizmga qarshi kurashuvchi, antifashist.

**antigaz** *adj* kimyoviy gazlarga qarshi qo'llaniladigan.

**antigel** *nm* antifrizlar (*suvning muzlash temperaturasini pasaytiradigan moddalar*).

**antigène** *nm méd* antigen, organizm uchun yot modda.

**antigouvernemental, ale** *adj* davlatga qarshi, davlatga qarshi qaratilgan.

**antigrippal, ale** *adj* grippga qarshi qo'llaniladigan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**antilope** *nf zool* antilopalar, kiyiklar (*juft tuyoqli kavsh qaytaruvchlarning katta bir guruhi*).

**antimatière** *nf* antemateriya, antimodda (*antizarralardan, y'ani antiproton, antielektronlardan tarkib topgan modda*).

**antimuilitarisme** *nm* antimilitarizm (*militarizmga, imperiyalistik urushlarga qarshi qaratilgan xalqaro ommaviy-siyosiy kurash, harakat*).

**antimilitariste I.** *adj* militarizmga qarshi, dushman, antimilitaristik; **II.** *n* antimilitarizm tarafdori, militarizm dushmani, militarizmga qarshi kurashchi, antimilitarist.

**antimite I.** *adj* kuyaga qarshi, kuyadan saqlaydigan; **II.** *nm* kuyadori.

**antimoine** *nm chim* surma (*kimyoviy element, kumush rang, mo'rt metall*).

**antinomie** *nf phil* antinomiya, ziddiyat, qarama-qarshilik.

**antinomique** *adj* antinomik, antinomiyaga oid; **deux principes antinomiques** qarama-qarshi ikki nuqtai nazar.

**antiparasite I.** *adj* **1.** *radio* shov-shuvlarga, efirning tiniqligiga xalal beruvchi shovqinlarga qarshi); **2.** *biol* parazitlarga qarshi; **II.** *nm* **1.** shovqun-suronlarni yo'qotuvchi uskuna; **2.** parazitlarni yo'qotuvchi vosita (*dori va shu kabilar*).

**antiparlementaire** *adj* parlamentga, parlament tuzishga qarshi.

**antipathie** *nf* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; **j'ai de l'antipathie pour ce genre de personnes** men bunday toifadagi kishilarni yoqtirmayman.

**antipathique** *adj* yoqimsiz, yoqmaydigan, yomon; noxush, ko'ngilsiz, sovuq; **il m'est très antipathique** u menga hech yoqmaydi; **un livre antipathique** yoqimsiz, yoqmaydigan kitob.

**antipatriotique** *adj* vatanparvarlikka qarshi, vatanparvarlikka qarshi qaratilgan; vatan manfaatlariga qarshi qaratilgan.

**antiphrase** *nf* antifraza; **par antiphrase** boshqacha qilib aytganda.

**antipode** *nm* **1.** antipod nuqta (*yer sharining bir-biriga diametral qarama-qarshi tomoni*); **la Nouvelle-Zélande est aux antipodes de la France** Yangi Zelandiya va Fransiya antipodlardir; **être aux antipodes de** butunlay qarama-qarshi joylashmoq, juda uzoqda joylashmoq; **2.** didi, xarakteri, qarashlari jihatidan qarama-qarshi odamlar, muxoliflar.

**antipyrétique** *adj* isitmani tushiradigan, haroratni pasaytiradigan.

**antiquaille** *nf* eski-tuski narsa, eski-tuski, uva'da, qadrsiz buyum.

**antiquaire** *m* antikvar (*osori atiqa bilan savdo qiluvchi kishi*).

**antique I.** *adj* **1.** qadimgi, burungi, uzoq o'tmishdagi, qadimiy, antiqiy, antiqa; **des mœurs antiques** qadimiy urf-odatlar; **une antique tradition** qadimiy an'analar; **2.** *péj* eskirgan, eski, almisoqdan qolgan; **une voiture antique** eski avtomobil; **3.** antik dunyo, qadimgi zamonga oid; **les civilisations antiques** antik dunyo madaniyati; **la Grèce antique** antik Gretsiya; **II.** *n* antik san'at; antik san'at asarlari majmui; **imiter l'antique** antik san'atga taqlid qilmoq, o'xshatmoq.

**antiquité** *nf* **1.** uzoq o'tmish; qadimgi zamon; qadim; **cela remonte à la plus haute antiquité, à l'antiquité la plus reculée** bu uzoq o'tmishga borib taqaladi; **de haute antiquité** ilgaridan, eskidan, qadimdan; **2.** qadimiylik; **l'antiquité d'un monument** obidaning qadimiyligi; **3.** qadimgi dunyo (*Gretsiya, Rim, O'rta Sharq*); **les philosophes de l'antiquité** antik faylasuflar; **4.** *pl* antik davrdan bizgacha yetib kelgan obidalar; san'at asarlari.

**antirabique** *adj méd* quturishga qarshi, quturishga qarshi qo'llaniladigan; **vaccination antirabique** quturishga qarshi emlash.

**antiraciste** *adj* ratsizmga qarshi, irqchilikka qarshi.

**antireligieux, euse** *adj* dinga qarshi qaratilgan, ateistik.

**antirides** *adj inv* ajin, ajin bosishga qarshi; ajinni yo'qotadigan; **crème antirides** ajinni yo'qotadigan krem.

**antirouille** *adj inv* zang bosishga, chirishga qarshi (*metallar*); **peinture antirouille** chirish, zanglashga qarshi, chirish, zanglashni oldini oladigan bo'yoq.

**antiscientifique** *adj* ilmiy bo'lmagan; ilmiylikka zid; fanga asoslanmagan, g'ayriilmiy.

**antiségrégationniste** *n* irqiy kamsitishga qarshi.

**antisémite I.** *n* antisemitizm tarafdori, yahudiylar dushmani, antisemit; **II.** *adj* antisemitizm ruhidagi, antisemit; **propagande antisémite** antisemit tashviqot.

**antisémitisme** *nm* antisemitizm (*yahudiylarga qarshi irqchilik, dushmanlik siyosati*).

**antisepsie** *nf méd* antiseptika (*yarani kimyoviy dorilar vositasida zararsizlantirish, gazak olishdan, yiringlashdan saqlash*).

**antiseptique I.** *adj* antiseptikaga oid; antiseptik; **remède antiseptique** antiseptik dori-darmonlar; **II.** *nm* antiseptik vositalar, dori-darmonlar.

**antisocial, ale** *adj* **1.** jamiyatga qarshi, jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan; **principes antisociaux** jamoatchilik uchun zararli; g'ayriijtimoiy; jamiyat manfaatlariga zid prinsiplar; **2.** mehnatkashlar manfaatlariga zid; **mesures antisociales** mehnatkashlar manfaatlariga zid chora-tadbirlar.

**anti-sous-marin, ine** *adj* suv osti kemalariga qarshi, suv osti kemalariga qarshi ishlatiladigan; **grenades anti-sous-marines** suv osti kemalariga qarshi ishlatiladigan granatalar.

**antispasmodique I.** *adj méd* spazma, tomir tortishish, changak, akashak bo'lib qolishga qarshi; **II.** *nm* spazmaga qarshi dori-darmon.

**antisportif, ive** *adj* sportga, sport qonun qoidalariga zid.

**antitétanique** *adj* kamqon kasaliga qarshi qo'llaniladigan; **une piqûre antitétanique** kamqonga qarshi ukol.

**antithèse** *nf* **1.** antiteza, qarshi qo'yish; **2.** *fig* aksi bo'lishlik, teskarilik, farq qilishlik; **il est vraiment l'antithèse de son frère** u akasining butunlay aksi; **3.** *phil* ziddiyat, qarama-qarshilik.

**antithétique** *adj* qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan.

**antitoxine** *nf* antitoksin (*organizmda toksinlar ta'sirida yuzaga keladigan va shu toksinlardan zaharlanishdan saqlaydigan moddalar*).

**antituberculeux, euse** *adj* silga qarshi, sil kasalligiga qarshi; **vaccin antituberculeux** silga qarshi emlash; **un traitement antituberculeux** silni davolash.

**antivol** *nm* avtomobillarni olib qochishga qarshi ishlatiladigan moslama, mexanizm.

**antonyme** *nm ling* antonim.

**antonymie** *nf ling* antonimiya (*antonim so'zlarning xususiyatlari*).

**antre** *nm* **1.** g'or, ungur; in, uya; makon; **l'antre du lion** arslon uyasi; **2.** *fig* buzuqxona, o'g'rixona, yomonlar makoni.

**anus** *nm anat* anus, orqa chiqarish teshigi.

**anxiété** *nf* g'am, g'ussa, xavotir, tashvish.

**anxieusement** *adv* tashvishli, xavotirli, yurakni siqadigan darajada; zerikarli.

**anxieux, euse I.** *adj* g'amgin, qayg'uli; tashvishli, xavotirli; **une attente anxieuse** tashvishli kutish; **un regard anxieux** xavotirli nigoh; **II.** *nm* doim qayg'u, tashvishda yuradigan odam.

**aorte** *nf* aorta, shotomir (*yurakning chap qorinchasidan boshlanadigan, butun tana a'zolarini qon bilan ta'minlaydigan eng katta tomir*).

**aortique** *adj* aortaga, shotomirga oid.

**août** *nm* avgust; **en août, au mois d'août** avgust, avgust oyida.

**aoûtien, ienne** *n* **1.** ta'tilga avgust oyida chiqadigan kishi; **2.** Parijdan, katta shaharlardan avgust oyida boshqa yerga dam olish uchun ketmaydigan kishi.

**apache** *nm* bezori, xuligan, chapani; o'g'ri.

**apaisant** *adj* ko'ngilni tinchitadigan, tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutuvchan, taskin, orom beradigan; xotirjam qiladigan; **des paroles apaisantes** taskin beradigan so'zlar.

**apaisement** *nm* **1.** tinchlanish, tinchish, to'xtatish, yupatish, ovunish, taskin, orom topish; **l'apaisement du Vent** shamolning tinchishi; **l'apaisement de la douleur** og'riqning to'xtashi, bosilishi; **2.** taskin berish; tinchlantirish; **donner des apaisements à qqn** birovga taskin bermoq.

**apaiser I.** *vt* **1.** taskin bermoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, xotirjam qilmoq; **apaiser un homme furieux** jahli chiqqan kishini tinchlantirmoq; **2.** yumshatmoq, tinchitmoq, tinchlantirmoq; bosmoq; pasaytirmoq, kamaytirmoq, cheklamoq, cheklab qo'ymoq; **apaiser la douleur** og'riqni pasaytirmoq, kamaytirmoq; **apaiser l'inquiétude, des soupçons**



www.ziyouz.com kutubxonasi

xavotirchilikni, shubhani tarqatib yubormoq; **apaiser la querelle** janjalni tinchitmoq; **3.** qondirmoq, bosmoq; **apaiser la faim** ochlikni qondirmoq, qorinni to'ydirmoq, **apaiser la soif** chanqog'ini bosmoq, suvga qonmoq; **II. s'apaiser** *vpr* taskin topmoq, tinchlanmoq, bosilmoq; yupatmoq; **l'enfant s'est apaisé** bola yupandi; **le bruit s'apaise** shovqin bosilmoqda; **ma colère s'est apaisée** jahldan tushdim, jahlim yumshadi; **la tempête s'est apaisée** bo'ron bosildi.

**apanage** *nm* boylik, mulk.

**aparté** *nm* **1.** *th* replika, qistirma (*artistning boshqa artist gapirishidan oldin aytgan oxirgi so'zi*); **2.** tanholikdagi suhbat; **faire des apartés** tanho suhbatlashmoq; boshqalardan ajralib yakka suhbatlashmoq; **en aparté** maxfiy, yashirincha; **il me l'a dit en aparté** uni menga yashirincha aytdi.

**apathie** *nf* hech narsaga qiziqtirmaydigan, hafsalasi o'lik holat, ruhsizlik kayfiyati; loqaydlik, beparvolik; e'tiborsizlik.

**apathique** *adj* hech narsaga qiziqmaydigan, lanj, sust; hafsalasi, havasi, ishtiyoqi yo'q, loqayd; **une personne apathique** lanj, sust, bo'shashgan kishi.

**apatride I.** *n* fuqarolik huquqlaridan mahrum bo'lgan kishi; **II.** *adj* fuqarolik huquqlaridan, vatanidan mahrum.

**apercevoir I.** *vt* ko'rmoq, ko'rib qolmoq; payqamoq, aniqlamoq; **apercevoir qqn dans la rue** birovni ko'chada ko'rib qolmoq; **j'ai aperçu une erreur dans votre calcul** sizning hisobingizda xato borligini aniqladim, payqab qoldim; **II. s'apercevoir** *vpr* **1.** o'zini ko'rmoq; **s'apercevoir dans la glace** oynada o'zini ko'rmoq; **2.** ko'rinmoq, ko'zga tashlanmoq; **notre maison s'aperçoit de loin** uyimiz uzoqdan ko'rinib turibdi; **3.** bir-birini ko'rmoq, ko'rib qolmoq, payqab qolmoq; **nous nous sommes aperçus de loin** biz bir-birimizni uzoqdan ko'rdik; **4. s'apercevoir de** ko'rmoq, payqamoq, fahmlamoq; **je m'aperçus de son trouble** men uning bezovtaligini ko'rmoqdaman.

**aperçu** *nm* **1.** obzor (*umumlashtiruvchi qisqa ma'lumot*); **2.** fikr, tushuncha.

**apéritif, ive I.** *nm* aperitiv (*ishtahani ochish uchun ovqatdan avval ichiladigan kuchsiz spirtli ichimlik*); **II.** *adj* ishtahani ochuvchi; **boisson apéritive** ishtahani ochuvchi ichimliklar.

**apesanteur** *nf* vaznsizlik holati.

**à-peu-près** *ou* **à peu près** *nm* taxminiylik, taqribiylik, chama; burmuncha yaqinlik (*haqiqatga*); **vous faites vos calculs sur des à-peu-près** siz hisobingizni taqribiy bajaryapsiz.

**apeurer** *vt* qo'rqitmoq (*odatda o'tgan zamon sifatdoshi formasi ishlatiladi*); **un animal apeuré** qo'rqib ketgan hayvon; **des regards apeurés** qo'rquv to'la qarash, nigoh.

**aphasie** *nf méd* afaziya, so'zlash yoki tushunish qobiliyatini yo'qotish.

**aphasique I.** *adj* so'zlash qobiliyatini yo'qotgan; **II.** *n* so'zlash qobiliyatini yo'qotgan kishi.

**aphérèse** *nf ling* afereza (*so'z boshida biror fonema yoki fonemalar guruhining tushib qolishi,* **capitaine** *so'zi o'rniga* **pitaine** *deb aytilish*).

**aphone** *adj* ovozi yo'q, ovozi bo'g'iq.

**aphorisme** *nm* aforizm, hikmatli so'z, ibora.

**aphrodisiaque I.** *adj* jinsiy maylni, shahvatni qo'zg'atadigan; **II.** *nm* shahvatni, jinsiy maylni qo'zg'atadigan vositalar.

**aphte** *nm* afta, tersak (*og'izning shilliq pardasida paydo bo'ladigan dumaloq og'ritadigan yara*).

**aphteux, euse** *adj* aftaga oid; **la fièvre aphteuse** oqsil, oqsim kasalligi.

**apiculteur** *nm* asalarichi.

**apiculture** *nf* asalarichilik.

**apitoiement** *nf* rahm, shafqat; rahmdillik; ko'ngilchanlik; achinish.

**apitoyer I.** *vt* birovning rahmini keltirmoq, ko'nglini yumshatmoq; **il cherche à m'apitoyer** u mening ko'nglimni yumshatmoqqa harakat qilyapti; **II. s'apitoyer** (**sur qqn, sur qqch**) *vpr* ayamoq, achinmoq, rahmi kelmoq; **s'apitoyer sur le sort de qqn** birovning taqdiriga achinmoq.

**aplanir I.** *vt* **1.** tekislamoq, baravarlamoq; tep-tekis qilmoq; **aplanir un chemin** yo'lni tekislamoq; **2.** *fig* yo'qotmoq; bartaraf qilmoq; **aplanir des difficultés** qiyinchiliklarni yo'qotmoq; **II. s'aplanir** *vpr* **1.** tekislanmoq, baravarlashmoq; **2.** bartaraf bo'lmoq, yo'qolmoq.

**aplanissement** *nm* tekislanish, baravarlashish; **2.** bartaraf bo'lish, tugash.

**aplati, ie** *adj* **1.** yassi, yalpoq; **2.** juda horigan, charchagan, horg'in; holdan toygan, holsizlangan, darmonsizlangan; **je suis complètement aplati par la chaleur** issiqdan butunlay holdan toydim.

**aplatir I.** *vt* **1.** yoymoq, yassilamoq, yassi qilmoq; yapaloqlamoq, yapaloq qilmoq, yalpaytirmoq; **aplatir un morceau de fer à coups de marteau** temir bo'lagini bolg'a bilan urib tekislamoq; **2.** tekislamoq, silliqlamoq (*dazmol yordamida*); silab silliqlamoq, tekis qilib qo'ymoq; **aplatir un ourlet** chokni dazmollab tekislamoq; **il s'est aplati les cheveux** u sochlarini silab tekisladi; **3.** *fig fam* yo'q qilmoq, tep-tekis qilmoq, yakson qilmoq (*dushman*); **II. s'aplatir** *vpr* **1.** tekislamoq, yassi bo'lmoq, yapaloqlamoq; **un morceau de fer s'est aplati** temir bo'lagi tekislandi; **2.** *fam* cho'zilmoq cho'zilib yotmoq; **il s'est aplati sur le trottoir** u yo'l chetida cho'zilib yotdi; **3.** *fig* o'ta laganbardorlik, xushomadgo'ylik qilmoq, jilpanglamoq; **il s'aplatit devant ses supérieurs** u boshliqlari oldida jilpangladi.

**aplatissement** *nm* **1.** yapaloqlik, yalpayganlik, yassilik; yapaloqlash, yassilash; **2.** o'taketgan laganbardorlik, uchiga chiqqan xushomadgo'ylik.

**aplomb** *nm* **1.** tik, vertikal narsa; **2.** muvozanatga keltirmoq; **3.** o'ziga ishonish, manmanlik; *loc adj* **d'aplomb** doimiy muvozanatda, mustahkam, qattiq.

**apocalypse** *nf* apokalipsis (*xristiyanlarning "oxir zamon" haqidagi rivoyatlarni o'z ichiga olgan diniy kitob*).

**apocalyptique** *adj* apokalipsisga oid; **vision apocalyptique** apokaliptik dunyoqarash.

**apocope** *nf ling* apakopa (*so'z oxiridagi tovushlarning tushib qolishi*).

**apocryphe** *adj* **1.** cherkov tan olmaydigan, apokrifik; **un évangile apocryphe** apokrifik injil (*xristiyanlarning diniy kitobi*); **2.** to'g'ri bo'lmagan, soxta, ishonchsiz, ishonib bo'lmaydigan, shubhali; **un livre apocryphe** apokrif (*soxta asar*).

**apogée** *nm* **1.** *astron* apogey (*oy yoki sun'iy yo'ldosh orbitasining yerdan eng uzoq nuqtasi*); **2.** *fig* eng yuksak pog'ona, daraja, cho'qqi, avj; **parvenir à son apogée** eng yuqori cho'qqiga erishmoq.

**apolitique** *adj* siyosatdan o'zini chetga olib qochuvchi, ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetda yuruvchi, siyosatdan yiroq, siyosatga aralashmovchi.

**apollon** *nm* **1.** *myth* Apollon; **2.** *fig* go'zal, barno yigit.

**apologétique I.** *adj* apologiyaga oid, apologetik, maqtaydigan, himoya qiladigan; **II.** *nf* apologetika (*teologiyaning xristiyan dini aqidalarini himoya qiluvchi bo'limi*).

**apologie** *nf* apologiya; maqtov, madhiya; ko'pincha birovni ko'r-ko'rona himoya qilish, maqtash, madh etish.

**apologiste** *nm* apologet, ko'r-ko'rona madh etuvchi, maqtovchi, maddoh.

**apologue** *nm* masal, hikoyat.

**aponévrose** *nf anat* aponevroz (*serbar mushaklar payi*).

**apophtegme** *nm* aforizm, hikmatli so'z.

**apophyse** *nf anat* suyakdagi o'siq, o'simta, o'sma.

**apoplectique** *adj* apopleksiya oqibatidagi, apopleksik.

**apoplexie** *nf* apopleksiya, sakta (*miyaga qon quyilishi yoki miya qon tomirlarining bekilishi natijasida hushdan ketish yoki falaj bo'lish*).

**apostasie** *nf* **1.** *relig* dindan qaytish, kufr ketish, murtadlik; **2.** *fig* maslagidan qaytish, qaytganlik, murtadlik.

**apostasier** *vi* **1.** dindan qaytmoq **2.** *fig* maslagidan, e'tiqodidan qaytmoq.

**apostat** *nm* **1.** dindan qaytgan kishi, murtad; **2.** *fig* xoin, murtad; maslagidan, e'tiqodidan, so'zidan qaytgan odam.

**a posteriori I.** *loc adv* tajribaga, faktlarga asoslanib, tajribadan olib; **II.** *adj inv* tajribaga va faktlarga asoslangan, tajriba va faktlardan kelib chiqadigan, asosli; **le caractère a posteriori** tajribaga va faktlarga asoslanganlik.

**apostolat** *nm* **1.** *relig* apostollik (*nasroniy dinini targ'ib qilish faoliyati*); **2.** *fig* qizg'in targ'ibotchilik, tarafdorlik, muxlislik.

**apostolique** *adj* **1.** apostolik, apostollikka oid; **2.** papaga oid, papa; **le nonce apostolique** Papa nunsiysi (*Rim papasining diplomatik vakili*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**apostrophe**[1] *nf* **1.** murojaat; murojaatnoma; **2.** oʻdagʻaylash, jekirish, jerkish, hayqirish, dagʻdagʻa, doʻq; qattiq tanbeh, koyish; **lancer une apostrophe à qqn** qattiq tanbeh bermoq.

**apostrophe**[2] *nf* apostrof, ajratish belgisi (').

**apostropher** *vt fam* birdan yopishib ketmoq, talab, urushib tashlamoq.

**apothéose** *nf* apofeoz (***1.** Qadimgi Rim va Yunonistonda: qahramon imperatorni qutlab ilohiylashtirish marosimi; **2.** ulugʻlash, maqtash; maqtov, madhiya; **3.** shuhrat choʻqqisi; zafar, zoʻr gʻalaba, tantana*).

**apothicaire** *nm vx* aptekachi; **un compte d'apothicaire** haddan ziyod choʻzilib ketgan hisob.

**apôtre** *nm* **1.** apostop, xavoriy (*Isoning afsonaviy oʻn ikki shogirdidan biri*); **2.** xristiyan dinining targʻibotchisi; **3.** biror taʼlimot, nazariyani targʻib etuvchi va himoya qiluvchi kishi.

**apparaître** *vi* **1.** koʻrinmoq, koʻrinish bermoq, paydo boʻlmoq; chiqmoq; **un vieillard apparut sur le seuil** ostonada qariya koʻrindi, paydo boʻldi; **tout à coup la montagne apparut à l'horizon** birdaniga ufqda togʻ koʻrindi; **2.** *fig* namoyon boʻlmoq, yuzaga kelmoq, kelib chiqmoq, tugʻilmoq; **les difficultés de l'entreprise apparaissent maintenant** korxonaning qiyinchiliklari endi namoyon boʻldi; **3.** nazarida tuyulmoq; tasavvur, xayol etilmoq; **4. apparaître comme** -day boʻlib koʻrinmoq, -ga oʻxshab koʻrinmoq, -dek tuyulmoq; **5. il apparaît que** menimcha, nazarimda, shekilli; maʼlum boʻlyaptiki, bundan kelib chiqadiki; **il apparaît de là que c'est une erreur** bundan kelib chiqadiki, bu xato.

**apparat** *nm* **1.** tantanavorlik, serhashamlik, dabdabalilik; tantana, dabdaba; **2.** apparat (*ilmiy asarlarga, asarlar toʻplamiga berilgan tushuntirish, izoh*); **l'apparat critique** matnga berilgan tanqidiy izoh.

**appareil** *nm* **1.** apparat, uskuna, asbob; **appareil photographique** fotoapparat; **appareil téléphonique** telefon apparati, telefon; **2.** *anat* organizmda muayyan bir vazifani bajaradigan organ; **appareil digestif** ovqatni hazm qilish organlari; **3.** *archit* gʻishtdan, toshdan terilgan devor qismlarining birikish turlari; **4.** muassasa, tashkilot; **appareil de l'Etat** davlat apparati; **5.** samolyot; **appareil moyen-courrier** oʻrtacha olislikka uchadigan transport samolyoti; **appareil d'entraînement** mashq samolyoti; **appareil à réaction** reaktiv samolyot.

**appareillage** *nm* **1.** apparatura, uskunalar, asbob-uskuna, jihoz; **2.** mexanizm, moslama, qurilma; **3.** *mar* joʻnash, joʻnab ketish, yoʻlga chiqish; joʻnashga, yoʻlga chiqishga tayyorlanish (*kema*).

**appareiller**[1] **I.** *vi* **1.** *mar* joʻnashga tayyorlanmoq, portdan joʻnamoq; **II.** *vt* **1.** tayyorlamoq; **2.** *archit* tosh, gʻisht kabilarni tarashlamoq, terishga tayyorlamoq; birga termoq; **appareiller les pierres** toshlarni, gʻishtlarni terishga tayyorlamoq; toshlarni terib qoʻymoq.

**appareiller**[2] **I.** *vt* **1.** juftlamoq, juft-juft qilmoq, juft-juft qilib qoʻshmoq, biriktirmoq, bogʻlamoq; **2.** juftlashtirmoq, choptirmoq yoki qochirmoq; **II. s'appareiller** *vpr* **1.** bir-biriga mos qilmoq (*narsa*); **2.** juftlashmoq (*hayvonlar, qushlar*).

**apparemment** *adv* koʻrinishidan, aftidan; ehtimol, chamasi; **il n'est bête qu'apparemment** u aftidan tentakka oʻxshaydi, xolos, u tentakka oʻxshab koʻrinadi, xolos.

**apparence** *nf* **1.** bashara, tashqi qiyofa, tashqi koʻrinish (*kishi va narsa*); **un garçon d'apparence maladive** tashqi qiyofasi, koʻrinishi kasal bola; **avoir une belle apparence** chiroyli koʻrinmoq, tashqaridan chiroyli koʻrinmoq; **en apparence** koʻrinishidan; **2.** sirtdan koʻrinish, yuzakilik, nomigagina; boʻlib koʻrinish, tuyulish; ehtimollik; **prendre l'apparence pour la réalité** yuzakilikni haqiqat deb hisoblamoq; **selon toute apparence** ehtimol; boʻlsa kerak.

**apparent, ente** *adj* **1.** aniq, oshkora, ochiq-oydin, koʻrinib turgan; **porter un insigne d'une manière apparente** ordenni oshkora taqmoq, taqib yurmoq; **2.** aniq, shubhasiz; ayon, oʻz-oʻzidan koʻrinib turgan; **sans cause apparente** hech qanday sababsiz; yaqqol koʻrinib turgan sababsiz; **3.** yuzaki, sirtdan koʻrinadigan; faqat koʻrinishidagi, boʻlib koʻrinadigan, tuyuladigan, zohiriy; soxta, yolgʻon, yolgʻondakam; **le mouvement apparent du Soleil autour de la Terre** Quyoshning Yer atrofida sodir boʻlayotganday koʻrinadigan, tuyuladigan harakati.

**apparenté, ée** *adj* **1.** qarindosh boʻlgan; qarindosh-urugʻ boʻlib turgan; **il est apparenté à une illustre famille** u mashhur oila bilan qarindosh; **2.** birlashgan, birlashtirilgan; birgalikdagi, qoʻshma; yagona, umumiy (*saylov davrida*); **listes apparentées** nomzodlarning birgalikdagi roʻyxati; **3.** *fig* qoʻshilgan, qatoriga qoʻshilgan; tomoniga oʻtgan; **il est apparenté aux socialistes** u sotsialistlarga qoʻshilgan.

**apparentement** *nm* nomzodlar roʻyxatining qoʻshiluvi (*saylovda*).

**apparenter (s')** *vpr* **1.** qarindosh boʻlmoq; **s'apparenter à la bourgeoisie** burjuaziyaga qarindosh boʻlmoq; **2.** qoʻshilmoq, birlashmoq (*saylovda*); **il s'est apparenté aux socialistes** u sotsialistlarga qoʻshildi; **3.** (*ega jonsiz predmet*) oʻxshash boʻlmoq; bir xil boʻlmoq; **le goût de l'orange s'apparente à celui de la mandarine** apelsinning taʼmi mandarinnikiga oʻxshash boʻladi.

**appariteur** *nm* **1.** universitet qorovuli **2.** texnik xodim.

**apparition** *nf* **1.** paydo boʻlish, koʻrinish, koʻrinish berish; **ne faire qu'une courte apparition** birrov koʻrib chiqmoq, bir minutga kirib chiqmoq; **2.** paydo boʻlish, namoyon boʻlish; yuzaga chiqish; **l'apparition subite d'une réalité cachée** yashiringan haqiqatning birdaniga yuzaga chiqishi; **3.** xayolda koʻringan narsa, xayolot; xayoliy sharpa, koʻlanka, arvoh.

**apparoir** *v impers* **il appert que** koʻrinib turibdiki.

**appartement** *nm* kvartira, xonadon.

**appartenance** *nf* mansublik, aloqadorlik, qarashli boʻlish; **son appartenance à la communauté juive** uning yahudiylar jamoasiga mansubligi.

**appartenir (à) I.** *vi* **1.** qarashli boʻlmoq, mansub boʻlmoq; **la terre appartient à celui qui la cultive** yerga kim ishlov bersa, yer oʻshanga qarashli boʻladi; **2.** qaram boʻlmoq; ixtiyoriga berilmoq, boʻysunmoq; domiga tushmoq; **elle ne vous appartiendra jamais** u sizga hech qachon qaram boʻlmaydi, u sizning domingizga hech qachon tushmaydi; **3.** mansub boʻlmoq, -ga kirmoq, -ni tashkil etmoq, qilmoq; **cette plante appartient à la famille des crucifères** bu oʻsimlik krestgullilar oilasiga mansub; **4.** tegishli boʻlmoq, daxldor boʻlmoq, aloqador; taalluqli boʻlmoq; **pour des raisons qui m'appartiennent** menga aloqador boʻlgan sabablarga koʻra; **II. s'appartenir** *vpr* ixtiyori oʻzida, qoʻlida boʻlmoq; **avec tous ces enfants, je ne m'appartiens plus** bu bolalarning hammasi bilan, endi mening ixtiyorim oʻzimda emas; **III.** *v impers* kerak, zarur, lozim; **il appartient aux parents d'élever leurs enfants** ota-onalar bolalarni tarbiya qilishlari lozim.

**appas** *nm pl* ayollarning goʻzalligi, kelishgan qomati, goʻzal badani.

**appât** *nm* **1.** xoʻrak (*qarmoq, qopqon kabilarda*); **mettre l'appât à l'hameçon** qarmoqqa xoʻrak ildirmoq; **2.** *fig* koʻngil sust ketadigan narsa; qiziqtiradigan, havasni keltiradigan narsa.

**appâter** *vt* **1.** xoʻrak bilan oʻziga tortmoq; **appâter des oiseaux, des poissons** qushlarni, baliqlarni yem, xoʻrak bilan oʻziga tortmoq; **2.** yoʻldan urmoq, yoʻldan ozdirmoq (*odatda biror narsa vaʼda qilish orqali*); **appâter qqn par de belles promesses** birovni chiroyli vaʼdalar bilan oʻziga jalb qilmoq, oʻziga ogʻdirmoq, yoʻldan urmoq, qarmogʻiga ilintirmoq.

**appauvrir I.** *vt* **1.** qashshoqlashmoq, xonavayron qilmoq; **2.** kuchsizlantirmoq (*yerni*) **II. s'appauvrir** *vpr* kambagʻallashmoq, qashshoqlashmoq.

**appauvrissement** *nm* **1.** qashshoqlashish; kambagʻallashish; **2.** kuchsizlantirish (*yer*).

**appeau** *nm* **1.** kirkik (*qush chaqiradigan hushtak*); **2.** chaqiruvchi qush (*boshqa qushlarni chaqirish uchun ovchi tomonidan qoʻyilgan qush*).

**appel** *nm* **1.** chaqiriq ovozi; chaqiriq, chaqirish; **un appel à l'aide** yordamga chaqirish; yordam chaqirgan qichqiriq; **l'appel d'une cloche** qoʻngʻiroqning daʼvat etgan ovozi; **répondre à un appel** chaqiriqqa javob bermoq; **accourir au premier appel** birinchi chaqiriqqayoq, birinchi soʻragandayoq yugurib yetib kelmoq, chopib yetib kelmoq; **faire un appel du pied** ishora, shama qilmoq; **appel aux armes** (**à l'insurrection**) qurolli qoʻzgʻolonga chaqiriq; **envoyer un appel téléphonique** telefonda gaplashish uchun chaqiriq, chaqiriq qogʻozi joʻnatmoq; **l'appel de la conscience** vijdon amri; **2.** *mil* chaqirish; **l'appel sous les drapeaux** harbiy xizmatga, armiya safiga chaqirish; **devancer l'appel** harbiy xizmatga muddatidan oldin kirmoq; **l'âge de l'appel** chaqiriq yoshi; **3.** xitobnoma,



www.ziyouz.com kutubxonasi

murojaatnoma; murojaat, xitob, chaqiriq; **faire appel** murojaat qilmoq, undamoq, da'vat qilmoq; **4.** yo'qlama; **faire l'appel** yo'qlama qilmoq; **répondre, être présent à l'appel** yo'qlamada hozir bo'lmoq; **5.** *dr* apellatsiya, shikoyat arizasi; **la cour d'appel** shikoyat sudi, apellatsion sud; **faire appel d'un jugement** sud qaroriga shikoyat arizasini bermoq; **sans appel** shikoyat qilish huquqisiz; *fig* apellatsiyasiz, shikoyatga, norozilik arizasiga yo'l qoldirmaydigan, qat'iy; **un refus sans appel** qat'iy bosh tortish, rad qilish; **6.** *techn* havo tortish kuchi, havo tortish; **un appel d'air** havo tortish; havo tortish joyi (*mo'ri, pech kabilar*); **7.** *sport* ko'tarish, otish yoki sakrash uchun qilingan keskin harakat, zarb.

**appelé** *nm* **1.** chaqirilgan, taklif qilingan, etilgan; chorlangan; **il y a beaucoup d'appelés, mais peu d'élus** taklif etilganlar ko'p, ammo tanlab olinganlar kam; **2.** *mil* harbiy xizmatga chaqiriluvchi; **les appelés de 2006** 2006-yilda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar.

**appeler I.** *vt* **1.** nom bermoq, nomlamoq, atamoq; **appeler les choses par leurs noms** har bir narsani o'z nomi bilan atamoq; **2.** chaqirmoq, da'vat etmoq; **appeler au téléphone** telefonga chaqirmoq; **appeler sous les drapeaux** harbiy xizmatga chaqirmoq; **appeler à une charge** postga, vazifaga tayinlamoq; **3.** chaqirmoq, taklif qilmoq; **appeler qqn en justice** sudga chaqirmoq; **3.** jalb qilmoq, tortmoq; **appeler l'attention de qqn sur** birovning diqqatini biror narsaga tortmoq; **4.** talab qilmoq; keltirib chiqarmoq; **la situation financière appelle une solution urgente** moliyaviy vaziyat tez hal qilinishni talab qiladi; **II.** *vi* **1.** *dr* shikoyat, norozilik arizasini bermoq; shikoyat arizasi bilan murojaat qilmoq; **2. en appeler à** dalil, bahona qilmoq, dalil qilib ko'rsatmoq; dalil keltirmoq, guvoh sifatida ko'rsatmoq; havola qilmoq; **j'en appelle à votre témoignage** guvoh bo'ling; **III. s'appeler** *vpr* atalmoq, nomlanmoq; deb atalmoq, deyilmoq; **je m'appelle Paul** mening ismim Pol; **comment s'appelle cette fleur?** bu gul qanday nomlanadi? bu gulning nomi nima?

**appellation** *nf* nom, ism, ot (*narsalar uchun*); **un vin d'appellation contrôlée** navli, sarxil sharob.

**appendice** *nm* **1.** biror narsaning davomi; taqab solingan imorat yonma-yon qurilgan bino; **2.** ilova, qo'shimcha (*kitob, jurnalda*); **mettre en appendice** ilova'da bermoq, ilova sifatida qo'shmoq; **3.** *anat* appendiks, ko'richak o'simtasi.

**appendicite** *nf* appenditsit (*appendiksning yallig'lanishi, ko'richak kasalligi*); **opérer qqn de l'appendicite** birovning ko'richak o'simtasini operatsiya bilan olib tashlamoq.

**appentis** *nm* bostirma, ayvon, shiypon; soyabon.

**appert (il)** *voir* **apparoir**.

**appesantir I.** *vt* og'irlashtirmoq, vazminlashtirmoq; **II. s'appesantir** *vpr* **1.** og'irlashmoq, vazminlashmoq, toshi ortmoq; **je sentais ma tête s'appesantir** men boshim og'irlashib ketayotganini sezardim; **2.** biror masala ustida uzoq to'xtalib o'tmoq, to'xtamoq; ezmalik qilmoq, gapni cho'zmoq; **il s'appesantit sur les détails** u ikir-chikir ustida uzoq to'xtaldi.

**appesantissement** *nm* og'irlashish, og'irlik.

**appétence** *nf* xohish, istak, tilak, orzu; xohlash, intilish; biror narsa qilgisi kelish.

**appétissant, ante** *adj* **1.** ishtahani qo'zg'atadigan, so'lakni oqizadigan, yeyishli; **2.** *fig fam* havasni keltiradigan, ko'zni o'ynatadigan, yoqimli; o'ziga jalb qiladigan.

**appétit** *nm* **1.** ishtaha; **bon appétit!** totli bo'lsin! osh bo'lsin! yoqimli ishtaha! **2.** orzu, istak, xohish; **être en appétit de qqch** orzu qilmoq; **3.** *pl* kishi organizmi ehtiyojlarini qondirish uchun qilingan harakat; **appétit sexuel** jinsiy aloqa qilish istagi, hirs.

**applaudir I** *vt* olqishlab chapak, qarsak chalmoq, olqishlamoq; **applaudir un acteur** artistni olqishlamoq, olqishlar bilan kutib olmoq; **applaudir à tout rompre** gulduros qarsaklar bilan olqishlamoq, kutib olmoq; **être applaudi** *fig* xursandchilik bilan qarshi olinmoq; **son discours a été très applaudi** uning nutqi gulduros qarsaklar bilan qarshi olindi; uning nutqini gulduros qarsaklar bilan qarshi oldilar; **II.** *vi* ma'qullamoq, olqishlamoq; qo'llab-quvvatlamoq; **j'applaudis à cette initiative** men bu tashabbusni ma'qullayman; **III. s'applaudir** (**de qqch**) *vpr* biror narsadan, narsaga xursand bo'lmoq, biror narsadan baxtli bo'lmoq.

**applaudissement** *nm* olqishlab chalingan chapaklar, qarsaklar; olqishlar; **une salve, un tonnerre, une tempête d'applaudissements** gulduros qarsaklar; **le théâtre croulait sous les applaudissements** olqishlardan teatr larzaga keldi.

**applicable** *adj* qo'llab, ishlatsa bo'ladigan, qo'llaniladigan, ishlatishga yaraydigan; **cette loi n'est pas applicable aux étrangers** bu qonunni chet el fuqarolariga qo'llab bo'lmaydi.

**application** *nf* **1.** qo'yish, ustiga qo'yish; bosim; ustiga surtish; **l'application d'une couche de peinture** bir qavat bo'yoq surtish; **l'application d'un papier sur le mur** devorga qog'oz yopishtirish; **2.** *fig* qo'llash, tadbiq etish; qo'llanish; **l'application de la loi** qonunning qo'llanishi; qonunni qo'llash; **les applications pratiques d'une découverte** kashfiyotning amaliyotga tadbiq etilishi, kashfiyotni amaliyotga tadbiq etish; **champ d'application** qo'llash, qo'llanish doirasi; **mettre en application** amalga oshirmoq; **mettre une théorie en application** nazariyani amaliyotga tadbiq etmoq; **3.** qunt, tirishqoqlik; **l'application à l'étude** o'qishdagi tirishqoqlik; **travailler avec beaucoup d'application** katta tirishqoqlik bilan ishlamoq.

**applique** *nf* **1.** bra (*devoriy shamdon yoki chiroq tutqichi*); devorga osib qo'yilgan chiroq; **2.** kashta, gul; naqsh, bezak, quroq (*narsa ustiga uni bezash, mustahkam qilish uchun yopishtirilgan, ilingan, surtilgan har qanday narsa*).

**appliqué, ée** *adj* **1.** qo'yilgan, bosilgan; **2.** tirishqoq, quntli; **3.** amaliy; **les arts appliqués** xalq amaliy san'ati.

**appliquer I.** *vt* **1.** qo'ymoq, bosmoq, ustiga qo'ymoq; qoplamoq, surtmoq; yopishtirmoq; qoqib yopishtirmoq; **appliquer un sceau** muhr, pechat bosmoq; **appliquer des ventouses** banka qo'ymoq; **appliquer une compresse sur la joue** yuziga kompress qo'ymoq; **2.** *fam* urmoq, tushirmoq; **appliquer un soufflet à qqn** shapaloq urmoq, tarsaki tushirmoq; **3.** tadbiq etmoq, joriy etmoq; ishlatmoq, qo'llamoq; **appliquer une méthode, une loi** uslubni, qonunni qo'llamoq; **4.** qaratmoq, yo'naltirmoq; to'plamoq; **appliquer son attention à qqch** biror narsaga diqqatini to'plamoq; **II. s'appliquer** *vpr* **1.** to'g'ri kelmoq, mos kelmoq; yopishmoq; **ce papier peint s'applique facilement sur le plâtre** bu gulqog'oz suvoqqa osonlikcha yopishmoqda; **2.** taalluqli bo'lmoq, tegishli bo'lmoq; **cette remarque s'applique à tout le monde** bu tanbeh hammaga taalluqlidir; **3.** tirishqoqlik qilmoq, qunt qilmoq, hafsala qilmoq; **cet écolier s'applique bien** bu o'quvchi qunt bilan harakat qilmoqda; **il s'applique à tout comprendre** u hamma narsani tushunishga harakat qilmoqda; **il s'applique à ce travail** u bu ishni qunt bilan bajarmoqda.

**appoint** *nm* **1.** qo'shimcha summa (*yaxlit raqamli summaga yetishmayotgan mayda pul*); **faire l'appoint** pulni qaytimsiz to'lamoq, pulni to'ppa-to'g'ri to'lamoq; **2.** *fig* qo'shimcha yordam, madad; qo'shilgan ulush, hissa; **c'est pour moi un appoint décisif** bu men uchun hal qiluvchi madad, yordam; **une force d'appoint** yetishmayotgan, qo'shimcha kuch; **chauffage d'appoint** qo'shimcha isitish.

**appointements** *nm pl* maosh, ish haqi; **mes appointements se montent à** mening maoshim …-ni tashkil qiladi; **toucher ses appointements** maosh olmoq.

**appointer[1]** *vt* maosh bermoq, ish haqi bermoq; **il est appointé au mois** unga har oyda maosh beradilar.

**appointer[2]** *vt* uchlamoq, uchli qilmoq, uchini chiqarmoq, ochmoq; **appointer un crayon** qalamning uchini chiqarmoq.

**appontement** *nm* pristan (*qoziqoyoqqa o'rnatilgan*); prichal (*qoziqoyoqqa bog'langan kema, drijabl kabilarni bog'laydigan joy*).

**apponter** *vi* palubaga qo'nmoq (*samolyotlar*).

**apport** *nm* **1.** hissa, ulush; **un apport à une cause, à la science** ishga, fanga qo'shilgan hissa; **2.** yordam, madad; **ils ne peuvent rien faire sans apport extérieur** tashqaridan yordamsiz ular hech narsa qila olmaydilar.

**apporter** *vt* **1.** olib kelmoq, keltirmoq, tashib keltirmoq; **apportez-moi ce livre!** menga bu kitobni keltiring! **quelles nouvelles apportez-vous?** qanday yangiliklar olib keldingiz? qanday yangiliklar bor? **apporte!** aport! (*o'rgatilgan itga "olib kel" ma'nosida aytiladigan xitob*); **j'arrive du midi, je vous ai apporté des fruits** men janubdan keldim, sizlarga mevalar olib

keldim; **2.** qoʻshmoq, qoʻshib qoʻymoq, keltirmoq; ta'minlamoq; **apporter des preuves** dalil, isbot keltirmoq; **apporter sa pierre à l'édifice** oʻz hissasini qoʻshmoq; **3.** kiritmoq, qilmoq, boʻlmoq, aylamoq, etmoq; **apporter des modifications** oʻzgartirish kiritmoq, oʻzgartmoq; **apporter son concours à qqn, à qqch** biror kishiga, narsaga yordam koʻrsatmoq; **apporter son appui** madad bermoq; **apporter des soins** gʻamxoʻrlik qilmoq, jon kuydirmoq; **4.** keltirib chiqarmoq, sabab boʻlmoq; tugʻdirmoq; keltirmoq; **les changements que l'automobile a apporté dans la vie quotidienne** kundalik turmushda avtomobil keltirib chiqargan oʻzgarishlar.

**apposer** *vt* qoʻymoq, bosmoq, ustiga qoʻymoq; qoʻshmoq; **apposer sceau** pechat, muhr bosmoq; **apposer les scellés sur qqch** pechatlamoq, surgʻuchlamoq; **apposer des affiches** e'lon, afisha yopishtirmoq.

**apposition** *nf* **1.** qoʻyish, ustiga qoʻyish, bosish; **2.** *gram* izohlovchi.

**appréciable** *adj* **1.** sezilarli, koʻrinib, bilinib, sezilib turgan, bilinadigan, koʻzga tashlanadigan; **la différence n'est pas appréciable à l'œil nu** farq oddiy koʻzga sezilmaydi; **obtenir des résultats appréciables** sezilarli natijalarga erishmoq; **2.** muhim, ahamiyatli; foydali; **il y a eu des changements appréciables** muhim oʻzgarishlar sodir boʻldi.

**appréciation** *nf* **1.** baho berish, baholash; narx belgilash; qiymatini aniqlash; **2.** baho, fikr; mulohaza; **il a noté ses appréciations en marge du texte** u oʻz fikrlarini matn chetiga yozib qoʻydi.

**apprécier** *vt* **1.** baho bermoq, baholamoq, narx qoʻymoq; belgilamoq; **l'expert a apprécié le mobilier à tel prix** ekspert mebelga shunday narx belgiladi; **2.** belgilamoq, aniqlamoq, moʻljallamoq (*sezgi yordamida, taxminan*); **apprécier une distance, une vitesse** masofani, tezlikni aniqlamoq; **3.** sezmoq, his qilmoq, payqamoq, anglamoq, eshitmoq, koʻrmoq; **4.** yaxshi fikrda boʻlmoq, sevmoq, yoqtirmoq; **je n'apprécie pas ce genre de plaisanteries** men bunday hazillarni yoqtirmayman, menga bunday hazillar yoqmaydi.

**appréhender**[1] *vt* **1.** ushlab olmoq, qamab qoʻymoq, qamamoq; **appréhender un malfaiteur** jinoyatchini qamamoq, ushlamoq; **2.** *phil* idrok etmoq, anglamoq.

**appréhender**[2] *vt* qoʻrqmoq, xavfsiramoq, choʻchimoq (*biror narsa sodir boʻlishidan avval*); **il appréhende cet examen** u bu imtihondan qoʻrqayapti.

**appréhensif, ive** *adj* qoʻrqoq, yuraksiz.

**appréhension** *nf* **1.** qoʻrquv, xavfsirash, xavotirlanish, choʻchish, hadiksirash; hadik, xavf; **éprouver de l'appréhension** qoʻrqmoq, xavfsiramoq, hadiksiramoq; **avec appréhension** qoʻrqib, hadiksirab; qoʻrquv bilan, hadik bilan; **2.** *phil, psych* zehn, idrok; idrok qilish.

**apprendre** *vt* **1.** bilmoq, bilib olmoq; xabardor boʻlmoq; **apprendre une nouvelle par la radio** yangilikni radiodan, radio orqali bilmoq; **2.** oʻrganmoq, oʻqimoq; **apprendre l'allemand** nemis tilini oʻrganmoq; **apprendre sa leçon** darsini oʻqimoq; **apprendre un texte par cœur** matnni yod olmoq; **il a appris le métier** hunar oʻrganmoq; **3.** bildirmoq, xabar bermoq, darak bermoq; **les journaux nous apprennent les nouvelles** gazetalar bizga yangiliklarni bildiradi, biz yangiliklarni gazetalardan bilamiz; **4.** oʻrgatmoq, oʻqitmoq, ta'lim bermoq; **apprendre l'ouzbek à qqn** birovga oʻzbek tilini oʻrgatmoq; **apprendre à lire à qqn** birovga oʻqishni oʻrgatmoq.

**apprenti, ie** *n* **1.** shogird; xalfa, yordamchi ishchi; **prendre un apprenti** shogirdlikka olmoq; **entrer comme apprenti dans un atelier** ustaxonaga shogirdlikka kirmoq; shogird tushmoq; **2.** biror sohada yangi, yosh, tajribasiz odam.

**apprentissage** *nm* **1.** shogirdlik, hunar oʻrganish; hunar oʻrgatish; **l'apprentissage d'un métier** biror hunar oʻrgatish-oʻrganish; **une école d'apprentissage** hunar maktabi, hunar bilim yurti; **mettre qqn en apprentissage** hunar oʻrganishga, shogirdlikka bermoq; **être en apprentissage chez qqn** kimningdir shogirdi boʻlmoq; **pendant mon apprentissage** shogirdlik paytlarimda; **2.** biror sohada birinchi, dastlabki qadamlar; tajriba, birinchi ish; **faire l'apprentissage de** tanishmoq; dastlabki qadamlarni qoʻymoq; **en être encore à son apprentissage** biror sohada yangi, tajribasiz boʻlmoq, dastlabki qadamlarni qoʻymoq.

**apprêt** *nm* **1.** ishlov berish; tayyorlash (*xom ashyo: teri, ip, gazlama*); ishlov berish uchun ishlatiladigan maxsus moddalar; **2.** birinchi, xomaki boʻyoq berish; birinchi, xomaki boʻyoq; **une couche d'apprêt** xomaki boʻyoq qatlami; **3.** gʻayritabiiylik, bejamdorlik, tumtaroqlik; **style plein d'apprêt** jimjimador, gʻayritabiiy uslub.

**apprêté, ée** *adj* gʻayritabiiy, bejamdor, tumtaroq (*uslub*); **d'un air apprêté** gʻayritabiiy tusda.

**apprêter I.** *vt* **1.** tayyorlamoq (*ovqat*); **2.** *techn* oxirgi ishlov bermoq (*teri, gazlama, ip*); **3.** birlamchi, xomaki boʻyoq surtmoq, gruntovka qilmoq; **II. s'apprêter** *vpr* tayyorlanmoq, tayyorgarlik, hozirlik koʻrmoq; **s'apprêter au combat** jangga tayyorlanmoq; **s'apprêter à partir** joʻnab ketishga tayyorlanmoq.

**apprivoisable** *adj* qoʻlga oʻrgatib boʻladigan, oʻrgatiladigan.

**apprivoisement** *nm* qoʻlga oʻrgatish; oʻziga rom qilib olish.

**apprivoiser I.** *vt* **1.** oʻrgatmoq, qoʻlga oʻrgatmoq, qoʻlga oʻrgatib olmoq (*hayvonlar va qushlar*); **apprivoiser un ourson** ayiq bolasini qoʻlga oʻrgatib olmoq; **2.** *fig* oʻziga ogʻdirib olmoq, oʻziga qaratib, rom qilib olmoq; **apprivoiser un enfant timide** odamovi, tortinchoq bolani oʻziga rom qilib olmoq; **II. s'apprivoiser** *vpr* **1.** qoʻlga oʻrganmoq, qoʻlga, odamga oʻrganib qolmoq; **l'ours finit par s'apprivoiser** oxiri ayiq qoʻlga oʻrganib qoldi; **2.** *fig* birovga ishonadigan, gapiga quloq soladigan, gapini bajaradigan boʻlib qolmoq; oʻrganmoq, koʻnikmoq, oʻrganib, koʻnikib qolmoq; el boʻlib ketmoq.

**approbateur, trice** *adj voir* **approbatif, ive**.

**approbatif, ive** *adj* ma'qullaydigan, ma'qullovchi, ijobiy, maqtovli; **un signe de tête approbatif** ma'qullash ma'nosida bosh irgʻash, qimirlatish.

**approbation** *nf* **1.** ma'qullash, rozilik; qabul qilish; **donner son approbation** rozi boʻlmoq, rozilik bermoq; **avoir l'approbation de qqn** biror kimsaning ma'qullashiga sazovor boʻlmoq, biror kimsa tomonidan ma'qullanmoq; **donner son approbation à qqch** biror narsaga rozilik bermoq; **l'approbation d'une loi** qonunning ma'qullanishi, qabul qilinishi; qonunni ma'qullash, qabul qilish; **2.** ijobiy baho, maqtov, tahsin; **sa conduite est digne d'approbation** uning yurish-turishi maqtovga loyiq.

**approchable** *adj boʻlishsiz fe'llarda qoʻllaniladi:* kirish, oʻtish, yoʻlash mumkin boʻlgan; barchaga baravar, oddiy, odmi (*inson*); **sa porte est bien gardée, il n'est pas facilement approchable** uning darvozasi yaxshi qoʻriqlanayapti, osonlikcha yaqinlashib boʻlmaydi; **il est de très mauvaise humeur, il n'est pas approchable** uning kayfiyati juda yomon, unga yaqinlashib boʻlmaydi.

**approchant, ante** *adj* oʻxshash, oʻxshagan, bir xil, bir xildagi, bir xil tushgan.

**approche** *nf* **1.** yaqinlashish, yaqin kelish; **à mon approche** yaqinlashayotganimda; **lunette d'approche** kuzatish trubasi, uzun durbin; **travaux d'approche** *mil* sapyorlik ishlari; *fig* manyovrlar, kirdikor, hiyla-nayrang; **2.** yondoshish; qarash, nuqtai-nazar; **l'approche scientifique d'un problème** masalaga ilmiy yondoshish; **3.** ostona, boʻsagʻa; **les approches d'une ville** shahar boʻsagʻasi; **4.** yaqinlashish, boshlanish; kelish, kirish; arafa; **à l'approche de la nuit** tun kirishi bilan; **aux approches du printemps** bahor arafasida.

**approché, ée** *adj* taxminiy, taqribiy; **un calcul approché** taxminiy hisob-kitob.

**approcher I.** *vt* yaqinlashtirmoq, yaqin keltirmoq, yaqinroqqa surib qoʻymoq; **approcher ce fauteuil de la table** kresloni stolga yaqinlashtirmoq; **2.** yaqin kelmoq, yaqinlashmoq; **personne n'ose l'approcher** hech kim unga yaqin kelishga jur'at etolmayapti; **II.** *vi* **1.** yaqin kelmoq; juda yaqinlashmoq; **approchez et asseyez-vous!** yaqin keling va oʻtiring! **faire signe d'approcher** yaqin kelishga ishora qilmoq; **2.** yaqin boʻlmoq; -ga yaqinlashmoq; **approcher du but** maqsadga yaqin boʻlmoq; **il approche de la trentaine** u oʻttiz yoshga yaqinlashayapti, u yaqinda oʻttizga kiradi; **III. s'approcher** (**de**) *vpr* yaqin kelmoq, oldiga bormoq; yaqinlashmoq, yondoshmoq; **le navire s'approche de la terre** kema qirgʻoqqa yaqinlashayapti; **approchez-vous de moi!** menga yaqinroq keling!

**approfondir** *vt* **1.** chuqurlashtirmoq, kovlab chuqurroq qilmoq; **2.** *fig* chuqurroq, batafsil oʻrganmoq; **approfondir une question** masalani chuqurroq oʻrganmoq.

**approfondissement** *nm* **1.** chuqurroq qilish; chuqurlash; chuqurlashish; **2.** *fig* chuqurroq oʻrganish; **l'approfondissement d'un sujet, d'un problème** masalani, muammoni chuqurroq oʻrganish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**appropriation** *nf* **1.** o‘zlashtirish, o‘zlashtirib olish; o‘ziniki qilib olish; **2.** moslashtirish, moslashtirish, muvofiqlashtirish.

**approprié, ée** *adj* mos, muvofiq, munosib, loyiq; mos; to‘g‘ri keladigan, javob beradigan; **une réponse appropriée** munosib javob.

**approprier I.** *vt* moslamoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq; **approprier son style au sujet** uslubni mavzuga moslamoq; **II. s’approprier** *vpr* o‘zlashtirmoq, o‘ziniki qilib olmoq; egallab olmoq; bosib olmoq, zabt etmoq; **s’approprier les bénéfices, les bien d’autrui** foydani, boshqalarning mulkini o‘ziniki qilib olmoq; **s’approprier un héritage** merosni egallab olmoq.

**approuver** *vt* **1.** rozilik bermoq, ruxsat bermoq; ma’qullamoq, ma’qul topmoq; qabul qilmoq; **le conseil a approuvé l’ordre du jour** kengash kun tartibini ma’qulladi; **2.** ijobiy baholamoq, maqtamoq, tahsin o‘qimoq, **approuver une proposition, un contrat** taklifni, shartnomani ijobiy baholamoq; **approuver qqn** biror kimsa bilan hamfikr, bir xil fikrda bo‘lmoq; **je vous approuve entièrement** siz bilan batamom hamfikrman.

**approvisionné, ée** *adj* ta’minlangan, g‘amlab qo‘yilgan.

**approvisionnement** *nm* **1.** ta’minlash, ta’min etish, qilish; **l’approvisionnement d’une ville en eau** shaharni suv bilan ta’minlash; **les services d’approvisionnement** ta’minot xizmati; **2.** oziq-ovqat zaxirasi.

**approvisionner I.** *vt* **1.** oziq-ovqat bilan ta’minlamoq; **approvisionner un marché en fruits** bozorni meva bilan ta’minlamoq; **2.** *mil* o‘qlamoq, o‘q solmoq; portlovchi moddalar bilan to‘ldirmoq; **approvisionner le magasin d’une arme** o‘t ochish qurolining magazini, o‘qdoniga o‘q solmoq; **II. s’approvisionner** *vpr* zaxira qilmoq, g‘amlab qo‘ymoq; **s’approvisionner en vin** vinoni g‘amlab qo‘ymoq; **s’approvisionner chez l’épicier** boqqoldan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmoq.

**approximatif, ive** *adj* taqribiy, taxminiy, chamalangan; **valeur approximative** taqribiy qiymat.

**approximation** *nf* **1.** *math* yaqinlashish; **chercher la solution d’un problème par approximations successives** masalani mantiqiy, izchil yaqinlashish usuli bilan yechmoq; **2.** taxminiy baho, narx.

**approximativement** *adv* taxminan, taqriban.

**appui** *nm* **1.** suyanch, tayanch, suyanchiq, tayanchiq; tirgovich, tirgak; **prendre appui sur** biror narsaga suyanmoq; **point d’appui** tayanch nuqtasi; **l’appui d’une fenêtre** deraza tokchasi, deraza rafi; **2.** *fig* yordam, madad, dalda; **avoir besoin d’un appui sérieux** kuchli madadga muhtoj bo‘lmoq; **avec l’appui de qqn** birovning ko‘magida; **3.** *fig* qo‘llab, madad berib turadigan kishi, tirgak, tayanch, suyanchiq; homiy; **être l’appui de qqn** birovga madad, tayanch bo‘lmoq; **4. à l’appui de** dalil, tasdiq, isbot sifatida; **citer à l’appui de son opinion** o‘z fikrining isboti sifatida misol keltirmoq.

**appui-tête** *ou* **appuie-tête** *nm* boshtiragich, boshqo‘yg‘ich (*kreslolarning boshni qo‘yib yoki tirab o‘tiriladigan qismi*).

**appuyer I.** *vt* **1.** (**à, contre, sur qqch**) tirab qo‘ymoq, suyab qo‘ymoq, qo‘ymoq, qadamoq, tiramoq; **appuyer une échelle contre un mur** narvonni devorga tirab qo‘ymoq; **2.** *fig* yoqlamoq, quvvatlamoq; **appuyer un candidat à une élection** saylovda nomzodni yoqlamoq; **appuyer la demande de qqn** birovning iltimosini quvvatlamoq; **3.** *fig* asoslamoq, quvvatlamoq, mustahkamlamoq; **appuyer une démonstration par des exemples** dalil misollar bilan asoslamoq, mustahkamlamoq; **4.** bosmoq, ustiga bosmoq, qo‘ymoq; **appuyer le pied sur la pédale** oyoqni pedalga qo‘ymoq, pedalni bosmoq; **II.** *vi* (**sur qqch**) **1.** tegmoq, tegib turmoq; suyanmoq, tayanmoq, tiranmoq; **le pied de la table n’appuie pas sur le plancher** stol oyog‘i polga tekkani yo‘q; **le mur appuie sur les arcs-boutants** devor tashqi tirgovuch arkaga tayanib turibdi; **2.** bosmoq, siqmoq, itarmoq; surmoq; **appuyez sur le levier** richagni bosing! **3.** ayirib, alohida qilib, bo‘rttirib ko‘rsatmoq; **4.** ta’kidlamoq, uqtirib o‘tmoq, diqqatini jalb qilmoq; **5.** yo‘l olmoq; **appuyer sur la droite, à droite** chap tomondan yurmoq; **III. s’appuyer** *vpr* **1.** suyanmoq, tayanmoq; **s’appuyer sur un bâton** hassaga tayanmoq; **2.** ishonmoq, suyanmoq; **vous pouvez vous appuyer entièrement sur lui** siz unga batamom suyanishingiz, ishonishingiz mumkin; **il s’appuie sur des observations récentes** u yangi kuzatishlarga suyanmoqda; **3.** *fam* **s’appuyer une corvée** biror narsani majburan bajarmoq, o‘z xohishiga qarshi bajarmoq.

**âpre** *adj* **1.** taxir, kakra, og‘izni burushtiradigan; **2.** keskin, qattiq, shiddatli; **vent âpre** kuchli, qattiq shamol; **3.** ochko‘z, xasis; o‘ch; **âpre au gain** tekin daromadga o‘ch odam, ta’magir.

**âprement** *adv* keskin, shiddat bilan.

**après I.** *prép* **1.** so‘ng, keyin; ketma-ket, birin-ketin, navbatma-navbat (*zamonda*); **le printemps vient après l’hiver** qishdan keyin bahor keladi; **ces événements sont arrivés les uns après les autres** bu hodisalar birin-ketin ro‘y berdi; **ils président l’un après l’autre** ular navbatma-navbat raislik qilyaptilar; *loc conj* **après que** -gach, -gandan so‘ng, keyin; **il est arrivé après que je sois parti** men ketgach, u keldi; **d’après** binoan, muvofiq; **2.** so‘ng, keyin, orqada (*makonda*); **après le pont** ko‘prikdan keyin; **passez après moi** mendan keyin, mening orqamdan; **II.** *adv* keyin, o‘tgach, so‘ngra; **vingt ans après** yigirma yildan keyin, yigirma yil o‘tgach.

**après-demain** *adv* ertadan keyin, indin, indinga.

**après-guerre** *nm* urushdan keyingi davr, urushdan keyingi yillar.

**après-midi** *nm ou nf inv* tushdan keyin; **en fin d’après-midi** kunning ikkinchi yarmida.

**après-ski** *nm inv* issiq yumshoq oyoq kiyimi.

**âpreté** *nf* **1.** keskinlik, shiddatlilik; qat’iylik; **l’âpreté de la discussion** munozaraning keskinligi; **l’âpreté de la lutte** kurashning qat’iyligi; **2.** taxirlik, nordonlik, achimsiqlik (*ta’m*); **l’âpreté du vin** vinoning nordonligi.

**a priori I.** *loc adv inv phil* apriori (*tajribaga, faktlarga, asoslanish, tajribada ko‘rmasdan, tekshirmasdan, dalilsiz, isbotsiz*); **juger a priori de qqch** biror narsa, hodisa haqida apriori muhokama yurg‘izmoq; **II.** *loc adj inv* tajribaga, faktlarga asoslanmagan, tajribada ko‘rilmagan, tekshirilmagan, tajribadan qat’iy nazar, oldin; **III.** *nm inv* mulohaza, fikr.

**apriorisme** *nm* apriorizm.

**aprioriste** *adj* tajribaga, faktlarga asoslanmagan, tajribada ko‘rilmagan, tekshirilmagan.

**à-propos** *nm* o‘z vaqtida ekanlik, o‘rinli, jo‘yali bo‘lishlik; joyida, mavridida bo‘lishlik; tadbirkorlik, topqirlik, hozirjavoblik; **l’à-propos d’une remarque** tanbehning o‘rinligi; **l’esprit d’à-propos** topqirlik; **manque d’à-propos** topqirlik, hozirjavoblikning yo‘qligi, yetishmovchiligi; **dire qqch avec à-propos** biror narsani mavridi bilan aytmoq; **sans le moindre à-propos** butunlay, batamom o‘rinsiz.

**apte** *adj* layoqatli, qobiliyatli; yaroqli; **apte au travail** ishga yaroqli; **être apte à comprendre** tushunishga qodir bo‘lmoq, tushuna olmoq; **il n’est pas apte au service** u xizmatga yaroqli emas.

**aptère** *adj zool* qanotsiz, qanoti yo‘q; **insecte aptère** qanotsiz hasharot.

**aptitude** *nf* layoqat, qobiliyat; **aptitude au travail** ishga qobiliyatli.

**aquarelle** *nf* akvarel.

**aquarelliste** *n* akvarel bo‘yoq bilan surat soluvchi musavvir.

**aquarium** *nm* akvarium.

**aquatinte** *nf typogr* akvatinta (*akvarel yoki to‘q jigar rang bo‘yoq bilan solingan suratga o‘xshatib yasalgan gravyura*).

**aquatique** *adj* suvli, suv; suvda bo‘ladigan, suvda yashaydigan; **plantes aquatiques** suv o‘tlari; **animaux aquatiques** suvda yashaydigan hayvonlar.

**aqueduc** *nm* akveduk, osma quvur, suv quvuri.

**aqueux, euse** *adj* suvi ko‘p, sersuv, sernam.

**aquilin** *adj m* **le nez aquilin** qushburun, qiyg‘irburun.

**aquilon** *nm* akvilon (*shimoldan esadigan sovuq shamol*).

**arabe I.** *adj* arablarga va Arabistonga oid; **II.** *n* **1.** arab, arabistonlik; **2.** *nm* arab tili.

**arabesque** *nf* **1.** *pl* me’morchilik va rassomchilik san’atida; geometrik shakllardan, barg, gul kabilarning tasvirdan tarkib topgan murakkab naqsh; **2.** *fig* gajak shaklida o‘ralgan narsa, o‘ram, gajak, jimjima, jingala; chirmov; **3.** ayrim harakat, muqom (*raqsda*).

**arabisant, ante** *n* arabshunos.

**arabisation** *nf* arablashtirish; arablashish.

**arabiser** *vt* arablashtirmoq.

**arable** *adj* haydaladigan, ekiladigan; **terre arable** haydaladigan yer.

**arachide** *nf* yeryong‘oq.

**arachnéen, enne** *adj* o‘rgimchakka oid, o‘rgimchak.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**arachnides** *nf pl* o'rgimchaksimonlar.

**araignée** *nf* o'rgimchak; **toile d'araignée** o'rgimchak to'ri; *loc fam* **il a une araignée au plafond** miyasi aynimoq, aqli joyida emaslik.

**aratoire** *adj* dehqonchilikka va dehqonlarga oid; **instruments aratoires** dehqonchilik asbob-uskunalari; haydov aslahalari.

**arbalète** *nf* arbalet (*kamonga o'xshash qadimiy qurol*).

**arbitrage** *nm* **1.** arbitraj hakamlar sudi; **soumettre un différend à l'arbitrage** da'voni arbitrajga oshirmoq; **2.** *sport* arbitrlik, hakamlik.

**arbitraire I.** *adj* **1.** erkin; o'zboshimchalik bilan, o'zicha ish tutadigan; **un choix, une décision arbitraire** erkin, o'zboshimcha, tanlov, qaror; **2.** qonunsiz, noqonuniy; **une détention arbitraire** noqonuniy to'xtatib turish; **II.** *nm* o'zboshimchalik, beboshlik; haddan oshish; boshqalarning haq-huquqlarini poymol qilish.

**arbitrairement** *adv* o'zboshimchalik bilan; noqonuniy, qonunsiz; asossiz.

**arbitral, ale** *adj* arbitajga oid.

**arbitre**[1] *nm* **1.** arbitr, hakam; **2.** arbitr (*davlat arbitrajining xodimi*); **3.** *sport* arbitr, sudya, hakam.

**arbitre**[2] *nm* **libre arbitre** iroda erkinligi.

**arbitrer** *vt* **1.** hakam sifatida hal qilmoq (*manfaatdor bo'lmagan shaxs*); arbitrajda sud qilmoq; **2.** *sport* sudyalik, hakamlik qilmoq; **arbitrer un match de football** futbol matchida hakamlik qilmoq.

**arborer** *vt* **1.** balandlikka o'rnatmoq, tiklamoq; baland ko'tarmoq; **arborer un drapeau** bayroq tikmoq; **2.** ko'rinarli yerga osib qo'ymoq, osmoq; taqmoq; ko'z-ko'z qilmoq; **arborer une décoration** ordenni ko'z-ko'z qilmoq.

**arborescence** *nf* daraxtga o'xshab tarmoq otish.

**arborescent, ente** *adj* daraxtga o'xshash, daraxt shaklidagi, daraxtsimon.

**arboriculteur** *nm* bog'bon; o'rmonchi.

**arboriculture** *nf* bog'dorchilik; o'rmonchilik.

**arborisation** *nf* daraxtsimon ko'rinishda tabiiy shakl, tasvir.

**arbre** *nm* **1.** daraxt; **arbre fruitier** mevali daraxt; **arbre de Noël** yangi yil archasi; **2.** *techn* val; o'q; shpindel.

**arbrisseau** *nm* yosh, kichkina daraxt, nihol.

**arbuste** *nm* past bo'yli daraxt; buta.

**arc** *nm* **1.** *archit* arka, ark, toq, ravoq; arka, darvoza; **l'arc de triomphe** zafar arki; **2.** *géom* yoy; **un arc de cercle** aylana yoyi; **3.** kamon, kamalak, yoy; **bander un arc** kamonni tortmoq; **tirer à** (**de**) **l'arc** kamondan otmoq; **4.** elektr yoyi; **lampe à arc** yoyli chiroq; **soudure à l'arc** elektr yoyi bilan payvandlash.

**arcade** *nf* **1.** *archit techn* gumbaz, qubba; **2.** *anat* yoysimon suyak; **arcade sourcilière** qosh usti suyaklari.

**arcanes** *nm pl* sir, maxfiy narsa; **les arcanes de la politique** siyosatning sirlari.

**arc-boutant** *nm* tiragich, tirgak, tirkagich gumbaz (*gotik arxitekturada gumbaz sifatida binoning tashqarisiga devorni mustahkamlash uchun qurilgan inshoot*).

**arc-bouter (s')** *vpr* borib taqalmoq; suyanmoq, tayanmoq, tiralib, tayanib turmoq; **s'arc-bouter contre une porte** eshikka tayanib turmoq.

**arceau** *nm* **1.** *archit* kichik arka, arkacha; **2.** kichik arka, yoy shaklidagi narsa.

**arc-en-ciel** *nm* (*pl* **arcs-en-ciel**) kamalak (*nurlarning yetti xil rangda tovlanishi*); **les couleurs de l'arc-en-ciel** kamalak ranglari; **avoir des reflets d'arc-en-ciel** kamalak rangida tovlanish; rang-barang tovlanish.

**archaïque** *adj* o'tgan zamonga oid, qadimiy, eskirgan (*so'z, ibora, odat*); klassik davrdan avvalgi, ibtidoiy; **style archaïque** arxaik, ibtidoiy uslub.

**archaïsant, ante I.** *adj* arxaiklashtiruvchi; **un poète archaïsant** arxaist-shoir; **II.** *n* arxaist (*adabiyotda san'atda arxaik uslub va formalarga taqlid qiluvchi kishi*).

**archaïsme** *nm ling* arxaizm (*eskirgan so'z, ibora, grammatik shakl*).

**archange** *nm* Arxangel, Jabroyil (*farishtalarning, malaklarning eng kattasi*).

**arche**[1] *nf relig* **l'arche de Noé** Nuh kemasi (*afsonaviy to'fonda Nuh, uning oilasi va hayvonlar saqlanib qolgan kema*).

**arche**[2] *nf* arkasimon gumbaz (*ko'priklarda*); **les arches d'un pont** ko'prik gumbazlari.

**archéologie** *nf* arxeologiya, qadimshunoslik.

**archéologique** *adj* arxeologik, arxeologiyaga oid, arxeologiya.

**archéologue** *nm* arxeolog, qadimshunos.

**archer** kamonchi, kamon.

**archétype** *nm* prototip, timsol (*yozuvchiga badiiy obraz yaratish uchun manba bo'lgan shaxs*).

**archevêché** *nm* **1.** arxiyepiskop boshqaruvidagi hudud; **2.** arxiyepiskop qarorgohi, saroyi.

**archevêque** *nm* arxiyepiskop (*bir necha cherkov okrugini boshqaruvchi yepiskop*).

**archiduc, duchesse** *n* ersgersog (*Avstraliya shahzodalarining unvoni va shu unvonga ega odam*); ersgersoginya (*ersgersogning rafiqasi yoki qizi*).

**archiépiscopal, ale, aux** *adj* arxiepiskopga oid, arxiepiskop.

**archiépiscopat** *nm* arxiepiskop rutbasi.

**archimandrite** *nm* arximandrit (*monaxlarning oliy unvoni va shu unvonga ega bo'lgan monax, odatda monastir boshlig'i*).

**archipel** *nm* arxipelag (*bir-biriga yaqin orollar guruhi*).

**architecte** *nm* arxitektor, me'mor; **la profession d'architecte** arxitektorlik, me'morlik kasbi.

**architectural, ale** *adj* arxitekturaga oid, me'moriy, arxitektura.

**architecture** *nf* **1.** arxitektura, me'morchilik, qurish san'ati; **2.** kompozitsiya, tuzilish.

**architecturer** *vt* talabchanlik, jiddiylik bilan qurmoq, tuzmoq; **roman bien architecturé** yaxshi tuzilgan roman.

**architrave** *nf archit* sarrov.

**archive** *nf pl* arxiv; **les archives de famille** oila arxivi; **les archives nationales** davlat arxivi; **un document d'archives** arxiv hujjati; **archives cinématographiques** filmoteka.

**arçon** *nm* **1.** egarning yog'och asosi; **vider les arçons** otdan yiqilmoq; **être ferme dans, sur ses arçons** egarda mustahkam o'rnashib o'tirmoq; *fig* o'zining mustahkam fikriga ega bo'lmoq; **2.** *sport* tutqich, band, dasta (*gimnastika otining tutqichi*) **cheval d'arçons** gimnastika oti.

**arctique** *adj* Arktikaga oid, Arktikaga xos bo'lgan, arktik, Arktika.

**ardemment** *adv* jo'shib, qizg'in, kuyib-yonib, zavq bilan, jon-jahd bilan, astoydil, ehtiros bilan; **désirer ardemment** jon-jahd bilan istamoq.

**ardent, ente** *adj* **1.** yonayotgan, qizdirayotgan; **charbons ardents** yonayotgan ko'mir; **une fièvre ardente** kuchli issiqlik; **soleil ardent** jazirama; **2.** *fig* qizg'in, jo'shqin, shavqli, otashin, ishqiboz; kuchli; zo'r; ehtirosli; **un désir ardent** kuchli xohish, ishqibozlik; **un ardent partisan** otashin tarafdor.

**ardeur** *nf* **1.** yondirish, kuydirish; **l'ardeur du soleil** quyoshning yondirishi; **2.** *fig* qizg'inlik, jo'shqinlik, shavq, ehtiroslilik, otashinlik, kuchlilik; **l'ardeur du tempérament** temperamentning zo'rligi, jo'shqinligi; **l'ardeur des convictions** ishonchning kuchliligi.

**ardillon** *nm* tilcha (*kamar va shu kabilar to'qasida*).

**ardoise** *nf* **1.** yupqa tosh; shifer; **un toit d'ardoise** shiferli tom; **une maison couverte d'ardoises** tomga shifer yopilgan uy; **un crayon d'ardoise** grifel, toshqalam; **2.** toshtaxta (*toshqalam bilan yoziladigan taxta*); **3.** *fig* do'kondorga to'lanadigan qarz (*kreditga narsa xarid qilinganda*).

**ardu, ue** *adj* qiyin, og'ir, mushkul, tong; **travail ardu** qiyin ish; **entreprise ardue** ahvoli tang korxona.

**are** *nm* ar (*100 metr kvadratga teng yer o'lchovi*).

**areligieux, euse** *adj* hech qaysi dinga mansub bo'lmagan, dinsiz, xudosiz, kofir.

**arène** *nf* **1.** arena, manej, sirk maydoni, sirk sahni; **2.** *fig* maydon; soha (*faoliyat sohasi*); **l'arène politique** siyosat maydoni; **descendre dans l'arène** kurash boshlamoq; **3.** *pl* amfiteatr (*Qadimgi Rimda ochiq tomoshagoh va uning doiraviy, balandlab boruvchi o'rinlari*).

**arête** *nf* **1.** baliq suyagi, qiltanog'i; **un poisson plein d'arêtes** sersuyak, qiltanog'i ko'p baliq; **2.** qirra, cho'qqi; **les arêtes d'un cube** kubning qirralari;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**à arête vive** o‘tkir qirrali; **arête d'une chaîne de montagnes** tog‘ tizmalarining cho‘qqisi.

**argent** *nm* **1.** kumush (*metall*); **en argent, d'argent** kumush, kumushdan, kumushdan tayyorlangan; **avoir des reflets d'argent** kumushdek tovlanmoq; **2. vif-argent** simob; **3.** pul; **avoir besoin d'argent** puldan qiynalmoq; **une grosse somme d'argent** katta miqdordagi pul; **argent liquide** naqd pul; **avance d'argent** avans pul, bo‘nak; **l'argent de poche** choy puli, kundalik mayda xarajatlar uchun pul; **jeter l'argent par les fenêtres** pulni ko‘kka sovurmoq, pulni isrof qilmoq.

**argenté, ée** *adj* **1.** kumush qoplangan, kumush yuritilgan; **métal argenté** kumush suvi yugurtirilgan metall; **2.** kumush rang; **des cheveux argentés** kumush rang soch; **un tilleul argenté** venger jo‘kasi, lipasi; **3.** *fam* pulli, mablag‘li; **je suis peu argenté en ce moment** hozir pulim yo‘q.

**argenter** *vt* kumush bilan qoplamoq, kumush yugurtirmoq.

**argenterie** *nf* kumush idish-tovoqlar.

**argentier** *nm* **1. grand argentier** xazinachi, g‘aznachi; *fam* moliya vaziri; **2.** shkaf (*kumush idish-tovoqlar qo‘yish uchun*).

**argentin[1], ine** *adj* jaranglagan, jarangdor, jarangli; **le son argentin d'une clochette** qo‘ng‘iroqning jarangdor ovozi.

**argentin[2], ine I.** *adj* Argentinaga va argentinlarga oid, Argentina; **II.** *n* argentin, argentinalik.

**argile** *nf* gil, tuproq; **l'argile réfractaire** o‘tga chidamli gil; **l'argile rouge, jaune** qizil, sariq gil.

**argileux, euse** *adj* gilli, tuproqli, sertuproq, serloy.

**argon** *nm chim* argon.

**argot** *nm* argo, jargon (*ma'lum doirada qo‘llaniladigan yasama so‘zlar va iboralari*); **l'argot des voleurs** o‘g‘rilar argosi; **parler argot** argoda gapirmoq; **c'est un mot d'argot** bu argoga taalluqli so‘z.

**argotique** *adj* argoga, jargonga oid; **termes argotiques** argoga oid terminlar.

**arguer** *vt* **1.** xulosa qilmoq; xulosa chiqarmoq; **2. (de)** bahona qilmoq, bahona, sabab ko‘rsatmoq.

**argument** *nm* **1.** dalil, isbot; **un argument de poids** ishonchli, asosli dalil; **invoquer un argument** dalil keltirmoq; **réfuter un argument** dalilni rad etmoq; **tirer un argument de qqch** xulosa chiqarmoq; **2. l'argument d'une pièce** pyesaning qisqacha mazmuni.

**argumentation** *nf* dalillar, dalil-isbotlar, dalil-isbot keltirish.

**argumenté, ée** *adj* asoslangan, isbotlangan.

**argumenter** *vi* dalil keltirmoq, dalil keltirib, dalillar bilan isbotlamoq, asoslamoq.

**argus** *nm* **1. l'argus de l'automobile** minilgan, ishlatilgan avtomobillarning ma'lumotnoma-preyskuranti, narxnomasi; **l'argus de l'immobilier** uy, binolarning preyskuranti, narxnomasi; **2.** ziyrak, hushyor qo‘riqchi; **3.** *zool* argus (*qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub qush*).

**argutie** *nf* ishkalbozlik, lo‘ttibozlik, sansalorlik, ishga ataylab to‘g‘anoq solish, ishkal topish; ishkal chiqarish; **se livrer à des arguties** ishkalbozlik bilan shug‘ullanmoq.

**aride** *adj* **1.** qaqroq, qurg‘oq, qurg‘oqchil; cho‘lga o‘xshagan; suvsiz; hosilsiz; **une terre aride** qurg‘oq, qaqroq, hosil bermaydigan yer; **2.** *fig* his-tuyg‘usiz, qiziqishsiz, quruq; **sujet, matière aride** quruq mavzu, material.

**aridité** *nf* **1.** quruqlik, quriganlik; qovjiraganlik; **aridité du sol** tuproqning quruqligi; **2.** *fig* quruqlik, shirasizlik; hissizlik; **aridité du sujet** mavzuning quruqligi, sayozligi.

**aristocrate** *n* aristokratiyaga, aslzodalarga mansub kishi, aristokrat, aslzoda, zodagon, oqsuyak.

**aristocratique** *adj* aristokrat, zodagonlarga oid, aristokratlarga xos bo‘lgan; aristokratik, nazokatli; **manières aristocratiques** aristokratik yurish-turish, aristokratlarcha nazokat.

**aristocratie** *nf* **1.** aristokratiya, aslzodalar, zodagonlar, oqsuyaklar; **2.** aristokratiya (*biror sinf yoki ijtimoiy guruhning imtiyozli qismi*); **l'aristocratie ouvrière, de l'argent** ishchi, moliya aristokratiyasi; **l'aristocratie des élites** adabiy elita; **3.** aristokratiya, aristokratik tuzum (*hokimiyat bir guruh imtiyozli sinf namoyandalari qo‘lida bo‘lgan idora usuli*).

**arithmétique I.** *adj* arifmetikaga, hisoblashga oid; arifmetik, arifmetika; **une progression arithmétique** arifmetik progressiya; **faire des opérations arithmétiques** arifmetik amallarni bajarmoq; **II.** *nf* arifmetika, hisob; **un manuel d'arithmétique** arifmetika darsligi, arifmetika.

**arlequin, ine** *n* arlekin, arlekino, masxaraboz (*Italiya komediyalarida maskali masxaraboz*).

**armagnac** *nm* armanyak.

**armateur** *nm* bir yoki bir nechta kema egasi.

**armature** *nf* **1.** *techn* armatura; **2.** *fig* asos, o‘zak, negiz, ustun; **l'armature d'un parti** partiyaning ustuni.

**arme** *nf* **1.** qurol, yarog‘, qurol-yarog‘, yarog‘-aslaha; **une arme à feu** o‘qotar qurol; **l'arme atomique** atom quroli; **une arme blanche** sovuq qurol; **un dépôt d'armes** qurol-yarog‘ ombori; **prendre les armes** qo‘lga qurol olmoq, jangga tayyorlanmoq; **un peuple en armes** jangga tayyor xalq; **déposer, rendre les armes** qurolni qo‘ymoq, taslim bo‘lmoq; **passer un prisonnier par les armes** asirni otib tashlamoq; **appeler sous les armes** harbiy xizmatga, armiyaga chaqirmoq; **port d'arme prohibée** taqiqlangan qurolni olib yurish; **une prise d'armes** qurol bilan saf tortish, safga turish; parad; **aux armes!** qurollaning! *mil* **reposer arme!** miltiq yelkadan oyoq uzra olinsin! **2.** *sport* **maître d'armes** qilichbozlik o‘qituvchisi; **salle d'armes** qilichbozlik zali; qilichbozlik maktabi; **tirer des armes** qilichbozlik qilmoq; **3.** *fig* vosita, dastak, qurol; **l'arme psychologique** psixologik qurol, vosita; **4.** harbiy kasb; **la carrière des armes** harbiy xizmat; **le métier des armes** harbiy ish; **un frère d'armes** quroldosh, safdosh; **être sous les armes** harbiy xizmatda bo‘lmoq; **5.** qo‘shin turi; **les différentes armes** turli qo‘shinlar; **l'arme aérienne** harbiy-havo kuchlari, harbiy aviatsiya; **6.** *pl* gerb, tamg‘a; **les armes de Paris** Parij gerbi.

**armé, ée** *adj* **1.** qurolli, qurollangan; **armé jusqu'aux dents** tish-tirnog‘igacha qurollangan; **2.** qurol vositasida hal qilinadigan; qurol aralashgan, qurolli; **conflit armé** qurolli mojaro.

**armée** *nf* **1.** armiya, qo‘shin; **l'armée d'active** harakatdagi armiya; **l'armée de métier** doimiy xizmatdagi, muntazam armiya; **l'armée de terre, de l'air, de mer** quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy-havo kuchlari, harbiy dengiz floti; **2.** *fig* armiya (*biror sohaning katta guruhi*); **une armée de chômeurs** ishsizlar armiyasi.

**armement** *nm* **1.** qurollanish; qurollantirish; **courses aux armements** qurollanish poygasi, zo‘r berib qurollanish; **2.** qurol-yarog‘, qurol-aslaha; **la réduction des armements** qurollarni kamaytirish; **3.** *mar* kemani kerakli yarog‘, aslaha, anjom bilan ta'minlash, shaylash.

**arménien, ienne I.** *adj* Armaniston va armanlarga oid, arman; **II.** *n* **1.** arman, arman ayoli; **2.** *nm* arman tili.

**armer I.** *vt* **1.** qurollantirmoq, qurol-yarog‘ bilan ta'minlamoq; **armer les soldats de fusils** askarlarga miltiq bermoq, askarlarni miltiq bilan qurollantirmoq; **2.** *fig* oyoqlantirmoq, gijgijlamoq, olkishlamoq, xezlamoq, dushman qilib, qarshi qilib qo‘ymoq; **armer les peuples les uns contre les autres** xalqlarni bir-birlariga dushman qilib qo‘ymoq; **3.** mustahkamlamoq, mahkamlamoq; **armer un bâton d'une pointe de fer** yog‘och tayoqqa temir uch qo‘yib mustahkamlamoq; **4.** armaturalamoq, armatura bilan mustahkamlamoq (*beton*); **5.** *mar* kemani kerakli yarog‘, aslaha, anjom bilan ta'minlamoq; **6.** o‘t ochish qurolini tayyorlamoq; tepkini ko‘tarmoq; **II. s'armer** *vpr* **1.** qurollanmoq; **s'armer jusqu'aux dents** tish-tirnog‘igacha qurollanmoq; **2.** *fig* (**de qqch**) yig‘moq, to‘plamoq; **s'armer de patience** chidamoq, sabr qilmoq; **s'armer de courage** kuchini yig‘moq.

**armistice** *nm* yarash, vaqtinchalik sulh.

**armoire** *nf* shkaf, javon; **armoire à glace** oynali javon.

**armoiries** *nf pl* gerb, tamg‘a, tug‘ro, timsol.

**armure[1]** *nf* **1.** qadimgi askarlarning barcha qurol-aslahalari; **2.** sovut; **endosser une armure** sovut kiymoq.

**armure[2]** *nf* to‘qish yoki to‘qilish usuli.

**armurerie** *nf* **1.** qurolsozlik, qurolsozlik kasbi; **2.** qurol ustaxonasi, zavodi; **3.** qurol bilan savdo qilish; **4.** qurol do‘koni.

**armurier** *nm* **1.** qurolsoz usta, aslahasoz, qurol-aslaha yasaydigan usta; **2.** qurol do‘koni egasi, qurol bilan savdo qiluvchi odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**arnaquer** *vt fam* **1.** ayyorlik bilan qo'lga kiritmoq, aldab-suldab olmoq; aldamoq, firib bermoq; **2.** qamamoq, hibsga olmoq; qo'lga olmoq; **se faire arnaquer** qo'lga tushmoq.

**arnica** *nf* arnika (*dorivor o'simlik turi*); shu o'simlikdan tayyorlangan damlama.

**arobase** *ou* **arrobase** *nf* tijoriy a (@).

**aromate** *nf* **1.** muattar hid, xushbo'y is tarqatuvchi modda; **2.** ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan ziravorlar.

**aromatique** *adj* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar; **plante aromatique** xushbo'y o'simlik.

**aromatiser** *vt* xushbo'y hid, modda qo'shmoq, hid bermoq.

**arôme** *ou* **arome** *nm* muattar hid, xushbo'y is; **l'arôme du café** qahvaning xushbo'y hidi.

**arpège** *nm mus* arpedjio (*musiqiy asarlarni ijro etishda pardalarni asta-sekin balandlatib berish, akkord tovushlarini alohida-alohida, past pardadan boshlab chalish*).

**arpent** *nm* arpan (*yarim gektarga yaqin yer o'lchov birligi*).

**arpentage** *nm* yerni chegaralash; yer sathini o'lchash; **faire l'arpentage d'un champs** dalani o'lchab chegaralamoq, dalani chegaralab ajratib qo'ymoq.

**arpenter** *vt* **1.** chegaralamoq, chegarani aniqlamoq, belgilamoq, marza olmoq, tortmoq; **2.** katta qadamlar bilan yurmoq; katta qadamlar bilan o'lchamoq; **arpenter la chambre** xonada u yoq-bu yoqqa yurmoq.

**arpenteur** *nm* yer o'lchovchi, tanobchi; yer tuzuvchi, yer tuzish ishlari mutaxassisi.

**arpète** *ou* **arpette** *nf* dastyor qiz; shogird qiz, chevarning shogirdi.

**arpion** *nm arg* oyoq.

**arqué, ée** *adj* qayrilgan, bukilgan, egilgan.

**arquebuse** *nf* pilta miltiq.

**arquebusier** *nm* pilta miltiq taqqan askar.

**arquer I.** *vt* qayirmoq, bukmoq, egmoq; **II. s'arquer** *vpr* qayrilmoq, egilmoq, bukilmoq.

**arrachage** *nm* yulib, sug'urib olish, kovlash, qazish, kovlab, qazib olish; **arrachage des pommes de terre** kartoshka kovlash.

**arraché** *nm sport* bir siltov, bir zo'r berish (*og'ir tosh ko'tarishda*).

**arrachement** *nm* **1.** yulib, sug'urib olish, siltash, zo'r berish; **2.** ayriliq azobi, hijron.

**arrache-pied (d')** *loc adv* to'xtovsiz, uzluksiz, jadal; **travailler six heures d'arrache-pied** to'xtovsiz olti soat ishlamoq.

**arracher I.** *vt* **1.** uzmoq, yulmoq, sug'urmoq, yulib, uzib, sug'urib, qazib, kovlab olmoq; **arracher des pommes de terre** kartoshka kovlamoq; **arracher un enfant des bras de sa mère** bolani onasi qo'lidan yulib olmoq; **2.** *fig* majbur qilmoq, ko'ndirmoq, unatmoq; **arracher une augmentation** ish haqining oshirilishiga erishmoq; **3.** *fig* chiqarmoq; **ce récit lui arracha des larmes** bu hikoya uning ko'zlaridan yosh chiqarib yubordi; **4.** *sport* siltamasdan ko'tarmoq; **II. s'arracher** *vpr* **1. (de, à)** afsus bilan uzoqlashmoq, ketmoq; kuch bilan chiqib ketmoq; **2. s'arracher qqn** darrov ilib ketmoq, darrov olmoq; **il est si intelligent que tout le monde se l'arrache** u shunday aqlliki, uni hamma o'ziga chaqirib olyapti; **s'arracher les cheveux** tushkunlika tushmoq, sochlarini yulmoq.

**arracheur, euse** *n* **1.** yulib, sug'urib oluvchi kishi; *fam* **mentir comme un arracheur de dents** surbetlarcha, yuzsizlarcha aldamoq; **2.** *nf agr* terim mashinasi; **arracheuse de betteraves** lavlagi kovlaydigan mashina.

**arraisonnement** *nm mar* ko'zdan kechirish, tekshirish; tekshirib, qarab, ko'rib chiqish, tekshiruv, nazorat (*kemani*).

**arraisonner** *vt* kemani tekshiruvdan o'tkazmoq, tekshirmoq, nazorat qilmoq.

**arrangeant, ante** *adj* gapga ko'nadigan, unaydigan, muomalaga yuradigan, ko'nuvchan, unovchan; ko'ngilchan.

**arrangement** *nm* **1.** tartibga keltirish; joylashtirish, jihozlash; **arrangement d'une maison** uyni tartibga keltirish, jihozlash; **2.** bitim, kelishuv, to'xtam, ahd-paymon; **un arrangement de famille** oilaviy kelishuv; **trouver un arrangement avec qqn** birov bilan kelishmoq; **3.** *mus* aranjirovka, qayta ishlash, boshqacha tarzda ifodalash.

**arranger I.** *vt* **1.** tartibga keltirmoq, yig'ishtirmoq, joyiga qo'ymoq, joylashtirmoq, to'g'rilamoq; **arranger son appartement** xonadonni, uyni tartibga keltirmoq, yig'ishtirmoq; **arranger sa coiffure** sochini to'g'rilamoq; **2.** tuzatmoq, to'g'rilamoq, qaytadan qilmoq, qayta tikmoq; **3.** moslashtirmoq, qayta ishlamoq; **arranger un roman pour le théâtre** romanni teatr uchun qayta ishlamoq; **4.** uyushtirmoq, tashkil qilmoq, yo'lga qo'ymoq, to'g'rilab olmoq; **il nous a arrangé un voyage en France** u biz uchun Fransiyaga sayohat uyushtirdi; **5.** to'g'rilamoq, yo'lga qo'ymoq, bartaraf qilmoq; **arranger les choses** ishni to'g'rilamoq; **arranger une querelle** janjalni bartaraf qilmoq; **6.** to'g'ri kelmoq, ma'qul kelmoq, qondirmoq; **7.** yomon muomala qilmoq, koyimoq, urishmoq; **II. s'arranger** *vpr* **1.** to'g'rilanmoq, tuzalmoq, yaxshilanmoq, yo'lga tushmoq, tartibga kelmoq; **tout s'est bien arrangé** hamma narsa yo'lga tushib ketdi; **2.** kelishmoq, bitishmoq, bitimga kelmoq, to'xtamga kelmoq, gapni bir yerga qo'ymoq; **3.** harakat qilmoq, chora ko'rmoq, ilojini qilmoq; **je m'arrangerai pour venir à 8 heures** soat 8da kelishga harakat qilaman; **4.** qanoatlantirmoq, qoniqmoq; **5.** tuzanmoq, yasanmoq, o'zini tartibga keltirmoq.

**arrangeur** *nm* aranjirovkachi (*musiqa asarini boshqa soz, boshqa ovozga moslab qayta ishlovchi yoki berilgan mavzu bo'yicha musiqa yozuvchi kishi*).

**arrérages** *nm pl* eski qarzlar, to'lanmagan, qolgan qarz.

**arrestation** *nf* qamash, qamoqqa, hibsga olish, qamoq, hibs, qamalish.

**arrêt** *nm* **1.** to'xtash, to'xtatish, tugash, tinish, to'xtab o'tish; **faire plusieurs arrêts** bir necha marta to'xtash, to'xtab o'tish; **l'arrêt du travail** ishning tugashi; **2.** to'xtalish, tanaffus, dam, tin olish, pauza; **dix minutes d'arrêt** to'xtash vaqti o'n minut, o'n minut tanaffus; **sans arrêt** tinimsiz, beto'xtov, to'xtamasdan; **3.** to'xtash joyi, bekat; **attendre à l'arrêt d'autobus** avtobus to'xtash joyida, bekatida kutmoq; **4.** hibsga olish; **un mandat d'arrêt** hibsga olish haqida order; **maison d'arrêt** qamoqxona; **mettre aux arrêts** hibsga olmoq; **lever les arrêts** hibsdan bo'shatmoq; **5.** hukm, qaror; **un arrêt de mort** o'limga hukm, o'lim hukmi; **rendre un arrêt** hukm chiqarmoq, hukm qilmoq.

**arrêté, ée I.** *adj* **1.** to'xtatilgan, hibsga olingan; **2.** o'rnatilgan, shakllangan, tarkib topgan; **des idées arrêtées** shakllangan g'oyalar; **3.** qabul qilingan, hal etilgan, qat'iy; **affaire arrêtée** hal qilingan ish, o'zgartirib bo'lmaydigan ish; **II.** *nm* qaror, qarorning moddalarga ajratilgan bayoni; **l'arrêté ministériel** vazirlik qarori.

**arrêter I.** *vt* **1.** to'xtatmoq, ushlab qolmoq; **arrêter un passant** yo'lovchini to'xtatmoq; **2.** bo'lmoq, bo'lib qo'ymoq, to'xtatib qolmoq; **arrêter un complot** fitnani to'xtatib qolmoq; **3.** qamamoq, hibsga olmoq; **4.** belgilamoq, tayinlamoq; **arrêter le jour d'un rendez-vous** uchrashuv kunini belgilamoq; **II.** *vi* to'xtamoq; **dites au chauffeur d'arrêter** haydovchiga to'xtatishini ayting; **il n'arrête pas de travailler** u ishlashdan, ishdan to'xtamayapti, u to'xtamay ishlayapti; **III. s'arrêter** *vpr* **1.** to'xtamoq, to'xtab qolmoq; **la voiture s'est arrêtée** mashina to'xtadi; **2.** qolmoq, to'xtab qolmoq, to'xtab qolib ketmoq; **s'arrêter quelques jours à Paris** Parijda bir necha kun qolmoq; **3.** tugamoq, tinmoq; **le bruit s'arrête** shovqin tindi; **4.** to'xtalmoq, to'xtalib o'tmoq, diqqatini jalb qilmoq; **s'arrêter sur une question** biror masala ustida to'xtalmoq.

**arrhes** *nf pl* bo'nak, bay puli, zakalat, avans (*mehnatga oldindan to'lanadigan pul, haq, mablag'*).

**arriération** *nf* **arriération mentale** aqliy qoloqlik, aqliy zaiflik.

**arrière I.** *nm* **1.** quyruq, orqa qism, orqa tomon; **l'arrière d'une voiture** mashinaning orqa qismi; **l'arrière d'un bateau** kemaning quyrug'i; **2.** *mil* front orqasi, orqa tomon; **3.** *sport* himoyachi; **II.** *adj* orqadagi, keyingi, ketingi, orqa; **le siège arrière** orqa o'rindiq; **le feu arrière** orqadagi chiroq; **en marche arrière** orqaga yurib; **III.** *adv* orqaga, orqasiga, ketinga, keyinga; **faire machine arrière** orqaga yurmoq; *fig* o'z so'zidan qaytmoq; **rester en arrière** orqada qolmoq; **regarder en arrière** orqaga qaramoq; **IV.** *intj* **arrière!** orqaga!

**arriéré, ée I.** *adj* **1.** orqada qolgan, qoloq; **un pays arriéré** qoloq mamlakat; **2.** qoloq, zaif (*aqliy tomondan*); **II.** *nm* soliqdan to'lanmay qolgan qarz; oxirigacha olinmagan summa; **toucher un arriéré de pension** pensiyaning qolgan qismini olmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**arrière-boutique** *nf* (*pl* **arrière-boutiques**) do'konning ichkarisidagi xona.

**arrière-garde** *nf* (*pl* **arrière-gardes**) aryergard (*asosiy kuchlardan orqadagi harbiy qismlar*).

**arrière-goût** *nm* (*pl* **arrière-goûts**) boshqacha, qo'shimcha ta'm, boshqa narsadan yuqqan yoqimsiz ta'm.

**arrière-grand-mère** *nf* (*pl* **arrière-grands-mères**) katta buvi, momo (*bobo yoki buvining onasi*).

**arrière-grand-père** *nm* (*pl* **arrière-grands-pères**) katta bobo, buva (*bobo yoki buvining otasi*).

**arrière-pays** *nm inv* ichki rayonlar, ichkaridagi hududlar.

**arrière-pensée** *nf* (*pl* **arrière-pensées**) g'araz, yomon niyat.

**arrière-petite-fille** *nf* (*pl* **arrière-petites-filles**) evara (*nevaraning qizi*).

**arrière-petit-fils** *nm* (*pl* **arrière-petits-fils**) evara (*nevaraning o'g'li*).

**arrière-petits-enfants** *nm pl* evaralar.

**arrière-plan** *nm* (*pl* **arrière-plans**) **1.** orqa plan, orqa tomon; **2.** ikkinchi darajali; ahamiyatsiz o'rin, joy, narsa.

**arrière-saison** *nf* (*pl* **arrière-saisons**) yilning oxirgi fasli, kuz; kuzning oxiri.

**arrière-train** *nf* (*pl* **arrière-trains**) **1.** orqa oyoqlar (*hayvonlar*); **2.** orqa o'q (*avtomobilda*); **3.** *fam* dumba, orqa, ket.

**arrimer** *vt* yukni joylamoq va mahkamlamoq (*kema, avtomobil, samolyotga*); **arrimer des colis sur une voiture** yuklarni mashinaga joylamoq.

**arrivage** *nm* **1.** kelish, tushish, keltirish (*tovar, material*); **arrivage de poisson sur le marché** bozorga baliqlarning kelishi, keltirilishi; **2.** keltirilgan, kelgan narsa.

**arrivant, ante** *n* kelayotgan (*kishilar*); **les arrivants et les partants** kelayotgan va ketayotganlar (*kishilar*).

**arrivé, ée I.** *adj* **1.** kelgan (*kishi*); **premier, dernier arrivé** birinchi va oxirgi kelgan; **2.** erishgan, yetishgan; **un homme arrivé** maqsadga erishgan kishi; **II.** *nf* **1.** kelish, yetib kelish; **2.** kelish, boshlanish; **l'arrivée du printemps** bahor kelishi, bahorning boshlanishi; **3.** finish, marra.

**arriver** *vi* **1.** kelmoq, yetib kelmoq; **arriver par le train, en auto** poyezdda, mashinada kelmoq; **2.** yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; **3.** biron darajaga yetmoq, bo'yi o'smoq, bo'yi balandlashmoq; **cet enfant grandit beaucoup, il m'arrive déjà à l'épaule** bu bola juda o'sib ketdi, uning bo'yi yelkamga yetib qoldi; **4.** erishmoq, yetishmoq, muvaffaq bo'lmoq; **arriver à un certain âge** ma'lum yoshga yetmoq; **j'arrive à faire des économies** men pul yig'ishga muvaffaq bo'ldim; **5.** muvaffaqiyat qozonmoq, muvaffaqiyatga erishmoq; martabasi oshmoq; **un individu qui veut à tout prix arriver** qanday bo'lmasin, har qanday yo'l bilan mavqega erishishni istovchi shaxs; **6.** tilga olmoq, til tekkizmoq; to'xtalmoq, to'xtalib o'tmoq; kelmoq; **quant à cette question, j'y arrive** bu masalaga kelsak, men unga to'xtalyapman; **7. en arriver à** kelmoq, hosil qilmoq; **j'en arrive à la conclusion** men xulosa qilmoqdamanki; **j'en arrive à me demander s'il n'a pas raison** pirovardida balki u haqdir degan xulosaga kelyapman; **8.** kelmoq (*ega narsani ifodalaydi*); **un colis est arrivé pour vous** sizga posilka keldi; **9.** yetib kelmoq, eshitilmoq; **le bruit est arrivé jusqu'à ses oreilles** shovqin ungacha eshitilardi; **10.** yetmoq; kelmoq; **l'eau lui arrive à la ceinture** suv uning beligacha yetdi; **11.** yaqinlashmoq, boshlanmoq; tushmoq; **l'hiver arrive** qish yaqinlashmoqda; **la nuit arrive** qorong'u tushmoqda; **12.** bo'lmoq, bo'lib o'tmoq; ro'y bermoq; yuz bermoq, sodir bo'lmoq; kelib chiqmoq, chiqmoq; **cela peut arriver à tout le monde** hamma bilan ham bunday narsa sodir bo'lishi mumkun; **13.** *v impers* **il est arrivé un train** poyezd keldi; **il arrive un moment où on peut choisir** tanlaydigan payt keladi; **quoi qu'il arrive** nima bo'lishidan qat'iy nazar; **si jamais il m'arrive quelque chose** agar menga bir narsa bo'lib qolsa, agar o'lib-netib qolsam.

**arrivisme** *nm* shuhratparstlik, amalparastlik, mansabparastlik, shuhrat ketidan quvish, mansabga intilish.

**arriviste I.** *n* shuhratparast, amalparast, mansabparast, manfaatparast; **II.** *adj* shuhratparast, amalparast odamlarga xos bo'lgan; shuhratparastlik, amalparastlik maqsadlarini ko'zlab qilingan; shuhratparastlik.

**arrobase** *nf voir* **arobase**.

**arrogance** *nf* manmanlik, dimog'dorlik, takabburlik.

**arrogant, ante** *adj* takabbur, manman, kibr-havosi baland, kalondimog', dimog'dor, kekkaygan; mag'rur.

**arroger (s')** *vpr* nohaq g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirmoq, o'ziniki qilib olmoq, egallab olmoq.

**arrondi, ie I.** *adj* **1.** dumaloq, yumaloq shaklli; **un visage arrondi** kulcha yuz; **2.** *fig* silliq, ravon; tugallangan; **II.** *nm* **1.** egri chiziq; aylana chiziq; biror narsaning aylana, dumaloq qismi; **2.** *av* qo'nish oldidan samolyotning gorizontal holatga o'tishi.

**arrondir I.** *vt* **1.** yumaloqlamoq, dumaloqlamoq, to'garak holga keltirmoq; **2.** qirrasini olmoq; **arrondir les angles** qirrasini olmoq; **3.** ko'paytirmoq, yirik summaga yetkazmoq, yaxlitlamoq, yaxlitlab hisoblamoq; **arrondir sa fortune** boyligini ko'paytirmoq; **II. s'arrondir** *vpr* dumaloq bo'lmoq, yumaloq bo'lmoq, yumaloqlanmoq; to'lishmoq; **son ventre s'arrondit** uning qorni to'lishyapti.

**arrondissement** *nm* **1.** okrug, rayon; **2.** yaxlitlash, yaxlit hisoblash.

**arrosage** *nm* sug'orish, suv berish, suv quyish (*ekinga*).

**arrosé, ée** *adj* sug'orilgan, suv berilgan, suv quyilgan.

**arroser** *vt* **1.** sug'ormoq, suv bermoq, suv qo'ymoq, sepmoq, purkamoq; solmoq; **arroser des plantes** ekinlarga suv bermoq; **se faire arroser** *fam* yomg'irda qolmoq; yomg'irga bo'kmoq; **2.** sug'ormoq, oqib o'tmoq; **3.** *fig* ichmoq, yuvmoq, bayram qilmoq; **arroser un succès** biror muvaffaqiyatni yuvmoq, nishonlamoq, biror muvaffaqiyat munosabati bilan ichmoq; **4.** *fam* biror kimsaga uni o'ziga og'dirib olish maqsadida pul bermoq; **5.** biror narsaga spirtli ichimlik qo'shmoq; **arroser son café** qahvaga spirtli ichimlik qo'shmoq.

**arroseuse** *nf* suv sepadigan mashina; suv purkaydigan moslama.

**arrosoir** *nm* gulchelak (*suv sochadigan jo'mrakli chelak*).

**arsenal** *nm* **1.** *mar* harbiy port; **2.** arsenal, aslahaxona, qurolxona, qurol-yarog' ombori; **3.** arsenal (*qurol-yarog' va o'q dori ishlab chiqaradigan yoki qurol-yarog' ta'mir qiladigan korxona*) **4.** *fig* biror narsaning katta miqdori, zaxirasi; **l'arsenal des lois** qonunlarning katta miqdori, arsenali; **4.** *fam* kerak-yarog', aslaha-anjom; matoh; lash-lush; **l'arsenal d'un photographe** fotografning lash-lushlari.

**arsenic** *nm chim* margimush.

**arsouille I.** *n* bezori, xuligan; **II.** *adj* xuligan, bezorilarga oid; xuligan, bezorilardek, xuligan, bezorilarcha; xuliganlik, bezorilik.

**art** *nm* **1.** san'at; **les beaux arts** tasviriy san'at; **les arts décoratifs** amaliy-dekorativ san'at; **2.** mohirlik, ustalik, mahorat; **l'art de persuader** ishontirish mahorati; **homme de l'art** o'z ishining mohiri, bilag'on kishi, mutaxassis; **avec art** mohirlik, ustalik bilan; **connaître l'art de** biror narsani qanday qilishni bilmoq; **avoir l'art de** mahoratiga ega bo'lmoq; **3.** mahorat, san'at; **l'art militaire** harbiy mahorat; harbiy san'at; **l'art oratoire** notiqlik san'ati; **l'art culinaire** pazandalik mahorati.

**artère** *nf* arteriya, qizil qon tomiri; **2.** *fig* magistral, katta, asosiy, qatnov yo'li.

**artériel, elle** arteriyaga oid, arterial, arteriya; **le système artériel** arterial sistema; **prendre la tension artérielle** qon bosimini o'lchamoq.

**artériosclérose** *nf* arterioskleroz.

**arthrite** *nf méd* artrit, bo'g'inlarining yallig'lanishi.

**arthritique I.** *adj* bo'g'inlarning yallig'lanishiga oid, artrit; **II.** *n* artrit bilan og'rigan bemor.

**arthritisme** *nm* artritizm.

**arthropodes** *nm pl zool* bo'g'imoyoqlilar.

**arthrose** *nm méd* artroz (*bo'g'imlarning surunkali modda almashinuvi buzilishi bilan bog'liq kasalligi*).

**artichaut** *nm* artishok (*o'tsimon poliz o'simligi*); **il a un cœur d'artichaut** u yengiltak, yengil tabiat.

**article** *nm* **1.** maqola; **un article de fond** bosh maqola; **2.** punkt, modda; **3.** tovar, mahsulot; **un article de confiserie** konditer mahsulotlari; **des articles de consommation courante** keng iste'mol mollari; **4.** *gram* artikl; **l'article défini, indéfini** aniq, noaniq artikl.

**articulaire** *adj* bo'g'imga oid; bo'g'imdagi, bo'g'im; **rhumatisme articulaire chronique** surunkali bo'g'im revmatizmi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**articulation** *nf* **1.** *anat* bo'g'im; **l'articulation du coude** tirsak bo'g'imi; **l'articulation du genou** tizza bo'g'imi; **2.** *techn* sharnir; oshiq-moshiq; **3.** *fig* bog'lash; bog'lovchi element; **les articulations d'une phrase** jumlani bog'lovchi elementlar; **4.** talaffuz, artikulatsiya.

**articulé, ée I.** *adj* **1.** bo'g'imli, bo'g'im-bo'g'im; bo'g'imlardan iborat; *zool* **des insectes articulés** bo'g'imoyoqli hasharotlar; **un pantin articulé** qo'l va oyoqlari harakatlanadigan qo'g'irchoq; **2. articulé à** bog'langan, qo'shilgan; **ces deux chapitres ne sont pas articulés l'un à l'autre** bu ikkala bob bir-biriga bog'lanmagan; **3.** *ling* burro, aniq, ravshan, tushunarli; **un mot bien articulé** aniq talaffuz qilingan so'z; **II.** *nm pl zool* bo'g'imoyoqlilar.

**articuler I.** *vt* **1.** talaffuz qilmoq; **articuler chaque mot** har bir so'zni aniq talaffuz qilmoq; **2.** *techn* qo'shmoq, ulamoq, biriktirmoq; **II. s'articuler** *vpr* **1.** talaffuz qilinmoq, talaffuz etilmoq; **2.** bog'lanmoq, qo'shilmoq, birikmoq.

**artifice** *nm* **1.** makkorlik, ayyorlik, hiylagarlik, mug'ombirlik; makr, nayrang, hiyla; ustalik, ustamonlik; **il est plein d'artifices** u juda ayyor; **sans artifice** ochiq ko'ngil bilan; soddalik bilan; **2.** *techn* o't oldiradigan, oldiruvchi modda; yonib nur sochuvchi modda; **un feu d'artifice** mushakbozlik; **tirer un feu d'artifice** mushak otmoq.

**artificiel, elle** *adj* **1.** sun'iy, yasama, g'ayritabiiy; **une lumière artificielle** sun'iy yorug'lik; **la soie artificielle** sun'iy ipak; **2.** *fig* soxta yolg'ondakam, qalbaki; **un rire artificiel** soxta, yolg'ondakam kulgi.

**artificiellement** *adv* sun'iy ravishda, g'ayritabiiy qilib, yasama, yolg'ondakam.

**artificier** *nm* pirotexnik, pirotexnika mutaxassisi, mushakboz.

**artificieux, euse** *adj* ayyor, makkor, mug'ombir; ustamon.

**artillerie** *nf* artilleriya; **être dans l'artillerie** artilleriya qismida xizmat qilmoq.

**artilleur** *nm* artilleriyachi, to'pchi.

**artimon (mât d')** *nm mar* bizan (*kemaning quyruq tomonidagi machta*).

**artisan, ane** *n* **1.** hunarmand, kosib; **les petits artisans** kichik hunarmandlar; **2.** *fig* yaratuvchi, ijodkor, bunyodkor, quruvchi, tuzuvchi; barpo qiluvchi; sababchi; **l'artisan de la victoire** g'alabaning bunyodkori; **l'artisan de ses propres malheurs** o'z baxtsizligining sababchisi.

**artisanal, ale** *adj* **1.** hunarmandchilikka, kosibchilikka oid, hunarmandchilik; **2.** qo'lda qilingan, xomaki; **fabrication artisanale** hunarmandchilik buyumlari, kustar mollar.

**artisanalement** *adj* hunarmandchilik bilan, hunarmandlarga xos.

**artisanat** *nm* **1.** hunarmandlar, kosiblar tabaqasi, hunarmandlar, kosiblar ahli; **2.** hunarmandlik, kosiblik; **3.** hunar, kasb.

**artiste I.** *n* **1.** san'atkor, san'atchi; ijodkor; usta; **2.** rassom, musavvir; **3.** artist, aktyor; **II.** *adj* yuksak mahoratga ega bo'lgan; ijodkor.

**artistique** *adj* **1.** artistlarga oid, artistlarga xos bo'lgan; **2.** katta mahorat, ustalik bilan qilingan; mohirona, san'atkorona.

**artistement** *adv* san'atkorona, yuksak san'at bilan, mahorat ko'rsatib; did bilan.

**arum** *nm bot* kala (*gulning nomi*).

**aryen, enne I.** *adj* oriylarga oid, oriy; **II.** *n* oriy, oriy ayol (*irqchilar nazariyasiga ko'ra toza irq vakili*).

**aryk** *nm* ariq.

**as** *nm* **1.** tuz (*qarta o'yinida*); **2.** ochko, xol (*domino toshida*); **3.** *fig* o'z ishining mohir ustasi; **un as de l'aviation** havo janglarida katta mahorat ko'rsatgan uchuvchi; **un as du volant** yuqori klassli haydovchi; **c'est un as!** bu as! bu shunqor!

**ascaride** *ou* **ascaris** *nm zool* askaridalar, yumaloq gijjalar.

**ascendance** *nf* shajara; avlod-ajdodlar; **il y a beaucoup de paysans dans mon ascendance** mening avlodimda dehqonlar juda ko'p.

**ascendant[1], ante** *adj* yuqoriga yo'nalgan, ko'tariladigan, ko'tarilayotgan, ko'tariluvchi, ko'payib boruvchi; **un mouvement ascendant** yuqoriga yo'nalgan harakat, ko'tarilish; **progression ascendante** *math* ko'payib ketuvchi sonlar qatori.

**ascendant[2]** *nm* **1.** ta'sir, ta'sir etish, ko'rsatish; nufuz, e'tibor, obro'; qudrat, quvvat; **avoir l'ascendant sur qqn** biror kimsaga ta'siri bo'lmoq; **exercer un ascendant** ta'sir etmoq, ko'rsatmoq; **subir l'ascendant de qqn** biror kimsaning ta'sirida bo'lmoq; **2.** *pl* qavm-qarindoshlar; avlod-ajdodlar.

**ascenseur** *nm* lift; **la cabine** (**la cage**) **de l'ascenseur** lift kabinasi; **le garçon d'ascenseur** lifter, liftchi.

**ascension** *nf* **1.** toqqa chiqish; **faire l'ascension d'une montagne** toqqa chiqmoq; **2.** havoda ko'tarilish, yuqoriga chiqish; **ascension d'un ballon** aerostatning havoda yuqoriga ko'tarilishi; **3.** *relig* me'roj (*Isoning arshi a'loga ko'tarilishi va nasroniylarning shunga bag'ishlangan bayrami*); **4.** *fig* yuksalish, o'sish, rivojlanish, taraqqiy etish, avj olish, kuchayish; **être en pleine ascension** avjida bo'lmoq.

**ascensionner** *vi* havoga, toqqa ko'tarilmoq.

**ascensionniste** *n* al'pinist (*alpinizm bilan shug'ullanuvchi sportchi*).

**ascèse** *nf* zohidlik, tarki dunyo qilish, tarkidunyochilik.

**ascète** *n* asket, zohid, tarki dunyo qilgan kishi; qalandar, darvesh.

**ascétique** *adj* asketlarga va asketizmga oid; asketik.

**ascétisme** *nm* asketizm, zohidlik, tarkidunyochilik, tarki dunyo qilish; din yo'lida riyozat chekish; **vivre dans l'ascétisme** darveshona hayot kechirmoq, yakka-yolg'iz yashamoq.

**asepsie** *nf méd* aseptika (*operatsiya vaqtida, shuningdek, yaralarni davolashda infeksiyadan saqlash usul va choralar*).

**aseptique** *adj méd* aseptik; zararsizlantirilgan; **un pansement aseptique** zararsizlantirilgan bog'lama (*yaraga bog'langan bint kabilar*).

**aseptiser** *vt* dezinfeksiyalamoq, dezinfeksiya qilmoq; **aseptiser une plaie** yarani dezinfeksiya qilmoq.

**asexué, ée** *adj* erkak yoki urg'ochilik alomati yo'q, jinssiz.

**asiatique I.** *adj* Osiyo qit'asiga va osiyoliklarga oid; Osiyo; osiyoliklar; **II.** *n* osiyolik, Osiyoda yashovchi.

**asile** *nm* **1.** boshpana, pana joy; **chercher, trouver asile, un asile** boshpana qidirmoq, topmoq; **2.** daxlsiz, qonun himoyasidagi joy; **l'église était autrefois un asile** avvallari monastir daxlsiz joy edi; **3.** muhtojlarga yordam beruvchi muassasa; **asile de vieillards** qariyalar uyi; **asile d'aliénés** *ou* **asile** aqli zaiflar shifoxonasi.

**asocial, ale I.** *adj* ijtimoiy hayotga moslashmagan, moslasha olmaydigan; **II.** *n* ijtimoiy hayotga moslashishni istamaydigan kishi.

**aspect** *nm* **1.** manzara, ko'rinish; **à l'aspect de** ko'rib; **au premier aspect** birinchi qarashdan; **2.** ko'rinish, qiyofa, vajohat, rang, tus, siyoh, chehra, aft, bashara, ruxsor; ahvol, holat; **des fruits de bel aspect** ko'rinishi chiroyli mevalar; **donner l'aspect de** ko'rinishiga, qiyofaga ega bo'lmoq; **un homme d'aspect misérable** bechora ko'rinishli kishi; **3.** taraf, tomon; jihat, xususiyat; nuqtai nazar; **envisager la question sous tous les aspects** masalani har taraflama o'rganmoq; **4.** *gram* tur.

**asperge** *nf* **1.** *bot* sarsabil (*ko'p yillik sabzavot o'simligi*); **2.** *fam* novcha, daroz odam.

**asperger I.** *vt* purkamoq, sepmoq, sachratmoq; **asperger d'eau froide** sovuq suv purkamoq; **asperger de boue** loy, balchiq sachratmoq; **II. s'asperger** *vpr* o'ziga sepmoq, o'ziga purkamoq; **s'asperger de parfum** o'ziga atir sepmoq.

**aspersion** *nf* maydalab sepish, purkash, shakarob qilib sepish; *relig* muqaddas suvdan purkash.

**aspérité** *nf* notekis, g'adir-budir, o'nqir-cho'nqir joy, notekislik, g'adir-budirlik; **les aspérités du sol** tuproqning o'nqir-cho'nqirligi, notekisligi.

**asphaltage** *nm* asfaltlash, asfalt yotqizish.

**asphalte** *nm* **1.** asfalt; **2.** *fam* trotuar, tosh yo'l.

**asphalter** *vt* asfalt qilmoq, asfalt yotqizmoq.

**asphyxiant, ante** *adj* **1.** bo'g'adigan, bo'g'ib qo'yadigan, bo'g'ib o'ldiradigan; **gaz asphyxiant** bo'g'adigan gaz; **2.** jaholat hukmron bo'lgan, qotib qolgan, qoloq; **une atmosphère asphyxiante** jaholat hukmron bo'lgan muhit.

**asphyxie** *nf* kislorod yetishmasligi natijasida nafas qisishi.

**asphyxié, ée I.** *adj* dimiqib qolgan, isdan zaharlangan; **II.** *n* dimiqib, isdan zaharlangan kishi.

**asphyxier I.** *vt* nafasini qismoq; **ce gaz asphyxie** bu gaz nafasni qisyapti, bu nafasni qisadigan gaz; **il a été asphyxié par la fumée** u isdan zaharlanib o'ldi; **II. s'asphyxier** *vpr* dimiqib o'lmoq, bo'g'ilib o'lmoq; nafasi qaytmoq.

**aspic[1]** *n* aspid (*zaharli ilon turi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**aspic²** *nm bot* lavanda (*havorang yoki binafsharang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik*).

**aspirant, ante** *adj* so'rib oluvchi, so'radigan, tortadigan, emib, shimib oluvchi; emadigan, shimadigan; **une pompe aspirante** suv tortadigan nasos.

**aspirant** *n* **1.** kandidat, nomzod (*biror mansab, vazifaga*); **2.** *nm mil* ofitserlikka nomzod; *mar* dengizchilik o'quv yurtining ikkinchi bosqich talabasi.

**aspirateur** *nm* pilesos, changyutgich; **passer des tapis à l'aspirateur** gilamlarni changyutgich bilan tozalamoq.

**aspiration** *nf* **1.** nafas olish, o'pkaga havo olish; **2.** *techn* emish, so'rish, shimish; **3.** intilish, kuchli orzu, ishtiyoq, maqsad, niyat; **aspiration vers l'idéal** ideal niyat, maqsadga intilish.

**aspiré, ée** *adj ling* nafas tovushiga oid; nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan; **un "h" aspiré** nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan "ash".

**aspirer** *vt* **1.** nafas olmoq; **aspirer l'air à pleins poumons** chuqur nafas olmoq; **2.** so'rmoq, emmoq, shimmoq; **aspirer une boisson avec une paille** ichimlikni poxolpoya yordamida so'rib ichmoq; **3.** intilmoq, harakat qilmoq; tirishmoq; urinmoq; **aspirer à travailler** ishlashni juda xohlamoq; **aspirer à la paix** tinchlikka harakat qilmoq.

**aspirine** *nf* aspirin, isitma dori; **un cachet d'aspirine** aspirin tabletkasi.

**assagir I.** *vt* esini, aqlini kirgizmoq, es-hushli qilmoq, og'ir, vazmin, bosiq qilib qo'ymoq; tiyib qo'ymoq; **le mariage l'a assagi** uylanganidan so'ng u es-hushini yig'ib oldi; **II. s'assagir** *vpr* aqli kirmoq, es-hushini yig'ishtirib olmoq, og'ir, vazmin, bosiq bo'lib qolmoq, o'zini tiyib olmoq.

**assagissement** *nm* tinchish, tinchlanish, yupanish, ovunish, taskin, orom topish; tinchitish, tinchlantirish, yupatish, bosish, taskin, orom berish.

**assaillant, ante I.** *adj* hamla qilayotgan, hamla qiluvchi; tashlanayotgan; **II.** *nm* bosqinchi, dushman.

**assaillir** *vt* **1.** tashlanmoq, hamla qilmoq, chovut solmoq; **être assailli par les malfaiteurs** bosqinchilar hamlasiga duchor bo'lmoq; **2.** o'rab olmoq, o'rtaga olmoq, qurshab olmoq; **le ministre était assailli par des journalistes** vazirni jurnalistlar o'rab olgan edilar; **3.** ko'mib tashlamoq, ko'mmoq; **assaillir qqn de pierres** tosh yog'dirmoq, toshbo'ron qilmoq; **4.** *fig* yog'dirmoq, ko'mib tashlamoq; **assaillir qqn de questions** biror kimsani savolga ko'mib tashlamoq; **5.** bosmoq, qoplamoq; **des difficultés m'assaillent** meni qiyinchiliklar bosib qoldi.

**assainir** *vt* **1.** sog'lomlashtirmoq, yaxshilamoq, tozalamoq; **assainir une ville** shaharni sog'lomlashtirmoq; **assainir l'atmosphère** atmosferani, vaziyatni sog'lomlashtirmoq; **2.** *fig écon* sog'lomlashtirmoq; bir me'yorga keltirmoq; **assainir la monnaie** pul tizimini mustahkamlamoq.

**assainissement** *nm* **1.** sog'lomlashtirish, yaxshilash; **l'assainissement d'une région** joyni sog'lomlashtirish; **2.** melioratsiya (*yerlarni tubdan yaxshilash, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli qilish ishi va chora tadbirlari ishi majmui*); **3.** *écon* mustahkamlash, yaxshilash, sog'lomlashtirish; **l'assainissement du marché** bozorni yaxshilash; **l'assainissement de la monnaie** pul muomalasini mustahkamlash.

**assaisonnement** *nm* **1.** ziravor, dorivor, qayla kabilar; **2.** ovqatga ziravor, dorivor qo'shish.

**assaisonner** *vt* **1.** ovqatga ziravor, dorivor solmoq, ovqatga xushxo'r qiladigan narsa qo'shmoq (*qatiq, murch, tuz, qalampir va shu kabilar*); **assaisonner la salade** salatga ziravor solmoq; **2.** *fig* qo'shmoq, bezamoq, boyitmoq; **assaisonner un récit de bons mots** hikoyaga qochiriq gaplar qo'shmoq, hikoyani qochiriq gaplar bilan boyitmoq.

**assassin I.** *nm* qotil, odamkush; **II.** *adj plais* o'ldiradigan, halok qiladigan, halokatli; **des regards assassins** qotil nigohlar.

**assassinat** *nm* qotillik; o'ldirish, o'ldirib ketish, qatl etish.

**assassiné, ée** *adj* o'ldirilgan, qatl etilgan.

**assassiner** *vt* o'ldirmoq, o'ldirib qo'ymoq, qatl etmoq.

**assaut** *nm* **1.** hujum, qattiq hujum; **l'assaut d'une forteresse** qal'aga hujum; **monter, partir à l'assaut** qattiq hujumga o'tmoq; **donner l'assaut** qattiq hujum bilan egallamoq; **2.** *fig* shiddat, birdan kuchayish (*shamol*); xuruj, xuruj qilish, tutish, tutib qolish (*kasallik*); **3.** *sport* mashq, musobaqa; **faire assaut de qqch avec qqn** biror kimsa bilan biror narsada musobaqalashmoq.

**asséché, ée** *adj* qurigan, suvi qochgan, qovjiragan, qaqroq.

**assécher I.** *vt* quritmoq, suvini quritmoq, zahini qochirmoq, qaqratmoq; **assécher un marais** botqoqlikni quritmoq; **II. s'assécher** *vpr* qurimoq, sergimoq, suvi qochmoq.

**assemblage** *nm* **1.** qo'shish, biriktirish, mahkamlash, ulash; **2.** *techn* nabor, to'plam, komplekt (*asboblar*).

**assemblée** *nf* **1.** bir joyga yig'ilgan kishilar, tomoshabinlar, tinglovchilar, auditoriya; **cette fête a réuni une nombreuse assemblée** bayramga juda ko'p kishilar yig'ildi; **2.** assambleya; majlis, kengash; **assemblée générale de l'ONU** BMTning Bosh assambleyasi; **tenir une assemblée générale** umumiy majlis chaqirmoq; **présider une assemblée** yig'ilishga raislik qilmoq.

**assembler I.** *vt* **1.** bir joyga yig'moq, to'plamoq; **assembler la foule** xalqni to'plamoq; **2.** yig'moq, montaj qilmoq, birlashtirmoq, ulamoq, tikib ulamoq, to'plamoq; **assembler les pièces d'une machine** mashina qismlarini yig'moq; **II. s'assembler** *vpr* yig'ilmoq, to'planmoq, birlashmoq; *prov* **qui se ressemble s'assemble** o'xshatmasdan uchratmas.

**assener** *ou* **asséner** *vt* urmoq, zarba bermoq; **asséner un coup de bâton sur la tête** tayoq bilan boshga urmoq.

**assentiment** *nm* rozilik, ma'qullash; **donner son assentiment à qqch** biror narsaga o'z roziligini bermoq, biror narsani ma'qullamoq; **obtenir l'assentiment de qqn** birovning roziligini olmoq.

**asseoir I.** *vt* **1.** o'tirg'izmoq, o'tqizmoq; **asseoir un enfant sur une chaise** bolani kursiga o'tqizmoq; **2.** o'rnatmoq, mustahkamlamoq; **asseoir son autorité** o'z obro'-e'tiborini mustahkamlamoq; **II. s'asseoir** *vpr* o'tirmoq.

**assermenté, ée** *adj* qasamyod qilgan; qasamyod qildirilgan.

**assertion** *nf* mulohaza, fikr (*odatda to'g'ri deb aytilgan fikr, mulohaza*).

**asservir I.** *vt* qul qilmoq, asoratga solmoq; bo'ysundirmoq; **asservir un peuple** biror xalqni asoratga solmoq; **II. s'asservir** *vpr* asoratga tushmoq, qul bo'lmoq; bo'ysunmoq.

**asservissement** *nm* **1.** bo'ysundirish; asoratga solish, qul qilish; **2.** qullik, tutqinlik, asorat.

**asservisseur I.** *nm* qul qiluvchi, asoratga soluvchi kishi; **II.** *adj* qul qiluvchi, asoratga soluvchi.

**assesseur** *nm* sud maslahatchisi, sud'ya yordamchisi.

**assez** *adv* **1.** yetar, bo'lar, bas; yetarli; **j'en ai assez** bas, yetarli, bu jonimga tegdi; **2.** juda, juda ham, ko'p.

**assidu, ue** *adj* **1.** uzoq o'tirib ishlay oladigan, sabotli, toqatli, tirishqoq, g'ayratli, serhafsala, quntli, chidamli, qat'iy; **un élève assidu** tirishqoq o'quvchi; **2.** doimiy, doim kelib turadigan, har doimgi; **un client assidu** doim kelib turadigan mijoz.

**assiduité** *nf* **1.** tirishqoqlik, toqatlilik, sabotlilik, uzoq o'tirib ishlay olishlik, g'ayratchanlik, serhafsalalik, serharakatlilik, quntlilik; **2.** *pl* xushtorlik qilish, xotin-qizlarga mulozamat qilish, ko'nglini olish.

**assidûment** *adj* toqat bilan, sabot bilan, tirishqoqlik bilan.

**assiégé, ée I.** *adj* qamaldagi, qamal holatidagi, o'rab, qurshab olingan; **une ville assiégée** qamaldagi shahar; **II.** *nm pl* qamaldagilar, qurshovdagilar, o'rab olinganlar.

**assiégeant, ante I.** *adj* qamal qiluvchi, qurshab oluvchi; **II.** *nm pl* qamal qiluvchilar, qurshab, o'rab oluvchilar; **repousser les assiégeants** qurshovchilarni orqaga uloqtirmoq.

**assiéger** *vt* **1.** qamal qilmoq, o'rab, qurshab olmoq; **assiéger une ville** shaharni qamal qilmoq; **2.** biror kimsani iltimos, so'rovlar bilan holdan toydirmoq, charchatmoq, joniga tegmoq.

**assiette¹** *nf* tarelka, likop; **une assiette creuse, plate** chuqur, sayoz tarelka; **une assiette à soupe** sho'rva ichiladigan tarelka; **une assiette de soupe** bir tarelka sho'rva; **une assiette anglaise** yaxna go'shtli assorti; **l'assiette au beurre** *fam* serdaromad, yog'li joy.

**assiette²** *nf* **1. avoir une bonne assiette** egarda yaxshi muvozanat saqlab o'tirmoq; **2.** *fig* aqlning yo'nalishi, manfaatlar, qiziqishlar yo'nalishi; doimiy kayfiyat, hafsala; **faire sortir de son assiette** haddan oshirmoq, chegaradan chiqarmoq; **ne pas être dans son assiette** o'zini yomon his



www.ziyouz.com kutubxonasi

qilmoq; **3.** o‘rin, joylashgan o‘rin; asos, poy, poydevor; **assiette d'un bâtiment** binoning poydevori; **4.** *dr* boj, soliq va shu kabilar olish uchun asos, dalil; **déterminer l'assiette de l'impôt** soliq olish uchun asos bo‘lgan daromadni aniqlamoq.

**assiettée** *nf* tarelka, likop (*tarelka ichidagi ovqat*); **une assiettée de soupe** bir tarelka sho‘rva.

**assignat** *nm* assignatsiya, qog‘oz pul, qiymatli qog‘oz.

**assignation** *nf* **1.** chaqirish, chaqiriq; **assignation en justice** sudga chaqirish; **2.** aniqlash, aniqlab berish; belgilash, belgilab berish; ajratish, ajratib berish; **assignation à résidence** yashash joyini belgilab berish; **3.** *fin* ajratilgan pul, mablag‘; pul, mablag‘ ajratish.

**assigner** *vt* **1.** belgilamoq, aniqlamoq, ajratmoq; bermoq; **assigner une résidence, un emploi à qqn** biror kimsaga yashashga joy, ish bermoq; **assigner des crédits** kredit ajratmoq; **2.** mo‘ljallamoq, atamoq, atab, belgilab, mo‘ljallab qo‘ymoq; **assigner une limite à qqch** chegarani belgilab qo‘ymoq; **assigner à chacun sa tâche** har birining vasifasini mo‘ljallab, belgilab qo‘ymoq; **3.** *dr* sudga chaqirmoq.

**assimilable** *adj* **1.** o‘zlashtiriladigan; o‘zlashtirib olish mumkin bo‘lgan; bilib olinadigan; hazm bo‘ladigan, singadigan (*ovqat*); **un programme facilement assimilable** oson o‘zlashtiriladigan dastur; **2.** aralashib, bir bo‘lib ketadigan, o‘xshab ketadigan (*kishilar*); **les étrangers sont parfois difficilement assimilables** chet elliklar ko‘pincha qiyinchilik bilan yerli xalqqa qo‘shilib ketadilar; **3.** o‘xshaydigan, o‘xshab ketadigan; tenglashtirib bo‘ladigan; o‘xshash, bir xil, bir xildagi.

**assimilation** *nf* **1.** aralashtirib, bir xil qilib yuborish; aralashib, bir xil bo‘lib yoki o‘xshab ketish; **2.** o‘zlashtirib olish, bilib olish; o‘zlashtirilish; yod bo‘lib ketish; **l'assimilation d'une langue étrangère** chet tilini o‘zlashtirib olish; **3.** singdirish, hazm qilish (*ovqat*).

**assimilé, ée** *adj* assimiliyatsiya bo‘lgan; tenglashtirilgan (*huquq va mansabda*).

**assimiler I.** *vt* **1.** tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, teng, baravar qilmoq; o‘xshatmoq, taqqoslamoq; qiyoslamoq; **assimiler un ouvrier à un ingénieur** ishchini muhandisga tenglashtirmoq; **2.** assimilyatsiya qilmoq, aralashtirib, bir xil qilib yoki o‘xshatib yubormoq; **assimiler les immigrants** muxojirlarni yerli xalqqa aralashtirib yubormoq; **3.** *fig* o‘zlashtirmoq, o‘zlashtirib olmoq, bilib olmoq; **assimiler les mathématiques** matematikani oson o‘zlashtirib olmoq; **4.** *physiol* singdirmoq, hazm qilmoq; **II. s'assimiler** *vpr* **1.** tenglamoq, baravarlashmoq; o‘xshamoq; o‘zini tenglashtirmoq, o‘xshatmoq, o‘zini qiyos qilmoq; **il s'assimile à un grand homme** u o‘zini buyuk kishiga o‘xshatadi; **2.** o‘xshab ketmoq, aralishib ketmoq; **ces immigrants se sont entièrement assimilés** bu muxojirlar butunlay yerli xalqqa aralashib ketganlar; **3.** *physiol* singmoq, hazm bo‘lmoq; **certains aliments s'assimilent mal** ba’zi ovqatlar yomon hazm bo‘ladi.

**assis, ise** *adj* **1.** o‘tiradigan; o‘tirgan; **une place assise** o‘tiradigan joy; **2.** joylashgan, o‘rnashgan; **une ville assise sur une colline** tepalikka joylashgan shahar; **3.** mustahkam, pishiq; barqaror.

**assise** *nf* **1.** asos, poydevor; **l'assise d'un barrage** to‘g‘onning poydevori; **2.** *fig* poydevor, asos, negiz; **les assises de la société** jamiyatning asosi; **les assises d'une doctrine** tuzumning asosi, negizi; **3.** g‘isht yoki toshdan qurilgan narsa qatori; **4.** *géol* qatlam, qat, qavat.

**assises** *nf pl* **1.** yig‘ilish, kengash, majlis; sezd, konferensiya; **les assises d'un parti** partiya sezdi; **tenir ses assises** kengash, konferensiya, sezd o‘tkazmoq; **2.** *dr* **cour d'assises** maslahatchilar ishtirokidagi sud majlisi; **être envoyé aux assises** sudlanmoq; sudga tushmoq.

**assistance** *nf* **1.** yig‘ilganlar, qatnashuvchilar; bir joyga yig‘ilgan kishilar, tomoshabinlar, tinglovchilar; **une nombreuse assistance** ko‘pchilik, yig‘ilganlar, qatnashchilar; **2.** qatnashish; hozir bo‘lish; **3.** yordam, ko‘mak, madad; ko‘maklashish, yordam berish; **l'Assistance publique** *ou* **l'Assistance** ota-onasiz bolalarni o‘z himoyasiga oluvchi davlat muassasasi.

**assistant, ante** *n* **1.** qatnashuvchi, tomoshabin; hozir bo‘lgan, tinglovchi; **2.** yordamchi; assistent; **l'assistant d'un metteur en scène** rejissor yordamchisi; **l'assistant d'un professeur** professor assistenti; **3.** assistent (*oliy o‘quv yurtlarida kichik o‘qituvchi unvoni va shu unvon egasi*).

**assister I.** (**à**) *vi* qatnashmoq, hozir bo‘lmoq; biror narsaga kelmoq, ishtirok etmoq; biror narsaga guvoh bo‘lmoq; **assister à une conférence** konferensiyada qatnashmoq; **assister à une dispute** tortishuvda ishtirok etmoq; tortishuvning guvohi bo‘lmoq; **II.** *vt* yordamlashmoq, yordam bermoq, ko‘maklashmoq, madad bermoq; **assister les pauvres** kambag‘allarga yordam bermoq; **assister un blessé** yaradorga yordamlashmoq.

**associatif, ive** *adj* **1.** *psych* assotsiatsiya orqali hosil qilinadigan (*tasavvur, his-tuyg‘u, fikr kabilarning bir-birini eslatadigan o‘zaro bog‘lanishi*); **mémoire associative** assotsiativ xotira; **2.** assotsiatsiya, ittifoq, uyushmacha, jamiyatga oid; **le mouvement associatif** uyushma, jamiyat tuzish uchun harakat.

**association** *nf* **1.** assotsiatsiya, uyushma, ittifoq, jamiyat, birlashma; **une association sportive** sport jamiyati, uyushmasi; **une association de parents d'élèves** ota-onalar qo‘mitasi; **former une association** jamiyat tuzmoq; **2.** bog‘lash; bog‘lanish; birikma, birikuv, birlik; **association de mots** so‘z birikmasi; **association de couleurs** bo‘yoqlar hamohangligi, mutanosibligi, mushtarakligi; **une association d'idées** g‘oyalarning bog‘lanishi; **3.** tortish, jalb qilish; qatnashtirish, ishtirok qildirish.

**associé, ée I.** *n* **1.** sherik, birgalikda ega bo‘lgan kishi (*savdo korxonasi*); **2.** xodim, hamkasb, kasbdosh; **II.** *adj* uyushgan, birlashgan, qo‘shilgan; jumlasiga, qatoriga kirgan; **membre associé de l'académie** akademiyaning muxbir-a’zosi.

**associer I.** *vt* **1.** tortmoq, jalb qilmoq, qatnashtirmoq, ishtirok qildirmoq; **associer qqn à ses travaux** kimnidir o‘z ishiga jalb qilmoq; kimnidir o‘ziga xodimlikka olmoq; **associer les ouvriers aux bénifices** ishchilarni foyda, daromadga sheriklik qilmoq; **2.** qo‘shmoq, birlashtirmoq, uyushtirmoq, bog‘lamoq; **associer le courage à la prudence** jasurlikni ehtiyotkorlikka bog‘lamoq; **associer deux idées** ikkita g‘oyani, fikrni o‘zaro bog‘lamoq; **II. s'associer** *vpr* **1.** qo‘shilmoq, birlashmoq, uyushmoq; qatnashmoq, ishtirok etmoq; **s'associer à une décision** qarorga qo‘shilmoq; **s'associer aux projets de qqn** biror kimsaning rejasida ishtirok etmoq; **2.** *fig* to‘g‘ri mos, muvofiq kelmoq; xip yopishib tushmoq, uyg‘unlashmoq; **ces deux couleurs s'associent parfaitement** bu ikki xil rang juda yopishib tushgan; **3.** birlashmoq, birga qo‘shilmoq, uyushma, ittifoq tuzmoq.

**assoiffé, ée I.** *adj* **1.** chanqagan, suvsagan, tashna, chanqoq; **les enfants sont assoiffés** bolalar chanqaganlar; **2.** *fig* qattiq istovchi, orzumand, tashna, ishtiyoqmand, intizor; och, xasis; **assoiffé de sang** qonga tashna; **II.** *n* chanqoq, tashna kishi.

**assoiffer** *vt* tashna qilmoq, chanqatmoq, suvsatmoq, cho‘llatmoq; **la promenade au soleil m'a assoiffé** oftobdagi sayr meni chanqatib yubordi.

**assolement** *nm* almashlab ekish.

**assombri, ie** *adj* qorong‘u; tund, ma’yus, g‘amgin, xafa.

**assombrir I.** *vt* **1.** qoraytirmoq, qoraytirib ko‘rsatmoq; qorong‘i qilmoq, qorong‘ilashtirmoq, to‘smoq; **cette tapisserie assombrit la chambre** bu gulqog‘ozlar xonani qorong‘i qilib qo‘yayapti; **les nuages assombrissent le ciel** bulut osmonni qoraytirib yubordi; **2.** xafa qilmoq, qayg‘uga solmoq, ko‘nglini, kayfiyatini buzmoq; g‘amga botirmoq; **cette nouvelle assombrit l'auditoire** bu xabar hozir bo‘lganlarni qayg‘uga soldi; **II. s'assombrir 1.** qoraymoq, qorong‘ulashmoq; **le ciel s'assombrit** osmon qorong‘ulashdi; **2.** *fig* g‘amgin, xafa, ma’yus ko‘rinish olmoq, g‘amginlashmoq, ma’yuslanmoq.

**assombrissement** *nm* **1.** qoraytirish, qorong‘ulashtirish; qorayish, qorong‘ulashish; qorayganlik, qorong‘ulik; **2.** *fig* xafa qilish, qayg‘uga solish, g‘amga botirish; xafa bo‘lish, qayg‘uga tushish, g‘amga botish; xafalik, g‘amginlik, ma’yuslik.

**assommant, ante** *adj* o‘lguday zerikarli, kishini zeriktiradigan, diqqatini oshiradigan, chidab bo‘lmaydigan; **un travail assommant** zerikarli ish.

**assommer** *vt* **1.** boshiga urib o‘ldirmoq, boshiga urib o‘ldirib qo‘ymoq; **assommer un lapin** quyonni boshiga urib o‘ldirmoq; **2.** zarb bilan urib karaxt qilmoq, hushidan ketkazmoq, gangitib, sulaytirib qo‘ymoq; **3.** *fig* zeriktirmoq, jonga, chakkaga, me’daga tegmoq, bezor qilmoq; **il m'assomme avec ses questions** u savollari bilan jonimga tegdi.

**Assomption** *nf relig* Bibi Maryam jasadining osmonga ko‘tarilib ketishi.

**assonance** *nf* **1.** tovushlar ohangdoshligi, uyg‘unligi; **2.** assonans (*faqat urg‘uli unlilarning qofiyalanishi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**assonancé, ée** *adj* ohangdosh bo'lgan; qofiyalangan.

**assorti, ie** *adj* **1.** yaxshi saralangan, xillangan; **cravate assortie** yaxshi tanlangan galstuk; **2.** *pl* turli elementlardan tashkil topgan; assorti, anvoyi, xilma-xil; **fromages assortis** pishloqlarning anvoyi to'plami; **3. magasin, rayon bien assorti** turli mollarga to'la magazin, bo'lim.

**assortiment** *nm* **1.** assortiment, to'plam; anvoyi to'plam; **un assortiment d'outils** asboblar komlekti; **2.** saralash, xillash; **assortiment de couleurs** ranglarni xillash.

**assortir I.** *vt* **1.** saralamoq, xillamoq, tanlamoq; **assortir des couleurs** ranglarni xillamoq; **assortir un manteau à une robe** ko'ylakka pal'to tanlamoq; **assortir ses invités** mehmonlarni saralamoq; **être assorti à** -ga xil kelmoq; **2.** ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq; **assortir un magasin de toutes sortes de marchandises** do'konni turli mollar bilan ta'minlamoq; **II. s'assortir** *vpr* **1.** bir-biriga mos kelmoq, bo'lmoq, bir xil bo'lmoq; uyg'unlashmoq; **ces couleurs s'assortissent bien** bu ranglar bir-biriga mos kelmoqda; **s'assortir à qqch** biror narsaga mos, muvofiq bo'lmoq; yopishib tushmoq; **sa cravate s'assortit au complet** uning galstugi kostumiga xil tushgan; **2.** (**de qqch**) ilova qilinmoq, qo'shilmoq; **chacun de ses discours s'assortit de bons mots** uning har bir nutqiga qochirim so'zlar ilova qilinardi.

**assoupir I.** *vt* **1.** uyqu bostirmoq, uyqusini keltirmoq; **2.** *fig* mudroq bostirmoq; tinchitmoq, tinchlantirmoq; to'xtatmoq, tindirmoq, tiymoq, bosmoq; **II. s'assoupir** *vpr* **1.** mudramoq, uyqu bosmoq; **2.** to'xtamoq, tinmoq, bosilmoq, tiyilmoq; **sa douleur s'est assoupie** og'rig'i bosildi.

**assoupissement** *nm* **1.** mudroq, pinak, mudroq bosish, mudrash; uyquchilik, uyqudan bosh ko'tarmaslik; **2.** *fig* tinchlanish, bo'shashish, taskin, orom topish.

**assouplir I.** *vt* **1.** egiluvchanlik baxsh etmoq, qayishqoqlik, elastiklik bag'ishlamoq; yumshatmoq; yumshoq, muloyim, mayin qilmoq; **assouplir du cuir** charmga elastiklik baxsh etmoq; **les exercices de gymnastique assouplissent le corps** gimnastika mashqlari badanga egiluvchanlik baxsh etadi; **2.** *fig* yumshatmoq, bo'shashtirmoq, muloyimlashtirmoq, yumshoq, muloyim, mayin qilmoq; **assouplir le caractère** xarakterni muloyimlashtirmoq; **II. s'assouplir** *vpr* muloyimlashmoq, yumshamoq, mayinlashmoq; **leurs caractères se sont assouplis** ularning xarakterlari yumshadi.

**assouplissement** *nm* **1.** mayinlashtirish; egiluvchanlik, qayishqoqlik baxsh etish, muloyimlashtirish; **des exercices d'assouplissement** gimnastika mashqlari; chigal yozish mashqlari; **2.** yengillashtirish, yumshatish; **l'assouplissement d'un règlement** reglament, ish, ishlash tartibini yengillashtirish.

**assourdir** *vt* **1.** kar, garang qilmoq, quloqni bitirmoq, batang qilmoq; **ne criez pas si fort, vous m'assourdissez!** bunchalik baqirmang, quloqni kar qilasiz! **2.** *fig* bo'g'moq, to'xtatmoq; kamaytirmoq, susaytirmoq; yumshatmoq; **le tapis assourdit les pas** gilam oyoq tovushlarini yumshatadi.

**assourdissant, ante** *adj* juda qattiq, quloqni bitiradigan, kar, garang qiladigan, qomatga keltiradigan, kuchli, zo'r; gulduros; **bruit assourdissant** qattiq shovqin.

**assourdissement** *nm* kar, garang qilish, quloqni bitirish; kar bo'lish, quloqning bitishi.

**assouvi, ie** *adj* qoniqqan, qondirilgan.

**assouvir I.** *vt* **1.** qondirmoq, qoniqtirmoq, bosmoq; **assouvir sa soif** chanqog'ini bosmoq, ichimlikka, suvga qonmoq yoki qondirmoq; **2.** qondirmoq (*xohish, ehtiros*); **passions assouvies** qondirilgan ehtiroslar; **II. s'assouvir** *vpr* qonmoq, qoniqmoq, qanoatlanmoq, qanoat hosil qilmoq.

**assouvissement** *nm* qondirish; qondirilish; bosish; bosilish; **l'assouvissement d'un désir** istakning qondirilishi.

**assujettir** *vt* **1.** zabt qilmoq, bosib olmoq, o'ziga bo'ysundirmoq; **assujettir un pays** mamlakatni bosib olmoq; **2.** bo'ysundirmoq, itoat ettirmoq, -ga majbur etmoq; **assujettir à des règles très strictes** qattiq qoidalarga itoat ettirmoq; **être assujetti à l'impôt** soliq to'lashga majbur bo'lmoq; **3.** **(qqch**) biror narsani qimirlamaydigan, o'zgarmaydigan qilib mahkamlab, mustahkamlab qo'ymoq.

**assujettissant, ante** *adj* **1.** bo'ysundiradigan, bo'ysundiruvchi; butun vujudini qamrab oladigan; kuchli; **2.** mashaqqatli, og'ir, qiyin, mushkul.

**assujettissement** *nm* zabt etish, bo'ysundirish; bo'ysunish, qaram bo'lish, qullik.

**assumer** *vt* **1.** o'ziga, o'z ustiga olmoq, o'z zimmasiga olmoq; **assumer une fonction, un rôle, une responsabilité** vazifa, xizmat, mas'uliyatni o'z zimmasiga olmoq; **2.** qabul qilmoq; rozi bo'lmoq; **assumer pleinement sa condition** barcha shartlarni qabul qilmoq, barcha shartlarga rozi bo'lmoq.

**assurance** *nf* **1.** ishonch; **en toute assurance** to'liq ishongan holda; **perdre son assurance** ishonchini yo'qotmoq; **2.** ishontirish, inontirish; so'z, so'z berish; va'da; **sur cette assurance** bu va'dadan so'ng; **donner à qqn l'assurance de son amitié** biror kimsani o'zining do'stligiga ishontirmoq; **3.** ta'minot, sug'urta; **assurance sociale** ijtimoiy sug'urta; **assurance contre l'incendie** yong'indan sug'urta qilmoq, qildirmoq.

**assuré, ée I.** *adj* **1.** dadil, qat'iy, keskin; mustahkam; ishonchli; ta'minlangan; **marcher d'un pas assuré** dadil qadam tashlab yurmoq; **avoir un air assuré** ko'rinishi dadil bo'lmoq; **être assuré de** ishonmoq; **2.** sug'urta qilingan; **II.** *n* o'zini sug'urta qildiradigan, qilgan kishi; **assuré social** ijtimoiy sug'urta qilingan odam.

**assurément** *adv* shubhasiz; albatta, muqarrar.

**assurer I.** *vt* **1.** ishontirmoq, inontirmoq, so'z, va'da bermoq; tasdiqlamoq; **elle assure qu'elle dit la vérité** u haqiqatni aytayotganligiga ishontirmoqda; **assurer qqn de qqch** (**que**) biror kimsani biror narsaga ishontirmoq; **2.** ta'minlamoq, ta'min etmoq, garantiyalamoq, amin qilmoq; **assurer l'avenir** kelajakni ta'minlamoq; **assurer le fonctionnement d'une machine** mashinani uzluksiz ishlashini ta'minlamoq; **assurer la garde** qo'riqlamoq; **3.** sug'urta qilmoq, qildirmoq; **assurer son mobilier** mol-mulkini sug'urta qilmoq, qildirmoq; **4.** mustahkamlamoq, buzilmaydigan qilmoq; kuchaytirmoq; **assurer la paix** tinchlikni mustahkamlamoq; **II. s'assurer** *vpr* **1.** (**de qqch**) ishonmoq, inonmoq, ishonch, qanoat hosil qilmoq; aniqlamoq, tekshirmoq; **s'assurer que** (**si**) **la porte est bien fermée** eshik yaxshi yopilganligini tekshirmoq, aniqlamoq; **assurez-vous d'abord de cette nouvelle** avval bu xabarning to'g'riligiga ishonch hosil qiling; **2.** sug'urta qildirmoq; **s'assurer contre les accidents** baxtsiz hodisalardan sug'urta qildirmoq; **s'assurer sur la vie** hayotni sug'urta qildirmoq; **3.** mustahkamlamoq, mustahkam o'rin olmoq, barqaror bo'lib qolmoq; **s'assurer sur sa selle** egarda mahkam o'rnashib o'tirmoq; **s'assurer sur ses jambes** oyoqda mustahkam turmoq, oyoqqa turib olmoq; **4.** o'zini ta'minlamoq, ta'min etmoq; oldindan va'dasini, so'zini olmoq; ko'ndirib, unatib ko'ngilni to'q qilib qo'ymoq, olmoq.

**assureur** *nm* sug'urta qiluvchi, sug'urtachi.

**astérisque** *nm* yulduzcha, yulduzcha shaklidagi belgi.

**astéroïde** *nm astron* asteroid (*Mars va Yupiter oralig'ida Quyosh atrofida aylanuvchi kichik sayyora*).

**asthénie** *nf méd* asteniya (*jismoniy va ruhiy zaiflik, bedarmonlik, sustlik*).

**asthénique I.** *adj méd* asteniklarga oid; asteniklarga xos bo'lgan, astenik, zaif, bedarmon, sust; **II.** *n* astenik (*jismoniy va ruhiy zaif odam*).

**asthmatique I.** *adj* astmaga, ko'ksov kasaliga oid, astmatik; **2.** *n* ko'ksov kasaliga yo'liqqan odam, ko'ksov.

**asthme** *nm* astma, ko'ksov.

**asti** *nm* asti (*vinoning bir turi*).

**asticot** *nm* qarmoqqa xo'rak sifatida qo'yiladigan pashsha, chuvalchang kabilarning tuxumdan chiqqan qurti.

**asticoter** *vt fam* jig'iga tegmoq, bezor qilmoq, joniga, me'daga tegmoq, xiralik qilmoq, shilqimlik qilmoq.

**astigmate I.** *adj* astigmatizmga oid, astigmatik; **II.** *n* astigmatizm kasaliga mubtalo bo'lgan kishi.

**astigmatisme** *nm* astigmatizm (*optik shisha va ko'z nuqsonlaridan biri, aksning chaplashib, xiralashib tushushi, ko'rinishi*).

**astiquage** *nm* tozalash; pollarni ishqalash; jilo berish; yaltiroq qilish, ishqalab yaltiratish.

**astiqué, ée** *adj* tozalangan, ishqalangan, yarqiratilgan.

**astiquer** *vt* tozalamoq, ishqalab tozalamoq, yaltiratmoq; pardoz, jilo bermoq, ishqalab yarqiratmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**astragale** *nm* **1.** *anat* oyoqning katta va kichik boldir suyaklariga ulanib ketadigan kaft suyagi; **2.** *archit* astragal (*dumaloq shakldagi ganchkor naqsh*); **3.** *bot* astragal (*dukkaklilarga mansub o'simlik*).

**astrakan** *nm* qorako'l; qorako'l teri; **un manteau d'astrakan** qorako'l teridan tikilgan po'stin.

**astral, ale** *adj* yulduzlarga oid, yulduz.

**astre** *nm* samoviy jism, yulduz; yoritqich; xurshid; **le mouvement des astres** osmon yoritqichlarining harakati; **être né sous un astre favorable** baxtli, omadli bo'lib, baxt yulduzi ostida tug'ilmoq.

**astreignant, ante** *adj* asoratga oladigan, band qiladigan; charchatadigan.

**astreindre I.** *vt* **(qqn à qqch, à faire qqch**) majbur qilmoq, zo'rlamoq; bo'ysundirmoq, qaratmoq; majburan ko'ndirmoq; **astreindre qqn à un régime sévère** biror kimsani kuchaytirilgan rejimga bo'ysundirmoq; **astreindre qqn à travailler** biror kimsani ishlashga majbur qilmoq; **être astreint au service militaire** harbiy xizmat yoshida bo'lmoq; zaxiradagi harbiy xodim bo'lmoq; **II. s'astreindre** *vpr* o'zini majbur qilmoq, o'zini majburlamoq.

**astrologie** *nf* astrologiya, ilmi nujum (*inson taqdiri va tarixiy hodisalar osmon jismlarining vaziyatiga bog'liq deb bilgan va yulduzlarga qarab fol ochish bilan shug'ullanuvchi ta'limot*).

**astrologique** *adj* astrologiyaga oid, astrologik.

**astrologue** *nm* munajjim, astrolog, rammol (*astrologiya bilan shug'ullangan odam*).

**astronaute** *n* fazogir, kosmonavt, astronavt.

**astronautique** *nf* astronavtika, kosmonavtika.

**astronome** *nm* astronom, astronomiya olimi, mutaxassisi.

**astronomie** *nf* astronomiya, ilmi hay'at (*osmon jismlari va ularning sistemalari, kelib chiqishi, tuzilishi va harakati haqidagi fan*).

**astronomique** *adj* astronomiyaga oid, astronomik; astronomiya; **lunette astronomique** teleskop.

**astrophysicien** *nm* astrofizik, astrofizika olimi, mutaxassisi.

**astrophysique** *nf* astrofizika.

**astuce** *nf* **1.** ayyorlik, makkorlik, hiylagarlik; mug'ombirlik; makr, hiyla, nayrang, hiyla-nayrang; **2.** topqirlik, aqli o'tkirlik, ziyraklik; **3.** *fam* hazil; so'z o'yini.

**astucieusement** *adv* ayyorlik bilan; ziyraklik bilan, ustamonlik bilan.

**astucieux, euse 1.** ayyor, makkor, hiylagar; **2.** topqir, ziyrak.

**asymétrie** *nf* asimetriya, simmetriyasizlik, nomutanosiblik.

**asymétrique** *adj* asimmetrik, simmetriyasiz.

**atavique** *adj* atavistik, nasliy.

**atavisme** *nm biol* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgining bir necha bo'g'indan keyingi avlodda, naslda yana takrorlanishi, suyak surishi*).

**atelier** *nm* **1.** ustaxona, sex; **un atelier de montage** yig'uv sexi; **un atelier de réparations** ta'mirlash ustaxonasi; **un atelier de photographe** fotoatelye; **un atelier de mode** modalar atelyesi; **2.** studiya, ustaxona, atelye; **l'atelier d'un peintre** rassom, musavvir ustaxonasi.

**atermoiement** *nm* **1.** keyinga qoldirish; keyinga surish, kechiktirish, muhlat berish, muhlat; **2.** *pl* muhlatni cho'zish, muddatini uzaytirish; paysalga solish, sudrash.

**atermoyer** *vt* keyinga qoldirmoq, keyinga surmoq; muhlat bermoq; **on ne peut plus atermoyer** boshqa cho'zish mumkin emas, boshqa keyinga surib bo'lmaydi.

**athée I.** *adj* xudoning borligiga ishonmaydigan, xudosiz; dinsiz; **II.** *n* ateist, dahriy, xudosiz.

**athéisme** *nm* ateizm, dahriylik (*xudoning borligini, dinni va diniy aqidalarni inkor etish, xudosizlik, dinsizlik*).

**athlète** *nm* **1.** atlet, atletikachi (*atletika bilan shug'ullanuvchi sportchi*); **2.** atlet, miqti, baquvvat odam.

**athlétique** *adj* atletika va atletikachiga oid; atletik, atletika; **un corps athlétique** atletik gavda tuzilishi.

**athlétisme** *nm* atletika (*kishini jismoniy kamolga yetishtiradigan, kuch va chaqqonlik talab qiladigan sport mashqlari*).

**atlantique I.** *adj* atlantikaga oid, atlantik; **II.** *nm* Atlantika okeyani.

**atlas** *nm* **1.** atlas, jug'rofiy xaritalar to'plami; **2.** *anat* bo'yinning birinchi umurtqa suyagi.

**atmosphère** *nf* **1.** atmosfera; **les couches supérieures de l'atmosphère** atmosferaning yuqori qatlami; **2.** *fig* muhit, sharoit, vaziyat; **3.** atmosfera (*bosim birligi*); **une pression de deux atmosphères** ikki atmosfera bosim.

**atmosphérique** *adj* atmosferaga oid; atmosferaviy, atmosfera; **la pression atmosphérique** atmosfera bosimi.

**atoll** *nm* atoll (*halqa shaklidagi marjonlar oroli*).

**atome** *nm* **1.** atom; **le noyau de l'atome** atom yadrosi; **2.** kimyoviy elementning o'zaro birikishi mumkin bo'lgan zarrachasi; **la molécule d'eau contient deux atomes d'hydrogène** suv molekulasida vodorodning ikki atomi mavjud.

**atomique** *adj* atomga oid, atom; **poids atomique** atom og'irligi; **énergie atomique** atom energiyasi; **brise-glace atomique** atom muz yorar kemasi.

**atomiser** *vt* **1.** atom bombasini tashlamoq; atom bombasi bilan vayron qilmoq; **2.** changlatib sepmoq, purkamoq.

**atomiseur** *nm* pul'verizator, forsunka, purkagich (*suyuq yoki kukun moddalarni purkaydigan, changitib sepadigan asbob*).

**atomisme** *nm* atomizm, atomistika (*materiyaning atomlardan tuzilganligi to'g'risidagi materialistik ta'limot*).

**atomiste** *n* **1.** *phil* atomist; **2.** *phys* atomchi, atom energiyasini ajratish va undan foydalanish bo'yicha mutaxassis, olim.

**atone** *adj* **1.** so'ligan, so'lib qolgan, so'lg'in; bo'shashgan, shalviragan, shalpaygan, lanj, lohas, sust; **2.** *ling* urg'u olmaydigan, urg'usiz; **voyelle, syllabe atone** urg'usiz unli tovush, bo'g'in.

**atonie** *nf* **1.** lanjlik, bo'shashganlik; lohaslik, sustkashlik; shalviraganlik, shalpayganlik, so'lg'inlik; **2.** *méd* atoniya (*mushak va to'qimalar faoliyati tonusining pasayishi, susayishi; bo'shash, susayish*).

**atours** *nm pl* kiyim, libos, ziynat.

**atout** *nm* **1.** kuzir (*qarta o'yinida*); **2.** dastak, chora, iloj, ro'kach.

**atrabilaire I.** *adj* badjahl, serzarda, zahar; **d'une humeur atrabilaire** darg'azab kayfiyatda; **II.** *n* birovga yoqmaydigan, elikib keta olmaydigan, murosa qila olmaydigan kishi.

**âtre** *nm* o'choq, o'choqboshi.

**atrium** *nm hist, archit* atrium (*usti yopilgan kollonnali peshayvon bilan o'ralgan qadimgi rimliklar uylarining ichkari hovlisi*).

**atroce** *adj* **1.** qo'rqinchli, dahshatli, vahimali, mudhish, qabih; **2.** qahri qattiq, shafqatsiz, rahmsiz, berahm, qahrli, zolim; **3.** chidab bo'lmaydigan, juda og'ir; **souffrances atroces** chidab bo'lmaydigan iztirob; **3.** *fig fam* juda yomon, past, g'oyat yaramas; **il fait un temps atroce** juda yomon havo.

**atrocement** *adv* **1.** shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona; **il s'est vengé atrocement** u shafqatsizlik bilan o'ch oldi; **2.** juda, juda ham, g'oyat darajada, haddan tashqari, nihoyat, ortiq darajada; **il l'a trouvé atrocement laide** uni haddan tashqari xunuk deb topdi.

**atrocité** *nf* **1.** zolimlik, rahmsizlik, berahmlik, qahri qattiqlik, bag'ri toshlik, yovuzlik, vahshiylik, yirtqichlik, shafqatsizlik; **l'atrocité d'un crime** jinoyatning shafqatsizligi; **commettre des atrocités** vahshiylik qilmoq; **2.** yaramaslik, razillik, qabihlik, ifloslik, xunuklik.

**atrophie** *nf* **1.** *méd* atrofiya, kichrayib, qurib qolish, qurish, o'lish; **2.** *fig* o'lish, yo'qolish, so'nish, o'chish; **atrophie de la volonté** xohishning so'nishi.

**atrophié, ée** *adj* **1.** *méd* kichrayib, qurib qolgan; **2.** o'z faoliyatini, qobiliyatini yo'qotgan.

**atrophier (s')** *vpr* **1.** *méd* kichrayib, qurib qolmoq; **2.** faoliyatini, qobiliyatini yo'qotmoq.

**attabler (s')** *vpr* stol atrofiga o'tirmoq, dasturxon atrofiga, dasturxonga o'tirmoq.

**attachant, ante** *adj* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor, yoqimli, ko'rkam, istarasi issiq; **un livre attachant** maroqli kitob; **une personnalité attachante** ko'rkam kishi.

**attache** *nf* **1.** bog', bog'liq (*arqon, zanjir, qayish, skrepka, qisqich, ilgak*); **2.** *anat* bo'g'inlar tutashgan joy; **3. port d'attache** kemalar ro'yxatga olingan



www.ziyouz.com kutubxonasi

port; **4.** *pl* aloqalar, do'stlik va qarindoshlik aloqalari, munosabatlar; **avoir des attaches avec qqn** biror kimsa bilan munosabatda, aloqada bo'lmoq; **avoir des attaches au ministère** vazirlikda uning homiylari (*qo'llab-quvvatlovchi og'aynilari bor*).

**attaché, ée** *n* attashe (*elchixona yoki vazirlik mahkamasining biror soha bo'yicha mutaxassis xodimi*); **attaché de presse** press-attashe; **attaché militaire** harbiy attashe.

**attachement** *nm* yaqinlik; sadoqat, mehribonlik, muhabbat, mehr; **attachement à la paix** tinchlikka sadoqat, tinchliksevarlik; **avoir de l'attachement pour qqn** biror kimsaga yaqinlik tuyg'usida bo'lmoq.

**attacher I.** *vt* (**qqn, qqch à qqn, à qqch**) **1.** bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; biriktirmoq, birlastirmoq; mahkamlamoq; qo'shmoq; **attacher un paquet avec une ficelle** arqon bilan paketni bog'lamoq; **attacher la vigne** uzumni osmoq, tokni taramoq; **attacher les wagons à la locomotive** vagonlarni paravozga ulamoq; **2.** fikran o'zaro bog'lamoq, bir-biriga to'g'rilamoq; ahamiyat bermoq; **son nom est attché à l'histoire** uning nomi tarix bilan bog'langan; **être attaché à ses habitudes** odatlariga bog'lanib qolmoq; **attacher un sens à un mot** so'z ma'nosiga ahamiyat bermoq; **être attaché au service de qqn** birovning xizmatida bo'lmoq, birovga xizmat yuzasidan bog'liq bo'lmoq; **II.** *vi* yopishmoq, yopishib qolmoq; **les pommes de terre ont attaché** kartoshka tovaga yopishib qoldi; **II. s'attacher** *vpr* **1.** (**à qqch**) bog'lanmoq; ulanmoq; yopishmoq; osilmoq; o'ralmoq, o'ranmoq, o'rab olmoq; **les alpinistes s'attachent à la corde** alpinistlar arqonga o'ralmoqdalar; **2.** *fig* bog'liq bo'lmoq, bog'lanmoq; **une gloire impérissable s'attache à cet exploit** bu jasorat bilan so'nmas shon-shuhrat bog'langan; **3.** yaqinlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanmoq; **je me suis beaucoup attaché à ce pays** men bu mamlakatga mahkam bog'langanman; **4.** o'zini bag'ishlamoq; harakat qilmoq, kuch-g'ayrat sarf qilmoq; **s'attacher à un travail** biror ishga o'zini bag'ishlamoq, tinmay shug'ullanmoq; **s'attacher à résoudre un problème** masalani yechish uchun harakat qilmoq.

**attaquant, ante I.** *n* **1.** bosqinchi, tajovuzkor; **2.** *sport* hujumchi; **II.** *adj* hujum qiluvchi, tajovuzkor.

**attaque** *nf* **1.** hujum, hamla, tajovuz, bosqin, agressiya; **déclencher, lancer une attaque** hujum qilmoq, bostirib kirish; **attaque à main armée** qurolli hujum; **attaque aérienne** havo hujumi; **attaque d'une banque** bankga bosqinchilik; **déclencher une attaque contre nos positions** bizning pozitsiyalarimizga hujum boshlamoq; **passer à l'attaque** hujumga o'tmoq; **repousser une attaque** hujumni qaytarmoq; **2.** *fig* hujum, ta'na, malomat, yopishish; **3.** *fig* qattiq zarba, og'ir kulfat; **résister aux attaques du sort** taqdirning kulfatlariga, falakning zarbalariga bardosh bermoq; **4.** *méd* xuruj, xuruj qilish, tutish, tutib qolish (*biror kasallikning qattiq tutib qolishi*); **5.** *sport* hujum, hujumchilar; **6. être d'attaque** kuchga to'la bo'lmoq, har narsaga tayyor bo'lmoq.

**attaquer I.** *vt* **1.** hujum qilmoq, jang boshlamoq; **2.** hujumga o'tmoq, hujumga tashlanmoq, tajovuz qilmoq, hamla qilmoq; **attaquer qqn à main armée** biror kimsaga qurol bilan tajovuz qilmoq; **attaquer qqn à coups de poings** biror kimsaga musht bilan hamla qilmoq; **3.** *fig* ayblamoq, tanqid qilmoq, ta'na qilmoq, ma'lomat toshlarini yog'dirmoq; yopishmoq; **dans un article qui attaque le ministre** vazirni tanqid qilgan maqolada; **attaquer qqn en justice** biror kimsaga qarshi jinoiy ish qo'zg'amoq; **4.** buzmoq, yemirmoq; **les acides attaquent les tissus** kislotalar gazlamani yemiradilar; **la rouille attaque le fer** zang temirni yemiradi; **5.** boshlamoq, kirishmoq; **attaquer la rédaction d'un nouveau chapitre** yangi bobni yozishga kirishmoq; **II. s'attaquer (à)** *vpr* **1.** hujum qilmoq, tashlanmoq, hamla qilmoq; **s'attaquer à des préjugés** eskilik sarqitlariga hujum qilmoq; **2.** boshlamoq, kirishmoq; hal qilishga harakat qilmoq; **les plus grands penseurs se sont attaqués à ce problème** buyuk mutafakkirlar bu masalani yechishga harakat qilganlar.

**attardé, ée** *adj* **1.** kechikkan, hayallagan, kech qolgan, kechikib kelgan; **2.** vaqti o'tgan, qoloq, keyinda qolgan, kech; **une conception attardée** keyinda qolgan konsepsiya; **3.** orqada qolgan; yaxshi o'smagan, rivojlanmagan; taraqqiy etmagan, qoloq; **un enfant attardé** rivojlanmagan bola.

**attarder (s')** *vpr* **1.** hayallamoq, kechikmoq, ko'proq bo'lmoq, turib, hayallab qolmoq, qolib ketmoq; **s'attarder chez qqn** birovnikida hayallab qolmoq; **2.** to'xtamoq, to'xtalib qolmoq; **s'attarder sur un sujet** masala ustida uzoq to'xtalmoq; **s'attarder à regarder les étalages** peshtaxtalarni uzoq tomosha qilmoq, do'konlarni tomosha qilish uchun to'xtalib qolmoq.

**atteindre** *vt* **1.** yetmoq, yetib olmoq, yetib bormoq; **atteindre le coin de la rue** ko'chaning muyulishiga yetmoq; **atteindre Moscou** Moskvaga yetib bormoq; **2.** bormoq, yetmoq, ko'tarilmoq; o'sib, bo'y cho'zib ko'tarilmoq; **3.** biror yoshga yetmoq, kirmoq, -gacha yashamoq; erishmoq; muvaffaq bo'lmoq; **atteindre son but** maqsadiga erishmoq; **atteindre un âge avancé** keksalik yoshiga yetmoq; **4.** topmoq, aloqa bog'lamoq; **5.** tekkizmoq, urmoq, tushirmoq; tegmoq, tushmoq; **atteindre la cible** nishonga urmoq; **la balle perdue l'avait atteint au genou** daydi o'q uning tizzasiga tegdi; **6.** ranjitmoq, xafa qilmoq; bezovta qilmoq; hayajonga, iztirobga solmoq; g'alayonga keltirmoq.

**atteint, einte** *adj* shikastlangan, zarbaga uchragan; **atteint de maladie** kasallangan, bemor.

**atteinte** *nf* **1. être hors d'atteinte** yetib bo'lmaydigan joyda bo'lmoq; xavfsiz joyda bo'lmoq; **il s'enfuit et fut bientôt hors d'atteint** u qochib ketdi va tezda yetib bo'lmaydigan joyda edi; **2.** qasd, suiqasd qilish, hamla qilish; suiqasd, tajovuz; zarar, shikast, ziyon; **une atteinte à la liberté de qqn** birovning erkinligiga tajovuz qilish; **porter atteinte à** ziyon yetkazmoq; **porter atteinte à l'indépendance** mustaqillikka suiqasd qilish.

**attelage** *nm* **1.** arava yoki chanaga qo'shilgan bir necha ot, it, bug'u kabilar; **2.** arava yoki chanaga ot, it, bug'u va kabilarni qo'shish; tirkash, ulash; tirkovchi moslama, ulovchi mexanizm; **collier d'attelage** xomut, bo'yinturuq, bo'yincha; **crochet d'attelage** tirkov ilgagi.

**atteler I.** *vt* **1.** qo'shmoq; **atteler les chevaux à la charrue** omochga otlarni qo'shmoq; **atteler une voiture** karetaga otlarni qo'shmoq; **2.** *fig fam* **atteler qqn à un travail** biror kimsani og'ir ishga solmoq; **3.** ulamoq, tirkamoq; **atteler un wagon à la locomotive** vagonlarni parovozga tirkamoq; **II. s'atteler** *vpr* (**à**) ishga bel bog'lab kirishmoq.

**attelle** *nf méd* taxtakach; **mette une attelle** taxtakachlab qo'ymoq.

**attenant, ante** *adj* tutashgan, yondoshgan, tutashib turgan; **une construction attenante à la maison** uyga tutashgan imorat.

**attendre** *vt* **1.** kutmoq, kutib turmoq; sabr qilmoq; **attendre qqn jusqu'à midi** biror kimsani kunduz soat 12 gacha kutmoq; *loc adj* **en attendre** (**qqch, de** *+inf*) kutib; -guncha; **en attendre son arrivée** uning kelishini kutib, u kelguncha; **2.** tayyor turmoq (*ega predmetni ifodalaydi*); **le dîner, la voiture vous attend** tushlik ovqat, mashina sizni kutmoqda; **3.** umid qilmoq, umid bog'lamoq, ko'z tutmoq; **attendre qqch de la part de qqn** birovdan biror narsani umid qilmoq; **II. s'attendre** *vpr* kutmoq, umid bog'lamoq; tayyorlanmoq; tayyor turmoq; **de sa part je m'attends à tout** undan har narsani kutishga tayyorman; **il s'attend à ce que je revienne** u meni keladi deb umid bog'layapti.

**attendrir I.** *vt* **1.** yumshatmoq, muloyim qilmoq; **attendrir de la viande** go'shtni yumshatmoq; **2.** *fig* iydirmoq, rahmini keltirmoq, yumshatmoq; ko'nglini eritmoq; mehrini qo'zg'atmoq; **ses larmes m'attendrissent** uning ko'z yoshlari mening ko'nglimni buzib yubordi; **II. s'attendrir** *vpr* iymoq, erimoq, yumshamoq; ta'sirlanmoq, mehri toblanmoq, ko'ngli buzilmoq; **elle s'est attendrie sur son sort** uning taqdiridan ko'ngli buzildi; **s'attendrir sur les malheurs d'autrui** boshqalarning baxtsizligiga rahmi kelmoq.

**attendrissant, ante** *adj* ta'sirli, ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan, mehr-shafqatni qo'zg'atadigan.

**attendrissement** *nm* biror narsadan ta'sirlanish, erish, mehr, ko'ngli yumshash, to'lqinlanish; ta'sirlanganlik, to'lqinlanganlik; **des larmes d'attendrissement** mehr yoshlari; **pleurer d'attendrissement** ko'zdan yosh chiqquday bo'lib ko'ngli bo'shab ketmoq.

**attendrisseur** *nm* go'sht yumshatadigan uskuna.

**attendu, ue I.** *adj* kutilayotgan, kutilgan; **II.** *prép* e'tiborga, inobatga, nazarga olib; nazarda tutib; *loc conj* **attendu que** shu sababli, shu boisdan, shuning uchun; **III.** *nm* **les attendus d'un jugement** sud hukmining asoslovchi qismi.

**attentat** *nm* suiqasd, tajovuz; **commettre un attentat** suiqasd qilmoq; **un attentat à la liberté** erkinlikka tajovuz.

**attentatoire** *adj* xavfli, xatarli, tahlikali; tajovuzkor; qarshi qaratilgan; **une mesure attentatoire à la liberté** erkinlikka qarshi qaratilgan tadbir.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**attente** *nf* **1.** kutish; kutish uchun sarflangan vaqt; **l'attente n'a pas été longue** kutish uzoqqa cho'zilmadi; **2. salle, salon d'attente** kutish zali; **3.** umid, ishonch, orzu, tilak; **répondre à l'attente de qqn** biror kimsaning umidini ro'yobga chiqarmoq; **contre toute attente** ishonchiga qaramasdan; **dépasser l'attente de qqn** biror kimsaning kutganidan ham afzal bo'lib chiqmoq.

**attenter** *vi* **(à)** qasd, suiqasd qilmoq; tajovuz qilmoq; **attenter à la vie de qqn** biror kimsaning joniga qasd qilmoq; **attenter à ses jours** o'zini o'ldirmoq; **attenter à la sûreté de l'Etat** davlat xavfsizligiga tajovuz qilmoq.

**attentif, ive 1.** diqqatli, e'tiborli, ziyrak, hushyor; **élève attentif** ziyrak o'quvchi; **2. attentif à** jonkuyar, e'tiborli, odamoxun; **un homme attentif à ses devoirs** o'z vazifasiga, ishiga jonkuyar kishi; **être attentif à bien faire** yaxshi bajarish uchun jonkuyarlik qilmoq; **3.** puxta, sinchiklab qilingan, diqqat bilan bajarilgan; tirishib, astoydil qilingan; **soins attentifs** astoydil qilingan g'amxo'rlik; **faire un examen attentif** puxta tekshirmoq; **être attentif à**+*inf* astoydil harakat qilmoq; **il est attentif à plaire à tout le monde** u hammaga yoqishga harakat qilyapti.

**attention** *nf* **1.** diqqat, e'tibor; **cela mérite l'attention** bu e'tiborga loyiq; **le manque d'attention** e'tiborsizlik, sovuqqonlik; **une faute d'attention** e'tiborsizlik natijasidagi xato; **avec attention** diqqat bilan; **faire un effort d'attention** diqqatini zo'raytirmoq; **attirer l'attention de qqn sur qqch** biror kimsaning diqqatini biror narsadan chalg'itmoq; **prêter attention à qqch** diqqatini qaratmoq; **faire attention** diqqatini qaratmoq, e'tibor, ahamiyat bermoq, quloq solmoq, e'tiborini jalb qilmoq; diqqat bilan kuzatmoq; ehtiyot bo'lmoq, saqlanmoq; harakat qilmoq; e'tiborga olmoq, nazarda tutmoq; **faites attention à cela!** bu narsaga e'tibor bering! **faites attention à ce que je vais faire** mening nima qilishimni diqqat bilan kuzating; **faites attention aux voleurs!** o'g'rilardan ehtiyot bo'ling! **j'ai fait attention de ne pas les déranger** ularni bezovta qilmaslikka harakat qildim; **2.** *pl* g'amxo'rlik, iltifot, e'tibor, izzat-hurmat, izzat-ikrom; **une marque d'attention** g'amxo'rlik belgisi; **manque d'attention** e'tiborsizlik; **avoir des attentions pour qqn** biror kimsaga izzat ko'rsatmoq; **entourer qqn de ses attentions** biror kimsani hurmat qilmoq.

**attentionné, ée** *adj* boshqalarga e'tiborli, g'amxo'r.

**attentisme** *nm* payt poylash siyosati.

**attentiste I.** *adj* payt poylaydigan, fursat kutadigan; **adopter une politique attentiste** payt poylash siyosatini o'tkazmoq; qulay payt poylash, kutish, yo'lini tutmoq; **II.** *n* payt poylash siyosati tarafdori.

**attentivement** *adv* diqqat bilan; **regarder, écouter, lire attentivement** diqqat bilan qaramoq, eshitmoq, o'qimoq.

**atténuant, ante** *adj* **accorder à qqn des circonstances atténuantes** gunohni yengillatuvchi omillar, holatlarni e'tiborga olmoq.

**atténuation** *nf* **1.** yumshatish, yengillatish; **l'atténuation d'une peine** jazoni yengillatish, yengillashtirish; **2.** kamaytirish, ozaytirish, pasaytirish; **l'atténuation de la douleur** og'riqni pasaytirish, kamaytirish.

**atténuer I.** *vt* yengillashtirmoq muloyim, mayin, yumshoq qilmoq, yumshatmoq, muloyimlashtirmoq; kamaytirmoq, pasaytirmoq; **les circonstances atténuent sa faute** vaziyat uning aybini yengillashtiryapti; **atténuer la douleur** og'riqni kamaytirmoq; **atténuer la lumière** yorug'likni, chiroqni pasaytirmoq; **II. s'atténuer** *vpr* yumshatmoq, kamaymoq, pasaymoq; susaymoq.

**atterrer** *vt* hayratda qoldirmoq, hayron qoldirmoq, lol qoldirmoq; esankiratib, dovdiratib qo'ymoq; **l'annonce de sa mort nous a atterré** uning o'limi haqidagi xabar bizni esankiratib qo'ydi.

**atterrir** *vi* **1.** *av* qo'nmoq, yerga qo'nmoq; **l'avion vient d'atterrir** samolyot hozirgina qo'ndi; **2.** *mar* pristanga kelib to'xtamoq.

**atterrissage** *nm* **1.** *av* qo'nish, yerga qo'nish; **un atterrissage forcé** majburan yerga qo'nish; **train d'atterrissage** shassi (*samolyotning aerodromda yurushi, uchishi, qo'nishida xizmat qiladigan g'ildirakli qismi*); **piste d'atterrissage** uchish va qo'nish polosasi, chizig'i; **2.** *mar* pristanga kelib to'xtash (*kema*).

**attestation** *nf* guvohnoma, shahodatnoma; **une attestation de médecin** tibbiyot guvohnomasi.

**attester** *vt* **1.** ko'rsatmoq, aytmoq; darak bermoq, dalolat bermoq; anglatmoq; **ce fait atteste que** bu fakt ko'rsatadiki; **2.** guvohlik bermoq, tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq; **attester un fait** faktni tasdiqlamoq; **j'atteste que cet homme dit la vérité** men bu odam haqiqatni aytayotganligiga guvohlik beraman; **3.** guvohlik olmoq; guvoh qilmoq; **attester le ciel** osmonni guvoh qilmoq.

**attiédir** *vt* isitmoq, ilitmoq; **le soleil a attiédit l'eau de la mer** quyosh dengiz suvini ilitib qo'ydi.

**attiédissement** *nm* ilitish, isitish; isish, ilish.

**attifer I.** *vt fam péj* didsiz, kulgili holda yasantirmoq, kiyintirmoq; **qui est-ce qui t'a attifé comme ça** seni kim bunday kiyintirdi? **II. s'attifer** *vpr* kiyinmoq, bezanmoq, yasanmoq.

**attiger** *vi* oshirib yubormoq; **tu attiges** oshirib yubording!

**attique** *adj* Attikaga, Afinaga, afinaliklarga oid; **le sel attique** nozik qochirim; yengil istehzo.

**attirail** *nm fam* kerak-yarog', qurol-yarog', aslaha-anjom; asbob; buyum, jihoz; ashyo; narsa; **un attirail de pêche** baliqchining anjomlari.

**attirance** *nf* mayl, havas, qiziqish, intilish, moyillik.

**attirant, ante** *adj* yoqimli, jozibali, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq; o'ziga tortadigan, jalb qiladigan.

**attirer I.** *vt* **1.** o'ziga tortmoq, jalb qilmoq; **l'aimant attire le fer** magnit temirni o'ziga tortadi; **2.** *fig* qiziqtirmoq, havasni keltirmoq; yo'ldan urmoq; **attirer qqn par de belles promesses** ajoyib va'dalar bilan qiziqtirmoq; **3.** tortmoq, jalb qilmoq, o'z tomoniga og'dirmoq; **attirer les regards, l'attention** nigohlarni, diqqatni o'ziga qaratmoq; **4.** qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq; sazovor bo'lmoq, qozonmoq; **son succès lui attira beaucoup d'ennemis** uning muvaffaqiyatlari o'ziga ko'plab dushman orttirishiga sabab bo'ldi; **attirer la haine** nafrat qo'zg'atmoq; **II. s'attirer** *vpr* **1.** bir-biriga tortilmoq; **les astres s'attirent les uns les autres** yulduzlar bir-birlariga tortilmoqdalar; **2.** tug'dirmoq, orttirmoq; **s'attirer des ennuis** o'ziga kulfat orttirmoq; **il s'est attiré des ennemis** u o'ziga dushmanlar orttirdi.

**attiser** *vt* **1.** puflab, dam berib yondirmoq, alanga oldirmoq, yoqmoq; **attiser le feu** olov, o't yoqmoq; **2.** *fig* qo'zg'atmoq, tug'dirmoq; kuchaytirmoq, zo'raytirmoq; avj oldirmoq, alanga oldirmoq; **attiser la querelle** janjalni alangalatmoq; **attiser la haine** nafrat qo'zg'atmoq; nafratni avj oldirmoq.

**attitré, ée** *adj* **1.** rasmiy; **le représentant attitré du gouvernement** hukumatning rasmiy vakili; **2.** doimiy; odatdagi; tanilgan, nomi chiqqan, dong taratgan; **c'est son fournisseur attitré** bu uning doimiy ta'minlovchisidir.

**attitude** *nf* **1.** gavdaning turish vaziyati, holati; **2.** odat, qiliq, xulq-atvor, sulukat; yurish-turish; **une attitude arrogante** takabburona yurish-turish; **une attitude fière** mag'rur yurish-turish; **3.** muomala, munosabat, pozitsiya, nuqtai-nazar, fikr, tutilgan yo'l; **une attitude bienveillante** iltifotli munosabat; **une attitude intransigeante** murosasizlik nuqtai nazari; **il était hostile à ce projet, mais à présent il a changé d'attitude** u bu rejaga qarshi edi, ammo hozir o'z fikrini o'zgartirdi.

**attouchement** *nm* qo'l tekkizish, erkalash (*odatda silash, siypash maqsadida*).

**attractif, ive** *adj* o'ziga tortadigan; o'ziga jalb qiladigan.

**attraction** *nf* **1.** *phys* tortish, tortilish; tortish kuchi; **loi de l'attraction universelle** butun dunyo tortishish qonuni; **l'attraction d'un aimant** magnitning o'ziga tortish kuchi; **2.** *fig* tortuvchanlik, o'ziga tortishlik, jalb etishlik; o'ziga tortadigan, jalb qiladigan, jozibali kuch; mayl, havas, qiziqish, intilish; **l'attraction mutuelle de deux êtres** ikki kishining bir-biriga o'zaro mayli, intilishi; **3.** sirk yoki estrada dasturidagi eng qiziq, hayratomuz o'yin, tomosha; *pl* sayilgohlarda turli o'yin-kulgu qurilmalari, karusel, tir kabilar.

**attrait** *nm* **1.** qiziqtiradigan, havasni keltiradigan narsa; ko'ngil sust ketadigan, yo'ldan ozdiradigan narsa; maftun qiladigan narsa; **l'attrait du mystère** sir sehri; **l'attrait de la nouveauté** yangilikning qiziqligi; **2.** *pl* yoqimlilik, jozibalilik, dilbarlik, ko'rkamlik, istarasi issiqlik, joziba, sehr; **les attraits d'une femme** ayolning jozibadorligi; **3.** mayl, havas, intilish.

**attrapade** *nf fam* **1.** koyish, dakki berish; dakki, tanbeh; **2.** so'kish, haqorat, janjal, janjal-suron, g'avg'o.

**attrape** *nf* **1.** hiyla, nayrang, lo'ttibozlik; fokus, ko'zbo'yamachilik; **2.** biror kimsani hayron qoldirish uchun mo'ljallangan narsa (*o'yin yoki hazil orqali*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**attrape-nigaud** *nm* (*pl* **des attrape-nigauds**) ayyorlik, sodda odamlarni aldash uchun qilingan makr, hiyla; **cette publicité n'est qu'un attrape-nigaud** bu reklama sodda odamlarni aldash uchun qilingan hiyla.

**attraper** *vt* **1.** qo'l bilan tutmoq, qo'lga olib tutib turmoq; ovlab tutmoq, tutib olmoq; qo'lga tushirmoq, qo'lga olmoq; **attraper des souris dans une souricière** qopqon bilan sichqonlarni tutmoq; **attraper la balle au vol** uchib kelayotgan koptokni qo'l bilan tutmoq; **il s'est fait attraper** uni qo'lga tushirdilar; **2.** aldamoq, aldab ketmoq, pand bermoq, chuv tushirmoq, laqillatish, qo'lga tushirmoq; **je me suis laissé attraper comme un enfant** meni yosh boladek laqillatib ketishdi; **3.** ko'ngilni qoldirmoq, ko'ngilni sovutmoq, ixlosni qaytarmoq, hafsalani pir qilmoq, umidini puchga chiqarmoq; **j'ai été bien attrapé de ne pas vous trouver à la gare** sizni vokzalda topa olmaganimdan hafsalam pir bo'ldi; **4.** tutmoq, o'tirmoq (*transport vositasi*); **j'ai attrapé le train à la dernière minute** oxirgi minutlarda poyezdga o'tirdim; **5.** *fam* yuqtirmoq, orttirmoq; **attraper une maladie** kasallik orttirmoq; **6.** tushunmoq, sezmoq, payqamoq, anglamoq; **attraper quelques mots d'une conversation** suhbatdan bir necha so'zni anglamoq; **7.** tegmoq, yetmoq, yaralamoq; **8.** tanbeh bermoq, koyimoq, ta'zirini bermoq; **il s'est fait attraper par son professeur** u o'qituvchisidan tanbeh, qattiq gap eshitdi.

**attrayant, ante** *adj* o'ziga tortadigan, qiziqarli, maroqli; **un spectacle attrayant** qiziqarli tomosha.

**attribuer I.** *vt* **1.** bermoq; berishga qaror qilmoq, belgilamoq; **attribuer un prix à qqn** biror kimsaga mukofot bermoq, belgilamoq; **attribuer un titre** unvon bermoq; **attribuer des avantages à qqn** biror kimsaga imtiyoz bermoq; **2.** *fig* nisbat bermoq, deb bilmoq, deb o'ylamoq, deb tushunmoq; ma'no, ahamiyat, e'tibor bermoq; **attribuer de l'importance à qqch** biror narsaga ma'no bermoq; **3.** hisoblamoq, topmoq, qo'shmoq, kiritmoq; sababli deb bilmoq; tufayli deb hisoblamoq, topmoq; -dan ko'rmoq; **attribuer à qqn une invention, un tableau** ixtiro, suratni biror kimsaniki deb hisoblamoq; **j'attribue cela à son ignorance** buni uning bilmasligi sababli deb hisoblayman; **II. s'attribuer** *vpr* o'ziniki qilib olmoq, egallab olmoq; o'zlashtirmoq; **s'attribuer tout le mérite de qqn** biror kimsaning xizmatini o'ziniki qilib olmoq.

**attribut** *nm* **1.** *phil* atribut (*narsalarning, hodisalarning ajralmas qismi, xususiyati*); **2.** o'ziga xos xususiyat, belgi, alomat; **3.** *gram* atribut, aniqlovchi.

**attribution** *nf* **1.** berish, belgilash; **l'attribution d'un rôle à un acteur** aktyorga rol berish; **l'attribution du prix Nobel à un physicien** fizik olimga Nobel mukofotini berish; **2.** *gram* **complément d'attribution** vositali to'ldiruvchi; **3.** *pl* alohida huquq, imtiyoz; vazifa, xizmat; **cela ne rentre pas dans mes attributions** bu mening vazifamga kirmaydi.

**attristant, ante** *adj* xafa qiladigan, qayg'uga soladigan.

**attristé, ée** *adj* xafa, ta'bi tirriq, ko'ngli g'ash.

**attrister I.** *vt* xafa qilmoq, qayg'uga solmoq, qayg'urtirmoq; ta'bini xira qilmoq, ko'nglini g'ash qilmoq, dilini siyoh qilmoq; kayfiyatini buzmoq; **son départ nous a attristés** uning ketishi bizni xafa qildi; **II. s'attrister** *vpr* xafa bo'lmoq, qayg'uga botmoq, qayg'urmoq, kayfiyati buzilmoq, ko'ngli g'ash bo'lmoq; **il s'attriste de la voir partir** uning ketayotganligini ko'rib kayfiyati buzildi.

**attroupement** *nm* odamlarning bir joyga to'planishi, olomon, to'da.

**attrouper I.** *vt* odamlarni to'plamoq, yig'moq; **ses cris attroupèrent les passants** uning qichqirig'idan o'tkinchilar bir joyga to'plandilar; **II. s'attrouper** *vpr* to'planmoq, yig'ilmoq; **les manifestants commencèrent à s'attrouper** namoyishchilar to'plana boshladilar.

**au** *art déf, prép voir* **à**.

**aubade** *nf* tongda biror kimsaning derazalari ostida berilgan konsert, aytilgan qo'shiq.

**aube**[1] *nf* **1.** tong, tong payti, tong yorishgan payt; shafaq; **se lever à l'aube** tong otarda o'rnidan turmoq; **dés l'aube** erta tongdan; **2.** tong, subh, boshlanish davri; **à l'aube de la Révolution** Inqilob tongida.

**aube**[2] *nf techn* parrak, kurak; **les aubes d'une roue de moulin** tegirmon parragi.

**aube**[3] *nf serk.* dyakonlarning ibodat vaqtida kiyadigan uzun kimxob kiyimi.

**aubépine** *nf* do'lana.

**auberge** *nf* **1.** *vx* qishloq mehmonxonasi, karvonsaroy; **2.** restoran yoki mehmonxona qoshidagi restoran (*odatda qishloq joylarda*).

**aubergine** *nf* baqlajon.

**aubergiste** *nm* karvonsaroy egasi.

**aucun, une I.** *adj* hech qanaqa, hech qanday, hech qaysi; **aucun homme n'est jamais allé sur Vénus** hech qaysi kishi hech qachon Venerada bo'lmagan; **je n'ai aucune confiance en lui** unga hech qanday ishonchim yo'q; **en aucune façon** hech, hech bir, sira; **en aucun lieu** hech qayerda; **sans aucune ressource** hech qanday mablag'siz, bir tiyinsiz; **II.** *pron* hech kim, hech kimsa; hech narsa; kimdir; **aucuns, d'aucuns** ba'zilar; birovlar; **je doute qu'aucun de vous le fasse** qaysi biringiz buni qila olishingizga ishonmayman; **d'aucuns croiront** ba'zilar o'ylashi mumkin.

**aucunement** *adj* hech, hech bir, sira; zarracha ham, aslo, zinhor.

**audace** *nf* **1.** jasorat, mardlik, jur'at, dadillik, botirlik; **son audace était légendaire** uning mardligi haqida afsonalar tarqaldi; **un acte d'audace** mardonavor harakat; **avec audace** dadillik, botirlik, jasurlik bilan; ikkilanmasdan, qo'rqmasdan, dadil; **plein d'audace** dadil, mardonavor; **avoir l'audace de** *+inf* jasorat qilmoq, jur'at etmoq; **2.** surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik, beorlik.

**audacieux, euse** *adj* **1.** jasur, mard, botir; **2.** surbet, bezbet, uyatsiz, beor, yuzsiz, sulloh.

**au-delà** *nm* narigi dunyo; **dans l'au-delà** narigi dunyoda.

**audible** *adj* eshitiladigan, eshitib bo'ladigan, eshitilib turadigan; **d'une voix à peine audible** zo'rg'a eshitiladigan ovoz bilan, zo'rg'a eshitiladigan qilib.

**audience** *nf* **1.** audiensiya, qabul (*lavozimli kishi huzuridagi*); **accorder, donner une audience** qabul qilmoq; **2.** sud majlisi; **audience à huit clos** yopiq majlis; **tenir audience** majlis o'tkazmoq; **3.** biror narsaga qiziqish, e'tibor; **cette idée a trouvé une large audience** bu g'oya ko'pchilikni o'ziga tortdi.

**audiophone** *nm* quloqqa tutadigan apparat (*karlar uchun*).

**audio-visuel, elle** *adj* audiovizual, ko'rib-eshitadigan, ko'rib-eshitishga oid (*tovush va tasvir yordamida tillarni o'rgatish metodi*).

**auditeur, trice** *n* eshituvchi, tinglovchi; **les auditeurs d'un conférencier** notiqning tinglovchilari; **les auditeurs d'une émission de radio** radio tinglovchilar.

**auditif, ive** *adj* eshitishga oid, eshitish uchun xizmat qiladigan, eshitish; **appareil auditif** karlar quloqqa tutadigan apparat; **les organes auditifs** eshitish organlari.

**audition** *nf* **1.** eshitish qobiliyati, eshitish; **le mécanisme, les troubles de l'audition** eshitish sistemasi, eshitish qobiliyatining buzilishi; **2.** eshitish, tinglash; **l'audition des témoins** guvohlarni eshitish, so'roq qilish; **3.** yaxshi-yomon eshitilish, eshitilish darajasi; **4.** sinab ko'rish, tekshirib ko'rish; ovoziga qarab tekshirish, tinglab ko'rish.

**auditionner I.** *vt* ovoziga qarab sinab ko'rmoq (*artistni*); **II.** *vi* ovozini sinab ko'rishlari uchun chiqish qilmoq (*artist*).

**auditoire** *nm* auditoriya; tinglovchilar; qatnashchilar, qatnashuvchilar; tomoshabinlar.

**auditorium** *nm* eshitish zali, studiya; ovoz yozish studiyasi.

**auge** *nf* **1.** oxur; tog'ora; **2.** qorg'ich (*biror narsani eritish yoki qorish uchun ishlatiladigan idish*); **3.** jag' suyaklari orasidagi bo'shliq joy (*otlarda*).

**augmentation** *nf* **1.** ortish, ko'payish; orttirish, ko'paytirish; **2.** qo'shimcha haq, ustama.

**augmenter I.** *vt* **1.** ko'paytirmoq, oshirmoq, orttirmoq; qo'shmoq; **augmenter la vitesse** tezlikni oshirmoq, tezlatmoq; **augmenter la qualité** sifatni yaxshilamoq; **2.** maoshni oshirmoq, ko'paytirmoq; **augmenter les fonctionnaires** davlat xizmatchilarining maoshini oshirmoq; **II.** *vi* ko'paymoq, oshmoq, kattaymoq, kattalashmoq; o'smoq; qo'shilmoq; **la population augmente** aholi ko'paymoqda; **le pain a augmenté** non qimmatlashdi.

**augure**[1] *nm* belgi, alomat, nishona; **un heureux augure** baxt alomati; yaxshilik belgisi; **de bon augure** yaxshi belgi; **de mauvais augure** yomonlik alomati; **oiseau de mauvais augure** baxtsizlik darakchisi.

**augure**[2] *nm* qushlarning ovozi va uchishiga qarab go'yo xudoning irodasini, xohishini aytib bera olgan kohin (*qadimgi Rimda*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**augurer** *vt* (**qqch de qqch**) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq, aytib bermoq, karomat qilmoq; **augurer une chose d'une autre** biror narsaga qarab narsani oldindan aytib bermoq; **que puis-je augurer de cette aventure?** bu voqeadan nima kutish mumkin?

**auguste**[1] *adj* ulug'vor, ulug'sifat, basavlat, savlatli, mahobatli, salobatli, viqorli; dabdabali; tantanali; **un air auguste** ulug'vor ko'rinish, qiyofa; **une auguste assemblée** tantanali yig'ilish.

**auguste**[2] *nm* masxaraboz, qiziqchi.

**aujourd'hui** *adv* **1.** bugun, bugungi kun; **jusqu'à aujourd'hui** bugungacha; **2.** hozir, hozirgi paytda, endilikda; **on voyage beaucoup aujourd'hui** hozirgi paytda ko'p sayohat qilmoqdalar; **d'aujourd'hui** hozirgi.

**aulne** *nm bot* olxa (*teraksimon daraxt yoki buta*).

**aumône** *nf* sadaqa; **faire l'aumône, donner l'aumône** sadaqa qilmoq, bermoq.

**aumônier** *nm* kashish, pop, ruhoniy.

**aune**[1] *nf* quloch (*Fransiyada 118-120 smga teng uzunlik o'lchovi*).

**aune**[2] *nm voir* **aulne**.

**auparavant** *adv* ilgari, avval, burun, ilgarigi vaqtlarda.

**auprès I.** *adv* yaqinida, oldida, yaqin orada; **se tenir auprès** yaqin orada turmoq; shu o'rtada turmoq; **II.** *loc prép* **1.** oldida, yonida, yaqinida; **rester auprès du malade** kasal yonida qolmoq; **2.** qoshida; huzurida, -dagi; **3.** nazarida, fikricha; ko'z o'ngida, ko'z oldida; **je ne veux pas passer pour un impoli auprès d'elle** uning nazarida beodob bo'lib ko'rinishni istayman; **4.** qaraganda, nisbatan; **ce service n'est rien auprès de ce qu'il a fait pour moi** bu xizmat uning menga qilganlari oldida hech narsa emas.

**auquel** *pron rel voir* **lequel**.

**aura** *nf* aura (***1.*** *fig kimsa yoki narsani qamrab olgan ruhiy holat, vaziyat;* ***2.*** *méd tutqanoq xurujidan darak beruvchi belgi;* ***3.*** *okkul'tizmda: faqat xabardor qilingan kishilargagina ko'rinadigan tanani qamrab, o'rab turgan gardish*).

**auréole** *nf* **1.** zarhal doira, gardish (*nasroniy dinida Iso Masih, Bibi Maryam va boshqa avliyolarning suratlarida ularning boshlarini o'rab chizilgan zarhal gardish*); **2.** biror narsa atrofini o'rab turgan yorug'lik gardishi; **auréole de la Lune** Oy gardishi; **3.** *fig* barq urish, balqish; gullash, yashnash; avj; **4.** dog', dog' izi (*qog'oz, gazlamalardagi dog' tozalangandan keyin qolgan doira shaklidagi dog' izi*).

**auréoler** *vt* **1.** zarhal doira bilan o'ramoq; **2.** *fig* shuhratini, dong'ini, nomini olamga yoymoq, ko'klarga ko'tarmoq, mashhur qilmoq; **auréoler de toutes les vertus** biror kimsaning barcha yaxshi fazilatlarini ko'klarga ko'tarmoq.

**auréomycine** *nf* aureomitsin.

**auriculaire I.** *adj* quloqqa oid, quloq; **pavillon auriculaire** quloq suprasi; **douleur auriculaire** quloq og'rig'i; **II.** *nm* jimjiloq.

**aurifère** *adj* oltinga boy, oltinli; **sable aurifère** oltinga boy, oltinli qum.

**aurochs** *nm* zubr.

**aurore** *nf* **1.** shafaq, yog'du; **se lever aux aurores** tong otarda, erta tongda turmoq; **aurore boréal** shimol yog'dusi; **2.** *fig* tong, subh, boshlanish davri; **l'aurore de la vie** hayotning boshlanish davri.

**auscultation** *nf méd* eshitish, eshitib ko'rish.

**ausculter** *vt méd* eshitib ko'rmoq, quloq solib tekshirmoq; **ausculter un malade** bemorni eshitib ko'rmoq.

**auspice** *nm* **1.** belgi, alomat, nishona (*qadimgi Rimda qushlarning uchishi, harakati, sayrashi kabilarni kuzatish natijasidagi belgi, alomat*); **sous de favorables, d'heureux auspices** qulay, baxtli onlarda; qulay, baxtlilik alomatlari ostida; qulay, baxtli vaziyatda; **2.** *fig* homiylik, himoya; yoqlash; **sous les auspices de qqn** biror kimsaning himoyasida bo'lmoq.

**aussi I.** *adj* **1.** ham; **lui aussi aime la musique** u ham musiqani sevadi; **bonne nuit! – vous aussi!** xayrli tun! – sizga ham! **2.** shuningdek, shu bilan birga, ham; yana tag'in; qo'shimcha ravishda, qo'shimcha qilib; **il parle anglais et aussi allemand** inglizcha gapiradi, shuningdek, nemischa ham; **il ne suffit pas d'écouter, il faut aussi parler** eshitish yetarli emas, gapirish ham kerak; **3. aussi … que** (*qiyoslashda*); xuddi -day, -dek; qancha … bo'lsa, shuncha; bir xil; singari, kabi; **elle est aussi jolie que votre fille** u sizning qizingiz singari chiroyli; **il parle aussi bien le français que son camarade** u o'rtog'i kabi fransuzchani yaxshi gapiradi; **il est aussi habile qu'intelligent** u qancha epchil bo'lsa, shuncha aqllidir; **4.** (*qiyoslanayotgan ikkinchi bo'lak tushib qolsa*) shunday, shunday ham, shu darajada; shu qadar; shunchalik, unchalik; **comment un homme aussi intelligent a-t-il pu agir ainsi?** qanday qilib shunchalik aqlli kishi bunday qilishi mumkin? **II.** *conj* shuning uchun, shu sababli; **nous avons déjà étudié ce livre, aussi ne vous en parlerai-je pas** biz bu kitobni allaqachon o'rganib bo'ldik, shuning uchun men sizga u haqda boshqa gapirmayman.

**aussitôt I.** *adv* darhol, darrov, tez, tezda, birpasda, bir zumda, bir lahzada, zumda, lahzada; bilanoq; **il est arrivé aussitôt aprés mon départ** men jo'nab ketishim bilanoq u keldi; **aussitôt aprés avoir déjeuné il est parti** ovqatlanib bo'lishi bilanoq, ovqatlangach darhol jo'nab ketdi; **II.** *loc conj* **aussitôt que** bilanoq, hamonoq; **il le reconnut aussitôt qu'il le vit** uni ko'rishi bilanoq tanidi.

**austère** *adj* **1.** talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'l; qahri qattiq, badjahl, berahm, shafqatsiz; **une femme austère** qattiqqo'l ayol; **2.** *fig* og'ir, mashaqqatli, qattiq, achchiq; **mener une vie austère** mashaqqatli hayot kechirmoq; **3.** oqartirilmagan, xom, dag'al, sur; **cette robe est un peu austère** bu ko'ylak biroz dag'al.

**austèrement** *adv* qattiqqo'llik bilan, qattiq, keskin, g'azab bilan.

**austérité** *nf* **1.** qattiqqo'llik, og'irlik; qahri qattiqlik, qattiqlik; berahmlik, shafqatsizlik, badjahllik; **2.** *pl* o'z-o'zini qiynash, azoblash.

**austral, ale** *adj* janubiy; **pôle austral** janubiy qutb.

**australien, ienne I.** *adj* avstraliyacha va avstraliyaliklarga oid, Avstraliya, avstraliyalik; **II.** *n* avstraliyalik, avstraliyalik kishi, avstraliyalik ayol.

**autant** *adv* **autant que** bir xil miqdorda; bir xil darajada; bir xilda, tarzda; -dek, -day; -chalik; qancha, qanchalik … bo'lsa, shuncha, shunchalik, qancha, qanday …bo'lsa, shunday; qanchalik, nechog'lik, naqadar; **il travaille autant que moi** u ham menchalik ishlayapti; **autant que je sache** qanchalik, nechog'lik bilsam; **autant de** bir xil miqdor, bir xil son; shuncha, shu qadar, shunchalar; o'sha, o'shanday; **pourquoi y a-t-il autant de livres sur la table?** nega stol ustida shuncha kitob bor? **il travaille toujours avec autant d'application** u doim o'shanday tirishqoqlik bilan ishlayapti; **il y a dans la classe autant de garçons que de filles** sinfda bolalar qancha bo'lsa, qizlar ham shuncha; **je ne pensais pas qu'il aurait autant de patience** men u shunchalar sabr-toqatli deb o'ylamagan edim; **autant… autant…** qancha, qanchalik… bo'lsa, shuncha, shunchalik …; qanday… bo'lsa, shunday…; **autant je l'aime, lui, autant je déteste sa sœur** uni qanchalik sevsam, singlisini shunchalik yomon ko'raman; *loc adv* **d'autant** shuncha, shunchalik; **cela augmente d'autant mes difficultés** bu mening qiyinchiliklarimni, mushkulimni shunchalik ko'paytiradi; **d'autant (plus) que** *loc conj* modomiki, hamonki, sababli, uchun; **j'irai seule, d'autant (plus) que vous serez déjà partis** modomiki sizlar avval jo'nab ketarkansizlar, men yolg'iz o'zim boraman; **j'irai d'autant moins qu'elle ne m'a pas invité** u meni taklif etmaganligi uchun men bormayman; **il mérite d'autant moins de reproches qu'il a agi sur votre ordre** u sizning buyrug'ingizga binoan harakat qilganligi tufayli uni ayblash mumkin emas.

**autarcie** *nf* avtarkiya (*zarur narsalarni chetdan olmasdan o'zi yetkazishga asoslangan milliy xo'jalik sistemasi*).

**autel** *nm* **1.** altar, mehrob (*cherkovning ibodat qilinadigan asosiy qismi, cherkov ibodatxonasi*); **2.** qurbonlik qilinadigan joy (*ibtidoiy xalqlarda*).

**auteur** *nm* **1.** yaratuvchi, ijodkor, bunyodkor, ijod etuvchi, tashkil, barpo, bunyod qiluvchi, tuzuvchi, quruvchi; sababchi, aybdor; **2.** avtor, muallif.

**authenticité** *nf* **1.** asllik, chinlik, to'g'rilik, haqiqiylik; **l'authenticité d'un document** hujjatning haqiqiyligi; **2.** tabiiylik; samimiylik, sofdillik, ochiq ko'ngillilik.

**authentification** *nf* tasdiqlash, tasdiq qilish.

**authentifier** *vt* tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq, tasdiqlab bermoq (*imzo va muhr bilan*).

**authentique** *adj* **1.** asl, chin, haqiqiy; **2.** aniq; ishonchli, haqiqiy, inobatli; **3.** *dr* tasdiqlangan, tasdiqlab berilgan (*notarius tomonidan*); **4.** tabiiy, samimiy, sof, haqiqiy; **une personnalité authentique** samimiy shaxs.

**authentiquement** *adv* aniqlik bilan, ishonchlilik bilan; tabiiylik bilan, samimiylik bilan; aniq tarzda, ishonchli tarzda, tabiiy tarzda, samimiy tarzda.

**authentiquer** *vt vieilli voir* **authentifier**.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**auto** *nf fam* avtomashina.
**auto-accusation** *nf* o'z-o'zini ayblash.
**auto-allumage** *nm* o'z-o'zidan o't olish, yonish.
**autoberge** *nf* sohil bo'ylab ketgan avtomobil yo'li.
**autobiographie** *nf* avtobiografiya, tarjimai hol.
**autobiographique** *adj* avtor biografiyasiga yaqin, avtor biografiyasini o'z ichiga olgan; avtobiografik.
**autobus** *nm* avtobus.
**autocar** *nm* sayyohlar avtobusi.
**autochenille** *nf* zanjirli avtomobil.
**autochtone I.** *n* **1.** yerli, mahalliy kishi, ayol; **2.** *pl* yerli aholi, tubjoy xalq; **II.** *adj* yerli, tubjoy, mahalliy.
**autoclave** *nm* avtoklav (*narsalarni yuqori bosim ostida qizdirib sterillash uchun ishlatiladigan germetik qopqonli idish, apparat*).
**autocrate** *nm* mustabid hokim, yakka hokim.
**autocratie** *nf* mustabid hokimiyat, yakka hokimiyatchilik, mutlaq hokimiyat.
**autocratique** *adj* yakka, mustabid hokimiyatchilikka asoslangan, mustabid.
**autocritique** *nf* o'z-o'zini tanqid; **faire son autocritique** o'z-o'zini tanqid qilmoq.
**autocuiseur** *nm* tezqaynatar qozon, kastrulka.
**autodafé** *nm* O'rta asrlarda shakkoklarni va dinga qarshi kitoblarni xaloyiq o'rtasida gulxan qilib yoqish, o'tga tashlash.
**autodéfense** *nf* o'zini o'zi himoya qilish, o'z-o'zini qo'riqlash.
**autodestruction** *nf* o'zi-o'zini yoki bir-birini o'ldirish, yo'q qilish, qirish.
**autodétermination** *nf* o'z taqdirini o'zi belgilash.
**autodidacte I.** *nm* maktab ko'rmagan, o'zi mustaqil o'rgangan, o'ziga yetishgan kishi; **II.** *adj* **un écrivain autodidacte** o'ziga yetishgan yozuvchi.
**autodrome** *nm* avtodrom.
**auto-école** *nf* haydovchilar tayyorlaydigan maktab.
**autofinancement** *nm* xo'jalik hisobi, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash (*davlatdan yordam olmasdan, o'zidan chiqqan daromad hisobiga xo'jalikni boshqarish usuli*).
**autogestion** *nf* o'z-o'zini boshqarish, o'zini o'zi idora qilish.
**autographe I.** *adj* o'z qo'li bilan qilingan, o'zi qilgan, o'z; **une lettre autographe** o'z qo'li bilan yozilgan xat; **II.** *nm* dastxat; **une collection d'autographes** dastxatlar to'plami; **un chasseur d'autographes** dastxat yig'uvchi, ishqibozi.
**automate** *nm* avtomat (***1.*** *belgilangan ishni ichki mexanizmlar yordamida o'zi bajaradigan mashina, apparat, asbob;* ***2.*** *fig mashina singari g'ayriixtiyoriy ish qiluvchi odam*).
**automation** *nf voir* **automatisation**.
**automatique** *adj* **1.** avtomatik ravishda ishlaydigan, avtomatik, avtomat; **la fermeture des portes est automatique** eshiklar o'zi yopiladi; **2.** *fig* g'ayriixtiyoriy ravishda sodir bo'ladigan, beixtiyor, mashinal; **un geste automatique** g'ayriixtiyoriy harakat.
**automatiquement** *adv* g'ayriixtiyoriy ravishda, beixtiyor, mashinal, moshinavori.
**automatisation** *nf* **1.** avtomatizatsiya, avtomatlashtirish; **2.** avtomatik mashinalar, mexanizmlar majmui.
**automatiser** *vt* avtomatlashtirmoq, avtomatizm darajasiga ko'tarilmoq.
**automatisme** *nm* **1.** g'ayriixtiyoriy ravishda harakat qilish; harakatning g'ayriixtiyoriyligi; mashinal, beixtiyor harakat; **2.** biror mexanizmning avtomatik ravishda ishlashi; **3.** ba'zi organlarning, masalan, yurakning o'z-o'zidan ishlashi.
**automitrailleuse** *nf* bronomashina, bronovik.
**automnal, ale** *adj* kuzgi, kuzdagi.
**automne** *nm* kuz; **en automne** kuzda.
**automobile I.** *adj* **1.** o'zi yurar, o'zi harakatlanadigan, o'zi yuradigan, motorli; **voiture automobile** avtomashina, mashina; **canot automobile** motorli qayiq; **2.** avtomobilga oid; avtomobil; **parc automobile** avtopark; **II.** *nf* avtomobil, avtomashina, mashina; **conduire une automobile** mashina haydamoq; **aller en automobile** mashinada bormoq; **avoir un accident d'automobile** avtomobil halokatiga yo'liqmoq.
**automobilisme** *nm* **1.** avtomobil ishi, avtomobillar qurish va avtomobil sanoatini rivojlantirish; **2.** avtomobil sporti.
**automobiliste** *n* avtomobilist, avtomobilchi; avtomobil haydovchisi; avtomobil sporti bilan shug'ullanuvchi kishi.
**automoteur, trice I.** *adj* o'ziyurar, o'zi harakatlanadigan; **un canon automoteur** o'ziyurar to'p; **II.** *n* avtomotrisa (*mustaqil motorli temir yo'l vagoni*).
**autonome** *adj* **1.** avtonomiya huquqiga ega, avtonomiyali, avtonom, muxtor, mustaqil; **un Etat autonome** mustaqil davlat; **un gouvernement autonome** muxtor hukumat; **2.** erkin, mustaqil; **une volonté autonome** erkin istak.
**autonomie** *nf* **1.** avtonomiya, muxtoriyat; o'z-o'zini boshqarish, mustaqillik; **l'autonomie des communes en France** Fransiyada kommunallarning o'z-o'zini boshqarishi; **2.** *phil* ozodlik; **3.** *techn* boshqaruv qurilmasining mustaqilligi.
**autonomisme** *nm* avtonomizm, muxtoriyatchilik.
**autonomiste** *n* muxtoriyatchi, avtonomist, avtonomiya tarafdori, avtonomiyachi.
**autopompe** *nf* o't o'chiruvchilar avtomobili.
**autopropulsé, ée** *adj techn* reaktiv, orqaga tepish kuchidan foydalaniladigan.
**autopsie** *nf* murdani yorish; **faire l'autopsie** *voir* **autopsier**.
**autopsier** *vt* murdani yormoq.
**autorail** *nm voir* **automotrice**.
**autorisation** *nf* **1.** ruxsat, ijozat; **2.** ruxsatnoma; **montrer une autorisation** ruxsatnomani ko'rsatmoq.
**autorisé, ée** *adj* **1.** ruxsat etilgan, ijozat etilgan, qo'llaniladigan; **une association autorisée** rasmiy ijozat berilgan uyushma; **une tournure autorisée par l'usage** tilda qo'llaniladigan ibora; **2.** vakil qilingan; vakolat berilgan; **3.** obro'li, nufuzli, e'tiborli; tanilgan; yaxshi biladigan, xabardor; **un critique autorisé** obro'li tanqidchi; **les milieux autorisés** xabardor doiralar; **de source autorisée** nufuzli manbalar.
**autoriser** *vt* **(qqn à)** biror kimsaga huquq, ruxsat, ijozat bermoq; **autoriser la construction d'un immeuble** uy qurishga ruxsat bermoq; **on l'a autorisé à se présenter aux examens** unga imtihon topshirishga ruxsat berishdi.
**autoritaire** *adj* **1.** so'zini o'tkazishni, buyruq berishni, xo'jayinlik qilishni yoqtiruvchi, boshqalarni o'ziga bo'ysundirishni yaxshi ko'ruvchi; riyosatparast; **homme, caractère autoritaire** bo'ysunuvchi kishi, xarakter; **2.** o'tkir, qat'iy; **un ton autoritaire** qat'iy ohang.
**autorité** *nf* **1.** hokimiyat; hukmronlik; hokimlik, saltanat; **autorité légitime** qonuniy hokimiyat; **autorité paternelle** ota-onalar obro'si, ta'siri, ixtiyori; **régime d'autorité** diktatura; **abus d'autorité** hokimiyatni suiiste'mol qilish; **agir de sa propre autorité** o'zboshimchalik bilan harakat qilmoq; **d'autorité** zo'rlik bilan, zo'rlab; **2.** *pl* ma'murlar, boshliqlar; rahbarlar; **les autorités locales** mahalliy ma'murlar; **l'autorité militaire** harbiy ma'murlar; **3.** ta'sir; salmoq, obro'; **autorité morale** avtoritet; obro'; **jouir d'une grande autorité** katta obro'ga ega bo'lmoq; **faire autorité en matière de** biror sohada obro'-e'tibor qozonmoq.
**autoroute** *nf* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*).
**auto-stop** *nm* yo'lovchi mashina to'xtatish; **faire de l'auto-stop** yo'lovchi mashinani to'xtatib ketmoq.
**auto-stoppeur, euse** *n* yo'lovchi mashinani to'xtatib ketuvchi kishi.
**autosuggestion** *nf* o'zini o'zi ishontirish, ixlos qilish; ixlos.
**autour[1]** *adv* atrof, tevarak-atrof; **tout autour rien ne pousse** atrofda hech narsa o'smaydi; **le Soleil est au centre et la Terre tourne autour** Quyosh markazda, Yer esa uning atrofida aylanadi; *loc prép* **autour de** atrofiga, atrofida; tevaragidagi; tevaragiga; **construire un mur autour d'un parc** park atrofiga devor qurmoq; parkni devor bilan o'ramoq; **être autour de** atrofida bo'lmoq; **il a autour de cinquante ans** u ellik yoshlar atrofida.
**autour[2]** *nm* qirg'iy, qarchig'ay.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**autre I.** *adj* **1.** *otdan oldin:* boshqa, o'zga, bo'lak; **est-il plus heureux que les autres hommes?** boshqa kishilardan ko'ra u baxtlimi? **une autre fois** boshqa safar, bo'lak payt, kelgusi safar; **c'est un tout autre écrivain** butunlay boshqa yozuvchi; **c'est autre chose, c'est tout autre chose** bu boshqa ish, narsa, masala; *loc adv* **autre part** boshqa joyda; boshqa joyga; qayerdadir, allaqayerda; **j'ai lu cela autre part** bu haqida boshqa yerda, qayerdadir o'qidim; **d'autre part** shu bilan birga; boshqa tomondan, boshqa tarafdan; **2.** *ot yoki olmoshdan keyin:* boshqacha, bo'lakcha, avvalgidan boshqacha; **il est devenu autre** u boshqacha bo'lib qoldi, o'zgarib qoldi; **II.** *pron* **1.** boshqasi; boshqa kishi; **un autre** kimdir boshqa birov; **je l'ai pris pour un autre** men uni boshqa kishi deb o'ylabman; *loc* **d'un bout à l'autre** bir uchidan boshqasiga; **de temps à l'autre** vaqti-vaqti bilan; **d'une heure à l'autre** istalgan paytda, har doim; **entres autres** ko'pchilik ichida, orasida, o'rtasida; **rien d'autre** boshqa hech narsa; **l'un est riche, l'autre est pauvre** biri boy, ikkinchisi esa kambag'al; **ni l'un, ni l'autre n'ont rien compris** unisi ham, bunisi ham, ikkalasi ham hech narsa tushunishmadi; **s'aider l'un l'autre** bir-biriga yordamlashmoq; **marcher l'un derrière l'autre** birin-ketin yurmoq.

**autrefois** *adv* ilgari, burungi vaqtlar.

**autrement** *adv* **1.** boshqacha, o'zgacha; **il faut agir autrement** boshqacha harakat qilish kerak; **autrement dit** boshqacha aytganda; **2.** bo'lmasa, aks holda; **prenez un taxi, autrement vous serez en retard** taksi to'xtating, aks holda kech qolasiz; **3.** *fam* ancha, anchagina, xiyla, ko'p, bir necha marta; **elle est autrement plus jolie que sa sœur** opasidan ancha chiroyli.

**autrichien, ienne I.** *adj* Avstraliya va avstraliyaliklarga oid; **II.** *n* avstraliyalik.

**autruche** *nf* tuyaqush; **plumes d'autruche** tuyaqush patlari; *loc* **pratiquer la politique de l'autruche** qiyinchilikdan qochish, qo'rqish siyosatini olib bormoq.

**autrui** *pron* boshqa, boshqalar; yaqin kishi, yaqin tanish; qayerdan; **l'amour d'autrui** begona muhabbat, begona kishi muhabbati; **se mêler des affaires d'autrui** boshqalarning ishiga aralashmoq.

**auvent** *nm* bostirma, ayvon, shiypon; soyabon.

**auxiliaire I.** *adj* **1.** yordamchi, ko'makchi, qo'shimcha; **des moyens auxiliaires** qo'shimcha mablag'; **un moteur auxiliaire** yordamchi motor; **verbe auxiliaire** yordamchi, ko'makchi fe'l; **2.** safdan tashqaridagi; **un soldat du service auxiliaire** safdan tashqari xizmatdagi askar; **II.** *n* **1.** yordamchi; **avoir besoin d'un auxiliaire** yordamchiga muhtoj bo'lmoq; **2.** vaqtincha ishlayotgan xodim; **il est auxiliaire et pas encore titulaire** u vaqtincha ishlayapti, u hali shtatga o'tmagan; **3.** *nm gram* yordamchi, ko'makchi fe'l.

**avachi, ie** *adj* **1.** bo'shashgan, shalpaygan, shalviragan; **2.** cho'zilgan, kengaygan.

**avachir (s')** *vpr* **1.** bo'shashmoq, shalpaymoq, shalviramoq; yalpayib o'tirmoq; **il s'avachit dans un fauteuil** kresloda yalpayib o'tirmoq; **2.** cho'zilmoq; kiyilib kengaymoq, loyiq bo'lib qolmoq (*oyoq kiyim*); g'ijimlanmoq, ezilmoq (*kiyim*); **ces souliers commencent à s'avachir** bu tuflilar kiyilaverib kengaya boshladilar.

**avachissement** *nm* bo'shash, shalpayish, shalvirash; bo'shashganlik, shalpayganlik.

**aval**[1] *nm* daryoning quyi tomoni, etagi, oyog'i; **la rivière est plus belle vers l'aval** daryoning quyi tomoni chiroyliroq; **en aval de** *loc prép* quyida, quyi tomonida, pastroqda, etagida; **en aval du pont** ko'prik etagida.

**aval**[2] *nm fin* kafillik, kafolat.

**avalanche** *nf* **1.** *fig* qor ko'chkisi, ko'chki; **2.** *fig* oqim, daryo; shiddatli, to'xtovsiz oqim; **une avalanche d'injures** haqorat yomg'iri; **une avalanche de papiers** qog'ozlarning shiddatli oqimi; **une avalanche de lettres** xatlarning to'xtovsiz oqimi.

**avaler** *vt* **1.** yutmoq, yutib yubormoq; **avaler d'un trait** bir martadan yutib yubormoq, birdaniga yutib yubormoq; **avaler de travers** tomog'iga biror narsa tiqilib yo'talmoq; tomog'iga tiqilmoq, tiqilib qolmoq; *fig* **avaler un livre** kitobni tez o'qib tashlamoq, tez o'qib chiqmoq; **2.** *fam* indamay tinglamoq, qarshi gapirmaslik; g'azabini, alamini ichiga yutmoq; **c'est une histoire difficile à avaler** bu indamay ketadigan voqea emas, bu voqeani ichga yutish qiyin; **avaler sa langue** churq etmay turmoq; jim turmoq.

**avaleur** *nm* **avaleur de sabres** shpaga, qilich yutuvchi, sirk artisti.

**avaliser** *vt* **1.** kafil bo'lmoq, kafilligini olmoq, o'z ustiga, zimmasiga olmoq; **2.** ma'qullamoq, ma'qul topmoq; qo'llamoq, qo'llab-quvvatlamoq; **avaliser une décision** qarorni ma'qullamoq.

**avance** *nf* **1.** olg'a siljish; oldinga yurish; **l'avance d'une armée** armiyaning olg'a siljishi; **2.** quvib o'tish, ilgarilab ketish, o'zib ketish; **avoir, prendre de l'avance sur qqn** birovning oldiga o'tmoq, oldiga tushib olmoq; **le coureur a pris de l'avance sur les autres concurrents** poygachi boshqa raqiblaridan oldinga o'tib oldi; **3.** boshqalarga nisbatan ilgarilab ketish (*vaqtga nisbatan*); **avoir une heure d'avance** bir soat oldinda bo'lmoq; **4.** *loc adv* **à l'avance, d'avance, par avance, en avance,** oldindan, ilgaridan, barvaqt, oldinroq, **prévenir deux jours à l'avance** ikki kun oldin ogohlantirib qo'ymoq; **5.** avans (*mehnatga oldindan to'lanadigan pul, haq, mablag'*); **donner une avance** avans bermoq; **6.** *pl* **faire des avances à qqn** o'ziga og'dirish uchun biror narsa bilan rag'batlantirmoq, xursand qilmoq.

**avancé, ée** *adj* **1.** oldindagi, oldingi, oldingi marradagi, oldinda joylashgan; **poste avancé** oldingi post; **un détachement avancé** oldingi marradagi otryad; **2.** kech, kechki, o'tayotgan, oxirlab qolgan (*vaqt*); **la nuit est déjà bien avancé** tun allaqachon oxirlab qolgan edi; **3.** progressiv, taraqqiyparvar; aqlan rivojlangan; ilg'or; **opinions, idées avancées** progressiv fikrlar, g'oyalar; **4.** oxirlab qolgan, tugayotgan; **son ouvrage est déjà très avancé** uning ishi allaqachon oxirlab qolgan; **5.** buzilayotgan, ayniyotgan, yaroqsiz holga kelayotgan; **un fruit avancé** pishib o'tib ketayotgan meva; **une viande avancée** buzilayotgan go'sht; **6.** qarzga berilgan; **les sommes avancées** qarzga berilgan pul.

**avancée** *nf* turtib chiqqan joy; chiqiq, bo'rtik, do'ng.

**avancement** *nm* **1.** oldinga siljitish; rivojlantirish; **l'avancement des travaux** ishning yurishib ketishi; **2.** martabasi oshish, yuqori ko'tarilish; **obtenir de l'avancement** xizmatda, mansabda yuqori ko'tarilish.

**avancer I.** *vt* **1.** oldinga siljitmoq, surmoq, surib qo'ymoq; oldinga uzatmoq; **avancer une chaise** kursini oldinga surmoq; **2.** qo'ymoq, taklif qilmoq, ko'tarmoq, ko'tarib chiqmoq, o'rtaga tashlamoq; olg'a surmoq; **avancer une thèse** biror tezisni olg'a surmoq; **avancer une idée** g'oyani ko'tarib chiqmoq; **3.** tezlashtirmoq, jadallashtirmoq, yurishtirmoq; **avancer son retour** qaytishini tezlashtirmoq; **4.** rivojlantirmoq, taraqqiy ettirmoq, yuksaltirmoq, tezlashtirmoq; **avancer son travail** ishini rivojlantirmoq; **5.** qarz bermoq; **avancer de l'argent** pul qarz bermoq; **II.** *vi* **1.** oldinga, olg'a yurmoq, siljib bormoq, oldinga surilmoq; **avancer lentement** asta-sekin oldinga yurmoq; **l'armée avance** qo'shin olg'a siljiyapti; **2.** turib, do'ppayib, bo'rtib, qappayib chiqib turmoq; **3.** ulgurmoq, ilgarilab ketmoq; **avancer dans son travail** ishida ilgarilab ketmoq; **4.** tugamoq, oxirlamoq, oxirlab qolmoq (*vaqt*); **le jour avance** kun oxirlab qoldi; **l'été avance** yoz o'tib ketyapti; **5.** tugamoq, oxirlamoq, oxirlab qolmoq (*narsalar*); **le travail avance** ish oxirlamoqda; **6.** tez yurmoq, oldin ketmoq (*soat*); **ma montre avance de dix minutes** soatim o'n minut oldin ketmoqda; **II. s'avancer** *vpr* **1.** oldinga, olg'a yurmoq, siljib bormoq, oldinga surilmoq; **2.** *fig* **s'avancer trop** tavakkal, tavakkalchilik qilmoq, xavfli, qaltis ish qilmoq; **3.** yaqinlashmoq; boshlanmoq, kelmoq, kirmoq (*vaqt*); **l'hiver s'avance** qish yaqinlashmoqda, boshlanmoqda.

**avanie** *nf* haqorat, tahqir, so'kish; kamsitish, xo'rlash; **faire, infliger une avanie à qqn** biror kimsani tahqirlamoq, haqoratlamoq.

**avant**[1] **I.** *prép* **1.** -gacha, -ga qadar, -dan oldin, burun, avval, ilgari (*vaqt*); **avant la guerre** urushgacha, urushga qadar, urushdan avval; **avant cela il était étudiant** bundan avval u talaba edi; **avant son départ** jo'nab ketishidan avval; **avant qu'il (ne) parte** jo'nashidan oldin; **avant de partir** jo'nashidan avval; **2.** oldida, oldiga, oldinga; oldinda, -ga yetmasdan, -ga yetmay; (*makon, joy*); **arrêtez-vous avant le carrefour** chorrahaga yetmay to'xtang; **passer avant les autres** boshqalardan oldinda o'ting; **II.** *adv* **1.** -guncha, -gunga qadar; oldin, ilgari, avval; dastlab, dastavval (*vaqt*); **avant il habitait Leningrad** avval u Leningradda yashardi; **peu de temps avant** bundan avval, bunga qadar; **trois jours avant** uch kun avval; **2.** yuqori, yuqorida, yuqoriga; **3. en avant** olg'a (*harakatni bildiradi*); oldinda (*joyni*



www.ziyouz.com kutubxonasi

*bildiradi*); **en avant, marche!** olg'a! **marcher en avant** oldinda yurmoq; *fig* **mettre qqch en avant** biror narsadan dalil sifatida foydalanmoq; **mettre qqn en avant** bir kishining panohida, homiyligida bo'lmoq.

**avant[2] I.** *nm* **1.** old, old tomon; **l'avant d'un bateau** kemaning old tomoni; **d'avant** avvalgi, o'tgan; **l'année d'avant** o'tgan yili; **2.** *sport* hujumchi; **la ligne des avants** hujum chizig'i; **3.** *mil* oldingi marra, oldingi chizig'i (*frontning*); **II.** *adj inv* oldingi, oldindagi, oldidagi; **la roue avant** oldingi g'ildirak.

**avantage** *nm* **1.** foyda, manfaat; **tirer avantage de qqch** biror narsadan foyda olmoq; **cela s'est terminé à mon avantage** bu narsa mening foydamga hal bo'ldi; **vous auriez avantage à vous taire** jim bo'lsangiz foydaliroq; **à son avantage** o'z foydasiga; **habillé à son avantage** o'ziga munosib kiyingan; **2.** ustunlik, afzallik, ortiqlik, ko'plik; **l'avantage du nombre** miqdor, son jihatdan ustunlik; **l'avantage de la jeunesse** yoshlikning afzalligi; **avantage naturelle** tabiiy ustunlik; **3.** qo'li balandlik, ustunlik, kuchlilik (*jang, kurashda*); **avoir, prendre l'avantage** ustunlikka ega bo'lmoq; **perdre l'avantage** ustunlikni qo'ldan bermoq; **4. avantage dedans!** yana! (*tennisda qo'lga kiritilgan ochko haqida*); **5.** *pl* **avantage en nature** pul evaziga mol, mahsulot bilan haq to'lash; **6. j'ai l'avantage de vous connaître** men sizni tanish sharafiga muyassar bo'ldim.

**avantager** *vt* **1.** qulaylik yaratmoq; qulaylik, imkon yaratmoq; **testament qui avantage un enfant** bolaga qulaylik beradigan vasiyatnoma; **2.** chiroyli ko'rsatmoq; yarashmoq, mos tushmoq; **cette robe l'avantage** bu ko'ylak unga yarashib turibdi.

**avantageusement** *adv* ijobiy, ma'qul, maqbul tarzda, yaxshi, qulay; yaxshi tomondan, yaxshi jihatdan; foydali tomondan; **je lui ai parlé de vous avantageusement** men siz haqingizda ijobiy gapirdim; **être avantageusement connu** yaxshi tomondan tanilmoq.

**avantageux, euse** *adj* **1.** foydali, manfaatli; qulay; **prix avantageux** manfaatli qulay narx; **une occasion avantageuse** yaxshi, qulay vaziyat; **2.** o'ziga ishongan, o'zini katta oladigan, boshqalar bilan hisoblashmaydigan, manman, o'ziga bino qo'ygan; **un air avantageux** o'ziga ishongan qiyofada; **un ton avantageux** o'ziga ishonch ruhidagi ohang.

**avant-bras** *nm inv anat* bilak.

**avant-coureur I.** *adj* darak beruvchi (*oldindan*); **signes avant-coureurs** darak beruvchi belgilar; **II.** *n* darakchi, xabarchi, oldindan xabar beruvchi; alomat, nishona.

**avant-dernier, ière** *adj* oxirgidan oldingi; **l'avant-dernier jour** bir kun avval.

**avant-garde** *nf* **1.** *mil* avangard, ilg'or *(harbiy harakat vaqtida asosiy kuchlarning eng oldida turuvchi yoki boruvchi harbiy qism, bo'linma*); **2.** *fig* avangard, zarbdor (*ijtimoiy gruppa yoki sinfning oldingi safida boruvchi yetakchi, ilg'or qismi*); **d'avant-garde** oldingi, oldindagi; yetakchi, ilg'or; **les techniques d'avant-garde** ilg'or texnika; **à l'avant-garde** oldingi saflarda.

**avant-goût** *nm* oldindan sezish.

**avant-guerre** *nm ou nf* urushdan oldingi, urushdan ilgarigi davr; **d'avant-guerre** urushdan oldingi, ilgarigi.

**avant-hier** *adv* kechadan burun, o'tgan kuni, avvalgi kun; **il est parti avant-hier** u o'tgan kuni jo'nab ketdi.

**avant-poste** *nm* avanpost (*qo'shindan ilgariroqqa qo'yilgan soqchi post va u egallab turgan joy*).

**avant-première** *nf* eng oxirgi repetitsiya, tayyorgarlik; yashirin qarab chiqish, ko'zdan kechirish (*film, pyesa, ko'rgazmalarni havola qilishdan avval oxirgi ko'zdan kechirish*).

**avant-projet** *nm* loyiha (*biror hujjatning dastlabki matni, chizmasi*).

**avant-propos** *nm inv* so'zboshi, muqaddima.

**avant-scène** *nf* **1.** sahna oldi, peshsahna; **2.** literli loja (*harf bilan ko'rsatilgan, sahnaning ikki yonida joylashgan, imtiyozli loja*).

**avant-train** *nm* arava, chana kabilarning old qismi; oldingi tomoni; avtomobilning oldingi o'qi.

**avant-veille** *nf* ikki kun avval, ilgari.

**avare I.** *adj* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; **être avare** qizg'anmoq, ayamoq, qizg'anchiqlik, qattiqlik, xasislik qilmoq; qurumsoqlik qilmoq; **2.** yetarli emas, kam, oz, kuchsiz (*narsa*); **une lumière avare** g'ira-shira yorug'; **3.** *fig* baxil, so'zini ham pulga sotadigan; **il est assez avare de paroles** u juda kam gapiradi, gapini ham ayaydi; **être avare de son temps** vaqtini ayamoq; **II.** *n* xasis, ziqna odam, xasis, qurumsoq; nokas.

**avarice** *nf* xasislik, ziqnalik, qattiqlik, qurumsoqlik; **il est d'une avarice sordide** u o'ta xasis.

**avaricieux, euse** *adj* xasis, qurumsoq.

**avarie** *nf* avariya, halokat; buzilgan, ishdan chiqqan joy; shikast; **subir des avaries** halokatga uchramoq; **réparer des avaries** shikastni, buzilgan joyni tuzatmoq; **sans avarie** shikastsiz; sog'-omon.

**avarié, ée** *adj* buzilgan, ishdan chiqqan, shikast yegan, shikastlangan; buzilgan, aynigan; **marchandises avariées** buzilgan, aynigan tovar, mahsulot; **de la viande avariée** aynigan go'sht.

**avarier I.** *vt* buzmoq, shikast yetkazmoq, aynitmoq; **la pluie a avarié les récoltes** yomg'ir hosilga shikast yetkazdi; **II. s'avarier** *vpr* buzilmoq, shikastlanmoq, aynimoq.

**avatar** *nm* **1.** ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz voqea; og'ir, qiyin, mushkul, mashaqqatli ahvol, tashvish; **il lui est arrivé une série d'avatars** u turli ko'ngilsizliklarga duchor bo'ldi; **2.** boshqa narsaga aylanish, o'zgarish; **le projet est passé par bien des avatars** loyiha bir necha marta o'zgarishga uchradi.

**avec I.** *prép* **1.** bilan, bilan birga; **aller se promener avec qqn** biror kimsa bilan birga sayr qilishga bormoq; **il est sorti avec son parapluie et son chapeau** u soyaboni va shlapasi bilan chiqdi; **2.** bilan; -dan; **faire connaissance avec qqn** biror kimsa bilan tanishmoq; **être bien, être mal avec qqn** biror kimsa bilan yaxshi, yomon munosabatda bo'lmoq; **divorcer d'avec sa femme** xotinidan ajrashmoq; **3.** bilan; -ga qarshi; **se battre avec l'ennemi** dushman bilan, dushmanga qarshi urushmoq; **4.** bilan; -ganda, -da; -gach; **il se lève avec le jour** u quyosh bilan birga turadi; **avec le mois de juillet arrivent les vacances** iyul oyi kelgach kanikul boshlanadi; **5.** bilan; tarzda; **manger avec lenteur** asta-sekin yemoq; **étudier avec patience** sabr-toqat bilan o'rganmoq; **avec plaisir** jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan; **avec beaucoup d'esprit** juda zukkolik bilan; **avec plus de prudence** ancha ehtiyotkorlik bilan; **avec autant de plaisir** o'shanday mamnuniyat bilan; **6.** bilan; yordamida, orqali, -da, -dan; **couper le pain avec un couteau** nonni pichoq bilan kesmoq; **l'eau est montée avec une pompe** suv nasos yordamida ko'tariladi; **il est parti avec sa nouvelle voiture** u yangi mashinasida jo'nab ketdi; **on fait le pain avec la farine** non undan tayyorlanadi; **7.** sababli, boisdan, vajdan, natijasida; uchun; deb; bilan; tufayli; **avec la grippe il ne peut pas sortir** gripp bo'lganligi tufayli u uydan chiqa olmaydi; **avec ce vent on ne peut pas dormir** shu shamol sababli uxlab bo'lmaydi; **avec le début de la crise le chômage s'accentua** inqiroz boshlanishi munosabati bilan ishsizlik ko'paydi; **8.** -ga qaramay, -ga qaramasdan; garchi; **avec toutes ses qualités il a échoué** barcha fazilatlariga, ustunliklariga qaramay, u muvaffaqiyatsizlikka uchradi; **II.** *adv fam* **il faudra bien faire avec** boriga baraka qilish kerak, bori bilan bir amallash kerak; **tu viens avec?** men bilan borasanmi?

**aveline** *nf* o'rmon yong'og'i.

**aven** *nm géol* o'pirilish, chuqurlik, yoriq.

**avenant[1], ante** *adj* yoqimli, ko'ngilli, xush keladigan, yoqadigan; **manières avenantes** yoqadigan odatlar; **un visage avenant** yoqimtoy chehra.

**avenant[2] (à l')** *loc adv, loc adj* tegishincha, tegishlicha, tegishli ravishda, mos ravishda, yarasha, qarab; **tout le reste est à l'avenant** barcha qolganlari tegishlicha; **être à l'avenant de** mos bo'lmoq, muvofiq, munosib, loyiq bo'lmoq, to'g'ri kelmoq; **nous allons bien tous les deux et l'humeur est à l'avenant** biz ikkimiz ham yaxshi yuribmiz va kayfiyat ham shunga mos, yarasha.

**avènement** *nm* **1.** taxtga o'tirish, minish; **2.** kelish, boshlanish; hokimiyat tepasiga kelish; **l'avènement de la III[e] République** III-Respublikaning e'lon qilinishi; **l'avènement d'une ère nouvelle** yangi eraning boshlanishi.

**avenir** *nm* **1.** kelajak, istiqbol; **à l'avenir** kelajakda; **2.** avlod, kelajakdagi kishilar; **aux yeux de l'avenir** avlodlar nazarida; **3.** taqdir, qismat, peshona, tole; kelajak; **avoir un brillant avenir** kelajagi porloq bo'lmoq; **briser son avenir** qismatini, kelajagini buzmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**aventure** *nf* **1.** sarguzasht; **un roman d'aventures** sarguzasht roman; **dire la bonne aventure** fol ochmoq; **2.** xavfli tashabbus, xavfli ish; qaltis yurish-turish, xatarli sarguzasht; **esprit d'aventure** avanturachilik, avanturaga moyillik; **entraîner qqn dans une aventure** biror kimsani tavakkal qilib ish tutishga qiziqtirib qo'ymoq; **3.** *loc adv* **à l'aventure** tavakkaliga, tusmollab, chamalab, taxminan; **je marchais à l'aventure** men tavakkal qilib, boshim oqqan tomonga qarab yurardim; **d'aventure, par aventure** tasodifan, tasodifiy ravishda, kutilmaganda, bexosdan, kutmaganda.

**aventuré, ée** *adj* xavfli, xatarli, qaltis, tahlikali; **hypothèse aventurée** qaltis gipoteza, faraz.

**aventurer I.** *vt* tavakkal, tavakkalchilik qilmoq, qaltis, xavfli ish qilmoq; xavf-xatar ostiga qo'ymoq; tahlikaga solmoq; **aventurer sa fortune dans une affaire** biror ishda o'z boyligini xavf-xatar ostiga qo'ymoq; **II. s'aventurer** *vpr* jur'at, jasorat etmoq, qaror qilmoq, botinmoq; **s'aventurer sur un pont branlant** chayqalib turgan ko'prikka qadam qo'yishga botinmoq; **s'aventurer en pleine mer** ochiq dengizga chiqishga jur'at etmoq; **s'aventurer une route inconnue** notanish yo'ldan yurishga qaror qilmoq.

**aventureux, euse** *adj* **1.** jasur, dadil, botir, qo'rqmas, dovyurak, jur'atli; **homme aventureux** dovyurak kishi; **2.** sarguzashtga boy, sarguzashtli; **vie aventureuse** sarguzashtli hayot; **3.** xavfli, xatarli, qaltis; **une entreprise aventureuse** qaltis xatti-harakat; **un projet aventureux** qaltis, xavfli reja.

**aventureusement** *adv* jasorat, jasurlik bilan, yurak yutib, jur'at qilib, qo'rqmasdan, mardonavor, mardlarcha.

**aventurier, ière** *n* **1.** sarguzasht qidiruvchi; **2.** *péj* qallob, muttaham, firibgar, tovlamachi; fitna odam, fitnachi, g'alamis, qutqu soluvchi.

**avenu, ue** *adj* **nul et non avenu** bekorchi, behuda.

**avenue** *nf* **1.** prospekt, shohko'cha; **l'avenue de l'Opéra** Opera shohko'chasi; **l'avenue des Champs Elysées** Yelisey maydoni; **2.** alleya, xiyobon; **3.** *fig* -ga erishish yo'li, usuli, vositasi; **les avenues du pouvoir** hokimiyatga olib boruvchi yo'l.

**avéré, ée** *adj* to'g'ri deb topilgan, to'g'ri ekanligi asoslangan; **c'est un fait avéré** to'g'ri deb topilgan fakt.

**avérer (s')** *vpr* qandayligi, kimligi ma'lum bo'lmoq, bilinmoq, bo'lib chiqmoq; **ce médicament s'avère dangereux** bu dori xavfli bo'lib chiqdi; **l'affaire s'avéra difficile** ish juda qiyin bo'lib chiqdi; **il s'est avéré que** bo'lib chiqdi, bo'lib qolgan edi, ekan.

**averse** *nf* jala, sharros yomg'ir; **une violente averse** kuchli jala; **essuyer, recevoir une averse** jalada qolmoq.

**aversion** *nf* nafrat, jirkanish; xush ko'rmaslik; yoqtirmaslik; yomon ko'rish; **avoir, éprouver de l'aversion pour qqn, avoir qqn en aversion** biror kimsadan nafratlanmoq; jirkanish; **inspirer de l'aversion** nafrat uyg'otmoq; **prendre qqn en aversion** biror kimsani yomon ko'rib qolmoq.

**averti, ie** *adj* ogohlantirilgan, xabardor qilingan; tajribali; yaxshi biladigan, bilimli, ma'lumotli, bilimdon; **un critique averti** bilimdon tanqidchi; **être très averti de qqch** biror narsaning bilimdoni bo'lmoq; **tenez-vous pour averti** siz ogohlantirilgansiz.

**avertir** *vt* ogohlantirmoq, ogohlantirib, bildirib, xabardor qilib qo'ymoq, xabar bermoq; **avertir qqn d'un danger** biror kimsani xavf-xatar to'g'risida ogohlantirmoq; **sans avertir** ogohlantirmasdan, ogohlantirmay.

**avertissement** *nm* **1.** ogohlantirish, xabardor qilish; maslahat; **suivre un avertissement** ogohlantirishga, maslahatga quloq solmoq; **avertissement au lecteur** so'z boshi, o'quvchiga, o'quvchiga eslatma; **2.** tanbeh, ogohlantirish, ogohlantirish chorasi; **l'élève a reçu un premier avertissement** o'quvchi birinchi marta ogohlantirish oldi; **un avertissement du percepteur** soliq nazoratchisining tanbehi, ogohlantirishi.

**avertisseur, euse I.** *n* signal, signal beruvchi asbob, qurilma; **un avertisseur d'automobile** avtomobil signali; **un avertisseur d'incendie** yong'in-signali; **II.** *adj* signal beradigan, signal; ogohlantiruvchi, xabar beradigan; **un appareil avertisseur** signal beradigan, beruvchi asbob.

**aveu** *nm* **1.** iqror bo'lish, bo'yniga olish; **un aveu franc, sincère** samimiy, chin ko'ngildan iqror bo'lish; **faire l'aveu de qqch** biror narsani bo'yniga olmoq; **passer aux aveux** iqror bo'lmoq, bo'yniga olmoq; **2. de l'aveu de tous** barchaning, barcha kishilarning e'tirof qilishicha, aytishlaricha; **un homme sans aveu** shubhali kishi.

**aveuglant, ante** *adj* **1.** ko'zni oladigan, ko'zni qamashtiradigan; **un soleil aveuglant** ko'zni oladigan quyosh; **2.** *fig* rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, aniq, shak-shubhasiz; **une vérité aveuglante** aniq; rad qilib bo'lmaydigan haqiqat.

**aveugle I.** *adj* ko'zi ko'rmaydigan, ko'zi ojiz, ko'r, so'qir; **devenir aveugle** ko'r bo'lib qolmoq; **être aveugle de naissance** tug'ma ko'r bo'lmoq; **2.** *fig* yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan, ko'zi yo'q, hech narsani ko'rmaydigan; **la colère rend aveugle** g'azab hech narsani ko'rmaydigan qilib qo'yadi; **3.** *fig* ko'r-ko'rona, bilmasdan, tushunmasdan qilingan; **une obéissance aveugle** ko'r-ko'rona itoat qilish; **4.** *litt* tasodifiy, sinalmagan; **destin aveugle** taqdir tasodifi; **5.** hamma yog'i berk, yorug'lik tushmaydigan; **une fenêtre aveugle** yorug'lik tushmaydigan deraza; **II.** *n* ko'r, so'qir odam; **un aveugle de guerre** urushda ko'zidan ajralgan kishi; **à l'aveugle, en aveugle** ko'r-ko'rona, o'ylamasdan; o'ylamay-netmay, tushunmasdan; **suivre qqn en aveugle** biror kimsaga ko'r-ko'rona ergashmoq; **agir en aveugle** o'ylamasdan ish tutmoq; *prov* **au royaume des aveugles les borgnes sont rois** bulbul yo'q joyda qarqunoq – bulbul, suv yo'g'ida – tayammum.

**aveuglement I.** *nm* aqlni yo'qotgan holat, jaholat; **II.** *adv* o'ylamay-netmay, o'ylamasdan, ko'r-ko'rona, tushunmasdan; **obéir aveuglement** ko'r-ko'rona itoat etmoq.

**aveugler I.** *vt* **1.** ko'r qilmoq; so'qir qilmoq; ko'zdan qoldirmoq; **2.** ko'zni olmoq, qamashtirmoq; **le soleil m'aveugle** quyosh ko'zimni oldi; **3.** aqlini qochirmoq, aqldan ozdirmoq; **la colère l'aveugle** g'azab uni aqldan ozdirdi; g'azabidan uning aqli qochdi; **4.** berkitmoq, berkitib tashlamoq, tekislab yubormoq; **aveugler une fenêtre** derazani berkitib, urib tashlamoq; **II. s'aveugler** *vpr* (**sur**) yanglishmoq, aldanmoq, adashmoq, pand yemoq; **il s'aveugle sur ses possibilités** u o'z imkoniyatlarida yanglishyapti.

**aveuglette (à l')** *loc adv* ko'rmasdan, qaramasdan, tusmol bilan; paypaslab, tusmollab, tavakkaliga; **avancer à l'aveuglette dans l'obscurité** qorong'uda tavakkalicha oldinga yurmoq; **agir à l'aveuglette** tusmollab harakat qilmoq.

**aviateur, trice** *n* uchuvchi.

**aviation** *nf* aviatsiya; **aviation à réactive** reaktiv aviatsiya; **aviation de bombardement** bombardimonchi aviatsiya; qiruvchi aviatsiya; **aviation de renseignement, aviation de reconnaissance** razvedkachi aviatsiya; **aviation commerciale, aviation civile** grajdan aviatsiyasi; **école d'aviation** aviatsiya bilim yurti; **terrain d'aviation** aerodrom.

**aviculteur, trice** *n* parrandachi, parrandaboqar.

**aviculture** *nf* parrandachilik, qushchilik.

**avide** *adj* **1.** ochko'z, suq, xasis; **2.** *fig* ishtiyoqmand, hirs qo'ygan, tashna, qattiq istovchi; **avide de sang** qonga tashna; **avide d'argent** pulga hirs qo'ygan; **être avide de gloire** shuhratga erishishni qattiq istovchi, shuhratga ishtiyoqmand; **être avide de connaître** bilimga chanqoq; **les yeux avides** tashna nigoh, tashna ko'zlar.

**avidement** *adv* **1.** ochko'zlik bilan, suqlik bilan; ochko'zlik qilib; **2.** tashnalik bilan, qattiq istak bilan, ishtiyoq bilan.

**avidité** *nf* ochko'zlik, suqlik, hirs; **manger avec avidité** ochko'zlik bilan yemoq.

**avilir I.** *vt* **1.** xo'rlamoq, kamsitmoq, yerga urmoq, tahqirlamoq; **2.** qadr-qimmatini tushirmoq, ketqizmoq, qadrsiz qilib yubormoq, beqadr, xor qilmoq; **II. s'avilir** *vpr* o'zini yerga urmoq, o'z qadr-qimmatini yo'qotmoq; xor bo'lmoq, xo'rlanmoq; isnodga qolmoq; **il s'est avili par ses lâchetés** o'zining noma'qul xatti-harakati bilan isnodga qoldi.

**avilissant, ante** *adj* xo'rlaydigan, haqoratlaydigan, haqoratomuz, kamsitadigan, xo'rlik keltiradigan, obro'yini to'kadigan, yerga uradigan.

**avilissement** *nm* **1.** xo'rlash, kamsitish, haqoratlash, obro'yini to'kish, yerga urish; xo'rlanish, kamsitilganlik, haqoratlanish, obro'sizlanish; **2.** qadrsizlanish, beqadr, xor bo'lish.

**aviné, ée** *adj* mast, sarxush (*sharobdan*); **une haleine avinée** sharob hidi (*mast odamdan kelib turadigan*).

**avion** *nf* samolyot; **par avion** samolyot bilan, samolyotda.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**aviron** *nm* **1.** eshkak, chovxoda, chov; **2.** *sport* eshkak eshish; **faire de l'aviron** eshkak eshish sporti bilan shug'ullanmoq.

**avis** *nm* **1.** fikr, o'y; **donner son avis** o'z fikrini aytmoq; **être du même avis que qqn** biror kimsaning fikriga qo'shilmoq; **changer d'avis** fikrini o'zgartirmoq, fikridan qaytmoq; **à mon avis** mening fikrimcha; **quel est votre avis sur ce point** bu masalada fikringiz qanday? **je suis d'un avis contraire** men qarama-qarshi fikrdaman; **2.** bildirish, xabarnoma, e'lon; xabar, axborot (*ko'pincha afishalar orqali beriladi*); **avis à la population** xalqqa murojaat; **3.** xulosa; fikr, mulohaza; **avis du Conseil d'Etat** Davlat Kengashining xulosasi.

**avisé, ée** aqlli, dono, mulohazali, ehtiyotkor, o'ylab, aql bilan ish qiladigan; **un homme avisé** dono kishi.

**aviser**[1] **I.** *vt* **1.** ko'rib qolmoq, ko'zi tushmoq; bilib, sezib, payqab qolmoq; **il avise un portefeuille oublié sur un banc, il le ramasse** skameykada yotgan portfelga uning ko'zi tushdi va uni oldi; **II.** *vi* (**à qqch**) haqida o'ylamoq, -ga e'tibor bermoq; **III. s'aviser** *vpr* **1.** (**de qqch**) e'tibor bermoq, payqab qolmoq, fahmlamoq, sezib qolmoq (*odatda avval e'tibor bermagan narsa*); **il s'avisa alors qu'il avait oublié son passeport** birdaniga u pasporti esdan chiqqanligini sezib qoldi; **2.** (**de faire qqch**) birdan ko'ngliga, hushiga kelmoq, istab, biror ish qilgisi kelib qolmoq; jur'at etmoq; **ne vous avisez pas de lui écrire!** unga xat yozishni xayolingizga ham keltirmang!

**aviser**[2] *vt* xabar, ma'lum qilmoq; xabar bermoq; bildirmoq; ogohlantirmoq, ogohlantirib, bildirib, xabardor qilib qo'ymoq; **je l'ai avisé de mon arrivée** men unga kelishim haqida xabar berdim.

**aviso** *nm* avizo (*razvedka va soqchilik xizmatining tezyurar kichik kemasi*).

**avitaminose** *nf méd* avitaminoz (*vitaminlar yetishmasligi natijasida ro'y beradigan kasallik*).

**avivement** *nm* tozalash (*yara atrofini*).

**aviver** *vt* **1.** jon kiritmoq, jonlantirmoq; kuchaytirmoq, ravshan qilmoq; **aviver le feu** o'tni kuchaytirmoq; **2.** *fig* oshirmoq, kuchaytirmoq, chuqurlashtirmoq; **aviver une dispute** munozarani kuchaytirmoq; **aviver les craintes** qo'rquvni oshirmoq, kuchaytirmoq; **3.** *méd* yarani tozalamoq; **4.** *techn* silliqlamoq, tarashlamoq, ishlov bermoq, yo'nmoq, yo'nib, tarashlab tekislamoq; pardoz, jilo bermoq, sayqallamoq.

**avocat**[1]**, ate** *n* **1.** advokat, oqlovchi, himoyachi; **l'ordre des avocats** advokatura, advokatlar; **avocat général** bosh prokuror yordamchisi; **2.** *fig* himoyachi, yoqlovchi; **se faire l'avocat de** -ni yoqlamoq; **se faire l'avocat du diable** noto'g'ri, nohaq narsani yoqlamoq.

**avocat**[2] *nm bot* avokado (*mevasi*).

**avocatier** *nm bot* avokado (*noksimon mevali daraxt*).

**avoine** *nf bot* suli.

**avoir**[1] **I.** *vt* **1.** ega bo'lmoq; molik bo'lmoq; **avoir une maison** uning uyi bor; **avoir une bicyclette** uning velosipedi bor; **avoir du succès** muvaffaqiyat qozonmoq; **avoir de la besogne par-dessus les cheveux** ishi boshidan oshib yotmoq; **il a de la chance** uning omadi kelyapti, bor; **en avoir pour** qolmoq, bor bo'lmoq (*vaqt*); tushmoq (*sotib olingan narsa, pul*); **j'en ai pour cinq minutes** meni besh minut kuting; men yana besh minut band bo'laman; **j'en ai eu pour 50 francs** bu narsa menga 50 frankka tushdi; **il en a eu pour son argent** u ziyon, zarar ko'rmadi; **2. avoir une femme et des enfants** uning xotini va bolalari bor; **3.** sotib olmoq, olmoq; **j'ai eu ce livre pour presque rien** men bu kitobni juda arzon sotib oldim, deyarli bekorga oldim; **4.** *fam* **avoir qqn** yengmoq, bas kelmoq, uddalamoq; **on les aura!** biz ularni yengamiz! **5.** *fam* **avoir qqn** aldamoq, aldab ketmoq, tovlamoq, tuzlamoq; firib bermoq; **il nous a bien eus** u bizni boplab aldadi; **6.** o'zida namoyon qilmoq (*ta'na a'zosi, ko'rinish*); **il, elle a de grandes jambes, des cheveux blancs** uning oyoqlari katta, sochlari oq; **ce mur a deux mètres de haut** bu devorning balandligi ikki metr(dir); **quel âge avez-vous?** yoshingiz nechada? **avoir du courage** jasur bo'lmoq; **7.** boshdan kechirib, tatib ko'rib bilmoq, boshdan kechirmoq, totmoq, tatib ko'rmoq, chekmoq, tortmoq, his qilmoq, sezmoq; **avoir mal à la tête** boshi og'rimoq, **avoir faim** och bo'lmoq, qolmoq; **avoir soif** chanqamoq; **j'ai eu une fâcheuse impression** menda yomon taassurot qoldi; **qu'est-ce que tu as?** senga nima bo'ldi? **j'ai froid** men sovqotyapman; **j'ai chaud** men isib ketyapman; **j'ai sommeil** uyqum kelyapti; **avoir raison** haq bo'lmoq; **avoir tort** nohaq bo'lmoq; **avoir tous les torts** har taraflama gunohkor bo'lmoq; **avoir confiance** ishonmoq; **en avoir à, après, contre qqn** g'azablanmoq, jahli chiqmoq, achchig'i kelmoq; darg'azab bo'lmoq; **contre qui en avez-vous?** kimdan jahlingiz chiqib turibdi? **II.** *yordamchi fe'l* **1. avoir à** (*+inf*) o'zini burchli deb bilmoq; kerak, zarur, lozim, darkor; **j'ai à vous parler** men sizga gapirishim kerak; **n'avoir qu'à** kerak, zarur, lozim, darkor (*faqat*); **vous n'aviez qu'à nous dire** siz faqat bizga aytishingiz zarur edi; **2. avoir** + *participe passé qo'shma zamon hosil qiladi*: **j'ai écrit** men yozdim; **nous avons causé** biz suhbatlashdik; **3. il y a** bor; mavjud; turibdi; yotibdi; avval burun; **il y a de l'argent dans le portefeuille** portfelda pul bor; **combien y a-t-il de Moscou à Leningrad?** Moskva'dan Leningradgacha qancha (kilometr) bor? **3. il y a deux jours** ikki kun avval; **il y a champagne et champagne** yaxshi va yomon shampanlar bor; sifatli va sifatsiz shampanlar bor; **il n'y a qu'à** (*+inf*) faqat ...zarur, darkor, lozim, kerak; **il n'y avait qu'à les ramasser** ularni faqat yig'ishtirib olish kerak edi.

**avoir**[2] *nm* **1.** mulk, mol-mulk, boylik, davlat, dunyo, mol-mulk; **2.** kredit (*kirim-chiqim daftarlarining chiqimlar, unadigan pullar yoziladigan o'ng tomoni*); **doit et avoir** debet va kredit.

**avoisinant, ante** *adj* yonma-yon joylashgan, tutashgan, yondoshib turgan, tutash bo'lgan, qo'shni bo'lgan, qo'shni; **dans les rues avoisinantes** qo'shni ko'chalarda.

**avoisiner** *vt* yaqin, yonida joylashmoq, qo'shni bo'lmoq; tutashmoq; yaqin bo'lmoq, borib taqalmoq; **les villages qui avoisinent la forêt** o'rmonga tutashgan qishloqlar.

**avortement** *nm* **1.** bola tashlash; abort, bola oldirish; **2.** *fig* muvaffaqiyatsizlik, barbod bo'lish; omadsizlik (*reja, korxona*); **l'avortement de projets** rejalarning barbod bo'lishi.

**avorter** *vi* **1.** bola tashlamoq, o'lik tug'moq; bola oldirmoq; **2.** o'smay qolmoq; yetilib pishmaslik, yaxshi pishmaganlik (*meva, gul*); **3.** *fig* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, barbod bo'lmoq, bo'lmay, amalga oshmay qolmoq; **le complot a avorté** fitna amalga oshmay qoldi; **cet accident a fait avorter toute l'entreprise** bu hodisa tufayli hamma ish barbod bo'ldi.

**avorteur, euse** *n péj* maxfiy ravishda bola tug'dirish, tushirish bilan shug'ullanuvchi doya.

**avorton** *nm* **1.** chala tug'ilgan bola, chala; **2.** nimjon, oriq, rivojlanmagan (*jonivor, hayvon, o'simlik*).

**avouable** *adj* qoidali; qonuniy; durust, tuzuk, yaxshi; **motif avouable** durust bahona; qulay, o'rinli bahona.

**avoué, ée I.** *nm* ishonchli vakil (*apelyatsion, shikoyat sudiga tomonlarning ishonchli vakili sifatida qatnashish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs*); **II.** *adj* aniq, oshkora.

**avouer I.** *vt* **1.** tan olmoq; tanimoq, e'tirof etmoq; **j'avoue qu'il a raison** uning haqligini e'tirof etaman; **2.** iqror bo'lmoq, bo'yniga olmoq; **l'assassin a avoué** qotil iqror bo'ldi; **avouer ses fautes** xatosiga iqror bo'lmoq; **II. s'avouer** *vpr* iqror bo'lmoq, deb hisoblamoq; **s'avouer vaincu** yengilgan deb hisoblamoq.

**avril** *nm* aprel; **en avril, au mois d'avril** aprel oyida; **poisson d'avril** birinchi aprel hazili.

**avulsion** *nf méd* olib tashlash, sug'urish; **avulsion d'une dent** tishni olish, olib tashlash, sug'urish.

**axe** *nm* **1.** *techn* o'q; val; **axe de rotation** aylanish o'qi; **tourner sur son axe** o'z o'qi atrofida aylanmoq; **2.** to'g'ri chiziq (*biror narsani teng ikkiga bo'luvchi chiziq*); **axe de symétrie** simmetriya o'qi; **axe d'une rue** ko'chaning o'q chizig'i; **3.** *fig* tutilgan yo'l, siyosat; qarash, nuqtai nazar; yo'nalish, oqim.

**axer** *vt* **1.** o'q bo'ylab yo'naltirmoq, yo'llamoq; **2.** bir yerga to'plamoq, bir narsaga qaratmoq, jalb etmoq; **il est axé sur cette idée** uning diqqati shu fikrga qaratildi; **il a axé sa vie sur** u hayotini … -ga qaratdi.

**axial, ale** *adj* o'qqa oid; o'q bo'ylab yo'nalgan, bo'ylama; o'q.

**axiome** *nm* aksioma (*isbotsiz qabul qilinadigan va boshqa da'volarning isboti uchun asos qilib olinadigan haqiqat*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**axiomatique I.** *adj* aksiomaga oid, aksiomaga asoslangan; **II.** *nf* aksiomatika (*isbotsiz qabul qilingan va matematikaning bir tarmog'ini tashkil etuvchi birlamchi tushunchalar majmui*).

**ayant cause** *nm* (*pl* **ayants cause**) *dr* biror huquq vorisi.

**ayant droit** *nm* (*pl* **ayants droit**) biror narsaga huquqli kishi.

**azalée** *nf* azaliya (*manzarali buta*).

**azerbaïdjanais, aise** *n* Ozarbayjon, ozarbayjonlik.

**azimut** *nm* azimut (*1. astron kuzatish nuqtasi orqali o'tgan meridian tekisligi bilan shu nuqta va biror yulduz, planeta yoki narsa orqali o'tgan tik tekislik o'rtasidagi burchak; 2. mil harakat yo'nalishi bilan shimoliy yo'nalish o'rtasidagi burchak*).

**azote** *nm chim* azot.

**azoté** *adj* azotlangan, tarkibida azoti bor.

**azur** *nm* lojuvard; ko'k; **un ciel d'azur** lojuvard osmon.

**azuré, ée** *adj* havorang, moviy, lojuvard, ko'm-ko'k; **une teinte azurée** moviy rang.

**azyme** *adj* xamirturushsiz; **pain azyme** matsa (*yahudiylarning pasxa bayramida pishiriladigan xamirturushsiz non*).

# B

**B, b** *nm* fransuz alifbosining ikkinchi harfi.

**baba**[1] *nm* o'rama pishiriq; **baba au rhum** vino qo'shilgan o'rama pishiriq.

**baba**[2] *adj inv* hayratlangan, lol qolgan, anqaygan.

**babeurre** *nm* kuvi ayroni, yog'i olingan sut.

**babil** *nm* tili chiqayotgan bolaning gapi, g'ujurlashi.

**babillage** *nm* chug'urlash, g'ujurlash, tinimsiz gapirish.

**babillard, arde** *adj* sergap, ezma, vaysaqi.

**babiller** *vt* chug'urlamoq, g'ujurlamoq, tinimsiz gapirmoq; chirillamoq, chig'illamoq.

**babines** *nf pl* **1.** osilgan lab (*ba'zi hayvonlarda*); **2.** *fam* lab; **s'essuyer les babines** labini artmoq.

**babiole** *nf* **1.** ermak; **2.** qadrsiz arzimas narsa.

**bâbord** *nm mar* kemaning chap tomoni.

**babouche** *nf* kovush.

**babouin** *nm* uzun tumshuqli maymun, babuin.

**bac**[1] *nm* **1.** parom; **2.** bak, suyuqlik solinadigan katta idish.

**bac**[2] *nm abrév voir* **baccalauréat**.

**baccalauréat** *nm* bakalavr darajasi, unvoni.

**baccara** *nm* bakkara (*qarta o'yini*).

**bacchanale** *nf* **1.** vakxanaliya (*qadimgi Rimda may va aysh-ishrat xudosi Vakx – Baxus sharafiga uyushtirilgan bayram*); **2.** *litt* aysh-ishrat.

**bâche** *nf* brezent, shayton teri.

**bâcher** *vt* brezent bilan yopmoq.

**bachot** *nm fam* bakalavrlik imtihoni; **passer son bachot** bakalavrlik imtihonini topshirmoq.

**bachotage** *nm fam* tushunmasdan yodlab olish (*bakalavrlik imtihoni arafasida*).

**bachoter** *vi fam* shoshilinch tayyorlanmoq (*shoshma-shosharlik bilan*).

**bacille** *nm* batsilla, tayoqcha shaklidagi bakteriya.

**bâcler** *vt fam* biror narsani shoshma-shosharlik bilan, sifatsiz qilmoq.

**bacon** *nm anglic* bekon (*dudlangan oriq cho'chqa yog'i yoki go'shti*).

**bactérie** *nf* bakteriya (*mikroskop orqaligina ko'rinadigan juda mayda organizm*).

**bactériologie** *nf* bakteriologiya, bakteriyalar haqidagi fan; mikrobiologiya.

**bactériologique** *adj* bakteriologiyaga oid, bakteriyalar haqidagi fanga oid.

**badaud, aude** *n, adj* merov, sanqi, bekorchi, tomoshabin.

**baderne** *nf* kamsuqum qariya.

**badigeon** *nm* ohakli eritma, bo'yoq.

**badigeonnage** *nm* bo'yash; oqlash; surtish.

**badigeonner** *vt* **1.** oqlamoq, bo'yamoq; **2.** surtmoq.

**badin, ine I.** *adj* xushchaqchaq, o'yinqaroq; **esprit badin** hazilkash; **II.** *n* hazilkash.

**badinage** *nm* **1.** hazil, hazil suhbat; **2.** yengillik.

**badiner** *vt* hazillashmoq, hazil qilmoq, hazil qilib yozmoq; **on ne badine pas avec l'amour** sevgi bilan o'ynashib bo'lmaydi.

**baffe** *nf* tarsaki, shapaloq, shapati.

**bafouer** *vt* kulmoq, masxara qilmoq, mazax qilmoq, kalaka qilmoq; tahqirlamoq, xo'rlamoq.

**bafouillage** *nm fam* g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gap, to'ng'illash.

**bafouiller** *vt fam* ming'illamoq, g'uldiramoq, to'ng'illamoq.

**bafouilleur, euse** *n* tushunib bo'lmaydigan tarzda gapiruvchi.

**bâfrer** *vi* yemoq, jig'ildonga urmoq, paqqos tushirmoq.

**bagage** *nm* **1.** yuk; **2.** *fig* bilim, ma'lumot.

**bagarre** *nf* mushtlashish, yoqalashish, urishish, janjal.

**bagarrer** *vi fam* urishmoq, janjallashmoq, solishmoq.

**bagarreur, euse** *fam* **I.** *adj* urishqoq, janjalkash; **II.** *n* urishqoq odam.

**bagatelle** *nf* arzimagan narsa, mayda narsa; arzimas pul.

**bagnard** *nm* surgundagi, katorgadagi odam.

**bagne** *nm* **1.** katorga, surgun; **2.** juda og'ir mehnat, og'ir sharoit.

**bagnole** *nf fam* **1.** usti yopiq izvosh, soyavon arava; **2.** mashina.

**bagou** *nm* so'zamollik, gapdonlik, mahmadonalik.

**bague** *nf* halqa, chambar, gardish, g'ildirak; uzuk; **bague de fiançailles** nikoh uzugi.

**baguer**[1] *vt* **1.** uzukni taqmoq; **2.** halqalamoq, halqa taqmoq (*qushlarga*).

**baguer**[2] *vi* daraxt po'stlog'ini kesmoq (*payvandlash uchun*).

**baguette** *nf* **1.** tayoqcha, temir tayoqcha; **baguette de tambour** do'mbira tayoqchasi; **2.** uzunchoq non.

**bah** *intj* vooh.

**bahut** *nm* **1.** sandiq, xampa, kandik; **2.** *fam* litsey, kollej; **les années de bahut** maktab yillari.

**bai, baie** *adj* jiyron (*ot*).

**baie**[1] *nf* devorda eshik yoki deraza qo'yish uchun qoldirilgan ochiq.

**baie**[2] *nf* meva, rezavor meva (*qulupnay*).

**baie**[3] *nf* qo'ltiq, ko'rfaz.

**baignade** *nf* **1.** cho'milish, cho'miltirish; **2.** cho'milish joyi.

**baigner I.** *vt* **1.** cho'miltirmoq; **baigner les yeux** ko'zni yuvmoq; **2.** o'ramoq, o'rab olmoq (*suv havzalari haqida*); **II. se baigner** *vpr* cho'milmoq.

**baigneur, euse** *n* **1.** cho'miluvchi; **2.** yalang'och bola, yalang'och odam; **3.** yalang'och qo'g'irchoq.

**baignoire** *nf* **1.** vanna; **2.** benuar (*tomosha zallarida pastki yarus lojalari*).

**bail,** *pl* **baux** *nm* ijara kelishuvi, ijara; **donner à bail** ijaraga bermoq; **prendre à bail** ijaraga olmoq; *fam* **il y a un bail** ancha bo'ldi, ko'p vaqt o'tdi.

**bâiller** *vi* **1.** esnamoq, homuza tortmoq; **bâiller à se décrocher la mâchoire** og'zi yirtilgudek bo'lib esnamoq; **2.** qiya yopilmoq; **la porte bâille** eshik qiya yopilgan.

**bailler** *vt vx* **vous me la baillez belle** siz mening ustimdan kulyapsiz.

**bâillon** *nm* **1.** tishlamasligi yoki baqirmasligi uchun og'izga tiqib qo'yiladigan latta, yog'och; **mettre un bâillon à qqn** kimningdir og'zini yopib qo'ymoq; **1.** tumshuqbog', burunduq.

**bâillonner** *vt* **1.** og'zini yopmoq (*latta yoki ro'mol bilan*); **2.** *fig* og'zini yopmoq, gapirtirmaslik; **bâillonner la presse** matbuotni jim bo'lishga majburlamoq.

**bain** *nm* **1.** hammom; **2.** cho'milish tozi; **bain de mer** dengizda cho'milish; **bain de boue** balchiq vannasi; **bain d'air** havo vannasi; **bain de soleil** quyosh vannasi.

**bain-marie** *nm* issiq suvli idish (*biror narsani ichiga solib isitish uchun*).

**baïonnette** *nf* miltiq nayzasi; **ampoule à baïonnette** ildirib qo'yiladigan elektr lampasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**baiser¹** *vt* **1.** o'pmoq; **baiser sur la bouche** labidan o'pmoq; **2.** *vulg* jinsiy aloqa qilmoq; **3.** *fam* aldamoq, laqillatmoq.

**baiser²** *nm* o'pich, bo'sa.

**baisodrome** *nm fam plais* ishqiy uchrashuvlar uchun mo'ljallangan xilvat uy.

**baisse** *nf* **1.** pasayish, tushish; **baisse de prix** narxni tushirish; **baisse de la production** ishlab chiqarishning qisqarishi; **la température est en baisse** temperatura tushyapti; **2.** kamayish (*suv*).

**baisser I.** *vt* tushirmoq, pasaytirmoq, quyi solmoq, xam qilmoq, egmoq; **baisser les rideaux** pardani tushirmoq; **baisser la tête** boshini quyi solmoq; **baisser le pavillon** bayroqni tushirmoq; **baisser le ton** tovushini pasaytirmoq; **II.** *vi* kamaymoq, tushmoq; **cette marchandise baisse** bu tovarning narxi tushayapti; **III. se baisser** *vpr* egilmoq, bukilmoq, engashmoq.

**bajoue** *nf* **1.** lunj (*cho'chqa, buzoqlarda*); **2.** osilgan lunj; **3.** shishgan yuz.

**bakchich** *nm* pora.

**bakélite** *nf* bakelit, sintetik smola.

**bal** *nm* bal; **bal masqué** maskarad.

**balade** *nf fam* sayr; **balade en bagnole** mashinada sayrga chiqish.

**balader (se)** *vpr fam* sayr qilmoq, saltanglamoq.

**baladeur, euse** *adj* ko'chuvchi, ko'chib yuruvchi, sang'i.

**baladin** *nm* sayyor akrobat, masxaraboz, qiziqchi.

**balafre** *nf* tirtiq, chandiq (*yuzda*).

**balafrer** *vt* tilim-tilim qilib kesmoq, tilka-tilka qilmoq.

**balai** *nm* **1.** supurgi; pol cho'tkasi, pol latta; **2.** *fam* yosh; **il a cinquante balais** u ellik yoshda.

**balalaïka** *nf* balalayka.

**balance** *nf* **1.** tarozi; **balance romaine** qo'l tarozi; **balance de précision** to'g'ri tarozi; **balance à cadran** ko'rsatkichli, milli tarozi; **balance à bascule** shayinli tarozi; **faire pencher la balance** nimaningdir foydasiga egilmoq; **être en balance** qat'iyatsizlik qilmoq; **2.** muvozanat; **3.** *astrol* mezon.

**balancé, ée** *adj* **1.** muvozanatli, to'g'ri, tik, aniq; **une fille bien balancée** xushbichim qiz, ismi jismiga monand; **2.** yaxshi tuzilgan, qurilgan, joylashgan.

**balancement** *nm* **1.** tebranish; **2.** tenglashtirish, barqarorlashtirish.

**balancer I.** *vt* **1.** tebratmoq, tebrantirmoq, chayqatmoq; **2.** *fig* chamalamoq, baho bermoq; **3.** muvozanatni saqlamoq, tenglashtirmoq, barobar qilmoq; **4.** *fig* tashlab yubormoq, otib yubormoq; **II.** *vi* ikkilanmoq; **III. se balancer** *vpr* **1.** chayqalmoq, tebranmoq; **2.** ustidan kulmoq.

**balancier¹** *nm* **1.** mayatnik, tebrang'ich; **2.** langar (*dorboz*).

**balancier²** *nm vieilli* tarozi yasovchi usta.

**balançoire** *nf* arg'imchoq, halinchak.

**balayage** *nm* **1.** supurish, tozalash; **2.** siqilgan havo yoki gaz bilan tozalash.

**balayer** *vt* supurmoq; **le vent balaie les nuages, les poussières** shamol bulutlarni, g'uborni haydaydi.

**balayette** *nf* supurgi.

**balayeur, euse** *n* **1.** farrosh; **2.** *nf* ko'chalarni tozalovchi mashina.

**balbutiement** *nm* **1.** g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gap, ovoz, to'ng'illash, duduqlanish.

**balbutier** *vi* noaniq, tushunib bo'lmaydigan darajada gapirmoq; **2.** ming'illamoq, g'uldiramoq.

**balcon** *nm* balkon, ayvoncha.

**baldaquin** *nm* ro'yjo, guldor choyshab.

**bale** *nf voir* **balle²**.

**baleine** *nf* **1.** kit; **2.** kit mo'ylovi; **3.** kegay (*soyavonda*).

**baleinier** *nm* kit ovlovchi, kit ovlash kemasi.

**baleinière** *nf* tezyurar yengil qayiq.

**balès** *ou* **balèze I.** *adj fam* **1.** kuchli, zo'r, baquvvat; **2.** biror sohada kuchli; **Jean est balèze en maths** Jan matematikadan kuchli; **II.** *nm* **un gros balèze** baquvvat yigit.

**balisage** *nm* bo'y, suzgich belgi (*suvda sayozlik, yo'l va hokazolarni ko'rsatadigan qalquvchi belgi*).

**balise¹** *nf* ishorat qozig'i, baken suzgich (*suv yo'llarida xavfli joylarni va kemalarni ko'rsatuvchi suzg'ich*).

**balise²** *nf* **1.** aeroport va suv yo'llaridagi belgi; **2.** uchuvchi radio ko'rsatgichi.

**balistique I.** *adj* ballistik; **engin balistique** ballistik snaryad; **onde balistique** balistik to'lqin; **II.** *nf* ballistika (*o'q-snaryadlarning harakat qonunlari to'g'risidagi fan*).

**baliveau** *nm* kesishga o'stirilayotgan daraxt.

**baliverne** *nf* bema'ni, bo'lmag'ur gap, safsata; xomxayol.

**ballade** *nf* ballada, she'riy lirik qissa.

**ballant, ante I.** *adj* tebranayotgan; **aller les bras ballants** qo'lini tebratib yurmoq; **II.** *nm* muvozanat.

**ballast** *nm* **1.** ballast, posangi yuk (*kema, aerostat va hokazolarda*); **2.** ballast (*temiryo'l shpallari tagiga yotqiziladigan qum yoki shag'al*).

**balle¹** *nf* koptok, to'p; **balle de hockey** xokkey to'pi; **balle d'arbitre** bahsli to'p; **faire rebondir la balle** to'pni yerga urmoq (*basketbolda*); **renvoyer la balle** to'pni qaytarmoq; **à vous la balle** sizning galingiz, navbatingiz.

**balle²** *ou* **bale** *nf* chori, qipiq, to'pon.

**balle³** *nf* tugun, bog'lam, taxlam.

**ballerine** *nf* balerina (*baletda o'ynovchi artist*).

**ballet** *nm* **1.** balet; **corps de ballet** kordebalet (*baletda ko'p kishilik raqslarni ijro etuvchi artistlar guruhi*); **2.** *pl* **ballets** balet truppasi.

**ballon¹** *nm* **1.** to'p, koptok; **bloquer le ballon** koptokni qaytarmoq; **bousculade pour la possession du ballon** to'p uchun kurash; **maniement du ballon** to'pni egallash; **2.** shar, havo shari; **3.** kolba, ballon.

**ballon²** *nm* Vogezi tog'lari.

**ballonné, ée** *adj* puflangan, damlangan, shishirilgan.

**ballonnement** *nm* damlagan qorin.

**ballot I.** *nm* kichik xarid; **II.** *adj* go'l, farosatsiz; **c'est ballot** bu bo'lmagan narsa.

**ballottage** *nf* nomzodini qo'yish (*saylovda*).

**ballottement** *nm* tananing nomutanosib harakatlari.

**ballotter** *vt* **1.** chayqalmoq, qimirlatmoq, tebratmoq, aralashtirmoq; **2.** *fig* arosatda qolmoq.

**ballottine** *nf* o'rama go'sht tayyorlash.

**balnéaire** *adj* cho'milishga oid, cho'milish, cho'milish uchun belgilangan joy; **station balnéaire** jihozlangan cho'milish joyi.

**balourd, ourde** *adj* lapashang, og'ir karvon, sust, bo'shang, uquvsiz.

**balourdise** *nf* beso'naqaylik, beo'xshovlik, dag'allik, lapashanglik.

**balsa** *nm* o'ta yengil yog'och.

**balsamique** *adj* shifobaxsh, balzamli.

**balustrade** *nf* zina, ko'prik himoya suyanchig'i, kursi orqa suyanchig'i.

**balustre** *nm* naqshinkor g'o'lacha, ustuncha (*panjara va shu kabilar uchun ishlatiladi*).

**balzane** *nf* oq to'riq ot.

**bambin** *nm fam* o'g'il bola, bolakay.

**bambocher** *vi* qayliqbozlik, aysh-ishrat qilmoq.

**bambocheur, euse** *n* maishatparast odam, ishratparast.

**bambou** *nm* bambuk, g'arov.

**ban** *nm* **1.** e'lon qilish, xabar berish; **publier les bans** bo'lajak nikoh to'g'risida eshittirish, e'lon qilish; **2.** qishloq politsiyasining qarori; **3.** buyruq va qarordan oldin yoki keyin chalinadigan baraban ovozi; **faire un ban à** gulduros tovushlar bilan olqishlamoq; **4.** surgun, quvg'in; **5.** okrug.

**banal, ale, als** *adj* oddiy, sodda.

**banaliser** *vt* **1.** soddalashtirmoq, oddiylashtirmoq; **2.** qiyofasini o'zgartirib yubormoq.

**banalité** *nf* siyqalik, siyqasi chiqqanlik.

**banane** *nf* **1.** banan; **2.** uzun vertolyot.

**bananier** *nm* **1.** banan daraxti; **2.** banan tashuvchi kema.

**banc** *nm* **1.** uzun o'rindiq, uzun kursi; **2.** gala, to'da *(baliqlar)*.

**bancaire** *adj* bankka oid.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**bancal, ale, als** *adj* qiyshiq oyoqli, oqsoq; **une chaise bancale** bir oyog'i kalta kursi, shaloq kursi.

**banco** *nm* **faire banco** tavakkaliga, boriga tikmoq (*qimor o'yinlarida*).

**bandage** *nm* **1.** bog'lash; **2.** bint bog'lash; **bandage plâtre** gips bilan bog'lash; **3.** qulf (*g'ildiraklarda*).

**bande[1]** *nf* **1.** ensiz uzun turli laxtak, tasma; **bande molletière** paytava; **2.** bog'lash, o'rash, bint; **3.** *techn* tasma; **bande magnétique** magnit tasmasi; **4.** banderol.

**bande[2]** *nf* to'da, guruh, bezorilar to'dasi.

**bandeau** *nm* **1.** peshonabog', peshonaband, salla; **2.** soch chambaragi pardasi; **3.** ko'z bog'ich.

**bandelette** *nf* o'rash uchun ishlatiladigan matoh.

**bander I.** *vt* **1.** bog'lamoq, siqib o'ramoq; **2.** ko'zini bog'lamoq; **3.** tarang qilib bog'lamoq, tarang tortmoq; **II.** *vi* taranglashmoq; *fam vulg* turmoq, qo'pmoq.

**bandé, ée** *adj* bog'langan.

**banderille** *nf* torero nayzasi.

**banderole** *nf* shior, namoyishchilar qo'lidagi chaqiriqlar; bayroqcha; miltiq qayishi.

**bandit** *nm* bandit, qaroqchi; bosqinchi.

**banditisme** *nm* banditizm, bosqinchilik.

**bandoulière (en)** *loc adv* yelkadan aylantirib osilgan.

**banjo** *nm* banjo (*Amerika negrlarining torli musiqa asbobi*).

**bank-note** *nf* banknot, pul.

**banlieue** *nf* shahar cheti, atrofi.

**banlieusard, arde** *n* **1.** shahar chetida, shahardan tashqarida yashovchi odam; **2.** dala hovlida yashovchi odam.

**bannière** *nf* bayroq, alam, tug'; **se ranger sous la bannière de qqn** kimningdir tomonida bo'lmoq.

**bannir** *vt* **1.** surgun qilmoq, quvg'in qilmoq; **2.** uzoqlashtirmoq, haydamoq.

**bannissement** *nm* surgun, quvg'in.

**banque** *nf* **1.** bank (*muassasa*); **banque de dépôts** saqlash banki; **banque d'Etat** davlat banki; **banque foncière** yerli bank; **banque d'affaires** tijorat banki; **2.** bank (*qarta o'yinida*); **tenir la banque** bankni tutmoq; **faire sauter la banque** bankni buzmoq.

**banqueroute** *nf* bankrotlik, sinish, bankrot bo'lish; **faire banqueroute** sinmoq, bankrot bo'lmoq.

**banqueroutier, ière** *n* bankrot, qarzdor, singan odam.

**banquet** *nm* banket, ziyofat (*rasmiy, tantanali*).

**banqueter** *vi* ziyofatda qatnashmoq.

**banquette** *nf* **1.** o'tiradigan joy, divancha; **2.** vagonlarda o'tiradigan o'rindiq.

**banquier, ière** *n* **1.** bankir; **2.** qarta o'yinida bank qo'ygan o'yinchi.

**banquise** *nf* suzib yuruvchi muz.

**baobab** *nm bot* baobab.

**baptême** *nm* **1.** cho'qintirish; **nom de baptême** cho'qintirish paytida berilgan ism; **2.** *fig* jangga birinchi marta kirish; **baptême de l'air** birinchi marta uchish.

**baptiser** *vt* **1.** cho'qintirmoq; **2.** nomlamoq.

**baptismal, ale, aux** *adj* cho'qintirishga, cho'qinishga oid; **fonts baptismaux** jom tog'ora.

**baptistère** *nm* cho'qintirilganlikni rasmiylashtiradigan joy.

**baquet** *nm* qo'shquloq, tog'ora, jom, tos.

**bar[1]** *nm* bar, kichkina mayxona.

**bar[2]** *nm* olabug'a (*baliq turi*).

**bar[3]** *nm* bar (*atmosfera bosimini o'lchash birligi*).

**baragouin** *nm fam* tushunib bo'lmaydigan, noto'g'ri nutq, haqorat.

**baragouiner** *vt* yomon gapirmoq (*biror tilda*); noaniq, tushunarsiz gapirmoq.

**baraque** *nf* **1.** yog'och boshpana, muvaqqat taxta saroy, barak.

**baratin** *nm* bekorchi gap, safsata.

**baratiner** *vi* laqillatmoq, safsata sotmoq.

**baratineur, euse** *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, laqqilatuvchi, ko'z bo'yamachi.

**baratte** *nf* moyjuvoz, kuv.

**baratter** *vt* sutni kuvlab yog' olmoq.

**barbacane** *nf* shinak, tuynuk (*istehkom va qo'rg'on devorlarida*).

**barbant, ante** *adj* zerikarli.

**barbaque** *nf* go'sht.

**barbare I.** *adj* varvarlarga, yovvoyilarga, vahshiylarga oid; **II.** *nm* varvar (*qadimgi yunon va rimliklarda madaniyatdan orqada qolgan chet elliklarga berilgan nom*).

**barbaresque** *adj, n* barbar (*Shimoliy Afrikaning tub aholisi*).

**barbarie** *nf* vahshiylik, yovvoyilik, johillik, zolimlik.

**barbarisme** *nm ling* varvarizm (*boshqa tildan olingan, o'zlashtiruvchi tilga singib ketmagan so'z va iboralar*).

**barbe** *nf* **1.** soqol; **barbe de bouc** echki soqol; **se faire faire la barbe** soqolini qirdirmoq; **barbe grise** qari, oqsoqol; **2.** qiltanoq (*g'allada*).

**barbeau** *nm* mo'ylovli baliq.

**barbecue** *nm* manqal.

**barbelé, ée I.** *adj* tikanli; **II.** *nm* tikanli sim, to'siq.

**barber** *vt fam* joniga tegmoq, jonidan to'ydirmoq.

**barbet** *nm* **1.** spaniel (*it zoti*); **2.** baliq turi.

**barbiche** *nf* soqolcha, kalta soqol.

**barbier** *nm* sartarosh.

**barbillon** *nm* **1.** mo'ylovcha (*baliqlarda*); **2.** paypaslagich (*hasharotlarda*); **3.** kertik.

**barbiturique I.** *adj nm* tinchlantiruvchi, uyqu dori.

**barbon** *nm* qariya.

**barbotage** *nm* **1.** suvda harakatlanish, sho'ng'ish, suzish.

**barboter I.** *vi* suvda, botqoqlikda tapir-tupur qilmoq; loy kechib, shaloplatib yurmoq; **II.** *vt* o'g'irlamoq, o'marmoq, shilmoq.

**barbouiller** *vt* **1.** basharasini chaplab tashlamoq, dog' qilmoq, iflos qilmoq; **2.** turli bo'yoqlarni devorga chaplamoq; **3.** ko'ngli aynamoq.

**barbouilleur, euse** *n* noshud rassom.

**barbu I.** *adj* soqolli, soqol qo'ygan; **II.** *nm* soqolli odam.

**barbue** *nf* kalkan (*baliq*).

**barda** *nm* askarning shaxsiy narsalari.

**barde** *nm* bard, kuychi shoir, baxshi (*qadimgi keltlarda*).

**bardeau** *nm* **1.** tom yopishga ishlatiladigan maxsus taxtachalar.

**barder[1]** *vt* **1.** sovut kiymoq; **2.** jizzada qovurmoq.

**barder[2]** *vi* qiyin, og'ir vaziyat olmoq.

**barème** *nm* moyana yoki soliqlar belgilangan jadval.

**barguigner** *vi* ikkilanmoq.

**baril** *nm* kichkina bochka; **baril de poudre** porox bochkasi.

**barillet** *nm* **1.** bochkacha; **2.** baraban (*to'pponchaniki*); **3.** silindr (*nasosniki*).

**bariolé, ée** *adj* har xil rangdagi, rangbarang.

**barman** *nm* bar, mayxona egasi, sotuvchisi.

**baromètre** *nm* barometr, bosim o'lchagich; **baromètre à mercure** simobli barometr; **le baromètre baisse** bosim pasayayapti.

**barométrique** *adj* barometrli, barometrga oid.

**baron, onne** *n* baron (*dvoryanlarning grafdan quyi unvoni va shu unvondagi kishi*).

**baroque** *adj* **1.** g'alati, g'ayri oddiy, g'aroyib; **2.** serhasham, bejamdor; **3.** *archit* barokko uslubi.

**baroud** *nm* or-nomus uchun kurashish, urishish, mushtlashish.

**baroudeur** *nm* mushtlashishni yaxshi ko'radigan odam.

**barouf** *nm* to'polon, shovqin suron.

**barque** *nf* qayiq; **bien mener, gouverner, conduire sa barque** o'z ishini yaxshi olib bormoq.

**barquette** *nf* **1.** qayiqcha; **2.** qayiqcha shaklidagi pishiriq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**barrage** *nm* **1.** to'siq; **barrage de fils de fer barbelés** simli to'siq; **barrage antichar** tankka qarshi qilingan to'siq; **faire barrage à** yo'lni to'smoq; **2.** ariqni to'sish; to'g'on.

**barre** *nf* **1.** to'rt burchakli yog'och, to'sin, xari; temir tayoqcha, brus, g'ishtsimon bo'lak; **une barre d'or** oltin bo'lagi; **barre d'appui** deraza kesakisi, raqqosalar suyanib, ushlab mashq qiladigan uzun brus; **avoir barre sur qqn** ustunlikka ega bo'lmoq; **2.** gimnastika turnigi; **3.** to'siq.

**barreau** *nm* **1.** chiviq, xivich; **2.** panjara (*derazalarda*); **3.** sud paytida advokatlar o'tiradigan joy; **4.** *fig* advokatlik kasbi; **entrer au barreau** advokat bo'lmoq.

**barrette**[1] *nf* to'rt qirrali bosh kiyim (*din arboblarida*); kardinal bosh kiyimi.

**barrette**[2] *nf* soch to'g'nog'ich.

**barricade** *nf* barrikada, to'siq, g'ov; *loc fig* **être de l'autre côté de la barricade** barrikadaning narigi tomonida bo'lib qolmoq.

**barricader I.** *vt* to'smoq, g'ov bo'lmoq; **II. se barricader** *vpr* himoyalanmoq, qamalib olmoq, yashirinmoq.

**barrière** *nf* to'siq.

**barrique** *nf* bochka.

**barrir** *vi* o'kirmoq (*fil va karkidonlarga oid*).

**barye** *nf* mikrobar *(og'irlik va bosim o'lchov birligi*).

**baryton** *nm* bariton.

**baryum** *nm chim* bariy.

**bas**[1]**, basse I.** *adj* **1.** past, quyi; **bas de plafond** past tom; **à bas prix** arzon narx bilan; **le jour est bas** qorong'i tushyapti; **temps bas** bulutli havo; **2.** past; **3.** tinch, jim, sokin; **4.** kichik (*unvon*); **II.** *adv* pastqam; **mettre bas les armes** qurollarni tashlamoq; **à bas!** yo'qolsin! **bas les mains! bas les pattes!** qo'lingni tort! **là-bas** u yerda; **ici-bas** shu yerda; *loc adv* **en bas** pastga.

**bas**[2] *nm* quyi qismi; **bas de la pente** taglik, tagcharm; **lettres de bas de casse** *typogr* kichik harflar.

**bas**[3] *nm* paypoq; *fig* **bas de laine 1.** jun paypoq; **2.** yig'ilgan, to'plangan pul (*paypoq ichida*).

**basalte** *nm* bazalt (*shishasimon vulkanik tog' jinsi*).

**basaltique** *adj* bazaltga oid, bazalt qoyalar.

**basane** *nf* **1.** saxtiyon teri, saxtiyon; **2.** o'ta sifatli charm.

**basané, ée** *adj* qoramtirlangan charm, issiqda toblangan.

**bas-bleu,** *pl* **bas-bleus** *nm* adabiyotchilikka davogar ayol, pedant.

**bas-côté,** *pl* **bas-côtés** *nm* **1.** biror inshoot chetidagi, qirg'og'idagi, chekkasidagi yo'lak; **2.** qo'shimcha mehrob (*butxonada*).

**basculant, ante** *adj* tebranma; ag'darma **une benne basculante** ag'darma mashina.

**bascule** *nf* **1.** halinchak, tebranma kursi; **à bascule** ag'darma, tebranma; **2.** ag'daruvchi moslama; **3.** o'ta katta tarozi.

**basculer** *vi* **1.** aylanmoq, uchmoq, tebranmoq; **2.** ag'anamoq, qulamoq.

**base** *nf* **1.** asos, fundament; **2.** baza, asos; **base économique** iqtisodiy bazis; **prendre comme base** asos deb qabul qilmoq; **militant de base** oddiy a'zo (*partiyada*); **3.** harbiy baza; **4.** dorining asosiy qismi; **5.** tarkib.

**baser** *vt* **1.** asos solmoq, asos qilmoq; **2.** asoslanmoq, asos qilib olmoq, tarkibida bo'lmoq.

**base-ball** *nm* beysbol (*sport*).

**bas-fond** *nm* **1.** sayozlik, yuzalik; **2.** sayoz joy; **échouer sur un bas-fond** sayoz joyga o'tirib qolmoq.

**basilic**[1] *nm* Janubiy Amerikada yashovchi yirik kaltakesak.

**basilic**[2] *nm* rayhon.

**basilique** *nf* O'rta asrlardagi xristiyanlarning ikki mehrobli ibodatxonasi.

**basket-ball** *nm* basketbol.

**basket** *nm* oyoq kiyimi.

**basque**[1] *nf* tizzagacha tushadigan kamzul.

**basque**[2] **I.** *adj* baskcha; **II.** *nm* bask tili, basklar.

**basse** *nf* bas (*tovush, ashulachi; musiqa asbobi*).

**basse-cour,** *pl* **basses-cours** *nf* parrandaxona, tovuqxona, parrandachilik fermasi.

**bassement** *adv* pastkashlarcha.

**bassesse** *nf* pastkashlik, pastlik.

**basset** *nm* taksa, it.

**bassin** *nm* **1.** tog'ora, tos; **2.** havza, hovuz; **bassin de retenue** suv ombori; **bassin de réception** suv to'playdigan inshoot; **3.** dok (*kemalar tuzatiladigan korxona*); **bassin à flot** dengiz korxonasi; **4.** havza (*daryo, dengiz, okeanlarda*); **5.** tarozining pallasi.

**bassine** *nf* tog'ora, tog'oracha.

**bassiner** *vt* **1.** cho'g' solingan usti teshik narsa bilan isitmoq; **2.** kimningdir joniga tegmoq.

**bassinoire** *nf* cho'g' to'ldirib qo'yiladigan isitgich.

**basson** *nm* fagor (*yog'ochdan yasalgan surnaysimon musiqa asbobi*).

**bastide** *nf* **1.** qishloq uyi; **2.** Fransiyaning janubi-g'arbidagi O'rta asr istehkom shahri.

**bastille** *nf* **1.** mustahkam qal'a, istehkom; **2.** Bastiliya.

**bastingage** *nm* kema sahni atrofidagi to'siq, suyanchiq.

**bastion** *nm* **1.** bastion, qal'a, qo'rg'on; **2.** *fig* posbon.

**bas-ventre** *nm* qorinning past qismi.

**bât** *nm* to'qim.

**bataclan** *nm*ot yog'och; **et tout le bataclan** va boshqa narsalar.

**bataille** *nf* **1.** urush, jang, kurash, olishuv; **en pleine bataille** jang avjida; **en ordre de bataille** jangovar tayyorgarlik; **en bataille** hurpaygan, paxmoq, patila (*soch, soqol*); **2.** batay (*qarta o'yini*).

**batailler** *vi* jang qilmoq, urush qilmoq, kurashmoq.

**batailleur, euse I.** *adj* urushqoq, janjalkash; **II.** *n* jangchi.

**bâtard, arde I.** *adj* **1.** nikohsiz, noqonuniy; **2.** zoti past, zotsiz; **3.** haqiqiy bo'lmagan; **II.** *n* **1.** noqonuniy bola; **2.** *nm* baton non.

**batardeau** *nm* vaqtincha qilingan to'g'on.

**bateau** *nm* qayiq, kema, kater; **bateau à vapeur** paroxod; **bateau à voile** yelkanli kema; **bateau de cours** musobaqa qayig'i; **bateau de plaisance** sayr qiluvchi kema; **bateau de pêcheur** baliqchi kema; **bateau de commerce** savdo kemasi; **monter un bateau à qqn** kimnidir laqillatmoq; **être dans le même bateau** bir xil vaziyatda bo'lmoq.

**batelier, ière** *n* qayiqchi.

**batellerie** *nf* **1.** qayiqchining ovi; **2.** suvda suzib yuruvchi narsalar.

**bâter** *vt* to'qimlamoq; **âne bâté** g'irt tentak.

**bat-flanc** *nm* yon to'siq; to'siq.

**bath** *adj inv fam vieilli* a'lo, zo'r, juda a'lo darajada.

**bathyscaphe** *nm* batiskaf (*chuqur suv ostida yuradigan apparat, kamera*).

**bâti**[1] *nm* **1.** asos, rama, karkas; **2.** ko'klash, ko'klab tikish.

**bâti**[2] *adj* qurilgan; **solidement bâti** muskulli, baquvvat, zabardast.

**batifoler** *vi* ko'ngil ochmoq, jinnilik qilib o'ynamoq.

**bâtiment** *nm* **1.** bino, uy, inshoot; **2.** qurilish, qurilish ishlari; **3.** yirik kema; **bâtiment de guerre** harbiy kema; **bâtiment de haute mer** uzoqqa suzuvchi kema, okean kemasi.

**bâtir** *vt* **1.** qurmoq; **bâtir un nid** in qurmoq; **2.** tuzmoq, asos solmoq; **il a bâti rapidement son plan** u tezda o'z rejasini tuzdi; **3.** tepchimoq; **la couturière a bâti la robe pour l'essayage** tikuvchi ko'ynakni sinash uchun tepchidi.

**bâtisseur, euse** *n* quruvchi.

**batiste** *nf* batist, nafis jun mato.

**bâton** *nm* **1.** hassa, tayoq, tayoqcha, kaltak; **2.** mansab tayog'i; **3. mettre des bâtons dans les roues** kimgadir to'sqinlik qilmoq; **4. bâton de rouge à lèvres** lab bo'yoq; **6.** bo'lak; **bâton de craie** bo'r bo'lagi.

**bâtonnet** *nm* tayoqcha.

**bâtonnier** *nm* advokatlarning kattasi.

**batracien** *nm* qurbaqa, cho'l baqasimonlar oilasi.

**battage** *nm* **1.** yanchish, saralash, parchinlamoq, yapaloqlamoq; **battage de l'or** tillani yapaloqlamoq; **2.** shov-shuv.

**battant**[1] *nm* **1.** eshik tabaqasi; **2.** til (*qo'ng'iroq*); **3.** kemaning suv ustidagi qismi.

**battant**[2]**, ante** *adj* **pluie battante** jala; **tambour battant** nog'ora sadosi.

**batte** *nf* o'g'ir dasta.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**battement** *nm* **1.** urish; **2.** yer tepib raqsga tushish; **battement d'ailes** qushlarning qanot qoqishi; **3.** yurak, tomir urishi.

**batterie** *nf* **1.** batareya (*harbiylarda*); **batterie antiaérienne** zenit batareyasi; **mettre en batterie** oldingi marraga tashlamoq (*harbiy sohada*); **dresser ses batteries** chora ko'rmoq; **démasquer les batteries de l'adversaires** dushmanning niyatlarini fosh qilmoq; **2.** *mus* orkestrdagi urib chalinadigan musiqa asboblari guruhi; **3.** to'plam, komplekt, asboblar; **batterie de cuisine** idish-tovoqlar.

**batteur, euse** *n* **1.** g'alla yanchuvchi; **2.** bolg'a uruvchi, bosqonchi; **3.** yanchish mashinasi.

**battoir** *nm* **1.** chang qoqich; **2.** *fam* to'qmoq, gurzi; **tu as vu les battoirs qu'il a** uning gurzisini ko'rdingmi.

**battre I.** *vt* **1.** urmoq, taqillatmoq, qoqmoq; **battre son plein** avjida bo'lmoq; **battre pavillon** bayroq ostida suzmoq (*dengizda*); **2.** g'alaba qozonmoq, yengmoq; **3.** tuymoq, yanchmoq; **battre le blé** donni yanchmoq; **4.** zarb qilmoq; **5.** changini qoqmoq; **6.** moy olmoq (*sutdan, qatiqdan*); **7.** nishonga urmoq; **8.** kashf etmoq; **II. se battre** *vpr* **1.** urishmoq; **2.** o'zini urmoq.

**baudet** *nm fam* **1.** eshak; **2.** *fig* eshak, tentak.

**baudrier** *nm* qurol osib yuriladigan kamar.

**baudruche** *nf* **1.** ichakdan qilingan pufak; **2.** *fig* puch odam.

**bauge** *nf* **1.** iflos joy; **2.** to'ngiz yotadigan balchiq.

**baume** *nm* **1.** malham; **2.** *fig* xushbo'y saqich; **3.** tinchlantiruvchi malham; **cette nouvelle me met du baume au cœur** bu yangilik yuragimga malham bo'ldi.

**bauxite** *nf* boksit (*aluminiy rudasi*).

**bavard, arde** *adj, n* vaysaqi, ko'p gapiruvchi, ezma.

**bavardage** *nm* ezmalik, vaysaqilik.

**bavarder** *vi* ko'p gapirmoq, laqillamoq, vaysamoq.

**bave** *nf* **1.** so'lak, so'lakay, tupuk, ko'pik (*kasal hayvonlarda*); **2.** shilimshiq, shilliq.

**baver** *vi* **1.** so'lagi oqmoq; so'lagini sachratmoq; **2. en baver** iztirob, alam chekmoq, qiynalmoq; **3.** tupurmoq, obro'sini to'kmoq.

**bavette** *nf* **1.** so'lakcha; oshxo'rak; **2.** umurtqa osti go'shti.

**baveux, euse** *adj* **1.** so'lakli; **2.** liqildoq (*tuxum*).

**bavoir** *nm voir* **bavette**.

**bavolet** *nm* qadimiy dehqonlar qalpog'i.

**bavure** *nf* **1.** qolipdan qolgan iz, g'udur; **2.** siyoh dog'i; **3.** xato; **4. sans bavure** a'lo darajada qilingan.

**bourricot** *ou* **bourriquet** *nm* xoʻtik.
**bourrin** *nm fam* ot.
**bourrique** *nf* **1.** mocha eshak; **2.** *fam* eshak, oʻjar, qaysar odam.
**bourriquet** *nm voir* **bourricot**.
**bourru, ue I.** *adj* **1.** qattiqqoʻl, rahmsiz, badjahl; taxir, turush, achchiq, nordon; **vin bourru** yangi vino; **2.** xoʻmraygan, oʻshshaygan.
**bourse[1]** *nf* **1.** hamyon, karmon; **faire bourse à part** alohida xoʻjalik ishini yuritmoq; **2.** stipendiya; **3.** sumka, qop.
**bourse[2]** *nf* birja (*yirik savdo va moliya ishlariga oid muomalalar boʻyicha vositachilik qiluvchi muassasa*); **bourse du travail** mehnat birjasi; **bourse des valeurs, bourse d'effets publics** fond birjasi; **bourse de marchandises** mol birjasi; **en bourse** birjada; **opération de bourse** birja operatsiyasi.
**boursicoter** *vi* **1.** ozroq pul sarflamoq; **2.** uncha-muncha birja operatsiyalari bilan band boʻlmoq.
**boursier[1], ière** *n* stipendiat, stipendiya sohibi.
**boursier[2], ière I.** *adj* birjaga oid; **II.** *n* birjachi.
**boursoufflé, ée** *adj* shishgan, salqigan, shishinqiragan.
**bousculade** *nf* itarish, surish; turtinish; **bousculade pour la possession du ballon** toʻp uchun kurash; **dans la bousculade du départ** ketish toʻpolonida (*qiy-chuvida*).
**bousculer I.** *vt* **1.** itarmoq, turtmoq; **2.** noqulaylik keltirib chiqarmoq; **3.** toʻsattan oʻzgartirmoq; **II. se bousculer** *vpr* turtinishmoq, bir-birini itarmoq.
**bouse** *nf* mol axlati, tezak.
**bousier** *nm* goʻngqoʻngʻiz.
**bousillage** *nm* behuda, yomon qilingan ish.
**bousiller** *vt* yomon qilmoq, qoʻl uchida qilmoq, sifatsiz qilmoq.
**bousilleur, euse** *n* qoʻl uchida ishlovchi.
**boussole** *nf* kompas; **perdre la boussole** aqlini yoʻqotmoq, oʻzini idora qila olmaslik.
**boustifaille** *nf fam* taom.
**bout I.** *nm* **1.** oxiri, cheti, qirgʻogʻi; **au bout du mois** oyning oxirida; **au bout du monde** dunyoning narigi chekkasiga; **2. vous n'êtes pas au bout** bu hali hammasi emas; **venir à bout d'un travail** ishni tugatmoq; **venir à bout de qqch, de qqn** uddalamoq; **3. de bout en bout, d'un bout à l'autre** boshidan oxirigacha; oxiri, uchi; **tenir le bon bout** qulay vaziyatda boʻlmoq; **II.** boʻlak, parcha, qism.
**boutade** *nf* oʻtkir, kuchli hazil.
**boute-en-train** *nm inv* xushchaqchaq, xushtabiat, kuldirib yuruvchi.
**bouteille** *nf* **1.** butilka; **bouteille thermos** termos; **2.** ballon; **bouteille à gaz** gaz balloni.
**bouter** *vt* surib chiqmoq, taʻqib qilmoq.
**boutique** *nf* **1.** doʻkon, doʻkoncha; **2.** ustaxona.
**boutiquier, ière** *n* baqqol, doʻkondor, attor.
**boutoir** *nm* yovvoyi choʻchqa tumshugʻi; **coup de boutoir** qaqshatgich zarba.
**bouton** *nm* **1.** kurtak; **2.** tugma; **3.** husnbuzar; **bouton de sonnette** qoʻngʻiroq tugmasi; **4.** dumaloq dastak (*eshik va radiolarda*); **tourner le bouton** eshikni ochmoq.
**bouton-d'or** *nm bot* ayiqtovon.
**boutonnage** *nm* qadash, ilish, ilmoqlash, tugmalash.
**boutonner I.** *vt* qadamoq, ilgaklamoq; **II.** *vi* **1.** kurtak ochmoq; **2.** husnbuzar bilan qoplanmoq.
**boutonnière** *nf* **1.** tugma teshigi; **2.** kiyimga taqilgan gul yoki guldastacha.
**bouturage** *nm* qalamcha qilib ekish, qalamcha qilib koʻpaytirish.
**bouture** *nf* qalamcha.
**bouturer I.** *vt* qalamcha qilib ekmoq, qalamcha qilib koʻpaytirmoq; **II.** *vi* oʻsmoq.
**bouvier, iére** *n* **1.** molboqar, podachi; **2.** *nm* choʻpon iti.
**bouvreuil** *nm* koʻkragi qizil chumchuq.
**bovidés** *nm pl* qoramol, kavsh qaytaruvchilar.
**bovin, ine I.** *adj* mol; **race bovine** qoramol zoti; **II.** *nm pl* **bovins** yirik qoramol.
**box** *nm pl* **1.** molxonadagi alohida boʻlinma, katak; **2.** alohida joy.
**boxe** *nm* boks (*sport*); **boxe amateur** havaskorlar boksi.
**boxer[1] I.** *vi* boks tushmoq, boks bilan shugʻullanmoq; **II.** *vt* urmoq, zarba bermoq.
**boxer[2]** *nm* bokser (*it zoti*).
**boxeur** *nm* bokschi.
**boy** *nm* bola.
**boyard** *nm* **1.** boyar, katta yer egasi; **2.** boy odam.
**boyau** *nm* **1.** ichak (*qorinda*); **corde à (de) boyau** ichakli tor; **2.** egiluvchan shlang.
**boycottage** *nm* rad etish, taqiqlash.
**boycotter** *vt* rad etmoq.
**bracelet** *nm* bilakuzuk.
**bracelet-montre** *nm* qoʻl soati.
**brachycéphale** *nm* dumaloq boshli.
**braconnage** *nm* brakonyerlik, zararkunandalik, noqonuniy ovchilik.
**braconner** *vi* yashirincha, noqonuniy ov qilmoq.
**braconnier** *nm* brakonyer, oʻgʻrincha ovchi, tabiatga zarar yetkazuvchi.
**bractée** *nf* rangli gulsimon barg.
**brader** *vt* arzon narxda sotmoq.
**braderie** *nf* qoldiqlarni, qolib ketgan narsalarni sotish, yoymada sotish.
**braguette** *nf* yirma, qadash joyi (*shimning oldingi yirmasi*).
**brahmane** *nm* brahman.
**brahmanisme** *nm* brahmanlik taʻlimoti.
**braies** *nf* cholvor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**braille** *nm* brayl yozuvi, ko'rlar yozuvi.

**brailler** *vt vi* baqirmoq, baqirib gapirmoq.

**brailleur** *nm* baqiroq odam.

**braire** *vi* **1.** hangramoq (*eshak*); **2.** *fam* baqirmoq.

**braise** *nf* cho'g', laxcha; **des yeux braises** chaqnab turuvchi ko'zlar.

**braiser** *vt* past olovda pishirmoq.

**bramer** *vi* **1.** ma'ramoq (*ohu, kiyik*); **2.** dodlab yig'lamoq, uv tortmoq.

**brancard** *nm* **1.** zambil; **2.** shoti, arava shotisi.

**brancardier** *nm mil* sanitar, zambil ko'taruvchilar.

**branchage** *nm* **1.** shoxlar, butoqlar, novdalar; **2.** daraxt tepasidagi shox-shabbalar.

**branche** *nf* **1.** shox-shabba; **sauter de branche en branche** shoxdan shoxga sakramoq; **s'accrocher à toutes les branches** qo'liga nima ilinsa o'shanga yopishmoq; **2.** tarmoq, bo'lak, qism; **3.** soha.

**branchement** *nm* **1.** tarmoq; **2.** strelka (*temir yo'lda*).

**brancher I.** *vi* qo'shmoq, ulamoq; **II.** *vt* **1.** yo'naltirmoq, burmoq; **il a branché la conversation sur un autre sujet** u suhbatni bashqa mavzuga yo'naltirdi; **2. brancher le courant** tokni ulamoq; **brancher la radio** radioni qo'ymoq.

**branchial, ale, aux** *adj* oyquloqqa oid, oyquloqli.

**branchie** *nf* oyquloq.

**brandir** *vt* biror narsani silkitib, aylantirib, o'ynatib tahdid qilmoq; **brandir les armes** qilich yalang'ochlamoq, qurolni pesh qilmoq.

**brandon** *nm* yondirilgan chiqindilar; **brandon de guerre** urush olovini yoquvchi.

**branlant, ante** *adj* **1.** shaloq, liqildoq, liqillab qolgan; **une dent branlante** qimirlab turgan tish; **situation branlante** beqaror vaziyat; **2.** qaltirayotgan.

**branle** *nm* osilgan narsaning tebranishi, chayqalish; **mettre en branle** to'lqinlantirmoq; **se mettre en branle** joyidan qimirlamoq, jilmoq.

**branle-bas** *nm inv* **1.** jangga tayyorlanish (*harbiy kemalarda*); **2.** joylarni tozalash; **3.** shoshilinch tayyorgarlik.

**branlement** *nm* **1.** silkinish, chayqalish, qimirlash; **2.** boshning zirillashi.

**branler I.** *vt* **1.** silkitmoq, qimirlatmoq; **branler la tête** boshini liqillatmoq, chayqamoq, tebratmoq; **2.** *vulg* shahvatni masturbatsiya bilan qondirmoq, kapaki qilmoq (*birovni*); **3.** *fig vulg* qilmoq, bajarmoq; **j'en ai rien à branler** pashsha qo'rib o'tiribman; **II.** *vi* qimirlamoq, qimirlab turmoq, liqillamoq, tebranmoq, loppillamoq; **II. se branler** *vpr vulg* **1.** kapaki qilmoq, o'zini o'zi qondirmoq; **2. je m'en branle** tupurdim, menga baribir.

**branlette** *nf fam vulg* masturbatsiya, kapaki.

**braque**[1] *nm* iskovuch it, tozi it.

**braque**[2] *adj fam* yengiltak, mulohazasiz, tentak.

**braquage** *nm* **1.** g'ildirak burilishi; **2.** qurolli tahdid, o'marish; **le braquage d'une banque** bankni o'marmoq.

**braquer** *vt***1.** o'rnatmoq; yubormoq; nishonga olmoq; o'qtalmoq, mo'ljallamoq; **2.** burmoq (*mashina g'ildiragini*); **3.** birovga qarshi qilmoq, qayramoq.

**bras** *nm* **1.** qo'l; **2.** tirsak; **3.** divan va kreslolardagi tirsakni qo'yadigan joy; **4.** irmoq; **bras de mer** bo'g'oz.

**braser** *vt* kavsharlamoq, qalaylamoq, payvandlamoq.

**brasero** *nm* manqal.

**brasier** *nm* **1.** yonuvchan narsalar; **2.** alangali olov.

**bras-le-corps (à)** *loc adv* qo'l va tana bilan; **il a saisi son adversaire à bras-le corps** u raqibini qo'l va tanasini qo'shib ushladi.

**brassard** *nm* qo'lga taqadigan bog'ich, belgi.

**brasse** *nf* **1.** dengiz sarjini; **2.** bras (*suzish usuli*); **brasse papillon** batterflay (*suzish usuli*).

**brassée** *nf* bir qo'ltiq.

**brasser** *vt* **1.** aralashtirmoq; **2.** pivo tayyorlamoq; **3.** katta miqdorda pul aylantirmoq.

**brasserie** *nf* **1.** pivo tayyorlaydigan zavod; **2.** pivo ichadigan joy.

**brasseur, euse**[1] *n* pivo tayyorlovchi.

**brasseur, euse**[2] *n* bras usulida suzuvchi.

**brassière** *nf* chaqaloq ko'ylakchasi.

**bravache** *nm, adj* maqtanchoq.

**bravade** *nf* mardlik, botirlik, azamatlik.

**brave I.** *adj* **1.** jasur, botir, mard; **homme brave** jasur odam; **2.** halol, pok; **brave homme** halol odam; **II.** *nm* botir, dovyurak, mard odam; *fam* **un brave à trois poiles** jasur odam.

**bravement** *adv* mardona, jasurona, qahramonlarcha.

**braver** *vt* **1.** qo'rqmaslik; mardlik qilmoq, chiranmoq, quruqlik qilmoq; **braver la mort** o'limdan qo'rqmaslik; **2.** manmanlik qilmoq, o'zini katta tutmoq.

**bravo I.** *intj* barakalla; **II.** *nm* qarsaklar bilan olqishlash.

**bravoure** *nf* mardlik, jasurlik, qahramonlik; **air de bravoure** ilhombaxsh musiqa.

**break**[1] *nm anglic* brichka.

**break**[2] *nm anglic* **1.** *mus* musiqa chalinayotganda qilinadigan qisqa pauza; **2.** *sport* ikki raqib o'rtasidagi masofa.

**breakfast** *nm anglic* inglizcha nonushta.

**brebis** *nf* qo'y, sovliq; *prov* **il ne faut qu'une brebis galeuse pour infester un troupeau** tirraqi buzoq podani buzadi; **brebis galeuse** guruhdagi xavfli va nojoiz odam.

**brèche**[1] *nf* **1.** o'qdan hosil bo'lgan raxna, teshik, yorib o'tish; **faire brèche, ouvrir la brèche** yorib o'tmoq; **rester sur la brèche** joyida, postda qolmoq; **2.** darz; **3.** lat; **faire une brèche à sa fortune** o'z mulkining bir qismini yo'qotmoq.

**brèche**[2] *nf* qirrali qoya.

**bréchet** *nm* qush ko'kragining qirrasi.

**bredouille** *adj* **revenir bredouille** quruq qaytmoq (*ovdan*).

**bredouillement** *nm* tushunib bo'lmaydigan talaffuz, ming'illash, g'ing'illash.

**bredouiller** *vi* ming'irlamoq, g'ing'illamoq, shoshib gapirmoq.

**bref, brève I.** *adj* **1.** qisqa, kalta; **à brève échéance** tez keluvchi, kiruvchi, yaqinlashayotgan, yaqin kelajakda; **à bref délai** qisqa vaqtda; **2.** uzuq-yuluq, uzuq-uzuq, qisqa-qisqa; **II.** *adv* bir so'z bilan aytganda, qisqasi, nihoyat, xullas.

**breloque** *nf* brelok, jevak, jevakcha (*soat zanjiri, bilakuzuk va h. k.)*; **battre la breloque** yomon ishlamoq (*motor, yurak*).

**brème**[1] *nf* leshch (*baliq*).

**brème**[2] *nf* qarta o'yini.

**bretelle** *nf* **1.** tasma; **2.** qo'shiluvchi, birlashuvchi yo'l (*temir yo'lda*).

**breton, onne I.** *adj* bretoncha; **II.** *nm* breton tili.

**bretteur** *nm* duel qatnashchisi; duelchi.

**bretzel** *nm* tuzlangan, zirali o'rama kulcha.

**breuvage** *nm* ichimlik, suyuqlik.

**brevet** *nm* **1.** diplom, attestat, shahodatnoma, guvohnoma; **brevet élémentaire, brevet d'études du premier cycle (B. E. P. C.)** to'liqsiz o'rta ma'lumot to'g'risida shahodatnoma; **brevet d'instituteur** o'qituvchilik diplomi; **brevet d'aptitude militaire** chaqiriq davrigacha o'tkazgan harbiy tayyorgarlik to'g'risidagi guvohnoma; **2.** patent (*savdo-sotiq yoki hunar bilan shug'ullanish uchun beriladigan hujjat*); **brevet d'invention** ixtiro uchun patent; **déposer un brevet** patent bermoq; **3.** qirollik yorlig'i, mukofoti.

**breveté, ée** *adj* diplomli.

**breveter** *vt* **1.** diplom bermoq; **2.** patent bermoq.

**bréviaire** *nm* **1.** trebnik (*pravoslavlarda treba ibodatiga oid oyatlar va qoidalar yozilgan kitob*); **2.** *fig* izohli lug'at.

**bribes** *nf pl* qoldiqlar; **les bribes d'une conversations** gapning chalasi.

**bric-à-brac** *nm inv* **1.** eski-tuski to'dasi, uyumi; **2.** eski-tuski narsalar do'koni.

**bric et de broc (de)** *loc adv* turli joydan olingan, parcha-purcha, bo'ltak-so'ltak.

**brick** *nm* brig (*ikki machtali yelkanli kema*).

**bricolage** *nm* tayyorlash, yasash, ishlash, qo'lidan kelish, uddalash.

**bricole** *nf* **1.** tasma, shleyka (*itni ko'krak va belidan aylantirib bog'laydigan tasma*); **2.** kam to'laydigan ish; **3.** mayda-chuyda narsa.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**bricoler I.** *vi* **1.** har qanday ishni qilmoq; **2.** yasash ishlarini bajarmoq; **II.** *vt* yasamoq, qo'lbola qilib yasamoq.

**bride** *nf* **1.** yugan; **tenir la bride haute à qqn** kimnidir tutib, ushlab turmoq, erkinlik bermaslik; **2.** bog'ich, bog', tasma (*bolalarning bosh kiyimida*).

**bridé, ée** *adj* ajinli.

**brider** *vt* **1.** yuganlamoq; **2.** hayosi bosmoq; **3.** jilovlamoq, itoat qildirmoq; **4.** g'ijimlanmoq (*kiyim*).

**bridge** *nm* ko'prik (*tish protezi*).

**brie** *nm* pishloq turi.

**brièvement** *adv* qisqasi.

**brièveté** *nf* qisqalik, ozlik.

**brigade** *nf* brigada, otryad, komanda; **brigade de choc** zarbdor brigada; **brigade d'infanterie motorisée** motorlashgan brigada; **brigade criminelle** jinoiy qidiruv.

**brigadier** *nm* **1.** brigadir; **brigadier forestier** o'rmon qorovuli; **2.** kapral (*Chor armiyasida va ba'zi chet el armiyalarida kichik komandirlar yoki soldatlar unvoni*); **3.** brigada generali.

**brigand** *nm* qaroqchi, o'g'ri, kallakesar.

**brigandage** *nm* o'g'irlash; **guerre de brigandage** talonchilik urushi.

**brigue** *nf* mansab uchun intilish, hamma imkoniyatni ishga solish.

**briguer** *vt* xiralik bilan so'ramoq; intilmoq; erishmoq.

**brillamment** *adv* a'lo darajada, muvaffaqiyat bilan.

**brillant, ante I.** *adj* yaltiroq; **II.** *nm* **1.** yarqirash; **2.** brilliant.

**briller** *vi* yaltiramoq, charaqlamoq; **la joie brille dans ses regards** uning ko'zlari xursandchilikdan yaraqlab ketdi.

**brimade** *nf* asossiz ayblash, tirnoq ostidan kir izlash; adolatsizlik.

**brimer** *vt* haqoratlanmoq, kamsitilmoq, tahqirlamoq, xo'rlanmoq, ayblanmoq.

**brin** *nm* **1.** xas, o't, poya; **brin d'herbe** o't poyasi; **brin de paille** bir tutam poxol; **2.** tola, ip, ipcha; **3.** salgina, ozgina, ozroq; **faire un brin de toilette** o'zini oz-moz tartibga solmoq; **un beau brin de fille** sarvqomat go'zal.

**brindille** *nf* cho'kirt, cho'kirtak, shox-shabba.

**bringue[1]** *nf* aysh-ishrat, maishat, ichkilikbozlik.

**bringue[2]** *nf fam et péj* **une grande bringue** qo'pol, beso'naqay qiz.

**bringuebaler** *vi* chayqalib, gandiraklab yurmoq.

**brioche** *nf* **1.** oshirilgan bo'g'irsoq; **2.** qorin qo'ymoq.

**brique** *nf* **1.** g'isht; **brique réfractaire** o'tga chidamli g'isht; **brique cuite** pishgan g'isht; **brique brute** xom g'isht; **2.** bo'lak; **brique de savon** sovun bo'lagi; **3.** *arg* o'n ming frank.

**briquer** *vt* yaltiratib tozalamoq.

**briquet** *nm* chaqmoqtosh; gazli, benzinli chaqmoqtosh.

**briqueterie** *nf* **1.** briketlash fabrikasi; g'isht zavodi; **2.** g'ishtning tayyorlanishi.

**briquette** *nf* briket (*preslab g'ishtga o'xshatib tayyorlangan narsa*).

**brisant[1]** *nm* **1.** suv osti qoyasi; **2.** to'lqin, ko'pikli to'lqin.

**brisant[2]** *adj mil* parchalaydigan, parchalovchi (*masalan snaryad parchasi*).

**brise** *nf* yengil shamol, shabada (*dengiz sohillarida*); **brise folle, molle** o'zgaruvchan shamol.

**brisé, ée** *adj* ezilgan, singan, parchalangan; **ligne brisée** buzilgan tarmoq.

**brisées** *nf pl* belgi uchun sindirilgan shox-shabba, butalar; **suivre les brisées de qqn** taqlid qilmoq; **aller, marcher sur les brisées de qqn** o'z hududida raqobatlashmoq.

**brise-fer** *ou* **brise-tout** *nm fam* qo'li tekkan narsani sindiruvchi, uquvsiz odam, buzg'unchi, kasofat.

**brise-glace** *nm* muzyorar kema.

**brise-lames** *nm* to'lqinqaytargich.

**briser I.** *vt* **1.** buzmoq, sindirmoq; maydalamoq; **briser en mille morceaux, en mille pièces** mayda-mayda qilib yubormoq, sindirmoq; **briser la volonté** erkini sindirmoq; **briser la résistance** qarshiligini sindirmoq, so'ndirmoq; **2.** charchatmoq, tinkasini quritmoq; **II.** *vi* sinmoq, sinib ketmoq; **III. se briser** *vpr* sinmoq, parchalanmoq.

**brise-tout** *nm fam voir* **brise-fer**.

**briseur** *nm* buzg'unchi.

**bristol** *nm* qattiq qog'oz.

**britannique** *adj* britan, britancha, inglizcha.

**broc** *nm* oftoba, obdasta.

**brocante** *nf* eski kiyimlarni sotish.

**brocanteur, euse** *n* eskifurush.

**brocart** *nm* zardo'zi ipak matoh.

**brochage** *nm* **1.** sahifalash; **2.** tikish, tekislash.

**broche** *nf* **1.** kabob sixi; shampur; **2.** ayollar taqinchog'i; **3.** taxtakach.

**brocher** *vt* **1.** zar iplar qo'shib to'qimoq; **2.** jipslab taxlamoq; muqovalamoq.

**brocheur, euse I.** *n* kitob sahifalarini taxlovchi; **II.** *nf* sahifalovchi dastgoh.

**brochure** *nf* broshura, kitobcha.

**brochet** *nm* cho'rtanbaliq.

**brodequin** *nm* ipli botinka.

**broder** *vt* **1.** tikmoq, kashta tikmoq; **2.** bir oz oshirib yubormoq, lof qilmoq.

**broderie** *nf* kashta, kashtachilik.

**brodeur, euse** *n* **1.** tikuvchi, kashtachi, kashtado'z; **2.** *nf* kashta tikadigan mashina.

**brome** *nm chim* brom.

**bromure** *nm* bromli birikmalar; **bromure d'argent** bromli kumush; **bromure de potasse** bromli kaliy.

**bronche** *nf* nafas yo'llari.

**broncher** *vi* **1.** *vx* qoqilib ketmoq, **2.** o'jarlik, qaysarlik, sarkashlik qilmoq; **sans broncher** tutilmasdan; pinagini buzmasdan; qarshiliksiz, e'tirozsiz.

**bronchite** *nf* bronxit (*nafas yo'llari yallig'lanishi*).

**broncho-pneumonie** *nf* bronxopnevmaniya.

**bronzage** *nm* **1.** bronzalash, bronza bilan qoplash; **2.** oftobda toblanish.

**bronze** *nm* **1.** birinj, bronza; **de bronze** bronzadan, bronzali, bronzaga oid; **2.** bronzadan qilingan san'at asari.

**bronzer** *vt* **1.** bronzalamoq; **2.** quyoshda toblanmoq.

**brosse** *nf* **1.** cho'tka; **brosse à dents** tish cho'tkasi; **brosse à habits** kiyim cho'tka; **brosse à soulier** oyoq kiyim cho'tkasi; **donner un coup de brosse à** cho'tka bilan tozalamoq; **2.** mo'yqalam (*rassom*).

**brosser** *vt* **1.** cho'tka bilan tozalamoq; **2.** chizmoq; **brosser un tableau** rasm chizmoq.

**brosserie** *nf* **1.** cho'tka fabrikasi; **2.** cho'tka savdosi.

**brou** *nm* xom po'choq, po'st (*yong'oqniki*); **brou de noix** jigar rang bo'yoq.

**brouet** *nm* piyova, yovg'on sho'rva.

**brouette** *nf* zambilg'altak.

**brouillard** *nm* tuman; **n'y voir qu'à travers un brouillard** xuddi tumandagidek, biron narsani qiyinchilik bilan ko'rmoq.

**brouiller I.** *vt* **1.** aralashtirmoq; qo'shib yubormoq, adashtirib, chalkashtirib yubormoq; **brouiller les cartes** qartalarni aralashtirmoq; **2.** xiralashtirmoq; **3.** kelisha olmay qolmoq; **II. se brouiller** *vpr* esankirab qolmoq.

**brouillon[1], onne** *adj* chalkash, aralash-quralash.

**brouillon[2] II.** *nm* xomaki qo'lyozma, oqqa ko'chirilmagan qo'lyozma.

**broussaille** *nf* qalin butazor; **barbe en broussaille** chigal, tartibsiz, chalkash soqol, patak soqol.

**broussailleux, euse** *adj* chakalakli, changalzorli; **sourcils broussailleux** o'siq, tik, quyuq qosh.

**brousse** *nf* ovloq joy, yarim tashlandiq maydon, chakalakzor; **2.** *fig* tropik o'rmon butasi.

**brouter I.** *vt* chimdimoq (*o'tni*); **II.** *vi* **1.** o'tlamoq; **2.** notekis randalamoq.

**broutille** *nf* arzimas narsa, arzimagan sabab.

**broyage** *nm* **1.** maydalash, ushatish, bo'lish; **2.** zig'irpoyani titish.

**broyer** *vt* **1.** bo'lmoq; ezmoq, uqalamoq; **2.** maydalamoq, parchalamoq; **broyer la main** qo'lni qattiq siqmoq; **3.** ezmoq, g'ijimlamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**broyeur, euse** *n* **1.** tola titadigan ishchi; **2.** *nf* maydalash, bo'lish mashinasi, maydalagich.
**bru** *nf* kelin.
**bruant** *nm* dehqonchumchuq.
**brugnon** *nm* luchchak shaftoli.
**bruine** *nf* mayda yomg'ir, shivot.
**bruiner** *v impers* maydalab yog'moq.
**bruire** *vt* shildiramoq, shitirlamoq.
**bruissement** *nm* yengil shovqin, shitirlash, shildirash.
**bruit** *nm* **1.** shovqin; shitirlash; **faire du bruit** shovqin solmoq; **à grand bruit** shovqin bilan; **2.** mish-mish, uzun-quloq gap; **des bruits en l'air** bema'ni gap; **répandre un bruit** gap tarqatmoq.
**bruitage** *nm* epizodga mos bo'lgan shovqin chiqarish (*teatrda*).
**bruiteur** *nm* **1.** tovushchi (*nog'ora, childirma kabi shovqinli asboblarni chaluvchi*); **2.** taqlidiy tovush beruvchi.
**brûlage** *nm* **1.** o'tlarni, maysalarni yondirish; **2.** kuydirib tozalash.
**brûlant, ante** *adj* kuydiruvchan, jazirama issiq; qizg'in; **question brûlante** qizg'in savol; **brûlant d'actualité** juda muhim, zarur yangilik.
**brûlé, ée I.** *adj* kuygan, qoraygan; kuyib ketgan; qorayib o'lgan; **II.** *n* **1.** kuygan odam; **2.** *nm* kuyuk, kuygan; **odeur de brûlé** kuygan narsaning hidi; **sentir le brûlé** kuygan hid kelmoq.
**brûle-gueule** *nm* chekishga mo'ljallangan qisqa trubka.
**brûle-pourpoint (à)** *loc adv* to'satdan; yaqindan turib.
**brûler I.** *vt* **1.** yoqmoq; **2.** kuydirmoq, o'tga tutmoq; **brûler les étapes** to'xtovsiz, to'xtamasdan yurmoq; **brûler la politesse** xayrlashmasdan ketmoq; **brûler un espion** ayg'oqchini fosh qilmoq; **II.** *vi* **1.** yonmoq; **brûler de faire qqch** bir narsa qilish ishtiyoqida yonmoq; **les pieds lui brûlent** u ketishga oshiqmayapti; **2.** bir oz kuymoq.
**brûleur** *nm* gorelka.
**brûlot** *nm fig* yoquvchi.
**brûlure** *nf* kuyish, kuyish asorati.
**brume** *nf* tuman.
**brumeux, euse** *adj* **1.** tumanli, g'uborli (*havo*); **2.** g'ira-shira; noaniqlik.
**brun, ue** *adj* **1.** qoramag'iz, bug'doy rang; **2.** *nf* g'ira-shira payt, oqshom.
**brunâtre** *adj* qorachadan kelgan, qoracharoq.
**brunet, ette** *n* bug'doy rangli odam.
**brunir I.** *vt* **1.** qoraytirmoq, qora rangga bo'yamoq; **2.** yaltiratmoq (*metall haqida*); **II.** *vi* **1.** qoracha tus olmoq; **brunir au soleil** quyoshda qoraymoq; **2.** qoraytirib ko'rsatmoq.
**brusque** *adj* **1.** to'satdan; **2.** qo'pol; **mouvements brusques** tez, ilkis harakat.
**brusquement** *adv* to'satdan, kutilmaganda; shiddatli.
**brusquer** *vt* **1.** qo'pol muomalada bo'lmoq; **2.** tezlashtirmoq, kuchaytirmoq; **brusquer les choses** harakatni kuchaytirmoq, tezlashtirmoq; **brusquer la situation** vaziyatdan qutulish yo'lini topmoq; **brusquer la fortune** omadini sinab ko'rmoq.
**brusquerie** *nf* sovuq muomala, qo'pollik.
**brut, brute I.** *adj* **1.** xom, pishmagan, yetilmagan; tozalanmagan; **matière brute** xomashyo; **sucre brut** shakar xomashyosi; **diamant brut** ishlov berilmagan olmos; **2.** qo'pol, nokas; **3.** yalpi, jami, hammasi; **II.** *adv* **peser brut cent kilos** idish bilan og'irligi yuz kilo.
**brutal, ale, aux** *adj* **1.** qo'pol; **2.** to'satdan; **coup de vent brutal** shamolning shiddatli zarbasi; **3.** kuchli ta'sir qiluvchi.
**brutalement** *adv* qo'pollik bilan.
**brutaliser** *vt* qo'pollashmoq.
**brutalité** *nf* **1.** qo'pollik, dag'allik, qo'pol muomala; **2.** kuch qo'llash, kuchini ko'rsatish.
**brute** *nf* **1.** tabiiy; **un diamant encore brut** hali sayqal berilmagan olmos; **2.** qo'pol odam, mol, hayvon.
**bruyant, ante** *adj* shovqinli.
**bruyamment** *adv* shovqin bilan.
**bruyère** *nf* archagul, supurgigul.
**buanderie** *nf* kirxona, kir yuvish joyi.
**bubon** *nm* bubon (*limfa bezlarining shishishi, qo'ltiqqa, chov orasiga bez kelishi*).
**buccal, ale, aux** *adj* og'zaki, og'iz, og'izga oid; **cavité buccale** og'iz bo'shlig'i.
**bûche**[1] *nf* **1.** g'o'la, yorilgan g'o'la; **bûche de Noël** yangi yil torti; **2.** *fig* to'nka, to'ngak, g'o'la.
**bûche**[2] *nf fam* yiqilish.
**bûcher**[1] *nm* **1.** gulxan (*qatl uchun*); **2.** o'tinxona.
**bûcher**[2] *vt* astoydil, bosh ko'tarmay ishlamoq, o'qimoq.
**bûcheron, onne** *n* o'tinchi, daraxt kesuvchi.
**bûchette** *nf* mayda tarasha, payraha.
**bûcheur** *nm* zahmatkash, mehnatkash.
**budget** *nm* budjet; **budget d'Etat** davlat budjeti; **budget annuel** yillik budjet; **budget de guerre** harbiy budjet.
**budgétaire** *adj* budjetga oid; **loi budgétaire** davlat budjeti haqida qonun.
**buée** *nf* bug' tomchisi.
**buffet** *nm* javon, bufet; shkaf (*idish-tovoq uchun*).
**buffle** *nm* buyvol.
**bugle** *nm* mis surnay (*harbiylarda*).
**building** *nm anglic* ko'p qavatli bino, osmono'par bino.
**buis** *nm* shamshod.
**buisson** *nm* buta, butazor, to'qay.
**buissonneux, euse** *adj* buta qoplagan, butazor.
**buissonnier, ière** *adj* o'qish va ishyoqmas.
**bulbe** *nm* **1.** tugunak, ildizmeva, o'simlik piyozi, kartoshkasi; **2.** gumbaz (*piyoz shaklidagi*).
**bulgare I.** *adj* bolgarcha; **II.** *nm* bolgar tili.
**bulldozer** *nm* buldozer.
**bulle** *nf* ko'pik, pufakcha; **bulle d'air** havo pufakchasi; **bulle de savon** sovun ko'pigi; **faire des bulles** ko'pirmoq.
**bulletin** *nm* **1.** bulleten, varaqa (*saylov*); **bulletin de vote** saylov bulleteni; **2.** bulleten (*jurnal*); **3.** yozuv; **bulletin d'appel** chaqiriq qog'ozi; **bulletin de juge** hakam qog'ozi (*sport o'yinlarida*); **4.** ma'lumot; **bulletin d'information** so'nggi ma'lumot; **bulletin météo(rologique)** ob-havo ma'lumoti; **bulletin de renseignement** razvedka ma'lumoti; **bulletin de santé** sog'lig'i haqida qog'oz.
**bungalow** *nm* bungalo; hovlili pastak uy.
**buraliste** *n* tamaki do'koni sotuvchisi.
**bure** *nf* jundan qilingan qo'pol gazlama, chakmon.
**bureau**[1] *nm* **1.** byuro, yozuv stoli; **2.** kanselyariya, idora, devonxona; xizmat idorasi, ishxona; **bureau de vote** saylov uchastkasi; **bureau de renseignement** ma'lumotxona; **bureau des objets trouvés** topilmalar byurosi; **bureau de location** oldindan bilet sotish kassasi; **bureau de poste** pochta bo'limi; **bureau de tabac** tamaki kioskasi; **être à son bureau** xizmatda bo'lmoq.
**bureau**[2] *nm* byuro (*ma'muriyat*); **bureau de séance** yig'ilish hay'ati.
**bureaucratie** *nf* qog'ozbozlik, to'rachilik.
**bureaucratique** *adj* to'ralarcha.
**burette** *nf* cherkovdagi muqaddas suyuqliklar idishi.
**burin** *nm* temir kesadigan qaychi.
**buriner** *vt* iskana bilan shakl bermoq, kesmoq, qirqmoq, urib teshmoq.
**burlesque I.** *adj* bo'rttirilgan, mubolag'ali; kulgili, kulgi qistatadigan; **II.** *n* bo'rttirilgan hajviy tasvir.
**burnous** *nm* **1.** yengsiz, qalpoqli chakmon (*arablarda*); **2.** chaqaloq kiyimi.
**buse**[1] *nf* **1.** sor (*yirtqich qush*); **2.** *fam* ahmoq, tentak.
**buse**[2] *nf* **1.** ventilyatsiya quvuri; havo quvuri (*shaxtada*); **2.** naycha.
**business** *nm* **1.** *vx* ish; **2.** tijorat, tadbirkorlik.
**busqué, ée** *adj* do'ng; **nez busqué** do'ng burun.
**buste** *nm* **1.** gavdaning beldan yuqori qismi; siyna; **2.** bosh va yelka yarmi aks etgan haykal.
**bustier** *nm* siynaband.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**but** *nm* **1.** maqsad, mo'ljal, nishon; **coup au but** nishonga to'g'ri tegish; **atteindre le but** nishonga urmoq; **manquer le but** xato otmoq; **2.** *fig* mo'ljal, niyat; **aller droit au but** maqsadga o'tmoq; **dans le but** maqsadda, niyatda; **3.** *foot* darvoza; **4.** gol; **marquer le but** gol urmoq.

**butane** *nm* butan.

**buté, ée** *adj* qaysar, qaysarlik qiluvchi.

**butée** *nf* **1.** ko'prik ustuni; **2.** tirgak, tirgovuch bo'ladigan.

**buter**[1] **I.** *vi* to'qishmoq, borib taqalmoq; bog'liq bo'lib qolmoq; **II.** *vt* **1.** tiramoq, tirab qo'ymoq; **2.** kimdadir qat'iyatlik uyg'otmoq; **III. se buter** *vpr* urilmoq, qoqinmoq.

**buter**[2] *vt fam* o'ldirmoq.

**buteur** *nm* gol uruvchi.

**butin** *nm* **1.** o'lja; **butin de guerre** urush o'ljasi; **2.** izlanish natijasi.

**butiner** *vi* **1.** gullarga qo'nib bol to'plamoq (*asalari*); **2.** u yer-bu yerdan ma'lumot to'plamoq.

**butoir** *nm* to'xtatish to'sig'i (*temir yo'l*).

**butor** *nm* **1.** mushgir, ko'lbuqa (*qush*); **2.** *fig* qo'pol, tarbiyasiz odam.

**butte** *nf* **1.** otish maydonidagi tabiiy yoki sun'iy to'siq; **2.** tepalik, do'nglik.

**butter** *vt* chopmoq, chopiq qilmoq.

**buvable** *adj* ichimli, ichiladigan; yaroqli, ichib bo'ladigan.

**buvard** *adj* **papier buvard** bosma qog'oz, siyohni shimib oladigan qog'oz.

**buvette** *nf* peshtaxta, bufet.

**buveur, euse** *n* ichuvchi, ichishni yaxshi ko'ruvchi.

**byzantin, ine** *adj* Vizantiyaga oid.

# C

**C, c** *nm* fransuz alifbosining uchinchi harfi.

**ça** *pron dém* **1. il ne manquait plus que ça** faqat bu yoq; **à part ça** bundan boshqa; **c'est comme ça** bu shunday, bu haqiqiy; **comme ça, vous ne restez pas?** shunday qilib, qolmaysizmi? **2. c'est ça!** shunaqami! **ah, ça alors!** ha hali shundaymi! **c'est ça, bravo!** xuddi shunday! bu juda yaxshi, ofarin.

**çà** *adv* bu yerda, bu yoqqa, bu tomonga, beri; **çà et là** bu yer u yerda.

**cabale** *nf fig* isyon, fitna, kirdikor, hiyla-nayrang, qutqu; **monter des cabales** fitna, qutqu solmoq; g'alamislik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq; **2.** yomon niyatli to'da, guruh, niyati buzuq kishilar; **3.** sehr, afsun.

**caban** *nm* bosh kiyimli jun chakmon, dengizchilar kiyadigan keng jun kiyim.

**cabane** *nf* **1.** kulba, chayla, kapa, kichik uy, umuman pana joy; **2.** quyonxona; **cabane à lapins** quyon boqadigan joy; **3.** ipak qurti qo'yadigan joy, uy; **4. mettre en cabane** qamamoq, qamab qo'ymoq.

**cabaret** *nm* **1.** ichimlik ichadigan joy, mayxona, kabare; **2.** tomosha ko'rsatadigan joy, kafe-konsert; **3.** kichik sandiqcha.

**cabas** *nm* qo'lga osib yuriladigan xalta yoki yumshoq savatcha (*oziq-ovqat uchun*).

**cabestan** *nm* tik o'qli ko'targich, yuk ortgich, chig'ir.

**cabillaud** *nm* treska balig'i.

**cabine** *nf* kichik xona, kupe, kayuta, bo'lma; **cabine de pilotage** uchuvchi xonasi, kabinasi; **cabine de bain** hammomda kiyim yechadigan bo'lma; **cabine téléphonique** telefon kabinasi; **cabine d'ascenseur** lift.

**cabinet** *nm* **1.** xona, kabinet; **cabinet de toilette** yuvinish xonasi; **2. cabinets** (**d'aisances)** hojatxona; **3.** rasmiy ishxona; **4.** vazirliklar; vazirlar mahkamasi, hukumat.

**câblage** *nm* **1.** kabelni o'rash, eshish; **2.** elektr kabeli, simi o'tkazish.

**câble** *nm* **1.** kabel, po'lat arqon, tros, sim arqon; **2.** elektr kabeli; **3.** telegramma; **envoyer une dépêche par câble** telegramma jo'natmoq.

**câbler** *vt* **1.** kabelni o'ramoq, eshmoq; **2.** telegramma jo'natmoq.

**cabochard, arde I.** *adj* o'jar, qaysar; **II.** *n* qaysar, o'jar odam.

**caboche** *nf* **1.** bosh, kalla, miya; **2.** aql; **il a une bonne caboche** u aqlli.

**cabochon** *nm* silliq qimmatbaho tosh, billur.

**cabosser** *vt* do'mpaytirmoq, urib, puflab shishirmoq; **cabosser un chapeau** shilyapasini urib shishirmoq; **l'aile de sa voiture est un peu cabossée** mashinasining qanoti ozgina shishgan, do'mpaygan.

**cabot**[1] *nm* it.

**cabot**[2] *nm* kapral, harbiy unvon.

**cabot**[3] *nm* yomon aktyor; **un vieux cabot** qari sayoq aktyor.

**cabotage** *nm* qirg'oq yaqinida suzib yurish (*qayiqda*).

**cabotin, ine** *n* **1.** daydi, sayoq, yomon aktyor; **2.** o'zini ko'rsatishga orinadigan odam.

**cabotinage** *nm* lo'ttibozlik, firibgarlik, ayyorlik.

**caboulot** *nm* arzon kafe, oshxona.

**cabrer I. se cabrer** *vpr* orqa oyoqlarida tik turmoq; tik ko'tarilmoq (*hayvonlar haqida*); **2.** norozilik bildirmoq, qo'zg'olon qilmoq; **II.** *vt* tik turg'izmoq; **cabrer son cheval** otini orqa oyoqlarida tik turg'izmoq; **cabrer un avion** samolyot oldini ko'tarmoq, uchmoq.

**cabri** *nm* **1.** uloq, echki bolasi; **bonds, sauts de cabri** uloq sakrashi; **2.** echki turi.

**cabriole** *nm* **1.** depsinish, irg'ishlamoq, tartibsiz, injiq, yengil sakrash; **2.** kulbit, piruet (*bir oyoq uchida aylanish*); **faire la cabriole** bir oyoq uchida aylanmoq, egiluvchan bo'lmoq, moslashmoq.

**cabrioler** *vi* bir oyoq uchida aylanmoq.

**cabriolet** *nm* **1.** ikki g'ildirakli ot arava; **2.** usti ochiladigan avtomobil; **3.** xotin-qizlar, bolalar shlapasi.

**cacahouète** *ou* **cacahuète** *nf* yeryong'oq.

**cacao** *nm* **1.** kakao; **2.** kakao urug'i, doni.

**cacaoté, ée** *adj* kakaoli, kakao solingan.

**cacaotier** *ou* **cacaoyer** *nm* kakao daraxti.

**cacatoès** *nm* toji, po'pagi rangli to'ti, to'tiqush, kakadu.

**cacatois** *nm* to'tiqushning ustidagi kichik pardasi, toji.

**cachalot** *nm* kashalot, yirtqich kit.

**cache** *nf* **1.** ovloq, go'sha, pana joy; **2.** yozishga, pechat qilishga mo'ljallangan qog'oz, bosma qog'oz.

**cache-cache** *nm inv* bekinmachoq o'yin.

**cache-col** *nm* bo'yinbog', sharf, kashne.

**cachemire** *nm* **1.** echki junidan tayyorlangan material, gazmol; **2. châle de cachemire** kashmir jun ro'moli.

**cache-nez** *nm inv* bo'yinbog', sharf, kashne.

**cache-pot** *nm inv* gul o'tqazadigan bezakli vaza, tuvak, ko'zaning qoplamasi.

**cacher I.** *vt* **1.** yashirmoq, bekitmoq, sir saqlamoq; **cacher son jeu** maqsadini yashirmoq; **2.** to'smoq, pana qilmoq; **cacher ses inquiétudes** tashvishini yashirmoq; **3.** xalos qilmoq, qutqarmoq; **4.** xalaqit bermoq (*ko'rishga*); **II. se cacher** *vpr* **1.** yashirinmoq, bekinmoq; **un fuyard qui se cache** qochoq bekindi; **2.** *fig* **sa méchanceté se cache sous de l'indifférence** go'llikka solib yovuzligini, yovuz niyatini bekitdi.

**cache-radiateur** *nm inv* isitish radiatorining qoplama to'sig'i.

**cache-sexe** *nm inv* cho'milganda kiyadigan tor, kalta ishton, trusik.

**cachet** *nm* **1.** muhr, tamg'a; **rompre le cachet** muhrni sindirmoq; **2.** belgi, iz, nishon, tamg'a; **lettre de cachet** qirolni surgun qilgan farmoni; **3.** kapsula, tabletka, hap dori; **prendre un cachet** dori ichmoq; **cachet d'aspirine** aspirin tabletkasi.

**cacheter** *vt* muhrlamoq, tamg'alamoq; **cacheter une lettre** xatni muhrlamoq.

**cachetage** *nm* muhrlash, tamg'alash.

**cache-tampon** *nm inv* ro'molcha bekitish o'yini.

**cachette** *nf* **1.** *loc adv* **en cachette** yashirincha; **2.** pana joy, yashirin joy.

**cachexie** *nf* darmonsizlik, ozg'inlik, holsizlik, nimjonlik.

**cachot** *nm* **1.** avaxta, qorong'u hibisxona, zindon; **2.** qamoq; **mettre au (dans un) cachot** avaxtaga tashlamoq.

**cachotterie** *nf* sir tutish, sir bekitish; **faire des cachotteries** sir tutmoq, sir bekitmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**cachottier, ière** *adj* sir tutuvchi, sir bekituvchi; sirli; **elle est cachottière** sirli ayol (*xotin yoki qiz*).

**cachou I.** *nm* **1.** akatsiya daraxtidan olinadigan modda; **2.** palma daraxti sharbati, shirasi; **II.** *adj* **couleur cachou** qizil jigarrang.

**cacique** *nm* **1.** kasik, kashik (*Markaziy Amerika hindularining sardori, yo'l boshlovchisi*); **2.** pedagogika oliy bilimgohi ko'rigi sovrindori.

**cacochyme** *adj* **1.** ozg'in, holsiz, darmonsiz, qonsiz; **2.** qartaygan, qartayib kuch-quvvatdan qolgan, munkillagan.

**cacophonie** *nf* **1.** kakofoniya; **2.** yoqimsiz tovushlar yig'indisi.

**cacophonique** *adj* yoqimsiz xunuk (*tovushda*).

**cactus** *nm* kaktus, qumanjir.

**cadastral, ale** *adj* yer sathini, ustini aniqlashga aloqador.

**cadastre** *nm* kadastr (*ma'lumotlar to'plami, biror narsaning ro'yxati*), yer sathini aniqlash, o'lchash.

**cadastrer** *vt* yer sathini, yuzasini o'lchamoq, yer sathini yozib tasvirlamoq, tuzmoq.

**cadavérique** *adj* murdaga oid, o'lik jasadga aloqador.

**cadavre** *nm* **1.** o'lik jasad, murda; **être, rester comme un cadavre** murdaday qotib qolmoq; **2.** *fam* bo'sh shisha.

**caddie I.** *nm* golf, to'p o'yini uchun buyumlarni ko'tarib yuradigan bola.

**caddie II.** *nm* qo'l bilan itarib yuradigan kichik aravacha.

**cadeau** *nm* sovg'a, hadya, tuhfa, tortiq, armug'on, in'om; **faire cadeau de** sovg'a, tortiq, in'om qilmoq.

**cadenas** *nm* osma qulf; **fermer une porte au cadenas** eshikni osma qulf bilan yopmoq; **mettre un cadenas aux lèvres de qqn** birovning og'zini yopib qo'ymoq.

**cadenasser** *vt* osma qulf bilan yopmoq, qulflamoq.

**cadence** *nf* **1.** o'lcham, ko'lam, miqyos, o'lchov, marom, maqom, sur'at, temp, vazn; **la cadence des pas** qadam sur'ati; **2.** o'zaro moslik, monandlik, muvofiqlik, uyg'unlik, bir-biriga to'g'ri kelish, aynanlik; **cadence parfaite** a'lo to'g'ri kelish, a'lo aynanlik; **3. en cadence** bir maqomda, maromda, ko'lamda; **4.** tovush yoki harakatning bir maqomda takrorlanishi; **cadence de tir d'une arme** qurol, miltiqning bir maromda tez ketma-ket otishi; **une cadence infernale** do'zaxiy, jahannam sur'ati; **forcer la cadence** jadal, tez qadam tashlamoq.

**cadencé, ée** *adj* ko'lamli, maromli, muvofiq, monand.

**cadencer** *vt* **1.** monandlik, muvofiqlik, moslikni saqlamoq (*gapda, she'riyatda*); **2.** moslamoq, uyg'unlashtirmoq; **cadencer son pas** qadamini moslamoq, qadamini to'g'rilamoq.

**cadet, ette I.** *adj* kichik, kichkina, kenja; **II.** *nm* **1.** kenja o'g'il, qiz, oxirgi bola; **2.** yoshi kichik, kichkina; **il est mon cadet de deux ans** u mendan ikki yosh kichik; **3.** so'ngisi; **c'est le cadet de mes soucis** bu mening iztiroblarimning eng kichigi; **4.** kadet (*harbiy termin*); **5.** yoshlar komandasi o'yinchisi (*15-17 yoshlar*) **6.** kursant (*harbiy maktab o'quvchisi*).

**cadi** *nm* qozi.

**cadmium** *nm* kadmiy (*kimyoviy element*).

**cadrage** *nm* kadrlarni joy-joyiga qo'yish (*suratda, kino-televizorda*).

**cadran** *nm* **1.** siferblat (*soat ustki qismi*); **cadran solaire** quyosh soati; **faire le tour du cadran** yarim sutka uxlamoq; **2.** diska, lappak, to'garak, aylana, gardish, bo'lingan (kataklarga) yoy, do'g'a; **3.** biron apparatning kataklarga bo'lingan yassi usti; **cadran d'une boussole** kompas usti; **cadran d'un téléphone** telefon raqamlari.

**cadre** *nm* **I. 1.** rom, ramka, deraza, chet, kesaki; **2.** kartinani ramkaga solish, hoshiya; **II. 1.** *fig* hoshiya, bezash, o'rab turish; **être dans le cadre de** imkoniyat chegarasida bo'lmoq; **2.** kartina, ko'rinish; **figurer sur les cadres** kadrlar ro'yxatida bo'lmoq; **être rayé des cadres** ishdan haydalmoq; **3.** xodim.

**cadrer** *vt* biron narsaga mos bo'lmoq, to'g'ri kelmoq, ramkaga joylashmoq, sig'moq; **faire cadrer** moslashtirmoq.

**caduc, uque** *adj* **1.** eskirgan, muhlati tugagan, iste'moldan qolgan; kuchini yo'qotgan; **2.** to'kiluvchi, tushib ketuvchi (*barg*); **3.** *ling* **"e" caduc** tez talaffuz etiladigan tovush.

**caducée** *nm* tibbiyot ramzi.

**caecum** *nm anat* ko'richak.

**cafard, arde** *n* **1.** riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi; **2.** chaqimchi, g'iybatchi, tuhmatchi, qora niyatli; **3.** *nm* suvarak, nonxo'rak.

**cafardage** *nm* chaqimchilik, g'iybatchilik, gap tashish, yolg'on-yashiq gap.

**cafarder** *vi* chaqimchilik qilmoq, gap tashimoq, g'iybat qilmoq, chaqmoq.

**café I.** *nm* **1.** qahva, qahva doni, kofe; **café torréfié** qovurilgan qahva; **2.** kafe (*ovqatlanadigan joy*); **II.** *adj inv* **couleur café** qahva rang, jigar rang; **couleur café au lait** sutli qahva rang.

**cafetan, caftan** *nm* sharqiy po'stin.

**cafétéria** *nf* qahvaxona.

**cafetière** *nm* **1.** qahva qaynatadigan idish; **2.** *fam* bosh, kalla.

**cafouillage** *nm* tartibsiz, nommutanosib harakat.

**cafouiller** *vi* **1.** tartibsiz harakat qilmoq, xo'ja ko'rsinga qilmoq; **2.** notekis, to'xtab-to'xtab ishlamoq, yomon ishlamoq (*motor haqida*).

**cafouillis** *nm* **1.** aralash quralash, tartibsizlik, betartib harakat.

**cage** *nf* **1.** qafas; **cage d'ascenseur** lift o'rnatilgan joy; **cage d'escalier** zinapoya qaznog'i; **cage d'extraction** ko'targich qaznoq (*shaxtada*); **cage de Faraday** Faradey katagi; **cage thoracique** ko'krak qafasi; **belle cage ne nourrit pas l'oiseau** qushga oltin qafasdan shox afzal; **2.** qamoq; **3.** soat korpusi.

**cagne** *nf fam voir* **khâgne**.

**cagneux[1], euse** *adj* **1.** qiyshiq oyoq, maymoqoyoq; **2.** qiyshaygan, bukilgan, tugunsimon.

**cagneux[2], euse** *adj fam voir* **khâgneux, euse**.

**cagot, ote I.** *n* riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi, tilyog'lama; **II.** *adj* riyokorona, munofiqona, ikkiyuzlamachilik bilan.

**cagoule** *nf* **1.** engsiz bosh kiyimli monaxlar paltosi, kiyimi; **2.** kapushon (*ko'z uchun o'yilgan teshigi bor*); **3.** jun dubulg'a, shlem, temir qalpoq.

**cahier** *nm* **1.** daftar; **2. cahier des charges** texnik talabalar, tafsilotli ro'yxat; **3.** jurnal.

**cahin-caha** *adj* nari-beri, shundayicha, chala-chulpa, pala-partish, chalakam-chatti, zo'rg'a, arang, amal-taqal qilib, unchalik emas, o'rtacha, bir navi.

**cahot** *nm* **1.** turtish, itarish, urish, zarba, silkinish; **2.** qiyinchilik, mushkullik, qiyinchilik, murakkablik, chigallik, asorat.

**cahotant, ante** *adj* silkinishli (*avtomobilda*); o'nqir-cho'nqir, o'ydim-chuqur, past-baland (*yo'l*).

**cahotement** *nm* silkinish, turtish, itarish.

**cahoter I.** *vt* silkimoq, turtmoq, itarmoq; **II.** *vi* itarilmoq, silkinmoq, turtinmoq.

**cahoteux, euse** *adj* o'nqir-cho'nqur, past-baland (*yo'l*).

**cahute** *nf* kulba, hujra, chayla, qashshoq uy.

**caïd** *nm* **1.** kaid (*Tunisda, Marokkoda qabila boshlig'i*); **2.** shayka boshlig'i, sarkar boshchi, qorchalon, ishboshi, ko'zga ko'ringan odam; **jouer les caïds** o'zini ulug'vor, sipo, basavlat, viqorli, mag'rur odam qilib ko'rsatmoq.

**caïeu, cayeu** *nm* kurtak, o'simlik piyozi (*lola*), pindiq.

**caillasse** *nf* **1.** tosh, chaqir tosh; **2.** yirik tosh, chaqir tosh, yo'lga yotqiziladigan tosh; **marcher dans la caillasse** chag'irtoshda yurmoq.

**caille** *nf* bedana.

**caillé** *nm* achigan sut, irib, ivib qolgan sut.

**caillebotis** *nm* to'shama, loy joydagi to'shama yo'lak.

**cailler I.** *vt* tvorogga aylantirmoq, iritmoq; **II.** *vi* sovuq qotmoq; **III. se cailler** *vpr* quyulmoq, ivimoq, ivib qolmoq, quyuqlashmoq (*sut*).

**caillette** *nf* qatqorin bo'lmasi (*kovush qaytaruvchilarda qorinning to'rtinchi bo'linmasi*).

**caillot** *nm* quyulib qolgan qon.

**caillou** *nm* **1.** chag'irtosh, chaqmoqtosh, shag'al, maydatosh; **2. casser des cailloux** mashaqqatli ish; **chemin jonché de cailloux** mashaqqatli yo'l, qiyin yo'l; **3.** qimmatbaho tosh, olmos; **4.** bosh, kalla; **il n'a pas un poil sur le caillou** boshida, kallasida bir dona ham tuki yo'q.

**cailloutage** *nm* tosh terish, yotqizish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**caillouter** *vt* shag'al, chag'irtosh yotqizmoq; **caillouter une route** yo'lga shag'al yotqizmoq; **allée cailloutée** shag'al, chag'irtosh yotqizilgan yo'lak, tosh terilgan yo'lak.

**caillouteux, euse** *adj* toshloq, shag'alli; **chemin caillouteux** tosh yo'l.

**cailloutis** *nm* shag'al, chag'irtosh uyumi, to'dasi; **recouvrir une route de cailloutis** yo'lga shag'al yotqizmoq.

**caïman** *nm* Amerika timsohi, allegator.

**caïque** *nm* qayiqcha (*yengil*).

**caisse** *nf* **1.** katta quti, yashik; **2. caisse du tympan** quloq bo'shlig'i; **3.** ko'krak qafasi; **s'en aller, partir de la caisse** sil bilan og'rimoq; **4.** kassa, pul qutisi, sandiqchasi; **caisse d'assurance** sug'urta kassasi; **caisse d'épargne** omonat kassasi; **tenir la caisse** kassani boshqarmoq, kassaga mudirlik qilmoq; **5.** darcha, tuynuk, pul to'laydigan, beradigan darcha.

**caisserie** *nf* quti, yashiklar ishlab chiqarish sanoati.

**caissette** *nf* **1.** kichkina quti, yashikcha; **2.** kasseta (*magnitofonda*).

**caissier, ière** *n* kassir, kassa egasi.

**caisson** *nm* **1.** lazaret furgoni, soyabon aravasi; **2.** o'q dori qutisi harbiy; **3.** *fam* bosh, kalla; **se faire sauter le caisson** miyasidan, peshonasidan otmoq; **4.** *fam* ko'krak qafasi; **5.** shipga ishlatiladigan bezak naqshlar.

**cajoler** *vt* **1.** erkalamoq, silab-siypamoq, suymoq; **2.** xushomad, laganbardorlik qilmoq; havasini keltirmoq, yo'ldan ozdirmoq, urmoq; *vi* qichqirmoq (*sayka, olahakka haqida*).

**cajolerie** *nf* sermulozamat bo'lmoq.

**cajoleur, euse I.** *n* xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi, yaltoq, yo'ldan uruvchi ayol; **II.** *adj* erka, xushomadgo'y, laganbardor, tilyog'lama.

**cajou** *nm* gajakyong'oq mag'zi.

**cake** *nm* shirin non, mayizli, quruq mevali keks.

**cal** *nm* qadoq, qavariq; **avoir la paume des mains pleine de cals** kaftini butunlay qadoq bosgan.

**calamar** *nm voir* **calmar**.

**calamine** *nf* **1.** rux; **2.** qurum; **cylindres calaminés** qurum bilan qoplangan silindr.

**calamité** *nf* kulfat, katta baxtsizlik, falokat, ofat, musibat, halokat, fojiya, balo-qazo.

**calamiteux, euse** *adj* halokatli, falokatli.

**calandrage** *nm* qog'oz yoki rezinani silliqlash, charmni yaltiratish, pardozlash, jilolash.

**calandre** *nf* **1.** chig'iriq (*gazmol, qog'ozni pardozlaydigan*); **2.** radiatorning himoya to'sig'i.

**calandrer** *vt* chig'iriqlamoq, silliqlamoq, pardozlamoq, yaltiratmoq, jilolamoq, chig'irlab yoymoq.

**calanque** *nf* qirg'oqdagi yirik o'yiqlar, kichik bo'g'oz.

**calcaire I.** *adj* ohak, ohakli; **II.** *nm* ohaktosh, bo'rli, ganchli, marmarli jins.

**calcédoine** *nm* qimmatbaho tosh, aqiq.

**calcification** *nf* ohaklash, ganchlash, qotirish.

**calciner** *vt* olovda toblamoq.

**calcite** *nf* ohakli shpat.

**calcium** *nm* kalsiy.

**calcul**[1] *nm* **I. 1.** hisoblash, hisob qilish, hisob, hisob-kitob qilish, sanab chiqish, sanash, sanoq; **2.** arifmetik amallar; *pl* hisobdagi amallar, asoslar; **calcul mental** yodda hisoblash, sanash; **3.** baholash, hisoblab baho qo'yish; **4.** g'arazli istak, reja, qiziqish, xohish, niyat, mayil; **calculs sordides** g'arazli o'y, fikr, mulohaza; **sans calcul** g'arazsiz; **II.** matematik misollar ishlash, bajarish, yechish; **calcul logarithmique** logaritmlar bilan ishlash; **calcul infinitésimal** cheksiz mayda sanoqlar, sonlar; **calcul des propositions** gaplarni, takliflarni sanash, hisobga olish.

**calcul**[2] *nm* toshga aylanish, quyqa, tosh; **calcul rénal (biliaire)** buyrakdagi tosh.

**calculable** *adj* sanab, hisoblab bo'ladigan.

**calculateur, trice**[1] **I.** *n* hisobchi odam, hisobdon; **II.** *adj* zakovatli, zehnli, zehni o'tkir, idroki zo'r, topqir, rejali, tadbirkor.

**calculateur, trice**[2] *n* **1.** *nm* hisob-kitob qiluvchi qurilma, hisoblash mashinasi; **2.** *nf* kalkulyator.

**calculatrice** *nf* arifmometr (*hisob-kitob qiluvchi*).

**calculer** *vt* **1.** hisoblamoq, hisob-kitob qilmoq, sanamoq, sanab chiqmoq; **calculer un bénéfice** foydani hisoblamoq; **machine à calculer** hisoblash mashinasi; **2.** chamalamoq, mo'ljallamoq, taxmin qilmoq, o'ylamoq, aqli ishlamoq, fahmi yetmoq; **calculer ses chances** omadni sinab ko'rmoq, chamalamoq.

**cale**[1] *nf* **1.** tryum (*kemaning ostki qismi*), bo'lma; **cale de radoub, cale sèche** quruq dok (*kema kirgandan keyin suvi chiqarilib yuboriladigan joy*); **être à fond de cale** bepul, pulsiz qolmoq; **2.** yuk qo'yadigan bo'lma, yuk qo'yadigan joy (*samolyotda*), kemada.

**cale**[2] *nf* **1.** pona, boshmoq; **2.** tirgovich pona; **cales de départ** chopishni boshlashda oyoq tagiga qo'yiladigan tirgovich pona.

**calé, ée** *adj* **1.** bilimdon, bilimli, ma'lumotli, yaxshi biladigan; **il est calé en histoire** tarixdan bilimdon, tarixni yaxshi biladi; **2.** og'ir, qiyin, murakkab, mushkul.

**calebasse** *nf* suv qovoq.

**calèche** *nf* to'rt g'ildirakli ot qo'shiladigan arava.

**caleçon** *nm* kalson, ishton, trusi.

**calembour** *nm* kalambur, so'z o'yini, tajnis.

**calembredaine** *nf* bekorchi gap, safsata, hazil, bema'ni gap, behuda gap, puch gap, bo'lmag'ur gap; **débiter des calembredaines** hazil qilmoq, gap otmoq, bekorchi gap qilmoq.

**calendes** *nf pl* oy boshi, oyning birinchi kuni (*qadimgi Rimda*); **renvoyer aux calendes grecques** tuyaning dumi yerga tekadigan kunga qoldirmoq, haftaning shanba kuniga qoldirmoq.

**calendrier** *nm* **1.** taqvim, oy kunlarni ko'rsatadigan jadval, kitobcha; **calendrier grégorien** gregorian taqvimi; **calendrier républicain** respublika taqvimi; **calendrier julien** yulian, Yuliy Sezar taqvimi; **2.** xronologiya, voqealar tarixi; **3.** yillik reja; **calendrier des postes** ish rejasi.

**cale-pied** *nm inv* velosipedda oyoq qo'ygich.

**calepin** *nm* yon daftarcha, xotira daftarchasi.

**caler**[1] **I.** *vt* **1.** tirgovich qo'ymoq, tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak, tirgovuch qo'ymoq; **2.** mustahkam o'rnatmoq; **II. se caler les joues** *vpr loc fam* ochko'zlik bilan yemoq.

**caler**[2] *vi* **1.** to'xtab, o'chib qolmoq (*motor*); **2.** chekinmoq, qaytmoq, kechmoq; **il a calé devant la difficulté** qiyinchilikdan orqaga chekindi.

**caleter** *vi pop voir* **calter**.

**calfater** *vt* tiqib bekitmoq, bekitmoq, tiqib yopmoq, kemalarning teshiklarini bekitmoq.

**calfeutrage** *nm* teshik-tirqishlarni bekitish.

**calfeutrement** *nm* teshik-tirqishlarni yopish.

**calfeutrer** *vt* **1.** teshiklarni tiqin bilan bekitmoq; **calfeutrer une fenêtre** deraza teshiklarini bekitmoq; **2.** parda tutmoq, pardalamoq, niqoblamoq, pana qilmoq (*derazani*); **se calfeutrer** bekinib olmoq, qulflab qo'ymoq, bekilmoq; **se calfeutrer dans sa chambre** o'z xonasiga bekinib olmoq, bekilmoq.

**calibrage** *nm* o'lchash, qoliplash, to'g'rilash, tekshirish, graduslarga, darajalarga ajratish.

**calibre** *nm* **1.** kalibr (*nay, quvurning ichki diametri*), har xil katta-kichiklik, o'lcham, miqdor, miqyos, ko'lam, vazn, o'lchov; **2.** o'lchov, mezon; **3.** xususiyat, xoslik, sifat, xislat, fazilat; **ils sont du même calibre** o'zimizning toifamizdan, to'pimizdan.

**calibreur, euse** *nm* darajalarga bo'lish mashinasi.

**céder I.** *vt* kechmoq, bahridan kechmoq, bermoq, in'om qilmoq; **céder sa place** joyini bermoq; **II.** *vi* **1.** bo'yin egmoq, itoat etmoq, bo'ysunmoq; **céder à qqn** birovga itoat etmoq; **2.** pasaymoq; **il ne lui cède en rien** u undan past kelmaydi, u bilan teng; **3.** tubanlashmoq; **4.** dosh bermoq, chidamoq; **une branche qui cède sous le poids des fruits** mevalar og'irligiga dosh bera olmaydigan shox.

**cédrat** *nm* yirik limon.

**cèdre** *nm* kedr (*ignabargli yashil katta daraxt*).

**ceindre** *vt* bel bog'lamoq; kamar, belbog' bog'lamoq; o'rab, qamrab, qurshab olmoq, o'ramoq; **ceindre une écharpe** bo'yinbog' o'ramoq.

**ceinture** *nf* **1.** belbog', kamar, qayish; **2.** *loc* **se serrer, se mettre la ceinture** kamarni siqib bog'lamoq, och qolmoq; **3. ceinture de judo** dzudo kamari; **4. ceinture de natation, de sauvetage** suzish, qutqarish kamari; **5.** bel (*belning siqib bog'langan joyi*); **entrer dans l'eau jusqu'à la ceinture** belgacha suvga tushmoq; **6.** devor, to'siq, g'ov, panjara, ihota; **chemin de fer de ceinture** temir yo'l g'ovi, aylanma temir yo'l; **ceinture verte** yashil ihota.

**ceinturer** *vt* **1.** bel bog'lamoq, o'ramoq, kamar bog'lamoq; **2.** bel; **ceinturer son adversaire** raqibini belidan tutmoq, ushlamoq.

**ceinturon** *nm* harbiylar kamari, qurol tasmasi.

**cela** *pron dém neutre* **1.** bu, ushbu, mana bu, mana shu (*uzoqroq masofani bildiradi*); **2.** bu narsa; **tout cela est faux** buning hammasi soxta, yasama.

**célébration** *nf* **1.** maqtash, ko'klarga ko'tarish, madh qilish, shuhratini olamga yoyish, mashhur qilish; **2.** bayram qilish, qutlash, tabriklash, nishonlash; **3.** tantanali ibodat, namoz, ibodat qilish.

**célèbre** *adj* ma'lum, mashhur, dongdor, nomdor, atoqli, dong'i chiqqan.

**célébrer** *vt* **1.** bayram qilmoq, tantanalamoq, nishonlamoq; **2.** dong taratmoq, chiqarmoq; **3.** maqtamoq, mashhur qilmoq; **4.** ibodat qilmoq, namoz o'qimoq; **célébrer la messe** ibodat qilmoq.

**célébrité** *nf* **1.** shuhrat, nom, dovrug', dong, ovoza, mashhurlik; **2.** mashhurlik, atoqli, dongdor kishi.

**celer** *vt* yashirmoq, bekitmoq, sir saqlamoq.

**céleri** *nm* selderey (*kashnichsimon oshko'k*).

**célérité** *nf* ijro etishning tezligi, jadalligi.

**céleste** *adj* **1.** osmonga, ko'kga, fazoga, koinotga oid, fazoviy; **la voûte céleste** osmon gumbazi; **2.** rohat-farog'at, huzur-halovat; **la béatitude céleste** samoviy huzur-halovat rohat-farog'at; **3.** go'zal, ajoyib, g'ayritabiiy, ilohiy, mislsiz; **une beauté céleste** g'ayritabiiy, mislsiz go'zallik.

**célibat** *nm* bo'ydoqlik; nikohsizlik; xotinsiz, ersiz yashash.

**célibataire I.** *adj* bo'ydoq, xotinsiz, ersiz, uylanmagan; **II.** *n* bo'ydoq odam, ersiz xotin.

**celle** *pron dém f* bu (*ayol*).

**cellier** *nm* yerto'la, mayxona (*vino saqlanadigan joy*).

**cellophane** *nf* sellofan.

**cellule** *nf* **1.** *bot* hujayra; **2.** mumkatak, katak; **3.** yakka kamera (*qamoqda*) **4.** hujra, kulba, faqirona uy; **5.** planyor (*samolyotda*); **6.** qobiq, uya, katak, ko'z, bo'lak; **7.** yacheyka, sho'ba (*partiyaning boshlang'ich guruhi*).

**cellulite** *nf tibbiyotda* bo'rtish, shishish, qappayish, ko'tarilish, kepchish.

**celluloïd** *nm* selluloid (*yonmaydigan material*).

**cellulose** *nf* selluloza (*modda*), biriktiruvchi to'qima.

**celtique** *ou* **celte I.** *adj* keltlarga oid; **II.** *n* **1.** kelt, keltlar, kelt, gall xalqi; **2.** *nm* kelt tili.

**celui** *pron dém m*, **ceux** *m pl*, **celle** *f*, **celles** *f pl* bu, shu, mana bu, mana shu; **celui que vous voyez là** mana shu siz ko'rayotgan; **ceux de mon âge se le rappellent** mening yoshimdagilar uni eslashadilar, yodga olishadilar; **celui-ci, celle-ci, ceux-ci, celles-ci** mana bu, mana bular; **celui-là, celle-là, ceux-là, celles-là** anavi, anavilar; **ceux-ci partent, ceux-là demeurent** bulari jo'nab ketayotibdi, ulari qolishayabdi.

**cénacle** *nm* uyushma, artistlar, yozuvchilar guruhining majlisi; **cénacle littéraire** adabiyot uyushmasi, to'dasi.

**cendre** *nf* **1.** kul, yong'inning kul qoldig'i; *loc* **mettre, réduire en cendres** kulga aylantirmoq; **renaître de ses cendres** kuldan qayta bino bo'lmoq, tiklanmoq, tug'ilmoq, vujudga kelmoq; **2.** qoldiq, nishona, murda, o'lik jasad, hok, marhum kuli.

**cendré, ée** *adj* kulga oid, kulsimon, kulrang; **des cheveux gris cendrés** kulrang soch.

**cendrée** *nf* so'xta, qasmoq, metall zaki, to'pon, kul qoldig'i.

**cendreux, euse** *adj* kulli; **sol cendreux** kultuproq.

**cendrier** *nm* kulxona, kuldon, o'txona teshigi.

**cène** *nf* **1.** Isoning kechki ovqati, nonushtasi; **2.** payshanbalik.

**cénobite** *nm* monax, rohib.

**cénotaphe** *nm* maqbara, sag'ana, qabr, daxma.

**cens** *nm* senz, biror siyosiy huquqdan foydalanish imtiyoziga ega bo'lish uchun qo'yiladigan shartlar.

**censé, ée** *adj* faraz qilingan, hisoblangan; **il est censé être à Paris** u Parijda deb faraz qilingan, hisoblangan.

**censeur** *nm* **1.** senzor (*senzura qiluvchi shaxs*); **2.** tanqidchi; **3.** nozir, nazoratchi (*litseyda*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**censure** *nf* **1.** tanqid qilish; **2.** senzura (*nashr qilinadigan, sahnaga qo'yiladigan asarlarni nazorat qilish*).
**censurer** *vt* **1.** nazorat qilib taqiqlamoq (*asarni, spektaklni*); **2.** tanqid qilmoq.
**cent I.** *adj* **1.** yuz; **je lui ai dit cent fois** men unga ko'p marta, yuz marta aytdim; **2.** yuzli, yuzinchi; **page cent** yuzinchi bet; **II.** *nm* **1.** yuzta; **trois cent** uch yuzta; **2.** sent (*dollarning yuzdan biri*).
**centaine** *nf* yuzlarcha, yuzlar chamasi.
**centaure** *nm* kentavr (*afsonaviy yarim odam yarim ot*).
**centaurée** *nf* bo'tako'z (*gul*).
**centenaire I.** *adj* asriy, yuz yillik; **II.** *n* **1.** yuz yoshlik odam; **2.** *nm* asr, yuz yillik davr, muddat; **célébrer le centenaire de la fondation de la ville** shaharning yuz yilligini nishonlamoq.
**centésimal, ale** *adj* yuz karra, yuz marta, yuz hissa.
**centigramme** *nm* santigramm, grammning yuzdan bir bo'lagi.
**centilitre** *nm* santilitr.
**centième I.** *adj* yuzlarcha, yuztacha, yuzinchi; **II.** *nm* yuzdan bir bo'lagi (*hissasi*).
**centigrade** *adj* yuz darajaga bo'lingan gradus, termometr.
**centime** *nm* santim (*pul birligi*).
**centimètre** *nm* **1.** santimetr; **2.** metr lenta o'lchagich.
**centrage** *nm* markazlashtitish, markazini topish.
**central, ale I.** *adj* markaziy, bosh; **chauffage central** markaziy, bosh isitgich joyi; **maison, prison centrale** bosh qamoqxona; **II.** *nm* aloqa tarmog'i; **le central téléphonique** telefon stansiyasi, ATS.
**centrale** *nf* **1.** elektr toki ishlab chiqaradigan zavod, stansiya; **la centrale nucléaire** atom elektr stansiyasi; **2.** milliy kasaba uyushmasi, guruhi.
**centralisation** *nf* markazlashtirish.
**centralisateur, trice** *adj* markazlashtiruvchi.
**centraliser** *vt* markazlashtirmoq, to'plamoq.
**centre** *nm* **1.** markaz, markaziy nutq; **le centre de la terre** yer markazi, markaziy nuqtasi; **2.** markaz, poytaht; **3.** to'planish; **4.** bosh punkt; **5.** uzel; **6.** kuch to'plangan joy (*asos, yurak*); **7.** *sport* markaziy hujumchi.
**centrer** *vt* **1.** to'plamoq, qaratmoq, yo'naltirmoq; **2.** *techn* markazlashtirmoq; **3.** *sport* markazga uzatmoq; **4.** yig'moq (*harakatni, qiziqishni bir joyga yig'moq*).
**centrifugation** *nf* sentrifugalash (*markazdan qochirish*).
**centrifuge** *adj* markazdan qochuvchi (*elektr toki*).
**centrifuger** *vt* markazdan qochmoq.
**centrifugeuse** *nf* **1.** sentrifuga; **2.** mevalar sharbatini chiqarib beruvchi elektr asbob.
**centripète** *adj* markazga intiluvchi; **force centripète** markazga intiluvchi kuch.
**centriste I.** *adj* markazlashtirish g'oyasi; **II.** *n* markazlashtirish g'oyasi tarafdori.
**centuple I.** *adj* yuz barobar ko'p; **II.** *nm* yuz marta ko'p; *loc adv* **au centuple** yuz martalab; **être récompensé au centuple** yuz baravariga mukofotlanmoq.
**centupler** *vt* yuz marta, hissa, bor kattalashtirmoq, ko'paytirmoq.
**centurion** *nm* yuzboshi (*Qadimgi Rim armiyasida*).
**cep** *nm* tok zangi.
**cépage** *nm* tok turlari.
**cèpe** *nm* oq qo'ziqorin, oq zamburug'.
**cependant** *conj* shunday bo'lsa ham, biroq; **il a réussi, cependant, il est mécontent** uning omadi keldi, shunday bo'lsa ham u xursand emas.
**céphalique** *adj* kalla, boshga oid.
**céphalopode** *nm* tuksiz oyoqli, shiroyoq.
**céramique** *nf* **1.** kulolchilik, keramika; **2.** sopol buyumlar loyi, gili.
**céramiste** *nm* kulol.
**cerbère** *nm* **1.** do'zax eshigini qo'riqlovchi it, serber; **2.** qattiqqo'l qorovul.
**cerceau** *nm* **1.** gardish, chambarak, chambar; **2.** gumbaz qolipi, charx.
**cerclage** *nm* **1.** bochkaga temir halqa o'tkazish; **2.** mashinalar g'ildiragiga temir zanjir o'tkazish.
**cercle** *nm* **1.** aylanma, doira; **2.** aylana joy, (*sath, yuza*); **3.** halqa, disk, uzuk; **4.** klub, to'garak; **cercle militaire** harbiy to'garak, klub; **5.** chambarak, halqa, gardish, temir zanjir.
**cercle** *nm* **1.** aylanish, aylanma yer, to'garak-atrofdagi viloyat, yer, chegara; **2.** odam yashaydigan yer, atrof.
**cercler** vt; **1.** zanjir, halqa kiygizmoq, o'tkazmoq; **2.** o'rab olmoq.
**cercueil** *nm* tobut; **descendre au cercueil** go'rga kirmoq, o'lmoq.
**céréale** *nf* g'alla, boshoqli ekinlar (*bug'doy, arpa, suli, javdar, tariq, makkajo'xori, sholi*).
**céréalier, ière** *adj* boshoqli, donli; **cultures céréalières** boshoqli ekinlar.
**cérébral, ale** *adj* **1.** miyaga oid, aloqador, aqliy; **l'activité cérébrale** miya faoliyati, ishi; **travail cérébral** aqliy ish; **2.** *n* aqlli odam; **c'est un cérébral pur** bu juda aqlli odam.
**cérébro-spinal, ale** *adj* orqa miyaga oid.
**cérémonie** *nf* **1.** marosim, udum, rasm-rusm; **cérémonie du mariage** uylanish, erga tegish to'y marosimi; **2.** seremoniya, bayram; **3.** *pl* **faire des cérémonies** tortinmoq, iymanmoq.
**cérémonial** *nm* marosim, to'y tartibi.
**cérémonieusement** *adv* rasmiy, takallufona.
**cerf** *nm* bug'u.
**cerfeuil** *nm* kervel (*ovqatni lazzatli qiluvchi hidli ziravor o'simlik*).
**cerf-volant** *nm* **1.** shoxli qo'ng'iz; **2.** varrak; **lancer des cerfs-volants** varrak uchirmoq.
**cerise I.** *nf* olcha, gilos; **II.** *adj* olcha rangi, gilos rangi; **des rubans cerise** alvon, qizil tasma.
**cerisier** *nm* olcha, gilos daraxti.
**cerne** *nm* **1.** ko'z ostidagi ko'mko'klik (*xaltachalar ko'karishi*); **2.** sirtqi ko'rinish, shakl, kontur; **3.** g'urra, ko'karib shishgan joy.
**certain, aine I.** *adj* aniq, shubhasiz to'g'ri, chin, haqiqiy, mo'tabar, muayan, tayinli, rasmiy, qaror topgan, muqarrar; dadil, qat'iy, ishonchli; **être certain de qqch** dadil, qat'iy, ishonchli bo'lmoq; **II.** *pron* allakim, birov, ba'zibir, ba'zi; **dans certain cas** ba'zi hollarda, ba'zan.
**certainement** *adv* **1.** muqarrar ravishda, turgan gap, iloji yo'q, ilojsiz, albatta, zarur, qat'iylik bilan, ishonch bilan; **2.** aniq, ravshan, shubhasiz, sezilarli darajada, ochiqchasiga, oshkora.
**certes** *adv* albatta, qat'iy, shubhasiz, so'zsiz; **il a certes raison** so'zsiz, shubhasiz, albatta u haq.
**certificat** *nm* **1.** guvohnoma, shahodatnoma; **2.** diplom, tavsiyanoma hujjat, faxriy yorliq.
**certifier** *vt* guvohlik bermoq, shohidlik qilmoq; tasdiqlamoq.
**certitude** *nf* **1.** ishonch, dadillik, ishonish; **2.** aniqlik, shubhasiz to'g'rilik, ishonchlilik.
**cérumen** *nm* quloq kiri.
**céruse** *nf* kumushrang bo'yoq.
**cerveau** *nm* **1.** miya; **2.** aql, idrok, es, fahm-farosat, aql; **avoir le cerveau fêlé** jinni bo'lmoq, esini yemoq, aqldan ozmoq; **3.** markaziy boshqaruv sistemasi, a'zosi (*bosh miya*); **4.** elektron miya, aql hisoblaydigan apparat.
**cervelas** *nm* sardilka.
**cervelet** *nm* miyacha.
**cervelle** *nf* **1.** miya, bosh miya; **brûler, faire sauter la cervelle** miyasidan otmoq, miyasini majaqlamoq; **2.** aql, ong, idrok, zehn, fahm; **une pauvre cervelle** kaltafahm odam; **homme sans cervelle** yengiltak odam.
**cervical, ale** *adj* bo'yinga oid.
**cervidés** *nm* shoxli bug'u, kiyik.
**cervoise** *nf* **1.** arpa pivosi; **2.** achitilgan ichimlik.
**césarienne** *nm* qorinni yorib bolani olish, keser uslubi.
**cessant, ante** *adj* tugatilgan, to'xtatilgan; **toutes affaires cessantes** tugatilgan barcha ishlar.
**cessation** *nf* to'xtash, tugash, tinish, bosilish, chek qo'yish, to'xtatish, tugatish, tinchitish; **cessation des hostilités** adovatni, ziddiyatni, dushmanlikni to'xtatish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**cesse** *nf* to‘xtash, to‘xtalish, tin; **sans cesse** tin olmasdan.

**cesser I.** *vt* to‘xtatmoq, tugatmoq, yakunlamoq; **II.** *vi* chek qo‘ymoq, tugamoq, tinchimoq, to‘xtamoq, tinmoq; **le vent a cessé** shamol to‘xtadi, tinchidi, tindi.

**cessez-le-feu** *nm inv* o‘t ochishni to‘xtatish.

**cessible** *adj* yon beriladigan, savdolashiladigan, sotiladigan.

**cession** *nf* voz kechish, egalik huquqini birovga berish, o‘tkazish, yon berish, ko‘nish.

**cessionnaire** *nm* foydalanuvchi, bahramand.

**c’est-à-dire** *loc conj* demak, binobarin, ya’ni.

**césure** *nf* she’riyatdagi takrorlanadigan qisqa tutuq, sukut.

**cétacés** *nm pl* kitsimonlar.

**chacal** *nm* chiyabo‘ri, shoqol.

**chacun, chacune** *pron indéf* har kim, har bir odam, har kimsa; **chacun de nous** har birimiz.

**chagrin[1], ine** *adj* xo‘mraygan, o‘shshaygan, badqovoq, qovog‘i soliq; g‘amgin, ma’yus, parishon, xafa, ranjigan, dili siyoh, qayg‘uli, qayg‘uga tushgan.

**chagrin[2]** *nm* qayg‘u, g‘am, xafagarchilik, dard, dard-alam, azob, azob-uqubat, alam; o‘kinch, ranj, alam, dilisiyohlik, ko‘ngil qolish, sovish, ixlosi qaytish, umidsizlik.

**chagrin[3]** *nm* saxtiyon.

**chagriner** *vt* qayg‘uga solmoq, ranjitmoq, qayg‘urtirmoq, ozor bermoq, dilini og‘ritmoq, xafa qilmoq.

**chah** *nm voir* **schah**.

**chahut** *nm* **1.** shovqin, shovqin-suron, g‘avg‘o, to‘polon; **2.** raqs turi.

**chahuter I.** *vi* shovqin-suron ko‘tarmoq, to‘polon qilmoq; **II.** *vt* ostin-ustin qilmoq, ag‘dar to‘ntar qilmoq, to‘s-to‘polonini chiqarmoq.

**chahuteur, euse I.** *n* shang‘i, janjalkash, to‘polonchi; **II.** *adj* baqiroq, shang‘i.

**chai** *nm* vino do‘koni yerto‘lasi.

**chaîne** *nf* **1.** zanjir; **2.** qator, tizma; **chaîne de montagne** tog‘ tizmasi; **3.** kishan, tushov; **briser ses chaînes** kishanlarini parchalamoq; **4.** konveyer; **chaîne de montage** yig‘uv konveyeri, sexi; **5.** uzatish zanjiri; **6.** ketma-ketlik, izchillik; **7.** teleradio kanallari.

**chaînette** *nf* zanjircha.

**chaînon** *nm* **1.** halqa, zanjir halqasi; **2.** aloqa, bog‘lanish.

**chair** *nf* **1.** gavda, tana, et, go‘sht, tan; **2.** go‘sht; **3.** meva eti.

**chaire** *nf* **1.** kafedra; **2.** minbar.

**chaise** *nf* **1.** kursi, o‘rindiq; **2.** tirgak, tirgovich, tayanch.

**chaland** *nm* yuk kemasi, shalanda.

**châle** *nm* tivit ro‘mol, jun ro‘mol.

**chalet** *nm* **1.** qishloq uyi; **2.** ko‘ngil ochar uy.

**chaleur** *nf* **1.** issiq, harorat; **2.** jo‘shqinlik, qizg‘inlik.

**chaleureusement** *adv* qizg‘in, otashin, jo‘shqin.

**chaleureux, euse** *adj* jo‘shqin, qizg‘in, issiq, otashin.

**châlit** *nf* karavot (*to‘shaksiz*).

**chaloupe** *nf* katta qayiq.

**chaloupé, ée I.** *adj* **allure chaloupée** lapanglab yurmoq; **II.** *nf* raqs.

**chalumeau** *nm* **1.** gaz payvandlagich gorelkasi, tumshug‘i; **2.** qamish; **3.** sivizg‘a, nay; **4.** kavsharlagich.

**chalut** *nm* tral, baliqchilik to‘ri.

**chalutier** *nm* **1.** baliqchi; **2.** baliq ovlovchi kema.

**chamade** *nf* **battre la chamade** taslim bo‘lmoq, yurakning qattiq urishi.

**chamailler (se)** *vpr* urushib qolmoq, janjallashmoq, so‘kishmoq.

**chamaillerie** *nf* bahs, tortishuv, nizo, kelishmovchilik.

**chamailleur, euse** *adj n* mijg‘ov, ming‘ir-ming‘ir odam.

**chamarré, ée** *adj* ola-bula, olabayroq, guldor, didsiz, beo‘xshov kiyingan.

**chamarrure** *nf* **1.** rang-baranglik, beo‘xshov bezak, ola-bulalik; **2.** zar uqali jild, qoplama.

**chambard** *nm* **1.** shovqin-suron, qiy-chuv; **2.** to‘s-to‘polon, alg‘ov-dalg‘ovlik, o‘ta chalkashlik.

**chambardement** *nm* keskin o‘zgarish, to‘ntarish, o‘grilish, burilish.

**chambarder** *vt* ag‘dar-to‘ntar, ostin-ustin qilib yubormoq.

**chambranle** *nm* eshik, deraza kesakisi.

**chambre** *nf* **1.** xona, bo‘lma; **2.** palata (*qonun chiqaruvchi, savdo, sud*); **3.** **chambre à air** rezina kamera; **5.** chuqur, kamchak.

**chambrée** *nf* **1.** xonadosh; **2.** yotoqxona (*askarlar uchun*); **3.** yig‘ilganlar, to‘planganlar.

**chambrer** *vt* **1.** uy qamog‘ida ushlamoq; **2.** xonadoshlik qilmoq; **3.** vinoni xona haroratidaga keltirmoq; **5.** boshqalardan ajratib qo‘ymoq.

**chameau** *nm* **1.** tuya; **2.** xunuk, badbashara, beso‘naqay, qo‘pol odam.

**chamelier** *nm* sorbon, tuyakash.

**chamelle** *nf* moya, harvona, urg‘ochi tuya.

**chamois** *nm* **1.** tog‘ kiyigi, echkisi; **2.** ag‘darma mayin charm; **3.** och sariq rang.

**champ** *nm* **1.** dala, ekinzor, maydon; **2.** maydon; *loc adv* **sur le champ** tezda, shu zahotiyoq.

**champagne** *nm* shampan vinosi.

**champêtre** *adj* qishloqona; **vie champêtre** qishloqona, qishloqcha hayot.

**champignon** *nm* **1.** qo‘ziqorin, zamburug‘; **2.** suv osti o‘tlari.

**champion** *nm* **1.** g‘olib, chempiyon; **2.** ajoyib inson.

**championnat** *nm* chempiyonat, musobaqa.

**chance** *nf* **1.** omad, iqbol, baxt, muvaffaqiyat, yutuq; **2.** *pl* imkoniyat; **3.** ehtimollik.

**chancelant, ante** *adj* **1.** omonat, qimirlaydigan, tebranuvchi, bo‘sh, yaxshi o‘rnatilmagan, qotirilmagan; **2.** laqqi, tuturuqsiz, betayin, zaif.

**chanceler** *vi* **1.** gandraklamoq, tebranmoq, qimirlamoq, loppillamoq; **2.** ikkilanmoq, jur’atsizlanmoq, o‘zgarib turmoq.

**chancelier** *nm* **1.** kansler, bosh vazir; **2.** muhrdor, saqlovchi.

**chancellerie** *nf* devonxona, devon, kanselarya.

**chanceux, euse** *adj* **1.** omadli, ishi yurishgan, omadi chopgan, baxtli; **2.** qaltis, xavfli.

**chancre** *nm* yara, zahm.

**chandail** *nm* sviter, tvitli, junli oldi yopiq kamzul.

**chandelier** *nm* shamdon.

**chandelle** *nf* **1.** sham; **brûler la chandelle par les deux bouts** umrni behuda o‘tkazmoq, ayshu-ishratga berilmoq; **2.** muz sumalagi; **3.** tirgak, tirgovich.

**change** *nm* **1.** ayriboshlash, almashtirish, o‘zgartirish; **2.** pul almashtirish joyi; **3.** qiymat; **lettre de change** tilxat, veksel.

**changeable** *adj* almashtirsa bo‘ladigan, ayriboshlanadigan, o‘zgaruvchan.

**changeant, ante** *adj* **1.** o‘zgaruvchan, turlanuvchi, beqaror; **2.** tovlanuvchan (*matoh*).

**changement** *nm* **1.** o‘zgarish, tuzatish; **2.** o‘sish, taraqqiyot.

**changer I.** *vt* almashtirmoq, ayirboshlamoq, o‘zgartirmoq, almashmoq, alishmoq; **II.** *vi* o‘zgarmoq, o‘smoq; **III. se changer** *vpr* kiyimini almashtirmoq.

**chanson** *nf* ashula, qo‘shiq, o‘lan, ohang, qushlar sayrashi.

**chansonnier** *nm* **1.** hofiz, ashulachi, qo‘shiqchi; **2.** qo‘shiq yozuvchi; **3.** qo‘shiqlar to‘plami.

**chant** *nm* qo‘shiq, ashula, o‘lan; **2.** doston; **3.** parrandalar sayrashi; **se lever au chant du coq** tongda turmoq, sahar turmoq.

**chantage** *nm* tovlamachilik, do‘q qilish, qo‘rqitish yo‘li bilan biror narsa undirish, tamagirlik.

**chantant, ante** *adj* **1.** kuylayotgan; **2.** xushohang, yoqimli, ohangli.

**chanter I.** *vi* **1.** ashula, qo‘shiq, o‘lan aytmoq; **2.** sayramoq, qichqirmoq (*parrandalar*); **3.** tovlamachilik qilmoq; **II.** *vt* madh etmoq, tarannum etmoq, kuylamoq, ijro etmoq.

**chanteur, euse** *n* **1.** hofiz, ashulachi; **2.** sayroqi qushlar; **3.** tovlamachi.

**chanterelle** *nf* **1.** tor (*g‘ijjak, dutor, tanbur va boshqa musiqa asboblarning ingichka tori, simi*); **2.** qo‘ziqorin turi.

**chantier** *nm* **1.** qurilish maydoni; **chantier naval** kemasozlik verfi; **2.** tartibsizlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**chantonnement** *nm* xirgoyi.
**chantonner** *vt vi* xirgoyi qilmoq, past ovozda kuylamoq.
**chantre** *nm* cherkov qo'shiqchisi.
**chanvre** *nm* **1.** nasha o'simligi; **2.** kanop.
**chaos** *nm* bosh-boshdoqlik, beboshik, alg'ov – dalg'ov.
**chaotique** *adj* tartibsiz, mavhum.
**chapardage** *nm* o'g'irlash, talon-taroj qilish, talab ketish.
**chaparder** *vt* o'girlamoq, talon-taroj qilmoq, talab ketmoq.
**chape** *nf* **1.** kiyim, libos, rido, mantiya; **2.** qopqoq, qoplama.
**chapeau** *nm* soyavonli bosh kiyim, shlapa, telpak, qalpoq.
**chapelet** *nm* **1.** tasbeh; **2.** shoda, qator.
**chapelle** *nf* **1.** kichik butxona; **2.** xor (*cherkovda*).
**chapelure** *nf* non tolqoni.
**chaperon** *nm* nadim, nadima, ulfat, shotir.
**chapiteau** *nm* **1.** ko'chma sirk; **2.** qosh-qalam (*qurilishda*).
**chapitre** *nm* bob, qism, bo'lim.
**chapitrer** *vt* pand nasihat qilmoq, koyimoq, tahbeh bermoq.
**chapon** *nm* axta xo'roz.
**chaque** *adj ind.* har, har bir.
**char** *nm* **1.** arava; **2.** tank.
**charade** *nf* topishmoq o'yin.
**charançon** *nm* mitta.
**charbon** *nm* **1.** ko'mir; **2.** grafit; **3.** qorakuya, kul kasalligi.
**charbonner** *vt* qoraymoq.
**charcuter** *vt* qiymalamoq, maydalamoq.
**charcuterie** *nf* kolbasa sexi.
**chardon** *nm* yantoq.
**charge** *nf* **1.** yuk; **2.** yuk ortish, yuklash; **3.** o'q, snaryad; **4.** o'qlash; **5.** vazifa, topshiriq; **6.** javobgarlik, zimma; **7.** hajv; **8.** lavozim; **9.** hujum, o'rab iskanjaga olish.
**chargé, ée** *n* **1.** mas'ul, vakil; **2.** yuklangan, topshirilgan; **3.** o'qlangan.
**charger** *vt* **1.** yuklamoq, yuk ortmoq; **2.** o'qlamoq; **3.** zimmasiga yuklamoq.
**chargeur** *nm* **1.** yuk ortuvchi va tushiruvchi; **2.** o'qlovchi; **3.** o'qdon; **4.** zaryadlash moslamasi.
**chariot** *nm* **1.** yuk aravasi; **2.** bolalar aravachasi; **3.** zambarg'altak.
**charitable** *adj* rahmli, shafqatli, marhamatli, rahmdil, mehribon, munis, iltifotli, muhtaram, qo'li ochiq, saxiy, saxovatli, oliy himmat, himmatli, hotamtoy.
**charité** *nf* **1.** rahm, shafqat, marhamat; **2.** xayr-ehson, iltifot, mehr.
**charlatan** *nm* yolg'onchi lo'ttiboz, muttaham, firibgar.
**charmant, ante** *adj* dilbar, jozibali, dilrabo, maftunkor, yoqimtoy, latofatli, go'zal, fusunkor, istarasi issiq.
**charme** *nm* ibo, latofat, joziba, nazokat, nafosat, go'zallik, yoqimtoylik, malohat, dilbarlik.
**charmer** *vt* **1.** maftun qilmoq, etmoq, mahliyo qilmoq, rom etmoq, shaydo etmoq, aqlu-hushini olmoq; **2.** sehrlab qo'ymoq, ixtiyorini olmoq, jodu qilmoq, avramoq.
**charmeur, euse** *adj* **1.** maftunkor, shaydo etuvchi, rom etuvchi; **2.** jodugar, sehrgar, afsungar; **3.** avrovchi, duoxon.
**charnel, elle** *adj* ehtirosli, hirsiy, shahvoniy.
**charnier** *nm* **1.** o'liklarning suyaklari qo'yiladigan joy; **2.** murdalar tashaladigan joy.
**charnière** *nf* oshiq-moshiq.
**charnu, ue** *adj* etdor, go'shtdor, sergo'sht; **lèvres charnues** do'rdoq lab; **fruit charnu** etdor meva.
**charognard** *nm* **1.** kalxat, quzg'un, kaljo'rchi; **2.** zolim; **3.** yirtqich, qonxo'r, vahshiy.
**charogne** *nf* **1.** o'laksa; **2.** murdat.
**charpente** *nf* **1.** sinch, yog'och qurilma; **2.** skelet; **la charpente du corps humain** inson tanasi skeleti.
**charpenter** *vt* **1.** yog'och bilan ishlamoq; **2.** andazasini tayyorlamoq, tuzmoq.
**charpentier** *nm* duradgor.
**charrette** *nf* aravacha, qo'l arava.
**charrier** *vt* **1.** oqizib ketmoq; **2.** ustidan kulmoq, masxara qilmoq, xo'rlamoq; **3.** tashib ketmoq.
**charroi** *nm* **1.** naqliyot, ulov; **2.** jang aravasi; **3.** harbiy karvon.
**charron** *nm* aravasoz.
**charrue** *nf* omoch, plug.
**charte** *nf* **1.** nizom, asosiy qonun-qoida; **2.** yorliq.
**chas** *nm* ignaning ko'zi.
**chasse** *nf* **1.** ov; ov mavsumi; ov qilinadigan yerlar; **chasse à courre** itlar bilan ovlash; **2.** o'lja; **3.** qiruvchi; **avion de chasse** qiruvchi samolyot; **4. chasse d'eau** hojatni yuvish moslamasi; **5. chasse à l'homme** ta'qib qilinayotgan odam.
**châsse** *nf* quti, sandiqgardish, ko'zoynak gardishi.
**chasser** *vt* **1.** ov qilmoq, ovlamoq; **2.** haydamoq, quvmoq; **3.** quvib yubormoq.
**chasseur** *nm* **1.** ovchi, mergan; **2.** qiruvchi; **chasseur à réaction** reaktiv qiruvchi samolyot.
**chassieux, euse** *adj* gazaklagan, paxtalagan (*ko'z*).
**châssis** *nm* **1.** kesaki (*eshik, derazalar uchun*); **2.** *techn* rama, asos; **3.** qaddi-qomat (*ayol*).
**chaste** *adj* bokira, iffat, soflik.
**chastement** *adv* ibo, hayo, iffat bilan.
**chasteté** *nf* bokiralik, iffatlilik.
**chat, chatte** *n* mushuk.
**chat** *nm* charm darra, qamchin.
**châtaigne** *nf* kashtan yong'og'i; qora qayin.
**châtaigneraie** *nf* kashtanzor, qayinzor.
**châtaignier** *nm* kashtan daraxti.
**châtain, aine** *adj* malla, tillarang, to'q sariq.
**château** *nm* **1.** qasr, saroy, qal'a, qo'rg'on; **2.** suv tarqatish minorasi.
**chateaubriand** *nm* qovurilgan mol go'shti.
**châtelain, aine** *n* qasr, qal'a, saroy egasi; qasr, qal'a, saroy egasining bekasi.
**chat-huant** *nm* boyqush, boyo'g'li.
**châtier** *vt* **1.** to'g'ri yo'lga solish uchun jazolamoq, jazo bermoq; **2.** tan jazosi bermoq, urmoq; **3.** sayqal bermoq, tozalamoq, jilo bermoq, silliqlamoq, to'g'rilamoq, tekislamoq.
**châtiment** *nm* jazo, jazolash.
**chatoiement** *nm* jilolanish, yog'dulanish, yolqin.
**chaton** *nm* **1.** mushukcha; **2.** qimmatbaho tosh ko'z; **3.** kuchala, bargak; **chaton de saule** tol bargagi.
**chatouiller** *vt* **1.** qitiqlamoq; **2.** g'ashini keltirmoq; **3.** xushlamoq; yoqtirmoq.
**chatouille** *nf* qitiq, qitiqlash.
**chatouillement** *nm* qitiq, qitig'ini keltirish.
**chatouilleux, euse** *adj* **1.** qitig'i kuchli, serqitiq; **2.** noziktabiatli, ehtiyotkor, ta'sirchan.
**chatoyant, ante** *adj* jilolanadigan, tovlanadigan, nur taratadigan.
**chatoyer** *vi* jilolanmoq, yaltiramoq, yiltillamoq, yarqiramoq, tovlanmoq, chaqnamoq.
**châtrer** *vt* bichmoq, axtalamoq.
**chattemite** *nf* yuvosh, faqir, mo'min, xoksor odam.
**chatterie** *nf* **1.** mayin, yumshoq, muloyim gap; **2.** noz, erkalanish, g'amza, suyilish, mehr, lutf; **3.** tansiq, lazzatli ta'om.
**chatterton** *nm* izolasiya tasmasi, elektr tokini o'tkazmaydigan tasma.
**chat-tigre** *nm* oselot (*Janubiy Amerika yovvoyi mushugi*).
**chaud, aude I.** *adj* **1.** issiq, qaynoq, qizigan; **2.** g'ayratli, yuragida o'ti bor, dov, devkor; **3.** tez, jizzaki; **un tempérament chaud** qiziqqon; **4.** dolzarb, qizg'in, jonli; **II.** *nm* harorat, issiq; **il fait chaud** havo issiq; **à chaud** *loc adv*



www.ziyouz.com kutubxonasi

samimiy, issiq, issig'ida, tezda, kechiktirmay; **opérer à chaud** issig'ida, kechiktirmay operatsiya qilmoq; **pleurer à chaudes larmes** achchiq-achchiq yig'lamoq; **avoir chaud** isib, qizib ketmoq.

**chaudement** *adv* **1.** issiq; **être vêtu chaudement** issiq kiyingan bo'lmoq; **2.** qizg'in, jo'shqin, to'lib toshib; **applaudir chaudement** qizg'in olqishlamoq.

**chaudière** *nf* bug' qozoni.

**chaudron** *nm* qozon.

**chaudronnerie** *nf* qozon va turli temir idishlar tayyorlash korxonasi.

**chauffage** *nm* **1.** isitish, qizdirish; **2.** toblash, cho'g' qilish.

**chauffant, ante** *adj* isitadigan, qizdiradigan, ilitadigan.

**chauffard** *nm* betartib haydovchi.

**chauffe** *nf* o'txona, o'choq.

**chauffe-eau** *nm* suv isitgich.

**chauffer I.** *vt* **1.** isitmoq, qizdirmoq, ilitmoq, qizitmoq, cho'g' qilmoq; **2.** o't yoqmoq, olov yoqmoq; **II.** *vi* **1. se chauffer** isimoq, ilimoq, qizimoq, isib ketmoq, isinmoq.

**chaufferette** *nf* isitgich, manqal, gulxan yoqiladigan tosh chambarak.

**chauffeur** *nm* **1.** go'lax; **2.** haydovchi (*mashina*).

**chauffeuse** *nf* kichik kursi.

**chaulage** *nm* **1.** yerni o'g'itlash; **2.** ohak suvoq.

**chauler** *vt* **1.** ohak bilan o'g'itlamoq; **2.** terini ohak bilan oshlamoq; **3.** ohaklamoq.

**chaume** *nm* **1.** poxol, poya; **2.** o'rim, o'roq payti; **3.** poxol, poya yopilgan tom.

**chaumière** *nf* kulba.

**chausse** *nf* avratpo'sh, shim, ishton, lozim.

**chaussée** *nf* yo'l, ko'chaning qatnov qismi, tosh yo'l.

**chausse-pied** *nm* tovon qoshiq.

**chausser I.** *vt* **1.** kiymoq, kiygizmoq; **2.** kiyib yurmoq; **3.** poyabzal tikmoq; **II. se chausser** *vpr* poyabzal kiymoq.

**chausse-trappe** *nf* qopqon, tuzoq, pistirma, dom.

**chaussette** *nf* paypoq.

**chausseur** *nm* etikdo'z, kunado'z.

**chausson** *nf* yumshoq tufli, shippak.

**chaussure** *nf* poyabzal, oyoq kiyimlari.

**chauve** *adj* **1.** kal; **2.** taqir.

**chauve-souris** *nf* ko'rshapalak.

**chauvin, ine** *adj* millatparast, boshqa millatlarni mensimovchi kishi.

**chauvinisme** *nm* millatparastchilik.

**chaux** *nf* ohak; **chaux vive** so'ndirilmagan ohak.

**chavirer** *vi* **1.** ag'darilmoq, yiqilmoq, to'ntarilmoq; **2.** chayqalmoq, likkillamoq, gandiraklamoq; **3.** ag'darmoq, qulatmoq, yiqitmoq, to'ntarmoq, to'nkarmoq; **4.** tashvishga solmoq, bezovta qilmoq, tashvishlanmoq, hayajonlanmoq.

**chéchia** *nf* shoshdo'ppi.

**chef** *nm* **1.** dohiy, sardor, boshliq, yo'lboshchi; **2.** rahbar, mudir, hokim.

**chef-d'œuvre** *nm* **1.** shoh asar, durdona asar; **2.** yetuk, kamolga yetgan, bekami ko'st, barkamol, mukammal narsa.

**chef-lieu** *nm* markaz; viloyat, tuman ma'muryati joylashgan shahar.

**cheftaine** *nf* o'smirlar guruhining boshlig'i (*ayol kishi*).

**cheikh** *nm* shayx.

**chemin** *nm* **1.** yo'l; **2.** masofa; **3. le chemin de fer** temir yo'l.

**chemineau** *nm* daydi, yalangoyoq, lo'li, tilanchi, darbadar, gado.

**cheminée** *nf* **1.** mo'ri; **2.** gulxano'choq, o'choqboshi; **3. cheminée d'un volcan** vulqon og'zi; **4.** tog' darasi.

**cheminement** *nm* **1.** ohista yurish, kezish, aylanib yurish; **2.** ilgarilash.

**cheminer** *vi* **1.** yo'l yurmoq, ilgarilamoq, yo'l bosmoq; **2.** rivojlana bormoq, yuksalmoq.

**cheminot** *nm* temir yo'lchi.

**chemise** *nf* **1.** ko'ylak; **2.** jild, qoplama, sirma; **3.** hujjat soladigan jild.

**chemiser** *vt* muqovalamoq, qoplamoq, jildlamoq.

**chemisette** *nf* yengi kalta ko'ylak.

**chemisier, ière** *n* **1.** ko'ylak ishlab chiqaruvchi; **2.** tikuvchi ayol; **3.** ayollarning yengil kalta ko'ynagi.

**chênaie** *nf* emanzor.

**chenal** *nm* **1.** kema qatnovi yo'li; **2.** nov, suv o'tkazgich.

**chenapan** *nm* yaramas, muttaham, o'g'ri.

**chêne** *nm* eman, chinor, zarang; **chêne vert** zarang daraxti.

**chéneau** *nm* tarnov, nov.

**chêne-liège** *nm* po'kak daraxti.

**chènevière** *nf* nashazor, nasha dalasi, nasha maydoni.

**chènevis** *nm* nasha urug'i, doni.

**chenil** *nm* **1.** it uyasi, katalagi; **2.** iflos xona, og'ilxona, cho'chqaxona.

**chenille** *nf* **1.** g'umbak, kapalak qurti; **2.** tank va traktorlarning tishli zanjiri, harakatlantiruvchi zanjir.

**chenillette** *nf* zanjirli harbiy kichik mashina.

**chenu, ue** *adj* **1.** oq soch, oppoq sochli; **2.** qorli; **montagnes chenues** qorli tog'lar.

**cheptel** *nm* ijara shartnomasi (*mollar hisoblanadigan*).

**chèque** *nm* chek, bank cheki, pochta xizmati cheki.

**chéquier** *nm* chek daftarchasi.

**cher, chère** *adj* **1.** aziz, qimmatli, hurmatli, qadrdon, qadrli; **2.** qimmat, narxi baland, qimmatbaho.

**chercher** *vt* **1.** izlamoq, qidirmoq, axtarmoq, so'roqlamoq; **2. chercher à** urinmoq, harakat qilmoq; **3. venez me chercher ce soir** kechqurun biznikiga keling; **4. aller chercher** bormoq, chiqmoq (*kutib olishga, kuzatishga*).

**chercheur, euse I.** *n* izlanuvchi, qidiruvchi, axtaruvchi; **II.** *adj* tadqiqotchi, ilmiy xodim, olim.

**chère** *nf* taom; **faire bonne chère** lazzatli taom tayyorlamoq.

**chèrement** *adv* **1.** mehr bilan, e'zoz bilan, nazokat bilan, xushfe'llik bilan, chin dildan, yurakdan; **2.** mashaqqat bilan, qiyinchilik bilan; **3.** qimmat, yuqori narxda.

**chéri, ie I.** *adj* aziz, e'zozli, qadrdon, qadrli, suyukli; **II.** *nm* arzanda, erkatoy.

**chérir** *vt* **1.** nazokat ila sevmoq, ardoqlamoq, erkalatmoq, yaxshi ko'rmoq, yeru ko'kka ishonmaslik; **2.** avaylab saqlamoq, asramoq, qadrlamoq, e'zozlamoq.

**cherté** *nf* qimmatgarchilik, narxlarning balandligi.

**chérubin** *nm* **1.** bolasifat farishta; **2.** chiroyli bola.

**chétif, ive** *adj* **1.** zaif, nimjon, darmonsiz, holsiz, so'lg'in, bequvvat, kuchsiz, bemajol, kasal, dardmand; **2.** nochor, ojiz, ayanchli, qashshoq, kambag'al, faqir, bechora, baxtsiz, bebaxt.

**cheval** *nm* **1.** ot, yilqi; *loc adv* **à cheval** otda, otliq; **être à cheval sur les principes** o'z nuqtai nazarini to'g'riligiga ishonmoq; **fièvre de cheval** kuchli isitma; **cheval de bataille** jangovor ot, sevgan mavzu, asosiy dalil; **cheval de Troie** Troya oti (*yog'och ot*); **cheval pur-sang** tulpor, zotli ot, oliy nasabli ot, asl tulpor; **cheval de cours** poygachi ot; **cheval de retour** odamkush, o'ta xavfli jinoyatchi.

**chevalement** *nm* muhofaza sinchi, tirgak, tirgovuch, muhofaza to'sini (*konchilikda*).

**chevaleresque** *adj* mardonavor, olijanob, tanti, serhimmat, fidoyi.

**chevalerie** *nf* **1.** olijanoblik, mardlik, fidoyilik, tantilik; **2.** mardlik, g'urur, obro'.

**chevalet** *nm* **1.** xarak, chorpoy, eshak (*qurilishda*); **2.** molbert; **3.** *sport* ot.

**chevalier** *nm* **1.** ritsar; **2.** a'zo; **chevalier de Malte** Malta ordeni nishondori; **3.** nishondor; **chevalier de la Légion d'honneur** shuhrat legioni nishondori; **4.** otliq, chavandoz.

**chevalin, ine** *adj* **1.** otsimon; **2.** ot yuzli, otbashara, cho'zinchoq yuzli.

**chevauchée** *nf* **1.** ot solish; **2.** otda yurish, sayr qilish; **3.** otliqlar urushi.

**chevauchement** *nm* **1.** ayqash-chuyqash; **2. chevauchement d'intérêts** birovlar ishiga burun tiqmoq.

**chevaucher** *vt* **1.** otda sayr qilmoq; **2.** ayqashib ketmoq, qoplab olmoq.

**chevêche** *nf* uy yapaloq qushi.

**chevelu, ue** *adj* **1.** sochli, tukli; **2.** uzun sochli.

**chevelure** *nf* **1.** qalin soch; **2.** kometa dumi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**chevet** *nm* **1.** kalavatning bosh tomoni; **2.** lo'la bolish; **3.** cherkov xorining old tomoni; **4. rester au chevet de qqn** kimnidir, bemor yonida tunu kun o'tirmoq.

**cheveu** *nm* **1.** soch; *loc* **se prendre aux cheveux** janjallashmoq; **tirer par les cheveux** sochidan tortmoq, majburlamoq, zo'rlamoq, zo'rlab qildirmoq.

**cheville** *vt* **1.** to'piq; **2.** torli asbolar xaragi.

**cheviller** *vt* biriktirmoq, ulamoq, mahkamlamoq.

**chèvre** *nf* **1.** echki; **2.** echki yungi.

**chevreau** *nm* uloq, uloqcha.

**chevrette** *nf* **1.** yosh echki; **2.** bug'uning bir turi.

**chevreuil** *nm* bug'uning bir turi; **le chevreuil brâme** bug'u ma'rayapti.

**chevrier, ière** *n* **1.** echki boqar; **2.** *nm* oq loviya.

**chevron** *nm* **1.** to'sin; **2.** yozuvli uqa.

**chevronné, ée** *adj* **1.** *mil* uqali; **2.** ko'pni ko'rgan, tajribali, sinashta, ishonchli.

**chevrotant, ante** *adj* ma'ragansimon, iltijoli (*tovush*).

**chevrotement** *nm* ma'rash.

**chevroter** *vi* **1.** ma'ramoq, qo'zilamoq; **2.** qaltiroq ovozda xonish qilmoq.

**chevrotine** *nf* sochma o'q, pitra.

**chewing-gum** *nm* saqich.

**chez** *prép* -da, -ga, -nikida, -nikiga; **il resta chez nous** u biznikida qoldi; **je serai chez moi** men uyimda bo'laman.

**chiader** *vt fam vieilli* bosh ko'tarmay tirishib ishlamoq; **un problème chiadé** qiyin, murakkab masala.

**chialer** *vi* yig'lamoq, ko'z yoshi qilmoq.

**chic** *nm* **1.** olifta, bashang, po'rim; **2.** chaqqonlik, erkinlik; **3.** *intj* zo'r, a'lo.

**chicane** *nf* **1.** chaqish, bo'hton, g'iybat, fisqu-fasod, ayblash; **2.** ishkalbozlik, ishga ataylab to'g'anoq solish, ishkal topish, ishkal chiqarish, makkorlik, ayyorlik, hiylagarlik, mug'ombirlik; **3.** nizo, janjal, kelishmovchilik.

**chicaner** *vi* **1.** lo'ttibozlik qilmoq, ishkal chiqarmoq, sudlashmoq, kazzoblik qilmoq; **2.** ayblamoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq; **3.** bahslashmoq, talashib-tortishmoq, qarshi chiqmoq.

**chicaneur, euse** *nm* **et** *nf* **1.** ishkalchi, chatoq, mijg'ov, bahonachi, davoboz, janjalkash; **2.** sud xodimi.

**chiche I.** *adj* xasis, qurumsoq, ziqna, ochko'z, qattiq; **II.** *nm* **pois chiche** no'xot; **III.** *intj* ha-qani, qani-qani, ha – barakalla.

**chichi** *nm* **1.** noz, nozu-firoq, nozu-karashma, nozu-istig'no; **2. faire des chichis** nozlanmoq, erkalanmoq; **3.** zulf, gajak, jingalak soch.

**chichiteux, euse** *adj* nozli, noz-istig'noli, noz-karashmali, noz-firoqli.

**chicorée** *nf* sachratqi (*o'simlik*).

**chicot** *nm* darz ketgan, singan, kemshik tish.

**chicotin** *nm* aloye, sabur sharbati; **amer comme chicotin** shuvoq, yovshan kabi achchiq.

**chien, chienne** *nm* et *nf* **1.** it, kuchuk, ko'ppak; **chien d'arrêt** iskovuch it, **chien de garde** soqchi it; **chien de policier** izquvar it; **chien de berger** bo'ribosar; **nom d'un chien** jin ursin; **entre chien et loup** tong qorong'usida, qosh qorayganda; **2. chien de mer** nahang, akula; **chien d'une arme** qurol tepkisi; **être couché en chien de fusil** g'ujanak bo'lib yotmoq.

**chiendent** *nm* **1.** bug'doyiq; **2.** jiddiy to'siq, muammo.

**chienlit** *nf* **1.** munofiqlik, razillik, qabihlik, pastkashlik; **2.** tartibsizlik, chatoqlik, chigallik.

**chien-loup** *nm* bo'ribosar it.

**chier** *vi fam vulg* **1.** qabziyat qilmoq; **2.** *fig* jig'iga tegmoq.

**chiffe** *nf* **1.** yomon gazmol; **2.** irodasiz, bo'sh, lapashang, qat'iyatsiz, latta.

**chiffon** *nm* latta-putta, qiyqim.

**chiffonné, ée** *adj* g'ijimlangan, ezilgan, burushgan, ajin bosgan.

**chiffonner** *vt* **1.** ezmoq, g'ijimlamoq, ezg'ilamoq, mijig'lamoq; **2.** yasan-tusan qilmoq; **3.** ranjitmoq, o'ksitmoq, xafa qilmoq.

**chiffonnier, ière** *n* **1.** jandachi, janda, latta-putta yig'uvchi; **2.** *nm* kiyim javoni.

**chiffrage** *nm* **1.** raqamlash; **2.** baholash.

**chiffre** *nm* **1.** raqam, son; **2.** yigindi, umumiy son; **3.** shartli belgilar, shifrlar.

**chiffrer** *vt* **1.** raqamlamoq; **2.** hisoblamoq, sanamoq; **3.** raqam bilan belgilamoq, shifrlamoq.

**chiffreur** *nm* **1.** hisobchi; **2.** shifrlovchi, ma'nosini ochuvchi.

**chignole** *nf* **1.** parma; **2.** shaloq mashina.

**chignon** *nm* shinyon, ulama soch; *loc* **se crêper le chignon** soch yulishmoq.

**chimère** *nf* **1.** afsonaviy o't purkovchi hayvon; **2.** xomxayol.

**chimie** *nf* kimyo; **chimie minérale** anorganik kimyo.

**chimique** *adj* kimyoviy.

**chimiquement** *adv* kimyoviy uslubda.

**chimiste** *nm* kimyogar.

**chimpanzé** *nm* shimpanze.

**chinchilla** *nm* **1.** mo'ynali hayvon; **2.** mo'yna.

**chiné, ée** *adj* kashtali; **bas chiné** kashtali paypoq.

**chiner**[1] *vt* bo'yamoq, ranglamoq (*matoni*).

**chiner**[2] *vt* **1.** eski-tuski narsalar sotib olmoq; **2.** hazillashmoq, hazil-mutoyiba qilmoq, o'ynashmoq, mazax qilmoq, ustidan kulmoq, g'ashiga tegmoq, jig'iga tegmoq.

**chineur** *nm* jandafro'sh.

**chinois, oise I.** *adj* Xitoy, xitoyi, xitoycha; **II.** *n* **1.** xitoylik; **2.** *nm* xitoy tili.

**chinoiserie** *nf* **1.** xitoyi arzon-garov bezaklar; **2.** xitoyi rasmiyatchilik, to'rachilik, qog'ozbozlik.

**chiot** *nm* kuchukvachcha, kuchukcha, itvachcha.

**chiottes** *nf pl* hojatxona, xalojoy, badrap.

**chiourme** *nf* **1.** erkin eshkakchilar guruhi; **2.** qamoqxona mahkumlarining guruhi.

**chiper** *vt* **1.** o'g'irlamoq, o'marmoq; **2.** yuqtirmoq; **3.** asir olmoq; **4.** qo'l urmoq.

**chipie** *nf* shum kampir, jodugar, alvasti, bezori qiz.

**chipolata** *nf* sosiska (*mol go'shti yoki tovuq go'shti bilan*).

**chipoter** *vi* **1.** chimdimoq, chimdib yemoq; **2.** savdolashmoq, talashib-tortishmoq; **3.** birovni asossiz ayblamoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq; kutkilamoq, mayda-chuydalarga yopishib olmoq.

**chique** *nf* **1.** nos; **2.** chaynaydigan tamaki; **2.** qora bit, tanosil a'zolarining biti.

**chiqué** *nm* **1.** nag'ma, ishva, g'amza, nozlanish, tannozlanish, nozu-karashma; **2.** ayyorlik, munofiqlik, riyokorlik.

**chiquenaude** *nf* chertki, chertish.

**chiquer** *vt* nos chekmoq.

**chiromancie** *nf* folbinlik, bashorat qilish.

**chiromancien, ienne** *nm et nf* folbin, bashoratchi, bashorat qiluvchi.

**chirurgical, ale** *adj* jarrohlikka oid.

**chirurgie** *nf* jarrohlik, xirurgiya.

**chirurgien** *nm* jarroh, xirurg.

**chiure** *nf* hasharotlar axlati.

**chlore** *nm* xlor.

**chloré, ée** *adj* xlorli, xlorlangan.

**chloreux, euse** *adj* xlorli, xlorlangan.

**chlorhydrique** *adj* xlorid kislotali.

**chloroforme** *nm* xloroform, narkoz suyuqligi.

**chloroformer** *vt* narkoz bermoq.

**chlorophylle** *nm* xlorofill.

**chlorose** *nf* kamqonlik.

**chlorotique I.** *adj* xloroz, kamqonlik bilan kasallangan; **II.** *nm* kamqon odam.

**chlorure** *nm* **1.** xlorli birikma; **2. chlorure d'ammonium** novshadil, nashatir.

**choc** *nm* **1.** turtish, itarish, urish, zarba, zarb, siltov, siltash, uchib tushish, sakrab tushish; **choc brusque, violent** kuchli, qattiq zarba; **2.** hayrat, iztirob,



www.ziyouz.com kutubxonasi

larzaga kelish, ruhiy ta'sir; **3.** to'qnashuv, to'qnashish; **4. prix choc** o'ta past baho (*narx*).

**chocolat** *nm* **1.** kakao, kakao tolqoni; **2.** shokolad; **3.** to'q jigar rang; **4. être chocolat** pand yemoq, aldanmoq.

**chocolaté, ée** *adj* kakaoli, shokoladli.

**chœur** *nm* **1.** xor (*ashulani ko'pchilik bo'lib aytish*); **2.** dramteatr dastasi.

**choir** *vi* **1.** qulamoq, yiqilmoq; **2.** kulfatda qoldirmoq, tashlab ketmoq.

**choisir** *vt* tanlamoq, saralamoq, saylab olmoq, tanlab olmoq.

**choisi, ie** *adj* **1.** tanlangan, saylangan, saralangan, sifatli, oliy navli, sara; **2.** saylanma, tanlangan; **œuvres choisies** saylanma, tanlangan asarlar.

**choix** *nm* **1.** tanlash, saylash, saralash; **2.** navlash, navga ajratish; **3.** to'plam, tanlangan asarlar; **4.** saralangan mollar (*magazinda*); **de choix** oliy navli, saralangan; **marchandise de choix** oliy navli mollar.

**cholédoque** *adj* **canal cholédoque** o't yo'li (*zarda oqib keladigan tomir*).

**choléra** *nm* **1.** vabo, o'lat kasali; **2.** zahar odam, simyon, qumron.

**cholestérol** *nm* xolesterin, qon va o't nomutanosibligi.

**chômage** *nm* **1.** ishsizlik, ishsiz qolish; **chômage partiel, complet, total** qisman, umumiy, to'liq ishsizlik; **2.** bekor turish, harakatsizlik, faoliyatsizlik, jim turish, tinch turish, jimjitlik, to'xtab turish; **chômage d'une usine** zavodning to'xtab turishi.

**chômer** *vi* **1.** ishsiz, bekorchi bo'lmoq; **2.** ishni to'xtatmoq, harakatsiz, tinch, jim, faoliyatsiz turmoq, to'xtab turmoq; **3.** *loc* **ne pas chômer** ko'p ishlamoq; **il n'a pas chômé aujourd'hui** u bugun ko'p, juda ishladi.

**chômeur, euse** *n* ishsiz, bekorchi, ishi yo'q odam.

**chope** *nf* krujka (*pivo ichadigan*), jom.

**choper** *vt* **1.** o'g'irlamoq, o'marib ketmoq; **2.** yuqtirmoq, ushlamoq, orttirmoq; **choper un rhume** tumov orttirmoq yuqtirmoq; **3.** asir olmoq, qamamoq, qamoqqa olmoq; **le voleur se fait choper** o'g'ri asir tushdi, hibsga olindi, qamoqqa olindi, qamaldi.

**chopine** *nf* vino shishasi (*yarim litr*), yarimta, yarimtalik.

**choquant, ante** *adj* xijolatda qoldiradigan, haqoratlaydigan, nafsoniyatga tegadigan.

**choquer** *vt* **1.** tegmoq, tegib, turtib ketmoq, turtmoq, itarmoq; **2.** uyatga qo'ymoq, xijolatda qoldirmoq, hayratda qoldirmoq, jig'iga tegmoq, g'ashini keltirmoq, g'ijintirmoq, haqorat qilmoq.

**choral, ale I.** *adj* xorga oid, jo'r bo'ladigan; **II.** *nm* diniy ashula.

**chorale** *nf* xor, jo'r bo'lib aytish guruhi, to'dasi.

**chorégraphe** *nm* xoreograf.

**chorégraphie** *nf* **1.** xoreografiya; **2.** raqs va balet spektakllarini sahnaga qo'yish.

**chorégraphique** *adj* xoreografiyaga oid.

**choriste** *nm* xor aytuvchi, jo'r bo'luvchi.

**chorus** *nm* **1. faire chorus** takrorlamoq, jo'r bo'lmoq, ma'qullamoq; **2.** *mus* mavzuning asosiy qismi (*jazda*).

**chose I.** *nf* **1.** narsa, buyum, ashyo; **c'est une chose bien agréable que de rencontrer un ami** do'stni uchratishday rohati jon narsa bormi! **il se passe ici des choses bizarres** g'alati, qiziq voqealar bo'layotibdi; **2.** borliq, haqiqat, fakt; **regarder les choses en face** haqiqat yuziga tik boqmoq, qaramoq; **un tas de choses** bir butun, to'da borliq; **les choses humaines, de ce monde** olam borlig'i; **la nature des choses** tabiat borlig'i, borliq tabiati; **c'est chose faite** bo'lgan voqea, fakt; **dites-lui bien des choses de ma part** mendan yaxshi gaplarni, istaklarni aytib qo'ying; *loc* **autre chose** boshqa narsa; **c'est autre chose, tout autre chose** bu butunlay boshqa narsa; **la même chose** shunday narsa; **ce n'est pas la même chose** bu ayni shunday emas; **quelque chose** nimanidir; **il lui est arrivé quelque chose** unga nimadir bo'lgan; **peu de chose** muhim emas; **c'est bien peu de chose** bu juda muhim emas; **II.** *nm* **1.** shunaqa, shunday narsa; **2.** bu (*odam haqida*); **j'ai vu monsieur chose** men anavi odamni ko'rdim (*oti nima ediya*); **III.** *adj* **être tout chose** kayfi buzuq bo'lmoq, o'zini yomon his qilmoq; **je suis tout chose** men o'zimni yomon his qilayotibman.

**chou I.** *nm* karam; **feuilles de chou** bulvar, tuturuqsiz gazeta; **mon chou, mon petit chou** azizim; **II.** *adj* juda yaxshi, ajoyib.

**chouan** *nm* shuan (*Fransiyada qirol tarafdorlari*).

**chouannerie** *nf* shuanlar qo'zg'oloni (*Fransiyada qirol tarafdorlarining qo'zg'oloni*).

**choucas** *nm* zag'cha (*qush*).

**chouchou, oute** *nf* suyumli, ardoqli, yaqin o'rtoq.

**chouchouter** *vt* suymoq, erkalamoq, taltaytirmoq.

**choucroute** *nf* karam va go'shtli taom.

**chouette I.** *nf* boyqush, boyo'g'li; **II.** *adj* ko'rkam, zebo, shinam, muhtasham, juda soz, ajoyib, zo'r; *intj* juda soz! qoyil!

**chou-fleur** *nm* gulkaram.

**chou-rave** *nm* sholg'omkaram, ildizkaram (*mazasi sholg'omga o'xshagan karam*).

**choyer** *vt* erkalamoq, erkalatmoq, suymoq, ardoqlamoq; **elle choye ses enfants** u bolalarini ardoqlaydi.

**chrême** *nm* cherkovlarda ishlatiladigan maxsus zaytun moyi.

**chrétien, ienne I.** *adj* nasroniy diniga oid; **II.** *n* nasroniy.

**chrétiennement** *adv* **vivre chrétiennement** nasroniy bo'lib yashamoq.

**chrétienté** *nf* nasroniylik, nasroniy dinidagi xalqlar.

**christ** *nm* **1.** Iso Masih; **2.** xochga tortilgan Iso Masih tasviri.

**christiania** *nm* lijada keskin burilish qilish.

**christianisation** *nf* nasroniy diniga o'tkazish, nasroniylashtirish.

**christianiser** *vt* nasroniy diniga o'tkazmoq.

**christianisme** *nm* nasroniylik, nasroniy dini.

**chromatique** *adj* **1.** xromatik; **gamme chromatique** xromatik gamma; **2.** xromatik ranglar; **3.** xromosomalar (*irsiyatga oid*).

**chrome** *nm* **1.** xrom (*och kul rang tusli qattiq kimyoviy element*); **2.** xromlash, yaltillatish (*detallarni*); **nettoyer les chromes de sa voiture** mashinasining detallarini artmoq, tozalamoq.

**chromé, ée I.** *adj* xromlashtirilgan, xromli; **II.** *nm* xromli detal.

**chromer** *vt* xromlamoq, xrom qoplamoq.

**chromo** *nm* **1.** xromolitografiya (*rangli kitob, jurnallar*); **2.** taxta klishedan bosilgan rasm; oleografiya (*moy bo'yoq bilan rasm qilish*).

**chromosome** *nm* xromosomalar (*organizmdagi irsiyat faktori, irsiyatning elementar birligi*).

**chronique I.** *adj* surunkali, azaliy, uzoq davom etadigan, cho'ziladigan, odat bo'lib qolgan; **II.** *nf* solnoma, yilnoma, tarix.

**chroniquement** *adv* surunkali, azaliy, doimiy.

**chroniquer** *vt* yilnoma, solnoma, tarix yozmoq; yozib qoldirmoq.

**chroniqueur** *nm* **1.** solnomachi, solnomanavis, tarixni yozib boruvchi; **2.** xronikachi, gazeta xodimi, sharhlovchi, kuzatib boruvchi.

**chronologie** *nf* xronologiya (*voqealar tarixi*).

**chronologique** *adj* voqealarning ketma-ketligiga asoslangan.

**chronologiquement** *adv* xronologik bayon etish.

**chronométrage** *nm* xronometraj (*vaqtni aniq o'lchash*).

**chronomètre** *nm* xronometr (*juda to'g'ri yuradigan, vaqtni aniq ko'rsatadigan soat*).

**chronométrer** *vt* vaqtni juda aniq o'lchamoq.

**chronométreur** *nm* xronometraj bilan shug'ullanuvchi (*odam*).

**chronométrique** *adj* xronometrik, xronometr asosida qilinadigan, vaqtni aniq o'lchashga oid.

**chrysalide** *nf* kapalak g'umbagi, g'undagi; *fig* **sortir de sa chrysalide** go'zallashmoq, chiroyli bo'lmoq, yetilmoq, voyaga yetmoq.

**chrysanthème** *nm* xrizantema (*gul*).

**chuchotement** *nm* pichirlash, shivirlashish, pichir-pichir qilish, gap, g'iybat.

**chuchoter** *vt* **1.** pichirlamoq, shivirlamoq, quloqqa shivirlab gapirmoq; **2.** *vi* pichirlashmoq, shivirlashmoq, pichirlab gaplashmoq; **3.** shitirlamoq, shildiramoq, shaldiramoq.

**chuintant, ante I.** *adj* shipillaydigan, shipildoq (*tovush*); **II.** *nf* shipildoq 'sh' tovushi.

**chuintement** *nm* shsh, j-jlash, shsh-lab gapirish.

**chuinter** *vi* sh-shlab, j-jlab gapirmoq.

**chut** *intj* jim! bas!



www.ziyouz.com kutubxonasi

**chute** *nf* **1.** tushish, ag‘darilish, qulash, yiqilish; **faire une chute dans un escalier** zinapoyadan, shotidan yiqilib tushmoq; **2.** yog‘ish, quyish; **chute de pluie, de neige** yomg‘ir quyish, qor yog‘ish; **chute d’eau** sharshara, shalola, shovva; **les chutes du Niagara** Niagara sharsharasi; **3.** to‘kilish; **chute des cheveux; chute des feuilles** soch to‘kilishi, barglar to‘kilishi; **4.** ag‘darilish, qulash, barbod bo‘lish; **chute de Napoléon** Napoleon Bonapartning ag‘darilishi (*davlati*); **chute d’un régime** tuzumning barbod bo‘lishi; gunoh qilish, gunohkorlik, osiylik; **chute d’Adam par le péché** Odam Atoning gunohi; **6.** tushish, pasayish; **chute de l’utérus** bachadon tushishi; **chute de pression** bosimning pasayishi; **chute d’une valeur** qiymat, bahoning pasayishi, kamayishi; **7.** buzilish; **8.** axlat quvur; **9.** xotima, oxirgi qism, oxiri; **10.** *pl techn* chiqit, chiqindi; **11.** *pl* ko‘plab qamoqqa olish, qama-qama; **12.** og‘ish, qiyshayish (*tomning*); **chute d’un toit** tomning og‘ishi.

**chuter** *vi* **1.** yomon baho olmoq, yiqilmoq; **2.** qulamoq, yiqilib, ag‘darilib tushmoq; **3.** qarta o‘yinida pora olmaslik; **4.** gunohi azim qilmoq.

**chyle** *nm* xilus, sutsimon shira, sharbat.

**ci 1.** *adv* bu yerda, joyda, yoqda bunda; **2.** *loc adv* **ci-dessus** yuqorida; **ci-dessous** pastda; **ci-contre** qarama-qarshi, yuzma-yuz; **de-ci, de là** bu yoqdan, u yoqdan; **par-ci, par-là** shu paytdan (*vaqtdan*); **3. ci-gît** bu yerga ko‘milgan; **4.** *pron dém* **demander ci et ça** uni-buni so‘ramoq; **comme ci comme ça** bir navi, yomondan ko‘ra yaxshiroq; **ci-après** quyiroqda, pastroqda.

**cible** *nf* nishon, mo‘ljal, maqsad, niyat, murod, muddao; **tirer à la cible, servir de cible aux railleries** bo‘lmoq, niyatga intilmoq, maqsad nuqtasi.

**cibler** *vt* mijozlarning qiziqish doirasini aniqlamoq.

**ciboire** *nm* chrekov vazasi, qurasi.

**ciboulette** *nf* ko‘k piyozga o‘xshash o‘simlik.

**ciboulot** *nm* bosh, kalla; **avoir une idée dans le ciboulot** boshida fikr tug‘ilmoq.

**cicatrice** *nf* **1.** chandiq, yamoq, tirtiq, bitgan yara o‘rni; **cicatrice d’écorchure, de brûlure** shilingan, tirnalgan, kuygan yara izi, o‘rni; **2.** asorat izi (*baxtsizlik, urush oqibatida*).

**cicatriciel, elle** *adj* chandiqli, yamoqli, tirtiqli.

**cicatrisant, ante I.** *adj* bitadigan, tuzaladigan; **II.** *nm* tuzatadigan dori.

**cicatrisation** *nf* yaraning tuzalishi, bitishi.

**cicatriser** *vt* **1.** chandiq, iz, yamoq qoldirib bitmoq, tuzatmoq, tuzalmoq; **la brûlure ne se cicatrise pas bien** kuygan yara yaxshi tuzalmaydi, bitmaydi; **2. cicatriser une blessure d’amour-propre, une douleur** sof muhabbat yarasini tuzatmoq (*dard, alam*).

**cicérone** *nm* yo‘l boshlovchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, gid, checherons.

**cidre** *nm* olma vinosi, olma shirasidan tayyorlangan vino, ichimlik.

**ciel** *nm* **1.** osmon, koinot, falak, samo, ko‘k; **la voûte du ciel** osmon gumbazi; **les étoiles brillent dans le ciel** samoda yulduzlar charaqlaydi; *loc* **sous le ciel** osmon ostida; **à ciel ouvert** ochiq havoda; **lever les yeux au ciel** ko‘zlarini ko‘kka qaratmoq; **2.** gumbaz, qubba, shift, qoplama; *pl* guldor qimmatbaho chodir, choyshab; **4.** iqlim; **ciel tempéré** mo‘tadil iqlim; **5.** *fig* **être au septième ciel** og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq, boshi ko‘kka yetmoq; **6.** jannat; **il est au ciel** u jannatda; **7.** iloh, olloh, tangri, xudo; **8.** *intj* **ciel!** o xudo, o falak!

**cierge** *nm* **1.** mum, sham; **droit comme un cierge** tayoqday to‘g‘ri; **2.** yog‘li o‘simlik.

**cigale** *nf* chirildoq, vizilloq.

**cigare** *nm* sigara; **fumer un gros cigare** yo‘g‘on sigara tutatmoq, chekmoq.

**cigarette** *nf* sigareta; **cigarettes à bouts filtres** filtrli, suzg‘ichli sigareta; **rouler une cigarette** sigareta o‘ramoq.

**cigogne** *nf* laylak.

**cil** *nm* **1.** kiprik, mujgon; **2.** tuk; **cils vibratiles** tebranuvchi kiprikchalar, tuklar.

**ciller** *vt* ko‘z qismoq, uchirmoq, pirpiratmoq.

**cimaise** *nf* bino araqisi.

**cime** *nf* tepa, uch, cho‘qqi, nish; **la cime d’un arbre** daraxt uchi, tepasi; **grimper jusqu’à la cime d’un sapin** archa uchigacha chiqmoq; **cimes neigeuses d’une chaîne de montagne** tog‘ tizmasining qorli cho‘qqilari.

**ciment** *nm* semon.

**cimenter** *vt* **1.** semonlamoq, biriktirmoq, mahkamlamoq, mustahkamlamoq, semon qoplamoq; **2.** ulamoq, biriktirmoq, bog‘lamoq, qo‘shmoq, payvandlamoq; **cimenter la paix** tinchlikni mustahkamlamoq; **les difficultés ont cimenté leur amitié** qiyinchilik ularning do‘stligini mustahkamladi.

**cimenterie** *nf* **1.** semon zavodi; **2.** semon sanoati (*ishlab chiqarishi*).

**cimeterre** *nm* egri, yoysimon turk qilichi, shamshir.

**cimetière** *nm* qabriston, go‘riston, mozorat, mozoriston.

**cimier** *nm* shlem, kaska kabilarning ustidagi bezagi, toji.

**cinabre** *nm* kinovar, qizil rangli mineral, simob sulfidi, simob rudasi, qizil bo‘yoq.

**ciné** *nm* kino; **aller au ciné** kinoga bormoq.

**cinéaste** *nm* kinoga oluvchi, kino xodimi.

**ciné-club** *nm* kino klubi.

**cinéma** *nm* **1.** kino; **cinéma sonore, parlant** ovozli kino; **salle de cinéma** kinozal; **2.** kinoteatr; **3.** kino san’ati; **4.** kino olami; **c’est du cinéma** bu qiziq, g‘alati; munofiqlik, soxtalik, uydirma, mubolag‘a.

**cinémascope** *nm* keng ekranli kino.

**cinémathèque** *nf* filmoteka (*kino saqlaydigan muassasa*).

**cinématique** *nf* kinematika (*nazariy mexanika jismlar harakatini o‘rganuvchi qismi*).

**cinématographe** *nm* kinematograf, kinokamera apparati.

**cinématographique** *adj* kinematografiyaga oid.

**cinéphile I.** *adj* havaskor; **II.** *nm* kinohavaskor.

**cinéraire** *adj* **urne cinéraire** marhumning kuli solingan idish.

**cinérama** *nm* kinopanarama.

**ciné-roman** *nm* kinoroman.

**cinétique I.** *adj* kinetik; **II.** *nf* kinetika (*mexanikaning dinamika va statika bo‘limi*); **énergie cinétique** kinetik harakat, kuch.

**cinglant, ante** *adj* keskin, qattiq, kuchli, tahqirli, haqoratli, qattiq tegadigan.

**cinglé, ée I.** *adj* aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **II.** *nm* **c’est un vrai cinglé** bu haqiqiy telba.

**cingler** *vt* **1.** suzib ketmoq, jo‘nab ketmoq (*kema*); **2.** oldinga yurmoq, siljimoq; **3.** urmoq, savalamoq, qamchilamoq; **cingler son cheval de sa cravache** otini qamchilamoq; **le vent glacial lui cinglait la figure** sovuq shamol uning yuzini savalardi.

**cinnamome** *nm* **1.** dolchin, kamfara daraxti; **2.** tibbiyotda ishlatiladigan kamfara moyi, spirti, o‘tkir hidli suyuqlik.

**cinq I.** *adj numér* besh, beshta, beshov; **les cinq doigts de la main** qo‘lning besh barmog‘i; **II.** *nm* **1.** besh soni; **en cinq sec** tezdan; **2.** beshinchi sana; beshtalik.

**cinquante** *adj numér* ellik, ellikta; **cinquante pages** ellik bet; **la page cinquante** elliginchi bet.

**cinquantaine** *nf* elliktacha; **approcher de la cinquantaine** ellikka yaqinlashmoq (*yoshi*).

**cinquantenaire** *nm* ellik yillik, ellik yoshli.

**cinquantième** *adj* elliginchi.

**cintre** *nm* **1.** gumbaz qolipi, ark, toq, ravoq, darvoza; **2.** o‘txona panjarasi, so‘ri, kat; **en plein cintre** yarim yoy gumbaz; **3.** ilgak (*kiyimga*).

**cintré, ée** *adj* **1.** gumbazli, egma, qayrilma, egik, bukik, yoysimon; **2.** yopishgan, yopishib turadigan (*kiyim*).

**cintrer** *vt* **1.** egmoq, bukmoq, qayirmoq, bukchaytirmoq; **2.** yoymoq, qoplamoq, qurmoq; **3.** moslamoq, yaxshi o‘tiradigan qilmoq, muofiqlashtirmoq (*kiyimni*).

**cirage** *nm* **1.** mumlash; **cirage des parquets** pollarni ishqalash; **2.** poyabzal, etik moyi; **noir comme du cirage** etik moyidek qora; **3.** etik tozalash; **brosse à cirage** etik moylaydigan cho‘tka; **4. être dans le cirage** hech narsa ko‘rolmaslik, tushunmaslik.

**circoncire** *vt* xatna qilmoq, kesmoq.

**circoncis** *adj* xatna qilingan.

**circoncision** *nf* xatna.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**circonférence** *nf* **1.** aylana, doira; **la circonférence est divisée en 360 degrés** doira 360 gradusga boʻlingan; **tracer une circonférence au compas** sirkul bilan aylana chizmoq; **2.** tevarak-atrofdagi joy, yer, chegara, maydon, sahn; **circonférence d'une ville** shahar chegarasi, maydoni, sahni.

**circonflexe** *adj* **accent circonflexe** diakritik belgi (ˆ).

**circonlocution** *nf* tasviriy, tavsifiy ibora, gap, ezmalik, vaysash, gap sotish, safsata sotish, mahmadonalik qilish.

**circonscription** *nf* **1.** cheklash, chegaralash, cheklov; **2.** *géom* tasvirlash, bayon, ta'rif.

**circonscrire** *vt* **1.** tasvirlamoq, tavsif, ta'riflamoq; **circonscrire un espace** joyni, maydonni, sathini yozib tavsiflamoq; **2.** chegaralamoq, cheklamoq; **circonscrire son sujet** mavzusini cheklamoq.

**circonspect, ecte** *adj* ehtiyotkor, ehtiyotli, ehtiyot; **il n'est pas assez circonspect dans le choix de ses amis** u doʻst tanlovida yetarlicha ehtiyotkor emas.

**circonspection** *nf* ehtiyotkorlik, ehtiyot bilan ish tutish, ketini oʻylab ish yurgizish.

**circonstance** *nf* tomon, jihat, hol, sharoit, vaziyat, holat, shart, voqea, hodisa, qulay fursat, vaqt; **circonstances atténuantes** gunohini yengillatuvchi omillar, holatlar; **complément de circonstance** *gram* hol; **il faut profiter de la circonstance** qulay fursatdan foydalanmoq kerak; **dans les circonstances présentes, actuelles** hozirgi sharoitda, vaziyatda; **un ouvrage de circonstance** shu fursatdagi asar, ish.

**circonstancié, ée** *adj* mufassal, batafsil, puxta; **un rapport circonstancié** mufassal, puxta ma'ruza, doklad.

**circonstanciel, elle** *adj* holga oid, hol bilan ifodalangan, hol; **subordonnée circonstancielle** hol ergash gap; **complément circonstanciel de lieu** oʻrin holi.

**circonvenir** *vt* tegmasdan oʻtmoq, chetlab oʻtmoq, aldamoq, firib bermoq, pand bermoq; **circonvenir ses juges** hakamlarga pand bermoq.

**circonvolution** *nf* **1.** aylanish, aylanib yurish; **2.** egri-bugri, ilon izi joy; **circonvolution cérébrales** miyaning burma-burma boʻlib turgan joylari.

**circuit** *nm* **1.** aylana, doira; **la piste a quatre kilomètres de circuit** maydon, iz, yoʻl 4 km aylanasiga; **2.** aylana yoʻl; **3.** aylanib oʻtish; **4.** sistema, soha, sxema, aylana chizma; shakl, elektr zanjiri; **mettre en circuit** elektr zanjiriga solmoq; **circuit imprimé** bosma sxema; **5.** yurish, muomalada boʻlish, aylanish; **circuit commercial** savdo muomalasi; **circuit de distribution** taqsimlash sistemasi; **6.** orasi, ichi; **je ne suis plus dans le circuit** men voqealarning orasida emasman.

**circulaire I.** *adj* **1.** yumaloq, dumaloq, toʻgarak, doirasimon; **surface circulaire** dumaloq yuza; **2.** aylana, aylanma, doiraviy, halqa shaklidagi; **mouvement circulaire** aylanma harakat; **3.** dunyo boʻylab; **voyage circulaire** dunyo boʻylab sayohat; **II.** *nf* sirkulyar xat.

**circulation** *nf* **1.** aylanish, aylanib turish, yurish, muomalada boʻlish, muomala; **2.** muomalada boʻlish, yurish; **circulation de l'argent** pul muomalasi; **3.** aylanma harakat, aylanib yurish; **détourner la circulation** yoʻl harakatini boshqarmoq; **agent de la circulation** yoʻl harakatini tartibga soluvchi, boshqaruvchi; **4.** suyuqlik aylanishi; **circulation du sang** qon aylanishi.

**circulatoire** *adj* qon aylanishiga doir; **l'appareil circulatoire** qon aylanish sistemasi; **troubles circulatoires** qon aylanishining buzilishi.

**circuler** *vi* **1.** aylanmoq, aylanib yurmoq, u yoqdan bu yoqqa yurmoq, borib kelmoq; **les passants circulent** yoʻlovchilar u yoqdan bu yoqqa yurishayotibdi; **2.** aylanib yurmoq; **le sang circule dans le corps** qon tanada aylanib yuradi; **3.** muomalada yurmoq, aylanmoq, qoʻldan qoʻlga oʻtmoq; **l'argent circule** pul qoʻldan-qoʻlga oʻtib yuradi, muomalada yuradi; **4.** ogʻizdan-ogʻizga oʻtib yurmoq; **ce bruit circule** mish-mish ogʻizdan-ogʻizga oʻtib yuribdi.

**cire** *nf* mum, asalari mumi; **cire à cacheter** surgʻuch; **cire à parquets** pol surgʻuchi, pol boʻyogʻi, mastika.

**ciré, ée I.** *adj* mumlangan, mum qoplangan, surgʻuchlangan; sirlangan; **toile cirée** kleyonka; **II.** *nm* yomgʻir oʻtkazmaydigan plashch.

**cirer** *vt* **1.** mumlamoq, mum surtmoq (soʻrmoq); **cirer un meuble** jihozni mumlamoq; **2.** poyabzal tozalamoq; **cirer les souliers; cirer les bottes à qqn** quyi egilmoq, tilyogʻlamalik qilmoq.

**cireur, euse** *n* **1.** pol mumlovchi, pol pardozlovchi; **2.** *nm* etik moylovchi; **3.** *nf* pol pardozlovchi elektr qurilma.

**cireux, euse** *adj* mumli, mumsimon, za'faron yuz (*qiyofa*).

**cirque** *nm* **1.** sirk; **mener des enfants au cirque** bolalarni sirkka olib bormoq; **2.** betartib tomosha (*harakatlar*); **allons, silence! qu'est-ce que c'est que ce cirque?** qani, jim! bu qanday tomosha; **3.** qadimgi ochiq tomoshagoh.

**cirrhose** *nf* sirroz, toʻqima kasali (*jigarda, oʻpkada*).

**cirrus** *nm* patsimon bulutlar.

**cisaille** *nf* **1.** qaychi; **cisaille de jardinier** tok qaychi; **2.** metall kesadigan qaychi; **3.** gulqaychi, qoʻl qaychisi.

**cisaillement** *nm* kesish.

**cisailler** *vt* kesmoq, qaychilamoq; qiymalamoq, burdalamoq.

**ciseau** *nm* **1.** keskich, iskana; **2.** *pl* qaychi, qachov; **3.** *sport* qaychi qilib sakrash.

**ciseler** *vt* zarb qilmoq, oʻyma gul, naqsh bosmoq; naqsh solmoq; **ciseler de la vaisselle d'argent** kumush idishga naqsh solmoq, bosmoq.

**ciseleur** *nm* naqqosh, oʻymakor usta, duradgor.

**ciselure** *nf* oʻyma gul, naqsh, bezak.

**citadelle** *nf* **1.** qoʻrgʻon, qal'a, shahriston; **2.** tayanch, suyanch.

**citadin I.** *adj* shaharli; **II.** *n* shaharlik, shahar aholisi.

**citation** *nf* **1.** sitata, iqtibos, dalil, dastak, bahona, havola; **2.** sudga chaqirish, chaqiriq, chaqiruv, taklif; **3.** *mil* buyruqda eslash, tilga olish, minnatdorchilik bildirish, e'lon qilish.

**cité** *nf* **1.** shahar, shahar tipidagi qishloq, aholi yashaydigan punkt; **une cité commerçante** savdo shaharchasi; **l'Ile de la cité** shahar orolcha (*Parijda, Sena daryosida*); **2.** *loc* **avoir droit de cité quelque part** qayerdadir qabul qilinmoq; **3.** katta binolar toʻdasi; **cités ouvrières** ishchilar shaharchasi; **cités universitaires** talabalar shaharchasi.

**citer** *vt* **1.** sitata olmoq, iqtibos keltirmoq; **citer un auteur** bir muallifdan sitata keltirmoq; **2.** dalil qilmoq, dalil qilib koʻrsatmoq, keltirmoq; **citer un exemple** misol sifatida dalil keltirmoq; **3.** tilga olmoq, eslatib oʻtmoq, aytib oʻtmoq, koʻrsatmoq; **citer quelqu'un en exemple** misol qilib tilga olmoq, koʻrsatmoq; **4.** chaqirilmoq, taklif qilinmoq (*sudga*); **citer comme témoin** guvoh sifatida chaqirilmoq; **5.** *mil* minnatdorchilik e'lon qilmoq, bildirmoq (*buyruqda*).

**citerne** *nf* **1.** havza, hovuz, sardoba, suv ombori; **2.** sisterna, katta suv idish.

**cithare** *nf* sitra (*cholgʻu asbobi*).

**citoyen, enne** *n* **1.** fuqaro, grajdan; **citoyen d'honneur** faxriy fuqaro; **accomplir ses devoirs de citoyen** fuqarolik burchini ado etmoq; **2.** haqiqiy farzand, chin inson, shaharlik; **citoyen du monde** dunyoning chin insoni; **3.** shaxs, odam; **un drôle de citoyen** gʻalati shaxs, odam.

**citoyenneté** *nf* fuqarolik, grajdanlik.

**citrique** *adj* limon kislotali, limonga oid.

**citron I.** *nm* **1.** limon; **citron pressé** limon sharbati; **2.** kalla, bosh *fam*; **II.** *adj* limon rangi, sariq.

**citronnade** *nf* limonad (*ichimlik*).

**citronnelle** *nf* limon yalpizi, limonoʻt, melissa.

**citronnier** *nm* limon daraxti; **bois de citronnier** limonzor.

**citrouille** *nf* **1.** oshqovoq, qovoq; **soupe à la citrouille** qovoq shoʻrva; **2.** *fam* kalla, bosh.

**civet** *nm* ragu, jarkop (*quyon yoki parranda goʻshtidan*).

**civette** *nf* sivetta, viverra (*etxoʻr sut emizuvchi hayvon va uning moʻynasi*).

**civière** *nf* zambil.

**civil, ile I.** *adj* **1.** insoniy, fuqaroga oid; grajdan; **guerre civile** grajdan urushi; **droits civils** inson huquqlari; **état civil** grajdanlik holati; **code civil** grajdanlik kodeksi; **2.** insoniy, oddiy grajdan; **les autorités civiles** oddiy grajdanlar hukumati; **3.** xushmuomala, boadab, muloyim, silliq, nazokatli, odobli; **il a été civil à mon égard** u menga muloyim edi; **II.** *nm* **1.** oddiy



www.ziyouz.com kutubxonasi

fuqaro, odam, shaxs; **2.** oddiy fuqaro kiyimi; **3.** fuqarolik, shaxs hayoti; **les militaires et les civils** harbiylar va fuqarolar; **s'habiller en civil** oddiy fuqarocha kiyinmoq; **dans le civil** fuqarolik hayotida, turmushida; **4.** dinsiz; **mariage civil** dinsiz uylanish, turmush qurish.

**civilement** *adv* **1.** grajdancha, fuqaroviy, grajdan holida; **2.** xushmuomalalik bilan, muloyimona, nazokat bilan, odoblilik bilan.

**civilisateur, trice I.** *adj* sivilizatorlikka oid, ma'rifat tarqatadigan, ma'rifiy, oqartuv; **II.** ma'rifat tarqatuvchi, ma'rifatchi, ma'rifatparvar, madaniy oqartuv xodimi.

**civilisation** *nf* sivilizatsiya, madaniyat, taraqqiyot, tamaddun; **les bienfaits de la civilisation** taraqqiyot muruvvatlari; **civilisation disparue** yo'qolib ketgan madaniyat.

**civilisé, ée I.** *adj* madaniy, ma'rifatli, madaniyatli; **II.** *nm* madaniyatli odam, ma'rifatparvar.

**civiliser I.** *vt* **1.** ma'rifat tarqatmoq, madaniylashtirmoq, madaniyatli qilmoq; **2.** odob bermoq, yurish-turishni, muomalani o'rgatmoq; **II.** *vpr* **se civiliser 1.** ma'rifatli, madaniy, madaniyatli bo'lmoq; **2.** odob olmoq, yurish-turishni, muomalani o'rganmoq, duppa-durust, odobli bo'lib qolmoq.

**civilité** *nf* **1.** xushmuomalalik, muloyimlik, adab, nazokat, boadablik; **2.** xushomad, maqtab yuborish, hurmat ko'rsatish; **présenter ses civilités** hurmat ko'rsatmoq, xushomad qilmoq.

**civique** *adj* fuqaroviy, insoniy; **devoirs civiques** grajdanlik burchi, vazifasi.

**civisme** *nm* fuqarolik holati, grajdanlik his-tuyg'usi, vatanga sodiqlik, fidokorlik.

**clabaudage** *nm* **1.** hurish, vovullash, akillash; **2.** qattiq qichqirish, shovqun suron, dod-faryod; **3.** g'iybat, fisq-fasad, yomonlash, chaynash, yolg'on-yashiq, gap-so'z, mish-mish gaplar.

**clabauder** *vi* **1.** qattiq qichqirmoq, shovqin-suron ko'tarmoq, dod-faryod solmoq; **2.** hurmoq, vovullamoq; **3.** g'iybat qilmoq, fisq-fasod, yolg'on-yashiq, gap-so'z qilmoq, yomonlamoq.

**clabot** *nm voir techn* **crabot**.

**clac** *onomat* sharaq.

**clafoutis** *nm* klafuti, mevali pirog.

**claie** *nf* to'qima, o'rilgan, to'qilgan narsa, g'alvir.

**clair, claire I.** *adj* **1.** yorug'; ravshan, yorqin, oydin, porloq, charaqlagan, lovullagan, quyoshli, tiniq, shaffof, ochiq, sof, bulutsiz; **chambre claire** yorug' xona; **temps clair** sof, bulutsiz havo, osmon; ochiq; **2.** och-sariq; **cheveux châtain clair** och-sariq, oqish soch; **3.** siyrak, siyraklashib qolgan, yakkam-dukkam, suyuq, sersuv; **une soupe claire** suyuq, sersuv sho'rpa; **les blés sont clairs** bug'doy siyrak; **4.** sof, tiniq, tushunarli, aniq; **son clair** sof, tiniq tovush; **l'eau claire** tiniq suv; **des idées claires** aniq fikrlar; **II.** *adv* **1.** aniq, ravshan, yorqin; **parler haut et clair** baland va aniq gapirmoq; **2.** ravshan, aniq, yaxshi; **voir clair** aniq, yaxshi ko'rmoq; **3.** siyrak, suyuq, yakkam-dukkam; **semer clair** siyrak qilib ekmoq; **III.** *nm* **1. clair de lune** oy yoritgan tun; **mettre au clair** aniq aytib bermoq; **sabre au clair** yalang'och qilich, shamshir; **dépenser le plus clair de sa fortune** boyligining katta qismini sarflamoq, sarflab yubormoq; **2. les ombres et les clairs** rasmdagi soya va yorug'lik farqlari.

**claire** *nf* ustritsa, dengiz molluskasi katalagi, sun'iy hovuzi (*baliq urchitadigan*).

**clairement** *adv* **1.** aniq, ravshan, toza, sof, musaffo; **2.** sodda, yaxshi, tushunarli; **expliquer clairement une histoire** voqeani yaxshi, sodda qilib tushuntirmoq.

**claire-voie** *nf* **1.** qoziqdevor, panjara taxtali to'siq, g'ov, darcha eshigi; **2.** *loc* panjarali; **à claire-voie; volet à claire-voie** panjarali darcha.

**clairière** *nf* o'rmon ichidagi ochiq, daraxtsiz joy, maydon, yalanglik, sayxonlik, butazor.

**clair-obscur** *nm* **1.** yorug' va soya tomonlarini munosib bo'yoqlar vositasida ko'rsatish, ifodalash; **2.** yarim qorong'ilik, g'ira-shira yorug'lik, nim qorong'ilik, yorug'lik, xira oydin, yorug'lik.

**clairon** *nm* **1.** gorn, naycha, truba; **2.** gorn, naycha chalib signal beruvchi.

**claironnant, ante** *adj* jarangli, jaranglagan; **voix claironnante** jarangli tovush.

**claironner** *vt* **1.** qattiq chalmoq; **2.** quvonchini qattiq izhor etmoq; **3.** qattiq e'lon qilmoq, o'qib eshittirmoq; **claironner son succès** muvaffaqiyatini qattiq o'qib eshittirmoq, e'lon qilmoq.

**clairsemé, ée** *adj* **1.** siyrak ekilgan, siyrak o'tqazilgan; **des arbres clairsemés** siyrak o'tqazilgan daraxtlar; **une tête aux cheveux clairsemés** siyrak sochli bosh; **2.** kam sonli, oz, yakkam-dukkam, onda-sonda.

**clairvoyance** *nf* ziyraklik, farosatlilik, oldindan ko'ra bilish, o'tkirlik, sezgirlik, farosat, zakovat, oldindan bilish, g'oyibdan xabar berish, karomat qilish, bashorat.

**clairvoyant, ante** *adj* **1.** o'tkir ko'zli, aniq ko'radigan; **2.** sezgir, ziyrak, farosatli, zakovatli, g'oyibona, karomat qila oladigan, bashoratchi.

**clamecer** *vi pop voir* **clamser**.

**clamer** *vt* qattiq izhor etmoq, e'lon qilmoq, shovqin-suron ko'tarmoq, qichqirmoq; **clamer son indignation** jahlini qattiq izhor etmoq.

**clameur** *nm* baqiriq, qichqiriq, ayuhannos, dod-faryod, nola, fig'on; nido, xitob, sado.

**clamser** *ou* **clamecer** *vi pop* o'lmoq, harom qotmoq, to'ng'iz qopmoq.

**clan** *nm* **1.** urug', urug'chilik, qabila, qabilachilik; **2.** urug' qabilaga bo'linish, guruhlar; **3.** gala, to'da, guruh, niyati buzuq kishilar to'dasi.

**clandestin, ine I.** *adj* **1.** yashirin, maxfiy, ko'pchilik bilmaydigan, pinhona, sir tutilgan; **réunion clandestine** yashirin majlis; **2.** g'ayriqonuniy, qonunga xilof, qonunsiz, nohaq, qonunlashtirilmagan; **II.** *nm* yashirin ish olib boruvchi, maxfiy tashkilot a'zosi.

**clandestinement** *adv* yashirincha, maxfiyona, sirli ravishda, qonundan tashqari, g'ayriqonuniy holda.

**clandestinité** *nf* **1.** yashirin, maxfiy tashkilot, yashirin maxfiy ish, ishlash; **2.** sir, maxfiy, yashirin xarakter, fe'l, tabiat, xulq, hosiyat, fe'l-atvor.

**clapet** *nm* **1.** klapan, qopqoq, tugmacha, til, parda; **2.** tomoq, og'iz; **ferme ton clapet; tais-toi** og'zingni yop! jim bo'l!

**clapier** *nm* **1.** quyonxona, quyon katagi, ini, uyasi; **2.** ko'chki (*tog'dan ko'chib tushgan tosh uyumi*), tosh to'dasi; **3.** *fig* kulba, hujra.

**clapir** *vi* chiyillamoq, qichqirmoq (*quyon*).

**clapotement** *nm* shaloplash, shovullash, shapillash, shaldirash.

**clapoter** *vi* shaloplamoq, chayqalmoq, to'lqinlanmoq, shovullamoq, shaldiramoq.

**clapotis** *nm* suvning shaloplashi.

**clapper** *vi* shiqillatmoq, qirsillatmoq, taraqlatmoq, qarsillatmoq (*til bilan*).

**claquage** *nm* pay, paychalarning uzilishi (*ovozda*).

**claquant, ante** *adj* charchatadigan, toliqtiradigan, holsizlantiradigan, majolsizlantiradigan.

**claque** *nf* **1.** shapaloq, tarsaki, shappati; **donner, recevoir une claque sur la joue** yuziga shapaloq, tarsaki tushirmoq, olmoq; *loc* **tête à claques** xunuk, badbashara, yoqmaydigan yuz, qiyofa; **2.** yollanma hushtakboz, olqishchi (*teatrlarda*); **3. en avoir sa claque** itday charchamoq, holdan toymoq; jonidan juda to'ymoq, yetarli bo'lmoq.

**claquement** *nm* qarsak chalish, chapak chalish, chertki, chertish, urish, qoqish, taqillatish; **claquement de doigts** chertkilar.

**claquemurer (se)** *vpr* qamalib, bekinib, uydan chiqmay o'tirmoq.

**claquer I.** *vi* **1.** chapak, qarsak chalmoq, chertmoq, qoqmoq, taqillatmoq, urmoq; **faire claquer ses doigts, sa langue** taqillatmoq, chertmoq; **2.** yorilmoq, uzilmoq, sinmoq; **3.** o'lmoq, harom qotmoq; **II.** *vt* **1.** shapaloq urmoq; **2.** yopmoq; **faire claquer la porte** eshikni qattiq yopmoq; **3.** sarflamoq, xarajat qilmoq; **claquer son argent** pulini sarflab yubormoq; **4.** charchatmoq, holdan toydirmoq; **claquer son cheval** otni charchatmoq; **III. se claquer** *vpr* charchamoq, holdan toymoq; **se claquer un muscle** mushak, muskullarini cho'zib yubormoq; **il se claque pour préparer son examen** imtixonga tayyorlanib holdan toydi.

**claquette** *nf* **1.** tartarak (*bog' qo'riydigan asbob*), shaqildoq; **2.** *pl* chechetka raqsi.

**clarification** *nf* **1.** tinish, tozalanish, tozalash; **clarification des eaux de rivière** daryo suvining tinishi, tozalanishi, toza bo'lishi; **2.** oydinlashish, ochilish, aniqlash, tushuntirish, izoh, anglatish; **clarification des idées** fikrning oydinlashishi; **clarification d'un problème** masalaning izohi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**clarifier** *vt* **1.** oydinlashtirmoq, tinitmoq, tozalamoq; **clarifier le vin** vinoni tinitmoq; **2.** oydinlashtirmoq, aniqlamoq, tushuntirmoq, izohlamoq, anglatmoq.

**clarinette** *nf* klarnet (*surnayga o'xshash musiqa asbobi*).

**clarinettiste** *nm* klarnet chaluvchi sozanda.

**clarisse** *nf* Santa-Klara ordini dindori, rohibasi.

**clarté** *nf* **1.** nur, yog'du, yorug'lik; **clarté du soleil** quyosh nuri; **2.** tiniqlik, shaffoflik, tozalik, beg'uborlik, soflik; **3.** aniqlik, oydinlik, ayonlik, tushunarlilik, ravonlik, ravshanlik; **clarté du style** bo'g'in aniqligi; **avec clarté** aniq, ravshan, ravon.

**classe** *nf* **1.** sinf; **classe laborieuse** mehnatkashlar sinfi; **classe bourgeoise** burjuaziya sinfi; **la lutte des classes** sinflar kurashi, sinfiy kurash; **2.** toifa, daraja, razryad; **toutes les classes de lecteurs** hamma toifadagi o'quvchilar; **classe des mammifères** sut emizuvchilar toifasi, sinfi; **3.** daraja, sifat, belgisi; **un soldat de deuxième classe** ikkinchi darajali, sortli, navli askar; **4.** sinf; **les classes terminales** bitiruvchi sinflar; **aller en classe** o'qimoq, maktabga bormoq; **5.** sinf, joy; **classe claire, propre** toza, yorug' sinf; **6.** harbiy chaqiriq yoshi; **7.** dars, saboq; **classe d'histoire** tarix darsi.

**classement** *nm* **1.** sinflarga ajratish, tartibga keltirish; **2.** sinflash, toifalash, qatorga joylash; **il a eu un bon classement** u yaxshi toifadan.

**classer I.** *vt* **1.** sinflarga bo'lmoq, ajratmoq, toifalamoq; **classer les plantes** o'simliklarni sinflarga ajratmoq; **2.** navlamoq, turkumlamoq; **3.** ishni to'xtatmoq, **classer une affaire II. se classer** *vpr* **1.** toifasida bo'lmoq **classer parmi les impressionnistes** impressionistlar orasida, toifasidan bo'lmoq; **2.** navlanmoq, toifalanmoq; **il s'est classé dans les premiers** u birinchi o'rinlardan birini egalladi.

**classeur** *nm* **1.** qog'oz papkasi; **2.** kartoteka; **classeur pour disques** diskoteka (*jihoz*).

**classicisme** *nm* klassitsizm (*oqim*).

**classificateur, trice I.** *adj* sinflaydigan, tasniflaydigan, toifalaydigan; **II.** *nm* toifalovchi, navlarga ajratuvchi odam.

**classification** *nf* sinflash, tasniflash, toifalash, navlash.

**classique I.** *adj* **1.** klassitsizmga oid; klassik; **un écrivain classique** klassik yozuvchi; **2.** odatdagi, oddiy, doimo bo'lib turadigan, an'anaviy; **c'est là un argument classique** bu an'anaviy, oddiy bahona; **II.** *nm* **1.** klassik (*muallif, yozuvchi*); **2.** klassik asar, klassika; **jouer du classique** klassik musiqani ijro etmoq.

**classiquement** *adv* odatdagi, oddiy, an'anviy tarzda.

**claudicant, ante** *adj* oqsoqlanadigan, oqsaydigan.

**claudication** *nf* oqsoq, oqsoqlik, oqsash, oqsoqlanish, cho'loqlanish, cho'loqlik.

**claudiquer** *vi* cho'loqlanmoq, oqsamoq, oqsoqlanmoq.

**clause** *nf* **1.** shart, sharoit, garov, manba, tarmoq, qism, punkt, sharh, eslatma, izoh; **2. clause de style** bir xil, shablon, siyqasi chiqqan ta'riflash, aniq ifodalash; hech nimaga arzimaydigan gap.

**claustral, ale** *adj* darvishona, ajralgan holda; **la vie claustrale** darvishona hayot.

**claustration** *nf* qamoq, surgun, badarg'a, qamalish.

**claustrophobie** *nf* klaustrafobiya, yopiq joylardan qo'rqish.

**claveau** *nm* ponasimon g'isht, yo'nilgan g'isht (*karniz uchun*).

**clavecin** *nm* klavesin (*fortepianoga o'xshash musiqa asbobi*).

**claveciniste** *nm* klavesin chaluvchi sozanda.

**claveter** *vt* ponalamoq, shponka bilan mustahkamlamoq.

**clavette** *nf* pona, shponka, mahkamlagich; **clavette de sûreté** ishonch ponasi (*mahkamlagich*).

**clavicule** *nf* o'mrov, o'mrov suyagi.

**clavier** *nm* **1.** klaviatura; **2.** chegara, doira, ko'lam, hajm, o'rab olish, kenglik; **clavier d'une voix** ovoz chegarasi, doirasi; **clavier des sentiments** his-tuyg'u ko'lami, kengligi, hajmi.

**clayon** *nm* o'rilgan, to'qilgan narsa, to'qima, g'alvir, savatcha.

**clayonnage** *nm* **1.** to'qish (*savatcha*); **2.** zambil, g'altak, chetan, chipta, tur, chetan devor, g'ov, to'siq.

**clayonner** *vt* to'smoq, to'siq qilmoq, chetan devor qilmoq (*qorga qarshi*); qo'ra qilmoq.

**clef** *ou* **clé** *nf* **1.** kalit, ochqich; **clé d'une porte** eshik kaliti; **trousseau de clés** kalitlar bog'lami; **mettre la clé sous la porte** yashirincha ketib qolmoq, yo'qolmoq; **mettre qqn sous clé** qamab qo'ymoq, qamamoq; **2. clé des champs** ozodlik, erkinlik; **prendre la clé des champs** qochib ketmoq; **3.** yo'l ochib beradigan, muhim hal qiluvchi; **occuper une position clé** muhim, hal qiluvchi yo'llarni egallamoq, ishg'ol qilmoq; asos, yo'l; **clé du succès** muvaffaqiyat garovi, yo'li, asosi; **4.** kirish, muqaddima, so'z boshi; **5.** gayka kaliti; **clé à molette** ochuvchi, ajratuvchi kalit; **6. clé de voûte** gumbaz, qubba kaliti, qulfi; **7.** hal qiluvchi, muhim, imkon tug'diradigan; **poste clé** hal qiluvchi, muhim joy, o'rin.

**clématite** *nf* ilono't, ilonpechak.

**clémence** *nf* **1.** rahm, shafqat, marhamat, rahmdillik, iltifot, lutf, mehr, yaxshilik, muruvvat, himmat, karam, olijanoblik, omon odamgarchilik; **un trait, un acte de clémence** rahm-shafqat harakati; **2.** yuvvoshlik, bo'shlik, moyillik, muloyimlik; **clémence du temps** yumshoq havo.

**clément, ente** *adj* **1.** rahmdil, shafqatli, marhamatli, iltifotli, lutfan, mehrli, muruvvatli, olijanob, himmatli; **2.** yumshoq, bo'sh, yuvvosh, muloyim; **hiver clément** yumshoq qish.

**clémentine** *nf* klementin (*mandarin turi*).

**clenche** *nf* lo'kidon, eshikni bekitkich.

**cleptomane** *ou* **kleptomane** *n* kleptoman (*o'g'irlik qilishga moyil odam*).

**cleptomanie** *ou* **kleptomanie** *nf* kleptomaniya (*o'g'irlikka moyillikdan iborat ruhiy kasallik*).

**clerc** *nm* **1.** klerk (*yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi xizmatchi*); ma'lumotli, ilmli odam, olim; **pas besoin d'être grand clerc pour savoir cela** buni bilish uchun katta olim bo'lish shart emas; **2.** ruhoniy; **3.** maxsus idoralar xizmatchisi, notarius; **clerc de notaire** mirza, kotib, ishboshqaruvchi; **clerc d'avoué** ishonchli vakil, ishyurgizuvchi; **4.** xato, noto'g'ri ish; **faire un pas de clerc** xato, noto'g'ri ish qilmoq.

**clergé** *nm* ruhoniylar, bir butxona ruhoniylari; **clergé régulier** qora ruhoniylar.

**clergyman** *nm* anglo-sakson pastori, ruhoniysi.

**clérical, ale I.** *adj* **1.** aqliy, ruhiy, ma'naviy; **la vie cléricale** ma'naviy hayot, turmush; **2.** diniy, ruhoniy, dinga oid; **la presse cléricale** diniy matbuot; **II.** *nm* klerikal, a'zosi, tarafdori.

**cléricalisme** *nm* klerikalizm (*siyosiy va cherkov ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan reaksion oqim*).

**cliché** *nm* **1.** negativ (*rasmda*); **2.** klishe (*bosmaxonada*); **3.** ko'p chaynalgan, siyqasi chiqqan ibora, so'z, fikr.

**client, ente** *n* **1.** klient, mijoz, xaridor, buyurtmachi; **2.** patsient (*vrach ixtiyoridagi bemor kelib davolanuvchi odam*); **3.** shaxs, odam, inson, siymo.

**clientèle** *nf* **1.** klientlar, mijozlar to'dasi; **avoir une grosse clientèle** katta mijozlar to'dasiga ega bo'lmoq; **2.** tarafdor, davomchi, izdosh, muxlis; **une clientèle électorale** saylov muxlisi, tarafdori; **3.** mijozlik; **il voudrait obtenir la clientèle de cette riche famille** u bu oilaning doimiy mijozligini xohlardi.

**clignement** *nm* **1.** ko'z pirpiratish, ko'z qisish; **2.** miltillash, yaltillash (*nur*).

**cligner** *vt* **1.** ko'z qismoq; **cligner de l'œil** ko'z qisib qo'ymoq; **2.** ko'zini pirpiratmoq; **3.** *vi* ko'z ochib yummoq; **le soleil me fait cligner les yeux** quyosh ko'zlarimni ochib yumushga majbur qilardi.

**clignotant, ante I.** *adj* **1.** ko'z qisadigan, pirpiratadigan; **2.** miltillagan, yaltillagan; **II.** *nm* yog'du, nur ko'rsatkichi, migalka (*burilishni ko'rsatuvchi*).

**clignotement** *nm* **1.** ko'z qisish, ko'z pirpiratish; **2.** o'chib yonish; **clignotement d'une lampe** chiroqning o'chib yonishi.

**clignoter** *vi* **1.** ko'z pirpiratmoq, ko'z qisib qo'ymoq; **2.** yalt-yalt qilmoq, yaltillatmoq, miltillatmoq, pir-pir o'chmoq.

**climat** *nm* **1.** iqlim; **climat équatorial, tropical, désertique, tempéré** ekvator, tropik, cho'l, mo'tadil iqlim; **climat agreeable, sain, malsain** yoqimli, sog'lom, nosog' iqlim; **climat sec, humide, pluvieux** quruq, nam, yomg'irli iqlim; **2.** ma'naviy muhit, sharoit, ahvol; **dans un climat d'hostilité** yovuzlik, dushmanlik muhitida, vaziyatida.

**climatique** *adj* iqlimli; **une station climatique** iqlimi yaxshi kurort (*dam olish joyi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**climatisation** *nf* iqlimlashtirish, sun'iy yaxshi iqlim hosil qilish.

**climatiser** *vt* sun'iy yaxshi iqlim, havo hosil qilmoq, iqlimlashtirmoq; **salle de cinéma climatisée** sun'iy yaxshi havoli kino zali.

**clin d'œil** *nm* **1.** ko'z qisish, pirpiratish, ko'z, kiprik ochib yopish; **2.** *loc* **en un clin d'œil** ko'z ochib yumguncha, tez; **il disparut clin d'œil** u ko'z ochib yumguncha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

**clinicien** *nm* klinik amaliyotchi, tajribachi.

**clinique I.** *nf* klinika, shifoxona (*davolash bilan o'quv va ilmiy tekshirish ishlari olib boriladigan kasalxona*); **II.** *adj* klinikaga oid.

**clinquant, ante I.** *nm* **1.** yiltiroq tangachalar, yaltillash, yalt-yalt qilish; **2.** soxta yaltiroq toshlar, narsalar, zar ip, zar; **II.** *adj* arzon baholi, arzon, zarli, zar ipli.

**clip** *nm* **1.** qisqichli zirak; **2.** to'g'nog'ich; **3.** klip (*ashulaga ishlangan film*).

**clique** *nf* **1.** yomon niyatli kishilar to'dasi, niyati buzuq kishilar, gala, guruh; **2.** barabanchilar va subuzg'achilar guruhi, polk orkestri.

**cliques** *nf pl* **prendre ses cliques et ses claques** ega bo'lgan narsasini olib jo'nab ketmoq.

**cliqueter** *vi* shaqirlamoq, sharaqlamoq, shaqqillamoq, jiringlamoq, jaranglamoq, ding'irlamoq.

**cliquetis** *nm* **1.** jarang, jiring, jaranglash ovozi, shaqirlash, ding'irlash; **cliquetis de verres et d'assiettes** stakan va tarelkalarning shaqirlashi, jarang-jiringi; **2.** tovush, so'z, gap jarangi; **cliquetis de mots** quruq, dabdabali so'zlar, gaplar.

**clitoris** *nm* klitor.

**clivage** *nm* **1.** yorilish, tilinish, tilim-tilim bo'lish, qavat-qavat bo'lish, qatlamlarga ajratish; **2.** taxlam, tabaqa; **clivage des couches sociales** jamiyat tabaqalari.

**cliver** *vt* **1.** yormoq, tilmoq, tilim-tilim qilmoq, qatlamlarga ajratmoq, parchalamoq, ushatmoq, maydalamoq; **2.** bo'lmoq.

**cloaque** *nm* **1.** axlat oqadigan yer osti kanali, quvuri; **2.** axlatxona, axlat tashlanadigan joy; **3.** parrandalar orqa teshigi.

**clochard, arde** *n* daydi, darbadar, miskin, yalang oyoq, qalang'i-qasang'i, gadoy, tilanchi, sadaqachi.

**cloche[1]** *nf* **1.** qo'ng'iroq, jom; **les cloches sonnent** qo'ng'iroqlar chalindi; **sonner les cloches** qo'ng'iroq chalmoq; **n'entendre qu'un son de cloche** faqat birgina fikrni eshitmoq; **déménager à la cloche de bois** kvartiradan pulini to'lamasdan yashirin ketib qolmoq; **sonner les cloches à qqn** yaxshigina, qattiq ta'zirini berib qo'ymoq, koyimoq; **2.** shisha qopqoq; **cloche à melon, à fromage** qovun, pishloq uchun qopqoq; **cloche à plongeur** g'avvoslar qalpog'i; **3.** kichkina qozoncha, dekcha, qozon; **se taper la cloche** yaxshi ovqatlanmoq, yemoq; **4.** qo'ng'iroq shaklidagi, pastki qismi kengaygan narsa; **une jupe cloche** pasti kengaytirilgan, qo'ng'iroqsimon qilingan yubka; **5.** *fam vieilli* bosh, kalla.

**cloche[2]** *nf fam* **1.** lallaygan, noshud, lavang, lapashang, qovishmagan, befarosat odam, so'tak, kalvak, beso'naqay, beo'xshov; **2.** *pl* daydilar, darbadarlar, miskinlar, yalangoyoqlar, gado.

**cloche-pied (à)** *loc adv* bir oyog'ida; **aller, sauter à cloche-pied** bir oyog'ida yurmoq, sakramoq.

**clocher[1]** *nm* **1.** qo'ng'iroqxona; **2.** o'zi tug'ilib o'sgan, qadrdon joylar; **l'esprit de clocher** mahalliychilik, burjua millatchiligi-shovinizm.

**clocher[2]** *vi* **1.** ishi yurishmaslik, kelisha olmaslik, ishda oqsamoq, orqada qolmoq, kamchiligi bo'lmoq; **il y a qqch qui cloche** bir balosi borki, uning ishi yurishmaydi; **2.** oqsamoq, oqsab yurmoq; oqsoqlanmoq; **clocher du pied droit** o'ng oyog'i oqsamoq.

**clocheton** *nm* **1.** kichkina qo'ng'iroq; **2.** qurilishdagi qo'ng'iroqcha bezak.

**clochette** *nf* **1.** qo'ng'iroqcha; **clochettes au cou du bétail** hayvon bo'ynidagi qo'ng'iroqcha (*tuyada, echkida*); **2.** qo'ng'iroqgul, marvaridgul.

**cloison** *nm* **1.** chetan devor, to'siq, qo'ra, g'ov, pardevor; **écouter derrière la cloison** chetan devor, pardevor orqasidan eshitmoq; **2.** paroxod, kema yog'och devori; **3.** pardadevor, to'siq; **cloison des fosses nasales** og'iz va burun o'rtasidagi soxta pardadevor; **4.** qarshilik, monelik, g'ov, to'siq.

**cloisonnement** *nm* **1.** to'siq, to'sish, ajratish, bo'lish, maydalash, kichik bo'laklarga bo'lish; **2.** yakkalik, ajralganlik, alohidalik, uzilganlik, tarqoqlik, aloqasi yo'qlik.

**cloisonner** *vt* to'smoq, ajratmoq, bo'lmoq, to'sib, ajratib, bo'lib olmoq.

**cloître** *nm* **1.** tim, uzun, tor yo'lak, ayvon; **cloître d'un monastère** monastir timi, galereyasi; **2.** monastir.

**cloîtrer I.** *vt* **1.** monastirga joylashtirmoq, kiritmoq; **cloîtrer une jeune fille** qizni monastirga qamamoq; **2.** qamamoq, bekitmoq; **II. se cloîtrer** *vpr* qamalib olmoq, bekinib yotmoq; o'ralashib qolmoq.

**clopin-clopant** *loc adv* arang, oqsab-to'qsab, sudralib, bir amallab, zo'rg'a.

**clopiner** *vi* arang, oqsab-to'qsab, zo'rg'a, bir amallab, sudralib yurmoq, oqsoqlanmoq.

**cloporte** *nm* eshakqurt.

**cloque** *nf* qavariq, g'urra, po'rsildoq, paysa, bo'rtiq.

**cloquer** *vi* qavariq, g'urra, po'rsildoq, paysa, bo'rtiq, pufak bo'lmoq, qoplamoq, hosil qilmoq.

**clore** *vt* **1.** yopmoq, bekitmoq, qamamoq; **2.** tamomlamoq, tugatmoq, to'xtatmoq; **clore un débat** bahsni tugatmoq, to'xtatmoq; **3.** to'smoq, o'rab olmoq; **un mur clôt le jardin** bog' devor bilan o'rab olingan.

**clos, close** *adj* **1.** yopiq, yopilgan, bekik, berk, bekilgan, qamalgan; **2.** tamomlangan, tugatilgan, to'xtatilgan; **3.** to'silgan, o'ralgan, o'rab olingan; **trouver porte close** hech kimni topa olmaslik, yo'q bo'lmoq, eshik yopiq bo'lmoq; **maison close** fohishaxona; **les yeux clos** ko'r-ko'rona, yopiq ko'z bilan; **4. à la nuit close** tun qorong'iligida, to'la qorong'ida.

**clos** *nm* **1.** to'silgan, o'ralgan, o'rab olingan yer, joy, qo'ra; **2.** uzumzor, bog', tokzor.

**clôture** *nf* **1.** shoxdevor, to'siq, panjara, g'ov, ixota; **2.** yopilish, tamom bo'lish, tugash; **la clôture d'un magasin** do'konning yopilishi, bekilishi.

**clôturer** *vt* **1.** shoxdevor, g'ov, panjara, ihota bilan o'rab olmoq; **2.** yopmoq, tamomlamoq, tamom qilmoq, tugatmoq, to'xtatmoq.

**clou** *nm* **1.** mix; **petits clous** mixchalar; **planter des clous** mix qoqmoq, mixlamoq; **2.** piyoda o'tadigan joy; **traverser aux clous** yo'lni piyodalar o'tadigan joydan kesib o'tmoq; **3.** dovruq guli (*teatrda*); **c'est le clou du spectacle, de la saison** mavsumning dovrug'i, sezonning guli; **4. clou de girofle** qalampir munchoq; **5.** chipqon, yiringli yara, chiqiq, zindoni; **6.** garovxona, lombard; **7.** militsiya uchastkasi, qamoq; **8.** shaloq arava, mashina.

**clouer** *vt* **1.** mixlamoq, mix qoqmoq; **2.** mixlab qo'ymoq, qoqib qo'ymoq; **il le cloua au sol d'un coup d'épée** u bir qilich zarbasi bilan uni yerga mixlab, qoqib qo'ydi; **clouer au lit** karavotga qoqib qo'ymoq, kasal bo'lib yotib qolmoq; **3.** *loc* **clouer le bec à qqn** jim bo'lishga majbur qilmoq, og'zini yopib qo'ymoq.

**clouté, ée** *adj* **1.** mix qoqib chiqilgan, mixlangan; **une ceinture cloutée** mix qoqib chiqilgan kamar; **2.** piyodalar o'tadigan; **passage clouté** piyodalar o'tadigan joy.

**clown** *nm* **1.** qiziqchi, masxaraboz, kloun; **2.** hazilkash, maynavoz; **faire le clown** mayna qilmoq, masxara qilmoq, hazillashmoq.

**clownerie** *nf* **1.** qiziqchilik, masxarabozlik; **2.** hazilkashlik, maynavozlik.

**clownesque** *adj* qiziq, masxarali, hazil, mayna.

**club[1]** *nm* **1.** jamiyat, uyushma, ittifoq, jamoa; **2.** siyosiy guruh, uyushma; **3.** klub.

**club[2]** *nm* keng va chuqur charm kursi, kreslo, o'rindiq.

**clystère** *nm* huqna, klister, yuvish (*ichni*).

**coadjuteur** *nm* ruhoniy yordamchisi, koadyutori.

**coagulation** *nf* ivish, quyuqlashish, dona-dona bo'lish.

**coaguler** *vt* ivimoq, quyuqlashmoq, qumoq-qumoq bo'lmoq.

**coaliser I.** *vt* birlashtirmoq, birga qo'shmoq; **II. se coaliser** *vpr* birlashmoq, birga qo'shilmoq, birikmoq; **les puissances européennes se coalisent contre Napoléon** Yevropa kuchlari, davlatlari Napoleonga qarshi birlashdilar.

**coalition** *nf* **1.** ittifoq, birlashma, uyushma; **coalition politique** siyosiy ittifoq; **2.** birlik, qo'shilganlik; **coalition d'intérêts** maqsad manfaatlarning birligi.

**coassement** *nm* qurullash, vaqirlash (*qurbaqa*).

**coasser** *vt* qurullamoq, vaqirlamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**coauteur** *nm* hamavtor, hammuallif, sherik, hamkor.

**coaxial, ale** *adj* bir o‘qli, bir asosli, bir o‘zakli.

**cobalt** *nm* kobalt, kumush rangli metall; **bombe au cobalt** kobalt to‘pi.

**cobaye** *nm* dengiz cho‘chqasi; hind dengiz cho‘chqasi; **servir de cobaye** tajriba qilinadigan quyon bo‘lmoq.

**cobra** *nm* kobra, ko‘zoynakli ilon.

**coca** *nf* koka (*bargidan kokain olinadigan tropik buta, o‘simlik*).

**cocagne** *nf* **1. pays de cocagne** afsonaviy, go‘zal, boy mamlakat; **2. mât de cocagne** langarcho‘p, uzun tayoq.

**cocaïne** *nf* kokain (*koka bargidan tayyorlanadigan og‘riqni bosuvchi modda, alkoloid*).

**cocaïnomane** *nm* kokain tayyorlovchi, ichuvchi, iste’mol qiluvchi.

**cocarde** *nf* **1.** kokarda (*furajkaga taqadigan nishon, bezak*); **cocarde tricolore** uch rangli nishon; **2.** tasma bezak, taqinchoq.

**cocardier, ière I.** *n* millatchi; **II.** *adj* o‘ta vatanparvar.

**cocasse** *adj* kulgili, qiziq, ajib, g‘alati, alomat, jiddiy.

**cocasserie** *nf* kulgili, ajib hodisa, ermak, qiziqchilik, xushchaqchaqlik, hangoma, o‘yin-kulgi.

**coccinelle** *nf* xonqizi, tugmachali qo‘ng‘iz.

**coccyx** *nm* dumg‘aza, dum suyagi.

**coche** *nm* **1.** katta arava, pochta aravasi, dilijans; **2. rater le coche** paytni, fursatni qo‘ldan bermoq; **3.** daryo kemasi; **4.** kertik, kemtik, kesik; **5.** cho‘chqa, to‘ng‘iz.

**cochenille** *nf* koshenil, qizil bo‘yoq beradigan hasharot.

**cocher** *nm* aravakash, izvoshchi.

**cocher** *vt* **1.** kesmoq, kesib rezba chiqarmoq, kertik qilmoq; **cocher un nom sur un liste** nomini gul qilib kesib yozmoq, nishonlamoq; **2.** belgilamoq, belgi qo‘ymoq.

**cochère** *adj* **porte cochère** darvoza.

**cochon, onne I.** *nm* cho‘chqa, to‘ng‘iz; cho‘chqa go‘shti; **engraisser, élever des cochons** cho‘chqa semirtirmoq, boqmoq; **cochon d’Inde** hind dengiz cho‘chqasi; **II.** *n, adj fam* iflos, cho‘chqa, to‘ng‘iz; axloqsiz, adabsiz, sharmanda, benomus, uyatsiz; **va te laver, cochon!** bor, yuvin, iflos, to‘ng‘iz; **quel cochon!** qanaqa cho‘chqa! **histoire cochonne** uyatsiz, behayo hikoya; **c’est pas cochon** ajoyib, zo‘r.

**cochonnaille** *nf* cho‘chqa kolbasasi.

**cochonner** *vt* **1.** ishni yomon bajarmoq; **2.** cho‘chqalik, ifloslik qilmoq, bulg‘amoq, iflos qilmoq; **3.** cho‘chqalamoq, cho‘chqa tug‘moq, bolalamoq.

**cochonnerie** *nf* **1.** ifloslik, chang, kir; **2.** uva’da, eski-tuski narsalar, tashlandiq, lash-lush; **3.** ifloslik, pastlik, cho‘chqalik, to‘ng‘izlik; **4.** beadablik, uyatlik, yomonlik.

**cochonnet** *nm* **1.** cho‘chqacha (*bolasi*); **2.** aylanma, halqa o‘yin.

**cocker** *nm* spaniel (*ovchi itning bir turi*).

**cocktail** *nm* **1.** alkogolli ichimlik, kokteyl; **cocktail au cognac** konyakli kokteyl; **2.** yig‘ilish; **inviter des amis à un cocktail** do‘stlarni kokteyl ichishga taklif qilmoq; **3.** aralashma, yig‘indi, to‘plam; **cocktail Molotov** yonuvchi modda solingan shisha, portlatgich.

**coco**[1] *nm* **noix de coco** kokos yong‘og‘i; kokos daraxti.

**coco**[2] *nm enf* tuxum.

**coco**[3] *nm* **1.** tip, nusxa, g‘alati odam, shaxs; **un drôle de coco** g‘alati shaxs, nusxa; **2.** bolakay! yigitcha; **mon petit coco** bolakay.

**coco**[4] *nm* kokain.

**cocon** *nm* pilla; **cocon de ver à soie** ipak qurti pillasi, ipak pilla; *loc* **s’enfermer dans son cocon** ajralib, yolg‘iz bo‘lib yashamoq, bekinib olmoq.

**cocorico** *nm* xo‘roz qichqirig‘i.

**cocotier** *nm* kokos palmasi daraxti; yashil daraxt, yong‘oq soladigan.

**cocotte** *nf* **1.** *enf* tovuq; **2.** yasama qog‘oz qushcha; **3.** yengil tabiatli, xulq-atvorli xotin, qiz; **4.** bolakay (*muomalada*).

**cocotte** *nf* cho‘yan qozoncha, kastrul, cho‘ziq qozon.

**cocu, ue I.** *adj* aldangan; **II.** *n* go‘sxo‘r, xotini xiyonat qilgan er.

**cocuage** *nm* go‘sxo‘rlik, aldanganlik, xotini xiyonat qilganlik.

**cocufier** *vt* aldamoq, eriga, xotiniga xiyonat qilmoq, bevafolik, vafosizlik qilmoq.

**code** *nm* **1.** kodeks, qonunlar majmuasi, qoidalar; **code civil, pénal** fuqarolik, grajdanlik jinoyat qonunlari, kodeksi; **2.** qaror, farmoyish, tartib-qoidalar; **code de la route** yo‘l tartib-qoidalari; **se mettre en code** yaqinni ko‘rsatuvchi chiroqchani yoqmoq; **3.** qonun-qoidalar yig‘indisi, majmui; **code de l’honneur** or-nomus, soflik, odob-axloq qonun-qoidalari; **4.** qonun-qoidalar to‘plami, yozuvlari majmui; **code de signaux** signallar yozuvi; **code secret** maxfiy yozuvlar.

**codex** *nm* farmakopeya (*dori tayyorlash, saqlash va kasallarga yozib berishga oid qo‘llanma yoki qoidalar to‘plami*).

**codicille** *nm* vasiyatnomaga qo‘shimcha qayd qilish, qo‘shimcha yozib qo‘yish, ro‘yxat.

**codification** *nf* kodeks tuzish, to‘plam, majmua.

**codifier** *vt* **1.** kodeks tuzmoq, qonunlar to‘plamini tuzmoq; **2.** tartibga keltirmoq, sistemaga solmoq.

**coefficient** *nm* koeffitsient, bir son qiymatini ko‘paytiruvchi son.

**coéquipier, ière** *n* sherik, komandadosh.

**coercitif, ive** *adj* majburiy, majbur qiladigan; **force coercitive** majbur qiladigan kuch.

**coercition** *nf* majbur qilish, zo‘rlash.

**cœur** *nm* **1.** yurak, dil; **avoir le cœur barbouillé** ko‘ngli aynimoq, ozmoq; **2.** ko‘krak, ko‘ks, siyna, bag‘ir; **il la serra tendrement sur (contre) son cœur** u uni avaylab bag‘riga bosdi; **3.** tappon (*qarta o‘yinida*); **4.** o‘rta, markaz; **le cœur d’un fruit** mevaning o‘rtasi; **au cœur de la forêt** o‘rmonning qoq o‘rtasida; **en plein cœur de l’hiver** qishning qoq yarmida, o‘rtasida; **5.** jon, dil, qalb, ko‘ngil; **le cœur a ses raisons** qalbning o‘z qonuniyati bor; **il a du (bon) cœur** uning ko‘ngli pok; **un homme de cœur** olijanob, muruvvatli, himmatli odam; **c’est le cri du cœur** bu qalb nidosi; *fam* **il a le cœur sur la main** u oliyhimmat, bag‘rikeng, saxiy; **6.** jur’at, jasorat, jasurlik, dadillik; **le cœur lui manque** uning jur’ati yetishmaydi; **j’ai pris un cognac pour me donner du cœur, au ventre** dadillik uchun bir rumka konyak ichdim; **avoir le cœur bien accroché** jasur bo‘lmoq; **par cœur** yod, yoddan, yodaki.

**coexistence** *nf* totuvlik, tinch-totuv yashash.

**coexister** *vi* tinch-totuv yashamoq, birga yashamoq, birga mavjud bo‘lmoq.

**coffrage** *nm* **1.** qoplama, jild; **2.** qolip (*beton quyish uchun*), yog‘och, taxta qoplama (*beton uchun*).

**coffre** *nm* **1.** sandiq; **2.** quti, yashik; **les coffres de l’Etat** davlat xazinasi; **3.** avtomobil bagajnigi; **4.** pianino qutisi, kopusi; **5.** ko‘krak qafasi; **il a du coffre** u keng ko‘krakli.

**coffre-fort** *nm* temir sandiq, seyf.

**coffrer** *vt* **1.** qoplama, jild, qolip qoqib chiqmoq; **2.** qamab qo‘ymoq, zindonga solmoq.

**coffret** *nm* sandiqcha, quticha.

**cogitation** *nf* o‘ylash, fikr yuritish, mulohaza qilish, o‘y, fikr, mulohaza.

**cogiter** *vt* puxta o‘ylab ko‘rmoq, o‘ylamoq, fikr yurgizmoq, mulohaza qilmoq, chuqur fikrlamoq.

**cogito** *nm* kogito (*Dekart falsafasi:* ***cogito, ergo sum*** *men o‘ylayapman, demak men borman, hayotman, tirikman*).

**cognac** *nm* konyak (*spirtli ichimlik*).

**cognassier** *nm* behi daraxti.

**cognée** *nf* bolta; **cognée de bûcheron** yog‘och kesuvchi katta oybolta; **jeter le manche après la cognée** qo‘l siltamoq, qo‘lni yuvib, qo‘ltiqqa urmoq, hammasiga tupurmoq.

**considérer** *vt* **1.** puxta o'ylamoq, yaxshilab o'ylab ko'rmoq, chuqur mulohaza qilmoq, qarab, ko'rib bilmoq, ko'rmoq, muhokama qilmoq, tekshirmoq, o'ylashib ko'rmoq, chamalab, taroziga solib ko'rmoq, hisobga olmoq, oldindan ko'zda, nazarda tutmoq, mo'ljallamoq, e'tiborga olmoq; **tout bien considéré** yaxshi ko'zda tutilgan; **considérer que** hisoblamoq, shu fikrda bo'lmoq; **considérant que** *loc conj* shunday deb hisoblab; **2.** hurmat, izzat qilmoq, azizlamoq, qadrlamoq, qadriga yetmoq; **on le considère beaucoup** uni juda hurmat qilishadi; **3.** qaramoq, boqmoq, baholamoq, baho bermoq, deb hisoblamoq; **4.** sanamoq, hisoblamoq, faraz qilmoq, bilmoq.

**consignation** *nf* **1.** saqlashga berish; **2.** ulgurji savdoga topshirish (*yukni*); **3.** saqlashga topshirilgan mol-mulk; **caisse des dépôts et consignations** saqlovchi kassa, ombor.

**consigne** *nf* ko'rsatma, yol-yo'riq, qo'llanma; qoida, odat, tartib, intizom, buyruq, amr qilish; **consignes minutieuses** aniq buyruqlar, yo'l-yo'riqlar; **consignes de piste** aerodrom qoidalari; **consigne du silence** sukut saqlashga buyruq; **manger la consigne** *mil, fam* ko'rsatmani, ruxnomani, parol javobini unutmoq; **2.** taqiq, man; **lever la consigne** taqiqni buzmoq, bekor qilmoq; **3.** ozodlikdan mahrum qilish, uyga qamab qo'yish; **en consigne** uyga qamab qo'yilgan; **4.** yuk saqlanadigan joy, xona, yukxona (*temir yo'l vokzalida*); **mettre sa malle à la consigne** chemodanini yukxonaga topshirmoq; **5.** garov, kafolat, dalil, garovga qo'yish, barimta.

**consigner** *vt* **1.** yo'l-yo'riq bermoq; **2.** otpuskadan mahrum qilmoq; bo'shatishni taqiqlamoq, uyda o'tirishga majbur qilmoq; **consigner les troupes** armiyani kazarma holatida ushlab turmoq; **consigner sa porte à qqn** hech kimni qabul qilmaslik; **3.** yukni yukxonada saqlashga topshirmoq; **4.** eslatmoq (*yozma ravishda*), keltirmoq, belgilamoq; **5.** garovga qo'yilgan pulni o'tkazmoq, olmoq.

**consistance** *nf* **1.** eritma va quyuq jismlarning quyuq-suyuqlik, zichlik darajasi, qalinlik, zichlik, tig'izlik; **sol de faible consistance** yumshoq tuproq, yer, zamin; **2.** *fig* pishiqlik, puxtalik, mahkamlik, mustahkamlik, turg'unlik, barqarorlik, bardoshlilik, chidamlilik, qattiqlik; **sans consistance** bo'sh, chidamsiz, pishiq, puxta emas, chidamaydigan, omonat, likildoq, qimirlab turadigan; **un esprit sans consistance** sayoz, bo'sh aql; **un homme sans consistance** tabiati bo'sh odam; **une rumeur sans consistance** asossiz mish-mishlar, gap-so'z.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**consistant, ante** *adj* **1.** quyuq, qalin, zich, tig'iz; **2.** qattiq, qat'iy, barqaror, o'zgarmas.

**consister** *vi* **1. (en qqch dans)** -dan tashkil topmoq; **2. (à+*inf*)** -dan iborat bo'lmoq, tashkil topmoq.

**consistoire** *nm* **1.** kardinallar kengashi; **2.** cherkov majlisi; **3.** *fig* majlis, yig'in, yig'ilish, olomon, to'da.

**consœur** *nf* hamkasb ayollar, sherik.

**consolant, ante** *adj* yupatadigan, ovutadigan, tasalli, taskin beradigan, quvonchli.

**consolateur, trice I.** *adj* yupatadigan, ovutadigan, taskin, tasalli beradigan, quvonchli; **II.** *n* yupatuvchi, ovituvchi, tasalli, taskin beruvchi.

**consolation** *nf* ovunchoq, yupanchoq, taskin, tasalli, ko'ngil xushi; **prix de consolation** taskin beruvchi mukofot; **adresser des consolations à qqn** yupatish so'zlari bilan murojaat qilmoq.

**console** *nf* **1.** *archit* konsol (*to'sinning devordan chiqib turgan va balkon, karniz, haykallayni ko'tarib turadigan qismi*); devorga mahkamlangan tokcha, tayanch; **2.** egik oyoqli stolcha.

**consoler I.** *vt* **1.** yupatmoq, ovutmoq, taskin, tasalli bermoq; **consoler la douleur** og'riqni bosmoq, kamaytirmoq; **II. se consoler** *vpr* ovunmoq, yupanmoq, taskin, tasalli topmoq; **2.** bir-birini yupatmoq, ovutishmoq.

**consolidation** *nf* **1.** mustahkamlash, mahkamlash, istehkom, mudofaa inshooti; **consolidation de la paix** tinchlikni mustahkamlamoq; **consolidation de la victoire** g'alabani mustahkamlamoq; **2.** burchini ado etish; **3.** tuzalish, bitish (*yara haqida*).

**consolider I.** *vt* **1.** mustahkamlamoq, mahkamlamoq, sog'aytirmoq, barqaror qilmoq, beriktirib qo'ymoq, qattiq, mustahkam, mahkam qilmoq; **2.** *fig* mustahkamlamoq, saqlamoq, ta'minlamoq; **3.** jipslashtirmoq, birlashtirmoq; **4.** tuzatmoq, bitkazmoq (*yarani*); **II. se consolider** *vpr* **1.** qaror topmoq, barqaror jilmoq; **2.** tuzalmoq, bitmoq (*yara haqida*).

**consommateur, trice** *n* **1.** iste'molchi, iste'mol qiluvchi, xaridor; **2.** keluvchi, xaridor, mijoz, buyurtmachi (*restoranda, kafeda*).

**consommation** *nf* **1.** iste'mol, iste'mol qilish, foydalanish, ehtiyojga ishlatish, sarf qilish, chiqim, xarajat, xarj, sarf, sarflash; **articles de grande consommation** keng ite'mol mollari; **2.** tamomlash, tugatish, xotima, intiho; oxir; **3.** buyurtma, buyurilgan ichimlik (*restoranda*).

**consommé, ée I.** *adj* **1.** sarflangan, xarid, xarajat qilingan; **2.** takomillashgan, komil, barkamol, mukammal, to'la-to'kis, bekami-ko'st, yetuk, benuqson, qusursiz, to'liq, tugal, mohir; **3.** epchil, chaqqon, abjir, usta, mohir, chapdast, havosi, hadisini olgan, tajribali, tajribakor, omilkor, ishbilarmon, uquvli, mohirona; **II.** *nm* kuchli qaynatma sho'rva.

**consommer I.** *vt* **1.** iste'mol, sarf, xarj, xarajat qilmoq, ehtiyojiga ishlatmoq; **2.** bajarmoq, qilmoq; ko'rsatmoq, amalga oshirmoq; **consommer un crime** jinoyat qilmoq; **3.** tamomlamoq, tugatmoq, bitirmoq, bitkazmoq; **II.** *vi* ichimlik buyurmoq (*restoranda*).

**consomption** *nf* ozish, oriqlash, ozib-to'zib ketish, ozg'inlik, ozib, oriqlab ketish.

**consonance** *nf* hamohang, ohangdoshlik, uyg'unlik, sozlik; **consonance parfaite** to'liq hamohang.

**consonant, ante** *adj* hamohang, ohangdosh, uyg'un, soz.

**consonantique** *adj* undoshli, undosh tovushli.

**consonantisme** *nm* undoshlar sistemasi.

**consoner** *vi* **1.** *mus* hamohang, ohangdosh, uyg'unlik hosil qilmoq; **2.** mos kelmoq, uyg'un bo'lmoq, kelishmoq, chiqishmoq.

**consonne I.** *nf* undosh, undosh tovush; **II.** *adj* **lettre consonne** undosh harf.

**consort** *nm* **1.** o'xshashlar, u kabilar; **2.** *pl* o'rtoqlar, birga qatnashgan, sherik; **et leurs consorts** va u kabilar, unga o'xshaganlar.

**consortium** *nm* bir necha bank yoki bankirlarning yirik moliyaviy operasiyani amalga oshirish uchun tuzgan muvaqqat bitimi, monopolistik birlashmasi.

**conspirateur, trice I.** *n* fitnachi, til biriktiruvchi, suiqasdchi; **II.** *adj* fitnali, makkorona, til biriktib.

**conspiration** *nf* **1.** fitna, til biriktirish, suiqasd, qutqu, kirdikor, hiyla-nayrang; **ourdir, tramer une conspiration** fitna, suiqasd uyushtirmoq; **2.** sir saqlash, maxfiy tutish, yashirin tashkilot siri.

**conspirer** *vi* **1.** til biriktirmoq, kelishmoq, gapini bir yerga qo'ymoq, o'zaro til topmoq; **2.** o'z ishini sir, maxfiy tutmoq, yashirin harakat qilmoq; **3. (à qqch, à faire qqch)** yordam bermoq, qilmoq, ko'rsatmoq, imkon, imkoniyat tug'dirmoq, osonlashtirmoq; **4.** *vt* o'ylab qo'ymoq, niyat, qasd, mo'ljal qilmoq, ko'ngilga tugmoq.

**conspuer** *vt* hushtak chalib norozilik bildirmoq, hushtak chalib obro'sizlantirmoq, ustidan kulmoq (*aktyor haqida*).

**constamment** *adv* doimo, hamma vaqt, har doim, hamisha, nuqul.

**constance** *nf* **1.** doimiylik, o'zgarmaslik, barqarorlik; **montrer, faire paraître sa constance** qat'iyatlik ko'rsatmoq; **2.** barqarorlik, turg'unlik, o'zgarmaslik, sabot, qunt-matonat, tirishqoqlik, qat'iyat, sodiqlik.

**constant, ante I.** *adj* doimiy, uzoq muddatli, doimo bo'lib turadigan, o'zgarmas, o'zgarmaydigan, hamishali; **intérêt constant** doimo birdek zo'r havas, qiziqish, ishtiyoq; **il est constant que** hamma vaqt yuz beradi, chunki; **II.** *nf* **1.** *math* o'zgarmas son, doimiy miqdor, muqim kattalik; **constante arbitraire** erkin doimiylik; **2.** doim harakatdagi holat, omil.

**constat** *nm* ish, voqea, hodisa, rasmiy hujjat bayoni, qaror, biror faktni tasdiqlash uchun tuzilgan hujjat, rasmiy tasdiqlash; **faire le constat** faktni keltirmoq, rasmiy hujjat tuzmoq.

**constatation** *nf* faktni qayd qilish, tasdiqlash, aniqlash, o'rnatish, ta'kidlash.

**constater** *vt* qayd qilmoq, ta'kidlamoq, tasdiqlamoq, o'rnatmoq, qo'ymoq, qurmoq, aniqlamoq; **constater le décès** o'limni qayd etmoq.

**constellation** *nf* yulduzlar turkumi, burj.

**constellé, ée** *adj* **1.** yulduzli, yulduz to'la; **2.** har xil narsalar bilan qoplangan, yopishtirib tashlangan.

**consternation** *nf* hayajon, iztirob, ruhiy larza, putur, ma'yus holat, sarosimalik, gangib, esankirab, dovdirab qolish, parishonlik, xafalik, xafagarchilik, dilsiyohlik, ranj, alam, ozor, qayg'u.

**consterné, ée** *adj* shikastlangan, zararlangan, lat yegan, g'amgin, ma'yus, hayajonli, iztirobli; **air consterné** g'amgin ko'rinish, ma'yus holat.

**consterner** *vt* juda ham ajablantirmoq, hayratga solmoq, hayratda qoldirmoq, esankiratib, dovdiratib qo'ymoq, hayron, lol, qoyil qoldirmoq, umidsizlikka, ma'yuslikka, g'amginlikka tushirmoq.

**constipation** *nf* ich qotish, qabziyat.

**constiper** *vt méd* ichi qotmoq.

**constituante, ante I.** *adj* tuzilgan, yozilgan, tayyorlangan, yasovchi, hosil qiladigan; **II.** *nm* tarkibiy qism, komponent.

**constituante** *nf* ta'sis etuvchi majlis (*Fransiyada*).

**constituer I.** *vt* **1.** ta'sis qilmoq, tuzmoq, o'rnatmoq, amalga oshirmoq, qurmoq, yaratmoq, barpo qilmoq, asos solmoq, asoslamoq, uyushtirmoq, tashkil qilmoq, hosil qilmoq; **2.** aniqlamoq, belgilamoq, ta'rif, tavsif bermoq, tayinlamoq; **II. se constituer** *vpr* **1.** bo'lmoq, tayinlamoq; **se constituer prisonnier** asir tushmoq, o'zini hukumat qo'liga topshirmoq; **2.** hosil qilinmoq, yasalmoq, tashkil topmoq, iborat bo'lmoq, vujudga, yuzaga kelmoq, hosil bo'lmoq, paydo bo'lmoq.

**constitutif, ive** *adj* **1.** aniqlovchi, aniqlaydigan, belgilangan, ta'rif, tavsiflangan, asosiy, bosh, tub, eng muhim; **2.** tarkimiy, asosiy; **élément constitutifs** tarkibiy qismlari.

**constitution** *nf* **1.** konstitusiya, asosiy qonun; **2.** tuzish, ta'sis qilish, tuzilish, o'rnatilish, asoslanish, tashkil etish, asos, poydevor, zamin; **3.** qad-qomat; **4.** qurilish, struktura, tashkil qilish; **5.** tarkibi, hay'at, sostav; **constitution de l'air** havo tarkibi; **constitution chimique** kimyoviy tarkibi.

**constitutionnel, elle** *adj* **1.** konstitusion, konstitusiyaga asoslangan, konstitusiyada belgilangan, konstitusiyali, nazarga olingan, ko'zda tutilgan, mo'ljallangan; **monarchie constitutionnelle** konstitusion monarxiya; **2.** *méd* butun organizm ahvolicha; **vice constitutionnel** tug'ma kasallik, illat, nuqson, ayb, kamchilik.

**constitutionnellement** *adv* konstitusiya bilan, qonun yo'li bilan, konstitusiya bo'yicha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**constricteur I.** *adj m anat* siquvchi, siqadigan; **II.** *nm* **constricteur** *ou* **boa constrictor** *zool* bo‘g‘ma boa.

**constructeur, trice I.** *adj* quruvchi, quradigan; **II.** *n* quruvchi odam, ayol.

**constructif, ive** *adj* **1.** konstruktiv, qurilishga doir, asos bo‘la oladigan; **solution constructive** asos bo‘la oladigan qaror; **2.** yaratuvchi, bunyod, ijod etuvchi, ijodkor, bunyodkor, ijodiy, samarali, unumli, foydali, serunum; **forces constructives** ijodiy, yaratuvchi kuchlar.

**construction** *nf* **1.** qurish, qurilish, bunyod etish, yaratish, barpo etish, binokorlik; **grands travaux de construction** kapital qurilish; **construction automobile** avtomobil qurilishi; **en construction** qurilayotgan; **2.** yaratish, ijod, barpo, bunyod etish, yaratuvchilik, ijod; **3.** bino, inshoot, uy, imorat; **4.** *gram* birikma, gap tuzilishi.

**construire** *vt* **1.** qurmoq, bunyod, barpo etmoq, qilmoq; solmoq, yasamoq, tiklamoq, o‘rnatmoq, yaratmoq, vujudga keltirmoq, ishlab chiqarmoq; **construire en série** seriyalab, ko‘p ishlab chiqarmoq; **2.** ishlab chiqmoq, tadqiq qilmoq, tayyorlamoq, nazariya yaratmoq; **3.** *gram* gap tuzmoq, hosil qilmoq, yasamoq; **4.** (*uchburchak*) tuzmoq, yasamoq, chizmoq.

**consubstantialité** *nf* bir xil, asosiy ma’no, umumiy mazmun, bir mag‘iz.

**consubstantiel, elle** *adj* **1.** tub mohiyatli, bir xil asosiy ma’noli, umumiy mazmunli; **2.** ajralmas, bo‘linmas, ajratib bo‘lmaydigan, chambarchas, uzviy bog‘langan.

**consul** *nm* **1.** konsul, vakil; **2. Premier consul** Birinchi konsul (*Napoleon Bonapart*); **3.** *hist* tijorat sudidagi sud xodimi.

**consultant, ante I.** *adj* **1.** maslahatchi, maslahat beruvchi; **2.** maslahat so‘rovchi, maslahatlashuvchi, maslahatlashadigan; **II.** *n* **1.** maslahatchi, maslahat beruvchi; **2.** maslahat so‘rovchi; maslahatlashuvchilar.

**consultatif, ive** *adj* maslahat berish huquqiga ega bo‘lgan, konsultativ, maslahat beruvchi, kengash beruvchi; **voix consultative** maslahat ovozi; **avoir voix consultative** maslahat ovozi berish huquqiga ega bo‘lmoq.

**consultation** *nf* **1.** maslahat, kengash; **2.** maslahat beruvchi muassasa; **3.** *méd* konsilium, og‘ir, noaniq kasallikni aniqlash uchun va dovolashga chaqiriladigan tabiblar kengashi; **appeler en consultation** konsilium chaqirmoq; **4.** so‘rab chiqish; **consultation populaire** referendum, umumxalq so‘rovi.

**consulter I.** *vt* maslahatlashmoq, kengashmoq, maslahat so‘ramoq, maslahatlashib olmoq, fikirlashmoq, fikr olmoq, ma’lumot, ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq so‘ramoq; **consulter un dictionnaire** lug‘at qaramoq, lug‘atdan qaramoq; **consulter le miroir** oynaga qaramoq, solmoq; **consulter ses forces** o‘z harakat kuchlarini hisobga olmoq; **II.** *vi* maslahat, kengash bermoq, mutaxassislardan maslahat olmoq, kengash o‘tkazmoq, kasallarni qabul qilmoq.

**consumer I.** *vt* **1.** yondirmoq, domi, qa’riga tortmoq, kuydirib yo‘q qilmoq, qirmoq, qirib tashlamoq, tutday tokmoq, mahv etmoq (*o‘t, olov*), sarflamoq, yo‘qotmoq, ketkizmoq (*vaqt*); **2.** tinkasini quritmoq, charchatmoq, tamom qilmoq; **3.** xarjlab, sarflab yubormoq, yo‘qotmoq, kemirib, yeb yubormoq; **II. se consumer** *vpr* holdan, kuchdan toymoq, charchamoq, madori qurimoq, so‘lmoq, zaiflashmoq, ozmoq, sog‘ligini yo‘qotmoq, ozib-to‘zimoq; **se consumer en efforts stériles** behuda kuch ketkazmoq, sarflamoq.

**contact** *nm* **1.** aloqa, munosabat, bog‘lanish, muomala qilish, yaqinlashish, aloqa qilish, bog‘liqlik; **contacts culturels** madaniy aloqalar; **mettre en contact** bog‘lamoq, qo‘shmoq, biriktirmoq; **prendre contact** aloqa o‘rnatmoq, bog‘lanmoq; **en contact** mustahkam aloqada, hamkorlikda, birlikda; **2.** tegish, urinish, daxldor, taalluqli, aloqadorlik; **point de contact** tegish, urinish nuqtasi; **3.** *techn* ulanish, kontakt; **ligne de contact** ulovchi sim.

**contacter** *vt* aloqa qilmoq, bog‘lanmoq.

**contagieux, euse I.** *adj* **1.** yuqumli, yuqadigan; **2.** *fig* tez tarqaladigan, o‘tadigan, zavqini keltiradigan, yuqumli; **II.** *n* yuqumli kasali bor kishi, ayol.

**contagion** *nf* yuqish, yuqtirish, kasallikning yuqishi.

**container** *nm* yuk joylab avtomobilga, vagonga ortiladigan maxsus yashik.

**contamination** *nf* zaharlanish, yuqtirish, yuqish, iflos qilish, ifloslanish, kirlanish, bug‘lanish.

**contaminer** *vt* yuqtirmoq; zaharlamoq, zararlamoq, ifloslamoq, bulg‘amoq.

**conte** *nm* **1.** ertak, cho‘pchak; **conte de fée** sehrli, afsonaviy ertak; **on fait d’étranges contes sur cet homme** bu odam haqida ajablantiradigan, bo‘lmag‘ur, safsata, gaplar gapirishadi; **2.** hikoya, novella, aytib berish, hikoya qilish, voqea.

**contemplation** *nf* kuzatish, mahliyo bo‘lib qarash, mushohada, tomosha qilish, xayolga cho‘mish; **être en contemplation** kuzatmoq, tomosha qilmoq, xayolga cho‘mmoq.

**contempler** *vt* kuzatmoq, tomosha qilmoq, xayolga cho‘mmoq, ko‘rmoq, ko‘rib chiqmoq, muhokama qilmoq, tekshirmoq.

**contemporain, aine I.** *adj* zamonaviy, zamondosh, hozirgi; **histoire contemporaine** hozirgi voqea; **II.** *n* zamondosh, asrdosh, bir zamonda yashagan odam, ayol.

**contempteur, trice** *n* yomonlovchi, qoralovchi, g‘iybatlovchi, g‘iybat qiluvchi, ichi qora odam.

**contenance** *nf* **1.** sig‘im, hajm, kattalik, eltish, idish, eltuvchanlik, sig‘imlilik, sig‘imdorlik; **2.** o‘zini tutish, odat, qiliq, xulq-atvor, tarz, usul, yo‘sin, gavda, qad-qomat, bo‘y-bast, andom; **perdre contenance** xijolat bo‘lmoq, tortmoq, uyalib qolmoq, dovdiramoq, esankiramoq, sarosimaga tushmoq, o‘zini yo‘qotmoq; **faire bonne contenance** o‘zini tuta olmoq, tutmoq; **pour se donner une contenance** jo‘rttaga, ataylab, xo‘ja ko‘rsinga, ko‘z bo‘yash uchun, ko‘ngil uchun.

**contenant, ante I.** *adj* tarkibida bor bo‘lgan, sig‘diradigan, eltadigan, eltuvchi; **II.** *nm* biror narsa saqlanadigan idish, ombor, joy.

**contenir** *vt* **1.** asramoq, saqlamoq, qaramoq, boqmoq, tutmoq, ega bo‘lmoq, tarkibida, ichida bor bo‘lmoq; **2.** tiymoq, bosmoq, o‘zini tutmoq, bardosh bermoq, chidamoq, to‘xtatib, ushlab turmoq; **contenir la foule** olomon, xaloyiq siquvini, hujumini tutib, to‘xtatib turmoq; **contenir ses passions** o‘z his tuyg‘ularini jilovlamoq, bosmoq; **se contenir** o‘zini ushlamoq, tutmoq, bosmoq.

**content, ente I.** *adj* mamnun, xursand, shod; **content de soi** o‘zidan mamnun; **II.** *nm* xohish, istak; **dormir son content** to‘yguncha, qonguncha, miriqib, maza qilib uxlamoq; **avoir son content de** istagancha, obdon, yetarlicha, ko‘plab ega bo‘lmoq.

**contentement** *nm* **1.** ta’minlash, qondirish, lazzatlanish, mamnun bo‘lish; **2.** qoniqqanlik, qanoatlanganlik, qonganlik, mamnuniyat, mamnunlik, xursandlik, farovonlik, mo‘l-ko‘lchilik, to‘qlik; **vivre dans le contentement** to‘qlikda, badavlat, to‘q yashamoq, farovonlikda yashamoq, farovon hayot, turmush kechirmoq; **contentement passe richesse** farovonlik boylikdan afzal (*matal*); baxt boylik, pulda emas.

**contenter I.** *vt* qondirmoq, bajo keltirmoq, mamnun, xursand qilmoq, ta’minlamoq; **contenter sa curiosité** havasini qondirmoq; **il faut peu de chose pour le contenter** ozgina unga yetarli; **II. se contenter** *vpr* **(de qqch)** yetarli bo‘lmoq, qanoatlanmoq; **se contenter de peu** ozgina bilan qanoatlanmoq.

**contentieux, euse I.** *adj* bahsli, munozarali, bahsga sabab bo‘lgan, talash, janjalli; **II.** *nm* **1.** huquq bo‘limi (*muassasada*); **maison de contentieux** oqlovchi idorasu; **2.** talash, janjalli masala.

**contenu[1]** *nm* **1.** borliq, ichidagi bor narsalar; **contenu de classe** sinfiy mohiyat; **2.** mazmun, ma’no, mohiyat, daraja.

**contenu[2], ue** *adj* bosiq, ichga yutilgan, pinhon.

**conter** *vt* hikoya qilmoq, gapirib, aytib, so‘zlab bermoq; **en conter à qqn, en conter de belles, en conter de rudes** *fam* yolg‘on gapirmoq, aldamoq, aljiramoq, valdiramoq, ko‘z bo‘yamoq, firib bermoq; **s’en laisser conter** “qarmoqqa” ilinmoq, yolg‘onga ishonmoq; **conter fleurette à** erkalamoq, suymoq, navozish qilmoq, siporishlamoq, ko‘nglini olmoq.

**contestable** *adj* bahsli, munozarali, janjalli, nizoli.

**contestation** *nf* **1.** bahs, munozara, janjal, nizo, tortishuv, olishuv, gap qaytarish, aytishish; **sans contestation** to‘siqsiz, qarshiliksiz, erkin, bemalol, monesiz, shak-shubha qilmay, tortishmay, shubhasiz, aniq, ravshan, albatta; **2.** janjalli masala; **3.** *dr* rad qilish, qaytarish, yo‘qqa chiqarish.

**conteste (sans)** *loc adv* shubhasiz albatta.

**contesté, ée** *adj* bahsli, munozarali, janjalli, nizoli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**contester I.** *vt* bahslashmoq, talashmoq, kurashmoq, tortishmoq; **II.** *vi* **(sur)** janjallashmoq, dovlashmoq, davolashmoq.

**contexte** *nm* kontekst, asar, nutqning tugal fikr anglatuvchi bo'lagi, qismi; **dans le contexte actuel** hozirgi sharoitda.

**contexture** *nf anat* qo'shilish, ulangan, qo'shilgan joy, to'qimalar qo'shilishi; **la contexture d'un discours** nutq tuzilishi.

**contigu, uë** *adj* chegaradosh, qo'shni, yonma-yon, payvasta, bir-biriga yaqin, o'zaro bog'langan, tutash, yondosh; **idées contiguës** o'xshash fikrlar, mulohazalar.

**contiguïté** *nf* chegaradosh, qo'shnilik, yonma-yonlik, o'xshashlik, bog'langanlik, yaqinlik.

**continence** *nf* o'z nafsini tiyish, saqlanish, sabr, qanoat, o'rtachalik, mo'tadillik, evidalik, iffat, soflik, ma'sumalik, qizlik, to'g'rilik, musaffolik.

**continent, ente**[1] *adj* nafsi tiyiq, tiygan, sabr-qanoatli, sof, pokiza, iffatli, ma'sum, to'g'ri.

**continent**[2] *nm* qit'a, materik, kontinent; **Ancien continent** Yevropa, Osiyo, Afrika; **Nouveau continent** Amerika.

**continental, ale** *adj* kontinental, qit'a, materikka doir.

**contingence** *nf* **1.** tasodiflik, tasodifan yuz bergan, tasodif, kutilmagan hol, bir-biriga duch kelish, ayni bir vaqtda sodir bo'lish, bir xillik, o'xshashlik, mos, tog'ri kelish, imkoniyat, imkon, mumkinlik, iloj, yol; **2.** *pl* hol, sharoit, ahvol, vaziyat, shartlar; **3.** o'xshashlik, chegaradoshlik, qo'shnilik, yonma-yonlik, yaqinlik, bog'langanlik.

**contingent, ente I.** *adj* **1.** tasodifiy, nogohoniy, kutilmagan, bo'lishi, yuz berishi mumkin bo'lgan, joiz; **2.** unchalik ahamiyati yo'q, muhum emas, ikkinchi darajali, juz'iy; **II.** *nm* ulush, hissa, qism, bo'lak, marom, me'yor, miqdor, soni, tarkibi; **contingent des importations** sotib olib kelish, miqdori, import normasi.

**contingentement** *nm* sotib olib kelish hajmi, sotib olib kelish hajmini belgilash.

**contingenter** *vt* sotib olib kelish miqdirini belgilmoq, aniqlamoq, chegaralamoq, cheklamoq.

**continu, ue I.** *adj* doimiy, muttasil, doimo bo'lib turadigan, doim, muntazam, to'xtamaydigan, uzluksiz, davomiy, tutash, payvasta, surunkali, betinim, butun, yaxlit, nuqul, butkul, yalpi, keyingi, keyin keladigan; **II.** *nm math* to'plam, miqdor, *phys* yalpi muhit.

**continuateur, trice** *n* davomchi, davom ettiruvchi, rivojlantiruvchi, izdosh.

**continuation** *nf* davom etish, ettirish, davomi; **la continuation d'une route** yo'l davomi.

**continuel, elle** *adj* doimiy, muttasil, muntazam, to'xtamaydigan, uzluksiz, doim bo'lib turadigan.

**continuellement** *adv* doimo, muttasil, muntazam, uzluksiz.

**continuer I.** *vt* davom ettirmoq, qilmoq; **continuer à faire qqch, (de faire)** biron ish qilishni davom ettirmoq; **continuer à croire** to'xtovsiz o'ylamoq; **II.** *vi* davom etmoq, qilmoq; **la pluie continue** yomg'ir yog'ishda davom etayotibdi; **III. se continuer** *vpr* cho'zilmoq, cho'zilib ketmoq; **ces montagnes continuent jusqu'à la mer** bu tog'lar dengizgacha cho'ziladi.

**continuité** *nf* **1.** uzluksiz, to'xtovsiz, tinimsizlik, ketma-ketlik, qatorlar; **2.** to'xtovsizlik, tinimsizlik, harakat davomlilik, aloqa meros bo'lib qolishlik, izchillik; **rétablir la continuité** izchillikni tiklamoq, meros bo'lib o'tishni tiklamoq; **solution de continuité** uzilish, aloqaning uzilib qolishi.

**continûment** *adv* uzluksiz, doimo, muttasil, muntazam, surunkali.

**contondant, ante** *adj* **1.** o'zini urib oladigan, lat yediradigan; **2.** o'tmas, kesmaydigan, to'mtoq, o'tmaydigan (*ro'zg'or asboblari; pichoq, bolta, tesha va hokazo*).

**contorsion** *nf* **1.** tomir tortishish, tirishish, changak bo'lish, talvasa; **2.** aftni, basharani burishtirish, yuzni bujmaytirish, g'ayritabiiy harakat, qiliq, qiyshanglash, qiliq qilish, tannozlik qilish, nozlanish.

**contorsionner (se)** aftini, basharasini bujmaytirmoq, g'ayritabiiy harakat qilmoq, qiyshanglamoq, qiliq qilmoq, nozlanmoq, tannozlik qilmoq.

**contour** *nm* sirtqi ko'rinishi, shakl, qiyofa, sharpa; **tracer le contour** tashqi qiyofani xomaki chizib rasm solmoq.

**contourné, ée** *adj* egri, qiyshiq, qing'ir, egri-bugri; jimjimador (*uslub*), serhasham, balandparvoz.

**contournement** *nm* aylanib o'tish, aylanma yo'l, chetlab o'tish; **voie de contournement** aylanib o'tadigan yo'l.

**contourner I.** *vt* **1.** aylanib o'tmoq, chetlab o'tmoq, aylanib chiqmoq; **contourner un obstacle** to'siqni aylanib o'tmoq; **2.** xomaki chizib chiqmoq, xomaki o'rab chiqmoq, o'ramoq, aylantirmoq, hoshiyga solmoq, chiziq bilan o'ramoq; **3.** egmoq, bukmoq, qayirmoq, bukchaytirmoq, qiyshaytirmoq, burishtirmoq, bujmaytirmoq; **II. se contourner** *vpr* **1.** egilmoq, bukilmoq, bukchaymoq; **2.** g'ijimlanmoq, burishmoq, doppayib chiqmoq, tobtashlamoq.

**contraceptif, ive** *adj* homilador bo'lishdan saqlaydigan, homila bo'lishga qarshi.

**contractant, ante I.** *adj* kelishuvchi; **parties contractantes** kelishuvchi tomonlar (*diplomatiyada*); **II.** *nm pl* kelishuvchi tomonlar.

**contracté, ée** *adj gram* **articles contractés** qo'shilgan, qo'shma artikllar.

**contracter**[1] *vt* **1.** shartnoma tuzmoq, kelishmoq; **contracter un emprunt** qarz haqida kelishib olmoq; **contracter un mariage** erga tegmoq, uylanmoq; **2.** olmoq, qabul qilmoq, erishmoq, ega bo'lmoq, egallamoq, o'zlashtirmoq, singdirmoq; **contracter une habitude** odat qilib olmoq; **contracter une maladie** kasallanmoq, betob bo'lmoq; **contracter des obligations** majburiyat olmoq; **contracter des dettes** qarzdor bo'lib qolmoq.

**contracter**[2] **I.** *vt* **1.** *physiol* siqmoq, qismoq, qisqartmoq, kamaytirmoq; **2.** aftini bujmaytirmoq; **3.** *gram* qo'shmoq, qisqartirmoq; **II. se contracter** *vpr* **1.** siqilmoq, qisilmoq; **2.** bujmaymoq, burishmoq (*yuz, aft, bashara*).

**contraction** *nf* **1.** bo'rtish, taranglashish, siqish; **2.** *physiol* qisqarish, qo'shilish; **3.** burishish, bujmayish, qiyshayish; **contraction du visage** yuz tortilishi; **4.** *gram* qisqarish, qo'shilish; **5.** *géom* torayishi (*ko'ndalang kesishish maydonining*); **6.** (*quyganda, quritganda*) metall, daraxtning o'tirishi, kirishib kichrayishi.

**contractuel, elle I.** *adj* shartli, kelishilgan, shartnoma, kelishuv asosida; **II.** *n* **1.** mehnat bitimiga ko'ra ishlayotgan odam, shartnoma asosida ishlayotgan.

**contracture** *nf* tomir tortishishi.

**contradicteur** *nm* muxolif, taqrizchi, opponent, bahsdagi raqib.

**contradiction** *nf* ziddiyat, qarama-qarshilik, zidlik, teskarilik; **contradictions de classe** sinfiy ziddiyat.

**contradictoire** *adj* qarama-qarshi, zid, teskari; **jugement contradictoire** bir-biriga zid fikrlar.

**contradictoirement** *adv* zidlik bilan, qarama-qarshilikda, teskari.

**contraignant, ante** *adj* **1.** majburiy; **2.** qiyinchilik tug'diradigan, qiyin, tang, og'ir, siqiq, malolli, moneli.

**contraindre I.** *vt* **1.** majbur qilmoq, zo'rlamoq; **il fut contraint de** u majbur bo'lgan; **2.** siqmoq, qismoq; qiyinchilik tug'dirmoq, og'irlashtirmoq; **3.** ushlab, tutib, to'xtatib, jilovlab, bosib turmoq (*jahlni*); **II. se contraindre** *vpr* o'zini ushlamoq, bosmoq, tutmoq.

**contraint, ainte** *adj* majburiy, majbur qilingan; **il a l'air contraint** uning qiyofasi tarang; **sourire contraint** zo'rma-zo'raki iljayish.

**contrainte** *nf* **1.** majbur qilish, zo'rlash; **contrainte par corps** *dr* qarzdorlar qamog'iga qamash; **mesures de contrainte** majburiy choralar; **régime de contrainte** zo'rlash, majbur qilish tartibi; **par contrainte** majburiy tartibda, zo'rlab; **une mise en place de contrainte** ko'nish, majbur bo'lish, ko'ndirish; **2.** siqilish, uyalish, siqiqlik, tortinchoqlik; **sans contrainte** erkin, bemalol, tortinmasdan, ixtiyoriy; **3.** *techn* taranglashish, kuchlanish, kuch.

**contraire** *adj* **1.** qarama-qarshi, zid, qarshi, teskari, noqulay, nobop, yomon, salbiy; **vent contraire** qarshidan esayotgan shamol; **2.** zararli, ziyoni bor, g'irt zararli, zarar keltiradigan; **3.** e'tirozli, qarshilik bildiruvchi; **contraire aux intérêts** qiziqishlarga qarshi; **cela est contraire à la vérité** u haqiqatga zid; **contraire à l'esprit et à la lettre** boshdan oyoq zid; **4.** *nm* teskarilik, o'xshas emaslik, qarama qarshilik, tafovut, ziddiyat; **la lutte des contraires** *philos* ziddiyatlar kurashi; **j'ai entendu dire le contraire** men teskari fikrlar eshitdim; **au contraire** *loc adv* aksincha, teskarisiga; **tout au contraire** butunlay zid, teskari.

**contrairement** *adv* **(à)** qaramay, qaramasdan, xilof ravishda, aksiga, qarshi o'laroq, nisbatan, aksicha, farqli ravishda, teskarisiga.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**contralto** *nm mus* ayollarning eng past, yo‘g‘on ovozi.

**contrarié, ée** *adj* **1.** ranjigan, achingan, afsus yegan; **2.** buzuvchi, izdan chiqaradigan, chiqqan, kayfiyati buzilgan; **projet contrarié** buzilgan rejalar.

**contrarier** *vt* **1.** xalaqit bermoq, xalal bermoq, to‘sqinlik qilmoq, g‘ov, to‘g‘anoq bo‘lmoq; buzmoq (*rejani*); **contrarier les couleurs** rangli tafovut, yuzaga keltirmoq; **2.** o‘kintirmoq, o‘ksitmoq, xafa qilmoq, ranjitmoq, alam qildirmoq, siqmoq, qismoq, uyaltirmoq, ko‘ngilsizlikka sabab bo‘lmoq, norozilik tug‘dirmoq; **voilà qui me contrarie!** qanchalik bu menga noxush, ko‘ngilsiz voqea; **3.** e’tiroz bildirmoq, qarshilik ko‘rsatmoq, zid, qarshi bo‘lmoq, gap qaytarmoq; **elle n’aime pas à être contrariée** unga qarsshi gapirganini yoqtirmaydi.

**contrariété** *nf* **1.** xalal, halaqit, to‘siq, to‘sqinlik, g‘ov, to‘g‘anoq, qarshilik, achinarli ko‘ngilsiz holat; **2.** norozilik, domongirlik, o‘kinch, achinish, ranj alam; **éprouver des contrariétés** noxushlik, ko‘ngilsialikni boshdan kechirmoq, o‘tkazmoq; **3.** qarshilik, ziddiyat, qarama-qarshilik, zidlik, teskarilik, gap qaytarish, tafovut, o‘xshash emaslik, boshqachalik.

**contrastant, ante** *adj* qarama-qarshi, zid, teskari, qarshidagi.

**contraste** *nm* qarama-qarshilik, keskin farq, qarshilik, zidlik, ziddiyat; **former un contraste** keskin farq qilmoq, keskin qarshi, zid bo‘lmoq.

**contraster I.** *vi* keskin farq qilmoq, kuchli ajralib turmoq, keskin qarshi, zid bo‘lmoq; **II.** *vt* qarshi faraz qilmoq; qarama-qarshi, zid qo‘ymoq.

**contrat** *nm* shartnoma, ahdnoma, ahd, bitim, kelishuv, murosa; **contrat type** namunali shartnoma.

**contravention** *nf* **1.** buzish, barbod qilish, rioya, amal qilmaslik, saqlamaslik (*qonun, shartnoma, qoidalar*); **2.** tasdiqlash hujjati, tartibni buzganlik haqida jarima; **dresser une contravention** tasdiqlash hujjati tuzmoq, yozmoq; jarima undirmoq.

**contre I.** *prép* **1.** oldida, yaqinida, -da; **s’aligner contre le mur** devor yonida, yaqinida turmoq; **2.** -ga; **mettre contre le mur** devorga taqab qo‘ymoq; **s’écraser contre le mur** devorga urilib sinmoq; *fig* **donner contre qqn** to‘qnashib, uchrashib qolmoq; **3.** qarshi; **marcher contre le vent** shamolga qarshi bormoq; **nager contre le courant** oqimga qarshi suzmoq; **aller contre vents et marées** hamma narsaga qarshi harakat qilmoq; **4. un abri contre la pluie** yomg‘irdan pana joy; **5. tout contre** yaqinida, qarshisida; **ci contre** yonida, orqa betida; **là-contre** bunga qarshi; **je n’ai rien à dire là-contre** bunga qarshi hech qanday gapim, e’tirozim yo‘q; *loc adv* **par contre** shu tufayli, shuning uchun; **pour et contre** tarafdor va qarshi; **II.** *nm* **le pour et le contre** tarafdorlar va qarshilar; **III.** *adv* **être contre** qarshi bo‘lmoq; **j’étais contre** qarshi edim; **voter contre** qarshi ovoz bermoq.

**contre-allée** *nf* yon yo‘lak, yonida, biqinidagi yo‘l.

**contre-amiral** *nm* kontr-admiral.

**contre-attaque** *nf* qarshi hujum.

**contre-attaquer** *vt* qarshi hujum qilmoq.

**contrebalancer** *vt* tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, tekislamoq.

**contrebande** *nf* chegaradan yashirincha mol o‘tkazish; **faire la contrebande de qqch** yashirin mol o‘tkazish bilan shug‘ullanmoq; **de contrebande** yashirincha, o‘g‘rincha, bekitiqcha.

**contrebandier, ière I.** *adj* yashirin, o‘g‘rincha; **II.** *n* kontrabandist, kontrabanda bilan shug‘ullanuvchi odam, ayol.

**contrebas (en)** *loc adv* yuqoridan pastga, quyiga, pastga.

**contrebasse** *nf* **1.** skripkaga o‘xshash katta musiqa asbobi; **2.** kontrabaschi, kontrabas chaluvchi.

**contre-chant** *nm* asosiy ohangni takrorlovchi musiqa, kuy.

**contrecœur (à)** *loc adv* istar istamas, noiloj, uncha xohlamasdan, xohlamay, ra’yiga qarshi, istagiga qarshi.

**contrecoup** *nm* **1.** qarshi zarba, javob zarbasi; **2.** tosh, o‘qning tushgan joyidan sakrab o‘chib ketishi; *fig* aks-sado, achinish, taassuf, qo‘llab-quvvatlash, oqibat, natija, iz, asar; **par contrecoup** tegib tegmasdan uchib ketish bilan.

**contre-courant** *nm* qarshi oqim, yo‘nalish; **naviguer à contre-courant** oqimga qarshi suzib bormoq.

**contredire I.** *vt* qarshi gapirmoq, qarshilik ko‘rsatmoq, qarshi chiqmoq, e’tiroz bildirmoq, gap qaytarmoq, qarshi, zid bo‘lmoq; **contredire qqn** gap qaytarmoq; **contredire une proposition** taklifga e’tiroz bildirmoq; **II. se contredire** *vpr* o‘z-o‘ziga qarshi chiqmoq, bir-birini inkor etmoq.

**contredit** *nm dr* haq-huquq talashish, bahslashish; **sans contredit** *loc adv* shak-shubha qilmay, tortishmay, shubhasiz, aniq, ravshan, albatta.

**contrée** *nf* mamlakat, o‘lka, viloyat, joy, yurt.

**contre-espionnage** *nm* kontrrazvedka, qarshi tekshiruv.

**contre-expertise** *nf* qo‘shimcha tekshirish, sinovchi tekshirish.

**contrefaçon** *nf* qalbaki, soxta, yasama narsa.

**contrefaire** *vt* **1.** taqlid qilmoq, o‘xshatmoq, xuddi o‘zi bo‘lmoq, o‘xshatib yasamoq, ishlamoq, masxaraomiz taqlid qilmoq, kalaka qilmoq, nusxa ko‘chirmoq; **2.** qalbaki, soxta narsa yasamoq; **contrefaire une signature** imzo chekish, qo‘l qo‘yish, imzolashni o‘xshatib yasamoq; **contrefaire sa voix** ovozini o‘zgartirmoq; **contrefaire la folie** o‘zini jinnilikka solmoq, mug‘ombirlik qilmoq.

**contrefait, aite** *adj* xunuk, badbashara, ko‘rimsiz, badburush.

**contreficher (se)** *vpr fam* hammasiga tupirmoq, hech narsa bilan hisoblashmaslik.

**contrefort** *nm* **1.** g‘isht tirgovuch; **2.** tizma tog‘ tarmog‘i.

**contre-indication** *nf* qarshi, zid dalil, qarshi guvohlik berish, qarshi, zid dalil keltirish; dori, davolash to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatuvchi belgi (*tibbiyotda*).

**contre-indiquer** *vt méd* to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatmoq.

**contre-jour** *nm inv* nurga qarshi joylashish, nurga teskari o‘tirish; **à contre-jour** *loc adv* nurga qarshi, teskari.

**contremaître, esse** *n* bosh usta, master.

**contre-manifestation** *nf* javob namoyishi.

**contremarche** *nf archit* zina balandligi.

**contremarque** *nf* chipta, tomosha zaliga qaytishga ruxsat beruvchi hujjat, qog‘oz.

**contre-offensive** *nf* javob hujumi, qarshi zarba.

**contrepartie** *nf* **1.** asli bilan teng huquqli hujjat nusxasi, ko‘chirma hujjat; **2.** qarama-qarshi, zid fikr, ziddiyat, teskarilik; **en contrepartie** o‘rniga, badaliga, evaziga.

**contre-pente** *nf* orqa qiyalik, yonbag‘ir, nishab; qiyalikka qarama-qarshi.

**contrepèterie** *nf* so‘zdagi bo‘g‘in yoki harfni tovushga moslashtirish (*yangi ma’no hosil qilish uchun*).

**contre-pied** *nm* o‘xshash emaslik, teskarilik, boshqachalik, qarama-qarshilik, tafovut, ziddiyat, farq qilishlik; **prendre le contre-pied d’une opinion** fikrni rad etmoq, noto‘g‘riligini isbotlamoq; **à contre-pied** *loc adv* orqa yo‘nalishda, yo‘lda.

**contre-plaqué** *nm* faner.

**contrepoids** *nm* posangi, qarama-qarshi, zid, qarshi; **servir de contrepoids** posangi, tenglovchi bo‘lib xizmat qilmoq.

**contrepoison** *nm* zaharga qarshi dori, ziddi zahar, qarshi kurashadigan chora, tadbir.

**contrer I.** *vt fam* qarshilik ko‘rsatmoq, qarshi chiqmoq, e’tiroz bildirmoq, gap qaytarmoq, qarshi turmoq, zid bo‘lmoq, bir-birini inkor etmoq; **contrer l’adversaire** dushmanga qarshi turmoq, dushmanga qarshi turmoq, dushman zarbasi bermoq; **II.** *vi* dov bermoq, kelmoq (*qarta o‘yinida*).

**contre-révolution** *nf* aksilinqilob.

**contre-révolutionnaire I.** *n* aksilinqilobchi; **II.** *adj* aksilinqilobiy.

**contresens** *nm* **1.** teskari tomon, ich tomon, orqa, astar; **2.** ma’nosiz gap, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan narsa, behuda ish, ahmoqlik; **à contresens** *loc adv* ma’noga zid, xilof, nafratlanadigan tarzda, iflos, teskari, qarshi; **3.** xato, yanglish.

**contresigner** *vt* imzo, qo‘l qo‘yish bilan tasdiqlamoq, muhrlamoq, ikkinchi imzo qo‘ymoq.

**contretemps** *nm* xalal, xalaqit, to‘siq, to‘siqlik, g‘ov, to‘g‘anoq, to‘siqlik, qarshilik, o‘ylanib qolish, kechikish, sekinlik, sustkashlik; **à contretemps** *loc adv* bevaqt, bemahal, bemavrid, noo‘rin, o‘rinsiz, biri bog‘dan, biri tog‘dan.

**contre-terrorisme** *nm* aksil terror.

**contre-terroriste** *n* aksil terrorchi.

**contretype** *nm* kontratip, qayta suratga olingan negativ.

**contre-valeur** *nf* almashtirilgan pul, valuta.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**contrevenir** *vi* **(à qqch)** buzmoq, izdan chiqarmoq, barbod qilmoq, chetga chiqmoq (*qonundan*), qarshi munosabatda bo'lmoq; **contrevenir la loi** qonunni buzmoq, qonunga qarshi munosabatda bo'lmoq.

**contrevent** *nm* deraza darchasi.

**contre-vérité** *nf* yolg'on, yolg'on, noto'g'ri gap, haqiqatga to'g'ri kelmaslik, haqiqatdan uzoqlik, aqlga zidlik.

**contre-visite** *nf* qaytadan ko'rikdan o'tkazish, qayta tekshirish, nazorat, ko'zdan kechirish (*tibbiyotda*).

**contre-voie** *nf* yon iz, yo'l (*temir yo'lda*); **à contre-voie** *loc adv* ko'rsatilmagan, belgilanmagan tomondan, tarafdan; **descendre du train à contre-voie** poyezddan ko'rsatilmagan tomondan tushmoq.

**contribuer** *vi* **(à qqch) 1.** yordam bermoq, imkon tug'dirmoq, osonlashtirmoq, ko'maklashmoq, yordamlashmoq, yordam ko'rsatmoq; **contribuer au succès** muvaffaqiyatga ko'maklashmoq; **2.** birga xarajat qilmoq, o'z hissasi, ulushini qo'shmoq.

**contrister** *vt* xafa qilmoq, dilini og'ritmoq, ranjitmoq, diliga ozor bermoq, qayg'uga solmoq.

**contrit, ite** *adj* xafa bo'lgan, ranjigan, dili siyoh bo'lgan, xafa, qattiq xafa bo'lgan, tashvishli, g'amgin, g'am-g'ussali, afsus, pushymon, tavba qilgan, yegan.

**contrition** *nf* achinish, afsus, pushaymon, tavba qilish, o'kinish, qattiq xafa bo'lish, qayg'urish, kuyib-pishish, xafagarchilik, g'am-g'ussa; **faire un acte de contrition** achinmoq, o'kinmoq, tavba, pushaymon, afsus qilmoq.

**contrôle** *nm* **1.** tekshirish, tekshiruv, nazorat, kuzatish, sinov, imtihon, sinash, qarab turish, qarov; **contrôle des naissances** bola tug'ilishini tartibga solish; **2.** tanqid; **3.** tamg'alash, tamg'a solish, bosish; oltin, kumush probasini aniqlash, belgilash, qo'yish; **4.** *mil* axborotnoma, shaxsiy sostav ro'yxati; **5.** nazorat, tekshiruv daftari.

**contrôler** *vt* **1.** tekshirmoq, nazorat qilmoq, kuzatmoq, sinamoq, qaramoq; **2.** tamg'alamoq, tamg'a bosmoq, solmoq, proba aniqlamoq, belgilamoq, qo'ymoq.

**contrôleur, euse** *n* **1.** nazoratchi, qorovul, kuzatuvchi, tekshiruvchi; **2.** *nm techn* nazorat asbobi, tekshiruv quroli, o'lchagich; **contrôleur de radioactivité** dozimetr (*radioaktiv nurlanish darajasini o'lchaydigan asbob*).

**contrordre** *nm* qarshi buyruq, buyruqni bekor qilish.

**controuvé, ée** *adj* xayoliy, o'ylab chiqarilgan, to'qilgan, to'qib chatilgan, uydirma, yolg'on, soxta, qalbaki, yasama, noto'g'ri.

**controverse** *nf* **1.** ixtilof, janjalli masala, tortishuv, munozara, bahs, dov, olishuv, dovlashuv, haq-huquq talashish, fikrlar bellashuvi; **il n'y a pas là matière à controverse** bu yerda hech narsa yo'q tortishadigan; **2.** aytishish, gap qaytarish, munozara, tortishuv.

**contumace I.** *nf* sudga kelmaslik; **purger sa contumace** sirtdan qamalgandan keyin sudga kelmoq; **par contumace** sirtdan; **II.** *adj* sirtdan qamalgan, kesilgan, jazoga hukm etilgan.

**contusion** *nf* jarohat, shikast, urib olingan joy, lat yegan joy, qoraygan, shishgan joy.

**contusionner** *vt* shikast yetkazmoq, kontuziya qilmoq, urib olmoq, urib lat yedirmoq, shikastlamoq.

**conurbation** *nf* qo'shni, yaqin shaharlarning qo'shilib ketishi.

**convaincant, ante** *adj* ishonchli, ishonarli, ishonsa bo'ladigan, asosli, puxta, aniq.

**convaincre I.** *vt* **(qqn de qqch) 1.** ishontirmoq, inontirmoq, to'la isbot qilmoq; **je suis convaincu qu'elle viendra** u ayol keladi deb ishonaman; **2.** fosh qilmoq, jinoyat ustida tutib olmoq, aybini ochmoq, ochib tashlamoq; **II. se convaincre** *vpr* **1.** ishonmoq, inonmoq, ishonch, qanoat hosil qilmoq; **je veux m'en convaincre par moi-même** bu to'g'rida o'zim ishonch hosil qilishni istamayman; **2.** bir-birini ishontirmoq.

**convaincu, ue** *adj* **(de qqch) 1.** qat'iy ishongan, astoydil ishongan, sodiq, chinakkam inongan; **2.** fosh qilingan, ochib tashlangan, jinoyat ustida tutib olingan, aybi ochilgan; **convaincu de mensonge** yolg'on gapirishda fosh qilingan, ochib tashlangan, jinoyat ustida tutib olingan, aybi ochilgan; **convaincu de mensonge** yolg'on gapirishda fosh qilingan.

**convalescence** *nf* **1.** sog'ayib ketish, tuzalish, sog'lom bo'lish, sog'ayish davri; **entrer en convalescence** sog'aya boshlamoq; **partir en convalescence** sog'ayib kasalxonadan chiqib ketmoq, chiqmoq; **2. convalescence, congé de convalescence** betoblikdan, sog'ayib chiqqandan keyingi dam olish, ta'til, otpuska.

**convalescent, ente I.** *adj* sog'ayayotgan, tuzalayotgan, zaif; **II.** *n* sog'ayayotgan kasal, tuzalayotgan kasal, hali zaif bemor.

**convenable** *adj* odobli, tarbiyali, xushxulq, odamshivanda, tuzukkina, mos, munosib, o'rinli, binoyidek; **récompense convenable** yaxshigina mukofot; **il n'est pas convenable de** nomunosib ravishda, nomunosib, noloyiq, nojo'ya.

**convenablement** *adv* munosib, yaxshigina, mos holda, binoyidek, yomon emas; **convenablement à** -ga yarasha, munosib, binoan.

**convenant, ante** *adj* munosib, mos, binoyi, odobli, tartibli, loyiq, muvofiq, qulay, ma'qul.

**convenir I.** *vi* **1. (de qqch, de+***inf***)** rozi bo'lmoq, ko'nmoq, unamoq, xo'p demoq, qo'shilmoq, kelishmoq, shartlashmoq; iqror bo'lmoq, bo'yiniga olmoq, tan olmoq; **convenir du prix** bahosi to'g'risida kelishmoq, shartlashmoq; **convenir du temps et du lieu** vaqti va joyini kelishib olmoq; **ils sont convenus de se rencontrer** uchrashishga kelishib oldilar; **convenez que** xo'p deya qoling; **convenons d'appeler** deb nomlashga, atashga kelishdik; **2. (à qqch, à qqn)** mos, muvofiq, munosib, loyiq bo'lmoq, to'g'ri kelmoq, javob bermoq yaramoq, asqatmoq, kerak bo'lmoq, yarashmoq, kelishmoq; **cet emploi m'a convenu** bu xizmat menga muvofiq; **il convient** kerak, asqotadi; **il convient d'agir ainsi** shunday qilmoq kerak; **II. se convenir** *vpr* bir-biriga mos kelmoq.

**convention** *nf* **1.** bitim, kelishish, bitishish, kelishuv, bitishuv; rozilik, murosa, shartnoma, axdnoma, ahd, shart, sharoit, garov, tartib-qoida, vaziyat, ahvol; **convention collective** kollektiv shartnoma; **2.** shartlilik, rasm, tamoyil, rasm-rusum; **conventions sociales** yotoqxona rasm-rusmi, urf-odatlari; *loc adv* **de convention** shartli, faraz qilingan, xayoliy; **3.** favqulotda yig'in assambleya, partiyalar s'ezdi, majlisi; **Convention nationale** *hist* Konvent.

**conventionné, ée** *adj* sotsial sug'irta tizimiga kirgizilgan.

**conventionnel, elle I.** *adj* shartli, kelishilgan, murosali, ahdlashilgan, garovli; **signes conventionnels** shartli belgilar; **armes conventionnelles** oddiy qurol yarog'lar; **II.** *nm* Konvent a'zosi.

**conventionnellement** *adv* shartli, shartli ravishda.

**conventuel, elle** *adj* monastirga oid.

**convenu, ue** *adj* **1.** kelishilgan, shartlashilgan, o'zaro kelishuvga asoslangan, murosali; **prix convenu** belgilangan, qo'yilgan baho; **c'est convenu** kelishildi, rozi; **comme convenu** kelishilganday, shartlashganday; **2.** hamma qabul qilgan, hammaga ma'qul bo'lgan, rasm bo'lib qolgan.

**convergence** *nf* **1.** mos kelish, bir xil bo'lish, bir xillik, o'xshashlik, to'g'ri kelish; **convergence des efforts** kuchlarni to'plash, yig'ish; **2.** *math, phys* ikkala ko'z o'q chizig'ining bir nuqtada uchrashuvi, moslik, o'xshashlik; **convergence d'une série** qatorlarning mosligi, o'xshashligi; **3.** *géol* taxlam, qatlamlarning o'xshashligi, yaqinligi, mosligi (*yerda*).

**convergent, ente** *adj* **1.** mos keladigan, o'xshash; **efforts convergents** bir maqsadga qaratilgan kuchlar; **2.** *math, phys* bir nuqtaga qaratilgan, bir yo'nalishda uchrashadigan; **lentille convergente** nur yig'adigan shisha linza; **mouvement convergent** bir yo'nalishda uchrashadigan harakat.

**converger** *vi* **1.** to'g'ri, duch, ro'para kelmoq, ayni bir vaqtda sodir bo'lmoq, mos kelmoq, o'xshamoq, bir xil bo'lmoq, bir-birini qoplamoq, ustma-ust tushmoq; **diverger et converger** farq qilmoq va mos melmoq; **2.** *math* bir nuqtada uchrashmoq.

**convers, erse** *adj* **frère convers, sœur converse** monax shogirdi, xizmatkori (*cherkovda*).

**conversation** *nf* gap, so'z, suhbat, gaplashish, so'zlashish; **être en conversation** suhbatda qatnashmoq; **engager la conversation** *fam* gaplashadigan gap bor bo'lmoq.

**converser** *vi* gaplashmoq, suhbatlashmoq, suhbat qurmoq.

**conversion** *nf* **1.** dinini o'zgartirish, boshqa dinga o'tish; **2.** aylanish, o'zgarish, o'zgartirish, almashtirish.

**converti, ie I.** *adj* o'tgan (*boshqa dinga*), dinini o'zgartirgan; **II.** *n* dinini o'zgartirgan kishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**convertir I.** *vt* **(en qqch) 1.** aylantirmoq, o'zgartirmoq, o'tmoq, ishlatmoq; **2.** almashtirmoq (*moliyada*); **3.** dinini o'zgartirmoq; **II. se convertir** *vpr* **1.** aylanib qolmoq, o'zgarmoq; **2.** dinini o'zgartirmoq.

**convexe** *adj* bo'rtib chiqqan, qovariq, do'ng.

**convexité** *nf* qovariqlik, do'nglik, do'mboqlik, burtik.

**conviction** *nf* ishonch, ishonish, maslak, e'tiqod, imon; **pièce à conviction** ashyoviy dalil; **parler avec conviction** ishonch bilan gapirmoq; **travail de conviction** tushuntirish ishi.

**convier** *vt* **(à qqch, à faire qqch)** taklif qilmoq, chaqirmoq, mehmonga aytmoq, undamoq, da'vat qilmoq.

**convive** *n* chaqirilgan, taklif qilingan mehmon, xomtovoq, birga ovqatlanuvchi.

**convocation** *nf* **1.** chaqirish, charlash, chaqirib to'plash, yig'in, to'plash, chaqiriq; **convocation du parlement** parlament chaqirig'i; **2.** chaqiriq qog'ozi, taklifnoma, taklif (*majlisga, saylovga*).

**convoi** *nm* **1.** karvon, poyezd, sostav, eshelon, yuk tashuvchi mashinalar safi; **convoi de vivres** oziq-ovqatlar karvoni; **convoi de marchandises** tovar mol sostavi; **convoi automobile** yuk mashinalar safi; **convoi funèbre** ko'mish marosimi.

**convoiter** *vt* qattiq, ehtiros bilan xohlamoq, istamoq, jo'shqin, qizg'in urinmoq, harakat qilmoq, intilmoq.

**convoitise** *nf* hasad, suq, zo'r istak, xohish, orzu, suqlanish, qo'msash, tama.

**convoler** *vi plais* qonuniy nikohlamoq, nikoh bilan qo'shilmoq, birikmoq; **convoler en justes noces** nikohdan o'tmoq; **convoler en secondes, en troisièmes noces** ikkinchi, uchinchi nikohdan o'tmoq.

**convoquer** *vt* **(qqn à qqch)** chaqirmoq, taklif qilmoq; **convoquer une conférence** kengash, konferensiya, majlis chaqirmoq; **convoquer à la réunion** majlisga taklif qilmoq; **convoquer devant le tribunal** sudga chaqirmoq.

**convoyer** *vt* soqchilik qilib kuzatib bormoq, qo'riqlab bormoq, uzatib, hamroh bo'lib bormoq, birga bo'lmoq.

**convoyeur I.** *adj* kuzatuvchi, qo'riqlovchi, hamroh, yo'ldosh bo'luvchi; **bâtiment convoyeur** qo'riqlovchi, hamroh, yo'ldosh, birga bo'lib boradigan kema; **II.** *nm* **1.** qo'riqlab, kuzatib boruvchi soqchi, qorovul, hamroh, yo'ldosh, kuzatuvchi; **2.** qo'riqlovchi kema; **3.** *techn* transporter, yuklarni boshqa joyga uzatuvchi mashina.

**convulser I.** *vt* tomir tortib changak bo'lmoq; **II. se convulser** *vpr* burishmoq, tirishmoq, afti qiyshaymoq, changak bo'lib o'ralmoq, siqilmoq.

**convulsif, ive** *adj* tomir tortgan, bezovta, besaranjom, titrab-qaqshaydigan, tirishtiradigan, g'ayriixtiyoriy, seskanma.

**convulsion** *nf* tomir tortishish, tirishish, changak bo'lish, talvasa, siqilish, qisilish, qisilib, qisib qolish.

**convulsionner** *vt* tomir tortishib qolmoq, changak bo'lmoq, burishib, qiyshayib, tirishib qolmoq.

**convulsivement** *adv* tomir tortib, changak bo'lib, burishib.

**coopérant** *nm* chet elda ishlaydigan mutaxassis.

**coopératif, ive** *adj* kooperatsiyaga, shirkatga oid; **mouvement coopératif** kooperatsiya harakati; **société coopérative** kooperativ do'stlik, birodarlik.

**coopération** *nf* **1.** hamkorlik, birga xizmat qilish, hamkorlikda ishlash; **coopération économique** iqtisodiy hamkorlik; **politique de coopération** hamkorlik siyosati; **en coopération** hamkorlikda; **en étroite et amicale coopération** yaqin va qadrdon hamkorlikda; **2.** kooperatsiyalashtirish, kooperatsiya jamiyati; **3.** *mil* qo'shinning birgalikdagi harakati; **coopération terrestre** quriqlikdagi qo'shinlarning birgalikdagi harakati.

**coopérative** *nf* kooperativ, kooperatsiya, shirkat; **coopérative de production** ishlab chiqarish, ta'minot kooperatsiyasi.

**coopérer** *vi* **(à qqch) 1.** yordam bermoq, ko'maklashmoq, yordamlashmoq, yordam ko'rsatmoq, osonlashtirmoq, imkon, imkoniyat tug'dirmoq; **2.** hamkorlik qilmoq, birga xizmat qilmoq, hamkorlikda ishlamoq, birga, birgalikda harakat qilmoq.

**cooptation** *nf* biror jamiyatga yangi a'zoning shu tashkilot a'zolari tomonidan saylanishi.

**coopter** *vt* qo'shimcha saylovsiz to'ldirmoq.

**coordination** *nf* **1.** o'zaro muvofiqlashtirish, moslashtirish, to'g'rlash, moslash, kelishuv, kelishtirish; **2.** izchillik, ketma-ketlik, doimiylik, meros bo'lib qolishlik, o'tishlik; **3.** *gram* bog'lash, bog'lanish.

**coordonnateur, trice I.** *adj* muvofiqlashtiruvchi, moslashtiruvchi, to'g'irlovchi; **2.** *n* moslovchi, to'g'irlovchi, muvofiqlovchi odam, ayol.

**coordonné, ée** *adj gram* teng, bog'lovchili, bog'langan.

**coordonnées** *nf pl* **1.** nuqtaning tekislikdagi va fazodagi vaziyatini belgilaydigan miqdorlar; **2.** kimsaning turgan joyi, adresi; **coordonnées rectangulaires** to'g'ri burchakli miqdorlar; **coordonnées rectilignes** to'g'ri chiziqli miqdorlar; **coordonnées polaires** bir-biriga qarama-qarshi nuqtalar; **donnez-moi vos coordonnées** *fig* adresingizni bering.

**coordonner** *vt* o'zaro moslamoq, muvofiqlashtirmoq, to'g'rilamoq, uyg'unlashtirmoq, kelishmoq; **coordonner les efforts** kuchlarni muvofiqlashtirmoq.

**copain** *nm fam* maktabdosh, birga o'qigan, yaqin o'rtoq, oshna, og'ayani, jo'ra, do'st, birodar; **un bon copain** yaxshi yigit; **les copains** o'spirin, yigitlar.

**copeau** *nm* qirindi, payraha (*metall, yog'och*).

**copiage** *nm* ko'chirish (*imtihonda*).

**copie** *nf* **1.** nusxa, ko'chirma, kopiya, namuna; **prendre copie** ko'chirmoq, nusxa olmoq; **pour copie conforme** asliga to'g'ri; **elle est en tout la copie de sa mère** u onasining kopiyasi, o'zi; **2.** yozma ish (*o'quvchining*); **3.** ikkilangan daftar qog'ozi; **4.** repartyor namunasi (*gazeta*), ro'znoma maqolasi, xabar; **5.** qo'lyozma namunasi, asli, asl nusxasi.

**copier** *vt* **1.** ko'chirmoq, qaytadan yozib qo'ymoq, nusxa ko'chirmoq, olmoq, ko'chirib yozmoq, ro'yxatga olmoq, ko'chirma olmoq; **2.** nusxa, kopiya olmoq, o'xshatmoq, taqlid qilmoq; **3.** nusxa, kopiya ko'chirmoq, kopiya, namuna, nusxa olmoq.

**copieur, euse** *n* **1.** ko'chiruvchi, ko'chirib yozuvchi, boshqalardan ko'chiruvchi; **2.** *nm* kseroks, nusxa ko'chiruvchi mashina.

**copieusement** *adv* mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, boy, barakali, to'kin-sochin; **manger copieusement** to'yib yemoq.

**copieux, euse** *adj* mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p, boy, barakali, to'kin-sochin; **faire un repas copieux** to'yib ovqat yemoq.

**copilote** *nm* ikkinchi uchuvchi.

**copine** *nf* dugona, maktabdosh, birga o'qigan qiz.

**copiner** *vi* do'st, o'rtoq bo'lmoq, do'stlashmoq, yaqinlashtirmoq.

**copinerie** *nf* do'stona munosabatlar.

**coprah** *nm* kopra, kakos yong'og'ining mag'izi.

**coproduction** *nf* birga, birgalikda, hamkorlikda ishlab chiqarish.

**copropriétaire** *nm* sherik, birga, birgalikda ega bo'lgan kishi.

**copropriété** *nf* bir necha kishining umumiy mol-mulki, aylangan holda; **2.** boshqa dinga, dinini o'zgartirish.

**copte** *n* kopt, misrlik nasroniy dinidagi odam.

**copulation** *nf* jinsiy aloqa, jinsiy qo'shilish, qovushish.

**copule** *nf gram* yordamchi fe'l, bog'lovchi fe'l.

**copuler** *vi* jinsiy aloqa qilmoq, qo'shilmoq, qovushmoq.

**copyright** *nm* muallif, adiblik huquqi, adabiy mulk.

**coq**[1] *nm* xo'roz; **coq de bruyère, des bois** qur, karqur (*katta o'rmon qushi*); **coq d'Inde** erkak kurka; **au chant du coq** xo'roz qichqirishi bilan saharda; **poids coq** yengil vazn (*boksda 50,80-53,52 kg*); **être comme un coq en pâte** yallo qilib yashamoq.

**coq**[2] *nm* kema oshpazi, kok.

**coq-à-l'âne** *nm inv* safsata, bema'ni, bo'lmag'ur, behuda gap.

**coque** *nf* **1.** tuxum po'chog'i, po'stlog'i; **œuf à la coque** chala pishirilgan tuxum; **2.** pilla; **3.** korpus, gavda, kema korpusi, yuk ortadigan quti (*avtomobilda*); **4.** cho'chchaygan hurpaygan soch (*soch o'rami*).

**coquelicot** *nm* lolaqizg'aldoq.

**coqueluche** *nf* **1.** *méd* ko'kyo'tal; **2.** *fig* erkatoy, arzanda.

**coquet, ette I.** *adj* tannoz, ishvali, g'amzali, chiroyli, bashang, qichiq; **la coquette somme** *fam* talaygina pul; **II.** *n* tannoz ayol, ishvagar, ko'krakburma.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**coqueter** *vi fam* noz-karashma qilmoq, g'amza qilmoq, ishva, qichiq qilmoq, suzilmoq.

**coquetier** *nm* **1.** tuxum solinadigan qadahsimon idish; **2.** tuxum g'aladoni, yashigi, qutisi.

**coquetière** *nf* tuxum qaynatgich kastrul.

**coquettement** *adv* noz-karashmali, tannoz, g'amza bilan, qichiq bilan, bashang, ishvali.

**coquetterie** *nf* tannozlik, ishvagarlik, qichiqlik; **mettre sa coquetterie à** noz-karashma qilmoq, ko'z suzmoq; **n'y mettre aucune coquetterie** o'zini kamtarona tutmoq; **faire des coquetteries** noz-karashma, ishva, jilva qilmoq, suzilmoq; **avec coquetterie** tannozlik bilan, noz-karashma, jilva, ishva bilan.

**coquillage** *nm* chig'anoq, chanoq.

**coquille** *nf* **1.** chig'anoq, chanoq, g'ovak jins; **rentrer dans sa coquille** *fig* o'z qobig'iga, po'stlog'iga o'ralib qolmoq, boshqalarga qo'shilmaslik; **2.** po'stloq, qobiq, po'choq, po'st; **coquille de noix** omonatgina qayiqcha; **3.** *typogr* matbaa, bosishga qo'yilgan xato; **4.** *techn* metall qolip (*quyish uchun*); **5.** qilich dastasi, xanjar dastasi; **6.** qog'oz hajmi, formati.

**coquillettes** *nf pl* chanoqlar, chig'anoqlar, makaron turi, quloq supralari.

**coquin, ine I.** *n* muttaham, firibgar, aloqachi, mug'ombir, ayyor, shumtaka, shum; qallob, tovlamachi, o'g'ri, ablah, yaramas odam; **coquin de sort** *fam* og'ir qismat; **II.** *adj* makkorlik, makrli, ayyorona; quvlik bilan; **des yeux coquins** makkor, ayyor, quv ko'zlar.

**coquinerie** *nf* **1.** aldamchilik, makkorlik, ayyorlik, firibgarlik, g'irromlik, tirriqlik; **2.** razillik, qabihlik, pastkashlik, ma'lunlik, yaramaslik, razolat.

**cor**[1] *nm* **1.** shox, muguz, burg'u; **cor de chasse** ov muguzi; **cor d'harmonie** valtorna; **sonner du cor** muguz chalmoq; **à cor et à cri** *loc adv* qiy-chuv va shovqin-suron bilan, jazava bilan; **vouloir, réclamer à cor et à cri** nima bo'lganda ham talab qilmoq; **2.** shox, bug'u shoxi.

**cor**[2] *nm* qadoq, qavariq, shish.

**corail** *nm* marjon; **bouche de corail, lèvres de corail** qip-qizil, marjon, aqiq lablar, og'izlar; **récif de corail** marjon riflar, qoyalar, yopishib yashovchi dengiz hayvoni.

**corallien, ienne** *adj* marjon, marjonli, aqiq, qizil.

**Coran** *nm* Qur'on.

**coranique** *adj* qur'oniy, qur'onga oid.

**corbeau** *nm* qarg'a.

**corbeille** *nf* **1.** savat, kajava; **corbeille à papier** qog'oz savati; **corbeille de fruits** mevalar savati; **corbeille de mariage** kuyov to'yonasi, to'y tuxfasi; **2.** to'garak yoki boshqa shakldagi gulzor; **3.** bolaxona, ikkinchi qavat (*teatrda*).

**corbillard** *nm* dafn marosimida tobut qo'yiladigan arava yoki mashina.

**cordage** *nm* **1.** arqon, abzal (*kemada*), tros; **2.** ip bilan o'lchash.

**corde** *nf* **1.** ip, arqon; arg'amchi, chilvir; tizimcha, ingichka arqon, kanop, yo'g'on arqon; **corde à nœuds** tugunli tirmashib chiqish arqoni; **corde lâche** ehtiyot arqoni; **rendre la corde** arqonni bo'shatmoq, qo'yib yubormoq; **cet habit montre la corde** ko'ylak ishqalanib yirtildi; **tenir la corde** yaxshi, manfaatdor vaziyatda bo'lmoq; **2.** sim, ip; his-tuyg'u, kayfiyat; **toucher les cordes** simlarni tortmoq, sozlamoq; **toucher la corde sensible** sezgir his-tuyg'uga ta'sir qilmoq, tegmoq; **3.** *pl* simli, torli cholg'u asboblari; **4.** kamalak, yoy ipi; **avoir plusieurs cordes à son arc** har xil hiyla nayrang ishlatmoq, maqsadga erishish uchun har xil yo'l-yo'riqqa, imkonga ega bo'lmoq; **5.** *géom* xorda, egri chiziqning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq; **6.** arqon sarjin (*3 gaz yoki 2134 metrga teng o'lchov birligi; uzunlik*).

**cordée** *nf* **1.** bog', bog'lam; **2.** pay, bog'lama ip (*alpinistlarda*).

**cordelette** *nf* ingichka ip, bog'ich, chilvir, arqoncha, arg'amchi, tanob.

**cordelière** *nf* **1.** tugunli arqon, arg'amchi (*tushish, chiqish uchun*); **2.** to'qilgan, eshilgan, o'rilgan, gajakli kamar, belbog', bog'ich, chilvir, arqon.

**corder** *vt* **1.** o'rmoq, pishitmoq, to'qimoq, yigirmoq; **2.** bog'lamoq, to'qimoq, burishtirmoq, tirishtirmoq; arqon bilan bog'lab chiqmoq; **3.** chilvir bilan yog'och o'lchamoq.

**cordial, ale I.** *adj* **1.** yurak, sidqidil, samimiy, chin, ochiq ko'ngil, mehribon, rahmdil, ishqiy, ruhiy, ma'naviy, juda yaxshi, xushmuomalalik bilan, shodiyona; **2.** *méd* quvvat beradigan, mahkamlovchi, mustahkamlaydigan; **II.** *nm* quvvat beradigan, mahkamlovchi dori.

**cordialement** *adv* sidqidildan, samimiylik bilan, chindan, ochiq ko'ngildan, xushmuomalik bilan.

**cordialité** *nf* samiymilik, sidqidillik, samimiyat, iltifot, xushmuomalik, mehribonlik.

**cordier, ière** *nm* ip, arqon eshuvchi, qiluvchi.

**cordillère** *nf* tog' tizmasi.

**cordon** *nm* **1.** arqon, ip, chilvir, tizimcha, arg'amchi, bog'ich, to'qilgan tasma, uqa, jiyak; **tenir les cordons de la bourse** uy xarajatlarini boshqarmoq; **tirer le cordon** eshik ochmoq; **2.** orden tasmasi, lentasi; **grand cordon** yelkadan oshirib taqadigan tasma; **3.** hoshiya, jiyak, mag'iz; **4.** chegarachilar, soqchilar zanjiri, otryadi; **cordon sanitaire** sanitar; **5.** *anat* **cordon ombilical** kindik, kindik tizimchasi; **6.** *géog* **cordon littoral** qumloq, sayoz yer, sayozlik.

**cordon-bleu** *nm* mohir, ustasi farang oshpaz.

**cordonnerie** *nf* **1.** etikdo'zlik; **2.** etikdo'zlik korxonasi; **3.** poyabzal magazini.

**cordonnier, ière** *n* etikdo'z, yamoqchi; *prov* **les cordonniers sans toujours les plus mal chaussés** temirchi taqaga yolchimas, bo'zchi belboqqa yolchimas.

**coréen, enne I.** *adj* Koreyaga, koreyaliklarga oid, Koreya; **II.** *n* Koreya aholisi, koreyalik.

**coriace** *adj* **1.** qattiq, chandir (*go'sht haqida*); **2.** *fam* qaysar, o'jar, sarkash.

**coriandre** *nf bot* kashnich.

**coricide** *nm* qadoqni yo'qotadigan plastir (*mato*).

**corindon** *nm* korund (*qattiq mineral, qimmatbaho tosh*).

**cormoran** *nm* qoravoy, qora buzov, baqlan, qo'sh.

**cornac** *nm* **1.** fil yetaklovchi, fil haydovchi, boquvchi; **2.** *fam* kuzatib boruvchi, hamroh.

**cornaline** *nf* serdolik, yarim qimmatbaho tosh, kvars yoki chaqmoq toshning bir turi.

**corne** *nf* **1.** shox, muguz; **bêtes à cornes** shoxli hayvonlar; **frapper de la corne** suzishmoq, suzong'ich bo'lmoq; **faire les cornes à qqn** "shox"ini ko'rsatmoq, javob qaytarmoq; **prendre, attaquer le taureau par les cornes** to'g'ridan-to'g'ri ishga kirishmoq (*ko'chma ma'noda*), fursatni qo'ldan bermasdan, dadil ish boshlamoq; **planter des cornes à qqn** eriga hiyonat qilmoq, boshqa xotin yoki erkak bilan yurmoq; **2.** cho'pon burg'usi; **corne de chaussures** oyoq kiyimi, kiyishida ishlatiladigan muguz, burg'u, shoxcha; **3.** buklangan burchak (*kitob betida*); **faire une corne à un livre** kitob betini qaytarmoq; **4.** shoxmuguz, burg'u, avtomobil signali; **5.** *mar* yelkan yog'ochi, gafel; **6.** *archit* o'ram, chirmoq, jingalak.

**corné, ée** *adj* shoxsimon, shox shaklidagi.

**corned-beef** tuzlangan go'sht, pishirilgan konserva go'sht.

**cornée** *nf* ko'zning muguz pardasi.

**corneille** *nf* qarg'a, zog'; **bayer aux corneilles** bekor xo'ja, anqov, merov bo'lmoq, laqillab yurmoq, angrayib yurmoq.

**cornélien, ienne** *adj* Kornelga aloqador.

**cornemuse** *nf* dam bilan chalinadigan musiqa asbobi.

**corner**[1] **I.** *vi* **1.** burg'u chalmoq; **2.** karnayga gapirmoq; **3.** shang'illamoq (*quloq*); **les oreilles me cornent** quloqlarim shang'illab yotibdi; **4.** signal bermoq (*avtomobilda*); **II.** *vt* **1.** kitob betini qaytarmoq; **2.** *fam* karnay chalmoq, hammaga yoymoq, ovoza qilmoq, jar solmoq; **il a corné cette nouvelle par toute la ville** u bu xabarni butun shaharga yoydi; **3.** suzmoq, shoxlamoq.

**corner**[2] *nm sport* burchak to'pi; **tirer un corner** burchak to'pi tepmoq, uzatmoq.

**cornet** *nm* **1.** shoxmuguz, burg'u, qamish surnay; **cornet acoustique** eshitish teshigi, nayi, tovush ushlagich karnay; **2.** kornet, puflama musiqa asbobi; **cornet à pistons** pistonli kornet; **3.** shox shaklli idish, narsa.

**cornette** *nf* xotin-qiz, bolalarning qalpog'i, bosh kiyimi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**corniaud** *nm* **1.** nasli tozamas it, ko'ppak it; **2.** *fam* ahmoq, tentak, nodon, merov, ablah, kallavaram, to'nka.

**corniche** *nf* **1.** *archit* karniz, araqi; **2.** tog' karnizi (*yon bag'irdagi kirdi-chiqdi joylar*), tog' yo'li; **3.** *arg* Sen-sir harbiy oliy maktabidagi tayyorlov kursi (*Fransiyada*).

**cornichon** *nm* **1.** kornishon, tuzlash uchun uzilgan mayda bodring; **2.** *fam* tentak, ahmoq, esi past, befahm, anqov, laqma.

**cornier, ière** *adj* burchak, burchakka oid.

**cornière** *nf* **1.** suv oqish tarnovi; **2.** uchburchak (*lineyka, temir*).

**cornouiller** *nm* qizil (*qizil mevali buta*).

**cornu, ue** *adj* **1.** shoxli; **2.** *fig* beso'naqay, beo'xshov, xunuk, tuturiqsiz, kelishmagan.

**cornue** *nf* retorta, laboratoriyada ishlatildigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qayrilgan idish.

**corollaire** *nm* **1.** *math* natija, xulosa, oqibat; **2.** tugatish, oxir, zaruriyat, muqarrarlik, zaruriy oqibat, natija, qutilib bo'lmaydigan zarurat.

**corolle** *nf bot* gulbarg, gultoj, gulkosa, gulyaproq.

**coron** *nm* shaxterlar qishlog'i.

**coronaire** *adj anat* yurakga oid, yurak.

**corporatif, ive** korporasiyaga oid; **esprit corporatif** korporativ muhit, kayfiyat.

**corporation** *nf* uyushma, birlashma, doira, sex.

**corporatisme** *nm* **1.** sinfiy, kasaba uyushmasi, birlashma; **2.** korporativ tuzum, sistema.

**corporatiste I.** *n* korporasiya tarafdori; **II.** *adj* korporativ.

**corporel, elle** *adj* tana, gavdaga oid; **peine corporelle** tan jazosi; **bien corporel** ashyoviy boylik.

**corps** *nm* **1.** tan, tana, gavda, qomat, badan, sumbat, qad-qomat; **exercices de corps** badan mashqlari; **prendre de corps** to'lishmoq; **avoir le diable au corps** jim, tek turmas bo'lmoq; *loc adv* **corps à corps** qo'l jangi, yaqindan mushtlashish (*boksda*); **à corps perdu** jon-jahd bilan, serzavqlik, qizg'inlik, jo'shqinlik, otashinlik bilan; **2.** asosiy qism; **corps de logis, corps de bâtiment** bino, uyning asosiy qismi; **corps de garde** qorovul xona; **corps du délit** jinoyat tarkibi (*quruqda*); **3.** korporatsiya, shaxsiy tarkibi, xizmatchilar, tabaqa, toifa, ahl; **corps enseignant** o'qituvchilar ahli; **corps diplomatique** diplomatlar hay'ati; **corps administratif** ma'muriy hay'at; **corps élu** saylov ahli; **en corps** to'liq sostavda; **4.** o'lik jasad; **5.** *mil* birlashma, qo'shilma armiya; **corps de troupe** ayrim qo'shilma; **corps militaire** harbiy qism; **corps d'armée** armiya qo'shilmasi; **corps expéditionnaire** ekspedisiya tarkibi; **6.** *techn* quti, yashik, korpus (*soat*); **7.** *typogr* kegl, harf o'lchovi; **8.** jism, modda; **corps gazeux** gazsimon modda; **corps solide** qattiq jism; **corps liquide** suyuq jism, modda; **corps composé** murakkab element, jism; **corps hétérogène** geterogen modda; **corps radioactifs** radio-aktiv bo'laklar; **corps mort** o'lik jasad, modda (*dengizda*); **corps céleste** osmon jismlari, quyosh, oy, yulduzlar; **9.** zichlik, tig'izlik, qalinlik; **corps de l'acier** po'lat egiluvchanligi; **avoir du corps** pishiq, zich, qalin bo'lmoq, egiluvchan bo'lmoq; **ce vin a du corps** bu kuchli vino; **faire corps** bir butunni tashkil etmoq, qilmoq; **prendre corps** shakllanmoq, muayyan shakl, tusga kirmoq; nozik, aniq bo'lmoq.

**corpulence** *nf* to'lalik, jussalik, barvastalik, mukammallik, semizlik, bo'liqlik, yo'g'onlik.

**corpulent, ente** *adj* to'ladan kelgan, jussali, to'la, barvasta, chorpahil, yo'g'on, bo'liq.

**corpus** *nm* qonunlar majmuasi, to'plami; biror mavzuga tegishli hujjatlar, matnlar to'plami.

**corpusculaire** *adj* molekulyar.

**corpuscule** *nm* modda zarrachasi, kichik tanachalar; **corpuscules élémentaires** kichik element zarrachalar.

**correct, e** *adj* **1.** to'g'ri, qoidaga muvofiq, bexato, mutanosib; **2.** odobli, boadab, xushmuomala, xushfe'l, sipo; tartibli, tarbiyali, xushxulq, odamshivanda, odobli, axloqli.

**correctement** *adv* **1.** to'ppa-to'g'ri, bexato, mutanosiblik bilan; **2.** boadab, xushmuomalalik bilan, odamshivandalik bilan, xushfe'llik, sipolik bilan.

**correcteur, trice I.** *adj* to'g'rilaydigan, tuzatadigan, tuzatuvchi; **II.** *n* **1.** tuzatuvchi, to'g'rilovchi, korrektor; **2.** korset, beldamchi, qullob.

**correctif, ive I.** *adj* to'g'rilovchi, tuzatuvchi, tuzatish, to'g'rilash; **II.** *nm* tuzatish, to'g'rilash, tuzatma, o'zgartirish.

**correction** *nf* **1.** tuzatish, to'g'rilash, to'ldirish, tuzalish, sog'ayish, o'zgartirish, tuzatma; **maison de correction** axloq tuzatish uyi; **correction de tir** otishmani tuzatish, to'g'rilash; **sauf correction** *loc adv* yangilishmasam; **2.** xatolarni tuzatish, to'g'rilash; **3.** boadablik, xushmuomalalik, xushfe'llik, sipolik, to'g'rilik, rostlik, chinlik; **4.** hayfsan, tanbeh, ta'zir, dakki, jazo, jazo berish, jazolash, urish, adabini berish.

**correctionnel, elle I.** *adj* axloq tuzatadigan, axloq tuzatish uchun belgilangan, axloq tuzatuvchi; **peines correctionnelles** axloq tuzatuvchi jazolar; **2.** jinoiy; **II.** *nm* jinoiy sud, jinoyatni tekshiruvchi sud.

**corrélatif, ive** *adj* o'zaro bog'langan, o'zaro munosabatda bo'lgan, munosabatdor, munosabatdosh.

**corrélation** *nf* o'zaro bog'liqlik, bog'langanlik, munosabatdorlik, o'zaro nisbat, o'zaro munosabat, o'zaro bog'lanish, aloqa; **corrélation des forces** kuchlar nisbati; **en corrélation avec** nisbatan; **en corrélation directe avec** to'ppa-to'g'ri aloqasi bilan.

**correspondance** *nf* **1.** moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri kelish, bir xillik, bir taxlitda bo'lish; **2.** xabar, axborot, aloqa, aloqa yo'li, qatnov yo'li, xabardor qilish, aloqa qilish vositalari; **3.** bir poyezd, samolyot, paroxoddan boshqasiga o'tish; **prendre une correspondance** boshqasiga o'tib o'tirmoq; **4.** xat yozishish, yozishma, aloqa qog'ozlari, xatlar; **enseignement par correspondance** sirtqa o'qish; **5.** korespondensiya, gazeta xabarlari, maqola.

**correspondancier, ière** *n* xat yozishishni boshqaruvchi xizmatkorlar.

**correspondant, ante I.** *adj* mos, to'g'ri keladigan, muvofiq, munosib, loyiq, javob beradigan, tegishli; *géom* **angle correspondant** mos, to'g'ri burchak; **II.** *n* muxbir, gumashta, xat yozishib turuvchi, yozishma olib boruvchi shaxslar; **correspondant particulier** o'z muxbiri; **membre correspondant de l'Académie des sciences** fanlar Akademiyasining korespondent a'zosi.

**correspondre** *vi* **1.** tutash bo'lmoq (*xonalar*); **2. (à qqch)** mos, to'g'ri kelmoq, muvofiq, munosib, o'xshash bo'lmoq; **faire correspondre** moslamoq, bir xil qilmoq; **3. (avec qqn, avec qqch)** xat yozishib turmoq, yozishma olib bormoq; sirtdan o'qimoq.

**corrida** *nf* **1.** buqa jangi; **2.** tiqilinch, to'polon, ur-yiqit.

**corridor** *nm* yo'lak, koridor, oraliq yo'l.

**corrigé** *nm* namuna (*biror vazifani bajarishda o'quvchilarga tayyor holda beriladigan*).

**corriger I.** *vt* **1.** tuzatmoq, to'g'rilamoq, kami-ko'stini, nuqsoni, xatosini yo'qotmoq; **corriger une épreuve** korrekturani o'qib tuzatmoq; **corriger le tir** otishmani tuzatmoq, moslamoq; **2.** jazolamoq, jazo bermoq; **3.** yumshatmoq, muloyimlashtirmoq, neytrallashtirmoq, betaraf, xolis qilib qo'ymoq; **II. se corriger** *vpr* tuzalmoq, yaxshi yo'lga kirmoq, yaxshi bo'lib qolmoq; **se corriger d'un défaut** xato, kamchilik, nuqsondan xolis bo'lmoq.

**corroder I.** *vt* **1.** yemirmoq, chirimoq, zanglamoq, kemirmoq; **2.** qaqshatmoq, zil ketkizmoq, qiynamoq, yomon ta'sir etmoq, asta-sekin yemirilmoq, chirib bormoq; **II. se corroder** *vpr* yemirilib, chirib bormoq.

**corroi** *nm* terini oshlash, teri, charm ishlash, ishlab chiqarish.

**corrompre I.** *vt* **1.** buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, aynitmoq, zarar yetkazmoq; **2.** axloqini buzmoq, jinsiy fohishalikka o'rgatmoq, yo'ldan ozdirmoq; **corrompre le goût** ta'mini, mazasini buzmoq; **3.** ko'ngilni topmoq, maftun qilmoq, o'ziga tortmoq, og'dirmoq; **4.** o'zgartmoq, buzmoq, noto'g'ri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq (*tilni*); **II. se corrompre** *vpr* buzilmoq, ishdan chiqmoq, aynimoq, rasvo bo'lmoq, yomon yo'lga kirib ketmoq.

**corrompu, ue** *adj* yomon yo'lga kirgan, buzilgan, rasvo bo'lgan, aynigan, buzuqi, fosiq, axloqsiz.

**corrosif, ive** *adj* **1.** chirish, zanglashga oid, kemiradigan, o'yadigan, yemiruvchi; **liqueurs corrosives** kimyoviy modda, ishqor; **2.** *fig* battol, badjahl, qahrli, yozuv, badxoh, g'azabnok, zaharli, istehzoli, achchiq.

**corrosion** *nf* korroziya, chirish, zanglash, nurash, yemirilish, yeyilish.

**corroyage** *nm* charm ishlash, tayyorlash, charmga ishlov berish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**corroyer** *vt* **1.** charmga ishlov bermoq; **2.** ohak aralashmasi tayyorlamoq, hosil qilmoq; **corroyer de la terre glaise** loy ezmoq, tepmoq, loy surtmoq, surmoq; **3.** temirchilik yo'li bilan bolg'alamoq, bosmoq va payvandlamoq; **4.** yo'nmoq, tarashlamoq, yo'nib tekslamoq.

**corroyeur** *nm* ko'nchi, teri oshlovchi ishchi, mutaxassisi.

**corrupteur, trice I.** *adj* **1.** buzuvchi, rasvo qiluvchi, aynituvchi, tirishtiruvchi; **2.** yomon yo'lga boshlovchi, chiritadigan, zarar yetkazadigan, zararli, halok qiladigan, halokatli; **II.** *n* fahsh yo'liga soluvchi, yomon yo'lga boshlovchi, yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi.

**corruption** *nf* **1.** buzilish, aynish, ishdan chiqish, irish, chirish, sasish, razolat; **2.** axloqi buzuqlik, axloqsizlik, badaxloqlik, buzulganlik, fahsh yo'liga kirganlik, buzuqilikka, shahvatga berilganlik, yomon yo'lga kirganlik, kirish, buzulish; **3.** pora bilan sotib olish, poraga sotilish, poraxo'rlik, poraga uchirish, ko'ndirish, rishvaxo'rlik.

**corsage** *nm* nimcha.

**corsaire I.** *nm* **1.** qaroqchi kema; **2.** dengiz qaroqchisi, korsar, pirat; *prov* **à corsaire, corsaire et demi** qattiq shoxga o'tkir bolta; **3.** shafqatsiz, qattiqqo'l odam; **II.** *adj* **pantalon corsaire** tor kalta shim.

**corse I.** *adj* korsikalik, Korsikaga oid; **II.** *n* **1.** korsikalik, Korsika aholisi; **2.** *nm* italyan tilining Korsika shevasi, dialekti.

**corsé, ée** *adj* **1.** quyuq, qalin, tig'iz, zich, pishiq, puxta, kuchli, to'q tutadigan, to'la, mahkam, qattiq, mustahkam, chidamli; **2.** xushbo'y, xushta'm, o'tkir; **vin corsé** spirt qo'shilgan vino, o'tkir vino; **3.** qiziq, g'alati, odobsizroq, behayoroq (*hikoya, voqea*); sho'rroq, sho'r, tuzli, tuzlangan (*pomidor, bodiring, karam*).

**corset** *nm* korset, beldamcha, qullob, bandaj, bog'ich.

**corseter** *vt* beldamcha, qullob, korset bilan tortib, siqib bog'lamoq.

**cortège** *nm* **1.** tantanali yurish, namoyish, mulozimlar, ayonlar; **2.** tantanali yurish, olg'a yurish, namoyish, turnaqator yurish; **cortège nuptiale** to'y-tomosha namoyishi; **cortège funèbre** motam yurishi; **cortège sans queue ni tête** betartib, tartibsiz yurish; **liberté des cortèges et manifestations de rues** ko'cha yurishi namoyish erkinligi.

**cortex** *nm* bosh miya qobig'i.

**corvée** *nf* **1.** pomeshchik foydasiga tekin ishlab berish, bershchina; **2.** farmoyish, buyruq; **corvée de soupe** oshxonada ishlashga farmoyish; **corvée de propreté** binoni tozalashga buyruq; **être de corvée** xo'jalik ishlariga buyruq olmoq; **les corvées de ménage** xo'jalik mehnati; **3.** brigada; **4.** og'ir ish, og'ir, noxush vazifa, bo'yinturuq, asorat, jabr-zulm, sirtmoq; **quelle corvée!** shu ham ish bo'ldimi!

**corvette** *nf* yelkanli kema, yengil harbiy kema.

**coryphée** *nm* korifey (*yunon tragediyasida xor boshlig'i*), urug', buyik, yirik (*fanda, san'at-adabiyotda*).

**coryza** *nm* tumov.

**cosaque** *nm* kazak.

**cosinus** *nm math* kosinus.

**cosmétique I.** *adj* pardoz-andoz, kosmetikaga doir; **II.** *n* **1.** *nm* pardoz-andoz vositalari; **2.** *nf* pardoz-andoz qilish, kosmetika.

**cosmétologie** *nf* yuz-badanni chiroyli qilish, yaxshi saqlash haqidagi fan, davolash kosmetikasi.

**cosmique** *adj* fazoviy, samoviy, osmon, koinotga oid; **rayons cosmique** fazoviy, samoviy, osmondan tushadigan nurlar.

**cosmogonie** *nf* kosmogoniya (*astronomiyaning samo jismlari, ularning paydo bo'lishi va o'zgarishlari haqidagi bo'limi*).

**cosmogonique** *adj* kosmogoniyaga doir.

**cosmographie** *nf* kosmografiya (***1.** samoni tavsiflash, tasvirlash;* ***2.** astronomiya va tabiiy geografiyadan umumiy ma'lumot beradigan fan*).

**cosmonaute** *nm* fazoni o'zlashtiruvchi, kosmonavt.

**cosmopolite I.** *nm* turli madaniyat va millatlar majmuasi; **II.** *adj* turli madaniyat va millatlar mujassamligi.

**cosmos** *nm* koinot, samo, fazo, osmon.

**cossard, arde I.** *adj* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas; **II.** *nm* soyaparvar, yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas odam.

**cosse**[1] *nf* **1.** *bot* qobiq, po'choq, po'st, po'stloq, boshoq, bosh; **cosses de légumes** loviya dukkaklari; **2.** qayiqcha korpusi; **3.** elektr simi uchi.

**cosse**[2] *nf fam* yalqovlik, dangasalik, ishyoqmaslik, tanballik, erinchoqlik.

**costal, ale** *adj anat* qovurg'a, biqinga oid.

**costaud, aude I.** *adj fam* chorpahil, kalta baqay, baqaloq, yo'g'on, miqti, pishiq, baquvvat, kuchli, zo'r, o'tkir; **II.** *nm* zo'ravon, kuchli odam, polvon, bahodir, azamat, davongir, kap-katta odam.

**costume** *nm* kostum, kiyim kiyish, kiyinish.

**costumer** *vt* maskarad libosini kiydirmoq, kiyintirmoq, yasantirmoq, yasatmoq, bezamoq, zeb, oro bermoq.

**costumier, ière** *n* kostum kiydirib ko'rgich, kostum tikuvchi, sotuvchisi (*teatrda*).

**cotation** *nf* muomalada yurish, aylanish, qadr-qiymat, kurs, narx, baho, haq, qiymat.

**cote** *nf* **1.** qism, bo'lak, hissa, ulush; **2.** harf qolipi, nomer, katta-kichiklik, shifr, son (*kutubxonada*); **3.** balandlik nuqtasi, belgisi (*xaritada*); **4.** *fin* muomalada yurish, bo'lish, aylanish, kurs, qiymat, narx, baho, qadr; **les cotes des monopoles** monopoliya aksiya, qiymatli qog'oz qadri, qiymati; **chute de la cote en Bourse** birja, ulgirji savdoda aksiya qiymatining tushib ketishi; **avoir la cote** yuqori muomalada bo'lmoq, qiymati baland turmoq, bo'lmoq; **5.** kvota, norma, miqdor, ulush, hissa (*iqtisodda*); **6.** o'lcham, ulov, miqdor, miqyos, ko'lam, daraja (*chizmachilikda*).

**côte** *nf* **1.** qirg'oq, sohil, lab, bo'y, yer; **aller à la côte** moddiy qiyin ahvolda bo'lmoq; **2.** qovurg'a, qirra, yon, biqin; **les côtes d'un melon** qovun tiliklari; **étoffe à côtes** chiyduxoba; **côte à côte** *loc adv* yonma-yon, yonida, biqinida, qator, bir qatorda, qo'lni qo'lga berib; **se tenir les côtes** *fam* kulaverib ichagi uzilmoq, dumalab-dumalab, qotib-qotib, o'lgunday kulmoq; **se bourrer les côtes** *fam* do'pposlashmoq, do'pposlab urishmoq, biqinini ezishmoq; **3.** qiya, qiyalik, qiyama, qiyamalik, qiya tog', tepalik yon bag'ri, yo'l ko'tarilishi, yuqoriga chiqishi, tepalik, do'nglik, tepa, balandlik; **à mi-côte** nishablikda, qiyalikda, yonbag'irda.

**coté, ée** *adj* **1.** qimmatli, baholi, qadrli, muomalada yuradigan, aylanadigan, narxi; **être bien coté** *fam* yaxshi hisobda bo'lmoq, qimmat turmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, qatorida bo'lmoq; **2.** bemondlik belgisi bilan, qirg'oqli, qirg'og'i bor (*xaritada*).

**côté** *nm* **1.** yon, yonbosh, biqin; yon tomon; **être sur le côté** betob, kasal bo'lib yotmoq; **j'ai un point de côté** biqinim sanchiyotibdi; **2.** devor, old, yon; **3.** tomon, taraf, yon, yo'nalish, yoq, chet, chekka, el, yurt; *géom* **côté d'un angle** yon tomonlari (*burchakning*); **le côté de l'endroit, le beau côté** yuz, bet tomoni; **le côté de l'envers** teskari, ich tomoni, astar, orqa; **d'un côté** bir tomondan; **d'un autre côté** boshqa tarafdan; **de tous côtés** hamma tarafdan, yoqdan; **de côté et d'autre** bu yerda va u yerda; **de ce côté** bu tomondan; **regarder de côté et d'autre** yon atrofga qaramoq; *loc adv* **à côté** yonida, biqinida, bir qatorda; **la chambre à côté** yon, qo'shni xona; **la balle passa à côté** o'q yonidan o'tib ketdi; **de côté** chetlab, chetdan, yon bilan, egri, qiyshiq, qiyshaygan holda; **son chapeau est de côté** uning shlapasi qiyshaygan; **regarder qqn de côté** yomon, olayib qaramoq, ko'z olaytirmoq; **se ranger de côté** chetga o'tmoq, chetlashmoq; **mettre de côté** tejamoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq; *loc prép* **à côté de** yonida, yonma-yon; **du côté de** tarafiga, tomoniga, -ga yo'nalishda; *prov* **on tombe toujours du côté où l'on penche** daraxt qayoqqa qiyshaysa shu yoqqa yiqiladi, qulaydi.

**coteau** *nm* **1.** tepalik, do'nglik, tepa, balandli; **2.** qiya, qiyalik, qiyamalik, qiya tog', tepalik yon bag'ri, nishab, yonbag'ir.

**côtelé, ée** *adj* qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon, qovurg'asi chiqqan; **velours côtelé** chiyduxoba.

**côtelette** *nf* to'qmoqlangan go'shtli ovqat, kotlet.

**coter** *vt* **1.** mo'ljallamoq, mo'ljal, nishonga olmoq, ko'zlamoq, poylamoq, belgilamoq, nomerlamoq; **2.** muomalada yurmoq, aylanmoq, aniqlamoq, soliq miqdorini belgilamoq, ko'rsatmoq; **3.** balandlik belgisini qo'ymoq (*xaritada*); **4.** miqdorini, darajasini qo'yib chiqmoq (*chizmada*).

**coterie** *nf* hamfikrlar, hamtovoqlar, maslakdoshlar majlisi.

**cothurne** *nm* qalin tag charmli poyabzal; **chausser le cothurne** tragediya, fojiali asarda rol ijro etmoq (*tarixda*); yog'och oyoqda yurmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**côtier, ière I.** *adj* qirgʻoq, sohilga oid, kabotaj, kemaga doir; **pêche côtière** baliqchilik, baliq ovi, ovlash; **navigation côtière** qirgʻoq boʻylab kema qatnovi; **artillerie côtière** qirgʻoqdagi zambaraklar; **II.** *nm* shatakchi ot.

**cotignac** *nm* behi murabbosi, sharbati.

**cotillon** *nm* **1.** xotinboz; **2.** bayram kechasi.

**cotiser I.** *vt* ulush, hissa ajratmoq, taqsimlamoq; **II.** *vi* badal toʻlamoq; **III. se cotiser** *vpr* oʻrtada pul toʻplamoq, harifona, halfona qilmoq.

**coton** *nm* **1.** paxta; **coton brut** chigitli paxta; **coton égrené** tozalangan paxta; **coton cardé, coton peigné** taralgan, titilgan paxta; **filer un mauvais coton** *fam* umidi yoʻq kasal boʻlmoq, oʻlim toʻshagida yotmoq, oʻsal yotmoq, joni halqumiga kelib turmoq, jiddiy, ogʻir mushkullikni, koʻngilsizlikni boshdan kechirmoq; **c'est coton** *fam* qiyin! ogʻir! **2.** ip gazlama, paxta gazlama, gazmol; **coton retors** oʻralgan qogʻoz ip; **3.** momiq paxta, momiq; **coton hydrophile** gigroskonik paxta, momiq; **coton fulminant** piroksilin (*portlovchi modda*); **élever dans du coton** paxpaxlab oʻstirmoq, nozik, erka, ipakoyim qilib yubormoq; **avoir les jambes en (de) coton** kuch-quvvati ketmoq, holsizlanmoq, sillasi, tinkasi, madori qurimoq, holdan ketmoq; **4.** momiq, par, moʻy, tuk (*urugʻ oʻsimlikda, yuzda ham*).

**cotonnade** *nf* ip-gazlama mol (*mato*).

**cotonné, ée** *adj* tivitli, momiqli, baroq, parli, yumshoq, mayin, momiqday, paxmoq, yungi oʻsik, serjun, sertuk, tukli.

**cotonner (se)** *vpr* tukli boʻlmoq, jundor, tuk bilan qoplanmoq.

**cotonneux, euse** *adj* **1.** momiqli, baroq, parli, yumshoq, mayin, paxmoq, yungi oʻsik, paxtali, paxtadan qilingan; **2.** soʻligan, soʻlib qolgan, boʻshashgan, shalpaygan, loxas, lanj, sust, ezilgan, poʻla, pachaq, zaxa yegan, gʻijimlangan, mijgʻaloq; horgʻin, soʻlgʻin, charchagan (*meva va boshqa narsa*).

**cotonnier, ière I.** *adj* ip-gazlama; **industrie cotonnière** ip gazlama sanoati; **II.** *nm* **1.** *bot* gʻoʻza, paxta; **cotonnière arborescent** daraxtsimon gʻoʻza; **cotonnier arbuste** tun gʻoʻza; **2.** ip gazlama fabrikasi ishchisi.

**côtoyer** *vt* **1.** qirgʻoq yoqalab bormoq, suzmoq, yurmoq; **2.** tegib, turtib oʻtmoq, tegmoq, qoʻl tegizmoq, tegib turmoq, tutashmoq.

**cottage** *nm* hovli uy, dala hovli, shahardan tashqaridagi uy hovli.

**cotte** *nf* **1.** dehqonlar koʻylagi; **2. cotte de mailles** sovut.

**cou** *nm* **1.** boʻyin, gardan; **la corde au cou** *fig* qiyin, ogʻir ahvol; **se casser, se rompre le cou** oʻz boʻynini sindirmoq; **se jeter, sauter au cou de qqn** birovning boʻyniga osilmoq, ustiga tashlanmoq; **se pendre au cou de qqn** osilib qolmoq; **prendre ses jambes à son cou** oyogʻini qoʻliga olmoq, qochib ketmoq, juftakni rostlamoq, ura qochmoq, orqasiga, ketiga qaramay qochmoq; **2.** boʻgʻiz, boʻyincha, nozik boʻyin, shisha ogʻzi.

**couac** *nm* soxta, yasama, qalbaki ovoz, tovush.

**couard, arde I.** *adj* qoʻrqoq, yuraksiz; **II.** *n* qoʻrqoq, yuraksiz odam; **III.** *nm* dumgʻaza, dum oʻsimtasi (*otda*).

**couardise** *nf* qoʻrqoqlik, yuraksizlik.

**couchage** *nm* **1.** yotish; **sac de couchage** toʻshak, uxlaydigan qop; **2.** yotqizish, joy solib berish.

**couchant, ante I.** *adj* **1.** yotayotgan, botayotgan; **soleil couchant** botayotgan quyosh, quyoshning botishi; **II.** *nm* **1. le chient couchant** iskovich it; **2.** gʻarb, kun botish tomoni.

**couche** *nf* **1.** toʻshak, yotoq joy, oʻrin, koʻrpa-toʻshak, koʻrpa-yostiq; **2.** *pl* tugʻish, koʻzi yorish, qoʻzilash; **fausse couche** bola tashlash, chala tugʻilgan bola (*muddatidan oldin*); **couches laborieuses** qiyin, qiylanib tugʻish; **être en couche** tugʻmoq, koʻzi yorimoq, qoʻzilamoq; **une femme en couche** yaqinda tugʻadigan, tuqqan xotin; **3.** qatlam, qat, qavat, tabaqa; **couche d'oxyde** metall zaki, toʻpon; **couche intermédiaire** qavatlash, qatlamlash, nozik, yupqa qatlam, tabaqa; **en avoir une couche** *fam*; gʻirt, qip-qizil ahmoq boʻlmoq; **4.** yoʻrgak (*chaqaloqqa*); **5.** goʻnglangan, goʻng solingan qator, joʻyak, pushta; **6.** tabaqa; **couche sociale** ijtimoiy tabaqa.

**couché, ée** *adj* qiya, nishab, moyil; **papier couché** oq silliq yaltiroq qogʻoz.

**coucher**[1] **I.** *vt* **1.** yotqizmoq, joylamoq, joy toʻshamoq; **2.** oʻldirmoq, qirib tashlamoq, yiqitmoq, agʻdarmoq, qulatmoq; **coucher qqn sur le carreau** oʻrnida qulatmoq, oʻldirmoq; **coucher en joue** nishon, moʻljalga olmoq, moʻljallamoq; **coucher des couleurs** boʻyoq surtmoq, boʻyamoq (*rassomlikda*); **3.** orasiga yozmoq, qoʻshib qoʻymoq, kiritmoq, tirkamoq, qoʻshmoq, olib kirmoq; **coucher sur une liste** roʻyxatga kirgizmoq; **coucher sur la liste électorale** saylovchilar roʻyxatiga qoʻshib qoʻymoq; **coucher qqch par écrit** yozma ravishda hikoya qilib bermoq; **II.** *vi* **1.** yotmoq, turmoq, joylashmoq; **coucher dans un lit** koʻrpa toʻshakda yotmoq; **2.** tunamoq, tunni oʻtkazmoq; **coucher en ville** uydan boshqa yerda yotmoq, tunamoq; **coucher à la dure, coucher à la belle étoile** ochiq havoda tunamoq; **coucher avec qqn** *fam* tunni birov bilan oʻtkazmoq, birov bilan yashamoq; **III. se coucher** *vpr* **1.** uxlashga yotmoq; *prov* **comme on fait son lit, on se couche** nima eksang shuni oʻrasan; **se coucher comme les poules** *fam* erta yotmoq; **2.** botmoq, botib bormoq (*quyosh haqida*); **3.** egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq; boʻysunmoq, engashmoq, ogʻmoq, bir yonga qiyshaymoq.

**coucher**[2] *nm* **1.** uyquga yotish, ketish; **2.** qoʻnoq, tunaydigan, qoʻnadigan, qoʻnar joy; **3.** quyosh botishi.

**couchette** *nf* **1.** karavot, karavot, kushetka, divan; **2.** uxlash joyi (*vagonda*), koyka, karavot (*dengizda*).

**coucheur, euse** *n* **mauvais coucheur** birov bilan chiqisholmaydigan, murosa qilolmaydigan odam, shoʻrtumshuq, janjalkash, injiq.

**couci-couça** *loc adv fam* naridan-beri, chala-chulpa, pala-partish, zoʻrgʻa, amal-taqal qilib, bir amallab.

**coucou** *nm* **1.** kakku; *fam* **les coucous de la maison** uy egalari, mezbon; **2.** kakkuli devor soati; **un coucou à chaines** zanjirli devor soat; **3.** *bot* navroʻzgul; **4.** kichik parovoz.

**coude** *nm* **1.** tirsak; **les coudes percés** yirtiq tirsakli kiyim; **jouer des coudes** itarib, zoʻrlab, surib kirgizmoq, yorib kirgizmoq (*olomon orasiga*); **coude à coude** yonida, yonma-yon, qoʻlini qoʻliga berib, yelkama-yelka; **le coude à coude** oʻzaro yordam, bir-birini qoʻllab-quvvatlash, safda yonidagilarni sezish, oʻzaro hamjihatlik; **se sentir, se tenir les coudes** bir-birini qoʻllamoq, yakdil boʻlmoq; **hausser, lever le coude** *fam*; ichkilikka oʻch boʻlmoq, spirtli ichimlik ichmoq, ichib turmoq; **mettre sous le coude** tashlab qoʻymoq, paysalga solmoq; **2.** burilish, muyilish; burilgan, egilgan joy, egik, bukik, qayrilish; **3.** tiz, tizza, tizzaning koʻzi, quvurning qayrilgan, tirsak joyi; **4.** *géom* chiqib turgan burchak.

**coudé, ée** *adj* tirsakli, boʻgʻim-boʻgʻimli.

**coudée** *nf hist* bir choʻzim (*oʻlchov birligi: 0,5 metr*); **il a les coudées franches** uning imkoniyati bor, hech narsa unga xalaqit berolmaydi.

**cou-de-pied** *nm pl* oyoq yuzining doʻng joyi.

**couder** *vt* egmoq, bukmoq, qiyshaytirmoq, qayirmoq (*quvurni*).

**coudoiement** *nm* **1.** tirsak bilan itarish, turtish, siltash; **2.** tegish, tegib turish, tutash boʻlish, tutashish, yaqinlashish, aloqa boʻlish, qilish.

**coudoyer** *vt* **1.** tirsak bilan itarmoq, turtmoq, siltamoq; **2.** yaqin qoʻshni boʻlmoq, tegmoq, tegib turmoq, tutashmoq, qoʻshni, yondosh, chegaradosh boʻlmoq, toʻqnashmoq, toʻqinishmoq, toʻqnashib, urishib ketmoq.

**coudre** *vt* tikmoq, qoʻshib tikmoq, ulamoq, quramoq, tiktirmoq, tikib bermoq, qadab qoʻymoq, qadamoq, chatmoq, yamamoq, yamab qoʻymoq; **machine à coudre** tikish, tikuv mashinasi; **il est cousu d'or, d'argent** puli juda koʻp, puli achib yotibdi, pulini maymun ham yemaydi.

**coudrier** *nm* yongʻoq daraxti.

**couenne** *nf* **1.** choʻchqa, toʻngʻiz terisi, charmi; **2.** qalin charm; **3.** *fam* kalvak, soʻtak, toʻpori, qovoqbosh.

**couette**[1] *nf* **1.** *vx* dumcha; **2.** *fam* ot quyrugʻi qilib qoʻyish (*sochni*).

**couette**[2] *nf* kemani suvga surib tushirgich, sirgʻalgich.

**couffin** *nm* **1.** ogʻir yuklar savati; **2.** savat ichidagi bor narsa.

**couguar** *ou* **cougouar** *nm* kuguar, Amerika yovvoyi mushugi, puma.

**couic** *intj onomat* kvik, qush sayrashiga taqlid qilish; **faire couic** *arg* oʻlmoq, qazo, vafot qilmoq, olamdan oʻtmoq.

**couille** *nf* tuxum, tuxum hujayra, moyak, toshoq; **il n'a pas de couilles** u yuvosh, qoʻrqoq, yuraksiz.

**couillon** *nm vulg* **1.** ahmoq, tentak, nodon, esi yoʻq, past; **2.** qoʻrqoq, yuraksiz, latta boʻshang, lapashang odam.

**couillonnade** *nf vulg* **1.** ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik, bemaʼnilik, hazil; **2.** qoʻrqoqlik, yuraksizlik, pastkashlik, tubanlik, razillik, palidlik, vijdonsizlik, maʼlunlik, qabihlik, yaramaslik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**couillonner** *vt fam* ahmoq qilmoq, laqillatmoq, aldamoq, qo'lga tushirmoq.

**couiner** *vi fam* chiyillamoq, chirqillamoq, chirillamoq, g'o'ng'illamoq, chiyillab qo'ymoq, chinqirmoq.

**coulage** *nm* **1.** oqish, o'tib ketish, sizib o'tish, sizib chiqish; **2.** qo'yish, quyib chiqish; quyma, qo'yib yasalgan buyum; **coulage massif, coulage plein** yaxlit narsalarni quyish; **coulage à noyaux** ichi kavak buyumlar quyish; **3.** *fam* vositalarni behuda, bekorga sarflash, xo'jasizlik bilan yo'q qilish.

**coulant, ante**[1] **I.** *adj* **1.** oquvchan, suyuq, oqadigan, oqar; **2.** tekis, tep-tekis, silliq, ravon, yengil, yupqa, yupun, erkin, ozod, hur, bo'sh, muallaq, monesiz; **style coulant** ravon bo'g'in; **nœud coulant** sirg'anuvchi, sirg'anma sirtmoq; **3.** *fam* gapga ko'nadigan, unaydigan, muomalaga yuradigan, ko'nuvchan, unovchan, royish, qobil, ko'ngilchan, yumshoq tabiatli; **il est coulant** u ko'ngilchan, ko'nuvchan.

**coulant**[2] *nm* **1.** siljiydigan, ko'chma halqa, zanjir, qopchiqda; **2.** *bot* qivchin (*eng sodda jonivorlarning qilsimoq oyoqlari*) palak; novda (*qovun, qaovoq palagi*); **coulant du fraisier** yertut mo'ylovi.

**coule (à la)** *loc adv fam* xabardor, yaxshi biladigan; **être à la coule** xabardor, voqif bo'lmoq, bilmoq, chaqqan, epchil bo'lmoq; **un type à la coule** uddaburo, ishga pishiq, bo'sh kelmaydigan yigit.

**coulée** *nf* **1.** eritilgan massa; **2.** eritish, eritma, eritilgan mahsulot, qolipga quyish, quyib chiqish, quyish; **3.** to'ldirish, quyma, quyish; **4.** *géol* **coulée de lave** otilib chiqadigan suyuq cho'g' modda oqimi, lava; **coulée de minerai** mineral modda, konlarning yig'ilib qolishi, to'planishi, jinslar dars ketishi.

**couler I.** *vi* **1.** oqmoq, chakka o'tmoq, tommoq, o'tmoq, tez oqmoq, oqib ketmoq, qochib, toshib ketmoq (*suv, sut*), to'kilmoq, quyilmoq, sharillab, tirqirab, shovullab, tizillab oqib chiqmoq, oqib kelmoq, tomchilamoq; **le nez lui coule** burni oqayotibdi; **couler entre les doigts** qo'llari orasidan oqib chiqib ketmoq; **couler de source** oddiygina bo'lib o'tmoq, yuz bermoq; **cela coule de source** bu sof qalbdan, chin yurakdan; **2.** o'tmoq, bo'lmoq, yuz bermoq, sodir bo'lmoq, kechmoq (*vaqt haqida*); **3.** ko'chib tushmoq, ketmoq, to'kilmoq, barg tashlamoq, qoplanmoq (*shudring bilan*), ajralmoq; **4.** oqib erib tushmoq (*sham*); **5.** cho'kmoq, botmoq, g'arq bo'lmoq, cho'kib, botib ketmoq; **couler à fond, bas** suv tagiga ketmoq, cho'kib ketmoq; **6.** teshikdan suv kirmoq, oqib o'tmoq; **II.** *vt* **1.** quymoq, to'kmoq, oqizmoq, ag'darmoq, solmoq, qo'shmoq, qo'shib yubormoq; **couler la lessive** ishqorli eritma bilan kir chaymoq; **couler des jours tranquilles** farovon, kam-ko'stsiz, muhtojlik ko'rmay, zoriqmay, to'q yashamoq; **2.** *techn* quymoq; quyib tayyorlamoq; **couler au moule** qolipga quyib tayyorlamoq; **3.** cho'ktirib yubormoq, o'ldirmoq, botirmoq; **couler qqn à fond, le couler bas** cho'ktirib yubormoq; *fig* xonavayron qilmoq; **couler une affaire** ishni barbod qilmoq; **4.** yashirincha, sezdirmay tiqib, solib qo'ymoq; **couler un regard** ko'z qiri bilan, sezdirmasdan qaramoq; **couler à l'oreille** quloqqa shivirlamoq; **5.** suzmoq, suzib o'tkazmoq, saralamoq, g'alvirdan o'tkazmoq; **6. couler une bielle** podshibnikka eritma quymoq; **III. se couler** *vpr* yashirincha, o'g'rincha, sezdirmay kirmoq, bekinib kirib, o'tib olmoq; **se couler dans** bildirmay kirib olmoq; **se la couler douce** *fam* farovon yashamoq, shodu xurram kun, umr kechirmoq; **on se la coule** bizga maza.

**couleur** *nf* **1.** tus, rang, bo'yoq; **couleur feu** o't, olov, cho'g'dek qizil, qip-qizil rang; **couleur gris d'acier** po'lat rang, kul rang; **robe de couleur** gulli, rangli ko'ylak; **homme de couleur** oq tanli odam; **sans couleur** rangsiz, tussiz, nursiz, rangpar, xira; **avoir de belles couleurs** bet, yuzning rangi, tusi yaxshi bo'lmoq; **il est haut en couleurs** uning chakaklari qip-qizil; **sous couleur de** *loc prép* niqobi ostida, bahonasi bilan, bahona qilib; **en voir de toutes les couleurs** ko'p ko'rmoq, uchratmoq, ko'p ko'rib turmoq; **2.** *fig* rang turi, nozik farq, anvoyi tur, xil, tus, ohang, alomat, belgi, asar, xususiyat, hosiyat, sifat, tabiat, fe'l, uyg'unlik, o'zgachalik; **couleur locale** joyning o'zgachaligi, o'zgacha tabiat; **la couleur d'un journal** ro'znoma yo'nalishi, yo'li; **3.** bo'yoq, rang, sir (*rassomlikda*); **couleurs à l'huile** moy boyoq; **couleur d'apprêt** birlamchi, xomaki bo'yoq qatlami; **appliquer les couleurs** bo'yoq, rang surmoq; **marchand de couleurs** bo'yoqchilik mollari sotuvchisi; **4.** *pl mil, mar* davlat bayrog'i; **rendre les honneurs aux couleurs, saluer les couleurs** salut, salom bermoq (*bayroqqa*); **rendre, amener ses couleurs** bayroq tushirmoq; **hisser les couleurs** bayroq ko'tarmoq; **les couleurs nationales** milliy, davlat bayrog'i, davlat bayrog'i rangi; **5.** xarita turi; *fig* **de toutes les couleurs** hamma turi, toifasi.

**couleuvre** *nf* suv ilon; **avaler des couleuvres** ranj-alamini ichiga yutmoq, tanbeh, haqoratga bardosh bermoq, chidamoq, achchig'ini, zahrini yutmoq; hamma narsaga ham, har qanday cho'pchakka ham ishonib ketavermoq.

**coulis I.** *nm* **1.** suzilgan o'tkir qaynatma, qayla; **2.** suyuq gips, ganch aralashmasi; **3.** eritilgan metall (*payvandlash uchun*), yarim suyuq massa, modda, jism; **II.** *adj* **vent coulis** teshikdan suzib o'tayotgan shamol.

**coulissant, ante** *adj* sirg'aluvchi, sirg'anadigan, sirpanadigan, sirg'anma, sirpanuvchi, surilma, suriladigan, tortib chiqariladigan, siljiydigan; **porte coulissante** surilma eshik.

**coulisse** *nf* **1.** chiqarish, chuqur, o'yilgan joy, kamgak, yoriq, tirqish, o'yiq, nov, tarnov; **2.** chandiq, yamoq (*kiyimdagi*); **3.** *techn* sahna orqasi, teatr pardasi, polzun, sirg'aluvchi qism, siljiydigan bryus; shtativning siljiydigan oyoqlari; **à coulisse** suriladigan, surilma, siljiydigan, ikki yoqqa keriladigan, ochiladigan; **pied à coulisse** shtangen serkul (*qalinlik, yo'g'onlikni o'lchaydigan asbob*); **4.** sahna orti (*teatrda*); **les coulisses de la politique** siyosatning ko'rinmaydigan orqa tomoni; **faire dans la coulisse** chetda turmoq, aralashmaslik; **5.** birja, ulgirji savdo dallollarining yig'ini, majlisi.

**couloir** *nm* **1.** koridor, oraliq yo'l, o'tish joyi (*vagonda*); **couloir aérien** havo oraliq yo'li, tor havo yo'li; **2.** *pl* teatr zallarining koridorlari; **dans les couloirs de l'assemblée** assambleya, majlis zallarida; **intrigues de couloir** devor orqasida bo'ladigan fitna, qutqu, intriga, hiyla-nayrang, firibgarlik, firib; **3.** tor dara, tanchi, tor yo'l; **4.** *sport* alohida yugurish yo'lagi; **couloir intérieur** ichki, ichkari yo'l; **5.** sut suzgich, elak, g'alvir.

**coulpe** *nf vx* ayb, gunoh, yoziq, jinoyat, kasr, kasofat; **dire sa coulpe, battre sa coulpe** aybiga iqror bo'lmoq, tavba qilmoq.

**coup** *nm* **1.** urish, zarba, turtish, urilish, itarish, tepki, tepib yuborish; *foot* **coup de pied** tepki; **coup bien placé, coup bien ajusté** aniq zarba; **coup au but** darvozaga to'p tepish; **coup d'envoi** birinchi tepish; **coup franc direct** jarima tepish; **coup franc indirect** erkin to'p tepish (*tennisda*); **coup de pied à la lune** charxpalak bo'lib suvga sakrash; **porter un coup** zarba bermoq; **sans coup férir** kurashsiz, qarshiliksiz; **coup dur** noxushlik, ko'ngilsizlik, falokat; **coup de Jarnac** xiyonat, xiyonatkorlik; **faire les quatre cents coups** ortiqchalikka berilmoq, aysh-ishrat qilmoq, ichkilikbozlik qilmoq, noma'qulchilik, nojo'ya ish qilmoq; **faire coup double** bir o'q bilan ikki quyonni urmoq; *loc adv* **après coup** keyinchalik, kechroq, juda kech; **à coup sûr** albatta, shubhasiz, muqarrar; **tout à coup** to'satdan, dabduristdan, qo'qqisdan, daf'atdan, bexosdan, banogoh, ittifoqo; *loc prép* **à coup de** yordami, vositasi bilan, orqali, yordamida; **sous le coup de** ta'sirida, ta'siri ostida; **2.** taqillatish, chertish, urish, chiqillash; **frapper les trois coups** pardani ko'tarishga ishora qilmoq (*Fransiyada*); **sur le coup de minuit** rosa yarim tunda; **3.** ish, harakat, muomala, qiliq, voqea, hodisa, yurish, yo'l, siljish, ko'chish; **coup de génie** iste'dodli yurish; **coup d'Etat** davlat to'ntarilishi; **coup de force** zo'ravonlik ishi, to'ntarish, fitna, suiqasd; *mil* katta kuchlar bilan zarba berish; **coup d'éclat** muvaffaqiyat, yutuq, g'alaba; **coup d'essai** boshlang'ich tajriba; **coup monté** oldindan tayyorlangan hiyla-nayrang; **bon coup** xayrli ish, jasort, dovyurak yurish; **mauvais coup** nojo'ya, chakki, xunuk ish, jinoyat; **faire son coup** o'z ishini qilmoq; **le coup était fait** ish bitdi, bo'lar ish bo'ldi; **être dans le coup** xabardor bo'lmoq, bilmoq; **manquer son coup** muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **monter un coup à qqn** aldamoq, pand bermoq, aldab ketmoq; **ce sont là de ses coups** bu uning nayranglari, qiliqlari; **à coup d'hommes** jonli kuch bilan; **4. coup, coup de feu** o'q uzish, otish; **coup de fusil** miltiq otish, miltiqdan o'q uzish; *fig* benihoya katta, cheksiz, haddan tashqari hisob-kitob (*restoranda*); **tir coup par coup** yakka otishma, bir-bir otadigan otishma; **coup de canon** to'p otish; **coup long** uchib o'tib ketish; **coup court** uchib yetib bormaslik; **coup fusant** portlash; **5.** xuruj, tutish, bostirib kelish, hayajon; **être aux cent coups** katta tashvish, hayajonda bo'lmoq; **6.** ho'plam, yutish, qultum, yutim; **à boire un coup de trop** ortiqcha ichmoq; **7.** marta, yo'la, karra, bor, topqir, dafa, qatla, maxal, gal, safar, vaqt; **deux coups** ikki safar; **en deux coups** ikki martada; *loc adv* **en un coup, d'un seul coup** bir martada, bir galda, bir yutishda; **du premier coup** bir yo'la; **encore un coup** yana bir bor; **pour le coup** bu gal, safar; **pour le coup c'est ridicule** manabu juda kulgili; **coup sur coup** ketma-ket, qatorasiga, bir yo'la, birvaraqayiga, to'xtamasdan,



www.ziyouz.com kutubxonasi

muntazam ravishda, takrorlanib; **du même coup** birga, hamjihat bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib; **tout d'un coup** birdaniga; **à tout coup** har safar, gal; **sur le coup** darhol, darrov, shu onda, shu zahoti; **coup de vent** shamolning birdan kuchayishi, qattiq, shiddatli shamol, bo'ron, qasir-qusur; **en coup de vent** jadal, tez, shiddat bilan, ildam; **coup de mer** qattiq shamol; **coup de soleil** issiq urish; **coup de tonnerre** chaqmoq qasur-qusuri; **coup de foudre** yashin urishi; *fig* bir qarashda muhabbat; **coup de sang** miyaga qon quyilish; **coup de grisou** kon gazlarining portlashi; **coup de bec** don cho'qish; *fig* **coup de langue, coup de dent, coup de bec** achchiq, istehzoli hazil, g'iybat, fisq-fasod, chaynash, fisq-fujur; **coup d'épingle** to'g'nog'ichni tiqib olish; *fig* achchiq so'z, piching, kesatiq, luqma; **coup de gueule** qo'pol; do'q, po'pisa, dag'dag'a, baqiriq, jerkish, so'kish, so'kinish; **coup de main** dadil, tashabbus, yordam, bostirib borish, fitna, davlatni o'zgartirish uchun xuruj, urinish, *mil* jangovor qidiruv; **donner un coup de main** yordam bermoq; **tenter un coup de main** do'q urmoq, qo'l siltamoq; **effectuer un coup de main** bostirib bormoq; **coup de collier** zo'r berish, tirishish, kuch; **donner un coup de collier** bor kuchini yig'moq; **coup de reins** son, tos harakati; **coup d'épaule** yordam berish; **coup d'œil** qarash, dunyo qarash, ko'z tashlash, boqish, nazar, nigoh; **coup de tête** o'ylamay qilingan ish; **coup de dé, coup de fortune** voqea, hodisa, hol, tasodif; **coup de chapeau, coup de bonnet** salomlashish, salom berish; *pl fig* xushomadgo'ylik, laganbrdorlik; **donner un coup de balai, de brosse** yengil yelpi supirmoq, shchotka bilan tozalamoq; **donner un coup de peigne** taramoq; *fig* koyimoq, tanbeh bermoq; **coup de sifflet** hushtak chalish; **coup de sirène** gudok qichqirig'i; **coup de crosse** miltiq tepishi (*orqaga urishi*); **coup de sonde** qidiruv, tekshirish, davolash, tozalash; **coup de frein** tormoz berish, to'xtatish; **coup de téléphone** telefon, qo'ng'iroq; **coup de Bourse** muvaffaqiyatli birja, ulgirji savdo bitimi; **coup de théâtre** kutilmagan yechim.

**coupable I.** *adj* aybli, yoziqli, zomin, aybdor, gunohkor, jinoiy, jinoyatkorona; **une conduite coupable** jinoyatkorona fe'l-atvor; **II.** *n* gunohkor, aybdor, jinoyatchi odam, mujrim.

**coupage** *nm* turli ichimliklarni aralashtirish, aralshma; vinoga suv qo'shish.

**coupant, ante I.** *adj* **1.** kesadigan, qirqadigan, kesuvchi, qirquvchi, o'tkir, keskir, uchli, qirrali, kuchli, qattiq; **2.** qattiq, shiddatli, zo'r, qo'rs, cho'rt, cho'rtkesar, qattiq tegadigan (*tovush ohanggi haqida*); **II.** *nm* tig', dam, lezviye (*soqol oladigan*), yuz, nish, nishtar.

**coup-de-poing** *nm* temir to'qmoqcha; **coup-de-poing américain** kastet, mushtlashish quroli.

**coupe**[1] *nf* **1.** qadah, jom, kosa, yumaloq idish; **coupe à fruits** mevalar jomi, vazasi; **2.** *sport* kubok musobaqalari; **remporter la coupe de vitesse** yugurishdan yuqori natija ko'rsatmoq; **3.** fontan jomi.

**coupe**[2] *nf* **1.** kesish, qirqish, to'g'rash, maydalash, bo'laklash; **coupe claire** kuchli kesib siyraklashtirish (*o'rmonni*); **coupe réglée** to'g'ri kesish; **coupe sombre** kuchsiz, kam siyraklashtirish; *fig* **faire des coupes sombres** qatorlarni qirib tashlamoq, xarobazorga aylantirmoq; *fig* **mettre en coupe réglée** shilmoq, talamoq, aldab o'zlashtirmoq, ishlatmoq, kuchidan, mehnatidan foydalanmoq; **2.** o'rmonning yog'och kesib olinadigan joyi; **3.** soch oldirish; **4.** bichim, andaza; **de coupe parfaite** benuqson tikilgan; **5.** kesish, kesim, qirqim, kesilgan joy, kesik, yon tomon, profil; **coupe longitudinale** uzunasiga kesilgan yon tomon, profil; **coupe transversale** ko'ndalanggiga kesilgan yuz; **6.** to'xtam, dam, dam olish, nafasini rostlash, tin, tinim olish, tanaffus, sezura (*she'riyatda takrorlanadigan to'xtam, nafas olishning alohida turi*); **7.** kesish, qirqish, kesib, qirqib chiqish, butash, butoq qilish, siyraklashtirish, qarta to'dasini bo'lish (*qarta o'yinida*); **avoir qqn sous sa coupe** o'z hukmi ostida ushlamoq, tutmoq; **être sous la coupe de qqn** qaram bo'lmoq, qo'li ostida bo'lmoq, tobe bo'lmoq; **mettre sous la coupe de** hukmiga bo'ysunmoq; **se mettre sous la coupe de** tobe qilmoq, bo'ysundirmoq; **8.** qirqish, kesilgan joy, kesik, qirqim, parcha; **9.** ajratish, bir kiyimlik (*kesilgan*) mato, material, qirqiladigan chiziq; **10.** quloch otib, qulochkashlab suzish.

**coupé** *nm* **1.** ikki o'rinli kareta; **2.** ikki eshikli avtomobil; **3.** kupe (*baletdagi pa*).

**coupe-choux** *nm inv fam* kalta qilich.

**coupe-cigares** *nm inv* sigaret kesadigan mashina.

**coupe-circuit** *nm inv* avtomat o'chirgich, saqlagich, himoyalovchi (*elektrda*).

**coupe-coupe** *nm inv* usta, duradgor boltasi, dudama qilich, katta xanjar.

**coupée** *nf* kemaning tashqi bortiga chiqadigan joy.

**coupe-file** *nm* ruxsatnoma.

**coupe-gorge** *nm inv* qaroqchilar qarorgohi, makoni, yomonlar makoni, o'g'rixona, xavfli joy.

**coupe-papier** *nm inv* qog'oz keskich.

**couper I.** *vt* **1.** kesmoq, qirqmoq, to'g'ramoq, tilmoq, kesib, to'g'rab, maydalab tashlamoq, kesib, qirqib olmoq, kesib tushirmoq, kallaklamoq, butamoq, chopmoq, yormoq, qiymalamoq; **couper en pièces, couper en morceaux** mayda-mayda qilib kesmoq; **couper en deux** ikkiga teng qirqmoq; **couper dans le vif** tirik yeridan qirqmoq, dadil harakat qilmoq; **couper bras et jambes** yiqitmoq, o'ldirmoq, nobud, halok qilmoq; **couper l'appétit** ishtaxani bo'g'moq; **couper le souffle** shikastlamoq, yaralamoq, urmoq, tegizmoq; **j'ai eu le souffle coupé** nafasim giribonimga keldi, nafasim tiqilib qoldi, entikib, bo'g'ilib qoldim; **couper à qqn son effet** bor taassurotni buzmoq; **ça te la coupe** *arg* nima jinni bo'ldingmi? **2.** sochini, yungini olmoq, olib, qirqib qo'ymoq; **3.** bichmoq (*ko'ylak*); **4.** aralashtirmoq, qo'shmoq (*vino, sut*); **5.** uzmoq, to'xtatib, kesib, uzib qo'ymoq; **couper la parole à qqn** gapini kesib, to'xtatib qo'ymoq; **couper court à** tamom qilmoq, bitirmoq, tugatmoq; **couper court aux bruits** mish-mishlarga chek qo'ymoq; **couper la respiration** nafasini uzmoq; **6.** to'smoq, g'ov solmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yo'qotmoq, uzib, to'xtatib, kesib qo'ymoq; **couper les attaches** aloqani uzib qo'ymoq; **couper les ponts** ko'priklarni kesib qo'ymoq; *fig* chekinishga yo'lni kesmoq; **couper les communications** aloqalarni qirqib qo'ymoq; **couper le courant** elektr tokini uzmoq; **couper le circuit** zanjirini uzmoq; **couper les gaz** matorni o'chirib qo'ymoq; **ne coupez pas!** telefonda gapni uzib qo'ymang! **couper la vivres à** ta'minlashni to'xtatib qo'ymoq; *fig* bir burda nondan mahrum qilmoq; **7.** kuzir bilan bosmoq (*qarta o'yinida*); **8.** ko'tarmoq (*qarta o'yinida*); **9.** (*tennisda*) kesib urmoq; **II.** *vi* **1.** o'tmoq, o'tkir bo'lmoq; **2.** olmoq (*qarta to'pini*); **3.** qisqartirib kesib chiqmoq (*yo'lni*); **couper par le plus court** eng qisqa yo'ldan kesib chiqmoq; **couper au plus court** eng yaqin yo'ldan yurmoq, to'g'ri kesib chiqmoq (*yo'lni*); **4. (à)** qochib qutulmoq, xolos bo'lmoq, qochmoq, bo'yin tovlamoq, dangasalik qilib yurmoq, yo'q bo'lmoq; **couper à une visite** doktor nazoratidan qochmoq; **tu n'y couperas pas** qochib qutilolmaysan; **III. se couper** *vpr* **1.** biror joyini kesib olmoq, tilib olmoq; **2.** kesib chiqishmoq (*yo'lni*), bir-birini kesib o'tmoq; **3.** *mil* ot chalishib oyog'ini chaqa qilmoq; **4.** *fam* zid, qarshi bo'lmoq, e'tiroz bildirmoq, yangilishib qolmoq, chuvalamoq, adashmoq, chalg'imoq, tilidan, og'zidan, gapidan ilinmoq, o'z sirini fosh qilib qo'ymoq.

**coupe-racines** *nm inv* tomir keskich.

**couperet** *nm* **1.** oshpichoq, chopqi, tish, tig', toshbolta; **2.** bo'ynini kesadigan pichoq bolta (*gilotinada*).

**couperose** *nf* **1.** sulfat kislota tuzlarining texnikadagi nomi; **couperose blanche** ruxli kuperos; **couperose verte** temir kuperos; **2.** yuz qizilligi (*qon tomirlarining kengayishi natijasi*).

**couperosé, ée** *adj* qizil dog'lar, izlar bilan qoplangan qip-qizil, qizil tomirchali.

**coupeur, euse I.** *n* bichiqchi, bichuvchi; **II.** *nm* kon qazuvchi, konchi; **coupeur de bourses** o'g'ri, cho'ntak o'g'risi; **III.** *nf* kesuvchi stanok.

**couplage** *nm* **1.** ulash, aloqa, qo'shilish, bog'lanish; **2.** *techn* ulash, qo'shish, biriktirish, payvandlash; **couplage en étoile** yulduzli, tugunli ulash; **couplage en triangle** uchburchak qilib bog'lash; **couplage en série** davomli, ketma-ket ulash; **couplage mixte, couplage multiple** har xil, aralash ulash; **3.** ulash, shatak (*vagonlarni*).

**couple** *nm* **1.** juft, qo'sh, qo'shaloq, qo'sh juft, er-xotin (*odam, hayvonlar*); **un couple d'amis** ikki o'rtoq, do'st; **2** *techn* juft kuchlar; aylanayotgan daqiqa, on; **couple moteur** aylanadigan motor; **couple conique** asosiy tok o'tkazgich.

**coupler** *vt* **1.** juft qilib qo'shmoq, juftlamoq, ikkilantirmoq, qavatlamoq; **2.** ulamoq, qo'shmoq (*elektr tokini*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**couplet** *nm* **1.** band, kuplet; **2.** *pl* ashula, qo'shiq; **couplets satiriques** kulgili lapar.

**coupole** *nf* **1.** gumbaz, qubba; **la Coupole** *fam* Fransiya Akademiyasi; **être reçu sous la Coupole** Akademiyaga saylanmoq; **2.** *mil* minora, qal'a, harbiy kema, tank.

**coupon** *nm* **1.** qoldiq (*mato parchasi*); **2.** bir bo'lak, kesik mato; **3.** kupon, talon, bilet.

**coupure** *nf* **1.** kesish, tilish, kesilgan joy, yara; kesik, qiyiq joy, tirtiq, kertik, tilingan joy; **se faire une coupure** kesib, tilib olmoq; **2.** kamgak, chuqur, o'yilgan joy, ariq, zovur, xandaq (*yo'lga ko'ndalang o'yilgan*); yer qatlari, taxi, burmasi, burushiq, burishgan joy; *fam* sinish, parchalanish, siniq, yoriq, dars ketgan joy; **coupure de terrain** tabiiy chegara, hudud; **3.** *fin* qog'oz pul, zayom; **petites coupures** mayda qog'oz pullar; **4.** qisqartish, qisqartma (*badiy matnda*); **5.** kesib olingan joy, parcha (*ro'znomadan*); **6. coupure de courant** elektr tokini uzib, to'xtatib qo'yish, tok zanjirining uzilishi, tokni uzish; **7.** *techn* bug'ni to'xtatish, bug' bermay, yubormay qo'yish.

**cour** *nf* **1.** hovli; **2.** saroy ahli, mulozimlar, ayonlar; **eau bénite de cour** behuda, tuturiqsiz va'dalar; **faire la cour à** boqmoq, qaramoq, tarbiya, parvarish qilmoq, ovlamoq, ko'ngilni olmoq; **aller faire sa cour** ta'zimga bormoq, salom qilmoq (*kesatiq*); **être bien en cour** birovning marhamatida, iltifotida bo'lmoq; **être mal en cour** marhamatidan mahrum bo'lmoq; **la cour du roi Pétaud** *fam* jinnixona; **3.** sud, qasr, saroy; **Cour suprême, Haute Cour** Oliy sud; **Cour internationale** Xalqaro sud; **cour d'appel** apelaysion, shikoyat sudi; **cour martiale** harbiy tribunal, sud; **tenir cour plénière** kengaytirilgan majlis o'tkazmoq.

**courage** *nm* botirlik, jasurlik, mardlik, dovyuraklik, jasorat, dadillik, qahramonlik, mardonavorlik, tetiklik, bardamlik, baquvvatlik; **courage à toute épreuve** jasorat, jur'at, botirlik; **reprendre courage** o'zini qo'lga olmoq, dadil bo'lmoq; **perdre courage** ruxi tushmoq; **prendre son courage à deux mains** jur'at etmoq, jasur bo'lmoq; **avoir le courage de ses opinions** o'z fikrlarini qo'rqmasdan bayon etmoq; **avec courage** mardonavor; **avez-vous le courage de?** jur'atingiz yetarmikan? **bon courage!** qo'rqma, ruhing tushmasin, muvaffaqiyat tilayman; **du courage!** umidsizlanmang!

**courageusement** dadillik bilan, qo'rqmasdan, tortinmasdan, dadil, jasurona.

**courageux, euse** *adj* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak, jasoratli, jur'atli, mard, qahramon, mardonavor, qahramonona.

**couramment** *adv* **1.** tez, ravon, tutilmay, erkin, hur, ozod, bemalol, osongina, yengilgina; **lire couramment** ravon o'qimoq, ko'z yugirtirib chiqmoq; **2.** odatda, ko'proq, odatga ko'ra, odatdagidek, ko'pincha; **on dit couramment que** odatda, ko'pincha shunday deydilar.

**courant, ante**[1] *adj* **1.** chopayotgan, yugurayotgan, yugurib ketayotgan, yuguruvchi; **chien courant** tozi it, tozi; **écriture courante** ravon yozuv; **main courante** qo'l ushlagich (*eskalator, zinorpoya*); **2.** oquvchan, oqar, oqadigan, hozirgi, shu kundagi; **eau courante** oqar suv, suv quvuri; **3.** hozirgi, shu kundagi (*yil haqida*); **le dix courant** hozirgi (*shu oyning o'ninchisida*); **4.** odatdagi, oddiy, doimo bo'lib turadigan, sodda; **compte courant** odatdagi hisob-kitob; **langage courant** og'zaki nutq, so'zlashuv tili; **affaires courantes** dolzarb ishlar; **opération courante** oddiy bank ishi, operasiyasi; **monnaie courante** muomaladagi chaqa pul; *fig* qabul qilingan vosita; **type courant** oddiy, sodda namuna; **tout courant** *loc adv* osongina, bemalol, bemashaqqat, qiynalmay, qiyinchiliksiz.

**courant**[2] *nm* **1.** oqim, oqish, oqib ketish, oqib o'tish, yo'nalish; **courant d'air** havo oqimi, havo yo'nalishi, gurillagan shamol, yelvizak; **courant atmosphérique** havo oqimi; **courant marin** dengiz oqimi; **courant de marées** ko'tarilish va pasayish oqimlari; **suivre, descendre le courant** oqim bo'ylab suzmoq; **remonter le courant** oqimga qarshi suzmoq; qarshi turmoq, qarshi kurashmoq (*ko'chma m'noda*); **2.** elektr toki; **courant électrique, courant continu** doimiy, o'zgarmas tok; **courant alternatif** o'zgaruvchan tok; **courant de haute fréquence** yuqori tezlik, chastota toki; **courant à haute tension** yuqori kuchlanishli tok; **courants tourbillonnaires** uyurma tok (*harakat*); **courants vagabonds** sayyor tok; **courant faradique** induksion tok; **courant monophasé** bir fazali tok; **courant triphasé** uch fazali tok; **établir le courant** tok yubormoq; **interrompre le courant** tokni uzib qo'ymoq; **3.** oqim, yo'nalish, jarayon, yurish, aylanish, ko'chish, siljish, harakat; **courant de l'histoire** tarixiy jarayon; **les courants d'échange** mol, tovar aylanishi; **courant de populations** aholining ko'chib yurishi; **être au courant de** xabardor bo'lmoq, bilmoq; **mettre au courant de** xabardor qilmoq, bildirmoq; **tenir au courant de** xabardor qilib turmoq, bildirib turmoq; **dans le courant de** jarayonida, davomida, ichida.

**courante** *nf fam* ichburug'.

**courbatu, ue** *adj* charchagan, horigan, toliqqan, horg'in, bedarmon, holsiz.

**courbature** *nf* qaqshoq, zirqiragan og'riq, qattiq holdan toyish.

**courbaturé, ée** *adj* horg'in, darmmonsiz, holsiz, toliqqan, charchagan.

**courbaturer** *vt* zirqirab og'rimoq, qaqshab og'rimoq, holdan toydirmoq, charchatmoq, toliqtirmoq, iligi qurimoq, darmonsizlanmoq, holsizlanmoq.

**courbe** *adj* **I.** egri, qiyshiq, egilgan, bukilgan, qayrilgan; **II.** *nf* egri, qiyshiq, muyulishli yo'l; **courbe démographique** demografik egri chiziq, egri chiziq; **III.** burulish (*temir yo'lda*).

**courbé, ée** *adj* **I.** egilgan, bukilgan, qayrilgan, bukchaygan, munkaygan; **II.** *fig* xo'rlangan, kamsitilgan, tahqirlangan.

**courbement** *nm* **I.** egish, bukish, qayirish; **II.** egrilik, qiyshiqlik, qayrilish, muyulish, notekis joy.

**courber** *vt* **I.** egmoq, bukmoq, qiyshaytirmoq, qayirmoq, engashtirmoq; **courber l'échine** belini mayishtirmoq, qaddi bukilmoq, bukchaymoq, egilmoq; **II.** *vi* egilmoq, qaddini bukmoq, bosh, bo'yin egmoq, engashmoq, bukilmoq; **se courber** egilmoq, bo'yin egmoq, ta'zim qilmoq, o'zini kamsitmoq.

**courbette** *nf* **1.** kurbet, irg'ish (*otning irg'ib orqa oyoqlarida tikka turishi*); **2.** chuqur ta'zim; **faire des courbettes à, devant qqn** yaltoqlanmoq, xushomad qilmoq, birovga tiz cho'kmoq.

**courbure** *nf* egrilik, notekislik, qiyshiqlik.

**coureur, euse** *n* **1.** poygachi, chopuvchi, yuguruvchi; **2.** chopar, xabarchi, xat tashuvchi, *mil* aloqachi; **3.** chopqir, uchqir ot; **4.** *nm* betayin, xotinboz, takasaltang; **6.** *nf* buzuqi, suyuq oyoq, fohisha.

**courge** *nf* **1.** qovoq, oshqovoq; **2.** kalta fahm; **courgette** tomosha qovoq.

**courir I.** *vi* **1.** chopmoq, yugurmoq; **courir à toutes jambes** oyog'ini qo'liga olib chopmoq, jon halvatda chopmoq, oldi-ketiga qaramay chopmoq; **courir à qui mieux** kim o'zarga chopmoq; **courir après** quvmoq, ta'qib etmoq; **l'année qui court** joriy yil; **le bruit court** mish-mish yuribdi; **2. courir à sa fin** oxiriga yetaboshlamoq, tugab bormoq, intihosiga yaqimlashmoq; **courir à sa perte** halokatga qarab bormoq; o'zini jar yoqasiga olib bormoq; **II.** *vt* **1.** quvmoq, ortidan tushmoq, ta'qib qilmoq; **2. courir les honneurs** izzat talab bo'lmoq; **3. courir un danger** xavf ostida qolmoq, falokatga yo'liqmoq; **III. il nous court** u bizning jonimizga, me'damizga tegdi.

**courlis** *nm* baliqchi qush.

**couronne** *nf* **1.** toj, taxt, saltanat, tillaqosh; **2.** gulchambar; **couronne de lauriers** g'alaba gulchambaragi; **abdiquer la couronne** toju-taxtdan, saltanatdan voz kechmoq; **3.** tishning sadaf qismi; **4.** krona (*pul birligi*); **5.** quyosh toji, gardishsimon shu'la (*astronomiyada*).

**couronnement** *nm* **1.** monarxga toj kiydirish marosimi; **2.** sovrindorga gulchambar kiydirish; **3. le couronnement de l'œuvre** asarning, ishning yakunlanishi; **4.** binoning qosh-qalami, bo'g'ot.

**couronner** *vt* **1.** toj kiydirmoq, taxtga o'tqizmoq; **2.** nikoh gulchambarini kiydirmoq, sovrin bermoq, mukofotlamoq, taqdirlamoq; **3.** tamomlamoq, yakunlamoq, nihoyasiga yetqazmoq, bitirmoq.

**courrier** *nm* **1.** xabarchi, chopar, xat tashuvchi; **courrier diplomatique** diplomatik pochta; **courrier régulier** bir yo'nalishda harakatlanuvchi samolyot, tez yurar poyezd; **2. courrier de malheur** shumxabar; **3.** pochta xat-xabarlari; **courrier théâtral** teatr ma'lumotnomasi.

**courroie** *nf* tasma, qayish, bog'ich; **courroie de transmission** harakatni uzatgich tasma; **courroie de fixation** mahkamlash bog'ichi.

**courroucer** *vt* g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, jahlini chiqarmoq; **se courroucer** g'azabdan tuklari hurpaymoq, tik bo'lmoq, g'azabdan ko'zi qonga to'lmoq, g'azabdan quturmoq, pishqirmoq; **la mer se courrouce** dengiz quturyapti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**courroux** *nm* g‘azab, nafrat, qahr, jahl, zarda; **se mettre en courroux** g‘azabga minmoq, jahllanmoq, darg‘aza bo‘lmoq.

**cours** *nm* **1.** o‘zan, oqim, yo‘nalish; **cours d'eau** daryo o‘zani; **remonter le cours d'un fleuve** daryo oqimiga qarshi suzmoq; **2.** yo‘l, yo‘nalish, ish maromi, ishning borishi; **être en cours** amalda bo‘lmoq; **en cours de** paytida, mahalda, bosqichda, mobaynida, jarayonida; **3.** qiymat, baho; **cours du change** almashlash qiymati; **4.** saboq, dars, ma‘ruza, kurs; **5.** qo‘llanma, darslik.

**course** *nf* **1.** yugurish, poyga, chopish, yurish, siljish, o‘tish, ko‘chish; **course précipitée du temps** vaqtning o‘ta tez o‘tishi; **prendre sa course** yugurib ketmoq; **n'être pas dans la course** zamondan orqada qolmoq; **2.** topshiriq, ish, yumush, xarid; **j'ai bien des courses à faire** mening ancha yumushim, ishim bor; **j'ai fait toutes vos course** sizning hamma topshiriqlaringizni bajardim; **3.** sayr, tomosha, kezish; **4.** poyga, chopish, kim-o‘zdi.

**coursier[1]** *nm* arg‘umoq, tulpor, poygachi ot.

**coursier[2], ière** *n* xat eltuvchi, chopar, kuryer.

**court[1], courte I.** *adj* **1.** qisqa, kalta, kaltabaqay; **courte vue** kaltabinlik, uzoqni ko‘rabilmaslik; **avoir la mémoire courte** xotirasi sust bo‘lmoq, parishonxotir bo‘lmoq; **II.** *adv* qisqasi, lo‘nda qilib aytganda, kalta, yaqin; **tout court** sodda, oddiy qilib; **appelez-moi Charles tout court** meni sodda qilib Sharl deb chaqiravering; **couper court** og‘zini yopmoq, tovushini o‘chirmoq, gapirishdan to‘xtatib qo‘ymoq, jerkib bermoq, jim bo‘lib qolmoq.

**court[2]** *nm* kort, tennis maydonchasi.

**courtage** *nm* **1.** shirinkoma, vositachilik haqi; **2.** dallollik, dallolchilik, vositachilik, hakamlik.

**court-bouillon** *nm* baliq sho‘rva.

**court-circuit** *nm* qisqa tutashuv.

**court-circuiter** *vi* qisqa tutashtirmoq, noto‘g‘ri ulamoq.

**courtepointe** *nf* qavima ko‘rpa.

**courtier, ière** *n* dallol, vositachi; **courtier d'assurance** sug‘urta xodimi.

**courtilière** *nf* buzoqboshi (*hasharot*).

**courtine** *nf* **1.** parda; **2.** kurtina, qal'a devorining ikki burj oralig‘idagi qismi.

**courtisan** *nm* **1.** saroy ahli, boyon, a'yon; **courtisan de la fortune** baxti, omadi yurishgan odam, peshonasi yarqiragan, baxt kulib boqqan odam, omadi olchi, xudo yarlaqagan odam; **2.** *fig* xushomadgo‘y, laganbardor, tiz cho‘kib sajda qiluvchi.

**courtisane** *nf* saroy qo‘shmachisi, yuqori tabaqalarda o‘ralashib yuradigan suyuq ayol.

**courtiser** *vt* ayol ko‘nglini ovlamoq, ayol sevgisiga erishishga intilmoq, xushomad qilmoq, atrofida girdi kapalak bo‘lmoq, takalluf ko‘rsatmoq, shirin kalom bo‘lmoq.

**court-métrage** *nm* qisqa metrajli film.

**courtois, oise** *adj* xushmuomala, iltifotli, latofatli, shirin so‘z, kalom, tarbiyali, odobli, muhtaram, nazokatli, nozik, silliq, muloyim; **littérature courtoise** saroy va olijanoblikni madh etgan adabiyot.

**courtoisement** *adv* odob bilan, nazokat ila, iltifot ila, lutfan.

**courtoisie** *nf* odoblilik, nazokatlilik, xushmuomalalik, muloyimlik; sertakaluflik.

**couru, ue** *adj* **1.** noyob, nodir, favqulodda, o‘ziga jalb qiladigan, o‘ziga tortadigan; **2.** *fam* mo‘ljallangan, nazarda tutilgan, aniq.

**couscous** *nm* kus-kus (*arabcha taom*).

**cousin[1], ine** *n* amakivachcha, ammavachcha, tog‘avachcha, xolavachcha.

**cousin[2]** *nm* chivin.

**coussin** *nm* yostiq, bolish, lo‘labolish.

**coussinet** *nm* **1.** yostiqcha, bolishcha; **2.** rels ponasi, tagligi; **3.** ishqalanishni kamaytiruvchi yostiqcha, vkladish.

**cousu, ue** *adj* **1.** tikilgan; *fam* **cousu main** qo‘lda tikilgan, nihoyatda nozik, qo‘l ishi; **phrases mal cousues** siyqasi chiqqan ibora, noma'qul gap; **demeurer le bec cousu** lom-mim demaslik, og‘ziga tolqon solmoq.

**coût** *nf* narx, baho, qiymat, tannarx.

**coûtant, ante** *adj* **prix coûtant** tannarx, ishlab chiqarish narxi.

**couteau** *nm* pichoq (*hamma turi*); **mettre le couteau sur la gorge à** bo‘g‘ziga pichoq qadamoq.

**coutelas** *nm* **1.** dudama qilich, katta xanjar, duradgor boltasi; **2.** oshpichoq.

**coutelier** *nm* pichoqchi.

**coutellerie** *nf* **1.** pichoq ishlab chiqaruvchi korxona; **2.** pichoq savdosi; **3.** pichoqchilik mollari.

**coûter** *vi* **1.** qiymatga ega bo‘lmoq, baholanmoq; **coûter gros** juda qimmat bo‘lmoq; **coûter chaud** o‘ta qimmatga tushmoq; **coûter les yeux de la tête** nihoyatda qimmat; **2. coûter la vie** hayot evaziga erishmoq, hayotini garovga qo‘ymoq.

**coûteusement** *adv* qimmat, baland narxda.

**coûteux, euse** *adj* qimmat, qimmatbaho, narxi baland.

**coutil** *nm* gazlama, matoh.

**coutume** *nf* **1.** odat, urf, urf-odat, rasm, rasm-rusum, udum, taomil; **2.** o‘rganish, odatlanish; **de coutume** *loc adv* odatiy, odatga ko‘ra, odat bo‘yicha; **3.** *hist* hadyanoma, ayrim rasmiy hujjatlar nomi.

**coutumier, ière** *adj* **1.** odatiy, odat bo‘lib qolan; **droit coutumier** urf-odatlar huquqi; **2.** urf-odatlar qaydnomasi, odatiy huquqlar majmui.

**couture** *nf* **1.** tikish, kashta, tikuvchilik; **maison de haute couture** modalar uyi; **2.** chok; **bas sans coutures** choksiz ayollar paypog‘i; **sur toutes les coutures** diqqat bilan, sinchkovlik bilan, sinchiklab, mufassal, batafsil, puxtalik bilan, tirishib, astoydil, atroflicha, miridan-sirigacha, ipidan-ignasigacha; **battre à plate couture** chok-chokidan titib, so‘kib yubormoq, butunlay buzib yubormoq; **3.** chandiq, tirtiq, cho‘tir, bujur.

**couturé, ée** *adj* chandiqli, tirtiqli.

**couturier** *nm* modelyer, liboslar mutaxassisi.

**couturière** *nf* **1.** chevar ayol, mashinachi, tikuvchi; **2.** oxirgi, asosiy repetitsiyadan oldingi repetitsiya (*teatrda*).

**couvain** *nm* asalari yoki boshqa hasharotlar urug‘i, qurti.

**couvée** *nf* bir kurk tovuq jo‘ja chiqarish uchun bosib yotgan tuxumlar; shu tuxumlardan chiqqan jo‘jalar to‘dasi.

**couvent** *nm* monastir (*rohiblar yashab ibodat qiladigan joy*); **entrer au couvent** rohib bo‘lmoq, monaxlikni, rohiblikni qabul qilmoq, monastirga bormoq.

**couver** *vt* **I. 1.** tuxum bosmoq, jo‘ja ochmoq; **2.** vasiylik qilmoq, qaramog‘iga olmoq, murabbiylik qilmoq, g‘amxo‘rlik qilmoq; **3.** yashirin reja tuzmoq; **couver une vengeance** qasos olishni rejalashtirmoq; **II. 1. le feu couve sous le cendre** kul ostidagi cho‘g‘.

**couvercle** *nm* qopqoq.

**couvert[1], erte** *adj* **1.** yopiq, yopilgan, qoplangan, ustiga yozilgan, ustiga solingan, to‘shalgan, qopqog‘i yopilgan, usti yopilgan, bekilgan; **2. être bien couvert** issiq kiyinmoq; **rester couvert** bosh kiyimda o‘tirmoq; **temps couvert** bulutli kun, bulutli havo; **ciel couvert** bulutli osmon; **couvert de honte** uyatga qolgan; **voix couverte par le bruit de l'orchestre** orkestr shovqini bosib ketgan ovoz; **parler à mots couverts** imo-ishora bilan gapirmoq.

**couvert[2]** *nm* **1.** har bir kishi uchun dasturxonga qo‘yiladigan qoshiq, sanchqi, pichoq va idishlar majmuyi; **2.** boshpana; **donner le vivre et le couvert** yedirib-ichirmoq va boshpana bermoq; **sous le couvert de** panohida, himoyasida, niqobi ostida; **sous le couvert de la nuit** tun qa'rida; **sous le couvert de l'amitié** do‘stlik niqobi, bahonasi ostida.

**couverture** *nf* **I. 1.** ko‘rpa, yopqich, yopinchiq; **2.** muqova; **3.** bino tomining yopqichi; **II. 1.** kafolat, ijtimoiy muhofaza.

**couveuse** *nf* **1.** makiyon; **2.** inkubator; **3.** inkubatsiya moslamasi (*chala tug‘ilgan chaqaloq uchun maxsus moslama*).

**couvre-chef** *nm* bosh kiyim.

**couvre-feu** *nm mil* tashqariga chiqmay, chiroqni yoqmay o‘tiradigan payt, komendatlik soati.

**couvre-lit** *nm* choyshab, yopqich, gul ko‘rpa.

**couvreur** *nm* tom yopuvchi tunukachi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**couvrir** *vt* **I. 1.** qoplamoq, bekitmoq, yopmoq, ustiga to'shamoq, himoya qilmoq, to'sib qo'ymoq, ko'mib tashlamoq; **couvrir chaudement** issiq kiyinmoq; **couvrir d'éloges** maqtovga ko'mib yubormoq; **couvrir de honte** uyatga, nomusga qoldirmoq; **2.** *mil* himoya qilmoq; **couvrir ses flancs** yon tomonlarini himoya, ihota qilmoq; **3.** pana qilmoq, to'sib turmoq, qo'riqlamoq, yashirmoq, ihota qilmoq, saqlab qolmoq; **être couvert par l'immunité parlementaire, diplomatique** parlament, diplomatik daxlsizlikka ega bo'lmoq; **4.** qoplamoq, bosmoq, bosib o'tmoq (*masofani*); **5.** xarajatlarni qoplamoq, to'lamoq, to'ldirmoq, uzmoq; **6.** bosib ketmoq (*tovush*); **7.** qochirmoq, buqaga qo'ymoq; **II. se couvrir** *vpr* **1.** bosh kiyim kiymoq; **2.** himoyalanmoq, o'zini oqlamoq; **3.** burkanmoq, qozonmoq, ega bo'lmoq, sazovor bo'lmoq, qoplanmoq; **4.** burkanmoq, qoplanmoq (*ob-havo, osmon*).

**coxal, ale** *adj* songa oid; **os coxal** son suyagi.

**coyote** *nm* koyot, amerika chiyabo'risi.

**crabe** *nm* qisqichbaqa.

**crabot** *ou* **clabot** *nm techn* ikki mexanizmni ulovchi tishli uskuna.

**crac** *intj* qars-qurs.

**crachat** *nm* tupuk.

**craché, ée** *adj* juda o'xshash, quyib quygandek, bir tomchi suvdek o'xshash.

**crachement** *nm* **1.** tupuk, tupurish, balg'am tashlash; **crachement de sang** qon qusish, qon tupurish; **2.** uchqun, alanga chiqarish; **3.** turli qasir-qusir tovushlar, radio to'siqlar tovushi.

**cracher I.** *vt* **1.** tupurmoq, balg'am tashlamoq, **cracher du sang** qon qusmoq, **volcan qui crache des laves** lava purkayotgan vulqon; **II.** *vi* **1.** qitirlamoq; **la radio crache** radio qitirlayapti; **2.** tupurmoq, haqorat qilmoq, kamsitmoq.

**cracheur, euse** *n* tupuruvchi.

**crachin** *nm* shvot, mayda izg'irinli yomg'ir.

**crachoir** *nm* tupukdon; *loc fam* **tenir le crachoir** tinmay gapirmoq; *loc fam* **tenir le crachoir à qqn** miq etmay eshitmoq.

**crack** *nm* **1.** poygachi otlar orasidagi sevimli qulun; **2.** *fam* ishining ko'zini biladigan, mohir usta, as.

**craie** *nf* bo'r, oq bo'r; **tracer à la craie** bo'r bilan chizmoq, yozmoq.

**craindre** *vt* qo'rqmoq, hayiqmoq, vahimaga tushmoq, cho'chimoq, hurkmoq, xavfsiramoq, xavotirlanmoq, tashvishlanmoq; **craindre pour sa vie** hayotidan qo'rqmoq; **cela est à craindre** bundan xavotirlanish lozim; **se faire craindre** qo'rqitmoq.

**crainte** *nf* qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish, xavfsiorash, xavotirlanish, cho'chish, hadiksirash, hadik, xavf; **être saisi de crainte** qo'rquv, vahima, dahshat qamrab olmoq; **de crainte de, dans la crainte de** *loc prép* qo'rquvdan, dahshatdan, vahimadan; *loc conj* **de crainte que** -dan qo'rqib, qo'rquvdan.

**craintif, ive** *adj* qo'rqoq, yuraksiz, hurkovuch, hadiksiragan, jur'atsiz, tortinchoq.

**craintivement** *adv* qo'rqoqlik, yuraksizlik bilan, hurkib, hadiksirab, jur'atsizlarcha, tortinib, tortinchoqlik bilan.

**cramer I.** *vt* tagini oldirmoq, yengilgina kuydirib yubormoq (*ovqatni*); sarg'aytirmoq, yopishtirmoq (*dazmol qilayotganda*); **II.** yonib ketmoq, kuyib ketmoq, yonmoq, kuli ko'kka sovurilmoq.

**cramoisi, ie I.** *adj* to'q qizil, malina rangi; **cramoisi de colère** jahldan qip-qizargan; **II.** *nm* to'q qizil rang.

**crampe** *nf* **1.** tomir tortishish, tirishish, changak, akashak bo'lish, talvasa, siqilish, qisilish, qisilib, qisib qolish; **crampes d'estomac** oshqozon sanchiqlari; **il lui prit une crampe** uning tomir tortishishi boshlandi; **2.** band, halqa, tutqich, mahkamlagich.

**crampon** *nm* **1.** temir mahkamlagich, halqa, band, changak, ilmoq, changal, ilgak, zanjir, temir panja, ilma, tugma; **crampon de rail** temir yo'l katta qayrilma mixi; **2.** tish, tirnoq, turum (*poyabzalda*); **chausser les crampons** futbol botinkasi kiymoq; *fig* futbol o'ynamoq; **3.** *bot* jingalak, gajak, chirmoviq o'simliklar, yopishqoq o'tlar; **4.** *fam* xira odam; **quel crampon!** qara! yopishib oldi!

**cran** *nm* **1.** kertma, kertik, o'yilgan joy, kesik, tilingan joy, teshik, o'yiq; **cran d'arrêt** to'xtatish qirqimi; **monter, baisser d'un cran** *fig* bir zina ko'tarilmoq, tushmoq; **jusqu'au dernier cran** imkon boricha, siqqanicha, limmo-lim, liq to'la; **2.** tasma, qayish, bog'ichdagi teshiklar; **serrer d'un cran** qattiq siqib tortmoq, bog'lamoq; **lâcher d'un cran** ozgina qo'yib yubormoq, bo'shatmoq; **3.** *fam* abjirlik, o'tkirlik, epchillik, jasurlik, mardonalik, dadillik; **avoir du cran** jasur bo'lmoq.

**crâne**[1] *nm* bosh, bosh chanog'i; **avoir le crâne étroit** befahm, qovoqbosh bo'lmoq.

**crâne**[2] *adj vieilli* jasur, mard, mardonavor, dadil, botir, dovyurak, qaytmas, taptortmas, o't, olov, sho'x, qizg'in, jo'shqin.

**crâner** *vi* **1.** *fam* maqtanmoq, kerilmoq, chiranmoq, kuchanmoq, katta gapirmoq, gerdaymoq, kekkaymoq; **2.** dadil bo'lmoq, tutmoq, dadillanmoq, botirlanmoq.

**crâneur, euse** *fam* **I.** *adj* sho'x, abjir, chaqqon, chapanicha, chapanilarga xos, epchil, uchqur, tez, jo'shqin; **II.** *n* maqtanchoq, kekkaygan, gerdaygan, kalondimog', lofchi, cho'x odam, abjir yigit, chapani, katta og'iz.

**crapaud** *nm* **1.** cho'lbaqa, qurbaqa; **laid comme un crapaud** xunukdan-xunuk; **2.** keng va past suyanchig'li o'tirg'ich, kreslo; **3.** olmos, qimmatbaho toshdagi kamchilik, nuqson.

**crapule** *nf* **1.** razil, qabih, past odam, yaramas, ablah, nobakor, pastkash; **2.** *vx* buzuqilik, axloqsizlik, sayoqlik, suyuqoyoqlik, fohishabozlik, fohishalik, fosiqlik, sayr-tomosha, kayfu-safo; **3.** *vx* qalang'i-qasang'ilar.

**crapulerie** *nf* yaramaslik, qabihlik, razillik, ifloslik, xunuklik, pastkashlik, ma'lunlik, razolat.

**crapuleusement** *adv* **1.** axloqi buzuqlik, axloqsizlik bilan, yo'ldan ozgan, sayoq, suyuqoyoq, fosiqlik bilan, fohishabozlik bilan; **2.** past ketib, past tushib; razilona, razillik, qabihlik bilan.

**crapuleux, euse** *adj* **1.** *vx* axloqi buzuq, axloqsiz, buzuqi, yo'ldan ozgan, suyuqoyoq, sayoq, fosiq, fohishaboz; **2.** jirkanch, yaramas, razil, qabih, murdor; **crime crapuleux** talash maqsadida qotillik, o'ldirish.

**craque** *nf fam* yolg'on, yolg'on-yashiq, uydirma; maqtanchoalik, katta gapirish, og'izlik; **raconter des craques** uydirma, to'qima, safsata, afsona, cho'pchak, bo'lmagan gaplarni gapirmoq, yolg'onni ko'p gapirmoq, lof urmoq.

**craquelage** *nm* yoriq, tirqishning paydo bo'lishi (*rasmda, chinni idishda*).

**craquement** *nm* qars-qurs, tars-turs, shaqr-shuqur, qasir-qusur, shatir-shutur, g'arch-g'urch, g'ajir-g'ujur, g'archillash, qarsillash, g'ichirlash, qirsillash, shitirlash.

**craquer** *vi* **1.** g'irchillamoq, qarsillamoq, qasirlamoq, qisirlamoq, g'ichirlamoq, chirsillamoq, yorilib ketmoq; **plein à craquer** limmo-lim to'la, liq to'la; **2.** *fig, fam* yorilmoq, darz ketmoq, sinmoq, chatnamoq, barbod bo'lmoq, chippakka, puchga chiqmoq; **3.** *techn* qurilmada benzin, gaz ajratib olmoq.

**craqueter** *vi* **1.** goh-goh, chirsillamoq, qirsillamoq, charsillamoq; **2.** qichqirmoq, sayramoq (*laylak, turna*).

**crasse**[1] *nf* **1.** ifloslik, kirlik, isqirtlik; **2.** toshqol, qotishma; **3.** porox qurumi, so'xta (*qurolda*); **4.** *fam* iflos, jirkanch narsa, razillik, qabihlik, ifloslik, xunuklik, razolat, bemazagarchilik, badbasharalik, beo'xshovlik, yaramas qiliq, xatti-harakat; **faire une crasse à qqn** pand, firib bermoq.

**crasse**[2] *adj* **ignorance crasse** o'ta nodonlik, juda bilimsizlik, o'ta jaholat, zulmat, beadablik; **la plus crasse paresse** tekinxo'rlik, ishyoqmaslik.

**crasseux, euse** *adj* iflos, bulg'anch, loy, yog', moy tekkan, bosgan, dog' tushgan, yag'iri chiqqan.

**cratère** *nm* **1.** vulqon og'zi; **cratère d'effondrement** vulqon og'zining qulashi, nurashi, qulab, nurab tushishi; **cratère d'explosion** vulqon og'zining portlashi; **2.** qadah, jom (*qadimgi*); **3.** yuqoridagi teshik, tuynuk (*zavod pechlarida*).

**cravache** *nf* qamchin, o'rma qamchi.

**cravacher** *vt* qamchilamoq.

**cravate** *nf* **1.** bo'yinbog', galstuk; **2.** bo'yniga taqadigan orden lentasi; **cravate de drapeau** bayroq sopidagi, dastasidagi lenta.

**cravater** *vt* **1.** galstuk, bo'yinbog' taqmoq, bog'lamoq; **2.** yoqasidan olmoq, bo'g'moq; **3.** *fam* turmaga tiqmoq, qamamoq, qamoqqa, hibsga olmoq.

**crayeux, euse** *adj* bo'rli, bo'ri bor, bo'r.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**crayon** *nm* **1.** qalam; **crayon à bille** sharikli ruchka; **crayon de sanguine** yumshoq to'q qizil qalam; **crayon gris** aspid tog' jinsi; **dessiner au crayon** qalam bilan rasm solmoq, chizmoq; **2.** qalam bilan chizilgan rasm.

**créance** *nf* **1.** ishonch, e'tiqod, e'timod, bovar; ishonish, inonish; **cela ne mérite aucune créance** bunga hech qachon ishonish mumkin emas; bu hech qanday ishonchga arzimaydi; **2.** vakolatnoma, ishonch qog'ozi, topshiriq, topshirish, zimmasiga yuklash, topshiriq berish; **lettres de créance** ishonch yorlig'i.

**créancier, ière** *n* qarz beruvchi odam.

**créateur, trice I.** *n* ijodkor, bunyodkor, yaratuvchi, bunyod qiluvchi; **II.** *adj* yaratuvchi, ijod, bunyod etuvchi, ijodkor, bunyodkor, ijodiy, yaratadigan, ijod qiladigan; **génie créateur** bunyodkor daho ulug' iste'dod, zo'r talant; **force créatrice** yaratuvchi ijodkor, bunyodkor kuch.

**créatif, ive** *adj* ijod, bunyod qiladigan, yaratadigan.

**création** *nf* **1.** asar, ijod, yaratish, tuzish, bunyod etish, yaratuvchilik, bunyodga keltirish, yaratilish; **de création récente** yaqinda yaratilgan, bunyod etilgan; **2.** aktyor o'ynagan rol; yaratilgan obraz; **3.** bunyod etilgan rasm; **les grandes créations** buyuk, shoh asarlar; **4.** andaza, nusxa, namuna, qolip (*ko'ylakda*); **dernières créations** keyingi, hozirgi kundagi andazalar, nusxalar.

**créature** *nf* **1.** odam, maxluq, jonivor; zot, jon; **2.** birovning yordamida martabaga erishgan odam, birovning odami, arzandasi, gumashta.

**crécelle** *nf* **1.** tartarak, shaqildoq (*o'yinchoq; bog' qo'riqlaydigan*); vaysaqi, shallaqi; **voix de crécelle** baqiroq ovoz, o'tkir ovoz; **2.** *fam* valdiroq, vaysaqi, shallaqi, ezma, sergap odam, safsataboz.

**crèche** *nf* **1.** *vx litt* oxur, molga yemish soladigan joy; **2.** bog'cha, bolalar bog'chasi.

**crécher** *vi* yashamoq, turmoq.

**crédence** *nf* oshxona servanti, shkafi.

**crédibilité** *nf* ehtimollik, ehtimol, yuz berishi, bo'lishi mumkinlik.

**crédit** *nm* **1.** qarz, nasiya; **crédit foncier** yer qarzi; **crédit à long terme** uzoq muddatli qarz; **crédit à court terme** qisqa muddatli qarz; **crédit à la petite semaine** sudxo'rlik qarzi; **crédits alloués** ajratilgan, chiqarilgan pul, mablag'; **le vote des crédits** parlamentning kredit, qarzni tasdiqlashi; **lettre de crédit** akkreditiv (*bank, omonat kassa tomonidan pulga berilgan hujjat*); **ouvrir un crédit** qarz ochmoq; **à crédit** *loc adv* qarzga, nasiyaga; **crédit municipal** lombard (*ma'lum bir vaqtga qimmatbaho buyumlarini saqlash uchun qo'yadigan joy*); **2.** ishonch, ishonish, e'tiqod; **miner le crédit de qqn** ishonchiga putur yetkazmoq; **perdre son crédit** ishonchini yo'qotmoq; **3.** obro', e'tibor, nufuz, hurmat, qadr, salmoq, ta'sir, ta'sir etish, qilish, ko'rsatish; **crédit personnel** shaxsiy obro', salmoq; **trouver crédit auprès du public** xalq hurmatini qozonmoq.

**créditer** *vt* qarz, nasiya bermoq, pul, mablag' ajratmoq.

**créditeur, trice I.** *n* qarz, nasiya beruvchi; **II.** *adj* qarz, kreditga oid, qarz, kredit beruvchi.

**credo** *nm* **1.** diniy aqida, maslak, nuqtai nazar, dunyoqarash, e'tiqod, imon, ishonch hosil qilish, ishonish; **credo politique** siyosiy maslak, siyosiy dunyoqarash; **2.** *relig* diniy aqida, e'tiqod, dinga ishonish, diniy ramz, ishonch ramzi.

**crédule** *adj* yengiltak, laqma, go'l, sodda, har narsaga, kimga ishonaveradigan.

**crédulité** *nf* laqmalik, go'llik, soddalik, har narsaga, kimga ishonaverish.

**créer I.** *vt* yaratmoq, ijod, bunyod, barpo etmoq, qilmoq; yasamoq, amalga oshirmoq, ishlab chiqarmoq, qurmoq, tuzmoq, hosil qilmoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq, keltirib chiqarmoq, asoslamoq, asos solmoq, o'rnatmoq; **créer un rôle** obraz bunyodga keltirmoq, ro'l ijro etmoq; **II. se créer** *vpr* hosil qilmoq.

**crémaillère** *nf* **1.** ilmoq, ilgak, changak, changal (*qozon osish uchun*); **pendre la crémaillère** yangi uyga ko'chib kirishni bayram qilmoq, nishonlamoq; **2.** *techn* tishli reyka (*ensiz taxtacha*); **3.** tishli reys; **chemin de fer à crémaillère** tishli temir yo'l; **4.** *mil* tishli tizma, burtik chizish, shakl, tashqi ko'rinish; **5.** *mar* vintli, aylanma yuk ko'targich (*qurilma*).

**crémation** *nf* murdani olovda kuydirish.

**crématoire** *adj* **four crématoire** kuydirish pechi, ustaxonasi.

**crème I.** *nf* **1.** qaymoq, sut ko'pigi; **crème fouettée, crème chantilly** haydalgan qaymoq; **crème à la vanille** vanilli, xushbo'y qaymoq; **crème glacée** muz qaymoq; **café crème** qaymoqli kafe; **à la crème** qaymoqli; **2.** *fam* biror narsaning guli, sara qismi, sarasi, qaymog'i; **c'est la crème des hommes** bu odamlarning sarasi; **3.** likyor; **4.** moy, yog' (*etik va boshqa narsalarga*); **II.** *adj inv* qaymoq rangi; **couleur crème** qaymoq rangi.

**crémerie** *nf* **1.** sut do'koni; **2.** sut kafesi; **je change de crémerie** *fam* bu yerni yelkamni chuquri ko'rmaydi, oyog'im ham bu yerda bo'lmaydi.

**crémeux, euse** *adj* yog'li, moyli, qaymoqli, qaymog'i ko'p (*sut*).

**crémier, ière** *n* sut sotuvchi, sutchi, sutpurush.

**crémone** *nf* eshik, deraza ilgagi.

**créneau** *nm* **1.** dandana, kungura (*devorda*); **2.** shinak, tuynuk (*qo'rg'on, istehkom devorlarida*); *mil* ambrazura (*eshik, deraza o'rni*).

**créneler** *vt* **1.** tishli devor qurmoq, qilmoq; **2.** tuynuk, shinak qilmoq; **3.** arra, o'tmas qilib qo'ymoq, ma'nosiga tyshunmay yodlamoq.

**créole I.** *adj* kreolga oid, kreol; **II.** *nm* kreol tili.

**crêpage** *nm* **1.** matoga krep shaklida ishlov berish; **2.** soch tarash, hurpaytirish.

**crêpe**[1] *nm* krep, yupqa g'ijim shoyi gazmol; **crêpe de Chine** krepdeshin (*gazmol*).

**crêpe**[2] *nf* quymoq, g'ilmindi.

**crêper** *vt* **1.** yupqa g'ijim gazmol ishlab chiqarmoq, qilmoq; **2.** sochni hurpaytirib taramoq, hurpaytirmoq; jingalak qilmoq.

**crépi** *nm* suvoq, suvash, suvoq qilish.

**crépir** *vt* suvamoq, suvoq qilmoq, chaplamoq.

**crépissage** *nm* suvoq qilish, suvash, chaplash.

**crépissure** *nf* suvoq.

**crépitation** *nf* qars-qurs, shaqir-shuqur, qasir-qusur, shovqin-suron, gumbur-gumbur, qarsillash.

**crépiter** *vi* chirsillamoq, qirsillamoq, qarsillamoq, charsillab qo'ymoq, qasir-qusir qilmoq (*o'tin, pulemyot va boshqalar*).

**crépu, ue** *adj* jingalak, qo'ng'iroq (*soch*).

**crépusculaire** *adj* g'ira-shira qorong'i, qosh qoraygan, xira, qorong'i, g'amgin, xafa; **animaux crépusculaires** qorong'isevar jonivorlar.

**crépuscule** *nm* **1.** g'ira-shira qorong'ilik, payt, qosh qoraygan payt; **2.** *fig* zavol, inqiroz, oxiri, qaytishi, so'nishi, botish; **au crépuscule de la vie** hayot oxirida (*qaytishida, so'nishida*).

**crescendo I.** *nm mus* borgan sari balandlashish, tabora avjga chiqish, kuchayib borish, o'sib, oshib borish; **II.** *adv* borgan sari baland, tobora avj, kuchayib borish bilan.

**cresson** *nm* kress-salat (*bargi yeyiladigan bir yillik o'simlik*).

**crésus** *nm* katta boy, oshib-toshib yotgan boy, badavlat odam.

**crêt** *nm* tog' cho'qqisi, burgiti, do'nggi, turtib chiqqan joyi.

**crétacé, ée I.** *adj* ohakli, ohagi bor, ohaklangan, bo'rli; **II.** *nm* bo'r davri.

**crête** *nf* **1.** toj, gultoj (*qushlarda*); **2.** qirra, cho'qqi, o'rkach (*qopqoq, to'g'on, to'lqin va boshqalarda*); **3.** cho'qqi, qirra (*tog'da*); **ligne de crête** to'g'on, darg'ot, suv taqsimlagich.

**crêté, ée** *adj* tojdor, toji bor, tojsimon, cho'qqili taroqsimon, to'lqinli; **vague crêtée d'écume** ko'pik(li) to'lqini; **montagnes crêtées de neige** qorli, qor qoplab yotgan tog' cho'qqisi.

**crétin, ine** *n fam* esi past, kam aqlli, ahmoq, tentak, ovsat, idiot.

**crétinerie** *nf fam* ahmoqlik, tentaklik, bema'nilik, aqli kamlik, pastlik, zaiflik.

**crétinisme** *nm* **1.** kretinizm (*qalqonsimon bezlar funksiyasi zaiflashib, jismoniy va ruhiy jihatdan o'smay qolishdan iborat kasallik*), kam aqllik, zaiflik; **2.** ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik, esi pastlik.

**cretonne** *nf* kreton, qalin ip-gazlama turi.

**creuser I.** *vt* **1.** qazimoq, kovlamoq, o'ymoq, qazib chuqurlashtirmoq, chopmoq; **creuser des fouilles** kotlovon, poydevor qazimoq; **creuser sa fasse; creuser son tombeau** *fig* o'ziga go'r, choh qazimoq; **2.** teshmoq, o'ymoq, kovak, ichini bo'sh, havol qilmoq; **creuser l'estomac** ishtaha keltirmoq, ochmoq; **3.** *fig* chuqurlashtirmoq, kovlamoq, qazib, o'yib chuqurroq qilmoq, sermazmun qilmoq; **creuser un sujet** sinchiklab, astoydil o'rganmoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

(*fanini*); **II. se creuser** *vpr* **1.** teshik, kovak, havol, ichi bo'sh bo'lmoq (*yog'och haqida*); **2.** chuqur, o'yiq, kovak bo'lmoq (*ko'z, chakak haqida*); **3. se creuser l'esprit, le cerveau, la tête** bosh qotirmoq; **4.** chuqurlashmoq (*nizo haqida*).

**creuset** *nm* **1.** tigel, o'ta chidamli gildan, platinadan yasalgan idish; **2. mettre au creuset** sinab, tekshirib ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq.

**creux, euse I.** *adj* **1.** kovak, teshik, havol, ichi bo'sh, bo'sh, quruq, puch; **arbre creux** kovak yog'och; **assiette creuse** chuqur tarelka, kosa; **chemin creux** chuqurlikdagi yo'l; **ventre creux, estomac creux** och, bo'sh qorin, oshqozon; **avoir le nez creux** *fam* nozik didli, sezgir, farosatli, tuyg'uli bo'lmoq, ega bo'lmoq; *prov* **il n'y en a pas pour sa dent creuse** bu yerda unga hech vaqo yo'q, unga moli-mardumxo'rlik qiladigan hech narsa yo'q; **2.** botiq, cho'kik, ichiga botib, kirib ketgan, kirtaygan; **yeux creux** kirtaygan, botiq ko'zlar; **joues creuses** ichiga kirib ketgan yuz; **3.** *fig* ichi bo'sh, uncha chuqur bo'lmagan, sayozroq, past, sayoz, bema'ni, mazmunsiz, suyuq, puch, ma'nosi yo'q; **formule creuse** ma'nosiz so'zlar; **esprit creux, tête creuse** bo'sh kalla, past aql, puch kalla, suyuq odam; **cerveau creux** xayolparast; **II.** *adv* **sonner creux** bo'g'iq, unsiz, tovushsiz jiringlamoq; **III.** *nm* **1.** cho'nqir yer, ichiga botgan joy, chuqur, kamgak, chuqurlik, o'pirilgan joy, chuqur, kamgak, chuqurlik, o'pirilgan joy, kovak, ichi bo'shlik, o'yilgan joy; soylik, pastlik, jarlik, soy; **creux d'un arbre** daraxt kovagi; **creux du genou** tizza chuquri; **creux de la main** kaft, hovuch, siqim; **j'ai un creux dans l'estomac** ko'krak chuqurcham achishyapti; **2.** *fam* bo'sh soat (*jadvalda*).

**crevaison** *nf* **1.** teshilish; **2.** *vieilli, pop* harom qotib qolish, o'lish.

**crevant, ante** *adj fam* **1.** charchatadigan, sermashaqqat, tinkani quritadigan; **un travail crevant** sermashaqqat mehnat; **2.** juda kulgili, ichak uzadigan darajada kulgili, nihoyatda qiziq.

**crevasse** *nf* **1.** jarlik, tor dara, yoriq, tog' oralig'i; **2.** yoriq, yorilgan joy (*terida*).

**crevasser I.** *vt* yorilmoq, yoriq bo'lmoq, yormoq; **II.** *vi* **se crevasser** chatnab ketmoq, ko'p joyidan yorilib ketmoq, yoriqlar bilan qoplanmoq.

**crève** *nf fam* **1.** kasallik, betoblik, xastalik, kasal, dard, og'riq; **attraper la crève, avoir la crève** dard orttirmoq, kasal bo'lmoq; **2.** o'lim, vafot qilish, qazo qilish, ajal.

**crevé, ée I.** *adj* **1.** chilparchin bo'lgan, yorilgan, chatnagan, titilib ketgan (*divan*), yirtilib, o'yilib ketgan; **2.** *fam* harom qotib qolgan, o'lgan; **II.** *nm* **1.** *fam* zaif odam; **petit crevé** o'ta olifta yigit, oliftagarchilikka zeb bergan, usti yaltiroq odam; **2.** yengidagi yirtiq, teshik joy, o'yilgan, yirtilgan joy.

**crève-cœur** *nm inv fam* umidsizlik, azob, qiynoq, mashaqqat, qayg'u, g'am-alam, azob-uqubat, kulfat.

**crever I.** *vt* **1.** yorib o'tmoq; **crever le cœur** yurakni yorib yubormoq, ezib yubormoq; **2.** ko'zini o'yib olmoq; *fig* ta'na qilmoq, yuziga aytib izza qilmoq, ko'ziga yomon ko'rinmoq; **cela crève les yeux** bu ko'zga tashlanib turadi; **3.** *fam* holsizlantirmoq, tinkasini quritmoq, charchatmoq, toliqtirmoq; **crever un cheval** otni holdan toydirmoq; **II.** *vi* **1.** yorilmoq, sinmoq, darz ketmoq, chatnamoq, uzilmoq (*tor*); qarsillab sinmoq, charsillamoq, yorib o'tilmoq, o'tmoq, yorilmoq; **le pneu a crevé** shin yorildi; **crever de jalousie** hasrat, hasaddan yorilib ketmoq; **crever de rire** kulaverib ichagi uzilmoq; **2.** o'lmoq, harom qotib qolmoq (*hayvonlar haqida*), ochlikdan harom qotib o'lmoq, halok bo'lmoq; **crever de faim** ochlikdan harom qotib qolmoq; **c'est à crever** harom qotib qolish mumkin; **III. se crever** *vpr* **(pour)** jon-jahdu bilan tirishmoq, o'lib-qutilib harakat qilmoq; **se crever pour gagner deux fois rien** bir tiyin uchun zo'r bermoq, jon-jahdi bilan urinmoq.

**crevette** *nf* krevetka, mayda qisqichbaqa.

**cri** *nm* baqirmoq, qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq, shovqin-suron, dod, dod-faryod, qichqirish, chaqirish, nido, xitob, sado, ovoz; **cri d'allégresse** xursandchilik nidosi; **pousser des cris** qichqirib yubormoq; **à grands cris** juda qattiq, ovozining boricha; **dernier cri** *fam* so'nggi namuna, oxirgi moda; **cri du cœur** yurak hayqirig'i, nidosi, sadosi.

**criant, ante** *adj* g'azablantiradigan, chidab bo'lmaydigan, o'taketgan, borib turgan, qo'pol, achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan, yaramas, hunuk, ablahona, ko'zga tashlanib turadigan; **injustice criante** ko'zga tashlanib turadigan nohaqlik, adolatsizlik.

**criard, arde I.** *adj* **1.** baqiroq, vag'vag', shang'i, ovozi o'tkir, shovqin-suronli, yarqiroq, ko'zga tashlanadigan; **dettes criardes** kechiktirib bo'lmaydigan qarz; **2.** yarqiroq, ko'zga tashlanadigan, hammaning diqqatini o'ziga tortadigan, yarqiragan, ochiq rangli; **II.** *n* baqiroq odam, shang'i, vag'vag'.

**crible** *nm* g'alvir, elak, suzgich; **passer au crible** astoydil o'rganmoq, sinchiklab qarab chiqmoq; **passer au crible de la critique** qattiq tanqid qilmoq.

**criblé, ée** *adj* teshik-teshik bo'lib ketgan, ilma-teshik bo'lib ketgan, "g'alvir" bo'lib ketgan; **criblé de blessures** yara qoplagan; **criblé de balles** o'q ilma-teshik qilib tashlagan; **criblé d'étoiles** yulduz qoplagan; **criblé de (par) petite vérole** cho'tir, bujur, ola-chipor; **criblé de son** sepkilli, sepkil bosgan, sepkildor; **criblé de dettes** qarz bosgan, qarzi ko'p, qarzdor, qulog'igacha qarzga botgan.

**cribler** *vt* **1.** elamoq, elak, g'alvirdan o'tkazmoq; **2. (de qqch)** ilma-teshik qilmoq, "g'alvir" qilmoq, teshib tashlamoq, hamma yog'ini teshmoq; **cribler de coups** zarba, musht yog'dirmoq; yarador qilmoq, jarohatlamoq, dilini og'ritmoq; **cribler qqn de critique** qattiq tanqid qilmoq, ostiga olmoq.

**cric** *nm techn* domkrat, ko'targich.

**cricket** *nm sport* kriket, to'p o'yinining bir turi.

**cricri** *nm* qora chigirtka.

**crier I.** *vi* **1.** baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, hayqirmoq, dodlamoq, dod solmoq; **crier plus fort que l'anguille, crier à tue-tête** ayuhannos solmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq, ovozining boricha qichqirmoq; **2.** chaqirmoq; **crier à l'aide, crier au secours** yordamga, ko'makka chaqirmoq, da'vat etmoq; **crier à l'injustice** adolatsizlikdan, nohaqlikdan nolimoq, zorlanmoq, hasrat qilmoq; **3.** jar solmoq, duv-duv gap tarqatmoq, shovqin ko'tarmoq, og'iz ko'pirtirmoq, ovoza qilmoq, hammaga bildirmoq, oshkor qilmoq; **crier sur les toits** har chorrahada jar solmoq, hamma qo'ng'iroqlarda bong urmoq; **4. (contre qqn après qqn)** baqirmoq, o'shqirmoq, jerkimoq, o'dag'aylamoq, so'kmoq, urushmoq, koyimoq, ayblamoq, qoralamoq; **5.** g'ijirlamoq, g'ichirlamoq, g'archillamoq; **la porte crie** eshik g'ichirladi; **II.** *vt* baqirib chaqirmoq, baqirib aytmoq; **crier son indignation** achchiqlanmoq, g'azablanmoq, jahlini chiqarmoq; **crier misère** gadoylik, tilanchilik qilmoq, sadaqa so'ramoq, och-yalong'och bo'lmoq, faqirona kun kechirmoq, yo'qsillikdan nolimoq; **crier vengeance** o'ch, qasos olishga chaqirmoq; **sans crier gare** ogohlantirmasdan.

**crieur, euse** *n* **1.** baqiroq odam, shang'i, vag'vag'; *hist* **crieur public** jarchi, udaychi, xabarchi; **2.** tashuvchi, yetkazib beruvchi, tarqatuvchi, ko'tarib yurib sotuvchi, ko'tarmachi, attor; **crieur de journaux** ro'znoma sotuvchi (*ko'chada*).

**crime** *nm* jinoyat, xiyonat, yovuzlik, jinoiy harakat, vahshat; **crime d'Etat** davlatga qarshi jinoyat, xiyonat; **crime de guerre** harbiy jinoyat; **crime de droit commun** qattiq jinoyat; **les éléments du crime** jinoyat tarkibi, sostavi; **imputer à crime** aybdor qilmoq, aybga qo'ymoq, ayblamoq; **commettre un crime** jinoyat qilmoq; **se rendre complice d'un crime** jinoyat qatnashchisi, ishtirokchisi bo'lmoq; **son crime est de** jinoyati quyidagicha.

**criminaliste** *n* kriminalist, jinoiy ishlar mutaxassisi.

**criminalité** *nf* jinoiylik, jinoyatkorlik, jinoyatchilik, jinoyatlar miqdori.

**criminel, elle I.** *adj* jinoiy, jinoyatga oid, jinoyatkorona; **instruction criminelle** jinoiy ish tekshiruvi, qidiruvi natijasi; **procès criminel** jinoiy ish; **II.** *n* jinoyatchi, jinoyatkor, xiyonatchi, xiyonatkor; **criminel de droit commun** qattiq jinoyatchi; **criminel de guerre** harbiy jinoyatchi; **un grand criminel** xavfli jinoyatchi, qotil.

**criminellement** *adv* **1.** jinoyatkorona, xiyonatkorona, jinoyat, xiyonat yo'li bilan; **2.** jinoiy tartibda.

**criminologie** *nf* jinoyatchilik haqidagi fan.

**criminologiste** *n* kriminologiya, jinoyatchilik ishlari mutaxassisi.

**crin** *nm* **1.** ot yoli, qili; **2.** tola; **à tous crins** serg'ayrat, harakatchan, g'ayratli, serharakat, faol; **un drave à tous crins** botir, dovyurak, jasur, mard.

**crincrin** *nm fam* yomon g'ijjak, skripka.

**crinoline** *nf* o'tgan asrda rasm bo'lgan chambarakli keng yubka.

**crique** *nf* qo'ltiqcha, ko'rfazcha.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**criquet** *nm* chigirtka.

**crise** *nf* **1.** inqiroz, keskin o'zgarish, burilish, tanqislik, tanglik, yetishmaslik; **2.** tutqanoq, talvasa, jazava, xuruj, to'lib toshish, tutish, tutib qolish; **crise de nerfs** asab xuruji, tutqanog'i, asabiy tutqanoq; **crise d'appendicite** ko'r ichak tutqanog'i, jazavasi.

**crispant, ante** *adj* qitiqlaydigan, biror narsani qo'zg'aydigan, keltirib chiqaradigan, qichitadigan, asabga teguvchi, tegadigan.

**crisper I.** *vt* **1.** tutqanoq tutmoq, tomir tortishib qolmoq; **2.** qattiq chandib, siqib, qisib, tortib qolmoq, burishtirmoq, tirishtirmoq; **crisper le visage** yuzini burishtirmoq; **3.** *fam* achchiqlantirmoq, g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; **crisper les nerfs** asabiga tegmoq; **II. se crisper** *vpr* **1.** siqilmoq, qisilmoq, g'uj bo'lmoq, burishmoq, bujmaymoq, tirishmoq, tirishib tipirchilamoq; **2.** bezovtalanib yopishmoq, chirmashmoq; **3.** *fam* achchiqlanmoq, g'azablanmoq, achchig'i kelmoq.

**crissement** *nm* g'ichirlash, g'ijirlash, g'ichir-g'uchur, g'ijirlagan, g'ichirlagan tovush, g'ajir-g'ujur, g'arch-g'urch qilish.

**crisser** *vi* **1.** g'ijirlatmoq, g'ichirlatmoq, g'ijirlamoq, g'ichirlamoq, g'archillamoq, g'arch-g'urch qilmoq, g'ajir-g'ujur qilmoq (*tish bilan*); **2.** g'arch-g'urch qilmoq (*oyoq tagida*); **3.** qarsillamoq, qasirlamoq, qasir-qusur qilmoq; **4.** chirillamoq (*qora chigirtka*).

**cristal** *nm* **1.** billur; **cristal de roche, cristal de montagne;** tog' billur, shaffof kvars; *poét* **le cristal des eaux** suv oynasi; **2.** billur; **3.** *pl fam* kristal so'da.

**cristallin, ine I.** *adj* **1.** billurdek shaffof, tiniq, zilol, sof, toza, oqko'ngil, xrustalli; **voix cristalline** tiniq ovoz; **2.** billurli; **II.** *nm anat* ko'z gavhari.

**cristallisation** *nf* kristal, xrustal-billurga aylantirish, kristalizasiya.

**cristalliser I.** *vt* **1.** kristallamoq, kristalga aylantirmoq, kristal holiga keltirmoq; **2.** *fig* aniq bir shaklga keltirmoq, shakillanmoq, shaklga kirmoq, bezatmoq, yasatmoq, rasmiylashtirmoq; **II.** *vi* qaror topmoq, shakllanmoq, shakl olmoq; **III. se cristalliser** *vpr* **1.** xrustalga aylanmoq; **2.** muayyan shaklga, tusga kirmoq, shakllanmoq, rasmiylashmoq, joylashmoq, rasmiy suratga kirmoq; shaklga kirmoq.

**critère** *nm* mezon, o'lchov, belgi, saralash; saralash o'yini, saralash musobaqalari.

**critique**[1] *adj* keskin, jiddiy, qat'iy, uzil-kesil, eng so'ngi, o'zgartirib bo'lmaydigan, hal qiluvchi, asosiy, eng muhim; tang, qiyin, og'ir, mushkul, tang, ishkal, xavfli, xatarli.

**critique**[2] **I.** *n* **1.** *nf* tanqid, tanqid qilish, tanqid ostiga olish, tanqidiy muhokama; tahlil, tahlil qilish, tekshirish; **2.** tanqidchi; **critique d'art** san'atshunos; **critique littéraire** adabiyotshunos, adabiy tanqidchi; **II.** *adj* tanqidiy, tanqid ko'zi bilan qaraydigan, tanqidiy yondashadigan.

**critiquer** *vt* tanqid qilmoq; **manie de critiquer** tanqidbozlik, nayzabozlik, surishtirmay tanqid qilaverish.

**croasser** *vi* qag'illamoq, qarillamoq.

**croc** *nm* **1.** ilgak, changak, ilmoq, changal, chak (*po'lat ilmoq*), uzun dastali ilgak, changak; **moustaches en croc** tepaga buralgan mo'ylov; **2.** *pl* qoziq tishlar, so'yloq tishlar.

**croc-en-jambe** *nm* chalish, chalib yiqitish, yuborish; **faire un croc-en-jambe à qqn** chil solmoq, chalmoq, chalib yiqitmoq.

**croche-pied** *nm* chalish, chalib yuborish.

**crochet** *nm* **1.** ilgakcha, changakcha, ilmoq, changalcha; **être, vivre aux crochets de qqn** birov hisobiga kun ko'rmoq, kechirmoq, yashamoq; **2.** tikuv, to'quv ilgagi, ilmog'i; **faire du crochet** ilmoq bilan to'qimoq; **une veste au crochet** qo'lda tikilgan kurtka, kamzul; **3.** aylanma yo'l, aylanish; **faire un crochet** aylanib kelmoq, aylanma yo'l orqali kelmoq; **4.** ochqich, qulf; **5.** *techn* tishli reyka; **6.** *pl* kvadratli qavslar; **entre crochets** kvadrat qavslar ichida; **7.** qisqa, kalta yonbosh zarba (*boksda*).

**crochetage** *nm* **1.** ilgakcha bilan ochish; **2.** *sport* o'rab, chirmab olish.

**crocheter** *vt* **1.** ilgakcha bilan ochmoq; **2.** ilmoq, ilgak, changak bilan ilintirmoq, ilib olmoq.

**crochu, ue** *adj* ilmoq qilib egilgan, qayrilgan, ilmoqsimon, changaksimon; **avoir les mains crochues** qo'li egri bo'lmoq, o'g'rilik qilmoq, egri.

**crocodile** *nm* **1.** timsoh; **larmes de crocodile** timsoh ko'z yoshlari; **2.** timsoh terisi, charmi; **en crocodile** timsoh charmidan qilingan; **3.** aloqa signali (*izda joylashgan, temir yo'lda*).

**crocus** *nm bot* za'far (*zirovor o'simlik*), shafran (*olma turi*).

**croire I.** *vt* **1.** sanamoq, hisoblamoq, o'ylamoq, fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, fikr yuritmoq, faraz qilmoq; **il est à croire que** deb hisoblamoq kerak; **j'ai cru entendre sa voix** uning ovozi menga eshitilganday tuyuldi; **on croirait** deb o'ylash mumkin; **je crois bien!** albatta, men o'ylaymanki **je te crois!** *fam* bo'lmasa-chi, turgan gap; **2.** ishonmoq, ishonchi komil bo'lmoq, inonmoq; **je le crois bien** jonim bilan ishonaman; **croyez cela et buvez de l'eau claire** *fam* ishongan baxtli, baxtiyor; **3. en croire qqn, qqch** ishonmoq, inonmoq, ishonib topshirmoq; **à l'en croire** agar bunda unga ishonsang; **je n'en crois rien** men bunga ishonmayman; **en croire à peine ses yeux** u o'z ko'zlariga arang, zo'rg'a ishonadi; **s'il faut en croire les rumeurs** agar mish-mishlarga ishonsang; **II.** *vi* ishonmoq, inonmoq; **croire sur parole** so'ziga ishonmoq; **croire à (en)** -ga ishonmoq; **on a peine à croire** ishonib bo'lmaydi; **j'ai (de la) peine à croire** men ishonolmayman; **croire dur comme fer** ko'r-ko'rona inonmoq; **faire croire** ishontirmoq; **III. se croire** *vpr* o'ziga hisoblamoq; **s'en croire beaucoup** o'z haqida juda yuqori fikrda bo'lmoq.

**croisade** *nf* salbchilar yurishi.

**croisé, ée I.** *adj* **1.** kesishgan, uchrashgan, to'qnashgan, but, krest shaklidagi, chorrahali, kesib o'tgan, chaparasta; **mots croisés** krassvord; **rimes croisées** qator oralab keladigan qofiya; **feu croisé** chorsuli yong'in (*o't, olov*); **veston croisé** ikki qator tugmali kostum; **étoffe croisée** sarja bir xil astarbop gazlama; **sangs croisés** qon almashish, aylanishi; **demeurer les bras croisés** qo'l qovushtirib o'tirmoq; **2.** chatishgan, duragay, aralashgan; **race croisée** chatishgan, duragay; **II.** *nm* **1.** salib yurishlari ishtirokchisi, qatnashchisi; **2.** *sport* oyog'ini chalkashtirib; **croisé arrière** orqa oyoqlari; **croisé avant** oldingi oyoqlari; **3.** sarja to'qishi (*tekstilda*).

**croisée** *nf* **1.** deraza romi (*shishasi bor*), uchrashgan, to'qnashgan deraza qoplamasi; **2.** uchrashish, kesishish (*yo'lda, sayohatda*); **3.** chorraha yo'l; **croisée des chemins** yo'l kesishishi, chorraha, chorsu.

**croisement** *nm* **1.** yo'llar kesishishgan joy, chorraha, kesishish, to'qish (*to'qilish usuli, tarzi*), to'qnashish, uchrashish; poyezdni bir yo'ldan boshqa yo'lga o'tkazib yuboradigan joy; **2.** *biol* chatishish, chatishuv, chatishtirish; **3.** yurib ketayotib uchrashish, uchrashuv, to'qnashish, to'g'ri, duch kelish.

**croiser I.** *vt* **1.** qovushtirmoq, chalishtirmoq, kesishtirmoq, ustma-ust taxlamoq, qo'ymoq, yig'ib qo'ymoq; **croiser son châle** ro'molini bog'lamoq; **croiser les jambes** oyoqlarini chalishtirmoq; **croiser les bras** qo'l qovushtirmoq; *fig* hech narsa qilmay o'tirmoq; **croiser l'épée, les épées, le fer** qilichlarni kesishtirmoq, qilichlashmoq; **croiser les feux** kesishtirib o't ochmoq, qarshi otishmoq; **2.** *biol* chatishtirmoq; **3.** kesib o'tmoq; **4.** chizib-chizib tashlamoq, o'chirib tashlamoq; **5.** tugmalarini qadamoq, o'tkazmoq; **croiser son veston** pidjak tugmalarini yaxshilab qadamoq, o'tkazmoq; **croiser les persiennes** darpardani yopmoq; **6.** uchrashmoq, to'qnash, duch kelib qolmoq; **croiser qqn dans la rue** ko'chada uchrashib qolmoq; **II.** *vi mar* qatnamoq, suzib yurmoq; **III. se croiser** *vpr* **1.** uchrashmoq, qarama-qarshi, duch, to'qnash kelib qolmoq, to'qnashmoq; **2.** *hist* salibchi bo'lmoq, salibchilar yurishiga bormoq, jo'namoq; **3.** birlashmoq, qo'shilmoq, qovushmoq, jinsiy aloqada bo'lmoq.

**croiseur** *nm* kema, tezyurar katta harbiy kema, kreyser; **croiseur de bataille** urush kemasi.

**croisière** *nf* **1.** *mar* suzib yurish, dengizda soqchilik qilish; **en croisière** soqchilikda; **vitesse de croisière** kema tezligi; **2.** dengiz, havo sayohati, kruiz, kezib yurish; **3.** kesishish, chorraha, to'qnash, duch kelib qolish, yo'l kesishgan joy.

**croisillon** *nm* **1.** romning bir-biri bilan kesishgan joyi; **2.** temir yo'lda poyezdni boshqa yo'lga o'tkazib yuborgich, o'tkazgich.

**croissance** *nf* o'sish, ulg'ayish, yuksalish, rivojlanish, taraqqiy etish, yiriklashish, oshish; **crise de croissance, mal de croissance** xastalikning kuchayishi.

**croissant**[1]**, ante** *adj* o'sayotgan, ulg'ayayotgan, yuksalayotgan, rivojlanayotgan, oshib borayotgan, yiriklashayotgan, taraqqiy etayotgan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**croissant**[2] *nm* **1.** yarim oy; **premier croissant** yangi tugʻilgan oy; **2.** chiniqtirish, pishitish, pishish, emizik, soʻrgʻich, choxsimon bulochka (*non*); **3.** egik, oʻroqsimon pichoq.

**croître** *vi* **1.** oʻsmoq, rivojlanmoq, katta boʻlmoq, unmoq, koʻkarmoq; **2.** ulgʻaymoq, katta boʻlmoq, yiriklashmoq, koʻpaymoq, oshmoq, ortmoq; **aller croissant** kattalashmoq, yiriklashmoq, oʻsib bormoq; **croître en beauté** goʻzallashmoq, koʻrkamlashmoq, toʻlishmpoq, chiroyli boʻlib ketmoq; **croître en sagesse** aql kirib qolmoq, aqlliroq boʻlib qolmoq.

**croix** *nf* **1.** xoch, but, salib; **faire le signe de la croix** choʻqinmoq, choʻqinib olmoq, qaytadan choʻqintirmoq; **mettre en (sur la) croix** chormixga tortmoq, qoʻl-oyoqlarini butga tortib mixlamoq; **en croix** *loc adv* butsimon, xochga oʻxshash; **porter sa croix** oʻz yukini oʻzi koʻtarmoq, koʻtarib yurmoq; **chacun porte sa croix dans ce monde** bu dunyoda har kimning oʻz yulduzi bor; **Croix de guerre** harbiy xizmatlari uchun medal (*krest, Fransiyada*); **Croix-Rouge** Qizil xoch jamiyati; **croix gammée** svastika (*uchlari qayrilgan krest*); **croix de Malte** Malta oroli kresti; **croix de Lorraine** Lotaringiya kresti; **2.** tanganing oryol, gerb bor tomoni; **3.** krest, belgi, alomat (*qoʻyiladigan*); **faire, mettre une croix sur qqch** *fig* biron ishga krest, belgi, alomat qoʻymoq, hammasiga tupurmoq.

**croquant** *nm* faqir, qashshoq, kambagʻal, bechora, yalangoyoq, qalangʻi-qasangʻi, daydi, darbadar, miskin, qoʻnimsiz, jahongashta.

**croquant, ante I.** *adj* gʻichirlaydigan, gʻijirlaydigan (*tish haqida*); **II.** *nf* bodom pecheniy.

**croque au sel (à la)** *loc adv* xomlay, tuz bilan, tuzlab.

**croque-mitaine** *nm* boʻji, oloboʻji.

**croque-monsieur** *nm inv* goʻshtli va pishloqli buterbrod, sandvich.

**croque-mort** *nm* koʻmish idorasining mayyitni qabristonga olib boruvchi xizmatchisi; **avoir figure de croque-mort** motam qiyofasida boʻlmoq.

**croquer I.** *vt* **1.** gʻajimoq, kemirmoq, chaqmoq; **croquer le marmot** uzoq kutmoq (*yopiq eshikda*); **faire croquer le marmot** uzoq kutishga majbur qilmoq; **2.** *fam* xomaki rasm solmoq, chizmoq; **joli à croquer** goʻzal, juda chiroyli; **3.** sarflamoq, xarjlamoq, xarajat qilmoq, isrof qilmoq, bekorga sarflamoq, sovurmoq; **croquer de l'argent** pul sovurmoq; **croquer une fortune** butun boyligini yeb tamom qilmoq; **II.** *vi* gʻarchillamoq, qarsillamoq, qasirlamoq, qisirlamoq, gʻichirlamoq; **croquer sous la dent** tishlarda gʻijirlamoq, qisirlamoq, karsillamoq.

**croquet**[1] *nm* kroket, sharlarni toʻqmoqcha bilan urib sim darvozachalardan oʻtkazish oʻyini.

**croquet**[2] *nm* bodom magʻizli biskvit (*pecheni turi*).

**croquis** *nm* **1.** xomaki chizma rasmlar; **2.** chizma, tasvir, tarh; **croquis panoramique** perspektiv chizma; **3.** qisqacha sharh.

**cross** *nm* kross, past-baland joylarda oʻtkaziladigan poyga, yugurish musobaqasi.

**crosse** *nf* **1.** hassa, aso, temir hassa; **2.** qoʻltiqtayoq, tayoq, hassa; **3.** *sport* hokkey tayoq; **4.** uchi qayrilgan tayoq; **crosse de l'aorte** shotomir, aorta, eng katta tomir yoyi; **5.** pishang, richag, koʻtargich; **6.** pistolet dastasi, miltiq qoʻndogʻi; **mettre la crosse en l'air** nayza, shtikni yerga sanchimoq, urishdan bosh tovlamoq; **autant pour les crosses** *fam* qoldirilsin! bekor! boshqatdan! **7.** xartum, xabot (*toʻp oʻrnatilgan lafetning orqasidagi uzun qismi*); **8.** polzun, sirgʻaluvchi qism.

**crosses** *nf* **chercher des crosses à qqn** *fam* janjal, nizo qidirmoq, jigʻiga tegmoq, achchigʻini chiqarmoq, tegajogʻlik qilmoq, kekirdak choʻzmoq.

**crotale** *nm* shaqildoq, zaharli ilon.

**crotte** *nf* **1.** qumaloq, qiy; **2. crotte de chocolat** shokoladli dumaloq konfet.

**crotté, ée** *adj* ifloslangan, iflos boʻlgan, kirlangan, kir boʻlgan, loy bilan ifloslangan.

**crotter I.** *vt vieilli* bulgʻamoq, iflos, kir qilmoq, iflos, loy sachratmoq; **II.** *vi fam* najaslamoq, bulgʻamoq (*hayvonlar haqida*); **III. se crotter** *vpr* ifloslanmoq, bulgʻanmoq, loy sachratmoq.

**crottin** *nm* **1.** ot goʻngi, qoʻy qulamogʻi; **2.** echki sutidan qilingan pishloq.

**croulant, ante I.** *adj* nurayotgan, qulayotgan, koʻhna, eskirgan, puturdan ketgan, toʻzgan, chirigan, omonat, sharti ketib parti qolgan; **empire croulant** yemirilib borayotgan imperiya; **II.** *n fam* keksa, qari, kampir, qarigan, keksaygan, munkillagan, qartayib qolgan.

**croule** *nf* loyxoʻrak qushlarni ovlash fasli.

**crouler** *vi* qulamoq, buzilmoq, agʻdarilmoq, yiqilmoq, vayron boʻlmoq; zirillamoq, titramoq, qimirlab ketmoq, larzaga kelmoq, tebranmoq, qaltiramoq; **la salle croule sous les applaudissements** olqishlar, chapakdan zal larzaga keldi; **faire crouler un projet** reja, loyihani barbod qilmoq.

**croup** *nm méd* tomoq yalligʻlanishi, boʻgʻiz shamollashi.

**croupe** *nf* **1.** sagʻri, ot sagʻrisi, orqa oyoqlari usti, dumgʻaza; **croupe avalée** osilgan sagʻri, dumgʻaza; *loc adv* **en croupe** orqasida (*ot, motosikl*); **2.** togʻ choʻqqisi.

**croupetons (à)** *loc adv* choʻkkalab, choʻkka tushib.

**croupier** *nm* **1.** qimorxona egasi, xizmatchisi; **2.** qimorga pul qoʻygan, tikkan kishi.

**croupir** *vi* **1.** turib, sasib qolmoq (*suv haqida*); **2.** *fig* biror narsa botqogʻiga botmoq, qotib qolmoq, botib, tiqilib qolmoq.

**croupissant, ante** *adj* **1.** turib qolgan, sasigan (*suv haqida*); **2.** *fig* botib, tiqilib qolgan; **vie croupissante** hamisha bir xil hayot.

**croustillant, ante** *adj* **1.** qisirlaydigan, gʻijirlaydigan (*tish haqida*); **2.** *fig* taʼmi oʻtkir, nordon, jozibali, yoqimli, dilkash, behayoroq.

**croustiller** *vi* **1.** *fam* qurigan, quritilgan non yemoq; **2.** gʻijirlamoq, qisirlamoq (*tish haqida*), gʻijir-gʻijir qilib turmoq.

**croûte** *nf* **1.** non cheti; **pâté en croûte** jigar pashtet; **gagner sa croûte** *fam* bir burda nonga ishlab topmoq; **casser la croûte** yemoq, ovqatlanmoq; **casser une croûte** tamaddi qilib olmoq; **t'en fais pas pour la croûte** *arg* tashvishlanma! tashvish tortma! **2.** poʻst, poʻstloq, qobiq; **croûte terrestre** yer qobigʻi, yerning ustki qattiq qatlami; **il s'est formé une croûte** poʻstloq hosil qilindi; **3.** *fam* noʻnoq rasm, yomon ishlangan surat; **la foire aux croûtes** koʻchadagi rasm savdosi; **4.** *fam* esi yoʻq, ahmoq, tentak, esi past, ovsar, ablah, kallavaram, toʻnka; **quelle croûte!** ana toʻpori! kaltafahm! qovoqbosh!

**croûter** *vi fam* tamaddi, nonushta qilib olmoq.

**croûton** *nm* non cheti; quruq non.

**croyable** *adj* ehtimol, yuz berishi, boʻlishi mumkin boʻlgan, boʻlishi ehtimol tutilgan.

**croyance** *nf* **1.** ishonch, eʼtiqod, bovar; ishonish; **2.** din, mazhab, maslak, imon; **croyances politiques** siyosiy dunyoqarash, siyosiy eʼtiqod; **contre toute croyance** aksincha, hech narsaga qaramay, xilof ravishda; **cela passe toute croyance** bu butunlay mumkin emas, amri mahol.

**croyant, ante** *adj* dinga ishonadigan, ishonuvchan.

**cru**[1] *nm* **1.** uzumzor, tokzor; **vin du cru** mahalliy vino; **les crus de Bordeaux** Bordo vinosi; **les meilleurs crus** eng yaxshi nav vino; **2. cela est de votre cru** bu sizning uydirmangiz; **dire une chose de son cru** *fam* ajoyib fikrni, bor haqiqatni aytmoq.

**cru**[2]**, ue** *adj* **1.** xom, pishirilmagan, pishmagan, qaynatilmagan; **2.** xom, gʻoʻr, gʻaliz, tozalanmagan, ishlanmagan, ishlab pishitilmagan, ajratilmagan; **soie crue** xomashyo ipak, pilla; **3.** qoʻpol, dagʻal, qoʻrs, qattiq, toʻng, toʻrs, xunuk; **réponse cru** qoʻpol, toʻng javob; **couleur crue** xunuk, qoʻrs rang; **4.** bebosh, intizomsiz, tartibsiz, buzuqi, erkin, ixtiyoriy, bemalol; **à cru** *loc adv* toʻppa-toʻgʻri, toʻgʻrisi; **lumière qui tombe à cru** oʻtkir toʻppa-toʻgʻri nur; **monter à cru** egarsiz ot minib yurmoq.

**cruauté** *nf* shafqatsizlik, rahmsizlik, berahmlik, zolimlik, jabr-jafo, qahri qattiqlik, bagʻri toshlik; **commettre des cruautés** jabru jafo qilmoq, bagʻri toshlik qilmoq.

**cruche** *nf* **1.** koʻza, kuvacha, krujka; **tant va la cruche à l'eau (qu'à la fin elle se brise)** buzoqning yugurgani somonxonagacha; **2.** *fam* esi yoʻq, ahmoq, tentak, esi past, nodon, merov; **quelle cruche!** eh, nodon!

**cruchon** *nm* koʻzacha, kuvacha.

**crucial, ale** *adj* qatʼiy, keskin, nozik, jiddiy, hal qiluvchi, asosiy, eng muhim; **points cruciaux** asosiy nuqta, joylar; **question cruciale** eng muhim savol, jiddiy savol.

**crucifère I.** *adj* xoch, krest taqib yurgan, xochi, kresti bor; **II.** *nf pl* xochgullilar (*oʻsimlik*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**crucifiement** *nf* chormixga mixlab qoqish, chormixga tortish, qo'l-oyoqlarini xoch, butga tortib mixlash.

**crucifix** *nm* xochga tortilgan Iso Masih tasvirlangan kerst.

**cruciverbiste** *n* krassvord ishqibozi, krossvordni yaxshi ko'ruvchi.

**crudité** *nf* **1.** xomlay, pishirmasdan yeyiladigan sabzavot, mevalar; **2.** qo'pollik, dag'allik, qo'rslik, qo'pol, dag'al muamila.

**crue** *nf* **1.** suv ko'tarilishi, suv ko'payishi; **les grandes crues** suv toshqini, bahor, eruvchilik toshqini; **les crues printanières** bahorgi suv ko'tarilishi, ko'payishi, toshqini; **être en crue** ko'tarilmoq, ko'paymoq (*suv haqida*); **2.** o'sish, ulg'ayish, kattalashish, yiriklashish.

**cruel, elle** *adj* qahri qattiq, shavqatsiz, rahmsiz, berahm, qahrli, zolim; **destin cruel** achchiq qismat, taqdir, yozmish, nasiba, ko'rgilik.

**cruellement** *adv* shavqatsizlik bilan, beshavqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona; dahshatli, vahimali, g'oyat, benihoyat, mudhishona.

**crûment** *adv* qat'iy, keskin, qattiq, to'g'risida, to'ppa-to'g'ri, tikka, to'g'ri, qisqa yo'ldan.

**crypte** *nf* yer ostidagi sag'ana, daxma; **2.** *anat* bez, chuqurcha, bo'shliq.

**cryptogame** *adj* sporali ko'payadigan.

**cryptogamique** *adj* **maladie cryptogamique** zamburug'lar tufayli yuzaga keladigan kasalliklar.

**cryptogramme** *nm* kriptogaramma, sirli belgi va ishoralar bilan bitilgan xat, shiferlash.

**cryptographie** *nf* kriptografiya, sirli, maxfiy xat yozish.

**cryptographique** *adj* maxfiy, sirli xatga doir.

**cubage** *nm* kub o'lchash; sig'im, eltish, eltuvchanlik, sig'imlilik, hajm, kub hajmi, kubatura; **cubage d'air** havoning kub hajmi.

**cubain, aine** *n* Kubalik, Kuba oroli aholisi.

**cube I.** *nm* **1.** *math* kub **2.** kubchalar; **jeu de cubes** kubikchalar o'yini (*rasmli*); **3.** *arg* bir sinfda uchinchi yil o'tirgan o'quvchi; **II.** *adj* kubli, kubga oid; **un mètre cube** kub metr.

**cuber I.** *vt* **1.** *math* 3-darajaga, kubga ko'tarmoq; **2.** kub hajmini aniqlamoq; **II.** *vi* kub hajmiga ega bo'lmoq, sig'dirmoq, eltmoq; **ce tonneau cube 100 litres** bu bochka, idish 100 litr sig'diradi.

**cubique I.** *adj* kubli, kubga oid, 3-daraja; **II.** *nf* qiyshiq, egri uchinchi tartib, qator.

**cubisme** *nm* kubizm (*san'at maktabi*).

**cubiste I.** *adj* kubizmga oid; **II.** *nm* kubist, kubizm tarafdori.

**cubitus** *nm anat* tirsak suyagi.

**cucul** *adj fam* tentaknamo, ahmoqroq.

**cucurbitacées** *nf pl* poliz ekinlari.

**cueilleur, euse** *n* meva teruvchi, yig'uvchi.

**cueillir** *vt* **1.** yig'moq, termoq, to'plamoq, chaqirmoq, uzmoq, yulmoq; **cueillir des lauriers** erishilgan g'alabaning rohatini ko'rmoq; **cueillir un baiser** bo'sa olmoq; **2.** *fam* terib olmoq, yig'ib, yig'ishtirib qo'ymoq; yo'l-yo'lakay terib olmoq; **en passant, je vous cueille chez vous** yo'l-yo'lakay siznikiga kirib o'taman; **3.** *fam* o'tkazmoq, qamab qo'ymoq, ushlab, tutib turmoq; **cueillir un voleur** o'g'rini ushlamoq.

**cuillère** *ou* **cuiller** *nf* **1.** qoshiq; **cuillère à café** choy qoshiqchasi; **cuiller à desserts** shirinlik, desert qoshiqchasi; **cuillère à soupe** oshqoshiq; **cuiller à pot** katta qoshiq cho'mich; **cuiller à fondre** yog'log'i, cho'mich; **cuiller à couler** quyish cho'michi; **en deux coups de cuiller à pot** tez, birdaniga; **être à ramasser à la petite cuiller** *fam* o'ta achinarli holatda bo'lmoq; **ne pas y aller avec le dos de la cuiller** ochiqchasiga, ro'yrost harakat qilmoq; **2.** suv oqadigan nov tagidan ko'chirilgan tosh; **3.** qarmoqqa bog'lanadigan yaltiroq plastinka, baliqcha.

**cuir** *nm* **1.** teri, charm, po'st, ko'n; **cuir vert** xom teri; **cuirs maroquinés** saxtiyon teri; **cuir de Russie** bulg'ori charm, yumshoq ko'n; **l'industrie des cuirs et peaux** ko'nchilik sanoati; **les cuirs et peaux** ko'n zavodi, charm ishlab chiqarish; charm bilan savdo qilish; **cuir chevelu** bosh suyakning yung, soch qoplagan joyi; **tanner le cuir à qqn** urmoq, do'pposlamoq, kaltaklamoq, po'stini qoqib qo'ymoq; **2.** *pl* charm qayish; **cuir à rasoir, cuir à repasser** pakkini silliqlaydigan charm tasma; **3.** *fam* futbol koptogi, to'pi; **4.** *fam* nutqda so'zlarni bir-biriga noto'g'ri qo'shish, ulash (**pas-z-a moi** *o'rniga* **pas-t-à moi**); **faire des cuirs** so'zlarni noto'g'ri qo'shmoq (*talaffuzda*).

**cuirasse** *nf* sovut; **défaut de cuirasse** nozik joy, zaif, qaltis tomoni.

**cuirassé, ée I.** *adj* **1.** sovutli, sovut kiygan; **2.** *fig* chiniqqan, pishiq, toblangan, matonatli; **3.** zirhli, zirh, bron bilan qoplangan, bronetank; **II.** *nm* bronenoses, zirhli katta harbiy kema; **cuirassé d'escadre, cuirassé de lingne** safdagi, linya kemasi, linkor.

**cuirassement** *nm* **1.** sovut; **2.** zirh, bron, sovut qoplash.

**cuirasser** *vt* **1.** bron, zirh qoplamoq, zirh kiygizmoq; **2.** birovga sovut kiygizmoq; **3.** pishitmoq, toblamoq, chiniqtirmoq; **se cuirasser** o'zini o'q o'tmaydigan qilmoq.

**cuirassier** *nm hist* kirasir, sovut kiygan otliq askar.

**cuire I.** *vt* **1.** qaynamoq, pishirmoq, tayyorlamoq, qovurmoq, qizdirmoq, kuydirmoq, yopmoq, qizimoq; **cuire à point** tayyor bo'lguncha qaynatmoq; *fam* **c'est un dur à cuire** tepsa tebranmas, og'ir karvon, keti og'ir, terisi qattiq odam; **2.** quritmoq, namini qochirmoq, qizdirib cho'q qilmoq, kuydirmoq, yondirmoq, yoqmoq, kokslamoq, koksga aylantirmoq; kanalizasiya qilmoq (*kauchukni*); **cuire des briques** g'isht pishirmoq; **II.** *vi* **1.** pishmoq, qaynamoq, yopilmoq, qovirilmoq, qizimoq, quymoq; **faire cuire** qaynatmoq, pishirmoq, qovurmoq; **2.** yonmoq, kuymoq, sezish; yoqmoq; **3.** kuyib qolmoq, kuydirmoq, kuymoq; **il pourrait vous en cuire** ta'ziringizni yeyishingiz mumkin.

**cuisine** *nf* **1.** oshxona, o'choq boshi; **cuisine roulante** ko'chma oshxona; **batterie de cuisine** oshxona anjomlari, idish-tovoq; **2.** pazandalik, pazandalik san'ati; taomlar yig'indisi; **bonne cuisine** yaxshi taomlar; **faire la cuisine** ovqat pishirmoq; **3.** *fam* ovqat tayyorlash, ro'zg'or ishlari; **la cuisine politique** siyosiy ig'vo, fisq-fujur.

**cuisiné I.** *vi* tayyorlamoq, hozirlamoq, pishirmoq, pishiriq bilan shug'ullanmoq, ovqat pishirmoq; **II.** *vt* **1.** pishirmoq, tayyor qilmoq, pishiriq qilmoq; **cuisiné un ragoût** ragu pishirmoq; **2.** *fam* naridan-beri, yumaloq-yassi, eplab-seplab ovqat tayyorlamoq, biron narsani tayyorlamoq; **3.** *fam* qiynab, azob berib so'roq qilmoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq.

**cuisinier, ière** *n* **1.** oshpaz, pazanda; *prov* **plus il y a cuisiniers moins la soupe est bonne** ayagan ko'zga cho'p tushar, qo'ychivon ko'p bo'lsa qo'y harom o'ladi; **2.** oshpazlik, pazandalik daftari; **3.** oshxona o'chog'i, plitasi, pechkasi.

**cuissardes** *nf pl* botqoqlikda kiyiladigan etik.

**cuisse** *nf* **1.** soni, son go'shti (*parrandada*); **se croire sorti de la cuisse de Jupiter** o'ziga haddan tashqari ortiqcha bino qo'ymoq, o'ziga ishonib ketmoq; **2.** oyoq (*otliq, odam oyog'ining tizzasidan tovonogacha bo'lgan qismi*); **3.** orqa son go'shti bo'lagi.

**cuisson** *nf* **1.** ovqat pishirish, yopish, qovurish, ovqat qilish; **2.** *techn* kuydirish, qizdirib pishirish, kokslash; **3.** qattiq og'riq, kuyishni his qilish, kuyish.

**cuissot** *nm* orqa son go'shti (*to'ng'iz, bug'u, kiyikning*).

**cuistancier, cuistot** *nm mil, fam* oshpaz, pazanda, ovqat tayyorlovchi, pishiruvchi; ovqat tarqatuvchi, ulashuvchi.

**cuistre** *nm* **1.** o'taketgan rasmiyatchi, sinchkov, maydakash, rasmiy talablarni bajarishga zo'r beruvchi kishi; **2.** *vx* qorovul (*maktabda*); **3.** surbet, yuzsiz, orsiz, dag'al, beadab, ahmoq, galvars, kallavaram.

**cuistrerie** *nf* o'taketgan rasmiyatchilik, sinchkovlik, pedantlik, pedantizm.

**cuit, cuite** *adj* **1.** qaynatilgan, qaynatib pishirilgan, qaynatma, pishirilgan xo'rda; **des pommes cuites** pishirilgan olma; **cuit à point** yaxshi qaynatib pishirilgan, qovurib yuborilgan; **c'est du tout cuit** *fam* ish joyida hamma ish yaxshi, muvaffaqiyatli tugadi, ish besh; **être cuit** *fam* halok bo'lmoq, xarob, barbod, nobud bo'lmoq, yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq; uchramoq, yoliqmoq, qo'lga tushmoq, firib, pand yemoq; **2.** kuydirilgan, qizdirib pishirilgan, yondirilgan; **face cuite** quyoshdan kuygan yuz.

**cuite** *nf* **1.** pishirish, o'tda pishirish, kuydirish (*chinnini, g'ishtni*); **2.** *fam* ichkilikbozlik, aroqxo'rlik, mastlik; **prendre une cuite** to'yib ichmoq, ichib mast bo'lmoq, ko'p ichmoq; **3.** *fam* xato ish, xatolik, xato, ayb, gunoh, aybdorlik, gunohkorlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**cuivre** *nm* **1.** mis; **cuivre natif** tabiiy mis, sof mis; **cuivre jaune** jez (*mis bilan rux qotishmasi*); **2.** mis naqqoshlik, oʻymakorlik taxtasi; **3.** *pl mus* diniy musiqa asboblari, truba; **4.** *pl* mis buyumlar, misdan ishlangan narsalar.

**cuivré, ée** *adj* **1.** mis rangli; **teint cuivré** bugʻdoyrang yuz; **2.** metall tovush chiqaradigan; **voix cuivrée** jaranglagan ovoz.

**cuivrer** *vt* **1.** mis qoplamoq, mis yopmoq, mislamoq; **2.** mis rangi bermoq, mis rangiga kirgizmoq.

**cul I.** *nm* **1.** *fam* orqa, ort, ket, orqa chiqaruv teshigi; *vulg* **en avoir plein le cul** ogʻzi-burnigacha toʻyib ketmoq; **être comme cul et chemise** ajralmas boʻlmoq; **2.** orqa qismi, orqasi; **cul de charrette** arava orqasi; **tirer au cul** har xil bahonalar bilan ishni kam qilmoq, dangasalik qilmoq; **3.** ichi, pasti, pastki qismi, ost, tub, tag, quyi, oxir; **cul de bouteille** shisha tubi, ichi; **faire cul sec** tagigacha, oxirigacha ichmoq; **II.** *adj fam* chala ishlangan, qilingan; **ce qu'il est cul!** eshakligini qarang!

**culasse** *nf* **1.** oʻq otuvchi qurolning oʻq solinadigan qismi; otish qurolining qulflovchi mexanizmi, qulf; **culasse mobile** miltiqning qulflovchi mexanizmi; **2.** motor silindri boshi; **3.** boʻyinturuq.

**culbutant, ante I.** *adj* agʻdariladigan, yiqitiladigan, qulatib, toʻntarib tashlanadigan; **II.** *nm arg* ishton, lozim, shim.

**culbute** *nf* **1.** dumbaloq oshish, agʻdarilish, yiqilib tushish, qulash; *sport* salto, umbaloq oshish; **faire une culbute** chirpirak boʻlib, dumbaloq oshib tushmoq; **2.** *fam* xonavayron boʻlish, xarob boʻlish, boridan ajralib qolish, halokat, sinish, barbod boʻlish, qulash, halokatga yoʻliqish; **faire la culbute** xonavayron boʻlmoq; **3.** *techn* pech kalishining qulashi; **4.** ikki barobar, ortiq qimmatga sotish.

**culbuter I.** *vt* agʻdarmoq, qulatmoq, yiqitmoq, agʻdarib, qulatib, yiqitib yubormoq, agʻanatmoq, toʻntarmoq, toʻnkarib, toʻntarib qoʻymoq, urib yiqitmoq, sindirib tashlamoq, kesmoq; **II.** *vi* **1.** chirpirak, umbaloq oshmoq, oʻqday otilib chiqmoq, ketmoq, agʻdarilmoq, yiqilmoq, toʻnkarilmoq, qulamoq; **2.** *fam* halokatga uchramoq; puchga chiqmoq.

**culbuteur** *nm techn* **1.** agʻdargich, qulatgich, yiqitqich qurilma; **2.** qopqoq, klapan shayini, richagi, pishangi.

**cul-de-basse-fosse** *nm* yertoʻla, yerosti zindon, qiynoqxona, vahshatxona, gʻor.

**cul-de-four** *nm* sharsimon, dumaloq qubba, gumbaz.

**cul-de-jatte** *nm* oyoqsiz, choʻloq, shol, mayib, majruh, nogiron.

**cul-de-lampe** *nm* **1.** *typogr* lavha, bezak; **2.** *archit* ganchkor ship, shipga yopishtirilgan chiroq qopqogʻi.

**cul-de-sac** *nm* **1.** boshi berk koʻcha, kalta koʻcha, boshi berk iz, yoʻl, ilojsizlik, chorasizlik; **2.** *anat* qopchiq, xaltacha, xalta.

**culée** *nf* koʻprik ustunlari, tirgaklari; koʻndalang qoʻyilgan qirgʻoq toʻsini; ravoq, darvoza, toq suyanchigʻi.

**culinaire** *adj* pazandalikka, oshpazlikka oid, oshga solinadigan, oshpazlik….

**culminant, ante** *adj* tek tepaga kelgan, meridiyandan oʻtayotgan, eng avjga chiqqan, eng yuqori nuqtasiga chiqqan, eng qizigan; **point culminant** eng yuqori nuqta, eng avji.

**culmination** *nf* **1.** *astron* meridian chiziqdan oʻtmoq; **2.** *fig* eng yuqori nuqta, kulminasion choʻqqiga chiqmoq, eng avjiga minmoq.

**culot** *nm* **1.** devorning pastki qalinroq qismi, sokol; **2.** quyqum, quyqa, choʻkindi; **3.** *fam* dagʻallik, qoʻpollik, qoʻrslik, toʻrslik, dagʻal muomala, surbetlik, bezbetlik, beorlik, uyatsizlik, yuzsizlik, sullohlik, behayolik; oʻziga bino qoʻyish, ortiqcha ishonish; **avoir du culot** surbet boʻlmoq, surbetlashmoq; **avoir le culot de** shilqimlik, gustohlik qilmoq, yomon ish qilmoq, gapirmoq.

**culotte** *nf* **1.** kalta shim; **culotte bouffante** shalvar, cholvor; **culotte de peau** zamshdan tikilgan harbiy shim; *fam* keksa askar, jangchi; **porter la culotte** oilada boshchilik, xoʻjayinlik qilmoq; **2.** ishtoncha, kalta ishton, trusik.

**culotté, ée**[1] *vt* kiygan, kiyingan.

**culotté, ée**[2] *adj* koʻp chekilgan (*trubka, chilim haqida*); **nez culotté** mastlikdan burni qizil; **être culotté** *fam* surbet boʻlmoq.

**culotter**[1] *vt* ishton, shim kiydirmoq, kiygizmoq.

**culotter**[2] *vt* chilimni koʻp chekmoq.

**culpabiliser** *vt* ayblamoq, gunohkor qilmoq.

**culpabilité** *nf* aybdorlik, gunohkorlik; **complexe de culpabilité** gunohkorlik, gunohlar majmui.

**culte** *nm* **1.** topinish, sigʻinish, ibodat, sajda qilish, choʻqinish, bosh egish, tan berish, boʻyin egish; **vouer, rendre un culte à** bosh egmoq, sajda qilmoq; **2.** namoz, ibodat, qilish; **venir au culot** cherkovga qatnamoq, bormoq.

**cul-terreux** *nm fam* dehqon, omi.

**cultivable** *adj* ishlanadigan, ishlab boʻladigan, ishlovchi, ekishga yaroqli, foydali (*yer haqida*); **terre cultivable** haydaladigan, ekiladigan yerlar.

**cultivateur, trice I.** *adj* ziroatchilik dehqonchilikka oid; **II.** *n* ziroatchi, dehqon, gʻallakor; **3.** *nm agr* kultivator, yerni ishlovchi.

**cultivé, ée** *adj* **1.** ishlangan, haydalgan, ishlov berilgan; **2.** madaniy, madaniyatli, maʼrifatli, keng maʼlumotli, oʻqimishli, bilimli, bilimdon.

**cultiver** *vt* **1.** ishlamoq, ishlov bermoq, ishlab tayyorlamoq, yetishtirmoq, oʻstirmoq; **cultiver la petite fleur bleue** *fam* hissiyotga berilmoq, tez taʼsirlanadigan boʻlmoq, tez hayajonlanmoq; **2.** singdirmoq, oʻrnatmoq, yoymoq, tarbiyalamoq, orttirmoq, oʻstirmoq; odatlantirmoq; **cultiver un goût**; ishtiyoq, havas, qiziqish uygʻotmoq; **cultiver la connaissance** tanishmoq; **3.** ilm olmoq, maʼrifat tarqatmoq, oqartmoq; **4.** oʻstirmoq, rivojlantirmoq (*aqlni*); **se cultiver** bilim olmoq, maʼrifatli boʻlmoq.

**cultuel, elle** *adj* ibodat, namoz bilan bogʻliq boʻlgan, ibodatga doir.

**cultural, ale** *adj* qishloq xoʻjalik oʻsimliklariga aloqador.

**culture** *nf* **1.** madaniyat, maʼrifat, oʻqimishlilik; **culture des lettres** adabiyotni oʻrganish; **manque de culture** madaniyatsizlik, nodonlik; **de grande culture** juda, yuqori madaniyatli; **culture physique** jismoniy tarbiya; **2.** yerni ishlash, yerga ishlov berish; **culture parcellaire** tarqoq yer (*oʻzga xoʻjalik yerlari ichida joylashgan parcha-parcha yerlar*); **grande culture, grosse culture** yirik yer xoʻjaligi, katta, koʻp, yirik yerga ega boʻlish; **3.** ekin, ekish, oʻstirish, yetishtirish, parvarish qilish, koʻpaytirish (*oʻsimlik, ari, bakteriya*); **4.** *agr* ekinlar; **cultures industrielles** texnika ekinlari; **cultures céréalières** don ekinlari; **cultures d'automne** kuzgi ekinlar; **cultures maraîchères** sabzavotchilik, sabzavotkorlik.

**culturel, elle** *adj* madaniy, oqartuv, maʼrifat; **échanges culturels** madaniy aloqalar; madaniy aloqalar almashish; **attaché culturel** madaniy aloqalar; madaniy aloqalar vakili (*diplomatiyada*), attashe.

**cumin** *nm bot* zira (*oʻsimlik, urugʻi*).

**cumul** *nm* **1.** qoʻshimcha vazifa, qoʻshimcha xizmat, qoʻshimcha mehnat vazifasi; **2.** *dr* jamuljam, hammasi boʻlib jazo berish.

**cumulard** *nm fam* qoʻshimcha vazifada ishlovchi, xizmatchi, bir qancha qoʻshimcha vazifalarda ishlovchi odam.

**cumulatif, ive** *adj* **1.** qoʻshimcha vazifada ishlaydigan; **2.** *dr* gunoh, ayblar majmui, yigʻindisi.

**cumuler** *vt* **1.** qoʻshimcha vazifada ishlamoq, ikki ishni, vazifani bajarmoq; **2.** *dr* gunoh, ayblar yigʻilmoq, toʻplanmoq, yigʻmoq.

**cumulus** *nm* toʻp-toʻp bulutlar.

**cunéiforme** *adj* ponasimon, ponaga oʻxshash, pona shaklidagi; **écritures cunéiformes** mix xat, xatti mixi (*harflari ponaga oʻxshagan yozuv*).

**cupide** *adj* ochkoʻz, hirs qoʻygan, oʻch, suq, mukkasidan ketgan, xasis, baxil, ziqna; qizgʻanchiq, gʻarazli, tamagir, manfaatparast.

**cupidité** *nf* ochkoʻzlik, suqlik; xasislik, baxillik, ziqnalik, hirs; tamagirlik, manfaatparastlik.

**curable** *adj* tuzaladigan, sogʻayadigan, shifo topadigan, davolab boʻladigan, davosi bor.

**curaçao** *nm* kuraso (*likyor*).

**curare** *nm* kurare, baʼzi oʻsimliklardan olinadigan kuchli zahar (*dori sifatida ishlatiladi*).

**curateur, trice** *n* **1.** vasiy, nozir, mutavalli; **2.** mutasaddi, nozir, kurator, rahbar, qarovchi.

**curatif, ive** *adj* shifobaxsh, shifoli, davo boʻladigan, dorivor; **propriété curative** shifobaxsh xususiyati.

**curcuma** *nm bot* zarchoʻva, zarchava.

**cure** *nf* **1.** davolash, davolanish, davo, muolaja, davolanish davri; **cure thermale** suv bilan davolanish; **cure d'air** havo bilan davolash; **station de cure** kurort, davolanish joyi; **faire, suivre une de** davolanish davrini amalga



www.ziyouz.com kutubxonasi

oshirmoq; **2.** *vx* g'amxo'rlik, jonkuyarlik, nazorat qilib turish, qarab turish, parvarish, tarbiya qilish; **il n'en a cure** u g'am ham yemaydi, parvoyi falagiga ham keltirmaydi; **3.** cherkov qavmi, prixodi.

**curé** *nm* kyure, katoliklar ruhoniysi, cherkov qavmi kashishi, popi; *prov* **tel curé, telle paroisse** eshagiga yarasha tushovi, mol egasiga o'xshamasa harom o'ladi.

**cure-dent** *nm* **1.** tish tozalagich; **2.** *mil, fam* nayza.

**curée** *nf* **1.** parranda go'shtining bir qismi, bo'lagi ovning bir bo'lagi (*itga tashlanadigan*); **2.** *fig* o'lja, qo'lga kiritilgan narsa, g'animat; **âpre à la curée** ochko'z, xasis, baxil.

**cure-ongles** *nm inv* tirnoq tozalagich.

**cure-oreille** *nm* quloq tozalaydigan pilik.

**cure-pipe** *nm* trubka, chilim tozalagich asbob.

**curer I.** *vt* tozalamoq, qirib-qirtishlamoq, artmoq, yuvmoq, shilmoq, kurab-sidirib tashlamoq, tagida qolganini ketkizmoq; **II. se curer** *vpr* tozalanmoq, artinmoq, yuvinmoq, qashlanmoq; **se curer les dents, le nez** tishlarini, burnini kovlamoq, tozalamoq.

**curetage** *nm* **1.** *chir* qirib, qirtishlab tozalash; **2.** mahallani eski qurilishlardan tozalash.

**curie**[1] *nf* Rim papasi hokimiyatining markaziy idoralari, senat.

**curie**[2] *nm* kyuri, radioaktivlikning o'lchov birligi.

**curieusement** *adv* **1.** zo'r qiziqish bilan; **2.** g'alati, qiziq, ajablantirib, g'ayrioddiy.

**curieux, euse I.** *adj* **1.** sinchkov, har narsani bilishga intiluvchi, qiziquvchi, qiziq, g'alati, ajib, qiziqib qarovchi; **2.** qiziq, qiziqarli, qiziqtiradigan, ajib, kulgili, alomat; **curieuse affaire** kulgili voqea; **fait curieux** g'alati voqea, hangoma, g'alati ish; **II.** *n* **1.** sinchkov, qiziquvchi; **2.** *nm fam* tergovchi.

**curiosité** *nf* **1.** sinchkovlik, har narsani bilishga intilish, qiziquvchanlik, bilimga intilish; **2.** *pl* nodir, noyob, kamyob narsalar, diqqatga sazovor joylar, yodgorliklar.

**curiste** *n* mineral suvlarda davolanuvchilar.

**curriculum vitæ** *nm* tarjimai hol.

**curry** *nm* **1.** kurri (*hind ziravorlari, dorivori*); **2.** ziravorli va guruchli, g'shtli ovqat, taom.

**curseur** *nm* **1.** *techn* yigirish mashinasining ipni dukka to'g'rilab turadigan qismi, mashina mexanizmlarining to'g'ri chiziq bo'ylab sirg'aluvchi qismi, surilgich, yugurdak, ko'chma elektr stansiya; **2.** sirg'aluvchan aloqa, kontakt; **3.** o'zgarib turadigan ko'rsatgich, ko'chirib turadigan belgi.

**cursif, ive I.** *adj* tez yozuv usuliga asoslangan, tez yozuv usulidagi, tez yozuv; **II.** *nf* tez, sodda yozuv, yozish.

**curule** *adj hist* fil suyagidan ishlangan kursi; **chaise curule** kurul kreslosi, o'tirg'ichi (*Rim senatida*).

**curviligne** *adj géom* qiyshiq chiziqli.

**cutané, ée** *adj anat* teriga oid, teri.

**cuti-réaction** *nf méd* teri sezishi, ta'sirlanishi reaksiyasi, sil, o'pka kasalligiga ta'sirlanish, pirka qilish.

**cuve** *nf* **1.** chan, ochiq bochka (*yog'och*); **cuve collectrice** quyib olinadigan yog'och chelak; **cuve de fermentation** biror narsa achitiladigan idish, xamir oshiriladigan tog'ora; **2.** poydevor yotqizish uchun qazilgan chuqur, kotlavan.

**cuvée** *nf* tok hosili, uzum.

**cuvelage** *nm* shaxtani mahkamlash, yog'och to'sinli shaxta, kon; **bois de cuvelage** yog'och mahkamlagich.

**cuver I.** *vi* **1.** yogoch idishda achitmoq, bijg'imoq; **2.** tinmoq, tinib qolmoq, ob-tobiga kelmoq, qaymoq bog'lamoq; **II.** *vt* **cuver son vin** *fam* ko'p ichgandan keyin uyg'onmoq; **cuver sa honte** uyatini, sharmandaligini og'ir o'tkazmoq.

**cuvette** *nf* **1.** tog'ora, jom, yog'och tovoq, zarang kosa, yog'och chelak; **2.** rasm ishlaydigan idishcha, kuveta, kosacha, barometr; **3.** *géog* chuqurlik.

**cyanhydrique** *adj* sionsuvli; **acide cyanhydrique** sionsuvli kislota, sionid kislota (*zahar*).

**cyanose** *nf méd* ko'kariq, ko'karib qolgan joy, sianoz.

**cyanure** *nm* sion gazi, zahari, sionid gazi, sion qorishma, qo'shilma; **cyanure de potassium** sionli kaliy.

**cybernéticien, ienne I.** *n* kibirnetik, kibirnetika mutaxassisi; **II.** *adj* kibernetikaga doir, oid.

**cybernétique I.** *nf* kibernetika (*fan*); **II.** *adj* kibernetikaga oid, taalluqli.

**cyclable** *adj* velosipedda yurishga mo'ljallangan; **piste cyclable** velosipedchilarga yo'l.

**cyclamen** *nm* siklomen, alp binafshasi, gunafshasi.

**cycle** *nm* **1.** sikl, davr, vaqt, tugallangan aylana, jarayon; **cycle solaire** quyoshning aylanish davri; **cycle réversible** aylantirib bo'lmaydigan jarayon; **cycle par seconde** sekund, daqiqalarda aksini topgan davrlar sanasi, gers (*tebranish tezligini o'lchov birligi*); **cycle à deux, à quatre temps** ikki, to'rt taktli, fazali davr (*motorda*); **2.** velosiped; **industrie de cycle** velosiped, motosikl zavodi, sanoati.

**cyclique** *adj* davriy, aylanma, aylanuvchan; **crise cyclique** davriy tansiqlik, inqiroz.

**cyclisme** *nm* velosiped sporti.

**cycliste I.** *adj* velosipedga oid; **course cycliste** velosiped poygasi; **II.** *n* velosipedchi (*velosiped haydovchi*).

**cycliste** *nf chim* benzilbromid.

**cyclone** *nm* **1.** siklon (*havo girdobi*), bo'ron, dovul; **2.** siklon (*havo, gazni har xil qattiq jismlardan tozalaydigan asbob, markaziy ventilyator, havo tozalagich, markaziy chang tutqich, ushlagich*).

**cyclopéen, enne** *adj* juda katta, zo'r, azim, bahaybat, ulkan; **appareil cyclopéen** (*qurilishda*) zo'r qurish, qurilish.

**cyclotron** *nm phys* siklotron, yadro tadqiqotida zaryadlangan og'ir mikrozarrachalarni tezlatadigan qurilma (*asbob*).

**cygne** *nm* **1.** oqqush, quv; **blanc comme un cygne** oppoq, qorday, paxtaday oq; **cou de cygne** oqqush, nozik, uzun bo'yin; **en col de cygne** S (es) simon, shaklidagi, S harfiga o'xshash; **chant du cygne** *fig* hayotidagi so'nggi asar, ish; **2.** kichkina suzib yurgan muz parchasi.

**cylindre** *nm* **1.** *géom* silindr (*jism yoki shakl*); **2.** *techn* porshenli mashinaning shu shakldagi qismi, val, g'altak mashina (*yer tekislaydigan va tig'izlaydigan*); **cylindre de laminage** metall yoyadigan katta chig'ir vali, g'o'lasi, shibbalagich, shibbalab tig'izlagich asbob (*mashina*); **une six cylindres** olti silindrli dvigateli, matori bor avtomobil.

**cylindrée** *nf* silindr hajmi, sig'imi; **voiture à petite cylindrée** kamlitrajli, sig'imi kam mashina.

**cylindrer** *vt* **1.** silindr shakli bermoq, shakliga kirgizmoq; **2.** yo'lni shibbalab, tig'izlab, bosib tekislamoq, toptab tekis qilmoq; **3.** g'altak, g'o'la yurgizib tekislamoq, silliqlamoq, yassilamoq, yaltiratmoq, pardoz, jilo bermoq, kudunglamoq, gazmol, qog'oz, rezinani yoyib silliqlab chig'irlamoq.

**cylindrique** *adj* silindrsimon, shaklidagi, slindrga oid, aloqador.

**cynique I.** *adj* beadab, uyatsiz, hayosiz, surbet, orsiz; **II.** *nm* surbet, beadab, uyatsiz, hayosiz, orsiz odam.

**cyniquement** *adv* hayosizlarcha, surbetlarcha, uyatsizlik, beodoblik bilan.

**cynisme** *nm* beadablik, surbetlik, hayosizlik, uyatsizlik, orsizlik, behayolik, nomussizlik.

**cynocéphale** *nm* babuin, ittumshuq maymun.

**cyprès** *nm* sarv (*daraxt*).

**cyprin** *nm* qizil baliq.

**cyrillique** *adj* **alphabet cyrillique** *ling* kirill yozuvi, slovyan yozuvi, alifbosi.

**cystite** *nf* sistit, siydik qovug'ining yallig'lanishi.

**cytise** *nm* sariq gulli buta.

**cytologie** *nf biol* sitologiya, hujayra haqidagi fan.

**cytoplasmique** *adj* protoplazmaga oid.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# D

**D, d** *nm* **1.** fransuz alifbosining to'rtinchi harfi; **2.** *fam* **le système D: le système des gens débrouillards** D tuzumi: yo'l-yo'rig'ini, imkoniyatini topa oluvchi odamlar, uddaburolar tuzumi.

**d'abord** *loc adv voir* **abord**.

**d'accord** *loc adv voir* **accord**.

**dactylo** *n* **1.** mashinkada yozuvchi, mashinkachi; **2.** *nf* mashinkada yozish.

**dactylographe** *nm* mashinka, yozish mashinasi (*Kanadada*).

**dactylographie** *nf* mashinkada yozish.

**dactylographier** *vt* mashinkada yozmoq, yozib olmoq.

**dactylologie** *nf* daktilologiya, barmoq tili (*kar-soqovlarning imo-ishorasiga asoslangan o'zaro tili*) alifbosi.

**dactyloscopie** *nf* daktiloskopiya (*barmoq izlari va ularga qarab kishilarning shaxsini aniqlash*).

**dada** *nm* **1.** *enf* ot; **2.** *fig fam* sevimli mavzu, sevgan, yaxshi bilgan narsasi, fikri-zikri; **enfourcher son dada** o'z mavzusiga, temasiga qaytavermoq.

**dadais** *nm fam* sodda, anqov, ahmoq.

**dague** *nf* xanjar.

**dahlia** *nm bot* georgin, kartoshka gul.

**daigner** *vt* lozim ko'rmoq, marhamat qilmoq, loyiq ko'rmoq, topmoq; **daignez agréer** marhamat qilib qabul qiling! (*hurmat ma'nosida*).

**daim** *nm* **1.** xon bug'u; **2.** yumshoq bug'u charmi, zamsh, ag'darma teri.

**dallage** *nm* **1.** tosh yotqizish; **2.** ko'chaga yotqizilgan toshlar.

**dalle** *nf* yassi tosh, to'rtburchak, yassi g'isht, plitka, kafel; **dalle funèbre** qabr toshi.

**daller** *vt* tosh yotqizmoq, qo'ymoq, qoplamoq, kafel, g'isht, tosh termoq.

**dalmatien** *nm* dalmat iti.

**daltonien, enne** *adj, n* ranglarni farqlayolmaydigan (*asosan qizil va yashilni*).

**daltonisme** *nm* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*).

**dam** *nm* **1.** ziyon, zarar; **2.** ayblash, qoralash, aybga buyrish, la'nat, qarg'ish, nafrat.

**damas** *nm* **1.** dama (*ich kiyim uchun mato*), bezakli gazmol; **2.** damashq po'lati, qilichi; **3.** damashq olxo'risi.

**damasquinage** *nm* **1.** po'lat buyumlarga qilingan o'yma naqsh, bezak; **2.** o'ymakorlik san'ati.

**damasquiner** *vt* po'lat buyumlarga oltindan o'yib ishlamoq, bezamoq.

**damassé, ée** *adj* guldor, naqshli, bezakli.

**damasser** *vt* guldor qilib to'qimoq, naqsh solmoq.

**dame** *nf* **1.** xotin, ayol, xonim; bonu; **2.** xonim, bonu (*boy ayollarga*); **3.** erli ayol, xotin; **4.** xotin zoti, urug'i; **5.** vazir (*shaxmotda*); **6.** dama (*qarta o'yinida*); **7.** bosqon, katta bolg'a.

**dame-jeanne** *nf* katta shisha idish.

**damer** *vt* **1.** damkaga aylantirmoq (*shashka o'yinida*); **damer le pion à qqn** qo'li baland kelmoq, yutib chiqmoq; **2.** yerni shibbalamoq, qoziq qoqmoq.

**damier** *nm* **1.** shahmat taxtasi, doskasi; **2.** kataklarga bo'lingan yuza.

**damnation** *nf* jazo, azoblash, xo'rlash, ezish, qiynash, do'zax azobiga solish.

**damné, ée** *adj* la'natlangan, mal'un, murtad, badbaxt, xo'rlangan.

**damner** *vt* **1.** la'natlamoq, qarg'amoq, xo'rlamoq; **2.** murtad deb e'lon qilmoq, yo'ldan ozdirmoq, ayblamoq, qoralamoq; **se damner** ayblanmoq, qoralanmoq, yo'ldan ozmoq.

**dan** *nm* yaponcha kurashning sinflash darajasi.

**dandinement** *nm* lapanglab yurish, beso'naqay, qo'pol harakat.

**dandiner (se)** *vpr* lapanglab yurmoq, chap yoniga tashlab yurmoq.

**dandinette** *nf* xo'raki, tuzoq, qarmoq.

**dandy** *nm* olifta, bashang.

**dandysme** *nm* oliftachilik, bashang kiyinib yurish.

**danger** *nm* xavf-xatar, tahlika, qo'rqinch, xavflilik; **danger de guerre** urush xavfi; **la patrie est en danger** vatan xavf ostida; **mettre en danger** tahlikaga tushirmoq.

**dangereusement** *adv* xatarli, xavfli, bezovtalik bilan.

**dangereux, euse** *adj* **1.** xavfli, xatarli, qo'rqinchli, harakatli; **2.** yovuz, zararli battol, ziyon etkazadigan.

**dangerosité** *nf* xavflilik, zararlik, harakatlilik.

**danois, oise I.** *adj* Daniyaga oid, daniyalik; **II.** *n* **1.** daniyalik; **2.** *nm* daniya tili; **3.** *nm* daniya iti.

**déplier** *vt* **1.** yozmoq, ochmoq, ochib kengaytirmoq; **déplier le journal** ro‘znomani ochmoq; **2.** to‘g‘rilamoq, tekislamoq.

**déplissage** *nm* taxi, qatini qo‘yib yuborish, ochib yuborish, taxini tekislash, to‘g‘rilash, dazmollash, dazmol qilish.

**déplisser** *vt* taxini, qatini, burmani qo‘yib, yozib, ochib yubormoq, dazmollamoq.

**déploiement** *nm* **1.** ochish, yozish, ochib, yozib ko‘rsatish, namoyon, namoyish qilish; **2.** ko‘rgazmaga qo‘yish, ko‘rgazma.

**déplorable** *adj* o‘ta achinarli, ayanchli, ayanch, achintiradigan, nochor, ojiz, ro‘dapo, afsusga loyiq, qayg‘uli, hasratli, mungli, hazin.

**déplorer** *vt* aza tutib yig‘lamoq, ko‘z yoshi to‘kmoq, achinmoq, afsuslanmoq; o‘kinmoq, afsus, pushaymoq bo‘lmoq, qilmoq.

**déployer** *vt* **1.** yozmoq, yoymoq, yechmoq, ochmoq; **2.** ko‘rsatmoq, namoyon qilmoq; **déployer son zèle** qunt, g‘ayrat qilmoq; **déployer une grande activité** katta faoliyat ko‘rsatmoq, g‘ayrat qilmoq.

**déplumé, ée** *adj* **1.** pati yulingan, pati yulib olingan; **2.** *fam* sochi to‘kilgan, sochi to‘kilib siyqalagan, kal, yaltirbosh, toz; **il est bien déplumé** *fam* u juda-juda muhtoj.

**déplumer I.** *vt* patini yulmoq, yulib olmoq; **II. se déplumer** *vpr* **1.** patini yo‘qotmoq, pati to‘kilmoq; **2.** *fam* sochi to‘kilmoq, sochi to‘kilib siyqa, toz, yaltiroq, kal bo‘lib qolmoq.

**dépoitraillé, ée** *adj fam* ko‘kragini keng ochib qo‘ygan, yaxshi yopmagan.

**dépolir** *vt* xiralantirmoq, xira qilmoq, jilosini, yaltirog‘ini, sayqalini ketkazmoq, olib tashlamoq.

**dépolitisation** *nf* siyosatdan o‘zini olib qochish, siyosatdan yiroqlik, siyosiy hayotdan chetda turish, siyosatga aralashmaslik, siyosiy jo‘nalishdan mahrum bo‘lish.

**dépolitiser** *vt* siyosiy jo‘nalishdan mahrum qilmoq, siyosatga aralashmaydigan qilmoq.

**déponent, ente** *adj gram* fe’lning passiv, majhul darajasi.

**déportation** *nf* surgun, surgun qilish, badarg‘a qilish, quvg‘in, aholini haydab ketish; chet davlatdagi konslagerga jo‘natish.

**déporté, ée I.** *adj* siyosiy mahbus, surgun, badarg‘a, quvg‘in qilingan, haydab ketilgan (*aholi*); **les déportés** majburiy haydab ketilganlar; **II.** *nm* mahbus, bandi.

**déporter** *vt* **1.** surgun, badarg‘a qilmoq, surgunga jo‘natmoq, haydab ketmoq, majburiy ko‘chirmoq, ko‘chirib yubormoq; chet davlatdagi konslagerga jo‘natmoq; **2.** yo‘ldan chiqib ketmoq, yo‘ldan adashmoq (*samolyot, avtomobil*).

**déposer**[1] *vt* **1.** olib tashlamoq, soqit qilmoq, o‘zidan, bo‘ynidan, boshidan soqit qilmoq; **déposer le fardeau** yukni olib tashlamoq, soqit qilmoq; **déposer les armes** qurolni topshirmoq; **2.** qo‘ymoq, solmoq, joylamoq, yotqizmoq; **déposer une marque de fabrique** fabrika tamg‘asini qo‘ymoq; **déposer des ordures** axlat, chiqindi solmoq, tashlamoq; **3.** olmoq, olib qo‘ymoq (*devordan*); **4.** joylamoq, joylashtirmoq, omborga solib qo‘ymoq, saqlashga bermoq, qo‘ymoq (*omonat kassaga*); **5.** olib borib bermoq, tashib bermoq, tashib bo‘lmoq, tashib, olib borib tushirmoq; **déposez-moi ici!** meni shu yerga tushiring! **6.** ag‘darmoq, tushirmoq, yiqitmoq, joyidan, o‘rnidan olib tashlamoq, bo‘shatmoq, tushirmoq (*mansabdan*); **7.** (*taklif*) kiritmoq, kirgizmoq, hozir qilmoq; **déposer une motion de censure** ishonchdizlik bildirmoq; **déposer une motion de renvoi** yuqori idoraga rasmiy talabini o‘tkazish uchun taklif kirgizmoq; **déposer un ordre de jour** kun tartibini taklif qilmoq; **déposer un projet** loyhani taqdim qilmoq; **déposer une thèse** dissertasiyani taqdim qilmoq; **déposer une plainte** shikoyat bermoq; **déposer ses revendications à** talabnoma topshirmoq; **déposer son bilan** o‘zini bechorahol, kambag‘al, nochorn faqir deb e’lon qilmoq; **8.** tashib, oqizib olib kelmoq (*qum*).

**déposer**[2] *vi* **1.** guvohlik bermoq, ko‘rsatmoq, shohidlik qilmoq, ko‘rsatma, dalolat bermoq; **2.** o‘tirmoq, cho‘kmoq, bosmoq (*qum*).

**dépositaire** *n* **1.** maqsadli saqlash uchun pul qo‘yuvchi, qo‘ygan odam; **2.** saqlovchi, asrovchi, qo‘riqlovchi, soqchi sohib, egasi, tarqatuvchi; **dépositaire de la pensée** qandaydir bir fikr ifodalovchi, bir fikr egasi, nazariya sohibi, egasi, tarqatuvchisi, ta’limot egasi.

**déposition** *nf* **1.** ag‘darish, to‘ntarish, yiqitish, tushirish, qulatish, bitirish, yo‘q qilish, almashtirish; **2.** *dr* guvohlik, shohidlik ko‘rsatish.

**déposséder** *vt* egalik huquqidan mahrum qilmoq, tortib olmoq, mol-mulkini olib qo‘ymoq.

**dépossession** *nf* egalik huquqidan mahrum qilish, tortib olish, mol-mulkni olib qo‘yish.

**dépôt** *nm* **1.** qo‘yilgan pul, omonat, hissa, ulush; to‘lash, to‘lov, badal, maqsadli omonat (*pul qo‘yish*); **dépôt à vue** yoqlab olinadigan (*sirtqi*) omonat; **banque de dépôt** maqsadli omonat banki; **2.** berish, kiritish, namoyish qilish (*tuzatishlarni*); **dépôt d’un projet** loyiha kirgizish; **dépôt d’amendements** matnga tuzatishlar kiritish; **dépôt de pièces** hujjatlarni ko‘rsatish; **3.** saqlashga berish, omonatga berish; **4.** saqlashga berilgan narsa; **5.** narsalar saqlanadiga joy, ombor; **dépôt de vivres** oziq-ovqat ombori; **dépôt de munitions** o‘q-dori ombori; **dépôt de carburant** yoqilg‘i ombori; **dépôt d’essence** benzin saqlanadigan joy; **6.** depo, park, bog‘ (*temir yo‘l, tramvay*); **dépôt d’autobus** avtobus bog‘i; **7.** *mil* safdan tashqaridagi polk turgan joy, yig‘ilish joyi, chaqiriq joyi; **8.** mahbus xonasi; *dr* **mandat de dépôt** ushlash haqidagi hukm, qaror; **9.** kelib-ketuvchilar uyi; **dépôt de mendicité** nafratlanish, hazar qilish, jirkanish uyi (*Parijda*); **dépôt mortuaire** o‘lik jasadlar tashaydigan joy, o‘likxona (*kasalxonada*); **10.** *méd* yiring bog‘lagan joy, fasad, yiring yig‘ilgan joy, chipqon; **11.** cho‘kindi, quyqa, loyqa, quyqum, cho‘kma; **dépôt actif** *phys* radioaktiv yig‘ilish, to‘planish, radioaktiv cho‘kindi; **12.** *géol* cho‘kindi, qatlam; **dépôt littoral** qirg‘oq yaqinidagi cho‘kindi, o‘tirish.

**dépotage** *ou* **dépotement** *nm* **1.** suyuqlikni boshqa idishga quyish, solish; **2.** ko‘chatni yerda, tuproqqa o‘tqazish, ko‘chat ekish.

**dépoter** *vt* **1.** boshqa idishga quymoq, solmoq (*suyuqlikni*); **2.** boshqa yerga o‘tqazish uchun tuvakdan olmoq (*o‘simlikni, gulni*).

**dépotoir** *nm* **1.** handaq, axlatxona, axlattepa; **2.** chiqindilarni qayta ishlash zavodi; **3.** qaznoq, kichkina omborxona (*eski-tuski narsalar tashlab qo‘yiladigan*).

**dépouille** *nf* **1.** po‘st (*ilon po‘sti*); **2.** teri (*mol terisi*); **3.** o‘lgan odamdan qolgan narsalar; **dépouille mortelle** o‘lik tan, jasad, murda; **4.** *pl* o‘lja, g‘animat, qo‘lga kiritilgan narsa.

**dépouillé, ée 1.** bargsiz, bargi to‘kilgan; **2.** terisi shilib olingan (*hayvon haqida*); **3.** yalang‘och, ochiq, qoq yalang; **4.** bezak, zeb-ziynatdan mahrum qilingan; ortiqchasiz (*uslub haqida*); **5.** talangan, o‘g‘rilangan, o‘g‘ri urib ketgan.

**dépouillement** *nm* **1.** yalong‘ochlash, ochish, ochib ko‘rsatish; **2.** sayozlik, soddalik, oddiylik, qashshoqlik; quruqlik (*uslub haqida*); **3.** rad etish, voz kechish, o‘zini mahrum qilish; **4.** talash, o‘g‘irlash, xonavayron qilish, mahrumlik; **5.** muhokama qilish, ko‘rish, ko‘rib, qarab chiqish, tahlil, tanqid qilish; **le dépouillement des statistiques** muvozanat borini tahlil qilish, o‘rganish; **dépouillement du courrier** pochtani ajratish, bo‘lish; **dépouillement du scrutin** ovozni sanash; **dépouillement d’un comte** hisobdan ko‘chirma.

**dépouiller I.** *vt* **1.** terisini, etini shilib olmoq, po‘sti, po‘stlog‘i, qobig‘ini archimoq; **2.** kiyimini yechmoq; **3.** o‘g‘irlamoq, talamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq; **4.** mahrum qilmoq, tortib olmoq, judo qilmoq, yo‘q qilmoq; **dépouiller qqn de sa charge** mansabdan chetlashtirmoq; **5.** *fig* uloqtirib tashlamoq, otmoq, uloqtirmoq; **dépouiller toute honte** har qanday uyatni, urf-odatlarni uloqtirib tashlamoq; **6.** navlamoq, navlarga ajratmoq, sinchiklab ko‘rib



www.ziyouz.com kutubxonasi

chiqmoq (*qog'ozlarni*), tekshirib ko'rmoq; **dépouiller sa correspondance, dépouiller son courrier** ajratmoq, olingan xat, pochtani ochib o'qimoq, tekshirib ko'rmoq; **dépouiller le scrutin** ovozlarni sanamoq, hisoblab chiqmoq; **7.** *techn* **dépouiller le moule** yer qolipdan namuna nusxani ko'chirmoq, chiqarib olmoq; **II. se dépouiller** *vpr* **1.** otmoq, yechmoq, yechib tashlamoq; **2.** yo'qotmoq; tashlamoq; **3.** xalos bo'lmoq, qutulmoq, tashlamoq, forig' bo'lmoq.

**dépourvu, ue** *adj* **(de qqch)** mahrum bo'lgan, qilingan; **dépourvu d'esprit** tentaknamo, ahmoqroq; **au dépourvu** *loc adv* qo'qqisdan, to'satdan, bexosdan, g'aflatda qoldirib; **prendre au dépourvu** to'satdan topmoq, ko'rib qolmoq.

**dépoussiérage** *nm* changni ketkazish (*yutdirish-pilesos bilan*); **dépoussiérage intégral** asosiy yig'ishtirish.

**dépoussiérer** *vt* changni qoqmoq, changdan tozalamoq.

**dépravant, ante** *adj* buzilgan, yo'ldan ozdirilgan, fahsh yo'liga kirgan, yomon yo'lga tushgan.

**dépravation** *nf* **1.** *méd* lat yeyish, ishdan chiqish, shikastlanish, izdan chiqish, buzilish; **2.** axloqi buzuqlik, axloqsizlik, badaxloqlik, buzulganlik, buzuqilikka, shahvatga berilganlik, yomon yo'lga kirganlik.

**dépravé, ée I.** *adv* buzuqi, buzilgan, yomon yo'lga kirgan, fahsh, shahvatga berilgan, axloqi buzuq, axloqsiz, odobsiz, yomon, aynigan; **II.** *n* xotinboz, fohishaboz, fosiq.

**dépraver** *vt* **1.** buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, shikastlamoq, lat, shikast yetkazmoq, ziyon yetkazmoq; **2.** buzmoq, fahsh yo'liga boshlamoq, yomon yo'lga kirmoq, axloqi buzuq bo'lmoq; **dépraver le goût** ta'mini aynitmoq.

**dépréciation** *nf* **1.** qadrsizlanish, beqadr bo'lish, qadrini ketkazish, qadri ketish, qimmatini tushirish, bahosizlanish; **2.** *fig* kamaytirish, bo'shashtirish, kamaytirib, ozaytirib ko'rsatish, yerga urish, kamsitish, bahosi tushib ketish, yomonlashish (*sifati*).

**déprécier I.** *vt* qadrsizlamoq, beqadr qilmoq, qimmatini tushirmoq, bahosizlantirmoq, bahosini pasaytirmoq, ahamiyatini kamsitmoq; **II. se déprécier** *vpr* qadrsizlanmoq, xor bo'lmoq, qimmatini yo'qotmoq, kamaytirmoq.

**déprédation** *nf* **1.** talon-taroj qilish, shilish, yulish; **2.** kamomad, kam kelish, chiqish, o'g'irlik, o'g'rlash.

**dépression** *nf* **1.** *géol* yemirilish, o'pirilish, chuqurlashish, chuqurlik, o'yiq joy, pastlik, past joy, qazilgan joy; **2.** o'tirish, cho'kish; **dépression du sol** yer cho'kishi, o'tirishi; **3.** qirilib ketish, qirib, kesib, buzib tashlash; **4.** kuch ketishi, kuchsizlanish, ruhiy kayfiyat, siqilish, ziqlik, ezilish, azob, zulm qilish, bo'g'ish, bo'g'ilish; **dépression nerveuse** tushkun holat, tushkunlik, inqiroz; **5.** *phys* buzilish, yemirilish, bosmning pasayishi, siyraklashish, siyraklanish, siyraklashuv, bo'shlik.

**déprimant, ante** *adj* ezuvchi, kayfiyatni buzadigan, bosib yanchadigan, ezadigan, bosadigan, yomonlashtiradigan, kuchsizlantiradigan, darmonini ketkazadigan.

**déprime** *nf* ruhiy tushkunlik holati, ruhiy siqilish.

**déprimer** *vt* **1.** bosmoq, siqmoq; **2.** kuchsizlantirmoq, zaiflashtirmoq; tushkunlikka tushirmoq, umidsizlantirmoq.

**dépuceler** *vt* norasida qiz bolani zo'rlamoq, nomusiga tajovuz qilmoq, iffatini buzmoq, iffatidan mahrum qilmoq.

**depuis** *prép* **1.** -dan, -dan boshlab, oldidan (*joy, o'rin*); **depuis Paris jusqu'à Marseille** Parijdan Marselgacha;. **travailler depuis quatre heures** soat 4 dan ishlamoq; **je ne l'ai pas vu depuis son départ** uni jo'nab ketganidan buyon, beri ko'rganim yo'q; **être malade depuis deux jours** ikki kundan beri o'zini kasal, betob his qilmoq; **depuis trois ans il a fait des progrès** uch yilda u muvaffaqiyatga erishdi; **depuis peu** yaqindan beri, yaqinda; **depuis longtemps** uzoq zamonlardan beri, allaqachon; **depuis toujours** hamma vaqt; **depuis quand?** qachondan buyon, beri? anchadan berimi; **2.** keyin, so'ng, so'ngra, keyinchalik, keyinroq, bir qancha vaqt o'tgach, shu paytdan beri, natijada; **je ne l'ai pas vu depuis** men uni shu paytdan beri ko'rmadim; *loc conj* **depuis que** -dan keyin, so'ng; **depuis que vous êtes ici rien n'a changé** shu yerda bo'lganingizdan beri hech narsa o'zgarmadi.

**dépuratif, ive** *adj méd* tanani zaharli moddalardan tozalaydigan, qon tozalaydigan.

**dépuration** *nf* qon tozalash.

**dépurer** *vt* tozalamoq.

**députation** *nf* **1.** vakil, deputat vazifasi, topshirig'i; **2.** tashrif; **3.** deputat majburiyati, vazifasi, burchi.

**député** *nm* deputat, noyib, saylangan vakil, parlament a'zosi; **chambre des députés** deputatlar palatasi.

**déracinement** *nf* **1.** tomiri, idizi bilan sug'urib olish; **2.** tag-tomiri bilan yo'q qilish, quritish, bitirish, tugatish.

**déraciner** *vt* **1.** tag-tomiri, ildizi bilan sug'urib olmoq; **2.** tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, quritmoq, tugatmoq, bitirmoq.

**déraillement** *nm* rels, temir yo'l izidan chiqib ketish; dumaloq g'ildirak, rolikdan sakrab ketish.

**dérailler** *vi* **1.** temir yo'l izidan chiqib ketmoq; dumaloq g'ildirakdan sakrab ketmoq; **faire dérailler** jarlikka qulatib yubormoq; **2.** *fig, fam* yo'ldan chiqmoq, adashmoq; **il déraille** u o'zida emas, uning hushi yo'q, behush, u aqldan ozdi.

**dérailleur** *nm* velosipedda tezlikni boshqa tezlikka o'tkazgich.

**déraison** *nf* o'ylamay ish qilish, bemulohazalik; **avoir un moment de déraison** ozgina o'zini yo'qotib qo'ymoq.

**déraisonnable** *adj* o'ylamay qilingan, muhokama, mulohaza qilib ko'rilgan, bemulohaza.

**déraisonner** *vi* bema'ni, bo'lmag'ur gap gapirmoq, ahmoqona, uydirma, yolg'on gap qilmoq.

**dérangé, ée** *adj* **1.** buzilgan, aynigan; **estomac dérangé** buzilgan oshqozon, qorin; **cerveau dérangé** aynigan miya, aql; **2.** bezovta qilingan, tashvishlantirilgan, tashvishga solingan.

**dérangement** *nm* **1.** to's-to'polon, tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, sog'likni ishdan chiqarish, ishni chatog'ini chiqarish, buzuqlik, siniqlik, tuzatilmaganlik (*mexanizmlarda*); **le numéro est en dérangement** telefon abonementi, ro'yxati tuzatilmagan; **2.** tashvish, notinchlik, xavotirlik, jonsaraklik, bezovtalik, tahlika; **causer du dérangement à qqn** tashvishlantirmoq, tahlikaga solmoq, tushirmoq; **3.** *géol* siljish, so'rilish, uzilma, uzilib siljib tushgan tog' jinsi.

**déranger I.** *vt* **1.** to's-to'polon, ayqash-uyqash qilmoq, tartibni buzmoq, puchga chiqarmoq, barbod qilmoq; **déranger l'estomac** oshqozonni ishdan chiqarmoq, buzmoq; **2.** bezovta qilmoq, urintirmoq, tinchini, oromini buzmoq, ovora qilmoq, halaqit bermoq; **pardon de vous avoir dérangé** bezovta qilganim uchun uzr; **II. se déranger** *vpr* **1.** bezovtalanmoq, tashvishga tushmoq, tinchsizlanmoq, bezovta bo'lmoq, g'am yemoq, urinmoq, o'zini qiynab qo'ymoq; **il ne se dérangea pas** u joyidan qo'zg'almadi; **2.** *fam* jinni bo'lmoq, aqldan ozmoq.

**dérapage** *nm* **1.** yonlama sirg'anish, sirpanish, toyish, g'ildirakning bir tomonga sirg'anib, surilib ketishi; **2.** qattiq burilib irg'ish, sapchish, siltanish (*chang'ida*).

**déraper I.** *vi* **1.** sirg'anmoq, sirpanmoq, toymoq (*g'ildirak haqida*), toyib ketmoq (*avtomobil burilayotganda*); **2.** tuproqda o'rmalamoq, sudralib yurmoq; tuproqdan sirg'alib chiqmoq (*langar*); **II.** *vt* cho'qqidan uzumlarni yulib olmoq, uzib olmoq.

**dératé, ée** *n* **courir comme un dératé** oyog'ini qo'liga olib yugurmoq.

**dératisation** *nf* kalamush, sichqonlarni qirib tashlash, yo'q qilish, o'ldirish.

**dératiser** *vt* kalamush, sichqonlarni qirib tashlamoq, yo'q qilmoq, yo'qotmoq, o'ldirmoq.

**derby** *nm* yirik ot poygasi.

**derechef** *adv* yangidan, yana, tag'in, qaytadan, boshqatdan.

**déréglé, ée** *adj* **1.** tartibsiz, betartib, ayqash-uyqash, palapartish, boshi-keti yo'q; **appétit déréglé** haddan tashqari ishtaha; **pouls déréglé** notekis tomir urishi; **2.** buzilgan, ishdan chiqqan, buzuq, nosoz, noto'g'ri ishlaydigan (*mexanizm*); **3.** axloqsiz, beaxloq, axloqi buzuq, badaxloq, fosiq.

**dérèglement** *nm* **1.** tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, to's-to'polon; **2.** notekis ishlash, uzilish, to'xtash, to'xtab-to'xtab qolish, to'xtalish, noto'g'ri urish, tepish (*mashinada*); **3.** axloqsizlik, beaxloqlik, axloqi buzuqlik, badaxloqlik, fosiqlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dérégler** *vt* **1.** ayqash-uyqash qilmoq, to‘s-to‘polon qilmoq, buzmoq; betartib qilmoq; **2.** barbod qilmoq, izdan, ishdan chiqarmoq, nosoz qilib qo‘ymoq, zarar yetkazmoq (*mexanizm*); **3.** o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘ymoq, haddan oshirib yubormoq, o‘z mayliga qo‘yib quturtirmoq.

**dérider I.** *vt* **1.** ajin, burishlarni tekislamoq; **2.** ko‘ngilni ochmoq, xursand qilmoq; **II. se dérider** *vpr* quvonmoq, xursand bo‘lmoq, kayfi chog‘ bo‘lmoq, kulmoq.

**dérision** *nf* birovdan kulish, masxara, mazax, mayna qilish, piching, istehzo; **par dérision** hazillashib, jiddiy emas, kulgi uchun, kulgilikka; **tourner en dérision** hazilga aylantirmoq.

**dérisoire** *adj* **1.** kulgili, kulgi qistatadigan, kulgidan boshqaga arzimaydigan, maynabozlikdan iborat bo‘lgan; **2.** juda oz, ozgina, jindek, yo‘q darajada (*pul haqida*); uncha ko‘p bo‘lmagan, eng kichik, oz qiymati.

**dérivatif, ive I.** *adj* **1.** *méd* alahsitish, chalg‘itadigan; **2.** *ling* yasaydigan, yasovchi; **II.** *nm* **1.** chora, yo‘l, iloj, yo‘lak, chiqaverish; natija, oqibat; **chercher, trouver un dérivatif à son chagrin** qayg‘usiga chora, yo‘l qidirmoq, topmoq; **3.** *méd* alahsituvchi, chalg‘ituvchi vosita.

**dérivation**[1] *nf* **1.** burib yuborish, burish, boshqa yo‘lga, izga solib yuborish, tarmoq, tarmoqlanish, shoxobcha, ayrilish; **tranchée de dérivation des eaux** suv bo‘lgich; **mettre en dérivation** qo‘shmoq, yonidan ulamoq; **2.** *gram* so‘z yasash, so‘z hosil qilish; **dérivation affixale** affiks, qo‘shimchalar yordamida so‘z yasash; **dérivation impropre** konversiya; **3.** aylanma, aylanib o‘tadigan yo‘l (*temir yo‘lda*); **4.** *méd* alahsitish, chalg‘itish, e’tiborni boshqa tomonga tortish, jalb etish; **5.** *math* farqlash, ajratish.

**dérivation**[2] *nf av, mar* yo‘ldan chetga chiqish, og‘ish.

**dérive** *nf* **1.** yoldan og‘ish, chetga chiqish, shamol olib ketishi, kemaning yo‘ldan og‘ishi; **banquise en dérive** daydi muz; **être entraîné à la dérive** beqaror, betayin rux; **2.** *mil* burchak o‘lchagich (*qurilma*); **3.** *géol* siljish, ko‘chish; **une lente dérive** sekin o‘tirish, cho‘kish; **4.** poyezdning jarga qulashi, ag‘darilishi; **5.** *av, mar* kil, kema pushtagi, burish ruli, dumi tik to‘g‘rilagich.

**dérivé**[1]**, ée** *adj* yasalgan, hosil qilingan, hosila, yasama.

**dérivé**[2]**, ée** *nm* **1.** yasama so‘z; **2.** qo‘shimcha, o‘rnini oluvchi, egallovchi mahsulot; **les dérivés du pétrole** neft mahsulotlari.

**dérivée** *nf math* yasama, hosila; **dérivée partielle** qisman yasama.

**dériver**[1] *vi* **I. 1.** kelib chiqmoq, yuzaga kelmoq, sodir bo‘lmoq; **2.** *gram* yasalmoq, hosil qilinmoq (*so‘z*); **II.** *vt* **1.** tarmoqlanmoq, bo‘linmoq, ajralmoq; **2.** yasamoq, hosil qilmoq (*so‘z*); **3.** *math* hisoblab chiqmoq, hisoblamoq (*yasama funksiyani*).

**dériver**[2] **I.** *vi* olib, oqizib ketmoq, oqib, suzib yurmoq (*muz haqida*); **dériver dans la folie** aqldan ozmoq, jinni bo‘lmoq; **II.** *vt* olib, oqizib ketmoq (*qirg‘oqdan*).

**dériver**[3] *vt* parchinlangan joyidan ajratmoq, ko‘chirmoq.

**dermatologie** *nf méd* teri va teri kasalliklari haqidagi bo‘lim, dermotologiya.

**dermatologue** *nm* teri kasalliklari shifokori, dermatolog.

**dermatose** *nf* dermatoz, teri kasalliklari.

**derme** *nm anat* teri to‘qimasi, teri.

**dermique** *adj* teri, teriga oid.

**dernier, ière I.** *adj* **1.** so‘ngi keyingi, oxirgi; **il n’a pas dit son dernier mot** oxirgi so‘zini aytmadi; u o‘z fikrini bildirmadi; **dernier degré de perfection** yetuklik, kamolotning eng yuqori darajasi; **c’est du dernier ridicule** bu juda-juda kulgili; **être du dernier bien avec qqn** birov bilan eng yaxshi munosabatda bo‘lmoq; **avec la dernière rigueur** shavqatsizlik bilan; **en dernier ressort** keyingi hisobda, so‘ngi safar; **en dernier lieu** oxirgi, so‘ngi dafa; **avoir le dernier mot** oxirgi so‘zni aytmoq; o‘z so‘zida mahkam turmoq; **2.** o‘tgan, o‘tib ketgan; **l’année dernière** o‘tgan yili; **la semaine dernière** o‘tgan hafta; **II.** *nm* **le dernier des hommes** so‘ngi odam, dog‘uli odam; **arriver le dernier** hammadan keyin kelmoq.

**dernièrement** *adv* yaqinda, keyingi paytda, kechagina, tunov kun, boya, hali, yaqindagina.

**dernier-né, dernière-née** *n* kenja o‘g‘il, qiz; kichkinasi, kichkintoy, kenjatoy.

**dérobade** *nf* hiyla, nayrang, vaj, gapni aylantirish, makr (*ishlatish, qilish*).

**dérobé, ée** *adj* yashirin, maxfiy, birov bilmaydigan; **à la dérobée** *loc adv* yashirincha, yashiriqcha, bildirmay, sezdirmay, zimdan, biqinib, pisib.

**dérober I.** *vt* **(qqn, qqch, à qqn, à qqch) 1.** o‘g‘irlamoq, o‘g‘irlab ketmoq, olib qochmoq, o‘g‘irlab olmoq; **2.** yopmoq, yopib, o‘rab qo‘ymoq, burkamoq, bekitmoq, yashirmoq, bekitib, yashirib qo‘ymoq, papalamoq, pana qilmoq, sir saqlamoq; **dérober à la vue** ko‘zdan yashirmoq; **dérober sa marche à l’ennemi** raqib, dushmandan o‘z hiylasini bekitmoq, sir saqlamoq; **3.** qutqarmoq, ozod, xalos qilmoq, saqlab qolmoq; **dérober qqn au danger** xavfdan xalos qilmoq; **II. se dérober** *vpr* **1.** ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq, yashirinmoq, sirg‘alib chiqib ketmoq, yashrin, yashirincha ketib qolmoq; **se dérober à une obligation** burchidan, majburiyatidan o‘zini olib qochmoq; **se dérober à sa responsabilité** javobgarlikdan qutulmoq; **2.** to‘g‘ri fikr bildirishdan qochmoq, o‘zini chetga olmoq; **3.** o‘zini chetga urmoq, olmoq (*ot haqida*); **ses genoux se dérobent sous lui** uning oyoqlari bukilib qoldi, darmonsizlandi.

**dérogation** *nf* **1.** bitimni, shartnomani buzish; **2.** bosh tortish, tovlash, chetga chiqish, og‘ish, qiyshayish, chekinish, orqaga qaytish, voz kechish; **dérogation à une règle** qoidadan chetga chiqish; **par dérogation à** chekinib, ortga qaytib, o‘zgarish hisobiga.

**déroger** *vi* **1. (à qqch)** chekinmoq, chetga olmoq, tislanmoq, tisarilmoq, buzmoq, xalaqit bermoq; **déroger aux traditions** an’ana, rasm-rusm, urf-odatdan chekinmoq; **2.** kamsitmoq, xo‘rlamoq, tahqirlamoq.

**dérouillée** *nf fam* ta’zir, sazo, kaltak.

**dérouiller I.** *vt* **1.** zangini ketkazmoq; **2.** *fam* yaxshilab urmoq, savalamoq, kaltaklamoq, do‘pposlamoq; **3.** muloyim qilmoq, iylamoq, pishitmoq, yozmoq, harakat qilib tetiklashmoq; **II.** *vi fam* kaltak yemoq, ta’zirini yemoq; **III. se dérouiller** *vpr* harakat bilan oyoq-qo‘l chigilini yozmoq.

**déroulement** *nm* **1.** kengaytirish, kuchaytirish, avj oldirish, yechish, yozish; **2.** voqeani kuchaytirish.

**dérouler I.** *vt* **1.** yozmoq, ochmoq, yiriklashtirmoq, kengaytirmoq; **2.** rivojlantirmoq, kuchaytirmoq (*rejani*); **II. se dérouler** *vpr fam, fig* ochilmoq, yiriklashmoq, kattarmoq.

**dérouleur** *nm* lenta o‘rovchi mexanizm.

**dérouleuse** *nf techn* **1.** kabel o‘rami; **2.** yuza, sayoz haydaydigan stanok (*mashina*).

**déroutage** *nm voir* **déroutement**.

**déroutant, ante** *adj* hisobdan adashtiradigan, chalg‘itadigan, alahsitadigan.

**déroute** *nf* tartibsiz, betartib qochish, to‘s-to‘polon, tor-mor, yengilish; **mettre en déroute** qochirmoq, qochishga majbur qilmoq, tor-mor qilmoq.

**déroutement** *ou* **déroutage** *nm av, mar* yo‘ldan chetga chiqish, og‘ish, qiyshayish.

**dérouter** *vt* **1.** yo‘ldan urmoq, ozdirmoq, izdan chiqarmoq, izini yo‘qotmoq; **2.** *av, mar* yo‘ldan chetga chiqarmoq, og‘dirmoq, qiyshaytmoq; **3.** adashtirmoq, chalg‘itmoq, yo‘ldan ozdirmoq, xato fikr tug‘dirmoq, yangilashtirmoq, uyaltirmoq.

**derrick** *nm techn* **1.** burg‘ilash vishkasi; **2.** derrik (*ko‘targich kran turi*).

**derrière**[1] **I.** *prép* orqasida, orqa tomonida, narigi yog‘ida, tashqarida, keyin, orqaga; **se tenir derrière l’arbre** daraxt orqasida turmoq; **regarder derrière soi** orqaga qaramoq; **II.** *adv* orqasida, orqa tomonda, keyin, orqaga, tashqarida; **rester derrière** orqasida qolmoq; **il a quitté la maison sans regarder derrière** u uyni butunlay tashlab ketdi; **de derrière** *loc prép* tufayli, sababli, vajidan, natijasida; **par derrière** *loc adv* orqasidan; **sens devant derrière** chappa, ters, ostin-ustin, tartibsiz, teskarisiga, chappasiga.

**derrière**[2] *nm* **1.** ort, orqa, ket, dumba, orqa qismi, bo‘lagi; **2.** orqa tomoq; *pl* sirt; **frapper par derrière** orqa tomonidan urmoq, bostirib kelmoq; **3.** odam va ba’zi hayvonlarning tanasining orqa qismi, orqa, ket, dumba.

**derviche** *nm* darvish.

**des 1.** *art pl* **(de+les) 2.** *art indéf pl voire* **un, une; voyager dans des pays peu connus** mashhur bo‘lmagan mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilmoq.

**dès** *prép* bilan, -dan boshlab, paytdan, shu davrdan; **dès demain** ertangi kundan boshlab; **dès à présent** shu davrdan; **aujourd’hui, dès maintenant** hozirdan boshlab; **dès avant** avval, ilgari, oldin, ancha ilgari; **dès lors** *loc*



www.ziyouz.com kutubxonasi

*adv* shu paytdan boshlab; **dès que** *loc conj* hozirgina, oz-mozgina; **dès l'instant que** hamona, bilan, bilanoq.

**désabonnement** *nm* obuna muddatining o'tishi, ro'znoma va jurnallarga yozilishning tugashi, to'xtashi.

**désabonner I.** *vt* obunadan o'chirmoq; **II. se désabonner** *vpr* obunadan o'chmoq.

**désabusé, ée I.** *adj* ko'ngli qolgan, sovigan, ixlosi qaytgan, havsalasi pir bo'lgan, umidi puchga chiqqan, umidi uzilgan, umidsiz, sinalgan, tajribali, aqlli, hushyor; **II.** *n* hushyor, aqlli odam, usta, mohir, chiniqqan odam.

**désaccord** *nm* **1.** ohangsizlik, hamohang emaslik, quloqqa yoqmaslik; **2.** kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, nifoq, ora buzuqlik, janjal, nizo; **3.** (*radioda*) nosozlik, buzilish, buzilganlik.

**désaccorder** *vt* **1.** buzmoq, to'zg'itmoq (*radioni*); **2.** ixtilof, nifoq, nizo solmoq, kelishmovchilik keltirib chiqarmoq, noittifoqlik yuzaga keltirmoq.

**désaccoutumer I.** *vt* **(qqn de qqch)** odatini tashlatmoq, yo'qotmoq; **II. se désaccoutumer** *vpr* odatini tark etmoq, tashlamoq, unutmoq, esdan chiqarmoq.

**désaffecté, ée** *adj* bekor qilingan, yo'qotilgan, tugatilgan.

**désaffection** *nf* mayli, ko'ngli yo'qlik, moyil emaslik, sevmaslik, yoqtirmaslik, yomon ko'rish, xush ko'rmaslik, ko'ngli sovish, ixlosi qaytish.

**désaffectionner (se)** *vpr* ixlosi qaytmoq, ko'nglini sovitmoq, yomon ko'rmoq, ko'ngli sovimoq.

**désagréable** *adj* yoqimsiz, yomon, iflos, jirkanch, qo'lansa, bemaza.

**désagréablement** *adv* yoqimsiz, yomon, iflos, jirkanch, qo'lansa, bemaza, nafratlanadigan holda.

**désagrégation** *nf* **1.** bo'linish, parchalanish, tarkibiy qismlarga ajralish, maydalanish, shamolda yemirilishi, nurashi; **2.** *fig* buzilish, aynish, irish, chirish; **la désagrégation du marché** bozorning buzilishi, aynishi.

**désagréger I.** *vt* **1.** maydalamoq, parchalamoq, ushatmoq, sindirmoq, ajratmoq; **2.** *chim* buzmoq, yemirmoq; **II. se désagréger** *vpr* buzilmoq, yomon yo'lga kirmoq, aynimoq; *géol* shamoldan yemirilmoq, nuramoq.

**désagrément** *nm* yoqimsizlik, yomonlik, ifloslik, jirkanchlik, qo'lansalik, bemazalik.

**désaltérant, ante** *adj* chanqoqni bosadigan, qondiradigan; **le thé est très désaltérant** choy, chanqoqni bosadigan ichimlik.

**désaltérer I.** *vt* **1.** chanqoqni bosmoq, qondirmoq, ichirmoq, ichmoq; **2.** yengillatmoq, yengillashtirmoq; **II. se désaltérer** *vpr* ichmoq, chanqoqni qondirmoq, bosmoq, ichirmoq.

**désamorçage** *nm* pistonini olib tashlash, portlatgichini yo'q qilish, zararsizlantirish (*minani*).

**désamorcer** *vt* pistonini chiqarib olmoq, olib tashlamoq, portlatgichini olib tashlamoq; **désamorcer une mine** minani zararsizlantirmoq; **désamorcer une pompe** nasosdan suvni quymoq.

**désapparier** *vt* juftsizlantirmoq, juftini buzmoq, ajratmoq.

**désappointé, ée** *adj* ko'ngli qolgan, sovigan, ixlosi qaytgan, aldangan, umidi puchga chiqqan, hafsalasi pir bo'lgan.

**désappointement** *nm* puchga chiqqan, aldangan umidlar, ko'ngli qolganlik, soviganlik, ixlosi qaytganlik, umidsizlik.

**désappointer** *vt* **1.** umidini puchga chiqarmoq, ko'nglini qoldirmoq, sovitmoq, ixlosini qaytarmoq, hafsalasini pir qilmoq, umidsizlantirmoq; **2.** o'tmas qilmoq, tig'ini, damini qaytarmoq.

**désapprobateur, trice** *adj* **1.** ma'qullamagan, ma'qul deb topilmagan, salbiy; **2.** yomonlovchi, qoralovchi, g'iybatchi, g'iybat qiluvchi.

**désapprobation** *nf* ma'qullamaslik, ma'qullamaganlik, noma'qullik, salbiy baho, qoralash, ayblash, tanbeh, ta'na, norozilik.

**désapprouver** *vt* aybga buyurmoq, qoralamoq, yomonlamoq, ta'na qilmoq, ayblamoq.

**désarçonner** *vt* **1.** egardan urib tushirmoq, egardan otib tashlamoq; **2.** boshi berk ko'chaga kirgizib qo'ymoq, shoshirib qo'ymoq, chalg'itmoq, adashtirmoq, yanglishtirmoq.

**désarmant, ante** *adj* lol qoldiradigan, qurolsizlantiradigan, dovdiratib qo'yadigan.

**désarmé, ée** *adj* **1.** qurolsizlangan, qurolni yo'qotgan; **2.** *fig* lol qoldirilgan, dovdiratib qo'yilgan, yengilgan, og'iz ocholmaydigan qilib qo'yilgan.

**désarmement** *nm* **1.** qurolsizlanish, qurollarni kamaytirish, cheklash; **désarmement total** to'liq qurolsizlanish; **désarmement partiel** qisman qurolsizlanish; **conférence du désarmement** qurolsizlanish majlisi, yig'ilishi, konferensiyasi; **2.** lol qoldirish, dovdiratib qo'yish, yengish, og'iz ocholmaydigan qilish.

**désarmer I.** *vt* **1.** qurolsizlantirmoq, qurol-yarog'ini olib qo'ymoq, qurollarni kamaytirmoq; **désarmer un fusil** miltiqni o'qdan bo'shatmoq, o'qni olib qo'ymoq; **2.** *fig* lol qoldirmoq, dovdiratib qo'ymoq, yengmoq, og'iz ocholmaydigan qilmoq, jilovlamoq, bosmoq; **II.** *vi* qurolni tashlamoq, taslim bo'lmoq, urushni to'xtatmoq, qurolsizlanmoq; **ne pas désarmer** qurolni topshirmaslik, bo'ysunmaslik, bo'yin egmaslik.

**désarroi** *nm* tartibsizlik, parokandalik, to'zg'ib ketish, to's-to'polon; sarosima, g'ulg'ula, besaranjomlik, parishonlik, esankirash; **mettre en désarroi** sarosimaga tushirmoq, solmoq.

**désassortir** *vt* butligini buzmoq, poyma-poy qilmoq, to'liqligini buzmoq, bir qismini boshqacha qilib qo'ymoq; mol xilma-xilligini buzmoq.

**désastre** *nm* ofat, falokat, musibat, og'ir, mushkul ahvol, baxtsizlik; vayron bo'lish, halokat, halokatga yo'liqish, qulash, muvaffaqiyatsizlikka uchrash.

**désastreux, euse** *adj* halokatli, falokatli, halokatga olib boradigan, og'ir, mushkul, musibatli, qaqshatqich, nobud qiluvchi; **conséquences désastreuse** fojiali oqibatlar.

**désavantage** *nm* zarar, shikast, ziyon, noqulay sharoit, holat; **tourner au désavantage de qqn** nobop, o'ngaysiz, yomon, nomuvofiq tus olmoq; **voir qqn à son désavantage** yomon ahvolda ko'rmoq.

**désavantager** *vt* ustunlikdan mahrum qilmoq, ustunligini yo'qotmoq, zarar, shikast, ziyon yetkazmoq.

**désavantageux, euse** *adj* noqulay, nomuvofiq, nobop, o'ng'aysiz, yomon, foydasiz, befoyda, afzalligi yo'q.

**désaveu** *nm* **1.** rad qilish, qaytarish, rad javobi, inkor qilish, tonish, bo'yniga olmaslik, raddiya; **2.** ma'qullamaslik, ma'qullamaganlik, ma'qul deb topmaslik, salbiy baho, ma'qul sanamaslik, zidlik, ziddiyat, ixtilof bildirmoq; **3.** tan olmaslik, e'tirof etmaslik; norozilik bildirish (*diplomatiyada*); **désaveu de paternité** otaligini tan olmaslik, inkor, rad etish.

**désavouer** *vt* **1.** inkor qilmoq, tonmoq, qaytmoq, kechmoq, yuz o'girmoq, voz kechmoq; **2.** salbiy baho bildirmoq, izhor qilmoq, ixtilof bildirmoq; **3.** tan olmaslik, rad etmoq; norozilik bildirmoq (*diplomatiyada*); voz kechmoq.

**désaxé, ée** *adj* **1.** o'z o'qidan chiqib ketgan, o'qidan, o'zagidan, markazidan almashgan; **2.** *fig* izdan chiqqan, chiqarilgan, buzilgan, yengil, betayin, bir xil turmaydigan; **3.** *fam* yomon yo'lga kirib ketgan, aqldan ozgan, esini yeb qo'ygan, jinni bo'lib qolgan.

**désaxer** *vt* **1.** o'qini, markazini, o'zagini almashtirmoq, chiqarmoq; **2.** *fig* izdan chiqarmoq, yo'ldan ozdirmoq, buzmoq, yomon yo'lga kirgazmoq, aqldan ozdirmoq.

**descellement** *nm* **1.** tamg'asini, muhrini buzish, buzib ochush; **2.** sement bilan mahkamlangan narsalarni bir-biridan ajratish, ayirish.

**desceller** *vt* **1.** tamg'asini, muhrini buzmoq, buzib ochmoq; **2.** sement bilan qo'shilgan narsalarni ajratib, ko'chirib olmoq.

**descendance** *nf* **1.** kelib chiqish, nasab, nasl-nasab, nasli, nasabi, asli, yaratilishi; **2.** nasl, avlod, urug', zoti.

**descendant, ante I.** *adj* kamayib, pasayib boradigan, pasayuvchi, tushuvchi, pastga tushadigan; **ligne descendante** pasayuvchi chiziq; **marée descendante** suvning pasayib ketishi; **garde descendante** almashtirib bo'ladigan soqchi, qorovul; **II.** *n* avlod, nasl, urug', zot, qarindosh, qavm-qarindosh, xesh-aqrabo, jigar (*uzoqlashib boruvchi*).

**descendeur, euse** *n* tez tushishga mutaxassislashuvchi velosipedchi, chang'ichi.

**descendre I.** *vi* **1.** tushmoq, pastga tushmoq, chiqmoq, qaramoq, borib kelmoq, chiqib kelmoq; **descendre de cheval** otdan tushmoq; **descendre dans la rue** ko'chaga chiqmoq (*namoyish*); **descendre au tombeau, descendre dans la tombe** go'rga, qabrga, mozorga kirmoq; **2.** tushmoq, pasaymoq, o'tirmoq, qo'nmoq, cho'kmoq, yiqilib tushmoq; **descendre à plat**



www.ziyouz.com kutubxonasi

qulab tushmoq (*samolyot haqida*); **3.** qo'nmoq, o'tirmoq, qirg'oqqa chiqmoq; **4.** birovnikiga tushmoq, tunab qolmoq; **descendre à l'hôtel** mehmonxonaga tushmoq, qo'nmoq; **5. (de)** kelib chiqmoq; **II.** *vt* **(à) 1.** tushirmoq, pastlatmoq, pasaytirmoq; **il faut descendre cela plus bas** buni pastroq tushirish kerak; **descendre le vin à la cave** yerto'laga vinoni olib borib qo'ymoq, tushirmoq; **descendre la garde** soqchilik, qorovulchilikdan almashmoq; *fam* jonini jabbor, egasiga bermoq, topshirmoq; **2.** qirg'oqqa tushmoq, chiqmoq, qo'nmoq; **3.** bo'ylab tushmoq, tushib, chiqib kelmoq, borib kelmoq; **descendre un escalier** zinapoyadan tushmoq; **descendre une rivière** daryo oqimi bo'ylab suzib ketmoq; **4.** *fam* o'ldirmoq, otib o'ldirmoq, narigi dunyoga jo'natmoq; **descendre un avion** samolyotni urib tushirmoq.

**descente** *nf* **1.** tushish, tushib, chiqib kelish, pasayish, pastlash; **descente en parachute, descente parachutée** parashutda tushish, parashut desanti; **descente libre, descente précipitée** cho'zilib ketgan sakrash (*parashutda*); **descente en piqué** tik sakrash, tushish; **descente de lit** karavot oldidagi gilamcha; **descente de bain** vanna oldidagi gilamcha; **2.** tushish, qoya, yonbag'ir, yon; **3.** joyidan jilish, qo'zg'alish, yurish, yura boshlash; **4.** *mil* armiya tushirish, qo'ndirish, joylashtirish, desant tushirish; **5.** yon kovlangan joy (*konda, shaxtada*); quduq, chuqurlik, kuzatish, tekshirish ishlari; **6.** ko'zda tutilgan joyga yetib borish, qurshash, o'rash, o'rab, qurshab olish, o'rov (*mirshablar*); **descente de justice** sud hukm qilgan joyga yetib kelish, borish; **7.** *méd* po'st tashlash, pastga siljish.

**désemparer** *vt* o'z joyini tashlab ketmoq, joyidan jilmoq; **sans désemparer** joyidan jilmay, to'xtovsiz, to'xtamasdan, tanaffussiz.

**désemplir I.** *vt* quymoq, quyib olmoq, bermoq, quyib kamaytirmoq, ozaytirmoq; **II.** *vi* **ne pas désemplir** hamma vaqt to'liq, to'la bo'lmoq; **III. se désemplir** *vpr* bo'shab qolmoq, bo'sh bo'lmoq, bo'shamoq.

**désenchantement** *nm* ko'ngil qolish, sovish, ixlosi qaytish, umidsizlik, umidi puchga chiqish, hafsalasi pir bo'lish, ko'ngil qolganlik, soviganlik, ixlosi qaytganlik.

**désenchanter** *vt* ko'ngli qolmoq, sovimoq, ixlosi qaytmoq, umidi puchga chiqmoq, hafsalasi pir bo'lmoq.

**désencombrer** *vt* to'siqni yo'q qilmoq; tiqilinchni, tiqilib qolishni yo'qotmoq, yo'lni bo'shatmoq, ochmoq.

**désenfler I.** *vt* **1.** havo, gazni chiqarib yubormoq; **2.** shish, yarani kesmoq, tilmoq; **II.** *vi* qaytmoq (*shish*).

**désennuyer** *vt* ovutmoq, ko'nglini ochmoq, ovuntirmoq, yupatmoq, chalg'itmoq, alahsitmoq.

**déséquilibrer** *vt* muvozanatidan chiqarmoq, muvozanatini buzmoq, tinchini buzmoq, osoyishtaligini yo'qotmoq; jahlini jiqarmoq, g'azablantirmoq; **déséquilibrer l'adversaire** dushman osoyishtaligini buzmoq.

**désert, erte I.** *adj* odam yashamaydigan, bo'sh, tashlandiq, xilvat, ovloq, bo'sh yotgan; **II.** *nm* cho'l, sahro, dasht biyobon; **il prêche dans le désert** bekor ketgan urinish, behuda harakat (*hech kim quloq solmagan gap, hech kim qo'llab-quvvatlamagan harakat*).

**déserter I.** *vt* **1.** tashlab, chiqib ketmoq, tark etmoq, qoldirmoq; **déserter les campagnes** qishloqdan ketmoq, qishloqni qoldirib chiqib ketmoq; **la ville est désertée** shahar huvullab qoldi, kimsasiz qoldi; **2.** hiyonat qilmoq, sotmoq, xoinlik qilmoq; **déserter une cause** tinchlik ishiga xiyonat qilmoq; **II.** *vi* qochib ketmoq, qochmoq, bosh tortmoq (*xizmatdan*); **déserter à l'ennemi** dushmanga qochib o'tmoq, qochib bormoq.

**déserteur** *nm* **1.** qochoq, xoin; **2.** murtad, maslagidan, e'tiqodidan qaytgan odam, xiyonatchi.

**désertion** *nf* **1.** qochoqlik, qochish, (*xizmatdan*) bosh tortish; **2.** murtadlik, maslakdan, e'tiqotdan qaytishlik, xoinlik.

**désertique** *adj* odam yashamaydigan, kimsasiz, bo'sh, cho'lga o'xshagan, xilvat, ovloq.

**désespérance** *nf* noumidlik, umidsizlik, ma'yuslik, mushkul ahvolga qolishlik.

**désespérant, ante** *adj* noumid, umidsiz, ma'yus, mushkul ahvolda qolgan.

**désespéré, ée** *adj* ma'yus, umid qilib bo'lmaydigan, noumid, umidsiz, ishonchsiz.

**désespérément** *adv* umidini uzsa ham bo'ladigan darajada, umidsizlik, ishonchsizlik bilan, umidsizlarcha, umidini uzib.

**désespérer I.** *vt* **(de qqch)** umidsizlanmoq, umidini uzmoq, noumid bo'lmoq, umidini yo'qotmoq; **ne pas désespérer** ishonchi, umidini yo'qotmaslik; **II.** *vi* noumid qilmoq; **III. se désespérer** *vpr* ruhi tushib ketmoq.

**désespoir** *nm* umidsizlik, noumidlik, ruhan tushkunlik, mushkul, noiloj, ilojsiz ahvol, chorasizlik; **être au désespoir** chorasiz bo'lmoq; **faire le désespoir de qqn** mushkul ahvolda qoldirmoq; **jeter (plonger) qqn dans le désespoir** umidsizlikka mahkum etmoq; **en désespoir de cause** umidsizlik bilan, chorasizlik oqibatida.

**déshabillage** *nm* yechinish, yechintirish.

**déshabillé** *nm* xotinlarning ichki kiyimi.

**déshabiller I.** *vt* yechintirmoq, yechmoq; **II. se déshabiller** *vpr* yechinmoq.

**désherbage** *nm* o'tash, o'tini yulish, o'tini yulib chiqish, o'toq, o'toq qilish.

**désherber** *vt* o'tamoq, o'toq qilmoq, o'tini yulib tashlamoq, o'tdan (*yovvoyi*) tozalamoq.

**déshérité, ée I.** *adj* hamma narsadan mahrum qilingan, bebahra, benavo, taqdir xafa qilgan, muhtoj; **II.** *n* meros huquqidan mahrum qilingan odam.

**déshériter** *vt* meros huquqidan mahrum qilmoq.

**déshonnête** *adj* **1.** nomussiz, vijdonsiz, insofsiz, uyatsiz, noinsof, muttaham, g'irrom, diyonati yo'q, diyonatsiz; **2.** uyatsiz, odobsiz, axloqsiz, yuzsiz, sharm-hayosi yo'q, beor, yaramas, beadab, nomunosib, noloyiq, chakki, nojo'ya.

**déshonneur** *nm* badnom bo'lish, haqoratlanish, sharmandalik, badnomlik, obro'sizlanish.

**déshonorant, ante** *adj* nomus, ayb, uyat qiladigan, sharmanda qiladigan, obro'sizlantiradigan, uyaltiradigan, vijdoni, diyonati yo'q, vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, noinsof, qizartirib qo'yadigan.

**déshonorer I.** *vt* **1.** badnom qilmoq, nomini bulg'amoq, obro'yini to'kmoq, sharmanda qilmoq, uyatga qoldirmoq, isnod keltirmoq, yuzini yerga qaratmoq, nomusini yerga bukmoq, yomonga chiqarmoq, qoralamoq; **2.** xunuklashtirmoq, buzmoq, rasvo qilmoq, zarar, shikast yetkazmoq, ishdan chiqarmoq; **II. se déshonorer** *vpr* o'zini sharmanda qilmoq, badnom bo'lmoq, isnodga qolmoq.

**déshydratation** *nf* suvni chiqarish; suvsiz qilish, namini qochirish, suvsizlantirish.

**déshydrater** *vt* quritmoq, suvini qochirmoq.

**design** *nm anglic* dizayn.

**désignation** *nf* **1.** belgilash, belgi qo'yish, tamg'a qo'yish, nom, ot, ism; **2.** vazifaga, xizmatga, ishga tavsiyalash, tayinlash, belgilash, buyurish.

**désigner** *vt* **1.** belgilamoq, ko'rsatmoq, bildirmoq, atamoq, nom bermoq, ot qo'ymoq; **2.** tayinlamoq, ishga qo'ymoq, buyrmoq, mo'ljallamoq, chamalamoq, chog'lamoq; **désigner qqn pour successeur** voris, o'rinbosar, izdosh, davom ettiruvchi qilib belgilamoq; **désigner le temps et le lieu** vaqti va joyini ko'rsatmoq; **3.** ishga, vazifaga, xizmatda tavsiya etmoq, qilmoq.

**désigner** *nm anglic* dizayner.

**désillusion** *nf* ko'ngil qolish, sovish; ixlosi qaytish, umidsizlik, umidi puchga chiqish.

**désillusionnement** *nm* ko'ngil qolganlik, soviganlik; ixlosi qaytganlik, umidi puchga chiqqanlik, umidsizlik.

**désillusionner** *vt* ko'ngli qolmoq, sovimoq; ixlosi qaytmoq, umidi puchga chiqmoq, hushiga keltirmoq, haqiqatga qaytarmoq.

**désincarné, ée** *adj* naslsiz, bola tug'maydigan, zurriyot qoldirmaydigan, bepusht, o'lik, jonsiz, o'lik-tiriklik nishonasi yo'q.

**désinsectisation** *nf* hasharot, zararkunandalarni yo'q qilmoq, o'ldirmoq.

**désintégration** *nf* tushkunlik, tanazzul, inqiroz, chirish, yemirilish, irish, buzilish, parchalash, tarkibiy qismlarga ajratish, maydalash, bo'lish; **désintégration atomique, désintégration des atomes** atom zarrachalarini parchalash; **désintégration en chaîne** zanjirsimon yadro reaksiyasi.

**désintégrer I.** *vt* **1.** parchalamoq, maydalamoq, mayda bo'laklarga bo'lmoq; **2.** nifoq, nizo, janjal, ixtilof solmoq, orani buzmoq; **II. se**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**désintégrer** *vpr* bo'linmoq, maydalanmoq, parchalanmoq, ajralmoq, buzilmoq.

**désintéressé, ée** *adj* qiziqmagan, havasi, ishqi tushmagan, manfaatdor bo'lmagan, o'z manfaatini ko'zlamaydigan, tama qilmaydigan, beg'araz, xolis.

**désintéressement** *nm* **1.** qiziqmaganlik, havasi, ishqi tushmaganlik, o'z manfaatini ko'zlamaganlik, manfaatdor bo'lmaganlik, beg'arazlik, xolislik, tamasizlik; odillik, haqqoniyat, betaraflik; **2.** befarq qarash, beparvolik, e'tiborsizlik, birovning dardiga qayishmaslik, loqaydlik, qiziqmaslik.

**désintéresser I.** *vt* pul berib, muzd to'lab ozod bo'lmoq, pul berib qutulmoq, qarz beruvchilarni rozi qilmoq; **II. se désintéresser** *vpr* **(de qqch) 1.** qatnashishdan chetlashmoq, chetga chiqmoq; **2.** befarq qaramoq, e'tiborsizlik qilmoq, loqayd bo'lmoq, qiziqishini yo'qotmoq, e'tiborsiz qoldirmoq.

**désintérêt** *nm* befarq qarash, beparvolik, e'tiborsizlik, loqaydlik, qiziqmaslik, qiziqish yo'qlik.

**désintoxication** *nf* **1.** zaharlanishga qarshi kurash; **2.** zaharsizlantirish, zarar yetkazmaydigan qilish, zararli ta'sirini yo'qotish, zaharlovchi gazdan tozalash; **3.** zararli kayfiyatga qarshi kurashish, zararli sarqitlarga qarshi kurashish.

**désintoxiquer** *vt* **1.** zaharga qarshi dori bermoq, zaharlanishga qarshi kurashmoq; **2.** zararsizlantirmoq, zarar yetkazmaydigan qilmoq, zararli ta'sirini yo'qotmoq, zaharlovchi gazdan tozalamoq; **3.** zararli kayfiyat, sarqitlarga qarshi kurashmoq.

**désinvolte** *adj* erkin, betakalluf, nazar-pisand qilmasdan, hayiqmasdan, bemalol, behuzur, odobsiz, surbet, uyatsiz, betsiz, uyat-andishani bilmaydigan, istihola qilmaydigan, tortinmaydigan, beor, betamiz, istiholasiz.

**désinvolture** *nf* erkinlik, betakalluflik, nazar-pisand qilmaslik, hayiqmaslik, bemalollik, bahuzurlik, odobsizlik, surbetlik, uyatsizlik, betsizlik, uyat-andishani bilmaslik, istihola qilmaslik, tortinmaslik, beorlik, betamizlik, istiholasizlik.

**désir** *nm* istak, tilak, orzu, xohish, mayl, havas, qiziqish, intilish, hirs, rag'bat, hafsala, ishqivozlik, xush ko'rish.

**désirable I.** *adj* **1.** istalgan, orzu qilingan, kutilgan ko'ngildagi, tilangan, matlub, ma'qul, maqbul, kerak; **2.** jozibali, yoqimli, ko'rkam, dibar, istarasi, yulduzi issiq; qiziqtiradigan, havas keltiradigan, qiziqarli; **II.** *nm* istak, orzu, mudao, aziz, sevimli yor, oshiq, mahbub, dilxoh.

**désirer** *vt* tilamoq, istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, tilak bildirmoq; **laisser à désirer** hali unchalik emas, hali ancha kamchiligi bor; **ne rien laisser à désirer** benuqson, bekamiko'st bo'lmoq; **se faire désirer** kutdirmoq, kutishga majbur qilmoq.

**désireux, euse** *adj* **(de qqch)** xohlovchi, istaganlar, istovchilar, xohlovchilar, talabgorlar, toliblar, chanqagan, istovchi, orzumand, ishtiyoqmand, tashna.

**désistement** *nm* **1.** inkor etish, tonish, inkor, voz kechish, bahridan o'tish, yuz o'girish; **2.** o'z nomzodini olish, chiqarish, chiqarib tashlash (*saylovda*); **3.** *dr* da'vosini rad qilish, da'vosidan kechish.

**désister (se)** *vpr* **(de qqch) 1.** inkor qilmoq, tonmoq, qaytmoq, voz kechmoq, bahridan o'tmoq, bosh tortmoq, bo'yin tovlamoq; **2.** o'z nomzodini olmoq, chiqarib olmoq (*saylovda*).

**désobéir** *vi* **(à qqn, à qqch)** itoat etmay qo'ymoq, quloq solmay qo'ymoq, bo'ysunmay qo'ymoq, bo'yin egmay qo'ymoq, so'zga kirmay qo'ymoq.

**désobéissance** *nf* bo'ysunmaslik, itoat etmaslik, sarkashlik, bo'yin tovlash, bosh tortish, itoatsizlik, so'zga kirmaslik, quloq solmaslik, terslik.

**désobéissant, ante** *adj* itoatsiz, bo'ysunmaydigan, so'zga kirmaydigan, quloq solmaydigan, sarkash, ters.

**désobligeant, ante** *adj* **1.** dag'al, qo'rs, sovuq, iltifotsiz, bemehr, xizmatini ayaydigan, so'zga kirmaydigan; **2.** xafa qiladigan, ko'ngil og'ritadigan, ranjitadigan, afsus, attang, ko'ngilsiz, noxush, yoqimsiz, bemaza, sovuq; **commentaire désobligeant** nojo'ya tanbeh, koyish.

**désobliger** *vt* xafa qilmoq, qayg'u tortmoq, ranjitmoq, dilini siyoh qilmoq, ozor bermoq, noxushlik qilmoq, dilini og'ritmoq.

**désodorisant, ante I.** *adj* hidini yo'q qiladigan, isini yo'qotadigan; **II.** *nm* badbo'y hidni yo'qotadigan modda.

**désodoriser** *vt* badbo'y hidni yo'qotmoq.

**désœuvré, ée I.** *adj* bekorchi, bekor, ishlamaydigan, ishsiz, band emas, bo'sh, ishi yo'q; **II.** *n* bekorchi, bekorxo'ja, yalqov, tanbal, ishyoqmas, bekor yuruvchi, ishlamay yallo qilib yuruvchi, mirzabekor, dangasa.

**désœuvrement** *nm* bekorchilik, bekor yurishlik, bekor, bo'sh yurish; **par désœuvrement** bekorchilikdan.

**désolant, ante** *adj* **1.** qayg'uli, hasratli, achinarli, ma'yuslantiradigan, umidsizlantiradigan, g'amgin qiladigan; **2.** chidab, toqat qilib bo'lmaydigan, juda og'ir, yomon, qattiq jonga tegadigan, jirkanch, manfur, zeriktiradigan, bezor qiladigan, xira, shilqim.

**désolation** *nf* **1.** qayg'u, dard, alam, g'am, dog', ta'ziya, motam, tasalli topmaganlik, yurakdan chiqmaslik, tasalli bo'lmaydiganlik, dardmandlik, darg-hasrati ko'plik, ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik, ma'yus bo'lish, umidsizlanish; **2.** qirib bitirish, nobud qilish, vayron qilish, xarob etish, xonavayron bo'lish, bor-yo'g'idan ayrilish.

**désolé, ée** *adj* **1.** qattiq, chuqur xafa bo'lgan, ranjigan, dili siyoh bo'lgan, qayg'uli, xafa qilingan, qayg'uga, g'amga solingan, tasalli topmagan, dardmand, dard-hasrati ko'p, dard-alamli, achinarli, g'amgin, motamsaro; **être désolé** achinmoq, afsuslanmoq, o'kinmoq, pushaymon qilmoq, bo'lmoq; **2.** qirib bitirilgan, nobud qilingan, vayron qilingan, xarob etilgan, ruhsiz, hafsalasiz, loqayd; **un paysage désolé** ma'yus, g'amgin tabiat manzarasi.

**désoler I.** *vt* **1.** qayg'u, dard, alam, g'amga solmoq, g'amgin qilmoq, umidsizlantirmoq; **2.** qirib bitirmoq, vayron, xarob qilmoq, yo'q qilmoq, nobud qilmoq, qiyratmoq; **II. se désoler** *vpr* qattiq xafa bo'lmoq, qayg'urmoq, kuyib pishmoq, umidsizlanmoq, umidini uzmoq, nobud bo'lmoq, umidini yo'qotmoq, nolimoq, xasat qilmoq, shikoyat qilmoq, zorlanmoq.

**désolidariser (se)** *vpr* **(de qqn de qqch)** ajralmoq, ajralib chiqmoq, tarqab, tarqalib ketmoq, tarqalmoq, voz kechmoq, bo'yin tovlamoq, qo'shilmay qo'ymoq, aloqani, birligini uzmoq.

**désopilant, ante** *adj* kulgili, kuldiradigan, kulgi qistatadigan, ich-ichidan kuldiradigan.

**désordonné, ée 1.** tartibsiz, betartib, ayqash-uyqash; **2.** o'zboshimcha, bebosh, tiyib, cheklab, to'xtatib, qaytarib bo'lmaydigan.

**désordre** *nm* **1.** tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, to's-to'polon; **en désordre** tartibsiz ravishda, sarosimada; **2.** xafagarchilik, dilsiyohlik, kayfiyati buzuqlik, dili g'ashlik, parokandalik, sarosima, yurakdagi g'ashlik, sarosima, iztirob; **3.** buzuqlik, axloqsizlik, siyohlik, suyuqoyoqlik, fohishabozlik; **4.** ish tartibining buzilishi (*mexanizmlarda*).

**désorganisation** *nf* buzg'unchilik, ish, tartib-intizomni buzish, izdan chiqarish, ish, tartib intizomning buzilishi, tartibsizlik, boshboshdoqlik.

**désorganiser** *vt* buzmoq, ish, tartib-intizomni buzmoq, ishdan chiqarmoq, boshboshdoq qilib yubormoq, tartibsiz holatga keltirmoq.

**désorienter I.** *vt* **1.** xato yo'lga solib yubormoq; **2.** xato fikr tug'dirmoq, adashtirmoq, chalg'itmoq, yanglishtirmoq, yo'ldan ozdirmoq; **II. se désorienter** *vpr* yo'ldan ozmoq, yo'lini yo'qotmoq.

**désormais** *adv* shu kundan boshlab, shu kundan e'tiboran, hozirdan, bundan buyon, bundan keyin.

**désosser** *vt* **1.** suyaklarini olib tashlamoq, suyagini ajratib, chiqarib olmoq; **2.** *fig* hafsala bilan, batafsil tekshirib chiqmoq.

**désoxyribonucléique** *adj biol* **acide désoxyribonucléique (A.D.N.)** dezoksiribonuklein kislota (DNK).

**despote** *nm* zolim, mustabid, zulmi qattiq odam, zulmkor.

**despotique** *adj* istibdodga asoslangan, mustabid, zolim, zulmkor, zulmi o'tkir, so'zini o'tkazadigan, hukmini yurgizadigan.

**despotisme** *nm* istibdod, qattiq zulm qilish, zulmini o'tkazish, zolimlik, zulmkorlik.

**desquamation** *nf méd* po'stini olish, po'st tashlash, po'sti tushish, sho'rlash.

**desquamer I.** *vt* tangachalarini ajratib olmoq, tangachalardan tozalamoq (*baliqni*); **II. se desquamer** *vpr méd* po'st tashlamoq, po'sti trushmoq, sho'ralamoq.

**desquels, desquelles** *pron rel* qaysiki, qay biridan.

**dessaisir I.** *vt* **(qqn de qqch)** mahrum qilmoq, tortib olmoq, yo'q qilmoq; **II. se dessaisir** *vpr* **(de qqch)** voz kechmoq, bosh tortmoq, yo'q demoq;



www.ziyouz.com kutubxonasi

qo'lidan chiqarib yubormoq, qo'yib yubormoq, qo'ldan chiqarmoq, tashlab chiqib ketmoq, bo'shatib bermoq.

**dessaler I.** *vt* **1.** tuzsizlamoq, tuzini ketkazmoq, tuzini yo'q qilmoq, sho'rini yo'qotmoq, yuvmoq, tuzdan tozalamoq; **2.** ishqorga solmoq, ishqor bilan yuvmoq, suyuqlikda eritib ajratib olmoq; **3.** es-hushini joyiga keltirib qo'ymoq, epchil, chaqqon, uddaburo, abjir qilmoq, qilib qo'ymoq; **II. se dessaler** *vpr* tuzsizlanmoq, tuzi ketmoq.

**desséchant, ante** *adj* qurituvchi, quritadigan, qotiradigan, qovjiratadigan.

**dessécher** *vt* **1.** quritmoq, suvini qochirmoq; qovjiratmoq, qaqratmoq, suvini qochirmoq; **2.** oriqlatmoq, oriq qilib qo'ymoq; **3.** toshbag'ir, bag'ritosh qilmoq, rahmsiz qilmoq.

**dessein** *nm* niyat, maqsad, o'y, fikr, qasd, ahd, g'araz, o'ylab qo'yilgan ish, hiyla nayrang; **à dessein** *loc adv* ataylab, jo'rtaga, qasddan, g'araz bilan, atayin, bila turib.

**desseller** *vt* egarni yechmoq, olib qo'ymoq (*otdan*).

**desserrage** *nm* yozish, ochish, kengaytirish, bo'shatish, yumshatish, kuchsizlantirish; **desserrage du frein** tormozni, siqishni bo'shatish, qo'yib yuborish.

**desserrer I.** *vt* **1.** ochmoq, yozmoq, kermoq, ochib, yozib yubormoq, bo'shatmoq, kuchsizlantirmoq, pasaytirmoq, qo'yib yubormoq, yechib yubormoq; **desserrer le frein** tormozni bo'shatmoq, qo'yib yubormoq; **desserrez les rangs** safda, qatorda yoziling, cho'ziling; **ne pas desserrer les dents** o'jarlik, qaysarlik bilan jim turmoq, og'iz ochmay turmoq, bir so'z demay turmoq; **2.** vintini bo'shatmoq, yechmoq, yechib, bo'shatib olmoq; **II. se desserrer** *vpr* ochilmoq, yozilmoq (*qo'l, tishlar*), yechilmoq (*tugunlar*).

**dessert** *nm* desert (*ovqatdan keyin yeyiladigan meva, shirinlik*).

**desserte**[1] *nf* xizmat qilayotganda idishlar qo'yiladigan kichkina stol.

**desserte**[2] *nf* umumiy transportlarda xizmat qilish, ishlash; **chemin de desserte** qishloq yo'li.

**desservant** *nm* vikariy (*pop yoki arxiyeryey o'rinbosari*); **les desservants du culte** ruhoniy.

**desservir**[1] *vt* **1.** stolni yig'ishtirmoq, stoldan yig'ishtirib olmoq; **2.** yomon xizmat ko'rsatmoq, zarar, ziyon, shikast yetkazmoq.

**desservir**[2] *vt* **1.** umumiy taransportlarda xizmat qilmoq, ishlamoq; **2.** cherkov qavmlariga xizmat qilmoq.

**dessiccation** *nf* quritish, namini qochirish.

**dessiller** *vt* ko'zini ochib qo'ymoq, haqiqatni bildirmoq, ko'zlarini ochmoq.

**dessin** *nm* **1.** rasm, naqsh, gul, shakl; **dessin hachuré** ingichka chiziqli rasm; **dessin d'après nature** o'ziga qarab chizilgan rasm; **dessin à main levée** qo'lda chizilgan rasm; **dessins animés** birin-ketin jonlantirib oluvchi rasmlar filmi; **2.** chizma, tasvir, tarh, reja; **dessin linéaire, dessin industriel, dessin géométral** texnik tasvir; **dessin d'architecture** binokorlik rejasi; **3.** chizish, rasm solish, rasm chizish, chizmachilik; **4.** hajviy rasm, kulgili rasmlar.

**dessinateur, trice** *n* **1.** qalam bilan rasm soluvchi rassom, usta rassom; **dessinateur industriel** chizmachi, chizmakash; **2.** hajviy, kulgili rasm soluvchi.

**dessiner I.** *vt* **1.** rasm solmoq, rasm yasamoq, rasm chizmoq, rassomlik bilan shug'ullanmoq; **dessiner au crayon** qalam bilan chizmoq; **dessiner d'après nature** o'ziga qarab rasm solmoq; **dessiner au fusain** ko'mir bilan rasm yasamoq; **2.** chizmoq; **3.** ustidan, atrofidan chizib chiqmoq, ustidan qalam yurgizmoq, ajratmoq, ajratib ko'rsatmoq; **ce vêtement dessine bien les formes** bu kiyim qiyofani ajratib ko'rsatadi; **4.** aks ettirmoq, ifoda etmoq; **II. se dessiner** *vpr* ko'rinmoq, ko'zga tashlanmoq, namoyon bo'lmoq, aks etmoq.

**dessouder** *vt* eritib tushirmoq, kavsharini ajratmoq, hil-hil qilib pishirmoq.

**dessoûler** *vt* **1.** *fam* o'ziga keltirmoq, hushyor qilmoq (*mast odam*); **2.** o'ziga kelmoq, hushyor bo'lmoq (*mast odam*).

**dessous**[1] **I.** *prép* ostida, tagida, ostiga, tagiga, ostidan, tagidan, pastda, pastga, pastdan; **II.** *adv* ostda, pastda, tubanda, quyida, pastki tomonda, ostga, quyiga, tubanga, pastga qarab, pastga tomon; **mettez cela dessous** buni pastga qo'ying; *loc adv* **par dessous** tagida, ostida, pastdan, tagidan; **par-dessous la jambe** mashaqatsiz, bir nafasda, bir onda, darrov, tezda, ko'z ochib yumguncha, bir lahzada; *loc prép* **de dessous** tagidan, ostidan; **tirer de dessous la table** stol ostidan tortib, sudrab chiqarmoq; *loc adv* **en dessous** pastdan, ostidan, quyidan; **observer, regarder en dessous** ko'z ostidan qiya qaramoq; **agir en dessous** zimdan urinmoq, harakat qilmoq; *loc adv* **là dessous** shu, bu yerda, bunda, shunda, buning ostida, tagida; **il y a qqch là-dessous** bu yerda bir narsa yashiringan; **ci-dessous** quyiga; **voyez ci-dessous** quyiga, pastga qarang.

**dessous**[2] *nm* **1.** ost, tub, tag, quyi, pastki, ostki; **vêtement de dessous** ichki ko'ylak; **dessous de verre** likopcha, taqsimcha; **2.** ters, teskari tomoni, ich tomoni, chap tomoni; **3.** *pl* ayollar ichki kiyimi; **4.** *fig* yashirin, maxfiy tomon; **5. avoir le dessous** yengilmoq; *loc adv* **au-dessous** quyida, pastda, ostida; **je suis logé au-dessous de lui** men uning tagida yashayman; **le thermomètre est descendu au dessous de zéro** issiqlik noldan pastga tushdi; **au-dessous de cent euros** yuz evrodan oz, past; **au dessous de trente ans** o'ttiz yoshdan kam.

**dessus**[1] **I.** *prép* ustiga, ustida; **II.** *adv* yuqorida, tepada, ustida, ustidan, yuqoridan, ustidan; **mettez le coffre sous la table et le carton dessus** sandiqni stol ostiga, qutini ustiga qo'ying; **passer dessus** ustidan bosib o'tmoq, qoldirib, tashlab ketmoq (*o'qishda*); **tirer dessus** ustiga otmoq; **mettre la main dessus** qo'lga olmoq; **tomber dessus** bexosdan yuz bermoq; kutilmaganda boshga tushmoq, oyoq ostidan chiqib qolmoq; **sens dessus dessous** ostin-ustin, chappa, to'ntarilib; **par-dessus** *loc adv* boshi ustidan; **par-dessus tout** hammadan ko'ra; **par-dessus le marché** qo'shimcha; **jeter dessus la muraille** devordan oshirib tashlamoq; **il passa le veston et son manteau par-dessus** u paltosi ustidan kurtkasini kiydi; **j'en ai par dessus la tête** bu jonimga tegib ketdi; **de dessus** -dan, ustidan; **ôter de dessus la table** stoldan olmoq; **en dessus** yuqori, baland, ustida; **là-dessus** keyin, bundan keyin; **là-dessus il est parti** shundan keyin u jo'nab ketdi; **regardez ci dessus** ustiga, tepasiga qarang.

**dessus**[2] *nm* ustki qism, ust, tepa, yuqori, cho'qqi, uch; yuza, tomon; **vêtement de dessus** ustki kiyim; **le dessus du panier** a'lo qaymog'i; **enlever le dessus du panier** qaymog'ini olmoq; **prendre le dessus** g'alaba qozonmoq, yengmoq; **avoir le dessus** ustun kelmoq; *loc adv* **au dessus** yuqorida, tepada, ustida, balandda; **j'occupe l'appartement du premier et mon frère habite au-dessus** men ikkinchi qavatdagi uyni egallaganman, akam tepada yashaydi; **les sommes de cent euros et au dessus** yuz evro va undan yuqori; **les enfants de cinq ans et au-dessus** besh yoshgacha va undan kattalar; **le peintre n'a rien produit qui soit au-dessus** rassom yetukroq biron narsa yaratmadi; **se placer au-dessus des autres** birovlarning ustiga o'tirmoq; **se mettre au-dessus de tout** hamma narsadan baland, yuqori turmoq; **il a au-dessus de trente ans** unga o'ttiz yoshdan oshiq.

**destin** *nm* taqdir, nasiba, taqdirning taqozosi, falakning gardishi, zamona zayli, qismat, peshona, tole, yozmish.

**destinataire** *n* oluvchi (*pochta orqali jo'natilgan narsani*).

**destination** *nf* **1.** belgilash, tayinlash, buyurish, belgilab, atab qo'yish, ko'zda tutish, mo'ljallab qo'yish; **à destination de** uchun; **remettre une lettre à sa destination** xatni oluvchiga yetkazmoq; **2.** ish joyi, xizmat joyi; **arriver à destination** xizmat joyiga yetib kelmoq.

**destiner I.** *vt* **(à)** tayinlab, belgilab qo'ymoq, mo'ljallab, atab, bag'ishlab qo'ymoq, tayinlamoq, belgilamoq, ishga qo'ymoq; **II. se destiner** *vpr* tayinlamoq, atalmoq, belgilanmoq, ko'zda tutilmoq.

**destituer** *vt* haydamoq, surib qo'ymoq, ishdan chetlashtirmoq, ishdan olmoq, bo'shatmoq, mansabidan ozod qilmoq.

**destitution** *nf* haydash, chetlashtirish, ishdan, mansabdan olish, bo'shatish, *mil* unvonni pasaytirish; **prononcer la destitution de qqn** ishdan bo'shatib yubormoq.

**destrier** *nm* jangovor ot.

**destructeur, trice I.** *adj* vayron qiluvchi, qiladigan, qiluvchi, qiradigan; **II.** *n* yemiruvchi, vayron qiluvchi, qiruvchi, qirib bitiruvchi.

**destructif, ive** *adj* vayron qiladigan, qirib bitiradigan, halokatli, yemiradigan.

**destruction** *nf* **1.** xarob qilish, yemirish, buzish, vayron qilish, xaroba, vayrona, qirib tashlash, bitirish, qirish, yo'qotish, yo'q qilish; **destruction collective, destruction en masse, destruction massive** ommaviy qirib tashlash quroli; **2.** buzilish, aynish, chirish, sasish, tanazzul.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**déstructurer I.** *vt* tuzimini yo'qotmoq; **II. se déstructurer** *vpr* tuzimini yo'q qilmoq.

**désuet, ète** *adj* eski, eskirgan, eskirib qolgan, eskicha, ko'xna, iste'molda, chiqqan, eskirib ketgan, to'zigan, chirigan, ishdan chiqqan.

**désuétude** *nf* ishlatilmaslik, iste'mol qilinmaslik; iste'moldan qolganlik, qo'llanilmaslik, eskilik, eskirganlik, ko'xnalik; **tomber en désuétude** iste'moldan chiqmoq.

**désuni, ie** *adj* **1.** noahil, ayrilgan, ajratilgan, ayrib, uzib qo'yilgan, bir-biri bilan bog'lanmagan, bir-biridan ajralib, uzilib qolgan, aloqasi yo'q tarqoq; **2.** o'zaro muvofiqlashtirilmagan, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, nomuvofiq, poyma-poy, bog'lanmagan, yopishmagan; **cheval désuni** poyantar-soyantar yuradigan ot.

**désunion** *nf* **1.** ayirish, ajratish, uzish, ayirib, uzib qo'yish, bir-biridan judo qilish, ajralib, uzilib qolish, aloqaning uzilishi, yo'qligi; **2.** *fig* aloqa, munosabatlarni uzish, buzish, uzilish, noittifoqlik, ora buzuqlik, kelishmovchilik, nizo, janjal, ixtilof.

**désunir I.** *vt* **1.** ayrimoq, ajratmoq, uzmoq, ayrib, ajratib, uzib qo'ymoq, bir-biridan ajratmoq, yakkalab qo'ymoq, aloqani uzmoq; **2.** ziddiyat solmoq, buzmoq, nizo, janjal, ixtilof solmoq, judo qilmoq, bir-biridan ajratmoq; **II. se désunir** *vpr* ayrilmoq, ajralmoq, judo bo'lmoq, tarqalishmoq.

**détachable** *adj* olinadigan, olib qo'yiladigan, chiqadigan, ajraladigan, ajratib olib bo'ladigan, uzib, yirtib olinadigan, yirtma.

**détachage**[1] *nm* yechish, yechib yuborish, bo'shatish, qo'yib yuborish, yechib olish, ajratish, ayirish, yechish, ayrib, ajratib, uzib olish, shilib olish.

**détachage**[2] *nm* dog', kir izlarini ketkazish, yo'qotish, yuvib tozalash.

**détachant** *nm* dog', kir izlarini ketkazuvchi (*suyuqlik*).

**détaché, ée 1.** yechilgan, yechib yuborilgan, bo'shatilgan, qo'yib yuborilgan, yechib qo'yilgan, ajratilgan, ayrilgan, alohida, alohida olingan, uzilgan, yirtilgan; **pages détachées d'un auteur** bir muallif asaridan parcha, ko'chirma; **note détachée** *mus* stakkato; **2.** beparvo, bee'tibor, loqayd, e'tiborsiz; **partir d'un air** loqayd qiyofada chiqib ketmoq, jo'nab ketmoq; **3.** boshqa joyga ishga, o'qishga jo'natilgan, yuborilgan; **être détaché d'office** xizmatdan bo'shatilmoq.

**détachement** *nm* **1.** e'tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik, ahamiyat bermaslik; **un entier détachement** butunlay mansabdan bekor qilish, tushirish; **2.** to'da, turkum, guruh, otryad, bo'lim, bo'linma, komanda; **détachement de liaison** aloqa o'rnatish guruhi; **détachement d'avant-garde** ilg'or to'da; **3.** boshqa joyga ishga, o'qishga yuborish, jo'natish.

**détacher**[1] **I.** *vt* **1.** yechmoq, yechib yubormoq, bo'shatib, qo'yib yubormoq, yechib olmoq, uzmoq, uzib olmoq, yechib tashlamoq, yechib qo'ymoq, ayirmoq, ajratmoq, uzib yubormoq; **sans détacher les yeux** ko'zini uzmay; **2. (auprès de qqn)** boshqa joyga ishga, o'qishga jo'natmoq, buyurmoq; **3.** aniq talaffuz qilmoq, chertib-chertib, burro gapirmoq; **4. détacher un coup à qqn** zarba urmoq; **II. se détacher** *vpr* **1.** ajralmoq, ajralib; **2. (sur)** ajralib chiqmoq, ajralib ko'rinmoq; **3. (de qqn, de qqch)** voz kechmoq, qaytmoq, qutulmoq, rad etmoq; uzoqlashmoq, o'zini chetga olmoq.

**détacher**[2] *vt* dog', kir izlarni yo'q qilmoq, yuvib ketkazmoq, tozalamoq.

**détail** *nm* **1.** qism, tafsilot, mayda-chuyda, ikir-chikir gaplar; **entrer dans les détails** tafsilotga berilmoq, **entrer dans les détails** tafsilotga berilmoq; **c'est un détail** *fam* bu bir bo'lak, bu hech narsa emas, muhim emas; **en détail** *loc adv* mufassal, to'la batafsil, mukammal ravishda, birma-bir; **2.** detal qism (*mashinada*); **3.** to'liq tavsiflash, tasvirlash, birma-bir sanash; **détail des prix** baholar jadvali; **4.** chakana savdo; **en (au) détail** chakanalab; **acheter, vendre au détail** chakanalab sotmoq, sotib olmoq.

**détaillant, ante I.** *adj* chakanalab sotuvchi, sotadigan; **II.** *n* chakana savdogar.

**détailler** *vt* **1.** bo'laklarga kesmoq, kesib tashlamoq; **2.** batafsil tekshirmoq, tafsilotlari bilan aniqlamoq, batadsil hikoya qilib bermoq, tafsilotiga berilmoq; **3.** birma-bir ko'rib chiqmoq, mayda-chuydalarigacha qarab chiqmoq; **4.** chakanalab sotmoq, bo'laklarga bo'lib sotmoq, poyma-poy narsalarini sotmoq.

**détaler** *vi fam* qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutilib qolmoq, jo'nab qolmoq.

**détartrage** *nm* qaynab qotgan loyqa qatlamlarni ketkazish, qirib olib tashlash.

**détartrer** *vt* qotgan loyqa, qatlarni ketkazmoq, yo'qotmoq, quyqani olib tashlamoq; **se faire détartrer les dents** tishda qotgan qatlam, toshlarni ketkazmoq, qirib olib tashlamoq.

**détaxe** *nf* kamaytirish, qisqartirish.

**détaxer** *vt* kamaytirmoq, ozaytirmoq, qisqartirmoq (*soliqni*).

**détecter** *vt* **1.** ochmoq, topmoq, ko'rib qolmoq; **2.** to'g'rilamoq, moslamoq (*radioda*).

**détecteur, trice I.** *adj* detektorli, detektorga oid; **lampe détectrice** detektor lampasi; **II.** *nm* **1.** radio detektor; **détecteur à lampe** lampa detektori; **2.** *mil* radio to'lqinlar yordamida joylarni aniqlash asbobi, qurilmasi, qidiruvchi asbob; **détecteur de mines** mina qidiruvchi.

**détection** *nf* **1.** ko'rsatish, topish, ochish, kashf qilish, bilib olish; **détection des neutrons** neytronni kashf qilish; **2.** radio ko'rsatish, to'g'rilash; **détection électromagnétique** radio to'lqinlarini topish.

**détective** *nm* maxfiy josus, ayg'oqchi, izquvar.

**déteindre I.** *vt* rangini ketkazmoq, rangsizlantirmoq, bo'yog'ini yo'qotmoq; **II.** *vi* **1.** aynimoq, o'ngmoq, oqarmoq, rangi o'chmoq; ketmoq; **2. (sur qqn)** *fam* ta'sir qilmoq, ko'rsatmoq.

**dételer** *vt* **1.** otni aravadan chiqarmoq, yechmoq, bo'shatmoq; **2.** *techn* uzmoq, ajratmoq, uzib, ajratib qo'ymoq; **3.** *fam* ishni to'xtatmoq.

**détendre I.** *vt* **1.** keskinlikni yumshatmoq, kamaytirmoq; **détendre un ressort** prujinani bo'shatmoq; **détendre son esprit** aqlga, miyaga dam bermoq; aqliy taranglikdan keyin dam olmoq; **2.** tepkini qo'yib yubormoq; **3.** *phys* kuchlanishni pasaytirmoq; **II. se détendre** *vpr* **1.** kuchsizlanmoq, bo'shashmoq, zaiflashmoq, uzaymoq, cho'zilmoq; **2.** charchagandan keyin dam olmoq, hordiq chiqarmoq; **3.** *fam* bo'shashib, lohas, lanj bo'lib qolmoq, shalviramoq.

**détenir** *vt* **1.** ega bo'lmoq, saqlamoq; **détenir la majorité** ko'pchilikka ega bo'lmoq; **détenir le record** muvaffaqiyat, yutuqni ushlab, tutib turmoq; **2.** tutib, saqlab turmoq (*birovnikini*); **3.** qamoqda tutib, saqlab, ushlab turmoq.

**détente** *nf* **1.** bo'shashish, kuchsizlanish, zaiflashish, keskinlikni yumshatish, to'xtash, dam olish; **détente internationale** xalqaro keskinlikni yumshatish; **une détente est intervenue, une détente s'est produite** keskinlik, tanglik, vaziyat yumshadi; **une détente dans les esprits** xayollarini tinchlantirish; **être dur à la détente** xasis bo'lmoq, gapga kirmaydigan, o'jar, qaysar, ters bo'lmoq, og'ir bo'lmoq; **2.** tepkini qo'yib yuborish; **3.** tepki (*ilgagi*); **4.** portlash, yorilish; **5.** hajmning kengayishi, kattarishi, kattalashishi; gaz bosimining pasayishi; **6.** *sport* og'irlik ko'tarishdan keyin kerilish, yozilish, bo'shashish.

**détenu, ue I.** *adj* qamalgan, ozodlikdan mahrum qilingan, qamab qo'yilgan; **II.** *n* mahbus, jinoyatchi.

**détergent, ente I.** *adj* tozalovchi, tozalaydigan, yuvib tozalaydigan; **II.** *nm* yuvuvchi vosita, poroshok.

**déterger** *vt méd* yuvmoq, tozalamoq, yuvib tozalamoq (*tozalovchi vosita bilan*).

**détérioration** *nf* shikast, zarar, ziyon yetkazish, pachaqlash, buzish, buzilish, ishdan chiqaish, yaroqsizlik (*asboblar*); **détérioration des relations** *fig* aloqaning yomonlashishi.

**détériorer I.** *vt* shikastlamoq, zarar, ziyon yetkazmoq, pachaqlamoq, buzmoq, ishdan chiqmoq, yaroqsiz bo'lmoq; **II. se détériorer** *vpr* buzilmoq, aynimoq; *fig* yomonlashmoq (*aloqa*).

**déterminant, ante I.** *adj* aniqlovchi, aniqlaydigan; **II.** *nm math* aniqlovchi, daraja ko'rsatgich, determinant; **III.** *gram* qo'shimcha, ko'rsatkich.

**déterminatif, ive I.** *adj gram* determinativ (*shaxs, son, rod*) ko'rsatkichlar; **II.** *nm gram* ko'rsatkich, determinativ.

**détermination** *nf* **1.** aniqlovchi, ta'riflash, tavsiflash, tasniflash, ta'rif, tavsiv, aniqlash, o'rnatish, joylashtirish; **libre détermination des peuples** xalqlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash huquqi; **2.** xulosa, fikr, qaror, to'xtam; **3.** jasorat, jur'at, qat'iyat, dadillik, astoydillik.

**déterminé, ée** *adj* **1.** aniq, ma'lum, muayyan, belgili, tayinli; **2.** dadil, ja'sur, yurakli, dovyurak, mard, tap-tortmas, jur'atli, ikkilanmaydigan, qo'rqmas, botir.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**déterminer I.** *vt* **1.** aniqlamoq, belgilamoq, topmoq, aniq qilmoq, o‘rnamoq, joylashtirmoq, oldindan aniqlab qo‘ymoq; **2.** *gram* anniqlamoq, ko‘rsatmoq (*son, rod*); **3.** sabab bo‘lmoq, qo‘zg‘otmoq, tug‘dirmoq; **4. (à qqch, à faire qqch)** ko‘ngliga solmoq, majbur etmoq, qo‘zg‘otmoq, og‘dirmoq, ko‘ndirmoq; **II. se déterminer** *vpr* **(à qqch) 1.** qaror qabul qilmoq, jur'at etmoq; **2.** kuzda tutmoq, aniqlanmoq, bir yoqli bo‘lmoq.

**déterminisme** *nm philos* determinizm.

**déterministe** *nm philos* **I.** *adj* aniqlanadigan; **II.** *nm* aniqlovchi determinist.

**déterrer** *vt* **1.** kovlab olmoq, kovlab chiqarmoq, kovlamoq; **2.** murdani sud-ekspertizasi uchun go‘rdan kovlab olmoq; **3.** topmoq, ochmoq, ko‘rmoq, ko‘rib qolmoq, kovlab olmoq.

**détersif, ive I.** *adj* **1.** *méd* yuvib tozalaydigan; **2.** yuvuvchi, yuvadigan; **II.** *nm* yuvuvchi vosita, poroshok.

**détestable** *adj* **1.** jirkanadigan, nafratlanadigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz, ablahona, bemaza, yaramas, murdor; **2.** manfur, nafratni keltiradigan.

**détestablement** *adv* yoqimsiz, bir holda, tarzda; juda xunuk, juda yomon, jirkanch, yaramas odamlar kabi, razilona, qabihlarcha.

**détester** *vt* yomon ko‘rmoq, nafratlanmoq, jirkanmoq, juda yomon ko‘rmoq.

**détonateur** *nm* portlatgich, portlatuvchi, portlatuvchi moslama.

**détonation** *nf* portlash, portlatish, portlab ketish.

**détoner** *vt* portlamoq, portlab ketmoq, portlatib yubormoq, portlatmoq.

**détonner** *vi* **1.** *mus* ohangni, tonni, ovozni, yo‘lni buzmoq (*cholg‘uda, ashulada*) o‘zgartirmoq, buzib chalmoq, aytmoq; **2.** nosoz, noohangdosh bo‘lmoq, ohangdoshlik, uyg‘unlikni buzmoq, ohangdosh bo‘lmagan, uyg‘unlashmagan tovush bermoq, nomuvofiq bo‘lmoq; **ces couleurs détonnent** bu ranglar bir-biriga mos kelmaydi.

**détour** *nm* **1.** burilish, muyulish, muyush, ilon izi, ilang-bilang, egri-bugri joy; **2.** aylanma yo‘l, aylanish, aylanib o‘tadigan yo‘l; aylanib o‘tish; **3.** hiyla, nayrang, vaj, gapni aylantirish, makr qilish, ishlatish, ustamonlik; **chercher des détours** ikki yuzlamalik, munofiqlik qilmoq, bilib turib yolg‘on gapirmoq; **sans détour** samimiy ravishda, chin yurakdan, ko‘ngildan, ochiq ko‘ngil bilan, xafa bo‘lmasdan.

**détourné, ée** *adj* aylanma; **sens détourné** yashirin ma'no; **d'une manière détournée** kinoya, shama bilan, qochirma qilib, kesatib.

**détournement** *nm* **1.** og‘ish, chetga chiqish, farq, burilish; **2.** yo‘ldan urish, ozdirish, yomon yo‘lga solish, boshlash, yo‘ldan ozish, yomon yo‘lga kirish, aynish, buzilish; **3.** kamomad, sarflash, xarjlash, ketkazish, yo‘q qilish, o‘g‘irlash, talon-taroj qilish, talab ketish.

**détourner I.** *vt* **1.** og‘dirmoq, biron tomonga burmoq, qaytarmoq, boshqa yo‘lga solmoq, chalg‘itmoq, alahsitmoq; **détourner les eaux de** suvni burib yubormoq; **détourner la tête** qayrilmoq, qayrilib qaramoq, o‘girilmoq; **2.** yo‘ldan urmoq, ozdirmoq yomon yo‘lga solmoq, kirmoq, aynitmoq, buzmoq; **3.** o‘g‘irlamoq, talon-taroj qilmoq, talab ketmoq; **détourner des fonds publics** davlat pulini sarflab yubormoq, ishlatmoq; **4.** buzmoq, nato‘g‘ri talqin qilmoq, buzib ko‘rsatmoq (*ma'noni*); **5.** biror ishdan qaytarmoq, qaytishga ko‘ndirmoq, qoldirmoq, rozi qilmoq; **II. se détourner** *vpr* boshqa tomonga burilmoq, teskari o‘girilmoq, yuzini teskari o‘girmoq.

**détracter** *vt* yomonlamoq, qoralamoq, badnom, g‘iybat qilmoq, koyimoq, haqorat qilmoq, xo‘rlamoq, kamsitmoq, yerga urmoq.

**détracteur, trice I.** *adj* tuhmat qilib aytilgan, tuhmat, bo‘htondan iborat bo‘lgan, tuhmat, bo‘hton, yolg‘on, uydirma; **II.** *n* yomonlovchi, qoralovchi, g‘iybatlovchi, g‘iybat qiluvchi, bo‘htonchi.

**détraction** *nf* qoralash, yomonlash, g‘iybat qilish; bo‘hton, uydirma, tuhmat, yolg‘on.

**détraqué, ée I.** *adj* **1.** buzuq, nosog‘, yaroqsiz, siniq, ishdan chiqqan, shikastlangan, lat yegan; **2.** *fam* aqldan ozgan, esini yegan, jinni bo‘lib qolgan, ruhiy kasallikka yo‘liqqan; **II.** *n* jinni, tentak, aqldan ozgan odam.

**détraquement** *nm* kasallanish, buzilish, xafagarchilik, dilsiyohlik, shikast, ziyon yegan, lat yegan.

**détraquer** *vt* **1.** buzilmoq, ishdan chiqarmoq, nosoz qilib qo‘ymoq, buzib qo‘ymoq (*mexanizmlarni*); **2.** buzmoq, asablarni tarang qilmoq, asabiylashtirmoq, kasal qilmoq, kasallantirmoq.

**détrempe** *nf* **1.** tuxum sarig‘idan tayyorlangan bo‘yoq, yelimli bo‘yoq; **peindre à la détrempe** yelimli bo‘yoq bilan yozmoq, chizmoq, rasm solmoq; **2.** yelimli bo‘yoq bilan solingan rasm.

**détremper** *vt* eritmoq, eritib qormoq, chopishtirmoq, suv qo‘shmoq, qormoq, shalabbo qilmoq.

**détresse** *nf* **1.** ofat, falokat, musibat, og‘ir, mushku ahvol, baxtsizlik, ko‘ngilsiz voqea, kulfat, baxtsizliklar, qiyinchiliklar, musibatlar; azob-uqubatlar, muhtojlik, kambag‘allik, qashshoqlik, nochorlik, yo‘qsillik; **détresse morale** sarosimalik, dovdirab, esankirab, gangib qolish, parishonlik, ruhi tushganlik, tushkunlik, ma'yuslik, dili xuftonlik; **signal de détresse** falokat, halokat signali, havo trevogasi signali; **en détresse** halok bo‘layotgan, taqdir taqozosiga tashlab qo‘yilgan; **navire en détresse** halokatga uchragan kema; **2.** qayg‘u, dard-alam, ta'ziya, motam, hasrat, g‘am-g‘ussa, siqilish, qo‘msash; **cri de détresse** nochorlik sadosi.

**détroit** *nm* **1.** bo‘g‘oz; **2.** dara, tog‘ oralig‘i.

**détromper I.** *vt* yanglishish, adashishdan qutqarmoq, xolos qilmoq; **II. se détromper** *vpr* yangilashmay, adashmay qo‘ymoq.

**détrôner** *vt* **1.** taxtdan tushirmoq, og‘darmoq; **2.** *fig* tojdan mahrum qilmoq; **détrôner le champion** birinchilikni tortib olmoq.

**détrousser** *vt* o‘g‘irlamoq, talamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq, o‘g‘irlab, urib ketmoq, tunamoq, yechintirib, yalong‘ochlab ketmoq.

**détruire I.** *vt* vayron qilmoq, buzmoq, yiqitmoq, qulatmoq, yemirmoq, yo‘q qilmoq, qirib bitirmoq, tugatmoq, qirib tashlamoq; **détruire un document** hujjatlarni yo‘qotmoq; **détruire un usage** urf-odatlarni yo‘q qilmoq; **II. se détruire** *vpr* **1.** buzilmoq, vayron bo‘lmoq, yiqilmoq, qulamoq, halok, nobud bo‘lmoq, o‘lmoq; **2.** *fam* o‘zini-o‘zi o‘ldirmoq.

**dette** *nf* **1.** qarz; **dettes actives** qarzga berilgan so‘mlar; **dette publique** davlat burchi, vazifasi; **dette commerciale** savdo-sotiq vazifasi, burchi (*qilish*); **dette consolidée** jipslashgan, birlashgan burch; **dette en souffrance** to‘lanmagan qarz; **remise de dette** qarzdan bosh tortish; **être criblé de dettes** qulog‘igacha qarzga botmoq; **contracter une dette** qarz olmoq; **avouer une dette** qarzni tan olmoq; **2.** vazifa, xizmat, lavozim, majburiyat; **payer sa dette à la nature** *fam* tabiatiga muvofiq ish tutmoq, ta'bi xohlagan ishni qilmoq, holdan toymoq; **payer sa dette à la société** jinoyat uchun qatl qilinmoq.

**deuil** *nm* **1.** motam, aza; **grand deuil** chuqur motam; **suivre le deuil** motam marosimiga bormoq; **prendre le deuil** qora, aza kiyimi kiymoq; **faire son deuil de** *fam* bir umrga xayrlashmoq; **les ongles en deuil** azador bo‘lib tirnog‘ini qora qilib yurish; **2.** ta'ziya, motam, dard-alam, qayg‘u; **deuil public** umumiy motam.

**deux I.** *adj* **1.** ikki, ikkita; **à deux pas d'ici** bu yerdan ikki qadam; **tous (les) deux** ikkov, ikkovlon, ikki kishi bo‘lib, ikki kishilashib, ikki kishi, ikki ovora; ikkisi, ikkalovi, ikkalasi, ikkovi ham, har ikkisi; **deux à deux** ikkita-ikkita bo‘lib, juft-juft bo‘lib; **de deux en deux** ikkitadan keyin; **en deux** ikkiga, baravar bo‘lib; **en deux temps** ikki qabul qilishda, tez, tezda; **deux fois rien** oson, yengil, hech gap emas, behuda, bo‘lmag‘ur gap; *prov* **promettre et tenir sont deux choses** hech narsaga arzimaydi, holva degan bilan og‘iz chuchimaydi; **2.** ikkinchi; **page deux** ikkinchi bet; **numéro deux** ikkinchi nomer; **II.** *nm* **1.** ikki (*son*), ikki (*baho, qarta o‘yinida*); **jamais deux sans trois** ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruxdan iborat yagona xudo; **piquer les deux** otni qistovga olmoq, qochib ketmoq; **en moins de deux** *fam* birdan, tezda, juda tez, bir daqiqada, zumda, onda; **entre les deux** u ham emas, bu ham emas, ora yo‘lda, o‘rtacha, o‘rta-miyona; **cela est clair comme deux et deux font quatre** ikki karra ikki to‘rtday ravshan, aniq; **2.** ikkinchi sana; **le deux mai** ikkinchi may(da); **3.** ikkovlon (*poyga qayig‘i*); **deux rameurs de couple** juft ikkiliklar; **4. (le deux)** (*teatrda*) ikkinchi akt (*oraliq*).

**deux-huit** *nm inv mus* sakkizdan ikki (2/8) o‘lchovi.

**deuxième I.** *adj* ikkinchi; **loger au deuxième étage** ikkinchi qavatda yashamoq; uchinchi qavatda yashamoq; **II.** *n* ikkovi, ikkalasi, ikkovlon; **la deuxième en classe** sinfda ikkinchisi; **3.** *nm* uchinchi qavat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**deuxiemement** *adv* ikkinchidan.

**deux-mâts** *nm inv* ikki yelkanli kema.

**deux-pièces** *nm inv* **1.** xotinlar kostum-yubkasi; **2.** xotinlar cho'milish kostumi (*ikki narsali*); **3.** ikki xonali uy (*kvartira*).

**deux-points** *nm inv* ikki nuqta.

**deux-temps** *nm inv* ikki taktli dvigatel.

**dévaler I.** *vi* pasayib, tushib bormoq, pastga tushmoq, tushib turmoq, pastga qarab bormoq; **II.** *vt* tushirmoq, tushirib qo'ymoq; dumalatmoq (*tog'dan, narvondan*); **dévaler les marches** zinapoya bilan yugirmoq; **dévaler une pente** qiyalikdan, nishab joydan tushmoq.

**dévaliser** *vt* o'g'ri urmoq, o'g'irlab ketmoq, shilmoq, o'g'irlamoq, talamoq.

**dévalorisation** *nf* **1.** bahoning tushib ketishi, qiymatining pasayishi, pul qadrsizlanishi; **2.** siyosatning ahamiyatsizlanishi, ahamiyatini yo'qotishi, qadrsizlanishi.

**dévaloriser** *vt* **1.** bahoni pasaytirmoq, qimmatini tushirmoq, qadrsizlantirmoq; **2.** *fig* qadrsizlanmoq, ahamiyatini yo'qotmoq.

**dévaluation** *nf* pul qadrsizlanishi, pasayishi, tushib ketishi.

**dévaluer** *vt* bahoni tushirmoq, qimmatini pasaytirmoq, qadrsizlanmoq.

**devancer** *vt* **1.** ilgarilab ketmoq, quvib o'zmoq, o'zib ketmoq, oldida yurmoq, oldinga o'tmoq; **2.** muddatidan oldin bo'lmoq, sodir bo'lmoq; **devancer l'appel** muddatidan ilgari, oldin muddati bo'lmasdan harbiy xizmatga chaqirilmoq, bormoq.

**devancier, ière I.** *n* o'tmishdosh, oldin o'tgan; **II.** *nm pl* ota-bobolar, ajdod.

**devant**[1] **I.** *prép* yaqinda, yonida, oldida, labida, ustida, boshida; **se chauffer devant le feu** o't oldida isinib o'tirmoq; **se promener devant la porte** eshik oldida sayr qilib yurmoq; **se jeter devant qqn** birovning ustiga tashlanmoq, sakramoq; **regarder devant soi** ko'zi, ko'z oldiga qaramoq; **II.** *adv* oldda, oldinda, olddan, oldida; **se placer devant** oldda o'tirmoq; **passer devant** oldiga o'tmoq; *loc adv et prép* **par-devant** oldida, ro'parasida, qarshisida, huzurida; **par-devant notaire** notarius huzurida, oldida.

**devant**[2] *nm* old, old tomon, old qismi; **de devant** old tomondagi, oldingi; **loger sur le devant** derazalari ko'chaga qaragan, ochiladigan uyda yashamoq; **prendre les devants** oldida bormoq, oldinda yurmoq; *fig* ilgarilab, o'zib ketmoq, oldinga o'tmoq, ogohlantirmoq, vaqtdan yutmoq, ulgurmoq; *loc adv et prép* **au-devant de** qarshisiga, ro'parasiga, qarama-qarshi, peshvoz chiqib; **aller au-devant de** peshvoz chiqmoq, qarshisiga chiqmoq.

**devanture** *nf* **1.** vitrina (*do'konning old derazasi*); **2.** mollar ko'rgazmasi (*do'konda*).

**dévastateur, trice I.** *adj* xarob, vayron qiladigan, halok qiladigan, qirg'in keltiradigan, halokatli; **II.** *n* xarob qiluvchi, vayron, halok qiluvchi, qirg'in keltiruvchi.

**dévastation** *nf* qirib bitirish, nobud, vayron qilish, xarob etish, qiyratish, bo'shatish, tekislab tashlash.

**dévaster** *vt* xarob qilmoq, vayron qilmoq, qirg'in qilmoq, qirib, tekislab tashlamoq, xarobazorga aylantirmoq, xarob etmoq, buzmoq, xonavayron qilmoq, qashshoq, barbod qilmoq.

**déveine** *nf* ishi o'ngidan kelmaslik, sira omadi yurishmaslik, omadsizlik, muvaffaqiyatsizlik, ish o'ngmaslik.

**développement** *nm* **1.** o'sish, rivojlanish, taraqqiy etish, yuqori bosqichga ko'tarilish, o'stirish, taraqqiyot, ravnaq, rivoj, avj oldirish, keng yoyish, kengaytirish; **développement de la coopération** hamkorlikni avj oldirish; **développement du combat** jangni kuchaytirish; **développement d'un sujet** mavzuni kengaytirish; **développement intellectuel** aqliy o'sish; **2.** ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), masofa, cho'ziqlik, uzunlik, kattalik, katta-kichiklik, o'lcham, miqdor; **3.** *photo* olingan suratlarni ko'rinadigan qilish; **4.** *math* yoyish, cho'zish, kengaytirish; **5.** chizish, rasm solish (*topshiriq*); **6.** olg'a tashlanish (*qilichbozlikda*).

**développer I.** *vt* **1.** o'stirmoq, o'smoq, rivojlantirmoq, taraqqiy qildirmoq, avj oldirmoq, yozmoq; **développer un journal** ro'znomani yozmoq, ochmoq; **2.** kengaytirmoq, chuqurlashtirmoq, ifoda etmoq, bayon qilmoq; **3.** (*xotirani*) o'stirmoq, kuchaytirmoq; **4.** olingan rasmni ko'rinadigan qilmoq; **5.** *sport* siltamay siqib ko'tarmoq; **II. se développer** *vpr* **1.** o'smoq, taraqqiy qilmoq, kuchaymoq, yoyilmoq, yiriklashmoq, avj olmoq; **2.** *math* **se développer en** tarkibiy qismlarga ajralmoq, parchalanmoq; **3.** aylanmoq, o'sib o'tmoq.

**devenir**[1] *vi* **1.** bo'lmoq, bo'la boshlamoq, aylanmoq, bo'lib qolmoq; **cela commence à devenir insupportable** bu toqat qilib bo'lmaydigan bo'layotibdi; **devenir qqn** odam bo'lmoq, odam bo'lib yetishmoq; **il finira par devenir qqch** undan bir narsa chiqadi; **que devenez-vous?** nima qilayotibsiz? **que vais-je devenir?** menga nima bo'ladi? **devenir hors d'usage** oyoqdan qolmoq, eskirmoq.

**devenir**[2] *nm philos* shakllanish, o'sish, tashkil topish; **en devenir** o'sishda, shakllanishda.

**dévergondé, ée I.** *adj* uyatsiz, nomussiz, hayosiz, behayo, yuzsiz, benomus, odob doirasidan chiqqan, buzuq, axloqsiz, sayoq, suyuq oyoq, fohishaboz, fohisha; **II.** *n* buzuq, axloqsiz, yomon yo'lga kirgan, fahshga berilgan odam, sayoq, suyuqoyoq kishi, xotinboz, fohishaboz.

**dévergonder (se)** *vpr* fahsh yo'lga kirmoq, fohishabozlikka berilmoq, jinsiy axloqsizlik qilmoq.

**déverrouiller** *vt* **1.** lo'kidonni surib qo'ymoq, ochmoq; **2.** *techn* to'siq, g'ovni olib tashlamoq; bo'shatmoq.

**devers** *prép* **par devers qqn** huzurida, qarshishisida, qo'lida, izmida; **par devers soi** o'zida, o'z izmida, ixtiyorida.

**déversement** *nm* **1.** oqib ketish, tushish (*suv*), chiqarib yuborish, tashlash (*suv*); **2.** to'kish, to'kib tashlash, quyish, ag'darish; **3.** daryo suvining qirg'og'idan oshib, toshib, chiqib ketishi; **4.** nishablik, qiyalik; **5.** ag'darish, ag'darib yuborish, ag'darib to'kish; **6.** *fig* quyish, ochiq izhor, ifoda qilish, ko'ngildagini ochib aytish, yorilib gapirish.

**déverser** *vt* **1.** to'kmoq, to'kib tashlamoq, quymoq, ag'darmoq, tashlamoq, irg'itmoq, chiqarib tashlamoq; **déverser des parachutes** havo desanti tashlamoq (*parashutda*); **2.** ag'darmoq, ag'darib yubormoq, yiqitmoq, qulatmoq, yiqitib, qulatib yubormoq; **3.** *fig* ochiq izhor, ifoda etmoq, ko'ngildagini ochib aytmoq, yorilib gapirmoq; **déverser le blâme sur qqn** tanbeh bermoq, tergab koyimoq.

**dévêtir I.** *vt* yechintirmoq, kiyimini yechib qo'ymoq, yechmoq; **II. se dévêtir** *vpr* yechinmoq, kiyimlarini yechmoq, yalang'och bo'lmoq.

**déviation** *nf* **1.** og'ish, chetga chiqish, toyish, qiyshayish, burilish, farq qilish, farq, tafovut, to'g'ri kelmaslik, surilish; **déviation angulaire** burchak og'ishi; **2.** buzilish, buzish, yomon ta'sir ko'rsatish, o'g'machilik; **déviation de droite** o'ng o'gmachilik; **3.** aylanma yo'l; **4.** *méd* o'zgarish, siljish, yurishib ketish, qiyshayish.

**déviationnisme** *nm* rad etishlik, inkor qilishlik, og'machilik (*oqimi*).

**déviationniste** *nm* rad etuvchi, inkor qiluvchi, og'machi odam.

**dévider** *vt* o'ramni bo'shatmoq (*ip, magnitofon lentasi*); **dévider ses souvenirs** boshidan o'tkazganlarini to'kib-solmoq; **dévider son chapelet** butun yuragi, qalbidagini to'kib solmoq, aytib bermoq, ochiq aytmoq, izhor qilmoq.

**dévier I.** *vt* chetga siljimoq, surib qo'ymoq, bir tomonga og'dirmoq, qiyshaytirmoq, almashtirmoq; **II.** *vi* og'ishmoq, qiyshaymoq, toymoq, bir chetga siljimoq, yo'ldan chiqishga, chetga chiqishga, toyishga, siljishga, og'ishga majbur qilmoq.

**devin, devineresse** *n* bashoratchi, bashorat qiluvchi, folbin, jodugar, sehrgar, afsungar, avraqchi, romchi.

**deviner** *vt* topmoq, aniqlamoq, o'ylab topmoq, yechmoq, fahmlamoq, payqamoq, aql, aql-idrok bilan topmoq.

**devinette** *nf* topishmoq, jumboa, tilsim, sir; **poser une devinette** topishmoq aytmoq.

**devis** *nm* ro'yxat, hisob-kitob, yig'ma (*hamma ma'limotlayini o'z ichiga olgan*) jadval; narx, navo, qiymat, haq; **établir un devis** smeta, ro'yxat tuzmoq.

**dévisager I.** *vt* **1.** diqqat bilan tik qaramoq, birovga tikilib, qadalib qaramoq, qadalmoq, sinchiklab qaramoq, razm solmoq, tikilmoq, tikilib qaramoq, ko'zini lo'q qilib qaramoq; **2.** *fam* yuzini yulib, timdalab olmoq (*birovning*); **II. se dévisager** *vpr* bir-biriga sinchiklab qaramoq, qarashmoq, razm solishmoq.

**devise** *nf* **1.** shior; **2.** qog'oz pul; *pl* valuta pul (*chet el puli*); **devises or** oltin valuta.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**deviser** *vt* suhbatlashmoq, so'zlashib o'tirmoq, hangomalashmoq, guringlashmoq, fikr qilmoq, fikr yurgizmoq, mulohaza, muhokama qilmoq, o'ylamoq.

**dévissage** *nm* burib chiqarish, burib chiqarib olish, burib bo'shatish, yechish (*vintni*).

**dévisser I.** *vt* vintini burab, bo'shatib, yechib olmoq, chiqarib olmo'q, chiqarmoq; **II.** *vi* tog'dan qulab, yiqilib, ag'darilib tushmoq, uzilib tushib ketmoq.

**de visu** *loc adv* o'z ko'zi bilan; **parler de qqch de visu** biron narsa haqida xuddi ko'zi bilan ko'rganday gapirmoq.

**dévitalisation** *nf* tish nervini o'ldirish.

**dévitaliser** *vt* tish nervini o'ldirmoq.

**dévoilement** *nm* fosh qilish, oshkor qilish, ochib tashlash, qoplamasini, yopinchig'ini olib tashlash.

**dévoiler** *vt* qoplamasini yopinchig'ini olib tashlamoq, fosh, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq, chimmatini yechib olmoq, yechmoq.

**devoir[1] I.** *vi* qarz olmoq, qarzdor bo'lmoq; **il doit au tiers et au quart** *fam* u qarzga botib qoldi; **2. vous devez m'attendre** siz meni kutishingiz kerak; **cela doit être vrai** bu haqiqat bo'lsa kerak; **il doit être vieux maintenant** u ehtimol endi qarib qolgandir; **vous devez le regretter** siz uning uchun afsuslanayotgandirsiz; **j'ai dû rentrer à minuit** men ehtimol yarim tunda qaytib kelarman; **II.** *vt* **1.** majbur bo'lmoq, qarzdor bo'lmoq; **il ne doit rien** hech nimaga majbur emas; **2.** qarzdor bo'lmoq; **je lui dois d'être ici** mening bu yerdaligim uchun undan minnadorman, u tufayli men shu yerdaman; **III. se devoir** *vpr* o'zini majbur his qilmoq, sezmoq; **se devoir à qqn** birovga nisbatan o'z vazifasini bilmoq; **comme il se doit** keragiday, kerak bo'lganday.

**devoir[2]** *nm* **1.** burch, vazifa, majduriyat, xizmat, lavozim; **devoir d'honneur** vijdoniy burch, or-nomus ishi; **croire de son devoir** o'z burchi deb hisoblamoq; **il est de mon devoir** men majburman; **faire de qqch un devoir à qqn** birovga biror narsani majbur qilmoq, yuklamoq; **faire un devoir de qqch à qqn** birovni majbur qilmoq; **vous n'avez fait que votre devoir** siz faqat o'z burchingizni ado etdingiz; **se mettre en devoir de** o'zini majbur his qilmoq; **ramener qqn au devoir** o'zini majbur his qilmoq; **ramener qqn au devoir** birovni burchini ado etishga da'vat etmoq, chaqirmoq; **par devoir** burchi deb; **2.** uy vazifasi, topshiriq (*maktabda*); **3.** *pl* hurmat, izzat, ehtirom, hurmat qilish, hurmatlash; **rendre ses devoirs à qqn** birovga o'z hurmatini bildirmoq, izhor qilmoq.

**dévolu, ue I.** *adj* muyassar bo'lgan, to'g'ri kelgan (*erishish*); yuklangan; **II.** *nm* **jeter son dévolu sur** tanlamoq; **par dévolu** tanlashda.

**dévorant, ante** *adj* **1.** yeb borayotgan, yemirib borayotgan, yamlamay yutib yuborayotgan; **2.** qorni to'ymaydigan, yeb to'ymas, mechkay, ochofat, xo'ran, qonmaydigan, chanqoqni bosmaydigan, qondirib bo'lmaydigan.

**dévorer** *vt* yemoq, yeb qo'ymoq, g'ajib tashlamoq, yutib yubormoq, qirmoq, qirib tashlamoq, qirg'in solmoq, yo'q qilmoq, xarob qilmoq, tutday to'kmoq; **dévorer les livres** ko'p kitob o'qimoq; **dévorer ses larmes** ko'z yoshini ichiga yutmoq; **dévorer l'espace** yeldek yugurmoq, chopmoq.

**dévot, ote I.** *adj* taqvodor, xudojo'y, dindor, mo'min; **pose dévote** namozxonlik; **II.** *n* **1.** dindor, xudoga toat-ibodat qiluvchi, ziyoratchi; **faux dévot** o'zini xudojo'y qilib ko'rsatuvchi odam, riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi; **2.** muxlis, ixlosmand, ishqiboz, jazman, xushtor.

**dévotion** *nf* **1.** xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik, mo'minlik, diyonat, taqvo; **livres de dévotion** ibodat kitoblari; **faire ses dévotions** ibodat qilmoq, duo o'qimoq, sig'inmoq, sajda qilmoq, topinmoq, cho'qinmoq; **2.** ortiq darajada hurmat, izzat-ikrom, aziz ko'rish; **être à la dévotion de qqn** cheksiz sadoqatda bo'lmoq, birovga xizmat qilmoq; **par dévotion** izzat-ikrom bilan.

**dévoué, ée** *adj* sodiq, sadoqatli, fidokor, berilgan, fidoyi, baxshida qilgan; **votre dévoué** sodiq qulingiz.

**dévouement** *nm* sadoqat, sodiqlik, fidokorlik, berilganlik, o'zini qurbon qiulish, o'z manfaatlaridan voz kechish, jonbozlik; **dévouement inconditionnel** cheksiz sadoqat.

**dévouer I.** *vt* **(à qqn à qqch) 1.** bag'ishlamoq, baxshida qilmoq; etmoq, topshirmoq, mahkum, duchor, giriftor qilmoq, yo'liqtirmoq, qurbon qilmoq; **II. se dévouer** *vpr* o'zini fido qilmoq, o'zini tikmoq, birovga o'zini bag'ishlamoq.

**dévoyé, ée** *adj* **1.** yo'ldan ozgan, chiqqan, adashgan, toygan; **2.** yangilishgan, adashgan, xato qilgan, jinni bo'lgan, miyasi aynigan; **3.** buzuq, fahsh, shaxvatga o'tgan, berilgan, axloqi buzuq.

**di** (*grekcha*) ikki marta.

**diabète** *nm méd* diabet; **diabète sucré** qand kasali; **diabète insipide** qandsiz diabet, siydik toliqtirish kasalligi.

**diabétique I.** *adj* diyabetli, diyabet; **II.** *n* qand kasalligi bilan og'rigan odam, ayol.

**diable** *nm* **1.** shayton, iblis, jin, ajina; **envoyer à tous les diables** urishib, so'kinib quvib yubormoq, haydab yubormoq, bilganingni qil deb, qo'lingdan kelganini qil deb jo'natib yubormoq; **au diable!** obbo'! jin ursin! qanday bema'nilik! **que diable** nima keragi bor, sira keragi yo'q; **bon diable** yaxshi odam; **pauvre diable** sho'rlik, boyaqish; **grand diable** kattagina yigit, davangirday odam; **loger au diable, vauvert** tupkanning tagida yashamoq, olisda yashamoq, turmoq; **loger le diable (en) sa bourse** bir tiyinsiz bo'lmoq; **tirer le diable par la queue** zo'rg'a kun kechirmoq, o'ta kambag'al bo'lmoq; **avoir le diable au corps** tinib tinchimagan bo'lmoq; **faire le diable à quatre** qattiq shovqin qilmoq; **se démener comme un diable dans un bénétier** tinim bilmay, betinim uzluksiz aylanmoq, oyog'i kuygan tovuqday o'zini o'tga-cho'qqa urmoq; **la beauté du diable** yoshlik tozaligi, beg'uborligi; **quand le diable devient vieux il se fait ermite** qarilik kelsa beldan kuch-quvvat ketar; **quand le diable y serait** bunga jin aralashgan; bu yerda qo'lingdan hech qanday ish kelmaydi; **c'est (là) le diable, c'est le diable à confesser** manashunda-da qiyinchilik; **ce n'est pas le diable** bu unchalik mushkul emas, bunga chidasa bo'ladi; **c'est le diable qui bat sa femme et marie sa fille** ob-havo betayin, bo'ri tug'di (*quyosh chiqib turganda yomg'ir yog'ishi*); *loc adv* **à la diable** beparvolik bilan, juda yomon; **en diable** o'lgiday; **il était sportif en diable** u zo'r sportchi; **2.** zambil g'altak.

**diablement** *adv* juda, rosa, o'ta, o'lguday, haddan tashqari, g'oyat.

**diablerie** *nf* **1.** shaytonlik, g'alatilik, chigallik; **2.** qiliq qilish, hiyla, nayrang, hazil.

**diablesse** *nf* shayton, ayyor, shum, mug'ombir ayol, demon.

**diablotin** *nm* kichkina shayton, jincha, ajinacha, jinqarcha, shumtaka, zumrasha.

**diabolique** *adj* shaytonga oid, shayton, shaytonga xos bo'lgan, iblisona.

**diaboliquement** *adv* juda, rosa, o'ta, o'lgiday, haddan tashqari, g'oyat.

**diabolo** *nm* **1.** *av* shassi oyog'idagi juft g'ildirak; **2.** limonad, shirin suv.

**diacre** *nm* dyakon.

**diacritique** *adj ling* diakritik belgi (*harf ustiga qo'yiladigan*).

**diadème** *nm* **1.** shoh toji; **2.** tillaqosh.

**diagnose** *nf* qisqacha tasvirlab yozish (*o'simlik yoki hayvonlarni*).

**diagnostic** *nm méd* **1.** diagnoz, tashxis; **établir un bon diagnostic** to'g'ri tashxis qo'ymoq; **2.** *fig* oldindan aytib berish (*ob-havoni*).

**diagnostique** *adj* bilib, aniqlab oladigan.

**diagnostiquer** *vt* **1.** tashxis qo'ymoq, kasalini aniqlamoq; **2.** ob-havoni oldindan aytib bermoq.

**diagonal, ale** *adj* diogonal yo'nalishdagi (*chiziqda*).

**diagonale** *nf* diagonal chiziq.

**diagramme** *nm* diogramma, jadval (*poyezd, avtobuslarda*).

**dialectal, ale** *adj* dialekt, shevaga oid, aloqador.

**dialecte** *nm* dialekt, sheva.

**dialecticien, ienne** *n* shevalarni o'rganuvchi.

**dialectique I.** *adj* **matérialisme dialectique** dialektik materializm; **II.** *nf* dialektika, taraqqiyot haqidagi fan.

**dialectiquement** *adv* dialektik holda.

**dialectologie** *nf ling* dialektologiya.

**dialogue** *nm* dialog, so'zlashuv, suhbat.

**dialoguer I.** *vi* suhbatlashmoq, so'zlashmoq; **II.** *vt* dialog shaklida yozmoq.

**dialoguiste** *nm* film dialogi muallifi.

**diamant** *nm* olmos, briliant, qimmatbaho tosh; **diamant blanc** toza suvli olmos; **diamant brut** ishlanmagan olmos; **diamant à queue** shisha kesadigan olmos; **édition diamant** juda kichik kitob.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**diamantaire I.** *adj* olmossimon, olmosga o'xshaydigan, olmosday charaqlaydigan; **II.** *n* olmos zargari, olmos taqinchoqlar sotuvchi.

**diamanté, ée** *adj* olmosli, brilliantli (*bezalgan*).

**diamanter** *vt* olmos qoplamoq; **les rayons du soleil diamantent les gouttes de rosée** shudring tomchilari quyosh nurlarida olmosday yaltiraydi.

**diamantifère** *adj* olmosi bor, olmosli.

**diamétralement** *adv* **1.** butunlay, tamoman, mutlaqo; **diamétralement opposé** butunlay teskari; **2.** juda, g'oyat.

**diamètre** *nm* diametr, ko'ndalang o'lcham, en.

**diantre** *intj* obbo! jin ursin!

**diapason** *nm* **1.** *mus* diapazon, bilim, o'rganish ko'lami, hajmi, chegarasi, doirasi; **baisser le diapason** ohang, tovushni pasaytirmoq; **ramener le ton au diapason de** ohangini moslashtirmoq; **2.** *mus* kamerton; **3.** qamrov, daraja, saviya; **se mettre au diapason de qqn** moslashmoq, o'xshashga urinmoq.

**diaphane** *adj* yarim tiniq, yarim shaffof, juda ham tiniq, shaffof bo'lgan, yorug'lik o'tkazadigan.

**diaphragme** *nm* **1.** *anat* diafragma, parda; **2.** parda; to'siq.

**diapositive** *nf* diapositiv.

**diapré, ée** *adj* guldor, rang-barang, chipor, ola-bula, xol-xol.

**diaprure** *nf* ola-bulalik, guldorlik, rang-baranglik, ola-chiporlik, xilma-xillik.

**diarrhée** *nf méd* ich ketish, ich o'tish, ichburug'.

**diatonique** *adj mus* diatonik.

**diatribe** *nf* keskin, qattiq tanqid.

**dicotylédone I.** *adj bot* ikki urug' pallali; **II.** *nf* ikki urug' pallali o'simliklar.

**dictaphone** *nm* diktafon (*ovoz yozib olish asbobi*).

**dictateur, trice** *nm* diktator, hukmdor, yakka hokim, o'z hukmini o'tkazuvchi, o'z amri bilan ish tutuvchi.

**dictatorial, ale** *adj* hukmdorona.

**dictature** *nf* hokimiyat, mutlaq hokimiyat; hukmronlik, o'z amrini o'tkazish, o'z amri bilan ish tutish.

**dictée** *nf* diktant; **écrire sous la dictée** aytib turganda yozmoq.

**dicter** *vt* **1.** aytib yozdirmoq (*matnni*); **2.** qat'iy buyurmoq, aytib, buyurib turmoq, amrini o'tkazmoq, aytganini qildirmoq; buyuruq bermoq, amr qilmoq; **dicter des conditions** shartlarini qabul qildirmoq; **3.** biror his tug'dirmoq, uyg'otmoq, shipshitmoq; **une décision dictée par les circonstances** sharoit majbur qilgan qaror.

**diction** *nf* talaffuz tarzi, talaffuzning aniq-ravshanlik darajasi; **diction inintelligible** noaniq talaffuz, noaniq nutq.

**dictionnaire** *nm* lug'at, so'zlik; **dictionnaire raisonné** izohli lug'at; *fam* **dictionnaire vivant** ko'p narsa biladigan, bilimi, ma'lumoti keng, kallasi bilimga to'la odam; **consulter un dictionnaire** lug'atdan ko'rmoq.

**dicton** *nm* matal, chuqur ma'noli ibora, hikmatli gap, hikmat.

**didactique I.** *adj* ibrat, saboq, namuna bo'ladigan, ibratli, nasihatomuz, ta'lim-tarbiya beradigan; **II.** *nf* pedagogikaning ta'lim-tarbiya haqidagi bo'limi, didaktika; **3.** didaktik metod.

**dièdre** *géom* **I.** *adj* ikki yoqli (*burchak*); **II.** *nm* ikki yoqli burchak.

**dièse** *nm mus* diez (*nota belgisi*).

**diesel** *nm techn* dizel; **moteur diesel** dizel-motor.

**diéser** *vt mus* nota belgisi qo'ymoq.

**diète**[1] *nf* **1.** parhez, ovqatlanish tartibi, dieta; **diète lactée** sut parhezi; **mettre à la diète, être à la diète** parhez qilmoq, ovqatlanish tartibini saqlamoq.

**diète**[2] *nf* seym majlisi (*Polshada*), majlis, yig'ilish, saylovchilar to'dasi.

**diététique I.** *adj* parhezli; **II.** *nf* parhez qilish qonun tartibi.

**diététiste** *nm* parhez saqlovchi odam, parhezdor.

**dieu** *nm* xudo, tangri, olloh, parvardigor; **homme de Dieu** ibodat qiluvchi, dindor, ruhoniy, taqvodor, xudojo'y odam; **le bon Dieu** *fam* iloh, xudoyim, muqaddas in'om; **manger le bon Dieu** muqaddas suv bilan yuvish marosimida qatnashmoq; **Dieu le veuille! Plaise à Dieu, plût à Dieu** xudo bersin, xudo yarlaqasin, xudo xohlasa; **Dieu sait!** Xudo biladi! **Dieu (en) soit loué, grâce à Dieu, Dieu merci** xudoga shukur, yaxshi joyida; **Dieu m'en préserve, Dieu m'en garde** o'zing saqlagin, xudo; xudo o'z panohida asrasin, xudo ko'rsatmasin; **bon Dieu, juste Dieu** voy xudoimey, tavba, astog'furullo! **ce que femme veut, Dieu le veut** xotin nimani xohlasa xudo ham shuni xohlaydi! **2.** jonona, nozanin, sanam, ma'buda; ko'ngil orzusi; **jurer ses grands dieux** xudo nomi bilan qasam, ont ichmoq.

**diffamateur, trice** *n, adj* bo'htonchi, yolg'onchi, tuhmatchi, tuhmat, bo'hton, yolg'on.

**diffamation** *nf* tuhmat qilish, yolg'on-yashiq gapirish, g'iybat qilish, g'iybat, tuhmat, bo'hton.

**diffamatoire** *adj* yolg'on-yashiq, g'iybat, tuhmat (*gap*).

**diffamer** *vt* sharmanda, badnom, beobro' qilmoq, g'iybat qilmoq, qoralamoq, tuhmat qilmoq.

**différé, ée I.** *adj* chetga qo'yilgan, ajratib qo'yilgan, keyinga qoldirilgan (*surib qo'yilgan*), kechiktirilgan; **II.** *nm* **diffuser en différé** yozuvda radio orqali bermoq.

**différemment** *adv* har xil yo'l bilan, xilma-xil qilib, boshqacha qilib.

**différence** *nf* **1.** ayirma, farq, tafovut, o'zgalik, har xillik, farq, tafovut qilish; **faire la différence** ajratmoq, farq qilmoq; **à la différence de** *loc prép* farqli o'laroq, farq qilib; **à cette différence près** bundan tashqari; **2.** kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, nifoq, qarama-qarshilik, ziddiyat; **3.** *math* farq, qoldiq (*son*); **4.** *fam* katta yutqazish (*qarta o'yinida*).

**différenciateur, trice** *adj* farq qiladigan, ajratadigan.

**différenciation** *nf* ajratish, farqlash, farq qilish, darajalash, tabaqalanish, tabaqalashtirish.

**différencié, ée** *adj* farqlangan, tabaqalangan, ajralgan, farq qiladigan.

**différencier I.** *vt* farqlamoq, farq qilmoq, ajratmoq, darajalamoq, tabaqalashtirmoq, farqiga bormoq, ayirmoq, bo'lib yubormoq, parchalamoq; **II. se différencier** *vpr* **(de)** ajralib turmoq, farqlamoq.

**différend** *nm* nifoq, ixtilof, ziddiyat, qarama-qarshilik, janjal, nizo, tortishuv, bahs, munozarali jumboq, masala; **partager le différend** kelishuvchilik yordamida, yo'li bilan tomonlarni yarashtirmoq.

**différent, ente** *adj* har xil, bir-biridan farq qiladigan, turli-tuman, boshqa-boshqa, bir-biriga o'xshamagan; **différent de par sa nature** tabiatiga ko'ra boshqa-boshqa, bir-biriga yot, begona; **alors c'est différent** bu boshqa gap.

**différentiation** *nf math* funksiyani hisoblash, topish, farqlash.

**différentiel, elle I.** *adj math* differensialga oid; **calcul différentiel** differensial hisoblash; **tarif différentiel** differensial tarif; **II.** *nm techn* avtomobil orqa g'ildiragiga turlicha aylanish beradigan mexanizm; **3.** *nf math* o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik orttirmasi.

**différer**[1] *vt* kechiktirmoq, keyinga surmoq, orqaga surmoq, qoldirmoq, cho'zmoq, cho'zib yubormoq, sekinlatmoq, sustlashtirmoq.

**différer**[2] *vi* **1.** ajralib turmoq, farq qilmoq; **2.** boshqa-boshqa o'ylamoq, boshqacha fikrlamoq.

**difficile I.** *adj* **1.** qiyin, og'ir, mashaqqatli, tang, ishkal, mushkul; **difficile à mener** ishlab chiqish mushkul; **2.** og'ir, vazmin, tashvishli, qattiq; **temps difficiles** tashvishli vaqtlar; **3.** didli, sinchiklab qaraydigan, yaxshi-yomonni ajratadigan, tanlaydigan, talabchan, qaysar, injiq, nozik, qattiqqo'l, tirnoq orasida kir qidiruvchi, o'jar, ters, gapga kirmaydigan; **être difficile sur la nourriture** ovqat yeyishda injiqlik qilmoq; **4.** qiyinchilik bilan o'tiladigan, o'tish, yurish qiyin bo'lgan; **II.** *n* **faire le (la) difficile** injiqlik, mijg'ovlik, xarxasha qilmoq, juda qattiq talabchan bo'lmoq.

**difficilement** *adv* qiyinchilik bilan.

**difficulté** *nf* qiyinlik, og'irlik, mushkullik, qiyinchilik, qiynalish, qiyin, og'ir, mushkul ahvol, mashaqqat, tanglik, to'siq, to'siqlik, qarshilik, g'ov, to'g'anoq, ishkallik, chatoqlik; **difficulté de terrain** tabiiy g'ov, to'sqinlik, to'siq; **difficulté d'audition** og'ir, qiyin eshitilish; **éprouver des difficultés** mushkul ahvolda qolmoq; **lever une difficulté** g'ovni, qiyinchilikni yo'q qilmoq; **triompher des difficultés** qiyinchilikni yengmoq; **en difficulté** mushkul ahvolda qolgan; **sans difficulté** qiynalmay, qiyinchiliksiz, osongina; **avoir des difficultés avec qqn** birovdan arazlamoq.

**difforme** *adj* juda xunuk, ko'rimsiz, badbashara, badburush, mayib, majruh, maymoq.

**difformité** *nf* xunuklik, badbasharalik, ko'rimsizlik, badburushlik, mayiblik, majruhlik, maymoqlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**diffracter** *vt phys* yoyilish, tarqalish, chochilish, to'zg'ish; **2.** radioda berish, radio eshtirish; **3.** sergaplik, ezmalik, uzundan-uzoq gapirish, ortiqcha sergaplik; **4.** tarqatish, yoyish, tarqalish.

**diffuser** *vt* tarqatmoq, yoymoq, taratmoq.

**digérer** *vt* **1.** hazm qilmoq (*ovqatni*); **bien digérer** yaxshi hazm qilmoq; **2.** *fam* chidamoq, bardosh bermoq, ko'tarmoq, toqat qilmoq; **digérer un affront** haqoratlarga chidamoq; **3.** sinchiklab, astoydil o'ylamoq, fikrlamoq; **4.** pishib yetilishiga qo'ymoq (*chipqonni*); **5.** qattiq turib amalga oshirmoq, talab qilmoq, niyatiga yetmoq.

**digeste** *adj fam* yengil hazm bo'ladigan, tez, yaxshi singadigan, singadigan.

**digestible** *adj* yengil, tez, yaxshi hazm bo'ladigan.

**digestif, ive I.** *adj* hazm qiladigan, hazm qildiradigan; **appareil digestif** hazm qiluvchi a'zolar; **II.** *nm* hazm qildiradigan modda.

**digestion** *nf* **1.** hazm qilish, hazm bo'lish; **d'une digestion facile** tez, yengil hazm bo'ladigan; **2.** *chim* qaynatib chiqarish.

**digit** *nm anglic* raqam, son.

**digital[1], ale I.** *adj anat* barmoqli, barmoq; **empreinte digitale** barmoq izi; **II.** *nf* digitalis, dorivor o'simlik turi.

**digital[2], ale** *adj* hisobli, hisob-kitobli, raqamli.

**digitaliser** *vt* raqam, son qo'ymoq, raqamlamoq.

**digitigrade I.** *adj zool* barmoqda, panjada yuruvchi; **II.** *nm pl* barmoqda, panjada yuruvchilar (*mushuk, it va boshqalar*).

**digne** *adj* **(de qqch)** arzirli, arziydigan, loyiq, munosib sazovor; **un homme digne** hurmatli odam; **prendre un air digne** jiddiy bo'lmoq.

**dignement** *adv* munosib ravishda, munosib, tegishlicha, yarasha.

**dignitaire** *nm* yuqori mansabdagi odam, katta amaldor, to'ra; **haut (grand) dignitaire** yuqori mansabdor shaxs.

**dignité** *nf* **1.** qadr-qimmat, e'tibor, obro', fazilat; **2.** martaba, mansab, rutba, nom, unvon, tabaqa, toifa.

**digression** *nf* chekinish, orqaga qaytish, og'ish, chetga chiqish (*mavzudan*).

**digue** *nf* **1.** to'g'on, g'ov, to'silgan, bo'g'ilgan suv, damba, ko'tarma; **digue d'appui** qirg'oq, to'g'on; **2.** to'lqin qaytargich; **3.** *fig* to'siq, g'ov, to'sqinlik.

**diktat** *nm* so'zini, amrini o'tkazish, diktat.

**dilapidateur, trice I.** *adj* isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; **2.** *n* isrofgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi.

**dilapidation** *nf* isrof, nobud, yo'q qilish, isrofgarchilik, behuda sarf qilish, kamomad, davlat boyligini talash, xazina pulini o'g'irlash.

**dilapider** *vt* sovurmoq, isrof qilmoq, behuda sarf qilmoq, o'rinsiz ketkazmoq, nes-nobud qilmoq, davlat boyligini talamoq, xazina o'g'irlamoq, yeb yubormoq.

**dilatable** *adj phys* cho'ziladigan, cho'ziluvchan, kengayadigan, kengayuvchan.

**dilatation** *nf* kengaytirish, hajni kattartirish, cho'zish, cho'zilish; **dilatation linéaire** masofali kengayish, uzunlikka cho'zilish; **dilatation cubique** hajm kengayish; **dilatation des bronches** nafas olish yo'llarining kengayishi.

**dilater I.** *vt* **1.** kengaytirmoq, kengaymoq, cho'zmoq; **2.** *fig* xursand, shod qilmoq, sevintirmoq, quvontirmoq, vaqtini chog' qilmoq, ko'nglini ochmoq; **la joie dilate le cœur** quvonch, sevinch uning yuragini to'ldirdi; **II. se dilater** *vpr* kengaymoq, kattarmoq (*hajmda*).

**dilatoire** *adj dr* kechiktiruvchi, keyinga suruvchi, keyinga, orqaga qoldiruvchi; kechiktirishni talab qiladigan, keyinga surishni taqozo qiladigan; **procédé dilatoire** kechiktirish, cho'zish, keyinga surish, qoldirish, sudrash; **réponse dilatoire** mujmal javob; **combat dilatoire** chalg'ituvchi, vaqtdan yutuvchi jang.

**dilemme** *nm* dilemma, ikki mushkul imkoniyatdan biri.

**dilettante** *nm* havaskor, yuzaki ishqiboz, shunchaki qiziquvchi, dilettant.

**dilettantisme** *nm* havaskorlik, yuzaki ishqibozlik, shunchaki qiziqish, dilettantlik.

**diligemment** *adv* **1.** epchillik, chaqqonlik bilan, tez, chaqqon; **2.** hafsala bilan, qunt qilib, tirishib, harakat qilib.

**diligence** *nf* **1.** epchillik, chaqqonlik, abjirlik; **faire diligence** shoshilmoq, urinmoq, tirishib harakat qilmoq; **en toute diligence** shu zahotiyoq, shoshilinch ravishda; **2.** tirishish, urinish, hafsala, qunt, ishtiyoq, tirishqoqlik, serharakatlik; **à la diligence de** *dr* iltimosiga muvofiq, ko'ra.

**diligent, ente 1.** epchil, chaqqon, tez, abjir, sertashvish, mashaqqatli, ko'p ovora qiladigan; **2.** tirishqoq, tirishadigan, havsala qiladigan, qunt, ishtiyoqli, serharakat; **la diligente abeille** tirishqoq, mehnatkash asalari.

**diluer** *vt* **1.** eritmoq, suyiltirmoq, suyuq qilmoq, aralashtirmoq, qo'shmoq, qo'shib suyultirmoq; **2.** *fig* yumshatmoq, bo'shashtirmoq, muloyim, mayin qilmoq.

**dilution** *nf* **1.** suyultirish, chapishtirish, suyuq qilish, aralashtirish, qo'shish; **2.** eritma, qorishma, suyuqlik.

**diluvien, ienne** *adj* toshqinga aloqador, oid; **pluie diluvienne** jala, sharros, qattiq yomg'ir.

**dimanche** *nm* yakshanba, yakshanba kuni; **le dimanche, tous les dimanche** yakshanba kunlari; **le dimanche des Rameaux** xristyanlarda pasxadan bir hafta oldin bo'ladigan yakshanba bayrami; **mettre ses habits du dimanche** yasanmoq, yaxshi kiyinmoq; **un chauffeur du dimanche** havaskor haydovchi; **peintre du dimanche** havaskor rassom; *prov* **tel, qui rit vendredi, dimanche pleurera** oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'i.

**dimension** *nf* **1.** kattalik, katta-kichiklik, o'lcham; hajm, o'lchov, miqyos; *pl* katta tashqi o'lchamlar, gabaritlar; **2.** o'lchash, o'lchov; **les trois dimensions** *math* uch o'lchov (*uzunlik, kenglik, balandlik*); **3.** muhimlik, ahamiyatlilik, ahamiyat; **prendre ses dimensions** *fam* hamma ehtiyot choralari ko'rib qo'yilmoq.

**diminué, ée** *adj* **1.** kamaygan, ozaygan, kichraygan, qisqargan; **2.** zaif, nimjon; **être diminué aux yeux de qqn** obro'sizlanmoq.

**diminuer I.** *vt* **1.** kichraytirmoq, ozaytirmoq, kamaytirmoq, sekinlatmoq, pasaytirmoq, qisqartirmoq (*hajm, miqdor, xarajat*); **2.** kuchsizlantirmoq, kamaytirmoq, bo'shashtirmoq, sekinlatmoq (*kuch, rang*); **diminuer l'intensité de son** tovushni pasaytirmoq; **3.** tushirmoq, pasaytirmoq (*qimmatini*); **II.** *vi* **(a, ê)** kamaymoq, ozaymoq, kichraymoq, qisqarmoq, sekinlashmoq (*kuch, issiqlik*); **diminuer pour la quantité** miqdor, son jihatdan kamaymoq; **les jours diminuent** kunlar qisqarayotibdi.

**diminutif, ive** *adj ling* kichraytirish, kichraytish, kichraytiradigan, kichraytish so'zi.

**diminution** *nf* **1.** kichraytirish, kamaytirish, pasaytirish, qisqartirish, pasayish, kamayish; **2.** kuchsizlantirish, bo'shashtirish, yomonlashtirish; **diminution physique** jismoniy ozib-to'zib ketish.

**dinanderie** *nf* **1.** jez va mis buyumlar ishlab chiqarish; **2.** mis va jez buyumlar.

**dinandier** *nm* degrez, quyuvchi, misgar.

**dinar** *nm* dinor (*arab mamlakatlarida pul birligi*).

**dinde** *nf* **1.** kurka tovuq (*go'shti*); **2.** esi yo'q ayol, tentak, ahmoq ayol.

**dindon** *nm* **1.** kurka xo'roz; **faire la roue comme un dindon** kurka xo'rozday kekaymoq, gerdaymoq; **2.** *fam* tentak, ahmoq, esi past; **être le dindon de la farce** ahmoq bo'lib qolavermoq.

**dindonneau** *nm* kurka bolasi, jo'jasi.

**dîner[1]** *vi* ovqatlanmoq, tushlik qilmoq, kechki ovqatni yemoq; **il dîne d'une soupe** kechki ovqatga u faqat sho'rva ichdi; **dîner en ville** uydan tashqarida ovqat yemoq; **donner à dîner** ziyofat bermoq; **dîner sur le pouce** quruq (*choysiz*) yemoq.

**dîner[2]** *nm* kechki ovqat, ziyofat.

**dînette** *nf* bolalar tushligi, oilaviy ziyofat; **faire la dînette** yengilgina ovqatlanmoq.

**dingo[1]** *nm* yovvoyi avstraliya iti, kuchugi, dingo.

**dingo[2]** *adj fam, vieilli* esi past, tentak, jinni, dumbul, aqli past, aqlsiz; **il est dingo** *arg* u jinni bo'libdi.

**dingue** *adj, nm fam* esi past, tentak, jinni, dumbul, aqli past, aqlsiz; ajabtovur, g'alati.

**dinguer** *vi fam* yiqilmoq, qulamoq, ag'darilmoq (*onomatopeya*).

**dinosaure** *nm* dinozavr.

**diocésain, aine** *adj* yeparxiyaga oid.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**diocèse** *nm* yeparxiya, arxierey qo'li ostidagi cherkov yeri.

**diode** *nf* diod, ikki elektrli radiolampa.

**diphtérie** *nf* bo'g'ma (*kasallik*).

**diphtérique** *adj* bo'g'ma kasalligi bilan og'rigan.

**diphtongue** *nf ling* diftong.

**diplomate I.** *n* **1.** diplomat (*lavozimli kishi*); **2.** *fig* muomalaga usta odam, ustamon; **III.** *adj* ustamon, muomalali.

**diplomatie** *nf* **1.** diplomatik munosabatlar, diplomatika; **2.** ustamonlik, chaqqonlik, epchillik, muomalalilik.

**diplomatique** *adj* **1.** diplomatiyaga oid, diplomatik; **réception diplomatique** diplomatik qabul; **immunité diplomatique** diplomatik daxlsizlik; **rédacteur diplomatique** tashqi siyosiy sharqlovchi; **2.** ustamon, chaqqon, epchil, muomalali.

**diplomatiquement** *adv* diplomatik yo'l bilan; ustamonlik, chaqqonlik, epchillik bilan.

**diplôme** *nm* **1.** diplom, guvohnoma; **2.** yorliq.

**diplômé, ée I.** *adj* diplomli, diplomi bor; **II.** *nm pl* diplomli, diplomli kishi.

**diplômer** *vt* diplom bermoq, diplom bilan taqdirlamoq.

**diptère** *zool* **I.** *adj* ikki qanotli (*hasharot*); **II.** *nm pl* ikki qanotlilar (*hasharotlar*).

**diptyque** *nm* diptix, ikki qismli asar.

**dire**[1] **I.** *vt* **1.** gapirmoq, aytmoq, bayon qilmoq, bildirmoq; o'qimoq; **dire dans le dos** orqasidan gapirmoq; **dire en face** yuziga aytmoq; **dire son opinion** fikrini bayon etmoq; **dire à qqn son fait, dire à qqn ses quatre vérités** haqiqatni yuzaga aytmoq, koyimoq, urishmoq; **dire sa joie** xursandchiligini izhor qilmoq; **dire du bien, du mal de qqn** yaxshi, yomon fikr bildirmoq; **il faut en dire autant** shuni bu to'g'rida ham bildirish kerak; **il n'y a pas à dire** hech narsa deyolmaysan; **pour ainsi dire** mumkin bo'lsa, shunday deyish lozim; **sans mot dire** bir so'z demasdan; **à vrai dire, à dire vrai** *loc adv* haqiqatni aytganda; **à vous dire vrai** vijdonan sizga aytaman; **on dit** gapirayotibdilar, shunday gaplar yuribdi; **il est dit** deyilgan, aytilgan; **c'est tout dire** bu bilan hammasi aytildi; **soit dit en passant** shunchaki bayon qilib, o'rnida aytib; **ceci dit** shundan kelib chiqib; **c'est vite, bientôt dit** bu aytishga oson; **proprement dit** aslini olganda; **autrement dit** boshqacha aytganda; **entre nous soit dit** o'rtamizda aytilgan bo'lsin; **c'est dit** hal bo'ldi; **c'est pas dit** hali bir narsa deyish qiyin; **vous m'en direz des nouvelles** hali ko'rasiz, ishonch hosil qilasiz; **cet entrefilet en dit long** bu maqola hali ko'p narsalarni bayon qiladi; **cela ne me dit rien** bu menga qiziqarli emas, bu menga hech narsani anglatmaydi; **pour mieu dire, tout dire** yaxshisi; **et dire que** qarang, a! **dites donc!** quloq soling! nima gap! yana nima! **on dirait** shu singari, baayni, huddi; **dire la bonne aventure** kelajagini aytib bermoq, gol ochmoq, karomat qilmoq; **vouloir dire** bildirmoq, ifodalamoq; **cela veut dire** shuni bildiradi; **cela va sans dire** o'z-o'zidan ma'lum; **si le cœur vous en dit** agar siz shunday istasangiz; **qu'est-ce à dire?** bu nimani bildiradi? bu nima o'zi? *loc conj* **c'est à dire** binobarin; **2.** buyurmoq, amr qilmoq; **on vous dit de cesser** sizga aytayotibdi, to'xtating! **II. se dire** *vpr* **1.** so'z yuritilmoq, so'zlanmoq, gapirilmoq, aytilmoq, deyilmoq, bahs qilinmoq, bayon etilmoq; **2.** o'zini tanitmoq, o'z nomini aytmoq.

**dire**[2] *nm* arz, arzu hol, ariza, arznoma; **dire d'expert** ekspert xulosasi; **au dire de** aytishlaricha.

**direct, e I.** *adj* **1.** to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, bevosita, vositasiz, to'g'ridan-to'g'ri; **communication directe** to'g'ri xabar; **train direct** to'xtamaydigan poyezd; **action directe** vositasiz harakat; **suffrage direct** to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish; **complément direct** *gram* vositasiz to'ldiruvchi; **coup direct** to'ppa-to'g'ri borib tegish; **être en contradiction directe** bevosita ziddiyatda bo'lmoq; **II.** *nm* **1.** to'g'ri tegish (*boksda*); **2. en direct** to'g'ri, voqea sodir bo'layotgan yerda (*radioda*); **émission en direct** bevosita radio eshtirish, radioda berish.

**directement** *adv* to'g'ri, to'g'riga, to'ppa-to'g'ri, bevosita, vositasiz; **directement en face** aynan ro'parasida, qarshisida; **directement opposé** bevosita teskarisi.

**directeur, trice I.** *n* direktor, mudir, boshqaruvchi, bosh boshqarma boshlig'i, rahbar, muharrir, nashriyotchi, bosh muharrir (*ro'znoma*); **directeur-adjoint** direktor o'rinbosari; **directeur du tournoi** musobaqa hakami; **directeur technique** texnik rahbar; **directeur de conscience** ruhoniy ota, pir; **II.** *nf géom* direktrisa (*chiziq nomi*), jo'nalish chizig'i; **III.** *adj* boshqarib boruvchi, yetaklovchi, yetakchi, rahbarlik qiluvchi, yo'l ko'rsatuvchi.

**direction** *nf* **1.** yo'nalish, tomon, taraf; **dans la direction de** yo'nalishda; **vous êtes dans la bonne direction** siz to'g'ri yo'ldan borayotibsiz; **2.** yo'l-yo'riq, dastur, dasturil-amal, qo'llanma, boshqarma, boshqarish; **direction collective** ko'ngilli bo'lib boshqarish, umumiy rahbarlik; **sous la direction du Parti communiste** kommunistlar partiyasi rahbarligida; **sous la direction générale de** umumiy nazorat ostida; **assumer la direction** dastur qilib olmoq; **3.** boshqarma, idora; **4.** (*avtomobilda*) rulni boshqarish; **perte de la direction** yo'nalishini yo'qotish.

**directive** *nf* ko'rsatma, yo'llanma, yo'l-yo'riq, dastur.

**Directoire** *nm* **1.** Direktoriya (*davlatni boshqarish yo'li*); **2.** direktorlar kengashi.

**directorial, ale** *adj* direktorga oid.

**dirham** *nm* dirham (*Marokko puli*).

**dirigeable** *nm* dirijabl.

**dirigeant, ante I.** *adj* **1.** boshqaruvchi, idora qilinadigan, hukmron, hukumat tepasida turuvchi; **classe dirigeante** hukmron sinf; **2.** rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi, yetaklovchi, yetakchi; **rôle dirigeant** yetakchi rul; **cadres dirigents de l'industrie** sanoatning bosh rahbarlari; **II.** *n* rahbar, dohi, raxnamo, yo'lboshchi; **dirigeants d'entreprises** xo'jalik rahbarlari; **dirigeant de base** birlamchi, boshlang'ich tashkilotlar rahbari.

**diriger** *vt* **1.** boshqarmoq, yurgizmoq, yo'lboshchilik, rahbarlik, yetakchilik qilmoq, bosh bo'lmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq; **2.** yo'llamoq, yo'naltirmoq, yo'l ko'rsatmoq, qaratmoq, tartibga solmoq, to'g'rilamoq; **économie dirigée** rejali iqtisodiyot, rejali iqtisod tizimi; **3.** qaratmoq, burmoq, uchirmoq.

**dirigisme** *nm* ma'muriyatchilik, buyruqbozlik.

**dirigiste** *n* ma'muriyatchi, buyruqboz.

**dirimant, ante** *adj dr* bekor qiluvchi, yo'q qilubvchi, to'sqinlik qiluvchi.

**discernable** *adj* bilsa bo'ladigan, bilish mumkin bo'lgan, taniqli, tanib, ajratib bo'ladigan.

**discernement** *nm* **1.** aniqlash, tanish, bilib olish, farqlash; **2.** es, idrok, zehn, fahm, farosat, idrok qilish; bema'nilik, aqllilik, mulohazalilik, o'ylab ish qilish, to'g'ri mulohaza, to'g'ri o'ylash, to'g'ri fikr, o'y, fikr; **agir avec discernement** ongli ish qilmoq; **agir sans discernement** o'ylamasdan ish qilmoq.

**discerner** *vt* ajratmoq, ayrimoq, farqiga bormoq, farq qilmoq, bilib olmoq, topmoq (*fikirlab, o'ylab*).

**disciple** *nm* shogird, izdosh, yo'ldosh, ergashuvchi, muxlis, davomchi, davom ettiruvchi.

**disciplinaire I.** *adj* intizom bilan bog'langan, intizom o'rnatish va uni mustahkamlashga qaratilgan, intizom, intizomli, axloq tuzatuvchi, tuzatadigan, axloq tuzatish uchun belgilangan; **punition disciplinaire, peine disciplinaire** ma'muriy jazo; **bataillon disciplinaire** jarima bataloni; **II.** *nm* jarima rotasi askari, harbiy xizmatni buzib jazolangan askar.

**discipline** *nf* **1.** intizom, tartib, tartib-intizom, bo'ysunish, bo'yin egish, itoat qilish; **discipline de travail** mehnat intizomi; **discipline volontaire** o'zini tuta bilish, o'zini intizomga bo'ysundirish; **2.** qamchi, darra, o'rma qamchi; **3.** qamchilash, savalash, darra urish; **4.** mustaqil fan sohasi, fan, soha, tarmoq (*bilim*).

**discipliné, ée** *adj* intizomli, tartib-intizomga bo'ysungan.

**discobole** *nm* disk irg'ituvchi.

**discontinu, ue** *adj* uzuk-uzuk, uzilib-uzilib, to'xtab-to'xtab sodir bo'ladigan; vaqtinchalik.

**discontinuer I.** *vt* to'xtatmoq, uzmoq, to'xtatib, kesib, uzib qo'ymoq; **II.** *vi* to'xtamoq, tugamoq, bitmoq, tinmoq (*yomg'ir haqida*).

**discontinuité** *nf* **1.** uzuk-yuluqlik, bir necha joydan bo'linishlik; **2.** tanaffus, to'xtash, to'xtab qolish; **sans discontinuité** tanaffussiz, to'xtovsiz, uzluksiz.

**disconvenir** *vi* **1.** norozi bo'lmoq, rad etmoq, inkor qilmoq, yo'q demoq, tonmoq, yo'qqa chiqarmoq; **je ne disconviens pas que cela soit vrai** bu



www.ziyouz.com kutubxonasi

haqiqat emas deb inkor qilmayman; **2. (à qqch)** nomuvofiq, nomunosib, loyiq kelmaslik, noto'g'ri kelmoq.

**discophile** *nf* plastinka yig'uvchi, havaskor, gramplastinka ishqibozi.

**discordance** *nf* **1.** zidlik, ziddiyat, ixtilof; rozi emaslik, rad qilish, o'xshash, monand emaslik, har xillik, nomuvofiqlik, nomunosiblik, loyiq emaslik; **2.** *mus* noto'g'ri tizim sozlash; **3.** *géol* qazilma boyliklar, tog' jinslarining noto'g'ri joylashishi, qatlamlashishi.

**discordant, ante** *adj* **1.** nosoz, sozlanmagan, kelishtirilmagan (*tovushlar*); **2.** zid, norozi, qarshi, nomuvofiq, qo'shilishmagan; **3.** *géol* qazilma boylik, tog' jinslarining noto'g'ri joylashgani, noto'g'ri qatlamlashgan.

**discorde** *nf* janjal, nizo, nifoq, g'avg'o, adovat, kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, ziddiyat; **semer la discorde** nizo urug'ini sochmoq; **brandon de discorde** adovat sabablari; **pomme de discorde** janjal, adovatga sabab bo'lgan narsa.

**discorder** *vi* **1.** nosoz bo'lmoq, ohangni, tonini, yo'lini buzmoq (*cholg'u, ashulada*); **2.** nomuvofiq, noto'g'ri bo'lmoq, mos, monand bo'lmaslik.

**discothèque** *nf* diskoteka, gramplastinkalar shkafi.

**discoureur, euse** *n* gapdon odam, mahmadona, bijildoq, qaqildoq.

**discourir** *vi* **(de qqch sur qqch)** so'z yuritmoq, bahs etmoq, bayon qilmoq, gapirmoq, fikr yurgizmoq, o'ylamoq, mulohaza, muhokama qilmoq, valdiramoq, vaysamoq, bidirlamoq, gap sotmoq, safsatabozlik qilmoq.

**discours** *nm* so'zlash, gapirish qobiliyati, nutq, til, so'zga chiqish, nutq so'zlash, bayon qilish; **discours d'ouverture, discours inaugural** kirish, ochish so'zi; **faire un discours** nutq so'zlamoq; **des discours en l'air** quruq, behuda gaplar; *gram* **discours direct** ko'chirma gap; **discours indirect** o'zlashtirma gap; **parties du discours** so'z turkumlari.

**discourtois, oise** *adj* izzat-hurmatini bilmaydigan, hurmat qilmaydigan, behurmat, beandisha, beadab, qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs, nazokatsiz.

**discrédit** *nm* **1.** obro'sizlantirish, obro'sizlanish, badnom bo'lish, obro'-e'tiborini to'kish, yo'qotish, ishonchga putur yetkazish, ishonchini yo'qotish; **3.** birovni yoqtirmay qolish, xush ko'rmaslik, g'azabga uchrash, yomon ko'rinish; **tomber en discrédit** g'azabiga uchramoq, yomon ko'rinib qolmoq.

**discréditer I.** *vt* beobro' qilmoq, obro'sizlantirmoq, badnom qilmoq, ishonchini yo'qotmoq, qoralamoq, yomonlamoq, isnod keltirmoq; **II. se discréditer** *vpr* beobro' bo'lmoq, obro'sizlanmoq, badnom bo'lmoq.

**discret, ète** *adj* o'zini tuta biladigan, vazmin, bosiq, og'ir, sipo, kamtar, kamsuqum, oddiy, kamgap; **allusion discretète** nozik shama; **endroit discret** xilvat joy; **2.** sir saqlay oladigan, og'zi bo'sh emas.

**discrètement** *adv* o'zini tutib, oddiygina, kamtarona, bosiqlik bilan, sipolik bilan, vazmin, bildirmay, yashirincha.

**discrétion** *nf* **1.** o'zini tuta bilish, vazminlik, sipolik, og'irlik, bosiqlik, kamtarlik, oddiylik, boadablik, xushmuomalalik, xushfe'llik, jim turish, sukut saqlash, sukunat, jimjitlik, sir saqlash; **je compte sur votre discrétion** men kamtarligingizga umid qilaman; **personnes de discrétion** ishonish mumkin bo'lgan shaxs, odam; **être à la discrétion de qqn** birovga to'liq bo'ysunmoq; **se mettre (s'en remettre) à la discrétion de qqn** umid bog'lamoq, ishonmoq, suyanmoq, orqa qilmoq; **à discrétion** miriqib, to'yib, obdon, xohlagancha, keragicha; **manger à discrétion** xohlagancha yemoq; **se rendre à discrétion** g'olib marhamatiga o'zini topshirmoq; **2.** garov, bahs, garov o'ynash, bog'lash.

**discrétionnaire** *adj* qaram bo'lgan, ixtiyoriy, erkin; **pouvoir discrétionnaire** *dr* cheklanmagan hokimiyat.

**discriminant, ante I.** *adj* farq qiladigan, ajratuvchi; **II.** *nm math* diskriminant.

**discrimination** *nf* **1.** farq qilish, ajratish qobiliyati; **sans discrimination** farq qilmasdan, befarq; **2.** kamsitish, tahqirlash, haq-huquqini cheklab qo'yish, huquqini yerga urish, poymol qilish; **discrimination raciale** irqiy kamsitish.

**discriminatoire** *adj* kamsituvchi, tahqirlovchi, haq-huquqini cheklashga qaratilgan.

**discriminer** *vt* farq qilmoq, ajratmoq, farqiga bormoq, tabaqalashtirmoq, aniqlamoq, tanib olmoq.

**disculpation** *nf* ayblovni, qoralashni olib tashlash, oqlash, oqlash hukmi.

**discursif, ive** *adj philos* mantiqiy fikrlashga asoslangan, aql-idrokka oid, es-hush bilan bog'liq bo'lgan; **méthode discursive, procédé discursif** mantiqiy, oqilona fikr yurgizish.

**discussion** *nf* muhokama qilish, o'ylashib ko'rish, maslahatlashish, mubohasa, bahs, tortishuv, munozara; **entrer en discussion avec** bahslashmoq, tortishmoq; **entamer la discussion** munozara boshlamoq; **être en discussion** muhokama qilmoq; **cela est sujet à discussion** buni muhokama qilish zarur, bu munozarali masala; **de la discussion jaillit la lumière** *loc prov* bahslarda haqiqat yuzaga keladi.

**discutable** *adj* janjalli, munozarali, talash, shubhali.

**discuter I.** *vt* **1.** muhokama, munozara qilmoq, fikrlashib, maslahatlashib olmoq, o'tlashib ko'rmoq, bahslashmoq, tortishmoq; **2.** kurashmoq, e'tiroz bildirmoq, talashmoq, qarshi chiqmoq, shubha ostiga olmoq, shubhalanmoq; **II.** *vi* **(de)** bahsda, tortishuvda noto'g'riligini isbotlamoq, ko'rsatmoq, bahslashib, tortishib ko'rmoq.

**disert, erte** *adj* gapdon, notiq, gapga chechan, usta, so'zamol.

**disette** *nf* **1.** *vx* yetishmovchilik, kamchilik, kamlik, tanqislik, taqchillik, yo'qchillik, yetmaslik; **2.** ochlik, ocharchilik, qahatchilik (*hosil bo'lmaganda, qurg'oqchilikda*).

**diseur, euse** *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi, ertak, cho'pchak aytib beruvchi, baxshi, oqin; **diseuse de bonne aventure** folchi, folbin xotin.

**disgrâce** *nf* **1.** birovni yoqtirmay qolish, xush ko'rmaslik, g'azabga uchrash, yomon ko'rinish; **tomber en disgrâce** g'azabga uchramoq, yomon ko'rinib qolmoq; **2.** sho'rlik, baxtsizlik, balo, ofat, falokat, ko'ngilsiz hodisa, qiyinchilik, musibat, qora, og'ir kun, azob-uqubat.

**disgracié, ée** *adj, n* g'azabga uchragan, yomon ko'rinib qolgan; xunuk, sho'rpeshona, nogiron; **être disgracié de (par) la nature** tabiiy, tug'ma nogiron.

**disgracier** *vt* ixlosini qaytarmoq, g'azabga uchramoq, yomon qilib ko'rsatmoq, qoralamoq, yomonlamoq.

**disgracieux, euse** *adj* yoqimsiz, xunuk, qo'pol, beso'naqay, xudo urgan.

**disjoindre I.** *vt* ayirmoq, ajratmoq, uzmoq, aytib, ajratib, uzib qo'ymoq, bir-biridan ajratmoq, aloqasini uzmoq, orasini ochmoq, bo'lak-bo'lak qilmoq; **II. se disjoindre** *vpr* ayrilmoq, ajralmoq, uzilmoq, ajralishmoq, bir-biridan uzilmoq, ajralib, tarqalib ketmoq, uzoqlashmoq, yakkalanib qolmoq.

**disjoint, ointe** *adj* bir-biri bilan bog'lanmagan, bir-biridan ajralib, uzilib qolgan, aloqasi yo'q, tarqoq.

**disjoncteur** *nm* vikluchatel, uzgich, ajratgich, o'chirgich, to'xtatgich (*elektr quvvatini*).

**disjonction** *nf* ayirish, ajratish, uzish, uzib, ajratib, ayirib qo'yish, ajralish, ayrilib ketish, uzilish, uzilib qolish.

**dislocation** *nf* **1.** maydalash, parchalash, bo'lish, parchalash, bo'lib-bo'lib yuborish; **2.** *méd* chiqiq, chiqish, suyak chiqishi; **3.** *mil* yoyib yuborish, bo'lib-bo'lib yuborish, joylashtirish, joylashish, joylashuv.

**disloquer I.** *vt* **1.** maydalamoq, parchalamoq, bo'lmoq, sindirmoq, chil-chil qilmoq, parchalab, bo'lib-bo'lib tashlamoq, joylashtirmoq; **2.** *méd* suyak chiqmoq, toymoq, joyidan siljimoq; **II. se disloquer** *vpr* qimirlab, liqillab qolmoq, bo'shamoq, buzilmoq, nosoz bo'lmoq, tarqalib ketmoq.

**disparaître** *vi* **1.** yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, yo'q bo'lib ketmoq, barham topmoq, g'oyib bo'lmoq, dom-daraksiz ketmoq, bekinmoq, yashirinmoq, qochmoq, o'zini panaga olmoq; **2.** dom-daraksiz ketmoq, g'oyib bo'lmoq, bedarak yo'qolmoq; **faire disparaître** yo'qotmoq; **être porté disparu** bedarak yo'qolgan hisoblanmoq; **3.** o'lmoq, dunyodan o'tmoq, o'lib ketmoq, qolmoq.

**disparate I.** *adj* **1.** nomuvofiq, nomunosib, noloyiq; **2.** poyma-poy, har xil, to'la bo'lmagan, kami bor, bog'lanmagan, yopishmagan, bog'lanishsiz, xilma-xil, turli-tuman, aralash; **II.** *nf* nomunosiblik, nomuvofiqlik, mos emaslik.

**disparité** *nf* o'xshamaslik, monand emaslik, bir xil emaslik, xilma-xillik, birdek emas, teng emas, muvofiqlashtirmaganlik, to'g'ri kelmaslik, nomuvofiqlik, poyma-poylik.

**disparition** *nf* yo'qolish, yo'q bo'lish, yo'qolib ketish, barham topish, ko'rinmaslik, o'lish, o'lim, o'lib ketish.

**disparu, ue I.** *adj* bedarak yo'qolgan, barham topgan, yo'q bo'lib ketgan; **II.** *nm* o'lgan, marhum, rahmatli, vafot, qazo qilgan kishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dispendieux, euse** *adj* qimmat turadigan, baland narxli, qimmatbaho, serxarajat.

**dispensaire** *nm* sil kasalliklari shifoxonasi, sil kasalliklarini hisobda saqlaydigan joy (*tibbiyotda*).

**dispense** *nf* ozod qilish, bo'shatish, yengillik, imtiyoz; **obtenir une dispense d'âge** yoshiga qarab imtiyoz olmoq.

**dispenser I.** *vt* **1.** tarqatmoq, ulashmoq, taqsimlamoq, ulashib, taqsimlab bermoq, taqsim qilmoq, bo'lmoq, bo'lib chiqmoq, bermoq; **2. (qqn de qqch)** qutqarmoq, xalos, ozod qilmoq, saqlab qolmoq, mustaqillik bermoq; **dispenser d'un examen** imtihondan ozod qilmoq; **II. se dispenser** *vpr* **(de qqch, de faire qqch)** biron narsa qilishga urinmaslik, qilmaslik, bajarmaslik mumkin deb hisoblamoq.

**disperser I.** *vt* sochmoq, yoymoq, tarqatmoq, sochib, yoyib yubormoq, taratmoq, mayda parchalarga aylantirmoq, kukunlamoq, tarqatib, haydab yubormoq, tumtaraqay qilmoq; **disperser une manifestation** namoyishni tarqatib yubormoq; **disperser ses efforts** kuchini sarflamoq, ketkazmoq; **II. se disperser** *vpr* tarqalmoq, tarqalib ketmoq, tarqab, qochib ketmoq; **se disperser en tirailleurs** *mil* zanjir shaklida tizilmoq, saf tortmoq.

**dispersion** *nf* **1.** sochish, yoyish, tarqatish, sepish, taratish; **dispersion des coups** yoyib, sochib o'q otish, o'qlarni yoyib otish; **2.** oqib, siriqib chiqib ketish, chiqib yoyilish; **3.** *phys* yoyilish, ajralish, mayda zarralarga bo'lish, bo'linish.

**disponibilité** *nf* **1.** band emaslik, egasizlik, bo'shliq, hech kimga qarashli emaslik, egasi yo'qlik; **cet appartement est en disponibilité** bu xonadon, uy bo'sh; **se trouver en disponibilité** bo'sh bo'lmoq, ishsiz bo'lmoq; **être en disponibilité** g'amlab qo'yilgan bo'lmoq, hisobda bo'lmoq; **mettre en disponibilité** vaqtincha xizmatdan bo'shatmoq, hisobda, ko'zda tutmoq; **2.** hisobda bor bo'lish, g'amlab qo'yilish, bor, mavjud bo'lish, mavjudlik, joy-joyidalik, hozirlik, naqdlik; *pl* borliq, mavjudlik, voqelik, erkin mablag', mavjud kuchlar; **3.** *mil* maxsus hisob, mavjudlik.

**disponible** *adj* **1.** qo'l ostida, ixtiyorida mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, hisobda bo'lgan, bor, mavjud, naqd bo'lgan, bo'sh, ishlatilmagan, egasiz, egallab olinmagan; **capital disponible** naqd, bor pul; **appartement disponible** bo'sh, egallanmagan uy, xonadon; **2.** *mil* hisobda, mavjudlikda bor bo'lgan.

**dispos, ose** *adj* tetik, bardam, bag'ayrat, dadil, jo'shqin, mavj urib, to'lqinlanib turgan, jonli, serg'ayrat.

**disposé, ée** *adj* **1.** joylashgan, joylangan, ixlosmand, yoqtiradigan, moyil, joylab, o'rnashtirib qo'yilgan; **2.** tayyorlangan, tayyor qilingan, to'g'rilangan; **3.** joylashtirilgan, kayfiyati soz, chog'langan; **bien, mal disposé à faire qqch** biron narsani qilishga, bajarishga moyil, tayyor bo'lmoq; **4.** biron narsaga mayl hosil qilingan, rag'batlantirilgan, moyil qilingan; **être disposé à qqch** rag'batlantirilgan bo'lmoq.

**disposer I.** *vt* **1.** joylamoq, joylashtirmoq, joylab, terib qo'ymoq, o'rnashtirmoq, sig'dirmoq; **2. (qqn à qqch)** tayyorlamoq, tayyorlab qo'ymoq, taxt, shay qilib qo'ymoq; **3.** moyol qilmoq, jalb etmoq, ixlosini oshirmoq, istak, xohish tug'dirmoq, biror kayfiyatga solmoq, hafsala keltirmoq; **disposer favorablement** yaxshilab hafsalasini keltirmoq; **disposer en faveur de qqn** birovga moyil qilmoq; **II.** *vi* **(de qqch)** xo'jayinlik qilmoq, ishlatmoq, sarf qilmoq, foydalanmoq, ega bo'lmoq; **disposer de son temps** o'z vaqtiga xo'jayin, ega bo'lmoq; **disposer d'un bien** mol-mulkini ishlatmoq, sarflamoq; **vous pouvez disposer** siz bo'shsiz, men sizni boshqa ushlab turmayman; **III. se disposer** *vpr* **(à qqch, à**+*inf***)** tayyorlanmoq, harakat qilmoq, o'ylamoq, maqsad qilmoq.

**dispositif** *nm* **1.** moslashtirish, moslash, muvofiqlashtirish, moslama, asbob; qurilma, mexanizm; **dispositif automatique** avtomat-moslama; **dispositif de sûreté** himoyalovchi, saqlash qurilmasi, tizimi; **2.** jangovor yurish tartibi, guruhlash (*armiyani*).

**disposition** *nf* **1.** joylash, joylashish, joylashtirish, o'rnatish, sig'dirish, o'rin, joy, vaziyat, holat; *mil* biron yerga joylashish; **disposition des lieux** joylashish holati, joyi; **2.** kayfiyat, ruhiy holat, dimog', avzo, joy, o'rin, vaziyat; **3. (à)** mayl, moyillik, rag'bat, intilish, qiziqish, qobiliyati borlik, havas, ishtiyoq, yaxshi ko'rish; qobiliyat, layoqat, qobillik, qodirlik, iste'dod, talant; **disposition à contracter une maladie** kasallikka moyillik; **4.** boshqarish, idora qilish, o'z qo'lida tutish; **libre disposition de son bien** o'z boyligini erkin idora qilish, boshqarish; **5.** buyruq, farmoyish berish, buyurish, amr qilish, amr, buyruq, farmoyish, qaror, nizom, qoida, qonun; **dispositions générales** umumiy qonun-qoida; **dispositions testamentaires** vasiyat qilish, vasiyatnoma; **6.** tadbir, chora, ish; **prendre ses dispositions** chora ko'rmoq; **7.** *pl* tayyorlanish, hozirlik ko'rish, tayyorgarlik, jo'nab ketishga hozirlik, yig'ilish, to'planish.

**disproportion** *nf* nomutanosiblik, kelishmaganlik, tengsizlik, taqqoslab, tenglashtirib bo'lmaslik, mislsizlik, mos, to'g'ri kelmaslik, muvofiq bo'lmaslik, nomuvofiqlik, nomunosiblik.

**disproportionné, ée** *adj* mutanasib emas, kelishmagan, nisbatsiz, nomutanosib, o'lchovi-o'lchoviga to'g'ri kelmaydigan, notekis, bir tekis bo'lmagan, mos, to'g'ri kelmaydigan, nomuvofiq, nomunosib.

**dispute** *nf* **1.** behuda tortishuv, arzimaydigan munozara, bahs, tortishuv, mubohasa, munozara, tortishish, aytishish, gap talashish, urish, janjal, nizo, arz; **2.** ochiq munozara, umumxalq muzokarasi.

**disputer I.** *vi* **1.** bahslashmoq, mulohaza, munozara qilmoq, tortishmoq, janjallashmoq, olishmoq, gap talashmoq; **2. (de qqch)** raqobat qilmoq, kimo'zar o'ynamoq, bahslashmoq; **II.** *vt* **1.** e'tiroz bildirmoq, qarshi chiqmoq, musobaqa qilmoq, kurashmoq, talashmoq, harakat qilmoq, tirishmoq; **disputer le terrain** har bir qarich yer uchun kurashmoq, o'z fikrini himoya qilmoq; **disputer la première place** birinchi o'rin uchun talashmoq; **disputer un match** bir match o'ynamoq; **2. (qqn)** *fam* harakat qilmoq, qarg'amoq, koyimoq, o'sal qilmoq; **III. se disputer** *vpr fam* urishib, janjallashib qolmoq, arazlashib, sanu-manga borib qolmoq.

**disquaire** *n* disk sotuvchisi.

**disqualification** *nf* ixtisosini yo'qotish, biror ish, kasb bilan shug'ullanishga noloyiq deb topish, mahrum qilish.

**disqualifier I.** *vt* mahrum etmoq, taqiqlamoq; **II. se disqualifier** *vpr* o'zini yerga urmoq, o'z obro'sini to'kmoq, pastga urmoq, sharmanda bo'lmoq, uyatga, isnodga qolmoq.

**disque** *nm* **1.** *sport* diska, lappak, to'garak; **2.** gramplastinka; **disque compact (C.D.)** kompakt disk; *loc fam* **change ton disque** plastinkani almashtir, gap mavzuini o'zgartir; **3.** doira, aylana, chambarak, shayba; **disque de l'automate** telefon chambaragi; **disque de chemin de fer** semafor; **disque de la lune** oy gardishi (*aylanasi*).

**disquette** *nf* kompyuter disketi.

**dissemblable** *adj* beo'xshov, o'xshamas, monand emas, o'xshamagan, boshqacha.

**dissemblance** *nf* o'xshamaslik, monand emaslik, farq, tafovut, o'zgalik, har xillik.

**dissémination** *nf* **1.** chochilish, sochilish, tarqalish, yoyilish, sepish, bo'lib-bo'lib yuborish, uzoq-uzoq joylashtirish, tarqatish, yoyish, kengaytirish, tarqalganlik; **2.** *agr* urug' sochish.

**disséminer** *vt* chochmoq, sochmoq, tarqatmoq, tarqalmoq, yoymoq, yoyilmoq, sepmoq, bo'lib-bo'lib yubormoq, uzoq-uzoq joylashtirmoq, kengaytirmoq.

**dissension** *nf* janjal, nizo, nifoq, g'avg'o, adovat, tortishuv, o'zaro, ichki urush, o'zaro kelishmay ajralish, kelishmovchilik, ixtilof.

**dissentiment** *nm* dunyoqarashda farqlanish, farq qilish, boshqacha qarash, qarama-qarshilik, zidiyat, zidlik.

**disséquer** *vt* **1.** kesib yormoq, yorib ochmoq (*murdani*); kesmoq, ochmoq, yormoq; *anat* preparat qilmoq; **2.** *fig* sinchiklab o'rganmoq, puxta tahlil qilmoq, astoydil o'rganib chiqmoq.

**dissertation** *nf* insho, yozma ish, ilmiy ish.

**disserter** *vi* **(sur qqch)** o'z fikrini bayon qilmoq, fikr yurgizmoq, mulohaza, muhokama qilmoq; **il aime à disserter** u fikr yurgizishni yaxshi ko'radi.

**dissidence** *nf* bo'linish, ajralish, orani buzish, ixtilof, muxolifatchilik, nifoq, kelishmovchilik, har xil dunyoqarash.

**dissident, ente I.** *adj* ora buzilgan, nifoqli, ixtilofli, har xil dunyoqarashli, boshqacha fikrlaydigan, bo'lingan, ajralgan; **II.** *n* dindan qaytgan, murtad, orani buzuvchi, ixtilof, nifoq, nizo soluvchi, muxolifatchi, buzg'unchi, bo'lib, ajratib yuboruvchi.

**dissimilation** *nf ling* o'zga tus, ko'rinish olish, tovush o'zgarishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dissimulateur, trice** *n* o'z his-tuyg'usi, fikrini yashiruvchi, mug'ombir, ayyor, munofiq, firibgar, riyokor, ikkiyuzlamachi; *adj* birovdan sirini yashiradigan, hech kimga sirini, ichidagini aytmaydigan, yorilmaydigan, pinhoniy, yashirin, maxfiy.

**dissimulation** *nf* sirini, ichidagini hech kimga aytmaslik, yorilmaslik, damduzlik, yashirin, maxfiylik, yashirin, bekitish, sir tutish, his-tuyg'usi, fikrini yashirmoq; **dissimulation de bénéfices** foydani yashirish.

**dissimulé, ée** *adj* birovdan sirini yashiradigan, hech kimga sirini aytmaydigan, yorilmaydigan damduz, yashirin, maxfiy, pinhonoy.

**dissimuler I.** *vt* **1.** sirini yashirmoq, bekitmoq, saqlamoq, sir tutmoq, bildirmaslikka urinmoq, niqoblamoq, pana qilmoq; **II. se dissimuler** *vpr* **1.** yashirinmoq, bekinmoq, yashirinib, ko'zga ko'rinmay, qochib yurmoq; **2.** bo'yniga olmaslik, tan olmaslik, rad etmoq, inkor qilmoq.

**dissipation** *nf* **1.** sovurish, isrof, nes-nobud qilish, behuda, bekorga sarflash, ketkizish, sarf qilish, isrofgarlik, nobudgarchilik, pulni sovurish, pulni aysh-ishratga, bo'lar-bo'lmasga sarflash; **2.** chochish, tarqatish, yo'q qilish, ko'ngil ochish, vaqtixushlik qilish, bug'lanib, parlanib ketish; **3.** xayol qochganlik, esi oqqanlik, fikri tarqoqlik, chochilganlik, parokandalik; **4.** buzuqlik, axloqsizlik, sayoqlik, suyuqoyoqlik, axloqi buzuqlik, yomon yo'lga kirish.

**dissipé, ée** *adj* **1.** xayoli qochgan, fikri tarqoq, parokanda, diqqat-e'tiborsiz, beparvo, parishonxotir; **2.** yengiltak, mulohasasiz, ketini, oqibatini o'ylamaydigan.

**dissiper** *vt* **1.** sarflamoq, xarjlamoq, yo'q qilmoq, rejasiz, behuda sarflamoq, ketkizmoq, sovurib yubormoq; **2.** sochmoq, sochib yubormoq, tarqatmoq, haydab yubormoq, to'zitmoq, to'zitib yubormoq; **dissiper l'ennui** zerikishini tarqatmoq; **dissiper les soupçons** shubhasini tarqatmoq; **3.** ishdan chalg'itmoq, alahsitmoq, ovuntirmoq, yupatmoq.

**dissociabilité** *nf* jamiyatdan ayirish, ajratish, judo qilish, ayrib, ajratib, uzib qo'yish.

**dissociable** *adj* jamiyatdan ajralgan, ayrilgan, judo bo'lgan, uzib, ajratib qo'yilgan.

**dissociation** *nf* **1.** ayirish, ajratish, uzish, ayrib, ajratib, uzib qo'yish, bir-biridan judo qilish, ajralish; **2.** *chim* irish, chirish, aynish, sasish, buzilish, bo'linish, tarkibiy qismlarga ajralish, parchalanish, buzilish, ayirish.

**dissocier I.** *vt* ayrimoq, ajratmoq, uzmoq, ayrib, ajratib, uzib qo'ymoq, judo qilmoq, butunligini buzmoq, poyma-poy qilib yubormoq, maydalamoq, parchalamoq, ushatmoq, sindirmoq, aynimoq, chirimoq, irimoq, sasimoq, buzilmoq, buzilish, aynishga olib kelmoq; **II. se dissocier** *vpr* bo'linmoq, parchalanmoq, buzilmoq, aynimoq, judo bo'lmoq, ajralmoq.

**dissolu, ue** *adj* bebosh, axloqsiz, shaloq, buzuq, yo'ldan o'zgan, sayoq, suyuqoyoq, fosiq, badaxloq, fohishaboz, fohisha; **des mœurs dissolues** buzuq urf-odatlar.

**dissolution** *nf* **1.** *chim, phys* eritish, qorish, erish, qorilib ketish, irish, chirish, aynish, sasish, buzilish, eritma, qorishma; **en dissolution** buziladigan, buzuluvchan; **2.** yo'qotish, yo'q qilish, qirib tashlash, bitirish, tugatish, buzilish; **3.** faoliyatini to'xtatish, tugatish, tarqatib yuborish, yo'q qilish, ozod qilub yuborish (*parlament majlisini*); **dissolution de la Chambre** deputatlar palatasini tarqatib yuborish; **4.** bekor qilinish (*nikohni*); **5.** buzuqlik, axloqsizlik, sayoqlik, suyuq oyoqlik, fohishabozlik, fohishalik; **dissolution des mœurs** urf-odatni buzish.

**dissolvant, ante I.** *adj* **1.** eritadigan, eriydigan, tez eriydigan, eritib bo'ladigan; **2.** buzadigan, buzuvchi, nomusiga tegadigan; **3.** yumshatadigan, bosadigan, pasaytiradigan; **II.** *nm chim* erituvchi suyuqlik modda.

**dissonance** *nf* **1.** tovush, ohang uyg'unsizligi, hamohang emaslik, uyg'unlashmagan tovushlar yig'indisi; **2.** *fig* kelishmovchilik, nosozlik, ixtilof, monand emaslik, mos emaslik, nomunosiblik, nomuvofiqlik, to'g'ri kelmaslik.

**dissonant, ante** *adj* tartibsiz, nosoz, kelishtirilmagan, yopishmagan, bog'lanmagan, betartib, tarqoq, uyg'unligi buzilgan.

**dissoudre I.** *vt* **1.** *phys, chim* eritmoq, eritib yubormoq, parchalamoq, tarkibiy qismlarga ajratmoq; **2.** nikohni bekor qilmoq, buzmoq; **3.** tarqatmoq, tarqatib yubormoq, qo'yib yubormoq, tugatmoq, tugatib, ajratib yubormoq; **II. se dissoudre** *vpr* erimoq, erib ketmoq.

**dissuader** *vt* maslahat berib qaytarmoq, niyati, fikri, shastidan qaytarmoq, qoldirmoq, qaytishga ko'ndirmoq, rozi qilmoq.

**dissuasion** *nf* **1.** qaytarish, fikridan aynitish, qaytishga ko'ndirish, qoldirish, rozi qilish; **2.** qo'rqitish, cho'chitish; **force de dissuasion** qo'rqitish kuchi.

**dissyllabique** *ou* **dissyllabe I.** *adj* ikki bo'g'inli; **II.** *nm* ikki bo'g'inli so'z.

**dissymétrie** *nf* nomutanosiblik, simmetriyasizlik.

**dissymétrique** *adj* nomutanosib, simmetriyasiz.

**distance** *nf* **1.** masofa, oraliq, uzoqlik, yo'l, yiroqlik, olislik, vaqt oralig'i; **tenir à distance** ma'lum masofada tutmoq, ushlab turmoq; **rapprocher les distances** yo'lni yaqinlashtirmoq; **à distance** *loc adv* masofada, uzoqlikda, uzoqda; **de distance en distance** joy-joyida, qayerdadir; **2.** ajralib ketish.

**distancer** *vt* quvib, o'zib o'tmoq, orqada qoldirmoq, oldinga o'tib ketmoq, ilgarilab ketmoq, o'zmoq.

**distant, ante** *adj* **1.** uzoq, uzoqlashgan, yiroq, masofa, uzoqlikda bo'lgan, joylashgan; **2.** yaqinlashishdan qochadigan, uzoqda turadigan, masofani saqlaydigan.

**distendre** *vt* cho'zmoq, cho'zib, kerib kengaytirmoq, katta qilmoq, uzaytirmoq.

**distillateur** *nm* aroq, spirt haydovchi va sotuvchi, aroq ishlab chiqaruvchi.

**distillation** *nf* bug'lantirib toza suv, spirt hosil qilish, haydash, vino pishirish, tayyorlash, aroq, spirt ishlab chiqarish; **distillation sèche** quruq haydash.

**distiller** *vt* **1.** aroq, spirt haydamoq, aroq, spirt ishlab chiqarmoq; **2.** *fig* yog'dirmoq, taratmoq, sochmoq, ajratmoq; **distiller le venin de la calomnie** bo'hton zaharini sochmoq; **distiller l'ennui** zeriktirmoq, g'amga botirmoq; **distiller une odeur** hid taratmoq.

**distillerie** *nf* aroq, spirt ishlab chiqaradigan zavod.

**distinct, incte** *adj* **1.** har xil, turli-tuman, boshqa-boshqa, bir-biridan farq qiladigan, boshqacha, o'zgacha, ajralib turadigan; **2.** aniq, ravshan, ochiq, dona-dona, yaqqol ko'rinadigan.

**distinctement** *adv* aniq, ravshan, tushunarli qilib, dona-dona, oydin.

**distinctif, ive** *adj* ajralib, farq qilib turadigan, tafovut qiladigan, farqlovchi, antiqa, ajoyib xususiyatga ega bo'lgan, o'ziga xos, xususiyatli.

**distinction** *nf* **1.** farqlash, farqiga borish, ajratish, boshqalardan ajrata bilish, farq, tafovut, o'zgalik, har xillik, farq, tafovut qilish, ayrima; **distinction des pouvoirs** vakolatni bo'lib olish; **sans distinction de** -ga qaramasdan; **2.** yaxshi tarbiya ko'rganlik, odoblik, xushaxloqlik, nazokat, noziklik, nafislik, latofat; **avoir de la distinction** olijanob bo'lmoq; **3.** mukofot, orden, medal.

**distingué, ée** *adj* **1.** yaxshi tarbiya ko'rgan, odobli, xush axloqli, yaxshi xulqli; atoqli, mashhur, ko'zga ko'rinarli, misli yo'q, mislsiz; **savant distingué** mashhur olim; **2.** nazokatli, latofatli, nafis, nozik, go'zal, ko'rkam, nafosatli, kelishgan; **3.** samimiy, chuqur.

**distinguer I.** *vt* **1.** farqiga bormoq, ajratmoq, ayirmoq, farq qilmoq, tanimoq; **2.** afzal, ortiq ko'rmoq, yuqori qo'ymoq, boshqacha qaramoq, xush ko'rmoq; **II. se distinguer** *vpr* **1.** o'zini ko'rsatmoq, ajralib turmoq, dong, nom chiqarmoq, shuxrat qozonmoq, mashhur bo'lmoq; **2.** ko'zga ko'rinib, tashlanib turmoq.

**distique** *nm* ikki misrali she'r, bayt, masnaviy.

**distordre** *vt fam* qiyshaymoq, qiyshaytirmoq, burishtirmoq, bukmoq, tirishtirmoq.

**distorsion** *nf* **1.** bir tomonga tortishish, egilish, bukilish, qiyshaytish, egik, qiyshiq, bukik; **2.** buzish, buzib ko'rsatish, noto'g'ri tahlil qilish, rioya qilmaslik; **3.** *phys* elektr qo'ng'iroqning buzilishi.

**distraction** *nf* **1.** butundan bo'lakni ajratish, ayirish; **2.** parishonxotirlik, parishonlik, fikri qochganlik, fikri tarqoqlik; **avoir des distractions** parishonxotir bo'lmoq, xayoli, fikri qochmoq; **3.** chalg'itish, alahsitish, ovuntirish, yupatish, ko'nglini ochish, dimog'ini chog' qilish, o'yin-kulgi, sayr-tomosha, ermak, ovunchoq.

**distraire I.** *vt* **1.** butundan bo'lakni ajratmoq, ayrimoq; **2.** ovuntirmoq, yupatmoq, chalg'itmoq, alahsitmoq, ko'nglini ochmoq, o'ynatmoq, sayr-tomosha qildirmoq, dimog'ini chog' qilmoq; **3.** o'z foydasiga aylantirmoq, o'ziniki qilib olmoq; **II. se distraire** *vpr* **1.** ajralmoq, ajralib, bo'linib ketmoq,



www.ziyouz.com kutubxonasi

ko'chib, uzilib, shilinib tushmoq; **2.** ovunmoq, alahsimoq, yupanmoq; **3.** o'ynamoq, o'yin-kulgi qilmoq, ko'nglini ochmoq.

**distrait, aite** *adj* parishonxotir, xayoli qochgan, fikri tarqoq, e'tiborsiz, beparvo, e'tibor bermaydigan.

**distraitement** *adv* parishonxotirlik, beparvolik, e'tiborsizlik bilan, fikri, xayoli tarqoq, qochgan holda.

**distrayant, ante** *adj* chalg'itadigan, alahsitadigan, diqqatini boshqa tomonga tortadigan; ovuntiradigan, yupatuvchi, dimog'ini chog' qiluvchi, ko'nglini ochuvchi; **lecture distrayante** ko'ngil ochish uchun o'qish.

**distribuer I.** *vt* ulashmoq, taqsimlamoq, tarqatmoq, taqsimlab, ulashib bermoq, taqsim qilmoq, bo'lib chiqmoq, bermoq, uzatmoq, bermoq; **II. se distribuer** *vpr* taqsimlanmoq, bo'linmoq, ishga yuborilmoq, tayinlanmoq.

**distributeur, trice I.** *n* tarqatuvchi, ulashuvchi, taqsimlovchi; **II.** *nm techn* taqsimlagich, taqsimotchi (*gaz, elektr toki*); **distributeur de vapeur** mashinalarda gaz, bug', suyuqlik taqsimlovchi klapan, zolotnik; **distributeur automatique** savdo avtomati; **distributeur d'engrais** o'g'it chochuvchi, sochuvchi, sochgich.

**distributif, ive** *adj* **1.** tarqatadigan, taqsimlaydigan, ulashadigan, bo'lib beradigan; **2.** *ling* bo'linuvchi.

**distribution** *nf* **1.** ulashish, taqsimlash, tarqatish, ulashib, tarqatib berish; bo'lish, bo'lib berish, taqsimlanish, taqsimot, joylashtirish, joylashuv; **distribution des lettres** xat tarqatish; **distribution des prix** mukofot, orden, medal berish, mukofotlash; **distribution d'eau** suv ta'minoti; **2.** *typogr* shrift, harflarni joylashtirish; **3.** qatnashuvchilar tarkibi (*pyesada*); **4.** *techn* gaz, bug', suyuqlik taqsimlagich mexanizmi; **5.** kino ijaraga berish.

**district** *nm* ma'muriy bo'linish, okrug, tuman, rayon.

**dit, dite** *adj* deb aytiladigan, ataladigan, deyilgan, degan, otli, laqabi, deb nomlanuvchi.

**dithyrambe** *nm* madh, madhiya, ortiqcha maqtov; **entonner un dithyrambe en l'honneur de qqn** birovga madhiya o'qimoq, aytmoq.

**dithyrambique** *adj* madhiyali, maqtovga arziydigan, madh qilishga oid, maqtovli, maqtovdan iborat.

**diurétique** *méd* **I.** *adj* siydiradigan, siydik, peshob haydaydigan; **II.** *nm* siydik haydaydigan dori-darmon (*vosita*).

**diurne I.** *adj* kunduzgi, kunduzi bo'ladigan; **II.** *nm pl* qisqa umrli kapalaklar.

**diva** *nf* mashhur ashulachi, farishta.

**divagation** *nf* **1.** gapirish mavzuidan qaytish, chetga chiqish; *pl* xomxayol, bema'ni gaplar, valdirash, aljish, gap, vaysash; **2.** alahlash, bosinqirash.

**divaguer** *vi* **1.** gapirish, mavzuidan qaytmoq, chetga chiqmoq, vaysamoq, mahmadonalik qilmoq; **2.** poyma-poy gapirmoq, aljiramoq, alahlamoq, bosinqiramoq.

**divan** *nm* **1.** divan, karavot; **2.** devon.

**divergence** *nf* **1.** *math* farq, tafovut, ayirma, to'g'ri kelmaslik, o'zgarish, qaytish, chekinish, chetga chiqish; **2.** *fig* kelishmovchilik, ixtilof, o'zgalik, har xillik, noittifoqlik, nifoq, ziddiyat; **divergence d'opinions, divergence de vues** g'oyaviy kelishmovchilik, fikri har xillik.

**divergent, ente** *adj* **1.** *math* farq, tafovut, o'zgaradigan; **rayons divergents** o'zgaruvchan nurlar; **lentille divergente** nur yoyuvchi shisha, linza; **2.** *fig* noittifoq, nifoqli, kelisha olmagan, ziddiyatli, zid.

**diverger** *vi* **1.** tarqalmoq, yoyilmoq (*nur*); **2.** farq qilmoq, tafovut qilmoq, har xil fikrda bo'lmoq, har xil o'ylamoq.

**divers, erse** *adj* **1.** har xil, turli-tuman, boshqa-boshqa, farq qiladigan, xilma-xil, bir-biriga o'xshamagan; **2.** *pl* bir qancha, bir necha, ko'pgina; **divers écrivains** ko'p yozuvchilar; **faits divers** voqealar (*ro'znomada*); **à diverses reprises** bir necha bor, bir marotaba emas.

**diversement** *adv* har xil, turli-tuman, har turli, xilma-xil.

**diversifier I.** *vt* xilma-xil, turli-tuman, rang-barang qilmoq, turli tus, shaklga kiritmoq; **II. se diversifier** *vpr* xilma-xil bo'lmoq, turli tusga kirmoq.

**diversion** *nf* **1.** chalg'itish, alahsitish, boshqa tomonga burish, tortish, jalb qilish; **manœuvre de diversion** boshqa tomonga qaratish manevri; **faire diversion à** diqqatini boshqa tomonga burmoq, qaratmoq; **trouver diversion à+***inf* har xil tus olmoq; **2.** qo'poruvchilik; **agent de diversion** qo'poruvchi.

**diversité** *nf* **1.** turli-tumanlik, xilma-xillik, rang-baranglik; **2.** farq qilish, tafovut, o'zgalik.

**divertir I.** *vt* **1.** *vieilli* alahsitmoq, chalg'itmoq, boshqa tomonga burmoq, qaratmoq, tortmoq; **2.** ko'nglini ko'tarmoq, dimog'ini chog' qilmoq, ovutmoq; **II. se divertir** *vpr* **1.** ovunmoq, ko'ngil ochmoq, vaqtichog'lik, o'yin-kulgi qilmoq; **2.** birovning ustidan hazillashib kulmoq, kalaka, ermak, mazax qilmoq.

**divertissant, ante** *adj* ko'ngil ochadigan, kayfni chog' qiladigan, o'yin-kulgi, qiziq, qiziqarli, maroqli, vaqtni chog' qiladigan, ermak, ovunchoq.

**divertissement** *nm* **1.** ko'ngil ochish, o'yin-kulgi, sayr tomosha, ermak, ovunchoq; **2.** (*teatrda*) qo'shimcha konsert dasturi.

**dividende** *nm* **1.** *math* bo'linuvchi; **2.** aksiyadan kelgan daromad.

**divin, ine** *adj* **1.** ilohiy; **2.** *fig* g'oyat go'zal, juda chiroyli, benazir, ajib, hayratomuz, hayratda qoldiradigan, juda yaxshi, ajoyib, g'alati, mo'jizadek; mo'jizavor.

**divination** *nf* fol, rom ochish, topish, aniqlash, bilish, bashorat, karomat, oldindan aytilgan fikr.

**divinement** *adv* **1.** hayratomuz, hayratda qoldiradigan darajada, g'oyat go'zallik bilan; **2.** ajoyibona, g'alati holda, mo'jizadek.

**divinisation** *nf* ilohiylashtirish, xudo deb bilish, sig'inish, topinish, ilohiylik darajasiga ko'tarib maqtash.

**diviniser** *vt* **1.** ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, topinmoq; **2.** haddan tashqari sevmoq, sajda qilmoq.

**divinité** *nf* **1.** xudo, iloh, alloh, tangri; **2.** jonona, nozanin, sanam, ma'buda.

**diviser I.** *vt* **l.** bo'lmoq, taqsimlamoq, ajratmoq; **diviser un mot** so'zni bo'lib ko'chirmoq; **2.** nizo solmoq, adovat urug'ini sochmoq, oraga ixtilof, nifoq, nizo solmoq; **II. se diviser** *vpr* bo'linmoq, taqsimlanmoq, ajralmoq; **se diviser en deux** ikkiga teng bo'linmoq.

**diviseur I.** *nm math* bo'luvchi; **diviseur commun** umumiy bo'luvchi; **le plus grand diviseur commun** eng katta umumiy bo'luvchi; **diviseur exact** qoldiqsiz bo'luvchi; **II.** *adj* bo'luvchi, bo'ladigan, ajratadigan, ixtilof, nizo, nifoq, kelishmovchilik soladigan.

**divisibilité** *nf* bo'linish, bo'lina olish.

**division** *nf* **1.** bo'lish, bo'linish, ajratish, bo'linma, taqsimot, taqsimlash, mayda bo'laklarga parchalash, sindirish, shoxlash, shoxobchalash; **division du travail** mehnat taqsimoti; *biol* **division cellulaire** hujayralarning bo'linishi; **division du temps** vaqt birligi; **2.** *math* bo'lish, bo'linish; **3.** bo'lim, bo'linma, qism; **chef de division** bo'lim boshlig'i, mudiri; **4.** *mil* diviziya, bo'linma; **division blindée** tank diviziyasi (*qismi*); **5.** *sport* sinf, daraja; **6.** kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, nifoq, zidlik, ziddiyat, rad qilish, qarama-qarshilik, janjal, nizo, g'avg'o, adovat, bo'linib ketish, tortishuv; **mettre, semer la division dans** adovat urug'ini sepmoq, sochmoq.

**divorce** *nm* **1.** nikohni bekor qilish, ajratish, buzish, quydi-chiqdi, nikohning bekor qilinishi; **2.** uzilish, uzish, buzish, buzilish, farq, tafovut, har xillik, o'zgachalik (*dunyoqarashda*), irish, chirish, aynish, sasish.

**divorcer** *vi* **1.** quydi-chiqdi bo'lmoq, ajralishmoq, nikoh ahdini buzmoq; **2.** aloqani uzmoq, tashlab ketmoq, ajralishib ketmoq.

**divulgation** *nf* jar solish, ovoza qilish, bildirish, e'lon qilish, oshkor qilish, fosh qilish, ochib tashlash; **divulgation d'un secret** sirni ovoza qilish.

**divulguer** *vt* ma'lum qilmoq, ovoza qilmoq, bildirmoq, jar solmoq, oshkor qilmoq, e'lon qilmoq, o'qib eshittirmoq, xalqqa aytmoq; **à ne pas divulguer** sirni oshkor qilish mumkin emas.

**dix I.** *adj* **1.** o'n; **2.** o'ninchi; **page dix** o'ninchi bet; **numéro dix** o'ninchi nomer; **II.** *nm* **1.** 10, o'n raqami, o'nlik; **2.** o'ninchi sana; **le dix janvier** o'ninchi yanvar.

**dix-huit I.** *adj* **1.** o'n sakkiz; **2.** o'n sakkizinchi; **page dix-huit** o'n sakkizinchi bet; **numéro dix-huit** o'n sakkizinchi nomer; **II** *nm* **1.** 18, o'n sakkiz raqami; **2.** o'n sakkizinchi sana; **le dix-huit janvier** o'n sakkizinchi yanvar.

**dix-huitième I.** *adj* o'n sakkizinchi; **II.** *nm* o'n sakkiz bo'lagi, qismi; **III.** *n* o'n sakkizinchisi.

**dixième I.** *adj* o'ninchi; **II.** *nm* o'n bo'lagi, qismi; **III.** *n* o'ninchisi.

**dixièmement** *adv* o'ninchidan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dix-neuf I.** *adj* **1.** 19, o'n to'qqiz; **2.** o'n to'qqizinchi; **page dix-neuf** o'n to'qqizinchi bet; **II.** *nm* **1.** 19, o'n to'qqiz raqami; **2.** o'n to'qqizinchi sana; **le dix-neuf janvier** o'n to'qqizinchi yanvar.

**dix-neuvième I.** *adj* o'n to'qqizinchi; **II.** *nm* o'n to'qqiz bo'lagi, qismi; **III.** *n* o'n to'qqizinchsi.

**dix-sept I.** *adj* **1.** 17, o'n yetti; **2.** o'n yettinchi; **page dix-sept** o'n yettinchi bet; **II.** *nm* **1.** 17, o'n yetti raqami; **2.** o'n yettinchi sana; **le dix-sept janvier** o'n yettinchi yanvar.

**dix-septième I.** *adj* o'n yettinchi; **II.** *nm* o'n yettinchi bo'lagi, qismi; **III.** *n* o'n yettinchisi.

**dizain** *nm* o'n baytli she'r.

**dizaine** *nf* o'nta, o'n dona, o'n nafar; **une dizaine de francs** o'n frank; **compter par dizaines** o'nlab, o'ntalab sanamoq.

**djinn** *nm* afsonaviy jin, ajina.

**do** *nm inv* do (*musiqa notasi*).

**docile** *adj* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, yon beradigan, ko'nadigan, ko'ngilchan, qobil, yumshoq, quloq soladigan, itoat qiladigan, bo'ysunadigan, itoatkor, mo'min, muloyim, mayin.

**docilement** *adv* o'tinib, samimiy, itoat bilan, bo'ysunib, quloq solib.

**docilité** *nf* gapga kirish, itoat, rioya qilish, bo'ysunish, quloq solish, itoatkorlik, bo'yin egish, itoat qilish, muloyimlik, yumshoqlik, ishlovga keladigan.

**dock** *nm anglic* **1.** *mar* kema tuzatadigan korxona, dok; **dock flottant** suzib yuruvchi korxona; **2.** port hovuzi, katta hovuz.

**docker** *nm* port ishchisi, yukchisi, doker.

**docteur** *nm* **1.** doktor (*ilmiy daraja*); **docteur en médecine** tibbiyot fanlari doktori; **docteur en droit** huquq fanlari doktori; **docteur ès lettres** filologiya fanlari doktori; **docteur ès sciences** fizika-matematika fanlari doktori; **être reçu docteur, se faire recevoir docteur** doktorlik darajasini olmoq; **2.** tabib, doktor; **3.** olim.

**doctoral, ale** *adj* nasihatomuz, nasihatgo'ylarcha, ta'lim-tarbiya beradigan, ibratli, o'gitli, nasihatli, pand-nasihat beradigan.

**doctorat** *nm* doktorlik darajasi; **thèse de doctorat** doktorlik dissertasiyasi, ishi.

**doctoresse** *nf vieilli* shifokor ayol.

**doctrinaire I.** *nm* nazariyotchi; **II.** *adj* nazariy.

**doctrinal, ale** *adj* nazariy, ilmuy; **mise au point doctrinale et tactique** masalaning nazariy va amaliy ishi.

**doctrine** *nf* ta'limot, nazariya, maktab; **doctrine matérialiste** materialistik ta'limot.

**document** *nm* hujjat, rasmiy qog'oz.

**documentaire I.** *adj* hujjatli; **film documentaire** hujjatli film; **II.** *nm* hujjatli film.

**documentaliste** *n* arxiv xodimi, ishchisi, hujjatlar yig'ish mutaxassisi.

**documentation** *nf* **1.** hujjatlashtirish, zarur hujjatlar bilan asoslash, tasdiqlash, tasdiq qilish, tasdiq, dalil, isbot; **2.** birinchi manbadan o'rganish, ma'lumot yig'ish; **3.** manba, asos, hujjatlar, ma'lumot.

**documenter I.** *vt* hujjatlar asosida tasdiqlamoq, hujjatlar bilan ta'minlamoq; **rapport documenté** hujjatlar bilan asoslangan ma'ruza; **II. se documenter** *vpr* birinchi manba asosida surishtirmoq, bilmoq, so'ramoq, ma'lumotlarni o'rganmoq.

**dodécasyllabe** *nm* o'n ikki bo'g'inli she'r.

**dodeliner** *vi* tebranmoq, chayqalmoq; **dodeliner de la tête** uyqusirab bosh tebratmoq.

**dodo** *nm onomat* **1.** uyqu (*bolalar tilida*); **2.** karovat; **mettre un enfant au dodo** bolani karovatga yotqizmoq.

**dodu, ue** *adj fam* lo'ppi, do'mboq, muloyim, mayin, yumshoq, semiz, to'ladan kelgan, yo'g'on, to'la.

**doge** *nm hist* doj.

**dogmatique I.** *adj* aqidalarga asoslangan; **II.** *n* **1.** aqidaparast; **2.** *nf* diniy aqidalar fani, dogmatika.

**dogmatiser** *vi* **1.** din aqidalarini qurmoq; **2.** qa'tiy ohangda gapirmoq, o'rgatmoq; bildirmoq.

**dogmatisme** *nm* aqidaparastlik, aqidalarga ko'r ko'rona ishonish (*yopishib olish*).

**dogme** *nm* dogma, aqida, din aqidalari.

**dogue** *nm* buldog (*it*), boksyor (*nemis buldogi*); **être d'une humeur de dogue** huddi qopog'on itday jahli chiqmoq, vaysamoq.

**doigt** *nm* **1.** barmoq, panja; **montrer au doigt** barmog'i bilan ko'rsatmoq; **toucher (du bout) du doigt** deyarlik yetishmoq, erishmoq; **un doigt de** bir tomchigina, ozgina; **un doigt de vin** bir tomchi vino; **savoir sur le bout du doigt** besh panjasidek yod bilmoq; **ne faire œuvre de ses dix doigts** hech narsa qilmaslik, qo'lini-qo'liga urmay o'tirmoq; **mettre le doigt sur, dessus** topmoq, fahmlamoq; **donner sur les doigts à qqn** qo'l tashlashmoq; **toucher du doigt** aniq ko'rmoq, eng muhimini tushunmoq; **se mordre les doigts** barmog'ini tishlamoq, afsuslanmoq; **avoir de l'esprit jusqu'au bout des doigts** juda aqlli bo'lmoq; **à deux doigts de** qil ustida, yoqasida, juda yaqin; **2.** *techn* barmoq, tish, pishang, dastak, richag; **doigt de direction** boshqarish tirgagi.

**doigté** *nm* **1.** qo'llarni to'g'ri tutish (*musiqa chalganda*); **2.** me'yorini, chegarasini bilish; **3.** mahorat qila olish qobiliyati, bilarmonlik, ep, hadis, havo, epchillik, ustalik, havo, hadisini olganlik, chaqqonlik, abjirlik, chapdastlik; **avoir un bon doigté** havosini olmoq.

**doigtier** *nm* barmoqqa kiyiladigan charm, rezina.

**dol** *nm dr* soxta, qalbaki narsalar yasash, soxtakorlik, qalbakichilik.

**doléance** *nf pl* nola, hasrat, shikoyat, nolish, zorlanish, arz-dod, hasrat-nadomat; **faire, présenter ses doléances** nolimoq, zorlanmoq, hasrat, shikoyat qilmoq.

**dolent, ente** *adj* ayanch, achinarli, yurakni ezadigan, mungli, hazin, shikoyatli, qayg'uli, dard-alamli, g'amgin, motamsaro.

**dolichocéphale I.** *adj* uzunboshli, boshi uzun, cho'zinchoq, so'poqbosh, guvalabosh; **II.** *n* so'poq bosh odam.

**dollar** *nm* dollar (*Amerika puli*).

**dolmen** *nm* tosh maqbaralar.

**domaine** *nm* **1.** mulk, yer-suv, mol-mulk; **domaine de l'Etat** davlat mol-mulki; **domaines forestiers** o'rmonzorlar; **le domaine public** ijtimoiy mulk; **tomber dans le domaine public** ijtimoiy mulkka aylanmoq; **2.** *fig* soha, jabha, muzofot, doira; **être du domaine de** sohaga mansub bo'lmoq; **dans le domaine culturel** madaniy sohada; **dans le domaine politique** siyosiy sohada.

**domanial, ale** *adj* mol-mulkka oid; **terres domaniales** davlat yeri.

**dôme** *nm* **1.** gumbaz, qubba; **dôme de verdure** zangori gumbaz; **dôme des cieux** osmon gumbazi; **2.** *techn* qubba, qopqoq, qalpoq; **dôme de prise de vapeur** quruq issiqxona; **3.** osilib tushgan, engashgan tuman.

**domestication** *nf* **1.** yovvoyi hayvonlarni xonaki qilish; **2.** *fig* qul qilish, qullikka, asoratga solish, o'ziga qaram qilib olish, bo'ysundirish, jilovlash.

**domesticité** *nf* xizmatkorlar, qarol-cho'rilar, mulozimlar, malaylar, yugurdaklar, oqsoch, uy xizmatkorlari.

**domestique I.** *adj* uyga oid; **animaux domestiques** uy hayvonlari; **économie domestique** uy xo'jaligi; **II.** *n* **1.** xizmatkor, malay, qarol, oqsoch, cho'ri; **2.** *nm* qarol-cho'rilar, mulozimlar, malay, yugurdaklar.

**domestiquer** *vt* **1.** o'rgatmoq, xonakilashtirmoq (*yovvoyi hayvonni*); **2.** *fig* qul qilmoq, qullikka, asoratga solmoq, bo'ysundirmoq, jilovlamoq; foydalanmoq, ishlatmoq.

**domicile** *nm* turar joy, uy-joy, makon, istiqomatgoh, yashaydigan (*istiqomat qiladigan*) joy; **domicile légal** *dr* qonuniy qarorgohi; **à domicile** *loc adv* uyga; **gens à domicile instable** turar joyi noma'lum odamlar; **ouvrier, tâcheron à domicile** uyda ishlovchi.

**domiciliaire** *adj* uy, uyga oid; **visite domiciliaire** tintuv, taftish.

**dominant, ante I.** *adj* **1.** hukmron, hokim, hukmronlik, ustunlik qiluvchi, ustun turgan, ortiq, ko'p bo'lgan; **classe dominante** hukmron sinf; **2.** baland turgan, yuqori bo'lgan, ko'tarilib turgan; **II.** *nf mus* hukmron, hokim, baland parda, dominanta.

**dominateur, trice** *n pl* et *adj* hokim, hukmron, hukmini o'tkazadigan, amri-farmo, shaddod.

**domination** *nf* hokimiyat, hokimlik, hukmronlik, haqonlik, saltanat, ustunlik; **ranger sous sa domination** bo'ysundirmoq, qaram qilmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dominer I.** *vi* **1.** hukmronlik qilmoq, amr qilmoq, bo'ysundirmoq, hukm, davr surmoq, ustun bo'lmoq; **2.** baland bo'lmoq, baland, ko'tarilib turmoq, ortiq bo'lmoq, ko'pchilikni tashkil etmoq, ustun kelmoq; **II.** *vt* **1.** hukmron bo'lmoq, davr surmoq, boshqarmoq; **dominer ses passion** ishtiyoqi, havasini bosmoq, yengmoq; **2.** baland kelmoq, turmoq; **la tour dominait la ville** minora shahar ustida ko'tarilib turardi.

**Dominicain[1], aine** *n* dominikalik, dominika respublikasi aholisi.

**dominicain[2], aine I.** *adj* dinga oid; **II.** *nm relig* dominika monaxi.

**dominical, ale** *adj* yakshanba kuni bo'lgan, yakshanba.

**dominion** *nm* ingliz shtati.

**domino** *nm* **1.** domino (*maskarad kiyimi*); **2.** domino (*o'yin*).

**dommage** *nm* **1.** zarar, ziyon, shikast, talafot; **dommages de guerre** urush yetkazgan zarar; **dommages et intérêts** zararni qoplash; **causer de grands dommages** katta ziyon yetkazmoq; **sans aucun dommage** hech qanday zararsiz; **c'est dommage** *fam* afsus; **quel dommage!** esizgina! esiz! attang-a!

**dommageable** *adj* zarar, ziyon yetkazadigan.

**dompter** *vt* yovvoyi hayvonlarni o'rgatmoq, bo'ysundirmoq, jilovlamoq, rom qilmoq.

**dompteur, euse** *n* yovvoyi hayvonlarni o'rgatuvchi, bo'ysundiruvchi, jilovlovchi, rom qiluvchi.

**don[1]** *nm* **1.** tortiq, sovg'a, hadya, tuhfa, in'om, armug'on; **faire don de** in'om qilmoq; **le don de soi** o'zini qurbon qilish, o'z manfaatlaridan voz kechish; **2.** qobiliyat, iste'dod, talant; **le don de la parole** so'zlash qobiliyati, so'zamollik, notiqlik; **il a le don des langues** uning til o'rganishiga qobiliyati bor.

**don[2]** *nm* janob, don, xonim (*ispancha*).

**donataire** *adj* tortiq, tuhfa, in'om olgan.

**donateur, trice** *n* tortiq, tuhfa, in'om, sovg'a arg'umon qiluvchi.

**donation** *nf dr* in'om qilish, sovg'acha berish; **donation entre vifs** hadya qilinganlik haqidagi yozuv, hadya akti, hadyanoma.

**donc** *conj* **1.** demak, demakki, bas, binobarin, shunday ekan, hal bo'ldi; **2.** axir, endi, o'sha, o'zi, shunday; **allons donc** bo'ldi, bas, yetar endi! go'yoki, xuddi; **entrez donc** axir, kiravering! **taisez-vous donc** bas, jim bo'ling! **dis donc** qani, aytchi, hoy, sen!

**dondon** *nf fam* barvasta ayol, bo'liq xotin.

**donjon** *nm* **1.** qal'aning bosh minorasi; **2.** minorasimon dok-machta (*kemada*).

**don Juan** *nm* donjuan, xotinlarni shaydo qiluvchi, xotinboz.

**donne** *nf* berish, tarqatish (*qarta o'yinida*); **à qui la donne?** kim qarta tarqatadi?

**donnée** *nf* **1.** *math* ma'lum kattalik, berilgan kattalik; **2.** asosiy fikr, g'oya; **3.** berilgan ma'lumotlar, dalillar, alomatlar; **d'après les données** berilgan ma'lumotlarga ko'ra.

**donner I.** *vt* **1.** bermoq, topshirmoq, qo'liga bermoq, taqdim qilmoq, tortiq qilmoq, tortiq, sovg'a qilib bermoq, armug'on etmoq; **donner en jouissance** foydalanishga topshirmoq; **donner le temps** vaqt bermoq; **donner une heure** vaqt belgilamoq; **donner des directions** ko'rsatma bermoq; **donner sa vie** hayoti, jonini fido qilmoq; **donner qqn** sotmoq, xiyonat qilmoq; **2.** bag'ishlamoq, yetkazmoq, zarar yetkazmoq, sabab bo'lmoq; **donner du mal qqn** qiyin ahvolga solib qo'ymoq; **3.** uyushtirmoq, tashkil qilmoq, bermoq; **donner une pièce** pyesa qo'ymoq; **4.** qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq; **donner de l'appétit** ishtahasini ochmoq; **donner la fièvre** issig'ini chiqarmoq; **donner du courage** tetiklashtirmoq; **5.** ko'rsatmoq, namoyon qilmoq; **donner des marques de fatigue** charchash alomatlarini ko'rsatmoq; **6. (à)** undamoq, qo'zg'atmoq, majbur etmoq, ko'ngliga solmoq; **donner à penser** o'ylashga majbur etmoq, o'ylashni ko'ngliga solmoq; **donner les premiers soins** birinchi yordamni ko'rsatmoq; **donner des coups** urmoq, do'pposlamoq; **donner un soufflet** shapaloq tushirmoq; **donner un baiser** o'pmoq; **donner la chasse à** izidan, orqasidan ta'qib qilmoq, quvmoq; **donner son adhésion** rozilik bermoq; **donner lecture à** o'qib eshittirmoq; **donner le sein** emizmoq; **donner un coup de main** yordam bermoq; **donner le branle à** yurgizmoq, yurgizib yubormoq; **donner la vie** tug'moq, hayot bag'ishlamoq, oqlamoq; **donner naissance** tug'moq; **donner la mort** o'ldirmoq; **donner le bras à** qo'ltiqlab bormoq; **donner un coup de balai** salgina supirmoq; *fam* joyni, shtatni qisqartirmoq; **donner communication** xabar bermoq, bildirmoq; **donner sa mesure** o'zini yaxshi tomondan ko'rsatmoq; **donner le change** aldamoq; **donner l'éveil** oyoqqa turg'izmoq; **donner congé** ishdan bo'shatmoq; **donner sa main à qqn** turmushga chiqmoq; **donner de l'air à** shamollatmoq; **donner sa voix** saylashda ovozini bermoq; **donner de la voix** ovoz chiqarmoq; **donner le bonjour** salom bermoq, so'rashmoq, salomlashmoq; **donner tort à qqn** ayblamoq; **donner raison à** kelishmoq, rozi bo'lmoq; **donner gain de cause à** foydasiga hal qilmoq; **donner libre cours à** erkin qo'yib bermoq; **donner lieu à** yo'l ochib, imkon yaratib bermoq; **la rencontre a donné lieu à d'intéressantes discussions** uchrashuvda jiddiy masalalar muhokama qilindi; **donner pleins pouvoirs** hamma vakolatni berib qo'ymoq; *fam* **je vous le donne en cent, en mille** sizning topolmasligingizga aminman; **on t'en donnera** *fam* biz senga ko'rsatib qo'yamiz; **étant donné que** *loc conj* hisob, inobatga olib, e'tibor qilib; **II.** *vi* **1. (contre)** urilmoq, urilib, tegib ketmoq; **donner de la tête contre la muraille** devorga boshi bilan urilmoq; **2. (dans)** berilmoq, qiziqib qolmoq, cho'mmoq, botmoq; **donner en plein dans** boshi bilan cho'mmoq, qiziqib qolmoq; **3. (dans)** otib tegizmoq, urmoq, tegmoq; **donnez dans le piège, donner dans le panneau** pistirmaga, tuzog'iga, domiga tushib qolmoq, yolg'on gapga uchmoq; **donner dedans** ilinmoq, tushib, ilinib qolmoq; qopqonga tushmoq; **4. (sur)** kelishmoq, bor baraka qilmoq; **donner sur les doigts à** qo'lni qo'lga bermoq; **5. (sur)** chiqmoq, qaramoq, ochilmoq; **donner sur un jardin** boqqa ochilmoq; **donner sur la rue** ko'chaga chiqmoq; **6.** *fam* ko'rinmoq, namoyon bo'lmoq, o'zini ko'rsatmoq; **7.** *mil* hujum qilmoq, olg'a yurmoq; **ne savoir où donner de la tête** o'zini yo'qotib qo'ymoq, nima qilishini bilmay qolmoq; **les blés ont beaucoup donné cette année** bu yil don, bug'doy yaxshi bo'ldi; **donner sur un plat** ovqatga zo'r bermoq; **III. se donner** *vpr* **1.** berilmoq, umrini bag'ishlamoq, tikmoq, o'rganib qolmoq, mehr, ko'ngil qo'ymoq; **2.** yaratmoq, urinmoq, harakat qilmoq; **se donner du mal, se donner de la peine, se donner la peine de** harakat qilmoq; **donnez-vous la peine d'entrer** kirishga harakat qiling! **s'en donner** iste'mol, suiiste'mol qilmoq, ortiqchalikka yo'l qo'ymoq; rosa xursandchilik qilmoq, ko'ngil ochmoq; **s'en donner à cœur joie** to'yib rohatlanmoq; **3. (pour)** o'zini o'xshatmoq, qilib ko'rsatmoq; **se donner pour savant** o'zini olim qilib ko'rsatmoq; **4.** nisbat bermoq, tus bermoq; **se donner l'air gai** xursand tusga kirmoq; **5.** qo'llab qo'ltiqlamoq, yonini olmoq; **se donner le mot** til biriktirmoq, gapni bir yerga qo'ymoq; **6. se donner en spectacle** o'zini sharmanda qilmoq.

**donneur, euse** *n* beruvchi, topshiruvchi; **2. donneur de sang** (*tibbiyotda*) qon beruvchi donor; **3.** qarta tarqatuvchi (*o'yinda*).

**don Quichotte** *nm* donkixot, o'zini adolat uchun kurashuvchi, jabrdiydalar himoyachisi deb diluvchi soddadil, xayolparast, olijanob odam.

**dont** *pron rel* qaysiki, ya'ni (**de qui, de quoi** *bilan*); **voila l'homme dont je connais le fils** mana o'g'lini men taniydigan odam; **j'ignore ce dont on parle ici (de quoi on parle ici)** nima haqida gap borayotganini bilmayman; **la famille dont je sors** men tarbiya topgan, tug'ilgan, voyaga yetgan oila.

**donzelle** *nf* **1.** yengil tabiatli xotin; **2.** *fam* go'zal xotin, janona.

**dopage** *nm* g'ayratini oshiruvchi modda, doping yuborish, ichirish.

**doper** *vt* **1.** g'ayratini oshiruvchi modda, dori, doping yubormoq, ichirmoq; **2.** *fig* rag'batlantirmoq, qiziqtirmoq, ilhomlantirmoq.

**doping** *nm anglic* g'ayratini oshiruvchi modda, doping.

**doré, ée I.** *adj* **1.** zarhallangan, oltin, tilla qoplangan, yugurtirilgan, zarhal, zarrin, oltinli, tilla suvi yurgizilgan; **doré sur tranche** zarhal chet, kesik; **jeunesse dorée** oltin yoshlik; **2.** oltinday sap-sariq, oltin, tilla rang, oltin tusli, zarrin; **II.** *nm* zarhal, oltin, oltinlash, zar; *nf* qimmatbaho tosh.

**dorénavant** *adv* kelgusida, bundan buyoq, endi, minba'd, shu kundan, hozirdan boshlab, e'tiboran, bundan keyin.

**dorer** *vt* **1.** oltinlamoq, zarhallamoq, zar, oltin qoplamoq, tilla, oltin yugurtirmoq; **dorer la pilule** *fam* yaxshi gap bilan tuzlamoq, o'yib olmoq, xushlab turib mushtlamoq, andavalab gapirmoq; **2.** pishiriq ustiga tuxum sarig'i surmoq.

**doreur, euse** *n* zarhallovchi, zar beruvchi, qoplovchi, oltin yugurtiruvchi, zarhalchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dorloter** *vt* erkalamoq, erkalatmoq, suymoq, paxpaxlamoq, asrab avaylamoq, yaxshi parvarish qilmoq, ardoqlamoq.

**dormant, ante I.** *adj* **1.** uxlagan, uxlab yotgan; **la Belle au bois dormant** Uyqudagi go'zal; **2.** turg'un, oqmaydigan, oqmas (*suv*); **3.** qo'zg'almaydigan, harakatsiz, qotgan, qo'zg'almas, turg'un; **châssis dormant** qotgan, qo'zg'almas deraza romi; **II.** *nm* ko'ndalang qo'yilgan to'sin, deraza romi asosi.

**dormeur, euse I.** *adj* uxlayotgan, uxlab yotgan, uyquni yaxshi ko'radigan; **II.** *n fam* uyquchi, seruyqu odam.

**dormir** *vi* **1.** uxlamoq, uxlab, uyquda yotmoq; tinch yotmoq (*qabrda*); **dormir tout d'une traite** uyg'onmay dong qotib uxlamoq; **dormir dans la ruelle** karovat chetida uxlamoq; **dormir comme une marmotte, dormir comme un loir** dong qotib uxlamoq; **dormir comme un sabot, dormir comme une souche** dong qotib uxlamoq; **dormir à poings fermés** qattiq uxlamoq; **dormir pour toujours** abadiy uyquda yotmoq, uyquga ketmoq, o'lmoq; **dormir debout** tik turib uxlamoq, oyoqdan qolmoq, charchamoq; **dormir sur les (ses) deux oreilles** o'zini butunlay xafdan yiroq deb bilmoq; **le feu dort sous la cendre** kul tagida cho'q; **conte(s) à dormir debout** bo'lmag'ur gaplar, uydirma, yolg'on-yashiq gap; **2.** ishlatilmay qolib ketmoq, yotmoq, ishlamay saqlamoq; **dormir dans les cartons** papkada yotmoq, saqlanmoq, turmoq; **laisser dormir une affaire** ishni cho'zmoq, sudramoq, paysalga solmoq, orqaga tashlamoq.

**dorsal, ale I.** *adj* **1.** belga oid, bel; **épine dorsale** umurtqa pog'onasi; **2.** *ling* til orqa (*tovush*); **consonne dorsale** *ou* **une dorsale** til orqa undoshi; **II.** *nf géog* tizma, qirra, cho'qqi, o'rkach.

**dortoir** *nm* umumiy uxlaydigan xona, joy.

**dorure** *nf* **1.** zarhal, oltin, tilla yurgizilgan qatlam; **2.** oltin suvi yurgizish, zarhal berish, zar qoplash.

**doryphore** *nm zool* kartoshka qo'ng'izi, kolorado qo'ng'izi.

**dos** *nm* **1.** orqa bel; **le dos au feu** o't, olovga orqasi bilan o'girilib; **tourner le dos à qqn** orqasi bilan o'girilmoq; *fig* e'tiborsiz bo'lmoq, inkor qilmoq, beparvo qaramoq; **faire le gros dos** orqasini yoy qilmoq (*mushuk*); *fig* gerdaymoq, kekkaymoq, kibrlanmoq; **à dos d'hommes** o'zida, orqasida; **de dos** orqasi bilan, orqasidan; **cela fait froid dans le dos** bundan orqasida titroq turadi; **être sur le dos** betob bo'lib yotmoq; **se mettre qqn à dos** birovni o'ziga qarshi qilib qo'ymoq; **avoir sur le dos** qaramog'ida bo'lmoq, turmoq; **il n'a rien à se mettre sur le dos** kiyishga hech nimasi yo'q; **mettre qqch sur le dos de qqn** javobgarlikni birovga yuklamoq; **tourner le dos à la mangeoire** aqlsizlarcha ish qilmoq; **avoir le dos au feu, le ventre à table** qulay joylashib olmoq; kayfiyati yaxshi bo'lmoq; **j'en ai plein le dos** bu o'lguday, juda jonimga tegib ketdi; **se laisser tondre (manger) la laine sur le dos** so'zsiz hammasiga chidamoq, o'zini ship-shiydam qilib olishiga yo'l qo'yib bermoq; **il a bon dos!** uning haqida nimalarni gapirishmadi! **dos à dos** *sport* teng, hech kimniki emas; **renvoyer dis à dos** teng hisobni qayd etmoq; **2.** orqasida suzmoq; **dos brassé** orqa bilan suzish; **dos crawlé** chalqanchasiga qulochkashlab suzish; **3.** biron narsaning orqasi; **le dos de la main** qo'l orqasi; **dos d'âne** yo'l notekisligini ko'rsatuvchi belgi; **4.** teskari tomon; **voir au dos** teskarisiga qaramoq; **à dos levé** qopqog'i ko'tarilgan (*royalda*).

**dosage** *nm* **1.** dozalarga bo'lish, tarkibiy qismlarini aniqlash, foiz tarkibi; **2.** *fig* puxta hisob-kitob, ovozlarni taqsimlash; **dosage des forces** *mil* kuchlarni taqsimlash, bo'lish.

**dose** *nf* o'lchovli miqdor, doza, son, o'lchov, daraja, me'yor; **doubler la dose** sonini ikkilantirmoq; **avoir une forte dose d'amour-propre** juda izzattalab, obro'talab bo'lmoq.

**doser** *vt* dozalarga bo'lmoq, aniqlamoq (*sonini, miqdorini*), taqsimlamoq.

**doseur** *nm* dozalagich, doza qiluvchi; o'lchagich.

**dosimètre** *nm* dozimetr.

**dossard** *nm* sprot musobaqalarida qatnashchilarning kiyimiga qistiriladigan nomer.

**dossier** *nm* **1.** suyanchiq; **2.** ish, xizmat, hujjatlar to'plami, shaxsiy ish (*idorada*); **établir un dossier** shaxsiy ishi yuzasidan ma'lumot yig'moq.

**dot** *nm* sep, sep-sidirg'a.

**dotal, ale** *adj* sepga oid, sep.

**dotation** *nf* **1.** xarajatlarni qoplay olmaydigan korxona, muassasaga beriladigan yordam puli, dotatsiya; **2.** tortiq, sovg'a, hadya, tuhfa, in'om; armug'on, xayr-ehson, sadaqa, nazr, hissa, ulush; **3.** jihozlash, uskunalash, qurollantirish, asboblar bilan ta'minlash.

**doter** *vt* **1.** sep bermoq; **2. (de)** ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq, sovg'a, in'om, hadya, tuhfa bermoq; **la nature l'a richement (bien) doté** tabiat uni iste'dodli qilib yaratdi; **3.** jihozlamoq, uskunalamoq, qurollantirmoq, ta'minlamoq; **4.** yordam puli bermoq.

**douairière** *nf* boy beva, eridan katta mulk qolgan beva xotin.

**douane** *nf* **1.** bojxona; **2. droits de douane** bojxona to'lovi.

**douanier[1]** *nm* bojxona xizmatchisi, amaldori, nazoratchisi.

**douanier[2], ière** *adj* bojxonaga oid, bojxona; **union douanière** bojxona ittifoqi, jamoasi.

**double I.** *adj* **1.** ikkilangan, ikki barobar bo'lgan; **à double fond** ikki qavatli tag; **étoffe à double face** orqa-o'nggi bir xil mato; **à double effet** qo'sh harakat; **à double fin** qo'shaloq maqsad bilan; **2.** ikki taraflama, ikki yoqlama, tomonlama, ikki turli, xil; **double sens** ikki ma'nolilik; **double jeu** ikki turli, xil; **3.** qo'sh, qo'shaloq, judt, juft-juft bo'lish; **II.** *nm* **1.** ikki miqdor; **payer le double** ikki barobar to'lamoq; **2.** hujjatlarning asliga teng nusxasi, kupisi; **double original** ikkita bir xil nusxa (*diplomda*); **3.** ikkita bir-biriga o'xshash odam; **4.** *sport* juft o'yin; **double mixte** aralash juft o'yin; **5.** *loc adv* **en double** ikki nusxada; **mettre en double** ikki marta qo'shmoq; *loc adv* **au double** ikki hissa qilib, ikki marta ortiq, ko'p; **payer au double** uch baravar ortiq to'lamoq; **je te le rendrai au double** yuz barobar oshirib qaytaraman.

**doublé, ée I.** *adj* ikki barobar, hissa ko'p, qo'shaloq; **2.** astar qilingan, momiq qoplangan; **3.** dublyaj qilingan (*film*); **II.** *nm* **1.** qoplama oltin, kumush; **2.** billyard o'yinida sharni sharga urish; **3.** boksda qo'shaloq urish; **4.** miltiqda ikki o'q otish.

**doublement[1]** *nm* **1.** ikki marta oshish, ko'payish, ikki baravar, hissa ko'p; **2.** *mil* ikkilantirish, qo'shaloq, juft qilish.

**doublement[2]** *adv* ikki hissa qilib, ikki marta ortiq, ikki barobar ko'p, ikki turli, xil, turlicha, ikki yoqlama.

**doubler** *vt* **1.** ikki marta, hissa ko'paytirmoq, oshirmoq; **doubler le pas** qadamini tezlatmoq; **2.** qavatlamoq, qo'shaloqlamoq, ikki qavat qilmoq; **3.** dublyaj qilmoq (*filmni*); **4. doubler le rôle** rolni takrorlamoq; **doubler un acteur** rol ijro etuvchi artistni joyini olmoq; **5. (de)** astar tikmoq, qilmoq; **6.** aylanib o'tmoq; **doubler le cap, doubler un promontoire** *géog* burunni aylanib o'tmoq; **7.** quvib o'tmoq (*avtomobilni*).

**doublet** *nm* **1.** asliga teng nusxa hujjat; **2.** asl qimmatbaho tosh; **3.** *ling* kelib chiqish dubleti, etimologik dublet.

**doublure** *nf* **1.** astar; **2.** *th* dublyor.

**douceâtre** *adj* **1.** shirinroq; **2.** chuchmal, ko'ngilga tegadigan, og'izga yoqmaydigan.

**doucement** *adv* **1.** sekin, past ovoz bilan; **parler doucement** sekin gapirmoq; **tout s'est passé fort doucement** hammasi tinch o'tdi; **2.** sekin, tez emas, sekinlab, asta-sekin, ohista, ehtiyotlik bilan, ehtiyot bo'lib; **marcher doucement** asta, sekin yurmoq; **se porter tout doucement** o'zini o'rtacha his etmoq, sezmoq; **doucement** sekin, tinch, shamolsiz, ehtiyot bo'lib.

**doucereux, euse** *adj* shirinroq, totliroq, chuchmal, ko'ngilga uradigan, og'ziga yoqmaydigan.

**doucettement** *adv* sekin, asta-sekin, ohista.

**douceur** *nf* **1.** shirinlik, shirin maza; **2.** yuvoshlik, beozorlik, mo'minlik, yumshoqlik; yoqimlilik, shirin so'zlik, nazokat, latofat, noziklik, mehribonlik, shafqat, yaxshilik; **en douceur** *fam* shoshilmasdan, asta-sekin, avaylab; **prendre les choses en douceur** voqealarga tinchgina qaramoq; **3.** yumshoqlik, bo'shlik, mayinlik, muloyimlik (*ushlab ko'rib*); **4.** *techn* bolg'alanuvchanlik, cho'ziluvchanlik, cho'zilish; **5.** *pl* shirinliklar, lazzatlar; **6.** *pl* nafislik, latofatlilik, noziklik; **passer en douceur** tinchkina o'lmoq.

**douche** *nf* **1.** dush, suv quyish (*cho'milish*); **recevoir une douche** so'kish, koyish eshitmoq, ta'zir yemoq; **2.** dushxona, suv quyib cho'miladigan joy.

**doucher** *vt* **1.** ustidan suv quymoq, dushda yuvintirmoq; shalabbo qilmoq; **2.** *vieilli fam* tanbeh, dakki bermoq, qattiq koyimoq, urishmoq.

**doué, ée** *adj* talantli, iste'dodli, layoqatli, qobiliyatli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**douer** *vt* **(de qqch)** talantli, iste'dodli, qobiliyatli bo'lmoq, qilib yaratilmoq.

**douille** *nf* **1.** *techn* mufta; tiqin, ilgak, ilmoq, bo'g'iz, bo'yin, gilza, chordish; **2.** lampa patroni; **douille à crochet** ilgakli patron, ilib qo'yiladigan patron.

**douillet, ette I.** *adj* **1.** erka, nozik, tantiq, nozikbadan; **2.** o'ng'ay, qulay, orom beradigan, shinam, yumshoq (*to'shak*); **II.** *n* erka, nozik, tantiq, injiq; **faire le douillet, la douillette** erka, nozik, tantiq, injiq bo'lmoq, oyimtilla, tannoz, oqbilak bo'lmoq; **3.** issiq qishlik nimcha (*paxtali*).

**douillettement** *adv* o'ng'ay, qulay, yaxshilab, shinam.

**douleur** *nf* **1.** og'riq, dard, alam, zirqirash; *pl* bod kasali og'riqlari; asab kasalliklari og'riqlari; **les douleurs (de gésine)** to'lg'oq tutish, ko'zi yorish dardi; **avoir des douleurs** bod kasali bilan azob chekmoq; **sans douleur** beozor, og'riqsiz; **2.** qayg'u, dard-alam, ta'ziya, motam; g'am, dog'; **douleur muette** tilsiz qayg'u, so'zsiz, nidosiz azob tortish; **accablé de douleur** g'am qayg'udan ezilgan.

**douloureusement** *adv* o'ziga og'ir olib, g'ijinib, og'ir; qayg'uli, g'am-g'ussali, alam bilan.

**douloureux, euse** *adj* **1.** kasalmand, dardchil, tez-tez kasal bo'lib turadigan, azob beradigan, qiynaydigan, qiyin; **cri douloureux** mungli ovoz, sado; **mains douloureuses** og'riq qo'llar; **2.** qayg'uli, dard alamli, achinarli, g'amgin, motamsaro, g'am-hasratli.

**doute** *nm* **1.** shubha, gumon, shak-shubha; **il ne fait pas de doute** shubha yo'q; **mettre en doute** shubha ostiga olmoq, shubhalanmoq; **émettre un doute** shubha bildirmoq, gumon qilmoq; **rester dans le doute** bexabar bo'lmoq; **point de doute que** shubha yo'q-ki; **hors de doute** shak-shubhadan tashqari; *loc adv* **sans doute** ehtimol, balki, aftidan; **sans aucun doute** shak-shubhasiz, albatta, muqarrar; **2.** shubha, gumon qilish, faraz, taxmin, o'y; **avoir des doutes sur qqn** gumonsiramoq, shubha, gumon qilmoq.

**douter I.** *vi* **(de qqn de qqch)** shubhalanmoq, shubha, gumon qilmoq, gumonsiramoq; **douter de ses yeux** ko'rib turganiga ishonmaslik; **ne douter de rien** hech narsadan shubha qilmaslik, xotirjam bo'lmoq, har qanday muammoni qo'rqmasdan yengmoq, hal qilmoq; **II. se douter** *vpr* **(de)** shubhalanmoq, shubha, gumon qilmoq, gumonsiramoq; mo'ljallamoq, taxmin qilmoq, ko'zlamoq, fahmlamoq, aql idrok bilan bilmoq, topmoq; **elle se doute que tout est perdu** hammasi tamom bo'ldi deb biladi.

**douteux, euse** *adj* **1.** shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan, qorong'u, darfumon; **succès douteux** shubhali yutuq; **2.** noaniq, noma'lum; **réponse douteuses** shubhali javob; **clarté douteuse** g'ira-shira yorug', nim, tim qorong'i; **3.** shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan, qorong'i, dargumon.

**douve[1]** *nf* **1.** bochka taxtalari, yog'ochlari; **2.** suv to'ldirilgan handaq, zovur, chuqur (*qal'a atrofidagi*).

**douve[2]** *nf* yassi gijja, silliq gijja.

**doux, douce I.** *adj* **1.** shirin, totli, mazali, lazzatli; **amande douce** mazali bodom; **2.** nozik, yumshoq, muloyim; xushmuomala, mehribon, mushfiq; **billet doux** muhabbat xati; **faire les yeux doux** ko'z qismoq, ko'z suzmoq, muloyim, yoqimli qaramoq; **3.** yumshoq, bo'sh, mayin, mo'tadil; **4.** rahmdil, mehribon, munis; **regard doux** munis qarash; **5.** chuchuk, tuzsiz, sho'rmas; **eau douce** chuchuk suv; **vin doux** shirin vino; **6.** yoqimli, yoqadigan; **7.** iliq, issiq; **temps doux** iliq havo; **8.** uncha tik bo'lmagan, biroz nishab, yotiq; **pente douce** nishab yonbag'ir, qiyalik; **9.** yuvosh, beozor, mo'min-qobil, muloyim; osoyishta, xotirjam, vazmin; royish, ko'ngli bo'sh, ko'ngilchan; **caractère doux** ko'ngli bo'shlik, ko'ngilchanlik; **10.** bog'lanuvchan (*oson*), egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq, yopishqoq; **fer doux** yumshoq (*oson ulanuvchan*) temir; **en douce** *fam* asta-sekin, ohista, shoshmay, sezdirmasdan, yashirin, yashirinib; bilintirmasdan; **partir en douce** bilintirmasdan, sezdirmasdan ketib qolmoq; **II.** *adv* **filer doux** tiyilmoq, yuvosh bo'lib qolmoq, bo'ysunmoq, bo'yin egmoq; **tout doux** *loc adv* sekinroq, jim, shovqinsiz; **III.** *nm* shirinlik, shirin taom, narsa.

**douzaine** *nf* o'n ikki dona, o'n ikkita; **à la douzaine** o'n ikkitalab, xohlagancha.

**douze I.** *adj* **1.** o'n ikki; **2.** o'n ikkinchi; **page douze** o'n ikkinchi bet; **II.** *nm* **1.** o'n ikki raqami; **2.** o'n ikkinchi sana; **le douze mars** o'n ikkinchi mart.

**douzième I.** *adj* o'n ikkinchi; **II.** *nm* **1.** o'n ikkinchi bo'lagi, qismi; **2.** *n* o'n ikkinchisi.

**doyen, enne** *n* **1.** sarkor, ishboshi, oqsoqol; **doyen de clan** urug' sarkori; **doyen du corps diplomatique** diplomatik guruh boshlig'i; **2.** fakultet dekani; **3.** eng katta oqsoqol, yoshi ulug'i, ulug'.

**drachme** *nm* **1.** draxma, Gretsiya pul birligi; **2.** Yunonistonda o'lchov birligi (*3,24 gramm*).

**draconien, ienne** *adj* juda qattiq, shafqatsiz, yovuz.

**dragage** *nm* daryo, kanal tubini tozalash.

**dragée** *nf* **1.** mayda dumaloq draje (*obaki*), shakar shokolad bilan qoplangan shirinlik, hapdori; **tenir la dragée haute à qqn** qimmatga trushmoq; **2.** ov sochma o'q, pitra.

**dragon** *nm* **1.** ajdaho, ajdar; **dragon de vertu** nozikoyim, jizzaki, gap ko'tarmas; **2.** *fig* zahar, jahldor ayol; **3.** *hist* otliq askar.

**dragonne** *nf* halqasimon tasma, tasmaband.

**drague** *nf* **1.** draga, yer kovlagich; **drague à godets** yer kovlagich hovuchi, cho'michi; **drague suceuse, drague aspiratrice** zemlesos, tuproq yutuvchi; **2.** cho'ziladigan to'r; **3.** *mar* tubini tekshiradigan qurilma (*asbob*).

**draguer** *vt* **1.** dragalamoq, suv ostini kovlab o'rganmoq, daryo tubini kovlab tozalamoq; **2.** *mar* tubini tekshirmoq; **draguer le fond** loyga botmoq (*langar*); **3.** *fam* yopishmoq, shilqimlik qilmoq (*xotinlarga*).

**dragueur** *nm* **1.** *mar* tubini tekshirish uchun qilingan qurilma; **dragueur de mines** minani qidirib topgich; **2.** yer kovlagich mexanigi, ishchisi; **3.** *fam* xotinboz, shilqim.

**drain** *nm* **1.** yer tagida suv oqish; **2.** ariq, zovur; **3.** *techn* drenaj quvuri.

**drainage** *nm agr* drenaj yordamida yerni quritish.

**drainer** *vt* yerni quritmoq, suvini qochirmoq.

**draisienne** *nf* velosiped, bir oyoqlab uchib yurituvchi g'ildirakli aravacha.

**dramatique** *adj* dramatik, kuchli taassurot qoldiradigan, dabdabali, og'ir, mushkul, fojiali, jiddiy; **situation dramatique** fojiali holat.

**dramatiquement** *adv* fojiali ravishda, mushkul holda og'ir, jiddiy.

**dramatisant, ante** *adj* mushkullashtiruvchi, fojialashtiruvchi, jiddiy, og'ir.

**dramatisation** *nf* mushkullashtirish, fojialashtirish.

**dramatiser** *vt* **1.** mushkullashtirmoq, fojiyalashtirmoq; **2.** jiddiy tus bermoq, ahamiyat kasb etmoq, kuchaytirmoq.

**dramaturgie** *nf* dramaturgiya.

**drame** *nm* **1.** drama; **drame lyrique** musiqali drama; **2.** *fig* fojia, fojiali voqea.

**drap** *nm* **1.** movut; **drap frisé** patli qalin movut; **tailler en plein drap** butun bo'lakdan bichmoq; *fig* biror narsadan uyalmasdan, tortinmasdan foydalanmoq; **2.** choyshab; **drap mortuaire** tobut yopqich choyshab; **être dans de beaux draps** *fam* qiyin ahvolda qolmoq.

**drapé, ée I.** *adj* choyshablangan, choyshab qilingan, pardalangan; **II.** *nm* kiyim qat-qati, taxi, burmasi.

**drapeau** *nm* bayroq; **le drapeau rouge** qizil bayroq; **drapeau tricolore** uch rangli Fransiya milliy bayrog'i; **drapeau de coin** *sport* uchburchak bayroq; **hisser le drapeau** bayroqni ko'tarmoq; **se rallier au drapeau** *fig* bayroq ostida turmoq; **être sous les drapeaux** majburiy harbiy xizmatda bo'lmoq; **être appelé sous les drapeaux** harbiy xizmatga chaqirilmoq; **se ranger sous les drapeaux de qqn** birov yoni, tomonini olmoq; *av* **mise en drapeau** samolyot qanotlarining harakati (*ko'tarilib-tushishi*).

**draper I.** *vt* **1.** pardalamoq, parda tutmoq, guldor mato qoqib bezatmoq; **2.** kiyim qati, taxi, burmasini ustma-ust qilib dazmollamoq; **3.** *fam* ustidan kulmoq, haqoratlamoq, so'kmoq; **II. se draper** *vpr* **1.** bezanib o'ranmoq, o'ralib olmoq; **2.** niqoblanmoq, o'zini ko'z-ko'z qilmoq, gerdaymoq, kekkaymoq.

**draperie** *nf* **1.** movut fabrikasi; **2.** movut bilan savdo qilish; **3.** pardalash.

**drapier, ière I.** *adj* **marchand drapier** movut sotuvchi; **II.** *n* movut ishlab chiqaruvchi; **3.** toy, tugun, buxcha ignasi.

**dressage** *nm* **1.** hayvonlarni o'rgatish; **2.** qurilma, o'rnatish, qurish, taxlash, to'g'rilash, tuzatish.

**dresser I.** *vt* **1.** qurmoq, bino barpo qilmoq, tiklamoq, ko'tarmoq, qo'ymoq, joylashtirmoq; **dresser la tête** boshini ko'tarmoq; **dresser le micro**



www.ziyouz.com kutubxonasi

mikrofonni joylashtirmoq; **dresser une machine** mashinani tuzatmoq; **dresser un piège** tuzoq qo'ymoq, qopqon qo'ymoq; **dresser un lit** to'shakni hozirlamoq, yozmoq; **dresser le camp** lager qurmoq; **dresser une tente** chodir qurmoq; **dresser la table** stolning ustiga ovqat, taomlar qo'ymoq, bezatmoq; **dresser l'oreille** qulog'ini ding qilmoq, hushyor tortmoq; **dresser ses batteries** chorasini ko'rmoq; **cela fait dresser les cheveux (sur la tête)** bundan sochlari tik turib ketdi; **2.** tuzmoq; **dresser un procès-verbal** bayonat yozmoq, tuzmoq; **dresser un programme** dastur tuzmoq; **dresser un contrat** shartnoma tuzmoq; **dresser un plan** rejalashtirmoq; **dresser un acte d'accusation** ayblov xulosasini yozmoq; **dresser le premier bilan** birinchi jamini yozmoq; **dresser une fiche** katakchani to'ldirmoq; **3.** hayvonlarni o'rgatmoq; **4. (contre)** qarshi qo'ymoq, gij-gijlamoq; **5.** yo'nmoq, tekislamoq; **II. se dresser** *vpr* **1.** turmoq, ko'tarilmoq, tiklanmoq; **se dresser sur la pointe de pieds** oyoq uchlariga ko'tarilib tik turmoq; **se dresser sur ses ergots** chiranmoq, o'zini botir qilib ko'rsatmoq; **2.** baland ko'tarilib, yuksalib turmoq; **3.** orqa oyoqlarida tik turmoq (*ot haqida*); **4. (contre)** bosh ko'tarmoq, qo'zg'almoq, qo'zg'olon qilmoq, ko'tarilmoq, qarshi chiqmoq.

**dresseur, euse** *n* yovvoyi hayvonlarni o'rgatuvchi.

**dressoir** *nm* **1.** idish-tovoq qo'yiladigan javon; servant; **2.** *techn* boshqariladigan mashina.

**dreyfusard, arde** *n* dreyfus tarafdori.

**dribbler** *vt anglic sport* to'pni, shaybani olib chopmoq; raqibni quvib o'tmoq.

**drive** *nm anglic* sportda, tennisda qattiq urish.

**drogue** *nf* **1.** dorivor modda; dori-darmon; **2.** narkotik modda; **drogue blanche** kokain.

**droguer I.** *vt* keragidan ortiq dori ichirmoq; uyqu dori ichirmoq; **II. se droguer** *vpr* ko'p dori ichmoq; narkotik modda ichmoq, qabul qilmoq.

**droguiste** *nm* bo'yoqchilik, dorixona mollari sotuvchisi.

**droit[1]** *nm* **1.** huquq; **droits civils** fuqarolik huquqi; **droit au repos** dam olish; **droit de chasse** ov qilish huquqi; **droit de pâturage** o'tlatish, boqish huquqi; *hist* **Déclaration des droits de l'Homme et du Citoyen** Fuqaro va Inson huquqlari deklarasiyasi; **le bon droit** haqqoniy ish, to'liq bahssiz huquq; **le droit est de son côté** huquq u tomonda, u haq; **le droit du plus fort** zo'ravonlik huquqi; **user de son droit** o'z huquqidan foydalanmoq; **avoir le droit de** biron narsa qilishga haqli bo'lmoq; **faire droit à** shikoyatni qarab chiqmoq, qanoatlantirmoq; **faire droit une demande** talabni qanoatlantirmoq; **jouissant de la plénitude des droits** to'la huquqli; **égal en droit** teng huquqli; **cela va de droit** bu haqqoniy; **de quel droit?** qaysi asosda? **en toute égalité de droits, à bon droit** *loc adv* to'la huquq bilan, qonuniy, qonun bo'yicha, qonuniy asosda; **à tort et à droit** farqiga bormay; **2.** qonuniyat (*qonunlar majmuasi*); **droit privé** xususiy huquq; **droit personnel** majburiy huquq; **crime de droit commun** qattiq jinoyat; **régime de droit commun** qattiq jinoyatchilar birga o'tirmoq; **3.** huquq fani, huquqshunoslik; **faculté de droit** huquqshunoslik fakulteti; **étudiant en droit** huquqshunoslik fakulteti talabasi; **faire son droit** huquqshunoslik fakultetida o'qimoq; **4.** boj, soliq, yig'im, to'lov; **droits légaux** sud xarajatlarini to'lash; **droits afférents** bojxona boji; **droit prohibitifs** taqiqlovchi (*juda yuqori*) boshlar; **droits d'entrée** chetdan keltirilgan moldan olinadigan boj; **droits de douane** bojxona boji; **droit protecteurs** homiylik boji; **droit de timbre** marka solig'i, davlat yig'imi; **droit d'ancre** langar yig'imi; **droit des pauvres** muhtojlarga berish yig'imi (*chiptalardan*); **droit de dépôt** saqlash uchun to'lash, to'lov; **5.** haq, to'lov, qalam haqi; **droits d'auteurs** muallif qalam haqi.

**droit[2], droite I.** *adj* **1.** to'g'ri, to'ppa-to'g'ri; **angle droit** to'g'ri burchak; **engrenage droit** to'g'ri tishli g'ildirak; **veston droit** bir yoqlama tugmali pidjak; **il est droit comme un jonc (comme un cierge, comme en i)** u o'roqday to'g'ri, xoda yutganday tik; **2.** tik, tik ko'tarilgan; **mur droit** tik devor; **falaise droite** tik tushgan qoya; **II.** *nf géom.* tog'ri chiziq; **droites convergentes, concourante** mos to'g'ri chiziqlar; **III.** *adv* to'ppa-to'fg'ri, to'g'ri; **aller droit au but** maqsadga to'ppa-to'g'ri bormoq; **aller droit au fait** to'g'ridan-to'g'ri ishga kirishmoq.

**droit[3], droite I.** *adj* **1.** o'ng, o'ng tomondagi; **la main droite** o'ng qo'l; **être le bras droit de qqn** birovning o'ng qo'li bo'lmoq; **2.** haqiqatgo'y, rostgo'y, to'g'ri so'z, haqgo'y, to'g'ri, halol, pok, vijdonli, sofdil, ochiq, dangal, beg'araz, dangalchi, oshkora, ro'yirost; **suivre le droit chemin** haqgo'y yo'ldan yurmoq; **esprit droit** sog'lom aql; **cœur droit** ochiq dil; **II.** *nf* **1.** o'ng tomon; **sur la droite** o'ng tomonda, o'ng tomonga; **prenez sur la droite** o'n tomonga bo'lining; **à droite** *loc adv* o'ngga, o'ng tomonga; **2.** o'ng qo'l; **3.** o'ng qanot, o'ng tomon; **4.** *polit* o'ng partiyalar; **III.** *nm* o'ng qo'l bilan, o'ng tomondan urish (*boksda*).

**droitier, ière I.** *n* o'ng qo'lli odam, o'ng qo'l; **II.** *nm fam* parlamentning o'ng qanot a'zosi; **III.** *adj techn* o'ngga aylanuvchan, aylanadigan.

**droiture** *nf* **1.** to'g'rilik, rostlik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik, dangallik, vijdonlilik, insoflilik, nomuslilik, andishalilik, halollik, poklik; **2.** haqqoniyat, haqlik, haqqoniylik, to'g'rilik, haq, haqli, haqqoniy ekanlik.

**drolatique** *adj* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat, kuldiradigan, sho'x, to'polonchi, shumtaka.

**drôle I.** *adj* kulgili, kuldiradigan, kulgi qistatadigan, qiziq, g'alati, kelishmagan, ajib, alomat, ajoyib, taajjub, g'ayrioddiy, hech ko'rilmagan, birinchi marta ko'rilgan; **drôle de bonhomme** g'alati, tentaksimon odam, qiziq tabiatli kishi; **drôle d'idée** g'alati, ahmoqona, aqlga sig'maydigan fikr; **ce n'est pas toujours drôle de** hamma vaqt ham quvonchli bo'lavermaydi; yoqimli; **ce n'est pas drôle** bu butunlay kuchli emas, mana zerikish! **II.** *nm* **1.** razil, qabih, yaramas, past odam, ablah, nobakor; firibgar, dog'uli, ayyor, shum, mutahham, aldoqchi, bekorchi, bekorchixo'ja, yalqov, tanbal, ishyoqmas; takasaltang, havoyi, sayoq; to'polonchi, o'ta sho'x, shum, zumrasha; **2.** hazilkash, qiziqchi, masxaraboz; g'alati, tentaksimon odam, qiziq tabiatli kishi; **3.** nimadir kulgili, kulishlilik.

**drôlement** *adv* **1.** qiziq, kulgili, maroqli qilib, kuldirib, g'alati, ajoyib; **2.** *fam* kuch bilan, qattiq, kuchli, zo'r, juda, juda ham; rosa, yaxshigina.

**drôlerie** *nf* **1.** juda kulgili, ichak uzadigan, nihoyatda qiziq, hazil, kulgili voqea; **2.** tentaklik, jinnilik, g'alatilik, qiziqlik, sho'xlik, hazilkashlik, hazil-huzul.

**drôlesse** *nf vieilli* buzuq ayol, yaramas ayol, ablah.

**drôlet, ette** *adj fam* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat.

**dromadaire** *nm* bir o'rkachli tuya, lo'k, nortuya.

**dru, drue I.** *adj* **1.** qalin, zich, tig'iz, quyuq, to'q, tez-tez takrorlanib turadigan; **blés drus** qalin bug'doy; **une pluie drue et menue** tez va maydalab yog'ayotgan yomg'ir; **2.** qattiq, zo'r, kuchli, mahkam, mustahkam, pishiq, puxta, qalin, chidamli, baquvvat, sog'lom, sog' **3.** uyat (*gap*), so'kinish, achchiq (*so'z haqida*); **4.** shod, xursand, vaqti, kayfi, dimog'i chog'; quvnoq, xushchaqchaq, ochiq, dovyurak, qo'rqmas, shijoatli, o'ktam, mardonavor, mardona; **II.** *adv* qalin, zich, tig'iz, quyuq, to'q bo'lob; **semer dru** tez-tez ekmoq, tig'iz sepmoq; **tomber dru** do'l bo'lib yog'moq, quyilmoq; **il pleuvait dru** kuchli yomg'ir yog'ayotibdi.

**drugstore** *nm anglic* **1.** turli-tuman mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'kon (*Shimoliy Amerikada*); bar, kafe, restoran, turli magazinlari, tomosha zallari bo'lgan umumiy majmua (*Fransiyada*).

**druide** *nm* keltlar kohini.

**druidique** *adv* kohinga oid, kohin.

**dry** *adj anglic* quruq (*shampan vinosi*).

**du I.** *prép et art déf* **(de l', de la, de mon) le livre de mon père** otamning kitobi; **II.** *art partitif* **manger du fromage et boire du vin** pishloq yemoq va vino ichmoq.

**dû, due I.** *adj* tegishli, kerakli, lozim, kerak, tegishli bo'lgan; **dû à** yuzaga kelgan, natijasida paydo bo'lgan; **dû par** tegishli bo'lgan, aloqador bo'lgan; **en bonne et due forme** to'g'ri va lozim bo'lgan tarzda; **II.** *nm* **1.** burch, vazifa, mos, munosib bo'lgan, keragi, lozimi; **réclame son dû** keragini talab qilmoq; **donner à qqn son dû** tegishlicha baho bermoq, munosib ravishda baholamoq, taqdirlamoq; **2.** majburiy to'lov.

**dualisme** *nm philos* dunyoning negizi materiya va ruh deb biluvchi idealistik ta'limot.

**dualité** *nf* ikki taraflamalik, ikki yuzlamalik, munofiqlik, ikkilanish; **dualité du pouvoir** qo'sh hokimiyat.

**dubitatif, ive** *adj* shubha bildiruvchi, shubhalanadigan, gumonsiragan.

**duc** *nm* **1.** gersog; **2.** ukki; **moyen duc** boyqush.

**ducal, ale** gersogga oid, gersog.

**duché** *nm* gersoglik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**duchesse** *nf* **1.** gersog xotini; **2.** balandparvoz ayol; **3.** nok turi, navi.

**ductile** *adj* cho'ziluvchan, zerikarli, bir xil o'tadigan; **caractère ductile** zerikarli tabiat, fe'l bog'lanuvchan.

**duègne** *nf* oqsoch xotin, yosh xotin-qizlar nazoratchisi.

**duel[1]** *nm* yakkama-yakka olishuv (*kurash, jang*).

**duel[2]** *nm gram* ikkilik.

**duelliste** *nm* yakkama-yakka olishuvchi, jang qiluvchi.

**duettiste** *nm* duet qatnashchisidan biri.

**duffel-coat** *nm anglic* kalta qalpoqli palto.

**dulcinée** *nf* sevgili, ma'shuqa, mahbuba yor.

**dûment** *adv* tegishli ravishda, tegishlicha.

**dune** *nf* qum tepalar, shamol uchirib yuboradigan qum uyumlari.

**dunette** *nf* yarim yut, kemaning quyruq qismi.

**duo** *nm* duet (*aytishuv asari*); *fam* **duo d'injures** o'zaro aytishib qolish, dahanaki jang, so'kinish.

**duodénal, ale** *anat* o'n ikki barmoqli ichak.

**duodénal, ale** *nf* o'n ikki barmoqli ichakning yallig'lanishi.

**duodénum** *nm* o'n ikki barmoqli ichak.

**dupe** *nf* hiyla-nayrang qurboni; aldangan, ahmoq qilingan, befahm, anqov, laqma odam; **faire des dupes** aldamoq, yolg'on gapirmoq, firib bermoq, pand bermoq, ahmoq qilmoq, laqillatmoq; **être la dupe de** aldanmoq, birovning domi, tuzog'iga tushmoq, ilinmoq.

**duper** *vt* aldamoq, chalg'itmoq, yolg'on gapirmoq, firib, pand bermoq, tovlamoq, tuzlamoq, aldab ketmoq; ahmoq qilmoq, laqillatmoq.

**duperie** *nf* aldamchilik, firibgarlik, tovlamachilik, aldash, pand, firib berish, aldov.

**duplex** *nm* ikki qavatda joylashgan, ichki zinapoyasi bo'lgan xonadon.

**duplicata** *nm inv* asli bilan teng huquqli hujjat, hujjatning ikkinchi nusxasi.

**duplicateur** *nm* nusxa ko'chiruvchi asbob (*mashina*).

**duplication** *nf* ikkilantirish, ikkita qilish.

**duplicité** *nf* ikki taraflamalik, ikki yuzlamalik, munofiqlik, ikkilanish, riyokorlik, xoinlik, sotqinlik.

**dur, dure I.** *adj* **1.** qattiq, zarang, berch; **œuf dur** qattiq pishirilgan tuxum; **eau dure** qattiq suv; **tête dur** o'jar, qaysar, sarkash odam; **il est dur d'oreille** uning qulog'i og'ir; **dur à la détente (à la desserre)** pul to'lashga xasis, o'jar, qaysar, ters, gapga ko'nmaydigan; **2. pain dur** qattiq non; **3.** qattiq qo'l, qahri qattiq, berahm, shavqatsiz, dag'al, qo'pol, keskin, bag'ri tosh, toshbag'ir, qo'rs, sovuq; **paroles dures** shavqatsiz so'z, gaplar; **être dur à émouvoir** hissiz, tuyg'usiz bo'lmoq; **4.** og'ir, jiddiy, qiyin, mashaqqatli, mushkul; **une vie dure** barham hayot; **une dure nécessité** jiddiy zarurat; **des temps durs** og'ir damlar; **5.** qo'pol, qo'rs, dag'al, to'ng, xunuk, keskin, o'tkir, qattiq; **traits durs** yuz tuzilishi qo'pol; **6.** chidamli, to'zimli, bardoshli, toqatli, pishiq, puxta, turg'un; **être dur à la fatigue** chidamli bo'lmoq; **II.** *adv* mahkam, qattiq, g'oyat, kuchli, nihoyatda; **travailler dur** qattiq ishlamoq; **III.** *n* **1.** qaysar, o'jar, tirishqoq odam; **c'est un dur à cuire** *fam* u muomalasi og'ir odam, lapashang, ishyoqmas, tepsa tebranmas; **2.** *nf* **coucher sur la dure** yalang yerda yotib uxlamoq; **en dire des dures** achchiq ta'na qilmoq; **nous en verrons de dures** bizga juda og'ir bo'ladi; **à la dure** *loc adv* talabchanlik bilan, qat'iyan, qattiq, shavqatsiz ravishda, keskin; .

**durable** *adj* uzoq vaqt davom etadigan, uzoq cho'ziladigan, davomli, uzoq, uzoq vaqtga mo'ljallangan, mustahkam, uzoq muddatli, chidamli, pishiq, mahkam, uzoq yashovchi.

**durablement** *adv* mustahkam, chidamli, pishiq, asosli, puxta, ishonchli.

**duralumin** *nm* aluminiy qotishmasi.

**durant** *prép* davomida, ichida, oralig'ida, mobaynida; **une heure durant** bir soat davomida, butun bir soat; **rester durant trois jours** uch kun bo'lmoq, uch kun maboynida bo'lmoq; **il peina durant toute sa vie** u butun umrida, hayotida qattiq mehnat qilib keldi; **sa vie durant** bir umr, butun umri mobaynida.

**durcir I.** *vt* **1.** qattiq, zarang qilmoq, qotirmoq; **2.** bag'ritosh, beshavqat, rahmsiz qilib yubormoq; **II.** *vi* qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq; **III. se durcir** *vpr* qotmoq, qotib qolmoq.

**durcissement** *nm* qotish, qotib qolish, zarang bo'lib qolish; **durcissement du mortier** (*qurilishda*) semon qorishmaning qotib qolishi; **durcissement de la politique** qattiqroq siyosat yurgizish.

**durée** *nf* davom etish, cho'zilish muddati, uzunlik, uzoqlik, vaqt, payt, zamon; **durée limite** oxirgi, eng so'nggi muddat; **l'espace et la durée** makon va zamon; **durée d'exposition** (*rasmda*) ushlab, cho'zib turish; **de peu de durée, de courte durée** qisqa muddatli; **de longue durée** uzoq muddatli, davomli.

**durement** *adv* qattiq, shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona, qattiqqo'llik bilan, keskin, g'azab bilan.

**durer** *vi* **1.** cho'zilmoq, davom etmoq; uzaymoq; **le temps lui dure** unga vaqt sekin o'tayotganday tuyuldi; **faire durer le plaisir** kayf-safoni uzaytirmoq, cho'zmoq; **2.** saqlanmoq, o'zgarmay aslicha turmoq; **ce vin ne dure pas** bu vino uzoq saqlanmaydi; **ces fleurs dureront longtemps** bu gullar uzoq saqlanadi; **faire feu qui dure** kuchini, mablag'ini ayamoq, achinmoq; **3.** uzoq turmoq, turib qolmoq.

**dureté** *nf* **1.** qattiqlik, mustahkamlik; **2.** qahri qattlqlik, berahmlik, shafqatsizlik, badjahllik, qattiqqo'llik, qo'pollik, dag'allik.

**durillon** *nm* qavariq, qadoq, ich qotish.

**durit** *nf techn* rezina shlang (*quvur*).

**duvet** *nm* **1.** par, pat, momiq, tivit, mo'y, tuk; **2.** par to'shak, uxlaydigan qop (*to'shak*); **3.** tuk, tivit.

**duveté, ée** *ou* **duveteux, euse** *adj* **1.** parli, patli, par, pat qoplagan, tukli; **2.** tuk, tivit, mo'y bilan.

**duveter (se)** *vpr* par, pat bilan qoplanmoq.

**duveteux, euse** *adj voir* **duveté, ée**.

**dynamique I.** *adj* dinamikaga oid, dinamika; jo'shqin, sho'x, serg'ayrat, g'ayratli, serharakat, faol, keskin, qat'iy, qizg'in; **II.** *nf* dinamika, fizikaning kuchlar harakati haqidagi bo'limi; o'zgarish, o'sish, rivojlanish; jo'shqinlik, sho'xlik, o'zgarishga boylik.

**dynamisme** *nm* **1.** *philos* harakat, o'zgarishlarga boylik, jo'shqinlik, sho'xlik, qat'iylik, g'ayratlilik, serharakatlik, faollik, keskinlik.

**dynamitage** *nm* dinamit bilan portlatish.

**dynamite** *nf* portlovchi, portlatgich modda.

**dynamiter** *vt* portlovchi modda yordamida portlatmoq.

**dynamiteur, euse** *n* **1.** dinamit ishlab chiqaruvchi fabrika ishchisi; **2.** dinamit bilan portlatuvchi.

**dynamo** *nf* dinamo-mashina, o'zgarmas tok generatori.

**dynamomètre** *nm* erkak kuchini o'lchagich asbob.

**dynastie** *nf* sulola, avlod, dinastiya.

**dynastique** *adj* sulolaga oid, avlodlar.

**dyne** *nf phys* kuch birligi.

**dysenterie** *nf* ichburug'.

**dyspepsie** *nf méd* me'da va ichaklarda ovqatning hazm bo'lmasligi, singmasligi kasalligi.

# E

**E, e** fransuz alifbosining beshinchi harfi.

**eau** *nf* **1.** suv; **eau douce** chuchuk suv; **eau salée** sho'r suv; **eau vive** oqar suv; **eau gazeuse** gazli suv; **eau de pluie** yomg'ir suvi; **eau de source** buloq, chashma suvi; **eau potable** ichimlik suvi; **eau bouillie** qaynatilgan suv; **eau bouillante** qaynoq, dog' suv; **eau minérale** ma'danli suv; **eau de mer** dengiz suvi; **eau de Cologne** odekolon, atir; **une voie d'eau** suv yo'li; **une chute d'eau** sharshara; **une conduite d'eau** vodoprovod; **un moulin à eau** suv tegirmon; **2.** yomg'ir; **le temps est à l'eau** yomg'irli ob-havo; **3.** *pl* suv havzalari (*daryolar, ko'llar, dengizlar*); **suivre le fil de l'eau** oqimga, sharoitga garab ish qilmoq; **4.** *pl* ma'danli suvlar, ma'danli suvlar bulog'i;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**eaux thermales** iliq shifobaxsh suvlar; **une ville d' eaux** kurort; **5.** *pl* favvoralar; **les grandes eaux** barcha favvoralarni birdaniga yurgizib yuborish (*park va shu kabilarda*); **6.** *physiol* suyuqlik, suyuq modda (*ter, ko'z yoshi, siydik, so'lak*); **avoir l'eau à la bouche** og'zidan suvi kelmoq; **7.** asllik, tozalik, soflik (*qimmatbaho toshlarning sifati haqida*).

**eau-de-vie** *nf* aroq.

**eau-forte** *nf* **1.** *chim* tozalanmagan azot kislotasi; **2.** ofort (*kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va bosilgan surat*).

**ébahi, ie** *adj* hayron, lol.

**ébahir I.** *vt* juda ham ajablantirmoq, hayratga solmoq, hayratda qoldirmoq, esankiratib, dovdiratib qo'ymoq; **II. s'ébahir de qqch** juda ham ajablanmoq, hayratga tushmoq; esankiramoq, dovdiramoq.

**ébahissement** *nm* hayron bo'lish; lol qolish, hayrat.

**ébarber** *vt* **1.** tekislamoq, silliqlamoq; tozalamoq (*metall yuzasi*); **2.** *agr* qiltanoqdan tozalamoq (*donli o'simliklarni*); **3.** kesmoq, qirqmoq, kesib, qirqib tenglashtirmoq (*muqovasozlikda*).

**ébats** *nm pl* o'ynoqilik, sho'xlik; chopqirlik, yuguriklik.

**ébattre (s')** *vpr* tinmay o'ynamoq, sho'hlik qilmoq; **les enfants s'ébattent sur la plage.** plajda bolalar tinmay o'ynashdi, sho'xlik qilishdi.

**ébauche** *nf* qoralama, eskiz; **une œuvre à l'état d'ébauche** qoralama holatdagi asar.

**ébaucher I.** *vt* qoralama qilmoq, yuzani chizib olmoq; **II. s'ébaucher** *vpr* boshlanmoq; shakl ola boshlamoq; **le rapprochement qui s'ébauche entre les deux parties** ikki tomon orasida boshlangan yaqinlik.

**ébauchoir** *nf* zubila, iskana (*duradgorlarda*); yogoch qalam (*haykaltaroshlarda*).

**ébène** *nf* obnus daraxti, qora daraxt; obnus daraxtining qora yog'ochligi; **d'ébène** obnus daraxtiga oid, obnusdan qilingan, obnus; **un coffret d'ébène** obnusdan qilingan quticha; **des cheveux d'ébène** qop-qora, timqora soch.

**ébéniste** *nm* qimmatbaho mebel ishlovchi usta.

**ébénisterie** *nf* **1.** qimmatbaho mebel ishlash kasbi, san'ati; **2.** qimmatbaho va nafis mebel ishlab chiqarish; **3.** qimmatbaho mebel ishlovchi ustaning ustaxonasi; **4.** yog'och quti (*radiopriyomnik, televizorda*).

**éberlué, ée** *adj fam* hayron, tang qolgan, hayratlangan, mahliyo; esankiragan, dovdiragan.

**éblouir** *vt* **1.** ko'zni qamashtirmoq, ko'zni olmoq; **les phares nous éblouissaient** faralari bizning ko'zimizni olardi; **la neige m'a ébloui** qor ko'zimni qamashtirib yubordi; **2.** *fig* hayratda qoldirmoq, hayron qoldirmoq; lol qoldirmoq; g'oyat zavqlantirmoq, maftun qilmoq, qoyil qoldirmoq.

**éblouissant, ante** *adj* ko'zni qamashtiradigan, ko'zni oladigan; *fig* hayratga soladigan; maftun qiladigan.

**éblouissement** *nm* **1.** ko'z qamashishi; vaqtinchalik ko'rmay qolish; **2.** *méd* hushidan ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik; **3.** *fig* zavq-shavq; tahsin, tasanno.

**ébonite** *nf* ebonit (*izolyatsion material*).

**éborgner I.** *vt* **1.** ko'zini o'yib olmoq; **2.** *agr* kurtakni uzib tashlamoq (*mevali daraxtda*); **II. s'éborgner** *vpr* o'z ko'zini o'ymoq; **j'ai failli m'éborgner** men bir ko'zimni o'yib olishimga sal qoldim.

**éboueur** *nm* axlat tozalovchi.

**ébouillanter I.** *vt* ustidan qaynoq suv quymoq; **ébouillanter des légumes** sabzavotlarni ustidan qaynoq suv quymoq; **II. s'ébouillanter** *vpr* qaynoq suvda kuyib qolmoq.

**éboulement** *nm* **1.** o'pirilish, qulash, yemirilish; siljish; **2.** uyum, to'da, to'p (*o'pirilgan jismlardan hosil bo'lgan*).

**ébouler I.** *vt* o'pirmoq, qulatmoq, buzmoq; **II. s'ébouler** *vpr* o'pirilmoq, qulamoq, yemirilmoq; siljimoq; **la falaise s'éboule** qoya yemirilmoqda.

**éboulis** *nm* o'pirilgan jismlar uyumi; **des éboulis de roches** qoyalarning sinib tushgan parchalari.

**ébouriffant, ante** *adj fam* hayratda qoldiradigan, hayajonlantiradigan, juda ajoyib, g'oyat zo'r; haddan tashqari; **un succès ébouriffant** g'oyat katta, zo'r muvaffaqiyat.

**ébouriffer** *vt* **1.** chigallashtirmoq, chuvalashtirmoq; to'zg'itmoq, titkilamoq; tutamlamoq, tutamlab paxmoq qilmoq; **le vent ébouriffait ses cheveux** shamol uning sochlarini to'zg'itadi; **2.** *fig* qattiq taajjublantirmoq, hayratga solmoq, keltirmoq; hang-mang qilib qo'ymoq; **cette nouvelle m'a ébouriffé** bu yangilik meni hang-mang qilib qo'ydi.

**ébrancher** *vt* butamoq (*daraxtni*), kesmoq (*shox-shabbalarni*).

**ébranchoir** *nm* tokqaychi, gulqaychi.

**ébranlement** *nm* **1.** titrash, larzaga kelish; tebranish; **2.** hayajon, iztirob; ruhiy larza, putur; **ébranlement nerveux** asabiy hayajon; **3.** *fig* larzaga keltirish, ag'dar-to'ntar qilish, tubdan o'zgartirib yuborish; **ébranlement d'un empire** imperiyani larzaga keltirish.

**ébranler I.** *vt* **1.** larzaga keltirmoq, titratmoq; tebratmoq; **le passage du camion a ébranlé les vitres** oynalar o'tayotgan mashina zarbidan titrab ketdilar; **2.** *fig* putur, zarar yetkazmoq, zil keltirmoq; buzmoq, tushirmoq; **cette maladie a ébranlé sa santé** bu kasallik uning sog'lig'iga zarar yetkazdi; **ébranler un régime** siyosiy tuzumga putur yetkazmoq; **3.** o'zgartirmoq; yo'qotmoq; **ébranler une conviction** ishonchini yo'qotmoq; **II. s'ébranler** *vpr* harakatga kelmoq, joyidan qo'zg'almoq; yo'lga chiqmoq (*ot, poyezd, mashina kabilar haqida*).

**ébrécher** *vt* **1.** o'tmas, arra qilib qo'ymoq, tig'ini, damini qaytarib qo'ymoq; uvalatib, kemtik qilib qo'ymoq, chetini uchirib qo'ymoq; **des assiettes ébréchées** kemtik, cheti uchgan likoplar; **ébrécher un couteau** pichoqni o'tmas qilib qo'ymoq; **2.** *fig* zarar, ziyon yetkazmoq, zarar keltirmoq, ziyon keltirmoq; buzmoq; tushirmoq; **ébrécher sa fortune** boylikni barbod qilish.

**ébriété** *nf* mastlik, sarxushlik, kayfi oshish; **en état d'ébriété** mast holatda, holda.

**ébrouer (s')** *vpr* **1.** pishqirmoq (*ot haqida*); **2.** suvni chayqatmoq, shapillatmoq, sachratmoq; tipirchilamoq, tipir-tipir, patir-putir qilmoq; **s'ébrouer sous la douche** dush ostida suvni shapillatmoq; **3.** *fig* silkinmoq, silkitib tashlamoq.

**ébruiter** *vt* hammaga ma'lum qilmoq, hammaga bildirmoq; oshkor qilmoq, aytib qo'ymoq; ovoza qilmoq; **ébruiter un secret** sirni aytib, oshkor qilib qo'ymoq.

**ébullition** *nf* **1.** qaynash; **un point d'ébullition** suvning qaynash darajasi; **2.** jo'sh urish, qizish; jo'sh urgan holat, hayajonlanish, to'lqinlanish; g'alayon, g'ulg'ula shov-shuv; **toute la ville est en ébullition** butun shahar oyoqqa turgan.

**écaille** *nf* **1.** tangacha (*baliq terisida*); **couvert d'écaille** tangachalar qoplangan, tangachali; **2.** zarra, bo'lak, parcha; **3.** toshbaqa kosasining yuza qatlamidagi modda; **4.** *bot* yupqa parda, qobiq, po'st (*piyoz, liliya kabilarda*).

**écailler I.** *vt* **1.** baliq tozalamoq; **2.** chig'anoq yormoq; **II. s'écailler** *vpr* **1.** archilmoq, po'st tashlamoq; **2.** bo'yog'i to'kilib tushmoq, eskirib ketmoq (*rasmlar, tasvirlar haqida*).

**écailler, ére** *n* tanovul qilinadigan chig'anoqlar bilan savdo qiluvchi.

**écailleux, euse** *adj* **1.** tangacha bilan qoplangan, tangachali; **2.** po'st tashlashga moyil, tez ko'chadigan.

**écale** *nf* po'choq, po'st; **écale de noix** yong'oq po'chog.

**écaler** *vt* chaqmoq, po'choqdan tozalamoq, archmoq.

**écarlate I.** *nf* **1.** to'q qizil, qip-qizil rang, tus; **2.** *vx* shu rangdagi mato, qizil mato; **II.** *adj* qip-qizil; to'q-qizil, qirmizi; **devenir écarlate** qizarib ketmoq; **à ces mots, il est devenu écarlate** bu gapdan u qizarib ketdi.

**écarquiller** *vt* baqrayib qaramoq, chaqchaymoq, ko'zlarini katta-katta ochmoq, ko'zini xonasidan chiqarmoq, ko'zni olaytirmoq; **des yeux écarquillés d'étonnement** hayratdan chaqchaygan ko'zlar.

**écart** *nm* **1.** ikki narsa orasidagi masofa, ora, oraliq; o'rta, o'rtalik; **l'écart entre les coureurs** chopuvchilar o'rtasida masofa; **à l' écart** chetga, chetda; **se tenir à l' écart** chetda turmoq; *sport* **un grand écart** shpagat (*gimnastikadagi figuralarning biri: oyoqlarni bir chiziq bo'ylab yirib o'tirish*); **2.** chetga chiqish; chalg'ish, qoidani buzish; **son cheval a fait un écart** uning oti o'z yo'lidan chetga chiqib ketdi; **3.** markazdan uzoqdagi kichik aholi yashash punkti; **4.** tafovut, farq; **l'écart entre les salaires et les prix** maosh bilan narx-navo o'rtasidagi farq; **5.** *ling* til normalaridan chetga chiqish, qoidalarga rioya qilmaslik.

**écarté, ée** *adj* chetdagi, uzoqdagi, alohida joylashgan, yolg'iz, yakka, tanho; bir-biridan uzoqda joylashgan, orasi ochiq, kerik; **une maison écartée** chetdagi uy.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**écarteler** *vt* **1.** to‘rt bo‘lib qatl qilmoq (*avval qo‘l-oyoqlarini va boshini tanadan judo qilmoq*); **2.** *fig* qiynamoq, azoblamoq, azob bermoq; **il est écartelé entre le devoir et l'amour** u burch va sevgi orasida azob chekmoqda.

**écartement** *nm* **1.** ikki tomonga surish, kerish; ikki tomonga surilish, kerilish; **l'écartement des jambes** oyoqlarni ikki tomonga kerish; **2.** oraliq masofa, ora, o‘rta, o‘rtalik.

**écarter I.** *vt* **1.** ikki tomonga surmoq, kermoq; **2.** uzoqlashtirmoq, chetlatmoq, ajratmoq; **il faut écarter la table du mur** stolni devordan uzoqlashtirmoq kerak; **écarter la foule** olomonni yorib kirmoq; **on l'a écarté de l'équipe** uni komandadan chetlatishdi; **écarter qqn de la direction d'une affaire** biror kimsani ish boshqarishdan chetlashtirmoq; **3.** *fig* yo‘ldan adashtirmoq, chalg‘itmoq; **4.** rad qilmoq, qaytarmoq, qabul qilmaslik; **écarter une proposition** taklifni rad qilmoq; **5.** qaytarmoq, daf qilmoq; **écarter une menace** xavfni daf qilmoq; **II. s'écarter** *vpr* **1.** (*har yoqqa*) ayrilmoq, ajralib ketmoq, tarqalmoq; ikki tomonga tislanmoq, tisarilmoq, tisarilib orani ochmoq; **ces lignes s'écartent** bu yo‘llar ayrilib ketadi; **2.** o‘rnidan siljimoq, nari turmoq, surilmoq; **s'écarter pour laisser passer** biror kimsani o‘tkazib yubormoq uchun surilmoq; **3.** uzoqlashmoq, nari ketmoq; **s'écarter de la côte** qirg‘oqdan uzoqlashmoq; **4.** *fig* chetga chiqmoq, chekinmoq, qaytmoq; chalg‘itmoq, uzoqlashmoq; **s'écarter de la tradition** an'anadan chekinmoq; **s'écarter du sujet** mavzudan uzoqlashmoq; **s'écarter des règles** qoidadan uzoqlashmoq.

**ecchymose** *nf* qontalashgan, momataloq bo‘lgan joy, qontalash, momataloq.

**ecclésiastique I.** *adj* ruhoniy, diniy, din, cherkov; **les autorités ecclésiastiques** cherkov ma'murlari; **milieux ecclésiastiques** cherkov jamoasi; **II.** *nm* ruhoniylarga mansub kishi, ruhoniy, pop.

**écervelé, ée I.** *adj* dovdir-sovdir, jinni-tantiq; yengiltak, havoyi, betayin; ovsar, kaltafahm, to‘pori; **II.** *n* jinni kishi; jinni ayol; ovsar, kaltafahm odam.

**échafaud** *nm* **1.** eshafot, jallod kundasi bosh chopiladigan kunda; maxsus taxtasupa; **monter sur l'échafaud** qatl qilinmoq; **2.** boshini tanidan judo qilish bilan amalga oshiriladigan o‘lim jazosi.

**échafaudage** *nm* **1.** havoza; **dresser un échafaudage** havoza qurmoq; **2.** taxlam, uyum, to‘p, to‘da; **un échafaudage de livres** kitoblar uyumi; **un échafaudage de raisonnements** dalil, vajni to‘ldirib yuborish.

**échalas** *nm* **1.** tirkagich, tirgovich, tirgak, ayri (*tok, qovoq kabi chirmashuvchi o‘simliklarni ko‘tarish uchun*); **2.** *fam* novcha, daroz odam.

**échalote** *nf* sarimsoq piyozning bir turi.

**échancré, ée** *adj* yarim doira shaklida kesib, qirqib olingan (*kiyimda*); o‘yilgan; **corsage échancré** chuqur kesib olingan ko‘ylak.

**échancrer** *vt* yarim doira shaklida kesib, qirqib olmoq; kesib tashlamoq.

**échancrure** *nf* o‘yilgan, kesib olingan joy; o‘yiq (*kiyimda*).

**échange** *nm* **1.** alishish, almashish, almashtirish, ayirbosh, mavza qilish, ayirboshlash; **discuter d'un échange de prisonniers** asirlarmi almashtirish haqida fikrlashmoq; **la valeur d'échange** almashuv, ayirboshlash qiymati; **faire un échange** almashmoq, ayirboshlamoq; **les échanges culturels** madaniy aloqalar; *biol* **les échanges nutritifs** modda almashinuvi; *loc adv* **en échange de**; evaziga, o‘rniga, badaliga; **2.** *écon* tovar ayirbosh qilish, mol almashish; savdo, savdo-sotiq; savdo aloqalari; **le volume des échanges** tovar ayirboshlash hajmi.

**échanger** *vt* **1.** almashtirmoq, ayirbosh qilmoq; alishmoq, mavoza qilmoq; **échanger qqch contre (ou pour) qqch** biror narsani boshqa narsaga alishmoq; **échanger une marchandise contre une autre** bir tovarni boshqasiga ayirbosh qilmoq; **2.** alishmoq, alishtirmoq, ayirboshlamoq; alishib, ayirboshlab, alishtirib olmoq; **échanger des lettres** xat yozishib turmoq; **échanger des cadeaux** bir-biriga sovg‘alar jo‘natmoq; **échanger une poignée de mains** qo‘l berishib so‘rashmoq; **échanger des coups** mushtlashmoq; **3.** *fig* almashinmoq, o‘rtoqlashmoq, bir-biriga javoban harakat qilmoq; **échanger des idées** fikr almashinmoq, fikrlashmoq; maydalamoq.

**échangeur** *nm* **1.** turli darajadagi yo‘llarning kesishuvi, kesishgan yo‘l ustidan o‘tadigan ikkinchi yo‘l, kichik yo‘l, chorraha; **2.** issiqlikni almashtirib beruvchi qurilma.

**échanson** *nm* **1.** saroyda soqiylik qiluvchi kishi; **2.** soqiy, kosagul.

**échantillon** *nm* **1.** namuna, nusxa; **montrer des échantillons de tissus** gazlamalarning nusxalarini ko‘rsatmoq; **des échantillons de minerais** ma'danlardan namunalar; **2.** (analiz uchun olingan) namuna (*oltin, kumush*); **3.** *fig* namuna, timsol.

**échantillonnage** *nm* **1.** namunalar yig‘ish, tanlash; **2.** namunalar to‘plami, komplekti.

**échantillonner** *vt* **1.** namunalar yig‘moq, tanlamoq; **2.** namuna olmoq (*analiz uchun*); **3.** so‘rov o‘tkazish uchun vakillar tanlamoq (*ma'lumot to‘plash, fikr to‘plash maqsadida*).

**échappatoire** *nf* hiyla, nayrang; gapni aylantirish, chalg‘itish; **trouver une échappatoire pour ne pas répondre** javob bermaslik uchun gapni chalg‘itmoq.

**échappée** *nf* **1.** *sport* uzoqlashish; o‘zib ketish, orqada qoldirib ketish; oraliqdagi masofani uzoqlashtirish (*velosportda*); **2.** *litt* yashirincha qochish, qochib ketish (*qisqa muddatga*); **3.** ko‘rish yoki o‘tish uchun qoldirilgan tor joy; **échappée sur la mer** dengizga o‘tish uchun yo‘lak; *archit* zina marsilari orasidagi masofa, joy; **4.** *litt* qisqa muddat, lahza, on, fursat; **une échappée de beau temps** havoning vaqtinchalik ochilishi.

**échappement** *nm* **1.** *techn* tashqariga chiqish; chiqarish, chiqish (*ishlangan gazlar haqida*); **échappement de la vapeur** bug‘ni chiqarib yuborish; **2.** ankerli mexanizm (*soatlarda*).

**échapper I.** *vi* **1.** qochmoq, qochib qutulmoq; chap bermoq, chap berib omon qolmoq, xalos bo‘lmoq; o‘zini chetga olmoq, o‘zini olib qochmoq; **échapper à qqch, à qqn** biror kimsa, narsadan qochib qutulmoq, xalos bo‘lmoq; **on a échappé au danger** xavf-xatardan qutuldilar; **échapper au naufrage** kema halokatida omon qolmoq; **2.** sirg‘alib chiqib ketmoq, tushib ketmoq; **le verre m'a échappé des mains** stakan qo‘limdan sirg‘alib tushib ketdi; **3.** esdan chiqmoq, eslay olmaslik; esdan ko‘tarilmoq; **son nom m'échappe** uning ismi esimdan chiqibdi; **4.** beixtiyor aytilmoq yoki bajarilmoq; **cette parole m'a échappée** bu so‘z beixtiyor og‘zimdan chiqib ketdi; **II.** *vt* o‘zini chetga olmoq, o‘zini olib qochmoq, chap bermoq; **l'échapper belle** osongina xalos bo‘lmoq; **III. s'échapper** *vpr* **1.** qochmoq, chiqmoq, qochib ketmoq, chiqib ketmoq, uchib ketmoq; **le prisonnier s'est échappé** mahbus qochib ketdi, **le lion s'est échappé de sa cage** arslon qafasdan qochdi; **2.** oshmoq, oqib ketmoq; chiqmoq; toshib ketmoq, toshmoq (*ega predmetni ifodalaydi*); **la vapeur s'échappe de la chaudière** qozondan bug‘ chiqyapti; **le lait s'est échappé de la casserole** sut toshib ketdi; **3.** *sport* uzoqlashmoq, ancha o‘tib, o‘zib ketmoq, orqada qoldirib ketmoq.

**écharde** *nf* zirapcha, tikon.

**écharpe** *nf* **1.** nishon, belgi (*yelka orqali yoki belga bog‘lanadigan mansabni bildiradigan lenta*); **écharpe tricolore du maire** mer mansabini ko‘rsatuvchi uch, xil rangli nishon, tasma; **2.** sharf, bo‘yinbog‘; **il fait froid, mets une écharpe autour du cou** tashqari sovuq, bo‘yninga sharf o‘rab ol; *loc adv* **en écharpe** osib qo‘yilgan (*bo‘yinga*); yondan, yon tomondan; qiyalab, qiyasiga, burchakma-burchak; **bras en écharpe** bo‘yinga osib qo‘yilgan, mayib qo‘l.

**écharper** *vt* **1.** parchalab, majaqlab, mayda-mayda qilib tashlamoq; **2.** qattiq yarador qilmoq, jarohatlamoq.

**échasse** *nf* yog‘ochoyoq; **marcher avec des échasses** yogochoyoqda yurmoq.

**échauder** *vt* **1.** ustidan qaynoq suv quymoq, qaynoq suvga botirib olmoq, qaynoq suvda yuvmoq; **2.** kuydirib olmoq; *prov* **chat échaudé craint l'eau froide** og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi; **3.** *fig fam* qilmishiga yarasha jazolanmoq, o‘z harakatining azobini chekmoq, jazosini tortmoq; **j'ai déjà été échaudé une fois** men bir marta jazomni tortdim.

**échauffement** *nm* **1.** isitish, ilitish, qizdirish; **dans l'échauffement de la discussion** bahs qizigan paytda; **2.** isish, ilish, isinish; **l'échauffement du sol** yerning ilishi; **3.** qizib ketish, bo‘rsish, dimiqish, chirish, irish; **4.** tanani qizdirib olish uchun mashqlar qilish, qizish.

**échauffer I.** *vt* **1.** isitmoq, ilitmoq, qizdirmoq; **2.** qo‘zg‘atmoq, tutoqtirmoq, qonini qaynatmoq; **II. s'échauffer** *vpr* **1.** jahli chiqmoq, tutaqmoq, qoni qaynamoq; qizimoq, jonlanmoq, hayajonga kelmoq; **2.** ilimoq, isimoq,



www.ziyouz.com kutubxonasi

qizimoq; tanasini qizdirmoq, badaniga issiq yugurtirmoq (*harakat bilan*), tanani qizdirib olish uchun mashqlar qilmoq.

**échauffourée** *nf* qisqa jang; mushtlashish, yoqalashish, urishish.

**échauguette** *nf* qal'a devorlaridagi nazorat minorasi.

**èche** *nf voir* **esche**.

**échéance** *nf* **1.** to'lov muddati; **respecter ses échéances** o'z vaqtida to'lamoq; **2.** qarz, nasiya; **payer ses échéances** qarzini to'lamoq; **3.** muddat; **à courte, à longue échéance** qisqa, uzoq muddatli, qisqa, uzoq muddatga mo'ljallangan.

**échéant** *loc adv* **le cas échéant** kezi kelganda, agar taqdir bo'lsa, iloji, imkoni bo'lsa.

**échec** *nm* **1.** muvaffaqiyatsizlik, mag'lubiyat, barbod bo'lish; **l'échec à un examen** imtihonda muvaffaqiyatsizlik; **échec des troupes ennemies** dushman armiyasining mag'lubiyati; **subir, essuyer un échec** muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, mag'lubiyatga uchramoq; **2.** kisht, shoh (*shahmatda biror figura yoki dona bilan raqibning shoxiga hujum qilishni ifodalovchi so'z*); **faire échec** shox bermoq, kisht bermoq; **faire échec et mat** shox va mot demoq; **3.** *pl* shahmat; **jouer aux échecs** shahmat o'ynamoq; **Ễtre fort aux échecs** shahmatni yaxshi o'ynamoq; **un joueur d'échecs** shahmatchi.

**échelle** *nf* n **1.** narvon, shoti; **une échelle de corde** arqondan yasalgan narvon; **faire la courte échelle à qqn** biror kimsani yuqoriga ko'tarilishi uchun yelkasini tutmoq; **2.** *fig* ierarxiya bosqichlari, ierarxiya; pog'ona, daraja; tabaqa; **l'échelle sociale** ijtimoiy tabaqa; **3.** shkala, daraja; **échelle centesimale** yuz gradusli shkala; **4.** masshtab; **l'échelle d'un plan, d'une carte** plan, xaritaning masshtabi; **à l' échelle de 1/100. 000** bir yuz mingga teng masshtabda; **une carte à grande, à petite échelle** katta, kichik masshtabdagi xarita; **5.** *fig* miqyos, ko'lam; daraja; **à l'échelle mondiale** dunyo miqyosida; **sur une grande échelle** keng ko'lamda.

**échelon** *nm* **1.** zina, pog'ona; **2.** pog'ona, bosqich; daraja; **être au premier échelon** xizmat pog'onasining quyi bosqichida turmoq, xizmat sohasiga kirishmoq; **monter d'un échelon** xizmat sohasida bir pog'ona ko'tarilmoq; **3.** daraja, miqyos, bosqich; **à l'échelon gouvernemental** hukumat miqyosida; **4.** *mil* eshelon (*birin-ketin joylashgan qo'shinlar sarasi*).

**échelonnement** *nm* **1.** *mil* eshelonlash, eshelonlarga bo'lish, eshelon-eshelon qilib (*birin-ketin*) joylashtirish; **un échelonnement de troupe** qisimlarni eshelonlarga bo'lish; **2.** joylashtirish, joylash, o'rnashtirish; joylashish, joylashuv, o'rnashish.

**échelonner I.** *vt* **1.** *mil* eshelonlamoq, eshelonlarga ajiratmoq; eshelon-eshelon qilib (birin-ketin) joylashtirish; **2.** joylashtirmoq, joylamoq, o'rnashtirmoq; **échelonner des policiers le long d'une rue** politsiyachilarni ko'cha bo'ylab joylashtirmoq; **3.** taqsimlamoq, taqsim qilmoq, bo'lmoq, bo'lib chiqmoq; navbat, tartib o'rnatmoq; bajarishni, yoki to'lovni bir necha muddatlarga bo'lmoq (*zamonda*); **échelonner des versements sur 6 mois** bo'lib-bo'lib to'lash uchun 6 oy muddat bermoq; **échelonner les départs en vacances** ta'tilga chiqish tartibi, navbatini o'rnatmoq; **II. s'échelonner** *vpr* **1.** *mil* eshelonlarga bo'linmoq; birin-ketin joylashmoq; **2.** joylashmoq, o'rnashmoq (*makonda*); **les maisons s'échelonnent sur la colline** uylar tepalik yon bag'ri bo'ylab past-baland joylashgan (*zinapoya shaklida*); **les village s'échelonnent le long de la route** qishloqlar yo'l bo'ylab cho'zilib ketgan; **3.** taqsimlanmoq, bo'linmoq (*zamonda*).

**écheniller** *vt* kapalak qurtidan tozalamoq (*daraxt, o'simlik*).

**écheveau** *nm* **1.** kalava, ip bog'lami; **un écheveau de laine** bir kalava jun ip, jun ip o'rami; **2.** *fig* chigil; chigallik, chalkashlik.

**échevelé, ée** *adj* **1.** sochlari hurpaygan, to'zigan, to'zg'igan, paxmaygan; **une femme échevelée** sochlari to'zg'igan ayol; **2.** tartibsiz, jazava, g'azab, hayajondan o'zini bilmaydigan, to'xtatib bo'lmaydigan, tiyiqsiz, bebosh, tiyib bo'lmaydigan; **une danse échevelée** jazavali raqs.

**écheveler** *vt* sochlarini to'zgitmoq, hurpaytirmoq.

**échevin** *nm* **1.** munitsipialitet miqyosidagi mansabdor, davlat xizmatchisi (*revolutsiyagacha*); **2.** burgamister muovini (*burgamister; Belgiya va Boltiq bo'yi mamlakatlarida XVIII-XIX asrlarda shahar hokimi*).

**échine** *nf* umurtqa pog'onasi, bel; **se rompre l'échine** umurtqa pog'onasini sindirib olmoq; **courber l'échine** bo'y egmoq, bosh egmoq.

**échiner (s')** *vpr* qiynalmoq, azob chekmoq; qattiq charchamoq, tinkasi qurimoq, holdan toymoq, holdan ketmoq, surobi to'g'ri bo'lmoq; *fam* qulday ishlamoq.

**échinodermes** *nm pl zool* ignatanlilar (*terisi ignalar bilan qoplangan umurtqasiz dengiz hayvonlari*).

**échiquier** *nm* **1.** shahmat taxtasi; **2. en échiquier**; shahmat qoidasi bo'yicha; **3.** *fig* arena, soha (*faoliyat sohasi*); **l'échiquier international, diplomatique** xalqaro, diplomatik arena; **2. le chancelier de l'Echiquier** moliya vaziri (*Buyuk Britaniya*).

**écho** *nm* **1.** aks sado; **2.** *fig* aks sado, javob sadosi; ta'sir, asar, iz; oqibat; **on trouve dans ce livre l'écho des difficultés de l'époque** bu kitob o'sha davr qiyinchiliklarini aks ettirgan; **faire écho à une remarque** tanbehga (*biror ish, harakat bilan*) munosabat bildirmoq; **3.** *fig* yurakdagi, yurakdan chiqqan aks sado, xayrixohlik hissi, hamdamlik, hamdardlik munosabati; achinish, taassuf; **cette proposition n'a pas trouvé d'écho** hech kim bu taklifga xayrixohlik bildirmadi; **4.** *pl* yangiliklar, xabarlar; **avez-vous des échos de la réunion?** yig'ilish haqida biror yangilik bormi? **les échos du jour** kunning yangiliklari; **les échos d'un journal** gazetaning xabarlar bo'limi, xronika.

**échoir** *vi* **1.** *fig* nasib bo'lmoq, muyassar bo'lmoq; tegmoq, chiqmoq, tushmoq; **ce lot m'est échu par le sort** qismatim shunday ekan; **cette maison m'est échue en héritage** bu uy menga meros sifadida nasib etdi; **2.** o'tmoq, to'lmoq, tamom bo'lmoq, tugamoq, bitmoq; **le terme échoit à la fin du mois** uy uchun to'lov muddati oy oxirida tugaydi; **le délai est échu** muddat o'tdi.

**échoppe** *nf* do'kon, do'koncha.

**échotier** *nm* xronikachi, xronika yozuvchi (*gazetaning xronika bo'limiga materiallar yetkazib beruvchi xodim*).

**échouer** *vi* **1.** sayoz joyda tiqilib qolmoq (*kema haqida*); **2.** tushmoq, tushib qolmoq, paydo bo'lmoq; kelib qolmoq; **comment ce livre a-t-il échoué sur mon bureau?** bu kitob qanday qilib mening stolim ustida paydo bo'ldi? **3.** *fig* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, barbod bo'lmoq; yiqilmoq; **les négociations ont échoué** muzokaralar muvaffaqiyatsizlikka uchradi; **elle a échoué à l'examen** u imtihondan yiqildi (*imtihonda muvaffaqiyatsizlikka uchradi*).

**échu, ue** *adj* o'tgan, tugagan, bitgan, tamom bo'lgan; **payer à terme échu** muddati tugagandan keyin to'lamoq.

**éclabousser I.** *vt* **1.** sachratmoq, sachratib iflos qilmoq; tomizmoq, tomizib dog' qilmoq; **la voiture a éclaboussé les passants** mashina yo'lovchilarga loy sachratdi; **2.** dog' tushirmoq, isnod qilmoq, nomini bulg'amoq, obro'sini to'kmoq, sharmanda qilmoq; **le scandale a éclaboussé toute la famille** janjal oiladagilarni hammasini obro'sini to'kdi; **3.** *fig* ustunligini namoyish qilib, boshqalarni kamsitmoq, yerga urmoq; **II. s'éclabousser** *vpr* biror narsa sachrab dog'-dug' bo'lmoq.

**éclaboussure** *nf* dog'; **un pantalon couvert d'éclaboussures** dog' sachragan, qoplangan shim; **des éclaboussures d'encre** siyoh doği; **des éclaboussures de sang** qon doği; **2.** *fig* doğ, isnod.

**éclair**[1] *nm* **1.** chaqmoq, yashin; **il fait des éclairs** chaqmoq chaqayapti; *loc* **avec la rapidité de l'éclair**, **comme un éclair, comme l'éclair** yashin tezligida; **2.** chaqnash, charaqlash, o't olish, birdan, lov etib yonish; yiltirash, nur; **un éclair de malice brille dans ses yeux** uning ko'zlarida ayyorlik alomatlari chaqnab turibdi; **3.** *fig* ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt, lahza, on, fursat, dam, nafas.

**éclair**[2] *nm* ekler (*pirojniyning bir turi*).

**éclairage** *nm* **1.** yoritish; yorug'lik, yorug', nur, lampa; yoritilganlik; **éclairage indirect** aks etgan yorug'lik; **l'éclairage de cette salle est insuffisant** bu xona yetarli darajada yoritilmagan; **2.** *fig* yoritish, yoritib, ochib, ochiq-oydin qilib, tushuntirib berish; **présenter les événements sous leur véritable éclairage** voqealarni haqqoniy yoritmoq.

**éclaircie** *nf* **1.** havoning ochilishi; **'il y a une éclaircie nous irons nous promener** agar havo ochilsa, biz sayrga chiqamiz; **2.** oraliqdan tushgan, ko'ringan shu'la, yorug'lik, ochiq joy; **tout le ciel était noir sauf une éclaircie vers le nord** osmon qora bulutlar bilan qoplangan edi, faqat shimol tomonda ochiq joy, yorug'lik ko'rinardi; **3.** *fig* vaziyatning yaxshilanishi,



www.ziyouz.com kutubxonasi

osoyishtalik; **une éclaircie dans la politique internationale** xalqaro siyosiy vaziyatda bir muncha yaxshilanish; **4.** siyraklashtirish; yagonalash, yagana qilish (*o'rmonchilikda*); mevalarni siyraklashtirish.

**éclaircir I.** *vt* **1.** yoritmoq; aniq, ravshan ko'rinadigan qilmoq, ravshan qilmoq; **éclaircir une teinte, une couleur** tus, rangni ravshan ko'rinadigan qilmoq; **cette tapisserie éclaircit la pièce** bu gulqog'oz xonani ochib yubordi; **2.** *agr* siyraklashtirmoq; yaganalamoq; yagana qilmoq; **3.** suyultirmoq, chapishtirmoq, suv qo'shmoq; **éclaircir une sauce** sousga suv qo'shmoq; **4.** *fig* tushunib bormoq, oydinlashtirmoq, tushuntirib ravshan, aniq qilmoq; **éclaircir une question** masalani oydinlashtirmoq; **II. s'éclaircir** *vpr* **1.** ochilmoq, tozishmoq (*ob-havo haqida*); **le temps s'est éclairci** havo ochildi; **2.** siyraklashtirmoq; **ses cheveux se sont éclaircis** uning sochlari siyraklashib qoldi; **3.** oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq, ochilmoq; **s'éclaircir la gorge** tomoq qirmoq.

**éclaircissement** *nm* **1.** yoritish; yoritilish; **2.** tushuntirish, oydinlashtirish, ravshanlashtirish; **demander des éclaircissements sur qqch** biror narsa yuzasidan aniqlik kiritishni talab qilmoq.

**éclairé, ée** *adj* **1.** yoritilgan, yorug'; **une salle bien éclairée** yaxshi yoritilgan xona; **2.** *fig* ma'lumotli, ma'rifatli, bilimdon, bilimli, o'qimishli, o'qigan, ilmli; ba'mani, oqilona, aqlli, mulohazali; **un public éclairé** o'qimishli, ma'rifatli omma; **des esprits éclairés** yuqori bilimli kushilar; **le despotisme éclairé** ilm-madaniyat rivojlangan monarxiya; **3.** *fig* mantiqiy, aqlga to'g'ri keladigan, oqilona, asosli; **une critique éclairée** oqilona, asosli tanqid.

**éclairement** *nm* **1.** yoritilganlik, yorug'lik, yoritish darajasi; **2.** *phys* yoritilganlik, (*yorug'lik nurining yoritilgan maydonga munosabati*); yoritilganlik birligi.

**éclairer I.** *vt* **1.** nur sochmoq, yoritmoq; yorug, charog'on qilmoq; **2.** yoritmoq, chirog', yorug' tutmoq; **l'escalier est sombre, je vais vous éclairer** zina qorong'u, men sizga chiroq tutaman, chiroq tutib yoritaman; **3.** *fig* yoritmoq, ochib, ochiq-oydin qilib, tushuntirib, aytib bermoq; **éclairer une situation** vaziyatni tushuntirmoq; **ce témoignage éclaire la question** bu guvohlik masalani oydinlashtiryapti; **4.** *mil* razvedka ishlarini olib bormoq; **II. s'éclairer** *vpr* **1.** yoritmoq, yorishmoq, yorug', charog'on, munavvar bo'lmoq; ravshan bo'lmoq, nurga to'lmoq; **la scène s'éclaire** sahnada chiroq yondi; **2.** *fig* ravshan bo'lmoq, oydinlashmoq; **maintenant tout s'éclaire** endi hamma narsa oydinlashyapti.

**éclaireur**[1] *nm* ayg'oqchi, razvedkachi; **envoyer des éclaireurs en reconnaissance** razvedkaga yubormoq; **partir en éclaireur** razvedkaga bormoq.

**éclaireur**[2]**, euse** *n* skaut (*XX asr boshlarida dastlab Angliyada, so'ngra boshqa ba'zi burjua davlatlarda yoshlarni burjua jamiyatning g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash uchun tuzilgan bolalar tashkilotining a'zosi*).

**éclat** *nm* **1.** parcha, bo'lak, siniq; singan, sinib tushgan, uchgan joy; **un éclat de verre, d'obus** oyna, snaryad parchasi; **éclat de bois** tarasha, payraha; **voler en éclats** mayda-mayda bo'lib ketmoq; sinib chil-chil bo'lmoq; **2.** to'satdan bo'ladigan kuchli tovush; **un éclat de rire** to'satdan kulib yuborish; qahqaha; **un éclat de colère** bir onli g'azab, lov etib boshlangan jahl; **3.** *fig* janjal, mojaro; shov-shuv, duv-duv gap; **faire un éclat** shov-shuv ko'tarmoq, janjal ko'tarmoq; **4.** yaltirash, porlash, yaraqlash; yaltiroq, yorqin nur, shu'la; jilva; **l'éclat de regard** ko'zning chaqnashi, chaqnagan ko'z; **5.** dabdaba, hashamat; dabdabalik, hashamatlik, serhashamatlik; dovruq; **l'éclat d'une cérémonie** marosimning dabdabasi; **6.** barq urish, gullab-yashnash, ravnaq topish, kamol topish, yetuklik, kamolot; **l'éclat de la beauté** go'zallikning kamolot topishi.

**éclatant, ante** *adj* **1.** qattiq, dabdabali, jaranglagan, jaranglaydigan; jaranglovchi; baland tovushli, qattiq ovozli; quloqni teshadigan, chinqiroq; **un rire éclatant** jaranglagan kulgi; **des cris éclatants** quloqni teshadigan qichqiriq; **2.** yorqin, yorug'; charaqlagan, juda yorug', haddan tashqari ravshan, ko'zni qamashtiradigan, yarqiragan; **une lumière éclatante** ko'zni oladigan, yaraqlagan; **une couleur éclatante** ochiq rang, tus; **3.** maftun qiladigan, kishini hayratda qoldiradigan; **victoire éclatante** hayratda qoldiradigan g'alaba.

**éclatement** *nm* **1.** darz ketish; **2.** bo'linib ketish; **éclatement d'un parti** partiyaning bo'linib ketishi.

**éclater** *vi* **1.** darz ketmoq, yorilmoq; yirtilmoq, yirtilib ketmoq, portlamoq; **la gelée a fait éclater la conduite d'eau** kuchli sovuqdan vodoprovod yorilib ketdi; **2.** gumburlamoq, gumburlab ketmoq, jaranglamoq; yangramoq; larzaga kelmoq; **un coup de feu a éclaté** o'q ovozi gumburlab ketdi; **éclater en sanglots** o'kirib yig'lamoq; **3.** *fig* shiddat bilan boshlanmoq, birdaniga boshlanib ketmoq; ko'tarilmoq; **la guerre a éclaté** urush boshlanib qoldi; **4.** yaltiramoq, yarqiramoq; porlab turmoq, ko'rinmoq; balqimoq, nur sochmoq, yiltiramoq; **la vérité éclate** haqiqat yuzaga chiqadi; **5.** *fig* bo'linmoq, parchalanmoq, tarkibiy qismlarga ajratmoq, tugamoq.

**éclectisme** *nm philos* **1.** eklektizm (*turlicha qarashlarni, nazarlarni bir-biriga o'zboshimchalik bilan qorishtirib yuborish*) **2.** eklektiklik; qorishganlik (*fikr, qarashlarning qorishganligi*).

**éclipse** *nf* **1.** oy, quyosh tutilishi; **une éclipse totale de soleil** quyoshning to'liq tutilishi; **2.** tushkunlik, inqiroz, tanazzul.

**éclipser I.** *vt* **1.** to'smoq, pana, qorong'u qilmoq, qoplab olmoq; **la lune éclipse le Soleil** Oy Quyoshni to'sib qo'ydi; **2.** *fig* ustun, baland kelmoq; bosib, o'tib ketmoq, soyasida qoldirmoq; **il a éclipsé tous ses concurrentes** u o'z raqiblaridan ustun keldi; **II. s'éclipser** *vpr fam* sezdirmasdan, pisib jo'nab ketmoq; **s'éclipser avant la fin du spectacle** spektakl tugashidan avval sezdirmasdan jo'nab qolmoq.

**écliptique** *nm astron* ekliptika (*quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy yo'l*).

**éclisse** *nf* **1.** yog'och pona; **2.** *méd* taxtakach; **3.** relslarini tutashtirib turuvchi po'lat parchasi.

**éclopé, ée I.** *adj* oqsoq, oqsab yuradigan; **II.** *n* **1.** cho'loq odam; **2.** *mil* safda yurishga yaramaydigan askar.

**éclore** *vi* **1.** tuxumdan chiqmoq, chaqilib chiqmoq, tuxumni ochib chiqmoq; **2.** ochilmoq, gullamoq; **3.** *fig* yuzaga kelmoq, paydo bo'lmoq, kelib chiqmoq, tug'ilmoq; **le projet est près d'éclore** o'ylab qo'yilgan ish yuzaga chiqish arafasida.

**éclosion** *nf* **1.** tuxumdan chiqish, tuxumni ochib chiqish; **2.** gullash, ochilish; **3.** *litt* tug'ilish, paydo bo'lish; **éclosion d'une idée** g'oyaning tug'ilishi.

**écluse** *nf* shluz (*suv sathi turli bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kemalarni o'tkazish uchun xizmat qiladigan gidrotexnik inshoot; to'g'ondagi suv darvozasi*); **les écluses d'un canal** kanaldagi shluzlar; **ouvrir, fermer les écluses** shluzlarni yopmoq, ochmoq.

**écluser** *vt* **1.** shluzdan o'tkazmoq, kemani shluzdan o'tkazmoq; **2.** *fam* ko'p ichmoq.

**éclusier, ère** *n* shluz nazoratchisi, boshqaruvchisi.

**écœurant, ante** *adj* **1.** ko'ngilni aynitadigan, ozdiradigan, o'qchitadigan, qayt qildiradigan, qustirib yuboradigan; qo'lansa; **une odeur écœurante** qo'lansa hid; **2.** nafrat qo'zg'atadigan, jirkantiradigan; **un spectacle écœurant** nafrat qo'zg'atadigan manzara.

**écœurement** *nm* **1.** ko'ngil aynish, behuzur bo'lish, qayd qilgisi kelishi; **2.** *fig* jirkanish; nafratlanish; nafrat, jirkanchlik; **3.** ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik, ma'yus bo'lish, umidsizlanish, tushkunlik.

**écœurer** *vt* **1.** ko'ngil aynimoq, behuzur bo'lmoq, o'qchimoq; **2.** jirkantirmoq; nafratlantirmoq, nafrat qo'zg'atmoq; **3.** umudsizlikka, tushkunlikka tushirmoq, umidsizlantirmoq.

**école** *nf* **1.** maktab, o'quv yurti; **une école maternelle** bolalar bog'chasi; **l'Ecole Normale Supérieure** Pedagogika instituti (*Fransiyada*); **manquer l'école** dars qoldirmoq; **faire l' école buissonnière** darsdan qochmoq; darsga kelmaslik; **2.** maktab, tayyorgarlik, ta'lim, saboq; **être à bonne école** yaxshi saboq olmoq; **3.** maktab, yo'nalish, oqim (*adabiyot, san'atda*); **le fondateur d'une école** oqimning asoschisi; **fonder une école** maktab yaratmoq, maktabga asos solmoq.

**écolier, ère** *n* o'quvchi; **écolier appliqué** tirishqoq o'quvchi.

**écologie** *nf* ekologiya.

**éconduire** *vt* **1.** rad qilmoq, qaytarmoq, yo'q demoq; **2.** haydamoq, haydab yubormoq, quvib chiqarmoq, jo'natmoq.

**économe** *nm* **1.** xo'jalik bo'limi mudirligi vazifasi, lavozimi; **2.** xo'jalik bo'limi joylashgan idora.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**économe I.** *adj* tejamkor, kamxarj, ayab, tejab harakat qiladigan; rejali, barakali; xasis, qurumsoq, ziqna, och ko'z, qattiq; **être économe de son temps** vaqtini tejamoq; **être économe de ses paroles** so'zini ayamoq; **II.** *n* xo'jalik bo'limi mudiri; xo'jalik boshlig'i.

**économie** *nf* **1.** *écon* xo'jalik; iqtisodiyot; **économie planifiée, économie dirigée** rejali, boshqariladigan xo'jalik; **économie nationale** xalq xo'jaligi; **économie agraire** qishloq xo'jaligi; **économie forestière** o'rmon xo'jaligi; **économie privée** xususiy xo'jalik; **petite économie marchande** mayda tovar ishlab chiqarish xo'jaligi; **économie domestique** uy xo'jaligi; ro'zg'or; **2.** iqtisodiyot (*xalq xo'jaligining ayrim tarmog'ini o'rganadigan fan*); **économie politique** siyosiy iqtisod; **3.** tejab-tergab yashamoq; **être d'une grande économie** o'ta tejamkor bo'lmoq; **4.** tejash natijasida olingan narsa, tejalgan narsa; tejam; foyda; **économie de dix francs par pièce produite** har bir dona mahsulotdan 10 frankdan tejam; **5.** *pl* yig'ilgan, to'plangan, jamg'arilgan pul, mablag', jamg'arma; **économies mensuelles** oylik jamg'arma; **économies annuelles** yillik jamg'arma; **acheter qqch avec ses économies** jamg'argan puliga biror narsa sotib olmoq.

**économique I.** *adj* **1.** iqtisodiyotga oid, iqtisodiy; moddiy; **2.** tejamli; foydali, foyda keltiradigan; **3.** xo'jalikka oid; xo'jalik; **le plan économique** xo'jalik rejasi; **II.** *nm* iqtisodiyot bilan bog'liq hodisa va voqealar majmui.

**économiquement** *adj* **1.** iqtisodiy jihatdan, moddiy tomondan; **économiquement parlant** iqtisodiy nuqtai nazardan; **2.** tejab, tejab-tergab, ayab; ehtiyot qilib, qisib-qimtib, tejamkorlik bilan; kam sarflab; **voyager économiquement** ko'p sarf-xarajat qilmay sayohat qilmoq.

**économiser** *vt* **1.** tejamoq, tejab-tergamoq, ehtiyot qilmoq; **économiser ses paroles** ortiqcha gapirmaslik, so'zini ham ayamoq; **2.** yig'moq, to'plamoq, jamg'armoq, g'amlamoq; **j'ai économisé mille francs** men ming frank to'pladim; **il économise pour ses vieux jours** qariganda qiynalmaslik uchun pul yig'moqda.

**économiste** *nm* ekonomist, iqtisodchi.

**écope** *nf* cho'mich, yog'log'i.

**écoper** *vt* **1.** cho'michlab olib tashlamoq, to'kib tamom qilmoq (*kemaga kirgan suvni*); **2.** *fam* duch, to'qnash kelmoq, uchramoq, yo'liqmoq; olmoq, orttirmoq; **il a écopé deux mois de prison** u ikki oy qamoq jazosini oldi.

**écorce** *nf* **1.** po'st, po'stloq (*daraxtda*); qobiq; **l'écorce argentée des peupliers** teraklarning kumush rang po'sti; **2.** po'st, po'choq (*mevada*); **l'écorce de l'orange** apelsin po'sti; **3.** parda, qobiq, qatlam; **l'écorce terrestre** yer qobig'i, yerning usti qattiq qoplami; *anat vieilli* **écorce cérébrale** bosh miya qobig'i.

**écorcer** *vt* shilib olmoq; po'stini archmoq, po'chog'idan ajratmoq.

**écorché, ée I.** *adj* yalang'och, ochiq (*mushak, muskul haqida*); **II.** *nm* **1. crier** yoki **hurler comme un écorché** *fam* telbalardek baqirib-chaqirmoq; **2.** kesik, kesilgan holdagi tasvir (*mexanizm, inson yoki hayvon tanasini ichki tuzilishini o'rganish uchun*).

**écorchement** *nm* po'stini, po'stlog'ini shilib olish, archish.

**écorcher** *vt* **1.** shilmoq, shilib olmoq, ajratmoq; **écorcher un lapin** quyon terisini shilmoq; **2.** tirnamoq, timdalamoq; yumdalamoq; timdalab, tirnab tashlamoq, tilib yubormoq; **ce clou m'a écorché la jambe** bu mix oyog'imni tilib yubordi; **3.** *fig* yomon ta'sir qilmoq; yoqmaslik; (quloqni) batang qilmoq; **cette musique écorche les oreilles** bu musiqa quloqni batang qilmoqda; **4.** *fam* noto'g'ri talaffuz qilmoq, buzmoq; **tu écorches toujours mon nom** sen doim mening ismimni noto'g'ri talaffuz qilasan; **il écorche le français** u fransuz tilini buzib gapiradi.

**écorchure** *nf* tirnalgan, timdalangan joy, tirnoq izi; shilingan joy; sidirilgan, qirilgan joy.

**écorner** *vt* **1.** shoxini sindirmoq; **écorner un bœuf** ho'kiz shoxini arralamoq; **2.** burchakni sindirmoq, ishdan chiqarmoq, bukmoq, egmoq, buklamoq, qayirmoq; **tu écornes tous les livres** hamma kitoblarning burchagini buklabsan; **3.** *fig* qisqartirmoq, kamaytirmoq, sarf qilmoq; zarar, ziyon yetkazmoq, zarar keltirmoq, buzmoq.

**écossais, aise I.** *adj* shotlandiyaliklarga va Shotlandiyaga oid; shotlandiyalik, Shotlandiya; **étoffe écossaise** shotlanka (*katak-katak gazlama*); **II.** *n* shotlandiyalik, Shotlandiya fuqarosi.

**écosser** *vt* oqlamoq, tozalamoq, archmoq, po'chog'idan, qobig'idan tozalamoq.

**écot** *nm* ulush, hissa; qism, bo'lak.

**écoulement** *nm* **1.** oqish, oqib ketish, oqib tushish; **2.** oqim, chiqish, tarqalish (*kishilar haqida*); **3.** sotish, savdo-sotiq, o'tkazish, o'tish; **l'écoulement des marchandises** tovarlarning sotilishi, tovarlarni sotish.

**écouler I.** *vt* sotmoq, sotib yubormoq, sotib ketmoq, sotib bitirmoq, sotib bo'lmoq, pullamoq; **écouler les marchandises** molni sotib bo'lmoq; **écouler les faux billets** soxta qog'oz pullarni o'tkazmoq, muomalaga kiritib yubormoq; **II. s'écouler** *vpr* **1.** to'kilmoq, quyilmoq, to'kilib ketmoq, oqib chiqmoq, oqmoq; **l'eau s'écoulait lentement du réservoir** hovuzdan suv asta-sekin oqib chiqardi; **2.** *fig* oqib chiqmoq, otilmoq, yopirilmoq; yopirilib kirmoq, chiqmoq; **les portes s'ouvrent et la foule s'écoula** eshiklar ochildi va odamlar tashqariga yopirilib chiqishdi; **3.** *fig* o'tmoq, o'tib ketmoq, tugamoq, tezda o'tib ketmoq (*vaqt haqida*); **4.** sotilib ketmoq, sotilib tugamoq, ketmoq; **c'est une marchandise qui s'écoule facilement** bu oson sotiladigan, xaridorgir mol.

**écourter** *vt* **1.** qirqib kaltaroq qilmoq, qisqartirmoq, kaltaroq qilmoq; kesib, chopib tashlamoq; **écourter un chien** itning dumini kesmoq; **2.** qisqartmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq; **écourter son séjour à la campagne** qishloqda bo'lish vaqtini qisqartirmoq; **3.** *fig* yumaloq-yassi qilmoq, chalakam-chatti qilmoq, to'mtoq qilmoq.

**écoute** *nf* **1.** eshitish, tinglash (*radio eshittirish, telefondagi so'zlashuv haqida*); **être à l'écoute 1.** radio eshitmoq, radio eshittirishini tinglamoq; **2.** telefon qo'ng'iroqlariga javob berish uchun navbatchilik qilmoq; **rester à l'écoute** eshitib turmoq; **ne quittez pas l'écoute** trubkani qo'ymang (*telefon orqali gaplashganda*); eshittirishimizning davomini tinglang (*radioda*); **une table d'écoute** telefon orqali so'zlashuvlarni eshitish punkti; **2.** *mil* bildirmay, sezdirmay quloq solish, yashirincha, quloq solib bilish, eshitib olish (*telefonda*); radio eshittirishlarini ushlab, tutib olish; **un poste d'écoute** yashirincha eshitish posti; radio eshitirishlarini tutib oluvchi radiostansiya; **3.** eshitish, eshitilish imkoniyati.

**écouter I.** *vt* **1.** eshitmoq, tinglamoq, quloq solmoq; **écouter de la musique** musiqa eshitmoq, tinglamoq; **2.** quloqqa olmoq, eshitib aytilgancha ko'nmoq, unga amal qilmoq; **écouter les conseils d'un ami** o'rtog'ining maslahatlariga ko'nmoq; **II. s'écouter** *vpr* **1.** o'zini o'zi eshitmoq **il s'écoute parler** o'z ovozidan zavqlantirmoqda; **2.** e'tibor bermoq, qilmoq, nazarga, e'tiborga olmoq (*o'z sog'lig'i haqida*); **depuis sa maladie, il s'écoute** kassalligidan buyon u o'z sog'lig'iga ko'p e'tibor bermoqda.

**écouteur** *nm* telefon go'shagi, dastagi; naushnik (*radio, telefon singari apparatlarning quloqqa tutib eshitadigan qismi*).

**écoutille** *nf* qopqoqli tuynuk.

**écouvillon** *nm* yumaloq cho'tka (*chiroq shishasi kabilarni tozalash uchun*).

**écrabouiller** *vt fam* ezib, yanchib, majaqlab, burdalab tashlamoq.

**écran** *nm* **1.** ekran, parda, kino pardasi; **projeter l'image sur l'écran** tasvirni ekranda ko'rsatmoq; **un écran panoramique** keng kinoekran; **2.** kino san'ati haqida; kino; **une vedette de l'écran** kino yulduzi; **porter, adapter une pièce à l'écran** p'esani ekranlashtirmoq, kinoga olmoq; **le petit écran** televidenie; **3.** ekran, to'siq, parda, panjara; g'ov; **un écran de verdure cachait la maison** ko'm-ko'k pardasimon narsa uyni to'sib turardi; **un écran contre le vent** shamolni to'suvchi g'ov; **faire écran** to'smoq, bekitmoq, panalamoq, pana qilmoq, yo'lini to'smoq; **un écran de fumée** dud niqob, tutun parda; **un écran de cheminée** kamin ekrani, to'sig'i (*kamindan chiqayotgan kuchli issiqlikdan saqlanish uchun qo'yiladigan to'rtburchakli, oyoqli to'siq*).

**écrasant, ante** *adj* **1.** e'zadigan, ezib, majaqlab, pachaqlab yuboradigan; **une charge écrasante** ezib yuboradigan yuk; **2.** *fig* og'ir, mashaqqatli, charchatadigan, og'irlik qiladigan, tinka-madorini quritadigan, holdan toydiradigan; **une chaleur écrasante** behol qiladigan issiqlik.

**écrasé, ée** *adj* ezilgan, majaqlangan, pachaqlangan, yalpaygan, yapaloq, yassi; **un nez écrasé** yapaloq, puchuq burun.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**écrasement** *nm* **1.** ezilish, yalpaytirish, ezilganlik, yalpayganlik, yassilanganlik; pachaqlanganlik; **2.** to'liq, batamom yanchib tashlash, tor-mor keltirish.

**écraser I.** *vt* **1.** ezmoq, ezib yubormoq; majaqlamoq, pachaqlamoq, yanchmoq, yanchib yubormoq; g'ijimlamoq; **écraser le pied** oyog'ini bosib, ezib olmoq; **2.** *fig* tor-mor keltirmoq, yakson qilmoq; bostirmoq; **écraser l'ennemi** dushmanni yakson qilmoq; **3.** *fig* og'ir ish yuklab qiynamoq, malollik keltirmoq, urintirmoq; **écraser qqn de travail** biror kimsani ish bilan ko'mib tashlamoq; **4.** boshqalardan ustunligini namoyish qilib, o'ziga qoyil qoldirmoq, tan berdirmoq; bo'ysundirmoq; **écraser qqn de son luxe** biror kimsani o'zining hasham, zeb-ziynatiga tan berdirmoq; **II. s'écraser** *vpr* **1.** ezilmoq, ezilib qolmoq, yalpaymoq, yapaloqlashmoq, yapaloq, pachaq bo'lib qolmoq; **cette pêche s'est écrasée en tombant** shaftoli yerga tushib ezilib ketdi; **2.** parchalanmoq, chilparchin bo'lmoq, urilmoq; **un avion s'est écrasé au sol** samolyot yerga qulab tushdi; **le camion s'est écrasé contre un arbre** mashina daraxtga kelib urildi; **3.** *fam* tiqilinchda qolmoq, siqilmoq.

**écraseur, euse** *n* olatasir, o'pkasini qo'ltiqlagan haydovchi.

**écrémage** *nm* qaymog'ini olish.

**écrémer** *vt* **1.** sutning qaymog'ini olmoq; **2.** *fam* narsalarning yaxshi qismi, sarasi, asilini tanlab olmoq; **écrémer une bibliothèque** kutubxonadagi eng yaxshi kitoblarni tanlab olmoq.

**écrémeuse** *nf* separator, kuv (*sutning qaymog'ini ajratib oluvchi mashina*).

**écrevisse** *nf* qisqichbaqa; **un potage aux écrevisses** qisqichbaqali sho'rva; **rouge comme une écrevisse** qisqichbaqadek qizil; **marcher en écrevisse** tislanmoq, tisarilmoq, orqaga yurmoq.

**écrier (s')** *vpr* xitob qilmoq, qichqirib yubormoq, hayqirmoq.

**écrin** *nm* quti, quticha, sandiqcha (*taqinchoq, zeb-ziynatni solish uchun*).

**écrire I.** *vt* **1.** yozmoq, xatga tushirmoq, yozuv orqali ifodalanmoq; **écrire son nom** ismini yozmoq; **écrire à la main** qo'lda yozmoq; **2.** yozmoq, yozma asar yaratmoq; ijod qilmoq; **écrire un ouvrage** asar yozmoq; **3.** yozmoq, yozma nutqni egallamoq; **4.** yozmoq, xat orqali xabar bermoq, ma'lumot bermoq; **je lui écris que j'accepte** roziligini bildirib unga xat yozdim; **5.** *fig* yozmoq, yozib qo'ymoq, bitmoq; tamg'a bosmoq; **sa honte est écrite sur son front** sharmandagarchiligi peshonasiga yozib qo'yilgan, bitilgan, tamg'a bo'lib bosilgan; **II. s'écrire** *vpr* **1.** yozilmoq; **ce mot s'écrit avec une majuscule** bu so'z bosh harf bilan yoziladi; **2.** yozilmoq, bir-biriga xat yozmoq; **ils s'écrivent toutes les semaines** ular har haftada xat yozishib turadilar.

**écrit** *nm* **1.** yozilgan narsa; yozuv, qo'lyozma; matn; **2.** yozma imtihon; **passer l'écrit** yozma imtihondan topshirmoq; **réussir à l'écrit** yozma imtihondan o'tmoq; **par écrit** yozma, yozma ravishda; **donner un ordre par écrit** yozma farmoyish bermoq; **s'engager par écrit** yozma majburiyat olmoq; **3.** asar, yozilgan ish; **ses écrits n'ont jamais été publiés** uning asarlari hech qachon bosilmagan.

**écrit, ite** *adj* **1.** yozilgan, yozib tugatilgan; yozib tamomlangan; **une lettre écrite de la main de Pouchkine** Pushkinning qo'li bilan yozilgan xat; **une page écrite des deux côtés** ikkala tomoni yozib to'ldirilgan varaq; **2.** yozma, yozma holda, yozma ravishda; **un examen écrit** yozma imtihon; **un document écrit** yozma hujjat; **le français écrit et le français parlé** yozma va og'zaki fransuz tili **c'est écrit!** taqdirda bo'lsa, qochib qutilib bo'lmaydi, peshonaga yozilgan, qismat.

**écriteau** *nm* ustiga yozilgan taxtacha, e'lon.

**écritoire** *nf* yozuv qurollari, anjomlari, ashyolari solinadigan quti.

**écriture** *nf* **1.** yozuv, alifbe; **l'invention de l'écriture** yozuvning ixtiro qilinishi; **2.** yozuv, harflar; **l'écriture grecque** grek yozuvi, harflari; **3.** yoza bilish, yoza olish, yozish, xat-savod; **une leçon d'écriture** husnixat darsi; **4.** dasxat, yozuv, xat, **l'écriture droite** to'g'ri yozuv; **l'écriture cursive** naridan beri yozilgan xat; **il a une belle écriture** uning dastxati chiroyli; **déchiffrer une écriture** yozuvni sinchiklab tekshirmoq; **un expert en écriture** grafolog, grafologiya eksperti; **5.** uslub, stil; **6.** *relig* **l'Écriture Sainte** muqaddas diniy kitob, Tavrot va Injil; **7.** *pl* ish qog'ozlari; ish yuritish, yozuv-chizuv, yozishma ishlarini olib borish; **tenir les écritures** yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanmoq; **employé aux écritures** mirza, kotib, ish yurituvchi.

**écrivailleur, euse** *n*, **écrivaillon** *nm péj* bema'ni yozuvchi (*bemaza asarlarni ko'plab yozib tashlaydigan adib*).

**écrivain** *nm* **1.** yozuvchi, adib; **une femme écrivain** yozuvchi ayol; **2. un écrivain public** jamoatchi kotib (*yozishni bilmaganlar uchun xat yozib beruvchi kishi*).

**écrou**[1] *nm* **1.** mahbuslar ro'yxatiga yozib qo'yish; **registre d'écrou** qamoqxona daftari; **2.** qamoqqa olish haqida xulosa; **une levée d'écrou** olish haqidagi buyruq.

**écrou**[2] *nm* gayka **visser un écrou sur un boulon** boltga gaykani burab, tortib, mahkamlab qo'ymoq; **un écrou à oreilles** quloqli gayka; **un écrou de blocage** stopor, to'xtatish gaykasi, kontrgayka (*asosiy gayka bo'shab ketmasligi uchun uning ustidan burab qo'yiladigan ikkinchi gayka*).

**écrouer** *vt* **1.** mahbusni ro'yxatga olish; **2.** qamoqqa olmoq.

**écrouelles** *nf pl méd* zolotuxa kasalligi, shirincha (*bolalarda bo'ladigan kasallikning bir ko'rinishi*).

**écroulé, ée** *adj* qulagan, ag'darilgan, yiqilgan, buzilib ketgan; **la maison est écroulée** u qulab tushdi.

**écroulement** *nm* **1.** qulash, qulab tushish, ag'darilish, buzilish, buzilib ketish, **l'écroulement d'un mur** devorning qulashi; **l'écroulement d'un pont** ko'prikning qulashi; **2.** *fig* barbod bo'lish, yo'lga chiqish, sovrilish, halokat; halokatga yo'liqish, qulash; muvaffaqiyatsizlikka uchrash; yemirilish; **l'écroulement d'un empire** imperiyaning yemirilishi.

**écrouler (s')** *vpr* **1.** qulamoq, qulab tushmoq, ag'darilmoq, chilparchin bo'lmoq; buzilmoq, buzilib ketmoq; **2.** *fig* barbod bo'lmoq, yo'qqa chiqmoq, puchga chiqmoq; halokatga yo'liqmoq, qulamoq; muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; yemirilmoq; **ses espoirs se sont écroulés** uning umidlari puchga chiqdi; **l'empire s'écroula** imperiya yemirildi; **3.** *fam* o'zini tashlamoq; ag'nab, dumalab yotmoq; biroz cho'zilib olmoq, cho'zilib yotmoq, yastanib yotmoq; **s'écrouler de rire** kulgidan dumalab qolmoq.

**écru, ue** *adj* oqartirilmagan, xom, dag'al, sur, ishlov berilmagan; **de la toile écrue** xom surp; **de la laine écrue** ishlov berilmagan, sur jun mato.

**ectoplasme** *nm biol* ektoplazma.

**écu** *nm* **1.** ekyu (*eski Fransiyada oltin yoki kumush pul*); **un écu de cent sous** besh frankli tanga; **2.** *pl* pul, mablag'; **il a des écus** uning puli, mablag'i bor; **3.** qalqon.

**écubier** *nm mar* kluz (*kemaning bortida langar zanjiri o'tkaziladigan teshik*).

**écueil** *nm* **1.** suv ostidagi qoya; sayozlik, sayoz joy; **le bateau s'est brisé sur les écueils** kema suv osti qoyasiga urilib pachaqlandi; **2.** *fig* xavfli to'g'anoq, to'siq.

**écuelle** *nf* kosa, tovoq, mistovoq.

**éculé, ée** *adj* **1.** qiyshayib ketgan, kiyilaverib to'zigan, ishdan chiqqan; **des souliers éculés** kiyilaverib to'zigan poyabzal; **2.** *fig* ko'p ishlatilgan, chaynalgan, siyqasi chiqqan; **une expression éculée** siyqasi chiqqan ibora.

**écume**[1] *nf* **1.** ko'pik; **l'écume de la mer** dengiz ko'pigi; **se couvrir d'écume** ko'pigi chiqmoq; **un cheval couvert d'écume** ko'piklab ketgan ot; **l'écume à la bouche**, og'zini ko'pirtirib, g'azab bilan; **2.** *techn* shlak, toshqol (*metall eritilganda qolgan qotishma*).

**écume**[2] *nf* **écume de mer** g'alvirak tosh, mayday teshikchali, yengil, olovbardor mineral; **une pipe en écume** g'alvirak toshdan qilingan trubka.

**écumer** *vi* **1.** ko'piklanmoq, ko'pik bilan qoplammoq; **la mer écumait** dengiz ko'piklanardi; **le cheval écume** ot ko'pirib ketyapti; **2.** *fig* qattiq g'azablanmoq, achchiqlanmoq; g'azabga minmoq, quturmoq; **écumer de rage** g'azabi qaynamoq; **2.** *vt* **1.** ko'pikni olmoq, olib tashlamoq; **écumer la confiture** murabboning ko'pigini olib tashlamoq; **2.** *fig* talamoq, talon-taroj qilmoq; **écumer une région** biror hududni talamoq.

**écumeux, euse** *adj* ko'pikli, ko'pigi bor.

**écumoire** *nf* kapgir; **troué comme une écumoire** kapgirdek ilma-teshik.

**écureuil** *nm* olmaxon.

**écurie** *nf* **1.** otxona; **mettre les chevaux à l'écurie** otlarni otxonaga olib kirmoq; **un valet d'écurie** otboqar, says; **c'est une vraie écurie** iflos, tartibsiz joy; *myth* **les écuries d'Augias** Avgiy otxonasi, otbozor (*juda iflos, itirqini joy yoki juda chalkash, betartib ish; ibora Yunoniston podshosi Avgiyning 30 yil tozalanmagan otxonalari haqida afsonadan kelib chiqqan*);



www.ziyouz.com kutubxonasi

**2.** poygachi, chopqir otlar; **3. l'écurie Renault** Reno firmasining mashinalari va poygachilari (*bir xil marka ostida qatnashayotgan mashina, velosiped poygachilari haqida*).

**écusson** *nm* **1.** gerbli lavha, gerb, tug'ro; gerb shaklidagi taqinchoq; **2.** *mil* emblema, shartli belgi, timsol (*qo'shin turini ifodalaydi*); **3.** *agr* payvandust, payvand qilinadigan kurtak; **greffe en écusson** kurtak payvand.

**écussonner** *vt* **1.** gerb bilan bezamoq; emblema, shartli belgi, timsolni taqmoq; **2.** kurtak payvand qilmoq, payvandlamoq, ulamoq.

**écuyer, ère** *n* **1.** *nm* sayis, otboqar; **2.** chavandoz, suvori; **les écuyers du cirque** sirk chavandozlari; **c'est un bon écuyer** bu yaxshi chavandoz; **3.** ot sporti treneri, mutaxassisi.

**eczéma** *nm* ekzema, chilla yara.

**eczémateux, euse I.** *adj* ekzema, chilla yaraga oid; ekzema, eshak yemi toshgan; **II.** *n* ekzema bilan og'rigan bemor.

**edelweiss** *nm inv bot* edelveys (*murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi ko'p yillik tog' o'simligi va uning guli*).

**éden** *nm litt* jannatmakon joy; **cette contrée est un véritable éden** bu joy haqiqiy jannat, jannatmakon joy.

**édenté, ée I.** *adj* tishi yo'q, tishsiz, tishi tushgan, kemshik; **un vieillard édenté** tishi tushgan chol; **II.** *nm pl zool* tishsiz yoki tishi rivojlanmagan sut emizuvchi hayvonlar turkumi.

**édenter** *vt* tishini sindirmoq (*taroq, arra*).

**édicter** *vt* e'lon qilmoq, chiqarmoq, qaror qilmoq, o'rnatmoq (*buyruq, farmon*).

**édicule** *nm* hojatxona.

**édifiant** *nm adj* ibrat, saboq, namuna bo'ladigan; ibratli, pand-nasihatli, nasihatomuz; **une vie édifiante** ibratli hayot.

**édification** *nf* **1.** qurish, bino qurish, qurilish; **l'édification d'une cathédrale** ibodatxona qurilishi; **2.** *fig* qurish, yaratish, barpo qilish; **l'édification d'une vie nouvelle** yangi hayot qurish; **l'édification d'une fortune** boylikning to'planishi, yaratilishi; **3.** nasihat, pand-nasihat, o'git, ibrat, saboq; **je vous dis cela pour votre édification** men sizga buni saboq bo'lsin deb aytyapman.

**édifice** *nm* **1.** bino, imorat, inshoot; **construire un édifice** bino barpo qilmoq, qurmoq; **apporter sa pierre à l'édifice** o'z hisssasini qo'shmoq; **2.** tuzum, tuzilish; **l'édifice de la société** jamiyat tuzilishi.

**édifier** *vt* **1.** qurmoq, barpo qilmoq; **édifier une cité** shahar barpo qilmoq; **2.** *fig* barpo qilmoq, yaratmoq, tuzmoq; **édifier un empire** imperiya tuzmoq; **édifier une théorie** nazariya yaratmoq; **3.** pand-nasihat qilmoq; o'rgatmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq, ta'lim bermoq.

**édile** *nm* **1.** *hist* edil (*qadimda; shahar ta'minoti va binolar nazorati bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxs*); **2.** munitsipalitet, shahar boshqarmasining a'zosi.

**édit** *nm* farmon, oliy farmon; farmoyish, qaror.

**éditer** *vt* nashr qilmoq, chop qilmoq, nashrdan chiqarmoq; bosib chiqarmoq, bosmadan chiqarmoq; **éditer les œuvres de Balzac** Balzak asarlarini bosmadan chiqarmoq.

**éditeur, trice I.** *n* **1.** nashr etuvchi, bosmadan chiqaruvchi, noshir; **2.** nashriyot; **II.** *adj* nashrga va nashriyotga oid; nashriyot; nashriyotchilik; **une librairie éditrice** kitobfurush noshir.

**édition** *nf* **1.** nashr etish, bosish, bosib chiqarish; **il prépare l'édition de ses œuvres** u asarlarni nashr qilishga tayyorlamoqda; **contrat d'édition** nashriyot shartnomasi, nashriyot bilan tuzilgan shartnoma; **2.** bosilgan kitobning soni, nusxasi; **cette édition est épuisée** bu nashrning barchasi sotilib bo'lindi; **l'édition originale** birinchi nashr; **3.** nashriyotchilik ishi; **travailler dans l'édition** nashriyot ishlari bilan shug'ullanmoq; **une maison d'édition** bosmaxona, nashriyot.

**éditorial, ale I.** *nm* bosh maqola; redaksion maqola; **II.** *adj* redaksiyaga oid, tahrirga oid; tahririy; redaksiya, tahrir; **dans une note éditoriale** redaksiya maqolachasida.

**éditorialiste** *nm* bosh maqola muallifi.

**édredon** *nm* parto'shak.

**éducateur, trice I.** *nm* tarbiyachi, murabbiy, tarbiyalovchi ustoz; **II.** *adj* tarbiya qiladigan, tarbiya beradigan, tarbiyaviy.

**éducatif, ive** *adj* tarbiyaga oid; tarbiya beradigan; tarbiyaviy; tarbiya, pedagogikaga oid; pedagogik; ta'limga oid; **une méthode éducative** tarbiya uslubi; **un film éducatif** ilmni beradigan film.

**éducation** *nf* **1.** tarbiya, tarbiyalash; tarbiya berish; ta'lim-tarbiya, maorif, o'qish, o'qitish, ilm berish, ilm olish; **l'éducation des enfants** bolalar tarbiyasi; **faire l'éducation de qqn** biror kimsaning tarbiyasi bilan shug'ullanmoq; **les problèmes de l'éducation** tarbiya muammolari; **le Ministère de l'Éducation nationale** Xalq ta'limi vazirligi (*Fransiyada*); **2.** tarbiya; rivojlanish; rivojlantirish, o'stirish; **l'éducation morale** axloqiy tarbiya; **l'éducation de la mémoire** yodda saqlash qobiliyatini o'stirish; **3.** bilim, ma'lumot, bilim darajasi, bilimlilik; tarbiya ko'rganlik, boadablik; **son éducation en ce domaine est insuffisante** bu sohada uning ma'lumoti etarli emas; **il a de l'éducation** u tarbiya ko'rgan.

**édulcorer** *vt* **1.** biroz shirin qilmoq, biroz shirinlik qo'shmoq (*qand, shakar, murabbo*), shirinroq qilmoq; **2.** *fig* pasaytirmoq, yumshatmoq, muloyimlashtirmoq, ohista, yotig'i bilan aytmoq; **édulcorer une pensée** fikrni yotig'i bilan tushuntirmoq.

**éduquer** *vt* **1.** tarbiyalamoq; ilm bermoq, o'qitmoq; o'rgatmoq; **éduquer les enfants** bolalarni tarbiyalamoq; **2.** tarbiyalamoq, rivojlantirmoq, hosil qilmoq; **éduquer la volonté** irodani tarbiyalamoq; **éduquer les réflexes** refleks hosil qilmoq.

**effacé, ée** *adj* **1.** o'chib ketgan, xira tortgan, o'ngib qolgan; **2.** *fig* oddiy, ko'zga tashlanmaydigan, nazarga ilinmaydigan, **une personne effacée** ko'zga tashlanmaydigan kishi; **une vie effacée** oddiy hayot.

**effacement** *nm* **1.** artish; o'chirish; artib, sidirib yoki o'chirib tashlash; yo'qotish, yo'q qilish; o'chish, o'chib, yo'q bo'lib ketish; **2.** *fig* o'chish, yo'q bo'lish, xotiradan ko'tarilish; esdan chiqish; **l'effacement d'une faute** xatoning esdan chiqishi; **3.** kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik, sipolik; **il vit dans l'effacement** u ko'zga tashlanavermaydi; u o'zini kamtarona tutadi.

**effacer I.** *vt* **1.** o'chirmoq, o'chirib tashlamoq, chizib tashlamoq; **effacer les traces de crayon** qalam izlarini o'chirib tashlamoq; **2.** chizib tashlamoq; **effacer un mot** so'zni chizib tashlamoq; **3.** *fig* yo'q qilmoq, yo'qotmoq; unuttirmoq, esdan chiqartirmoq; **le temps a tout effacé** vaqt o'tishi bilan hamma narsa unutiladi; **4.** *fig* orqada, soyasida qoldirmoq, ustun, baland kelmoq; bosib, o'tib ketmoq; **son succès efface le mien** uning muvaffaqiyati menikini bosib ketdi; **elle efface les autres femmes par sa beauté** u o'z chiroyi bilan boshqalarni soyasida qoldirib ketyapti; **II. s'effacer** *vpr* **1.** o'zini chetga olmoq; yo'l bermoq; **2.** *fig* ko'zga tashlanmaslik, o'zini chetda tutmoq; **3.** *fig* biror kimsaning soyasida qolib ketmoq; ustunligi oldida bosh egmoq.

**effarant, ante** *adj* **1.** hayratda qoldiriadigan, aqlni shoshiradigan, esankiratib, dovdiratib qo'yadigan, hayratomuz, hayratlanarli; **2.** qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, mudhish; **une histoire effarante** mudhish voqea.

**effaré, ée** *adj* sarosimaga tushgan, gangib qolgan, do'vdirab, esankirab qolgan; parishon; **il nous a regardé d'un air effaré** u bizga sarosimalik bilan qaradi.

**effarement** *nm* sarosimalik, gangib, do'vdirab, esankirab qolishlik, parishonlik; xavotirlik; qo'rquv; **il y eut un moment d'effarement général** bir zum hamma esankirab qoldi.

**effarer I.** *vt* do'vdiratmoq, dovdiratib, esankiratib qo'ymoq; hayratda qoldirmoq; lol qilib qo'ymoq; qo'rqitib, hurkitib, cho'chitib yubormoq; **II. s'effarer** *vpr* sarosimaga tushmoq, o'zini yo'qotib qo'ymoq; qo'rqitmoq, cho'chitmoq, yurak oldirmoq.

**effarouché, ée** *adj* qo'rqqan, cho'chigan, hurkkan; sarosimaga tushgan; do'vdirab qolgan.

**effarouchement** *nm* qo'rqish, cho'chish, hurkish, qo'rquv, vahima; sarosimalik, gangib, dovdirab, esankirab qolishlik.

**effaroucher** *vt* qo'rqitmoq, hurkitmoq, cho'chitmoq, qo'rqitib yubormoq, qo'rqitib, qochirib, uchirib yubormoq (*hayvonlar, qushlar haqida*); **effaroucher le gibier** qushlarni hurkitib uchirib yubormoq; **2.** qo'rqitmoq, cho'chitmoq, yuragiga qo'rquv solmoq; **un rien suffit à l'effaroucher** u arzimagan narsadan ham qo'rquvga, vahimaga tushadi.

**effectif, ive I.** *adj* samarali, foydali, ta'sirli; natijali, natijasi bor; natija, foyda beradigan, bor, mavjud, naqd; haqiqiy; **un capital effectif** mavjud kapital; **c'est lui qui détient le pouvoir effectif** haqiqiy hokimiyat uning



www.ziyouz.com kutubxonasi

qo'lida; **la puissance effective d'un moteur** dvigatelning haqiqiy (amaldagi) quvvati; **II.** *nm* shaxsiy tarkib (*harbiy*); shtat, xodimlar miqdori; kontengent; miqdor, son; **les effectifs réalisés** mavjud tarkib; **l'effectif d'un atelier** sexdagi ishchilar soni; **l'effectif d'une classe** sinfdagi o'quvchilar soni; **il faut compléter les effectifs** shtatlarni to'ldirmoq zarur; **avec un effectif réduit** qisqartirilgan tarkib; to'liq bo'lmagan shtat bilan.

**effectivement** *adv* haqiqatdan, haqiqatda, haqiqatdan ham, chindan ham; **cela est effectivement arrivé** bu narsa chindan ham sodir bo'ldi; haqiqatdan ham shunday; **vous étiez hier ici? – oui, effectivement** siz kecha bu erda bo'lganmisiz? – ha, chindan ham bo'lganman.

**effectuer I.** *vt* bajarmoq, amalga oshirmoq, o'tamoq; o'tkazmoq; yuzaga chiqarmoq, ro'yobga chiqarmoq; **effectuer des réformes** reformalarni amalga oshirmoq; **effectuer une expérience** tajriba o'tkazmoq; **effectuer des réparations** ta'minlash ishlarini bajarmoq; **l'avion a effectué le parcours en 7 heures** samolyot masofani yetti soatda uchib o'tdi; **effectuer un paiement** to'lamoq; **II. s'effectuer** *vpr* amalga oshirmoq, bajarilmoq, ro'yobga chiqmoq; bo'lib o'tmoq; **les travaux s'effectuent avec lenteur** ishlar sekinlik bilan bajarilmoqda; **les transformations qui se sont effectuées** amalga oshirilgan o'zgarishlar.

**efféminé, ée I.** *adj* xotinlarga xos latif, muloyim, nozik, yumshoq; **II.** *nm* xotinchalish, xotinnamo kishi.

**efféminer** *vt* pahpahlab o'stirmoq, nozik, erka, ipakoyim qilib yubormoq; ayolga o'xshatib tarbiyalamoq.

**effervescence** *nf* **1.** qaynash, ko'pirib toshish; **entrer en effervescence** qaynamoq, ko'pirmoq, ko'piklanmoq; **2.** *fig* hayajonlanish, qizg'in yoki bezovta harakatga kelish; to'lqinlanish, tug'yon urish; asabiylanish, tutaqish, qizishish; **l'effervescence populaire** xalqning tug'yon urushi, harakatga kelishi.

**effervescent, ente** *adj* **1.** qaynayotgan, ko'pirib toshayotgan; **un liquide effervescent** ko'pirib toshayotgan suyuqlik; **une matière effervescente** ko'p gaz chiqayotgan modda; **2.** *fig* hayajonlangan, to'lqinlangan, tug'yon urayotgan; asabiylashgan, qizishgan; **une foule effervescente** asabiylashgan olomon.

**effet[1]** *nm* **1.** natija, oqibat; yakun, samara; **l'effet naturel** tabiiy natija; **un effet surprenant** hayratga soladigan natija; **un effet inattendu** kutilmagan oqibat; **un effet immense** katta, yuksak natija; **obtenir des effets remarquables** ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishmoq; **Il n'y a pas d'effet sans cause** sababsiz oqibat bo'lmaydi; **sans effet** natijasiz, samarasiz; **en effet** haqiqatdan, darvoqi, darhaqiqat, chinakkam, voqean, albatta; **à l'effet de** maqsadida, niyatida, uchun; **à cet effet** buning uchun, bu maqsadda; **2.** ta'sir; naf, foyda; **l'effet d'un médicament** dorining ta'siri, nafi, foydasi; **faire, avoir son effet** ta'sir ko'rsatmoq; **l'effet d'une force** ta'sir kuchi; **l'effets de radioactivité** radioaktiv ta'sir; *techn* **un effet utile** foydali ish; **le médicament n'a pas eu d'effet** bu dorining nafi tegmadi; **3.** taassurot; ta'sir; effekt; **bon effet** yaxshi taassurot; **mauvais effet** yomon taassurot; **un effet de lumière** yorug'lik effekti, yorug'lik taassurotlarini tug'diradigan manbalar (*masalan sahnada*); **faire, produire un bon effet** yaxshi taassurot qoldirmoq; **faire de l'effet** kuchli taassurot qoldirmoq; **4.** *sport* burab, chilpirak qilib oshirish (*to'p, shar*).

**effet[2]** *nm dr fin* qimmatbaho qog'oz; pul bilan bog'liq hujjat; **un effet de commerce** veksel (*qarz hujjati, pul qarz olganlik haqidagi tilxat*); chek; perevod (*pochta, telefon orqali yuborilgan pul*); **effets publics** davlatga qarashli qimmatbaho qog'ozlar.

**effets[3]** *nm pl* kiyim-kechak, kiyim-bosh, ust-bosh; *mil* formali kiyim-kechak ta'minoti; **ranger ses effets** kiyim-boshini yig'ishtirmoq.

**effeuiller I.** *vt* uzmoq, yulmoq, uzib, yulib olmoq, tashlamoq (*yaproq, barg, gulbarg*); **II. s'effeuiller** *vpr* to'kilmoq, to'kilib ketmoq; to'kilib tushmoq; bargini, tashlamoq, to'kmoq.

**efficace** *adj* **1.** natija, foyda beradigan, foydali, ta'sirchan, tez kor qiladigan; **un remède efficace** tez kor qiladigan dori; **un traitement efficace** foydali muolaja; **2.** ishchan, faol, aktiv; g'ayratli (*shaxs haqida*); **un homme efficace** g'ayratli, ishchan kishi.

**efficacement** *adj* samarali, foydali ravishda, sezilarli darajada.

**efficacité** *nf* **1.** ta'sir, ta'sir kuchi; ta'sirchanlik, ta'sir qilishlik; samaralilik, unumlilik, foyda; qulaylik; **l'efficacité d'un remède** dorining foydasi, ta'sir kuchi; **l'efficacité de qqn** biror kimsaning foydasi, foydali tomoni; **2.** unumdorlik, mahsuldorlik; ish unumi; ijobiy natija, foyda; **l'efficacité d'une machine** mashinaning foydali ish koefitsenti; **la recherche de l'efficacité** ish unumini oshirishga harakat qilish.

**effigie** *nf* **1.** tasvir, suvrat, rasm, shakl (*tanga, medal kabilarda*); **une pièce de monnaie à l'effigie de Jules César** Yuliy Sezar tasviri tushirilgan tanga; **2.** haykal, tasvir, figura; **l'effigie d'un roi** podshoh haykali, tasviri.

**effilé, ée I.** *adj* uzun, cho'ziq, cho'zinchoq va ingichka; **un crayon effilé** uchli qalam; **II.** *nm* popuk, shokila; popukli jiyak.

**effiler I.** *vt* **1.** ipni sug'urib olmoq, tortib olmoq; yulib tolalarga ajratmoq; **effiler un tissu** gazlamani yulib iplarga ajratmoq; **2.** ingichka qilmoq, ingichkalashtirmoq, ingichkalamoq; yupqalashtirmoq, yupqa qilmoq; **effiler les pointes de sa moustache** mo'ylabining uchlarini burab ingichka qilmoq; **II. s'effiler** *vpr* titilib ketmoq; yechilib ketmoq, bo'shab, yozilib ketmoq; **une étoffe qui s'effile** titilib ketayotgan gazlama.

**effilocher** *vt* tortib, yulib yirtmoq, yuvilib qismlarga ajratmoq (*gazlamadan*).

**efflanqué, ée** *adj* oriq, ozg'in; qotma; **un cheval efflanqué** oriq ot, qirchang'i.

**effleurer** *vt* **1.** siypalamoq, siypalab o'tmoq; salgina tegmoq; **2.** *fig* tilga olmoq, gapirib, to'xtalib o'tmoq; yuzaki qarab chiqmoq; **Il n'a fait qu'effleurer le problème** u masalani shunchaki tilga olib o'tdi.

**efflorescence** *nf* **1.** *vx* gullash davrining boshi, boshlanishi; **2.** *fig* gullab-yashnash, ravnaq topish, yuksalish, rivojlanish, taraqqiy etish, kamol topish, yetuklik, kamolot, qirchillaganlik; **l'efflorescence de l'art gothique** gotik san'atning gullab-yashnashi; **3.** *chim* nurash; parchalanish, bo'linib ketish; **4.** mog'or, po'panak; mog'or, po'panak qoplami.

**efflorescent, ente** *adj* **1.** gullayotgan; **2.** *fig* gullab-yashnagan, ravnaq topayotgan, yuksalayotgan, kamol topayotgan, rivojlanayotgan.

**effluve** *nm* bug', par; is, bo'y, hid.

**effondrement** *nm* **1.** o'pirilish, qulash, yemirilish, yiqilish; ag'darilish; **l'effondrement d'un toit** tomning qulashi; **l'effondrement d'un mur** devorning yiqilishi; **2.** *fig* yemirilish, halok bo'lish; barbod bo'lish, puchga chiqish sovrilish; halokat; **l'effondrement d'un empire** imperiyaning halokati; **3.** tushkunlik, ruhi tushganlik, ma'yuslik, ruhsizlik, dili xuftonlik; tinkasi qurish, sulayish, lohas bo'lish, lohaslik.

**effondrer I.** *vt* **1.** *agr* chuqur haydamoq; **2.** ezib, bosib, sindirib yubormoq, pachaq qilmoq, buzmoq; **effondrer un coffre** sandiqni sindirib yubormoq; **II. s'effondrer** *vpr* qulamoq, ag'darilmoq, o'pirilmoq, barbod bo'lmoq, puchga chiqmoq, halokatga uchramoq; cho'kmoq; o'tirmoq, o'tirib qolmoq; **la chaussée s'est effondrée** yo'l cho'kdi; **les prix se sont effondrés** narx-navo keskin tushib ketdi; **mes projets s'effondrent** mening rejalarim barbod bo'lmoqda.

**efforcer (s')** *vpr* tirishmoq, harakat qilmoq; intilmoq; **efforcez-vous de mieux travailler** yaxshiroq ishlashga harakat qiling.

**effort** *nm* **1.** tirishish, harakat qilish; **l'effort physique** jismoniy harakat; **faire un effort** harakat qilmoq; **faire tous ses efforts** bor kuchini sarflamoq; **sans effort** osonlik bilan, osonlikcha; **avec effort** qiyinchilik bilan; **par un suprême effort** oxirgi kuchi bilan; **2.** *phys* kuchlanish, kuch; og'irlik, bosim; **effort de traction** tortish kuchi.

**effraction** *nf* buzish, sindirib ochish; **vol avec effraction** buzib o'g'irlab ketish; **pénétrer avec effraction dans un appartement** xonadonga qulfni buzib kirmoq.

**effraie** *nf* boyqush, boyo'g'li.

**effranger I.** *vt* popiltirig'ini chiqarmoq; popugini chiqarmoq; titig'ini chiqarmoq; **II. s'effranger** *vpr* to'zmoq, yirtilmoq, titig'i chiqmoq, uvadasi chiqib ketmoq; **le bas de mes pantalons s'est effrangé** shimimning pochasi titilib ketdi.

**effrayant, ante** *adj* **1.** qo'rqinchli, dahshatli; **des cris effrayants** dahshatli qichqiriqlar; **un spectacle effrayant 2.** kuchli, zo'r, qattiq, g'oyat katta, nihoyatda; yomon, dahshatli; misli ko'rilmagan; **il a un appétit effrayant** uning ishtahasi g'oyat katta; u nihoyatda och; **il fait une chaleur effrayante** nihoyatda issiq bo'lyapti; **tout est à un prix effrayant** hamma narsa misli ko'rilmagan darajada qimmat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**effrayer I.** *vt* qo‘rqitmoq, cho‘chimoq; qo‘rquv, vahimga solmoq; **ses cris m'ont effrayé** uning qichqirig‘i meni qo‘rqitib yubordi; **le tonnerre l'effraye** momaqaldiroq uni vahimaga solmoqda; **être effrayé** qo‘rquvga tushmoq; **II. s'effrayer** *vpr* qo‘rqimoq, cho‘chimoq, qo‘rquvga tushmoq, vahimaga tushmoq; vahima bosmoq.

**effréné, ée** *adj* o‘zboshimcha, bebosh, tiyib, to‘xtatib bo‘lmaydigan, tiyiqsiz; g‘oyat kuchli, nihoyat darajada zo‘r; **des passions effrénées** cheklab bo‘lmaydigan havas; **un luxe effréné** nihoyat darajada zo‘r zeb-ziynat.

**effritement** *nm* **1.** maydalanish, parchalanish, kukunlanish, mayda zarrachalarga aylanish, nurash; **l'effritement d'un rocher** qoyaning nurashi; **2.** *fig* ozayish, kamayish, qisqarish; kuchsizlanish, zaiflashish; **l'effritement de la majorité** ko‘pchilikning asta-sekin kamayib, zaiflashib borishi.

**effriter I.** *vt* kukunga, mayda zarrachalarga aylantirmoq, maydalamoq, parchalamoq; yemirmoq; **II. s'effriter** *vpr* **1.** asta-sekin kukunga aylanmoq, mayda zarrachalarga bo‘linib ketmoq; nuramoq, yemirilmoq; **les pierres s'effritent** toshlar parchalanib ketmoqdalar; **2.** *fig* tugamoq, kamaymoq, ajralib, tarqalib, bo‘linib ketmoq, buzilmoq, chirimoq, yemirilmoq, zaiflashmoq, tanazzulga yuz tutmoq; **la majorité gouvernementale s'effrite à chaque vote** har ovoz berishda hukumatdagi ko‘pchilik kamayib bormoqda.

**effroi** *nm* qo‘rquv, vahima, dahshat; **trembler d'effroi** qo‘rquvdan qaltiramoq.

**effronté, ée I.** *adj* surbet, behayo, bezbet, beor, uyatsiz, odobsiz, yuzsiz, **un regard effronté** behayo nigoh; **un menteur effronté** yuzsiz aldoqchi; **II.** *nm* surbet, bezbet, uyatsiz, sharmsiz, orsiz, sulloh.

**effrontément** *adv* surbetlarcha, bezbetlik, surbetlik, uyatsizlik bilan; adabsizlik bilan; **mentir effrontément** surbetlarcha aldamoq.

**effroyable** *adj* dahshatli, qo‘rqinchli, mudhish, vahimali; yomon, juda yomon; **un spectacle effroyable** dahshatli manzara; **une nuit effroyable** dahshatli, vahimali tun.

**effroyablement** *adv* o‘ta yomon, juda yomon; juda ham, g‘oyat darajada, haddan tashqari; benihoya; borib turgan, naryog‘i yo‘q, o‘lguday; **elle chante effroyablement mal** u juda yomon kuylayapti; **il est effroyablement bête** u o‘lguday ahmoq; **une affaire effroyablement compliquée** haddan tashqari murakkab ish.

**effusion** *nf* **1. une effusion de sang** qon to‘kish, xunrezlik, qirg‘in; **2.** ochiq izhor, ifoda qilish; ko‘ngildagini ochiq aytish, yoritib gapirish; **avec effusion** qizg‘in, ehtiros bilan, otashin, astoydil; **remercier avec effusion** astoydil minnatdorchilik bildirmoq.

**égailler (s')** *vpr* tarqalishmoq, tarqalishib ketmoq; tumtaraqay bo‘lmoq; **les étudiants se sont égaillés à la vue des policiers** talabalar mirshablarni ko‘rib tumtaraqay bo‘lib ketishdi.

**égal[1], ale** *adj* **1.** baravar, teng, bir xil; **c'est égal** baribir, farqi yo‘q; **cela m'est égal** men uchun baribir, farqi yo‘q; **des angles égaux** teng burchaklar; **diviser en parties égales** teng bo‘laklarga bo‘lmoq; **être égal à** -ga teng, baravar bo‘lmoq; tenglashmoq; **égal en droit** bir xil huquqqa ega bo‘lmoq; **2.** to‘g‘ri; tekis, silliq, bir tekis; **chemin égal** tekis yo‘l.

**égal[2]** *nm* teng keladigan, baravar; **il est mon égal** u mening tengim; **nos égaux** bizga teng, biz bilan baravar kishilar.

**également** *adv* **1.** birdak, bir tekisda, teng; **sa fortune doit être également partagée entre ses deux enfants** uning boyligi uning ikki bolasi o‘rtasida teng taqsimlanishi kerak; **2.** shuningdek; shu bilan birga; **il est professeur de géographie, mais il enseigne également l'histoire** u geografiya o‘qituvchisi, ammo u shu bilan birga tarixdan ham dars beradi.

**égaler I.** *vt* **1.** teng bo‘lmoq; baravar bo‘lmoq; tenglashmoq; **les recettes égalent les dépenses** kirim va chiqim baravardir; **deux plus deux égale(nt) quatre** ikki karra ikki to‘rt, to‘rtga teng bo‘ladi; **2.** tenglashmoq, baravar kelmoq, bas kelmoq; **les qualités nutritives du seigle égalent celles du froment** to‘yimliligi jihatidan javdar bug‘doydan qolishmaydi; **3.** tenglashtirmoq; teng qilmoq; teng ko‘rmoq; **son dernier roman l'égale aux plus grands écrivains** uning oxirgi romani uni buyuk yozuvchilar qatoriga ko‘tardi; **II. s'égaler** *vpr* tenglashmoq, baravar bo‘lmoq, teng bo‘lmoq; **personne ne peut s'égaler à lui** unga hech kim tenglasha olmaydi.

**égalisation** *nf* **1.** tenglashtirish, baravrlashtirish; **2.** *sport* hisobni tenglashtirish, baravarlashtirish; durang qilish; **grâce à ce but notre équipe obtint l'égalisation** bu gol tufayli bizning jamoa hisobni tenglashtirdi; **3.** tekislash, baravarlash, tekislash.

**égaliser** *vt* tenglamoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq, baravarlashtirmoq; baravar qilmoq; **égaliser les prix** narxlarni tenglamoq; **égaliser les chances entre les concurrents** raqiblar imkoniyatini baravarlamoq; raqiblarga bir xil sharoit yaratmoq; **2.** *sport* hisobni tenglashtirmoq, baravar qilmoq; durang qilmoq; **notre équipe a égalisé une minute avant la fin du match** bizning jamoa o‘yin tugashidan bir minut avval hisobni baravarlashtirdi, durang qildi; **3.** tekislamoq, to‘g‘rilamoq, silliqlamoq, bir tekis qilmoq; **égaliser le terrain** maydonni tekislamoq.

**égalitaire** *adj* har jihatdan tenglik, teng huquqlilikka asoslangan.

**égalité** *nf* **1.** tenglik, baravarlik; **l'égalité de deux nombres** ikki sonning tengligi; **2.** to‘g‘rilik, tekislik, silliqlik; **l'égalité d'un terrain** maydonning tekisligi; **3.** har jihatdan tenglik, teng huquqlilik; **4.** bir tekisdalik; **l'égalité d'humeur** og‘irlik, vazminlik.

**égard** *nm* **1.** diqqat, e’tibor, qiziqish; **il n'a eu aucun égard à ce que je lui ai dit** u mening so‘zlarimga hech qanday e’tibor qilmadi; **à cet égard** bu jihatdan, hamma tomondan; **2.** *pl* hurmat, izzat, e’htirom, izzat-ikrom; **ils l'ont traité avec beaucoup d'égards cette fois** bu safar unga hurmat bilan qaradilar.

**égaré, ée** *adj* adashgan odam, yo‘ldan ozgan, chalg‘igan.

**égarement** *nm* adashish, yo‘ldan ozish; chalg‘ish, yo‘llamay ish qilish, bemulohazalik; **les égarements de la raison** fikrning chalg‘ishi.

**égarer I.** *vt* **1.** adashtirmoq, yo‘ldan ozdirmoq; **notre guide nous a égarés** yo‘l boshlovchimiz bizni adashtirib qo‘ydi; **2.** aldamoq, laqillatmoq; chalg‘itmoq; **ces fausses nouvelles égarent l'opinion publique** bu yolg‘on ovoza, mish-mishlar jamoatchilikni chalg‘itmoqda; **3.** yo‘qotmoq, yo‘qotib qo‘ymoq (*narsani*); **j'ai égaré mes lunettes** ko‘zoynagimni yo‘qotib qo‘ydim; **II. s'égarer** *vpr* **1.** adashmoq, adashib tentiramoq, yo‘ldan ozmoq; **ils se sont égarés dans la forêt** ular o‘rmonda adashib qoldilar; **2.** aylanib, sandiraqlab yurmoq, kezmoq, tentiramoq; **j'aime m'égarer dans ce quartier** men bu kvartalda tentirab yurishni sevaman; **3.** *fig* yanglishmoq; **là, tu t'égares complètement!** bu yerda sen butunlay xato qilayapsan; **4.** yo‘qolmoq, yo‘qolib qolmoq; **ce livre n'a pas pu s'égarer** bu kitob yo‘qolib qolishi mumkin emas.

**égayer I.** *vt* **1.** vaqtini chog‘ qilmoq, xursand qilmoq; **égayer les convives par ses histoires** hikoyalari bilan mehmonlarning vaqtini chog‘ qilmoq; **2.** jonlantirmoq, jon, ruh, fayz kiritmoq; **ces fleurs égayent la chambre** bu gullar xonaga fayz kiritdi; **II. s'égayer** *vpr* vaqti chog‘ bo‘lmoq, xursand bo‘lmoq; kayfi chog‘ bo‘lmoq; **s'égayer aux dépens de qqn** kulgi, masxara, mazax qilmoq, mayna qilmoq, kulmoq.

**égérie** *nf* maslahatchi; ilhomchi, ilhomlantiruvchi.

**égide** *nf* **1. sous l'égide de** biror narsa, kimsa panohida, himoyasida yoki rahbarligida; **une conférence organisée sous l'égide de l'UNESCO** YUNESKO rahbarligida chaqirilgan konferensiya; **prendre qqn sous son égide** biror kimsani o‘z himoyasiga olmoq.

**églantier** *nm* na’matak (*butasi*).

**églantine** *nf* na’matak (*guli*).

**églefin** *nm* piksha (*treskasimonlar oilasiga mansub baliq*).

**église** *nf* **1.** cherkov; **aller à l'église** cherkovga qatnamoq; **le clocher de l'église** cherkovda nikohdan o‘tmoq; **2. Eglise** cherkov (*nasroniylarning diniy tashkiloti, diniy jamoat*), **l'Eglise catholique** katolik mazhab; **l'Eglise orthodoxe** pravaslavlar mazhabi; **3.** nasroniy dini; **les pères de l'église** avliyo otalar ruhoniylarga hurmat bilan qilinadigan murojaat; **4.** ruhoniylar; cherkov ruhoniylari.

**égocentrique I.** *adj* egotsentrizmga oid, egotsentrik, egotsentrizm; xudbin; **II.** *n* egotsentrist, o‘taketgan manmanlik; o‘taketgan xudbinlik (*o‘zini hammadan baland qo‘yish*).

**égoïsme** *nm* egoizm, egoistlik, xudbinlik.

**égoïste I.** *adj* egoizmga va egoistga oid; egoistik; xudbinlik, egoistik; **un bonheur égoïste** egoistlik baxti; **II.** *n* egoist, xudbin (*faqat o‘z manfaatini ko‘zlaydigan, o‘zinigina sevadigan odam*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**égoïstement** *adj* egoistlarcha, xudbinlarcha; o'z manfaatinini ko'zlab.

**égorgement** *nm* so'yish, bo'g'izlash.

**égorger** *vt* **1.** bo'g'izlamoq, bo'g'ziga pichoq qo'ymoq, so'ymoq; **2.** *fam* talamoq, talon-taroj qilmoq.

**égorgeur** *nm* kallakesar.

**égosiller (s')** *vpr* **1.** bor ovozi bilan baqiraverib, qichqiraverib xirillab, bo'g'ilib, charchab qolmoq; **2.** ovozi boricha va uzoq ashula aytmoq.

**égout** *nm* **1.** suv oqadigan, oqib tushadigan nov, tarnov; **2.** suv oqadigan quvur, kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar sistemasi*).

**égoutier** *nm* kanalizatsiya ishchisi.

**égoutter I.** *vt* oqizmoq, tomizmoq, oqizib tushirmoq; sirqitmoq; **égoutter du fromage blanc** tvorog zardobini sirqitmoq; chakki qilmoq.

**égrapper** *vt* mevani boshidan, shingilidan ajratmoq, uzib olmoq.

**égratigner I.** *vt* **1.** timdalamoq, tirnamoq; yumdalamoq; **2.** *fig* gap bilan uzib, yo'yib olmoq; achitib gapirmoq; piching qilmoq; **II. s'égratigner** *vpr* **1.** timdalamoq, tirkamoq; timdalab, yumdalab, tirnab olmoq; **je me suis égratigné la main à un clou** qo'limni mixga tirnab oldim; **2.** timdalamoq, yulishmoq, bir-birini yulishmoq.

**égratignure** *nf* **1.** tirnalgan, timdalangan joy, tirnoq izi, chaqa; **2.** piching, achchiq, qattiq gap, zaharxanda; **il ne supporte pas la moindre égratignure** u piching gapni ko'tarmaydi.

**égrenage** *nm* g'alla yanchish; archish, po'chog'ini, po'stini olish, tozalash, oqlash.

**égrener I.** *vt* **1.** g'alla yanchmoq, archimoq, po'chog'ini, po'stini olmoq, tozalamoq, oqlamoq; **égrener le maïs** makkajo'xori yanchmoq; **égrener des petits pois** no'xat tozalamoq, po'chog'ini archmoq; **2.** poyasidan, shoxidan ajratmoq (*don, meva kabilarni*); **3.** tolani chigitdan ajratmoq; **4. égrener un chapelet** tasbeh o'girmoq; **5.** dona-dona ovoz chiqarmoq; **la pendule égrène les heures** soat dona-dona qilib zang urdi; **II. s'égrener** *vpr* **1.** to'kilmoq, to'kilib ketmoq; to'kilib tushmoq; **2.** birin-ketin, ketma-ket joylashmoq, turnaqator bo'lib joylashmoq; **les voitures s'égrenaient sur l'autoroute** katta yo'lda mashinalar turnaqator bo'lib ketgan edi.

**égreneuse** *nf* **1.** g'alla yanchish mashinasi; **2.** jin (*chigitdan paxtani ajratadigan mashina*).

**égrillard, arde** *adj* axloqsiz, yengiltak, hayosiz, uyatsiz, yaramas, beadab, og'zi shaloq; qaltis, qo'pol.

**égyptien, ienne I.** *adj* Misrga oid, Misr; **II.** *n* **1.** misrlik; **2.** *nm* qadimgi Misr tili; arab tilining Misr va Sudanda gapiriladigan dialekti.

**égyptologie** *nf* misrshunoslik.

**égyptologue** *n* misrshunos.

**eh!** *intj* hoy, hey, ey; **eh! là-bas, venez donc!** ey siz, buyoqqa keling!

**éhonté, ée** *adj* uyatsiz, benomus.

**eider** *nm* gaga (*shimoliy qutb suvlarida yashaydigan qimmatbaho parli o'rdak*).

**éjaculation** *nf physiol* urug', spermaning otilib chiqishi, maniy oqishi.

**éjaculer** *vt physiol* otmoq, otib chiqarmoq; to'kmoq, quymoq, oqizmoq (*urug', maniy haqida*).

**éjectable** *adj* **siège éjectable** katapulta qilinadigan, halokat yuz bergan hollarda ajralib chiqadigan o'rindiq (*uchish vositalarida*).

**éjecter** *vt* **1.** chiqarib tashlamoq, otmoq, irg'itmoq; **2.** *av* avtomatik ravishda irg'itib yubormoq; **3.** *fam* chiqarib qo'ymoq, haydab yubormoq.

**éjecteur** *nm* avtomatik qurollarda otilgan o'q gilzasini chiqarib tashlaydigan qism.

**éjection** *nf* **1.** otish, irg'itish, chiqarib tashlash; **l'éjection des douilles** otilgan, bo'shagan gilzalani chiraqib tashlash; **2.** *physiol* otilish, oqizish, tushirish; **3.** *fam* haydab yuborosh, quvib chiqarish.

**élaboration** *nf* **1.** tayyorlash, tuzish, yaratish, ishlab chiqish; tadqiq qilish, amalga oshirish; **l'élaboration d'un plan** reja tuzish; **l'élaboration d'une théorie** nazariya, yaratish ishlab chiqish; **2.** *physiol* singdirish, hazm qilish.

**élaborer** *vt* **1.** tayyorlamoq, tuzmoq, yaratmoq, ishlab chiqmoq; tadqiq qilmoq; **élaborer un ouvrage** asar yaratmoq; **2.** *physiol* singdirmoq, hazm qilmoq; hosil qilmoq, ishlab chiqmoq, ajratmoq; **les cellules hépatiques élaborent la bile** jigar o't, safro ishlab chiqaradi.

**élagage** *nm* **1.** shox-shabbalarni kesish, butash, siyraklash; **2.** *fig* chiqarib, o'chirib tashlash, tushirib qoldirish, qisqartirish.

**élaguer** *vt* **1.** shox-shabbalarni kesmoq, butamoq; **2.** *fig* chiqarib, o'chirib tashlamoq, tushirib qoldirmoq, qisqartirmoq; **élaguer un récit** hikoyani qisqartmoq.

**élan[1]** *nm* **1.** ishtiyoq, intilish; jo'shqinlik, shijoat; **les élans du cœur** ruhiy, ma'naviy jo'shqinlik; **dans un élan de générosité** himmati, tantiligi, mardligi tutib; **2.** chopib, yugurib kelishi; zalvar, zarb; **prendre son élan** sakrash, ko'tarilish uchun zarb bilan yugurib kelmoq, bormoq; **il prit son élan et sauta** u chopib, yugurib kelib sakradi; **un saut avec élan** yugurib kelib sakrash.

**élan[2]** *nm* los (*bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon*).

**élancé, ée** *adj* kelishgan, xushbichim, xushqad; qaddi-qomati raso, nozikniho*l*; **une jeune fille élancée** qaddi-qomati kelishgan qiz.

**élancement** *nm* **1.** sanchiq, sanchib og'rish; **j'ai des élancements dans la jambe** oyog'im sanchib og'riyapti; **2.** *litt* intilish, ishtiyoq, niyat, kuchli orzu.

**élancer I.** *vt* **1.** qattiq, sanchib og'ritmoq; **2.** yuqoriga ko'tarmoq, baland ko'tarilmoq, tiklamoq; **III. s'élancer** *vpr* intilmoq, shoshilmoq, otilmoq, tashlamoq, o'zini otmoq; **il s'élance vers la porte** u eshik tomon o'zini otdi; **ils s'élancent à son secours** ular yordamga shoshildilar.

**élargir I.** *vt* **1.** kengaytirmoq, keng, katta ochmoq, yirmoq; **élargir une rue** ko'chani kengaytirmoq **élargir un trou** teshikni kengaytirmoq; **2.** *fig* kuchaytirmoq, chuqurlashtirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq; **élargir son influence** ta'sirini kuchaytirmoq; **élargir ses connaissances** bilimini chuqurlashtirmoq; bilim darajasini kuchaytirmoq; **3.** ozod qilmoq; qo'yib yubormoq; **II. s'élargir** *vpr* **1.** kengaymoq, oshmoq, ortmoq; **la route s'élargit** yo'l kengaymoqda; **2.** *fig* **mon horizon s'est élargi** mening saviyam ortdi.

**élargissement** *nm* **1.** kengaytirish; kengayish; **2.** ozod qilish; erkinlikka chiqarish.

**élasticité** *nf* **1.** elastiklik, egiluvchanlik, qayishqoqlik; **l'élasticité du caoutchouc** rezinaning elastikligi; **2.** *fig* moslashuvchanlik, moslashish qobiliyati; **il manque d'élasticité** uning moslashish qobiliyati yo'q.

**élastique I.** *adj* **1.** egilib yoki ichiga botib yana asliga, ilgarigi holatiga qayta oladigan, elastik, egiluvchan, qayishqoq, tarang, dirkillama; **2.** prujinasimon, egiluvchan, cho'ziluvchan, yig'iluvchan, qayishuvchan; yumshoq; **3.** epchil, chaqqon, ildam, dadil, ravon, yengil, dingillama; **4.** egiluvchan, har xil shaklga solsa bo'laveradigan, har xil tushunsa, har xil izohlasa bo'laveradigan, o'zgaruvchan; **II.** *nm* **1.** rezinka tasma, rezinkali ip; **2.** elastik (*cho'ziluvchan sintetik tola va shu toladan to'qilgan narsalar*).

**eldorado** *nm* eldorado, xayoliy o'lka (*misli yo'q boyliklar mamlakati*).

**électeur, trice** *n* saylovchi.

**électif, ive** *adj* saylanadigan; saylab qo'yiladigan, saylov yo'li bilan taynlanadigan; **une charge élective** saylov yo'li bilan tayinlanadigan vazifa.

**élection** *nf* **1.** saylash; **2.** *pl* saylov; **les élections législatives** parlament saylovi; **se présenter aux élections** saylovga o'z nomzodini qo'ymoq; **des élections à deux tours** ikki bosqichdan iborat saylovlar; **l'élection au vote secret** yashirin ovoz beriladigan saylov; **3. d'élection** tanlangan; jondan sevgan, yaxshi ko'rgan, yoqtirgan; ortiq, afzal ko'rgan.

**électoral, ale** *adj* saylovga oid, saylov; saylov oldi; **réunion électorale** saylov majlisi; **loi électorale** saylov haqidagi qonun; **le droit électoral** saylash huquqi; **la circonscription électorale** saylov okrugi; **la liste électorale** saylovchilar ro'yxati; **en période électorale** saylov paytida; **la propagande électorale** saylov oldi tashviqoti; **faire sa campagne électorale** saylov oldi kompaniyasini olib bormoq.

**électorat** *nm* **1.** saylovchilar; **l'électorat français** fransuz saylovchilar; **l'électorat féminin** ayol saylovchilar; **2.** saylash huquqidan foydalanish.

**électricien** *nm* elektrotexnik; elektromontyor.

**électricité** *nf* **1.** elektr; **l'électricité atmosphérique** atmosfera elektri; **2.** elektr, elektr yorug'i, elektr chiroqlari; **3.** elektr energiyasi; **l'alimentation en électricité** elektr energiyasi bilan ta'minlash; **fonctionner à l'électricité** elektr energiyasi vositasida ichlamoq; **4.** elektr sanoati.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**électrification** *nf* elektrifikatsiya; elektrlashtirish, elektr energiyasi bilan ta'minlash; **l'électrification des chemins de fer** temir yo'llarni elektrlashtirish.

**électrifier** *vt* elektrlashtirmoq, elektr energiyasi bilan ta'minlamoq.

**électrique** *adj* **1.** elektrga oid; elektr; elektrik; **l'énergie électrique** elektr energiyasi; **le courant électrique** elektr toki; **l'éclairage électrique** elektr yordamida yoritish; **les appareils électriques** elektr asboblari; **une ampoule électrique** elektr lampochka; **2. bleu électrique** ko'kimtir kul rang.

**électriquement** *adj* elektr energiyasi yordamida, elektr energiyasida.

**électriser** *vt* **1.** elektrlamoq, zaryadlamoq; **2.** *fig* hayajon-lantirmoq, hayajonga keltirmoq; ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq; yondirmoq, alanga oldirmoq.

**électro-aimant** *nm* elektromagnit.

**électrocardiogramme** *nm* elektrokardiogramma.

**électrochoc** *nm* elektroshok; **un traitement par électrochocs** elektrotok yordamida davolash.

**électrocuter** *vt* **1.** tok urib o'ldirmoq; **coupe le courant, sinon tu vas te faire électrocuter** elektrni o'chir, bo'lmasa seni tok urib o'ldiradi; **2.** elektr kursiga o'tqazib qatl qilmoq.

**électrocution** *nf* **1.** tok urib o'lish; **2.** elektr kursiga o'tqazib qatl qilish.

**électrode** *nf* elektrod.

**électrodynamique I.** *adj* elektrodinamik, elektrodinamikaga oid; **II.** *nf* elektrodinamika (*fizikaning bir bo'limi*).

**électro-encéphalogramme** *nm* elektroensefalogramma.

**électrogène** *adj* elektr ishlab chiqaruvchi, elektr ichlab chiqaradigan; elektr energiyasi hosil qiladigan; **un groupe électrogène** generator (*agregat*).

**électrolyse** *nf* elektroliz (*moddani, shu modda eritmasi orqali elktr toki o'tkazib, tarkibiy qismlarga ajratish*).

**électrolyser** *vt* elektr toki ta'sirida parchalamoq.

**électrolyte** *nm* elektrolit.

**électrolytique** *adj* elektrolizga oid; elektroliz; elektroliz yo'li bilan olinadigan.

**électromagnétisme** *nm phys* elektromagketizm.

**électroménager** *adj m* ro'zg'or elektr asboblariga oid; **les appareils électroménagers** ro'zg'or elektr asboblari.

**électromoteur, trice I.** *adj phys* **force électromotrice** elektr toki hosil qiluvchi kuch; **II.** *nm* eliktrodvigatel, elektromator.

**électron** *nm* elektron.

**électronicien, ienne** *n* elektronchi, elektronshunos (*elektronika mutaxassisi*).

**électronique I.** *adj* elektronga oid, elektron; **un tube électronique** elektron lampa; **un microscope électronique** elektron mikroskop; **un calculateur électronique** elektron-hisoblash mashinasi; **II.** *nf* elektronika (*fizikaning elektron jarayonlar haqidagi bo'limi*).

**électrophone** *nm* elektroproigrivatel.

**électrostatique I.** *adj phys* elektrostatikaga oid; elektrostatik, elektrostatika; **II.** *nf* elektrostatika (*fizikaning elektr zaryadlari haqidagi bo'limi*).

**élégamment** *adj* **1.** nozik did bilan, nazokat bilan; chiroyli; **2.** mohirona, san'atkorona, mahorat, mohirlik, ustalik bilan, epchillik bilan; **il est sorti élégamment de la situation** u vaziyatdan ustalik bilan chiqib ketdi.

**élégance** *nf* **1.** nafislik, noziklik, nafosat, latofat, nazokat, go'zallik, bejirimlik; **élégance dans les formes, les mouvements** tashqi qiyofadagi, harakatdagi nafislik, noziklik; **l'élégance d'une silhouette** qomatning bejirimligi; **2.** *litt* nafislik, noziklik, go'zallik (*so'z, ibora, uslub*); **l'élégance d'un style** stil, uslubning nafisligi; **3.** bashanglik, orastalik, zebolik, kelishganlik, xushbichimlik; **une femme d'une élégance raffinée** orasta kiyingan ayol; **l'élégance de sa robe** ko'ylagining xushbichimligi; **4.** ziyraklik, o'tkirlik, sezgirlik, sergaklik; xushmuomalalik, nazokatlilik, odoblilik; **ce procédé manque d'élégance** bunday muomala, fe'l-atvor nojo'yadir.

**élégant, ante I.** *adj* **1.** nafis, nozik, nafosatli, latofatli, nazokatli, go'zal, bejirim; **2.** *litt* nozik, nafis, go'zal (*ibora, so'z, uslub haqida*); **une phrase élégante** nafis ibora; **un style élégant** nafis uslub; **3.** bashang, bejirim, orasta, zebo, kelishgan, xushbichim; **une femme élégante** kelishgan ayol; **4.** nazokatli, odobli, xushmuomala; sezgir, sergak; nafis, nozik; **il a trouvé une solution élégante au problème** u masalaning nozik yechimini topdi; **II.** *n* olifta, yasanchoq.

**élégiaque I.** *adj* **1.** elegiyaga oid; elegik; **des poèmes élégiaques** elegik poema; **2.** mungli, g'amgin, hazin; **des accents élégiaques** mungli, ohanglar; **II.** *nm* elegik shoir.

**élégie** *nf littér* elegiya, mungli lirik she'r.

**élément** *nm* **1.** unsur (*tabiatning asosiy elementlaridan har biri: olov, havo, yer, suv*); **les quatre éléments** to'rtta unsur (*tabiatning boshlanishi: olov, yer, havo, suv*); **2.** *fig* o'rgangan, odatlangan muhit yoki sharoit, yaxshi ko'rgan narsa, sevimli ish; **être dans son élément** odatlangan sharoitda, muhitda bo'lmoq; **3.** *chim* element; **un élément radioactif** radioaktiv element; **la classification périodique des éléments de Mendeleïev** Mendeleevning elementlar davriy sistemasi; **4.** *phys* element (*o'zgarmas elektr toki manbai*); **5.** element, tarkibiy qism, detal; **les éléments d'un ensemble** butunning tarkibiy qismlari; **décomposer un corps en ses éléments** moddani tarkibiy qismlarga ajratmoq; **6.** *pl* fan asoslari, tushuncha; **les éléments du langage** til birliklari; **7.** odam, kishi, unsur, element (*biror sotsial tabaqa a'zosi sifatida*); **les éléments progressistes de la société** jamiatning ilg'or kishilari; **8.** *mil* qism, bo'linma.

**élémentaire** *adj* **1.** boshlang'ich kurs; **les principes élémentaires de la géométrie** geometriyaning asosiy tushunchalari; **2.** juda sodda (*soddalashtirib yuborilgan*); oddiy, eng oson, yuzaki; **une question élémentaire** soda, eng oson savol; **il a des notions élémentaires de chimie** u kimyoviy hodisalar haqidagi yuzaki tushunchaga ega; **3.** *phys* **une particule élémentaire** elementar zarracha; **l'analyse élémentaire** elementar analiz.

**éléphant** *nm philos* **faire d'une mouche un éléphant** pashshadan fil yasamoq.

**éléphanteau** *nm* fil bolasi.

**éléphantiasis** *nf méd* fillashuv, yiriklashuv (*teri va teri osti hujayralarining keskin qalinlashuvi tufayli biror a'zoning, ko'pincha oyoqlarning g'oyat katta, yirik bo'lib ketish kasalligi*).

**élevage** *nf* chorvadorlik, chorvachilik; o'stirish, parvarish qilish, ko'paytirish (hayvonlar haqida); **l'élevage du bétail** chorvachilik; **l'élevage de chevaux** yilqichilik; **l'agriculture et l'élevage** qishloq xo'jaligi va chorvachilik.

**élévateur, trice I.** *adj* **1.** yuk ko'taradigan, ko'tarma; **un appareil élévateur** yuk ko'taradigan qurilma; yuk ko'targich; **2.** *anat* **un muscle élévateur** (*tananing ba'zi qismlarini*) ko'taruvchi mushak; **II.** *nm* **1.** yuk ko'targich; yuk ko'taruvchi qurilma; **2.** elevator (*mexanizatsiyalashtirilgan katta g'alla ombori*).

**élévation** *nf* **1.** ko'tarish, baland qilish, oshirish; ko'tarilish, oshirilish; **l'élévation des bras au-dessus de la tête** qo'lni boshdan yuqori ko'tarish; **l'élévation du niveau des eaux** suv sathining ko'tarilishi; **l'élévation de la température** temperaturaning ko'tarilishi; **2.** oshirish, ko'tarish; qurish, barpo qilish; ko'tarilish, qurilish; **l'élévation d'un barrage** to'g'on qurish; to'g'onning qurilishi, barpo etilishi; **3.** *fig* ko'tarish, oshirish, darajasini, martabasini ko'tarish, ko'tarilish; darajasi, martabasi oshish; **4.** oshirish, ko'tarish; oshish, o'sish, ko'tarilish (*narx-navo haqida*); **l'élévation du niveau des prix** narx-navoning oshishi; **5.** ko'tarish, balandlatish (*ovoz, ohang haqida*); **sans la moindre élévation de voix** ovozni zarracha ko'tarmay, ko'tarmasdan; ovozi zarracha ko'tarilmay, ko'tarilmasdan; **6.** ko'tarinkilik, yuksaklik, olijanoblik; oliyhimmatlik; **7.** *math* **l'élévation au carré** kvadratga ko'tarish, darajaga ko'tarish; **8.** *géom* kesim, profil (*biror narsaning ko'ndalangiga yoki uzunasiga kesilgan umumiy ko'rinishi*); yon tomon, yon tomondan ko'rinishi **9.** balandlik, do'nglik; tepalik; baland joy, tepa, o'r, qir; **derrière la maison il y avait une élévation de terrain** uyning orqasida do'nglik joy bor edi.

**élève** *n* **1.** o'quvchi; talaba; **un élève de première année** birinchi sinf o'quvchisi; **un élève officier** harbiy bilim yurti kursanti; **l'assemblée des élèves** o'quvchilarning yig'ilishi; **l'association des parents d'élèves** ota-onalar qo'mitasi; **2.** shogird; muxlis, izdosh.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**élevé, ée** *adj* **1.** baland, yuksak, yuqori; **un sommet élevé** baland cho'qqi; **un lieu élevé** balandlik, do'nglik, baland joy; **2.** yuqori, baland, katta; muhim; ahamiyatli; **un grade élevé** yuqori mansab; **un prix élevé** yuqori, baland narx; **une température élevée** yuqori, baland temperatura; **3.** *litt* yuksak, olijanob, oliyhimmat; ko'tarinki, yuksak, buyuk; **des pensées élevées** olijanob fikrlar; **4. bien, mal élevé** yaxshi, yomon tarbiya ko'rgan, tarbiyali, tarbiyasiz, ta'limli, ta'limsiz, odobli, odobsiz, boadab, beadab; xushmuomala, qo'pol; **un garçon bien élevé** yaxshi tarbiya ko'rgan bola; **il est mal élevé** u yomon tarbiya ko'rgan.

**élever** *vt* **1.** ko'tarmoq, baland qilmoq; yashirmoq; **2.** ko'tarmoq, qurmoq, solmoq, barpo qilmoq, yaratmoq; **élever une maison** uy qurmoq; **élever un mur autour d'un jardin** bog' atrofini devor bilan o'ramoq; **élever un monument aux victimes de la guerre** urush qurbonlari xotirasiga monument o'rnatmoq; **3.** ko'tarilish, baland qilish, balandlatish (*ovoz, ohang haqida*); **5.** ko'tarilmoq, oshirmoq (*narx-navo haqida*); **élever le taux de l'intérêt** foyda miqdorini oshirmoq; **élever le niveau de vie** turmush tarzini yaxshilamoq; **6.** ko'tarmoq, oshirmoq, darajasini, martabasini oshirmoq; **7.** *fig* ulug'lamoq, yuksaklikka ko'tarilmoq; shon-sharaf keltirmoq; boyitmoq, oshirmoq; ma'naviy jihatdan yaxshilamoq, fazilatlarni oshirmoq; **8.** *math* darajaga ko'tarmoq; **élever un nombre au carré** sonni darajaga ko'tarmoq; **9.** e'tiroz, qarshi fikr bildirmoq, qarshilik qilmoq, qarshi chiqmoq; so'z qaytarmoq; **10.** tarbiyalamoq, tarbiya qilmoq; **il faut élever la jeunesse dans le respect des traditions** yoshlarni an'analarga hurmat ruhida tarbiyalamoq lozim; **11.** urchitmoq; boqmoq, o'stirmoq, parvarish qilmoq, boqib ko'paytirmoq; **élever des lapins** quyon boqib, ko'paytirmoq; **II. s'élever** *vpr* **1.** ko'tarilmoq, balandlamoq; uchmoq; **2.** ko'tarilmoq, balandlamoq, oshmoq; **pendant la nuit l'eau s'est élevée d'un mètre** kechasi bilan, tunda suv bir metrga ko'tarildi; **la température s'élève rapidement** temperatura tez ko'tarilmoqda; **3.** ko'tarilmoq, balandlamoq; eshitilmoq, yangramoq; **une voix s'éleva** bir ovoz yangradi; **le vent s'élève** shamol ko'tarilmoqda; **4.** qad ko'tarmoq, bo'y cho'zmoq; yuksalmoq, yuksalib, baland ko'tarilib, qad ko'tarib turmoq; **la ville s'élève au bord du fleuve** shahar daryo bo'yida qad ko'tarib turibdi; **5.** e'tiroz bildirmoq; qarshi chiqmoq; qarshilik qilmoq; qarshi gapirmoq; bosh ko'tarmoq; **s'élever contre l'injustice** adolatsizlikka qarshi bosh ko'tarmoq; **6.** etmoq, ko'tarilmoq; tashkil qilmoq; **mes dépenses s'élèvent à mille francs** mening sarf-xarajatlarim ming frankka yetdi; **7.** erishmoq, muvaffaq bo'lmoq, qozonmoq, ma'lum muddat yoki yaxshi xizmat qilib ko'tarilmoq; olmoq; **8.** tarbiyalanmoq, tarbiya, ta'lim-tarbiya olmoq, tarbiyalanib yetishmoq, tarbiya ko'rmoq; **une fille s'élève plus facilement qu'un garçon** qiz bolani o'g'il bolaga nisbatan tarbiyalash osonroq; **9.** boqilmoq, parvarish qilinmoq; boqib ko'paytirilmoq, urchimoq.

**éleveur, euse** *n* chorvador, chorvachi; **éleveur de volaille** parrandachi, parrandaboqar.

**elfe** *nm* elf (*skandinav afsonalarida ruh, pari kabi afsonaviy maxluq*).

**élider** *vt* unli tovushni tushirib qoldirmoq; **élider un "e" muet** talaffuz qilinmaydigan "e"ni tushirib qoldirmoq.

**éligibilité** *nf* saylanishga yaroqlilik; saylanish huquqi.

**éligible** *adj* saylanadigan, saylanish huquqiga ega bo'lgan.

**élimer** *vt* kiyaverib eskirtmoq, kiyaverib to'zdirmoq, tamom qilmoq; **chemise élimée aux manches** yengi to'zgan ko'ylak.

**élimination** *nf* **1.** chetlatish, chetlashtirish, siqib chiqarish; haydash, aralashtirmay qo'yish, bartaraf qilish, yo'qotish; **l'élimination des défauts** kamchilik, nuqsonlarni bartaraf qilish; **l'élimination d'un rival** raqibni siqib chiqarish; **2.** *math* tashlash, tashlab yuborish; **procéder par élimination** tashlab yuborish metodidan foydalanmoq; **3.** *physiol* organizmdan ajralib chiqqan narsa (*ter, yiring kabilar*).

**éliminatoire I.** *adj* saralaydigan, saralash; tanlaydigan; chetga chiqarib qo'yadigan; **épreuve éliminatoire** saralaydigan, saralash, konkurs sinovi; **II.** *nf sport* saralash musobaqasi.

**éliminer** *vt* **1.** chiqarib tashlamoq; o'chirmoq, nomini o'chirib qo'ymoq (*saralash natijasida*); **les équipes éliminées de la coupe** kubok o'yinlaridan chiqib ketgan jamoalar; **éliminer un candidat** nomzodni o'chirib qo'ymoq; **2.** bartaraf qilmoq, yo'qotmoq, tashlab yubormoq; **éliminer les difficultés** qiyinchiliklarni bartaraf qilmoq; **éliminer les inconnus d'une équation** tenglamaning noma'lumlarini tashlab yubormoq; **3.** *physiol* chiqarib yubormoq; ajratib tashlamoq; **éliminer les toxines** zaharli moddalarni chiqarib tashlamoq (*tirik organizmlar hosil qiladigan*).

**élire** *vt* **1.** saylamoq, ovoz bermoq; **élire un député** deputat saylamoq; **il a été élu président à l'unanimité** u bir ovozdan prezident qilib saylandi; **2.** *loc* **élire domicile**; ko'chib borib, ko'chib kelib joylashmoq; ko'chmoq, joylashmoq o'rnashmoq; **il a élu domicile à Paris** u Parijga joylashdi.

**élision** *nf ling* eliziya, unlining tushib qolishi.

**élite** *nf* sara, tanlangan kimsa; eng yaxshi namranda (*kishi haqida*); **d'élite** ilg'or, dongdor, sara; eng yaxshi.

**élixir** *nm* eliksir; damlama, damlab chiqarilgan, so'rilib chiqqan narsa; **l'élixir parégorique** opium, ko'knori damlamasi.

**elle** (*pl* **elles**) *pron pers f* u; **elle n'est pas à la maison** u uyda emas; u uyda yo'q; **je travaille avec elle** men u ayol bilan birga ishlayman.

**elles** *pron pers f pl* ular (*voir* **elle**).

**ellipse**[1] *nf géom* ellips (*berk egri chiziq*).

**ellipse**[2] *nf ling* ellipsis (*so'z yo'ki gap bo'lagining gapda tushib qolishi*).

**ellipsoïde I.** *nm* ellipsoid; **la Terre a un ellipsoïde** yer ellipsoid shakliga ega; **II.** *adj* ellipsoidga o'xshash, ellipsoidsimon, ellipsga oid; **une figure ellipsoïde** ellipssimon, ellipsoid shakl.

**elliptique**[1] *adj géom* ellipsga oid, elliptik, ellips; **les fonctions elliptiques** elliptik funksiyalar.

**elliptique**[2] *adj ling* ellipsisga oid; elliptik, ellipsis; noto'liq, qisqargan (*gap, ibora haqida*); **une construction elliptique** noto'liq, qisqargan birikma.

**élocution** *nf* nutq, gapirish, so'zlash tarzi; **il a une élocution trop rapide** u juda tez gapiradi.

**éloge** *nm* **1.** maqtov, madhiya, maqtovdan iborat nutq; **il prononça l'éloge funèbre du disparu** u marhumning dafn marosimida nutq so'zladi; **2.** xushomad, tilyog'lama maqtov; xush yoqadigan gap; **faire l'éloge de qqn** birovni maqtamoq.

**élogieusement** *adj* maqtab, madhiya aytib, yaxshilab, maqtov bilan.

**élogieux, euse** *adj* maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov, madhiya; yaxshi; **faire un rapport élogieux** maqtovli, yaxshi baho bermoq; **parler de qqn en termes élogieux** biror kimsani maqtab gapirmoq.

**éloigné, ée** *adj* **1.** yiroq, olis, uzoq; uzoqdagi, olisdagi; **sa maison n'est pas très éloignée de la gare** uning uyi vokzaldan uncha uzoq emas; **un parent éloigné** uzoq qarindosh; **2.** qadimgi, burungi, ko'p yil o'tgan; ilgarigi, eski vaqtlardagi; uzoq (*vaqtga nisbatan*); **en ces temps éloignés** o'sha qadim zamonlarda, burungi vaqtlarda; **dans un avenir éloigné** uzoq kelajakdagi istiqbol; **3.** *fig* biror narsa qilishni ko'ngliga yoki xayoliga keltirmagan yoki keltirmaydigan, yaqinlashmagan, kelishmagan; to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan; o'xshamagan, o'xshash emas; boshqacha; uzoq; **ce récit est très éloigné de la vérité** bu hikoya haqiqatdan juda uzoq.

**éloignement** *nm* **1.** uzoqlashtirish; yiroqlashtirish; yo'qotish, yo'q qilish, bo'shatish, chetlashtirish; haydash (*ishdan*), uzoqqa ko'chirish; uzoqlashish; yiroqlashish, yo'qolish; chetlashish; **prendre des mesures d'éloignement à l égard de qqn** biror kimsani ishdan haydash haqida buyruq bermoq; **l'éloignement des usines du centre des villes** zavodlarni shaharlar markazidan chetlashtirish; **2.** uzoq joy, olis joy, yiroq joy, olis masofa, olislik, yiroqlik, uzoqlik, uzoqdalik; **vivre dans l'éloignement de tous** odamlardan olisda yashamoq; **l'éloignement dans le temps** vaqt o'tganlik.

**éloigner I.** *vt* **1.** uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq, chetlashmoq; chetga chiqarmoq; boshqa joyga surmoq; **éloigner la chaise de la fenêtre** kursini derazadan uzoqlashtirmoq; **2.** kechiktirmoq, keyinga surmoq, orqaga surmoq, keyinga qoldirmoq; cho'zmoq; ko'chirmoq (*vaqtga nisbatan*); **éloigner une échéance** to'lov muddatini cho'zmoq, kechiktirmoq; **éloigner l'heure de la rencontre** uchrashuvni keyinga surmoq; **II. s'éloigner** *vpr* **1.** uzoqlashtirmoq, uzoqlashib qolmoq, uzab ketmoq; yiroqlashmoq; jo'nab ketmoq; **il ouvrit la porte et s'éloigna rapidement** u eshikni ochib, tezda uzoqlashib ketdi; **2.** o'tmoq, o'tib ketmoq, uzoqlashtirmoq (*vaqtga nisbatan*) **c'est une époque qui commence à s'éloigner** bu bizdan uzoqlashib ketayotgan davrdir; **3.** *fig* uzoqlashmoq; chetga chiqmoq, chetlashtirmoq; **s'éloigner du sujet** mavzudan chetga chiqmoq; **cette théorie s'éloigne trop de la réalité** bu nazariya haqiqatdan juda uzoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**élongation** *nf* **1.** *méd* pay cho'zilishi, to'qimaning shikastlanishi, et uzilishi; *chir* cho'zish, uzaytirish; **2.** *astron* elongatsiya.

**éloquemment** *adj* gapni o'rinlatib, o'rniga qo'yib, ustalik, chechanlik bilan, chiroyli.

**éloquence** *nf* **1.** gapga chechanlik, ustalik, notiqlik; **l'éloquence de Cicéron** Sitseronga xos notiqlik; **l'art de l'éloquence** notiqlik san'ati; ritorika; **2.** nutq, notiqlik san'ati; **3.** *fig* mazmundorlik, ma'nodoshlik, ishonarlilik, asoslilik; ifodalilik; **l'éloquence des chiffres** raqamlarning ishonarliligi, yaqqolligi.

**éloquent, ente** *adj* **1.** gapga chechan, gapga usta, gapdon, so'zamol; notiq; **un député éloquent** gapga chechan deputat; **parler en termes éloquents** yaqqol, ochiq oydin gapirmoq; **2.** ma'nodor, mazmunli, ta'sirli, yaqqol, ochiq-oydin, ifodali; **un silence éloquent** ma'nodor jimjitlik; **un geste éloquent** ma'noli imo-ishora.

**élu, ue I.** *adj* saylangan; saylab qo'yilgan; **un président élu** saylangan president; **II.** *n* **1.** saylangan, saylab qo'yilgan kishi, vakil; **les élus du peuple** xalq saylagan, saylab qo'ygan kishi; **2.** sevgili, yor, mahbub, mahbuba; **3.** taqdir kulib boqqan kishi; xudoning marhamatiga sazovor bo'lgan kishi.

**élucidation** *nf* tushuntirish, anglatish, tushuntirib berish, ravshanlashtirish, sirini yoki ma'nosini ochib berish; fosh etish.

**élucider** *vt* tushuntirmoq, anglamoq, tushuntirib bermoq; ma'nosini ochib bermoq; oydinlashtirmoq; aniqlik kiritmoq, ravshanlashtirmoq; ravshanlik kiritmoq; **élucider une question** masalaga ravshanlik kiritmoq.

**élucubration** *nf* siyqa ma'noli asar yoki nazariya, mahmadonachilik, safsata.

**éluder** *vt* o'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq; chap bermoq; chalg'itib, gapni burib, aylantirib qutulmoq; gapni burib, javobdan qutilib qolmoq; **éluder une difficulté** qiyinchilikdan qochmoq; **Il essaie d'éluder le problème** muammodan o'zini olib qochishga harakat qilmoqda.

**élytre** *nm* qanotqalqon, qattiq qanot (*qo'ng'iz va hasharotlarda*).

**émacié, ée** *adj* ozib-to'zib ketgan, oriq, ozg'in, rangi bir holatda, ramaqijon; **un visage émacié** ozg'in, so'lg'in yuz, oriq yuz.

**émail** *nm* **1.** emal, sir (*maxsus bo'yoq*); **2.** emal (*tishning tabiiy qoplamasi*); **3.** sirlangan san'at buyumlari, sirli narsalar.

**émailler** *vt* **1.** emal qoplamoq, sirlamoq; **2.** *litt* rang-barang bo'lib qoplab olmoq; qoplamoq, to'ldirmoq; **des étoiles émaillaient le ciel** osmonni yulduzlar qoplab olgan edi; **les fleurs qui émaillent les prés** o'tloqlarni qoplagan gullar; **3.** *fig* nutqni bejab gapirmoq, gapga maqol, matal, kinoya kabilarni qo'shib gapirmoq; boy, serob, mo'l-ko'l bo'lmoq; **émailler un discours de citations** sitatalarni qo'shib gapirmoq (*nutqda*); **le voyage a été émaillé d'incidents** sayohat sarguzashtlarga boy bo'ldi.

**émailleur, euse** *n* sirchi, sirlovchi usta.

**émanation** *nf* **1.** *pl* bug', par; is, bo'y, hid; gaz; **2.** taratish, tarqatish, taralish, chiqarish; **3.** *chim* emanatsiya (*radiaktiv nurlanishda vujudga keladigan gazsimon mahsul*); **4.** *fig* ko'rinish, namoyon bo'lish; ifoda; **cette assemblée n'est pas l'émanation du peuple** bu yig'ilish xalq istagining ifodasi, namoyon bo'lishi emas.

**émancipation** *nf* ozodlik, ozod bo'lish, qutilish, ozod qilish, erkinlikka chiqarish, erkinsizlikdan qutqarish, **l'émancipation des esclaves** qullarni ozod qilish; **l'émancipation de la femme** xotin-qizlar ozodligi; xotin-qizlarni erkinlikka chiqarish; **2.** *dr* yuridik salohiyat berish; **l'émancipation d'un mineur** norasida, balog'atga yetmagan bolaning yuridik salohiyatga ega bo'lishi.

**émanciper I.** *vt* **1.** ozod qilmoq, erkinsizlikdan qutqarmoq, erkinlikka, ozodlikka chiqmoq; **émanciper un esclave** qulni ozod qilmoq; **émanciper le peuple** xalqni ozod qilmoq, xalqqa ozodlik bermoq; **émanciper la femme** ayolni erkinlikka chiqarmoq; **2.** *dr* yuridik salohiyat (*yuridik aktlarni bajarish huquqiga ega bo'lish va o'z qilmishiga javob bera olish*) huquqini bermoq; **II. s'émanciper** *vpr* ozod bo'lmoq, erkinlikka chiqmoq.

**émaner** *vi* **1.** kelmoq, chiqmoq, tarqalmoq; ajralmoq, ajralib chiqmoq, tarqalmoq, anqimoq; **la chaleur émane du four** issiqlik pechdan tarqalmoqda; **2.** *fig* chiqmoq, boshlanmoq; kelmoq, kelib chiqmoq; **cet ordre émane du ministère** bu buyruq vazirlikdan chiqyapti.

**émargement** *nm* **1.** hoshiyadagi yozuv, belgi, qayd; **2.** imzo chekish, qo'l qo'yish, imzolash, imzolanish; **l'émargement d'un contrat** shartnomani imzolash; shartnomaning imzolanishi.

**émarger I.** *vt* **1.** hoshiyani kesmoq (*sahifa, kitobda*); **2.** imzo chekmoq, qo'l qo'ymoq, imzolamoq; **II.** *vi* **(à)** *fig* subsidiya olmoq (*yordamga beriladigan pul, mablag'*); **émarger au budget de l'Etat** davlat budjetidan subsidiya olmoq.

**émasculer** *vt* **1.** bichmoq, axta qilmoq (*hayvonlar haqida*); **2.** *fig* eng kerak joyini, mag'zini olib tashlamoq; bemazalashtirmoq; mazmunini kambag'allashtirmoq; ta'sirsiz qilib qo'ymoq; sayozlashtirmoq, ma'zasini qochirmoq; **émasculer un projet** proyektni mag'zini olib tashlamoq; **émasculer la phrase** gapning mazasini qochirmoq.

**émaux** *voir* **émail**.

**emballage** *nm* **1.** joylash, o'rash; **emballage de livres** kitoblarni joylash, o'rash; **2.** tara, mahsulot o'raladigan yoki joylanadigan narsa (*qop, yashik, karton, qog'oz*); **un papier d'emballage** narsa o'raladigan qog'oz; **consigner l'emballage** tara uchun pul olmoq.

**emballement** *nm* **1.** qiziqish, berilib ketish, ishqibozlik; **son emballement pour le sport n'a pas duré** uning sportga ishqibozligi uzoqqa cho'zilmadi; **2.** ehtiros, qizg'inlik, qiziqqonlik; qoni qaynash, g'azablashish; **3.** *techn* eng yuqori rejimda ishlatish.

**emballer**[1] *vt* **1.** o'ralmoq, joylamoq, qog'oz xaltalarga solmoq; **emballer des fruits** mevalarni joylab o'ramoq; **emballer de la vaisselle** idish-tovoqlarni o'rab bog'lamoq; **2.** *fam* qamoqqa, hibsga yoki qo'lga olmoq, qamoqqa olib ketmoq; **les flics l'ont emballé hier matin** kecha ertalab politsiyachilar uni hibsga oldilar.

**emballer**[2] **I.** *vt* **1.** *techn* **emballer son moteur** motorni eng katta tezlik bilan aylantirmoq; motorni eng katta tezlikda ishlatmoq; **2.** *fam* g'oyat zavqlantirmoq; qoyil qoldirmoq; **ça ne m'emballe pas** bu meni qoyil qoldirmaydi; **II. s'emballer** *vpr* **1.** olib qochmoq, olib qochib ketmoq (*ot*); **son cheval s'emballa** uni oti olib qochdi; **2.** bor kuchi bilan, zo'riqib ishlamoq (*motor*); **3.** *fig* qiziqtirmoq, berilib ketmoq, ishqiboz bo'lib qolmoq; **s'emballer pour le ski** chang'ida uchishga berilib ketmoq; **4.** qizishmoq, jahli, achchig'i chiqmoq; qoni qaynamoq; g'azabga minmoq; **il s'emballe pour rien** u bekordan-bekorga qizishyapti.

**emballeur, euse** *n* o'rovchi, upakovkachi, upakovka qiluvchi, taxlovchi, joylovchi; qadoqlovchi.

**embarcadère** *nm* pristan, bandargoh (*kemalar to'xtaydigan joy*); prichal (*kema, dirijabl kabilarni bog'lab qo'yadigan joy*).

**embarcation** *nf* kichik hajmdagi kema; qayiq.

**embardée** *nf* yo'nalishning keskin o'zgarishi; birdan, keskin burilishi (*kema, mashina haqida*); **la voiture a fait une embardée pour éviter un cycliste** velosipedchini urib yubormaslik uchun mashina keskin yo'nalishini o'zgartirdi.

**embargo** *nm* embargo (***1.*** *chet el mollarini mamlakatga keltirish yoki mamlakatdan chiqarishni davlat tomonidan taqiqlab qo'yish;* ***2.*** *chet el kemalarini mamlakatdan chiqarmaslik*); **mettre l'embargo sur les navires ennemis** dushman kemalarini portda ushlab qolmoq; **lever l'embargo** embargoni bekor qilmoq.

**embarquement** *nm* **1.** chiqish, o'tirish, minish (*transport vositasiga*); **2.** yuklash, joylash, joylashtirish; **le quai d'embarquement** pristan (*kemalar to'xtaydigan joy*).

**embarquer I.** *vt* **1.** odam qo'ymoq, odam chiqarmoq; yuk ortmoq (*transport vositasiga*); **embarquer des marchandises** Tovar, mollarni yuklamoq; bortga yuk ortmoq; **2.** shiddatli to'lqinga yo'liqmoq, duchor bo'lmoq; **le bateau a embarqué** kemani, palubani suv bosdi; **3.** *fam* hibsga olmoq; **la police est venu pour l'embarquer** politsiya uni olib ketmoq uchun keldi; **4.** *fam* o'g'irlab olib ketmoq; **les voleurs ont embarqué tous les objets de valeur** o'g'rilar barcha qimmatbaho narsalarni olib ketdilar; **5.** *fam* aralashtirmoq, tortmoq; **on l'a embarqué dans une sombre affaire** uni shubhali ishga tortdilar; **II.** *vi* **1.** o'tirmoq, chiqmoq, minmoq (*transport vositalariga*); **2.** palubadan oshib kirmoq (*to'lqin haqida*); **III. s'embarquer** *vt* **1.** kemaga o'tirmoq, kemaga chiqmoq; **ils se sont embarqués hier pour le**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Maroc** ular kecha kemaga o'tirib Marokashga jo'nab ketdilar; **2.** biror shubhali ishga aralashmoq.

**embarras** *nm* **1.** to'siq, to'sqinlik, g'ov; tiqilinch, tirband; tiqilish, tiqilib qilish; halaqit; **susciter des embarras à qqn** biror kimsaga halaqit qilmoq; **2.** *fig* mushkullik, qiyinlik; g'am, tashvish; **il me donne beaucoup d'embarras** u menga ko'p tashvish keltiryapti; **je suis dans un grand embarras** men juda mushkul ahvoldaman; **tirer d'embarras** mushkul ahvoldan qutqarmoq; **causer de l'embarras** tashvishga qo'ymoq; **3.** hijolat bo'lish, dovdirash; **il ne pouvait pas cacher son embarras** u hijolatchiligini yashirolmas edi; **4.** qiyshanglash, qiliq; o'zini katta olish, gerdayish, kekkayish; kibrlanish; **5.** *méd* **embarras gastrique** me'da buzilishi, qabziyat bo'lish yoki ich buzilishi.

**embarrassant, ante** *adj* **1.** qiyin, mushkul, mashaqqatli, og'ir; **un problème embarrassant** mushkul muammo; **une situation embarrassante** og'ir, mashaqqatli vaziyat; **une question embarrassante** mushkul masala; **2.** qo'pol, beso'naqay, bahaybat; og'ir; **des bagages embarrassants** beso'naqay katta yuk.

**embarrassé, ée** *adj* **1.** uyib tashlagan, liq to'ldirgan, to'lgan; g'aram qilib tashlangan; to'silgan, tirband bo'lgan; **une pièce embarrassée de meubles** mebel to'la xona; mebel uyib tashlangan xona; **2.** tang, cheklangan, erkin bo'lmagan, siqiq, ziq (*harakat haqida*); **3.** *méd* buzilgan (*me'da haqida*); **j'ai l'estomac embarrassé** mening me'dam buzilibdi; **4.** *fig* mushkul, qiyin ahvolga tushgan; hijolatda qolgan, hijolat tortgan, uyalib qolgan; **je suis très embarrassé pour vous répondre** sizga javob berishim mushkul; **5.** chalkash, chigal, chigallashgan, chatoq, tushunib bo'lmaydigan.

**embarrasser I.** *vt* **1.** qiyin, og'ir ahvolga solmoq, qiynab qo'ymoq, xijolat qilmoq; halaqit bermoq; **je suis vraiment embarrassé** men qiyin ahvolda qoldim; men hijolatdaman; **2.** o'ynab tashlamoq; to'smoq, to'sib qo'ymoq; **embarrasser la rue** ko'chani band qilmoq, ko'chani to'sib qo'ymoq; **3.** uyaltirmoq, uyaltirib qo'ymoq; **II. s'embarrasser** *vpr* **1.** adashib qolmoq, gapidan tutilmoq; gangib qolmoq; chatoqlashmoq, chigallashmoq; **il s'embarrassa dans ses explications** u gapidan adashib qoldi; **2.** band bo'lmoq; urinmoq, urinib yotmoq; kuymalanmoq, ovara bo'lmoq; **s'embarrasser de vieux papiers** eski qog'ozlar bilan kuymalanmoq, band bo'lmoq.

**embauchage** *nm* yollash; qabul qilish, olish (*ishchi, ishchi kuchi haqida*).

**embauche** *nf* yollash; qabul qilish, olish (*ishchi, ishchi kuchi haqida*); **bureau d'embauche** ishga yollash idorasi.

**embaucher** *vt* yollamoq; ishga jalb qilmoq, olmoq; **l'usine embauche des ouvriers** zavod ishchilar yollamoqda; **ici on embauche** ishchilar qabul qilinadi.

**embaumement** *nm* balzamlash; mo'miyolash (*maxsus moddalar yordami bilan murdani chirimaydigan qilish*).

**embaumeur** *nm* balzamlovchi, mumiyolovchi (*murdani*).

**embaumer** *vt* **1. 1.** balzamlamoq; mumiyolamoq (*maxsus moddalar yordamida murdani chirimaydigan qilmoq*); **un corps embaumé** mo'miyolangan jasad; **2.** xushbo'y hidga to'ldirmoq; **2.** *vi* xushbo'y hid sochmoq, xush is tarqatmoq, anqimoq; **ces fleurs embaument** bu gullardan xushbo'y hid anqimoqda.

**embellie** *nf* havoning qisqa muddatga ochilishi.

**embellir I.** *vt* **1.** bezamoq, bezatmoq, yasatmoq; **embellir sa maison** uyini yasatmoq; **2.** go'zallashtirmoq; ko'rkamlashtirmoq, go'zal, chiroyli ko'rsatmoq; ochib yubormoq; **cette robe l'embellit** bu ko'ylak uni ko'rkamlashtirib yubordi, uni ochib yubordi; **3.** *fig* pardoz berib, bezab gapirmoq, o'zidan qo'shib gapirmoq, gapga to'n kiydirmoq, bo'rttirmoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; **ne cherchez pas à embellir la situation** vaziyatni bo'rttirib ko'rsatishga urinmang; **II.** *vi* go'zallashmoq, chiroyli bo'lib ketmoq, ochilmoq, husni ochilmoq, yaxshilanmoq; **cette jeune fille embellit de jour en jour** bu qiz kundan-kunga go'zallashib ketmoqda; **ne faire que croître et embellir** tobora ahamiyatli bo'lib, ortib bormoq; **ses dettes ne font que croître et embellir** u bo'g'zigacha qarzga botgan, u itga suyak, mushukka bez.

**embellissement** *nm* **1.** bezash, bezatish, yasatish; **l'embellissement d'un parc** bog'ni bezatish; **2.** *fig* o'zidan qo'shib gapirish, bo'rttirish, gapga pardoz berish, mubolag'a, lof qilish.

**emberlificoter** *vt* **1.** *fam* adashtirmoq, chalg'itmoq, chalkashtirmoq, chigallashtirmoq, boshini aylantirmoq, gangiratmoq; **emberlificoter un client** mijozni gangiratmoq; **2.** yo'ldan urmoq, yo'ldan adashtirmoq, ozdirmoq; ahmoq qilmoq, chuv tushirmoq.

**embêtant, ante** *adj* zeriktiradigan, zerikarli, jonga tegadigan, bezor qiladigan; **c'est un livre bien embêtant** bu zerikarli kitob.

**embêtement** *nm* ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz, noxush voqea, g'am, tashvish, notinchlik; **j'ai assez d'embêtements comme ça** shunday ham tashvishim ortib yotibdi; **il m'a causé toutes sortes d'embêtements** u meni ne kuylarga solmadi.

**embêter I.** *vt* **1.** zeriktirmoq, zeriktirib yubormoq, bezor qilmoq, jonga, me'daga tegmoq, biror holatga solmoq; **ce livre m'embête** bu kitob meni zeriktiryapti; **2.** g'ashini keltirmoq; jig'iga tegmoq, achchig'ini chiqarmoq; tegajoqlik qilmoq; **il embête toujours sa sœur** u doim singlisini jig'iga tegadi; **II. s'embêter** *vpr* zerikmoq, xunobi oshmoq, ichi, yuragi qizimoq, ziq, diqqat bo'lmoq, diqqati oshmoq; **s'embêter à cent sous de l'heure** zerikib o'lmoq.

**emblaver** *vt agr* don sepmoq, urug' sepmoq.

**emblée (d')** loc *adv* darhol, darrov, shu zahotiyoq; birdaniga.

**emblématique** *adj* emblemaga oid; belgi, alomat bo'lib xizmat qiladigan, ramziy.

**emblème** *nm* emblema, nishon, shartli belgi, timsol, ramz, alomat (*biror tushuncha yoki g'oyaning simvollik belgisi*); **la colombe est l'emblème de la paix** kaptar – tinchlik timsoli, alomati.

**embobiner** *vt* **1.** g'altakka o'ramoq; **embobiner du fil** ipni g'altakka o'ramoq; **2.** *fam* ahmoq qilmoq, laqillatmoq, mayna qilmoq; aldamoq, chuv tushirmoq, boplab aldamoq, qo'lga tushirmoq; **ils se sont laissé embobiner par ses discours** ular uning gaplariga laqqa tushdilar.

**emboîtage** *nm* **1.** qutiga joylash, o'rash; **l'emboîtage des sardines** sardina baliqlarni konserva qutisiga joylash; **2.** quti, g'ilof, jild.

**emboîtement** *nm* biror jismning ikkinchi jism ichiga kirish holati.

**emboîter** *vt* **1.** o'rtasiga yoki orasiga, ichkarisiga qo'ymoq, solmoq, joylashtirmoq, kirgizmoq, suqib qo'ymoq; tiqmoq; ichiga tiqib unamoq, birlashtirmoq; **emboîter deux tuyaux** ikkita quvurni ulamoq, bir quvurni ikkinchisiga kiydirib birlashtirmoq; **2.** yopishib turmoq, loyiq kelmoq (*kiyim haqida*); **3. emboîter le pas à qqn 1.** izidan, izma-iz, ketma-ket bormoq; **2.** izidan, yo'lidan bormoq, ergashmoq.

**embolie** *nf méd* emboliya (*qon tomirlari kasalligi*); tomirlarning tiqilib qolishi.

**embonpoint** *nm* semizlik, to'lalik; **avoir de l'embonpoint** semiz, to'ladan kelgan, yo'g'on bo'lmoq; **prendre de l'embonpoint** semirmoq.

**embouché, ée** *adj* **être mal embouché** *fam* dag'al, qo'pol, to'ng, qo'rs bo'lmoq.

**emboucher** *vt* labiga qo'ymoq (*puflab chaladigan musiqa asbobini*); **emboucher la trompette** dabdaba bilan gapirmoq; jar solmoq, ovoza qilmoq.

**embouchure**[1] *nf* mundshtuk, paycha (*puflab chalinadigan asboblarning og'izga olinadiga qismi*).

**embouchure**[2] *nf* daryoning quyilish joyi, etak.

**embourber I.** *vt* botqoqqa, botqoqlikka botirib qo'ymoq; botqoqqa, loyga tiqib qo'ymoq; **notre voiture était embourbée** mashinamiz loyga botib qolgan edi; **II. s'embourber** *vpr* **1.** loyga, botqoqqa botmoq, botib, tiqilib qolmoq; **2.** *fig* aralashmoq, qo'shilmoq, aralashib qolmoq.

**embourgeoiser I.** *vt* burjualashtirmoq, burjuaga, meshchanga aylantirmoq; **II. s'embourgeoiser** *vpr* burjualashmoq, burjuaga aylanmoq.

**embout** *nm* poynak, uchlik, **une canne avec un embout en caoutchouc** rezina uchlik qo'yilgan hassa.

**embouteillage** *nm* tiqilinch, tirband (*yo'l harakati*); **être pris dans un embouteillage** tiqilinchga tushib qolmoq; **c'est l'heure des embouteillages** hozir mashinalar yurishi qiyinlashgan payt; mashinalar tirband bo'lgan payt; **2.** shishaga quyish, quyib chiqish, quyib qo'yish.

**embouteiller** *vt* **1.** yo'lni tirband qilmoq; yo'lni to'sib qo'ymoq; **un gros camion embouteillait la rue** katta yuk mashinasi yo'lni to'sib qo'ydi; **cette**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**rue est toujours embouteillée** bu yo'lda har doum mashinalar qatnovi qiyin bo'ladi; bu yo'lda har doim mashinalar tirband.

**emboutir** *vt* **1.** egib yubormoq, pachaq qilmoq, chuqur qilmoq; o'yib, yorib kirib urilmoq; tez, shiddat bilan kelib urilmoq; **un camion m'a embouti l'arrière de ma voiture** yuk mashinasi orqadan kelib mashinamga urildi; **2.** zarb qilmoq, bosmoq, chekmoq, o'ymoq, naqsh solmoq (*metall buyumlar haqida*).

**embranchement** *nm* **1.** ayrilsh, tarmoqlangan, bo'lingan joy; **2.** kesishgan tutashgan joy; temiryo'l uzeli, chorraha; **3.** tarmoq, soha (*foyda*); **4.** tur (*hayvon va o'simliklar*).

**embrancher I.** *vt* **1.** tarmoqlamoq, shoxobchalar chiqarmoq, tashkil qilmoq; **2.** *techn* qo'shmoq, qo'shib, birlashtirib yubormoq; ulamoq (*tarmoq, shoxobchaga*); **II. s'embrancher** *vpr* qo'shilmoq, uylanmoq; birlashmoq, tytashmoq.

**embrasement** *nm* **1.** yong'in, o't tushish, kuyish; **en quelques minutes l'embrasement du magasin fut total** bir necha minut ichida yong'in butun do'konni qamrab oldi; **2.** shafaq, shu'la; **3.** projektor yorug'i, nuri, chirog'i; **4.** *fig* isyon, g'alayon, tug'yon (*yurak, qalb*).

**embraser I.** *vt* **1.** o't qo'ymoq; yondirmoq, alanga oldirmoq; **2.** qizdirmoq, kuydirmoq, **soleil d'août embrase l'air** avgust quyoshli havoni qizdirardi; **3.** yoritmoq, nur sochmoq, porlatmoq, yaltiratmoq, ravshan qilmoq; **4.** *fig* g'ayratlantirmoq, ruhlantirmoq; jonlantirmoq; **II. s'embraser** *vpr* **1.** alangalanmoq, o't olmoq, tutashmoq, yonmoq; **le souffre s'embrase facilement** oltingugurt tez alanga oladi; **2.** yorishmoq, porlamoq, ravshanlashmoq, qizarmoq; qip qizarib ko'rinmoq; **le ciel s'embrase** osmon qip qizarib ketdi; **3.** *fig* g'ayratlanmoq, hayajonga kelmoq, ruhlanmoq, jonlanmoq.

**embrassade** *nm* quchoqlash.

**embrasse** *nf* belbog', bog'ich (*deraza pardasini to'plab ushlab turish uchun ishlatiladigan arqon yoki gazlama bog'ich*).

**embrasser I.** *vt* **1.** quchoqlamoq, quchoqlab olmoq; **il ne pouvait pas embrasser le tronc de l'arbre** daraxt tanasini quchoqlashga uning qulochi yetmasdi; **2.** quchoqlamoq, quchmoq; bag'riga bosmoq; **il la tenait étroitement embrassée** u uni (*qizni*) mahkam bag'riga bosib turardi; **3.** o'pmoq, o'pib olmoq; bo'sa olmoq **embrasser qqn au front** biror kimsani peshonasidan o'pib qo'ymoq; **4.** qamrab olmoq, qamramoq; qoplamoq, qoplab olmoq; **le roman embrasse toute la première moitié du siècle** roman asrning birinchi yarmini to'laligicha qamrab olgan; **5.** tasavvur etmoq, ko'z oldiga keltirmoq; tushunmoq, anglamoq; **même un esprit éminent ne peut embrasser tous ces faits** zo'r aql egasi ham bu hodisalarning barchasini tasavvur eta olmaydi; **6.** *fig* tanlamoq, kirishmoq boshlamoq; kirmoq; **embrasser la carrière militaire** harbiy xizmatga kirmoq; **II. s'embrasser** *vpr* quchoqlashmoq, bir-birini bag'riga bosmoq; o'pishmoq.

**embrasure** *nf* **1.** devordagi teshik, kesaki o'rni (*deraza, eshik kabilarning o'rni*); **l'embrasure d'une fenêtre, d'une porte** deraza, eshik o'rni; **2.** *mil* ambrazura, shinak, tuynuk.

**embrayage** *nm* **1.** *techn* qo'shish, ulash; ishga tushirish, yurgizish, yurgizib yuborish; **2. les manœuvres d'embrayage** dvigatelni yurgizib yuborishdagi ketma-ket, izchil harakat; **3.** *techn* mufta (*ikki valni, o'qni ulovchi qismi yoki mexanizm*); **la pédale d'embrayage** mufta pedali; **je dois faire réparer mon embrayage** muftani tuzattirishim kerak, **d'embrayage** ulovchi, qo'shuvchi.

**embrayer I.** *vt techn* muftani ishga solmoq, qo'shmoq, ulamoq; **il embraya et la voiture démarra** u muftani qo'shdi va mashina o'rnidan qo'zg'aldi; **II.** *vi fam* **embrayer sur** boshlamoq, kirishmoq; haqida gap boshlamoq; **on embraye demain à 6 heures** ertaga soat 6 da boshlaymiz (*ishni*); **puis il a embrayé sur ses voyages en Afrique** keyin u Afrikaga qilgan sayohati haqida gap boshladi.

**embrigadement** *nm* **1.** *mil* brigadaga qo'shib olish; **2.** *péj* yollash; og'dirib olish.

**embrigader** *vt* **1.** *mil* brigadaga to'plamoq; brigada tuzmoq; **2.** biror tashkilot yoki uyushma tuzmoq; to'plamoq; **embrigader des partisans** tarafdorlarni to'plamoq.

**embringuer** *vt fam* biror yomon ishga aralashtirmoq, duchor qilmoq; giriftor qilmoq; il m'a embringué dans une affaire louche u meni bir shubhali ishga aralashtirdi.

**embrocation** *nf* **1.** surtib singdirish (*malhamni*); ishqalash; **2.** badanga surkaladigan malham.

**embrocher** *vt* **1.** sixlamoq, sixga tortmoq, sixga tizmoq; **2.** *fam* sanchib olmoq, sanchib teshmoq (*shamshir qilich bilan*).

**embrouillamini** *nm fam* chatoqlik, chigallik, chalkashlik, o'ta tartibsizlik.

**embrouillé, ée** *adj* **1.** chalkash, chuvalgan, chigal, chigallashgan; **2.** *fig* mujmal, noaniq; chatoq, tushunib bo'lmaydigan; une situation embrouillée noaniq, mujmal vaziyat.

**embrouillement** *nm* **1.** aralashtirish, aralash-quralash qilib yuborish; chigallashtirish; **embrouillement des fils** iplarning chigallashishi, chigallashganligi; **2.** *fig* chigallik, mujmallik, noaniqlik; chatoqlik, noaniqlik, tushunib bo'lmaslik.

**embrouiller I.** *vt* **1.** aralashtirmoq, aralash-quralash, chalkash-chulkash qilib yubormoq; chigallashtirmoq, chigal qilib yubormoq; **embrouiller du fil** ipni chigallashtirmoq, chigal qilib yubormoq; **2.** *fig* chalkashtirmoq, mujmallashtirmoq, noaniq, tushunib bo'lmaydigan qilib qo'ymoq; **embrouiller une question** masalani chalkashtirib, chatoqlashtirib yubormoq, qo'ymoq; **II. s'embrouiller** *vpr* fikri chalg'imoq, yanglishmoq, yanglishib qolmoq, adashmoq; dovdirab, gangib, esankirab qolmoq o'zini yo'qotib qo'ymoq.

**embroussaillé, ée** *adj* **1.** qalin butalar o'sib yotgan, bosgan, to'qayga aylangan (*yer haqida*); **2.** paxmoq, taralgan, chuvalgan, chigal (*soch haqida*).

**embrumer I.** *vt* **1.** o'rab olmoq, qoplamoq, qamramoq, bosmoq (*tuman*); **2.** *fig* xiralashtirmoq, chalg'itmoq (*fikr, miya*); **II. s'embrumer** *vpr* tuman bilan qoplamoq.

**embrun** *nm pl* suv zarralari (*sachragan, changday to'zib yurgan*).

**embryologie** *nf* embriologiya (*biologiyaning embrionlar rivojlanishini o'rganadigan bo'limi*).

**embryon** *nm* **1.** *biol* embrion, pusht, homila, murtak, kurtak; **2.** *fig* boshlanish, belgi, alomat.

**embryonnaire** *adj* **1.** embrionga oid; embrion holidagi, embrion; **2.** *fig* boshlang'ich davridagi, murtak holidagi.

**embûches** *nf pl* qopqon, tuzoq, dom; fitna-fasod, kirdikor, yomon niyat, g'araz, hiyla-nayrang, makr, dasisa; **dresser des embûches** tuzoq qo'ymoq, makr ishlatmoq; **une question pleine d'embûches** makr to'la masala.

**embuer** *vt* namlamoq, namiqtirmoq, ho'llamoq; qoplamoq (*par, nam bilan*); **les larmes embuaient ses yeux** uning ko'zlari yoshga to'lgan edi.

**embuscade** *nm* pistirma; **se tenir, être en embuscade** pistirmada turmoq; **dresser une embuscade** pistirma qo'ymoq; **tomber dans une embuscade** pistirmaga yo'liqmoq, duch kelmoq.

**embusquer I.** *vt* **1.** pistirmaga qo'ymoq; **2.** front orqasida ishga joylamoq; **II. s'embusquer** *vpr* **1.** pistirmada o'tirmoq, turmoq; **2.** *fam* front orqasida yashirinib, berkinib, qochib o'tirmoq; **il a réussi s'embusquer** u front orqasida qolishga muvaffaq bo'ldi.

**éméché, ée** *adj fam* yengil mast bo'lgan, yengil kayf qilgan; kayfi sal oshgan, kayfi taroq.

**émeraude I.** *nf* zumrad; **un collier d'émeraude** zumrad marjon; **II.** *adj* zumrad rangli, yashil.

**émergence** *nf* **1.** chiqish, paydo bo'lish, chiqayotgan joy; **l'émergence d'une source** buloq suvi chiqayotgan joy; **2.** to'satdan, kutilmaganda paydo bo'lish, ko'rinish, yuzaga kelish.

**émerger** *vi* **1.** qalqimoq, suvning yuziga qalqib chiqmoq; paydo bo'lmoq, ko'rinmoq; **ce rocher émerge à marée basse** bu qoya suv pasayganda yuzaga chiqadi; **le sous-marin émerge à peine** suv osti kemasi suv yuzida zo'rg'a ko'rinardi; **2.** *fig* ko'rinmoq, yuzaga chiqmoq, paydo bo'lmoq; tug'ilmoq; oydinlashmoq, ravshanlashmoq; **la vérité finissait par émerger** nihoyat haqiqat oydinlashdi.

**émeri** *nm* jilvir, qayroq qumi; **papier émeri** jilvir, jilvir qog'oz.

**émérite** *adj* xizmat ko'rsatgan; hurmatli, atoqli, taniqli, tajribali, omilkor; faxriy; **un artiste émérite** xizmat ko'rsatgan artist.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**émerveillement** *nm* zavq, quvonch; zavqlanish, quvonish; **faire l'émerveillement de qqn** biror kimsaning zavqini keltirmoq; zavqlantimoq; **avec émerveillement** zavq-shavq bilan; shod-xurramlik bilan; qoyil bo'lib.

**émerveiller I.** *vt* zavqlantirmoq, quvontirmoq; zavqini qo'zg'atmoq, hayron qoldirmoq; **être émerveillé** qoyil bo'lmoq; zavq-shavqqa to'lmoq; **II. s'émerveiller** *vpr* zavqlanmoq, quvonmoq, qoyil bo'lmoq; **je m'émerveille de** dan zavqqa to'lmoq.

**émétique** *adj* qusdiradigan, qayt qildiradigan, qusdiruvchi.

**émetteur, trice I.** *adj* **1.** *techn* sochadigan (*nur*); tarqatadigan (*ovoz, to'lqin*); uzatuvchi, eshittiruvchi (*signal*); **une station émettrice** radiostansiya; **2.** *fin* qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqaradigan; **une banque émettrice** emission bank (*qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqaradigan bank*); **II.** *nm* radio uzatgich, tarqatgich.

**émettre** *vt* **1.** taratmoq; nur taratmoq; **2.** muomalaga chiqarmoq, muomalaga qo'ymoq; **3.** ifodalamoq, bayon qilmoq; **émettre une opinion** fikr bayon qilmoq; **émettre une hypothèse** taxmin qilmoq; **4.** radio eshittirmoq; **émettre sur les ondes courtes** qisqa to'lqinda eshittirmoq.

**émeu** *nm zool* emu, tuyaqush (*Avstraliya tuyaqushi*).

**émeute** *nf* isyon, qo'zg'olon, g'alayon, ko'tarilish, qalqish, oyoqqa turish.

**émeutier, ière** *n* isyonchi, qo'zgolonchi, isyonkor, g'alayonchi.

**émiettement** *nm* **1.** maydalash, burdalash, ushatish; **2.** *fig* maydalanish, maydalashish, bo'linib, sochilib ketish; parokanda bo'lish; maydalanganlik, parchalanganlik, tarqoqlik, bo'linganlik.

**émietter I.** *vt* **1.** maydalamoq, burdalamoq, ushatmoq, uvatmoq, ushoq qilmoq, **émietter du pain** non to'g'ramoq; **2.** *fig* maydalamoq, burdalamoq, mayda bo'laklarga bo'lmoq, bo'lib yubormoq; **II. s'émietter** *vpr* **1.** uvalanmoq, ushalmoq, to'g'ralmoq; sinmoq; **le pain s'émiette** non ushaldi; **2.** *fig* maydalanmoq, burdalanmoq, mayda bo'laklarga bo'linmoq, mayda-mayda bo'lib ketmoq, parchalanmoq.

**émigrant, ante I.** *adj* boshqa joyga ko'chib boruvchi; **II.** *n* emigrant, muhojir, kelgindi.

**émigration** *nf* **1.** emigrasiya (*chet mamlakatga ko'chib ketish*) **2.** muhojirlik; **3.** *zool* migrasiya, ko'chish, ko'chib o'tish.

**émigré, ée** *n* emigrant, muhojir; **un émigré politique** siyosiy muhojir.

**émigrer** *vi* **1.** emigrasiya qilmoq, vatandan chiqib ketmoq (*chet mamlakatga ko'chib ketmoq*); **2.** *zool* uchib borib boshqa joyga qo'nmoq (*qushlar haqida*).

**émincé, ée I.** *adj* yupqa qilib kesilgan; **II.** *nm* yupqa go'sht bo'lagi.

**émincer** *vt* yupqa qilib kesmoq.

**éminemment** *adv* g'oyat, yuqori darajada; juda, juda ham, nihoyatda, o'ta; **j'en suis éminemment convaincu** bunga darajada imonim komil.

**éminence**[1] *nf* **1.** tepa, tepalik, do'ng, balandlik; baland joy; **observatoire établi sur une éminence** baland joyga qurilgan observatoriya; **2.** *anat* bo'rtma.

**éminence**[2] *nf relig* **1.** kardinallarga berilgan faxriy unvon; **son Eminence le cardinal Dupont** kardinal Dupon hazrati oliylari; **2.** *fig* maxfiy maslahatchi, ishonchli kishi.

**éminent, ente** *adj* **1.** taniqli, mashhur, atoqli; **un personnage éminent** atoqli arbob; **un savant éminent** atoqli olim; **2.** yuqori, katta; juda, juda yaxshi, nihoyatda yaxshi, a'lo, soz; **il a rendu d'éminents services** u juda yaxshi xizmat ko'rsatdi.

**émir** *nf* amir.

**émissaire**[1] *nm* emissar, maxfiy agent.

**émissaire**[2] *adj* **bouc émissaire** *fam* hamma baloga to'g'anoq odam, balogardon.

**émission** *nf* **1.** *phys* nurlanish (*to'lqin shaklida turli energiya sochish, yoki ularning sochilishi, nurlanishi*); **émission de radiations** radioaktiv nurlanish; **l'émission de la chaleur** issiqlik tarqalishi; **2.** *physiol* chiqarish, ajratish, ajratib chiqarish; **3.** *écon* emissiya (*qimmatli qog'ozlar va qog'oz pul chiqarish*); **émission de billets de banque, d'actions, d'un emprunt, de timbres** pul, aksiya, zaym, marka chiqarish; **4.** radio, televizor orqali beriladigan eshittirish yoki ko'rsatuv; **une émission de télévision** teleko'rsatuv; **une émission radiophonique** radioeshittirish; **faire des émissions en direct** to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatmoq; **cette émission passe à 8 heures** bu eshittirish efirga soat sakkizda beriladi.

**emmagasinage** *nm* **1.** omborga joylash, yig'ish, to'plash; **2.** *fig* yod, es, xotirada saqlash; yig'ish to'plash; orttirish.

**emmagasiner** *vt* **1.** omborlarga joylamoq, yig'moq, to'plamoq; **2.** yod, es, xotirada saqlamoq; yig'moq; to'plamoq; orttirmoq; **emmagasiner les connaissances** bilim orttirmoq; **emmagasiner les souvenirs** esdaliklarni yig'moq, to'plamoq.

**emmailloter** *vt* **1.** yo'rgaklamoq, yo'rgakka o'ramoq; **2.** o'ramoq, o'rab olmoq; tang'imoq, **emmailloter un doigt blessé** kesilgan barmoqni tang'ib bog'lamoq.

**emmancher I.** *vt* **1.** dastalamoq, qoqib, urib o'rnatmoq, kiydirmoq; **emmancher un marteau** bolg'ani dastaga o'rnatmoq, bolg'ani soplamoq; **2.** *fig fam* tashkil qilmoq, yo'lga qo'ymoq, o'rnatmoq; ishga solib, yurgizib yubormoq; **II. s'emmancher** *vpr fig fam* boshlanmoq, yo'lga tushmoq; **l'affaire s'emmanche mal** ish yo'lga tushyapti.

**emmanchure** *nf* yeng o'rni, yeng o'tkaziladigan o'yma; **cette veste est un peu étroite aux emmanchures** bu kurtkaning yeng o'tkazilgan joyi torroq ekan.

**emmêlement** *nm* chalkashtirish, chigallashtirish, chalkashlik, chigallik; o'ranish, matashish, chirmashish; **l'emmêlement des fils** iplarning chigallashishi, chigallashganligi.

**emmêler** *vt* **1.** chalkashtirmoq, chigallashtirmoq; **emmêler ses cheveux** sochlarini chigallashtirmoq; **emmêler du fil** ipni chigallashtirmoq, chigal qilib yubormoq; **emmêler une affaire** ishni chigallashtirmoq, chalkash qilib yubormoq.

**emménagement** *nm* yangi uyga ko'chib o'tish, kirish, joylashish.

**emménager** *vi* yangi uyga ko'chib o'tmoq, kirmoq, joylashishmoq.

**emmener** *vt* **1.** olib ketmoq, olib chiqmoq, ergashtirmoq; **2.** *sport mil* oldiga boshlamoq; **emmener les membres de l'équipe** jamoa a'zolarini oldinga boshlamoq.

**emmerdant, ante** *adj vulg* zeriktiradigan, bezdiradigan, jonga tegadigan; zerikarli; xira, shilqim; **une pièce emmerdante** zerikarli pyesa.

**emmerdement** *nm vulg* ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz, noxush voqea; bemaza ish, tashvish.

**emmerder I.** *vt vulg* jonidan bezor qilmoq, charchatmoq, tinkasini quritmoq, jonini olmoq; **II. s'emmerder** *vpr vulg* zerikib o'zini qayerga qo'yishni bilmaslik; diqqatpazlikdan o'lib bo'lmoq; **on s'emmerde ici** bu yerda diqqatpazlikdan o'lish mumkin.

**emmerdeur, euse** *n vulg* ming'ir-ming'ir odam, mijg'ov.

**emmitoufler I.** *vt fam* o'ramoq, burkamoq, o'rab, burkab qo'ymoq; **bien emmitouflé dans sa robe de chambre** xalatiga yaxshi burkanib olgan; **II. s'emmitoufler** *vpr* o'ranmoq, burkanmoq; o'ralib, burkanib olmoq.

**emmurer** *vt* **1.** urib, berkitib tashlamoq; **2.** berkitib qo'ymoq, devor kabi to'sib qo'ymoq; qamab qo'ymoq.

**émoi** *nm* iztirob, hayajon; tashvish, besaranjomlik, bezovtalik, g'ulg'ula, sarosima; sarosimalik, gangib, dovdirab, qolishlik; **toute la maison est en émoi** uy batamom sarosimaga tushgan edi; **mettre en émoi** hayajonga, iztirobga solmoq; **dans son émoi il a oublié l'essentiel** sarosimalikdan u asosiy narsani unutgan edi.

**émoluments** *nm pl* ish haqi, maosh, oylik, moyana.

**émondage** *nm* shox-shabbalarni kesish, butash, qirqish.

**émonder** *vt* kesmoq, qirqmoq, qirqib, kesib olmoq, kallaklamoq, butamoq; **une serpe à émonder** daraxt kesadigan pichoq.

**émotif, ive** *adj* ta'sirchan, his-tuyg'uga tez beriladigan, tez hayajonlanadigan; **une personne émotive** ta'sirchan, tez hayajonlanadagan odam.

**émotion** *nf* **1.** hayajon, hovliqish; tashvish tortish; hayajonlanganlik, to'lqinlanganlik, hayajonga tushganlik; iztirob; **causer une grande émotion** kuchli hayajonga solmoq; **trembler d'émotion** hayajondan qaltiramoq; **2.** *psych* his, tuygu, hissiyot; ruhiy, ichki kechinma.

**émotionnel, elle** *adj* his-tuyg'uga oid; emotsional, jo'shqin, hayajonli; his-tuyg'uga to'la; jo'shqinlikni, his-tuyg'uni ifodalaydigan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**émotionner I.** *vt* hayajonlantirmoq, hovliqtirmoq; taassurot qoldirmoq; **II. s'émotionner** *vpr* hayajonlanmoq, hovliqmoq.

**émouchet** *nm* kuykanak, miqiy (*qirg'iylar oilasiga kiradigan yirtqich qush*).

**émoulu, ue** *adj* **frais émoulu** yaqinda kelgan, yaqinda, endigina tugatgan (*o'quv yurtini*); **un ingénieur frais émoulu** yosh muhandis; **frais émoulu du collège** kollejni yaqinda tugatgan.

**émoussé, ée** *adj* **1.** o'tmaydigan, kesmaydigan, o'tmas, to'mtoq; **un rasoir émoussé** o'tmas ustara; **2.** *fig* zaiflashgan, o'tmaslashgan, susaygan, sust; **des sentiments émoussés** susaygan his-tuyg'ular.

**émousser** *vt* **1.** o'tmas qilmoq, to'mtoq qilmoq; **2.** *litt* zaiflashmoq, o'tmaslashmoq, susaymoq.

**émoustillant, ante** *adj* vaqtini chog' qiladigan, quvontiradigan, shodlantiradigan, ko'ngil ochadigan; **une histoire émoustillante** ko'ngil ochadigan hikoya.

**émoustiller** *vt* vaqtini chog' qilmoq, quvontirmoq, shodlantirmoq, ko'ngil ochmoq; **le champagne émoustilla les convives** shampan vinosi mehmonlarning ko'nglini chog' qildi.

**émouvant, ante** *adj* **1.** hayajonga soladigan; ta'sirli, zo'r taassurot qoldiradigan; **une scène émouvante** hayajonga soladigan sahna **2.** ko'ngilni yumshatadigan, eritadigan; kuchli ta'sir qiladigan; mehrni tovlantiradigan, yoqimli, yoqimtoy.

**émouvoir I.** *vt* **1.** hayajonlantirmoq, to'lqinlantirmoq, bezovta qilmoq; hayajonga, iztirobga solmoq; xavotirlikka, tashvishga solib qo'ymoq, tinchsizlantirmoq; **cette lettre, cette nouvelle m'a beaucoup ému**; bu xat, bu yangilik meni juda ham tashvishga solib qo'ydi; **2.** ko'ngliga ta'sir qilmoq, ko'nglini eritmoq, buzmoq, yumshatmoq, mehrini qo'zg'atmoq; minnatdorchilik tuyg'usini uyg'otmoq; **émouvoir le cœur de qqn** biror kimsaning ko'nglini buzmoq; **rien ne peut l'émouvoir** hech narsa unga ta'sir qilolmaydi; **il nous a émus jusqu'aux larmes** u bizning ko'nglimizni buzib, yig'latib yubordi; **II. s'émouvoir** *vpr* **1.** ko'ngli buzilmoq, yumshamoq, mehri qo'zg'amoq, minnatdorchilik tuyg'usini uyg'otmoq; **2.** hayajonlanmoq, bezovta bo'lmoq, xavotirga, tashvishga tushmoq, tinchligini yo'qotmoq.

**empaillage** *nm* **1.** poxol chetan to'qib atrofini o'rash; **2.** tulum tayyorlash.

**empailler** *vt* **1.** poxol chetan to'qimoq, to'qib atrofini o'ramoq; **empailler un fauteuil** kresloni poxol chetan to'qib o'ramoq; **2.** tulum tayyorlamoq.

**empailleur, euse** *n* **empailleur de chaises** kursi to'quvchi; **empailleur d'animaux** tulum yasovchi usta, tulumchi, chuchelochi.

**empaler I.** *vt* **1.** qoziqqa o'tkazmoq; **2.** sanchib teshmoq; **II. s'empaler** *vpr fam* biror o'tkir, uchli narsaga tegib, urilib shikastlamoq, yarador bo'lmoq; **en tombant il s'est empalé sur une fourche** u yiqilayotib ayriga urilib shikast yedi.

**empanaché, ée** *adj* jig'a, ukpar taqqan, jig'ali.

**empaquetage** *nm* joylash, o'rash, saranjomlash, solish.

**empaqueter** *vt* paket, qog'ozxaltaga o'ramoq, solmoq, joylamoq, saranjom qilmoq.

**emparer (s')** *vpr* **1.** qo'lga kiritmoq, egallamoq, ishg'ol qilmoq; **s'emparer d'une ville** shaharni ishg'ol qilmoq, qo'lga kiritmoq; **s'emparer du pouvoir** hokimiyatni qo'lga kiritmoq; **2.** ushlamoq, tutmoq, ilmoq, ushlab, tutib, ilib, changallab olmoq; chang solmoq; yopishmoq; **il s'empara d'un bâton pour se défendre** u o'zini himoya qilish uchun tayoqqa yopishdi; **3.** *fig* o'ziga jalb qilmoq, bo'ysundirmoq; egallamoq, o'ziga mahliyo qilib qo'ymoq; qamrab olmoq; **le sommeil s'empara de lui** uyqu uni qamrab oldi.

**empâté, ée** *adj* shishgan, solqi, solqigan; **une visage empâté** solqigan yuz.

**empâtement** *nm* **1.** boqib semirtirish (*qush va parrandalarni*); **2.** shishganlik, shishinqiraganlik; solqiganlik.

**empâter I.** *vt* **1.** xamir surtmoq; xamir bilan to'ldirmoq; xamirga to'dirmoq; **2.** *fig* xamirsimon, yopishqoq, yelimshiq, shirador qilmoq; **3.** bo'yoqni ustma-ust, qalin berib, surtib suvrat chizmoq; **4.** yo'g'onlashtirmoq *(yuz tuzilishi, tana haqida*); **5.** boqib semirtirmoq (*qush va parrandalarni*); **II. s'empâter** *vpr* semirmoq, to'lishmoq **ses joues s'empâtaient** yuzlari to'lishyotgan edi.

**empattement** *nm* **1.** poydevor; asos, fundament; **2.** old va orqa g'ildiraklarning o'qlari orasidagi masofa.

**empêchement** *nm* to'sqinlik, to'siq, xalaqit, xalal, **j'ai eu un empêchement de dernière minute** oxirgi daqiqalarda menga xalal berishdi.

**empêcher I.** *vt* **1.** to'sqinlik qilmoq, xalaqit bermoq; qarshi turmoq; to'xtatib qolmoq; **(il) n'empêche que** biroq, ammo, lekin, -sa ham, -ga qaramasdan; shunday bo'lsada, shunga qaramay; **2. empêcher qqn de faire qqch** biror kimsaga biror narsa qilishga xalaqit bermoq; **II. s'empêcher** *vpr* qila olmaslik, to'xtata olmaslik; **je n'ai pas pu m'empêcher de rire** men o'zimni kulgidan to'xtata olmadim; men kulib yubordim.

**empennage** *nm av* dum qanoti (*samolyotning*).

**empenner** *vt* pat bilan bezamoq, pat taqmoq (*paykonga*).

**empereur** *nm* imperator; **le palais de l'empereur** imperator saroyi.

**emperler** *vt* **1.** marvarid, dur, inju bilan qoplamoq; **2.** *fig* ter tomchilari bilan qoplamoq.

**empesé, ée** *adj* kraxmalli, kraxmallangan, ohorli; **une chemise empesée** ohorlangan ko'ylak.

**empeser** *vt* kraxmallamoq, ohorlamoq, ohor bermoq.

**empester** *vt* sassiq, qo'lansa, badbo'y hid tarqatmoq.

**empêtrer I.** *vt* **1.** bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; o'ralashtirmoq; harakatni qiyinlashtirmoq, og'irlashtirmoq; **2.** *fig* aralashtirmoq, tortmoq; **empêtrer qqn dans une affaire** biror kimsani biror ishga tortmoq; **II. s'empêtrer** *vpr* **1.** ilashib, o'ralib, o'ralashib qolmoq **il s'est empêtré dans les ronces** u parmanchak butalariga o'ralashib qoldi; **2.** *fig* adashmoq, tutilib qolmoq, adashib, chalg'ib qolmoq; **il s'empêtre dans ses explications** u tushuntirayotib gapidan adashib qoldi.

**emphase** *nf* dabdabalilik, tamtaroqlilik, balandparvozlik, tantanavorlik; emfaza (*nutqning kuchli his-hayajon ifodalashi, ta'sirchanligi; nutqning his-hayajon bilan, to'lqinlanib aytilishi*).

**emphatique** *adj* balandparvoz, dabdabali, tamtaroqli, tantanali; ta'sirli; kuchli his-hayajon bilan aytiladigan; **prendre un ton emphatique** ko'tarinki ruh bilan so'zlamoq; **d'un ton emphatique** dabdabali ohangda.

**emphysème** *nm méd* emfizema (*kasallik tufayli biror organ to'qimalarining kengayishi va unda havo to'planishi*); **emphysème pulmonaire** o'pka emfizemasi.

**empiècement** *nm* koketka, ko'krakburma; **une blouse à empiècement** koketkali, ko'krakburma bluzka.

**empierrement** *nm* **1.** tosh yotqizish, tosh terish; **2.** tosh yo'l; tosh yotqizilgan joy.

**empierrer** *vt* tosh yotqizmoq, tosh termoq; **empierrer une route, une cour** ko'chaga, hovliga tosh yotqizmoq, tosh termoq.

**empiètement** *nm* **1.** egallab olish, qo'shib olish; **2.** egallab olganlik, qo'shib olganlik; tajovuz; huquqini buzish; **3.** egallab, bosib borish, tobora qisib borish tobora yaqinlashish; kengayib borish; **l'empiètement de la mer sur le rivage** dengizning qirg'oq tomon kengayib borishi.

**empiéter** *vi* **1.** egallab olmoq, qo'shib olmoq, **empiéter sur le terrain de qqn** kimsa yerining bir qismini egallab olmoq; **2.** *fig* tajovuz qilmoq, qonunga xilov ravishda tortib olmoq, o'ziniki qilib olmoq; huquqni buzmoq; vous empiétez sur mes attributions siz mening huquqlarimga tajovuz qilayapsiz.

**empiffrer (s')** *vpr fam* haddan ziyod ovqat yemoq, ko'p ovqat yeb qo'ymoq, ko'p ovqat yeb bo'kmoq.

**empiler I.** *vt* **1.** taxlamoq, tax-tax qilib qo'ymoq (*kitob, likop*); g'aramlamoq, g'aramga yig'moq (*o'tin, g'isht kabilarni tekis taxlamoq*); **2.** *fam* ahmoq qilmoq, anoyi qilmoq, aldamoq, chuv tushirmoq, firib bermoq, laqillatmoq, tuzlamoq; **il s'est fait empiler** uni laqillatib ketishdi; **II. s'empiler** *vpr* **1.** dasta-dasta, g'aram, tax-tax, bo'lib yotmoq; **des livres s'empilent sur la table** stol ustida kitoblar g'aram bo'lib yotibdi; **2.** tiqilinchda qolmoq; siqilmoq (*kishi haqida*); **il va falloir s'empiler dans cette petite salle** bu kichik xonada siqilib qolishga to'g'ri kelmoqda.

**empire** *nm* **1.** imperiya, saltanat; **l'empire romain** Rim imperiyasi; **2.** qaram yer, o'lka; mustamlaka; **la France avait un vaste empire colonial** Fransiyaning katta mustamlaka o'lkalari bor edi; **3.** hokimiyat; hukmronlik; ustunlik; hokimlik; saltanat; **détenir l'empire des mers** dengizda hukmronlik qilmoq; **l'homme a établi son empire sur la nature** inson tabiat ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**empirer I.** *vi* yomonlashmoq, og'irlashmoq, yomonlashib, og'irlashib qolmoq, battar bo'lib qolmoq; kuchaymoq, zo'raymoq; **le mal empire** kasallik zo'raymoqda **l'état du malade a empiré** bemor og'irlashib qoldi; **II.** *vt* yomonlashtirmoq, og'irlashtirmoq, murakkablashtirmoq, jiddiylashtirmoq, mushkullashtirmoq.

**empirique** *adj* **1.** emperik, tajribaga asoslangan; tajribadan kelib chiqqan, tajribadan olingan; **une méthode empirique** empirik uslub; **une connaissance empirique** tajribaga asoslangan bilim; **2.** *philos* empirizmga oid, empirizmga xos bo'lgan, empirik.

**empiriquement** *adv* tajriba yo'li bilan, tajribaga asoslanib.

**empirisme** *nm philos* empirizm **1.** nazariy umumlashtirishni inkor qilib, hissiy idrokni, tajribani bilishning birdan-bir manbaidir deb biladigan falsafiy yo'nalish; **2.** nazariy mashg'ulotlardan ko'ra amaliy faoliyatga ko'proq moyil bo'lishlik; amaliy faoliyatga moyillik.

**emplacement** *nm* o'rin, joy, makon; turgan joyi, o'rni; **choisir l'emplacement d'une maison** uy qurish uchun joy tanlamoq; **c'était ici l'emplacement de la Bastille** shu yerda Bastiliya joylashgan edi; **emplacement à vendre** joy, yer sotiladi.

**emplâtre** *nm* **1.** plastir (*yaraga yopishtirib qo'yadigan malhamli mato*); **2.** yamoq (*avtomobil pokrishkasi uchi*); **le pneu était abîmé, j'ai dû mettre un emplâtre** kamera teshilib qoldi, men unga yamoq solishga majbur bo'ldim; **3.** *fam* bo'shang, lapashang odam, latta; bo'shang, yalqov; **4.** *fam* hazm bo'lishi qiyin ovqat, og'ir ovqat; **5.** *fam* tarsaki, shapaloq.

**emplette** *nf* xarid, sotib olingan narsa; **faire des emplettes** sotib olmoq, xarid qilmoq.

**emplir** *vt* **1.** to'latmoq, to'ldirmoq, to'ldirib yubormoq; **2.** to'ldirmoq; egallamoq, egallab olmoq; **la foule emplit les rues** olomon ko'chalarni egalladilar; **3.** *fig* chulg'amoq, chulg'am olmoq, egallamoq, qamramoq, egallab, qamrab olmoq, to'ldirib toshirmoq, to'ldirib yubormoq; **nouvelle qui emplit de joie** sevinchga chulg'agan yangilik.

**emploi** *nm* **1.** qo'llash, tadbiq qilish, ishlatish; qo'llanish, tadbiq qilinish, etilish, ishlatilish; **l'emploi du bois dans la construction** yog'ochning qurilishda ishlatilishi; **l'emploi de ce verbe est très limité** bu fe'l juda kam ishlatiladi; **le mode d'emploi** foydalanish usuli; **faire un emploi abusif** suiiste'mol qilmoq, o'z manfaati uchun foydalanmoq; **2. l'emploi du temps** dars jadvali; **3.** xizmat, vazifa, ish, lavozim; hunar, kasb, mashg'ulot, mansab, amal, o'rin joy; **chercher un emploi** ish izlamoq; **être sans emploi** ishsiz bo'lmoq; **agence pour l'emploi** ishga joylashtirish byurosi; **3.** *théâtre* amplua (*aktyorning qobiliyatiga mos rollar turi*); **il a le physique de l'emploi** u bu rolga mos keladi.

**employé, ée** *n* xizmatchi; amaldor, mansabdor shaxs; **un employé de banque** bank xizmatchisi; **une employée de maison** xizmatkor ayol.

**employer I.** *vt* **1.** ishlatmoq, ishga solmoq, foydalanmoq, qo'llamoq, tadbiq etmoq; sarflamoq; **employer un remède** doridan foydalanmoq, ichmoq; **employer la force** kuch ishlatmoq; kuchdan foydalanmoq; **il a bien employé son temps** u vaqtidan juda yaxshi foydalandi; **j'ai employé toute ma journée à ce travail** men butun kunni shu ishga sarfladim; **2.** yollamoq, ishga olmoq, ishlatmoq; **cette usine emploie mille ouvriers** bu zavodda mingta ishchi ishlaydi; **il emploie un jardinier** y bog'bon yollayapti; **II. s'employer** *vpr* **1.** ishlanmoq, qo'llanmoq, foydalanilmoq; **ce mot s'emploie rarement au pluriel** bu so'z ko'plikda kam ishlatiladi; **2.** berilmoq, o'zini fido qilmoq, umrini bag'ishlamoq, tikmoq; bor kuch-g'ayratini sarflamoq; **s'employer entièrement à une œuvre** biror ishga o'zini bag'ishlamoq; **il faut maintenant s'employer à résoudre le problème** endi bor kuchini bu muammoni hal qilishga sarflamoq kerak.

**employeur, euse** *n* ish beruvchi, ishga oluvchi, xo'jayin; korxona egasi.

**emplumé, ée** *adj* pat bilan qoplangan, patga qoplangan, pat bosgan.

**empocher** *vt* **1.** cho'ntak, kissaga solmoq; **2.** pul olmoq; **empocher de l'argent** pul olmoq; **empocher une forte somme** katta, talaygina, ancha pulni hamyonga solmoq.

**empoignade** *nf* janjal, mojaro.

**empoigne** *nf fig* **la foire d'empoigne** mushtlashish, yoqalashish, urishish; ur-yiqit, ur-sur.

**empoigner I.** *vt* **1.** olmoq, tortib, yulqib olmoq; yopishmoq, changallamoq; **il empoigna son bâton et sortit** u tayoqni yulqib oldida, chiqib ketdi; **empoigner un fusil** miltiqqa yopishmoq, **il l'a empoigné au collet** u uning yoqasiga yopishdi; **2.** *fam* mahliyo qilmoq, maftun qilmoq; **II. s'empoigner** *vpr* urishishmoq, mushtlashishmoq; yoqalashmoq; bir-biriga yopishmoq; janjallashmoq, urishib, janjallashib qolmoq; arazlashmoq, sanu manga bormoq.

**empois** *nm* kraxmal, ohor, kraxmal yelim.

**empoisonnant, ante** *adj fam* zerikarli, jonga tegadigan, bezor qiladigan, ko'ngilga uradigan; xira.

**empoisonnement** *nm* **1.** zaharlanish; **empoisonnement du sang** qonning zaharlanishi; **2.** *fam* zerikish; ko'ngilsiz voqea.

**empoisonner I.** *vt* **1.** zaharlamoq, zaharlab o'ldirmoq; **les champignons ont empoisonné toute la famille** butun oila qo'ziqorindan zaharlandilar; **2.** havoni buzmoq, qo'lansa hid chiqarmoq; *fam* sasimoq; **les fumées d'usine empoisonnent l'atmosphère** zavodlarning tutuni havoni buzayapti; **cette odeur empoisonne tout l'appartement** bu hid xonani tutib ketdi; bu hiddan butun xona sasib ketdi; **3.** *fig* buzmoq, xira qilmoq, zaharlamoq; **ce souvenir empoisonne ma vie** bu xotira mening hayotimni zaharlayapti, xiralashtiryapti; **4.** *fam* zeriktirmoq, jonga, me'daga tegmoq, bezor qilmoq, ko'ngilga urmoq; **II. s'empoisonner** *vpr* **1.** zaharlanmoq, o'zini o'zi zaharlamoq, zahar ichmoq; **2.** *fam* zerikmoq, bezor bo'lmoq.

**emporté, ée** *adj* serjahl, jahldor, jizzaki.

**emportement** *nm* **1.** jahldorlik, jizzakilik; **dans l'emportement de la colère** g'azab olovida, o'ta g'azablangan holda; **avec emportement** achchiqlanib, g'ijinib, achchiq bilan; **2.** *litt* birdan jo'sh urish, intilish; jo'shqinlik, shijoat, ihtiyoq.

**emporte-pièce** *nm inv* sumba, teshgich (*metall, devor kabilarni teshadigan asbob*); **à l'emporte-pièce** qattiq, keskin, qattiq tegadigan; cho'rt, cho'rtkesar, dag'al; zaharli, istehzoli, achchiq; kinoyali; **des mots à l'emporte-pièce** zaharli so'zlar; **un caractère à l'emporte-pièce** cho'rt, dag'al xarakter.

**emporter I.** *vt* **1.** olib ketmoq, o'zi bilan birga olmoq; **2.** (*ega joysiz predmet va tabiat hodisalari ifodalaydi*) yulib ketmoq, olib ketmoq, buzmoq; uchirib ketmoq; haydamoq, oqizmoq; supurmoq; yuvib ketmoq; qo'pormoq, qo'porib ketmoq; **le courant a emporté la barque** oqim qayiqni oqizib ketdi; **le vent emporte les feuilles** shamol barglarni uchirib, supurib ketdi; **la maison a été emportée par une avalanche** ko'chki uyni yo'q qilib yubordi; **le toit a été emporté par le vent** shamol tomni ko'tarib ketdi; **autant en emporte le vent** *prov* it hurar, karvon o'tar; **3.** *fig* olib ketmoq, hayotdan olib ketmoq; **la fièvre l'emporta** isitma uni olib ketdi; u isitmadan o'ldi; **4.** olib ketmoq, esiga tushirmoq; o'ziga jalb qilmoq, o'ziga tortmoq; **son rêve l'emporte dans son pays natal** xayol uning tug'ilgan joyini esiga tushirib yubordi; **5.** *fig* jizillatmoq, jizillatib og'ritmoq, achishtirmoq, yondirmoq (*ovqat haqida*); **ce potage est trop épicé, il emporte la bouche** sho'rva juda achchiq ekan, u og'zimni yondirib yubordi; **6.** zabt etmoq, qo'lga kiritmoq; jang bilan bosib olmoq, **les fusiliers marins ont emporté la position** dengiz piyodalari pozitsiya dushman qo'shini joylashgan joyni jang bilan oldilar; **il a emporté tous les premiers prix** u barcha bosh mukofotlarni qo'lga kiritdi; **l'emporter** g'alaba qilmoq, g'alaba qozonmoq; ustun qilmoq, qo'li baland kelmoq; **il l'a emporté sur son adversaire** u raqibidan ustun keldi; **la pitié l'emporta sur la haine** rahm-shavqat nafratdan ustun keldi; **II. s'emporter** *vpr* **1.** qizishmoq, jahli, achchig'i chiqib ketmoq, qoni, zardasi qaynamoq; sabri, sabr-toqati tugamoq; **s'emporter pour rien** bo'lar bo'lmasga qizishib ketmoq; **s'emporter comme une soupe au lait** qaynab ketmoq; o'ta serjahl bo'lmoq; **2.** olib qochmoq, olib qochib ketmoq (*ot haqida*).

**empoté, ée I.** *adj fam* qovushmagan, qo'pol; beso'naqay, beo'xshov; shoshilmaydigan, sustkash, sust, imillagan, sudralgan, tepsa-tebranmas; **II.** *n* lanj odam, imillagan, bo'shashgan, lallaygan odam, landavur, bo'shang; **aide-moi donc, au lieu de rester là comme un empoté** nega landovurga o'xshab lallayib turibsan, menga yordam bersang-chi!

**empourprer I.** *vt* qizartirmoq, qizil tus bermoq, qizil tusga kiritmoq, qizil rangga bo'yamoq; qip-qizil nur sochmoq; qizil rangda yoritmoq; **l'incendie empourprait le ciel** yong'in osmonni qizartirib yuborgan edi; **la colère**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**empourpra son visage** g'azabdan uning yuzi qip-qizarib ketgan edi; **II. s'empourprer** *vpr* qizarmoq, qizil tusga kirmoq, qizil tus olmoq, qizil rangga bo'yamoq; qizarib ko'rinmoq; **l'horizon s'empourprait** ufq qizil tus olgan edi.

**empreint, einte** *adj* izi qolgan; to'la, to'lgan, to'lib toshgan; ifodalangan; sug'orilgan; ko'rinib, sezilib turgan; ko'zga tashlanib, ko'rinib, ma'lum bo'lib turgan; **un visage empreint de douceur** mehribonlik belgilari bor chehra; **un poème empreint de mélancolie** qayg'u to'la she'r; **un poème empreint de sincérité** samimiylik bilan sug'orilgan she'r.

**empreinte** *nf* **1.** iz, tamg'a, belgi; **il y a des empreintes de pas dans la neige** qorda oyoq izlari bor; **relever les empreintes digitales** barmoq izlarini olmoq; **2.** *fig* asar, ta'sir; alomat, iz; **l'empreinte du génie** daholik alomati.

**empressé, ée** *adj* tirishqoq, g'ayratli, xizmatga tayyor, buyurilgan, ishdan bo'yin tovlamaydigan.

**empressement** *nm* **1.** g'ayrat, intilish, xizmatga tayyorlik; tirishish, g'ayrat qilish; qunt; xohish, istak; ishtiyoq, havas, mayl **montrer peu d'empressement pour qqch** biror narsaga sovuqqonlik bilan qaramoq; **avec empressement** jon deb, ishtiyoq bilan, qiziqib; **répondre avec empressement** jon deb javob bermoq; **2.** shoshish, shoshilish.

**empresser (s')** *vpr* **1.** tirishmoq, g'ayrat qilmoq, intilmoq; yoqmoq, ko'nglini topmoq; ko'nglini topishga harakat qilmoq; **il s'empresse toujours à rendre service** u xizmatga har doim tayyor; **ils s'empressaient autour du malade** ular bemor atrofida parvona bo'lardilar; **2.** shoshmoq, shoshilmoq; **je m'empresse de répondre à votre lettre** xatingizga javob yozishga shoshilyapman.

**emprise** *nf* ta'sir, ta'sir etish, ko'rsatish avoir de l'emprise sur qqn biror kimsaga ta'sir etmoq; **cet écrivain a beaucoup d'emprise sur la jeunesse** bu yozuvchi yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda; **sous l'emprise de** ta'siri ostida; **sous l'emprise de la passion** ehtiros ta'sirida, ehtiros og'ushida; **il est sous l'emprise de son frère** u akasining ta'sirida.

**emprisonnement** *nm* qamash; qamalish; qamoq; **condamner à l'emprisonnement** qamoq jazosiga hukm qilmoq, chiqarmoq.

**emprisonner** *vt* **1.** turmaga qamamoq, qamab qo'ymoq, qamoqxonaga tiqmoq; **emprisonner un malfaiteur** jinoyatchini qamab qo'ymoq; **2.** ustidan qulflab, berkitib, qamab qo'ymoq; **3.** siqmoq, siqib qo'ymoq; siqib, qisib olmoq, qo'ymoq; **un col qui emprisonne le cou** bo'yinni siqib qo'ygan yoqa.

**emprunt** *nm* qarz olish; qarz; qarz olingan pul; **faire un emprunt** qarz olmoq; **vivre d'emprunt** qarz olgan pul hisobiga kun ko'rmoq; **2.** zayom; **lancer l'emprunt** zayom chiqarmoq; **3.** *ling* o'zlashtirma (*boshqa tildan so'z, ibora*); **un emprunt au latin** lotin tilidan o'zlashtirilgan, olingan so'z; **d'emprunt** o'zlashtirilgan, olingan; begona, boshqa; yuzaki sayoz, siyqa; **un nom d'emprunt** taxallus; **sous un nom d'emprunt** begona boshqa nom ostida.

**emprunter** *vt* **1.** qarz olmoq, qarzga olib turmoq; vaqtincha olib turmoq; **emprunter de l'argent à qqn** biror kimsadan pul qarz olmoq; **emprunter un livre pour une heure** kitobni bir soatga olib turmoq; **2.** olmoq, o'zlashtirmoq, o'ziga olmoq; o'ziniki qilib olmoq; **la lune emprunte sa lumière au soleil** oy yorug'likni quyoshdan oladi; **le russe a emprunté de nombreux mots au français** rus tili ko'pgina so'zlarni fransuz tilidan olgan (*o'zlashtirib*); **emprunter une idée à un auteur** biror muallifdan g'oya olmoq; biror muallifning g'oyasini o'zlashtirmoq; **emprunter le style de qqn** biror kimsaning uslubiga taqlid qilib o'rganib olmoq; **3.** yurmoq, bormoq (*yo'l haqida*); **nous empruntons toujours cette route pour aller à Paris** Parijga borish uchun biz doim shu yo'ldan yuramiz.

**emprunteur, euse** *n* qarz oluvchi, olgan kishi, qarzdor.

**empuantir** *vt* sassiq, qo'lansa, badbo'y, achchiq, hidga to'ldirmoq; sassiq, qo'lansa, badbo'y, achchiq hid tarqatmoq; **la charogne empuantissait l'air** o'laksa havoni qo'lansa hidga to'ldirar edi.

**empyrée** *nm* empirey (*yunonlar tasavvurida: osmonning xudolar turadigan eng yuqori qismi*).

**ému, ue** *adj* hayajonlangan, to'lqinlangan; tashvishli, iztirobli; **parler d'une voix émue** tashvishlanib, hayajonlanib gapirmoq.

**émulation** *nf* boshqalardan o'zib ketishga harakat qilish, intilish, ishtiyoq, musobaqa, kurash, raqobat qilish.

**émule** *n* raqib, raqobat qiluvchi; musobaqadosh.

**émulsion** *nf* **1.** emulsiya, bir-biriga singishib ketmaydigan ikki xil suyuqlikning qorishmasi; **2.** *photo* emulsiya, fotoplastinka, fotoqog'oz va plyonka betidagi yorug'liksezgir qatlam; **une émulsion photographique** fotoemulsiya.

**émulsionner** *vt* **1.** emulsiya hosil qilmoq; qorishtirmoq, aralashtirmoq; **2.** *photo* foto emulsiya bilan qoplamoq, foto emulsiya bilan bo'yamoq.

**en**[1] *prép* **1. en ville** shaharda; **vivre en France** Fransiyada yashamoq; **de maison en maison** uydan-uyga; **de main en main** qo'ldan-qo'lga; **2. en hiver** qishda; **en 1997** 1997-yilda; **3. en trois heures** uch soatda, uch soat ichida; **en une minute** bir minutda; **de temps en temps** vaqti-vaqti bilan; har zamonda; **4. une chaise en bois** yog'och kursi; **5. sentier en pente** qiya so'qmoq; **un canal en construction** qurilayotgan kanal; **la télévision en couleurs** rangli televizor; **un pommier en fleur** gullagan olma; **6. compter en français** fransuzcha sanamoq; **écrire en quelques mots** bir nechta so'z bilan yozmoq; **traiter en enfant** bolalarcha muomala qilmoq; **parler en étourdi** o'ylamay gapirmoq; **chanter en français** fransuzcha kuylamoq; **en frère** akalarcha; **7. en vain** bekorga, behudaga; **en commun** birgalikda, birgalashib; **8. en dépit de** xilof ravishda; **en vue de** sababli, sababdan, boisdan; -gani uchun, sababli; nazarda tutib, e'tiborga olib; **en raison de** -ga muvofiq, -ga ko'ra, binoan; **9. gérondif** *hosil qilishda qo'llaniladi:* **en parlant** gapira turib, gapirib; **en souriant** kulib turib, kulib.

**en**[2] *adv* u yerdan, o'sha joydan, tomondan, yoqdan; **il en sort** u yoqdan chiqayapti; **j'en viens** o'sha joydan kelyapman.

**en**[3] *pron* **1.** ***de*** *predlogi bilan qo'llangan ot o'rnida ishlatiladi* **il se rend à Paris, moi, j'en viens** u Parijga jo'nab ketyapti, men esa u yerdan qaytib kelyapman; **il avait une règle, il en frappait la table** uning chizg'ichi bor edi, u bilan stolga urdi; **je connais Paris, j'en admire les musées** men Parijni bilaman, men uning muzeylaridan zavqlanaman; **ce roman m'a beaucoup plu, j'en ai relu plusieurs passage** bu roman menga juda yoqdi, men ko'p yerlarni qayta o'qib chiqdim; **voulez-vous du thé? – non, merci, j'en ai encore** choy(dan) ichasizmi? – yo'q, rahmat, hozircha bor; **2. s'en aller** ketmoq; **en vouloir à** jahli chiqmoq; **en arriver à** -gacha bormoq, yetmoq; **en être à se demander** o'ziga savol bermoq, o'zidan so'ramoq; **en être pour son argent** aldanmoq, ahmoq bo'lib, ikkala qo'lini burniga tiqib qolmoq; quruq qolmoq; **s'en prendre à qqn** alamini birovdan olmoq, aybini birovga ag'darmoq.

**encablure** *nf mar* kabeltov (*dengizda; 185,2 metrga teng uzunlik o'lchovi*).

**encadrement** *nm* **1.** ramkaga solish; **encadrement d'une photographie** rasmning ramkaga solinishi; **2.** rom, romka, ramka, rama, chorcho'p; **cet encadrement est trop large pour le tableau** bu romka rasm uchun juda katta; **3.** devordagi eshik yoki deraza o'rni; kesaki; **4.** *fig* sharoit, muhit, ora, doira; atrofdagi kishilar, yaqinlar; **4.** *mil* vilka, chatal (*artilleriya jangida*); **5.** rahbar xodimlar; *mil* komandirlar tarkibi; **l'encadrement de cette troupe est insuffisant** bu qism komandirlar sostavi bilan to'liq ta'minlanmagan; **6.** *mil* rahbar xodimlar, komandirlar sostavi bilan ta'minlash yoki ta'minlanganlik.

**encadrer I.** *vt* **1.** ramkaga solmoq; ramkaga joylamoq; **encadrer une photographie** rasmni ramkaga joylamoq; **2.** aylanasiga bo'yamoq, chetini, atrofini hoshiyalamoq, atrofiga chiziq tortmoq, atrofini yoki ustidan chizib chiqmoq; **encadrer un article dans le journal** gazetadagi maqolani ramkaga olmoq; **3.** o'ramoq, ikki yonida kuzatib turmoq, bormoq; **encadrer quelqu'un** *fam* hibsga olmoq; **4.** rahbar xodimlar, kadrlar bilan ta'minlamoq; **5.** *mil* komandirlar sostavi bilan ta'minlamoq; **6.** *mil* flanglarni qo'shimcha qismlar bilan mustahkamlamoq, ta'minlamoq; **7.** *mil* nishonni vilka, chatalga olmoq; **8.** *fam* chidamoq, bardosh bermoq, toqat qilmoq, ko'nmoq, ko'nikmoq; **je ne peux pas l'encadrer** men unga toqat qilolmayman; uni ko'rishga toqat qilolmayman, toqatim yo'q; **II. s'encadrer** *vpr* ramkadagiga o'xshab ko'rinmoq; o'ralmoq, o'ralib turmoq; **sa silhouette s'encadrait dans la porte** uning siymosi eshikda aniq ko'rindi.

**encadreur** *nm* ramka, rom yasovchi usta (*rasm, gravyura, portret uchun*).

**encaisse** *nf* kassadagi naqd pul; **l'encaisse d'une banque** bankda mavjud oltin miqdori.

**encaissement** *nm fin* inkassatsiya.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**encaisser** *vt* **1.** yashikka, qutiga joylamoq; **2.** inkasso ishlarini olib bormoq, ishonch qog'ozi bilan pul olmoq; **encaisser un chèque** chek bo'yicha olmoq, chek bo'yicha inkasso ishlarini olib bormoq; **3.** *fam* sabot-matonat bilan chidamoq, bardosh bermoq; **il encaisse bien** u zarblarga sabot-matonat bilan chidamoqda (*boksda*); **4.** *fam* chidamoq, toqat qilmoq; **il n'a pas pu encaisser cet échec** u bu muvaffaqiyatsizlikka ko'nika olmadi; **je ne puis pas encaisser cet individu** men bu kishiga toqat qilolmayman, mening bu kishiga toqatim yo'q; **5.** siqmoq, qismoq, siqib, qisib qo'ymoq; zich qurshamoq, zich o'ramoq.

**encaisseur** *nm* inkassator (*sayyor kassir*).

**encan (à l')** *loc adv* kimoshdi savdosi; auksion; **vendre à l'encan** kimoshdi savdosida sotmoq.

**encanailler (s')** *vpr fam* har xil qalang'i-qasang'i odamlar bilan bordi-keldi qilmoq, aloqa qilmoq.

**encapuchonner I.** *vt* kapushon kiydirmoq, kiygizmoq; **II. s'encapuchonner** *vpr* boshiga kapushon kiymoq; boshini kapushon bilan o'ramoq.

**encart** *nm* xatcho'p; qo'shimcha (*orasiga qo'yilgan*) varaqa; reklama varaqasi.

**encarter** *vt* **1.** ichiga solmoq, orasiga qo'ymoq (*xatcho'p, qo'shimcha varaqa*); **2.** karton (*qalin qog'oz*)ga mahkamlamoq, yopishtirmoq, mahkamlab, yopishtirib qo'ymoq; **encarter des microfilms** mikrofilmlarni kartonga yopishtirmoq.

**en-cas** *nm inv* yengil ovqat, yegulik.

**encastrer** *vt* o'yilgan, o'yiq joyga o'rnatmoq, joylamoq; o'yib o'rnatmoq; **encastrer une armoire dans un mur** taxmonga shkafni joylamoq; **encastrer une prise de courant dans la plinthe** shtepsel rozetkasini chaspakka o'yib o'rnatmoq.

**encaustique** *nf* mastika, pol bo'yoq; mum (*pol, mebel uchun*); **passer un parquet à l'encaustique** parketga mastika surb ishqalamoq.

**encaustiquer** *vt* mastika, mum surib ishqalamoq.

**enceinte**[1] *nf* **1.** devor, to'siq, g'ov; tuproq devor; mudofaa halqasi; **2.** to'silgan, o'ralgan joy; bino, imorat, uy; **pénétrer dans l'enceinte de la ville** shahar ichkarisiga kirmoq; **l'enceinte d'un tribunal** sud binosi; **l'enceinte du parc** bog', park territoriyasi; **dans l'enceinte de l'église** cherkovning ichida.

**enceinte**[2] *adj* **femme enceinte** homilador ayol.

**encens** *nm* **1.** ladan (*ba'zi o'simliklardan olinadigan, diniy marosimlarda tutatiladigan xushbo'y smola*); fimiam (*isiriqsimoq, xushbo'y tutatqich*); **2.** *fig* oshirib yuborilgan maqtov; xushomadgo'ylik; *péj* **brûler de l'encens** juda maqtab yubormoq, madhiya o'qimoq.

**encenser** *vt* **1.** ladan tutatmoq, ladan solmoq; **2.** *fig* oshirib maqtamoq, madhiya o'qimoq, ko'klarga ko'tarib maqtamoq; **encenser un orateur** notiqni ko'klarga ko'tarib maqtamoq; **encenser les mérites de qqn** biror kimsaning fazilatlarini maqtamoq.

**encensoir** *nm* ladandor (*ibodat paytida ladan tutatadigan idish*).

**encéphale** *nm* bosh miya.

**encéphalite** *nf* ensefalit (*bosh miyaning yallig'lanishi*).

**encerclement** *nm* qurshab olish, o'rab olish, qamal qilish; qurshov, qamal.

**encercler** *vt* **1.** aylanasiga bo'yamoq, atrofiga chiziq tortmoq, atrofini chizib chiqmoq; **il encercla au crayon rouge deux noms sur la carte** qizil qalam bilan xaritadagi ikkita nomning atrofiga chiziq tortdi; **2.** o'rab olmoq, o'rtaga olmoq; halqa shaklida o'rab olmoq; **3.** qurshab olmoq, qurshovga olmoq, qamal qilmoq; **l'ennemi était encerclé** dushman qurshab olingan edi.

**enchaînement** *nm* **1.** bog'lanish, ulanish; bog'lash, ulash; **2.** izchillik, mantiqiylik; birin-ketinlilik, ketma-ketlik; bog'liqlik; **3.** kishanlash, kishanga solish.

**enchaîner I.** *vt* **1.** zanjirlamoq, zanjir bilan bog'lamoq, zahjirga solmoq; kishanlamoq, kishanga solmoq; **enchaîner un chien méchant** qopag'on itni zanjirlamoq; **enchaîner un prisonnier** mahbusga kishan solmoq; **2.** *fig* ozodlikdan mahrum qilmoq, qul qilmoq; **enchaîner un peuple** xalqni asoratga solmoq; **3.** bog'lamoq, ulamoq; o'zaro moslamoq, muvofiqlashtirmoq, uyg'unlashtirmoq; **4.** davom ettirmoq, ilib ketmoq (*suhbat, ma'ruza*); **enchaîner la conversation** suhbatni davom ettirmoq, gapni ilib ketmoq; **II. s'enchaîner** *vpr* uzviy bog'lanmoq; birin-ketin kelmoq; ulanib ketmoq; **les événements s'enchaînent les uns aux autres** voqealar bir-biriga ulanib ketyapti; **ses idées s'enchaînent mal** uning fikrlari uzviy bog'liq emas.

**enchanté, ée** *adj* **1.** sehrli, mo'jizali, maftunkor, fusunkor; **2.** qoyil qolgan, zavqlangan, ich-ichidan quvongan; shod, mamnun; **enchanté de faire votre connaissance** siz bilan tanishganimdan xursandman.

**enchantement** *nm* **1.** sehrgarlik, jodugarlik; sehr, afsun, jodu; **la douleur a disparu comme par enchantement** og'riq xuddi sehr qilingandek to'xtadi; **2.** dilbarlik, dilrabolik, maftunkorlik, joziba, sehr; fusunkorlik, afsunkorlik, tarovat; **3.** zavq olish, taxsin o'qish, tasanno aytish, qoyil qolish, tan berish; zavq-shavq, tahsin, tasanno; **être dans l'enchantement** maftun bo'lmoq, qoyil qolmoq; **procurer un enchantement** maftun qilmoq; qoyil qoldirmoq.

**enchanter** *vt* **1.** sehrlamoq, afsunlamoq, tilsimlamoq; sehrlab, tilsimlab qo'ymoq; **2.** maftun qilmoq, shaydo qilmoq, boshini aylantirib qo'ymoq, **cette histoire m'enchante** bu voqea meni maftun qilib qo'ydi; bu voqeaga qoyil qoldim.

**enchanteur, teresse I.** *n* sehrgar, jodugar, afsungar; ko'zboylog'ich; **II.** *adj* dilbar, maftunkor, shaydo qiluvchi, jozibador; serzavq, dilkash; fusunkor, sehrlovchi; **un sourire enchanteur** jozibali tabassum; **une voix enchanteresse** maftun qiladigan ovoz; dilbar ovoz; fusunkor ovoz.

**enchâssement** *nm* ko'z qo'yish, gardishga, ramkaga solish; opravaga o'rnatilish, gardishga, ramkaga joylashganlik.

**enchâsser** *vt* **1.** ko'z qo'ymoq, opravaga o'rnatmoq, gardishga, ramkaga solmoq; **enchâsser un diamant dans un cercle d'or** oltin uzukka briliant ko'z o'rnatmoq; **2.** o'yib o'rnatmoq, o'yilgan joyga o'rnatmoq, mahkamlamoq; **enchâsser deux pièces de bois l'une dans une autre** ikkita yog'och detalning birini ikkinchisiga o'yib o'rnatmoq; **3.** *fig* **enchâsser une citation** sitata qistirmoq, qo'shmoq.

**enchère** *nf* **1.** ustama (*pul*), oshirilgan narx; **sur une nouvelle enchère de 1000 francs la maison fut adjugée** yana ming frank qo'shilgandan so'ng uy sotildi; **faire monter les enchères** yuqoriroq narx taklif etmoq; **2.** pl; **vente aux enchères** kimoshdi qilib sotish.

**enchérisseur** *nm* bahoni, narxni oshiruvchi kishi (*savdoda*).

**enchérir** *vi fam* narx, bahoni oshirmoq, bahoning ustiga qo'ymoq.

**enchevêtrement** *nm* **1.** chigallashtirish, chigallashtirib, chalkashtirib yuborish; alkash-chalkash qilib yuborish; o'ralish, matishish, chirmashish; chigallik, chalkashlik; ayqash-uyqash, uyum, to'p; **l'enchevêtrement des racines** ildizlarning chatishib ketishi; **2.** *fig* chalkashlik, chigallik, tartibsizlik; chatoqlik; **on se perd dans l'enchevêtrement de ses idées** uning fikrlaridagi chalkashlikdan hech narsa anglab bo'lmaydi.

**enchevêtrer I.** *vt* chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, aralashtirmoq, chigal, aralash-quralash qilib yubormoq, adashtirmoq; **II. s'enchevêtrer** *vpr* **1.** chalkashmoq, chigallashmoq; bir-biriga o'ramoq, o'ralib, matashib, chirmashib ketmoq; **les branches s'enchevêtraient au-dessus de sa tête** uning tepasidagi shoxlar bir-biriga matashib ketgan edi; **2.** *fig* chuvalashmoq, aralash-quralash bo'lib ketmoq.

**enclave** *nf* **1.** anklav (*o'zga xo'jalik, davlatlar ichida joylashgan yerlar*); **2.** biror bir massaga o'ralgan narsa.

**enclaver I.** *vt* **1.** o'z mulki (*yeri*) bilan boshqalarga qarashli yerni o'rab olmoq; **sa propriété enclave trois champs qui appartiennent à un voisin** qo'shnisining uchta dalasi uning mulki bilan o'rab olingan; uning yeri ichida qo'shnisining uchta dalasi joylashgan; **2.** orasiga, o'rtasiga joylashtirmoq; **II. s'enclaver** *vpr* o'zga yerda joylashmoq.

**enclenchement** *nm* **1.** ulash, tirkash, matashtirish; yurgizish, ishga solish, harakatga keltirish; **2.** harakatga keltiruvchi mexanizm.

**enclencher** *vt* **1.** *techn* yurgizmoq, ishga solmoq, harakatga keltirmoq (*harakatga keltiruvchi mexanizm vositasida*); **2.** *fig* boshlamoq, yurishtirmoq, siljitmoq (*ishni*); **enclencher une affaire** ishni yurishtirmoq, siljitmoq.

**enclin, ine** *adj* moyil, mayli, rag'bati, ishtiyoqi, havasi bo'lgan, sevgan, ishtiyoqli; beriluvchan; **être enclin à la paresse** yalqovlikka moyil bo'lmoq.

**enclore** *vt* atrofini o'rab qo'ymoq, to'sib olmoq, o'rab, to'sib ajratmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**enclos** *nm* **1.** o'ralgan, to'silgan joy (*devor, to'siq, g'ov, panjara, ihota bilan*); o'tar, qo'ton, molxona (*uy hayvonlari uchun*); **2.** devor, to'siq, g'ov, panjara.

**enclume** *nf* **1.** sandon; dupoya; **forger le fer sur l'enclume** temirni sandon ustida bolg'alamoq; **être entre l'enclume et le marteau** ikki o'rtada qolmoq, o't bilan suv o'rtasida qolmoq; **2.** *anat* sandon, ichki tog'ay (*quloqda*).

**encoche** *nf* chuqur, o'yilgan joy, qamchak; kertik, o'yilgan joy; nov.

**encocher** *vt* chekmoq, o'ymoq; kertmoq, kertik solmoq; **encocher une flèche** paykonni kamalak ipiga qo'ymoq, joylamoq.

**encoignure** *nf* **1.** xonaning burchagi; **2.** uch burchak shaklidagi kichik mebel (*burchakka qo'yiladigan shkaf, divanlar*).

**encollage** *nm* yelimlash, yelim surkash, surtish.

**encoller** *vt* yelimlamoq, yelim surtmoq, surtib chiqmoq.

**encolure** *nf* **1.** otning bo'yni; **2.** kiyim yoqasining kengligi; **une chemise d'encolure 39** o'ttiz to'qqiz yoqali ko'ylak; **3.** yoqa.

**encombrant, ante** *adj* qo'pol, beso'naqay, xalaqit beradigan.

**encombre (sans)** *loc adv* hech qanday to'siqlarga uchramay, muvaffaqiyatli ravishda; qiyinchiliksiz, sarguzashtsiz; **nous sommes arrivés sans encombre** biz hech qanday qiyinchiliksiz yetib keldik.

**encombrement** *nm* **1.** tiqilinch, tirband; tiqin; **2.** uyib, qalashtirib tashlash; uyum, to'p, to'da, g'aram, tepa; **3.** tiqilish, tiqilib qolish; yo'lni to'sish, to'sib qo'yish (*mashina, transport vositalari haqida*); yo'l tirband bo'lgan payt va joy; **un encombrement de deux heures** ikki soat davom etadigan qatnov tig'iz vaqt.

**encombrer** *vt* **1.** o'yib tashlamoq, qalashtirmoq; tirband qilib yubormoq; to'sib qo'ymoq; **encombrer la rue** ko'chani to'sib qo'ymoq; **encombrer le passage** yo'lakni to'sib qo'ymoq; **des meubles encombrent la maison** mebellar uyini tirband qilib yubordi; **2.** *fig* ko'mib tashlamoq, to'ldirib tashlamoq, to'ldirib, bostirib yubormoq; **encombrer le marché** bozorni molga ko'mib tashlamoq; **encombrer sa mémoire de dates** xotirani sanalarga to'ldirib yubormoq; **3.** malol keltirmoq, urintirmoq; noqulay ahvolga solmoq.

**encontre** de (à l') *loc prép* farqli ravishda; nisbatan; aksicha, teskarisicha, qarshi o'laroq; qaramay, qaramasdan, qarshi, xilof ravishda, aksiga; **à l'encontre de votre opinion** sizning fikringizdan farqli ravishda.

**encorbellement** *nm archit* turtib chiqqan joy; chiqiq, bo'rtik (*balkon, karniz haqida*).

**encorder (s')** *vpr* bir-biriga arqon yordamida matashmoq, bir arqonga bog'lanmoq (*alpinistlar haqida*).

**encore** *adv* **1.** hali, hali ham, haligacha, shu vaqtgacha, shu vaqtga qadar, hanuz; hozircha; **personne ne l'a encore rencontré** hozircha hech kim uni uchratgani yo'q; **il ne fait pas encore jour** haligacha yerga yorug' tushmayapti; **2.** yana, tag'in; qaytadan; qo'shimcha ravishda, qo'shimcha qilib; **donnez-moi encore un morceau de sucre** menga yana bir bo'lak qand bering; **il est encore venu** u yana keldi; **3.** yana ham, yana-da; -dan ham, -roq; **cela aggrave encore la situation** bu vaziyatni yana-da murakkablashtirmoqda; **il est encore plus bête que je ne pensais** u men o'ylaganimdan ham ahmoqroq ekan; **4.** lekin, ammo; biroq; shunday bo'lsa ham, shunga qaramasdan; buning ustiga, shu bilan birga, -dan tashqari; **vouloir est bien, encore faut-il pouvoir** xohish yaxshi, ammo bajara olmoq ham kerak; **cela est inquiétant, encore ne sait-on pas tout** bu narsa tashvishga soladi, undan tashqari barcha narsa bizga ayon emas; **non seulement il n'a pas écrit, mais encore il n'a pas répondu à ma lettre** u menga xat yozmadigina emas, buning ustiga u xatimga ham javob bermadi; **5.** *loc conj* **encore que** garchi; -ga qaramay, -sa ham **encore qu'il soit jeune** garchi u yosh bo'lsa ham.

**encorner** *vt* shoxiga ilib olmoq, shoxiga ilib, ilintirib ko'tarmoq; shoxlamoq, shoxini sanchib yarador qilmoq; tilib yubormoq; **le taureau a encorné le cheval** ho'kiz otni biqiniga shoxini sanchib yarador qildi.

**encourageant, ante** *adj* ruhlantiruvchi, ko'ngilni ko'taruvchi, dadillantiruvchi, g'ayratlantiruvchi, dalda beruvchi, **un résultat encourageant** dalda beruvchi natija.

**encouragement** *nm* ruhini, ko'nglini ko'tarish, dalda berish, g'ayratlantirish; ma'qullash; taqdirlash, rag'batlantirish, qiziqtirish; **un acte d'encouragement** rag'batlantiruvchi tadbir; **il a besoin d'encouragements** u daldaga muhtoj; **des cris d'encouragement** dalda beruvchi xitob.

**encourager** *vt* **1.** ruhini, ko'nglini ko'tarmoq, dalda bermoq, g'ayratlantirmoq, rag'batlantirmoq, **il faut encourager les élèves** o'quvchilarni rag'batlantirmoq kerak; **le public encourage les joueurs** tomoshabinlar o'yinchilarga dalda bermoqdalar; **2.** qulaylik, yengillik tug'dirmoq, osonlashtirmoq; yordam bermoq, ko'maklashmoq; imkon bermoq, imkoniyat tug'dirmoq; istak tug'dirmoq; rag'batlantirmoq, undirmoq; **encourager l'industrie** sanoatni rivojlanishiga qulaylik yaratmoq; **encourager les arts et les lettres** san'at va adabiyotning rivojlanishiga yordam bermoq.

**encourir** *vt* uchramoq, yoliqmoq, duchor, mubta'lo bo'lmoq; biror holga solinmoq, biror ish-harakat ta'siri ostiga olinmoq; loyiq, sazovor bo'lmoq; xavf oldida turmoq, xavf tug'dirmoq; **encourir une amende** jarima to'lamoq; **encourir une peine** jazoga mubtalo bo'lmoq; **l'accusé encourut la peine de mort** ayiblanuvchi o'lim jazosi xavfi ostida turibdi.

**encrage** *nm* bosma gul va shunday gul solish; bo'yoq surtish (*toshbosma, shriftga*).

**encrassement** *nm* **1.** bulg'atish, iflos qilish; **2.** bulg'anish, ifloslanish, kirlanish; to'lib qolish.

**encrasser** *vt* bulg'atmoq, bulg'amoq, kir qilmoq, iflos qilmoq; qurum bosmoq, dud, is bosmoq, kuya bosmoq; **ce charbon encrasse les tuyaux du poêle** bu ko'mirdan pechkaning quvurlarini qurum bosmoqda; **cette encre a encrassé mon stylo** bu siyoxdan ruchkam tiqilib qoldi.

**encre** *nf* **1.** siyoh; **écrire à l'encre bleue** ko'k siyohda yozmoq; **faire une tache d'encre** siyoh to'kib dog', iflos qilmoq; **l'encre de Chine** tush; **la nuit d'encre** qorong'u kecha; **une bouteille à l'encre** shubhali kishi; **2. l'encre d'imprimerie** bosmaxonada ishlatiladigan bo'yoq.

**encrer** *vt* (*dumalatib*) bo'yoq surtmoq, gul bosmoq, solmoq (*bosmaxonada*).

**encreur** *adj* **un rouleau encreur** g'ildirab bo'yoq surtadigan valik.

**encrier** *nm* siyohdon.

**encroûter I.** *vt* **1.** qoplamoq; surtmoq, bo'yamoq (*ohak kabilar bilan*); **2.** *fig* zaiflashtirmoq, sustlashtirmoq, pasaytirmoq; **II. s'encroûter** *vpr* qotib qolmoq, botmoq, botib qolmoq; **il s'est encroûté dans ses habitudes** u o'z odatlariga yopishib qolgan.

**encyclique** *nf* ensiklika (*Rim papasining katoliklarga qaratilgan murojaatnomasi*).

**encyclopédie** *nf* ensiklopediya, qomus; **une encyclopédie vivante** jonli ensiklopediya, bilimdon (*har qanday masala yuzasidan ma'lumot bera oladigan odam haqida*).

**encyclopédique** *adj* **1.** ensiklopediyaga oid, ensiklopedik, qomusiy, ensiklopediya; **un dictionnaire encyclopédique** ensiklopedik lug'at; **2.** har tomolama keng; bilimning hamma sohalarini o'z ichiga olgan; bilimning hamma sohalaridan xabardor; **un esprit encyclopédique** keng ma'lumotli kishi.

**encyclopédisme** *nm* ensiklopedizm (*ilm-fanning turli sohalaridan keng ma'lumotga, bilimga egalik, xabardorlik*).

**encyclopédiste** *nm* ensiklopedist; **les encyclopédistes** ensiklopediya tuzuvchilar.

**endémie** *nf méd* endemiya (*biror joyda yuqumli kasallikning hamisha mavjud bo'lishi*).

**endémique** *adj* **1.** *méd* endemik, mahalliy, jaydari (*ma'lum bir joyga xos, ma'lum bir joyda bo'ladigan*); **2.** *fig* doimiy, muttasil, to'xtamaydigan; **un chômage endémique** muttasil ishsizlik.

**endettement** *nm* qarz, qarzdorlik.

**endetter I.** *vt* qarz qilmoq, qarzga botirmoq, qarzdor qilib qo'ymoq; **cet achat m'a endetté pour longtemps** bu xarid meni uzoq vaqt qarzga botirdi; **II. s'endetter** *vpr* qarzdor bo'lmoq, qarzga botmoq.

**endeuiller** *vt* qayg'uga solmoq, g'amga botirmoq; xafa qilib, qayg'urtirib qo'ymoq; **cette mort m'a endeuillé** bu o'lim meni g'amga botirdi.

**endiablé, ée** *adj* **1.** shaytoniy, shayton yo'ldan urgan, shaytonga ixtiyorini bergan, shaytonga bo'ysungan; shaytonga duchor, giriftor, mubtalo bo'lgan; **un enfant endiablé** sho'x bola, shumtaka, tirrancha, jinqarcha, shayton; **2.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

shiddatli, qattiq; kuchli, haddan tashqari, shiddatli, kuchli; **un rythme endiablé** shiddatli ritm.

**endiguer** *vt* **1.** damba qurmoq, to‘smoq; **2.** to‘sqinlik, qarshilik ko‘rsatmoq, to‘sqinlik, qarshilik qilmoq, to‘sqin, g‘ov, to‘g‘anoq bo‘lmoq; to‘xtatmoq; **endiguer le flot des manifestants** namoyishchilar oqimini to‘xtatmoq, to‘smoq; **endiguer la foule** olomonni to‘xtatib qolmoq, olomon yo‘lini to‘smoq.

**endimancher (s')** *vpr* bayramona, bayramlardagidek kiyinmoq.

**endive** *nf bot* sachratqining bir turi.

**endocarde** *nm anat* endokard, endokardiy (*yurakning ichki pardasi*).

**endocrine** *adj* endokrin, ichki sekretsiya bezlariga bog‘liq bo‘lgan; **les glandes endocrines** endokrin bezlar, ichki sekretsiya bezlari.

**endocrinien, ienne** *adj* endokrik, ichki sekretsiya bezlariga bog‘liq bo‘lgan.

**endoctrinement** *nm* tashviqot, targ‘ibot; g‘oyaviy jihatdan o‘z ta’siriga olish; **l'endoctrinement de la jeunesse** yoshlarni g‘oyaviy jihatdan o‘z ta’siriga olish.

**endoctriner** *vt* dunyo qarashini singdirmoq; agitatsiya qilmoq, agitatsiya, tashviqot yurgizmoq; o‘z ta’sirini o‘tkazmoq, o‘z ta’siriga olmoq.

**endolori, ie** *adj* toliqib, bezillab qolgan; **le lendemain du match, il avait les membres endoloris** o‘yinning ertasiga uning hamma joyi toliqib og‘rir edi.

**endommager** *vt* zarar yetkazmoq, ziyon keltirmoq, buzmoq; **le toit a été endommagé par les orages** tom jaladan ziyon ko‘rdi; **la grêle a endommagé les récoltes** hosilga do‘ldan ziyon yetdi.

**endormant, ante** *adj* uyqu bostiradigan, zeriktiradigan.

**endormi, ie I.** *adj* **1.** uxlagan, uxlab yotgan, uyqudagi; **il se promenait à travers la ville endormie**. u uyqudagi shahar bo‘ylab sayr qilardi; **2.** uyqusiragan, uyqu bosgan, mudragan, uyquli; **un regard endormi** uyqusiragan nigoh; **3.** *fig* lanj, bo‘shashgan, shalviragan, karaxt; **II.** *n* uyquchi, seruyqu odam, uyquboz; **quel endormi!** xo‘p uyquchi ekansan-da!

**endormir I.** *vt* **1.** uxlatmoq, uxlatib qo‘ymoq, allalab uxlatmoq; **bercer un bébé pour l'endormir** bolani uxlatmoq uchun uni tebratmoq; **2.** *fig* zeriktirib, toliqtirib uyqu bostirmoq, uyquni keltirmoq; **il endort son auditoire** u tinglovchilarni zeriktirib qo‘ymoqda; **3.** og‘riqsizlashtirmoq, og‘riq sezmaydigan qilmoq; behush qilmoq; **faire une piqûre à un malade pour l'endormir** bemorni uxlatib qo‘yish uchun ukol qilmoq; **4.** bosibmoq, yengillashtirmoq, tinchitmoq; **II. s'endormir** *vpr* **1.** mudramoq, mudroq, uyqu bosmoq, ko‘zi ilinmoq; uyquga ketmoq, uxlab qolmoq; **la ville s'endort** shahar uyquga ketmoqda; **2.** g‘aflatda qolmoq, hushyorlikni yo‘qotmoq.

**endoscope** *nm méd* endoskop (*tananing ichki bo‘shliqlarini, oshqozon, qizilo‘ngach kabilarni yoritish va ko‘rish asbobi*).

**endoscopie** *nf méd* endoskopiya (*tananing ichki bo‘shliqlarini, oshqozon, qizilo‘ngachni endoskop yordamida yoritish va ko‘rish metodi*).

**endosser**[1] *vt* **1.** yelkasiga tashlamoq, ustiga ilmoq; kiymoq; **endosser un manteau** paltoni kiymoq; **2.** yelkasiga olmoq; **endosser la paternité d'un enfant** bolaga otalik qilishni o‘z zimmasiga, bo‘yniga olmoq.

**endosser**[2] *vt* veksel, chek kabi qimmatbaho qog‘ozlarning orqa tomoniga uning boshqa kishiga o‘tganligini tasdiqlab yozmoq.

**endroit**[1] *nm* **1.** o‘rin, joy, makon; **il ne voit rien de cet endroit** bu joydan hech narsa ko‘rinmaydi; **2.** bo‘lak, parcha, qism (*badiiy asar, musiqa haqida*); **c'est le meilleur endroit de la pièce** bu parcha pyesaning eng yaxshi joyi; **3.** narsa yoki a’zoning ayrim qismi, bo‘lagi, joyi; **toucher au bon endroit** nozik joyiga tegmoq; **4.** *loc adj* **par endroits** ba’zi, turli joylarda; har yerlarda; *loc prép* **à l'endroit de (qqn)** biror kimsa haqida, to‘g‘risida; biror kimsaga nisbatan.

**endroit**[2] *nm* matoning o‘ng tomoni; o‘ng; **l'endroit et l'envers de la médaille** medalning o‘ng va teskari tomoni; **mettre qqch à l'endroit** biror narsani o‘ng tomonini qo‘ymoq (*o‘ngini kiymoq*).

**enduit, uite I.** *adj* surkalgan; chaplangan; bo‘yalgan; suvalgan; **II.** *nm* **1.** suvoq; shpatlyovka (*teshik-yoriqlarni, tirqishlarni berkitish, yuzani tekislash uchun ishlatiladigan yopishqoq qorishma*); **2.** homaki bo‘yoq (*rassomchilikda*); **3.** *méd* karash (*kasallikdan til ustida paydo bo‘ladigan oq qatlam*).

**enduire** *vt* surtmoq, surkamoq; suvamoq; bo‘yamoq; shpatlyovka surtmoq; **enduire un mur de plâtre** devorni suvamoq, suvoq qilmoq; **enduire son visage de crème** yuziga krem surtmoq; **enduire de colle** yelim surtmoq, yelimlamoq; **enduire de goudron** smola surtmoq; **un couteau à enduire** shpatel (*shpatlyovka qilish yoki matoga bo‘yoq surtish uchun ishlatiladigan kurakchasimon asbob*).

**endurant, ante** *adj* chidamli, bardoshli, toqatli; **il est très endurant** u juda bardoshli.

**endurance** *nf* chidamlilik, bardoshlilik, barqarorlik, toqatlilik; chidam, bardosh, toqat; **l'endurance physique** jismoniy jihatdan chidamlilik; **l'endurance morale** axloqiy barqarorlik; **l'endurance à la douleur** og‘riqqa bardoshlilik.

**endurant, ante** *adj* chidamli, bardoshli; toqatli; chiniqqan.

**endurci, ie** *adj* **1.** qotgan, qotib qolgan, suvi qochgan; dag‘allashgan, qavargan; **des mains endurcies par le travail** mehnatdan dag‘allashgan, qavargan qo‘llar; **2.** *fig* diydasi qotgan, diydasi qattiq bo‘lib ketgan; rahmsiz, ko‘ngli qattiq, toshbag‘ir; bag‘ritosh; **un cœur endurci** toshbag‘ir, rahmsiz kishi.

**endurcir I.** *vt* **1.** qotirmoq, dag‘allashtirmoq, qo‘pollashtirmoq; chidamli qilmoq, chiniqtirmoq; **un soldat que les compagnes ont endurci** janglarda chiniqqan askar; **2.** toshbag‘ir qilmoq, bag‘ritosh qilmoq, rahmsiz qilmoq; **II. s'endurcir** *vpr* **1.** qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq; **2.** toshbag‘ir bag‘ritosh bo‘lmoq, rahmsiz bo‘lmoq.

**endurer** *vt* chidamoq, toqat qilmoq, bardosh bermoq; **endurer des souffrances** azob-uqubatga chidamoq.

**énergétique I.** *adj* energetik, energetikaga oid; **II.** *nf phys* energetika (*texnikaning turli energiyalardan foydalanish yo‘llarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i*).

**énergie** *nf* **1.** energiya, quvvat; **l'énergie mécanique** mexanik energiya; **2.** *fig* g‘ayrat, g‘ayrat-shijoat, kuch-quvvat, qat’iyat, shiddat; **mettre toute son énergie à** bor kuch-quvvatini sarflamoq; **avec énergie** g‘ayrat bilan, qizg‘in sur’atda, keskin.

**énergique** *adj* **1.** g‘ayratli, serg‘ayrat, serharakat, aktiv, faol; **un homme énergique** g‘ayratli kishi, serg‘ayrat odam; **2.** keskin, qat’iy, qizg‘in; **une protestation énergique** qat’iy norozilik, qatiy e’tiroz.

**énergiquement** *adv* **1.** g‘ayratbilan, aktiv ravishda; **lutter énergiquement** g‘ayrat bilan kurashmoq; **2.** qat’iy ravishda, keskin ravishda; **protester énergiquement** qat’iy ravishda e’tiroz, norozilik bildirmoq.

**énergumène** *nm* fe’li tez, battol, to‘polonchi, asabiy, baqiroq.

**énervant, ante** *adj* g‘ashga tegadigan, jahlni chiqaradigan; qonni, zardani qaynatadigan, asabiylashtiradigan.

**énervé, ée** *adj* g‘azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, qoni, zardasi qaynagan, darg‘azab.

**énervement** *nm* g‘azablanganlik, achchiqlanganlik, holat, hayajon, to‘lqinlanish; asabiylashish.

**énerver I.** *vt* g‘azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g‘ashiga tegmoq, jahlini chiqarmoq, qonini, zardasini qaynatmoq; asabiylashtirmoq; asabini qo‘zg‘atmoq; **II. s'énerver** *vpr* g‘azablanmoq, achchiqlanmoq, g‘ashi kelmoq, g‘ijinmoq, jahli chiqmoq, qoni, zardasi qaynamoq; bezovta bo‘lmoq, asabiylashmoq; **il ne faut pas s'énerver pour si peu** arzimagan narsaga asabiylashish kerak emas; **ne t'énerve pas!** tinchlan! qizishma!

**enfance** *nf* **1.** bolalik, bolalik yillari; **il avait eu une enfance malheureuse** uning bolaligi qiyinchilikda o‘tgan; **un souvenir d'enfance** bolalik xotirasi; **un ami d'enfance** bolalikdagi do‘st; **dès l'enfance** bolalikdan boshlab; **2.** *fig* bosh, ibtido, boshlanish joyi; *loc fam* **c'est l'enfance de l'art** bu juda oddiy; **3.** *fam* bolalar, mayda bolalar, churvaqalar.

**enfant** *nm* farzand, bola, qiz bola; **un enfant naturel** nikohsiz tug‘ilgan bola; **un enfant adoptif** asrandi bola.

**enfanter** *vt* **1.** *vx* ko‘z yormoq, tug‘moq, dunyoga keltirmoq (*ayolga nisbatan*); **2.** *litt* yaratmoq; vujudga keltirmoq.

**enfantillage** *nm* bolalik, yengiltaklik, bolalarcha xulq-atvor, bachkanalik.

**enfantin, ine** *adj* **1.** bolalarga oid, bolalarcha, bolalik; **2.** hammaga ma’lum bo‘lgan, oddiy, sodda; **un raisonnement enfantin** bolalarcha muhokama; **c'est enfantin!** bu juda oddiy!



www.ziyouz.com kutubxonasi

**enfariné, ée** *adj* un sepilgan; **la figure enfarinée d'un clown** masxarabozning oqqa bo'yalgan yuzi.

**enfer** *nm* **1.** do'zax, jahannam; **les tourments de l'enfer** chidab bo'lmaydigan azoblar, do'zax azobi; **2.** yopiq fond (*kutubxonalarda taqiqlangan kitoblar saqlanadigan bo'lim*).

**enfermer I.** *vt* **1.** qamab qo'ymoq, qamamoq, yashirmoq, yashirib qo'ymoq; -da saqlamoq; **enfermer qqn dans sa chambre** biror kimsani xonasiga qamab qo'ymoq; **enfermer ses livres dans une armoire** kitoblarini shkafga yashirib qo'ymoq; **enfermer un oiseau dans une cage** qushni qafasda saqlamoq; **2.** *fig* yashirmoq, -da saqlamoq; **enfermer sa douleur dans son cœur** dardini yuragida saqlamoq; **3.** qamamoq, qamab qo'ymoq, hibsga olmoq; **faire enfermer un malfaiteur** jinoyatchini qamab qo'ymoq; **4.** o'rab olmoq; yo'lni to'smoq; **de hautes montagnes enferment la vallée** vodiyni baland tog'lar o'rab turibdi; **II. s'enfermer** *vpr* **1.** qamalib olmoq; yashirinib olmoq; odamlardan ajralib qolmoq, **s'enfermer dans sa chambre pour travailler** ishlash uchun xonasiga qamalib olmoq; **2.** bekilmoq, qulflanmoq.

**enferrer I.** *vt* suqmoq, sanchmoq, suqib, sanchib olmoq; sanchib teshmoq; **enferrer son adversaire** raqibiga shpaga sanchmoq; **II. s'enferrer** *vpr* **1.** *fig* **s'enferrer dans ses mensonges** yolg'on gapirib; gapidan adashmoq; **2.** qarmoqqa ilinmoq (*baliq ovi haqida*); **le poisson s'enferra tout seul** baliqning o'zi qarmoqqa ilindi; **3.** dushman shpagasiga yo'liqmoq, duch kelmoq; **4.** bir-biriga shpaga sanchmoq.

**enfiévrer I.** *vt* **1.** isitmasini chiqarmoq, isitmalatmoq, qaltiratmoq; **2.** *fig* uyg'otmoq, jo'shga keltirmoq, tutaqishtirmoq, qizishtirmoq; **II. s'enfiévrer** *vpr* asabiylashmoq, hayajonga tushmoq, to'lqinlanmoq.

**enfilade** *nf* **1.** qator; **en enfilade** qatorda; **2.** *mil* o't, o'q yomg'iri.

**enfiler** *vt* **1.** ninaga ip o'tkazmoq; **une aiguille enfilée de blanc** oq ip o'tkazilgan igna; **2.** tizmoq, o'tkazmoq, taqmoq, termoq, shoda qilmoq; **3.** sanchmoq, sanchib teshmoq, suqmoq, sanchib olmoq; **4.** yo'lga tushmoq; **enfiler un chemin** yo'l bo'ylab bormoq; **enfiler l'escalier** zina bo'ylab chopmoq; **5.** *mil* o'qqa tutmoq; **6.** *fam* tortib kiymoq (*etik, shim*).

**enfin** *adv* nihoyat, oxiri; mana endi; oxirida; qisqasi, qisqacha qilib aytganda; to'g'rirog'i; **je vous ai enfin retrouvé** nihoyat sizni topdim.

**enflammer I.** *vt* **1.** yondirmoq, alanga oldirmoq, yoqmoq; **enflammer une allumette** gugurtni yondirmoq; **2.** yoritmoq, nur sochmoq, ravshan qilib yubormoq; **un éclair enflamma le ciel** chaqmoq osmonni yoritib yubordi; **3.** charaqlab chiqmoq, yonmoq, porlamoq; **la haine enflamme son regard** ko'zlari nafrat bilan yondi; **4.** *fig* jonlantirmoq, g'ayratlantirmoq, ruhlantirmoq, havaslantirmoq; uyg'otmoq, g'ayratga solmoq, keltirmoq; jo'shga keltirmoq, tutaqishtirmoq, qizishtirmoq; **II. s'enflammer** *vpr* **1.** yoqmoq, alanga olmoq, o't olmoq; **le papier s'enflamme** qog'oz tez alangaladi; **2.** qizarib ketmoq, qip-qizarmoq; **son visage s'enflamma de colère** g'azabdan yuzlari qizarib ketdi; **3.** jo'shga kelmoq, tutaqishmoq, qizishmoq, qiziqib ketmoq; jonlanmoq, ruhlanmoq; **4.** *méd* yallig'lanmoq, qizarmoq, shishmoq; **la plaie risque de s'enflammer** yara gazak olishi mumkin, gazak olmoq.

**enflure** *nf* **1.** shish, qavariq, g'urra, shishgan joy; **2.** *fig* **l'enflure du style** uslubning dabdaligi.

**enflé, ée** *adj* **1.** shishgan, bo'rtgan, qavargan; **une main enflée** shishgan qo'l; **il a le pied enflé** uning oyog'i shishib ketgan; **2.** *nf fam* **un gros enflé** beso'naqay, yo'g'on, pastak, xo'ppa semiz odam.

**enfler I.** *vt* **1.** shishirmoq, puflamoq, dam bermoq, puflab shishirmoq; to'ldirmoq; **un abcès lui enfle la joue** chipqon uning yuzlarini shishirib yubordi; **2.** oshirmoq, ko'tarmoq, balandlatmoq, kuchaytirmoq, yuksaltirmoq; **3.** oshirmoq, ko'tarmoq, yuqorilatmoq, oshirib yubormoq, oshirib ko'rsatmoq, bo'rttirib yubormoq; **II.** *vi* shishmoq, shishib ketmoq; ko'tarilmoq, kengaymoq.

**enfoncement** *nm* **1.** qoqish, qoqib kiritish, urish, urib kiritish; **l'enfoncement d'un clou dans le mur** devorga mixni qoqib kirgizish; **2.** botirish, cho'ktirish; **3.** chuqurga, cho'nqir, botiq yer, kamar, o'pirilib ketgan yer, o'ra.

**enfoncer I.** *vt* **1.** qoqmoq, qoqib kiritmoq, urib kiritmoq; sanchmoq, suqmoq; tiqmoq; **enfoncer un clou dans une planche** taxtaga mix qoqmoq; **enfoncer le bouchon de la bouteille** shishaga pukak, tiqin tiqmoq; **2.** botirmoq, cho'ktirmoq; tiqmoq; **enfoncer la main dans l'eau** qo'lini suvga tiqmoq; **3.** urib sindirmoq; parchalamoq; **enfoncer la porte d'un coup d'épaule** yelka bilan eshikni turtib sindirmoq; **4. enfoncer le front** frontni yorib o'tmoq; **II.** *vi* botmoq, cho'kmoq; **III. s'enfoncer** *vpr* **1.** cho'kmoq, botmoq; **le navire s'enfonçait lentement** kema asta cho'kib borardi; **2.** ichkariga kirib bormoq, ilgarilab, ichkarilab bormoq; **s'enfoncer dans la forêt** o'rmon ichkarisiga kirib bormoq; **3.** eng ichkariga joylashib olmoq; bir joyga kirib joylashib olmoq; **s'enfoncer sous les couvertures** ko'rpaga burkanib olmoq; **4.** cho'mmoq, ko'milmoq.

**enfouir I.** *vt* **1.** yerga ko'mmoq, yerga ko'mib tashlamoq; **2.** yashirmoq; **enfouir une lettre dans un tiroir** xatni stol tortmasiga yashirmoq; **II. s'enfouir** *vpr* **1.** ko'milmoq, ko'milib olmoq; **2.** yashirinmoq.

**enfouissement** *nm* **1.** ko'mish; **2.** yashirish, berkitish; yashirinish, berkinish.

**enfourcher** *vt* minmoq; **enfourcher la bicyclette** velosipedga minmoq; **enfourcher un cheval** otga minmoq.

**enfourner** *vt* **1.** pechkaga qo'ymoq (*non, oziq-ovqat*); **2.** *fam* yutmoq, paqqos tushirmoq, yeb qo'ymoq, pok-pokiza tushirmoq, zo'r ishtaha bilan yemoq, ochko'zlik bilan apil-tapil yemoq, tomoqdan o'tkazmoq; **3.** *fam* tiqmoq, itarib kiritmoq, ichkariga otib yubormoq.

**enfreindre** *vt* buzmoq, rioya qilmaslik; **enfreindre la loi** qonunga rioya qilmaslik.

**enfuir (s')** *vpr* **1.** qochmoq, qochib ketmoq; **2.** tez o'tmoq, ko'zdan tez g'oyib bo'lmoq; **le temps s'enfuit** vaqt tez o'tmoqda.

**enfumer** *vt* tutatmoq, tutunga to'ldirmoq; **le poêle enfume la pièce** pechka xonani tutunga to'ldiryapti; **2.** islamoq, tutab qoraytirmoq; **3.** tutatib, dudlab haydab chiqarmoq; **enfumer un renard** o't qo'yib, dudlab tulkini inidan chiqarmoq.

**engagement** *nm* **1.** majburiyat; va'da, so'z; va'da qilish, so'z berish; **un engagement d'honneur** tantanali va'da berish; **2.** xizmatga olish, yollash; **l'engagement d'un domestique** xizmatkor yollash; **3.** *mil* ko'ngilli bo'lib harbiy xizmatga kirish; **souscrire un engagement de deux ans dans l'armée de l'air** harbiy havo kuchlariga ikki yilga ko'ngilli bo'lib xizmatga kirmoq; **4.** kirish; kiritish; botirish; cho'ktirish; **5.** boshlanish; **l'engagement du jeu (du match)** o'yin matchning boshlanishi; **avant l'engagement des négociations** muzokaralar oldidan, muzokaralar boshlanishi oldidan; **6.** biror narsaga pul, mablag' sarflash; **7.** jangga olib kirish; jang boshlash; **8.** garovga qo'yish.

**engager** *vt* **1.** majbur qilmoq, ustiga yuklamoq, vazifa qilib qo'ymoq; **engager sa parole** so'z bermoq, va'da bermoq; **engager sa responsabilité** o'z zimmasiga olmoq; **2.** ishga olmoq, xizmatga olmoq; yollamoq; **engager un domestique** xizmatkor olmoq, yollamoq; **3.** kiritmoq, botirmoq; cho'ktirmoq; suqmoq; solmoq; **4.** tortmoq, jalb qilmoq; boshlamoq; **engager qqn dans une aventure** biror kimsani qaltis ishga tortmoq; **5.** *mil* tashlamoq; kiritmoq; **6.** *écon* mablag' sarflamoq, pul sarflamoq, xarajat qilmoq; **engager ses capitaux dans une affaire** biror narsaga o'z mablag'ini sarflamoq; **7.** boshlamoq; kirishmoq; **engager le combat** jang boshlamoq; **engager des négociations** muzokara boshlamoq; biror kimsa bilan bahsga kirishmoq, bahs boshlamoq; **8.** sport, o'yin boshlamoq; birinchi zarbani bermoq, birinchi to'pni otmoq; **9.** moyil qilmoq, ko'ndirmoq; qo'zg'atmoq; biror narsa qilishga ishontirmoq, undamoq; istak tug'dirmoq; **il m'a engagé à mieux travailler** u meni yaxshi ishlashga undadi; **10.** garovga qo'ymoq, garovga bermoq; **II. s'engager** *vpr* **1.** majburiyat olmoq; va'da bermoq, so'z bermoq; **s'engager par serment** qasamyod qilmoq; **s'engager à rembourser** to'lashga va'da bermoq; **Savez-vous à quoi vous vous engagez?** nimani o'z zimmangizga olayotganligingizni bilasizmi? **2.** ishga kirmoq; ishga yollanmoq; **3.** kirmoq; ichkarilab bormoq, ichkariga kirmoq; **il s'engagea dans une ruelle** u tor ko'chaga kirdi; **4.** aralashmoq, qatnashmoq; jalb bo'lmoq; **ils se sont engagés dans une affaire difficile** ular qiyin ishga aralashib qoldilar; **5.** boshlanmoq; **le combat s'engage** jang boshlanmoqda; **le jeu s'engage** o'yin boshlanmoqda; **6.** tarafida bo'lmoq, tomonida bo'lmoq.

**engeance** *nf* la'nati yoki la'natga loyiq kishilar, ablahlar toifasi.

**engelure** *nf* sovuq olgan joy, sovuq urgan joy.

**engendrement** *nm* **1.** tug'ish, dunyoga keltirish; **2.** sabab bo'lish, keltirib chiqarish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**engendrer** *vt* **1.** tug'moq, tug'dirmoq; **il a engendré un fils** u o'g'il ko'rdi; **2.** sabab bo'lmoq; keltirib chiqarmoq; tug'dirtirmoq; olib kelmoq; **le mal engendre le mal** yomonlik yomonlikka olib keladi.

**engin** *nm* **1.** mexanizm, qurol, asbob; mashina; **des engins de levage** ko'tarish mexanizmlari; **des engins de guerre** urush qurollari; jangovor mashinalar; jangovor raketalar; **les engins blindés** zirhli mashinalar; **2.** raketa, reaktiv snaryad.

**englober** *vt* bir toifadagi bir necha narsani birlashtirmoq; yig'moq, qo'shmoq.

**engloutissement** *nm* yutish, tortish, o'ziga olish; yutilish; cho'kish, ko'milish (*suvda*).

**engloutir I.** *vt* **1.** yutib qo'ymoq, yutib yubormoq, paqqos tushirmoq; (*ochko'zlik bilan*); **il a englouti tout son dîner en trois minutes** u ovqatini uch minutda paqqos tushirdi; **2.** yutib yubormoq, ko'mib yubormoq; ko'zdan g'oyib qilmoq; **la tempête a englouti le navire** quturgan bo'ron kemani yutib yubordi; **3.** sarf qilmoq, ishlatib yubormoq; **il engloutit toute sa fortune dans cette affaire** bu ishga o'zining barcha boyligini sarf qildi, bu ish uning barcha boyligini yutib yubordi; **II. s'engloutir** *vpr* ko'milmoq, cho'kib ketmoq; g'oyib bo'lmoq; **le bateau s'est englouti dans la mer** kema dengizga cho'kib ketdi.

**engluer** *vt* surtmoq (*yopishqoq narsalar haqida*); yopishqoq qilmoq; **engluer un oiseau** qush yopishadigan yelim yordamida qush tutmoq.

**engoncer** *vt* qisib, siqib qo'ymoq (*kiyim haqida*) **ce vêtement vous engonce** bu kiyim sizga torlik qilyapti.

**engorgement** *nm* to'lib qolish, tiqilib qolish; **l'engorgement d'un tuyau** quvurning to'lib qolishi.

**engorger I.** *vt* kirmoq (*has-cho'p, chang haqida*); tiqib berkitmoq; to'lg'azmoq, berkitmoq, tiqmoq, niqtalab tiqmoq; **le tuyau du lavabo est engorgé** umivalnik, bet-qo'l yuvg'ichning quvuri tiqilib qoldi; **II. s'engorger** *vpr* tiqilib qolmoq, to'silib qolmoq; tiqilmoq.

**engouement** *nm* ishqiboz bo'lib qolish, ishqibozlik; juda yaxshi ko'rish; ishtiyoq; qiziqish; **un engouement passager** o'tkinchi ishqibozlik; **l'engouement pour un acteur** aktyorga qoyil bo'lganlik; **être pris d'engouement pour** ishqiboz bo'lib qolmoq, berilmoq.

**engouer (s')** *vpr* ishqiboz bo'lmoq, berilmoq; juda yaxshi ko'rmoq, ixlos qo'ymoq, juda hurmat qilmoq; qoyil bo'lmoq.

**engouffrer I.** *vt* **1.** yutmoq, yutib yubormoq; paqqos tushirmoq; **2.** *fig* yutib yubormoq, yo'q qilmoq; sovurmoq; **il a engouffré une fortune** u boylikni sovurib bo'ldi; **II. s'engouffrer** *vpr* **1.** shiddat bilan kirmoq (*shamol, suv haqida*); **2.** shoshilmoq, oshiqmoq; ko'rinmay, yo'q bo'lib ketmoq; **s'engouffrer dans le métro** metroga tushib g'oyib bo'lmoq.

**engoulevent** *nm zool* tentakqush (*qaldirg'ochga o'xshagan qush*).

**engourdi, ie** *adj* qotib qolgan, karaxt, uvishgan, shol bo'lib qolgan.

**engourdir I.** *vt* **1.** qotirib qo'ymoq, karaxt qilib qo'ymoq, uvishtirmoq, shol qilmoq; **le froid engourdit ses mains** sovuq qo'llarini qotirib qo'ydi; **2.** *fig* zaiflashtirmoq, sustlashtirmoq, pasaytirmoq; **la paresse engourdit l'esprit** dangasalik ongni zaiflashtiradi; **II. s'engourdir** *vpr* qotib qolmoq, karaxt bo'lmoq; uvishmoq, uvishib qolmoq; shol bo'lmoq; qishki uyquga ketmoq; **ma jambe commence à s'engourdir** oyog'im qotib, uvishib qolyapti.

**engourdissement** *nm* **1.** qotib qolish, uvishish, karaxtlik holati; qishgi uyquga ketish; **l'engourdissement du pied** oyoqning uvishib qolishi; **2.** zaiflashish, sustlashish, pasayish; **3.** esankirab qolish, dovdirab qolish; dong qotish.

**engrais** *nm* **1.** boqib semirtirish, bo'rdoqi qilish; **2.** o'g'it, go'ng; **les engrais chimiques** kimyoviy (mineral) o'g'itlar; **l'industrie des engrais** o'g'it ishlab chiqarish sanoati; **mettre de l'engrais dans un champ** dalani o'g'itlamoq; dalaga o'g'it chiqarmoq.

**engraisser**[1] **I.** *vt* **1.** boqib semirtirmoq, bo'rdoqi qilmoq; **engraisser des poulets** tovuqlarni semirtirmoq; **2.** o'g'itlamoq; yerga o'g'it solmoq, o'g'it chiqarmoq, hosildorligini oshirmoq; **II. s'engraisser** *vpr* boqilib semirmoq, bo'rdoqi bo'lmoq.

**engraisser**[2] *vi* **1.** semirmoq, to'lishmoq; yo'g'onlashmoq, yo'g'on tortmoq; **il a engraissé de 5 kilos** u besh kilogramm semirdi; **2.** *fig* boyimoq, boyib ketmoq.

**engrangement** *nm* bostirmaga, omborga joylash (*g'alla*).

**engranger** *vt* **1.** bostirmaga, omborga joylamoq, yig'moq, to'plamoq (*g'alla*); **2.** yig'moq, to'plamoq, yod, es, xotirada saqlamoq.

**engrenage** *nm* **1.** tishli g'ildirak; tishli mexanizm; tishli g'ildiraklar sistemasi; **2.** *fig* mushkul, tang ahvol.

**engrosser** *vt* bo'g'oz qilmoq; homilador qilmoq.

**enguelade** *nf fam* haqorat, so'kish, qarg'ish, baqirib berish, tanbeh.

**engueuler I.** *vt* tahqir qilmoq, haqorat qilmoq, baqirib bermoq; qarg'amoq; **II. s'engueuler** *vpr* so'kishmoq, g'ijillashmoq; aytishib qolmoq.

**enguirlander** *vt* **1.** gul, barg, novda o'rimi bilan bezatmoq; **2.** *fam* haqorat qilmoq, so'kmoq, qarg'amoq, tahqir qilmoq.

**enhardir I.** *vt* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik baxsh etmoq; dadillashtirmoq; **II.** *vpr* **s'enhardir** dadillashmoq; ishonch hosil qilmoq.

**énième** *adj voir* **nième**.

**énigmatique** *adj* sirli, tushunish qiyin bo'lgan; jumboqli.

**énigme** *nf* **1.** topishmoq, jumboq; **le mot de l'énigme** jumboqning javobi; **2.** jumboq; sir; tushunish, tushuntirish, bilish qiyin narsa.

**enivrant, ante** *adj* mast qiladigan.

**enivrement** *nm* **1.** mastlik, sarxushlik, kayfi oshish, ichib mast bo'lish; **2.** *fig* ortiq darajada zavqi oshgan holat, mastlik, mahliyolik; zavq-shavq; **Il était encore dans l'enivrement de son succès** u hali ham o'z muvaffaqiyatidan mast edi.

**enivrer I.** *vt* **1.** mast qilmoq; sarxush qilmoq, kayfini oshirmoq; **2.** *fig* zavq-shavqini oshirmoq, mast qilmoq; mahliyo qilib qo'ymoq; **sa beauté m'enivrait** uning go'zalligi meni mahliyo etgan edi; **II. s'enivrer** *vpr* mast bo'lmoq; sarxush bo'lmoq, kayfi oshmoq.

**enjambée** *nf* katta qadam, hatlash; **d'une enjambée il franchit le fossé** u bir hatlab zovurdan o'tdi.

**enjambement** *nm* bir yoki bir necha so'zni keyingi qatorga o'tkazish (*she'riyatda*).

**enjamber** *vt* hatlab o'tmoq, hatlamoq; **enjamber le ruisseau** ariqdan hatlab o'tmoq.

**enjeu** *nm* **1.** dov, ganak, tikilgan pul, o'rta (*qimorda*); **2.** *fig* umid bog'lash, ishonch, umid; maqsad; **l'enjeu de la lutte était la liberté** kurashdan maqsad ozodlikka erishish edi.

**enjoindre** *vt* buyurmoq, amr qilmoq, farmoyish bermoq.

**enjôler** *vt* qiziqtirmoq, qiziqtirib biror ishga tortmoq; yo'ldan urmoq, yo'ldan ozdirmoq; ko'nglini sust ketkazmoq.

**enjôleur, euse I.** *adj* yo'ldan uradigan, havasni qo'zg'atadigan, ko'ngilni sust ketkazadigan; qiziqtiradigan; aldoqchi; **un sourire enjôleur** yo'ldan uradigan, o'ziga tortadigan jilmayish; **I.** *n* yo'ldan ozdiruvchi, yo'ldan uruvchi, vasvasaga soluvchi kishi yoki ayol; avroqchi.

**enjolivement** *nm* zeb-ziynat, bezak, pardoz.

**enjoliver** *vt* **1.** bezamoq, bezatmoq, yasatmoq; husn bermoq, husnini ochmoq; go'zallashtirmoq, ziynatlamoq, yarashmoq; **2.** jilo bermoq; **chaque fois il enjolive son récit d'un nouveau détail** har gal u hikoyasiga yangi detallar bilan jilo beradi.

**enjoliveur** *nm* g'ildirak qopqog'i (*avtomobilda*).

**enjoué, ée** *adj* xushchaqchaq, vaqtichog'; **d'un air enjoué** vaqtichog'lik bilan, xushchaqchaqlik bilan.

**enjouement** *nm* xushchaqchaqlik, vaqtichog'lik.

**enlacement** *nm* **1.** to'qish, to'qib yasash, ulash, o'rish; o'ralish, matashish, chirmashish; **l'enlacement des branches** shoxlarning matashuvi, bir-biriga matashib ketgan shoxlar; **2.** quchoqlash, quchish.

**enlacer** *vt* **1.** o'ramoq, chirmamoq, to'qimoq; **2.** quchoqlamoq, quchmoq; **enlacer qqn dans ses bras**; biror kimsani o'z quchog'iga olmoq, quchoqlamoq.

**enlaidir I.** *vt* ko'rimsiz qilmoq, xunuk ko'rsatmoq, buzmoq, rasvo qilmoq; **II.** *vi* yomonlashmoq, xunuklashmoq.

**enlaidissement** *nm* yomonlashish, xunuklashish; chiroyini yo'qotish.

**enlevé, ée** *adj* bajarilgan, ijro etilgan; amalga oshirilgan; **un morceau bien enlevé** a'lo darajada bajarilgan narsa; **c'est enlevé!** zo'r bajarilgan ish.

**enlèvement** *nm* **1.** boshqa yoqqa olib qo'yish, olib ketish; olib chiqish; **l'enlèvement des bagages** yuklarni olib chiqish; **l'enlèvement des ordures**



www.ziyouz.com kutubxonasi

axlatlarni yig'ishtirib olish; **2.** olish, egallab olish, qo'lga olish, ishg'ol qilish; olinish; **l'enlèvement d'une place forte** qal'ani ishg'ol qilish; **3.** o'g'irlab olib ketish, olib qochish, o'g'irlash; **4.** tozalash; po'stini artish, archish.

**enlever** *vt* **1.** joyidan olib ketmoq, joyidan olib qo'ymoq; **enlever des meubles** mebellarni joyidan olib qo'ymoq; **2.** tozalamoq; ketkazmoq (*dog'ni*); **enlever une tache** dog'ni tozalamoq; **3.** olib ketmoq, o'g'irlab olmoq, o'g'irlamoq, olib qochmoq; **enlever un enfant** bolani o'g'irlab ketgan; **4.** olib qo'ymoq; mahrum qilmoq; **5.** yuqoriga ko'tarmoq, balandga ko'tarmoq; **6.** *fig* ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq; **7.** osonlik bilan qo'lga kiritmoq, yutmoq; **8.** a'lo darajada ijro etmoq; **enlever un morceau de musique** musiqadan parchani a'lo darajada ijro etmoq; **9.** *litt* olib ketmoq; **la mort l'a enlevé de ce monde** o'lim uni bu dunyodan olib ketdi.

**enlisement** *nm* **1.** botish, cho'kish; **2.** o'ralashib qolish; qiyin, mushkul ahvolga tushish.

**enliser (s')** *vpr* **1.** botmoq, botib ketmoq; cho'kmoq, cho'kib ketmoq; tiqilib qolmoq (*qum, botqoq, loy kabilarga*); **2.** *fig* o'ralashib qolmoq, ishi chalkash bo'lib qolmoq; qiyin, mushkul ahvolga tushib qolmoq.

**enluminer** *vt* **1.** rang-barang qilib bo'lmoq, naqshlamoq; chiroqlar bilan bezatmoq, charog'on qilmoq; **2.** bejirim tasvir, naqshlar bilan bezamoq; **3.** *litt* rang-barang qilib tasvirlamoq; mubolag'a qilmoq; **4.** qizartirib yubormoq, qizartirmoq (*yuz, yonoq haqida*).

**enlumineur, euse** *n* lavvoh, miniaturachi musavvir.

**enluminure** *nf* **1.** rang-barang qilib bezash, naqshlash; **2.** miniatura, nafis, bejirim surat, tasvir; **3.** *litt* gapga to'n kiydirish, mubolag'a; **4.** *fam* yuzning, yonoqning qizilligi.

**enneigé, ée** *adj* qor bilan qoplangan.

**enneigement** *nm* **1.** qor qatlami; **2.** qor uyumi.

**ennemi, ie I.** *adj* dushmanga oid, dushmanlik qiladigan; dushman; **l'armée ennemie** dushman armiyasi; **en pays ennemi** dushman yurtida; **II.** *n* **1.** dushman, g'anim, yov, dushman qo'shini; **combattre les ennemis** dushmanga qarshi kurashmoq; **tomber entre les mains de l'ennemi** dushman qo'liga tushib qolmoq; **passer à l'ennemi** dushman tomonga o'tib ketmoq; **2.** raqib, ko'rolmaydigan, yoqtirmaydigan kishi; dushman; **avoir des ennemis** dushmanlari bo'lmoq, dushmanlari bor; **se faire beaucoup d'ennemis** o'ziga ko'plab dushman orttirmoq; **3.** xavf, to'siq, dushman; balo, ofat; **l'ennemi public numéro un** jamiyatning eng birinchi dushmani; jamiyat uchun eng birinchi to'siq.

**ennoblir I.** *vt* ma'naviy jihatdan yaxshilamoq, ulug'lamoq, ko'tarmoq.

**ennui** *nm* **1.** zerikish; **2.** *pl* xafalik, dilsiyohlik.

**ennuyer I.** *vt* **1.** zeriktirmoq; joniga tegmoq; **il ennuie son auditoire** u tinglovchilarini zeriktirib qo'ydi; **tu nous ennuies avec tes questions** sening savollaring jonimizga tegdi; **2.** xafa qilmoq, dilini siyoh qilmoq, dilini og'ritmoq, ranjitmoq, diliga ozor bermoq; **II. s'ennuyer** *vpr* zerikmoq, joniga tegmoq; sog'inmoq; **au bout de deux jours à la campagne il s'ennuie** qishloqda ikki kun bo'liboq u zerikyapti; **il s'ennuie de ses parents** u ota-onasini sog'indi; **on ne s'ennuie jamais de relire les grands auteurs** buyuk yozuvchilarning asarlarini o'qish hech qachon jonga tegmaydi.

**ennuyeux, euse** *adj* **1.** ranjitadigan, dilni siyoh qiladigan; xafa qiladigan; **je n'ai pas de réponse, c'est très ennuyeux** javobim yo'q, bu juda achinarli; **2.** zeriktiradigan; jonga tegadigan.

**énoncé** *nm* **1.** ifoda, bayon; **l'énoncé d'un problème** masalaning bayoni; **2.** ifodalash, bayon qilish.

**énoncer I.** *vt* ifodalamoq, bayon qilmoq; **énoncer son avis** o'z fikrini bayon qilmoq; **II. s'énoncer** *vpr* ifodalanmoq; bayon qilinmoq; **ce que l'on conçoit bien s'énonce clairement** nima yaxshi fikr qilinsa, o'sha narsa aniq bayon qilinadi.

**énonciation** *nf* **1.** bayon qilish, xabar qilish; **2.** *ling* nutq.

**enorgueillir I.** *vt litt* faxrlantirmoq, g'ururlantirmoq; ishonch tug'dirmoq; **II. s'enorgueillir** *vpr* faxrlanmoq, g'ururlanmoq.

**énorme** *adj* kattakon, g'oyat katta; ulkan.

**énormément** *adv* eng ko'p; eng katta (**beaucoup** *ravishining orttirma darajasi o'rnida qo'llaniladi*).

**énormité** *nf* **1.** kattalik, g'oyat kattalik, ulkanlik; cheksizlik; ko'plik; **l'énormité de ses prétentions** uning da'volarining cheksizligi; cheksiz ahmoqlik; katta bema'nilik.

**enquérir (s')** *vpr* xabar olmoq, so'ramoq, bilmoq, surishtirmoq; so'rab, surishtirib bilmoq.

**enquête** *nf* **1.** tergov, so'roq; **2.** so'rov, anketa.

**enquêter** *vi* tergov o'tkazmoq, tekshirish o'tkazmoq.

**enquêteur, euse 1.** *n* **1.** so'rov natijalarini yig'uvchi; tekshiruvchi, tergov olib boruvchi kishi.

**enquiquinant, ante** *adj* jonga tegadigan, bezor qiladigan, ko'ngilga uradigan, zerikarli; xira, shilqim.

**enquiquinement** *nm* og'ir, qiyin, mushkul, mashaqatli ahvol, tashvish.

**enquiquineur, euse** *n* jonga tegadigan, zeriktiradigan, bezor qiladigan kishi yoki ayol; xira, shilqim, yopishqoq.

**enquiquiner** *vt fam* jonga tegmoq, zeriktirmoq, bezor qilmoq, ko'ngliga zig'ir yog'dek urmoq.

**enracinement** *nm* tomir otish, mustahkamlanish, o'rnashish.

**enraciner I.** *vt* **1.** ildiz ottirmoq, ildiz otishiga, o'sishiga sharoit yaratmoq; **enraciner une bouture** qalamchaning ildiz otishiga sharoit yaratmoq; **2.** *fig* joriy qilmoq, singdirmoq; tomir yoydirmoq; **il faut enraciner dans son esprit de bons principes** unga, uning ongiga yaxshilikni singdirish kerak; **II. s'enraciner** *vpr* **1.** ildiz otmoq, tomir yoymoq; **le chêne s'est enraciné dans le rocher** dub qoyaga ildiz otdi, dub qoyada o'sdi; **2.** *fig* joriy bo'lmoq, singmoq, keng tarqalmoq; **il ne faut pas laisser s'enraciner les abus** suiiste'mollikni keng tarqalishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi; **3.** joylashmoq, joylashib qolmoq, o'rnashmoq; **je n'ai pas l'intention de m'enraciner ici** men bu yerda o'rnashib qolish niyatim yo'q.

**enragé, ée I.** *adj* **1.** quturgan (*it haqida*); **2.** *fig* haddan tashqari g'azabli, g'azabga mingan; **3.** juda ishqiboz; juda ham berilgan, ashaddiy; **un joueur enragé** ashaddiy o'yinchi; **II.** *n* juda ishqibozga berilgan kishi; **un enragé de football** futbolning o'ta ishqibozi, futbol fanatigi.

**enrager** *vi* **1.** g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq, chapaqay jahli chiqmoq, qoni qaynab ketmoq; **être enrager contre qqn** birovga nisbatan darg'azab bo'lmoq; **faire enrager qqn** g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; g'azabini keltirmoq, qonini qaynatmoq; **2.** (**après qqch, de faire qqch**) astoydil, juda-juda xohlamoq.

**enrayage** *nm* **1.** g'ildirakka kegay o'rnatish; **2.** to'xtatib qolish; to'xtab qolish (*o'q otar qurollarining mexanizmi haqida*).

**enrayer I.** *vt* **1.** kegay tortmoq (*g'ildirakka*); **2.** to'xtatib qolmoq; to'sqinlik qilmoq; oldini olmoq, barham bermoq; **enrayer la progression de l'ennemi** dushmanning olg'a siljishini to'xtatmoq; **enrayer la marche** harakatni to'xtamoq; **enrayer le mal** yovuzlikni oldini olmoq; **enrayer une maladie** kasallikni oldini olmoq; **3.** *techn* g'ajimoq, qisib, tishlashib qolmoq, qisib, tishlashib yurishi og'irlashmoq; **II. s'enrayer** *vpr techn* g'ajimoq, qisib, tishlashib qolmoq.

**enrégimenter** *vt* **1.** polkka qabul qilmoq; **2.** biror ishga tortmoq, jalb qilmoq.

**enregistrement** *nm* **1.** registrasiya, ro'yxatga olish, yozish, qayd etish; **l'enregistrement d'un mariage** nikohni qayd etish; **l'enregistrement du son**, **l'enregistrement sur bande** tasmaga yozish; **l'enregistrement des bagages** yuklarni ro'yxatga olish, yuklarni bagajga topshirish; **2.** registratura, ro'yxatga olinadigan, oladigan joy, ro'yxat bo'limi.

**enregistrer** *vt* **1.** ro'yxatga olmoq, qayd qilmoq; yozib qo'ymoq; **enregistrer un mariage** nikohni qayd etmoq; **2.** ta'kidlamoq; uqtirib o'tmoq; to'xtalmoq; **3.** yozmoq (*ovoz*); **enregistrer une symphonie sur disque** simfoniyani plastinkaga yozmoq.

**enregistreur, euse 1.** *n* **1.** registrator, ro'yxatchi, ro'yxatga oluvchi; **2.** o'zi yozadigan asbob; **2.** *n* ro'yxatga oladigan, yozadigan asbob; ovoz yozadigan asbob.

**enrhumé, ée** *adj* shamollagan, tumov bo'lgan.

**enrhumer I.** *vt* tumovga sabab bo'lmoq; **II. s'enrhumer** *vpr* tumov bo'lmoq, shamollab qolmoq.

**enrichir I.** *vt* **1.** boyitmoq; **enrichir le minerai** rudani boyitmoq; **enrichir une langue** tilni boyitmoq; **2.** boyitmoq, to'ldirmoq; **il a enrichi sa collection**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**de deux pièces rares** u kolleksiyasini ikkita kamyob narsa bilan boyitdi; **3.** rivojlantirmoq, to'ldirmoq; **II. s'enrichir** *vpr* boyimoq.

**enrichissant, ante** *adj* fikrni boyitadigan.

**enrichissement** *nm* **1.** boyish; boyitish; **2.** boyitish, to'ldirish, rivojlantirish (*kolleksiya, asar, fikrlar*).

**enrober** *vt* o'ramoq, qoplamoq; surmoq (*dori-darmon, tovar, mahsulotlarni himoya qilish maqsadida*); **enrober un gâteau de chocolat** pirojnoyeni shokolad bilan qoplamoq; **enrober de sucre un médicament** dorini qand bilan qoplamoq; **2.** *fig* yumshatmoq; biror narsa qo'shib, xushta'm qilmoq.

**enrôlement** *nm* **1.** jalb qilish; moyil qilish; qabul qilish; **2.** harbiy xizmatga kirish; **3.** yollanganlik haqidagi guvohnoma.

**enrôler I.** *vt* **1.** harbiy xizmatga askarlarni yollamoq; **2.** *fig* jalb qilmoq, qiziqtirib jalb qilmoq; **II. s'enrôler** *vpr* yollanmoq; xizmatga kirmoq; xizmatga yozilmoq; **s'enrôler dans l'aviation** havo kuchlarida xizmat qilishga yozilmoq.

**enroué, ée** *adj* xirillagan, bo'g'ilgan (*ovoz haqida*).

**enrouement** *nm* xirillash, xirillab qolish; bo'g'ilish.

**enrouer (s')** *vpr* xirillab qolmoq, ovozi bo'g'ilmoq.

**enroulement** *nm* **1.** o'rash, chirmash; o'ram, kalava; **2.** *archit* gajak shaklida o'ralgan narsa, jimjima, jingala; chirmov.

**enrouler II.** *vt* o'ramoq, chirmamoq; kalava qilmoq; **II. s'enrouler** *vpr* o'ralmoq, chirmashmoq.

**enrubanner** *vt* lenta, jiyak taqib, tasma bog'lab bezamoq.

**ensablement** *nm* qum uyumi (*shamol yoki suv hosil qilgan*).

**ensabler I.** *vt* **1.** qum bilan qoplamoq; qum to'ldirmoq; **2.** qumli sayoz joyga o'tirg'izib qo'ymoq (*kema haqida*); **le pilote a ensablé son bateau** lotsman kemani sayozlikka, sayoz joyga o'tirg'izib qo'ydi; **II. s'ensabler** *vpr* **1.** sayoz joyga o'tirib qolmoq; **2.** qum bilan qoplanmoq, qum tagida qolmoq.

**ensachage** *nm* qoplash, qopga solish; qopni to'ldirish; **l'ensachage du grain** donni qoplash.

**ensacher** *vt* **1.** qoplamoq, qopga solmoq, qopni to'ldirmoq, qopga solib qo'ymoq; **ensacher des pommes de terre** kartoshkani qopga solmoq; **2.** qog'ozga, xaltaga o'ramoq; **ensacher chaque poire** har bir nokka qog'oz xalta kiydirmoq.

**ensanglanté, ée** *adj* qonga belangan, qonga bo'yalgan.

**ensanglanter** *vt* qonga belamoq, qonga bo'yamoq, qonga botirmoq; **sa blessure ensanglanta ses vêtements** yarasidan oqqan qon kiyimlarini bulg'adi; **des guerres cruelles ensanglantèrent le pays** shafqatsiz janglar mamlakatni qonga botirdi.

**enseignant, ante I.** *adj* dars beruvchi, o'qitadigan; ta'lim beradigan; **le corps enseignant** o'qituvchilar tarkibi; **II.** *nm* o'qituvchi.

**enseigne[1]** *nf* **1.** viveska, peshlavha; nishon; **2.** bayroq.

**enseigne[2]** *nm vx* bayroqdor zobit; **un enseigne de vaisseau de 1ère et 2e classe** leytenant, kichik leytenant unvoniga to'g'ri keladigan dengizchi zobit.

**enseignement** *nm* **1.** o'qitish, dars berish, ta'lim berish; **l'enseignement de l'histoire, des langues vivantes** tarix, hozirgi tillarni o'qitish; **l'enseignement de l'écriture, du calcul, de la nage** yozuv, hisob, suzishga o'rgatish; **établissement d'enseignement** o'quv yurti, bilim yurti; **les méthodes nouvelles d'enseignement** o'qitishning yangi uslublari; **2.** o'qituvchilik kasbi; **il est entré dans l'enseignement** u o'qituvchi bo'ldi; **3.** ta'lim, ta'lim sistemasi; **l'enseignement primaire** boshlang'ich ta'lim; **l'enseignement supérieur** oliy ta'lim, **l'enseignement secondaire** o'rta ta'lim; **l'enseignement technique** texnik ta'lim; **l'organisation de l'enseignement** ta'limni tashkil etish; **l'enseignement privé** xususiy ta'lim; xususiy o'quv yurti; **les professeurs de l'enseignement supérieur** oliy o'quv yurtlarida professura (*professor o'qituvchilar tarkibi*); **l'enseignement par correspondance** sirtqi ta'lim; **4.** saboq; o'rnak; dars; **les enseignements du passé** o'tmish saboqlari.

**enseigner** *vt* **1.** o'qitmoq, ta'lim bermoq, dars bermoq; **elle enseigne à l'université** u universitetda dars beradi; **il enseigne le dessin** u rasmdan dars beradi; **il enseigne la grammaire aux enfants** u bolalarga grammatikani o'rgatyapti; **2.** o'rgatmoq; ko'rsatmoq; bermoq (*pand-nasihat, saboqlar haqida*); **cet accident m'a enseigné la prudence** bu baxtsizlik meni ehtiyotkorlikka o'rgatdi.

**ensemble[1]** *adv* birga, birgalikda; bir paytda; **ils sont tous le temps ensemble** ular har doim birga, ular hech ajralmaydilar; **ils font ensemble ce travail** ular bu ishni birgalikda bajarmoqdalar; **faire route ensemble** bir xil yo'l tutmoq.

**ensemble[2]** *nm* **1.** jami, yig'indisi; **dans son ensemble** butunicha, to'laligicha; **l'ensemble d'une œuvre** asar to'laligicha; **2.** to'plam, majmua, nabor, komplekt; **3.** birlik birdamlik, hamjihatlik; **cela manque d'ensemble** bu yerda hamjihatlik yetishmaydi; **4.** *muz théâtre* ansambl, dasta; **5.** *math* to'plam.

**ensemencement** *nm* urug' ekish, sepish, sochish.

**ensemencer** *vt* ekmoq, don sepmoq; **ensemencer une terre** yerga urug' sepmoq.

**enserrer** *vt* **1.** quchoqlamoq, quchmoq, quchoqqa olmoq, bag'riga bosmoq (*ega jonli bo'lganda*); **2.** qismoq, siqmoq, siqib turmoq; tortmoq, tortib turmoq; **une large ceinture lui enserrait la taille** qaddini keng kamar siqib turardi; **3.** o'rab, to'sib olmoq, devor bilan o'rab olmoq; to'sib qo'ymoq; **de hautes murailles enserrent le jardin** baland devorlar bog'ni o'rab olgan.

**ensevelir** *vt* **1.** *litt* dafn qilmoq, ko'mmoq; ko'mib qo'ymoq; **ensevelir les morts sur le champs de bataille** o'lganlarni jang maydoniga dafn qilmoq; **2.** *fig* yashirmoq, sir saqlamoq, o'zi bilan olib ketmoq; **il a enseveli son secret avec lui** sirini o'zi bilan olib ketdi; **3.** ko'mib tashlamoq, tagiga bostirmoq; to'kilib, yog'ib yoki to'kib qoplamoq, qoplab olmoq, bosmoq, bostirmoq; **village enseveli sous la neige** qor tagida qolgan qishloq; qor bosgan qishloq.

**ensevelissement** *nm* **1.** *litt* dafn qilish, qo'shish; **2.** sir saqlaganlik; yashirganlik.

**ensoleiller** *vt* **1.** nur sochmoq, yoritmoq; yorug', charog'on, munavvar qilmoq (*quyosh haqida*); **cet appartement n'est ensoleillé que le matin** bu xonaga faqat ertalab quyosh nuri tushadi; **2.** *fig* jonlantirmoq, ruhlantirmoq, jon, ruh kiritmoq, jonli qilib ko'rsatmoq, ochmoq; gul-gul ochmoq; dilini yoritmoq; **son sourire ensoleillait son visage** jilmayishi yuzini gul-gul ochib yubordi.

**ensommeillé, ée** *adj* uyqusiragan, uyqu bosgan, uyquli, mudroq.

**ensorcelant, ante** *adj* dilbar, maftunkor, shaydo qiluvchi; jozibador, serzavq; fusunkor, sehrlovchi; **un regard ensorcelant** maftunkor boqish; **une musique ensorcelante** sehrlovchi kuy, musiqa.

**ensorceler** *vt* **1.** sehrlab qo'ymoq, jodu qilmoq, avramoq; **2.** maftun qilmoq, asiru shaydo qilmoq, ixtiyorini olib qo'ymoq.

**ensorceleur, euse I.** *adj* maftun qiladigan; dilbar, shaydo qiluvchi; **II.** *n* sehrgar, jodugar, afsungar.

**ensorcellement** *nm* **1.** afsun, sehr, jodu; **2.** dilrabolik, kishini maftun, shaydo qiladigan, sehrlab qo'yadigan narsa.

**ensuite** *adv* so'ng, so'ngra, keyin.

**ensuivre (s')** *vpr* (*inf et 3e pers seulement*) **1. et tout ce qui s'ensuit** barcha keyin sodir bo'ladiganlar; keyingi voqealar; **2.** kelib chiqmoq, yuz bermoq; sodir bo'lmoq (*biror narsaning natijasi sifatida*); **il le battit jusqu'à ce que mort s'ensuive** uni o'lguncha, joni uzulguncha kaltakladi; **il s'ensuit une catastrophe** falokat yuz berdi; **il s'ensuit de cela que** bundan kelib chiqadiki.

**entablement** *nm archit* antablement (*shipning bevosita ustunlarga tayangan bezakli qismlari*).

**entacher** *vt* dog' tushirmoq, isnod keltirmoq, nomini bulg'amoq, obro'sini to'kmoq, sharmanda qilmoq; **entacher l'honneur** izzat-nafsiga tegmoq; **entacher la gloire de qqn** biror kimsani badnom qilmoq.

**entaille** *nf* **1.** kertma belgi, kertik o'yilgan joy; (*daraxt, toshlarda*) **2.** kesilgan, tilingan joy; tig'dan bo'lgan yara, jarohat izi, tirtiq.

**entailler** *vt* kesib, o'yib olmoq, chopib, kertib, o'yib yasamoq.

**entame** *nf* birinchi bo'lak, luqma (*yeyiladigan narsalar haqida*); **l'entame d'un pain** nonning birinchi bo'lagi.

**entamer** *vt* **1.** birinchi bo'lakni kesmoq; **entamer un pain** nonni birinchi bo'lagini kesmoq; **2.** *fig* boshlamoq; **entamer une conversation** gap



www.ziyouz.com kutubxonasi

boshlamoq; **3.** yengil yarador qilib kesib olmoq; **4.** zarar, ziyon yetkazmoq, zarar keltirmoq, ziyon keltirmoq; buzmoq, ishdan chiqarmoq.

**entartrage** *nm* qasmoq (*ko'p qaynatilgan idish devoriga o'tirib qolgan sopolsimon qatlam*) hosil bo'lishi, o'tirib qolishi.

**entartrer** *vt* qasmoq, quyqa hosil qilmoq; **cette eau entartre les tuyaux** bu suv quvurlarda quyqa hosil qiladi.

**entassement** *nm* yig'ish, to'plash; o'yib tashlash; uyum, to'da; **l'entassement des journaux** gazetalar uyumi.

**entasser I.** *vt* uymoq, to'plamoq, yig'moq; **II. s'entasser** *vpr* uyilmoq, to'planmoq.

**entendement** *nm* **1.** *philos* aql, fahm, idrok, zehn; idrok qilish qobiliyati; **2.** tushunish, anglash, idrok qilish; **perdre l'entendement** aql-hushini yo'qotmoq.

**entendeur** *nm* **à bon entendeur demi-mot (suffit)** aqlliga bir so'z bas.

**entendre I.** *vt* **1.** eshitmoq; **j'entends des cris** men shovqin-suronni eshityapman; shovqin-suron eshitilmoqda; **je l'ai entendu de mes oreilles** men uni o'z quloqlarim bilan eshitdim; **se faire entendre a)** eshitilmoq; **une voix se fait entendre** kimningdir ovozi eshitildi; **b)** o'zini, o'z gapini eshitishga boshqalarni majbur qilmoq; **2.** tinglamoq, quloq solmoq, eshitmoq; **entendre les témoins** guvohlarni eshitmoq; **il ne veut rien entendre** u hech narsaga quloq solishni istamayapti; **3.** tushunmoq, anglamoq, fahmlamoq; tushunib, bilib, fahmlab, anglab olmoq; talqin qilmoq; **je n'entends rien à la musique** men musiqani umuman tushunmayman; **il n'entend pas la plaisanterie** u hazilni tushunmaydi; **il y a plusieurs façon d'entendre ce passage** bu parchani turlicha tushunish, talqin qilish mumkin; **entendu** tushunarli; **4.** niyat qilmoq, niyatida bo'lmoq, xohlamoq; **j'entends partir le douze** men o'n ikkinchi chisloda ketmoqchiman; **qu'entendez-vous par là** bu bilan nima demoqchisiz? **II. s'entendre** *vpr* **1.** bir-birini tushunmoq; kelishib olmoq; chiqishmoq; **2.** eshitilmoq; **ce bruit s'entend de loin** bu tovush uzoqdan eshitilmoqda; **3.** tushunilmoq; **cette phrase peut s'entendre de deux façon** bu ibora ikki xil tushunilishi mumkin; **4.** o'z ovozini eshitmoq; **je me suis entendu à la radio** men o'z tovushimni radiodan eshitdim; **5.** tushunmoq, bilmoq; anglamoq, biror narsaga aqli yetmoq.

**entendu, ue** *adj* **1.** hal bo'lgan, hal etilgan, kelishilgan; **c'est une affaire entendue** bu hal bo'lgan ish; **2.** tushunuvchi, tushunadigan; nimaligini biladigan; **prendre un air entendu** o'zini tushunadigan qilib ko'rsatmoq; **3. bien entendu** *loc adv* albatta, shubhasiz.

**entente** *nf* **1.** o'zaro kelishuv, kelishib olish; **2.** bitim, shartnoma; **parvenir à une entente** bitimga kelmoq; kelishib olmoq; **une entente commerciale** savdo bitimi; **3.** ma'no; **une phrase à double entente** ikki xil ma'noli gap.

**enter** *vt* **1.** *agr* payvandlamoq, payvand qilmoq, ulamoq; **2.** *techn* ulamoq, ulab uzaytirmoq, payvandlab biriktirmoq.

**entériner** *vt* **1.** ratifikatsiya qilmoq, tasdiqlamoq; **2.** ma'qullamoq, tasdiqlamoq; **entériner une décision** qarorni ma'qullamoq.

**entérite** *nf* enterit, ingichka ichakning shamollashi.

**enterrement** *nm* **1.** ko'mish, dafn etish; **avoir une tête, une mine d'enterrement** qayg'uli ko'rinmoq; **2.** ko'mish marosimi; **3.** unutish, sedan, yoddan chiqarish, esdan chiqarib yuborish.

**enterrer** *vt* **1.** ko'mmoq, dafn etmoq; **on l'a enterré au cimetière du village** uni qishloqdagi qabristonga dafn qildilar; **2.** *fig* butunlay unutib yubormoq, esdan chiqarmoq, bag'ridan o'tmoq; yo'q qilmoq; **enterrer un projet** loyihani esdan chiqarib yubormoq; **3.** yerga ko'mmoq, yerga ko'mib tashlamoq; **enterrer un trésor dans son jardin** xazinani bog'iga ko'mib qo'ymoq.

**en-tête** *nm* sarlavha; **papier à en-tête** blanka (*idoraning nomi, manzili kabi ma'lumotlar sarlavha qilib bosilgan tayyor varaqlar*).

**entêtement** *nm* qaysarlik, o'jarlik; qat'iylik.

**entêter I.** *vt* **1.** karaxt qilmoq, gangitmoq; **2.** boshini aylantirmoq (*hid haqida*); **2.** boshini aylantirmoq; qiziqtirib qo'ymoq, havas uyg'otmoq; **II. s'entêter** *vpr* qaysarlik, o'jarlik qilmoq.

**enthousiasmant, ante** *adj* ruhlantiradigan, ilhomlantiradigan.

**enthousiasme** *nm* ko'tarinki, baland ruh, ilhom, zavq-shavq; xursandlik; **travailler dans l'enthousiasme** zavq-shavq bilan ishlamoq; **il ne savait comment exprimer son enthousiasme** u xursandchiligini qanday ifodalashni bilmas edi; **remplir d'enthousiasme** ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq; **je n'ai pas beaucoup d'enthousiasme pour ce travail** bu ish meni uncha qiziqtirmaydi.

**enthousiasmer I.** *vt* ruhlantirmoq; zavqlantirmoq, ilhomlantirmoq; **II. s'enthousiasmer** *vpr* g'oyat xursand bo'lmoq, zavqlanmoq; qoyil qolmoq, tahsin o'qimoq, tasanno aytmoq; maftun bo'lmoq; berilmoq, qiziqib qolmoq, ishqiboz bo'lib qolmoq; **il s'enthousiasme pour la philosophie** u falsafaga qiziqib qoldi.

**enthousiaste I.** *adj* g'oyat zavqli; zavqqa to'lgan, quvonchli; o'zida yo'q xursand; **des cris enthousiastes** quvonchli xitoblar; **II.** *n* o'zida yo'q xursand oshiq, jazman.

**enticher (s')** *vpr* qiziqib qolmoq, ishqiboz bo'lib qolmoq, havas qilmoq; o'rganib, odatlanib qolmoq, ruju qilmoq.

**entier, ère I.** *adj* **1.** butun, to'la; **une heure entière** rosa bir soat; **occuper une maison entière** uyni to'laligicha egallamoq; **le monde entier** butun dunyo; **2.** to'liq, to 'la; butunlay, tamomila; **une entière indépendance** to'liq mustaqillik; **une entière confiance** to'la ishonch; **3.** bir xil turadigan, barqaror; **un caractère entier** barqaror xarakter, o'zgarmaydigan fe'l-atvor; **une nature entière** barqaror fe'l-atvor; **II.** *nm* **1.** butun, bir butun, yaxlit holdagi narsa; **2.** *math* butun son, butun.

**entièrement** *adv* butunligicha, butun holda, butunlayin; butunlay, tamomila, batamom; **nous sommes entièrement d'accord** biz butunlay rozimiz; **vous avez entièrement raison** siz tamomila haqsiz; **il est entièrement guéri** u butunlay tuzalib ketdi.

**entité** *nf* mohiyat, tub, asosiy ma'no, mazmun, mag'iz.

**entoilage** *nm* **1.** ustini qoplash, jildlash (*polotno, xolst, qalin mato bilan*); **2.** xolst, kanop jild.

**entoiler** *vt* ustini qoplamoq, jildlamoq (*qalin mato bilan*); tagidan, ichidan qo'yib tikmoq; xolstga chizmoq, yopishtirmoq; **entoiler une carte** xaritani xolstga yopishtirmoq.

**entôlage** *nm arg* o'g'irlik, talovchilik (*fohisha, g'ar ayollar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irlik haqida*).

**entôler** *vt* **1.** (*mijoz narsalarini*) o'g'irlamoq, talamoq (*fohisha ayollar haqida*); **2.** *fam* aldab o'g'irlab olmoq.

**entomologie** *nf* entomologiya (*zoologiyaning hasharotlarni o'rganadigan bo'limi*).

**entomologique** *adj* entomologiyaga oid; entomologik.

**entomologiste** *n* entomolog (*entomologiya mutaxassisi*).

**entonner**[1] *vt* bochkaga quymoq; **entonner du vin** vinoni bochkaga quymoq.

**entonner**[2] *vt* qo'shiqni, ashulani boshlab bermoq.

**entonnoir** *nm* voronka.

**entorse** *nf* **1.** *méd* to'qimaning shikastlanishi, ezilishi, et uzilishi; **2.** *fig* xato, yanglish; noto'g'rilik, buzilib chiqish, buzuq ko'rinish; **faire une entorse à la vérité** haqiqatni buzib ko'rsatmoq.

**entortiller I.** *vt* **1.** aylantirmoq, o'ramoq, o'rab qo'ymoq, o'rab qo'ymoq, olmoq; **entortiller son cache-nez autour de son cou** sharfini bo'yniga o'ramoq; **entortiller une ficelle** barmog'ini chilvir bilan o'ramoq; **2.** o'ramoq; o'rab qo'ymoq; o'rab olmoq, bermoq; **entortiller un bonbon dans du papier** konfetni qog'ozga o'ramoq; **3.** *fig* gapdan adashmoq, yanglishmoq, aralashtirmoq; **entortiller ses phrases** so'zidan adashmoq; **4.** *fig fam* miyasini qotirib yubormoq; boshini aylantirib, gangitib qo'ymoq; **il n'a pas réussi à m'entortiller** u meni gangita olmadi; **II. s'entortiller** *vpr* chirmashib olmoq, o'rab olmoq; **il s'est entortillé dans ses couvertures** u ko'rpaga o'ralib oldi.

**entourage** *nm* **1.** hoshiya; o'rab turgan narsa (*bezash uchun o'ralgan barcha narsa*); **2.** atrofdagi kishilar, yaqinlar; atrof-muhit; **il a subi l'influence de son entourage** u yaqin kishilari ta'siriga berilgan.

**entourer** *vt* o'rab olmoq, qurshamoq, qurshab olmoq; atrofida bo'lmoq.

**entourloupette** *nf fam* qaltis hazil, qiliq, hiyla-nayrang, firibgarlik, firib; **faire une entourloupette à qqn** biror kimsaga firib bermoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**entournure** *nf* **1.** o'miz, yeng o'rni, yeng o'tkaziladigan, o'yma; **2.** *loc* **être gêné aux entournures** o'zini erkin sezmaslik, o'zini bemalol sezmaslik, his etmaslik.

**entracte** *nm* antrakt, tanaffus; **pendant l'entracte** tanaffus paytida.

**entraide** *nf* o'zaro yordam.

**entraider (s')** *vpr* bir-biriga yordam bermoq, o'zaro yordamlashmoq.

**entrailles** *nf pl* **1.** ichak-chavoq (*parrandalarda*); **2.** *fig* biror narsaning ichki qismi; ichki qism, qar; **les entrailles de la terre** yer qari.

**entrain** *nm* zavq, zavq-shavq; qiziqish; qizg'inlik; oshiqish; ruh lanish, ruhi ko'tarilish, ko'tarinki, baland ruh; **être plein d'entrain** ruhan ko'tarinki bo'lmoq; zavq-shavqqa to'lmoq; **faire un travail avec entrain** biror ishni zavq-shavq bilan bajarmoq.

**entraînant, ante** *adj* ruhni ko'taradigan; zavq bag'ishlaydigan; **une musique entraînante** quvnoq, zavq bag'ishlaydigan kuy.

**entraînement** *nm* **1.** *techn* harakatga keltirish; harakatga kelish; **l'entraînement de la roue est assuré par une courroie** g'ildirakning tasmali o'tkazgich yordamida harakatga kelishi; **2.** entuziazm, zavq-shavq; qiziqish; qizg'inlik; **céder à un entraînement** qiziqmoq, qiziqib, havasi kelib qolmoq, uchmoq; **l'entraînement de la discussion** bahsning qizg'inligi; **3.** tayyorgarlik ko'rish; mashq qilish, tayyorlash; **l'entraînement d'un athlète** sportchining mashq qilishi; **un terrain d'entraînement** mashq maydoni; **faire de l'entraînement** mashq qilmoq.

**entraîner**[1] *vt* **1.** sudrab, tortib kelmoq; olib ketmoq, birga olib, ergashtirib ketmoq; **le courant entraîne le bateau** oqim kemani olib ketdi; **entraîner au cinéma** kinoga ergashtirib ketmoq; **2.** jalb qilmoq, tortmoq, qatnashtirmoq, ergashtirmoq; aralashtirmoq; biror yomon ishga boshlamoq **entraîner qqn au travail** biror kimsani ishga jalb qilmoq; **entraîner qqn dans une affaire désagréable** biror kimsani nohush ishga tortmoq; **3.** *fig* biror natijaga olib kelmoq, olib bormoq; sabab bo'lmoq; **cela entraîne de graves conséquences** bu yomon oqibatlarga olib keladi; **la crise entraîne le chômage** buhron ishsizlikka olib keladi; **4.** harakatga keltirmoq; harakatlantirmoq; **le moteur entraîne la machine** motor mashinani harakatga keltiradi.

**entraîner**[2] **I.** *vt* o'rgatmoq, chiniqtirmoq, mashq qildirmoq; **entraîner un boxeur (une équipe de football)** boksyor, futbol jamoasini mashq qildirmoq; **il nous entraîne à la traduction simultanée** u bizni sinxron tarjimaga o'rgatmoqda; **II. s'entraîner** *vpr* mashq qilmoq.

**entraîneur** *nm sport* trener; **l'entraîneur d'une équipe de football** futbol jamoasining treneri.

**entraîneuse** *nf* barlarda mijozlarni raqs tushishga, ovqatlanishga jalb etadigan yosh ayol.

**entrave** *nf* **1.** kishan, tushov; **mettre des entraves à un cheval** otni tushovlab qo'ymoq; **2.** *fig* to'sqinlik, qiyinchilik; qarshilik, g'ov; to'g'anoq; **c'est une entrave à la liberté** bu ozodlik uchun to'sqinlikdir; **briser les entraves** g'ovni buzib tashlamoq.

**entraver**[1] *vt* **1. entraver un cheval** otni tushovlamoq; **2.** *fig* halaqit bermoq, qilmoq; siqmoq, qismoq, siqib, qisib qo'ymoq; cheklamoq, cheklab, qisib qo'ymoq; g'ov bo'lmoq; **entraver à la circulation** harakatni qiyinlashtirmoq, harakatga halaqit bermoq; **sa robe longue entrave ses pas** uzun ko'ylagi yurishga to'sqinlik qilyapti.

**entraver**[2] *vt arg* yaxshi bilmoq, xabardor bo'lmoq, tushunmoq, farqiga bormoq; **je n'y entrave que dalle** bu sohada hech vaqoga aqlim yetmaydi.

**entre** *prép* **1.** *makonni ifodalaydi:* o'rtasida, orasida, oralig'ida; **il était assis entre sa femme et sa fille** u xotini va qizi o'rtasida o'tirardi; **lire entre les lignes** matnning asl ma'nosini topmoq, uning zamiridagi ma'nosini anglamoq; **2.** *zamonni ifodalaydi:* o'rtasida, orasida, oralig'ida; **entre midi et deux heures** soat o'n ikki va ikki oralig'ida; **entre temps** shu orada, shu asnoda; **3.** *birgalikni ifodalaydi:* o'rtasida, orasida, ichida, davrasida; **l'un d'entre nous** ichimizdan biri, ichimizdagilardan biri; **4.** *birgalik, munosabat, qiyoslashni ifodalaydi:* o'rtasida, orasida; **l'amitié entre les peuples** xalqaro, xalqlar o'rtasidagi do'stlik; **j'hésite entre deux solutions** ikki o'rtada qoldim, qaysi birini tanlashni bilmay boshim qotdi; **entre les deux** unisi ham, bunisi ham emas; **entre autres** shunchaki, qatorida, yo'l-yo'lakay; **entre autres mesures** boshqa tadbirlar qatorida.

**entrebâillement** *nm* sal, bir oz, qiya ochish.

**entrebâiller** *vt* sal, bir oz, qiya, jindek ochmoq; **entrebâiller la porte** eshikni qiya ochmoq.

**entrechat** *nm* antrasha (*baletda oyoqlarni bir-biriga urib sakrash*).

**entrechoquer I.** *vt* bir-biriga to'qnashtirmoq, urmoq, urishtirmoq, urishtirib yubormoq; **II. s'entrechoquer** *vpr* to'qnashib, urishib ketmoq; qarama-qarshi, to'qnash, zid kelib qolmoq; **les esprits s'entrechoquent** fikrlar zid kelib qoldi.

**entrecôte** *nf* antrekot, biqin go'shti.

**entrecoupé, ée** *adj* uzuq-uzuq, to'xtab-to'xtab sodir bo'ladigan.

**entrecouper I.** *vt* **1.** bo'lmoq, bo'lib qo'ymoq, kesmoq; **entrecouper son récit de commentaire** hikoyasini izohlar bilan bo'lib turmoq; **2.** ikkiga bo'lmoq, o'rtasidan kesib bo'lmoq; **II. s'entrecouper** *vpr* bir-birining gapini bo'lib qo'ymoq; bo'linib qolmoq, to'xtab, uzilib qolmoq (*gap, ovoz kabilar*).

**entrecroisé, ée** *adj littér* **des rimes entrecroisées** qator oralab keladigan qofiya.

**entrecroisement** *nm* bir-biriga ko'ndalang qo'yilganlik, kesishganlik.

**entrecroiser I.** *vt* birini boshqasiga nisbatan ko'ndalang qo'ymoq, kesishtirmoq; **II. s'entrecroiser** *vpr* biri boshqasiga nisbatan ko'ndalang qo'yilmoq, bir-birini kesib o'tmoq, kesishmoq; **les routes s'entrecroisent** yo'llar kesishadi.

**entre-deux** *nm inv* **1.** ikki narsa oralig'idagi masofa, ora, oraliq, o'rta, o'rtalik; **2.** ikki hodisa orasidagi muddat, vaqt, davr; **il y a une conférence, puis un film; on se rencontre dans l'entre-deux** avval ma'ruza, so'ng film; biz orada uchrashamiz; **3.** kiyim choki orasiga solib tikilgan gulto'r yoki uqa.

**entre-deux-guerres** *nm inv* birinchi va ikkinchi jahon urushlari orasidagi davr.

**entrée** *nf* **1.** kirish, ichiga, ichkarisiga kirish; **l'entrée des troupes dans la ville** armiyaning shaharga kirishi; **l'entrée en fonction** vazifani bajarishga kirishish; **faire son entrée en scène** sahnaga chiqish; *fig* birinchi marta yuzaga kelmoq, paydo bo'lmoq, kelib chiqmoq; tug'ilmoq; **l'entrée en vigueur** kuchga kirish, amalda qo'llanila boshlash; **2.** kirish, kiraverish, kiradigan joy, eshik, darvoza; **la porte d'entrée** kirish eshigi; **3.** kirish, kira olish, ijozat, ruxsat, imkon; **l'entrée à l'université** universitetga kirish, qabul qilinish; **une carte d'entrée** kirish pattasi, ruxsatnoma; **entrée libre** kirish bepul; **4.** dahliz; **5.** boshi, boshlanishi, debocha; **à l'entrée de l'hiver** qishni boshida, qish boshlanishi bilanoq; **d'entrée** birdaniga, boshidan; **6.** birinchi ovqat, birinchisi; **7.** *écon* chetdan tashib kiritish, tashqaridan ichkariga olib kirish, keltirish (*mahsulot, tovar*); **8.** tushim, kirim, daromad.

**entrefaites (sur ces)** *loc adv* shu paytda, shunda, shu choqda.

**entrefilet** *nm* maqolacha, xabar, gazeta maqolasi.

**entre-haïr (s')** *vpr* bir-birini yomon ko'rmoq.

**entregent** *nm* xushmuomalalik, muloyimlik, sermulozamatlik, sertakallufllik, adab, nazokat, boadablik; bilarmonlik, ustamonlik, ep, hadis, havo, epchillik, ustalik, hadisini olganlik, chaqqonlik, abjirlik, chapdastlik; **il a de l'entregent** u odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni biladi.

**entrejambe** *nm* og', xishtak; *fam* chot, chov, but.

**entrelacement** *nm* **1.** to'qish yoki to'qilish usuli; **2.** to'qilgan narsa; chatishib, qo'shilib ketgan narsa; narsalar o'zaro qo'shiladigan, tutashadigan, bir-birini kesib o'tadigan joy; **entrelacement des fils** iplarning chatishib ketishi.

**entrelacer I.** *vt* to'qimoq, to'qib yasamoq, o'rmoq; **II. s'entrelacer** *vpr* bir-biriga o'ralmoq, chirmashmoq, o'ralib, chirmashib ketmoq.

**entrelacs** *nm* to'qilgan gul, bezak.

**entrelarder** *vt* **1.** orasiga cho'chqa yog'i tiqmoq; **2.** *fig* nutqni bejab gapirmoq, gapga maqol, matal kinoya kabilarni qo'shib gapirmoq.

**entremêler** k **I.** *vt* **1.** aralashtirmoq, qorishtirmoq, qo'shib yubormoq; **2.** *fig* qo'shmoq, birga qilmoq; aralashtirmoq; **3.** qo'shmoq, kiritmoq, qo'shib gapirmoq, qo'shib qo'ymoq; **il entremêle son discours de citations latines** u nutqiga lotincha iboralarni qo'shib gapiradi; **II. s'entremêler** *vpr* aralashmoq, aralashib ketmoq, qo'shilmoq, qo'shilib ketmoq.

**entremets** *nm* dessertdan avval tortiladigan yengil, shirinlik qo'shilgan taom.

**entremetteur, euse** *n* **1.** *vx* vositachi, o'rtada turuvchi; **2.** *péj* qo'shmachi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**entremise** *nf* vositachilik, dallollik; **par l'entremise de** *loc prép* birror kimsa yoki narsaning yordami bilan, yordamida, vositasida.

**entremettre (s')** *vpr* vositachilik qilmoq, o'rtada turmoq, oraga tushmoq.

**entrepont** *nm* kemaning ikki palubasi orasidagi joy.

**entreposage** *nm* omborga qo'yish.

**entreposer** *vt* omborga qo'ymoq.

**entrepôt** *nm* ombor, yuk ombori.

**entreprenant, ante** *adj* epchil, uddaburo, tashabbuskor.

**entreprendre** *vt* **1.** biror ishga kirishmoq, ishni boshlamoq; **n'entreprenez rien sans me téléphoner** menga qo'ng'iroq qilmasdan hech narsa qilmang; **entreprendre un voyage** sayohat qilmoq; **2.** zimmasiga olmoq; pudratga olmoq; **entreprendre des travaux de construction** qurilishni baylab, pudratga olmoq; **3.** biror kishini ishontirishga, og'dirib olishga urinmoq.

**entrepreneur, euse** *n* korxona egasi; tadbirkor; pudratchi.

**entreprise** *nf* **1.** boshlangan ish, tashabbus; **2.** pudrat; **3.** korxona; **chef d'entreprise** korxona egasi.

**entrer I.** *vi* kirmoq, ichkariga kirmoq; **entrer dans une maison** uyga kirmoq; **2.** o'qishga yoki ishga kirmoq; **entrer à l'université** universitetga o'qishga kirmoq; **3.** qo'shilmoq, aralashmoq, qatnashmoq; **entrer dans un complot** fitnaga qo'shilmoq; **4.** qo'shilmoq, birikmoq, tarkibiga kirmoq; **5. entrer en colère** jahli chiqmoq; **entrer en détail** diqqat bilan o'rganmoq, kuzatmoq; **II.** *vt* **1.** kiritmoq, olib kirmoq; **entrer des marchandises** tovar olib kirmoq; **2.** botirmoq, suqmoq; **il lui entrait ses ongles dans la main** uning qo'liga tirnoqlarini botirar edi.

**entresol** *nm* antresol, birinchi va ikkinchi qavat oralig'idagi joy.

**entre-temps** *adv* shu orada, shu asnoda, shu vaqt ichida.

**entretenir I.** *vt* **1.** bir maromda saqlamoq, ta'minlamoq; to'xtashga, susayishga, uzilishga yo'l qo'ymaslik; **entretenir le feu** olovni o'chirmay saqlab turmoq; **entretenir une correspondance avec qqn** birov bilan xat yozishib turmoq; **2.** qaramoq, tutmoq, parvarish qilmoq; yaxshi holatda saqlamoq; **entretenir une route** yo'lning holatini yaxshi saqlamoq; **un jardin mal entretenu** parvarishsiz, boqimsiz, qarovsiz bog'; **3.** boqmoq, qaramoq, tarbiya qilmoq; **entretenir sa famille** oilasini boqmoq, ro'zg'or tebratmoq; **4.** gaplashib turmoq, gapni, suhbatni qizitib turmoq; **II. s'entretenir** *vpr* **1.** ovunmoq, yupanmoq, o'zini ovuntirmoq, o'zini yupatmoq; **s'entretenir d'illusions** o'zini orzu-umidlar bilan yupatmoq; **2.** gaplashmoq, bir-biriga gapirmoq, suhbatlashmoq; **3. s'entretenir la main** malakasini saqlamoq.

**entretenu, ue** *adj* **1.** birovning qaramog'idagi, qaram, boqim; **une femme entretenue** birovning qaramog'idagi ayol, o'ynash; **2. bien entretenu** boqimli, parvarishi yaxshi; **mal entretenu** boqimsiz, qarovsiz, parvarishi yomon.

**entretien** *nm* **1.** qarash, parvarish qilish; tartibli, ozoda, but saqlash, yaxshi holatda saqlash; ta'mir; **l'entretien d'une voiture** mashinani shay saqlash; **l'entretien courant des machines** uskunalarni joriy ta'mirlash; **l'entretien des routes** yo'llarni ta'mirlash; **2.** boqish, qarash, ta'minlash; **l'entretien des troupes** armiyani ta'minlash (*oziq-ovqat, kiyim-kechak kabilar bilan*); **3.** suhbat; muzokara; **avoir un entretien avec le ministre** vazir suhbatida bo'lmoq; **les entretiens diplomatiques** diplomatik muzokaralar.

**entretoise** *nf* tirgovuch, tirgak, ko'ndalang qo'yilgan to'sin; ko'ndalang o'tkazilgan, qo'yilgan narsa.

**entretuer (s')** *vpr* bir-birini o'ldirmoq; bir-biri bilan o'lguncha urishmoq.

**entrevoir** *vt* **1.** g'ira-shira, elas-elas, sal-pal ko'rib qolmoq; yo'l-yo'lakay ko'zi tushmoq; zo'rg'a ajratmoq; **entrevoir qqch dans l'ombre** nim qorong'ilikda biror narsani zo'rg'a ajratmoq; **je l'ai entrevu dans l'escalier** men uni zinada yo'l-yo'lakay ko'rib qoldim; **2.** oldindan ko'rmoq, payqamoq, sezmoq, kelajakni ko'rmoq, bashorat qilmoq; taxmin qilmoq; **vous avez entrevu la solution** siz yechimini topdingiz; **entrevoir une nouvelle vie** yangi hayotni bashorat qilmoq, oldindan ko'rmoq.

**entrevue** *nf* uchrashuv, muzokara; **ménager une entrevue** uchrashuv uyushtirmoq; **avoir une entrevue avec le directeur** direktor bilan uchrashmoq.

**entropie** *nf phys* entropiya (*energiyaning tanazzulga uchrashi prinsipini ifodalovchi matematik funksiya*).

**entrouvrir** *vt* sal ochmoq, qiya ochmoq; **entrouvrir les rideaux** pardani qiya ochmoq.

**énumératif, ive** *adj* sanoq, hisobga oid; hisoblaydigan, hisobga oladigan.

**énumération** *nf* sanab chiqish; ro'yxat; **l'énumération des objets d'une collection** kolleksiyaga kirgan buyumlarni sanab chiqish (*ro'yxatini tuzish*).

**énumérer** *vt* sanab, hisoblab chiqmoq, sanamoq, hisoblamoq.

**envahir** *vt* **1.** bostirib kirmoq; bosib olmoq, zabt etmoq, ishg'ol etmoq; **2.** to'ldirib yubormoq; to'lib ketmoq; **la foule envahit la place** xaloyiq maydonga to'lib ketdi; **l'eau va envahir la maison** hozir uy suvga to'lib ketadi; **3.** qamrab olmoq, to'ldirmoq.

**envahissement** *nm* **1.** bostirib kirish, zabt etish; bosib olinish, zabt etilish; **2.** qamrab olganlik; to'ldirganlik, egallab olganlik.

**envahisseur** *nm* bosqinchi, istilochi.

**envasement** *nm* loyqa bosish, loyqaga to'lib qolish.

**envaser** *vt* loyqa bilan to'ldirmoq, loyqaga botirmoq; loyqaga ko'mmoq.

**enveloppant, ante** *adj* **1.** o'ragan; qamragan; **2.** *fig* maftun etadigan, jozibali; yurakdan uradigan; **des paroles enveloppantes** yurakdan uradigan so'zlar.

**enveloppe** *nf* **1.** konvert; **2.** tashqi ko'rinish; parda, qobiq; **3.** ko'rpaga tutiladigan choyshab, jild.

**enveloppement** *nm* **1.** o'rash, o'rab qo'yish; **2.** *mil* o'rab, qurshab olish; **une manœuvre d'enveloppement** qurshab olish manyovri.

**envelopper I.** *vt* **1.** o'ramoq, chulg'amoq; **2.** qamramoq, qamrab olmoq; **II. s'envelopper** *vpr* o'ranmoq, chulg'anmoq.

**envenimer I.** *vt* **1.** qo'zg'amoq, qo'zg'atmoq, qichitmoq, yallig'lantirmoq; **envenimer une plaie** yarani yallig'lantirmoq; **2.** *fig* avj oldirmoq, keskinlashtirmoq, kuchaytirmoq, oshirmoq; **envenimer un débat** bahsni keskinlashtirmoq; **envenimer une querelle** janjalni kuchaytirmoq; **II. s'envenimer** *vpr* **1.** yallig'lanmoq, qizarmoq, shishmoq; **2.** *fig* keskinlashmoq; kuchaymoq; **la discussion s'envenima** bahs keskinlashdi.

**envergure** *nf* **1.** uzunlik, kenglik; qanotlarning yozilgandagi kengligi; **cet oiseau a 3 mètres d'envergure** bu qush qanotlarining kengligi 3 metrga teng; **2.** *mar* reya ning uzunligi (*yelkan bog'lanadigan ko'ndalang yog'och*); **3.** masshtab ko'lam, miqiyos; **un esprit de grande envergure** keng miqiyosdagi fikr.

**envers**[1] *prép* **1.** biror kimsa-narsa haqida, to'g'risida; biror kimsaga-narsaga nisbatan; ko'ra; **il a mal agi envers nous** u bizga nisbatan yomon munosabatda bo'ldi; **2.** *loc* **envers et contre tous** umumiy qarshilikka qaramay.

**envers**[2] *nm* ters tomoni, teskari tomoni, ichki tomoni, teskarisi; **à l'envers** teskarisiga, chappasiga.

**envi (à l')** *loc adv* bir-biriga gal bermay, chug'urlashib.

**enviable** *adj* orzu qiladigan, havas qilinadigan; orzu qilsa arziydigan, havas qilsa arziydigan.

**envie** *nf* **1.** orzu, havas, istak, xohish; **il brûle d'envie** u istakdan yonmoqda; **avoir envie** istamoq, xohlamoq; *fam* **envie de femme enceinte** boshi qorong'ilik (*homilador ayolning biror narsani tusashi*); *fig* injiqlik, kutilmaganda biror narsani injiqlik bilan talab qilish; **2.** rashk, hasad; **faire envie à qqn** rashkini keltirmoq, hasad uyg'otmoq; **3.** *fam* xol, nor; **4.** *pl fam* tirnoq milki.

**envier** *vt* havas qilmoq, havasi kelmoq; **il envie les autres** uning boshqalarga havasi kelyapti; **je vous envie d'habiter la campagne** sizning qishloqda yashashingizga havasim kelyapti.

**envieux, euse I.** *adj* hasadli, g'ayir, ichi qora, baxil; ko'rolmaydigan; **des regards envieux** hasad bilan qarash, suqlanib qarash; **être envieux** hasadgo'y bo'lmoq; **II.** *n* hasadchi, hasad qiluvchi odam; g'ayir, baxil, ichi qora.

**environ I.** *adv* taxminan, chamasi; **il y a environ deux mois** taxminan ikki oy burun; **II.** *nm pl* atrof, tevarak, kanora; *loc adv* **aux environs de** atrofida, tevaragida.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**environnant, ante** *adj* o‘rab olgan, atrofdagi, yon-beridagi; **la campagne environnante** atrofdagi qishloq; **le milieu environnant** atrof muhit; o‘rab olgan muhit.

**environnement** *nm* o‘rab olgan muhit, sharoit, atrof-muhit.

**environner I.** *vt* **1.** o‘rab olmoq, qurshab olmoq; **une haute muraille environne le château** qasrni baland devor o‘rab olgan; **2.** *fig* atrofiga to‘planmoq, yig‘ilmoq; **les dangers qui l'environnent** uni o‘rab turgan xavf-xatar; **la société qui nous environne** bizni o‘rab turgan jamiyat; **II. s'environner** *vpr* atrofiga to‘plamoq, yig‘moq; **s'environner d'amis fidèles** sodiq do‘stlarni atrofiga yig‘moq.

**envisager** *vt* **1.** biror nuqtai nazardan qaramoq, ma'lum munosabatda bo‘lmoq, e'tibor bermoq, e'tiborga, hisobga olmoq, hisoblanmoq; o‘ylamoq; **il faut envisager calmement l'avenir** kelajak haqida vazminlik bilan o‘ylash kerak; **comment envisagez-vous ce problème?** siz bu masalaga qanday munosabatdasiz? **il faut envisager la question sous un autre angle** masalaga boshqa tomondan, nuqtai nazardan yondoshmoq kerak; **2.** oldindan ko‘rmoq, sezmoq, kelajakni ko‘rmoq; oldindan bilmoq, bashorat qilmoq; taxmin qilmoq, mo‘ljallab qo‘ymoq, ko‘z oldiga keltirmoq; **vous n'avez pas envisagé cette possibilité** siz bu imkoniyatni kutmagan edingiz, oldindan ko‘zda tutmagan edingiz.

**envoi** *nm* **1.** jo‘natish, yuborish; to‘p oshirish (*sportda*); **un coup d'envoi** to‘pga birinchi zarbani berish.

**envol** *nm* uchish, parvoz qilish; parvoz; **l'envol d'un avion** samolyotning parvozi; **la piste d'envol** uchish polosasi, chizig‘i.

**envolée** *nf* **1.** uchish, parvoz qilish; **2.** *fig* parvoz, beqiyos yuksalish, ravnaq; ilhom.

**envoler (s')** *vpr* **1.** uchmoq, uchib ketmoq; **les oiseaux se sont envolés** qushlar uchib ketdilar; **s'envoler à tire-d'aile** shiddat bilan, jon-jahd bilan uchib ketmoq; **2.** *poét* tez o‘tmoq, o‘tib ketmoq; yo‘qolmoq, yo‘q bo‘lmoq; **les illusions s'envolent** orzu-umidlar o‘tib ketdi, puchga chiqdi.

**envoûtant, ante** *adj* **un regard envoûtant** maftun, shaydo, rom qiladigan nigoh; **une beauté envoûtante** sehrlaydigan, maftun qiladigan go‘zallik.

**envoûtement** *nm* **1.** dilrabolik, kishini shaydo, maftun qiladigan, sehrlab qo‘yadigan narsa; **2.** sehrlash; sehrlanganlik.

**envoûter** *vt* **1.** sehrlamoq, avramoq, afsun qilmoq; ko‘zi tegmoq, suqi, kinnasi kirmoq; **2.** maftun qilmoq; shaydo qilmoq; **envoûter son auditoire** tinglovchilarni sehrlab olmoq; **cette femme l'a envoûté** bu ayol uni shaydo qilib qo‘ydi.

**envoyé, ée I.** *adj* **une balle bien envoyée** aniq oshirilgan to‘p; *fam* **une réponse bien envoyée** oqilona, zukko javob; **II.** *nm* vakil; muxbir; xat tashuvchi; **l'envoyé spécial d'un journal** gazetaning maxsus muxbiri.

**envoyer I.** *vt* **1.** yubormoq, jo‘natmoq; **envoyer un enfant à l'école** bolani maktabga yubormoq; **envoyer une lettre** xat jo‘natmoq; **envoyer chercher qqn, qqch** biror kimsani, narsani olib kelishga jo‘natmoq; **envoyez-moi un dictionnaire** menga bir lug‘at yuboring; **le ministre a envoyé en mission deux spécialistes** vazirlik ikki mutaxassisni xizmat safariga jo‘natdi; **envoyer qqn à la mort** biror kimsani o‘limga yubormoq; **envoyer qqn dans l'autre monde** biror kimsani narigi dunyoga jo‘natmoq; **envoyer un télégramme** telegramma jo‘natmoq; **2.** oshirmoq, otmoq; **envoyer une balle** to‘p oshirmoq; **envoyer des pierres** tosh otmoq; **II. s'envoyer** *vpr* **1.** jo‘natilmoq, yuborilmoq; **ces marchandises ne peuvent pas s'envoyer par la poste** bu tovarlar pochta orqali jo‘natilmaydi; **2.** bir-biriga jo‘natmoq; **ils s'envoient toujours une lettre au Nouvel an** yangi yilda ular doim bir-biriga xat yuboradilar.

**envoyeur, euse** *n* jo‘natuvchi, yuboruvchi (*pochtada*).

**enzyme** *nf* ferment (*tirik hujayrada ishlab chiqariladigan va organizmda modda almashuvini tartibga solib turadigan organik modda*).

**éolien, ienne I.** *adj géog* shamol ta'siri ostida vujudga keladigan; **II.** *nf* shamol tegirmon.

**épagneul, eule** *n* spaniel (*ovchi itning bir turi*).

**épais, aisse I.** *adj* **1.** qalin, zich, quyuq; **2.** yo‘g‘on qalin; **un mur épais** qalin devor; **3.** quyuq, quyultirilgan; **une huile épaisse** quyuq moy; **un brouillard épais** quyuq tuman; **4.** qovushmagan, epsiz, lavang; **II.** *nm* **1.** o‘rtasi; qalin joy; **au plus épais de la foule** xaloyiqning o‘rtasida; **2.** cho‘kindi, quyqa; **au fond de la bouteille il y a de l'épais** shishaning ostida quyqa, cho‘kindi bor; **III.** *adv* zich; qalin qilib; **semer épais** qalin qilib ekmoq.

**épaisseur** *nm* **1.** yo‘g‘onlik, qalinlik; **l'épaisseur de la glace** muzning qalinligi; **le mur a 2 mètres d'épaisseur** devorning qalinligi ikki metr; **2.** quyuqlik, qalinlik, zichlik; **l'épaisseur de la sauce** sousning quyuqligi.

**épaissir I.** *vt* **1.** quyuqlashtirmoq; **épaissir une sauce avec la farine** sousga un qo‘shib quyuqlashtirmoq; **2.** yo‘g‘onlashtirmoq, qalinlashtirmoq; og‘irlashtirmoq; to‘ldirmoq; **il faut épaissir votre dossier** sizning hujjatlaringizni to‘ldirish kerak; **II. s'épaissir** *vpr* **1.** quyuqlashmoq; qalinlashmoq; **le brouillard (s') épaissit** tuman quyuqlashmoqda; **2.** yo‘g‘onlashmoq; to‘lishmoq; og‘irlashmoq.

**épaississement** *nm* **1.** quyuqlashish, qalinlashish; quyuqlik, qalinlik; **l'épaississement du brouillard** tumanning qalinligi, quyuqligi; **2.** yo‘g‘onlashish, to‘lishish; yo‘g‘onlik; to‘liqlik, to‘lganlik; **l'épaississement de la taille** gavdaning yo‘g‘onligi.

**épanchement** *nm* **1.** *méd* oqish, oqib chiqish, quyilish; **un épanchement de sang** qon quyilishi; **2.** *géog* lavaning oqishi; lavaning otilib chiqishi; **3.** *fig* ochiq izhor, ifoda etish; ko‘ngildagini ochib aytish, yorilib gapirish, dilidagini to‘kib solish.

**épancher I.** *vt* izhor etmoq, bayon qilmoq, bildirmoq, to‘kib solmoq; sochmoq; **épancher ses secrets** sirlarini to‘kib solmoq; **épancher son cœur** dilidagini bayon qilmoq, to‘kib solmoq; **II. s'épancher** *vpr* yorilib gapirmoq, dilidagini aytmoq, dilini yozmoq, ichidagilarni aytib yuragini bo‘shatmoq.

**épandage** *nm* to‘kish; sochish; sepish; **champs d'épandage** oqava suvlar tozalanadigan joy; axlatxona, axlattepa.

**épandre I.** *vt* **1.** quymoq, to‘kmoq; **2.** yoyib, sochib tashlamoq, sochmoq; sepmoq; **épandre les engrais** dori, o‘g‘it sepmoq (*ekinga*); **II. s'épandre** *vpr* **1.** to‘kilmoq, to‘kilib ketmoq; **2.** tarqalmoq, yoyilmoq.

**épanouir (s')** *vpr* kurtak yozmoq, kurtak chiqarmoq, gullamoq; ochilmoq, ochilib ketmoq.

**épanouissement** *nm* **1.** kurtak yozish; ochilish; gullash; **2.** *fig* gullab-yashnash; ochilish; ravnaq topish.

**épargnant, ante** *n* pul qo‘ygan kishi, pul qo‘yuvchi, omonatchi; **grand, petit épargnant** katta, yirik, kichik omonatchi.

**épargne** *nf* **1.** jamg‘arish, tejash; to‘plash, yig‘ish; **2.** tejamkorlik; **3.** yig‘ilgan, to‘plangan, jamg‘arilgan pul, mablag‘, jamg‘arma; **l'épargne nationale** davlatning pul zaxirasi; davlat xazinasi; **la caisse d'épargne** omonat kassa; **l'épargne logement** uy-joy qurish uchun pul yig‘ish.

**épargner I.** *vt* **1.** jamg‘armoq, to‘plamoq, yig‘moq (*pul, mablag‘ haqida*); **il épargne pour ses vieux jours** u qariganda ishlatish uchun pul to‘playapti; **il a épargné un million** u bir million pul yig‘di; **2.** ehtiyot qilmoq, ayamoq; **il épargne sur tout** u hamma narsaga pulini tejaydi, kam sarflab pulni tejaydi, puldan orttiradi; **il faut épargner les provisions** oziq-ovqatni tejash zarur; **3.** qutqarmoq, xalos, ozod qilmoq; saqlab qolmoq; **épargner un travail à qqn** biror kimsani biror mushkul ishdan xalos etmoq; **épargner à qqn une honte** biror kimsani uyatdan, sharmandalikdan saqlab qolmoq; **4.** ayamoq, rahm, shavqat qilmoq; **épargner son adversaire** raqibini ayamoq; **la maison a été épargnée par la guerre** urushdan bu uy talafot ko‘rmadi; **II. s'épargner** *vpr* **1.** o‘zini avaylamoq; **2.** qutulmoq, xalos bo‘lmoq.

**éparpillement** *nm* **1.** sochish, yoyish, sochib tashlash; tarqatib yuborish, to‘zg‘itib yuborish; **2.** sochilish, tarqalish.

**éparpiller I.** *vt* **1.** sochmoq, yoymoq, yoyib qo‘ymoq, sochib tashlamoq; **éparpiller de la paille sur le sol** yerga poxolni yoyib qo‘ymoq; **2.** *fam* tarqatib, to‘zg‘itib yubormoq; **la vie a éparpillé les amis aux quatre coins du pays** hayot do‘stlarni butun mamlakat bo‘ylab to‘zg‘itib yubordi; **II. s'éparpiller** *vpr* bir yo‘la bir necha ishga yopishmoq.

**épars, arse** *adj* **1.** sochilgan, sochib tashlangan, yoyilgan, yoyib tashlangan; tartibsiz yotgan; unda-bunda; sochilib ketgan, bir-biridan uzoqda joylashgan; **des maisons éparses dans la plaine** tekislikda bir-biridan uzoqda joylashgan uylar.

**épatamment** *adv fam* o‘taketgan, hayratda qoldiradigan darajada, nihoyatda.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**épatant, ante** *adj* hayratda qoldiradigan, ajoyib, aqlni shoshiradigan, nihoyatda ajoyib; g'oyat zo'r; **un film épatant** g'oyat zo'r film.

**épaté, ée** *adj* **1.** yassi, yapasqi, yapaloq, puchaygan; **le nez épaté** yapaloq burun; **2.** *fig fam* hayron, tong, qoyil qolgan; esankiragan, dovdiragan, taajjublangan.

**épatement** *nm* **1.** yassilik, yapaloqlik, puchuqlik; **l'épatement du nez** burunning yassiligi; **2.** *fam* hayron, qoyil, mahliyo bo'lish, tong, qoyil qolish; hayrat, mahliyolik.

**épater I.** *vt* hayratda qoldirmoq, hayron, tong, qoyil qoldirmoq; juda ham ajablantirmoq; esankiratib qo'ymoq; **son succès m'a épaté** uning muvaffaqiyati meni esankiratib qo'ydi; **il cherche à épater ses amis** u o'rtoqlarini hayratga solishni istaydi; **II.** *vpr* **s'épater** hayratga tushmoq; ajablanmoq; **il ne s'épate de rien** uni hech narsa ajablantirmaydi.

**épaule** *nf* yelka; kurak usti; kift; **la tête enfoncée entre les épaules** yelkasini qisib; **hausser les épaules** yelka qismoq, hayron bo'lmoq; **faire toucher les épaules** yelkasini yerga tegizmoq, kurashda g'olib bo'lmoq; **il a la tête sur les épaules** uning kallasi, miyasi joyida, uning aqli bor; u aql bilan ish ko'radi; **donner un coup d'épaule à qqn** biror kimsaga yordam bermoq; **faire qqch par dessus l'épaule** biror narsani e'tiborsizlik bilan bajarmoq.

**épaulé** *nm* tosh yoki shtanga ko'tarishda yelka darajasiga ko'targuncha bo'lgan harakat.

**épaulement** *nm* tirgovich devor.

**épauler** *vt* **1.** yelka tiramoq, yelkasiga qo'ymoq; **il épaula son fusil** u miltiqni yelkasiga tiradi; **2.** yordamlashmoq, yordam bermoq, ko'maklashmoq; yonini, tarafini olmoq.

**épaulette** *nf* **1.** *mil* pogo'n; **2.** ayollar ichko'ylagining yelka lentasi, yelkabog'; **3.** taglik (*ust kiyim yelkasi ichidan qo'yiladigan yostiqcha*).

**épave** *nf* **1.** halokatga uchragan kema parchalari; **le rivage était couvert d'épaves** qirg'oq kema parchalari bilan qoplangan edi; *fig* **les épaves d'une armée** majaqlangan armiyaning qoldiqlari; **2.** bo'sh, latta, noshud, shalviragan odam.

**épée** *nf* qilich; shamshir, tig', **tirer l'épée** qilichni yalang'ochlamoq; **passer au fil de l'épée** qilichdan o'tkazmoq, o'ldirmoq; **un coup d'épée dans l'eau** befoyda urinish, harakat; **épée de Damoclès** doimiy xavf-xatar, tahlika.

**épeiche** *nf* olachipor qizilishton.

**épeler** *vt* **1.** harfma-harf, hijjalab o'qimoq; **2.** harflarni nomini aytmoq, harfma-harf aytmoq; **voulez-vous épelez votre prénom?** ismingizni harflab ayta olasizmi?

**éperdu, ue** *adj* sarosimaga tushgan, esankiragan; o'zini yo'qotgan; **éperdu de joie** sevingandan o'zini yo'qotgan, o'ta suyungan.

**éperdument** *adv* haddan tashqari, nihoyat, behad; **être éperdument amoureux** haddan tashqari sevib qolmoq.

**éperlan** *nm* dengiz mayda balig'i.

**éperon** *nm* **1.** shpor (*otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki*); **donner, piquer des éperons** otni shpor bilan niqtamoq, tezlatmoq; **2.** *mar* kemaning o'tkir tumshug'i; **3.** *géog* tarmoq (tizma tog' tarmog'i); **un éperon rocheux** qoyali tog' tizmasi; **4.** *zool* pix (*xo'roz haqida*).

**éperonner** *vt* **1.** shpor bilan niqtalamoq, tezlatmoq (*otni*); **2.** *fig* qo'zg'atmoq, uyg'otmoq; hayajonga solmoq.

**épervier** *nm* **1.** qiyg'ir, qirg'iy; **2.** irg'itiladigan, otib tashlanadigan, yoyib tashlanadigan to'r, matrap (*baliq ovida*).

**éphèbe** *nm* go'zal, barno yigit, o'spirin.

**éphélide** *nf* sepkil.

**éphémère I.** *adj* **1.** umri qisqa, bir kunlik; **un insecte éphémère** bir kun yashaydigan, umri qisqa hasharot; **2.** o'tkinchi; bir lahzali, bir onli; tez o'tib ketadigan, bebaho; **un bonheur éphémère** bebaho baxt; **II.** *nm zool* qisqaumrlilar.

**éphéméride** *nf* **1.** yirtma kalendar; **2.** *pl astron* efemeridalar (*astronomik jadvallar*); **3.** turli davrlarda yilning aynan bir kunida sodir bo'lgan voqealar qayd etilgan yozuv yoki kitob; **l'éphéméride du 5 mars** turli davrlarda 5-mart kuni sodir bo'lgan voqealar haqidagi yozuv.

**épi** *nm* **1.** boshoq; **un épi de blé** bug'doy boshog'i; **un épi de maïs** makkajo'xori so'tasi; **2. un épi de cheveux** tikkaygan soch, tepa soch; **3.** ko'ndalang damba; suv yo'nalishini muayan izga soluvchi to'g'on; **4.** uch, tepa, cho'qqi.

**épice** *nf* ziravor, dorivor.

**épicé, ée** *adj* **1.** o'tkir; xushta'm, xushbo'y; mazasi, ta'mi o'tkir; **une cuisine trop épicée** o'tkir ovqatlar (*tuzi, achchig'i baland*); **2.** o'tkir, achchiq, kinoyali; istehzoli, kishiga qattiq botadigan.

**épicéa** *nm bot* oqqarag'ay, pixta.

**épicentre** *nm* epitsentr, zilzila o'chog'i, markazi.

**épicer** *vt* ziravor solmoq.

**épicerie** *nm* baqqolik mollari; baqqolik mollari bilan savdo qilish.

**épicier, ière** *n* baqqol; oziq-ovqat mollari (*choy, qand, qahva, un, don, murch*) bilan savdo qiluvchi savdogar; **un épicier en gros** ulgurji savdo qiluvchi baqqol.

**épicurien, ienne I.** *adj* epikureizmga oid; aysh-ishrat qilishga chaqiradigan; **la philosophie épicurienne** yunon faylasufi Epikur ta'limoti; **II.** *n* epikureizm tarafdori.

**épicurisme** *nf* ishratparastlik, aysh-ishratga berilish.

**épidémie** *nf* epidemiya (*yuqumli kasallikning keng tarqalishi*); **une épidémie de grippe** gripp epidyemiyasi, grippning keng tarqalishi.

**épidémique** *adj* epidyemiyaga oid; keng tarqaladigan; **une maladie épidémique** keng tarqaladigan kasallik.

**épiderme** *nm biol* terining tashqi qavati **chatouiller l'épiderme de qqn** xushomad, laganbardorlik qilmoq, tilyog'lamalik qilmoq yaltoqlanmoq; **avoir l'épiderme sensible** gap ko'tarmaydigan, salga xafa bo'laveradigan, ta'bi nozik, jizzaki bo'lmoq.

**épidermique** *adj* **1.** *anat* terining tashqi qavatiga oid; **le tissu épidermique** teri tashqi qavatining to'qimasi; **2.** *fig* yuzaki, sayoz, yengil-yelpi.

**épier**[1] *vi* boshoqlamoq, boshoq chiqarmoq.

**épier**[2] *vt* pistirmada turib kuzatmoq; bildirmasdan, mo'ralab qaramoq; iziga tushmoq; zimdan qarab tekshirib turmoq; **épier les démarches de qqn** biror kimsaning harakatini zimdan kuzatmoq.

**épieu** *nm* uzun sopli nayza; **un coup d'épieu** nayza urish; nayza bilan zarba berish.

**épigone** *nm littér* epigon, taqlidgo'y, davomchi (*biror oqimga ergashuvchi*).

**épigramme** *nf* epigramma (*qisqacha hajviy she'r*).

**épigraphe** *nf* epigraf **1.** adabiy asarning tepasiga yozilgan biror sitata, jumla, ibora; **2.** ibodatxona devorlariga, haykallarga, binolarga bitilgan yozuv).

**épigraphie** *nf* epigrafika (*qadimgi yozuvlarni o'rganadigan fan*).

**épigraphique** *adj* epigrafikaga oid; epigrafik.

**épilation** *nf* mo'y, tuklarni to'kish, tushirish, yulish.

**épilatoire** *adj* mo'y, tuk tushiradigan, to'kadigan; **une pâte épilatoire** mo'y, tuklarni to'kadigan pasta.

**épilepsie** *nf* epilepsiya, tutqanoq, quyonchiq (*kasallik*); **une crise d'épilepsie** tutqanoq tutib qolish.

**épileptique I.** *adj* epilepsiyaga, tutqanoq kasaliga oid; tutqanoq; **I.** *n* epileptik, tutqanoqli kishi (*tutqanoq kasaliga duchor bo'lgan odam*).

**épiler** *vt* mo'y, tuklarni yulmoq, tushirmoq; **se faire épiler les jambes** oyoq tuklari, junlarini yulmoq, termoq; **une pince à épiler** mo'ychinak; **une crème à épiler** tuk, mo'ylarni tushiradigan, to'kadigan krem.

**épilogue** *nm* **1.** *littér* epilog, xotima (*badiiy asarning oxiri-tugallanuvchi qismi*); **2.** *fig* oxir (*biror narsaning oxiri, tugashi*) **l'épilogue d'une aventure** sarguzashtning oxiri, tugashi.

**épiloguer** *vi* har tomonlama muhokama qilmoq; tanqid qilmoq; **on pourrait épiloguer longtemps sur ce résultat** olingan natijani uzoq muhokama qilsa bo'lardi.

**épinard** *nm* ismaloq (*o'simlik*).

**épine** *nf* **1.** tikan, tikanak; **la rose a des épines** atirgulning tikani bor; **tirer, ôter une épine du pied** biror kimsani qiyin, mushkul ahvoldan chiqarmoq; **2.** *bot* tyorn (*mevasi mayda olxo'riga o'xshagan buta o'simlik*



www.ziyouz.com kutubxonasi

*hamda shu o'simlik mevasi*); **3.** *fig* qiynchilik; ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz voqea; **4.** *anat* **l'épine dorsale** umurtqa; umurtqa pog'onasi.

**épinette** *nf* **1.** *muz* kichik klavesin (*fortepyanoga o'xshash qadimiy cholg'u asbobi*) **2.** qafas; katak (*qushlarni boqib semirtirish uchun*).

**épineux, euse** *adj* **1.** tikandek sanchiladigan, botadigan, o'tkir, tikanli; **un arbuste épineux** tikanli buta; **un poisson épineux** ignali baliq; **2.** *fig* qiyin, mushkul, mashaqqatli; **une question épineuse** qiyin masala, mashaqqatli masala.

**épine-vinette** *nf* zirk (*o'simligi va mevali*).

**épingle** *nf* to'g'nog'ich; **une épingle à cheveux** sochto'g'nog'ich; **une épingle à linge** qisqich (*arqonga yoyilgan kirni qisib qo'yiladigan moslama*) **être tiré à quatre épingles** sarishta kiyinmoq; **tirer son épingle du jeu** o'yindan chiqmoq.

**épingler** *vt* **1.** to'g'nog'ich qadamoq; **2.** *fig fam* hibsga olmoq, qamab qo'ymoq.

**épinière** *adj nf*; **moelle épinière** orqa miya.

**épinoche** *nf* tikanbaliq.

**épiphanie** *nf relig* nasroniy bayramlaridan biri.

**épique** *adj* **1.** eposga oid, eposga xos, epik; **un poème épique** epik poema; **2.** *fam* g'alati, ajoyib (ajab), g'aroyib, hayratomuz; **une aventure épique** g'aroyib sarguzasht.

**épiscopal, ale, aux** *adj* yepiskopga oid; yepiskop; **le palais épiscopal** yepiskop saroyi; **la dignité épiscopale** yepiskoplik rutbasi (martabasi, unvoni).

**épiscopat** *nm* **1.** yepiskoplik rutbasi (martabasi, unvoni); **2.** yepiskoplik davri; **pendant la 2e année de son épiscopat** uning yepiskoplik davrining ikkinchi yili; **3.** yepiskoplik (*barcha yepiskoplar ma'nosida*); **l'épiscopat français** fransuz yepiskoplari.

**épisode** *nm* **1.** epizod, voqea, hodisadan bir ko'rinish, lavha; **les épisodes de la Révolution française** fransuz revolutsiyasidan epizodlar; **2.** *littér* epizod, ko'rinish (*adabiy asarning ma'lum darajada mustaqil bo'lgan qismi*); **3.** seriya; **un film à épisodes** ko'p seriyali film.

**épisodique** *adj* **1.** epizodik, asosiy, doimiy bo'lmagan; **un personnage épisodique** epizodik qahramon (*asosiy bo'lmagan*); **2.** har zamonda bir bo'ladigan, onda-sonda yuz beradigan, muntazam bo'lmagan, tasodifiy.

**épisodiquement** *adv* har zamonda bir, onda-sonda, bir, tasodifiy ravishda.

**épissure** *nf* tugun (*arqon, ip, lenta kabi narsalarning bog'lab ulangan yeri*).

**épistémologie** *nf* epistemologiya (*bilish nazariyasi*).

**épistolaire** *adj littér* epistolyar, maktub, xat, noma shaklidagi; maktubga xos bo'lgan; maktublardan iborat; **un style épistolaire** epistolyar uslub; **être en relations épistolaires avec qqn** biror kim bilan xat yozishib turmoq.

**épitaphe** *nf* epitafiya (*qabr toshiga bitilgan yozuv*).

**épithalame** *nm littér* epitalama, nikoh to'yi marosimi uchun yozilgan she'r.

**épithélium** *nm anat* epiteliy to'qimasi, epitelial to'qima (*odam, hayvon, o'simlik a'zolarini sirtdan qoplab turuvchi to'qima*).

**épithète** *nf* **1.** *littér* epitet, sifatlash, vasf; **2.** *gram* aniqlovchi.

**épitoge** *nf* mantiya, rido.

**épître** *nf* maktub, noma, xat; she'riy uslubdagi noma, xat; epistola (*maktub, xat, noma shaklidagi adabiy asar*).

**épizootie** *nf* epizootiya (*hayvonlarda yuqumli kassaliklarning keng tarqalishi*).

**éploré, ée** *adj* yig'lagan, yig'lab ko'zlari qizargan; yig'lamsiragan; ko'zlari yoshlangan; qayg'uli, dardmand; **elle s'est enfuie tout éplorée** u yig'lamsirab ketdi.

**éployer** *vt* yozmoq, yoymoq.

**épluchage** *nm* **1.** archish, po'stini olish; **2.** diqqat bilan ko'zdan kechirmoq, tekshirmoq.

**éplucher** *vt* **1.** archimoq, po'stini olmoq; **éplucher des pommes de terre** kartoshka archimoq; **2.** *fig* diqqat bilan tekshirmoq, ko'zdan kechirmoq.

**éplucheur, euse** *n* **1.** tozalovchi; sortlarga ajratuvchi; **2.** *fig* bachkana tanqidchi.

**épluchure** *nf* po'choq, chiqindi.

**épode** *nf littér* epod (*antik poetikada, bir xil lirik she'r*).

**épointage** *nm* o'tmaslashtirish, damini qaytarish; o'tmaslashish, o'tmas bo'lib qolish.

**épointer** *vt* o'tmaslashtirmoq, o'tmas qilib qo'ymoq, damini qaytarmoq; **épointer une aiguille** ignani o'tmaslashtirmoq.

**éponge**[1] *nf* gubka (*yuvinganda badanni ishqalaydigan yoki qozon sochiq vazifasida ishlatiladigan, o'ziga suyuqlikni yutadigan va siqilganda chiqaradigan buyum*).

**éponge**[2] bulut (*dengiz jonivorining g'ovak, yumshoq tanasi, cho'milganda badanni ishqash uchun ishlatiladi*).

**éponger I.** *vt* **1.** gubka bilan artmoq; gubkaga emdirmoq; **j'ai renversé de l'eau, il faut l'éponger** men suvni to'kib yubordim, uni gubka bilan artib tashlash kerak; **2.** quritmoq; artmoq; **il a épongé son visage en sueur** u ter bosgan yuzini artdi; **3.** *fin* muomaladagi ortiqcha pullarni chiqarib tashlamoq; **II. s'éponger** *vpr* artinmoq; **s'éponger le front** peshonasini artmoq; peshonasini artmoq; peshonasidagi terni artmoq.

**éponyme** *adj ling* eponimiya.

**épopée** *nf littér* epopeya; epos, doston.

**époque** *nf* **1.** davr, zamon; era; **l'époque des croisades** salib yurishlari davri; **l'époque classique** klassisizm davri; **2.** davr, payt, chog'; vaqt; kunlar; **la plus belle époque de l'année** yilning eng chiroyli payti; **à l'époque de** paytda, chog'da; **à l'époque de notre mariage** bizning to'yimiz chog'ida, paytida; **à cette époque** bu davrda; **3.** *géol* epoxa, davr.

**épouillage** *nm* bitlarni taroq bilan tarab tashlash; bitlarni o'ldirish.

**épouiller** *vt* bitlarni taroq bilan tarab o'ldirmoq; bitlarni taroq yordamida tozalab o'ldirmoq.

**époumoner (s')** *vpr* bor ovozi bilan baqirmoq; xirillab, bo'g'ilib qolguncha qichqirmoq; charchamoq (*gapirib*); **il s'époumonait à nous convaincre** u bizni ishontiraman deb holdan toydi.

**épousailles** *nf pl* to'y, nikoh to'yi.

**épouse** *nf* qalliq, xotin.

**épousée** *nf* unashib qo'yilgan qiz, ayol, qalliq; kelin.

**épouser** *vt* **1.** uylanmoq; **2.** turmushga chiqmoq; **3.** *fig* qo'shilishmoq; rozi bo'lmoq, o'rtoqlashmoq; tarafini olmoq; **épouser les idées de qqn** biror kimsaning fikriga qo'shilishmoq; **4.** yopishib, taqalib turmoq, jins bo'lib turmoq **la robe épouse les formes du corps** ko'ylak badanga yopishib turibdi.

**époussetage** *nm* supurish, changini artish.

**épousseter** *vt* supurmoq, changini artmoq; **épousseter des meubles** mebellar changini artmoq.

**époustouflant, ante** *adj fam* hayratda qoldiradigan, hayajonlantiradigan, juda ajoyib, g'oyat zo'r.

**époustoufler** *vt* esankiratmoq, dovdiratmoq, taajjubga solmoq, boshini qotirib qo'ymoq.

**épouvantable** *adj* qo'rqinchli, dahshatli, vahimali.

**épouvantablement** *adv* juda, juda ham, g'oyat darajada, haddan tashqari, benihoya.

**épouvantail** *nm* **1.** qo'riqchi, qo'rg'ich; noliz qo'riqchisi; **un épouvantail à moineaux** tulum, chuchelo; **2.** *fig* qo'rqitish uchun vosita bo'ladigan kimsa yoki narsa.

**épouvante** *nf* qo'rqinch, vahima, dahshat; qo'rqish; **il est muet d'épouvante** u qo'rqinchdan gapirolmay qoldi; qo'rquvdan uning tili kalimaga kelmay qoldi; **un film d'épouvante** qo'rqinchli film; **être saisi d'épouvante** vahima bosmoq.

**épouvanter I.** *vt* qo'rqitmoq, vahimaga solmoq; **II. s'épouvanter** *vpr* qo'rqmoq, vahimaga tushmoq, dahshatga tushmoq; **à cette nouvelle il s'épouvanta** bu xabardan u vahimaga tushdi.

**époux** *nm* **1.** er, qalliq; **prendre pour époux** erga chiqmoq; **2.** *pl* er-xotin; **les jeunes époux** kelin-kuyov.

**éprendre (s')** *vpr litt* sevmoq, ko'ngil qo'ymoq, berilmoq, qiziqmoq; **il s'est épris de cette femme** u bu ayolni qattiq sevib qoldi.

**épreuve** *nf* **1.** sinash, sinab ko'rish; sinov; tajriba; **mettre à l'épreuve** sinab ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq, tekshirmoq; **2.** *fig* baxtsizliklar,



www.ziyouz.com kutubxonasi

qiyinchiliklar; og'irchiliklar, musibatlar; kulfatlar; **surmonter une rude épreuve** og'ir musibatlarni yengmoq, og'ir baxtsizliklarga bardosh bermoq; **3.** sinov, imtihon; **4.** *sport* sport musobaqasi; bellashuv; **des épreuves éliminatoires** saralash musobaqalari; **5.** korrektura (*xatolarni tuzatish uchun boshlagan matn nusxasi*); **6.** fotonusxa.

**épris, ise** *adj* sevib, oshiq bo'lib qolgan; oshifta; ishqiboz bo'lib qolgan, shaydoyi; berilgan; **il est très épris de cette femme** u bu ayolga juda ishqiboz bo'lib qolgan; **épris de paix** tinchliksevar.

**éprouvant, ante** *adj* og'ir, qiyin; toliqtiradigan, qiynaydigan, azoblaydigan; chidab bo'lmaydigan; **une chaleur éprouvante** qiynaydigan, azoblaydigan issiq (*jonni*); **une journée éprouvante** og'ir kun.

**éprouver** *vt* **1.** sinamoq, sinab ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq; **2.** ishonch, qanoat hosil qilmoq; **3.** sezmoq, his qilmoq; **éprouver de la douleur** og'riq sezmoq; azob tortmoq; **éprouver de la joie** shodlanmoq, xursand bo'lmoq; **éprouver de la honte** uyalmoq; **4.** boshdan kechirmoq, totmoq, tatib ko'rmoq, chekmoq, tortmoq; **éprouver des difficultés** qiyinchilik tortmoq; **5.** azobga qo'ymoq, tashvishlantirmoq.

**éprouvette** *nf* **1.** probirka, bir tomoni berk yupqa shisha naycha; **2.** namuna (*tekshirib, sinab ko'rish uchun olingan metall parchasi, bo'lagi*).

**épuisant, ante** *adj* holdan toydiradigan, charchatadigan; **un travail épuisant** charchatadigan ish; **un enfant épuisant** holdan toydiradigan bola.

**épuisé, ée** *adj* charchagan, holdan toygan; **un nageur épuisé** holdan toygan suzuvchi.

**épuisement** *nm* **1.** tugatish, quritish, son qilish; tugash, tamom bo'lish, son bo'lish; **l'épuisement d'une source** buloqning qurib bitishi; **2.** charchash, holdan toyish, tinkasi qurish.

**épuiser I.** *vt* **1.** quritmoq, tugatmoq; **épuiser une citerne** hovuz, havzani quritmoq; **2.** tamomlamoq, sarf qilmoq, sop qilmoq, bitirmoq; **épuiser un gisement de charbon** ko'mir qatlamini sarflab bitirmoq; **3.** kuchsizlantirmoq, oriqlantirmoq, xonavayron qilmoq (*yer haqida*); **épuiser la terre** yerni kuchsizlantirmoq; **4.** bitkizmoq, oxiriga olib bormoq; tugatmoq; **épuiser un sujet** mavzuni oxiriga olib bormoq; **5.** holdan toydirmoq, charchatmoq; tinkasini quritmoq; **6.** *fig* joniga tegmoq, jonidan to'ydirmoq; bezor qilmoq; qiynamoq; **il nous épuise avec ses questions** u savol beraverib hammamizning jonimizga tegdi; **II. s'épuiser** *vpr* **1.** tugamoq, sop bo'lmoq, tamom bo'lmoq, qurimoq; **les provisions s'épuisent** oziq-ovqat tugayapti; **la source s'est épuisée** buloq quridi; **2.** kuchsizlanmoq, charchamoq, oriqlamoq (*yer haqida*); **la terre s'épuise** yer oriqlab ketyapti; **3.** charchamoq, holdan toymoq, tinkasi qurimoq; **je m'épuise à vous le répéter** sizga uni takrorlashdan tinkam quridi.

**épuisette** *nf* **1.** matrap; **2.** cho'mich.

**épurateur** *nm* tozalagich, tozalovchi mexanizm.

**épuration** *nf* **1.** tozalash, oqlash (*aralashmalardan*); **l'épuration de l'eau** suvni tozalash, tindirish; **le bassin d'épuration** tindirgich; **2.** *fig* ma'naviy jihatdan yaxshilanish; tozalashish, takomillashish; **3.** *polit* tozalash, nomaqbul kishi, narsadan xoli qilish; **les mesures d'épuration** tozalash chora-tadbirlari.

**épurer** *vt* **1.** tozalamoq, sarflamoq, aralashmalardan tozalamoq, oqlamoq; **épurer de l'huile par filtrage** filtr yordamida, filtrlab yog'ni tozalamoq, oqlamoq; **épurer un métal des éléments étrangers** metallni sof holga keltirmoq; **2.** *fig* yaxshilamoq, ma'naviy jihatdan yaxshilamoq; takomillashtirmoq; **épurer le style** uslubni takomallashtirmoq; **3.** *polit* tozalamoq, nomaqbul unsurlardan xoli qilmoq.

**équarrir** *vi* **1.** to'g'ri burchakli qilib, tarashlab yo'nib, chopib tekislamoq; **équarrir une poutre** to'sinni to'rt qirrali qilib tarashlamoq; **2.** teshikni, tuynukni kengaytirmoq; **3.** terisini shilmoq, nimtalamoq (*hayvonlar haqida*).

**équarrissage** *nm* **1.** to'g'ri burchakli qilib tarashlash, yo'nish; **2.** terisini shilish, nimtalash (*so'yilgan hayvon haqida*).

**équarrisseur** *nm* **1.** yog'och, tosh tarashlovchi; **2.** teri shiluvchi odam, salloh.

**équateur** *nm* ekvator.

**équation** *nf math* tenglama; **résoudre une équation** tenglamani yechmoq; **un système d'équation à deux inconnues** ikki noma'lumli tenglama; **une équation du 1^er^ degré** birinchi darajali tenglama.

**équatorial, ale I.** *adj* ekvator (*issiq iqlimlarga oid*); ekvatordagi, ekvator yaqinidagi; ekvator; **climat équatorial** ekvator iqlimi; ekvatorga xos iqlim; **II.** *nm astron* ekvatorial (*astronomik asbob*).

**équerre** *nf* **1.** go'niya, uchburchak chizg'ich; **2.** uchburchak (*rom burchagiga qoqiladigan temir*); **renforcer un assemblage avec une équerre** ulangan joyga uchburchak qoqib mustahkamlamoq; **3. d'équerre** to'g'ri burchakli.

**équestre** *adj* otga oid, ot; **des exercices équestres** otda o'tkaziladigan mashqlar; chavandozlik mashqlari; **statue équestre** otliq, chavandoz haykali.

**équidistant, ante** *adj* teng uzoqlikda, bir xil olislikda joylashgan.

**équilatéral, ale, aux** *adj math* teng tomonli, teng yoqli, tomonlari teng bo'lgan; **triangle équilatéral** teng tomonli, teng yoqli uchburchak.

**équilibrage** *nm* muvozanatlashtirish, muvozanatga keltirish (*mexanizmlar ichidagi normal holatdan og'ishlarning yo'qolishi yoki yo'qotilishi*); **l'équilibrage des roues d'une voiture** mashinani g'ildiraklarining og'ishini yo'qotish yoki yo'qotilishi.

**équilibre** *nm* **1.** muvozanat, baravar kelish; **l'équilibre des forces** kuchlarning baravar kelishi; **l'équilibre chimique** ximik muvozanat; **un équilibre stable** turg'un, ustuvor muvozanat, barqaror muvozanat; **l'équilibre du corps** tananing, gavdaning muvozanati; **perdre l'équilibre** muvozanatni yo'qotmoq; **garder l'équilibre** muvozanat saqlamoq; **2.** *fig* tinchlik, osoyishtalik, o'zini yo'qotib qo'ymaslik, muvozanat; **faire perdre son équilibre à qqn** biror kimsaning jahlini chiqarmoq; **3.** og'irlik, vazminlik, fe'li yaxshilik; **c'est un homme très intelligent, mais il manque d'équilibre** bu kishi juda o'qimishli, ammo uning xarakteri yaxshi emas.

**équilibré, ée** *adj* **1.** baravarlashgan, muvozanatga kelgan; **2.** *fig* og'ir, vazmin, xush fe'l; **un garçon équilibré** og'ir, vazmin bola.

**équilibrer I.** *vt* **1.** muvozanatga keltirmoq, baravar qilmoq; **équilibrer une charge** yukni baravar taqsimlamoq; **2.** *fig* uyg'unlashtirmoq; muvofiq, mos, monand qilmoq; **3.** *fin* balanslamoq, balans chiqarmoq, kirim-chiqimni balansga keltirmoq; **équilibrer le budget** byudjetni balanslamoq; **II. s'équilibrer** *vpr* muvozanatga kelmoq, baravar qilmoq; **des forces qui s'équilibrent** baravar kuchlar; bir xil bo'lgan kuchlar.

**équilibriste** *nm* ekvilibrist (*dor, shar kabilarda o'yin ko'rsatadigan sirk artisti*).

**équille** *nf* qumbaliq (*qumloq qirg'oqlarda yashovchi mayda baliq*).

**équinoxe** *nm* tengkunlik, kecha va kunduz tengligi (*kechasi bilan kunduzi tengbo'ladigan, baravarlashadigan payt*); **l'équinoxe du printemps** bahorgi tengkunlik, bahorda kechasi bilan kunduzi teng bo'ladigan payt (*21 mart*); **l'équinoxe d'automne** kuzgi tengkunlik (*23 sentabr*).

**équipage¹** *nm* ekipaj (*kema, tank, samolyot komandasi yoki shaxsiy sostavi*).

**équipage²** *nm* fayton, yengil arava.

**équipe** *nf* **1.** *sport* komanda, jamoa; **l'équipe de France** Fransiya futbol jamoasi; **un classement par équipe** jamoalar bo'yicha o'rin; **2.** brigada; **une équipe de secours** qutqaruvchilar otryadi; **le chef d'équipe** brigadir; **3.** smena; **une équipe de nuit** kechki, tungi smena; **4.** *mil* guruh, komanda (*maxsus qism; maxsus otryad*).

**équipée** *nf* **1.** bemulohaza qilingan ish; xavfli tashabbus, xavfli ish; **2.** sayr (*qisqa muddatli safar yoki sayohat*); sayohat qilib kelish; **nous l'avons rencontré au cours de notre dernière équipée** biz u bilan oxirgi sayohatimiz paytida uchrashdik.

**équipement** *nm* **1.** shaylash, kerakli yarog' bilan ta'minlash; ta'minlanish; **2.** qurol-yarog', aslaha-anjom; **un équipement militaire** harbiy aslaha-anjom; **un équipement de pêche** baliq ovlash asboblari; **un équipement de chasse** ovchilik anjomlari.

**équiper** *vt* shaylamoq, kerak yarog' bilan ta'minlamoq; jihozlamoq; **équiper une armée** armiyani kerakli aslaha-anjom bilan ta'minlamoq; **équiper un navire** kemani shaylamoq, jihozlamoq.

**équipier, ière** *n* komanda, jamoa a'zosi, o'yinchi.

**équitable** *adj* odil, adolatli; **un juge équitable** odil hakam.

**équitablement** *adv* odillik bilan, adolat bilan; **juger équitablement** odillik bilan hakamlik qilmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**équitation** *nf* ot minish, otda, ot minib yurish.

**équité** *nf* adolatlilik, haqqoniylik, odillik, to'g'rilik.

**équivalence** *nf* qadri, qiymati, ahamiyati yoki sifatining bir xil bo'lishi; ekvivalentlik, biror jihatdan tenglik, teng ma'nolilik; teng qiymatlilik.

**équivalent, ente I.** *adj* teng baholi, teng qiymatli, bahosi, qiymati bir xil bo'lgan; ekvivalent teng bo'la oladigan; teng ma'noli; teng; baravar; **deux quantités équivalentes** ikkita bir xil, baravar miqdor; **deux expressions équivalentes** ikkita bir xil ma'noli ibora; **en russe il n'y a pas d'expression équivalente** rus tilida teng ma'noli ibora, so'z yo'q; **être équivalent à** tenglashmoq, baravar kelmoq; bas kelmoq; **la prime est équivalente à un mois de travail** mukofot bir oylik maoshga baravar keladi; **II.** *nm* ekvivalent (*bir narsaga har jihatdan teng bo'lgan, u bilan almasha oladigan narsa*); moslik, muvofiqlik, loyiqlik, to'g'ri, mos kelish; **l'équivalent de la chaleur** *phys* issiqlikning mexanik ekvivalenti; **chercher l'équivalent d'un mot** biror so'zga mos keladigan boshqa so'zni qidirmoq.

**équivaloir** *vi* teng baholi bo'lmoq, teng qiymatli bo'lmoq; ahamiyati baravar (bir xil) bo'lmoq; teng bo'lmoq; qiymati, ahamiyati yoki ma'nosi bir xil, teng bo'lmoq; o'xshash bo'lmoq; **cette réponse équivaut à un refus** bu javob rad qilish bilan baravar.

**équivoque I.** *adj* **1.** ikki ma'noli, ikki ma'noda tushunilishi mumkin bo'lgan; **un mot équivoque** ikki ma'noli so'z; **une réponse équivoque** ikki xil tushunilishi mumkin bo'lgan javob; **2.** shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan, qorong'i; dargumon; **un personnage équivoque** shubhali shaxs; **une attitude équivoque** shubhali, shubha tug'diradigan xatti-harakatlar; **II.** *nf* **1.** ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap; shama, qochirim, ishora; **un discours plein d'équivoques** qochirim to'la nutq; **sa réponse est sans équivoque** uning javobi aniq; **user d'équivoque** qochirimli iboralarni ishlatmoq, qo'llamoq; **2.** shubha, gumon, ikkilanish; **dissiper toute équivoque** barcha shubhalarni tarqatib yubormoq.

**érable** *nm* zarang (*daraxt*).

**éradication** *nf* tag-tomiri bilan yo'q qilish, tugatish, bitirish.

**érafler** *vt* **1.** timdalamoq, tirnab olmoq; tirnab o'tmoq; **la balle lui a éraflé le bras** o'q qo'lini tirnab o'tdi; **2.** tirnab chizmoq, yozmoq, qirib chizmoq, yozmoq.

**éraflure** *nf* **1.** tirnalgan, timdalangan joy, tirnoq izi, chaqa; **2.** qirilgan, tirnalgan, sidirilgan joy.

**éraillement** *nm* tortib, yulib yirtish; qirib chizish, tirnab yozish; tirnalgan, qirilgan joy; xirillash (*ovoz*).

**érailler I.** *vt* **1.** gazmolni, matoni tortib, yulib yirtmoq; **2.** qirib, chizib yozmoq, tirnab chizmoq (*mebel haqida*); **II. s'érailler** *vpr* sitilmoq, qirqilmoq (*gazmol haqida*); **s'érailler la voix** xirillab qolmoq, xirillamoq; ovozi bo'g'ilib qolmoq.

**éraillure** *nf* **1.** ishqalangan, sitilgan, qirqilgan joy (*gazmol haqida*); **2.** tirnalgan, qirilgan, sidirilgan joy.

**ère** *nf* **1.** yil hisobi, sana; era; **l'ère musulmane** hijriy (*musulmonlar yil hisobi*); **avant notre ère** miloddan avval, eramizdan avval; **2.** era, epoxa, zamon, davr (*katta tarixiy davr*); **l'ère de l'atome** atom davri; **3.** *géol* era, epoxa, davr (*katta geologik davr*); **l'ère archéenne** arxey erasi (*Yerda hali hayot yuzaga kelmagan eng qadimiy davr*).

**étourdir I.** *vt* **1.** karaxt qilmoq, hushidan ketkazmoq, gangitib, sulaytirib qo'ymoq; **étourdir qqn d'un coup de bâton** biror kimsani yog'och bilan urib gangitib qo'ymoq; **2.** gangitmoq, boshini aylantirmoq; **le vin l'étourdit un peu** vinodan uning boshi biroz aylandi; **3.** charchatmoq, joniga tegmoq; zeriktirmoq, bezor qilmoq; **le bruit de la rue étourdit** ko'chadagi shovqin bezor qildi; ko'chadagi shovqindan bezor bo'ldik; **II. s'étourdir** *vpr* **1.** gangimoq, boshi aylanmoq; **2.** g'am g'ussani unutmoq, ovunmoq; ko'ngil ochmoq.

**étourdissant, ante** *adj* **1.** charchatadigan, jonga tegadigan, zeriktiradigan, bezor qiladigan; **2.** hayratda qoldiradigan, dovdiratib qo'yadigan; **un succès étourdissant** dovdiratib qo'yadigan muvaffaqiyat.

**étourdissement** *nm* vaqtinchalik hushidan ketish; gangish, bosh aylanish.

**étourneau** *nm* **1.** chug'urchiq (*qush*); **2.** *fam* yengiltak, kaltabin kishi; yengiltabiat, puch, havvoyi odam, betayin.

**étrange** *adj* ajab, ajoyib, qiziq, galati, alomat, g'ayrioddiy; **une nouvelle étrange** g'alati yangilik.

**étrangement** *adv* kishini ajablantiradigan, odam ajablanadigan bir tarzda, ajib, ajab, qiziq, g'alati, g'ayrioddiy; **il était étrangement habillé** u g'ayrioddiy kiyingan edi.

**étranger, ère I.** *adj* **1.** chet ellarga va chet elliklarga oid; ajnabiy, chet; chet el; tashqi; **les langues étrangères** chet tillar; **le Ministère des Affaires étrangères** tashqi ishlar vazirligi; **2.** begona, yot; **un corps étranger** *méd* badandagi begona jism, yot jism; **3.** aloqasi bo'lmagan, aloqasi yo'q; daxldor, taalluqli, tegishli bo'lmagan; **une personne étrangère au service** bo'limga aloqasiz kishi; **4.** notanish, begona; **un visage étranger** notanish siymo; **II.** *n* **1.** chet ellik, chet el kishisi, ajnabiy; **2.** begona, yot; kelgindi, musofir; **3.** *nm* chet el, begona yurt; **à l'étranger** chet elda, begona yurtda.

**étranglement** *nf* **1.** bo'g'ib o'ldirish, bo'g'ish; dimiqtirib, nafasini qaytarib o'ldirish; **périr d'étranglement** bo'g'ilib o'lmoq; **2.** torayish; toraytirish; **l'étranglement d'une rivière** daryoning torayishi; tor daryo; **3.** kuch bilan bostirish, bosib qo'yish, bo'g'ish; bostirish; yanchib tashlash.

**étrangler** *vt* **1.** bo'g'ib o'ldirmoq, dimiqtirib, nafasini qaytarib o'ldirmoq; **2.** toraytirmoq, tor, ensiz qilib qo'ymoq; siqmoq; **3.** *fig* bo'g'moq, bosmoq, to'sqinlik qilib, o'sishdan, rivojlanishdan to'xtatmoq barbod qilmoq; **étrangler la presse** matbuotni bo'g'moq.

**étrangleur, euse** *n* **1.** bo'g'uvchi, bo'g'adigan; **2.** bosuvchi, bo'g'uvchi, yo'l qoymovchi (*erk, ozodlik va h. k haqida*).

**étrave** *nf mar* kema tag yog'ochining kema tumshug'iga o'tgan tomoni.

**être**[1] *vi* **1.** bo'lmoq, bor bo'lmoq, mavjud bo'lmoq; **je pense, donc je suis** men fikrlayapman demak mavjudman; **2. ce livre est à moi** bu kitob meniki, bu kitob menga qarashli; **3. la neige est blanche** qor oppoqdir, qor oq ranglidur; **4.** *ko'makchi fe'l vazifasida keladi:* **j'ai été en France** men Fransiyada edim; **j'ai été aimé** men sevilgan edim; **je me suis promené** men sayr qildim; **je suis venu** men keldim; **5. ce travail est à refaire** bu ish qayta bajarilishi kerak; **6. il est de Ferghana** u Farg'onalik; **elle est de Paris** u parijlik (*ayol*); **7. être d'un caractère difficile** og'ir xarakterli bo'lmoq; **8.** biror joyda bo'lmoq, joylashmoq: **je suis à Paris** men Parijdaman; **9.** bormoq, bo'lmoq; **peut être** balki; ehtimol; **où en est l' affaire?** ish qay ahvolda? **j'en suis au troisième volume** men hozir uchinchi tomni o'qiyapman; **j'y suis** men tushundim, uqdim; **qu'est-ce que c'est** bu nima? **n'est-ce pas?** shunday emasmi? **être pour** yoqlamoq, tarafdor bo'lmoq.

**être**[2] *nm* **1.** maxluq, jonivor, zot; **2.** borliq, mavjudod; **3.** qalb, ko'ngil, vujud; **désirer qqn de tout son être** biror kimsani butun vujudi bilan istamoq.

**étreindre** *vt* **1.** qattiq, chandib, siqib, tortib bog'lamoq; siqmoq, qattiq quchoqlamoq, bag'riga bosmoq; **étreindre qqn sur son cœur** biror kimsani bag'riga bosmoq; **2.** azoblamoq, qiynalmoq.

**étreinte** *nf* **1.** siqish, qisish; **2.** quchoqlash, bag'riga bosish.

**étrenne** *nf* **1.** yangi yil sovg'asi; **recevoir, donner des étrennes** sovg'a olmoq, bermoq; **2.** yil oxirida beriladigan mukofot pul.

**étrenner I.** *vt* biror yangi narsani birinchi marta ishlatmoq; **II.** *vi* duch, to'qnash kelmoq, uchramoq, yo'liqmoq, birinchi qurboni bo'lmoq (*biror yoqimsiz narsaning*).

**êtres** *nm pl* ichki joylashish, o'rnashish tartibi (*uy, xonadon*); **connaître les êtres** barcha kirish-chiqish joylarini bilmoq.

**étrier** *nm* **1.** uzangi; **avoir le pied à l'étrier** ketishga shay bo'lmoq; *fig* muvaffaqiyat qozonishga ishonmoq; **être ferme sur ses étriers** o'z fikrida qattiq turmoq; **le coup de l'étrier** xayrlashish, jo'nash oldidan ichiladigan, oxirgi qadah; **2.** *anat* o'rta quloqning eshituv suyakchalaridan biri; **3.** *techn* skoba, qisqich halqa.

**étrille** *nf* **1.** otqashlag'ich; **2.** *zool* krab, dengiz qisqichbaqasi.

**étriller** *vt* **1.** otqashlag'ich yordamida qashimoq, tozalamoq; **2.** qattiq koyimoq, qattiq tanbeh bermoq; **3.** aldab o'zlashtirmoq, shilmoq, o'ziniki qilib olmoq, go'sho'r, anoyi qilmoq.

**étripage** *nm* ichak-chavoqdan tozalash, ichak-chavog'ini olib tashlash; *fam* xunrezlik, qotillik.

**étriper I.** *vt* ichak-chavog'ini olib tashlamoq, ichak-chavoqdan tozalamoq, **étriper un veau** buzoqning ichak-chavog'ini olib tashlamoq; **II. s'étriper** *vpr fam* bir-birini g'oshtini yemoq, qattiq urishmoq (*jarohat yetkazib*); bir-birini o'ldirmoq.

**étriqué, ée** *adj* **1.** tor, tang, kalta, qisqa (*kiyim haqida*); **2.** *fig* qisqa, chala-chulpa; **3.** chegaralangan, tor; past; **une vie étriquée** bir yoqlama hayot kechirish; **un esprit étriqué** aqli, idroki chegaralangan, uzoqni ko'rolmaydigan.

**étroit, oite** *adj* **1.** tor, tang, ensiz; **un chemin étroit** tor yo'l; **2.** siqilgan, siqib bog'langan, qisilgan, qisib bog'langan; **3.** *fig* bir yoqlama, aqli qo'toh, tushunchasi tor; chegaralangan; **un esprit étroit** uzoqni ko'ra olmaydigan; **4.** qadrdon, qalin, apoq-chapoq, yaqin; sirdosh, dilkash.

**étroitement** *adv* **1.** zich, chambarchas; **2.** yaqindan, yaqin joydan; **surveiller qqn étroitement** biror kimsani yaqin joydan turib kuzatmoq; **3.** talabchanlik bilan, qat'iy, qat'iyan; **observer étroitement la règle** qoidaga qat'iy amal qilmoq.

**étroitesse** *nf* **1.** torlik, tanglik, ensizlik, tiqilinch, tirbandlik; **l'étroitesse d'une rue** ko'chaning torligi, ensizligi; **2.** *fig* torlik, cheklanganlik, bir yoqlamalik, **l'étroitesse d'esprit** fikrining torligi, bir yoqlamaligi.

**étron** *nm* najas, go'ng.

**étude** *nf* **1.** o'qish, o'rganish; tadqiq qilish, etish; ko'rish, ko'rib chiqish; **l'étude du budget** byudjetni ko'rib chiqish; **mettre à l'étude** o'rganib chiqish; **être à l'étude** o'rganilmoq; **2.** dars, o'quv mashg'uloti; **faire ses**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**études** oʻqimoq (*maktabda, oʻquv yurtida*); **terminer ses études** oʻqishni tugatmoq; **se livrer** (yoki **s'adonner**) **à l'étude** oʻqishga berilmoq; **3.** bilim, ilm; **4.** *mus* mashq turi; **5.** ocherk, obzor; **6.** darsxona, sinf; **7.** devonxona; notarius idorasi.

**étudiant, ante** *nm* student, tolib, talaba; **un étudiant en droit** huquqshunoslik fakultetining studenti.

**étudier I.** *vt* **1.** oʻqimoq, oʻrganmoq; **étudier l'histoire, l'anglais** tarixni, ingliz tilini oʻrganmoq; **2.** oʻrganmoq, tadqiq qilmoq; kuzatmoq; **étudier une réaction chimique** kimyoviy reaksiyani kuzatmoq; **étudier un texte** matnni tadqiq qilmoq; **II. s'étudier** *vpr* oʻrganilmoq.

**étui** *nm* qin, gʻilof; jild, quti; **un étui à lunettes** koʻzoynak qutisi.

**étuve** *nf* **1.** issiqxona, bugʻxona (*hammomda*); bu'glash xonasi; **2.** dezinfeksiyalash asbobi.

**étuvée** *nf voir* **étouffée**.

**étuver** *vt* **1.** bugʻda dimlab pishirmoq (*goʻsht, baliq, sabzavotlar haqida*); **2.** sterilizatsiyalamoq; mikroblardan tozalamoq.

**étymologie** *nf* etimologiya **1.** tilshunoslikda soz'ning kelib chiqishini oʻrganadigan boʻlim; **2.** soʻzning kelib chiqishi.

**étymologique** *ling* etimologiyaga oid, etimilogik, etimologiya; **un dictionnaire étymologique** etimologik lugʻat.

**étymologiquement** *adv* etimologik jihatdan.

**étymologiste** *n* etimolog (*etimologiya mutaxassisi*).

**eu, eue** avoir fe'lining oʻtgan zamon sifatdoshi.

**eucalyptus** *nm* evkalipt (*asosan Avstraliada oʻsadigan doim yam-yashil daraxt*).

**eucharistie** *nf relig* nasroniylarning muqaddas diniy marosimlaridan biri.

**euclidien, ienne** *adj math* Evklidga oid, Evklid.

**euh!** *intj* iya, iye, hm, ha, yogʻe, shundaymi? rostdanmi? (*taajjub, ishonmaslik, ikkilanish, hayratni ifodalaydi*).

**eunuque** *nm* haram ogʻasi; haram xodimi (*birinchi qul*).

**euphémisme** *nm litt* evfemizm.

**euphonie** *nf ling* evfoniya (*hamohanglik, ohangdoshlik; ohangdorlik*).

**euphonique** *adj* evfoniyaga oid; evfoniya; evfonik, hamohang, ohangdosh.

**euphorbe** *nf bot* sutlama, ixroj (*zaharli oq shira chiqaradigan oʻt*).

**euphorie** *nf méd* eyforiya (*haqiqiy ahvolga mos kelmagan holda kayfiyatning koʻtarinki boʻlishi, oʻzidan-oʻzi xursand boʻlaverishlik*).

**euphorique** *adj* eyforiyaga oid.

**euphorisant, ante** *adj* eyforiya chaqiruvchi, eyforiya keltirib chiqaruvchi.

**eurasien, ienne I.** *adj* Yevroosiyoga oid; Yevroosiyo; **II.** *n* osiyolik va yevroosiyolikdan tugʻilgan bola, metis.

**eurêka** *intj* evrika (*yalt etib miyaga kelgan fikr, bir masalani bir zumda yechilganidan qanoatlanib, zavqlanib aytiladigan soʻz*).

**européen, enne I.** *adj* Yevropaga oid; Yevropaga mansub boʻlgan; Yevropa, yevropacha; **les peuples européens** Yevropa xalqlari; **II.** *n* yevropalik.

**européaniser** *vt* yevropalashtirmoq, yevropaliklarga xos xususiyatlarga ega qilmoq; **le Japon s'est européanisé et américanisé** Yaponiya Yevropaga va Amerikaga xos xususiyatlarga ega boʻldi.

**eurovision** *nf* yevrovizion, Yevropaning koʻpchilik mamlakatlariga bir paytda beriladigan telekoʻrsatuvlar eshittirishlar.

**euthanasie** *nf* evtanaziya (*davolab boʻlmaydigan kasallarni azobdan qutqarish uchun oʻldirishni rahm-shavqat bilan qilingan ish deb da'vo qiluvchi nazariya*).

**eux** *pron pers* 3 shaxs koʻplikdagi erkak jinsini ifodalovchi kelishik olmoshi; ular; **eux, ils sont partis;** ular joʻnab ketdilar; **nous irons avec eux** biz ular bilan ketamiz; **pour eux** ularga, ular uchun.

**E. V.** *abrév* **en ville** soʻzining qisqartmasi, pochta xizmatidan foydalanmasdan yuboriladigan xat ustiga yoziladi.

**évacuation** *nf* **1.** chiqarish, chiqarib tashlash, olib tashlash, tozalash; **2.** oqib chiqish; **3.** koʻpchilik boʻlib biror joyni tashlab ketish; **4.** evakuatsiya, evakuatsiya qilish; xavfli joydan koʻchirish; **évacuation des blessés** yaradorlarni xavfli joydan koʻchirish.

**évacuer** *vt* **1.** evakuatsiya qilmoq, xavfli joydan koʻchirmoq; **2.** boʻshatmoq, boʻsh qilmoq; tozalamoq; **3.** *méd* tozalamoq.

**évadé** *nm* qochoq, qochqin.

**évader (s')** *vpr* qochmoq, qochib qutulmoq, qochib qolmoq; **s'évader d'une prison** qamoqdan qochmoq; **2.** qochib qutulmoq, qutulib, omon qolmoq; chap bermoq, xalos boʻlmoq.

**évaluation** *nf* baholash, narx qoʻyish, belgilash, aniqlash; **l'évaluation d'une fortune** boylikni qanchaligini aniqlash.

**évaluer** *vt* **1.** baholamoq, baho bermoq, narx qoʻymoq; bahosini belgilamoq; **2.** aniqlamoq, **évaluer une distance à vue d'œil** masofani koʻz bilan chamalab koʻrmoq.

**évanescent, ente** *adj* oʻtkinchi, bir lahzalik.

**évangélique** *adj* injilga oid; injil.

**évangéliser** *vt* injilni targʻib qilmoq.

**évangéliste** *nm* injilning toʻrt afsonaviy mualliflaridan har biri.

**Évangile** *nm* **1.** Iso Masihning diniy aqidalari (*katta harf bilan*); **2.** Iso Masih hayoti va ta'limoti bayon qilingan bibliyaning muqaddas kitoblaridan har biri; **3.** *fig* biror ta'limotga asos boʻlgan hujjat, kitob; **une parole d'Évangile** haqiqat, haqiqiy bor narsa.

**évanouir (s')** *vpr* **1.** yoʻqolmoq, yoʻq boʻlmoq, yoʻq boʻlib ketmoq; barham topmoq, gʻoyib boʻlmoq, domdaraksiz, badar ketmoq; **2.** hushdan ketmoq, **s'évanouir d'émotion, de douleur** hayajondan, ogʻriqdan hushini yoʻqotmoq.

**évanouissement** *nm* **1.** yoʻqolish, barham topish, gʻoyib boʻlish; **l'évanouissement de ses espérances** umidlarining barham topishi; **2.** hushdan ketish, oʻzini yoʻqotish; behudalik, hushsizlik, behush boʻlib qolish.

**évaporation** *nf* bugʻlanish, bugʻga aylanish; bugʻga aylantirish.

**évaporé, ée** *adj* yengiltak, mulohazasiz, ketini, oqibatini oʻylamaydigan; **une jeune fille évaporée** yengiltak qiz; **2.** *n* yengil tabiat, kuch, havoiy odam, betayin.

**évaporer (s')** *vpr* **1.** bugʻlanmoq, bugʻga aylanmoq; **2.** *fam* gʻoyib boʻlmoq, yoʻqolib qolmoq.

**évasé, ée** *adj* kengayib borayotgan, kengayayotgan.

**évasement** *nm* narsaning kengaygan ogʻzi.

**évaser I.** *vt* kengaytirmoq, keng, katta ochmoq **II. s'évaser** *vpr* kengayib bormoq, kengaymoq.

**évasif, ive** *adj* noaniq, noma'lum; gapni chalgʻitadigan, toʻgʻri javobdan qochadigan dudmol, mujmal; bilib, tushunib, anglab boʻlmaydigan; **une réponse évasive** mujmal javob.

**évasivement** *adj* noaniq tushunib, anglab boʻlmaydigan qilib; dudmal, mujmal.

**évasion** *nf* **1.** qochish, qochib ketish, qochqin **une tentative d'évasion** qochishga urinib koʻrish; **2.** *fig* chalgʻish, oʻzgarish; xayoli boʻlinish.

**évêché** *nm* **1.** yeparxiya (*nasroniylarda arxieriy tasarrufidagi ma'muriy cherkov okrugi*); **2.** yepiskoplik mansabi, yepiskoplik darajasi; **3.** yepiskop saroyi.

**éveil** *nm* **1.** uygʻonish, uyqudan turish; jonlanish; **l'éveil de la nature** tabiatning uygʻonishi; **2.** *fig* namoyon boʻlish, paydo boʻlish; **l'éveil de l'intelligence** aql, idrok ning namoyon boʻlishi; **en éveil** hushyor boʻlib, sergak; ogoh; **être en éveil** hushyor, sergak boʻlmoq, hushyor, ogoh boʻlib turmoq.

**éveillé, ée** *adj* **1.** uygʻoq; bedor, hushyor; **je suis resté éveillé toute la nuit** men tun boʻyi mijja qoqmadim; **tenir qqn éveillé** biror kimsani uxlatmaslik, uxlashga bermaslik; **un rêve éveillé** xayol, shirin xayol, orzu; **2.** tiyrak, zehni oʻtkir, aqlli, idrokli; jonli.

**éveiller I.** *vt* **1.** uygʻotmoq; **2.** *fig* qoʻzgʻalmoq, qoʻzgʻatmoq, tugʻdirmoq; **cette étude éveille l'intelligence** bu fanni oʻrganish ongni oʻstiradi; **éveiller la haine** nafrat uygʻotmoq; **éveiller les soupçons** shubha tugʻdirmoq; **éveiller l'attention** diqatni tortmoq; **II. s'éveiller** *vpr* **1.** uygʻonmoq; **2.** jonlanmoq, uygʻonmoq; **la nature s'éveille** tabiat uygʻonmoqda.

**événement** *ou* **évènement** *nm* voqea, hodisa; **événement heureux** baxtli hodisa; **événement malheureux** baxtsiz hodisa; **un événement imprévu** kutilmagan voqea.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**évent** *nm* **1.** *techn* havo tortadigan quvur; binoning havosini aylantirib, tozalab turishga xizmat qiladigan yoriq, teshik joy; **2.** burun teshigi, burun kovagi (*kit, delfin kabilarda*).

**éventail** *nm* yelpig'ich; **en éventail** yelpig'ich shaklida, yarim doira bo'lib; **une voûte en éventail** yarim doira shaklidagi gumbaz, ravoq.

**éventaire** *nm* chakana savdo stolchasi; ochiqlikdagi savdo peshtaxtasi.

**éventer I.** *vt* **1.** shamollatmoq, havosini yangilatmoq; **2.** yelpimoq; **éventer son visage** yuzini yelpimoq; **3.** o'smoqchilab birovning sirini bilib olmoq; fosh qilmoq; **éventer un secret** sirni bilib olmoq; **éventer un complot** fitnani fosh etmoq; **II. s'éventer** *vpr* **1.** yelpinmoq; **2.** isi, hidi chiqib ketmoq, hidsizlanmoq (*vino, atir kabilar haqida*).

**éventration** *nf* **1.** qorindagi churra; **2.** qornini yorish, tilish.

**éventrer** *vt* **1.** qornini yormoq; qornini tilib, yorib tashlamoq; **éventrer un animal** hayvon qornini yormoq; **2.** ochmoq, yirtmoq (*odatda kuch ishlatib*); **éventrer un coffre-fort** seyf, po'lat sandiqni buzib ochmoq.

**éventualité** *nf* ehtimollik; yuz berishi bo'lishi, mumkinlik; **dans l'éventualité de** ehtimol yuzasidan; taqdirda, mabodo bo'lib qolsa.

**éventuel, elle** *adj* bo'lishi mumkin, ehtimol, yuz berishi mumkin bo'lgan; bo'lishi ehtimol tutilgan.

**éventuellement** *adv* kerak bo'lganda; kezi kelganda.

**évêque** *nm* yepiskop.

**évertuer (s')** *vpr* tirishmoq, g'ayrat qilmoq, astoydil harakat qilmoq; intilmoq; **s'évertuer à expliquer** tushuntirishga tirishmoq.

**éviction** *nf* **1.** *dr* sud orqali mol-mulkidan mahrum qilish; **2.** chetlash, chetlatish, bo'shatish; **éviction du chef d'un parti** partiya boshlig'ini ishdan chetlatish.

**évidage** *nm rare voir* **évidement**.

**évidement** *ou* **évidage** *nm* **1.** zarb bilan kesib, o'yib ishlash; teshish, o'yish; **2.** yog'och yoki taxtachada ariqcha shaklida o'yilgan joy; kamchak.

**évidemment** *adv* aniq, ravshan, shubhasiz; albatta, shundan; **vous acceptez? évidemment!** rozimisiz? albatta roziman!

**évidence** *nf* aniqlik, ravshanlik, ayonlik; shubhasizlik, begumonlik; **mettre en évidence** ta'kidlamoq, uqtirib o'tmoq; namoyish qilmoq, ko'rsatmoq; **à l'évidence, de toute évidence** *loc adv* aniq, ravshan, o'z-o'zidan ma'lum.

**évident, ente** *adj* aniq, ravshan, ko'rinib turgan; **une vérité évidente** ko'rinib turgan haqiqat.

**évider** *vt* teshmoq, o'ymoq; o'yib ishlamoq; **évider une pièce de bois** yog'ochni o'yib ishlamoq.

**évidoir** *nm techn* parma, burg'i.

**évier** *nm* oshxona chanog'i.

**évincer** *vt* chetlamoq; chiqarmoq, siqib, surib chiqarmoq; o'chirmoq; haydamoq; **évincer un concurrent** raqibni surib, siqib chiqarmoq.

**évitable** *adj* bartaraf qilsa bo'ladigan, bartaraf qilish, tuzatish mumkin; oldini olish mumkin bo'lgan.

**évitement** *nm* **une gare d'évitement** bir izli temir yo'lning poyezdlar to'xtab, uchrashib o'tadigan qo'sh izli joyi.

**éviter** *vt* **1.** qochmoq, o'zini chetga olmoq, o'zini olib qochmoq; bo'yin tovlamoq, chap bermoq, o'zini chetga tortmoq olmoq, o'zini olib qochmoq; chetlab o'tmoq; **éviter un danger** xavf-xatarga chap bermoq; xavfdan qutulmoq; **il m'évite** u men bilan uchrashishdan qochib yuribdi, uning men bilan uchrashishga hushi yo'q; **2.** saqlanmoq; chap bermoq; o'zini tiymoq; **évitez les paroles superflues!** ortiqcha so'zlarni ishlatishdan saqlaning! **évitez cette faute!** bu xatoda saqlaning! **évitez de lui parler!** unga gapirishdan o'zingizni tiying!

**évocateur, trice** *adj* ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor; ta'sirchan; chiroyli; **un titre évocateur** chiroyli, ta'sirchan sarlavha.

**évocation** *nf* **1.** eslash, xayol, xotiraga keltirish; **2.** avrash, afsun, jodu qilish.

**évolue, ue** *adj* rivojlangan.

**évoluer** *vt* **1.** rivojlanmoq, o'smoq, olg'a siljimoq; **la société évolue sans cesse** jamiyat to'xtovsiz rivojlanib bormoqda; **2.** o'zgarmoq; moslashmoq; **il a beaucoup évolué depuis son séjour à l'étranger** u chet elda bo'lgan paytdan boshlab juda o'zgarib ketdi; **3.** qimirlamoq, o'ynamoq; **les danseurs évoluaient sur la scène** raqqosalar sahnada o'ynardilar; **4.** *av mar* manyovr qilmoq, manyovr o'tkazmoq.

**évolutif, ive** *adj* rivojlanayotgan, o'sayotgan; evolutsion; **un processus évolutif** evolutsion jarayon.

**évolution** *nf* **1.** evolutsiya, tadrijiy rivojlanish (*tabiat va jamiyatdagi uzluksiz o'zgarish, rivojlanish jarayoni*); evolutsion jarayon; **l'évolution des idées** g'oyalarning rivojlanishi; **l'évolution de la situation** vaziyatning asta-sekin rivojlanishi, o'zgarishi; **en pleine évolution** tez rivojlanayotgan, to'xtovsiz o'zgarayotgan; **2.** harakat; figura (*raqs, gimnastika kabilarda muayyan harakat yoki holatlar*); **3.** *av mar* manyovrlar (*kuchlarni qayta guruhlash, qayta joylashtirish bilan bog'liq harakatlar*); **4.** *méd* kechish, o'tish (*kasallik haqida*).

**évolutionnisme** *nm* evolutsionizm (*evolutsion rivojlanish haqidagi ta'limot*).

**évolutionniste I.** *adj* evolutsiya (*tadrijiy rivojlanish*) ga oid; evolutsion; evolutsiya; **II.** *n* evolutsionist (*evolutsionizm tarafdori*).

**évoquer** *vt* **1.** eslamoq, xotirlamoq; xayolga keltirmoq; **évoquer son enfance** bolalik davrini eslamoq; **2.** avramoq, afsun, jodu qilmoq; **3.** *dr* ishni yuqori instansiyaga o'tkazmoq.

**ex-** *préf* sobiq; **ex-ministre** eks ministr, sobiq ministr; **ex-président** sobiq prezident.

**exacerber** *vt* kuchaytirmoq, zo'raytirmoq, oshirmoq, keskinlashtirmoq, jiddiylashtirmoq.

**exact, exacte** *adj* **1.** aniq, to'g'ri; chin (*narsalar haqida*).

**exactement** *adj* aniq, to'g'ri.

**exactitude** *nf* **1.** aniqlik, to'g'rilik; **2.** juda aniqlik, o'z vaqtida bo'lishlik, puhtalik; batartiblik, saranjom-sarishtalik; aytganini ustidan chiqmoqlik.

**exaction** *nf* ta'magirlik; mansabini suiiste'mol qilib biror narsa undirish.

**ex aequo** *loc adv* bir xil, baravar, birday, teng.

**exagération** *nf* oshirib yuborish, orttirib yuborish, lof qilish; bo'rttirish, mubolag'a qilish, mubolag'a.

**exagéré, ée** *adj* **1.** ko'p, mo'l, serob, haddan tashqari; juda; **2.** ko'pirtirilgan, oshirib yuborilgan, haddan tashqari; **un prix exagéré** oshirilgan narx.

**exagérément** *adv* orttirib, bo'rttirib, oshirib.

**exagérer I.** *vt* **1.** orttirib, bo'rttirib yubormoq; **2.** mubolag'a, mahovat, lof qilmoq; **II. s'exagérer** *vpr* biror narsa haqidagi o'z tushunchasi, fikrini bo'rttirib yubormoq.

**exaltant, ante** *adj* qiziqarli, maroqli, yoqimli, jozibali, maftunkor, qamrab oluvchi; **une musique exaltante** jozibali musiqa.

**exaltation** *nf* **1.** cheksiz shodlik, benihoya xursandlik; qattiq hayajon; **2.** ko'kka ko'tarish, ulug'lash.

**exalter** *vt* **1.** ilhomlantirmoq, ilhom bermoq, ruhni ko'tarmoq; **2.** ko'kka ko'tarmoq, ulug'lamoq.

**examen** *nm* **1.** imtihon; **passer ses examens** imtihon topshirmoq; **les examens de fin d'études** bitirish imtihonlari; **un examen d'Etat** davlat imtihoni; **2.** ko'rish, tekshirish.

**examinateur, trice** *nm* **1.** imtihon oluvchi.

**examiner** *vt* **1.** imtihon olmoq, sinamoq; **2.** ko'rmoq, tekshirmoq; ko'zdan kechirmoq.

**exanthème** *nm* toshma, badanga toshadigan narsa.

**exanthémateux, euse** *ou* **exanthématique** *adj* toshma, badanga toshib o'tadigan.

**exaspérant, ante** *adj* g'azablantiruvchi, g'ashga teguvchi, achchiqlantiruvchi, bezor qiluvchi, asabga teguvchi.

**exaspération** *nf* **1.** g'azablanish, darg'azab bo'lish, asabiylashish; keskinlashish, jiddiylashish, zo'rayish, kuchayish, ortish.

**exaspérer** *vt* **1.** g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; g'ashiga tegmoq, achchiqlantirmoq; **2.** kuchaytirmoq, keskinlashtirmoq, jiddiylashtirmoq, zo'raytirmoq; **exaspérer la souffrance** dardni zo'raytirmoq.

**exaucement** *nm* bajo keltirish, qanoatlantirish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**exaucer** *vt* **1.** tinglamoq, quloq solmoq, dadiga etmoq; **2.** bajarmoq, qondirmoq, bajo keltirmoq (*istak, xohish, iltimosni*); **exaucer une demande** iltimosni qondirmoq.

**excavateur, trice** *n* ekskavator.

**excavation** *nf* chuqur, cho'kma, botiq, o'pirilgan yer, g'or, ungur.

**excédé, ée** *adj* qiynalgan, azob chekkan.

**excédent** *nm* keragidan ortiq narsa; ortiq, ortiqcha; **l'excédent des produits agricoles** qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortiqchasi; **être en excédent** ortiqcha bo'lmoq.

**excédentaire** *adj* ortiqcha, ko'p, mo'l.

**excéder** *vt* **1.** oshib ketmoq, o'tib ketmoq; **le prix de cet appartement n'excède pas cent mille francs** bu xonadonning narxi yuz ming frankdan oshmaydi; **2.** chegaradan chiqib ketmoq, haddan oshmoq; oshirmoq, oshirib yubormoq; **3.** joniga tegmoq, bezor qilmoq, asabiga tegmoq; g'azablantirmoq, g'ashiga tegmoq.

**excellemment** *adv* juda yaxshi, a'lo, juda soz.

**excellence** *nf* **1.** ustunlik, ortiqlik, afzallik, mukammallik, ajoyiblik, a'lo darajadalik; **l'excellence d'un auteur** muallifning mahorati; **par excellence 1.** eng yaxshi, namunali; **2.** haqiqiy, chin, rost, to'g'ri, so'zning tom ma'nosida; **3.** eng avval; eng muhimi; **2.** janobi oliylari; zoti oliylari (*katta harf bilan*).

**excellent, ente 1.** ajoyib, juda yaxshi, juda soz; **excellente idée!** ajoyib g'oya! **2.** xushfe'l, xushmuomala, olijanob, saxiy.

**exceller** *vi* biror namunali ish qilib o'zini ko'rsatmoq, biror xususiyati bilan boshqalardan ajralmoq, ajralib turmoq, farq qilmoq, ustun bo'lmoq, afzal bo'lmoq; **il excelle dans ce travail** u bu ishni a'lo darajada bajaryapti.

**excentricité** *nf* **1.** *fig* g'alatilik, ajabtovurlik, tentaklik, afandilik, notabiiylik; jimjimadorlik, serhashamlik; **l'excentricité du chapeau** jimjimador shlapa; **l'excentricité du caractère** tentaksimonlik; **faire des excentricités** g'alati, ajabtovur harakatlar qilmoq; **2.** *techn* markazdan uzoqlashmaganlik.

**excentrique I.** *adj* **1.** g'alati, ajib, qiziq, o'ziga xos; **une conduite excentrique** g'alati yurish-turish, xulq; **des idées excentriques** g'alati g'oyalar; **2.** markazdan uzoqlashgan; **3.** *math* ekssentrik (*umumiy markazga ega bo'lmagan*); **des figures excentriques** ekssentrik shakllar; **II.** *n* **1.** g'alati, tentaksimon odam, qiziq tabiatli kishi; **2.** *techn* ekssentrik (*mexanizmlarda; umumiy o'q bilan bir markazga ega bo'lmagan disksimon detal*).

**excepté** *prép inv* -dan boshqa, -dan tashqari; **tous les habitants excepté les enfants** bolalardan tashqari barcha aholi; **je suis content de tout le monde, excepté de vous** sizdan boshqa hammadan xursandman.

**excepter** *vt* chiqarmoq, chiqarib tashlamoq, o'chirmoq; **si l'on excepte le mois de juillet** iyul oyini hisobga olmaganda.

**exception** *nf* **1.** ro'yxatdan o'chirish, chiqarish; **2.** istisno, mustasno; **par exception** istisno sifatida; **à l'exception de** -dan tashqari, -dan boshqa; **d'exception** nodir, kamdan-kam bo'ladigan, yagona, favqulodda; **un être d'exception** nodir shaxs; **l'état d'exception** favqulodda vaziyat, holat.

**exceptionnel, elle** *adj* **1.** odatdan tashqari, favqulotda, g'ayritabiiy; **2.** alohida, ayrim, boshqacha.

**exceptionnellement** *adj* **1.** mustasno tariqasida; **exceptionnellement nous nous réunirons demain** istisno tariqasida ertaga yig'ilamiz; **2.** favqulotda, juda, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari; **il est exceptionnellement habile** u juda, g'oyat epchil; **un homme exceptionnellement beau** nihoyatda chiroyli kishi.

**excès** *nm* **1.** ortiq, ziyoda, ko'p; **par excès de** ko'pligidan, ortiqligidan; **contravention pour excès de vitesse** tezlikni oshirganlik uchun jarima; **sans excès** meyorida, evida; **à l'excès** g'oyat, nihoyatda, juda, juda ham; o'taketgan, g'irt; **il est prudent à l'excès** u nihoyatda ehtiyotkor; **tomber d'un excès dans un autre** o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urmoq; **2.** *pl* ortiqchalik, keragidan, ehtiyojdan ortiq ishlatish, iste'mol qilish; **faire des excès** ortiqchaliklarga, isrofgarchilikka yo'l qo'ymoq; **excès de pouvoir** vakolatini oshirib yuborish, suiiste'mol qilish.

**excessif, ive** *adj* **1.** ortiqcha, ehtiyojdan ortiq; **des dépenses excessives** ortiqcha xarajat; **2.** haddan oshishga moyil; o'zini tuta, bosa olmaydigan; **il est excessif** u me'yorini bilmaydigan odam.

**excessivement** *adj* **1.** haddan tashqari, juda, juda ham, nihoyatda, g'oyatda, ortiq darajada; **2.** *fam* favqulotda, haddan tashqari, o'ta, butunlay, o'zgacha.

**exciper** *vi* **exciper de** suyanmoq, dalil qilmoq, dalil qilib keltirmoq, guvoh qilib ko'rsatmoq; **exciper de son inéxpérience** tajribasizligini vaj-karson qilmoq.

**exciser** *vt* kesib, o'yib olib tashlamoq.

**excision** *nf* olib tashlash, kesish, o'yish.

**excitable** *adj* **1.** hayajonlanadigan, tez ta'sirlanadigan, serjahl, serzarda, jirtaki; **2.** *biol* qo'zg'aluvchan, ta'sirlanuvchan.

**excitabilité** *nf* **1.** ta'sirlanish, ta'sirga beriluvchanlik, hayajonga kelishlik, jirttakilik; **2.** ta'sirlanuvchanlik, ko'zg'aluvchanlik; **l'excitabilité musculaire** muskullarning ko'zg'aluvchanligi.

**excitant, ante I.** *adj* **1.** qo'zg'atuvchi, qo'zg'ovchi, ta'sir etuvchi; hayajonlantiruvchi; qiziqtiradigan; maftunkor; **2.** ko'zg'atuvchi; **II.** *nm* qo'zg'atuvchi modda.

**excitation** *nf* **1.** hayajon, hayajonga kirish, ko'zg'alish, uyg'onish; **2.** vasvasaga solish, g'alamislik, fitna.

**excité, ée I.** *adj* hayajonga tushgan, hayajonlangan, to'lqinlangan; asabiy, asabiylashgan; **II.** *n* hayajonga tushgan kishi; asabiylashgan kishi.

**exciter I.** *vt* **1.** qo'zg'atmoq, uyg'otmoq, yuzaga keltirmoq, to'lqinlantirmoq, jo'shmoq; ochmoq; **exciter la curiosité** qiziqish uyg'otmoq; **exciter la haine** nafrat uyg'otmoq; **2.** *physiol* ta'sir qilmoq, qiziqtirmoq, ko'zg'almoq, qo'zg'ash; **3.** qo'zg'atmoq; dalda bermoq, tasalli bermoq, madad bermoq, ruhlantirmoq, ko'nglini, ruhini ko'tarib qo'ymoq; **l'alcool excite** spirtli ichimlik kishini qo'zg'atadi; **ce travail ne m'excite pas beaucoup** bu ish meni uncha ruhlantirayotgani yo'q; **4.** undamoq, chaqirtirmoq, xohish, istak, mayil uyg'otmoq; **5.** tezlamoq, gij-gijlamoq, quturtirmoq, oyoqlantirmoq; nifoq solmoq, urishtirib qo'ymoq; g'azablantirmoq, g'ashiga tegmoq; **exciter un chien** itning g'ashiga tegmoq; **exciter qqn contre** biror kimsani -ga qarshi gij-gijlamoq; **II. s'exciter** *vpr* **1.** hayajonlanmoq, qizishmoq; g'azabga kelmoq; **sois calme! ne t'excite pas!** tinchlan! qizishma! **2.** qiziqmoq, qiziqib qolmoq; **s'exciter sur un projet** loyihaga qiziqib qolmoq.

**exclamatif, ive** *adj* xitobli, undovli; xitob qilib aytilgan undov; **une phrase exclamative** undov gap; **un ton exclamatif** xitobli ohang.

**exclamation** *nf* xitob, undov, chaqiriq, hayqiriq; **un point d'exclamation** undov belgisi; **pousser une exclamation de joie** xursandchilikdan hayqirib yubormoq.

**exclamer (s')** *vpr* xitob qilmoq, undamoq.

**exclu, ue** *adj* **1.** chaqirilgan, o'chirilgan, chiqarib tashlangan, haydalgan; **2.** qo'shmasdan, sanoqqa kiritmasdan, -ga qadar.

**exclure** *vt* **1.** chiqarmoq, chiqarib tashlamoq, o'chirmoq; haydamoq; **exclure d'un parti** partiyadan o'chirmoq; **exclure d'une salle** zaldan haydab chiqarmoq; **2.** istisno qilmoq, mustasno qilmoq; **3.** inkor, rad etmoq, imkon bermaslik, yo'l qo'ymaslik; **l'un exclut l'autre** biri ikkinchisini rad etadi.

**exclusif, ive** *adj* **1.** ayrim, alohida, maxsus; **un privilège exclusif** alohida imtiyoz; **un droit exclusif** alohida huquq; **2.** yakka, yagona, tanho; yolg'iz; birdan-bir.

**exclusion** *nf* ro'yhatdan chiqarish, o'chirish; haydash; **décider l'exclusion d'un élève** bolani haydash haqida qaror qabul qilmoq; **à l'exclusion de** -dan tashqari, -dan boshqa.

**exclusive** *nf* veto, taqiq, man.

**exclusivement** *adj* **1.** faqat, yolg'iz, bidan-bir, birgina, yagona; **2.** -dan tashqari, -dan boshqa.

**exclusivité** *nf* **1.** maxsus vakolat, huquq; **en exclusivité** maxsus vakolat bilan; faqat; **ce film passe en exclusivité dans deux salles** bu film faqat ikkita kinoteatrda namoyish etilmoqda; **un cinéma d'exclusivité** maxsus vakolatga ega bo'lgan kinoteatr; **2.** maxsus firma tomonidan sotiladigan, foydalaniladigan mahsulot, film kabilar.

**excommunication** *nf* murtad deb hisoblanmoq, dindan qaytgan deb hisoblash.

**excommunier** *vt* murtad deb hisoblamoq, dindan cherkovdan rad qilmoq, dindan qaytgan deb hisoblamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**excrément** *nm* najosat, najas, axlat; tezak.

**excréter** *vi* tashqariga chiqarmoq (*organizmdagi gaz, ter, siydik kabilarni*).

**excrétion** *nf* **1.** chiqarish; **2.** *pl* chiqindi.

**excroissance** *nf* g'urra, bo'qoq, shish, ortiq.

**excursion** *nf* ekskursiya, sayohat; **une excursion en montagne** toqqa sayohat.

**excursionner** *vi vieilli* sayohat qilmoq, ekskursiyaga chiqmoq.

**excursionniste** *nm* sayohatchi.

**excusable** *adj* uzrli, kechirsa bo'ladigan, kechirish mumkin bo'lgan.

**excuse** *nf* **1.** uzr, sabab, vaj, bahona, oqlash uchun asos; **vous n'avez aucune excuse** siz hech narsa bilan o'zingizni oqlay olmaysiz; **trouver des excuses** vaj, bahona topmoq; **une lettre d'excuse** kechirim so'rab yozilgan xat; **servir d'excuse** bahona bo'lmoq, **une faute sans excuse** kechirib bo'lmaydigan xato; **2.** kechirim, uzr, afv; afsuslanish, pushaymon, afsus; **présenter des excuses** uzr, kechirim so'ramoq.

**excuser I.** *vt* **1.** kechirmoq, gunohidan o'tmoq, afv etmoq; **excusez-moi!** meni kechiring! **excusez-moi d'arriver en retard!** kech qolganligim uchun meni afv eting! **vous m'excuserez** meni kechirarsiz deb o'ylayman; **2.** oqlamoq, to'g'ri, haqli deb topmoq; **II. s'excuser** *vpr* kechirim so'ramoq; **s'excuser auprès de qqn** biror kishidan kechirim so'ramoq; **je m'excuse de mon retard** kech qolganligim uchun kechirim so'rayman.

**exécrable** *adj* jirkantiradigan, nafratni qo'zg'aydigan, juda xunuk, juda yomon, jirkanch, qabih, yoqimsiz; yaramas; **un crime exécrable** qabih jinoyat; **je suis d'une humeur exécrable** kayfiyatim g'oyat yomon; **il fait un temps exécrable** ob-havo juda yomon.

**exécration** *nf* jirkanish, nafratlanish.

**exécrer** *vt* juda yomon ko'rmoq, nafrat bilan qaramoq; **tout le monde l'exècre** hamma unga nafrat bilan qaraydi.

**exécutable** *adj* bajarib bo'ladigan, amalga oshirish mumkin bo'lgan; **plan facilement exécutable** oson amalga oshiriladigan reja.

**exécutant, ante** *n* bajaruvchi, ijro etuvchi; **un orchestre de 50 exécutants** 50 ijrochidan tashkil topgan orkestr.

**exécuter I.** *vt* **1.** amalga oshirmoq, bajarmoq; ijro etmoq; **exécuter un plan** rejani bajarmoq, rejani hayotga tadbiq etmoq; **exécuter un ordre** buyruqni bajarmoq; **exécuter ses promesses** va'dani bajarmoq, ustidan chiqmoq; **2.** ijro etmoq; chalmoq; **exécuter un morceau de musique** musiqadan parcha ijro etmoq; **exécuter un tableau** rasm chizmoq; **3.** qatl qilmoq, qatl etmoq; **exécuter un condamné** jazoga hukm etilgan kishini qatl qilmoq; **II. s'exécuter** *vpr* bo'ysunmoq, itoat etmoq, bo'yin egmoq; rozi bo'lmoq.

**exécuteur, trice** *n* bajaruvchi, ijro etivchi; **l'exécuteur testamentaire** vasiy.

**exécutif, ve** *adj* bajaruvchi, ijro etuvchi; **le pouvoir exécutif** ijro etuvchi (*ijro huquqiga ega bo'lgan*) hokimiyat.

**exécutif** *adj* ijro etuvchi hokimiyat, ijroiya qo'mitasi.

**exécution** *nf* **1.** bajarish, ijro etish; amalga oshirish; hayotga tadbiq etish; **l'exécution d'un projet** loyihani amalga oshirish; **l'exécution d'un ordre** buyruqni bajarish; **passer à l'exécution** bajarishga kirishmoq; **2.** ijro etish, chalish; **un ouvrage d'une exécution remarquable** asarning qoyil-maqom qilib ijro etilishi; **3.** qatl, o'lim jazosi.

**exécutoire I.** *adj* bajariladigan, amalga oshirilishi zarur bo'lgan; **devenir exécutoire** kuchga kirmoq; **II.** *nm* ijro varaqasi (*sud hukmini bajarish yuzasidan ijrochiga beriladigan hujjat*).

**exégèse** *nf* izoh, sharh.

**exégète** *nm* izohlovchi, sharhlovchi.

**exemplaire I.** *adj* namunali, o'rnak bo'ladigan; **un élève exemplaire** namunali o'quvchi; **une conduite exemplaire** namunali xulq; **II.** *nm* **1.** nusxa, dona; **tirer un ouvrage à 100000 exemplaire** yuz ming nusxada bosmadan chiqarmoq; **2.** namuna, nusxa; tur.

**exemple** *nm* namuna, nusxa; o'rnak, ibrat; **un exemple à suivre** taqlid uchun namuna; **cet homme est un exemple de gentillesse** bu kishi xushmuomalalikning namunasi **servir d'exemple** o'rnak bo'lmoq; **par exemple** misol, namuna uchun, masalan.

**exempt** *adj* **1.** ozod qilingan, bo'shatilgan; **exempt du service militaire** harbiy xizmatdan ozod qilingan; **2.** mahrum etilgan; mahrum qilingan; mahrum, xoli; -siz; **il n'est pas exempt de défauts** u kamchiliklardan xoli emas; **il est exempt d'ambition** u izzattalab emas.

**exempter I.** *vt* bo'shatmoq, ozod qilmoq; xalos etmoq; **exempter d'impôts** soliqdan ozod qilmoq; **II. s'exempter** *vpr* ozod bo'lish, xalos bo'lmoq.

**exemption** *nf* **1.** ozod bo'lish, xalos bo'lish; **exemption d'impôts** soliqdan ozod bo'lish; **2.** harbiy xizmatdan ozod bo'lish, ozod qilish.

**exercé, ée** *adj* tajribali; chiniqqan.

**exercer I.** *vt* **1.** mashq qildirmoq, shug'ullantirmoq, o'rgatmoq; chiniqtirmoq; **exercer ses muscles** mushaklarni mashq qildirmoq; **exercer sa main** biror ishga qo'lini o'rgatmoq, hadisini olmoq; **exercer sa mémoire** xotirani o'stirmoq; **exercer qqn à qqch** biror kimsani biror narsaga o'rgatmoq; **2.** shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq, bajarmoq, qilmoq, ishlamoq, **exercer un métier** biror kasb bilan mashg'ul bo'lmoq; **exercer une profession** kasbga ega bo'lmoq; **3.** amalga oshirmoq, ro'yobga chiqarmoq; ba'zi otlar bilan kelib, "ko'rsatmoq", "bermoq", "qilmoq", "bildirmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi; **exercer son autorité sur qqn** hokimlik, hukmronlik qilmoq; **exercer une influence sur qqn** ta'sir qilmoq, ta'sir ko'rsatmoq; **exercer une pression** tazyiq qilmoq; **exercer son droit** o'z huquqidan foydalanmoq, huquqini ro'yobga chiqarmoq; **II. s'exercer** *vpr* **1.** mashq qilmoq, shug'ullanmoq; o'z bilimi, san'ati, mahoratini oshirmoq, kamolotga erishmoq; malaka hosil qilmoq; **2.** namoyon bo'lmoq, ro'yobga chiqmoq; ko'rinmoq.

**exercice** *nm* **1.** mashq, mashg'ulot, mashq qilish, mashg'ulot o'tkazish; **un exercice d'assouplissement** oyoq-qo'lning chigilini yozish; **un exercice de grammaire** grammatik mashqlar; **faire des exercices** mashq bajarmoq; **2.** *mil* harbiy mashq; jangovor tayyorgarlik; **3.** *pl* mashqlar to'plami; **4.** ijro qilish, bajarish, amalga oshirish; xizmat; **l'exercice d'une profession** biror kasb bilan mashg'ul bo'lish; **dans l'exercice de ses fonctions** o'z xizmat vazifasini bajarish paytida.

**exergue** *nm* epigraf (*adabiy asarning tepasiga yozilgan biror jumla, sitata, ibora*).

**exfolier (s')** *vpr* qatlam-qatlam, palaxsa-palaxsa bo'lib ajralmoq, qatlamlarga ajralmoq.

**exhaler I.** *vt* **1.** tarqatmoq, taratmoq, sochmoq (*par, hid kabilarni*); **ces roses exhalent une odeur agréable** bu gullar yoqimli hid taratmoqda; **2.** ifodalamoq, ifoda qilmoq, aytmoq, bildirmoq; **exhaler sa colère, sa haine, sa douleur** g'azabi, nafrati, dardini ifodalamoq; **II. s'exhaler** *vpr* sochilmoq, taralmoq; ajralmoq; **un frais parfum s'exhale des roses** gullardan toza hid taralmoqda.

**exhaussement** *nm* **1.** ustiga qurish, ustiga qurib ko'tarish; tayyor bino ustiga yana qavat qo'shish; **exhaussement d'un mur** devor balandligini ustiga qurib ko'tarish; **2.** tayyor bino ustiga solingan ustki qavat.

**exhausser** *vt* ustiga qurmoq, ustiga qurib ko'tarmoq; **exhausser un mur** devorni ustiga qurib ko'tarmoq.

**exhaustif, ive** *adj* to'la-to'kis, tugal, mukammal; **une étude exhaustive** mukammal tadqiq qilish, o'rganish.

**exhiber I.** *vt* **1.** ko'rsatmoq, ko'rish, tanishish uchun bermoq, **exhiber ses papiers** hujjatlarini ko'rsatmoq; **2.** ko'z-ko'z qilish uchun qo'ymoq, ko'rsatmoq; **II. s'exhiber** *vpr* o'zini ko'z-ko'z qilmoq, o'zini ko'rsatishga urinmoq.

**exhibition** *nm* **1.** ko'rsatish; topshirish, topshirilish; **2.** spektakl yoki tomosha; spektakl yoki tomosha ko'rsatish, ko'rsatilishi; **3.** *péj* ko'z-ko'zlash; ko'z-ko'z qilish; **faire exhibition de son savoir** o'z bilimi bilan maqtanmoq; **une exhibition de luxe** zeb-ziynatini ko'z-ko'zlash.

**exhortation** *nf* **1.** dalda berish; rag'batlantirish; **2.** chaqiriq; murojaat; shior.

**exhorter** *vt* chaqirmoq, undamoq, da'vat qilmoq; **exhorter qqn à la patience** biror kimsani sabr-toqatli bo'lishga chaqirmoq.

**exhumation** *nf* **1.** eksgumatsiya sud-tibbiyot ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olish (*murdani*); **procéder à l'exhumation d'un corps** murdani go'rdan kovlab olmoq; **2.** *fig fam* kovlab, izlab topish; olish, tanlab, yozib



www.ziyouz.com kutubxonasi

olish; **l'exhumation d'un document des archives** arxiv materiallaridan hujjat olish.

**exhumer** *vt* **1.** murdani go'rdan kovlab olmoq; **exhumer un cercueil** tobutni kovlab olmoq; **2.** kovlab olmoq, kovlab topmoq, **exhumer une statue antique** qadimgi haykalni kovlab topmoq; **exhumer les ruines d'une cité disparue** yo'q bo'lib ketgan shahar qoldiqlarini qazib ochmoq; **3.** *fig* eslamoq, esga olmoq, yodiga keltirmoq; xotirlamoq.

**exigeant, ante** *adj* talabchan, talab qiladigan; **un patron exigeant** talabchan xo'jayin.

**exigence** *nf* **1.** talabchanlik; **2.** ehtiyoj, talab; **3.** talab (*bajarilishi lozim bo'lgan qoida, tartib*); **les exigences d'un métier** kasb uchun zarur tartib-qoida; **les exigences de la grammaire** grammatik qoidalar.

**exiger** *vt* **1.** talab qilmoq; qattiq, qat'iy so'ramoq; **exiger le silence** jimlik, jim bo'lishni talab qilmoq; **j'exige que ce livre soit rendu** men bu kitob qaytarilishini so'rayman; **2.** muhtoj bo'lmoq, ehtiyoj sezmoq, talab qilmoq; **cette plante exige beaucoup d'eau** bu o'simlik ko'p suvga ehtiyoj sezadi.

**exigible** *adj* kerak, lozim bo'lgan; so'ralayotgan, talab qilinayotgan.

**exigu, uë** *adj* **1.** kichik, tor; **une chambre exiguë** tor xona; **2.** kam, kamchil, taqchil, oz, kambag'al; yetarli bo'lmagan.

**exil** *nm* **1.** surgun, badarg'a, quvg'in; **condamner à l'exil** surgunga hukm qilmoq; **envoyer en exil** surgun qilmoq, surgunga yubormoq **partir en exil** surgunga jo'namoq; **vivre en exil** quvg'inda yashamoq; **un lien d'exil** surgun qilingan joy.

**exiler I.** *vt* **1.** surgun qilmoq, surgunga yubormoq; xilvat; chekka joyga qo'ymoq; **j'ai été exilé à la campagne** men xilvat qishloqda yashadim; **II. s'exiler** *vpr* **1.** vatanni tashlab ketmoq, vatanidan chiqib ketmoq; **2.** xilvatda yashash uchun ketmoq.

**existant, ante** *adj* bor, mavjud bo'lgan; amaldagi; **les règlements existants** amaldagi qoidalar.

**existence** *nf* **1.** mavjudlik, borlik; **2.** tirikchilik, hayot, yashash; hayot tarzi; **mener une existence misérable** og'ir hayot kechirmoq; **changer d'existence** hayot tarzini o'zgartirmoq.

**ex-libris** *nm* ekslibris (*kitob ichiga solib qo'yiladigan va kitob egasining ismi sharifi yozilgan varaq*).

**exode** *nm* ommaviy qochish, ko'chish, ommaviy emigratsiya; **exode rural** qishloq aholisining shaharga ko'chib ketishi, qishloqlarning huvillab qolishi.

**exonération** *nf* ozod qilish; ozod bo'lish (*soliq kabilardan*).

**exonérer** *vt* **(qqn de qqch)** ozod qilmoq; **exonérer une marchandise** tovar uchun boj to'lashdan ozod qilmoq.

**exophtalmie** *nf méd* ko'zlarning chaqchayib, baqrayib chiqish kasali.

**exorbitant, ante** *adj* haddan tashqari, benihoya darajadagi, cheksiz; **des prix exorbitants** aqlga sig'maydigan narx.

**exorbité, ée** *adj* **les yeux exorbités** chaqchaygan ko'zlar (*qo'rquv, hayrat kabilardan*).

**exorciser** *vt* jin, ajinalarni, yovuz ruhlarni quvmoq, haydamoq.

**exorcisme** *nm* afsun, jodu, sehr, duo, kuf-suf (*jin, ajinalarni, yovuz ruhlarni quvadigan*).

**exorde** *nm* kirish (*nutq, maqola kabilarda*).

**exotique I.** *adj* ekzotik, chet, yot, g'ayrioddiy; **une plante exotique** ekzotik o'simlik; **II.** *nm* ekzotika (*bir mamlakatga xos bo'lib, uzoqdagi boshqa mamlakat xalqiga qiziq, g'alati, g'ayrioddiy ko'rinadigan narsalar, urf-odatlar*); **le goût de l'exotique** ekzotikaga ishqibozlik.

**exotisme** *nm* **1.** ekzotik xususiyatlar; qiziqlik, ajablik, ajoyiblik, g'alatilik; **2.** ekzotikaga ishtiyoq, ishqivozlik.

**expansible** *adj* kengayadigan, o'z hajmini kattaytiradigan, elastik, egiluvchan, cho'ziluvchan.

**expansif, ive** *adj* o'zini tiya olmaydigan; odamga el bo'ladigan, kirishimli, dilkash; **une nature peu expansive** odamlarga qo'shilmaydigan, kamgap odam.

**expansivité** nf o'zini tiya olmaslik, yengillik; odamga el bo'lish, kirishimlilik, dilkashlik.

**expansion** *nf* **1.** kengayish, ortish, ko'payish; **2.** *phys* kengayish; **3.** *anat* kengayish (*organlar haqida*); **4.** ochiq izhor, ifoda qilish, ko'ngildagini ochib aytish; yorilib gapirish.

**expansionnisme** *nm* ekspansionizm, espansionistik, bosqinchilik siyosati.

**expatriation** *nf* espatriatsiya (*vatanidan ixtiyoriy yoki majburiy ko'chirib yuborish*); vatanidan ko'chib ketish; chiqarish, chiqarib yuborish.

**expatrier I.** *vt* ekspatriatsiya qilmoq (*vatanidan ixtiyoriy yoki majburiy ko'chirib yubormoq*) **II. s'expatrier** *vpr* vatanidan chiqib ketmoq, vatanini tashlab ketmoq, vatanidan ko'chib ketmoq.

**expectative** *nf* umid, orzu, tilak, ishonch; **vivre dans l'expectative** umid bilan yashamoq.

**expectorer** *vt* yo'talib tupurmoq, tupurib tashlamoq.

**expédient, ente I.** *adj* qulay; ma'qul; foydali; **II.** *nm* **1.** chora, iloj tadbir, yo'l, usul; **chercher un expédient** ahvoldan qutilish yo'lini qidirmoq; **2.** *pl* oxirgi chora; hiyla qilish, nayrang ishlatish; hiyla, nayrang, makr.

**expédier[1]** *vt* **1.** jo'natmoq, yubormoq; **expédier des marchandises** tovarlarni jo'natmoq; **2.** *dr* nusxa bermoq; **expédier un contrat de mariage** nikoh to'g'risidagi shartnomadan nusxa bermoq.

**expédier[2]** *vt* **1.** bir amallab o'zini xalos qilmoq, qutulmoq; jo'natmoq, haydamoq, haydab yubormoq, kovushini to'g'rilab qo'ymoq; **expédier un importun** xira mijozdan arang qutulmoq; **expédier qqn dans l'autre monde** narigi dunyoga jo'natmoq; **2.** ishni qo'l uchida bajarib tez tugatmoq, bir amallab bitirmoq, **expédier son travail** ishni tez tugatmoq; **expédier son dîner** shosha-pisha ovqatlanmoq.

**expéditeur, trice I.** *n* ekspeditor, yuboruvchi, jo'natuvchi; **l'expéditeur d'une lettre** xat jo'natuvchi; **II.** *adj* jo'natuvchi, jo'natishn jo'natadigan.

**expédition[1]** *nf* biror narsani tez bajarish; **l'expédition des affaires courantes** kundalik ishlarni tez bajarish.

**expédition[2]** *nf* **1.** jo'natish, yuborish; yuborilgan narsa; **2.** *dr* nusxa; **délivrer l'expédition d'un acte** hujjatdan nusxa olib bermoq; **en double expédition** ikki nusxa.

**expédition[3]** *nf* **1.** harbiy ekspeditsiya, harbiy yurish, harbiy harakat, urush; **une expédition coloniale** bosqinchilik urushi; **2.** ekspeditsiya, biror maqsadda uyushtirilgan safar; **une expédition scientifique au Pôle Sud** Janubiy Qutbga ilmiy ekspeditsiya.

**expéditionnaire I.** *adj* **1.** ekspeditsiyaga oid, ekspeditsion; **un corps expéditionnaire** ekspeditsiya korpusi; **2.** ekspeditorga oid; **II.** *nm* **1.** nusxa ko'chiruvchi; **2.** yuboruvchi, jo'natuvchi, ekspeditor.

**expérience** *nf* **1.** tajriba, amalda orttirilgan bilim, mahorat; **l'expérience de la vie** hayotiy tajriba; turmush tajribasi; **par expérience** tajriba tufayli; **2.** eksperiment, tajriba, birinchi ish, sinovga qilingan ish; sinov, urinib ko'rish; **une expérience de chimie** kimyodan tajriba; **faire des expériences** tajriba o'tkazmoq; **un champ d'expérience** tajriba maydoni; **à titre d'expérience** tajriba sifatida.

**expérimental, ale, aux** *adj* **1.** ilmiy tajribaga asoslangan; **une méthode expérimentale** ilmiy tajribaga asoslangan uslub; **2.** eksperiment, tajriba maqsadida ishlatiladigan; tajriba o'tkazish uchun; **un avion expérimental** tajriba uchun samolyot.

**expérimentalement** *adv* tajriba asosida, ilmiy tajriba.

**expérimenté, ée** *adj* tajribakor, tajribali, omilkor, usta, mohir; **c'est un homme expérimenté** bu tajribali kishi.

**expérimenter** *vt* **1.** tajriba o'tkazmoq; **2.** sinab ko'rmoq; tekshirib ko'rmoq; **expérimenter un nouvel appareil** yangi apparatni sinab ko'rmoq.

**expert, erte I.** *adj* biladigan, tajribali, usta, abjir; **II.** *nm* ekspert (*biror masala yuzasidan tekshirish o'tkazib xulosa chiqaruvchi mutaxassis*).

**expert-comptable** *nm* javobgar-hisobchi.

**expertise** *nf* ekspertiza, tekshirish; **faire une expertise** ekspertiza o'tkazmoq; **l'expertise établit que** ekspertiza shuni ko'rsatadiki.

**expertiser** *vt* ekspirtiza qilmoq, ekspertiza o'tkazmoq; qiymatini aniqlamoq; **expertiser un bijou** taqinchoqning qiymatini aniqlamoq.

**expiation** *nf* gunohini yuvish, o'zini oqlash.

**expiatoire** *adj* gunohni yuvadigan, gunohni kechirishga yordam beradigan.

**expier** *vt* gunohini yuvmoq, o'zini oqlamoq, jazosini tortmoq; gunohini kechirarli ish qilmoq; **expier son crime** jinoyati uchun jazosini tortmoq; **expier son impudence** ehtiyotsizligi uchun ta'zirini yemoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**expirant, ante** *adj* **1.** o'layotgan, o'lib borayotgan; **d'une voix expirante** o'lim to'shagida yotgan kishi ovozidek; **2.** *fig* tugayotgan, tugab, o'lib, o'chib borayotgan; tamom bo'layotgan, xarob bo'layotgan.

**expiration** *nf* **1.** nafas chiqarish; **l'expiration de l'air des poumons** o'pkadan havoni chiqarish; **2.** muddatning tugashi; tugash, tamom bo'lish, oxiriga yetish; **venir à expiration** nihoyasiga yetmoq.

**expirer I.** *vt* nafas chiqarmoq **II.** *vi* **1.** vafot etmoq, jonini xudoga topshirmoq, qazo qilmoq; **il est sur le point d'expirer** u o'lim to'shagida yotibdi; **2.** tugamoq, nihoyasiga yetmoq.

**explétif, ive** *adj gram* ekspletiv (*olib qo'ysa bo'ladigan, ma'noga ta'sir qilmaydigan*); **un emploi explétif de la négation "ne"** "ne" inkor yuklamasining ekspletiv qo'llanishi.

**explicable** *adj* tushuntirsa bo'ladigan; tushunarli, tushunsa bo'ladigan; **sa conduite est parfaitement explicable** uning xulqini juda yaxshi tushunsa bo'ladi.

**explicatif, ive** *adj* **1.** tushuntirib beradigan, izohlaydigan; **une note explicative** tushuntirish; izoh.

**explication** *nf* **1.** tushuntirish, anglatish, uqtirish; izoh berish; **l'explication d'un fait** vaziyatni tushuntirish; **2.** sabab, bahona qilish, o'z harakatini oqlash uchun dalil, asos ko'rsatish; vaji karson; **3.** sabab, bahona, bois; **demander des explications à qqn** biror kimsadan sababini so'ramoq; **4.** munozara; tortishuv; bahs; **avoir une explication avec qqn** biror kimsa bilan munosabatlarini aniqlab olmoq, munozara qilmoq.

**explicite** *adj* aniq, ravshan, tushunarli, ochiq-oydin; ochiq ifodalangan; **une réponse explicite** aniq javob.

**explicitement** *adv* aniq, ravshan, tushunarli qilib, burro, puxta, dona-dona; **formuler explicitement une demande** iltimosini aniq bayon qilmoq.

**expliciter** *vt* tushuntirib ravshan, aniq qilmoq; tushuntirmoq, uqtirmoq, anglatib qo'ymoq; sharhlamoq, izohlamoq; **expliciter sa pensée** o'z fikrini tushuntirmoq.

**expliquer I.** *vt* **1.** tushuntirmoq, anglatmoq, uqtirmoq; izohlamoq; sharhlamoq; **expliquer un problème** vazifani tushuntirmoq; **expliquer le sens d'un mot** so'z ma'nosini izohlamoq **expliquer les règles du jeu** o'yin qoidasini tushuntirib bermoq; **2.** bayon qilmoq; **expliquer ses projets** rejalarini bayon qilmoq; **3.** sababini bildirmoq, anglatmoq; boisini bildirmoq; sabab bo'lmoq **II. s'expliquer** *vpr* **1.** so'z yuritmoq, bayon qilmoq, gapirmoq; **expliquez-vous clairement** aniq qilib gapiring; aniqroq bayon qiling; **2.** tushunmoq, tushunib yetmoq; nimaligini, ma'nosini bilmoq; **je m'explique mal sa présence ici** uning ishtiroki sababini tushunolmayapman; **on ne s'est pas très bien expliqué ce qui s'est passé** nima voqea sodir bulganligini tushunib bo'lmadi, tushunmadik; **3.** ochiq gaplashib olmoq, gapni ochdi qilmoq; **je tiens à m'expliquer avec lui** u bilan ochiq gaplashib olishni juda ham istayman; **4** janjalni bartaraf qilmoq uchun yoqalashmoq, mushtlashmoq; **5.** aniq, ma'lum bo'lmoq, ayon bo'lmoq, sababi anglashilmoq, tushunmoq, ochilmoq; **maintenant tout s'explique** endi hamma narsa ayon bo'lmoqda.

**exploit[1]** *nm* jasorat; **faire un exploit** jasorat ko'rsatmoq.

**exploit[2]** *nm dr* bildirish xati, xabar qog'ozi; qaror; **un exploit d'huissier** sud ijrochisining bildirish xati.

**exploitable** *adj* foydalanishga yaraydigan; ishlov berishga yaraydigan, ishlatishga yaraydigan; **les terres exploitables** ishlov berishga yaroqli yerlar.

**exploitant, ante** *n* foydalanuvchi, ishga tushiruvchi kishi; korxona egasi, xo'jayin; **les exploitants agricoles** yer egalari, fermerlar; **l'exploitant forestier** yog'och tayyorlovchi.

**exploitation** *nf* **1.** foydalanish; ishga solish; **l'exploitation d'une mine** shaxtadan, kondan foydalanish; **mettre en exploitation** foydalanishga topshirmoq; **2.** xo'jalik (*biror korxonaning binolari, jihozlari, mashina-qurollari, asbob-uskunalari*); zavod, korxona; **une grande exploitation** yirik xo'jalik; **une exploitation industrielle** sanoat korxonasi; **3.** biror imkoniyatdan foydalanish; **l'exploitation d'une idée** g'oyadan foydalanish; **4.** ekspluatatsiya, ekspluatatsiya qilish (*birovning kuchidan-mehnatidan foydalanish*); **l'exploitation de l'homme par l'homme** kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishi.

**exploiter** *vt* **1.** ishlatmoq, foydalanmoq; ishga solmoq, ekspluatatsiya qilmoq; qazib olmoq (*yer osti boyliklari haqida*); ishlov bermoq; **exploiter un gisement** yer osti boyliklarini qazib olmoq; **exploiter du charbon** ko'mir qazib chiqarmoq; **exploiter une terre** yerga ishlov bermoq; **exploiter un réseau de chemin de fer** temir yo'l tarmog'ini ekspluatatsiya qilmoq; **2.** biror imkoniyatdan foydalanmoq, bahramand bo'lmoq, uni o'z talab va ehtiyoji uchun ishlatmoq; **exploiter son avantage** ustunlik, imtiyozdan foydalanmoq; **exploiter ses connaissances** o'z bilimidan foydalanmoq; **3.** ekspluatatsiya qilmoq.

**exploiteur, euse** *n* ekspluatator, ekspluatatsiya qiluvchi.

**explorateur, trice** *n* **1.** sayyoh; **2.** tadqiqotchi.

**exploration** *nf* **1.** o'rganish ilmiy ekspeditsiya (*biror mamlakat, notanish joyni*); sayohat; **partir en exploration** biror mamlakatni o'rganish uchun jo'nab ketmoq; sayohatga, ekspeditsiyaga jo'nab ketmoq; **2.** tadqiqot o'tkazish; tadqiq qilish, ilmiy o'rganish; **l'exploration d'un sujet, d'un problème** mavzu, muammoni ilmiy o'rganish; **2.** *méd* ichki organlarning faoliyatini tekshirish.

**explorer** *vt* **1.** tadqiq qilmoq, razvedka qilmoq, tekshirib bilmoq, kashf etmoq (*biror mamlakat, notanish joyni*); **2.** tadqiq qilmoq, o'rganmoq, tekshirmoq; **explorer un sujet, une question** tema, masalani o'rganmoq; **3.** *méd* ichki organlar faoliyatini tekshirib ko'rmoq.

**exploser** *vi* **1.** portlamoq, portlab ketmoq; yorilmoq; **l'obus a explosé** snaryad portladi; **2.** *fig* g'azabi qaynab ketmoq; darg'azab bo'lmoq, tutamoq; **il a explosé de fureur** u tutaqib ketdi.

**explosif, ive I.** *adj* **1.** portlovchi, portlaydigan; portlash; portlatish; **une force explosive** portlash kuchi; **un gaz (mélange) explosif** portlovchi gaz (aralashmali); **2.** jahli, achchig'i, zardasi tez, qiziqqon, jizzaki, jirtaki; **3.** portlovchi (*tovush*) **II.** *nm* portlovchi modda.

**explosion** nf **1.** portlash; **faire explosion** portlamoq; yorilib, portlab bo'laklarga bo'linib ketmoq; **l'explosion d'un obus** snaryadning portlashi; **2. un moteur à explosion**; ichki yonuv dvigatel **3.** to'satdan, birdan yuz beradigan shiddatli, kuchli voqea, hodisa; **une explosion de joie** birdan paydo bo'lgan qattiq xursandlik.

**exportable** *adj* eksport qilinadigan, chet elga chiqariladigan, eksport; **des marchandises exportables** eksport qilinadigan tovarlar, eksport mollar.

**exportateur, trice I.** *adj* eksport qiluvchi, chetga mol chiqaruvchi; **un pays exportateur de blé** chetga don chiqaruvchi, eksport qiluvchi mamlakat; **II.** *n* eksportchi, eksport qiluvchi (*chet elga mol chiqaruvchi davlat*).

**exportation** *nf* **1.** eksport, chet elga chiqarish (*tovar, pul kabilarni*); **l'exportation des denrées alimentaires** chet elga oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarish; **2.** chetga g'oya, urf-odat, moda kabilarni eksport qilish.

**exporter** *vt* **1.** eksport qilmoq; chetga chiqarmoq; **exporter des capitaux** chetga kapital chiqarmoq; **2.** chet elga g'oya, urf-odat, moda kabilarni eksport qilmoq.

**exposant[1], ante** *n* ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadigan kishi; ko'rgazma qatnashchisi.

**exposant[2]** *nm math* daraja ko'rsatkichi.

**exposé** *nm* **1.** bayon, hikoya; **2.** axborot; hisobot doklad; **faire un exposé sur** haqida axborot bermoq.

**exposer I.** *vt* **1.** namoyish etmoq, ko'rsatmoq; ko'rgazmaga qo'ymoq **exposer des produits** mahsulotlarni ko'rgazmaga qo'ymoq; **2.** joylamoq, joylashtirmoq; qaratmoq, qarata o'rnatmoq; **exposer du linge au soleil** kirni quyoshga qaratib yoymoq; **exposer une maison à l'est** uy oynalarini sharqqa qaratib qurmoq; **3.** biror holga solmoq, yo'liqtirmoq, duchor, mubtalo qilmoq, uchratmoq; **exposer la vie de qqn** biror kimsaning hayotini xavf ostida qoldirmoq; **exposer ses hommes** o'z kishilarini xavf ostida qoldirmoq; **4.** bayon qilmoq; tushuntirib bermoq; **exposer son programme** o'z dasturini bayon qilmoq; **exposer une théorie** nazariyani bayon qilmoq; **5.** *photo* suratga olishda fotoplyonkaga ma'lum vaqt nur tushirmoq; **II. s'exposer** *vpr* biror holga tushmoq, uchramoq, yo'liqmoq, duchor, mubtalo bo'lmoq; **s'exposer aux critiques** tanqidga uchramoq; tanqidga uchramoq.

**exposition** *nf* **1.** ko'rgazma, vistavka; **l'exposition universelle** jahon ko'rgazmasi; **exposition agricole** qishloq xo'jalik ko'rgazmasi; **2.** bayon



www.ziyouz.com kutubxonasi

qilish; tushuntirib berish; **3.** *mus* tema; musiqa asarining asosiy ohangi; **4.** joylashish, joylashtirish; qaratib oʻrnatish; **exposition au nord** shimolga qaratib oʻrnatish, joylashtirish; **5.** *photo* suratga olishda fotoplyonkaga ma'lum vaqt nur tushirish; **6.** *phys* nurlantirish, nur berish.

**exprès[1], esse I.** *adj* **1.** qattiq; jiddiy, qat'iy; aniq; **un ordre exprès** jiddiy buyruq; **une défense expresse** nihoyatda qattiq mudofaa; **2.** shoshilinch, oshigʻich, kechiktirib boʻlmaydigan, zud zarur, zud; **une lettre expresse** shoshilinch xat; **II.** *nm* chopar.

**exprès[2]** *adv* ataylab, qasddan; **faire exprès** ataylab qilmoq.

**express I.** *adj* **un train express** tez yurar poyezd; **II.** *nm* ekspress, tez yurar poyezd; **prendre l'express** tez yurar poyezdga oʻtirmoq.

**expressément** *adv* **1.** qat'iyan, qat'iy ravishda, qattiq, qat'iy; **il est expressément défendu de fumer;** chekish qat'iyan man etiladi; **2.** ataylab, qasddan.

**expressif, ive** *adj* ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor; **un geste expressif** ma'nodor imo-ishora; **le caractère expressif** ma'nodorlik, ifodalilik, jonlilik.

**expression** *nf* **1.** ifodalash; bayon qilish; **2.** ibora; soʻz; matal; **3.** tashqi koʻrinishda, koʻzda, yuzda aks etgan belgi, chehra; **4.** *math* ifoda; **une expression algébrique** algebraik ifoda; **5.** ifodalilik, jonlilik, ma'nodorlik; **6.** siqib suvni chiqarish.

**expressionnisme** *nm* ekspressionizm (*Yevropada: san'at va adabiyotda 20-asrning birinchi yarmida paydo boʻlgan yoʻnalish; bu yoʻnalishning namoyandalari san'atkorning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini yoritishdan iborat, deb hisoblaydilar*).

**expressionniste I.** *adj* ekspressionizm va ekspressionizmga oid, ekpressionistik, ekspressionistik; ekspressionist; **II.** *n* ekspressionist, ekspressionizm tarafdori.

**exprimable** *adj* ifodalanadigan, ifodalanishi, ifodalash mumkin; **un sentiment difficilement exprimable** qiyin ifodalanadigan his-tuygʻu.

**exprimer[1]** *vt* **1.** ifodalanmoq, bayon qilmoq, tasvirlamoq (*til vositasida*), bildirmoq; **exprimer sa douleur par des larmes** hasratini koʻz yoshlari bilan ifodalamoq; **exprimer sa reconnaissance** oʻz minnatdorchiligini ifodalamoq.

**exprimer[2] I.** *vt* siqib, sitib suvini chiqarmoq; **II. s'exprimer** *vpr* **1.** gaplashmoq, gapirishmoq, oʻzaro, bir-birini tushunmoq; **il n'arrive pas à s'exprimer dans cette langue** u bu tilda qiyinchilik bilan gaplashadi; **2.** aytmoq, gapirmoq; fikrini ifoda qilmoq; **3.** ifodalanmoq, koʻrinmoq, namoyon boʻlmoq; **cela ne peut s'exprimer** buni soʻz bilan ifodalash mumkin emas.

**expropriation** *nf* ekspropriatsiya qilish (*ishlab chiqarish vositalaridan, mol-mulkidan, ilgarigi mavqedan mahrum qilish*).

**exproprier** *vt* ekspropriatsiya qilmoq, egasidan tortib olmoq, ishlab chiqarish vositalaridan, mol-mulkidan mahrum qilmoq, olmoq, davlat ixtiyoriga oʻtkazmoq, musodara qilmoq; **exproprier qqn** biror kimsani mol-mulkini tortib olmoq, musodara qilmoq.

**expulser** *vt* **1.** chiqarib yubormoq, haydab chiqarmoq, haydamoq, -dan chiqarmoq, badargʻa, surgun qilmoq; boʻshatmoq (*ishdan*)**expulser qqn de son pays** biror kimsani vatanidan chiqarib yubormoq; **2.** *méd* **expulser un calcul** buyrakdan tosh olmoq.

**expulsion** *nf* **1.** chiqarib yuborish; haydab chiqarish, haydash, oʻchirish, quvish, boʻshatish (*ishdan*); **l'expulsion d'un étudiant de l'université** talabani universitetdan haydash; **l'expulsion d'un locataire** ijarada turuvchi, oʻtiruvchini uydan koʻchirish. **2.** *méd* chiqarib yuborish, olib tashlash; **l'expulsion de calculs** buyrak toshini olib tashlash.

**expurger** *vt* yoqmaydigan joyini oʻchirmoq, oʻchirib, chizib tashlamoq; **expurger un livre, un scénario** kitobda, ssenariyadagi yoqmaydigan joylarni oʻchirib tashlamoq.

**exquis, ise** *adj* juda yaxshi, a'lo darajadagi, ajoyib, gʻaroyib; nazokatli, latofatli, nozik, nafis, goʻzal, zebo, gʻoyat yoqimli, koʻrkam, dilbar; **un mets exquis** tansiq taom; **une politesse exquise** oʻta xushfe'llik; **un sourire exquis** nozik tabassum; **une femme exquise** zebo ayol; **il fait un temps exquis** ob-havo juda ham yaxshi; ajoyib; **c'est exquis!** bu juda ajoyib, juda soz!

**exsangue** *adj* **1.** qonsiz yoki qoni kam; boʻzargan; **un visage exsangue** boʻzargan; oddiy, siyqa, suyuq; **une littérature exsangue** siyqa adabiyot.

**exsuder** *vi* **1.** tomchilamoq, tomchilab chiqib, oqib turmoq, chiqmoq, sizib chiqmoq, sizmoq; **2.** *vt* chiqarmoq; **un arbre qui exsude de la résine** yelim ajratib chiqarayotgan daraxt.

**extase** *nf* juda qattiq zavq, shavq, xursandlik; **tomber en extase** qoyil qolmoq, juda xursand boʻlmoq; **être en extase devant qqn** biror kimsadan zavq olmoq, biror kimsaga mahliyo boʻlmoq.

**extasier (s')** *vpr* zavqlanmoq, ich-chidan quvonmoq, shodlanmoq, mahliyo boʻlmoq; qoyil qolmoq; **il n'y a pas de quoi s'extasier** qoyil qoladigan hech narsa yoʻq.

**extatique** *adj* mahliyo boʻlgan, qoyil qolgan, zavq-shavqi qoʻzgʻagan, zavq-shavqdan mast boʻlgan; **un regard extatique** zavq-shavqdan mast boʻlgan nigoh, shod boʻlgan, shod-xurram, shod.

**extensibilité** *nf* choʻziluvchanlik (*qattiq jismlar haqida*).

**extensible** *adj* choʻziluvchi, choʻziladigan, uzayadigan; **une matière extensible** choʻziluvchi material.

**extensif, ive** *adj* **1.** choʻziladigan, uzayadigan; **une force extensive** tortish kuchi; **2.** des **cultures extensives** ekstensiv dehqonchilik.

**extension** *nf* **1.** choʻzish; yoyish; yoyilish; **l'extension du bras** qoʻlni choʻzish, yozish; **2.** qoʻllash, choʻzilganlik, uzunlik; **3.** kengayish; yoyilish; oʻsish, ravnaq; **l'extension du commerce** savdo-sotiqning oʻsishi; **l'extension d'une épidémie** epidemiyaning yoyilishi; **l'extension du sens d'un mot** soʻz ma'nosining kengayishi; **par extension** keng ma'noda.

**extenso (in)** *loc adv* toʻla, toʻliq suratda, batamom, tamoman.

**exténuant, ante** *adj* charchatadigan, juda ogʻir, mashaqqatli, tinka-madorini quritadigan, kuch-quvvatini oladigan, holdan toydiradigan. **des efforts exténuants** holdan toydiradigan harakat.

**exténuation** *nf* holdan toyish, tinka-madori qurish, qattiq charchash; haddan tashqari charchagan.

**exténué, ée** *adj* toliqqan, charchagan, tinkasi qurigan.

**exténuer I.** *vt* **1.** qattiq charchatmoq, kuch-quvvatni olmoq; tinka-madorini quritmoq; holdan toydirmoq, behol, bejamol qilmoq; **cette longue marche l'a exténué** uzoq yurishdan uning tinka-madori quridi. **II. s'exténuer** *vpr* qattiq charchamoq, holdan toymoq, tinka-madori qurimoq, behol, bejamol boʻlib qolmoq; **s'exténuer au travail** ishlab qattiq charchamoq, ishdan qattiq charchamoq; toliqmoq.

**extérieur, eure I.** *adj* **1.** tashqi, tashqaridagi, chetdagi, tashqarida joylashgan; **les quartiers extérieurs** chetdagi kvartallar; **2.** tashqi; xorijiy, chet; **la cour extérieure** tashqi hovli, **la politique extérieure** tashqi siyosat; **le commerce extérieur** tashqi savdo; **3.** tashqi dunyodagi; ob'yektiv borliqdagi; **la réalité extérieure** ob'yektiv reallik. **II.** *nm* **1.** tashqi koʻrinish; tashqi; **à l'extérieur de la ville** shahardan tashqarida; **2.** chet mamlakat; **les relations avec l'extérieur** tashqi aloqalar; chet mamlakatlar bilan aloqalar.

**extérieurement** *adv* tashqaridan qaraganda, sirtdan koʻrinishda, sirtdan, tashqaridan; **extérieurement, la maison est très jolie** tashqaridan qaraganda uy juda chiroyli.

**extériorisation** *nf* koʻrsatish, namoyon qilish; oshkor qilish.

**extérioriser** *vt* koʻrsatmoq, namoyon qilmoq, oshkor qilmoq.

**extériorité** *nf* tashqi xususiyat.

**exterminateur, trice I.** *adj* qiruvchi, qiron soluvchi, qironli, qirgʻin; **II.** *n* qiruvchi, mahv etuvchi.

**extermination** *nf* qirish, qirib tashlash, mahv etish; **l'extermination d'un peuple** bir xalqni qirib tashlash.

**exterminer** *vt* **1.** qirib tashlamoq, yoʻq qilmoq, qirgʻin solmoq; **exterminer l'ennemi** dushmanni qirmoq; **exterminer le mal** yomonlikni yoʻq qilmoq; **2. s'exterminer** *vt* bir-birini qirmoq, bir-birini qirib bitirmoq.

**externe I.** *adj* tashqi, sirtqi, tashqariga qaragan; **la face externe d'une paroi** devorning tashqi sathi; **II.** *n* **1.** ekstern (*oʻzicha tayyorlanib, biror oʻquv yurtida imtihon topshiruvchi shaxs*); internatda yashamaydigan, ammo darslarga qatnaydigan talaba; **2.** *méd* kasalxonadagi talaba-praktikant.

**externat** *nm* **1.** internatsiz maktab; **2.** *méd* medik-talabalar uchun kasalxonadagi praktika, amaliyot.

**extincteur** *nm* oʻt oʻchirgich, oʻt oʻchiradigan asbob.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**extinction** *nf* **1.** o'chirish, so'ndirish; o't o'chirish; **2.** *fig* so'nish pasayish; **3.** qirilish. yo'q bo'lib ketish, o'lib bitish, tuxumi qurish; **l'extinction d'une race** avlod, sulolaning yo'q bo'lib ketishi; **4.** qarzni uzish, to'lash.

**extirpation** nf ko'chitish, sug'irib olish; barham berish.

**extirper I.** *vt* **1.** ildizi bilan ko'chirmoq, sug'urmoq, o'simtani olib tashlamoq; **2.** *fig* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, ildizini quritmoq, barham bermoq; **extirper un préjugé** bid'atga barham bermoq; **3.** qiyinchilik bilan chiqarmoq, sug'urmoq; **extirper les passagers d'une voiture accidentée** falokatga uchragan mashinadan yo'lovchilarni qiyinchilik bilan chiqarib olmoq; **II. s'extirper** *vpr* biror joydan qiyinchilik bilan chiqmoq, chiqib olmoq.

**extorquer** *vt* do'q po'pisa, ayyorlik bilan undirmoq, undirib olmoq, ega bo'lmoq, olmoq; ta'magirlik yo'li bilan olmoq.

**extorsion** *nf* do'q po'pisa, ayyorlik bilan undirish, ega bo'lsh, olish; ta'magirlik.

**extra[1] I.** *adj inv* ekstra, eng oliy nav, eng a'lo; eng yaxshi; **des fruits extra** eng a'lo nav mevalar, **II.** *nm* **1.** odatdan tashqari qo'shimcha (*sarf-xarajat, ovqat kabilar haqida*) **2.** qo'shimcha ish; vaqtinchalik ish; **faire des extras le samedi** shanba kunlari ish joyidan chetda ishlab pul topmoq; **3.** qo'shimcha, shtatdan tashqari ishchi, xodim; **engager deux extras, deux extra** qo'shimcha ikkita ishchi yollamoq.

**extra-[2]** *préf* **1.** "tashqarida" ma'nosini ifodalaydi; **2.** "eng yaxshi, "eng a'lo" ma'nosini ifodalaydi.

**extracteur[1]** *nm* ekstraksiya, sug'urib, qazib, eritib olish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs.

**extracteur[2]** *nm* **1.** *chir* sug'urib olish, olib tashlash uchun ishlatiladigan asbob. **2.** avtomatik qurollarda otilgan o'q gilzasini chiqarib tashlovchi qism; **3.** *chim* ekstraksiya apparati, biror moddani ajratib olish, eritib olish ushun mo'ljallangan apparat.

**extractif, ive** *adj* ekstraksiyaga oid, ekstraksion; ekstraksiya uchun mo'ljallangan; ekstraksiya yo'li bilan olingan; **les industries extractives** kon sanoati.

**extraction** *nf* **1.** qazib chiqarish; sug'urib olish; **l'extraction du charbon** ko'mir qazib chiqarish; **l'extraction d'une dent** tishni sug'urib olish; **2.** *math* ildiz chiqarish; **3.** *litt* kelib chiqish, nasli.

**extradition** *nf* chet, boshqa mamlakatga jinoyatchini topshirish.

**extraire[1] I.** *vt* **1.** qazib chiqarmoq, qazib olmoq; sug'urib olmoq; **extraire une balle** o'qni sug'urib olmoq; **2.** asardan parcha olmoq; **extraire une citation d'un livre** asardan sitata olmoq; **II. s'extraire** *vpr* qiyinchilik bilan chiqmoq (*tor joydan*).

**extraire[2]** *vt* **1.** ajratib olmoq; **extraire le jus d'un fruit** mevadan sharbat ajratib olmoq; **2.** *math* kvadrat ildiz chiqarmoq.

**extrait** *nm* **1.** ekstrakt (*kimyoviy yo'l bilan organik to'qimalardan olingan modda*); **extrait de viande** go'sht ekstrakti; **extrait de café** qahva ekstrakti; **2.** parcha, sitata, ko'chirma; **extraits de Voltaire** Volter asaridan parcha; **3.** ko'chirma (*biror hujjatdan*); **un extrait de naissance** tug'ilganlik haqida ma'lumotnoma; **un extrait de compte** schyotdan, hisob-kitob daftaridan ko'chirma.

**extralucide** *adj* oldindan ko'ra oladigan, bila oladigan, o'tkir aqlli, uzoqni ko'radigan.

**extra-muros** *loc adv* et *adj* shahardan tashqarida; shahardan tashqaridagi; **habiter extra-muros** shahardan tashqarida yashamoq; **un quartier extra-muros** shahardan tashqaridagi kvartal.

**extraordinaire** *adj* **1.** navbatdan tashqari, favqulodda, alohida, maxsus; **une session extraordinaire** favqulodda; **un envoyé extraordinaire** maxsus muxbir, **les dépenses extraordinaires** ko'zda tutilmagan sarf-xarajatlar, alohida zaruriy xarajat; **un budget extraordinaire** zaruriy xarajatlarni qoplash uchun arjratilgan pul; **par extraordinaire** kutilmaganda, istakka qarshi; **2.** g'alati, ajoyib, ajib, g'aroyib, ajablanarli, hayratomuz; qiziq; **une aventure extraordinaire** g'alati sarguzasht; **une conduite extraordinaire** qiziq, g'alati yurish-turish, xulq-atvor; **3.** kam uchraydigan, nodir, noyob; hayratda qoldiradigan, nihoyatda ajoyib; **un homme d'une beauté extraordinaire** hayratda qoldiradigan darajadagi chiroyli kishi.

**extraordinairement** *adv* **1.** favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta; misli ko'rilmagan bir ravishda, g'oyat, nihoyat darajada, nihoyatda; **il est extraordinairement content** u g'oyat xursand; **il est extraordinairement intelligent** u haddan tashqari aqlli; **2.** g'alati, ajab, qiziq; kulgili.

**extrapolation** *nf* extrapolyatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tadbiq etish*).

**extrapoler** *vi* extrapolyatsiya qilmoq.

**extravagance** *nf* **1.** tentaklik, ahmoqlik, telba-teskari ish tutish; ajiblik, g'alatilik, qiziqlik; ajablanarlik; g'ayrioddiylik; **tomber dans l'extravagance** g'ayrioddiy holatga tushmoq; **l'extravagance de ses opinions** uning fikrlari g'alatiligi; uning g'alati, tentaknamo fikrlari; **2.** bema'ni gap, ish, safsata; **je n'ai pas le temps d'écouter ces extravagances** bu safsata, bo'lmag'ur gapni eshitishga vaqtim yo'q.

**extravagant, ante I.** *adj* g'ayrioddiy, odat bo'lmagan, ajib, g'alati; telba-teskari, tentak, tentaklarcha; bemulohaza; **une idée extravagante** g'alati, g'ayrioddiy fikr, **un garçon extravagant** g'alati bola; **II.** *n* ahmoqona, telba-teskari ish qiladigan odam, g'irt tentak, jinni.

**extraverti, ie** *ou* **extroverti, ie I.** *adj psych* odamga el bo'ladigan, ulfat, dilkash; **II.** *n* ulfat, dilkash odam; hammaga el bo'lib ketadigan odam.

**extrême I.** *adj* **1.** oxirgi, so'nggi, keyingi, bo'ladigani; **attendre jusqu'à l'extrême limite** eng oxirgi, so'nggi, keyingi muddatgacha kutmoq; **l'Extrême-Orient** Uzoq Sharq; **2.** hadsiz, chegarasiz, cheksiz, haddan tashqari; **il est extrême en tout** u hech narsada chegara meyorni bilmaydi; **des remèdes extrêmes** haddan tashqari kuchli dori; **3.** misli ko'rilmagan; katta; juda, g'oyat, so'ng darajada, haddan tashqari, qattiq, benihoyat; **avec la plus extrême politesse** haddan tashqari nazokatlilik bilan; **à l'extrême rigueur** boshqa iloji bo'lmasa, iloji topilmasa; **II.** *nm* **1.** qarama-qarshi, tersma-ters ikki hol; **passer d'un extrême à l'autre** o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urmoq; **les extrêmes se touchent** qarama-qarshi tomonlar ro'para kelishmoqda; **2.** *pl math* proportsiyaning chetki hadlari.

**extrêmement** *adv* juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada; uchiga chiqqan, o'taketgan, g'irt.

**extrême-onction** *nf* cherkov odati bo'yicha o'layotgan yoki og'ir yotgan odamning peshonasi va qo'llarini muqaddas yog' bilan moylash.

**extrémisme** *nm* extremizm (*siyosatda; keskin chora-tadbirlar ko'rishga tarafdorlik*).

**extrémiste I.** *adj* extremizm va extremistga oid; extremistik; les députés **les plus extrémistes** o'ta extremist deputatlar; **II.** *n* extremist (*extremizm tarafdori*).

**extrémité** *nf* **1.** uch, boshi, oxiri, cheti; **à l'extrémité de la rue** ko'chaning oxirida; **2.** *pl* qo'llar, oyoqlar; **il a les extrémités glacées** uning oyoq va qo'llari muzlab qoldi; **2.** *fig* so'nggi chek, chegara haddan ortiq holat; eng keskin choralar; **être à la (toute) dernière extrémité** o'lim to'shagida yotmoq; **tomber d'une extrémité dans une autre** o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urmoq.

**extrinsèque** *adj* tashqi, chetki, chetdan, tashqaridan keladigan; **les causes extrinsèques d'une maladie** kasallikning tashqi, ko'rinishdan, zohiriy sabablari; **la valeur extrinsèque** ustiga yozib qo'yilgan qiymat (*pul, obligatsiya kabilarda*).

**extroverti, ie** *voir* **extraverti**.

**exubérance** *nf* **1.** mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, serobchilik, to'kin-sochinlik; to'qlik, ma'murchilik; **l'exubérance de la végétation** tez avj olgan, gurkiragan o'simliklar; **2.** tuyg'usi tug'yon urishlik, o'zini tiya olmaslik; tez qizishib ketishlik; qiziqqonlik, tezlik; hovliqish, ehtiros.

**exubérant, ante** *adj* **1.** mo'l, mo'l-ko'l, serob, juda ko'p; to'kin-sochin; **une végétation exubérante** gurkirab o'sayotgan, baravj o'simliklar; **2.** ekspansiv, tuyg'usi tug'yon uradigan, o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan; **un homme exubérant** tez qizishib ketadigan kishi.

**exultation** *nf* shodlik, shod-xurramlik, shodiyona; **être dans l'exultation du succès** muvaffaqiyatidan, muvaffaqiyati uchun shod-xurram bo'lmoq, quvonmoq.

**exulter** *vi* **1.** shodlanmoq, shod-xurram, shodmon bo'lmoq, quvonmoq, zavqlanmoq; **exulter de joie** o'zida yo'q shodlanmoq, quvonmoq; **2.** ichiqoralik qilmoq, birovning baxtsizligidan sevinmoq; **nos voisins exultaient de nous voir ainsi nous affaiblir** qo'shnilarimiz bizning zaiflashayotganimizdan sevinardilar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**exutoire** *nm fig* yupanchiq, ovunchoq, tasalli, taskin, osoyish, orom beradigan narsa.

**ex-voto** *nm inv* tangrining marhamati, rahm-shafqati uchun cherkov yoki ibodatxonaga qo'yiladigan minnatdorchilik so'zlari bitilgan buyum yoki toshtaxta.

# F

**F, f** fransuz alifbosining oltinchi harfi.

**fa** *nm inv mus* fa (*nota*).

**fable**[1] *nf* mifologiya, miflar, afsonalar, asotir.

**fable**[2] *nf* **1.** masal, zarbulmasal; **2.** uydirma, to'qima, bo'lmagan gap; **fables que tout cela** bu hammasi uydirma; **3.** fabula (*badiiy asarda tasvirlangan voqealar zanjiri*).

**fabliau** *nm* fablio (*O'rta asr fransuz adabiyotida xalq janri*).

**fabricant, ante** *n* fabrikant, fabrika egasi; **un petit fabricant** mayda tadbirkor.

**fabrication** *nf* tayyorlash, ishlab chiqarish; **la fabrication en grande série** ko'p miqdorda ishlab chiqarish.

**fabrique** *nf* **1.** fabrika, zavod; **le prix de fabrication** ishlab chiqarish narxi; **2.** ishning sifati, ishlanishi, ishlov; **cela sort de sa fabrique** bu uydirma; **3.** cherkov mulki; **4.** cherkov maslahati.

**fabriquer** *vt* tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq; to'qimoq, o'ylab chiqarmoq.

**fabulateur, trice** *n* o'ylovchi, to'quvchi odam.

**fabulation** *nf* to'qish, o'ylash o'yinlari, uydirma.

**fabuleux, euse** *adj* afsonaviy, mifologik, fantastik, ishonib bo'lmaydigan, xayoliy, g'aroyib.

**façade** *nf* **1.** fasad, binoning old tomoni; **2.** oldidan ko'rinishi; **3.** ko'rinish.

**face** *nf* **1.** yuz; **la face humaine** odam yuzi; **face à face** yuzma-yuz; nisbatan (*kimgadir, nimagadir*); **en face** *loc adv* oldidan, tikka, to'g'ri, to'g'ridan-to'g'ri; qo'rqmasdan; **regarder en face** ko'ziga tik qaramoq; **en face de** *loc prép* oldida, qarshisida, ro'parasida; **sauver la face** obro'sini saqlamoq; **perdre la face** obro'sini yo'qotmoq; **faire face à** qarshilik qilmoq; **faire face à tous les événements** hamma narsaga tayyor turmoq; **faire face à ses engagements** o'zining majburiyatini bajarmoq; **2.** old tomoni; **de face** oldidan; **3.** ustki tomon.

**facétie** *nf* qo'pol hazil; qiliq, hiyla-nayrang.

**facétieux, euse I.** *adj* hazilkash, qiziqchi, quvnoq; **II.** *n* hazil qiladigan odam, quvnoq odam.

**facette** *nf* chegara; **à facettes** qirrali, ko'p qirrali; *zool* **les yeux à facettes** hasharotlarning fasetkali ko'zi.

**fâché, ée** *adj* jahldor, achchig'i tez; **je suis fâché que** menga achinarli, men achinaman.

**fâcher I.** *vt* **1.** jahlini chiqarmoq, jahl uyg'otmoq, xafa qilmoq; **II. se fâcher** *vpr* jahli chiqmoq, xafa bo'lmoq; **il se fâche de tout** hamma narsa jahlini chiqaradi; **se fâcher tout rouge** juda qattiq jahli chiqmoq; **se fâcher contre qqn** kimdandir jahli chiqmoq; **se fâcher avec** kim bilandir urushib, aytishib qolmoq.

**fâcherie** *nf* **1.** urishish, janjal; **2.** o'kinch, achinish, ranj, alam.

**fâcheux, euse I.** *adj* achinarli, o'kinchli, alamli; **un contretemps fâcheux** alamli, achinarli to'siq, xalaqit; **de fâcheux effets** noxush oqibat; **se mettre en fâcheuse posture** noqulay ahvolga tushib qolmoq; **II.** *n* jonga tegadigan, shilqim odam.

**facial, ale** *adj* yuz uchun mo'ljallangan.

**faciès** *nm* **1.** yuz, yuz turi, umuliy ko'rinish; **2.** *géol* fatsiya.

**facile** *adj* **1.** yengil, oson; **2.** gapga ko'nadigan, muomalaga yuradigan.

**facilement** *adv* osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz.

**facilité** *nf* **1.** osonlik, qiyinchiliksiz, mashaqqatsizlik; **2.** xushmuomalalik, muloyimlik, sertakaluflik; **3.** o'ng'aylik, qulaylik; **les facilités de transport** transport qulayligi; **4.** imtiyoz shartlari; **donner toutes les facilités à qqn** kimgadir hamma imtiyozlarni bermoq; **5.** qobiliyat; **une facilité à apprendre qqch** nimanidir o'zgartirishga qobiliyati bo'lmoq; **6.** imkoniyat, vosita.

**faciliter** *vt* yengillashtirmoq, osonlashtirmoq.

**façon** *nm* **1.** fason, bichim, nusxa, andoza; **des travaux à façon** tikish; **2.** qoplama, ziynat, bezak, pardoz; **3.** ishlov berish; **4.** murojaat, vosita, yo'l; **une façon de penser** o'ylash vositasi; **en aucune façon** hech qanaqasiga, hech qanday; **d'une façon générale** umuman olganda; **de façon concrète** aniq; **à sa façon** o'zicha; **de toute façon** har ehtimolga qarshi; **de façon à** *loc prép* shunday qilib, shuning uchun; **5.** marosim, udum; **point de façons!** bu udumlarni jamlang! **sans façon(s)** takallufsiz, beandisha.

**faconde** *nf* so'zamollik, gapdonlik, mahmadonalik.

**façonner I.** *vt* **1.** ajratmoq, ayirmoq; quymoq, qoliplamoq; **2.** (**à qqch**) o'rgatmoq, odatlantirmoq, ko'niktirmoq; **3.** ishlov bermoq (*yerga, uzumga*); **II. se façonner** *vpr* qayta ishlatmoq.

**fac-similé** *nm* (**fac-similés**) faksimile (*qo'lyozma, hujjat yoki imzoning aynan tiklangan nusxasi*), reproduksiya, kopiya.

**facteur**[1]**, trice** *n* **1.** pochtachi, xat tashuvchi; **le facteur rural** qishloq pochtachisi; **2.** ba'zi musiqa asboblarini yasovchi usta; **3.** vositachi, dallol (*savdo ishida*); **4.** tashuvchi.

**facteur**[2] *nm* **1.** asosiy omil, harakat qiluvchi kuch; **2.** *math* ko'paytiruvchi, koeffisent.

**factice** *adj* **1.** sun'iy, yasama, qalbaki; **2.** yasama, soxta, yolg'ondakam.

**factieux, euse I.** *adj* isyon ko'taruvchi, isyonchi, isyonkor; **II.** *nm* isyon ko'taruvchi odam.

**faction** *nf* **1.** isyonchilar, fitnachilar guruhi; **2.** soqchilik; **être de faction** postda turmoq; **relever un soldat de sa faction** qorovulni, soqchini almashtirish; **3.** uzoq kutish.

**factionnaire** *nm* soqchi; vaxta soqchisi (*kemalarda*).

**factorielle** *nm math* faktorial.

**factotum** *nm* **il est son factotum** u uning o'ng qo'li.

**factum** raqibiga qarshi yozilgan asar (*haqorat yoki tuhmat qilib yozilgan asar*).

**facture**[1] *nf* **1.** faktura, uslub, o'ziga xoslik; **2.** manera, bichim, tuzilish, yo'l, taxlit.

**facture**[2] *nf* faktura, yorliq, hisob; **le montant de facture** tannarx.

**facturer** *vt* hisob-kitob qilib yozib bermoq.

**facturier** *nm* **1.** fakturalar daftari; **2.** faktura tuzuvchilar.

**facultatif, ive** *adj* majburiy bo'lmagan, ixtiyoriy ravishda.

**faculté** *nf* **1.** qobiliyat, xususiyat; **les facultés intellectuelles** aqliy qobiliyat; **2.** imkoniyat; **3.** huquq, hokimiyat, vakolat, vakillik; **4.** fakultet, kulliyot; **la faculté des lettres** filologiya fakulteti.

**fada** *nm fam* miyasi bir oz aynigan, tentakroq, jinniroq.

**fadaise** *nf* pastkashlik, razillik; bema'ni gap, safsata; **dire des fadaises** bema'ni gapni gapirmoq.

**fadasse** *adj* **1.** bemaza, ta'msiz; **2.** so'ligan, so'lib qolgan; **3.** *fig* ifodasiz, sayoz, siyqa, bo'sh.

**fade** *adj* **1.** ta'msiz, bemaza; **2.** ifodasiz, sayoz, bo'sh; **un style fade** bo'sh uslub; **3.** irodasiz, bo'shang, sust.

**fadé, ée** *adj* muvaffaqiyatga erishgan.

**fadeur** *nf* ta'msizlik.

**fafiot** *nm fam vieilli* bank bileti, pul.

**fagot** *nm* bog', bog'lam; **un fagot d'épines** doim tajang, achchig'i tez odam, zahar, qumron; **du vin de derrière les fagots** yaxshi vino, saqlab qo'yilgan vino.

**fagoter I.** *vt fig* didsiz kiyintirmoq; **être mal fagoté** yomon kiyimda bo'lmoq; **II. se fagoter** *vpr* didsiz kiyinmoq.

**faiblard, arde** *adj* juda bo'sh.

**faible I.** *adj* **1.** bo'sh, kuchsiz, zaif, nimjon; **un élève faible** bo'sh o'quvchi; **faible de caractère** bo'sh xarakterli; **2.** zaif xarakterli; **3.** mayda, ahamiyatsiz; **un faible pourcentage** oz foyizli; **II.** *nm* **1.** zaif tomon; **prendre qqn par son faible** nimanidir zaif tomoniga tegmoq; **2.** ishqibozlik,



www.ziyouz.com kutubxonasi

qiziqishlik; **III.** *n* bo'sh, zaif odam; **protéger le faible** zaiflarni himoya qilmoq; **un faible d'esprit** aqli zaif.

**faiblement** *adv* **1.** bo'shgina; **2.** zo'rg'a eshitiladigan.

**faiblesse** *nf* **1.** bo'shlik, zaiflik, kuchsizlik, behudlik, behuzurlik; **par faiblesse** zaiflik tufayli; **2.** qo'rqoqlik, yuraksizlik, irodasizlik, sustlik; **avoir de la faiblesse pour** moyil bo'lmoq (*kimgadir*); **3.** chidamsizlik, bepandlik; **4.** noziklik.

**faiblir** *vi* zaiflashmoq, bo'shashmoq; **le vent faiblit** kuchsiz shamol esyapti.

**faïence** *nf* fayans (*ganch aralash loy*); fayans buyumlar, chinni.

**faille[1]** *nf* **1.** *géol* uzilma, uzilib, siljib tushgan tog' jinsi, yer ko'chishi, joyidan siljish; **2.** kamchilik, yetishmovchilik, bo'shlik.

**faille[2]** *nf* fay (*ipak gazlama*).

**failli, ie I.** *adj* singan, inqirozga uchragan; **II.** *n* bankrot bo'lgan, singan savdogar, sarmoyador.

**faillir** *vi* **1.** kam bo'lmoq, yetmaslik; **sans faillir** albatta bo'ladigan; **2.** bo'shashmoq; **le cœur lui a failli** uning yuragi chidamadi, ko'tarmadi; **la mémoire lui a failli** u adashdi; **3.** erita olmaslik; **4.** bankrot bo'lmoq, sinmoq; **5.** (*à qqch*) buzmoq, rioya qilmaslik; **6.** **+***inf* sal qolmoq, oz qolmoq; **il a failli mourir** u o'lishiga oz qoldi; **j'ai failli tomber** sal bo'lmasa yiqilardim.

**faillite** *nf* **1.** nochorlik, kambag'allik, sinish, xonavayron bo'lish; **une mise en faillite** sinishini, vayron bo'lishini tan olish; **faire faillite** vayron bo'lmoq, sinmoq; **être en faillite** qarzdor bo'lmoq. **2.** omadsizlik.

**faim** *nf* **1.** ochlik; **avoir faim** och qolmoq, och bo'lmoq; **ne pas manger à sa faim** to'ymaslik; **rester sur sa faim** ochlikni qondira olmaslik. **2.** *fig* astoydil istash; **avoir faim de** chanqoq bo'lmoq, istamoq, xohlamoq.

**faîne** *nf* qora qayin daraxt hosili.

**fainéant, ante I.** *adj* yalqov, dangasa; **II.** *n* yalqov, dangasa, ishyoqmas odam.

**fainéanter** *vi* ishsiz yurmoq, dangasalik qilmoq, laqillab yurmoq.

**faire[1] I.** *vt* **1.** qilmoq, tayyorlamoq; **vous devriez bien faire cela** siz buni qilishingiz kerak edi; **il faut faire qqch** nimadir qilish kerak; **c'est ce que je fais** men aynan shuni qilaman; **il n'y a rien faire** qiladigan ish yo'q; **cela ne fait rien** bu hech narsa qilmaydi; **2.** qilmoq, yasamoq, kashf qilmoq, ishlab chiqarmoq; **faire des vers** she'r to'qimoq; **faire un discours** nutq so'zlamoq; **faire un dessin** rasm chizmoq; **faire un plan** plan tuzmoq; **3.** qilmoq, bajarmoq; **faire la commission** topshiriqni bajarmoq; **4.** qilmoq; **faire un tour, faire une promenade** sayir qilmoq; **faire un voyage** sayohat qilmoq; **faire qqch sans y être convié** biror narsani so'ramasdan qilmoq; **faire un bilan** xulosa qilmoq, yakunlamoq; **faire mouche** maqsadga erishmoq, mo'ljalga urmoq; **faire naufrage** kema halokatga uchramoq; **faire la conquête de** erishmoq, nimanidir egallab olmoq; **faire injure à** kimnidir haqorat qilmoq, xafa qilmoq; **faire pression** siquvga olmoq; **faire la grève** ish tashlamoq, isyon ko'tarmoq; **faire la guerre** urushmoq, urush olib bormoq; **faire l'étalage de qqch** nimanidir namoyish qilmoq; **faire ses dévotions** diniy marosimlarni bajarmoq, ibodat qilmoq, sig'inmoq; **faire une tache** dog' qilmoq; **faire le malin** ayyorlik qilmoq; **faire la fanfaron, faire le glorieux** maqtanmoq, katta og'izlik qilmoq, katta gapirmoq; **faire corps avec** bir butunni tashkil qilmoq; **faire figure de** ko'rinishga ega bo'lmoq; **faire mine de** shunchaki ko'rinish qilmoq, o'zini qilib ko'rsatmoq; **faire face à** qarshilik qilmoq; **faire faillite** sinmoq, qashshoqlashmoq; **faire justice de** hukm chiqarmoq, fosh qilmoq; **faire don de sa personne** o'zini qurbon qilmoq; **faire-part** xabar bermoq, xabardor qilmoq; **faire main basse** o'g'irlamoq, qaroqchilik qilmoq; **faire preuve de** isbotlamoq; **faire usage de** qo'llamoq; **faire volte-face** qarashlarni tezda o'zgartirmoq; **faire front** qarshilik ko'rsatmoq; **faire de la publicité** reklama qilmoq; **faire grand cas de** qadrlamoq, katta ahamitat bermoq; **faire état de** e'tiborga olmoq; **faire droit à** qoniqtirmoq, yo'l bermoq; **faire coupable** aybdor deb hisoblanmoq, ayblamoq; **5.** nima bilandir mashg'ul bo'lmoq; **faire sa médecine** tibbiyotni o'rganmoq; **faire du sport** sport bilan shug'ullanmoq; **6. faire le lit** joyni yig'moq, to'shamoq; **faire la vaisselle** idish-tovoq yuvmoq; **faire sa toilette** yuvinmoq; **faire ses cheveux** sochini oldirmoq; **faire le trottoir** fohishalik bilan shug'ullanmoq; **7.** tayinlamoq; **on l'a fait professeur** uni o'qituvchi qilib tayinlashdi; **8.** chaqirmoq, chorlamoq, taklif qilmoq, sabab bo'lmoq, zarar keltirmoq; **faire des dificultés** to'sqinlik qilmoq, to'sqin bo'lmoq; **faire obstacle** to'siq bo'lmoq, to'xtatmoq; **faire honte** uyaltirmoq; **faire plaisir** zavq-shavq keltirmoq; **faire du chagrin** xafa qilmoq; **faire de la peine** urintirmoq, bezovta qilmoq; **faire peur** qo'rqitmoq; **faire du bruit** shovqin qilmoq; **9.** bo'lib ko'rinmoq, tuyulmoq, o'xshatmoq; **faire honneur à** izzatlamoq, hurmatlamoq; **faire du zèle** tirishmoq, g'ayrat qilmoq; **faire attention à** diqqatini jalb qilmoq; **10. faire rire** kuldirmoq; **faire mourir** o'ldirmoq; **faire savoir** xabar bermoq; **faites entrer!** kiriting! **faire passer** bermoq, yetkazmoq; **faire valoir** daromad olmoq; ta'kidlamoq, alohida ajratmoq; **faire faire** qilishga buyirmoq; **II.** *vi* **1.** harakat qilmoq; **faire bien, mal** yaxshi, yomon harakat qilmoq; **faire de son mieux** butun vujudi bilan harakat qilmoq; **il ferais mieux de rester** u qolsa yaxshi bo'lardi; **2.** *v impers* **il fait froid** sovuq; **III. se faire** *vpr* **1.** bo'lmoq, bo'la boshlamoq; **se faire vieux** keksaymoq, qarimoq; yoshiga yosh qo'shilmoq; **2.** o'rnashmoq, qaror topmoq; paydo bo'lmoq, yuzaga kelmoq; **3.** o'ziga yaratmoq, paydo qilmoq; **se faire des embêtements** o'ziga noxushlik yaratmoq; **se faire de la bile, se faire du mauvais sang** xafa bo'lmoq, ko'ngli tushib ketmoq; **se faire un devoir de** o'zining vazifasi, burchi deb bilmoq; **4. (à qqch)** ko'nikmoq, o'rganmoq; **se faire au froid** sovuqqa ko'nikmoq; **5. s'en faire** hayajonlanmoq, bezovta bo'lmoq; **ne pas s'en faire** hayajonlanmaslik; **il se fait froid** sovuq bo'lmoq; **comment se fait-il?** bu qanday ro'y berdi; **c'est fait** tayyor; **c'est un grand pas de fait** bu oldinga qarab katta siljish; **faisant fonction** bajaruvchi, o'rniga ishlab turuvchi, vazifani ado etuvchi; **chemin faisant** yo'l-yo'lakay.

**faire[2]** *nm* ustalik, uslub, texnika, bajarish.

**faire-part** *nm inv* bildirish xati.

**fair-play** *nm* sof, to'g'ri o'yin.

**faisable** *adj* bajariladigan, mumkin bo'lgan, amalga oshiriladigan.

**faisan, ane** *n* **1.** qirg'ovul, tustovuq; **2.** *nm arg* firibgar, tovlamachi, qallob, muttaham.

**faisander** *vt* ovning, ovda tutilgan o'ljaning go'shti o'ziga xos yoqimli hid olishi, xushbo'ylashishi uchun pishirmasdan biroz saqlab, aynitib qo'ymoq.

**faisceau** *nm* **1.** bog'lam, o'ram, dasta; **2.** bir-biriga tayab piramidasimon qilib qo'yilgan miltiqlar; **3.** nur, nur tarami, dastasi.

**faiseur, euse** *nf* **1.** tayyorlab beruvchi, usta; **2.** fitna odam, fitnachi, g'alamis.

**fait[1]** *adj* **1.** qilingan, tugallangan; **c'est bien fait** yaxshi qilingan, qiyomiga yetgan; **2.** yetuk, yetilgan; **il est bien fait** u xushbichim; **un homme fait** yetuk, komil inson.

**fait[2]** *nm* **1.** ish, harakat, faoliyat; **prendre qqn sur le fait** ustidan chiqib qolmoq; **licencier pour fait de grève** ish tashlashda qatnashganligi uchun ishdan bo'shatmoq; **le fait est que** gap shundaki; **ce n'est pas de mon fait** bu menga to'g'ri kelmas ekan; **2.** voqea, hodisa; **un fait accompli** ro'y bergan voqea; **un fait avéré** aniq fakt; **un fait notoire** hammaga ayon bo'lgan narsa; *loc adv* **de fait** haqiqatdan ham; **du fait de** tufayli, oqibatda; **par le fait que** shu boisdan, shu tufayli.

**faîtage** *nm* tomning tepa qirrasi, tom tepasidagi to'sin.

**faîte** *nm* **1.** cho'qqi, balandlik, qirra; **ligne de faîte** tog' cho'qqisi; **2.** *fig* cho'qqi, yuksak (*shon-shuhrat ma'nosida*).

**faix** *nm* yuk, og'irlik, og'ir yuk; **le faix des années** og'ir yillar; **succomber sous le faix** og'irlik ostida cho'kmoq.

**fakir** *nm* faqir.

**falaise** *nf* dengiz bo'yidagi qoya, tik, osilib turgan qoya, qoyatosh.

**fallacieux, euse** *adj* yolg'on, qalbaki.

**falloir I.** *vi* burchli bo'lmoq, biror ishni bajarishi, qilishi kerak bo'lmoq, lozim bo'lmoq; **il va falloir** kerak bo'lmoq; **il faut** o'rinli, yetarli, risoladagidek; **un homme comme il faut** tartibli, oriyatli odam; **II. s'en falloir** *v impers* sal kam bo'lmoq, yetishmaslik; **il s'en faut, il s'en faut bien, il s'en faut de** sal bo'lmasa.

**falot[1]** *nm* **1.** chiroq, fonar, fonus; **2.** *arg mil* harbiy dala sudi, tribunal.

**falot[2], ote** *adj* **1.** *vx* kulgili, beo'xshov, bema'ni, qiziq, g'alati, tentaksifat; **2.** ko'zga tashlanib turmaydigan, nazarga ilinmaydigan, e'tibori, salmog'i, nufuzi yo'q, notavon.

**falsificateur, trice** *nf* soxtalashtiruvchi, qalbakilashtiruvchi, qallob.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**falsification** *vt* soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq.

**falzar** *nm* ishton, shim.

**famé, ée** *adj:* **mal famé** yomon nom chiqargan, yomon otliq.

**famélique** *adj* och, och qolgan, to'yib ovqat yemagan.

**fameux, euse** *adj* **1.** mashhur, taniqli; **2.** ajoyib, a'lo, juda yaxshi; **3.** ashaddiy, o'ta ketgan.

**fameusement** *adv* taniqli, a'lo darajada; *fam* juda.

**familial, ale** *adv* oilabop, oilaviy; **les allocations familiales** ko'p bolali oilalarga nafaqa.

**familiariser I.** *vt* (**qqn avec qqch**) biror narsaga o'rgatmoq, ko'niktirmoq, odatga aylantirmoq; **II. se familiariser** *vpr* **1.** (**avec qqn**) kim bilandir yaqin bo'lmoq; **2.** (**avec qqch**) egallamoq, ko'nikmoq; **se familiariser avec une langue étrangère** chet tiliga o'rganmoq, ko'nikmoq.

**familiarité** *nf* erkinlik, bemalollik, betakalluflik, takallufsizlik; **se permettre des familiarités** betakalluflikka yo'l qo'ymoq.

**familier, ère I.** *adj* **1.** yaqindan tanish, yaqin, qondosh; **être familier avec qqn** birov bilan do'stona munosabatda bo'lmoq; **2.** erkin, bemalol, tabiiy; **3.** kunda ishlatiladigan, odat bo'lib qolgan; **un langage familier** og'zaki nutq; **un mot familier** kunda, odatdagi ishlatiladigan so'z; **4.** oddiy, tabiiy, tanish; **cela lui est familier** bu unga tanish; **5.** xos bo'lgan, odat bo'lgan; **II.** *n* yaqin, o'zining odami (*o'ziga yaqin bo'lgan odam*).

**familièrement** *adv* do'stona, betakallufona.

**famille** *nf* **1.** oila, avlod, qondosh, qarindosh; uy; oila a'zolari, uydagilar; **une famille nombreuse** ko'p bolali oila; **en famille** o'zlari orasida; faqat oilada; **un fils de famille** boy ota-onaning, boyning bolasi; **2.** oila (*biologiyada*); **3.** oila (*tilshunoslikda*); **famille des langues romanes** roman tillari oilasi; **famille de mots** bir negizli so'zlar.

**famine** *nf* ochlik, ochqash; **crier famine** muhtojlikdan, och-nochorlikdan shikoyat, faryod qilmoq; **une vie de famine** och-yalang'och holda yashash.

**fanal** *nm* katta chiroq, belgi chirog'i, lampali projektor (*parovozlarda*).

**fanatique I.** *adj* ashaddiy, o'taketgan; **II.** *nm* fanatik, mutaassib.

**fanatiquement** *adv* fanatikka oid, o'taketgan, ashaddiy.

**fanatisme** *nm* fanatizm, ashaddiylik.

**fane** *nf* palak, barg, poya (*poliz ekinlarining tanovul qilinmaydigan poya, barglari*); **fanes de pommes de terre** kartoshka palagi.

**faner** *vt* **1.** ag'darmoq, titmoq (*pichan va boshqalar*); **2.** so'litmoq, qovjiratmoq, quritmoq.

**faneur, euse** *n* **1.** pichan qurituvchi; **2.** *nf* pichan ag'daradigan mashina.

**fanfare** *nf* **1.** fanfara, surnaychilarning xori; **2.** *nf* surnay tovushlari; **3.** duxovoy orkestr; **4.** *fig* maqtanchoqlik, manmanlik.

**fanfaron, onne I.** *adj* maqtanchoq, quruq; **II.** *nm* maqtanchoq odam, katta og'iz.

**fanfaronnade** *nf* maqtanish, katta gapirish.

**fanfreluche** *nf* quroq bezak (*ayollar kiyimida*).

**fange** *nf* **1.** balchiq, loyqa; **2.** *fig* buzuqlik, axloqsizlik; **vivre dans la fange** buzuqlik qilmoq.

**fangeux, euse** *adj* **1.** balchiq, loyqa, iflos; **2.** yaramas, razil, qabih.

**fanion** *nm* bayroqcha, timsol, nishon (*klublarda, uyushmalarda*).

**fanon 1.** baqbaqa (*ba'zi hayvonlarning tomog'i ostida osilib turadigan terisi*); **2.** popuk (*otlarda*); **3.** kit yoli.

**fantaisie** *nf* **1.** fantaziya, to'qima, to'qish; **de fantaisie** original; **une robe fantaisie** original ko'ylak; **un mouchoir fantaisie** guldor, rang-barang ro'molcha; **2.** fantaziya, bir lahzali tilaklar; injiqlik; **par fantaisie** injiqlikdan, injiqlik tufayli; **3.** turfa fikrlar.

**fantaisiste I.** *adj* fantastik, ishonib bo'lmaydigan darajada; **II.** *nm* **1.** fantazyor; **2.** estrada artisti.

**fantasmagorie** *nf* fantasmagoriya (***1.** alahlaganda ko'zga ko'rinadigan narsalar; **2.** biror usul bilan hosil qilinadigan g'ayritabiiy manzara, ko'rinish*).

**fantasmagorique** *adj* fantazmagotik.

**fantasme** *nm* obraz, tasavvur, xayol (*tush ko'rishda yoki gallutsinatsiyada*).

**fantasque I.** *adj* g'alati, ajoyib, o'jar, qaysar, ters; **II.** *nm* g'alati, ajoyib odam.

**fantassin** *nm* piyoda askar.

**fantastique I.** *adj* fantastik, aql bavor qilmaydigan, g'ayritabiiy; **II.** *nm* fantastika.

**fantoche I.** *nm* qo'g'irchoq; **II.** *adj* **un gouvernement fantoche** qo'g'irchoq hukumat.

**fantôme I.** *nm* sharpa, arvoh, ruh; **II.** *adj* **un gouvernement fantôme** noma'qul, salbiy, tan olinmagan hukumat.

**faon** *nm* bug'u bolasi.

**faramineux, euse** *adj* boshni aylantiradigan; hayratda qoldiradigan, hayratga soladigan; **des prix faramineux** esni og'diradigan narxlar.

**farandole** *nf* farandola (*raqs turi*).

**faraud, aude I.** *adj* maqtanchoq; **II.** *nm* **1.** olifta, satang; **2.** maqtanchoq, gerdaygan, kekkaygan odam.

**farce[1] I.** *nm* **1.** fars (*kichik hajviy pyesa*); **2.** hazil, hazil o'yini; **une bonne farce** g'alati hazil; **faire une farce à qqn** kimgadir hazil qilmoq; **être le dindon de la farce** og'zini ochib qolmoq; kulgili ahvolda qolmoq; **II.** *adj fam vieilli* juda kulgili, ajib.

**farce[2]** *nf* qiyma (*go'sht, sabzavot kabilar*).

**farceur, euse I.** *nm* hazilkash, qiziqchi odam; **II.** *adj* kulgili, istehzoli, masxara qilib aytilgan.

**farcir** *vt* (*de qqch*) **1.** to'ldirmoq, tiqmoq, solmoq; **2.** *fig* tiqishtirmoq, bilishga yoki egallashga majbur qilmoq.

**fard** *nm* **1.** upa, upa-elik; **piquer un fard** qizarmoq (*uyatdan, oriyatdan*); **2.** gapga zeb berish, mubolag'a, lof; **sans fard** mubolag'asiz, bo'yamasdan, bepardoz.

**fardeau** *nm* yuk, og'irlik; og'ir vazifa; **le fardeau des impôts** soliqlar og'irligi; **le fardeau des années** qarilikning og'ir yillari.

**farder** *vt* **1.** pardoz qilmoq, bo'yamoq, surtmoq (*yuzga*); **2.** *fig* bo'yab ko'rsatmoq, yashirmoq, xaspo'shlamoq.

**farfadet** *nm* gnom (*G'arbiy Yevropa afsonalarida yer ostidagi xazinani saqlovchi sersoqol mitti odam*); sof bo'lmagan, qora kuch; jin ajina.

**farfelu, ue** *adj* g'alati, ajib, ajoyib.

**farfouiller** *vt, vi* titkilamoq, titmoq, kovlamoq, ag'dar-to'ntar qilib qidirmoq; **farfouiller dans un tiroir** stol tortmasini titkilab tashlamoq.

**faribole** *nf* arzimagan gap yoki voqea; **dire des fariboles** bo'lmagan gapni gapirmoq, tuturiqsiz gap qilmoq.

**farine** *nf* un; **une farine de froment** bug'doy uni.

**farineux, euse** *adj* **1.** unli, kraxmalli; **2.** oq kepak bilan qoplangan.

**farniente** *nm* bekorchilik, hech nima qilmaslik.

**farouche[1]** *nm* qashqar beda, yo'ng'ichqa.

**farouche[2]** *adj* **1.** yovvoyi; **2.** hurkadigan, hurkak, odamovi, tortinchoq, yovvoyi; **3.** murosaga kelmaydigan; shiddatli, ashaddiy, qattiq, quturgan; **une résistance farouche** ashaddiy qarshilik; **une haine farouche** ashaddiy ko'rinish, qiyofa.

**fart** *nm* chang'i yog'i.

**farter** *vt* yog'lamoq (*chang'ini*).

**fascicule** *nm* kitob, jurnalning alohida nashr qilingan qismi; **publier par fascicules** alohida-alohida, bo'lib-bo'lib nashrdan chiqarmoq.

**fascinant, ante** *adj* dilrabo, dilbar, jozibador.

**fascination** *nf* dilrabolik, dilbarlik, jozibalik.

**fascisme** *nm* fashizm.

**fasciste I.** *adj* fashistlarga oid; **II.** *n* fashist.

**faste[1]** *nm* hashamat, dabdaba, tantana.

**fléchette** *nf* nayzacha.

**fléchir I.** *vt* **1.** egmoq, bukmoq; **fléchir les genoux** tizzasini bukmoq; **2.** yumshatmoq; **II.** *vi* **1.** egilmoq, bukilmoq; **2.** bo‘ysundirmoq; yon bermoq; **3.** cho‘kmoq, botmoq, o‘turmoq, kamaymoq, pasaymoq; **4.** pasaymoq, tushmoq (*narx*).

**fléchissement** *nm* **1.** egish, bukish, qayirish; **2.** cho‘kib, botib o‘tirish; **3.** ikkilanish, bo‘shashish; **4.** egri, egilgan; **5.** yiqilish (*qiyshiq*); **6.** tushish, pasayish (*narx*), kursning o‘zgarib turishi (*birjalarda*).

**flegmatique** *adj* flegmatik, sovuqqon (*loqayd, tepsa-tebranmas, pinagini buzmaydigan*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**flegme** *nm* **1.** bosiq, sovuqqon odam; **2.** balg'am.

**flegmon** *nm voir* **phlegmon.**

**flemmard, arde I.** *adj* dangasa; **II.** *nm* dangasa odam.

**flemme** *nf* hafsalasizlik kayfiyati, yalqovlik; **avoir la flemme** hafsalasizlik, yalqovlik qilmoq.

**flétan** *nm* oq paltus (*baliq*).

**flétrir**[1] **I.** *vt* **1.** so'litmoq, so'lishga olib kelmoq, qovjiratmoq, qaqratmoq, quritmoq; **2.** rangini ketkizmoq, o'zgartirmoq, o'chirmoq, xiralashtirmoq, xira qilmoq, nursizlantirmoq; **3.** obro'siga, sifatiga putur yetqazmoq, xo'rlamoq, kamsitmoq, yerga urmoq, tahqirlamoq; qadr-qimmatini tushirmoq, ketqizmoq; **II. se flétrir** *vpr* so'limoq, qurimoq, xazon bo'lmoq; rangi ketmoq, o'zgarmoq, xiralashmoq.

**flétrir**[2] *vt* **1.** la'natlamoq, la'nat o'qimoq; **2.** *fig* sharmanda qilmoq, nomusini bulg'amoq, badnom qilmoq.

**flétrissure**[1] *nf* so'lish, xazon bo'lish, qovjirash.

**flétrissure**[2] *vt* nomusni bulg'ash, obro'sizlantirish.

**fleur** *nf* **1.** gul; rang; **couvrir de fleurs** gul bilan qoplamoq, sochilmoq; **2.** gullash, guli ochilish; **en fleur** gulda; **3.** gullash, yashnash; **être dans la fleur de sa jeunesse** yoshligi barq etib gullagan payti; **mourir dans la fleur de l'âge** gullab yashnagan paytida, ijodi barq urgan paytda vafot etmoq.

**fleurer** *vt* taratmoq, sochmoq, anqitmoq (*xushbo'y is*).

**fleuret** *nm* **1.** rapira, shamshir; **2.** parma (*yer kovlaydigan*).

**fleurette** *nf* kichkina gul; **conter fleurette** erkalamoq, suymoq.

**fleuri, ie** *adj* **1.** gullab yashnovchi; **2.** gulli, guldor, gullab turgan; **une barbe fleurie** soqoli oqargan.

**fleurir I.** *vi* **1.** gullamoq, yashnamoq; **2.** *fig* keng yoyilmoq, tarqalmoq; **II.** *vt* **1.** gullar bilan qoplamoq; **2.** rang-barang qilib bo'yamoq.

**fleuriste** *n* **1.** gulchi, gul yetishtiruvchi; **2.** gul sotuvchi.

**fleuron** *nm* **1.** gul; **2.** to'pbarggul shaklidagi bezak, naqsh (*arxitekturada*); **3.** sarrasm, bezak, lavha, zarvaraq, xotima, gul (*kitob boshida, oxirida, kitob boblari boshi va oxirida qo'yiladigan bezak*).

**fleuve** *nm* **1.** daryo (*dengizga quyuluvchi*); **2.** *fig* oqim; **un fleuve de sang** qon oqimi; **un roman fleuve** ko'p tomli roman.

**flexibilité** *nf* **1.** egiluvchanlik, bukuluvchanlik; **2.** *fig* tadbirkorlik, uddaburolik, epchillik.

**flexible I.** *adj* **1.** egiluvchan; **2.** *fig* gapga ko'nadigan, gapga kiradigan, bo'ch, ko'ngilchan; **II.** *nm* egiluvchan, buklanadigan tros.

**flexion** *nf* **1.** egish, egilganlik, bukilganlik; **2.** *gram* fleksiya (*qo'shimcha*).

**flexionnel, elle** *adj gram* flektiv, fleksiyaga oid; **langue flexionnelle** flektiv til.

**flibustier** *nm vieilli* **1.** dengiz qaroqchisi, qaroqchi; **2.** yolg'onchi, o'g'ri, muttaham, firibgar, qallob, aldoqchi, tovlamachi, g'irrom.

**flic** *nm fam* polisiyachi, izquvar.

**flirt** *nm* **1.** ishva, noz-karashma, tegishish, o'ynashish, iliqish; **2.** *vieilli* o'ynash, jazman.

**flirter** ishva qilmoq, noz-karashma qilmoq, o'ynashmoq, iliqmoq.

**flocon** *nm* **1.** parcha, bo'lak, burda, tutam; **2.** *pl* biror narsani parchasi, bo'lagi; **à gros flocons** katta dasta; **des flocons de neige** qor parchasi.

**floconneux, euse** *adj* pag'a-pag'a.

**flonflon** *nm fam* naqarot (*qo'shiqlarda*); **les flonflons de l'orchestre** orkestr tovushi.

**flopée** *nf fam* bir to'da, bir talay.

**floraison** *nf* gullash, yashnash, o'sish, gurkirash davri.

**floral, ale, aux** *adj* gulga oid, gulli.

**floralies** *nf pl* **1.** gul bayrami (*qadimgi Rimda*); **2.** gullar ko'rgazmasi.

**flore** *nf* flora, nabotot, o'simliklar olami.

**floriculture** *nf* gulchilik.

**florilège** *nm* to'plam, antalogiya, bayoz.

**florin** *nm* florin (*Gollandiyada pul birligi*).

**florissant, ante** *adj* gullayotgan, o'sayotgan; **une santé florissante** sog'ligi juda yaxshi.

**flot** *nm* **1.** to'lqin; **les flots** *she'riy* dengiz **(re)mettre à flot** cho'kkan kemani ko'tarib olmoq; *fig* qiyinchilikni bartaraf qilmoq; **2.** oqim, oqish, aylanish, qon oqimi; **verser des flots de larmes** ko'z yoshini to'kmoq; *loc adv* **à flot** mo'l-ko'l, to'kin-sochin; **3.** dengizdagi suvni qirg'oqqa qarab qalqishi.

**flottage** *nm* **1.** kesilgan o'rmon daraxtlarini oqizish; **2.** oqizadigan daraxtlarga ega bo'lgan o'rmon.

**flottaison** *nf* **1.** dengiz, vaterliniya (*kemaning suvga botish chizig'i*); **2.** kema cho'kish darajasi.

**flottant, ante** *adj* **1.** suzuvchi, suzib yuruvchi; **2.** rivojlanayotgan; **une robe flottante** bemalol yarashib turgan ko'ylak; **3.** turg'un emas, omonat; asossiz; **4.** harakatchan; **II.** *nm* kalta ishton (*futbolchilar kiyadigan*).

**flotte**[1] flot; **une flotte de guerre** harbiy flot; **la flotte aérienne** havo floti.

**flotte**[2] *nf fam* suv, yomg'ir.

**flotte**[3] *nf* buy, po'kak (*suvda sayozlik, yo'l va hakozoni ko'rsatadigan qalqovich belgi*).

**flottement** *nm* **1.** tebranish, to'lqinlanish, to'lqinsimon harakat; **2.** ikkilanish.

**flotter I.** *vi* **1.** suzmoq; **2.** oqizmoq (*daraxtlarni*); **faire flotter** oqizdirmoq (*daraxtlarni*); **3.** hilpiramoq, tebranmoq; **4.** his qilmoq (*ochiq havoda*); **un parfum flottait dans la pièce** xonada atir hidi sezildi, tarqaldi; **5.** betayin, beqaror, tuturiqsiz bo'lmoq; **II.** *vt* oqizmoq, haydamoq (*daraxtlarni*); **III.** *v impers* **il flotte** *fam* yomg'ir yog'yapti.

**flotteur** *nm* **1.** yog'och oqizuvchi; **2.** buy, po'kak.

**flottille** **1.** flotiliya, kichik karabllarning birlashishi; **2.** jangovor aviasiyalarning birlashishi.

**flou, floue I.** *adj* tumanli, tuman qoplagan, noaniq, xira, g'ira-shira; mavhum; **II.** *nm* noaniqlik, xiralik, mavhumlik.

**flouer** *vt* **1.** *vx* o'g'irlamoq, o'marmoq; **2.** aldamoq, laqillatmoq.

**fluctuant, ante** *adj* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, muvaqqat, omonat, beqaror, qat'iy emas, og'uvchan, tebranuvchi.

**fluctuation** *nf* o'zgarish, o'zgaruvchanlik, beqarorlik; **la fluctuation du change** *fin* kursning o'zgarishi (*valuta*); **la fluctuation des prix** bahoning o'zgarishi.

**fluet, ette** *adj* nozik, zaif, nimjon, qiltiriq.

**fluide I.** *adj* **1.** oquvchan, oqar, suyuq, oqib ketadigan; **2.** vaznsiz, qushday yengil, tutqich bermas; **3.** ravon, silliq; **II.** *nm* **1.** suyuq jismlar, gazli jismlar; **2.** fluid (*spiritlar tasavvuricha go'yo odam yoki hayvonlar tanasidan chiqadigan yohud biror narsada nurlanadigan allaqanday psixik toklar*).

**fluidifier** *vt* gaz holati; suyultirmoq.

**fluidité** *nf* suyuq holat, gaz holati.

**fluor** *nm chim* ftor.

**fluorescence** *nf chim* fluoressensiya.

**fluorescent, ente** *adj phys* shu'lalanuvchi, fluoressent; **un écran fluorescent** shu'lalanuvchi ekran.

**flûte I.** *nf* **1.** fleyta, nay; **une petite flûte** fleyta pikkolo; **2.** fleyta chaluvchi; **3.** uzunchoq, cho'zinchoq non; **4.** fujer, qadah; **5.** *pl fam* oyoq; **jouer des flûtes** chopmoq, yugurib ketmoq; **II.** *intj* **flûte!** jin ursin!

**flûté, ée** *adj* ohangdor, yoqimli, xushohang; **voix flûtée** yoqimli, ohangdor ovoz.

**flûtiau** *nm* hushtak (*o'yinchoq*).

**flûtiste** *n* fleyta chaluvchi, naychi.

**fluvial, ale, aux** *adj* daryoga oid, daryo, daryoda bo'ladigan; **la navigation fluviale** daryo kemachiligi.

**flux** *nm* **1.** dengizda suv sathining ko'tarilishi; **2.** oqim, oqish, oqib ketish, oqib tushish; yog'ilib, oqib kelish; **un flux lumineux** nur oqimi; **un flux de paroles** *fam* ezmalik, ko'p gapirish; **3.** *techn* flus (*rudaning erishini oshirish va shlak hosil qilish uchun qo'shiladigan modda*).

**fluxion** *nf méd* quyilish (*qon yoki tanadagi boshqa suyuqliklar*), yallig'lanish; *vx* **fluxion de poitrine** o'pka yallig'lanishi; **fluxion à la joue** pilla, milkning yiringlashi.

**foc** *nm* kliver (*kemaning oldingi qismidagi uchburchak yelkan*); fok (*kemalarda oldingi machtaning pastki yelkani*).

**focal, ale, aux** *adj phys* fokusga oid; **la distance focale** fokus masofasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**focaliser** *vt* **1.** fokusni topmoq, bir nuqtaga qaratmoq; **2.** bir yerga to'plamoq, bir narsaga qaratmoq, jalb etmoq (*diqqat-e'tiborni, fikrnia, xayolni*).

**fœtus** *nm* **1.** *biol* embrion, pusht, homila; **2.** *bot* tuguncha, urug'don.

**fœtal, ale, aux** *adj biol* embrionga, pushtga, murtakka oid, embrion, murtak, embrionlik, murtaklik.

**foi** *nf* **1.** ishonch, e'tiqod; **2.** sodiqlik, vafodorlik, to'g'rilik, rostlik, ishonchlilik, qat'iylik; **3.** ishonch, ishonish; **la bonne foi** to'g'rilik, haqgo'ylik, halollik, vijdonlilik; **de bonne foi** samimiy, sofko'ngilli, yaxshi niyatlar bilan; **les hommes de bonne foi** vijdonli, halol odamlar; **la mauvaise foi** vijdonsiz, insofsiz, niyati buzuqlik; **digne de foi** ishonchga loyiq; **4.** qat'iy ishonish; **une profession de foi** qat'iy ishongan, astoydil ishongan; **5.** va'da, so'z, gap, lafz; **ma foi, par ma foi** rostini, ochig'ini, to'g'risini aytganda, menimcha; vijdonan qasam, ont ichaman.

**foie** *nm* jigar; **du foie gras** g'oz jigari (*taom*); **l'huile de foie de morue** baliq moyi.

**foin**[1] *nm* **1.** pichan, xashak; **faire les foins** pichan, xashak o'rmoq; **faire du foin** *fam* janjal, to'polon ko'tarmoq; **2.** o'rish uchun mo'ljallangan o't.

**foin**[2] *intj vieilli* **foin de** tupurdim, jin ursin.

**foire**[1] *nf* **1.** yarmarka, bozor; **une foire aux livres** kitoblar yarmarkasi; **la foire du Trône** yarmarka, sayil (*Parijda*); **un champ de foire** yarmarka, bozor maydoni; **faire la foire** aysh-ishrat qilmoq; **2.** *fam* shovqin-suron, qiy-chuv, g'ala-g'ovur.

**foire**[2] *nf vulg vieilli* ich ketish, ichburug'.

**foirer** *vi* **1.** *vulg vieilli* ichi ketmoq, tirraqilamoq; **2.** *fig* tutolmaslik, ushlamaslik (*vint, gayka haqida*); **3.** *fam* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, barbod bo'lmoq, ishkal bo'lmoq, amalga oshmay qolmoq.

**foireux, euse I.** *adj* **1.** *vulg* ichi ketgan, ichburug' bo'lgan, ichiketar, tirraqi; **2.** *fam vieilli* qo'rqoq, yuraksiz, quyon yurak; **3.** *fam* muvaffaqiyatsiz, omadsiz, o'nggidan, baroridan kelmagan, o'ngmagan; **II.** *n* **1.** *vulg* ichburug'dan, ich ketishdan qiynalgan kishi; **2.** *fam* qo'rqoq, yuraksiz kishi.

**fois** *nf* marta, yo'la, mahal; **une fois par jour** kunda bir marta; **cette fois-ci** bu safar; **maintes fois, de nombre de fois** ko'p marta; **la prochaine fois** kelgusu safar; **une fois ou l'autre** shu yoki boshqa mahal; **à une autre fois** kelgusi safar; **pour une fois** bir safar; **une fois parti, je ne reviendrai plus** bir ketdimmi, boshqa qaytib kelmayman; **des fois** *fam* ba'zan, ba'zida, goh-goh, gohida; **y regarder à deux fois** puxta, yaxshilab o'ylab ko'rmoq, chuqur mulohaza qilmoq; **deux fois deux (font) quatre** ikki karra ikki to'rt; *loc adv* **à la fois** darhol, tezda, bir vaqtda, ayni zamonda; **une bonne fois** hech bo'lmasa bir marta; **une fois pour toutes** batamom; *loc conj* **une fois que** bir yo'la, karra, zahoti, zamon.

**foison I.** *loc adv* **à foison** juda ko'p, mo'l, serob, to'kinchilikda; **II.** *nf* baraka, mo'llik, seroblik, ko'plik; **une foison d'exemples** juda ko'p misollar.

**foisonner** *vi* **1. (en, de)** to'lib-toshib yotmoq, boy, serob, mo'l-ko'l bo'lmoq, juda ko'p bo'lmoq; **2.** ko'paytirmoq, urchitmoq, bolalamoq; **3.** hajmi ortmoq, haddan tashqari; **4.** shishmoq, do'ppaymoq, qoppaymoq.

**foisonnant, ante** *adj* **1.** juda ko'p, mo'l-ko'l; **2.** haddan tashqari kattalashib ketayotgan, shishayotgan.

**foisonnement** *nm* **1.** ko'plik, mo'llik, seroblik, ortiqchalik, serobgarchilik; **2.** haddan tashqari kengayish, kattarish.

**follement** *adv* **1.** o'ylamasdan, mulohaza qilib ko'rmay, aqlsizlarcha, tentaklarcha; **2.** juda ham, haddan tashqari, g'oyat(da), o'lguday.

**follet, ette** *adj* **1.** beaql, esi yo'q, tentak, jinni, ko'ngliga kelganini qilaveradigan, bema'ni, ahmoqona ish tutadigan; **un fou follet** goh u yerda, goh bu yerda ko'rinadigan shu'la (*lip-lip yonib ko'rinadigan shu'la*); **II.** *nm* jin, ajina; **III.** *nf bot* salat sho'rasi, olabuta.

**folliculaire** *nm* bema'ni yozuvchi (*bemaza asarlarni yozib tashlaydigan adib*); yomon qilib yozadigan, dasxati xunuk odam.

**follicule** *nm anat* qopchiq, xalta, xaltacha, follikul.

**fomentateur, trice** *n* g'alamis, ig'vogar, fitnachi, vas-vasaga soluvchi, sababchi.

**fomenter** *vt* yomon ishga undamoq, gij-gijlamoq, qo'zg'amoq, qo'zg'atmoq, avj oldirmoq, keskinlashtirmoq, kuchaytirmoq, oshirmoq.

**foncé, ée** *adj* to'q (*rang, bo'yoq haqida*); **vert foncé** to'q yashil, to'q ko'k.

**foncer I.** *vi* **1. (sur)** tashlanmoq, hujum qilmoq; **2.** *fam* ish-harakatini juda tez bajarmoq, ijro qilmoq, yelmoq, yeldek uchmoq, yeldek uchib, tez bormoq, jadal yurmoq, ilgarilamoq; **II.** *vt* **1.** tubiga qo'ymoq, joylashtirmoq (*bochkada*); **2.** chuqurlashtirmoq; o'ymoq (*shaxta haqida*).

**foncier, ière** *adj* **1.** yerga, yer egaligiga oid, yer; **un propriétaire foncier** yerdor, yer egasi (*burjua dvoryan hokimiyatida*); **l'impôt foncier** yer solig'i; **un crédit foncier** yer krediti (*qog'ozi*); **2.** o'ziga xos, tabiiy, tug'ma, odatdagi; asosiy, tub, bosh, eng muhim, juda katta, ikki baravar ortiq, alohida, zo'r; **3.** *nm* yer solig'i.

**foncièrement** *adv* mustahkam, chuqur, puxta, ko'ngil tubida, ko'ngilda, ich-ichidan, chin ko'ngildan; **il est foncièrement honnête** u benuqson, sof, oq ko'ngil, vijdonli.

**fonction** *nf* **1.** xizmat, lavozim, vazifa; **être dans l'exercice de ses fonctions** o'z xizmatlik vazifalarini (*burch, majburuyat*) ijro qilmoq; **faire fonction de** sifatida xizmat qilmoq; kimnidir majburiyatini ijro qilmoq; **s'acquitter de ses fonctions** o'z vazifasini uddalamoq; **2.** harakatga kelish, ishlash, faoliyat, xizmat; **être fonction de** bog'liq bo'lmoq, qaram, tobe bo'lmoq; **en fonction de** *loc prép* muvofiq, mos ravishda; **3. être en fonction** ishlab turmoq; **mettre en fonction** harakatga keltirmoq; **4.** *math* funksiya; **une fonction dérivée** hosila, yasama funksiya; **5.** *chim* xossalar majmui, jami xossa (*xususiyatlar*).

**fonctionnaire I.** *nm* **1.** mansabdor, amaldor; **2.** partiya, kasaba soyuz xodimi; **II.** *adj* **1.** to'ralarcha, buyrokratlarcha; **esprit fonctionnaire** to'ralarcha ruh, kayfiyat.

**fonctionnariser** *vt* **1.** byurokratlashtirmoq, byurokratga aylanmoq; **2.** davlat xizmatchisiga tenglashtirmoq.

**fonctionnel, elle** *adj* **1.** funksional, qunksiyaga oid; **2.** qulay, soz, yaxshi, o'ng'ay, oson qo'l keladigan, ixcham.

**fonctionner** *vi* ishlab turmoq, ishlamoq, harakatda bo'lmoq (*mexanizmlar haqida*).

**fonctionnement** *nm* harakat, faoliyat, xizmat, harakat qilish, yurish, ish; **à fonctionnement rapide** tezyurar.

**fond** *nm* **1.** chuqurlik, tub, tag; **des travaux de fond** yerosti ishlari; **aller au fond des choses** narsalar mohiyatini tushunib yetmoq; *fig* buzmoq, xonavayron qilmoq, barbod, xarob qilmoq; **sans fond** tagsiz, tubsiz, tagi yo'q, cheksiz, bepayon; **(tout) au fond** chin ko'ngildan, ich-ichidan, ko'nglida, dilida, yuragida; **de fond en comble** *loc adv* boshdan-oyoq; butunlay, tamoman, tag-tomiri bilan, tubigacha; **le fin fond** yurakdagi, yurak tubidagi; **2.** tag, tub, ost, chuqur qism; **à double fond** ikki barobar chuqur; **le fond de cale** *mar* kemaning mexanizmlar o'rnatiladigan va yuk ortiladigan ostki qismi; **user ses fonds de culotte** o'tiroverib shimni teshaverib yirtmoq; **3.** mohiyat, tub, asosiy ma'no, mazmun, mag'iz; **un article de fond** bosh maqola (*gazeta, jurnalda*); *loc adv* **faire fond sur qqn, sur qqch** kimgadir, nimagadir ishonmoq, suyanmoq; **4.** orqa qism, orqa o'rin, joy (*ekipajda*); **le fond de la scène** sahna orti; **à fond de train** jon boricha, bor kuchi bilan chopmoq, yugurmoq; **5.** fon; **un fond sonore** tovush, ovoz jo'rligi; **un fond lumineux** yoritilgan maydon; **un fond noir** tushunarsiz, qorong'i maydon; **6.** o'rmonning ichkarisi, odam oyog'i yetmagan yeri, xilvat joyi; **7.** fond, mablag', pul; **8.** *sport* chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik; **une course de fond** uzoq masofaga yugurish.

**fondamental, ale, aux** *adj* asosiy, muhim; **la note fondamentale** *musiqa* akkordning asosiy notaso.

**fondamentalement** *adv* jiddiy ravishda, jiddiy, asosli ravishda, tubdan.

**fondant, ante I.** *adj* **1.** sersuv, shirali (*mevalar haqida*), og'izda erib ketuvchi; **2.** eruvchi, yumshovchi, eruvchan, eriyotgan; **II.** *nm* **1.** meva shirasi va shakardan qilinadigan yumshoq konfet; **2.** *techn* flus (*rudaning erishini oshirish va shlak hosil qilish uchun qo'shiladigan modda*).

**fondateur, trice** *n* asos soluvchi, asoschi.

**fondation** *nf* **1.** fundament, asos, poydevor; **jeter les fondations** asos solmoq, negizini, poydevorini qurmoq; **2.** poydevor qurish; **3.** tuzish, ta'sis qilish; **4.** muassasa, idora, tashkilot, institut, fond, jamg'arma (*kimnidir xotirasi uchun, qandaydir chora, tadbir uchun ta'sis qilingan*).

**fondé, ée de pouvoir(s)** *n* biror kishi yoki tashkilot nomidan ish ko'radigan vakil.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**fondement** *nm* **1.** fundament, asos, poydevor; **un fondement économique** iqtisodiy negiz; **un fondement théorique** nazariy asos; **2.** sabab, bahona, vaj, dalil, bois; **3.** *fam* orqa chiqarish teshigi.

**fonder I.** *vt* **1.** poydevor qo'ymoq; **2.** tuzmoq, tashkil etmoq; **fonder en droit** qonunga asoslanmoq; **3.** asoslanmoq, dalillamoq; **être fondé** asosli, asosga ega bo'lmoq; **II. se fonder** *vpr* **(sur qqch)** asoslanmoq, asosida tuzilmoq.

**fonderie** *nf* **1.** quyish, quyuv zavodi; metall eritadigan xona (*ustaxona*); **2.** *techn* quyish, metall quyish.

**fondeur** *nm* quyuvchi, degrez; **un fondeur d'acier** po'lat erituvchi, pishiruvchi.

**fondre[1]** *vt* **1.** eritmoq; **fondre de la cire** mumni eritmoq; **2.** quymoq (*metall*); **3.** aralashtirmoq, qorishtirmoq.

**fondre[2]** *vi* **(sur) 1.** erimoq, eritmoq, erib oqib tushmoq, erimoq (*metall haqida*); **la chandelle fond** sham erib oqib tushyapti; **fondre en sueur** ter oqmoq; **2.** *fig* erimoq, erib ketmoq; **3.** *fam* ozmoq, oriqlamoq; **fondre à vue d'œil** ko'z oldida ozib-to'zib bormoq; **4.** qulamoq, buzilmoq, vayron bo'lmoq; **5.** tashlanmoq, otilmoq; **fondre sur l'ennemi** dushmanga tashlanmoq, hamla qilmoq; **tous les maux fondent sur lui** barcha baxtsizliklar unga yopirildi, qamrab oldi; **6.** shiddat bilan boshlanmoq yoki ro'y bermoq; **fondre en pleurs, fondre en larmes** ko'z yoshlari quyilib kelmoq.

**fondrière** *nf* **1.** chuqur, o'nqir-cho'nqir joy; **2.** botqoq joy.

**fonds** *nm* **1.** yer, yer-mulk; **2.** kapital, mablag', pul; **des fonds de roulement** oborot kapital; **le fonds social** qaysidir jamiyatga qarashli kapital, mablag'; **3.** pullar, qimmatbaho narsalar, boyliklar; **les fonds publics** davlat pullari; **un porteur de fonds** qimmatbaho qog'ozlar egasi; **rentrer dans ses fonds** qarzlarini qayta olmoq, qaytarmoq, to'lamoq; sarf-xarajatini qoplamoq, oqlamoq; **à fonds perdu(s)** umrbod olinadigan daromad (*qaytarib bermaslik, olmaslik sharti bilan*); **4.** zaxira (*g'amlab qo'yilgan narsa*), fond, mablag'; **le Fonds monétaire international** Xalqaro valuta fondi; **les fonds alloués** ajratilgan mablag'; **5.** korxona, muassasa, savdo ishi; **un fonds de commerce** savdo uyi, korxonasi.

**fondu, ue** *adj* **1.** eruvchan; **la neige fondue** erigan qor; **2.** quyilgan, quyma.

**fondue** *nf* pishloqni oq vino bilan eritib, non botirib yeyiladigan milliy taom.

**fontaine** *nf* **1.** buloq, manba; **2.** fontan, favvora, javza, hovuz; **pleurer comme une fontaine** ko'z yoshi quyilmoq; **3.** umivalnik, bet-qo'l yuvgich.

**fontanelle** *nf* liqildoq, tepabosh (*chaqaloq boshi tepasidagi qotmagan joy*).

**fonte[1]** *nf* **1.** erish, eritish, quyish, metall quyish; **2.** erish, erib ketish, bo'linib, parchalanib, ajralib ketish; **3.** cho'yan; **4.** shriftlar to'plami.

**fonte[2]** *nf* egarga o'rnatilgan pistolet qini, g'ilofi (*otliq askarlarda*).

**football** *nm* futbol.

**footballeur** *nm* futbolist, futbolchi.

**footing** *nm* piyoda, yayov yurish, sayr (*havo almashtirish, tanani chiniqtirish maqsadida*).

**for** *nm* **for intérieur** vijdon, insof; **dans son for intérieur** yurak tubida, ko'ngilda, ich-ichida.

**forage** *nm* burg'ilamoq; **le forage des puits de pétrole** neft qudug'i kovlamoq.

**forain, aine I.** *adj* yarmarkaga oid, yarmarka; **II.** *n pl* ko'chma yarmarka savdogorlari.

**forban** *nm* **1.** qaroqchi (*dengiz*); **2.** qaroqchi, bosqinchi, o'g'ri, kallakesar.

**forçage** *nm* **1.** haydash, bir tomonga qarab yo'naltirish (*ovlanadigan hayvonlarni*); **2.** issiqxonada yetishtirish (*meva-sabzavotlarni*).

**forçat** *nm* **1.** katorgachi (*katorgaga yuborilgan yoki katorgada bo'lgan kishi*); **2.** *fig* qul, banda, asir; **travailler comme un forçat** qulday, eshakday ishlamoq.

**force[1]** *nf* **1.** baquvvatlik, tetiklik, chidamlilik (*jismonan, jinsiy*); **être de force à faire** biron ishni qila olishga qodir bo'lish; **de toute ses forces** bor kuch bilan, kuch boricha; **dans la force de l'âge** ayni yashnagan, gullagan, kuchga to'lgan payt; *loc adv* **à toute force** bor kuch bilan, har qanaqasiga, turli xil yo'l bilan, nima, harna qilib bo'lsa ham; **force de, par force, de vive force** zo'rlab, zo'rlik bilan, majburan; **à force de** *loc prép* yordami, vositasi bilan, orqali; **à force de travailler il est parvenu à ses fins** u shunaqangi ko'p ishladiki, natijada o'zi xohlagan narsaga erishdi; **2.** muhim fursat, holat, omil, kuch; **les forces productives** ishlab chiqarish kuchlari; **les forces en présence, les forces en jeu** harakatlanuvchi kuchlar; **la force des choses** narsalar kuchi; **la force majeure** favqulotda vaziyat, holat, yengib bo'lmas kuch; **3.** *phys* kuch, quvvat; **une force d'attraction** tortishish kuchi; **la force centrifuge** markazdan qochirma, qochiradigan kuch; **la force motrice** harakat qiluvchi kuch; **4.** kuch, qudrat, quvvat; **céder à la force** kuch, qudratga yon bermoq, tan bermoq; **5.** ravnaq topish, yuksalish, rivojlanish, kamol topish, obro, e'tibor, hurmat; **un style plein de force** jonli, ta'sirli, ma'noli til; **6.** mardlik, botirlik, jasurlik, jasorat; **7.** quyuqlik, o'tkirlik (*ichimliklar, kislotalar haqida*); **8.** pishiqlik, mahkamlik, mustahkamlik, chidamlilik; **9.** son, miqdor, hisob; *pl* **une force de frappe** zarbdor kuchlar; **les forces armées** qurolli kuchlar; **les forces aériennes** harbiy-havo kuchlari.

**force[2]** *adv* ko'p, ancha, bir talay, anchagina; **force gens** juda ko'p odamlar.

**forcé, ée** *adj* **1.** majburiy; **des travaux forcés** katordadagi og'ir, mashaqqatli mehnatlar; **2.** majburiy, noilojlik, g'ayritabiiy, sun'iy, yasama; zo'rma-zo'raki; **un atterrissage forcé** *av* majburiy qo'nish; **un rire forcé** zo'rma-zo'raki jilmayish, yasama kulgi; **3.** jadallashtirilgan, kuchaytirilgan, tezlashtirilgan; **une marche forcée** tezlashtirilgan marsh, jadal yurish; **4.** minilaverib charchagan, daqqi bo'lib qolgan (*ot*); **5.** ziyon yetgan.

**forcément** *adv* g'ayriixtiyoriy (*ravishda*), noiloj, ilojsiz, majburan, zo'raki (*ravishda*), o'z-o'zidan ravshan, ko'rinib turibdi, tushunarli.

**forcené, ée** *adv* juda qattiq shiddatli, quturgan.

**forceps** *nm* akusherlik qisqichi.

**forcer I.** *vt* **1.** majbur qilmoq, zo'rlamoq; **forcer le consentement** majburan, zo'rlab rozi qilmoq; **forcer les confidences de qqn** majbur qilmoq; **forcer la main à** majbur qilmoq, zo'rlamoq; **forcer à faire qqch** biron narsani qilishga majburlamoq; **2.** kuchga kirmoq, olmoq (*ushlab*), mahkam ushlamoq, bardosh bermoq, yengib chiqmoq, buzib, sindirib ochmoq; **forcer la porte de qqn** bostirib, buzib kirmoq; **3.** buzmoq (*qulfni*); kalitni burab, qayriltirib yubormoq; **4.** taranglamoq, tarang qilmoq, kuchaytirmoq (*ovozni*); **forcer la note** haddan oshmoq, chegaradan chiqmoq; **5.** otni holdan toydirmoq, ovlamoq, tutmoq (*hayvonlarni*); **6.** pishishni, yetilishini tezlashtirmoq; **7.** zo'rlamoq; **8.** kuchaytirmoq, tezlashtirmoq, jadallashtirmoq; **forcer le pas** qadamini tezlatmoq; **II.** *vi* taranglamoq, tarang qilmoq; **III. se forcer (à)** *vpr* o'z-o'zini majbur qilmoq; **se forcer à boire** o'zini suv ichishga majbur qilmoq.

**forcir** *vi fam* kuchaymoq, to'lishmoq, semirmoq.

**forer** *vt* parmalab, burg'ilab teshmoq, burg'ilamoq (*kovlamoq*).

**forestier, ière I.** *n* o'rmonchi, o'rmon qorovuli; **II.** *adj* o'rmonga xos, o'rmon; o'rmonli.

**foret** *nm* parma, dastparma, burg'i.

**forêt** *nf* o'rmon, chakalakzor, changalzor.

**forfait[1]** *nm* jinoyat.

**forfait[2]** *mn* berib turish, topshirish, oldindan shartlashishgan to'lov (*muayyan shartlar bilan*); **une vente à forfait** oldindan savdo qilish.

**forfait[3]** *mn* **déclarer forfait** *sport* musobaqada qatnashishdan voz kechmoq; *fig* rad etmoq, voz kechmoq, bahridan o'tmoq, yuz o'girmoq.

**forfaiture** *fn* xizmat vazifasi bilan bog'liq bo'lgan jinoyat, mansabni suiiste'mol qilish.

**forfanterie** *nf* maqtanchoqlik, manmanlik, kerilish.

**forge** *nf* **1.** metallurgiya zavodi; **2.** temirchilik ustaxonasi, temirchilik.

**forger** *vt* **1.** bolg'alamoq, bolg'alab yasamoq, bosmoq; **forger un caractère** xarakterni tarbiyalamoq, singdirmoq; **2.** o'ylab topmoq, to'qimoq; **forger des légendes** afsonalar to'qimoq; **II. se forger** *vpr* o'ylab chiqarmoq, tasavvur qilmoq, ko'z oldiga keltirmoq, faraz qilmoq; **se forger des chimères** ushalmaydigan orzular bilan o'zini yo'ldan urmoq.

**forgeron** *nm* temirchi.

**forgeur, euse** *n* **1.** temirchi; **2.** o'ylab chiqaruvchi, yaratuvchi.

**formaliser (se)** *vpr* arzimagan narsalarga xafa bo'lavermoq, ranjimoq.

**formalisation** formalizatsiya.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**formalisme** *mn* formalizm, rasmiyatchilik, formalizm (*logika, san'at, adabiyot kabi fanlarda shaklni mazmundan, nazariyani amaliyotdan ajratishga intiluvchi idealistik yo'nalish*).

**formaliste** *adj* rasmiyatchilarcha, formalistlarcha, rasmiyatchilik, formalistik.

**formalité** *nf* rasmiyat, rasmiyatchilik; **une simple formalité** quruq rasmiyatchilik.

**format** *nm* format, hajm.

**formateur, trice I.** *adj* yasovchi, yaratuvchi, ijodkor, bunyodkor; **II.** *n* ijodkor, yaratuvchi.

**formation** *nf* **1.** yaratish, ijod etish, yaratuvchanlik, paydo bo'lish, tug'ilish, vujudga kelish, ro'y berish; **2.** ta'lim-tarbiya, ta'lim, tarbiya, tayyorgarlik, tayyorgarlik darajasi, ma'lumot, ilm, ta'lim, vujudga kelish, tuzilish, tashkil topish; **un historien de formation** ma'lumotli tarixshunos, tarixchi; **la formation de spécialistes** kadrlar tayyorlash; **3.** shakllanish (*ijtimoiy*); tarz; **la formation sociale économique** ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya; **4.** *géol* formatsiya (*ma'lum davrdagi yer qatlamlari va ularning tuzilishi*); **5.** gruppa, guruh, partiya; **la formation politique** siyosiy partiya; **6.** *mil* tuzilish, saflanish, qator bo'lish; **en formation** safda; **7.** *mil* jangovor birlashish, qism; **8.** *sport* komandalarning taktik tizilishi.

**forme** *nf* **1.** forma, tuzilish; **2.** shakl, tashqi ko'rinish; **juger sur la forme** tashqi ko'rinishiga qarab baho bermoq; **dans la forme et dans le fond** shaklan va mazmunan; **3.** xil, tur, shakl, qolip, nusxa, rasmiy tartib; *pl* rasmiyatchilik; **dans les formes judiciaires, légales** sud va qonuniy tartibda; **de (pure) forme** rasman, rasmiy jihatdan, rasmiyatchilikdan, rasmiyat nuqtai nazaridan; **un vice de forme** *yur* sud tartibini, prosedurasini buzish; **en forme** *loc adv* tegishli, kerak bo'lgan tarzda, tariqasida, yo'snida, tarzida; **être en forme** *sport fam* yaxshi formada bo'lmoq; **être mis en forme** rasmiylashgan bo'lmoq; **en bonne forme** joyida, o'rnida; **en bonne et due forme** to'g'ri va turli shaklda; **pour la forme** ko'ngil uchun, rasmiyat uchun, xo'ja ko'rsinga qilmoq; *loc prép* **en forme de, sous forme de réparations** reparasiyalar niqobi ostida; **y mettre des formes** tartib intizomni xohlamoq, rioya qilmoq; **sans autre forme de procès** betakalluf bo'lish, tortinmaslik; **4.** metall quyadigan qolip, andaza, qolip, maxsus andaza; **5.** *poligr* bosishga xizmat qiladigan qolip, andaza; **6.** bichim, fason (*shlapaning*); **7.** tepalik (*bosh qismining tepa qismi*); qolip, ton (*etikdo'zlikda*).

**formel, elle** *adj* **1.** formal, tashqi; **une logique formelle** formal mantiq; **2.** aniq, ma'lum, muayyan, aniq belgilangan, qat'iy, uzil-kesil; **un ordre formel** qat'iy buyruq; **un refus formel** qat'iy rad etish; **une réponse formelle** aniq javob.

**formellement** *adv* **1.** albatta, so'zsiz, shak-shubhasiz; **2.** rasmiyat uchun, xo'ja ko'rsinga.

**former I.** *vt* **1.** yaratmoq, paydo, hosil qilmoq, yuzaga, vujudga keltirmoq, tuzmoq, qurmoq, tashkil qilmoq; **2.** ishlab chiqarmoq, yetishtirmoq; tayyorlamoq, tuzmoq, yozmoq; **former un triangle** uchburchak tuzmoq; **former des lettres, former des caractères** harfni diqqat bilan yozmoq; **3.** o'ylamoq, niyat, ahd, qasd qilmoq; **4.** tarbiyalamoq, ta'lim bermoq, o'qitmoq, o'rgatmoq, rivojlantirmoq, shakllantirmoq; **bien formé pour son âge** yoshiga nisbatan yaxshi ko'rinish; **5.** *mil* tizmoq, saf qilmoq; **6.** *chim* tindirmoq, tagiga cho'ktirmoq; **II. se former** *vpr* **1.** yaralmoq, paydo bo'lmoq, tuzilmoq, tashkil topmoq; **2.** rivojlanmoq, shakllanmoq, yetilmoq, shakillanib yetmoq (*xarakter to'g'risida*); **3.** *mil* tizilmoq, saflanmoq.

**formidable** *adj* **1.** ulkan, juda, g'oyat katta, azim, haybatli, mahobatli, dahshatli, bahaybat, qo'rqinchli, dag'-dag'ali; **2.** *og'z* juda soz, juda yaxshi, ajoyib, qoyilmaqom.

**formidablement** *adv* **1.** dahshatli, qo'rqinchli, o'ta katta, o'ta kuchli, bahaybat; **2.** *fam* juda yaxshi, soz, qoyil.

**formique** *adj* **acide formique** chumoli kislota; **aldéhyde formique** formaldegid.

**formulaire** *nm* **1.** rasmiylashgan forma va shakllar to'plami; **2.** formulyar, xizmat daftarchasi, varaq, daftar, formulyar (*kutubxonada kitobning ishlatilganligi haqidagi ma'lumot varaqasi*), blank; **un formulaire de télégramme** teligramma blanki; **un formulaire imprimé** tayyor formulyar, blank, varaqa.

**formulation** *nf* aniq ifoda etish, ta'riflash, ta'riflab berish.

**formule** *nf* formula (*biror fikr yoki qoidaning qisqa va aniq ta'rifi, ifodasi*); shartli ifoda; **une formule brute** *chim* empirik formula; **une formule sanguine** *méd* qon tarkibi formulasi; **formules de politesse** axloq-odob iboralari, nazokatli iboralar.

**formuler** *vt* aniq ifoda qilmoq, ta'riflamoq, ifoda etmoq, bayon qilmoq; **formule un médicament** dori yozib bermoq.

**fornication** *nf relig* fahsh, zino; *plais* jinsiy aloqa.

**fors** *prép* -dan tashqari, -dan boshqa; **tout est perdu, fors l'honneur** vijdondan boshqa hamma narsa yo'qotildi.

**fort, forte I.** *adj* **1.** kuchli, baquvvat; **de forte constitution** zuvalasi pishiq; **fort comme un bœuf** ho'kizdek kuchli, baquvvat; **cela est plus fort que moi** bu mening qo'limdan kelmaydi; **fort de** nimagadir qattiq ishonish; **2.** mahkam, pishiq, puxta, chidamli, mustahkam, bardosh beradigan, qattiq, mustahkam; **3.** muhim, jiddiy, yirik, katta, ulkan; **une forte somme** katta, ko'p pul; **de forts contingents** yirik kontingent; **4.** chidamli, pishiq, puxta, matonatli, sabotli, bukilmas, mustahkam; **une ville forte** mustahkam shahar; **5. (en qqch)** biror narsaga mohirlik, ustalik, ustasi faranglik; **il est fort en mathématiques** u matematikadan kuchli; **6.** og'ir, vazmin, salmoqdor; **7.** kuchli, katta; **une forte pluie** jala, sharros yomg'ir; **une voix forte** qattiq ovoz, baland ovoz; **c'est trop fort! elle est forte, celle-là!** *fam* bu sira to'g'ri kelmaydi, bu darvozaga sig'maydi! **à plus forte raison** ayniqsa, buning ustiga; **II.** *adv* **1.** mahkamlab, mahkam, pishiq qilib, mahkam, qattiq; **de plus en plus fort** juda mahkamlab; **2.** baland, qattiq; **3.** juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, ortiq (*g'oyat, nihoyat*) darajada, bag'oyat; **fort bien** juda yaxshi, a'lo darajada; a'lo, mayli; yaxshi, durust; **fort mal** juda yomon, yomon. **III.** *nm* **1.** kuchli tomon; **c'est là mon fort** meni bunga kuchim yetadi; **2.** asosiy, eng muhim, bosh; **au fort de** eng qizg'in (*yoki eng qizigan*) paytda; **au fort du combat** jang qizigan paytda; **3.** istehkom, mudofaa inshooti; **4.** qalin, zich, quyuq (*o'rmon*); **5.** kuchli odam, bahodir, polvon; **6.** in, uya, makon (*hayvonlar*).

**forte** *adv m inv muz* forte, qattiq, kuchli.

**fortement** *adv* mahkam, pishiq qilib.

**forteresse** *nf* **1.** qal'a, qo'rg'on, shahriston; **2.** qamoqxona, zindon.

**fortifiant, ante I.** *adj* mustahkamlovchi, mahkamlovchi; **II.** *nm* mustahkamlovchi vosita.

**fortification** *nf mil* istehkom, mudofaa inshootlari; **des travaux de fortification** inshoot qurilishi ishlari.

**fortifier I.** *vt* mudofaa inshootlari qurib mustahkamlamoq, istehkomlar qurmoq; *mil* kuchaytirmoq, zo'raytirmoq, oshirmoq, mahkamlamoq, mustahkamlamoq; **II. se fortifier** *vpr* mudofaa inshootlari qurib o'rnatmoq, mudofaaga yaxshi shaylanmoq.

**fortin** *nm* fort, kichik qal'a, qo'rg'on, qadimiy qal'a.

**fortiori (à)** *loc adv* ayniqsa, buning ustiga.

**fortissimo** *adv învar muz* fortissimo, juda kuchli, nihoyatda qattiq (*fortedan ham qattiq*).

**fortuit, uite** *adj* tasodifiy, kutilmaganda yuz bergan, kutilmagan, nogohoniy.

**fortuitement** *adv* tasodifan, kutilmaganda.

**fortune** *nf* **1.** baxt, omad, muvaffaqiyat; **de bonne fortune** muvaffaqiyat, muvaffaqiyatli, baxtli tasodif; **la fortune lui sourit** unga baxt kulib boqdi; **à la fortune du pot** xudo nasib etganiga, boriga baraka; **2.** taqdir, qismat, yozmish, peshona; **un revers de fortune** taqdir bevafoligi; **de fortune** to'satdan, bexosdan, tasodifan, tasodifan topilgan; **un officier de fortune** oddiy askarlarga xizmat qiluvchi ofiser; **3.** boylik, mulk; **faire fortune** boyimoq.

**fortuné, ée** *adj* **1.** baxtli, omadli; **2.** boy, badavlat.

**forum** *mn* **1.** qadimgi Rimda shaharning ijtimoiy hayot markazi bo'lmish maydon; **2.** ommaviy yig'in, anjuman, forum, syezd.

**fosse** *nf* **1.** o'ra, chuqur, ko'mirxona (*kemada*); **la fosse océanique** okeanning chuqur joyi; **2.** go'r, qabr; **une fosse commune** o'rtoqlar, qardoshlar mozori; **creuser sa fosse** *fig* o'ziga choh qazimoq; **avoir un pied dans la fosse** bir oyog'i go'rda bo'lmoq; **3.** *anat* biror narsaning ichi, biror narsaning ichidagi bo'lmoq, kovak, chuqur, chuqurga; **les fosses nasales**



www.ziyouz.com kutubxonasi

burun bo‘shlig‘i; **4. la fosse d'orchestre** *teatr* teatrda orkestr joylashadigan chuqur joy.

**fossé** *nm* **1.** o‘ra, chuqur, xandaq, zovur, kotlovan, poydevor, yotqizish uchun qazilgan chuqur; transheya, yo‘l chetidagi ariq, kanal, ariq, zovur; **2.** *fig* ixtilof, kelishmovchilik, farq, jarlik; **le fossé se creuse entre** oralaridagi jarlik, kelishmovchilik kengayyapti.

**fossette** *nf* chuqurchalar, kulgichlar (*yuzdagi, iyakdagi*).

**fossile I.** *adj* **1.** *géol* qazib olinadigan, qazilma; **un combustible fossile** qazib olinadigan yonuvchi material (*ko‘mir, neft*); **2.** allaqachon eskirgan, qadimiy, orqada qolgan, yaxshi rivojlanmagan; **II.** *nm* qazilma, qazilma hayvonlar, qazilma o‘simliklar; qazilma boyliklar.

**fossiliser I.** *vt géol* toshga aylanmoq; **II. se fossiliser** *vpr* toshdek qotib qolmoq, toshga aylanmoq.

**fossilisation** *nf géol* toshga aylanish, toshdek qotib qolish jarayoni.

**fossoyeur** *nm* go‘rkov, go‘r qazuvchi kishi.

**fou, fol, folle I.** *adj* **1.** jinni, tentak, esi past, es-hushini yo‘qotgan, telba, devona, majnun, ahmoq, kaltafahm, to‘mtoq, befahm, befarosat, beaql; **devenir fou** aqldan ozmoq; **rendre fou** telba, jinni bo‘lib qolmoq; **fou à lier** fe'li tez, battol, to‘polonchi, bebosh jinni; **il est fou d'elle** uning ishqida devona, majnun bo‘ldi; **vous êtes fou** aqlingiz joyidami? esingiz o‘zingizdami? jinni bo‘libsiz; **une tête folle** yerga ursa ko‘kka sakraydigan odam, ovbosh; **un fou rire** to‘xtatib bo‘lmaydigan kulgi, o‘zini to‘xtata olmay kulish; *prov* **qui fol naquit jamais ne guérit** bukrini go‘r to‘g‘rilaydi; **2.** ahmoqona, bema'ni, o‘ylamay qilingan, muhokama, mulohaza qilib ko‘rmay, telbalarcha, tentaklarcha; **une idée folle** ahmoqona fikr; **3.** haddan ortiq, juda, o‘tak kuchli, ko‘p, qattiq; **succès fou** juda katta muvaffaqiyat; **4.** harakati noaniq, noto‘g‘ri ishlayotgan; chalkash, ayqash-uyqash; **balance folle** buzuq, noto‘g‘ri ishlaydigan tarozi; **barbe folle** o‘sib ketgan, o‘siq soqol; **herbes folles** yovvoyi, begona o‘tlar; *fam* **une patte folle** cho‘loq oyoq; **II.** *n* **1.** jinni, telba, savdoyi, es-hushini yo‘qotgan, telba odam, majnun; **maison de fous** jinnixona; *fam* **histoire de fous** jinnilar to‘g‘risida latifa; ahmoqona hikoya; **2.** tentak, esi past, esi yo‘q, ahmoq, kaltafahm, to‘mtoq, befahm, befarosat; **faire le fou** ahmoqlik, maynavozchilik, jinnilik qilmoq; **3.** qiziqchi, masxaraboz, maynavoz (*shox saroyida*); **4.** *nm* fil (*shahmatda*); **le fou de la reine** farzin fil.

**fouailler** *vt vx litt* qamchi bilan urmoq, savalamoq, qamchilamoq.

**foudre**[1] *nf* **1.** chaqmoq, yashin; **un coup de foudre** momaqaldiroq; *fig* bir boqishda muhabbat; **être frappé par la foudre** yashindan jarohatlanmoq; **comme la foudre** yashin tezligida; **2.** *pl* g‘azab, nafrat, qahr, jahl, jaholat.

**foudre**[2] *nm* katta bochka.

**foudroyer** *vt* **1.** yashin urmoq, yashin urib o‘ldirmoq; **2.** shikastlamoq, yaralamoq; o‘ldirmoq, tamom qilmoq.

**foudroyant, ante** *adj fig* yashin tezligida, yashindek tez, shiddatli, juda qattiq, kuchli, quloqni teshadigan, dahshatli, vahimali, haybatli; **une nouvelle foudroyante** qaqshatgich zarba; **une apoplexie foudroyante** apopleksiya, sakta (*miyaga qon quyilishi yoki miya qon tomirlarining bekilishi natijasida hushdan ketish yoki falaj bo‘lish*); **un poison foudroyant** o‘ldiradigan zahar.

**fouet** *nm* **1.** uzun qamchi, darra; **donner le fouet** qamchilamoq, qamchi bilan savalamoq; **un coup de fouet** o‘tkir, kuchli, qattiq, zirqiratadigan og‘riq, qaqshab og‘rish; **de plein fouet** bor kuchi bilan, jonining boricha; **se heurter de plein fouet** bor tezlikda urilib ketmoq; **2.** qamchi bilan jazolash; **3.** ko‘pirtirgich (*oshxonaga oid*).

**fouetter** *vt* **1.** savalamoq, qamchilamoq, urmoq; **il n'y a pas de quoi fouetter un chat** *fam* sariq chaqaga arzimaydigan ish; **2.** qadamini tezlashtirmoq, haydab yubormoq, olib bormoq, qamchilab haydamoq, tez yurgizish uchun urinmoq, shoshiltirmoq, tezlatmoq; **3.** ko‘pirtirmoq (*pazandalikka oid*).

**fouettard, arde** *adj* **le père fouettard** xipchinli, qamchili bobo (*bolalarni qo‘rqituvchi ertak qahramoni*).

**fougasse** *nf* non turi.

**fougère** *nf* qirqquloq, paparotnik.

**fougue** *nf* **1.** qizg‘inlik, jo‘shqinlik, g‘ayrat, katta zavq-shavq, xursandlik; **la fougue de la jeunesse** yoshlik g‘ayrati; **2.** qattiq jazava, hayajon, g‘azab, jahl; **3.** *fam* shamolning birdan kuchayishi.

**fougueux, euse** *adj* qizg‘in, jo‘shqin, g‘ayratli, yuragida o‘ti bor.

**fougueusement** *adv* serzavqlik, qizg‘inlik, jo‘shqinlik, otashinlik.

**fouille** *nf* **1.** *géol* qidirish, izlanish, qidiruv tadqiqot; *arxeol* qazish ishlari, qazish o‘tkazilgan joylar; **2.** qazish, kovlash; **3.** kotlovan (*poydevor yotqizish uchun qazilgan chuqur*); handaq; shurf, quduq (*yer qatlamlarini o‘rganish yoki portlatish ishlari uchun qazilgan quduqsimon chuqurlik*); **4.** shaxsiy tintuv; **soumettre à une fouille** tintuv qilmoq.

**fouiller I.** *vt* **1.** qazimoq, kovlamoq, o‘ymoq, uzmoq; uzib tashlamoq, qazuv ishlari o‘tkazmoq; **2.** qidirmoq, axtarmoq, titkilamoq, kovlamoq, tintimoq, tintuv qilmoq; **fouiller qqn** kimnidir axtarmoq; **3.** astoydil, tirishib ishlov bermoq; **fouiller un plan** rejani astoydil, sinchiklab o‘rganib chiqmoq, ishlab chiqmoq **II.** *vi* yaxshilab qaramoq, tekshirmoq, titkilab qaramoq, kovlashtirmoq; **fouiller dans sa mémoire** havsala bilan, qunt qilib, harakat qilib eslamoq, xotirlamoq; **III. se fouiller** *vpr* cho‘ntaklarini qidirib qaramoq, cho‘ntaklarini timirsiklamoq, titkilamoq.

**fouillis** *nm* tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, to‘s-to‘polon; **fouillis de papiers** qog‘ozlar uyumi.

**fouine** *nf zool* tosh suvsar.

**fouiner** *vi fam* **1.** *péj* hamma joyga tumshuq suqmoq, suqulmoq, aralashmoq, birovning narsalarini titkilamoq; **2.** axtarmoq, qidirmoq, titkilamoq.

**fouineur, euse** *adj, n* har joyga, har ishga, har narsaga burnini tiqaveradigan, suqilaveradigan, titkilayveradigan, qiziquvchan.

**fouir** *vt* qazimoq, kovlamoq, o‘ymoq (*asosan hayvonlar*).

**foulage** *nm* **1.** bosilgan, jundan bosib qilingan bosma, movut, bosma movut; **2.** siqib sharbatini olmoq, suvini olmoq (*uzumni*); **3.** *typogr* preslash, iskanjalash, taxtakachlash, bosib naqsh solish.

**foulant, ante** *adj* **1.** dam, bosim beradigan, haydaydigan; **une pompe foulante** dam beradigan nasos; **2.** *fam* charchatadigan, zeriktiradigan, tinkamadorini quritadigan.

**foulard** *nm* **1.** harir, fulyar (*gazlama*); **2.** bo‘yin ro‘mol, bo‘yinbog‘, sharf; **3.** galstuk (*pioner*).

**foule** *nf* olomon, betartib yig‘in, to‘da, olomon, to‘da, yig‘in, anchagina, birtalay; **fendre la foule** olomonni har yoqqa itarib, surib yo‘l ochmoq, joy ochmoq; **en foule** *loc adv* olomon, ko‘pchilik bo‘lib, to‘da-to‘da bo‘lib.

**foulée** *nf* **1.** hayvon izi; **2.** qadam, odim.

**fouler I.** *vt* **1.** ezmoq, ezib, bosib, yanchib yumshatmoq, payhon qilmoq; **fouler l'herbe** o‘tlarni ezmoq, toptamoq, payhon qilmoq; **2.** yurmoq, qadam qo‘ymoq, bosmoq, toptamoq; **fouler le sol natal** ona yurtida yurmoq; **3.** ezmoq, sihmoq, ezib, siqib suvini, sharbatini olmoq; **fouler le raisin** uzum sharbatini olmoq; **4.** chiqarmoq, o‘rnidan qo‘zg‘atmoq; **5.** bosmoq (*namat, piyma*); **6.** *fig* ranjitmoq, qiynamoq, azob bermoq; **fouler aux pieds** oyoqlarini toptamoq, topillatmoq; **II. se fouler** *vpr* **1.** o‘zining biror joyini chiqarib qo‘ymoq, o‘rnidan qo‘zg‘atib qo‘ymoq, payini ezmoq; **se fouler le pied** oyog‘i chiqib ketmoq; **2.** *fam* harakat qilmoq, urinmoq, tirishmoq.

**foulure** *nf* **1.** to‘qimaning shikastlanishi, et uzilishi, ezilish; **2.** *fam* toyish, chiqish (*suyak chiqishi*).

**four** *nm* **1.** pech, pechka; tandir; **un four de boulangerie** non yopadigan pechka; **un four électrique** elektr pechi; **un four à briques** g‘isht pishirish pechi; **four crématoire** kemasiya pechi; **c'est n'est pas pour vous que le four chauffe** *prov* birovning narsasiga ko‘z olaytirma; **2.** novvoyxona; **des petits fours** pecheniy, pishiriqlar, pishirilgan, yopilgan narsalar; **3.** *fam* muvaffaqiyatsizlik, barbod bo‘lish.

**fourbe I.** *adj* hiylakor, ayyor, mug‘ombir, shayton, makkorlik bilan qilingan, makkorona, muttahamona, firibgar; **II.** *n* aldamchi, makkor, ayyor, muttaham, mug‘ombir.

**fourberie** *nf* muttahamlik, firibgarlik, makr-hiyla, hiyla-nayrang, makr, hiyla.

**fourbi** *nm fam* **1.** *mil* qurol-yarog‘, aslaha-anjom; **2.** eski-tuski, lash-lush, latta-putta; kiyim-kechak, mayda-chuyda; **3.** shubhali ishlar.

**fourbir** *vt* yaxshilab tozalamoq, top-toza qilmoq, yaltiratmoq.

**fourbissage** *nm* oynaday qilib tozalash, top-toza qilish.

**fourbu, ue** *adj* **1.** holdan toygan, holsizlangan, darmonsizlangan (*otlar haqida*); **2.** tinkasi qurigan, obdon charchagan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**fourche** *nf* **1.** ayri, panshaxa; **2.** tarmoq, bo‘lak, qism (*tan, poya, daraxtning tanasi*); yo‘lning ayrilish joyi, ayrilish; **faire la fourche** tarmoqlanmoq, tarmoqlarga ajramoq; **3.** *techn* vilka (*uchi ayri asbob*); miltiqning tirgagi, oyog‘i; **4.** uzun tog‘ yo‘li.

**fourcher I.** *vi* tarmoqlanmoq, tarmoqlarga ajralmoq; **la langue lui a fourché** u yanglish gapirib yubordi, bir so‘zning o‘rniga boshqasini ishlatib yubordi; **II.** *vt* panshaxa bilan olmoq, ishlamoq.

**fourchette** *nf* **1.** vilka, sanchqi; **une belle fourchette** *fam* ochko‘z, ochofat, ovqat shinavandasi, mazaxo‘r; **2.** vilka (*uchi ayri asbob*); **3.** o‘mrov suyagi (*qushlarda*); **4.** *mil fam* shtik, miltiq nayzasi.

**fourchu, ue** *adj* ayriga o‘xshash, ayri; **un chemin fourchu** yo‘lning ayrilish joyi.

**fourgon[1]** *nm* **1.** furgon (*soyabon arava, yuk tashuvchi avtomobil, arava kabilarda yopiq kuzov*); **les fourgons** karvon (*aravalar karvoni*); **un fourgon funèbre** dafn avtobusi; **2.** yuk tashuvchi vagon; **un fourgon à bestiaux** mol (*hayvon, chorva*) tashuvchi vagon.

**fourgon[2]** *nm* temir kosov, otashkurak.

**fourgonner 1.** temir kosov bilan qorishtirmoq, kovlashtirmoq; **2.** *fam* kovlamoq, titmoq, titkilamoq, ag‘dar-to‘ntar qilmoq.

**fourgonnette** *nf* uncha katta bo‘lmagan, kichik furgon, arava, mashina.

**fourme** *nf* furm (*pishloq turi*).

**fourmi** *nf* chumoli; **une fourmi blanche** termit, qumchumoli, vahma chumoli; **j’ai des fourmis dans les jambes** *fam* oyoqlarim uyushib qoldi.

**fourmilier** *nm zool* chumolixo‘r (*hayvon*).

**fourmilière** *nf* chumoli uyasi, ini.

**fourmi-lion** *ou* **fourmilion** *nm* chumoli sheri (*chumolixo‘r hasharot*).

**fourmillant, ante** *adj* g‘imirlagan, g‘ujg‘on o‘ynayotgan, to‘lib-toshgan, qaynagan.

**fourmillement** *nm* qaynash, bijirlash, g‘uj-g‘uj bo‘lish.

**fourmiller** *vi* g‘ij-g‘ij qaynamoq, bijirlab, g‘imirlab yotmoq; **fourmiller de fautes** xatoga g‘ij-g‘ij to‘la bo‘lmoq.

**fournaise** *nf* **1.** katta pechka; katta, kuchli olov; **2.** juda issiq joy; **3.** *fig* jang eng qizigan joy, shiddatli qirg‘in.

**fourneau** *nm* **1.** oshxona pechkasi, plita; **un fourneau à gaz** gaz plitasi; **2.** pech.

**fournée** *nf* **1.** bir tandir non; **2.** *fam* biror vazifaga, amalga bir paytda tayinlangan odamlar guruhi; bir paytda bir xil ish-harakat qilayotgan odamlar guruhi.

**fourni, ie** *adj* **1.** ta’minlangan, to‘la, qalin, mo‘l-ko‘l; **une table bien fournie** to‘la-to‘kis dasturxon; **2.** qalin, zich, tig‘iz, quyuq, to‘q, serob; **une barbe fournie** quyuq soqol.

**fournil** *nm* novvoyxona, tandirxona.

**fourniment** *nm mil* aslaha-anjomlar.

**fournir** *vt* **1. (qqch, qqn de qqch)** yetkazib bermoq, ta’minlamoq; **2.** bermoq, namoyish qilib ko‘rsatmoq (*isbot va boshqa narsalar*); **fournir des renseignements** ma’lumotlarni yetkazmoq; **se fournir** o‘zini yaxshi tomonini ko‘rsatmoq; **3.** bajarmoq.

**fournisseur** *nm* yetkazib beruvchi, ta’minotchi.

**fourniture** *nf* yetkazib berish, ta’minlash, oziq-ovqat ta’minoti, ta’minot.

**fourrage** *nm* xashak, pichan, yem-xashak, ozuqa.

**fourrager[1] I.** *vi* **1.** mol uchun yem-xashak yig‘moq; **2.** kovlamoq; **3.** *fam* quramachilik qilmoq. **II.** *vi* alg‘ov-dalg‘ov qilmoq, chalkashtirib tashlamoq.

**fourrager[2], ère** *adj* yem-xashakka oid; **betterave fourragère** xashaki lavlagi.

**fourragère** *nf* **1.** yem-xashak ekiladigan maydon; **2.** pichan tashiydigan arava.

**fourré[1]** *nm* chakalakzor, to‘qay.

**fourré, ée** *adj* **1.** mo‘ynali; astari mo‘ynali, mo‘ynali teridan tikilgan, ichi junli; **un manteau fourré** mo‘ynali palto; po‘stin; **2.** mo‘ynasi qalin, quyuq.

**fourreau** *nm* **1.** g‘ilof, qin; **2.** ayollarning tor ko‘ylagi.

**fourrer I.** *vt* **1.** kovlamoq, solmoq, tiqmoq; **fourrer la main dans sa poche** qo‘lini cho‘ntagiga tiqmoq; **2.** mo‘yna, teri qadamoq; **3.** astar tikmoq; **4.** yamamoq, yamab tuzatmoq; **II. se fourrer** *vpr* kirmoq (*qalbiga*); chigallashmoq.

**fourreur** *nm* mo‘ynado‘z.

**fourrier** *nm* **1.** *mil* kontenarmus (*harbiy qismlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-aslaha olish, saqlash va berish bilan shug‘ullanadigan, qurol-yaroqlarni boshqaradigan va saqlaydigan zobit*); **2.** darakchi, xabarchi.

**fourrière** *nf* jarima maydonchasi, qoidalar buzilgan hollarda egalaridan olib qo‘yilgan avtomashinalar jarima to‘langunga qadar saqlab turiladigan joy; adashgan, daydi uy hayvonlari saqlab turiladigan joy.

**fourrure** *nf* **1.** teri, mo‘yna; **2.** mo‘ynali kiyim.

**fourvoyer I.** *vt* **1.** yo‘ldan adashtirmoq; **2.** yo‘ldan urmoq, yomon yo‘lga solmoq; **II. se fourvoyer** *vpr* **1.** yo‘ldan adashmoq; **2.** adashmoq.

**fourvoiement** *nm* xato, adashish.

**foutaise** *nf fam* arzimas, ahamiyatsiz narsa.

**foutre[1]** *fam* **I.** *vt* **1.** qilmoq; **qu’est-ce que tu foutais là?** sen u yerda nima qilding? **2.** qo‘ymoq, solmoq; tiqmoq; irg‘itmoq, uloqtirmoq; **3.** bermoq; **foutre un coup de pied à qqn** kimnidir tepmoq; **4.** *vulg* jinsiy aloqa qilmoq; **va te faire foutre** daf bo‘l, yo‘qol; **foutre le camp** gum bo‘lmoq; **II. se foutre** *vpr* **se foutre par terre** qattiq yiqilmoq; **se foutre en l’air** o‘z joniga qasd qilmoq, o‘zini o‘ldirmoq; **se foutre** *à+inf* biror narsa qilishni boshlamoq, kirishmoq; **se foutre de** ustidan kulmoq, masxara qilmoq; tupurmoq, bir tiyinga olmaslik, pisand qilmaslik; **je m’en fous** tupurdim, menga qizig‘i yo‘q, meni qiziqtirmaydi.

**foutre[2]** *intj fam* jin ursin!

**foutriquet** *nm* chala, bitmagan, g‘o‘r.

**foutu, ue** *adj fam* **1.** buzilgan, tamom bo‘lgan, dabdala bo‘lgan; **il est foutu** u tamom; **2. bien foutu** kelishgan; **se sentir mal foutu** o‘zini behol his qilmoq; **3.** qobil, qodir, qo‘lidan keladigan.

**fox** *nm inv voir* **fox-terrier**.

**fox-terrier** *nm* foksteryer (*uncha katta bo‘lmagan tozi it*).

**fox-trot** *nm* fokstrot (*raqs turi*).

**foyer** *nm* **1.** o‘choq, manba, isitish kamerasi; **aimer son foyer** o‘z uyini yoqtirmoq; **rentrer dans ses foyers** o‘zinikiga qaytmoq; **2.** tosh plita; **3.** *phys* fokus; **4.** markaz; **5.** teatr foyesi; **6.** hovli (*dehqonlarniki*); **7.** yotoqxona, boshpana.

**frac** *nm* frak (*oldingi etagi uzun, orqa etagi qisqa erkaklar kiyimi*).

**fracas** *nm* gumburlash; **à grand fracas** katta shovqin bilan.

**fracassant, ante** *adj* gumbur, shovqinli, larzaga keltiruvchi.

**fracassement** *nm* bo‘linish, maydalash.

**fracasser** *vt* bo‘lmoq, urmoq, parchalab tashlamoq.

**fraction** *nf* **1.** ulush, qism, parcha; **2.** *math* kasr; **3.** fraksiya (*parlament va partiyada*).

**fractionnaire** *adj math* kasriy, kasr; **nombre fractionnaire** kasr son.

**fractionnel, elle** *adj* ajratishga, bo‘lishga, parchalashga harakat qiladigan, buzuvchi, ajratuvchi, parchalovchi; **menées fractionnelles** bo‘linish faoliyati.

**fractionnement** *nm* bo‘linish, ajralish, parchalanish.

**fractionner I.** *vt* **1.** bo‘lmoq, ajratmoq; **II. se fractionner** *vpr* bo‘linib, parchalanib ketmoq.

**fracture** *nf* **1.** buzish (*eshik va boshqa narsalarni*); **2.** sinish (*suyak*); **3.** singan joy, darz.

**fracturer** *vt* sindirmoq, yormoq; buzmoq.

**fragile** *adj* **1.** bo‘sh, nozik, yupqa; **2.** nomustahkam, qisqa vaqtli; **un équilibre fragile** qaltis muvozanat.

**fragilité** *nf* **1.** mo‘rtlik, sinuvchanlik; **2.** uzoqqa chidamaydigan, chidamsiz; **3.** *huquq* asossiz, isbotsiz.

**fragment** *nm* **1.** bo‘lak, kesma, fragment; **2.** parcha.

**fragmentaire** *adj* parchalardan, bo‘laklardan iborat bo‘lgan, parchali, bo‘lak-bo‘lak.

**fragmentation** *nf* bo‘linish, maydalanish.

**fragmenter** *vt* bo‘lmoq, maydalamoq, parchalamoq.

**fragrance** *nf* xushbo‘y hid.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**frai¹** *nm* **1.** baliqlarning uvildiriq tashlashi va erkak baliqlarning ularni urug'lantirishi; **2.** urug'langan uvildiriq (*baliq, qurbaqa*); **3.** endi tuxumdan chiqqan baliqcha.

**frai²** *nm* muomaladagi tangalarning yeyilib, yedirib ketishi.

**fraîche** *adj voir* **frais**.

**fraîchement** *adv* **1.** toza, yangi, barra; **être reçu fraîchement** sovuq qarshi olinmoq **2.** yaqindagina, hozirgina.

**fraîcheur** *nf* **1.** yangilik, tozalik, soflik; **la fraîcheur matinale** ertalabki salqinlik (*toza havo*); **2.** *fam* shamollab qolmoq; **3.** tozalik (*yuzdagi, fikrdagi, o'simlikdagi*); **4.** shabada.

**fraîchir** *vi* **1.** sovuq tushmoq, salqin tushmoq (*ob-havo*); **il fraîchit** salqin bo'lyapti; **2.** kuchaymoq (*dengiz shamoli*).

**frais¹, fraîche I.** *adj* **1.** salqin, toza, sovuq; **2.** yangi, yaqinda tayyorlangan; **du beurre frais** tuzsiz yog'; **de la crème fraîche** qaymoq; **des nouvelles fraîches** so'ngi yangiliklar; **3.** yaqqol, sof, toza; **II.** *nm* sovuq, salqin; **chercher le frais** salqin joyni izlamoq; **prendre le frais** toza havoda nafas olmoq; **mettre au frais** sovuq joyga qo'ymoq, o'tqazmoq (*fam qamoqda*), **III.** *adv* yaqinda.

**frais²** *nm pl* sarf, xarj; **des frais de production** ishlab chiqarish xarajatlari; **frais de table** ovqatlanish xarajatlari; **faire les frais** xarajatni ko'tarmoq; **payer les frais** xarajatni to'lamoq; **couvrir les frais** xarajatni qoplamoq; **en être pour ses frais** zarar ko'rmoq; **à ses frais** o'zining hisobiga; **faire des frais pour qqn** kimgadir jon kuydirmoq.

**fraise¹** *nf* qulupnay, yertut; **une fraise des bois** o'rmon yer tuti.

**fraise²** *nf* qatqorin (*buzoqlarda*).

**fraise³** *nf* kurka xo'rozning og'zi tagidagi go'shtli joy.

**fraise⁴** *nf techn* freza (*metallga ishlov beradigan aylanma barabanli mashina*); bor (*tish kovlaydigan parma*).

**fraiser** *vt* frezerlamoq, freza bilan ishlamoq.

**framboise** *nf* malina, xo'jag'at (*o'simligi va mevasi*).

**framboisier** *nm* malina ko'chati.

**franc¹, franque** *n, adj* frank, franklar.

**franc²** *nm* frank (*pul birligi*); **l'ancien franc** eski frank; **le franc or** oltindan qilingan frank.

**franc³, franche I.** *adj* **1.** erkin, bemalol, majburiyatdan xolis; **une ville franche** ochiq shahar; **être franc du collier** bardam va dadil harakat qilmoq; **2.** ochiq, sofdil, pok; **situation franc** ochiq, sog'lom vaziyat; **jouer franc jeu** ochiq harakat qilmoq; **3.** epchil, uddaburo; **4.** to'liq; **huit jours francs** to'liq sakkiz kun; **5.** haqiqiy, asliy; **franc de goût** haqiqiy, sof (*vino haqida*); **II.** *adv* ochiqlilik bilan, soflik bilan.

**français, aise I.** *adj* fransuz, fransuzcha; **II.** *n* **1.** fransuz; **2.** *nm* fransuz tili.

**franchement** *adv* ochiqchasiga, ochiqlilik bilan, soflik bilan, ochig'ini aytganda.

**franchir** *vt* **1.** kesib o'tmoq, yorib o'tmoq, suzib o'tmoq, sakrab o'tmoq; **franchir un fleuve** daryoni suzib o'tmoq; **franchir les limites, franchir les bornes** chegaradan o'tmoq, chiqmoq; **franchir le seuil** ostonadan hatlab o'tmoq; **franchir la frontière** chegarani kesib, buzib o'tmoq; **2.** *fig* bartaraf qilmoq, yengmoq; **franchir les obstacles** to'siqlarni yengmoq; **franchir le pas** nimanidir qilishga jasurlik qilmoq.

**franchise** *nf* **1.** imtiyoz, yengillik; **une franchise douanière** bojxona solig'idan ozod bo'lish; **2.** boshpana huquqi; **3.** ochiq ko'ngillilik; **en toute franchise** ochiq ko'ngildan; **4.** mardlik.

**franchissement** *nm* **1.** o'tish; **2.** bartaraf qilish.

**francique I.** *adj* franklarga oid; **2.** frank shevasi.

**francisation** *nf* fransuzlashtirish.

**franciser** *vt* fransuzlashtirmoq.

**francisque** *nf* oybolta (*qadimgi gall va fransuzlarda urush quroli*).

**franc-maçon** *nm* (*pl* **francs-maçons**) frank-mason, mason (*oqim*).

**franc-maçonnerie** *nf* frankmasonstva, masonstva (*XVIII asrda bo'lgan diniy oqim*).

**franco¹** *adv* bepul.

**franco²** *fam* ochiqko'ngillik bilan, samimiy, chin dildan.

**francophile** *adj, n* frankofil, Fransiyani va fransuzlarni yoqtiruvchi.

**francophobe** *adj* frankofob, Fransiyani va fransuzlarni yomon ko'ruvchi, ulardan nafratlanuvchi.

**francophone** *adj, n* frankofon, fransuz tilida gapiruvchi.

**franc-parler** *nm* bemalol fikrni ifoda qilish; **avoir son franc-parler** haqiqatni shundoq yuziga gapirmoq.

**franc-tireur** *nm* (*pl* **francs-tireurs**) frantirer, partizan.

**frange** *nf* **1.** popuk, shokila; **2.** peshonadagi soch; **3.** nur chegarasi; **4.** chegara.

**franger** *vt* popuk tikmoq, o'ramoq, hoshiyalamoq.

**frangin, ine I.** *n* aka, opa, uka, singil; **II.** *nf arg* ayol.

**frangipane** *nf* **1.** bodomli krem; **2.** bodomli shirinlik.

**franquette** *nf* **à la bonne franquette** *loc adv* bemalol, tortinmas, tortinmasdan.

**frappant, ante** *adj* ajoyib, hayron qoldiradigan darajada, yorqin.

**frappe¹** *nf* **1.** tangani zarb qilish; **2.** shtampovka qilish; **3.** qoliplar to'plami; **4.** zarba (*sport o'yinlarida*); **5.** mashinkada matn terish; **faute de frappe** terishda yo'l qo'yilgan xato, matbaa xatosi.

**frappe²** *nf fam* xuligan, bezori.

**frapper I.** *vt* **1.** urmoq, tepmoq, zarba bermoq, yarador qilmoq; **frapper juste** aniq zarba bermoq; **frapper un grand coup** hal qiluvchi zarbani bermoq, nishonga aniq olmoq; **frapper sur l'épaule** yelkasiga zarba bermoq; **2.** taqillatmoq; **3.** chekanka qilmoq (*tangalarni*); **4.** jazo bermoq, hayron qoldirmoq; **frapper d'étonnement** haron qoldirmoq; **frapper de terreur** qo'rqinchli narsaga duchor qilmoq; **frapper par la répression** qatag'on qilmoq; **5.** sovutmoq (*shampan va boshqa ichimliklarni*); **II.** *vi* **1.** taqillatmoq; **frapper à la porte** eshik taqillatmoq; **2.** soatning chiqqilab yurishi; **III. se frapper** *vpr* **1.** (**à qqch**) nima bilandir urishib ketmoq; **2.** *fam* hayron qolmoq; **3.** *fam* hayajonlanmoq; **ne te frappe pas** xavotir olma.

**frappeur, euse** *n* tanga zarb qiladigan ishchi.

**frasque** *nf* sho'xlik, beboshlik, tentaklik, ahmoqlik, telba-teskari ish tutish.

**fraternel, elle** *adj* qardosh, birodar.

**fraternellement** *adv* qardoshlarcha, birodarona.

**fraterniser** *vi* qardosh bo'lmoq.

**fraternité** *nf* qardoshlik, birodarlik; **la fraternité humaine** xalqlar qardoshligi.

**fratricide I.** *n* **1.** *nm* birodarkushlik, qon-qarindoshlarning, yaqin kishilarning bir-birini o'ldirishi; **2.** birodarkush, qotil (*qon-qarindoshlar orasidagi*); **II.** *adj* birodarkush, qon-qarindoshlar orasida bir-birini o'ldiradigan.

**fraude** *nf* mutahamlik, qalloblik, firibgarlik, aldash; **la fraude électorale** saylovlarni soxtalashtirish; **la fraude fiscale** soliq to'lashdan bosh tortish; **en fraude** *loc adv* aldov yo'li bilan, yashirincha, noqonuniy.

**frauder I.** *vt* aldamoq; **frauder le fisc** soliqdan bo'yin tovlash; **II.** *vi* qalloblik, firibgarlik qilmoq; noqonuniy narsalarni tashib ketirmoq.

**fraudeur, euse** *n* yolg'onchi, firibgar, muttaham, qallob, tovlamachi, kontrabandist.

**frauduleusement** *adv* aldov yo'li bilan, firibgarlik, qalloblik, tovlamachilik bilan.

**frauduleux, euse** *adj* muttahamlarcha, muttahamlik, firibgarlik, qalloblik, tovlamachilik bilan qilingan.

**frayer I.** *vt* ochmoq, yotqizmoq (*yo'l*); **II.** *vi* **1.** baliqlarni urug'latish; **2.** (**avec qqn**) kim bilandir do'stona munosabatda bo'lmoq; **III. se frayer** *vpr* **se frayer un passage** urinmoq, urinib ko'rmoq.

**frayeur** *nf* qo'rqinch, ayanch.

**fredaine** *nf fam* hazil, sho'xlik, qiliq.

**fredonnement** *nm* yarim ovozda kuylash, xirgoyi qilish.

**fredonner** *vt vi* kuylamoq, yarim ovozda kuylamoq, xirgoyi qilmoq.

**freezer** *nm anglic* muzlatgich.

**frégate** *nf* **1.** fregat (*uch machtali harbiy kema*); **un capitaine de frégate** ikkinchi rangli kapitan, podpolkovnik; **2.** fregat (*qush*).

**frein** *nm* **1.** *vx* suvluq; *loc fig* **ronger son frein** o'zini, jahlini zo'rg'a bosib, tutib turmoq; **mettre un frein à** jilovlamoq, to'siq qo'ymoq, to'xtatib turmoq;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**2.** tormoz, ushlab turgich, to'xtatish moslamasi; **un frein à main** qo'l tormozi; **donner un coup de frein** tormoz bosmoq.

**freinage** *nm* to'xtatish.

**freiner** *vt, vi* to'xtatmoq, to'xtatib qolmoq; **freiner le développement** rivojlanishni sekinlashtirmoq, rivojlanishga xalaqit bermoq.

**frelater** *vt* soxtalashtirmoq, buzmoq, yot narsalar aralashtirmoq (*ichimliklar, dori-darmonlar*).

**frelaté, ée** *adj* yasama, soxta, buzilgan; **vin frelaté** soxta sharob.

**frêle** *adj* mo'rt, bo'sh, nozik, kuchsiz; **une voix frêle** kuchsiz tovush.

**frelon** *nm* qovoq ari, qizil ari.

**freluquet** *nm vieilli* olifta, quruq savlatli, beandisha, yengiltak, havoyi odam.

**frémir** *vi* jimirlamoq, mildiramoq; shildiramoq, shitir-shitir qilmoq; qaltiramoq, junjikmoq; titramoq.

**frémissant, ante** *adj* jimirlayotgan, mildirayotgan; shitir-shitir qilayotgan; qaltiragan, junjikkan, titroq, qaltiroq.

**frémissement** *nm* jimirlash, mildirash; shildirash, shitir-shitir; qaltirash, junjikish; titrash.

**frêne** *nm bot* shumtol, qoratol.

**frénésie** *nf* **1.** qattiq jazava, hayajon, g'azab; **2.** qiziqish, band bo'lish.

**frénétique** *adj* hayajonli, g'azabli, jazavali; **des applaudissements frénétiques** gulduros qarsaklar.

**frénétiquement** *adv* telbalarcha, juda, o'ta.

**fréquence** *nf* **1.** ko'p qaytarish; **2.** chastota (*tebranma harakat tezligining darajasi*).

**fréquent, ente** *adj* tez, tezlashgan, jadallashgan; tez-tez sodir bo'ladigan.

**fréquentable** *adj* borsa, borib ko'rsa bo'ladigan.

**fréquentation** *nf* tez-tez qatnashib turish, borib turish; bordi-keldi qilish; **une longue fréquentation** uzoq muddatli bordi-keldi.

**fréquenter I.** *vt, vi* qatnashmoq, borib kelmoq; *fam* aloqada bo'lmoq; **II. se fréquenter** *vpr* bordi-keldi qilmoq.

**frère I.** *nm* aka; **un frère utérin** aka, uka (*ona bir, ota boshqa*); **un frère de lait** bir onadan sut emgan begona aka-uka; **des frères jumeaux** egizak aka-uka; **un faux frère** sotqin, xoin; **traiter qqn en frère** do'stona muomalada bo'lmoq; **II.** *adj* qardosh.

**frérot** *nm fam* ukam, ukaginam.

**fresque** *nf* freska (*devorga solingan rasm*).

**fressure** *nf* qorin, ichak-chovoqlar (*so'yilgan hayvonning*).

**fret** *nm* **1.** yuk tashish haqi, kira puli (*kemada*); **2.** yuk; **3.** yuk tashish; **un avion de fret** yuk samolyoti.

**fréter** *vt* ijaraga olmoq, bermoq (*avtomashina*).

**frétillant, ante** *adj* harakatchan, serharakat, o'ynoqi, sho'x, tinchimaydigan, tinib-tinchimas.

**frétillement** *nm* **1.** barglarning titrashi, shitirlashi; **2.** silkinish, titrash; **3.** likillatish (*dumini*).

**frétiller** *vi* silkinmoq, titramoq; lipillamoq, jilpanglamoq; aylanmoq.

**fretin** *nm* **1.** mayda baliq, chavoq; **2.** *fam* mayda-chuyda, arzimas odamlar.

**frette** *nf* temir gardish, temir chambarak.

**freux** *nm* go'ngqarg'a.

**friable** *adj* tez, ozon maydalanadigan, eziluvchan, mo'rt.

**friand[1], ande** *adj* **1.** shirintomoq; **être friand de qqch** nimanidir juda yaxshi ko'rmoq; **2.** ishqiboz, xush ko'ruvchi, biror narsaning gadosi.

**friand[2]** *nm* **1.** go'shtli qatlama; **2.** bodom unidan qilinadigan pirog.

**friandise** *nf* **1.** shirinlikka tashnalik, o'chlik, shirintomoqlik; **2.** shirinlik.

**fric** *nm arg* pul.

**fricandeau** *nm* frikando (*ichiga cho'chqa yog'i tiqilgan va cho'qda pishiriladigan buzoq go'shti*).

**fricassée** *nf* frikase (*parranda, buzoq, cho'chqa, quyon kabilarning go'shtidan tayyorlangan dimlama*).

**fricasser** *vt* **1.** go'sht bo'lagini dimlab pishirmoq; **2.** *fig vieilli* sovurmoq, ishlatib yubormoq (*pul*).

**fric-frac** *nm fam* o'g'irlash, talon-taroj qilish.

**friche** *nf* qo'riq, bo'z yer, ishlov berilmagan yer, ekin ekilmagan yer; **en friche** *loc adv* ekin ekilmagan, ekilmay yotgan, qarovsiz qolgan, xarobazorga aylangan, tashlandiq; **laisser une terre en friche** yerni tashlab qo'ymoq.

**frichti** *nm fam* ovqat.

**fricoter I.** *vi fam* **1.** shubhali, g'alati ishlar bilan shug'ullanmoq, zimdan ish qilmoq; **fricoter avec qqn** jinsiy aloqa qilmoq; **II.** *vt* **1.** qovurmoq, pishirmoq, tayyorlamoq; **2.** *fam* yomon narsani o'ylamoq, fitna uyushtirmoq, g'alamislik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq, bir baloni boshlamoq; **qu'est-ce qu'il fricote encore?** yana qanday baloni boshlayapti?

**fricoteur, euse** *n fam* firibgar, tovlamachi, olg'ir.

**friction** *nf* **1.** ishqalash, ishqash, uqalash; **2.** ishqalanish; **3.** kelishmaslik, kelishmovchilik.

**frictionner I.** *vt* ishqalamoq, uqalamoq; **II. se frictionner** *vpr* artinmoq, o'zini o'zi artmoq.

**frigidaire** *nm* muzlatgich.

**frigide** *adj* **1.** *poét* sovuq; **2.** sovuq (*mizoj*); hissiz; hirssiz, jinsiy sovuq (*ayol*).

**frigidité** *nf* **1.** sovuq (*holat*); **2.** sovuqlik (*mijoz to'g'risida*); **3.** jinsiy sovuqlik (*ayollarda*).

**frigo** *nm fam* **1.** muzlagan go'sht; **2.** xolodilnik, muzlatgich.

**frigorifier** *vt* muzlatmoq (*muzlatgichda*); *fam* **être frigorifié** muzlab qolmoq, sovqotib qolmoq.

**frigorifique** *adj* sovituvchi; **appareil frigorifique** muzlatgich.

**frileux, euse** *adj* **1.** sovuqqa ojiz, sovuqqa chiday olmaydigan; **2.** *fig* qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz, sustkash, ojiz, jur'atsiz.

**frimas** *nm* **1.** bulduruq; **2.** *pl* qish.

**frime** *nf fam* mug'ombirlik, ayyorlik, quvlik; **pour la frime** shunchaki, yuzaki, nomigagina.

**frimousse** *nf fam* chiroyligina ayol, do'ndiqcha.

**fringale** *nf fam* **1.** to'satdan paydo bo'lgan ochlik; **2.** tiyib bo'lmaydigan ehtiyoj, ishtiyoq.

**fringant, ante** *adj* **1.** o'ynoqi, sho'x, tinib-tinchimaydigan, yugurik, chopqir (*ot*); **2.** dadil, epchil, tetik, chaqqon, harakatchan, jo'shqin, otashin.

**fringuer I.** *vi vx* sakramoq, irg'imoq, irg'ishlamoq, o'yinga tushmoq, o'ynoqlamoq, sho'xlik qilmoq; po'rim, oliftalarcha, bashang kiyinmoq; **II.** *vt fam* kiyintirmoq; **III. se fringuer** *vpr fam* kiyinmoq.

**fringues** *nf pl fam* kiyim-kechak, ust-bosh, lash-lushlar.

**friper** *vt* ezmoq, g'ijimlamoq; **friper une robe** ko'ylakni g'ijim qilmoq; **visage fripé** ajin bosgan yuz.

**friperie** *nf* **1.** eski-tuski, lash-lush (*kiyim, mebel*); **2.** eski-tuski narsalar bilan savdo-sotiq qilish.

**fripon, onne** *n, adj* **1.** *vx* firibgar, ayyor, muttaham; **2.** *fam* sho'x, o'yinqaroq, xumpar, to'polonchi, mug'ombir, shumtaka.

**friponnerie** *nf vx* aldamchilik, firibgarlik, muttahamlik, qalloblik, tovlamachilik, hiyla-nayrang, firib.

**fripouille** *nf fam* firibgar, tovlamachi, qallob, muttaham, razil, qabih, yaramas, ablah, nobakor, pastkash, shum, ayyor.

**fripouillerie** *nf* mutahhamlik, qalloblik, yaramaslik, qabihlik, razillik, ifloslik, xunuklik, pastkashlik, ma'lunlik, razolat.

**friquet** *nm* dalachumchuq.

**frire I.** *vt* qovurmoq (*yog'da*); **II.** *vi* qovurilmoq; **une poêle à frire** tova.

**frise[1]** *nf* friz (*bino peshonasidagi, shuningdek, devor, gilam, parket chetlaridagi keng naqshli yo'l, hoshiya*).

**frise[2] (cheval de)** *nm* g'ov, to'siq.

**friselis** *nm* yengil titrash, silkinish.

**friser I.** *vt* **1.** jingalaklamoq, gajak qilmoq; **2.** paxmoqlamoq, tuk chiqarmoq (*movut*); **3.** yaqinlashmoq, oz qolmoq, sal tegib ketmoq; **II.** *vi* jingalak, gajak bo'lmoq, jingalaklanmoq; chirmashmoq, o'ralmoq.

**frisette** *nf* zulf, gajak.

**frisotter I.** *vt* ozroq jingalak qildirmoq; **II.** *vi* jingalaklamoq.

**frisquet, ette** *adj fam* salqin; **il fait frisquet** havo salqin.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**frisson** *nm* qaltiroq bosish, titrash, qaltiroq, et uvushish, badan uvushish, varaja; jimirlash, junjikish, seskanish, junbish; **un frisson lui descend le long du dos** uning badani jimirlab ketyapti.

**frissonnant, ante** *adj* qaltirayotgan, titrayotgan.

**frissonnement** *nm* sal qaltiroq bosish, sal-pal titroq bosish.

**frissonner** *vi* qaltiramoq, titramoq.

**frisure** *nf* jingalak.

**frit, frite I.** *adj* qovirilgan; **2.** *nf fam* qovurilgan kartoshka.

**friteuse** *nf* kartoshkani yog'da qovuradigan asbob.

**friture** *nf* **1.** qovurish; **2.** qizigan yog'; **3.** qovurilgan baliq; **4.** chirsillash, qirsillash.

**fritz** *nm fam* frits (*nemislarning ikkinchi jahon urushi davridagi nomlanishi*).

**frivole** *adj* **1.** bo'sh, asossiz, tagi puch, arzimaydigan, ahamiyatsiz, e'tibori yo'q, yuzaki; **2.** yengiltabiat, yengiltak, yengil, beburd, havoyi, betayin.

**frivolité** *nf* **1.** arzimaydigan, ahamiyatsiz narsa; **2.** yengiltaklik, beburdlik, betayinlik.

**froc** *nm* **1.** kuloh (*monahlarda*); **2.** jubba (*pravoslavie ruhoniylari kiyadigan keng yengli, uzun ustki kiyim*); **prendre le froc** monax bo'lmoq, monaxlikka kirmoq; **3.** *fam* ishton, shim; **faire dans son froc** ishtoniga qilib qo'ymoq, qattiq qo'rqmoq, cho'chimoq.

**froid, froide I.** *adj* **1.** sovuq; **2.** sovuqqonlik bilan, beparvo, bee'tibor, loqayd; **à froid** *loc adv* sovuqqina, *fig* hafsalasizlik bilan; **II.** *adv* sovuq; **manger froid** sovuqligicha yemoq; **il fait froid ici** bu yer sovuq; **III.** *nm* **1.** sovuq, qattiq sovuq, ayoz; **froid de loup, froid rigoureux** juda qattiq sovuq, qahraton; **avoir froid** sovuq yemoq, muzlamoq; **prendre froid** shamollab qolmoq; **faire froid dans le dos** qo'rquv bosmoq; **ne pas avoir froid aux yeux** dadil bo'lmoq.

**froidement** *adv* sovuqqina; **être vêtu froidement** yengil kiyinmoq; **être reçu froidement** sovuq qarshi olmoq.

**froideur** *nf* sovuqlik, iltifotsizlik.

**froidure** *nf* sovuq, ayoz.

**froissable** *adj fig* salga g'ijim bo'ladigan.

**froissement** *nm* **1.** shitirlash, shildirash (*ko'ylak, material*); **2.** cho'zilish, ezilish; **3.** ixtilof, janjal, to'qnashuv.

**froisser I.** *vt* **1.** g'ijim qilmoq, ezg'ilamoq; **2.** urib olmoq, lat yedirmoq, cho'zmoq, ezmoq; **3.** kayfiyatini buzmoq, xafa qilmoq, ko'nglini buzmoq, o'ksitmoq, ozor bermoq, aziyat bermoq, ranjitmoq, ta'bini tirriq qilmoq; **II. se froisser** *vpr* **1.** g'ijimlanmoq; **2.** xafa bo'lmoq, kayfiyati buzilmoq, o'ksimoq, aziyat chekmoq, ranjimoq, ta'bi xira bo'lmoq.

**frôler** *vt* tegib ketmoq, yaqinidan o'tmoq, tegar-tegmas o'tmoq.

**fromage** *nm* pishloq; **fromage blanc** tvorog.

**fromager, ère I.** *adj* pishloqli, pishloqqa oid; **II.** *nm* pishloqpaz; pishloq sotuvchi.

**fromagerie** *nf* pishloqpazlik; pishloq sanoati; pishloq sotadigan magazin.

**froment** *nm* bug'doy (*o'simlik*).

**fronce** *nf* burma.

**froncement** *nm* qoshlarini chimirish.

**froncer** *vt* **1.** chimirmoq, burishtirmoq; **froncer les sourcils** qoshini chimirmoq; **2.** burma qilmoq.

**frondaison** *nf* barglash, barg, yaproq chiqarish; barglar, yaproqlar.

**fronde**[1] *nf* palaxmon, sopqon, cho'zma.

**fronde**[2] *nf* biror narsaga qarshi bo'lish, tanqid qilish, norozilik bildirish, murosasizlik, norozilik.

**fronder I.** *vt* yuzi-ko'zi demay tanqid qilmoq, masxara qilmoq; **II.** *vi* noroziligini bildirmoq, qarshi chiqmoq.

**frondeur, euse** *n* **1.** fronda qatnashchisi, fronda (*XVII asrda Fransiyadagi harakat*); **2.** ahsaddiy, murosasiz tanqidchi.

**front** *nm* **1.** peshona, bosh, yuz; **le front haut** keng peshona; **le front dégagé** silliq peshona; **relever le front** boshini ko'tarmoq, dadil bo'lmoq; **2.** old, old qismi, old ko'rinish; **3.** front; **le Front populaire** xalq fronti; **au front** frontda; **de front** *loc adv* bir vaqtda, yonma-yon; **faire front** qarshilik ko'rsatmoq, bir front bo'lmoq; **faire front au danger** xatarga tik bormoq; **4.** uyatsizlik; **avoir le front de** bir narsa qilish uchun anchagina surbet bo'lmoq.

**frontal, ale, aux I.** *adj* **1.** peshonaga, manglayga oid; **un os frontal** peshona qopqog'i; **2.** ro'paradan bo'lgan, qarshisidan yo'nalgan; **II.** *nm* peshona suyagi.

**frontalier, ière I.** *adj* chegaradagi, chegara atrofidagi; **II.** *nm* chegara zonasida yashovchi aholi.

**frontière I.** *nf* chegara, had, hudud; **aux frontières de la vie et de la mort** o'lim to'shagida; **II.** *adj* chegaraga oid; **un poste frontière** chegara posti; **une zone frontière** chegara hududi.

**frontispice** *nm* **1.** *archit* bosh peshtoq; **2.** imoratning old tomoni peshtog'i; **3.** sarrasm, sarlavha, kitob sarlavhasidagi bezak.

**fronton** *nm arxit* fronton (*bino fasadining uchburchak shaklidagi tomchasi bo'lgan tepa, qismi, shuningdek eshik, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak*).

**frottage** *nm* artish, ishqalash, yuvish.

**frottement** *nm* **1.** ishqalash; **2.** ishqalashdan chiqadigan tovush; **3.** badanni ho'llab ishqash.

**frotter I.** *vt* **1.** ishqalamoq, artmoq; **frotter un parquet** parketni artmoq, yaltiratmoq; **frotter une allumette** gugurtni chaqmoq; **2.** *vieilli* urmoq, zarba bermoq; **II. se frotter** *vpr* **1.** artinmoq; **se frotter les mains** qo'llarni artmoq, ishqalamoq; **2.** nima bilandir artinmoq; **3.** kimgadir tegib ketmoq, piching qilmoq; **qui s'y frotte s'y pique** yaxshisi u bilan aloqa qilish kerak emas.

**frottoir** *nm* **1.** artadigan movut; pol pardozlaydigan cho'tka; **2.** elektrik cho'tka; **3.** ishqalagich.

**froufrou** *nm* shitirlash (*barglar*); **faire du frou-frou** olifta, bashang kiyinmoq, yasanmoq.

**froufrouter** *vi* shitirlamoq (*barglar*).

**froussard, arde** *adj, n fam* qo'rqoq, yuraksiz.

**frousse** *nf fam* qo'rquv; **avoir la frousse** qo'rqmoq.

**fructification** *nf* hosil berish, meva tugish.

**fructifier** *vi* **1.** hosil, meva bermoq; **2.** *fig* rivojlanmoq; foyda keltirmoq.

**fructueux, euse** *adj* unimli, hosildor, qulay, foydali.

**frugal, ale** *adj* **1.** o'rtacha, o'rta-miyona, sodda, odmi, sipo; **une vie frugale** og'ir hayot; **2.** oddiy, arzon (*ovqat to'g'risida*).

**frugalité** *nf* nafsini tiyish, o'zini to'xtatish, mo'tadillik, evidalik, me'yor (*ovqatlanish to'g'risida*).

**fruit**[1] *nm* **1.** hosil, meva; **un fruit vert** pishmagan meva; **un jus de fruit** meva sharbati; **les fruits de mer** dengiz in'omlari (*dengizda yeyiladigan narsalar*); **le fruit défendu** taqiqlangan meva; **2.** foyda, natija, samara; oqibat.

**fruit**[2] *nm* devorning yuqoriga qarab tashqi tarafdan qiyalashib ketishi.

**fruité, ée** *adj* meva ta'mli, meva ta'mini beruvchi.

**fruiterie** *nf* **1.** meva saqlaydigan joy, ombor; **2.** meva sotuvchi, meva do'koni.

**frusques** *nfpl* narsalar, lash-lushlar, eski-tuski kiyimlar.

**fruste** *adj* **1.** siyqalangan, nuragan, yemirilgan, yedirilgan; **2.** dag'al, qo'pol, tarashlanmagan; **un style fruste** notekis usul.

**frustration** *nf* **1.** aldov; **2.** nimadandir noqonuniy mahrum qilish.

**frustrer** *vt* (qqn **de qqch**) noqonuniy mahrum etish, zarar keltirmoq, aldamoq.

**fuchsia** *nm* fuksiya (*guli qizil manzarali o'simlik*).

**fuchsine** fuksin (*qizil apilin bo'yoq*).

**fuel** *nm* suyuq yoqilg'i, mazut.

**fugace** *adj* tez o'tuvchan, o'tkinchi, bir lahzali, bir onli, tez o'tib ketadigan, qisqa muddatli; **une mémoire fugace** bo'sh xotira.

**fugacité** *nf* o'tuvchanlik, o'tkinchilik.

**fugitif, ive I.** *adj* **1.** tez, ravon; **2.** o'tkinchi; **II.** *nm* qoloq.

**fugue** *nf* **1.** fuga (*bir musiqaviy temaning bir necha ovozda izchil takrorlanishi*); **2.** *fam* qochish, yo'q bo'lish; **faire une fugue** qochmoq, yo'q bo'lmoq.

**fugué, ée** *adj* fuga formasida, ko'rinishida.

**führer** *nm* fyurer.

**fuir I.** *vi* **1.** qochmoq, qochib qutulmoq; **2.** tez o'tmoq, uchmoq, uzoqlashmoq; **le temps fuit** vaqt o'tyapti; **3.** bermoq, qo'yvormoq; **ce**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**tonneau fuit** bochkadan oqyapti; **II.** *vt* **1.** kimdandir qochmoq, nimadandir bo'yin tovlamoq; **fuir le danger** xavfdan o'zini olib qochmoq; **II. se fuir** *vpr* bir biridan o'zini olib qochmoq.

**fuite** *nf* **1.** qochish; **prendre la fuite** qochib qolmoq; **un délit de fuite** yo'l-transport hodisasi sababchisi bo'lgan haydovchining shu joydan qochib ketishi; **2.** sizib kirish, sizib o'tish, oqib chiqib ketish, to'kilib kamayish; **une fuite de gaz** gazning chiqib ketishi, uchib ketishi; **3.** gapni aylantirish, bo'yin tovlash, chalg'itish, hiyla, nayrang, vaj; **4.** maxfiy hujjat yoki ma'lumotning tarqalishi, oshkor bo'lishi.

**fulgurant, ante** *adj* **1.** yarqirayotgan, chaqnayotgan yashin olovli; **un succès fulgurant** oniy muvaffaqiyat; **une réponse fulgurante** aniq javob; **2.** yashin tezligida.

**fulguration** *nf* **1.** yiroqdagi chaqmoq shu'lasi; **2.** yarqirash, chaqnash; **3.** yashin zarbasi.

**fuligineux, euse** *adj* **1.** qurumsimon; **2.** qurum rangi; **3.** qorong'i, zim-ziyo, zimiston.

**fulminant, ante** *adj* portlaydigan; dahshatli, g'azabli.

**fulminer** *vi* **1.** portlamoq, portlab ketmoq; yorilmoq; **2.** *fig* g'azabi qaynab ketmoq, darg'azab bo'lmoq, tutaqmoq, achchig'i chiqib ketmoq, qoni, zardasi qaynamoq.

**fumable** *adj* cheksa bo'ladigan, chekishli, chekishga yaroqli (*sigaret*).

**fumage**[1] *nm* go'nglash, go'ng solish, o'g'itlash.

**fumage**[2] *nm* dudlash.

**fumant, ante** *adj* tutayotgan, tutun chiqarayotgan; bug'i chiqib turgan, hovur chiqib turgan; **fumant de colère** *fam* g'azabi qaynagan; **un coup fumant** *fam* ajoyib zarba.

**fume-cigarette** *nm* mushtuk (*sigaretni nayga o'xshagan narsa tiqib chekadigan narsa*).

**fumée** *nf* **1.** tutun, dud; **une fumée épaisse** qalin tutun; **un rideau de fumée** tutun parda; **il n'y a pas de fumée sans feu** *prov* shamol bo'lmasa daraxtning bargi qimirlamaydi; **s'en aller en fumée** tutundek tarqamoq; **2.** bug', bug'lanish.

**fumer**[1] **I.** *vi* **1.** tutamoq, tutatmoq, buruqsitmoq; **2.** *fam* qaynamoq, jahli chiqmoq, fig'oni falakka chiqmoq; **II.** *vt* **1.** dudlamoq, qoraytirmoq; **2.** chekmoq; **défense de fumer** chekish man etiladi.

**fumer**[2] *vt* go'nglamoq, go'ng solmoq.

**fumerie** *nf* **1.** chekish, chekish odati; **2.** ko'knor, nashavand moddalar chekadigan joy.

**fumerolle** *nf géol* fumarola (*gazsimon bo'lib vulkan paytida paydo bo'ladi*).

**fumet** *nm* **1.** yoqimli hid (*ovqatning*); **2.** vino hidi.

**fumeur, euse** *n* chekuvchi, chekadigan erkak yoki ayol; **un wagon "fumeurs"** chekuvchilar vagoni.

**fumeux, euse** *adj* **1.** tutunli, dudli; **2.** mavhum, noaniq; **idées fumeuses** aralash-quralash fikrlar.

**fumier** *nm* **1.** go'ng, madaniy o'g'it; **2.** *fig* yaramaslik, razillik, chirish, buzilish; **3.** yaramas, ahmoq (*odam to'g'risida*).

**fumigateur** *nm* **1.** *méd* ingalyator; **2.** dudlaydigan asbob.

**fumigation** *nf* **1.** *méd* ingalyasiya; **2.** dudlash, tutunlash (*hasharotlarga qarshi*).

**fumigène I.** *adj* tutun chiqaradigan; **II.** *nm* tutun chiqaradigan apparat (*yosh nihollarni sovuqdan asrash uchun*).

**fumiste** *nm* **1.** pechkachi, pechka ustasi; **2.** *fam* mahmadona, lofchi, behuda gaplarni ko'p gapiruvchi odam.

**fumisterie** *nf* **1.** pechkachilik; **2.** *fam* mahmadonalik, lofchilik, behuda gaplarni ko'p gapirish.

**fumivore** *adj* tutun yutadigan.

**fumoir** *nm* **1.** dudxona (*go'sht, baliq dudlaydigan joy, xona*) **2.** chekadigan joy, chekish xonasi.

**fumure** *nf* o'g'itlash.

**funambule** *n* dorboz, dorda o'ynovchi.

**funambulesque** *adj* **1.** akkrobatik, akrobatlardek chaqqon; **2.** g'alati, qiziq.

**funèbre** *adj* **1.** dafn etishga, ko'mishga oid; **les pompes funèbres** dafn etish byurosi; **2.** ma'yus, g'amgin, umidsiz.

**funérailles** *nfpl* dafn marosimi, ko'mish marosimi.

**funéraire** *adj* dafn etishga, ko'mishga oid.

**funeste** *adj* halokatli, falokatga olib boradigan, muqarrar, taqdirda, peshonada bor bo'lgan.

**funiculaire I.** *adj* arqon bilan ishlaydigan; **II.** *nm* funikulyor (*maxsus arqon yordamida yurgiziladigan tog' temir yo'li*).

**fur** *nm* **au fur à mesure** doimiy, izchil, imkoni boricha.

**furax** *adj inv arg fam* jahldor, darg'azab.

**furet** *nm* **1.** sassiqkuzan; **2.** o'yin turi.

**fureter** *vi* **1.** sassiqkuzan bilan ov qilmoq; **2.** hamma narsaga aralashavermoq, burnini tiqmoq.

**fureteur, euse I.** *adj* hamma narsaga aralashaveradigan, qiziquvchan; **un regard fureteur** sinchkovlik bilan qarash; **II.** *n* sassiqkuzan yordamida ov qiluvchi.

**fureur** *nf* g'azab, jahl, quturish, ortiq darajada asabiylashgan holat; **entrer en fureur** g'azabi qaynamoq (*toshmoq*); **à la fureur** *loc adv* zavq bilan, zo'r ehtiros, shijoat bilan; **faire fureur** zo'r muvaffaqiyat qozonmoq.

**furibond, onde** *adj* g'azabli, g'azabnok.

**furie** *nf* **1.** g'azablanish, quturish; **en furie** g'azabli; **2.** qiziqqonlik, qizishish (*jahl chiqqanda*).

**furieusement** *adv* **1.** g'azab bilan, darg'azab; **2.** *fam* qo'rqinch bilan.

**furieux, euse** *adj* g'azabli, darg'azab, jahli tez; qahri qattiq, qahrli; **un fou furieux** juda avjga chiqqan aqldan ozgan; **il est furieux** u o'zida emas (*jahldan chiqqan paytda*).

**furoncle** *nm* chipqon.

**furtif, ive** *adj* yashirincha, o'g'irlikcha qilingan, sirli; **entrer d'un pas furtif** yashirincha kirmoq.

**furtivement** *adv* yashirinchalik bilan, oyoq uchida, o'g'rincha, bildirmasdan.

**fusain** *nm* **1.** *bot* beresklet; **2.** ko'mir qalam; **3.** ko'mir bilan tayyorlangan rasm.

**fuseau** *nm* **1.** duk, urchuq, g'altak; **2. un fuseau horaire** vaqt, soat mintaqasi.

**fusée** *nf* **1.** duk, urchuq, g'altak; **2.** raketa, mushak; **3.** *mil* portlatuvchi; **4.** reaktiv snaryad; **une fusée sol-air** "yer-havo" tipidagi raketa; **une fusée sol-sol** "yer-yer" tipidagi raketa; **lancer une fusée** raketa uchirmoq.

**fuselage** *nm* fuzelaj, samolyot korpusi.

**fuselé, ée** *adj* urchuqsimon; suyri.

**fuser** *vi* **1.** erimoq (*metall haqida*); **2.** yoyilmoq, yoyilib ketmoq (*bo'yoq to'g'risida*); **3.** oqmoq; **4.** portlamasdan yonmoq; **5.** uchmoq (*raketalar haqida*).

**fusibilité** *nf* eruvchanlik.

**fusible I.** *adj* eruvchan; **II.** *nm* saqlagich.

**fusil** *nm* **1.** miltiq, qurol; **un fusil à répétition** o'qdonli miltiq; **un fusil automatique** avtomatik miltiq, avtomat; **un coup de fusil** miltiq ovozi, o'q ovozi; **changer son fusil d'épaule** *fig* o'z qarashlarini o'zgartirmoq; **fusil, fusil à aiguiser** qayradigan narsa, qayroq.

**fusillade** *nf* **1.** otishma; **2.** otuv.

**fusiller** *vt* **1.** otmoq, otib tashlamoq; **2.** *fam* buzmoq.

**fusilleur** *nm* otuvchi, qotil odam, jallod.

**fusion** *nf* **1.** eritish, quyish; **un métal en fusion** erigan metall; **2.** sintez; **3.** qo'shilish, birlashish, aralashish, birikish.

**fusionner I.** *vt* qo'shmoq; **II.** *vi* qo'shilmoq, birikmoq, birlashmoq, aralashmoq.

**fustiger** *vt* qoralamoq, la'natlamoq, la'nat o'qimoq, nafrat bildirmoq; qattiq tanqid qilmoq, fosh qilmoq.

**fût** *nm* **1.** daraxt tanasi; **2.** bochka; **3.** qo'ndoq, dastak (*qurollarning yog'och qismi*); **4.** sterjen.

**futaille** *nf* bochka (*vino uchun*).

**futé, ée** *adj* ayyor, epchil, chaqqon, abjir, mug'ombir, uddaburo, tegirmondan butun chiqadigan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**futile** *adj* boʻsh, jiddiy emas, bemaʼni, yuzaki; havoyi, yuzaki.

**futilement** *adv* bekorga, behudaga.

**futilité** *nf* behudalik, puchlik, foydasizlik, natijasizlik, maʼnosizlik; yengiltaklik, beburdlik, betayinlik.

**future, ure I.** *adj* kelasi, kelajak, boʻlajak; **II.** *n* **1.** *nm* kelajak; **2.** *nm gram* kelasi zamon; **3.** *n* boʻlajak kuyov, kelin.

**futurisme** *nm* futurizm (*XX asr boshida sanʼat va adabiyotda hukm surgan formalistik oqim*).

**futuriste I.** *adj* futuristlarga oid; **2.** futurist (*shu oqimdagi odam*).

**fuyant, fuyante** *adj* qochayotgan, uzoqlashayotgan; ushlab, tutib, qoʻlga tushirib boʻlmaydigan, tutqich bermaydigan; **un regard fuyant** bezovta, sarosimadagi nigoh.

**fuyard, arde** *adj, n* qochoq.

# G

**G, g** *nm* **1.** fransuz alifbosining yettinchi harfi; **2.** gramm soʻzining shartli qisqartirilgan belgisi.

**gabardine** *nf* **1.** gabardin (*mato*); **2.** plashch, palto (*gabardindan qilingan*).

**gabarit** *nm* **1.** andaza, qolip, shablon, maxsus andaza; **2.** kattalik, katta kichiklik, oʻlcham, miqdor; **3.** gavda, qomat.

**gabegie** *nf fam* chalkashlik, chigallik, tartibsizlik, chatoqlik, ayqash-uyqashlik, betartiblik; xoʻjasizlik, noshudlik.

**gabelle** *nf* boj, soliq (*tuzga*).

**gabier** *nm* botsman buyruqlarini bajaruvchi matros.

**gable** *ou* **gâble** *nm archit* bino oldining uchburchak qismi, fronton.

**gâchage** *nm* **1.** ohak aralashtirish, qorish, eritish; ohakni oʻldirish, soʻndirish; **2.** *fam* beparvo, eʼtiborsiz ish, pala-partish, yengil-yelpi, xoʻja koʻrsinga qilingan ish; bekor ketkazish, sarflash, vaqt oʻtkazish.

**gâcher** *vt* **1.** ohakni soʻndirmoq; **gâcher clair, lâche** ohak qormoq, aralashtirmoq, suyuq qilmoq; **gâcher serré** ohakni soʻndirmoq; **2.** behudaga sarflamoq, ketkizmoq, bekorga yoʻqotmoq, xarjlamoq; **3.** *fam* pala-partish, yengil-yelpi, xoʻja koʻrsinga qilmoq, ishni yomon bajarmoq; **gâcher le métier** bir pulga ishlamoq; **gâcher sa vie** hayotni buzmoq, izdan chiqarmoq.

**gâchette** *nf mil* tepki (*miltiqda*).

**gâchis** *nm* **1.** qorishma, loy, rastvor; **2.** behudaga sarflash, isrofgarchilik; **3.** tartibsizlik, betartiblik, ayqash-uyqashlik, toʻs-toʻpolon, besaranjomlik, ostin-ustin.

**gadget** *nm* ermak oʻyinchoq, timsoliy shaklchalar.

**gadoue** *nf* loy; **patauger dans la gadoue** shalop-shalop loy kechmoq.

**gaffe** *nm mar* uzun dastali ilgak, changak; **faire une gaffe** beandishalik, qoʻpollik qilmoq; *fam* **faire gaffe** ehtiyot boʻlmoq, saqlanmoq.

**gaffer I.** *vt* changakka ilintirmoq, changak bilan itarmoq; **II.** *vi fam* xato qilmoq, kamchilikka yoʻl qoʻymoq, xato ish qilib qoʻymoq; qoʻpollik qilmoq, nojoʻya harakat qilmoq.

**gaffeur, euse** *n fam* qoʻpol odam, qoʻrs.

**gaga** *n* erkatoy.

**gage** *nm* **1.** garov, kafolat, dalil, garovga qoʻyish; **mettre en gage** garovga qoʻymoq; **2.** qurʼa tashlash (*oʻyinda*); **3.** dalil, isbot, shohidlik, nishon, tamgʻa; **un gage d'amitié** doʻstlik dalili; **4.** *pl* xizmatkor ish haqi, maoshi.

**gager** *vt* **1.** garov bogʻlashmoq, oʻynamoq; **2.** taʼminlamoq, taʼmin qilmoq, yetkazib bermoq; **gager sur qqch** ishontirmoq, kafil boʻlmoq, kafolat bermoq; **gager un emprunt** qarz bermoq; **3.** ish haqi toʻlamoq (*xizmatkorga*).

**gagnable** *adj* ishlab topiladigan, ishlab kun koʻradigan.

**gagnant, ante I.** *adj* yutuvchi, yutadigan, sovrin, mukofot oluvchi; **un numéro gagnant** yutuqli raqam, yutuq chiqadigan chipta (*lotoreyada*); **II.** *n* yutgan, yutuq chiqqan odam, sovrindor.

**gagne-pain** *nm inv* ish haqi, ishlab topilgan pul, kun kechirish, kun koʻrish vositasi.

**gagner I.** *vt* **1.** ishlab topmoq, mehnat qilib, peshona teri toʻkib topmoq, mehnat bilan erishmoq, qoʻlga kiritmoq; **gagner sa vie** kun koʻrmoq, ishlab yashamoq, kun kechirmoq; **gagner sa vie à** ishlamoq; **gagner gros** katta pul yutmoq, koʻp ishlab topmoq; **2.** yutmoq, yutib olmoq, qoʻlga olmoq, qoʻlga kiritmoq, qozonmoq, erishmoq, sazovor boʻlmoq, orttirmoq; **gagner du temps** vaqtdan yutmoq; **gagner du terrain** oldinga, olgʻa yurmoq, siljib bormoq, tarqalmoq, ovoza boʻlmoq, yoyilmoq; **3.** sazovor boʻlmoq, loyiq boʻlmoq, erishmoq, qozonmoq; **gagner l'amitié, gagner l'estime** hurmatiga, doʻstligiga sazovor boʻlmoq, erishmoq; **il l'a bien gagné** u bunga loyiq; **4.** yuqtirmoq, orttirmoq; **5.** tortmoq, jalb qilmoq, oʻz tomoniga ogʻdirmoq, koʻnglini topmoq, sotib olmoq; **6.** sotib olmoq, bormoq, yetmoq, erishmoq, muvaffaq boʻlmoq, qozonmoq; joʻnamoq, yoʻl olmoq; **gagner le large** ochiq dengizga chiqib olmoq; *fig* orqasiga qaramay qochmoq; *av* **gagner de la hauteur** yuqoriga koʻtarilmoq; **7.** oʻramoq, qurshamoq, qamrab olmoq, yoyilmoq, tarqalmoq; **le mouvement de grève a gagné toutes les entreprises** ish tashlash harakati hamma korxonalarga tarqaldi; **le sommeil me gagne** meni uyqu eltdi, bosyapti; **II.** *vi* **1.** yutmoq, foyda koʻrmoq, zafar qozonmoq; **gagner dans un fauteuil, gagner les doigts dans le nez** *fam* musobaqada oʻynab-oʻynab gʻalaba qozonmoq; **2.** ustidan chiqmoq, borib qolmoq, duch kelmoq, yoʻliqmoq, tarqalmoq, yoyilmoq; **le feu gagne** olov, alanga tarqalayotibdi; **III. se gagner** *vpr* **1.** koʻp ishlamoq; ega, molik boʻlmoq, kasb etmoq; **2.** yuqmoq, oʻtmoq, yoyilmoq, tarqalib ketmoq (*kasallik*).

**gai, gaie I.** *adj* **1.** shod, xursand, vaqti, kayfi, dimogʻi chogʻ, quvnoq, xushchaqchaq; **2.** *fam* ichgan, shirakayf, xushchaqchaq; **3.** ochiq (*rang haqida*); **4.** qattiq mahkamlanmagan, qimirlab turgan; **II.** *adv* xursandchilik bilan, quvnab, chaqchaqlashib, shod, xurram, oʻzini bardam, tetik tutib, boʻsh kelmay, tetik, bardam.

**gaiement** *ou* **gaîment** *adj* xursandchilik bilan, quvnab, chaq-chaqlashib, shod, xurram; **y aller gaiement** jon-jon deb qilmoq, bajarmoq.

**gaieté** *ou* **gaîté** *nf* **1.** vaqtichogʻlik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik; tiyraklik, tezlik, ildamlik, chaqqonlik; **2.** quvnoq kayfiyat, xushvaqtlik, oʻyin-kulgi, xursandchilik; jonlanish tetik ruh, yaxshi kayfiyat, gʻayrat, avj; *loc adv* **de gaieté de cœur** hech qanday sababsiz, oʻz xohishi bilan, sidqidildan.

**gaillard[1], arde I.** *adj* **1.** *fam* shod, xursand, vaqti, kayfiyati, dimogʻi chogʻ, quvnoq, xushchaqchaq, jonli, taʼsirchan yigit; **2.** sogʻlom, baquvvat, tetik, bardam, dadil, hormagan, soʻlmagan, toza; **3.** shoʻx, oʻynoqi, xushchaqchaq, yengiltak, erkin, mustaqil, hur, ozod; **des propos gaillards** erkin suhbat; **4.** mard, jasur, mardona, mardonavor, dadil, tetik, jasurona, azamat; **II.** *n* **1.** xushchaqchaq, xushtabiat odam, ulfat, hazilkash, yaxshi odam; **2.** *nm* yigit, yigitcha.

**gaillard[2]** *nm* kema yuqori palubasining orqa qismidagi boshpana.

**gaillardement** *adv* **1.** shoʻx, oʻynoqi, xushchaqchaqlik bilan; **2.** chaqqon, epchillik, abjirlik bilan, yigitlardek, mardona, dadil, tetik, jasurona, qoʻrqmasdan, keskin, oʻtkirlik bilan.

**gaîment** *adj voir* **gaiement**.

**gain** *nm* **1.** yutuq, yutilgan narsa (*pul*), foyda, kirim, foyda qilish, naf, daromad; **réaliser des gains énormes** katta foyda olmoq; **avoir, obtenir gain de cause** ishni yutib chiqmoq, ustun kelmoq; **le gain ne veux pas la dépense** ovora boʻlishga arzimaydi; **2.** ish haqi, ishlab topilgan pul; **3.** kuchaytirish, koʻtarish (*radioda*); **4.** qazib olish, chiqarih, oʻlja, qoʻlga kiritilgan narsa.

**gaine** *nf* **1.** qin, gʻilof, jild, quti; **2.** korset, ichki belbogʻ, bandaj; **3.** *techn* quvur, kanal; **4.** *anat* parda, qobiq.

**gainer** *vt* qinga solmoq, tiqmoq, joylashtirmoq, qolipga, qoplamaga, jildga oʻramoq, ustini oʻramoq.

**gainerie** *nf* qin, gʻilof ishlab chiqaruvchi fabrika; qin, gʻilof ishlab chiqarish.

**gainier, ière** *n* qin, gʻilof ishlab chiqaruvchi va sotuvchi, gʻilofsoz.

**gaîté** *nf voir* **gaieté**.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gala I.** *nm* tantana, bayram, shodiyona, tantanali ziyofat; **un gala sportif** sport bayrami; **un habit de gala** bayram libosi; **II.** *adj* tantanali, dabdabali, yasatilgan, bezatilgan, serhasham.

**galactique** *adj astron* Somon yo'liga oid; galaktikaga oid, galaktik.

**galamment** *adv* xushmuomalalik bilan; odob-nazokat bilan, iltifot, nazokat, muloyimlik bilan, lutfan, hurmat bilan, hurmat yuzasidan; mohirona, san'atkorona, mahorat bilan.

**galant, ante I.** *adj* **1.** xushmuomala, odobli, nazokatli, boadab, izzat-hurmatni joyiga qo'yadigan, iltifotli, shirin so'z, muloyim, silliq, sermulozamat, sertakalluf; **un homme galant** odobli odam; **un galant homme** olijanob, to'g'ri odam; **2.** ishqiy, oshiqona, muhabbatga oid; **une aventure galante** ishq-muhabbat mojarosi, ishqiy sarguzasht; **II.** *nm vieilli* **1.** xushtor, oshiq, oshiqi-beqaror, jazman, shaydo, ishqida oh tortuvchi; **2.** *fam* xotinboz.

**galanterie** *nf* **1.** xushmuomalalik, odoblilik, odob, nazokat, odoblilik, boadablik, navozish, iltifot, marhamat, muloyimlik, sermulozamatlik, sertakalluflik; **2.** xushtorlik qilish, xotin-qizlar ko'nglini olish.

**galantine** *nf* go'sht, suyaklarni ko'p qaynatib tayyorlangan halimsimon taom, yaxna, halim.

**galapiat** *nm fam* daydi, darbadar, jahongashta, betayin.

**galaxie** *nf astron* Somon yo'li; galaktika; tumanlilik.

**galbe** *nm* ko'rinish, shakl, sirtqi ko'rinish; egik, bukik joy, aylana, dumaloq.

**galbé, ée** *adj* bukilgan, egilgan, egma, qayrilma, egik, bukik, qavariq.

**galber** *vt* bukmoq, egmoq, qayirmoq.

**gale** *nf* **1.** qichima, qo'tir; temiratki kasalligi; **2.** *fam* achchig'i tez, zahar odam, tajang, simyon.

**galère** *nf* **1.** *hist* eshkakli va yelkanli kema; **que diable allait-il faire dans cette galère?** nimaga u bu ishga aralashadi? unga bu yerda pishirib qo'yuvdimi? **2.** *pl hist* surgun, katorga, surgundagi og'ir mehnat, do'zax, zindon; **c'est une vraie galère** *fig* bu haqiqiy do'zax!

**galerie** *nf* **1.** usti yopiq o'tish joyi, timli yo'l; **les galeries du métro** metroning yer osti o'tish yo'llari, joylari; **2. une galerie de peinture** suratlar galereyasi; **3.** yer osti yo'li, dara, oraliq yo'l, qiyaroq kovlangan yer osti yo'li; konlarda yer osti yo'li; **4.** boloxona, balkon (*teatrda*); **5.** tomoshabinlar, tomosha qiluvchi odamlar; **s'inquiéter de la galerie** odamlarning fikri haqida tashvishlanmoq, tashvish tortmoq.

**galérien** *nm* eshkak eshuvchi; surgun qilingan, og'ir ishlarga mahkum qilingan odam; **travailler comme un galérien** mahbusdek ishlamoq, chiranmoq, kuchanmoq, zo'r bermoq; **une vie de galérien** juda og'ir hayot.

**galet** *nm* **1.** tog' jinslarining bo'laklari, yumaloq katta tosh, shag'al, mayda tosh; **une plage de galets** shag'alli cho'milish joyi; **2.** *techn* g'ildirakcha, kichkina g'ildirak, tasmali g'ildirak.

**galetas** *nm* faqirona kulba, uy-kapa.

**galette** *nf* obinon, kulcha; qotirilgan kulcha non; **2.** *fam* mullajiring, pul.

**galeux, euse** *adj* qichimaga, qo'tirga oid, qichimali, qo'tiri bor; *prov* **il ne faut qu'une brebis galeuse pour infester le troupeau** tirraqi buzoq podani bulg'aydi.

**galimatias** *nm* tuturiqsiz gap, bema'ni gap, safsata; valdirashlar, yolg'on, uydirma, ahmoqona, bo'lmag'ur gap.

**galion** *nm hist* yelkanli kema, savdo kemasi.

**galiote** *nf mar* kichik eshkakli, yelkanli kema.

**galipette** *nf* **1.** *fam* sakrash, irg'ish, sapchish; **2.** kulgili voqea, latifa, afandi.

**galle** *nf* daraxtdagi g'udda, bo'qoq.

**gallican, ane** *adj relig* gallikan.

**gallicisme** *nm ling* fransuz tilidan qabul qilingan yoki unga taqlid qilib tuzilgan so'z, ibora, gap.

**gallinacés** *nm pl zool* tovuqlar turkumi.

**gallon** *nm* gallon (*AQSHda suyuqlik o'lchov birligi, 4,54l*).

**galoche** *nf* **1.** yog'och poshnali boshmoq; **2.** kovush (*charm*).

**galon** *nm* **1.** *mil* uqa, kashta; pogon; **prendre du galon** xizmatda ko'tarilmoq; **2.** hoshiya, jiyak, mag'iz; zarbof-jiyak, yaltiroq tasma.

**galonner** *vt* hoshiya, uqa, jiyak, kashta tikmoq.

**galop** *nm* lo'killab chopish, yelish (*ot*); **au galop** lo'killab chopib, yelib, tez.

**galopade** *nf* **1.** lo'killash, yelish, choptirish; **2.** yelib-yugurish, yugur-yugur, chop-chop, sarsongarchilik, ovoragarchilik.

**galopant, ante** *adj* lo'kki, yuguradigan, yeladigan, chopadigan, chopuvchi; tez ko'tariluvchi.

**galoper** *vi* **1.** ot choptirmoq, ot choptirib bormoq, kelmoq; **2.** *fam* chopib, yelday uchib bormoq.

**galopin** *nm fam* sho'x bola, to'polonchi, zumrasha, shumtaka; ko'cha bolasi.

**galurin** *ou* **galure** *nm fam* telpak, shlapa.

**galvaniser** *vt* **1.** elektrlamoq; elektr toki bilan davolamoq; **2.** asabiylashtirmoq, jonlantirmoq, qo'zg'atmoq; **3.** nikellamoq, metall bilan qoplamoq.

**galvanomètre** *nm* elektr toki kuchini o'lchaydigan asbob.

**galvauder** *vt* obro'sini to'kmoq, sha'niga isnod keltirmoq, nomini bulg'amoq, isnodga, malomatlarga qoldirmoq, tahqirlamoq, dog' tushirmoq, rasvosini chiqarmoq.

**gambade** *nf* sakrash, irg'ish; sapchish.

**gambader** *vi* sakramoq, irg'imoq, irg'ishlamoq, hatlamoq, o'yinga tushmoq, o'ynoqlamoq, sho'xlik qilmoq.

**gamelle** *nf* **1.** askar qozonchasi; **2.** *fam* yiqilish; **ramasser, prendre une gamelle** yiqilmoq; *fig* muvaffaqiyatsizlikka uchramoq.

**gamète** *nm biol* hayvon va o'simliklarning jinsiy hujayrasi.

**gamin, ine I.** *n* **1.** bola, o'g'il bola, qiz bola; **2.** ko'cha bola; sho'x bola, shum bola; **II.** *adj* sho'x, o'yinqaroq, to'polonchi, shumtaka, tez, jizzaki, qiziqqon.

**gamma** *nm* grek alifbosining uchinchi harfi; *phys pl* **les rayons gamma** gamma nurlari.

**gamme** *nf* **1.** *mus* bir parda ko'tarilib, tushib boruvchi tovushlar majmui, gamma; **hors de gamme** o'zini yo'qotib qo'ygan, shoshib qolgan; uyalgan; **changer de gamme** ohangini o'zgartirmoq; **2.** *fig* ranglar majmui, gamma.

**gammée** *adj f* **une croix gammée** svastika.

**ganache** *nf fam* befarosat, befahm, esi past, zehni yo'q, past, tentak, jinni, kaltafahm.

**gandin** *nm* olifta, po'rim, bashang.

**gang** *nm* o'g'rilar, qotillar, bosqinchilar to'dasi, banda.

**ganglion** *nm* nerv tuguni; shish; **les ganglions lymphatiques** limfatik tugunlar.

**gangrène** *nf* **1.** *méd* qorason, gangrena; **2.** *fig* yara, jarohat, yuqumli kasallik.

**gangrener I.** *vt* **1.** qorason bilan kasallanmoq; **2.** yuqumli kasallik tarqatmoq; **3.** *fig* buzmoq, aynitmoq; **II. se gangrener** *vpr* chirimoq, irimoq, chiriy, iriy boshlamoq, aynimoq, buzilmoq.

**gangster** *nm anglic* o'g'ri, qotil, bosqinchi, bandit.

**gangstérisme** *nm* o'g'rilik, qotillik, banditlik.

**gangue** *nf géol* **1.** tog' jinsi, ma'danga yopishgan jinslar; **gangue stérile** bo'sh tog' jinsi; **2.** po'st, po'stloq, qobiq.

**ganse** *nf* jiyak.

**gant** *nm* qo'lqop; **un gant de crin** qattiq qo'lqop, ishqagich; **des gants de boxe** boks qo'lqopi; **cela vous va comme un gant** bu sizga juda mos, yarashadi; **jeter le gant** qarshi chiqmoq; **ramasser le gant, relever le gant** chaqiriqni qabul qilmoq; **prendre des gants** ehtiyotkorona harakat qilmoq; **sans mettre de gants** xafagarchiliksiz, o'ylashmasdan.

**ganter** *vt* qo'lqop kiygizmoq.

**ganterie** *nf* **1.** qo'lqop ishlab chiqarish; **2.** qo'lqop do'koni.

**gantier, ière** *n* qo'lqopchi, qo'lqop sotuvchisi.

**garage** *nm* mashinalar saqlanadigan joy, garaj, angar, saroy.

**garant, ante I.** *n* kafil; *dr* kafilligini olgan shaxs; **se porter garant de qqn** kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, ishontirmoq; **II.** *nm* **1.** kafolat, kafillik, garov, ishontirish, kafolat berish; **2.** *mar* arqon, yuk ko'targich, chig'ir arqoni.

**garantie** *nf* **1.** kafolat, kafillik, garov, ta'min etish, ishonch; **un certificat de garantie** kafillik guvohnomasi; **2.** tekshirish, darajasini aniqlash (*qimmatbaho buyumlarda*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**garantir I.** *vt* **1.** ta'minlamoq, ta'min etmoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq; **2.** himoya qilmoq, qo'riqlamoq, saqlamoq; **garantir de** ehtiyot qilmoq, saqlamoq; **II. se garantir** *vpr* **de qqch** ta'minlanmoq, ta'min etmoq, ishontirmoq, kafillik bermoq.

**garce** *nf fam* **1.** manjalaqi, buzuq, suyuq oyoq ayol, fohisha; **2.** shallaqi, shum kampir, jodugar, alvasti, qo'pol, jahldor, berahm ayol.

**garçon** *nm* **1.** bola, o'g'il bola; **2.** yigit, o'spirin; yigitcha; barvasta yigit, azamat, pahlavon; **un brave garçon, un bon garçon** yaxshi odam; **un garçon d'honneur** kuyov jo'ra; **3.** shogird, xalfa, yordamchi ishchi, dastyor, yollanib ishlovchi (*sotuvchi*); **un garçon de course** yugurdak bola; **4.** bo'ydoq, uylanmagan yigit; **un vieux garçon** qari bo'ydoq; **enterrer sa vie de garçon** kuyov oshi qilmoq, bo'yniga ola xurjun ilmoq; **5.** ofitsiant, garson (*restoranda*).

**garçonnet** *nm* yigitcha.

**garçonnier, ière** *adj* bolacha, o'g'il bolaga xos bo'lgan.

**garçonnière** *nf* garsonyer (*odatda ishqiy uchrashuvlar uchun mo'ljallangan xilvat uy*).

**garde¹** *nf* **1.** saqlash, qarov, qarab turish, ko'z-quloq bo'lish, nazorat, qo'riqlash, mudofaa qilish; **être sous la garde de qqn** birovning nazorati ostida bo'lmoq; qo'riqlanmoq; **mettre en garde contre qqn, qqch** ehtiyot qilmoq, ogohlantirmoq, ogoh qilmoq; **prendre garde** ehtiyot bo'lmoq; **prenez garde de tomber** ehtiyot bo'ling! yiqilib tushmang! **prenez garde à la peinture** bo'yalgan, ehtiyot bo'ling! **2.** *mil* soqchilar, qo'riqchilar, posbonlar, qorovul; **une garde d'honneur** faxriy qorovul; **3.** *mil* gvardiya; *hist* **la garde nationale** milliy gvardiya; **la garde républicaine** respublika gvardiyasi (*Parij jandarmeriyasi*).

**garde²** *n* **1.** gvardiyachi, gvardiya qismlarida xizmat qiluvchi; *hist* **un garde national** milliy gvardiya soldati; **2.** qorovul qo'riqlovchi, soqchi; **un garde du corps** shaxsiy soqchi; **le Garde des Sceaux** Adliya vaziri (*Fransiyada*); **un garde champêtre** qishloq militsioneri, noziri.

**garde³** *nf* sanitar ayol, hamshira, og'ir kasalga qarovchi ayol.

**garde-à-vous I.** *loc* rostlan; **II.** *nm inv mil* tik qotib turish (*harbiylarda*).

**garde-barrière** *nm* temir yo'ldan o'tiladigan joyda soqchi, nozir.

**garde-boue** *nm inv* mototsikl himoya qanoti.

**garde-chasse** *nm* ov noziri.

**garde-corps** *nm inv* shaxsiy soqchi, tansoqchi.

**garde-côte** *nm* **1.** qirg'oqni qo'riqlovchi kema; **2.** dengiz chegara qo'riqchiligi.

**garde-feu** *nm* pech panjarasi, tunuka parda, to'siq.

**garde-fou** *nm* to'siq, panjara, tutqich, dasta, band.

**garde-malade** *n* sanitar, hamshira, og'ir kasalga qarovchi ayol.

**garde-manger** *nm inv* **1.** omborxona; **2.** oziq-ovqat javoni.

**garde-meuble** *nm* jihozlar ombori.

**gardénia** *nm bot* gardeniya, gul turi.

**garder I.** *vt* **1.** ehtiyot qilmoq, asramoq, saqlamoq; tutmoq, qo'riqlamoq, saqlab qolmoq; himoya, muhofaza qilmoq, qo'rimoq, poylamoq, ko'z quloq bo'lib saqlamoq, kuzatmoq, kuzatib, qarab turmoq, nazorat qilib turmoq; **garder un malade** kasal qaramoq; **garder la porte** hech kimni kirishga qo'ymaslik; **être gardé à vue** nazorat ostida bo'lmoq; **garder le lit** ko'rpa-to'shak qilib yotmoq (*bemor*); **2.** rioya qilmoq, amal qilmoq, bajarmoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq, saqlab qolmoq, qo'llab-quvvatlamoq; **garder ses habitudes** o'z urf-odatlarini saqlab qolmoq; **garder son sang-froid** o'zini bosmoq, o'zini og'ir tutmoq; **garder un secret** sir saqlamoq; **garder la mesure** me'yoriga amal qilmoq; **garder le silence** sukut saqlamoq; **garder rancune à qqn** birovga kek saqlamoq; **3. (de qqch)** ehtiyot qilmoq, saqlamoq; **4.** ushlab qolmoq, tutib qolmoq, qoldirmoq, olib qo'ymoq, atab qoldirmoq; **II. se garder** *vpr* saqlanmoq, ehtiyot bo'lmoq; **gardez-vous bien de le faire** aslo, hech, zinhor buni qila ko'rmang.

**garderie** *nf* **1.** o'rmon uchastkasi (*bitta o'rmonchiga biriktirilgan*); **2.** bolalar bog'chasi, yasli; kuni uzaytirilgan guruh.

**garde-robe I.** *nf* **1.** kiyimlar shkafi; **2.** bir kishining kiyim boshi; **3.** teshik, siniq kursilarni qo'yadigan joy; **II.** *nm* etak, fartuk.

**gardeur, euse** *n* qo'y cho'pon, podachi.

**garde-voie** *nm* temir yo'l nazoratchisi.

**garde-vue** *nm techn* nurdan ko'zni saqlash uchun soyabon.

**gardien, ienne I.** *n* **1.** saqlovchi, asrovchi, qo'riqlovchi, soqchi; **un gardien de but** *sport* darvozabon; **2.** qorovul; **3.** nozir, nazoratchi; **un gardien de la paix** Parij politsiyachisi, mirshab; **II.** *adj* **un ange gardien** qo'riqlovchi farishta.

**gardiennage** *nm* **1.** nazoratchi vazifasi, qorovullik, qo'riqlash; **2.** muhofaza qilish.

**gardon** *nm zool* qizilko'z (*baliq turi*).

**gare¹** *nf* **1.** bekat, vokzal; **une gare de voyageurs** yo'lovchilar bekati; **une gare de marchandises** tovar stansiyasi; **une gare de transit** katta uzel stansiya; **une gare fluviale** daryo vokzali, porti; **une gare maritime** dengiz porti.

**gare²** *intj* ehtiyot bo'l!, o'zingni chetga ol! **gare à la peinture!** ehtiyot bo'ling, bo'yalgan! **gare à la tête!** boshni ehtiyot qil! **gare aux voleurs!** o'g'rilardan ehtiyot bo'l! **sans crier gare** ogohlantirmay.

**garenne** *nf* yovvoyi quyonlar o'z holicha ko'paytirilayotgan joy.

**garer I.** *vt* pana joyga joylashtirmoq, olib qo'ymoq, garajga qo'ymoq, yashirmoq, bekitmoq, bekitib qo'ymoq, **garer la voiture** avtomashinani garajga qo'ymoq; **II. se garer** *vpr* o'zini chetga olmoq, himoyalanmoq, qo'riqlamoq, saqlanmoq, yashirinmoq; avtomobilni avtomashinalar turadigan joyda to'xtatmoq.

**gargantua** *nm* yeb to'ymas odam, mechkay, ochofat.

**gargariser (se)** *vpr* **1.** tomog'ini chayib, yuvib tashlamoq, chayqamoq; **2.** *fam* zavqlanmoq, rohatlanmoq, maza qilmoq; lazzatlanmoq.

**gargarisme** *nm* **1.** tomog'ini chayqash; **2.** tomoqni chayqash uchun dori.

**gargote** *nf* arzon oshxona, qovoqxona, mehmonxonali restoran.

**gargouille** *nf* tarnov, nov.

**gargouillement** *nm* **1.** suvning jildirashi; **2.** qorin quldirashi, g'uldirash, quldur-quldur.

**gargouiller** *vi* **1.** jildiramoq, shildiramoq, qulqullamoq, qulq-qulq qilmoq; **2.** quldiramoq, g'uldiramoq, guldiramoq.

**gargoulette** *nf* sopol ko'za, g'ovak idish (*suyuqlikni bug'lab sovutish uchun*).

**garnement** *nm* to'polonchi, o'ta sho'x, shum; **un mauvais garnement** sho'x, olov bola, to'polonchi, shumtaka.

**garni I.** *adj* jihozlangan; **II.** *nm* jihozli xona.

**garnir** *vt* **1.** ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq; **2.** bezamoq, bezatmoq, yasatmoq, pardoz bermoq, qoplamoq, tikmoq; **garnir une robe de dentelle(s)** ipak tur ko'ylakni bezab tikmoq; **garnir un manteau de fourrure** palto yoqasini mo'ynali teri bilan tikib chiqmoq.

**garnison** *nf mil* **1.** garnizon; **2.** doimiy joylashish yeri, garnizon shaharchasi.

**garniture** *nf* **1.** asbob, asbob-uskuna, anjom, jihozlar; nav, to'plam, sidra; **garniture de bureau** yozuv asbob anjomlari; **2.** ziynat, bezak, pardoz, sayqal, pardoz berish.

**garrigue** *nf* ohaktoshli yer, bo'sh yer, bekor yotgan yer.

**garrot¹** *nm* yag'rin, sag'ri.

**garrot²** *nf* **1.** buragich; **2.** *méd* jgut, bog'ich (*qon to'xtatish uchun*).

**garrottage** *nm* bog'lash, burash, o'rash.

**garrotter** *vt* mahkam, siqib bog'lamoq.

**gars** *nm fam* yigit, o'spirin, yigitcha, barvasta yigit, azamat, pahlavon; **un petit gars** bolakay; **les gars** yigitchalar, o'spirinlar.

**gascon, onne I.** *adj* **1.** gaskonli; **2.** maqtanchoq, manman; **II.** *n* **1.** gaskonlik; **2.** maqtanchoq, kerilmachoq, chiranchoq; **3.** *nm* gaskon shevasi.

**gas-oil** *nm anglic* dizel yonilg'isi, yoqilg'isi.

**gaspillage** *nm* **1.** pulni sovurish, aysh-ishratga, bo'lar-bo'lmasga sarflash, nobud, yo'q qilish, mol-dunyoni sovurib yuborish; **2.** bekorga, behudaga yo'q qilish (*kuchni*); xomashyoni ortiqcha sarflab yuborish.

**gaspiller** *vt* rejasiz sarflamoq, sovurib yubormoq, sarf qilmoq, sovurmoq, isrof qilmoq, nest-nobud qilmoq, foydasiz sarflab yubormoq; **gaspiller l'argent** pulni sovurmoq; **gaspiller sa santé** sog'ligini ayamaslik.

**gastéropodes** *nm pl zool* qorinoyoqlilar.

**gastrique** *adj* oshqozon, me'daga oid.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gastronome** *n* ovqatlanishni yaxshi ko'ruvchi, shirintomoq, ovqatni saralab, tanlab yeydigan.
**gastronomie** *nf* gastronomiya, lazzatli taom san'ati.
**gastronomique** *adj* gastronomiyaga oid.
**gastroscope** *nm méd* oshqozon, qizilo'ngachni yoritib ko'rish asbobi, endoskop.
**gastroscopie** *nf méd* oshqozon, qizilo'ngachni yoritib ko'rish.
**gastrotomie** *nf méd* oshqozonni kesib ko'rish, ochish.
**gâté, ée** *adj* **1.** chirik, chirigan, irigan; buzilgan, sasigan, aynigan, buzuq, ishdan chiqqan, hidlangan; **2.** erka, tantiq, injiq, taltaygan.
**gâteau** *nm* **1.** shirin, go'shtli non, yog'li qiyomli shirinlik; **un gâteau feuilleté** qat-qat pishiriq; **gâteaux secs** kulcha.
**gâter I.** *vt* **1.** buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq; chiritmoq; **gâter le plaisir** huzur-halovatini buzmoq; **2.** erkalatmoq, suymoq, taltaytirmoq; **II. se gâter** *vpr* buzilmoq, ishdan chiqmoq; chirimoq, irimoq, sasimoq; **le temps se gâte** havo buzilayotibdi.
**gâterie** *nf* **1.** erkalash, erkalatish, suyish, taltaytirish; **2.** kichik sovg'a, in'om, hadya, armug'on (*meva, shirinlik*).
**gâteux, euse** *adj, n* **1.** aqli kam, aqli past, zaif, yosh o'tishi bilan aqliy va jismoniy qobiliyatlari pasayib ketgan, boladek bo'lib qolgan; **un vieillard gâteux** miyasi aynib qolgan chol; **2.** kaltafahm, tentak, aqlsiz, ahmoq, ovsar.
**gâtisme** *nm* **1.** yosh o'tishi bilan aqliy va jismoniy qobiliyatlarning pasayib ketishi, boladek bo'lib qolish, qarib miyasi aynib qolganlik; **2.** tentaklik, aqlsizlik, ahmoqlik, ovsarlik.
**gauche I.** *adj* **1.** chap, so'l, chap tomondagi, chap tomonda joylashgan, chapki; **2.** kelishmagan, qovushmagan, noshud, beo'xshov, beso'naqay, qo'pol; xunuk, chaqqon, epchil emas; **3.** qiya, qiyalama, nishab, yotiq, qiyshiq; **II.** *nf* chap qo'l, chapaqay, chap tomon; *loc adv* **à gauche** chap, chap tomonda; chapdan, chap tomondan; chapga, chap tomonga.
**gaucher, ère I.** *n* chapaqay, chap qo'l; **II.** *adj techn* chapga aylanadigan.
**gaucherie** *nf fam* qo'pollik, beso'naqaylik, qovushmaganlik; dag'allik; qiyinlik, og'irlik.
**gauchir I.** *vt* **1.** egmoq, bukmoq; qiyshaytirmoq, tob tashlattirmoq; **2.** buzmoq, noto'g'ri talqin qilmoq (*fikrni*); **3.** *av* chapga burmoq; **II.** *vi* **1.** og'moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq, chetga chiqmoq; **2.** egilmoq, bukilmoq, qayrilmoq, qiyshaymoq, tob tashlamoq, qayishmoq; **3.** chapga burilmoq (*shamol*).
**gaudriole** *nf* erkin hazil, sho'x, qiziq, o'tkir gap, qochirim, sho'x qochiriq.
**gaufrage** *nm* burma qilish, qat-qat qilish.
**gaufre** *nf* **1.** vafli, qat-qat qilingan shirinlik; **2.** asalari katagi.
**gaufrer** *vt* qat-qat qilmoq, burma qilmoq.
**gaufrette** *nf* vafli, qat-qat qilingan pecheniy.
**gaufreur, euse 1.** *n* qat-qat qiluvchi, burma qiluvchi usta, qat-qat qiluvchi; **2.** *nf* burma qiladigan mashina.
**gaufrier** *nm* **1.** vafli uchun idish; **2.** qog'ozni burma qiladigan qolip, o'yma.
**gaufrure** *nf* qolip, o'ymadan chiqqan naqsh, bezak.
**gaulage** *nm* daraxt mevalarini qoqmoq, qoqib tushirmoq (*xoda bilan*).
**gaule** *nf* **1.** uzun xoda, tayoq; **2.** qarmoq sopi, dastasi, yog'ochi.
**gauler** *vt* xoda bilan daraxt mevalarini qoqmoq.
**gaullisme** *nm* general De Goll siyosati.
**gaulliste** *nm* general De Goll siyosati tarafdori.
**gaulois, oise I.** *adj* **1.** gall qabilasiga oid; **2.** hazillashadigan, hazilkash, qiziqchi; hur, erkin, mustaqil, ozod; kamtarin, sipo emas, gustoh; **un propos gaulois** erkin gapirish; **II.** *nm* gall, kelt tili.
**gauloise** *nf* sigareta markasi.
**gausser (se)** *vpr litt plais* **(de)** kulmoq, masxara qilmoq, mazax, mayna qilmoq, xo'rlamoq, tahqirlamoq, g'ashiga tegmoq.
**gave** *nm* tog' daryosi (*Pireneyda*).
**gaver I.** *vt* **1.** don bermoq (*qushga*); **2.** zo'rlab ovqatlantirmoq, yedirmoq; **II. se gaver** *vpr* ortiqcha yemoq, yeb qo'ymoq.
**gaveur, euse** *n* qushga don beruvchi.
**gavial** *nm* hind timsohi.
**gavotte** *nf* kuy va raqs.
**gavroche** *nm* sho'x va quv daydi ko'cha bolasi, shumbola (*Parijda*).
**gay** *nm* besoqolboz, gomoseksualist.
**gaz** *nm inv* **1.** gaz; **un gaz d'échappement** ishlangan gazlar; **un gaz persistant** turg'un, tez tarqalmaydigan zaharlovchi moddalar; **le gaz moutarde** tekkan yerni yara qiluvchi zaharlovchi modda, iprit; **un gaz lacrymogène** ko'zni yoshlantiruvchi gaz; **mettre les gaz** gaz qo'shmoq, bermoq (*mashinada*); **de gaz, à gaz** gazli, gazi bor; **une chambre à gaz** gaz kamerasi; **à pleins gaz** imkoniyati boricha; **il y a de l'eau dans le gaz** *fam* bu ishda to'sqinlik, chatoqlik bor; **2.** gaz ishlab chiqarish sanoati; **3.** gaz devori; **4.** *mil fam* gazga qarshi kiyim, protivogaz.
**gaze** *nf* **1.** doka, marli; **2.** *fig* qoplama; yengil, yupqa chimmat, parda.
**gazéification** *nf* gazga aylantirish, gaz qilish, gaz hosil qilish; gazlashtirish, gaz o'tkazish.
**gazéifier** *vt* **1.** gazga aylantirmoq, gaz qilmoq, gaz hosil qilmoq; **2.** gazlashtirmoq, gaz o'tkazmoq, gaz bilan ta'minlamoq; **3.** gazlamoq (*suvni*).
**gazelle** *nf zool* g'azol, ohu, jayron.
**gazer I.** *vt* gaz bilan zaharlamoq; **II.** *vi fam* **1.** yeldek yugurmoq, gaz yuborib tezlatmoq; **2.** butunlay to'g'ri kelmoq, ma'qul bo'lmoq, qoniqtirmoq; **ça gaze** ishlar yaxshi!
**gazette** *nf* **1.** ro'znoma; **2.** ezma, vaysaqi, sergap odam, safsataboz, g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
**gazeux, euse** *adj* **1.** gazli, gazsifat, gazsimon; **2.** gazlangan, gazli; **de l'eau gazeuse** gazli suv.
**gazoduc** *nm* gazquvur.
**gazole** *nm* neftdan olinadigan yonilg'i, gazolin.
**gazomètre** *nm* gaz miqdorini o'lchagich.
**gazon** *nm* maysazor, chimzor.
**gazouillant, ante** *adj* **1.** chug'urlagan, chirqillagan, sayragan; **2.** shildiragan; **3.** mayin jildiragan.
**gazouillement** *nm* **1.** chug'urlash, chirqillash, sayrash; **2.** shildirash; **3.** mayin jildirash, oqish.
**gazouiller** *vi* **1.** chug'urlamoq, chirqillamoq, sayramoq; **2.** shildiramoq; mayin, sekin jildiramoq.
**gazouilleur, euse** *adj* **1.** chug'urlovchi, chirqillovchi, sayrovchi; **2.** shildirovchi; **3.** mayin jildirovchi (*oqish*).
**gazouillis** *nm* chug'urlovchilar, chirqillovchilar.
**geai** *nm zool* ko'k qarg'a (*qush*).
**géant, ante I.** *n* juda ulkan, devqomat, bahodir, juda katta, bahaybat, pahlavon odam; **à pas de géant** juda katta qadamlar bilan; **II.** *adj* juda kattakon, bahaybat, pahlavon.
**géhenne** *nf* **1.** jahannam, do'zax; **le feu de la géhenne** do'zax o'ti; **2.** qiynash, azob berish; azob-uqubat, jafo, aziyat, ozor, ezilish, qattiq iztirob, qiynalish.
**geindre** *vi* **1.** ingramoq, g'ingshimoq, zorlanmoq, oh tortmoq, oh urmoq; **2.** *fig* nolimoq, zorlanmoq, shikoyat qilmoq, ingramoq, ming'irlamoq, yig'lamoq.
**gel** *nm* **1.** qahraton, sovuq payt; **2.** yaxlash, muzlash (*suv*); **3.** gel; **gel coiffant** soch uchun gel; **4.** muzlatib qo'yish, to'xtatib qo'yish, ishlata olmaydigan qilib qo'yish.
**gélatine** *nf* jelatin, yelimshak modda.
**gélatiné, ée** *adj* yelimshakli, yelimshak qoplangan.
**gélatineux, euse** *adj* yelimshaklangan, jelatini bor.
**gelé, ée** *adj* muzlagan, yaxlagan; **des crédits gelés** o'lik qarzlar.
**gelée** *nf* **1.** sovuq, ayoz; *pl* ertalabki, kechki sovuq, ayoz; **la gelée blanche** qirov; **2.** ilvira, rosa qaynatilgan go'sht, suyak, oyoqlaridan tayyorlangan halim ovqat.
**geler I.** *vt* **1.** muzlatmoq, yaxlatmoq; **2.** sovuq urib ketmoq; **3.** *fig* muzlab ketganday bo'lmoq (*yurak*); **II.** *vi* **1.** sovqotmoq, sovuq yemoq; muzlab, yaxlab qolmoq, to'ngmoq; **on gèle ici** juda sovuq; **2.** muzga, yaxga aylanmoq, muzlab qolmoq; **la rivière a gelé** daryo muzlab qoldi; **III.** *v impers* **il gèle** sovuq bo'layotibdi; **il gèle à pierre fendre** qahraton sovuq turibdi; **IV. se geler** *vpr* sovuq urmoq, sovuqqa oldirmoq.
**gélinotte** *nf* bulduruq (*qush*).
**gémeau, elle I.** *adj vx* egizak; **II.** *nm pl astron, astrol* Egizaklar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gémellaire** *adj* egizaklarga oid.

**gémellipare** *adj biol* egizak homilasi bor, egizak homilali.

**géminé, ée** *adj* juft, ikkita; *archit* **colonnes géminées** juft qo'yilgan ustunlar; **consonnes géminées** ikkilangan undosh tovushlarlar.

**gémir** *vi* **1.** ingramoq, g'inshimoq, oh tortmoq, xo'rsinmoq, oh urmoq; inqillamoq, oh-voh qilmoq; shikoyat qilmoq, hasrat qilmoq, zorlanmoq, nolimoq; **le vent gémit** shamol uvillayapti; **2.** *fig* azoblanmoq, azob-uqubat chekmoq, qiynalmoq.

**gémissant, ante** *adj* ingragan, voy-voylagan, oh-voh tortgan.

**gémissement** *nm* ingrash, oh tortish, uf urish, hasrat, nola, inqillash, zorlanish, shikoyat.

**gemme I.** *nf* qimmatbaho tosh; **II.** *adj* **la pierre gemme** qimmatbaho tosh; **le sel gemme** tosh tuz.

**gémonies** *nf pl* **vouer (qqn, qqch) aux gémonies** sazoyi qilmoq, sharmandasini chiqarmoq, nohaq qoralamoq, nomini bulg'amoq, yerga urmoq, tahqirlashga yo'l qo'ymoq, tahqirlatmoq.

**gênant, ante** *adj* uyatchang, tortinchoq; qiyin, tang, og'ir, noxush, qayg'uli, yurakni ezadigan, mudhish, dushvor, mushkul.

**gencive** *nf* milk, tish milki.

**gendarme** *nm* **1.** jandarm; **les gendarmes et les voleurs** kazaklar va qaroqchilar (*o'yin*); **2.** *fam* shaddod, o'ktam xotin; **3.** olmosdagi iz, dog'; **4.** egilgan qoya, nishab qoya; **5.** *fam* dimlangan seld balig'i; **6.** yog'och kana, taxtakana, jo'lak, qandala.

**gendarmer (se)** *vpr* **(contre qqch)** qattiq norozilik bildirmoq, e'tiroz bildirmoq, qarshi chiqmoq.

**gendarmerie** *nf* **1.** jandarmeriya; **2.** jandarm kazarmasi turar joyi, uyi.

**gendre** *nm* kuyov.

**gêne** *nf* **1.** siqilish, uyalish, qimtinish, tortinish, tortinchoqlik, iymanish, sarosimalik, parokandalik; **éprouver de la gêne face à qqn** uyalmoq, siqilmoq, birovning oldida o'zini noqulay sezmoq; **avec gêne** uyalib, hijolat bo'lib; **sans gêne** *fam* tortinmasdan, beandishalik bilan, uyalmay; **2.** siqiqlik, qiyinlik, tanglik, og'irlik, torlik, tiqilinch, tirbandlik; noqulaylik, o'ng'aysizlik; **3.** qiyinchilik, qiynalish, mushkullik, dushvorlik, buzilish, ishdan chiqish, barbod bo'lish (*ish*); bepullik, pulsizlik, pulga zorlik; **être dans la gêne** mushkul holatda bo'lmoq; **4.** *vx* qiynash, azob berish; qiynoq, azob-uqubat.

**gène** *nm biol* gen, hayvon, o'simlik tanasidagi irsiyat qonuni, irsiyat birligi.

**généalogie** *nf* nasl-nasab tarixi, nasabnoma, shajara, nasabshunoslik, silsila.

**généalogique** *adj* nasl-nasabga oid, shajarali; **un arbre généalogique** shajara.

**généalogiste** *n* nasl-nasab tarixi bilan shug'ullanuvchi odam.

**gêner I.** *vt* **1.** bezovta qilmoq, urintirmoq, tinchini, oromini buzmoq, ovora qilmoq, tashvishlantirmoq, xavotirlantirmoq, siqmoq, qismoq; **2.** mushkullashtirmoq, qiyinlashtirmoq, og'ir, tang ahvolga solib qo'ymoq, xalaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq; **gêner la circulation du sang** qon aylanishiga xalaqit, xalal bermoq; **gêner la circulation** ko'cha harakatini to'smoq; **3.** siqmoq (*oyoq kiyimi*); **4.** puldan qisib, siqib qo'ymoq; **II. se gêner** *vpr* **1.** uyalmoq, tortinmoq, iymanmoq; **2.** bir-biriga xalaqit bermoq, bir-birini uyaltirmoq; **3.** siqilmoq, tortmoq, xarajatini cheklamoq.

**général[1], ale I.** *adj* **1.** umumiy, hammaga xos, hammaga tegishli, taalluqli, yalpi, ommaviy, barchaga baravar, har yerda bo'ladigan, uchraydigan; *loc adv* **en général** umuman, har doim, doimo, odatdagidek, odatdagicha, odatan, odatga ko'ra; **2.** bosh, asosiy, eng muhim, yetakchi, boshqarib boruvchi, yetaklovchi, ergashtirib borayotgan; **un inspecteur général** bosh nazoratchi; **un secrétaire général** bosh kotib; **II.** *n* **1.** *nm* umumiy hol, umumiylik, butun, bir butun, yaxlit holdagi narsa; **du particulier au général** xususiylikdan umumiylikka; **2.** *nf* eng oxirgi tayyorgarlik (*repetitsiya*); **3.** *nf* umumiy tashvish, xavotir.

**général[2], ale I.** *nm* general; **un général d'armée** armiya generali; **un général de division** diviziya generali; **un général en chef** bosh qo'mondon; **II.** *nf fam* general xotin.

**généralement** *adv* umuman, har doim, umuman olganda, odatga ko'ra, odatdagicha, ko'proq, ko'pincha; **généralement parlant** umuman aytganda, olganda.

**généralisable** *adj* umumlashtiruvchi, umumlashtiradigan.

**généralisateur, trice** *adj* umumlashtiruvchi.

**généralisation** *nf* **1.** umumlashtirish, birlashtirish, birga qo'shish, umumiy qilish; **2.** umumiy xulosa, umumlashma.

**généraliser I.** *vt* umumlashtirmoq, birlashtirmoq, birga qo'shmoq; keng talqin qilmoq, ochib bermoq, hammaning ongiga yetkazmoq; **II. se généraliser** *vpr* **1.** umumlashmoq; **2.** tarqalmoq, yoyilmoq, kengayib ketmoq; **cette opinion se généralise de plus en plus** bu fikr hammaga yoyildi.

**généralissime** *nm* generalissimus, oliy bosh qo'mondon.

**généraliste I.** *n* terapevt; **II.** *adj* umumiy, ixtisoslashmagan; **médecin généraliste** terapevt, davolovchi vrach.

**généralité** *nf* **1.** ko'pchilik, aksariyat hollarda; **2.** umumiylik, birlik, bir xillik, hammaga oidlik; **3.** *pl* umumiy holat, hammaga ma'lum haqiqat (*fikr, gap*); **s'en tenir aux généralités** umumiy mulohazalar bilan chegaralanmoq; **4.** moliya bo'limi (*Fransiyada*).

**générateur, trice I.** *adj* hosil qiluvchi, yasovchi, bunyod etuvchi; boshlang'ich, ilk, dastlabki, asos qilib olingan; birinchi; **II.** *n* **1.** *nm techn* generator, elektr toki ishlab chiqaruvchi mashina; **2.** *nf* generator; **3.** *nf math* hosil qiluvchi tizim.

**génératif, ive** *adj* qayta tiklovchi, qayta hosil qiluvchi, tug'diruvchi, yaratuvchi.

**génération** *nf* **1.** tug'ilish, yaratish, hosil bo'lish, qilish, dunyoga, vujudga keltirish, barpo qilish, tug'dirish, maydonga keltirish; **2.** avlod, nasl, bo'g'in, zot, zurriyot, urug'; **la génération montante** o'sib kelayotgan avlod; **la jeune génération** yosh avlod; **nous sommes de la même génération** biz bir avlod odamlarimiz, tengdoshmiz; **de génération en génération** avloddan avlodga, an'ana bo'yicha; **3.** kelib chiqish, nasab, nasl-nasab; nasli, nasabi, asli, paydo bo'lish, tug'ilish, vujud, yuzaga kelish, ro'y berish; **4.** toklanish, tok yuzaga kelishi, elektr energiyasi ishlab chiqarish; qo'zg'atish, uyg'otish, tug'dirish, yuzaga keltirish, hayajonlantirish.

**générer** *vt* hosil qilmoq, keltirib chiqarmoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq.

**généreusement** *adv* **1.** muruvvat, himmat bilan, olijanoblik qilib, himmat kamarini bog'lab; **2.** ayamasdan, qizg'anmasdan, jon-dili bilan, saxiylik, qo'li ochiqlik bilan, mo'l-ko'l, istagancha, bajonidil.

**généreux, euse I.** *adj* **1.** muruvvatli, himmatli, oliyhimmat, olijanob, vijdonli, pok, mard, mardonavor, ulug'vor, aslzoda; **2.** jasur, dovyurak, jur'atli, jasoratli, qo'rqmas, botir; **3.** saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, hotamtoy, boy, mo'l-ko'l, serob, ayamaydigan; **un sol généreux, une terre généreuse** unumdor yer, tuproq, serhosil yer; **un vin généreux** yaxshi kuchli vino; **II.** *nm* **faire le généreux** go'yo mardlik qilmoq, o'zini olijanob, oliyhimmat qilib ko'rsatmoq.

**générique I.** *adj* urug'ga oid, urug'doshlik jamiyatiga oid; **un nom générique** urug' nomi; **II.** *nm* bosh sarlavha (*filmda*).

**générosité** *nf* **1.** muruvvat, himmat, qaram, olijanoblik, oliyhimmatlik, fe'li kenglik, vijdonlilik, poklik, aslzodalik; **2.** saxiylik, ochiq qo'llik, qo'li ochiqlik, hotamtoylik; *pl* xayr-ehson, xayr-saxovat, sovg'a salom; **faire des générosités** hotamtoylik qilmoq, ko'rsatmoq.

**genèse** *nf* kelib chiqish, paydo bo'lish, bunyodga kelish, maydonga kelish, ro'y berish, hosil bo'lish.

**genêt** *nm bot* sariq gulli, dukkakli cho'l o'simligi, bigiz o't.

**généthliaque** *adj* **1.** goroskopga oid; **2.** bola tug'ilishiga bag'ishlangan; **discours généthliaque** bola tug'ilishi sababli qilingan gapirish, nutq.

**généticien, ienne** genetik olim, mutaxassisi.

**génétique I.** *adj* kelib chiqishga oid, tug'ma, asliy, nasabli, irsiy, nasldan-naslga o'tgan; **II.** *nf biol* irsiyat va tananing o'zgarishi haqidagi fan, genetika.

**gêneur, euse I.** *adj* jonga tegadigan, zeriktiradigan, zerikarli, xira, shilqim, chidab bo'lmaydigan, badfe'l; **II.** *n* xira, shilqim, bezor qiladigan mehmon.

**genévrier** *nm bot* archa, qora archa.

**génial, ale** *adj* ulug', zo'r iste'dodli, genial; zo'r mahorat bilan qilingan, dohiyona, dono, betakror; **une idée géniale** dono fikr.

**génialement** *adv* zo'r iste'dod bilan, donolik bilan.

**génialité** *nf* donolik, zo'r iste'dod, dohiyonalik.

**génie** *nm* **1.** donolik, zo'r iste'dod, qobiliyat, talant; **2.** daho, ulug' iste'dod, zo'r talant, zakovat egasi, dohiy, geniy; **de génie** zo'r iste'dodli; **le génie des affaires** ishni olib borish mahorati; **3.** ruh, did; **un mauvais génie** iblis; **4.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

xo'jalik qurilish ishlari; **le génie maritime** kema qurish; **le génie civil** oddiy xalq qurilishi.

**genièvre** *nm* **1.** qora archa mevasi; **2.** qora archa mevasidan ishlangan spirtli ichimlik, aroq.

**génisse** *nf* g'unajin, tana.

**génital, ale** jinsiy; **les organes génitaux** jinsiy a'zolar.

**génitalité** *nf biol* jinsiy yo'l bilan ko'payish qobiliyati.

**génitif** *nm gram* qaratqich kelishigi.

**génocide** *nm* qatli om, genosid, fashizm, imperializmning irqiy, milliy va diniy bahona bilan aholining biror toifasini qirishga qaratilgan siyosati.

**genou** *nm* **1.** tizza, tiz, tizzaning ko'zi; **à genoux** cho'kkalab tizzasiga o'tirib; **se mettre à genoux** tizzalab o'tirmoq, cho'kkalamoq; **tomber aux genoux de qqn** oyog'iga yiqilmoq; **être à genoux devant qqn** o'ta xushomadgo'ylik qilmoq, jilpanglamoq; **2.** egik, bukik, egilgan joy.

**genouillère** *nf* tizzaband, tizza sovuti.

**genre** *nm* **1.** tur, xil, nav, tip, ko'rinish, tus; **le genre humain** odam zoti, insoniyat, bashariyat; **2.** usul, yo'sin, tarz, taxlit, ravish, tariqa, yo'l, xususiyat; **un genre de vie** turmush tarzi; **3.** usul, uslub, yo'l, janr, odat, did, ta'b; **un mauvais genre** yoqimsiz ohang; **d'un bon genre** yaxshi usulda; **dans le genre de** o'xshash, kabi, singari, shekilli; **4.** *gram* rod, tur; **5.** uslub, did, janr (*rassomlikda*).

**gens** *nm pl (aniqlovchidan keyin kelsa nf)* odamlar, insonlar, kishilar; **les jeunes gens** yosh kishilar; **de bonnes gens** soddadil odamlar; **de braves gens** sof vijdonli kishilar, yaxshi odamlar; **des gens de bien** insofli odamlar; **des gens de lettres** yozuvchilar, adiblar; **les gens du Nord** shimolliklar; **les gens d'église** ruhoniylar; **les gens de mer** dengizchilar; **vous vous moquez des gens** siz bizni ahmoq deb hisoblaysiz, siz mazax qilayotibsiz.

**gent** *nf vieilli* zot, nasl, tur.

**gentiane** *nf bot* gazak, gajak o't; shu o'simlik ildizidan olingan spirtli ichimlik.

**gentil**[1] *nm* majusiy, butparast, g'ayridin.

**gentil**[2]**, ille** *adj* **1.** juda yaxshi, soz yoqimli, iltifotli, nazokatli, xushmuomala, shirin so'z; **vous êtes bien gentil** siz juda iltifotlisiz; **2.** chiroyli, go'zal, barno, xushro'y, istarasi issiq, yoqimtoy, chiroylikkina, yaxshigina; **3.** *hist* aslzoda, aslzot, tag-tugli, nasl-nasabi yaxshi, zotli, zodagon.

**gentilhomme** *nm* oqsuyak, zodagon.

**gentillesse** *nf* **1.** yoqimlilik, yoqimtoylik, istarasi issiqlik, chiroylilik, go'zallik; **2.** navozish, nazokat, xushmuomalalik, iltifot, marhamat, ochiq yuzlilik, mehribonlik, shirinso'z, muloyimlik, mushfiqlik; **par gentillesse** marhamat qilib.

**gentillet, ette** *adj* juda yoqimli, yoqimtoy, dilbar, jonon, juda chiroyli, ko'hlik, aziz, qimmatli, qadrli.

**gentiment** *adv* juda yaxshi, soz, boplab, o'rinlatib, qoyilmaqom qilib, yoqimli qilib, yoqimli, yaxshilikcha, yaxshilik bilan, erkalik bilan, erkalanib, erkalab, erkalatib, silab, siypab, muloyim.

**gentleman** *nm anglic* nozik muomalali, nazokatli odam.

**génuflexion** *nf* **1.** tiz cho'kish, tiz cho'kib sig'inish, sajda qilish; **2.** *pl fam* xushomadgo'ylik, laganbardorlik, yaltoqlanish.

**géodésie** *nf* yer shaklini, sig'imi, hajmini o'rganadigan fan.

**géodésique** *adj* yerni o'rganishga oid.

**géographe** *nm* geograf, geografiya mutaxassisi.

**géographie** *nf* geografiya; **la géographie physique** tabiiy geografiya.

**géographique** *adj* geografiyaga oid.

**geôle** *nf* **1.** qamoq, qamoqxona, qiynoqxona, vahshatxona, zindon; **2.** qamoqxona nazoratchisi xonasi.

**geôlier, ière** *n* qamoqxona qorovuli, nazoratchisi.

**géologie** *nf* geologiya.

**géologique** *adj* geologiyaga oid.

**géologue** *nm* geologiya mutaxassisi, geolog.

**géomètre** *nm* **1.** geometr; topograf; **un géomètre arpenteur** yer o'lchovchi, tanobchi; **2.** *zool* odimchi qurt va uning kapalagi.

**géométrie** *nf* geometriya.

**géométrique** *adj* **1.** geometriyaga oid; **2.** aniq, kuchli, to'g'ri; **3.** sodda, doimiy.

**géométriquement** *adv* **1.** geometriya bilan; **2.** doimo, kuchli, aniq va to'g'rilik bilan.

**géomorphologie** *nf* yer tuzilishi shakli va taraqqiyotini o'rganish.

**géophysicien, ienne** *n* geofizik.

**géophysique** *nf* yer sharining fizik xususiyatlarini o'rganish.

**géopolitique** *nf* geosiyosat, geografik siyosat.

**gérance** *nf* idora qilish, boshqarish, yo'l-yo'riq berish; yurgizish, idora, boshqarma, boshqaruv, ishni boshqarish.

**géranium** *nm* yorongul.

**gérant, ante** *n* idora qiluvchi, boshqaruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, mudir, boshliq, boshchilik qiluvchi; **le gérant de l'immeuble** uy boshqaruvchisi.

**gerbage** *nm* bog'lash, bog'-bog' qilish.

**gerbe** *nf* **1.** bog', bog'lam, dasta, tutam; **une gerbe de fleurs** katta guldasta; **2.** *mil* o'qlar uchquni; taram (*nur*).

**gerbier** *nm* uyum, to'da, g'aram.

**gerboise** *nf zool* qo'shoyoq.

**gercer I.** *vt* yoriq hosil qilmoq, yormoq, yorilmoq, darz ketmoq, taram-taram yorilmoq; **II.** *vi ou* **se gercer** *vpr* darz ketmoq, yorilmoq (*teri*).

**gerçure** *nf* **1.** kichik yoriq, darz (*lablarda*); **2.** yoriq, darz (*yerda, daraxt tanalarida*).

**gérer** *vt* idora qilmoq, boshqarmoq, mudirlik qilmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq, ish yurgizmoq.

**gerfaut** *nm zool* katta qirg'iy, shumkar (*qush*).

**germain**[1]**, aine** *adj, n* aka, singil, qoni bir, tug'ishgan aka-uka; **cousin germain** amakivachcha, ammavachcha, xolavachcha, tog'avachcha.

**germain**[2]**, aine** *adj, n* Olmoniyaga oid; olmon, nemis.

**germanique** *adj* german, olmon, Olmoniyaga oid; **les langues germaniques** german tillari.

**germanisant, ante** german tillari mutaxassisi, germanist.

**germanisation** *nf* germanlashtirish.

**germaniser** *vt* nemislashmoq, nemislashtirmoq.

**germanisme** *nm ling* nemislik, germanlik, germanizm.

**germe** *nm* **1.** *biol* pusht, homila, embrion; **en germe** eng boshida, endigina paydo bo'layotgan paytda, murtakligida; **2.** *bot* nish, kurtak, nihol, qalamcha, novda; **3.** *fig* tug'ilish, dunyoga kelish, boshi, boshlanishi, manbai; *pl* boshlang'ich, dastlabki ma'lumotlar.

**germer** *vi* **1.** ko'karmoq, unmoq, o'sib, ko'karib, unib chiqmoq; novda tashlamoq, chiqarmoq (*nish, kurtak, nihol*); **2.** *fig* rivojlanmoq, o'smoq, taraqqiy qilmoq, tug'ilmoq.

**germinatif, ive** *adj* o'sadigan, o'suvchan, unadigan, ko'karadigan; **pouvoir germinatif** ko'karuvchanlik (*urug'ning*).

**gérondif** *nm* ravishdosh.

**gérontocratie** *nf* qari chollarning davlatni boshqarishi, idora qilishi.

**gérontologie** *nf méd* gerontologiya, odam organizmining qarishi masalalarini o'rganish; qarilikni o'rganish (*ijtimoiy, tibbiy hodisa sifatida*).

**gérontologue** *nm* gerontolog, qarishni o'rganuvchi mutaxassis.

**gésier** *nm* jig'ildon (*qushlarda*).

**gésir** *vi* **1.** yotmoq, ko'milgan bo'lmoq, tinch yotmoq (*jasad*); **ci-gît** bu yerga dafn etilgan; bu yerda tinch yotibdi (*hoki*); **c'est là que gît le lièvre** gap mana qayerda, hamma gap mana shunda; **2.** *géol* joylashmoq, o'rnashmoq; **3.** ag'anab, dumalab yotmoq, uzala tushib yotmoq.

**gesse** *nf bot* burchoq, bir yillik dukkakli o'simlik.

**geste**[1] *nm* **1.** imo, ishora, harakat, ish, xatti-harakat, yurish, qimirlash; qiliq, odat, harakat tarzi; **2.** biror ayrim harakat, ish, voqea, hodisa, muomala; faoliyat, xizmat, g'ayrat, ishlash; **un geste criminel** jinoiy ish.

**geste**[2] *nf vieilli* epos; **une chanson de geste** qahramon, ulug'vorlikni madh etuvchi epos, poema, doston; **la geste de Charlemagne** Buyuk Karl haqida doston; **2.** qahramonlik, jasorat, qahramonona ish, mardona xatti-harakat, mardlik; *pl* ulug' ishlar; **les dits et les gestes des anciens** ajdodlarning ulug' ishlari va pand nasihatlari; **faits et gestes** ish va qiliqlar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gesticulation** *nf* imo-ishoralar, ma'noli harakatlar.

**gesticuler** *vi* imo-ishoralar qilmoq, ma'noli harakatlar qilmoq.

**gestion** *nf* boshqarish, idora qilish, ish yurgizish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, mudirlik qilish, rahbarlik qilish; **la gestion économique** xo'jalikni yurgizish, xo'jalikka rahbarlik qilish; **la gestion des affaires publiques** davlat boshqaruvi.

**gestionnaire I.** *adj* boshqarishga, idora qilishga oid; **l'administration gestionnaire** ma'muriy boshqaruv; **II.** *n* **1.** boshqaruvchi; **2.** *mil* ombor xo'jayini, xo'jalik ishlari boshlig'i.

**geyser** *nm anglic* geyzer, issiq suv bulog'i.

**gibbon** *nm* gibbon, maymun turi.

**gibbosité** *nf méd* bukur; do'ng, o'rkach.

**gibecière** *nf* ilvasin xalta, ov xalta, to'rva; yelkaga osib yuriladigan o'quvchilar sumkasi.

**gibelotte** *nf* vino bilan quyon go'shtini qovurish.

**giberne** *nf* o'qdon, patron xalta, patron tosh; **avoir son bâton de maréchal dans sa giberne** *fam* ishda o'sishga, ko'tarilishga harakat qilmoq.

**gibet** *nm* dor; qiynoq quroli.

**gibier** *nm* parranda, ovlanadigan yovvoyi qushlar, hayvonlar; **du gros gibier** katta qushlar; **le petit gibier** mayda qushlar; **un gibier de potence** *fam* razil, qabih odam, yaramas, ablah, nobakor, dor tagidan qochgan.

**giboulée** *nf* bahorgi qisqa qor, do'l aralash jala, yomg'ir.

**giboyeux, euse** *adj* ovlanadigan qushlarga boy, to'lib toshgan, mo'l-ko'l, ko'p.

**gibus** *nm* buklanadigan shlapa.

**giclée** *nf* tizillab otilish (*suyuqlik*).

**giclement** *nm* tizillab otilib chiqish, oqish.

**gicler** *vi* sochmoq, sachratmoq, sochilmoq, tizillab oqmoq, oqib chiqmoq; **le sang giclait de la blessure** yaradan qon tizillab oqardi.

**gicleur** *nm techn* yonilg'i purkagich techik.

**gifle** *nf* **1.** shapaloq, tarsaki, shappati; **2.** haqorat, tahqirlash, tahqir, so'kish, kamsitish, yerga urish, xo'rlash, xo'rlik.

**gifler** *vt* tarsaki tushirmoq, yuziga urmoq (*shapaloq*).

**gigantesque** *adj* juda katta, ulkan, zo'r, gigant, azim, devkorona.

**gigantisme** *nm* **1.** gigantizm, ulkanlik, darozlik, inson gavdasining haddan tashqari o'sib ketishi, patologik o'sish; **2.** ulkanlik, azimlik, juda kattalik.

**gigogne I.** *nf* **mère Gigogne** ko'p bolali ona; **II.** *adj* **des meubles gigognes** kiygiziladigan jihozlar, kiygiziladigan stol; **des poupées gigognes** bir-biriga kiygiziladigan qo'g'irchoq.

**gigolo** *nm fam* yosh o'ynash.

**gigot** *nm* **1.** qo'y go'shtining orqa soni; **2.** *fam* son; **manches à gigot** burma yeng.

**gigoter** *vi fam* oyoqlarini tipirlatmoq, tipirchilamoq.

**gigue** *nf* baland va ozg'in qiz.

**gilet** *nm* nimcha; paxtalik nimcha, kofta, xotinlarning uzun yengli paltosi; **un gilet d'armes** sovut.

**gin** *nm anglic* jin-aroq.

**gingembre** *nm bot* zanjabil (*o't-o'simlik*).

**girafe** *nf* jirafa, zirofa; *loc fam* **peigner la girafe** behuda, bekorga nimadir qilmoq, bajarmoq.

**girandole** *nf* **1.** tizillab otilayotgan suv, uchqunlar to'dasi; **2.** qandil, katta shamdon, chilchiroq; **3.** olmos, qimmatbaho toshlardan isirg'a, sirg'a.

**giratoire** *adj* aylanma, aylanadigan; **un mouvement giratoire** aylanma harakat; **un sens giratoire** harakatning aylana bo'ylab yo'nalishi.

**girl** *nf anglic* musiqali restoranda yosh raqqosa qiz.

**girofle** *nm ou* **un clou de girofle** qalampirmunchoq.

**giron** *nm* **1.** tananing beldan to tizzagacha qismi (*o'tirgan odamning*); **2.** zinapoya kengligi; **3.** *fig* ko'krak, ko'ks, quchoq, bag'ir, qo'yin.

**girond, onde** *adj* **1.** to'la, semiz, to'ladan kelgan; **2.** *fam* kelishgan, xushbichim, qomati raso, yoqimli, xushro'y.

**girouette** *nf* **1.** parrak, shamol yo'nalishi va tezligini ko'rsatuvchi parrak; **2.** *fam* yengil tabiat odam, betayin.

**gisant, ante I.** *adj* yotgan, yastanib, cho'zilib yotgan, cho'zilgan; **II.** *nm* yotgan odam tasvirlangan qabr yodgorligi, qabrtosh.

**gisement** *nm* kon; **un gisement de houille** toshko'mir qatlamlari.

**gitan, ane** *n* **1.** lo'li; **2.** sigaret turi.

**gîte I.** *nm* **1.** maskan, joy, turar joy, uy-joy, makon, boshpana; **prendre gîte** ko'chib borib, kelib joylashmoq, **revenir au gîte** uyiga qaytmoq; **2.** qazilma konlar qatlamlari, yotgan joyi; **3.** mol go'shtining ichki soni; **II.** *nf mar* bir yonga qiyshayish, og'ish (*kema*); **donner de la gîte** bir yonga qiyshaymoq, og'moq.

**givrage** *nm* qirov bosish, muzlab qolish.

**givre** *nm* qirov, yupqa muz qatlami; metall quyqumi.

**givré, ée** *adj* **1.** qirov qoplagan; **2.** jinni, aqli past, telba.

**givrer** *vt* **1.** qirov qoplamoq, qirov bosmoq; **2.** yanchilgan shisha qoplamoq.

**glabre** *adj* **1.** ko'sa; **2.** *bot* tuksiz, tekis, silliq.

**glaçage** *nm* sirlash, yaltiratish, jilo berish (*qog'ozga*), pardozlash (*matoni*).

**glaçant, ante** *adj* muzlatadigan, yaxlatadigan, to'nglatuvchi; ich-ichiga o'tib ketadigan, kesib yuboradigan (*sovuq, shamol*).

**glace** *nf* **1.** muz, yax; **des glaces flottantes** suzib yuruvchi muz; **de la glace fondue** eriydigan muz; **être de glace** befarq bo'lmoq, sezgisiz bo'lmoq; **rompre la glace** yaxni sindirmoq, yarashish uchun birinchi qadamni qo'ymoq; taranglikni yo'qotmoq; **2.** sovuq, ayoz; **3.** muzqaymoq, **prendre une glace** muzqaymoq yemoq; **4.** shisha oyna; katta deraza shishasi, mashina shishalari; **baisser les glaces** derazani ochmoq (*poyezdda*); **5.** oyna; **6.** shakar qiyom, shira; **7.** nuqson, kamchilik (*qimmatbaho toshda*).

**glacé, ée I.** *adj* **1.** muzli, muzdan iborat, muz bosgan, muzlagan, yaxlagan, muz qoplagan, to'nggan, qotgan, qotib muzlab qolgan; **un café glacé** muzli qahva; **2.** *fig* ich-ichiga o'tib ketadigan, muzlatib yuboradigan, kesib yuboradigan, sovuq, ayozli; **un accueil glacé** sovuq kutib olish; **3.** yarqiragan, sirli, yaltillatilgan; **du papier glacé** sirli qog'oz; **4.** shakar qiyomli, shirali; **II.** *nm* yaltiroqlik, jilo, sayqal.

**glacer I.** *vt* **1.** muzlatmoq, yaxlatmoq, sovqottirmoq, sovitmoq, yaxna qilmoq; **glacer du champagne** shampan vinosini sovitmoq; **2.** *fig* muzlatib yubormoq, falajlamoq, shol qilmoq, faoliyatini to'xtatmoq, uzib qo'ymoq; **glacer le sang** qon tomirlarida qon qotib qolmoq; **3.** *techn* yaltiratmoq, sirlamoq, yaltiroq surmoq; **4.** shakar qiyomli qilmoq; **II. se glacer** *vpr* **1.** sovuq qotmoq, yemoq; **2.** qo'rqqanidan tarrakdek qotib qolmoq.

**glacerie** *nf* **1.** oyna ishlab chiqaruvchi fabrika; **2.** oyna bilan savdo qilish; **3.** muzqaymoq bilan savdo qilish.

**glaceur** *nm* sirlovchi, yaltiroq qiluvchi.

**glaceux, euse** *adj* muzlatuvchan, yaxlatuvchan, kamchiligi bor.

**glaciaire** *adj* muz, yaxlikka oid, muzlikdan iborat; **la période glaciaire** muzlik, muz davri.

**glacial, ale** *adj* **1.** muzlatadigan, sovitadigan, yaxlatadigan, sovuq, muzli; **2.** muzi bor, muzlik.

**glaciation** *nf* muzlatish, yaxlatish, muz qoplash, muzlab qolish, muz, yax hosil qilish; **la période des glaciations** muzlik, muz davri.

**glacier[1]** *nm* muzlik, muztog', sovuqxona, muzxona.

**glacier[2]** *nm* **1.** oyna ustasi; **2.** muzqaymoq sotuvchisi.

**glacière** *nf* **1.** muzxona, sovuqxona, muzshkaf; **2.** *fig* sovuq xona, joy (*binoda*); **3.** muzqaymoq sotuvchi ayol.

**glaciologie** *nf* muzliklarni o'rganish.

**glaciologique** *adj* muzliklarga oid.

**glaciologue** *n* muzliklarni o'rganuvchi mutaxassis.

**glacis[1]** *nm* **1.** nishab, qiyalik, yonbag'ir; **2.** qal'a devorining nishabi.

**glacis[2]** *nm* sayqallash, yaltiratish, jilo berish (*bo'yoq bilan*).

**glaçon** *nm* **1.** muz, yax bo'lagi, parchasi, muz sumalak; **2.** *fig fam* sovuq odam.

**glaçure** *nf* glazur, sir (*yaltiratadigan*).

**gladiateur** *nm hist* gladiator (*qadimgi Rimda*).

**glaïeul** *nm bot* gladiolus, tuganak piyozli ko'p yillik gul.

**glaire** *nf* **1.** *vieilli* xom tuxum oqi; **2.** shilimshiq, shilliq, balg'am.

**glairer** *vt* xom tuxum oqi bilan kitob jildini yaltiratmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**glaireux, euse** *adj* shilimshiq, shilliq, balg'amli.

**glaise I.** *nf* kulolchilik loyi; **II.** *adj* **la terre glaise** giltuproq.

**glaiser** *vt* **1.** loy surkamoq, suvamoq, surmoq, chaplamoq; **2.** qum yerga tuproq to'kmoq, tuproqlamoq.

**glaiseux, euse** *adj techn agr* gilli, giltuproqli.

**glaive** *nm* qilich, shamshir, tig'; **tirer le glaive** qilich yalang'ochlamoq, urush e'lon qilmoq; **le glaive de la justice** adolat shamshiri.

**gland** *nm* **1.** cho'chqayong'oq (*dub daraxti mevasi*); **2.** tufli ipi chetidagi tuguncha; **3.** jinsiy a'zo, olot boshi; **4.** *fam* ahmoq, lapashang, farosatsiz, tentak.

**glande** *nf* **1.** bez; **glande à sécrétion interne** ichki shira, sekretsiya bezlari; **les glandes salivaires** so'lak bezi; **2.** *fam* bezlarning yallig'lanishi.

**glandée** *nf* cho'chqayong'oq terish, yig'ish.

**glander** *vi* vaqtni bekorga o'tkazmoq, vaqtni yo'qotmoq.

**glandeur, euse** *n* vaqtni bekorga o'tkazuvchi odam, bekorchi.

**glandulaire** *adj anat* bezli, bezga oid.

**glandule** *nf anat* bezcha, kichik bez.

**glanduleux, euse** bezli, bezga oid, bezi bor.

**glane** *nf* **1.** boshoq bog'i, o'rami, dastasi; **2.** o'rimdan keyin boshoq terish, yig'ish.

**glaner** *vt* **1.** o'rimdan keyin boshoq termoq, yig'moq, mashoq qilmoq; **2.** *fig* qolgan qutganlarini yig'ib olmoq, qolganlaridan foydalanmoq, ma'lumot yig'moq; *sport* **glaner les lauriers** g'alaba qozonmoq, yutib chiqmoq.

**glaneur, euse** *n* mashoqchi, boshoq teruvchi, yig'uvchi.

**glanure** *nf* o'rimdan keyin yig'ilgan boshoqlar.

**glapir I.** *vi* akillamoq, akillab hurmoq, chiyillamoq, chinqirmoq (*quloqni teshguday*), qurquramoq (*turna*); **II.** *vt* **glapir des injures** qichqirib so'kmoq, haqorat qilib baqirmoq.

**glapissant, ante** *adj* chiyildoq, chinqiroq, o'tkir, chiyillagan.

**glapissement** *nm* akillash, hurish, chiyillash, qurqurash (*turna*), qattiq chinqiriq.

**glas** *nm* **le glas funèbre** motamga chaqiruvchi qo'ng'iroq.

**glaucome** *nm méd* ko'ksuv, ko'z ichi bosimining zo'rayishi (*kasallik*).

**glauque** *adj* **1.** ko'k-zangori, ko'kimtir, dengiz suvi rangidagi; **2.** *fig* qayg'uli, dard-alamli, g'amgin, ma'yus, noxush.

**glèbe** *nf* **1.** *vx* kesak, guvala, palaxsa; **2.** ekin ekiladigan, qarovli yer, dala.

**glissade** *nf* **1.** sirg'anish, sirpanish, toyish; **faire une glissade** toymoq, tiyg'onib, sirg'anib, siyg'anib ketmoq; **2.** *av* bir tomonga og'ish, akrobatik manyovr.

**glissage** *nm* chopilgan yog'ochlarni tepalikdan sirpantirib tushirish.

**glissant, ante** *adj* **1.** sirg'anchiq, sirpanchiq, toyg'oq; sirg'anadigan, sirpanadigan, sirg'anuvchi, sirpanuvchi, sirg'alma; **2.** xavfli, xatarli, tahlikali, qaltis; **une pente glissante** xavfli, sirpanchiq nishab, qiyalik; **3.** *math* **vecteur glissant** sirpanuvchi vektor.

**glisse** *nf* sirg'anish, sirpanish, uchish; **sports de glisse** sirpanish, uchish bilan bog'liq sport turlari.

**glissé, ée** *adj* sirg'angan, **un pas glissé** sirg'angan qadam.

**glissement** *nm* **1.** sirg'anish, sirpanish, toyish; **2.** yer ko'chishi, siljishi, cho'kishi; **3.** o'zgarish, o'tish; **un glissement à gauche** chapga toyish (*siyosatda*).

**glisser I.** *vi* **1.** sirg'anmoq, sirpanmoq, toymoq; **glisser sur la glace** muz ustida uchmoq; **2.** sirg'anib, sirpanib, toyib ketmoq, sirg'anib, sirg'ilib tushmoq; sirg'anib, sirpanib chiqib ketmoq; toymoq, toyib, tiyg'anib ketmoq; sirg'anib tushib ketmoq; **3.** ozgina tegib ketmoq, tegmoq; **glisser sur un fait** voqeaga ozgina tegib o'tmoq; **II.** *vt* **1.** suqmoq, tiqmoq, solmoq, tiqib qo'ymoq; **glisser qqch dans ses mains** qo'liga biron narsa suqmoq; **2.** ichiga, orasiga, o'rtasiga o'rnatmoq, solmoq, qo'ymoq, joylashtirmoq, kirgizmoq, qistirmoq, aralashtirmoq; **glisser un mot** so'z qistirmoq; **glisser un mot à l'oreille de qqn** qulog'iga bir so'z shivirlamoq; **3.** surmoq, surib qo'ymoq, qo'zg'atmoq, ko'chirmoq; o'tkazmoq (*soat milini*); **III. se glisser** *vpr* lip etib o'tib olmoq, sezdirmay kirmoq, bekinib kirib olmoq; ichiga kirmoq, o'tmoq, suqilib kirmoq, suqilib, siqilib o'tmoq, yashirinib kirib olmoq, xato o'tib ketmoq.

**glisseur, euse I.** *n vx* muzda sirg'anuvchi, uchuvchi; **II.** *nm math* sirpanuvchi vektor.

**glissière** *nf techn* mashina va mexanizmlarning to'g'ri chiziq bo'ylab sirg'aluvchi qismi, sirpang'ich; bug', suyuqlik, gaz taqsimlovchi klapan, yo'llovchi; **à glissière** sirg'anuvchi.

**glissoir** *nm techn* sirpanchiq (*turli yuklarni qiyalikdan sirpantirib tushirish uchun moslama*).

**glissoire** *nf* muz yo'lak, sirpanish joyi.

**global, ale** *adj* umumiy, mushtarak, dunyoga tarqalgan, dunyo miqyosidagi, butun yer shariga, yalpi, jami, hammasi; **une somme globale** yalpi sum; **un revenu global** jami daromad; **la production globale** yalpi mahsulot.

**globalement** *adv* hammasi bo'lib, jami, butunisicha, umuman olganda.

**globaliser** *vt* umumiy qilib ko'rsatmoq, katta qilib olmoq.

**globe** *nm* **1.** shar, sharsimon jism, dumaloq, yer shari; **le globe de l'œil** ko'z soqqasi; **le globe terrestre** yer shari globus; **faire le tour du globe** dunyo bo'ylab sayohat qilish, yer sharini aylanib chiqish; **2.** shisha qalpoq (*chiroq, soatda*).

**globe-trotter** *nm* dunyo bo'ylab sayohat qiluvchi, sayohatchi.

**globule** *nm* qon tanachalari; **les globules blancs** oq qon tanachalari, leykotsitlar.

**globuleux, euse** *adj* sharsimon, shar shaklidagi, dumaloq, soqqasimon, yumaloq; **œil globuleux** chaqchaygan, baqraygan, turtib chiqqan ko'z.

**gloire** *nf* **1.** shon, sharaf, shon-shuhrat, faxr, iftixor, dovruq, maqtov, madhiya; hamdu-sano; **rendre gloire à Dieu** Xudoga hamdu-sano aytmoq; **2.** faxr, iftixor, g'urur; **être la gloire de qqn** birovning faxri bo'lmoq; **se faire gloire de** faxrlanmoq, iftixor qilmoq, gerdaymoq, kerilmoq, kekkaymoq; **4.** yog'du, yorug' doira, chambarak (*rasmda*).

**gloria** *nm inv* **1.** ibodat paytida aytiladigan madhiya (*katoliklarda*); **2.** *fam* aroqli qahva.

**glorieusement** *adv* sharaf bilan, g'olibona, shon-shuhrat bilan; juda yaxshi, boplab, o'rinlatib, qoyilmaqom qilib.

**glorieux, euse I.** *adj* **1.** atoqli, dongdor, dong'i chiqqan, nomi, shuhrati ketgan; shonli, shavkatli, shuhratli, mashhur; nom chiqargan, shuhrati, dong'i, nomini olamga yoygan, ko'klarga ko'tarilgan; **une voie peu glorieuse** yomon nom qoldirgan yo'l; **2.** g'ururli, mag'rur, faxrlanuvchi, faxrlangan, mag'rurona; **3.** yorqin, dabdabali, shukuhli, ajoyib; **II.** *n* kibru-havosi baland, kekkaygan odam, mutakabbir, kalondimog', dimog'dor.

**glorificateur, trice** *adj, n* juda maqtanuvchi, ko'klarga ko'taruvchi, tasanno o'quvchi, maqtovchi, mashhur qiluvchi.

**glorification** *nf* juda maqtash, ko'klarga ko'tarish, tasanno o'qish, maqtov, tasanno, madh, hamdu-sano, shuhrati, nomi, dong'ini olamga yoyish, mashhur qilish.

**glorifier I.** *vt* **1.** shuhrati, nomi, dong'ini olamga yoymoq, ko'klarga ko'tarmoq, hamdu-sano o'qimoq; mashhur qilmoq, juda maqtamoq, tasanno o'qimoq; **2.** maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tasnif qilmoq; **II. se glorifier** *vpr* kibrlanmoq, gerdaymoq, kerilmoq, g'ururlanmoq, ko'krak kermoq, maqtanmoq, kekkaymoq.

**gloriole** *nf* manmanlik, shuhratparastlik, kekkayishlik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish.

**glose** *nf* **1.** hoshiya, hoshiyaga yoki matndagi qatorlar orasiga yozilgan so'z, iboralar izohi, sharhi, izohlash, sharhlash, tushuntirib berish, tushuntirish; **2.** *fam* adovatli, g'azabli tanqid, g'iybat, yolg'on-yashiq.

**gloser** *vt* **1.** izohlamoq, sharhlamoq, tushuntirib bermoq, tavsiflamoq, izoh bermoq; **2.** *vieilli* achchiq tanqid qilmoq.

**glossaire** *nm* qiyin so'zlar lug'ati, so'zlik.

**glouglou** *nm* **1.** *fam* qulqullash, qulq-qulq qilish; **2.** g'ung'ur-g'ung'ur qilish (*kurka tovuq*).

**glouglouter** *vi* **1.** qulq-qulq ovoz chiqarmoq (*kurka*); **2.** qulqullamoq.

**gloussement** *nm* qaqag'lash, qag'-qag'.

**glousser** *vi* **1.** qaqag'lamoq, qag'-qag' qilmoq; **2.** *fam* qattiq kulmoq, xoxolab, qah-qah otib kulmoq.

**glouton, onne I.** *adj, n* yeb toymas, badnafs, mechkay, xo'ra, ochko'z, suq; **II.** *nm* suvsarsimon yirtqich hayvon.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gloutonnement** *adv* badnafslik, mechkaylik bilan, ochko'zlik bilan, suqlanib.

**gloutonnerie** *nf* yeb to'ymaslik, mechkaylik, ochofatlik, badnafslik, xo'ralik.

**glu** *nf* qatron, smola, yelim.

**gluant, ante** *adj* **1.** yopishqoq, yelimshiq, shirador, yopishadigan, qovushoq; **2.** xira, pashshaxo'rda, yelim, shilqim, sulloh, bezor qiladigan.

**glucide** *nm chim* karbonat-angidrid, kalsiy sulfat.

**glucose** *nm* uzum shakari, glukoza.

**gluten** *nm* don tarkibida oqsil modda.

**glycérine** *nf ou* **glycérol** *nm* glitserin.

**glycine** *nf bot* pechakgul, glitsiniya.

**gneiss** *nm géol* shpat, kvarts va sludadan iborat qoyatosh.

**gnognote** *nf fam* bema'ni, bo'lmag'ur gap, safsata.

**gnôle** *nf fam* aroq, spirt.

**gnome** *nm* gnom, mitti, pakana, juda past bo'y odam.

**gnon** *nm fam* shapaloq, tarsaki, zarba.

**gnose** *nf* xudo va olamning yaratilishi haqidagi diniy-falsafiy oqim nazariyasi.

**gnou** *nm zool* gnu, Janubiy Afrika kiyigi.

**go (tout de)** *loc adv fam* to'g'ridan-to'g'ri, ochiqchasiga, takalluf qilib o'tirmasdan, ro'yrost, dangal, betiga, birdaniga.

**goal** *nm anglic* **1.** *vieilli* darvoza; **2.** darvozabon.

**gobelet** *nm* ichish idishi; stakan, rumka, piyola, qadah, jom.

**gobeleterie** *nf* **1.** qadah, jom ishlab chiqarish; **2.** qadah, jom savdosi.

**gobeletier** *nm* shisha puflovchi, shishadam; shunday buyumlar sotuvchi.

**gobelin** *nm* devorga osib qo'yiladigan rasmli gilam.

**gobe-mouche** *nm* **1.** *zool* uzunquyruq, uzunquyruq chumchuq (*hasharotxo'r*); **2.** *fam* sodda, go'l, anoyi, anqov, do'lvor, ishonuvchan, befahm, laqma odam.

**gober** *vt* **1.** yutmoq, yutinmoq; *loc fig* **gober les mouches** bekorxo'ja bo'lmoq, laqillab yurmoq, ishga beparvo bo'lmoq, pashsha qo'rib o'tirmoq; **2.** laqqa tushmoq, inonmoq.

**goberger (se)** *vpr fam* maza, huzur, gasht qilmoq, zavqlanmoq, rohatlanmoq.

**gobeur, euse** *n* **1.** ochofat, yeb to'ymas, badnafs, mechkay; **2.** *fam* befahm, anqov, laqma odam.

**godasse** *nf fam* boshmoq, botinka.

**godelureau** *nm fam* bashang, ser tavo'ze, pardozli yigit.

**goder** *vi* bujmaymoq, bujmayib, kirishib, tortishib turmoq, tortishmoq (*gazlama*), dikkayib turmoq.

**godet** *nm* **1.** tutqichsiz va oyoqsiz kichik idish; **2.** stakan; **3.** ajin, burushiq, g'ijim, qat, tax (*gazlamada*); **une jupe à godet** qat-qat yubka.

**godiche** *fam* **I.** *adj* miyasi yo'q, esi past, kaltafahm, to'mtoq, tentak, ahmoqsimon, telbaroq, vosvos; qo'pol, beso'naqay, chaqqon, epchil emas, beo'xshov, kelishmagan; **II.** *n* befahm, anqov, laqma odam, soddadil, go'l odam.

**godille** *nf* **1.** chang'ini sekinlashtiruvchi moslama; **2.** yuk kemasi quyrug'idagi parrak.

**godiller** *vi* quyruq parragi bilan boshqarmoq.

**godillot** *nm* soldat botinkasi; *fam* qo'pol boshmoq, botinka.

**goéland** *nm zool* oq charloq, baliqchi qush.

**goélette** *nf* yengil 2 yelkanli kema.

**goémon** *nm* dengiz suv o'tlari.

**gogo (à)** *loc adv fam* juda ko'p, mo'l, serob, to'kinchilikda.

**gogo** *nm fam* soddaroq, go'lroq, anoyiroq, anqovroq odam, ishonuvchan, befahm, anqov, laqma odam.

**goguenard, arde** *adj* kulgili, istehzoli, masxara, mazax, mayna qilib aytilgan.

**goguenardise** *nf* birovdan kulish, masxara, mazax, mayna, hazil qilish, piching, istehzo.

**goguette** *nf* **être en goguette** ozgina kayfi bor, ichgan, mast, shirakayf bo'lmoq.

**goinfre** *adj* badxo'r, yeb to'ymas, badnafs, mechkay.

**goinfrer (se)** *vpr fam* haddan ziyod, ko'p ovqat yemoq, ko'p ovqat yeb bo'kmoq, ochko'zlik bilan yemoq.

**goinfrerie** *nf* yeb to'ymaslik, ochofatlik, mechkaylik.

**goitre** *nm méd* bo'qoq; **goitre exophtalmique** qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi, yallig'lanishi, bazedov kasalligi.

**goitreux, euse I.** *adj* bo'qoqqa oid, bo'qoq, bo'qoqli, katta jig'ildonli; **II.** *n* qalqonsimon bez funksiyasi buzilgan odam, bazedov kasalligi betobi, bemori.

**golden** *nm* golden (*olma navi*).

**golf** *nm anglic* golf.

**golfe** *nm* ko'rfaz, qo'ltiq.

**golfeur, euse** *n* golf o'yinchisi.

**gommage** *nm* daraxt shirasi bilan qoplanish (*yelim*).

**gomme** *nf* **1.** daraxt shirasi, yelim; **la gomme arabique** gummiarabik, arab yelimi, aqoqiyo, samg'i arabiy; **2.** rezina, o'chirgich rezina; **mettre la gomme** *fam* tezlikni oshirmoq; **à la gomme** *loc adj* obro'siz, sifatsiz, siyqa; foydasiz, keraksiz, hech keragi yo'q; **3.** daraxt shirasi kasalligi.

**gommé, ée** *adj* **1.** rezinali, rezinasi bor; shirali; **du papier gommé** shirali, yelimli, yopishqoq qog'oz.

**gommer** *vt* **1.** shira qoplamoq, shira qorishtirmoq, yelimlamoq; **2.** rezina bilan o'chirmoq.

**gommeux, euse I.** *adj* **1.** shirali, yelimli, seryelim; **2.** yopishmoq, yelimshiq, shirador; **II.** *nm vx* olifta, o'ta olifta yigit.

**gonade** *nf biol* gonada (*odamda va hayvonlarda jinsiy hujayralar va jinsiy bezlar ishlab chiqaruvchi organlar; jinsiy bezlar)*.

**gond** *nm* oshiq-moshiq; **mettre qqn hors de ses gonds** jahlini chiqarmoq, qonini qaynatmoq; **sortir de ses gonds** jahli chiqmoq, qoni qaynamoq.

**gondole** *nf* **1.** Venetsiya qayig'i; **2.** havo sharida, dirijablda odam o'tiradigan joy; **3.** o'z-o'ziga xizmat qilish do'konlarida peshtaxta.

**gondoler I.** *vi* cho'chchaymoq, oldinga chiqmoq, duppaymoq, qiyshaymoq, qing'aymoq; burishmoq; **II. se gondoler** *vpr fam* yiqilguncha xoxolab kulmoq, o'lgunday kulmoq.

**gonflable** *adj* shishuvchi, puflanuvchi; **un bateau gonflable** shishiriladigan, rezina qayiq.

**gonflage** *ou* **gonflement** *nm* **1.** bo'rtish, shishish, qappayish, ko'tarilish, bo'rtib chiqish, shishib ketish, shish, qavariq, g'urra, shishgan joy; **2.** shinaga dam berish, shishirish, aerostatni gaz, havoga to'ldirish.

**gonfler I.** *vt* **1.** dam bermoq, puflab shishirmoq, dam berib to'ldirmoq (*kamerani*), gaz, havo bilan to'ldirmoq; **2.** o't oldirmoq, puflamoq, kattartirmoq, o'stirmoq, orttirmoq, oshirmoq; **gonfler les prix** bahosini orttirmoq; **gonfler l'appareil** shtat, o'rin, joyni ko'paytirmoq; **3.** to'ldirmoq, puflab shishirmoq; **la pluie gonfle le torrent** yomg'ir oqimni ko'tarib yubordi; **4.** *méd* shishmoq; dumpaymoq, qappaymoq, dam bo'lmoq; **II.** *vi* shishmoq, duppaymoq, bo'rtmoq, to'zmoq, uchmoq, ko'tarilmoq (*puflaganda, shamoldan*); kattarmoq, ortmoq, oshmoq, pindiqlamoq (*daraxt*); **III. se gonfler** *vpr* **1.** ko'tarilmoq (*daryo suvi*) kattarmoq, kengaymoq; **2.** g'urra bo'lmoq, shishib ketmoq, qavarmoq, bukmoq, bo'rtmoq, kurtak chiqarmoq, dam bo'lmoq (*qorin*); **3.** kuchanmoq, zo'r bermoq, kekkaymoq, chiranmoq.

**gonfleur** *nm* dam soluvchi nasos, bosqon.

**gong** *nm* zang; **frapper le gong** zang urmoq (*boksda*).

**goniomètre** *nm* **1.** burchak o'lchagich; **2.** kema, samolyot qayerda turganligini, yo'nalishini ko'rsatuvchi asbob, pelengator.

**goret** *nm* **1.** cho'chqa bolasi, cho'chqacha; **2.** *fam* irkit bola, isqirt.

**gorge** *nf* **1.** bo'g'iz, halqum, hiqildoq, tomoq, og'iz; **prendre qqn à la gorge** hippa bo'g'moq, bo'g'zidan olmoq, majbur qilmoq, og'zini ochmaydigan qilmoq, churq etmaydigan qilmoq; **la fumée me prend à la gorge** tutundan nafasi qaytmoq; **s'en donner à pleine gorge** dodlamoq, ayuhannos solmoq; **rire, crier à gorge déployée** xoxolab kulmoq, ovozi boricha qichqirmoq; **rendre gorge** kekirmoq, o'qchimoq, qusmoq, qayt qilmoq, ko'ngli aynimoq; *fig* o'g'irlangan narsani qaytarib bermoq; **faire des**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gorges chaudes de qqch** ochiq mazax, mayna qilmoq, kulmoq; **2.** koʻkrak, emchak (*xotinlarniki*); **3.** tor oraliq, oʻtish joyi, dara, vulqon ogʻzi, boʻgʻizi; **4.** butilka ogʻzi; **5.** *techn* nov, tarnov, porshen ariqchalari, halqasimon oʻyiq joy, chuqur, handaq; **6.** yoqa (*koʻylakda*).

**gorgée** *nf* yutum, qultum, hoʻplam; **boire à petites gorgées** qultumlab ichmoq.

**gorger** *vt* **1.** haddan ziyod ovqat bermoq, koʻp ovqat yedirmoq, boʻktirmoq; **2.** ogʻzigacha toʻldirmoq, tiqib toʻldirmoq, tiqmoq; **3.** koʻmib tashlamoq, yogʻdirmoq, gʻarq qilmoq.

**gorille** *nm* **1.** gorilla, maymun; **2.** *fam* shaxsiy soqchi.

**gosier** *nm* halqum, boʻgʻiz; **avoir le gosier sec** chanqamoq, tomogʻi qurib qolmoq.

**gosse** *n fam* bola, oʻgʻil, qiz bola, yigitcha, yosh bola; **être beau gosse** chiroyli, xushroʻy yigitcha boʻlmoq.

**gothique I.** *adj* **1.** gotik, gotika uslubidagi; **2.** *fam* almisoqdan, daqqiyunusdan qolgan, allaqachon eskirgan, qadimiy; **II.** *nm archit* gotika, gotik uslub; got tili.

**gouache** *nf* **1.** guash (*akvarel boʻyoq*); **2.** guash bilan chizilgan rasm.

**gouacher** *vt* guash bilan rasm chizmoq, solmoq.

**gouaille** *nf* birovdan koʻrish, masxara, mayna, mazax qilish, piching, istehzo, kinoya, kesatiq, achchiq kinoya.

**gouailler** *fam* **I.** *vt* masxara, mazax, mayna qilmoq, kulmoq; **II.** *vi* hazil-huzul, mutoyiba qilmoq, hangomalashmoq.

**gouape** *nf fam* **1.** bezori; **2.** dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal.

**goudron** *nm* neft qoldigʻi (*smolasimon qora modda*), qatron yelim; **du goudron minéral** asfalt, qora saqich.

**goudronnage** *nm* qatron, yelim, smola surish, surkash, saqichlash, asfaltlash.

**goudronner** *vt* qatron shimdirmoq, asfaltlamoq, qora moyda toʻyintirmoq.

**gouffre** *nm* **1.** jar, tik, chuqur jar, tag, tubsiz chuqurlik, goh, qaʼr, kamar; **un gouffre océanique** dengiz qaʼri; **2.** *fig* girdob, aylanma, oqim; **3.** *fig* oʻpqon; **un gouffre d'argent** isrofgar, behuda sarflovchi odam.

**goujat** *nm* qoʻpol, tarbiyasiz, dagʻal, surbet, yuzsiz, orsiz odam.

**goujon** *nm* qum, tanga baliq, toshbosh (*mayda baliq turi*).

**goulache** *nf* gulyash (*ovqat turi*).

**goule** *nf* gʻul, gʻilon, qon soʻruvchi arvoh, vampir (*ayol obrazida*).

**goulée** *nf* katta qultum.

**goulet** *nm* **1.** tor yoʻlak, oʻtish, kirish; **2.** togʻ darasi tor oraligʻi.

**goulot** *nm* idish boʻgʻzi.

**goulu, ue I.** *adj* ochkoʻz, ochofat, mechkay, badnafs, yeb toʻymas, suq; **II.** *n* yeb toʻymas, ochofat, mechkay odam.

**goupil** *nm vieilli* tulki.

**goupille** *nf techn* metall oʻzakcha, chuv, chuv choʻp; **une goupille de sûreté** saqlagich.

**goupiller** *vt* **1.** chuv choʻp bilan mahkamlamoq; **2.** *fam* ishni doʻndirmoq, oʻrinlatmoq.

**gourbi** *nm* **1.** kulba, kichik uy, qashshoq, xaroba uy, chayla, kapa (*arablarda*); **2.** pana (*joy*), boshpana, xarob, pastqam kulbalar.

**gourd, gourde** *adj* sovqotib, muzlab qotib qolgan, toʻngʻib qolgan, uvushgan (*qoʻl, barmoqlar*).

**gourde** *nf* **1.** suvqovoq; **2.** idish, flyaga, bidon; **3.** *fig fam* oshqovoq, esi yoʻq, ahmoq, tentak, esi past, nodon, merov, goʻl.

**gourdin** *nm* soʻyil, toʻqmoq.

**gourer (se)** *vpr fam* yanglishmoq, adashmoq, xato qilmoq, xatoga yoʻl qoʻymoq, chalgʻimoq.

**gourmand, ande I.** *adj* ishtaha bilan ovqat yeyishni yaxshi koʻruvchi; **II.** *n* shirintomoq, lazzatli ovqatlarga oʻch odam.

**gourmander** *vt* **1.** soʻkmoq, oʻsal qilmoq, koyimoq, rosa urishmoq, adabini, taʼziri berib qoʻymoq, tanbeh bermoq; **2.** *fig* bosmoq, tiymoq, jilovlamoq (*his-tuygʻusini*).

**gourme** *nf* **1.** toshma, issiqlik, sachratqi, chilla yara, temiratki (*bolalarda*); **2.** saqov (*otda boʻladigan yuqumli kasallik*); **3. jeter sa gourme** *fam* aysh-ishratga berilmoq (*yoshligida*).

**gourmé, ée** *adj* sunʼiy, yasama, zoʻraki, zoʻrma-zoʻraki, samimiy emas, buzuq, magʻrur, ulugʻvor, sipo, balandparvoz, dabdabali, xafa, tumshaygan, arazlagan, rasmiyatchi, rasmiyatparast, qoidaparast.

**gourmet** *nm* ovqat shinavandasi, mazaxoʻr, shirintomoq.

**gourmette** *nf* **1.** zanjircha (*soatda*); **2.** ot suvligʻi.

**gousse** *nf* **1.** *bot* poʻchoq, qoʻzoq, qovzoq, dukkak; **2.** boʻlakcha, pallacha; **une gousse d'ail** sarimsoqpiyoz boʻlakchasi.

**gousset** *nm* **1.** *techn* kronshteyn, burchak mahkamlagich; **2.** choʻntakcha, kissacha, karmoncha.

**goût** *nm* **1.** taʼm, mazasini sezish, taʼm, lazzat; taʼm sezgisi, boshqacha, qoʻshimcha taʼm; **agréable au goût** yoqimli ishtaha; **être au goût de tout le monde** hammaga yoqmoq; **chacun son goût** koʻngil koʻtarganicha; **2.** nafosat tuygʻusi, did, taʼb; **avoir le mauvais goût de** andishasiz harakat qilmoq; **3.** uslub, tarz, yoʻsin, usul, yoʻl; **dans le goût de** usulida; **4.** havas, qiziqish, ishtiyoq, xohish, istak, mayl, yaxshi koʻrish; **avoir du goût pour qqch** ishtiyogʻi boʻlmoq; **donner à qqn le goût de** havas uygʻotmoq, ragʻbatlantirmoq; **prendre goût à qqch** ishqiboz boʻlib qolmoq, havas, mayl qilmoq, ruju qilmoq, yaxshi koʻrib qolmoq; **n'avoir goût à rien** hammasidan nafratlanmoq, toʻymoq, bezmoq.

**goûter**[1] **I.** *vt* **1.** sinab koʻrmoq, tekshirib koʻrmoq, yeb, tatib koʻrmoq, mazasini koʻrmoq, totmoq; **2.** yoqimli, shirin deb topmoq, maza, huzur qilmoq, zavqlanmoq, rohatlanmoq, baho bermoq, baholamoq, qadrlamoq; **goûter le bonheur** baxt bilan zavqlanmoq; **II.** *vi* **(de, à) 1.** ozgina tamaddi qilib olmoq, yeb olmoq, gazak qilmoq; **goûter un mets** taomdan tamaddi qilib olmoq; **2.** tushlik qilmoq, yemoq, tushki ovqatni yemoq; **3.** urinmoq, harakat qilib koʻrmoq.

**goûter**[2] *nm* tushlik, tushlik ovqat.

**goûteur, euse** *n* sinovchi, tatib koʻruvchi.

**goûteux, euse** *adj* ishtahali, totli, mazali.

**goutte**[1] *nf* **1.** tomchi, qatra, bir tomchi; **se ressembler comme deux gouttes d'eau** ikki tomchi suvday, xuddi quyib qoʻyganday, bir-biriga juda ham oʻxshash; **goutte à goutte** *loc adv* tomchi-tomchi; **passer entre les gouttes** suvdan quruq chiqmoq; **2.** *fam* qadah, jom, rumka, stakancha (*spirt uchun*); **boire la goutte** bir qadah (*aroq*) ichmoq; **payer la goutte à qqn** birovga qadah bermoq; **3.** *pl* tomizgʻi, tomiziladigan dori; **4. on n'y (on ne) voit goutte** qop-qorongʻi, zimiston, hech narsani koʻrib boʻlmaydi; **n'entendre goutte** hech nima eshitmaslik.

**goutte**[2] *nf* podagra, boʻgʻinlar zirqirab ogʻriydigan kasallik.

**goutter** *vi* tommoq, tomchilamoq, tomizmoq.

**goutteux, euse I.** *adj* boʻgʻinlar zirqirab ogʻrishiga oid; **II.** *n* podagra kasaliga uchragan, boʻgʻinlari zirqirab ogʻriydigan odam.

**gouttière** *nf* **1.** tarnov, suv oquvchi quvur; **un chat de gouttière** oddiy, xonaki mushuk; **2.** *méd* taxtakach.

**gouvernable** *adj* boshqariladigan, boshqarib boʻladigan, boshqariluvchan.

**gouvernail** *nm* **1.** rul; **un gouvernail de direction** yoʻnalish ruli; **2.** *fig* rahbarlik qilish ruli, boshqarish ruli, idora qilish ruli; **tenir le gouvernail** boshqarish jilovini, rulini qoʻlda tutmoq, davlat, hokimiyat tepasida turmoq.

**gouvernant, ante I.** *adj* hukmron, hukumat tepasida turuvchi, idora qiluvchi; rais, boshliq, boshqaruvchi; **le parti gouvernant** hukmron partiya; **II.** *nf* murabbiya, tarbiyachi xotin; xoʻjalik boshqaruvchi ayol; **III.** *nm pl* hokimlar, hukmdorlar.

**gouverne** *nf* **1.** yurish-turish qoidalari; koʻrsatma, yoʻl-yoʻriq, yoʻllanma; **je vous dis cela pour votre gouverne** buni sizga yoʻl-yoʻriq sifatida aytdim; **2.** *av* rul, shturval; **3.** *pl* ustki boshqarish ruli, idora qilish aʼzolari, qismlari.

**gouvernement** *nm* **1.** hukumat; **2.** idora qilish tarzi, shakli; **un gouvernement républicain** respublika shaklida idora qilish; **3.** boshqarish, yurgizish, haydash; **4.** qoʻl ostidagi oʻlka, viloyat, noiblik; **un gouvernement militaire** harbiy noiblik.

**gouvernemental, ale, aux** *adj* hukumatga oid, hukumat; **parti gouvernemental** hukumat partiyasi.

**gouverner I.** *vt* boshqarmoq, idora qilmoq, yurgizmoq, haydamoq, rahbarlik, yoʻlboshchilik, yetakchilik qilmoq, bosh boʻlmoq, yoʻl-yoʻriq koʻrsatmoq, mudirlik qilmoq; **se laisser gouverner** har maqomga solishiga



www.ziyouz.com kutubxonasi

qo‘yib qo‘ymoq; *prov* **gouverne ta bouche selon ta bourse** ko‘rpangga qarab oyoq uzat; **II.** *vi* rulga bo‘y bermoq; **se gouverner** *vpr* o‘zini tutmoq, o‘zini idora qilmoq, ushlamoq, boshqarmoq.

**gouverneur** *nm* **1.** noib, gubernator; **2.** qal’a komendanti, boshlig‘i; **3.** tarbiyachi, murabbiy, ustoz; **4.** mudir, boshliq, direktor.

**grabat** *nm* qashshoq to‘shak (*yotoq joyi*); **mourir sur le grabat** qashshoqlikda o‘lib ketmoq.

**grabataire** *adj, nm* to‘shakdan tura olmaydigan kasal, betob odam.

**grabuge** *nm fam* urish, janjal, nizo, araz, o‘zaro aytishib qolish, dahanaki jang qilish, so‘kishish; shovqin, mojaro.

**grâce** *nf* **1.** iltifot, lutf, yaxshilik, mehr, marhamat, ixlos, mayl, yoqtirish, xush ko‘rish; **bonne grâce** xushmuomalalik, muloyimlik, sermulozamatlik, sertakalluflik; **être dans les bonnes grâces de qqn, être en grâce auprès de qqn** birovning marhamatida bo‘lmoq; **trouver grâce aux yeux de qqn (auprès de, devant qqn)** birovning ishonchini qozonmoq, pinjiga kirib olmoq; **faites-moi la grâce de** marhamat qiling, agar xizmat bo‘lmasa, buyursinlar! *loc adv* **de grâce!** marhamat, meni kechirasiz, xudo haqqi! **2.** rahm, shafqat, kechirish, afv etish, gunohidan o‘tish; **accorder la grâce à un condamné à mort** o‘limga hukm etilganni afv etmoq; **prier grâce, demander grâce** rahm-shafqat so‘ramoq; **faire grâce à qqn** afv etmoq, kechirmoq; **je vous fais grâce** men gunohingizdan o‘taman; **faites-moi grâce de vos observations** tanbehlaringizdan qutqaring, xalos qiling; **donner le coup de grâce** o‘ldirmoq, azob-uqubatdan qutqarmoq; **grâce!** afv eting, shafqat qiling! **3.** ko‘rkamlik, go‘zallik, malohat, latofat, joziba, xirom, jilva, nafislik, noziklik, nazokat, bejirimlik, yoqimlilik, istarasi issiqlik, yoqimtoylik; **de bonne grâce** iltifot, nazokat, muloyimlik bilan, lutfan, jon deb, bajonidil; **4.** tashakkur, rahmat, minnatdorlik; minnatdorchilik, shukur qilish; **rendre grâces à qqn** minnatdorchilik bildirmoq; **une action de grâce** qisqa ibodat; *loc prép* **grâce à** tufayli, sababli, sharofati bilan, natijasida; **grâce à cela** buning natijasida; **grâce à Dieu, grâce au Ciel** xudoga shukur, xayriyat! **5.** *relig* xudoning marhamati; **6.** *pl* tushlikdan keyingi, peshingi ibodat.

**gracier** *vt* kechirmoq, kechmoq, afv etmoq, gunohidan o‘tmoq.

**gracieusement** *adv* **1.** adab, xushmuomalalik bilan, muloyim, boadabona, nozik, latif, chiroyli harakatlar bilan, nazokat ila, javlon urib, jilva qilib, xirom aylab; **2.** bepul, tekin, pulsiz, tekinga, bekorga, behudaga.

**gracieuseté** *nf* **1.** odoblilik, boadablilik, nazokatlilik, navozish, nazokat, xushmuomalalik, iltifot, marhamat; **2.** pul mukofot, tuhfa, in’om.

**gracieux, euse** *adj* **1.** xushqad, nozik, latif, xiromon, chiroyli, go‘zal, barno, xushro‘y; yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko‘rkam, istarasi issiq, marhamatli, iltifotli, mehribon; yoqimtoy, suyumli, xayrixoh, moyil, ko‘ngil yaqin, tarafdor; xushmuomala, muloyim, silliq, boadab, nazokatli; **2.** tekin, bepul, bekorga kelgan, pulsiz, pul olinmaydigan, to‘lanmaydigan, evaziga hech narsa talab qilinmaydigan; **à titre gracieux** pul olmay, to‘lamay, bepul, tekin, pulsiz.

**gracile** *adj* nozik, nazokatli, xushbichim.

**gradation** *nf* izchillik, asta-sekinlik, daraja-daraja borish, ketma-ketlik, birin-ketinlik, o‘tish, o‘tish joyi **par gradation** bosqichma-bosqich, asta-sekin, bora-bora.

**grade** *nm* **1.** daraja, mansab, martaba, unvon, tabaqa, toifa; **à grade égal** mansabda tenglikda; **en prendre pour son grade** *fam* qilmishiga qarab olmoq; **2.** grad, gon (*to‘g‘ri burchakning 1/100 bo‘lagiga teng o‘lchov birligi*).

**gradé, ée I.** *adj* unter-ofitser unvoniga ega; **II.** *nm* unter-ofitser, serjant, kapral; **les non gradés** oddiy askarlar.

**grader** *vt* **1.** unvon bermoq, oshirmoq, ko‘tarmoq; **2.** unvonda, darajada tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq.

**gradient** *nm* **1.** *biol* biror kattalikning masofa birligiga siljishi mobaynida o‘zgarishlari birligi, gradient; **2.** *phys* temperatura o‘zgarishi.

**gradin** *nm* **1.** zinapoya, pog‘ona; o‘yiq joy, kamar; **à gradins** zinapoyali, pog‘onali, pog‘ona-pog‘ona; **2.** teatr zali to‘ridagi o‘tirg‘ichlar.

**graduation** *nf* **1.** darajalarga bo‘lish; **2.** tadrijiy ravishda o‘sib, kamayib boruvchi raqamlar sirasi, shkala, miqyos, ko‘lam, masshtab.

**gradué, ée** *adj* **1.** tobora o‘sib, ko‘payib boradigan, taraqqiy qiladigan, o‘sadigan, rivojlanadigan; **2.** darajali, darajaga bo‘lingan.

**graduel, elle I.** *adj* asta-sekin, bora-bora, darajama-daraja mantiqiy, izchil, qonuniy ravishda kelib chiqadigan; **II.** *nm* odat tusiga kirish, rasm bo‘lish, cherkov ashulasi qoidasi.

**graduellement** *adv* asta-sekin, bora-bora, darajama-daraja, izchillik, mantiqiylik bilan, oz-ozdan.

**graduer** *vt* **1.** darajalarga bo‘lmoq, taqsimlamoq, ajratmoq; **2.** oz-ozdan, asta-sekin orttirib bormoq, ko‘paytirmoq, kattartirmoq (*qiyinchilikni*).

**graffiti** *nm pl* yozuvlar, rasmlar (*qadimgi yodgorliklar, devorlardagi*).

**graillon** *nm* **1.** jizza; **2.** kuygan dumba hidi.

**graillonner** *vi* kuygan yog‘ hidi taratmoq, tarqatmoq.

**grain** *nm* **1.** don, urug‘, g‘alla; **2.** mayda bo‘lak, zarra, yorma don; **un grain de sable** qum zarrasi; **un grain de folie** telbanamo, jinninamo, g‘aroyib, alomat; **3.** dona; **un grain de raisin** uzum donasi; **4.** *fig* zig‘irday kichkina narsa, asar, nishon; **n’avoir pas un grain de bon sens** zig‘irdek aqli yo‘q bo‘lmoq; *fam* **avoir un grain** aqlsiz bo‘lmoq, tentak bo‘lmoq; **5.** g‘adir, g‘o‘dir, notekislik, g‘adir-budurlik, bujur; **un grain de beauté** qora xol; **6.** tuguncha (*gazlamada*); **du gros grain** pishiq shoyi gazlama; **7.** *mar* bo‘ron, qasirg‘a, shiddatli shamol; jala bo‘ralagan qor, yomg‘ir; *loc* **veiller au grain** orqa-o‘ngiga qarab ish qilmoq, ehtiyot bo‘lib ish ko‘rmoq.

**grainage** *nm* **1.** donador qilish, qumoqlash, granulalash; g‘adir-budur qilish; **2.** ipak qurti urug‘chiligi, ipak qurti urug‘i yetishtirish.

**graine** *nf* don, urug‘; **monter en graine** don, urug‘ bo‘lmoq; *fam* qari qiz bo‘lib qolmoq; *fam* **(en) prendre de la graine** e’tiborga olib qo‘ymoq, bilib qo‘ymoq.

**graineterie** *nf* don, urug‘ bilan savdo qilish do‘koni.

**graissage** *nm* moylash, moy surtish (*surish*); **le graissage mécanique** mexanik moylash; **l’huile de graissage** moylash moyi.

**graisse** *nf* **1.** moy, yog‘; **être bouffi de graisse** yog‘, moy bosmoq; **une boule de graisse** semiz, yo‘g‘on odam; **2.** surtiladigan moy, suyuq modda; **3.** yog‘lilik darajasi (*vinoda*).

**graisser I.** *vt* **1.** moylamoq, yog‘lamoq, moy, yog‘ surtmoq, surmoq, moylab qo‘ymoq; **graisser une machine** mashinani moylab qo‘ymoq; *fam* **graisser la patte de qqn** pora bermoq, tomog‘ini moylamoq; *loc fam* **graisser ses bottes** yo‘lga tayyorlanmoq, jo‘nashga hozirlik ko‘rmoq; **2.** yog‘, moy tegizmoq, dog‘ tushirmoq, yag‘irini chiqarmoq; **II.** *vi* yog‘li, moyli qilmoq (*vinoda*).

**graisseur I.** *nm* yog‘lovchi, moylovchi ishchi; **II.** *adj* yog‘, moy surtadigan, yog‘laydigan, moylaydigan.

**graminée** *nf bot* boshoqli ekinlar.

**grammaire** *nf* grammatika; **la grammaire historique** tarixiy grammatika; **la grammaire comparée** qiyosiy, chog‘ishtirma grammatika.

**grammairien, ienne** *n* grammatika mutaxassisi.

**grammatical, ale** *adj* grammatikaga oid.

**grammaticaliser** *vt* grammatik birlikka aylantirmoq.

**grammaticalité** *nf* to‘g‘ri tuzilgan gapga xoslik.

**grammatiste** *nm* Qadimgi Gretsiyada grammatika o‘qituvchisi.

**gramme** *nm* gramm (*og‘irlik o‘lchovi*).

**grand, grande I.** *adj* **1.** katta, ulkan, azim, yirik, zo‘r, bo‘ychan, bo‘ydor, durkun, gavdali, norg‘ul, baland, daroz, novcha; **un homme grand** baland bo‘yli odam; **la grande bourgeoisie** yirik burjuaziya; **à grand renfort de** yordamida; **le Grand Opéra** Parij opera teatri; **2.** katta, kuchli, shiddatli, qattiq, zo‘r, baquvvat, quvvatli, zabardast; **3.** ulkan, kalon, azim, muazzam; **un grand homme** buyuk odam; **une grande cause** ulug‘ ish; **Pierre le Grand** Buyuk Pyotr; **4.** e’tiborli, nufuzli, mashhur, dongdor, taniqli; **un grand personnage, un grand seigneur** mashhur, nufuzli zot, to‘ra, ayon, amaldor; **le grand monde** zodagonlar davrasi; **5.** katta yoshli, bo‘yi yetgan, balog‘atga yetgan; **une grande personne** katta yoshli odam, shaxs, kishi; **6.** qattiq, baland, shiddatli, zo‘r, ulkan, buyuk, ajoyib; **un grand cœur** muruvvat, himmat, olijanoblik, oliyhimmatlik, fe’li kenglik, samimiylik, sidqidillik; fe’li keng odam; **un grand blessé** og‘ir yaralangan; **le grand air** sof havo; **avoir grand air** salobatli qiyofaga ega bo‘lmoq; **les grandes eaux** suv toshqini, favvoralarni ishga tushirish (*bog‘larda*); **il fait grand jour** yorishib ketdi; **il est grand temps** allaqachon kech; **de grand matin** erta tongda, ertalab; **tenir grand compte** ayniqsa hisobga olmoq; **II.** *nm* **1.** ulug‘vorlik, olijanoblik; **2.** *pl*



www.ziyouz.com kutubxonasi

balog'atga yetganlar; **3.** *pl* akobir, ayon, to'ra; **4. grand d'Espagne** Ispaniya grandi; **III.** *adv* **voir grand** uzoqni ko'rmoq, katta rejalar qurmoq, tuzmoq; **grand ouvert** keng ochiq; **en grand** *loc adv* tabiiy kattalikda, keng ko'lamda, miqyosda.

**grand-chose** *n pl* **pas grand-chose** *fam* e'tiborga molik emas, arzimas, haqir, notavon; **ce n'est pas grand-chose** bu hech gap emas, oson, yengil; **il ne vaut pas grand-chose** u hemiri ham turmaydi, hech narsaga yaramaydi.

**grand-duc** *nm* ulug' gersog.

**grand-ducal, ale** *adj* ulug' gersogga oid.

**grand-duché** *nm* ulug' gersog boshqaruvchi mamlakat.

**grandelet, ette** *adj* o'sgan, bo'yi yetgan bola.

**grandement** *adv* **1.** g'oyat, nihoyatda, ortiq darajada; **contribuer grandement** katta yordam bermoq; **se tromper grandement** nihoyatda yanglishmoq; **il est grandement l'heure** allaqachon vaqt bo'ldi; **2.** ko'p, mo'l-ko'l, to'lib-toshib, ortiqcha; **3.** baland ruhda, olijanoblik bilan, vijdonan.

**grandet, ette** *adj* yetarlicha katta, o'sgan, voyaga yetgan.

**grandeur** *nf* **1.** kattalik, o'lcham, katta-kichiklik; **2.** ulug'lik, ulug'vorlik, buyuklik, salobat, go'zallik, ulug'sifatlik; **du haut de sa grandeur** kekkayib, gerdayib, o'zini baland olib, nazar-pisand qilmay; **la folie des grandeurs** ulug'lik vasvasasi, ulug' deb fahmlash; **3.** *pl* izzat, izzat-ikrom, ehtirom, obro'; **4.** *math* kattalik, qiymat, miqdor; *loc adj* **grandeur nature** tabiiy kattalikdagi.

**grandiloquence** *nf* balandparvozlik, dabdabalilik (*nutq*).

**grandiloquent, ente** *adj* **1.** balandparvoz, dabdabali, tumtaroqli; **un style grandiloquent** dabdabali uslub; **2.** serva'da, va'da beradigan, umidvor qiladigan.

**grandiose I.** *adj* juda katta, buyuk, ulkan, azim, zo'r, ulug'vor, dabdabali, muhtasham, muazzam, basavlat; **II.** *nm* ulug'vorlik, muazzamlik, muhtashamlik, hashamat, savlat, juda kattalik, buyuklik, ulkanlik.

**grandir I.** *vi* **1.** o'smoq, katta bo'lmoq, ulg'aymoq; **grandir en sagesse** aqlli bo'lmoq; **2.** kattarmoq, o'smoq; **II.** *vt* **1.** kattalashtirmoq, yiriklashtirmoq; **2.** obro'yini ko'tarmoq, e'tiborini oshirmoq; **III. se grandir 1.** biroz ko'tarilmoq, sal o'rnidan turmoq; **2.** martabasi oshmoq, lavozimda ko'tarilmoq.

**grandissant, ante** *adj* kattalashuvchi, kattalashadigan, o'sadigan, o'suvchi, o'sib boruvchi.

**grand-mère** *nf* **1.** katta ona, buvi, momo (*ota-ona tomonidan*); **2.** momo, buvi, kampir.

**grand-oncle** *nm* amaki (*buvasi yoki buvisining akasi yoki ukasi*).

**grand-père** *nm* buva, bobo (*ota-onaning otasi*).

**grands-parents** *nm pl* buva, buvi, momo.

**grand-tante** *nf* amma (*buvasi yoki buvisining opasi yoki singlisi*).

**grange** *nf* saroy, omborxona, usti berk xirmon, g'allani quritish bostirmasi.

**granit** *ou* **granite** *nm* rangdor qattiq tog' jinsi, granit.

**granité, ée I.** *adj* donador, g'adir-budur, g'adirli, notekis; **II.** *nm* **1.** yirik tugunchalar bilan to'qilgan jun gazlama; **2.** muzqaymoq turi.

**graniter** *vt techn* granitga o'xshatib bo'yamoq, ranglamoq.

**graniteux, euse** *adj* granitli, graniti bor, granit ko'rinishli.

**granitoïde** *adj* granitsimon, granitga o'xshash.

**granivore** *adj zool* donxo'r, don yeydigan.

**granulaire** *adj* dona-dona, donador, qumoq-qumoq (*tog' jinslari*).

**granulation** *nf* **1.** dona-dona, donador qilish, qumoqlash, granulalash; **2.** *méd* donga o'xshash shish, pufak.

**granule** *nf* dona, donacha, granula.

**granulé, ée I.** *adj* yanchilgan, maydalangan, bo'lingan, parchalangan, ushatilgan, donli, serdon, doni ko'p; **II.** *nm* granula.

**granuler** *vt* donga aylantirmoq, yanchmoq, don qilmoq, maydalamoq, parchalamoq, bo'lmoq.

**granuleux, euse** *adj* **1.** *géol* donador, dona-dona, qumoq-qumoq; **2.** *méd* et oladigan, bitadigan, yangi et qoplaydigan (*yara*).

**grape-fruit** *nm anglic* greyp frut, limon chatishmasi.

**graphème** *nf ling* yozuv turi, shakli, grafema.

**graphie** *nf* yozilish, shakl, yozilish tarzi; **les graphies phonétiques** tovush yozilishi, transkriptsiya.

**graphique I.** *adj* chizma, grafikaga oid, chizish, chizmaga oid; **les signes graphiques** yozuv belgilari, shakllari; **II.** *nm* chizma, tasvir, tarh, diagramma, jadval; **3.** grafika (*bo'yoqsiz chizib rasm solish san'ati*).

**graphiquement** *adv* chizma ravishda, yozuv holida.

**graphisme** *nm* yozuv tarzi.

**graphite** *nm* qalam o'zagi, ko'mir bo'lagi, grafit.

**graphologie** *nf* belgi, shakllarni o'rganish, grafologiya.

**graphologique** *adj* belgi, shakllarni o'rganishga oid.

**graphologue** *nm* belgi, shakllarni o'rganuvchi mutaxassis.

**graphomètre** *nm* burchaklarni o'lchaydigan topografiya quroli.

**grappe** *nf* bosh, bir bosh, bir shingil (*mevada*).

**grappillage** *nm* **1.** uzum yig'ish, uzish; **2.** vahshiyona, yirtqichday foydali qazilmalarni qazish usuli; **3.** *fam* mayda o'g'irlik, kichik o'lja, foyda.

**grappiller I.** *vi* **1.** uzum yig'ib terib olingandan keyin qolib ketgan uzumlarni terib, yig'ib olmoq; **2.** *fig* qo'shimcha daromad qilmoq (*yashirincha, noqonuniy*); **II.** *vt* uyoq-buyoqdan gul, meva termoq, terib olmoq; *fig* termoq, yig'moq, topmoq, to'plamoq.

**grappin** *nm techn mar* ilgak, changak, kichik langar; **mettre le grappin sur qqn** *fam* o'z izmiga solmoq, qo'lga olmoq, bo'ysundirmoq.

**gras, grasse I.** *adj* **1.** yog'li, yog'i ko'p, sermoy, seryog', tarkibida yog'i bo'lgan; **les corps gras** yog', moy; **les substances grasses** yog'li moddalar; **2.** oquyuq, unumdor, hosildor, serhosil, mo'l-ko'l, serob, boy; **de gras pâturages** sero't yaylovlar; **les terres grasses** hosildor yerlar; **faire la grasse matinée** ertalab uxlab qolmoq, ertalab uzoq uxlamoq; **3.** to'ladan kelgan, jussali, barvasta; **4.** dog' tushgan, yog', moy izi bor, moy, yog' tekkan, yog'li, yoqqa belangan; **5.** quyuq, qalin; zich, tig'iz; yopishqoq, yelimshak; **caractère gras** qora, quyuq qilib yozilgan shrift, belgi; **II.** *nm* **1.** yog', moy; **2.** *fam* foyda.

**gras-double** *nm* charvi.

**grassement** *adv* **payer grassement** mo'l-ko'l to'lamoq.

**grasseyant, ante** *adj* "r" tovushini chuchuk talaffuz qiluvchi.

**grasseyer** *vi* "r" tovushini chuchuk talaffuz qilmoq.

**grassouillet, ette** *adj* lo'ppigina, do'ndiqqina, semizgina, to'lagina.

**gratification** *nf* pul mukofot, in'om, armug'on, tuhfa, hadya, pul bilan taqdirlash, yordam, ko'mak, nafaqa.

**gratifier** *vt* **1.** mukofotlamoq, taqdirlamoq, haq to'lamoq, in'om, hadya, tortiq qilmoq, siylamoq; **gratifier qqn d'une qualité** birovga qandaydir sifat bermoq, ta'riflamoq; **2.** tantanavor taqdim etmoq, xabar bermoq, yoqimli narsa bermoq.

**gratin** *nm* **1.** *vx* qirmoch; **2.** graten (*qaynatib yoki bug'da pishirilgan sabzavotlar ustiga qaymoq yoki qirg'ichdan o'tkazilgan pishloq solib, usti karsillama bo'lib chiqishi uchun duxovkaga qo'yib pishirish usuli, shu usulda pishirilgan ovqat*); **3.** qirilgan non bo'laklari; **4.** jamiyat qaymog'i, jamiyatning sara, eng yaxshi odamlari, gullari.

**gratiné, ée I.** *adj* **1.** qirilgan, qirg'ichdan o'tkazilgan; **2.** g'ayrioddiy; **II.** *nf* qirilgan pishloq qo'shilgan piyozli sho'rva.

**gratiner I.** *vt* qoq non qilib qovurmoq; **II.** *vi* tagiga olmoq, kuymoq (*qozon, tovada*).

**gratis** *adv* bepul, tekinga, pulsiz, tekin, pul olmay.

**gratitude** *nf* minnatdorchilik, rahmat, tashakkur, minnatdorlik.

**grattage** *nm* **1.** tirnash, timdalash, yumdalash, qirtish, tarashlash, qirib, qirtishlab tozalash, qirib olish; **2.** o'chirish, o'zgartirish (*yozilgan narsani*).

**gratte-ciel** *nm* osmono'par bino, ko'p qavatli imoratlar.

**gratte-cul** *nm* na'matak, itburun (*mevasi*).

**gratte-dos** *nm* jun taroq; taroq (*orqani qashlash uchun*).

**grattement** *nm* qashinish, tirnash, timdalash, yumdalash, qirish, qirtish, qirib tozalash va ovozi.

**gratte-papier** *nm fam* **1.** *vx* yomon yozuvchi; **2.** idora xizmatchisi, kotibi, mirzasi.

**gratter I.** *vt* **1.** tirnamoq, qitirlamoq, timdalamoq, yumdalamoq; **gratter une allumette** gufurt chaqmoq; **gratter du papier** qog'oz bulg'amoq, yozib chizib o'tirmoq; oqqa ko'chirib kun ko'rmoq (*pul ishlab topmoq*); **2.** qirib tozalamoq, qirmoq, qirtishlamoq, tarashlamoq; **3.** qashimoq, qashlamoq; **4.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

*fam* xushomad, laganbardorlik qilmoq, tilyog'lamalik qilmoq; **5.** ozgina foydalanib qolmoq (*birovning narsasidan*); **il n'y a rien à gratter** bu yerda hech narsa yo'q foydalanadigan; **6.** *sport* quvib o'tmoq (*mashina, raqibini*); **II.** *vi* **1. (à)** taqillatmoq, qoqmoq, urmoq; **gratter à une porte** sekingina eshikni qoqmoq; **2. (de)** o'ynamoq, chalmoq; **3.** mehnat qilmoq, ishlamoq, ter to'kmoq; **III. se gratter** *vpr* **1.** qashimoq, qashlanmoq; **2.** xushomad qilishmoq.

**grattoir** *nm* **1.** qirg'ich; **2.** oyoqni artish uchun ostona qo'yiladigan temir poyandoz.

**gratture** *nf* qirindi, qirib olingan narsa.

**gratuit, uite** *adj* **1.** tekin, bepul, bekorga kelgan, pul olmaydigan, to'lanmaydigan, pulsiz; **un enseignement gratuit** bepul o'qitish; **un prêt gratuit** foyzsiz qarz berish; **à titre gratuit** pul, haq olmasdan, tekinga, pulsiz, bepul, beminnat; **2.** asossiz, sababsiz, besabab, bevaj, vajsiz, asoslanmagan, dalilsiz; **une méchanceté gratuite** asossiz kek, adovat; **une supposition gratuite** asoslanmagan taxmin, gumon.

**gratuité** *nf* **1.** bepullik, pulsizlik, tekinlik, pul, haq to'lanmaslik; **la gratuité des transports** tekin yurish (*avtobusda*); **2.** asossizlik, dalilsizlik, dalili yo'qlik, noo'rinlik.

**gratuitement** *adv* **1.** bepul, tekin, bekorga; **2.** asossiz, sababsiz, bevaj, dalilsiz.

**gravats** *nm pl* qurilish chiqindilari (*binoni buzganda*).

**grave I.** *adj* **1.** *phys* og'ir, qattiq; **2.** muhim, ahamiyatli, zarur, kerakli, vazmin, og'ir, jiddiy, sipo, o'zini tutib olgan; **3.** mulohazali, ba'mani, jiddiy nufuzli, katta, yirik, zarur; **un accident grave** og'ir voqea; **une maladie grave** xavfli kasallik; **rien de grave** hechqanday ahamiyati yo'q; **4.** past, yo'g'on (*ovoz*); **5.** *mus* tantanali, tantanavor, sur'ati past, sekin, sust; **II.** *nm* **1.** past tovush, ohang; muhimi, ko'prog'i.

**gravelée** vino qoldig'i, quyqumi.

**graveleux, euse** *adj* **1.** shag'alli, mayda toshlari bo'lgan, toshloq; **2.** qo'pol, dag'al, qo'rs, xunuk, iflos, uyatsiz, beadab.

**gravelle** *nf vx* tosh, toshlar (*buyrakda, siydik yo'lida*); ba'zi a'zolarda tosh paydo bo'lishiga oid kasalliklar.

**gravement** *adv* **1.** vazmin, og'irlik bilan, jiddiy, sipo, muhim; **2.** jiddiy, rostdan, chindan, astoydil, qattiq.

**graver** *vt* **1.** o'yib naqsh solmoq, o'yib naqsh ishlamoq; o'yib yozmoq, naqsh solmoq, qirqib yasamoq; **2.** tasvirlamoq, aks ettirmoq, gavdalantirmoq; **graver un disque** diskga yozmoq, yozdirmoq.

**gravier** *nm* **1.** shag'al; **2.** *méd vx* siydik pufagidagi, buyrakdagi, o't pufagidagi toshlar.

**gravillon** *nm* mayda shag'al.

**gravir** *vt, vi* chirmashib, tirmashib chiqmoq, chiqib olmoq, o'rmalamoq, tirmashmoq; **gravir l'escalier** zinapoyadan ko'tarilmoq; **gravir une montagne** toqqa chiqmoq; **gravir un roc** qoyaga tirmashib chiqmoq.

**gravitation** *nf astron, phys* tortishish, o'ziga tortish, tortish, ish kuchi, tortuv, tortishuv; **la loi de la gravitation universelle** butun olam tortishish qonuni.

**gravité** *nf phys* **1.** og'irlik kuchi, yerga tortishish kuchi; **le centre de gravité** masalaning muhim tomoni, mohiyat, asosiy qism, og'irlik markazi; **par gravité** tortishish kuchi ta'sirida; **2.** jiddiylik, muhimlik, ahamiyatlilik, zarurlik, vazminlik, og'irlik; **3.** jiddiylik; gerdayganlik, mag'rurlik; **la gravité d'une faute** xatoning jiddiyligi; **la gravité d'une maladie** kasallikning xavfliligi.

**graviter** *vi* **1.** *phys* tortishmoq, tortishish qonunlari bo'yicha harakatlanmoq; **2.** *astron* tortishish doirasida bo'lmoq, o'z atrofida aylanmoq; **3.** aylanmoq, aylanib harakat qilmoq.

**gravure** *nf* **1.** o'yib ishlash, naqsh solish, o'yib gul tushirish; **2.** o'yma naqsh, surat, ganch, gipsdagi bosma rasm, eslatma; **la gravure au burin** misdagi bosma surat; **la gravure sur bois** yog'ochdagi o'yma naqsh; **la gravure à la pointe sèche** igna bilan o'yib solingan surat; **3.** rasm, surat, tasvir.

**gré** *nm* **1.** iroda, erk, erkinlik, istak, xohish, ixtiyor, niyat, ta'b, ra'y, injiqlik, xarxasha, g'alati qiliq, tantiqlik, noz; **à son gré** injiqligi sababli, **à mon gré, selon mon gré** mening ra'yimga, menimcha; **de son gré, de son bon gré, de son plein gré** o'z erki bilan, o'z irodasi bilan; **contre le gré de** istagiga qarshi; **savoir mauvais gré à qqn** norozi bo'lmoq; *loc adv* **de gré ou de force** o'zaro kelishuvga binoan, kelishib; **au gré de** *loc prép* ixtiyoricha, xohishiga ko'ra, istaganicha; **au gré des flots** to'lqin sababli; **2.** minnatdorlik, minnatdorchilik.

**grec, grecque I.** *adj* grekcha, grek; **II.** *n* **1.** grek, yunon; **2.** *nm* grek tili; **le grec moderne** yangi grek tili; **III.** *nf* grekcha naqsh, gul; kichkina qo'l egovi (*arrachasi*); xotinlar bosh kiyimi.

**gréco-latin, ine** *adj* grek-lotin.

**gréco-romain, aine** *adj* grek-rim; **la lutte gréco-romaine** *sport* klassik, erkin kurash.

**gredin, ine** *n* **1.** *vieilli* razil, past, qabih odam, yaramas, ablah, nobakor, pastkash, muttaham; **2.** *vx* qashshoq, gado, tilanchi, kambag'al, faqir, bechora.

**gréer** *vt* kemani jihozlamoq, asbob-uskuna bilan ta'minlamoq.

**greffage** *nm* payvandlash, payvand qilish, o'tkazish.

**greffe**[1] *nm* sud idorasi.

**greffe**[2] *nf* **1.** payvand, payvand qilish, o'tkazish; **une greffe en fente** yorib payvand o'tkazish; **2.** *bot* payvandust, payvand (*qalamcha, kurtak*); **3.** *méd* **une greffe animale** to'qimalarni ko'chirib o'tqazish; **une greffe des tissus, une greffe tissulaire** to'qimalarni qo'shib o'tkazish; **une greffe cutanée** terini ko'chirib o'tqazish; **une greffe du cœur** yurakni ko'chirib o'tqazish.

**greffer I.** *vt* **1.** payvandlamoq, payvand qilmoq, o'tkazmoq, ulamoq; **2.** *méd* biror a'zoni ko'chirib o'tqazmoq, ko'chirmoq; **II. se greffer** *vpr* **1.** tutmoq, qo'shilib o'sib ketmoq (*payvand*); **2. (sur)** kurtaklanmoq, ko'karmoq, urchimoq.

**greffier** *nm* sud kotibi.

**greffon** *nm* payvandust, payvand, qalamcha, kurtak.

**grégaire** *adj* poda-poda, gala-gala bo'lib yashaydigan, podadan kelib chiqadigan, poda; **l'instinct grégaire** poda instinkti, hissiyoti.

**grège** *adj* **soie grège** xom ipak.

**grégorien, ienne** *adj* gregorian; **le calendrier grégorien** gregorian kalendari, sanasi.

**grêle**[1] *adj* ingichka, yupqa, ipsimon, mayda; **une voix grêle** ingichka ovoz; **l'intestin grêle** *anat* ingichka ichak.

**grêle**[2] *nf* do'l; **une grêle de balles** o'qlar yomg'iri.

**grêlé, ée** *adj* cho'tir, bujir, chechak o'yib tashlagan.

**grêler I.** *vt* urib ketmoq, qiyratmoq, poymol qilmoq, xarob qilmoq (*do'l*); **le blé a été grêlé** bug'doyni do'l urib ketdi; **II.** *v impers* **il grêle** do'l yog'ayotibdi.

**grelin** *nm mar* tushish arqoni, po'lat arqon, tros.

**grêlon** *nm* do'l donasi, do'l.

**grelot** *nm* **1.** qo'ng'iroq; *loc fam* **avoir les grelots** qo'rqmoq, qo'rqoqlik qilmoq, titramoq; **2.** *arg* telefon.

**grelottant, ante** *adj* sovuqdan titragan, sovuq qotgan, yegan, sovqotgan.

**grelottement** *nm* **1.** sovuqdan titrash, qaltirash; **2.** zirillash, dirillash, jaranglash.

**grelotter** *vi* titramoq, qaltiramoq, qaltiroq tutmoq, junjikmoq, seskanmoq (*sovuqdan, biror his-hayajondan*).

**grenade**[1] *nf* anor.

**grenade**[2] *nf mil* **1.** granata, portlovchi snaryad; **une grenade incendiaire** yondiruvchi snaryad; **2.** muhandis va sapyor qo'shinlar belgi-nishoni.

**grenadier**[1] *nm* anor daraxti.

**grenadier**[2] *nm* granata otuvchi soldat.

**grenadine** *nf* anor sharbati; sun'iy anor sharbati.

**grenage** *nm* donador qilish, qumoqlash, granulalash; g'adir-budur qilish.

**grenaille** *nf* zoldirchalar, sochma (*o'q*).

**grenat I.** *nm* yoqut (*qimmatbaho tosh*); **II.** *adj* yoqut rangli.

**grenier** *nm* **1.** don, g'alla ombori; **un grenier à foin** beda og'ili; **un grenier à sel** tuz ombori; **les greniers publics** bug'doy, don, g'alla ombori; **2.** tom usti.

**grenouille** *nf* baqa; **larve de grenouille** itbaliq; *loc fam* **avoir des grenouilles dans le ventre** qorni g'uldiramoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**grenu, ue** *adj* **1.** donli, doni ko'p, serdon, donsimon, donga o'xshash, dona-dona; **2.** g'adir-budir, dag'al, quruqshagan, silliq emas; **3.** *nm* charm turi.

**grès** *nm* qumloq, qum va gil aralash yer.

**grésil** *nm* mayda do'l.

**grésillement** *nm* **1.** jizillamoq, chirsillash, qirsillash, charsillash, qarsillash, qars-qurs, g'arch-g'urch; **2.** chirillash, chir-chir qilish (*qora chigirtka*).

**grésiller** *vi* **1.** shivillamoq; **il grésille** sircha yog'yapti, mayda do'l yog'ayotibdi; **2.** chirillamoq, chir-chir qilmoq (*qora chigirtka*).

**gressin** *nm* qarsillaydigan qalamcha non.

**grève**[1] *nf* **1.** qumloq, qumli qirg'oq; **2.** shag'al qum.

**grève**[2] *nf* **1.** ish tashlash; **une grève politique** siyosiy ish tashlash; **une grève revendicative** iqtisodiy ish tashlash (*ish haqini oshirishni talab qilib*); **une grève générale** umumiy ish tashlash; **la grève de la faim** ochlik e'lon qilish (*qamoqda*); **un comité de grève** ish tashlash komiteti; **faire (la) grève** ish tashlamoq; **mener la grève** ish tashlashga rahbarlik qilmoq; **déclarer la grève** ish tashlash e'lon qilmoq.

**grever** *vt* **(qqn de qqch)** og'ir ish yuklab qiynamoq, og'irlashtirmoq, tashvishga solib qo'ymoq, zimmasiga tushmoq; **grever d'impôts** zimmasiga soliq yuklamoq.

**gréviste** *n, adj* ish tashlovchi, ish tashlagan, ishni to'xtatgan.

**gribouillage** *nm fam* ajiva rasm, aji-buji surat, qog'oz bulg'ash (*rasm*).

**gribouille** *nm fam* befahm, anqov, laqma, noshud odam.

**gribouiller** *vt, vi fam* bulg'amoq, aji-buji qilib rasm solmoq, bo'yab, chizib tashlamoq, aji-buji qilib bo'yamoq.

**gribouilleur, euse** *n* aji-buji qilib rasm soluvchi, bo'yovchi, bulg'ovchi.

**gribouillis** *nm* aji-buji qilib solingan rasm, anglab, tushunib bo'lmaydigan yozuv.

**grièche** *adj* **une pie grièche** qarqunoq, olato'g'anoq (*qush*).

**grief** *nm* **1.** zarar, shikast, ziyon; **2.** shikoyat, norozilik, arz, arz-dod, hasrat-nadomat, zorlanish, nolish, davo, talab; **formuler des griefs** talablarini bayon qilmoq; **faire grief à qqn de qqch** ayblamoq, o'pkalamoq, yuziga solmoq, ta'na qilmoq.

**grièvement** *adv* xavfli, qo'rqinchli, xavf ostida, og'ir, qiyin; **il est grièvement blessé** og'ir yaralangan.

**griffe** *nf* **1.** tirnoq, panja, changal, chang; **montrer les griffes** changalini yozmoq; **donner un coup de griffe à qqn** piching qilmoq; **2.** *fam* hokimiyat, hukmronlik, hokimlik; **3.** *techn* band, halqa, tutqich, skoba; tish, barmoq, qul; **4.** tamg'a, muhr; **5.** tamg'a, muhr, belgining qog'ozdagi nusxasi; **6.** *archit* parda, iz.

**griffer** *vt* changal solmoq, changallab olmoq, timdalab, tirnab olmoq, timdalamoq, tirnamoq.

**griffon** *nm* **1.** burgut boshli sher (*afsonada*); **2.** tozi it.

**griffonnage** *nm* badxatlik, chizib tashlash, bo'yash, ko'mir qalam bilan rasm solish, tushunib, o'qib bo'lmaydigan yozuv.

**griffonner** *vt* aji-buji qilib yozmoq.

**griffu, ue** *adj* tirnoqli, tirnog'i bor.

**griffure** *nf* tirnalgan joy, tirnoq izi, chandiq.

**grignotement** *nm* tamaddi qilish, tatib o'tirish.

**grignoter** *vt* **1.** g'ajib yemoq, g'ajimoq, kemirmoq (*suyakni*); **2.** *fam* o'zgalar hisobiga orttirmoq, molimardum, xo'rlik qilmoq; **3.** oz-oz, asta-sekin toliqtirmoq, toliqtirib, charchatib bormoq (*raqibini*).

**grigou** *nm fam* o'takatgan xasis, qurumsoq, och ko'z.

**gri-gri** *nm* tumor, tumor o'rniga taqib yuriladigan narsa (*afrikaliklarda*).

**gril** *nm* kabobni aylantirib pishiradigan qo'ra; **être sur le gril** *fam* o'zini qo'r ustida o'tirgandek sezmoq, besaranjom bo'lmoq, xavotirlanib o'tirmoq.

**grillade** *nf* qo'rda qovurilgan go'sht, kabob.

**grillage**[1] *nm* **1.** qovurdoq, qovurilgan go'sht; **2.** pishirish, o'tga toblab qizdirish (*g'ishtni*).

**grillage**[2] *nm* panjara, sim to'r.

**grillager** *vt* panjara bilan to'smoq, o'rab olmoq, o'ramoq.

**grille** *nf* **1.** panjara (*darvoza, devor*); **2.** so'ri panjarasi, o'txona panjarasi (*isitishda*); **3.** to'r, setka (*radioda*); **4.** sonlarni o'qish uchun karton to'r; **la grille des salaires** ish haqi ko'rsatgichi, mezoni.

**grillé, ée**[1] *adj* panjarali, to'rli, panjarasi, to'ri bor.

**grillé, ée**[2] *adj* qovurilgan; **du pain grillé** qovurilgan non, kuydirilgan.

**grille-pain** *nm* nondan suxari tayyorlaydigan elektr asbob, toster.

**griller**[1] **I.** *vt* **1.** qovurmoq, yaxshilab, qizarguncha qovurmoq (*qahva, kashtanni*); panjarada qovurmoq; **2.** kuydirmoq, kuydirib pishirmoq, gir atrofini, chetini kuydirmoq, qoraytirmoq; **3.** kuydirib qo'ymoq (*elektr asbobni*); **4.** uchini yondirib, kuydirib olmoq (*sigaretaning*); **5.** sovuq urmoq, olmoq; **6.** *fam* quvib o'zmoq, o'zib, ilgari ketmoq; **griller un feu rouge** qizil chiroqda o'tib ketmoq (*svetoforda*); **II.** *vi* **1.** qovurilmoq, oftobda kuymoq; **2.** kuymoq, kuyib ketmoq, ba'zi joylari kuymoq, kuyib qoraymoq; **III. se griller** *vpr* **1.** kuymoq, qovurilmoq; **2.** kuydirib olmoq, kuymoq, kuyib qolmoq, kuydirmoq.

**griller**[2] *vt* panjara, to'r, setka qilmoq, qo'ymoq; to'smoq.

**grillon** *nm* qora chigirtka, chigirtka.

**grimaçant, ante** *adj* **1.** afti, basharasi, yuzini burushtiruvchi, bujmaytiruvchi, burishtiradigan; **2.** ajin bosgan.

**grimace** *nf* **1.** afti, basharasi, yuzini burishtirish, bujmaytirish, noz-karashma, ishva, jilg'a, qiyshaytirish; **faire la grimace à qqn** yomon qarshi olmoq; **faire la grimace à une proposition** taklifni shoxaga, nayzaga olmoq, yomon qarshi olmoq; **2.** mug'ombirlik, ayyorlik, quvlik, munofiqlik, soxta, yasamalik, riyokorlik, tilyog'lamalik, ikkiyuzlamalik; **3.** ajin, burishiq, g'ijim, burma, qat, tax; (*ko'ylakda*).

**grimacer** **I.** *vi* yuz burishtirmoq, aft bujmaytirmoq, qiyshanglamoq; bujmaymoq (*ko'ylak*); **II.** *vt* **grimacer un sourire** zo'rlab, qiynalib kulmoq.

**grimacier, ière** **I.** *adj* qiyshanglovchi, qiyshanglaydigan, nozli, noz-karashmali, ishvagar, sernoz, qiliqdor; **II.** *n* noz, noz-karashma, serishvali ayol, afti, yuzini burishtiruvchi, tannoz, qiliqdor odam.

**grimage** *nm* (*teatrda*) yuz pardozi, grim qilish.

**grimer** *vt* pardozlamoq, grim qilmoq (*teatrda*).

**grimoire** *nm* o'qib bo'lmaydigan qo'lyozma, tushunib bo'lmaydigan narsa.

**grimpant, ante** *adj* **1.** tirmashuvchi, chirmashib chiquvchi, o'rmalovchi, sudraluvchi; **2.** sudraluvchan, sudralib yuruvchi (*ilon*), chirmashuvchan (*o'simlik*).

**grimpée** *nf* og'ir, qiyin o'rmalab, tirmashib, chirmashib chiqish.

**grimper** **I.** *vi* **1.** o'rmalamoq, tirmashmoq, o'rmalab, tirmashib chiqmoq, chiqib olmoq, ko'tarilmoq, balandga chiqmoq; **les prix ont grimpé** *fam* narx ko'tarilib ketdi; **2.** balandga ko'tarilmoq (*samolyot*), chirmashmoq (*o't, o'simlik*); *vt* yuqoriga chiqmoq; **grimper un escalier** zinapoya, shotidan chiqmoq, ko'tarilmoq; **II.** *nm sport* arqonda mashq qilish.

**grimpette** *nf fam* tepa, yuqoriga ko'tariluvchi yo'lak.

**grimpeur, euse** **I.** *n* **1.** alpinist; **2.** yuqoriga yaxshi ko'tariluvchi velosiped poygachisi; **II.** *adj* tirmashib, chirmashib, o'rmalab chiquvchi, chiqadigan.

**grinçant, ante** **I.** *adj* g'ichirlaydigan; **II.** *nf* g'ichirlaydigan kuy.

**grincement** *nm* g'ichirlagan tovush, g'ichir-g'ichir, g'arch-g'urch, g'ichirlash, g'ijirlash; **grincement d'une porte** eshik g'ichirlashi.

**grincer** *vi* g'ijirlatmoq, g'ijirlamoq, g'ichirlamoq, g'archillamoq; **grincer des dents** tishlarni g'ichirlatmoq, achchiqlanmoq.

**grincheux, euse** **I.** *adj* mijg'ov, sergap, ezma, g'inshiqi; domangir; **II.** *nm* ezma, mijg'ov, vaysaqi odam, ming'ir-ming'ir odam.

**gringalet** *nm fam* nimjon, ramaqijon odam.

**griot** *nm* oqin, sehrgar (*janubiy Afrikada*).

**griotte** *nf* nordon olcha, tog' olcha.

**grippage** *nm techn* motorning qisib yopishib qolishi.

**grippal, ale** *adj méd* grippga oid, gripp bilan bog'langan; **un état grippal** grippli holat.

**grippe** *nf méd* **1.** gripp; **2.** xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik, yomon ko'rish, sovuqchilik, zidlik; **prendre qqn en grippe** yomon ko'rib qolmoq.

**grippé, ée** *adj* gripp bilan kasallangan (*bemor*).

**gripper** *vi* siqib qolmoq, to'xtab qolmoq.

**grippe-sou** *nm fam* o'takatgan xasis, ziqna odam, qurumsoq, qoqbosh, manfaatparast, tamagir, yulg'ich.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**gris, grise I.** *adj* **1.** kulrang, bo'z, ko'kimtir; **la matière grise** miyaning kulrang moddasi; **les cheveux gris** oqargan, oqarayotgan soch; **il fait gris** bulutli; **faire grise mine à qqn** yomon kutib olmoq; **2.** *fam* ichgan, kayfi bor, mastroq; **être gris** shirakayf bo'lmoq; **II.** *nm* **1.** bo'z rang; **gris perle** marvarid bo'z rang; **2.** ko'kimtir tus (*ot haqida*); **3.** bo'z kiyim.

**grisaille** *nf* kul rang tusdagi rasm, suratlar, ko'kimtir tusdagi tabiat manzarasi.

**grisailler I.** *vt* **1.** bo'z rang bilan bo'yamoq; **2.** bo'z rang tusda rasm solmoq, chizmoq; **II.** *vi* bo'zarmoq, bo'z rangga kirmoq, bo'z tus olmoq.

**grisant, ante** *adj* mast qiladigan, kayf beradigan.

**grisâtre** *adj* oqishroq, och kulrang.

**grisé** *nm* oqish tus.

**griser** *vt* **1.** ichirib mast qilmoq; **2.** kayfini oshirmoq, zavq-shavqini oshirmoq; **se griser 1.** to'yib ichmoq, ichib mast bo'lmoq, kayfi oshmoq; **2.** maza qilmoq, rohatlanmoq, lazzatlanmoq.

**grisette** *nf* tannoz ishchi qiz.

**grisonnant, ante** *adj* oqarayotgan, oqaruvchi.

**grisonnement** *nm* soch-soqol oqarishi, oq tushish.

**grisonner** *vi* soch-soqoli oqarmoq, soch-soqoliga oq oralamoq, mo'ysafid bo'lmoq.

**grisou** *nm* kon gazi, metan, botqoq gazi.

**grive** *nf* sayroqi qorayaloq (*qush*); **faute de grives on mange des merles** (*hikmatli gap*) baliq bo'lmasa qisqichbaqa ham bo'laveradi.

**grizzli** *ou* **grizzly** *nm* tog' ayig'i, qo'ng'ir ayiq.

**grog** *nm anglic* aroq aralashtirilgan ichimlik, grog.

**groggy** *adj anglic* **1.** hushini yo'qotgan (*boksda*); **2.** karaxt qilingan, boshi qotgan.

**grognard, arde I.** *adj* vaysaqi, sergap, ezma, ming'ir-ming'ir, hadeb noliyveradigan; **II.** *nm* napoleon gvardiyasi askari.

**grogne** *nf* ezmalik qilib bildirilgan norozilik, vaysaqi kayfiyat.

**grognement** *nm* **1.** xurxurlash (*cho'chqa*); **2.** *fam* ming'irlash, hadeb noliyverish, vaysash.

**grogner** *vi* **1.** xur-xur qilmoq (*cho'chqa*); **2.** ming'irlamoq, hadeb noliyvermoq, vaysamoq, g'ingshimoq.

**grognon, onne I.** *adj* g'ingshiydigan, noliyveradigan, vaysaydigan, ming'ir-ming'ir; **II.** *n* vaysaqi, ezma, javraqi odam.

**groin** *nm* cho'chqa, to'ng'iz tumshug'i.

**grole**[1] *ou* **grolle** *nf* go'ngqarg'a.

**grole**[2] *ou* **grolle** *nf fam* oyoq kiyimi.

**grommeler** *vi fam* **1.** vaysamoq, ming'irlamoq, nolimoq, g'ingshimoq; **2.** xur-xur qilmoq (*cho'chqa*); **3.** g'uldiramoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq, gapirmoq.

**grommellement** *nm* vaysash, ming'irlash, g'ingshish, g'uldirash, to'ng'illash.

**grondant, ante** *adj* g'uldiraydigan, gumburlaydigan, gulduros, gumbur-gumbur, guldur-guldur, momaqaldiroq.

**grondement** *nm* **1.** irillash, bo'kirish, o'kirish, hayqirish; **2.** guldurash (*momaqaldiroq*), gumburlagan ovoz.

**gronder I.** *vi* **1.** irillamoq, bo'kirmoq, o'kirmoq, hayqirmoq, vaysamoq, nolimoq, ming'irlamoq; **2.** guldiramoq, gumburlamoq, taraqlamoq, qaldiramoq, guvullamoq; **II.** *vt* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.

**gronderie** *nf* hayfsan, tanbeh, ta'zir, dakki, o'git, pand-nasihat.

**grondeur, euse I.** *adj* vaysaqi, irildoq, chiyilloq, chiyillagan; **une voix grondeuse** chiyillagan ovoz; **II.** *n* vaysaqi, ezma, sergap odam.

**grondin** *nm* qizil baliq turi.

**groom** *nm anglic* yugurdak.

**gros, grosse I.** *adj* **1.** semiz, yo'g'on, to'la; **le gros intestin** *anat* yo'g'on ichak; **plus gros que long** juda semiz, baqaloq; **2.** katta, yirik, ulkan, azim, zo'r; **une grosse somme d'argent** katta pul sumi; **du gros bétail** yirik shoxli qora mollar; **un gros porteur** og'ir bombardimonchi samolyot; yuk tashuvchi samolyot; **de grosses réparations** bosh, kapital tuzatish; **la grosse artillerie** og'ir artilleriya; **jouer gros jeu** katta o'ynamoq, qaltis ish qilmoq; **3. femme grosse** bo'g'oz, homilador xotin; **gros de conséquences** yomon oqibatlar; **4.** dag'al, qo'pol, to'ng, qo'rs, xunuk; **gros mots** qo'rs so'zlar, so'kish; **le gros ouvrage** og'ir, qora mehnat; **faire la grosse voix** qo'pol, qo'rs ovoz bilan gapira boshlamoq (*qo'rqitish uchun*); **faire les gros yeux** jahllanib nazar tashlamoq, qaramoq; **5.** muhim, ahamiyatli, zarur, kerakli; **6.** to'lgan, to'la, to'liq; **la rivière est grosse** suv ko'tarildi, daryo to'lgan; **yeux gros de larmes** ko'zlari yoshga to'la; **avoir le cœur gros, en avoir gros sur le cœur** g'amgin bo'lmoq, xafa bo'lmoq, qayg'urmoq, ma'yuslanmoq; **II.** *nm* **1.** eng katta, yirik bo'lagi; qalinlik, qatlam; **2.** bosh bo'lagi, qismi, asosiysi; *mil* asosiy kuchlar, mag'iz (*markaz*); **le gros de l'armée** qo'shinning asosiy, markaziy kuchlari; **le gros du peloton** *sport* asosiy guruh; **au gros de l'été, de l'hiver** yoz, qishning qoq o'rtasida; *loc adv* **en gros** ko'tarasiga; umuman, asosan, umuman olganda; **tout en gros** hammasi bo'lib, ja'mi, bari; **III.** *adv* ko'p; **gagner gros** ko'p ishlab topmoq; **rapporter gros** katta foyda keltirmoq, bermoq; **il y a gros à parier que** ishonchim komil-ki.

**groseille I.** *nf* qorag'at, maymunjon; **les groseilles à maquereau** qorag'at; **II.** *adj* qorag'at rang.

**groseillier** *nm* qorag'atzor, maymunjonzor.

**grosse** *nf* **1.** attorlikda qo'llaniladigan 12 dujinaga teng o'lchov; **2.** *dr* hujjat ko'chirma nusxasi, sud hukmidan ko'chirma nusxa (*yozuv mashinasida*).

**grosserie** *nf* **1.** *techn* kumush idish; **2.** yirik, ulkan savdo; **3.** ulkan, azim ishlar.

**grossesse** *nf* homiladorlik, ikki qatlik, bo'g'ozlik; **une grossesse extra-utérine** bachadondan tashqaridagi homiladorlik.

**grosseur** *nf* **1.** semizlik; qalinlik, yo'g'onlik, kattalik, o'lcham, katta kichiklik; hajm, ko'lam; **2.** shish.

**grossier, ière** *adj* **1.** dag'al, qo'pol, qo'rs, to'ng, xunuk; qo'pol ishlangan, yomon ishlangan, beso'naqay; **2.** *fig* yo'l qo'yib, kechirib bo'lmaydigan, nomunosib; **une erreur grossière** qo'pol xato.

**grossièrement** *adv* **1.** qo'polona, qo'rsona, to'nglarcha, dag'alona; **2.** umuman olganda, xomaki xolda, xomaki.

**grossièreté** *nf* qo'pollik, dag'allik, qo'rslik.

**grossir I.** *vt* **1.** qalin, yo'g'on qilmoq, qalinlashtirmoq; **2.** kattartirmoq, oshirmoq, orttirmoq, ko'paytirmoq (*hajm, sonda*), kuchaytirmoq, qo'shmoq; **grossir les rangs** qatorini orttirmoq; **3.** bo'rttirmoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; **II.** *vi* **1.** semirmoq, qalinlashmoq, yo'g'onlashmoq; **2.** ko'paymoq, oshmoq, ortmoq, o'smoq, ulg'aymoq, bo'rtmoq, shishmoq, kuchaymoq, zo'rlamoq; **3.** ko'paymoq (*suv*); **la mer grossit** dengiz qattiq chayqala boshladi.

**grossissant, ante** *adj* **1.** ortayotgan, semiruvchan, o'sayotgan, ko'payuvchan, kattaruvchan, ulg'ayuvchan; **2.** kattalashtiradigan, katta qilib ko'rsatadigan; **un verre grossissant** katta qilib ko'rsatadigan shisha, oynak.

**grossissement** *nm* **1.** semirish; ko'paytirish, oshirish, orttirish, o'stirish, kattalashtirish, ko'payish, oshish, yiriklashish, ko'pchish, bo'rttish, shishish, bo'kish; **2.** *fig* puflab yondirish, oshirib ko'rsatish, bo'rttirib yuborish.

**grossiste** *nm* ulgurji savdo qiluvchi.

**grosso modo** *loc adv* umuman olganda, xomaki, taxminan, taxminiy.

**grotesque I.** *adj* **1.** kulgili, kuldiradigan; **2.** g'alati, ajoyib, g'aroyib, jimjimador, antiqa, serhasham; **II.** *nm* adabiyot va san'atda ortiq mubolag'a bilan bo'rttirib tasvirlash, mubolag'a.

**grotte** *nf* g'or, ungur, mog'ora.

**grouillant, ante** *adj* g'imirlagan, guvillagan, g'ujg'on o'ynayotgan, to'lib toshgan, qaynagan.

**grouillement** *nm* qaynash, bijirlab yotish, g'ujg'on o'ynash.

**grouiller I.** *vi* **1.** bijirlab yotmoq, g'uj-g'uj o'ynamoq, g'imirlamoq, guvillamoq, qimirlamoq, tebranmoq, joyidan jilmoq; **2.** quldiramoq (*qorin*); **II. se grouiller** *vpr fam* shoshilmoq, shoshmoq, shoshilishmoq, goh-goh qimirlab, silkinib turmoq; **grouille-toi!** shoshiling, tezroq qimirlang!

**groupage** *nm* guruhlash.

**groupe** *nm* **1.** guruh, to'da, to'p; **un groupe d'études** o'quv guruhi; **un groupe dirigeant** hukmron tabaqalar; **le groupe sanguin** qon guruhi; **2.** guruhlashish, to'dalashish, to'plashish, guruh, **un groupe parlementaire** parlament guruhi; **3.** *mil* guruh, turkum, tabaqa; **un groupe de choc** zarbdor guruhi; **un groupe armé** qo'shin turkumi; **4.** *techn* mustaqil mexanizm, bo'lim, qism, blok.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**groupement** *nm* **1.** guruhlash, guruhlarga ajratish, bo'lish, to'plash, guruh, qo'shilish; **2.** ulash, qo'shish (*elektrda*); **3.** guruh; *mil* **un groupement tactique** taktik guruh.

**grouper** *vt* guruhlamoq, guruhlarga ajratmoq, bo'lmoq, to'plamoq, turkumlamoq, yig'moq, qo'shmoq, jipslashtirmoq, birlashtirmoq, ulamoq; **se grouper** to'planmoq, to'planib turmoq, tiqilishmoq, yig'ilishmoq, to'planishmoq; **se grouper autour de qqn** birov atrofida jipslashishmoq.

**groupuscule** *nm péj* kichik guruh, to'dacha (*siyosiy*).

**gruau¹** *nm* yorma; **le pain de gruau** yorma non.

**gruau²** *rare ou* **gruon** *nm* turnacha.

**grue** *nf* **1.** turna; **faire le pied de grue** uzoq kutmoq; **2.** *techn* kran; **une grue de hissage** yuk ko'targich, havoza; **3.** *fam* esi yo'q, tentak, ahmoq ayol; **4.** yengil tabiatli xotin.

**gruger** *vt* birovni shilmoq, talamoq, aldab ketmoq.

**grumeau** *nm* quyulib qolgan narsa, bo'lakcha, qumoq, durda.

**grumeleux, euse** *adj* qumoq-qumoq, donador.

**gruon** *nm vx voir* **gruau²**.

**grutier** *nm* havozachi, yuk ko'targichni boshqaruvchi odam.

**gruyère** *nm* pishlog'.

**gué** *nm* kechuv, kechib o'tadigan joy (*daryoda*); **passer à gué** kechib o'tmoq.

**guenille** *nf* **1.** janda, latta-putta; *pl* eski ko'ylak, eski-tuski, yirtiq-yamoq kiyimlar; **2.** jirkanch kishi.

**guenon** *nf* urg'ochi maymun.

**guépard** *nm* qoplon.

**guêpe** *nf* ari; **une taille de guêpe** xipcha bel, mo'rchamiyon.

**guêpier** *nm* **1.** ari ini; **2.** chigal, noxush holat.

**guère** *adv inkorni bildiradi:* **ne… guère** unchalik emas, butunlay ozgina, deyarlik, hech; **je ne me souviens guère** men buni zo'rg'a eslayolaman, men deyarlik buni eslolmayman; **cet écolier n'est guère studieux** bu o'quvchi unchalik tirishqoq emas; **il n'y a guère que lui qui puisse savoir cela** faqat u buni bilishi mumkin.

**guéret** *nm* haydalgan, lekin ekilmagan yer, shudgor; **lever les guérets** shudgor qilmoq.

**guéri, ie** *adj* tuzalgan, sog'aygan; qutulib olgan, xalos bo'lgan, yengil tortgan, bo'shangan.

**guéridon** *nm* bir oyoqli aylana, dumaloq stol.

**guérilla** *nf* partizanlar urushi.

**guérillero** *nm* (*ispancha*) partizanlar.

**guérir I.** *vt* davolamoq, tuzatmoq, sog'aytirmoq, shifo bermoq; **II.** *vi* **1.** sog'aymoq, tuzalmoq, sog'ayib ketmoq, kamchiliklardan forig' bo'lmoq; **2.** bitmoq, tuzalmoq (*yara*); **III. se guérir** *vpr* davolanmoq, tuzalmoq; *fig* yo'qotmoq, xalos, forig' bo'lmoq.

**guérison** *nf* sog'ayish, tuzalish, sog'ayib, tuzalib ketish, shifo topish.

**guérissable** *adj* shifo topadigan, davolasa, davolab bo'ladigan, tuzaladigan.

**guérisseur, euse** *n* shifokor, tabib, duoxon, azayimxon, baxshi.

**guérite** *nf* **1.** qorovul xonasi, nazoratchi xonasi; **2.** dengiz qirg'oqlaridagi to'qima uychalar, xonalar; **3.** pana joy, yashirinadigan joy, bekinadigan joy.

**guerre** *nf* **1.** urush; **la guerre civile** fuqaro urushi; **une guerre de libération nationale** milliy ozodlik urushi; **la Grande Guerre nationale (patriotique)** Ulug' Vatan urushi; **une guerre impérialiste** imperialistik urush; **une guerre de siège** qamal; **une guerre éclair** yashin tezligidagi urush; **la Guerre Froide** sovuq munosabatlar urushi; **un homme de guerre** harbiy; **un nom de guerre** yashirin taxallus; **déclarer la guerre** urush e'lon qilmoq; **déclancher la guerre** urush boshlamoq; **entrer en guerre** urushga kirmoq; **faire la guerre** urishmoq, urush olib bormoq; **de guerre lasse** qattiq qarshilikdan keyin, kuchsizlanib, toqati toq bo'lib; **le Ministère de la Guerre** harbiy vazirlik; **2.** bahs, tortishuv, munozara, muboxasa, kurash, kurashish; **de bonne guerre** halol kurash; **c'est de bonne guerre** bu halol, to'g'ri.

**guerrier, ière I.** *adj* jangovor, qahramon, harbiy, jang; **un exploit guerrier** qahramonona jasorat; **II.** *nm* harbiy, jangchi.

**guerroyer** *vi* urishmoq, urush olib bormoq.

**guet** *nm* **1.** poylash, yashirin kuzatish, ogoh bo'lish, sergak bo'lish; **avoir l'œil au guet** hushyor, sergak bo'lmoq; **avoir l'oreille au guet** ko'z-quloq bo'lmoq; **2.** izma-iz borish, ta'qib qilish, iziga tushish, kuzatish, kuzatib borish.

**guet-apens** *nm* pistirma, qopqon, tuzoq, dom; **tomber dans un guet-apens** tuzoqqa ilinmoq, tushmoq.

**guêtre** *nf* getra, qo'nj, to'piqdan boldirgacha bekitib turadigan issiq oq kiyim.

**guetter** *vt* **1.** pistirmada turib kuzatmoq, izma-iz quvib bormoq, iziga tushmoq, qo'riqlamoq, yashirin, xufiyona kuzatmoq; **2.** *fig* kutib turmoq, sabr qilmoq, poylamoq; **guetter l'occasion** qulay vaqtni poylamoq.

**guetteur** *nm mil* kuzatuvchi, poyloqchi, izquvar, soqchi (*jangovor holda*).

**gueulante** *nf arg* norozilik ovozlari yoki ma'qullash; **pousser une gueulante** norozi yoki ma'qullab bo'lib shovqin qilmoq.

**gueulard, arde I.** *adj fam* baqiroq, vag'vag', shang'i; ovozi baland; **II.** *n fam* **1.** baqirib turadigan odam, shang'i, baqiroq, vag'vag'; **2.** yebto'ymas, ochofat, mechkay.

**gueule** *nf* **1.** og'iz, dahan, kom; bashara, aft, yuz, bet; **une fine gueule** ovqat shinavandasi, mazaxo'r; **avoir beaucoup de gueule** tili o'tkir, achchiq bo'lmoq; **(ferme) ta gueule** *fam* jim bo'l, og'zingni yop! **2.** qurol og'zi; **3.** quyilish joyi, teshik joy; **4.** tumshuq; **bonne gueule** yoqimli, istarasi issiq odam.

**gueule-de-loup** *nf bot* it og'iz (*gul*).

**gueuler** *vt* baqirmoq, shang'illamoq, bo'kirmoq, dodlamoq, dod solib yubormoq.

**gueuleton** *nm fam* mazali, mo'l-ko'l ovqat; kichik ziyofat.

**gueux, gueuse** *nf* **1.** tilanchi, gadoy, sadaqaga yashovchi; **2.** shilqim.

**gui** *nm bot* chirmoviq.

**guibolle** *ou* **guibole** *nf fam* oyoq.

**guichet** *nm* **1.** tuynuk, teshik, darcha; **2.** tuynuk.

**guichetier** *nm* qabul qiluvchi xodim.

**guidage** *nm* boshqarish; raketani to'g'rilash.

**guide I.** *nm* **1.** yo'l boshlovchi, yo'l ko'rsatib boruvchi; **2.** yo'l ko'rsatkich, yo'riqnoma (*kitobcha*), ma'lumotnoma (*kitobcha*), *mar* sayozlik, yo'lni ko'rsatadigan po'kak belgi, buy, ishorat qozig'i, belgisi; **II.** *nf* tizgin, jilov.

**guider I.** *vt* **1.** olib bormoq, yetaklab bormoq, boshlab bormoq, yo'l ko'rsatmoq; **2.** boshqarmoq, haydamoq (*mashinani*); **3.** idora qilmoq, boshqarmoq, rahbarlik, yo'lboshchilik, yetakchilik qilmoq, bosh bo'lmoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq, yo'naltirmoq; **II. se guider** amal qilmoq, tayanmoq, qo'llanma, dastur qilib olmoq.

**guigne¹** *nf* qora gilos.

**guigne²** *nf* omadsizlik.

**guigner I.** *vi* hirs bilan qaramoq; **II.** *vt* yashirin qaramoq, ko'z qirini tashlamoq, zimdan kuzatmoq.

**guignier** *nm* gilos daraxti.

**guignol** *nm* **1.** qo'g'irchoq teatrida bosh qahramon; **faire le guignol** masxarabozlik qilmoq, qiziqchilik qilmoq; **2.** qo'g'irchoq teatri.

**guignolet** *nm* gilos likyor.

**guignon** *nm fam* muvaffaqiyatsizlik, ishi o'ngmaslik, omadsizlik, sira omadi yurishmaslik.

**guillemet** *nm* qo'shtirnoq; **ouvrir les guillemets** qo'shtirnoq ochmoq; **fermer les guillemets** qo'shtirnoq yopmoq; **mettre entre guillemets** qo'shtirnoq ichiga olmoq.

**guilleret, ette** *adj* shod, xursand, vaqti, kayfi, dimog'i chog', quvnoq, xushchaqchaq, ochiq, sho'x, o'ynoqi, yengiltak.

**guillocher** *vt* naqshlar bilan bezamoq, naqsh solmoq.

**guillocheur** *nm* naqqosh, bezakchi, naqshchi, hunarmand.

**guillotine** *nf* bosh oladigan, kesadigan jodi, gilotina.

**guillotiner** *vt* jodi bilan boshini kesmoq.

**guimauve** *nf bot* gulxayri, tugmagul, tugmachagul.

**guimbarde** *nf* **1.** *vx* yuk arava, soyabon arava; **2.** eski, shaloq mashina.

**guimpe** *nf* **1.** ko'krakpech, ko'krak fartugi, oshxo'rak; **2.** ko'ylakning qadama ko'krak qismi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**guincher** *vi fam* raqsga tushmoq, o'ynamoq.

**guindé, ée** *adj* **1.** sun'iy, yasama, zo'rma-zo'raki, nosamimiy, rasmiy, jiddiy, o'taketgan rasmiyatchi, rasmiyatparast, o'ziga bino qo'ygan, gerdaygan; **2.** g'ayritabiiy, bejamdor, tamtaroq, balandparvoz, dabdabali, serhasham; **3.** g'o'daygan, beo'xshov, beso'naqay, qisilib, siqilib qolgan (*kiyimlarida*).

**guindeau** *nm* kema langarini ko'tarib-tushirib turuvchi chig'ir.

**guinder I.** *vt* **1.** ko'tarmoq, balandga olib chiqmoq (*biror uskuna, mashina bilan*); **2.** dabdabali tus bermoq (*so'z, nutq, ko'rinish, yurish-turishga*); **II. se guinder** *vpr* o'zini katta tutmoq, gerdaymoq, kekkaymoq, kibrlanmoq, kattalik qilmoq, g'o'daymoq.

**guingois** *nm* **de guingois** *loc adv* qiyalab, qiyamasiga, qiyshiq, qing'ir, egri-bugri, yoniga, yon tomoniga; **une maison de guingois** yoniga qiyshaygan uy.

**guinguette** *nf* kichkina qovoqxona, mayxona, restorancha.

**guipure** *nf* bo'rtma gazmol, qavariq to'r, to'r kashta.

**guirlande** *nf* gul, har xil bezaklar, yangi yilda bezash uchun (*bayroqcha, qog'oz o'yinchoqlar*).

**guise** *nf* **à ma, ta, sa guise** xohlagancha, istagancha; **en guise de** *loc prép* o'rniga, xuddi.

**guitare** *nf* gitara (*cholg'u asbobi*).

**guitariste** *nm* gitara chaluvchi, chertuvchi.

**gymnase** *nm* **1.** gimnaziya zali; **2.** gimnaziya.

**gymnaste** *nm* gimnastikachi (*o'qituvchisi, shogirdi*).

**gymnastique I.** *adj* gimnastikaga oid; **II.** *nf* gimnastika; **la gymnastique aux agrès** snariyadlarda gimnastika; **la gymnastique artistique** badiiy gimnastika.

**gymnospermes** *nf pl bot* yalong'och, ochiq urug'lilar, urug'i ochiq o'simliklar.

**gynécée** *nm* **1.** *hist* xotinlar xonasi (*greklarda*), fohishaxona, haram, haramxona; **2.** *bot* urug'chi, onalik.

**gynécologie** *nf méd* ginekologiya (*xotin-qizlar organizmining o'ziga xos anatomik-fiziologik xususiyatlarini hamda ularning jinsiy a'zolari kasalliklarini o'rganuvchi tibbiyot sohasi*).

**gynécologique** *adj* ginekologiyaga oid.

**gynécologue** *ou* **gynécologiste** *n* ginekologiya mutaxassisi, ginekolog.

**gypaète** *nm* soqolli boltayutar.

**gypse** *nm* gips, qurilish materiali.

**gyrophare** *nm* politsiyachi mashinasi ustiga qo'yilgan chiroq, fonus.

**gyroscope** *nm* giroskop.

**gyroscopique** *adj* giroskopik, giroskopga oid.

# H

**H¹, h** *nm inv* fransuz alifbosining sakkizinchi harfi.

**h²** *abrév* **(hydrogène)** vodorodning kimyoviy belgisi; **bombe H** vodorod bombasi.

**ha¹** *nm* ga (*gektarning belgisi*), *voir* **hectare**.

**ha² 1.** *intj* a! ha! **ha! ha que c'est drôle!** Ha! Ha! Bu qanday kulgili!

**habile I.** *adj* mohir, mahoratli, ustasi farang, epchil, chaqqon, abjir, chapdast, tez, uquvli, uddaburo; **des mains habiles** mohir, epchil qo'llar; **II.** *n* olg'ir, uddaburo, yulduzni benarvon uradigan.

**habilement** *adv* epchillik, chaqqonlik bilan, mohirona, ustalik bilan.

**habileté** *nf* epchillik, chaqqonlik, abjirlik, chapdastlik, ustalik, mahorat, uddaburolik.

**habiliter** *vt* kuchga kirmoq, qonuniylashmoq, vakolat bermoq; **être habilité** huquqqa ega bo'lmoq, huquqli bo'lmoq.

**habillage** *nm* kiyinish.

**habillé, ée** *adj* yaxshi kiyingan, tantanali, dabdabali, bayramona, zebo, bashang, orasta, xushbichim, kelishgan; **une robe habillée** bayram libosi.

**habillement** *nm* **1.** kiyinish, kiyintirish; **2.** kiyim, libos, kiyim-kechak.

**habiller I.** *vt* **1.** kiyintirmoq; ust-bosh olib bermoq; **habiller en** -ga o'xshab kiyintirmoq; **2.** kiyim-kechak bilan ta'minlamoq; **3.** kiyim-kechak tikmoq; **4.** yarashmoq; **cette robe vous habille à ravir** bu ko'ylak sizga yarashibdi; **II. s'habiller** *vpr* kiyinmoq.

**habilleur, euse** *n th* yasantiruvchi, liboslar ustasi.

**habit** *nm pl* kiyim, kiyim-bosh, ust-bosh, libos, sarpo; **un habit de cérémonie** frak; **ôter ses habits** yechinmoq; **l'habit ne fait pas le moine** kiyimiga qarab baho berib bo'lmaydi; **prendre l'habit** rohib bo'lmoq.

**habitable** *adj* yashab bo'ladigan, yashaydigan, yashashga yaroqli joy.

**habitacle** *nm* **1.** samolyotni boshqarish xonasi, kabinasi; **2.** fazo kemasining yashash bo'linmasi.

**habitant, ante** *n* **1.** xonadon sohibi, istiqomat qiluvchi; **2.** yashovchilar, turuvchi, ko'chib kirgan odamlar.

**habitat** *nm* uy-joy, makon, istiqomat joyi; **les conditions d'habitat** uy-joy sharoiti.

**habitation** *nf* **1.** makon, uy-joy, uy, kulba; **2.** turish, istiqomat qilish, biror yerda yashash, qishloq, ovul, manzilgoh.

**habité, ée** *adj* o'zlashtirilgan, odam yashayotgan.

**habiter** *vt, vi* yashamoq, istiqomat qilmoq, hayot kechirmoq, umr ko'rmoq; **habiter à la campagne** qishloqda turmoq; **habiter (dans) une maison** uyda yashamoq; **la paix habite cette maison** bu uyda tinchlik hukmron.

**habitude** *nf* **1.** odat, o'rganish, malaka, ko'nikma, mahorat, qiliq; **prendre, avoir l'habitude de** odatlanmoq, o'rganmoq, malakaga, mahoratga ega bo'lmoq, biron narsaga ko'nikmoq, o'rganib qolmoq; *loc adv* **d'habitude** odatda, odatga ko'ra, binoan, hamma vaqt, har doim; **2.** urf-odat; **avoir des habitudes de bourgeois** o'zini burjuadek tutmoq; **cela tourne en habitude** bu urf-odatga aylanib qolgan; **à son habitude** odaticha.

**habitué, ée** *n* o'rgangan, ko'nikkan, hamisha hoziru nozir, kunda-shunda, doimiy mehmon.

**habituel, elle** *adj* **1.** oddiy, odatiy, o'rganish bo'lib qolgan, odat bo'lib qolgan, odatga, ko'nikmaga aylangan; **2.** kundalik, tez-tez takrorlanadigan, azaliy, doimiy.

**habituellement** *adv* odat bo'yicha, odatdagidek, odatan.

**habituer I.** *vt* o'rgatmoq, ko'niktirmoq, odatlantirmoq; **II. s'habituer** *vpr* o'rganmoq, odatlanmoq, ko'nikmoq, ko'nikma hosil qilmoq, taqdirga tan bermoq.

**hâblerie** *nf* maqtanchoqlik, lofchi, katta og'iz, yolg'on-yashiq, behuda gaplar, uydirma.

**hâbleur, euse** *n* maqtanchoq, manman, gapdon, so'zamol, mahmadona, ezma, quruq, sergap, yolg'onchi, aldamchi, lofchi, safsataboz, olibqochar.

**hache** *nf* bolta; *hist* oybolta.

**haché, ée** *adj* **1.** qiymalangan, maydalangan, burdalangan, to'g'ralgan, kesilgan; **de la viande hachée** qiyma, to'g'ralgan go'sht; **2.** uzuq-yuluq, qisqa-qisqa (*bo'g'in haqida*); **3.** chiziqlarga ajratilgan (*rasmda*).

**hacher** *vt* **1.** kesmoq, chopmoq, to'g'ramoq, qiymalamoq, tilmoq, yormoq, kesib bo'laklamoq, qirqmoq, maydalamoq, to'qmoqlamoq (*go'shtni*); **hacher les mots** so'zlarni uzib gapirmoq, uzuq-yuluq gapirmoq; **2.** yo'nmoq, tarashlamoq, kertik, naqsh qilmoq; **3.** chiziqlarga bo'lmoq.

**hachette** *nf* boltacha.

**hachis** *nm* qiymalangan go'sht, baliq, sabzavot.

**hachisch** *nm* nasha.

**hagard, arde** *adj* umidsiz, qo'rquvli; **œil hagard** bejo ko'zlar.

**hagiographie** *nf* sog'lom hayot tarzi.

**haie** *nf* **1.** ihota, chetan devor; **2.** *sport* to'siq, baryer; *pl* g'ovli, to'siqli yugurish; **les quatres cents mètres haies** 400 metr to'siqli yugurish; **un franchissement de haie** to'siqni bosib o'tish.

**haillon** *nm* **1.** eski-tuski, latta-putta, uvada; **2.** *pl* juldur kiyim, janda.

**haine** *nf* nafrat, yomon ko'rish, adovat, kek, xusumat, gina, qahr, g'azab; **avoir de la haine pour** nafratlanmoq, jirkanmoq; **prendre en haine** yomon ko'rmoq; **en haine de** nafrat bilan; **par haine** nafratdan, kekdan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**haineusement** *adv* nafratona, kek saqlab.

**haineux, euse** *adj* nafrat to'la, g'azabli, qahrli, kekli.

**haïr I.** *vt* nafratlanmoq, yomon ko'rmoq; **se faire haïr** nafrat uyg'otmoq, yomon ko'rinmoq; **II. se haïr** *vpr* o'zidan nafratlanmoq, o'zini-o'zi yomon kormoq; bir-birini yomon ko'rmoq.

**haïssable** *adj* jirkanch, manfur, nafratomuz, qabih, nafrat qo'zg'atadigan, juda xunuk, razil, iflos, ablahona.

**hâle** *nm* oftobda qorayish, badanning qoraygan rangi.

**hâlé, ée** *adj* qoraygan, oftobda qizargan.

**haleine** *nf* nafas, dam, nafas olish, chiqarish; **une mauvaise haleine** og'izning yomon hidi, sassig'i; **perdre haleine** nafasi siqilmoq, tiqilmoq, entikib qolmoq; **être hors d'haleine** harsillamoq; **prendre haleine** nafasini rostlab olmoq; **à perdre haleine** *loc adv* tinka-madori qurigunchа; **en haleine** nafasini rostlab; **tenir en haleine** tarang tutmoq; **tenir son ennemi en haleine** dushmanni to'xtamay, dam oldirmay ta'qib etmoq; **de longue haleine** uzoq, davomli tin; **une politique de longue haleine** uzoqni ko'zlagan siyosat.

**haler** *vt mar* shatakka olmoq, tortmoq, sudramoq.

**hâler I.** *vt* **1.** badanni oftobda toblamoq, qoraytirmoq; **2.** qizdirmoq, kuydirmoq (*quyosh*); **II. se hâler** *vpr* oftobda toblanmoq, qoraymoq.

**haletant, ante** *adj* **1.** harsillagan, nafasi siqilgan, zo'rg'a nafas olayotgan, uzuq-yuluq nafas; **le public haletant écoutait** xalq nafasini ichiga yutib tinglardi; **2.** chanqoq, chanqagan, tashna, suvsagan; **être haletant d'impatience** sabrsizlik, toqatsizlik bilan yonmoq; **3.** xavotirlangan.

**halètement** *nm* uzuq-yuluq nafas olish, nafas siqilishi.

**haleter** *vi* og'ir, uzuq-yuluq nafas olmoq, nafasi, dami siqilmoq, harsillamoq, pishqirmoq, pishillamoq; **faire haleter** harsillatmoq.

**hall** *nm* xoll, katta zal.

**halle** *nf* yopiq bozor, tim, rasta; **la halle au blé** g'alla rastasi.

**hallucinant, ante** *adj* **1.** alahsiratadigan, ko'zga ko'rinib ketadigan; **2.** g'ayrioddiy, odatdan tashqari, o'zgacha, favqulodda, g'alati, ajoyib; **une ressemblance hallucinante** haddan tashqari o'xshashlik.

**hallucination** *nf* alahsirash, ko'zga ko'rinib ketish.

**halluciné, ée** *adj* ko'zga ko'rinib ketishga mubtalo, giriftor, alahsiraydigan.

**halluciner** *vt* **1.** alahsiramoq, ko'zga ko'rinmoq; **2.** *fam* lol, hayron, qoyil qoldirmoq, esankiratmoq, dovdiratmoq, taajjubga solmoq, hayratga solmoq, hang-mang qilib qo'ymoq.

**halogène I.** *adj* yog'du hosil qiladigan; **II.** *nm* galogen.

**halte I.** *nf* **1.** to'xtash, turish joyi; *mil* dam olish, qo'nish; **2.** platforma (*temir yo'l*); **3.** to'xtash, tanaffus, dam olish; **faire halte** to'xtamoq, dam olmoq, tanaffus qilmoq; **II.** *intj* **halte!, halte-là!** to'xta! joyingdan qimirlama! bo'ldi, yetar!

**haltère** *nm sport* gantel, shtanga; **faire des haltères** gantel ko'tarmoq.

**haltérophile I.** *adj sport* og'ir atletikaga oid; **II.** *nm* og'ir atlet, shtang ko'taruvchi.

**haltérophilie** *nf sport* og'ir atletika.

**hamac** *nm* **1.** to'r belanchak; **2.** osma karavot.

**hameau** *nm* qishloqcha, qishloq, xutor, qo'rg'oncha.

**hameçon** *nm* baliq qarmog'i; **mordre à l'hameçon** *fam* qarmoqqa ilinmoq, o'ngidan kelmoq.

**hammam** *nm* hammom.

**hampe** *nf* **1.** bayroq dastasi; **2.** qamchidasta, asboblar dastasi.

**hamster** *nm* oq sichqon (*kemiruvchi hayvon*).

**hanche** *nf* **1.** son, tos; **le poing sur la hanche** qo'lini biqiniga qo'yib; **2.** orqa son; **3.** kema quyrug'i.

**handball** *nm sport anglic* qo'l to'pi, gandbol.

**handicap** *nm anglic* **1.** *sport* yutuqni tenglashtirish; **2.** *fig* to'siq, g'ov, to'sqinlik, mashaqqat, noxush hodisa.

**handicapé, ée** *n* majruh, nogiron.

**handicaper** *vt* **1.** musobaqani tenglashtirmoq; **2.** *fig* birovni nochor holga solib qo'ymoq.

**hangar** *nm* bostirma, ayvon, shiypon, soyabon (*samolyot uchun*); **un hangar mobile** ko'chma bostirma, yig'ma.

**hanneton** *nm* **1.** tilla qo'ng'iz; **2.** *fam* yengiltak, betayin.

**hanté, ée** *adj* **une maison hantée** arvoh, sharpa, ko'lanka ko'rinadigan uy.

**hanter** *vt* **1.** *vieilli* tez-tez kelib turmoq, kelmoq, bordi-keldi qilmoq, do'stona yashamoq; **2.** uzluksiz ta'qib qilmoq (*fikr*); **l'idée de la gloire le hante** shon-shuhrat uni tinchitmaydi; **il est hanté par des rêves** uni tushlar tinch qo'ymaydi.

**hantise** *nf* miyaga o'rnashib qolgan g'oya, fikr, o'y, xayol; **la hantise de la mort** o'lim vasvasasi.

**happer I.** *vt* ushlamoq, tutib olmoq, ushlab olmoq, ilib olmoq; **il a été happé par le train** uni poyezd sudrab ketdi; **II.** *vi vx* yopishmoq.

**haquenée** *nf vx* yuvosh, yo'rg'a baytal.

**harangue** *nf* **1.** tantanali nutq; **2.** *fam* zerikarli nutq, uzoq pand-nasihat.

**haranguer** *vt* **1.** nutq bilan murojaat qilmoq; **haranguer une foule** olomon oldida nutq so'zlamoq; **2.** *fam* koyimoq, tanbeh bermoq.

**harangueur, euse** *n* ezma, sergap, vaysaqi, safsataboz.

**haras** *nm* **1.** ot zavodi; **2.** otlar uyuri, yilqi.

**harassant, ante** *adj* holdan toydiradigan, charchatadigan.

**harasse** *nf* shisha va chinni buyumlarni tashish uchun mo'ljallangan o'rama.

**harassement** *nm* qattiq holdan toyish, charchash.

**harasser** *vt* qattiq holdan toydirmoq, charchatmoq, tinka-madorini quritmoq.

**harcelant, ante** *adj* og'ir, mashaqqatli, azob beradigan, qiynaydigan.

**harcèlement** *nm* **1.** asabiga, joniga tegish, bezor qilish, shilqimlik, xiralik qilish; **2.** *mil* ta'qib qilish.

**harceler** *vt* **1.** qiynamoq, azob bermoq, joniga tegib ketmoq; **harceler de questions** savolga ko'mib tashlamoq; **2.** *mil* bezovta qilib turmoq, to'xtovsiz ta'qib qilmoq.

**harde** *nf* to'da, gala, poda.

**hardes** *nf pl* eski kiyimlar.

**hardi, ie I.** *adj* jasur, botir, dovyurak, qo'rqmas, jur'atli, yurakli; **un projet hardi** qat'iy fikr, niyat, reja, mo'ljal; **2.** dadil, mardonavor, qo'rs; **II.** *intj* **hardi!** ha barakalla! qani! qani! qo'rqmasdan!

**hardiesse** *nf* **1.** dadillik, jasurlik, botirlik, dovyuraklik, jasorat, mardlik; **2.** qo'rslik, mardonavorlik, erkinlik; **prendre la hardiesse de** jur'at qilmoq, biror ish qilishga botinmoq; **prendre des hardiesses avec** birovga nisbatan o'zini erkin tutmoq.

**hardiment** *adv* **1.** dadil, jasurona, dovyuraklik bilan; **2.** mardonavor, qo'rslik bilan, qo'pol.

**harem** *nm* haram.

**hareng** *nm* seld balig'i; **un hareng saur** dimlangan seld; **(serrés) comme des harengs (en caque)** tiqilib ketgan, g'ij-g'ij; **sec comme un hareng** tarashaday ozg'in, teri va suyak.

**hargne** *nf* jizzakilik, serjahllik, achchiqlanish, g'azablanish.

**hargneusement** *adv* g'azab, qahr, jahl bilan.

**hargneux, euse** *adj* chiqisholmaydigan, murosa qilolmaydigan, sho'rtumshuq, mijg'ov, ming'ir-ming'ir, yovuz, badjahl, jahli tez, darg'azab; **un chien hargneux** qopag'on it; **un regard hargneux** yovuz qarash.

**haricot** *nm* **1.** loviya; **des haricots verts** ko'k loviya; **des haricots blancs** oq loviya; **2. un haricot de mouton** qo'y go'shti qovurmasi.

**haridelle** *nf* qirchang'i ot.

**harmonica** *nm* og'izda chalinadigan soz.

**harmonie** *nf* **1.** o'zaro moslik, monand, muvofiqlik, uyg'unlik, hamohanglik, bir xillik; **2.** kelishuvchilik, yakdillik, birdamlik, hamjihatlik; **être en harmonie avec** muvofiqlikda bo'lmoq, uyg'un, ohangdosh, hamohang bo'lmoq; **3.** *mus* hamohanglik; **4.** duxovo'y orkestr.

**harmonieusement** *adv* hamohanglik bilan, tekis, birxil.

**harmonieux, euse** *adj* hamohang, ohangdosh, jarangli.

**harmonique I.** *adj* hamohang, ohangdosh; **II.** *nm* **1.** *mus* asosiy ohangga alohida tus beruvchi ohang; **2.** moslik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**harmoniquement** *adv* o'zaro moslik, monandlik, muvofiqlik, uyg'unlik bilan.

**harmonisation** *nf* uyg'unlashtirish.

**harmoniser I.** *vt* **1.** muvofiqlashtirmoq, mos, monand, uyg'un, bir xil qilmoq; **2.** *mus* ohangdosh, hamohang qilmoq; **II. s'harmoniser** *vpr* moslashmoq, uyg'unlashmoq, tartibga, joyiga tushmoq.

**harmonium** *nm* klavishli musiqa asbobi.

**harnachement** *nm* **1.** ot egar-jabdug'i, afzali; **2.** egarlash; **3.** askar kiyim-anjomi.

**harnacher I.** *vt* egarlamoq; yasanmoq; **II. se harnacher** *vpr* qo'pol kiyinmoq.

**harnais** *nm* ot egar-jabdug'i, afzali.

**harpagon** *nm* qurumsoq, o'ta xasis, ziqna odam.

**harpe** *nf mus* arfa.

**harpie** *nf* **1.** *myth* dovul qushi; **2.** *fam* zahar, jahldor, jodugar, yalmog'iz, alvasti ayol.

**harpon** *nm* **1.** garpun, changak nayza, sanchqi nayza; **2.** qo'lga olish, tutib olish, hibsga olish.

**harponnage** *nm* **1.** changak nayza, sanchqi otish; **2.** *fam* tutib, ushlab olish.

**harponner** *vt* **1.** sanchqi, changak bilan urmoq, ovlamoq; garpun otmoq; **2.** *fam* ilib olmoq, ilmoq, tutib olmoq; **se faire harponner par la police** militsiya qo'liga tushmoq, ilinmoq.

**harponneur** *nm* garpun, nayza otuvchi, changak, sanchqi tashlovchi.

**hasard** *nm* tasodif, kutilmagan hol, taqdir, qismat, yozmish, tole; xavf-xatar, qaltis ish, tavakkal; **un coup de hasard** sof tasodif, kutilmagan voqea; **un jeu de hasard** qimor; **s'en remettre au hasard** tavakkal qilmoq; *loc adv* **au hasard** tavakkal qilib, qanday qilib bo'lsada; **à tout hasard** har ehtimolga qarshi; **par hasard** tasodifan.

**hasardé, ée** *adj* **1.** qaltis, xatarli, dovyurak, qo'rqmasdan, qo'pol, qo'rs; **2.** yengiltaklik.

**hasarder** *vt* **1.** tavakkal qilmoq, xavf-xatarga qo'ymoq; **2.** jur'at etmoq, tavakkal qilmoq.

**hasardeux, euse** *adj* **1.** xavf-xatarli, xavfli; **2.** jasur, qo'rqmas.

**hase** *nf* urg'ochi quyon.

**hâte** *nf* shoshilish, shoshma-shosharlik, oshiqish, shoshqaloqlik; **avoir grande hâte** shoshilmoq; **mettre trop de hâte à partir** juda shoshilib jo'nab ketmoq; *loc adv* **en (toute) hâte** shoshilinch ravishda, shoshilib, tezdan; **à la hâte** hovliqib, shoshib, shoshma-shosharlik bilan.

**hâter I.** *vt* tezlatmoq, tezligini oshirmoq, shoshiltirmoq; **hâter le pas** qadamini tezlatmoq; **hâter son départ** jo'nab ketishini tezlatmoq; **II. se hâter** *vpr* shoshmoq, shoshilmoq; *prov* **qui trop se hâte, reste en chemin** shoshilsang kulgi bo'lasan; shoshilgan qiz erga yolchimas.

**hâtif, ive** *adj* **1.** ertapishar, chillaki; 2 shoshilinch, tez.

**hâtivement** *adv* shoshilinch, shoshib.

**hausse** *nf* **1.** bahoni oshirish; qimmatlashish; **être en hausse** bahoni oshirmoq; **jouer à la hausse** bahoni oshirishga garov o'ynamoq (*birjada*); **3.** mo'ljal, nishon.

**haussement** *nm hist* ko'tarish, oshirish; **un haussement de voix** ovozini ko'tarish; **un haussement d'épaules** yelkalarini ko'tarish, siqish.

**hausser I.** *vt* ko'tarmoq, oshirmoq, yuqoriga ko'tarmoq; **hausser les prix** bahoni ko'tarmoq; **hausser la voix, le ton** tovushini, ohangini oshirmoq; **hausser les épaules** yelkalarini siqmoq, qismoq; **II.** *vi* **1.** martabasi oshmoq, ko'tarilmoq; **2.** bahosi oshmoq, qimmatlashmoq; **III. se hausser** *vpr* baland ko'tarilmoq, ustun bo'lmoq, yuqori bo'lmoq.

**haussier** *nm* bahoni oshirishga garov o'ynovchi (*birjada*).

**haussière** *nf mar* bog'laydigan arqon.

**haut, haute I.** *adj* **1.** baland, yuksak, yuqori; **2.** olijanob, buyuk, ko'tarinki; **la rivière est haute** daryo suvi ko'tarildi; **la haute mer** dengiz ko'tarilayotibdi; **avoir la main haute** bosh bo'lmoq, boshqarmoq; *loc adv* **haut la main** o'rinlatib, qoyil qilib, juda yaxshi, osongina; **marcher le front haut** boshini, qomatini rostakam ko'tarib yurmoq; **3.** oliy, bosh, eng yuqori; **les hautes classes de la société** jamiyat oliy tabaqalari, sinflari; **la haute chambre** yuqori palata; **4.** chuqur ma'noli, ma'nodor, ajoyib, katta, yirik, ulkan, ko'p, bisyor, talay, kuchli; **au plus haut degré** oliy darajada; **haute trahison** davlatga, vatanga xiyonat, xoinlik; **haut en couleur** qizil yuzli, qizil, yorug', yorqin, charaqlagan, aniq; **avoir une haute opinion de qqn** yuqori fikrda bo'lmoq; **5.** *géog* ustki, tepasi, yuqorisi; **le Haut Rhin** Yuqori Reyn (*departament*); **6.** qattiq, baland, yuqori; **à haute voix** baland ovozda, eshittirib; **7. la haute antiquité** uzoq o'tmish, juda qadimgi zamon; **II.** *nm* **1.** yuqori, yuqori qismi; tepasi; **le haut du jour** tush, choshgoh, qiyom; **par le haut** tepasida; **haut de forme** silindr; **le prendre de haut** behayolik, surbetlik, beorlik bilan gaplashmoq; **tenir le haut du pavé** imtiyozli holatda bo'lmoq; **2.** *pl* kemaning suv usti qismi; **III.** *nf fam* davlatmand, boy, zodagon, oqsuyak, aslzoda, a'yonlar, jamiyatning oliy tabaqasi; **IV.** *adv* **1.** baland, yuqori; **haut placé** baland martabali, yuqori mansabli, martabasi ulug'; **haut les mains!** qo'l ko'taring! **2.** baland tovushda; **plus haut** balandroq; **de haut en bas** *loc adv* yuqoridan, balandan pastga, takabburona, kekkayib, mensimasdan; **regarder qqn de haut en bas** kekkayib qaramoq; **en haut** tepada, yuqorisida, uchida; **d'en haut** balanddan, balanddagi; **là haut** ustida; **en haut de** *loc prép* tepaga, balandga.

**hautain, aine** *adj* takabbur, manman, kibr-havosi baland, kalondimog', kekkaygan, mag'rur.

**hautbois** *nm mus* **1.** yog'och musiqa asbobi; **2.** shu asbobni chaluvchi.

**haut-de-chausses** *nm pl* kalta shimlar.

**haut-de-forme** *nm* silindr bosh kiyimi.

**haute-contre** *nm* tenor, baland ovoz.

**hautement** *adv* ochiq-oydin, hammaga eshittirib; **2.** yuqori darajada.

**hautesse** *nf* oliy hazrat.

**hauteur** *nf* **1.** balandlik, ko'k; **le saut en hauteur** *sport* balandlikka sakrash; **prendre de la hauteur** *av* ko'kka intilmoq; **à hauteur de** tepasida, yuqorida; **être à la hauteur de qqch** *fig* boshqarmoq, qanoatlantirmoq, qondirmoq (*talabni*); **2.** ko'tarinkilik, yuksaklik, buyuklik; **3.** balandparvozlik, kekkayish, takabburlik.

**haut-fond** *nm* sayozlik, sayoz joy.

**hautin** *nm techn* tikka qilib o'stiriladigan tok.

**haut-le-cœur** *nm inv* **1.** ko'ngil aynish, behuzur bo'lish, qayt qilgisi kelish; **2.** *fig* jirkanish, nafrat.

**haut-le-corps** *nm inv* **1.** gavdaning orqaga qo'pol harakati (*qo'rquvdan, hayratdan*); **2.** otning keskin irg'ishi.

**haut-parleur** *nm* radiokarnay.

**haut-relief** *nm* tekis yuzaga ishlangan bo'rtma naqsh, shakl.

**havage** *nm* kertik, chopish, ishlab chiqarish kesigi, o'yig'i.

**havanais, aise I.** *adj, nm* gavanalik; **II.** *nm* kichkina baroq it, uzun yungli laycha.

**havane I.** *nm* gavana (*sigara, tamaki turi*); **II.** *adj inv* tamaki rangli, oq-sariq.

**hâve** *adj* oriq, ozg'in, rangi o'chgan, rangsiz, oqargan.

**haver** *vt* ko'mir ishlab chiqarishga qilingan kesik, o'ymoq.

**haveur** *nm* kon qazuvchi, kertik, belgi qilish mashinachisi.

**havresac** *nm mil* safar xalta, asboblar solinadigan qopcha, xalta.

**hé!** *intj* hey! ey! (*chaqirish, diqqatni tortish uchun*); **hé bien?** xo'sh nima?

**heaume** *nm hist* dubulg'a, temir qalpoq.

**hebdomadaire I.** *adj* haftalik, haftada bir bo'ladigan; **une revue hebdomadaire** haftalik jurnal; **II.** *nm* haftalik, haftada bir chiqadigan.

**hebdomadairement** *adv* har hafta, haftada bir marta.

**hébergement** *nm* boshpana berish, uyidan joy berish.

**héberger** *vt* boshpana bermoq, uyiga joylashtirmoq.

**hébété, ée** *adj, nm* karaxt, gangigan, boshi aylangan, miyasi aynigan.

**hébétement** *nm* miyasi aynish, aqldan ozish, esi pastlik, befahmlik.

**hébéter** *vt* aqldan ozdirmoq, miyasini aynitmoq.

**hébétude** *nf* miyasi aynish, aqldan ozish.

**hébraïque** *adj* qadimgi yahudiylarga va madaniyatiga oid.

**hébreu I.** *adj* qadim yahudiy; **II.** *nm* qadim yahudiy tili, ivrit; **c'est de l'hébreu** *fig* bu narsaga umuman tushunib bo'lmaydi, chalkash, mushkul.

**hécatombe** *nf* insonni yoki hayvonlarni ko'plab o'ldirish, qirg'in, qatli om.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**hectare** *nm* gektar.
**hectique** *adj* holdan toydiradigan (*isitma*).
**hectogramme** *nm* yuz gramm.
**hectolitre** *nm* yuz litr.
**hectomètre** *nm* yuz metr.
**hectométrique** *adj* yuz metrli.
**hégémonie** *nf* ustunlik, yo'lboshchilik.
**hégire** *nf* hijriy yil.
**hein** *intj* qanday? nima? qanaqasi?
**hélas** **1.** *intj* evoh, hayhot, voh, attang, afsus! **2.** *nm pl* oh-vohlar, oh-voh urish.
**héler** *vt* chaqirmoq, chorlamoq; **héler un taxi** taksi chaqirmoq.
**hélice** *nf* **1.** *géom* spiral, parmasimon, purjinasimon, burama chiziq; **2.** burama yo'l; **un escalier en hélice** burama narvon; **3.** parrak; **4.** aylanma chiziq (*qurolda*); **5.** *anat* quloq suprasining buramasi.
**hélicoïdal, ale** *adj* parraksimon, burama.
**hélicoïde** *adj* parraksimon, burama.
**hélicoptère** *nm av* vertolyot.
**héliocentrique** *adj* quyosh atrofida aylanadigan.
**héliographe** *nm* quyoshni suratga oluvchi asbob, teleskop.
**héliographie** *nf* quyoshni o'rganish fani.
**héliogravure** *nf* naqsh, rasm solish, tushirish (*metallga*).
**héliomètre** *nm* oy, sayyoralar diametrini o'lchagich asbob.
**héliothérapie** *nf* quyosh nuri terapiyasi.
**héliotrope** *nm* ko'kmaraz (*binafsharang gulli o'simlik*); geliotrop (*ko'kish tiniq mineral*).
**héliotropine** *nf chim* hidli gullar qorishmasi.
**héliport** *nm* vertolyot aerodromi.
**hélium** *nm chim* geliy (*gaz*).
**hellène** *n et adj* ellin, qadimgi grek, yunon.
**hellénique** *adj* ellin, qadimgi grek (*tili*).
**hellénisant, ante** *ou* **helléniste** *n* ellinist, grek tili filologi.
**hellénisation** *nf* grek ta'sirini oshirish, ellinlash.
**helléniser** **I.** *vt* grek ta'sirini oshirmoq; **II.** *vi* qadimgi grek tilini o'rganmoq.
**hellénisme** *nm* **1.** qadimgi grek madaniyati; **2.** *ling* grek tilshunosligi.
**helléniste** *n voir* **hellénisant**.
**hellénistique** *adj* qadimgi grek.
**helminthe** *nm* gijja.
**helvète** *nm hist* shveysariyalik.
**helvétien, ienne** *n* Shveysariyalik, Gelvesiyalik.
**helvétique** *adj* Shveysariyaga oid.
**helvétisme** *nm* Shveysariyada fransuz tiliga oid birliklar.
**hématie** *nf physiol* qizil qon tanachalari.
**hématine** *nf* gematin (*qon pigmentlari, bo'yoqlari*).
**hématite** *nf min* qizil temirtosh, temir rudasi, koni.
**hématologie** *nf* qon tarkibini o'rganish fani, qonshunoslik.
**hématologique** *adj* qonshunoslik.
**hématologiste** *ou* **hématologue** *n* gematolog.
**hématome** *nm* gematoma, qontalash, shish.
**hématopoïèse** *nf* qon tanachalarini hosil qilish.
**hématose** *nf* qon hosil qilish, yaratish, gematoz.
**hématozoaire** *nm* qon so'rg'ich, qonparazit, qonxo'r (*a'zolar*).
**hématurie** *nf méd* gematuriya, siydikdagi qon, qon siyish.
**hémicycle** *nm* yarimdoira; amfiteatr.
**hémicylindrique** *adj* yarim silindr shaklida.
**hémione** *nm zool* qulon, xachir.
**hémiplégie** *nf méd* bir tomonlama falaj, shollik, gemiflegiya.
**hémisphère** *nm* yarimshar, osmon yarim shari; **l'hémisphère cérébral** bosh miya yarimshari.
**hémisphérique** *adj* yarimsharga oid.
**hémistiche** *nm* yarim misra.
**hémoglobine** *nf* gemoglobin, qizil qon tanachalari.
**hémophile** *adj* gemofiliyaga oid.
**hémophilie** *nf méd* gemofiliya, qon oqishiga moyillik, qonning ivimasligi bilan ifodalanadigan irsiy kasallik.
**hémorragie** *nf* qon ketish, qon oqish; **une hémorragie interne** ichki qon quyilishi; **une hémorragie cérébrale** miyaga qon quyilishi.
**hémorragique** *adj* qonli, qon oqib turadigan.
**hémorroïdal, ale, aux** *méd* **I.** *adj* bavosil, gemorroy kasalligiga oid; **II.** *n* bavosil kasalligi bilan og'rigan odam.
**hémorroïde** *nf méd* gemorroy, bavosil.
**hémostatique** **I.** *adj* qon to'xtatishga oid; **II.** *nm* qon to'xtatish vositasi, dorisi.
**henné** *nm* xina.
**hennin** *nm* O'rta asr ayollar bosh kiyimi.
**hennir** *vi* kishnamoq.
**hennissement** *nm* kishnash.
**hep** *intj* to'xta! to'xta qani!
**hépatique** *adj* jigarga oid; **colique hépatique** jigar sanchig'i.
**hépatite** *nf* jigar yallig'lanishi, sariq kasal.
**heptagone** *nm* yettiburchak.
**héraldique** **I.** *adj* gerb, tamg'a, nishonga oid; **II.** *nf* tamg'alar, gerblar, nishon.
**héraut** *nm* **1.** *hist* jarchi, udaychi; **2.** xabarchi, da'vat etuvchi, darakchi.
**herbacé, ée** *adj* o'tsimon, yumshoq poyali.
**herbage** *nm* **1.** o't, maysa, ko'kalamzor, maysazor; **2.** o'tloq, yaylov.
**herbe** *nf* o't, maysa, ko'kat, ko'm-ko'k o't, maysazor; **des herbes médicinales, officinales** dorivor, shifobaxsh o'tlar; **les mauvaises herbes** zaharli o't; **les fines herbes** ziravor, dorivor (*ovqatga solinadigan*); **un médecin en herbe** bo'lajak tabib; **couper l'herbe sous le pied de qqn** *fig* kimningdir yo'lini kesib, to'sib o'tmoq, orqada qoldirmoq.
**herbier** *nm* gerbariy, quritilgan o'simliklar.
**herbeux, euse** *adj* o'tli, maysali, ko'kalamzor, yam-yashil maysazor.
**herbivore** *zool* **I.** *nm* o'txo'r hayvonlar; **II.** *adj* o'txo'r, o't yeydigan.
**herboriser** *vi* o'simliklar yig'moq, to'plamoq.
**herboriste** *n* giyohlardan dori tayyorlovchi, sotuvchi.
**herboristerie** *nf* **1.** dorivor o'tlar savdosi; **2.** dorivor o'tlar dorixonasi.
**hercule** *nm* polvon, pahlavon, bahodir, botir, kuchli odam; **un hercule de foire** bozor pahlavoni.
**herculéen, enne** *adj* gerkulessimon, kuchli polvon.
**hère**[1] *nm vx* bechora; **un pauvre hère** sho'rlik, bechora, boyaqish, baxtsiz.
**hère**[2] *nm* olti oydan bir yoshgacha bo'lgan bug'u bolasi.
**héréditaire** *adj* **1.** nasliy, irsiy, suyak surgan, ota-bobodan ko'chgan; **2.** voris, valiahd, merosxo'r.
**héréditairement** *adv* vorislik, valiahd, merosxo'rlik bilan.
**hérédité** *nf* **1.** vorislik, merosxo'rlik, meros olish, valiahdlik; **2.** *hist* meros, meros qolgan mulk; **3.** irsiyat, nasliy, nasldan naslga o'tgan, irs.
**hérésie** *nf* bid'atchilik, soxta ta'limot.
**hérétique** **I.** *adj* bid'atchilikka oid; **II.** *n* bid'atchi.
**hérissé, ée** *adj* **1.** sochlari hurpaygan, tepa sochi tik turgan, dikkaygan, paxmoq, paxmaygan, hurpaygan; **2.** igna bilan qoplangan, tikan bilan, tikanli, tikanakli; **hérissé de difficultés** qiyinchilik, mashaqqatga to'la.
**hérissement** *nm* **1.** hurpaytirish, dikkaytirish; **2.** tikan, tikanak bilan qoplanish.
**hérisser** **I.** *vt* **1.** dikkaytirmoq, hurpaytirmoq, tikkaytirmoq, tik qilmoq; **2.** **(de qqch)** nish, uch bilan qoplamoq, tikan, tikanak bilan yopmoq; **3.** to'ldirib, bostirib yubormoq (*xato bilan*); **II. se hérisser** *vpr* **1.** dikkaymoq, hurpaymoq, tikka bo'lmoq; **2.** nish, igna, tikan, tikanak bilan qoplanmoq; **3.** *fig* g'ijinib turmoq, tashlanishga shay, tayyor bo'lib turmoq, tepa sochi tik bo'lmoq, zardasi qaynamoq, jahli, achchig'i chiqmoq.
**hérisson** *nm* **1.** tipratikan, kirpi; **2.** dimog'dor, takabbur, kibr-havoli odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**héritage** *nm* **1.** meros, meros qolgan mulk; **par héritage** merosga ko'ra; **2.** *fig* o'tmish merosi; **un héritage culturel** ma'daniy meros; **3.** merosxo'rlik, meros olish, vorislik.

**hériter I.** *vi* **(de)** meros olmoq, meros qilib olmoq, nasldan o'tmoq; **hériter d'une fortune** boylikni meros qilib olmoq; **II.** *vt* merosxo'r bo'lmoq, voris, valiahd bo'lib qolmoq; **hériter une fortune de ses parents** ota-onasidan boy merosga ega bo'lmoq.

**héritier, ière** *n* voris, merosxo'r; valiahd; *fam* farzand, merosxo'r.

**hermaphrodite I.** *adj* ikki jinsli, xunasalikka oid; **II.** *nm* germafrodit; ikki jins belfisi bo'lgan odam, xunasa.

**hermétique** *adj* **1.** zich, havo o'tkazmaydigan, zichlangan, o'tmaydigan; **2.** *fig* yoniga yo'latmaydigan, erishib, yetishib bo'lmaydigan, mavhum, mujmal, go'yoki donishmandona, hech kim tushunmaydigan.

**hermétiquement** *adv* zich, mahkam.

**hermétisme** *nm* mavhumlik, noaniqlik, chigallik, bema'ni ish, gap, narsa, bema'nilik, tushunib bo'lmaslik.

**hermine** *nf* **1.** oqsuvsar; **2.** uning terisi, mo'ynasi.

**hernie** *nf* churra, dabba, grija; **hernie discale** umurtqalararo disk churrasi.

**héroïne**[1] *nf* qahramon ayol.

**héroïne**[2] *nf* narkotik, aqldan ozdiruvchi modda, geroin.

**héroïque** *adj* **1.** qahramonona, jasurona; **2.** *méd* kuchli ta'sir qiluvchi.

**héroïquement** *adv* qahramonlik, jasurlik bilan.

**héroïsme** *nm* qahramonlik, jasurlik, botirlik, jonbozlik.

**héron** *nm zool* ko'k qo'ton, qarqara (*qush*).

**héros** *nm* **1.** qahramon, botir; **en héros** qahramonona; jasurona; **2.** bosh qahramon, ishtirokchi (*kinoda, romanda*).

**herpès** *nm méd* pufakchali, qavariqli temiratki.

**herse** *nf* **1.** mola, borona; **2.** *hist* qasr darvozasining panjarasi; **une herse de fils barbelés** tikanli sim to'siq.

**herser** *vt* molalamoq, mola bosmoq, mola bostirmoq.

**hertz** *nm* tebranish tezligining o'lchov birligi, gerts.

**hésitant, ante** *adj* tortinchoq, ikkilanuvchi, taraddudda qolgan, hayron qolgan.

**hésitation** *nf* **1.** ikkilanish, tortinish, taraddudlanish; **2.** bezovtalanish, qiynalish (*nutqda*).

**hésiter** *vi* **1.** tortinmoq, ikkilanmoq, noaniq bo'lib turmoq, gumon qilmoq, dovdiramoq; **sans hésiter** ikkilanmasdan, o'ylab o'tirmasdan; **2.** tutilmoq, tutilib qolmoq (*nutqda*).

**hétéroclite** *adj* moslashmagan, nomutanosib, yulduzi-yulduziga to'g'ri kelmagan.

**hétérodoxe** *adj* boshqa dindagi, maslagi boshqa.

**hétérogène** *adj* turli jinsli, har xil jinsli, boshqa-boshqa jinsli, begona, yot jinsli; *mil* aralash tarkibli.

**hétérogénéité** *nf* turli jinslik, har xil, boshqa-boshqa, begona, yot jinslilik, xilma-xillik.

**hêtre** *nm* qora qayin.

**heu** *intj* taajjub, e, he! e ha! (*shubha, ishonmaganda*).

**intellectuel, elle I.** *adj* aqliy, ma'naviy, zakovatli, ruhiy, diniy; **II.** *n* o'qimishli, ziyoli, aql-idrok egasi, aql-zakovatli odam, zukko, aqliy mehnat odami; **les intellectuels** ziyolilar.

**intellectuellement** *adv* oqilona, idrok bilan.

**intelligemment** *adv* oqilona, aql bilan, miyani ishlatib.

**intelligence** *nf* **1.** aqllilik, oqillik, donolik, fahm, idrok qilish, zakovat; **vivre en bonne intelligence** ahil yashamoq; **2.** tushunish, anglash, fahmlash, izohlash, nuqtai-nazar; **avoir l'intelligence vive** zehnli, aqlli, tez tushunadigan bo'lmoq; **3.** aqliy kamolot, ong, idrok; **un degré d'intelligence** aqliy kamolot darajasi.

**intelligent, ente** *adj* **1.** aqlli, oqil, miyali, fahm-farosatli, esli, hushli, zehni o'tkir, farosatli, ziyrak, bilag'on, fahmli; **2.** usta, mohir, omilkor, uquvli.

**intelligentsia** *nf* ziyolilar.

**intelligibilité** *nf* aniq, ravshanlik, tushunarlilik.

**intelligible** *adj* **1.** aniq, ravshan, dona-dona, tushunarli, tushunib bo'ladigan; **2.** *philos* o'ta his qiladigan, moddiy, ashyoviy emas.

**intelligiblement** *adv* aniq, ravshan, tushunarli, dona-dona holda, tushunib, anglagan holda.

**intempérance** *nf* o'zini tiya olmaslik, badnafslik, nafsi buzuqlik, o'chlik, o'zini tuta olmaslik, me'yorini bilmaslik, tiyiqsizlik, axloqsizlik, hirsini jilovlay olmaslik, shahvatparastlik.

**intempérant, ante** *adj* o'zi, nafsini tiya olmaydigan, badnafs, nafsi buzuq, me'yorini bilmaydigan, tiyiqsiz, axloqsiz, buzuq, ishratparast.

**intempéries** *nf* ob-havoning o'zgarishi, o'zgaruvchan ob-havo, yog'ingarchilik, namgarchilik, buzuq havo, bo'ralagan qor, yomg'ir, yog'in, havoning buzuqligi.

**intempestif, ive** *adj* o'z vaqtida bo'lmagan, o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid.

**intenable** *adj* **1.** *mil* himoyaga yaroqsiz, yaramaydigan; yoqlab, himoya qilib bo'lmaydigan; **2.** chidab, toqat qilib bo'lmaydigan, juda, yomon og'ir; **3.** *fam* jim, tek turmaydigan, tinib-tinchimagan, jonsarak.

**intendance** *nf* **1. l'intendance militaire** xo'jalik ta'minot ishlari harbiy muassasasi, harbiy bo'lim ta'minot xizmati; **2.** boshqarma, idora, rahbarlik boshqarish, mudirlik; **l'intendance universitaire** oliy o'quv yurtida moliyani boshqarish.

**intendant** *nm* **1.** harbiy ta'minotchi; **2.** ish boshqaruvchi.

**intense** *adj* jadal, tez, qizg'in, shiddatli, tarang, dolzarb, g'ayritabiiy, kuchli, kuchaygan.

**intensément** *adv* jadal, tez, shiddatli, tarang, kuchli, g'ayritabiiy holda.

**intensif, ive** *adj* jadal, tez, qizg'in, shiddatli, tarang, dolzarb, g'ayritabiiy kuchli, kuchaygan; **une culture intensive** qishloq xo'jaligida jadallashtirish, tez-tez almashtirish.

**intensification** *nf* jadallashtirish, tez-tez almashtirish, kuchaytirish, zo'raytirish, samarali qilish, unumdorligini oshirish.

**intensifier** *vt* kuchaytirmoq, jadallashtirmoq, samarali qilmoq, unumdorligini oshirmoq.

**intensité** *nf* **1.** jadallik, tezlik, qizg'inlik, shiddat, g'ayrat, kuch; **2.** *phys* kuchlanish, taranglik, taranglashish.

**intenter** *vt dr* sud ishi qo'zg'atmoq, davo qilmoq; **intenter un procès à qqn** ish qo'zg'atmoq, sudga bermoq; *fig* qarshi uyushmoq, oyoqqa turmoq.

**intention** *nf* niyat, maqsad, o'y, qasd, ahd, o'ylab qilingan ish, mo'ljal, reja, g'araz; **avoir l'intention de** niyat, qasd qilmoq; *loc prép* **dans l'intention de** maqsadida; **sans intention** o'ylamay-netmay, maqsadsiz, hech qanday maqsadni ko'zlamay; *loc prép* **à l'intention de** uchun, biror maqsadda, niyatda, o'y bilan, fikrda.

**intentionné, ée** *adj* **bien intentionné** niyati xolis, yaxshi niyatli; **mal intentionné** niyati xolis emas, yomon, yovuz niyatli, yomonlik tilaydigan, ichi qoralik, dushmanlik qiladigan.

**intentionnel, elle** *adj* oldindan o'ylab, mo'ljallab qo'yilgan, beg'araz, ataylab, jo'rttaga, qasddan qilingan; **un délit intentionnel** ataylab qilingan shikoyat.

**intentionnellement** *adv* ataylab, jo'rttaga, qasddan qilib, beg'arazlik bilan.

**inter I.** *prép* orasida, o'rtasida; **II.** *nm* **1.** *fam* xalqaro telefon aloqasi; **2.** *foot* yarim hujumchi.

**interaction** *nf* o'zaro ta'sir (qilish), o'zaro, birgalikdagi harakat.

**intercalaire** *adj* **1.** qo'shilgan, olib qo'yiladigan, yasama, kiritilgan; **2.** qo'shib qo'yilgan, qo'yiladigan (*kabisa yili*).

**intercaler** *vt* qo'shib, kirgizib qo'ymoq, kirgizmoq, qo'shmoq.

**intercéder** *vi* **(auprès de qqn, pour qqn)** yoqlamoq, himoya qilmoq, tarafi, yonini olmoq, aralashmoq.

**intercepter** *vt* **1.** to'smoq (*yo'lni*), to'sib qo'ymoq, g'ov solmoq, to'xtatib, kesib, uzib qo'ymoq; *techn* **intercepter la vapeur** bug'ni uzib qo'ymoq; **2.** tutib, ushlab qolmoq; **intercepter une lettre** xatni tutib qolmoq; **intercepter une émission** radio uzatishni ushlab qolmoq.

**interception** *nf* **1.** to'sish, to'sib qo'yish; **2.** tutib, ushlab qolish (*xatni*).

**intercesseur** *nm* yoni, tarafini oluvchi, yoqlovchi, himoya qiluvchi, homiy, tarafdor.

**intercession** *nf* yoqlash, himoya qilish, yoni, tarafini olish, homiylik, tarafdorlik.

**interchangeable** *adj* o'zaro almashadigan, o'zgaradigan, o'zgaruvchan, navbatli.

**interclasse** *nm* tanaffus.

**intercontinental, ale** *adj* qit'alar aro; **une fusée intercontinentale balistique** qit'alararo ballistik raketa.

**intercostal, ale** *adj* qovurg'alar aro.

**interdépendant, ante** *adj* uzviy bog'langan, uzviy qaram, o'zaro bog'liq.

**interdiction** *nf* **1.** taqiqlash, man etish, yo'l qo'ymaslik, ruxsat bermaslik, taqiq, man; **2.** vazifasidan bo'shatish (*vaqtincha*); *dr* huquqidan mahrum qilish.

**interdire** *vt* **1. (qqch)** man qilmoq, taqiqlamoq, ruxsat bermaslik; **interdire l'accès** kirish yo'lini to'smoq; **2. (qqn)** vazifasidan bo'shatmoq (*vaqtincha*); *dr* mulkka egalikdan mahrum qilmoq; **3.** xalaqit bermoq.

**interdit, ite I.** *adj* **1.** taqiqlangan, man etilgan, taqiqlab qo'yilgan; **stationnement interdit** to'xtash taqiqlangan (*avtomobil*); **interdit au public** odamlarga kirish man etilgan; **2.** hayratda qolgan, garang, boshi qotgan; **II.** *nm* taqiq, man, taqiqlash, man etish, yo'l qo'ymaslik; *relig* man qilinganlik; **un interdit de séjour** surgun qilingan, surgundagi odam; **jeter l'interdit sur qqch** qat'iyan man etilmoq.

**intéressant, ante** *adj* qiziq, qiziqarli, qiziqtiradigan, ajib, maroqli; **acheter à un prix intéressant** *fam* arzon bahoga sotib olmoq; *vieilli* **elle est dans une position intéressante** u ikkiqat, homilador.

**intéressé, ée I.** *adj* manfaatdor bo'lgan, ishqi tushib, havasi kelib qolgan; **II.** *n* manfaatdor shaxs.

**intéressement** *nm* foydada, manfaatdor bo'lish qatnashish.

**intéresser I.** *vt* **1.** qiziqtirmoq, qiziqish, havas uyg'otmoq, diqqat-e'tiborini tortmoq, fikri-xayolini olmoq, chulg'ab olmoq; **2.** xayrixohlik bildirmoq, achinmoq; **3.** tegmoq, tegib ketmoq, shikast, zarar yetkazmoq, munosabatda bo'lmoq, **cela intéresse tout le monde** bu hammaga tegishli; **4.** (**qqn à qqch**) qatnashtirmoq, manfaatdor qilmoq; **intéresser qqn aux bénéfices** foyda olishga jalb qilmoq; **5.** shikast, zarar yetkazmoq, shikastlamoq; **II. s'intéresser** *vpr* **(à qqn, à qqch)** qiziqmoq, havas qilmoq, ishqivoz bo'lmoq; manfaatdor munosabatida bo'lmoq.

**intérêt** *nm* **1.** qiziqish, diqqat, e'tibor, havas, manfaatdorlik, manfaat, foyda, naf; **l'intérêt public** xalq manfaati; **d'intérêt local** mahalliy ahamiyati; **il est de votre intérêt** sizning foydangizga; **par intérêt** manfaatidan; **n'avoir aucun intérêt à** hech bir qiziqqan bo'lmaslik; **2.** qatnashish, ishtirok etish, ishtirok, aralashish; hamdardlik, achinish, diqqat e'tibor; **prendre intérêt à qqn** qatnashmoq, aralashmoq; **avec intérêt** hamdard, achinish; **avec un vif intérêt** zo'r qiziqish bilan; **3.** *pl* foyda, daromad; **sans intérêt** foyda, daromadsiz.

**interférence** *nf* **1.** o'zaro harakat, birga harakat qilish, ta'sir qilish, o'zaro qarama-qarshilik; **2.** *phys* interferensiya (*to'lqinlarning fazoda ustma-ust tushib qo'shilgan holda bir-birini kuchaytirishi yo susaytirishi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**interférer** *vi* **1.** bir-biriga zarar yetkazmoq, teskari, qarshi harakat qilmoq; **2.** *phys* interferensiya keltirib chiqarmoq.

**intérieur, ieure I.** *adj* ichki, ichkarigi; **II.** *nm* **1.** ichki tomon, ich, ichkari, ichki qismi; **à l'intérieur** ichida, ichkarida, o'rtasida, orasida; **le Ministère de l'Intérieur** ichki ishlar Vazirligi; **2.** uy hayoti; **une robe d'intérieur** uyda kiyiladigan ko'ylak; **une femme d'intérieur** uyda o'tiradigan ayol, yaxshi uy bekasi; **3.** ichki dunyo; **4.** uy jihozlari, uyning ichki ko'rinishi; **5.** *mil* front orqasi; **6.** *sport* o'rta yarim hujumchi.

**intérieurement** *adv* **1.** ichida, ichkarida, o'rtasida, orasida.

**intérim** *nm* vazifasini, ish vaqtincha bajarish, bo'sh joyni egallash, bo'sh lavozimga tayinlash, o'rniga ishlab turish; **assurer l'intérim** vaqtincha o'rniga ishlab turmoq; **par intérim** *loc adv* vaqtincha, vaqtinchalik; **un ministre par intérim** vaqtincha vazirlik lavozimini bajaruvchi.

**intérimaire I.** *adj* vaqtinchalik, vaqtli, muvaqqat, vazifa, ishini vaqtincha bajaradigan; **II.** *nm* vazifa, ishini vaqtincha bajaruvchi shaxs, odam.

**interjection** *nf* **1.** *gram* undov so'z; **2.** *dr* shikoyat arizasi berish.

**interligne I.** *nm* **1.** qator, satr orasi; bo'sh, ochiq qolgan joy; orasini ochib terish; **2.** qator, satr orasiga yozish; **II.** *nm* shpon, yupqa plastinka.

**interligner** *vt* **1.** qator, satr orasiga yozmoq; **2.** teriladigan satrlar orasiga yupqa plastinka qo'ymoq, shponlar ustiga termoq, terib yozmoq.

**interlocuteur, trice** *n* suhbatdosh, hamsuhbat.

**interlocution** *nf* suhbatlashish, hamsuhbat bo'lish, suhbat.

**interlope** *adj* **1.** noqonuniy ishlaydigan, maxfiy, bekitiqcha, o'g'rincha, yashirin qilingan; **un commerce interlope** yashiriqcha, kontraband savdo qilish, chegaradan yashirincha mol o'tkazish; **2.** shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; **une maison interlope** shubhali, ishonchsiz uy.

**interloquer** *vt* xijolatga solmoq, uyatga, uyaltirib qo'ymoq, g'ul-g'ula solmoq, qo'zg'atmoq, tashvishga solib qo'ymoq, boshini qotirmoq, o'yga solmoq.

**interlude** *nm mus* musiqani bog'laydigan qismi, parchasi, bo'lagi, interludiya.

**intermède** *nm* **1.** *th* oraliqda o'ynaladigan kichik sahna asari; **2.** to'xtab olish, tanaffus, dam olish.

**intermédiaire I.** *adj* orasidagi, o'rtasidagi, oraliqdagi, o'rta, oraliq; **une fusée intermédiaire** o'rta radiusda harakat qiladigan raketa; **II.** *n* **1.** vositachi, o'rtada turuvchi, kelishtiruvchi, dallol, qo'shmachi; sud, hakam; **servir d'intermédiaire** vositachi bo'lib xizmat qilmoq, vositachi bo'lmoq; **sans intermédiaire** vositachisiz; **2.** *nm* vositachilik, dallollik; hakamlik; **par l'intermédiaire de** vositachilik orqali (*yordamida*).

**interminable** *adj* cheksiz, tugamaydigan, tamom bo'lmaydigan, cheki, oxiri yo'q, abadiy, mangu.

**interminablement** *adv* cheksiz ravishda, benihoya, behad, ortiq darajada, uzoq.

**interministériel, elle** *adj* vazirliklararo.

**intermittence** *nf* **1.** uzilish, to'xtash, bo'linish, uzuq-yuluqlik, tanaffus; **par intermittence** to'xtab-to'xtab, uzuq-yuluq; **2.** *méd* biror kasallik, isitma xuruji oralig'i.

**intermittent, ente** *adj* vaqti-vaqti bilan, tanaffus bilan sodir bo'ladigan, qur-qur paydo bo'ladigan, to'xtab-to'xtab, uzilib-uzilib sodir bo'ladigan, nomuntazam, doimiy emas, betartib, tartibsiz; **une fièvre intermittente** ora-sira takrorlanib turadigan bezgak, isitma.

**internat** *nm* **1.** yotoqxona (*o'quvchilarga*); **2.** tibbiyot talabalari uchun sinov (*kasalxonada tadqiqotchi bo'lib ishlovchilarga*); **3.** tibbiyot talabalarining amaliyoti, amaliyot muddati (*kasalxonada*).

**international, ale I.** *adj* xalqaro, davlatlararo, baynalmilal, xalqlar, millatlar o'rtasidagi, umumbashariy; **le droit international** xalqaro huquq; **la situation internationale** xalqaro vaziyat; **II.** *n sport* xalqaro uchrashuv, musobaqa qatnashchisi.

**internationale** *nf hist* Internatsional, Xalqaro ishchilar shirkati; Internatsional gimni.

**internationalisation** *nf* xalqaro miqyosga olib chiqish.

**internationaliser** *vt* xalqaro miqyosga olib chiqmoq.

**internationalisme** *nm* internatsionalizm, baynalmilalchilik, ishchi.

**internationaliste I.** *adj* xalqaro, internatsional, baynalmilal; **II.** *n* internatsionalizm, baynalmilalchilik tarafdori.

**interne I.** *adj* ichki, ichkaridagi, ichidagi; *géom* **un angle interne** ichki burchak; **II.** *n* yotoqxonada yashovchi (*o'quvchi*); **un interne des hôpitaux** kasalxonadagi amaliyotchi-talaba.

**interné, ée** *adj, nm* **1.** jamiyatdan chetlashtirilgan, qamalgan, ushlab, qamab turilgan; **2.** qamab qo'yilgan (*ruhiy kasalxonaga, jinnixonaga*).

**internement** *nm* **1.** qamash, ushlab, qamab turish; **internement cellulaire** yakka qamoq, qamash; **2.** (*ruhiy kasalxonaga*) joylashtirish, qamash.

**interner** *vt* **1.** qamab, joylashtirib qo'ymoq, chetlashtirmoq; **2.** ruhiy kasalxonaga qamamoq, qamab qo'ymoq.

**interparlementaire** *adj* parlamentlararo (*o'rtasida*).

**interpellateur, trice** *n* so'rovnoma bilan chiqqan parlament a'zosi; savol bilan murojaat qiluvchi, talab qiluvchi, so'rovchi.

**interpellation** *nf* **1.** parlamentda savol berish, talabnoma; **2.** birovga savol bilan murojaat qilish; **3.** *dr* qonun bajarilishini talab qilish.

**interpeller** *vt* **1.** savol bermoq, talab qilmoq (*parlamentda*), rasmiy ravishda so'ramoq; **2.** savol, so'roq bilan murojaat qilmoq, chaqirib to'xtatmoq, gaplasha boshlamoq; so'roq qilmoq; **3.** *dr* qonunning bajarilishini talab qilmoq.

**interphone** *nm* ichki telefon.

**interplanétaire** *adj* sayyoralararo; **une fusée interplanétaire** sayyoralararo, planetalararo raketa.

**interpolation** *nf* **1.** *math* biror miqdorning ma'lum qiymatlaridan foydalanib, o'rtadagi noma'lum qiymatlarni aniqlash; **2.** matnga asl nusxada bo'lmagan qo'shimchalarni kirgizish, qo'shish.

**interpoler** *vt* **1.** *math* biror miqdorning ma'lum qiymatlaridan foydalanib, o'rtadagi noma'lum qiymatni aniqlamoq; **2.** matnga asl nusxada bo'lmagan qo'shimchalarni kirgizmoq, qo'shmoq.

**interposer I.** *vt* o'rtasiga qo'ymoq, joylashtirmoq; **II. s'interposer** *vpr* **1.** o'rtasida turmoq, o'rtasiga turib olmoq, joylashmoq; **2.** vositachi bo'lmoq, himoya qilmoq, tarafi, yonini olmoq, yoqlamoq, aralashmoq.

**interposition** *nf* **1.** o'rtada bo'lish, turish, orasiga joylashish; **2.** vositachilik, dallolchilik, hakamlik, qo'shmachilik.

**interprétation** *nf* **1.** sharhlash, izohlash, tushuntirib, izohlab berish; talqin qilish, sharh, talqin; **2.** ijro etish (*rolni, musiqani*); **3.** o'g'zaki tarjima.

**interprète** *n* **1.** sharhlovchi, izohlovchi, tushuntirib, izohlab beruvchi, ifodalovchi; **2.** ijro etuvchi (*rol, musiqa*); **3.** og'zaki tarjimon.

**interpréter** *vt* **1.** sharhlab, izohlab bermoq, tushuntirib, talqin qilib, ochib bermoq, sharh, izohlamoq, talqin qilmoq, ifodalamoq, aytmoq, bildirmoq, izhor qilmoq, ma'nosini aytib bermoq; **2.** ijro etmoq, bajarmoq (*rol, musiqa*); **3.** og'zaki tarjima qilmoq.

**interrègne** *nm* bir podsho taxtdan tushib, ikkinchisi taxtga o'tirguncha o'tgan davr.

**interrogateur, trice I.** *adj* savol, so'roq beradigan, savol, so'roq bildiruvchi, savol tarzida; **II.** *n* imtihonchi, imtihon qiluvchi, so'rovchi, savol beruvchi.

**interrogatif, ive** so'roq, savol beruvchi; **signe interrogatif** so'roq belgisi.

**interrogation** *nf* savol, so'roq; **interrogation directe** to'g'ri, vositasiz savol; **interrogation indirecte** vositali savol; **point d'interrogation** so'roq belgisi.

**interrogatoire** *nm* **1.** so'roq, so'roq qilish, so'rab chiqish; **interrogatoire serré** jiddiy, qattiq so'roq; **2.** so'roq qaydnomasi.

**interroger I.** *vt* **1.** so'roq qilmoq, so'ramoq, savol bermoq; **interroger le fichier** kartotekadan bilib olmoq; **2.** so'roq qilmoq, so'rab bilib, aniqlab olmoq; **II. s'interroger** *vpr* **1.** o'zidan so'ramoq, o'zini tekshirib ko'rmoq; **2.** bir-biridan so'rab bilmoq, so'rashmoq.

**interrompre I.** *vt* to'xtatmoq, to'xtatib, uzib, kesib qo'ymoq, uzmoq, bo'lmoq (*gapni*), kesmoq, oldini olmoq, yo'q qilmoq, **interrompre le courant** elektr tokini uzib qo'ymoq; **II. s'interrompre** *vpr* nutqini to'xtatmoq, tugatmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**interrupteur, trice I.** *adj* uzadigan, toʻxtatadigan, uzib, toʻxtatib qoʻyadigan, kesadigan; **II.** *nm* elektr tokini oʻchirgich, keskich, uzgich; **tourner l'interrupteur** vikluchatelni buramoq, oʻchirmoq.

**interruption** *nf* **1.** uzish, toʻxtatish, kesish, uzilish; **l'interruption du courant** elektr tokini uzish; **sans interruption** uzluksiz, tanaffussiz, dam olmasdan; **2.** *pl* luqma, javob, eʼtiroz.

**intersection** *nf* **1.** *géom* kesishish, kesib oʻtish; **un point d'intersection** kesishish nuqtasi; **2.** chorraha, yoʻl kesishishi.

**intersidéral, ale** *adj* sayyoralararo, yulduzlararo.

**interstellaire** *adj* sayyoralararo, yulduzlararo.

**interstice** *nm* teshik, yoriq, tirqish.

**interurbain, aine I.** *adj* shaharlararo, shaharlar oʻrtasidagi; **II.** *nm* shaharlararo telefon.

**intervalle** *nm* oʻrtadagi masofa, uzilish, ora, oraliq, oʻrta, oʻrtalik; **avec de longs intervalles** uzoq tanaffus bilan; **dans l'intervalle** shu vaqtda, shu davr orasida; *loc adv* **par intervalle** vaqti-vaqti bilan, ora-sira.

**intervenant, ante** *n dr* uchinchi shaxs, qoʻshmachi, dallol.

**intervenir** *vi* **1.** aralashmoq, qoʻshilmoq, suqilmoq, oraga tushmoq, qatnashmoq, ishtirok etmoq; **intervenir en faveur de** birovning yonini, tarafini olmoq, yoqlamoq, himoya qilmoq; **faire intervenir** jangga boshlab kirmoq; **2.** vositachilik qilmoq, oʻrtada turmoq, oraga tushmoq, dallollik qilmoq, qoʻshmachilik qilmoq; *dr* uchinchi shaxs sifatida ishga aralashmoq; **3.** soʻzga chiqmoq, gapirmoq (*majlisda*); **4.** boʻlmoq, boʻlib oʻtmoq, yuz bermoq, amalga oshmoq; **un accord est intervenu** bitim, kelishuv imzolandi.

**intervention** *nf* **1.** aralashish, qoʻshilish, oʻrtaga tushish, tiqilish, suqilish; **une intervention chirurgicale** jarrohlik operatsiyasi; **2.** bosqinchilik, bostirib kirish, kuch ishlatib kirish; **3.** *dr* ishda uchinchi, vositachi shaxs boʻlib qatnashish; **4.** muzokaralarda qatnashish, soʻzga chiqish.

**interventionnisme** *nm* iqtisodiyotda davlatning ishtirok etishi; boshqa davlatlar ishiga aralashish siyosati.

**interventionniste I.** *adj* aralashish siyosatiga oid, aralashuvchi; **II.** *n* aralashuvchi, bosqinchi, bostirib kiruvchi.

**interversion** *nf* tartibini oʻzgartirish, oʻrinlarini almashtirish, almashtirib qoʻyish.

**intervertir** *vt* tartibini oʻzgartirmoq, oʻrinlarini almashtirmoq, almashtirib qoʻymoq.

**interview** *nf anglic* intervyu, muxbir savol-javobi, suhbat.

**interviewer[1]** *vt* intervyu olmoq, suhbat qilmoq, suhbat olmoq.

**interviewer[2]** *nm* reportyor, intervyu oluvchi muxbir.

**intervieweur, euse** *n voir* **interviewer[2]**.

**intestat** *adj, n* vasiyatnoma qoldirmagan, vasiyatnoma qilmagan; **mourir intestat** vasiyatnomasiz oʻlmoq; **hériter ab intestat** qonunga muvofiq meros olmoq (*vasiyatnoma boʻlmagan taqdirda*).

**intestin[1], ine** *adj* ichki, ichkaridagi, ichidagi; **une guerre intestine** oʻzaro urush, fuqarolar urushi.

**intestin[2]** *nm* ichaklar, ichak-chovoq, ichak; **l'intestin grêle** ingichka ichak; **le gros intestin** yoʻgʻon ichak.

**intestinal, ale** *adj* ichak-chavoq, ichak, ichaklarga oid; **le suc intestinal** meʼda shirasi.

**intime I.** *adj* **1.** yaqin, qalin, sirdosh, dilkash, sirli, yashirin, maxfiy, dildagi, qadrdon, samimiy, dilkash, jonajon, ezgu; **2.** apoq-chapoq, tigʻiz, yaqin; **un cercle intime** sirdoshlar davrasi; **3.** oʻngʻay, qulay, orom beradigan, shinam; **4.** chuqur, teran; **5.** ishonchli, vakolatli, vakil qilingan; **II.** *n* yaqin doʻst, sirdosh.

**intimement** *adv* **1.** yaqin, qalin, sirdosh, dilkash, apoq-chapoq, yashirin, xufiyonalik bilan; samimiylik, qadrdonlik bilan; **2.** chuqur, teran, tub maʼno bilan.

**intimer** *vt* **1.** (**de faire qqch**) aytmoq, tayinlamoq, buyurmoq, koʻrsatma, yoʻl-yoʻriq, maslahat bermoq, tavsiya qilmoq; **2.** *dr* sudga chaqirmoq.

**intimidant, ante** *adj* jurʼatsizlik, yuraksizlik, qoʻrqoqlik, tortinchoqlik qiladigan, xijolat tortadigan, uyaladigan, xijolat qiladigan, uyaltiradigan.

**intimidation** *nf* qoʻrqitish, choʻchitish, yuragini oldirish.

**intimider I.** *vt* xijolat qilmoq, uyaltirmoq, dovdiratmoq, hadiksiratmoq, choʻchitmoq, qoʻrqitmoq, qoʻrquv solmoq; **II. s'intimider** *vpr* tortinmoq, qoʻrqmoq, hayiqmoq, choʻchimoq, hadiksiramoq, yuraksizlik qilmoq.

**intituler I.** *vt* sarlavha qoʻymoq, nom bermoq, nomlamoq; **II. s'intituler** nom olmoq, nomlanmoq, atalmoq.

**intolérable** *adj* chidab, toqat qilib boʻlmaydigan, juda kuchli, qattiq.

**intolérance** *nf* chidab, toqat qilib, yoʻl qoʻyib boʻlmaslik, chiday olmaslik, murosasizlik.

**intolérant, ante** *adj* chidab toqat qilib, yoʻl qoʻyib boʻlmaydigan, murosasiz.

**intonation** *nf* ohang, qiroat, tovush past-balandligi.

**intouchable** *adj* **1.** daxlsiz, tegib boʻlmaydigan, tegmaydigan; **2.** *fam* gunohsiz, gunohi yoʻq, qonun himoyasidagi.

**intoxication** *nf* zahar, zaharlash, zaharlanish.

**intoxiquer** *vt* zaharlamoq, zahar berib oʻldirmoq, gangitmoq, miyasini aynitmoq, ongini zaharlamoq.

**intradermique** *adj* teri, et ichidagi, teri ichida boʻlgan.

**intraduisible** *adj* tarjima qilinmaydigan, tarjima qilib boʻlmaydigan; ifodalab tasvirlab, tushuntirib boʻlmaydigan, taʼriflab, tavsiflab, aytib boʻlmaydigan.

**intraitable** *adj* gapga koʻnmaydigan, unamaydigan, muomalaga kirmaydigan, koʻnmaydigan, oʻjar, qaysar, ters.

**intramusculaire** *adj* mushak, muskullar ichidagi, orasidagi.

**intransigeance** *nf* murosaga kelmaslik, kelishtirib, yarashtirib boʻlmaslik, murosasizlik, dangallik, oʻz soʻzida qatʼiy turishlik, sabotli, matonatli, mahkam, qatʼiyatli, qatʼiy, ashaddiylik, toymaslik, qaytmaslik, chekinmaslik, bukilmaslik.

**intransigeant, ante** *adj* murosaga kelmaydigan, kelishtirib, yarashtirib boʻlmaydigan, dangal, sabotli, matonatli, qatʼiyatli, mahkam, qatʼiy, toymas, qaytmas, chekinmas, bukilmas, oʻzgarmas.

**intransitif, ive** *adj gram* oʻtimsiz.

**intransitivement** *adv gram* **verbe transitif employé intransitivement** oʻtimsiz shaklda ishlatilgan oʻtimli feʼl.

**intransitivité** *nf gram* oʻtimsizlik.

**intransmissible** *adj* uzatib, ifodalab, tasvirlab, tushuntirib boʻlmaydigan.

**intransportable** *adj* transportda olib yurib boʻlmaydigan, koʻchirib olib borish uchun noqulay, koʻchirib olib borish mumkin boʻlmagan.

**intraveineux, euse** *adj* vena, koʻktomir ichidagi, koʻktomir ichida boʻlgan.

**intrépide** *adj* **1.** jasoratli, jasur, qoʻrqmas, dovyurak, botir, dadil, mard, jurʼatli, mardonavor, mardlarcha; **2.** sabot-matonatli, soʻzini oʻtkazadigan, oʻz soʻzida qattiq turadigan, bir soʻzli, oʻjar, tirishqoq, qatʼiy; charchamas, tolmas, tinmaydigan, toliqmaydigan, sergʻayrat.

**intrépidement** *adv* qoʻrqmaslik bilan, qoʻrqmasdan, qahramonona.

**intrépidité** *nf* jasorat, jasurlik, mardlik, botirlik, dovyuraklik.

**intrigant, ante I.** *adj* qiziqtiradigan, qiziqish uygʻotadigan, qiziqtirib qoʻyadigan; **II.** *n* fitnachi, qutqu soluvchi, gʻalamis, buzuqchi.

**intrigue** *nf* **1.** fitna, qutqu, kirdikor, hiyla-nayrang; **2.** ishqiy sarguzasht, oshiq-maʼshuqlik, ishq; **3.** drama tuguni.

**intriguer I.** *vt* qiziqtirmoq, qiziqish uygʻotmoq, qiziqtirib qoʻymoq; **cela m'intrigue beaucoup** bu meni juda qiziqtirib qoldi; **II.** *vi* fitna, qutqu solmoq, fitna uyushtirmoq, gʻalamislik qilmoq.

**intrinsèque** *adj* **1.** oʻziga xos, odatdagi, xos, xos boʻlgan, ichki; **une valeur intrinsèque** haqiqiy, tub qiymati; **2.** mavhum, umumiy tarzdagi, aniq boʻlmagan, noaniq.

**introduction** *nf* **1.** kirish, kiritish, kirgizish, muqaddima, daromad; **une lettre d'introduction** tavsiyanoma; **2.** muqaddima, kirish soʻz; **3.** tegish, tegizish, tushirish, sizib, suqilib kirish (*ichkariga*); **4.** *mus* muqaddima, debocha.

**introduire I.** *vt* **1.** kirgizmoq, kiritmoq, olib, boshlab kirmoq, kirgizib, kiritib qoʻymoq; **introduire une mode** rasm qilmoq, yoymoq; **2.** orasiga qoʻymoq, solmoq joylashtirmoq, **II. s'introduire** *vpr* ichiga kirmoq, oʻtmoq, suqilib kirmoq, yashirinib kirib olmoq, tasodifan kirib qolmoq, ichiga tushmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**intronisation** *nf* **1.** taxtga o‘tqazish, chiqarish; **2.** tasdiqlash, yoyish, rasm, odat qilish.

**introniser** *vt* **1.** taxtga o‘tqazmoq, chiqarmoq mansab, martaba, rutbaga chiqarmoq, unvon bermoq; **2.** rasm qilmoq, yoymoq.

**introspection** *nf* o‘z-o‘zini kuzatish, o‘zini tahlil qilib ko‘rish.

**introuvable** *adj* topib bo‘lmaydigan, tutib, ushlab bo‘lmaydigan; kam topiladigan, uchraydigan.

**intrus, use I.** *adj* begona, chet, yot, unsur, o‘zga, boshqa; **II.** *n* qonunga xilof, noqonuniy bostirib kirgan, yot, begona, chet, unsur, qallob.

**intrusion** *nf* **1.** bostirib kirish, bosqin; **2.** qoyaning o‘sib boshqa joyga kirishi, o‘tishi.

**intuitif, ive** *adj* **1.** sezgi, sezish, his qilishga asoslangan; **2.** ko‘rgazmali.

**intuition** *nf* **1.** ichki his, sezgi, sezgirlik, his qilish, sezish; **2.** oldindan sezish, ko‘ngilga kelish, ko‘ngil sezishi.

**intuitivement** *adv* ichki his, sezgirlik bilan.

**inusable** *adj* juda mustahkam, uzoq chidaydigan; **des chaussures inusables** chidamli poyabzal.

**inusité, ée** *adj* deyarli qo‘llanilmaydigan, ishlatib bo‘lmaydigan, g‘ayrioddiy.

**inutile** *adj* befoyda, foydasiz, behuda, bekorchi, foyda bermaydigan, foydasi yo‘q, keraksiz; **inutile de dire que** gapirish befoyda, hech narsa gapirish kerak emas.

**inutilement** *adv* befoyda, behuda, bekorga.

**inutilisable** *adj* yaroqsiz, ishlatib, qo‘llab bo‘lmaydigan.

**inutilisé, ée** *adj* ishlatilmagan, qo‘llanmagan.

**inutilité** *nf* **1.** foydasizlik, befoydalik, behudalik; samarasizlik, natijasizlik, yaroqsizlik, yaramaslik; **2.** ortiqcha so‘z, quruq mahmadonagarchlik, safsatabozlik, quruq, puch gap.

**invalide I.** *adj* **1.** *dr* qonuniy kuchga ega bo‘lmagan, bekor qilingan; **2.** mehnatga layoqatsiz, yaroqsiz, mayib, majruh, mayib bo‘lgan, shikast yegan; **II.** *n* mayib, majruh, nogiron; **l'Hôtel des Invalides, les Invalides** Nogironlar uyi (*Parijda*).

**invalider** *vt dr* qonuniy kuchga ega emas deb e’lon qilmoq; **invalider un testament** vasiyatnomani noqonuniy deb e’lon qilmoq; **invalider l'élection d'un député** deputatning saylanishini qonuniy kuchga ega emas deb e’lon qilmoq; yaroqsiz qilmoq.

**invariable** *adj* o‘zgarmaydigan, turlanmaydigan, doimiy, bir zaylda turadigan, hamishalik.

**invariablement** *adv* **1.** o‘zgarmas, turlanmas, doimiy holda, bir zaylda turadigan holda, to‘xtovsiz, uzluksiz, mustahkam; **2.** zarur, zaruriy, qat’iy, albatta bo‘ladigan holda.

**invasion** *nf* **1.** bostirib kirish, zo‘rlik bilan kirib olish, bosqin, tajovuz, hujum, istilo; **2.** oqim, yog‘ilib kelish; **3.** epidemiyaning birdan avj olishi, yoyilishi, tarqalishi.

**invective** *nf* do‘q, po‘pisa, so‘kish, koyish, urishish, haqorat, qattiq so‘kish; **proférer des invectives contre qqn** qattiq so‘kmoq, haqoratlamoq, haqorat qilmoq.

**invectiver** *vt* so‘kmoq, qattiq so‘kmoq, haqoratlamoq, haqorat qilmoq, tahqir etmoq, kamsitmoq, qattiq ranjitmoq, nafsoniyati, izzat-nafsiga tegmoq.

**invendable** *adj* sotilmas, sotilmaydigan, sotib bo‘lmaydigan.

**invendu, ue I.** *adj* sotilmagan; **II.** *nm* sotilmagan mol-mulk.

**inventaire** *nm* **1.** ro‘yxat, xatga olish, yozib chiqish, mollarni hisobga olish; **2.** ro‘yxat, qaydnoma; **faire, dresser l'inventaire** ro‘yxat tuzmoq; *dr* **le bénéfice d'inventaire** faqat meroslikda qarzlarga merosxo‘rning javob berish huquqi.

**inventer** *vt* **1.** kashf, ixtiro qilmoq, o‘ylab topmoq, ochmoq; **2.** o‘ylab chiqarmoq, uydirmoq, to‘qimoq, to‘qib chatmoq.

**inventeur, trice** *n* **1.** ixtirochi, kashfiyotchi; **2.** uydirmachi, yolg‘onchi, o‘ylab, to‘qib chiqaruvchi.

**invention** *nf* **1.** ixtiro, kashf, kashfiyot; **2.** uydirma, to‘qima, yolg‘on, bo‘hton, yolg‘on-yashiq, safsata, afsona, bo‘lmagan gap; **3.** o‘ylab topag‘onlik, topqirlik, ijodkorlik, tadbirkorlik; **4.** tez topish.

**inventorier** *vt* nazorat uchun ro‘yxat, xatga olmoq, ro‘yxat tuzmoq, hisobga olmoq.

**invérifiable** *adj* tekshirib bo‘lmaydigan, tuzatilmaydigan.

**inverse I.** *adj* teskari, qarama-qarshi, orqaga yo‘nalgan, qarshidagi, ro‘paradagi, zid; **II.** *nm* **1.** teskarilik, qarshilik, zidlik; **faire l'inverse** teskari, zid harakat qilmoq; **à l'inverse de** teskari tomonda; **2.** *math* teskari qiymat, kattalik, miqdor.

**inversement** *adv* qarshi, qarama-qarshi, teskari, zid ravishda; **inversement proportionnel** teskari proporsional.

**inverser I.** *vt* yo‘nalishni o‘zgartirmoq, ko‘chirmoq, o‘tkazmoq, tartibini o‘zgartimoq (*gapning*); **II. s'inverser** *vpr* boshqa yo‘nalishga o‘tkazmoq, o‘tkazilmoq.

**inverseur** *nm* **1.** o‘tkazgich, ko‘chirgich; **2.** *techn* elektr motorni teskari yurgizgich.

**inversion** *nf* **1.** inversiya, teskari so‘z tartibi; **2.** elektr quvvatining fazalarining o‘zgarishi.

**invertébré, ée** *zool* **1.** umurtqasiz; **2.** *nm pl* umurtqasiz hayvonlar.

**investigation** *nf* ilmiy ish, ilmiy tekshirish, tadqiqot, tergov qilish, tergash, tergov.

**investir** *vt* **1.** unvon, amal bermoq, ko‘tarmoq; **investir qqn de sa confiance** ishonch bildirmoq; **2.** o‘ramoq, atrofini o‘ramoq, uymoq, o‘rab, qurshab olmoq; **3.** joylashtirmoq, qo‘ymoq, kirgizmoq, mablag‘ sarflamoq.

**investissement** *nm* **1.** o‘rab olish, qurshov, qurshab olish (*shahar, qal’ani*); **2.** investitsiya, qo‘yish, joylashtirish, kirgizish (*pul*); **des investissements de capitaux** kapital qo‘yish, joylash.

**investisseur** *nm* kapital qo‘yuvchi, joylovchi, kirgizuvchi, investor.

**investiture** *nf* **1.** *hist* rasmiy akt (*harakat*); **2.** *polit* hukumat tuzishga farmoyish, topshiriq; **3.** saylashga nomzod partiya tomonidan ko‘rsatish.

**invétéré, ée** *adj* **1.** ashaddiy, tuzalmas, g‘irt, epaqaga keltirib bo‘lmaydigan, singib ketgan, qotib qolgan, mahkam o‘rnashgan, tomir yoygan; **un ivrogne invétéré** ashaddiy, tuzalmas aroqxo‘r; **2.** eski, eskirgan, singib ketgan, tuzalmas (*kasallik*).

**invétérer (s')** *vpr* ildiz, tomir otmoq, yoymoq, o‘rnashib, el bo‘lib ketmoq.

**invincibilité** *nf* yengilmaslik, yengib bo‘lmaslik, kuchli, zo‘r.

**invincible** *adj* **1.** yengilmas, yengilmaydigan, yengib bo‘lmaydigan, kuchli, zo‘r, yengib, bartaraf qilib, o‘tib bo‘lmaydigan; **2.** rad, inkor qilib bo‘lmaydigan, shak-shubhasiz.

**invinciblement** *adv* yengib, bartaraf bo‘lmaydigan holda.

**inviolable** *adj* muqaddas, daxlsiz, qonun himoyasida, buzilmas, mustahkam, mahkam.

**invisibilité** *nf* ko‘rinmaslik, bilinmaslik.

**invisible** *adj* ko‘rinmaydigan, bilinmaydigan, ko‘rinmas, ko‘z bilan ko‘rib, ilg‘ab bo‘lmaydigan, sezilmaydigan, pinhon, yashirin; **être invisible** hammavaqt, doimo yo‘q bo‘lmoq, hech qachon uyda bo‘lmaslik, tutqich bermas bo‘lmoq.

**invitation** *nf* **1.** taklifnoma, taklif (*qilish*); **refuser une invitation** taklifdan bosh tortmoq; **2.** chaqiriq, darak, xabar berish, xabardor qilish.

**invite** *nf fam* taklif qilish, qiziqish uyg‘otish.

**invité** *n* taklif qilingan, chaqirilgan mehmon.

**inviter I.** *vt* **1.** taklif qilmoq, chaqirmoq; **2. (à)** imlamoq, imlab, imo, ishora qilib chaqirmoq, qiziqtirmoq, jalb qilmoq, o‘ziga tortmoq; **II.** *vi* hamrohiga o‘zining mosligini yurib ko‘rsatmoq (*qartada*); **III. s'inviter** *vpr* **1.** *fam* o‘z-o‘zidan kelib chiqmoq, tug‘ilmoq; **2.** o‘zaro chaqirishmoq, bir-birini taklif qilmoq.

**invivable** *adj* **1.** chidab, toqat qilib yashab bo‘lmaydigan, yashash uchun yaroqsiz; **2.** juda og‘ir, yomon, badhazm, badfe’l.

**involontaire** *adj* majburiy, erki o‘zida bo‘lmagan, tutqunlikdagi, ixtiyorsiz, beixtiyor, g‘ayriixtiyoriy.

**involontairement** *adv* majburan, ixtiyorsiz, beixtiyor, g‘ayri ixtiyoriy ravishda.

**invoquer** *vt* **1.** ibodat qilib iltijo qilmoq; **2.** dalil keltirmoq; **invoquer un témoignage** guvoh sifatida ko‘rsatmoq, guvohlik bermoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**invraisemblable** *adj* tasavvurga sig'maydigan, g'ayrioddiy, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, xilof, haqiqatdan uzoq, odam ishonmaydigan, g'alati, aqlga sig'maydigan, ehtimoldan uzoq, mumkin bo'lmagan.

**invraisemblablement** *adv* tasavvurdan yiroq, g'ayritabiiy, ehtimoldan yiroq, qiziq, g'alati ravishda.

**invraisemblance** *nf* tasavvur qila bilmaslik, g'ayritabiiylik, haqiqatdan yiroqlik, mumkin bo'lmaganlik, bo'lishi mumkin emaslik, aqldan tashqarilik, haqiqat, aqlga to'g'ri kelmaslik.

**invulnérabilité** *nf* zahmat yetmaslik, zarba yetmaslik, olib, ishg'ol qilib, yaqinlashib bo'lmaslik, mustahkamlik, bekami ko'st benuqsonlik.

**invulnérable** *adj* zahmat yetmaydigan, zarba yetmaydigan, olib, ishg'ol qilib, yaqinlashib bo'lmaydigan, mustahkam, bekami-ko'st, benuqson.

**invulnérablement** *adv* zahmat yetmas, o'q tegmas, zarba yetmas, mustahkam, bekami-ko'st, benuqson holda.

**iode** *nm* iod; **la teinture d'iode** iod damlamasi.

**iodé, ée** *adj* iodli, iod tarkibli.

**iodoforme** *nm* iodoform kukuni.

**iodure** *nm* iod, iod aralashmasi; **l'iodure de potassium** iodli kaliy.

**ion** *nm chim* atom ioni.

**iota** *nm* iota, yunon alifbosidagi harf.

**irakien, ienne I.** *adj* Iroq, Iroqqa oid, iroqlik; **II.** *n* **1.** iroqlik, Iroq aholisi; **2.** *nm* arab tili.

**iranien, ienne I.** *adj* Eron, Eronga oid, eronlik; **II.** *n* **1.** eronlik, Eron aholisi, fors; **2.** *nm* fors tili.

**irascible** *adj* qiziqqon, jahli, zardasi tez, jizzaki, jirtaki, serjahl, serzarda, tez, darrov achchiqlanadigan, g'azablanadigan, jahli burni uchida.

**iridium** *nm chim* iridiy.

**iris** *nm* **1.** ko'zning rangdor pardasi; **2.** *poét* kamalak; **3.** *bot* gulsapsar.

**irisé, ée** *adj* kamalakli, rangtoblash, qaytarishi mumkin bo'lgan.

**irlandais, aise I.** *adj* Irlandiyaga oid, irland, Irlandiya; **II.** *n* **1.** irlandiyalik, irland, Irlandiya aholisi; **2.** *nm* irland tili.

**ironie** *nf* hazil, istehzo, kinoya, piching, kesatiq; **l'ironie du sort** taqdir hazili, taqdirning sho'ri-g'avg'osi.

**ironique** *adj* istehzoli, kinoyali, hazil-mutoyibali, pichingli, kesatiqli.

**ironiquement** *adv* istehzo, kinoya, hazil, piching, kesatiq bilan.

**ironiser** *vi* kinoya qilmoq, kesatmoq, istehzo bilan qaramoq, masxara, mazax qilib kulmoq, piching qilmoq, ustidan kulmoq.

**irrachetable** *adj* sotib olib bo'lmaydigan, sotib olinmaydigan, qayta, yana, yangidan sotib olib bo'lmaydigan.

**irradiation** *nf* **1.** nurlilik, shu'lalilik, nurafshonlik, yorqinlik, yorug'lik, nurga to'lalik; **2.** nurlanish (*radioaktiv modda bilan*); **3.** *phys* nurlanish, og'riqning tarqalishi; **4.** *méd* og'riqning tarqalishi.

**irradier I.** *vi* **1.** *phys* nur sochmoq, nur tarqatmoq; **2.** *méd* og'riq tarqalmoq; **II.** *vt* nurlantirmoq, nur bermoq (*davolash uchun*).

**irraisonné, ée** *adj* behuda, mohiyatsiz, o'ylamay qilingan, bemulohaza, mulohaza qilib, o'ylab ko'rilmagan, sababsiz.

**irrationalisme** *nm philos* borliqni aql-idrok bilan bilib bo'lmaydi deb qaraydigan falsafiy oqim.

**irrationnel, elle** *adj* **1.** anormal, odatdagidek emas, odatdagidan boshqacha, g'alati, g'ayrioddiy, normadan chetdagi; o'ylamay qilingan, muhokama, mulohaza qilib ko'rilgan, bemulohaza; **2.** *math* irratsional, noratsional.

**irréalisable** *adj* amalga oshirib bo'lmaydigan, yuzaga, ro'yobga chiqmaydigan, puch, amri-mahol.

**irréalité** *nf* haqiqatda yo'qlik, xayoliylik, puchlik.

**irrecevable** *adj* to'g'ri, muvofiq kelmaydigan, qabul qilib bo'lmaydigan, yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya, nojoiz.

**irréconciliable** *adj* murosaga kelmaydigan, kelishtirib, yarashtirib bo'lmaydigan, murosasiz, ashaddiy.

**irrécupérable** *adj* qaytmaydigan, takror ishlatib bo'lmaydigan.

**irrécusable** *adj* rad, inkor qilib bo'lmaydigan, shak-shubhasiz.

**irréductible** *adj* **1.** qisqartirib bo'lmaydigan, kamaytirib, o'zgartirib bo'lmaydigan; *math* qisqartirilmaydigan; **2.** bartaraf qilib, yo'qotib bo'lmaydigan, qutulib bo'lmaydigan, tiklab bo'lmaydigan; **3.** *chir* tuzatib, to'g'rilab bo'lmaydigan; **4.** yarashtirib, kelishtirib bo'lmaydigan, murosasiz, qaysar, bir so'zli, shafqatsiz, qat'iy, berahm, gapga unamaydigan, o'jar, sarkash.

**irréel, elle** *adj* haqiqatda yo'q, xayoliy, fantastik, puch, mavhum.

**irréfléchi, ie** *adj* yaxshi o'ylab ko'rilmagan, o'ylamasdan, mulohazasiz qilingan, bemulohaza, xom, o'ylamay ish qiladigan; **d'une manière irréfléchie** o'ylamay, o'ylamasdan, mulohaza qilmasdan, bemulohaza.

**irréflexion** *nf* o'ylanmaganlik, o'ylab ko'rilmaganlik, mulohazasizlik, bemulohazalik, tushunib yeta olmaslik, tushunmaslik, fahmi yetmaslik.

**irréfragable** *adj* rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, inkor qilinmaydigan.

**irréfutable** *adj* rad, inkor qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan.

**irrégularité** *nf* **1.** noto'g'rilik, xatolik, g'alatilik; **2.** nomuntazamlik, doimiy emaslik, vaqti-vaqti bilan bo'ladiganlik, betartiblik, tartibsizlik; **3.** g'ayriqonuniylik, qonunga xiloflik, noqonuniylik, qonunni buzish.

**irrégulier, ière** *adj* **1.** noto'g'ri, xato, yanglish, buzuq, g'alati; **des traits irréguliers** beo'xshov yuz, aft, bashara; **2.** nomuntazam, doimiy emas, vaqti-vaqti bilan bo'ladigan, betartib, tartibsiz; **un pouls irrégulier** yurakning notekis, tartibsiz urishi; **3.** *gram* noto'g'ri; **un verbe irrégulier** noto'g'ri tuslanadigan fe'l; **4.** navbatdan tashqari, navbatsiz, favqulodda.

**irrégulièrement** *adv* nomuntazam, betartib, tartibsiz holda.

**irréligieux, euse** *adj* diniy bo'lmagan, xudoga ishonmaydigan, dinsiz, dahriy, xudosiz.

**irrémédiable** *adj* **1.** tuzatib bo'lmaydigan, tuzalmas, qaytmas, qaytmaydigan, qaytarib bo'lmaydigan, abadiy qo'ldan ketgan, uzil-kesil qabul qilingan, qat'iy, qaytilmaydigan; **2.** tuzatib, davolab bo'lmaydigan, davosi yo'q, bedavo.

**irrémédiablement** *adv* tuzatib bo'lmas, chorasiz, uzil-kesil, bedavo.

**irrémissible** *adj* kechirib bo'lmaydigan, kechirilmaydigan, kechirilmas, uzrsiz.

**irremplaçable** *adj* almashtirib bo'lmaydigan, o'rnini hech narsa, kimsa bosolmaydigan, tengi topilmaydigan, juda kerakli.

**irréparable** *adj* tuzatib bo'lmaydigan, to'g'rilab bo'lmaydigan, o'nglanmaydigan, buzuq.

**irrépressible** *adj* bartaraf qilib, yo'qotib bo'lmaydigan, qutulib bo'lmaydigan.

**irréprochable** *adj* benuqson, bekami-ko'st, qusursiz, kamchiliksiz.

**irrésistible** *adj* yengib, bartaraf qilib bo'lmaydigan, zo'r, kuchli, qaytarib, daf qilib bo'lmaydigan.

**irrésistiblement** *adv* albatta, ayovsiz, to'xtovsiz.

**irrésolu, ue** *adj* ikkilanuvchi, taraddudlanuvchi, taraddudli, jur'atsiz, qat'iyatsiz, lanj, hal qilinmagan, yechilmagan, yechimsiz.

**irrésolution** *nf* jur'atsizlik, qat'iyatsizlik, lanjlik, ikkilanganlik, taraddudlanganlik.

**irrespect** *nm* hurmatni bilmaslik, izzat-hurmat qilmaslik, behurmatlik.

**irrespectueux, euse** *adj* hurmat qilishni bilmaydigan, izzat-hurmat qilmaydigan, behurmat.

**irrespirable** *adj* nafas olishga yaroqsiz; **l'atmosphère était irrespirable** erkin nafas olib bo'lmas edi.

**irresponsabilité** *nf* mas'uliyatsiz, javobgarlikni sezmaslik, ishga beparvolik bilan qarash.

**irresponsable** *adj* mas'uliyatni his qilmaydigan, javobgarlikni sezmaydigan, beparvo, mas'uliyatsizlik bilan qilingan.

**irrévérence** *nf* hurmat, hurmat qilishni bilmaslik, izzat-hurmat qilmaslik, behurmatlik, dag'allik, qo'pollik, qo'rslik.

**irrévérencieux, euse** *adj* hurmat, hurmat qilishni bilmaydigan, izzat-hurmat qilmaydigan, behurmat, dag'al, qo'pol, qo'rs, qo'pol muomala.

**irréversibilité** *nf* qaytarilmaslik, takrorlanmaslik, abadiylik, qaytib kelmaslik, qaytarib, takrorlab bo'lmaslik.

**irréversible** *adj* **1.** qaytarilmas, qaytarilmaydigan, takrorlanmaydigan, qaytarib, takrorlab bo'lmaydigan, abadiy, qaytib kelmaydigan; **la marche de**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**l'histoire est irréversible** tarixiy jarayonni to'xtatib bo'lmaydi; **2.** buzilmas, buzilmaydigan, mustahkam, mahkam, o'zgarmas, o'zgartirib bo'lmaydigan, qat'iy.

**irrévocabilité** *nf* **1.** bekor qilib bo'lmaslik, almashtirib bo'lmaslik; **2.** qaytarib, takrorlab bo'lmaslik.

**irrévocable** *adj* **1.** bekor qilib bo'lmaydigan, almashtirib bo'lmaydigan; **2.** qaytarib, takrorlab bo'lmaydigan, qaytmas, uzil-kesil, qat'iy, abadiy qo'ldan ketgan.

**irrévocablement** *adv* uzil-kesil, qat'iy, abadiy qo'ldan ketgan holda, qaytmas, takrorlanmas ravishda.

**irrigateur** *nm* **1.** sug'orish arig'i, kanali; **2.** mirob.

**irrigation** *nf* **1.** sug'orish, suv chiqarish, suv berish, ichirish, suvlash; **d'irrigation** sug'orishga oid; **2.** *méd* yuvish, yuvib tozalash, suv yoki dori bilan bosim orqali yuvish.

**irriguer** *vt* **1.** sug'ormoq, suv quymoq, bermoq, ichirmoq, suv chiqarmoq, suv bilan ta'minlamoq; **2.** yuvmoq, yuvib tozalamoq, bosim orqali yuvmoq.

**irritabilité** *nf* achchiqlanish, tez g'azablanish, serjahllik, serzardalik, jizzakilik, jirtakilik, ta'sirlanish, ta'sirlanuvchanlik, tez ta'sirlanish, hayajonga kelish, ta'sirchanlik, zardasi tezlik.

**irritable** *adj* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib, g'ijinib ketadigan, serjahl, serzarda, jizzaki, jirtaki, tez ta'sirlanadigan, ta'sirchan, tez hayajonlanadigan.

**irritant, ante I.** *adj* qitiqlaydigan, qo'zg'aydigan, jahllantiradigan, hayajonlantiruvchi, to'lqinlantiruvchi, jonlantiruvchi; **II.** *nm méd* qitiqlaydigan, qichitadigan, qo'zg'atadigan, uyg'otadigan vosita, dori, badanni uyg'otuvchi dori-darmon.

**irritatif, ive** *adj méd* qitiqlaydigan, qo'zg'atadigan, uyg'otadigan.

**irritation** *nf* **1.** qo'zg'atish, qo'zitish, qitiqlash, qichishtirish, bezovta qilish; **2.** achchiqlanish, g'azablanish, jahldorlik, jizzakilik, jirtakilik; **3.** *physiol* uyg'onish, asablarning qo'zg'alishi, seskanish.

**irrité, ée** *adj* g'azablangan, achchiqlangan, asabiylashgan, qoni, zardasi qaynagan, darg'azab.

**irriter I.** *vt* **1.** g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq, jahlini chiqarmoq, qonini, zardasini qaynatmoq, qattiq xafa, norozi qilmoq; **2.** qichitmoq, qitiqlamoq, qo'zg'atmoq, uyg'otmoq, hayajonlantirmoq, keskinlashtirmoq; **II. s'irriter** *vpr* **1.** achchiqlanmoq, jahllanmoq; **2.** to'lqinlanmoq (*dengiz*).

**irruption** *nf* bostirib kirish, bosqin, hujum, tajovuz, istilo, qo'qqisdan bostirib kelish; **faire irruption** bostirib kirmoq, kelmoq, yopirilmoq.

**isba** *nf* kulba, uy, yog'och uy.

**islam** *nm* islom dini.

**islamique** *adj* islom diniga oid, islomiy.

**islamisation** *nf* islom diniga o'tkazish.

**islamisme** *nm* islamizm, islom dinini targ'ibot qilish.

**islandais, aise I.** *adj* Islandiyaga oid, Islandiya, island; **II.** *n* **1.** islandiyalik, island, Islandiya aholisi; **2.** *nm* island tili.

**isolant, ante** *adj* ajratuvchi, ayiruvchi, bir-biriga bog'lanmaydigan; **une bouteille isolante** termos.

**isolation** *nf* ajratish, ayirish, ajratib qo'yish.

**isolationnisme** *nm* ajratuvchanlik siyosiy oqimi.

**isolationniste I.** *adj* ajratuvchanlik siyosiy oqimiga oid; **II.** *n* shu oqim tarafdori.

**isolé, ée I.** *adj* **1.** yolg'iz, yakka, tanho, ajralib turadigan, odam yashamaydigan, bo'sh, cho'lga o'xshagan; **2.** alohida, ayrim, bo'lak, mustaqil, xolis, yagona, birgina, kamdan-kam uchraydigan; **un cas isolé** birgina, yagona hodisa, hol; **3.** alohida, xolis, ayrim, ajratilgan, ajratib olingan, ajralib qolgan, bog'lanishsiz, aloqasi yo'q, tarqoq, bir-biridan ajralib, uzilib qolgan, bir-biri bilan bog'lanmagan; **II.** *nm* harbiy xizmatchi (*qismidan ajralib qolgan*).

**isolement** *nm* **1.** yolg'izlik, yolg'iz yashash, yakka turish, yolg'izlikdagi hayot, kimsasizlik, g'ariblik, alohidalik, yakkalik, ajralganlik, odamovilik, aralashmaslik, uzoqlashib, begonalashib ketganlik, begonalik, yotlik, yotsirash; **2.** yakkalanib, ajralib qolish, bir-biridan ajralganlik, uzilganlik, uzilib, ajralib qolganlik, aloqasi yo'qlik, tarqoqlik; **3.** ajratib qo'yish, ajralib, uzilib qolish, aloqaning yo'qligi, tarqoqlik, boshqa-boshqa bo'lib qolish.

**isolément** *adv* ayrim holda, ajratib, alohida, boshqa-boshqa, o'zaro bog'lanmasdan, yakka holda.

**isoler I.** *vt* **1.** ayirmoq, ajratmoq, ajratib, yakkalab qo'ymoq, xolilatmoq, odamlardan chetga olmoq, yolg'iz qoldirmoq, begonalashtirmoq; **2.** bir-biridan ajratmoq, yakkalab qo'ymoq, aloqasini uzmoq; **3.** *chim* ajratmoq, ajratib chiqarmoq (*gaz*); **II. s'isoler** *vpr* **1.** ajralib yakka, tanho, yolg'iz qolmoq, odamlardan uzoqlashmoq, o'zini xilvatga olmoq; **2.** bo'linmoq, ajralib chiqmoq, bo'lak bo'lmoq.

**isoloir** *nm* xona, kabina (*yashirin ovoz berish uchun*).

**isomère** *chim* **I.** *adj* izomerga oid; **II.** *nm* izomer (*har xil tarkibli modda*).

**isomérie** *nf chim* izomeriya (*moddalarning mavjud bo'la olishi*).

**isomorphe** *adj* shakldosh, o'xshash shaklli, shakli o'xshash.

**isopet** *nm voir* **ysopet**.

**isotope** *chim* izotop (*bir kimyoviy elementning atom og'irligiga qarab bir-biridan farq qiladigan ko'rinishlari*); **un isotope radioactif** radioaktiv izotoplar.

**israélite I.** *adj* Isroilga oid, Isroil; **II.** *n* isroillik, yahudiy.

**issu, ue** *adj* kelib chiqqan.

**issue** *nf* **1.** chiqish, chiqish yo'li, yo'lak, chiqaverish, yo'l, chora, iloj, chiqish teshigi; **2.** iloj, chora, yo'l, xotima, natija, oqibat, oxir, pirovard, tamom, intiho; **une issue heureuse** baxtli natija; **sans issue** ilojsiz, chorasiz, bedavo; *loc prép* **à l'issue de** oxirida, intihosida, tugash, tamom bo'lish arafasida, natijada, xulosa qilganda; **3.** *pl* chiqindi, chiqit; **4.** *pl* ichak-chavoq, kalla-pocha.

**isthme** *nm géog* bo'yin, ikki dengizni ajratib turadigan tor quruqlik.

**italianisme** *nm* italyanlik, italyanlarga xos so'zlashuv uslubi.

**Italien, ienne I.** *adj* Italiyaga oid, italyan, Italiya; **II.** *n* **1.** italiyalik, italyan, Italiya aholisi; **2.** *nm* italyan tili.

**italique I.** *adj* **1.** qadimiy Italiyaga oid; **2.** qiya (*harf*); **en italique** qiya bosma harf bilan; **II.** *nm* qiya bosma harf.

**itératif, ive** *adj* takroriy, qaytadan, yangidan qilinadigan, takrorlanadigan, takrorlanuvchi, tez-tez takrorlanadigan.

**itinéraire I.** *adj* yo'lga oid, sayohat, yo'nalishga oid, yo'l; **II.** *nm* **1.** bosib o'tiladigan, o'tilgan yo'l, qatnov yo'li, marshrut; **2.** yo'l taassurotlari, xotiralari, qaydnomalari.

**itinérant, ante** *adj* kezib yuradigan, sayyor, ko'chib yuruvchi, ko'chma; **une exposition itinérante** ko'chma ko'rgazma.

**itou** *adv fam vieilli* ham, bilan; **et moi itou** men ham.

**ivoire** *nm* **1.** fil suyagi, dandon; **2.** fil suyagidan ishlangan buyum.

**ivraie** *nf* mastak (*begona o't*); **séparer le bon grain de l'ivraie** *fig* yaxshi-yomonning farqiga bormoq, mastakni bug'doydan farqlamoq, ajratmoq.

**ivre** *adj* mast, karaxt, aqli-hushini yo'qotgan, kayf qilgan, ichgan, shirakayf, sarxush, kayfi bor; **être ivre mort** qattiq, o'lguday mast, g'irt mast bo'lmoq.

**ivresse** *nf* **1.** mastlik, sarxushlik, kayfi oshish, ichib mast bo'lish; **2.** ortiq darajada zavqi oshgan.

**ivrogne** *nm* ichkilikboz, aroqxo'r, mast.

**ivrognerie** *nf* aroqxo'rlik, ichkilikbozlik, aroq ko'p ichish.

# J

**J, j** *nm* fransuz alifbosining o'ninchi harfi.

**jabot** *nm* **1.** jig'ildon (*qushlarda*); **se remplir le jabot** to'yib ovqatlanmoq; **2.** jabo (*yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya*).

**jacasse** *nf* **1.** zag'izg'on, hakka; **2.** *fam* mahmadona, vaysaqi, vaysaqi xotin.

**jacassement** *nm* hakkaning sayrashi, shaqillashi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**jacasser** *vi* **1.** chirillamoq, shaqillamoq; chig'illamoq (*zag'izg'on haqida*); **2.** *fam* tinimsiz vaysamoq, valdiramoq, bidir-bidir qilmoq.

**jacasserie** *nf vieilli* bekorchi gap, safsata, vaysash.

**jacasseur, euse** *adj, n* vaysaqi, shang'i.

**jachère** *nf* (*ekilmagan*) shudgor, dam berib qo'yilgan yer (*shudgor qilib, bir yoz bo'sh qoldirilgan yer*); **laisser une terre en jachère** yerni shudgor qilib, tashlab qo'ymoq; **labourer une jachère** shudgor qilib qo'yilgan yerga ishlov bermoq.

**jacinthe** *nf bot* guli sunbul.

**jacket** *nf* tishning tabiiy emal qatlami o'rniga ishlatilaishga mo'ljallangan keramika yoki plastmassadan tayyorlangan maxsus qoplami.

**jacobin, ine I.** *n* yakobinchi (*XVIII asr oxirlarida Fransiyada: revolutsion demokrat*) **II.** *adj* yakobinchi(lar)ga oid; yakobinchi(lar); **le parti jacobin** yakobinchilar partiyasi.

**jacobinisme** *nm hist* yakobinchilar (yakobinchilar tutgan siyosat).

**jacquard** *nm* **1.** to'qo'vchilik kasbi (*fransuz mexanigi Jakkard (1752-1834) tomonidan yaratilganligi tufayli uning nomi bilan atalgan va Jakkard mashinasi deb ham ataladi*); **2.** Jakkard gazlamasi (*gul, naqsh kabilarni ifodalovchi to'la rangdagi jundan to'qilgan mato*).

**jacquerie** *nf* dehqonlar qo'zg'oloni.

**jacquet** *nm* jake (*o'yin*).

**jactance** *nf* maqtanchoqlik, manmanlik, chiranchoqlik; maqtanish, kerilish; **parler avec jactance** kerilib gapirmoq, maqtanchoqlik bilan gapirmoq.

**jacter** *vi fam* gapirmoq, mahmadonachilik qilmoq.

**jade** *nm* nefrit; **un collier de jade** nefritdan qilingan marjon.

**jadis I.** *adv* bir vaqtlar, qachonlardir; **II.** *adj* **au temps jadis** qadim zamonlarda, o'tmishda.

**jaguar** *nm* yaguar (*yo'lbarssimon yirtqich hayvon*).

**jaillir** *vi* **1.** otilib turmoq, chiqmoq, oqib chiqmoq; sachrab turmoq; **2.** to'satdan paydo bo'lmoq; ko'rinib, ajralib turmoq.

**jaillissant, ante** *adj* otilib, sachrab turgan; **source jaillissante** otilib turgan buloq.

**jaillissement** *nm* otilib chiqish, sachrab turish; **un jaillissement de vapeur** bug' otilib chiqishi.

**jais** *nm minér* gagat (*toshko'mirning zargarlik buyumlari yasash uchun ishlatiladigan turi*); **noir comme du jais** smoladek yoki qatrondek qop qora, saqichdek, zulukdek qop-qora; **des yeux de jais** yonib turgan qop-qora ko'zlar.

**jalon** *nm* **1.** ishorat qog'ozi, belgisi; **planter des jalons pour mesurer un terrain** maydonni o'lchash uchun ishorat qog'ozini qo'ymoq, qoqmoq; **2.** *fig* zamin, asos, tayanch, negiz; **poser les jalons d'un travail** biror ishga zamin tayyorlamoq.

**jalonnement** *nm* belgi qo'yish, belgilash.

**jalonner I.** *vi* belgi qo'ymoq, belgilamoq, ishorat belgisini qo'ymoq; **II.** *vt* **1.** ishorat qog'ozi orqali yonalish, saf, qator kabilarni belgilamoq; **2.** belgilamoq, chegaralamoq (*narsa haqida*); **les succès qui jalonnent sa carrière** uning mavqesini belgilovchi muvaffaqiyatlar.

**jalousement** *adv* **1.** rashk bilan, qizg'anib, rashklanib; **2.** ayab, avaylab, juda ehtiyot qilib; **garder jalousement un secret** sirni juda ehtiyot qilib saqlamoq.

**jalouser** *vt* rashk qilmoq; hasad qilmoq.

**jalousie** *nf* **1.** rashk, hasad, ko'ra olmaslik; **2.** jaluza (*yog'och darparda, chiy parda*).

**jaloux, ouse I.** *adj* **1.** rashkli, rashkchi, kunchi, qizg'anadigan rashk qiladigan; **il est jaloux de sa femme** u xotinini qizg'anadi; **2.** hasadli, hasadchi, hasadguy; **il est jaloux de ses voisins** u qo'shnilariga hasad qiladi; **3.** avaylaydigan, ehtiyot qiladigan; qadrlaydigan; **jaloux de sa liberté** ozodligini qadrlaydigan; **4.** jonkuyar, g'ayratli, serg'ayrat, tirishqoq; xohlovchi; **exercer ses fonctions avec une ferveur jalouse** vazifasini tirishqoqlik bilan bajarmoq; **jaloux de plaire** yoqishni istovchi, xohlovchi. **II.** *n* **1.** Rashkchi, kunchi, rashkli, rashk qiladigan odam; **2.** hasadchi, hasad qiluvchi odam, g'ayir, ichi qora, baxil, suq; **faire des jaloux** birovda hasad uyg'otmoq.

**jamais** *adv de temps* **1.** qachon bo'lmasin, bir payti kelib, bir kunmas bir kun; **si jamais je le rencontre** agar bir kunmas bir kun uni uchratsam; **aurait-on jamais pensé qu'il ferait cela?** Payti kelib uning bunday ish qilishini kim ham o'ylabdi? **c'est pire que jamais** hech qachon bunday yomon bo'lgan emas; *loc adv* **à jamais, pour jamais** umrbod, abadiy, mangu; **il a quitté son pays à jamais** u o'z vatanini mangu tashlab ketdi; **2.** hech, hech qachon, hech vaqt, aslo, sira, **il n'est plus jamais revenu** u boshqa hech qachon kelmaydi; **je ne le ferai jamais plus** men endi hech qachon unday qilmayman; **jamais, au grand jamais** hech qachon, hayotda hech vaqt; **c'est le moment ou jamais** hozir vaqti keldi yoki hech qachon; **on ne sait jamais** qayerdan bilibmiz; *prov* **mieux vaut tard que jamais** hech bo'lmaganidan kech bo'lgani yaxshi; **3.** faqat, boryog'i, atigi; **après tout, cela ne fait jamais que 50 francs** bu bor yog'i 50 frank turadi.

**jambage** *nm* **1.** vertikal to'g'ri chiziq (*harflarda*); **le M a trois jambages** M harfida uchta chiziq bor; **2.** *archit* kesaki (*eshik, derazada*).

**jambe** *nf* **1.** oyoq, boldir; **croiser les jambes** oyoqlarni chalkashtirmoq, chalishtirmoq; **se dégourdir les jambes** oyoq chigilini yozmoq; **traîner la jambe** oyog'ini sudrab bosmoq; behol bo'lmoq; **se jeter dans les jambes de qqn** biror kimsaning oyog'iga bosh urmoq, oyog'iga yiqilmoq; **cela m'a coupé bras et jambes** qo'lsiz, oyoqsiz bo'lib qoldim, nima qilishni bilmay qoldim, bu oyoq-qo'limni bog'lab qo'ydi; **je n'ai plus mes jambes de vingt ans** men endi yosh emasman; **à toutes jambes** oyog'ini qo'lga olib, tez, g'izillab; **il m'a tenu la jambe pendant une heure** u meni bir soat tutib turdi; **par dessus la jambe** zo'rg'a, arang, bir amallab, amal-taqal qilib; qilaymi-qilmaymi deb, imillab; **2.** oyoq, panja (*hayvonlarda*); **3.** ustun, tirgak; **jambe de force** tiragich, tirkagich, tirgak.

**jambière** *nf* **1.** getr (*to'piqdan boldirgacha berkitib turadiganissiq oyoq kiyimi yoki qo'nj*); **2.** tugmali, to'qali qo'nj (*boldirni shikast yeyishdan asrovchi sport anjomi*).

**jambon** *nm* **1.** dudlangan cho'chqa soni; **2.** cho'chqaning son go'shti.

**jambonneau** *nm* oyoqning son yoki yelkadan quyiroqda joylashgan qismi (*cho'chqa go'shti haqida*).

**jamboree** *nm* skautlarning xalqaro slyoti (*skaut – XX asr boshlarida dastlab Angliyada, so'ng boshqa ba'zi davlatlarda tuzilgan harbiy-siyosiy xarakterdagi bolalar tashkilotining a'zosi*).

**janissaire** *nm hist* yanichar (*Usmonli turk imperiyasida davlat xazinasidan maosh olib turgan muntazam piyoda askar*).

**jansénisme** *nm* yansenizm (*katolitsizmning ko'rinishlaridan biri bo'lgan diniy-siyosiy oqim*).

**janséniste I.** *n* yansenist; **II.** *adj* yansenizmga oid, yansenist.

**jante** *nf* to'g'in, tegarchik (*g'ildirak va hokazolarda*); **enlever le pneu de la jante** g'ildirak to'g'inidan shinani chiqarmoq.

**janvier** *nm* yanvar; **en janvier, au mois de janvier** yanvar oyida.

**japon** *nm* **1.** yapon chinnisi; **2.** yapon qog'ozi.

**japonais, aise I.** *adj* Yaponiyaga oid, Yaponiya; **II.** *n* **1.** yapon, yaponiyalik; **2.** *nm* yapon tili.

**jappement** *nm* akillash, chiyillash, uvillash.

**japper** *vi* akillamoq, akillab hurmoq, vovullamoq, uvillamoq, chiyillamoq.

**jaquette** *nf* **1.** frak (*erkaklarda*); **2.** jaket, kalta kamzul (*ayollarda*); **3.** muqovaning jildi.

**jardin** *nm* bog', bog'cha; **jardin botanique** botanika bog'i; **jardin public** istirohat bog'i, xiyobon; **jardin d'enfants** bolalar bog'chasi.

**jardinage** *nm* bog'dorchilik, sabzavotchilik.

**jardiner** *vi* bog'dorchilik bilan shug'ullanmoq.

**jardinet** *nm* bog'cha, uy oldidagi qo'rali bog'cha, gulzor.

**jardinier, ière I.** *adj* boqqa, bog'chaga oid, bog'li, bog'dagi, bog'; **II.** *n* **1.** bog'bon; **2.** *nf* **jardinière d'enfants** bolalar bog'chasidagi tarbiyachi; **3.** *nf* sabzavotdan tayyorlangan ragu; **4.** *nf* xonaki gul, o'simlik uchun maxsus gultuvak.

**jargon** *nm* jargon, lahja.

**jargonner** *vi* jargonda gaplashmoq.

**jarre** *nf* sopol ko'za, xum.

**jarret** *nm* **1.** *anat* taqim, tizza osti; **2.** orqa oyoqning bukiladigan joyi (*hayvonlarda*); **3.** tirsak, burilish joyi (*truba va hokazolarda*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**jarretière** *nf* bog‘, bog‘ich, paypoqni tutib turadigan rezina bog‘ich; **l'ordre de la Jarretière** Angliyadagi orden.

**jars** *nm* erkak g‘oz.

**jaser** *vi* **1.** vaysamoq, ko‘p gapirmoq; **2.** chirillamoq, tirillamoq, chig‘illamoq (*qushlar*); **3.** gap-so‘z qilmoq, g‘iybat qilmoq; **cela va faire jaser les gens** bu g‘iybat gaplarga sabab bo‘ladi; **4.** sirni aytib qo‘ymoq, og‘izdan gullab qo‘ymoq.

**jaseur, euse** *adj* vaysaqi, ko‘p gapiradigan, g‘iybatchi.

**jasmin** *nm* yasmin, yosuman.

**jaspe** *nm minér* yashma (*rangdor tosh*).

**jaspé, ée** *adj* xol-xol dog‘li, olachipor, chavkar.

**jaspiner** *vi fam* vaysamoq, ko‘p gapirmoq, mahmadonalik qilmoq.

**jatte** *nf* kosa, tovoq; **une jatte de lait** bir kosa sut.

**jauge** *nf* **1.** o‘lchagich, o‘lchash asbobi, o‘lchaydigan asbob (*sig‘im, hajm uchun*); **2.** sig‘im, hajm, kattalik.

**jaugeage** *nm* sig‘im, hajm, kattalikni o‘lchash; **jaugeage d'un navire** kema sig‘imini o‘lchash.

**jauger I.** *vt* **1.** hajm, sig‘imni o‘lchamoq; **2.** *fig* belgilamoq, baho bermoq, deb topmoq, deb bilmoq, hukm chiqarmoq; **du premier coup il jaugea son adversaire** u bir qarashdayoq raqibiga baho berdi; **II.** *vi mar* **1.** suv sig‘imiga ega bo‘lmoq; **un navire jaugeant deux mille tonnes** suv sig‘imi ikki ming tonnali kema; **2.** botmoq, cho‘kmoq, o‘tirmoq (*kema*).

**jaunâtre** *adj* sarg‘ish, sariqroq.

**jaune I.** *adj* sariq, sariq rang, malla; **devenir jaune** sarg‘aymoq; rangi ketmoq, zahillashmoq; **II.** *nm* **1.** sariq rang; **peindre en jaune** sariq rangga bo‘yamoq; **le jaune ne lui va pas** sariq rang unga yarashmaydi (*kiyim*); **2.** sariq bo‘yoq; **3. jaune d'œuf** tuxum sarig‘i; **4.** sariq irqqa mansub kishi, mongoloid; **5.** *fig* kelishuvchi, murosachi; sotilgan, sotqin; **III.** *adv* zo‘raki, g‘ayriixtiyoriy; soxta; **rire jaune** zo‘rma-zo‘raki iljaymoq.

**jaunir I.** *vt* sarg‘aytirmoq, sariq rangga bo‘yamoq, sariq tus bermoq, sariq tusga kiritmoq; **II.** *vi* sarg‘aymoq; rangi ketmoq, zahillashmoq; **les feuilles jaunissent** barglar sarg‘aymoqda.

**jaunissant, ante** *adj* sarg‘ayayotgan, sariq tusga kirayotgan.

**jaunisse** *nf méd* sariq, sariq kasali, gepatit, Botkin kasalligi.

**jaunissement** *nm* sarg‘aytirish, sariq rang berish, sariq tusga kirish.

**java** *nf* yava (*xalq raqsi, musiqasi*); **faire la java** xushchaqchaqlik qilmoq, bayram qilmoq, aysh-ishrat qilmoq.

**javanais[1], aise I.** *adj* Yava oroliga, yavaliklarga oid, Yava, yavalik; **II.** *n* **1.** yavalik; **2.** *nm* yavaliklar tili.

**javanais[2]** *nm* javane, jargon turi (*so‘zning har bir bo‘g‘ini orasiga* **av** *yoki* **va** *qo‘shimchalari qo‘shib talaffuz qilinadi:* **grosse – gravosse**).

**Javel (eau de)** *nf* javel (*gazlama oqartirish, kir yuvish uchun ishlatiladigan sarg‘ish-yashil rang xlorli eritma*).

**javelle** *nf* bir quchoq o‘rib qo‘yilgan don poyasi.

**javelliser** *vt* javel yordamida suvni sterillamoq, mikroblardan tozalamoq.

**javelot** *nm* **1.** irg‘itiladigan o‘q; nayza; **2.** *sport* nayza; **un champion de javelot** nayza irg‘itish bo‘yicha chempion.

**jazz** *nm* jaz.

**je** *pron pers* men; **je lui donne** men unga beryapman; **il emploie le je dans son récit** u o‘z nomidan hikoya qilmoqda.

**jean-foutre** *nm fam* nodon, merov, anqov.

**jeannette** *nf* **1.** *bot* nargis, narkas (*gul*); **2.** bo‘yinga taqiladigan xoch; **3.** oyoqli dazmol taxta.

**jeep** *nf* jip (*avtomobil turi*).

**je-m'en-fichisme** *nm* beparvolik, mas'uliyatsizlik, sovuqqonlik.

**je-m'en-fichiste** *n* biror narsaga beparvolik, mas'uliyatsizlik bilan qaraydigan odam.

**je-ne-sais-quoi** *nm* nimadir, bir narsa, allanima.

**jérémiade** *nf fam* nola, hasrat, shikoyat.

**jerk** *nm anglic* jerk (*zamonaviy raqs*).

**jéroboam** *nm* katta shampan idishi (*to‘rtta shampan idishi hajmidagi*).

**jerrycan** *nm* kanistra.

**jersey** *nm* **1.** jersi (*jun yoki ipakli gazmol turi*); **2.** mayin undan to‘qilgan koftacha.

**jésuite** *nm* **1.** iyezuit (*reaksion katolik monaxlar tashkilotining a'zosi*); **2.** *n* ikkiyuzlamachi, munofiq, dog‘uli odam.

**jésuitisme** *nm* ikkiyuzlamachilik, munofiqlik, makkorlik, dog‘ulilik.

**jet[1]** *nm* **1.** otish, tashlash, irg‘itish, uloqtirish; **le jet d'une grenade** granata uloqtirish; **une arme de jet** otish quroli; **2.** uloqtirilgan narsa borib tushgan masofa; **3.** jildiragan, tizillagan oqim; **un jet de sang** tirqirab oqayotgan qon; **à jet continu** to‘xtovsiz oqim bilan; **jet d'eau** favvora; **4.** *bot* bachki, novda, shox.

**jet[2]** *nm anglic* reaktiv samolyot.

**jeté** *nm* **1.** jete (*baletdagi harakat*); **2.** *sport* bir siltov, bir zo‘r berish (*og‘ir tosh ko‘tarishda*).

**jetée** *nf* to‘lqinqaytargich, damba, ko‘tarma.

**jeter I.** *vt* **1.** tashlamoq, otmoq, irg‘itmoq; chiqarib tashlamoq; **jeter l'ancre** langar tashlamoq; **jeter un châle sur ses épaules** yelkasiga ro‘mol tashlamoq; **jetez cela à la poubelle** buni axlatga tashlang! *fam* **s'en jeter un derrière la cravate** ichmoq; **2.** qurmoq, o‘tkazmoq, o‘rnatmoq, asos solmoq; **jeter une passerelle sur un ruisseau** anhor ustuga yolg‘iz oyoq ko‘prik qurmoq; **jeter les bases d'une société** jamiyatga asos solmoq, tamal toshini qo‘ymoq; **3.** qo‘ymoq, tashlamoq (*ta'na a'zolari haqida*); **4.** chiqarmoq, tarqatmoq (*yorug‘lik, nur, tovush*); **jeter des cris** qichqirmoq; **5.** haydab chiqarmoq, jo‘natmoq, quvib yubormoq (*kuch ishlatib*); biror kimsani uydan haydab chiqarmoq; **jeter qqn en prison** qamoqqa tashlamoq, jo‘natmoq; **jeter bas, à bas, à terre** yiqitmoq, yerga qulatmoq; **II. se jeter** *vpr* **1.** sakramoq, o‘zini tashlamoq, tashlanmoq; **se jeter à l'eau** suvga sakramoq; **se jeter aux pieds de qqn** birovning oyog‘iga o‘zini tashlamoq; **2.** quyilmoq (*daryo haqida*); **les rivières qui se jettent dans la Seine** Senaga quyiladigan irmoqlar.

**jeton** *nm* **1.** jeton; **un jeton de téléphone** telefon jetoni; **2. jeton de présence** yig‘ilishda qatnashganligi uchun to‘lanadigan haq; **3.** *fam* **faux comme un jeton** soxta, ikkiyuzlamachi; **vieux jeton** aynigan chol; **4.** *fam* musht tushirish, musht solish, musht; turtki, zarba; **5.** *fam* **avoir les jetons** qo‘rqmoq, cho‘chimoq, yuraksizlik qilmoq.

**jeu** *nm* **1.** o‘yin, o‘ynash; *loc adv* **par jeu** hazillashib, hazil qilib, o‘ynab; **2. jeu de mots** so‘z o‘yini; **3.** o‘yin (*ma'lum qoidalar asosida o‘ynaladigan*); **le règle du jeu** o‘yin qoidasi; **4.** *pl* tomosha, sport musobaqasi; **jeux du cirque** sirk tomoshalari; **Jeux Olympiques** Olimpiada o‘yinlari; **5.** partiya, dafa, qur; **6.** qimor, qimor o‘yini; **maison de jeux** qimorxona; **se ruiner au jeu** qimorda yutqazib qo‘ymoq; **7.** dov, ganak, tikilgan pul (*qimor o‘yinida*); **jouer petit, gros jeu** oz, ko‘p pul tikib o‘ynamoq; **faites vos jeux** dovingizni tiking; **les jeux sont faits** masala hal, gap tamom, bo‘lari bo‘ldi, boshqa gap yo‘q; **8.** o‘yin (*shahmat, shashka, domino kabi o‘yin vositalari*); **un jeu d'échecs en ivoire** fil suyagidan yasalgan shahmat; **avoir un beau jeu** qulay sharoitda bo‘lmoq, qo‘lida yaxshi qartasi bo‘lmoq; **9.** komplekt, to‘plam, to‘da; **un jeu de clefs** kalitlar shodasi, to‘plami; **10.** mashq, chalish, ijro etish, ijro (*cholg‘u asboblarida*); **le jeu d'un violoniste** skripkachining ijrosi; **11.** ijro, ijro etish, o‘yin (*aktyorlar, artistlar haqida*); **12.** o‘yin, o‘ynash, harakat, raqs; **jeu de jambes** oyoq o‘yini; **jeu de physionomie** mimika, yuz mushaklarining ma'nolari harakatlari, imo-ishoralar; **13.** yurish, siljish; ishlash, aylanish, harakat; **le jeu d'un ressort** prujinanaing siljishi; **le jeu des muscles** mushaklar harakati; **14.** *loc* **c'est un jeu d'enfant** arzimas narsa, yengil ish; **jouer le jeu** risoladagidek bajarmoq, biror narsani bajarishda qoidaga amal qilmoq; **ce n'est pas de jeu** siz g‘irromlik qilyapsiz; **entrer en jeu** biror ishga birinchi marotaba qo‘shilmoq; **d'entrée de jeu** boshidan, avval boshdan, boshlanishidanoq; **entrer dans le jeu de qqn** biror kimsaning yonini olmoq; birov bilan hamfikr bo‘lmoq; **être en jeu** o‘ynamoq, o‘yinda qatnashmoq; shubha ostida qolmoq; noaniq bo‘lmoq; hal qilinmasdan qolmoq; xavf-xatarda bo‘lmoq; **se prendre, se piquer au jeu** o‘yinga berilib ketmoq; **cacher son jeu** zimdan ish yurgizmoq; **jouer double jeu** munofiqona ish tutmoq, ikkiyuzlamachilik qilmoq; **faire le jeu de qqn** birovning tegirmoniga suv quymoq; birovning ixtiyorida bo‘lmoq; **jouer franc jeu** ochiqdan-ochiq harakat qilmoq, ochiqchasiga ish tutmoq.

**jeudi** *nm* payshanba.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**jeun (à)** *loc adv* nahorga, och qoringa; **prendre un remède à jeun** nahorga, och qoringa dori ichmoq; **être à jeun** och bo'lmoq, ertalabdan hech narsa yemaslik.

**jeune I.** *adj* **1.** yosh; **son jeune frère** uning ukasi; **2.** navqiron; **jeune femme** juvon; **jeune homme** yigit; **3.** yosh, yangi, yangi tashkil qilingan; **4.** yoshlikka, yoshlik davriga xos; **dans mon jeune temps** yosh paytimda, yoshligimda; **5.** yoshlarga xos; **une coiffure jeune** yoshlarga xos soch turmagi; **6.** yosh, yangi, tajribasiz, tajribasi kam; **il est jeune dans le métier** bu ishda u hali g'o'r; **7.** *fam* **c'est un peu jeune** bu yetarli emas; **II.** *n* yigit, o'spirin, yigitcha; yosh qiz; **les jeunes** yoshlar, yosh-yalang, yigit-qiz; **III.** *adv* yoshdek, yoshlardek, yosh; **il fait jeune pour son âge** u yosh ko'rinadi; **elle s'habille jeune** u yoshlardek kiyinadi.

**jeûne** *nm* ovqat yeyishdan o'zini tiyish; ro'za.

**jeûner** *vi* **1.** ovqat yeyishdan o'zini tiymoq; **2.** ro'za tutmoq.

**jeunesse** *nf* **1.** yoshlik, o'spirinlik, yoshlik chog'i, davri; **elle n'est plus de première jeunesse** uning yoshi o'tib qolgan, u endi olma bilan o'rik bo'larmidi; **2.** yoshlar, yosh-yalang, yigit-qiz; **la jeunesse de l'école** o'quvchi yoshlar; **3.** *fam* yosh qiz; **il a épousé une jeunesse** u yosh qizga uylandi.

**jeunot** *nm fam péj* ona suti og'zidan ketmagan, xom, g'o'r odam.

**jiu-jitsu** *nm* jiu-jitsu (*yaponcha kurash turi*).

**joaillerie** *nf* **1.** zargarlik san'ati; **2.** zargarlik mollari bilan savdo qilish; zargarlik do'koni; **3.** zargarlik mollari.

**joaillier, ière** *n* zargar.

**job** *nm fam* mayda ish, mayda-chuyda ish.

**jobard, arde I.** *adj* go'l, g'o'r, sodda, anoyi, do'lvar; **II.** *nm* befahm, anqov, laqma odam.

**jobardise** *ou* **jobarderie** *nf* soddalik, soddadillik, do'lvarlik; go'llik, anoyilik, laqmalik.

**jockey** *nm* jokey (*poygachi chavandoz*).

**jocrisse** *nf* ahmoq, tentak, esi past odam.

**joie** *nf* shodlik, quvonch; sevinch; rohat, farog'at; **pleurer de joie** sevinchdan yig'lamoq; **être dans la joie** xursand bo'lmoq; **accepter avec joie** mamnuniyat bilan qabul qilmoq; **mettre qqn en joie** birovni xursand qilmoq, shodlantirmoq; **une fille de joie** fohisha.

**joindre I.** *vt* **1.** qo'shmoq, birlashtirmoq, bog'lamoq, yig'moq; **joindre les deux points** ikki nuqtani birlashtirmoq; *loc* **joindre les deux bouts** uchini uchiga arang yetkazmoq, arang tirikchilik qilmoq, qo'l uchida kun ko'rmoq; **2.** to'plamoq, yig'moq, birlashtirmoq; **joindre les efforts** kuchlarni birlashtirmoq; **3. joindre à** birga qo'ymoq, qo'shib, tirkab qo'ymoq, ilova qilmoq; **joignez cette pièce au dossier** bu narsani hujjatga tirkab qo'yib; **joindre le geste à la parole** gapdan ishga o'tmoq; **4.** yetmoq, yetib bormoq, yetib kelmoq; uchrashmoq; bog'lanmoq; **je n'arrive pas à le joindre** men unga bog'lanolmayapman; men unga to'g'ri kelolmayapman, uni uchratolmayapman; **on peut le joindre par téléphone** u bilan telefon orqali bog'lanish mumkin; **II.** *vi* yopishib, taqalib, jips bo'lib turmoq; **la fenêtre ne joint pas** deraza jips yopilmaydi; **III. se joindre** *vpr* **1.** birlashmoq, birga bo'lmoq; qatnashmoq, qo'shilmoq; **se joindre à un parti** partiyaga kirmoq, a'zo bo'lmoq; **se joindre à la conversation** suhbatda qatnashmoq, suhbatga qo'shilmoq, aralashmoq.

**joint[1], jointe** *adj* **1.** qo'shilgan, yig'ilgan, birikkan; **sauter à pieds joints** ikki oyoqlab sakramoq; **2. joint à** qo'shilgan, qo'shib, ilova qilib, tirkab qo'yilgan; **lettre jointe au paquet** paketga ilova qilingan xat; **ci-joint** ilova qilingan, qo'shilgan; **3.** jipslashgan, yopishgan; **des planches mal jointes** jipslashmagan, oralashi ochiq qoqilgan pol.

**joint[2]** *nm* **1.** birikish, ulanish, qo'shilish joyi, qo'shilgan, birikkan joy; chok chizig'i, chok; qo'shilish chizig'i; **les joints de ciment entre les briques** g'ishtlarning birikish joyidagi sementli chok; **2.** *techn* birikma, ulama; **3.** prokladka, qistirma (*ikki narsa orasiga qistirib qo'yilgan narsa*); **un joint de robinet** kran prokladkasi; **4.** *anat* bo'g'im; **5.** *techn* oshiq-moshiq; **6. chercher, trouver le joint** qiyinchilikni bartaraf etishning qulay vositasini izlamoq, topmoq.

**jointure** *nf* **1.** *anat* bo'g'im; **faire craquer les jointures des doigts** barmoqlarini (*bo'g'imlarini*) qisirlatmoq; **2.** birikish, ulanish, qo'shilish joyi, qo'shilgan, birikkan joy, uloq; chok chizig'i, chok.

**joker** *nm* joker (*qarta o'yinida har qanday qartani almashtirish mumkin bo'lgan alohida qo'shimcha qarta*).

**joli, ie I.** *adj* **1.** chiroyli, go'zal, zebo, yoqimtoy; yaxshigina, chiroylikkina; **faire le joli cœur** navozish qilmoq; **2.** muhim, ahamiyatli, zarur; ko'zga ko'rinarli; **3.** juda yaxshi, soz (*kesatish*); **c'est du joli travail** rasvo ish (*kesatiq*); **II.** *n* **1.** *nm fam iron* **c'est du joli** bu yaxshi emas, rasvo; **2.** *n* go'zal, chiroyli odam; **ma jolie** go'zalim.

**joliesse** *nf* go'zallik, chiroy, husn, nafosat, nazokat, kelishganlik, yoqimtoylik.

**joliment** *adv* **1.** yaxshi, chiroyli, go'zal; **être joliment habillé** yaxshi kiyingan bo'lmoq; **2.** ancha, xiyla, talay; juda, yaxshigina; **il est joliment bête** u anchagina tentak, unda anchagina yetishmaydi.

**jonc** *nm* **1.** *bot* qo'g'a, qamish; **une corbeille de jonc** qamishdan to'qilgan savat; **2.** hassa, tayoq; **3.** uzuk, bilaguzuk.

**jonchée** *nf* to'p, to'da, uyum; qatlam, qat; **jonchée de fleurs** gullardan to'shalgan gilam.

**joncher** *vt* sochib, sepib sathni to'ldirmoq; qoplamoq, hamma yoqqa sochib, sepib tashlamoq, qoplamoq; to'ldirmoq; **joncher le sol de fleurs** yerni gul bilan qoplamoq; **des feuilles mortes jonchaient le sol** yer qurigan, to'kilgan barglar bilan qoplangan edi.

**jonction** *nf* **1.** qo'shish, ulash, biriktirish; birikkanlik, qo'shilganlik; **point de jonction** birikish nuqtasi; **2.** qo'shilish, tutashish, birikish; **jonction de deux routes** ikkita yo'lning tutashishi; **3.** qo'shilish, tutashish, birlashish (*kishilar, guruhlar va hokazo*); **opérer une jonction** tutashmoq (*kosmik kemalar haqida*).

**jongler** *vi* jonglyorlik qilmoq; *fig* **jongler avec** soxtalashtirmoq (*so'z, fakt va shu kabilardan o'z istaganicha foydalanish, ularni ustalik bilan xohlagan tomonga burmoq*); **jongler avec les chiffres** raqamlardan o'z xohishicha foydalanmoq; **jongler avec les difficultés** qiyinchiliklarni osonlik bilan yengmoq, bartaraf qilmoq.

**jonglerie** *nf* **1.** jonglyorlik san'ati; fokus, ko'zboyloqchilik; **2.** *fig* nayrangbozlik, hiyla-nayrang, nayrang.

**jongleur, euse** *n* jonglyor.

**jonque** *nf* jonka (*xitoycha yelkanli kema*).

**jonquille I.** *nf bot* yovvoyi nargis; **II.** *adj* och sariq, sarg'ish.

**jota** *nf* **1.** xota (*ispancha raqs*); **2.** ispan tilida "x" tarzida talaffuz qilinadigan "j" bo'g'iz undoshi.

**joue** *nf* **1.** yuz, bet, yonoq; **tendre la joue** yuzini tutmoq; **embrasser sur les deux joues** ikki yuzidan o'pmoq; **le feu aux joues** qizargan, lovullagan yuzlar bilan; **mettre en joue** miltiqdan nishonga olmoq; **en joue!** nishonga ol! **2.** *techn* yuz, bet, yon tomon, yassi qism.

**jouer I.** *vi* **1.** o'ynamoq, ko'ngil ochmoq, vaqtini chog' qilmoq, ovunmoq; **allez jouer dehors!** tqshqarida o'ynanglar! **2.** o'ynamoq (*o'rtaga pul tikib, uni muayyan qoidalar asosida yutib olishga harakat qilmoq*), qimor o'ynamoq); **jouer à la Bourse** birjada chayqovchilik qilmoq; **jouer sa fortune** qartaga butun boyligini tikmoq; **à vous de jouer!** yurish navbati sizniki! siz yurasiz! yuring! **3.** aktyorlik qilmoq, aktyorlik faoliyati bilan shug'ullanmoq; **4.** *techn* o'ynamoq, bemalol harakat qilmoq, aylanmoq; **5.** qayishmoq, tob tashlamoq; **6.** tovlanmoq, jilva qilmoq, jilvalanmoq; **le soleil jouait à travers les feuillage** barglar orasidan quyosh jilva qilardi; **7. jouer avec (qqch)** o'ynamoq, vaqti chog'lik qilmoq; **8.** *fig* o'ynashmoq, yengil, yuzaki qaramoq; qaltis, xavfli harakat qilmoq; **jouer avec sa vie, sa santé** hayotini, sog'ligini xavf ostida qoldirmoq; **9. jouer à** o'ynamoq, shug'ullanmoq **jouer aux cartes** qarta o'ynamoq; **jouer au tennis** tennis o'ynamoq; **jouer au football** futbol o'ynamoq; **jouer une partie d'échecs** bir partiya shahmat o'ynamoq; **10. jouer sur** kinoya, imo, ishora, qochirim qilmoq; **jouer sur les mots** qochirim qilib gapirmoq. **11. jouer de (qqch)** mashq qilmoq, chalmoq, ijro etmoq (*cholg'u asboblarida*); **jouer du piano** piyanino chalmoq; **12.** foydalanmoq, ishlatmoq; **jouer du couteau** pichoqni ishga solmoq; **jouer des coudes** tirsaklar yordamida o'ziga yo'l ochmoq; **jouer de bonheur** omadi yurishmoq; **jouer de malchance** omadi kelmaslik; **jouer de la prunelle** ko'z o'ynatmoq, ko'z suzmoq, ishva qilmoq, ko'z qismoq; **II.** *vt* **1.** o'ynamoq, yurmoq, surmoq; **jouer un pion** piyodani surmoq (*shahmatda*); **2.** *fig* o'yinda tavakkal qilmoq, tikmoq; **jouer ses derniers sous** oxirgi pulni tikmoq; **3.** aldamoq,



www.ziyouz.com kutubxonasi

chalg‘itmoq; yolg‘on gapirmoq; firib bermoq, pand bermoq; **il vous a joué** u sizni aldadi; **nous avons été joué par ce charlatan** bu tovlamachi bizni laqillatib ketdi; **4.** ijro etmoq, chalmoq (*musiqa asboblari yordamida*); **jouer un air** ariya ijro etmoq; **jouer du Mozart** Motsarni chalmoq; **5.** o‘ynamoq, ijro etmoq, qo‘ymoq; **jouer une pièce** pyesani o‘ynamoq; **que joue-t-on ce soir à l'Opéra** Opera teatrida bugun nima qo‘yiladi? **jouer la comédie** mug‘ombirlik qilmoq, o‘zini biror ko‘yga, holatga solmoq; **6.** *fig* o‘zini biror qiyofaga solmoq; o‘zini biror qiyofada ko‘rsatmoq; sahnada ko‘rsatmoq; bo‘lib chiqmoq; **jouer l'indifférent** beparvo ko‘rsatmoq; **III. se jouer** *vpr* **1.** o‘ynalmoq, qo‘yilmoq, ijro etilmoq; **ce jeu se joue à quatre** bu o‘yinni to‘rt kishi o‘ynaydi; **le match se jouera entre ces deux équipes** bu match bu ikki jamoa o‘rtasida o‘ynaladi; **où se joue cette pièce?** bu pyesa qayerda qo‘yilyapti? **2.** mensimay, pisand qilmay qaramoq; hazillashib kalaka qilmoq, tegishmoq; **en se jouant** qiyinchiliksiz; **il se joue de nous** u bizni kalaka qulmoqda; **il se joue des difficultés** u qiyinchiliklarni osonlik bilan bartaraf qilmoqda.

**jouet** *nm* **1.** o‘yinchoq; **marchand de jouets** o‘yinchoqlar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi; **l'industrie du jouet** o‘yinchoq ishlab chiqarish; **2.** *fig* **être le jouet de** qurbon bo‘lmoq, biror narsa oqibatida jafo tortmoq, zarar ko‘rmoq; birovning qo‘lida o‘yinchoq bo‘lmoq; **il est le jouet d'une illusion** u xom xayolning qurboni bo‘ldi; **il est le jouet de cette femme** u bu ayol qo‘lida o‘yinchoq, uning izmi bu ayol qo‘lida.

**joueur, euse I.** *n* **1.** o‘yinchi, o‘yinda qatnashuvchi; **joueur de football** futbol o‘yinchisi, futbolchi, o‘yinchisi; **2.** qimorboz, qimor o‘ynovchi; **3. beau joueur** dovyurak, jur'atli o‘yinchi; **4.** sozanda; mashshoq, cholg‘uchi, musiqachi; **II.** *adj* sho‘x, o‘ynoqi, xushchaqchaq; **un enfant joueur** sho‘x bola, o‘yinni sevadigan bola.

**joufflu, ue** *adj* yuzi katta, yuzi tovoqday, katta, keng yuzli; **un bébé joufflu** katta yuzli chaqaloq.

**joug** *nm* **1.** bo‘yinturuq, xomut, yog‘och bo‘yincha; **atteler au joug** xomutga qo‘shmoq, xomutga bog‘lamoq; **2.** *fig* jabr, zulm, azob; **le joug des envahisseurs** bosqinchilar zulmi; **mettre sous le joug** qul qilmoq; **subir le joug** jabr tortmoq, zulm ostida bo‘lmoq; **tomber sous le joug de qqn** biror kimsaning zulmi ostida qolmoq; **secouer le joug** zulmni ag‘darib tashlamoq.

**jouir** *vt* **I. 1.** maza qilmoq, huzurlanmoq, lazzatlanmoq, gasht qilmoq, zavqlanmoq, rohatlanmoq, sel bo‘lmoq, xush yoqmoq; **jouir de la vie** hayotdan zavqlanmoq; **jouir de la compagnie de qqn** biror kimsa bilan ulfatchilikdan huzur qilmoq; **2.** *vulg* huzur qilmoq, rohat qilmoq (*shahvoniy jihatdan*); **3. jouir de** sazovor bo‘lmoq, bahramad bo‘lmoq; **jouir d'une santé solide** mustahkam sog‘likka ega bo‘lmoq; **il jouit de l'estime de tous** u hammaning hurmatiga ega; **jouir d'une liberté absolue** to‘liq ozodlikdan rohatlanmoq.

**jouissance** *nf* **1.** huzur qilish, maza qilish, zavqlanish, rohat qilish, xush yoqish; xursandchilik; **éprouver une vive jouissance** chindan ham rohat qilmoq; **2.** foydalanish; ishlatish; **avoir la jouissance d'un appartement** uydan foydalanishga huquqi bo‘lmoq, uydan foydalanish huquqiga ega bo‘lmoq; **la jouissance d'un jardin** bog‘dan foydalanish.

**jouisseur, euse** *nmf* yallo qilib yurishdan, kayf-safodan boshqani bilmaydigan odam, ishratparast.

**joujou** *nm* o‘yinchoq; **faire joujou avec** bilan o‘ynamoq, ovunmoq.

**joule** *nm phys* joul.

**jour** *nm* **1.** kun, nur, yog‘du, yorug‘lik; **le petit jour** tongning g‘ira-shira yog‘dusi; **le grand, le plein jour** kuppa-kunduz kuni, ochiq-oydin; **il fait jour** tong yorishmoqda; *poét* **l'astre du jour** quyosh; **beau (belle) comme le jour** juda chiroyli; **c'est clair comme le jour** ochiq-oydin ko‘rinib turibdi; **2. donner le jour à un enfant** farzand ko‘rmoq, tug‘moq, ko‘zi yorimoq, bo‘shanmoq; vujudga, dunyoga keltirmoq; **voir le jour** tug‘ilmoq, dunyoga kelmoq; **3.** tabiiy yorug‘lik manbai; **laisser entrer le jour dans une pièce** xonaga yorug‘lik tushirmoq; **4.** yorug‘lik, yog‘du, nur (*quyoshdan boshqa manbalar to‘g‘risida*); **le jour d'une lampe** chiroq yog‘dusi; **5. mettre au jour** ko‘rinmoq, ko‘rsatmoq, namoyish qilmoq; **6. sous un jour** biror holda, tarzda; **présenter qqn sous un jour favorable** biror kimsani yaxshi tomondan ko‘rsatmoq, yomonini yashirib, yaxshisini oshirmoq; **faux jour** yaxshi yoritilmagan; **7.** teshik, tuynik, yopiq tirqish, darcha; **percer un jour dans une muraille** devordan darcha ochmoq; **8.** nafis, nozik to‘r, to‘rsimon, ko‘z-ko‘z kashta; **faire des jours** to‘rsimon (ko‘z-ko‘z) qilib kashta tikmoq; **une broderie à jour** to‘rsimon ko‘z-ko‘z kashta; **des bas à jour** to‘rsimon ko‘zli paypoq; **9. se faire jour** paydo bo‘lmoq, ko‘rinmoq, oydinlashmoq, ifodalanmoq; **la vérité commence à se faire jour** haqiqat oydinlashmoqda; **10.** kun, kunduz kun (*sutkaning quyosh chiqishidan quyosh botguncha qismi*); **le début du jour** ertalab; **le milieu du jour** tushki payt; **la fin du jour** kechqurun; **les jours raccourcissent** kunlar qisqarmoqda; **de jour** kunduz kuni, kunduzi; **travailler de jour** kunduzi ishlamoq; *mil* **service de jour** kunduzgi naryad; **le jour et la nuit** kunduzi va kechqurun; **nuit et jour** kunu tun, kechasiyu-kunduzi, to‘xtalasdan, beto‘xtov, doimiy ravishda; **c'est le jour et la nuit** bularning orasida yer bilan osmoncha farq bor; **11.** kunu tun, bir kecha kunduz, bir sutka; **huit jours** bir hafta; **en deux jour** ikki kun ichida; **quinze jours** ikki hafta; **12.** kun, sana; **le jour d'avant** bir kun avval; **le jour d'après** ertasiga, bir kun keyin; **il y a un jour** kecha; **dans un jour** ertaga; *loc* **un jour** o‘tmishda, kunlardan bir kun; bir kunmas bir kun, axir bir kun, qachon bo‘lmasin, payti kelib, kelajakda; **chaque jour** har kuni, kundalik; **périodique paraissant chaque jour** har kuni chiqadigan vaqtli matbuot; **tous les jours** doimiy, har kungi, odatdagi; **jour après jour** kun ortidan kun; **de jour en jour** kundan kunga; oz-ozdan; **d'un jour à l'autre** erta-indin deb, bugun-erta deb; **13.** kun, kunduz (*kunning uzunligi haqida*); **le jour paraît long** kunlar uzoq tuyilmoqda; **le jour passe vite** kun tez o‘tmoqda; **par jour** kun davomida; har kuni; **plusieurs fois par jour** har kuni bir necha marta; **il gagne dix euros par jour** har kuni o‘n yevro ishlaydi; **14.** chog‘, payt, vaqt, davr, kunlar; **de nos jours** bizning davrda; **un jour viendra** kunlar keladiki; **pour les mauvais jours** yomon, qora kunlar uchun; **les beaux jours sont revenus** yaxshi kunlar qaytib keldi; **l'homme du jour** shu kunning qahramoni; jon ofati, ofatijon (*aristokratik jamiyatda: xotinlarning yuragidan uradigan, martabasi ulug‘, basavlat erkak*); **15.** hayot, umr yoki uning ma'lum davri; **finir ses jours** o‘lmoq, hayotdan ko‘z yummoq; **derniers, vieux jours** qarilik chog‘i.

**journal, aux I.** *nm* **1.** gazeta; **les titres d'un journal** gazeta sarlavhalari; **un journal hebdomadaire** haftalik, haftada bir marta chiqadigan gazeta; **un journal mural** devoriy gazeta; **2.** jurnal (*ba'zi har kuni chiqadigan matbuot haqida*); **journal de modes** modalar jurnali; **des journaux d'enfant** bolalar jurnali; **3.** xotira daftari, kundalik; **tenir un journal** kundalik yozmoq; **4.** *mar* **journal de bord** vaxta jurnali; **5.** gazeta tahririyati; **aller au journal** gazeta tahririyatiga bermoq; **écrire au journal** tahririyatga, gazetaga yozmoq; **son journal l'a envoyé à l'étranger** gazeta tahririyati uni chet elga yubordi; **6.** kundalik axborotlar byulleteni; **journal parlé, radiodiffusé** radio-gazeta, so‘nggi axborot; **journal télévisé** televizion yangiliklar; **II.** *adj* gazetada bosilgan, gazetaga oid, gazeta; **du papier journal** gazeta qog‘ozi.

**journalier, ière I.** *adj* kundalik, kunlik, har kungi; **travail journalier** kundalik ish; **II.** *n* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor.

**journalisme** *nm* jurnalistika; **faire du journalisme** jurnalistika bilan shug‘ullanmoq.

**journaliste** *nm* jurnalist; **un journaliste sportif** sport jurnalisti, muxbiri.

**journalistique** *adj* gazeta, jurnalistika, jurnalistga oid; gazeta, jurnalist, jurnalistik; **style journalistique** gazeta uslubi.

**journée** *nf* **1.** kun, kunduz; **au début de la journée** kunning boshida, ertalab; **en fin de journée** kunning oxirida, kechqurun; **pendant la journée** kunduzi, kun davomida; **dans la journée d'hier** kecha; **dans la journée du 1er mai** birinchi may kuni; **bonne journée** xayr, xo‘sh, sog‘ bo‘ling, yaxshi qoling, yaxshi boring, kuningiz xayrli o‘tsin; **2.** bir kunlik ish; **journée de huit heures** sakkiz soatlik ish kuni.

**journellement** *adv* har kuni, doimiy; **être tenu journellement au courant des nouvelles** har kuni yangilikdan xabardor bo‘lib turmoq.

**joute** *nf* **1.** yakkama-yakka kurash, jang; **2.** *fig* bahslashuv, bellashuv, tortishuv, musobaqa; **joute oratoire** so‘zga ustalikda bahslashuv, notiqlik bellashuvi; aytishuv.

**jouvenceau, elle** *n* yosh yigit, yosh qiz.

**jovial, ale** *adj* quvnoq, xushchaqchaq, xushtabiat, shod, xursand, vaqti chog‘; **un garçon jovial** quvnoq bola; **d'humeur jovial** vaqti chog‘lik bilan, yaxshi kayfiyat bilan.

**jovialité** *nf* xushchaqchaqlik, quvnoqlik, shodmonlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**joyau** *nm* **1.** qimmatbaho ziynat buyumi; **2.** *fig* durdona, xazina; **un des joyaux de l'art médiéval** O'rta asr san'atining durdonalaridan biri.

**joyeux, euse** *adj* **1.** xushchaqchaq, quvnoq, shodmon, vaqti chog', xursand; **un joyeux garçon** xushchaqchaq bola; **d'humeur joyeuse** yaxshi kayfiyat bilan, vaqti chog'lik bilan; **rendre joyeux** vaqtini chog' qilmoq, quvontirmoq, shodlantirmoq, ko'nglini ochmoq; **2.** quvonchli, sevinchli, shodiyona; **une joyeuse nouvelle** quvonchli yangilik; **pousser des cris joyeux** quvonchdan qichqirib yubormoq.

**joyeusement** *adv* shodlik, xursandchilik, vaqti chog'lik, xushtabiat, shodmonlik bilan; **accepter joyeusement une offre** hadyani xursandchilik bilan qabul qilmoq.

**jubé** *nm* cherkovda altarga kiraverishdagi baland joy, minbar.

**jubilation** *nf* shodlik, shod-xurramlik, shodiyona.

**jubilé** *nf* ellik yillik yubiley, ellik yillik.

**jubiler** *vi* shodlanmoq, shod-xurram, shodmon bo'lmoq, quvonmoq, zavqlanmoq.

**jucher I.** *vi* qo'noq, qo'noqqa qo'nmoq (*qushlar, tovuqlar haqida*); **les faisans juchent sur les arbres** qirg'ovullar daraxtlarga qo'nmoqdalar; **II.** *vt* o'tqazmoq, ustiga qo'ymoq, mindirmoq, mingashtirmoq; **il le jucha sur ses épaules** uni yelkasiga mindirib oldi; **III. se jucher** *vpr* qo'noqqa chiqmoq, qo'noqqa qo'nmoq, ustiga chiqib olmoq.

**juchoir** *nm* qo'noq, qo'ndoq.

**judaïque** *adj* yahudo diniga va yahudiylarga oid; **religion judaïque** yahudo dini, iudaizm.

**judaïsme** *nm* yahudo dini, iudaizm.

**judas** *nm* **1.** xoin, sotqin, munofiq (*nasroniy afsonalariga ko'ra o'z ustozi, Iso payg'ambarga xiyonat qilgan Iuda Iskariot nomidan*); **2.** kichik darcha, teshik, tuynukcha.

**judiciaire** *adj* sudga oid, suddagi; sud; **le pouvoir judiciaire** sud hokimiyati**; une vente judiciaire** sud qaroriga asosan sotish; **le casier judiciaire** sudlanganlik haqida ma'lumot.

**judicieusement** *adv* aql, idrok; zehn bilan.

**judicieux, se** *adj* **1.** aqlli, aqli bor, idrokli, farosatli, es-hushli; **un esprit judicieux** aqlli kishi; **2.** oqilona, ma'qul, o'rinli, jo'yali, aqlga muvofiq; **une remarque judicieuse** o'rinli tanbeh.

**judo** *nm* dzyudo; **une prise de judo** dzyudodagi uslub.

**judoka** *nm* dzyudochi, dzyudocha kurash tushuvchi.

**juge** *nm* **1.** *yur* sudya, sud; **2.** *sport* sudya, hakam; **le juge d'un match de boxe** boks bo'yicha hakam; **le juge de touche** maydon tashqarisidagi hakam; **un juge-arbutre** arbitr, bosh hakam.

**jugé (au)** *nm voir* **juger II**.

**jugement** *nm* **1.** sud majlisi, sudda ishning ko'rilishi, sud hukmi; **le jugement du tribunal** sud hukmi; **le jugement de Dieu** qilingan gunohlar uchun xudo tomonidan berilgan jazo; **prononcer un jugement** sud hukmini e'lon qilmoq; **rendre un jugement** hukm qilmoq; **confirmer, casser un jugement** hukmni tasdiqlamoq, bekor qilmoq; **faire appel d'un jugement** hukmdan norozi bo'lib shikoyat arizasi bermoq; **mettre en jugement** sudga bermoq; **2.** fikr, mulohaza; **un jugement juste** to'g'ri, haq fikr; **jugement favorable** ma'qul, ijobiy fikr; **exprimer un jugement** o'z fikrini aytmoq; **je soumets cela à votre jugement** buni sizning ixtiyoringizga havola qilaman; **3.** to'g'ri, sog'lom fikr; **un homme de jugement** sog'lom fikrli odam; **manquer de jugement** sog'lom fikrlashdan mahrum bo'lmoq.

**jugeote** *nf* sog'lom fikr; **il a de la jugeote** u gap nimadaligini tushunib turibdi.

**juger I.** *vt* **1.** sud qilmoq; hukm chiqarmoq; **juger un assassin** qotilni sud qilmoq; **il a été jugé et condamné** uni sud qilishdi va ja'zoga tortishdi; **juger un crime** jinoyat yuzasidan hukm chiqarmoq; **2.** o'ylab ko'rib hukm chiqarmoq, muhokama, mulohaza qilib ajrim qilmoq, bir yoqli qilmoq, bartaraf qilmoq; **juger un différend** janjalni bir yoqli qilmoq; **3.** hisoblamoq; deb o'ylamoq, fikr yuritmoq, aniqlamoq; **si vous jugez ma présence nécessaire** mening bo'lishimni zarur deb hisoblasangiz; **il jugea utile de** u foydali deb o'ylaydi; **je juge que les résultats sont bons** natijalar yaxshi deb o'ymayman; **il est difficile de juger s'il a tort ou raison** uning haq yoki nohaqligini aniqlash qiyin; **4.** tasavvur qilmoq, ko'z oldiga, xayolga keltirmoq, faraz qilmoq; deb o'ylamoq; **jugez de ma surprise!** hayron bo'lganligini tasavvur qiling-a! **II.** *nm* **au juger** *ou* **au jugé** ko'z chama bilan, chamalab, tavakkaliga, tusmollab, taxminan; **tirer au juger** tavakkaliga otmoq.

**jugulaire I.** *adj anat* bo'yinga oid, bo'yin; **II.** *nf* bosh kiyimning iyak ostidan o'tkazib qo'yiladigan bog'ichi.

**juguler** *vtr* to'xtatmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yo'q qilmoq, yo'qotmoq; **juguler une révolte** isyon, g'alayonni bostirmoq; **juguler le mal** yomonlikni oldini olmoq; **juguler une hémorragie** qon ketishni to'xtatmoq; **juguler une épidémie** epidemiyaning oldini olmoq.

**juif, juive I.** *n* yahudiy, yahudiy ayol; **II.** *adj* yahudiylarga oid, yahudiy; **le peuple juif** yahudiy xalqi.

**juillet** *nm* iyul; **en juillet, au mois de juillet** iyulda; **fin juillet** iyulning oxirida.

**juin** *nm* iyun.

**jules** *nm* **1.** *fam* er, qalliq; **2.** *fam* tuvak.

**julien, ienne** *adj* **le calendrier julien** Yuliy kalendari (*milloddan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan ta'sis qilingan kalendar*).

**jumeau, elle I.** *adj* egiz, egizak (*bolalar*); **des frères jumeaux** egiz aka-ukalar; **c'est mon frère jumeau** biz u bilan egizakmiz; **II.** *n* egiz, egizak; **elle accoucha de deux jumeaux** u ikkita egizak tug'di.

**jumelage** *nm* **1.** birodarlashish (*shaharlar haqida*); **2.** *techn* juft-juft qilib qo'yish, biriktirish, bog'lash.

**jumelé, ée** *adj* juft, qo'sh, qo'shaloq, ikki yoqlama, ikki qavatli; birodarlashgan.

**jumeler I.** *vt* **1.** juft-juft qilib qo'shmoq, biriktirmoq, bog'lamoq, juftlamoq, juft-juft qilmoq; **2.** *fig* birodarlashtirmoq (*shaharlar haqida*); **jumeler deux villes** ikkita shaharni birodarlashtirmoq; **II. se jumeler** *vpr* yaqinlashmoq, inoqlashmoq, o'zaro yaqin munosabatda bo'lmoq; birodarlashmoq (*shaharlar haqida*).

**jumelles** *nf pl* durbin.

**jument** *nf* biya, baytal; **jamais coup de pied de jument ne fit mal à un cheval** ot tepkisini ot ko'taradi; er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi.

**jungle** *nf* changalzor, chakalakzor; **la loi de la jungle** vahshiy qonun, changalzor qonuni.

**junior I.** *nm* yunior (*16 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan sportchi*); **le championnat des juniors** yoshlar o'rtasidagi chempionat; **II.** *adj* **1.** yoshlik, o'spirinlik, yigitlikka oid; yoshlar, yosh-yalanglar; yoshlik, o'spirinlik, yigitlik; **une équipe junior de football** yoshlar futbol jamoasi; **2.** yoshi kichik, yoshroq, yosh, kenja, eng kichik.

**junte** *nf* xunta; **junte militaire** harbiy xunta.

**jupe** *nf* yubka (*xotin-qizlar kiyimi*).

**jupon** *nm* ichdan kiyiladigan yubka; **courir le jupon** ayollar ketidan yurmoq; **un coureur de jupons** xotinboz, shilqim.

**jurassien, ienne** *adj* Yura tog'iga oid; **relief jurassien** Yura tog'i relyefi.

**jurassique** *géol* **I.** *adj* Yura davriga oid; **II.** *nm* Yura davri (*mezoziy erasining ikkinchi davri*).

**juré, ée I.** *adj fig* **ennemi juré** ashaddiy dushman; **II.** *nm* sud maslahatchisi.

**jurer I.** *vt* qasamyod qilmoq; qasam ichmoq, ont ichmoq; **jurer obéissance et fidélité** itoat qilishga va sadoqatli bo'lishga qasamyod qilmoq; **je vous jure** sizga qasamyod qilaman; **elle jura de garder le secret** sirni saqlashga ont ichdi; **il jura ses grands dieux qu'il n'en savait rien** bu haqida hech narsa bilmasligini aytib xudoni o'rtaga qo'yib qasam ichdi; **jurer sur la Bible** Injilni o'rtaga qo'yib ont ichmoq; **II.** *vi* **1.** qasamyod qilmoq, va'da bermoq, ont ichmoq; **2.** so'kmoq, urishmoq; **3. (avec qqch)** mos kelmaslik; **ta cravate jure avec ton costume** galstuging kostumingga mos kelmaydi; **III. se jurer** *vpr* **1.** bir-biriga qasamyod qilmoq; **2.** o'ziga-o'zi va'da bermoq, qasamyod qilmoq; **il se jure de ne pas recommencer** qayta bunday qilmaslikka o'ziga-o'zi qasamyod qildi.

**juridiction** *nf* **1.** yurisdiksiya, sud qilish huquqi; **2.** kompetensiya, vakolat, huquq, ixtiyor; **cela n'est pas de votre juridiction** bu sizning ixtiyoringizda emas; **2.** sudlov idoralari.

**juridique** *adj* yuridik, huquqiy, huquqqa oid; **il a une formation juridique** u yuridik ma'lumotga ega; **vocabulaire juridique** yuridik terminlar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**juridiquement** *adv* **1.** yuridik, huquqiy jihatdan; **2.** qonun asosida, qonun bo'yicha.

**jurisconsulte** *nm* yuriskonsult.

**jurisprudence** *nf* yurisprudensiya, huquq fanlarining majmui; sud tajribasi; sudda ishlarni ma'lum tartibda ko'rish, hal qilish; **la jurisprudence n'est pas encore fixée** (*bu muammo*) hozircha sud tajribasiga ma'lum emas.

**jurisprudentiel, elle** *adj* yurisprudensiyaga oid.

**juriste** *nmf* yurist, huquqshunos.

**juron** *nm* haqorat, tahqir; so'kish.

**jury** *nm* **1.** sud maslahatchilari ishtirokida o'tgan sud majlisi; **2.** juri, hakamlar hayati.

**jus** *nm* **1.** sharbat, shira, suv; **un jus de raisin** uzum sharbati; **extraire le jus d'un citron** limon suvini siqib chisqarmoq; **2.** sous, qayla, sel; **jus de viande** go'shtning seli; **faire cuire qqch dans son jus** biror narsani o'z seliga pishirmoq; **laisser cuire qqn dans son jus** biror kimsani o'z yog'iga o'zini qovurmoq; **3.** *fam* qahva; **allons boire un jus** qahva ichaylik; **4.** *fam* suv; **5.** *fam* chiqish (*nutq, gap, bayonot*); **6.** *fam* elektr toki; **il n'y a plus de jus** tok yo'q; **un court jus** qisqa tutashuv; **7.** *fam* **ça vaut le jus** bunga arziydi.

**jusant** *nm* dengiz suvining qaytishi.

**jusqu'au-boutisme** *nm* ektremizm (*siyosatda keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik*).

**jusqu'au-boutiste** *nm* ektremist, ekstremizm tarafdori.

**jusque I.** *prép* **1. aller jusqu'à Paris** Parijgacha bormoq; **rempli jusqu'au bord** qirg'og'igacha to'ldirilgan; **rougir jusqu'aux oreilles** qulog'iga qadar qizarmoq; (*zamon ma'nosini ifodalaydi*) **du matin jusqu'au soir** ertadan kechgacha; **jusqu'à nouvel ordre** yangi buyruq bo'lguncha (*ham, hattoki*) **tous, jusqu'à sa femme, l'ont abandonné** hamma, hatto xotini ham uni tashlab ketdi; **2. jusque chez** -nikigacha, -gacha; **j'irai jusque chez vous** men siznikigacha boraman; **3. jusqu'alors** o'sha choqqacha, o'sha vaqtgacha; **jusqu'à présent** hozirgacha, hozirgi paytgacha; **jusqu'où?** qayergacha? qaysi joygacha? **II.** *adv* hatto, hattoki, hatto, ham; **III.** *conj* **jusqu'à ce que** qadar, -guncha, -gacha, to; **jusqu'à ce que je revienne** men qaytib kelguncha; **jusqu'au moment où** paytgacha, -guncha, qadar; **jusqu'au point que** shu darajada, shu qadar.

**jusquiame** *nf* mingdevona, shaytonkosa, moxovkosa.

**justaucorps** *nm* kamzul.

**juste I.** *adj* **1.** adolatli, odil, haqqoniy, to'g'ri; **un homme juste et généreux** adolatli va olijanob kishi; **une cause juste** to'g'ri ish; **à juste titre** haqqoniy ravishda, odilona, haqqoniylik, odillik, adolat bilan, to'g'ri; **2.** aniq, to'g'ri, rost, bexato, to'g'ri ko'rsatadigan; **ma montre indique l'heure juste** mening soatim to'g'ri yuradi; **3.** tor, siqib, yopishib turadigan, siqiq, siqadigan; **ce vêtement est trop juste** bu kiyim tor; **4.** kam, yetarli emas, yetar-yetmas; **un kilo de viande, c'est un peu juste pour toute la famille** bir kilo go'sht butun oila uchun arang yetadi; **II.** *adv* **1.** aniqlik bilan, aniq, to'g'ri, durust, rost, chin, haq, bexato; **il a vu juste** u xato qilmadi; **2.** aniq, aynan, to'g'ri, rosa, naq, loyiq, loppa-loyiq; **à 2 heures juste** rosa, naq soat ikkida; **je suis arrivé juste pour le début du spectacle** spektaklning rosa boshlanish vaqtida keldim; **cette robe me va juste** bu ko'ylak menga loppa-loyiq; **3.** faqat, atiga, yolg'iz; **il restera juste quelques minutes** u faqat bir necha minutgina bo'ladi; **il y avait juste trois personnes** u yerda faqat 3 kishigina bor edi; **4.** *loc adv* **au juste** aslida, haqiqatda, aslini olganda, ochig'i, to'g'risi, ochig'ini, to'g'risini aytganda; **III.** *nm* **1.** adolatli, haqiqatgo'y, haqgo'y, odil kishi; **2.** *relig* taqvodor; **le royaume des justes** adolat saltanati.

**justement** *adv* **1.** haqqoniy, to'g'ri, adolat yuzasidan; **il a été fort justement condamné** uni adolat yuzasidan jazolashdi; **2.** aniq, to'g'ri **on dirait plus justement que** aniqrog'i, to'g'rirog'i; **3.** xuddi, naq, ayni, aniq; **nous parlions justement de vous** biz ayni siz haqingizda gaplashayotgan edik.

**justesse** *nf* **1.** to'g'rilik, aniqlik; **justesse d'une balance** tarozining to'g'riligi; **justesse d'une expression** ifodaning aniqligi; **2.** rostlik, to'g'rilik; **de justesse** arang, sal, sal qoldi; **il a été reçu à l'examen de justesse** u imtihonni arang topshirdi; **j'ai eu mon train de justesse** poyezddan kech qolishimga sal qoldi.

**justice** *nf* **1.** odillik, haqqoniylik, adolatlilik; **2.** haqqoniyat, adolat, haqlik, to'g'rilik; **la justice d'une décision** qarorning to'g'riligi; **rétablir la justice** adolatni tiklamoq; **agir selon la justice** adolat yuzasidan ish tutmoq; **3.** sud ishlari, adliya; **être appelé en justice** sudga chaqirilmoq; **le ministère de la justice** adliya vazirligi; **pour suivre qqn en justice** biror kimsani sudga bermoq; **être traduit en justice** sudga tushmoq; **faire justice de qqch** rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq; **rendre justice à qqn** tan bermoq; **se faire justice** o'z joniga qasd qilmoq, o'zini-o'zi o'ldirmoq.

**justiciable** *adj* **1.** *dr* sud idorasiga qarashli, sudda ko'rishga tegishli bo'lgan; **2.** *fig* muhtoj, muhtoj bo'lgan, ehtiyoj sezgan.

**justicier, ère** *nmf* **1.** adolatni himoya qiluvchi, adolat uchun kurashuvchi; **2.** *hist* feodal sud (*o'z hududida adolatni o'rnatish huquqiga ega bo'lgan feodal*).

**justificatif, ive** *adj* oqlaydigan, to'g'riligini, haqligini tasdiqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan, oqlash; **les pièces justificatives** haqligini tasdiqlaydigan hujjatlar.

**justification** *nf* **1.** oqlash, to'g'riligi, haqligini tasdiqlash; **demander des justifications** to'g'riligini tasdiqlashni talab qilmoq; **2.** vaj, dalil, sabab, bahona, tasdiq; **justification d'un fait** biror faktning tasdig'i; **3.** *typogr* satr, qator uzunligini belgilash, qator uzunligi.

**justifier I.** *vt* **1.** oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq; haqligi, haqliligini tasdiqlamoq; **justifier un accusé** aybdorni oqlamoq; **2.** dalil keltirmoq, isbotlamoq; o'rinli, to'g'ri deb topmoq; **justifier les dépenses** xarajatlarini o'rinli deb topmoq; **3.** *poligr* satrni uzunligini to'g'rilamoq; **II.** *vi* tasdiqlamoq, tasdiq qilmoq, tasdiqlab bermoq; **justifier de son identité** o'z shaxsini hujjat yordamida tasdiqlamoq; **III. se justifier** *vpr* o'zini oqlamoq, aybsizligini isbotlamoq, haqliligini ko'rsatmoq; **se justifier d'une accusation** javobgarligini o'zidan soqit qilmoq; **sa conduite ne se justifie guère** uning xatti-harakatini oqlash, to'g'ri deb hisoblash mumkin emas; uning xatti-harakatini kechirib bo'lmaydi.

**jute** *nm* jut (*tola beradigan o'simlik*).

**juteux, euse** *adj* sersuv, shirali; **poire juteuse** shirali nok.

**juxtaposer I.** *vt* **1.** yonma-yon joylashtirilmoq, qo'yilmoq; **2.** solishtirmoq, taqqoslamoq; **II. se juxtaposer** *vpr* yonma-yon joylashmoq.

**juxtaposition** *nf* **1.** yonma-yon joylashish; **2.** *ling* teng bog'lanish.

# K

**K, k** *nm* fransuz alifbosining o'n birinchi harfi.

**kabbale** *voir* **cabale.**

**kabyle I.** *adj* Kabiliyaga oid; **II.** *nm* Kabiliyada gaplashiladigan berber tili.

**kafkaïen, ïenne** *adj* Kafka romanlaridagi azob, qiynoqlarni esga soluvchi.

**Kaiser** *nm* Germaniya imperatori (*1870-1918 yillarda*).

**kakemono** *nm* yapon rassomchilik san'ati (*shoyi yoki qog'ozga ishlangan*).

**kaki[1]** *nm* xurmo.

**kaki[2]** *adj inv* mosh rang, xok rang, xokiy; **des pantalons kaki** mosh rang shim.

**kaléidoscope** *nm* kaleydoskop.

**kamikaze** *nm* kamikadze.

**kangourou** *nm zool* kenguru.

**kaolin** *nm* kaolin, oqgil.

**karakul** *ou* **caracul** *nm* qorako'l.

**karaté** *nm* karate.

**karting** *nm* karting (*kam litrajli kichik avtomobillar poygasi*).

**kascher** *adj inv voir* **casher**.

**kayak** *nm* baydarka (*sport qayig'i turi*).

**kayakiste** *n* baydarka bilan shug'ullanuvchi sportchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**kazakh** I. *adj* qozoqlarga va Qozogʻistonga oid, qozoq; **II.** *n* **1.** qozoq; **2.** *nm* qozoq tili.
**kebab** *nm* kabob, shashlik.
**kéfir** *nm* kefir, qatiq.
**képi** *nm* **1.** kepi; **2.** koziryokli yumshoq bosh kiyim.
**kermesse** *nf* **1.** yillik yarmarka va xalq sayili (*Gollandiya, Belgiya va Fransiyaning shimolida*); **2.** xayriya bayrami (*ochiq maydondagi*).
**kérosène** *nm* kerosin.
**ketchup** *nm* ketchup, pomidor qayla.
**khâgne** *ou* **cagne** *nf fam* tayyorlov sinfi (*pedagogika oliy oʻquv yurtiga kirish uchun*).
**khâgneux, euse** *ou* **cagneux** *adj fam* pedagogika oliy oʻquv yurti tayyorlov sinfi oʻquvchisi.
**khalifat** *nm* xalifalik.
**khalife** *nm* xalifa.
**khan** *nm* xon.
**khanat** *nm* xonlik.
**khôl, kohol** *nm* qosh, kiprik uchun ishlatiladigan qora boʻyoq.
**kibboutz** *nm inv* kibbuts (*Isroilda jamoa fermasi*).
**kidnapper** *vt* biror kimsani oʻgʻirlamoq (*foyda undirish maqsadida*); **kidnapper un enfant** bolani oʻgʻirlamoq.
**kif** *nm* tamakiga aralashtirilgan nasha kukuni.
**kif-kif** *adj inv* oʻxshash, xuddi oʻshanday, bir xil.
**kiki** *nm fam* boʻyin, tomoq, halqum.
**kilo** *nm* kilo.
**kilogramme** *nm* kilogramm; **il pèse 60 kilogrammes** u 60 kilo keladi, uning ogʻirligi 60 kilo.
**kilométrage** *nm* kilometraj (*kilometr bilan ifodalangan masofa, uzunlik*).
**kilomètre** *nm* kilometr; **un kilomètre carré** kilometr kvadrat; **de deux kilomètres** ikki kilometrli; **faire du cent kilomètres à l'heure** soatiga yuz kilometr tezlik bilan yurmoq.
**kilométrer** *vt* kilometrlab oʻlchamoq.
**kilométrique** *adj* **distance kilométrique** kilometrdagi (kilometr bilan oʻlchangan) masofa.
**kilowatt** *nm* kilovatt.
**kilowattheure** *nm* kilovatt-soat.
**kilt** *nm* kilt (*Shotlandiyada erkaklar kiyadigan milliy yubka*).
**kimono** *nm* kimono.
**kinescope** *nm* kineskop.
**kinésithérapeute** *n* massajchi.
**kinésithérapie** *nf* davolovchi massaj va davolash gimnastikasi.
**kiosque** *nm* **1.** kioska, doʻkoncha; **kiosque à journaux** gazeta kioskasi; **2. un kiosque à musique** orkestr estradasi (*parkda*).
**kirghiz I.** *adj* qirgʻizlarga va Qirgʻizistonga oid; **II.** *n* **1.** qirgʻiz; **2.** *nm* qirgʻiz tili.
**kirsch** *nm* olchadan tayyorlangan aroq.
**kitchenette** *nf* oshxonacha, kichik oshxona.
**kiwi** *nm* kivi mevasi.
**klaxon** *nm* klakson (*avtomobil, mototsikl va shu kabilarda mexanik signal turi*).
**klaxonner** *vi* signal bermoq, gudok chalmoq; **interdit de klaxonner** signal berish maʻn etiladi; **klaxonner qqn pour le doubler** quvib oʻtish haqida signal berib ogohlantirmoq.
**kleptomane** *n voir* **cleptomane**.
**kleptomanie** *nf voir* **cleptomanie**.
**knock-out** *ou* **K.-O. I.** *nm* nokaut; **battre par knock-out** nokaut bilan gʻalaba qozonmoq; **II.** *adj* nokautga uchragan.
**knout** *nm* temir uchlik qoʻyilgan qamchi.
**koala** *nm zool* koala, xaltali ayiq.
**kodak** *nm* kodak (*fotoapparat turi*).
**kola** *nm voir* **cola**.
**kola** *nm* kola.
**kolkhoze** *nm* kolxoz, jamoa xoʻjaligi.
**kolkhozien, ienne I.** *adj* kolxozga oid; **II.** *n* kolxozchi, kolxoz aʼzosi.
**komsomol I.** *nm* komsomol; **II.** *n* komsomol aʼzosi.
**kopeck** *nm* tiyin; **une pièce de 2 kopecks** ikki tiyinlik tanga.
**korrigan** *nm* iblis, shayton, jin.
**kouglof** *nm* Elzas pirogi.
**koulak** *nm hist* quloq, oʻziga toʻq dehqon.
**koumis** *nm* qimiz.
**krach** *nm* sinish, kasod boʻlish, kasodlik; birjada qimmatli qogʻozlar inqirozi, qaiymatsizlanishi.
**krypton** *nm chim* kripton.
**kummel** *nm* kummel, zirali aroq.
**kyrie** *ou* **kyrie eleison** *nm inv* katoliklarda diniy marosimlar va tantanalar vaqtida oʻqiladigan ibodatning boshlanishidagi iltijo, oʻtinch bilan qilingan murojaat.
**kyrielle** *nf* uzun qator; koʻp, ancha miqdor; **kyrielle d'injures** toʻxtovsiz haqorat.
**kyste** *nm méd* kista (*sariq suv olgan shish, oʻsma*).
**kystique** *adj* kistasimon, kistaga oid.

# L

**L¹, l** *nm inv* fransuz alifbosining oʻn ikkinchi harfi; **en L** L shaklidagi.
**l²** *abrév, nm inv* **1. l** litr; **2. L** 50ni bildiruvchi rim raqami.
**la¹** *art déf f* **la pendule de la cuisine** oshxonaning osma soati.
**la²** *pron pers f* **je te la prête si tu me la rends** agar sen menga uni qaytarib bersang, men senga uni berib turaman.
**la³** *nm inv mus* lya; **donner le la avec un diapason** lyani keng ovozda bering.
**là I.** *adv* **1.** u yerda, oʻsha yerda, oʻsha joyda, unda; **ne restez pas ici, allez là-bas** bu yerda turmang, u yerga boring; **les faits sont là** asosiy ish oʻsha yerda; *fam* **être un peu là** eʼtiborli boʻlmoq; **2.** oʻsha yerda, oʻsha paytda; **3.** unda, shunda, bu yerda, oʻsha yerda; **tout est là** hamma narsa shunda; **restons-en là** shu oʻrinda toʻxtaylik; **nous n'en sommes pas là** hali u joyga yetib kelganimiz yoʻq; **II.** *intj* shunday, yaxshi; **hé là! doucement** ha shunday! sekin.
**label** *nm anglic* yorliq, tamgʻa, belgi; **label de garantie d'un vêtement** kiyimning kafolat yorligʻi.
**labeur** *nm litt* ogʻir, mashaqqatli mehnat; zahmat; **dur, pénible labeur** ogʻir, mashaqqatli yumush.
**labial, ale, aux** *adj* labga oid, lablangan.
**laboratoire** *nm* laboratoriya; *fam* labo.
**laborieusement** *adv* chidam, mashaqqat, qiyinchilik bilan.
**laborieux, ieuse** *adj* **1.** *litt* ogʻir, mashaqqatli, zeriktiradigan; **une laborieuse entreprise** mashaqqatli ish; **2.** mehnatkash, zahmatkash; **3.** *péj* mashaqatli, ogʻir.
**labour** *nm* **1.** yer haydash, chopish, shudgor qilish; **labour à la bêche, à la charrue** yer chopish, omoch bilan yer haydash; **2.** *pl* shudgor qilingan, haydalgan yer.
**labourable** *adj* ishlovli yer, oʻzlashtirilgan yer, ekin ekiladigan yer.
**labourage** *nm* yerni oʻzlashtirish; **labourage d'un champ** dalani haydash.
**labourer** *vt* **1.** yerni chopmoq, haydamoq, shudgorlamoq; **labourer un champ** dalani haydamoq; **2.** haydalgan, agʻdarilgan, oʻyilgan yer, ishlov berilgan yer.
**laboureur** *nm* yerni haydovchi, chopuvchi, shudgorlovchi.
**labyrinthe** *nm* **1.** labirint; chalkash yoʻl; zinapoyalarning chalkash yoʻlagi; **2.** murakkab, chiqib boʻlmaydigan sonsiz yoʻlaklar; **3.** *anat* labirint (*quloqning chigʻanoqsimon ichki qismi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**lac** *nm* **1.** ko'l; *loc fam* **tomber dans le lac** chippakka, puchga chiqmoq, barbod bo'lmoq, muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **2.** *litt* xalqob.

**laçage** *nm* ipini, bog'ichini bog'lash; **le laçage d'une bottine** botinkaning ipini bog'lash.

**lacer** *vt* ipini, bog'ichini bog'lamoq.

**lacérer** *vt* uzunasiga yirtmoq, bo'lak-bo'lak qilmoq; **vêtement lacéré** uvada, yirtiq-yamoq bo'lib ketgan kiyim.

**lacet** *nm* **1.** bog'ich, ip; **serrer, nouer un lacet de soulier** tuflining bog'ichini tortmoq, bog'lamoq; **2.** ilang-bilang, egri-bugri, ilon izi joy; **les lacets d'un chemin de montagne** tog' yo'lining ilon izi joylari; **3.** tuzoq, sirtmoq, ko'zanak; **prendre des lièvres au lacet** quyonlarni sirtmoq qo'yib tutmoq.

**lâchage** *nm* **1.** qo'yib yuborish, qo'ldan chiqarib yuborish (*biror narsani*); **2.** *fam* qo'yib yuborish, tashlab ketish (*biror kimsani*).

**lâche[1]** **I.** *adj* **1.** qo'rqoq, yuraksiz; **2.** razil, qabih, yaramas, pastkash; **son lâche agresseur** uning qabih tajovuzkori; **3.** manfur, jirkanch, razil; **un lâche répentir** jirkanch pushaymon; **II.** *n* qo'rqoq, yuraksiz odam.

**lâche[2]** *adj* **1.** bo'sh, salqi, bo'sh tortilgan, tarang emas; **vêtement lâche** shalviragan kiyim; **2.** bo'sh, sust.

**lâchement** *adv* qo'rqoqlarcha, manfurona; **ils l'ont lâchement assassiné** ular uni razilona qatl qildilar.

**lacher[1]** **I.** *vt* **1.** qo'yib yubormoq, qo'lidan chiqarib yubormoq; *fam* bermoq, qo'ldan chiqarmoq; **il ne lâchera pas un sou** u biror tiyinni ham qo'ldan chiqarmaydi; **2.** qo'yib yubormoq, uchirmoq; **lâcher des pigeons, un ballon** pochta kaptarlarini, sharni uchirmoq; **lâcher du lest** yon bermoq; **3.** *fig* **lâcher la bride à qqn** bo'sh qo'yib bermoq; *fam* **lâcher le morceau** hammasini tan olmoq; **4.** demoq, aytmoq, tashlamoq, qilib qo'ymoq; **il vient de lâcher une gaffe, une bêtise, une énormité** u hozir noma'qulchilik, ahmoqlik, qo'pollik qilib qo'ydi; **5.** qo'ymoq, solmoq, talatmoq; **6.** qo'yib yubormoq, undan ajramoq (*kishini*); **il ne le lâche pas une minute, pas d'une semelle** u undan bir daqiqa ham, bir qadam ham ajramaydi; **7.** ortda qoldirmoq, o'tib ketmoq; **il vient de lâcher le peloton** u hozir peshqadamlardan o'tib ketdi; **8.** *fam* tashlab ketmoq, tashlab qo'ymoq; **II.** *vi* uzilib, yechilib ketmoq; **le nœud a lâché** tugun yechilib ketdi.

**lâcheté** *nf* **1.** qo'rqoqlik, yuraksizlik; **fuir avec lâcheté** qo'rqoqlarcha qochmoq; **2.** qo'rqoqlik, yuraksizlik, irodasizlik, irodasi sustlik; **3.** pastlik, pastkashlik, tubanlik, pastkashlik, palidlik, vijdonsizlik.

**lâcheur, euse** *n fam* so'zida, va'dasida turmaydigan, subutsiz, munofiq.

**lacis** *nm inv* to'r; kalava; *litt* **un lacis de ruelles** chatishib ketgan ko'chalar.

**laconique** *adj* qisqa va aniq, ixcham, lo'nda.

**laconiquement** *adv* qisqa, aniq, lo'nda qilib; **répondre laconiquement** aniq-lo'nda qilib javob bermoq.

**laconisme** *nm litt* qisqa va aniqlik, lo'ndalik; fikrni qisqa, lo'nda ifodalash.

**lacrymal, ale, aux** *adj* ko'z yoshiga oid; **glande lacrymale** yosh, ko'z yoshi bezi.

**lacrymogène** *adj* ko'zdan yosh oqizuvchi (*ba'zi bir iboralarda*); **gaz lacrymogène, grenades lacrymogènes** ko'zdan yosh oqizuvchi gaz, granatalar.

**lacs** *nm inv litt* sirtmoq.

**lactation** *nf.* emchakda sut hosil bo'lishi, sut kelishi.

**lacté, ée** *adj* sutga oid; sutli; **voie lactée** somon yo'li.

**lactique** *adj* **acide lactique** sut kislotasi.

**lacunaire** *adj* kamchilikli, nuqsonli; **documentation lacunaire** kamchiligi bor hujjatlar.

**lacune** *nf* kamchilik, g'alizlik, nuqson, xato.

**lacustre** *adj* ko'l yaqinida yashovchi; **plantes lacustres** ko'lda o'suvchi o'simliklar.

**lad** *nm* chopqir otlar sayisi.

**ladre** *n et adj litt* xasis, ziqna, qurumsoq.

**lagon** *nm* marjon qoyalari bilan yer o'rtasidagi kichik sho'r ko'l.

**lagune** *nf* sayozlik, laguna.

**lai** *nm* O'rta asrlarda kichik lirik yoki epik she'riy doston.

**laïc, laïque I.** *n* dunyoviy, dinga taalluqli bo'lmagan kishi; **II. laïque** *adj* dunyoviy; **l'enseignement laïque** dunyoviy ilmlarni o'qitish; **l'école laïque** dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktab.

**laïcisation** *nf* cherkovdan ajratish, dindan ajratish; **laïcisation de l'enseignement** ta'limni din ta'siridan ajratish.

**laïciser** *vt* dindan, cherkovdan ajratmoq.

**laïcité** *nf* **1.** dunyoviylik; **2.** dindan, cherkovdan ajralganlik; **la laïcité de l'État** davlatni dindan ajralganligi.

**laid, laide I.** *adj* **1.** xunuk, ko'rimsiz; **2.** xunuk, yoqimsiz, jirkanch; **II.** *nm* xunuklik, ko'rimsizlik, badbasharalik.

**laidement** *adv* xunukdan-xunuk qilib, xunuk.

**laideron, onne I.** *nm* xunuk, ko'rimsiz ayol, qiz; **cette fille est un laideron** bu qiz ko'rimsiz; **II.** *adj* ko'rimsiz, xunuk.

**laideur** *nf* **1.** xunuklik, badbasharalik, badburushlik, beo'xshovlik (*jismoniy*); **2.** pastkashlik, qabihlik, ifloslik, xunuklik; **3.** hayot qahatchiligi.

**laie** *nf* urg'ochi to'ng'iz.

**lainage** *nm* **1.** jun mato; **2.** jundan to'qilgan kiyim; **prends un lainage pour sortir** chiqishda jun kiyimingni olib ol.

**laine** *nf* **1.** jun, yung; **laine brute; cardée, peignée** xom; titilgan, taralgan jun; **filer la laine** jun yigirmoq; **tissage de la laine** jun to'qish; **laine des Pyrénées** tivitdan qilingan matoh; **2.** sun'iy tola, momiq; **laine de verre** shisha tola, shisha momiq.

**laineux, euse** *adj* **1.** yungli matoh; **2.** mayin, momiqday; **cheveux laineux** mayin soch.

**lainier, ière** *adj* junga oid, jun; **l'industrie lainière** jun sanoati.

**laïque** *n, adj voir* **laïc.**

**laisse** *nf* it tasmasi; **laisse de cuir** charm tasma; **en laisse** tasmada; **tenir, mener un chien en laisse** itni tasmada olib yurmoq.

**laissé(e)-pour-compte** *adj* tashlandiq, hech kim xohlamaydigan; **marchandise laissée-pour-compte** xaridor rad etgan mol.

**laisser I.** *vt* **1.** qo'yib bermoq, imkon bermoq, yo'l qo'ymoq; **2.** ruxsat bermoq, ijozat bermoq, imkon bermoq, yo'l qo'ymoq; **laisser partir qqn** biror kishining ketishiga yo'l qo'ymoq; **laisser faire qqn** biror kishiga biror narsa qilishga imkon bermoq, unga harakat qilishga imkon bermoq; **laisser voir son trouble** o'zining hayajonini ko'rsatib qo'ymoq; **3.** biror narsani, kishini biror holatda tutib turmoq, qoldirmoq; **laisser tranquille, laisser en paix** o'z holiga, tinch qo'ymoq; **cela me laisse indifférent** mening bu bilan ishim yo'q; **4.** qo'ymoq, shug'ullanmaslik; **laissez donc cela** buni qo'ysangizchi; to'ldiruvchisiz; **laissez, c'est moi qui paie** qo'ying, men to'layman; **5.** qoldirmoq, bermoq, imkon bermoq, yo'l bermoq, qo'yib bermoq; **laisser les enfants à leur mère** bolalarni onalariga qoldirmoq; **laissez-lui le temps d'agir** unga o'ylab ko'rishga vaqt bering; **6.** bartaraf qilmaslik, qoldirmoq, o'tkazib yubormoq; **7.** ajratmoq, qoldirmoq, olmaslik; **8. laisser à** qoldirmoq, olib qo'ymoq, band qilib qo'ymoq; **laissez-nous de la place** bizga joy olib qo'ying. **9.** qoldirmoq, tashlab ketmoq; ajrashmoq; **elle a laissé son mari** u erini tashlab ketdi; **10.** qoldirmoq, yo'qotmoq; **y laisser sa (la) peau** u yerda pand yemoq; **liquide qui laisse un dépôt** cho'kindi qoldiradigan suyuqlik; **cet accident lui a laissé une cicatrice** bu falokat unda chandig' qoldirdi; **document qui ne doit pas laisser de trace** iz qoldirishi kerak bo'lmagan hujjat; **11.** bermoq, sotmoq; **je vous laisse ce tapis pour mille francs, à mille francs** men sizga bu gilamni ming frankka beraman; **12.** meros qoldirmoq; **laisser une maison à ses enfants** bolalariga uyni meros qodirmoq; **13.** *litt* qo'ymaslik, tashlamaslik, tark etmaslik, yig'ishtirmaslik; barham bermaslik, to'xtatmaslik; **malgré leurs disputes, elles ne laissent pas d'être amies** tortishuvlariga qaramay ular do'stliklarini tark etishmas edi; **II. se laisser** *vpr* imkon bermoq; **elle s'est laissée tomber** u yiqildi, qulab tushdi; **elle s'est laissé injurier** u o'zini haqoratlatib qo'ydi; **se laisser mener par le bout du nez** o'zini burnidan yetalattirib qo'ymoq; **se laisser faire** qildirib qo'ymoq, qilishga imkon bermoq, qarshilik qilmaslik; *fam* **un vin qui se laisse boire, un film qui se laisse voir** yaxshi ko'rib ichiladigan, ichishli vino, ko'rishga arziydigan film.

**laisser-aller** *nf inv* **1.** beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik; **2.** *péj* pala-partishlik, tartibsizlik .



www.ziyouz.com kutubxonasi

**laissez-passer** *nm inv* ruxsatnoma; **montrez vos laissez-passer** ruxsatnomangizni ko'rsating.

**lait** *nm* **1.** sut; **2.** sut mahsuloti; sut-qatiq; **lait écrémé** yog'i, beti olingan sut; **petit lait** sut zardobi; *loc* **boire du petit lait** izati nafsini qondirmoq; **lait condensé, concentré** quyuqlashtirilgan sut; *loc* **monter comme une soupe au lait** lovullab ketmoq, qizishib ketmoq, jahli, achchig'i chiqib ketmoq, qoni, zardasi qaynamoq; **être soupe au lait** qiziqqon, jahli tez, zardasi qaynoq odam bo'lmoq; **3.** o'simlik shirasi, suti.

**laitage** *nm* sut mahsulotlari, sut-qatiq.

**laitance** *ou* **laite** *nf* baliqlarning urug' bezi va undagi suyuqlik.

**laiterie** *nf* **1.** sut zavodi; **2.** *vieilli* sut do'koni.

**laiteux, euse** *adj* sutday, oq rangli, oppoq; **lumière laiteuse** oppoq yorug'lik.

**laitier**[1]**, ière I.** *n* sut sotuvchi kishi; **II.** *adj* **1. vache laitière** *ou* **une laitière** sut beradigan, sog'in sigir; **2.** sutga oid, sut; **industrie, coopérative laitière** sut sanoati, jamoasi; **produits laitiers** sut mahsulotlari.

**laitier**[2] *nm* shlak, metall zaki, to'pon.

**laiton** *nm* jez (*mis va ruh qotishmasi*); **fil de laiton** jez sim.

**laitue** *nf* shovul, salat; **assaisonner une laitue** salatga ziravor solmoq.

**laïus** *nm inv* **1.** *fam* nutq, so'z; **faire un laïus à la fin d'un banquet** ziyofatning oxirida nutq so'zlamoq; **2.** dabdabali, balandparvoz gap, so'z.

**lama**[1] *nm* lama (*Janubiy Amerika tuyasi*); **tissu en poil, en laine de lama** lama tivitidan, junidan qilingan mato.

**lama**[2] *nm* lama (*Tibet va Mo'g'ilistonda budda dini ruhoniysi*); **grand lama** *ou* **dalaï-lama** dalay-lama.

**lamaïsme** *nm* lama ta'limoti (*buddizmnining asosan, Tibet va Mo'g'ulistonda tarqalgan oqimi*).

**lamaïste** *n* lama ta'limoti tarafdori, lamaga e'tiqod qiluvchi odam.

**lambeau** *nm* **1.** eski-tuski, latta-putta, uvada, juldir, qiyqindi; **vêtements en lambeaux** uvada kiyim; **2.** teri, qog'oz parchasi; **une affiche en lambeaux** qog'oz parchasiga yozilgan afisha; **3.** uzuq-yuluq, chala-yarim parcha, bo'lak, qism; **des lambeaux de conversation parvenaient à mes oreilles** suhbat qulog'imga uzuq-yuluq chalinar edi.

**lambin, ine** *n, adj fam* lapashang, bo'shang, lapashang, lavang, og'ir karvon, imillagan, imirsilagan; **quel lambin, toujours le dernier!** lapashang, doim oxirida qoladi! **elle est un peu lambine** u biroz imillagan.

**lambiner** *vi fam* imillamoq, imirsilamoq, bo'shashmoq; **revenez sans lambiner!** imillamay qaytib keling!

**lambourde** *nf* taglik, tag to'sin.

**lambrequin** *nm* araqi, o'yma naqsh, yog'och, marmar araqi; tillo suvi yuritilgan araqi.

**lambris** *nm inv* bezak, naqsh, ganchkor naqsh; **lambris de bois, de marbre** yogoch, marmar naqsh; **lambris dorés** tillo suvi yuritilgan bezak.

**lambrisser** *vt* ganchkor naqsh solmoq (*devorga*); bezamoq; **salon lambrissé** naqshinkor mehmonxona.

**lame**[1] *nf* **1.** yassi yupqa qattiq jism; **lames de parquet** parket g'ishtchalari; **2.** tig', dam; **lame de ciseau, de poignard, de scie** pichoqning, xanjarning tig'i; *loc* **visage en lame de couteau** oriq cho'ziq yuz; **une fine lame** usta qilichboz.

**lame**[2] *nf* to'lqin, po'rtana, dolg'a; **crête, creux d'une lame** to'lqinning o'rkachi, pasti; **lame de fond** shamolsiz vaqtda suv yuzining jimirlashi, to'lqinlashi.

**lamé, eé** *adj* metall tasma bilan o'ralgan (*mato*); **tissu lamé or** zardo'z mato; **une robe de lamé** simli ko'ylak.

**lamelle** *nf* yupqa plastinka; **lamelle de verre pour examen microscopique** mikroskopik analiz uchun yupqa shisha plastinka.

**lamentable** *adj* **1.** achinarli; **résultats lamentables** achinarli natijalar; **un film lamentable** bir pulga qimmat film; **2.** *litt* mungli, hazin; **voix, ton lamentable** hazin tovush, mungli ohang.

**lamentablement** *adv* ayanchli, achinarli holda.

**lamentation** *nf* (*ko'pincha ko'plikda*) nola, hasrat, oh-nola, nola-hasrat; **se répandre en lamentations continuelles** cheksiz hasrat chekmoq.

**lamenter (se)** *vpr* nolimoq, zorlanmoq, hasrat qilmoq, shikoyat qilmoq; **se lamenter sur son sort** o'z taqdiridan zorlanmoq.

**lamento** *nm* mungli kuy, ashula.

**laminage** *nm* metallni yupqalashtirib cho'zish; **laminage à chaud, à froid** qizitib, qizdirmay cho'zish.

**laminer** *vt* **1.** metallni yoyib cho'zmoq; **2.** siqib kichraytirmoq, yo'q qilib yubormoq; **laminer les bénéfices** foydani yo'q qilib yubormoq.

**laminoir** *nm* bluming, metallni yoyuvchi uskuna; *loc fig* imtihon, og'ir ko'rgilik, riyozat, kulfat, musibat; **passer au laminoirs** riyozat chekmoq, og'ir sinovdan o'tmoq, og'ir kunlarni boshidan o'tkazmoq.

**lampadaire** *nm* chiroqdon, qandil, chilchiroq; **abat-jour de lampadaire** chiroqdon kungurasi.

**lampant, ante** *adj* tozalangan; **pétrole lampant** tozalangan kerosin.

**lampe** *nf* **1.** chiroq, lampa; **lampe-tempête** fonus; **2.** elektr chiroq; **ampoule, douille d'une lampe** elektr lampochkasi, patroni; **lampe au néon** neon chirog'i; **lampe témoin** signal lampasi; **3.** lampa, fonar; **lampe de bureau, de chevet** stol chirog'i, bosh tomonga qo'yiladigan chiroq; **lampe de poche** cho'ntak fonari; **4. lampe à souder** svarka gorelkasi; **5.** lampa (*ba'zi asboblar nomi*); **lampe de radio** radio lampasi; **6.** *fam* **s'en mettre plein la lampe** bo'kib yeb-ichmoq.

**lampée** *nf fam* katta ho'plam, qultum, yutum; **boire à grandes lampées** katta-katta ho'plab ichmoq.

**lamper** *vt* bir ko'tarishda ichmoq, katta-katta ho'plab ichmoq.

**lampion** *nm* **1.** yalpoq idishli qorachiroq, pilta chiroq, jinchiroq; **2.** lampion (*bezash uchun har xil qog'oz yoki shishadan yasalgan kichkina fonuscha*); **les lampions du 14 juillet** 14 iyul chiroqlari.

**lampiste** *nm* **1.** chiroqchi, fonuschi (*yoritish bilan shug'ullanuvchi odam*), elektromontyor; **lampiste d'un théâtre, d'une gare** teatr, vokzal elektromontyori; **2.** eng kichik lavozimdagi odam, yugurdak, yugur-etim.

**lamproie** *nf* ilonbaliq.

**lance** *nf* **1.** nayza; **coup de lance** nayza zarbasi; *loc* **rompre une lance, des lances avec ou contre qqn** tortishib, bahslashib qolmoq; *loc* **en fer de lance** nayzabargli; **2. lance à eau** suv purkagich (*o't o'chirish, sug'orish ishlarida ishlatiladigan*); **lance d'incendie** brandspoyt (*ichak uchiga o'rnatilgan purkagich*).

**lancée** *nm* siltanish, sapchish; **courir sur sa lancée** bor tezlikda yugurmoq; **continuer sur sa lancée** o'sha ruhda davom etkazmoq.

**lance-flammes** *nm inv* olov purkagich, o'tsochar.

**lance-fusées** *nm inv* reaktiv ustanovkasi, reaktiv minamyot, bazuka.

**lance-grenades** *nm inv* granatomyot.

**lancement** *nm* **1.** otish, irg'itish; **le lancement du javelot** nayza otish; **2.** otish, uchirish; **le lancement d'une fusée** raketa uchirish; **rampe de lancement** raketa uchirish ustanovkasi; **3.** suvga tushirish; **le lancement d'un navire** kemani suvga tushirish; **4.** chiqarish, ishlab chiqarish, bosib chiqarish, paydo qilish; **le lancement d'une entreprise, d'un produit** yangi tashabbus, mahsulot chiqarish; **le lancement d'un roman** romanni bosib chiqarish; **le lancement d'un emprunt** zayom chiqarish.

**lance-missiles** *nm inv* ballistik raketa uchuruvchi ustanovka.

**lance-pierres** *nm inv, pl* **des lance-pierres** cho'zma; *loc fam* **manger avec un lance-pierres** shoshib ozgina yemoq.

**lancer**[1] **I.** *vt* **1.** otmoq, irg'itmoq, itqitmoq, tashlamoq; **lancer des pierres** tosh otmoq; **lancer le disque, le javelot** disk, nayza otmoq; **lancer des flèches, une fusée** kamondan o'q uzmoq, raketa otmoq, uchirmoq; **2.** otmoq, chiqarmoq, tashlamoq; **volcan qui lance des cendres** kul otib turgan vulqon; **ses yeux lancent des éclaires** ko'zlari o't sochib turibdi; **lancer les bras en avant, lancer un coup de pied** qo'llarini cho'zmoq, bir tepki tushirmoq; **3.** biron kishiga yo'naltirmoq; **lancer des injures** so'kib yubormoq; **lancer un ultimatum** ultimatum qo'ymoq; **4.** shiddat, shitob bilan yo'naltirmoq, tashlamoq; **lancer des soldats à l'assaut** askarlarni shiddat bilan shturmga tashlamoq; **5.** yurgizmoq, ishga tushirmoq; **lancer un moteur** motorni yurgizmoq; **6.** *fam* tortmoq, jalb qilmoq, kirishtirib yubormoq; **le voilà lancé, il ne s'arrêtera plus** mana u kirishib ketdi, endi hech ham to'xtamaydi; **7.** olib chiqmoq, ko'tarib chiqmoq, olg'a surmoq; **lancer un artiste, une idée** artistni, g'oyani ko'tarib chiqmoq; **être lancé** moda qilib



www.ziyouz.com kutubxonasi

chiqmoq; **8.** muomalaga chiqarmoq, e'tiborga havola qilmoq; **lancer une marque** yangi markadagi narsani muomalaga chiqarmoq; **lancer la mode** yangi moda chiqarmoq; **II. se lancer** *vpr* **1.** otilmoq, o'zini otmoq, tashlanmoq; **elle se lança dans le vide** u bo'shliqqa o'zini otdi; **2.** boshlamoq, kirishmoq, berilib ketmoq; **se lancer dans de grosse dépenses** u katta xarajatlar qilishga kirishib ketdi; **3.** o'zini dunyoga tanitmoq.

**lancer$^2$** *nm* **1.** tashlama qarmoq; **prendre une truite au lancer** gulmohini tashlama qarmoq bilan tutmoq; **2.** otish, irg'itish.

**lance-roquettes** *nm inv* reaktiv ustanovkasi, reaktiv minamyot, bazuka.

**lance-torpilles** *nm inv* torpedo apparati.

**lanceur, euse** *n* **1.** otuvchi, irg'ituvchi; **lanceur de javelot** nayza otuvchi; **2.** *nm* uchiruvchi raketa; **lanceur de missiles, de satellites** ballestik raketani, sun'iy yo'ldoshni uchuruvchi raketa.

**lancinant, ante** *adj* **1.** sanchiqli, sanchiq; **douleur lancinante** sanchiqli og'riq; **2.** miyadan chiqmaydigan, ketmaydigan, miyaga o'rnashib qolgan; **regrets lancinants** miyadan ketmaydigan armonlar; **une musique lancinante** miyaga o'rnashib qolgan kuy.

**lanciner** *v litt* **I.** *vi* sanchmoq, sanchib og'rimoq; **II.** *vt* jonga tegmoq, bezor qilmoq, zeriktirmoq; **une idée le lancine depuis des jours** bir fikr uni ko'p kundan beri bezor qilyapti.

**land,** *pl* **länder** *nm* ma'muriy hudud, viloyat, Federal Germaniyaning federal viloyatlari; **le land de Bavière** Bavariya viloyati.

**landau** *nm* **1.** to'rt g'ildirakli yig'ma soyabonli arava; **2.** bolalar aravachasi.

**lande** *nf* chakalakzor, changalzor.

**langage** *nm* **1.** nutq, til, lahja; **étude du langage** tilni o'rganish; **le langage et les langues** nutq va tillar; **2.** til; **langage chiffré** shifrlangan til; *inform* programma tili; **langage machine** hisoblash mashinasining topshiriq tili; **3.** til, nutq (*muomala uslubi*); **langage courant** oddiy til; **langage parlé** og'zaki nutq; **langage littéraire** adabiy til; **langage administratif, technique** ma'muriyat, texnika tili.

**langagier, ière** *adj* tilga, nutqqa, gapirishga oid, gapirish; **habitudes langagières** gapirish odatlari.

**lange** *nm* yo'rgak; *loc* **dans les langes** yo'rgakda.

**langer** *vt* yo'rgaklamoq.

**langoureusement** *adv* xumor, mehr, oshiqona, nazokat bilan; **les amoureux se regardaient langoureusement** sevishganlar bir biridan xumor ko'zlarini uzisha olmasdi.

**langoureux, euse** *adj* xumor, muloyim, mayin, nozli, oshiqona; **prendre une pose langoureuse** oshiqona qiyofaga kirmoq; **air langoureux** oshiqona qiyofa; **regard langoureux** xumor qarashlar.

**langouste** *nf* langust; **pêcher la langouste** langust tutmoq; **langouste à l'américaine** o'ziga xos pishirilgan langusta.

**langoustier** *nm* langust tutadigan maxsus kema.

**langue$^1$** *nf* **1.** *anat* til; **avoir la langue blanche, chargée, sèche** tili oq, karash, quruq bo'lmoq; **tirer la langue à qqn** birovga tilini ko'rsatmoq; *loc fig* **tirer la langue** suvsizlikdan tili osilib qolmoq; *loc* **avoir la langue bien pendue** sergap bo'lmoq; **avoir la langue trop longue** tili bir qarich, quloch, vaysaqi bo'lmoq; **se mordre la langue** tilini tishlab qolmoq; **donner sa langue au chat** o'ylab topishdan voz kechmoq; **tourner sept fois sa langue dans sa bouche avant de parler** yetti o'ylab bir kesmoq, avval o'yla, keyin so'yla; **une mauvaise langue, une langue de vipère** g'iybatchi, chaqimchi, gap tashuvchi; **elle est très mauvaise langue** u judayam g'iybatchi; **2.** tilga o'xshash, uchli narsa; **langue de feu** olovning tili; **langue de terre** uzunchoq yer bo'lagi; **3.** til, zabon; **lexique et syntaxe d'une langue** tilning leksika va sintaksisi; **étude des langues** tillarni o'rganish; **langues romanes, germaniques, slaves** roman, german, slavyan tillari; **langues mortes, vivantes** o'lik, tirik tillar; **4.** lahja, til; **langue familière, littéraire** so'zlashuv, badiiy adabiyot tili (*uslub, stil*); **5.** til (*tilda ifodalash uslubi*); **la langue de cet écrivain est riche en images** bu yozuvchining tili obrazlarga boy.

**languette** *nf* til; **languette d'une chaussure** tuflining tili.

**langueur** *nf vieilli* ichikish, bo'shashish, xafaqonlik, holsizlik, behollik, bemajollik, lanjlik, bemadorlik; **maladie de langueur** holsizlik kasali; **2.** horg'inlik, majolsizlik; **3.** hafsalasizlik, ruhsizlik, loqaydlik, shuursizlik.

**languide** *adj litt* sog'inchli, ilhaq, xumor, intizor, mayin, muloyim, nozli, oshiqona; **elle a des yeux languides** uning sog'inch to'la ko'zlari.

**languir** *vi* **1.** bo'shashmoq, holsizlashmoq, madorsizlashmoq; lanj, lohas bo'lmoq; **languir dans l'inaction** bekorchilikdan lanj bo'lmoq; cho'zilib ketmoq, pasaymoq, so'nmoq; **la conversation languit** suhbat qovushmayapti; **2.** intizorlik bilan kutmoq, sog'inmoq, qo'msamoq; **dépêche-toi, tu nous fais languir!** bo'l tezroq, bizni zeriktirib yubording!

**languissant, ante** *adj* **1.** *litt ou plais* mehrli, sog'inchli, intizor, xumor, nozli, oshiqona; **un regard languissant** xumor qarashlar; **2.** bo'shashgan, sust, bemador, ma'nosiz, lanj, bemaza; **un récit ennuyeux et languissant** zerikarli va lanj hikoya.

**lanière** *nf* uzun va ingichka tasma; **découper en lanière** tasma qilib kesmoq.

**lanoline** *nf* lanolin, upa, moy upa, sovun ishlab chiqarishda ishlatiladigan modda; **savon à la lanoline** lanolinli sovun.

**lanterne$^1$** *nf* **1.** fonar, fonus; **lanternes vénitiennes** qog'ozdan qilingan bezak fonari; **lanterne rouge** qizil chiroq (*karvon bo'lib ketayotgan mashinalarning eng oxirgisining orqasiga qo'yiladigan ogohlantiruvchi belgi*); biror safda, musobaqa, tanlovlarda oxirgi o'rinda turgan odam; **lanternes d'automobiles** avtoulov belgi chirog'i; **2.** *loc* **prendre des vessies pour des lanternes** noo'rin, o'rinsiz gap qilmoq, havoyi gap qilmoq; **3. lanterne magique** proyeksion fonar; *loc* **éclairer la lanterne de qqn** izohlab bermoq, tushuntirmoq.

**lanterne$^2$** *nf archit* oynavand tom, tuynuk, deraza; gumbaz ustidagi minoracha.

**lanterner** *vi* **1.** vaqtni behuda o'tkazmoq, ko'zini lo'q qilib o'tirmoq; **2. faire lanterner qqn** birovni kuttirib qo'ymoq.

**lanternon** *ou* **lanterneau** *nm* **1.** minora ustidagi fonarcha; **2.** tuynukli zinapoya.

**lapalissade** *nf* hammaga ayon narsani takrorlash, ko'p chaynalgan gap; **dire des lapalissades** siyqasi chiqqan gaplarni aytmoq.

**lapement** *nm* chapillatib, shaloplatib ichish.

**laper** *vt* yalab, shalp-shalp qilib ichmoq, chapillatmoq (*hayvon*); **le chien lapait bruyamment** it shalp-shalp qilib ichar edi.

**lapereau** *nm* yosh quyon, quyon bolasi.

**lapidaire$^1$** *nm* pardozlovchi, jilo beruvchi, zargar.

**lapidaire$^2$** *adj litt* lo'nda va aniq; **formules lapidaires** lo'nda va aniq iboralar.

**lapidation** *nf* toshbo'ron qilish; **la lapidation de saint Étienne** avliyo Etyenni toshbo'ron qilish.

**lapider** *vt* toshbo'ron qilmoq, tosh bilan urib o'ldirmoq.

**lapilli** *nm pl* vulqon natijasida hosil bo'lgan g'ovak tosh.

**lapin$^1$** *nm* **1.** quyon; **femelle, petit du lapin** urg'ochi quyon, quyon bolasi; **lapin de garenne** yovvoyi quyon; **lapin domestique** uy quyoni; *loc* **courir comme un lapin** juda tez yugurmoq, shamolday tez yugurmoq; quyon go'shti; **lapin en civet** quyon go'shtidan qilingan ragu; **pâté de lapin** quyon go'shtidan qilingan pashtet; **2.** quyon mo'ynasi; **manteau de lapin** quyon mo'ynasidan qilingan palto; **3.** *loc fam* **un chaud, un sacré lapin** o't-olov, taptortmas odam; **4. sois gentil, mon petit lapin** esli bo'lgin erkatoyim.

**lapin$^2$** *nm* **poser un lapin** uchrashuvga kelmaslik, aldamoq.

**lapine** *nf* urg'ochi quyon; *loc fig* **une mère lapine** serpusht ayol.

**lapis-lazuli** *nm* lazurit, lojuvard (*bezak buyumlar ishlanadigan ko'k rangli mineral*); *pl* **des lapis-lazulis**.

**laps** *nm* **laps de temps** vaqt bo'lagi; **il a attendu un laps de temps assez long** u ancha uzoq vaqt davomida kutdi.

**lapsus** *nm inv* qo'pol, dag'al xato, yanglish, sahv.

**laquais** *nm inv vieilli* xizmatkor, qarol, malay.

**laquage** *nm* loklash.

**laque** *n* **I.** *nf* **1.** kamed (*o'simlik shirasi*); **2.** qizil bo'yoq; **3.** lok (*soch bo'yash uchun*); **une bombe de laque** lok ballonchasi; **II.** *nm* **1.** *nm ou nf* lok; **2.** loklangan san'at asari.

**laqué, ée** *adj* **1.** loklangan; **bibelot laqué** loklangan buyum **2. canard laqué** sedana, soya sousi va asal bilan bezatilib pishirilgan o'rdak go'shti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**laquer** *vt* **1.** loklamoq, lok surtmoq, lok bilan pardozlamoq; **2.** loklab qotirmoq.

**larcin** *nm litt* mayda o‘g‘irlik; **commettre un larcin** mayda o‘g‘irlik qilib qo‘ymoq.

**lard** *nm* **1.** cho‘chqa teri osti yog‘i; **lard gras, maigre** qalin, yupqa yog‘; **lard fumé** dudlangan cho‘chqa yog‘i; **2.** *fam* odamning yog‘i; **se faire du lard** semirib ketmoq; *fam* **un gros lard** baqaloq; **3. tête de lard** o‘jar, qaysar, sarkash odam.

**larder**[1] *vt* dudlangan cho‘chqa yog‘i bilan go‘shtni bezamoq.

**larder**[2] *vt* **1.** pichoq tiqib, sanchib tashlamoq; **larder qqn de coup de couteau** biror kishiga pichoq sanchib tashlamoq; **2.** bejab, bezab, to‘ldirib yubormoq.

**lardon** *nm* **1.** bir bo‘lak, parcha yog‘; **2.** *fam* po‘mpoq, do‘mboq bola; **elle est venue avec ses deux lardons** u o‘zining ikki do‘mbog‘i bilan kelibdi.

**lare** *nm* ruh; xonadonni muhofaza qiluvchi ruh (*qadimgi rimliklarning e’tiqodiga ko‘ra*).

**largable** *adj* otib, irg‘itib, uloqtirib, tashlab yuboriladigan; **cabine largable** otib yuboriladigan kabina.

**largage** *nm* otib, irg‘itib, uloqtirib, tashlab yuborish; **largage d’une cabine, de bombes** kabinani otib yuborish, bomba tashlash.

**large I.** *adj* **1.** keng, bepoyon, kenlik; **un homme large de carrure** keng yelkali kishi; **2.** keng, to‘kis (*kiyim*); **jupe large** keng yubka; **3.** keng, katta, yirik; **4.** muhim, ahamiyatli, katta; **faire une large part à qqch** katta hissa qo‘shmoq; **5.** keng, atroflicha, chegaralanmagan (*odam, fikr*); **esprit, idées larges** keng aql, fikr; **conscience large** keng qalb; **6.** farovon, saxovatli, to‘kis; **vie large** farovon hayot; **vous n’avez pas été très large** siz saxovat qilmadingiz; **II.** *nm* **1.** kenglik; **deux mètres de large** kengligi ikki metr; *loc* **il m’a tout expliqué en long et en large** u menga hammasini boshdan oxirigacha tushuntirib berdi; **se promener de long en large** orqa-oldiga borib kelib turmoq; **être au large** keng, ko‘p joyli bo‘lmoq; erkin bo‘lmoq; farovon bo‘lmoq; **2.** ochiq dengiz; **gagner le large, aller au large** ochiq dengizga chiqmoq; *loc fam* **prendre le large** jo‘nab, qochib qolmoq, quyon bo‘lmoq; **III.** *adv* **1.** keng, erkin; **habiller large** keng kiymoq; **2.** keng miqyosda, keng doirada; **calculer large** keng miqyosda hisoblamoq; **voir large** keng qamrovda ko‘rmoq; *loc* **il n’en mène pas large** u qo‘rqadi.

**largement** *adv* **1.** keng; **col largement ouvert** keng ochiq yoqa; **idée largement répandue** keng tarqalgan fikr; **2.** ayamasdan, saxiylik, qo‘li ochiqlik bilan; mo‘l-ko‘l; **donner largement** ayamasdan bermoq; **3.** kamida, bo‘lmaganda, ko‘pdan beri; **il est parti il y a largement une heure** uning ketganiga bir soatlar bo‘lib qoldi; **un billet largement périmé** allaqachon muddati o‘tgan bilet.

**largesse** *nf* (*ko‘pincha ko‘plikda*) oliyhimmatlik, olijanoblik, muruvvatlilik, bag‘ri kenglik; **faire des largesses** olihimmatlik qilmoq.

**largeur** *nf* **1.** kenglik, en; **largeur des épaules** elkalarning kengligi; **sur toute la largeur de la rue** ko‘chaning bor kengligida; *loc fam* **il se trompe dans les grandes largeurs** u katta kengliklarda adashyapti; **2.** keng, chegaralanmagan, chuqur; **largeur d’esprit, de vues** aql doirasining, qarashlarning kengligi.

**largo** *adv et nm inv mus* largo, sekin, ohista, mayin.

**larguer** *vt* **1.** yechmoq, bo‘shatmoq; **larguer les amarres** shvartovlarni yechmoq; **2.** tashlamoq (*samolyotdan*); **larguer les parachutistes** parashutchilarni tashlamoq; **3.** *fam* kechmoq, voz kechmoq, bahridan o‘tmoq, yuz o‘girmoq; **elle a largué ses amis** u do‘stlaridan yuz o‘girdi.

**larme** *nf* **1.** yosh, ko‘z yoshi; **pleurer à chaudes larmes** achchiq-achchiq yig‘lamoq; **fondre en larmes** ho‘ng-ho‘ng yig‘lamoq; **avoir les larmes aux yeux** ko‘zi yoshga to‘lmoq; **des yeux pleins de larmes** yoshga to‘lgan ko‘zlar; **être au bord des larmes** yig‘lab yuboray demoq; *loc* **avoir toujours la larme à l’œil** ko‘z yoshi kiprigining uchida turmoq; **avec des larmes dans la voix** ko‘z yoshlaridan ovozi titramoq; *fam* **larmes de crocodile** yolg‘on yig‘i, shayton yig‘i; **2.** *pl litt* qayg‘u, g‘am, tashvish; **cette vallée de larmes** bu g‘am dunyosi; **3.** *fam* tomchi (*juda oz miqdor*); **une larme de cognac** bir tomchi konyak.

**larmoiement** *nm* **1.** ko‘z yoshlanishi, ko‘zdan doim yosh oqishi, yosh oqib turishi; **2.** hiqillash, hiqillab yig‘lash.

**larmoyant, ante** *adj* **1.** yoshli; **des yeux larmoyants** yoshli ko‘zlar; **2.** ta’sirli, ko‘zga yosh keltiradigan; **un mélo larmoyant** ta’sirli melodramma.

**larmoyer** *vi* **1.** yoshlanmoq, yosh oqmoq; **ses yeux larmoient** ko‘zlaridan yosh oqyapti; **2.** yig‘lamoq, hiqillamoq, hiqilab yig‘lamoq; **arrêtez donc de larmoyer** hiqillayvermasangizchi.

**larron** *nm* **1.** *vieilli* o‘g‘ri, firibgar; **2.** *loc* **ils s’entendent comme larrons en foire** ko‘r ko‘rni qorong‘ida topadi; *prov* **l’occasion fait le larron** o‘zingni ehtiyot qil, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.

**larvaire** *adj* **1.** lichinkali, lichinka; **forme, état larvaire** lichinka ko‘rinishi, holati; **2. des idées, à peine ébauchées, à l’état larvaire** endigina ko‘ringan, endigina tug‘ilgan g‘oyalar.

**larve** *nf* **1.** lichinka, urug‘, tuxum, qurt; **larves d’insectes** hasharotlar lichinkasi; **métamorphose d’une larve en chrysalide** lichinkaning g‘umbakka aylanishi; **2.** *péj et fam* latta, lapashang, shalviragan; **c’est une larve, ce gros paresseux!** bu huppa semiz dangasa g‘irt qurtni o‘zi!

**larvé, ée** *adj* **1.** *méd* yashirin, hali namoyon bo‘lmagan; **2.** yashirin, maxfiy, pinhoniy; **révolution, guerre larvée** pinhoniy revolutsiya, urush.

**laryngite** *nf.* laringit, tomoq og‘rig‘i.

**laryngologie** *nf.* laringologiya.

**laryngologue** *ou* **laryngologiste** *n* laringolog.

**larynx** *nm inv* hiqildoq, bo‘g‘iz; bo‘g‘iz kasalliklari.

**las**[1]**, lasse** *adj* charchagan, madorsiz, majolsiz, horg‘in, toliqqan lanj, bo‘shashgan, lohas; **se sentir las** o‘zini lohas sezmoq; **être très las** juda ham lanj bo‘lmoq; *litt* **las de** biror narsadan charchagan, joniga tekkan; **las de tout** hamma narsa joniga tekkan; **il est las d’attendre** u kutishdan charchadi.

**las**[2] *intj vx* evoh, hayhot, voy, voh, afsus.

**lasagne** *nf* lazan (*xamirli taom*).

**lascar** *nf fam* **1.** azamat, jiddiy, qat’iy, mard; **2.** ayyor, hiylagar; **c’est un drôle de lascar** bu, g‘alati hiyla.

**lascif, ive** *adj* **1.** *litt* shahvoniy, shahvatparastlarcha; suq; **2.** axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq; **danse lascive** odobsiz raqs; **regards lascifs** suqlanib qarash.

**lascivement** *adv* axloqsizlarcha, odobsizlarcha, buzuq; **danser lascivement** odobsizlarcha raqsga tushmoq.

**laser** *nm* fiz; lazer; **emploi du laser dans le traitement du cancer** rakni davolashda lazerdan foydalanish; **rayon laser** lazer nuri.

**lassant, ante** *adj* charchatadigan, zeriktiradigan, jonga tegadigan, diqqatni oshiradigan, xit qiladigan, bezor qiladigan; **répétitions lassantes** zerikarli qaytarishlar; **vous commencez à devenir lassant** siz odamni xit qila boshladingiz.

**lasser I.** *vt* **1.** toliqtirmoq, charchatmoq, zeriktirmoq; **lasser son auditoire** o‘z tinglovchilarini toliqtirmoq; **2.** esankiratmoq, esankiratib, dovdiratib, gangitib qo‘ymoq; **lasser la patience de qqn** birovning joniga tegmoq, bezor qilmoq; **II. se lasser** *vpr* toliqmoq, charchamoq, zerikmoq; **on se lasse de tout** hamma narsadan charchadik; **on ne se lasse pas de l’écouter** uni eshitib charchamaysan; **sans se lasser** toliqmay.

**lassitude** *nf* **1.** charchaganlik, horganlik, toliqqanlik, charchoq, toliqish; **se traîner avec lassitude** zo‘rg‘a majolsiz sudralmoq; **2.** zerikish, jirkanish; **il accepta par lassitude** u tushkunlik bilan rozi bo‘ldi.

**lasso** *nm* lasso, kamand (*hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon*).

**latent, ente** *adj* yashirin, maxfiy, pinhoniy; **demeurer à l’état latent** yashirin holatda yashamoq; **maladie latente** yashirin kasallik.

**latéral, ale, aux** *adj* yon tomondagi, yonboshdagi, yondama, yon; **partie latérale** yon tomondagi qismi; **chapelle, nef latérale** yon tomondagi qo‘shimcha mehrob (*butxonada*).

**latéralement** *adv* yondan, yon tomondan.

**latérite** *nf geol* laterit, qizil tosh.

**latex** *nm inv* lateks (*kauchukli o‘simliklarning shirasi*).

**latin, ine I.** *adj* **1.** qadimgi Rim va rimliklarga oid, lotin; **les peuples latins** *n* **les latins** rimliklar; **déclinaisons latines** lotin tilining turlanishi; **version latine** lotincha tarjima; **quartier latin** Lotin dahasi (*Parijdagi studentlar dahasi*); **2.** lotin (*lotindan kelib chiqqan*); **les langues latines** roman tillari;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**Amérique latine** lotin Amerikasi; **II.** *nm* lotin tili; **latin classique** klassik lotin; **bas latin** tugab borayotgan, buzilgan lotin tili; *loc* **y perdre son latin** aqli yetmaslik, hech narsa tushunmaslik.

**latinisme** *nm* latinizm (*lotin tilidan o'zlashtirilgan so'z, ibora*).

**latiniste** *n* latinist, lotinshunos (*lotin filologiyasi mutaxassisi*).

**latinité** *nf* lotin olami, madaniyati.

**latitude[1]** *nf* erkinlik, mayl, ixtiyor, erk; **avoir toute latitude (de faire qqch)** o'z erki o'z qo'lida; **vous avez toute latitude de refuser** rad qilish erkiga to'liq egasiz; **donner, laisser toute latitude à qqn (pour faire qqch)** o'z ixtiyoriga qo'ymoq.

**latitude[2]** *nf* **1.** *géog* kenglik; **déterminer la latitude d'un lieu** biror joyning kengligini aniqlamoq; **2.** iqlim; **cette espèce animale ne peut pas vivre sous toutes les latitudes** bu turdagi hayvon har qanday iqlimda yashay olmaydi.

**latrines** *nf pl* hojatxona, xalojoy, badraf.

**latte** *nf* chaspak (*yupqa va ensiz uzun taxtacha*); **lattes d'un plancher** pol reykalari.

**latter** *vt* chaspak qoqmoq; **latter le plafond** shiftga chaspak qoqmoq.

**lattis** *nm inv* chaspaklangan joy; **un lattis de plancher** pol chaspagi.

**laudanum** *nm* afyun damlama.

**laudateur, trice** *n litt* maqtovchi, madhiyachi.

**laudatif, ive** *adj* **1.** maqtovga, madh qilishga oid, maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov, madhiya; **terme laudatif** maqtov so'z; **2.** maqtovchi, madhiyachi; **il a été plutôt laudatif** u ko'proq madhiyachi edi.

**lauréat, ate** *n* laureat; **les lauréats du prix Nobel** Nobel mukofoti laureatlari.

**laurier I.** *nm* **1.** dafna (*daraxt*); **2. laurier, couronne de laurier** g'alaba, shuhrat toji; *loc* **être chargé, couvert de lauriers** shuhratga burkanmoq; **II. laurier-rose** sambitgul; *pl* **des lauriers-roses.**

**lavable** *adv* yuviladigan, yuvsa bo'ladigan; **peinture lavable** yuviladigan bo'yoq.

**lavabo[1]** *nm* **1.** yuvinish jihozlari; **lavabo d'une salle de bains** yuvinish xonasining jihozlari; **2.** hojatxona.

**lavabo[2]** *nm* qo'l yuvish vaqtidagi ibodat, ruhoniyning qo'l yuvishi.

**lavage** *nm* yuvish; **le lavage du linge** kir yuvish; *loc fam* **lavage de tête** qattiq koyish, tanbeh berish, urishish; **lavage de cerveau** aqlini joyiga keltirib qo'yish.

**lavallière** *nf* bog'ich qilib bog'langan galstuk.

**lavande** *nf* **1.** lavanda, nafarmon (*havorang yoki binafsharang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik*); **2.** lavanda (*atir*); **3.** *inv* **bleu lavande** ko'k-nafarmon.

**lavandière** *nf litt* qo'lda kir yuvuvchi ayol.

**lavasse** *nf* sersuv ichimlik, shildir ichimlik, nimrang ichimlik; **ce café est imbuvable, c'est de la lavasse** bu qahvani ichib bo'lmaydi, juda suyuq ekan.

**lave** *nf* **1.** lava; **coulée de lave** lava oqimi; **lave refroidie** sovugan lava; **2.** qotib qolgan lava.

**lave-glace** *nm* avto; oyna yuvgich.

**lave-linge** *nm inv* kir yuvish mashinasi.

**lavement** *nm* huqna, klizma; **poire à lavement** huqna to'pchasi.

**laver I.** *vt* **1.** yuvmoq; **laver du linge** kir yuvmoq; **machine à laver** kir yuvish mashinasi; *loc* **il faut laver son linge sale en famille** uydagi gapni ko'chaga olib chiqmaslik, oshkor qilmaslik kerak; **2.** yuvmoq (*tana a'zolarini*); **laver la figure d'un enfant** bolaning yuzini yuvmoq; **3. (qqn)** birovni oqlamoq; **3.** yuvmoq, tozalamoq, ketkizmoq; **laver une tache** dog'ni ketkizmoq; **4. laver un affront, une injure** haqorat, so'kish uchun o'ch olmoq; **II. se laver** *vpr* **1.** yuvinmoq; **se laver à grande eau** suvni ayamay yuvinmoq; **2. se laver**, **se laver les dents** tishlarini yuvmoq; **elle s'est lavé les mains** u qo'llarini yuvdi; *loc* **se laver les mains de qqch** biror narsaga javobgarlikni o'z gardanidan soqit qilmoq; **se laver d'un soupçon, d'une imputation** shubhadan, ayblashdan oqlanmoq.

**laverie** *nf* kir yuvish korxonasi.

**lavette** *nf* **1.** dastmol, qozon yuvg'ich; **2.** latta, lapashang; **une vraie lavette** haqiqiy latta.

**laveur, euse** *n* yuvuvchi; **laveur de vaisselle** idish-tovoq yuvuvchi; **laveuse (de linge)** kir yuvuvchi; **laveur de vitres** deraza yuvuvchi.

**lave-vaisselle** *nm inv* idish-tovoq yuvuvchi mashina.

**lavis** *nm inv* akvarel bilan bo'yash, shu usulda ishlangan rasm.

**lavoir** *nm* **1.** jamoaning kir yuvadigan joyi, kir yuvish uchun mo'ljallangan moslama; **lavoir public** jamoa kir yuvadigan joy; **2.** sement bak (*kir yuvish uchun*).

**lavure** *nf* yuvundi.

**laxatif, ive I.** *adj* ich suradigan, ichni bo'shashtiradigan; **tisane laxative** ich suradigan damlama; **II.** *nm* surgi dori, surgi.

**laxisme** *nm* murosasozlik, murosachilik, kelishuvchilik; **le laxisme en matière de morale** odob yuzasidan murosasozlik.

**laxiste I.** *adj* murosasozlikka oid; **II.** *n* murosasoz, kelishuvchi.

**layette** *nf* yo'rgak, chaqaloq ust-boshlari; **tricoter de la layette** yo'rgak to'qimoq.

**layon** *nm* o'rmon so'qmog'i.

**lazaret** *nm* shifoxona, yuqumli kasalliklarni aniqlab boshqalardan ajratib davolaydigan muassasa, xavfli kasallikka chalinganlarni bandargohda, aeroportda, chegarada ushlab turadigan bo'lim; **subir une quarantaine au lazaret** karantinga tushib qolmoq.

**lazzi** *nm* hazil; *pl* **des lazzi** *ou* **des lazzis**.

**le[1]** *m*, **la** *f*, **les** *pl art déf* (**le, la** *artikllari unli oldida* **l'** *ga qisqartiriladi*); **le rossignol est un oiseau** bulbul qush; **il aime les enfants** u bolalarni yaxshi ko'radi; **fermez les fenêtres** derazalarni yoping; **il secoue la tête** u boshini qimirlatyapti; **ouvrez la bouche** og'zingizni oching! **je me lave les mains** qo'limni yuvyapman; **elle a mal aux dents** uning tishi og'riyapti; **la Sicile est une île** Sitsiliya orol; **nous partons pour l'Allemagne, aux États-Unis** biz Germaniyaga, Qo'shma Shtatlariga ketyapmiz; **nous allons chez les Dupont** biz Duponlarnikiga boryapmiz; **la grande et la petite industrie** katta va kichik korxonalar; **j'ai pris le plus beau** men eng chiroylisini oldim; **c'est elle qui chante le mieux** eng yaxshi ashula aytadigan u; **l'un… l'autre, l'un ou (et) l'autre** boshqasi, biri; **le (la) même, les mêmes** o'zi, o'zlari; **tout le, toute la, tous les** hamma; **le mien, le tien** meniki, seniki va boshqalar; **la plupart** ko'pchilik.

**le[2], la, les** *pron pers* **1.** uni; **c'est Françoise, je la connais bien** bu Fransuaz, men uni yaxshi taniyman; **il faut le voir à l'ouvrage, ce peintre** bu rassomni ish ustida ko'rish kerak; **prenez-les** ularni oling; **il l'en a convaincu(e)** u uni unga ishontirdi; **il l'y a poussé(e)** u uni bunga undadi; **2.** buni; **je vais vous le dire** men hozir sizga buni aytaman; **elle le lui a dit** u unga buni aytdi; **3. est-il content? il l'est** u xursandmi? ha shunday; **j'étais naïve, maintenant je ne le suis plus** men sodda edim, endi men unday emasman.

**lé** *nm* **1.** bir en mato, matoning eni; **2.** bo'yalgan qog'oz bo'lagining eni.

**leader** *nm anglic* **1.** rahnamo, lider, bosh, yo'lboshchi; **2.** lider, peshqadam.

**lèchefrite** *nf* idish (*cho'g'da pishayotgan go'shtning yog'i va selini yig'ib olish uchun*).

**lèche** *nf fam* (**faire** *fe'li bilan*); **faire de la lèche au patron** xo'jayinga laganbardorlik, xushomadgo'ylik qilmoq.

**lèche-bottes** *fam* laganbardor, xushomadgo'y, yaltoq.

**lire**[1] *vt* **1.** o'qimoq; **2.** shartli xatlarni ochqich bilan o'qimoq; **lire un graphique** chizmani o'qimoq; **lire une partition de musique** musiqa partiturasini o'qimoq; **3.** o'qimoq, o'qib chiqmoq, o'qib bilmoq, tanishmoq; **4.** o'qib eshittirmoq, o'qib bermoq; **5.** tashqi belgilariga qarab o'qimoq, tushunmoq, aytib bermoq; **lire les lignes de la main** kaft chiziqlarini o'qimoq; **6.** tashqi ko'rinishiga qarab ichki dunyosini, fikrini, his-tuyg'ularini bilmoq, bilib olmoq; **lire un sentiment sur le visage de qqn** biror kishining yuzidan his-tuyg'ularini o'qib olmoq.

**lire**[2] *nf* lira (*Italiya pul birligi*).

**lis** *ou* **lys** *nm inv* liliya (*lolagullilarga mansub dekorativ o'simlik*).

**liséré** *nm* hoshiya, jiyak; uqa; **liséré de soie** ipak hoshiya.

**liseron** *nm* pechak, chirmoviq; **liseron des champs, des haies** dala, chetan pechagi.

**liseur, euse** *n* kitobsevar, kitob o'qishni yaxshi ko'radigan odam.

**liseuse** *nf* **1.** muqova, jild (*kitob uchun*); **liseuse en cuir** charm jild; **2.** tungi koftacha (*o'rinda yotib kitob o'qish uchun*); **3.** kichik yoritgich (*poyezd, mashinada*).

**lisibilité** *nf* o'qib bo'ladigan, aniqlik, ravshanlik, tushunarlilik; **texte d'une lisibilité parfaite** juda aniq yozilgan matn.

**lisible** *adj* **1.** aniq, ravshan, tushunarli; **sa signature est tout juste lisible** uning qo'li juda aniq-ravshan; **2.** o'qisa bo'ladigan, o'qishga arziydigan.

**lisiblement** *adv* aniq, ravshan, tushunarli, o'qisa bo'ladigan; **écrire lisiblement** aniq-ravshan qilib yozmoq.

**lisière** *nf* **1.** chet; **2.** chet, qirg'oq, yoqa; **la lisière d'un champ, d'une forêt** dalaning, o'rmonning cheti; **à la lisière du bois** o'rmon yoqasida.

**lissage** *nm* tekislash, silliqlash; **le lissage des cheveux** sochni tekislash, silliqlash.

**lisse** *adj* tekis, tep-tekis; silliq.

**lisser** *vt* tekislamoq, silliqlamoq.

**liste** *nf* ro'yxat; **dresser une liste** ro'yxat tuzmoq; **liste civile** davlat rahbarlariga o'z vazifalarini bajarish uchun lozim bo'lgan xarajatlariga to'lanadigan pul.

**lister** *vt* **1.** ro'yxatga olmoq, ro'yxat tuzmoq; **lister des noms** familiyalarni ro'yxatga yozmoq.

**lit** *nm* **1.** yotoq, karavot; **ciel de lit** guldor qimmatbaho chodir; **lit clos** yoki **lit breton** yog'och tabaqali yopiladigan karavot; **lit pliant** yig'ma karavot; **lit-cage** panjarali karavot; **lit de camp** ko'chma karavot; **2.** yotish joyi, o'rin; **lit moelleux, dur** yumshoq, qattiq o'rin; **3.** *loc* **se mettre au lit** o'rnga yotmoq; **sauter du lit** o'rnidan sapchib turmoq; **faire son lit** yotish uchun joy solmoq; **border un lit** o'rinni tartibga keltirmoq; **sur son lit de mort** o'lim to'shagida; **mourir dans son lit** o'z ajali bilan o'lmoq; **4. enfant du premier lit** birinchi nikohdan bo'lgan bola; **5. lit de repos** kushetka; **6.** yerga to'shalgan joy, o'rin; **se coucher sur un lit de feuillage, de paille** barglardan, poxoldan to'shalgan o'ringa yotmoq; **7.** qatlam, qat, qavat; **un lit de cendres, de braises** kul, cho'g' qavati; **lit d'argile** loy qatlami; **8.** o'zan; **fleuve qui sort de son lit** o'z o'zanidan chiqqan daryo; **lit à sec** quruq o'zan; **détourner une rivière de son lit** daryo yo'lini o'zgartirmoq.

**litanie** *nf* **1.** *pl* litaniya (*katoliklarda diniy marosim va tantanalar vaqtida o'qiladigan ibodat*); **réciter, chanter des litanies** litaniya aytmoq; **2.** *sing ou*



www.ziyouz.com kutubxonasi

*pl* ha deb bir narsani qaytaraverish; nolish, so‘rayverish, diydiyo; **encore les mêmes litanies!** yana o‘sha diydiyo!

**litchi** *nm bot* lichi mevasi.

**lithographe** *n* toshbosma mutaxassisi.

**lithographie** *nf* **1.** litografiya, toshbosma; **2.** litografiya, toshbosma usulida bosilgan narsa.

**lithographier** *vt* litografiya usuli bilan bosmoq, toshbosmada bosmoq; **album lithographié** litografiya usulida bosilgan albom.

**lithographique** *adj* litografiyaga, toshbosmaga oid, litografik, litografiya; **encre lithographique** litografiya siyohi.

**lithuanien, ienne** *voir* **lituanien, ienne**.

**litière** *nf* **1.** *vieilli* taxtiravon; **2.** molning tagiga solinadigan narsa, to‘shama; **les litières souillées forment le fumier** ifloslangan to‘shama go‘ng bo‘ladi; **3.** *litt loc* **faire litière d’une chose** biror narsani e’tiboriga olmaslik, nazar-pisand qilmaslik, nazariga ilmaslik, oyoq osti qilmoq.

**litige** *nm* **1.** mojaro, tortishuv, janjalli ish; janjal; **arbitrer, trancher un litige** janjalli ishni hal qilmoq; **2.** haq-huquq talashish, tortishuv; **question en litige** tortishuvli masala.

**litigieux, euse** *adj* tortishuvli, munozarali; **point litigieux** tortishuvli nuqtai nazar.

**litote** *nf* litota (*masalan: yaxshi o‘rnida yomon emas so‘zi ishlatiladi*).

**litre** *nm* **1.** litr; **boire un litre de bière** bir litr pivo ichmoq; **2.** bir litrli idish.

**litron** *nm fam* bir litr vino.

**littéraire I.** *adj* adabiyotga oid; adabiyotdagi, adabiy; **milieux littéraires** adabiy muhit; **langue littéraire et langue parlée** adabiy va so‘zlashuv tili; **II.** *n* adabiyotchi.

**littérairement** *adv* adabiy nuqtai nazardan, adabiysiga.

**littéral, ale, aux** *adj* **1.** harfiy, harf bilan ifodalangan; **notation littérale** harfiy belgi; **2.** asliga muvofiq, so‘zma-so‘z, aynan; **copie littérale** asliga muvofiq ko‘chirma; **traduction littérale** aynan tarjima; **3.** tom ma’nodagi, o‘z, asl ma’nosidagi, aniq, to‘ppa-to‘g‘ri; **le sens littéral d’un mot** so‘zning o‘z ma’nosi.

**littéralement** *adv* **1.** so‘zma-so‘z, aynan; **traduire littéralement** so‘zma-so‘z tarjima qilmoq; **2.** asl ma’noda, tom ma’noda, aniq.

**littérateur** *nm péj* yozuvchi, adib.

**littérature** *nf* **1.** adabiyot, adabiy asar; **la littérature française, latine** fransuz, lotin adabiyoti; **2.** yozuvchining kasbi, ishi; **faire carrière dans la littérature** adabiyotda muvaffaqiyat qozonmoq; **3.** manba‘a, adabiyot, bibliografiya; **il existe sur ce sujet une abondante littérature** bu masalaga oid adabiyotlar to‘lib-toshib yotibdi.

**littoral, ale, aux I.** *adj* qirg‘oq bo‘yidagi, qirg‘oq oldidagi, qirg‘oq oldi; qirg‘oq bo‘yi; **cordons littoraux** qumloq, sayozlik (*dengiz chetida*); **pêche littorale** qirg‘oqda baliq ovlash; **faune littorale** qrig‘oq bo‘yi hayvonot olami; **II.** *nm* qirg‘oq, sohil; **le littoral méditerranéen** O‘rta yer dengizi sohili.

**lituanien, ienne** *ou* **lithuanien, ienne I.** *adj* Litvaga oid, Litva, litvalik; **II.** *n* **1.** litvalik; **2.** *nm* litva tili.

**liturgie** *nf* din; liturgiya (*nasroniylarda cherkovdagi eng katta ibodat*); **liturgie catholique** katolik liturgiya; **liturgie presbytérienne** presviterian liturgiya.

**liturgique** *adj* liturgiyaga oid, liturgik; **chants, prières liturgiques** liturgik ashulalar, ibodatlar; **calendrier, fête liturgique** liturgik taqvim, bayram; **vêtements, livres, vases liturgiques** liturgik ust-bosh, kitoblar, guldonlar.

**livarot** *nm* pishloqning turi (*Normandiyaning Livaro viloyatida tayyorlanadigan*).

**livide** *adj* **1.** *litt* rangsiz, ko‘kimtir; **la brume couvrait la ville d’un reflet livide** tuman shaharni ko‘kimtir rangga burkar edi; **2.** murdadek, rangpar (*teri*); **un teint livide** rangparlik.

**lividité** *nf* rangparlik; **lividité cadavérique** murdadek rang-quti o‘chganlik.

**living-room** *ou* **living** *nm anglic* turar joy, istiqomat joyi, yashash xonasi.

**livrable** *adj* eltib beriladigan (*xarid qilingan buyurtmalarni*); **marchandises livrable à domicile** uyga eltib beriladigan xaridlar.

**livraison** *nf* yetkazib berish, eltib berish; **payable à la livraison** eltib berilganda haq to‘lanadigan; **voiture de livraison** tarqatadigan mashina; **livraison à domicile** uyga yetkazib berish.

**livre[1]** *nm* **1.** kitob; **livre broché, cartonné, relié** broshura qilingan, kartonlangan, muqavalangan kitob; **2.** kitob, darslik; **livre de classe** darslik; *loc* **livre de chevet** qayta-qayta o‘qiladigan kitob; **3.** jild, tom; **le second livre de l’Énéide** Eneidning ikkinchi jildi; **les livres historiques de la Bible** Bibliyaning tarixiy tomlari; **4.** daftar (*biror maqsad uchun belgilangan daftar*); **les livres de comptes** hisob-kitob daftari; **livre des factures, des recettes** hujjatlar, kirim daftari; **livre d’or** oltin kitob (*ulug‘ odamlarni madh qiluvchi kitob*).

**livre[2]** *nm* yarim kilo; **acheter une livre de sucre** yarim kilo qand sotib olmoq; **une demi-livre de beurre** chorak kilo sariyog‘.

**livre[3]** *nf* **1.** livr (*qadimiy fransuz tangasi*); **2.** funt (*ingliz pul birligi*); **livre sterling** funt sterling; **livre australienne, égyptienne** Avstraliya, Misr funt sterlingi.

**livrée** *nf* **1.** shoh, zodagonlar xos askarlarining rang-barang kiyimi; **2.** xizmatkorlar kiyimi; **valet en livrée** xizmatkor kiyimidagi qarol.

**livrer I.** *vt* **1.** bermoq, topshirmoq, oshirmoq; **livrer un coupable à la justice** jinoyatchini sudga topshirmoq; **2.** topshirmoq, qo‘liga bermoq; **livrer qqn à la mort** birovni o‘limga buyurmoq; **pays livré à l’anarchie** anarxiyaga topshirilgan yurt; **3.** qo‘liga topshirmoq, sotmoq; **4.** ishonmoq; **il a livré son secret** u o‘z sirini ishonib aytdi; **5.** bermoq, yetkazib bermoq, olib borib bermoq, topshirmoq; **livrer une commande, une marchandise** buyurtmani, xarid qilingan molni yetkazib bermoq; **livrer qqch à domicile, en gare** biror narsani uyga, vokzalga olib borib bermoq; **6.** boshlamoq, kirishmoq; **livrer bataille** jangga kirishmoq; **7.** **livrer passage** o‘tkazib yubormoq, yo‘l bermoq, o‘tishga ruxsat bermoq; **II. se livrer** *vpr* **1.** o‘zini topshirmoq, o‘zini birovning qo‘liga topshirmoq, taslim bo‘lmoq; **se livrer après une longue résistance** uzoq qarshilikdan so‘ng taslim bo‘lmoq; **2.** yorilmoq, sirlashmoq, o‘zi haqida gapirmoq; **il ne se livre pas facilement** u osonlikcha yorilmaydi; **3.** berilmoq, mashg‘ul bo‘lmoq, shug‘ullanmoq; **se livrer aux pires excès** o‘ta beboshlikka berilmoq; **se livrer à un travail, à une étude** ishga, o‘qishga berilmoq.

**livresque** *adj péj* kitobiy, nazariy; **connaissances livresques** nazariy bilimlar.

**livret** *nm* **1.** *vieilli* katalog (*ko‘rgazma, muzey*); **le livret d’une exposition** ko‘rgazma katalogi; **2.** daftarcha; **livret militaire individuel** harbiy bilet; **livret de famille** uy (*oilaviy ahvol haqidagi*) daftari; **livret scolaire** o‘quvchining tabeli, kundaligi; **livret de caisse d’épargne** omonat daftarchasi; **3.** libretto; **le livret d’un opéra** opera librettosi; **auteur de livret** libretto muallifi.

**livreur, euse** *n* topshiruvchi, olib borib beruvchi; **les livreurs d’un grand magasin** univermagning ta’minotchilari.

**lobe** *nm* **1.** *anat* bo‘rtma, qabariq; **lobes du poumon, du cerveau** o‘pka, miya bo‘rtmalari; **lobe de l’oreille** quloq suprasi; **2.** *bot* tuguncha.

**lobé, ée** *adj* pallali, pallalardan iborat; **feuilles lobées du chêne, du figuier** eman, anjirning pallali barglari.

**lobectomie** *nf xir* lobektomiya (*bo‘rtmalarni olib tashlash*).

**local, ale, aux I.** *adj* **1.** mahalliy, muayan joydagi; ma’lum bir joyga xos, ma’lum joy bilan chegaralangan; **2.** **couleur locale** mahalliy ko‘rinish, ifoda; **II.** *nm* bino, uy, xona; **locaux commerciaux, administratifs, professionnels** savdo, ma’muriy bino, ixtisoslashtirilgan bino.

**localement** *adv* mahalliychasiga, o‘z joyiga xoslik bilan.

**localisable** *adj* ma’lum joy bilan chegaralasa bo‘ladigan, chegarali.

**localisation** *nf* **1.** tarqalishini cheklash; ma’lum joyda to‘xtatish, chegaralash; **localisation d’un corpuscule en un point** modda zarrachalarini bir nuqtada to‘xtatish; **localisation d’un avion** samolyotni qayerdaligini aniqlash; **2.** ma’lum chegarada cheklash, chegaralash; **localisation d’un conflit** o‘zaro nizo doirasini cheklash.

**localiser I.** *vt* **1.** mahalliylashtirmoq, ma’lum bir joyga joylamoq, o‘rnashtirmoq, to‘plamoq, yig‘moq; **localiser un bruit** shovqinni ma’lum bir joydan chiqadigan qilmoq; **localiser la cause d’une maladie** kasallikka sabab bo‘lgan joyni aniqlamoq; **2.** chegaralamoq, tarqalishini chegaralamoq,



www.ziyouz.com kutubxonasi

tarqalishiga yo'l qo'ymaslik; **localiser une épidémie, un conflit** epidemiyaning, nizoning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik; **II. se localiser** *vpr* **le conflit s'est localisé** nizo ma'lum joyda chegaralandi.

**localité** *nf* **1.** ma'lum joy; **2.** qishloq, aholi yashash joyi.

**locataire** *n* ijarachi; **avoir des locataires** ijarachilarga ega bo'lmoq.

**locatif[1], ive** *adj* **valeur locative** ijara haqi; **charges locatives** ijara solig'i.

**locatif[2], ive** *adj* o'rinni bildiruvchi, o'rin; **prépositions locatives** o'rin gaplar.

**location** *nf* **1.** ijaraga berish, ijaraga olish; **donner, prendre en location** ijaraga berish, ijaraga olish; **2.** oldindan joyni band qilib qo'yish; **bureau de location** oldindan joy band qilinadigan idora, oldindan chipta sotiladigan idora.

**loch[1]** *nm* lag (*kema tezligini o'lchaydigan asbob*).

**loch[2]** *nm* vodiyning to'rida joylashgan ko'l; **le loch Ness** Lox Nes ko'li (*Shotlandiyada*).

**loche** *nf* **1.** kichkina baliq (*chuchuk suvda yashaydigan*); **2.** shilliq qurt.

**lock-out** *nm inv* korxonaning yopilishi (*ishchilarni ommaviy ishdan bo'shatish yoki korxonalarni yopib qo'yish*).

**lock-outer** *vt* korxonani yopib qo'ymoq; lokaut yo'li bilan ishdan mahrum qilmoq; **le personnel lock-outé** ishsiz qolgan xodimlar.

**locomoteur, trice** *adj* harakatlantiruvchi, harakatga keltiruvchi; **muscles, organes locomoteurs** harakatlantiruvchi mushaklar, a'zolar.

**locomotion** *nf* **1.** harakatlanish, harakatga keltirish; **muscles de locomotions** harakatlantirish mushaklari; **2.** harakatlanish, harakat; **moyens de locomotion** harakatlanish vositalari.

**locomotive** *nf* parovoz, lokomotiv; **locomotive électrique, à moteur diesel** elektrovoz, teplovoz; **conducteur de locomotive** parovoz haydovchisi; *loc* **c'est une vraie locomotive** haqiqiy chopqir; *loc* **fumer comme une locomotive** parovozdek tutatmoq; **souffler comme une locomotive** parovozdek pishqirmoq.

**locuteur** *nm* o'z tilida gapiruvchi.

**locution** *nf* ibora, so'z birikmasi; **locution figée** turg'un so'z birikmasi; **locution verbale** fe'lli so'z birikmasi; **locution adverbiale** ravishli birikma; **locution conjonctive** murakkab bog'lovchi; **locution prépositive** murakkab old ko'makchi.

**loden** *nm* qalin jun mato, drap, qalin jun matodan qilingan palto.

**lœss** *nm inv* sariq tuproq, soz tuproq; **plaine de lœss** sariq tuproqli vodiy.

**logarithme** *nm* logarifm; **table de logarithme** logarifm jadvali.

**logarithmique** *adj* logarifmga oid, logarifmli; **calculs logarithmiques** logarifm hisobi.

**loge** *nf* **1.** xizmatkor boshpanasi (*eshik oldida*); **2.** kiyinish, yasanish, pardoz-andoz xonasi, kiyimxona, pardozxona, grimxona; **3.** alohida bo'linma; **4.** loja; **loge de balcon, de corbeille** balkon, beletaj lojasi; *loc fig* **être aux premières loges** eng qulay guvoh; **5.** masonlar uyushmasi, masonlar lojasi.

**logeable** *adj* **1.** yashasa, tursa, istiqomat qilsa bo'ladigan; **un réduit à peine logeable** zo'rg'a yashasa bo'ladigan hujra; **2.** narsalarni joylasa bo'ladigan; **un coffre très logeable** juda sig'imli jomadon.

**logement** *nm* **1.** yashash, turish, istiqomat qilish joyi, uy-joy berish, joylashtirish, joylashish; **assurer, donner le logement à qqn** birovni turar joy bilan ta'minlash, birovga turar joy berish; **2.** turar joy, uy-joy, makon; **un logement de deux pièces** ikki xonali turar joy.

**loger I.** *vi* yashamoq, istiqomat qilmoq, turmoq, kun kechirmoq; **II.** *vt* **1.** joylashtirmoq; **où logez-vous vos amis?** o'rtoqlaringizni qayerga joylashtirasiz? **2.** nishonga urmoq, tegizmoq; **loger une balle dans la cible** o'qni mo'ljalga urmoq, o'qni nishonga tegizmoq; **III. se loger** *vpr* joylashmoq, o'rnashmoq, joy topmoq; **on ne trouve pas à se loger dans cette ville** bu shaharga joylashishning, bu shahardan boshpana topishning iloji bo'lmayapti.

**logeur, euse** *n* jihozlangan xonani, uyni ijaraga beruvchi.

**loggia** *nf* peshayvon.

**logiciel** *nm inform* EHM dasturi.

**logicien, ienne** *n* **1.** mantiqchi; **2.** mantiqan fikrlovchi, mulohaza yurituvchi; **raisonner en logicien** mantiqan mulohaza qilmoq.

**logique[1]** *nf* **1.** mantiq ilmi; **logique formelle, logique pure** aniq, sof mantiq; **logique générale** umumiy mantiq; **2.** mantiqqa taalluqli asarlar; **3.** fikr, mulohaza yuritish, fikrlash, o'ylash; **4.** mantiq, mantiqiy fikr; **la logique d'une démonstration** isbotning mantiqi; **vous manquez de logique!** gapingizda mantiq yo'q!

**logique[2]** *adj* **1.** mantiqqa oid, mantiqiy; **déduction, conclusion logique** mantiqiy hisob-kitob, xulosa; **2.** mantiqan, mantiqiy jihatdan to'g'ri; mantiqiy; **raisonnement logique** mantiqiy fikrlash; **c'est la conséquence logique de ses erreurs** bu uning xatolarining mantiqiy oqibati; **3.** *fam* tabiiy, mantiqqa mos keladigan; **il est furieux et c'est logique** uning jahli chiqyapti va bu tabiiy; **4.** to'g'ri fikr, mulohaza, o'y qiluvchi, yurituvchi; **vous n'êtes pas logique!** siz to'g'ri fikr yuritmayapsiz! **5.** mulohazali, mantiqiy; **esprits logiques et esprits intuitifs** mantiqiy va xayoliy fikrlar.

**logiquement** *adv* **1.** mantiqan; **raisonner logiquement** mantiqan to'g'ri mulohaza qilmoq; **2.** mantiqan, mantiqqa qaraganda, mantiqqa muvofiq; **logiquement, les choses devraient s'arranger** mantiqan, ishlar yurishib ketishi kerak edi.

**logis** *nm inv* **1.** *litt* yashash joy, turar joy, makon, uy; **quitter le logis familial** o'z uyini tashlab ketmoq; **2. corps de logis** binoning asosiy qismi.

**loi** *nf* **1.** qonun; **lois et institutions** qonun va qonunchilik; **proposition de loi** qonun loyihasi; **amender une proposition de loi** taqdim qilingan qonunga o'zgartirish kiritmoq; **loi-cadre** asosiy qonun; **2.** qonun, qoida, tartib, nizom; **conforme à la loi** qonunga binoan; **homme de loi** yurist; **3.** qonun, farz, buyruq; **dicter, faire la loi à qqn** buyurmoq, xo'jayinchilik qilmoq; **faire la loi** buyurmoq; **vous ne ferez pas la loi chez moi!** siz mening uyimda xo'jayinchilik qila olmaysiz! **4.** qonun, qonuniyat; **la loi de la jungle** changalzor qonuni; **la loi du milieu** atrof-muhit qonuni; **5.** Ollohning buyrug'i; **6.** *pl* qonun-qoida, qoida; **les lois de l'honneur, de la politesse** or-nomus, odob qonun-qoidalari; **7.** qoida, me'yor; **8.** burch, vazifa; **loi morale** ma'naviy burch; **9. les lois du beau, de l'art** go'zallik, san'at normalari; **10.** qonun, qonuniyat; fan; **lois physiques** fizika qonuniyatlari; **découvrir, trouver une loi** qonuniyat kashf qilmoq, topmoq.

**loin I.** *adv* **1.** ancha uzoqda, olisda, yiroqda; *loc* **elle ira loin, je vous le dis** uning kelajagi porloq, u uzoqqa boradi, mana meni aytdi deysiz; **aller trop loin** o'tkazib yubormoq, orttirib yubormoq; **une affaire qui peut aller loin** yomon oqibatlarga olib boradigan ish; **2.** uzoq, yiroq, olis, hali ancha (vaqt) bor; **l'été n'est plus bien loin** yoz unchalik uzoq emas, yozga oz qoldi; **comme c'est loin!** bu qanchalar olis, qadimiy! **sans remonter si loin** uzoqqa bormay; **voir loin** uzoqni ko'rmoq; **II.** *nm* **1. il y a loin** uzoq, olis, ancha, yiroq; **il y a loin de l'hôtel à la plage** mehmonxonadan plajgacha uzoq; **2.** *loc adv* **au loin** uzoqda, olisda, yiroqda; **aller, partir au loin** uzoqqa, olisga bormoq, ketmoq; uzoqlashmoq; **3.** *loc adv* **de loin** uzoq joydan, uzoqdan, olisdan, yiroqdan; **revenir de loin** narigi dunyodan qaytib kelmoq; **4.** *loc adv* **de loin en loin** har joy-har joyda, uzoq-uzoqda, har zamon-har zamonda; **bornes placées de loin en loin** har joy-har joyga o'rnatilgan chegara to'siqlari; **III.** *loc prép* **loin de 1.** uzoq joyda, uzoqda, olisda, yiroqda; **loin de tout** hamma narsadan uzoqda; *prov* **loin des yeux, loin du cœur** ko'zdan nari, ko'ngildan nari; **loin de moi la pensée de blâmer ce procédé** men bu ishni qoralash fikridan uzoqdaman; **loin de là** aksincha; **2.** uzoqda, yiroqda, olisda; **tous ces souvenirs sont déjà bien loin de nous** hamma bu xotiralar endi bizdan juda olisda; **3. pas loin de** deyarli, qariyb; **il n'est pas loin de minuit** deyarli yarim tun; **cela m'a coûté pas loin de mille francs** bu menga deyarli ming frankka tushdi; **4. être loin de +** *inf* biror narsa qilishdan uzoqda bo'lmoq; **il était loin de s'attendre à cela** u buni umuman kutmagan edi; **IV.** *loc conj* **d'aussi loin que, du plus loin que** bilanoq; **d'aussi loin, du plus loin qu'il me vit** meni ko'rishi bilanoq.

**lointain, aine I.** *adj* **1.** uzoq, yiroq, olis; uzoqdagi, olisdagi, yiroqdagi; **partir dans un pays lointain** olis o'lkaga ketmoq; **2.** uzoq, yiroq, olis; **une ressemblance lointaine** qandaydir o'xshashlik; **3.** uzoq o'tmishga, kelajakka oid; uzoq o'tmishdagi, kelajakdagi; **passé, avenir lointain** uzoq o'tmish, kelajak; **II.** *nm* rasmning orqa plani; **les lointains de Vinci** Vinchi rasmlaring orqa planlari; **dans le lointain, au lointain** orqa planda.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**loir** *nm* sonya (*qishda uzoq vaqt uyquda boʻladigan olmoxonga oʻxshash hayvon*); *loc fam* **dormir comme un loir** dong qotib uxlamoq; **être paresseux comme un loir** juda dangasa boʻlmoq.

**loisible** *adj* ruxsat etilgan, ijozat etilgan, yoʻl qoʻyilgan, mumkin.

**loisir** *nm* **1.** boʻsh, xoli vaqt, imkon; **mes occupations ne me laissent pas le loisir de vous écrire** mening yumushlarim sizga xat yozishga imkon bermayapti; **des heures de loisir** boʻsh, bekorchilik vaqtlari; **2.** *pl* ishdan boʻsh vaqt, boʻsh, bekor vaqt; **avoir beaucoup de loisirs** boʻsh vaqti koʻp boʻlmoq; **3.** *pl* hordiq chiqarish, koʻngilxushlik, koʻngil ochish vaqtlari; **loisirs coûteux** qimmatga tushadigan koʻngil ochish vaqtlari; **à loisir, tout à loisir** *loc adv* vaqtining boricha, maza qilib, rohat qilib, koʻngliga siqqancha; **en vacances, je lis à loisir** taʼtil vaqtida men maza qilib kitob oʻqiyman.

**lombaire** *adj* belga oid; **région lombaire** bel qismi; **les cinq vertèbres lombaires** beshta bel umurtqasi.

**lombes** *nm pl* bel.

**lombric** *nm* chuvalchang.

**long, longue I.** *adj* **1.** *otdan oldin:* uzun, katta; **long nez** uzun burun; **il faisait de longues enjambées** u katta qadamlar tashlab borar edi; **2.** uzun, choʻziq, choʻzinchoq; **3.** kattalikda, choʻzilib ketgan; **description trop longue d'un tiers** uchdan birga ortiqcha choʻzilib ketgan tasvirlash; **4.** uzun, uzoq, olis, davomli (*vaqtga nisbatan*); **5.** *ling* choʻziq; **syllabe, voyelle, note longue** choʻziq boʻgʻin, unli, nota; **à de longs intervalles** uzoq-uzoq vaqt orasida; **6.** qadimiy, eski; **de longue date** uzoq vaqtdan beri; **7.** uzoq kelajakda, kelajakda; **à plus ou moins longue échéance** ancha-muncha uzoqqa moʻljallangan; **il s'y fera à la longue** oxiri baxayr boʻladi; **8. long (à)** uzoq davom etgan, etadigan, uzoq choʻzilgan, choʻziladigan, sekin; **II.** *nm* **1. table de 1,2 m de long** uzunligi 1,2 mli stol; **tomber de tout son long** bor boʻyicha yiqilmoq, yerga choʻzilib yiqilmoq; **de long en large, en large de long** boʻyiga va eniga, eniga va boʻyiga; **tout de long** butun uzunligi boʻylab; **au long, tout au long** bor boʻyicha, toʻla; **racontez-moi cela tout au long** menga buni borini gapirib bering; *loc prép* **au long de, le long de, tout le long, tout du long de** butun uzunligi boʻylab, boʻylab; **il marchait le long des rue** u koʻcha boʻylab borar edi; boʻyi, davomida (*vaqtga nisbatan*); **tout le long du jour** butun kun boʻyi; **III.** *adv* koʻp; **en savoir long** bu haqda koʻp bilmoq.

**longanimité** *nf litt* sabr, toqat, bardosh, chidam, bardoshlilik, koʻngilchanlik.

**long-courrier** *adj n* uzoqqa suzadigan, uzoqqa uchadigan; uzoqqa suzadigan kema, uzoqqa uchadigan samolyot; **avions long-courriers** uzoq masofaga uchadigan samolyot.

**longe**[1] *nf* **longe (de veau)** molning bel goʻshti.

**longe**[2] *nf* arqon; **mener un cheval par la longe** otni arqonidan yetaklab bormoq.

**longer** *vt* **1.** yoqalab, boʻylab bormoq; **longer les murs pour se cacher** yashirinish uchun devorlar boʻylab bormoq; **2.** boʻylab, yoqalab choʻzilib ketmoq; **la route longe la mer** yoʻl dengiz yoqalab choʻzilib ketgan.

**longeron** *nm* **1.** koʻndalang toʻsin; **2.** lonjeron (*avtomobil ramasining yondori, samolyot qanotining boʻylama brusi kabilar*).

**longévité** *nf* uzoq umr, uzoq umr koʻrish, uzoq yashash.

**longitude** *nf géog* uzunlik; **île située par 60° de latitude sud et 20° de longitude ouest** 60**°** janubiy kenglik va 20° gʻarbiy uzunlikda joylashgan orol.

**longitudinal, ale, aux** *adj* boʻylama, uzunasiga, boʻyiga; **raie longitudinale** boʻylama kegay.

**longtemps I.** *adv* uzoq, uzoq vaqt, ancha vaqtgacha; **parler longtemps** uzoq gaplashmoq; **II.** *nm inv* **depuis, pendant, pour longtemps** uzoq vaqtdan beri, koʻpdan beri, uzoq vaqt davomida, uzoq vaqtga; **je n'en ai pas pour longtemps** men uni uzoq ushlab turmayman; **de longtemps, avant longtemps** uzoq vaqtda; **il y a, voici, voilà longtemps** mana koʻpdan beri; **il est déjà venu ici, il y a longtemps** u ancha oldin ham bu yerga kelgan edi.

**longue** *nf* choʻziq nota; choʻziq unli tovush, choʻziq boʻgʻin; *loc adv* **à la longue** vaqti kelib.

**longuement** *adv* uzoq, uzoq vaqt, uzoq vaqt davomida; **raconter longuement une histoire** voqeani uzoq hikoya qilmoq.

**longuet, ette** *adj fam* biroz uzunroq, uzoqroq, choʻziqroq; **son histoire est un peu longuette** uning qissasi biroz uzunroq.

**longueur** *nf* **1.** uzunlik, boʻy; **dans le sens de la longueur** boʻylamasiga; **2.** uzunlik oʻlchovi; **une longueur de 10 m** 10 m uzunlik; **3.** maʼlum uzunlik; **cheval qui gagne d'une longueur** bir boshga oʻzib ketgan ot; **avoir une longueur d'avance** ustunlikka ega boʻlmoq (*raqib ustidan*); **4.** uzunlik, choʻziqlik; **les longueurs, les surfaces et les volumes** uzunliklar, yuzalar, hajmlar; **les unités de longueur** uzunlik birliklari; **5.** uzunlik, davomlilik, davom etish vaqti (*vaqtga nisbatan*); *loc prép* **à longueur de** boʻyi, davomida; **il travaille à longueur de journée** u kun boʻyi ishlaydi; **6.** uzoq vaqt, oʻta, juda uzoq vaqt; **tirer les choses en longueur** ishni uzoqqa choʻzmoq; **7.** uzunlik, uzundan-uzoqlik; **excusez la longueur de ma lettre** mening xatimning uzundan-uzoqligi uchun kechiring; **8.** *pl* uzundan-uzoq joylar, ortiq darajada choʻzib yuborilgan, ortiqcha tafsilotlarga berilib ketgan yerlar (*asar, pyesa va sh. k.*); **il y a trop de longueurs dans ce film** bu filmda ortiq darajada choʻzib yuborilgan joylar koʻp.

**longue-vue** *nf* durbin.

**looping** *nm* sirtmoqsimon doira (*oliy uchuvchilik sanʼatida vertikal chiziq boʻylab uchishda hosil qilinadi*).

**lopin** *nm* bir parcha, bir boʻlak; **un lopin de terre** bir parcha yer.

**loquace** *adj* koʻp gapiradigan, sergap, ezma; **vous n'êtes pas très loquace aujourd'hui** bugun siz unchalik sergapmassiz.

**loquacité** *nf litt* ezmalik, sergaplik, laqmalik; **loquacité fatigante** odamni charchatadigan ezmalik.

**loque** *nf* **1.** *pl* juldur kiyim, eski-tuski, uvada; juldur kiyimda boʻlmoq; juldur kiyingan gadoy; **2.** oʻtaketgan boʻsh, latta, noshud, shalviragan; latta odam.

**loquet** *nm* loʻkidon, surilma, zulfin; **abaisser, soulever le loquet de la porte** eshikning zulfinini solmoq.

**loqueteux, euse** *adj* **1.** juldur kiyingan, uvada ust-boshdagi; *n* juldurvaqa; juldur kiyingan odam; **2.** *litt* juldur, uvada, eski-tuski; **habit loqueteux** juldur kiyim.

**lord** *nm* lord (*Angliyada dvoryanlarning avloddan-avlodga oʻtib keladigan oliy unvoni va shu unvonga ega boʻlgan odam*); **la chambre des lords** lordlar palatasi.

**lorgner** *vt* **1.** koʻz qiri bilan qaramoq, yashirincha kuzatmoq; **lorgner une jolie fille du coin de l'œil** chiroyli qizni koʻz qiri bilan kuzatmoq; **2.** moʻljallab turmoq, koʻzlab turmoq, koʻz ostiga olib qoʻymoq; **lorgner une place** bitta joyni moʻljallab turmoq.

**lorgnette** *nf* kichkina durbin; teatr durbini; *loc* **regarder, voir par le petit bout de la lorgnette** narsalarga bir tomonlama, mensimay, aqli kaltalik bilan qaramoq.

**lorgnon** *nm* lornet, pensne, burun ostiga qistirib qoʻyiladigan koʻzoynak.

**loriot** *nm* zargʻaldoq.

**lorrain, aine** *adj* Lotaringiyaga oid, Lotaringiya; **le bassin lorrain** Lotaringiya havzasi; *n* lotaringiyalik.

**lors** *adv* **1.** *loc prép* **lors de** paytida, vaqtida, davrida; **lors de son mariage** uylanish paytida; **2.** murakkab bogʻlovchi; **dès lors que** oʻsha, shu ondan beri; *litt* **lors même que** agarchi, agarki, qaramasdan, hattoki; **lors même que vous insisteriez, il ne céderait pas** agarchi siz qanchalik qattiq turib talab qilmang, u yon bermaydi.

**lorsque** *conj de temps* **1.** paytida, vaqtida; **lorsqu'il est arrivé, nous finissions de déjeuner** u kelgan paytida, biz tushlikni tugatayotgan edik; **2.** shunday ekan, modomiki; **on fait des discours lorsqu'il faut agir** modomiki nutq soʻzlash kerak ekan, harakat qilmoq kerak.

**losange** *nm* romb; **le losange est un quadrilatère** romb toʻrtburchakdir; **losange de tissu, de papier** mato, qogʻozdan qilingan romb.

**lot** *nm* **1.** ulush, hissa, boʻlak, parcha, qism; **diviser un terrain en lots** yerni ulushlarga boʻlmoq; **2.** bir toʻp mol, bir toʻda tovar; **elle sortit tout un lot de vêtement** u bir toʻda kiyim-kechakni savdoga chiqardi; **3.** yutuq (*lotoreyada*); **le gros lot** katta yutuq; **lot de consolation** tasalli beradigan yutuq; **4.** taqdir, qismat, peshona, yozmish; **la souffrance est son lot** azob chekish uning taqdiridir.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**loterie** *nf* **1.** lotereya; **billet de loterie** lotereya bileti; **2.** lotereya, o‘yin, qismat, taqdir; **la vie est une loterie** hayot bu lotereya.

**loti, ie** *adj* **être bien, mal loti** taqdir siylagan, taqdir chetlab o‘tgan.

**lotion** *nf* losyon, atir, gulob; **lotion calmante** tinchlantiruvchi atir; **lotion capillaire** soch tushishiga qarshi ishlatiladigan losyon.

**lotionner** *vt* losyon surtmoq, qo‘ymoq, gulobda yuvmoq; **lotionner une plaie** yarani yuvmoq.

**lotir** *vt* **1.** ulushlab, bo‘lib, taqsimlab bermoq; **lotir les immeubles d'une succession** merosga qolgan ko‘chmas mulklarni bo‘lib bermoq; **terrains à lotir** bo‘lib sotiladigan yerlar; **2.** bir bo‘lagiga, qismiga ega qilmoq; **après le partage, chacun a été loti d'une maison** taqsimlashdan so‘ng har biri uyning bir qismiga ega bo‘ldi.

**lotissement** *nm* **1.** ulushlarga bo‘lish; **le lotissement des immeubles d'une succession** meros qolgan ko‘chmas mulklarni ulushlarga bo‘lish; **2.** yerni qismlarga bo‘lib sotish yoki ijaraga berish.

**lotisseur, euse** *n* mayda yer bo‘laklarini sotish bilan shug‘ullanuvchi odam.

**loto** *nm* **1.** loto o‘yini; *loc* **des yeux en boules de loto** ko‘zlari soqaday irg‘ib chiqdi; **2.** lotereya-ekspress.

**lotte** *nf* nalim, yelimbaliq.

**lotus** *nm inv* nilufar; **lotus bleu** Nil nilufari.

**louable**[1] *adj* maqtasa bo‘ladigan, maqtovga loyiq, arziydigan, munosib; **sentiments louables** maqtovga loyiq tuyg‘u; **de louables efforts** maqtovga arziydigan g‘ayrat.

**louable**[2] *adj* ijaraga bersa, olsa bo‘ladigan; **cet appartement est difficilement louable** bu uy qiyinchilik bilan ijaraga bersa bo‘ladigan.

**louage** *nm dr* ish kuchi yollash, ijaraga olish; ijaraga qo‘yish, berish; **contrat de louage** ish kuchi yollash shartnomasi; **contrat de services** ish shartnomasi; **voiture de louage** ijaraga beriladigan avtomobil.

**louange** *nf* **1.** *litt* madh, sano, maqtov; **un beau discours à la louange de qqn** biror kishining sha’niga aytilgan ajoyib so‘zlar; **2.** *pl* tabrik, tabriklash; **couvrir qqn de louanges** biror kishini tabriklar bilan ko‘mib yubormoq.

**louanger** *vt litt* ko‘klarga ko‘tarib maqtamoq, ko‘klarga ko‘tarmoq, hamdu-sano aytmoq, madh qilmoq.

**louangeur, euse** *n et adj litt* maddoh, madh qiluvchi, ko‘klarga ko‘taruvchi, maqtovchi; **paroles louangeuses** madh qiluvchi so‘zlar.

**loubard** *nm fam* to‘daboshi, muttaham, qallob, bezori, yengiltak yigit.

**louche**[1] *adj* shubhali, shubha tug‘diradigan, g‘alati; **affaires, manœuvres louches** shubhali ishlar, qiliqlar; **c'est louche** bu g‘alati; **un individu louche** g‘alati shaxs.

**louche**[2] *nf* cho‘mich.

**loucher** *vt* **1.** g‘ilay bo‘lmoq; **2.** *fam* **faire loucher qqn** birovning ko‘zini kuydirmoq; **loucher sur, vers** ko‘z olaytirmoq; **elle louchait sur le dessert** u dessertga baqrayib qarab turar edi.

**louer**[1] **I.** *vt* **1.** maqtamoq, ko‘klarga ko‘tarmoq, madh qilmoq, hamdu-sano o‘qimoq; **2. louer qqn de, pour qqch** birovni biror narsa uchun maqtamoq, tabriklamoq; **on le loua, on l'a beaucoup loué pour son courage** uni maqtadilar, jasurligi uchun unga ko‘p hamdu-sanolar aytishdi; **3. louer Dieu, le Seigneur** Ollohga, egamga hamdu-sanolar aytmoq; *loc* **Dieu soit loué!** Xudoga shukur! **II. se louer** *vpr* (**de qqch**) o‘zini baxtli deb hisoblamoq, xursand bo‘lmoq; **je me loue d'avoir accepté son offre** men uning taklifiga rozi bo‘lganligimdan xursandman; **se louer de qqn** biror kishidan juda xursand bo‘lmoq.

**louer**[2] **I.** *vt* ijaraga bermoq; **maison à louer** ijaraga beriladigan uy; **2.** ijaraga, kiraga, olmoq; **louer un appartement** bir uyni ijaraga olmoq; **3.** oldindan chipta olib qo‘ymoq; **louer sa place dans un train** poyezdga oldindan chipta olib qo‘ymoq; **II. se louer** *vpr* ijaraga berilmoq.

**loueur, euse** *n* ijaraga beruvchi odam.

**loufoque** *adj fam* ahmoq, aqldan ozgan, tentak, miyasini yegan; **une histoire loufoque** tentakona voqea.

**loufoquerie** *nf* ahmoqlik, aqldan ozganlik, tentaklik, miyasini yeganlik; bema’ni va g‘alati qiliq; **j'en ai assez de tes loufoqueries** sening ahmoqliklaring jonimga tegdi.

**louis** *nm* **1.** luidor (*eski fransuz tilla tangasi*); **2.** yigirma frankli tilla tanga.

**loukoum** *nm* rohat-lukum, marmelad.

**loulou, oute** *n* **1.** *fam* kichkintoyim, erkatoyim, erkam (*bolaga, yaxshi ko‘rgan kishiga nisbatan erkalash*); **mon gros loulou** mening do‘mbog‘im; **2.** *nm* muttaham, qallob, bezori, yengiltak yigit; **3.** *nm* xonaki kichkina baroq it.

**loup** *nm* **1.** bo‘ri, qashqir; **le loup, la louve et les louveteaux** erkak, urg‘ochi bo‘ri va bo‘ri bolalari; *loc* **une faim de loup** och bo‘riday; *loc prov* **quand on parle du loup, on en voit la queue** bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi; **2.** *fam* kichkintoyim, erkatoyim, erkam; **mon loup, mon petit loup** erkam, erkatoyim; **3.** *fam* **loup de mer** mohir dengizchi; **4.** olabug‘a balig‘ining bir turi; **5.** bal-maskaradda taqiladigan qora niqob.

**loup-cervier** *nm* silovsin.

**loupe**[1] *nf* **1.** g‘udda, shish, bo‘qoq, do‘mboq; **2.** shish, o‘sma.

**loupe**[2] *nf* lupa, zarrabin; **regarder une chose à la loupe** biror narsani lupa bilan kuzatmoq.

**louper** *vt* **1.** *fam* qo‘ldan chiqarmoq, erisholmaslik, muvofiq bo‘lmaslik; **il a loupé sa composition** u inshodan, imtihondan yiqildi; **2.** *fam* boy berib qo‘ymoq, qo‘ldan berib qo‘ymoq, og‘iz ochib qolmoq, quruq qolmoq; **tu vas louper ton train** poyezddan kech qolasan; **3. tout a loupé** hamma narsa qo‘ldan ketdi; **ça n'a pas loupé** bu hali barbod bo‘lgani yo‘q.

**loup-garou** *nm* ertaklardagi bo‘ri qiyofasidagi odam; bo‘ji, olabo‘ji; *pl* **des loups-garous**.

**loupiot, iotte** *n fam* kichkina bola, yosh bola, kichkintoy.

**loupiote** *nf fam* chiroqcha; **allumer une loupiote** chiroqchani yoqmoq.

**lourd, lourde** *adj* **1.** og‘ir, vazmin; **tête lourde, estomac lourd** og‘ir kalla, to‘la oshqozon; **terrain lourd** chopishga qiyin, qattiq yer; *sport* loy, ezilib ketgan maydon; **2.** katta, og‘ir; **artillerie lourde** og‘ir artileriya; **industrie lourde** og‘ir sanoat; **poids lourd** og‘ir yuk tashiydigan mashina; 79 kgdan 85 kggacha og‘irlikdagi boksyor, og‘ir vazn; **les mi-lourds et les poids lourds** yarim og‘ir va og‘ir vazndagilar **3.** immillagan, shalviragan, lapashang, lavang; **4.** qo‘pol, noshud, epsiz, lapashang odam; **5.** og‘ir, qo‘pol, dag‘al, g‘aliz; **lourdes plaisanteries** qo‘pol hazil; **style lourd** dag‘al, g‘aliz uslub; **6.** og‘ir, qo‘pol, beso‘naqay, beo‘xshov; **son équipement le rend lourd et maladroit** uning anjomlari uni beso‘naqay va qo‘pol qilib qo‘ydi; **une démarche lourde** qo‘pol xatti-harakat.

**lourdaud, aude I.** *n* beso‘naqay, beo‘xshov odam, qo‘pol odam; noshud, epsiz, lapashang, latta; **c'est un lourdaud** bu beso‘naqay odam; **II.** *adj* qo‘pol, befarosat, befahm, kallavaram.

**lourde** *nf fam* eshik.

**lourdement** *adv* **1.** bor og‘irligi, bor kuchi bilan; **tomber lourdement** bor og‘irligi bilan yiqilmoq, gursillab yiqilmoq; **peser lourdement sur** og‘ir ta’sir ko‘rsatmoq; **2.** og‘ir, vazmin, zil, zilday; **camions lourdement chargés** zilday qilib yuklangan yuk mashinalari; **3.** beso‘naqay, beo‘xshov, qo‘pollik bilan, qovushmay; **appuyer, insister lourdement** qo‘pollik bilan yondoshmoq, turib olmoq; **se tromper lourdement** qo‘pol adashmoq.

**lourder** *vt arg fam* **1.** haydab chiqarmoq, haydab yubormoq; **il s'est fait lourder** u haydaldi; **2.** biror narsadan, birovdan qutulmoq.

**lourdeur** *nf* **1.** og‘irlik, vazminlik; **la lourdeur de l'impôt** soliqning og‘irligi; **2.** og‘irlik, haybatlilik, bahaybatlik; **lourdeur des formes** formalarning bahaybatligi; **3.** qo‘pollik, kelishmaganlik, lapashanglik, lavanglik, imillaganlik; **lourdeur de la démarche** qiliqning qo‘polligi; **lourdeur d'esprit** kaltafahmlilik, zehni pastlik; **4.** g‘alizlik, dag‘allik, qo‘pollik; **la lourdeur d'une phrase, du style** gapning, uslubning g‘alizligi.

**loustic** *nm* hazilkash, xushchaqchaq, ochiq odam; *fam péj* g‘alati odam, nusxa, tip; **c'est un drôle de loustic** bu g‘alati nusxa.

**loutre** *nf* **1.** qunduz; **2.** qunduz terisi, mo‘ynasi; **un manteau de loutre** qunduz mo‘ynasidan qilingan palto.

**louve** *nf* urg‘ochi bo‘ri, ona bo‘ri; **la louve et ses louveteaux** ona bo‘ri va uning bolalari.

**louveteau** *nm* bo‘ri bolalari.

**louvoiement** *nm mar* **1.** kemaning shamolga qarshi ilang-bilang qilib suzishi; **2.** gapni aylantirish, vaj, ayyorlik, o‘zini olib qochish.

**louvoyer** *vi* **1.** shamolga qarshi ilang-bilang qilib suzmoq; **2.** gapni aylantirmoq, ayyorlik qilmoq, vaj ko‘rsatmoq, o‘zini olib qochmoq; **il**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**louvoyait pour éviter de répondre** u javob berishdan qochish uchun gapni aylantirir edi.

**lover I.** *vt mar* oʻram, kalava qilib yigʻmoq (*trosni*); **II. se lover** *vpr* kulcha boʻlib oʻralmoq, oʻrashmoq; **le serpent se love pour dormir** ilon uxlash uchun kulcha boʻlib oʻraladi.

**loyal, ale, aux** *adj* toʻgʻri, sofdil, xolis, qonun-qoida chegarasidagi; boadab; **un ami loyal** sofdil doʻst; **adversaire, ennemi loyal** xolis raqib, dushman.

**loyalement** *adv* toʻgʻri, halol, xolisona, qonun-qoida chegarasida; boadabona; **combattre, discuter loyalement** halol kurashmoq, tortishmoq.

**loyalisme** *nm* sadoqat, sodiqlik; fidokorlik; **le loyalisme d'un militant envers son parti** kurashchining oʻz partiyasiga sadoqati.

**loyauté** *nf* sadoqatlilik, sodiqlik, toʻgʻrilik, xolislik, sofdillik; **reconnaître avec loyauté les mérites de l'adversaire** xolislik bilan raqibning fazilatlarini tan olmoq; **la loyauté de sa conduite** xatti-harakatlarining toʻgʻriligi.

**loyer** *nm* **1.** ijara haqi, uy haqi; **loyer élevé** qimmat ijara haqi; **échéance du loyer** ijara haqini toʻlash muddati; **2. le loyer de l'argent** pulning qarz foydasi; **3.** *dr* arenda, ijara shartnomasi, bitimi.

**L.S.D.** *nm inv* (*abrév de* **L**yserg**s**äure**d**iäthylamid **"acide lysergique diéthylamide"**) LSD, gallutsinatsiya keltirib chiqaruvchi modda.

**lu, lue** *adj* oʻqilgan, oʻqib chiqilgan.

**lubie** *nf* injiqlik, xarxasha, gʻalati qiliq, tantiqlik; **il a des lubies, il lui prend des lubies** uning gʻalati qiliqlari bor, injiqligi tutib qoldi; **c'est sa dernière lubie** bu uning oxirgi tantiqligi.

**lubricité** *nf* hirs, oʻchlik, suqlik; **se livrer à la lubricité** hirsga berilmoq.

**lubrifiant, ante I.** *adj* yogʻlovchi, moylovchi; **liquide lubrifiant** moylovchi suyuqlik; **II.** *nm* moylovchi, yogʻlovchi modda.

**lubrification** *nf* moylash, yogʻlash; **la lubrification des rouages d'une machine** stanokning gʻildirakli qismlarini moylash.

**lubrifier** *vt* moylamoq, yogʻlamoq; moy, yogʻ quymoq, surtmoq; **lubrifier un moteur** motorga moy quymoq.

**lubrique** *adj* hirs, suqlanish, suq; *plais* **un œil lubrique** suqlik bilan, hirs bilan suqlanib qarash.

**lucarne** *nf* **1.** tom tepasidagi tuynuk; **les lucarnes d'un grenier** cherdakdagi tuynuk; **2.** tuynukcha; **la lucarne d'un cachot** avaxtaning tuynukchasi.

**lucide** *adj* **1.** aniq, ravshan, oydin, oʻtkir; **esprit, intelligence lucide** oʻtkir aql, idrok; **il est revenu de son évanouissement, mais il n'est pas encore entièrement lucide** u hushiga keldi, lekin hali u toʻla oʻziga kelganicha yoʻq; **2.** ziyrak, farosatli, zakovatli, sezgir; **il est très lucide et a bien compris ses erreurs** u juda ziyrak va u oʻz xatolarini yaxshi tushundi.

**lucidement** *adv litt* aniq, ravshan, yaqqol.

**lucidité** *nf* **1.** oʻtkirlik, ziyraklik, sezgirlik; zakovat, farosat; **analyse d'une grande lucidité** ulkan zakovat bilan qilingan analiz; **2.** es-hushning joyidaligi, ravshanligi, oydinligi.

**lucratif, ive** *adj* foydali, foyda, daromad keltiradigan; serdaromad; **travail lucratif** daromad keltiradigan ish.

**lucre** *nm litt et péj* tekin daromad, pul, foyda orttirish hirsi; **le goût, l'amour, la passion du lucre** tekin daromad orttirish xohishi, istagi, hirsi.

**ludique** *adj* oʻyinga oid, oʻynaydigan, oʻyin uchun belgilangan; **activité ludique des enfants** bolalarning oʻyin faolligi.

**luette** *nf anat* tilcha, kichik til.

**lueur** *nf* **1.** xira, kuchsiz, zaif yorugʻliq, nur, shuʻla; **les premières lueurs de l'aube** tongning birinchi zaif shuʻlasi; **2.** shuʻla; nur; yalt etib koʻringan yorugʻlik; chaqnash, uchqun; **avoir une lueur de colère dans les yeux** koʻzlarida gʻazab uchquni boʻlmoq; **3.** biror narsaning uchquni, nishoni, alomati; **lueur de raison** aql-zakovat uchquni; *litt pl* yuzaki bilish; **avoir des lueurs sur un sujet** biror masalani yuzaki bilmoq.

**luge** *nf* chana (*sport va bolalar uchun*); **faire une descente sur une luge, en luge** chanada tushmoq.

**lugubre** *adj* **1.** *litt* motamsaro, qaygʻuli; **glas lugubre** qoʻngʻiroqning motamsaro jaranglagan ovozi; **2.** qaygʻuli, dard-alamli, gʻamgin, maʼyus, noxush; **air, ton lugubre; mine lugubre** maʼyus koʻrinish, gʻamgin yuz; **une atmosphère lugubre** noxush holat; **il est lugubre** u gʻamgin.

**lugubrement** *adv* qaygʻuli, ayanchli, noxush; **le chien hurlait lugubrement** it ayanchli uvvillardi.

**lui** *pron pers* u, unga; **nous lui en avons parlé** biz unga bu haqda gapirdik; **elle lui sauta au cou** u uning boʻyniga sakradi; **2. faites-lui recommencer ce travail** unga bu ishni qaytadan qildiring; **lui aussi voudrait la connaître** u ham u bilan tanishishni xohlar edi; **lui arrivé, elle ne sut que dire** u kelganda, u nima deyishini bilmay qoldi; **lui, il a refusé** u, u esa rad qildi; **c'est lui qui sera content de vous voir!** sizni koʻrishdan xursand boʻladigan u, oʻsha! **je ne veux voir que lui** men faqat unigina koʻrmoqchiman; **elle renonce à lui** u undan voz kechyapti; *loc* **à lui seul, à lui tout seul** yolgʻiz oʻzi, yolgʻiz oʻzigina; **j'ai confiance en lui** men unga ishonaman; **je le fais pour lui** men buni uning uchun qilyapman; **allez-vous avec lui, chez lui?** u bilan birga borasizmi, unikiga? **5. un homme content de lui** oʻz oʻzidan xursand odam; **lui-même** uning oʻzi, oʻzi; *loc* **de lui-même** oʻzi, oʻzining tashabbusi bilan.

**luire** *vt* **1.** nur sochmoq, shuʻla sochmoq, yoritmoq, charaqlamoq, charaqlab turmoq, chaqnamoq, yaltiramoq, miltillamoq; **le soleil luit** quyosh yorqin nur sochmoqda; **regards qui luisent de colère, d'envie** gʻazab, hasaddan chaqnab turgan qarashlar; **luire au soleil** quyoshda yaltiramoq; **2.** *litt* koʻrinmoq, paydo boʻlmoq, namoyon boʻlmoq; **l'espoir luisait encore** hali umid uchqunlari bor edi.

**luisant** *adj* yaltiroq, yarqiragan, nur sochib turadigan; **métal luisant** yarqiroq metall; **vers luisant** yonar qurt.

**lumbago** *nm* lumbago, bel ogʻriq, bel sanchigʻi; **souffrir d'un lumbago** bel ogʻrigʻidan aziyat chekmoq.

**lumière** *nf* **1.** yorugʻlik, nur, yogʻdu; **2.** kunduzgi yorugʻlik; **3.** yorugʻlik, yorugʻlik manbai, yorugʻlik chiqib turgan joy, chiroq; **les lumières de la ville** shahar chiroqlari; **4.** yorugʻlik, yogʻdu, nur; **vitesse de la lumière** yorugʻlik tezligi; **5.** yorugʻlik, aniqlik, ravshanlik; **l'auteur jette une lumière nouvelle sur la question** muallif masalaga yangi bir ravshanlik kiritadi; **faire la lumière** aniqlik kiritmoq; **6.** *loc* **en lumière** aniq, ravshan, yorugʻ; **mettre en pleine lumière** toʻla yoritmoq; toʻla aniqlik, ravshanlik kiritmoq; **7. les lumières de qqn** biror kishining bilimi, maʼrifati, bilimdonligi; **aidez-moi de vos lumières** oʻz bilimingiz bilan menga yordam bering; **le siècle des Lumières** maʼrifat asri; **8.** mashʼal, yulduz (*oʻta bilimdon, ahamiyatli odam*); **c'est une des lumières de son temps** bu oʻz davrining yulduzlaridan biri.

**lumignon** *nm* xira nur sochib turgan chiroq.

**luminaire** *nm* **1.** yoritish asboblari; **2.** lustra, qandil, chilchiroq; **des luminaires de style moderne** zamonaviy uslubdagi qandillar.

**luminescent, ente** *adj* nur sochadigan, nur taratadigan, nurlanadigan; **tube luminescent** kunduzgi yorugʻlik lampasi.

**lumineusement** *adv* aniq, ravshan, ochiq, oydin; **expliquer lumineusement un problème** biror masalani aniq-ravshan tushuntirib bermoq.

**lumineux, euse** *adj* **1.** yaltiragan, yaltirab koʻrinadigan; yaltiroq, yiltillagan; **corps, point lumineux** yaltiroq jism, nuqta; **source lumineuse** yaltiragan manba; **montre à cadran lumineux** yaltirab koʻrinadigan siferblatli soat; **2.** porlagan, chaqnagan, nur sochib turgan; **teint, regard lumineux** nur sochib turgan yuz, yorqin qarashlar; **3.** charaqlagan, yorqin; **rayon lumineux** yorqin nur; **3.** tiniq, ravshan, oʻtkir, ajoyib; **intelligence lumineuse** oʻtkir aql; **un raisonnement lumineux** ravshan mushohada; *fam* **c'est une idée lumineuse** bu ajoyib fikr.

**luminosité** *nf* **1.** nur sochish, yarqirash, chaqnash; **la luminosité du ciel méditerranéen** Oʻrta yer dengizi havzasi osmonining yarqirashi; **2.** nur, yogʻdu, shuʻla, yaltiroqlik; **masse et luminosité des étoiles** yulduzlarning massasi va yogʻdusi.

**lump** *nm* shimol baliqlarining bir turi; **œufs de lump** shu baliqning uvildirigʻi.

**lunaire** *adj* **1.** oyga oid, oy; **le sol lunaire** oy tuprogʻi; **expédition lunaire** oy ekspeditsiyasi; **2.** oy, oyni eslatuvchi, oyga oʻxshash; **face lunaire** oy yuz (*dumaloq va rangpar*).

**lunaison** *nf* oy hisobi, qamariya.

**lunatique** *adj, n* oʻjar, qaysar, ters, koʻngliga kelgan ishni qilaveradigan; **il est lunatique** u oʻjar; **une conduite un peu lunatique** bir oz ters feʼl-atvor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**lunch** *nm* lench, tamaddi (*tushlikdan keyingi ikkinchi ovqat; umuman yengil ovqatlanish, tamaddi qilib olish*); *pl* **des lunchs** *ou* **des lunches**.

**lundi** *nm* dushanba.

**lune** *nf* **1.** oy; **le disque de la lune** oy gardishi; **pleine lune, nouvelle lune** to'lin, yangi oy; **croissant de lune** yarim oy; **le clair de lune** oy nuri; **nuit sans lune** oysiz tun; **atterrir sur la Lune** Oyga qo'nmoq; **2.** *loc fig* **être dans la lune** parishonxotir, xayoli o'zida bo'lmaslik; **demander, promettre la lune** osmondagi yulduzni tilamoq, va'da qilmoq; **tomber de la lune** osmondan tushgan bo'lmoq; **3.** *fam* yumaloq semiz bet; orqa.

**luné, ée** *adj* **bien, mal luné** yaxshi, yomon kayfiyatli; **il est mal luné aujourd'hui** bugun uning kayfiyati yomon.

**lunetier, ière** *n* ko'zoynak ishlab chiqaruvchi, ko'zoynak sotuvchi, ko'zoynaksoz, optika mutaxassisi; **industrie lunetière** ko'zoynak ishlab chiqarish sanoati.

**lunette**[1] *nf* **1.** yumaloq deraza, teshik; **2.** teshik; **la lunette des cabinets** hojatxonalar teshigi.

**lunette**[2] *nf* **1.** *pl* ko'zoynak; **porter, mettre des lunettes** ko'zoynak taqmoq; **2.** durbin; **lunette d'approche** kuzatish trubasi; **lunette astronomique** astronomik kuzatish trubasi, teleskop.

**lunetterie** *nf* ko'zoynak savdosi.

**lunule** *nf* tirnoq ustidagi yarim oy shaklidagi oq dog'.

**lupanar** *nm litt* fohishaxona, islovotxona.

**lupus** *nm inv* teri silining bir turi; **lupus tuberculeux** sil bo'rtmachasi.

**lurette** *loc* **il y a, depuis, cela fait belle lurette** ko'pdan beri, allaqachon; **ils sont partis il y a belle lurette** ular allaqachon ketishgan; **ça fait belle lurette qu'on ne l'a pas vu** uni ko'rishmaganiga ko'p vaqt bo'ldi.

**luron, onne** *n vieilli* epchil, chapdast, chaqqon, o'tkir odam; *m* quvnoq, xushchaqchaq odam.

**lusitanien, ienne** *adj* Portugaliya va portugaliyaliklarga oid.

**lustrage** *nm* pardoz berish, pardozlash (*matoga*), yaltiratish; **lustrage des étoffes** matoni pardozlash; **lustrage des fourrures** mo'ynani yaltiratish.

**lustre**[1] *nm litt* besh yil; *pl* **il y a des lustres** ancha oldin, ancha ilgari, ancha burun.

**lustre**[2] *nm* **1.** yaltirash, yarqirash; **vernis donnant du lustre** yaltirayotgan lok; **2.** nur, shu'la, jilva.

**lustre**[3] *nm* lustra, qandil, chilchiroq.

**lustrer** *vt* **1.** yaltiratmoq, yarqiratmoq; **le chat lustre son poil en se léchant** mushuk junini yalab yaltiratadi; **des cheveux lustrés** yaltiratilgan soch; **veste lustrée aux coudes** tirsaklari yaltirab ketgan kurtka.

**lustrine** *nf* lustrin (*jundan yoki jun aralashtirib to'qilgan yaltiroq mato*).

**luth** *nm* ud (*qadimgi muziqa asboblaridan biri*).

**lutherie** *nf* torli cholg'u asboblari ishlab chiqarish.

**luthérien, ienne** *adj* luteranlar mazhabiga oid, luteran; *n* **les luthériens** luteran mazhabidagi kishilar, luteranlar.

**luthier** *nm* torli musiqa asboblari yasaydigan usta.

**lutin** *nm* shumtaka kichkina jin.

**lutiner** *vt* ayol kishini u yer-bu yerini ushlab hazillashmoq.

**lutrin** *nm* nota qo'yish moslamasi (*cherkovda*).

**lutte** *nf* **1.** kurash; kurashish; **lutte gréco-romaine** klassik kurash; **lutte libre** erkin kurash; **2.** kurash (*qarama-qarshiliklar*); **lutte des classes** sinfiy kurash; **3. lutte contre, pour** uchun, qarshi kurash, zo'r berish; **lutter contre l'alcoolisme** alkogolizmga qarshi kurash; **lutte pour la vie** hayot uchun, yashab qolish uchun kurash; **4.** kurash, kurashuv, olishuv (*qarama-qarshi kuchlar orasida*); **la lutte entre le bien et le mal** yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash; **5.** *loc adv* **de haute lutte** bor kuchini, bor imkoniyatini ishga solib; **il a emporté la victoire de haute lutte** u bor kuchini ishga solib g'olib chiqdi.

**lutter** *vi* **1.** birov bilan, birovga qarshi kurashmoq, olishmoq, kurash tushmoq; **2.** kurashmoq, olishmoq, jang qilmoq; **lutter de** kurashmoq, talashmoq, raqobat qilmoq; **lutter de vitesse avec qqn** biror kishi bilan tezlikda raqobat qilmoq; **3.** qarshi kurashmoq; yengish, bartaraf, yo'q qilish uchun kurash olib bormoq; **lutter contre la maladie** kasallikka qarshi kurash olib bormoq; **lutter pour l'indépendance** mustaqillik uchun kurashmoq; **pour vivre, il faut lutter** yashash uchun, kurashmoq kerak.

**lutteur, euse** *n* **1.** kurashchi, polvon; **2.** *fig* kurashchi, kurashuvchi.

**luxation** *nf* chiqish; **luxation de l'épaule, de la hanche** elka, tosning chiqishi.

**luxe** *nm* **1.** hashamat, dabdaba, dang'illamalik, bashanglik, serhashamlik; **vivre dans le luxe** yegani oldida, to'kin-sochinlikda yashamoq; *fam* **ce n'est pas du luxe** hasham uchun emas; zaruriy, kerakli narsa; zarurat; **2.** ortiqcha farovonlik, ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'yish, isrofgarchilik, dabdabalilik; **le luxe de sa chambre à coucher** yotoqxonasining dabdabaliligi; **de luxe** zeb-ziynat; **produits, articles de luxe** zeb-ziynat mahsulotlari, mollari; **3.** qimmatli, qimmatga tushadigan narsa; **se donner, se payer le luxe de dire, de faire** biror xushxabarni aytishni, yoqimli narsani qilishni o'ziga ep ko'rmoq; **je me suis payé le luxe de dire ce que je pensais** men qanday fikrda ekanligimni aytishni o'zimga ep ko'rdim; **4.** mo'lchilik, seroblik, to'lalik; **avec un grand luxe de détails** hamma tafsilotlariga to'laligicha.

**luxer I.** *vt* biror joyini chiqarib olmoq; **II.** *vpr* **elle s'est luxée la rotule** u tizzasining ko'zini chiqarib oldi.

**luxueusement** *adv* dabdabali, hashamatli, dang'illama, muhtasham; **un appartement luxueusement meublé** muhtasham jihozlangan uy.

**luxueux, euse** *adj* hashamatli, yasatilgan, bezatilgan, serhasham; **installation luxueuse** serhasham joylashtirish; **un hôtel luxueux** hashamatli mehmonxona.

**luxure** *nf litt* axloqsizlik, hirs, shahvatparastlik.

**luxuriance** *nf* boylik, ko'plik, qalinlik; **la luxuriance de la végétation** o'simlik dunyosining boyligi; **luxuriance des images dans un poème** dostonda jonli iboralarning ko'pligi.

**luxuriant, ante** *adj* gullab-yashnayotgan, gurkirab o'sayotgan, to'lib-toshgan, boy; **une végétation luxuriante** boy o'simlik dunyosi.

**luxurieux, euse** *adj litt* axloqsiz; hirsga, shahvatga berilgan.

**luzerne** *nf* beda; **champ de luzerne** bedazor, bedapoya.

**lycée** *nm* **1.** litsey; **2.** litsey, litseyda o'qigan davr.

**lycéen, enne** *n* litsey o'quvchisi.

**lymphatique** *adj* **1.** limfaga oid, limfatik, limfa; **vaisseaux lymphatiques** limfa tomirlari; **ganglions lymphatiques** limfatik tugunlar; **2.** ruhsiz, lanj, zaif, sust; **un adolescent lymphatique** sust yigitcha; *n* lanj, zaif, sust odam.

**lymphatisme** *nm litt* lanjlik, zaiflik, sustlik.

**lymphe** *nf* limfa (*organizmda qon bilan to'qimalar o'rtasida modda almashinuvini ta'minlovchi suyuqlik*); **la lymphe nourrit les cellules** limfa hujayralarni oziqlantiradi.

**lymphocyte** *nm* limfotsit.

**lynchage** *nm* sudsiz-so'roqsiz jazolash, olomon qilish.

**lyncher** *vt* **1.** sudsiz-so'roqsiz jazolamoq, olomon qilmoq; **2.** olomon qilmoq.

**lynx** *nm inv* silovsin; **avoir des yeux de lynx** ko'zi o'tkir bo'lmoq.

**lyophiliser** *vt* ichimlikni (*sut, qahva, choy va sh; k.*) muzlatib so'ng kristallashgan suv haydamoq; **café lyophilisé** muzlatib suv kristali haydalgan qahva.

**lyre** *nf* **1.** lira (*chertib chalinadigan torli musiqa asbobi*); lira chalmoq; **2.** *litt* poetik ijodiyot ramzi; ilhom parisi.

**lyrique** *adj* **1.** lirik, his-tuyg'ularni ifodalovchi (*she'r*); **poésie lyrique** lirik she'r; **la nature, l'amour, thèmes lyriques** lirik tabiat, sevgi, mavzular; **2.** lirik, lirizm bilan sug'orilgan, his-tuyg'ularga to'lgan, hissiy, shoirona; **quand il parle de sa jeunesse, il est lyrique** u yoshligi haqida gapirganda, shoir bo'lib ketadi; **3.** lirik, musiqali; **drame lyrique** musiqali drama; **comédie lyrique** musiqali komediya; **théâtre lyrique** musiqa teatri; **artiste lyrique** opera artisti.

**lyriquement** *adv litt* lirik, zavq-shavqqa to'lib, she'riy.

**lyrisme** *nm* **1.** lirizm, she'r, she'riy janr; **le lyrisme romantique** romantik lirizm; **le lyrisme de Chopin** Shopen lirizmi; **2.** zavq-shavq, quvonch, o'zida yo'q xursandchilik, shoironalik; **ils sont dénués de lyrisme** ular shoironalikdan uzoqdirlar.

**lys** *nm voir* **lis**.

**lyse** "eritma, erish" ma'nosini bildiruvchi ilmiy atama qismi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# M

**m**[1] *nm inv* fransuz alifbosining o'n uchinchi harfi.

**m**[2] *abrév* **1. M** rim raqamida mingni bildiradi; **2. M. (monsieur)** janob; **MM. (messieurs)** janoblar; **3. m (mètre)** metr; **4. M (méga)** mega; **MHz (mégahertz)** megagers.

**ma** *adj poss f voir* **mon**.

**maboul, e** *n, adj fam* ahmoq, jinni, tentak.

**macabre** *adj* o'lim vasvasasiga oid; *fig* **plaisanterie macabre** qaltis hazil.

**macadam** *nm* shag'al yotqizilgan yo'l.

**macaque** *nm* **1.** makaka; **2.** *fam* juda xunuk odam.

**macaron** *nm* **1.** bodom mag'zi unidan qilingan kulcha; **2.** soch gajagi; **3.** *fam* dumaloq shakldagi taqinchoq, avtomobillar belgisi, nishoni; **4.** *fam* zarba.

**macaroni** *nm* makaron.

**macaronique** *adj* **poésie macaronique** lotincha so'z va lotincha qo'shimchalar qo'shilgan she'r.

**macchabée** *nm fam* o'lik, jasad, murda.

**macédoine** *nf* sabzavotlar yoki mevalar salati.

**macération** *nf* **1.** jismoniy nafsni tiyish, tana a'zolarini chiniqtirish; **2.** damlama qilish; **la macération des fruits dans l'alcool** mevalarni spirtda damlash; **3.** damlama; **une macération de quinquina** xinin damlamasi; **4.** teri yoki matoni biror suyuqlikda ivitish, yumshatish.

**macérer I.** *vt* ivitmoq, damlamoq; **cerises macérées dans l'eau-de-vie** gilosning aroqdagi damlamasi; **II.** *vi* dimlamoq; **laisser macérer 24 heures** 24 soat dimlamoq.

**mach** *n* tovush tezligi.

**mâche** *nf* otquloqsimon ko'kat.

**mâcher** *vt* **1.** chaynamoq; **ne pas mâcher ses mots** chaynalib o'tirmaslik, yuziga, tikkasiga aytmoq; **2.** *techn* chaynab ketmoq, g'ajimoq.

**machette** *nf* chopqi.

**machiavel** *nm* munofiq, xiyonatkor, makkor, dog'uli odam.

**machiavélique** *adj* makkor, hiylakor, ayyor, dog'uli, mug'ombir.

**machiavélisme** *nm* ayyorlik, makkorlik, hiylakorlik, mug'ombirlik, dog'ulilik, davlatni boshqarishdagi makkorlik.

**mâchicoulis** *nm* shinak, tuynuk (*istehkomlarda, qal'a devorlarida*).

**machin** *nm* haligi; haligi narsa; o'sha narsa, anavi.

**machinal, ale, aux** *adj* g'ayriixtiyoriy, beixtiyor, bexos, ixtiyorsiz; **un geste machinal** g'ayriixtiyoriy harakat.

**machinalement** *adv* g'ayriixtiyoriy ravishda, beixtiyor, o'ylamasdan, bexosdan, ixtiyorsiz.

**machine** *nf* **1.** mashina; stanok; **machine à vapeur** bug' mashinasi; **machine électronique** hisoblash mashinasi; **machine à laver** kir yuvadigan mashina; **machine à coudre** tikuv mashinasi; **machine à tisser** to'quv dastgohi; **machines agricoles** qishloq-xo'jalik mashinalari; **machines outils** stanok (*metall yoki yog'ochni qayta ishlovchi*); **2.** harakatlanuvchi transport vositasi; **3.** *mil* **machine infernale** jahannam mashinasi; **4.** *teatr* mexanizatsiyalashtirilgan sahna dekoratsiyasi.

**machinerie** *nf* **1.** mashinalar; **2.** kemaning mashinalar bo'limi; **3.** teatrda dekoratsiyani o'zgartirish uchun xizmat qiladigan mexanizmlar.

**machinisme** *nm* mexanizatsiyalashtirish.

**machiniste** *n* **1.** mashinist; **2.** sahna va kino dekoratsiyasi mexanigi; **3.** lokomotiv haydovchisi.

**mâchoire** *nf* **1.** jag'; **2.** qisqichning, ombirning jag'i.

**mâchonnement** *nm* sekin chaynash; kavshash.

**mâchonner** *vt* **1.** sekin chaynamoq; kavshamoq; **mâchonner son crayon** qalamini g'ajimoq, chaynamoq; **2.** gapni chaynab gapirmoq, ming'irlamoq.

**mâchouiller** *vt* yutmay chaynab turmoq.

**macle** *nf* murakkab kristal.

**maçon** *nm* g'isht teruvchi usta.

**maçonner** *vt* qurmoq, g'isht termoq, urmoq.

**maçonnerie** *nf* **1.** tosh, g'isht terish; **2.** masonlar uyushmasi.

**maçonnique** *adj* masonchilikka oid.

**macreuse** *nf* **1.** churrak, o'rdakning bir turi; **2.** ho'kizning yelka qismidagi oriq go'sht.

**macrocéphale** *adj* boshi katta, kallasi katta, xumkalla.

**macrocosme** *nm phil* koinot, olam.

**macrocosmique** *adj* **1.** koinot, olamga oid; **2.** dunyo miqyosidagi.

**macroscopique** *adj* oddiy ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan.

**macule** *nf* **1.** *vx* dog', kir; **2.** qog'ozdagi siyoh dog'i; **3.** teridagi dog'.

**maculer** *vt* dog' qilmoq, iflos qilmoq.

**madame,** *pl* **mesdames** *nf* xonim, oyim, xonimlar.

**madeleine** *nf* **1.** madlen (*biskvit pirojnoye*); **2.** *loc* **pleurer comme une Madeleine** zor-zor yig'lamoq, ko'p yosh to'kmoq.

**mademoiselle,** *pl* **mesdemoiselles** *nf* oyim qiz, oyim qizlar.

**madère** *nm* madera (*vino turi*).

**madone** *nf* madonna (*katoliklarda Bibi Maryam nomi*); *fig* eng dilbar ayol.

**madras** *nm* madras (*gazlama*).

**madré, ée** *adj litt* makkor, ayyor, dog'uli.

**madrépore** *nm zool* yulduzsimon marjon.

**madrier** *nm* qalin to'sin.

**maelström** *ou* **malstrom** *nm* girdobli dengiz oqimi.

**maestria** *nf* **1.** ijrochilik mahorati; **2.** ustalik, epchillik, chaqqonlik, abjirlik, chapdastlik.

**maestro** *nm mus* orkestr dirijyori, bastakor maestro, ustoz; (*mashhur kompozitor yoki dirijyorga nisbatan ishlatiladi*).

**mafia** *ou* **maffia** *nf* mafiya, banda, uyushgan jinoyatchilar guruhi.

**magasin** *nm* **1.** magazin, do'kon; **2.** ombor; **magasin de vivres, d'habillement** oziq-ovqat, kiyim-kechak omborxonasi; **3.** o'qdon.

**magasinier** *nm* ombor mudiri.

**magazine** *nm* **1.** suratli, rasmli jurnal; **2.** radio va televidenie xronikasi.

**magdalénien, ienne** *adj* paleolitning oxirgi davriga oid; *nm* paleolitning oxirgi davri.

**mage** *n* **1.** sehrgar, jodugar, afsungar; **2.** *nm* kohin (*ma'jusiylar ruhoniysi*).

**maghrébin, ine** *adj, n* mag'ribga oid, mag'riblik.

**magicien, ienne** *n* sehrgar, jodugar, afsungar, folbin.

**magie** *nf* sehr, jodu, afsun; **magie blanche** zararsiz jodu; **magie noire** qora niyatli jodu.

**magique** *adj* g'aroyib, sehrli, joduli, afsunli; **mentalité magique** irimchilik; **charme magique** sehrli joziba.

**magiquement** *adv* sehrli ravishda, ajoyibona, g'aroyibona.

**magistral, ale, aux** *adj* mohirona, san'atkorona; **cours magistral** dorulfunun o'qituvchisining ma'ruzasi; **2.** *litt* qat'iy, amirona.

**magistralement** *adv* ustalik bilan, mahorat bilan, mohirona, san'atkorona, mukammal.

**magistrat** *nm vx* sud ijrochisi, sudya, prokuror; **magistrat du siège, du parquet** prokuror; **magistrat supérieur d'un parquet** bosh prokuror.

**magistrature** *nf* **1.** sud muassasasi, idorasi, mahkamasi; **2.** sudyalik unvoni; sudyalik vazifasining muddati.

**magma** *nm* **1.** *vx géol* magma; **2.** quyuq massa.

**magnanerie** *nf* pillaxona.

**magnanime** *adj* olijanob, oliyhimmat, mehribbon, muruvvatli, hotamtoy, himmatli.

**magnanimité** *nf* **1.** *vx* olijanoblik, oliyhimmatlik, muruvvatlilik, marhamat, mehribonlik.

**magnat** *nm* magnat, yirik puldor; **un magnat du pétrole** neft qiroli.

**magnésium** *nm* magniy (*kimyoviy element, kumush rang yumshoq metall*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**magnétique** *adj* magnitli, ohanraboli; *fig* ohanrabo, o'ziga tortuvchi, o'ziga jalb qiluvchi, maftunkor.

**magnétisation** *nf* magnitlash, magnitlashtirish.

**magnétiser** *vt* **1.** o'ziga tortmoq, maftun qilmoq, o'ziga rom qilmoq; **2.** avramoq; gipnoz qilmoq; **3.** magnitlamoq.

**magnétiseur, euse** *n* gipnozchi; **guérisseurs et magnétiseurs** davolovchilar va gipnozchilar.

**magnétisme** *nm* **1.** *phys* magnetizm (*magnit hodisalari va xossalari*); **magnétisme terrestre** yer magnit maydoni; **2.** gipnoz, gipnozchilik; **3.** *fig* kishini o'ziga tortuvchi kuch, joziba.

**magnéto**[1] *nf* magnitli elektr generatori, startyor.

**magnéto**[2] *nm abrév fam voir* **magnétophone**.

**magnétophone** *nm* magnitofon.

**magnétoscope** *nm* videomagnitofon.

**magnificence** *nm* **1.** viqorli go'zallik, po'rimlik, bashanglik, viqor, dabdaba, hashamat, serhasham; **la magnificence d'un spectacle, d'une cérémonie** spektakl dabdabasi, tomosha, marosim dabdabasi; **être vêtu avec magnificence** bashang kiyinmoq; **2.** *litt* saxiylik, saxovatlilik, ochiq qo'llik, qo'li ochiqlik, oliyhimmatlik, hotomtoylik; **recevoir ses hôtes avec magnificence** mehmonlarini saxovat bilan kutib olmoq.

**magnifier** vt ilohiylashtirmoq, ko'klarga kotarmoq.

**magnifique** *adj* **1.** chiroyli, dabdabali, hashamatli, ziynatli, bashang, boy; **2.** ajoyib, chiroyli, go'zal, qoyil-maqom.

**magnifiquement** *adv* ajoyibona, dabdaba bilan, hasham ila, ziynat ila, bashanglik bilan.

**magnitude** *nf astron* koinot jismlarining kattaligi.

**magnolia** *nm* magnoliya.

**magnum** *nm* bir yarim, ikki litrli shisha idish.

**magot**[1] *nm* **1.** makakasimon dumsiz maymun; **2.** Xitoyda yasalgan mitti haykalchalar.

**magot**[2] *nm fam* oz-ozdan tejab to'plangan pul; **un joli magot** ajoyib boylik.

**magouillage** *nm fam* siyosiy aldamchilik, fribgarlik, hiylagarlik, qalloblik.

**magouille** *nf fam* aldov, frib, hiyla, nayrang, qalloblik.

**magouiller** *vi fam* aldamoq, frib bermoq, hiyla ishlatmoq, qalloblik qilmoq.

**magouilleur, euse** *adj n fam* qallob, fribgar, hiylagar.

**magret** *nm* o'rdakning lahm go'shti.

**magyar, are** *adj n* madyar; madyar tili, venger.

**maharajah** *ou* **maharadja** *nm* maxaroja, buyuk roja.

**mah-jong** *nm* majong, xitoy dominosi.

**mahométan, ane** *n, adj* musulmon, muslima.

**mai** *nm* may oyi.

**maie** *nf* non quti.

**maïeutique** *nm* xulosa chiqarish, muayyan bir fikrga kelish; xulosa, natija, yakunlovchi fikr.

**maigre** *adj* **1.** ozg'in, oriq, qotma; **2.** yog'siz, oriq; **viande maigre** yog'siz go'sht; **3.** *relig* **jours maigres** nasroniylarda go'shtli, sutli ovqatlarni yeyish taqiqlangan kun; **faire maigre** go'sht, yog'li ovqat yemaslik; **4.** mayda, yupqa; **le maigre paquet de lettres** xatlar solingan yupqa paket; **6.** yovg'on, go'shtsiz; **un maigre repas** yovg'on ovqat; **7.** siyrak, kam; **8.** kamhosil, oriq; (*yer haqida*); **terre, sol maigre** oriq, kamhosil yer.

**maigrelet, ette** *adj* zaif, nimjon, darmonsiz, holsiz, so'lg'in, bemajol, kasalmand, dardmand; **enfant maigrelet** nimjon bola.

**maigrement** *adv* oz, kam, **maigrement payé** oz, kam haq to'lanadigan.

**maigreur** *nm* **1.** oriqlik, ozg'inlik, qotmalik, nimjonlik, holsizlik, so'lg'inlik, bemajollik, kasalmandlik, dardmandlik; **2.** ozlik, kamlik, taqchillik, siyraklik; **maigreur d'une végétation** o'simlik dunyosining siyrakligi.

**maigrichon, onne** *adj voir* **maigrelet**.

**maigriot, iotte** *adj voir* **maigrelet**.

**maigrir I.** *vi* ozmoq, oriqlamoq **II.** *vt* **1.** ozdirmoq, oriqlatmoq, oriq qilib ko'rsatmoq; **2.** *techn* yo'nmoq, ingichka qilmoq (*yog'ochni*).

**mail** *nm* xiyobon, sayrgoh.

**mailing** *nm* pochta orqali mijozlar talabini o'rganish.

**maille**[1] *nf* **1.** halqa, to'qima, katak; **mailles d'un filet** to'rning katagi. **2.** baliq to'rining katagi; temir panjaraning katagi.

**maille**[2] *nf* qadimiy mis chaqa.

**maillechort** *nm* melxior; mis, rux va nuqraning kumushimon quymasi.

**maillet** *nm* to'qmoq, kaltak.

**maillon** *nm* zanjir halqasi.

**maillot** *nm* **1.** *vx* yo'rgak; **2.** tanaga yopishib turadigan kiyim; **maillot de gymnastique** gimnastika kiyimi; **3.** mayka, futbolka.

**main** *nf* **1.** qo'l; **se laver les mains de qqch** qo'lni yuvib qo'ltiqqa tiqmoq, urmoq; **passer la main dans le dos** xushomad, laganbardorlik qilmoq, tilyog'lamalik qilmoq, **avoir la main ouverte** qo'li ochiq bo'lmoq; **avoir le cœur sur la main** saxiy, saxovatli, olihimmat, hotamtoy, himmatli, marhamatli bo'lmoq; lahzada; **2.** *vx* yozuv, xat; **avoir une belle main** yozuvi chiroyli bo'lmoq; **3.** qo'l (*hayvonlarning oldingi oyoqlari*); **4. main de justice** fil suyagidan yasalgan adolat nishoni; **5.** *techn* band, halqa, tutqich, dasta, ilgak, ilmoq; **6.** taboq (*odatda yigirma besh varaqdan iborat*).

**main-d'œuvre** *nf* **1.** ish haqi; **2.** ishchi kuchi.

**main-forte** *nf* yordam, ko'mak, madad; **donner, prêter main-forte à qqn** yordam bermoq, ko'rsatmoq, qo'llab yubormoq.

**mainmise** *nf* **1.** musodara qilish; **2.** egallab olish, bosib olish.

**maint, mainte** *adj litt* bir necha bor, bir necha marta, **maintes fois** ko'p marta, qayta-qayta, takror-takror.

**maintenance** *nf* qarov, yaxshi holatda ushlab turish, **maintenance de bâtiments,** imorat holatini saqlab turish.

**maintenant** *adv* endi, hozir, endilikda, hozirgi paytda, shu kundan boshlab, hozirdan e'tiboran, bundan buyon, bundan keyin; **dès maintenant** shu ondan boshlab; **à partir de maintenant** bundan buyon; **jusqu'à maintenant** shu paytgacha.

**maintenir I.** *vt* **1.** tutib turmoq, ushlab turmoq, saqlamoq; **2.** guvohlik bermoq, shohidlik qilmoq, dalolat bermoq; **II. se maintenir** *vpr* bir xil holatda bo'lmoq, o'zgarishsiz turmoq.

**maintien** *nm* **1.** o'zini tutish, **maintien noble** o'zini olijanob tutish; **2.** qo'llab-quvvatlash; **maintien d'une décision** qarorni qo'llab-quvvatlash; **3.** tutib turish, ushlab turish.

**maire** *nm* mer, shahar hokimi.

**mairie** *nf* **1.** meriya (*Fransiyada: munitsipalitet va uning binosi*); **2.** mer ma'muriy boshqarmasi, ma'muriyati.

**mais I.** *adv* **1.** ha, albatta; **tu viens avec moi? mais oui, mais bien sûr** ha, albatta; **II.** *prép* lekin, ammo, biroq, aksincha; **mais, dites-moi, mais c'est de la folie!** lekin, menga aytingchi; lekin bu tentaklikku**!**

**maïs** *nm* makkajo'xori.

**maïserie** *nf techn* makkajo'xori uni, kraxmal yoki glukoza tayyorlaydigan zavod.

**maison** *nf* **1.** uy, uy-joy, turar joy, hovli, bino, imorat; **maison pauvre, délabrée** barak, xaroba uy, hujra, katalak, chayla, kapa; **2.** xonadon, yashash joyi; **3.** *relig* **la maison du Seigneur** Quddusdagi ibodatxona; **4.** *astrol* burj; **5.** muassasa, tashkilot; **maison de correction, de redressement, maison d'arrêt** qamoqxona (*bir yilgacha qamalganlar uchun*); **maison centrale** qamoqxona (*uzoq muddatga qamalganlar uchun*); **6.** *fig* xonadon, oila a'zolari, uy ichi; **7.** urug', aymoq, nasl, zot, avlod, sulola.

**maisonnée** *nf* xonadon a'zolari, oila a'zolari.

**maisonnette** *nf vx* uycha.

**maître, maîtresse I.** *n* **1.** *nm* xo'jayin, ega, sohib; *dr* **bien sans maître** egasiz mulk; **se rendre maître de qqn** biron kishini tutib olmoq, qo'lga olmoq, qamoqqa olmoq; **2.** boshliq, ega, hukmdor, mulkdor, hokim, hukmron, hoqon, sulton; **maître, maîtresse de maison** uy egasi, bekasi, mezbon; **être (le) maître (quelque part)** xo'jayin, ega, sohib, hokim, hukmdor bo'lmoq; **l'argent, maître du monde** pul dunyosining hukmdori; **être maître, maîtresse de soi, être son propre maître** o'ziga-o'zi xo'jayin bo'lmoq; **être maître de faire qqch** biror ishni qilishga ixtiyori, erki o'zida bo'lmoq; **vous êtes maître de refuser** rad qilishda ixtiyoringiz o'zingizda; **3.** boshliq, rahbar; **maître de forges** metallurgiya zavodining boshlig'i, rahbari; **maître d'hôtel** metrdotel, bosh ofitsiant (*restoranlarda*); **4.** o'qituvchi, muallim, muallima, ustoz, murabbiy, murabbiya; **5.** *vx* metr; **maître Jacques** metr Jak; **6.** *nm*



www.ziyouz.com kutubxonasi

metr; (*advokat, notariuslarga nisbatan murojaatda ishlatiladi*); **7.** *nm* maestro, usta; **II.** *adj* **1.** tashkilotchi, harakatchan; **une maîtresse femme** tashkilotchi ayol; **2.** *vx* asosiy, bosh, katta; **maître coq** bosh oshpaz; **3.** *narsa* asosiy, bosh; *techn* **maître-cylindre** tormozning bosh silindri; *inform* **ordinateur maître** bosh hisoblash mashinasi; **4.** kuchli; **maître mot** *ou* **maître-mot** kuchli so'z.

**maître chanteur** *nm* tovlamachi.

**maîtresse** *nf* **1.** uy bekasi, beka; **2.** sevgili, ma'shuqa, mahbuba, yor, xotin; **3.** o'ynash, jazman.

**maîtrisable** *adj* bo'ysundirsa, jilovlasa, qo'lga olsa, tiysa, gapga ko'ndirsa bo'ladigan.

**maîtrise** *nf* **1. maîtrise de soi** o'zini tuta bilish, og'irlik, vazminlik, sabr, toqat; **2.** harbiy hukmronlik; **3.** vazifa, daraja, **maîtrise de conférences** lektorlik, seminar boshlig'i vazifasi; **4.** cherkov ashula maktabi, xori; **5.** universitet diplomi; **6.** mahorat, san'at, ustalik, mohirlik; **œuvre d'une grande maîtrise** katta san'at asari; **exécuter avec maîtrise** mahorat bilan ijro etmoq.

**maîtriser** *vt* **1.** *vx* zabt qilmoq, bosib olmoq, o'ziga bo'ysundirmoq; **2.** bo'ysundirmoq, jilovlamoq; **maîtriser un cheval fougueux** asov otni jilovlamoq; **maîtriser les forces de la nature** tabiat kuchlarini yengmoq, jilovlamoq; **3.** bosmoq, jilovlamoq (*o'z his-hayajonini, ehtirosini*); **maîtriser sa colère** o'z jahlini bosmoq.

**majesté** *nf* **1.** ulug'lik, ulug'vorlik, buyuklik; **la majesté divine** ilohiy ulug'vorlik; **2.** oliy martaba, qirol hukmronligi; **3.** a'lo hazratlari, hazrati oliylari.

**majestueusement** *adv* ulug'vorlik bilan, mahobat ila, viqor bilan, savlat to'kib.

**majestueux, euse** *adj* ulug'vor, hashamatli, dabdabali, mahobatli, muhtasham, muazzam, basavlat, salobatli.

**majeur, eure I.** *adj* **1.** kattaroq, ko'proq, muhimroq; **la majeure partie** eng ko'p qismi; **2.** juda katta, juda, o'ta muhim; **3** *mus* major; **II.** *n* **1.** balog'atga yetgan bola; **2.** *nm* o'rta barmoq.

**major I.** *adj mil* yuqori, baland (*mansabiga ko'ra*); **II.** *n mil* harbiy unvon, mayor; harbiy vrach; **état-major** bosh shtab.

**majoration** *nf* oshish, ko'tarilish (*narx-navo, soliq, maosh*).

**majordome** *nm* uy boshqaruvchisi, xizmatkorlar og'asi.

**majorer** *vt* **1.** hisobni oshirmoq; (*narx-navo, soliq, maoshni*); **2.** *math* ko'paytirmoq.

**majoritaire I.** *adj* ko'pchilik; **II.** *nm* ko'pchilik usuli tarafdori.

**majoritairement** *adv* aksariyat, ko'pchilik, ko'p qismi, ko'pchilik qismi; **loi votée majoritairement** ko'pchilik ovoz bergan qonun.

**majorité** *nf* **1.** balog'at yoshi, voyaga yetish; **majorité civile, électorale** saylov yoshi; **2.** *mar* kontr-admiralning mahkamasi; bosh shtab xodimlari; **3.** aksariyat, ko'pchilik, ko'pi, ko'pchiligi, ko'p qismi, ko'pchilik qismi; **majorité des voix** ko'pchilik ovoz; **majorité absolue** mutlaq ko'pchilik; **majorité qualifiée** yoki **renforcée** 2/3 qism ko'p ovoz; **avoir la majorité** ko'pchilik ovozga ega bo'lmoq; **4.** ko'pchilik ovozga ega bo'lgan partiya, fraksiya; **5.** yarmidan ko'prog'i.

**majuscule I.** *adj* katta, bosh (*harf*); **II.** *nf* bosh harf.

**mal¹, male** *adj* yomon, yaramas, mash'um, kasofat, noxush; **bon an, mal an** o'rtacha; yil yilga to'g'ri kelmaydi; **pas mal** yomon emas.

**mal²** *adv* yomon, yaxshi emas, beodob; **ça commence mal** bu yomon boshlandi; **ça va aujourd'hui? mal, très mal** bugun ishlar qalay? yomon, juda yomon; **ça tombe mal** bu bemavrid bo'ldi; **se trouver, se sentir mal** o'zini behuzur sezmoq, behuzur bo'lmoq, o'zini yomon his qilmoq; **être mal portant** kasal bo'lmoq, sog'lig'i yomon bo'lmoq; **être mal dans sa peau** o'zini noqulay his etmoq; **traiter mal qqn** biron kishiga yomon muomala qilmoq; **être mal à l'aise** o'zini noqulay sezmoq; **mal à propos** o'rinsiz, noo'rin; **pas mal** yomon emas, ancha; **il a pas mal voyagé** u ancha sayohat qilgan; **tant bien que mal** naridan-beri; **de mal en pis** battarroq.

**mal³, maux** *nm* **1.** yomonlik, yovuzlik, balo, ofat, musibat, kulfat, mushkul ahvol, talafot, zarar, ziyon; **faire du mal à qqn** biror kishini dilini, jonini og'ritmoq; **2.** dard, azob, azob-uqubat, og'riq, behuzurlik; **mal insupportable, intolérable** chidab bo'lmas og'riq; **3.** kasallik; **prendre mal, du mal** kasal bo'lib qolmoq, shamollab qolmoq; **4.** g'am, tashvish, azob, xafagarchilik; **le mal du pays** vatan sog'inchi; **être en mal de** qiyin, mushkul ahvolda bo'lmoq (*biror narsaning yetishmasligidan*); **5.** qiyinchilik, azob; **avoir du mal à faire qqch** biror narsa qilishga qiynalmoq; **on n'a rien sans mal** jondan kechmasang, janona qayda, toqqa chiqmasang, do'lona qayda; **6.** yomonlik, illat, ayb, kamchilik, qusur; **prendre, tourner en mal qqch** yomonlikka yo'ymoq; **dire, penser du mal de qqn** biron kishini yomonlamoq, g'iybat qilmoq, yomon fikrda bo'lmoq; **7.** *relig* gunoh.

**malabar** *nm, adj* baquvvat, bahaybat odam.

**malachite** *nf* malaxit.

**malade** *n, adj* kasal, betob; **tomber malade** kasal bo'lib qolmoq.

**maladie** *nf* kasallik, xastalik, kasal, dard.

**maladif, ive** *adj* kasalmand, dardchil, kasaldan chiqmaydigan, nosog', rangi-ro'yi bir holatda bo'lgan, rangi ketgan, siniqqan, zahil; **air maladif** rangi ketgan.

**maladivement** *adv* kasallarcha, ortiq darajada kuyinib, o'taketgan, o'ziga og'ir olib; **il est maladivement jaloux** u o'taketgan rashkchi.

**maladresse** *nf* **1.** qo'pollik; **blesser qqn par maladresse** qo'pollik qilib biron kishini ko'nglini og'ritmoq; **2.** noshudlik, epsizlik, no'noqlik; **maladresse d'un conducteur inexpérimenté** malakasiz haydovchining no'noqligi; **3.** beso'naqaylik, qovushmaganlik; **la maladresse de ses gestes** uning beso'naqay harakatlari.

**maladroit, oite** *adj* **1.** qo'pol, qovushmagan, beso'naqay, noshud, epsiz, lapashang; **quel maladroit, il abîme, casse tout ce qu'il touche** qanday noshudlik, u tekkan narsasini buzadi, sindiradi; **2.** dag'al, g'aliz, yaxshi o'ylab ko'rilmagan, bemulohaza; **dessin maladroit** dag'al rasm; **zèle maladroit** yaxshi o'ylab ko'rilmagan tirishqoqlik.

**maladroitement** *adv* qo'pollik bilan, qovushmay; noshudlik, epsizlik, no'noqlik bilan.

**malaga** *nm* malaga vinosi.

**mal-aimé, ée** *ou* **mal aimé, ée** *adj, n* sevilmagan, yomon ko'rilgan.

**malais, aise I.** *adj* malayya orollariga va malayyaliklarga oid; **II.** *n* **1.** malayyalik; **2.** *nm* malayyaliklar tili.

**malaise** *nm* **1.** bezovtalik, noxushlik; **2.** sarosima, behuzurlik; **malaise cardiaque** yurak behuzurligi; **3.** ruhiy qiynalish, azob, alam, umidsizlik, xavotir; **provoquer un malaise** xavotirga solmoq; *euphém* tutqanoq, xuruj, xuruj qilish, tutish, tutib qolish.

**malaisé, ée** *adj* **1.** *litt* moddiy ahvoli tang; qiyin, og'ir, mushkul; **tâche malaisée** og'ir vazifa; **malaisé à** qilish, bajarish qiyin, og'ir bo'lgan; **2.** mushkul, mashaqqatli; noqulay.

**malaisément** *adv* qiyinchilik bilan, arang, zo'rg'a.

**malandrin** *nm litt* daydi, o'g'ri, yo'lto'sar, qaroqchi.

**malappris, ise** *n* beodob, tarbiyasiz, tarbiya ko'rmagan.

**malaria** *nf* bezgak.

**malaxage** *nm* qorishtirish, iylash, aralashtirish, yumshatish; **malaxage du beurre** sariyog'ni pishitish.

**malaxer** *vt* **1.** qorishtirmoq, aralashtirmoq; **malaxer l'argile** loyni qorishtirmoq, pishitmoq; **2.** iylamoq, yumshatmoq, pishitmoq; **3.** aralashtirmoq.

**malaxeur** *nm* aralashtirgich, qorishtirgich, qorgich (*mashina yoki moslama*); **malaxeur à béton** beton qorgich.

**malchance** *nf* omadsizlik, omadi yurishmaslik, muvaffaqiyatsizlik, baxtsizlik.

**malchanceux, euse** *adj* omadsiz, omadi yurishmagan, baxtsiz.

**maldonne** *nf* **1.** qartani noto'g'ri tarqatish; **2.** *fig* anglashilmovchilik, tushunmovchilik.

**mâle I.** *nm* erkak, er jinsi, nar; **II.** *adj* **1.** erkak; **2.** mardona, erkaklarga xos, erkakcha **une mâle résolution** mardona qaror; **3.** *techn* biror asbob-uskunaning bir bo'lagining ikkinchi bo'lagi ichiga kiradigan qismi.

**malédiction** *nf* **1.** *litt* la'nat, qarg'ish; **la malédiction divine** xudoning la'nati, qarg'ishi; **2.** omadsizlik, baxtiqarolik, peshonadagi baxtsizlik, qora taqdir, rutubatli qismat, do'zax; **malédiction! il nous a échappé!** do'zaxi! u bizga firib berdi!

**maléfice** *nm* sehr, jodu, ko'z tegish; **objets destinés à écarter les maléfices** sehr-jodudan asrash uchun mo'ljallangan narsalar, tumor.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**maléfique** *adj* sehrlovchi, rom etuvchi, lol etuvchi, es-hushini oluvchi; **charmes, signes maléfiques** ibo sehrlovchi belgi .

**malencontreusement** *adj* noo'rin, bemavrid, bemahal; **arriver malencontreusement** bemavrid kelmoq.

**malencontreux, euse** *adj* noo'rin, asabga tegadigan, o'rinsiz, bemavrid, bemahal; **une remarque malencontreuse** noo'rin tanbeh.

**malentendant, ante** *n* qulog'i og'irroq, garangroq.

**malentendu** *nf* **1.** anglashilmovchilik, tushunmovchilik, xato, noto'g'ri tushunish; **2.** kelishmovchilik, ixtilof, nifoq; **graves, douloureux malentendus** katta, og'ir ixtilof.

**malfaçon** *nf* nuqson, ayb, kamchilik, qusur.

**malfaisance** *nf* yomonlik, yaramaslik, qabihlik, battollik, yovuzlik.

**malfaisant, ante** *adj* yomon, yaramas, qabih, battol, yovuz; **un être malfaisant** yovuz mavjudot.

**malfaiteur** *nm* jinoyatchi, muttaham, qotil, badkirdor; **association, bande de malfaiteurs** gangsterlar tashkiloti.

**malfamé, ée** *ou* **mal famé, ée** *voir* **famé**.

**malformation** *nf* illat, tug'ma kamchilik; **naître avec une malformation cardiaque** yurak kasali bilan tug'ilmoq.

**malfrat** *nm fam* ozor beruvchi, muttaham.

**malgache I.** *adj* malgash, Madagaskar, malgashga oid; **II.** *n* **1.** malgash, madagaskarlik; **2.** *nm* malgash tili.

**malgré** *prép* **1.** qaramay, qaramasdan, **malgré tout** hech narsaga, shunga qaramasdan; **2.** bo'lsa ham, xohishiga qarshi, g'ayriixtiyoriy.

**malhabile** *adj* no'noq, noshud, epsiz, uquvsiz, qobiliyatsiz, qo'pol, qovushmagan, beso'naqay, imillagan.

**malheur** *nm* **1.** baxtsizlik, musibat, falokat, ofat, balo, fojia, kulfat; **un malheur est si vite arrivé!** falokat oyoq ostida **à quelque chose malheur est bon** oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'; **2.** ko'ngilsizlik, ko'ngilsiz voqea, noqulaylik; *fam* **retenez-moi ou je fais un malheur!** meni ushlanglar, aks holda men bir balo qilib qo'yaman; **malheur!** kulfat, falokat! falokat bosib; **le malheur a voulu qu'il tombe malade** falokat bosib, u kasal bo'lib qoldi; **jouer de malheur** kulfat keltirmoq; **porter malheur** baxtsizlik keltirmoq **malheur à** ga la'nat, baxti qora bo'lsin; **malheur aux vaincus!** yengilganlarning baxti qora bo'lsin.

**malheureusement** *adv* baxtga qarshi, afsuski.

**malheureux, euse I.** *adj* **1.** baxtsiz, baxti qora, bechora, ojiz, nochor, tolei past, sho'rpeshona; **2.** o'rinsiz, nojo'ya; **avoir un mot malheureux** nojo'ya so'z aytmoq; **3.** omadsiz, omadi chopmagan, baxti yurishmagan; *fig* **il a été malheureux, il a eu la main malheureuse** uning omadi chopmadi; **4.** arzimagan, arzimas, ahamiyatsiz; **en voilà des histoires pour une malheureuse somme** mana arzimas pulga bir necha sarguzashtlar; **II.** *n* baxtsiz, baxti qora, bechora, tolei past, sho'rpeshona; nodon, ablah odam, yaramas, nobakor, tentak; **malheureux! qu'avez-vous fait?** nobakor! nima qilib qo'ydingiz?

**malhonnête** *adj* **1.** muttaham, noinsof, nokas; **2.** vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, tirriq, g'irrom, nopok; **joueur malhonnête** g'irrom, tirriq o'yinchi.

**malhonnêtement** *adv* vijdonsizlarcha, insofsizlarcha, diyonatsizlarcha, noinsofona, g'irromlik, muttahamlik, nopoklik bilan.

**malhonnêteté** *nf* vijdonsizlik, tubanlik, qalloblik, insofsizlik, diyonatsizlik, noinsoflik, tirriqlik, g'irromlik, muttahamlik, nopoklik; **malhonnêteté intellectuelle** ma'naviy tubanlik.

**malice** *nf* **1.** *litt* ayyorlik, makkorlik, firibgarlik; **2.** masxara, ermak, kulgi, kinoya, piching; **réponse pleine de malice** pichingga to'la javob; **3. sac à malice** makr, hiyla, nayrang.

**malicieusement** *adv* makkorona, ayyorona, quvlik bilan.

**malicieux, ieuse** *adj* **1.** makkor, fribgar, aldoqchi, ayyor.

**malignité** *nf* **1.** pastkashlik, mug'ombirlik, ayyorlik, makkorlik; **2.** *méd* bedavolik, davosizlik, tuzalmaslik, tuzatib bo'lmaslik.

**malin, maligne** *adj* **1.** mug'ombir, ayyor, makkor; **2.** *n* hiylagar, shayton, quv, uddaburo, dono, donishmand, olg'ir, xirpi.

**malines** *nf* to'r, to'rning "malin" turi.

**malingre** *adj* nimjon, kasalmand, dardchil, oriq, zaif, so'lg'in, darmonsiz, holsiz.

**malintentionné, ée** *adj* niyati yomon, buzuq, yovuz niyatli; *litt* badniyat.

**malle** *nf* **1.** jomadon; **2.** avtomobilning yukxonasi.

**malléable** *adj* **1.** oson yoyiladigan, kengayadigan, cho'ziluvchan, yumshoq; **2.** *fig* gapga ko'nadigan, gapga kiradigan, ko'ngli bo'sh, ko'ngilchan; **caractère malléable** yumshoq fel.

**mallette** *nf* attashe kays, jomadoncha.

**malmener** *vt* **1.** qo'pol muomala qilmoq; **2.** og'ir, mushkul ahvolga solib qo'ymoq.

**malnutrition** *nf* ochin-to'qin, chalaqursoq bo'lib yashash, qorni ovqatga to'ymaslik.

**malodorant, ante** *adj* sassiq, qo'lansa.

**malotru, ue** *n* tarbiyasiz, tarbiya ko'rmagan, qo'pol, qo'rs odam, to'rs, dag'al, to'ng.

**malpoli, ie** *adj* beadab, odobsiz, tarbiya ko'rmagan.

**malpropre** *adj* **1.** *vx* nopok, iflos, irkit, isqirt, kir; **2.** *vx* uyatsiz, hayosiz, behayo; **3.** *vx* vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, nopok.

**malpropreté** *nf* nopoklik, ifloslik, vijdonsizlik.

**malsain, aine** *adj* **1.** kasalmand, nosog', xasta, betob; **2.** *fig* yomon, buzuq, noto'g'ri, nosog'lom; **imagination malsaine** noto'g'ri tasavvur; **atmosphère malsaine** yomon muhit; **3.** *fig* axloqiy buzuq, axloqsiz, yo'ldan ozdiradigan.

**malséant, ante** *adj litt* beadab, nomunosib, o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid; **remarque malséante** noo'rin tanbeh.

**malt** *nm* undirilgan g'alla (*asosan arpa*); **bière de malt** arpa pivosi.

**malthusianisme** *nm* **1.** maltus nazariyasi (*ijtimoiy maqsadlarda tug'ilishni cheklash*); **2. malthusianisme économique** mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish.

**maltraiter** *vt* yomon, qo'pol, dag'al muomala qilmoq; urmoq, so'kmoq, xo'rlamoq, kamsitmoq, qiynamoq, azoblamoq, azob bermoq, jonini olmoq, sitam qilmoq; **maltraiter la langue, la grammaire** tilni, grammatikani buzmoq.

**malstrom** *nm voir* **maelström**.

**malus** *nm* haydovchining sodir qilgan yo'l harakati hodisalari soniga qarab sug'urta miqdorining oshib borishi.

**malveillance** *nf* **1.** yomonlik tilash, ichi qoralik, dushmanlik; **malveillance ouverte, manifeste** ochiq, oshkora dushmanlik; **2.** zimdan qarshilik ko'rsatish, to'sqinlik qilish, putur yetkazish; **acte de malveillance** putur yetkazish uchun qilingan ish.

**malveillant, ante** *adj* yomonlik tilaydigan; ichi qoralik, dushmanlik qiladigan; **être malveillant pour, envers qqn** birovga yomonlik tilaydigan bo'lmoq; **2.** zimdan qarshilik ko'rsatadigan, to'sqinlik qiladigan, putur yetkazadigan; **propos malveillants** dushmanlik kayfiyati.

**malvenu, ue** *adj litt* vakolatsiz, vakolati, haddi, haqqi, huquqi yo'q; haddi sig'maydigan; **requête malvenue** o'rinsiz ariza.

**malversation** *nf litt* kamomad, qo'pol xato, o'g'irlik, riboxo'rlik; **commettre des malversations** kamomad keltirmoq.

**maman** *nf* oyi, aya, buvi, ona; **grand-maman, bonne-maman** buvi, bibi; **belle-maman** qaynona, o'gay ona.

**mamelle** *nf* **1.** ko'krak, emchak ayollarda, yelin hayvonlarda.

**mamelon** *nm* **1.** *anat* emchak uchi; **2.** tepalik, do'nglik, tepa.

**mamelouk** *nm hist* mamluk, qadimgi Misr lashkarining otliq askari, Misr sultonlarining shaxsiy soqchi askari.

**mamie** *nf* **1.** *fam enf* buvi, bibi; **2.** kampir, qari xotin.

**mammaire** *adj anat* ko'krakka, emchakka oid; **glande mammaire** ko'krak bezi.

**mammifère I.** *adj* sutemizuvchi; **II.** *nm pl* sutemizuvchilar.

**mammouth** *nm* mamont.

**mamours** *nm pl fam* erkalash, erkalatish, suyish, mehr.

**mam'selle** *ou* **mam'zelle** *nf abrév voir* **mademoiselle**.

**manager**[1] *vt* **1.** mashq, trenirovka qildirmoq; **2.** rahbarlik qilmoq, boshqarmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**manager**[2] *nm ou* **manageur, euse** *n* **1.** menedjer, impresario (*xususiy teatr tomoshalarini tashkil etuvchi kishi, shuningdek artistlarning gumashtasi, vakili)*; trener; **2.** rahbar, boshliq.

**manant** *nm* **1.** O'rta asrlarda, kichik shahar yoki qishloqda yashovchi o'rta tabaqali odam; **2.** *fig vx* qo'pol, tarbiyasiz.

**manche**[1] *nf* **1.** yeng; **relever, retrousser ses manches** yengini shimarmoq; *fig* yeng shimarib ishga kirishmoq; **tirer qqn par la manche** birovni olib kelmoq, o'z oldida tutib turmoq; *fig* e'tiborini tortmoq, jalb qilmoq; **2.** *techn* shlang, ichak; **manche à air** ventilyatsion truba; shamol yo'nalishini o'lchagich; **3.** *vx* bo'g'oz; **La Manche** Lamansh bo'g'ozi; **4.** *sport* tur, davra; **manche d'un match de tennis** set, davra.

**manche**[2] *nm* **1.** sop, dasta, tutqich, band; **manche de casserole** kastrulning qulog'i; **2.** *fig loc* **branler dans le manche** vazifasida omonat turmoq; **jeter le manche après la cognée** hamma narsaga qo'l siltamoq, qo'lini yuvib, qo'ltiqqa urmoq; *fam* **être, se mettre du côté du manche** manfaatli yoki kuchliroqlar tarafida bo'lmoq; **3.** pay; **manche à gigot** tutqich (*son go'shtini maydalaganda ishlatiladi*); **4.** *mus* cholg'u asboblarining parda dastasi; **manche de violon, de guitare** g'ijjak, gitara dastasi.

**manche**[3] *nf loc fam* **faire la manche** tilanchilik qilmoq, sadaqa so'ramoq.

**manche**[4] *nm, adj fam* ahmoq, galvars, kallavaram, anqov; **ce qu'il, elle est manche!** u g'irt ahmoq!

**manchette** *nf* **1.** *vx* manjeta, qadama yeng; qo'lqop qo'nji; **2.** yengicha; **3.** *typogr* katta va quyuq harflar bilan yozilgan sarlavha (*ro'znomada*).

**manchon** *nm* **1.** mufta (*ayollarning qishda ikki yoqdan ikki qo'lini tiqib yuradigan yengchasi*); **chien de manchon** juda kichkina it (*yengda olib yursa bo'ladigan*); **2.** mufta, vtulka, gilza.

**manchot, ote I.** *adj, n* **1.** cho'loq (*bir yoki ikki qo'li yo'q odam*); **2.** *fam* galvars, kallavaram, anqov; **n'être pas manchot** oyoq-qo'li yengil, chaqqon bo'lmoq; ishdan qochmaslik; **II.** *nm* pingvin va pingvinlar oilasiga mansub qushlar.

**mandarin** *nm* **1.** *hist* mandarin, katta amaldor; **2.** *fig* intelligent, o'qimishli, ziyoli; *péj* katta, kattakon, mansabdor, zo'r odam, nufuzli kishi; **3.** Pekin lahjasi; **4.** o'rdakning bir turi.

**mandarinat** *nm* **1.** mandarinlik vazifasi; **2.** mandarinlar tabaqasi, toifasi; *fig péj* imtiyozli yuqori tabaqa, toifa; **mandarinat universitaire** universitetning imtiyozli yuqori tabaqasi; **3.** mandarina darajasiga erishish uchun o'tiladigan sinov va tanlovlar; *fig* diplom va darajasiga qarab mansab va o'rinlarning bo'linishi.

**mandarine** *nf* mandarin (*mevasi*); *adj* och sariq rang.

**mandarinier** *nm* mandarin daraxti.

**mandat** *nm* **1.** *dr* mandat, vakolat; **mandat législatif, parlementaire** qonun chiqarish, parlamentar vakolat; (*deputatlik vakolati*); **la durée du mandat présidentiel est fixée à cinq ans en France** Fransiyada prezidentlik vakolati besh yil deb belgilangan; **exercer un mandat** vakolatni bajarmoq; **solliciter le renouvellement de son mandat** vakolatining cho'zilishiga erishmoq; **2.** *hist* bir davlatni ikkinchi bir davlat yoki yurt ustidan vasiyligi; **3. mandat de paiement** veksel (*pul qarz olganlik haqidagi tilxat*); **mandat postal** yoki **mandat-poste** yoki **mandat** pochta yoki telegraf orqali jo'natilgan pul, perevod; **mandat-carte** pochtadan pul jo'natiladigan otkritka; **mandat-lettre** pochta orqali jo'natilgan pul; **toucher un mandat** pochta orqali jo'natilgan pulni olmoq; **4.** order (*yozma buyruq, farmon, ruxsat qog'ozi*); **mandat de dépôt** ushlab turish uchun buyruq; **mandat d'arrêt** qamoqqa olish uchun order; **mandat d'amener** qamash haqidagi qaror (*ayblanuvchini*); **mandat de perquisition** tintuv haqida order.

**mandataire** *n* **1.** ishonchli vakil, vakolatli kishi; **2.** *dr* mulkni sotishga vakolatli kishi.

**mandater** *vt* vakolat bermoq, ishonib topshirmoq.

**mander** *vt vx* chaqirib xabar qilmoq, xabardor, voqif qilib qo'ymoq, aytmoq, bildirmoq.

**mandibule** *nf* **1.** *anat* pastki jag'; *fam pl* jag'lar; *fam* **jouer des mandibules** yemoq; **2.** *zool* tumshuq (*qushlarda*); **mandibule supérieure** yuqorigi jag'; **mandibule inférieure** pastki jag'; **3.** jag' (*bo'g'imoyoqlilar va qisqichbaqasimonlarda*).

**mandoline** *nf* mandolina.

**mandragore** *nf bot* mehrigiyoh va uning tomiri.

**mandrin** *nm techn* ishlanadigan narsani tutib turuvchi qisqich, qisib turuvchi mufta.

**manécanterie** *nf* cherkov ashula maktabi.

**manège** *nm* **1.** otlarni o'rgatish maydonchasi; **manège de chevaux de bois** karusel; **2.** *fig* fitna, kirdikor, qutqu, hiyla, nayrang, makr (*qilish, ishlatish*), qiliq; **je comprends son petit manège** men uning hiylachalarini tushunaman.

**mânes** *nm pl* o'lganlarning ruhi.

**manette** *nf* tutqich, dastak; **manette de réglage** sozlash dastagi.

**manganèse** *nm chim* marganets.

**mangeable** *adj* yeyiladigan, yesa bo'ladigan, yeyishga yaroqli.

**mangeaille** *nf* yegulik.

**mangeoire** *nf* oxur, tegana.

**manger**[1] *vt* **1.** yemoq, yemoq-ichmoq, tanovul qilmoq, ovqatlanmoq, iste'mol qilmoq; **2.** yeb qo'ymoq, yeb yubormoq; *fig* **manger qqn des yeux** birovni ko'zi bilan yeb yubormoq; **3.** nonushta, tushlik qilmoq, kechki ovqatni yemoq; **s'attabler pour manger** dasturxonga, ovqatga o'tirmoq; **salle à manger** yemakxona; **4.** kemirmoq, yemoq; **étoffe mangée par les mites** kuya yegan, kuya tushgan mato; **5. manger ses mots** chaynalmoq; **6. manger la consigne, la commission** aytilgan narsani, topshiriqni esidan chiqarib qo'ymoq; **7.** *fig* ishlatib yubormoq, sarf qilib yubormoq, yeb qo'ymoq; **manger de l'argent** pulni yeb qo'ymoq.

**manger**[2] *nm* yemak ovqat, yemish.

**mange-tout** *nm inv* archmay yeyiladigan loviya.

**mangeur, euse** *n* **1.** ovqatlanuvchi, xo'randa; **2.** taomni sevuvchi.

**mangouste** *nf* mangusta (*kichkina yirtqich hayvon*).

**mangue** *nf* mango (*mevasi*).

**manguier** *nm* mango daraxti.

**maniabilité** *nm* qulaylik; osonlik; **maniabilité d'une petite voiture** kichik mashinaning boshqarilishining osonligi.

**maniable** *adj* **1.** qulay, oson; **outil maniable** qulay asbob; **2.** oson, qulay boshqariladigan; **3.** *vx fig* yumshoq, bo'sh; **un caractère maniable** yumshoq tabiat.

**maniaque** *adj* **1.** *vx* jinni, telba; *méd* vasvasa oqibatidagi, vasvasa oqibatida yuzaga kelgan; *nm* vasvos odam; **2.** bir fikrda qattiq turadigan odam, bir fikrli odam; **une maniaque de la propreté, de l'ordre** tartib, tozalik jinnisi; **maniaque sexuel** shahvoniy, shahvatparast odam; **3.** uchiga chiqqan, ashaddiy, o'taketgan, o'taketgan rasmiyatchi.

**maniaquerie** *nf* ashaddiylik.

**manichéen, enne** *n, adj phil* manisheism tarafdori; **vision manichéenne du monde** dunyoga dualistik qarash.

**manichéisme** *phil* sinkrktik din (*bu dinning mohiyati yaxshilik va yomonlikning bir-biriga teng va antagonistik prinsipidadir*).

**manie** *nf* **1.** *vx* jinnilik, tentaklik; *méd* vasvasa, savdo, vasvoslik, savdoyilik; **manie délirante** alaxlatadigan vasvasa; **2.** miyaga o'rnashib qolgan tushuncha, fikr; **manie de la persécution** ta'qib vasvasasi; **3.** ortiq ishqibozlik, mayl, berilish; **c'est sa nouvelle manie** bu uning yangi ishqibozligi; **4.** g'alati qiliq, injiqlik; **à chacun ses petites manies** har kimning o'ziga xos g'alati qiliqchalari bo'ladi.

**maniement** *nm* **1.** *vx* foydalanish, ishlatish; **dictionnaire d'un maniement aisé** foydalanishga qulay lug'at; **2.** boshqarish, boshchilik qilish, rahbarlik qilish; **le maniement des affaires** ishlarni boshqarish.

**manier I.** *vt* **1.** *vx* paypaslamoq, ushlab ko'rmoq; **2.** ishlov bermoq, ezg'ilamoq, qorimoq; **3.** qo'lida tutib turmoq, ushlab turmoq; **manier un objet avec précaution** biror narsaga ehtiyotlik bilan muomala qilmoq; **4.** ishlatishni, foydalanishni, tutishni, muomala qilishni bilmoq; **manier les armes** quroldan foydalanishni bilmoq; **manier le pinceau** mo'y qalam ishlatishni bilmoq; **manier des fonds** katta mablag'ni o'z qo'lida tutmoq; **5.** boshqara bilmoq; **II. se manier** *vpr fam* shoshilmoq, tezroq bo'lmoq, uddalamoq; **maniez-vous!** tezroq bo'ling!

**manière** *nf* **1.** usul, yo'sin, tarz, taxlit, ravish, tariqa; **manière d'agir, de se conduire, d'être, de vivre** harakat qilish, o'zini tuta bilish, biron holatda bo'lish, yashash usuli, tarzi; *loc adv* **de cette manière, de cette manière-là**



www.ziyouz.com kutubxonasi

shu yo'sinda, shu tariqa, shu tarzda; **de toute manière, d'une manière ou d'une autre** hamma, har qanday hollarda; **de quelle manière?** qanday qilib? qanday yo'l bilan? *iron* **de la belle manière** qattiqqo'llik bilan; **de la bonne manière** ajoyib ravishda, boplab; **d'une manière générale** ko'p hollarda, asosan; **d'une certaine manière** ayrim ma'noda; **de la même manière** shu bilan birgalikda; **en aucune manière** hech qanaqasiga; *loc prép* **à la manière de** xuddi; **de manière à** uchun; *loc prép* **de (telle) manière que** shu uchunki, toki; **de manière à ce que** shuning uchunki, toki; **2.** uslub, odat, xoslik; **ce n'est pas dans sa manière** bu unga xos emas; **il est heureux à sa manière** u o'zicha baxtli; **3.** stil, uslub, yo'l; **manière de peindre, d'écrire** chizish, yozish stili, uslubi; *n* taqlid, o'xshatish; **4.** *litt* o'zgacha, o'ziga xos, o'xshash; **5.** *gram* ravish, ravish holi; **6.** *pl* odat, qiliq, xulq-atvor, sulukat; **apprendre les bonnes, les belles manières** yaxshi, go'zal xulq-atvorlarni o'rganmoq; **faire des manières** noz qilmoq, qiliq qilmoq, vaj-korson ko'rsatmoq.

**maniéré, ée** *adj* **1.** nozli, noz-karashmali, ishvagar, sernoz, qiliqdor, serqiliq; **femme maniérée** nozli xotin; **politesse maniérée** xushmuomalalik, nazokatli muomala; **2.** serhasham, bejamdor, jimjimador, balandparvoz; **style, genre maniéré** serhasham uslub, usul.

**maniérisme** *nm* **1.** *péj* serhashamlik, bejamdorlik, jimjimadorlik, balandparvozlik; **2.** manerizm; **3.** *méd* ruhiy kasallik (*isteriya, shizofreniya*).

**maniériste** *adj n* **1.** *péj* noz-karashmali, ishvagar, qiliqdor, qiyshang'i; **2.** manerizmga oid; *n* manerist san'atkor.

**manieur, ieuse** *n* korchalon, ishboshi; *fig* **manieur d'argent** bank korchalonlari; **un manieur d'homme** yetaklovchi, yo'l ko'rsatuvchi; **manieur d'idées** g'oyaga boshlovchi.

**manif** *nf abrév fam voir* **manifestation**.

**manifestant, ante** namoyishchi.

**manifestation** *nf* **1.** o'zini bildirish, namoyon bo'lish; **2.** ifodalanish, namoyish qilinish; **manifestation de joie, de mécontentement** xursandchilik, norozichiligining namoyish qilinishi, ifodalanishi; *dr* **manifestation de volonté** tomonlarning xohishlarini ifodalanishi; *méd* simptom, alomat, tashqi belgi; **3.** sayil, sayr-tomosha; **manifestation musicale** musiqa sayli; **4.** manifestatsiya, namoyish.

**manifeste**[1] *adj* **1.** *vx* dalillar bilan isbotlangan; **2.** ochiq, ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkora; **une erreur, une injustice manifeste** ochiq-oydin ko'rinib turgan xato, nohaqlik; **il est manifeste que** aniq, ochiq-oydin ko'rinib turibdi, ayon.

**manifeste**[2] *nm* **1.** manifest, ro'yxat (*kemadagi yuklar haqida*); **2.** manifest, murojaatnoma, murojaat.

**manifestement** *adv* aniq, ravshan, shubhasiz, ayon, ochiq, oshkora; **il est manifestement ivre** u shubhasiz mast.

**manifester I.** *vt* **1.** izhor etmoq, bildirmoq, namoyon qilmoq, oshkor etmoq, ifoda etmoq, ko'rsatmoq; **manifester sa haine, sa joie, sa colère** o'z nafratini, xursandchiligini, g'azabini namoyon qilmoq; **il ne manifesta aucun étonnement** u hech qanday hayratni ifoda etmadi; **II.** *vi* namoyishda qatnashmoq, namoyishga chiqmoq, namoyish qilmoq; **III. se manifester** *vpr* **1.** ko'rinmoq, namoyon bo'lmoq, o'zini ko'rsatmoq, ma'lum bo'lmoq; **il ne s'est pas manifesté depuis longtemps** u ko'pdan beri ko'rinmay qoldi.

**manifold** *nm anglic* **1.** kvitansiya daftarchasi; **2.** *techn* zatvor (*ochib-yopuvchi mexanizm, qurilma, eshik*).

**manigance** *nf* hiyla-nayrang, fitna, qutqu.

**manigancer** *vt* fitna, qutqu solmoq, fitna uyushtirmoq, g'alamislik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq.

**manille** *nf* manilya (*qarta o'yini*).

**manioc** *nm bot* manioka.

**manipulable** *adj* boshqarsa bo'ladigan, idora qilsa bo'ladigan.

**manipulateur, trice I.** *n* **1.** laborant, operator; **2.** ko'zbog'lovchi; **3.** firibgar, nayrangboz, aldoqchi; **4.** *nm techn* manipulyator (*telegramma jo'natish uchun xizmat qiladigan asbob*); **5.** *nm* avtopogruzchik; **II.** *adj* boshqaruvchi; **bras manipulateur d'un robot** robotni boshqaradigan dastak.

**manipulation** *nf* **1.** manipulyatsiya (*murakkab va nozik boshqarish*); **appareil d'une manipulation délicate** murakkab va nozik boshqariladigan apparat; **2.** tajriba, sinov; **manipulations chimiques** kimyoviy sinovlar; **3.** massaj; **manipulations vertébrales** umurtqa pog'onasini massaj qilish; **4.** ko'zbog'lash; **5.** *fig péj* firibgarlik, soxtalashtirish, **manipulations électorales** saylovni soxtalashtirish.

**manipuler** *vt* **1.** ushlab, sinab, tekshirib ko'rmoq; **2.** manipulyatsiya qilmoq; **manipuler des corps radioactifs** radioaktiv moddalar bilan manipulyatsiya qilmoq; **3.** ishlov bermoq, tayyorlamoq; **manipuler des substances, des drogues** moddalarga, dorilarga ishlov bermoq; **4.** tayyorlab tashimoq; **manipuler des colis** toylarni tayyorlab tashimoq; **manipuler avec précaution** ehtiyot bo'lib muomala qilmoq; **5.** tuzatmoq, o'z manfaati uchun foydalanmoq, dastak (*ro'kach, qurol*) qilmoq; **manipuler des statistiques** statistikadan o'z manfaati uchun foydalanmoq; **6.** *fig* aldam-qadam, firibgarlik, firib, hiyla-nayrang bilan shug'ullanmoq; **il s'est laissé manipuler** u hiyla-nayranga ilindi.

**manivelle** *nf* **1.** tutqich, dastak, tirsakli dastak; **arbre-manivelle** tirsakli val.

**manne** *nf* **1.** manna (*yahudiylar afsonasida; osmondan yog'ilgan un*); **2.** *fig* kutilmagan taom.

**mannequin** *nm* **1.** maneken; **mannequin de cire** mum maneken; **2.** manikenchi (*tayyor kiyimlarni kiyib ko'rsatuvchi odam*).

**manœuvrabilité** *nf techn* manyovrchanlik, oson boshqarilish (*kema, avtomobil*).

**manœuvrable** *adj* manyovrchan, oson boshqariladigan (*kema, avtomobil*).

**manœuvre**[1] *nf* **1.** boshqarish, boshqarish uchun qilingan harakat; **2.** manyovr; **manœuvre d'une locomotive, de wagons dans une gare** vokzalda lokomotiv va vagonlarning manyovri; **3.** *mil* manyovr, harbiy mashqlar; **champ de manœuvres** poligon, otish maydoni; **grandes manœuvres** katta harbiy mashqlar.

**manœuvre**[2] *nm* **1.** *vx* qora ishchi (*turli xil ko'pincha jismoniy ishlarni bajaradigan, ixtisoslashmagan odam*); **2.** yordamchi, shogird, dastyor; *fam* **manœuvre spécialisé** yordamchi; **manœuvre-balai** kasbi-kori yo'q odam.

**manœuvrer I.** *vi* **1.** manyovr qilmoq; **il manœuvre pour garer sa voiture** u qo'yish uchun mashinasini buryapti, tisaryapti; **2.** *mil* manyovr o'tkazmoq; **3.** ustamonlik qilmoq, hiyla, nayrang ishlatmoq; **II.** *vt* **1.** harakatga keltirmoq, ishga solmoq, boshqarmoq; **manœuvrer les cordages** abzallarni ishga solmoq; **manœuvrer un véhicule** avtomobilni boshqarmoq; **2.** *fig* boshqarmoq, aytganini qildirmoq; **tu t'es laissé manœuvrer** sen o'z ixtiyoringni topshirib qo'yding.

**manœuvrier, ière I.** *n* mohir, usta boshqaruvchi; **II.** *adj* mohir; *fig vx* uddaburo, olg'ir, yulduzni benarvon uradigan, xirpi.

**manoir** *nm* qo'rg'on.

**manomètre** *nm* manometr.

**manouche** *n fam* ko'chmanchi lo'li.

**manquant, ante I.** *adj* yetishmaydigan; **le chaînon manquant** zanjirning yetishmaydigan halqasi; **II.** *n* yo'qlar, kelmaganlar, qatnashmaganlar, hozir bo'lmaganlar, yo'q narsa.

**manque**[1] *adj vx* yetishmaydigan, yarim-yorti, chala; *loc fam* **à la manque** muvaffaqiyatsiz, o'ngmagan, o'ngidan, baroridan kelmagan, yomon.

**manque**[2] *nm* yetishmaslik, kamchilik, tanqislik; **manque de main-d'œuvre** ishchi kuchining yetishmasligi; **un manque de naturel** tabiiylikning yetishmasligi, o'jarlik, qaysarlik qilmoq, injiqlik qilmoq; *loc* **être en manque, en état de manque** eng zarur narsalarning yetishmasligi; *loc prép* **manque de** bo'lmaganligidan, yo'qligidan, bo'lmagani uchun, yo'qligi sababli; *loc* **manque à gagner** boy berilgan imkoniyat.

**manquement** *nm* **1.** *vx* yetishmaslik, kamchilik; **2.** xato, nuqson, kamchilik.

**manquer I.** *vi* **1.** yo'q bo'lmoq, hozir bo'lmaslik, qatnashmaslik, yetishmaslik, kamlik qilmoq; **les forces lui ont manqué** uning kuchi ketdi, u holdan toydi; *fam* **il lui manque une case** unga yetishmaydi (*u ahmoq*); **il ne manque pas un bouton de guêtre** u kam-ko'stsiz; **le cœur lui a manqué** jasurlik uni tark etdi; **2.** *vx* xato qilmoq; **3.** chippakka chiqmoq, barbod bo'lmoq, muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **II.** *vt* **1. (de)** yo'qchilik, yetishmaslik; **avoir peur de manquer** yo'qchilikdan qo'rqmoq; **il ne manque de rien**



www.ziyouz.com kutubxonasi

uning hech narsadan kamchiligi yo‘q, **manquer de respect à qqn** birovga nisbatan hurmatsizlik qilmoq; **2.** *litt* **(à qqn)** e’tiborsizlik, hurmatsizlik, behurmatlik, qilmoq; **3. (à qqch)** nomuvofiq ish tutmoq, amal qilmaslik; **manquer à son devoir** o‘z burchiga amal qilmaslik; **manquer à sa parole** gapining ustidan chiqmaslik; **manquer à ses principes** o‘z e’tiqodiga xiyonat qilmoq; **4.** *litt* **manquer à faire qqch, manquer de faire qqch** esdan chiqarmoq, unutmoq, beparvolik qilmoq, e’tiborsizlik qilmoq; **je ne manquerai pas de vous informer** sizni xabardor qilish esimdan chiqmaydi; **ça ne peut manquer d’arriver** bu sodir bo‘lmay qolmaydi; **5.** oz qolmoq, salgina qolmoq; **elle avait manqué mourir** uning o‘lishiga oz qoldi; **6.** erisha olmaslik, yetisha olmaslik, muyassar bo‘lmaslik, tegiza olmaslik, yurishmaslik; **manquer son coup** mo‘ljalga tegiza olmaslik; **il a manqué la dernière marche et il est tombé** u oxirgi zinaga chiqa olmadi va yiqilib tushdi; **la prochaine fois, je ne te manquerai pas** yanagi safar men senga ko‘rsatib qo‘yaman; **7.** topa olmaslik, uchrata olmaslik; **je vous ai manqué de peu** men sizni uchratishga bir oz kechikibman; **manquer son train, son avion** poyezdga, samolyotga kech qolmoq; **8.** yo‘qotmoq, qo‘ldan chiqarmoq, boy bermoq; **manquer une occasion** qulay fursatni qo‘ldan chiqarmoq; **9.** yo‘q bo‘lmoq, qatnashmaslik, bormaslik, qoldirmoq; **manquer un cours, la classe** leksiyaga, darsga qatnashmaslik; **manquer l’école** maktabga bormaslik; **il ne faut pas manquer çà!** buni qo‘ldan chiqarmaslik kerak! **III. se manquer** *vpr* **1.** o‘zini o‘zi o‘ldirishga erisha olmaslik; **2. nous nous sommes manqués** biz uchrasha olmadik.

**mansarde** *nf* mansarda, chordoqdagi xona.

**mante¹** *nf vx* jelak, ayollar yopqichi.

**mante²** *nf zool* **mante religieuse** beshiktervatar.

**manteau** *nm* **1.** manto, palto, plash, chakmon, shinel; **manteau d’homme, de femme** erkaklar, ayollar paltosi; **manteau de pluie** yomg‘irda kiyiladigan plash; **2.** *fig* parda, niqob; *loc* **sous le manteau** yashirincha, maxfiy ravishda, yeng ichida; **livre publié sous le manteau** yeng ichida bosib chiqarilgan kitob.

**mantille** *nf* mantilya (*ispan ayollarining yelkaga yoki boshga tashlab yuradigan to‘r ro‘moli*).

**manucure** *n* manikur (*qo‘l va tirnoqlarga zeb beradigan odam*).

**manucurer** *vt* qo‘l va tirnoqlarga oro bermoq.

**manuel¹, elle** *adj* qo‘lga oid; qo‘lda qilinadigan, qo‘lda bajariladigan, qo‘lda yasaladigan; **travail manuel** qo‘lda bajariladigan ish.

**manuel²** *nm* darslik.

**manuélin, ine** *adj* arxitekturaning bir usuli.

**manufacture** *nf* **1.** ishlab chiqarish, tayyorlash; **2.** *vx hist* manufaktura; **3.** aksariyat ishlar qo‘lda bajariladigan zavod, fabrika; **manufacture de porcelaine** chinni zavodi.

**manufacturer** *vt* ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq.

**manufacturier, ière I.** *n* manufakturachi, fabrikachi, zavodchi boy yoki boshliq; **II.** *adj* sanoatga oid, ishlab chiqaruvchi.

**manu militari** *adv* harbiy yoki jamoat kuchlaridan foydalanib; **il a fallu expulser les perturbateurs manu militari** buzg‘unchilarni harbiy kuch ishlatib haydab chiqarishga to‘g‘ri keldi.

**manuscrit, ite I.** *adj* qo‘lda yozilgan, qo‘l yozma; **II.** *nm* qo‘l yozma, bitik, manuskript.

**manutention** *nf* **1.** yuklarni saqlash; **employé préposé à la manutention des colis** yuklar bilan shug‘ullanuvchi ishchi; **2.** omborxona.

**manutentionnaire** *n* omborchi, ombor mudiri.

**manutentionner** *vt* mol chiqarmoq.

**maoïsme** *nm* maoizm, maochilik.

**maoïste** *n* maochi.

**maous, ousse** *adj fam* yo‘g‘on, ulkan, gavdali.

**mappemonde** *nf* dunyo yarim sharlar xaritasi.

**maquereau¹** *nm* skumbriya; **groseille à maquereau** katta reza meva.

**maquereau** *nm fam* qo‘shmachi, dalla, dayus, sutenyor, o‘ynash hisobiga yashovchi erkak.

**maquerelle** *nf fam* qo‘shmachi xotin, fohishaxonaning egasi.

**maquette** *nf* **1.** maket; **maquette d’un immeuble** imoratning maketi; **2.** model, andaza, qolip.

**maquetter** *vt techn* maketlamoq (*kitobni, gazetani*).

**maquettiste** *n* maketchi.

**maquignon** *nm* **1.** jallob, aspijallob, ot jallobi; **2.** vositachi, dallol.

**maquignonnage** *nm* **1.** *vx* jalloblik; **2.** dallolchilik, vositachilik.

**maquignonner** *vt* **1.** jalloblik qilmoq; **2.** dallolik qilmoq; olib sotarlik, vositachilik qilmoq.

**maquillage** *nm* grim; pardoz, bo‘yanish; o‘ziga oro, zeb berish.

**maquiller I.** *vt* **1.** soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq, qalbaki narsa yasamoq, tusini o‘zgartirmoq; **maquiller un passeport** pasportni soxtalashtirmoq; **maquiller une voiture volée** o‘g‘irlangan avtomobilning tusini o‘zgartirmoq; **2.** grim qilmoq; **maquiller un acteur de théâtre** teatr aktyorini grim qilmoq; **3.** *fig* buzmoq, yashirmoq, buzib ko‘rsatmoq, noto‘g‘ri talqin qilmoq; **maquiller la vérité** haqiqatni yashirmoq; **II. se maquiller** *vpr* pardoz qilmoq, upa-elik qo‘ymoq, qosh-ko‘zini bo‘yamoq, bo‘yanmoq; o‘ziga oro, zeb bermoq; grim qilmoq; **elle s’est maquillée avant de sortir** u chiqishdan oldin bo‘yandi; **se maquiller les yeux** ko‘zlarini bo‘yamoq.

**maquilleur, euse** *n* grimchi.

**maquis** *nm* **1.** chakalakzor, butazor, changalzor; **2.** *fig* chalkashlik, chalkash ish; **le maquis de la procédure** sud ishining chalkashliklari; **3.** partizanlar turadigan joy, partizanlar makoni, qarorgohi; **le maquis du Vercors** Verkordagi partizanlar makoni, qarorgohi; **prendre le maquis** partizanlikka kirmoq, partizanlarga qo‘shilmoq.

**maquisard** *nm* partizan, yashirin, maxfiy ish olib boruvchi; maxfiy tashkilot a’zosi (*fashist bosqinchilariga qarshi kurashda*).

**marabout** *nm* **1.** zohid, avliyo, qalandar, darvesh; **2.** maqbara (*odamlar borib sig‘inadigan joy*), qadamjoy; **3.** marabu, marabut (*laylaklarga mansub katta qush*).

**maraîcher, ère** *n, adj* sabzavotkor, sabzavotchi.

**marais** *nm* botqoqlik, balchiqzor; **marais salant** tuz konlari.

**marasme** *nm* **1.** marazm (*kuch-quvvatdan qolish, muskullar atrofiyasi*); *vx* ruhiy tushkunlik, ma’yuslik; **2.** turg‘unlik, kasodlik, yurishmay qolish, zavol; **marasme économique** iqtisodiy inqiroz.

**marasquin** *nm* maraskin (*olchali likyor*).

**marathon** *nm* **1.** marafon; **2.** *fig* marafon (*uzoq cho‘zilib ketgan narsa*); **marathon de danse** raqslar marafoni.

**marâtre** *nf vx* o‘gay ona; yomon ona.

**maraud, aude** *n vx* manfur, jirkanch, razil, ablah odam.

**maraudage** *nm* hali yig‘ib olinmagan sabzavot va mevalarni o‘g‘irlash.

**maraude** *nf* poliz, bog‘ va fermalarda sabzavot, meva va parrandalarni o‘g‘irlash.

**marauder** *vi* o‘g‘irlik, talonchilik qilmoq (*poliz, bog‘ va fermalarda*).

**maraudeur, euse** *n, adj* o‘g‘ri; **une bande de maraudeurs** o‘g‘rilar to‘dasi; **oiseau maraudeur** o‘g‘ri qush.

**marbre** *nm* **1.** marmar; *loc* **froid comme le (un) marbre** marmarday sovuq; **être, rester de marbre** hissiz, ehtirossiz, beparvo, befarq, e’tiborsiz, loqayd bo‘lmoq; **visage de marbre** sovuq yuzli; **cœur de marbre** bag‘ri tosh, tosh bag‘ir; **2.** marmardan ishlangan narsalar, haykallar; **3.** texnika ishlarida foydalanish uchun stolning marmar yoki metalldan yasalgan yuz qismi; **4.** *typogr* taler.

**marbrer** *vt* marmarga o‘xshatib ishlamoq (*taram-taram, xol-xol dog‘li qilib*); **le froid lui marbrait le visage** sovuq uning yuzini taram-taram qilib qo‘ygan edi.

**marbrerie** *nf* **1.** marmarchilik san’ati, kasbi, ustaxonasi; **2.** marmar ishlab chiqarish sanoati.

**marbrier** *nm* **1.** marmartarosh, marmar tarashlovchi; **2.** marmarchi, marmar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va sotuvchi.

**marbrier, ière** *adj* marmarchilikka oid; **industrie marbrière** marmarchilik sanoati.

**marbrière** *nf* marmar koni.

**marbrure** *nf* **1.** marmarsifat narsalar tayyorlash (*qog‘oz, teri, yog‘och va shunga o‘xshashlarga*); **2.** xol-xol dog‘lar.

**marc** *nm* **1.** turp; **marc de raisin** uzum turpi; **2.** uzum arog‘i; **3.** shama, quyqa, quyqum, qoldiq, cho‘kma; **marc de café** qahva quyqumi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**marcassin** *nm* to'ng'izning bolasi.

**marchand, ande I.** *n* savdogar, do'kondor, sotuvchi; **marchand à la sauvette** yoymachi; **marchand forain** yarmarka sotuvchisi; **marchand des quatre-saisons** ko'chalarda sabzavot, meva va ko'kat sotib yuruvchi odam, ko'katchi; *fam* **le marchand de sable est passé** bolalarning uyqudan ko'zlari yumilib ketayapti; **II.** *adj* savdoga oid; bozorga, bozor narxiga oid; **denrées marchandes** xaridorgir, bozori chaqqon, savdoga chiqariladigan mol, tovar; **prix marchand** tannarx; **valeur marchande** bozor bahosi; **qualité marchande** tovarning oddiy holati; *écon* **galerie marchande** savdo rastalari; **marine marchande** dengiz savdo sotig'i.

**marchandage** *nm* savdolashish; **marchandage électoral** saylov kelishuvlari.

**marchander** *vt* savdolashmoq, baholashmoq.

**marchandise** *nf* mol, tovar; *loc* **faire valoir sa marchandise, la marchandise** *fig* biror narsaning faqat yaxshi tomonini ko'rsatmoq.

**marche[1]** *nf vx* davlatning chegara viloyati; chegara harbiy rayoni; **les marches de Lorraine** Lotaringiyaning harbiy chegara rayonlari.

**marche[2]** *nf* **1.** hayvonning izi; **marche du cerf** bug'uning izi; **2.** zina, zinapoya, pog'ona, pillapoya; **3.** *techn* pedal, tepki; **4.** yurish, yo'l bosish; piyoda yurish; **marche athlétique** sportcha yurish; **5.** qadam, qadam tashlash, yurish; **accélérer, ralentir sa marche** qadamini, yurishini tezlatmoq, sekinlatmoq; **6.** yurish, qadam tashlash, oyoq olish; **marche à suivre** yo'li, uslubi; **indiquez-moi la marche à suivre pour obtenir ces papiers** menga bu qog'ozga ega bo'lish yo'lini ko'rsating; **7.** yo'l, yo'l yurish; **poursuivre sa marche** yo'lida davom etish; **c'est à une heure de marche** bu bir soatli yo'l; **8.** yurish (*tashkiliy ravishda ko'tarilish, ommaviy harakat, namoyish*); **marche de protestation** norozilik yurishi; *loc* **conduire, ouvrir la marche** namoyishning boshida bormoq; **9.** *mil* marsh, poxod, harbiy safar; **marche forcée** tez yurish, jadal qadam tashlab yurish; **en avant, marche!** olg'a qadam bos! (*harbiy buyruq*); **10.** *mus* marsh (*safda baravar qadam tashlab borish uchun moslab yozilgan musiqa asari*); **marche militaire** harbiy marsh; **marche funèbre** motam kuyi; **11. en état de marche** ishlashga qodir; **voiture en état de marche** yurib turgan avtomobil; *loc adv* **en marche** harakatda, yurib turgan.

**marché** *nm* **1.** savdo-sotiq bitimi, kelishuvi; **2.** bozor, savdogarlar to'planadigan joy; **à bon marché** arzon; **3.** birja; **le marché financier de Londres** London moliya birjasi.

**marchepied** *nm* transportga chiqish zinasi, yig'ma zina.

**marcher** *vi* **1.** yurmoq, yura boshlamoq, qadam tashlamoq; **2.** yurmoq, harakatlanmoq (*jonli narsalar haqida*); **marcher à quatre pattes** to'rt oyoqlab yurmoq (*oyoq, qo'li yoki tizzasi bilan yurmoq*); **3.** piyoda yurmoq; *fig* **marcher avec qqn, la main dans la main, comme un seul homme** birov bilan qo'lni-qo'lga berib, hamjihat yurmoq, bo'lmoq; **4.** yurmoq, yurish qilmoq (*to'da, lashkar*); **marcher sur une ville, contre un adversaire** shahar, dushman ustiga yurish qilmoq; **marcher au combat** jangga bormoq, kirmoq; **marcher sur qqn** birovning ustiga bostirib bormoq; **5.** *fig fam* yurmoq, birovning yo'liga yurmoq, rozi bo'lmoq, rozilik bermoq, unamoq, ko'nmoq; **marcher dans la combine** hiyla-nayrangga yurmoq, ko'nmoq; *fam* laqqa tushmoq; **il a marché dans mon histoire** u mening hikoyamga laqqa tushdi; **6.** yurmoq, harakatlanmoq (*narsa*); **7.** yurgizmoq, ishlatmoq; **faire marcher une machine** mashinani ishlatmoq; **montre qui marche mal** yomon yurayotgan soat; **faire marcher une usine** zavodni yurgizmoq; **8.** *fig* yurishmoq, ketmoq; **les affaires ont l'air de marcher** ishlar yurishganday ko'rinadi; *fam* **ça marche** ketyapti, hammasi joyida; **9.** bosmoq, ezmoq (*oyog'i bilan*); **défense de marcher sur les pelouses** chim ustida yurish taqiqlanadi; *fig* **marcher sur les pas, traces de qqn** birovning izidan bormoq; **10.** bosib olmoq; **marcher sur les pieds de qqn** birovning oyog'ini bosib olmoq; *fig* birovga behurmatlik qilmoq, uni siqib chiqarmoq; **se laisser marcher sur les pieds** o'zini xafa qildirib qo'ymoq.

**marcheur, euse I.** *n* piyoda yuradigan odam, piyoda yuruvchi, piyoda; **un marcheur infatigable** yurib charchamas odam; **II.** *adj zool* **oiseaux marcheurs** ucha olmaydigan qushlar; **l'autruche est un oiseau marcheur** tuyaqush ucha olmaydigan qush.

**mardi** *nm* seshanba.

**mare** *nm* **1.** ko'lmak, ko'lob; **2.** halqob, halqob suv; **une mare de sang** qon halqobi.

**marécage** *nm* botqoq, botqoqlik.

**marécageux, euse** *adj* botqoqli, serbotqoq, botqoqlikka oid; **plantes marécageuses** botqoqlik o'simliklari.

**maréchal, aux** *nm* **1.** marshal; *nf* **la maréchale** marshalning xotini; **2. maréchal des logis** otliq askarlar yoki piyoda askarlar serjanti.

**maréchal-ferrant,** *pl* **maréchaux-ferrants** *nm* taqachi.

**marée** *nf* dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishi; **marée montante, descendante** dengir suvining ko'tarilishi, pasayishi; **marée basse** suvning qaytishi, pasayishi, ozayishi; **marée noire** yuzini neft qoplagan dengiz; *fig* ko'ngilsiz hodisa, holat; **2.** *fig* to'lqin, dengiz, ummon; **marée humaine** xalq dengizi, xalq to'lqini; **3.** yangi tutilgan dengiz mahsulotlari.

**marelle** *nf* sopolak, chertak (*bolalar o'yini*).

**marengo** *nm* **poulet, veau (à la) marengo** qo'ziqorin, pomidor va sarimsoq solib qovurilgan jo'ja, buzoq go'shti.

**margarine** *nf* margarin.

**marge** *nf* **1.** hoshiya; **laisser une marge** hoshiya qoldirmoq; **2.** chegara, daraja, doira, muhlat, chek; **marge de sécurité** xavfsizlik chegarasi, mustahkamlik darajasi; **marge de manœuvre** harakat doirasi; **en marge de** biror narsadan tashqarida, chetda; **un homme en marge** hech narsaga aralashmaydigan, hamma narsadan chetda turadigan, o'z holicha yashaydigan odam.

**margelle** *nf* chet, lab, bo'y, qirg'oq; **s'asseoir sur la margelle du puits** quduqning chetiga o'tirmoq.

**marginal, ale, aux** *adj* **1.** hoshiyaga belgilangan; **note marginale** hoshiyadagi belgi, yozuv; **2.** *fig* ikkinchi darajali, uncha ahamiyatli bo'lmagan; **occupations marginales** qo'shimcha mashg'ulotlar; **rôle marginal** ikkinchi darajali rol; **3.** odamovi; ajrab qolgan, o'ziga xos; **des groupes marginaux** ajrab qolgan, o'ziga xos guruh.

**marginaliser I.** *vt* chetlashtirmoq, ajratib qo'ymoq, yakkalab qo'ymoq; **II.** *vpr* **se marginaliser par son style de vie** hayot tarzi tufayli ajralib qolmoq.

**marginalisme** *nm écon* qo'shimcha qiymat.

**marginalité** *nf* chetda qolganlik, ajralib qolganlik.

**margoulette** *nf* bashara.

**margoulin, ine** *n* chayqovchi, olibsotar.

**margrave** *nm hist* markgraf (*Germaniyada ba'zi shahzodalarning unvoni*).

**marguerite** *nf* **1.** moychechak; **2.** tishli rolik.

**mari** *nm* er, umr yo'ldoshi, rafiq.

**mariage** *nm* **1.** er-xotinlik, uylanish, erga tegish; nikoh; to'y; **2.** qo'shish, aralashtirish, omixtalash, moslashtirish, o'xshatish; **mariage de deux couleurs, de deux parfums** ikki rangni, ikki hidni qo'shish.

**marié, ée I.** *adj* turmush qurgan, uylangan, turmushga chiqqan, xotin olgan, erga tekkan; **II.** *n* kelin, kuyov, *pl* kelin-kuyov.

**marier I.** *vt* **1.** uylantirmoq, turmushga chiqarmoq, bermoq; *fam* erga bermoq, xotin olib bermoq **2.** *fig* qo'shmoq, biriktirmoq, birlashtirmoq, aralashtirmoq; **marier des couleurs qui s'harmonisent** mos tushadigan ranglarni aralashtirmoq; **II. se marier** *vpr* nikohdan o'tmoq; uylanmoq, turmushga chiqmoq, turmush qurmoq.

**marigot** *nm* daryoning oqmas o'zani; doim suv bosib ketadigan joy.

**marijuana** *ou* **marihuana** *nf* nasha.

**marin[1], ine** *adj* **1.** dengizga oid; **air marin** dengiz havosi; **sel marin** dengiz tuzi; **2.** dengizchilik ishi (*dengizda suzish*) bilan bog'langan; **lieue marine** 5555,5 metrga teng dengiz o'lchovi; **mille marin** 1852 metrga teng dengiz o'lchovi; *loc* **avoir le pied marin** chayqalishlarda oyog'ida mahkam turmoq.

**marin[2]** *nm* **1.** dengizchi; matros; **2.** O'rta yer dengizidan esadigan janubiy-sharqiy mayin shamol.

**marine[1] I.** *nf* **1.** dengizchilik; **2.** milliy dengiz floti, flot turlari; **II.** *adj* **bleu marine** to'q havo rang; **des chaussettes bleu marine** to'q havo rang paypoq.

**marine[2]** *nm* dengiz piyoda askari (*Buyuk Britaniya va AQShning*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mariné, ée** *adj* marinadlangan, marinadga bosilgan; **harengs marinés** marinadlangan selyodka.

**mariner I.** *vt* marinadlamoq; marinadga bosmoq; **II.** *vi* marinadlanmoq; *fig fam* koʻngilsiz joyda uzoq vaqt qolib ketmoq; **mariner en prison** qamoqxonada uzoq vaqt qolib ketmoq.

**marinier, ière I.** *n* **1.** *nm vx* dengizchi; **officier marinier** bosman; **2.** daryo transporti xodimi; **II.** *adj* dengizga aloqador boʻlgan.

**marinière** *nf* matroska (*ayollar, bolalar koʻylagi*); **(à la) marinière** piyozli qayla bilan.

**mariolle** *adj, n fam* maqtanchoq, mugʻombir, quv; **fais pas le mariolle!** quruqlanma!

**marionnette** *nf* **1.** qoʻgʻirchoq; **2.** *fig* qoʻgʻirchoq; oʻyinchoq (*birovning amri, soʻzi bilan ish qiladigan odam*).

**marionnettiste** *n* qoʻgʻirchoqboz, qoʻgʻirchoq oʻynatuvchi.

**marital, ale, aux** *adj dr* erniki, erga qarashli; **vie, union maritale** er-xotindek yashash, er-xotinlik.

**maritalement** *adv* er-xotindek; **vivre maritalement** er-xotindek yashamoq.

**maritime** *adj* **1.** dengizga, sohiliga oid; **climat maritime** dengiz ob-havosi; **les provinces maritimes** dengiz boʻyi hududlari; **2.** dengiz flotiga oid.

**marivaudage** *nm* shakarguftorlik, iltifotlilik, nazokatlilik, xushmuomalalik, shirin soʻzlik; **il n'y a eu entre eux que du marivaudage** ular orasida faqat shakarguftorlik boʻldi.

**marivauder** *vi* navozish qilmoq, iltifot koʻrsatmoq, nazokat bilan muomala qilmoq, xushmuomalalik qilmoq, shirin soʻzlar aytmoq; **ils marivaudaient à l'écart des invités** ular mehmonlarga iltifot koʻrsatdilar.

**marjolaine** *nf bot* togʻrayhon.

**mark** *nm* marka (*Germaniyaning eski pul birligi*).

**marketing** *nm* kon'yunktura, bozor ehtiyoji; bozorni oʻrganish fani, marketing; **techniques de marketing** bozor ehtiyojini oʻrganish; **marketing électoral, politique** saylov, siyosiy ahvol; **cours de marketing** bozorni oʻrganish darslari.

**marlou** *nm fam* dayus, oʻynashi hisobiga yashovchi qoʻshmachi erkak.

**marmaille** *nf fam péj* churvaqa, toʻs-toʻpolonchi bolachalar; **elle est venue avec sa marmaille** u oʻzining churvaqasi bilan keldi.

**marmelade** *nf* marmelad; *loc adj* **en marmelade** eziltirib pishirilgan, hil-hil qilib pishirilgan; **viande en marmelade** hil-hil pishirilgan goʻsht; *fig* pachaq, ezilgan; **le boxeur avait le nez en marmelade** bokschining pachagʻi chiqqan burni bor edi.

**marmite** *nf* qozon.

**marmiton** *nm* oshpazning shogirdi, yosh yordamchi oshpaz.

**marmonnement** *nm* mingʻillash.

**marmonner** *vt* mingʻillab gapirmoq; chaynalib gapirmoq; gʻuldiramoq, toʻngʻillamoq.

**marmoréen, enne** *adj* marmarga oʻxshash, marmarsifat.

**marmot** *nm fam* bola, oʻgʻil bola, bolakay; *loc* **croquer le marmot** uzoq toliqib kutmoq.

**marmotte** *nf* sugʻur.

**marmotter** *vt* mingʻillamoq, gʻuldiramoq, toʻngʻillamoq; oʻzicha mingʻillamoq.

**marmottement** *nm* mingʻillash, gʻuldirash, toʻngʻillash.

**marne** *nf* mergel, ohakgil; **marnes argileuses, calcaires, limoneuses** tuproqli, ohakli, serbalchiq ohakgil.

**marner** *vi* qattiq ishlamoq.

**marocain, aine I.** *adj* Marokashga oid; **II.** *n* marokashlik.

**maronite** *n, adj* Livan va Suriya nasroniysi.

**maronner** *vi fam* joni chiqmoq, toʻngʻillamoq; **faire maronner qqn** birovning jonini chiqarmoq.

**maroquin** *nm* **1.** saxtiyon teri, saxtiyon; **2.** *vx plais* vazirlik portfeli, lavozimi.

**maroquinerie** *nf* **1.** saxtiyon oshlash; saxtiyon oshlovchi boʻlim; **2.** saxtiyondan tayyorlanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxona; **3.** saxtiyondan tayyorlangan mahsulotlar; saxtiyon mahsulotlari doʻkoni.

**maroquinier** *nm* **1.** saxtiyon oshlovchi odam, koʻnchi; **2.** saxtiyondan narsalar tayyorlovchi ishchi; **3.** charm mahsulotlari sotuvchi savdogar.

**marotte** *nf* miyaga oʻrnashib qolgan fikr, tentaklik, oʻjarlik.

**maroufler** *vt* yelimlab yopishtirmoq.

**marque**[1] *nf* **1.** belgi, nishon, alomat, ishora; **2.** *sport* yerga qilingan belgilar; oyoq tiragich (*yuguruvchilar oyoq qoʻyib start oladigan moslama*); **à vos marques! prêts? partez!** startga! tayyorlaning! start! **3.** tamgʻa (*mahbusga bosilgan*); **4.** belgi, tamgʻa (*tovarga qoʻyilgan, bosilgan*); **5.** tayyorlovchi, ishlab chiqaruvchining belgisi; **marque d'orfèvre** zargarning belgisi; **marque d'un médicament** dorining markasi; **produits de marque** yuqori sifatli, markali mahsulot; **6.** yuqori sifatli, markali mahsulot chiqaradigan korxona va shu mahsulot; **7.** belgi qoʻyadigan asbob (*tamgʻa, muhr*); **8.** iz; **marque de dents** tish izlari; **9.** nishon, dogʻ; **avoir une marque sur le visage** yuzida nishoni, dogʻi boʻlmoq; **10.** xatchoʻp; **mettre une marque dans un livre pour retrouver facilement une page** osongina topish uchun kitob orasiga xatchoʻp qoʻymoq; *vx* **marque de théâtre** teatr bileti, chiptasi; *loc* **trouver, retrouver, prendre, reprendre, poser ses marques** joylashmoq, oʻrin olmoq, egallamoq; **11.** marka, znachok, fishka, jeton (*oʻyin*); **12.** *sport* hisob; **ouvrir la marque** hisobni ochmoq; **13.** daraja, obroʻ-e'tiborni bildiradigan belgi; *fig* **hôte de marque** yuqori, oliy martabali mehmon; **14.** belgi, alomat; **réflexion qui porte la marque du bon sens** fikrlash sogʻlom aql alomatidir; **15.** *ling* belgi, alomat; **le s est la marque du pluriel en français** s fransuz tilida koʻplik belgisidir, alomatidir.

**marqué, ée** *adj* **1.** belgilangan, belgi qoʻyilgan, tamgʻalangan, tamgʻa bosilgan; **linge marqué** belgi qoʻyilgan choyshab; **être marqué** tamgʻalangan boʻlmoq (*mahbusga nisbatan*); *fig* shubhali, gumonli; **visage marqué** alohida ajrab turadigan yuz; **2.** alohida, oʻzgacha, ajralib turadigan, oʻziga xos; **mesure, mélodie marqué** oʻziga xos takt, ohang; **taille marquée** oʻzgacha qad, qomat; **3.** koʻzga yaqqol tashlanadigan, koʻrinib turgan; **différence marquée** koʻzga yaqqol tashlanadigan farq.

**marquer I.** *vt* **1.** belgilamoq, belgi qoʻymoq; **marquer la peau de tatouages** teriga tatuirovka qilmoq; **visage marqué de cicatrices** chandiq bosgan yuz; **marquer les points, au cours d'une partie** oʻyinda ochkolar yutmoq; *loc* **marquer le coup** nishonlamoq, e'tibor bermoq; **marquer un coup** raqibdan ustun kelmoq, ustunlikka erishmoq; *sport* **marquer un but** toʻp kiritmoq; **2.** oʻlchamoq; belgilamoq, chegaralamoq, chegarani biror narsa bilan belgilamoq; **marquer une limite** chegarani belgilamoq; **3.** koʻrsatmoq (*asbob*); **le thermomètre marquait dix degrés au-dessous de zéro** termometr oʻn daraja sovuqni koʻrsatar edi; **4.** *fig* nazorat qilmoq, kuzatmoq, ta'qib qilmoq; *sport* **marquer un joueur** oʻyinchini ushlamoq (*himoyada*); **5.** dona-dona, alohida-alohida ajratib gapirmoq; ta'kidlamoq; **6.** guvohlik bermoq, koʻrsatmoq, hurmat bildirmoq, ifodalamoq, izhor qilmoq; **marquer de l'intérêt à qqn** birovga qiziqish bildirmoq; **marquer de la rancune à qqn** birovga nisbatan kek saqlamoq; **7.** bildirmoq, ifodalamoq, koʻrsatmoq, dalolat bermoq (*narsa*); **8.** belgilamoq, ifodalamoq; **les artistes qui ont marqué cette époque** bu asrni belgilovchi san'atkorlar; **une enfance marquée par la guerre** urush chuqur iz qoldirgan yoshlik; **II.** *vi* **1.** muhim, ahamiyatli boʻlmoq; katta ahvmiyatga ega boʻlmoq, e'tiborga loyiq, molik boʻlmoq; **événement qui marque** muhim voqea; **les personnalités qui ont marqué pendant cette période** shu davrning e'tiborga molik shaxslari; **2.** *fam* **marquer mal** yomon taassurot qoldirmoq; **3.** iz, belgi qoldirmoq; **coup qui marque** iz qoldiradigan zarba.

**marqueté, ée** *adj* **1.** xol-xol dogʻli, ola-chipor, guldor; **2.** xol-xol dogʻ bilan, ola-chipor, guldor qilib bezatilgan; **plafond marqueté** xol-xol dogʻlar bilan bezatilgan shift.

**marqueterie** *nf* **1.** qadama naqsh; **coffret en marqueterie** qadama naqshli bezak; **2.** yogʻoch naqshinkorligi.

**marqueteur** *nm* yogʻoch oʻyuvchi duradgor usta.

**marquis, ise** *n* markiz, markiza.

**marquise** *nf* vokzal tomi.

**marraine** *nf* **1.** choʻqintirgan ona; **2.** urush qatnashchisini otaliqqa olgan ayol.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**marrant, ante** *adj fam* **1.** qiziq, kulgili, ichak uzadigan; **histoire marrante** kulgili, qiziq voqea; **2.** ajib, g'alati, alomat; **3.** gap so'zi g'alati odam.

**marre** *adv loc fam* **en avoir marre** yetarli bo'lmoq, jonga tegmoq; *fam* **c'est marre** yetarli, bo'ldi.

**marrer (se)** *vpr fam* kulmoq, kulgisi kelmoq, qistamoq; **on s'est bien marré** rosa kuldik; **faire marrer qqn** birovning kulgisini keltirmoq, qistatmoq; **tu me fais marrer** sen mening kulgimni keltiryapsan.

**marri, ie** *adj vx ou litt* xafa, ranjigan, dili siyoh bo'lgan, dilabgor, dilshikast; **être marri de qqch** biror narsadan dili siyoh bo'lmoq, ranjimoq, xafa bo'lmoq.

**marron¹ I.** *nm* **1.** kashtan; **marchand de marrons** kashtanni ko'chada qovurib sotuvchi odam; **marrons glacés** shakarga bosilgan kashtan yong'og'i; **marron d'Inde** soxta kashtan; **2.** jeton, tabel; **3.** *fam* shapaloq, urish; **II.** *adj inv* och jigar rang, qizg'ish, qo'ng'ir; **des yeux marron** jigar rang ko'zlar.

**marron², onne** *adj* **1.** *vieilli* qochqin, qochoq (*qul*); **2.** taqiqlangan, g'ayriqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchi, yashirin ish ko'ruvchi; **médecins, avocats marrons** yashirincha ish ko'radigan vrach, advokat.

**marron³** *adj inv* aldangan, aldab ketilgan, ahmoq qilingan, laqillatilgan; **on est encore marron!** yana aldanib qoldik.

**marronnier** *nm* xonaki kashtan daraxti; *bot* **marronnier d'Inde** soxta kashtan daraxti.

**mars** *nm* mart oyi, mart.

**marseillais, aise I.** *adj* marselcha; **accent marseillais** marselcha talaffuz; **II.** *n* **1.** marsellik; **2.** *nf* **la Marseillaise** Marselyeza (*Fransiyaning milliy madhiyasi*).

**marsouin** *nm* dengiz cho'chqasi.

**marsupial, ale, iaux** *zool* **I.** *adj* sumkali, xaltali; **II.** *nm pl* **les marsupiaux** sumkalilar, xaltalilar.

**marte** *nf* suvsar mo'ynasi.

**marteau I.** *nm* **1.** bolg'a, to'qmoq; **marteau-pilon** tepadan zarba berchi to'qmoq; **marteau pneumatique** pnevmatik bolg'a; **marteau-perforateur du mineur** ko'mirchining otboyka bolg'asi; **requin marteau** bolg'abaliq; **2.** maxsus bolg'achalar; **marteau de commissaire-priseur, marteau d'ivoire** kimoshdi savdosida ishlatiladigan bolg'acha; *méd* **marteau à percussion, à réflexes** nerv reflekslarini tekshirishda ishlatiladigan bolg'acha; **3.** *mus* bolg'acha (*fortepiano*); **4.** osma soat bolg'achasi; **5.** eshikni taqillatish uchun ishlatiladigan bolg'acha; **6.** quloqning o'rta pardasi bolg'achasi; **7.** *sport* to'qmoq; **II.** *adj fam vieilli* **être marteau** aqldan ozgan, jinni, telba bo'lmoq.

**martel** *nm loc* **se mettre martel en tête** tashvishlanmoq, xavotirlanmoq vahimaga tushmoq, qo'rqmoq, bezovtalanmoq.

**martelage** *nm* bolg'alash; **martelage des lames de couteau** pichoq tig'ini bolg'alash.

**martelé, ée** *adj* **1.** bolg'alangan; **cuivre martelé** bolg'alangan mis; **2.** jarangdor, dona-dona; **paroles martelées** dona-dona gap; **notes martelées** jarangdor.

**martèlement** *nm* **1.** gursillatib bolg'a urish; **2.** gursillash; **le martèlement des pas des soldats** askar qadamlarining gursillashi.

**marteler** *vt* **1.** bolg'alamoq; **2.** gursillatib urmoq; **il "lui martelait la figure à coups de poing"** u uning yuziga gursillatib musht tushirar edi; **3.** dona-dona talaffuz qilmoq, chertib-chertib gapirmoq; **marteler ses mots** so'zlarini chertib-chertib gapirmoq.

**martial, ale, aux** *adj* **l'arts martiaux** yapon jang san'ati; **2.** jangovorlikni eslatuvchi; **voix martiale** jangovor ovoz; **3. loi martiale** harbiy holat qonuni; **cour martiale** harbiy tribunal.

**martien, ienne** *adj* marsga oid; *n* marslik.

**martin-chasseur** *nm* Yangi Gvineya ko'ktarg'og'i (*qush*); *pl* **des martins-chasseurs**.

**martinet** *nm* **1.** qaldirg'ochsimon quch; **2.** taram-taram qamchi.

**martingale** *nf* **1.** kiyim belbandi (*ust orqasiga tikib qo'yiladigan kalta tasma*); **2.** dov, ganak, tikilgan pulning sekin-asta oshib borishi (*o'yinda*).

**martini** *nm* martini vinosi.

**martin-pêcheur** *nm* churrak.

**martre** *nf* **1.** suvsar; **martre du Canada** Kanada suvsari; *shu turkumga kiruvchilar.* **martre blanche** oqsichqon, oqsuvsar; **martre zibeline** sobol, Kamchatka suvsari; **2.** suvsar mo'ynasi; **manteau, col de martre** suvsar palto, yoqa.

**martyr, yre** *n, adj* **1.** gunohkor, azob, aziyat tortgan, azob-uqubat tortuvchi, aziyat chekuvchi, jafokash; **2.** shahid, jonini qurbon qiluvchi, jonini fido qiluvchi; **martyr de la liberté** ozodlik shahidlari; **les martyrs de la résistance** Qarshilik ko'rsatish harakatining qurbonlari; **3.** alamdiyda, jafokash; **enfant martyr** jabrdiyda bola (*ota-onasi tomonidan azoblanadigan*); **peuple martyr** jafokash xalq.

**martyre** *nm* **1.** azob-uqubat tortish; **le martyre de saint Sébastien** avliyo Sebastiyanning azob-uqubat tortishi; **2.** fido; **3.** azob-uqubat, jabr-jafo, azob; **sa maladie fut un long martyr** uning kasalligi uzoqqa cho'zilgan azob-uqubat bo'ldi; *loc* **souffrir le martyre** ortiqcha azoblanmoq; **pour une personne aussi active, l'inaction est un martyre** doim harakatdagi odam uchun tek o'tirish azobdur.

**martyriser** *vt* **1.** azobga solmoq, azobga duchor qilmoq; **2.** azoblamoq, azob bermoq, qiynamoq; **martyriser un enfant, un animal** bolani, hayvonni azoblamoq, qiynamoq; **ses rhumatismes le martyrisent** bodi unga azob berayapti.

**marxisme** *nm* maksizm.

**marxisme-léninisme** *nm* marksizm-leninizm.

**marxiste** *adj* marksist.

**mas** *nm* ferma yoki qishloq uyi (*Fransiyaning janubida*).

**mascara** *nm* kiprikka ishlatilatigan yog'upa, bo'yoq.

**mascarade** *nf* **1.** maskarad; **2.** *vieilli* fantastik yoki hazil-mutoyibali tomosha; **3.** kulgili, g'alati ust-bosh; **qu'est-ce que c'esr que cette mascarade?** bu qanaqa masxarabozlik? **4.** *fig* aldamchilik, ikkiyuzlamachilik, munofiqlik; **ce procès n'est qu'une mascarade, les accusés sont condamnés d'avance** bu sud aldamchilikdan boshqa narsa emas, sudlanuvchilarga oldindanoq hukm chiqarib qo'yilgan.

**mascaret** *nm* dengiz ko'tarilish va qaytishi vaqtidagi uchrashuvdan hosil bo'lgan uzun to'lqin.

**mascotte** *nf* baxt keltiradigan hayvon, odam yoki narsa, fetish.

**masculin, ine** *adj* **1.** erkaklarga oid, erkaklarga mansub, erkaklashgan; **2.** erkakcha, erkaklarga xos; **voix masculine** erkakcha ovoz; **3.** muzakkar; **mot, substantif, adjectif masculin** muzakkardagi so'z, ot, sifat.

**masochisme** *nm* **1.** *méd* mazoxizm; **2.** jafokashlik.

**masochiste I.** *n* mazoxist; **II.** *adj* mazoxistik, mazoxistlarcha; **plaisir masochiste** mazoxitstik rohat.

**masque** *nm* **1.** niqob; **masque du théâtre antique** yog'ochdan yoki qayishdan qilingan niqob; **2.** yuzni bekitish uchun xizmat qiladigan niqob; **3.** *vx* niqobli odam; niqob bilan yashiringan odam; **4.** *fig* munofiqlik, soxtakorlik, riyokorlik, yasamalik; **sa douceur n'est qu'un masque** uning yumshoqligi niqobdan boshqa narsa emas; *loc* **lever, jeter, poser le masque** (yuzidan) niqobini olmoq, haqiqiy basharasini ko'rsatmoq; **5.** ko'rinish, holat, ifoda, aks, alomat; **avoir un masque de tristesse** yuzida g'amginlik aks etmoq; **6.** yuz qolipi (*marhumning yuzidan olingan gips tasvir*); **7.** yuzni himoya qiluvchi maska; **masque d'escrime** qilichbozlik maskasi; **masque d'apiculteur** asalarichining to'rli qalpog'i; **masque d'ouvrier soudeur** payvandchining niqobi; **8. masque de plongée sous-marine** suv ostida suzish maskasi; **masque à gaz** protivogaz; *méd* anesteziyada ishlatiladigan maska; **9.** maska (*yuzga surtilgan narsa qatlami*); **10.** *mil* pana, pana joy, to'siq, g'ov, niqob.

**masqué, ée** *adj* **1.** niqob kiygan, yuziga niqob tortgan, niqobli; **visage masqué** niqob tortilgan yuz; **bandit masqué** niqob kiygan bandit, bosqinchi; **bal masqué** maskarad; **2.** niqoblangan, yashirin; *mil* **batterie masquée** yashirin to'plar.

**masquer** *vt* **1.** niqoblamoq, yashirmoq; **2.** maskarad ust-boshini kiydirmoq; **3.** ko'zdan yashirmoq, to'smoq; **cette maison masque le paysage** bu uy tabiatni to'syapti; *mil* maskirovka qilmoq, yashirmoq; **masquer un mouvement de troupes** harbiy qismlarning harakatini yashirmoq.

**massacrant, ante** *adj* **humeur massacrante** o'ta yomon kayfiyat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**massacre** *nm* **1.** *vx* qirg'in, xunrezlik, yalpi qirg'in, qatli om, genotsid, halakost (*yahudiylarni yalpi qirg'in qilish*); qirpichoq; **massacre d'un peuple** biron xalqni qirg'in qilmoq; **2.** kaltaklash, do'pposlash; **ce match de boxe a tourné au massacre** bu boks o'yini do'pposlashga aylanib ketdi; **3.** *fig* xonavayron qilish; **le massacre d'une forêt, d'un paysage** o'rmonni, tabiatni xonavayron qilish; **4.** buzish, yomon bajarish, yomon ijro etish, rasvo qilish, rasvogarchilik; **arrêtez le massacre!** buzg'unchilikni to'xtating!

**massacrer** *vt* **1.** qirmoq, qirib tashlamoq; **2.** o'ldirmoq, nobud qilmoq; **3.** do'pposlamoq, urib ezib yubormoq, holdan toydirmoq (*kuchsizroq raqibni*); **4. se massacrer** bir-birini qirmoq, qirg'in barot qilmoq; **5.** *fam* buzmoq, ishdan chiqarmoq, xonavayron qilmoq, rasvo qilmoq; **6.** buzmoq, yomon bajarmoq, yomon ijro etmoq; **massacrer un texte en le disant, en le traduisant** matnni buzib aytib bermoq, tarjima qilmoq; **6.** qattiq tanqid qilmoq, tilka-pora qilmoq, yo'qqa chiqarmoq, yerga urmoq; **les critiques ont massacré son roman** tanqidchilar uning romanini tilka-pora qilishdi.

**massacreur, euse** *n* **1.** qotil, qirg'inchi, xunrez; **les massacreurs de la Saint-Barthélemy** Sent-Bartelemi xunrezlari; **2.** *fig* shudi yo'q, no'noq, noshud, epsiz, uquvi yo'q odam.

**massage** *nm* massaj, silash, uqalash.

**massaliote** *adj* marsellik, marselning greklarga qaram bo'lgan davriga oid.

**masse[1]** *nf* **1.** xamirsimon modda, bo'tqa, massa, hajm; **masse d'eau que roule un fleuve** daryo suvining hajmi; **masse d'air** havo oqimi; **2.** to'plam, uyum, to'p, g'aram, tepa; **masse de pierres, de cailloux** tosh, shag'al uyumi; **3.** majmu, yig'indi, borliq; *pl* asosiy qism, asosiy to'plam; **colonnade qui allège la masse d'un édifice** imoratning haybatini yengillashtirib turgan qator ustunlar; **répartition des masses dans un tableau** rasmda asosiy qismlarni joylash; *mus* **masse instrumentale, orchestrale, vocale** cholg'u asboblari, orkestr, vokal majmui; **4.** *mil* pul fondi, mablag', summa; *dr* **masse active, passive** aktiv, passiv mablag'; **5. la masse, la grande masse de** ko'pchilik, asosiy qism **6.** *fam* juda ko'p, ancha, bir talay; **une masse de marchandises** bir talay tovar; *fam loc* **pas des masses** unchalik ko'p emas; **ça t'a plu? pas des masses** bu senga yoqdimi? unchalik emas; **7.** to'da, guruh, to'p; **faire masse** to'da tuzmoq; **8.** omma, keng xalq ommasi; **les masses laborieuses** mehnatkash omma; **les masses populaires** keng xalq ommasi; **9.** ko'pchilik; **l'opposition a fait masse contre le projet** loyihaga qarshi oppozitsiya ko'pchilikni tashkil qildi; *loc* **de masse** ommaviy, xalqqa oid; **culture de masse** xalq madaniyati; **10.** *phys* massa; **le poids est proportionnel à la masse** og'irlik massaga proporsionaldir; **nombre de masse** massa soni; **masse critique** kritik massa; **masse électrique, magnétique** elektr, magnit maydoni; yerga ulangan sim; **mettre à la masse** simni yerga ulamoq; *loc adv* **en masse** hammasi birgalikda, aksariyati, to'laligicha, yoppasiga; ko'p, ancha, ancha-muncha, allaqancha, bir talay; **j'ai encore des courses et des emplettes en masse!** hali allaqancha qiladigan bozor-o'charim va sotib oladigan narsalarim bor.

**masse[2]** *nf* katta bolg'a, to'qmoq; **masse d'arme** yoki **masse** gurzi, cho'qmor; *loc fam* **coup de masse** gurziday musht.

**massepain** *nm* marsipan (*pirogning kichik bir turi*).

**masser[1]** **I.** *vt* yig'moq, to'plamoq; **masser des hommes sur une place** odamlarni maydonga yig'moq; **II. se masser** *vpr* yig'ilmoq, to'planmoq; **la foule s'était massée devant l'ambassade pour protester** olomon norozilik bildirish uchun elchixonaning oldiga to'planishgan edi.

**masser[2]** *vt* massaj qilmoq, uqalamoq, silamoq; **masser qqn** birovni massaj qilmoq.

**masseur, euse** *n* **1.** massajchi; **2.** *nm* massaj qiladigan asbob; **masseur électrique** elektr massaj.

**massicot** *nm* qog'oz kesadigan mashina.

**massicoter** *vt typogr* qog'ozni mashinada kesmoq; **livre mal massicoté** yomon kesilgan kitob, chetlari notekis.

**massif, ive** *adj* **1.** salmoqli, salmoqdor, zalvorli, bahaybat, pishiq, puxta; **2.** qalin, katta, og'ir, vazmin; **tour massive** qalin, zalvorli minora; **3.** *fig* ko'p, ommaviy, qalin; **dose massive** katta miqdor; **bombardement massif** qalin, kuchli bombardimon; **départs massifs au début des grandes vacances** yozgi ta'tillarning boshidagi ommaviy jo'nab ketishlar; *ling* **termes massifs** son-sanoqsiz so'zlar; **3.** *géog* massiv, keng tog'li joy; **le Massif Central** markaziy massiv; *anat* **massif facial osseux** yuz skeleti.

**massification** *nf* ommaviylashtirish, ijtimoiylashtirish, umumiylashtirish; **massification et dépersonnalisation des individus** ijtimoiylashtirish va shaxsni shaxssizlantirish.

**massivement** *adj* **1.** salobatli, pishiq; **édifice massivement construit** salobatli, pishiq qurilgan imorat; **2.** ommaviy, ko'pchilik, keng; **ils ont répondu massivement à cet appel** ular bu chaqiriqqa ommaviy ravishda javob berishdi.

**massue** *nf* so'yil, cho'qmor, shashpar, gurzi; **la massue d'Hercule** Gerkulesning gurzisi; *loc* **coup de massue** to'qmoq tushganday (*boshiga*).

**mastic I.** *nm* **1.** xushbo'y smola; **2.** *typogr* harf terishda qilingan qo'pol xato; **II.** *adj inv* kulrang-sarg'ish; **des imperméables mastic** kulrang-sarg'ish plash.

**masticateur, euse** *adj* chaynovchi; **muscles masticateurs** chaynovchi mushaklar.

**mastication** *nm* chaynash.

**mastiff** *nm* mastif (*it zoti*).

**mastiquer[1]** *vt* chaynamoq, yaxshilab chaynamoq; **mastique bien en mangeant!** ovqat yeganda yaxshilab chaynagin.

**mastiquer[2]** *vt* tirqish, teshiklarni biror narsa surib yamamoq.

**mastoc** *nm fam* beso'naqay, qo'pol, yo'g'on.

**mastodonte** *nm* **1.** *zool* mastodont, mamont; **2.** beso'naqay katta odam; **3.** ulkan mashina.

**mastoïdite** *nf méd* chakka suyagining quloq orqa va ostki qismining shamollashi.

**masturbation** *nf* masturbatsiya, onanizm, kapaki.

**masturber** *vt* shahvatni masturbatsiya bilan qondirmoq, kapaki qilmoq.

**m'as-tu-vu** *n, adj inv* maqtanchoq, manman, katta og'iz, balandparvoz; **ce qu'elle est m'as-tu-vu!** u qanchalar maqtanchoq!

**masure** *nf* faqirona uy, kulba, barak, kapa.

**mat[1]** *adj inv, nm* mot (*shahmat*); **le roi est mat** shoh mot bo'ldi; **être mat** mot bo'lmoq.

**mat[2], mate** *adj* **1.** jilosiz, yaltiramaydigan, nursiz, xira; **peinture mate** yaltiramaydigan rasm; **2.** xira; **verre mat** xira oyna; **peau mate** qoramtir teri; **4.** bo'g'iq (*ovoz*); **bruit, son mat** bo'g'iq shovqin, tovush.

**mât** *nm* **1.** machta; **grand mât** grot-machta (*yelkanli kemada: o'rtadagi eng baland machta*); **2.** silliq simyog'och, xoda; *sport* gimnastikachilar osilib chiqishni mashq qiladigan uzun tayoq.

**matador** *nm* matador (*buqaga halokatli zarba beruvchi toreador*).

**matamore** *nm vx* maqtanchoq, chiranchoq, manman, kerilmajon, kalondimog', lofchi.

**match** *nm sport* match, musobaqa, uchrashuv.

**matelas** *nm* **1.** to'shak, matras; **2.** *fam* **un matelas de billets de banque** bir bog'lam pul.

**matelasser** *vt* paxta tiqmoq, paxtalamoq, to'ldirmoq, to'latmoq, zichlab tiqmoq, qoplamoq, sirmoq; **2.** qavimoq.

**matelot** *nm* dengizchi, matros.

**matelote** *nf* **1.** matlot (*kesilgan baliq, piyoz va qizil vinodan iborat taom, ovqat*).

**mater[1]** *vt* tiyib qo'ymoq, bosmoq, bo'ysundirmoq, itoat qildirmoq, jilovlab qo'ymoq, tanobini tortib qo'ymoq; **mater une révolte** qo'zg'olonni bostirmoq; **mater ses passions** o'z his-tuyg'usini jilovlamoq.

**mater[2]** *vt fam* qaramoq, tikilmoq, ko'z qiri bilan qaramoq, suqlanib qaramoq.

**matérialisation** *nf* **1.** amalga oshirish, ro'yobga chiqarish, mujassamlashtirish; **matérialisation d'une idée, d'un projet** g'oyani, rejani amalga oshirmoq; **2.** aylanishi, bir holatdan boshqa holatga o'tishi; **matérialisation de l'énergie, d'un rayonnement** energiyaning, nurning boshqa turga aylanishi.

**matérialiser I.** *vt* **1.** *litt* amalga oshirmoq, mujassamlashtirmoq, moddiy tus bermoq, seziladigan qilmoq, hayotga tadbiq qilmoq; **2.** amalga oshirmoq, namoyon qilmoq, ro'yobga chiqarmoq; **matérialiser un projet** rejani amalga



www.ziyouz.com kutubxonasi

oshirmoq; **II. se matérialiser** *vpr* amalga oshmoq, moddiylashmoq, sezilarli bo'lmoq, ro'yobga chiqmoq, namoyon bo'lmoq.

**matérialisme** *nm phil* materializm.

**matérialiste I.** *n philos* materialist; **II.** *adj* materialistik.

**matérialité** *nf* **1.** moddiylik, moddiyat; **2.** *dr* ashyoviylik, bor narsa; **3.** mohiyat, tub ma'no, mazmun, negiz.

**matériau** *nm* **1.** *techn* ashyo, modda, jism, material; **matériau destiné à l'électronique** elektronikaga mo'ljallangan ashyolar; **matériau composite** har xil tarkibli modda; **2.** *fig* ma'lumot, material.

**matériaux** *nm pl* ashyolar, materiallar; **matériaux de construction** qurilish ashyolari, materiallari; **matériaux bruts, travaillés** ishlov berilmagan, ishlov berilgan material; **2.** *fig* tarkibiy qism, material, manba, ma'lumot **rassembler, recueillir des matériaux** ma'lumot to'plamoq, yig'moq.

**matériel, elle I.** *adj* **1.** *phil* **cause matérielle, formelle** moddiy, formal sabablar; **2.** moddiy, ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, real; **substance matérielle** moddiy jism; **être matériel** mavjudot; **le monde, l'univers matériel** borliq, dunyo; **point matériel** moddiy zarra; **temps matériel** mavjud vaqt; **3.** *vx* jismoniy, shahvoniy; **plaisirs matériels** jismoniy rohat; **4.** amaliy, ko'zga yaqqol tashlanib turadigan, aniq; **organisation matérielle d'un spectacle** spektaklning amaliy tashkil qilinishi; **avoir la preuve matérielle** biror narsada aniq dalillarga ega bo'lmoq; *dr* **fait matériel** ashyoviy, moddiy dalil; **5.** moddiy (*mol va puldan iborat*); **avantages, biens matériels** moddiy boylik; **6.** *fig fam* mol-dunyoga o'ch; **II.** *nm* **1.** tarkibiy qism; **2.** asbob-uskuna, anjom, kerak-yarog'lar, asbob-qurollar, jihoz; **matériel de guerre** harbiy qurol-aslaha; **dépôt, stock de matériel** asbob-uskuna omborxonasi; **3.** anjom, qurol; **matériel de pêche** baliq ovlash anjomlari; **matériel de propagande** tashviqot qurollari; **4.** material, manba, ma'lumot; **collecte, classement et analyse du matériel sur le terrain** tuproq haqida to'plangan, saralangan va analiz qilingan ma'lumot; **matériel analytique** analitik material; **matériel génétique** genetik ma'lumot.

**matériellement** *adv* **1.** *vx phil* materialistlarcha; **2.** moddiy jihatdan, jismonan, **se concrétiser matériellement** moddiy jihatdan ro'yobga chiqmoq; **3.** amalda, amaliy jihatdan, jismonan; **un projet matériellement irréalisable** amaliy jihatdan bajarib bo'lmaydigan reja; **c'est matériellement impossible** bu jismonan mumkin emas.

**maternel, elle** *adj* **1.** onaga tegishli, onaniki; **le lait maternel** ona suti; **2.** onadek, onalarcha; **geste, ton maternel** onalarday muomala, ohang; **3. école maternelle** *ou nf* **la maternelle** bog'cha; **enseignement maternel** bog'cha (*maktabgacha*) ta'lim-tarbiyasi; **4.** ona tomonidan; **un oncle du côté maternel** ona tomonidan tog'a; **parenté en ligne maternelle** ona tomonidan qarindoshlik; **ma grand-mère maternelle** ona tomonidan buvim; **5. langue maternelle** ona tili; **6.** onalikka oid; **centre de protection maternelle et infantile (P.M.I.)** onalik va bolalikni himoya qilish markazi.

**maternellement** *adv* onalarcha, onalarga xos.

**maternité** *nf* **1.** onalik; **les joies et les peines de la maternité** onalikning xursandchilik va tashvishlari; *dr* onalik huquqi; **2.** tug'ish, dunyoga keltirish; **femme fatiguée par des maternités trop rapprochées** juda tez-tez bola tug'ishdan charchagan ayol; **congé (de) maternité** homiladorlik ta'tili; **3.** tug'uruqxona, akusherlik klinikasi.

**mathématicien, ienne** *n* matematika olimi, mutaxassisi.

**mathématique I.** *adj* **1.** matematikaga oid, matematika qoidalariga asoslangan **2.** shak-shubhasiz, juda aniq, ravshan; **une précision mathématique** matematik aniqlik; *fam* **c'est mathématique** bu juda aniq; **II.** *nf* **1.** *pl* matematika; **2.** maxsus matematika o'qitish sinflari; **mathématiques élémentaires** matematikadan bakalavrlikka tayyorlovchi sinf.

**mathématiquement** *adj* matematik yo'l bilan; **démontrer qqch mathématiquement** biror narsani matematik yo'l bilan ko'rsatmoq.

**matheux, euse** *n fam* matematika bo'limining tolibi yoki tolibasi; matematikadan kuchli o'quvchi, ilmga chanqoq.

**matière** *nf* **1.** *phys phil* materiya, molekula, atom, borliq, jism; modda; **matières organiques et inorganiques** organik, noorganik moddalar; **matières fécales** najas, siydik; *anat* **matière grise** kul rang modda (*miyaning*); **2.** *dr* **matière d'un délit, d'un crime** qonunni buzganlik, jinoyat qilganlik haqidagi ish; **3.** material, modda, narsa; **industrie utilisant de nombreuses matières** turli xil moddalardan foydalanadigan sanoat; **les matières plastiques¸ textiles** plastmassa, ip gazlamadan qilingan narsalar; **matière première** xomashyo; **matières grasses** yog' mahsulotlari; **4.** mavzu, mazmun, tema; **livres classés par matières, dans une bibliothèque** kutubxonada mavzular bo'yicha joylashtirilgan kitoblar; **table des matières** mundarija; **5.** soha, masala, mavzu; **expert en la matière** sohaning bilimdoni; **en matière** sohasida; **en matière poétique** she'riyat sohasida.

**matin** *nm* **1.** erta, ertalab, tong, subhidam, sahar, azon; *adv vx* **matin** erta, tongla; **se lever matin** erta, tongla turmoq; **2.** ertalab; **ne pas travailler le matin** ertalab ishlamaslik; **3.** yarim kechadan tushgacha bo'lgan vaqt; **une heure, six heures du matin** tungi, ertalabgi soat bir, olti; **4.** *fig poét* biror narsaning boshlanish davri, ilk davri; **le matin de la vie** yoshlik.

**mâtin, ine** *n vx* **1.** ayyor, makkor odam; **2.** *nm* qo'riqchi yoki ov iti.

**matinal, ale, aux** *adj* **1.** ertalabgi, tongi, azongi, subhidamdagi; **gymnastique matinale** ertalabgi gimnastika; **2.** saharxez, azondan turadigan odam; **vous êtes bien matinal aujourd'hui!** bugun siz juda saharlab turibsiz! *adv* ertalab, saharlab, tongla, azonlab, subhidamla.

**mâtiné, ée** *adj* zotdor it bilan chatishtirilgan; *fig* aralash, aralashgan; **un français mâtiné d'anglais** inglizcha aralashgan fransuz tili.

**matinée** *nm* **1.** ertalab, erta; **faire la grasse matinée** ertalab kech turmoq, uzoq uxlamoq; **2.** *vx* kunduzgi; **donner une pièce en matinée** kunduzi pyesa ko'rsatmoq; **3.** tushdan keyingi, kunduzgi tomosha; **matinée musicale, dansante** kunduzgi musiqa, raqs tomoshasi; **4.** *vx* ayollarning ertalabki uy kiyimi.

**mâtiner** *vt zool* zotdor it bilan chatishtirmoq.

**matines** *nf pl relig* tungi ibodat (*cherkovda*); **chanter matines** tungi ibodatni ijro etmoq.

**matois, oise** *adj* soddamug'ombir, ichidan pishgan, tullak, mug'ombir.

**maton, onne** *n arg* qamoqxona nazoratchisi.

**matou** *nm* erkak mushuk.

**matraquage** *nm* **1.** rezina tayoq bilan do'pposlash; **le matraquage des manifestants** namoyishchilarni do'pposlash; **2.** *fig* muntazamlik, bir maromdalik; **matraquage publicitaire** reklamaning muntazamliligi.

**matraque** *nf* rezina tayoq, to'qmoq.

**matraquer** *vt* **1.** to'qmoq, rezina tayoq bilan urmoq; **matraquer des manifestants** namoyishchilarni do'pposlamoq; **2.** *fig* shilmoq, yuqori narx qo'ymoq; **restaurant qui matraque ses clients** xo'randalarini shiladigan restoran; **se faire matraquer** o'zini shildirib qo'ymoq; **3.** muntazam, bir maromda tarqatmoq.

**matriarcal, ale, aux** *adj* matriarxal, onalik davriga oid; **société matriarcale** matriarxal jamiyat.

**matriarcat** *nm* matriarxat.

**matrice** *nf* **1.** *vx anat* bachadon; **inflammation de la matrice** bachadon yallig'lanishi; **2.** *techn* o'yma qolip; **3.** *math* matritsa (*matematik raqamlar jadvali*); **4. matrice cadastrale** kadastr daftari (*biror narsa haqidagi ma'lumotlar to'plami; biror narsaning ro'yxati*).

**matriciel, ielle** *adj* **1.** ro'yxat, qayd daftariga oid; *math* matritsaga oid; **calcul matriciel** matritsa hisobi.

**matricule I.** *n* **1.** *nf* nomma-nom ro'yxat; **les matricules d'un hôpital** kasalxonang nomma-nom ro'yxati; *vx* ro'yxatdan ko'chirma; ro'yxatga tirkash, yozib qo'yish; **2.** *nm* ro'yxat bo'yicha raqami; **prisonnier matricule 85** 85 raqamli mahbus; **II.** *adj* **livret matricule d'un soldat** askarning xizmat daftarchasi; **numéro matricule** davlat raqami(*avtomobillarda*).

**matrimonial, ale, aux** *adj* oilaviy; uylanish, turmushga chiqishga oid; **les affaires matrimoniales** oilaviy ishlar; **agence matrimoniale** oila qurish agentligi; **régime matrimonial** oilaviy haq-huquqlar.

**matrone** *nf* katta yoshdagi beso'naqay xotin, doya, enaga.

**maturation** *nf* **1.** pishish, yetilish; **maturation de la graine** urug'ning yetilishi; *biol* balog'atga yetish, voyaga yetish; **maturation du fœtus** homilaning yetilishi; **2.** mevaning yetilishi, pishishi; **maturation du raisin** uzumning pishishi; **3.** *méd* yaraning yetilishi, pishishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mature** *adj* yetilgan, pishgan, me'yoriga yetgan; **poisson mature** uvildiriq qo'yishga tayyor baliq; *biol* **cellule mature** yetilgan hujayra; **sujet mature** pishgan g'oya.

**mâture** *nf* yelkanli kema jihozlari (*yelkan, arqon*).

**maudire** *vt* **1.** la'natlamoq, qarg'amoq, nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar qilmoq, g'azablanmoq; **maudire la guerre** urushni la'natlamoq; **je maudis le jour où je l'ai rencontré** men uni uchratgan kunimni la'natlayman; **2.** mahkum qilmoq, qarg'ishga uchramoq.

**maudit, ite** *adj* **1.** xudoning la'natiga, qahriga, qarg'ishiga uchragan, qolgan; xudo la'natlagan, qarg'agan; **2.** jirkanch, bo'lmag'ur.

**maugréer** *vi litt* do'ng'illamoq, ming'illamoq, ping'illamoq, g'uldiramoq (*norozi ohangda*).

**maure** *ou vx* **more** *n* **1.** *hist* mavritaniyalik; *O'rta asrlarda* Ispaniyani bosib olgan arablar; *adj* **l'art maure** arab san'ati; **2.** *vx hist* mavritaniyalik; **tête-de-maure** Gollandiya pishlog'ining bir turi.

**mauresque** *ou* **moresque I.** *nf* mavritaniyalik ayol; **II.** *adj* mavritaniyaga oid.

**mausolée** *nm* maqbara, mavzoley.

**maussade** *adj* **1.** xo'mraygan, o'shshaygan, badqovoq, qovog'i soliq, g'amgin, ma'yus, parishon, o'ychan; **2.** zerikarli, g'amgin.

**mauvais, aise I.** *adj* **1.** yomon, sifati past, buzuq, bo'lmag'ur, yaramas; **très mauvais** ablahona, yaramas, razil, qabih, jirkanch, iflos, xunuk, o'ta achinarli, ayanchli; **plus mauvais** yomonroq, battarroq, yaramasroq **2.** (*kishi*) yomon, nochor, ojiz, faqir; **mauvais élève** yomon o'quvchi; **il est mauvais, très mauvais en latin** u lotin tilidan bo'sh, hech narsada yo'q; **3.** o'rinsiz, noo'rin, noqulay, noto'g'ri; **mauvaise raison** noto'g'ri sabab; **il ne serais pas mauvais de s'en souvenir** bu haqda o'ylab ko'rilsa yomon bo'lmas edi; **4.** baxtsiz, baxti qaro, peshonasi sho'r, bechora, badbaxt, ziyonli, zararli, jirkanch, iflos, yoqimsiz, bemaza, qo'lansa; **5.** yomon, zarar, ziyon qiladigan, zararli, ziyonli; **mauvaise chance, fortune** omadsizlik; **mauvais présage** mudhish alomat; **mauvais sort** baxti qarolik, omadsizlik; **il a le mauvais œil** uning ko'zi bor, uning ko'zi yomon; **6.** xavfli, xatarli, tahlikali, dahshatli, qo'rqinchli, halokatli; **mauvaise querelle** xavfli janjal; **l'affaire prend une mauvaise tournure** ish bema'ni tus oldi; **7.** yomon, yoqimsiz, sassiq, qo'lansa, badbo'y, bemaza; **cette viande a mauvais goût** bu go'shtning yoqimsiz ta'mi bor; **faire un mauvais repas** yomon ovqatlanmoq; **mauvaise odeur** sassiq, qo'lansa hid; **mauvaise haleine** og'izdan keladigan badbo'y hid; **mauvais temps** rasvo havo; **la mauvaise saison** yog'ingarchilik fasli; **il fait mauvais** yomon, buzuq, past ob-havo; og'ir, qiyin, ko'ngilsiz; (*turmushda*); **mauvais jours** baxtsiz kun; **trouver mauvais que** aybga buyurmoq, ayblamoq, qoralamoq; **la trouver, l'avoir mauvaise** achchiq deb hisoblamoq; **mauvaise tête** fitnachi, buzg'unchi, g'alamis, mijg'ov; *fam* **être de mauvais poil** avzoyi buzuq bo'lmoq; **mauvais coucheur** chiqisholmaydigan, murosa qilolmaydigan, odamga elikmaydigan, sho'rtumshuq; **mauvais joueur** chidamas o'yinchi; **8.** buzuq, buzilgan, axloqi buzuq, axloqsiz, fosiq; **mauvaise conduite** buzuq fe'l-atvor; *euphém* **mauvaises habitudes** yomon, axloqsiz odat (*onanizm*); *loc vieilli* **femme de mauvaise vie** axloqiy buzuq ayol; **mauvais ange** iblis; **mauvais génie** iblis; **9.** qahri qattiq, shafqatsiz, berahm, qahrli, zolim, adolatsiz, yaramas, ichi qora, *fam* razil, qabih, yaramas, pastkash, ablah; **il est mauvais comme une teigne, comme la gale** yaramas odam, palid; **10.** zaharxanda, shafqatsiz, birovga yomonlik tilaydigan, ichi qora, badxoh, dushman; **un rire mauvais, une joie mauvaise** zaharxanda shodlik; **mauvais traitements** shafqatsiz muomalalar; **II.** *adv* **sentir mauvais** sasimoq, yomon hid taratmoq; **il fait mauvais** ob-havo yomon; **III.** *n* **1.** yomon odam; *vx* **le mauvais** iblis, shayton, jin; **2.** *nm* yomonlik; **le bon et le mauvais** yaxshilik va yomonlik.

**mauve** *nm* och binafsha rang.

**mauviette** *nf* **1.** *vx* to'rg'ay, so'fito'rg'ay; **2.** *fig* nimjon, zaif, nozik, holsiz odam; **quelle mauviette!** qanday nozik odam! qo'rqoq.

**maxillaire** *anat* **I.** *adj* jag'ga oid; **II.** *nm* jag' suyagi; **maxillaire inférieur** pastki jag'.

**maximal, ale, aux** *adj* maksimal, eng ko'p, eng katta, eng yuqori; **températures maximales** eng yuqori issiqlik; **vitesse maximale autorisée** ruxsat etilgan eng yuqori tezlik.

**maximum** *nm math* eng katta qiymat, maksimum, eng yuqori daraja, oliy daraja, eng ko'p miqdor, oxirgi chegara; **maximum de vitesse** tezlikning oxirgi chegarasi; **le maximum de chances** imkoniyatlarning eng yuqori darajasi; **atteindre un maximum, son maximum** oxirgi chegarasiga, kulminatsion nuqtasiga yetmoq; **au maximum** juda, juda ham, nihoyatda, g'oyat, uchchiga chiqqan, borib turgan; **mille francs au maximum** ortig'i, ko'pi bilan ming frank.

**maya I.** *adj* mayalarga oid (*Amerikadagi qabila*); **art et civilisation mayas** maya san'ati va tamadduni; **II.** *n* **1.** maya; **2.** *nm* maya tili.

**mayonnaise** *adj, nf* mayonez; **sauce mayonnaise** mayonezli sous; **la mayonnaise à l'ail** sarimsoqli mayonez; **œufs mayonnaise** mayonezli tuxum; **la mayonnaise prend** *fig* ish o'ngidan kelyapti; *loc* **faire monter la mayonnaise** orttirib, bo'rttirib yubormoq, ko'rsatmoq.

**mazagran** *nm* qahva ichiladigan sopol qadah.

**mazdéisme** *nm relig* mazdaizm.

**mazette** *nf intj dial.* yo'g'-e, nahotki, lekin; **un million? mazette!** bir milion? nahotki!

**mazout** *nm* mazut, qora moy (*neft qoldig'i*).

**mazurka** *nf* mazurka (*polyakcha kuy va raqs*).

**me** *pron pers* **1.** meni; **on me voit** meni ko'rishyapti; **2.** menga; **il veut me parler** u menga gapirmoqchi; **3.** mening uchun; *fam* **va me fermer cette porte!** manavi eshikni yopib qo'y (*menga*); **4. il me fera, il me laissera lire ce livre** u menga bu kitobni o'qittiradi; **5.** *olmoshli fe'llarning olmosh qismi, I shaxs:* **je m'ennuie** men zerikyapman.

**mea-culpa** *nm loc* **faire son mea-culpa** o'z aybiga iqror bo'lmoq, tavba qilmoq.

**méandre** *nm* **1.** burilish, qayrilish, burilgan joy; **les méandres d'un petit cours d'eau** jilg'aning burilish joylari; **méandre d'une route** yo'lning ilang-bilang joyi; **2. méandres de la pensée, d'un récit** fikirlash, hikoya usullari, yo'llari; **les méandres de la politique, de la diplomatie** siyosiy, diplomatik hiylalar.

**méat** *nm anat* teshik, yo'l, kanal, bo'shliq; **méat urinaire** siydik yo'li, **méat du nez** burun bo'shlig'i.

**mec** *nm* **1.** *arg* erkak, yigit, xushtor; **un vrai mec** haqiqiy yigit, zo'r yigit, ishonchli yigit.

**mécanicien, ienne** *n, adj* **1.** mexanik-nazariyotchi, mexanik-tadqiqotchi, avtomat qurilmalar ixtirochisi; **2.** mexanik; **ouvrier mécanicien** texnikani sozlovchi; **mécanicien de la marine** kema mexanigi; **3.** mashinist (*poyezd haydovchisi*).

**mécanique I.** *adj* **1.** texnik vositalar, mexanizmlar yordamida qilingan; **montre mécanique** mexanik soat; **2. un geste mécanique** avtomatik, kutilmagan, to'satdan qilingan harakat; **3.** mexanik harakatga oid; **lois mécaniques** mexanik harakatlar; **ennuis mécaniques** motorning buzilib qolishi; **4. théorie mécanique de l'univers** borliqning mexanik tuzilish qonuniyati; **II.** *nf* **1.** *math* mexanika; **mécanique des fluides** gidravlik mexanika; *phys* **mécanique newtonienne** Nyuton mexanikasi; **mécanique ondulatoire** to'lqinlar mexanikasi; **2.** mexanika fani; **3.** mexanizm; **la mécanique d'une horloge, d'une montre** soat mexanizmlari.

**mécaniquement** *adv* g'ayriixtiyor, beixtiyor, o'ylamay; mexanik, avtomatik ravishda.

**mécanisation** *nf* mexanizatsiyalashtirish; **mécanisation d'une industrie** sanoatni mexanizatsiyalash.

**mécaniser** *vt* mexanizatsiyalashtirmoq, mashinalashtirmoq.

**mécanisme** *nm* **1.** qisimlar, mexanizm; **mécanisme d'une horloge** soat mexanizmi; **2.** jarayon, texnika, usul; **mécanismes biologiques, organiques** organik, biologik jarayonlar.

**mécano** *nm fam* mexanik, haydovchi, shofyor.

**meccano** *nm* o'yin (*temir bo'laklarni bir biriga ulab har xil narsalar yasaladigan*).

**mécénat** *nm* homiylik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mécène** *nm* homiy; **elle est le mécène d'un groupe de peintres** u bir guruh rassomlarning homiysi.

**méchamment** *adv* g'azab bilan, achchiqlanib, darg'azab bo'lib, darg'azab; **parler méchamment** achchiqlanib gapirmoq.

**méchanceté** *nf* **1.** johillik, qahri qattiqlik, shafqatsizlik, yovuzlik, badjahllik, darg'azablik, ichi qoralik; **c'est de la pure méchanceté** bu g'irt yovuzlik; **agir avec, par, sans méchanceté** ichi qoralik bilan, ichi qoraliksiz ish tutmoq; **méchanceté d'un regard** qarashning badjahlligi; **2.** yovuz harakatlar, zarar keltirish; **une méchanceté gratuite** tekin zarar; **dire des méchancetés** zaharxanda qilib gapirmoq.

**méchant, ante I.** *adj* **1.** jahldor, yovuz, qora niyatli, g'azabnok, yomon, badjahl; **2.** xavfli, ko'ngilsiz, noxush; **s'attirer une méchante affaire** ko'ngilsiz ishga aralashib qolmoq; **méchante humeur** noxush kayfiyat; **3.** *vx* arzimaydigan, arzimas; **4.** iflos, yaramas, razil, qabih, zaharli ilon; **un homme méchant, un méchant homme** qabih odam; **être méchant comme une teigne, comme la gale** zahar, zaharli ilon (*zahar odam*); **plus bête que méchant** yaramasdan ko'ra ham battolroq; **méchantes langues** og'ziga kuchi yetmaydigan odamlar, g'iybatchilar; **5.** yaramas, bo'lmag'ur, yomon, bemaza (*bolaga nisbatan*); **méchant garçon!** to'polonchi, quloqsiz, sho'x, bo'lmag'ur bola; **6.** tepag'on, qopag'on, tishlong'ich, yirtqich (*hayvon*); **7. expression méchante** achchiq ibora; **sourire méchant** zaharxanda kulgi; **8.** *fam* yomon, yaramas, bo'lmag'ur, bemaza (*narsa*); **une méchante grippe** yaramas gripp; *loc* **ce n'est pas bien méchant** hechqisi yo'q, zarari yo'q; **II.** *n* battol, badjahl, yovuz, vahshiy odam; **les bons et les méchants** yaxshilar va yovuzlar; *loc* **faire le méchant** qizishmoq, jahli, achchig'i chiqmoq, qoni, zardasi qaynamoq, do'q urmoq, tahdid qilmoq, qo'rqitmoq.

**mèche[1]** *nf* **1.** pilik; **la mèche d'une lampe à huile** moychiroq piligi; **2. mèche d'un bâton de dynamite** dinamit shnuri; **3.** *fig loc* **éventer, découvrir la mèche** sirni ochmoq; **vendre la mèche** sirni oshkor qilib qo'ymoq, fosh qilib qo'ymoq; **4.** soch tutami, gajak, zulf; **5.** parma.

**mèche[2]** *n inv fam* **être de mèche avec qqn** birov bilan til biriktirmoq.

**méchoui** *nm* butunligicha o'tda aylantirib pishirilgan qo'y; shu go'sht bo'lagi; ovqat.

**mécompte** *nm* hisobda yanglishish, hisobda xatoga yo'l qo'yish, xato sanash, umidsizlik.

**méconnaissable** *adj* tanib bo'lmas, juda o'zgargan.

**méconnaissance** *nf litt* tanimaslik, bilmaslik, tushunmaslik; **la méconnaissance de ses droits** o'z haq-huquqlarini bilmaslik.

**méconnaître** *vt* **1.** *vx* tanimaslik, tan olmaslik, inkor qilmoq, tonmoq, qaytmoq; **2.** kam baho bermoq, yetarlicha baho bermaslik, qadriga yetmaslik, nazar-pisand qilmaslik; **méconnaître les lois** qonunni nazar-pisand qilmaslik.

**méconnu, ue** *adj* tan olinmagan, e'tirof etilmagan; **un génie méconnu** tan olinmagan daho.

**mécontent, ente** *adj* xafa, ko'ngli to'lmagan, qoniqmagan, norozi; **les étudiants sont mécontents** talabalar norozi.

**mécontentement** *nm* xafalik, xafagarchilik, norozilik.

**mécontenter** *vt* xafa qilmoq, norozi qilmoq; **cette mesure a mécontenté tout le monde** bu xatti-harakat hammani xafa qildi.

**mécréant, ante** *adj, n* g'ayridin, dinsiz, dahriy.

**médaille** *nf* medal, mukofot belgisi; **médaille d'or** oltin medal, nishon.

**médaillé, ée** *adj, n* sovrindor, nishondor, medal bilan taqdirlangan kishi; **les médaillés militaires, olympiques** harbiy, olimpiada medallari sovrindorlari.

**médailliste** *n* **1.** numizmat; **2.** *techn* medal zarb qiluvchi.

**médaillon** *nm* **1.** hoshiya ichiga ishlangan portret yoki rasm; **lambris orné de médaillons** o'rtasi rasm bilan bezatilgan ganchli hoshiya; **2.** medalon, taqinchoq, tumor; **3.** yupqa va yumaloq go'sht bo'lagi.

**médecin** *nm* hakim, vrach, doktor, tabib, shifokor.

**médecine** *nf* meditsina, tib, tibbiyot; **étudiant en médecine** tibbiyot o'quv yurtining talabasi; **docteur en médecine** tibbiyot hakimi, tibbiyot fanlari doktori; **médecine infantile** bolalar tibbiyoti, pediatriya; **médecine opératoire** jarrohlik; **médecine mentale** psixiatriya (*ruhiy kasalliklar va ularni davolash haqidagi fan*).

**médecine-ball** *nm anglic* og'ir to'p (*davolash gimnastikasida qo'llanadi*).

**média** *nm* ommaviy axborot vositalari.

**médian, ane** *adj* o'rta, markaziy, o'rtaga joylashgan; **ligne médiane** o'rta chiziq.

**médiane** *nf* mediana; (*uchburchakning uchidan qarshi tomonning o'rtasiga o'tkazilgan kesma*).

**médiateur, trice** *n* vositachi, o'rtada turuvchi, bitishtiruvchi, dallol, hakam.

**médiation** *nf* kelishtiruvchi, arbitraj (*sudsiz hal etiladigan da'vo-janjallarni bartaraf qiluvchi va tomonlarni kelishtiruvchi organ*).

**médiatrice** *nf* mediatrisa (*berilgan parallel nuqtalar o'rtasidagi geometrik maydon*).

**médical, ale, aux** *adj* meditsinaga oid, tibbiy; **soins médicaux** tibbiy davolash, tibbiy parvarish; **visite médicale** hakimning bemorni ko'rgani kelishi.

**médicament** *nm* dori, dori-darmon.

**médiéval, ale, aux** *adj* O'rta asrga oid; **art médiéval** O'rta asr san'ati.

**médiéviste** *n* O'rta asrlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

**médina** *nf* shaharning, odatda, eski shaharlarning musulmonlar yashaydigan qismi (*shimoliy Afrikada*).

**médiocre** *adj* **1.** o'rtacha, uncha katta, ko'p emas, mo'tadil, o'rta-miyona, oddiy; **salaire médiocre** o'rta-miyona oylik; **2.** o'rtacha, o'rta-miyona; chakana, oddiy, bo'sh; **esprit médiocre** o'rta-miyona aql; **élève médiocre en français** fransuz tilidan bo'sh o'quvchi.

**médiocrement** *adv* o'rta-miyona; qobiliyatsizlik, iste'dodsizlik bilan; **il joue, il travaille médiocrement** u o'rta-miyona chaladi, u o'rta-miyona ishlaydi.

**médiocrité** *nf* o'rta-miyonalik, bo'shlik; **la médiocrité d'une œuvre** asarning bo'shligi.

**médire** *vi* g'iybat, fisq-fasod qilmoq, yomonlamoq, chaynamoq; **médire de, sur qqn** tanqid qilmoq, yomonlamoq.

**médisance** *nf* **1.** tuhmat, bo'hton; fisq-fasod, fisq-fujur, yomonlash, uydirma; **2.** gap-so'z, yolg'on-yashiq, g'iybat.

**médisant, ante** *adj, n* g'iybatchi, yolg'on-yashiqni gapiruvchi, gap-so'z tashuvchi; **il ne craint pas les médisants** u g'iybatchilardan qo'rqmaydi.

**méditatif, ive I.** *adj* o'ylashga molik, xayolchan, kuzatuvchan, o'ychan; **esprit méditatif** kuzatuvchan aql-idrok; **avoir un air méditatif** o'ychan ko'rinmoq; **II.** *n* xayolparast odam.

**méditation** *nm* **1.** chuqur o'y, chuqur xayol, mulohaza; **s'absorber dans la méditation** chuqur o'yga cho'mmoq; **2.** chuqur o'ylash, yaxshilab o'ylab ko'rish, mulohaza qilish; **les mystiques se livrent à de longues méditations** g'ayritabiiy narsalar uzoq mulohaza qilishdan so'ng ochiladi.

**méditer I.** *vt* puxta o'ylamoq, yaxshilab, obdan o'ylab ko'rmoq, chuqur mulohaza qilmoq, mo'ljallab qo'ymoq; **II.** *vi* chuqur o'ylamoq, uzoq xayol surmoq.

**méditerranéen, enne** *adj* o'rta dengizga oid; **le bassin méditerranéen** o'rta dengiz havzasi; *n* **les méditerranéens et les nordiques** o'rta dengizliklar va shimolliklar; **un climat méditerranéen** o'rta dengiz ob-havosi.

**médium[1]** *nm* medium, o'rta parda (*ovoz*); **des médiums** o'rta parda ovozlilar.

**médium[2]** *nm* telepat (*uzoqdan turib fikr va tuyg'ularini boshqa kishiga bildira oladigan odam*).

**médius** *nm inv* o'rta barmoq.

**médullaire** *adj* orqa miya yoki suyak iligiga oid.

**méduse** *nf* meduza.

**méduser** *vt* hayratga solmoq, esankiratib qo'ymoq, dong qotirib qo'ymoq; **il en est resté médusé** u bundan dong qotib qoldi.

**meeting** *nm* miting, yig'in; **mot d'ordre répété dans les meetings** mitinglarda qaytarilgan chaqiriq so'zlar; **meeting d'aviation** aviomodellar ko'rgazmasi.

**méfait** *nm* **1.** qo'pol xato, nojo'ya ish; **il a commis de graves méfaits** u og'ir xatoga yo'l qo'ydi; **2.** ziyon, zarar, ziyon-zahmat; **les méfaits du tabac** tamakining zarari.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**méfiance** *nf* ishonchsizlik, ishonmaslik, shubha, gumonsirash, gumon; **éveiller la méfiance de qqn** biror kishida ishonchsizlikni uyg'otmoq.

**méfiant, ante** *adj* ishonchsiz, shubhali, gumonli; **un air méfiant** shubhali ko'rinish.

**méfier (se)** *vpr* **(de)** ehtiyot bo'lmoq, shubhalanmoq, gumonsiramoq, ishonmaslik; **je me méfie de ces bonnes paroles** men bu chiroyli so'zlarga ishonmayman; **méfiez-vous! il y a une marche** ehtiyot bo'ling! zina bor.

**mégahertz** *nm inv* (**MHz**) megagers; **station de radio émettant sur 103 mégahertz** 103 megagersda eshittirish olib boruvchi radiostansiya.

**mégalithe** *nm* xarsang toshlardan qurilgan obida.

**mégalomane** *adj, n* shuhratparastlik jinnisi, izzattalab, serviqor, ulug'lik aqidasiga duchor bo'lgan; **c'est un mégalomane** bu g'irt shuhratparast.

**mégalomanie** *nf* **1.** shuhratparastlik, baland parvozlik; **2.** o'ta nafsoniyatlilik, izzat-nafsi balandlilik.

**mégaphone** *nm* megafon (*ovozni kuchaytiradigan karnay*).

**mégatonne** *nf* megatonna (*yadro quroli portlash kuchini o'lchash uchun qabul qilingan shartli birlik, bir million tonna trinitrotoluolning portlash kuchiga teng*).

**mégarde** *adv* bilmasdan, bexosdan, tasodifan, ittifoqo; **j'ai pris votre livre par mégarde** men kitobingizni bilmay olibman.

**mégawatt** *nm* megavat.

**mégère** *nf* zahar, badjahl, battol ayol.

**mégisserie** *nf* **1.** teri oshlash, iylash; **2.** charm ishlab chiqarish va uning savdosi.

**mégot** *nm fam* chekib tashlangan papiros va sigareta qoldig'i.

**mégoter** *vt fam* juda ham xasislik, ziqnalik qilmoq, qurumsoqlik qilmoq; **il mégote sur les cadeaux** u sovg'a berishga qurumsoqlik qiladi.

**méhari** *nm* bir o'rkachli arab poyga tuyasi.

**meilleur, eure I.** *adj* yaxshiroq, juda yaxshi, sara, old; **le meilleur, la meilleure** eng yaxshi, eng ezgu; eng yaxshisi; **meilleurs vœux!** eng ezgu tilaklar tilayman! **meilleure santé!** ajoyib sog'lik tilayman! **II.** *adv* **il fait meilleur aujourd'hui qu'hier** bugun ob-havo kechagidan yaxshiroq.

**méjuger** *vt* **1. méjuger de** biror kishi yoki narsaga baho berishda adashmoq, noto'g'ri, yomon baho bermoq; **2.** past nazar tashlamoq, behurmat qilmoq, qadrlamaslik; **on l'a méjugé** uni behurmat qildilar.

**mélancolie** *nf* **1.** dilisiyohlik, tushkunlik, melanxoliya, dilgirlik, xafaqonlik; **2.** g'amginlik, ma'yuslik, hazinlik; **la mélancolie d'un paysage** manzaraning g'amginligi.

**mélancolique** *adj* **1.** dilgir, g'amgin, ma'yus, xafaqon; **2.** g'amgin, ma'yus, hazin; **une chanson mélancolique** g'amgin, hazin ashula.

**mélange** *nm* **1.** aralashtirish, aralashish, qorishtirish; **opérer le mélange de divers éléments** turli moddalarni aralashtirish; **2. sans mélange** sof, asil, toza; **substance à l'état isolé et sans mélange** alohida holdagi va sof modda; **bonheur sans mélange** asil baxt; **3.** aralashma, qorishma, chatishma, duragay; **un mélange de farine et d'œufs** un va tuxum qorishmasi; **mélange ethnique** etnik chatishuv; *fig* qorishma, qotishma, omixta; **un curieux mélange de courage et de faiblesse** ojizlik va jasurlikning qiziq bir omixtaligi.

**mélanger I.** *vt* **1.** aralashtirmoq, qorishtirmoq, qo'shmoq; **mélanger une chose à une autre, avec une autre** bir narsani boshqa bir narsa bilan, narsaga aralashtirmoq; **2.** *fam* chalkashtirib yubormoq; **il a mélangé tous les dossiers, toutes les fiches** u hamma hujjat, hamma kartochkalarni chalkashtirib yuboribdi; **II. se mélanger** *vpr* aralashmoq, qo'shilmoq, qorishmoq.

**mélangeur, euse** *n* qorg'ich, qorishtirg'ich, aralashtirgich, chil-cho'p; **robinet mélangeur** aralashtirgich jo'mrak.

**mélasse** *nf* **1.** quyuq shinni, qiyom; **2.** *fam* quyuq tuman, loyqa; **3.** *fam* qashshoqlik, faqirlik; **être dans la mélasse** qashshoqlikka tushmoq.

**melba** *adj inv* qulupnay yoki shaftolili muzqaymoq.

**mêlé-casse** *nm* aroqqa qora qorag'at qo'shib tayyorlangan ichimlik; *fam* **voix de mêlé-casse** xirillagan ovoz.

**mêlé, ée** *adj* **1.** aralashgan, qorishgan; **couleurs harmonieusement mêlées** uyg'un aralashgan rang; **2. mêlé de** aralashtirilgan, qorishtirilgan, qo'shilgan; **noir mêlé de rouge** qizil aralashtirilgan qora rang; **plaisir mêlé de peine** azob qo'shilgan rohat.

**mêlée** *nf* qo'l jangi, to's-to'polon, ur-yiqit; **se jeter dans la mêlée** qo'l jangiga tashlanmoq.

**mêler I.** *vt* **1.** yig'moq, to'plamoq; **mêler plusieurs thèmes dans une œuvre** turli mavzularni bir asarga to'plamoq; **2.** aralashtirmoq, aralash-quralash qilib yubormoq; **mêler les cartes** qartani chiylamoq, aralashtirmoq; **3.** qo'shib yubormoq, aralashtirmoq; **4.** aralashtirmoq, qo'shmoq; **on l'a mêlé à une affaire dangereuse** uni xavfli ishga aralashtirishdi; **II. se mêler** *vpr* **1.** aralashmoq, qorishmoq, chatishmoq; **peuples, races qui se mêlent** aralashib ketayotgan xalq va irqlar; **2.** qo'shilmoq, aralashib ketmoq; **ils se mêlèrent à la foule** ular olomonga qo'shildilar; **3. (de)** o'ziga taalluqli bo'lmagan ishlarga aralashmoq; **4.** qo'shilmoq, aralashmoq, kirishmoq; **lorsqu'il se mêle de travailler, il réussit mieux qu'un autre** u ishga kirishsa, uning ishlari boshqalarnikidan yaxshiroq bo'ladi.

**mélèze** *nm* tilog'och (*ignabarglilarga mansub daraxt*).

**méli-mélo** *nm fam* aralash-quralash narsa; **des mélis-mélos**.

**mélisse** *nf* limono't; **eau de mélisse** limono'tli sharbat, damlama.

**mélo** *nm fam* melodrama (*fojiali voqealarni kuchli taassurot tug'diradigan hayajonli voqealar bilan bog'lovchi dramatik asar*); **des mélos larmoyants** yig'latadigan melodrama.

**mélodie** *nf mus* ohang; bir parchaning ohangi va maromi; **2.** ashula, romans.

**mélodieux, ieuse** *adj mus* xushohang, ohangdor, yoqimli; **une voix mélodieuse** ohangdor ovoz.

**mélodique** *adj* ohanga oid, ohangli, ohangdor; **phrase mélodique** ohangli gap.

**mélodrame** *nm* **1.** melodrama (*fojiali voqealarni kuchli taassurot tug'diradigan hayajonli voqealar bilan bog'lovchi dramatik asar*); **film qui tourne au mélodrame** melodramaga aylanib ketadigan film; **2.** aynan melodramadagiday holat; **nous sommes en plein mélodrame** biz butunlay melodramadagiday holatga tushib qoldik.

**mélodramatique** *adj* melodramaga oid; **il roulait les yeux d'un air mélodramatique** u ko'zlarini xuddi melodramadagiday olaytirar edi.

**mélomane** *n* musiqasevar; kuy ishqibozi, shinavandasi; *adj* **peuple mélomane** kuyga shinavanda xalq.

**melon** *nm* qovun; **chapeau melon** *ou* **melon** qalpoqning, shlapaning bir turi.

**mélopée** *nf* bir maromdagi hazin kuy yoki ashula.

**membrane** *nf* **1.** parda, qobiq; **2. membrane cellulaire** po'st, po'stloq, po'choq, to'pon; **3.** membrana.

**membraneux, euse** *adj* pardali, qabig'li.

**membre** *nf* **1.** a'zo (*tananing bir qismi*); **les membres supérieurs** yuqorigi a'zolar (*qo'llar*), **inférieurs** quyi a'zolar (*oyoqlar*); hayvonlarning har bir harakat a'zosi (*oyoq, qanot*); **membre viril** yoki **membre** jinsiy a'zo (*erkaklarda*); **2.** a'zo; **tous les membres de la famille** oilaning hamma a'zolari; **les membres de l'O.N.U.** BMTning a'zolari; **3.** *gram* bo'lak; **un membre de phrase** gap bo'lagi; **4.** *math* matematik proporsiya hadlari.

**membrure** *nf* **1.** qaddi-qomat, bo'y-bast, jussa, bichim; **membrure puissante, délicate** baquvvat, nozik jussa; **2.** *mar* kemaning shpangautlari.

**même I.** *adj* **1.** ayni, xuddi, ham, bir; **relire les mêmes livres** ayni o'sha kitoblarni qayta o'qish; **il est dans la même classe que moi** u ham men o'qiydigan sinfda; **en même temps** bir paytda, xuddi bir, o'sha vaqtda; **vous êtes tous du même avis** sizlarning hammalaringiz xuddi shu fikrdasizlar; **de même valeur** xuddi shu qimmatda; **2.** o'zi, xuddi o'zi, o'zginasi; **ce sont les paroles mêmes qu'il a prononcées** bu uning xuddi o'zi aytgan gaplari; **il est la bonté, l'exactitude même** u ezgulik, batartiblikning o'zginasi; **elle(s)-même(s)** uning, ularning o'zi, o'zlari; **eux-mêmes** ularning o'zlari; **II.** *pron* (**le, la, les** *dan so'ng*) **ce n'est pas le même** bu xuddi o'sha emas; *loc* **cela revient au même** bu o'shaning o'zginasi; **III.** *adv* **1.** hatto, hattoki, hatto… ham; **tout le monde s'est trompé, même le professeur** hamma adashdi, hatto o'qituvchi ham; **2.** xuddi, aynan; **je l'ai rencontré ici même** men uni aynan shu yerda uchratdim; **aujourd'hui même** aynan bugun, shu bugunoq; **à même** to'g'ridan-to'g'ri, bevosita, naq, qoq; **il dort à même le sol** u



www.ziyouz.com kutubxonasi

to‘g‘ridan-to‘g‘ri yerda, qoq yerda uxlaydi; **3.** *adv loc* **de même** ham, shuningdek; **vous y allez? moi de même** o‘sha yerga ketayapsizmi? men ham; **tout de même** har holda, shunday bo‘lsa ham; **quand même** hech narsaga qaramasdan; **il est malade, mais travaille quand même** u kasal, lekin shunga qaramay ishlayapti; **il aurait pu le dire quand même!** yoki **tout de même!** u har holda buni aytsa bo‘laverar edi! **4.** *loc prép* **de même que** xuddi …-day; **de même qu'il n'a pas voulu y aller hier, (de même) il n'ira pas demain** u xuddi kecha u yerga borishni xohlamaganiday, u ertaga ham bormaydi; **même si** agar …-sa ham; **même si je lui dis, cela ne changera rien** agar men unga aytsam ham, bu hech narsani o‘zgartirmaydi; **à même de** *loc prép* holatda, qodir; **il est à même de répondre** u javob berishga qodir.

**mémé I.** *nf fam* **1.** *enf* buvi, bibi; **ta mémé va venir** hozir buving keladi; **2.** kampir; **tu parles d'une mémé!** sen kampir haqida gapiryapsan! **II.** *adj* **elle fait mémé, coiffée comme ça** u sochini bunday qilib tarab olsa, kampir bo‘ladi qoladi.

**mémento** *nf* yozuv daftari; xotira, qo‘yin, yon daftari.

**mémère** *nf fam* **1.** *enf* buvi, bibi, acha, katta ona, ena; **2.** semiz ayol, onaxon.

**mémoire**[1] *nf* **1.** xotira, yod, es, hush, zehn; **événement encore présent à la mémoire** hali xotiradan ketmagan, xuddi kechagidek; **réciter, jouer de mémoire** yoddan aytmoq, chalmoq; **garder la mémoire d'un événement** biron hodisani yodda tutmoq; **2.** *inform* xotira; **mise en mémoire** xotiraga joylash, olish; **3.** xotira, nom; **réhabiliter la mémoire d'un savant** biron olimning xotirasini, nomini tiklamoq; **à la mémoire de** xotirasi uchun, xotirasiga bag‘ishlab.

**mémoire**[2] *nm* **1.** hisob; hisobot; **2.** dissertatsiya, ilmiy tadqiqot; **mémoire de maîtrise** diplom ishi; **3.** *pl* esdaliklar, xotiranomalar, yodnomalar; **écrire ses mémoires** esdaliklar yozmoq.

**mémorable** *adj* xotirada saqlanadigan, unutilmaydigan, unutilmas; **jour mémorable** unutilmas kun.

**mémorandum** *nm* **1.** memorandum, bayonnoma, bayonot; **2.** qayd, xotira, yozma xotira.

**mémorial, aux** *nm* haykal, yodgorlik; **mémorial élevé en honneur des victimes de la guerre** urush qurbonlari sharafiga o‘rnatilgan yodgorlik.

**mémorialiste** *n* esdaliklar yozuvchi, xotiranavis, adib.

**mémorisation** *nf* xotirada, esda tutish, eslab turish; **procédés de mémorisation** xotirada tutish usullari.

**mémoriser** *vt* xotirada, esda saqlamoq.

**menaçant, ante** *adj* **1.** xavfli, xatarli, qo‘rqinchli, tahlikali, dahshatli; **air menaçant** xatarli ob-havo, tahdidli bashara; **2.** tahdid qiladigan, tahdidli (*narsa*); **geste menaçant** tahdidli ishora.

**menace** *nf* **1.** do‘q, tahdid, po‘pisa; **2.** xavf-xatar, tahlika, qo‘rqinch; **menace de guerre** urush xavfi.

**ménage** *nm* **1.** xo‘jalik, ro‘zg‘or, mol-mulk; **tenir son ménage** ro‘zg‘or tutmoq; **2.** ro‘zg‘or; **se mettre en ménage** ro‘zg‘or qilmoq; **faire bon, mauvais ménage avec qqn** biron kishi bilan yaxshi, yomon ro‘zg‘or, turmush qurmoq; **3.** oila, xo‘jalik; **un jeune, un vieux ménage** yosh, qari oila.

**ménagement** *nm* **1.** ehtiyotkorlik, iltifot, mulozamat; **traiter qqn sans ménagement** biron kishiga nisbatan ehtiyotsizlik bilan muomala qilmoq, mulozamatsizlik qilmoq; **2.** avaylash.

**ménager I.** *vt* **1.** ehtiyotkorlik bilan uyushtirmoq, tashkil qilmoq; **2.** ehtiyot qilmoq, avaylamoq; **ménager du temps pour faire qqch** biron ish qilish uchun vaqtini avaylamoq; **3.** joylashtirmoq, o‘rnatmoq; **ménager un escalier dans l'épaisseur du mur** zinapoyani devor ichiga joylamoq; **4.** avaylamoq, ehtiyot qilmoq, tejamoq; **ménager ses vêtements** ust-boshini avaylamoq; **ménager ses forces** kuchini tejamoq; **5.** ehtiyot bo‘lib, og‘ziga qarab gapirmoq; **ménagez vos expressions!** iboralaringizga ehtiyot bo‘ling! *fam* og‘zingizga qarab gapiring! **6.** ehtiyot qilmoq, avaylamoq; *loc prov* **qui veut voyager loin ménage sa monture** uzoqqa boraman degan, ulovini ehtiyot qiladi; **7.** ayamoq (*birovni*); **il était plus fort, mais il ménageait visiblement son adversaire** u kuchliroq edi, lekin u yaqqol o‘z raqibini ayar edi; **III. se ménager** *vpr* o‘zini ehtiyot qilmoq, o‘zini avaylamoq; **vous devriez vous ménager** o‘zingizni ehtiyot qilsangiz bo‘lar edi; **elle ne s'est pas ménagée, ces derniers temps** u shu oxirgi vaqtda o‘zini avaylamadi.

**ménager, ère** *adj* **1.** xo‘jalikka, ro‘zg‘orga oid; **travaux ménagers** uy ishlari; **appareils ménagers** uy-ro‘zg‘or asboblari; **2.** oiladan, ro‘zg‘ordan kelib chiqadigan; **eaux, ordures ménagères** mag‘zava, axlat, chiqindi.

**ménagère** *nf* **1.** uy bekasi, xizmatkor ayol; *loc* **le panier de la ménagère** bir kunlik ro‘zg‘or xarajatlari; **2.** oshxona anjomlari (*qoshiq, sanchqi*); **une ménagère en inox** zanglamaydigan po‘latdan qilingan oshxona asboblari.

**ménagerie** *nf* qo‘riqxona, noyob hayvonlar saqlanadigan joy; **la ménagerie d'un cirque** sirk hayvonotxonasi.

**mendiant, ante** *n* tilanchi, tilamchi, gadoy, devona; **faire la charité à un mendiant** gadoyga sadaqa bermoq.

**mendicité** *nf* gadoylik, tilanchilik; **être réduit à la mendicité** gadoylikka duchor, griftor bo‘lmoq.

**mendier I.** *vi* tilanmoq, tilanchilik, gadoychilik qilmoq; **II.** *vt* sadaqa so‘ramoq, tilamoq.

**mendigot, ote** *n fam péj* gadoy, tilanchi.

**mendigoter** *vt, vi fam péj* tilanchilik, tilanchilik, gadoychilk qilmoq.

**menées** *nf pl* hiyla, hiyla-nayrang, firibgarlik; **menées subversives** buzg‘unchilikka, qo‘poruvchilikka chorlovchi hiyla-nayrang.

**mener** *vt* **1.** olib bormoq, olib chiqmoq; **mener un enfant à l'école** bolani maktabga olib bormoq; **2.** oldinda bo‘lmoq; **cette équipe mène deux (à) zéro** bu komanda ikki-yu nol hisobida oldinda borayapti; **3.** boshqarmoq; **se laisser mener** boshqartirmoq, boshqartirib qo‘ymoq (*o‘zini*); **l'intérêt mène le monde** manfaat dunyoni boshqaradi; **4.** boshqarmoq, boshchilk qilmoq; **mener rondement une affaire** ishni ustalik bilan boshqarmoq; **mener à** olib bormoq; **mener qqch à bien** biror narsani muvaffaqiyat bilan tugatmoq; **mener une chose à bonne fin, à terme** ishni yaxshi tugatmoq, nihoyasiga yetkazmoq; **5.** olib bormoq; **voilà l'autobus qui vous mènera chez moi** mana sizni mening uyimga olib borib qo‘yadigan avtobus; **6.** bormoq, olib bormoq; **où mène cette route?** bu yo‘l qayerga olib boradi? **7.** *géom* o‘tkazmoq, chizmoq; **mener une parallèle à une droite** to‘g‘ri chiziqqa parallel o‘tkazmoq.

**ménestrel** *nm* sayyor ashulachi, masxaraboz (*O‘rta asrlarda*).

**ménétrier** *nm* to‘ylarda xizmat qiluvchi qishloq skripkachisi.

**meneur, euse** *n* **1. meneur de jeu** tomoshani olib boruvchi, boshqarib boruvchi; **2.** boshchi, boshliq, sarkor; **on a arrêté les meneurs** boshliqlarini qo‘lga olishdi; **3.** yo‘lboshchi, yetakchi, ishboshi; **un meneur d'hommes** odamlarning yetakchisi.

**menhir** *nm* tikka joylashgan qadimiy toshlar.

**méninge** *nf* **1.** *anat* miya pardasi (*qabig‘i*); **2.** *fam pl* miya, aql, kalla; **il ne s'est pas fatigué les méninges** u miyasini charchatmadi.

**méningé, ée** *adj* miya pardasiga (*qabig‘iga*) oid.

**méningite** *nf méd* meningit, orqa miya pardasining shamollashi.

**ménisque** *nf méd* shilliq parda; **les ménisques du genou** tizzaning shilliq pardalari.

**ménopause** *nf méd* klimaks.

**menotte** *nf pl* **1.** kishan; **passer les menottes à un suspect** shubhali odamning qo‘liga kishan solmoq; **2.** bolaning qo‘li; **une menotte potelée** do‘mboqqina qo‘lcha.

**mensonge** *nm* **1.** yolg‘on, yolg‘on gap, yolg‘on-yashiq, uydirma, to‘qima, bo‘hton; **2.** yolg‘onchilik, yolg‘on-yashiq ishlatish, uydirmachilik, to‘qimachilik; **elle vit dans le mensonge** u yolg‘onchilikning ichida yashayapti; **3.** yolg‘onchi, aldamchi.

**mensonger, ère** *adj* yolg‘on, aldamchi, aldaydigan, uydirma, to‘qima.

**menstruation** *nf* menstruatsiya, oy ko‘rish, hayz.

**menstruel** *adj* menstruatsiyaga, oy ko‘rishga, hayzga oid.

**mensualité** *nf* oylik, oylik to‘lov.

**mensuel, elle I.** *adj* oylik, oyda bir bo‘ladigan, har oygi; oyda bir to‘lanadigan; **revue mensuelle** oylik, oyda bir chiqadigan jurnal; **salaire mensuel** oylik ish haqi; **II.** *n* oylikchi, oylik maosh oluvchi.

**mensuellement** *adv* har oy, har oyda, oyiga.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mensuration** *nf* o'lchash, antropometriya (*odam tanasi va a'zolarini o'lchashga asoslangan tekshirish usuli*); **prendre ses mensurations** tana a'zolarini o'lchamoq.

**mental, ale, aux** *adj* **1.** xayolda, fikrda, miyada tug'ilgan, xayolga, miyaga, ko'ngilga keltirilgan, tasavvur qilingan, xayoliy, fikriy, ko'ngildagi; **calcul mental** miyadagi hisob-kitob; **2.** ruhiy, es, aql, aqliy; **maladie mentale** ruhiy kasallik.

**mentalement** *adv* **1.** xayolan, fikran, miyada; **2.** ruhan, es-hushda, aqlan; **il est mentalement atteint** u aqlan yetuk.

**mentalité** *nf* **1.** aql-idrok, aqlning yo'nalishi, aql tuzilishi, xususiyati, fikr yuritish; **2.** aql, aql-zakovat, zehn, es-hush; **sa mentalité me déplaît** uning aql-zakovati menga yoqmayapti.

**menteur, euse I.** *n* yolg'onchi, aldamchi, kazzob; **II.** *adj* yolg'onchi, aldamchi, kazzob; **je ne la croyais pas si menteuse** men uni bunchalar yolg'onchi deb o'ylamagan edim.

**menthe** *nf* **1.** yalpiz; **2.** yalpizdan tayyorlangan dori; **bonbons à la menthe** yalpizli konfetlar.

**menthol** *nm* mentol (*yalpiz moyidan olinadigan yaltiroq kristall modda*).

**mentholé, ée** *adj* mentolli, yalpiz ta'mli; **cigarettes mentholées** mentolli sigaretalar.

**mention** *nf* **1.** dalil, izoh keltirish; **il n'en est pas fait mention dans cet ouvrage** u bu ishda manbalardan dalil keltirmagan; **2.** belgi, ishora; **rayer les mentions inutiles** keraksiz belgilarni chiqarib tashlamoq; **3.** taqriz, baho; **mention bien, très bien, très honorable** (*doktorlik ishiga nisbatan*) yaxshi, juda yaxshi, a'lo baho.

**mentionner** *vt* ta'kidlamoq, eslatmoq, aytib o'tmoq, tilga olmoq, gapirib, to'xtalib o'tmoq; **ne faire que mentionner une chose** bir narsani faqat tilga olibgina o'tmoq.

**mentir** *vi* **1.** aldamoq, yolg'on gapirmoq; **2.** soxta bo'lmoq, **son sourire ment** uning kulishi soxta; **vous faites mentir le proverbe** siz maqol mazmunini soxtalashtiryapsiz.

**menton** *nm* iyak, engak.

**mentonnière** *nf* jag' osti qayishi, bog'ich; **la mentonnière d'un casque** sovut bog'ichi.

**mentor** *nm litt* rahnamo, ustoz, murabbiy, nasihatgo'y.

**menu[1], ue I.** *adj litt* mayda, kichkina (*hajm*); **2.** mayda, kichik, arzimas, ahamiyatsiz, mayda-chuyda; **menus détails** mayda-chuyda tafsilotlar; **menue monnaie** mayda pul, tanga-chaqa; **II.** *nm* **par le menu** tafsilotigacha, mayda-chuydasigacha, ikir-chikirigacha; **il nous a raconté cela par le menu** u bizga buni ikir-chikirigacha aytib berdi; **III.** *adv* maydalab, mayda-mayda qilib; **viande, oignons hachés menu** maydalab chopilgan go'sht, piyoz.

**menu[2]** *nm* **1.** taomnoma; **menu de restaurant** restoran taomnomasi; **2.** *inform* operatsiyalar ro'yxati.

**menuet** *nm* **1.** menuet (*qadimiy raqs*); **2.** shu raqsga taalluqli sonata.

**menuiserie** *nf* **1.** duradgorlik; **2.** duradgorlik ishlari; **3. menuiserie métallique** eshikning metall anjomlarini tayyorlash.

**menuisier** *nm* duradgor; **menuisier de bâtiment** duradgor usta; **menuisier d'art** o'ymakor usta.

**méphitique** *adj* sassiq, qo'lansa, badbo'y, bo'g'uvchi, zaharli.

**méplat** *nf* tekis, tekis tomon (*yuzning yoki berilgan shaklning*).

**méprendre (se)** *vpr litt* adashmoq, yanglishmoq, chalkashtirib yubormoq; **ils se ressemblent à s'y méprendre** ular bir biriga chalkashtirib yuborish darajasida o'xshaydilar; **elle s'est méprise sur son compte** u u haqda yanglishdi.

**mépris** *nm inv* **1.** mensimaslik, e'tiborsizlik, pisand qilmaslik, nazarga ilmaslik, nazar-pisand qilmaslik; **le mépris du danger, des richesses** xavfni nazar-pisand qilmaslik, boylikni nazarga ilmaslik; *loc* **au mépris de** qaramay, qaramasdan, xilof o'laroq; **2. mépris pour** nafratlanish, nafrat, jirkanish, hazar qilish; **il n'a que du mépris pour eux** u ularga faqat nafratlanish bilan qaraydi; **il est digne de mépris** u nafratga loyiq; **un air plein de mépris** nafratga to'la yuz; **avoir du mépris pour qqch** biror narsadan hazar qilmoq.

**méprisable** *vt* nafratga loyiq, jirkanch; **un homme, un procédé méprisable** jirkanch odam, ish.

**méprisant, ante** *adj* nafratli, jirkanchli.

**méprise** *nf* adashish, yanglishish, chalkashtirish; **commettre une méprise** chalkashtirib yubormoq; **une méprise ridicule, gênante** kulgili, xijolatli yanglishish.

**mépriser** *vt* e'tiborsizlik, beparvolik bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik, nazar-pisand qilmaslik; **mépriser le danger** xavf-xatarni nazar-pisand qilmaslik; **2.** mensimaslik, nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar qilmoq; **je le méprise pour l'attitude qu'il a eue** men undan qilgan qiliqlari uchun nafratlanaman.

**mer** *nf* dengiz.

**mercanti** *nm* chayqovchi, qo'li egri savdogar.

**mercantile** *adj* manfaatparast, faqat foydani ko'zlaydigan, mayda-chuydaga o'ch savdogarga xos bo'lgan.

**mercantilisme** *nm* **1.** faqat foydani ko'zlash, manfaatparastlik; **2.** merkantilizm (*XVI-XVII-asrlarda savdo burjuaziyasi manfaatlarini ifoda etuvchi ta'limot*).

**mercenaire I.** *adj litt* yollangan, yollanma; **troupes mercenaires** yollanma to'dalar; **II.** *nm* yollanma askar.

**mercerie** *nf* **1.** attorlik mollari; **2.** attorlik, attorlik do'koni.

**merci[1]** *nf* **à la merci de** himoyasida, g'amxo'rligida, marhamati ostida, ixtiyorida; **tenir qqn à sa merci** birovni o'z himoyasiga olmoq; *loc* **dieu merci** xudoga shukur; **il n'est pas au courant, Dieu merci!** uning xabari yo'q; xudoga shukur! **sans merci** rahmsiz, shafqatsiz, beomon, ayovsiz; **une lutte sans merci** shafqatsiz kurash.

**merci[2] I.** *nm* rahmat, tashakkur, minnatdorchilik; **II.** *intj* **merci beaucoup** ko'p rahmat, tashakkur; **merci pour, de votre lettre** xatingiz uchun rahmat.

**mercier, ière** *n* attor.

**mercredi** *nm, adv* chorshanba.

**mercure** *nm* simob.

**mercurochrome** *nm* simobli xrom surmasi; **badigeonner une plaie avec du, au mercurochrome** yaraga simobli xrom surtmoq.

**merde** *fam* **I.** *nf* **1.** najas, axlat; **2.** manfur, jirkanch, razil odam, narsa; **3.** yaramas, jirkanch holat, mushkul ahvol; **ils sont dans une sacrée merde** ular mushkul ahvolda; **foutre la merde** nizo solmoq, adovat urug'ini sochmoq; *loc adj* **de merde** iflos, jirkanch, yaramas, yoqimsiz, juda yomon; **un temps de merde** yoqimsiz ob-havo; **II.** *intj* **1.** iblis, ablah, iflos, jin ursin! **je vous dis merde** men sizga iflos deyapman; **2.** nima balo, bu qanaqa gap! bo'lmagan gap; **merde alors!** nima balo!

**merdique** *adj fam* yomon, rasvo, yaramas, arzimas; **film, soirée merdique** rasvo film, kecha.

**merdoyer** *vi fam* jonga tegmoq, ming'illamoq **elle a merdoyé lamentablement** u o'kinch ohangida ming'illadi.

**mère** *nf* **1.** ona; **2.** ona hayvon; **une mère lionne et ses lionceaux** ona sher va uning bolalari; **3.** enaga; **mère adoptive** birovning bolasini emizib boquvchi ayol; **4.** ayollar monastirining boshlig'i; **oui, ma mère** xo'p, onajon; **5.** ona, oyi; **la mère patrie** ona vatan; **2.** ona, asos, bosh; *prov* **l'oisiveté est mère de tous les vices** hamma illatlarning boshi bekorchilikdir; **branche mère** asosiy shox.

**mère-grand** *nf vx* buvi, buvijon, bibi; **des mères-grand** buvijonlar.

**merguez** *nf inv* qalampirli kichik sosiska.

**méridien, ienne I.** *adj* **hauteur méridienne d'un astre** biron sayyoraning tikkaga kelgan vaqti; **II.** *nm* meridian; **heure du méridien de Greenwich** Grinvich meridiani vaqti.

**méridional, ale, aux I.** *adj* janubiy, janubga qaragan, janubdagi, kunyurishdagi, janub; **climat méridional** janub ob-havosi; **II.** *n* janublik, janub kishisi (*Fransiyada*).

**meringue** *nf* merenga, beze (*tuxumning oqi va shakar qo'shib tayyorlangan juda yengil pishiriq*).

**meringué, ée** *adj* beze qoplangan, surtilgan; **glace meringuée** bezeli muzqaymoq.

**mérinos** *nm inv* **1.** merinos, mayin yungli qo'y turi; **2.** *loc fam* **laisser pisser le mérinos** ishni o'z holiga qo'yib bermoq.

**merise** *nf* tog' olcha (*mevasi*).

**merisier** *nm* tog' olcha daraxti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**méritant, ante** *adj iron* hurmatli, izzatli, hurmatga sazovor.

**mérite** *nm* **1.** xizmat, qadr-qimmat, e'tibor, obro'; **avoir du mérite à** e'tiborga ega bo'lmoq; **2.** maqtov, maqtovga loyiqlik; **sa persévérance n'est pas sans mérite** uning qat'iyligi maqtovdan xoli emas; **3.** fazilat, yaxshi xislat; **un homme de mérite** fazilatli odam; **ce travail a certains mérites** bu ishning ma'lum fazilatlari bor; **vanter les mérites de qqn, de qqch** biron kishining, narsaning yaxshi xislatlarini maqtamoq; **4.** xizmat ko'rsatgan (*mukofotlarda*); **chevalier du mérite agricole** qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatgan xodim.

**mériter** *vt* **1.** hurmatga, izzatga sazovor bo'lmoq, loyiq bo'lmoq, arzimoq, qozonmoq, olmoq; **ceci mérite réflexion** bunisi o'ylab ko'rishga arziydi; **2.** loyiq bo'lmoq, arzimoq; **il ne méritait pas de tels amis** u bunday do'stlarga loyiq emas edi.

**méritoire** *adj* maqtovga loyiq, arziydigan (*narsa*); **œuvre, effort méritoire** maqtovga loyiq asar, sayi-harakat.

**merlan** *nm* merlan (*dengiz balig'ining bir turi*).

**merle** *nm* qorashaqshaq; **siffler comme un merle** qorashaqshaqday sayramoq.

**merlin** *nm* to'qmoq (*qushxonada ho'kizlarni o'ldirish uchun*); **un coup de merlin** to'qmoq tushganday.

**merlu** *nm* merluza (*baliq turi*).

**merluche** *nf* quritilgan treska.

**mérou** *nm* o'rta dengizda bo'ladigan katta baliq.

**mérovingien, ienne I.** *adj* merovinglarga oid; **les rois mérovingiens** meroveng qirollari; **II.** *n pl* merovenglar.

**merveille** *nf* mo'jiza, karomat, ajoyibot, g'aroyibot; **les merveilles de la nature, de l'art** tabiat, san'at mo'jizalari; **les sept merveilles du monde** dunyoning yetti mo'jizasi.

**merveilleusement** *adv* ajoyibona, mo'jizavor, go'zal.

**merveilleux, euse I.** *adj* **1.** ajoyib, g'aroyib, mo'jizadek, mo'jizavor; **2.** ajoyib, go'zal, juda soz; **un merveilleux chant** ajoyib qo'shiq; **II.** *nm* g'ayritabiiy, mo'jizaviy, favqulodda, mislsiz.

**mes** *adj voir* **mon**.

**mésalliance** *nf* tengsiz nikoh.

**mésange** *nf* chittak.

**mésaventure** *nf* noxush sarguzasht, mojaro; **il m'est arrivé une mésaventure** men boshimdan noxush mojaro kechirdim.

**mescaline** *nf* meskalin (*kayf qildiruvchi modda*).

**mesclun** *nm* giyohlar aralashmasidan tayyorlangan salat.

**mesdames** *nf pl voir* **madame**.

**mesdemoiselles** *nf pl voir* **mademoiselle**.

**mésentente** *nf* kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof, nifoq.

**mésentère** *nm anat* qatqorin.

**mésestimer** *vt litt* hurmatlamaslik, izzatlamaslik, izzat-ikrom ko'rsatmaslik, yetarlicha, munosib baho bermaslik, nazar-pisand qilmaslik, e'tiborsizlik bilan qaramoq; **ne mésestimez pas les difficultés** qiyinchiliklarga e'tiborsizlik bilan qaramang.

**mésintelligence** *nf litt* kelishmovchilik, ziddiyat, nizo, ixtilof.

**mesquin, ine** *adj* **1.** past, pastkash, nazari past, ojiz, nochor, chegaralangan, o'rtacha, o'rta-miyona; **un esprit mesquin** chegaralangan aql; **des idées mesquines** o'rta-miyona g'oyalar; **2.** xasis, ziqna, qurumsoq, baxil; **n'offrez pas si peu, ce serait mesquin** bunchalik oz bermang, bu xasislik qilgan bo'ladi; **cela fait mesquin** bu qurumsoqlik bo'ladi.

**mesquinerie** *nf* **1.** pastlik, pastkashlik, qabihlik, nazari pastlik, o'rta-miyonalik; **la mesquinerie d'une vengeance** qasosning qabihligi; **2.** xasislik, ziqnalik, qurumsoqlik, baxillik.

**mess** *nm inv* zobitlar va kichik komandirlar oshxonasi, klubi.

**message** *nm* **1.** topshiriq; **s'acquitter d'un message** topshiriqni bajarmoq; **je suis chargé d'un message** menga topshiriq yuklatilgan; **2.** maktub, noma, xat, murojaat, murojaatnoma; **message écrit** noma; **recevoir, transmettre un message** maktub olmoq, maktub topshirmoq; **message publicitaire** e'lonnoma; **3.** mazmun, ma'no, g'oya, asosiy fikr; **le message d'un écrivain** yozuvchining g'oyasi; **chanson à message** ma'noli ashula; **4.** xabar, axborot, bildirish, xabarnoma; **le code d'un message** xabarnomaning kodi (*shartli belgilari*).

**messager, ère** *n* **1.** chopar, xabarchi; **2.** *litt* darakchi, xabarchi, alomat, nishona; **les oiseaux migrateurs, messagers de l'hiver** ko'chmanchi qushlar, qish darakchilari.

**messagerie** *nf* yuk tashish xizmati; dengiz, havo orqali yuk tashish xizmati; **messagerie de presse** matbuot yukini tarqatish xizmati.

**messe** *nf relig* messa ibodat; **le prêtre dit la messe** ruhoniy ibodat aytyapti; **les enfants de chœur servent la messe** xor bolalari ibodatga xizmat qilishyapti; **aller à la messe** ibodatga bormoq; **messe de minuit** yarim tungi ibodat (*rojdestvo munosabati bilan*); **2. messe noire** kufroniy messa, shakkoklik; **3.** ibodat vaqtida aytiladigan kuy; **4.** *loc* **faire des messes basses** shivirlab, past ovoz bilan gapirmoq.

**messie** *nm* muso, masih; *fam* **attendre qqn comme le messie** ko'zi to'rt bo'lib kutmoq.

**messieurs** *nm* **monsieur** ning ko'pligi.

**messire** *nm* oliy hazrat, hazrat, janob oliylari, janob; **messire Jehan** Jan hazratlari.

**mesurable** *adj* o'lchasa bo'ladigan; **une grandeur mesurable** o'lchasa bo'ladigan kattalik.

**mesure** *nf* **1.** o'lchash; **la mesure d'une grandeur** kattalikni o'lchash; **système de mesure** o'lchash tartibi; **2.** o'lchov, kattalik; **les mesures d'un meuble** mebelning kattaligi; **les mesures d'une personne** kishining jussa o'lchovi, kattaligi; **sur mesure** loyiq, mos, mos keladigan, moslashtirilgan; **costume (fait) sur mesure** loyiq qilib tikilgan ust-bosh; *fig* **rôle sur mesure** o'zi bop rol; **3.** qodirlik, qudrat; **la mesure de ses forces** o'z kuchining qudrati; **donner sa mesures** o'zning nimaga qodirligini ko'rsatmoq; biron kishini, uning qobiliyatlarini baholamoq, aniq bahosini bermoq; **4.** *loc* **à la mesure de** loyiq, mos, munosib; **un adversaire à sa mesure** o'ziga munosib raqib; **dans la mesure de, où** darajasida; **dans la mesure du possible** imkoniyat darajasida; **dans la mesure où nous le pourrons** bunga ilojimiz yetgancha; **il a raison, dans une certaine mesure** u ma'lum darajada haq; **à mesure que, au fur et à mesure que** asta-sekin, sekin-asta, bora-bora, tobora; bo'lishiga qarab; -ga muvofiq; -gan sari; **on s'aime à mesure qu'on se connaît mieux** bir-birini yaxshiroq tanishgan sari sevishib boradi; **5.** o'lchov, miqdor; **mesures de longueur, de capacité** uzunlik, sig'im o'lchovlari; **6.** chora (*g'alla, don o'lchovi va shunday o'lchovli g'alvirsimon idish*); **donner deux mesures d'avoine à un cheval** otga ikki chora suli bermoq; **7. commune mesure** moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri, mos kelishlik; **il n'y a pas de commune mesure entre ces quantités, elles sont incommensurables** bu miqdorlar bir-biriga mos kelmaydi, ular o'lchab bo'lmaydigan; **il n'y a aucune commune mesure entre Shakespeare et ses contemporains** Shekspir zamondoshlari orasida unga mos keladigani yo'q; **c'est sans commune mesure** buning tengi yo'q; **8.** had, me'yor, chegara, chek; me'yorida; *loc* **outre mesure** haddan tashqari, haddan ziyod, ortiq; ortiq darajada; **9.** ehtiyotkorlik, ehtiyotkorlik bilan, keyinini o'ylab ish tutish; **avoir de la mesure** ehtiyotkor bo'lmoq; **dépenser avec mesure** keyinini o'ylab sarflamoq; **10.** chora, tadbir, iloj; **prendre des mesures d'urgence** shoshilinch choralar ko'rmoq; **11.** *mus* takt, vazn birligi, musiqa asbobining baravar vaqt davom etadigan har bir bo'lagi, o'lchov; **mesure à quatre temps** to'rt chorakli takt; *loc* **en mesure** monand, mos; **12. être en mesure de** qila olmoq, qodir bo'lmoq, qo'lidan kelmoq, qurbi yetmoq, imkoniyatga ega bo'lmoq; **je ne suis pas en mesure de te répondre** men senga javob berishga qurbim yetmaydi.

**mesuré, ée** *adj* **1.** bir maromdagi, bir tekis, bir o'lchovdagi, bir vazndagi; **2.** ehtiyotkor, ehtiyotli; ehtiyotkorlik bilan, ketini o'ylab ish tutadigan; ehtiyotkorlik bilan, ketini o'ylab qilingan; **il est mesuré en tout** u har doim oxirini o'ylab ish tutadi; **des éloges mesurés** ehtiyotkorlik bilan qilingan maqtovlar.

**mesurer I.** *vt* **1.** o'lchamoq; **mesurer une pièce, un couloir au mètre** xonani, koridorni metrlab o'lchamoq; **mesurer qqn** birovni, bo'yini o'lchamoq; **2.** o'lchab chiqmoq; **mesurer (qqch) par l'observation directe, par le calcul** (*biror narsani*) to'g'ridan-to'g'ri kuzatish, hisoblash yo'li bilan o'lchab chiqmoq; **3.** *fig* chamalab (*taroziga solib*) ko'rmoq, o'ylab ko'rmoq, baho bermoq; **mesurer la portée, l'efficacité d'un acte** ishning muhimligini,



www.ziyouz.com kutubxonasi

foydaliligini chamalab ko'rmoq; **4.** o'lchov bilan belgilamoq; hisoblamoq, hisoblab bermoq; **il lui mesure l'aide qu'il lui donne** u unga bergan yordamini hisoblab boradi; **le temps nous est mesuré** vaqt bizga hisoblab berilgan; **5.** o'ylab, hisob-kitob qilib ishlatmoq; **mesurez vos expressions!** iboralarni o'ylab ishlating; **II.** *vi* kattalikka, o'lchamga, miqdorga ega bo'lmoq, tashkil etmoq, iborat bo'lmoq, teng bo'lmoq; **cette planche mesure deux mètres** bu taxta ikki metrdan iborat; **il mesure un mètre quatre-vingts** uning bo'yi ikki metr sakson santimetrga teng; **III. se mesurer** *vpr* **1.** o'lchanmoq; bu masofa kilometr bilan o'lchanadi; **2. se mesurer avec, à qqn** biron kishi bilan kuch sinashmoq.

**métabolisme** *nm* modda almashinuvi.

**métacarpe** *nm* panja o'zagi, kaft orqasi.

**métairie** *nf* teng sherik ijara.

**métal, aux** *nm* **1.** metall; **métaux précieux** asl metallar; **métaux radioactifs** radioaktif metallar; **le minerai d'un métal** metall rudasi; **2. industrie des métaux** metallurgiya, metall ishlab chiqarish; **lame, plaque de métal** metall tig', metall taxta.

**métallique** *adj* metalldan qilingan, metall; **charpente métallique** metall konstruksiya; **monnaie métallique** tanga; **2.** metallga xos, metallday; **éclat, reflet métallique** metallday yarqirash, tovlanish; **3.** jarangdor, jarangli (*ovoz*); **bruit, son métallique** jarangli shovqin, ovoz.

**métallisé, ée** *adj* metallday yaraqlatilgan, yaltiratilgan, yarqiratilgan; **peinture métallisée** yarqiratilgan rasm; **voiture gris métallisé** yaraqlatilgan kulrang mashina.

**métallo** *nm fam* metallurg; **des métallos** metallurglar.

**métallographie** *nf* metallografiya (*metallarning ichki tuzilishi va fizik xususiyatlari haqidagi fan*).

**métalloïde** *nm* metalloid.

**métallurgie** *nf* metallurgiya; **la métallurgie du fer** qora metallurgiya.

**métallurgique** *adj* metallurgiyaga oid, metallurgiya; **les industries métallurgiques** metallurgiya sanoati.

**métallurgiste** *nm* **1.** metall sanoati ishchisi, metallsoz; **les métallurgistes de l'automobile** avtomobil qurilishining metallsozlari; **2.** metallurg.

**métamorphique** *adj* boshqa tusga kirgan, aylangan (*shamol, bosim natijasida boshqa tusga kirgan xarsang toshlar haqida*).

**métamorphisme** *nm* boshqa tusga kirish, aylanish.

**métamorphose** *nf* **1.** metamorfoza (*boshqa ko'rinishga o'tish, boshqa tusga kirish, aylanish*); **la métamorphose d'un homme en animal** odamning hayvonga aylanishi; **2.** metamorfoza (*rivojlanish natijasida boshqa ko'rinishga o'tish, boshqa tusga kirish, aylanish*) **métamorphose du têtard en grenouille** itbaliqning baqaga aylanishi; **les métamorphoses des insectes** hasharotlarning boshqa tusga kirishi; **3.** to'la, butunlay, keskin o'zgarish (*odam, narsaga nisbatan*).

**métamorphoser** *vt* **1.** o'zgartirmoq, aylantirmoq; **2.** to'la, butunlay, keskin o'zgartirmoq (*odam, narsaga nisbatan*); **l'amour l'a métamorphosé** sevgi uni butunlay o'zgartirib yubordi; **le petit garçon s'est métamorphosé en homme** kishiga aylanib qolgan kichkina bola.

**métaphore** *nf* metafora, istiora, majoz; **"donner dans le panneau" est une métaphore** "tuzog'iga ilinmoq" metaforadir.

**métaphorique** *adj* **1.** metaforadan iborat bo'lgan, metaforali, majoziy, istiorali; **2.** metaforaga, istioraga boy.

**métaphoriquement** *adv* metaforali, majoziy, istiorali; **style métaphorique** metaforali, jonli, ta'sirchan uslub.

**métaphysicien, ienne** *n* metafizik.

**métaphysique I.** *nf* metafizika, borliqning sabablarini va asoslarini o'rganuvchi falsafiy ta'limot; **II.** *adj* **1.** metafizikaga oid, metafizika ta'limotlariga asoslangan; metafizik; **le problème métaphysique de la liberté humaine** inson erkinligining metafizik masalalari; **2.** umumiy tarzdagi, mavhum, noaniq; **cette discussion est bien métaphysique** bu munozara juda ham mavhum.

**métatarse** *nm anat* oyoqning kafti (*tovon bilan barmoqlar o'rtasi*).

**métayage** *nm* nisfikorlik, chorakorlik, bir qism foyda uchun yer ekish.

**métayer, ère** *n* nisfikor, chorakor, arendator, fermer.

**méteil** *nf* javdari bug'doy.

**métempsychose** *nf* ruhning bir tandan boshqa tanga ko'chib yurishi haqidagi ta'limot.

**météo I.** *nf abrév voir* **météorologie**; **les prévisions de la météo** ob-havo ma'lumoti; **II.** *adj inv abrév voir* **météorologique**; **bulletins météo** ob-havo ma'lumoti.

**météore** *nm* meteor, uchar yulduz; *loc* **passer comme un météore** o'qdek tez (*yilt etib, milt etib, ko'rinib, g'oyib bo'lmoq*).

**météorique** *adj* meteoritga oid, meteoritda bo'ladigan, meteorit.

**météorite** *nm ou f* meteorit (*fazodan yerga tushgan jism*); **chute d'un météorite** meteoritning tushishi.

**météorologie** *nf* **1.** meteorologiya (*ob-havo va boshqa meteorologik hodisalar haqidagi fan*); **prévision du temps par la météorologie** ob-havoni meteorologiya tomonidan oldindan aytib berilishi; **2.** meteorologiya xizmati (*ob-havoni oldindan aytib berish xizmati*); **bulletin de la météorologie nationale** milliy meteorologiya xizmatining bergan ma'lumoti.

**météorologique** *adj* meteorologik; **observations météorologiques** meteorologik (*ob-havoni*) kuzatishlar.

**météorologiste** *n* meteorolog, ob-havoni kuzatish mutaxassisi.

**métèque** *nm péj* kelgindi, begona, yot.

**méthane** *nm* metan, botqoq gazi.

**méthode** *nf* **1.** metod, uslub, usul; **méthode synthétique** sintetik, sintez metod; **2.** metod, usul, yo'l; **méthode de travail** ish usuli; **agissez avec méthode** usuli bo'yicha ishlang; **méthode de culture** yetishtirish yo'llari; **3.** qo'llanma, dastur; skripka, buxgalteriya hisobi bo'yicha qo'llanma; **4.** *fam* yo'l, usul; **indiquer à qqn la méthode à suivre, la bonne méthode** birovga yo'l, oson yo'l ko'rsatmoq.

**méthodique** *adj* **1.** metodik, tartibli, muntazam; **démonstration, vérifications méthodique** muntazam ifodalanish, tekshiruvlar; **classement méthodique** metodik klassifikatsiya; **2.** tartibli, batartib, bir maromdagi; **esprit méthodique** batartib idrok.

**méthodiquement** *adv* qat'iy tartib bilan, planli, rejali ravishda, tartibli; **travailler méthodiquement** qat'iy tartib bilan ishlamoq.

**méthodologie** *nf* metodologiya, uslubiyot (*bilimning ilmiy metodlari haqidagi ta'limot, shuningdek ayrim fan tarmoqlarida qo'llaniladigan metodlar majmui*).

**méthylène** *nf* **1.** *chim* metilen; **2.** *loc* **bleu de méthylène** ko'k rangli metilen bo'yog'i (*bo'yoqchilik va tibbiyotda ishlatiladi*); **badigeonner qqch au bleu de méthylène** biror narsani ko'k rangli metilen bo'yog'iga bo'yamoq.

**méticuleusement** *adv* sinchiklab, diqqat bilan, qunt bilan, maydakashlik bilan, o'taketgan rasmiyatchilik bilan.

**méticuleux, euse** *adj* sinchkov, maydakash; o'taketgan rasmiyatchi, puxta; **il est extrêmement méticuleux** u o'z ishiga o'taketgan puxta; **propreté méticuleuse** o'taketgan tozalik; **trop méticuleux** o'taketgan rasmiyatchi.

**métier** *nm* **1.** hunar, kasb, ixtisos, soha, ish, mashg'ulot, mehnat; **métier manuel, intellectuel** qo'l, aqliy mehnat; **petits métiers** hunarmandchilik; **choisir un métier** kasb tanlamoq; **être du métier** kasb egasi bo'lmoq; **il connaît son métier** u o'z kasbining ustasi; *prov* **il n'y a pas de sot métier** kasbning yomoni yo'q; **2.** vazifa, xizmat, ish; **le métier de roi** podsholik vazifasi; **3.** mahorat, san'at, ustalik; mohirlik; **il a du métier** u mohir; **il manque de métier** uning mahorati yetishmaydi; **4.** stanok; **métier à tisser** to'quv stanogi; **5.** *loc* **mettre, un travail, une œuvre sur le métier** biron ishni yo'lga qo'ymoq, boshlamoq; biron ishga kirishmoq.

**métis, isse** *adj* **1.** metis, duragay; **enfant métis** metis bola; *n* **les mulâtres sont des métis** mulatlar duragaylardir; **une belle métisse** go'zal duragay qiz; **2.** duragay, chatishma; **œillet métis** duragay chinnigul; **3. toile métisse** *ou nm* **le métis** yarim junli, ip aralash jundan to'qilgan mato.

**métissage** *nm* chatishuv, chatishtirish, duragaylash.

**métisser** *vt* chatishtirmoq, duragaylamoq; **chien métissé** chatishtirilgan it.

**métonymie** *nf littér* metonimiya; **"boire un verre" est une métonymie** "bir stakan ichmoq" metonimiyadir.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**métonymique** *adj* metonimiyadan iborat boʻlgan, metonimiyali, metonimik.

**métrage** *nm* **1.** metrlab oʻlchash; **2.** metraj; **le métrage d'un film** filmning metraji; **long, moyen, court métrage** toʻla, oʻrta, qisqa metrajli film; **un court métrage documentaire** qisqa metrajli hujjatli film.

**mètre**[1] *nm* **1.** *littér* grek va lotin sheʼriyatida oʻlchov birligi; **2.** vazn, oʻlchov; **le choix d'un mètre** vazn tanlash.

**mètre**[2] *nm* metr (*oʻlchov birligi*); **un cent mètres** yuz metrga yugurish; **mètre carré** kvadrat metr.

**métrer** *vt* metrlab oʻlchamoq; **métrer un terrain** maydonni metrlab oʻlchamoq.

**métreur, euse** *n* yer oʻlchovchi, tanobchi.

**métrique** *nf littér* metrika (*sheʼr vazni, oʻlchovi va uning nazariyasi*).

**métrite** *nf méd* metrit (*bachadon yalligʻlanishi*).

**métro** *ou vx* **métropolitain**[2] *nm* metro; **station, bouche de métro** metro bekati, metroga kirish joyi; **prendre le métro** metroga chiqmoq, oʻtirmoq; **une rame de métro** metro poyezdi; **le métro de Montréal** Monreal metrosi.

**métronome** *nm mus* metronom (*qisqa vaqt oraliqlarini bildiruvchi asbob*).

**métropole** *nf* **1.** poytaxt, markaz; **les grandes métropoles économiques** ulkan iqtisodiy markazlar; **2.** metropoliya (*mustamlakalarga ega boʻlgan davlat*).

**métropolitain**[1]**, aine** *adj* metropoliyaga oid, metropoloyaga tegishli.

**métropolitain**[2] *nm, adj voir* **métro**.

**métropolite** *nm* mitropolit (*yepiskoplarning oliy unvoni va shu unvondagi yepiskop*).

**mets** *nm inv, litt* ovqat, taom; **un mets délicieux** misli yoʻq taom; **ces mets sont exquis** bu ovqatlar lazzatli.

**mettable** *adj* kiysa boʻladigan, kiyishga yaroqli; **ce manteau n'est plus mettable** bu palto kiyishga butunlay yaroqsiz.

**metteur, euse** *n* **metteur en scène** sahnalashtiruvchi, rejissor; **elle est metteur en scène** u sahnalashtiruvchi; **metteur en œuvre** zargar; *typogr* **metteur en pages** sahifalovchi.

**mettre I.** *vt* **1.** qoʻymoq, joylamoq, tashlamoq; **mettez cela ici, là, autre part** buni bu yerga, u yerga, boshqa joyga qoʻying; **mettre sur** ustiga qoʻymoq; **mettre dans** ichiga qoʻymoq, kiritmoq; **mettre du vin en bouteilles** vinoni shishalarga quymoq; **mettre en terre** yerga oʻtqazmoq, koʻmmoq; **mettre à un endroit** joylamoq; **mettre près, auprès de** yaqinlashtirmoq; **mettre ses mains derrière le dos** qoʻlini orqasiga qilmoq; **2.** joylamoq; **mettre un enfant sur sa chaise** bolani kursiga oʻtqazmoq; **mettre qqn sur la route** biron kishiga yoʻl koʻrsatmoq; *fig* **mettre qqn sur la voie** biron kishini yoʻlga solmoq; **3.** joylamoq, qoʻyib qoʻymoq; **il a mis son fils en pension** u bolasini pansionga joyladi; **mettre en place** joyiga, olib qoʻymoq; **mettre qqn à la porte** biron kishini haydab chiqarmoq; *loc* **mettre au monde, au jour** dunyoga keltirmoq; **4.** kiyib yurmoq, taqib yurmoq; **mettre des gants** qoʻlqop kiyib yurmoq; **5.** qoʻshmoq, solmoq, taqmoq; **mettre un ingrédient dans un plat** ovqatga massaliq solmoq; **elle s'est mis une barrette dans les cheveux** u sochiga toʻgʻnogʻich taqdi; **6.** joylamoq, joylashtirmoq, oʻrnatmoq; **mettre le couvert, la table** dasturxon yozmoq, stol tuzamoq; **il a fait mettre l'électricité dans la grange** u omborxonaga elektr tushirtirdi; **7. (à)** sarflamoq, qoʻshmoq; **mettre du soin à se cacher, de l'énergie à faire qqch** yashirinish tashvishini qilmoq, biron ishni qilish uchun kuch-quvvat sarflamoq; *loc* **il y a mis du sien** u yonidan toʻladi; **8. (dans, en, à)** solmoq, qoʻymoq (*ichiga*); **mettre de grands espoirs en qqn** biron kishiga katta umid bogʻlamoq; **9. (à)** belgilamoq, aniqlamoq (*baho, narx haqida*), sarflamoq; **mettre plusieurs jours à faire qqch** biror narsa qilish uchun bir necha kun sarflamoq; **y mettre le prix** narxini belgilamoq, toʻlamoq; **10.** qoʻzgʻamoq, tugʻdirmoq, sabab boʻlmoq; **il a mis le désordre, le trouble partout** u hamma joyda tartibsizlik, notinchlik tugʻdirdi; **11.** yozmoq, yozib qoldirmoq; **mettre son nom sur un album** albomda oʻz nomini yozib qoldirmoq; *fam* **mettons que** oʻylaymizki, niyat qilamizki, moʻljallaymizki, taxmin qilamizki; **12.** *loc fam* **mettre les bouts, les voiles** juftakni rostlamoq, urmoq; **on les met** juftakni uramiz; **13.** yangi bir holatga qoʻymoq; **mettre qqn debout** birovni tikka qilib qoʻymoq; **mettre bas, à bas** qulatmoq; **mettre bas** tugʻmoq (*hayvonga nisbatan*); **la chienne a mis bas** it tugʻdi; **14.** maʼlum bir holatga keltirmoq; **voulez-vous mettre le loquet, le verrou?** ilmoqni tushirib, zulfinni surib solib qoʻya olasizmi? **15.** yangi bir holatga qoʻymoq, oʻtkazmoq; **mettre du blé en gerbe** bugʻdoyni bogʻlamoq; **mettre un texte en français** matnni fransuz tiliga tarjima qilmoq; **mettre à** holatga qoʻymoq, solmoq; **mettre un bassin à sec** hovuzning suvini quritmoq; **16. mettre qqch** *ou* **qqn dans, en, à** qoʻymoq, keltirmoq (*biror holatga*); **mettre en état** tayyor holatga keltirmoq; **mettre en contact** uchrashtirmoq; **mettre en présence** muhayyo qilmoq; **mettre en lumière, en cause** oshkor qilmoq, xavf ostiga qoʻymoq; **mettre au point un appareil de photo** fotoapparatni tayyor holatga keltirmoq; **mettre qqn à mort** birovni qatl qilmoq; **mettre en mouvement** harakatga keltirmoq; **mettre en vente** savdoga qoʻymoq; **mettre en œuvre** harakatga keltirmoq, ishga solmoq, amalga oshirmoq; **17.** biror narsani ishga solmoq, harakatga keltirmoq; **il met la radio à partir de six heures du matin** u radioni ertalabgi soat oltidan boshlab qoʻyadi; **II. se mettre** *vpr* **1.** joylashmoq, joy olmoq, joy egallamoq, oʻtirmoq, yotmoq; **mets-toi dans ce fauteuil, sur ce canapé** bu kresloga, bu divanga oʻtir; **se mettre à la fenêtre** deraza yoniga turmoq; **elle s'est mise au lit** u oʻrniga yotdi; **se mettre à l'abri** oʻzini panaga olmoq; *loc* **ne plus savoir où se mettre** oʻzini qayerga qoʻyarini bilmay qolmoq; **2.** joylashgan, qoʻyilgan boʻlmoq; **je ne sais pas où se mettent les assiettes** men tarelkalarni qayerga qoʻyilishini bilmayapman; **3.** boʻlmoq; **elle s'est mise en colère** u achchiqlandi; uning jahli chiqdi; **elles se sont mises d'accord** ular kelishib olishdi; **4.** maʼlum holatni egallamoq; **se mettre à genoux** tiz choʻkmoq; **se mettre en civil** grajdancha, oddiy hayotga oʻtmoq; **5. se mettre à** qilishni boshlamoq, kirishmoq; **se mettre au travail** ishga kirishmoq; **se mettre aux mathématiques** matematikani oʻrganishga kirishmoq; **se mettre à faire qqch** biror narsa qilishni boshlamoq; **6.** *loc* **n'avoir rien à se mettre** kiygiday narsasi boʻlmaslik; **7.** *fam* doʻpposlashmoq; **qu'est-ce qu'ils se mettent!** nega ular doʻpposlashishyapti!

**meuble**[1] **I.** *adj* **1.** yumshoq, mayin (*tuproqqa nisbatan*); **un sol meuble** yumshoq yer; **2.** *dr* koʻchirib boʻladigan (*mol-mulk, mol-dunyo*); **des biens meubles et immeubles** mol-dunyo va koʻchmas mulk; **II.** *nm* mebel; **marchand de meubles anciens** qadimiy mebellar bilan shugʻullanuvchi savdogar; **meubles rustiques** qoʻpol ishlangan mebel.

**meubler I.** *vt* **1.** jihozlamoq; **meubler sa maison** uyini jihozlamoq; **2. chambre meublée** jihozlari bilan birga ijaraga olingan xona; *nm* **habiter un meublé** jihozlari bilan ijaraga olingan xonada yashamoq; **3.** toʻlatmoq, bezamoq, bezatmoq; **meubler ses loisirs avec quelques bons livres** boʻsh vaqtini yaxshi kitoblar oʻqib oʻtkazmoq; **II. se meubler** *vpr* mebel sotib olmoq; **ils n'ont pas d'argent pour se meubler** ularning mebel sotib olgani pullari yoʻq.

**meuglement** *nm* boʻkirish; **les meuglements des bœufs** buqalarning boʻkirishi.

**meugler** *vi* (*buqa*) **1.** boʻkirmoq; **2.** *fig* qichqirmoq.

**meule**[1] *nf* tegirmontosh; **meules de moulin** tegirmon toshlari; **2.** qayroq, qayroqtosh; **affûter un couteau sur la meule** pichoqni qayroqqa qayramoq.

**meule**[2] *nf* gʻaram.

**meuler** *vt* ishqalamoq, yupqalashtirmoq, qayramoq.

**meulière** *adj* **pierre meulière** *ou nf* **une meulière** chagʻirtosh.

**meunerie** *nf* **1.** un ishlab chiqarish sanoati; **2.** tegirmonchilar; **chambre syndicale de la meunerie** tegirmonchilar kasaba uyushmasining palatasi.

**meunier, ière I.** *n* tegirmonchi; **à la meunière** unga bulangan (*qovurishdan oldin*); **II.** *adj* un ishlab chiqarish (*tegirmonchilikka oid*); **industrie meunière** un ishlab chiqarish sanoati.

**meurtre** *nm* oʻldirish, oʻldirib ketish, qatl etish, qotillik.

**meurtrier, ière I.** *n* qotil; **II.** *adj* oʻldiradigan, qirgʻin qiladigan, qirgʻin soladigan (*narsa*); **combats meurtriers** qonli kurashlar; **arme meurtrière** qirgʻin quroli; **une route meurtrière** xatarli yoʻl; **fureur meurtrière** qoʻrqinchli qahr.

**meurtrière** *nf* shinak, tuynuk (*istehkomlarda, qoʻrgʻon devorlarida*).

**meurtrir** *vt* **1.** urib olmoq, urib olib lat yedirmoq, shikastlamoq, momataloq qilmoq; **il lui serrait le poignet à le meurtrir** u uning bilagini shikastlash uchun qisar edi; **il a les pieds tout meurtris** uning oyoqlari butunlay



www.ziyouz.com kutubxonasi

momataloq; **2.** *fig* qattiq xafa qilmoq, dilini, ko'nglini og'ritmoq, ko'ksini yara qilmoq, dilini jarohatlamoq; **avoir le cœur meurtri** ko'ksi yara bo'lmoq.

**meurtrissure** *nf* **1.** urilgan joy, lat yegan joy, ko'kargan, qon talashgan joy, momataloq, ko'kariq; **2.** dog'; ezilgan, urilgan joy (*meva, sabzavotlarda*); **3.** iz, belgi, alomat (*charchoq; kasallik, qarilik qoldirgan*); **les meurtrissures du cœur** qalb chandiqlari.

**meute** *nf* **1.** ovchi itlar to'dasi; **2.** manfur odamlar to'dasi, guruhi, galasi.

**mévente** *nf* kasodchilik, bozor kasod.

**mexicain, aine I.** *adj* meksikalik, Meksikaga oid; **II.** *n* meksikalik.

**mezzanine** *nf* **1.** mezonin (*orkestr bilan birinchi bolaxona orasidagi kichik qavat*); **mezzanine d'une salle de spectacle** beletaj (*tomosha zallarida: parterdan yuqoridagi o'rinlar*); **2.** bolaxonacha; **il a construit une mezzanine dans sa salle à manger** u yemakxonasiga bolaxonacha qurdi.

**mezzo** *n* **1.** *nm* kontralto va soprano orasidagi ayol ovozi; **2.** *nf* shu ovozdagi ashulachi ayol.

**mi** *nm mus* mi.

**mi-** *adj inv* yarim, nim; yanvarning yarmi; *loc adv* **à mi-** o'rtasida, yarmida; **à mi-hauteur** yarim balandlikda; **à mi-côte** qiyalikning yarmida; **mi-long** yarim uzun; **étoffe mi-fil, mi-coton** yarim tolali, yarim paxtali mato; **yeux mi-clos** yarim yumuq ko'zlar.

**miam-miam I.** *intj fam* ham-ham (*og'izni chappillatib ovqatning lazzatliligini bildirish*); **II.** *nm inv enf* ham-ham (*ovqat*).

**miaou** *nm fam enf* miyov; **le chat fait miaou** mushuk miyov deydi.

**miasme** *nm* zaharli chirindi bug'lari.

**miaulement** *nm* **1.** miyovlash; **2.** yengilgina g'ijirlash, g'uvillash.

**miauler** *vi* miyovlamoq.

**mica** *nm* **2.** sluda (*shaffof mineral*); **2.** sluda plastinasi.

**mi-carême** *nf* nasroniylar ro'zasi uchinchi haftasining payshanba kuni (*bolalar yasanishib bayram qiladigan kun*).

**micelle** *nf* juda katta molekula.

**miche** *nf* yumaloq buxanka non.

**micheline** *nf* pnevmatik shinali g'ildirakka o'rnatilgan avtomotrisa (*mustaqil motorli temir yo'l vagoni*).

**mi-chemin (à)** *loc adv* yarim yo'lda; *fig* yarim yo'lda, chala; **s'arrêter à mi-chemin** yarim yo'lda to'xtamoq, ishni chala qoldirmoq.

**micmac** *nm fam* hiyla-nayrang, kirdikor.

**micocoulier** *nm bot* bujun.

**mi-corps (à)** *loc adv* belgacha, belboqqacha.

**mi-course (à)** *loc adv* yarim yo'lda.

**micro** *n* **1.** *nm* mikrofon; **parler, chanter au micro, devant, dans micro** mikrofonga, mikrofon oldida, mikrofondan gapirmoq, ashula aytmoq; **2.** *nm* mikrohisoblash mashinasi, shaxsiy hisoblash mashinasi; **3.** *nf* mikroinformatika.

**microbe** *nm* **1.** mikrob; **2.** *fam* nozik, kichik odam.

**microbien, ienne** mikrobga oid, mikrobli; **maladie microbienne** yuqumli kasallik.

**microbiologie** *nf* mikrobiologiya.

**microclimat** *nm* mikroiqlim.

**microcosme** *nm litt* mikrokosm (*mikroskop orqaligina ko'rinadigan kichik olam*).

**microfilm** *nm* mikrofilm.

**micro-informatique** *nf* mikroinformatika.

**micron** *nm* mikron (*metrning milliondan bir bo'lagi*).

**micro-ordinateur** *nm* mikrohisoblash mashinasi, shaxsiy hisoblash mashinasi.

**micro-organisme** *nm* mikroorganizm (*mikroskop orqaligina ko'rinadigan kichik organizm*).

**microphone** *nm* mikrofon.

**microphysique** *nf* mikrofizika.

**microprocesseur** *nm inform* mikroprosessor.

**microscope** *nm* mikroskop; **ce microscope grossit mille fois** bu mikroskop ming marta kattaytiradi; **microscope électronique** elektron mikroskop; **examiner qqch au microscope** biror narsani mikroskop orqali kuzatmoq.

**microscopique** *adj* **1.** mikroskop orqali, yordamida qilinadigan, mikroskopik; **examen microscopique** mikroskop orqali kuzatish; **opération microscopique** mikroskopik ish; **2.** mikroskop orqali ko'rinadigan, juda kichik, mikroskopik.

**microsillon** *nm* uzoq chaladigan plastinka (*mikroyozuvli plastinka*).

**miction** *nf* siyish, bovul qilish; **miction douloureuse** qiynalib siyish.

**midi** *nm* **1.** tush, choshgoh, qiyom, tush, qiyom vaqti; **le repas de midi** tushlik; **2.** tushgi soat o'n ikki; **on mangera à midi juste** rappa-rosa soat o'n ikkida ovqatlanamiz; **il est midi** soat o'n ikki; **midi un quart, et demi, midi dix** soat o'n ikkidan chorakta o'tdi, o'n ikki yarim, o'n minut o'tdi; *loc* **chercher midi à quatorze heures** ishni bekordan-bekorga qiyinlashtirmoq, chigallashtirmoq; **3.** janub; **coteau exposé au midi** janubga qaragan tepalik; **4.** janubiy viloyatlar; **avoir l'accent du midi** janub lahjasida gapirmoq.

**midinette** *nf* yosh shahar qizi; **conversations de midinette** yosh shahar qizi suhbati.

**mie** *nf* nonning mag'zi; **manger la mie et laisser la croûte** nonning mag'zini yeb, chetini qoldirmoq; **pain de mie** mag'izdangina iborat bo'lgan non; **2.** *fam adj* **à la mie de pain** ushoqqa ham arzimaydigan.

**miel** *nm* asal, bol; **être tout sucre tout miel** qandu asal bo'lmoq.

**mielleux, euse** *adj* asalday shirin, asal qo'shilgan; **paroles, phrases mielleuses** asalday shirin nutqlar, gaplar; **air mielleux** yaltoqlanmoq.

**mien, mienne I.** *adj poss* **1.** *litt* **un mien cousin** mening amakivachchalarimdan biri; **2. ses idées que j'ai faites miennes** uning men o'zimga taalluqli deb qabul qilgan fikirlari; **II.** *pron poss* **le mien, la mienne, les miens, les miennes** meniki, menikilar; **votre fils et le mien** sizning o'g'lingiz va meniki; **je ne discute pas, votre prix sera le mien** men tortishib o'tirmayman, sizning bahongiz mening bahyiom bo'ladi; **III.** *nm* **1.** *loc* **j'y ai mis du mien** men bunga kuch sarfladim; **les miens** menikilar (*menga qarashli odamlar: ota-ona, do'stlar, tarafdorlar*).

**miette** *nf* **1.** ushoq, uvoq; **2. les miettes** ozgina narsa, zig'irday narsa, zarra, qoldiq; **dans cette affaire, nous n'auront que des miettes** biz bu ishda ozgina narsagagina ega bo'lamiz; **3.** kichik parcha, bo'lak, qisim; **mettre un verre en miettes** she'rni kichik parchalarga bo'lmoq; **donnez-moi une miette de ce gâteau** menga bu pirogdan bir bo'lak bering; **4.** *fam* **pas une miette** hech narsa, zig'ircha ham, zarracha ham; **ne pas perdre une miette d'un spectacle** tomoshadan hech narsa qoldirmay ko'rmoq.

**mieux I.** *adv* **1.** yaxshiroq; **cette lampe éclaire mieux** bu chiroq yaxshiroq yoritadi; **je le connais mieux** men uni yaxshiroq taniyman; **aller mieux** sog'lig'i, ahvoli yaxshi bo'lmoq, o'zini yaxshi his qilmoq; **le malade va mieux** kasalning ahvoli yaxshi; **faire mieux de** yaxshiroq qilgan bo'lmoq; **vous feriez mieux de vous taire** siz jim tursangiz yaxshiroq qilgan bo'lardingiz; **aimer mieux** yaxshiroq ko'rmoq; **2. mieux que** ko'ra yaxshiroq; **il travaille mieux que son frère** u akasiga qaraganda yaxshiroq ishlaydi; **mieux que jamais** yo'qdan ko'ra yaxshiroq; **4.** (**plus, moins** *bilan*) **moins il mange, mieux il se porte** u qancha oz yesa, shuncha o'zini yaxshi his qilyapti; **4.** *loc adv* **on ne peut mieux** a'lo darajada, ko'ngildagidan ham yaxshiroq, kutilganidan ham yaxshiroq; **il va on ne peut mieux** ishlar ko'ngildagidan ham yaxshiroq ketyapti; **de mieux en mieux** borgan sari; **à qui mieux mieux** o'zishib, biri biridan o'tib, quvlashib; **5. le mieux** eng yaxshi; **les situations le mieux payées** eng yaxshi haq to'lanadigan holatlar; *loc* **au mieux** juda yaxshi bo'lganda, ko'ngildagidek bo'lganda; **au mieux, il réunira deux mille suffrages** juda yaxshi bo'lganda, u ikki mingta ovoz to'playdi; **être au mieux** juda yaxshi aloqada bo'lmoq; **pour le mieux** ko'ngildagidan ham, kutilgandan ham yaxshiroq; **tous est, tous va pour le mieux** hamma narsa ko'ngildagidan ham yaxshi, yaxshiroq ketyapti; **6.** yaxshiroq narsa, yaxshirog'i; **en attendant mieux** yaxshirog'ini kutib; **il y a mieux, mais c'est plus cher** yaxshirog'i bor, lekin u qimmatroq; **faute de mieux** yaxshirog'i bo'lmaganligi sababli; **il a changé en mieux** u yaxshi tomonga o'zgardi; **II.** *adj* **1.** juda yaxshi (*sog'liqqa nisbatan*); **se sentir mieux** o'zini juda yaxshi his qilmoq; **je vous trouve mieux** bugun sizning ko'rinishigiz juda yaxshi; **il est mieux que son frère** u akasidan ko'ra yaxshiroq; **mettez-vous dans ce fauteuil, vous serez mieux** bu kresloga o'tiring, qulayroq bo'ladi; **2.** yaxshiroq, tuzukroq (*narsa*); **parler est bien, se**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**taire est mieux** gapirish yaxshi, jim turish yaxshiroq; **si vous n'avez rien de mieux à faire ce soir, je vous emmène au cinéma** bugun kechqurun sizning tuzukroq qiladigan ishingiz bo'lmasa, men sizni kinoga olib boraman; **3.** *loc* **qui est mieux** yana ham yaxshiroq; **III.** *nm inv* **le mieux** eng yaxshisi; **le mieux est l'ennemi du bien** qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq; **le médecin a constaté un léger mieux** vrach biroz yaxshilanish borligini ta'kidladi; **de mon, ton, son mieux** qo'limdan, qo'lingdan, qo'lidan kelganicha; **j'essaie de faire de mon mieux** men qo'limdan kelganicha harakat qilaman.

**mieux-être** *nm inv* farovonlik, mo'l-ko'lchilik, turmush darajasining oshishi.

**mièvre** *adj* jimjimador, bejamdor, serhasham, tamtaroq, soxta; **poésie mièvre** jimjimador she'r.

**mièvrerie** *nf* jimjimadorlik, bejamdorlik, serhashamlik, tamtaroqlik, soxtalik.

**mignardise** *nf* nazokat, latofat, yoqimlilik, go'zallik, chiroylilik; **des mignardises** noz-karashma, noz-istig'no, qiliqdorlik.

**mignon, onne I.** *adj* **1.** yoqimtoy, dilbar, jonon, go'zal; **une fille jeune et mignonne** yosh va dilbar qiz; **2.** iltifotli, nazokatli, xushmuomala, shirin so'z; **sois mignonne!** iltifotli qiz bo'lgin! **II.** *n* sevikli, suyukli, ma'shuq, ma'shuqa, jonon; **mon mignon** azizim, jonim, qimmatlim, qadrdonim, sevgilim.

**migraine** *nf* migren (*vaqti-vaqti bilan tutadigan qattiq bosh og'rig'i*); **j'ai une légère migraine** mening boshim ozgina og'rib turibdi; **il a du migraine** uning bosh og'rig'i bor.

**migrateur, trice I.** *adj* ko'chib o'tuvchi, ko'chib yuruvchi, ko'chmanchi (*hayvonlarga nisbatan*); **passage d'oiseaux migrateurs** ko'chmanchi qushlarning ko'chishi; **II.** *nm* ko'chmanchi qush.

**migration** *nf* **1.** ko'chish, ko'chib o'tish; **de grandes migrations estivales, des vacances** ulkan yozgi, ta'til ko'chishlari; **2.** ko'chish, ko'chib o'tish (*hayvonlarga nisbatan*).

**migratoire** *loc adv* ko'chish, ko'chib o'tishga oid; **les mouvements migratoires** ko'chib o'tish harakatlari.

**mi-jambe (à)** *loc adv* tizzagacha, tizza baravar; **avoir de l'eau jusqu'à mi-jambe (à mi-jambes)** tizzasigacha suvda bo'lmoq (*suv tizzasigacha kelmoq*).

**mijaurée** *nf* qiliqdor, tannoz; **elle fait sa mijaurée** u tannozlik qiladi.

**mijoter I.** *vt* **1.** past olovda pishirmoq; hafsala bilan pishirmoq; **il nous mijote de bons petits plats** u bizga hafsala bilan ajoyib ovqatlar pishirib berdi; **2.** *fam* sekin-asta tayyorlamoq, ishni pishirmoq; **qu'est-ce qu'il mijote?** u nima tayyorlayapti? **II.** *vi* past olovda pishmoq; **potage qui mijote** bilqillab qaynayotgan sho'rva.

**mil**[1] *voir* **mille**[1].

**mil**[2] *nm vx* tariq (*doni*).

**milan** *nm* kalxat, sor.

**mildiou** *nm* sho'r (*o'simliklar, shu jumladan tok kasalligi*).

**mile** *nm* ingliz mili (*1 609 m-ga teng*); **dix miles** o'n milya.

**milice** *nm* militsiya, ko'ngillilar qo'shini, lashkar; **milices populaires** xalq militsiyasi.

**milicien, ienne** *n* ko'ngilli askar, militsiyachi.

**milieu**[1] *nm* **1.** o'rtasi, yarmi; **scier une planche par le milieu** taxtani o'rtasidan arralamoq; **le milieu d'une pièce** xonaning o'rtasi; **2.** o'rtalik, oraliq; o'rta, ora; **le doigt du milieu** o'rta barmoq; **3.** yarmi (*vaqt haqida*); **le milieu du jour** kunning yarmi, tush vaqti; **4. au milieu** o'rtasida, yarmida; **installez ceci au milieu** buni o'rtasiga o'rnating; **au milieu de** orasida, o'rtasida, oralig'ida, mobaynida; **au milieu de la route** yo'lning o'rtasida; **au milieu du repas** ovqat paytining o'rtasida; **il est arrivé en plein milieu, au beau milieu de la séance** u majlisning qoq o'rtasida, avji qizigan paytida keldi; *fig* **au milieu de** orasida, o'rtasida, ichida; **il vit au milieu des siens** u o'zinikilar orasida yashaydi; **au milieu du danger** xavf-xatar ichida; **5.** o'rta, oraliq; **il y a un milieu, il n'y a pas de milieu entre** o'rtasi bor, o'rtasida oraliq yo'q; **le juste milieu** qoq, ayni o'rtasi.

**milieu**[2] *nm* **1.** muhit, sharoit, ora; **placer un malade en milieu stérile** kasalni sterillangan muhitga joylamoq; **2.** o'rab olgan muhit, sharoit; **adaptation au milieu** muhit, sharoitga moslashish; **3.** muhit, sharoit, vaziyat; **sortir du milieu familial** oila muhitidan chiqmoq; **4.** *pl* doira, ora, davra; **les milieux militaires, littéraires, scientifiques** harbiy, adabiy, ilmiy doira; **5.** jinoyatchilar davrasi, doirasi, orasi.

**militaire I.** *adj* harbiy; **école militaire** harbiy maktab; **service militaire** harbiy xizmat; **opération militaire** harbiy operatsiya; **gouvernement militaire** harbiy hukumat; **coup d'état militaire** harbiy to'ntarish; **II.** *nm* harbiy, harbiy xizmatchi, harbiy xodim.

**militairement** *adv* **1.** harbiylarcha, harbiylarga xos, harbiychasiga; **saluer militairement** harbiychasiga salom bermoq; **2.** harbiy kuch bilan, harbiy kuch ishlatib; **occuper militairement un territoire** biron yerni harbiy kuch bilan egallab olmoq.

**militant, ante I.** *adj* kurashchan, faol; **doctrine, politique militante** kurashchan ta'limot, siyosat; **II.** *n* kurashchi, faol, a'zo; **militant communiste** kommunist kurashchi; **militant de base** oddiy a'zo.

**militantisme** *nm* kurashchanlik, faollik.

**militarisation** *nf* militarizatsiya, militarizatsiyalashtirish, harbiylashtirish, harbiylashish.

**militariser** *vt* militarizatsiyalashtirmoq, harbiylashtirmoq; **zone militarisée** harbiylashtirilgan maydon.

**militarisme** *nm péj* militarizm (*qurollanish va yangi urush olovini yoqishga qaratilgan reaksion agressiv siyosat*).

**militariste I.** *adj* militarizmga va militaristlarga oid; militaristlarga xos bo'lgan, militaristik; **nationalisme militariste** militarizmga xos millatchilik; **II.** *n* militarist.

**militer** *vi* **1. les arguments, les raisons qui militent en faveur de cette décision** bu qarorni yoqlovchi dalil, asoslar; **2.** kurashmoq, tarafini olmoq, tarafida bo'lmoq.

**mille**[1] **I.** *adj numér inv* **1.** ming; **mille deux cents** bir ming ikki yuz; **cinq mille** besh ming; **courir le mille mètres** o'n ming metrga yugurmoq; **2.** ming marta, ko'p marta; **dire mille fois** ming marta aytmoq; **faire mille amitiés** ko'p do'stliklar qilmoq; *loc* **je vous le donne en mille** siz hech qachon o'ylab topa olmaysiz; **3.** minginchi; **page mille** minginchi bet; **l'an deux mille** ikki minginchi yil; **mille neuf cent quatre-vingt-huit** bir mig to'qiz yuz sakson sakizinchi yil; **II.** *nm inv* **1.** ming (*sanoq son*); **mille plus deux mille cinq cents** ming qo'shilgan ikki ming besh yuz; **pour mille** mingdan (‰); **natalité de 15 pour mille** mingtadan 15ta tug'ilish; **2.** mo'ljal; **mettre dans le mille** mo'ljalga tegizmoq, urmoq; **3.** minglab, ko'p; *fam* **des mille et des cents** ming-minglab pul.

**mille**[2] *nm* **1.** milya; **2. mille anglais** ingliz milyasi; **mille marin** dengiz milyasi (*1 852 m*).

**millefeuille** *nm* qatlama pirog.

**millénaire I.** *adj* ming yillik; **une tradition plusieurs fois millénaire** bir necha ming yillik an'ana; **II.** *nm* ming yillik, ming yil davom etgan vaqt, davr.

**mille-pattes** *nm inv* qirqoyoq, mingoyoq.

**millésime** *nm* **1.** mingni bildiradigan son (*kunni bildirishda*); **2.** yil (*tanga, marka, vino*); **les grands millésimes** sermahsullik, to'kin-sochinlik yili.

**millet** *nm* tariq (*og'zaki nutqda boshqa donlarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin*); **farine de millet** tariq uni.

**milliard** *nm* milliard; **dix milliards de francs** o'n milliard frank; **des milliards** milliardlab, ko'p.

**milliardaire I.** *adj* milliardli, milliardlar bilan hisoblanadigan, milliard-miliard; **compagnie pétrolière plusieurs fois milliardaire en dollars** milliard-milliard dollari bor neft kompaniyasi; **II.** *n* milliarder.

**millibar** *nm* millibar (*o'lchov birligi*).

**millième I.** *adj* minginchi; mingdan bir; **la millième partie** mingdan bir qismi; **II.** *nm* mingdan biri.

**millier** *nm* juda ko'p, minglarcha; **des centaines de milliers de personnes** yuz minglarcha odam; *loc adv* **par milliers** minglab.

**milligramme** *nm* milligramm.

**millimètre** *nm* millimetr.

**millimétré, ée** *adj* millimetr uzunligidagi, qalinligidagi, millimetrli; **papier millimétré** millimetrli qog'oz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**million** *nm* million; **un million, deux millions d'hommes** bir, o'n million odam; **posséder des millions** millionlab puli bo'lmoq; **être riche à millions** millionlab puli bor boy bo'lmoq.

**millionième I.** *adj numér* **1.** millioninchi; **le dix millionième visiteur** o'n millioninchi keluvchi; **2.** milliondan bir; **II.** *nm* **un millionième de millimètre** millimetrning milliondan biri.

**millionnaire I.** *adj* millioner; **il est plusieurs fois millionnaire en marks, en dollars** u marka, dollar hisobida bir necha bor millioner; **II.** *n* millioner.

**mi-lourd** *adj, nm* yarim og'ir vazn (*72 dan 79 kilogacha*).

**mime** *n* **I.** pantomimochi artist; taqlidchi; mimikaga mohir artist; **II.** *nm* pantomimo.

**mimer** *vt* mimika, imo-ishora orqali ifodalamoq; **mimer qqn par dérision** imo-ishora orqali birovning ustidan kulmoq; **monologue mimé** pantomimali monolog.

**mimique** *nf* mimika, imo-ishora; **la mimique des sourds-muets** kar va soqovlarning imo-ishorasi; **cesse de faire des mimiques** aftingni burishtirishni to'xtat.

**mimolette** *nf* Gollandiya pishlog'i.

**mimosa** *nf bot* mimoza; **un bouquet de mimosa** bir dasta mimoza; **œufs mimosa** mayonezga solingan, sarig'i ezilgan qattiq tuxum.

**minable I.** *adj* ayanchli, achinarli, nochor, ojiz, ro'dapo, ko'rimsiz, yoqimsiz, arzimaydigan, arzimas, bir pulga qimmat; **résultats minables** arzimas natijalar; **II.** *n fam* **une bande de minables** bir pulga qimmat odamlar to'dasi.

**minaret** *nm* minora, minor.

**minauder** *vi* noz qilmoq, noz-karashma qilmoq, ishva qilmoq.

**minauderie** *nf* **1.** qiliqdorlik, qiyshang'ilik; **2. des minauderies** noz-karashma, noz-istig'no; **les minauderies d'une coquette** tannozning noz-karashmalari.

**minaudier, ière** *adj* nozli, noz-karashmali, ishvagar, sernoz, qiliqdor, serqiliq, qiyshang'i; **elle est trop minaudière** u o'ta nozli.

**mince**[1] *adj* **1.** yupqa; **métal réduit en bandes, en plaques minces** yupqalashtirilgan metall lentalari, plastinkalari; **2.** tor; **3.** (*odam tan a'zolari*) nozik, ingichka, ozg'in; **elle voudrait être plus mince** u ozg'inroq bo'lishni xohlar edi; **jambes minces** ingichka oyoqlar; **4.** arzimas, nochor, o'rta miyona; **pour un mince profit** arzimas foyda uchun; **un prétexte bien mince** juda nochor bahona.

**mince**[2] *intj fam* jin ursin, obbo! qara-ya! **mince alors, j'ai perdu mon portefeuille!** obbo karmonimni yo'qotib qo'yibman-ku!

**minceur** *nf* **1.** yupqalik; **la minceur d'une feuille de papier** qog'ozning yupqaligi; **2. elle est d'une minceur et d'une élégance remarquables** u ajoyib nazokat va noziklik egasi.

**mincir** *vi* ozmoq, noziklashmoq; **elle a beaucoup minci** u juda ham ozib ketibdi.

**mine**[1] *nf* **1.** tashqi qiyofa, ko'rinish, yuz, chehra, avzo, turq, aft, bashara, avzo; **d'après sa mine, il va mieux** rangidan, uning sog'ligi yaxshi; **avoir bonne, mauvaise mine** ko'rinishi yaxshi, yomon bo'lmoq; **mine renfrognée, soucieuse** xo'mraygan, bezovta yuz; **faire grise mine à qqn** birovni aftini burishtirib kutib olmoq; **c'est un passionné, sous sa mine tranquille** u tashqi bosiqlik ostidagi ehtirosli odam; **juger des gens sur (d'après) la mine** odamlarning tashqi qiyofasiga qarab baho bermoq; **ça ne paie pas de mine** buning avzoyi buzuq; **faire mine de** o'zini … qilib ko'rsatmoq; -ga solmoq; **elle a fait mine de partir, mais elle est finalement restée** u o'zini jo'nab ketyotganday qilib ko'rsatdi, lekin oxir-oqibatda qoldi; **mine de rien** hech narsa bilmaganday, hech narsadan xabari yo'qday; **tâche de le faire parler, mine de rien** hech narsadan xabari yo'qday, uni gapirtirishga harakat qil; **2.** *pl* qosh-ko'zini suzish; aft-basharasini tirishtirish, burishtirish; **faire des mines** qosh-ko'zini suzmoq.

**mine**[2] *nf* qalam o'zagi; **mine de plomb** grafit; **crayon à mine dure, tendre** qattiq, yumshoq qalam.

**mine**[3] *nf* **1.** kon; **mine de fer, mine de houille** temir, toshko'mir koni; **mine à ciel ouvert** ochiq kon; **2.** *fig* kon, bitmas-tuganmas boylik; **3. les mines** kon qidiruv muassasasi; **l'École des Mines** Kon qidiruv instituti; **il est ingénieur des mines** u tog' muhandisi.

**mine**[4] *nf* mina; tankka qarshi mina; **champ de mines** mina maydoni; **détecteur de mines** mina qidiruvchi; **poser une mine** mina qo'ymoq; **le camion a sauté sur une mine** yuk mashinasi minada portlab ketdi.

**miner**[1] *vt* minalashtirmoq.

**miner**[2] *vt* **1.** ichini kovlamoq, ichini yemirmoq; **la mer mine les falaises** dengiz qoyalarning tagini yemiradi; **2.** *fig* kemirmoq, yeb qo'ymoq, yemirmoq; **le chagrin le mine** g'am uni kemirmoqda; **il est miné par le souci** tashvish uni yeb qo'ydi.

**minerai** *nm* ma'dan, ruda; **minerai en filon, en gisement** ma'danning yer ostidagi yo'nalishi, ma'dan konlari; **extraire un métal d'un minerai** ma'dandan metall ajratib olmoq.

**minéral, ale, aux I.** *adj* mineralga oid; minerallarga mansub bo'lgan; mineral; **huiles minérales** neft; **sels minéraux** mineral tuzlar; **chimie minérale** anorganik kimyo; **II.** *nm* ma'dan, mineral; **étude des minéraux** ma'danlar tadqiqoti.

**minéralogie** *nf* mineralogiya.

**minéralogique**[1] *adj* mineralogiyaga oid, mineralogik, mineralogiya; **collection minéralogique** mineralogik kolleksiya.

**minéralogique**[2] *adj* **numéro, plaque minéralogique** raqam belgisi (*avtomobilning*).

**minéralogiste** *n* mineralog, mineralogiya bilan shug'ullanuvchi odam.

**minerve** *nf* boshni qulay holatda tutib turadigan ortopedik asbob.

**minet, ette** *n* **1.** *fam* mushuk bolasi, mushuk bola, mushukcha; **mon minet, ma petite minette** erkam, erkatoyim, erkaginam; **2.** *n* bashang kiyingan, xotinchalishroq yigit; satang kiyingan qiz.

**mineur**[1]**, euse** *adj* **1.** ikkinchi darajali, uncha ahamiyati bo'lmagan, oddiy, jo'n, xashaki; **problème, soucis mineurs** ikkinchi darajali masala, tashvishlar; **arts mineurs** oddiy san'atlar; **genres mineurs** oddiy janrlar; **peintre, poète mineur** xashaki rassom, shoir; **2.** *mus* minor (*g'amgin, hazin ruhdagi musiqiy soz turi*); **tierce mineure** kichik tersiya (*uch bosqich va bir yarim tonli interval*).

**mineur**[2]**, euse** *adj, n* voyaga, balog'atga yetmagan, norasida.

**mineur**[3] *nm* konchi; **mineur de fond** yer ostida ishlaydigan konchi; **village de mineurs** konchilar shaharchasi.

**miniature** *nf* **1.** miniatura (*qadimgi qo'l yozma va kitoblardagi nafis, bujirim surat*); **2.** minatura, nafis, bejirim surat ishlovchi san'atning turi va shu san'at asari; **une miniature du XIIIe siècle** XIII asr miniaturasi; **3.** juda kichik, jajjigina odam yoki narsa; **en miniature** kichraytirilgan, jajjigina, kichkina qilib; **maquette représentant un avion en miniature** jajjigina samolyotni ifodalovchi namuna; **train miniature** mo'jazgina poyezd; **des golfs miniatures** mo'jazgina golf.

**miniaturé, ée** *adj* miniaturalar bilan bezatilgan.

**miniaturisation** *nf* kichraytirish, jajjilashtirish, juda kichkina qilib qo'yish.

**miniaturiser** *vt* kichraytirmoq, jajjilashtirmoq, juda kichkina qilib qo'ymoq.

**miniaturiste** *nm inv* miniaturachi, miniaturachi rassom.

**minibus** *nm inv* kichik avtobus.

**minicassette** *nf* kichkina, mo'jazgina, jajjigina ko'tarib yuradigan magnitofon.

**minier, ière** *adj* konga oid, konli, konda ishlaydigan, ishlatiladigan, kon; **gisement minier** foydali qazilmalar; **pays minier** foydali qazilmalarga boy yurt.

**minijupe** *nf* mini-yubka, juda kalta yubka.

**minima** *nm pl voir* **minimum**.

**minimal, ale, aux** *adj* eng kichik; eng oz, eng kam, minimal; **températures minimales** eng kam harorat.

**minime I.** *adj* juda kichik, arzimas, eng kam; **des faits minimes** arzimas narsalar; **salaires minimes** eng kam ish haqlari; **II.** *n sport* o'smir (13-15 yoshdagilar); **match de minimes** o'smirlar musobaqasi.

**minimiser** *vt* bir oz kamaytirmoq, birmuncha kamaytirmoq, oz, kam qilib ko'rsatmoq; **minimiser les résultats, des incidents, le rôle de qqn** natijalarni, yong'inlarni; birovning xizmatini kamaytirib ko'rsatmoq.

**minimum I.** *nm* minimum, eng oz miqdor; **un minimum de frais** eng oz xarajatlar; **les minimums** yoki **les minima atteints** eng oz miqdorda



www.ziyouz.com kutubxonasi

zararlangan; *fam* **s'il avait un minimum de savoir-vivre** agar unda ozgina odobdan boʻlganda edi; *loc* **au minimum** eng kamida, kam, oz deganda, ozi bilan, hech boʻlmaganda; **les travaux dureront au minimum trois jours** ishlar eng kamida uch kun davom etadi; **minimum vital** kun kechirish uchun zarur boʻlgan narsalarning eng oz miqdori; **II.** *adj* eng oz, eng kam, minimal; eng kam yosh; **pertes, gains minimums** (yoki **minima)** eng oz zararlar, foydalar.

**mini-ordinateur** *nm* mini hisoblash mashinasi.

**ministère** *nm* **1.** vazirlar devoni, hukumat; **former, modifier un ministère** hukumat tuzmoq, hukumatni oʻzgartirmoq; **2.** vazirlik; vazirlik lavozimi; **le ministère des affaires étrangères** tashqi ishlar vazirligi; **3. ministère public** prokuratura, prokuror nazorati, ayblash; **4.** kashishning mashgʻuloti; **il exerce son ministère dans une petite paroisse** u oʻz kashishligini bir kichik cherkovda oʻtaydi.

**ministériel, ielle** *adj* vazirlikka oid; **crise ministérielle** hukumat tangligi; **arrêté ministériel** vazirlik qarori.

**ministre** *nm* **1.** vazir; **nomination d'un ministre** vazir tayinlash; **le conseil des ministres** vazirlar kengashi; **il a des chances de devenir ministre** uning vazir boʻlish imkoniyati bor; **le ministre de l'éducation nationale** milliy maorif vazirligi; **madame X, le ministre de la santé publique** x xonim, sogʻliqni saqlash vaziri; **elle est ministre** u vazir; **le premier ministre** bosh vazir; **2.** elchi; **ministre plénipotentiaire** muxtor elchi; **3. ministre de culte** kashish, pop, ruhoniy; **ministre** pastor (*protestant mazhabidagi ruhoniy*).

**minitel** *nf* minitel.

**minium** *nm* surik (*qizgʻish, toʻq sariq yoki qizgʻish-jigarrang boʻyoq*).

**minois** *nm inv* chiroyligina, doʻndiqqina, loʻppigina yuzcha; **un petit minois d'enfant** bolaning loʻppigina yuzchasi.

**minoritaire** *adj* ozchilik, ozchilikka oid; **groupe, tendance minoritaire** ozchilik guruh, fraksiya.

**minorité**[1] *nf* **1.** ozchilik, kamchilik; **une petite minorité d'électeurs** ozchilik saylovchilar; **ils sont en minorité** ular ozchilik ovozga ega; **gouvernement mis en minorité** ozchilik ovoz olgan hukumat; **2. la, une minorité de** eng kam, eng oz; **dans la minorité des cas** eng kam hollarda; **3.** ozchilik, kam sonlilik; **minorités ethniques** etnik kamsonlilik; **droits des minorités** ozchilikning haq-huquqlari.

**minorité**[2] *nf* voyaga, balogʻat yoshiga yetmaganlik, norasidalik, yoshlik.

**minoterie** *nf* **1.** un zavodi; **2.** un ishlab chiqarish.

**minotier** *nf* un zavodi egasi, tegirmonchi.

**minou** *nf fam enf* mushukcha, mushuk bolasi; **des petits minous** kichkina mushukchalar.

**minuit** *nf* **1.** yarim kecha, yarim tun; **soleil de minuit** yarim tungi quyosh; **bain de minuit** yarim tungi choʻmilish; **2.** yarim tungi vaqt; **à minuit précis** roppa-rosa yarim kechada; **messe de minuit** yarim tungi ibodat (*yangi yil kechasi*).

**minus** *nf inv fam* ahmoq, tentak, nodon, merov; **c'est un minus** bu bir tentak; **bande de minus!** merovlar toʻdasi!

**minuscule** *adj* **1. lettre minuscule** kichik harf; *nf* **une minuscule** kichik harf; **2.** juda kichik, kichkinagina, uvoqqina, jajjigina; **une minuscule boite** kichkinagina quticha.

**minute**[1] **I.** *nf* **1.** minut, daqiqa; **la minute se divise en soixante secondes** bir minut oltmish sekundga boʻlinadi; *intj* **minute!** bir daqiqa! **2.** lahza, on, daqiqa; **jusqu'à la dernière minute** oxirgi daqiqagacha; **je reviens dans une minute** men bir daqiqadan soʻng kelaman; *loc* **d'une minute à l'autre** mana-mana, hozir, albatta; **à la minute** shu zahotiyoq, shu ondayoq; **3.** minut; **angle de deux degrés et cinq minutes** ikki gradus besh minutli burchak; **II.** *adj fam* shoshilinch, tez, naridan-beri, apil-tapil; **des entrecôtes minute** bir zumda tayyorlangan antrekot; **talon minute** poyabzallarni bir zumda taʼmirlash ustaxonasi.

**minute**[2] *nf dr* asl nusxa; **la minute d'un jugement** sud hukmining asl nusxasi; **consulter les minutes d'un procès** sud ishining asl nusxasiga murojaat qilmoq.

**minuter** *vt* taqsimlamoq, taqsimlab qoʻymoq; **emploi du temps strictement minuté** aniq taqsimlab qoʻyilgan ish vaqti.

**minuterie** *nf* minut mexanizmi; **la minuterie d'un escalier** narvonning minut mexanizmi.

**minuteur** *nm* hisoblagich; **le minuteur d'un four** pechning hisoblagichi.

**minutie** *nf* puxtalik, qunt, hafsala; **faire un travail avec minutie** ishni hafsala bilan qilmoq.

**minutieusement** *adv* puxtalik, qunt, hafsala bilan.

**minutieux, ieuse** *adj* **1.** puxta, quntli, hafsalali; **2.** puxta, qunt bilan, hafsala bilan qilingan; **inspection minutieuse** puxta tekshiruv; **exposé minutieux** hafsala bilan qilingan bayon.

**mioche** *n fam* yosh bola, bolakay, kichkintoy; **une bande de mioches** bolakaylar toʻdasi.

**mirabelle** *nf* **1.** sariq togʻolcha; **confiture de mirabelles** sariq togʻolcha murabbosi; **2.** shu mevadan tayyorlangan aroq.

**mirabellier** *nm* togʻolcha daraxti.

**miracle** *nm* **1.** moʻjiza, karomat; **cela tient du miracle** bu moʻjiza; **2.** ilohiy kishilar hayotiga bagʻishlangan Oʻrta asr dramasi; **3.** moʻjiza, kutilmagan hodisa; **tout semblait perdu, et le miracle se produisit** hamma narsa qoʻldan ketganday edi, lekin moʻjiza yuz berdi; **faire, accomplir des miracles** moʻjiza koʻrsatmoq; **crier miracle, au miracle** hayratlanmoq, ajablanmoq; **par miracle** *loc adv* qandaydir moʻjiza tufayli, tasodifan, omad kelib; **il en a réchappé par miracle** u bundan qandaydir moʻjiza tufayli qutilib qoldi.

**miraculé, ée** *adj* moʻjizalangan; moʻjiza bilan tuzalgan odam; moʻjizakor.

**miraculeusement** *adv* moʻjizadagidek, moʻjizavorlik bilan, ajoyiblik bilan.

**miraculeux, euse** *adj* **1.** moʻjizadek, moʻjizavor, moʻjizoviy; **apparition miraculeuse** moʻjizoviy koʻrinish; **2.** ajoyib, gʻaroyib, moʻjizakor; **un remède miraculeux** moʻjizakor dori.

**mirador** *nf* **1.** belveder (*balandlikdagi shiypon*); **2.** qorovul vishkasi (*qamoqxonalarda*).

**mirage** *nm* **1.** sarob; **2.** xayol, xayolot, xomxayol; **le mirage de la gloire, du succès** gʻalaba, yutuq xayoloti.

**mire** *nf* **1. de mire** moʻljallash uchun; **ligne de mire** moʻljalga olish chizigʻi; *fig* **point de mire** diqqat, eʼtibor markazi; **être le point de mire** diqqat-eʼtibor markazi boʻlmoq; **2.** moʻljal; **ajuster la mire avant de tirer** otishdan oldin moʻljalni moslamoq; **3.** televizor koʻrsatuvlaridan oldin ekranda beriladigan sozlash jadvali; **la mire apparaît sur l'écran avant le début des émissions** eshittirishlar boshlanishidan oldin ekranida sozlash jadvali paydo boʻladi.

**mirer I.** *vt* yoriqqa solib koʻrmoq (*tuxumni*); **II. se mirer** *vpr litt* qarashmoq, bir-biriga qaramoq; **la montagne se mire dans le lac** togʻ koʻlga qaraydi.

**mirifique** *adj plais* ajoyib, zoʻr; **des promesses mirifiques** ajoyib vaʼdalar.

**mirliton** *nm* qamishsurnay; **vers de mirliton** noʻnoq, bemaza sheʼrlar.

**mirobolant, ante** *adj fam* kishini hayron, tang qoldiradigan, mahliyo qilib qoʻyadigan; **des gains mirobolants** kishini hayron qoldiradigan yutuq.

**miroir** *nm* **1.** koʻzgu; **se regarder dans le miroir** koʻzgu koʻrmoq; *loc* **miroir à alouettes** aldamchi, yolgʻondakam; **2.** sath, silliq yuza; **le miroir des lacs** koʻllarning silliq yuzi; **3.** *fig* koʻzgu; **les yeux sont le miroir de l'âme** koʻz qalbning koʻzgusidir.

**miroitant, ante** *adj* yarqiroq, jilvagar; **la surface miroitante de la mer** dengizning jilvagar yuzasi.

**miroitement** *nm* yarqirash, jilvalanish; **le miroitement des vitres au soleil** oynalarning quyoshda yarqirashi.

**miroiter** *vi* shuʼla, nur qaytarmoq, tovlanmoq, yarqiramoq, yaltiramoq; **vitre, eau qui miroite** yarqirab turgan oyna, suv; **2.** *loc* **faire miroiter** qiziqtirmoq, jalb etmoq; **il lui a fait miroiter les avantages qu'il pourrait en tirer** u uni bundan olishi mumkin boʻlgan foydaga qiziqtirdi.

**miroton** *nm* piyoz qoʻshib qaynatilgan mol goʻshti.

**mis, mise** *pp* **mettre** feʼlining oʻtgan zamon sifatdoshi.

**misaine** *nf mar* fok (*oldingi machtaning pastki yelkani*); **le mât de misaine** fok-machta (*kemaning old tomonidagi machta*).

**misanthrope I.** *n* odamzotni yoqtirmaydigan kishi, odamovi; **II.** *adj* odamlarga aralashmaydigan, odamovi, yovvoyi; **elle est devenue bien misanthrope** u judayam odamovi boʻlib qoldi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**misanthropie** *nf* odamzotni yoqtirmaslik, odamovilik, yovvoyilik.

**misanthropique** *adj litt* odamyoqmaslarga xos bo'lgan, odamsevmaslik, odamga dushmanlik ruhidagi; **réflexions, idées misanthropiques** odamsevmaslikka xos bo'lgan o'y, fikrlar.

**mise** *nf* **1.** (**en**) qo'yish, joylash; **mise en place** joyiga qo'yish; **mise en bouteilles** shishalarga quyish; *fam* **mise en boîte** birovdan kulish, masxara, mazax, mayna qilish; **mise en scène** sahnaga qo'yish, sahnalashtirish; **2.** biron holatga solmoq, tushirmoq; **la mise sur pied d'un programme** rejani ro'yobga chiqarish; **mise à pied** ishdan bo'shatish; **3. mise en plis** soch tarash, soch turmaklash; **mise au net** oqqa ko'chirish; **mise en état, en ordre** holatga, tartibga solish; **mise à prix** narx qo'yish, narxini belgilash; **4.** dov, ganak, tikilgan pul (*qimorda*), mablag', kapital sarflash (*biron ishga*); **déposer une mise** dov tikmoq; **doubler la mise** dovni ikki baravar oshirmoq; **mise de fonds** kapital, mablag' sarflash; **5. de mise** odob, tartib; **ces manières ne sont plus de mise** bu qiliqlar endi tartibdan emas; **6.** kiyim, ust-bosh (*ustidagi*); **soigner sa mise** ust-boshini tartibli tutmoq (*tartibli kiyinmoq*).

**miser** *vt* **1.** tikmoq (*dov, ganak, pul*); **miser dix francs** o'n frank tikmoq; **2. miser sur un cheval, aux courses** otga, poygaga pul tikmoq; *fam* **miser sur** oshirmoq, orttirmoq, ustiga qo'ymoq; **on ne peut pas miser là-dessus** bundan orttiq oshirib bo'lmaydi.

**misérable I.** *adj* **1.** baxtsiz, baxti qaro, bebaxt, badbaxt, tolei past, sho'rpeshona, sho'rli; *narsa* baxtsiz, ko'ngilsiz, faqirona, g'aribona; **une misérable existence** faqirona kun kechirish; **2.** kambag'al, bechora, qashshoq, faqir, g'arib; **région misérable** qashshoq hudud; **3.** arzimagan, arzimas, ahamiyatsiz, hech narsaga arzimaydigan, mazasi yo'q, bemaza; **4.** bo'lmag'ur, yomon, yaramas; **tant d'histoires pour un misérable billet de cinquante francs!** bir arzimas ellik frankli pulni deb, shuncha mashmasha! **II.** *n* **1.** qashshoq, kambag'al, faqir, bechora, g'arib; **2.** yaramas, bemaza, bo'lmag'ur odam; **ah, petit misérable!** ha, yaramas bola!

**misérablement** *adv* **1.** ayanchli, achinarli ahvolda; **décliner misérablement** ayanchli inqirozga uchramoq; **2.** kambag'allik bilan, qashshoqona, faqirona, g'aribona, nochor, bechorahol; **vivre misérablement** qashshoqona yashamoq.

**misère** *nm* **1.** *litt* baxtsizlik, bechoralik, g'ariblik, faqirlik, nochorlik; **la misère des temps** g'ariblik davrlari; **quelle misère!** qanday baxtsizlik! *intj* **misère!** qurib ketsin! **2.** ofat, falokat, musibat, alam, qayg'u, g'am, tashvish, baxtsizlik; **compassion aux misères d'autrui** birovlarning g'am-tashvishlariga hamdardlik; **petites misères** arzimas tashvishlar; **faire des misères à qqn** birovning joniga, jig'iga tegmoq; **3.** kambag'allik, yo'qchilik, faqirlik, qashshoqlik, muhtojlik, bechoralik, nochorlik; **être, tomber dans la misère** faqir bo'lmoq, faqirlikka tushmoq; **misère noire** o'ta qashshoqlik; *loc* **crier, pleurer misère** nochorlikdan fig'oni falakka chiqmoq; **salaire de misère** faqirona maosh; **4.** arzimagan, arzimas, ahamiyatsiz narsa; **ils se sont fâchés pour une misère** ular arzimagan narsa uchun achchiqlashib qolishdi.

**miséreux, euse** *n, adj* kambag'al, yo'qchil, faqir, qashshoq, muhtoj, bechora, nochor; **quartiers miséreux** qashshoq mavzelar.

**miséricorde** *nf* **1.** rahm, shafqat, marhamat; **demander, obtenir miséricorde** rahm-shafqat so'ramoq, rahm-shafqatga erishmoq; **2.** *intj* rahm qiling! shafqat qiling!

**miséricordieux, ieuse** *adj* rahmli, shafqatli, marhamatli, rahmdil.

**misogyne** *adj, n* ayollarni yoqtirmovchi (*yomon ko'ruvchi*).

**misogynie** *nf* ayollarni yoqtirmaslik, odamovilik.

**miss** *nf* **1.** miss (*Angliya va AQShda qizlarga murojaat formasi*); **2.** go'zallik qirolichasi; **miss France** Fransiya go'zali.

**missel** *nm* ibodatlar, duolar to'plami, kitobi.

**missile** *nm* ballistik raketa; **des missiles sol-air** "yer-havo" turidagi raketalar.

**mission** *nf* **1.** missiya, vazifa, topshiriq; **on l'a chargé d'une mission** unga vazifa yuklashdi; **envoyer qqn en mission** biron kishini vazifa bilan yubormoq; **mission accomplie** amalga oshirilgan missiya; **mission scientifique** ilmiy topshiriq; **2.** da'vat, undash, chaqirish (*dinga*); **pays de mission** da'vat etuvchi davlat; **3.** missiya (*ma'lum vazifa bilan yuborilgan kishilar guruhi*); **elle fait partie de la mission** u missiya a'zosi; **mission diplomatique** diplomatik missiya; **les missions** da'vatchilar; **4.** qismat, vazifa; **la mission de l'artiste** artistning qismati; **la mission civilisatrice d'un pays** biror davlatning sivilizatsiya tarqatish vazifasi.

**missionnaire I.** *nm* missioner (*yerli xalqni xiristian diniga o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuborilgan shaxs*); **un missionnaire catholique** katolik missioneri; **II.** *adj* missionerlarga, ularning faoliyatiga oid; missioner(lar); **l'esprit missionnaire** missionerlik ruhi.

**missive** *nf litt* maktub, noma, xat; **recevoir une missive** maktub olmoq.

**mistral, als** *nm* mistral (*O'rta yer dengizi va Rona havzalarida shimoldan yoki shimoli-sharqdan dengiz tomon esadigan kuchli shamol*).

**mitaine** *nf* barmoqlari ochiq qo'lqop.

**mite** *nf* kuya; **habit mangé par les mites, troué aux mites** kuya yegan, kuya teshgan kiyim.

**mité, ée** *adj* kuya yegan; **fourrure mitée** kuya yegan teri.

**mi-temps** *nf inv* **1.** *sport* tanaffus; **2.** taym, o'yinning yarmi; **la seconde mi-temps** o'yinning ikkinchi yarmi; *loc adv* **à mi-temps** yarim stavka, yarim norma; **travailler, être employé à mi-temps** yarim stavka ishlamoq, ishlatilmoq; **3.** *nm inv* yarim stavka, yarim norma ish.

**miter (se)** *vpr* kuya tushmoq, kuyalamoq.

**miteux, euse I.** *adj* ayanchli, achinarli, nochor, bechora, ojiz, ro'dapo; **des vêtements miteux** ro'dapo kiyimlar; **un hôtel miteux** nochor mehmonxona; **II.** *n fam* kambag'al, bechora; **cet hôtel est trop chic pour des miteux comme nous** bizday kambag'al-bechoralar uchun bu mehmonxona o'ta dabdabali.

**mithridatiser** *vt* zaharga moslashtirmoq, o'rgatmoq, immunitet hosil qildirmoq.

**mitigé, ée** *adj* **1.** yumshoq, yengil; **sévérité mitigée** yengil qattiqqo'llik; **2.** *fam* aralash-quralash, aralashib; **des compliments mitigés** aralash-quralash maqtovlar; **des réactions mitigées** aralash-quralash ta'sirlar.

**mitonner I.** *vi* sekin pishmoq, sekin qaynamoq, bilqillab qaynamoq; **la soupe mitonnait** sho'rva bilqillab qaynab turar edi; **faire mitonner un plat** ovqatni sekin qaynatib pishirmoq; **II.** *vt* **1.** hafsala bilan bilqillatib pishirmoq; **il nous a mitonné un bon petit dîner** u bizga hafsala bilan ajoyib ovqat pishirib berdi; **2.** hafsala bilan, obdan tayyorlamoq; **mitonner une affaire** ishni hafsala bilan tayyorlamoq; **III. se mitonner** *vpr* o'ziga yaxshi qaramoq, o'zini yaxshi parvarish qilmoq.

**mitoyen, enne** *adj* oraliq, umumiy, o'rtadagi; **mur mitoyen** oraliq devor.

**mitoyenneté** *nf* o'rtadalik, umumiylik.

**mitraillage** *nm* pelemyotdan o'qqa tutish.

**mitraille** *nf* **1.** *vx* quyma to'p o'qi; **canons chargés à mitraille** quyma o'q bilan o'qlangan to'plar; **2.** o'qqa tutish; **fuir sous la mitraille** o'qlar ostida qochmoq; **3.** *fam* chaqa, mayda tanga.

**mitrailler** *vt* **1.** pulemyotdan o'qqa tutmoq; **mitrailler un avion** samolyotni pulemyotdan o'qqa tutmoq; *fam* birovga qarata otmoq; **2.** *fam* to'xtovsiz suratga olmoq; **le président fut mitraillé par les reporters** prezident muxbirlar tomonidan to'xtovsiz suratga olinar edi.

**mitraillette** *nf* avtomat (*aslida to'pponcha-pulemyot*).

**mitrailleur I.** *nm* pulemyotchi; **il est mitrailleur à bord d'un avion** u samolyotning bort pulemyotchisi; **II.** *adj m* avtomatik ravishda otuvchi; **pistolet, fusil mitrailleur** avtomat-to'pponcha, avtomat-miltiq.

**mitrailleuse** *nf* pulemyot.

**mitre** *nf* mitra (*yepiskop va boshqa martabali ruhoniylarning ibodat vaqtida kiyadigan bosh kiyimi*); **la mitre et la crosse épiscopales** yepiskoplik mitrasi va hassasi.

**mitron** *nm* novvoy bola, shogird.

**mi-voix (à)** *loc adv* pichirlab, shivirlab, past ovoz bilan; **parler à mi-voix** pichirlab, yarim ovozda gapirmoq.

**mixage** *nf* yaxlitlash (*film yoki ashulaning hamma ovozini yaxlit bir tasmaga yozish*).

**mixer** *vt* yaxlitlamoq (*film yoki ashula ovozini*).

**mixeur** *nm anglic* mikser, qorishtiruvchi mashina, qorishtirgich.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mixte** *adj* **1.** chatishtirilgan, duragay; **mariage mixte** duragay oila (*ikki dindagi odamlar qovushmasi*); **2.** aralash, qo'shma; **école, classe mixte** aralash maktab, sinf.

**mixture** *nf* **1.** mikstura, suyuq dori; **2.** notayin ovqat, notayin ichimlik; **ne buvez pas cette affreuse mixture** bu jirkanchli notayin ovqatni ichmang.

**Mlle** *abrév voir* **mademoiselle**.

**Mme** *abrév voir* **madame**.

**mnémotechnique** *adj* mnemotexnikaga oid (*xotirada tutishni, esga olishni osonlashtiruvchi usulga oid*); **procédés, formules mnémotechniques** mnemotexnik usul va qoidalar.

**mobile I.** *adj* **1.** qo'zg'aladigan, siljiydigan, harakatlanadigan; **les pièces mobiles d'une machine** dastgohning harakatlanadigan qismi; **calendrier à feuillets mobiles** almashinuvchi kalendar; **2.** o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; **fêtes mobiles** surilib turadigan bayram; **3.** ko'chib yuradigan, ko'chmanchi; **garde mobile** harakatdagi gvardiya; **population mobile** ko'chmanchi xalq; **4.** tez harakatlanuvchi, tez o'zgarib turuvchi, serharakat, serg'ayrat, pitrak; **reflets mobiles** tez o'zgarib turuvchi akslar; **visage, regard mobile** serg'ayrat yuz, qarash; **II.** *nm* **1.** harakatlanuvchi jism; **calculer la vitesse d'un mobile** harakatlanuvchi jismning tezligini o'lchamoq; **2.** yuzaga keltiruvchi kuch, sabab; **les mobiles d'une action** biron ishning yuzaga keltiruvchi kuchlar; **chercher le mobile d'un crime** jinoyatning keltirib chiqaruvchi sababini axtaring; **3.** o'zgaruvchan, jiladigan, siljiydigan.

**mobilier, ère I.** *adj* **1.** ko'char mol-mulk, mol-dunyoga oid; **fortune mobilière** ko'chma mol-mulk; **2.** *dr* ko'char mol-mulkka bog'liq bo'lgan; **valeurs mobilières** qarz olish-berish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar; **II.** *nm* uy jihozlari, mebeli; **le mobilier d'une maison** uy jihozlari. **mobilier de bureau** idora jihozlari; **mobilier urbain** shahar jihoz-anjomlari.

**mobilisable** *adj* safarbar qilsa bo'ladigan.

**mobilisation** *nf* **1.** safarbarlik, safarbar qilish; **décréter la mobilisation générale** umumiy safarbarlik e'lon qilmoq; **2.** ishga solish; **la mobilisation des ressources, des énergies** boylik, kuch-quvvatini ishga solish.

**mobiliser** *vt* **1.** safarbar qilmoq; **2.** safarbar etmoq, otlantirmoq, chorlamoq; **le syndicat a mobilisé ses militants** kasaba uyushmasi o'z kurashchilarini otlantirdi; **3.** ishga solmoq, jalb qilmoq; **mobiliser les enthousiasmes** g'ayratni ishga solmoq.

**mobilité** *nf* **1.** harakatchanlik, serharakatlilik; **accroître la mobilité d'une armée par la motorisation** motorlashtirish yo'li bilan qo'shinning harakatchanligini oshirmoq; **2.** o'zgaruvchanlik; **la mobilité d'un visage** yuzning o'zgaruvchanligi; **3. mobilité des sentiments, de l'humeur** his-tuyg'ularning, kayfiyatning beqarorligi, betayinligi, o'zgarib turishligi.

**mobylette** *nf* motorli velosiped, moped.

**mocassin** *nf* **1.** mokasin, choriq (*Shimoliy Amerika yerli aholisining xom teridan tayyorlangan oyoq kiyimi*); **2.** yurish va sport uchun mo'ljallangan bog'ichsiz oyoq kiyimi.

**moche** *adj* **1.** *fam* xunuk, ko'rimsiz, badbashara; **elle est vraiment moche** u haqiqatdan ham xunuk; **2.** xunuk, yoqimsiz, jirkanch, razil; **c'est moche ce qu'il a fait là!** uning u yerda qilgan ishi razil-ku!

**mocheté** *nf fam* xunuk, badbashara odam.

**modal, ale, aux** *adj* **1.** *ling* modal; **valeur modale** modallik ma'nosi; **auxiliaires modaux** yordamchi modal so'zlar; **"pouvoir", "devoir"** fe'llari yordamchi modal so'zlardir; **2. musique modale** tovushlar sirasi asosiy o'rinda bo'lgan kuy; **adverbe de modalité** modal ravish; **3.** *mus* tovushlar sirasi, kuy, ohang tuzilishi, maqom, soz.

**modalité** *nf* **1.** shart-sharoit, usul; **modalités de paiement** to'lov usullari; **2. adverbe de modalité** modal ravish; **3.** *mus* tovushlar sirasi, kuy, ohang tuzilishi, maqom, soz.

**mode**[1] *nf* **1.** moda, rasm, odat; **les engouements de la mode** modaga ishqibozlik; *loc* **à la mode** keng tarqalgan, hammaga rasm bo'lgan; **chanson à la mode** keng tarqalgan ashula; **ce n'est plus à la mode, c'est passé de mode** bu bugun rasm bo'lmay qoldi, bu modadan chiqdi; **suivre la mode** modaga mos kiyinmoq; **teintes, tissus mode** rasm bo'lgan rang, gazmol; **journal de mode** modalar jurnali; **elle travaille dans la mode** u modalar uyida ishlaydi; **2. à la mode de** odaticha, -cha, -chasiga.

**mode**[2] *nm* **1.** *mus* tovushlar sirasi, kuy, ohang tuzilishi, maqom, soz; **mode majeur, mineur** soz major, soz minor; **2.** *ling* mayl; **les temps de chaque mode** har bir mayl zamonlari; **3. mode de** usul, uslub, yo'l, tarz; **mode de vie, d'existence** turmush, yashash tarzi; **mode d'emploi** foydalanish uslubi; **mode de paiement** to'lov usuli.

**modelage** *nm* yasash, qoliplash, quyish; **le modelage d'une statue en terre glaise** kulolchilik loyidan haykal yasash.

**modelé** *nm* forma, shakl; **le modelé du corps** tana shakli.

**modèle** *nm* **1.** model, namuna, timsol, o'rnak, ibrat; **texte qui est donné comme modèle à des élèves** o'quvchilarga namuna sifatida berilgan matn; **sa conduite doit être un modèle pour nous** uning xulqi bizga o'rnak bo'lishi kerak; **prendre qqn pour modèle** biron kishini timsol qilib olmoq; **sur le modèle de** namunasida, timsolida, o'rnakida, ibratida; *loc* **des employés modèles** o'rnak, namunali xizmatchilar; **2.** naturachi; **dessin, dessiner d'après le modèle** naturachidan chizish, naturachidan rasm chizmoq; **3.** xil, tur, shakl, nusxa, model; **les différents modèles d'organisation industrielle** ishlab chiqarishni tashkil qilishning turli shakllari; **modèle reproduit en grande série** ko'plab ishlab chiqarilgan nusxa; **un nouveau modèle de voiture** avtomobilning yangi nusxasi; **les modèles de la haute couture** modalar uyining yangi nusxalari; **4.** maket (*narsalarning kichraytirib yasalgan modeli, namunasi, nusxasi*); **modèle réduit** kichraytirilgan model, namuna, nusxa; **des modèles réduits de bateaux** kemalarning kichraytirilgan nusxalari; **faire voler un avion modèle réduit** samolyot modelini uchirmoq.

**modeler I.** *vt* **1.** yasamoq, qilmoq; **modeler une poterie, une statuette** sopol idish, haykalcha yasamoq; **modeler de la terre glaise** kulolchilik loyidan yasamoq; **pâte à modeler** plastilin; **3.** bermoq, kiritmoq; biror holatga keltirmoq; **l'érosion modèle le relief** eroziya relyefni ma'lum holatga keltiradi; **4.** shakllantirmoq, moslamoq; **modeler son goût sur, d'après celui de qqn** o'z didini boshqa birovnikiga moslab shakllantirmoq; **II. se modeler sur** *vpr* -ga qarab moslashmoq; -dan o'ziga o'rnak olmoq, namuna olmoq.

**modéliste** *n* **1.** modeler (*kiyimlarning modelini ishlab chiquvchi mutaxassis*); **2.** modelist, modelchi, andozachi.

**modem** *nf inform* modem (*ma'lumotlar bilan masofadan turib ishlashda foydalaniladigan asbob*).

**modérateur, trice I.** *adj* cheklovchi, cheklab qo'yuvchi, tiyib turuvchi; **une influence modératrice** tiyib turuvchi ta'sir; **ticket modérateur** ketgan xarajatning kasal tomonidan to'lanadigan to'rtdan bir qismi (*Fransiyada*); **II.** *nm* regulyator (*mashinalarning yurishini yoki ishlashini tartibga solib turuvchi asbob*); atom reaktorida zanjirli reaksiyani tartibga solib turuvchi jism.

**modération** *nf* **1.** o'rtachalik, mo'tadillik, evidalik; **il fait preuve de modération dans sa conduite** u o'zining xulq-atvorida mo'tadillik ko'rsatmoqda; **2.** kamaytirish, kichraytirish, yumshatish.

**moderato** *adv mus* moderato (*shoshilmay, ohista ijro etiladigan musiqa asari*).

**modéré, ée** *adj* **1.** o'rtacha, o'rta-miyona, mo'tadil, evida; **2.** o'rtacha yo'l, ish tutadigan, o'rtacha, xolis, mo'tadil; **un parti modéré** o'rtacha yo'l tutadigan partiya; **3.** o'rtacha, o'rta-miyona, arzon; **prix modéré** arzon baho.

**modérément** *adv* o'rtacha, o'rta-miyona, mo'tadil, evida; **boire, manger modérément** evida ichmoq, yemoq.

**modérer I.** *vt* yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, kichraytirmoq, bo'shashtirmoq, mo'tadillashtirmoq, muloyimlashtirmoq; **modérer sa colère** achchig'idan tushmoq; **modérer vos expressions** muloyimroq gapiring; **modérer l'allure, la vitesse** sekinroq yurmoq, tezlikni pasaytirmoq; **II. se modérer** *vpr* yumshamoq, pasaymoq, kamaymoq, kichraymoq, bo'shashmoq, mo'tadillashmoq, muloyimlashmoq; **modérez vous!** tinchlaning!, o'zingizni bosing!

**moderne I.** *adj* **1.** hozirgi zamon, zamonaviy, yaqinda paydo bo'lgan; **la musique moderne** zamonaviy kuy; **2.** yangi, zamonaviy, eng oxirgi, yangi chiqqan; **les techniques modernes** zamonaviy texnikalar; **immeuble, usine moderne** zamonaviy imorat, zavod; **3.** hozirgi kundagi, hozirgi, zamonaviy; **il n'est pas moderne, il est vieux jeux** u hozirgi kunning odami emas, uning bozori o'tgan; **des goûts, des idées modernes** hozirgi kunning didi, g'oyasi;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**4.** antik dunyodan keyingi davrga taalluqli; **les temps modernes** Yangi zamon (*O'rta asrdan shu kungacha bo'lgan vaqt*); **5.** *hist* **époque moderne, les temps modernes** hozirgi davr, Yangi zamon (*O'rta asrning oxiridan fransuz revolutsiyasigacha, hozirgi davrning boshi*); **6.** zamonaviy, yangi; **enseignement moderne** zamonaviy o'qitish; **licence de lettres modernes** yangi harflarga ruxsatnoma; **II.** *n* yangilik, zamonaviylik tarafdori; **querelle des anciens et des modernes** adabiyotda eskilik va yangilik tarafdorlarining tortishuvi.

**modernisation** *nf* modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish, zamonaviylashtirish.

**moderniser** *vt* **1.** modernizatsiyalamoq, modernizatsiya qilmoq, zamonaviylashtirmoq; **2.** hozirgi zamonga mos qilib ishlamoq, zamonaviylashtirmoq; **moderniser la technique** texnikani zamon talabiga mos qilib ishlamoq.

**modernisme** *nm* modernizm (*san'at va adabiyotdagi yo'nalishlarning nomi*); **modernisme en peinture** tasviriy san'atda modernizm.

**modernité** *nf* zamonaviylik, zamon talablariga moslik.

**modern style** *nm, adj inv* modern uslubi.

**modeste** *adj* **1.** sodda, oddiy, kamtar, sipo, odmi; **mise, tenue modeste** kamtarona ust-bosh, kiyim; **il est d'une origine très modeste** u azaldan juda kamtar; **2.** oz, arzimas, o'rta-miyona; **salaire très modeste** juda arzimas oylik; **3.** kamtar, sodda, oddiy, sipo; **un homme simple et modeste** sodda va kamtar odam; **vous êtes trop modeste** siz o'ta kamtarsiz; **air, mine modeste** sipo ko'rinish, yuz.

**modestement** *adv* kamtar, odmi, oddiy, oddiygina; sipo; **parler, se comporter modestement** kamtarona gapirmoq, o'zini tutmoq.

**modestie** *nf* soddalik, oddiylik, kamtarlik, sipolik; **fausse modestie, modestie affectée** yolg'ondakam, zo'raki kamtarlik.

**modicité** *nf* **1.** ozlik, arzimaslik, o'rta-miyonalik; **la modicité de son revenu** daromadining ozligi; **2.** ozlik, kichiklik; **la modicité de ses espoirs** umidining ozligi.

**modifiable** *adj* o'zgaradigan, o'zgartirsa bo'ladigan.

**modificateur, trice** *adj* o'zgartiruvchi; o'zga shaklga, ko'rinishga kirituvchi; **action modificatrice** o'zgartiruvchi harakat.

**modificatif, ive** *adj* o'zgartiruvchi, o'zgartish kirituvchi; **texte modificatif** o'zgartish kirituvchi matn; **termes modificatifs** o'zgartish kirituvchi so'z va iboralar.

**modification** *nf* **1.** o'zgarish, boshqa tusga kirish; **modification quantitative, qualitative** miqdor, sifat o'zgarishi; **2.** modifikatsiya, o'zgartirish; **il faudra faire quelques modifications à ce projet** bu rejaga ayrim o'zgarishlar kiritish kerak bo'ladi.

**modifier I.** *vt* o'zgartirmoq, o'zgarish kiritmoq; **modifier ses plans** rejalariga o'zgarish kiritmoq; **II. se modifier** *vpr* o'zgarmoq, boshqa tusga kirmoq; **une impression qui se modifie sans cesse** to'xtovsiz o'zgarib turadigan taassurot.

**modique** *adj* oz, kam, kichik, arzimas, o'rta-miyona (*pulga nisbatan*); **un salaire modique** o'rta-miyona oylik; **pour la modique somme de 10 euros** arzimagan qandaydir o'n evro uchun.

**modiquement** *adv* oz, kam, arzimas, o'rta-miyona; **être modiquement payé, rétribué** kam oylik, kam haq oladigan bo'lmoq.

**modiste** *nf* shlapado'z ayol (*ayollar bosh kiyimini ishlab chiqaradigan va sotadigan ayol*); **atelier, boutique de modiste** ayollar bosh kiyimi atelesi, do'koni.

**modulateur, trice** *nf* modullashtiruvchi, o'zgartiruvchi asbob (*tok, radio to'lqinlarini*).

**modulation** *nf* **1.** *mus* modulyatsiya, tuslanish (*musiqiy ton, tovush haqida*); **2.** o'tish (*bir ohangdan ikkinchisiga*); **3.** modulyatsiya, o'zgarish, o'zgartirish; **émission en modulation de fréquence** chastotali modulyatsiyada eshittirish.

**module** *nm* **1.** o'lchov, kattalik, hajm; **2.** koeffitsent, daraja, o'lchov; **module de rigidité** qattiqlik darajasi; **3. module lunaire** maxsus bo'lim, kabina (*kosmik kemada*).

**moduler** *vt* **1.** *mus* modulyatsiyalanmoq, tuslanmoq (*musiqiy ton, tovush haqida*); **moduler un air en le sifflant** hushtak chalib kuyni modulyatsiya qilmoq; **2.** o'tkazmoq (*bir ohangdan ikkinchisiga*); **3.** *radio* modulyatsiya qilmoq, o'zgartirmoq; **4.** modullamoq, moslamoq, o'zgartirmoq; **moduler des tarifs** tariflarni moslamoq.

**modus vivendi** *nm inv* modus vivendi; (*ikki davlat va umuman ikki tomon o'rtasidagi tinchlik*).

**moelle** *nf* **1.** ilik; **os à moelle** ilikli suyak; **frissonner, être glacé jusqu'à la moelle des os** sovuqdan titramoq, sovuq suyak-suyagidan, jon-jonidan o'tib ketgan bo'lmoq; **2.** miya; **moelle épinière** orqa miya.

**moelleusement** *adv* yumshoqlik, mayinlik bilan.

**moelleux, euse** *adj* **1.** mayin, yumshoq; **étoffe moelleuse** mayin mato; **siège, lit moelleux** yumshoq o'rindiq, yotarjoy; 2 shirin, totli, mazali, lazzatli; **vin moelleux** lazzatli vino; **3.** yoqimli, mayin; **son moelleux** mayin tovush; **4.** *san'at.* nozik, latif, chiroyli, go'zal; **ligne, touche moelleuse** nozik chiziq, bo'yoq.

**moellon** *nf* xarsangtosh; **moellons naturels ou bruts** tabiiy, ishlov berilmagan xarsangtosh.

**mœurs** *nf pl* **1.** axloq, odob; **bonnes, mauvaises mœurs** yaxshi, yomon odob; **il a des mœurs dissolues** uning xulqi buzuq; *dr* **outrage aux bonnes mœurs** axloq-odobni oyoq osti qilish; **police des mœurs** *ou* **les mœurs** axloq politsiyasi (*fohishabozlik ishlarini tartibga solib turuvchi politsiya*); **les mœurs et la mondaine** axloq politsiyasi va narkotik moddalar sotishga qarshi kurashuvchi politsiya; **2.** rasm, odat, udum, urf-odat, taomil; **étudier les mœurs d'une ethnie, d'une tribu, d'une époque** biror etnik guruh, qabila; davrning urf-odatlarini, rasm-rusmlarini o'rganmoq; **cette habitude est entrée dans les mœurs (dans nos mœurs)** bu odat bizning udumimizga kirib qolgan; **3.** fe'l, xulq, fe'l-atvor, fe'l-xo'y; **avoir des mœurs simples, des mœurs bohèmes** sodda fe'l-atvorli, badfe'l bo'lmoq; **4.** fe'l, fe'l-atvor, qiliq (*hayvonlarda*); **les mœurs des abeilles** asalarilarning qiliqlari.

**mohair** *nm* angoriy echki yungi, tiviti.

**moi I.** *pron pers kishilik olmoshi, urg'uli, birinchi shaxs, birlik, har ikki rod uchun, gapiruvchi yoki yozuvchi shaxsni bildiradi* men; **regarde-moi** menga qara; **donnez-la-moi** uni menga bering; **regardez-moi ça!** mana bunga qarab qo'ying! **moi, je le trouve sympathique** men esa, men uni yoqimtoy deb hisoblayman; **moi, faire cela?** men buni qilay? **qui est là? – moi** kim u? – men; **mon avocat et moi sommes de cet avis** mening advokatim va men shu fikrdamiz; **il nous a invités, ma femme et moi** u bizlarni taklif qildi, xotinim va meni; **plus, moins que moi** mendan ko'ra ko'proq, ozroq; **ne faites pas comme moi** menday qilmang; **moi qui** men (*aynan men*); **moi qui vous parle** men sizga gapiryapman; **c'est moi** bu men; **c'est moi qui vous le dis** buni sizga aytayotgan bu menman; **avec moi, chez moi** men bilan, menikida; **l'idée n'est pas de moi** fikr mendan chiqqan emas; **un ami de moi et de mon frère** mening va akamning do'stlaridan biri; **pour moi** mening uchun; **elle est tout pour moi** u mening uchun hamma narsa; **pour moi, selon moi, d'après moi, il est fou** menimcha u jinni; **quant à moi** men uchun, menga kelsak, menga qolsa; **de vous à moi** siz va mening oramizda; *loc* **moi-même** men o'zim; **je ferais le travail moi-même** bu ishni men o'zim qilaman; **moi seul** yolg'iz o'zim; **c'est moi seul qui suis responsable** men yolg'iz o'zim javobgarman; **moi aussi** men ham; **j'aimerais bien y aller – moi aussi** men u yerga borishni juda xohlar edim – men ham; **moi non plus** men esa yo'q; **je n'aimerais y pas aller – moi non plus** men u yerga borishni xohlamas edim – men ham; *plais* **je t'aime. moi non plus** men seni sevaman; men esa yo'q; **II.** *nm inv* **1.** men (*shaxs*); **2.** o'zligim; **notre vrai moi** bizning haqiqiy o'zligimiz.

**moignon** *nm* **1.** cho'ltoq, to'mtoq (*qo'l yoki oyoq*); **le moignon d'un manchot** cho'loqning cho'ltoq qo'li; **2.** g'o'la, kesik; **3.** rudimentar, o'smay qolgan organ; **les moignons d'ailles des oiseaux marcheurs, des pingouins** yerda yuruvchi qushlar, pingvinlarning o'smay qolgan qanotlari.

**moindre** *adj* **1.** kichikroq, arzimas, ahamiyati ozroq, ahamiyatsizroq, kuchsizroq; **un moindre mal** arzimas og'riq; **2.** eng kichik, eng arzimas, eng ahamiyatsiz, zarracha; **les moindres détails** eng kichik tafsilotlar; **je n'en ai pas la moindre idée** bu haqda mening zarracha ham fikrim yo'q; **c'est le moindre de mes soucis** bu mening tashvishlarimning eng ahamiyatsizidir; (*inkordan so'ng*) hech qanday; **il n'y a pas le moindre doute** hech qanday shubha yo'q; **sans le moindre doute** hech qanday shubhasiz.

**moine** *nm* monax, rohib.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**moineau** *nm* **1.** chumchuq; **épouvantail à moineaux** chumchuq qo'rqitgich; *fig* **vilain, sale moineau** yaramas, iflos odam, nusxa, bashara; **2.** *fam* cho'choq, bulbulcha.

**moins I.** *adv* **1.** ozroq, kamroq; **il travaille moins** u kamroq ishlaydi; **il est moins grand que son frère** u akasiga qaraganda kichikroq; **un peu plus ou un peu moins** bir oz ko'proq yoki bir oz kamroq; **trois fois moins cher** uch barobar arzonroq; **non moins que** xuddi, shuningday; **pas moins** shuncha, qancha bo'lsa shuncha; *loc* **plus ou moins** ozroq yoki ko'proq; **ni plus ni moins** ko'p ham oz ham emas; **2. le moins** eng oz, eng kam; **pas le moins du monde** hech, hech bir, sira, zarracha ham, aslo, zinhor; **c'est la robe la moins chère que j'aie trouvée** bu ko'ylak men topa olganlarimning ichida eng arzoni; **3. au moins** hech bo'lmaganda, loaqal, aqalli, kamida; **si, au moins il était arrivé à temps!** hech bo'lmaganda u vaqtida kelganda edi! **il y a au moins une heure** kamida ikki soat bor; **du moins** har holda, lekin, shunday bo'lsa ham; **il a été reçu premier, du moins il le prétend** u birinchi bo'lib qabul qilingan edi, har holda uni bunga haqqi bor; **tout au moins, pour le moins** eng kamida, kam, oz deganda, ozi bilan; **4.** oz qism, oz narsa; **cela coûte moins** bu arzonroq, ozroq turadi; **ni plus ni moins** oz ham ko'p ham emas, roppa-rosa; **moins de** ozroq, kamroq; **moins de vingt kilos** yigirma kilodan ozroq; **les moins de vingt ans** yigirma yoshdan kichiklar; **de moins, en moins** kamida, hech bo'lmaganda; **il y a un élève en moins** kamida bitta o'quvchi bor; **5.** *loc* **à moins de, que** -sa agar, -dan tashqari agar; **j'irai chez vous à moins que vous ne sortiez** siz agar uyingizdan chiqib ketib qolmasangiz men siznikiga boraman; **II.** *nm* **1.** eng kami, eng ozi, eng kichigi; *loc* **qui peut le plus peut le moins** eng ko'pini qila olgan eng ozini ham qila oladi; **2. le signe moins** minus, ayirish belgisi; **III.** *prép* **1.** ayirsa, olinsa, kam; **six moins quatre font deux** oltidan to'rtni ayirsa ikki qoladi; **dépêchez-vous, il est presque moins dix** tezroq bo'ling, qariyb o'nta kam bo'lib qoldi; **2. il fait moins dix (degrés)** o'n darajadan kam bo'layapti.

**moire** *nf* **1.** muar, muhayyar (*mato*); **ruban de moire** muar, muhayyar lenta; **2.** *litt* tovlanish, jilvalanish, mavj urish.

**moiré, ée** *adj* **1.** muar, muhayyar; **2.** tovlanadigan, jilvalanadigan; **les ailes moirées des corbeaux** qarg'alarning tovlanuvchi qanotlari.

**moirure** *nf* muarlanganlik, muhayyarlanganlik; tovlanish, jilvalanish.

**mois** *nm inv* **1.** oy; **une fin de mois** oyning oxiri; **période de trois, de six mois** chorak (*uch oylik*), semestr (*olti oylik*); **2.** bir oy; **dans un mois et un jour** bir oyu bir kundan so'ng; **3.** oylik; oyiga to'lanadigan pul; **il touche le treizième mois** u o'n uchinchi oylikni olayapti; **tu dois trois mois de loyer** sen uch oylik ijarani to'lashing kerak.

**moïse** *nm* belanchak, osma belanchak.

**moisi, ie I.** *adj* po'panakli, mog'or bosgan, mog'or (*po'panak*); **confiture moisie** po'panak bosgan murabbo; **goût de moisi** po'panak ta'mi; **II.** *nm* po'panak, mog'or.

**moisir I.** *vi* **1.** po'panak, mog'or bosmoq; mog'orlamoq; **ce pain moisit** bu non mog'orlayapti; **2.** *fam* intizor bo'lmoq, toliqmoq, tinkasi qurimoq, mog'or bosmoq; **nous n'allons pas moisir ici tout la journée** biz kun bo'yi bu yerda mog'or bosib o'tira olmaymiz; **II.** *vt* po'panak bostirmoq, mog'orlatmoq.

**moisissure** *nf* mog'or, po'panak; **moisissures du fromage, du vin** pishloq, vinoning po'panagi.

**moisson** *nf* **1.** o'rim, o'rim-yig'im, o'roq; **faire la moisson** o'rmoq; **2.** hosil; **rentrer, engranger la moisson** hosilni yig'moq, omborlarga to'kmoq; **3.** juda ham ko'p, bir talay, behisob, son-sanoqsiz, cheksiz; **une moisson de souvenirs** bir talay xotiralar.

**moissonner** *vt* o'rmoq, yig'ishtirmoq.

**moissonneur, euse** *n* **1.** o'roqchi; **les moissonneurs sont souvent des ouvriers agricoles saisonniers** ko'pincha o'roqchilar qishloq xo'jaligining mavsumiy ishchilaridir; **2.** *nf* o'roq mashina.

**moissonneuse-batteuse** *nf* kombayn.

**moite** *adj* nam, ho'l; **peau moite de sueur** terdan nam tortgan teri; **atmosphère, chaleur moite** nam muhit, issiq.

**moiteur** *nf* namlik, ho'llik, namiqqanlik; **la moiteur de l'air** havoning namligi.

**moitié** *nf* **1.** yarim, yarimta, narsaning yarmi; **le diamètre partage le cercle en deux moitiés** diametr doirani ikkita yarimtalikka bo'ladi; **cinq est la moitié de dix** besh o'nning yarmidir; **une bonne, une grosse moitié** yaxshi, katta bir yarmi; **une petite moitié** kichik bir yarmi; **2.** o'rtasi, yarmi; **parvenu à la moitié de son existence** hayotining yarmiga kelgan; **3. à moitié** yarim baravar; yarmi, yarmisi, yarimtasi; **ne rien faire à moitié** yarmisini qilishning hech hojati yo'q; **verre à moitié plein** yarim stakan; *loc prép* **à moitié chemin** yarim yo'lda; **moitié… moitié…** yarmi… yarmi…; **moitié farine et moitié son** yarmi un va yarmi kepak; *fam* **êtes-vous content de votre voyage? moitié-moitié** siz sayohatingizdan mamnunmisiz? yarim-yarti; *loc* **faire moitié-moitié** yarmini u yarmini bu qilmoq; **4.** *iron fam* xotin, rafiqa (*egalik olmoshidan so'ng*); **sa moitié** o'zining xotini.

**moka** *nm* moko qahvasi; **une tasse de moka** bir chashka qahva; **2.** pirojnoye (*qahva kremi qo'shilgan*).

**mol** *adj m voir* **mou**[1].

**molaire** *nf* oziq tish.

**mole** *nf chim* gramm-molekula.

**môle** *nm* damba, ko'tarma, to'lqinqaytargich.

**moléculaire** *adj* molekulaga oid, molekulyar; molekula; **formule moléculaire d'un corps** jismning molekulyar formulasi; **poids, masse moléculaire** molekulyar og'irlik, massa.

**molécule** *nf* molekula; **la molécule d'un corps est formée d'atomes** jismning molekulasi atomlardan tashkil topgan.

**moleskine** *nf* moleskin, shaytonteri (*gazmol turi*).

**molester** *vt* turtmoq, itarmoq, qo'pollik qilmoq; **il a été pris à partie et s'est fait molester par la foule** u jalb qilingan edi va olomon tomonidan turtib-itarildi.

**moleté, ée** *adj* shahmat shaklidagi yo'lakchali; **vis moletée** boshi shahmat shaklidagi yo'lakchali vint.

**molette** *nf* **1.** g'ildirakcha (*shpor, durbin kabilarda*); **2.** rezets, keskich; **3.** shkiv; **molette de mise au point** aniqlikni moslovchi shkiv (*durbinda*).

**mollah** *nm* mulla.

**mollard** *nm fam vulg* tupuk.

**mollasse** *adj* **1.** bo'sh, bo'shashgan, shalviragan; **2.** bo'shang, bo'shashgan, sust, shalviragan, landavur, lapashang, noshud; **il est un peu mollasse** u bir oz bo'shashganroq; **une grande fille mollasse** katta noshud qiz.

**mollasson, onne** *n fam* lapashang, landavur, noshud, latta; **allons, dépêche-toi, gros mollasson!** xo'p, bo'l tezroq, lapashang!

**mollement** *adj* **1.** bo'sh, sust, shalvirab; **il travaille mollement** u sust ishlaydi; **2.** sekin, sekin-asta, shoshmay, bo'sh; **le fleuve coule mollement** daryo sokin oqyapti.

**mollesse** *nf* **1.** yumshoqlik, bo'shlik; **la mollesse d'un lit** o'rinning yumshoqligi; **2.** bo'shlik, bo'shanglik, shalviraganlik, landavurlik, lapashanglik, noshudlik; **la mollesse d'un paresseux** dangasaning bo'shangligi.

**mollet**[1]**, ette** *adj* yumshoq, nozik, bo'sh; **œuf mollet** ilitilgan tuxum.

**mollet**[2] *nm* boldir; **des mollets musclés** mushakli boldir.

**molletière I.** *nf* obmotka (*boldirga o'raladigan qayish yoki latta paytava*); **II.** *adj* **bande molletière** obmotka.

**molleton** *nm* movut.

**molletonné, ée** *adj* movut qoplangan.

**mollir** *vi* **1.** bo'shashmoq, holsizlashmoq, zaiflashmoq, darmonsizlashmoq, susaymoq; **sentir ses jambes mollir de fatigue** oyoqlarining charchoqdan holsizlanganligini his qilmoq; **2.** yumshamoq, mayinlashmoq; **3.** bo'shashmoq, yumshamoq, pasaymoq, tushmoq, sustlashmoq, qaytmoq; **courage qui mollit** pasayayotgan jasurlik; **sa résolution a molli** uning qarori bo'shashdi; **4.** *fam* bo'shashmoq, taraddudlanib qolmoq, popigi pasaymoq, hovridan tushmoq (*odam*).

**mollo** *adv fam* sekin-asta, ohista, shoshmay, bamaylixotir; **vas-y mollo!** u yerga bamaylixotir bor!

**mollusque** *nm* **1.** molluska; **2.** latta, landavur odam.

**molosse** *nm* ulkan it.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**molybdène** *nm chim* molibden.

**môme** *n fam* **1.** *fam* bola, yosh bola, kichkintoy, mitti, go'dak; **2.** yosh qiz, qizcha, yosh juvon; **jolie môme** go'zal juvon, qizcha.

**moment**[1] *nm* **1.** moment, vaqt, on, payt, lahza; **les moments de la vie, de l'existence** hayot, turmush onlari; **un petit, un long moment** qisqa, uzun lahzalar; **célébrité, succès du moment** paytning sharafi, yutuqlari; **2.** lahza, on, fursat, dam, daqiqa, nafas, ko'z ochib yumguncha o'tadigan vaqt; **en un moment** bir lahzada; **dans un moment** oz fursatdan so'ng; **un moment! j'arrive** bir daqiqa! boryapman; **3.** payt, vaqt, daqiqa, lahza; **bons moments** yaxshi paytlar; **c'est un mauvais moment à passer** bu o'tkinchi bir yomon payt; **n'avoir pas un moment à soi** o'ziga qaragani bir daqiqa ham vaqti bo'lmaslik; **4.** payt, fursat, mavrid; **profiter du moment** paytdan foydalanib qolmoq; **ce n'est pas le moment** bu mavridi emas; **c'est le moment ju jamais** bu ayni fursati yoki bunday fursat hech qachon bo'lmaydi; **5.** *loc* **au moment** paytida, davrida; **au moment de** biror narsa qilinayotgan paytida; **au moment de partir** ketish paytida; *loc prép* **au moment où** davrda, paytda; **à un moment donné** berilgan bir davrda; *loc adv* **à tout moment, à tous moments** har doim, to'xtovsiz; **à aucun moment** hechqachon; **en ce moment** shu paytda, hozir; **sur le moment** o'sha paytda, paytida; **par moment** payti-payti bilan; **d'un moment à l'autre** hozir, mana-mana; **6.** *loc prép* **du moment où, que** chunki, negaki, modomiki; **du moment que tu es d'accord** modomiki sen rozi ekansan.

**moment**[2] *nm techn* moment, vaqt; **moment d'un vecteur par rapport à un point** vektorning biror nuqtaga nisbatan vaqti.

**momentané, ée** *adj* oniy, bir lahzada, birpasda, juda tez sodir bo'ladigan, birpasli, bir lahzali, darrov, (darhol) bo'ladigan; **gêne momentanée** bir lahzali tortinish; **arrêts, efforts momentanés** birpasli to'xtash, zo'r berish.

**momentanément** *adv* hozircha, vaqtincha, bir ozga; **le trafic est momentanément interrompu** savdo vaqtincha uzilib qoldi.

**momie** *nf* mumiyo; **la momie de Ramsès II** Ramses II mumiyosi.

**momification** *nf* **1.** mumiyolash; **momification naturelle** tabiiy mumiyolash; **2.** mumiyoga aylanish, qotib qolish.

**momifier I.** *vt* **1.** mumiyolamoq; **cadavre momifié** mumiyolangan jasad; **2.** harakatsizlashtirmoq, faoliyatsizlashtirmoq, sustlashtirmoq; **II. se momifier** *vpr* **esprit qui se momifie** faoliyatsizlashadigan aql.

**mon, ma, mes** *adj poss* meniki, mening; **c'est mon opinion** bu mening fikrim; **à mon avis** menimcha; **mon livre** mening kitobim; **je prends mon apéritif** men aperitivimni ichyapman; **de mon temps** mening davrimda; **mon père** otam; **ma fiancée** qaylig'im; **mon patron** xo'jayinim; **mes voisins** qo'shnilarim; **elle est restée dix ans à mon service** u mening xizmatimda o'n yil bo'ldi.

**monacal, ale, aux** *adj* monax, rohiblarga oid; **la vie monacale** rohibona hayot.

**monarchie** *nf* **1.** monarxiya; **monarchie constitutionnelle** konstitutsiyaviy monarxiyasi; **2.** qirollik; **la monarchie d'Angleterre** Angliya qirolligi.

**monarchique** *adj* monarxiyaga asoslangan, monarxiyachi; monarxiya, podsho; **état, gouvernement monarchique** monarxiya davlati, hukumati.

**monarchisme** *nm* monarxizm.

**monarchiste** *n, adj* monarxist, monarxiya tarafdori.

**monarque** *nm* monarx, podsho, hokimi mutlaq.

**monastère** *nm* monastir.

**monastique** *adj* monax(lar)ga, rohib(lar)ga oid; monax, rohib; **discipline, vie monastique** rohiblar tartibi, hayoti.

**monceau** *nm* uyum, to'da, to'p, g'aram; **des monceaux d'ordures** axlat uyumlari; *fig* **un monceau d'erreurs** bir to'da xato.

**mondain, aine** *adj* **1.** oqsuyaklarga, kiborlarga, aristokratlarga oid, aristokratlarcha, aristokratik; **vie mondaine et brillante** aristokratlarcha va dabdabali hayot; **romancier, écrivain mondain** aristokratik romanchi, yozuvchi; **2.** aristokratik yig'inlarni yaxshi ko'radigan; **il est très mondain** u aristokratik yig'inlarni juda yaxshi ko'radiganlardan; **3. police mondaine** *ou* **la mondaine** giyohvandlarga qarshi kurashuvchi politsiya.

**mondanités** *nf pl* **1.** Aristokratlarga oid voqea, hodisa; **aimer, fuir les mondanités** aristokratlarga oid voqea-hodisalarni yaxshi ko'rmoq, ulardan qochmoq; **2.** oqsuyakchilik; oqsuyaklarga, aristokratlarga xoslik; **allons! pas de mondanités entre nous!** Bo'ldi! ikkalamizning oramizda oqsuyakchilik yo'q!

**monde**[1] *nf* **1.** kiborlar, oqsuyaklar, aristokratlar hayoti; **aller dans le (grand) monde** kiborlar hayotiga kirmoq; **homme, femme du monde** kibor kishi, xonim.

**monde**[2] *nm* odamlar, xaloyiq, xalq, mardum; ko'p odam bor; **j'entends du monde dans l'escalier** zinapoyada odamlarning tovushini eshityapman; **tu as vu le monde qu'il y a?** sen u yerdagi odamlarni ko'rdingmi? **avoir du monde chez soi** uyida odamlar, mehmonlar bo'lmoq; **tout le monde** hamma, har bir kishi.

**monde**[3] *nm* **1.** planetalar, sayyoralar, koinot; **la guerre des mondes** sayyoralar urushi; **2.** dunyo, olam, koinot, jahon; **conception du monde** dunyoqarash; *loc* **tout est pour le mieux dans le meilleur des mondes** hamma dunyoning eng ezguliklari tarafdorlari; **l'homme et le monde** inson va tabiat; **création du monde** olamning yaratilishi; **3.** dunyo, olam, borliq; **le monde extérieur** tashqi dunyo; **4.** dunyo, olam; **le monde poétique, de l'art** she'riyat, san'at olami; **le monde des abeilles, le monde végétal** asalarilar, o'simliklar olami; *loc* **faire tout un monde de qqch** bir dunyo ish qilmoq; *fam* **c'est un monde!** bu bir dunyo! **5.** yer, yer yuzi, dunyo, olam, qit'a, iqlim; **les cinq parties du monde** dunyoning besh qit'asi; **courir, parcourir le monde** dunyoni aylanib, kezib chiqmoq; **tour du monde** yer atrofi; *fam* **le monde est petit** odam odam bilan uchrashadi; **champion, championnat du monde** dunyo chempioni, dunyo birinchiligi; **le nouveau monde** Yangi dunyo (*Amerika*); **l'ancien monde** eski dunyo (*Yevropa, Afrika, Osiyo*); **le tiers monde** qo'shilmagan davlatlar; **6.** bu dunyo, bu chirkin dunyo; *loc* **mépriser les biens de ce monde** bu dunyoning boyligidan nafratlanmoq; **de l'autre monde** u dunyodan; **il n'est plus de ce monde** u endi bu dunyoda yo'q; **7. au monde** dunyoga, dunyoda; **venir au monde** dunyoga kelmoq; **être seul au monde** bu dunyoda yolg'iz bo'lmoq; **8.** dunyo, jamiyat, insoniyat, odamlar; **ainsi va le monde** dunyo shunday o'taveradi; *loc* **à la face du monde** odamlarning oldida, ochiqchasiga; **l'avènement d'un monde meilleur** yaxshiroq jamiyatning kelishi; **le monde antique** antik dunyo; **le monde capitaliste et le monde communiste** kapitalistik va kommunistik dunyo; **9. c'est le meilleur homme du monde** bu dunyodagi eng yaxshi odam; **pour rien au monde** aslo; dunyodagi hech narsa buning o'rniga o'tmaydi; **10.** muhit, doira, olam; **il n'est pas de notre monde** u bizning doiradan emas.

**mondial, iale, iaux** *adj* dunyo, olam, jahonga oid; **population mondiale** dunyo aholisi; **l'actualité mondiale** dunyo yangiliklari.

**mondialement** *adv* dunyo, jahon miqyosida; **mondialement connu** dunyo miqyosida tanilgan.

**mondovision** *nf* jahon teleko'rsatuvi (*sun'iy yo'ldoshlar yordamida dunyoga beriladigan teleko'rsatuv*).

**monégasque I.** *adj* Monakoga oid; **II.** *n* monakolik.

**monétaire** *adj* tanga-chaqa, pulga oid; **unité monétaire** pul birligi.

**monétique** *nf* banklararo moliyaviy aloqalarda qo'llaniladigan informatik va elektronik vositalar majmui.

**mongol, ole I.** *adj* Mo'g'iliston va mo'g'illarga oid; **II.** *n* **1.** mo'g'il; **2.** *nm* mo'g'il tili.

**mongolien, ienne I.** *adj* daun kasalligi (*tug'ma aql zaifligi va yuzning burishishi*); **II.** *n* daun kasaliga uchragan odam.

**moniteur, trice** *n* ustoz, murabbiy, instruktor, trener; chang'i, avtomaktab murabbiysi, instruktori; **moniteur de colonie de vacances** bolalar dam olish guruhlarini tashkil qiluvchi javobgar shaxs.

**monitorat** *nf* ustoz, murabbiy, instruktor, trenerlik o'qishi; ustozlik, murabbiylik, instruktorlik, trenerlik; **monitorat de vol à voile** planer murabbiysi o'qishi.

**monnaie** *nf* **1.** tanga, chaqa; **monnaies d'or et d'argent** oltin va kumush tanga; **2.** pul; **monnaie métallique** metall pul; **pièce de monnaie** tanga (*almashtirish uchun*); **monnaie de papier** qog'oz pul; **monnaie électronique** elektron pul; **fausse monnaie** qalbaki pul; **fabricant de fausse monnaie** qalbaki pul yasovchi; **3.** pul birligi (*uning ma'lum davlatdagi qadri*); **le cours d'une monnaie** pulning qadri, kursi; **valeurs relatives de**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**plusieurs monnaies** pullarning bir-biriga nisbatan almashtirish qiymati; *loc* **c'est monnaie courante** bu tabiiy narsa; **4.** mayda pul, qaytim, tanga; **petite, menue monnaie** mayda pul, tanga; **passez la monnaie!** qaytimini bering! **rendre la monnaie sur cent francs** yuz frankdan qaytim bermoq; **je n'ai pas de monnaie, avez-vous de la monnaie?** mening qaytimim yo'q; mayda pulingiz bormi? *loc* **rendre à qqn la monnaie de sa pièce** qilmishiga yarasha javob bermoq.

**monnayable** *adj* pulga aylantirsa bo'ladigan.

**monnayer** *vt* **1.** pulga aylantirmoq; **monnayer un biller, un bien** qog'ozni, boylikni pulga aylantirmoq; **2.** sotmoq, pullamoq; **monnayer son talent, son silence** o'z qobiliyatini, skunatini pullamoq.

**monocellulaire** *adj* bir hujayrali.

**monochrome** *adj* bir xil rangli.

**monocle** *nm* monokl (*bir ko'zga tutiladigan ko'zoynak yoki durbin*).

**monocoque** *nm* bir korpusli.

**monocorde** *adj* bir ohangli; **une voix monocorde** bir ohangli tovush.

**monocotylédone** *adj, n pl* bir urug'bargli; bir pallali, bir danakli; **les monocotylédones et les dicotylédones** bir urug'barglilar va ikki urug'barglilar.

**monoculture** *nf* monokultura (*bir yerga hamisha bir xil ekin ekish*).

**monogame** *adj, n* bir nikohli, monogam; bir jinsli.

**monogamie** *nf* bir nikohlilik, monogamiya.

**monogramme** *nm* monogramma (*ismi, otasining ismi va familiyasi bosh hariflaridan tuzilgan bezak shaklidagi shartli belgi*).

**monographie** *nf* monografiya (*bir masalaga, temaga bag'ishlangan ilmiy asar*).

**monokini** *nm* xotinlarning hammomda kiyadigan lozimi.

**monolingue** *adj, n* **1.** bir tilli, faqat bir tildagina gapiradigan; **2.** bir tilli; **dictionnaire monolingue** bir tilli lug'at.

**monolithe I.** *adj* monolit, yaxlit, yaxlit toshdan yasalgan; **colonne monolithe** yaxlit ustun; **II.** *nm* yaxlit toshdan yasalgan yodgorlik.

**monolithique** *adj* **1.** yaxlit, birbutun; **2.** *fig* monolit, birbutun, jipslashgan, hamjihat; **parti monolithique** jipslashgan partiya.

**monologue** *nm* **1.** monolog; **monologue intérieur** ichki monolog.

**monologuer** *vi* monolog aytmoq, yolg'iz so'zlamoq.

**monôme** *nm* **1.** *math* birhad; **2.** sayr qiluvchi talabalarning zanjirsimon safi; **formez le monôme** zanjirsimon tizilinglar!

**monomoteur, trice** *adj* bir motorli; **avion monomoteur** bir motorli samolyot.

**monoculaire** *adj biol* bir hujayrali.

**monoplace** *adj* bir o'rinli; **voiture, avion monoplace** bir o'rinli samolyot, avtomobil.

**monoplan** *nm* monoplan (*bir qavat qanotli samolyot*).

**monopole** *nm* **1.** monopoliya (*biror narsa ishlab chiqarishda, biror narsadan foydalanishda va u bilan savdo qilishda, bir kishi yoki tashkilot, davlat qo'lida bo'lgan tanho huquq*); **capitalisme de monopole les grands monopoles** ulkan monopoliyalar; **2.** tanholik huquqi; **ce parti s'attribue le monopole du patriotisme** bu partiya o'zini tanho vatanparvar huquqiga ega deb biladi.

**monopolisation** *nm* monopoliyaga aylantirish.

**monopoliser** *vt* **1.** monopolizatsiya qilmoq, monopoliyaga aylantirmoq; **l'état a monopolisé la vente des tabacs** davlat tamaki savdosini monopoliyaga aylantirib oldi; **2.** o'ziniki qilib olmoq, o'ziga qaratib olmoq; **monopoliser qqn, son attention** birovni, birovning e'tiborini o'ziga qaratib olmoq.

**monoski** *nm* yolg'izoyoq chang'i; sportning shu turi; **faire du monoski** yolg'izoyoq chang'i sporti bilan shug'ullanmoq.

**monosyllabe I.** *adj* bir bo'g'inli; **II.** *nm* bir bo'g'inli so'z.

**monosyllabique** *adj* bir bo'g'inli; **le chinois est monosyllabique** xitoy tili bir bo'g'inli.

**monothéisme** *nm* bir xudolilik, yakka xudolilik, monoteizm.

**monothéiste** *n, adj* bir xudoli, xudoni bir deb biluvchi.

**monotone** *adj* **1.** bir ohangdagi, bir ovozli, monoton; **2.** hamisha bir xildagi, o'zgarmaydigan, zerikarli; **paysage monotone** bir xildagi manzara; **une vie monotone** zerikarli hayot.

**monotonie** *nf* bir xillilik, o'zgarmaslik, zerikarlilik; **la monotonie d'un paysage, d'un travail** manzaraning, ishning bir xilliligi, zerikarliligi.

**monseigneur**[1] *nm* oliy hazrat, hazrati oliylari, onhazrat; *pl* **messeigneurs**.

**monseigneur**[2] *nm* lom, misrang, pishang, dastak.

**monsieur,** *pl* **messieurs** *nm* **1.** janob, afandi, taqsir, to'ra; **bonjour, monsieur** salom janob; **cher monsieur** qimmatli janob; **mesdames et messieurs** xonimlar va janoblar; **2.** janob; **monsieur Durand est arrivé** janob Duran keldi; **adressez-vous à monsieur le directeur** janob direktorga murojaat qiling; **3.** bir odam, kishi; **un vieux monsieur** bir qari odam; **le monsieur que nous avons rencontré hier** biz kecha uchratgan odam; **un joli, un vilain monsieur** yaramas odam; **4.** *enf* kishi, amaki; **dis merci au monsieur** bu amakiga rahmat degin.

**monstre I.** *nm* **1.** afsonaviy, bahaybat maxluq; **monstres marins** afsonaviy dengiz maxluqlari; **2.** mayib-majruh, majruh, mayriq odam; **3.** xunuk, badbashara, badburush odam; **4.** *fig* badbaxt, ablah, yaramas; **c'est un monstre de cruauté** bu shafqatsiz ablah odam; *fam* **petit monstre!** ha yaramas! (*bolalarga nisbatan*); **5.** *loc* **les monstres sacrés** ulug' aktyorlar; **II.** *adj fam* ulkan, bahaybat, juda katta; **un meeting monstre** juda katta miting; **un travail monstre** ulkan ish.

**monstrueusement** *adv* dahshatli, qo'rqinchli darajada; haddan tashqari, ortiq darajada, o'ta; **il était monstrueusement gros, laid** u haddan tashqari semiz, xunuk edi.

**monstrueux, euse** *adj* **1.** maxluqona, bahaybat maxluqqa oid; **laideur monstrueuse** maxluqona xunuklik; **2.** bahaybat, juda katta; **une ville monstrueuse** bahaybat shahar; **un bruit monstrueux** juda kuchli shovqin; **3.** qabih, mudhish, dahshatli; **idée monstrueuse** qabih fikr.

**monstruosité** *nf* **1.** bahaybatlik, qo'rqinchlilik, xunuklik; **2.** qabihlik, mudhishlik, dahshatlilik; **la monstruosité d'un crime** jinoyatning mudhishliligi; **une monstruosité** qabih, mudhish, dahshatli narsa.

**mont** *nm* tog'; **du haut des monts** tog'ning tepasidan; **le Mont Blanc** Monblan tog'i; *loc* **par monts et par vaux** tog'larda va vodiylarda, har yerda, hamma yoqda; **promettre mont et merveilles** yeru-ko'kni va'da qilmoq.

**montage** *nm* yig'ish; **1. le montage des chaussures** tuflilarni yig'ish; **le montage d'un moteur au banc d'essai** motorni sinov stendida yig'ish; **chaîne de montage** yig'uv konveyeri; **le montage d'un circuit électrique** elektr zanjirini yig'ish; **2.** montaj (*turli parchalarni uyg'unlikda to'plab bir butun asar holiga keltirish*); **montage photographique** fatografik montaj; **un montage** yig'ma hujjatli film.

**montagnard, arde I.** *adj* tog'li joyda yashovchi, tog'lik; tog'ga oid; **peuples montagnards** tog'li aholilar; **la vie montagnarde** tog' hayoti; **II.** *n* tog'lik, tog' aholisi.

**montagne** *nf* **1.** tog'; **flanc, pente, versant d'une montagne** tog'ning yonbag'iri, qiyaligi, nishabi; **chaîne de montagnes** tog' tizmasi; *loc* **(se) faire une montagne de qqch** zig'irday narsani tog'day qilib bo'rttirmoq; **soulever les montagnes** tog'day yukni ham nazar-pisand qilmaslik; **2.** tog'liklar, balandliklar; **pays de montagne** tog'li o'lkalar; **passer ses vacances à la montagne** ta'tilni tog'da o'tkazmoq; **3.** tog', uyum, to'da; **une montagne de livres** bir tog' kitob, tog'day kitob uyumi; **4. montagnes russes** yarmarkani transportda naridan-beri kezib chiqish.

**montagneux, euse** *adj* tog'li; **région montagneuse** tog'li viloyat.

**montant, ante I.** *adj* **1.** ko'tariluvchi, ko'tarilayotgan, ortib borayotgan; **mouvement montant** ko'tarilayotgan harakat; **marée montante** ko'tarilayotgan dengiz; **gamme montante** ortib borayotgan gamma; **2.** ko'tarilib boruvchi; **II.** *nm* **1.** tirgak, poya, ustun, yondor; **les montants d'une fenêtre** deraza kesakisining yondorlari; **2.** ma'lum miqdor pul, mablag', summa, hajm; **le montant des frais** xarajatlarning umumiy hajmi.

**mont-de-piété** *nm* lombard, garovxona; **il a engagé sa montre au mont-de-piété** u soatini garovxonaga qo'ydi; *pl* **des monts-de-piété**.

**monte** *nf* **1.** qochish; qochirish; chopish, choptirish; **2.** ot minish, chavondozlik; **sa monte est excellente** u ajoyib chavandoz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**monte-charge** *nm inv* yuk tashuvchi lift.

**montée** *nf* **1.** koʻtarilish, chiqish; **être essoufflé par une pénible montée** chiqishning ogʻirligi tufayli oʻpkasi ogʻziga tiqilgan boʻlmoq; **la montée des eaux** suvning koʻtarilishi; **2.** oʻr, qiyalik; **maison en haut d'une montée** oʻrning tepasidagi uy.

**monter**[1] **I.** *vi* **1.** koʻtarilmoq, yuqori chiqmoq; **monter en haut d'une tour** minoraning yuqorisiga chiqmoq; **monter au grenier** cherdakka chiqmoq; **monter à une échelle** shotiga chiqmoq; **elle est montée se coucher** u yotgani yuqoriga chiqib ketdi; **monter à cheval** ot minmoq; **il monte bien** u otni yaxshi minadi; **monter dans une voiture, en voiture** mashinaga chiqmoq; **monter à bicyclette** velosiped minmoq; **2.** *fam* koʻtarilmoq (*janubdan shimolga*); **ils sont montés (de Marseille) à Paris** ular marseldan Parijga koʻtarildilar; **3.** koʻtarilmoq, martabasi oshmoq; **monter en grade** mansabi oshmoq; *fam* **la vedette qui monte** koʻtarilib kelayotgan yulduz; **4.** koʻtarilmoq (*narsa*); **le soleil monte au-dessus de l'horizon** ufqdan quyosh chiqyapti; **des bruits montant de la rue** koʻchadan koʻtarilayotgan shovqinlar; (*his-tuygʻu*) **la colère fait monter le sang au visage** gʻazabdan yuzi qizarib ketdi; **les larmes lui montaient aux yeux** koʻziga yosh keldi; *loc* **monter à la tête** boshga, miyaga urmoq, mast, kayf qilmoq; **5.** koʻtarilmoq, yuqorilab bormoq; **bottes qui montent à, jusqu'à mi-cuisse** songacha koʻtariladigan etik; **6.** koʻtarilmoq, ortib bormoq; **le tas, le niveau monte** uyum, daraja ortib boryapti; **7.** koʻtarilmoq, toshmoq (*suyuqlik*); **la rivière, la mer a monté** daryo, dengiz koʻtarildi; **le lait monte** sut toshyapti; **8.** koʻtarilmoq, oshmoq (*tovush*); **le ton monte** tovush koʻtarilyapti (*janjalga aylanyapti*); **9.** koʻtarilmoq, oshmoq (*narx*); **les prix, les loyers ne cessent de monter** baholar, ijara haqlari koʻtarilishdan toʻxtamayapti; **à combien montera la dépense?** xarajat qanchaga yetar ekan? **II.** *vt* **1.** koʻtarilmoq, chiqmoq; **monter une côte** qirgʻoqqa chiqmoq; **2.** ustida oʻtirmoq, minmoq; **ce cheval n'a jamais été monté** bu ot hech qachon minilgan emas edi; mindirmoq; **police montée** otliq politsiya (*Kanadada*). **3.** oshmoq, chopmoq, qochirmoq; **l'étalon monte la jument** aygʻir biyaga chopdi; **4.** olib chiqmoq (*yuqoriga*); **monter une malle au grenier** jomadonni cherdakka olib chiqmoq; **5.** koʻtarmoq; **monter l'étagère d'un cran** etajerkani bir belgi koʻtarmoq; *loc* **monter la tête à qqn, monter qqn** qarshi qilib qoʻymoq, qayrab qoʻymoq; **se monter la tête** asabiylashmoq, hayajonlanmoq, bezovta boʻlmoq; **III. se monter** *vpr* **1.** koʻtarilinmoq; **cette côte se monte facilement** bu qirgʻoqdan oson koʻtarilinadi; **2.** koʻtarilmoq, yetmoq; **les dépenses se sont montées à mille francs** xarajatlar ming frankka yetdi.

**monter**[2] *vt* **1.** yigʻmoq, tuzatmoq, montaj qilmoq; **monter une armoire livrée en éléments** qismlardan tashkil topgan jovonni yigʻmoq; **monter la tente** chodir tikmoq; **monter un film** filmni montaj qilmoq; **2.** sahnalashtirmoq, sahnaga qoʻymoq; **monter une pièce de théâtre** pyesani sahnalashtirmoq; **monter une affaire, une société** biror ish, biror jamiyatga asos solmoq; **monter un coup** biror kishiga qarshi zarba tayyorlamoq; **coup monté** biror kishiga qarshi tayyorlangan ish; **3.** taʼminlamoq, jihozlamoq, tuzatmoq; **monter son ménage** xoʻjaligini tuzatmoq; *oʻzl. n.* **se monter** gʻamlamoq, gʻamlab, hozirlab olmoq; **je suis mal montée en vaisselle** men idish-tovoqni yomon hozirlabman; **4.** oʻrnatmoq, qoʻymoq; **monter un diamant sur une bague** olmos koʻzni uzukka qoʻymoq.

**monteur** *n* **1.** yigʻuvchi, montajchi; **monteur électricien** elektromontyor; **2.** kinomantajchi; **chef monteur** bosh kinomantajchi.

**montgolfière** *nf* mongolfer (*havo shari*).

**monticule** *nm* tepalik, uyum; **monticule de pierre** toshlar uyumi.

**montre**[1] *nf vx* koʻrgazma, namoyish; **pour la montre** koʻrgazmaga; *loc* **faire montre de** koʻrsatmoq; namoyish, namoyon qilmoq; **il a fait montre de compréhension** u zehnini namoyish qildi; **en montre** koʻrgazmada, peshtaxtada.

**montre**[2] *nf* **1.** soat; **montre de précision** xronometr; **montre-bracelet** qoʻl soati; **montre à quartz** kvars soati; **montre de plongée** suv oʻtkazmaydigan soat; **ta montre avance, retarde** soating oldinlab ketyapti, orqada qolyapti; **mettre sa montre à l'heure** soatini toʻgʻrilamoq; **2.** *loc* **montre en main** vaqtni aniq hisob-kitob qilib; **course contre la montre** maʼlum vaqt tashlab yugurish.

**montrer I.** *vt* **1.** koʻrsatmoq, namoyish qilmoq; **montrer un objet à qqn** biror narsani birovga koʻrsatmoq; **montrer ses richesses** oʻz boyliklarini namoyish qilmoq; **montrer du doigt les étoiles** barmogʻi bilan yulduzlarni koʻrsatmoq; **montrer le chemin, la voie** yoʻlni koʻrsatmoq; **film qui montre des scènes de violence** zoʻravonlik voqealarini namoyish qiluvchi film; **2.** koʻrinib turmoq; **robe qui montre les bras, le cou** qoʻllar va boʻyin koʻrinib turadigan koʻylak; **ce tapis montre la corde** gilamning ipi koʻrinib turibdi; **3.** koʻrsatmoq, taʼriflamoq; **l'auteur montre dans ses livres un pays, une société** muallif oʻz kitoblarida bir yurtni, bir jamiyatni taʼriflaydi; **4.** koʻrsatmoq, taʼkidlamoq, ayon qilmoq, bildirmoq; **montrer à qqn ses torts, lui montrer qu'il a tort** birovga oʻz xatosini koʻrsatmoq, unga xato qilayotganini taʼkidlamoq; **signes qui montrent la présence, l'imminence de qqch** biror narsaning borligi, muqarrarligini bildiruvchi ishoralar; **5.** koʻrsatib qoʻymoq; **je vais lui montrer qui je suis** men unga kimligimni koʻrsatib qoʻyaman; **montrer ce qu'on sait faire** nima qila olishligini koʻrsatib qoʻymoq; **montre l'exemple!** namuna koʻrsat! **6.** koʻrsatmoq, oshkor qilmoq, namoyon qilmoq, bildirmoq; **montrer son étonnement, son émotion** oʻz hayratini, his-tuygʻularini bildirmoq; **montrer de l'humeur** kayfiyat koʻrsatmoq; **7.** koʻrsatmoq, tushuntirmoq; **montre-moi comment ça marche** menga buni qanday ishlashini koʻrsat; **II. se montrer** *vpr* **1.** koʻrinmoq, paydo boʻlmoq; **il n'a qu'à se montrer pour être applaudi** u olqishlanishi uchun uning paydo boʻlishigina yetarli; **il n'ose plus se montrer** u koʻrinishga butunlay jurʼat eta olmayapti; **se montrer sous un jour favorable, tel qu'on est** omadi kelmoq, oʻzini qanday boʻlsa shundayligicha koʻrsatmoq; **2.** oʻzining -ligini koʻrsatmoq, namoyish qilmoq; **se montrer courageux, habile** oʻzining jasurligini, uddaburoligini koʻrsatmoq; **il s'est montré d'une avarice sordide** u oʻzining jirkanch xasisligini koʻrsatdi.

**montreur, euse** *n* koʻrsatuvchi (*tomoshabinlar orasida*), oʻynatuvchi; **montreur d'ours, d'animaux** ayiq, hayvon oʻynatuvchi.

**montueux, euse** *adj* togʻli, adirli; **pays montueux** togʻli oʻlkalar.

**monture**[1] *nf* salt, miniladigan hayvon, ulov; **un cavalier et sa monture** suvoriy va uning ulovi.

**monture**[2] *nf* gardish, niginxona, oprava; **monture de lunettes** koʻzoynak gardishi.

**monument** *nm* **1.** haykal, qabr toshi, yodgorlik; **monument funéraire** qabr toshi; **monument aux morts** marhumlarga qoʻyilgan yodgorlik; **2.** imorat, saroy, yodgorlik; **monument historique** tarixiy yodgorlik; **monument public** davlat muhofazasidagi yodgorlik; *fam* besoʻnaqay katta narsa; **cette armoire est un véritable monument** bu shkaf haqiqiy besoʻnaqay narsa; **3.** qadimiy madaniyat qoldigʻi, qadimiy yodgorlik, qadimiy asar; *fam* **un monument d'absurdité** juda bemaʼni narsa.

**monumental, ale, aux** *adj* **1.** ulugʻvor, mahobatli, buyuk; **l'œuvre monumentale** buyuk asar; **2.** *fam* juda katta, kattakon, ulkan, azim; **une horloge monumentale** ulkan osma soat; **erreur monumentale** gunohi azim.

**moquer (se)** *vpr* **(de qqn, qqch) 1.** ustidan kulmoq, masxara, kalaka qilmoq, mazax, mayna qilmoq; **les enfants se moquent de lui, de son allure** bolalar uning ustidan kulishadi, uning qiliqlarini mazax qilishadi; **2.** mensimay, nazar-pisand qilmay qaramoq, eʼtibor bermaslik; **je m'en moque** men buni sariq chaqaga ham olmayman; **se moquer du qu'en dira-t-on** fisqi-fosodlarga eʼtibor bermaslik; **il se moque que j'aie raison** mening haqligim uning uchun bari bir; **3.** mazax qilmoq, ustidan kulmoq, ahmoq qilmoq; **elle s'est bien moquée de vous** u sizni boplab ahmoq qildi; **vous vous moquez du monde** siz odamlarni mazax qilyapsiz; **4.** *litt* hazillashmoq, oʻynashmoq, tegishmoq; **vous vous moquez!** hazillashyapsiz!

**moquerie** *nm* ustidan kulish, masxara, kalaka qilish, mazax, mayna qilish, hazil, tegishish; **être sensible aux moqueries** hazilni yoqtirmaydigan boʻlmoq.

**moquette** *nf* polga mahkamlanadigan, va xonani toʻla egallaydigan gilam; **demain, on pose la moquette** ertaga xonaning poliga gilam toʻshashadi; **il préfère le parquet à la moquette** u polga toʻshalgan gilamdan parketni afzal koʻradi.

**moqueur, euse I.** *n* mazaxchi, masxarachi, hammaning ustidan kulaveradigan odam; **c'est un moqueur** bu mazaxchi; **II.** *adj* masxaralovchi, masxaraomiz, istehzoli; **regard, rire moqueur** masxaraomiz kulgini koʻr.

**moraine** *nf* morena (*muzliklar bilan birga koʻchib kelgan togʻ jinslari uyumi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**moral[1], ale, aux** *adj* ruhiy, ma'naviy; **force morale** ma'naviy kuch; **certitude morale** ruhiy ishonch.

**moral[2]** *nm* ruh, kayfiyat; **le moral des troupes est bon** qo'shinlarning ruhi baland; *fam* **avoir le moral à zéro, ne pas avoir le moral** ruhi tushgan bo'lmoq, hafsalasi yo'q bo'lmoq; **elle m'a cassé, sapé le moral** u hafsalamni pir qildi.

**moral[3], ale, aux** *adj* **1.** axloqqa oid; axloqiy, axloq; **attitude, expérience morale** axloqiy munosabat, malaka; **les valeurs morales** axloqiy fidokorlik; **principes moraux** axloq qoidalari; **2.** etikaga, axloqqa, odobga oid; **théorie morale** axloq-odob nazariyasi; **3.** axloq, odob, udumga oid, ibratli; **une histoire morale** ibratli voqea.

**morale** *nf* **1.** etika, axloq-odob (*falsafiy bilim*); **morale stoïcienne, chrétienne** stoiklar, nasroniylar axloq-odobi; **2.** axloq-odob normalari; **conforme à la morale** axloq normasiga mos keladi; **morale sévère, rigoureuse** axloqiy qoidalarga qattiq yopishib olish; **3. faire la moral, de la morale** qattiq koyimoq, tanbeh bermoq; **4.** xulosa, ma'no, hissa; **la morale d'une fable** qissadan hissa; **la morale de cette histoire, c'est** bu rivoyatdan xulosa shulki.

**moralement[1]** *adv* **1.** aqlan, ma'naviy jihatdan; **j'en suis moralement convaincu** men bunga aqlan ishonganman; **2.** ruhan; **il a été moralement très secoué** u ruhan juda ezilgan edi.

**moralement[2]** *adv* axloq-odob qoidasiga binoan; axloq-odob qoidasiga nomunosib qiliq.

**moralisateur, trice** *adj* ibratli, pand-nasihatli, ibrat bo'ladigan, nasihatomuz; **influence moralisatrice** ibratli ta'sir.

**moralisation** *nf* nasihat, o'git, pand-nasihat.

**moraliste** *n* **1.** odob beruvchi, odob-axloq o'rgatuvchi; **2.** nasihatgo'y, ibrat beruvchi; *adj* **elle a toujours été moraliste** u doim nasihatgo'y edi.

**moralité** *nf* **1.** fazilat, yaxshi xislat, afzallik, yaxshi tomon; **la moralité d'une action, d'une attitude** biror ishning, munosabatning yaxshi tomoni; **2.** axloqlilik, odoblilik; **faire une enquête sur la moralité de qqn** biror kishining axloqliligi haqida so'rov o'tkazmoq; **témoins, certificat de moralité** axloqlilikka guvohlik, shohidlik; **3.** xulosa, ma'no, hissa; **la moralité d'une fable** qissadan hissa.

**moratoire** *ou* **moratorium** *nm* moratoriy (*to'lov muddatini uzaytirish*).

**morbide** *adj* **1.** kasallikka oid, kasalmand, dardchil; **état morbide** dardchil holat; **2.** nosog'lom, buzuq; **curiosité, imagination morbide** nosog'lom qiziqish, tasavvur; **une littérature morbide** nosog'lom adabiyot.

**morbleu** *intj vx injur* xudo ursin.

**morceau** *nm* **1.** bo'lak, parcha, burda, kesik; **un petit morceau de ficelle** bir kichik bo'lak arqon; **couper, déchirer, mettre en morceaux** bo'laklarga kesmoq, yirtmoq, bo'lmoq; **morceau de terre** bir parcha yer; **un bon, un gros morceau** yaxshigina, katta bo'lak; **se casser en mille morceaux** ming bo'lakka parchalanib ketmoq; **un morceau de pain** bir burda non; **un morceau de sucre** bir chaqmoq qand; *fig fam* **manger un morceau** bir burda yeb olmoq; *fam* **manger, casser, lâcher le morceau** bo'yniga olmoq, aytib qo'ymoq; **2.** parcha, bo'lak; **morceaux choisis** saylanma; **3.** kichik muzika asari, parcha, pyesa; **un morceau de piano** pianino uchun pyesa; **exécuter un morceau** muzika asaridan bir parcha ijro etmoq.

**morceler** *vt* bo'laklarga, parchalarga, qismlarga bo'lmoq; **morceler un terrain en lots** yerni bo'lib tashlamoq.

**morcellement** *nm* bo'lish, parchalash, maydalash; **le morcellement de la propriété, de la terre** mulkni, yerni bo'lish.

**mordant, ante I.** *adj* achchiq, zaharli, zaharxandali, istehzoli; **répondre à qqn d'une manière mordante** biror kishiga zaharxandalik bilan javob bermoq; **ironie mordante** istehzoli qochiriq; **II.** *nm* shiddat, g'ayrat, shijoat; **armée, troupe, équipe sportive qui a du mordant** g'ayratga to'la armiya, jangovor qism, sport jamoasi; **œuvre qui a du mordant** jonli asar.

**mordicus** *adv fam* o'jarlik, qaysarlik bilan; **affirmer, soutenir qqch mordicus** biror narsani o'jarlik bilan ta'kidlamoq, himoya qilmoq.

**mordiller** *vt* yengilgina tishlab-tishlab qo'ymoq.

**mordoré, ée** *adj* tillarang tovlanuvchi qizg'ish-jigarrang.

**mordre I.** *vt* **1.** tishlamoq, qopmoq (*hayvonlarga nisbatan*); **mon chien l'a mordu** mening itim uni qopib oldi; **elle s'est fait mordre** u o'zini tishlatib qo'ydi; **2.** qopmoq, tishlamoq; **mettre une muselière à un chien pour l'empêcher de mordre** itni tishlamasin deb tumshuqbog' taqmoq; **3.** cho'qimoq, chaqmoq; **insecte qui mord** chaqadigan hasharot; **oiseau qui mord** cho'qiydigan qush; **être mordu par un serpent** ilon chaqib olgan bo'lmoq; **4.** yemoq, yemirmoq, kemirmoq; **l'acide mord le métal** kislota temirni yemiradi; **5. mordre à** tortmoq (*baliq*); **poisson qui mord à l'appât** xo'rakni tortayotgan baliq; **ça mord** baliq qarmoqni tortyapti; **II.** *vi* **1. (dans)** tishlab uzib olmoq; **il mordait à belles dents dans le gâteau** u ishtaha bilan pirogdan tishlab olardi; **2. (sur)** ustiga qo'yilmoq, chegaradan o'tib ketmoq; **disqualifié pour avoir mordu sur la ligne de départ** start chizig'idan o'tib ketganligi uchun chetlashtirilgan.

**mordu, ue I.** *adj* **1.** tishlangan; **2.** oshiq; **il est mordu, bien mordu** u oshiq, juda oshiq; **II.** *n fam* ishqiboz, jinni; **c'est un mordu de football, de jazz** bu futbol, jaz ishqibozi, jinnisi.

**more** *nf, adj vx voir* **maure**.

**moresque** *nf, adj voir* **mauresque**.

**morfal, ale, als** *adj, n fam* ochofat, yeb to'ymas, badnafs; **quelle bande de morfals!** qanday ochofatlar to'dasi!

**morfil** *nm* g'udur (*metallda*).

**morfondre (se)** *vpr* intizor bo'lmoq, kutib tinkasi qurimoq; **nous nous sommes morfondus sous la pluie pendant une heure** biz yomg'irda bir soat kutib tinkamiz quridi; **un amoureux morfondu** hafsalasi pir bo'lgan oshiq.

**morganatique** *adj dr hist* tengsiz, kelin-kuyov bir-biriga ijtimoiy jihatdan teng bo'lmagan (*nikoh*); **mariage morganatique** tengsiz nikoh.

**morgue[1]** *nf* manmanlik, dimog'dorlik, takabburlik, mag'rurlik, kekkayganlik.

**morgue[2]** *nf* morg, o'likxona.

**moribond, onde** *adj* o'layotgan, jon berayotgan, o'lim to'shagida yotgan; *n* **être au chevet d'un moribond** jon berayotganning boshida bo'lmoq.

**moricaud, aude** *adj, n fam* qoracha, qorachadan kelgan, qoramag'iz, qorato'riq.

**morigéner** *vt litt* pand-nasihat o'qimoq, o'git qilmoq (*viqor bilan*).

**morille** *nf* qo'ziqorin, smorchok; **poulet aux morilles** qo'ziqorinli jo'ja go'shti.

**morion** *nm* dubulg'a.

**mormon, one** *n, adj* mormon (*Amerikadagi shu diniy mazhab a'zosi*); **la secte mormone** marmon mazhabi.

**morne[1]** *adj* **1.** g'amgin, ma'yus, xafa, xomush; **un air morne et buté** g'amgin va qaysar ko'rinish; **2.** g'amgin (*narsa*); **un temps morne** bulutli, aynigan havo; **la conversation resta morne** suhbat qiziqarsiz edi.

**morne[2]** *nm* yolg'iz tepalik (*Antil orollarida*).

**morose** *adj* qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush, xo'mraygan.

**morosité** *nf* g'amginlik, ma'yuslik, xafalik, noxushlik, xo'mrayish.

**morphème** *nm ling* morfema.

**morphine** *nf* morfiy (*ko'knor shirasidan olinadigan narkotik modda*); **la morphine est un stupéfiant** morfiy mast qiladigan modda.

**morphinomane** *adj, n* morfiyga o'rgangan bangi, giyohvand.

**morphologie** *biol gram* morfologiya.

**morphologique** *adj* morfologiyaga oid, morfologik, morfologiya; **types morphologiques** morfologik turlar.

**morpion** *nm* **1.** *fam* bit; **2.** ona suti og'zidan ketmagan, go'dak; **3.** o'yinning bir turi.

**mors** *nm inv* **1.** suvluq (*yuganning ot og'zidagi temir qismi*); **2.** *loc* **prendre le mors aux dents** haddan oshmoq, bilgan noma'qulchilikni qilmoq.

**morse[1]** *nm* morj.

**morse[2]** *nm* morze telegraf aloqa sistemasi; **signaux en morse** morze signallari; **alphabet morse** morze alifbosi.

**morsure** *nf* **1.** tishlash, qopish, chaqish, cho'qish; **la morsure d'un chien** itning tishlashi; **2.** tishlangan, chaqilgan, cho'qilgan joy; **la morsure était profonde** tishlangan joy chuqur edi.

**mort[1]** *nf* **1.** o'lim, vafot, qazo, ajal; o'lish, jon berish, jon uzilish, halok bo'lish; **voir la mort de près** ajal bilan yuzma-yuz bo'lmoq; **la mort**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**n'épargne personne** ajal hech kimni ayamaydi; **mort clinique suivie de réanimation** keyinchalik qayta jonlangan klinik o'lim; **2.** o'lish, jon berish, jon uzilish, jon taslim qilish, ajali yetish; **mort naturelle** tabiiy o'lish, tabiiy o'lim, o'z ajali bilan o'lish; **mort accidentelle** baxtsiz hodisa tufayli o'lish; **mort subite** to'satdan o'lish; *loc* **mourir de sa belle mort** oshini oshab, yoshini yashab o'lish, o'z ajali bilan o'lish; **être à l'article de la mort** o'lim to'shagida yotmoq; **c'est une question de vie ou de mort** bu hayot-mamot masalasi; **à mort** o'ladigan qilib, qattiq; **être frappé, blessé à mort** qattiq kaltaklanmoq, yaralanmoq; **depuis sa mort** uning vafotidan buyon; *loc* **à la vie (et) à la mort** o'la-o'lguncha, to o'lguncha, to abad, bir umr, umrining oxirigacha, umrbod; **3.** o'lim, qatl; **donner la mort** qatl qilmoq; **engin de mort** o'lim quroli; **peine de mort** o'lim jazosi; **mettre qqn à mort** qatl qilmoq, o'ldirmoq; **à mort!** o'lim! **4.** *fig* o'lim, inqiroz; **c'est la mort du petit commerce** bu kichik tijoratlarning o'limi; *loc* **souffrir mille morts** ming bir azob chekmoq; **avoir la mort dans l'âme** umidini uzmoq.

**mort**[2]**, morte** *adj* **1.** o'lgan, vafot qilgan, qazo qilgan, olamdan o'tgan, halok bo'lgan; **il est mort depuis longtemps** uning vafot qilganiga ko'p bo'ldi; **il est mort et enterré** u o'lgan va dafn qilingan; **elle est tombée raide morte** u til tortmay o'ldi; **arbre mort** qurigan daraxt; **feuilles mortes** qurigan barglar, xazon; **2.** o'lguday, o'lguncha; **ivre mort** o'lguday mast; **mort de fatigue** ulguday charchagan; **mort de peur** qo'rquvdan o'lay degan; **3.** o'lik, jonsiz (*narsa*); **eau morte** ko'lmak suv; *loc* **poids mort** pasangi yuk; **temps mort** bekor turish, bo'sh turish, bekor turilgan vaqt; **4.** o'lik (*hozirda ishlatilmaydigan*); **langue morte** o'lik til; **5.** *fam* o'lgan, ishlatib bo'lingan; **la bagnole est morte** mashina o'ldi, ishdan chiqdi; **les piles sont mortes** batareyalar o'ldi.

**mort**[3]**, morte** *n* **1.** o'lik, jasad, murda, mayyit; **ensevelir, incinérer les morts** o'liklarni ko'mish, kuydirish; **être pâle comme un mort** murdaday oqarib ketmoq; **2.** o'lik, marhum, o'tganlar; **culte, religion des morts** o'tganlarning sig'inishi, dini; **3.** o'lik, qurbon; **l'accident a fait un mort et trois blessés** ko'ngilsiz hodisa tufayli bir kishi o'ldi va uch kishi yaralandi; **les morts de la guerre** urush qurbonlari; **la place du mort** haydovchining yonidagi oldingi o'rindiq; *loc* **faire le mort** o'zini o'likka solmoq.

**mortadelle** *nf* cho'chqa va mol go'shtidan qilingan yo'g'on kolbasa.

**mortaise** *nf* uya, chuqurcha, tirqish.

**mortalité** *nf* **1.** o'lat, ofat; **2. taux de mortalité** *ou abrév* **la mortalité** o'lim darajasi; **mortalité infantile** bolalar o'limi.

**mort-aux-rats** *nf sing* kalamush o'ldiradigan dori, margimush.

**mortel, elle I.** *adj* **1.** o'ladigan, o'lishi muqarrar bo'lgan, o'limga mahkum; **tous les hommes sont mortels** insonning o'lishi muqarrar; **2.** o'ladigan, o'tkinchi, abadiy emas (*narsa*); **3.** o'limga, halokatga olib boradigan, o'ldiradigan, halok qiladigan; **maladie mortelle** halokatli kasallik; **poison mortel** o'tkir zahar; **ennemi mortel** ashaddiy dushman; **péché mortel** kechirilmas gunoh; **4.** o'lguday, juda qattiq, kuchli, zo'r; **un froid mortel** o'lguday sovuq; **un ennui, un silence mortel** o'lguday zerikish, jimjitlik; *fam* **une soirée mortelle** o'lguday zerikarli kecha; **II.** *n* banda; **les mortels** bandalar; **un heureux mortel** baxtli banda.

**mortellement** *adv* **1.** o'lar darajada, o'lar holatda halokatli; **mortellement blessé** qattiq yaralangan (*yarasi halokatli*); **2.** o'lguday, juda qattiq; **il était mortellement pâle** u o'lguday rangi o'chib ketgan edi; **réunion mortellement ennuyeuse** o'lguday zerikarli majlis.

**morte-saison** *nf* savdo-sotiq o'lgan, to'xtagan davr; *pl* **les mortes-saisons**.

**mortier**[1] *nm* hovoncha; **mortier de pharmacien, de cuisine** dorixona, oshxona hovonchasi.

**mortier**[2] *nm* minomyot.

**mortier**[3] *nm* ohakli qorishma, loy.

**mortifiant, ante** *adj* xo'rlaydigan, kamsitadigan, yerga uradigan, haqoratlaydigan, tahqirlaydigan.

**mortification** *nf* **1.** kamsitish, xo'rlash, yerga urish, tahqirlash; **2.** *relig* kaforat (*gunohkorlarga cherkov tomonidan beriladigan jazo uzoq toat-ibodat qildirish, ro'za tuttirish va boshqalar*).

**mortifier** *vt* haqoratlamoq, tahqirlamoq, xo'rlamoq; **votre mépris l'a mortifié** sizning nafratli muomalangiz uni haqoratladi; **2.** *relig* kaforat tutmoq (*o'z gunohlarini so'rab o'zini qiynoqlarga solmoq*).

**mort-né, mort-née** *adj* **1.** o'lik tug'ilgan; **enfants mort-nés** o'lik tug'ilgan bolalar; **un mort-né** o'lik tugilgan bola; **2.** o'lik, bekoraki, behuda, amalga oshmaydigan; **une entreprise mort-né** bekoraki korxona.

**mortuaire** *adj* dafn, ko'mishga oid; **cérémonie mortuaire** dafn marosimi; **couronne mortuaire** gulchambar.

**morue** *nf* **1.** treska (*baliqning bir turi*); **morue fraîche, séchée** yangi tutilgan, qurutilgan treska; **huile de foie de morue** treska jigaridan olingan yog'; **2.** *injur* fohisha, buzuq, g'ar; **elle s'est fait traiter de morue** unga huddi fohishaday muomala qilishdi.

**morutier** *nm* treska ovlovchi (*odam yoki kema*).

**morve** *nf vet.* **1.** manqa (*otlarda bo'ladigan yuqumli kasallik*); **2.** mishiq, mishiriq.

**morveux, euse I.** *adj* mishiqi, mishig'ini eplay olmaydigan; **enfant malpropre et morveux** isqirt va mishiqi bola; **II.** *n fam injur* mishiqi; **tu n'es qu'un morveux** sen hali mishiqisan; **sale morveuse** yaramas mishiqi.

**mosaïque** *nf* **1.** mozaika, qadama, terma naqsh, koshin; **les mosaïques de Ravenne** Raven mozaikasi; **parquet mosaïque** koshinli parket pol; **2.** qurama.

**mosaïqué, ée** *adj* mozaikaga o'xshash, koshinli, koshinkor; **reliure mosaïquée** mozaikaga o'xshatib ishlangan muqova.

**mosaïste** *n* mozaikachi, naqshchi, koshinkor; **les grands mosaïstes byzantins** Vizantiyaning mashhur mozaikachilari.

**mosquée** *nf* masjid, machit; **le minaret d'une mosquée** masjid minorasi.

**mot** *nm* **1.** so'z; **phrase de six, de dix mots** olti, o'n so'zli gap; **articuler, manger ses mots** so'zlarni talaffuz qilmoq, yamlamoq; **ne pas dire un seul mot** biror og'iz ham so'z aytmaslik; **mot nouveau, courant, rare** yangi, iste'moldagi, noyob so'z; **mot mal écrit, illisible** yomon yozilgan, o'qib bo'lmaydigan so'z; *loc* **les grands mots** balandparvoz so'z; **gros mot** qo'pol so'z; **se donner le mot** bir biriga so'z bermoq; **rapporter un propos mot pour mot** ma'lumotni so'zma-so'z yetkazmoq; **mot à mot** so'zma-so'z, aynan; **2.** so'z, gap (*ma'nodan xoli*); **ce ne sont que des mots** bu quruq so'zlar xolos; **les mots et les actes** so'z va ish; **3.** gap, ibora; **je lui en dirai, toucherai un mot** men unga bir og'iz gap aytib qo'yaman; **en un mot** bir gap bilan; **avoir son mot à dire** gapirishga huquqi bo'lmoq; **je m'en vais lui dire deux mots** men unga ikki og'iz gap aytib qo'yaman; **c'est mon dernier mot** bu mening oxirgi, qat'iy gapim; **avoir le dernier mot** boshqa gap yo'q; **prendre qqn au mot** birovni tilidan tutmoq; **4.** ikki enlik xat, noma; **je lui ai glissé un mot sous sa porte** men uning eshigining ostiga ikki enlik xat qistirib qo'ydim; **écrire un mot à qqn** birovga ikki enlik xat yozmoq; **5.** so'z, ibora; **mots célèbres, historiques** mashhur, tarixiy iboralar; **mot d'enfant** yosh bolaning so'zi, gapi; **mot d'auteur** muallif so'zi; *loc* **le mot de la fin** xulosaviy so'z; **bon mot, mot d'esprit** qizziq so'z; **il a toujours le mot pour rire** u doim qizziq so'zlar topib yuradi.

**motard, arde** *nm* mototsiklchi; **les motards de la police routière** yo'l harakati politsiyasining mototsiklchilari.

**motel** *nm anglic* motel (*avtomobilistlar mehmonxonasi*).

**motet** *nm* motet (*cherkovda, ko'p ovozli ashula*).

**moteur**[1]**, trice I.** *adj* harakatga keltiruvchi, soluvchi, harakatlantiruvchi; **nerfs sensitifs et nerfs moteurs** sezgi, harakatlantiruvchi nervlar; **force motrice** harakatlantiruvchi kuch; **voiture à quatre roues motrices** to'rt g'ildiragi ham harakatlantiruvchi avtomobil; **II.** *nm* harakatlantiruvchi kuch, manba, asos; **le moteur de la guerre** urushning asosiy manbasi; **elle est le moteur de l'entreprise** u korxonaning fitnachisi.

**moteur**[2] *nm* **1.** motor, dvigatel; **moteurs hydrauliques, thermiques** gidravlik, issiqlik dvigatellari; **moteurs à combustion interne** ichki yonuv dvigatellari; **moteurs électriques** elektrodvigatellar; **véhicules à moteur** motorli harakat vositalari; **2.** motor, dvigatel; **moteur à 4, 6 cylindres** 4, 6 silindrli motor; **moteur de 750 cm** 750 sm li motor; **3.** *inform* **moteur de recherche** qidiruv dvigateli (*dunyoning turli burchaklarida joylashgan va internetda ma'lumot qidirishga mo'ljallangan maxsus ixtisoslashgan dasturlar*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**motif** *nm* **1.** sabab, bois, vaj; **quel est le motif de votre visite?** sizning tashrifingizning boisi nima? **je cherche les motifs de sa conduite** men uning yurish-turishlarining sabablarini qidiryapman; **un motif valable** arziguli vaj; *loc vieilli* **pour le bon motif** yaxshi niyatda (*uylanish maqsadida*); **2.** tema, mavzu (*san'at asarida*); **travailler sur le motif** mavzu ustida ishlamoq; **tissu imprimé à grands motifs de fleurs** katta gullar bosilgan mato.

**motion** *nf* taklif; **faire, rédiger une motion** taklif qilmoq, taklif kiritmoq; **motion de censure** ishonchsizlik bildirish.

**motivation** *vt* asoslar, dalillar, vaj-sabablar; **il faudrait connaître ses motivation profondes** uning chuqur asoslarini bilish kerak edi.

**motivé, ée** *adj* asosli; **un refus motivé** asosli rad qilish; **des plaintes motivées** asosli shikoyat; **être motivé** haqli bo'lmoq, asosi bo'lmoq; **elle est très motivée dans son travail** u o'z ishida juda haqli.

**motiver** *vt* **1.** asoslamoq, dalil keltirmoq; sabab ko'rsatmoq; **pouvez-vous motiver votre action, cette démarche?** xatti-harakatlaringizni, bu qiliqni asoslay olasizmi? **2.** asos, dalil, sabab bo'lmoq; **voilà ce qui a motivé notre décision** mana bizning qarorimizga nima sabab bo'ldi.

**moto** *nf* (*abrév* **motocyclette**) mototsikl; **être à, en moto** mototsiklli, mototsiklda bo'lmoq; **course de moto** mototsikl poygasi.

**moto-cross** *nm inv* motokross.

**motoculteur** *nm* kichik traktor, tomorqa-bog'dorchilikda ishlatiladigan traktor.

**motocyclette** *nf litt* mototsikl.

**motocycliste** *n* mototsiklist; **casque de motocycliste** mototsiklchining kaskasi.

**motorisation** *nf* motorlashtirish, mexanizatsiyalashtirish.

**motoriser** *vt* motorlashtirmoq, mexanizatsiyalashtirmoq; **motoriser l'agriculture** qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirmoq; **troupes motorisées** motorlashtirilgan harbiy qismlar; *fam* **être motorisé** motorlashtirilgan bo'lmoq (*motorli ulovda bo'lmoq*).

**motrice** *nf* oldingi, yetakchi motorli vagon; **motrice de tramway** tramvayning yetakchi vagoni.

**motricité** *nf* harakatni ta'minlovchi funksiya; **motricité volontaire, involontaire** harakatni ixtiyoriy, beixtiyor ta'minlovchi funksiya.

**mots croisés** *nm pl* krossvord; **amateur de mots croisés** krossvord ishqibozi.

**mots-croisiste** *n* krossvord ishqibozi; *pl* **des mots-croisistes**.

**motte** *nf* **1.** kesak; **2. motte de beurre** bir bo'lak saryog' (*maydalab sotish uchun*); **beurre en motte ou en paquet** maydalab sotiladigan yoki qadoqlangan saryog'.

**motus** *intj vieilli* jim! **motus et bouche cousu!** dim-dim!

**mou**[1] *ou* **mol** (*unli yoki* **h** *aspiré-dan oldin*) *m*, **molle** *f* **I.** *adj* **1.** yumshoq **substance molle** yumshoq modda; **beurre que la chaleur rend mou** issiqda yumshab qolgan saryog'; **matelas mou** yumshoq ko'rpa; *loc* **un mol oreiller** par yostiq; **2.** yumshoq, egiluvchan, bo'sh; **tige molle** egiluvchan poya; *loc* **chapeau mou** yumshoq shlapa; **avoir les jambes molles** oyoqlari bo'shashgan bo'lmoq; **3.** bo'sh, bo'shashgan, latta; **gestes mous** bemajol ishoralar; **il est mou avec ses enfants** u bolalariga bo'sh muomala qiladi; **4.** bo'sh (*uslub*); **le jeu de ce pianiste est un peu mou** bu pianinochining ijrosi bir oz bo'sh; **dessin mou** bo'sh rasm; **II.** *adv fam* sekin asta; **vas-y mou** u yerga sekin asta bor; **III.** *nm* **1.** *fam* bo'shashgan, latta odam; bu latta; **2.** bo'sh, tarang emas (*arqon, ip*); **avoir du mou** bo'sh bo'lmoq; **donner du mou** arqonni bo'shatmoq.

**mou**[2] *nm* so'yilgan molning o'pkasi; **chat qui mange son mou** o'pkani yeyayotgan mushuk; *loc fam* **bourrer le mou à qqn** bo'lmag'ur gaplar bilan birovning qornini to'yg'azmoq.

**mouchard, arde** *n* **1.** *fam* iskovich, ayg'oqchi, josus; **2.** nazoratchi apparat.

**mouchardage** *nm* iskovichlik, ayg'oqchilik, josuslik qilish.

**moucharder** *vt* iskovichlik, ayg'oqchilik, josuslik qilmoq.

**mouche** *nf* **1.** pashsha, chivin; **mouche domestique** uy pashshasi; **mouche tsé-tsé** setse pashshasi; *loc* **pattes de moches** qing'ir-qiyshiq yozuv; **on aurait entendu une mouche voler** pashsha uchsa ham eshitiladi; *fam* **mourir, tomber comme des mouches** pashshaday qirilmoq; **faire la mouche du coche** behudadan-behuda urinmoq; **prendre la mouche** bekordan-bekorga jahli chiqmoq, lovvillab ketmoq; **quelle mouche le pique?** unga nima balo bo'ldi? uni nima jin urdi? **il ne ferait pas de mal à une mouche** u qo'y og'zidan ham cho'p olmagan, u pashshaga ham ozor bermaydi; **pêche à la mouche** hasharotlarga taqlid qiluvchi sun'iy xo'rak bilan baliq ovlash; **faire mouche** mo'ljalning, nishonning o'rtasiga tekkizmoq; *loc* **fine mouche** ustakor va ayyor odam; **bateau-mouche** Sena daryosida sayyohlar tashiydigan sayr kemasi; **2.** pastki lab ostidagi tuklar; **3.** *inv* **poids mouche** eng yengil vazndagi boksyor (*48-51 kg*).

**moucher I.** *vt* **1.** burun qoqmoq; **mouche ton nez!** burningni qoq! **2.** burnidan kelmoq; **moucher du sang** burnidan qon kelmoq; **3.** birovni qattiq koyimoq, urishmoq, burnini ishqalab qo'ymoq; **elle s'est fait moucher** uning burnini ishqalab qo'yishdi; **II. se moucher** *vpr* burnini qoqmoq; *inv* **ne pas se moucher du coude** o'zini e'tiborli qilib ko'rsatmoq.

**moucheron** *nm* **1.** mayda chivin, mayda pashsha; **2.** yosh bola.

**moucheter** *vt* matoga chakma gul bosmoq; **laine moucheter** chakma gul bosilgan jun mato.

**moucheture** *nf* **1.** gul (*matoga bosilgan*); **2.** ola (*hayvonning terisidagi, qushning patidagi*).

**mouchoir** *nm* **1.** ro'molcha, dastro'mol; **mouchoir brodé** kashta to'qilgan ro'molcha; **mouchoir de, en papier** qog'oz ro'molcha; *loc* **grand comme un mouchoir de poche** kaftday, kichkina; **2.** ro'mol, kosinka.

**moudjahid,** *pl* **moudjahidin** *nm* mujohid.

**moudre** *vt* tuymoq, yanchmoq, tortmoq; **appareil pour moudre** tegirmon; **je mouds, nous moulons du poivre** men, biz murch tuyyapmiz; **il a dit qu'il moudrait du café** u qahva tuyishligini aytdi.

**moue** *nf* **1.** labini burish; **2.** aftini burishtirish; **il a fait la moue à notre proposition** bizning taklifimizga u aftini burishtirdi.

**mouette** *nm* chayka, baliqchi qush.

**moufeter** *vi voir* **moufter**.

**moufle**[1] *nf* boshmaldoqli qo'lqop; **moufles de skieur** chang'ichilar qo'lqopi.

**moufle**[2] *nm ou f techn* chig'ir poyalari.

**mouflet, ette** *n fam* yosh bola, bolakay.

**mouflon** *nm* arxar, alqor.

**moufter** *ou* **moufeter** *vi* (*odatda bo'lishsiz formada, noaniq formada, murakkab zamonlarda*) qarshilik qilmoq, e'tiroz bildirmoq, pinagini buzmoq; **elle n'a pas moufté** u pinagini ham buzmadi.

**mouillage** *nm* **1.** suvga tashlash; **mouillage des ancres** langar tashlash; **mouillage d'une mine** suvga mina tashlash; **2.** *mar* kema langar tashlaydigan joy; **3.** ho'llash, namlash, ivitish, bo'ktirish; **4.** suv qo'shish; **le mouillage frauduleux du lait** sutga suv qo'shib aldash.

**mouillé, ée** *adj* nam, ho'l; **évitez de sortir les cheveux mouillés** ho'l soch bilan tashqariga chiqishdan ehtiyot bo'ling; **être mouillé jusqu'aux os** jiqqa ho'l bo'lmoq; **les yeux mouillés de larmes** ko'zlari jiqqa yosh.

**mouiller I.** *vt* **1.** ho'l qilmoq, nam qilmoq, suvga botirmoq, bo'ktirmoq; **mouiller son doigt de salive** barmog'ini tupuklamoq, ho'llamoq; **mouiller un linge, une serviette** kirni, sochiqni ivitmoq; **linge mouillé** ivitilgan kir; **se faire mouiller par la pluie, l'orage** yomg'irda, jalada ivib qolmoq; *loc* **mouiller sa chemise** ishga butun mehrini bermoq; **2.** suv, suyuqlik aralashtirmoq; suyultirmoq; **mouiller une sauce** sousni suyultirmoq; **3.** *mar* suvga tushirmoq; **mouiller l'ancre** langar tashlamoq; **ce paquebot mouille en grande rade** bu odam tashiydigan kema katta reydda turibdi; **4. mouiller une consonne** undoshni yumshatmoq; **consonne mouillée** yumshoq undosh; **II. se mouiller** *vpr* **1.** shalabbo bo'lmoq, ivib qolmoq; **se mouiller en sortant sous la pluie** yomg'irdan shalobo bo'lib chiqmoq; **2.** *fam* ilashib qolmoq (*biror yomon ishga*); **il ne veut pas se mouiller** u ilashib qolishni xohlamaydi.

**mouillette** *nf* biror suyuqlikka botirib yeyiladigan kichik non bo'laklari; **fais-toi des mouillettes pour manger ton œuf à la coque** ilitilgan tuxumga botirib yeyish uchun kichik non bo'laklarini tayyorla.

**mouilleur** *nm* marka, konvertlarni yopishtirishda qo'llaniladigan asbob; *mar* **mouilleur de mines** mina qo'yuvchi harbiy kema.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mouillure** *nf* **1.** ho'llash, namlash, ho'llanish namlanish; **2. une mouillure** ho'llanish, namlanishdan qolgan iz; **3.** *ling* yumshoqlanish, yumshoq talaffuz qilinish (**"n"** *ning* **"agneau"** *so'zida yumshoqlanishi*).

**mouise** *nf fam* qashshoqlik, kambag'allik; **il est dans une sacrée mouise!** u butunlay qashshoqlikka tushdi!

**moujik** *nm* mujik, dehqon (*Rossiyada*).

**moukère** *ou* **mouquère** *nf pop vieilli* xotin.

**moulage** *nf* **1.** quyish, qoliplash; **2.** nusxa, qolip; **prendre un moulage d'un objet** biror narsaning nusxasini, qolipini olmoq.

**moulant, ante** *adj* tanaga yopishib turadigan; **une jupe moulante** tanaga yopishib turadigan yubka.

**moule**[1] *nf* **1.** yeyiladigan chig'anoq; **manger des moules marinière** dengiz chig'anoqlarini yemoq; **2.** latta, lapashang, landavur, bo'lmag'ur odam; **quelle moule!** latta! (qanday latta!).

**moule**[2] *nm* **1.** qolip; **moule de sculpteur** haykaltaroshning qolipi; **moule à tarte** tortning qolipi; *loc* **le moule est cassé** dunyoda bitta, yagona, dunyoda bitta bo'lsa, uning o'zi; *loc* **être fait au moule** qolipda quyilganday; **2.** *fig* qolip, andoza, shablon; **il refuse d'entrer dans le moule officiel** u rasmiy qoliplarga tushishni rad qiladi.

**mouler** *vt* **1.** quymoq, qoliplamoq; **mouler des briques** g'isht quymoq; **ornements moulés en plâtre** qorishmadan quyilgan naqshlar; **pain moulé** qoliplangan non; **2.** yasamoq, qilmoq; **mouler un buste** byust yasamoq; **3.** yopishib turmoq, yaqqol ko'rsatib turmoq; **sa robe de soie collante moule sa taille** uning yopishqoq shohi ko'ylagi uning qomatini yaqqol ko'rsatib turibdi; **4. mouler une lettre, un mot** xatni, so'zni xattotlik, husnixat bilan yozmoq; **lettres moulées** husnixat bilan yozilgan xatlar.

**moulin** *nm* **1.** tegirmon; **moulin à vent, à eau** shamol, suv tegirmon; **se battre contre des moulins** yo'q, xayoliy dushman bilan kurashmoq, kuchini bekorga sarf qilmoq; **apporter, faire venir de l'eau au moulin (de qqn)** birovning tegirmoniga suv quymoq; **2.** tegirmon (*mashinalar o'rnatilgan imorat*); **habiter un vieux moulin** eski tegirmonda yashamoq; **l'exploitation d'un moulin** tegirmondan foydalanish, tegirmonchilik; *loc* **on entre dans cette maison comme dans un moulin** hamma kirib chiqaveradigan joy; **3. moulin à** tegirmon, o'g'ir, juvoz, yanchqich, mashina, qiymalagich; **moulin à huile** moyjuvoz; **moulin à café, à poivre** qahva, murch yanchadigan mashina; **moulin à légumes** sabzavot qiymalagich; **4.** *fam* avtomobilning motori; **5.** *fam* mahmadona, vaysaqi.

**mouliner** *vt fam* ezmoq, maydalamoq, yanchmoq; **mouliner des pommes de terre** kartoshkani ezmoq.

**moulinet** *nm* **1.** g'altak; **le moulinet d'un treuil, d'une canne à pêche** chig'irning, spinningning g'altagi; **2.** muline (*tayoq yoki biror qurolni raqib oldida siltash, chopish*).

**moulinette** *nf* qiymalagich; **passer des patates à la moulinette** batatni qiymalagichdan o'tkazmoq; *fig fam* **passer qqn à la moulinette** birovni ayyovsiz tanqid qilmoq, chig'iriqdan o'tkazmoq, rossa do'pposlamoq, po'stagini qoqmoq.

**moult** *adv vx ou plais* ko'p, juda ham, g'oyat, tumonot; **raconter une histoire avec moult détails** biror voqeani tumonot tafsilotlari bilan gapirib bermoq.

**moulu, ue** *adj* **1.** tuyilgan; **café moulu** tuyilgan qahva; **2.** pachaqlangan, dabdala bo'lgan, ezilgan, holdan toygan (*odam*); **être moulu de fatigue** charchoqdan holdan toygan bo'lmoq.

**moulure** *nf* ganchkor naqsh; **les moulures d'un plafond** shiftning ganchkor naqshlari.

**moumoute** *nf* **1.** *fam* yasama soch, parik; **il porte une moumoute** u yasama soch kiyib yuradi; **2.** qo'y terisidan qilingan kalta po'stin; **elle s'est acheté une moumoute pour l'hiver** u qishga o'ziga kalta po'stin sotib oldi.

**mouquère** *nf pop vieilli voir* **moukère**.

**mourant, ante** *adj* **1.** o'layotgan, jon berayotgan; **2.** *litt* so'nib borayotgan, tugab borayotgan; **une musique, une lumière mourante** so'nib borayotgan kuy, yorug'lik.

**mourir I.** *vi* **1.** o'lmoq, vafot qilmoq, halok bo'lmoq; dunyodan o'tmoq, ko'z yummoq; jon bermoq, jon taslim qilmoq, qazo qilmoq, qurbon bo'lmoq; **homme qui va mourir, qui est sur le point de mourir** o'layotgan, o'lim arafasida turgan odam; **faire mourir** o'ldirmoq; **mourir de faim, de maladie** ochlikdan, kasallikdan o'lmoq; **mourir assassiné** qatl qilinmoq; **mourir subitement** to'satdan o'lmoq; **mourir à la guerre** urushda o'lmoq; **mourir jeune** yosh, bevaqt o'lmoq; *v impers* **il meurt beaucoup d'enfants dans le tiers monde** uchinchi dunyo mamlakatlarida ko'plab bolalar o'lyapti; **2.** qurimoq, so'limoq (*o'simlik*); **3. à mourir** o'lguday, o'larday; **je suis lasse à mourir** men o'lguday charchadim; **s'ennuyer à mourir** o'lguday zerikmoq; **mourir de** adoyi tamom bo'lmoq, o'lib bo'lmoq; **mourir de chagrin, de tristesse, de peur** g'amdan, xafalikdan, qo'rquvdan adoyi tamom bo'lmoq; **mourir de faim, de soif** ochlikdan, chanqoqdan o'lmoq, sillasi qurimoq; **je meurs de faim, à table!** ochimdan o'ldim; qani dasturxonga! **4.** so'nmoq, yo'qolib bormoq; **civilisation qui meurt** yo'qolib borayotgan madaniyat, tamaddun; **le feu, la flamme meurt** o't, alanga so'nyapti; **bruit, son, voix qui meurt** so'nayotgan shovqin, tovush, ovoz; **II. se mourir** *vpr litt* adoyi tamom bo'lmoq, kuyib tamom bo'lmoq; **elle se meurt** u kuyib tamom bo'lmoqda; **il se meurt d'amour pour elle** u unining ishqida adoyi tamom bo'lmoqda.

**mouron** *nm* **1.** bir turli yovvoyi o't; **2.** *fam* **se faire du mouron** tashvishlanmoq, bezovtalanmoq.

**mousquet** *nm* pilta miltiq, mushket.

**mousquetaire** *nm hist* mushketyor (*mushket bilan qurollangan otliq askar*).

**mousqueterie** *nf vx* mushketbozlik, o'q otish.

**mousqueton** *nm* **1.** karabin; **2.** tepkili lo'kidon.

**moussant** *adj* ko'pirtiradigan.

**mousse**[1] *nf* mox, yo'sin; **mousses et lichens** mox va lishayniklar; **s'étendre sur la mousse** moxning ustiga cho'zilmoq, yotmoq; *prov* **pierre qui roule n'amasse pas mousse** daraxt bir joyda ko'karadi.

**mousse**[2] *nf* **1.** ko'pik; **mousse de bière** pivo ko'pigi; **2. caoutchouc mousse** g'ovak kauchuk; **balle en (caoutchouc) mousse** rezina o'q; **3. mousse de nylon** neylondan to'qilgan juda cho'ziluvchan mato; *ellipt inv* **des bas mousse** neylon paypoq.

**mousse**[3] *nm* yunga (*kemada shogird bola*).

**mousseline** *nf* muslin (*yupqa gazlama turi*); **robe, voile de mousseline** muslindan qilingan ko'ylak, yopinchiq; **pommes mousseline** ko'pirtirilgan kartoshka pyuresi.

**mousser** *vi* **1.** ko'pirmoq; **savon qui mousse** ko'piradigan sovun; **2.** *fam* **faire mousser qqn, qqch** biror kimsani, biror narsani ko'pirtirmoq, bo'rttirmoq, oshirib yubormoq; **se faire mousser** ko'pirmoq.

**mousseron** *nm* qo'ziqorinning bir turi.

**mousseux, euse I.** *adj* ko'pikli, ko'piradigan; **eau trouble et mousseuse** loyqa va ko'pikli suv; **vins mousseux** ko'piradigan vino; **II.** *nm* ko'piradigan vino.

**mousson** *nf* **1.** musson (*shamol*); **2.** musson shamollari esadigan davr; **les orages, les cyclones de la mousson** musson bo'ronlari, siklonlari.

**moussu, ue** *adj* moxli, mox bosgan.

**moustache** *nf* mo'ylov; **porter la moustache, des moustaches** mo'ylov qo'ymoq; **les moustaches du chat, du phoque** mushukning, tulenning mo'ylovi.

**moustachu, ue** *adj* mo'ylovli; *n* **un moustachu** mo'ylov.

**moustiquaire** *nf* **1.** pashshaxona; **2.** eshik va derazalarga tutiladigan mayda sim to'r.

**moustique** *nm* **1.** chivin, pashsha, iskabtopar; **elle s'est fait piquer par un moustique** uni chivin chaqib oldi; **2.** *fam* kichik jussali bola, odam.

**moût** *nm* meva shirasi, sharbati.

**moutard** *nm fam* yosh bola; *pl* bolalar.

**moutarde** *nf* **1.** xantal; **moutarde forte** o'tkir xantal; *loc* **la moutarde lui monte au nez** uning toqati toq bo'lyapti, sabri tugayapti, achchig'i chiqaboshlayapti; **2.** *inv* xantal rang.

**moutardier** *nm* xantaldon.

**mouton** *nm* **1.** qo'y; **troupeau de moutons** qo'ylar suruvi; **les moutons bêlent** qo'ylar marayapti; **élever, vendre des moutons** qo'yni semirtirib boqmoq, sotmoq; *loc* **revenons à nos moutons** mavzuimizga qaytsak; **des moutons de Panurge** yetalatma, birovning orqasidan ko'r-ko'rona



www.ziyouz.com kutubxonasi

ketaveradigan odam; **2.** qo'y terisi; **manteau en mouton doré** sigeykadan qilingan po'stin; **3.** qo'y go'shti; **gigot, côtelette de mouton** qo'yning soni, qo'y go'shtidan tayyorlangan kotlet; **4.** *fig* **c'est un mouton** bu go'l, laqma, sodda, har narsaga, kimga ishonaveradigan odam; **5.** chaqimchi, ayg'oqchi, sotqin, tilchi (*qamoqxonalarda*); **6.** ko'pikli to'lqin, mavj, barra bulut, bir qatlam chang; **j'ai balayé les moutons** men changlarni supurdim; **7.** shibbalagich.

**moutonné, ée** *adj* **1.** jingalak, qo'ng'iroq; **2. ciel moutonné** patila-patila, pag'a-pag'a bulutli osmon.

**moutonnement** *nm* **le moutonnement des vagues** to'lqinlarning ko'piklanishi, mavjlanishi.

**moutonner** *vi* **1.** ko'pirmoq, mavjlanmoq; **mer qui moutonne** mavjlanayotgan dengiz; **2.** fatila-fatila bo'lib ko'rinmoq.

**moutonnier, ière** *adj* go'l, laqma, sodda, har qanday narsaga, kimga ishonaveradigan; **une foule moutonnière** laqma olomon.

**mouture** *nf* **1.** tortish, un tortish; **2.** ko'p ishlatilgan, chaynalgan, siyqasi chiqqan; **c'est au moins la troisième mouture de son article** bu uning maqolasiga kamida uchinchi qaytish.

**mouvant, ante** *adj* **1.** harakatlanuvchi, o'zgaruvchi, selkillovchi; **la nappe mouvante des blés** selkillab turgan bug'doypoyalar; **une pensée mouvante** o'zgaruvchan fikr; **2.** qimirlab turadigan, bo'sh; qalqib, likkillab, bilqillab turadigan; **terrain mouvant** bo'sh yer; **sables mouvants** bilqillama qumloqlar.

**mouvement** *nm* **1.** harakat; **le mouvement d'un corps** tananing harakati; **direction d'un mouvement** harakatning yo'nalishi; **force, intensité d'un mouvement** harakat kuchi, tezligi; **mouvement rapide, lent** tez, sekin harakat; **2.** harakat, qimirlash; **attitudes, positions, postures, et mouvements** holatlar, joylashishlar, turishlar va harakatlar; **mouvements vifs, lents, aisés, maladroits** dadil, sekin, yengil, qo'pol harakatlar; **un mouvement du bras, du cou, de la jambe** qo'l, bo'yin, oyoq harakati; *loc* **faire un faux mouvement** og'ritadigan harakat qilmoq; **mouvements de gymnastiques, de nage** gimnastik, suzish harakatlari; **mouvement inconscient, automatique** beixtiyor, g'ayriixtiyoriy harakat; *loc* **en deux temps, trois mouvements** hash-pash deguncha; **le mouvement** harakatchanlik; **aimer le mouvement** harakatchanlikni yaxshi ko'rmoq; **3.** harakat, joyini o'zgartirish, ko'chib yurish; **le mouvement d'une foule** olomonning ko'chib yurishi; **le mouvement des avions sur un aérodrome** samolyotlarning ayerodromdagi harakati; **mouvements de marchandises** tovarlar harakati; **il y a du mouvement dans cette ville** *bu* shaharda jonlanish bor; **mouvements de troupes** harbiy qismlarning harakatlari; **4. en mouvement** harakatga, harakatda; **mettre un mécanisme en mouvement** biror mexanizmni harakatga keltirmoq; **toute la maison est en mouvement** butun uy harakatda; **5.** jon, jonlilik; **il y a du mouvement dans ce film** bu filmda jonlilik bor; **6.** *mus* marom, maqom; **7.** notekislik, baland-pastlik; **mouvement de terrain** yerning baland-pastligi; **8.** *techn* harakat, yurish; **mouvement d'horlogerie** soat mexanizmlarining yurishi; **9.** kechinmalar, tuyg'ular, ehtiroslar; *litt* **les mouvements de l'âme, du cœur** qalb, yurak kechinmalari, junbushi; **mouvements intérieurs** ichki kechinmalar; *loc* **un bon mouvement** yaxshi ish, qiliq; **mouvements divers** katta ta'sir; **10.** ijtimoiy tuzimdagi o'zgarishlar, harakatlar; **le parti du mouvement** harakat partiyasi; *fam* **être dans le mouvement** urf bo'lgan g'oyalarga ergashmoq; **11.** kollektiv harakatlar; **mouvement révolutionnaire, syndical** revolutsion, kasabachilar harakatlari; **mouvement littéraire, artistique** adabiy, ba'diy harakatlar; **12.** o'zgarish; **mouvements de la population** aholining o'zgarishi; **mouvements des prix** narx-navoning o'zgarishi.

**mouvementé, ée** *adj* **1.** notekis, baland-past; **terrain mouvementé** notekis yer; **2.** *litt* jonli, ehtirosli; **poursuite, arrestation mouvementée** kutilmagan quvishlar, qamoqqa olishlar.

**mouvoir I.** *vt* **1.** harakatga keltirmoq, qimirlatmoq; **mouvoir ses membres avec difficulté** tan a'zolarini bazo'r qimirlatmoq; **machine mue par l'électricité** stanok elektr quvvati bilan harakatlanadi; **2.** *litt* undamoq, qo'zg'atmoq, majbur qilmoq; **les raisons, les forces qui le meuvent** aql, kuch uni undayapti; **II. se mouvoir** *vpr* qimirlamoq, harakatlanmoq; **il peut à peine se mouvoir** u bazo'r qimirlay oladi; **se mouvoir dans un univers factice, dans le mensonge** g'ayritabiiy olamda, yolg'on og'ushida yashamoq.

**moyen[1], enne** *adj* **1.** o'rta, o'rtadagi; **le cours moyen d'un fleuve** daryoning o'rta oqimi; **moyen terme** o'rtasi, o'rta chegarasi; **cours moyen** boshlang'ich sinf; **2.** o'rta, o'rtacha; **être de taille moyenne** o'rta bo'yli bo'lmoq; **poids moyen** o'rta og'irlik; **âge moyen** o'rta yosh; **classes moyennes** o'rta sinflar; **3.** o'rtacha, oddiy; **le français moyen** o'rtacha fransuz; **le lecteur moyen** oddiy o'quvchi; **4.** o'rtacha, o'rta-miyona, yaxshi ham emas, yomon ham emas; **qualité moyenne** o'rtacha sifat; **intelligence moyenne** o'rtacha aql; **résultats moyens** o'rtacha natija; **il est très moyen en français** u fransuz tilidan o'rta-miyona; **5.** o'rtacha; **température moyenne annuelle d'un lieu** biror joyning o'rtacha yillik harorati.

**moyen[2]** *nm* **1.** vosita, chora, iloj, imkon, imkoniyat, tadbir, yo'l; **la fin et les moyens** oqibat va imkoniyat; **les moyens de faire qqch** biror narsa qilishning chorasi; **par quel moyen?** qaysi yo'l bilan? **trouver moyen de** ilojini topmoq; **s'il en avait le moyen, les moyens** agar uning imkoniyati bo'lganda edi; **avoir, laisser le choix des moyens** vosita tanlash imkoniga ega bo'lmoq, vosita tanlash imkonini birovga bermoq; **il a essayé tous les moyens** u barcha choralarni ishlatib ko'rdi; **moyen efficace, un bon moyen** ta'sirchan yo'l, yaxshi yo'l; **moyen provisoire, insuffisant** vaqtincha, yetishmaydigan chora; *loc* **se débrouiller avec les moyens du bord** qo'lida bor narsalardan foydalanib, ilojini qilmoq; **employer les grands moyens** bor imkoniyatlarni ishga solmoq; **il y a moyen, il n'y a pas moyen de** iloji bor; iloji yo'q; **il n'y a pas moyen de le faire obéir, qu'il soit à l'heure** uni vaqtida kelishga bo'ysundirishning chorasi yo'q; **pas moyen!** iloji yo'q! **moyen d'action, de défense, de contrôle** harakat, himoya, nazorat qilish vositalari; **moyens de transport** tashish vositalari; **par le moyen de** yordami bilan, tufayli; **au moyen de** yordamida, orqali; **se diriger au moyen d'une boussole** kompas yordamida yurmoq; **2.** *pl* imkon, imkoniyat, kuch-qudrat; **les moyens physiques d'un sportif** sportchining jismoniy imkoniyatlari; **il a de grands moyens** uning imkoniyatlari katta; **être en possession de tous ses moyens** hamma imkoniyatlarga ega bo'lmoq; **perdre ses moyens à un examen** imtihonda o'z imkoniyatlarini boy bermoq; **3.** imkoniyat, mablag', boylik; **ses parents n'avaient pas les moyens de lui faire faire des études** uning ota-onasining uni o'qitish uchun imkoniyatlari yo'q edi; **c'est trop cher, c'est au-dessus de mes moyens** bu juda qimmat, bu mening imkoniyat darajamdan yuqori; *fam* **il a les moyens** uning puli bor.

**Moyen Âge** *nm* O'rta asr; **les hommes, les villes du moyen âge** O'rta asr odamlari, shaharlari.

**moyenâgeux, euse** *adj* **1.** O'rta asrga oid, O'rta asr; **costume moyenâgeux** O'rta asr kiyimi; **2.** *péj* almisoqdan qolgan; **des procédés moyenâgeux** almisoqdan qolgan uslublar.

**moyen-courrier** *nm* o'rta masofaga uchuvchi transport samolyoti; **des moyen-couriers et des long-courriers** o'rta va uzoq masofaga uchuvchi transport samolyotlari.

**moyennant** *prép* yordamida, vositasi bilan, orqali; **acquérir une chose moyennant un prix convenu** ma'lum narx vositasi bilan bir narsaga ega bo'lmoq; **donnez-moi de l'argent, moyennant quoi je ferai le travail** menga puldan berib turing, uning yordamida men ish qilaman.

**moyenne** *nf* **1. la moyenne arithmétique de plusieurs nombres** ko'p sonning o'rtacha arifmetik miqdori; **calculer la moyenne des températures à paris au mois d'août** avgust oyining Parijdagi o'rtacha haroratini hisoblab chiqmoq; **rouler à une moyenne de 70 km/h** o'rtacha 70 km; soat tezlikda yurmoq; **faire 70, du 70 de moyenne** o'rtacha yetmishdan bosmoq; **avoir la moyenne à un examen** imtihonning yarim bahosini olmoq (*umumiy bahoning yarmini*); *fam* **cela fait une moyenne** buning o'rni to'lanib qoladi; **en moyenne** u o'rta hisobda kuniga 8 soatdan ishlayapti; **2.** o'rtacha, oddiy; **la moyenne des Français** oddiy fransuzlar; **une intelligence au-dessus de la moyenne** o'rtachadan yuqoriroq aql.

**moyennement** *adv* o'rtacha, o'rta-miyona; oz ham, ko'p ham emas; **aller moyennement vite** o'rtacha tezlikda yurmoq.

**moyeu** *nm* gupchak, vtulka; **moyeu de volant, d'hélice** rulning vtulkasi; *pl* **des moyeux** parrakning gupchagi.

**M.S.T.** *nf inv abrév* **maladie sexuellement transmissible** jinsiy aloqa yo'li bilan yuqadigan kasallik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**M.T.S.** *nm inv* **système M.T.S.** MTS sistemasi (*metr, tonna, sekund*).

**mucosité** *nf* shilimshiq parda.

**mucoviscidose** *nf* shilliq parda kasalligi.

**mucus** *nm inv* shilimshiq parda.

**mue** *nf* **1.** tullash, po'st tashlash, shox tashlash; **2.** tashlangan po'st; **trouver la mue d'un serpent** ilonning tashlagan po'stini topib olmoq; **3.** ovozning do'rillashi (*voyaga yetgan bolalarda*).

**muer I.** *vi* **1.** tullamoq, po'st tashlamoq, shox tashlamoq (*hayvonlar*); **insecte qui mue** po'st tashlaydigan hasharot; **2.** do'rillamoq (*ovoz*); **sa voix mue** uning ovozi do'rillayapti; **les enfants muent entre onze et quatorze ans** o'n bir bilan o'n to'rt yoshlar orasida bolalarning ovozi do'rillaydi; **II. se muer** *vpr litt* **(en)** aylanmoq; **ses désirs se sont mués en réalités** uning istaklari ro'yobga chiqdi.

**muet, ette I.** *adj* **1.** soqov, gung, gungalak, tilsiz; **il est muet de naissance** u tug'ma soqov; **sourd et muet** gung, gungalak, kar-soqov; **2.** gapirmaydigan, so'zsiz, jim; **être, rester muet d'étonnement, de peur** hayratdan, qo'rquvdan tili kalimaga kelmay qolmoq, tili tanglayiga yopishib qolmoq; **être muet comme une carpe** miq etmaydi, og'ziga suv, tolqon solganday; **rôle muet** pantomima; **3.** izohsiz, javobsiz, hech narsa deyilmagan; **le règlement est muet sur ce point** qarorda bu haqda hech narsa deyilmagan; **4.** so'zsiz, ovozsiz, yashirin, pinhon, dildagi, ichki (*hissiyot*); **muette protestation** so'zsiz norozilik; **de muets reproche** ovozsiz ginalar; **joie muette** dildan xursandchilik; **5.** ovozsiz, tovushsiz; **clavier muet** ovoz bermaydigan klavish; **cinéma, film muet** ovozsiz kino; **6.** talaffuz qilinmaydigan; **e, h muet** talaffuz qilinmaydigan e, h; **7.** yozuvsiz; **une carte muette** yozuvsiz, kontur xarita; **II.** *n* **1.** soqov, gung, gungalak; **2.** *nm* ovozsiz kino.

**muezzin** *nm* muazzin, so'fi.

**mufle**[1] *nm* tumshuq (*hayvonlarda*); **mufle de bœuf** ho'kizning tumshug'i.

**mufle**[2] *nm, adj* beadab, dag'al, qo'pol, to'nka; **se conduire comme un mufle** o'zini qo'pol tutmoq; **ce qu'il peut être mufle!** shuchalar ham to'nka bo'ladimi!

**muflerie** *nf* beadablik, dag'allik, qo'pollik, to'nkalik.

**mufti** *nm* mufti.

**mugir** *vi* **1.** bo'kirmoq (*yirik qoramol*); **2.** bo'kirmoq, o'kirmoq; **le vent mugissait** shamol o'kirar edi.

**mugissement** *nm* bo'kirmoq, o'kirmoq.

**muguet** *nm* marvaridgul; **offrir un brin de muguet le 1 er mai** birinchi mayga bir tutam marvaridgul sovg'a qilmoq; **savonnette au muguet** marvaridgulli sovun.

**mulâtre, mulâtresse** *n, adj* mulat, duragay (*oq va qora tanli er-xotindan tug'ilgan bola*); **fillette mulâtresse** mulat qiz.

**mule**[1] *nf* balandroq poshnali yoki orqasi ochiq ayollar shippagi.

**mule**[2] *nf* xachir (*urg'ochisi*); **monter une mule** xachirga minmoq; *loc fam* **chargé comme une mule** juda ko'p yuk yuklatilgan; **capricieux, têtu comme une mule** eshakday qaysar.

**mulet**[1] *nm* xachir (*erkagi*); *loc fam* **être chargé comme un mulet** ko'p yuk yuklatilgan bo'lmoq; **têtu comme un mulet** eshakday qaysar.

**mulet**[2] *nm* baliqning bir turi.

**muletier, ière I.** *nm* xachir haydovchi; **II.** *adj* **chemin, sentier muletier** xachir yo'li, so'qmog'i; **piste muletière** xachir izi; xachir chopiladigan joy (*otchopar*).

**mulot** *nm* dala sichqoni.

**multicolore** *adj* ko'p rangli, rangdor, ola-bula; **oiseaux multicolores** ko'p rangli qushlar.

**multicoque** *nm* ko'p korpusli kema; **les catamarans et les trimarans sont des multicoques** katamaran va trimaran ko'p korpusli kema.

**multiforme** *adj* turli, turli kurinishdagi, har xil; **une menace multiforme et imprécise** turli ko'rinishdagi va noaniq xavf.

**multilatéral, ale, aux** *adj* ko'p tomonlama; **accords multilatéraux** ko'p tomonlama shartnomalar.

**multimillionnaire** *adj, n* multimillioner.

**multinational, ale, aux I.** *adj* ko'p millatli; **II.** *nf* ko'p millatli firma.

**multiple I.** *adj* **1.** turli, turli-tuman, xilma-xil, har xil; **une réalité multiple et complexe** turli-tuman va murakkab voqelik; **2.** karrali, qoldiqsiz bo'linadigan; **21 est multiple de 7** 21 7ga qoldiqsiz bo'linadigan son; **3.** ko'p, turli xil; **activités, aspects, causes multiples** turli xil faoliyatlar, ko'rinishlar, sabablar; **II.** *nm* **1.** karrali; **tout multiple de deux est pair** ikkining hamma karralilari juft sonlar; **le plus petit commun multiple de deux nombres** ikki sonning eng kichik umumiy karrasi; **2.** bir necha elektr apparatlarini bir manbaga ulashda xizmat qiladigan moslama, pristavka.

**multiplicande** *nm math* ko'payuvchi.

**multiplicateur, trice** *adj, nm* ko'paytiruvchi, multiplikator.

**multiplicatif, ive** *adj* ko'paytiruvchi; **signe multiplicatif** ko'paytirish belgisi.

**multiplication** *nm* **1.** ko'payish; **2.** ko'payish, ko'paytirish; **la multiplication des bactéries** bakteriyalarning ko'payishi; **multiplication végétative** vegetativ (*qalamcha, parxish va boshqa yo'llar bilan*) ko'paytirish; **3.** *math* yeo'paytirish; **table de multiplication** ko'paytirish jadvali.

**multiplicité** *nf* ko'plik; **la multiplicité des inventions** kashfiyotlarning ko'pligi.

**multiplier I.** *vt* **1.** ko'paytirmoq, oshirmoq, kengaytirmoq; **multiplier les exemplaires d'un texte** matnning nusxalarini ko'paytirmoq; **multiplier les essais** sinovlar sonini oshirmoq; **2.** ko'paytirmoq; **sept multiplié par neuf** yetti karra to'qqiz, to'qqiz marta yetti; **II. se multiplier** *vpr* **1.** ko'paymoq, oshmoq, kengaymoq; **2.** urchimoq, bolalamoq, ko'paymoq; **les souris se multiplient très vite** sichqonlar juda tez ko'payadi.

**multipropriété** *nf* ko'p egalik (*ko'pchilik bo'lib bir narsaga navbatma navbat egalik qilish*); **il a acheté un appartement à la montagne en multipropriété** u tog'da ko'p egalik asosida xonadon sotib oldi.

**multirisque** *adj* ko'p xavf-xatarni o'z ichiga oluvchi, ko'p tarmoqli; **assurance multirisque** ko'p xavf-xatarni o'z ichiga oluvchi sug'urta.

**multitude** *nf* **1.** juda ko'p, bir talay, bir to'da; **une multitude de visiteurs entra (entrèrent)** bir talay tashrif qiluvchilar kirishdi; **2.** olomon, to'da; **la multitude qui accourait pour voir la vedette** kino yulduzini ko'rgani olomon yugirib kelar edi.

**muni, ie** *pp* **munir** fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi.

**municipal, ale, aux** *adj* munitsipalitetga oid, munitsipalitet; **conseil municipal** munitsipalitet kengashi; **élections municipales** munitsipalitetga saylovlar; **piscine municipale** munitsipalitet basseyni, hovuzi.

**municipalité** *nf* munitsipalitet (*uning mahkamasi, idorasi, a'zolari*); **la municipalité d'une commune comprend le maire, ses adjoints et les conseillers municipales** kommuna munitsipaliteti hokim, uning muovinlari va munitsipalitet maslahatchilaridan tashkil topadi.

**munificence** *nf* olihimmatlik, olijanoblik, hotamtoylik, qo'li ochiqlik; **donner avec munificence** hotamtoylik bilan bermoq.

**munir I.** *vt* **1.** ta'minlamoq, jihozlamoq, qurollantirmoq; **munir un voyageur d'un peu d'argent** sayohatchini bir oz pul bilan ta'minlamoq; **caméra munie de deux objectifs** ikkita ob'ektiv bilan jihozlangan kinokamera; **II. se munir** *vpr* **(de)** g'amlab, tayyorlab, hozirlab olmoq; **se munir d'un imperméable** plashch hozirlab olmoq; **se munir de patience** sabr qilmoq.

**munitions** *nf pl* o'q-dorilar; **entrepôt d'armes et de munitions** qurol-yarog' va o'q-dorilar ombori.

**muphti** *nm voir* **mufti**.

**muqueuse** *nf* shilliq parda.

**muqueux, euse** *adj* **1.** shilliq, shilimshiq; **2.** shilliq ishlab chiqaradigan; **membrane muqueuse** shilliq parda.

**mur** *nm* **1.** devor; **bâtir, élever, abattre un mure** devor urmoq, qurmoq, buzmoq; **fermer de murs** devor bilan o'ramoq; **un vieux mur croulant** nurayotgan eski devor; **il est arrivé dans nos murs** u bizning shaharga keldi; **2.** devorning ichki qismi; **mettre des tableaux aux murs** rasmlarni devorga osmoq; **horaire affiché au mur** devorga osilgan jadval; *loc* **entre quatre murs** to'rt devor ichida yashamoq; **3.** *loc* **raser les murs** devorga yopishib olmoq; **sauter, faire le mur** so'roqsiz tashlab ketmoq (*xizmat joyini*); **se cogner, se taper la tête contre les murs** noumid bo'lmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; **mettre qqn au pied du mur** birovni iskanjaga, qiyin-



www.ziyouz.com kutubxonasi

qistovga olmoq, bo‘g‘otga qismoq, fosh qilmoq; **4.** *fig* devor, to‘siq, g‘ov; **un mur d'incompréhension** o‘zaro tushunmaslik to‘sig‘i; **se heurter à un mur** g‘ovga duch kelmoq; **5. le mur du son** tovush tezligi; **franchir le mur du son** tovush tezligidan o‘tmoq; **6.** *foot* jonli devor; **l'arbitre a fait reculer le mur à distance réglementaire** hakam jonli devorni kerakli masofaga jildirdi.

**mûr, mûre** *adj* **1.** pishgan, yetilgan; **un fruit trop mûr** o‘ta pishgan meva; **couleur de blé mûr** pishgan bug‘doyning rangi; **2.** pishgan, yetilgan, yorsa bo‘ladigan (*yara*); **3.** *fig* yetilgan, pishgan; **un projet mûr** pishgan reja; **la révolution est mûre** revolutsiya yetildi; **être mûr pour** yetilgan, tayyor bo‘lmoq; **4. l'âge mûr** balog‘at yoshi; **l'homme mûr** yetuk odam; **esprit mûr** raso aql; **il est très mûr pour son âge** u o‘zining yoshi uchun aqli juda raso; **après mûres réflexions** talaygina mulohazadan so‘ng; **5.** *fam* yetilgan, pishgan, g‘irt kayf.

**muraille** *nf* **1.** baland va qalin devor; **une haute muraille** baland devor; **les murailles du château fort** qal'aning qalin devorlari; *loc* **couleur de muraille** devor rangli; **enceinte de murailles** devorlar to‘sig‘i; **la grande muraille de Chine** Buyuk Xitoy devori; **2.** devor, to‘siq.

**mural, ale, aux** *adj* devordagi, devorga ishlangan, devoriy, devor; **peintures, fresques murales** devorga solingan rasm va freskalar; **pendule murale** devoriy soat, devor soati.

**mûre** *nf* **1.** tut (*mevasi*); **2.** maymunjon, parmachak; **gelée de mûres** maymunjon jelesi.

**mûrement** *adv* talaygina, talay vaqt, uzoq vaqt; **j'y ai mûrement réfléchi** men bu haqda talaygina o‘yladim.

**murène** *nf* baliqning bir turi.

**murer I.** *vt* **1.** devor bilan o‘ramoq, urib tashlamoq; **murer une porte, une issue** kirishni, eshikni urib tashlamoq; **une fenêtre murée** urib tashlangan deraza; **2.** qamab tashlamoq; **mineurs murés au fond** konda qamalib qolgan konchilar; **II. se murer** *vpr* o‘zini xilvatga olmoq, yolg‘izlanmoq, biqinib olmoq; **il s'est muré chez lui** uyiga biqinib olmoq.

**muret** *nm ou* **murette** *nf* devorcha, pastak devor.

**mûrier** *nm* tut daraxti; **mûrier noir** qora tut; **mûrier blanc** oq tut.

**mûrir I.** *vt* **1.** pishirmoq, yetiltirmoq; **le soleil mûrit les fruits** quyosh mevalarni pishiradi; **2.** yetiltirmoq, pishirmoq, har tomonlama o‘ylab ko‘rmoq; **mûrir une pensée, un projet** biror fikrni, rejani xayolda pishirmoq; **3.** aqlan tez voyaga yetkazmoq; **le malheur l'a mûri** baxtsizlik uni aqlan tez voyaga yetkazdi; **II.** *vi* **1.** pishmoq, yetilmoq; **les blés mûrissent** donlar pishdi; **2.** yetilmoq, pishmoq, har tomonlama o‘ylab ko‘rilmoq; **laisser mûrir une idée, un projet** g‘oyani, rejani yetiltirmoq.

**mûrissant, ante** *adj* **1.** pishayotgan, yetilayotgan; **2.** voyaga, balog‘atga yetayotgan.

**murmure** *nm* **1.** shivirlash, pichirlash, pichir-pichir; **rires et murmures d'élèves** o‘quvchilarning kulgilari va pichir-pichirlari; **2.** shivir-shivir, pichir-pichir; **murmures d'approbation, de protestation** ma'qullash, norozilik shivir-shivirlari; *loc* **accepter une chose sans hésitation ni murmure** biror narsaga ikkilanmay va so‘zsiz rozi bo‘lmoq; **3.** jildiramoq, shildiramoq, shitirlamoq; **le murmure d'une fontaine** favoraning shildirashi.

**murmurer I.** *vi* **1.** shivirlamoq, pichirlamoq; **2.** g‘udranmoq, to‘ng‘illamoq, do‘ng‘illamoq, po‘ng‘illamoq; **accepter, obéir sans murmurer** to‘ng‘illamay rozi bo‘lmoq, bo‘ysunmoq; **II.** *vt* shivirlamoq, pichirlamoq.

**musaraigne** *nf zool* yerqazar (*hasharot*).

**musarder** *vi* bekorxo‘ja bo‘lmoq, laqillab yurmoq, vaqtini bekorga o‘tkazmoq.

**musc** *nm* mushk; **grains de musc séché** mushkdan tayyorlangan atir.

**muscade** *adj, n* muskatga oid, muskat; **noix muscade** muskat yong‘og‘i.

**muscadet** *nm* muskade (*vinoning turi*).

**muscadin** *nm vx* olifta, bashang, po‘rim.

**muscat** *adj, nm* **1. raisin muscat** muskat uzumi; **une grappe de muscat** bir shingil muskat uzumi; **2. vin muscat** muskat vinosi; **un verre de muscat** bir stakan muskat vinosi.

**muscle** *nm* mushak, muskul; **muscles striés** ko‘ndalang yo‘lli mushaklar; **muscles lisses** silliq mushaklar; **contracter, gonfler un muscle** mushakni taranglashtirmoq, shishirmoq; **développer ses muscles** mushaklarini rivojlantirmoq; **elle s'est froissé un muscle** u bir mushakni ezg‘iladi; **avoir des muscles, du muscle** kuchli bo‘lmoq.

**musclé, ée** *adj* **1.** mushaklari chiqqan, rivojlangan, baquvvat; **jambes musclées** mushaklari chiqqan, baquvvat oyoqlar; **2.** *fam* g‘ayratli, baquvvat; **une politique musclée** baquvvat siyosat.

**muscler I.** *vt* mushaklarini, kuchini rivojlantirmoq; **II. se muscler** *vpr* o‘z mushaklarini rivojlantirmoq; **il fait de la gymnastique pour se muscler** u o‘z mushaklarini rivojlantirish uchun badantarbiya bilan shug‘ullanadi.

**musculaire** *adj* mushak, muskullarga oid; **système musculaire** mushaklar sistemasi; **force musculaire** mushak kuchi.

**musculation** *nf* mushaklarni rivojlantirish, kulturizm; **il fait de la musculation** u kulturizm bilan shug‘ullanadi.

**musculature** *nf* mushaklar, muskulatura, muskullar; **la musculature du dos** bel mushaklari; **la musculature d'un athlète** atletikachining mushaklari.

**musculeux, euse** *adj* mushaklari bo‘rtib chiqqan, kuchli.

**muse** *nf* **1. Muse** Muza (*yunon mifologiyasida: san'at, adabiyot, fan ilohisi, xudosi*); **2.** *litt* ilhom parisi, ilhom manbai, ilhombaxsh narsa.

**museau** *nm* **1.** tumshuq (*hayvonlarda*); **museau de chien, de porc** itning, cho‘chqaning tumshug‘i; **museau de brochet** cho‘rtanbaliqning tumshug‘i; **museau de porc, de bœuf** cho‘chqaning, molning kallasi (*so‘yilgan holda*); **2.** *fam* aft, angor, bashara, turq.

**musée** *nm* **1.** muzey, ajoyibxona; **musée de peinture** tasviriy san'at muzeyi; **musée d'histoire naturelle** tabiiy fanlar muzeyi; **exposition d'un musée** muzey ko‘rgazmalari; **objet, pièce de musée** muzey eksponatlari; **2.** muzey, noyob narsalar to‘plangan joy; **son appartement est un véritable musée** uning uyi haqiqiy muzey; **ville-musée** muzey-shahar; *loc fam* **musée des horreurs** dahshatlar xonasi.

**museler** *vt* **1.** tumshuqbog‘ kiydirmoq, tutmoq; **museler un chien** itga tumshuqbog‘ kiydirmoq; **2.** *fig* gapirtirmay qo‘ymoq, og‘ziga urmoq, ovozini o‘chirmoq; **museler l'opposition** muxoliflarni og‘ziga urmoq.

**muselière** *nm* tumshuqbog‘; **mettre une muselière à un chien** itga tumshuqbog‘ kiydirmoq.

**musellement** *nm* **1.** tumshuqbog‘ kiydirish, taqish; **2.** birovni gapirtirmay qo‘yish, og‘ziga urish, ovozini o‘chirish.

**muséographie** *nf* muzeyshunoslik.

**muséologie** *nf* muzeyshunoslik.

**muser** *vi litt* bekorxo‘jalik qilmoq, laqillab yurmoq, bekorga vaqtini o‘tkazmoq, sandiroqlamoq; bekor sanqib, daydib yurmoq, tentiramoq, sanqimoq.

**musette[1]** *nf* **1.** *vx* volinka; **2. bal musette** akkordionga tushiladigan raqs; **valse musette** akkordionga tushiladigan vals; **un disque d'accordéon musette** akkordionda ijro etilgan kuy plastinkasi.

**musette[2]** *nm* xalta, to‘rva; **mettre sa gamelle dans sa musette** soldat kotelogini xaltasiga solib qo‘ymoq.

**muséum** *nm* tabiiy fanlar muzeyi.

**musical, ale, aux** *adj* **1.** musiqaga oid, musiqiy, muzika; **son musical** musiqa tovushi; **notation musicale** musiqa notatsiyasi; **soirée musicale** musiqiy kecha; **comédie musicale** musiqali komediya; **2.** musiqiy; **une voix très musicale** juda ham musiqiy tovush.

**musicalement** *adv* **1.** muzika, musiqa yo‘lida; **2.** ohangdor.

**musicalité** *nf* musiqiylik; **la musicalité d'une chaîne stéréo** sterio eshittirishining musiqiyligi.

**music-hall** *nm* muzik-xoll; **chanteuse de music-hall** muzik-xoll ashulachisi; **aimer le music-hall** muzik-xollni yaxshi ko‘rmoq; *pl* **des music-halls**.

**musicien, ienne I.** *adj* muzikachi, musiqani yaxshi biladigan; **elle était assez musicienne** u musiqani yaxshigina biladigan edi; **II.** *n* muzikachi, mashshoq, sozanda, navozanda; **musicien de jazz** jaz sozandasi.

**musicologie** *nf* musiqashunoslik.

**musicologue** *n* musiqashunos.

**musique** *nf* **1.** musiqa, kuy; **aimer la musique** kuyni yaxshi ko‘rmoq; **musique vocale** vokal kuyi; **musique instrumentale** cholg‘u kuyi; **musique de chambre** kamer kuyi; **musique de danse, de ballet** raqs, balet, kuyi; **musique de film** kinofilmdan kuy; **musique de cirque** sirk kuyi; **musique**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**de jazz** jaz kuyi; **musique de variétés** varete kuyi; **musique classique (grande musique)** klassik kuy; **musique militaire, musique d'un régiment** harbiy musiqa (*orkestr*), polk orkestri; **régiment qui marche musique en tête** boshida orkestr bilan ketayotgan polk; **école, conservatoire de musique** musiqa maktabi, konservatoriya; **dîner, travailler en musique** musiqa ostida, eshitib ovqatlanmoq, ishlamoq; **2.** musiqa yozuvi, musiqa asari; **marchant de musique** musiqa asarlari sotuvchisi; **3.** *fam* nag'ma, ashula, qiliq, ish (*nutq haqida*); **c'est toujours la même musique** doim bir xil nag'ma; *fam* **connaître la musique** bu nag'mani bilmoq; **4.** kuyni eslatuvchi ohang, nag'ma; **la musique des oiseaux, des cigales** qushlarning, ninachining nag'masi; **5.** ohangdorlik, uyg'unlik; **la musique d'un poème** poemaning ohangdorligi, uyg'unligi.

**musqué, ée** *adj* **1.** mushk sepilgan; **2.** mushk hidli; **rat musqué** mushk hidli kalamush; **bœuf musqué** mushk hidli ho'kiz.

**mustang** *nm* yovvoyilashgan ot.

**musulman, ane I.** *n* musulmon; **II.** *adj* islom diniga va musulmonlarga oid; islom, musulmon, islomiy.

**mutant, ante** *adj, n biol* mutant.

**mutation**[1] *nf biol* mutatsiya.

**mutation**[2] *nf* **1.** o'zgarish; **il est en plein mutation** u ayni o'zgarish paytida; **2.** o'tish (*bir mansabdan boshqa bir mansabga, bir sport klubidan boshqa bir sport klubiga*); **3.** *dr* mulkni birovga o'tkazish; **droits de mutation** egalik solig'i (*mulkni birovga o'tkazganda solinadigan soliq*).

**muter** *vt* boshqa mansabga, ishga o'tkazmoq; **muter un fonctionnaire par mesure de sanction** rozilikka binoan xizmatchini boshqa ishga o'tkazmoq; **il a été muté en province** u qishloqqa ishga jo'natilgan edi.

**mutilation** *nf* **1.** cho'loq, nogiron qilib qo'ymoq; **2.** buzib ko'rsatmoq; **mutilation de statues, de tableaux** haykalchalarni, rasmlarni buzib ko'rsatmoq; **3.** kesib, qirqib, olib tashlamoq (*matnning bir qismini*).

**mutilé, ée** *n* cho'loq odam, mayib, majruh, nogiron, invalid; **mutilé de guerre** urush nogironi; **les mutilés de la face** urushda yuzidan yaralangan nogironlar.

**mutin**[1]**, ine** *adj litt* hazilkash, xushchaqchaq odam; **fillette mutine** xushchaqchaq qiz.

**mutin**[2] *nm* isyonchi, g'alayonchi.

**mutiné, ée** *adj, n* isyonchi, g'alayonchi; **des marins mutinés** g'alayonchi dengizchilar.

**mutiner (se)** *vpr* isyon, g'alayon qilmoq, bosh ko'tarmoq; **prisonniers qui se mutinent contre leurs gardiens** o'z qo'riqchilariga qarshi bosh ko'targan mahbuslar.

**mutinerie** *nf* isyon, g'alayon, bosh ko'tarish; **mutinerie de troupes** harbiy qismlarning g'alayonlari.

**mutisme** *nm* **1.** gunglik, soqovlik, tilsizlik; **2.** indamaslik, gapirmaslik, jim turish, sukunat, sukut; **s'enfermer dans un mutisme opiniâtre** qaysarona sukunatga berilmoq.

**mutité** *nf* gunglik, soqovlik, tilsizlik.

**mutualisme** *nm* o'zaro iqtisodiy yordam.

**mutualiste I.** *adj* o'zaro, ikki taraflama; **assurances mutualistes** o'zaro ishonch; **II.** *n* o'zaro hamkorlik tashkiloti a'zosi.

**mutualité** *nf* o'zaro ishonch, hamkorlik, ikki tomonlilik; **il faut cotiser pour bénéficier de la mutualité** o'zaro ishonchni ta'minlash uchun taqsimot nisbatini qilish kerak.

**mutuel, elle I.** *adj* o'zaro, ikki tomonlama; **complaisance, responsabilité mutuelle** o'zaro iltifot, majburiyat; **se faire des concessions mutuelles** o'zaro yon berishmoq; **établissement, société d'assurance mutuelle** o'zaro xavfsizlikni ta'minlovchi idora, tashkilot; **II.** *nf* o'zaro hamkorlik tashkiloti; **une mutuelle de fonctionnaires** amaldorlarning o'zaro hamkorlik tashkiloti.

**mutuellement** *adv* o'zaro, ikki tomonlama; **aidons-nous mutuellement** bir-birimizga o'zaro yordam beraylik.

**mycénien, ienne** *adj* mitsen va uning svilizatsiyasiga oid.

**mygale** *nf* qushxo'r o'rgimchak.

**myocarde** *nm anat* miokard; **infarctus du myocarde** miokard infarkti.

**myopathie** *nf méd* miopatiya.

**myope I.** *n* uzoqdan ko'rolmaydigan, yaqindan ko'radigan odam; **II.** *adj* uzoqni ko'rolmaydigan, yaqindan ko'radigan; *fam* **il, elle est myope comme une taupe** u ko'rkalamushday uzoqni ko'rolmaydi; *fig* kaltabin, uzoqni ko'rolmaydigan.

**myopie** *nf* uzoqni ko'rmaslik; *fig* **myopie intellectuelle** aqliy kaltabinlik.

**myosotis** *nm inv* bo'tako'z.

**myriade** *nf* son-sanoqsiz, behisob, juda ko'p, tumonot.

**myriapodes** *nm pl zool* ko'poyoq, mingoyoq.

**myrrhe** *nf* mirra (*xushbo'y smola turi va shunday smola beradigan daraxt*).

**myrte** *nm* **1.** mirt, mirta (*doim yashil, xushbo'y buta*); **2.** mirta barglari; **couronne de myrte** mirtadan qilingan chambarak.

**myrtille** *nf* chernika (*mevasi va butasi*); **tarte aux myrtilles** chernikali tort.

**mystère**[1] *nm* **1.** sirli ibodat; **le mystère de la trinité** troitsaning sirli ibodati; **2.** sir; **le mystère de la nature** tabiat sirlari; **maison pleine de mystère** siru-asrorga to'la uy; **3.** sir, maxfiy narsa, yashirin ish; **cela cache, couvre un mystère** bu sirni yashiradi, bekitadi; **voilà la solution du mystère** mana sirning yechimi; **4.** sirlilik, maxfiylik, ajablik; **cela n'a plus du mystère pour lui** buning unga butunlay ajab joyi yo'q; **s'envelopper, s'entourer de mystère** maxfiylikka o'ralmoq; **chute! mystère** jim! sir; **5.** muzqaymoqli pirojnoye; **6. Mystère** ovozdan tez uchuvchi fransuz harbiy samolyoti.

**mystère**[2] *nm litt* misteriya (*O'rta asrlarda diniy mavzulardagi drama*).

**mystérieusement** *adv* sirli, maxfiy, ajabli.

**mystérieux, euse** *adj* **1.** sirli, maxfiy, ajib; **le hasard est mystérieux** bu tasodif sirli; **sentiments mystérieux** maxfiy tuyg'ular; **lieu, monde mystérieux** ajib joy, odamlar; **2.** sirli, ajib, g'alati; **cette histoire est bien mystérieuse** bu voqea juda g'alati; **3.** yashirin, maxfiy; **dossier mystérieux** maxfiy hujjatlar; **un mystérieux personnage** bir maxfiy kimsa; **4.** sirli, yashirin; **un homme mystérieux** sirli odam; *n* **tu fais le mystérieux** sen sirli bo'lib ketyapsan.

**mysticisme** *nm* **1.** mistika, tasavvuf; **mysticisme chrétien, islamique** nasroniy, islom tasavvufi; **2.** mistitsizm.

**mystifiant, iante** *adj* aldoqchi, laqillatuvchi, firibgar; **propagande mystifiante** aldoqchi siyosat.

**mystificateur, trice** *n* aldashga, laqillatishga usta odam, alodoqchi, firibgar; **mystificateur littéraire** adabiy aldoqchi; *adj* **intentions mystificatrices** aldoqchi g'oya.

**mystification** *nf* **1.** aldash, laqillatish, aldamchilik, firibgarlik; **elle a été le jouet d'une mystification** u bir firibgarlikning o'yinchog'i bo'ldi; **2.** ko'pchilikni aldash, laqillatish.

**mystifier** *vt* **1.** laqillatmoq, firib bermoq; **les naïfs qu'on mystifie** laqillatib ketishadigan soddalar; **2.** ko'pchilikni laqillatmoq; **mystifier un peuple par la propagande** tashviqot yo'li bilan bir xalqni laqillatib kelmoq.

**mystique I.** *adj* **1.** sirli, g'aroyib, aqlga to'g'ri kelmaydigan; **extase, expérience mystique** g'aroyib jazava, tajriba; **2.** mutasavvif, tasavvufchi, so'fiy; **3.** butun dildan, cheksiz; **amour, patriotisme mystique** cheksiz muhabbat, vatanparvarlik; **II.** *n* **1.** mistik, mutasavvif, tasavvufchi, so'fiy; **les grands mystiques chrétiens** ulug' nasroniy tasavvufchilari; **2.** *nf* mistika, tasavvuf; **la mystique de la force, de la paix** kuch, tinchlik mistikasi.

**mythe** *nm* afsona, mif, rivoyat, asotir; og'izlarda dastan bo'lgan voqea, hodisa; **2.** xayoliy, yo'q narsa, afsona; *fam* **son oncle à héritage** voris tog'asi? **c'est un mythe** bu afsona! **3.** utopiya, xomxayol; **le mythe de l'âge d'or** oltin asr haqidagi xomxayol; afsona, o'rnashib qolgan tasavvur; **le mythe du flegme britannique, de la galanterie française** britaniyaliklarning sovuqqonligi, fransuzlarning nazokati haqidagi o'rnashib qolgan tasavvur.

**mythifier** *vt* afsonalashtirmoq, bo'rttirib, orttirib yubormoq; **mythifier le rôle du professeur** o'qituvchining rolini bo'rttirib yubormoq.

**mythique** *adj* afsonaviy, afsonadan kelib chiqadigan; **inspiration, tradition mythique** afsonadan kelib chiqadigan ishonch, an'ana; **héros mythique** afsonaviy qaxramon.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mythologie** *nf* **1.** mifologiya, miflar, afsonalar; **mythologie hindoue, grecque** hind, yunon mifologiyasi, afsonalari; **2.** afsonalar, rivoyatlar; **la mythologie de la vedette** kino yulduzi haqidagi afsonalar.

**mythologique** *adj* mifologiyaga oid; mifologik; mifologiya, afsonaviy; **divinités mythologiques** afsonaviy xudolar.

**mythomane** *adj, n* xayolparast.

**mythomanie** *nf* xayolparastlik.

**myxomatose** *nf* miksomatoz (*quyonlar kasalligi*).

# N

**n** *nm* **1.** fransuz alifbosining o‘n to‘rtinchi harfi; **2.** *math* biror, istalgan bir, qandaydir bir, muayyan, ma’lum bir; **nombre à la puissance n** sonning n-darajasi.

**n’** *adv* bo‘lishsiz **ne** ning unli oldidan ko‘rinishi.

**na** *intj fam* (*inkor yoki ta’kidni kuchaytirib keladi*) **c’est bien fait, na!** vo, bu zo‘r qilinibdi!

**nabab** *nm* **1.** *vx* nabob (*Hindistonda qishloq hokimi*); **2.** o‘ta boy odam.

**nabot, ote** *n, adj péj* pakana, mitti.

**nacelle** *nm* gondola, kajava (*havo shari, dirijabl va kabilarning odam o‘tiradigan yoki motor o‘rnatiladigan kajavasi*).

**nacre** *nf* sadaf; **boutons de nacre** sadaf tugmalar.

**nacré, ée** *adj* sadafga oid; sadaf; **vernis à ongles nacré** sadaf rangli tirnoq laki.

**nage** *nf* suzish; **sa nage favorite, c’est la brasse** uning yaxshi ko‘rgan usuli, bu brass; **nage sous-marine** suv ostida suzish; **à la nage** suzib; **être à la nage** terga botgan bo‘lmoq.

**nageoire** *nf* suzgich; **nageoires dorsales, ventrales** yelka, qorin suzgichlari.

**nager I.** *vi* **1.** suzmoq; **il nage comme un poisson** u baliqday suzadi; *loc fam* **savoir nager** yo‘lini bilmoq, ilojini topmoq; **nager entre deux eaux** har ikki tomonni kelishtirmoq, har ikki tomonga xizmat qilmoq; **nager dans** botmoq, suzmoq, cho‘mmoq (*biror holatga*); **2.** *fam* ust-boshi keng, katta bo‘lmoq; **il nage dans son costume** u o‘ziga katta kelgan ust-boshda; **3.** dovdiramoq; **je ne comprends pas, je nage complètement** men tushunmayapman, men butunlay dovdirab qoldim; **II.** *vt* biror usulda suzmoq; **nager la brasse, le crawl** brass, krol usulida suzmoq; **nager un cent mètres** yuz metrga suzmoq.

**nageur, euse** *n* suzuvchi; **c’est un bon nageur** bu mohir suzuvchi.

**naguère** *adv litt* yaqinda, yaqinginada, oldin, ilgari.

**naïade** *nf* suv parisi.

**naïf, naïve** *adj* **1.** sodda, soddadil, anoyi; **une question naïve** oddiy savol; **2.** go‘l, do‘lvor; **vous me prenez pour un naïf** siz meni go‘l deb o‘ylayapsizmi? **3.** oddiy, sodda, soddadil; **une joie naïve** soddadil xursandchilik.

**nain, naine I.** *n* **1.** pakana, mitti, qo‘qil odam; **2.** afsonaviy mitti odam, gnom; **blanche-neige et les sept nains** Oppog‘oy va yetti pakana; **II.** *adj* pakana, mitti, qo‘qil (*odam, o‘simlik, hayvon*); **arbre nain** mitti daraxt; **rosier nain** mitti atirgul.

**naissance** *nf* **1.** tug‘ilish, tavallud topish; **donner naissance à** dunyoga keltirmoq, tug‘moq; **de naissance** tug‘ma, tug‘ilishdan; **aveugle de naissance** tug‘ma ko‘r; **2.** tug‘ish, tug‘ilish; **le nombre des naissances a augmenté** tug‘ilish soni ortdi; **contrôle des naissances** tug‘ilishni nazorat qilish; **3.** tug‘ilish, boshlanish; **la naissance d’une science** fanning tug‘ilishi; **4.** tug‘ilish, boshlanish joyi; **naissance d’un fleuve** daryoning boshlanish joyi.

**naissant, ante** *adj* tug‘ilayotgan, paydo bo‘layotgan; **barbe naissante** chiqib kelayotgan soqol; **jour naissant** boshlanayotgan kun.

**naître** *vi* **1.** tug‘ilmoq, dunyoga kelmoq; **un enfant vient de naître** yangi bola dunyoga keldi; **il est né aveugle** u ko‘r tug‘ilgan; **il naît plus de filles que des garçons** o‘g‘il bolalarga qaraganda qizlar ko‘proq tug‘iladi; **2. naître à** *litt* uyg‘onmoq, birinchi bor paydo bo‘lmoq; **naître à l’amour** qalbida muhabbat uyg‘onmoq; **3.** tug‘ilmoq, paydo bo‘lmoq, dunyoga kelmoq, bunyod bo‘lmoq; **de nouvelles industries sont nées** yangi sanoat korxonalari bunyod bo‘ldi; **ce problème fait naître d’autres questions** bu masala boshqa masalalarni tug‘diradi, keltirib chiqaradi; **4. naître de** tug‘ilmoq, kelib chiqmoq; **le bien parfois naît de l’excès du mal** yaxshilik gohida ortiqcha yomonlikdan tug‘iladi, kelib chiqadi.

**naïvement** *adv* soddalik, soddadillik, ko‘ngilchanglik bilan.

**naïveté** *nf* **1.** *litt* soddalik, sofdillik; **2.** soddalik, go‘llik, soddaligiga borib aytilgan gap; **la naïveté d’une réponse** soddaligiga borib berilgan javob; **3.** soddadillik, ishonuvchanlik, ochiq ko‘ngillilik; **une incroyable naïveté** o‘taketgan soddadillik.

**naja** *nm* ko‘zoynakli ilon, kobra.

**nana** *nf fam* yengiltak qiz, yengiltak xotin, jonon; **ma nana** mening jononim.

**nanisme** *nm* pakanalik, mittilik.

**nantir** *vt péj plais* taqamoq, bermoq; **on l’a nanti d’un titre** unga unvon taqashdi; **des gens bien nantis** boy-badavlat odamlar.

**nantissement** *nm* garov orqali kafolatlash.

**napalm** *nm* napalm; **bombes au napalm** napalm bombalari.

**naphtaline** *nf* naftalin.

**naphte** *nm* neft; **nappe de naphte** neft qoplami.

**napoléon** *nm* 20 frankli qadimiy oltin tanga.

**napoléonien, ienne** *adj* Napoleonga oid, Napoleon davridagi, Napoleoncha.

**napolitain, aine I.** *adj* **1.** Neaplga oid; **2. tranche napolitaine** turli hidli qat-qat muzqaymoq; **II.** *n* neapllik.

**nappe[1]** *nf* dasturxon; **nappe et les serviettes** dasturxon va sochiqlar; **nappe à thé** choy dasturxon.

**nappe[2]** *nf* keng qatlam, qoplam; **une nappe de brouillard** tuman qatlami; suv, neft, gaz qatlami.

**napper** *vt* ustiga solmoq, ustiga yoymoq, ustiga qo‘ymoq (*qayla, jele kabilarni*).

**napperon** *nm* taglama sochiq (*chashka, tarelkalarning ostiga qo‘yiladigan moslama mato*).

**narcisse** *nm* nargis.

**narcissique** *adj, n* o‘ziga bino qo‘ygan, o‘zini yaxshi ko‘radigan; o‘zini hammadan yuqori qo‘yadigan; **un comportement narcissique** o‘ziga bino qo‘yib yurish.

**narcissisme** *nm* o‘ziga bino qo‘yganlik; o‘ziga bino qo‘yish, o‘zini yaxshi ko‘rish.

**narcotique** *nm* giyohvand, narkotik modda; **le haschisch, la morphine, l’opium sont des narcotiques** nasha, qoradori, ko‘knori narkotik moddalardir.

**narghilé** *nm voir* **narguilé**.

**narguer** *vt* tegajog‘lik qilmoq, g‘ashiga tegmoq, o‘ynashmoq; **il nargue ses professeurs** u o‘qituvchilariga tegajog‘lik qiladi; **narguer le danger** xavf bilan o‘ynashmoq.

**narguilé** *ou* **narghilé** *nm* chilim.

**narine** *nf* burun katagi, burun teshigi; **pincer, dilater ses narines** burun kataklarini qismoq, kermoq.

**narquois, oise** *adj* masxaraomiz, istehzoli; **un sourire narquois** istehzoli jilmayish.

**narquoisement** *adv* masxaraomiz, istehzo bilan.

**narrateur, trice** *n* hikoyachi, aytib beruvchi, oqin.

**narratif, ive** *adj* hikoyaga, qissaga oid, hikoya, qissa, hikoya uslubidagi; **élément narratif d’un poème** dostonning hikoya ko‘rinishlari.

**narration** *nf* **1.** hikoya, qissa; **présent de narration** hikoyaning hozirligi; **2.** insho, yozma ish.

**narrer** *vt litt* hikoya qilib bermoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**narthex** *nm inv* cherkov vestibuli.

**narval, als** *nm* yakkashox, narval (*tumshug'ida shoxsimon tishi bo'lgan kitsimon dengiz hayvoni*).

**nasal, ale, aux I.** *adj* **1.** burunga oid; **fosses nasales** burun bo'shlig'i; **2.** burun (*tovushlar haqida*); **voyelles nasales** unli burun tovushlari; **II.** *nf* burun tovushi.

**nase** *ou* **naze** *adj fam* **1.** charchagan, holsiz, tinka-madori qurigan so'ppaygan; **2.** buzilgan, tamom bo'lgan, dabdala bo'lgan, eskirgan, shalog'i chiqqan, ishdan chiqqan.

**naseau** *nm* burun teshigi, kovagi (*ba'zi yirik sut emizivchilarda, xususan, otda*).

**nasillard, arde** *adj* dimog'ida gapiradigan, ping'illagan, manqa; **voix nasillarde** ping'illagan tovush.

**nasiller** *vi* **1.** manqalanib gapirmoq, dimog'ida gapirmoq, ping'illamoq; **2.** ping'illamoq; **micro qui nasille** ping'illagan mikrofon.

**nasse** *nf* chetan, qirtil, chov, dudang (*baliqlar ichiga kirib qaytib chiqa olmaydigan qilib yasalgan maxsus baliqchilar savati*).

**natal, ale, als** *adj* o'z, jonajon, qadrdon, aziz, o'zi tug'ilib o'sgan; **le pays natal** ona vatan; **maison natale** o'zi tug'ilib o'sgan uy; **langue natale** ona tili.

**natalité** *nf* tug'ilish miqdori, tug'ilish; **pays à forte, à faible natalité** tug'ilish miqdori ko'p, oz davlatlar.

**natation** *nf* suzish sporti; **pratiquer la natation** suzish bilan shug'ullanmoq; **épreuves de natation** suzish sinovlari.

**natif, ive I.** *adj* **natif de** asli, tug'ilgan joyi; **elle est native de Marseille** u asli Marsellik; **II.** *n* mahalliy odam, shu yerlik odam.

**nation** *nf* **1.** millat; **2.** davlat, mamlakat; **Organisation des Nations Unies (O.N.U.)** Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).

**national, ale, aux** *adj* **1.** millatga, millatlarga oid; milliy; **fête nationale** milliy bayram; **2.** davlatga, mamlakatga oid; davlatga qarashli; milliy; **défense nationale** davlat mudofaasi; **Assemblée Nationale** Milliy Assambleya; **route nationale** *ou nf* **une nationale** davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yo'l; **3.** milliy, xalq; **poète national** xalq shoiri.

**nationalisation** *nf* natsionalizatsiya, natsionalizatsiya qilish, davlat ixtiyoriga o'tkazish.

**nationaliser** *vt* natsionalizatsiya qilmoq; **entreprises nationalisées** davlat ixtiyoriga o'tkazilgan korxonalar.

**nationalisme** *nf* millatchilik.

**nationaliste** *adj, n* millatchi; **une politique nationaliste** millatchilik siyosati.

**nationalité** *nf* **1.** millat; **2.** biror millatga mansublik; **nationalité d'origine** asl millati; **nationalité acquise** qabul qilgan millati; **il est de nationalité allemande** u nemis millatiga mansub.

**national-socialisme** *nm* natsional-sotsializm, natsizm.

**national-socialiste I.** *adj* natsional-sotsializmga, natsizmga oid; **la doctrine national-socialiste** natsional-sotsializm ta'limoti; **II.** *n* natsional-sotsialist.

**nativité** *nf* rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilgan kuniga bag'ishlangan nasroniylar bayrami*).

**natte** *nf* **1.** bo'yra; **natte de paille** poxol bo'yra; **2.** kokil, soch o'rimi; **elle s'est fait une natte** u bitta kokil o'rdirib oldi.

**natter** *vt* o'rmoq; **natter ses cheveux** sochlarini o'rmoq.

**naturalisation¹** *nf* naturalizatsiya (*boshqa davlat fuqaroligini qabul qilish*); **demande de naturalisation** boshqa davlat fuqaroligiga o'tishni so'rash.

**naturalisation²** *nf* tulum tayyorlash.

**naturaliser¹** *vt* naturalizatsiya (*boshqa davlat fuqaroligiga o'tkazmoq, qabul qilmoq*).

**naturaliser²** *vt* tulum qilmoq; **antilope naturalisée** antilopa tulumi.

**naturalisme** *nm* naturalizm (*san'at oqimi*).

**naturaliste¹** *adj* naturalizmga oid; **écrivain, école naturaliste** naturalist yozuvchi, naturalistlar maktabi.

**naturaliste²** *n* tabiatshunos, naturalist.

**nature I.** *nf* **1.** asosiy xususiyat, hislat, mohiyat, tabiat; **la nature d'une substance** biror moddaning asosiy xususiyati; *loc* **de nature à** qodir, qila oladigan, qilib yubora oladigan; **une découverte de nature à bouleverser la science** fanni ostin-ustin qilib yubora oladigan kashfiyot; **2.** biror kishining tabiati, xarakteri; **elle est d'une nature douce** u yumshoq tabiatli; **il est travailleur par nature** u tabiatan mehnatkash; *loc* **l'habitude est une seconde nature** tarki odat – amri mahol; **3.** tabiatli, xarakterli odam; **une nature violente** darg'azab tabiatli olam; **c'est une heureuse nature** u ko'ngli to'q tabiatli odam; **c'est une nature** bu tabiati kuchli odam; **4.** mohiyat, tub, asosiy ma'no, mazmun, mag'iz; **les liens de la nature** qon-qardoshlik; **vices contre nature** shahvoniy buzuqlik; **5.** tabiat; **les forces de la nature** tabiat kuchlari; **les sciences de la nature** tabiiy fanlar; **6.** *loc fam* **il a disparu dans la nature** uning qayerga daf bo'lganini birov bilmaydi; **7. d'après nature** o'ziga qarab, natura bo'yicha; **dessiner, peindre d'après nature** o'ziga qarab chizmoq, rasm solmoq; *loc adj inv* **grandeur nature** tabiiy kattalik; **des reproductions grandeur nature** tabiiy kattalikdagi ko'chirma, reproduksiya; **8.** *loc* **en nature** naturada (*pul evaziga to'lanadigan mol, mahsulot*); **II.** *adj inv* **1.** tabiiy, tabiiy holda tayyorlangan, shunday holda; **vous voulez votre entrecôte nature ou avec une sauce au vin?** siz antrekotni shundayligicha xohlaysizmi, yoki vinoli sous bilanmi? **des yaourts nature** tabiiy qatiqlar; **2.** *fam* dangal, ochiq, rostgo'y, to'g'ri (*odam, harakat*); **ils sont nature** ular dangal odamlar.

**naturel, elle I.** *adj* **1.** tabiiy, tug'ma, odatdagi, o'z; **caractères naturels** tabiiy xususiyatlar; **2.** tabiatga oid, tabiiy; **phénomènes naturels** tabiiy hodisalar; **sciences naturelles** tabiiy fanlar; **3.** tabiiy, ishlov berilmagan; **eau minérale naturelle** tabiiy mineral suv; **4.** tabiiy, oddiy, sodda, o'rinli; **votre étonnement est naturel** sizning hayron bo'lishingiz tabiiy; **II.** *nm* **1.** tabiat, fe'l, xulq-atvor; xarakter; **il est d'un naturel méfiant** u tabiatan birovga ishonmaydigan odam; **2.** tabiiylik, soddalik, oddiylik; **il a beaucoup de naturel** u tabiiylikka boy odam; **3.** *loc* **au naturel** tabiiy, asl, o'z holida; **thon au naturel** asl holidagi tunets balig'i; **elle est mieux au naturel qu'en photo** uning o'zi rasmdagiga qaraganda chiroyliroq.

**naturellement** *adv* **1.** tabiiy, tabiatan, tabiiy holda, asl holda; **elle est naturellement blonde** u tabiatan malla sochli; **2.** tabiiy, muqarrar ravishda, muqarrar, turgan gap, ilojsiz, iloji yo'q, albatta; **3.** tabiiy, erkin, erkinlik bilan, o'zini erkin tutib; **il joue très naturellement** u juda erkinlik bilan chalayapti; **4.** *fam* aniq, shubhasiz, albatta; **naturellement, il a oublié son livre** shubhasiz, u kitobini unutgan.

**nature morte** *nf* naturmort; **un peintre de natures mortes** naturmort chizuvchi rassom.

**naturisme** *nm* naturizm (*yalang'och yurib, tabiatda yashab, tabiiy narsalar bilan oziqlanishni targ'ibot qiluvchi g'oya*).

**naturiste** *n, adj* naturist (*naturizm g'oyasiga amal qiluvchi olam*).

**naufrage** *nm* **1.** kema halokati, cho'kishi (*kema*); **il y a eu vingt noyés dans le naufrage** kema halokatida yigirma kishi cho'kib ketdi; **faire naufrage** cho'kib ketmoq; **2.** butunlay sinish, barbod bo'lish, xonavayron bo'lish, kasod; **le naufrage de sa fortune** boyligining barbod bo'lishi.

**naufragé, ée I.** *adj* cho'kkan, g'arq bo'lgan, dengiz halokatiga uchragan; **marin naufragé** halokatga uchragan dengizchi; **II.** *n* cho'kkan, g'arq bo'lgan, dengiz halokatiga uchragan odam, kema; **naufragés, réfugiés sur un radeau** halokatga uchrab, solga chiqib olgan dengizchilar.

**naufrageur** *nm* cho'ktiruvchi, g'arq qiluvchi odam; dengiz qaroqchisi.

**nauséabond, onde** *adj* ko'ngilni aynitadigan, sassiq, qo'lansa, badbo'y; **odeur nauséabonde** qo'lansa hid; **une rue nauséabonde** badbo'y ko'cha.

**nausée** *nf* **1.** ko'ngil aynish, behuzur bo'lish, qayt qilgisi kelish; **avoir la nausée, des nausées** ko'ngil aynimoq; **2.** nafratlanish, jirkanish; **j'en ai la nausée** men bundan nafratlanaman.

**nauséeux, euse** *adj* ko'ngilni aynituvchi, behuzur qiluvchi.

**nautique** *adj* navigatsiya, dengizda suzishga oid; **carte nautique** navigatsiya, suzish xaritasi; **sport nautique** suzish sporti; **ski nautique** suv chang'isi.

**navaja** *nf* navaxa (*ispancha uzun pichoq*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**naval, ale, als** *adj* **1.** kema, dengizda suzishga oid; **construction navales** kemasozlik; **2.** harbiy dengiz flotiga oid; **forces navales** harbiy dengiz kuchlari; **combat naval** dengiz jangi.

**navarin** *nm* qo'y go'shtidan qilingan ragu.

**navet** *nm* **1.** sholg'om; **canard aux navets** sholg'omli o'rdak go'shti; **2.** *fam* bemaza, bo'lmag'ur (*rasm, film kabilar*); **ce film est un navet** bu bo'lmag'ur film.

**navette** *nf* **1.** moki; **faire la navette** bo'zchining mokisiday borib-kelmoq, qatnamoq; **2.** grafikdagi aloqa transport xizmati; **j'ai pris la navette pour venir** men aloqa transportida keldim; **3. navette spatiale** orbital aloqa kemasi.

**navigable** *adj* kema yura oladigan, qatnay oladigan, kema qatnaydigan; **cours d'eau navigable** kema qatnay oladigan daryo.

**navigant, ante** *adj* uchuvchilarga oid, uchuvchi; **le personnel navigant** uchuvchilar sostavi.

**navigateur, trice** *n* **1.** *litt* dengizda suzuvchi, dengizchi; **2.** shturman, darg'a.

**navigation** *nf* **1.** kemalar yurishi, qatnovi; **compagnies de navigation** kemalar qatnovi shirkatlari; **3.** samolyotlar qatnovi; **les couloirs de navigation** samolyotlarning uchish koridori.

**naviguer** *vi* **1.** suzmoq; **2.** dengizchilik qilmoq, suzmoq; **ce mousse n'a pas encore navigué** bu yunga hali dengizga chiqqani yo'q; **4.** *fam* sayru-sayohat qilmoq; **il passe son temps à naviguer** u vaqtini sayru-sayohatda o'tkazadi.

**navire** *nm* kema; **navire de guerre** harbiy kema; **navire de commerce** savdo kemasi.

**navrant, ante** *adj* o'ta achinarli, qayg'uli, hasratli; **c'est une histoire navrante** bu o'ta achinarli voqea; **2.** xafa qiladigan, ranjitadigan; **il n'écoute personne, c'est navrant** u hech kimga quloq solmaydi, bu kishini ranjitadi.

**navrer** *vt* **1.** *litt* o'ta xafa qilmoq, o'ta achintirmoq, qayg'uga solmoq; **ses confidences m'ont navré** uning e'tiroflari meni qayg'uga soldi; **2. être navré de** xafa bo'lmoq, achinmoq.

**naze** *adj fam voir* **nase**.

**nazi, ie I.** *adj* natsist, natsistlarga oid; **les victimes de la barbarie nazie** natsist vahshiyligi qurbonlari; **II.** *n* natsist.

**nazisme** *nm* natsizm.

**N.B.** *abrév voir* **nota bene**.

**ne** *adv* **il n'ira pas** u bormaydi; **ne dites pas cela** buni aytmang; **j'ai menti pour ne pas lui faire de (la) peine** men unga ozor bermaslik uchun yolg'on gapirdim; **n'est-ce pas?** shunday emasmi? **elle n'a que vingt ans** u yigirmagagina kirdi; **rien n'est encore fait** hali hech narsa qilingani yo'q; **nul ne l'ignore** hech kim uni bilmaydi; **il n'est ni beau ni laid** u chiroyli ham xunuk ham emas; **nous ne savons s'il viendra** biz uning kelish-kelmasligini bilmaymiz; **c'est lui, si je ne me trompe pas** agar adashmasam, bu o'sha; **n'ayez crainte!** qo'rqmang! **on ne peut mieux** ortiqrog'ining iloji yo'q; *litt* **que n'est-il venu!** afsus, u kelmaptida! **je crains qu'il (ne) se fâche** men uning achchig'i kelmasmikan deb qo'rqaman; **pour empêcher qu'il (ne) se blesse** o'zini yaralab olmasin deb ehtiyot qilish uchun; **il est plus malin qu'on ne le croit** u o'ylashmaganidan ko'ra ham ayyorroq; **je suis moins riche qu'on ne le dit** men aytishganidan ko'ra kambag'alroqman; **décidez-vous avant qu'il ne soit trop tard** juda kech bo'lib qolmasdan bir qarorga keling.

**né, née** *adj* **1.** tug'ilgan, dunyoga kelgan, tavallud topgan; **né à Paris** Parijda tug'ilgan; **mme Dupont née Durand** qizlik familiyasi Duran bo'lgan Dupon xonim; *litt* **bien né** tagli-tugli oilada tavallud topgan; **2.** tug'ma; **des orateurs nés** tug'ma so'z ustalari.

**néanmoins** *adv, conj* shunga qaramay, shunday bo'lsa ham, har holda; **néanmoins, rien n'est encore décidé** shunga qaramay hech narsa hali hal bo'lgani yo'q.

**néant** *nm* **1.** *litt* hech nima, hech narsa, yo'q narsa; **2.** yo'qlik; yo'q; **retourner au néant** yo'qlikka yuz tutmoq; **réduire à néant** chippakka, yo'qqa chiqarmoq.

**nébuleuse** *nf astron* tumanlik; galaktika.

**nébuleux, euse** *adj* **1.** tumanli, bulutli, aynigan; bulutli osmon; **2.** noaniq, xira; **idées nébuleuses** noaniq fikrlar.

**nébulosité** *nf* **1.** tumanlilik, bulutlilik; **nébulosité du ciel** osmonning bulutliligi, havoning ayniganligi; **2.** noaniqlik, xiralik; **la nébulosité d'une théorie** g'oyaning noaniqligi.

**nécessaire**[1] **I.** *adj* **1.** kerakli, kerak, lozim, darkor, zarur; **condition nécessaire et suffisante** yetarli va kerakli shart-sharoit; **2. nécessaire à** biror ish qilish uchun yoki biror kimsaga kerakli, zarur, lozim; **3.** zaruriy, asosiy, birinchi darajali; **ils manquent de tout ce qui est nécessaire** hamma asosiy narsalar yetishmaydi; **il devient nécessaire d'en parler** bu haqda gapirish kerak bo'lib qolmoqda; **il est nécessaire que nous y allions** bizning u yerga borishimiz shart; **4.** muqarrar, albatta yuz beradigan; shak-shubhaziz bo'ladigan; shak-shubhasiz bo'ladigan ta'sir, mahsulot, natija; **II.** *nm* **1.** kerakli, lozim, zarur narsa, oddiy, bo'lishi zarur bo'lgan, birinchi zaruratdagi narsa; **le strict nécessaire** eng zarur narsa; **2.** hamma kerakli, zaruriy, yetarli narsa; **nous ferons le nécessaire** biz hamma zaruriy narsalarni qilamiz; **3.** nesesser, anjom, buyum; **nécessaire de toilette** pardoz-andoz anjomlari.

**nécessairement** *adv* zarur, qat'iy, albatta.

**nécessité** *nf* **1.** zarurat, zaruriyat, ehtiyoj; **la nécessité de gagner sa vie** tirikchilik qilib kun o'tkazish zarurati; **2.** eng muhim zaruriyat; **dépenses de première nécessité** eng muhim birinchi o'rindagi zaruriy xarajatlar; **3.** muqarrarlik, ilojsizlik, haqlik.

**nécessiter** *vt* talab qilmoq; **cette lecture nécessite beaucoup d'attention** bu o'qish katta e'tiborni talab qiladi.

**nec plus ultra** *nm inv* eng yaxshisi, eng ajoyibi, eng zo'ri; **c'est le nec plus ultra** bu eng zo'ri.

**nécrologie** *nf* nekrolog, ta'ziyanoma.

**nécrologique** *adj* nekrolog, ta'ziyanomaga oid; **rubrique nécrologique** ta'ziyanoma bo'limi (*gazeta, jurnal va shu kabilarda*).

**nécromancie** *nf* nekromantiya.

**nécropole** *nf* nekropol; *litt* qabriston.

**nécrose** *nf* gangrena, qorason.

**nectar** *nm* **1.** *myth* obi hayot, hayot suvi; *litt* hayotbaxsh, lazzatli, totli ichimlik; **2.** nektar, gulshira, gul shirasi; **abeilles qui butinent le nectar** gulshira yig'ayotgan asalarilar.

**nectarine** *nf* luchchak shaftoli.

**néerlandais, aise I.** *adj* Niderlandiya va niderlandiyaliklarga oid; **II.** *n* niderlandiyalik.

**nef**[1] *nf vx* qadimgi yelkanli kema; **la nef de Paris** Parij kemasi (*Parijning gerbidagi belgi*).

**nef**[2] *nf* nef, mehrob (*ibodatxonaning ichki qismi*); **nef centrale, principale** markaziy, asosiy mehrob.

**néfaste** *adj* **1.** *litt* baxtsiz, mash'um; **jour, année néfaste** mash'um kun, yil; **2.** halokatli, nobud qiluvchi, shum, falokat keltiradigan, tahlikali, oqibati yomon, og'ir; **influence néfaste** shum ta'sir; **ce climat lui est néfaste** bu ob-havo uning uchun tahlikali.

**nèfle** *nf* mushmula (*meva turi*).

**néflier** *nm* mushmula daraxti.

**négatif, ive I.** *adj* **1.** inkor etadigan, salbiy, rad etadigan; **réponse négative** *ou nf* **la négative** salbiy javob; *loc* **dans la négative** rad qilingan taqdirda; **2.** inkor, inkor etadigan, bo'lishsiz; **phrase négative** bo'lishsiz gap; **particule négative** inkorni bildiruvchi bo'laklar; **3.** salbiy, qarshi, yoqlamovchi, yoqtirmovchi; **une attitude négative** salbiy munosabat; **il s'est montré très négatif** u juda ham qarshi chiqdi; **4.** salbiy, noma'qul, yomon, yaramas; **qualités négatives** salbiy xususiyatlar; **5.** salbiy, qarshi; **réaction négative de l'organisme** organizmning salbiy reaksiyasi; **6.** manfiy; **nombre algébrique négatif** manfiy algebrik son; **températures négatives** noldan past minus temperaturalar; **7.** manfiy, negativ, qarama-qarshi; **pôle négatif** manfiy qutb; **image, épreuve négative** negativ rasm, namuna; **II.** *nm* negativ.

**négation** *nf* **1.** inkor qilish, rad etish; **2.** inkor, inkor etish; **3.** bo'lishsizlik, inkor; **adverbes de négation (ne, non)** inkor ravshlari.

**négativement** *adv* salbiy ravishda, qarshi, ters.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**négligé** *nm* **1.** pala-partishlik, isqirtlik, isliqilik, palpislik; **2.** yengil uy kiyimi; **elle était en négligé** u yengil uy kiyimida edi; **un négligé de soie** ipakdan tikilgan yengil uy kiyimi.

**négligeable** *adj* arzimagan, arzimas, ahamiyatsiz, hech narsaga arzimaydigan, bo'lmag'ur; **considérer un danger comme négligeable** xavf-xatarga arzimasday qaramoq; **considérer, traiter qqn comme quantité négligeable** biron kishiga e'tiborga noloyiq narsaday qaramoq, muomala qilmoq.

**négligemment** *adv* **1.** e'tiborsilik bilan; **il travaillait négligemment** u e'tiborsizlik bilan ishlar edi; **2.** beparvolik bilan; **répondre négligemment** beparvolik bilan javob bermoq; **3.** shunchaki, nomiga; **écharpe négligemment nouée de côté** shunchaki qiyshaytirib bog'lagan bog'ich.

**négligence** *nf* **1.** e'tiborsizlik, beparvolik; **il a exécuté ce travail avec négligence** u bu ishni e'tiborsizlik bilan bajardi; **négligence coupable, criminelle** aybdorlikka, jinoyatga eltuvchi e'tiborsizlik, beparvolik; **2. (une, des négligences)** e'tiborsizlik, pala-partishlik; **négligences de style** uslubning pala-partishligi.

**négligent, ente** *adj* **1.** e'tiborsiz, beparvo; **cette employée est négligente** bu xizmatchi beparvo; **2.** iltifotsizlik bilan, nazarga ilmay qilingan, to'ng, qo'pol; **un geste négligent** qo'pol ishora.

**négliger I.** *vt* **1.** e'tiborsizlik, beparvolik bilan qaramoq; **négliger ses intérêts** o'z manfaatlariga, yumushlariga, sog'ligiga beparvolik bilan qaramoq; **négliger de** beparvolik, e'tiborsizlik qilmoq; **2.** iltifotsizlik qilmoq, nazarga ilmaslik; to'nglik, qo'pollik qilmoq; **3.** e'tiborsizlik, beparvolik bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik; **négliger un avis salutaire** foydali fikrga ahamiyat bermaslik; **II. se négliger** *vpr* pala-partish kiyinmoq, isqirt, isliqi, palpis bo'lmoq; **elle se néglige** u pala-partish kiyinadi.

**négoce** *nm vx* savdo, savdo-sotiq.

**négociable** *adj* sotib olsa bo'ladigan, savdolashsa bo'ladigan.

**négociant, ante** *n* savdogar, do'kondor.

**négociateur, trice** *n* muzokara olib boruvchi, muzokarachi, vositachi, o'rtada turuvchi; **les négociateurs du traité de paix** tinchlik muzokarasini olib boruvchilar.

**négociation** *nf* muzokara; **ouverture de négociations internationales** xalqaro muzokaralarning ochilishi.

**négocier I.** *vi* **1.** muzokara olib bormoq; **II.** *vt* **1.** o'zaro bitishmoq, kelishmoq; **négocier une affaire, un traité** biror ishni bitishmoq, biror bitimga kelmoq; **2.** vositachilik qilmoq; **3. négocier un virage** burulishdan katta tezlikda o'tib olmoq.

**nègre, négresse I.** *n* **1.** *vieilli ou péj* qora tanli, negr, negr xotin; **2.** *nm* **petit nègre** buzib gapirilgan fransuz tili; **c'est du petit nègre!** bu buzilgan fransuz tili! **II.** *adj* negrlarga oid, negr; **la poésie nègre** negr she'riyati.

**négrier** *nm* negr sotuvchi quldor, qul sotuvchi savdogar; o'z qo'l ostidagilarga quldorlarcha muomala qiluvchi kishi.

**négrillon, onne** *n vieilli ou péj* qulvachcha, negr bola.

**négritude** *nf* negr irqiga taalluqli.

**negro-spiritual, als** *ou* **spiritual, als** *nm* Amerika negrlarining diniy ashulasi.

**négus** *nm inv* negus (*Efiopiya qirolining unvoni*).

**neige** *nf* qor; **bonhomme de neige** qorbobo; **neige carbonique** qattiq uglekislota, quruq muz; **œufs à la neige** shakar qo'shib ko'pirtirilgan tuxum oqi; **barbe, cheveux de neige** oppoq soqol, soch.

**neiger** *v impers* yog'moq (*qor haqida*); **il a neigé très tôt cette année** bu yil qor juda erta yog'di.

**neigeux, euse** *adj* qorli, qor bosgan; **cimes neigeuses** qorli cho'qqilar.

**néné** *nm fam* emchak, siyna.

**nénette**[1] *nf fam vieilli* bosh, kalla; **se casser la nénette** boshini qotirmoq.

**nénette**[2] *nf fam* qiz bola, yosh juvon; jonon.

**nénuphar** *nm* nilufar.

**néo-calédonien, ienne** *adj, n* yangi kaledoniyalik.

**néo-classique** *adj* neoklassik (*klassik asarlarga o'xshatib ishlangan*).

**néo-colonialisme** *nm* neokolonializm.

**néo-gothique** *adj archit* neogotik.

**néo-libéral, ale, aux** *adj* neoliberializm.

**néolithique I.** *adj* neolitik, yangi tosh asriga oid; **âge néolithique** neolit, yangi tosh asri; **II.** *nm* neolit, yangi tosh asri.

**néologisme** *nm* neologizm, yangi so'z va iboralar.

**néon** *nm* neon; **tube au néon, un néon** neon lampa.

**néophyte** *n* yangi qabul qilingan, yangi kirgan, yangi a'zo; **le zèle d'un néophyte** yangi kirgan odamning zo'r berib ishlashi.

**néoplasme** *nm* neoplazma, rak, saraton kasali.

**néo-réalisme** *nm* neorealizm (*italyan kinosidagi oqim*).

**néoréaliste** *adj, n* neorealistik, neorealist.

**néphrétique** *adj* nefritik, buyrakka oid, buyrak; **colique néphrétique** buyrak sanchig'i.

**néphrite**[1] *nf* nefrit, buyrak yallig'lanishi; **néphrite aiguë** o'tkir ichak yallig'lanishi.

**néphrite**[2] *nf minér* nefrit.

**népotisme** *nm* oshna-og'aynigarchilik, tanish-bilishchilik.

**néréide** *nf* dengiz suv parisi.

**nerf** *nm* **1.** asab tolasi; **le nerf sciatique** quymuch nervi; **2.** asablar, nervlar; **avoir les nerfs fragiles, irritables** asablari bo'sh, jirraki bo'lmoq; **c'est un paquet de nerfs** uning turgan bitgani jahl; **porter, taper sur les nerfs** jig'iga, g'ashiga tegmoq; **tu me tapes sur les nerfs** sen mening jig'imga tegayapsan; **avoir les nerfs à vif, en boule** tajang bo'lmoq; **être, vivre sur les nerfs** hushi tutsa, hushiga kelsa; **passer ses nerfs sur qqn** birovga zahrini sochmoq; **être à bout de nerfs** asablari tugamoq; **crise de nerfs** jazava; **il a fait une crise de nerfs** uning jazavasi tutib qoldi; **maladie de nerfs** tutqanoq, quyonchiq kasalligi; **3.** pay, chandir; **elle s'est froissé un nerf** u payini uqaladi; **nerf de bœuf** tayoq, kaltak; **4.** g'ayrat, shijoat, kuch, quvvat; **avoir du nerf** g'ayratli bo'lmoq; **manquer de nerf** shijoatsiz bo'lmoq.

**nerveusement** *adv* asabiylik, tajanglik bilan; **marcher nerveusement de long en large** asabiylik bilan u yoqdan bu yoqqa yurmoq.

**nerveux, euse I.** *adj* **1.** asab, nervga oid; **cellule nerveuse** nerv hujayrasi; **2.** asabiy, asabi buzuq, tajang; **des rires nerveux** asabiy kulgi; **maladies nerveuses** asabiy tutqanoq, quyonchiq kasalligi; **dépression nerveuse** asabiy tushkunlik; **un tempérament nerveux** asabiy mijoz; **3.** tomirlari bo'rtib chiqqan, chandir; **mains nerveuses** tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llar; **viande nerveuse** chandir go'sht; **4.** kuchli, baquvvat; **un cheval, un coureur nerveux** baquvvat ot, baquvvat poyga oti; **voiture nerveuse** baquvvat mashina; **style nerveux** kuchli uslub; **II.** *n* asabiy, tajang odam; **c'est un grand nerveux** bu juda tajang odam.

**nervi** *nm* kallakesar, yollanma qotil.

**nervosité** *nf* asabiylik, tajanglik; **être dans un état de grande nervosité** juda ham asabiy holatda bo'lmoq.

**nervure** *nf* **1.** tomir (*o'simlik barglarida hasharotlarning qanotida va hokazolarda*); **les fines nervures des ailes de la libellule** ninachining qanotidagi nozik tomirlar; **2.** qirra, yon; **les nervures d'une voûte gothique** gotik shaklida qurilgan imorat gumbazining qirralari.

**n'est-ce pas** *adv* shunday emasmi; **vous êtes de mon avis, n'est-ce pas?** siz ham mening fikrimga qo'shilasiz, shunday emasmi?

**net, nette I.** *adj* **1.** toza, pokiza; **avoir les mains nettes** ta'na qiladigan joyi yo'q; **2.** bo'shatilgan, tozalangan, bo'sh; **faire place nette** joyni bo'shatmoq; **je veux en avoir le cœur net** men bunda ko'nglim o'rniga tushishini xohlayman; **3.** sof, toza, hech narsa aralashmagan; **bénéfice net** sof foyda; **poids net** sof og'irlik; **4.** xoli, ozod qilingan; **5.** aniq, ravshan, yorqin; **avoir des idées nettes** aniq fikrlarga ega bo'lmoq; **6.** yorqin, ko'zga tashlanib turadigan; **dessin net** yorqin rasm; **II.** *adv* **1.** birdan, to'satdan, kutilmaganda, nogahon; **s'arrêter net** birdaniga to'xtab qolmoq; **2.** ochiqchasiga, tikkasiga, to'g'ridan-to'g'ri; **je lui ai dit tout net ce que j'en pensais** men u haqida nima deb o'ylashimni tikkasiga aytdim.

**nettement** *adv* **1.** ochiq, oydin, ravshan, aniq qilib; **expliquer nettement qqch** biror narsani ochiq-oydin tushuntirmoq; **c'est nettement mieux maintenant** endi bu ochiq-ravshanroq; **2.** aniq, ravshan; **les feuillages se découpent nettement sur le ciel** yaproqlar osmonda aniq ajralib turishibdi.

**netteté** *nf* **1.** tozalik, pokizalik; **il était toujours d'une grande netteté** u hamisha juda pokiza edi; **2.** aniqlik, ravshanlik; **netteté des idées** fikrlarning



www.ziyouz.com kutubxonasi

aniqligi; **3.** aniqlik, ravshanlik (*ko'zga tashlanuvchi narsaning*); **la netteté de l'image** suratning aniqligi.

**nettoiement** *nm* tozalash; **service de nettoiement** axlatlarni tozalash xizmati.

**nettoyage** *nm* **1.** tozalash; **nettoyage d'une façade** peshtoqni qirib tozalash; **nettoyage à sec, à la vapeur** kimyoviy, bug' bilan tozalash; **2.** dushmandan tozalash; **nettoyage d'une position** pozitsiyani dushmandan tozalash.

**nettoyer** *vt* **1.** tozalamoq, yuvib-taramoq, yig'ishtirmoq; **nettoyer des vêtements** ust-boshlarni tozalamoq; **nettoyer la maison** uyni yig'ishtirmoq; **2.** tozalamoq (*dushmandan, yot unsurlardan*); **l'armée a nettoyé la région** armiya bu rayonni dushmandan tozaladi; **3.** *fam* o'g'ri urmoq, o'marib ketmoq, ship-shiydam qilmoq; **les voleurs ont nettoyé la maison** o'g'rilar uyni ship-shiydam ketishdi.

**nettoyeur, euse** *n* tozalovchi, artuvchi; **nettoyeur de vitres** oynalarni tozalovchi, yuvib-artuvchi.

**neuf[1]** **I.** *adj numér inv* **1.** to'qqiz; **2.** to'qqizinchi; **le chapitre neuf** to'qqizinchi bob; **II.** *nm inv* to'qqiz raqami; **neuf arabe** arab raqamida to'qqiz (9), **neuf romain** rim raqamida to'qqiz (IX); **4.** to'qqiz sonli qarta; **le neuf de carreau** g'ishtin to'qqiz.

**neuf[2], neuve I.** *adj* **1.** yangi, endigina qilingan, tutilmagan, ishlatilmagan, yappa-yangi, ohori to'kilmagan; **à l'état neuf, tout neuf, flambant neuf** yangi holatda, yappa-yangi, ohori to'kilmagan; **2.** yangi; **un amour tout neuf** sof sevgi; **des idées, des images neuves** yangi g'oyalar, tasavvurlar; **3. qqch de neuf** yangi narsa, yangilik; **rien de neuf dans cette affaire** bu ishda hech qanday yangilik yo'q; **alors, quoi de neuf aujourd'hui?** shunday qilib, bugun qanday yangiliklar bor? **II.** *nm* yangilik, yangi narsa; yangi kiyim; **à neuf** yangidan, boshqatdan; **il a remis son appartement à neuf** u uyini yangiladi.

**neurasthénie** *nf* nevrasteniya (*tez charchash; ozib ketish; jizzakilik va bosh og'rig'i bilan xarakterlanadigan asabiy kasallik*).

**neurasthénique I.** *adj* nevrasteniyaga, nearastenikka oid, xos, nevrastenik; **devenir, être neurasthénique** nevrastenik bo'lib qolmoq, bo'lmoq; **II.** *n* nevrastenik.

**neurologie** *nf* nevrologiya.

**neurologique** *adj* nevrologiyaga oid, nearologik, nevrologiya.

**neurologue** *n* nevrolog.

**neurone** *nm* neyron, nerv hujayrasi.

**neutralisation** *nf* **1.** neytralizatsiya, neytral holga keltirish; **2.** neytral, betaraf, xolis qilib qo'yish (*davlatni*).

**neutraliser** *vt* **1.** neytral, betaraf, xolis qilib qo'ymoq (*biror davlat, territoriya, shaharni*); **2.** ta'siri o'tmaydigan qilib qo'ymoq, ta'sirini kesmoq, neytrallamoq, zararsizlantirmoq; **neutraliser les effets de l'opposition** muxoliflarning ta'sirini kesmoq; **neutraliser l'adversaire** raqibni zararsizlantirmoq.

**neutralisme** *nm* neytrallik, betaraflik, xolislik.

**neutraliste** *adj, n* neytral, betaraf, xolis; **attitude neutraliste** betaraflik munosabati; **les pays neutralistes** betaraf davlatlar.

**neutralité** *nf* neytrallik, betaraflik, xolislik (*odam*; *davlat*).

**neutre I.** *adj* **1.** neytral, betaraf, xolis; **état, pays neutre** betaraf hukumat, davlat; **2.** xolis, betaraf; **information neutre et objective** xolis va ob'ektiv ma'lumot; **rester neutre** xolis qolmoq; **3.** *gram* sredniy rod; **le genre neutre, le neutre en anglais, en allemand** ingliz, nemis tillarida sredniy rod; **4.** *chim* neytral; **sel neutre** neytral tuz; **5.** bo'g'iq, rangsiz; **couleur neutre** bo'g'iq rang; **6.** neytral, xoli; **style neutre, inexpressif** neytral, his-hayajondan xoli uslub; **II.** *n* **1.** betaraf, xolis; **2.** *nm gram* sredniy rod.

**neutron** *nm* neytron; **les neutrons et les protons** neytron va protonlar.

**neuvaine** *nf* to'qqiz kunlik tavba-tazarru.

**neuvième I.** *adj* **1.** to'qqizinchi; **neuvième symphonie de Beethoven** Betxovenning to'qqizinchi simfoniyasi; **2.** to'qqizdan bir hissa; **la neuvième partie de son volume** hajmining to'qqizdan biri; **II.** *n* **1.** to'qqizinchi; **elle est la neuvième** u to'qqizinchi; **2.** *nf* to'qqizinchi sinf; **il entre en neuvième** u to'qqizinchi sinfga o'tdi.

**neuvièmement** *adv* to'qqizinchi bo'lib, to'qqizinchi o'rinda.

**névé** *nm* firn, mungi, qattiq qor uyumi (*muzliklarning yuqori qismida bo'ladigan donador qor*).

**neveu** *nm* jiyan; **ses neveux et nièces** o'g'il va qiz jiyanlari; **neveu à la mode de Bretagne** amakivachchaning o'g'li.

**névralgie** *nf* nevralgiya (*asab sistemasining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*); **névralgie faciale** yuz nevralgiyasi; **2.** migren (*vaqt-vaqti bilan tutadigan qattiq bosh og'rig'i*).

**névralgique** *adj* **2.** nevralgiyaga oid, nevralgik; **douleur, point névralgique** nevralgik og'riq, nuqta; **2.** *loc* **le point névralgique d'une situation** vaziyatning bo'sh, ishkal joyi.

**névrite** *nm* nevrit (*nervlarning ba'zi kasalliklar oqibatida yoki shikastlanish, zaharlanish, shamollash natijasida yallig'lanishi*).

**névropathe** *adj, n* nevropat.

**névrose** *nm* nevroz (*markaziy nerv sistemasining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik*).

**névrosé, ée** *adj, n* nevroz, nevroz kasaliga uchragan odam.

**névrotique** *adj* nevrozga oid; nevrotik, nevroz; **trouble névrotique** nevrotik buzilish.

**nez** *nm inv* **1.** burun; **nez droit, grec** to'g'ri, qirra burun; **nez aquilin, en bec d'aigle** qiyg'ir burun; **nez pointu, retroussé, en trompette** uchli, puchuq, qanqaygan burun; **parler du nez** manqalanib gapirmoq; **avoir le nez bouché** burni tiqilib qolmoq; **2.** *loc* **mener qqn par le bout du nez** birovning burnidan ip o'tkazib olmoq; **à vue de nez** bir qarashda; *fam* **les doigts dans le nez** ko'zini yumib, osonlikcha; **cela lui prend au nez** bu hol unda bo'lib turadi; *fam* **se bouffer le nez** janjallashmoq, mushtlashmoq; **avoir un verre dans le nez** kayfi taraq bo'lmoq; **cela ce voit comme le nez au milieu de la figure** otning qashqasiday; **montrer le bout de son nez** lip etib ko'rinib qo'ymoq; **mettre le nez, son nez à la fenêtre** derazadan qaramoq; *loc* **nous n'avons pas mis le nez dehors depuis deux jours** ikki kundan beri tashqariga chiqqanimiz yo'q, ostona hatlab ko'chaga chiqqanimiz yo'q; **piquer du nez** mudramoq, pinakka ketmoq; **il fourre son nez partout** u hamma yerga burnini tiqib yuradi; **il n'a pas levé le nez de son travail** u ishidan boshini ko'tarmadi; **avoir le nez sur qqch** burnining ostida bo'lmoq; **se casser le nez à la porte de qqn** birovning berk eshigiga duch kelmoq; **fermer la porte au nez de qqn** birovning yuziga eshikni qarsillatib yopmoq; **au nez de qqn** birovning ko'zi oldida; **passer sous le nez** burnining ostidan qochib ketmoq; *fam* **avoir qqn dans le nez** birovni ko'rgani ko'zi yo'q bo'lmoq; *fam* **faire un pied de nez** ikki qo'lini burniga tiqqancha qoldirmoq; **3.** ziyraklik, sezgirlik; **ils se sont bien débrouillés, ils ont eu du nez** ular juda oson qutulishdi, ular ziyraklik qilishdi; **4.** tumshuq (*hayvon*); **5.** burun, tumshuq; **l'avion pique du nez** samolyot tumshug'i bilan sho'ng'idi.

**ni** *conj* na; **elle n'a rien de doux ni d'agréable** bu ayolda na mayinlik, na yoqimtoylik bor; **je n'ai ni cigarette ni feu** mening na sigaretim bor na o'tim; **il ne dit ni oui ni non** u na ha demadi na yo'q; **ni elle ni moi n'irons** na u, na men bormaymiz; **je ne crois pas qu'elle parte en vacances, ni même qu'elle en ait** men uning ta'tilga chiqishiga ishonmayman, hattoki uni olishiga ham; **l'intelligence n'est preuve de talent, ni le talent n'est preuve de génie** na aql talantning dalili, na talant donolikning; **rien de si mal écrit ni de si ennuyeux que ce livre** hech narsa bu kitobchalik yomon va zerikarli yozilmagan; **il est parti sans que son père ni sa mère le sachent** uning ketganini na otasi na onasi bilsin.

**niable** *adj* inkor qilinadigan, inkor qilsa bo'ladigan; **cela n'est pas niable** buni inkor qilib bo'lmaydi.

**niais, niaise** *adj* go'l, tentakroq, ahmoqroq; **elle est un peu niaise** u bir oz go'lroq; **sourire niais** ahmoqona iljayish.

**niaisement** *adv* go'llik, tentaklik, ahmoqlik bilan.

**niaiserie** *nf* **1.** go'llik, ahmoqlik, tentaklik; **2.** ahmoqona ish, xatti-harakat, ahmoqlik, bema'nilik, bema'nigarchilik; **il ne s'occupe que de niaiseries** u faqat bema'nigarchiliklar bilan shug'ullanadi.

**niche[1]** *nf* **1.** taxmon, tokcha; **2.** itning uychasi, katalagi; **chien de garde à la niche** katalakdagi qo'riqchi it.

**niche[2]** *nf vieilli* hazil; **faire des niches à qqn** birov bilan hazillashmoq, birovga hazil qilmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**nichée** *nf* **1.** uyadagi, inidagi qushchalar; **une nichée de poussins** bir uya qushchalar; **2.** bir to'da bolalar.

**nicher I.** *vi* **1.** tuxum bosib yotmoq (*qush*); **2.** *fam* yashamoq, in qurmoq; **où niche-t-il?** uning ini qayerda? **un village niché dans la forêt** o'rmonda makon topgan qishloq; **II. se nicher** *vpr* uya, in qurmoq; **où est-il allé se nicher?** u qaysi inga kirib ketdi?

**nichon** *nm fam* emchak, siyna, mamma.

**nickel I.** *nm* nikel; **II.** *adj inv fam* yaraqlagan, top-toza, pokiza; **c'est drôlement nickel chez eux** ularning uyi yaraqlagan, pokiza, yog' tushsa yalagudek.

**nickeler** *vt* nikellamoq; **poignée nickelée** nikellangan sop, dasta.

**nicotine** *nf* nikotin; **doigts jaunis par la nicotine** nikotindan sarg'aygan barmoqlar.

**nid** *nm* **1.** uya, in (*qushlar*); **nid d'hirondelle** qaldirg'och uyasi; *loc* **nid d'aigle** baland joyga qurilgan imorat; **nid de poules** yo'ldagi o'ydim-chuqur; **2.** uya, in (*hayvon*); **nid de fourmis, de guêpes** chumoli, ari uyasi; **3. nids d'abeilles** mumkatak, asalari uyasi; **4.** dilkashlik qilinadigan go'sha; **un nid douillet** dilkashlik qiladigan yumshoq go'sha; **5. nid de** uyasi, makoni; **un nid de brigands** qaroqchilar uyasi; **6. nid à** uyasi, makoni; **c'est un nid à moustiques** bu chivinlarning uyasi.

**nièce** *nf* qiz jiyan.

**nielle**[1] *nm* qora emal.

**nielle**[2] *nf* qorakuya, g'alla o'simliklari boshiga tushadigan kasallik.

**nieller** *vt* qora emal bilan bezamoq.

**nième** *ou* **énième** *adj* **1.** necha, necha bor; **je vous le répète pour la nième, la énième fois** men sizga buni necha bor qaytaryapman; **2.** *math* n-inchi; **puissance énième ($n^{ième}$)** n-inchi daraja.

**nier** *vt* inkor qilmoq, rad qilmoq, tonmoq; **nier l'évidence** aniq-ravshan narsani inkor qilmoq; **nier un fait, un événement** haqiqatni, bo'lib o'tgan narsani inkor qilmoq; **l'accusé persiste à nier** sudlanuvchi qattiq turib inkor qilyapti; **action de nier** inkor qilish; **mots servants à nier** inkorni bildiruvchi so'zlar.

**nigaud, aude** *adj* ahmoq, tentak, go'l; **allons, gros nigaud, ne pleure pas** bo'ldi, tentakvoy yig'lama.

**nihilisme** *nm* nigilizm (*har qanday norma, prinsip va qonunlarni inkor etish*).

**nihiliste** *adj, n* nigilist, nigilizm tarafdori.

**nimbe** *nm* oreol, nur chambar, zarhal doira (*farishtalar, payg'ambarlar, avliyolarni tasvirlashda boshi atrofida chiziladigan yog'du*).

**nimbé, ée** *adj litt* nur chambarga o'ralgan, zarhal doirali; **apparition nimbée de lumière** yorug'likning nur chambar shaklida paydo bo'lishi.

**nimbus** *nm inv* qora bulut (*yomg'irli yoki qorli*).

**nippe** *nm* eski kiyimlar, janda; *fam vieilli pl* kiyim-kechak.

**nipper I.** *vt fam* kiyintirmoq; **II. se nipper** *vpr* kiyinmoq; **elle s'était nippée comme une princesse** u malikalarday kiyinib olgan edi.

**nippon, one** *ou* **onne** *vieilli ou péj* **I.** *adj* Yaponiyaga, yaponlarga oid; **II.** *n* yapon, yaponiyalik.

**nique** *nm* birovni nazarga ilmaslik, birovning ustidan kulish, birovga barmoqni bigiz qilish.

**nirvana** *nm* nirvana (*budda dini ta'limotiga ko'ra: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'atda sezish*).

**nitouche** *nf* **sainte nitouche** nozikoyim, tegmanozik.

**nitrate** *nm* nitrat, azot kislotasining tuzi; **nitrate d'argent** lapis, kumush nitrat.

**nitrique** *adj* **acide nitrique** azot kislotasi.

**nitrobenzène** *nm* nitrobenzol.

**nitroglycérine** *nm* nitroglitserin.

**niveau** *nm* **1.** nivelir; **niveau de maçon** shoqul; **niveau à bulle** shayton; **vérifier avec un niveau** shaytondan chiqarmoq, nivelirdan o'tkazmoq; **2.** sath, balandlik; **niveau de la mer** dengiz sathi; **être au même niveau que** darajasida, teng bo'lmoq; **mettre de niveau** shaytondan chiqarmoq, tekislamoq; **passage à niveau** temir yo'ldan o'tish joyi; **au niveau de** baravar, teng, baravar darajada; **l'eau lui arrivait au niveau de la taille** suv uning beli baravar kelar edi; **3.** qavat, etaj; **centre commercial sur deux niveaux** ikki qavatga joylashgan savdo markazi; **4.** *fig* daraja, saviya; **mettre au même niveau** bir xil darajaga qo'ymoq; **le niveau des études** o'qish saviyasi; **5.** daraja; **rencontre internationale à un niveau élevé** yuqori darajadagi xalqaro uchrashuv; **niveau de vie** hayot darajasi; **haut niveau de vie des pays riches** boy davlatlarning yuqori hayot darajasi.

**nivelage** *nm* nivelirlash, shayton solish, tekislash.

**niveler** *vt* **1.** nivelirlamoq, tekislamoq; **l'érosion tend à niveler les reliefs** eroziya relyefning tekslanishiga olib keladi; **les terrassiers nivellent le terrain** yer qazuvchilar maydonni tekislashyapti; **2.** barobarlashtirmoq, tenglashtirmoq, oradagi farqni yo'qotmoq, tekislab yubormoq; **niveler les fortunes** boylikni tenglashtirmoq.

**niveleur, euse** *adj* nivelirga va nivelirlashga oid, nivelir yordamida qilinadigan; nivelir.

**niveleuse** *nf* greyder.

**nivellement** *nm* **1.** nivelirlash, past-balandligini o'lchash; **2.** tekislash; **nivellement d'un terrain par des travaux de terrassement** yer ishlarini bajarib biror maydonni tekislash; **3.** barobarlashtirish, tenglashtirish, oradagi farqni yo'qotish; **le nivellement des classes sociales** ijtimoiy sinflar orasidagi farqning yo'qolib borishi.

**nô** *nm* no (*yapon lirik dramasi*).

**nobiliaire** *adj* dvoryanlarga oid; dvoryanlarga, oqsuyaklarga xos, mansub bo'lgan, dvoryan(lar); **titres nobiliaires** dvoryanlik unvonlari.

**noble I.** *adj* **1.** *litt* g'oyat go'zal, olijanob, olihimmat, himmatli, sharif; **son geste est très noble** uning ishi juda olijanob; **2. le noble art** boks; **3.** ulug'vor, ulug'sifat, salobatli; **une beauté noble et imposante** ulug'vor va salobatli go'zallik; **4.** asl; **matières noble** asl narsalar; **métaux nobles** asl ma'danlar (*oltin, kumush, platina*); **5.** aslzoda, tag-tugli, nasl-nasabli, zotli, zodagon, oqsuyak; **être de naissance, de sang noble** aslzodalar avlodidan, qonidan bo'lmoq; **II.** *n* aristokrat, oqsuyak, aslzoda, zodagon.

**noblement** *adv* olijanoblik, olihimmatlik, mardlik bilan, ulug'vorona; **il lui avait pardonné noblement** u uni olijanoblik bilan kechirgan edi.

**noblesse** *nf* **1.** olijanoblik, olihimmatlik, poklik, mardlik; **noblesse d'âme** ko'ngilning pokligi; **2.** ulug'vorlik, ulug'sifatlilik, salobatlilik; **la noblesse de son visage, de ses traits** yuzining, ko'rinishining ulug'vorligi; **3.** aslzodalik, zodagonlik; **titre de noblesse** aslzodalik unvoni; **noblesse oblige** *loc prov* martaba taqozo qiladi; **4.** dvoryanlar tabaqasi, dvoryanlar, oqsuyaklar, zodagonlar; **noblesse d'empire** imperator dvoryanlari; **petite noblesse** mayda dvoryanlar; **haute noblesse** ulug' dvoryanlar.

**nobliau** *nm péj* zodagoncha, oqsuyak.

**noce** *nf* **1.** uylanish, erga tegish, nikoh; **épouser qqn en secondes noces** ikkinchi marta uylanmoq; **justes noces** qonuniy nikoh; **nuit de noces** nikoh kechasi; **2.** to'y, nikoh to'yi; **aller, être invité à la noce de qqn** birovning to'yiga bormoq, taklif qilingan bo'lmoq; **repas de noce** to'y noz-ne'matlari; **noces d'or, d'argent** oltin, kumush, to'y; *loc* **je ne suis pas à la noce** o'zimning to'yim chiqib turibdi, ahvolim chatoq; **3.** *fam* tarala, taralabedod, aysh-ishrat, gasht; **faire la noce** aysh-ishrat qilmoq.

**noceur, euse** *n, adj fam* aysh-ishratga berilgan, taralabedod odam; **il est un peu trop noceur** u ancha aysh-ishratga berilgan odam.

**nocif, ive** *adj* zarar, ziyon qiladigan, zararli, ziyonli, xavfli, yomon; **gaz nocif** zararli, zaharli gaz; **influences nocives** zararli ta'sirlar.

**nocivité** *nf* zararlilik, ziyonlilik, zarar, ziyon, xavf.

**noctambule** *n, adj* lunatik, oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).

**nocturne I.** *adj* **1.** tungi, tundagi; tun; **tapage nocturne** tungi to'polon; **2.** tungi, tunda kun kechiruvchi (*hayvon*); **papillons nocturnes** tun kapalagi; **II.** *nm* **1.** tun qushi; **2.** *nm* nokturn (*kichkina lirik musiqa asari*); **les nocturnes de Chopin** Shopenning nokturnlari; **II.** *nf* **1.** kechqurun o'tkaziladigan sport musobaqasi; **2.** kechqurunlari ochiq bo'lishi (*magazin, salon, ko'rgazma kabilarning*).

**nodosité** *nf* shish, g'udda, bo'qoq (*o'simliklarda*).

**noël** *nm* **1.** rojdestvo, milod, Iso payg'ambarning tug'ilish bayrami; **la fête de Noël** *ou f* **la Noël** rojdestvo, milod bayrami; **arbre de Noël** rojdestvo archasi; **joyeux Noël** rojdestvongiz qutlug' bo'lsin! **père Noël** qorbobo;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**croire au père Noël** oʻta sodda boʻlmoq, har narsaga ishonavermoq; **2.** *fam* **le noël, le petit noël** rojdestvo sovgʻasi.

**nœud[1]** *nm* **1.** tugun; **faire un nœud** tugun tugmoq, tugunlamoq; **nœud simple, double nœud** oddiy, qoʻshaloq tugun; **nœud coulant** sirgʻaluvchi tugun; **nœud de cravate** galstuk tuguni; *loc* **nœud gordien** chigal masala; *loc* **avoir un nœud dans la gorge** tomogʻiga bir narsa tiqilib qolmoq; **2.** bant, bantik; **mettre des nœuds dans les cheveux** sochiga bantik taqmoq; **nœud papillon, nœud pap** *abrév fam* kapalak nusxa tugun; **3.** oʻralashish, chirmashish, gʻujgʻon; **nœud de vipères** qora ilonlarning inidagi gʻujgʻoni; **4.** *litt* aloqa, rishta, ahd; **les nœuds solides de leur amitié** ularning mustahkam doʻstlik rishtalari; **5.** turmushda kutilmagan hodisa, voqea, mushkul ahvolning tuguni, chigallashgan nuqtasi, tugun (*baʼzi holatlarning oʻzaro aralashib, chigallashib ketgan nuqtasi, murakkab vaziyat, sharoit, holat va hokazo*); **voilà le nœud de l'affaire** mana ishning chigal joyi; **6.** uzel (*maʼlum ishga xizmat qiladigan inshootlar, mexanizmlar majmui*); **nœud ferroviaire, routier** temir yoʻl, yoʻl-aloqa uzeli; **7.** shish, gʻudda, gʻurra, boʻqoq (*daraxtlarda*); **nœuds d'un tronc, d'un bâton** daraxtning tanasidagi boʻqoq, tayoqning gʻuddasi.

**nœud[2]** *nm mar* uzel (*kemaning tezlik oʻlchovi*); **navire qui file vingt nœuds** yigirma uzelda yuradigan kema.

**noir, noire I.** *adj* **1.** qora, qop-qora, timqora; qoraroq, qoramtir; **du pain noir** qora non; **un café noir, bien noir** qop-qora, achchiq qahva; **2.** qora, qoraygan, is bosgan, iflos; **noir de** -dan qoraygan; **3.** qora, qorongʻi, zim-ziyo; **cabinet noir, chambre noire** qorongʻi kobinet, qorongʻi xona; **il fait noir comme dans un four** goʻrday qorongʻi; **nuit noire** qorongʻi kecha, zimiston; **4.** negr; **une femme noire** negr xotin; **race noire, peuples noirs** negr irqi, negr xalqi; **5.** *fam* mast, kayf; **il est complètement noir** u gʻirt kayf; **6.** qaygʻuli, gʻamgin, gʻam-gʻussali; ogʻir, qora; **il était d'une humeur noire** u gʻamgin kayfiyatda edi; **avoir, se faire des idées noires** qora fikrlarga bormoq, berilmoq; **regarder qqn d'un œil noir** birovga oʻqrayib qaramoq; **7.** qora, yovuz, buzuq niyatli, mudhish; **magie noire** sehrgarlik, jodu, amal; **humour noir** qiyin ahvolga tushib qolgan kishining hazil-huzullari; **8.** qora, gʻayriqonuniy, yashirin; **marché noir** chayqov bozori; *loc* **au noir** yashirincha, “chap”ga; **travail au noir** “chap” ish; **il travalle au noir** u “chap”ga ishlaydi; **II.** *nm* **1.** qora rang; **habillé, vêtu de noir** qora kiyingan; **elle était tout en noir** u butunlay qora ust-boshda edi; **film en noir et blanc** oq-qora tasvirli film; *loc* **c'est écrit noir sur blanc** aniq, ravshan, ochiq-oydin yozilgan; **2.** qorongʻulik, tun, qora tun, zulmat; **enfant qui a peur dans le noir** qorongʻulikdan, tundan qoʻrqadigan bola; **3.** qoraytiruvchi modda; **noir de fumée** qurum, qorakuya; **se mettre du noir aux yeux** koʻziga surma qoʻymoq; **4.** *fig* tushkunlik, umidsizlik ramzi; *fam* gʻam, qaygʻu; **voir tout en noir** hamma narsani qora rangda koʻrmoq, umidsizlikka tushmoq; **5.** *n* negr; **les noirs d'Afrique** Afrika negrlari; **une noire américaine** amerikalik negr ayol.

**noire** *nf mus* chorak (*nota belgisi*).

**noirâtre** *adj* qoramtir; **teinte noirâtre** qoramtir jilo.

**noiraud, aude** *adj, n* qorachadan kelgan, qoracha, qoramagʻiz, qoratoʻriq.

**noirceur** *nm* **1.** *litt* qoralik; **noirceur de l'encre** siyohning qoraligi; **2.** jirkanchlik, yaramaslik, razillik, qabihlik, murdorlik; **3.** *litt* jirkanch, yaramas ish, razolat, qabohat; **il méditait quelque noirceur** u qandaydir yaramas ishni oʻylab yurar edi.

**noircir I.** *vi* qoraymoq, qora rangga kirmoq; **sa peau noircit facilement au soleil** uning terisi quyoshda osongina qorayadi; **II.** *vt* **1.** qoraytirmoq, qoraga boʻyamoq; **la fumée a noirci les murs** tutun devorlarni qoraytirdi; *fam* **noircir du papier** qogʻozni qoraytirmoq (*yozmoq*); **2.** *litt* qoralamoq, qoraga boʻyamoq (*birovni*).

**noircissement** *nm* qoraytirish, qoraga boʻyash.

**noise** *nf* janjal, nizo, nifoq, tortishuv; *loc* **chercher noise** yoki **des noises à qqn** birov bilan janjal chiqarishga harakat qilmoq; **tu me cherches des noises** sen men bilan janjal chiqarmoqchimisan.

**noisetier** *nf* yongʻoq, yongʻoq daraxti; **baguette, tige souple de noisetier** yongʻoqning egiluvchan tayoqchasi, tanasi.

**noisette I.** *nf* oʻrmon yongʻogʻi; **casser des noisettes** yongʻoq chaqmoq; **II.** *adj inv* och jigar rang; **elle a de beaux yeux noisette** uning chiroyli qoʻy koʻzlari bor.

**noix I.** *nf inv* **1.** yongʻoq; **noix muscade** muskat yongʻogʻi; **noix de coco** kokos yongʻogʻi; **2.** yongʻoq shaklidagi narsa; **une noix de beurre** yongʻoqday, yongʻoq kattaligiday sariyogʻ; **noix de veau** molning son goʻshti; **la noix d'une côtelette** kotletning oʻrtasi; **3.** *fam vieilli* ahmoq, tentak, esi past, befarosat, soʻtak; **quelle noix!** qanday befarosat! **une vieille noix** qari soʻtak; *loc* **à la noix (de coco)** sifatsiz, nobop, bemaza, jinni-ketdi; **c'est une histoire à la noix** bemaza hikoya; **II.** *adj fam* **elle n'est pas plus noix qu'une autre** befarosatlikda u boshqasidan ortiq emas.

**noliser** *vt* yuk tashish uchun kema, samolyot yollamoq, kira qilmoq; **avion nolisé** yollangan, kira qilingan samolyot.

**nom** *nm* **1.** ot, ism, nom, familiya; **avoir, porter tel nom** ismi, oti shunday boʻlmoq; **nom de famille** familiya; **nom de baptême** yoki **petit nom** bolani choʻqintirishda berilgan ism, ot; **nom de jeune fille** qizlik familiyasi; **prendre un nom d'emprunt** oʻziga boshqa nom, taxallus, laqab qoʻyib olmoq; **agir au nom de qqn, en son nom** biron kishi nomidan, oʻz nomidan ish koʻrmoq; **2.** ot, nom (*hayvon, narsa*); atalish, soʻz; **nom de rues** koʻchalarning nomi; **nom déposé** mahsulotning nomi; *loc* **appeler les choses par leur nom** narsalarni oʻz nomi bilan atamoq; **une laideur sans nom** taʼrifiga soʻz yoʻq xunuklik; **au nom de** nomi bilan; **au nom de la loi** qonun nomi bilan; **au nom de notre amitié** doʻstligimiz haqqi; **3.** shuhrat, dong; **se faire un nom** ot, nom chiqarmoq, dong taratmoq, shuhrat qozonmoq, mashhur boʻlmoq, tanilmoq; **laisser un nom** ot, nom qoldirmoq; **4.** *intj* **nom de dieu!** voy xudoyimey! *fam* **nom de nom! nom d'une pipe! nom d'un chien!** jin ursin! **5.** *gram* ot; **noms propres, communs** atoqli, turdosh otlar.

**nomade I.** *adj* koʻchmanchi, koʻchib yuruvchi; koʻchmanchi xalq; **vie nomade** koʻchmanchi, daydi hayot; **II.** *n* koʻchmanchi.

**nomadisme** *nm* koʻchmanchilik.

**no man's land** *nm* betaraf yer (*ikki qarama-qarshi armiya mudofaa chizigʻi orasidagi betaraf yer*); neytral yer.

**nombre** *nm* **1.** son; **nombres entiers** butun sonlar; **élever un nombre au carré** biror sonni kvadratga koʻtarmoq; **nombre cardinal, ordinal** sanoq, tartib son; **2.** son, miqdor, sanoq; **le nombre des habitants d'un pays** biror davlat aholisining soni; **un certain nombre de** -ning koʻpchiligi; **un petit, grand nombre** oz, koʻp; *loc* **être au nombre de dix** oʻnta boʻlmoq; **au nombre de, du nombre de** qatorida, orasida, ichida, jumlasida; **serez-vous au, du nombre des invités?** taklif qilinganlar orasida boʻlasizmi? *ellipt* **serez-vous du nombre?** jumlasida boʻlasizmi? **sans nombre** son-sanoqsiz, sanoqsiz, sanogʻi yoʻq; **3.** koʻp son, miqdor; **faire nombre** koʻp sonli boʻlmoq; **en nombre** son mingta; **les candidats se sont présentés en nombre** son mingta nomzodlar hozir boʻlishdi; **nombre de** koʻp, minglab; **4.** *gram* son; **l'adjectif s'accorde en genre et en nombre** sifat rod va sonda moslashadi.

**nombreux, euse** *adj* **1.** koʻp sonli, koʻp adadli, koʻp kishili, soni, odami koʻp, katta; **foule nombreuse** koʻp kishili olomon; **famille nombreuse** katta oila; **2.** koʻp, koʻpgina, talay; ancha; **ils vinrent nombreux à notre appel** bizning chaqiriqqa ular koʻplab kelishdi; **dans de nombreux cas** koʻpchilik hollarda.

**nombril** *nm* **1.** kindik; **2.** *loc fam* **se prendre pour le nombril du monde** oʻzini dunyoning kindigi deb hisoblamoq.

**nombrilisme** *nm fam* oʻtaketgan manmanlak, oʻtaketgan xudbinlik; **il fait du nombrilisme** u xudbinlik qiladi.

**nomenclature** *nf* nomenklatura, termin, atama, nom; **la nomenclature chimique** kimyoviy terminlar.

**nominal, ale, aux I.** *adj* **1.** soʻzma-soʻz, nomma-nom, nomlar birma-bir koʻrsatilgan; **liste nominale** nomma-nom roʻyxat; **définition nominale** soʻzma-soʻz, nomma-nom taʼriflash; **2.** nomigagina, yuzaki; **autorité nominale** yuzaki obroʻ; **3. valeur nominale d'une action** aksiyaning nominal, belgilangan, oʻz bahosi; **salaire nominal et salaire réel** nominal, belgilangan oylik va real ish haqi; **4.** *gram* otlashgan; **emploi nominal d'un verbe à l'infinitif** feʼlning noaniq formasining otlashgan holda ishlatilishi; **phrase nominale** nominativ gap; **II.** *nm* olmosh.

**nominatif[1]** *nm* bosh kelishik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**nominatif[2], ive** *adj* nomma-nom, nomlar birma-bir ko'rsatilgan; **liste nominative** nomlar birma-bir ko'rsatilgan, nomma-nom ro'yxat.

**nomination** *nf* **1.** tayinlash (*ishga, amalga, vazifaga*); **nomination à un grade, à un poste supérieur** amalga, yuqori mansabga tayinlash; **2.** ish, vazifa, xizmat; **il vient d'obtenir sa nomination** u yaqinda xizmatga joylashdi.

**nommé, ée** *adj* **1.** deb ataladigan, nomli, oti; **un homme nommé Dubois** Dubua nomli odam; **2.** nomi aytilgan, nomi keltirilgan, zikr etilgan; **3.** *loc* **à point nommé** o'z vaqtida, ayni vaqtida, zarur paytida, mavridida; **il est arrivé à point nommé** u ayni vaqtida keldi; **4.** tayinlangan, ko'rsatilgan; **magistrats nommés et magistrats élus** tayinlangan va saylangan amaldorlar.

**nommément** *adv* nomini, ismini atab; nomma-nom; **accuser, désigner nommément** nomini atab qoralamoq, ismini atamoq.

**nommer I.** *vt* **1.** atamoq, nom bermoq; ot, ism qo'ymoq; **ses parents l'ont nommé Paul** unga ota-onalari Pol deb ot qo'ydilar; **nommer un corps chimique nouvellement découvert** yangi topilgan ximik moddaga nom bermoq; **2.** nomini atamoq, nomini keltirmoq, nomini zikr qilmoq; **3.** biror mansabga o'tkazmoq, ko'rsatmoq, tayinlamoq; **on l'a nommé directeur** uni direktor etib tayinlashdi; **nommer qqn son héritier** biror kishini o'zining merosxo'ri qilib belgilamoq; **II. se nommer** *vpr* deb atalmoq, oti, ismi, nomi … bo'lmoq.

**non I.** *adv* **1.** yo'q, bo'lmaydi; **non? rien à faire, n'insistez pas** bo'lmaydi, iloji yo'q, majbur qilmang; **mais non!** yo'g'-e! **non merci** yo'q rahmat! **non, par exemple!** yo'q, masalan! **non, mais!** yo'q, axir! **c'est pour moi et non pour vous** bu menga, sizga emas; **que vous le vouliez ou non** xohlaysizmi yo'qmi, baribir; **on excuse les caprices des enfants, ceux des adultes, non** bolalarning injiqliklarini kechirishadi, kattalarnikini esa, yo'q; **non plus** ham (*inkor ma'nosida*); **je ne sais pas, et lui non plus** men bilmayman, u ham; **non sans hésitation** ikkilanib; **un personnage non négligeable** e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan shaxs; **2.** *fam* shunday emasmi? **c'est effrayant, non, de penser à cela?** bu haqda o'ylash qo'rqinchli, shunday emasmi? **II.** *nm inv* yo'q; **un non catégorique** qat'iy rad javobi; **pour un oui ou pour un non** arzimas narsa uchun.

**nonagénaire I.** *adj* yoshi to'qsondan oshgan; **vieillard nonagénaire** yoshi to'qsondan oshgan qariya; **II.** *n* yoshi to'qsondan oshgan odam.

**non-agression** *nf* hujum qilmaslik; **pacte de non-agression** hujum, tajovuz qilmaslik haqida bitim.

**non-aligné, ée I.** *adj* **les pays non alignés** qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi, harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan davlatlar; **II.** *n* betaraf, biror siyosiy bloklarga qo'shilmagan tomon.

**non-alignement** *nm* qo'shilmaslik, betaraflik.

**nonante** *adj numér inv, n inv vx* to'qson.

**nonantième** *adj numér* to'qsoninchi.

**non-assistance** *nf* yordam ko'rsatmaslik; **non-assistance à une personne en danger** xavf-xatardagi odamga yordam ko'rsatmaslik.

**nonce** *nm* nunsiy (*Rim Papasining diplomatik vakili*); **nonce apostolique** Papa nunsiysi.

**nonchalamment** *adv* beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik bilan; pala-partish.

**nonchalance** *nf* **1.** beparvolik, sovuqqonlik, e'tiborsizlik, pala-partishlik; **faire un travail avec nonchalance** biror ishni e'tiborsizlik bilan qilmoq; **2.** erkin, bemalol harakat (*suhbat, yurish-turish va hokazo*); **nonchalance d'un geste, d'une pose** erkin harakat, poza.

**nonchalant, ante** *adj* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish; **écolier nonchalant** beparvo o'quvchi; **pas, geste nonchalant** beparvo qadam, harakat.

**nonciature** *nf* Papa nunsiysi lavozimi.

**non-conformisme** *nm* o'rnatilgan tartib-qoidaga amal qilmaslik, nonkonformizm.

**non-conformiste** *n, adj* o'rnatilgan tartib-qoidaga amal qilmovchi, o'ziga xos odam, nonkonformist; **une attitude non conformiste** o'ziga xos munosabat.

**non-fumeur** *nm* chekmovchi; **compartiment non-fumeurs** chekmovchilar bo'limi.

**non-intervention** *nf* aralashmaslik.

**non-lieu** *nm* jinoiy ishni to'xtatish, jinoiy harakatning yo'qligi; **arrêt, ordonnance de non-lieu** jinoiy ishni to'xtatish haqidagi qaror; **des non-lieus** ayibsizlik.

**nonne** *nf vx plais* ruhoniy ayol, rohiba.

**nonobstant I.** *prép* qaramay, qaramasdan, bo'lsa ham; **nonobsant cela, il le crut** shunga qaramay, u unga ishondi; **II.** *adv* shunday bo'lsa ham, har holda.

**non-sens** *nm inv* **1.** bema'nilik, tuturuqsizlik; **c'est un non-sens** bu bema'nilik; **2.** bema'nilik, ma'nosizlik; **faire un non-sens dans une version latine** lotin tilidan bema'ni tarjima qilmoq.

**non-violence** *nf* qarshilik, zo'ravonlik qilmaslik, bo'yin egish.

**non-violent, ente I.** *adj* tinch, osoyishta; **manifestation non violente** tinch namoyish; **II.** *n* qarshilik ko'rsatmovchilar, bo'yin eguvchilar.

**nord I.** *nm* shimol, shimol taraf; **vents du nord** shimol shamollari; **pièce exposée en plein nord** to'ppa to'g'ri shimolga qaragan xona; **au nord de** shimolida, shimoliy qismida; **peuples du nord** shimol xalqlari; **Afrique, Amérique du nord** Shimoliy Afrika, Amerika; **le Grand Nord** shimoliy qutb atrofidagi yerlar, shimoliy qutb taraf; **II.** *adj inv* shimoliy, shimol; **l'hémisphère du nord** shimoliy yarim shar; **le pôle nord** shimoliy qutb; **nord-africain** shimoliy afrikalik; **nord-coréen** shimoliy koreyalik.

**nord-est I.** *adj inv* shimoli-sharq, shimoli-sharqiy; **la région nord-est** shimoli-sharqiy viloyat; **I.** *nm* shimoli-sharqiy tomon, yer(lar), o'lkalar; **le nord-est de la France** Fransiyaning shimoli-sharqiy o'lkalari.

**nordique I.** *adj* shimoliy (*Shimoliy Yevropa tili, adabiyoti, xalqlari haqida*); **langues nordiques** shimol tillari; **race, type nordique** shimolliklar irqi, turi; **II.** *n* skandinaviyalik yoki finlandiyalik.

**nordiste** *nm, adj* shimollik (*Qo'shma Shtatlarning mustaqilligi uchun bo'lgan urushda*).

**nord-ouest I.** *adj inv* shimoli-g'arb, shimoli-g'arbiy; **la partie nord-ouest de l'île** orolning shimoli-g'arbiy qismi; **II.** *nm* shimoli-g'arbiy tomon, yer(lar), o'lkalar; **le nord-ouest du Canada** Kanadaning shimoli-g'arbiy o'lkalari.

**noria** *nf* chig'ir, charxpalak (*suv chiqarish, sug'orish va shu kabilar uchun*).

**normal, ale, aux I.** *adj* **1.** normal, tabiiy; **tout est normal** hammasi joyida; **en temps normal** tabiiy shart-sharoitda; **2.** aqli raso, es-hushi joyida; **un enfant normal** esli-hushli bola; **3.** tabiiy; **la fatigue est normale après un tel effort** shuncha mehnatdan so'ng charchash tabiiy; **ce n'est pas normal de dormir autant** buncha uxlash tabiiy hol emas; **4. école normale** o'qituvchilar tayyorlash instituti; **l'Ecole Normale Supérieure** *ou ellipt* **Normale** Pedagogika instituti; **II.** *nf* tabiiy hol, me'yor, marom; **intelligence au-dessus de la normale** me'yoridan ortiq aqllilik; **s'écarter de la normale** me'yoridan ortmoq.

**normalement** *adv* odatda, ko'pincha, ko'proq.

**normalien, ienne** *n* o'qituvchilar tayyorlash yoki pedagogika institutining studenti.

**normalisation** *nf* normalash, normallashtirish, normal holga keltirish, tartibga kelish.

**normaliser** *vt* **1.** normalashtirmoq, standartlashtirmoq; **2.** normallashtirmoq, mo'tadillashtirmoq; **normaliser les relations diplomatiques avec un pays étranger** biron chet davlat bilan diplomatik aloqalarni normallashtirmoq.

**normand, ande I.** *adj* Normandiyaga oid, normand; **II.** *n* normand, normandiyalik; *loc* **une réponse de Normand** mujmal javob.

**normatif, ive** *adj* normaga muvofiq, normativ; **grammaire normative** normativ grammatika.

**norme** *nf* **1.** norma, umumiy majburiy tartib, qoida; **norme juridique, sociale** huquqiy, ijtimoiy norma; **2.** norma, qat'iy belgilangan o'lcham, me'yor, marom; o'lcham, miqdor; **s'écarter de la norme** normadan chetlashmoq; **objet conforme aux normes** normalarga mos keladigan narsa.

**noroît** *nm mar* shimoli-g'arbdan esadigan shamol.

**norvégien, ienne I.** *adj* Norvegiyaga oid; **II.** *n* norvegiyalik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**nostalgie** *nf* sog'inch, qo'msash, erishilmagan orzu; **il avait la nostalgie de cette époque** u bu davrni qo'msar edi; **il était envahi d'une grande nostalgie** uni ulkan sog'inch qamrab olgan edi.

**nostalgique** *adj* ma'yus, g'amgin, qayg'uli; **chanson nostalgique** g'amgin ashula.

**nota bene** *nm inv* eslatma, belgi, qayd.

**notabilité** *nf* ko'zga ko'ringan, nufuzli, e'tiborli odam; yuqori martabali shaxs.

**notable I.** *adj* **1.** e'tiborga loyiq, muhim, katta, yirik, ulkan; **il a fait de notables progrès** u e'tiborga loyiq muvaffaqiyatlarga erishdi; **2.** e'tiborli, martabali, nufuzli; **c'était quelqu'un de très notable** bu juda e'tiborli bir shaxs edi; **II.** *nm* kazo-kazo, martabali, nufuzli, e'tiborli odam; **les notables d'une ville** shaharning martabali odamlari.

**notablement** *adv* sezilarli, aytarli darajada, anchagina, ancha.

**notaire** *nm* notarius.

**notamment** *adv* ayniqsa, shu jumladan, chunonchi, xususan; **les mammifères, et notamment l'homme** sut emizuvchilar va xususan odam.

**notarié, ée** *adj* notariusga oid; notarius tomonidan tasdiqlangan; notarial; **actes notariés** notarius tomonidan guvohlantirilgan rasmiy hujjat.

**notation** *nf* **1.** belgilash, notatsiya (*shartli yozma belgilar, notalar sistemasi; ularni belgilash*); **notation des nombres, notation numérique; notation par lettres** sonlarni belgilash, nomerlash; harflar bilan belgilash; **notation musicale** musiqa notatsiyasi; **2.** yozuv, qayd, xotira; **3.** baholash, baho qo'yish; **la notation des devoirs par le professeur** uy vazifalarini o'qituvchi tomonidan baholanishi.

**note[1]** *nm* **1.** nota; **2.** ohang; **fausse note** buzuq ohang; qalbaki, yasama, mos kelmaydigan narsa; **note cristalline** jarangdor ohang; **3.** klavish; **taper sur deux notes à la fois** baravariga ikkita klavishni bosmoq; **4.** *loc* **note juste** haqiqiy tafsilot; **forcer la note** bo'rttirmoq, orttirib yubormoq; **les rideaux blancs mettaient une note gaie dans la chambre** oq pardalar xonaga sururli tus berar edilar; **donner la note** ibrat ko'rsatib ergashtirmoq; **être dans la note** uslubida, mos tushgan, xonasida bo'lmoq; **cet objet, cette remarque étaient bien dans la note** bu narsa, bu izoh juda mos tushgan edi.

**note[2]** *nf* **1.** belgi, ishora; **note marginale** hoshiyadagi belgi; **commentaire en note** qisqacha belgilar bilan berilgan sharh; **2.** qisqa yozma xabar, axborot, ma'lumot; **faire passer une note** qisqa xabar bosib chiqarmoq; **note officielle** rasmiy xabar; **3.** qayd, yozma xotira, mulohaza; **cahier de notes** yon daftarcha; **prendre note d'une adresse** adresni yozib olmoq; **as-tu pris des notes pendant le cours?** leksiyani yozib bordingmi? **prête-moi tes notes** konspektingni berib tur; **4.** hisob-kitob, schyot; **note d'électricité** elektr hisob-kitobi; **note d'hôtel** mehmonxona hisob-kitobi; **demander, payer sa note** hisob-kitobni so'ramoq, hisob-kitob qilmoq; **5.** baho; **une mauvaise note** yomon baho; **carnet de notes d'un écolier** o'quvchining kundalik daftari.

**noter** *vt* **1.** yozib, belgilab olmoq; **noter les pages intéressants d'un livre** kitobning qiziqarli joyini belgilab olmoq; **note mon adresse** adresimni yozib ol; **notez que nous serons absents jusqu'à la fin du mois** e'tiborga olib qo'yingki, biz oyning oxirigacha bo'lmaymiz; **2.** qayd qilmoq, ta'kidlamoq, tasdiqlamoq; **ceci mérite d'être noté** bu qayd qilishga loyiq; **il faut bien noter ceci** buni alohida ta'kidlab qo'ymoq kerak; bundan juda ehtiyot bo'lish kerak; **3.** baholamoq, baho qo'ymoq, baho bermoq; **noter un élève, un employé** o'quvchini, xizmatchini baholamoq.

**notice** *nf* **1.** so'zboshi, muqaddima; **2.** qisqa bayon; **notice explicative** qisqacha tushuntirish bayoni.

**notification** *nf* xabardor qilish, bildirish.

**notifier** *vt* bildirmoq, xabardor qilmoq, aytib, bildirib, eshittirib, xabardor qilib qo'ymoq; **on lui notifia son renvoi** uni ishdan bo'shaganligi haqida xabardor qilishdi.

**notion** *nf* **1.** elementar, boshlang'ich bilish darajasi; **il avait des notions d'anglais** u ingliz tilidan ozroq xabardor edi; **2.** tasavvur, tushuncha; **notions du bien et du mal** yaxshilik va yomonlak haqidagi tasavvur; **il a perdu la notion du temps** u vaqt tushunchasini yo'qotib qo'ydi; **3.** tushuncha; **le mot et la notion** so'z va tushuncha.

**notoire** *adj* **1.** g'irt, aniq, shubhasiz, yaqqol ko'rinib, bilinib turgan; **une bêtise notoire** g'irt ahmoqlik; **il est notoire que** bu shubhasizki; **2.** ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q; **un criminel notoire** ashaddiy jinoyatchi.

**notoirement** *adv* shubhasiz, aniq, ravshan, yaqqol.

**notoriété** *nf* **1.** aniqlik, ravshanlik, yaqqollik; **notoriété d'un fait** asosning yaqqolligi; *loc* **il est de notoriété que** hammaga ma'lumki, hamma biladiki; **2.** mashhurlik, nom, shuhrat, dovrug', dong; **son livre lui a apporté la notoriété** uning kitobi unga shuhrat keltirdi; **la notoriété d'un lieu, d'une œuvre** joyning, asarning mashhurligi.

**notre** *pl* **nos** *adj poss pl* **1.** bizning, bizga qarashli; o'zimizning; **nous devrions donner chacun notre avis, nos avis** biz har birimiz o'z fikrimiz, fikrlarimizni aytishimiz kerak; **notre ville** bizning shahrimiz; **notre civilisation** bizning tamaddun; **3.** bizning (*hurmat, ehtirom ma'nosida*); **comment va notre malade?** bizning kasalning ahvollari qalay? **notre héros arriva à s'échapper** bizning qahramon qochib qolishga muyassar bo'libdi; **4.** bizning, o'zimizning (*mening, o'zimning ma'nosida*); **tel est notre bon plaisir** bizning ajoyib ermagimiz shunday.

**nôtre I.** *adj poss litt* bizniki, bizga qarashli, o'zimizniki, o'zimizdan; **nous avons fait nôtres ces opinions** biz o'zimizning bu fikirlarimizni qildik; **II.** *pron poss* **le nôtre, la nôtre, les nôtres** o'zimizniki, o'zimiznikilar; **ils ont leurs soucis, et nous (avons) les nôtres** ularning o'z tashvishlari bor va bizning o'zimizniki; **III.** *n* **1.** o'z, o'zimizniki; **nous y mettons chacun du nôtre** biz unga o'z hissamizni qo'shamiz; **2.** *pl* biznikilar (*ota-ona, qarindosh-urug', do'st-yor*); **soyez des nôtres** biz bilan yuringlar, biznikiga kelinglar.

**notre-dame** *nf inv* Bibi Maryam; **Notre-Dame de Paris** Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi.

**nouba** *nf fam* aysh-ishrat, ichkilikbozlik, mayxo'rlik; **on a fait la nouba toute la nuit** kechasi bilan aysh-ishrat qilishdi.

**nouer** *vt* **1.** bog'lamoq, tugmoq; **nouer ses lacets** bog'ichlarini bog'lamoq; **2.** tugmoq, o'rab bog'lamoq; **nouer un bouquet avec un ruban** guldastani lenta bilan o'rab bog'lamoq; **3.** *fig* bo'g'moq, tiqilib qolmoq; **un sanglot lui noua la gorge** bir nola uning tomog'iga kelib tiqildi; **avoir la gorge nouée** o'pkasi to'lib ketmoq; **4.** bog'lamoq, o'rnatmoq; **nouer une alliance** ittifoq tuzmoq.

**noueux, euse** *adj* **1.** bo'g'inlari turtib chiqqan, g'adir, g'adir-budir, serko'z; **bois, arbre noueux** g'adir-budir yog'och, daraxt; **racines noueuses** bo'g'inlari turtib chiqqan tomirlar; **2.** bo'rtib chiqqan; **mains noueuses** tomirlari bo'rtib chiqqan qo'llar; **3.** oriq va qotma.

**nougat** *nm* **1.** nuga (*yong'oq va shirinlik qo'shib tayyorlanadigan qandolat mahsuloti*); **2.** *loc fam* **c'est du nougat** bu xamirdan qil sug'urganday; **3.** *pop* **les nougats** oyoqlar.

**nouille** *nf* **1.** *pl* ugra, uvra; **2.** *fam* bo'shang odam, latta; **c'est une vraie nouille!** bu haqiqiy latta! **style nouille** yangicha san'at (*o'ziga xos bezash uslubi*).

**nounou** *nf enf* enaga, birovning bolasini boquvchi, emizib boquvchi ayol; **sa vieille nounou** uning qari enagasi.

**nounours** *nm inv enf* duxoba ayiq (*o'yinchoq*).

**nourrice[1]** *nf* **1.** emizikli ayol; **2.** birovning bolasini emizib boquvchi ayol; **mettre un enfant en nourrice** bolani emizib boquvchi ayolga topshirmoq; **3. épingle de nourrice** to'g'nog'ich.

**nourrice[2]** *nf* suyuqlik quyiladigan idish; **une nourrice d'eau, d'essence** suv, benzin quyiladigan idish, bidon, kanistr.

**nourricier, ière** *adj* **1.** boquvchi; **père nourricier** asrab olgan ota; **la terre nourricière** boquvchi yer; **2.** shira, suv; **suc nourricier** oziqlantiruvchi shira.

**nourrir I.** *vt* **1.** ovqat bermoq, boqmoq, yedirmoq; **2.** ta'minlamoq, yedirib-ichirmoq, oziq-ovqat bermoq, boqmoq; **la pension nourrit dix personnes** pansionat o'n kishini boqadi; **3.** emizmoq; **mère qui nourrit ses enfants** bolalarini emizadigan ayol; **4.** qaramoq, boqmoq, o'z qaramog'ida tarbiyalamoq; **il a trois personnes à nourrir** uning qaramog'ida uch kishi bor; **5.** ta'minlamoq, boqmoq, qornini to'yg'izmoq; **ce métier ne nourrit pas son homme** bu kasb odamning qornini to'yg'izmaydi; **6.** to'yg'izmoq; qornini to'yg'izmoq; **le pain nourrit** non to'yg'izadi; **7.** berib turmoq, ta'minlamoq, ta'minlab turmoq; **il faut nourrir le feu** olavga o'tin tashlab turish kerak; **tir**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**nourri** tez-tez, ustma-ust o'q otish; **8.** yetarlicha ta'minlamoq, ta'min etmoq; **un devoir très nourri** juda yaxshi bajarilgan vazifa; **9.** biror narsaning oshishi uchun asos bo'lmoq, ma'naviy oziq bo'lmoq; **la lecture nourrit l'esprit** o'qish aqlni o'stiradi; **10.** his qilmoq, sezmoq, dilda saqlamoq; **nourrir un désir** biror istakni dilda saqlamoq; **11. être nourri dans les bons principes** yaxshi axloq qoidalari asosida tarbiyalangan bo'lmoq; **II.** *vpr* **se nourrir 1.** ovqatlanmoq, yemoq; **se nourrir de légumes** sabzavot yemoq, sabzavot, go'sht bilan oziqlanmoq; **2.** *fig* o'zini qondirmoq, berilmoq; **se nourrir d'illusions, de rêves** xom xayollarga, orzularga berilmoq.

**nourrissant, ante** *adj* to'ydiradigan, to'yimli; **aliments très nourrissants** juda to'yimli oziq-ovqat; **c'est nourrissant mais indigeste** bu to'yimli, lekin singishi qiyin.

**nourrisson** *nm* emizikli bola, emchakdagi bola, emadigan bola.

**nourriture** *nf* **1.** ovqat, oziq, taom, oziq-ovqat, yemak; **absorber, prendre de la nourriture** ovqatdan tamaddi qilmoq, yemoq; **2.** *litt* oziq, oziqa, manba; **la nourriture de l'esprit** aql ozig'i.

**nous** *pron pers* **1.** biz; bizni, bizga; **vous et moi, nous sommes de vieux amis** siz va men eski qadrdonlarmiz; **c'est nous qui l'avons appelé** uni chaqirgan biz bo'lamiz; **il nous regarde** u bizga qarayapti; **chez nous, pour nous** biznikida, biz uchun; **c'est à nous** bu bizniki; **2. nous, nous n'irons pas** biz, biz bormaymiz; **nous-même(s)** biz o'zimiz ham, hatto o'zimiz; **c'est pour nous deux** bu ikkovimiz uchun; **à nous trois, nous y arriverons** uchovlon, biz u yerga yetib boramiz; **3.** *1-shaxs birlik o'rnida kamtarinlik yoki oliy hazratlar uchun:* **nous voulons** biz xohlaymiz; **2.** *fam* sen, siz (*2-shaxsni bildirish uchun*); **eh bien, petit, nous avons bien travaillé?** xo'sh, mittivoy, yaxshi ishladikmi?

**nouveau, nouvel** (*unli yoki o'qilmaydigan* **h** *bilan boshlanuvchi so'zlardan oldin*), **nouvelle I.** *adj* **1.** yangi, yaqindagina paydo bo'lgan; **pommes de terre nouvelles** yangi, shu yilgi kartoshka; **un mot nouveau** yangi so'z; *prov* **tout nouveau, tout beau** har narsaning yangisi yaxshi; **quoi de nouveau?** qanday yangiliklar bor? **2.** yangi, yaqinda paydo bo'lgan; **les nouveaux riches** yangi boylar; **les nouveaux mariés** yangi, yaqinda, endigina turmush qurganlar; **3.** yangi, unchalik ma'lum bo'lmagan, notanish; **un art tout à fait nouveau** butunlay yangi san'at; **nouveau pour qqn** biror kimsa uchun yangi, ko'rilmagan, urf bo'lmagan, odat tusiga kirmagan; **4.** yangi, navbatdagi, eskisining o'rniga keluvchi, almashtiruvchi; **le nouvel an** yangi yil; **la nouvelle lune** yangi, yangi chiqqan oy; **le nouveau monde** Yangi Dunyo (*Amerika*); **le nouveau testament** Injil; **une nouvelle édition** yangi nashr; **II.** *n* **1.** yangi, yangi kelgan; **il y avait deux nouveaux dans la classe** sinfda ikkita yangi kelgan bola bor edi; **2.** *nm* yangilik; **il y a du nouveau dans l'affaire** ishda yangilik bor; *loc adv* **de nouveau** yangidan, yangidan, boshqatdan; **faire de nouveau qqch** biror narsani boshqatdan qilmoq; *loc adv* **à nouveau** takroran, yangidan, qaytadan; **le voilà à nouveau sans travail** mana u yana ishsiz; **examiner à nouveau une question** masalani takroran ko'rib chiqmoq.

**nouveau-né, née I.** *adj* yangi, yaqinda, endigina tug'ilgan; **un enfant nouveau-né** yaqinda tug'ilgan bola; **une fille nouveau-née** yaqinda tug'ilgan qizcha; **II.** *nm* yaqinda tug'ilgan chaqaloq, biror hayvonning yangi, yaqinda tug'ilgan bolasi; *méd* tug'ilganiga hali 28 kun to'lmagan chaqaloq.

**nouveauté** *nf* **1.** yangilik, o'ziga xoslik; **objet qui plaît par sa nouveauté** o'zining yangiligi bilan yoqadigan narsa; **2.** yangilik, yangi narsa; **le charme, l'attrait de la nouveauté** yangilikning yoqimliligi, maftunkorligi; **3.** yangilik, yangi rasm (*odat, udum va hokazo*); **4.** yangilik, yangi chiqqan narsa; **on a présenté plusieurs nouveautés** ko'p yangi chiqqan narsalarni ko'rsatishdi; **5.** yangilik, yangi rasm bo'lgan narsa; **magasin de nouveautés** yangi chiqqan narsalar sotiladigan magazin.

**nouvelle**[1] *nf* **1.** yangilik, yangi xabar, ma'lumot; **annoncer une nouvelle** yangilik e'lon qilmoq; **répandre, divulguer une nouvelle** yangilik tarqatmoq, yoymoq; **bonne nouvelle** xushxabar; **2.** *pl* yangiliklar, axborot (*ommaviy axborot vositalari tarqatadigan*); **aller aux nouvelles** surishtirib bilgani bormoq; **3.** *pl* yangilik, xabar (*anchadan beri ko'rinmay qolgan odam haqida*); **avoir des nouvelles de qqn** biror kishi haqida xabar topmoq; **ne plus donner de ses nouvelles** o'z hayoti haqida hech qanday xabar bermaslik; *loc prov* **pas de nouvelles, bonnes nouvelles** xabar yo'q, xatar yo'q, biror kishidan xabar yo'q, demak uning ishlari yaxshi; **vous aurez de mes nouvelles!** men sizga ko'rsatib qo'yaman! **vous m'en direz des nouvelles** hali yalinib kelasiz.

**nouvelle**[2] *nf* novella, kichik hikoya.

**nouvellement** *adv* yaqinda, yaqindagina; **il est nouvellement arrivé** u yaqinda keldi.

**nouvelliste** *n* hikoyanavis adib, novellalar yozuvchi.

**novateur, trice I.** *n* novator, yangilik kirituvchi; **II.** *adj* novatorlik, yangilik kiritishga oid.

**novembre** *nf* noyabr.

**novice I.** *n* **1.** monaxlikka nomzod; **2.** biror sohada yangi, yosh, tajribasiz odam; **II.** *adj* tajribasiz, yosh, yangi; **il est encore bien novice dans le métier** u bu sohada hali tajribasiz.

**noviciat** *nf* sinov davri (*monaxlikka nomzod uchun*).

**noyade** *nf* cho'kish, g'arq bo'lish; **sauver qqn de la noyade** birovni cho'kishdan qutqarmoq.

**noyau**[1] *nm* **1.** danak; **fruits à noyau** danakli mevalar; **2.** markaz, yadro; *géol* Yer shari yadrosi; *biol* yadro; *phys* atom yadrosi; **cellule à un seul noyau, à plusieurs noyaux** bir yadrolik, ko'p yadrolik hujayra; **3.** asos, markaz, o'zak, yadro; **4.** markaz, o'choq, manba.

**noyautage** *nm* biror tashkilot, guruh ichida yashirincha buzg'unchilik, qo'poruvchilik faoliyati olib borish.

**noyauter** *vt* biror tashkilot, guruh ichiga kiritmoq, kirgizmoq, yashirincha o'tkazmoq, kirgizib yubormoq (*zarar, putur yetkazish, parchalab yuborish, buzish uchun*).

**noyé, ée I.** *adj* **1.** cho'kkan; **marins noyés en mer** dengizda cho'kib ketgan dengizchi; *fig* **être noyé** urinishlari bekor ketmoq, amallay olmaslik, chorasiz qolmoq; **des yeux noyés de pleurs** yig'idan ko'zlari yoshga to'lgan; **regard noyé** noaniq, allaqanday qarash; **II.** *n* cho'kkan odam; cho'kayotgan odam; **repêcher un noyé** cho'kib ketgan odamni suvdan olib chiqmoq.

**noyer**[1] **I.** *vt* **1.** cho'ktirmoq, g'arq qilmoq; **noyer des chatons** mushuk bolalarini cho'ktirib yubormoq; *loc* **noyer le poisson** ishni chigallashtirmoq; **2.** suv bostirmoq, suv toshirmoq; **noyer son chagrin dans l'alcool** g'am-tashvishining alamini aroqdan olmoq; **3.** ko'milib, botib, cho'kib, g'arq bo'lib ketmoq; **ses cris étaient noyés dans le tumulte** uning qichqiriqlari shovqinda ko'milib ketgan edi; **II. se noyer** *vpr* **1.** cho'kib ketmoq, g'arq bo'lmoq; **baigneur qui se noie** cho'kayotgan cho'miluvchi; *loc* **se noyer dans un verre d'eau** epsiz, irodasiz, bo'shang, lapashang bo'lmoq; **2.** o'zini yo'qotib qo'ymoq, dovdirab qolmoq, nima qilishini bilmay gangib qolmoq.

**noyer**[2] *nm* **1.** yong'oq daraxti; **2.** shu daraxtning yog'ochi; **meubles en noyer** yong'oqdan qilingan mebellar.

**nu, nue I.** *adj* **1.** yalang'och, yap-yalang'och, qip-yalang'och; **être nu comme un ver** onadan qanday tug'ilgan bo'lsa shunday bo'lmoq; **à demi-nu** yarim yalang'och; **torse nu** beligacha yalang'och; **2.** yalang'och, vositasiz; **épée nue** yalang'och qilich; *loc* **à l'œil nu** oddiy ko'z bilan; **ça se voit à l'œil nu** bu yaqqol ko'zga tashlanib turibdi; **se battre à mains nues** qurolsiz, quruq qo'l bilan jang qilmoq; **3.** yalang, qup-quruq, yalang'och, qoq; **un arbre nu** yalang'och daraxtlar; **4.** sof, quruq; **la vérité toute nue** sof, ochiq haqiqat; **5.** *loc adv* **à nu** ochiq, yalang'och; **mettre à nu** ochmoq, yalang'ochlamoq; **II.** *nm* yalang'och natura (*rassom, haykaltarosh va hokazo uchun model bo'lgan odam*); shu uslubdagi asar; **album de nus** yalang'och rasmlar albomi.

**nuage** *nm* **1.** bulut, abr; *loc* **être dans les nuages** xayoli osmonda suzib yurgan bo'lmoq, xayoli parishon bo'lmoq; **2.** qalin to'zonsimon narsa, bulut, g'ubor; **nuage de fumée, de poussière** tutun, chang-to'zon buluti; **nuage de lait** bir tomchi sut (*qahva yoki choyni oqartirish uchun quyiladigan ozgina sut*); **bonheur sans nuages** beg'ubor baxt.

**nuageux, euse** *adj* **ciel, temps nuageux** bulutli osmon, havo.

**nuance** *nf* **1.** tus, xususiyat, rangning och-to'qligi, bir rangning turlicha ko'rinishi; **toutes les nuances de bleu** havo rangning hamma ko'rinishlari; **2.** nozik farq, ma'no, alomat, belgi; **nuances imperceptibles** sezilar-sezilmas farq; **3.** ohang, tus, o'zgachalik; **indications et nuances en musique** musiqadagi sharh va ohanglar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**nuancé, ée** *adj* **1.** rang-barang; **2.** noaniq, mavhum; **ses opinions sont très nuancées** uning fikrlari juda noaniq.

**nuancer** *vt* nozik tomonlarini ko'rsatmoq, ifodalamoq; **nuancer sa pensée** o'z fikrini nozik tomonlarini ko'rsatmoq.

**nubile** *adj* balog'atga, voyaga yetgan; bo'y yetgan; **âge nubile** balog'at yoshi.

**nubilité** *nf* bolig'lik, balog'at, voyaga yetganlik.

**nucléaire I.** *adj* **1.** hujayra yadrosiga oid; **2.** atom yadrosiga oid, yadroviy; atomga, uni ishlatishga oid; **énergie nucléaire** yadro energiyasi; **physique nucléaire** yadro fizikasi; **centrale nucléaire** atom elektr stansiyasi; **puissances nucléaires** yadro quroliga ega davlatlar; **II.** *nm* atom energiyasi; **être pour, contre le nucléaire** atom energiyasiga tarafdor, atom energiyasiga qarshi bo'lmoq.

**nucléique** *adj* nukleinga oid.

**nudisme** *nm* nudizm; **faire du nudisme** nudizm bilan shug'ullanmoq.

**nudiste** *adj, n* nudist; **camp de nudistes** nudistlar lageri.

**nudité** *nf* **1.** yalang'ochlik; **2.** yalang'ochlik, bo'shlik, ship-shiydamlik; **nudité d'un mur** devorning ship-shiydamligi.

**nue** *nf* **1.** *vx* bulut; **2.** *loc* birovni, biror narsani maqtab, ko'klarga ko'tarmoq; **la pianiste qu'ils ont portée aux nues** ular ko'klarga ko'targan pianist; **tomber des nues** osmondan tushgan bo'lmoq, angrayib qolmoq; **en apprenant la nouvelle, il est tombé des nues** u bu yangilikni eshitib, osmondan tushganday angrayib qoldi.

**nuée** *nf* **1.** *litt* qora bulut; **nuées d'orage** momaqaldiroqli qora bulut; **2.** bulut, to'da; tumonat; **des nuées de sauterelles** chigirtkalar to'dasi.

**nue-propriété** *nf* vaqtincha garovga qo'yilgan mulkka shu mulkning haqiqiy egasining egalik qilish, lekin undan foydalana olmaslik huquqi.

**nuire I.** *vt* **1.** zarar, ziyon yetkazmoq, zarar keltirmoq, ziyon qilmoq, putur yetkazmoq, shikastlamoq, ta'sir o'tkazmoq; **nuire à qqn auprès de ses amis** birovga o'z o'rtoqlari oldida ziyon yetkazmoq; **nuire à la réputation de qqn** biror kishining obro'-e'tiboriga putur yetkazmoq; **II. se nuire** *vpr* o'ziga zarar, ziyon yetkazmoq, o'ziga zarar keltirmoq; o'ziga zahmat, kulfat oshirmoq; **il se nuisait en disant sans cesse du mal des autres** birovlarning yomonliklari haqida to'xtovsiz gapirib u o'ziga kulfat oshirar edi.

**nuisance** *nf* zararlilik, ziyonlilik.

**nuisible** *adj* zararli, ziyonli; zarar, ziyon keltiradigan; **cela pourrait être nuisible à votre santé** bu sizning sog'lig'ingizga zararli bo'lishi mumkin edi; **animaux nuisibles** zararli hayvonlar.

**nuit** *nf* **1.** tun, kechasi; **jour et nuit** kecha va kunduz, kunu tun; **il fait nuit** kech kirdi; **la nuit tombe** qorong'i tushyapti; **à la nuit tombante** qorong'i tushganda, kech kirganda; **nuit noire** zimiston, zim-ziyo tun; *loc* **c'est le jour et la nuit** bularning yer bilan osmonday farqi bor; *loc* **la nuit des temps** juda uzoq o'tmish, qadim-qadim zamon; almisoq, daqqiyunus davri; **de nuit** kechki, tungi; **veilleur de nuit, gardien de nuit** tungi qorovul; **oiseaux de nuit** tungi qushlar; **2.** qorong'i tushgan payt, kecha, tun; **en pleine nuit** yarim kecha, yarim tunda; **toute la nuit** tuni bilan, kechasi bilan; **nuit sans sommeil, nuit blanche** mijja qoqilmagan, uyqusiz o'tkazilgan tun; **j'ai passé la nuit dehors** men tunni tashqarida o'tkazdim; **bonne nuit** xayrli tun.

**nuitamment** *adv litt* tunda, kechasi, tungi paytda.

**nul, nulle I.** *adj* **1.** arzimas, arzimagan, arzimaydigan, ahamiyatsiz; **différence nulle** arzimas farq; **résultats nuls** arzimagan natijalar; **match nul** durang o'yin; **2.** hech narsaga arzimaydigan, ahamiyatsiz (*asar, ish va hokazo)*; **un devoir nul, qui mérite zéro** hech narsaga arzimaydigan, ikkiga loyiq uy vazifasi; **3.** e'tibori, nufuzi, salmog'i yo'q, e'tiborsiz, arzimagan, notavon; **elle est nulle** bu nufuzi yo'q ayol; **être nul, en, dans** -dan juda bo'sh, kuchsiz bo'lmoq; **il est nul en français** u fransuz tilidan juda bo'sh; **4.** *fam* quruq, hech narsaga arzimaydigan, bema'ni; **elle est nulle, son idée** uning fikri bema'ni; **5.** *litt* hech, hech qanday, hech qanaqa, hech bir, hech qanday; **nul homme n'en sera exempte** hech kim ishdan bo'shatilmaydi; **je n'en ai nul besoin** men hech narsaga muhtoj emasman; **sans nul doute** shubhasiz, albatta; **nulle part** hech qayerda; **II.** *pron indéf sing* hech kim; **nul n'est censé ignorer la loi** hech kim qonunni bilmasligini bahona qila olmaydi; *loc* **à l'impossible nul n'est tenu** yo'qqa tovon, jazo ham yo'q.

**nullard, arde** *adj fam* notavon, iste'dodsiz, layoqatsiz, qobiliyatsiz.

**nullement** *adv* hech, hech bir, aslo, sira, hech qanday; **cela ne me gêne nullement** bu narsa meni aslo bezovta qilmaydi.

**nullité** *nf* **1.** *dr* qonuniy kuchga ega emaslik; **2.** arzimaslik, ahamiyatsizlik, bo'lmag'urlik; **la nullité d'un raisonnement** dalilning arzimasligi; **la nullité d'un élève** o'quvchining bo'lmag'urligi, bo'shligi, bilimsizligi; **3.** e'tibori, nufuzi, salmog'i yo'q; hech narsaga arzimaydigan, haqir, notovon odam; **c'est une vraie nullité** bu haqiqiy hech narsaga arzimaydigan odam.

**numéraire** *nm* pul, naqd pul; **payer en numéraire** naqt pul bilan to'lamoq.

**numéral, ale, aux I.** *adj* songa oid; son bilan ifodalangan, raqamli; **système numéral** son tartibi; **adjectifs numéraux** sonlar; **II.** *nm* **un numéral, les numéraux** son, sonlar.

**numérateur** *nm math* surat; **numérateur et dénominateur d'une fraction** kasrning surati va maxraji.

**numération** *nf* hisoblash sistemasi, sanoq sistemasi; **numération décimale** o'nli sanoq sistemasi.

**numérique** *adj* **1.** son bilan ifodalangan, ko'rsatilgan, sonli; **partie numérique et partie littérale d'une formule** formulaning son va harf bilan ifodalangan qismi; **2.** raqam bilan ifodalangan, ko'rsatilgan, raqamli; **calcul numérique** raqam bilan hisoblash; **3.** songa, miqdorga oid, son jihatdan bo'ladigan, miqdoran, miqdoriy; **la supériorité numérique de l'ennemi** dushmanning son jihatidan ustunligi; **4.** *techn inform* raqamli.

**numériquement** *adv* hisoban, son jihatidan, miqdoran.

**numéro** *nm* **1.** son, tartib raqami; **faire un numéro** telefon raqamini termoq; **numéro un** birinchi (*asosiy, eng muhim*); **l'énnemi public numéro un** xalqning birinchi raqamli dushmani; **2.** *fam* nusxa, tip; **quels numéros!** qanday nusxalar! **3.** son, nomer; **numéro d'une revue, d'un journal** jurnal, gazetaning soni; *fam* **il nous a fait son numéro habituel** u bizga o'zining har doimgi qilig'ini ko'rsatdi.

**numérotage** *nm* raqamlash.

**numérotation** *nf* raqamlash; raqam, nomer terish.

**numéroter** *vt* raqamlamoq, nomer qo'ymoq; **numéroter les pages d'un manuscrit** qo'lyozma betlariga raqam qo'yib chiqmoq.

**numismate** *n* numizmat.

**numismatique I.** *adj* numizmatikaga oid; numizmatik; numizmatika; **recherches numismatiques** numizmatik tadqiqotlar; **II.** *nf* numizmatika, tangashunoslik.

**nu-pieds** *nm pl* shippak.

**nuptial, iale, iaux** *adj* to'yga oid; to'yda bo'ladigan, to'y; **bénédiction nuptiale** to'yda aytiladigan oq fotiha.

**nuptialité** *nf* nikohlar soni (*statistika bo'yicha*).

**nuque** *nf* ensa, gardan; **coiffure dégageant la nuque** ensani ochib turadigan bosh kiyimi.

**nurse** *nf* enaga, bolaga qarovchi ayol.

**nutritif, ive** *adj* **1.** ovqat, oziq bo'ladigan, ovqat, oziq; **principes nutritifs d'un aliment** oziq-ovqat mahsulotining oziqalik asoslari; **aliments, mets nutritifs** oziq-ovqat, taomlarning to'yimliligi; **2.** oziqlanish, ovqatlanish, oziq ovqatni o'zlashtirishga oid; **les besoins nutritifs de l'homme** odamning ovqatlanish ehtiyoji.

**nutrition** *nf* **1.** hazm qilish, hazm; **mauvaise nutrition** ovqatni hazm qilishning buzilishi; **2.** *physiol* oziqlanish, ovqatlanish, oziq-ovqatni o'zlashtirish.

**nyctalope** *adj* tunda, qorong'uda ko'radigan; **les hiboux sont nyctalopes** boyo'g'lilar tunda ko'ruvchilardir.

**nylon** *nm* neylon; **étoffe de nylon** neylon gazlama; **du nylon** neylondan qilingan.

**nymphe** *nf* **1.** *myth* nimfa (*yunon mifologiyasida tog'lar, o'rmonlar, dengiz va buloqlarda yashovchi tabiat ma'budalari*); **2.** *plais* nazokatli, go'zal qiz, juvon; **3.** *pl anat* kichik jinsiy lablar; **4.** *zool* nimfa (*g'umbak davriga ega bo'lmagan hasharotlarning voyaga yetishdan oldingi davrida atalishi*).

**nymphéa** *nm* oq nilufar, nilfiya, nimfeya.

**nymphomane** *adj, nf* kuyikkan (*shahvoniy hirsi qo'zg'algan ayol yoki urg'ochi hayvon*).

**nymphomanie** *nf* kuyikish (*urg'ochi hayvon yoki ayollarda*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

# O

**O, o** *nm inv* fransuz alifbosining o‘n beshinchi harfi.

**ô** *intj* **1.** iltijo, yolvorishni bildiradi; **ô ciel!** e xudo! **2.** kuchli hissiyotni bildiradi; **ô non!** e yo‘q!

**oasis** *nf inv* **1.** voha, oazis; **une belle oasis** go‘zal voha; **2.** so‘lim, sokin joy.

**obédience** *nf litt* bo‘ysunish; qaramlik, tobelik, mutelik.

**obéir** *vt* **(à) 1.** bo‘ysunmoq, bo‘yin egmoq, itoat etmoq, quloq solmoq; **obéir à sa conscience** vijdoniga quloq solmoq; **2.** bo‘ysunmoq, itoat etmoq (*narsa*); **l’outil obéit à la main** asbob qo‘lga itoat etadi.

**obéissance** *nf* bo‘ysunish, itoat etish, bo‘yin egish, quloq solish; **jurer obéissance à qqn** birovga itoat etishga qasam ichmoq.

**obéissant, ante** *adj* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan, itoatkor, mo‘min, qobil; **enfant obéissant** gapga kiradigan bola.

**obélisque** *nm* **1.** obelisk, to‘rt qirrali va uchli ustun; **l’obélisque de Louksor** Luksor ustuni; **2.** shu usuldagi yodgorlik.

**obérer** *vt* qarzga botirmoq, qarzdor qilib qo‘ymoq.

**obèse I.** *adj* semiz, yo‘g‘on; **il est devenu obèse** u semirib ketdi; **II.** *n* semiz odam, yo‘g‘on odam.

**obésité** *nf* semizlik, to‘lalik, bo‘liqlik; yo‘g‘onlik.

**objecter** *vt* **1.** e’tiroz, qarshi fikr bildirmoq, qarshi chiqmoq; **objecter de bonnes raisons à, contre un argument** dalilga asosli qilib e’tiroz bildirmoq; **vous ne pouvez rien m’objecter** siz menga hech qanday e’tiroz bildirolmaysiz; **2.** qarshi dalil sifatida keltirmoq, sabab qilmoq, bahona qilmoq, ro‘kach qilmoq; **il nous a objecté qu’il n’avait pas le temps** u bizga vaqti yo‘qligini ro‘kach qildi.

**objecteur** *nm* **objecteur de conscience** diniy e’tiqodi tufayli harbiy xizmatdan bosh tortuvchi.

**objectif[1], ive** *adj* **1.** *phil* obyektiv, moddiy, kishining ongiga bog‘lanmagan holda mavjud bo‘lgan; **2.** xolis, beg‘araz, xolisona; **faire un rapport objectif des faits** bo‘lgan voqealar haqida xolisona axborot bermoq; **3.** xolis, odil, beg‘araz; **historien objectif** xolis tarixchi; **soyez plus objectif** beg‘arazroq bo‘ling.

**objectif[2]** *nm* obyektiv (*optik asbob shishasi*); **objectif d’un appareil photographique** fotoapparat obyektivi.

**objectif[3]** *nf* maqsad, niyat, qo‘yilgan maqsad, vazifa; **il met tout en œuvre pour atteindre son objectif** u o‘z niyatiga yetish uchun hamma narsani ishga solyapti; **il a pour objectif la réussite** uning maqsadi muvaffaqiyat.

**objection** *nf* **1.** rad qiluvchi dalil, isbot, asos; dalil-isbot; **faire, formuler une objection** qarshi dalil-isbot keltirmoq, ko‘rsatmoq; **2.** e’tiroz, qarshilik, to‘siq, to‘sqinlik; **si vous n’y voyez pas d’objection** siz agar bu yerda to‘siq ko‘rmayotgan bo‘lsangiz.

**objectivement** *adv* xolis, beg‘araz, xolisona, odilona.

**objectivité** *nf* **1.** *phil* obyektivlik, obyektiv ravishda borliq, kishining ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjudlik; **2.** obyektivlik, xolislik, beg‘arazlik; **l’objectivité d’une œuvre d’art** san’at asarining obyektivligi.

**objet** *nm* **1.** narsa, predmet; **manier un objet avec précaution** narsa bilan ehtiyot bo‘lib muomala qilmoq; **2.** mavzu, tema; **l’objet de ses réflexions** uning o‘y mavzusi; **3.** obyekt, borliq; **4.** maqsad, niyat; **l’objet de nos vœux** bizning istaklarimizning maqsadi; **faire, être l’objet de** mavzu, sabab qilmoq, bo‘lmoq; **5.** *gram* **complément d’objet direct, indirect** vositasiz, vositali to‘ldiruvchi.

**objurgation** *nf* **1.** tanbeh, tanbeh berish, malomat; **céder aux objurgations de qqn** birovning tanbehlariga dosh bermaslik; **2.** o‘tinch, iltijo, yolvorish, o‘tinib so‘rash.

**oblat, ate** *n* biror diniy uyushmaga kirgan, lekin qasamyod qilmagan odam.

**obligation[1]** *nf* **1.** majburiyat, va’da; **contracter une obligation juridique** yuridik majburiyat olmoq; **2.** burch, vazifa; **obligations militaires** harbiy burch; **3.** zarurat, ehtiyoj, hojat; **4.** obligatsiya, qimmatbaho qog‘oz; **obligation à lots** yutuqli obligatsiya.

**obligation[2]** *nf* minnatdorlik, qarzdorlik; **j’ai (bien) des obligations envers lui** men undan juda minnatdorman.

**obligatoire** *adj* **1.** bajarilishi shart bo‘lgan, majburiy, kerak, lozim; **instruction gratuite et obligatoire** bepul va bajarilishi shart bo‘lgan instruksiya; **2.** *fam* majburiy, muqarrar, albatta yuz beradigan.

**obligatoirement** *adv* albatta, muqarrar, so‘zsiz, majburiy ravishda.

**obligé[1], ée** *adj* majburiy, qilinishi shart bo‘lgan; *fam* **c’est obligé!** bu majburiy, hech narsa qila olmaysan, qo‘lingdan hech narsa kelmaydi!

**obligé[2], ée** *adj* minnatdor, qarzdor, burchli; **je vous suis très obligé** men sizdan juda qarzdorman; **je suis votre obligé** men sizdan qarzdorman.

**obligeamment** *adv* iltifot bilan, olijanoblik bilan, xayrixohlik bilan, nazokat bilan, lutfan.

**obligeance** *nf* iltifot, olijanoblik, xayrixohlik; **nous vous remercions de votre obligeance** iltifotingiz uchun biz sizdan minnatdormiz.

**obligeant, ante** *adj* iltifotli, olijanob, xayrixoh.

**obliger[1] I.** *vt* **1.** majbur qilmoq, talab qilmoq; **la loi, l’honneur nous oblige à faire cela** qonun, or-nomus bizni buni qilishga majbur etadi; **2.** majbur qilmoq, zo‘rlamoq; **rien ne vous oblige à venir** sizni hech narsa kelishga majbur qilmaydi; **II. s’obliger** *vpr* **(à)** majburiyat olmoq, zimmasiga olmoq; **je m’oblige à vous rembourser** qaytarib berishni o‘z zimmamga olaman.

**obliger[2]** *vt* iltifot, olijanoblik, xayrixohlik ko‘rsatmoq; **vous m’obligeriez si vous faisiez ceci** agar bu ishni qilsangiz, siz menga iltifot ko‘rsatgan bo‘lar edingiz.

**oblique I.** *adj* qiya, qiyalama, yotiq, qiyshiq; **ligne oblique** qiya chiziq; **regard oblique** nosamimiy qarash; *loc* **en oblique** qiyalab, dioganal bo‘yicha; **II.** *nf* qiyshiq chiziq.

**obliquement** *adv* qiyalab, qiyasiga, qiya qilib, qiyshiq.

**obliquer** *vi* og‘moq, chetga chiqmoq, qiyshaymoq; **la voiture a obliqué vers la gauche** avtomobil chapga og‘di.

**obliquité** *nf* qiyalik, qiyalamalik, qiyshiqlik; **l’obliquité des rayons du soleil** quyosh nurlarining qiyalamaliklari.

**oblitération** *nf* marka ustiga muhr bosish, qo‘yish (*uni qayta ishlatish mumkin bo‘lmasligi uchun*).

**oblitérer[1]** *vt* markaning ustiga muhr bosmoq, qo‘ymoq (*uni qayta ishlatish mumkin bo‘lmasligi uchun*).

**oblitérer[2]** *vt méd* bekitmoq, to‘sib qo‘ymoq.

**oblong, ongue** *adj* **1.** cho‘ziq, cho‘zinchoq; **visage oblong** cho‘ziq yuz; **2.** *litt* yassi, yalpoq, yapaloq; **format oblong** yassi format.

**obnubiler** *vt* **1.** xiralashtirmoq, xiralashtirib qo‘ymoq, chalkashtirmoq, gangitmoq (*ongni, hissiyotlarni*); **2.** qamrab olmoq, qurshab olmoq, egallab olmoq, chulg‘amoq, ta’qib qilmoq; **il est obnubilé par cette idée** bu fikr uning aql-hushini olib qo‘ygan, uni sehrlab qo‘ygan.

**obole** *nf* qo‘ldan kelgancha, baqadrihol yordam, ulush, hissa; **apporter son obole à une souscription** obunaga qo‘ldan kelgan ulushini qo‘shmoq.

**obscène** *adj* iffatsiz, uyatsiz, beadab, axloqsiz; **gestes obscènes** uyatsiz qiliqlar.

**obscénité** *nf* **1.** beadablik, uyatlik, iffatsizlik, axloqsizlik; **2.** yaramas xatti-harakat, uyat gap va hokazo; **dire des obscénités** uyat gaplarni aytmoq.

**obscur, ure** *adj* **1.** qorong‘i; **2.** qora, qoramtir, to‘q; **3.** tushunib bo‘lmaydigan, mujmal, noaniq, zahar, dudmol, qorong‘i; **des phrases embrouillées et obscures** chalkash va tushunib bo‘lmaydigan gaplar; **4.** qayg‘uli, g‘amgin, ma’yus, xafa, noxush; **un obscur sentiment d’envie** noxush hasad tuyg‘usi; **5.** shubhali, noma’lum, qorong‘i; **6.** noma’lum, notanish; **un poète obscur** notanish shoir; **5.** *litt* oddiy, sodda, kamtarona, sipo; **vie obscure** kamtarona hayot; **besognes obscures** oddiy ishlar.

**obscurantisme** *nm* obskurantizm, ilm-ma’rifatga dushmanlik, jaholatparastlik, reaksionerlik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**obscurcir I.** *vt* **1.** qorong‘i qilmoq, qorong‘ilashtirmoq; **ce gros arbre obscurcit la pièce** bu katta daraxt xonani qorong‘i qilyapti; **2.** xiralashtirmoq, hiralashtirib qo‘ymoq; qoplamoq, bosmoq (*tutun va hokazo*); **3.** chalkashtirmoq, mujmallashtirmoq, noaniq, tushunib bo‘lmaydigan qilib qo‘ymoq; **II. s'obscurcir** *vpr* qorong‘ilashmoq; **le ciel s'obscurcit** osmon qorong‘ilashyapti.

**obscurcissement** *nf* **1.** qorong‘ilashish; **obscurcissement du ciel** osmonning qorong‘ilashishi; **2.** xiralashtirish, xira qilib qo‘yish, qorong‘ilashtirish (*aql va hokazo*).

**obscurément** *adv* **1.** noaniq, dudmol, mujmal, xira; **2.** yashiriqcha, kishi bilmas, chetda, uzlatda, xilvatda, go‘shada; **il a choisi de vivre obscurément** u uzlatda yashashni tanladi.

**obscurité** *nf* **1.** qorong‘ilik, zimiston; **obscurité complète** zimiston; **il a peur dans l'obscurité** u qorong‘ilikda qo‘rqadi; **2.** xiralik, mujmallik, noaniqlik, qorong‘ilik; **3.** ravshan emaslik, noaniqlik, xiralik, qorong‘ilik; **il fallait expliquer les obscurités de ce texte** bu matnning noaniq joylarini tushuntirib berish kerak edi; **4.** hech kimga ma'lum-mashhur emaslik.

**obsédant, ante** *adj* miyaga o‘rnashib qolgan, miyadan chiqmaydigan, xayoldan ketmaydigan.

**obsédé, ée** *n* fanatik, o‘taketgan mutaassib; **un obsédé sexuel** hirsning quli.

**obséder** *vt* qamrab olmoq, qurshab olmoq, egallab olmoq, ta'qib qilmoq; **le remords l'obsède** vijdon azobi uni ta'qib qilib yuribdi; **il est obsédé par la peur d'échouer** uni imtihondan yiqilish qo‘rquvi egallab olgan.

**obsèques** *nf pl* dafn marosimi.

**obséquieusement** *adv* xushomad, tilyog‘lamalik, laganbardorlik bilan; xushomadgo‘yona.

**obséquieux, euse** *adj* xushomadli, tilyog‘lamali; laganbardorlik bilan qilingan; **une politesse obséquieuse** tilyog‘lamali xushmuomalalik.

**obséquiosité** *nf* xushomadlilik, tilyog‘lamalik, laganbardorlik.

**observable** *adj* kuzatsa bo‘ladigan, ko‘rsa bo‘ladigan, o‘rgansa bo‘ladigan.

**observance** *nf* **1.** amal qilish, rioya qilish (*diniy qoidalarga*); **l'observance de la règle** qoidaga amal qilish; **2.** amal qilinish, rioya qilinish; **un monastère d'un sévère observance** qoidaga qattiq amal qilinadigan monastir.

**observateur, trice I.** *n* **1.** kuzatuvchi, shohid; **il a été un observateur attentif** u sinchkov kuzatuvchi edi; **2.** kuzatuvchi (*harbiy, diplomatik*); **envoyer des observateurs à des négociations** muzokaralarga kuzatuvchilar jo‘natmoq; **II.** *adj* kuzatuvchan, sinchkov; **il est très observateur** u juda ham sinchkov.

**observation** *nf* **1.** amal qilish, rioya qilish; **observation d'un règlement** qoidaga amal qilish; **2.** kuzatish, o‘rganish, tekshirish; **avoir l'esprit d'observation** kuzatuvchan bo‘lmoq; **3.** kuzatishlar, mulohazalar, fikrlar; **une observation très juste** juda to‘g‘ri kuzatishlar; **4.** e'tiroz; ta'na, tanbeh, yuziga solish; **son père lui fait sans cesse des observations** otasi unga doim tanbeh beradi; **5.** ilmiy kuzatish; **observations météorologiques, astronomiques** astronomik, metereologik kuzatishlar; **induire qqch de ses observations** o‘z kuzatishlaridan xulosa chiqarmoq; **6.** kuzatish, nazorat; **il est à l'hôpital, en observation** u kasalxonada, nazoratda; **7.** kuzatish, nazorat (*shubhali odamni, dushmanni va hokazo*).

**observatoire** *nm* **1.** rasadxona, observatoriya; **2.** kuzatish joyi; **observatoire d'artillerie** artileriya kuzatish punkti.

**observer I.** *vt* **1.** amal qilmoq, rioya qilmoq, bajarmoq; **observer le silence** tinchlikni saqlamoq; **2.** kuzatmoq, diqqat bilan qaramoq, razm solmoq; **observer un phénomène** hodisani kuzatmoq; **3.** kuzatmoq, o‘rganmoq, nazorat qilmoq; **il observe tout nos gestes** u bizning hama harakatlarimizni nazorat qilib yuribdi; **4.** kuzatmoq, ta'qib qilmoq, iziga tushmoq; **attention, on nous observe** ehtiyot bo‘ling, bizni kuzatishyapti; **observer les mouvements de l'ennemi** dushmanning xatti-harakatlarini kuzatmoq; **5.** kuzatmoq, e'tibor bermoq, aniqlamoq, fahmlamoq; **je n'ai rien observé** men hech narsani fahmlamadim; **je vous fait observer que** men sizning e'tiboringizni qaratar edimki; **II. s'observer** *vpr* o‘z o‘zini kuzatmoq, nazorat qilmoq; **il s'observe et se décrit dans ses livres** u o‘z-o‘zini kuzatadi va kitoblarida o‘zini ta'riflaydi; **ils s'observent sans arrêt** ular to‘xtovsiz bir-birlarini kuzatishadi.

**obsession** *nf* **1.** qamrab olgan, qurshab olgan, egallab olgan, ta'qib qilayotgan o‘y, xayol, fikr; **2.** *psych* vasvasa.

**obsessionnel, elle** *adj* qamrab oluvchi, qurshab oluvchi, egallab oluvchi, ta'qib qiluvchi, vasvasali, vasvasaga soluvchi; **des idées obsessionnelles** ta'qib qiluvchi o‘ylar; **névrose obsessionnelle** vasvasaga soluvchi nevroz.

**obsidienne** *nf* obsidian (*shishasimon vulqon tog‘ jinsi*).

**obsolète** *adj* eskirgan, muomaladan chiqqan; **une technologie obsolète** eskirgan texnologiya.

**opiniâtreté** *nf* qat'iyatlilik, qat'iylik, o'jarlik, qaysarlik; **travailler, lutter, résister avec opiniâtreté** qat'iylik bilan ishlamoq, kurashmoq, qarshilik ko'rsatmoq.

**opinion** *nf* **1.** fikr, mulohaza, nazar, nuqtai nazar, qarash; **adopter, suivre une opinion** biror fikrni quvvatlamoq, biror fikrga amal qilmoq; **il partage l'opinion de son frère** u akasining fikriga qo'shiladi; **être de l'opinion du dernier qui a parlé** oxirgi gapirganning fikriga qo'shilmoq; **donner, exprimer son opinion** fikr bermoq, bildirmoq; **défendre, soutenir une opinion** bir fikrni himoya qilmoq, ma'qullamoq; **avoir le courage de ses opinions** o'z fikrlarini qattiq turib himoya qilmoq; **opinions toutes faites** soxta fikrlar; **c'est une affaire d'opinion** bu shaxsiy fikrlar; **2.** *pl* fikrlar, aqidalar, nazaryalar; **opinion philosophiques, politiques** falsafiy aqidalar, siyosiy fikrlar; **opinions avancées, subversives** ilg'or, qo'poruvchi nazariyalar; **liberté d'opinion** fikr erkinligi; **3. avoir (une) haute, bonne, mauvaise opinion de qqn** biror kishi haqida yuqori, yaxshi, yomon, fikrda bo'lmoq; **avoir bonne opinion de soi** o'zi haqida yaxshi fikrda bo'lmoq; **4.** ijtimoiy qarash, fikr; **l'opinion des autres, du monde** boshqalarning, hammaning fikri; **braver l'opinion** jamoat fikrini nazar-pisand qilmaslik; **5.** nuqtai nazar, qarash; **l'opinion française** fransuzlar nuqtai nazari; **l'opinion publique** jamoat fikri; **il faut alerter l'opinion** fikr qo'zg'atish kerak; **sondages d'opinion** fikrlarni o'rganish; **l'opinion est unanime, divisée** fikr yakdil, turlicha.

**opium** *nm* afyun, opiy, taryak, qoradori; **fumer de l'opium** qoradori chekmoq; *loc* **la religion est l'opium du peuple** din xalq uchun afyundir (*Karl Marks*).

**opossum** *nm* opossum (*Amerikada yashaydigan qopchiqli kalamush*); **manteau d'opossum** opossum palto.

**opportun, une** *adj* o'z vaqtida bo'ladigan, o'rinli, munosib, tegishli, maqbul; **au moment opportun** o'z vaqtida; **il lui parut opportun de céder** unga yon berish o'rinli bo'lib ko'rindi.

**opportunément** *adj* o'z vaqtida, joyida, mavridida, zarur paytda; o'rinli, o'rnida, jo'yali.

**opportunisme** *n* opportunizm.

**opportuniste I.** *n* opportunist, opportunizm tarafdori; **II.** *adj* opportunistga oid, opportunistik.

**opportunité** *nf* o'z vaqtidalik, o'rinlilik, jo'yalik, maqbullik; **discuter de l'opportunité d'une mesure** tadbirning o'z vaqtidaligini muhokama qilmoq.

**opposable** *adj* qarshi qo'yiladigan, zid bo'lgan; **le pouce est opposable aux autres doigts de la main** bosh barmoq qo'lning boshqa barmoqlariga qarama-qarshi joylashgan.

**opposant I.** *adj* muxolif, oppozitsiya ruhidagi, zid, qarshi; oppozitsiya ruhidagi kamchilik; **II.** *n* muxolifatchi, oppozitsioner, oppozitsiyachi, raqib, qarshi; **les opposants au régime** tuzumga qarshilar.

**opposé, ée I.** *adj* **1.** *pl* qarama-qarshi tomonlarga oid; qarshidagi, ro'paradagi; **les pôles sont diamétralement opposés** qit'alar butunlay qarama-qarshidirlar; **le mur opposé à la fenêtre** deraza qarshisidagi devor; **du côté opposé** qarshi tomondan; **sens opposé** qarshi tomon; **2.** farq qiladigan, boshqacha; **couleurs opposées** boshqacha rang; **3.** teskari, zid, boshqacha; **ils ont des goûts opposés, des opinions opposées** ularning didlari, fikrlari bir-birinikiga zid; **concilier des intérêts opposés** bir-biriga zid manfaatlarni kelishtirmoq; **nombres opposés** zidlovchi sonlar; **4.** qarshi, muxolif fikrdagi; **je suis opposé à tout les excès** men har qanday ortiqchalikka qarshiman; **II.** *nm* **1.** qarshi, qarama-qarshi, teskari tomon; **l'opposé du nord et le sud** shimol va janubning qarama-qarshiligi; **2.** teskari, aks, zid, qarama-qarshi; **soutenir l'opposé d'une opinion** fikrning aksini qo'llamoq; *fam* **cet enfant est tout l'opposé de son frère** bu bola akasining butunlay teskarisi; *loc adv* **à l'opposé** teskari, qarama-qarshi tomonda; **la gare est à l'opposé** vokzal qarama-qarshi tomonda; *loc prép* **à l'opposé de** qarshi, farqli o'laroq.

**opposer I.** *vt* **1.** qarshi qo'ymoq, e'tiroz qilmoq, e'tiroz bildirmoq, dalil, bahona qilmoq; **il n'y a rien à opposer à cela** bunga e'tiroz bildirishga hech qanday o'rin yo'q; **2.** qarshi qo'ymoq, qarama-qarshi qo'ymoq, qarshi qilib qo'ymoq; **opposer une armée puissante à l'ennemi** qudratli armiyani dushmanga qarshi qo'ymoq; **opposer une personne à une autre** bir kishini boshqa bir kishiga qarshi qilib qo'ymoq; **match qui oppose deux équipes** ikki raqib komanda uchrashuvi; **des questions d'intérêt les opposent** manfaat masalasi ularni ajratib turadi; **3.** qarshi qo'ymoq (*biror narsani*), to'siq qilmoq; **opposer une digue aux crues d'un fleuve** daryo toshqiniga dambani qarshi qilmoq; **à ses reproches, j'ai préféré opposer le silence** uning ta'nalariga men sukutni qarshi qo'yishni ma'qul ko'rdim; **la résistance qu'oppose le mur** devorning qarshilik ko'rsatishi; **4.** qarama-qarshi, ro'baro', ro'para, yuzma-yuz qo'ymoq, birini ikkinchisining qarshisiga qo'ymoq; **opposer deux objets, un objet à un autre** ikkita narsani birini ikkinchisining ro'baro'siga qo'ymoq; ikki rangni, oqni qoraga qarama-qarshi qo'ymoq; **5.** qarshisiga qo'ymoq, tenglashtirmoq, taqqoslamoq (*ikki qarama-qarshi narsani*); **quels orateurs pouvait-on opposer à Cicéron, à Sénèque?** Sitseron, Senekaga qaysi notiqlarni tenglashtirish mumkin edi? **II. s'opposer** *vpr* **1.** qarshi bo'lmoq, qarshilik qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq; **ses parents s'opposent à son mariage** uning ota-onasi uning uylanishiga qarshilik qilishmoqda; **je m'oppose à ce que vous y alliez** men sizning u yerga borishingizga qarshiman; **je m'y oppose formellement** men bunga nomigagina qarshiman; **pour toutes les choses importantes, je m'oppose à lui** hamma muhim narsalarda men unga qarshiman; **2.** qarshilik, to'sqinlik, monelik qilmoq; taqiqlamoq, yo'l qo'ymaslik; **leur religion s'y oppose** ularning dini bunga yo'l qo'ymaydi; **3.** turli, turlicha bo'lmoq; teskarisi, aksi bo'lmoq; **couleurs qui s'opposent** turlicha bo'lgan ranglar; **"haut" s'oppose à "bas"** "baland" "past"ning teskarisi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**opposition** *nf* **1.** qarama-qashilik, ziddiyat, ixtilof; **opposition de deux adversaires** ikki raqibning ixtiloflari; **en opposition** qarshi, ixtilofda, mojaroda, nizoda, tortishuvda; **entrer en opposition avec qqn** biror kishi bilan mojaroga kirishmoq; **2.** qarama-qarshilik, tafovut, o'zgalik, farq; **opposition de couleurs, de sons** ranglarning, tovushlarning qarama-qarshiligi; **3.** qarama-qarshilik, farq, tafovut, zidlik; **opposition des contraires** qarama-qarshi narsalar orasidagi tafovut; **opposition de deux principes** ikki nuqtai nazarning zidligi; **en opposition** qarama-qarshi, zid; **sa conduite est en opposition avec ses idées** uning yurish-turishi o'zining g'oyalariga zid; *loc adv;* **par opposition;** *loc prép* **par opposition à** -ga qarama-qarshi, -ga qarama-qarshi o'laroq; **employer ce mot par opposition à tel autre** bu so'zni boshqa shundaylariga qarshi o'laroq ishlatmoq; **4.** qarshilik, monelik, to'sqinlik; **l'opposition de qqn à une action** biror ishga birovning qarshiligi; **faire, mettre opposition à qqch** biror narsaga to'sqinlik qilmoq; **faire de l'opposition** qarshilik qilmoq; **5.** sud qarorining ijro etilishiga qarshilik; **faire opposition à un chèque perdu** yo'qotilgan chekni bekor qilmoq; **6.** oppozitsiya; qarshi tomon, muxolif; **les partis d'opposition** muxolif partiyalar; **rallier l'opposition** qarshi tomonlarni birlashtirmoq.

**oppressant, ante** *adj* yurakni siqadigan, toliqtiradigan, bo'g'adigan, ezadigin; **il fait une chaleur oppressante** odamni ezadigan issiq bo'lyapti; **crainte oppressante** yurakni siqadigan qo'rquv.

**oppresser** *vt* **1.** ezmoq, siqmoq, qismoq, bo'g'moq; **l'effort, la chaleur l'oppressaient** zo'r berish, issiq uni ezar edi; **2.** qiynamoq, azob bermoq; **sa douleur l'oppresse et l'empêche d'agir** uning og'rig'i uni qiynayapti va harakat qilishga xalaqit beryapti.

**oppresseur** *nm* zolim, zulmkor, sitamgar, ezuvchi; **l'oppresseur et les opprimés** ezuvchi va eziluvchilar; *adj* zolim; sitamgar, zulm qiluvchi, ezuvchi; **un régime oppresseur** zolim jamiyat.

**oppressif, ive** *adj* zolim, sitamgar, zulm qiluvchi, ezuvchi; **autorité oppressive** zolim hokimiyat.

**oppression** *nf* **1.** ezish, jabr-zulm qilish, zo'ravonlik qilish; **2.** bo'g'ilish, entikish, nafas qisish.

**opprimé, ée I.** *adj* ezilgan, jabr-zulm ko'rgan; **populations opprimées** ezilgan xalqlar; **II.** *n* ezilgan, jabr-zulm ko'rgan odam; **défendre, libérer les opprimés** ezilganlarni himoya qilmoq, ozod qilmoq.

**opprimer** *vt* **1.** ezmoq, zulm qilmoq, jabrlamoq; **opprimer un peuple, les faibles** xalqni, kuchsizlarni jabrlamoq; **action d'opprimer** ezish; **2.** bo'g'moq, siqmoq, jabrlamoq; **opprimer les consciences** ongni bo'g'moq; **3.** yurakni ezmoq, yurakni siqmoq, ranjitmoq, qiynamoq, azob bermoq.

**opprobre** *nm litt* uyat, sharmandalik, isnod, rasvolik, badnomlik; **accabler, couvrir qqn d'opprobre** birovni uyatga qo'ymoq, sharmanda qilmoq; **jeter l'opprobre sur qqn** birovni badnom qilmoq; **2.** uyatga, isnodga qo'yish; badnom, sharmanda qilish; **elle est l'opprobre de sa famille** u oilasini isnodga qo'ydi, u oilasiga isnod keltirdi.

**optatif, ive** *adj ling* istak-xohishga oid; **"qu'il parte!" est une proposition optative** "u ketsin!" istak gap; *n* istak mayli.

**opter** *vi* tanlamoq, ma'qul ko'rmoq, qo'llamoq; **à sa majorité, il a opté pour la nationalité française** voyaga yetganda, u fransuz millatini tanladi.

**opticien, ienne** *n* optik, ko'zoynaksoz; **j'ai fait faire, chez l'opticien, les lunettes que m'a prescrites l'oculiste** ko'zoynaksozga ko'z doktori menga yozib bergani bo'yicha ko'zoynak qildirdim.

**optimisme** *nm* **1.** optimizm, yaxshilikka ishonish; **2.** optimizm, ishonch; dunyoga, hayotga umid bilan qarash, kelajakka ishonish; **il faut envisager la situation avec optimisme** vaziyatga ishonch bilan qarash kerak.

**optimiste I.** *adj* optimizmga, yaxshilakka ishonch bilan qarashga, umidga oid; **il est optimiste** u optimist; **le docteur n'est pas très optimiste** doktorning ishonchi yo'qroq; **des paroles qui se veulent optimistes** umidbaxsh bo'lishi kerak bo'lgan gaplar; **II.** *n* optimist, kelajakka, umuman, har bir narsaga ishonch bilan qaraydigan odam; **c'est un optimiste, il est toujours content de son sort** bu optimist, u doim o'zining taqdiridan xursand.

**optimum I.** *nm* optimal, eng maqbul variant, eng qulay sharoit, eng muvofiq hol; **optimum de production** ishlab chiqarishning optimalligi; **des optimums** *ou* **des optima** maqbullik va muvofiqliklar; **II.** *adj* optimal, eng maqbul, eng qulay, eng muvofiq; **température optimum** *ou* **optima** eng maqbul temperatura.

**option** *nf* **1.** tanlash, tanlash imkoniyati; **une option difficile à prendre** biror to'xtamga kelishning qiyinligi; **à option** tanlashga o'rin qoldiradigan, imkon beradigan; **matières, textes à option dans le programme d'un examen** imtixon dasturida tanlanadigan materiallar, matnlar; **2.** tanlash, qarash, nuqtai nazar; **ses options politiques ont changé** uning siyosiy qarashlari o'zgardi; **3.** ko'tara savdo; **accessoires d'automobile vendus en option** ko'tarasiga sotilgan avtomobil ehtiyot qismlari; **je n'ai pas pris toutes les options sur ce modèle** bu modelga taalluqli bo'lgan ko'tara savdodagi hamma narsani olmadim; **4.** sotish uchun va'da, rozichilik; **prendre une option sur une place d'avion** samolyotdagi bir o'rinni sotishga rozichilik olmoq, samolyotdagi bir o'rinni band qilib qo'ymoq.

**optionnel, elle** *adj* tanlashga o'rin qoldiradigan, imkon beradigan.

**optique I.** *adj* **1.** ko'zga, ko'rishga oid; **nerf optique** ko'z nervi; **angle optique** yoki **angle de vision** ko'rish burchagi; **2.** optikaga oid; **verres optiques** optik shishalar; **II.** *nm* **1.** optika, yorug'lik (*fizikaning yorug'lik haqidagi bo'limi*); **appareils, instruments d'optique** optik apparatlar, asboblar; **optique médicale, astronomique, photographique** meditsina, astronomik, rasmchilik optikasi; **2.** perspektiva; **l'optique du théâtre, du cinéma** teatr, kino perspektivasi; **3.** o'rin, nuqtai nazar; **dans cette optique, il faut faire d'autres projets** bu o'rinda boshqacha rejalar qilish kerak.

**opulence** *nf* mo'l-ko'llik, mo'lchilik, serobgarchilik, boylik, farovonlik, hashamat, zeb-ziynat; **vivre dans le luxe et l'opulence** hashamat va mo'l-ko'lchilikda yashamoq.

**opulent, ente** *adj* **1.** mo'l, mo'l-ko'l, serob, farovon, serhasham, boy, ziynatli; **une région opulente** boy viloyat; **vie opulente** farovon hayot; **2.** ko'rkam, jozibali, do'mboq; **poitrine opulente** ko'rkam ko'krak.

**opus** *nm inv mus* opus (*biror kompozitorning ayrim muzika asari*).

**opuscule** *nm* kichik ilmiy asar, risola.

**or**[1] *nm* **1.** oltin, tilla, zar; **pépites, poudre d'or** sof holda topilgan, kukun holdagi oltin; **or pur, or fin** sof oltin; **or jaune, or blanc** sariq oltin; oqoltin, platina; **lingot d'or** oltin yombi; **pièce, louis d'or** tanga, luidor (*eski fransuz oltin tangasi*); **plaqué or** qoplama oltin; **2.** oltin pul; **payer en or** oltin bilan to'lamoq; **3.** oltin, tillaga tenglik, bahosiz, bebaho, qimmatbaho; **le pouvoir de l'or** oltinning quvvati; **valoir son pesant d'or** tillo bahosida turmoq, oltinga teng bo'lmoq; **j'ai fait une affaire en or** men tillaga teng ish qildim; **rouler sur l'or** boyligi oshib-toshib yotmoq; **être cousu d'or** ostonasigacha oltindan bo'lmoq; **je ne ferais pas cela pour tout l'or du monde** boshimdan zar to'kishsa ham, men bu ishni qilmayman; **4.** qimmatbaho, bahosiz, bebaho; *loc* **le silence est d'or** sukut oltin; *fam* **en or** tilla, tilladan, ajoyib; **d'or** tilladan, bebaho, bahosiz; **cœur d'or** tilla yurak; **règle d'or** oltin qoida; **âge d'or** oltin davr, eng gullagan davr; **siècle d'or** oltin asr; **l'âge d'or du cinéma** kinoning oltin davri; **5.** oltin, tillaga o'xshash; tilla rang; **l'or des blés** bug'doyning tilla rangi.

**or**[2] *prép* esa, bo'lsa; biroq, ammo, lekin; **il se dit innocent, or toutes les preuves sont contre lui** u o'zini aybsiz deydi, lekin hamma dalillar esa unga qarshi.

**oracle** *nm* **1.** karomat, bashorat, vahiy, nido (*antik davrda*); **2.** *litt* karomat, bashorat, rivoyat; **3.** ulug', nufuzli, gapi o'tadigan odam; **c'est l'oracle de sa génération** bu o'z avlodining nufuzli odami.

**orage** *nm* **1.** bo'ron, to'fon, dovul, momaqaldiroq, jala; **il va faire de l'orage** bo'ron bo'ladi; **l'orage menace, éclate** dovul xavf solmoqda, boshlanyapti; **2.** bo'ron, dovul, tug'yon, g'alayon; *litt* **les orages des passions** hislar tug'yonlari; *loc* **il y a de l'orage dans l'air** dovulning, janjalning hidi kelyapti.

**orageux, euse** *adj* **1.** dovulli, bo'ronli, to'fonli, momaqaldiroqli, jalali; **le temps est orageux** havoning avzoyi buzuq; **chaleur, pluie orageuse** dovulli issiq, jala; **beau temps, mais orageux en fin de journée** havo ochiq bo'ladi, lekin kunning oxirida bo'ron kutiladi; **2.** qizg'in, jo'shqin, suronli; **discussion orageuse** qizg'in tortishuvlar.

**oraison** *nf* duo; **l'Oraison dominicale** Padari buzrukvorimiz (*duo*); **oraison funèbre** dafn marosimida aytiladigan diniy nutq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**oral, ale, aux** *adj* **1.** ogʻzaki; **tradition orale** ogʻzaki naql; **épreuves orales d'un examen** imtihondan oldingi ogʻzaki sinov; *nm* **il a réussi à l'écrit, mais échoué à l'oral** u yozma imtihondan oʻtdi, lekin ogʻzakidan yiqildi; **les résultats des oraux** ogʻzaki imtihon natijalari; **2.** ogʻizga oid, ogʻiz; **cavité orale** ogʻiz boʻshligʻi; **voyelle orale** sof unli tovush.

**oralement** *adv* ogʻzaki; **interroger un élève oralement** oʻquvchidan ogʻzaki soʻramoq.

**orange I.** *nm* noranj, apelsin; **quartier d'orange** apelsin pallachasi; **écorce d'orange** apelsin poʻchogʻi; **orange sanguine** goʻshti qizil shirin apelsin; **un orange clair** och apelsin rangi; **II.** *adj inv* toʻq sariq, apelsin rang; **des rubans orange** toʻq sariq rangli lentalar.

**orangé, ée I.** *adj* toʻq sariq, apelsin rang; **soie orangée** toʻq sariq shoyi; **II.** *nm* toʻq sariq, apelsin rangi.

**orangeade** *nf* apelsin sharbati bilan tayyorlangan ichimlik.

**oranger** *nm* noranj, apelsin (*daraxti*).

**orangeraie** *nf* noranjzor, apelsinzor.

**orangerie** *nf* **1.** teplitsa, issiqxona; **2.** oranjereya.

**orang-outan** *ou* **orang-outang** *nm* orangutan (*odamsimon yirik maymun*).

**orateur, trice** *n* **1.** notiq, nutq soʻzlovchi, vaʼzxon; **orateur éloquent** gapga chechan notiq; **2.** gapga usta, soʻzamol odam, notiq; **cette conférencière n'est pas bonne oratrice** bu maʼruzachi yaxshi notiq emas ekan.

**oratoire¹** *adj* notiqlikka, fasihlikka oid; **art oratoire** notiqlik sanʼati.

**oratoire²** *nm* kichik ibodatxona; **2.** diniy kongregatsiyaning nomi.

**oratorien** *nf* diniy kongregatsiyaning aʼzosi.

**oratorio** *nm* oratoriya (*xor yoki orkestr uchun yozilgan yirik muzika asari*); **l'oratorio de noël** rojdestvo oratoriyasi; **des oratoires et des cantates** oratoriya va kantatalar.

**orbital, ale, aux** *adj* orbitaga oid, orbital; orbita; **vitesse orbitale** orbital tezlik; **station orbitale** orbital stansiya.

**orbite¹** *nf* koʻz kosasi, koʻz chanogʻi; **avoir les yeux qui sortent des orbites** koʻzlari boʻrtib chiqqan boʻlmoq.

**orbite¹** *nm* **1.** orbita (*samoviy jismlarning harakat yoʻli*); **la terre parcourt son orbite autour du soleil en 365 jours 6 h. 9 mn** yer oʻzining quyosh atrofidagi orbitasini 365 kun 6 soat 9 minutda bosib oʻtadi; **mettre, placer un engin spatial sur orbite** kosmik raketani orbitaga chiqarmoq; **2.** taʼsir doirasi, muhit; **attirer, entraîner qqn dans son orbite** biror kishini oʻz muhitiga tortmoq, oʻz taʼsiriga olmoq.

**orchestral, ale, aux** *adj* orkestrga oid, orkestr uchun belgilangan; orkestr; **musique orchestrale** orkestr musiqasi; **style orchestral** orkestr uslubi.

**orchestration** *nf* **1.** orkestrlashtirish; **2.** orkestrga solish.

**orchestre¹** *nm* orkestr; **grands et petits orchestres** katta va kichik orkestrlar; **concerto pour violon et orchestre** skripka va orkestr uchun yozilgan konsert; **orchestre (de musique) de chambre** kamer kuylari orkestri; **la fosse d'orchestre** teatrda orkestr joylashadigan joy, xona.

**orchestre²** *nm* parter (*tomosha zalining sahnaga eng yaqin qismidagi oʻrinlar*); **fauteuil d'orchestre** parterdagi kreslo; **donnez-moi deux orchestres** menga ikkita parterga joy bering.

**orchestrer** *vt* **1.** orkestrlashtirmoq, orkestr musiqasiga solmoq; **2.** orttirmoq, kuchaytirmoq, boʻrttirmoq, kengaytirmoq; **orchestrer une campagne de presse** matbuot kampaniyasini orttirmoq.

**orchidée** *nf* orxideya; **offrir des orchidées** orxideya taqdim qilmoq.

**ordinaire I.** *adj* **1.** odatdagi, kundalik, doim boʻlib turadigan, oʻrganish boʻlib qolgan, har vaqtdagidek, doimiy; **trajet, usage ordinaire** odatdagi yoʻl, holat; *fam* **une histoire pas ordinaire** gʻayri oddiy voqea; **sa maladresse ordinaire** uning odatdagi qoʻpolligi; **2.** oddiy, sodda, boshqalardan farqsiz; **du papier ordinaire** oddiy qogʻozdan; **le modèle ordinaire** oddiy model; **3.** *péj* oddiy, koʻrimsiz, koʻzga tashlanmaydigan, oʻrta-miyona, xashaki; **les génies et les hommes ordinaires** daholar va oddiy odamlar; **II.** *nm* **1.** odat, oʻrganish; **il est d'une intelligence très au-dessus de l'ordinaire** u odatdagidan juda aqlan ustun; **elle sort de l'ordinaire** u odatini tark qilyapti; **2.** har doim beriladigan, har doim tortiladigan, yeyiladigan ovqat; **un bon ordinaire** har doim yeyiladigan yaxshi ovqat; **3. ordinaire de la messe** har doim oʻqiladigan namoz; *loc adv* **d'ordinaire, à l'ordinaire** odatda, koʻpincha, koʻp hollarda, odat boʻyicha, rasmi; **comme à son ordinaire** odati boʻyicha.

**ordinairement** *adv* odatda, koʻpincha, koʻproq; **il vient ordinairement le matin** u odatda ertalab keladi.

**ordinal, ale, aux I.** *adj* tartibni belgilovchi, tartib; **nombre ordinal et nombre cardinal** tartib va sanoq son; **"troisième" est un adjectif numéral ordinal** "uchinchi" tartib sondir; **II.** *nm* tartib son.

**ordinateur** *nm* elektron hisoblash mashinasi, kompyuter.

**ordination** *nm* rutba berish.

**ordonnance¹** *vx* ordinarets; denshik, xos navkar.

**ordonnance²** *nm* tartib, joylashish, taqsimlanish, birin-ketinlik; **ordonnance des mots dans la phrase** soʻzlarning gapdagi tartibi; **l'ordonnance d'un repas** ovqatlarning birin-ketinligi; **ordonnance d'un appartement** uy xonalarining joylashishi.

**ordonnance³** *nf* **1.** nizom, qoida, qonun; qaror; **gouverner par ordonnances** qonunlar asosida boshqarmoq; **ordonnance de justice** sud qarori; **2.** vrach retsepti; **médicament délivré seulement sur ordonnance** faqat retseptga beriladigan dori.

**ordonnateur, trice** boshqaruvchi, boshchilik qiluvchi, boshliq; **l'ordonnateur d'une fête** toʻy boshqaruvchisi; **ordonnateur des pompes funèbres** dafn marosimi boshligʻi.

**ordonné, ée** *adj* **1.** tartibli, tartibga keltirilgan, solingan, saranjom, sarishta, orasta; **maison bien ordonnée** saranjom-sarishta uy; **2.** tartibli, sarishta, orasta, tartibni yaxshi koʻradigan; **un enfant ordonné** tartibli bola.

**ordonner¹** *vt relig* nom, unvon bermoq; **ordonner un diacre, un prêtre** dyakonlik, poplik unvonini bermoq.

**ordonner² I.** *vt* tartibga solmoq, keltirmoq; joylashtirmoq, taqsimlamoq; **il faut ordonner ses idées** oʻz fikrlarini tartibga solish kerak; **II. s'ordonner** *vpr* **souvenirs qui s'ordonnent et se précisent** oʻz oʻrniga tushayotgan va oydinlashayotgan xotiralar.

**ordonner³** *vt* buyurmoq, buyruq bermoq, farmoyish bermoq; **ordonner qqch à qqn** biror kishiga biror narsani buyurmoq; **je vous ordonne de vous taire** men sizga jim boʻlishingizni buyuraman; **j'ordonne que vous soyez à l'heure** men sizga vaqtida boʻlishni buyuraman.

**ordre¹** *nm* **1.** tartib, joylashuv tartibi, joylashuv, tuzilish; **l'ordre des mots dans la phrase** soʻzlarning gapdagi joylashuv tartibi; **procédons par ordre** tartib boʻyicha boshlaymiz; **mettre des choses dans le bon ordre** narsalarni yaxshi tartibga solmoq; **en ordre** tartibli, saranjom, sarishta; **ordre de marche, de bataille** yurish tartibi, jangovar saf; **ordre du jour** kun tartibi; *loc adv* **à l'ordre du jour** kun tartibida; **2.** tartib, saranjomlik, sarishtalik, tartib-intizom; **mettre bon ordre à** tartib oʻrnatmoq; **3.** intizom, tartib, tartib-intizom; **4.** tabiiy, tabiiy hol; **c'est dans l'ordre (des choses)** bu tabiiy hol; **5.** tuzum; **ébranler, renverser l'ordre établi** mavjud tuzumni boʻshashtirmoq, agʻdarmoq; **les partisans de l'ordre** tuzum tarafdorlari; **le service d'ordre** tartibni nazorat qilish xizmati (*majlislarda*); **les forces de l'ordre** tartibni saqlash xizmati (*armiya, politsiya*); **6.** tartib, intizom; **tout est rentré dans l'ordre** hamma narsa oʻz holiga qaytdi; **rappeler qqn à l'ordre** biror kishini tartibga, intizomga chaqirmoq; **7.** tur, tarz, taxlit, zayl, tus; **choses de même ordre** shu turdagi narsalar; **dans le même ordre, dans un autre ordre d'idées** shu tarzdagi, boshqacha tarzdagi fikrlar; **8.** martaba, daraja, rang; **c'est un écrivain de premier ordre** bu birinchi darajali yozuvchi; **une œuvre de second, de troisième ordre** ikkinchi, uchinchi darajali asar; **9.** tur, turkum, guruh; **10.** tabaqa, toifa, ahl; **les trois ordres** uch tabaqa (*oqsuyaklar, ruhoniylar, uchinchi tabaqa*); **11.** toifa, uyushma, birlashma, doira, ahllar; **l'ordre des médecins, des avocats** vrachlar, advokatlar ahli; **12.** diniy tashkilot, jamiyat; **ordres monastiques** monaxlar tashkilotlari; **règle d'un ordre** diniy tashkilot qoidasi; **13.** kashishlik rutbasi (*unvoni*); **ordres mineurs** kashishlikning quyi rutbalari; **ordre majeurs** kashishlikning yuqori rutbalari; **entrer dans les ordres** ruhoniylikka kirmoq.

**ordre²** *nm* **1.** buyruq, amr; **ordre formel** qatʼiy buyruq; **exécuter, transgresser un ordre** buyruqni bajarmoq, buzmoq; **être sous les ordre de qqn** biror kishining amrida, boshchiligi ostida, qoʻl ostida boʻlmoq; **2.** yozma



www.ziyouz.com kutubxonasi

buyruq, farmon, ruxsat qog'ozi, order; **ordre d'achat, de vente** sotib olish, sotishga ruxsat qog'ozi; **billet à ordre** oddiy veksel; **3. mot d'ordre** shior, parol.

**ordure** *nf* **1.** kir, chang-chung, xas-cho'p, axlat; **2.** *pl* axlat, chiqindi; **pelle à ordures** xokandoz; **boîte à ordures** axlat qutisi; *loc* **jeter, mettre qqch aux ordures** axlat yashigiga tashlamoq, biror narsadan qutulmoq; **3.** yomonlik, ifloslik, yaramas xatti-harakat, uyat gap; **4.** *fam injur* past, yaramas odam, razil, ablah, iflos odam; **quelle ordure, ce type!** qanchalar razil, bu nusxa!

**ordurier, ière** *adj* yaramas, razil, iflos; **plaisanteries ordurières** yaramas hazillar.

**orée** *nf* **l'orée du bois, de la forêt** o'rmon cheti, chekkasi, yoqasi.

**oreille** *nf* **1.** quloq; **les oreilles ont dû vous tinter, vous siffler** qulog'ingiz juda qizigan bo'lsa kerak (*biz siz haqingizda juda ko'p gapirdik*); *loc* **écoutez de toutes vos oreilles** o'ng qulog'ingiz bilan ham, so'l qulog'ingiz bilan ham eshitib oling; **n'écouter que d'une oreille, d'une oreille distraite** e'tiborsizlik bilan tinglamoq; **prêter l'oreille** quloq tutmoq; **faire la sourde oreille (à qqch)** o'zini eshitmaganlikka solmoq, qulog'ini kar qilib olmoq; **casser le oreilles à qqn** birovning qulog'ini qomatga keltirmoq; **si cela venait à ses oreilles** agar bu uning qulog'iga yetib borganida edi; **cela lui entre par une oreille et lui sort par l'autre** bu uning bu qulog'idan kirib u qulog'idan chiqib ketadi; **ce n'est pas tombé dans l'oreille d'un sourd** bu gaplar behudaga ketmadi, havoga ketmadi, eshakning qulog'iga tanbur bo'lmadi; *prov* **ventre affamé n'a pas d'oreilles** och qoringa gap yuqmas; **avoir l'oreille de qqn** kimningdir ishonchli odami bo'lmoq; **2.** ohangdagi musiqiy tovushlarni farqlash va yodda tutish qobiliyati; **avoir l'oreille fine** kuy va ohanglarni yaxshi farq qila bilish; **avoir de l'oreille** qulog'i o'tkir bo'lmoq; **3.** quloq chanog'i, suprasi; **oreilles pointues, décollées** uzun, shalpaygan quloqlar; **boucles, pendants d'oreilles** zirak, boldoq, isirg'a; **rougir jusqu'aux oreilles** qulog'igacha qizarib ketmoq; **tirer l'oreille, les oreilles à un enfant** bolaning qulog'ini cho'zmoq; **se faire tirer l'oreille** yalintirmoq; **dormir sur ses deux oreilles** bamaylixotir uxlamoq; **montrer le bout de l'oreille** sirini aytib qo'ymoq, og'zidan gullab qo'ymoq; **4.** quloq, tutqich; **les oreilles d'une marmite, d'un bol** qozonning, kosaning qulog'i; **5.** kresloning bosh qo'yadigan suyanchig'i; **3.** quloqchin.

**oreiller** *nm* yostiq, bolish; **taie d'oreiller** yostiq jildi.

**oreillette** *nm* **1.** quloqchin; **toque à oreillettes** telpak; **2.** yurak bo'lmasi; **oreillettes et ventricules** yurak bo'lmalari va qorinchalari.

**oreillon** *nm* **1.** *pl méd* tepki (*bolalar kasalligi*); **elle vient d'avoir les oreillons** u endigina tepkidan tuzaldi; **2.** ikkiga bo'lib danagi olib tashlangan o'rik mevasining bir pallasi.

**ores 2. or** *loc litt* shu kundan e'tiboran, bundan buyon, bundan keyin, minba'd; **les ordres sont d'ores et déjà donnés** buyruqlar shu kundan e'tiboran berildi.

**orfèvre** *nm* zargar; **orfèvre-joaillier, orfèvre-bijoutier** zargar; *loc* **être orfèvre en la matière** o'z ishining ustasi, qo'li gul, ustasi farang bo'lmoq.

**orfèvrerie** *nf* **1.** zargarlik; **2.** zargarlik buyumlari; **orfèvrerie d'argent massif** kumushdan qilingan zargarlik buyumlari.

**orfraie** *nm* suvburgut; *loc* **pousser des cris d'orfraie** baqirmoq, qichqirmoq.

**organdi** *nm* kraxmallangan nafis paxtadan qilingan mato; **robe d'été en organdi** shu matodan tayyorlangan yozgi ayollar ko'ylagi.

**organe** *nm* **1.** tovush, ovoz, sas; **organe bien timbré** jarangdor ovoz; **2.** tashkilot, organ; **l'organe d'un parti, d'une société savante** partiya organi, biror ilmiy uyushma organi (*gazeta, jurnal*); **3.** a'zo, organ, mucha; **lésion d'un organe** a'zoning jarohatlanishi; **organe de la digestion, de la respiration** ovqat hazm qilish, nafas olish a'zosi; **les organes sexuels** jinsiy a'zolar; **l'organe de la vue** ko'rish a'zosi; **4.** idora, organ; **5.** mexanizm; **organes de commande d'une machine** stanokning boshqaruv mexanizmlari.

**organigramme** *nm* tashkilotning boshqaruv jadvali.

**organique** *adj* organizmga oid, organik; **trouble organique** organik o'zgarish; **2.** organik, jonli, tirik; **chimie organique** organik kimyo; **3.** ajralmas, uzviy; **loi organique** qomus, konstitutsiya, asosiy qonun.

**organisateur, trice** *n* tashkilotchi, uyushtiruvchi, tashabuskor; **l'organisatrice de cette fête** bu bayramning tashkilotchisi; *adj* **puissance organisatrice** tashkilotchilik qudrati.

**organisation** *nf* **1.** tashkilotchilik, uyushtirish; **manque d'organisation** tashkilotchilikning yo'qligi; **avoir l'esprit d'organisation** tashkilotchilik qobiliyati bo'lmoq; **2.** tuzum; tuzilish; **l'organisation judiciaire** sud tuzilishi; **3.** tashkilot, uyushma; **organisation politique** siyosiy tashkilot; **organisation de tourisme, de voyage** turizm, sayohat tashkiloti; **organisation des nations unies** birlashgan millatlar tashkiloti.

**organisé[1], ée** *adj* **1.** uyushgan, tashkil etilgan, tartibli; **voyage organisé** uyushgan sayohat; **esprit organisé** sog'lom aql; **personne bien organisée** tartibli odam; **2.** a'zosi, jalb etilgan; tortilgan; **citoyens organisés en partis** partiyalarga jalb etilgan fuqoralar.

**organisé[2], ée** *adj* yaxshi tuzilgan, tarkib topgan; **les êtres vivants organisés** yaxshi tuzilgan jonzod.

**organiser I.** *vt* **1.** tashkil qilmoq, uyushtirmoq tartibga solmoq; **organiser son temps, sa vie, ses loisirs** vaqtini, hayotini, bo'sh vaqtini tashkil qilmoq; **2.** uyushtirmoq, o'tkazmoq; **organiser un voyage, une fête** sayohat, to'y uyushtirmoq; **II. s'organiser** *vpr* **1.** o'z o'zini tartibga solmoq, tartibli bo'lmoq; **il ne sait pas s'organiser** u o'zini tartibga solishni bilmaydi; **2.** tashkil bo'lmoq, uyushmoq; **un voyage qui s'organise difficilement** qiyinchilik bilan tashkil bo'layotgan sayohat.

**organisme** *nm* **1.** organizm, vujud, tana; **les besoins, les fonctions de l'organisme** organizm ehtiyojlari, faoliyatlari; **2.** murakkab birlik, tuzilish; **une nation est un organisme** millat, bu murakkab birlik; **3.** tashkilot, uyushma; **organisme international** xalqaro uyushma.

**organiste** *n* organ chaluvchi, organchi.

**orgasme** *nm* orgazm, shahvoniy lazzat.

**orge** *nf* **1.** arpa (*o'simlik va shu o'simlikning doni*); **champ d'orge** arpa dalasi; **2.** pivo pishirishda ishlatiladigan arpa doni; *nm* **orge perlé** arpa yormasi; **3. sucre d'orge** arpa shakari, obaki.

**orgeat** *nm* oldinlari arpa qaynatmasidan, hozirda bodom sutidan tayyorlanadigan sharbat.

**orgelet** *nm* govmichcha.

**orgiaque** *adj litt* kayf suradigan, ishratli, bebosh.

**orgie** *nf* kayf-safo, ishrat; **2. orgie de** keragidan ortiq narsa, ortiqcha, mo'llik, seroblik; **des orgies de couleurs** ranglarning mo'lligi.

**orgue** *nm au sing, nf au pl* **1.** *mus* organ; **jouer de l'orgue** organ chalmoq; **orgue de barbarie** sharmanka; **orgue électrique** elektroorgan; **orgue électronique** elektron organ; **2.** *mus* fermata.

**orgueil** *nm* **1.** kibr-havosi balandlik, kalondimog'lik, dimog'dorlik, takabburlik; kekkaymoq; uning dimog'dorligi kulguli, chidab bo'lmaydigan; **2.** g'urur, iftixor, mag'rurlanish, faxrlanish; o'z bolalari bilan faxrlanmoq; u o'z yutuqlaridan g'ururlanadi; u oilasining g'ururi.

**orgueilleusement** *adv* g'urur, iftixor, faxr, mag'rurlik bilan.

**orgueilleux, euse** *adj* g'ururli, mag'rur, kekkaygan, gerdaygan, kerik; **nature orgueilleuse** kerik tabiat; **orgueilleux comme un paon, comme un pou** kekkaygan, kerik odam; *n* kibru-havosi, dimog'i baland odam, kekkaygan odam, mutakabbir, kalondimog', dimog'dor; **c'est une orgueilleuse** bu kibru-havosi baland ayol; **il ressentait une joie orgueilleuse** u bir mutakabbir xursandchilikni his qildi.

**orient[1]** *nm* **1.** *poét* sharq, kun chiqish; **2.** Sharq (*G'arbiy Yevropaga nisbatan sharq tomondagi mamlakatlar, o'lkalar*); **l'Extrême-Orient** Uzoq Sharq.

**orient[2]** *nm* sadaf rang, jiloli; **des perles d'un bel orient** jiloli go'zal durlar.

**orientable** *adj* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan.

**oriental, ale, aux I.** *adj* **1.** sharqiy, kun chiqish tomondagi; **2.** sharqqa xos, sharqona, sharq; **peuples orientaux** sharq xalqlari; **langues orientales** sharq tillari; **II.** *n* sharq kishisi, sharqlik.

**orientaliste** *n* sharqshunos, oriyentalist.

**orientation** *nf* **1.** orentatsiya, orentir olish, o'zining turgan joyini, yo'nalishini aniqlash, yo'nalish olish, mo'ljal olish; **elle n'a pas de sens de l'orientation** unda mo'ljal olish hissi yo'q; **2.** yo'naltirish; **l'orientation des études** o'qishni yo'naltirish; **l'orientation professionnelle** kasbga



www.ziyouz.com kutubxonasi

yo'naltirish; **une conseillère d'orientation** yo'naltirish maslahatchisi; **3.** yo'nalish, boshqarilish; **orientation d'une maison** uyni joylashtirish, biror tomonga qaratib qurish.

**orienter I.** *vt* **1.** yo'naltirmoq, qaratmoq; **appartement bien orienté, orienté au sud** yaxshi joylashtirilgan, janubga qaratib qurilgan uy; **2.** yo'llamoq; yo'naltirmoq; yo'l ko'rsatmoq; **un ouvrage très orienté** ma'lum nazariy yo'nalishga ega bo'lgan nazariy asar; **II. s'orienter** *vpr* **1.** orentirlanmoq, orentir olmoq, o'zining turgan joyini, yo'nalishini aniqlamoq, bilmoq; **elle ne sait pas s'orienter dans cette ville** u bu shaharda orentir ololmayapti; **2.** o'z faoliyatini qaratmoq, yo'naltirmoq, yo'l tutmoq; **s'orienter vers la recherche** fan sari yo'l tutmoq.

**orifice** *nm* **1.** og'iz, teshik; **orifice d'un puis, d'un tuyau** quduqning, quvurning og'zi; **boucher, agrandir un orifice** teshikni berkitmoq, kengaytirmoq; **2.** teshik, bo'shliq; **la bouche est un orifice de l'appareil digestif** og'iz ovqat hazm qilish bo'shlig'idir.

**oriflamme** *nf* bayroq, tug'.

**origan** *nm* tog'rayhon, jambil.

**originaire** *adj* **1.** falon joyda tug'ilgan, falon joylik; asli, kelib chiqqan; **il est originaire de Tunisie** u asli tunislik; **2.** kelib chiqqan, birinchi bo'lib paydo bo'lgan, bosh; **vice originaire** bosh illat.

**originairement** *adv* boshda, dastlab, eng avval, aslida.

**original[1], aux** *nm* asl nusxa, original; **copie conforme à l'original** ko'chirma asl nusxaga mos; **la traduction est fidèle à l'original** tarjima asl nusxani aks ettiradi; **2.** asli, o'zi; **la ressemblance du portrait et de l'original est frappante** portretning va aslining bir biriga o'xshashligi juda hayratli.

**original[2], ale, aux I.** *adj* **1.** *litt* birinchi, asl; **le sens original d'un mot** so'zning birinchi ma'nosi; **2.** asl, chin, haqiqiy; **documents originaux** haqiqiy hujjat, hujjatning asl nusxasi; **édition originale** *ou* **originale** *nf* birinchi bosmasi; asl nusxa; **3.** o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan, o'zgacha; boshqacha, yangicha; **avoir des vues, des idées originales** o'ziga xos qarashlarga, fikrlarga ega bo'lmoq; **esprit très original** o'ziga xos aql egasi; **artiste original** o'ziga xos artist; **4.** g'alati, qiziq; **elle est très originale** u juda g'alati; **II.** *n* o'ziga xos, g'alati, qiziq, qiziq tabiatli odam.

**originalité** *nf* **1.** o'ziga xoslik, boshqalarga o'xshamaslik, o'zgachalik, boshqachalik, yangilik; **l'originalité d'un écrivain, d'une œuvre** yozuvchining, asarning o'ziga xosligi; **il se fait remarquer par son originalité** u o'zining boshqalarga o'xshamasligi bilan boshqalarning diqatini tortti; **2.** o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan, yangi tomon; **les originalités de ce modèle** bu nusxaning o'ziga xos yangi tomonlari.

**origine** *nf* **1.** kelib chiqish; nasl, nasl-nasab; nasli, nasabi, asli; **pays d'origine** asl yurti; **elle est d'origine bourgeoise modeste** u oddiy burjuadan kelib chiqqan; **2.** kelib chiqish, qadimiylik; **une coutume d'origine ancienne** qadimdan qolgan udum; **origine d'un mot** so'zning kelib chiqishi, etimologiyasi; **3.** kelib chiqishi, junatilish joyi; **4.** paydo bo'lish, tug'ilish, kelib chiqish; **à l'origine du monde, des temps** dunyoning, zamonning paydo bo'lishida; *loc adv* **à l'origine** boshda, paydo bo'lishda; **5.** *pl* boshi, paydo bo'lishi; **les origines de la vie** hayotning boshi; **6.** manba, asos; **origine d'une révolution** revolutsiyaning asosi.

**originel, elle** *adj* bosh, birinchi, daslabki, asl; **sens originel d'un mot** so'zning dastlabki ma'nosi; *relig* **le péché originel** dastlabki gunoh (*xudo yaratgan birinchi odamning gunohi*).

**originellement** *adv* boshda, dastlab, aslida, avval boshda.

**orignal, aux** *nm* Kanada losi.

**oripeaux** *nm pl* juldur kiyim, uvada (*moda qilib kiyiladigan*).

**orme** *nm* **1.** qayrag'och, bujun, gujum; **2.** shu daraxtning yog'ochi.

**ormeau[1]** *nm* qayrag'och, bujun, gujum ko'chati.

**ormeau[2]** *nm* molluskaning iste'mol qilinadigan bir turi.

**ornement** *nm* **1.** bezash, bezatish, yasatish; **2.** bezak; **ornement de tapisserie** kashta bezaklari; **3.** bezak, pardoz; **les ornements d'un édifice** imoratning bezaklari.

**ornemental, ale, aux** *adj* bezash, zeb-ziynat berish uchun xizmat qiladigan, manzarali, ziynatli; **style ornemental** zeb berish uchun ishlatiladigan uslub.

**ornementation** *nf* bezash, naqsh solish; **un sens inné de l'ornementation** solingan bezaklarning uyg'unligi.

**ornementer** *vt* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq.

**orner** *vt* **1.** bezamoq, bezatmoq, yasamoq; **une broche orne sa robe** kashta uning ko'ylagini bezab turibdi; **2. orné de** bezatilgan; **un chemisier orné de dentelles** to'rlar bilan bezatilgan bluzka.

**ornière** *nf* **1.** g'ildirak izi; **2.** qoloqlik, mutaassiblik, eskilik, jaholat; **il reste dans l'ornière** u jaholatda qolyapti; **sortir de l'ornière** jaholatdan, qiyin ahvoldan chiqmoq.

**ornithologie** *nf* ornitologiya, parrandashunoslik.

**ornithologique** *adj* ornitologiyaga, parrandashunoslikka oid.

**ornithologue** *n* ornitolog, parrandashunos.

**ornithorynque** *nf* o'rdakburun.

**oronge** *nf* qo'ziqorin turi; **oronge** iste'mol qilinadigan qo'ziqorin turi; **fausse oronge** zaharli qo'ziqorin turi.

**orpaillage** *nf* oltin yuvish.

**orpailleur** *nm* oltin qidiruvchi, oltin yuvuvchi.

**orphelin, ine** *n, adj* yetim, sag'ir; **un orphelin de père et de mère** hech kimi yo'q yetim, sag'ir; **un enfant orphelin** yetim bola.

**orphelinat** *nm* yetimxona, bolalar uyi.

**orphéon** *nm* fanfara, karnay sadolari.

**orphique** *adj* orfiklar ta'limotiga oid.

**orphisme** *nm* orfiklar ta'limoti.

**orque** *nf* kasatka (*kitlarning yirtqich bir turi*); **l'orque est carnivore** kosatka yirtqich sut emizuvchi.

**orteil** *nm* oyoq barmog'i; **le gros orteil** oyoqning bosh barmog'i.

**orthodoxe I.** *adj* **1.** *relig* izchil, sobitqadam, sodiq, mustahkam e'tiqodli; **théologien orthodoxe** izchil teolog; **communiste orthodoxe** sodiq kommunist; **2.** konservativ, an'anaviy; **morale orthodoxe** konservativ axloq; **cette manière de procéder n'est pas très orthodoxe** bunday ish yuritish uslubi juda ham an'anaviy emas; **3.** pravoslaviyega oid; pravoslaviye (*sharqiy nasroniy cherkovlari haqida*); **église orthodoxe russe, grecque** pravoslaviye rus, grek cherkovi; **rite orthodoxe** pravoslaviye marosimi; **II.** *n* pravoslav; sobitqadam; **les orthodoxes grecs** grek pravoslavlari. **les orthodoxes et les dissidents du parti** partiyaning sodiqlari va murtadlari.

**orthodoxie** *nf* dogma, din aqidalari; **l'orthodoxie catholique** katolik din aqidalari; **2.** izchillik, sobitqadamlik, sodiqlik, e'tiqodi mustahkamlik; **l'orthodoxie d'une déclaration** bayonotning izchilligi.

**orthogonal, ale, aux** *adj géom* ortogonal, to'g'ri burchakli, perpendikulyar; **droites orthogonales** perpendikulyar chiziqlar; **projection orthogonale** ortogonal proyeksiya.

**orthogonalement** *adv* perpendikulyar, to'g'ri burchak ostida.

**orthographe** *nf* **1.** orfografiya, imlo, to'g'ri yozish; **avoir une bonne, une mauvaise orthographe** imlosi yaxshi, yomon bo'lmoq; **2.** yozilish, yozilish shakli; **orthographe fautive** xato yozilish; **3.** yozuv; **l'orthographe russe** rus yozuvi.

**orthographier** *vt* to'g'ri yozmoq; **mot mal orthographié** noto'g'ri yozilgan so'z.

**othographique** *adj* orfografiyaga, imloga oid; orfografik, imloviy; imlo; **réforme orthographique** imloviy islohot.

**orthopédie** *nf* **1.** ortopediya (*meditsinaning suyak illatlarini o'rganadigan va ularni davolash bilan shug'ullanadigan bo'limi*); **2.** *ayrim hollarda* ichki a'zolar ortopediyasi.

**orthopédique** *adj* ortopediyaga oid, ortopedik; ortopediya; **appareil orthopédique** ortopedik apparatlar.

**orthopédiste I.** *n* ortoped, ortopediya mutaxassisi; **II.** *adj* **médecin orthopédiste** ortoped vrach.

**orthophonie** *nf* logopediya (*duduqlik va uni davolash haqidagi fan*).

**orthophoniste** *n* logoped; **cette orthophoniste rééduque les dyslexiques et les bègues** bu logoped o'qib tushunolmaydigan va duduqlarni qayta tarbiyalaydi.

**ortie** *nf* qichitqi o't, gazanda o't; **des piqûres d'ortie** qichitqi o'tning sanchilishi, chaqishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ortolan** *nm* bog‘ chumchug‘i; **manger des ortolans** noyob taom yemoq.

**orvet** *nm* oyoqsiz kaltakesak; sariq ilon.

**os** *nm pl* **1.** suyak, so‘ngak, ustuxon; **avoir les os saillants** suyaklari chiqqan, oriq bo‘lmoq; *loc* **il n'a que la peau sur les os** eti borib suyagiga yopishgan; **c'est un sac d'os, un paquet d'os** qoq suyak, quruq suyak; **se rompre les os** qattiq yiqilmoq; *loc* **en chair et en os** shaxsan o‘zlari; **il ne fera pas de vieux os** u uzoqqa bormaydi (*u uzoq yashamaydi*); **ne pas faire de vieux os quelque part** biror joyda uzoq qolmaslik; **être mouillé, trempé jusqu'aux os** suyak-suyagigacha, ich-ichigacha ivib ketgan bo‘lmoq; *loc fam* **l'avoir dans l'os** laqillatilgan, tunalgan bo‘lmoq; **os à mœlle** ilikli suyak; *loc fam* **tomber sur un os, il y a un os!** qiyinchilikka duch kelmoq; ishkali chiqdi! **2.** *pl* xok; **3.** suyak, dandon; **couteaux à manche en os** dandon sopli pichoqlar.

**oscar** *nm* oskar mukofoti (*kino va shunga o‘xshash sohalar uchun beriladi*); **oscar de la chanson, de la publicité** ashula, reklama uchun berilgan oskar; **il a reçu plusieurs oscars** u bir necha oskar oldi.

**oscillant, ante** *adj* **1.** tebranuvchi; **2.** taraddudda qolgan, ikkilanadigan, ikkilanuvchi.

**oscillation** *nf* **1.** tebranish; **oscillation d'un pendule** osma soat mayatnigining tebranishi; **2.** o‘zgarib turish; **les oscillations de l'opinion** fikrning o‘zgarib turishi.

**osciller** *vi* **1.** tebranmoq, chayqalmoq, pirpiramoq, hilpiramoq; **le courant d'air fit osciller la flamme** shabada alangani pirpiratyapti; **2.** ikkilanmoq, taraddudlanmoq; **osciller entre deux positions, deux partis** ikki nuqtai nazar, ikki partiya o‘rtasida taraddudlanmoq.

**osé, ée** *adj* **1.** dadil, jasur, botir, mardonavor; **démarche, tentative osée** dadil ish, harakat; **c'est bien osé de votre part** bu siz tomoningizdan juda mardonavor ish; **2.** qaltis, o‘rinsiz, qo‘pol; **plaisanteries osées** qaltis hazillar; **une scène osée** qaltis mashmasha; **2.** jasur, dovyurak, mard, jur'atli, jasoratli, qo‘rqmas, botir, mardonavor.

**oseille** *nf* **1.** otquloq, shovul; **soupe à l'oseille** otquloq, shovul sho‘rva; **2.** *fam* pul; **avoir de l'oseille** boy bo‘lmoq.

**oser** *vt* **1.** *litt* jur'at qilmoq, yuragi dov bermoq, botinmoq; **oser faire qqch** botinmoq, jur'at etmoq, jasorat, botirlik qilmoq; yurak yutmoq, yuragi dov bermoq; **allez-y! je n'ose pas** boring! yuragim dov bermayapti; **il a osé me faire des reproches** u menga ta'na qilishga jur'at etdi; **si j'ose dire** agar deyishga jur'at etsam; **2.** o‘zni qo‘lga olmoq, tavakkal qilmoq.

**oseraie** *nf* tolzor.

**osier** *nm* **1.** tol, qoratol; **branches d'osier** tol shoxlari; **2.** tol novdasi; **panier d'osier** tol novdasidan to‘qilgan savat; **fauteuil en osier** tol novdasidan qilingan o‘rindiq.

**osmose** *nf phys* **1.** osmos; **phénomène d'osmose** osmos hodisasi; **2.** o‘zaro ta'sir; **il y a eu une sorte d'osmose entre ces deux courants de pensée** bu ikki fikr oqimida bir biriga o‘ziga xos ta'sir bo‘ldi.

**ossature** *nf* **1.** gavda suyaklari, skelet; **une ossature robuste** baquvvat gavda suyagi; **2.** sinch, qobirg‘a; **l'ossature en béton d'un immeuble** binoning beton qobirg‘asi; **3.** asosiy mazmun, mohiyat, mag‘iz; **ce discours n'est pas construit, il n'a pas d'ossature** bu nutq yaxshi tuzilmagan, uning asosi yo‘q.

**osselet** *nm* **1.** suyakcha; **les osselets de l'oreille** quloq pardasi bo‘shlig‘idagi suyakchalar; **2.** beshtosh, happak; **tu veux jouer aux osselets?** beshtosh o‘ynashni xohlaysanmi?

**ossements** *nm pl* suyaklar, skeletlar (*o‘lik odam yoki hayvonlarning*); **des ossements blanchis par le temps** vaqt o‘tishi bilan oqarib ketgan suyaklar.

**osseux, euse** *adj* **1.** suyakli, suyak; **tissu osseux** suyak to‘qimasi; **2.** g‘oyat ozg‘in, qoq suyak; quruq suyak, suyaklari bo‘rtib chiqqan; **un visage émacié, osseux** ozib ketgan, qoq suyak yuz.

**ossifier I.** *vt* suyakka aylantirmoq; **II. s'ossifier** *vpr* ohakka aylanib qolmoq, qotib qolmoq.

**osso buco** *nm inv* buzoqning ilikli oyoq suyagi, guruch, pomidor qo‘shib tortiladigan italyancha ovqat.

**ossuaire** *nm* **1.** suyaklar to‘plami; **2.** yer ostida odam suyaklari saqlanadigan joy; **3.** ostadon, ossuariy.

**ostensible** *adj litt* ochiq, ochiqdan-ochiq, oshkora, ro‘yrost, ochiqchasiga qilingan.

**ostensiblement** *adj* ochiqchasiga, ochiqdan-ochiq, ro‘yrost, oshkorachasiga; **il haussa ostensiblement les épaules** u ochiqchasiga yelkasini qisdi.

**ostensoir** *nm* cherkovda yeyiladigan tuzsiz kichik kulchalar turadigan idish.

**ostentation** *nf* maqtanish, mag‘rurlanish, ko‘z-ko‘z qilish, ataylab ko‘rsatish; **agir par ostentation, avec ostentation** mag‘rurlanish uchun bir ish qilmoq.

**ostentatoire** *adj litt* maqtanish, mag‘rurlanish, ko‘z-ko‘z qilish, ataylab ko‘rsatish uchun, hamma ko‘rib qo‘ysin deb qilingan; **charité ostentatoire** hamma ko‘rib qo‘ysin deb qilingan ehson.

**ostracisme** *nm* quvg‘in qilish, quvg‘in ostiga olish, quvg‘inlik; **être victime de l'ostracisme de** quvg‘inining qurboni bo‘lmoq.

**ostréiculteur, trice** *n* ustritsalar bilan shug‘ullanuvchi odam.

**ostréiculture** *nf* ustritsalar yetishtirish.

**ostrogoth, gothe** *n, adj* **1.** ostgot; **2.** johil; **quel ostrogoth!** qanday johil! **3.** maqtanchoq, kerik.

**otage** *nm* garov tariqasida tutib turilgan kishi, garov; **servir d'otage** garov bo‘lib xizmat qilmoq; **ils se sont emparés d'otages** ular garovga odamlarni ushlab qolishdi; **les terroristes ont revendiqué cette prise d'otages** terroristlar bu garovga olishni o‘z gardanlariga olishdi.

**otarie** *nf* mo‘ylabli tulen; uning terisi, mo‘ynasi.

**ôter I.** *vt* **1.** joyidan olib qo‘ymoq, yig‘ishtirmoq; **ôter les assiettes en desservant** dasturxonni yig‘ishtirayotib tarelkalarni olib qo‘ying; **cela m'ôte un poids (de la poitrine)** yelkamdan tog‘ qulaganday bo‘ldi; **on ne m'ôtera pas de l'idée que c'est un mensonge** hech kim bu narsa yolg‘on emasligiga meni ishontirolmaydi; **2.** yechmoq, olmoq; **ôter son chapeau, ses gants** shlapasini olmoq, qo‘lqopini yechmoq; **3.** olib tashlamoq, ketkazmoq; **ôter une tache** dog‘ni ketkazmoq; **4.** olib tashlamoq, ayirmoq; **6 ôté de 10 égale 4** o‘ndan olti ayirilsa to‘rt qoladi; **5.** olib qo‘ymoq, ajratib qo‘ymoq; **ôter un enfant à sa mère** bolani onasidan ajratib qo‘ymoq; **ôter à qqn ses forces, son courage** birovning kuchini, dadilligini olib qo‘ymoq; **II. s'ôter** *vpr* **ôtez-vous de là** bu yerdan jo‘nang; *loc fam* **ôte-toi de là que je m'y mette** joyni bo‘shat, bu yerga men o‘tiraman.

**otite** *nf* otit, quloq yallig‘lanishi.

**oto-rhino-laryngologie** *nf* otorinolaringologiya.

**oto-rhino-laryngologiste** *fam* **oto-rhino,** *abrév* **O.R.L.** *n* otorinolaringolog, quloq, tomoq, burun kasalliklari vrachi, lor.

**ottoman, ane** *adj, n vx* turk, usmonli turk; **l'empire ottoman** usmonli turk imperiyasi.

**ou** *conj* **1.** yoki, ya'ni, boshqacha aytganda; **la coccinelle, ou bête à dieu** xonqizi yoki tugmacha qo‘ng‘iz; **2.** yo, yoki; **son père ou sa mère pourra (ou pourront) l'accompagner** uni yo onasi yo otasi kuzatib qo‘ya oladi; **un groupe de quatre ou cinq hommes** besh yoki olti kishili guruh; **acceptez-vous, oui ou non?** rozimisiz, ha yoki yo‘q? **3.** yo‘q esa, yo bo‘lmasa, aks holda, yoinki; **donnez-moi ça ou je me fâche, ou alors je me fâche** menga buni bering, aks holda mening achchig‘im chiqib ketadi; **ou… ou…** yoki… yoki…, yo… yo…; **ou plutôt** yoki, balki yaxshisi; **je vais y aller, ou plutôt non, vas-y, toi** hozir u yerga boraman, yoki yaxshisi bormayman, u yerga sen bor; **ou même** balki, hattoki; **on partira dimanche ou même lundi** yakshanba kuni ketishadi, balki dushanba.

**où I.** *pron rel* **le pays où il est né** u tug‘ilgan yurt; **elle le retrouva là où elle l'avait laissé** u uni qoldirib ketgan joyidan topdi; **je cherche une villa où passer mes vacances** men ta'tilni o‘tkazgani dacha qidiryapman; **on ne peut le transporter dans l'état où il est** uni bu holatda olib ketib bo‘lmaydi; **au prix où est le beurre** sariyog‘ning hozirgi bahosida; **du train, au train où vont les choses** narsalar kelayotgan poyezddan, poyezdda; **au cas où il viendrait** u kelgan holda; **au moment où il arriva** u kelgan vaqtda; **II.** *adv rel* qayerda, qayerga; **j'irai où vous voudrez** men siz xohlagan joyga boraman; **on est puni par où l'on a péché** qilmish-qidirmish; **où que** qayerda, qayerga bo‘lsa ham; **mais où ma colère éclata, ce fut quand il nia tout** u hamma narsani inkor qilgan paytda, mening jahlim chiqib ketdi;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**d'où** qayerdan; **d'où vient, d'où il suit que, d'où il résulte que** qayerdan kelyapti, qayerdan kelyaptiki, qayerdan kelib chiqyaptiki; **il ne m'avait pas prévenu de sa visite: d'où mon étonnement** u o'zining kelishi haqida meni ogohlantirmagan edi: mening hayron bo'lishim shundan; **III.** *adv intr* qayerda? qayerdan? **où est votre frère?** akangiz qayerda? **où trouver cet argent?** bu pulni qayerdan topaman? **d'où vient-il?** u qayerdan kelyapti? **par où est-il passé?** u qayerdan o'tdi? **dis-moi où tu vas** qayerga ketayotganingni menga ayt; **je ne sais où aller** men qayerga borishimni bilmayman; **n'importe où** qayerda bo'lsa ham, qayerda bo'lishidan qattiy nazar; **dieu sait où; je ne sais où** xudo biladi qayerda; men bilmadim qayerda.

**ouailles** *nf pl* qavm (*biror cherkovga qatnaydigan ibodatchilar*); **le curé et ses ouailles** kyure va uning qavmi.

**ouais** *intj fam* ha (*kesatish, ishonchsizlik*) **tu viens? – ouais, j'arrive** kelyapsanmi? – ha, kelyapman.

**ouate** *nf* **1.** momiq paxta; momiq; **de l'ouate, de la ouate** momiq paxtali; **2.** momiq, vata; **tampon d'ouate** vata tampon.

**ouaté, ée** *adj* momiq paxta solingan, paxtali.

**ouater** *vt* momiq paxta solmoq; **il faut l'ouater, le ouater** unga momiq paxta solish kerak.

**ouatine** *nf* vatin (*astar bilan avra orasiga qo'yiladigan sermomiq mato*); **manteau doublé de ouatine** vatin solingan palto.

**ouatiner** *vt* vatin solmoq.

**oubli** *nm* **1.** unutish, esdan, yoddan chiqarish, esdan chiqarib qo'yish; **l'oubli d'un nom, d'une date, d'un événement** familiyani, sanani, hodisani unutish; **tomber dans l'oubli** esdan chiqib ketmoq; **2.** unutish, parishonlik, parishonxotirlik, xayol qochganlik, xatolik; **commettre, réparer un oubli** xato qilmoq, xatoni tuzatmoq; **3.** o'zini unutish, o'z manfaatlaridan voz kechish; **oubli de soi-même** o'z manfaatlarini unutish; **pratiquer l'oubli des injures** haqoratlarni kechirishni, unutishni rasm qilmoq.

**oublier I.** *vt* **1.** unutmoq, unutib, esdan chiqarib qo'ymoq, esdan, yoddan, xotirdan chiqarmoq; **il oublie tout** u hamma narsani esdan chiqarib qo'yadi; **2.** esdan chiqarib qo'ymoq, unutib qo'ymoq; **oublier la pratique d'un métier** kasb malakasini esdan chiqarib qo'ymoq; **il apprend vite et oublie de même** u tez o'rganadi va xuddi shunday esdan chiqaradi; **3. être oublié** esdan chiqib ketgan, unutilgan bo'lmoq; **se faire oublier** o'zi haqida gapirmaydigan qilib qo'ymoq, o'zini unuttirmoq; **je serais à ta place, je me ferais oublier** men sening o'rningda bo'lsam, mening haqimda gapirmaydigan qilib qo'yar edim; **4.** unutmoq, esdan chiqarmoq, xotirdan chiqarmoq; **5.** yoddan chiqarmoq, xotirdan ko'tarilmoq, esdan chiqarmoq, unutmoq; **oublier l'heure** vaqtni unutmoq; **vous oubliez que c'est interdit** siz bu narsa taqiqlanganligini unutyapsiz; **6.** unutmoq, esidan chiqarib qo'ymoq, unutib qoldirmoq; **j'ai oublié mon parapluie au cinéma** men zontigimni kinoteatrda unutib qoldiribman; **7.** unutmoq, esdan, yoddan chiqarib yubormoq, esga olmay qo'ymoq, xotirlamay qo'ymoq; **8.** unutmoq, unutib, esdan chiqarib qo'ymoq, esdan, yoddan, xotirdan chiqarmoq; **vous oubliez vos promesses** siz va'dalaringizni unutib qo'yyapsiz; **vous oubliez qui je suis** siz mening kimligimni unutyapsiz; **n'en parlons plus, j'ai tout oublié** bu haqda boshqa gapirmaylik, men hammasini unutdim; **II. s'oublier** *vpr* **1.** unutilmoq, esdan chiqib qolmoq, yoddan, xayoldan ko'tarilib ketmoq; **tout s'oublie** hamma narsa unutiladi; **2.** o'zini unutmoq, esdan chiqarmoq; *iron* **il ne s'oublie pas** u o'zini unutmaydi, o'z manfaatini esidan chiqarmaydi; **3.** kimligini unutmoq, esdan chiqarmoq; haddidan oshmoq; **4.** ishtoniga qilib qo'ymoq; bulg'amoq, bulg'ab qo'ymoq; **le chat s'est oublié dans la maison** mushuk uyda bulg'ab qo'ydi.

**oubliette** *nf* qamab qo'yish uchun xizmat qiladigan alohida xona, xilvatxona; **les oubliettes d'un château** qasrning alohida xilvatxonalari; *fam* **jeter, mettre aux oubliettes** xilvatga chiqarib qo'ymoq, esdan chiqarib yubormoq, chetga surib qo'ymoq; **un acteur tomber dans les oubliettes** xilvatda qolgan aktyor.

**oublieux, euse** *adj* unutadigan, esdan chiqaradigan, unutuvchan, faromushxotir; **oublieux de** unutuvchan; **oublieuse de ses devoirs** o'z vazifalarini unutuvchan.

**oued** *nm* Afrikadagi qurib qoladigan daryo o'zani.

**ouest I.** *nm* **1.** g'arb, kun botish; **chambre exposée, orientée à l'ouest** g'arb tomonga joylashgan, qaragan xona; **à l'ouest de** g'arb tomonida; **2.** g'arb; **la France de l'ouest** G'arbiy Fransiya; **II.** *adj inv* g'arbiy, g'arbdagi, g'arb tomondagi; g'arb, g'arbona; **la côte ouest de la Corse** Korsikaning g'arbiy qirg'oqlari.

**ouf** *intj* uf (*yengil tortishni bildiradi*); **ouf! bon débarras** uf! bittasidan qutuldim; *loc* **il n'a pas eu le temps de dire ouf** uning miq etishga, biror og'iz so'z aytishga vaqti bo'lmadi.

**oui I.** *intj* **1.** ha; ha shunday, xuddi shunday, balli; ha; ha shunday, xuddi shunday; **êtes-vous satisfait? oui et non** ko'nglingiz to'ldimi? ha ham deyolmayman, yo'q ham; **mais oui** ha, albatta; **mon dieu oui** e xudoyim-e, ha; **oui, bien sûr** ha, albatta; **ma foi, oui** rost gapim, ha; **eh! oui** e! ha; **ah oui alors!** ha, endi! **eh bien oui** juda yaxshi, ha; **il dit toujours oui** u har doim ha deb javob beradi; **ne dire ni oui, ni non** na ha na yo'q demaslik; **répondez-moi par oui ou par non** menga ha yoki yo'q deb javob bering; **en voulez-vous?** undan xohlaysizmi? **si oui, prenez-le** agar ha desangiz, uni oling; **sont-ils français? lui, oui, mais elle, non** ular fransuzlarmi? erkak kishi, yo'q, lekin ayol kishi, ha; **2.** shundaymi? shunday emasmi? a? **ah oui?** shundaymi? *fam* **tu viens, oui?** sen borasan, shundaymi? **est-ce lui, oui ou non?** bu o'shami, shundaymi yoki yo'q? **II.** *nm inv* tarafdarlar, halar; **les millions de oui d'un référendum** referendumdagi millionlab tarafdorlar; *loc* **pour un oui pour un non** asossiz, arzimagan narsa uchun.

**ouï-dire** *nm inv* ovoza, mish-mish gaplar; *loc* **par ouï dire** mish-mishlarga qaraganda.

**ouïe** *nf* **1.** eshitish qobiliyati, eshitish; quloq; **organes de l'ouïe** eshitish a'zolari; **son perceptible à l'ouïe** quloq eshita oladigan ovoz; **avoir l'ouïe fine** qulog'i o'tkir bo'lmoq, kuy va ohanglarni yaxshi farq qilmoq; *fam plais* **je suis tout ouïe** mening butun qulog'im sizda; **2.** *pl* oyquloq; **attraper un poisson par les ouïes** baliqni oyqulog'idan ushlab olmoq.

**ouille** *intj* voy, vay, voy-voy (*og'riq, hayrat, norozilikni ifodalaydi*).

**ouïr** *vt vx* eshitmoq, tinglamoq; **j'ai ouï dire que** men eshitdimki.

**ouistiti** *nm* uistiti (*kichkina, uzun dumli maymun*); *fam* **un drôle de ouistiti** g'alati nusxa.

**oukase** *ou* **ukase** *nm* **1.** farmon *(hokimiyat oliy organining qonun kuchiga ega bo'lgan qarori)*; **2.** buyruq; ko'rsatma; namuna.

**ouragan** *nm* **1.** dovul, bo'ron, to'fon; **la mer des Antilles est souvent agitée par des ouragans** Antil dengizida tez-tez to'fon bo'lib turadi; **arbres arrachés par l'ouragan** dovul qo'parib tashlagan daraxtlar; **2.** his-tuyg'u g'alayoni, tug'yon; **un ouragan d'injures** haqorat tug'yoni.

**ourdir** *vt* **1.** *techn* bir miqdor eshmoq, pishitmoq, eshmoq; **2.** o'ylab qo'ymoq, niyat qilmoq, chalkashtirmoq, uyushtirmoq, qurmoq, to'qimoq; **ourdir un complot** fitna uyushtirmoq; **c'est son habitude d'ourdir ces sortes d'affaires** bunday ishlarni to'qib yurish uning odati.

**ourlé, ée** *adj* hoshiyalangan, hoshiya tutilgan, hoshiya solingan; **mouchoirs ourlés** hoshiyalangan ro'molcha.

**ourler** *vt* **1.** bukib, qayirib qo'ymoq, chetini bostirmoq; **2.** hoshiyalamoq, hoshiya tutmoq, hoshiya solmoq; **ourler un mouchoir** ro'molchani hoshiyalamoq.

**ourlet** *nm* hoshiya, jiyak, uqa; **faire un ourlet à un pantalon** shimga hoshiya tikmoq; **faux ourlet** yasama hoshiya.

**ours** *nm inv* **1.** ayiq; **ours brun, d'Europe et d'Asie** qo'ng'ir ayiq, Yevropa va Osiyo ayig'i; **ours polaire, ours blanc** oq ayiq; **2.** *loc* **vendre la peau de l'ours** tug'ilmagan bolaga beshik; **tourner comme un ours en cage** jahl bilan borib kelib turmoq, huddi qafasdagi hayvonday; **3.** ayiq (*o'yinchoq*); **il dort encore avec son ours** u hali ham ayiqchasi bilan uxlaydi; **4.** odamovi, yovvoyi; **c'est un vieil ours** bu eskitdan odamovi odam; *adj* **il devient de plus en plus ours** u ancha odamovi bo'lib boryapti.

**ourse** *nf* urg'ochi ayiq; **une ourse et ses petits** urg'ochi ayiq va bolalari; **la Petite Ourse** Kichik Ayiq, Kichik Yetti og'ayni; **la Grande Ourse** Katta Ayiq, Katta Yetti og'ayni; **l'étoile polaire appartient à la petite ourse** Shimol Qoziq yulduzi Kichik Ayiqqa taalluqli.

**oursin** *nm* dengiz tipratikani; **manger des huitres et des oursins** ustritsa va dengiz tipratikonlarini yemoq.

**ourson** *nm* ayiq bolasi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**oust, ouste** *intj fam* **1.** tezroq, bo'l, qimirla; **allez, ouste, dépêche-toi!** yur, bo'l, tezroq qimirla! **2.** qoch, jo'na, nari tur.

**out** *adv, adj inv anglic* aut (*sport o'yinlarida to'pning, shaybaning maydondan tashqari holati*); **la balle est out** to'p autga chiqib ketdi.

**outarde** *nf* tuvaloq, to'xtatuvoloq.

**outil** *nm* **1.** qurol, asbob; **outils de jardinage** bog'dorchilik asboblari; **2.** qurol, vosita; **sa voiture est son outil de travail** uning avtomobili uning ish quroli; **ce dictionnaire est un outil indispensable pour un élève** bu lug'at o'quvchi uchun ajralmas ish quroldir.

**outillage** *nm* asbob-uskuna; **l'outillage perfectionné d'une usine moderne** zamonaviy zavodning takomillashtirilgan asbob-uskunasi.

**outiller I.** *vt* uskunalamoq, asbob-uskuna bilan ta'minlamoq, jihozlamoq; **ouvrier bien, mal outillé** yaxshi, yomon qurollangan ishchi; **vous n'êtes pas outillé pour cela!** bu ishni qilish uchun siz qurollanmagansiz! **II. s'outiller** *vpr* qurollanmoq, jihoz sotib olmoq, yetarli asbob-uskunaga ega bo'lmoq; **il faudra vous outiller pour ce travail** bu ish uchun siz qurollanib olishingiz kerak.

**outrage** *nm* **1.** qattiq tahqir, qattiq haqorat, ozor, ranj, ranj-alam; **les outrages qu'on leur a fait subir** ularni mahkum qilishgan qattiq tahqirlar; *litt* **les outrages du temps** hayot ranj-alamlari; **2.** haqoratlash, tahqirlash, hurmatsizlik qilish, kamsitish; **3.** haqoratlash, tahqirlash, yerga urish, ustidan kulish, buzish; **outrage à la raison, au bon sens** fahm-farosatni, to'g'ri fikrni yerga urish; **outrage aux bonnes mœurs** urf-odatlarni tahqirlash.

**outrageant, ante** *adv* haqoratli, tahqirli, kamsituvchan; **critique, propos outrageants** haqoratli tanqid, g'iybat.

**outrager** *vt* **1.** haqorat qilmoq, haqoratlamoq, so'kmoq, tahqirlamoq; **il l'a outragée** u uni haqorat qildi; **elle a pris un air outragé** u tahqirlangan ahvolga tushdi; **2.** buzmoq, oyoq osti qilmoq, tahqirlamoq, haqorat qilmoq; **outrager les bonnes mœurs, la morale** urf-odatlarni, axloqni oyoq osti qilmoq.

**outrageusement** *adv* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari, ortiq darajada; **femme outrageusement fardée** haddan tashqari bo'yangan ayol.

**outrance** *nf* **1.** haddan tashqarilik, o'ta ortiqchalik; **une outrance de langage** nutqning o'ta ortiqchaligi; **l'outrance de son langage** uning gapini o'ta oshirib yuborilishi; **2.** *loc adv* **à outrance** g'oyat, nihoyatda, juda, juda ham.

**outrancier, ière** *adj* haddan tashqari, g'oyat, benihoyat, juda; **caractère outrancier** haddan tashqari tabiat.

**outre**[1] *nf* mesh, sanoch; **outre de vin** vino meshi; *loc* **être gonflé, plein comme une outre** meshday shishgan, qorni meshday shishgan.

**outre**[2] **I.** *adv* **1.** narigi tomonida, ortida; **outre-Atnlantique** Atlantikaning narigi tomonida (*Amerikada*); **outre-Manche** Lamanshning narigi tomonida; *n* **les peuples d'outre-mer** dengiz orti xalqlari; **2. passer outre** chegarasidan o'tib ketmoq; chegeradan chiqib ketmoq, iltifotsizlik ko'rsatmoq; **je passai outre à son interdiction** men uning taqiqlash chegarasidan chiqib ketdim; **II.** *prép* -dan tashqari, shu bilan birgalikda; **outre le fait que** bu dalildan tashqari; *loc adv* **outre mesure** o'ta, haddan tashqari, haddan ziyod, ortiq darajada; **ce travail ne l'a pas fatigué outre mesure** bu ish uni haddan tashqari charchatgani yo'q; *loc adv* **en outre** -dan tashqari, shu bilan birgalikda, buning ustiga, ustiga ustak, shuningday; **il est tombé malade (et) en outre, il a perdu sa place** u kasal bo'lib qoldi, ustiga ustak ish joyini ham yo'qotdi.

**outré, ée** *adj* **1.** orttirib, ko'pirtirib yuborilgan; **flatterie outrée** orttirib yuborilgan maqtov; **2.** ranjigan, dili og'rigan, jahli chiqqan, darg'azab; **je suis outré de, par son ingratitude** men uning ko'rnamakligidan ranjidim.

**outrecuidance** *nf litt* **1.** balandarvozlik, manmanlik, takabburlik, dimog'dorlik, gerdayish, kekkayish; **parler de soi avec outrecuidance** o'zi haqida gerdayib gapirmoq; **2.** surbetlik, bezbetlik, beorlik, uyatsizlik, yuzsizlik; **il me répondit avec outrecuidance** u menga surbetlik bilan javob berdi.

**outrecuidant, ante** *adj litt* gerdaygan, kekkaygan, manman, takabbur, surbet, beor, yuzsiz; *n* **c'est un outrecuidant** bu surbet odam.

**outremer** *nm* moviy rang; **de beaux outremers** moviy rangli.

**outrepasser** *vt* chetga chiqmoq, chegaradan chiqmoq, buzmoq; **outrepasser ses droits** o'z haq-huquqlari chegarasidan chetga chiqmoq.

**outrer** *vt* **1.** *litt* orttirib, bo'rttirib ko'rsatmoq, bo'rttirmoq, mubolag'a qilmoq, ko'pirtirib yubormoq; **outrer une pensée, une attitude** fikrni, munosabatni bo'rttirib yubormoq; **2.** *murakkab zamonlarda* achchiqlantirmoq, jahlini chiqarmoq, g'azabini keltirmoq, qo'zg'amoq; **votre façon de parler de sa mort m'a outré** sizning uning o'limi haqida bunday gapirishingiz mening jahlimni chiqardi.

**outsider** *nm anglic* autsayder, noma'lum, notanish ot (*chavandozlikda*); **le prix a été remporté par un outsider** sovrinni noma'lum bir ot olib ketdi; **des outsiders** autsayderlar.

**ouvert, erte** *adj* **1.** ochiq; **porte, fenêtre ouverte** ochiq eshik, deraza; **grand ouvert** lang ochiq; **2.** ochiq, kirsa bo'ladigan (*joy*); **magasin ouvert** ochiq magazin; **le musée est ouvert** muzey ochiq; **3.** ochiq (*tashqari bilan aloqada*); **bouche ouverte, yeux ouverts** ochiq og'iz, ochiq ko'z; **sons ouverts** ochiq tovush; **o ouvert** ochiq o; **robinet ouvert** ochiq jo'mrak; **le gaz est ouvert** gaz ochiq; **4.** ochiq, ochilgan, yozilgan; **main ouverte** yoziq barmoqlar; **fleur ouverte** ochilgan gul; **à bras ouverts** quchoq ochib; **lire le latin à livre ouvert** lotin tilini sharillatib o'qimoq; **chemise ouverte** ochiq ko'ylak; **5.** ochiq, yorilgan, teshilgan; **opération à cœur ouvert** ochiq yurak operatsiyasi; **6.** ochiq (*foydalansa bo'ladigan*); **canal ouvert à la navigation** kemalar harakati uchun ochiq kanal; **bibliothèque ouverte à tous** hamma uchun ochiq kutubxona; **des espaces ouverts** ochiq maydonlar; **ville ouverte** ochiq shahar; **7.** ochiq (*ruxsat etilgan, boshlangan*); **la chasse, la pêche est ouverte** ov, baliq ovi ochiq; **8.** ochiq ko'ngil, ko'nglidagini yashirmaydigan, ko'ngli ochiq, samimiy; **un visage très ouvert** juda ham ochiq chehra; *loc* **il nous a parlé à cœur ouvert** u bizga chin yurakdan gapirdi; **9.** ochiqdan-ochiq, ochiq-oydin ko'rinib turgan, oshkora (*his-tuyg'u*); **il faut éviter un conflit ouvert** ochiq nizodan qochish kerak; **10.** ziyrak, zukko; **un garçon ouvert et intelligent** ziyrak va aqlli bola; **un esprit ouvert** zukko aql.

**ouvertement** *adv* ochiqchasiga, oshkoro; **il agit toujours ouvertement** u doim ochiqchasiga harakat qiladi; **je lui ai dit ouvertement ce que j'avais sur le cœur** men ko'nglimda borini unga ochiqchasiga aytdim.

**ouverture** *nf* **1.** ochilish, ochiqlik; **l'ouverture des portes du magasin se fait à telle heure** magazin eshiklari shu soatda ochiladi; **heures, jours d'ouverture** ochilish soatlari, kunlari; **ouverture d'un objectif; régler l'ouverture** ob'ektiv tirqishi; ob'ektiv tirqishini moslamoq; **ouverture d'un angle** burchak kengligi; **2.** ochilish, ishga tushish; **ouverture d'une autoroute** avtostradaning ochilishi; **ouverture d'esprit** aqlning ziyrakligi, zukkoligi; **3.** ochilish, boshlanish; **ouverture de la session, d'un débat** sessiyaning, muzokaraning ochilishi; **ouverture de la chasse, de la pêche** ov, baliq ovining ochilishi; **faire l'ouverture (de la chasse)** ov sezonini ochmoq, ov ochilishining birinchi kuni ovga bormoq; **le demi d'ouverture** o'yinni boshlovchi o'yinchi (*regbi*); **4.** *pl* takliflar; **faire des ouvertures de paix, de négociation** tinchlik, muzokara taklif qilmoq; **5.** *mus* uvertura; **6.** narsaning ochiq joyi; ochiqlik, bo'sh joy, teshik; **les ouvertures d'un bâtiment** imoratning teshiklari (*deraza, eshik*); **ouverture d'une grotte, d'un puits** g'orning, quduqning og'zi; **7.** yo'l, imkoniyat; **c'est une ouverture sur un monde inconnu** bu notanish dunyoga yo'l.

**ouvrable** *adj m* ish kuni; **il y a six jours ouvrables dans une semaine et cinq jours ouvrés** haftada olti ish kuni va besh ishlanadigan kun bor.

**ouvrage** *nm* **1.** ish, yumush, mashg'ulot, vazifa; **avoir de l'ouvrage** ishi bo'lmoq; **se mettre à l'ouvrage** ishga kirishmoq; **qui résulte d'un ouvrage** ishlov berilgan; **ouvrages manuels** qo'lda qilingan ishlar; **ouvrages de dames** tikuv-bichuv ishlari; **boîte, corbeille à ouvrage** tikuv-bichuv ishlarini soladigan quti, karzina; **2.** ishlangan, tayyorlangan narsa; buyum; **ouvrage d'ovfevrerie** zargarlik buyumi; **le gros de l'ouvrage** inshoot, bino, imorat, qurilish; **ouvrages d'art** qurilish (*ko'prik, tonnel va shu kabilar*); **3.** asar, ijod; **la publication d'un ouvrage** asarni bosib chiqarish; **je voudrais consulter cet ouvrage** men bu asarni ko'rib chiqmoqchi edim; **ouvrage de philosophie** falsafiy asar; **ouvrages à la vitrine d'un libraire** kitob sotuvchisining peshtaxtasidagi kitoblar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ouvragé, ée** *adj* ishlov berilgan, ishlangan, bezatilgan, bezak solingan; **pièce d'orfèvrerie ouvragée** ishlov berilgan zargarlik buyumi; **bijou finement ouvragé** nozik ishlangan taqinchoq.

**ouvrant, ante** *adj* ochiladigan; **toit ouvrant d'une voiture** avtomobilning ochiladigan tomi.

**ouvré, ée** *adj* ishlov berilgan; **produits ouvrés** sanoat mollari; **2. jour ouvré** ish kuni (*ishlanadigan kun*).

**ouvre-boîtes** *nm inv* konserva ochadigan pichoq.

**ouvre-bouteilles** *nm inv* shisha ochqich.

**ouvreur, euse** *n* (*asosan nf*) kapeldiner (*tomoshabinlarni zalda joylovchi teatr xodimi*); **des ouvreuses de cinéma** kinoteatr kapeldinerlari.

**ouvrier, ière I.** *n* **1.** ishchi, mehnatkash; **2.** *litt* usta; *prov* **à l'œuvre on reconnaît l'ouvrier** usta obro'ni hunaridan topar; **II.** *adj* ishchilarga oid, ishchi(lar); **la classe ouvrière** ishchilar sinfi; **cheville ouvrière** shkvoren, birlashtiruvchi o'q.

**ouvrière** *adj, nf* ishchi (*ayrim hasharotlarda: nasl qoldirmaydigan, urug' qo'ymaydiganlari*); **la reine des abeilles et les ouvrières** ona asalari va ishchi arilar.

**ouvrir I.** *vt* **1.** ochmoq; **ouvrir la fenêtre** derazani ochmoq; **va ouvrir** och; **ouvrez, au nom de la loi!** qonun nomi bilan oching! **2.** ichini ochmoq, ichini yormoq, chaqmoq; **ouvrir des huîtres** ustritsa yormoq; **3.** ochmoq, ochib qo'ymoq; *fam* **l'ouvrir** og'zini ochmoq, gapirmoq; **ouvrir l'œil** ko'zini ochmoq, ehtiyot bo'lmoq; **ouvrir un portefeuille** karmonni ochmoq; **ouvrir un robinet** jo'mrakni ochib qo'ymoq; **ouvrir le gaz** gazni ochib qo'ymoq; **ouvrir l'appétit à qqn** birovning ishtahasini ochib yubormoq; **4.** ochmoq, tortib qo'ymoq; **ouvrir les rideaux** pardalarni ochib qo'ymoq; **5.** ochmoq, teshmoq; **ouvrir une fenêtre dans un mur** devordan deraza ochmoq; **6.** ochmoq, foydalanishga ruxsat bermoq; **ouvrir, s'ouvrir un chemin, une voie** ko'chani, yo'lni ochmoq; **7.** ochmoq, namoyon qilmoq; **il nous a ouvert le fond de son cœur** u bizga yuragining to'ridagi gaplarni ochdi; **ouvrir l'esprit (à qqn)** biron kishining aqlini oshirmoq; **8.** ochmoq, boshlamoq, kirishmoq; **ouvrir les hostilités** dushmanlikni boshlamoq, dushmanlik qilishga kirishmoq; **ouvrir le feu** o't ochishni boshlamoq; **ouvrir une discussion** munozara boshlamoq; **9.** ochmoq, asos solmoq, tashkil qilmoq; **ouvrir un magasin, des écoles** magazin, maktablar ochmoq; **10.** ochmoq, bermoq; **ouvrir un compte, un crédit à qqn** biron kishi nomiga hisob ochmoq, kredit bermoq; **II.** *vi* **1.** ochiq bo'lmoq; **cette porte n'ouvre jamais** bu eshik hech qachon ochilmaydi; **ouvrir sur** qaragan bo'lmoq (*eshik, deraza*); **2.** ochilmoq, boshlanmoq; **les cours ouvriront la semaine prochaine** darslar kelgusi haftadan boshlanadi; **III. s'ouvrir** *vpr* **1.** ochilmoq; **la porte s'ouvre** eshik ochilyapti; **le toit de cette voiture s'ouvre** bu avtomobilning tomi ochiladi; **la fleur s'ouvre** gul ochilyapti; **s'ouvrir sur** qaragan bo'lmoq, qarab teshilgan bo'lmoq, chiqmoq, biror tomonga qarab ochilmoq; **la porte s'ouvre directement sur le jardin** eshik to'g'ridan to'g'ri boqqa ochiladi; **2.** ochilmoq, namoyon bo'lmoq; **le chemin, la route qui s'ouvre devant nous** bizning oldimizda namoyon bo'lgan ko'cha, yo'l; **une vie nouvelle s'ouvrait devant (à) lui** uning oldida yangi hayot ochilar edi; **s'ouvrir à qqch** biror narsaga ochiq bo'lmoq, kirib kelishiga imkon bermoq; **son esprit s'ouvre peu à peu à cette idée** uning idroki bu fikrni sekin-asta qabul qildi; **s'ouvrir à qqn** biror kishiga yorilmoq; ko'nglini, yuragini ochmoq; **je m'en suis ouvert à lui** men bu haqda unga yorildim; **3.** ochilmoq, boshlanmoq; **l'exposition qui allait s'ouvrir** yaqinda ochilayotgan ko'rgazma; **s'ouvrir par** bilan, orqali ochilmoq, boshlanmoq; **s'ouvrir les veines** vena tomirlarini kesmoq (*o'zini o'zi o'ldirmoq*); **s'ouvrir le crâne en tombant** yiqilib boshini yormoq.

**ouvroir** *nm* jamoada tayyor tikilgan, to'qilan mahsulotlar uchun ajratilgan joy, omborxona.

**ouzbek I.** *adj, n* o'zbek; **II.** *nm* o'zbek tili.

**ovaire** *nm* **1.** *anat* tuxumdon; **2.** *bot* tuguncha, urug'don.

**ovale I.** *adj* oval shaklidagi; **visage ovale** cho'ziqroq yuz; **le ballon ovale** cho'ziq to'p (*regbida*); **II.** *nm* oval, tuxumsimon, cho'ziq, yassi shakl; **figure d'un ovale parfait** cho'ziq go'zal yuz.

**ovarien, ienne** *adj* tuxumdonga oid; **glande, sécretion ovarienne** tuxumdon bezi, sekretsiyasi; **cycle ovarien** urug'lanish davri.

**ovation** *nf* ovatsiya, gulduros olqishlar, qarsaklar; **faire un ovation à qqn** birovni gulduros qarsaklar bilan olqishlamoq.

**ovationner** *vt* gulduros olqishlar, qarsaklar bilan olqishlamoq, qarshilamoq; **elle se fait ovationner** uni gulduros qarsaklar bilan olqishladilar.

**overdose** *nf anglic* dozasini orttirib yuborish (*giyohvand moddalarning*); **mort par overdose** dozani orttirib yuborish natijasida o'lgan.

**ovidés** *nm* qo'ylar oilasiga mansub hayvonlar guruhi.

**ovin, ine** *adj* qo'yga oid; **la race ovine** qo'yning zoti; *nm* **les ovins** qo'ylar.

**ovipare** *adj* tuxum qo'yuvchi; **les oiseaux, les crustacés, la plupart des insectes, des poissons, des reptiles sont ovipares** qushlar, qisqichbaqasimonlar, ko'pchilik hasharotlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar tuxum qo'yuvchilardir; *n* **les ovipares et les vivipares** tuxum qo'yuvchilar va bola tug'uvchilar.

**ovni** *nm* noma'lum uchuvchi jismning qisqartmasi, uchar tarelka.

**ovoïde** *adj* tuxumsimon, tuxumga o'xshash, cho'zinchoq; **crâne ovoïde** cho'zinchoq kalla.

**ovulaire** *adj* embrion hujayrasiga oid.

**ovulation** *nf* ovulyatsiya (*sut emizuvchilarda*); **l'ovulation, fonction essentielle de l'ovaire** ovulyatsiya tuxumdonning asosiy funksiyasidir.

**ovule** *nm* embrion hujayrasi; **la rencontre de l'ovule et du spermatozoïde produit l'œuf** embrion hujayrasi va spermatozoidning uchrashuvi tuxum hosil qiladi; **2.** *biol* tuxum hujayra.

**oxford** *nm* oksford (*ikki xil rangli paxta ipidan qilingan mato*).

**oxhydrique** *adj* gidrokislorodga oid; **gaz oxhydrique d'un chalumeau** rezakning kislorodli gazi.

**oxydable** *adj* oksidlanuvchi, oksidlanadigan, zanglaydigan.

**oxydation** *nf* oksidlash; oksidlanish, zanglash.

**oxyde** *nm* oksid; **oxyde de carbone** uglerod oksidi; **oxyde de cuivre** mis oksidi.

**oxyder** *vt* oksidlamoq; **l'air oxyde certains métaux** havo ayrim metallarni oksidlaydi; **le fer s'oxyde rapidement** temir tez oksidlanadi, zanglaydi.

**oxygénation** *nf* oksidlash; oksidlanish.

**oxygène** *nm* kislorod; **l'oxygène est indispensable à la plupart des êtres vivants** kislorod ko'pchilik tirik mavjudotlarning ajralmas qismidir; **étouffer par manque d'oxygène** kislorod yetishmasligidan bo'g'ilmoq, asfiksiya, bo'g'ilish; **ballon d'oxygène** kislorod baloni; *fam* sof havo, ochiq havo; **aller prendre un bol d'oxygène** ochiq havoga chiqmoq, shamollab kelmoq.

**oxygéner** *vt* oksidlamoq, kislorod qo'shmoq, kislorodlamoq; **eau oxygénée** vodorod peroksidi; **oxygéner les cheveux** sochni vodorod peroksidiga solmoq; *fam* **s'oxygéner (les poumons)** toza havodan nafas olmoq, shamollamoq;.

**ozone** *nm* ozon; **l'ozone a des propriétés antiseptiques** ozon antiseptik xususiyatga ega.

# P

**P, p** *nm inv* fransuz alifbosining o'n oltinchi harfi.

**pacage** *nm* **1.** mollarni yaylovda boqish; **le pacage s'oppose à la stabulation** mollarni yaylovda boqish og'ilda boqishning teskarisidir; **2.** o'tloq, yaylov.

**pacha** *nm* **1.** poshsho (*turk sultonligida va Misrda generallar, a'yonlarning oliy unvoni va shu unvonni olgan kishilar*); **2.** *fam* harbiy kema kapitani; **3.** *fam* **mener une vie de pacha** shohona hayot kechirmoq; **faire le pacha** boyvachchalik qilmoq (*boshqalarni o'ziga xizmat qildirmoq*).

**pachyderme** *nm* fil; **une démarche de pachyderme** og'ir, beso'naqay harakat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pacificateur, trice** *n, adj* tinchlantiruvchi, murosaga keltiruvchi, yarashtiruvchi odam; **mesures pacificatrices** kelishtiruvchi, yarashtiruvchi tadbirlar.

**pacification** *nf* tinchitish, yarashtirish; **la pacification d'une zone dangereuse** xavfli mintaqani tinchitish.

**pacifier** *vt* **1.** tinchitmoq, yarashtirmoq, bitishtirmoq, yarashtirib qo'ymoq; **2.** tinchlantirmoq, tinchitmoq, taskin bermoq, xotirjam qilmoq; **pacifier les esprits** ruhan xotirjam qilib qo'ymoq.

**pacifique** *adj* **1.** tinchlikni yaxshi ko'radigan, tinchliksevar; **2.** tinch, tinchlik yo'lida ishlatiladigan; **3.** tinch-totuv; **la coexistence pacifique entre les Etats** davlatlararo tinch totuv yashash.

**pacifiquement** *adv* tinchlik bilan, tinchlik yo'li bilan, tinch.

**pacifisme** *nm* patsifizm, tinchlikparvarlik (*har qanday urushlarga qarshi chiqadigan, tinchlikni passiv ravishda targ'ib qiladigan kishilar harakati*).

**pacifiste** *n, adj* tinchlikparvar, tinchlik tarafdori, tinchlik targ'ibotchisi.

**pacotille** *nf* sifatsiz, hech narsaga arzimaydigan mato; **de pacotille** hech narsaga arzimaydigan, arzimas.

**pacte** *nm* **1.** bitim, kelishuv; **conclure, sceller, signer un pacte** bitim tuzmoq, kelishuvni tasdiqlamoq, kelishuvga qo'l qo'ymoq; **2.** bitim, shartnoma, kelishuv, pakt, konvensiya.

**pactiser** *vi* **1.** bitim, shartnoma, kelishuv, pakt tuzmoq, ahdlashmoq; **2.** kelishmoq, til biriktirmoq; **pactiser avec le crime** jinoyat bilan kelishmoq.

**pactole** *nm litt* serdaromad manba, ish, joy; **c'est un vrai pactole** bu haqiqiy serdaromad ish.

**paddock** *nm* **1.** qo'ton, maydon (*otlarning poygaga chiqishidan oldin sayr qiladigan joy*); **2.** *fam* o'rin, joy, karavot.

**paella** *nf* paelya (*go'sht, baliq va sabzavotlar solib tayyorlanadigan ispanlarning guruchli ovqati*).

**paf**[1] *intj* gurs, qars, gup, tap; **paf! il est tombé par terre** gurs! u yerga qulab tushdi.

**paf**[2] *adj inv fam* kayf, mast; **elles sont complètement paf** ular g'irt mast.

**pagaie** *nf* kuraksimon eshkak, kalta eshkak.

**pagaïe, pagaille** *nf* **1.** *fam* **en pagaïe** bir talay, juda ham ko'p, behisob, son-sanoqsiz, cheksiz; **des livres, il en a en pagaille** kitoblar, unda ulardan bir talay bor; **2.** *fam* o'ta tartibsizlik, alg'ov-dalg'ovlik, to's-to'polon, besaranjomlik, ostin-ustin; **quelle pagaille!** qanday to's-to'polon! bu o'ta tartibsizlik! **la chambre est en pagaille** xona to's-to'polon bo'lib yotibdi.

**paganisme** *nm* majusiylik, butparastlik; ko'p xudolik.

**pagayer** *vi* eshkak eshmoq.

**page**[1] *nf* bet, sahifa; **mise en pages** sahifalash; *loc* **être à la page** xabardor bo'lmoq, bilmoq; oxirgi modadan boxabar bo'lmoq.

**page**[2] *nm* paj (*O'rta asrlarda zodagonlar yoki podsho huzurida xizmat qiluvchi o'g'il bola, o'smir*).

**pageot** *ou* **pajot** *nm pop* o'rin, joy, karavot.

**pageoter (se)** *vpr fam* **c'est l'heure de se pageoter** o'ringa kirish, joyiga yotish vaqti bo'ldi.

**pagination** *nf* sahifalar yoki betlarni raqamlash, tartibga keltirish; **absence de pagination** sahifalar raqamining yo'qligi.

**paginer** *vt* sahifa, betlarni raqamlamoq, nomerlamoq, tartibga solmoq.

**pagne** *nm* avratpo'sh, lungi (*tropik yurtlarda yashovchilarning avratini bekitadigan mato*); **des pagnes tahitiens** taitiliklar avratpo'shi.

**pagode** *nf* **1.** uzoq Sharq mamlakatlari ibodatxonasi; **2.** *inv* **manche pagode** yelkadan bilakka qarab kengayib boradigan yeng.

**paie** *nf voir* **paye**.

**paiement** *ou* **payement** *nm* to'lash, to'lov; **accepter, refuser un paiement par chèque** chek bo'yicha to'lashga rozi bo'lmoq, rozi bo'lmaslik.

**païen, ïenne** *adj n* majusiylikka, budparastlikka oid; *n* **les païens** majusiylar, budparastlar, ko'p xudolilar.

**paillard, arde** *adj, n* **1.** *plais* buzuq, axloqsiz, sayoq, suyuqoyoq; **2.** yengiltak, axloqsiz, hayosiz, uyatsiz, yaramas (*narsa*); **des chansons paillardes** uyatsiz ashulalar.

**paillardise** *nf* buzuq, axloqsiz, hayosiz, uyat, yaramas ish-harakat, gap; **débiter des paillardises** axloqsiz narsalarni hikoya qilmoq.

**paillasse**[1] *nf* **1.** poxol to'shak; **2.** *loc fam* **crever la paillasse à qqn** birovni chavoqlamoq, qornini yorib tashlamoq, pichoq urib ichak-chavog'ini ag'darmoq.

**paillasse**[2] *nf* jo'mrak yonidagi idish-tovoq qo'yiladigan joyi.

**paillasse**[3] *nm litt* qiziqchi, masxaraboz.

**paillasson** *nm* **1.** o'simliklarni sovuqdan saqlash uchun ishlatiladigan poxol; **2.** dag'al poyandoz, oyog'artkich.

**paille** *nf* **1.** poxol, somon; **brin de paille** poxolpoya; *loc* **coucher, être sur la paille** o'ta qashshoqlikda, faqirlikda kun kechirmoq; **mettre qqn sur la paille** birovni sindirmoq, xonavayron qilmoq, xarob qilmoq; **2.** biror narsa to'qish uchun ishlatiladigan poxol; **chapeau de paille** poxol shlapa; **3.** butun yoki kalta cho'p (*qur'a tortganda foydalaniladigan*); **tirer à la courte paille** qur'a tortmoq; naycha (*ichimlikni so'rib ichish uchun xizmat qiladigan*); **garçon! deux jus d'orange avec une paille** garson! ikkita apelsin sharbati naychasi bilan; *fam iron* **une paille** arzimagan, arzimas narsa; **il en demande dix mille francs; une paille!** u bunga o'n ming frank so'rayapti; arzimagan narsa!

**paillé, ée** *adj* somon, somon tiqilgan; **chaise paillée** poxol kursi.

**pailler** *vt* **1.** poxoldan eshmoq, yasamoq, to'qimoq; **pailler des chaises** poxoldan kursilar to'qimoq; **2.** poxolga, poxol bilan o'ramoq; yopmoq.

**pailleté, ée** *adj* **robe pailletée** yaltiroq tangachalar qadalgan ko'ylak.

**pailleter** *vt* yaltiroq tangachalar bilan bezamoq, yaltiroq tangachalar qadamoq.

**paillette** *nf* **1.** yaltiroq tangachalar; **un voile semé de paillettes** yaltiroq tangachali yopinchiq to'r; pardoz-andozda ishlatiladigan shunday narsalarning mayda yaltiroq bo'lakchalari; **2.** tillo qum zarrachalari.

**paillote** *nf* poxol kapa, chayla.

**pain** *nm* non; **manger du pain** non yemoq; **croûte, mie de pain** nonning cheti, mag'zi; **miettes de pain** nonning ushog'lari, uvog'lari; **pain de seigle** javdar, qora non; **pain de campagne** tegirmon noni; **pain brioché** yog'li bulka non; **gros pain** tortib sotiladigan non; **pain frais** yangi uzilgan non; **pain rassis** qotgan non; **pain grillé** qovurilgan burda non; **pain sec** quruq non, faqat nonning o'zi; **pain au levain** tabiiy xamirturushda qilingan non; **2.** non-qandolat mahsulotlari; **petit pain** bulka, bulochka, kulcha; **pain au chocolat** shokoladli non; **pain au raisins** mayizli non; **3. pain d'épice, d'épices** shirin kulcha.

**pair**[1] *nm* **1.** teng (*baravar, bir xil, bir taxlitdagi*) odam; **il ne peut attendre aucune aide de ses pairs** u o'zi taxlit odamlardan hech qanday yordam kuta olmaydi; **2.** lordlar palatasining a'zosi (*Birlashgan Amirlikda*); **3.** perlar palatasining a'zosi va qirol maslahatchisi (*Fransiyada 1831 yilgacha*); **4.** tenglik, barobarlik; *loc* **hors de pair, hors pair** tengi yo'q, tengsiz; **aller de pair** birga, bir qatorda bormoq; birga qadam tashlamoq; **cette étudiante travaille au pair** bu talaba yotoq joy, oziq-ovqat evaziga ishlab beradi.

**pair**[2]**, paire** *adj* juft; **numéro pair** juft son; **jours pairs** juft kunlari.

**paire** *nf* juft, par.

**pairesse** *nf* perlar palatasining ayol a'zosi yoki perning xotini.

**pairie** *nf* perlik unvoni va unvonligi.

**paisible** *adj* **1.** yuvosh, mo'min, royish, beozor, muloyim; **un homme paisible** yuvosh odam; **2.** tinch, osoyishta, xotirjam, bexavotir, beozor, sokin (*narsa*); **un fleuve paisible** sokin daryo.

**paisiblement** *adv* tinchgina, xotirjam, osoyishta, bexavotir; **il dort paisiblement** u osoyishta, tinchgina uxlayapti.

**paître I.** *vi* o'tlamoq (*hayvon*); **le troupeau paissait dans la prairie** podalar yaylovda o'tlab yurishardi; *loc fam* **envoyer paître qqn** birovni haydab, quvib yubormoq; kovushini to'g'rilab qo'ymoq; **II.** *vt* **1.** o'tlatmoq, boqmoq; **2.** chimdimoq, chimdib yemoq.

**paix** *nf inv* **1.** tinchlik, ittifoqlik, inoqlik, totuvlik; **avoir la paix chez soi** uyida totuvlik bo'lmoq; **faire la paix** yarashib olmoq; **vivre en paix avec tout le monde** hamma bilan tinch-totuvlikda yashamoq; **2.** tinchlik, osoyishtalik; **la justice doit faire régner la paix** adliya osoyishtalikni hukm surdirishi kerak; **gardien de la paix** osoyishtalik posboni; **en temps de paix** tinchlik davrida; **aimer la paix** tinchlikni sevmoq; **3.** sulh, yarashish, omon-omon; **faire la paix** sulh tuzmoq; **4.** tinchlik, bexavotirlik, xotirjamlik, osoyishtalik; **il a débranché le téléphone pour avoir la paix** xotirjam o'tirish uchun u



www.ziyouz.com kutubxonasi

telefonni uzib qo'ydi; **laisser la paix à qqn** biror kishini tinch qo'ymoq; *fam* **fichez-moi la paix!** meni tinch qo'ying! *intj* **la paix!** tinch qo'ying! **goûter une paix profonde** chuqur xotirjamlikni tuymoq; **avoir la consience en paix** ko'ngli xotirjam bo'lmoq; **5.** tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik, sokinlik; **la paix des champs** dalalarning sokinligi.

**pajot** *nm pop voir* **pageot**.

**pal,** *pl* **pals** *nm* qoziq; **le pal, ancien instrument de supplice** qoziq, qadimgi azoblash quroli.

**palabre** *nf pl* uzoq, o'rinsiz tortishuv, munozara; **assez de palabres!** tortishuvlar yetar!

**palabrer** *vi* uzoq, o'rinsiz tortishmoq, munozara qilmoq; **il faut palabrer pendant des heures avant qu'on nous laisse entrer** bizni kiritishlaridan oldin uzoq vaqt tortishishga to'g'ri keldi.

**palace** *nm* oliy darajali mehmonxona.

**paladin** *nm* paladin (*jasur ritsar, Buyuk Karlning xos ritsari*).

**palais¹** *nm inv* **1.** saroy, koshona; **le palais du Luxembourg** Luksenburg saroyi; **le palais des sports** sport saroyi; **2. palais (de justice)** sud mahkamasi; **3.** *hist* saroy, o'rda; **les maires du palais** saroy ayonlari (*frank qirollari*).

**palais²** *nm inv* **1.** tanglay; **elle s'est brûlé le palais** u tanglayini kuydirib oldi; **2.** ta'm bilish a'zosi; **c'est un gourmet qui a le palais fin** bu ovqatning mazasini biladigan shinavanda.

**palan** *nm* chig'ir.

**palanquin** *nm* taxtiravon.

**pale** *nf* parrak, qanot; **les pales d'un hélicoptère** vertolyotning parraklari.

**pâle** *adj* rangi o'chgan, ketgan, oqargan, bo'zargan, rangpar; **un peu pâle** rangpar; **très pâle** bo'zargan; *odam* **elle est devenue pâle comme un linge** u bo'zdek, dokaday oqarib ketdi.

**palefrenier** *nm* otboqar.

**palefroi** *nm vx* tantana va sayrda miniladigan ot.

**paléographe** *nm* paleograf, paleografiya mutaxassisi.

**paléographie** *nf* paleografiya (*qadimgi yozuvlarni o'rganuvchi fan*).

**paléolithique I.** *adj* paleolitga oid, paleolit; **II.** *nm* paleolit, paleolit davri, eng qadimgi tosh davri.

**paléontologie** *nf* paleontologiya.

**paléontologique** *adj* paleontologiyaga oid; paleantologik.

**paléontologue** *ou* **paléontologiste** *n* paleontolog, paleontologiya mutaxassisi.

**palet** *nm* lappak, shayba; **palet de marelle** chertak lappagi; **palet de hockey sur glace** xokkey shaybasi.

**paletot** *nm* **1.** palto; **2.** *fam* biron kishiga tashlanmoq (*achchiqlanganda*).

**palette¹** *nf* **1.** palitra (*rassomlarning bo'yoq qoradigan taxtasi*); **2.** san'atda ifoda vositalarining majmui; **la palette de rubens** rubens palitrasi.

**palette²** *nf* bel, orqa go'shti (*go'sht mahsuloti*).

**palette³** *nf* kurak, kovsh.

**palétuvier** *nm* tropik o'rmonda o'sadigan katta daraxt.

**pâleur** *nf* rangsizlik, rangi o'chganlik, oqarganlik, rangparlik.

**pâlichon, onne** *adj* biroz rangi o'chgan, oqargan, rangpar.

**palier** *nm* **1.** zinapoya maydonchasi; **2. par paliers** to'xtab-to'xtab, sekin asta; **progresser par paliers** bosqichma-bosqich rivojlanmoq.

**palière** *adj f* **porte palière** zinapoya maydonchasiga qaragan eshik.

**palimpseste** *nm hist* qayta yozilgan charm varaq.

**palingénésie** *nf phil* mavjudodlarning yoki jamoalarning qayta tug'ilishi.

**palinodie** *nf pl litt* tonish, o'z so'zidan qaytish.

**pâlir I.** *vi* oqarmoq, bo'zarmoq, rangi o'chmoq, gezarmoq; **il pâlit de colère** g'azabdan u bo'zarib ketdi; **II.** *vt* oqartirmoq, bo'zartirmoq, xira torttirmoq, xiralashtirmoq; **ses joues pâlies par la fatigue** charchoqdan o'ngan yuzlari.

**palissade** *nf* taxta devor, chetan devor; **la palissade d'un jardin** bog'ning taxta devori.

**palissandre** *nm* palisandr (*issiq mamlakatlarda o'sadigan daraxtning pishiq va qimmatbaho yog'ochi*); **une armoire en palissandre** palisandrdan qilingan javon.

**pâlissant, ante** *adj* **le jour pâlissant** bo'zarayotgan kun.

**palladium** *nm* palladiy (*platina rudasida uchraydigan kumush tusli nodir metall*).

**palliatif** *nm* vaqtincha tadbir; **avoir recours à des palliatifs** vaqtincha tadbirni qo'llamoq.

**pallier** *vt* o'rnini to'ldirmoq, qoplamoq, tekislamoq.

**palmarès** *nm inv* taqdirlanganlar, mukofotlanganlar ro'yxati; **son nom figure au palmarès** uning familiyasi mukofotlanganlar ro'yxatida turibdi.

**palme¹** *nf* **1.** palma bargi; **2.** palma (*g'oliblik belgisi*); **ce film a remporté la palme d'or au festival de Cannes** bu film Kan festivalida oltin palmani oldi.

**palme²** *nf* last (*suvda suzish uchun ikki oyoq uchiga kiyiladigan moslama*).

**palmé, ée** *adj* pardaoyoqli, oyoqlari pardali; **les pattes palmées du canard** o'rdakning pardali oyoqlari.

**palmer** *nm* palmer, mikrometr (*mikrongacha aniqlik bilan o'lchaydigan o'lchov asbobi*).

**palmeraie** *nf* palmazor.

**palmier¹** *nm* palma (*daraxti*); **palmier dattier** xurmo daraxti.

**palmier²** *nm* qatlama (*taom*).

**palmipède** *adj, n* pardaoyoqli; **oiseaux palmipèdes** pardaoyoqli qushlar; **le canard, l'oie sont des palmipèdes** o'rdak va g'oz pardaoyoqlilardir.

**palombe** *nf* yovvoyi kaptar; **chasse à la palombe** yovvoyi kaptar ovi.

**palonnier** *nm av* oyoq bilan boshqarish pedali.

**pâlot, otte** *adj* rangi o'chkanroq, oqarganroq, bo'zarganroq, rangparroq.

**palourde** *nf* yesa bo'ladigan chig'anoq.

**palpable** *adj* **1.** ushlab, paypaslab ko'rsa bo'ladigan; aniq; **2.** ishonchli, aniq; **donnez-moi des preuves palpables** menga ishonchli dalillar keltiring.

**palper** *vt* **1.** paypaslamoq, ushlab ko'rmoq, paypaslab ko'rmoq; **l'aveugle palpe les objets pour les reconnaître** ko'r narsalarni idrok qilish uchun ularni paypaslab ko'radi; **2.** *fam* pul olmoq; **il a déjà palpé du fric dans cette affaire** u bu ishda ancha pul ishlab oldi.

**palpeur** *nm* shchup (*kontakt aloqalarini ta'minlovchi asbob*).

**palpitant, ante** *adj* **1.** hayajonlangan, titragan; **palpitant d'émotion** his-tuyg'udan titragan; **2.** hayajonga soluvchi, titratuvchi, larzaga soluvchi (*narsa*); **un film palpitant** larzaga soluvchi film.

**palpitation** *nf* **1.** titrash, pirpirash; **la palpitation des paupières** qovoqlarning pirpirashi; **2.** dukillash; **le café me donne des palpitations** qahva mening yuragimni dukillatib yubordi.

**palpiter** *vi* **1.** titramoq, pirpiramoq; **son œil palpite sans arrêt** uning ko'zi to'xtovsiz pirpiraydi; **2.** dukillamoq, tez-tez urmoq (*yurak*); hayajondan qaltiramoq, titramoq; o'zini yo'qotib qo'ymoq; **il palpitait de convoitise** u zo'r istakdan titrar edi.

**palsambleu** *intj vx* **par le sang de dieu!** xudo haqi, azbaroyi xudo! iborasining yumshatilgan ko'rinishi.

**paltoquet** *nm* e'tibori, salmog'i, nufuzi yo'q, arzimas odam; haqir, notavon.

**paluche** *nf fam* qo'l; **retire tes paluches!** qo'lingni tort!

**paludéen, enne I.** *adj* bezgak, malyariyaga uchragan (*bilan og'riyotgan*); **II.** *n* bezgak, malyariya kasaliga yo'liqqan odam, malyarik, bezgak.

**paludisme** *nm* bezgak, malyariya; **accès de paludisme** bezgak tutish.

**pâmer (se)** *vpr* **1.** *vieilli* hushidan o'zidan ketib qolmoq, behush bo'lib qolmoq; *fam* esi og'ib qolmoq; **elle s'est pâmée de plaisir** uning huzurdan esi og'ib qoldi; **2.** es-hushi og'moq, es-hushini yo'qotmoq, anqayib qolmoq; **se pâmer d'aise** zavqdan es-hushini yo'qotmoq.

**pâmoison** *nf vieilli plais litt* hushidan ketish, behush bo'lish; **tomber en pâmoison** behush bo'lib yiqilmoq.

**pampa** *nf* pampa (*Janubiy Amerika dashti*); **les gauchos des pampas argentines** Argentina dashtlarining cho'ponlari.

**pamphlet** *nm* pamflet.

**pamphlétaire** *n* pamfletchi, pamflet yozuvchi.

**pamplemousse** *nm* greypfrut; **jus de pamplemousse** greypfrut sharbati.

**pamplemoussier** *nm* greypfrut daraxti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pampre** *nm* tok novdasi (*meva va barglari bilan*).

**pan**[1] *nm* **1.** bir en mato, eni buzilmagan bir bo‘lak mato; **2.** etak, bar; **se promener en pan de chemise** barlari ochiq ko‘ylak bilan sayr qilmoq; **3. pan de mur** devorning balandroq tomoni.

**pan**[2] *intj* qars, gum (*quruq ovoz, miltiqning ovozi*).

**panacée** *nf* panatsiya (*har qanday kasalga davo deb qaralgan dori*); **l’aspirine n’est pas une panacée** aspirin panatsiya emas.

**panache** *nm* **1.** jig‘a, ukpar; **ralliez-vous à mon panache blanc!** mening oq ukparimga qo‘shiling! **la queue en panache d’un écureuil** olmaxonning jig‘asimon dumi; **2.** *loc* **avoir du panache** viqor bilan yurish; **l’amour du panache** jig‘aga erishgan (*harbiy qahramonligi uchun*).

**panachage** *nm* **1.** aralashtirish, qorishtirish; **un panachage de couleurs** ranglarni aralashtirish; **2.** *saylovda.* siyosiy partiyalarni bir ro‘yxatga qo‘shib yuborish.

**panaché, ée** *adj* **1.** ola-bula, olachipor, chipor, rang-barang; **œillet panaché** olachipor chinnigul; **2.** aralashgan, qo‘shilgan, tuzilgan; **un demi panaché** *ou nm* **un panaché** limonad aralashtirilgan pivo.

**panacher** *vt* turli ranglar bilan bezamoq; **2.** aralashtirib, qo‘shib yubormoq; **panacher un liste électorale** saylov ro‘yxatiga turli partiyalarni qo‘shib yubormoq.

**panade** *nf* non, sariyog‘, tuxum sarig‘i bilan tayyorlanadigan sho‘rva; *fam* **être, tomber dans la panade** kambag‘allik, bechoralikda bo‘lmoq; kambag‘allikka, bechoralikka tushib qolmoq.

**panard** *nm fam* oyoq.

**panaris** *nm inv* milkak (*tirnoq ostining yallig‘lanib yiring boylashi*); **il soigne son panaris** u o‘zining milkakini davolayapti.

**pancarte** *nf* e’lon, afisha, plakat; **porter une pancarte dans un défilé** namoyishda plakat ko‘tarib bormoq.

**pancrace** *nm* kurash (*kurash va mushtlashishdan iborat qadimiy sport turi*).

**pancréas** *nm inv* oshqozonosti bezi.

**pancréatique** *adj* oshqozon osti beziga oid, oshqozonosti bezi; **suc pancréatique** oshqozonosti bezi shirasi.

**panda** *nm* panda (*Hindiston va Xitoy o‘rmonlarida yashovchi sut emizuvchi hayvon*); **petit panda** kichik panda (*katta mushuk chamasida*); **grand panda** katta panda.

**pandémonium** *nm litt* sho‘ru-g‘avg‘o, do‘zax, jahannam.

**pandit** *nm* pandit (*Hindistonda faxriy unvon*); **le pandit Nehru** pandit Neru.

**pandore** *nm vx iron* jandarm.

**panégyrique** *nm* madhiya; **faire le panégyrique de qqn** birovga madhiya o‘qimoq.

**panégyriste** *n* maddoh, madhiyachi (*ko‘pincha kesatish ma’nosida*).

**panel** *nm anglic* oralatib fikrlar so‘rovini o‘tkazish.

**pané, ée** *adj* tolqonga bulangan.

**paner** *vt* tolqonga bulamoq.

**panier** *nm* **1.** oziq-ovqat solinadigan savat; **panier à provisions** meva, oziq-ovqat solinadigan savat; **panier à ouvrage** quti; **mettre au panier** axlat idishga tashlamoq; **2. panier à salade** salatning suvini sirqitadigan idish; *fam* mahbuslarni tashiydigan mashina; **3.** *loc* **panier percé** isrofgar; **4.** fijma (*XVIII-XIX asrlarda: ayollar yubkasi etagini qappaytirish uchun ichidan qo‘yiladigan gardish va shu usulda tayyorlangan yubka*); **5.** *basket* to‘r, savat; **mettre un panier** savatga to‘p tushirmoq.

**panière** *nf* qirchin savat, tol novdasidan to‘qilgan savat.

**panifiable** *adj* non qilsa bo‘ladigan; **céréales panifiable** g‘alla, non qilsa bo‘ladigan don.

**panification** *nf* non ishlab chiqarish.

**panifier** *vt* non qilmoq, nonga aylantirmoq; **panifier de la farine de blé** bug‘doy unidan non qilmoq.

**panique I.** *adj* sarosimali, vahimali, hayajonli, dahshatli; **peur, terreur panique** sarosimali qo‘rquv, dahshat; **II.** *nf* sarosima, sarosimalik, vahima, hayajon, dahshat.

**paniquer** *vt fam* vahimaga, sarosimaga tushmoq, vahima qilmoq, sarosimada qolmoq; **ne te laisse pas paniquer par l’examinateur** imtihonchidan vahima qilma; **elle est complètement paniquée** u butunlay sarosimaga tushgan.

**panne**[1] *nf* **1.** buzuqlik, buzilish, shikastlanganlik, ishdan chiqish; **panne d’automobile** avtomobilning buzilishi; *loc* **tomber en panne** ishdan chiqmoq, buzilib qolmoq; **panne d’essence** *ou* **panne sèche** yog‘i, benzini tugab qolmoq; **panne d’électricité** chiroqning, elektrning o‘chib qolishi; **2.** *mar* **vaisseau en panne** dreyfdagi kema; **3.** *fam* **être en panne** taqqa to‘xtamoq; **les travaux sont en panne** ishlar taqqa to‘xtadi; **être en panne de qqch** biror narsadan quruq qolmoq.

**panne**[2] *nf* cho‘chqaning teri osti yog‘i.

**panne**[3] *nf* pombarxat, ipak baxmal.

**panne**[4] *nf* **1.** tom tunukasi qoqiladigan xari; **2.** bolg‘aning uzunchoq orqasi.

**panneau** *nm* **1.** taxta; **panneau mobile** ko‘chma taxta; **panneaux préfabriqués** yig‘ma taxta; **2.** plakat; **panneaux électoraux** saylov tashviqot varaqalari; **panneaux de signalisation** o‘lchov asboblarining majmuasi; **3.** quroq; **4.** *loc* **tomber, donner dans le panneau** tuzoqqa ilinmoq, aldanib qolmoq.

**panonceau** *nm* **1.** metalldan qilingan gerb; gerbli yozuv (*vazirlik zobitlarining eshiklariga osiladigan taxtakach*); **le panonceau d’un notaire** notariusning gerbli yozuvi; **2.** viveska; yozuv.

**panoplie** *nf* **1.** o‘lja qurollar ko‘rgazmasi; **2.** o‘yinchoqlar to‘plami; **panoplie de pompier** o‘yinchoqli suv o‘chiruvchilar to‘plami; **3**. mavjud vosita.

**panorama** *nm* **1.** manzara, ko‘rinish; **2.** ko‘rinish, har tomonlama o‘rganilgan ko‘rinish; **un panorama de la littérature contemporaine** hozirgi zamon adabiyotining har tomonlama o‘rganilgan ko‘rinishi.

**panoramique I.** *adj* **1.** keng ko‘rinishli, keng qamrovli; **vue panoramique** keng qamrovli manzara; **2.** panoramaga oid, panoramali, panorama; **carrosserie panoramique** ochiq kuzov; **écran panoramique** panoramali ekran; **II.** *nm* vertikal, yoki gorizontal holda aylanma kamera bilan kinoga olish.

**pansage** *nm* tozalash, qashlag‘ich bilan tozalamoq (*ot va shu kabilarni*).

**panse** *nf* katta qorin (*kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonining birinchi, eng katta bo‘limi*); **2.** qorin, qorincha (*biror narsaning shishgan joyi*); **la panse d’une cruche** xumchaning qorni; **3.** *fam* katta qorin, meshqorin; **elles s’en sont mis plein la panse** ular undan meshqorinlariga siqqanicha tiqdilar.

**pansement** *nm* bog‘ich, bint; **blessé couvert de pansements** bint bilan o‘rab tashlangan yarador; **petit pansement au doigt** yarasi bog‘langan qo‘l; **pansement adhésif** leykoplastir.

**panser**[1] *vt* bog‘lamoq, bog‘lab qo‘ymoq (*yarani*); **panser la main de qqn** biron kishining qo‘lini (*qo‘lidagi yarasini*) bog‘lab qo‘ymoq; **l’infirmière est en train de panser les blessés** hamshira yaradorlarning yarasini bog‘lash bilan band.

**panser**[2] *vt* otni qashlag‘ich bilan tozalamoq.

**pansu, ue** *adj* qorni katta, qorindor, meshqorin, katta, yo‘g‘on; **un vase pansu** qorni katta guldon.

**pantagruélique** *adj* mo‘l, boy, to‘kin-sochin; **un repas pantagruélique** mo‘l ovqat (*Pantagruelga xos ovqat*).

**pantalon** *nm* shim, shalvar; **mettre, enfiler son pantalon** shimini kiymoq; **jambes d’un pantalon** shimning pochalari.

**pantalonnade** *nf* tilyog‘lamalik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, riyo.

**pantelant, ante** *adj* **1.** harsillagan, halloslagan, nafasi tiqilgan, entikkan; **2.** entikmoq, xo‘rsinmoq; **cette mauvaise nouvelle l’a laissée tout pantelante** bu yoqimsiz xabar uni butunlay entiktirib qo‘ydi.

**panthéisme** *nm* panteizm (*xudo bilan tabiat bir deb qaraydigan diniy-falsafiy oqim*).

**panthéiste I.** *adj* panteizmga oid, panteistik, panteizm; **II.** *n* panteist.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**panthéon** *nm* **1.** panteon (*biror dinga mansub bo'lgan hamma xudolarning umumiy nomi*) qadimiy greklarning panteoni; **2.** panteon (*mashhur kishilar dafn etiladigan bino, daxma*).

**panthère** *nf* **1.** qoplon; **2.** shu hayvonning terisi; **manteau de panthère** qoplon terisidan qilingan palto.

**pantin** *nm* **1.** qo'g'irchoq; **2.** qo'g'irchoq, o'yinchoq (*birovning amri, so'zi bilan ish qiladigan odam*); **elle a fait de lui un pantin** u uni qo'g'irchoq qilib oldi.

**pantois** *adj m inv* hayron, dong qolgan, gangib, dovdirab, esankirab qolgan; **il est resté pantois** u dovdirab qoldi.

**pantomime** *nf* pantomima (*so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha*).

**pantouflard, arde** *adj, n fam* uydan eshikka chiqmaydigan (*doim uyda o'tiradigan*) odam, xonanishin.

**pantoufle** *nf* uyda kiyiladigan shippak, oyoq kiyimi, xonaki tufli; **mettre ses pantoufles, se mettre en pantoufles** uy tuflisini kiymoq; **2.** *loc* **passer sa vie dans ses pantoufles** umrini uzlatda o'tkazmoq.

**panure** *nf* tolqon.

**paon, paonne** *n* tovus; **paon qui fait la roue** patlarini yoygan tovus.

**papa** *nm* **1.** dada, ota, ada; **2.** *loc fam* **à la papa** shoshmay, bamaylixotir, oshiqmay, xotirjamlik bilan; *fam* **de papa** eskirgan, udumdan chiqqan, otamning zamonidagi; **le cinéma de papa** otamning zamonidagi kinoteatr; **fils à papa** otasining qanoti ostidagi o'g'il.

**papable** *adj* rim papasi bo'lib saylanaoladigan; **cardinaux papables** papa bo'lib saylanoladigan kardinallar.

**papal, ale, aux** *adj* papaga oid, papa.

**papauté** *nf* papalik, papa hokimiyati, papa hukmronligi; **histoire de la papauté** papalik tarixi.

**papaye** *nf* papayya mevasi.

**papayer** *nm* papayya daraxti.

**pape** *nm* papa (*katolik cherkovining boshlig'i*); **Sa Sainteté le pape** papa hazratlari.

**papelard[1], arde** *adj litt* munofiqona ish tutadigan, munofiq, riyokor, ikkiyuzlamachi; munofiqona; **il était retors et papelard** u ustakor va munofiq edi.

**papelard[2]** *nm fam* qog'oz parchasi; yozuv; ma'muriy hujjat.

**paperasse** *nf pl* yozib tashlangan qog'oz, keraksiz qog'ozlar to'plami, uyumi; **chercher dans ses paperasses** to'plab qo'ygan qog'ozlarining ichidan izlamoq; **la paperasse administrative** ma'muriyatning yozib tashlagan qog'ozlari.

**paperasserie** *nf* bir to'da, bir to'p qog'oz.

**paperassier, ière** *adj* bo'lar-bo'lmas narsalarni yozuvchi, qog'oz qoralovchi; **administration paperassière** bo'lar-bo'lmas narsalarni yozuvchi ma'muriyat.

**papeterie** *nf* **1.** qog'oz ishlab chiqarish, qog'oz ishlab chiqarish fabrikasi; **2.** yozuv-chizuv narsalari sotiladigan magazin.

**papetier, ière** *n* **1.** qog'ozchi (*ishchi*); **2.** qog'oz sotuvchi.

**papier** *nm* **1.** qog'oz; bir parcha qog'oz, qog'oz parchasi, varag'i; **papier carbone** qora qog'oz; **papier-émeri, papier de verre** jilvir qog'oz; **papier peint** gulqog'oz; **papier mâché** pape-mashe; *loc* **une mine de papier mâché** oqargan, rangi o'chgan yuz; **en papier** qog'ozdan qilingan, qog'oz; **serviette en papier** qog'oz sochiq; **notez cela sur un papier** buni bir parcha qog'ozga yozing; **faire des cocottes en papier** qog'ozdan qush qilmoq; **jeter une phrase sur le papier** bir gapni qog'ozga tushirmoq; **2.** varaq, yupqa taxta; **papier d'aluminium** alumin taxta; **papier cellophane** sellofan qog'oz; **3.** maqola, qo'lyozma; **envoyer un papier à son journal** gazetaga maqola jo'natmoq; **4.** hujjat, qog'oz; **signer un papier** hujjatga qo'l qo'ymoq; **papiers (d'identité)** shaxsini bildiradigan hujjatlar; **vos papiers!** hujjatlaringiz! *loc* **être dans les petits papiers de qqn** kimningdir ixlosini qozonmoq.

**papille** *nf* g'uddacha (*terida, shilliq pardalarda*); **papilles gustatives** ta'm sezish g'uddachalari.

**papillon** *nm* **1.** kapalak; *loc fam* **minute papillon!** bir daqiqa! kutib turing! **2. nœud papillon** kapalaknusxa galstuk; *fam* **nœud pap. 3.** jarima qog'ozi; **j'ai trouvé un papillon sur le pare-brise de ma voiture** men avtomobilim oynatozalagichida jarima qog'ozini topdim; **4.** qanotli gayka; **papillon d'une roue de bicyclette** velosiped g'ildiragining sakkiz bo'lishi; **5.** batterflay usuli (*suzishda*).

**papillonnant, ante** *adj* **esprit papillonnant** qanotli orzu.

**papillonnement** *nm* lip-lip etib ko'rinish.

**papillonner** *vi* pirillab uchib yurmoq, qo'nimsiz bo'lmoq; **elle papillonnait en chantant** u pirillab uchib ashula aytar edi.

**papillotant, ante** *adj* **1.** yaraq-yaraq qilayotgan; **2.** pirpirayotgan (*ko'z, qarash*).

**papillote** *nf* **1.** papilotka (*sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz, latta*); *loc* **tu peux en faire des papillotes** uni tashlab yuborsang ham bo'laveradi; **2.** o'rash uchun xizmat qiladigan yog'li qog'oz; **cailles en papillotes** yog'li qog'ozga o'ralgan bedana go'shti.

**papillotement** *nm* lippillash, pirpirash.

**papilloter** *vi* lippillamoq; pirpiramoq.

**papiste** *n hist* papachi, katolik.

**papotage** *nm* laqillash, behuda gap sotish; **ils perdent leur temps en papotages** ular o'z vaqtlarini behuda gap sotish bilan yo'qotadilar.

**papoter** *vi* behuda gap sotmoq, laqillamoq.

**papouille** *nf fam* qitiqlash; **il lui fait des papouilles dans le cou** u uning tomog'ining tagini qitiqladi.

**papouiller** *vt* qitiqlamoq, u yer-bu yerini ushlamoq.

**paprika** *nm* yanchilgan qalampirning bir turi; **bœuf au paprika** qalampirli mol go'shti.

**papyrus** *nm inv* **1.** papirus; **2.** papirusga yozilgan qo'l yozma.

**pâque** *nf* yahudiylar pasxasi.

**paquebot** *nm* passajir kemasi; **paquebot de croisère** dengiz kemasi.

**pâquerette** *nf* dastor gul; **une pelouse émaillée de pâquerettes** dastor gul bilan qoplangan maysazor.

**pâques** *nf pl, nm* pasxa, Iso payg'ambarning tirilish xotirasiga bag'ishlangan diniy bayram.

**paquet** *nm* **1.** o'ram, tugun, dasta, quti, uyum; **un paquet de linge** bir tugun kir; **envoyer un paquet par la poste** pochta orqali paket jo'natmoq; **paquet de cigarettes** sigaret qutisi; **il fume un paquet par jour** u kuniga bir quti sigaret chekadi; **2. paquet de** bir paket, bir o'ram, bir tugun; **il a touché un paquet de billets** u bir paket bilet oldi; **des paquets de neige** qor uyumlari; *fam* **un paquet de nerfs** turgan-bitgani jahl; **3.** *loc fam* **mettre le paquet** katta pul sarflamoq; **risquer le paquet** bor bisotini tikmoq.

**paquetage** *nm* askarning safar anjomlari; **faire son paquetage** lash-lushini yig'ishtirmoq.

**par I.** *prép* **1.** bo'ylab, orqali, -dan (*o'rin*); **regarder par la fenêtre** derazadan qaramoq; **il est passé par la fenêtre** u deraza orqali o'tdi, derazadan o'tdi; **voyager par le monde, de par le monde** dunyo bo'ylab sayohat qilmoq; -ga, -da; **être assis par la terre** yerda o'tirmoq; **voitures qui se heurtent par l'avant** oldi bilan, orqali urilgan avtomobillar; **par en bas** tagi bilan, orqali; **par ici, par là** bu yerdan, u yerdan; *loc* **par-ci, par-là** u yer-bu yerda; **il m'agace avec ses "cher monsieur" par-ci, "cher monsieur" par-là** u o'zining u yerda ham, bu yerda ham "muhtaram janob"i bilan mening jonimga tegib ketdi; **2.** davomida, paytida; **par une belle matinée** go'zal tong paytida; **3. plusieurs fois par jour** kuniga bir necha bor; **marcher deux par deux** ikkita-ikkita bo'lib yurmoq; **3.** tufayli, orqali, tomonidan; **il a été gêné par les arbres** uni daraxtlar to'sib qolgan edi; **j'ai appris la nouvelle par mes voisins** men bu yangilikni qo'shnilarim orqali bildim; **l'exploitation de l'homme par l'homme** insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilish; **4. obtenir qqch par la force** biror narsaga kuch orqali erishmoq; **répondre par oui ou non** ha yoki yo'q orqali javob bermoq; **envoyer une lettre par la poste** xatni pochta orqali jo'natmoq; **elle est venu par avion** u samolyotda keldi; **il a fini par rire** u oxiri kuldi; **nettoyage par le vide** changyutqich bilan uy yig'ishtirish; *loc* **par exemple** masalan; **par conséquent** shunday qilib; **par suit** sababli, tufayli, natijasida; oqibatida, orqasida; **par ailleurs** bundan tashqari; **par contre** ammo, lekin, biroq; **5. de par** nomi bilan; **de par le roi, de par la loi** qirol, qonun nomi bilan; **II.** *adv* **par trop** ortiqcha, juda, o'ta; **il est par trop égoïste** u o'ta shaxsiyatparast.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**parabellum** *nm inv* parabellum (*pistoletning bir turi*).

**parabole¹** *nf* masal, hikoyat; **les paraboles de l'Évangile** Injil hikoyatlari; **parler par paraboles** mujmal gapirmoq.

**parabole¹** *nf* parabola (*egri chiziqning bir turi*).

**parabolique** *adj* **1.** parabolaga oid; **2.** paraboloid shaklida bo'lgan, paraboloidga o'xshash; **miroir parabolique** paraboloid shaklidagi ko'zgu; **3. capteur solaire parabolique** quyosh parabolik tutqichi.

**parachever** *vt* tugatmoq; oxiriga, nihoyasiga yetkazmoq; **parachever une œuvre** asarni nihoyasiga yetkazmoq.

**parachutage** *nm* parashutda tashlash (*biror kishini, biror narsani*).

**parachute** *nm* parashut; **parachute dorsale, ventral** orqa, old parashut; **un saut en parachute** parashut bilan sakramoq.

**parachuter** *vt* **1.** parashutda tashlamoq; **parachuter des soldats** askarlarni parashutda tashlamoq; **2.** *fam* oldindan ogohlantirmay biror ishga tayinlamoq, tashlamoq.

**parachutisme** *nm* parashutizm, parashut sporti.

**parachutiste** *n, adj* parashutchi, desantchi; **s'engager dans les paras** desantchilikka kirmoq.

**parade¹** *nf* qaytarish, daf qilish (*zarbani*); **il a trouvé la parade** u zarbani qaytarish yo'lini topdi.

**parade²** *nf* **1.** dabdaba, serhashamlik; **il aime trop la parade** u dabdabani juda yaxshi ko'radi; *loc* **faire parade de** ko'z-ko'z qilmoq; **il fait parade de ses connaissances** u o'z bilimini ko'z-ko'z qiladi; **habit de parade** serhasham libos; **amabilité de parade** yuzaki iltifot; **2.** parad, namoyish; **3.** tomosha (*asosiy tomoshadan oldin*); **parade foraine** yarmarka tomoshasi; **4.** *biol* navozish (*qo'shilishdan oldin*); **la parade du paon qui fait la roue** patlarini yozib navozish qilayotgan tovus.

**parader** *vi* maqtanmoq, o'zini ko'z-ko'z qilmoq, o'ziga bino qo'ymoq, chiranmoq, savlat to'kib yurmoq, o'zini ko'rsatmoq; **il parade au milieu des jolies femmes** u go'zal ayollar ichida o'ziga bino qo'yib yuribdi.

**paradis** *nm inv* **1.** jannat, behisht, firdavs; **aller au paradis** jannatga kirmoq; **2.** jannatdek (*jannatnamo, jannat misol*) joy, juda so'lim joy, go'zal, xushmanzara joy; **cette île est un vrai paradis** bu orol haqiqiy jannat; **3. le paradis terrestre** bog'i eram, jannatmakon, jannatnamo, jannatday joy; *loc* **paradis fiscal** soliq kam to'lanadigan jannatnamo joy.

**paradisiaque** *adj* jannatdek, jannatnamo, jannat misol; **un endroit paradisiaque** jannat misol joy.

**paradisier** *nm* jannat qushi (*chumchuqsimonlar turkumiga mansub, yaltiroq patli, juda chiroyli qushlar oilasi; Janubi-sharqiy Osiyoda va Sharqiy Avstraliyada yashaydi*).

**paradoxal, ale, aux** *adj* **1.** mantiqqa, aqlga mos kelmaydigan; **des raisonnements paradoxaux** mantiqqa mos kelmaydigan xulosalar; **2.** paradoksal, mantiqsizlikni yoqtiradigan, bemantiq; **esprit paradoxal** bemantiq aql.

**paradoxalement** *adv* mantiqqa zid ravishda.

**paradoxe** *nm* paradoks (*umum tomonidan qabul qilingan fikrlarga, ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan, shuningdek, sog'lom aqlga zid fikr*); **il soutient que deux et deux font cinq; quel paradoxe!** u ikki karra ikki besh bo'ladi deb ta'kidlaydi, aql bovar qilmaydi!

**parafe** *nm voir* **paraphe**.

**parafer** *vt voir* **parapher**.

**paraffine** *nf* parafin (*asosan neftdan olinadigan mumsimon mahsulot*); **huile de paraffine** parafin moyi.

**paraffiné, ée** *adj* parafin surtilgan, parafinlangan; **papier paraffiné** parafinlangan, nam o'tmaydigan qog'oz.

**parages** *nm pl* sohil yerlari; **les parages du cap Horn** Gorn burnining sohil yerlari.

**paragraphe** *nm* **1.** paragraf; **les paragraphes d'un chapitre** bobning paragraflari; **2.** paragrafni ko'rsatuvchi belgi (**§**).

**paragrêle** *adj* do'lga qarshi; **canon, fusée paragrêle** do'lga qarshi to'p, raketa.

**paraître I.** *vi* **1.** ko'rinmoq, paydo bo'lmoq; **le soleil paraît à l'horison** quyosh ufqda ko'rindi; **il parut sur le seuil** u ostonada paydo bo'ldi; **2.** bosilib chiqmoq, chiqmoq; **faire paraître un ouvrage** asarni bosib chiqmoq; **son livre est paru, vient de paraître** uning kitobi chiqdi, yaqinda chiqdi; **3.** ko'rinmoq; **faire, laisser paraître** ko'rsatmoq, namoyon qilmoq; **laisser paraître ses sentiments** o'z tuyg'ularini namoyon qilmoq; **4.** ko'rinmoq, kelmoq, bormoq; **il n'a pas paru à son travail depuis deux jours** u ishida ikki kundan beri ko'rinmadi; **5.** o'zini ko'rsatmoq, namoyish qilmoq; **elle aime un peu trop paraître** u o'zini ortiqcharoq namoyish qilishni yaxshi ko'radi; **6.** ko'rinmoq, o'xshab ko'rinmoq, tuyulmoq; **il paraît satisfait** u ko'ngli to'lganga o'xshaydi; **7.** bo'lib, o'xshab ko'rinmoq; **il veulent paraître ce qu'ils ne sont pas** ular o'zlari bo'lmagan narsaga o'zlarini o'xshatib ko'rsatishni xohlaydilar; **8.** *impers* **il me paraît préférable que vous sortiez** menimcha, sizning chiqib ketganingiz ma'qul ko'rinadi; **il paraît, il paraîtrait que** gap yuribdiki, aytishyaptiki; **il paraît qu'on va diminuer les impôts** soliqlarni ozaytirarmush degan gap yuribdi; **c'est trop tard, paraît-il, à ce qu'il paraît** chamasi, aftidan, juda kech bo'ldi; **II.** *nm litt* ko'rinish; **l'être et le paraître** bo'lish va ko'rinish.

**parallèle I.** *adj* parallel; kesishmaydigan; bir xil, bir-biriga o'xshash; bir paytda, bir vaqtda bo'ladigan; **ils menaient des expériences parallèles** ular bir-biriga o'xshash izlanishlar olib borishar edilar; **II.** *n* **1.** *nf* parallel, kesishmaydigan chiziq; **deux droites parallèles** ikki parallel to'g'ri chiziq; **2.** *nm géog* parallel; **les parallèles et les méridiens** parallel va meridianlar; **3.** *nm* bir-biriga o'xshash hodisa, o'xshashlik, muqoyasa, taqqoslash; **établir un parallèle entre deux questions** ikki masala orasida bir-biriga o'xshashlikni topmoq; *loc* **mettre deux choses en parallèle** ikki narsani parallel qo'ymoq, yonma-yon qo'ymoq, solishtirmoq.

**parallèlement** *adv* parallel holda, bir paytda, yonma-yon.

**parallélépipède** *nm* parallelepiped (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan oltiyoqlik*); **le cube est un parallélépipède rectangle** kub to'rtburchakli parallelepipeddir.

**parallélisme** *nm* **1.** parallelizm, parallellik; **vérifier le parallélisme des roues d'une automobile** avtomobil g'ildiraklarining parallelligini tekshirmoq; **2.** ikki ish, hodisa, harakat va boshqalarning bir vaqtda va bir xilda davom etishi.

**parollélogramme** *nm* parollelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*); **le losange, le rectangle sont des parollélogrammes** romb va to'rtburchak parallelogrammdir.

**paralysant, ante** *adj* **le curare est une substance paralysante** kurare falaj qiluvchi moddadir.

**paralysé, ée** *adj, n* falajlangan, falaj, shol; **bras, jambes paralysés** falajlangan qo'l, oyoqlar.

**paralyser** *vt* **1.** falajlamoq, shol qilmoq; **l'attaque qui l'a paralysé** uni xuruj falaj qilib qo'ydi; **le froid paralyse les membres** sovuq oyoq-qo'llarni shol qiladi; **2.** kuchnin, harakatni bo'g'ib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, faoliyatni to'xtatmoq; **j'étais paralysé par la terreur** men qo'rquvdan qotib qoldim; **grève qui paralyse les transports** ish tashlash transport qatnovini ishdan chiqardi.

**paralysie** *nf* **1.** shol, falaj; falajlik, shollik; **paralysie complète, parielle** to'la, qisman falajlik; **2.** harakat qobiliyatini yo'qotish, ishdan chiqish, faoliyatsizlik; **la paralysie des transports** transportning faoliyatsizligi.

**paralytique** *adj* paralitikka, falaj, shol bo'lgan kishiga oid; **un vieillard paralytique** falaj chol; *n* paralitik, falaj, shol bo'lgan kishi.

**paramédical, ale, aux** *adj* tibbiyotda yordamchi bo'lgan, yordamchi meditsina; **professions paramédicales** yordamchi tibbiyot xodimlari (*massajchi, hamshira*).

**paramètre** *nm* **1.** parametr, o'lchov; **2.** ko'rsatkich, belgi; **la pluie est un paramètre important dans les accidents de la route** yomg'ir yo'l ko'ngilsiz hodisalarining muhim ko'rsatkichidar.

**paramilitaire** *adj* harbiylashtirilgan; **des formations paramilitaires** harbiylashtirilgan tashkilotlar.

**parangon** *nm litt* namuna, timsol; **des parangons de vertu** yaxshi xislat namunalari.

**paranoïa** *nf* paranoyya (*ruhiy kasallik*).

**paranoïaque** *adj* paranoyaga oid; paranoya.

**parapet** *nm* panjara, himoya to'sig'i; **s'accouder au parapet d'un pont** ko'prikning panjarasiga tirsaklari bilan suyanmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**paraphe** *ou* **parafe** *nm* **1.** jimjima, gajak (*imzoda, harflarda*); **2.** grif (*qisqartirilgan imzo*).

**parapher** *ou* **parafer** *vt* qo'l qo'ymoq, tasdiqlamoq; **parapher toutes les pages d'un contrat** shartnomaning hamma betlariga qo'l qo'ymoq.

**paraphrase** *nf* parafraza (*biror asar ma'nosini boshqa so'zlar bilan aytib berish*).

**paraphraser** *vt* parafraza qilmoq.

**paraplégie** *nf* paraplegiya (*ichki a'zolar falaji*).

**paraplégique** *adj, n* paraplegiyaga oid, paraplegik; **la rééducation des paraplégiques** paraplegiklarni qayta kasbga tayyorlash.

**parapluie** *nm* soyabon, zontik.

**parascolaire** *adj* sinfdan tashqari ishlarga oid, sinfdan tashqari.

**parasitaire** *adj* parazitga xos, parazit; **maladie parasitaire** parazit kasalliklar.

**parasite**[1] *nm, adj* parazit (*boshqa organizm hisobiga yashovchi organizm*); tekinxo'r, haromtomoq.

**parasite**[2] *adj, nm pl* **bruits parasites** notanish shovqin (*tovushning tiniq eshitilishiga xalal beruvchi shovqin*).

**parasiter**[1] *vt* boshqa organizm hisobiga yashamoq, hayot kechirmoq.

**parasiter**[2] *vt* shovqin bermoq.

**parasitisme** *nm* **1.** tekinxo'rlik, haromxo'rlik; **1.** parazitizm (*bir organizmning boshqa organizm hisobiga yashashi*).

**parasol** *nm* **1.** soyabon; **parasol de plage** plaj soyaboni; **2. pin parasol** dengiz yoqasida o'sadigan qarag'ay.

**paratonnerre** *nm* yashinqaytargich.

**paravent** *nm* yig'ma panjara; **elle s'est déshabillée derrière un paravent** u yig'ma panjara orqasida yechindi.

**parbleu** *intj vx* jin ursin, obbo, nega, nima uchun; nima keragi bor, sira keragi yo'q.

**parc**[1] *nm* **1.** istirohat bog'i, oromgoh; **parc public** jamoat bog'i; **parc zoologique** hayvonot bog'i; **parc de loisirs** istirohat bog'i; **2. parc national, régional** milliy bog', milliy qo'riqxona.

**parc**[2] *nm* **1.** qo'ton, mollar turadigan joy; **parc à huitres** ustritsa yetishtiriladigan sun'iy hovuz; **2. parc de stationnement pour les voitures** avtomobillar turar joyi; **3.** manej (*bolalarni yurishga o'rgatish uchun atrofiga to'r tutilgan to'garak moslama*).

**pacellaire** *adj* bo'lak-bo'lak bo'lib amalga oshadigan; **plan parcellaire** bo'lak-bo'lak bo'lib amalga oshadigan reja.

**parcelle** *nf* **1.** zarra, bo'lak, parcha; **des parcelles d'or** oltin zarrachalari; **2.** paykal, bir parcha yer maydoni, chek.

**parce que** *loc prép* chunki, negaki, shuning uchunki.

**parchemin** *nm* **1.** iylangan teri, pergament; **2.** teriga yozilgan qadimgi qo'l yozma.

**parcheminé, ée** *adj* pergamentga oid; pergament; **cuir, papier parcheminé** pergament teri, qog'oz; **le visage parcheminé d'un vieillard** qari kishining tirishgan yuzi.

**parcimonie** *nf* avaylash, ayash, tejamkorlik; **donner, disribuer avec parcimonie** ayab, tejab bermoq, tarqatmoq.

**parcimonieusement** *adj* avaylab, ayab, qattiqlik bilan, tejab.

**pacimonieux** *adj* ehtiyotkor, tejamkor.

**par-ci, par-là** *loc* **par**.

**parcmètre** *nm* hisoblagich (*yo'l bo'yida mashinaning to'xtab turganligi uchun haq to'lanadigan apparat*).

**parcourir** *vt* **1.** kezib chiqmoq, aylanib chiqmoq**.** bosib o'tmoq; **2.** ko'z yugurtirmoq, qarab chiqmoq; **parcourir un journal** gazetaga ko'z yugurtirib chiqmoq.

**parcours** *nm inv* **1.** marshrut, bosib o'tiladigan yo'l; qatnov yo'l; **2.** yurish, qatnash yo'li (*musobaqada*).

**pardessus** *nm inv* erkaklar paltosi.

**pardon** *nm* **1.** kechirish, afv etish, gunohidan o'tish, ma'zur tutish; **demander pardon à qqn** birovdan kechirim so'ramoq; **accorder son pardon à qqn** birovni kechirmoq, afv etmoq; **2. je vous demande pardon** sizdan uzr so'rayman; *ou ellipt* **pardon** uzr; **pardon?, pouvez-vous répéter?** kechirasiz?, yana bir qaytaringchi! **3.** *fam* **le père était déjà costaud, mais alors le fils, pardon** otasi bu vaqtda baquvvat edi, lekin o'g'li bo'lsa, kechirasiz!

**pardonnable** *adj* kechirarli, uzrli, kechirsa bo'ladigan; **une méprise bien pardonnable** kechirsa bo'ladigan nafrat; **cet enfant est pardonnable** bu kechirsa bo'ladigan bola.

**pardonner** *vt* **1.** kechirmoq, afv etmoq; gunohidan o'tmoq, kechmoq; **pardonner les péchés** gunohlaridan o'tmoq; **2.** ma'zur tutmoq, uzr; **pardonnez(-moi) mon indiscrétion** mening beadabligimni ma'zur tutasiz; *odob yuzasidan;* **3.** ayamoq, rahm, shafqat qilmoq; **c'est une maladie qui ne pardonne pas** bu rahm-shafqat qilib o'tirmaydigan kasallik; **une erreur qui ne pardonne pas** tuzatib bo'lmaydigan xato.

**pare-balles** *nm, adj inv* o'qqaytargich; **un gilet pare-balles** jibba, bronojilet.

**pare-boue** *nm inv* brizgovik (*avtomobillarning g'ildiragi orqasiga loy chachrashiga qarshi qo'yiladigan rezina qanot*).

**pare-brise** *nm inv* shamol to'sadigan oyna, avtomobilning old oynasi.

**pare-chocs** *nm inv* bufer.

**pare-feu** *nm inv* o'tga qarshi moslama.

**parégorique** *adj, nm* og'riq qoldiruvchi dori (*ichak kasalliklarida*).

**pareil, eille I.** *adj* **1.** o'xshash, o'xshagan, singari, kabi, monand, xuddi, -dek; **2.** shunday, xuddi shunday, bunday; **en pareil cas** bunday hollarda; **à une heure pareille!** shunday bir vaqtda! (*kech*); **II.** *n* **1.** o'xshashi, tengi; **ne pas avoir son pareil** o'ziga tengi bo'lmaslik; **il n'a pas son pareil pour raconter des histoires** hikoyalar aytishda uning tengi yo'q; **sans pareille** tengi, o'xshashi yo'q; **des brillants sans pareil** tengi, o'xshashi yo'q olmoslar; **2.** *nf* **rendre la pareille** qilmishiga yarasha qaytarmoq; **3.** *nm loc fam* **c'est du pareil au même** bu xuddi o'zi, farqi yo'q.

**pareillement** *adv* bir xil, bir xilda, xuddi shunday; **la santé est bonne et l'appétit pareillement** sog'liq va ishtaha bir xil.

**parement** *nm* **1.** yo'nilgan toshdan urilgan devorning tashqi qismi; **2.** qaytarma (*yoqa, yengning*); **une veste à parement** qaytarma yoqali kurtka.

**parenchyme** *nm bot* dastmolsimon o'simlik.

**parent, ente I.** *n* **1.** *pl* ota-ona; **un enfant qui obéit à ses parents** ota-onasiga quloq soladigan bola; **2.** *sing ou pl* qarindosh-urug', jigar; **ils sont parents** ular qarindosh; **c'est un proche parent, un parent éloigné** bu yaqin, uzoq qarindosh; *loc* **traiter qqn en parent pauvre** biror kishiga bechoraholga muomala qilganday muomala qilmoq; **II.** *adj* **1.** qardosh, qarindosh, bir oilaga mansub, turdosh; **les langues romanes sont parentes** roman tillari qardosh tillar; **espèces biologiques parentes** biologik bir oilaga mansub turlar; **2.** o'xshash, bir xil, bir turdagi.

**parental, ale, aux** *adj* ota-onaga oid, ota ona; **autorité parentale** ota-ona nufuzi.

**parenté** *nf* **1.** qarindoshlik, qon-qardoshlik; jigarchilik; **liens de parenté** qon-qardoshlik rishtalari; **2.** qardoshlik; **3.** qarindosh-urug'; **tout sa parenté** hamma qarindosh-urug'lari; **4.** o'xshashlik, yaqinlik; **la parenté d'inspiration, de forme de deux poèmes** ikki poemaning ruhan, shaklan o'xshashligi.

**parenthèse** *nf* **1.** izoh so'zlar, **je fais une parenthèse** men izoh so'z kiritaman; **2.** qavs; **mettre un mot entre parenthèses** so'zni qavs ichiga olmoq.

**paréo** *nm* **1.** avratpo'sh, lungi (*taitiliklarda*); **2.** plajda kiyiladigan shunga o'xshash yubka.

**parer**[1] **I.** *vt* **1.** tozalab tayyorlab qo'ymoq; **parer une étoffe** matoni tozalab tayyorlab qo'ymoq; **2.** *mar* tayyorlaning (*biror narsa qilishga*); **parez à virer!** burishga tayyorlaning! **3.** yasantirmoq, yasamoq, bezantirib kiyintirmoq; **parer qqn de ses plus beaux atours** biror kishini eng go'zal kiyimlarini kiydirib yasantirmoq; **4.** taqamoq (*yaxshi xislatlarni*), bezamoq; **parer qqn de toutes les vertus** biror kishiga hamma yaxshi xislatlarni taqamoq; **II. se parer** *vpr* bezanmoq, yasanmoq, yasan-tusan qilmoq.

**parer**[2] **I.** *vt* **parer un (le) coup** zarbani qaytarmoq, daf qilmoq; **II.** *vi* oldini olmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq, oldindan bartaraf qilmoq; **parer à toute éventualité** kutilmagan hodisalarning oldini olmoq; *loc* **il faut parer au plus pressé** shoshilinch choralarni ko'rish kerak; **paré contre** qarshi ehtiyot



www.ziyouz.com kutubxonasi

choralari ko'rilgan, -dan himoya qilingan; **nous sommes parés contre le froid** biz sovuqdan himoyalanganmiz.

**pare-soleil** *nm inv* quyosh to'sqich (*avtomobilda*).

**paresse** *nf* **1.** dangasalik, yalqovlik, tanballik; *prov* **la paresse est la mère de tous les vices** dangasalik hamma illatlarning onasi; **il était d'une paresse incurable** u bedavo dangasa edi; **paresse d'esprit** o'ylashga toqati yo'qlik; **2.** erinchoqlik, lanjlik, hafsalasizlik, hushi yo'qlik.

**paresser** *vi* dangasalik, yalqovlik, tanballik qilmoq.

**paresseusement** *adv* **1.** dangasalik, yalqovlik, tanballik bilan; **2.** shoshmay, bo'shashib, lanj, erinib; **fleuve qui coule paressesement** sekin oqayotgan daryo.

**paresseux, euse I.** *adj* **1.** dangasa, yalqov, tanbal, ishyoqmas, tebsa-tebranmas; **il est paresseux pour se lever** uning o'rnidan turgani ham hushi yo'q; **2.** bo'shashgan, holsizlashgan, kuchsizlashgan (*a'zolar*); **II.** *n* **1.** dangasa, yalqov, tanbal, ishyoqmas, tepsa-tebranmas; **2.** *nm zool* yalqov (*juda sekin harakatlanuvchi, daraxtlarda yashovchi hayvon*).

**parfaire** *vt* nihoyasiga yetkazmoq, maromiga yetkazmoq; **parfaire son ouvrage** asarini nihoyasiga yetkazmoq; **parfaire sa culture** madaniyatini maromiga yetkazmoq.

**parfait, aite I.** *adj* **1.** mukammal, bekam-ko'st, benuqson, kam-ko'sti yo'q (*narsa*); **2.** mukammal, benuqson, qusursiz (*odam*); **il est loin d'être parfait** u mukammal bo'lishdan uzoq; **3.** to'liq, mukammal, tugal (*otdan oldin*); **un parfait gentlman** haqiqiy jentlmen; **un parfait imbécile** o'taketgan ahmoq; **II.** *nm* **1.** *gram* perfekt, tugal o'tgan zamon; **2.** meva muz qaymog'i.

**parfaitement** *adv* **1.** mukammal, benuqson, kam-ko'stsiz, bekam-ko'st; **2.** to'la, butunlay, juda; **être parfaitement heureux** butunlay baxtli bo'lmoq; **3.** ha, xuddi shunday, aynan o'zi; **parfaitement, c'est comme ça** aynan o'zi, bu xuddi shunday.

**parfois** *adv* ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda, goho, gohida, goh-goh, onda-sonda, ahyon-ahyonda, ora-sira; **il a parfois des malaises** uning goh-goh mazasi qochib turadi.

**parfum** *nm* **1.** xushbo'y, muattar hid; bo'y; **le parfum de la rose** atirgulning xushbo'y hidi; **2.** atir; **un flacon de parfum** bir flakon atir; **4.** *fam* **être au parfum de qqch** biror narsani hidini sezmoq, olmoq (*biror narsadan xabardor bo'lmoq*).

**parfumer** *vt* **1.** xushbo'y qilmoq; **la lavande qui parfume le linge** choyshab-yostiqlarni xushbo'y qiladigan lavanda; **2.** atir sepmoq, atir sepib xushbo'y qilmoq; **parfumer son mouchoir** ro'molchasiga atir sepmoq; **3.** toti, ta'mi, mazasi berilgan; **une glace parfumée au café** qahva ta'mi berilgan muz qaymoq.

**parfumerie** *nf* **1.** parfumeriya, atir-upa ishlab chiqarish sanoati; **2.** atir-upa, attorlik mollari; **vente de parfumerie en gros** atir-upani ko'tarasiga sotish; **2.** atir-upa ishlab chiqarish zavodi; **3.** atir-upa sotiladigan, attorlik do'koni.

**parfumeur, euse** *n* atir-upa ishlab chiqaruvchi odam yoki uni sotuvchi odam, attor.

**pari** *nm* **1.** garov, bas; garov o'ynash, garov bog'lash; **faire un pari** garov o'ynamoq; **tenir un pari** garov bog'lamoq; **2.** poygada otlarga pul tikib o'ynash; **pari mutuel** totalizator (*ot poygasida qaysi otga qancha pul tikilganligini ko'rsatadigan asbob*).

**paria** *nm* **1.** *Hindistonda.* pariya (*har qanday huquqdan mahrum, quyi tabaqaga mansub odam*); **2.** huquqsiz; ezilgan, mazlum odam; **vivre en paria** mazlumlikda yashamoq.

**parier** *vt* **1.** garov o'ynamoq, garovga qo'ymoq, tikmoq; **2.** garov o'ynamoq, bas bog'lamoq (*o'zining haqligini ko'rsatish uchun*); **je parie que c'est lui** men garov o'ynaymanki, bu o'sha; **je l'aurais parié** men bu haqda garov o'ynagan bo'lardim; **vous avez soif, je parie** garov o'ynaymanki, siz chanqadingiz.

**parieur** *nm* garovga tikuvchi, pul tikuvchi.

**pariétal, ale, aux** *adj* **peintures pariétales** qoyaga chizilgan, solingan, o'yilgan rasmlar.

**parigot, ote** *fam adj, n* parijlik (*ko'pincha Parij atrofida yashovchilarga nisbatan*); **accent parigot** Parij aksenti.

**parisien, ienne I.** *n* parijlik; **II.** *adj* Parijga oid, Parij; **banlieue parisienne** Parij atroflari.

**paritaire** *adj* baravar, teng; **commission paritaire** teng komissiya (*xizmatchi va ishchilar soni teng bo'lgan komissiya*).

**parité** *nf* **1.** tenglik, barobarlik (*ikki narsaning; erkaklar va ayollar maoshining tengligi*); **2.** paritet, nisbat (*turli mamlakat pul birliklari qiymatining oltin baravarida bir-biriga nisbati*); **parité de change** pul almashtirish nisbati.

**parjure** *n* **1.** *nm litt* qasamxo'rlik, qasamini buzish, ontidan qaytish, qasamiga xilof ish qilish; **2.** *litt* qasamxo'r, qasamini buzgan, ontidan qaytgan odam, xoin; *adj* qasamxo'r, ontixo'r, munofiq, o'z so'zida turmaydigan; **un témoin parjure** qasamxo'r guvox.

**parjurer (se)** *vpr* qasamxo'rlik, ontixo'rlik qilmoq; ontidan, qasamidan qaytmoq; **elle s'est parjurée** u ontidan qaytdi.

**parka** *nm anglic* qalpoqli, kalta palto.

**parking** *nm anglic* avtomobillar turadigan joy; **des parkings souterrains** avtomobillarning yer osti turar joyi; **mettre sa voiture au parking** avtomobilini turar joyga qo'ymoq.

**parlant, ante** *adj* **1.** gapiradigan, so'zlaydigan, ovozli; **2.** ochiq-oydin, ko'rinib turgan, aniq, yaqqol aytib turgan; **les chiffres sont parlants** ochiq-oydin aytib turgan sonlar.

**parlé, ée** *adj* og'zaki, so'zlashuv; **langue parlée** so'zlashuv tili; **connaissance de l'anglais parlé** ingliz og'zaki tilini bilish.

**parlement** *nm* **1.** *hist* oliy sud, parlament (*Fransiya qirolligida*); **2.** parlament (*qonun chiqaruvchi oliy davlat organi*); **en France, le parlement est composé de l'assemblée nationale et du sénat** Fransiyada parlament milliy assambleya va senatdan tashkil topgan.

**parlementaire**[1] **I.** *adj* parlamentga oid, parlament; **démocratie parlementaire** parlament demokratiyasi; **II.** *n* parlament a'zosi, deputat, senator; **un honorable parlementaire britannique** Britaniyaning e'tiborli parlament a'zosi, deputati.

**parlementaire**[2] *n* parlamentyor, elchi (*urush vaqtida dushman bilan muzokara olib borish uchun yuboriladigan vakil*).

**parlementer** *vi* **1.** muzokara olib bormoq, yuritmoq (*dushman bilan*); muzokara, muhokama qilmoq; **les deux associés parlementèrent longuement** ikki sherik uzoq muzokara olib borishdi; **3.** muzokara yuritmoq, gaplashmoq, kelishmoq, bitishmoq, bitimga kelmoq; **il falut parlementer avec le gardien pour pouvoir entrer** kirishga erishish uchun qoravul bilan uzoq muzokara yuritishga to'g'ri keldi.

**parler**[1] **I.** *vi* gapirmoq, so'zlamoq; **cet enfant commence à parler** bu bola gapirishga boshladi; **parler de qqch, de qqn** biror narsa, kimsa haqida gapirmoq; **parlez-nous de vos projets** rejalaringiz haqida bizga gapirib bering; **tout le monde en parle** hamma bu haqda gapiryapti; *loc* **sans parler de** haqda gapirmaganda; **n'en parlons plus!** gap tamom! bu haqda boshqa gapirmaylik! **il fait beaucoup parler de lui** u o'zi haqida ko'p gapirtiradi; **de quoi parle ce livre?** bu kitobda nima haqida gap ketadi?, bu kitob nima haqida? **il parlait d'émigrer aux États-Unis** u Qo'shma Shtatlarga ko'chib ketish haqida gapirardi; **parler à qqn** biror kishiga gapirmoq; **laissez-moi lui parler** meni unga gapirgani qo'ying; *fam* **tu parles!, vous parlez!** turgan gap, bo'lmasa-chi, albatta; **tu parles d'un idiot!** turgan gap, jinni! **sa reconnaissance, tu parles!** albatta, uning minnatdorchiligi! **tu parles si je m'en fiche!** bo'lmasa-chi, men unga tupurdim! **II.** *vt* **1.** gapirmoq, bilmoq (*tilni*); **parler (le) français** fransuzcha bilmoq, gapirib bilmoq, gapirmoq; **parlez-vous anglais?** inglizcha bilasizmi? **2.** tutinmoq, boshlamoq, kirishmoq; **parler politique** siyosatga kirishmoq.

**parler**[2] *nm* **1.** til; **les mots du parler de tous les jours** har kuni gapiriladigan tilning so'zlari; **2.** lahja, sheva.

**parleur** *nm péj* **beau parleur** so'zamol, gapdon, mahmadona.

**parloir** *nm* qabulxona, so'zlashuv xonasi (*qamoqxonada*); **le parloir du couvent, de la prison** monastir, qamoqxona so'zlashuv xonasi; **élève appelé au parloir** qabulxonaga chaqirilgan o'quvchi.

**parlote** *nf* gap bozori, gap sotish, quruq gapbozlik; **faire la parlote avec une voisine** qo'shni bilan gap sotish.

**parmesan** *nm* parmezan (*pishloqning bir turi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**parmi** *prép* orasida, ichida, davrasida; **des maisons disséminées parmi les arbres** daraxtlar orasida sochilib ketgan uylar; **nous souhaitons vous avoir bientôt parmi nous** biz sizni yaqin orada oʻz davramizda koʻrish istagidamiz; **2.** orasida, oʻrtasida, qatorida; **cʼest une solution parmi dʼautres** boshqalari qatorida bu ham bir chora; **3.** orasida, ichida, davrasida (*jonli narsalar orasida*); **lʼinégalité parmi les hommes** odamlar orasidagi tengsizlik.

**parodie** *nf* **1.** parodiya; **2.** parodiya, buzuq taqlid, buzuq oʻxshatma; **une parodie de réconciliation** yarashishga buzuq oʻxshatma.

**parodier** *vt* parodiya yozmoq.

**parodique** *adj* parodiyaga oid; hazil yoki hajviya tarzida yozilgan, parodiya.

**paroi** *nf* **1.** pardevor, pardadevor, devorning ichki qismi; **appuyer son lit contre la paroi** karavotini pardevorga tekkizib qoʻymoq; **2.** tabiiy devor, toʻsiq; **paroi rocheuse** qoyali devor; **3.** biror narsaning ichki devori; **les parois dʼun vase** vazaning ichki tomoni.

**paroisse** *nf* qavm, prixod (*biror budxonaga qatnovchi dindorlar*).

**paroissial, iale, iaux** *adj* qavm, prixodga oid, qavm, prixod; **église paroissiale** qavmli budxona.

**paroissien, ienne** *n* **1.** budxona qavmlaridan biri; **le curé et ses paroissiens** kyure va uning qavmlari; **2.** *nm* ibodat (*namoz, duolar*) toʻplami, kitobi.

**parole** *nf* **1.** nutq, gap, soʻz, suhbat; **2.** *pl* soʻzlar, matn (*vokal musiqa matni boʻlagining*); **lʼair et les paroles dʼune chanson** ashulaning ohangi va soʻzlari; *loc* **histoire sans paroles** qisqa metrajli ovozsiz film; **3.** gap, ovoz chiqarib aytilgan fikr; **une parole historique** tarixiy gap; **4.** *sing* soʻz, vaʼda; **donner sa parole** soʻz bermoq; **tenir parole** soʻzida turmoq; **sur parole** soʻzga, vaʼdaga ishonib; *intj* **(ma) parole dʼhonneur!** chin soʻzim!, chin soʻz! **ma parole!, parole!** xudo haqqi! **5.** soʻzlashish, gapirish qobiliyati, nutq, til; **perdre la parole** gapirish qobiliyatini yoʻqotmoq; *loc* **il ne lui manque que la parole** unga til-zabongina yetishmaydi (*aqlli hayvonga nisbatan*); **6.** nutq, soʻz; **avoir la parole facile** gapga chechan boʻlmoq; **adresser la parole à qqn** biror kishiga murojaat qilmoq; **prendre la parole** soʻz olmoq; **couper la parole à qqn** biror kishining soʻzini boʻlmoq; **7.** *ling* nutq.

**parolier, ière** *n* qoʻshiq matni muallifi.

**paronyme** *adj, nm gram* paronim (*talaffuzi yaqin soʻzlar*).

**paroxysme** *nm* eng yuqori nuqta, choʻqqi, eng yuqori daraja; **la douleur, la jalousie atteint son paroxysme** ogʻriq, hasad oʻzining eng yuqori nuqtasiga yetdi.

**parpaillot, ote** *n vx péj* protestant, gugenot.

**parpaing** *nm* ichi gʻovak blok; ichi gʻovak blokdan qilingan devor.

**parquer** *vt* **1.** otxonaga, ogʻilga bogʻlamoq, kiritmoq, qamamoq (*hayvonlarni*); **2.** tor joyga qamamoq, yigʻmoq, toʻplamoq (*odamlarni*); avtomobilni avtomashinalar turadigan joyga qoʻymoq.

**parquet[1]** *nm* parket, parket pol; **un parquet de chêne ciré** mumlangan eman parket.

**parquet[2]** *nm* prokratura; **le parquet a fait appel** prokratura chaqirtirdi.

**parqueter** *vt* parket yotqizmoq.

**parrain** *nm* **1.** choʻqintirgan ota; **le parrain et la maraine** choʻqintirgan ota va choʻqintirgan ona; **mon parrain** mening choʻqintirgan otam; **2.** kemani suvga tushirishda boshchilik qiladigan odam, unga nom beradigan odam; **3.** kafil boʻlgan kishi, kafil ota.

**parrainage** *nm* **1.** choʻqintirgan otalik yoki onalik qilish; **2.** kafillik qilish, kafil oʻtish; **3.** otaliq; **comité de parrainage** otaliq qoʻmitasi.

**parrainer** *vt* otaliq qilmoq, otaliqqa olmoq; **parrainer un entreprise** bir korxonaga otaliq qilmoq; **il mʼa parrainer dans cette soirée** u bu kechada menga otaliq qildi.

**parricide** *n* **1.** *nm* padarkushlik yoki modarkushlik; **2.** *n* padarkush; *adj* **fils parricide** padarkush oʻgʻil.

**parsemer** *vt* **1.** sepmoq, ustiga sepmoq, sepib qoplamoq; **2.** sochilib yotmoq, toʻla boʻlmoq; **les fautes qui parsèment un devoir** xatoga toʻla uy ishi.

**part** *nf* **1.** hissa, ulush; tekkan qism, boʻlak; **je prends part à votre douleur** men sizning qaygʻungizga sherikman; **pour ma part** oʻz tomonimdan, menga qolsa; **2. (faire) part à deux** boʻlashmoq; **faire part de qqch, à qqn** biror narsani biror kishiga bildirmoq, xabar bermoq; **3.** ulush, boʻlak, qism; **diviser en parts,** boʻlaklarga, qismlarga boʻlmoq, boʻlashmoq; **assigner à qqn une part dans un legs** biror kishiga merosning bir qismini belgilab bermoq; **4.** aksiya; **acheter des parts dans une entreprise** bir korxonaning aksiyalarini sotib olmoq; **il faut que chacun paye sa part** har kim oʻz payini qoʻshsin; **5. faire la part de** nazarga olmoq, hisobga olmoq, nazarda tutmoq; **faire la part des choses, la part du feu** narsalarni nazarda tutmoq, narsalarning bir qismini inʼom qilmoq; **6.** boʻlak, qism; **il a perdu une grande part de sa fortune** u boyligining katta qismini yoʻqotdi; **pour une large part** katta qismda; **7.** taraf, tomon, yoq, yoʻnalish; **de la part de** tarafidan, nomidan; **je viens de la part de mon mari** men erim nomidan kelayapman; **de toutes parts** *ou* **de toute part** har tarafdan; **dʼune part… dʼautre part** bir tomondan, tarafdan… ikkinchi, boshqa tomondan, tarafdan; **nulle part** hech qayerda; **autre part** boshqa bir yerda; **quelque part** bir joyda, qayerdadir; **elle lʼavait déjà vu quelque part** u uni oldin ham qayerdadir koʻrgan edi; *loc adv* **à part** chetga, alohida; **mettre qqn, qqch à part** biror narsani chetga qoʻymoq, biror kimsani chetga tortmoq; **prendre qqn à part pour lui parler** biror kimsani gap aytish uchun chetga tortmoq; *loc prép* -dan tashqari, -dan boʻlak, -dan boshqa; **à part lui nous ne connaissons personne** biz undan tashqari hech kimni tanimaymiz; *adj* **à part** alohida, alohida-alohida, mustaqil ravishda; **occuper une place à part** alohida joy egallamoq; *th* **à part** oʻziga oʻzi, oʻzicha (*aktyorning ovoz chiqarib oʻziga oʻzi aytgan soʻzi*).

**partage** *nm* **1.** boʻlish, boʻlib olish, taqsimlash, taqsimot, ayirish, ajratish, ulashish; **le partage dʼun domaine** mol-mulkni taqsimlash; **ligne de partage des eaux** suv ayirgʻich, alish; **2.** taqsimot, boʻlishish; **un partage équitable** adolatli taqsimot; **3. sans partage** soʻzsiz, pisandasiz, istisnosiz; **une amitié sans partage** ajralmas doʻstlik; **4.** ulush, hissa; **la chance nʼest pas mon partage** omad menga nasib qilmadi; **en partage** ulush, hissa sifatida; **donner, recevoir en partage** ulush sifatida bermoq, olmoq.

**partager I.** *vt* **1.** boʻlmoq, taqsimlamoq, ulashmoq; **partager un domaine entre des héritiers** mol-mulkni merosxoʻrlar orasida boʻlmoq; **partager son temps entre plusieurs occupations** oʻz vaqtini turli yumushlar oʻrtasida taqsimlamoq; **2. partager qqch avec qqn** biror narsani birov bilan boʻlishmoq; **3.** baham koʻrmoq, sherik boʻlmoq; ishtirok etmoq, baravar tortmoq, qoʻshilishmoq; **partager le repas de qqn** birovning ovqatiga sherik boʻlmoq; **partager une responsabilité avec qqn** javobgarlikni birov bilan baravar tortmoq; **les torts sont partagés** qoʻshilishilgan ayb; **un amour partagé** oʻzaro sevgi; **4.** boʻlmoq, ajratmoq; **cloison qui partage une pièce en deux** bir xonani ikkiga ajratib turuvchi pardevor; **5. être partagé(e)** orasida qolmoq; **il était partagé entre amitié et la rancune** u doʻstlik va gina orasida qoldi; *loc* **les avis sont partagés** fikrlar juda xilma-xil, qarama-qarshi; **II. se partager** *vpr* boʻlinmoq, ajralmoq; boʻlishmoq; **ce gâteau ne se partage pas facilement** bu pirog osanlikcha boʻlinmaydi; **se partager entre diverses tendances** turli yoʻnalishlar orasida qolmoq; **partagez-vous en deux groupes** ikki guruhga boʻlininglar! **ils se sont partagé lʼhéritage** ular merosni oʻzaro boʻlib olishdi.

**partageur, euse** *adj* oʻz narsasini birov bilan boʻlashuvchi; **cette gamine nʼest pas partageuse** bu qizcha boʻlashuvchi emas.

**partance** *nf* **en partance** joʻnab ketuvchi, yoʻl oluvchi, uchuvchi; **avion en partance pour** -ga uchuvchi samolyot.

**partant[1], ante I.** *n* **1.** joʻnab ketuvchi, joʻnovchi; **2.** yugurish, chopish qatnashchisi (*start oluvchi*); **les partants dʼune cours cycliste** velosiped poygasida qatnashuvchilar (*start oluvchilar*); **II.** *adj fam* **je ne suis pas partante pour une aventure aussi risquée** men bunday qaltis ishga moyil emasman.

**partant[2]** *conj litt* demak, binobarin, bas; **plus dʼemplois, partant moins de chômage** ish koʻp boʻlsa, demak ishsizlik ham kam.

**partenaire** *n* **1.** sherik, hamroh, partnyor, juft; **la partenaire dʼun patineur** konkida uchuvchining jufti; **2.** *fam* rafiqa, maʼshuqa, oʻynash; **voici ma partenaire** mana mening maʼshuqam; **3.** sherik, kompanon; umumiy bozor boʻyicha sheriklarimiz.

**parterre[1]** *nm* gulzor.

**parterre[2]** *nm* parter.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**parthénogénèse** *nf biol* partenogenez, jinsiy urug‘lanishsiz ko‘payish.

**parti[1]** *nm* **1.** *litt* qaror, fikr; **il hésitait entre deux partis** u ikki xil fikr orasida ikkilanar edi; **2. prendre le parti de** qaror qilmoq, bir qarorga, fikrga kelmoq; **hésiter sur le parti à prendre** biror qarorga kelishga ikkilanmoq; **prendre parti** o‘z qarorini, fikrini aniq bildirmoq; **il ne veut pas prendre parti** u o‘z qarorini aniq bildirishni xohlamaydi; **prendre son parti** bo‘ysunmoq, taqdirga tan bermoq; **prendre son parti de qqch, en prendre son parti** biror narsaga bo‘ysunmoq, taqdirga tan bermoq; **parti pri** taxminlarga asoslangan mulohaza; **des partis pris** taxminlarga asoslanagan mulohazalar; **juger sans parti pris** taxminlarga asoslanmay mulohaza qilmoq; **être de parti pris** g‘arazgo‘y, nohaq, adolatsiz bo‘lmoq; **3.** *loc* **tirer parti de** foydalanmoq, foydalanib qolmoq, naf olmoq; **il a su tirer parti de cette situation difficile** u bu og‘ir ahvoldan foydalanib qoldi.

**parti[2]** *nm* **1.** ijtimoiy-siyosiy guruh, oqim, yo‘nalish, lager; **avoir le même parti que qqn, se ranger au parti de qqn** biror kishi bilan bir ijtimoiy-siyosiy oqimda bo‘lmoq, biror kishining ijtimoiy-siyosiy guruhiga qo‘shilmoq; **2.** partiya; **être inscrit à un parti** biror partiyaga kirgan bo‘lmoq; **militant d'un parti** biror partiyaning kurashchisi; **le parti communiste** kommunistik partiya.

**parti[3]** *nm* nikoh, juft; **elle a trouvé, épousé un beau parti** u o‘ziga ajoyib juft topdi, u ajoyib yigitga turmushga chiqdi.

**parti[4], ie** *adj fam* shirakayf; **après l'apéritif, elle était déjà un peu partie** aperitivdan so‘ngoq, u shirakayf bo‘lib qolgan edi.

**partial, ale, aux** *adj* g‘arazli, g‘arazgo‘y, nohaq, adolatsiz; **un juge ne doit pas être partial** hakam g‘arazgo‘y bo‘lmasligi kerak.

**partialement** *adj* g‘arazgo‘ylik, g‘araz, nohaqlik, adolatsizlik, tarafkashlik bilan.

**partialité** *nf* g‘arazgo‘ylik, nohaqlik, adolatsizlik, tarafkashlik; **partialité en faveur de qqn, contre qqn** biror kishining foydasiga, zarariga tarafkashlik.

**participant, ante** *adj, n* qatnashuvchi, ishtirok etuvchi; qatnashchi, ishtirokchi; **liste des participants à une compétition** musobaqada qatnashuvchilar ro‘yxati; **les participants d'une association** biror birlashmaning ishtirokchisi.

**participatif, ive** *adj* qatnashadigan, ishtirok etadigan.

**participation** *nf* **1.** qatnashish, ishtirok etish; **cet acteur promet sa participation au gala** bu aktyor tomoshada ishtirok etishga va'da berdi; **participation aux frais** badal; **2.** birga qatnashish, sherikchilik qilish; **participation aux bénéfices** foydaga sherikchilik qilish; **3.** birga qatnashish, bosh qo‘shish, ishtirok huquqi; **la participation des élèves à la vie du collège** o‘quvchilarning kollej hayotida ishtirok etish huquqi.

**participe** *nm* sifatdosh; **participe présent à valeur verbale, à valeur d'adjectif** fe'l, sifat ma'nosini anglatuvchi hozirgi zamon sifatdoshi; **participe passé à valeur verbale, à valeur d'adjectif** fe'l, sifat ma'nosini bildiruvchi o‘tgan zamon sifatdoshi.

**participer** *vi* **1.** qatnashmoq, ishtirok etmoq; **pariciper à un jeu** o‘yinda qatnashmoq; **participer à un travail** biror ishda ishtirok etmoq; **participer au chagrin d'un ami** do‘stining qayg‘usiga hamdard bo‘lmoq; **2.** qatnashmoq, ishtirok etmoq, qo‘shilmoq; **tous les convives participent aux frais** hamma mehmonlar xarajatda qatnashyaptilar; **3.** qatnashmoq, ishtirok etmoq, sherik bo‘lmoq, hissador bo‘lmoq; **associés qui participent aux bénéfices** foydada qatnashuvchi hissadorlar; **4.** *litt* **(de)** kelib chiqmoq; taalluqli, aloqador bo‘lmoq; **cette fête participe des plus anciennes traditions populaires** bu bayram eng qadimiy xalq an'analaridan kelib chiqadi.

**participial, iale, iaux** *adj gram* sifatdoshga oid, sifatdosh; **proposition participiale** sifatdoshli gap.

**particulariser I.** *vt* ajratmoq, ajratib ko‘rsatmoq, farqlamoq; **II. se particulariser** *vpr* ajralib turmoq, farq qilmoq.

**particularisme** *nm* partikulyarizm (*ayrim o‘lkalarning umumdavlat manfaatlari bilan hisoblashmay, ajralib chiqib, mustaqil bo‘lishga intilishi*).

**particulariste** *n* avtonomiya tarafdori.

**particularité** *nf* o‘ziga xos xususiyat, o‘ziga xoslik; **avoir, présenter telle particularité** ma'lum bir xususiyat kasb etmoq.

**particule** *nf* **1.** zarra, zarracha; **2. particule nobiliaire** dvoryanlik belgisi (*familyadan oldin kelgan* **de** *old ko‘makchi*); **un nom à particule ne signifie pas qu'on soit nécessairement d'origine noble** dvoryanlik belgisi albatta dvoryanlar tabaqasidan ekanligini bildiravermaydi.

**particulier, ière I.** *adj* **1.** shaxsiy; **particulier à** xos, xos bo‘lgan; **l'insouciance qui lui est particulière** unga xos beparvolik; **2.** xususiy; **des leçons particulières** xususiy darslar; **3.** o‘ziga xos, alohida, o‘zgacha, boshqacha; boshqalarga o‘xshamaydigan, ajoyib, qiziq, g‘alati; **4.** boshqacha, o‘zgacha; **II.** *n* **1.** xususiy shaxs, oddiy fuqaro; *fam péj* nusxa, shaxs, odam; **de simples particuliers** xususiy shaxslardan; **tu le connais toi, ce particulier?** sen bu nusxani taniysanmi o‘zi? **2.** *nm* tafsilot; **aller du général au particulier** umumiydan tafsilotiga qarab bormoq; *loc adv* **en particulier** xususan, ayniqsa; **je ne veux rien en particulier** xususan, men hech narsa xohlamayman.

**particulièrement** *adv* **1.** ayniqsa, xususan, alohida olganda; **il aime tous les arts, particlièrement la peinture** u hamma san'atni yaxshi ko‘radi, ayniqsa rassomchilikni; **2.** ataylab, alohida; **j'attire tout particulièrement votre attention sur ce point** men sizning e'tiboringizni bu joyga alohida qarataman.

**partie[1]** *nm* **1.** *litt* bo‘lak, qism, parcha; **un objet fait de plusieurs parties** ko‘p qismdan qilingan narsa; **2. faire partie de** kirmoq, qarashli bo‘lmoq, qo‘shilmoq; **tu fais partie de ma famille** sen mening oilam a'zosisan; **cela ne fait pas partie de mes attributions** bu mening vazifamga kirmaydi; **3.** qism, bo‘lak; **les parties du corps** gavdaning muchalari; *fam ellipt* **les parties** erkak kishining jinsiy a'zolari, avrat; **4.** soha, ixtisos, kasb, hunar; **elle est très forte dans sa partie** u o‘z sohasida juda kuchli.

**partie[2]** *nf* **1.** taraf, tomon; **la partie adverse** qarshi tomon; *loc* **être juge et partie** tarafkash sud'ya bo‘lmoq; **2.** *loc* **prendre qqn à partie** birovni ayblamoq, birovdan jahli chiqmoq; **cessez de me prendre à partie!** meni ayblashni bas qiling! **3.** dushman, raqib; *loc* **avoir affaire à forte partie** kuchli raqibga duch kelmoq.

**partie[3]** *nf* partiya, daf'a, qur, o‘yin; **la partie, la revanche et la belle** partiya, revansh va hal qiluvchi partiya; **faire une partie de cartes** bir qur qarta o‘ynamoq; **gagner, perdre la partie** partiyani yutmoq, yutqazmoq; kurash; **la partie a été rude** kurash og‘ir bo‘ldi; **j'abandonne la partie** men taslim bo‘ldim; **2.** sayr-tomosha, o‘yin-kulgi; **une partie de chasse** ov, ovga borish; **une partie de plaisir** o‘yin-kulgi; *loc* **se mettre, être de la partie** biror narsada qatnashmoq, ishtirok etmoq; **ce n'est que partie remise, nous nous retrouverons** bu qoldirilgan partiya xalos, biz yana uchrashamiz.

**partiel, ielle** *adj* qisman, bo‘lib-bo‘lib; **examen partiel** qisman tekshiruv; **élections partielles** qisman saylovlar.

**partiellement** *adv* **il n'a été que partiellement remboursé** unga puli qismangina qaytarildi.

**partir[1]** *vi* **1.** ketmoq, jo‘namoq, jo‘nab ketmoq, yo‘lga chiqmoq, yo‘l olmoq; **2.** o‘lmoq, bu dunyodan ketmoq, o‘tmoq; **il y a un an que mon père est parti** mening otamning bu dunyodan o‘tganiga bir yil bo‘ldi; **3.** aqli-hushini yo‘qotmoq, aqli-hushidan ketmoq; **4. (de)** chiqmoq, kelib chiqmoq; **mot qui part du cœur** yurakdan chiqqan so‘z; **à partir de** -dan boshlab, binoan; **à partir d'aujourd'hui** bugundan boshlab.

**partir[2]** *vt* bo‘laklarga bo‘lmoq; **avoir maille à partir** biror narsani biror kimsa bilan bo‘lisholmay qolmoq.

**partisan, ane I.** *n* **1.** tarafdor, yoqlovchi; **les partisans du féminisme** feminizm tarafdorlari; *adj* **ils, elles sont partisans d'accepter** ular rozi bo‘lish tarafdorlari; **elle n'en est pas partisan** u buning tarafdori emas. **2.** *nm* partizan; **guerre de partisans** partizanlar urushi; **II.** *adj* bichib-to‘qilgan, taxminlarga asoslangan, xolis bo‘lmagan, asossiz; **les haines partisanes** asossiz nafrat.

**partitif** *adj gram* partitiv (*qismni bildiruvchi*); **article partitif** partitiv (*qismni bildiruvchi*) artikl.

**partition** *nf mus* partitura; **partition de piano** pianino partiturasi; **jouer sans partition** yoddan chalmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**partout** *adv* hamma joyda, yoqda, har yerda; **on ne peut être partout à la fois** bir vaqtning oʻzida hamma joyda boʻlib boʻlmaydi; **il souffre de partout** uning hamma yeri ogʻriyapti.

**parturiente** *nf méd* yaqinda tugʻadigan yoki tuqqan ayol.

**parturition** *nf vx méd* tugʻish, koʻzi yorish.

**parure** *nf* **1.** libos, ziynat; **2.** bezak, zeb-ziynat; **une parure de diamants** brilliant bezak; **3.** bir sidra ichki kiyim.

**parution** *nf* bosmadan chiqish, bosilib chiqish, chiqish; **dès sa parution, ce roman a eu beaucoup de succès** bu roman bosmadan chiqishi bilanoq katta yutuqqa erishdi.

**parvenir** *vi* **1.** yetib bormoq, kelmoq, yetib olmoq, yetmoq; **après deux heures de marche, nous sommes parvenus à la ferme** ikki soat yoʻl yurganimizdan soʻng, biz fermaga yetib keldik; **2.** yetib bormoq, yetib kelmoq, tegmoq (*narsa*); **ma lettre vous est-elle parvenue?** mening xatim sizga yetib bordimi? **la bruit de la rue lui parvenait à peine** koʻchaning shovqini unga arang yetib kelardi; **3.** erishmoq, yetmoq, yetishmoq; **il est enfin parvenu à ses fins, à ce qu'il voulait** nihoyat u oʻzi xohlagan nihoyaga erishdi; **parvenir à** *+inf* qila olmoq, erishmoq, muyassar boʻlmoq; **je ne parviens pas à le voir** men uni koʻra olmayapman; **je ne parviens pas à le convaincre** men uni ishontira olmayapman; **4.** yetmoq, yetishmoq, -gacha yashamoq; **parvenir à un âge avancé** ulugʻ yoshga yetishmoq.

**parvenu, ue** *n péj* qoʻlidan kelmaydigan mansabga minib olgan (*u-bu qilib tez martabaga erishgan*) odam, joʻjaxoʻroz, yangi boy.

**parvis** *nm inv* cherkov eshigining oldi; **le parvis de Notre-Dame** Bibi Maryam ibodatxonasining eshik oldi; katta bino oldidagi maydon.

**pas[1]** *nm inv* **1.** qadam, odim; *loc* **revenir sur ses pas** orqasiga qaytmoq; **2. faux pas** toyish, toyib ketish, qoqilish, qoqilib ketish; *fig* xato, xato ish, xatolik; **3.** iz; **des pas dans la neige** qordagi izlar; **4.** qadam; **c'est à deux pas d'ici** bu yerdan ikki qadam; **5.** qadam; qadam qoʻyish, qadamlash, yurish; **allonger, ralentir le pas** qadamini tezlatmoq, sekinlatmoq; *loc* **j'y vais de ce pas** men ketdim (*kutgani vaqtim yoʻq*); **au pas** qadamlab, qadam tashlab; **aller, avancer au pas** qadam tashlab yurmoq, qadam tashlab bormoq; **au pas de gymnastique, au pas de course** yugurib, chopib; *mil* **marcher au pas** baravar qadam tashlamoq; *loc* **mettre qqn au pas** birovni boʻysundirmoq, jilovlamoq; **6.** pa (*raqsda*); **esquisser un pas de tango** tango pasini qilmoq; **pas de deux** pa-de-de; **7.** yurish, qadam tashlash (*hayvon*); **8.** oʻtish; *loc* **prendre le pas sur qqn** biron kishidan oʻtib ketmoq; **céder le pas à qqn** biror kishini oldinga oʻtkazib yubormoq; **9.** tor oʻtish joyi; *géog* boʻgʻoz; **franchir le pas** boʻgʻizdan oʻtmoq; **le pas de Calais** Pa de Kale boʻgʻozi; **10.** *loc* **se tirer, sortir d'un mauvais pas** ogʻir, mushkul sharoitdan qutulmoq, chiqmoq; **11. le pas de la porte** ostona; *loc* **pas de porte** savdo fondiga kirish uchun arendatorga toʻlanadigan badal; **12.** *techn* qadam (*biror mexanizm yoki detalning muayyan yoʻnalishda siljish masofasi*); **un pas de vis** burama mixning bir aylanishdagi harakati.

**pas[2]** *adv* **1.** *fe'lning inkori:* **je ne parle pas** men gapirmayapman; **je ne vous ai pas vu** men sizni koʻrmadim; **il espère ne pas le rencontrer** u uni uchratmaslikka umid qiladi; **il n'est pas encore arrivé** u hali kelmadi; **ce n'est pas tellement difficile** bu shunchalik qiyin emas; *loc* **ce n'est pas que ce n'est pas qu'il ait peur, mais** bu uning qoʻrqqanidan emas, balki; **2.** qisqartma (*javob, undov*); **non pas** yoʻq; **pas de chance!** omad kelmadi! **pourquoi pas?** nima uchun yoʻq, nega shunday boʻlmasin? **ils viennent ou pas?** ular kelishadimi yoki yoʻq? **pas un** hech biri; **il est paresseux comme pas un** u hammasidan ham dangasaroq; **3. une femme pas sérieuse** jiddiy boʻlmagan xotin; **4.** *fam* **pleure pas!** yigʻlama! **on sait pas** bilmayman; **on ose pas** jur'at qilolmayman; **je veux pas** xohlamayman.

**pascal[1], ale, als** *ou* **aux** *adj* pasxaga oid, pasxa; **communion pascale** pasxa prichastiyesi.

**pascal[2], als** *nm inform* paskal (*dasturlash tili*).

**pascal[3], als** *nm* paskal (*oʻlchov birligi*).

**paso doble** *nm inv* paso doble (*ispancha raqs*).

**passable** *adj* oʻrtacha, oʻrta-miyona, bir navi, durust; **un travail à peine passable** bir navi ish.

**passablement** *adv* **1.** oʻrtacha, oʻrta-miyona, bir navi; **il sait passablement ses règles** u qoidalarini bir navi biladi; **2.** har holda, ozmi-koʻpmi; **il a passablement voyagé** u har holda sayohat qilgan.

**passade** *nf* oʻtkinchi xarxasha, injiqlik; **c'est une simple passade** bu oʻtkinchi xarxasha.

**passage** *nm* **1.** oʻtish, biror joyni kesib oʻtish; **passage interdit** oʻtish taqiqlanadi; **2.** oʻtish joyi, yoʻl; **il se frayait un passage parmi les broussailles** u chakalaklar orasidan oʻziga yoʻl ochar edi; **je vais te montrer le passage** men senga oʻtish joyini koʻrsatib qoʻyaman; **sur le passage de** yoʻlida; **l'ennemi semait la terreur sur son passage** dushman oʻz yoʻlida dahshat urugʻini sochar edi; **3.** parcha, boʻlim (*kitobda*); **elle relisait ses passages préférés** u oʻziga yoqqan bu parchani qayta oʻqir edi.

**passager[1], ère** *n* yoʻlovchi, passajir; **les passagers d'une voiture** avtomobil yoʻlovchilari.

**passager[2], ère** *adj* oʻtkinchi, bir lahzali, bir onli, tez oʻtib ketadigan; **un bonheur passager** bir lahzali baxt.

**passagèrement** *adv* oʻtkinchilik bilan; bir lahzada, bir onda.

**passant[1], ante** *adj* serqatnov; **une rue passante** serqatnov koʻcha.

**passant[2], ante** *n* oʻtkinchi, yoʻlovchi; **le camelot interpellait les passants** sotuvchi oʻtkinchilarni chaqirar edi.

**passant[3]** *nm* ilmoq; **les passants d'une ceinture** kamar oʻtkaziladigan ilmoq.

**passation** *nf* **1.** *dr* bitim tuzish; **la passation d'un contrat** shartnoma tuzish; **2. passation de pouvoirs, des pouvoirs** vakolatni topshirmoq.

**passe[1]** *nf* **1.** hamla, tashlanish (*qilichbozlikda*); *fig* **passe d'armes** janjal, gʻavgʻo, janjal-suron; **2.** oʻtish, oʻtish joyi, tor oʻtish joyi, dovon; **mot de passe** parol; *loc* **être en passe de** holatida, darajasida boʻlmoq; **nous ne sommes pas encore riches, mais nous sommes en passe de l'être** biz hali boy emasmiz, lekin oʻshanday boʻlish holatidamiz; **être dans une bonne, mauvaise passe** omadi, baxti kulib turmoq, omadi, baxti chopmaslik.

**passe[2]** *nm abrév de* **passe-partout.**

**passé[1]** *nm* **1.** oʻtmish, moziy; **avoir le culte du passé** oʻtmishga sigʻinmoq, aqidaparast boʻlmoq; **2.** oʻtmish, oʻtgan hayot, koʻrmish-kechirmish; **elle revenait sans cesse sur son passé** u toʻxtovsiz oʻz oʻtmishini eslar edi; **3.** oʻtmish, oʻtgan vaqt; **le passé, le présent et l'avenir** oʻtmish, bugun va kelajak; **le passé le plus reculé** uzoq oʻtmish, moziy; **par le passé** oldinlari, ilgarilari; **4.** *gram* oʻtgan zamon; **le passé simple** sodda oʻtgan zamon.

**passé[2]** *prép* keyin, soʻng; **passé huit heures du soir, les rues sont désertes** kechki sakkizdan soʻng, koʻchalar boʻm-boʻsh.

**passé[3], ée** *adj* **1.** oʻtgan, oʻtib ketgan, ilgarigi; **le temps passé** oʻtgan vaqt; **il est huit heures passées** soat sakkizdan oʻtdi; **2.** xira, tusi ketgan, oʻnggan, rangi oʻchgan; **des couleurs passées** xira, rangi ketgan boʻyoqlar; **3.** soʻlgan, soʻlib qolgan.

**passe-droit** *nm* qonunni chetlab oʻtuvchi imtiyoz; **profiter de nombreux passe-droits** koʻplab qonunni chetlab oʻtuvchi imtiyozlardan foydalanib qolmoq.

**passe-lacet** *nm* **1.** juvoldiz; egilgan yoʻgʻon igna; **2.** *loc fam* **être raide comme un passe-lacet** sariq chaqasi ham boʻlmaslik, ship-shiydam boʻlmoq.

**passementerie** *nf* **1.** zarbof jiyak, uqa; yaltiroq tasma; **2.** shu bezaklar savdosi yoki ularni ishlab chiqaradigan sanoat; **passementerie militaire** harbiy uqa ishlab chiqarish sanoati.

**passe-montagne** *nm* yuzining bir qismi ochiq issiq qalpoq; *pl* **des passe-montagnes**.

**passe-partout** *inv* (*abrév* **passe, des passes**) **I.** *nm* ochqich (*turli qulflarni ochadigan moslama*), bir nechta qulflarga toʻgʻri keladigan umumiy kalit; **II.** *adj* kundalik, oddiy; **une tenue passe-partout** kundalik ust-bosh.

**passe-passe** *nm inv* **tour de passe-passe** fokus, koʻzboylogʻichlik; *fig* ustakorlik bilan aldash, nayrang, nayrangbozlik.

**passe-plat** *nm* idish-tovoq uzatiladigan darcha; tuynuk; *pl* **des passe-plats**.

**passepoil** *nm* magʻiz, jiyak, adip.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**passeport** *nm* pasport; **faire renouveler son passeport, faire mettre un visa sur son passeport** pasportini yangilatmoq, pasportiga viza qo'ydirmoq.

**passer I.** *vi* **1.** o'tmoq, kesib o'tmoq; **halte, on ne passe pas!** to'xtang, o'tish mumkin emas; **2.** o'tmoq, o'tib turmoq, bormoq; **je passe ici souvent** men bu yerdan tez-tez o'tib turaman; **il passera dans une heure** u bir soatdan so'ng o'tadi; **3. (à)** kirib o'tmoq; **elle est passée à la maison** u uyga kirib o'tdi; **4.** *loc* **passer inaperçu** sezilmay, bilinmay, ko'rinmay o'tib ketmoq, hech kim bilmay qolmoq; **5.** bo'lmoq, ko'rsatilmoq; **ce film passe ce soir à la télévision** bu film kechqurun televizordan ko'rsatiladi; **as-tu entendu la publicité qui passe à la radio?** radioda berilgan reklamani eshitdingmi? **6.** o'tmoq, o'tib ketmoq; **les jours passaient** kunlar o'tardi; **déjà huit heures, comme le temps passe!** allaqachon soat sakkiz bo'libdi, vaqt qanday tez o'tadi! **le temps passé** o'tgan vaqt; **7.** o'tib ketmoq, to'xtamoq, qolmoq; **la douleur est passée** og'riq o'tib ketdi; **faire passer le mal** og'riqni qoldirmoq; *loc* **passer de mode** modadan, udumdan qolmoq; *loc fam* **le plus dur est passé** eng og'iri, qiyini o'tdi; **il leur a fait passer le goût du pain, l'envie de rire** u ularning kunini ko'rsatdi; **8.** rangi o'chmoq, o'ngmoq, xiralashmoq (*rang*); **le bleu passe au soleil** havo rang quyoshda o'ngadi; **9.** hisoblanmoq, sanalmoq, deb topilmoq; **elle passait pour coquette** u tannoz xotin sanalar edi; **il a lontemps passé pour l'auteur de ce roman** u uzoq vaqt bu romanning muallifi hisoblandi; **faire passer pour** qilib ko'rsatmoq; **elle le fait passer pour un génie** u uni dono qilib ko'rsatadi; **elle se faisait passer pour sa femme** u o'zini uning xotini qilib ko'rsatar edi; **10.** deb sanalmoq, topilmoq, qabul qilinmoq (*narsa*); **cela peut passer pour vrai** bu haqiqat deb topilishi mumkin; **II.** *vt* **1.** o'tmoq, kesib o'tmoq, bosib o'tmoq; **passer une rivière** daryodan o'tmoq; **elle a passé la frontière** u chegaradan o'tdi; **2. passer un examen** imtihon topshirmoq, imtihondan o'tmoq; **il a dû passer trois fois le baccalauréat pour l'obtenir** bokalavrlikni olish uchun, unga uch marta imtihon topshirishga to'g'ri keldi; *loc* **passer la rampe** muvaffaqiyat qozonmoq; **cette scène ne passe pas, passe très mal la rampe** bu saxna ketmayapti, muvaffaqiyat qozonmayapti; **3.** o'tkazmoq, kechirmoq (*vaqtga nisbatan*); **passe de bonnes vacances!** ta'tilni yaxshi o'tkaz! **vous passerez la soirée avec nous** siz kechani biz bilan o'tkazasiz; **j'ai passé une heure à (pour faire, sur) ce travail** men bir soatni shu ish ustida o'tkazdim; *loc fam* **passer un mauvais, un sale quart d'heure** yoqimsiz daqiqalarni boshidan kechirmoq; **passer le temps à** (*+inf*) vaqtini biror narsa qilish bilan o'tkazmoq; **il passe son temps à manger** u vaqtini ovqat yeyish bilan o'tkazadi; **pour passer le temps** vaqt o'tkazish uchun, ermak uchun; **4.** esidan chiqarmoq, tushirib qoldirmoq, tashlab ketmoq; **passer une ligne** bir qotorni tushirib qoldirmoq; **passez, passons les détails** qoldiring, tafsilotlarni tashlab ketaveraylik; **passer son tour** o'z navbatini o'tkazib yubormoq (*o'yinda yoki jamiyatda*); **je passe!** men pas! **j'en passe, et des meilleurs** men hali hammasini aytayotganim yo'q (*ko'p joylarini tashlab ketdim*); **6. passer qqch à qqn** ruxsat bermoq, kechirmoq; **ses parents lui passent tout** uning ota-onasi uning hamma narsasini kechirishadi; **passez-moi l'expression, mais c'est un emmerdeur** ibora uchun kechirasiz-u, bu bir mijgov; **5.** o'tmoq, bosib o'tmoq, oshmoq; **passer son chemin** yo'lini davom ettirmoq, yo'lida davom etmoq; **passer un col, une montagne** dovondan, tog'dan oshmoq; *loc* **passer le cap** ma'lum yoshdan oshmoq, qiyinchilikdan o'tmoq; **passer les limites, les bornes** chegaradan chiqmoq, haddidan oshmoq; **il a passé la limite d'âge** u yosh chegarasidan o'tdi (*uning yoshi bu ish uchun o'tdi*); **6.** bir joydan ikkinchi bir joyga o'tkazmoq; **passer des marchandises en fraude** mollarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazmoq; chiqarmoq; **il passa la tête à la portière** u avtomobil derazasidan boshini chiqardi; ishlatmoq, biror narsa bilan artib, yig'ishtirib chiqmoq; **passer l'aspirateur dans le salon** pilesos bilan mehmonxonani yig'ishtirmoq; **passer, une matière sur qqch** biror narsani biror narsaning ustiga yoymoq; **passer qqch à une matière** biror narsani biror narsaning ustiga yopmoq, surtmoq; **tu passeras une couche de mortier sur le mur avant de le passer à la chaux** devorni oqlashdan oldin, sen uni ohakli rastvor bilan suvaysan; **7. passer qqn par** topshirmoq, o'tkazmoq, mahkum qilmoq; *loc* **il a été passé par les armes** u otib tashlangan edi; **8.** suzmoq; suzib, filtrlab o'tkazmoq, elamoq; **passer le café** qahvani suzmoq; **instrument pour passer le thé** choy suzgich; **9.** ko'rsatmoq, eshittirmoq, qo'ymoq, qo'yib bermoq; **passer un film** film ko'rsatmoq; **il m'a passé des diapositives** u menga diapozitiv qo'yib berdi; **tu passes toujours le même disque** sen doim bir xil plastinkalarni qo'yasan; **10.** kiymoq; kurtka kiymoq; **le temps de passer une veste, j'arrive** kurtkamni kiyib olay, ketyapman; **11.** ulamoq, qo'shmoq, o'tmoq (*tezlik haqida*); **passe le petit braquet!** kichik charxga o't! **passe en troisième!** uchinchiga o't! **12. passer qqch à qqn** biror narsani biror kishiga berib yubormoq, berib qo'ymoq, o'tkazib yubormoq; **passez-moi le café, le sel, la salière** menga qahva, tuz, tuzdonni berib yubor; **passe-le-moi** uni menga o'tkazib yubor, berib yubor; *loc* **ils se sont passé le mot** ular gapni bir joyga qo'yishdi; **passer la parole à qqn** birovga so'z navbatini bermoq; **passer un coup de fil (de téléphone)** birovga qo'ng'iroq qilmoq, sim qoqmoq; **passez-moi monsieur le directeur** meni janob direktor bilan ulang; **passer une maladie à qqn** biror kasallikni birovga yuqtirmoq, o'tkazmoq; **passer le pouvoir à qqn** hokimiyatni biror kishiga topshirmoq, vakolatni topshirmoq; **13.** tuzmoq, bog'lamoq, o'rnatmoq; **passer un contrat, un accord avec qqn** biror kishi bilan shartnoma, bitim tuzmoq; **passer (la, une) commande** buyruq bermoq; **III. se passer** *vpr* **1.** o'tmoq, kechmoq, o'tmoq, davom etmoq (*narsa*); **la visite s'est passée en un quart d'heure** tashrif chorak soat davom etdi; **ça va se passer** bu o'tib ketadi; **il ne se passe pas de jour sans qu'il téléphone** uning telefon qilmagan kuni yo'q; **2.** bo'lib o'tmoq, kechmoq; **l'action du film se passe au XVIe siècle** film voqealari XVI asrda bo'lib o'tadi; **tout se passe bien?** hammasi yaxshi bo'lyaptimi? **ça s'est mal passé** bu yomon o'tdi; *loc* **ça ne se passera pas comme ça** bu shundayligicha qolavermaydi; *impers* **que ce passe-t-il?** nima bo'lyapti? **3. (de)** yordamisiz, bir o'zi bajarmoq; muhtoj bo'lmaslik, hojat yo'qlik; **cette déclaration se passe de commentaires** bu bayonot izohga muhtoj emas; **4.** biror narsasiz ham yashamoq, kuni o'tmoq; **se passer d'argent, de cinéma** pulsiz, kinosiz ham yashamoq; **je me passerai bien de cette corvée!** mening bu naryadsiz ham kunim o'taveradi! **nous nous en passerions bien!** bizning usiz ham kunimiz o'tadi! **on ne peut se passer de lui** usiz bo'lmaydi.

**passereau** *nm* chumchuqsimonlar, chumchuqsimon qushlar oilasi.

**passerelle** *nf* **1.** piyodalar ko'prigi; **les rambardes d'une passerelle** piyodalar ko'prigining yon to'siqlari; **2.** trap (*samolyot, kemaga chiqib tushish uchun maxsus yasalgan ko'chma zina*); **3.** ko'prikcha, supacha (*kemada*); **le commandant est sur la passerelle** kapitan kapitan ko'prikchasida.

**passe-temps** *nm inv* ko'ngilxushlik, ermak, o'yin-kulgi, ovunchoq.

**passeur, euse** *n* **1.** paromchi, parom haydovchi; **2.** chegaradan maxfiy o'tkazib qo'yuvchi.

**passible** *adj* **passible de** lozim, loyiq bo'lgan; **être passible d'une amende** jarima solsa bo'ladigan, jarimaga loyiq.

**passif**[1] *nm* **1.** passiv (*biror korxonaning qarz yoki majburiyatlar majmui*); **son passif est trop élevé, il risque de faire faillite** uning passivi juda oshib ketibdi, u bankrot bo'lishi mumkin.

**passif**[2]**, ive** *adj* **1.** sust, sustkash, passiv; **il reste passif devant le danger** u xavf oldida sustkashlik qilyapti; **une femme passive** sustkash xotin; **résistance passive** sust qarshilik; **2. défense passive** passiv himoya.

**passif**[3]**, ive** *adj, nm gram* majhul (*fe'l, nisbat*); **voix passive** majhul nisbat, daraja; **le passif se forme avec l'auxiliaire "être" et le participe passé** majhul fe'l yordamchi fe'l "**être**" va o'tgan zamon sifatdoshi yordamida hosil bo'ladi.

**passiflore** *nf* passiflora (*tropik o'rmonlarda o'sadigan daraxt*).

**passim** *adv* boshqa joylarda, ko'pgina hollarda (*asarlardan dalil keltirilganda*); **page neuf et passim** to'qqizinchi bet va boshqa joylarda.

**passion** *nf* **1.** ehtiros; **obéir, résister à ses passions, vaincre ses passions** ehtirosga berilmoq, ehtirosga berilmaslik, ehtirosni yengmoq; **2.** otashin, qizg'in muhabbat, ehtiros; **déclarer sa passion** sevgi izhor qilmoq; **l'amour-passion** otashin sevgi; **passion subite** bir ko'rishda sevib qolish; **3. la passion de** ishqibozlik, ishtiyoq, qattiq berilganlik, mukkasidan ketganlik, jonu dil, o'chlik, juda yaxshi ko'rish; **la passion du jeu, des voyages** o'yinga, sayohatlarga ishqibozlik; **la peinture, les musées, c'est une passion chez lui** tasviriy san'at, muzeylar uning jonu dili; **4.** qizishish, ehtiros; **il faut résoudre ces problèmes sans passion** bu masalalarni ehtiroslarga berilmay hal qilish kerak; **céder aux passions politiques** siyosiy ehtiroslarga berilib ketmoq; **5.** kuchli his-tuyg'u, ehtiros, havas; **6.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

*relig* Iso Masih tortgan azob-uqubat; **7. fleur, fruit de la passion** passifloraning guli, mevasi.

**passionnant, ante** *adj* maroqli, maftunkor, jozibali, kishini o'ziga tortadigan, qiziqarli; **des romans passionnants** maroqli romanlar; **des films passionnants** qiziqarli filmlar; **des gens passionnants** jozibali kishilar.

**passionné, ée** *adj* **1.** ehtirosli, ishqiboz, o'ta berilgan; **un amoureux passioné** oshiqi beqaror; *n* **c'est un passionné** bu bir ishqiboz; **passionné de, pour** qattiq, g'oyat darajada berilgan, juda yaxshi ko'radigan, mukkasidan ketgan, ishqiboz; *n* **c'est un passionné de moto** bu mototsikl ishqibozi; **2. le récit passionné d'une aventure** sarguzashtning jo'shqin hikoyasi.

**passionnel, elle** *adj* **1.** ehtirosga oid, ehtirosga berilgan; **des états passionnels** ehtirosga berilgan holatlar; **2.** ishq-muhabbatga oid, ishqiy, oshiqona his-tuyg'ular; **un crime, un drame passionnel** rashk tufayli o'ldirish, mojaro.

**passionnément** *adv* ehtiros bilan, qattiq, qizg'in, jo'shqinlik bilan; **il l'aime passionnément** u uni qattiq sevadi.

**passionner I.** *vt* **1.** ehtiros, qattiq qiziqish uyg'otmoq; maftun qilmoq, mahliyo qilib qo'ymoq; **ce film m'a passionné** bu film meni maftun qilib qo'ydi; **2.** ehtiroslarni, his-tuyg'ularni keltirmoq; **II. se passionner** *vpr* ishqiboz bo'lib qolmoq, havas, mayl qo'ymoq, ruju qo'ymoq; **se passionner pour une science** biror fanga havas qo'ymoq.

**passivement** *adv* sustlik, sustkashlik, passivlik bilan, indamay; **il supporte passivement les humiliations** u kamsitishlarga indamay chidab turadi.

**passivité** *nf* sustlik, sustkashlik, passivlik; **la passivité d'un élève** o'quvchining sustkashligi.

**passoire** *nf* elak; suzgich, g'alvir; **sa mémoire est une passoire** u hech narsani eslab q 
ololmaydi.

**pastel** *nm* **1.** pastel (*rassomlikda ishlatiladigan rangdor yumshoq qalam*); **pastel gras, maigre** yog'li, och pastel; **des portraits au pastel** pastelda chizilgan portretlar; **2.** *inv* **des tons pastel** pastel rangidagi mayin ochiq rang; **3.** shunday qalamlar bilan chizilgan rasm; **des pastels et des aquarelles** pastel va akvarel bilan chizilgan rasmlar.

**pasteliste** *n* pastel bilan rasm chizadigan rassom.

**pastèque** *nf* tarvuz; **une tranche de pastèque** bir tilim tarvuz.

**pasteur** *nm* **1.** *litt* cho'pon, podachi; **2.** pastir (*qavmga rahbarlik qiluvchi ruhoniy*); **le bon pasteur** Iso; **3.** pastor (*protestant mazhabidagi ruhoniy*).

**pasteurisation** *nf* pasterlash, pasterizatsiya qilish (*oziq-ovqat mahsulotlarini 60-70 gradus atrofida ma'lum muddat qizdirish bilan ulardagi mikroorganizmlarni yo'qotish usuli*).

**pasteuriser** *vt* pasterlamoq, pasterizatsiya qilmoq; **lait pasteurisé** pasterlangan sut.

**pastiche** *nm* parodiya, taqlid (*hazil yoki hajviy tarzda boshqa asarlarga taqlid qilib yozilgan asar*); **faire, écrire des pastiches des classiques** klassik asarlarga parodiya, taqlid qilmoq, parodiya yozmoq.

**pasticher** *vt* parodiya, taqlid yozmoq, qilmoq; **il s'amusait à pasticher Hugo** u Hugoga parodiya yozib o'ynardi.

**pasticheur, euse** *n* parodiya yozuvchi odam, parodiya muallifi.

**pastille** *nf* **1.** tabletka; **2.** dumaloq karamel, konfet; **pastille de menthe** yalpizli konfet; **3.** mayda xol-xol gul (*gazmolda*).

**pastis** *nm inv* **1.** arpabodiyonli likyor (*aperitiv*); **2.** *fam* behalovatlik, yugur-yugur, to'polon; **il s'est fourré dans un de ces pastis!** u bu to'polonlardan biriga aralashib qoldi.

**pastoral, ale, aux I.** *adj litt* cho'pon, podachiga oid; cho'pon, podachi; **une vie pastorale** cho'pon hayoti; **la Symphonie pastorale** Cho'pon simfoniyasi; **II.** *nf* pastoral (*cho'ponlar hayoti tasvirlangan badiiy yoki musiqiy asar*).

**pastoureau, elle** *n litt* yosh cho'pon.

**patache** *nf vx* arzon dilijans (*oz haq oladigan*).

**patachon** *nm fam* **mener une vie de patachon** tarallabedod hayot kechirmoq.

**patapouf** *nm fam* xo'ppa semiz odam yoki bola; **regarde-moi ce gros patapouf!** manabu g'uppa semizni ko'rib qo'ying!

**pataquès** *nm inv* gapda so'zlarning noto'g'ri bog'lanishi (**ce n'est pas-t-à moi**).

**patate** *nf* **1.** batat; **2.** *fam* kartoshka; **éplucher les patates** kartoshka archmoq; **3.** *fam* ahmoq, tentak, nodon; **quelle patate, ce type!** bu nusxa buncha ahmoq! **4.** *loc fam* **en avoir gros sur la patate** yuragi siqilmoq, ezilmoq.

**patati, patata** *onomat fam* valdir-valdir, valaq-valaq; **et patati! et patata! ils n'arrêtent pas** valaq-valaq, ular hech to'xtashmaydi.

**patatras** *intj onomat* qars, gurs, gup; **patatras! voilà le vase cassé!** qars! mana vaza sindi!

**pataud, aude I.** *n* beso'naqay, beo'xshov bola, odam; qo'pol bola, odam; noshud, epsiz, lapashang; **un gros pataud** semiz beso'naqay odam; **II.** *adj* beso'naqay, noshud, epsiz, lapashang; **il a une allure pataude** uning yurishlari beso'naqay.

**pataugas** *n* matodan qilingan oyoq kiyimi.

**pataugeoire** *nf* bolalar uchun kichik basseyn; **une pataugeoire en plastique** plastmassadan qilingan bolalar basseyni.

**patauger** *vi* **1.** loy kechib shaloplatib yurmoq; **enfants qui pataugent dans les flaques** ko'lmaklarni shaloplatib kechib yurgan bolalar; **2.** adashmoq, dovdiramoq, esankiramoq.

**patchouli** *nm* tropik o'rmonlarda o'sadigan o'simlikdan olinadigan atir.

**patchwork** *nm anglic* **1.** quroqlardan tikilgan narsa; **2.** turli xil narsalardan yig'ilgan narsa.

**pâte** *nf* **1.** xamir; **pétrir la pâte** xamir qormoq; **pâte à pain** non qilinadigan xamir; **2. pâtes, pâtes alimentaires** xamir mahsulotlari; **un paquet de pâtes** bir karobka xamir; **manger des pâtes** xamirli ovqat yemoq; **3.** *loc* **mettre la main à la pâte** o'zi ishga kirishmoq, o'zi ishga tushmoq; **être comme un coq en pâte** pichog'i moy ustida, yegani oldida, yemagani ketida bo'lmoq (*mo'l-ko'lchilikda, farovonchilikda yashamoq*); **4.** xamirsimon modda, bo'tqa, massa, pasta; **pâte à papier** qog'oz bo'tqasi (*qog'oz ishlab chiqarish uchun*); **la pâte d'un fromage** pishloq massasi; **pâte de fruits** mevadan qilingan shirinliklar; **pâte dentifrice** tish pastasi; **pâte à modeler** plastilin; **5.** bo'tqa; **du riz trop cuit, une vraie pâte** ortiqcha qaynatilgan guruch, haqiqiy bo'tqa; **6.** rang aralashmasi, qorishmasi; **ce peintre a une pâte extraordinaire** bu rassom g'aroyib rang aralashmasini ishlatadi; **7.** *loc* **une bonne pâte** dilkash, samimiy, ajoyib, yaxshi odam; **une pâte molle** latta, lapashang, bo'sh odam.

**pâté**[1] *nm* **1.** somsa; **2.** pashtet; **pâté de foie, de lapin** jigar, quyon pashteti; **chair à pâté** pashtet go'shti; **pâté en croûte** xamirga o'rab pishirilgan pashtet.

**pâté**[2] *nm* **1.** kvartal; **2.** tandir-tandir (*qumda bolalar o'yini*); **3.** siyoh dog'i; **je n'arrive pas à lire, il y a un pâté** o'qiy olmayapman, siyoh dog'i bor ekan.

**pâtée** *nf* **1.** yem, atala (*hayvon, parrandalarni semirtirish uchun beriladigan*); **2.** quyuq obiyovg'on (*it, mushuklar uchun*).

**patelin**[1]**, ine** *adj litt* xushomadgo'y, tilyog'lama; **un ton patelin** xushomadgo'y ohang.

**patelin**[2] *nm fam* qishloq, ovul, o'z yurti, vatan; **il est allé passer ses vacances dans un patelin perdu** u o'z ta'tilini uzoq bir ovulda o'tkazgani ketdi.

**patelle** *nf* **1.** *zool* dengiz tarelkachasi; **2.** *relig* muqaddas vaza.

**patène** *nf relig* muqaddas vaza, kichkina tarelkacha.

**patenôtre** *nf iron* duo, "padarimiz"; **les vieilles marmottaient leurs patenôtres** kampirlar "padarimiz" duosini pichirlashar edi.

**patent, ente** *adj litt* aniq, ravshan, yaqqol ko'zga tashlanib turgan; **un injustice patente** yaqqol ko'zga tashlanib turgan adolatsizlik.

**patente** *nf* **1.** patent, yorliq, diplom; yorliq xati; **2.** patent, savdo-ishlab chiqarish solig'i; **payer sa patente** patentini to'lamoq.

**patenté, ée** *adj* **1.** patentli, patent to'laydigan; **2.** *fam* taniqli, dong taratgan, nomi chiqqan, spravkasi bor; **des imbéciles patentés** nomi chiqqan tentaklar.

**pater** *nm inv vx* "padarimiz" duosi.

**patère** *nf* **1.** kiyim ilgich, ilgak; **accrocher son pardessus à une patère** paltosini kiyim ilgichga osib qo'ymoq; **2.** *rel* muqaddas vaza.

**paternalisme** *nm* paternalizm (*bolalar ustidan otalik nazorati; siyosiy nazorat, hukmronlik*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**paternaliste** *adj* paternalizmga oid; **il, elle est paternaliste** u paternalist; **la politique paternaliste de certains pays à l'égard de l'Afrique noire** ba'zi bir davlatlarning qora Afrika ustidan neokolonialistik hukmronligi.

**paterne** *adj litt* xushomadomuz, tilyog'lamalik bilan qilingan; bachkana, chuchmal; **un air paterne** xushomadomuz ko'rinish.

**paternel, elle I.** *adj* otaga oid, qarashli, ota; otalik; **amour paternel** ota mehri; **autorité paternelle** ota hurmati; **II.** *nm fam* ota, ada, dada; **attention! voilà mon paternel!** ehtiyot bo'l, jim bo'l! dadam kelyapti, turibdi!

**paternellement** *adv* otalarcha, otalarday; **il l'accueillit paternellement** uni otalarday qabul qildi.

**paternité** *nf* **1.** otalik, ota bo'lish; **les soucis de la paternité** otalik tashvishlari; **paternité légitime** qonuniy otalik; **paternité civile** boqib olgan otalik; **2.** avtorlik, mualliflik; **revendiquer la paternité d'un ouvrage; d'une idée** biror asarga, g'oyaga avtorlik huquqini talab qilmoq.

**pâteux, euse** *adj* **1.** xamirga o'xshash, qayishqoq; **2. style pâteux** dag'al, g'aliz uslub; **3.** *loc* **avoir la bouche, la langue pâteuse** og'ziga tupugi to'lib qolgan bo'lmoq, tili zo'rg'a aylanmoq.

**pathétique I.** *adj* hayajonli, ehtirosli, jo'shqin, ta'sirli; ko'tarinki ruhdagi; **un film pathétique** ta'sirli film; **II.** *nm litt* patetika, ko'tarinkilik, pafos; **il donne dans le pathétique et le mélodrame** u ko'tarinkilik va melodramada beradi.

**pathétiquement** *adv* hayajonli, yurakni ezadigan; **sangloter pathétiquement** hayajonli ho'ngrash.

**pathogène** *adj* patogen, kasallik qo'zg'atuvchi; **microbe pathogène** kasallik qo'zg'atuvchi mikrob.

**pathologie** *nf* patalogiya (*organizmdagi kasallik jarayonlarini va organizmning normal holatdan chiqish sabablarini o'rganuvchi fan*); **pathologie et thérapeutique** patologiya va terapiya.

**pathalogique** *adj* **1.** patologiyaga oid, patologik; patologik anatomiya; patologik holat; **2.** normal, tabiiy holatini yo'qotgan; daf qilib, tuzatib bo'lmaydigan; **je ne peux m'en empêcher, c'est pathologique** men bunga yordam berolmayman, bu tuzalmaydigan narsa.

**pathos** *nm inv litt péj* o'ta, ortiqcha, yolg'ondakam, ko'tarinkilik, pafos; **tomber dans le pathos** ortiqcha ko'tarinkilikka berilib ketmoq.

**patibulaire** *adj* dor ostiga olib ketilayotgan odamday g'amgin, ma'yus; **une mine patibulaire** dahshatli yuz, ko'rinish (*bosqinchinikiga o'xshagan*); **fourche patibulaire** dor.

**patiemment** *adv* chidam bilan, sabr, toqat qilib; bardosh, chidam bilan; **elle l'attendit patiemment** u uni chidam bilan kutdi.

**patience** *nf* **1.** chidam, bardosh, sabr, sabr-toqat, to'zim; **s'armer de patience** sabr-toqatini qo'lga olmoq; **prendre patience** sabr-toqat qilmoq; **souffrir avec patience** tishini tishiga qo'yib bardosh bermoq; **2.** sabot, matonat, chidam, sabr, bardosh; **ouvrage de patience** qat'iyatlik va sabot bilan qilinadigan ish; **3.** bardosh, sabr-qanoat; **il n'a aucune patience** uning hech qanday sabr-qanoati yo'q; **après une heure d'attente, il a perdu patience** bir soat kutishdan so'ng, uning sabri tugadi; **ma patience a des limites!** sabrning ham chegarasi bor! sabrim tugab boryapti! **4. patience!** sabr qiling! **5. jeu de patience** bosh qotirgich, dushvor masala; **6.** pasyans (*qartada o'yin ko'rsatishning bir turi*); **je fais des patiences** men qartada o'yin ko'rsataman.

**patient, ente I.** *adj* **1.** chidamli, bardoshli, sabr-toqatli; **soyez patient, je reviens tout de suite** sabr qiling, men hozir qaytib kelaman; **un chercheur patient** sabr-toqatli tadqiqotchi; **2.** sabr-toqatli, sabr-qanoat qilinadigan; **un patient labeur** sabr-qanoatli ish; **II.** *n* bemor, kasal; **le médecin et ses patients** vrach va uning kasallari.

**patienter** *vi* chidam, sabr-toqat bilan kutmoq; **faites-le patienter un instant** uni sabr qildirib kuttirib turing.

**patin** *nm* **1.** parketni iflos qilmaslik uchun uning ustiga solinadigan uzun palos, sholcha, mato; **2. patins (à glace)** konki (*muzda uchish uchun*); **le patin** konkida uchish; **faire du patin** konkida uchmoq; **patins (à roulettes)** rolikli konki; **le patin à roulettes** rolikli konkida uchish; **3. patin de frein** tormoz boshmog'i.

**patinage** *nm* konkida uchish; **patinage artistique** konkida figurali uchish; **piste de patinage** yaxmalak; **patinage à roulettes** rolikli konkida uchish.

**patine** *nf* mog'or, o'tirib qolgan qalin chang; vaqt o'tishi bilan hosil bo'lgan rang; **la patine d'un meuble** mebelning mog'ori.

**patiner[1]** *vi* **1.** konki uchmoq; **apprendre à patiner** konkida uchishni o'rganmoq; **patiner à roulettes** rolikli konkida uchmoq; **2.** sirg'anmoq, sirpanmoq, joyidan jilmay aylanmoq (*mashina g'ildiraklari haqida*); **les roues du camion patinent dans la boue** yuk mashinasining g'ildiragi loyda joyidan jilmay aylanar edi.

**patiner[2]** *vt* mog'or, chang bosmoq.

**patinette** *nf* samokat.

**patineur, euse** *n* konkida uchuvchi, yuguruvchi.

**patinoire** *nf* yaxmalak, katok.

**patio** *nm ispanlarda.* ichkari hovli.

**pâtir** *vi* biror narsadan qiynalmoq, azob chekmoq, aziyat chekmoq; **pâtir une injustice** nohaqlikdan aziyat chekmoq; **sa santé pâtira de ses excès** uning zo'r berishlaridan o'zining sog'ligi qiynaladi; **il en pâtira** u undan azob chekadi.

**pâtisserie** *nf* pirojnoye qilish uchun xamir tayyorlash, pirojnoye tayyorlash; **four, moule, rouleau à pâtisserie** pirojnoye tayyorlaydigan pech, qolip, o'qlog'i; **2.** pirojnoye; **aimer les pâtisseries** pirojnoyeni yaxshi ko'rmoq; **3.** konditer mahsulotlarini ishlab chiqarish, konditer mahsulotlarini sotish; **boulangerie-pâtisserie** non-konditer mahsulotlari tayyorlab sotadigan magazin.

**pâtissier, ière I.** *n* qandolatchi, shakarpaz, konditer; **boulanger-pâtissier** nonpaz-qandolatchi; **pâtissier-confiseur** qandolatchi-konditer; **II.** *adj* **crème pâtissière** krem (*tort, pirojnoye tayyorlashda ishlatiladi*).

**patois, oise** *nm inv adj* sheva, dialekt; **son grand-père parle patois (en patois, le patois)** uning bobosi shevada gapiradi.

**patoisant, ante** *adj* shevada, dialektda gapiruvchi.

**patraque** *adj fam* kasalmand, dardchil; zaif, holsiz, bemajol, so'lg'in, nimjon; **il est un peu patraque** u bir oz kasalmand; **je me sens patraque** men o'zimni holsiz sezyapman.

**pâtre** *nm litt* cho'pon, podachi.

**patriarche** *nm* **1.** insoniyat otasi, patriarx; **Adam, Noé, Abraham sont des patriarches** Odam, No'h, Ibrohim insoniyat otalaridir; **2.** patriarxal; **mener une vie de patriarche** patriarxal hayot kechirmoq; **3.** patriarx (*pravoslav cherkovining boshlig'i, eng katta ruhoniy*).

**patriarcal, ale, aux** *adj* **1.** patriarxga oid; sodda, og'ir-bosiq; **2.** patriarxal; **une société patriarcale** patriarxal jamiyat.

**patriarcat** *nm* patriarxat.

**patricien, ienne I.** *adj* patritsiyga oid, patritsiy (*Qadimgi Rimda: oqsuyak, zodagon*); **II.** *n litt* oqsuyak, zodagon, aristokrat.

**patrie** *nf* **1.** vatan, diyor; **l'amour de la patrie** vatan tuyg'usi; **ils ont la même patrie** ularning vatani bir, ular bir joydan, ular vatandosh; **sans patrie** vatansiz, vatangado; **quitter sa patrie** o'z vatanidan ko'chib ketmoq, o'z vatanidan ko'chirib yuborilmoq; **l'art n'a pas de patrie** san'atning vatani yo'q, san'at chegara bilmas; **c'est ma seconde patrie** bu mening ikkinchi vatanim (*o'z vatanimdan so'ng, men uchun qimmatli vatan*); **2.** tug'ilgan joy, vatan, diyor.

**patrimoine** *nm* **1.** boylik, mulk, meros; **dilapider son patrimoine** boyligini sovurmoq; **2.** otameros mulk, meros; **la patrimoine culturel d'un pays** bir davlatning madaniy merosi; **le patrimoine génétique d'un individu** bir shaxsning genetik merosi.

**patrimonial, iale, iaux** *adj dr* boylik, mulk, merosga oid.

**patriotard, arde** *n, adj péj* shovinist, shovinistik.

**patriote** *n, adj* vatanparvar; **être très patriote** juda ham vatanparvar bo'lmoq.

**patriotique** *adj* vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan to'lgan; vatanparvarlarcha, vatanparvarlik; **des chants patriotiques** vatanparvarlik qo'shiqlari.

**patriotisme** *nm* vatanparvarlik; **les résistants luttèrent avec patriotisme** qarshilik ko'rsatuvchilar vatanparvarlik bilan kurashdilar.

**patron[1], onne** *n* **1.** homiy; **sainte Geneviève, patronne de Paris** Avlyo Jenevyev, Parij homiysi; **2.** xo'jayin, boshliq, rahbar; uy egasi; **la femme de ménage a la confiance de ses patrons** xizmatkor xotin o'z xo'jayinlarining



www.ziyouz.com kutubxonasi

ishonchiga ega; **3.** korxona egasi, xoʻjayini; **le patron, la patronne d'un restaurant** restoran egasi; **le patron d'une usine** zavod egasi; **le grand patron** bosh direktor.

**patron²** *nm* bichiq, andaza; **le patron d'un manteau** palto andazasi.

**patronage** *nm* **1.** himoya, homiylik; **gala placé sous le haut patronage du président de la république** respublika prezidentining yuqori himoyasiga joylashtirilgan gala; **2.** patronat, jamiyati xayriya; **patronage laïque, paroissial** dunyoviy, diniy patronat; **un spectacle de patronage** sodda va bolalarcha tomosha.

**patronal, ale, aux** *adj* **1.** avliyo, pirlarga oid; **fête patronale** budxona bayrami (*biror avliyoga bagʻishlab solingan budxonaga qarashli qavmlarning shu avliyo sharafiga oʻtkazadigan bayrami*); **2.** xoʻjayin, boshliq, rahbarlarga oid; **intérêts patronaux** xoʻjayinlar manfaati; **cotisation patronale** boshliqlar yigʻimi.

**patronat** *nm* korxona egalari birlashmasi; **Confédération Nationale du Patronat Français (C.N.P.F.)** Fransuz Korxona Boshliqlarining Milliy Uyushmasi.

**patronner** *vt* homiylik qilmoq, qoʻllab-quvvatlamoq, qoʻllamoq; **être patroné par un personnage influent** nufuzli odam tomonidan qoʻllab-quvvatlanmoq; **patronner une candidature** nomzodni qoʻllamoq.

**patronnesse** *adj m iron* **dame patronnesse** patronessa (*oʻzini muhtojlarga moddiy yordam koʻrsatishga bagʻishlagan ayol*).

**patronyme** *nm* otasining ismi.

**patrouille** *nf* **1.** patrul; **2.** ilgʻor, dozor (*asosiy qismlardan oldinga yuborilgan kichik qism, gruppa*); **patrouille de reconnaissance** razvedkachi dozor; **avions envoyés en patrouille** dozorga joʻnatilgan samolyotlar; **patrouille de chasse** soqchi qiruvchi samolyot.

**patrouiller** *vi* patrullik qilmoq, patrullikka bormoq; **les gardes-côtes patrouillent dans les eaux territoriales** qirgʻoq soqchi kemalari territorial suvlarda soqchilik qilmoqdalar.

**patrouilleur** *nm* **1.** patrul, patruldagi askar; **2.** soqchi qiruvchi samolyot yoki kuzatib boruvchi soqchi kema.

**patte** *nf* **1.** oyoq, tuyoq, panja (*hayvon va qushlarda*); **les quatre pattes des quadrupèdes** toʻrt oyoqli hayvonlarning toʻrt oyogʻi; **les deux pattes d'une poule** tovuqning ikki oyogʻi; *loc* **chien qui donne la patte** oyogʻini beradigan it; *loc* **marcher à quatre pattes** toʻrt oyoqlab emaklamoq (*emaklab yurmoq*); **les mille-pattes ont quarante-deux pattes** qirqoyoqning qirq ikkita oyogʻi bor; **2.** *fam* oyoq; **être bas, court sur pattes** oyogʻi qisqa, kalta boʻlmoq; **avoir une patte folle** bir oz oqsoqlanmoq, choʻloqlanmoq; **il traînait la patte** u oyogʻini sudrab yurardi; **3.** *fam* qoʻl; **bas les pattes!** qoʻlingni tort! *loc fam* **coup de patte** mohirlik, ustalik, mahoratlilik; **4.** *loc fam* **coup de patte** achchiq tanqid, tepki; **retomber sur ses pattes** tegirmondan butun chiqmoq, suvdan quruq chiqmoq; **montrer patte blanche** parolni koʻrsatmoq, aytmoq; **tirer dans les pattes de qqn** birovni zimdan oyogʻidan tortmoq; **5.** bakenbarda, gajjak; **6.** tilcha, qopqoq (*mato, qayishdan qilingan qadash, bekitish uchun xizmat qiladigan narsa*); **la patte d'une poche, d'un portfeuille** choʻntakning qopqogʻi, portfelning tilchasi; **7.** skoba, halqa.

**patte-d'oie** *nf* **1.** chorraha, yoʻllarning kesishgan joyi; **2.** koʻz yonidagi ajin; *pl* **des pattes-d'oie**.

**pattemouille** *nf* hoʻl latta, doka (*dazmol qilish uchun*).

**pâturage** *nm* yaylov, oʻtloq; **mener les vaches au pâturage** mollarni yaylovga olib chiqmoq.

**pâture** *nf* **1.** ozuqa, yem, oʻt, don, ovqat, xashak (*hayvonlar uchun*); **2.** oziq, ozuqa, manba; *loc* **donner, livrer sa vie privée en pâture aux journalistes** oʻz shaxsiy hayotini jurnalistlarga yem qilmoq.

**paturon** *nm* otning boldiri, oyogʻining pastki qismi; *fam* oyoq.

**paume¹** *nf* kaft; **il avait les paumes couvertes d'ampoules** uning kafti qavarib ketgan edi.

**paume²** *nf* polka (*oʻyin*); **jouer à la paume** polka oʻynamoq; **jeu de paume** polka oʻynaladigan zal.

**paumelle** *nf techn* oshiq-moshiq.

**paumé, ée** *adj fam* boshini, oʻzini yoʻqotib qoʻygan, nima qilishini bilmaydigan; **il est complètement paumé** u butunlay boshini yoʻqotib qoʻyibdi; *n* boʻlmagʻur, yaramas, tugagan odam; **va donc, eh, paumé!** yoʻqolsangchi, he yaramas!

**paumer I.** *vt* **1.** *vx fam* qoʻlga olmoq, qoʻlga tushirmoq, ushlab olmoq; **2.** *fam* yoʻqotib qoʻymoq; **j'ai paumé le fric** men pulimni yoʻqotib qoʻydim; **II. se paumer** *vpr* adashib qolmoq; **elle s'est paumée en route** u yoʻlda adashib qoldi.

**paupérisation** *nm* qashshoqlashish; **la paupérisation des chômeurs** ishsizlarning qashshoqlashishi.

**paupière** *nf* qovoq (*koʻz qovogʻi*); **battre des paupières** koʻzini pirpiratmoq.

**paupiette** *nf* pishirilgan oʻrama goʻsht; **paupiettes de veau** mol goʻshtidan qilingan oʻrama.

**pause** *nf* **1.** tanaffus, tin olish, toʻxtatish, dam; **la pause de midi** tushki tanaffus; *fam* **la pause café** qahva ichish uchun tanaffus; **faire une pause, la pause** tanaffus qilmoq; **cinq minutes de pause** besh minut tanaffus; **2.** sukut, pauza, jimlik; **3.** *mus* pauza; **une pause vaut quatre soupirs** bitta pauza toʻrtta chorak pauzaga teng.

**pauvre I.** *adj* **1.** kambagʻal, qashshoq, nochor, bechorahol, faqir; **2.** qashshoq, gʻaribona, faqirona (*narsa*); **une pauvre maison** faqirona uy; **3.** kamhosil, oriq; **terre pauvre** kamhosil, oriq yer; **II.** *n* **1.** *vx* **un pauvre, une pauvresse** bechora, miskin, gadoy, tilanchi; **2.** *pl* bechoralar, nochorlar.

**pauvrement** *adv* kambagʻallik bilan, faqirona, nochorona, bechorahol; **vivre pauvrement** faqirona yashamoq; **être pauvrement vêtu** faqirona kiyingan boʻlmoq.

**pauvresse** *nf voir* **pauvre**.

**pauvret, ette** *n, adj* bechoraginam, shoʻrlikkinam.

**pauvreté** *nf* **1.** kambagʻallik, bechoralik, qashshoqlik, nochorlik, yetishmaslik; *fam* qoʻlida yoʻqlik, qoʻli kaltalik, ojizlik; **la société moderne n'a pas éliminé la pauvreté** zamonaviy jamiyat kambagʻallikni istisno qilmaydi; **2.** kamhosillik, oriqlik; **pauvreté du sol** yerning oriqligi; **3.** qashshoqlik, kambagʻallik, yetishmaslik; **pauvreté intellectuelle** maʼnaviy qashshoqlik.

**pavane** *nf* pavana (*qadimgi raqs turi va uning musiqasi*).

**pavaner (se)** *vpr* savlat toʻkib, viqor bilan yurmoq; tovusday tovlanmoq.

**pavage** *nm* **1.** tosh yotqizish, toʻshash; **travailler au pavage d'une rue** koʻchaga tosh yotqizishda ishlamoq; **2.** tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yoʻl.

**pavé** *nm* **1.** toʻshama; **le pavé de marbre d'une église** cherkovning marmar toʻshamasi; **2.** tosh koʻcha, yoʻl; **pavé humide, glissant** hoʻl, sirpanchiq koʻcha; **battre le pavé** sandiroqlab yurmoq; **3.** yerga toʻshalgan yoʻnilgan tosh, yogʻoch; **arracher les pavés pour faire une barricade** barikada qurish uchun yoʻl toshlarini koʻchirmoq; **4.** toʻrtburchak pishloq; **5.** qalin, qizil goʻsht boʻlagi; **pavé au poivre** xantali goʻsht; **6.** qalin, mujmal kitob; **un pavé de cinq cents pages** besh yuz betli mujmal kitob; **7.** gazetadagi ramkaga olingan maqola.

**pavement** *nm* yotqizish, yopishtirish; **un pavement de mosaïque** koshin yopishtirish.

**paver** *vt* tosh yotqizmoq; **paver un chemin** yoʻlga tosh yotqizmoq; **une route pavée** tosh yotqizilgan koʻcha.

**pavillon¹** *nm* **1.** rovon, shiyponcha, uycha; **pavillon de chasse** ovchilar uychasi; **les pavillons d'un hôpital** kasalxona pavilonlari; **habiter un pavillon** shiyponchada yashamoq; **2.** fligel (*asosiy uy yoniga qurilgan bino*); **le pavillon d'angle d'un château** qasrning burchagidagi fligel.

**pavillon²** *nm* **1.** ogʻiz (*puflab chalinadigan musiqa asboblarida*); **le pavillon d'une trompette** karnayning ogʻzi; **2.** quloq chanogʻi (*suprasi*).

**pavillon³** *nm* kema bayrogʻi; **pavillon de guerre** harbiy bayroq; **amener le pavillon** bayroqni topshirmoq (*taslim boʻlmoq*); **ensemble de pavillons** bayram kunlari osib qoʻyiladigan rang-barang signal bayroqlari; **baisser pavillon devant qqn** biror kimsaga yon bermoq.

**pavillonnaire** *adj* pavilondan tashkil topgan, pavilon; **une zone, un lotissement pavillonnaire** pavilon zonasi, maydoni.

**pavois** *nm inv* **1.** *hist* franklarning qatta qalqoni; **élever, hisser qqn sur le pavois** birovga hukmronlik bermoq, birovni koʻklarga koʻtarmoq; **2.** *mar* falshbort (*kema palubasidagi bort toʻsigʻi*); **grand pavois** bayram kunlari osib



www.ziyouz.com kutubxonasi

qo‘yiladigan rang-barang bayroqlar; **hisser le grand pavois** rang-barang bayroqlar bilan bezamoq, bayroqlar bilan bezamoq.

**pavoiser** *vt* bayroqlar bilan bezatmoq (*imoratlarni, shaharni tantana, bayram munosabati bilan*); **pavoiser pour la fête nationale** milliy bayram munosabati bilan bezatmoq; *fam* **il n'y a pas de quoi pavoiser** xursand bo‘ladigan joyi yo‘q.

**pavot** *nm* ko‘knor.

**payable** *adj* to‘lanadigan; **des marchandises payables en espèces** haqi naqd to‘lanadigan mollar.

**payant, ante** *adj* **1.** pulini to‘laydigan; **spectateurs payants** pulini to‘laydigan tomoshabinlar; **2.** pulli, pul to‘lab olinadigan; **billet payant** pulli bilet; **3.** *fam* daromadli, foydali; **c'est payant** bu daromadli.

**paye** *ou* **paie** *nf* **1.** oylik ish haqi; oylik, maosh to‘lash; **le jour de paye, de la paie** oylik to‘lash, olish kuni; **2.** *fam* ikki maosh, oylik orasi; **il y a une paye qu'on ne l'a pas vu** uzoq vaqtdan beri uni ko‘rmadik; **3.** oylik, maosh, ish haqi, moyana; **toucher sa paye** oyligini olmoq; **une feuille de paye** oylik vedomosti.

**payement** *nm voir* **paiement**.

**payer I.** *vt* **1. payer qqn** haq to‘lamoq, taqdirlamoq; **payer un employé** xizmatchiga haq to‘lamoq; **être payé à l'heure, cent francs de l'heure pour un travail** soatbay ish haqi olmoq, bir ish uchun soatiga yuz frank olmoq; **payer qqn en espèces** biror kishiga naqd pul to‘lamoq; *fam* **je suis payé pour savoir que** o‘z boshidan o‘tkazmoq; **payer qqn de retour** o‘ziga qilingan narsaga shunday narsa bilan javob bermoq; **2. payer qqch** to‘lamoq, uzmoq; **payer ses dettes** qarzini uzmoq; **payer ses impôts** soliqlarini to‘lamoq; *prov* **qui paie ses dettes s'enrichit** qarzdan qutilganing, boy bo‘lganing; **3.** sotib olmoq, pul to‘lamoq; **payer qqch cher, bon marché** biror narsani arzonga, qimmatga sotib olmoq; **travail bien, mal payé** yaxshi, yomon, oz haq to‘lanadigan ish; **congés payés** haq to‘lanadigan ta'til; **4.** *fam* **payer qqch à qqn** sotib olib bermoq, olib bermoq; **viens, je te paie un verre** kel, men senga bir stakan olib beraman; **5.** gunohini yuvmoq, o‘zini oqlamoq; **il faudra payer** gunohni yuvmoq kerak bo‘ladi; **il m'a joué un vilain tour, mais il me le paiera** u menga razil qilik qildi, u mendan buning jazosini oladi; **6.** to‘lamoq; **payer comptant** naqd pul bilan to‘lamoq; **avoir de quoi payer, pouvoir payer** to‘lagani puli bo‘lmoq, to‘lay olmoq; **payer de** -dan to‘lamoq; **payer de sa poche** o‘z cho‘ntagidan to‘lamoq; *loc* **payer de sa personne** zo‘r bermoq, kuchini bermoq; **payer pour qqn** biror kishining o‘rniga, uchun to‘lamoq; **payer pour qqn, pour qqch** gunohini yuvmoq; **7.** qoplamoq, arzimoq; **ce qu'il gagne ne le paie pas de sa peine** uning ishlab topgani qilgan mehnatiga arzimaydi; daromad, foyda keltirmoq; **le crime ne paie pas** jinoyat foyda keltirmaydi; **II. se payer** *vpr* **1.** to‘lamoq, hisob-kitob qilmoq; **les commandes se paient à la livraison** buyurtmalar yetkazib berilgandan keyin, haqi to‘lanadi; **tout se paye** hamma narsaning hisob-kitobi, tosh-tarozisi bor; **voilà cent euros, payez-vous et rendez-moi la monnaie** mana yuz evro, hisoblashing (*hisob-kitob qiling*) va qaytimini menga bering; **2. on va se payer un bon repas** o‘zimizga yaxshi bir ovqat sotib olsak ham bo‘laveradi; *fam* **s'en payer une tranche** vaqtini chog‘ o‘tkazmoq; *fam* **se payer la tête de qqn** birovni ahmoq qilmoq, ustidan kulmoq.

**payeur, euse** *n* **1.** to‘lovchi, qarzdor; **mauvais payeur** yomon to‘lovchi; **2.** xazinachi, g‘aznachi; kassir; **trésorier-payeur général** bosh g‘aznachi.

**pays**[1] *nm inv* **1.** mamlakat, davlat; **pays étrangers** xorijiy mamlakatlar; **pays amis** do‘st davlatlar; **pays voisins** qo‘shni davlatlar; **les pays du tiers monde** qo‘shilmagan davlatlar; **2.** tomon, taraf, yurt, o‘lka; yoq, joy; **il n'est pas du pays** u bu tomonlik emas; **vin de pays** mahalliy vino; **produits du pays** mahalliy yer mahsuli; **le pays de Caux** Ko o‘lkasi (*normandiyada*); **3.** yurt, o‘lka (*shu yurt, shu o‘lka odamlari*); **tout le pays en a parlé** butun o‘lka bu haqda gapirdi; **4. le pays de qqn, son pays** o‘z vatani, yurti; **mourir pour son pays** o‘z vatani uchun jon bermoq; **avoir le mal du pays** o‘z yurtini sog‘inmoq; **5. le pays de qqch** biror narsaning vatani, yurti, o‘lkasi (*biror narsaga boy joy*); **la France est le pays des fromages** Fransiya pishloqlar vatani; **6.** yurt, o‘lka, joy, yer; **les pays tempérés** mo‘tadil iqlimli o‘lkalar; **le pays plat** tekislik; **voir du pays** yurtni tomosha qilmoq, sayohat qilmoq; *loc* **pays de cocagne** jannat-monand yer; **7.** shaharcha, qishloq, yer, joy; **il habite un petit pays** u bir ovloq qishloqda yashaydi.

**pays**[2], **payse** *n fam* hamqishloq, hamyurt, vatandosh; **c'est ma payse, nous sommes nés dans le même village** bu mening hamqishlog‘im, biz bir qishloqda tug‘ilganmiz.

**paysage** *nm* **1.** manzara, ko‘rinish, peyzaj; **le paysage est beau** manzara go‘zal; **un paysage de toits et de cheminées** tomlar va mo‘rilar manzarasi; **2.** manzara, ko‘rinish; **paysage urbain** shahar manzarasi; **paysage méditerranéen** o‘rta Yer dengizi sohillari ko‘rinishi; **3.** peyzaj (*rasmda tabiat manzarasi*), tabiat manzarasi; **peintre de paysages** peyzaj chizuvchi rassom, peyzajist; **dans ce film, il y a de beaux paysages** bu filmda chiroyli tabiat manzaralari bor; **4.** hol, ahvol, manzara, ko‘rinish; **le paysage politique actuel** hozirgi siyosiy ahvol; **le paysage audiovisuel français** fransuzcha audiovizual ko‘rinish; *fam* **cela fait bien dans le paysage** bu yaxshi taassurot qoldiradi.

**paysagiste** *n* **1.** peizajist, peizajchi, manzara chizuvchi rassom; **les paysagistes hollandais** Gollandiyalik peizajistlar; **une excellente paysagiste** ajoyib peizajist ayol; **2.** bog‘larni chizuvchi rassom.

**paysan, anne I.** *n* dehqon; **ouvriers et paysans** ishchi va dehqonlar; **II.** *adj* **1.** dehqonlarga oid, dehqon; **vie paysanne** dehqoncha hayot, dehqon turmushi; **2.** *péj* qo‘pol, beso‘naqay.

**paysannat** *nm* dehqon holati.

**paysannerie** *nf* dehqonlar.

**P.D.G.** *nm inv abrév* **président-directeur général** bosh direktor.

**péage** *nm* **1.** yo‘ldan foydalanganligi uchun to‘lanadigan haq; **autoroute, pont à péage** pulli avtostrada, ko‘prik; **2.** yo‘l haqi olinadigan joy.

**peau** *nf* **1.** teri; **relatif à la peau** teriga oid; **enlever, détacher la peau d'un animal** hayvonning terisini shilmoq; **2.** odam terisi; **peau claire, foncée, noire** oq, bug‘doy rang, qora teri; **peau mate** qorachadan kelgan teri; **peau bronzée** quyoshda qoraygan teri; **une coupure de la peau** terining kesik joyi; *loc fam* **n'avoir que la peau et les os** suyagu, terisidan boshqa narsasi bo‘lmaslik, terisi borib suyagiga yopishgan bo‘lmoq; **se faire crever la peau** o‘zini o‘ldirtirmoq; **3.** *péj* **vieille peau** shaftoliqoqi, turshak (*ayol kishiga nisbatan*); **4.** teri, charm, ko‘n; **ouvriers des cuirs et peaux** qayish va charm ishchilari; **traiter les peaux** teriga ishlov bermoq; **peau de chamois** zamsh; *fam* **une peau d'âne** diplom; **une peau de vache, peau d'hareng** terisi qalin, yovuz odam; **5.** po‘st, po‘stloq; **enlever la peau d'un fruit** mevaning po‘stini archmoq; **la peau du lait** sutning beti (*ustki qaymog‘i*); *loc fam* **peau de balle** hech nima, hech narsa, yo‘q narsa.

**peaufiner** *vt* **1.** ag‘darma teri bilan ishqalab yaltiratmoq; **2.** hafsala bilan ishlov bermoq, jilo bermoq; **elle a peaufiné son rapport de stage** u stajyorlik hisobotiga hafsala bilan ishlov berdi.

**peau-rouge** *n vx* qizil tanli, indeys.

**peausserie** *nf* **1.** ko‘nchilik, terichilik; **2.** ko‘n, teri, charm savdosi; **3.** ishlov berilgan teri, ko‘n, charm.

**pécari** *nm* **1.** pekari (*Amerikaning yovvoyi cho‘chqasi*); **2.** shu hayvonning terisidan qilingan charm; **des gants de pécari** pekari qo‘lqop.

**peccadille** *nf litt* yengil gunoh, arzimas ayb; **il se fâche pour des peccadilles** arzimagan ayb uchun uning achchig‘i chiqyapti.

**pêche**[1] *nf* **1.** shaftoli (*mevasi*); *loc* **peau, teint de pêche** qirmizi va mayin teri, rang; **2.** *loc fam* **avoir la pêche** tayyor, yaxshi tayyorlangan his qilmoq, o‘zini formada his qilmoq, o‘zini bardam, baquvvat his qilmoq (*biror ish-harakat qilishga*); **3.** *fam* musht, tepki, shapaloq; **il va te flanquer une pêche** hozir u senga bir shapaloq tushiradi.

**pêche**[2] *nf* **1.** baliq ovi, baliq tutish; **2.** ov, o‘lja (*suvdan tutilgan narsa; baliq, turli dengiz ne'matlari*); **rapporter une belle pêche** yaxshi ov, o‘lja keltirmoq.

**péché** *nm* **1.** *relig* gunoh; **commettre, faire un péché** gunoh qilib qo‘ymoq, gunoh qilmoq; **2.** gunohkorlik, osiylik; **tomber, vivre dans le péché** gunohkorlikka berilmoq, gunohkorlikda yashamoq.

**pécher** *vi* **1.** gunoh qilmoq, gunohkor, osiy bo‘lmoq; **pécher par orgueil** takabburlik qilmoq; **2. pécher contre qqch** biror narsaga nisbatan xilof, qarshi ish qilmoq; **pécher contre la bienséance** odobga xilof ish qilmoq.

**pêcher**[1] *nm* shaftoli (*daraxti*); **un pêcher en fleur** gullagan shaftoli.

**pêcher**[2] *vt* **1.** baliq ovlamoq, tutmoq; **pêcher la truite** gulmohi ovlamoq; **pêcher en mer** dengizda baliq ovlamoq; *loc* **pêcher en eau trouble** alg‘ov-



www.ziyouz.com kutubxonasi

dalg‘ovdan, to‘s-to‘polondan foydalanib qolmoq; **2.** *fam* qidirib topmoq, izlab topmoq; **je me demande où il va pêcher ces histoires** men o‘z-o‘zimdan so‘rayman, u bu cho‘pchaklarni qayerdan qidirib toparkin.

**pêcherie** *nf* baliq ovlaydigan joy, baliq ovlash korxonasi.

**pécheur, pécheresse** *n, adj* gunohkor, osiy; **un pécheur endurci** ashaddiy gunohkor; **une âme pécheresse** gunohkor qalb.

**pêcheur, euse** *n* baliqchi; **marin pêcheur** dengiz baliqchisi; **pêcheur du dimanche** havaskor baliqchi; **pêcheur de corail** marjon yig‘uvchilar; **pêcheur de perles** marvarid qidiruvchilar.

**pécore** *nf vx* bema’ni, janjalkash, o‘taketgan rasmiyatchi; mijg‘ov, tantiq xotin.

**pectine** *nf* pektin (*o‘simlik mevasining etidan tayyorlangan tabiiy modda*).

**pectoral, ale, aux** *adj* **1.** ko‘krakning, ko‘krak; **les muscles pectoraux** *ou nm pl* **les pectoraux** ko‘krak mushaklari; **2.** hayvonlarning qorin tomonidagi, qorin; **nageoires pectorales** qorin suzg‘ichlari; **3.** bronxlar kasalligiga qarshi kurashuvchi; **sirop pectoral** balg‘am haydovchi damlama.

**pécule** *nm* **1.** yig‘ib, tejab qo‘yilgan pul; **amasser un pécule** tejalgan pullarni yig‘ib qo‘ymoq; **2.** ishlab topilgan, lekin ma’lum hollardagina foydalaniladigan jamg‘arma pul; **le pécule d’un détenu** mahbusning jamg‘armasi.

**pécuniaire** *adj* **1.** pulga oid, pulli; pul; **des embarras pécuniaires** pul qiyinchiligi, iqtisodiy qiyinchilik; **2.** puldan tashkil topgan, pul; **une aide pécuniaire** pul yordami, iqtisodiy yordam.

**pédagogie** *nf* **1.** pedagogika; **2.** pedagogik malaka; **il manque de pédagogie** unda pedagogik malaka yo‘q.

**pédagogique** *adj* **1.** pedagogikaga oid, pedagogik; **méthodes pédagogiques nouvelles** yangi pedagogik metodlar; **2.** pedagoglik; **cet instituteur a un grand sens pédagogique** unda katta pedagoglik tuyg‘usi bor.

**pédagogue** *n* **1.** pedagog, o‘qituvchi, muallim, tarbiyachi, murabbiy; *adj* **un professeur peu pédagogue** pedagogligi yetishmaydigan o‘qituvchi; **2.** *vieilli* o‘quvchining o‘qishlarini nazorat qilib turuvchi qul.

**pédagogiquement** *adj* pedagog(lar)chasiga; o‘qituvchi, muallim, murabbiylarchasiga.

**pédale** *nf* **1.** pedal, tepki; **la pédale d’une machine à coudre** tikuv mashinasining tepkisi; **II.** *fam péj* bachchaboz, gomoseksualist.

**pédaler** *vi* **1.** velosipedning pedalini aylantirmoq, velosipedda yurmoq; **2.** *fam* juda tez yurmoq; *loc* **pédaler dans la choucroute, la semoule** bekordan-bekorga zo‘r bermoq.

**pédalier** *nm* **1.** velosipedning pedali, umumiy pedal moslamasi; **2.** organning tepkilari.

**pédalo** *nm* oyoq bilan tepib harakatga keltiriladigan pedalli qayiqcha; **faire du pédalo** pedalli qayiqcha bilan shug‘ullanmoq.

**pédant, ante** *n, adj* pedant, maydakash; rasmiy talablarni bajarishga zo‘r beradigan kishi, o‘taketgan rasmiyatchi; **quelle pédante!** qanday nazokatsiz ayol! **il est un peu pédant** u bir oz rasmiyatchiroq; **un ton pédant** rasmiy ohang.

**pédanterie** *nf litt voir* **pédantisme**.

**pédantesque** *adj litt* pedantga oid, maydakash; o‘taketgan rasmiyatchi, pedantlarcha.

**pédantisme** *nm* pedantlik; o‘taketgan rasmiyatchilik; **il est d’un pédantisme ridicule** unda kulgili darajadagi o‘taketgan rasmiyatchilik bor.

**pédéraste** *nm* bolaboz, bachchaboz, besoqolboz (*abrév péj injur* **pédé**).

**pédestre** *adj* piyoda, yayov; **randonnée pédestre** piyoda uzoq sayr.

**pédiatre** *n* pediatr, bolalar vrachi.

**pédiatrie** *nf* pediatriya, bolalar meditsinasi.

**pédicule** *nm* **1.** poya, band, dasta; **le pédicule d’un champignon** qo‘ziqorinning bandi; **2.** tomirlar tizimi; **pédicules pulmonaires** o‘pka tomirlari tizimi.

**pédicure** *n* pedikur (*oyoqqa qarovchi yordamchi vrach*).

**pedigree** *nm* genealogiya, nasl, zot (*nasldor hayvonlarda*); **établir le pedigree d’un chien** itning naslini aniqlamoq.

**pédologie¹** *nf* pedologiya (*bolani fiziologik va psixologik o‘rganish*).

**pédologie²** *nf* tuproqshunoslik.

**pédoncule** *nm* **1.** bog‘lab turuvchi tomir; **pédoncules cérébraux** miyani bog‘lab turuvchi tomirlar; **2.** gulband, gul bandi.

**pédonculé, ée** *adj* gulbandli, gul bandi bo‘lgan.

**pègre** *nf* o‘g‘rilar va o‘g‘rilar dunyosi; **la pègre d’un port** port o‘g‘rilari; **la pègre et le milieu** o‘g‘rilar va muhit (*ularning orasi*).

**peignage** *nm* tarash (*tekstil tolalarini*).

**peigne¹** *nm* taroq; **se donner un coup de peigne** sochini tarab olmoq; *loc* **passer qqch au peigne fin** bittalab tekshirib chiqmoq; **coiffure maintenue par des peignes et des barrettes** egma taroq va soch to‘g‘nog‘ichi bilan mahkamlangan soch.

**peigne²** *nm* taroqsimon molluska.

**peigne-cul** *nm inv vulg* bachkana, qo‘pol, tarbiyasiz odam, to‘nka.

**peigner I.** *vt* **1.** taramoq (*sochini*); **peigner ses cheveux** sochini taramoq; **peigner qqn** birovning sochini taramoq; **2.** taramoq, titmoq; **peigner la laine, le chanvre** jun, zig‘ir tolasini titmoq; **II. se peigner** *vpr* taranmoq; **elle s’habille, se peigne** u kiyinyapti, taranyapti.

**peignoir** *nm* **1.** penuar (*paxmoq gazlamadan tikilgan, hammomdan, vannadan chiqqanda kiyiladigan uzun xalat*); **se sécher dans son peignoir** penuarida qurimoq; **un peignoir de plage** plaj xalati.

**peinard, arde** *ou* **pénard, arde** *n, adj fam* tinch, yuvosh, beozor, vazmin, og‘ir; **je me tiens peinard** men tinchgina turipman; **un boulot peinard** jonini koyitmay qilinadigan yumish.

**peinardement** *adv fam* tinchgina, jonini koyitmay, vazminlik bilan.

**peindre I.** *vt* **1.** bo‘yamoq; **peindre un mur en bleu** devorni havorang bo‘yoqqa bo‘yamoq; **peindre qqch de plusieurs couleurs** biror narsani turli ranglarga bo‘yamoq; **une statue en bois peint** bo‘yalgan yog‘ochdan qilingan haykal; **papier peint** rangli qog‘oz, gulqog‘oz; **2.** bo‘yoq bilan yozmoq; **peindre un numéro sur une plaque** taxtakachga bo‘yoq bilan nomer yozmoq; **3.** chizmoq; rasm, surat solmoq; **peindre des paysages** manzara chizmoq; rasm, surat chizmoq; **il peint et il sculpte** u rasm chizadi va haykal yasaydi; **4.** tasvirlamoq, (*og‘zaki*) chizmoq, ta’riflamoq, tavsiflamoq; **un roman qui peint la société** jamiyatni tasvirlovchi roman; **II. se peindre** *vpr* namoyon bo‘lmoq, aks etmoq; **la consternation se peignit sur les visages** yuzlarda iztirob namoyon bo‘ldi.

**peine¹** *nf* **1.** jazo; **peine sévère, juste** qattiq, odil jazo; **2.** jazo (*qonun oldida*); **être passible d’une peine** jazoga tortiladigan bo‘lmoq; **infliger une peine** jazo tayinlamoq; **peine pécuniaire** jarima; **peine privative de liberté** ozodlikdan mahrum qilish, qamoq jazosi; **peine capitale, peine de mort** oliy jazo, o‘lim jazosi; **3.** *loc prép* **sous peine de** bilan qo‘rqitib, deb qo‘rqitib; **défense d’afficher sous peine d’amende** e’lonlar yopishtirish taqiqlanadi, jarima solinadi.

**peine²** *nf* **1.** qayg‘u, g‘am, dard-alam, azob-uqubat, kulfat, tashvish, g‘am-tashvish; **peine de cœur** muhabbat g‘ami; **avoir de la peine** g‘am chekmoq, g‘amda bo‘lmoq; **je partage votre peine** men sizning qayg‘ungizga sherikman; **faire de la peine à qqn** biror kishini tashvishga qo‘ymoq; *loc* **être comme une âme en peine** juda dilgir bo‘lmoq; ichiga chiroq yoqsang, yorimaydigan bo‘lmoq; **il errait comme une âme en peine** u boshiga mushkul ish tushgan odamday, sandiroqlab yurar edi; **2.** og‘ir ish, qiyinchilik; zo‘r berish, kuch, mehnat; **ce travail demande de la peine** bu ish mehnat talab qiladi; **prenez donc la peine d’entrer** marhamat qilib, kiring; *loc* **n’être pas au bout de ses peines** hali boshi zahmatdan qutilmagan bo‘lmoq; **pour votre peine, pour la peine** evaziga; **homme de peine** qora ishchi; **valoir la peine** arziydi, qilishga arziydi; **c’était bien la peine de tant travailler** bu shuncha zahmatga arzirmidi; **c’est peine perdue** bu behuda ish; **3.** qiyinchilik, mashaqqat, mushkulot; **avoir de la peine à parler, à marcher** gapirishga, yurishga qiynalmoq; **j’ai (de la) peine à le croire** bunga ishonishim qiyin; *loc* **avec peine** qiyinchilik bilan; **à grand-peine** katta qiyinchilik bilan; **sans peine** qiyinchiliksiz, osongina; **je le crois sans peine** men bunga osongina ishonaman; **il n’est pas en peine pour** u biror narsa uchun, biror narsa qilish uchun tortinmaydi; *loc adv* **à peine** deyarli, qariyb hech; endigina, hozirgina; **il y avait à peine de quoi manger** deyarli yegulik hech narsa yo‘q edi; **il y a à peine huit jours** atigi bir hafta oldin; **j’ai à peine commencé** men endigina boshladim; **je commence à peine** men



www.ziyouz.com kutubxonasi

endigina boshlayapman; **elle était à peine remise qu'elle retomba malade** u endigina tuzalgan edi, yana qaytadan kasal bo'lib qoldi; **à peine endormi, il se mit à ronfler** u uyquga ketishi bilanoq, xurrak otaboshladi.

**peiner I.** *vi* qiynalmoq, tirishmoq, urinmoq, harakat qilmoq; **il peinait pour s'exprimer** u o'z fikrini bayon qilishga tirishar edi; **la voiture peine dans les montées** avtomobil ko'tarilishlarda qiynalyapti; **II.** *vt* birovni tashvishga solib qo'ymoq, qayg'uga solmoq, xafa qilmoq, ranjitmoq, dilini og'ritmoq; **nous en sommes très peinés** biz bundan juda tashvishdamiz.

**peintre** *nm* **1.** bo'yoqchi, sirchi, sirkor; **peintre en bâtiment** *ou* **peintre** bo'yoqchi, gulqog'oz yopishtiruvchi; **2.** rassom; **ce peintre est un bon paysagiste, un portraitiste** bu rassom yaxshi peyzajist (*manzarachi*), portretchi; **Suzanne Valadon était un grand peintre** Suzan Valadon katta rassom edi; **les tableaux, les toiles d'un peintre** rassomning rasmlari, xolstlari; **peintre figuratif; peintre abstrait** tasvirchi, abstraktchi rassom; **3.** *litt* yozuvchi, san'atkor; **le poète romantique est un peintre du cœur humain** romantik shoir insoniyat qalbining san'atkoridir.

**peinture** *nf* **1.** bo'yash, bo'yoq berish san'ati; bo'yash, bo'yab qo'yish; **peinture d'art** gul solish; **peinture en bâtiment** bo'yash, kraskalash, gulqog'oz yopishtirish; **peinture au rouleau, au pistolet, à la brosse, au peinceau** g'altakcha, pulverizator, cho'tka, cho'tkacha bilan bo'yash; **2. en peinture** tasvirda; *loc* **je ne peux pas le voir en peinture** uning basharasini ko'rgim yo'q; **3.** tasvir, ifoda; **ce roman est une peinture de la société** bu roman jamiyatning tasviridir; **4.** rassomlik san'ati; rassomlik; rasm, tasvir; **peinture à l'huile, à l'eau, à l'acrylique** moybo'yoqda, suvda, akrilikda chizilgan rasm; **peinture et dessin, et gravure, et mosaïque, et vitrail** tasviriy san'at asari, rasm, va gravyura, va mozaika, va vitraj; (*tur va uslubi*) **peinture figurative, abstraite** tasviriy, abstrakt rassomchilik; **la peinture flamande, italienne** flamand, Italiya rassomchiligi; **exposition, galerie de peinture** rasmlar ko'rgazmasi, galereyasi; **5.** rasm, xolst; **peintures rupestres** g'orlarga chizilgan rasmlar; **une mauvaise peinture** no'noq rasm, yomon ishlangan rasm; **6.** biror narsaning ustiga berilgan rang, bo'yoq; **la peinture commence à s'écailler** bo'yoq ko'chib ketaboshlayapti; **7.** bo'yoq, kraska; **acheter un pot de peinture mate** bir banka to'q rangli bo'yoq sotib olmoq; **appliquer plusieurs couches de peinture** bir necha qavat rang bermoq; **peinture fraîche** yangi surtilgan bo'yoq.

**peinturlurer I.** *vt* rasvo qilib bo'yab tashlamoq, pala-partish bo'yamoq; **II. se peinturlurer** *vpr* yuziga bo'yoq chaplab olmoq.

**péjoratif, ive** *adj* kamsitadigan, xo'rlaydigan, salbiy; **mot péjoratif** kamsitish ma'nosini bildiruvchi so'z; **les suffixes péjoratifs** kamsitish suffikslari.

**péjorativement** *adv* kamsitish, xo'rlash ma'nosida; **employer un mot péjorativement** so'zni kamsitish ma'nosida ishlatmoq.

**pékin** *ou* **péquin** *nm arg mil* oddiy fuqaro, harbiymas kishi; **deux millitaires et un pékin** ikkita harbiy va bir oddiy odam.

**pékinois I.** *adj* Pekinga oid, Pekin; **II.** *nm* **1.** xitoy tilining pekin lahjasi; **2.** pekines (*it turi*).

**pelade** *nf* soch to'kilishi; kallik, temiratki, qo'tir.

**pelage** *nm* rang, tus, teri, jun, yung (*hammasi birgalikda*); **le pelage du léopard** qoplonning tusi (*terisi*).

**pélagique** *adj* ochiq dengizga oid, ochiq dengiz.

**pelé, ée** *adj* **1.** kal, yaltiroqbosh; *loc fam* **il y avait quatre pelés et un tondu** barmoq bilan sanarli odam bor **2.** taqir, yalang'och, qurib-qaqshagan, giyoh o'smagan.

**pêle-mêle I.** *adv* aralash-quralash, to's-to'polon, ostin-ustin, tartibsiz; **jeter des objets pêle-mêle** narsalarni aralash-quralash qilib tashlab qo'ymoq; **des marchandises présentées pêle-mêle** aralash-quralash qilib to'kib qo'yilgan mollar; **II.** *nm inv* bir necha rasm olishga mo'ljallangan kadr.

**peler I.** *vt* archmoq; po'stidan, po'chog'idan tozalamoq; **peler une pomme** olma archmoq; **II.** *vi* **cet enfant a pris un coup de soleil, il pèle** bu bola quyoshda kuyib qolibdi, terisi tushyapti.

**pèlerin** *nm* ziyoratchi, hoji; **les pélerins étaient des femmes** ziyoratchilar ayyollar edi.

**pèlerinage** *nm* **1.** muqaddas joylarni ziyorat qilish; ziyorat; **aller en pèlerinage** muqaddas joylarni ziyorat qilish uchun, ziyoratga bormoq; **le pèlerinage de La Mecque** Makka ziyorati, haj; **2.** muqaddas joy, ulug' odamlarni ziyorat qilish, ziyorat.

**pèlerine** *nf* **1.** pelerina (*yelkaga tashlab yuriladigan ayollar kiyimi*); **2.** yelkaga tashlanadigan yengsiz keng kiyim, nakidka.

**pélican** *nm* saqoqush, birqozon (*tumshug'i ostida meshkopi xaltasi bo'lgan yirik suv qushi*).

**pelisse** *nf* po'stin, shuba, mo'ynali palto.

**pelle** *nf* **1.** belkurak, kurak, bel; **pelle à charbon, pelle à ordures** olovkurak, xokandoz; **pelle à tarte** tort kurakchasi; **pelle (mécanique de chantier)** ekskavator; *loc fam* **à la pelle** shipirib olmoq (*pulni*); **remuer l'argent à la pelle** pulni shipirib topmoq; **on en ramasse à la pelle** pulni shipirib topishyapti, katta pul topishyapti; **2.** *fam* **rouler une pelle (à qqn)** labidan chapillatib o'pmoq; **ramasser une pelle** yiqilmoq, qulab tushmoq, omadsizlikka uchramoq.

**pelletage** *nm* belkurak bilan aralashtirish.

**pelletée** *nf* bir belkurak (*belkurakka joylashadigan narsa*); **une pelletée de sable** bir belkurak qum.

**pelleter** *vt* kurak bilan bir joydan bir joyga olmoq; belkurak bilan kovlamoq, aralashtirmoq.

**pelleterie** *nf* **1.** mo'ynado'zlik; **2.** mo'yna, teri; **des pelleteries précieuses** qimmatbaho mo'ynalar.

**pelleteuse** *nf* ekskavator.

**pelletier, ière** *n* mo'ynado'z.

**pellicule** *nf* **1.** qazg'oq, bosh kepagi; **tes cheveux sont pleins de pellicules** soching to'la qazg'oq; **2.** yupqa parda; **une mince pellicule de boue séchée** yupqa qurigan loy pardasi; **3.** fotoplyonka, kinoplyonka; **acheter un rouleau de pellicule** bir katushka fotoplyonka sotib olmoq.

**pelotage** *nm fam* qo'pollik bilan silab erkalash, ushlab chiqish, paypaslab chiqish.

**pelotari** *nm* baskcha to'p o'yinchisi.

**pelote** *nf* **1.** kalava, kaptok; **le chat joue avec une pelote de laine** mushuk jun kalavani o'ynatyapti; *loc* **avoir les nerfs en pelote** asablari juda tarang bo'lmoq; **2.** to'g'nog'ich, igna sanchib qo'yiladigan yostiqcha; **c'est une vraie pelote d'épingles** bu haqiqiy yaramas, jirkanch odam; **3.** baskcha to'p o'yinining to'pi; **4. pelote** yoki **pelote basque** baskcha to'p o'yini.

**peloter** *vt fam* qo'pollik bilan silab, ushlab, paypaslab erkalatmoq.

**peloteur, euse** *n fam* qo'pollik bilan silab, ushlab, paypaslab erkalashni yaxshi ko'radigan odam.

**peloton[1]** *nm* kalava; **dévider un peloton de ficelle** chilvir kalavani chuvatmoq.

**peloton[2]** *nm* **1.** vzvod; **pelotons de sapeurs-pompiers** o't o'chiruvchilar vzvodlari; **peloton d'instruction** o'quv vzvodi; **suivre le peloton** o'quv vzvodida tayyorgarlik ko'rmoq; **peloton d'exécution** qatl hukmini ijro etuvchi (*otuvchi*) vzvod.

**pelotonner (se)** *vpr* yumaloq, to'p bo'lib yig'ilmoq; g'ujanak bo'lib, kulchadek, kaptokdek bo'lib yotmoq; oyoqlarini yig'ishtirib yotmoq; **il se pelotonnait contre sa mère** u onasining yonida g'ujanak bo'lib yotardi; **les enfants pelotonnés sous les draps** choyshabning ostida g'ujanak bo'lib yotishgan bolalar.

**pelouse** *nf* **1.** chim, maysazor; **tondre la pelouse** chimni qirqib tekislamoq; **2.** maysazor maydon (*ippodromda*); **la pelouse, le pesage et les tribunes** maysazor maydon, tomoshabinlar joyi, tribuna (*ippodromda*).

**peluche** *nf* **1.** tukli, paxmoq duxoba; baxmal; **peluche de laine** jundan qilingan tukli duxoba; **animaux, chien, ours en peluche** paxmoq hayvonlar, it, ayiq (*bolalar o'yinchog'i*); **2.** matodan ajralgan tuk, tuk; **3.** *fam* po'st, po'choq.

**pelucher** *ou* **plucher** *vi* paxmog'i chiqmoq, tuki to'zimoq, to'zg'imoq; **une vieille robe de chambre qui commence à pelucher** tuki to'zg'iy boshlagan eski uy xalati.

**pelucheux, euse** *ou* **plucheux, euse** *adj* yumshoq, mayin, momiqday; **étoffe pelucheuse** momiqday mato.

**pelure** *nf* **1.** po'st, po'stloq, po'choq (*archilgan meva yoki sabzavotning*); **une pelure de fruit, d'orange** meva, apelsin po'stlog'i; **2.** *fam* ko'ylak, ust-bosh, po'stin; **je vais enlever ma pelure** men hozir po'stinimni yechaman; **3.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**papier pelure** gravyura bosish uchun ishlatiladigan yupqa qogʻoz (*kitoblarda*).

**pelvien, enne** *adj anat* tos, dumgʻaza suyagiga oid.

**pénal, ale, aux** *adj* jinoyatga oid, jinoiy; **les lois pénales** jinoyat qonunlari; **code pénal** jinoyat kodeksi.

**pénalement** *adv* jinoyat huquqlariga muvofiq, jinoyat huquqlari asosida.

**pénalisation** *nf sport* jarima, shtraf; **au football, le coup franc, le penalty sont des pénalisations** futbolda, jarima toʻpi, oʻn bir metrli jarima toʻplari jarima hisoblanadi.

**pénaliser** *vt* jazolamoq; **une infraction au code de la route sévèrement pénalisée** yoʻl qoidasini buzish qattiq jazolanadi.

**pénalité** *nf* **1.** jazo (*soliq qoidasini buzganligi uchun*); **2.** *regbi.* jarima toʻpi; **coup de pied de pénalité** tepish jarima toʻpi.

**penalty** *nm anglic foot* penalti, oʻn bir metrli jarima toʻpi; *pl* **des penaltys** *ou* **des penalties**.

**pénard, arde** *n, adj fam voir* **peinard**.

**pénates** *nm pl* **1.** qadimgi rimliklarda uy xudosi; *loc* **porter, emporter ses pénates quelque part** biror joyga borib makon qurmoq, joylashmoq; **2.** oʻzi yashaydigan joy, makoni, uyi; **regagner ses pénates** oʻzi yashaydigan joyga qaytib bormoq.

**penaud, aude** *adj* uyalib, uyatga qolgan, xijil, oʻsal boʻlgan, xijolat tortgan, izza boʻlgan, xijil.

**pence** **penny**ning koʻpligi.

**penchant** *nm* **1.** mayl, havas, qiziqish, ishtiyoq, intilish, yaxshi koʻrish; moyillik; **mauvais penchants** yomon odatlar; **avoir un penchant à la paresse, pour la paresse** dangasalikka moyilligi boʻlmoq; **2.** *litt* muhabbat, koʻngil qoʻyganlik, yaxshi kurish; mayl; **le penchant qu'ils ont l'un pour l'autre** ularning bir-biriga koʻngli borligi.

**pencher I.** *vi* **1.** ogʻmoq, qiyshaymoq, egilmoq (*vertikal holatga nisbatan*); **ce mur penche** bu devor ogʻyapti; **2.** egilmoq, qiyshaymoq (*gorizontal holatga nisbatan*); **ce tableau penche à droite** bu rasm oʻng tomonga qiyshayib qolibdi; *loc* **faire pencher la balance** tarozining pallasini oʻz tomoniga ogʻdirmoq; **pencher vers**, **pour** maʼqul koʻrmoq, tarafdori boʻlmoq, moyilligi boʻlmoq; **il penche pour la deuxième hypothèse** u ikkinchi gipoteza tarafdori; **II.** *vt* egmoq, engashtirmoq, ogʻdirmoq, qiyshaytirmoq; **pencher une carafe pour verser de l'eau** suvdan quyib olish uchun grafinni qiyshaytirmoq; **pencher la tête** boshini egmoq; **la tour penchée de pise** pizaning ogʻma minorasi; **une écriture penchée** bir tomonga qiyshaytirib yozilgan yozuv; *iron* **avoir, prendre des airs penchés** oʻyga, xayolga botgan koʻrinmoq; **III. se pencher** *vpr* **1.** egilmoq; **défense de se pencher par la portière** eshikdan egilish, bosh chiqarish taqiqlanadi; **2.** *fig* **se pencher sur** biror kimsa, biror narsa bilan shugʻullanmoq, bir kimsaga, biror narsaga qiziqmoq; **se pencher sur un problème** bir masalaga qiziqib qolmoq.

**pendable** *adj loc* **c'est un cas pendable** bu dorga ossa boʻladigan, dorga tortishga arziydigan ish; **jouer un tour pendable à qqn** birovga qabih ish qilmoq.

**pendaison** *nf* **1.** dorga osish, dorga tortish; **le supplice de la pendaison** dorga osib oʻldirish jazosi; **être condamné à la pendaison** osib oʻldirishga hukm etilgan boʻlmoq; **2.** oʻzini-oʻzi osib oʻldirish; **3. pendaison de crémaillère** hovli toʻyi oʻtkazmoq.

**pendant[1], ante** *adj* **1.** osilgan, osilib turgan; **les bras pendants** pastga osilgan qoʻllar; **les chiens haletaient, (la) langue pendante** tili osilgan, itlar harsillashar edi; **2. affaire, question pendante** yechimini kutayotgan (*havoda qolgan*) ishlar, masalalar.

**pendant[2]** *nm* zirak, boldoq, sirgʻa, isirgʻa; **cette estampe est le pendant de l'autre** bu estamp boshqasining jufti; **faire pendant à, se faire pendant** simmetrik boʻlmoq; **les deux tours du château se font pendant** qasrning ikki minorasi simmetrik joylashgan.

**pendant[3]** *prép* **1.** paytida, davrida, davomida; **il a été malade pendant le voyage** sayohat paytida u kasal edi; **il est arrivé pendant la nuit** u kechqurun keldi; **2.** davomida, mobaynida; **j'ai attendu (pendant) deux heures** men ikki soat kutdim; **il s'est tu (pendant) un long moment** u uzoq vaqt jim qoldi; **elle a dansé (pendant) toute la soirée** u butun kecha raqsga tushdi; **pendant ce temps** shu paytda; **avant, pendant et après la guerre** urushdan oldin, urush paytida, urushdan keyin; **amusons-nous pendant que nous sommes jeunes** yoshlik paytimizda xursandchilik qilib qolaylik; **pendant que j'y pense, je dois vous dire** men bu haqda oʻylayotgan ekanman, men sizga aytishim kerak; *iron* **c'est ça, pendant que vous y êtes, prenez aussi mon portefeuille** shunday, modomiki siz shu darajaga yetibsiz, mening hamyonimni ham oling.

**pendard, arde** *n vx* yaramas, ablah, dor tagidan qochgan.

**pendeloque** *nf* **1.** zirakning shokilasi; **2.** lustraning shokilasi, osilchogʻi; **des pendeloques de cristal** xrustal osilchogʻlar.

**pendentif** *nm* kulon (*boʻyinga taqiladigan zanjirli asl tosh, ziynat buyumi*).

**penderie** *nf* garderob, kiyim shkafi.

**pendiller** *vi* lapanglab, chayqalib, silkinib osilib turmoq; **le linge pendillait sur une corde** yuvilgan kiyim-kechaklar arqonda silkinib, lapanglab turar edi.

**pendouiller** *vi fam* shalvirab, halpillab osilib turmoq.

**pendre I.** *vi* **1.** osilib turmoq, ilinib turmoq; **des jambons pendaient au plafond de la ferme** dudlangan choʻchqa goʻshtlari fermaning shiftida osigʻliq turar edi; **laisser pendre ses bras, ses jambes** qoʻllarini, oyoqlarini osiltirmoq; **2.** osilib tushmoq, solinmoq, solinib turmoq; **3.** *fam* **ça lui pend au nez** u oʻzini jar yoqasiga olib borib qoʻydi; **II.** *vt* **1.** osmoq, ilmoq, osib, ilib qoʻymoq; **du linge pendu aux fenêtres** derazaga osib qoʻyilgan kirlar; **être pendu, ue** osilib, yopishib olgan boʻlmoq; **il est tout le temps pendu au téléphone** u har doim telefonga yopishib olgan; **2.** osmoq, osib oʻldirmoq; **dire pis que pendre** oʻldirgandan battar haqorat qilmoq; *fam* **qu'il aille se faire pendre ailleurs** kuchala yegan joyiga borib tirishsin; **je veux être pendu si** oʻlay agar; *loc* **avoir la langue bien pendue** gapdon, mahmadona boʻlmoq; **III. se pendre** *vpr* **1.** osilib turmoq; **se pendre par les mains à une barre fixe** mustahkam qoyaga qoʻli bilan osilib turmoq; **2.** oʻzini osmoq, oʻzini osib oʻldirmoq; **il s'est pendu par désespoir** u umidsizlikdan oʻzini osib qoʻydi.

**pendu, ue** *n* osilgan, oʻzini osib oʻldirgan odam; *loc* **parler de corde dans la maison d'un pendu** oʻrinsiz gap qilmoq.

**pendulaire** *adj* mayatnikday tebranuvchi; **mouvement pendulaire** tebranuvchi harakat.

**pendule[1]** *nm* mayatnik, tebrangich; kapgir; **oscillations, fréquence, période d'un pendule** mayatnikning tebranishi, chastotasi, tebranish vaqti; **le pendule d'une horloge** soatning kapgiri; **2. pendule de sourcier** yer osti suvlarini qidiruvchisining tayoqchasi.

**pendule[2]** *nf* soat (*devoriy, stol*); **la pendule sonne midi** devor soati tushki oʻn ikkiga bong urdi; **pendule-réveil** budilnik; **pendule électrique** elektr soati.

**pendulette** *nf* kichik stol soati.

**pêne** *nm* qulfning tili; **le pêne est coincé** qulfning tili qisilib qoldi.

**pénéplaine** *nf géog* kichik baland-pastligi boʻlgan tekislik.

**pénétrable** *adj* **1.** oʻtkazuvchan, oʻtkazadigan, oʻzidan oʻtkazib yuboradigan; **2.** anglab (*fahmlab, payqab*) boʻladigan; tushunish mumkin boʻlgan; **secret difficilement pénétrable** qiyinchilik bilan anglab boʻladigan sir.

**pénétrant, ante** *adj* **1.** oʻtib ketadigan (*ust-boshdan*); **une petite pluie pénétrante et fine** mayda, ust-boshdan oʻtib ketadigan, sevalab yogʻayotgan yomgʻir; **2.** oʻtkir, dimogʻni yoradigan; **une odeur pénétrante** oʻtkir (*dimogʻni yoradigan*) hid; **des regards pénétrants** oʻtkir, teshib yuborguday qarashlar; **3.** oʻtkir, ziyrak, sezgir; **un esprit très pénétrant** juda ham ziyrak aql.

**pénétration** *nf* **1.** teshish, teshib kirish, teshib oʻtish; **la force de pénétration d'un projectile** snaryadning teshib oʻtish kuchi; **favoriser la pénétration d'idées nouvelles** yangi gʻoyalarning kirib kelishiga qulaylik tugʻdirmoq; **2.** oʻtkirlik, ziyraklik, sezgirlik; farosat, zakovat; **un esprit doué de beaucoup de pénétration** koʻp oʻtkirlik baxsh etilgan aql.

**pénétré, ée** *adj* chinakam berilgan, qatʼiy ishongan, astoydil ishongan; **être pénétré de son importance, de soi-même** oʻzligiga, oʻzining kattaligiga qatʼiy ishongan boʻlmoq (*oʻziga bino qoʻygan boʻlmoq*); *iron* **un air, un ton pénétré** qatʼiy koʻrinish, ohang.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pénétrer I.** *vi* **1.** kirmoq, ichiga chuqur kirmoq, kirib, oʻtib ketmoq, teshmoq (*narsa*); **la balle a pénétré dans les chairs** oʻq goʻshtga chuqur kirib qoldi; **le soleil pénètre dans la chambre** quyosh xonaga kiryapti; **faire pénétrer qqch dans** biror narsani, biror narsaning ichiga kiritmoq, suqmoq; **2.** kirmoq, ichiga, ichkarisiga, ichkari kirmoq (*jonli narsa*); **pénétrer dans une maison** uyga, uyning ichiga kirmoq; **les envahisseurs qui pénètrent dans un pays** biror davlatga bostirib kirgan bosqinchilar; **II.** *vt* **1.** oʻtmoq, ich-ichiga oʻtib ketmoq, ichiga kirmoq, singmoq, yorib oʻtmoq (*narsa*); **le froid vous pénétre jusqu'aux os** sovuq sizning suyak-suyagingizdan oʻtib ketyapti; **2.** tushunmoq, anglamoq, tushunib yetmoq; fahmlamoq, payqamoq; **pénétrer un mystère** sirni anglab yetmoq; **pénétrer les intention de qqn** biror kishining niyatini fahmlamoq; **connaissances ésotériques impossibles à pénétrer** yashirin, tushunib yetib boʻlmaydigan bilimlar; **III. se pénétrer** *vpr* tushunib yetmoq, anglamoq, chuqur anglab yetmoq; **il n'arrive pas à se pénétrer de l'utilité de ce travail** u bu ishning foydaliligini chuqur anglab yetmayapti.

**pénible** *adj* **1.** qiyin, ogʻir, mushkul; **travail pénible** ogʻir ish; **respiration pénible** ogʻir nafas olish; **2.** ogʻir, mushkul, haddan ortiq, koʻngilsiz, noxush, ayanchli; **vivre des moments pénibles** ogʻir paytlarni boshidan kechirmoq; **être pénible à qqn** biror kishiga ogʻir boʻlmoq; **il m'est pénible de vous voir dans cet état** sizni shu holda koʻrish mening uchun ogʻir; **c'est pénible pour moi** bu mening uchun ogʻir; **3.** *fam* chidab, toqat qilib boʻlmaydigan, juda ogʻir, juda yomon (*odam*); **il a un caractère pénible, il est pénible** uning feʼli juda ogʻir.

**péniblement** *adv* **1.** qiyinchilik bilan, qiynalib, ogʻir, zoʻrgʻa; **il y est arrivé péniblement** u u yerga qiyinchilik bilan keldi; **2.** azob-uqubat bilan; **il en a été péniblement affecté** u unga azob-uqudat bilan hisobga turgan edi; **3.** zoʻrgʻa, bazoʻr, bor-yoʻgʻi; **un journal qui tire péniblement à trente-cinq mille exemplaires** bor-yoʻgʻi oʻttiz besh ming nusxada bosilib chiqadigan gazeta.

**péniche** *nf* barja, shalanda; **train de péniches remorquées, poussées** sudrab, itarib ketilayotgan barjalar tizimi.

**pénicilline** *nf* penitsillin.

**péninsulaire** *adj* yarim orolga oid; yarim orollik, yarim orol.

**péninsule** *nf* yarim orol; **la Péninsule ibérique** Pireneya yarim oroli.

**pénis** *nm inv* olot, erkak kishining jinsiy aʼzosi.

**pénitence** *nf* **1.** tavba, gunohlariga tavba qilish, istigʻfor keltirish, qilmishiga pushaymon qilish, pushaymon, oʻkinish; **faire pénitence** tavba qilmoq; **2.** kaforat (*gunohkorlarga cherkov tomonidan beriladigan jazo: uzoq toat-ibodat qildirish, roʻza tuttirish kabilar*); *loc* **par pénitence** oʻzini jazolash uchun; **mettre un enfant en pénitence** bolani jazolamoq.

**pénitencier** *nm* qamoqxona, axloq tuzatish qamoqxonasi; **le pénitencier de l'île de Ré** Re orolidagi axloq tuzatish qamoqxonasi.

**pénitent, ente** *n* **1.** tavba-tazarru qiluvchi gunohkor; **2.** ixtiyoriy tavba-tazarru qiluvchi diniy birodarlik aʼzosi.

**pénitentiaire** *adj* qamoqqa, axloq tuzatishga oid; **établissement pénitentiaire** axloq tuzatish muassasasi; **colonie pénitentiaire** axloq tuzatish koloniyasi.

**penne** *nf* qushlarning qanot va dumining katta patlari.

**penny** *pl* **pence** *nm* penni, pens.

**pénombre** *nf* yarim soya, xira soya; gʻira-shira payt, tong yorishgan yoki qosh qoraygan payt; **apercevoir une forme dans la pénombre** gʻira-shirada bir qiyofani koʻrib qolmoq.

**pensable** *adj* ishonsa, oʻylasa boʻladigan; (*aql*) bovar qiladigan; **ce n'est pas pensable, c'est à peine pensable** bunga aql bovar qilmaydi, bunga bazoʻr aql bovar qiladi.

**pensant, ante** *adj* **1.** oʻylaydigan, aqlli, fikr, tafakkur qiladigan, mulohazali; **l'homme est un être pensant** odam aqlli mavjudod; **2.** *vx ou péj* **bien pensant** yaxshi, ezgu niyatli, niyati xolis, xiradmand; **mal pensant** buzgʻunchi, qoʻporuvchi, gʻalamis, niyati buzuq; **les gens riches et bien pensants** boy va yaxshi niyatli odamlar.

**pense-bête** *nm* qayd, belgi, oʻzi uchun yozma dasturcha, yozma xotiracha; *pl* **des pense-bêtes**.

**pensée**[1] *nf* **1.** fikr, oʻy, xayol; **laisse-moi deviner ta pensée** sen menga oʻyingni topishni qoʻyib ber; **ses mots ont dépassé sa pensée** uning soʻzlari oʻyidan oshib tushdi; **la pensée de qqn, qqch** biror kimsa, biror narsaning xayoli, fikri, oʻyi; **il s'effraie à la seule pensée de prendre l'avion** yolgʻizgina samolyotga chiqish kerak degan xayoldan u qoʻrqadi; **la pensée que** degan xayol, oʻy; **2.** fikr, aql, idrok; **la pensée abstraite** abstrakt fikr; **l'expression de la pensée par le langage** fikrning nutq orqali ifodalanishi; **3.** birovning fikri, falsafasi, nazariyasi, dunyo qarashi, gʻoyasi; **je partage votre pensée là-dessus** men sizning yuqoridagi fikringizga qoʻshilaman; *loc* **aller jusqu'au bout de sa pensée** oʻz fikrini, fikr-mulohazalarini oxirigacha toʻkib solmoq; **4. en pensée** xayolan, tasavvurida; **se transporter quelque part par la pensée** xayolan oʻzini biror joyda koʻrmoq; **5.** xayol, oʻy, fikr (*xayol qilish, oʻylash, fikrlash uslubi*); **pensée claire** toʻgʻri fikr; **6.** fikr, gʻoya; **la pensée marxiste** marksistik fikr, gʻoya; **7.** asosiy fikr, oʻy, xayol; gʻoya, maqsad, niyat, tilak; **j'ai découvert le fond de ses pensées** men uning fikrining asosini topdim; **une pensée profonde, originale, superficielle** chuqur, oʻziga xos, yuzaki, siyqasi chiqqan fikr; **recevez nos plus affectueuses pensées** bizning eng ezgu tilaklarimizni qabul qilgaysiz; **8.** *pl* fikr, xayol, aql; **mettre de l'ordre dans ses pensées** aqlini yigʻmoq; **perdre le fil de ses pensées** xayoli chuvalashib ketmoq; **lire dans les pensées de qqn** birovning xayolidagini oʻqimoq; **des pensées profondes** chuqur oʻylar; **il reste absorbé dans ses pensées** u oʻz xayollariga gʻarq boʻlib qoldi; **9.** hikmatli gap, soʻz, hikmat.

**pensée**[2] *nf* kapalakgul, farang binafsha; **pensées violettes, jaunes** safsar, sariq kapalakgullar; **pensées sauvages** yovvoyi kapalakgullar.

**penser**[1] **I.** *vi* **1.** oʻylamoq, fikr yuritmoq, mulohaza qilmoq; **tu ne peux donc pas penser par toi-même?** bunga axir oʻzingning aqling yetmaydimi? **la faculté de penser** fikr, oʻy; **penser sur un sujet** biror mavzu haqida fikr yuritmoq; **penser juste** toʻgʻri fikr yuritmoq; **la façon de penser de qqn** birovning fikri; *loc* **je vais lui dire ma façon de penser** men uning haqida qanday fikrda ekanligimni oʻziga aytaman; **une chose qui donne, qui laisse à penser** oʻylantiradigan, oʻylashga majbur qiladigan narsa; **2.** fikrga ega boʻlmoq, fikrlamoq, oʻylamoq; **tu penses ou tu rêves?** sen oʻylayapsanmi yoki xayol suryapsanmi? **penser tout haut** fikrini, kallasida borini aytmoq; **les animaux pensent-ils?** hayvonlar fikrlaydimi, oʻylaydimi? **3. (à)** haqida oʻylamoq, oʻylab koʻrmoq, fikr yuritmoq; oʻz fikrini, eʼtiborini qaratmoq; **pensez à ce que vous dites** aytayotgan narsangizni oʻylab koʻring; **n'y pensons plus** bu haqda boshqa oʻylamaylik, shuni unutaylik; **faire une chose sans y penser** biror narsani oʻylamasdan, bexosdan qilib qoʻymoq; **4.** oʻylamoq, eslamoq, xotirlamoq; **il s'efforçait de ne plus penser à elle** u u haqida butunlay oʻylamaslikka harakat qilar edi; **faire penser à** xotirasiga solmoq, keltirmoq; xotirasida namoyon qilmoq, esiga solmoq; **5.** oʻylamoq, gʻamini yemoq, tashvishini qilmoq; **penser aux autres** boshqalar haqida oʻylamoq; **il faut penser à l'avenir** kelajak haqida oʻylamoq kerak; **elle ne pense qu'à s'amuser** u faqat oʻynab-kulib qolishning tashvishini qiladi; **6.** oʻylamoq, oʻylab koʻrmoq, xotirlamoq, eslamoq, oʻylab qoʻymoq, xayolida boʻlmoq; **j'essaierai d'y penser** men buni eslashga harakat qilaman; **j'ai pensé à tout** men hamma narsani oʻylab qoʻydim; **je n'avais pas pensé à cela, je n'y avais pas pensé** men bu haqda oʻylamagan ekanman; **sans penser à mal** begʻaraz, beixtiyor, oʻylamasdan, yomonlikni koʻngliga keltirmay; **II.** *vt* **1.** oʻylamoq, fikrda boʻlmoq, hisoblamoq; **penser du bien, du mal, beaucoup de bien, de mal de qqn, de qqch** biror kishi, narsa haqida yaxshi, yomon, juda yaxshi, juda yomon fikrda boʻlmoq; **penser qqch de, à propos de, sur qqch** biror narsani oʻylamoq, biror narsa haqida, yuzasidan oʻylamoq; **qu'en pensez-vous?** bu haqda siz qanday fikrdasiz? *loc* **il ne dit rien mais il n'en pense pas moins** u hech narsa demayapti, lekin u bilgan narsasini aytmayapti; **2.** oʻylamoq, deb oʻylamoq, hisoblamoq, ishonmoq, faraz qilmoq; **jamais je n'aurais pu penser cela!** hech qachon men buni xayolimga ham keltirolmagan boʻlardim! **il n'est pas si désintéressé qu'on le pense** u odamlar oʻylaganchalik xolis emas; *intj* **tu penses!** albatta, turgan gap, shubhasiz, tabiiy! **penses-tu! pensez-vous!** yoʻgʻ-e, unday emas, qoʻysang-chi, qoʻysangizchi! **penser que** deb oʻylamoq, degan fikrda boʻlmoq, deb ishonmoq; **vous pensez bien que je n'aurais jamais accepté!** albatta siz meni hech qachon rozi boʻlmaydi deb oʻylayapsiz! **je pense qu'il peut; je ne pense pas qu'il puisse** men oʻylaymanki, u qiloladi;



www.ziyouz.com kutubxonasi

men uni qiloladi deb o'ylamayman; **nous pensons avoir résolu ces problèmes** biz bu masalalarni hal qildik deb hisoblaymiz; **3.** o'ylamoq, degan fikrga ega bo'lmoq; **dire ce que l'on pense** o'z fikrini aytmoq; *euphém* **il lui a flanqué un coup de pied où je pense, où vous pensez** u uning men o'ylagan, siz o'ylagan joyiga (*o'sha joyiga*) boplab tepti (*orqasiga*); **penser que** o'ylab ko'rmoq, tasavvur qilmoq; **pensez qu'elle n'a que seize ans!** tasavvur qilinga, u endigina o'n oltiga kirdi! **4.** o'ylamoq, niyat qilmoq, qilmoqchi bo'lmoq; **que pensez-vous faire à présent?** hozir nima qilmoqchisiz? **je pense m'en aller, renoncer, recommencer** men ketmoqchiman, voz kechmoqchiman, qaytadan boshlamoqchiman; **5.** *litt* o'ylab ko'rmoq, tasavvur qilib ko'rmoq; **penser l'histoire, penser un problème** hodisani, masalani tasavvur qilib ko'rmoq; **l'affaire est bien pensée** ish yaxshilab o'ylab ko'rilgan.

**penser[2]** *nm litt* xayol, fikr, o'y; **des pensers chagrins le minaient** qayg'uli xayollar uni yemirardi.

**penseur, euse** *nm* **1.** o'ylovchi, fikrlovchi, mutafakkir; **les penseurs du XVIIIe siècle** XVIII asr mutafakkirlari; **mme de Staêl est un penseur important** madam Stael ulkan mutafakkir; **2. libre penseur** hur (erkin) fikrlovchi, hur (erkin) fikrli odam.

**pensif, ive** *adj* o'ychan, xayolchan, o'y-xayolga botgan, o'yga tolgan; **un homme pensif** o'ychan odam; **elle était un peu pensive** u bir oz o'ychan edi; **un air pensif** o'ychan ko'rinish.

**pension[1]** *nf* nafaqa, xayriya, pensiya; **verser, recevoir une pension alimentaire** aliment to'lamoq, olmoq; **avoir droit à une pension** pensiya olish huquqiga ega bo'lmoq.

**pension[2]** *nf* **1.** pansion (*biron kishinikida yotoq joy, oziq-ovqat bilan ta'minlanish*); **prendre pension dans un hôtel** biron mehmonxonada to'la pansionda yashamoq; **en pension** pansionda, pansionga; **prendre qqn chez soi en pension** biron kishini o'zinikiga pansionga olmoq; **mettre un enfant en pension dans un collège** bolani kollejga pansionga joylamoq; **payer la pension** pansion haqini to'lamoq; **2.** pansion (*o'quvchilarni yotoqxona, oziq-ovqat, kiyim-bosh bilan ta'minlaydigan o'rta o'quv yurti, shu o'quv yurtining o'quvchilari*); **une pension de jeunes filles** qizlar pansioni (*internati*); **toute la pension était en promenade** butun pansion sayrda edi; **3. pension de famille** oilaviy pansion.

**pensionnaire** *n* **1.** pansioner, xususiy yoki mehmonxona evaziga yashovchi shaxs; **2.** pansioner; internat o'quvchisi, tarbiyalanuvchisi; **les pensionnaires, les demi-pensionnaires et les externes** pansionerlar, yarim pansionerlar, va eksternlar.

**pensionnat** *nm* **1.** pansion, internat; **le dortoir d'un pensionnat** pansion yotoqxonasi; **2.** shu o'quv yurtining o'quvchilari.

**pensionné, ée** *n, adj* pensiya, nafaqa, aliment oluvchi; nafaqaxo'r.

**pensionner** *vt* nafaqa, pensiya tayinlamoq, bermoq; **pensionner un invalide** nogironga nafaqa tayinlamoq.

**pensivement** *adv* o'ylanib, xayolga cho'mib, xayol surib, xayolchan.

**pensum** *nm* **1.** o'quvchini jazolash uchun berilgan qo'shimcha vazifa; **des pensums ennuyeux** zerikarli qo'shimcha dars; **2.** zerikarli, jonga tegadigan, diqqatni oshiradigan, xit qiladigan ish; **quel pensum!** bunchalik jonga tegadigan ish!

**pentagone** *nm* beshburchak, beshqirra.

**pentathlon** *nm sport* beshkurash; **pentathlon antique et moderne** qadimiy va zamonaviy beshkurash; **pentathlon féminin** ayollar beshkurashi.

**pentathlonien, ienne** *n* beshkurashchi.

**pente** *nf* **1.** bir tomoni baland, bir tomoni past joylashish; qiyalik; **pente douce, raide, rapide d'un chemin, d'un terrain** sekin-asta pastlab boradigan, tik qiyalik, yo'lning, joyning qiyaligi; **une pente de quinze pour cent** o'n besh gradusli qiyalik; **2.** qiya, qiyalik, nishab, o'r; **suivre la pente du terrain** yerning qiyaligi bo'ylab ketmoq; *loc fig* **suivre sa pente** o'z mayliga qarab ish qilmoq; **3. en pente** gorizontal bo'lmagan, qiya, nishab; qiya yer; **chemin en pente douce, raide** sekin-asta pastlab bordigan, tik qiya yo'l; **4.** qiya, qiyalik, qiya yuza, yon bag'ir, nishab; **descendre, monter une pente** qiyalikdan tushmoq, qiyalikdan ko'tarilmoq; **en haut, en bas de la pente** qiyaning tepasida, pastida; **la pente d'une colline** tepalikning yon bag'ri; **la pente d'un toit** tomning nishabi; **5.** mayl, havas, ishtiyoq; **être sur une mauvaise pente** yomon odati bo'lmoq; **remonter la pente** yomon odatini tashlamoq.

**pentecôte** *nf* **1.** yahudiylarda hayitning ikkinchi kunidan keyin yetti hafta o'tkazib qilinadigan bayram; **2.** nasroniylarning troitsa kuni (*bayrami*).

**penthotal** *nm farm.* tiotsental.

**pentu, ue** *adj* nishab, juda qiya; **des toits pentus** nishab tomlar.

**penture** *nf* oshiq-moshiq; **les pentures en équerre d'une fenêtre** derazaning to'g'ri burchakli oshiq-moshig'i.

**pénultième I.** *adj* oxirgidan oldingisi; **II.** *nf* oxirgidan oldingi bo'g'in.

**pénurie** *nf* yetishmovchilik, zaruriy narsaning yetishmasligi; **pénurie de blé** g'allaning yetishmasligi; **pénurie de main-d'œuvre** ishchi kuchining yetishmasligi.

**péon** *nm* batrak (*Janubiy Amerikada*).

**pépé** *nm* **1.** *fam enf* bobo; **le pépé et la mémé** bobo va momo; **2.** *fam* boboy; **un vieux pépé** qari boboy.

**pépée** *nf fam* jonon, nozanin (*ayol, qiz*); **une jolie pépée** bir go'zal jonon.

**pépère I.** *nm* **1.** bobo; **"bonjour, pépère!"** "assalomu alaykum, bobo!" boboy, chol; **2.** semiz, tepsa tebranmas odam, bola; **un gros pépère** semiz, tepsa tebranmas odam; **II.** *adj* sokin, osoyishta, tinch; **un petit coin pépère** tinchgina bir go'sha; **vous serez pépère ici** siz bu yerda maza qilasiz.

**pépètes** *nf pl fam* mullajiring, pul, aqcha; **j'ai plus de pépètes** mening boshqa aqcham qolmadi.

**pépie** *nf fam* **avoir la pépie** tomog'i qaqrab ketmoq (*suvsizlikdan*).

**pépiement** *nm* chug'ur-chug'ur qilish, chug'urlash, chirqillash, chiychiylash; **les pépiements des moineaux, des poussins** chumchuqlarning chirqillashi, jo'jalarning chiychiylashi.

**pépier** *vi* (*yosh qushchalar*) chug'urlamoq, chirqillamoq, chiychiylamoq.

**pépin[1]** *nm* urug', danak; **fruits à pépins** danakli mevalar; **enlever les pépins d'un fruit** mevaning urug'larini ajratmoq.

**pépin[2]** *nm fam* ko'ngilsizlik, noxushlik, ko'ngilsiz voqea; **pourvu qu'il n'ait pas de pépin!** faqatgina unga noxushlik bo'lmasa edi!

**pépin[3]** *nm fam* zontik; **ouvre ton pépin, il pleut** zontigingni och, yomg'ir yog'yapti.

**pépinière** *nf* **1.** ko'chatxona, niholxona; **2.** ulug' odamlar yetishib chiqqan joy, ulug' odamlar vatani; **ce pays est une pépinière de savants** bu yurt ulug' olimlar yetishib chiqqan joydir.

**pépiniériste** *n, adj* ko'chat, nihol yetishtiruvchi.

**pépite** *nf* sof holda topilgan oltin; **les orpailleurs, les chercheurs d'or ont trouvé des pépites dans ce ruisseau** oltin qidiruvchilar bu jilg'adan sof oltinlar topishdi.

**péplum** *nm* **1.** qadimda ayollar yelkasiga tashlab yuradigan yengsiz kiyim; **2.** qadim klassikasiga bag'ishlangan katta ko'rinishli film.

**pepsine** *nf physiol* pepsin (*ovqatdagi oqsillarni eritadigan va hazm qilishga yordam beradigan me'da suvining fermenti*).

**péquenaud, aude** *n ou* **péquenot** *nm fam péj* dehqon, qishloqi, kolxoz.

**péquin** *nm arg mil voir* **pékin**.

**percale** *nf* perkal (*texnikada ishlatiladigan batistsimon gazlama*).

**perçant, ante** *adj* **1.** o'tkir ko'zli; ko'zi o'tkir; o'tkir; **vue perçante; regard perçant** o'tkir qarash; **des yeux perçants** o'tkir ko'z; **2.** o'tkir, chinqiroq, qattiq (*ovoz*); **pousser des cris perçants** chinqirmoq; **voix perçante** chinqiroq ovoz.

**percée** *nf* **1.** yo'l, o'tish joyi, ochiqlik; **ouvrir une percée dans une forêt** o'rmondan yo'l ochmoq; **2.** yorib o'tish; **tenter une percée** yorib o'tishga harakat qilmoq; **3.** hayratli rivojlanish, yuksalish; **une percée technologique** hayratli texnologik yuksalish.

**percement** *nm* teshish, kovlash; **le percement d'un tunnel** tunnel kovlash.

**perce-neige** *nm ou f inv* boychechak.

**perce-oreille** *nm* uxovyortka (*to'g'ri qanotli hasharot*).

**percepteur** *nm* soliq yig'uvchi, iqtisodiy nazoratchi; **recevoir un avertissement de son percepteur** o'z soliq yig'uvchisidan ogohlantirish olmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**perception[1]** *nf* zehn, idrok, idrok qilish; **perception visuelle, auditive, tactile, olfactive** ko‘rib, eshitib, sezish organi orqali, hidlash orqali idrok qilish; **troubles de la perception** idrokning buzilishi; **troubles dans la perception des couleurs** ranglarni ajratishning buzilishi; **verbes de perception** idrok qilish fe’llari.

**perception[2]** *nf* **1.** soliq olish, soliq solish, soliq; **2.** soliqchi lavozimi, idorasi.

**percer I.** *vt* **1.** teshmoq; **percer un mur** devorni teshmoq; **un clou a percé le pneu** mix shinani teshdi; **souliers percés** teshik tuflilar; **elle s’est fait percer les oreilles pour porter des boucles** u sirg‘a taqish uchun qulog‘ini teshdirdi; **percer un abcès** yarani teshmoq, yormoq; **2.** sanchmoq, sanchib olmoq; tiqib, botirib olmoq; sanchib yaralamoq, o‘ldirmoq; **percer qqn de coups** kaltaklamoq, do‘pposlamoq, yaralamoq; **cœur percé d’une flèche** kamon o‘qi sanchilgan yurak (*sevgi timsoli*); *loc* **percer le cœur de qqn** birovning yuragini ezmoq, qon qilmoq; g‘am-tashvishga solmoq, azobga qo‘ymoq, qiynamoq; **3.** ochmoq (*yo‘l va sh; k*), teshmoq; **percer un coffre-fort** seyfni teshmoq; **4.** teshib, yorib o‘tmoq; **le soleil perçait les nuages** quyosh bulutlarni yorib o‘tardi; **5.** (*ega odam*) yorib, buzib o‘tmoq; **6.** *litt* bilib, payqab olmoq, fahmlab olmoq; **percer un complot** fitnani bilib qolmoq; *loc* **percer qqn, qqch à jour** biror kimsaning, biror narsaning sirini fosh qilmoq, kirdikorini, sir-asrorini ochib tashlamoq; **7.** ochmoq, solmoq; **percer un trou** teshik ochmoq; **percer une avenue** yo‘l ochmoq; **II.** *vi* **1.** chiqmoq, yorilmoq, teshilmoq; **les premières dents de bébé ont percé** chaqaloqning birinchi tishlari (yorib) chiqdi; **abcès qui perce** yorilgan yara; *odam.* **les ennemis n’ont pas pu percer** dushmanlar yorib o‘tolmadilar; **3.** mashhurlikka erishmoq; **un jeune chanteur qui commence à percer** mashhurlikka erisha boshlagan yosh ashulachi.

**perceur, euse** *n* burg‘ilovchi ishchi; **perceur de coffre-fort** seyfni burg‘ilovchi, ochuvchi.

**perceuse** *nf* burg‘i, parma.

**percevoir[1]** *vt* **1.** tushunmoq, tushunib yetmoq, fahmlamoq, fahmiga yetmoq, farqiga yetmoq, his qilmoq; **percevoir une intention, une nuance** niyatni, nozik tomonni tushunmoq, fahmlamoq; **2.** his qilmoq, sezmoq, farqlamoq; **il percevait les battements de son cœur** u o‘z yuragining urishini his qilar edi; **les daltoniens ne perçoivent pas certaines couleurs** daltoniklar ayrim ranglarni farqlay olmaydilar.

**percevoir[2]** *vt* **1.** qabul qilmoq, olmoq (*pulni*); *fam* cho‘ntakka urmoq, o‘ziniki qilib olmoq; **percevoir un loyer** ijara haqini olmoq; **2.** olmoq, yig‘moq, undirmoq (*soliq va boshqalar*); **droits perçus** soliq undirish huquqi.

**perche[1]** *nf* okun, olabug‘a (*baliq*).

**perche[2]** *nf* **1.** tayoq, xodacha, langarcho‘p; **perche utilisée pour propulser une barque** qayiqni ilgarilatishda foydalaniladigan langarcho‘p; **saut à la perche** langarcho‘p bilan sakrash; **2.** *loc* **tendre la perche à qqn** birovga yordam qo‘lini cho‘zmoq; **3.** *fam* novcha, daroz odam, davangir, naynov, daroz, mirzaterak; **quelle grande perche!** qanday daroz naynov ekan!

**percher I.** *vi* **1.** o‘tirmoq, qo‘nib turmoq (*qushlar*); **2.** *fam* yashamoq, o‘tirmoq, qo‘noq qilmoq, qo‘nog‘i bo‘lmoq; **où est-ce que tu perches?** sening qo‘nog‘ing qayerda? **3.** joylashgan, o‘rnashgan bo‘lmoq (*narsa*); **II.** *vt fam* qo‘ndirmoq, qo‘ndirib qo‘ymoq (*baland joyga*); **quelle idée d’avoir perché ce vase sur l’armoire** nega bu vazani shkafning tepasiga qo‘ndirib qo‘yishdi! **III. se percher** *vpr* baland joyga chiqib o‘tirmoq; **les pigeons perchés sur le balcon** balkonda o‘tirgan kabutarlar.

**percheron** *nm* persheron oti (*og‘ir yuk tortish uchun mo‘ljallangan ot nasli*).

**percheur, euse** *adj* **oiseau percheur** daraxtlarda yashovchi qush.

**perchoir** *nm* **1.** qo‘noq, qo‘ndoq (*mas; tovuqxonada*); **perchoir de perroquet** to‘tiqushning qo‘ndog‘i; **2.** *fam* qo‘ndoq; **descends de ton perchoir!** qo‘ndog‘ingdan tush!

**perclus, use** *adj* shol, falaj; **elle est toute percluse de rhumatismes** u revmatizmdan butunlay falaj bo‘lib qoldi; **être perclus de douleurs** og‘riqdan falaj bo‘lib qolmoq; *litt* faoliyatsiz, faoliyatdan qolgan; **un vieillard perclus** faoliyatdan qolgan qariya.

**percolateur** *nm* qahva qaynatgich; **installer un percolateur dans un bar** barga qahva qaynatgich o‘rnatmoq.

**percussion** *nf* urish, turtish, zarba; **instrument à percussion** *ou* **de percussion** zarbli musiqa asbobi (*nog‘ora, childirma kabi*).

**percussionniste** *n* zarbli musiqa asbobi cholg‘uvchisi.

**percutant, ante** *adj* **1.** uriladigan, zarbli; **un obus percutant** urilishdan portlaydigan snaryad; **2.** *fig* hayratda qoldiradigan; **un article percutant** hayratda qoldiradigan maqola; **une formule percutante** hayratda qoldiradigan ifoda.

**percuter I.** *vt* urmoq, turtmoq; **la voiture a percuté un arbre** avtomobil daraxtga borib urildi; **II.** *vi* **1.** urilib yorilmoq; **obus qui vient percuter contre le sol** snaryad hozirgina yerga urilib yorildi; **2.** zarb bilan urilmoq; **la voiture est allée percuter contre un camion** avtomobil yuk mashinasiga zarb bilan urildi.

**percuteur** *nm* udarnik, boyok, chertmak.

**perdant, ante I.** *n* yutqazuvchi; **match nul, où il n’y a ni perdant ni gagnant** durang o‘yin, bu yerda na yutqazuvchi na yutuvchi bor; **vous serez perdant** siz yutqazuvchi bo‘lasiz; **II.** *adj* yutuq chiqmaydigan, yutmaydigan, yutuqsiz, yutqazuvchi; **les numéros perdants** yutuqsiz nomerlar.

**perdition** *nf* halokat, zavol, o‘lim, gunohi azim; *iron* **lieu de perdition** insonni gunohi azimga botiradigan, halok qiladigan joy; **navire en perdition** halokatga uchragan kema.

**perdre I.** *vt* **1.** yo‘qotmoq, mahrum bo‘lmoq, ayrilmoq, boy bermoq, qo‘ldan ketkizmoq; **il perd, il a perdu tout son argent au jeu, dans une faillite** u o‘yinda, omadsizlikda bor pulini boy beryapti, boy berdi; **perdre son emploi** ish joyini yo‘qotmoq; *loc* **n’avoir plus rien a perdre** yo‘qotadigan hech vaqosi bo‘lmaslik; **vous ne perdez rien pour attendre** kutganingizga yetasiz; *fam* **tu ne le connais pas? tu n’y perds rien, tu ne perds rien** sen uni tanimaysanmi? ko‘p narsa yo‘qotmapsan, ko‘p narsa yo‘qotmapsan! **2.** yo‘qotmoq, ayrilmoq, judo bo‘lmoq; **elle avait perdu son père à douze ans** u otasidan o‘n ikki yoshida ayrilgan edi; **depuis qu’il boit, il a perdu tous ses amis** ichishni boshlagandan beri u hamma do‘stlaridan ayrildi; **3.** yo‘qotmoq (*bir qismini, sifatini*); **perdre ses cheveux** sochi to‘kilib ketmoq; **perdre du poids** ozmoq; **perdre ses forces** kuchdan qolmoq; **perdre la vie** hayotini yo‘qotmoq, o‘lmoq; **perdre la raison** aqldan ozmoq; **perdre la mémoire** xotirasini yo‘qotmoq; **perdre connaissance** hushidan ketmoq; **perdre courage** yuragi dov bermaslik; **perdre patience** sabri tugamoq, toqati toq bo‘lmoq; **ce procédé a perdu son intérêt** bu ish o‘z mohiyatini yo‘qotdi; **certains mots perdent leur sens** ayrim so‘zlar o‘z ma’nolarini yo‘qotadilar; **4.** yo‘qotib qo‘ymoq, adashtirib qo‘ymoq; **j’ai perdu mon stylo** men ruchkamni yo‘qotib qo‘ydim; **nous avons perdu notre guide** biz yo‘lboshlovchimizni adashtirib qo‘ydik; **5.** yo‘qotmoq, tushirib yubormoq; **le blessé perd beaucoup de sang** yarador ko‘p qon yo‘qotyapti; **6.** yo‘qotmoq, qochirmoq; **ne pas perdre une bouchée, une miette d’une conversation** suhbatdan biror og‘iz so‘zni ham, bir ushoqni ham yo‘qotmaslik; *loc* **perdre qqn, qqch de vue** biror kimsani, biror narsani ko‘zdan qochirmoq (*borib ko‘rmaslik, uchrashmaslik*); **nous nous sommes perdus de vue** biz bir-birimizni ko‘zdan qochirdik; **7.** yo‘qotmoq, boshqarolmay qolmoq, adashmoq; **perdre son chemin** yo‘ldan adashmoq; *loc* **perdre pied** nima qilarini bilmaslik, qiyin ahvolda qolmoq; **perdre le nord** o‘zini yo‘qotmoq, hayajonlanmoq, to‘lqinlanmoq; **8.** yo‘qotmoq, foydalanib qolmaslik, o‘tkazib yubormoq; **perdre du temps** vaqtni yo‘qotmoq; **perdre son temps** o‘z vaqtini bekorga o‘tkazmoq; **vous n’avez pas un instant à perdre** bir daqiqa ham yo‘qotmasligingiz kerak; **il a perdu une bonne occasion de se taire** u jim tursa yaxshiroq bo‘lar edi; **9.** yutqazmoq, boy bermoq, qo‘ldan chiqarmoq; **perdre l’avantage** ustunlikni boy bermoq; **perdre la partie** o‘yinni boy bermoq; **perdre une bataille** jangni yutqazmoq; **perdre un procès** u ishni yutqazdi (*sudda*); **il a perdu** u yengildi; **il a horreur de perdre** u yutqazadi (*u yaxshi o‘yinchi emas*); **perdre du terrain** orqada qolaboshlamoq, yutqazaboshlamoq, tashabusni boy bermoq; **cette maladie perd du terrain** bu kasallik chekinaboshladi; **10.** mahrum qilmoq; halok, nobud qilmoq, juvonmarg, xarob qilmoq; **il cherche à nous perdre** u bizni nobud qilmoqchi; **11.** tushirmoq (*obro‘sini*), zarar qilmoq (*obro‘siga*), mahrum qilmoq (*obro‘sidan, amalidan*), o‘z boshiga yetmoq; **son excès d’ambition le perdra** uning o‘ta shuhratparastliligi o‘z boshiga yetadi; **perdre qqn**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**auprès de qqn** biror kishini biror kishi oldida obro'sini to'kmoq; **c'est le témoignage de son complice qui l'a perdu** o'z sherigining guvohligi uning boshiga yetdi; **12.** buzmoq, yo'ldan ozdirmoq, yo'ldan chiqarmoq; uning yomon tanishlari uni yo'ldan chiqardi; *relig* yo'ldan ozdirmoq, yo'ldan chiqarmoq, gunohi azimga botirmoq; **13.** birovni to'g'ri yo'ldan chiqarmoq, adashtirmoq; **II. se perdre** *vpr* **1.** yo'q bo'lib ketmoq, yo'qolmoq; **les traditions se perdent** an'analar yo'q bo'lib ketyapti; **2.** yomon foydalanilmoq, keraksiz bo'lmoq, yo'qotmoq, boy bermoq; **laisser (se) perdre une occasion** qulay paytni boy bermoq; **3.** g'oyib bo'lmoq, yo'q bo'lmoq; **des silhouettes qui se perdent dans la nuit** tunda g'oyib bo'ladigan sharpalar; **4.** adashmoq, adashib qolmoq; chalg'imoq, tutilib qolmoq; **nous allons nous perdre** biz adashib qolamiz; **c'était la nuit et je me suis perdu** tun edi va men adashib qoldim; **plus je pense à ce problème, plus je m'y prends** men bu masalani qancha o'ylasam, shuncha adashib ketaman; **se perdre dans, en** botmoq, berilmoq, g'arq bo'lmoq; **se perdre dans ses pensées** o'z xayollariga g'arq bo'lmoq; **5.** *relig* yo'ldan ozmoq, gunohi azimga botmoq.

**perdreau** *nm* yosh kaklik; **un vol de perdreaux** yosh kakliklar galasi.

**perdrix** *nf inv* kaklik.

**perdu, ue** *adj* **1.** yo'qotilgan, boy berilgan, qo'ldan ketgan, barbod bo'lgan; **argent perdu au jeu** o'yinda boy berilgan pul; **tout est perdu** hammasi barbod bo'ldi, hammasi chippakka chiqdi; *provli loc* **un(e) de perdu(e), dix de retrouvé(e)s** bitta yo'qolganning o'rniga o'ntasi; **2.** yo'qolgan; **objets perdus** yo'qolgan narsalar; (*joy*) chetdagi, uzoqdagi, chet joydagi; **pays perdu** uzoq yurt; **un coin perdu** chet joy; **3.** daydi, qarovsiz; **il a été blessé par une balle perdue** u daydi o'qdan yaralandi; **4.** hayf, isrof bo'lgan, bekor ketgan, bo'lgan; **verre, emballage perdu** hayf bo'lgan, shisha, o'rash materiallari; **une occasion perdue** hayf ketgan qulay fursat; **ce n'est pas perdu pour tout le monde** hamma uchun ham bekor ketmadi; (*vaqtga nisbatan*) **c'est du temps perdu** bu hayf ketgan vaqt; **je joue du piano à mes moments perdus** men hordiq chiqarish vaqtlarimda pianino chalaman; **à temps perdu** bekor vaqt o'tkazish paytida; **5.** boy berilgan, yutqazilgan; **bataille, guerre perdue** boy berilgan jang, urush; **6.** mahkum etilgan, xarob bo'lgan; ilojsiz, najotsiz qolgan, mahkum; **le malade est perdu** kasal najotsiz; **7.** *fam* xarob bo'lgan, xarobi chiqqan, tugagan; **c'est un homme perdu** bu tugagan odam; *loc* **fille perdue** tugagan, fohisha qiz; **8.** xarobi chiqqan, payhon bo'lgan; **9.** adashgan; **se sentir perdu dans la foule** olomonning ichida adashib qolmoq; **je suis perdu, je ne m'y retrouve plus** men o'zimni yo'qotib qo'ydim, o'zimga kelolmayapman; **courir comme un perdu** jinniga o'xshab yugurmoq; **10.** botgan, g'arq bo'lgan, cho'mgan; **perdu dans ses pensées, dans sa douleur** o'z xayollariga, g'am-tashvishiga botgan.

**perdurer** *litt vi* davom etmoq, davom qilmoq; **la douleur perdure** og'riq davom etyapti.

**père** *nm* **1.** ota, dada, padar; **être, devenir père** ota bo'lmoq, bola ko'rmoq; **être (le) père de deux enfants** ikki bolaning otasi bo'lmoq; **le père et la mère** ota va ona; **du père** otasi, otaga taalluqli; *loc prov* **tel père, tel fils** o'g'il otasiga o'xshaydi, qiz onasiga; **oui, père!** xo'p, dada! **père adoptif** asrab olgan ota; **il a été un père pour moi** u men uchun ota edi; **le père de famille** oila boshlig'i, otasi; **les responsabilités du père de famille** oila boshlig'ining javobgarliklari; *loc* **vivre en bon père de famille** ahil oila bo'lib yashamoq; **2.** ota (*hayvonlarda*); **père biologique** biologik ota; **3.** *pl litt* ota-bobolar, ajdodlar; **4.** *fig* ota; asoschi; **5.** ota (*hurmat belgisi sifatida; ayrim ruhoniylarga nisbatan*); **le saint-père, notre saint-père le pape** ilohiy otamiz, bizning ilohiy otamiz papa; **mon père** otam; **le père Jean** Jan ota; **8.** *fam* ota; **le père Goriot** Gorio ota; *loc* **le coup du père François** ensaga tushirilgan zarba; **le Père Noël** qorbobo; *loc* tepsa tebranmas semiz odam, bochka; boboy; **alors, mon petit père, comment ça va?** xo'sh, boboy ishlar qalay?

**pérégrination** *nf pl* darbadarlik, joydan joyga kezib yurish.

**péremption** *nf* uzoq vaqt bo'lganligi sababli ishni to'xtatish.

**péremptoire** *adj* qat'iy, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan; **argument péremptoire** e'tirozga o'rin qoldirmaydigan dalil; **elle a adopté un ton péremptoire** u qat'iy ohangda ta'kidladi.

**péremptoirement** *adv* qat'iy, qat'iylik bilan, e'tirozga o'rin qoldirmay.

**pérennité** *nf litt* doimiylik, abadiylik; **assurer la pérennité des institutions** tuzumning abadiyligini tasdiqlamoq.

**péréquation** *nf* teng bo'lish, teng taqsimlash.

**perestroïka** *nf* qayta qurish.

**perfectible** *adj* takomillashadigan, mukammallashadigan; takomillashib, mukammallashib boradigan; **la science est perfectible** fan takomillashadigan narsa.

**perfection** *nf* **1.** kamolot, barkamollik, mukammallik, bekam-ko'stlik, benuqsonlik; **atteindre un haut degré de perfection** yuqori darajadagi kamolotga erishmoq; **la perfection de son travail est étonnante** uning ishlarining mukammalligi hayratlidir; **2.** *loc adv* **à la perfection** mukammal, a'lo darajada, benuqson; **elle danse à la perfection** u a'lo darajada o'yinga tushmoqda; **3.** *pl litt* benuqson fazilatlar, barkamol xislatlar; **4.** durdona, tillo; kamol, barkamol, mukammal, benuqson inson; **cette jeune fille est une perfection** bu qiz durdona.

**perfectionné, ée** *adj* takomillashtirilgan, mukammallashtirilgan; **une machine perfectionnée** takomillashtirilgan mashina.

**perfectionnement** *nm* takomillashtirish, mukammallashtirish; **le perfectionnement des moyens de production** ishlab chiqarish qurollarini takomillashtirish; **stage de perfectionnement** malaka oshirish amaliyoti; **un perfectionnement de détail** tafsilotlarni mukammallashtirish.

**perfectionner I.** *vt* takomillashtirmoq, mukammallashtirmoq; **perfectionner un procédé, une technique** biron jarayon, texnikani takomillashtirmoq; **II. se perfectionner** *vpr* takomillashmoq, mukammallashmoq; **les techniques se perfectionnent** texnikalar takomillashmoqda; **se perfectionner en anglais** ingliz tilidan bilimini takomillashtirmoq.

**perfectionniste I.** *n* o'z ishini takomillashtirishga, mukammallashtirishga, yangilik kiritishga intiluvchi odam, ratsionalizator; **c'est une perfectionniste** bu yangilik krituvchi odam; **II.** *adj* **tu es trop perfectionniste** sen o'ta ratsionalizatorsan.

**perfide** *adj litt* **1.** ahdini buzuvchi, ahdidan qaytuvchi, o'z so'zida turmaydigan; xiyonatkor, bevafo, munofiq; **femme perfide** bevafo xotin; **2.** soxta, yolg'ondakam, yasama, qalbaki (*narsa*); **de perfides promesses** soxta va'dalar; **une insinuation perfide** yashirin kirish.

**perfidement** *adv litt* **il nous a perfidement induits en erreur** u bizni xiyonatkorona adashtirdi.

**perfidie** *nf litt* **1.** soxtalik, yolg'ondakamlik, yasamalik, qalbakilik; **2.** makkorlik, xoinlik, munofiqlik, xiyonatkorlik, vafosizlik; **un hypocrite d'une étonnante perfidie** hayratda qoladigan munofiq ikkiyuzlamachi.

**perforateur, trice I.** *adj* teshadigan, burg'ilaydigan, burg'ilovchi, burg'ilash; teshkich ombir; **II.** *nm* **1.** teshgich (*qog'oz teshadigan kanselyariya asbobi*); **2.** burg'ilovchi, parmalovchi.

**perforation** *nf* **1.** teshish; **2.** teshilish (*ichki organlarning teshilishi*); **perforation intestinale** ichaklarning teshilishi.

**perforatrice** *nf* **1.** burg'i mashinasi, bolg'a; **perforatrice à air comprimé** siqilgan havo bilan ishlaydigan burg'i mashinasi; **2.** perforator (*qog'oz, kino tasmalari va boshqalarga teshik teshadigan mashina*).

**perforé, ée** *adj* **1.** teshilgan, teshik qilingan; **2.** *inform* **cartes, bandes perforées** teshikchali kartochka, tasmalar (*perfokarta, perfolenta*).

**perforer** *vt* kichik teshikchalar teshmoq; **la balle lui a perforé l'intestin** o'q uning ichagini teshib o'tdi; **machine à perforer** kompostr, perforator, teshikchalar teshadigan mashina.

**performance** *nf* **1.** ot yoki yuguruvchining musobaqadagi yutug'i, natijasi; **les performances d'un champion** chempionning erishgan natijasi; **sa performance sera peut-être homologuée comme record** uning natijasi balki rekord deb tan olinsa kerak; **2.** muvaffaqiyat, yutuq; **c'est une belle performance!** bu ajoyib yutuq! **3.** yutuq, natija; **4.** salmoq, natija (*jumladan nutqning*).

**performant, ante** *adj anglic* yuqori, baland, yuksak; yuqori, baland, yuksak darajadagi; yuqori malakali; **un ordinateur très performant** yuqori darajadagi hisoblash mashinasi; **un directeur des ventes très performant** juda yuqori malakali savdo direktori.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**perfusion** *nf* zardobni, aralashmani sekin asta yuborish, quyish, kapelnitsa qo'yish; **le blessé est placé sous perfusion** kasalga kapelnitsa qo'yildi.

**pergola** *nf* shiyponcha, atrofi chirmashib o'suvchi o'tlar bilan o'ralgan ayvon.

**péricarde** *nm anat* perikard, yurak oldi xaltachasi.

**péricarpe** *nm bot* perikarp, mevalarda urug'ni o'rab turuvchi qism.

**péricliter** *vi* inqirozga, tushkunlikka ketmoq, tanazzulga yuz tutmoq, chappasidan ketmoq, xarob (ado) bo'lmoq, so'nmoq; **son affaire, son commerce périclite** uning ishi, tijorati tanazzulga yuz tutdi.

**péril** *nm litt* **1.** xavf-xatar, xavf, xatar, tahlika; **s'exposer au péril** o'zini xavf-xatarga qo'ymoq; **affronter les périls avec audace** xavf-xatarga tik qaramoq; **navire en péril** xavf-xatarga uchragan kema; **2.** xavf-xatarlilik, xavflilik, xatarlilik, tahlikalilik; **les périls d'une situation** vaziyatning tahlikaliligi; **3.** *loc* **au péril de sa vie** o'z hayotini xavf-xatarga, tahlikaga qo'yib; **faire qqch à ses risques et périls** biror ishni o'z hayotini xavf-xatarga qo'yib va tavakkaliga qilmoq; **il y a péril en la demeure** bu yerda qolish xatarli.

**périlleux, euse** *adj* **1.** *litt* xavfli, xatarli, og'ir, nozik; **une entreprise périlleuse** xatarli ish; **vous abordez là un sujet périlleux** siz bu yerda nozik masalaga qo'l uryapsiz; **2.** *loc* salto, umbaloq oshish (*havoda*); **deux sauts périlleux arrière** orqaga ikkita salto.

**périmé, ée** *adj* **1.** eski, qadimiy, qolib ketgan, eskirgan, unut bo'lgan; **des conceptions périmées** eski qarashlar; **2.** eski, eskirgan, yaroqsiz, muddati o'tgan; **passeport, billet périmé** muddati o'tgan, yaroqsiz pasport, chipta.

**périmer (se)** *vpr* muddati o'tgan bo'lmoq; (**se** *tushirib qoldiriladi*) **laisser périmer un billet de chemin de fer** temir yo'l biletining muddatini o'tkazib yubormoq.

**périmètre** *nm* **1.** perimetr (*yassi ko'p burchakning hamma tomonlari o'lchamining yig'indisi*); **le périmètre du cercle** doiraning perimetri; **2.** shu perimetrning ichki qismi; **mise en culture des périmètres irrigués** sug'oriladigan perimetrning ichiga ekin ekish.

**périnée** *nm anat* chot, chot orasi.

**période** *nf* **1.** davr, vaqt; **la période des vacances** ta'til davri; **en période de crise** inqiroz vaqtida; **2.** davr, vaqt, payt; **période électorale** saylov vaqti; **3.** davr, zamon; **la période révolutionnaire** revolutsion davr; **4.** faza, davr, davom; **les périodes d'une évolution, d'un cycle** bir siklning, evolutsiyaning davomida; **5.** davriylik.

**périodicité** *nf* davriylik, vaqti-vaqti bilan bo'lib turish.

**périodique** *adj* **1.** vaqti-vaqti bilan, o'qtin-o'qtin bo'ladigan, takrorlanib turadigan; **alternance périodique de prospérité et de crise** mo'l-ko'lchilik va qahatchilikning vaqti-vaqti bilan almashib turishi; **2.** vaqtli (*matbuot haqida*); **un journal périodique** vaqtli gazeta; **presse périodique** vaqtli nashr; *n* **un périodique** vaqtli matbuot; **4.** davriy; **mouvement, fonction périodique** davriy harakat, faoliyat.

**périodiquement** *adv* davriy, vaqti-vaqti bilan, o'qtin-o'qtin, takror.

**péripatéticienne** *nf plais* ko'chada fohishalik qiladigan ayol, fohisha.

**péripétie** *nf* **1.** voqealarning to'satdan o'zgarishi (*hikoya, drammatik voqealarda*); **péripétie centrale** asosiy tugun; **2.** turmushda, kutilmagan voqea, hodisa; hayotda yuz bergan mushkul ahvol (*o'zgarish*); **une vie pleine de péripéties** kutilmagan mushkulotlarga to'la hayot.

**périphérie** *nf* **1.** chet, chetki qism, qirg'oq; **2.** periferiya (*markazdan chet, uzoqdagi joylar, shuningdek mahalliy tashkilotlar, muassasalar*); **les usines, les grands ensembles de la périphérie** zavodlar, markazdan chetdagi ulkan muassasalar majmui.

**périphérique** *adj* chetda, sirtda joylashgan; **quartiers périphériques** chetda joylashgan kvartallar; **le boulevard périphérique** *ou nm* **le périphérique** aylanma yo'l (*Parijda*).

**périphrase** *nm* perifraza (*bir so'z bilan aytish mumkin bo'lgan tushunchani ko'p so'zlar orqali ifodalash*); **"la capitale de la France" est une périphrase pour "Paris"** "Fransiyaning poytaxti" iborasi "Parij" so'zi uchun perifraza; **user de périphrase pour toucher à un sujet délicat** biror nozik masalaga murojaat qilishda perifrazadan foydalanmoq.

**périple** *nm* **1.** suvda dunyo bo'ylab sayohat; **le périple de Magellan** Magellanning dunyo bo'ylab sayohati; **2.** kruiz, dengiz sayohati; **faire un périple en Grèce pendant les vacances** ta'til davomida Gretsiya bo'ylab dengiz sayohati qilmoq.

**périr** *vi litt* **1.** o'lmoq; cho'kib o'lmoq; **il périt d'ennui** u zerikishdan o'lyapti, u o'lgiday zerikyapti; **2.** o'lib bormoq, yo'q bo'lib bormoq (*narsa*); **les civilisations périssent** sivilizatsiya o'lib boryapti.

**périscope** *nm* periskop (*pana joydan turib kuzatishga moslashgan durbinsimon optik asbob*); **le périscope d'un sous-marin** suv osti kemasining periskopi.

**périssable** *adj* **1.** *litt* o'limga mahkum etilgan, o'tkinchi, foniy, abadiy emas; **les sentiments les plus sincères sont périssables** eng samimiy hislar o'tkinchi; **2.** qisqa muddatli, tez buziladigan; **denrée périssable** tez buziladigan oziq ovqat mahsulotlari.

**périssoire** *nf* baydarka (*ensiz, yengil qayiq*); **aller en périssoire dans les marais** botqoqli joylarda baydarkada yurmoq.

**péristaltique** *adj* harakatlantiradigan, suradigan, surgi; (*hazm bo'lish yo'lida ovqatni harakatlantiradigan, suradigan*).

**péristyle** *nm* ustunlar majmui.

**péritoine** *nm* qorin pardasi.

**péritonite** *nf* peritonit, qorin pardasining yallig'lanishi; **la péritonite peut résulter d'une appendicite** qorin pardasining yallig'lanishi ko'richak kasalidan kelib chiqishi mumkin.

**perle** *nf* **1.** marvarid, dur, inju; **perle fine** tabiiy dur; **perle baroque** notekis dur; **perle de culture** sadafdorda sun'iy yo'l bilan yetishtirilgan dur; **pêcheurs de perles** marvarid teruvchilar, g'avvoslar; **collier de perles** marvarid marjon; *loc* **jeter des perles aux cochons** eshakning qulog'iga tanbur chertmoq; **2.** munchoq, nozik, marjon; **les perles d'un chapelet** tasbehning munchoqlari; **perle de verre** shisha munchoq; **3.** durdona, tillo; barkamol, ajoyib inson; **ce collaborateur est une perle** bu sherik tillo odam; **4.** xato natijasida beixtiyor hosil qilingan so'z o'yini; **perles relevées dans des devoirs scolaires** o'quvchilarning uy ishlaridan olingan beixtiyoriy so'z o'yinlari.

**perler I.** *vt* diqqat, puxtalik, e'tibor bilan qilmoq; **perler un travail** ishni e'tibor bilan qilmoq; **travail perlé** puxta ish; **II.** *vi* marjon-marjon bo'lib chiqmoq (*ter haqida*); **quelques gouttes de sueur perlaient sur son front** peshonasida bir necha ter tomchilari marjonday yaltirab turar edi.

**perlier, ière** *adj* marvarid, dur, inju tayyorlaydigan, yetishtiradigan; **industrie perlière** marvarid sanoati; **huître perlière** sadafdor.

**permanence** *nf* doimiylik, o'zgarmaslik; **la permanence des institutions** tartibotlarning o'zgarmasligi; **2.** doimiy navbatchilik; **assurer, tenir une permanence** navbatchilikni ta'minlamoq, navbatchilik qilmoq; **la permanence d'un commissariat de police** politsiya komissariyatining doimiy tayyorligi; **3.** *litsey, kollejlarda* o'quvchilar xonasi (*o'quvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida yig'iladigan xona*); **il fait ses devoirs en, à la permanence** u darsini o'quvchilar xonasida qilyapti; **4.** *loc adv* doimiy, uzluksiz, to'xtovsiz; **assemblée qui siège en permanence** doimiy yig'ilib turadigan assambleya, uyushma.

**permanent, ente** *adj* **1.** doimiy, o'zgarmas; **il prend la vie pour une aventure permanente** u hayotni doimiy bir sarguzasht deb o'ylaydi; **cinéma permanent** doimo bir xil filmlar qo'yiladigan kinoteatr; **2.** doimiy; **un comité permanent** doimiy qo'mita; **le représentant permanent de la France à l'O.N.U.** Fransiyaning BMTdagi doimiy vakili.

**permanente** *nf* permanent (*sochni uzoq vaqt yozilmaydigan qilib jingalaklash va shunday usulda pardoz berilgan soch*).

**permanganate** *nm* permanganat, margansovka, kaliy permanganat.

**perme** *ou* **perm** *nf abrév fam* **permission 2**.

**perméabilité** *nf* o'tkazuvchanlik, o'zidan o'tkazuvchanlik qobiliyati; **la perméabilité du sol** tuproqning o'tkazuvchanlik qobiliyati.

**perméable** *adj* **1.** nam, suv o'tkazadigan; **roches, terrains perméables** nam o'tkazadigan xarsanglar, maydonlar; **2.** ta'sirchan, beriluvchan, hassos; **un homme perméable à toutes les influences** har qanday ta'sirlarga beriluvchan kishi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**permettre I.** *vt* **1.** ruxsat bermoq, ijozat bermoq; yo‘l qo‘ymoq, imkon bermoq; **si les circonstances le permettent** agar sharoit bunga yo‘l qo‘ysa; **permettre que** ruxsat bermoq, rozi bo‘lmoq; **ma mère ne permet pas que je sorte avec toi** onam menga sen bilan birga ko‘chaga chiqishimga ruxsat bermaydi; **permettre qqch à qqn** biror kimsaga biror narsaga ruxsat bermoq; **son médecin lui permet un peu de vin** uning vrachi unga ozroq vinoga ruxsat etadi; **il se croit tout permis** u nima qilsam ham bo‘laveradi, deb o‘ylaydi; **permettre de** *+inf* biror narsa qilishga ijozat bermoq, yo‘l qo‘ymoq; **je ne vous permets pas de me parler sur ce ton** men sizga men bilan bunday ohangda gaplashishga yo‘l qo‘ymayman; **2.** yo‘l qo‘ymoq, imkon bermoq, ko‘tarmoq; **sa santé ne lui permet aucun excès** uning sog‘ligi hech qanday zo‘riqishni ko‘tarmaydi; **permettre à qqn de** *+inf* biror kishiga biror narsa qilishga imkon bermoq; **mes moyens ne me permettent pas d'acheter une voiture** mening mablag‘larim menga avtomobil sotib olishga imkon bermaydi; *impers* **autant qu'il est permis d'en juger** ayniqsa bu haqda o‘ylab ko‘rish mumkin; **3.** e'tiroz, norozilik kabi ma'nolarni anglatadi; **permettez! vous permettez!** kechirasiz, afv etasiz, sabr qiling, to‘xtab turing; **permettez-moi de vous présenter m. X.** ruxsat eting men sizga janob X-ni tanishtiray; **II. se permettre** *vpr* **1.** biror narsani o‘ziga ep ko‘rmoq; **se permettre quelques petites douceurs** ozroq shirinliklardan tatib ko‘rishni o‘ziga joiz ko‘rmoq; **2.** biror ish qilgisi kelib, istab qolmoq; **elle s'était permis de répliquer** uning birdaniga gap qistirgisi kelib qolgan edi; **puis-je me permettre de vous offrir une cigarette** sizga bitta sigaret taklif qilsam bo‘ladimi?

**permis** *nm inv* **1.** ruxsatnoma; **permis de construire** qurish ruxsatnomasi; **permis de chasse** ov qilish ruxsatnomasi; **2. permis de conduire** haydovchilik guvohnomasi; **passer son permis** haydovchilik guvohnomasi olish uchun imtihon topshirmoq.

**permissif, ive** *adj* osongina ruxsat beradigan; **les sociétés occidentales sont devenues plu, très, trop permissives** g‘arb tashkilotlari osongina, juda, o‘ta oson ruxsat beradigan bo‘lib qolishdi.

**permission** *nf* **1.** ijozat, ruxsat; **obtenir la permission de faire qqch** biror narsa qilishga ijozat olmoq; **il est sorti sans permission** u ruxsatsiz ko‘chaga chiqdi; **avec votre permission** sizning ijozatingiz bilan; **2.** ruxsatnoma, ta'til (*harbiylar uchun*).

**permissionnaire** *nm* ruxsatnoma bo‘yicha harbiy qismdan vaqtincha chiqqan askar.

**permutation** *nf* **1.** ikki narsaning bir-birining o‘rnini almashtirish; **permutations de lettres ou de syllabes** harflarning yoki bo‘g‘inlarning bir-birini almashtirishi; **2.** ishini, lavozimini boshqasiga almashtirish; **procéder à la permutation de deux fonctionnaires** ikki xizmatchining vazifalarini almashtirishga kirishmoq.

**permuter I.** *vt* bir narsani ikkinchi bir narsa o‘rniga qo‘ymoq, o‘rinlarini almashtirmoq; **permuter deux mots dans la phrase** gapda ikki so‘zning o‘rinlarini almashtirmoq; **II.** *vi* o‘z o‘rinlarini almashtirmoq; **ces deux officiers veulent permuter** bu ikki zobit o‘z o‘rinlarini almashtirishmoqchi.

**pernicieux, ieuse** *adj* **1.** sog‘liq uchun xavfli, xatarli, zararli; **une habitude pernicieuse** sog‘liq uchun xavfli odat; **la drogue est pernicieuse** giyohvand modda sog‘liq uchun zararli; **2.** *litt* yomon, zararli; **erreur pernicieuse** yomon xato; **doctrines, théories pernicieuses** zararli ta'limot, nazariyalar.

**péroné** *nm anat* kichik boldir suyagi; **fracture du péroné** kichik boldir suyagining sinishi.

**péronnelle** *nf fam* ahmoq va laqma qiz, juvon.

**péroraison** *nf* nutqning yakunlovchi qismi.

**pérorer** *vi* safsatabozlik qilmoq, vaysamoq, mahmadonachilik qilmoq.

**peroxyde** *nm chim* peroksid; **l'eau oxygénée est un peroxyde d'hydrogène** oksidlangan suv vodorod peroksididir.

**perpendiculaire I.** *adj* perpendikulyar, tik; **perpendiculaire à** -ga perpendikulyar, bilan to‘g‘ri burchak hosil qiluvchi; **plans perpendiculaires** perpendikulyar yuzalar; **II.** *nf* perpendikulyar, tik chiziq; **tirer une perpendiculaire** perpendikulyar chiziq chizmoq.

**perpendiculairement** *adv* perpendikulyar.

**perpète,** *ou* **perpette (à)** *loc adv fam* umrbod, abadiy, mangu; **je ne vais pas l'attendre jusqu'à perpète** men uni umrbod kutmoqchi emasman.

**perpétrer** *vt dr ou iron* qilmoq, sodir qilmoq.

**perpétuel, elle** *adj* **1.** abadiy, doimiy, uzluksiz davom etadigan; **mouvement perpétuel** abadiy harakat; **2.** umrbod, bir umr, umrboqiy; **une perpétuelle jeunesse** umrboqiy yoshlik; **secrétaire perpétuel** bir umr kotiba; **3.** doimiy, uzluksiz, keti uzilmaydigan; **c'était une obsession, une angoisse perpétuelle** bu miyaga o‘rnashib qolgan fikr, doimiy xavotir edi; **4.** *pl* yangilanib turadigan, doimiy, keti yo‘q, cheksiz; **des jérémiades perpétuelles** cheksiz hasratlar.

**perpétuellement** *adv* **1.** doimo, to‘xtovsiz; **2.** doimo, har doim, hamisha; **il arrive perpétuellement en retard** u hamisha kech keladi.

**perpétuer I.** *vt* davom ettirmoq, abadiylashtirmoq; **il veut un fils pour perpétuer son nom** o‘z sulolasini davom ettirish uchun o‘g‘li bo‘lishini xohlaydi; **perpétuer une tradition** an'anani davom ettirmoq; **II. se perpétuer** *vpr* uzluksiz davom etmoq; **les espèces se perpétuent** avlodlar uzluksiz davom etadi.

**perpétuité** *nf* **1.** *litt* abadiylik, mangulik; **2.** *loc adv* **à perpétuité** umrbod, bir umr; **les travaux forcés à perpétuité** bir umr surgun ishlari; **être condamné à perpétuité** umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan bo‘lmoq.

**perplexe** *adj* boshi qotgan, nima qilarini bilmay qolgan, o‘zini yo‘qotgan, sarosimaga, talvasaga tushgan, dovdirab, esankirab qolgan, hayratda qolgan, garang, hayronlikdagi; **cette demande la rend perplexe** bu so‘rov uni dovdiratib qo‘ydi; **un air perplexe** gangigan ko‘rinish.

**perplexité** *nf* boshi qotish, nima qilarini bilmaslik, o‘zini yo‘qotish, sarosimaga tushish, gangish, dovdirash, esankirash, hayronlik; **être dans la plus complète perplexité** butunlay boshi qotib qolmoq.

**perquisition** *nf* tintuv.

**perquisitionner** *vi* tintuv o‘tkazmoq; **la police a perquisitionné chez lui pour retrouver le pistolet** politsiya to‘pponchani topish uchun unikida tintuv o‘tkazdi.

**perron** *nm* uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoya; **il nous a accueillis sur le perron** u bizni uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoyada kutib oldi.

**perroquet[1]** *nm* to‘ti, to‘tiqush; **perroquet d'Amérique, d'Afrique** Amerika, Afrika to‘tisi; **répéter qqch comme un perroquet** biror narsani huddi to‘tiqushday qaytarmoq.

**perroquet[2]** *nm mar* bramsel (*eng yuqorigi yarus yelkani*); **le grand, petit perroquet** grot-bramsel, for-bramsel.

**perruche** *nf* **1.** kichik to‘tiqush, to‘tiqushcha; **un couple de perruches en cage** qafasdagi bir juft to‘tiqushchalar; **2.** sergap, ezma, vaysaqi; safsataboz xotin.

**perruque** *nf* parik, yasama soch; **porter une perruque** parik kiyib yurmoq.

**perruquier** *nm* parik, yasama soch tayyorlovchi usta.

**pers** *adj m inv litt* moviy-ko‘k rang; **avoir des yeux pers** moviy-ko‘k ko‘zli bo‘lmoq.

**persan, ane I.** *adj* fors, forsiy; **II.** *n* **1.** fors, eronlik; **2.** *nm* fors tili.

**persécuter** *vt* **2.** ta'qib qilmoq, quvg‘in qilmoq; **Louis XIV a persécuté les protestants** Lui XIV protestantlarni quvg‘in qildi; **un peuple persécuté** quvg‘in qilingan, quvg‘inga uchragan xalq; *n* **les persécutés et les opprimés** quvg‘inga uchragan va ezilganlar; **2.** xiralik qilmoq; **des journalistes qui persécutent une vedette** san'at yulduziga xiralik qilayotgan jurnalistlar.

**persécuteur, trice** *n* ta'qib, quvg‘in qiluvchi; payiga tushuvchi; **il s'est vengé de ses persécuteurs** u o‘zining payiga tushuvchilardan o‘ch oldi.

**persécution** *nf* ta'qib, quvg‘in; **il se croit victime de persécutions** u o‘zini ta'qibning qurboni deb hisoblaydi; **être en butte à des persécutions** quvg‘inga nishon bo‘lmoq; *loc* **manie, folie de la persécution, délire de la persécution** ta'qib vasvasasi.

**persévérance** *nf* sabot, matonat, qat'iyat, tirishqoqlik, qunt; **il travaille avec persévérance** u sabot bilan ishlayapti.

**persévérant, ante** *adj* sabotli, quntli; tirishqoq, qat'iy; **un homme persévérant** tirishqoq odam; **tu n'es pas assez persévérant** sen yetarlicha tirishqoq emassan.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**persévérer** *vi* sabotli, quntli; tirishqoq, qat'iyatli, qat'iy bo'lmoq, qat'iy turmoq; **persévérer dans l'effort, dans l'erreur** o'zining gapida, xatosida qat'iy turib olmoq.

**persienne** *nf* yog'och yoki metall darparda.

**persiflage** *nm* masxara qilish, birovning ustidan kulish, mazax, kalaka qilish.

**persifler** *vt litt* masxara qilmoq, birovning ustidan kulmoq, mazax, kalaka qilmoq.

**persifleur, euse** *n, adj* masxara qiluvchi; burovning ustidan kuluvchi; mazax, kalaka qiluvchi; **un ton persifleur** masxaraomiz ohang.

**persil** *nm* petrushka; **un bouquet de persil** bir bog' petrushka.

**persillade** *nf* chopilgan petrushkaga yog', uksus qo'shib tayyorlangan qayla.

**persillé[1], ée** *adj* chopilgan petrushka qo'shilgan, solingan, aralashtirilgan; **carotte persillée** petrushka aralashtirilgan sabzi.

**persilé[2], ée** *adj* yog' qo'shilgan, yog'li go'sht.

**persistance** *nf* **1.** qat'iyat, matonat; **c'est ce qu'il affirmait avec persistance** bu u qat'iyat bilan ta'kidlagan narsa; **2.** barqarorlik, turg'unlik, o'zgarmaslik; **la persistance du mauvais temps** yomon havoning barqarorligi.

**persistant, ante** *adj* barqaror, turg'un, o'zgarmas; **une odeur persistante** turg'un hid; **neige persistante** erimaydigan, abadiy qorlik; **feuilles persistantes** to'kilmaydigan (*qishda*) barglar.

**persister** *vi* **1.** qattiq turmoq, qat'iy turmoq, qattiq turib talab qilmoq, o'zinikida turib olmoq, o'tkazmoq; **je persiste dans mon opinion** men o'z fikrimda qat'iy turaman; **je persiste à croire que tout va s'arranger** men qattiq turib ishonishlaringizni talab qilamanki, hammasi joyida bo'ladi; **2.** davom etmoq, turib olmoq (*narsa*); **si la fièvre persiste, consultez le médecin** agar isitma tushmasa, vrachga murojaat qiling.

**persona grata** *nf inv* rasmiy vakil; **persona non grata** rasmiy vakil emas; **ce diplomate, soupçonné d'espionnage, a été déclaré persona non grata** josuslikda shubhalanilgan bu diplomat rasmiy vakil emas, deb e'lon qilingan edi.

**personnage** *nm* **1.** zot, shaxs, kishi; **c'est un personnage influent** bu nufuzli shaxs; **un personnage connu** taniqli shaxs, kishi; **2.** rol (*pyesada*); **le personnage principal de la pièce, du film** pyesaning, filmning bosh roli, qahramoni; *fam* **se mettre, entrer dans la peau de son personnage** o'z qahramoni roliga kirib ketmoq; **3.** shaxs, odam, nusxa; **un drôle de personnage** qiziq odam; **il n'est pas naturel, il joue un personnage** u samimiy emas, u rol o'ynayapti; **4.** personaj, shaxs, qahramon (*badiiy asarda*); **les personnages d'un tableau** rasmdagi personajlar; **un personnage de légende, de roman** afsona, roman qahramoni.

**personnaliser** *vt* xususiylashtirmoq, shaxsiylashtirmoq; **personnaliser un contrat** shartnomani shaxsiylashtirmoq; **personnaliser une voiture, un appartement** avtomobil, xonadonni xususiylashtirmoq; **crédit personnalisé** shaxsiylashtirilgan kredit.

**personnalisme** *nm phil* personalizm.

**personnaliste** *adj, n* personalist; **un philosophe personnaliste** personalist faylasuf; **les personnalistes chrétiens** nasroniy personalistlari.

**personnalité** *nf* **1.** shaxs, shaxsiyat, individ; **la personnalité de qqn** biror kimsaning shaxsiyati; **affirmer, développer sa personnalité** o'z shaxsiyatini tarkib toptirmoq, rivojlantirmoq; **avoir une forte personnalité** kuchli shaxsiyatga ega bo'lmoq; **un être banal, sans personnalité** o'zligi yo'q, bachkana mahluq; **2.** shaxs; **trouble de la personnalité et du comportement** shaxsiga tegish va munosabatlarni buzish; **test de personnalité** shaxs sinovi; **personnalité morale** yuridik shaxs; **3.** muhim shaxs.

**personne[1]** *nf* **1.** odam, kishi; shaxs, o'zlik; **certaines personnes** ba'zi odamlar; **une ville où habitent dix mille personnes** o'n ming kishi yashaydigan shahar; **distribuer une part, une portion par personne** kishi boshiga bir bo'lak, bir kosadan tarqatmoq; **une personne intelligente** aqlli odam; **une personne de connaissance** tanish kishi; **une personne âgée** qari kishi; **grande personne** kishi, katta kishi; **les enfants et les grandes personnes** bolalar va katta kishilar; **faire grand cas de sa personne** o'zini ulug' qilib ko'rsatmoq; **la personne et l'œuvre d'un écrivain** yozuvchining shaxsiyati va asari; **il est bien de sa personne** u ko'rinishdan chiroyli kishi; **en personne** shaxsan, o'zi; *dr* **personne physique, morale** jismoniy, yuridik shaxs; **exposer sa personne** o'z hayotini xavf ostiga solmoq; **2.** *vieilli* ayol; **il vit avec une jolie personne** u juda chiroyli ayol bilan yashaydi; **3.** *gram* shaxs (*fe'l formalari, kishilik olmoshlari, shuningdek egalik va nisbat qo'shimchalari orqali ifodalanuvchi grammatik kategoriya*); **première personne** birinchi shaxs.

**personne[2]** *pron indéf* **1.** kimdir, biror kimsa, biror kishi; **vous le savez mieux que personne** siz uni hammadan ko'ra ham yaxshiroq taniysiz; **2.** (**ne** *bilan*) hech kim, hech kimsa, biror kishi; **que personne ne sorte!** hech kim chiqmasin! **il n'y avait personne** hech kim yo'q edi; **je ne vois plus jamais personne** men butunlay, umuman hech kimni ko'rmayapman; **personne d'autre que lui** undan boshqa hech kim; **je ne trouve personne de plus sérieux qu'elle** men undan ko'ra jiddiyroq boshqa hech kimni ko'rmayapman.

**personnel[1], elle** *adj* **1.** shaxsiy, xususiy, o'z; **l'intérêt personnel de chacun** har bir kishining o'z manfaati; **il, elle a une fortune personnelle** uning shaxsiy boyligi bor; **2.** shaxsiy, bir kishiga qaratilgan; **lettre personnelle** shaxsiy xat; **c'est personnel, ne lisez pas** bu shaxsiy, o'qimang; **3.** shaxsiy, ayrim kishiga, shaxsga oid, tegishli; **libertés personnelles** shaxsiy erkinliklar; **morale personnelle** shaxsiy axloq.

**personnel[2], elle** *adj gram* **1.** shaxsga oid; shaxs; **"il chante" est personnel** "u ashula aytyapti" shaxsli fe'l; **"il neige" est impersonnel** "qor yog'yapti" shaxssiz fe'l; **modes personnels du verbe** fe'lning shaxs mayllari; **2.** kishilik; **pronom personnel** kishilik olmoshlari.

**personnel[3]** *nm* xodimlar, idora xodimlari; xizmatchilar, tarkib; **la personnel d'une usine** zavodning ishchi-xizmatchi xodimlari; *av* **chef, directeur, service du personnel** boshliq, direktor, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar; **le personnel navigant** kema tarkibi.

**personnellement** *adv* shaxsan; **je vais m'en occuper personnellement** men bu bilan shaxsan o'zim shug'ullanaman; **personnellement, je ne suis pas d'accord** shaxsan, men rozi emasman.

**personnification** *nf* **1.** shaxslantirish; **la personnification de Dieu** xudoni shaxslantirish; **2.** timsol, namuna (*real shaxs*); **Néron fut la personnification de la cruauté** Neron zolimlik timsoli bo'ldi.

**personnifier** *vt* **1.** timsoli, namunasini bildirmoq, ifodalamoq (*inson xususiyati sifatida*); **Harpagon personnifie l'avarice** Harpagon ochko'zlik timsolidir; **2.** o'zida ifodalamoq, o'zida mujassamlashtirmoq.

**perspective** *nf* **1.** perspektiva (*ko'rinib turgan manzarani to'g'ri, butun boricha tasvirlash*); **les lois de la perspective** perspektiva qonunlari; **perspective cavalière** chiziqlari o'zaro kesishmaydigan perspektiva; **2.** uzoqdan ko'rinish, manzara, panorama; **une belle perspective** go'zal manzara; **3.** istiqbol, kelajak; **la perspective de partir en voyage l'enchantait** sayohatga chiqish istiqboli uni xursand qilar edi; **des perspectives d'avenir** kelajak istiqbollari; **en perspective** oldinda, kelajakda, kelgusida; **il a un bel avenir en perspective** kelajakda uning porloq istiqboli bor; **4.** nuqtai nazar, qarash, fikr; **dans une perspective à long terme** uzoq kelajak nuqtai nazaridan.

**perspicace** *adj* o'tkir, ziyrak, sezgir; **un enquêteur perspicace** ziyrak tergovchi.

**perspicacité** *nf* o'tkirlik, ziyraklik, sezgirlik.

**persuader I.** *vt* ishontirmoq, inontirmoq; to'la isbot qilmoq; **il m'a persuadé de sa sincérité** u meni o'zining samimiyligiga ishontirdi; **il faut le persuader de venir** uni kelishga ko'ndirmoq kerak; **il a fini par persuader beaucoup de gens qu'il était compétent** u oxiri ko'pchilikni o'zining bilimdon ekanligiga ishontirdi; **j'en suis persuadé** men bunga ishonaman; **II. se persuader** *vpr* ishonmoq, inonmoq, ishonch, qanoat hosil qilmoq; **elle s'est persuadée ou persuadé que son devoir était de se sacrifier** u o'zining vazifasi o'zini baxshida qilish ekanligiga ishondi.

**persuasif, ive** *adj* ishonchli, ishonarli, ishontiradigan, ishontirarli, asosli, puxta, aniq; **vous êtes si persuasif que je finis par vous croire** siz shunchalar ishonarlisizki, men oxiri sizga ishondim.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**persuasion** *nf* astoydil ishonganlik, imoni komillik; qat'iy ishonch, komil ishonch; **son pouvoir de persuasion a fait des miracles** uning astoydil ishonganlik qudrati mo'jizalar yaratdi.

**perte** *nf* **1.** ajralib qolish, yo'qotish, judolik, mahrum bo'lish; **la perte d'un enfant** boladan ajralib qolish; **la perte cruelle qu'il vient d'éprouver** yaqinda uning boshiga achchiq judolik tushdi; **2.** ajralish, yo'qotish, mahrum bo'lish, kamomad, zarar; *pl* talafot; **faire subir une perte à qqn** biror kishini biror narsadan mahrum qilish; **perte d'argent** pul yo'qotish; **pertes comptables, financières** iqtisodiy kamomad; *loc* **passer un chose aux, par profits et pertes** biror narsadan umidini uzmoq; **perte sèche** sof kamomad, zarar; **infliger des pertes sévères à l'ennemi** dushmanga jiddiy talafot yetkazmoq; **3.** yo'qotib qo'yish; **la perte d'un passeport** pasportni yo'qotib qo'yish; **4. à perte de vue** ko'z ilg'amas, cheksiz, bepayon; **5.** isrofgarchilik, behuda sarflash; **une perte de temps et d'argent** vaqtni va pulni behuda sarflash; **en pure perte** behuda, befoyda; **6.** oqib, sirqib chiqib ketish, to'kilib kamayish; **7.** boy berish, yutqazish, yengilish; **la perte d'une bataille** jangni boy berish; **8.** halokat, o'lim, zavol; **courir à sa perte** halokatga bormoq; **jurer la perte de qqn** biror kishini halok, nobud qilishga ont ichmoq.

**pertinemment** *adv* tegishli, kerakli; lozim, zarur bo'lgan darajada; **savoir pertinemment qqch** biror narsani tegishli darajada bilmoq.

**pertinence** *nf* **1.** o'rinlilik; u o'rinli javob berdi; **2.** moslik, muvofiqlik, munosiblik, loyiqlik, to'g'ri, mos kelish.

**pertinent, ente** *adj* **1.** oqilona, o'rinli, izchil, to'g'ri; **une remarque pertinente** oqilona fikr; **une étude pertinente** izchil tadqiqot; **2.** mos, muvofiq, munosib, loyiq, to'g'ri keladigan; **oppositions pertinentes** mos qarama-qarshiliklar.

**pertuis** *nm inv* **1.** *vx* tor yo'lak, tor o'tish joyi; **2.** *géog* bo'g'oz.

**pertuisane** *nf* uchburchak uchli nayza.

**perturbateur, trice** *n, adj* buzuvchi, buzg'unchi, g'alamis; **expulser les perturbateurs** buzg'unchilarni quvmoq; **éléments perturbateurs** buzg'unchi unsurlar.

**perturbation** *nf* **1.** o'zgarish, tartibsizlik, notinchlik; **perturbation atmosphérique** atmosferadagi o'zgarishlar; **2.** ijtimoiy o'zgarish, ag'dar-to'ntar.

**perturber** *vt* buzmoq, xalaqit bermoq; **la grève va perturber les transports** ish tashlash transport harakatiga xalaqit beradi; *fam* **il avait l'air perturbé** uning ko'rinishi hayajonli edi.

**pervenche I.** *nf* bo'rigul; **II.** *adj inv* **des yeux pervenche** binafsha tusli och moviy ko'z.

**pervers, erse I.** *adj* **1.** *litt* buzuq, axloqsiz; **une âme perverse** buzuq ko'ngil; **2.** buzilgan, aynigan; **il a des tendances perverses** unda buzilganlik alomati bor; **il est un peu pervers** u biroz buzilgan; **II.** *n* axloqsiz, odobsiz, buzuq odam.

**perversion** *nf* **1.** *litt* buzuqlik, buzilganlik, ayniganlik; **2.** buzilganlik, fahsh yo'liga kirganlik, yomon yo'lga kirganlik; **les perversions sexuelles** shahvoniy buzuqliklar.

**perversité** *nf* buzilganlik; **perversité de mœurs** xulq-atvorning buzilganligi; **2.** axloqsizlik, odobsizlik, buzuqlik.

**pervertir** *vt* **1. pervertir qqn** buzmoq, aynitmoq, yomon ta'sir ko'rsatmoq; **tout cet argent l'a perverti** hamma bu pullar uni buzdi; **2. pervertir qqch** buzmoq, buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; **il interprète et pervertit la loi** u qonunni sharhlayapti va noto'g'ri ta'lqin qilyapti; *pron* **se pervertir** buzilmoq, aynimoq, yomon tomonga o'zgarmoq.

**pervertissement** *nm litt* buzuqlik, buzilganlik, ayniganlik.

**pesage** *nm* **1.** o'lchash, tortish (*tarozida*); **appareils de pesage** tortish asboblari; **2.** chavandozlarni poygadan oldin tortadigan joy; **il y avait foule au pesage** chavandozlarni tortadigan joyda tumonot odam bor edi.

**pesamment** *adv* og'ir, salmoqlanib, salmoq bilan; **retomber pesamment** og'ir o'tirmoq, og'ir cho'kmoq.

**pesant, ante** *adj* **1.** og'ir, vazmin; **un fardeau pesant** og'ir yuk; **2.** *fig* og'ir, qiyin, mushkul, mashshaqatli, tashvishli; **dormir d'un sommeil pesant** og'ir uyquga ketmoq; **un chagrin pesant** og'ir g'am; **3.** salobatli, bahaybat, salmoqli, og'ir; **une marche pesante** salmoqli yurish; **4.** qo'pol, dag'al, beso'naqay, beo'xshov; **un esprit pesant** past zehn; **il est assez pesant quand il veut plaisanter** u hazil qilaman deganda, ancha dag'al bo'lib ketadi.

**pesanteur** *nf* **1.** *phys* og'irlik, vazn; **la pesanteur de l'air** havoning vazni; **2.** tortish kuchi (*yerning*); **3.** dag'allik, qo'pollik, beso'naqaylik; **il a la pesanteur d'un bœuf** u ayiqday beso'naqay; **pesanteur d'esprit** zehnning pastligi.

**pèse-bébé** *nm* chaqaloqlarni tortadigan tarozi.

**pesée** *nf* **1.** bir tarozi; **2.** tortish (*tarozida*); **effectuer une pesée à l'aide d'une balance** tarozida tortish; **3.** og'irlik, vazn; **de toute la pesée de son corps, il s'efforçait d'ouvrir la porte** u gavdasining butun og'irligi bilan eshikni ochishga harakat qilar edi.

**pèse-lettre** *nm* xat tortadigan tarozi.

**pèse-personne** *nm* odam tortadigan tarozi.

**peser I.** *vt* **1.** tortmoq (*tarozida*); **peser un objet avec une balance** biror narsani tarozida tortmoq; **peser qqch dans sa main** biror narsani qo'lida chamalab ko'rmoq (*og'irligini*); **les trois kilos de pommes que le marchand a pesés** sotuvchi tortib bergan uch kilo olma; **2.** chamalab, taroziga solib ko'rmoq, o'ylab ko'rmoq, baho bermoq; **peser le pour et le contre** yaxshi, yomon tomonlarni chamalab, solishtirib ko'rmoq; **peser ses mots** so'zlarini o'ylab gapirmoq; **tout bien pesé** yaxshilab o'ylab ko'rilgan; **II.** *vi* **1.** belgili og'irlikka ega bo'lmoq, kelmoq, chiqmoq, tortmoq; **cela pèse plus lourd, pèse plus, moins** bu og'irroq, yengilroq keladi; **peser peu, beaucoup** yengil, og'ir turmoq; **les cent kilos qu'il a pesé autrefois** oldinlari u yuz kilolar kelar edi; **2. (sur, contre)** qismoq, bosmoq, itarmoq; **il pesa de toutes ses forces contre la porte** u bor kuchi bilan eshikni itardi; **aliment indigeste, qui pèse sur l'estomac** qiyin hazm bo'ladigan ovqat oshqozonga og'irlik qilyapti; **3. (à)** og'irligi tushmoq, og'irlik qilmoq, tashvish solmoq, qiynamoq; **ses enfants lui pèsent** bolalari unga og'irlik qilyapti; **4. (sur)** qiynamoq, azob bermoq; **le remords pèse sur sa conscience** vijdon azobi uni qiynayapti; **5.** salmoqqa, e'tiborga, muhim ahamiyatga ega bo'lmoq; bosib ketmoq, muhim rol o'ynamoq; **cet élément a pesé dans notre décision** bu element bizning bir qarorga kelishimizda muhim ahamiyatga ega bo'ldi; **III. se peser** *vpr* o'lchanmoq, tortilmoq; **il se pèse tous les matins** u har kuni ertalab o'zini tortib ko'radi.

**peseta** *nf* peseta (*Ispaniya pul birligi*).

**peso** *nm* peso (*ko'pchilik lotin Amerikasi mamlakatlarining tangasi*).

**pessimisme** *nm* pessimizm, umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik; ruhi tushganlik.

**pessimiste** *adj, n* pessimist, ruhi tushgan kishi, kelajakka ishonchsizlik, umidsizlik bilan qaraydigan kishi; **ses malheurs l'ont rendue pessimiste** baxtsizliklari uni pessimist qilib qo'ydi; **une vue pessimiste du monde** dunyoga umidsizlik bilan qarash; **un pessimiste invétéré** ashaddiy pessimist.

**peste** *nf* **1.** o'lat, vabo; **être atteint de la peste** o'lat tekmoq; **la peste de Londres** London o'lati; **2.** *agr* o'lat, qirg'in; **peste aviaire, bovine, porcine** parranda, qoramol, cho'chqa qirg'ini; **3.** *loc fam* **fuir, craindre qqch ou qqn comme la peste** biror narsadan, biror kimsadan o'latdan qochganday qochmoq, qo'rqqanday qo'rqmoq; **4.** *vx* jin ursin!, iy, iye, iyi, iyya; **peste! ça c'est un homme!** iye, bu bir kishi ekan! **5.** zahar, simyon, yomon xotin yoki qiz; **quelle petite peste!** zahar zumrashani qarang!

**pester** *vi* his-tuyg'uni kuchli ifodalamoq, so'kinmoq, achchiqlanmoq; **nous pestions contre le mauvais temps** bizning yomon havodan jahlimiz chiqar edi.

**pesticide** *anglic* **I.** *adj* qishloq xo'jaligida ishlatiladigan zaharli kimyoviy moddalarga oid, zaharli kimyoviy, doriga oid; **II.** *nm* zaharli kimyoviy vositalar, dori (*qishloq xo'jaligida*); **épandage de pesticides par hélicoptère** zaharli kimyoviy vositalarni vertolyotdan sepish.

**pestiféré, ée** *adj, n* o'lat, vabo tekkan; **on le fuit comme un pestiféré** undan o'lat tekkandan qochganday qochishadi.

**pestilence** *nf* sassiq, qo'lansa, badbo'y hid; **pestilence qui se dégage d'un tas d'ordures** axlat uyumidan chiqayotgan qo'lansa hid.

**pestilentiel, ielle** *adj* sassiq, qo'lansa, badbo'y; **des miasmes pestilentiels** qo'lansa zaharli chirindi bug'lari.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pet** *nm fam* yel, dam, gaz, oʻsiriq; **lâcher un pet** yel chiqarmoq, oʻsirib qoʻymoq; *loc fam* **ça ne vaut pas un pet, un pet de lapin** bu itning oʻsirigʻiga ham arzimaydi (*bu hech narsaga arzimaydi*); **filer comme un pet sur une toile cirée** tez qochib qolmoq.

**pétale** *nm* gulbarg, gultojbarg; **les pétales blancs d'une marguerite** moychechakning oq gulbarglari.

**pétanque** *nf* soqqa oʻyini (*Fransiyaning janubida*).

**pétant, ante** *adj fam* bong urganda (*soat*); **à neuf heures pétantes** soat toʻqqizga bong urganda.

**pétaradant, ante** *adj* tarillaydigan, gumbur-gumbur qiladigan, qasir-qusur qiladigan; **des motos pétaradantes** tarillaydigan mototsikllar.

**pétarade** *nf* tarillash, gurillash, gumburlash, qarsillash; **les pétarades d'une motocyclette** mototsiklning tarillashlari.

**pétarader** *vi* tarillamoq, gurillamoq, gumbirlamoq, qarsillamoq; **le camion démarre en pétaradant** yuk mashinasi gurillab qoʻzgʻaldi.

**pétard** *nm* **1.** paqildoq, mushak; **les enfants font claquer des pétards** bolalar paqildoqlarni paqillatishyapti; **2.** *fam* shovqin, janjal, toʻpolon; **qu'est-ce qu'ils font comme pétard!** ular nima qiy-chuv qilishyapti! **il va y avoir du pétard!** u janjalga qoladi! **être en pétard** jahli chiqmoq; **3.** *fam* revolver, toʻpponcha; **il avait sorti son pétard** u revolverini chiqargan edi; **4.** *fam* orqa, ket.

**pétaudière** *nf vx ou plais* qiy-chuvli, toʻs-toʻpolonli, shovqin-suronli yigʻin; **cette réunion est une vraie pétaudière** bu majlis haqiqiy toʻs-toʻpolonli yigʻin.

**pet-de-nonne** *nm* ponchik, karamli gumma.

**péter I.** *vi fam* **1.** yel, havo, gaz chiqarmoq; oʻsirmoq; *loc* **péter plus haut que son derrière, que son cul** oʻziga bino qoʻygan boʻlmoq, oʻzini katta olmoq; **2.** *fam* paqillab, gumbirlab, qarsillab yorilmoq; portlamoq; **des obus pétaient dans tous les coins** har tomonda snaryadlar gumbirlab portlar edi; **II.** *vt vulg* pachaq qilmoq, majaqlamoq; **il lui a pété la gueule** u uning basharasini pachaq qildi; *fam* **péter le feu, péter du feu, des flammes** gʻayrati joʻsh urmoq; **ça va péter des flammes** ish ogʻir boʻladi.

**pète-sec** *n, adj inv* koʻngli qattiq, dagʻal yoki quruq odam; **une directrice pète-sec** koʻngli qattiq direktor ayol.

**péteux, euse** *n* **1.** *fam* qoʻrqoq, yuraksiz, quyon yurak odam; **2.** kamsitilgan, yerga urilgan odam; **il se sent tout péteux** u oʻzini butunlay kamsitilgan hisoblaydi.

**pétillant, ante** *adj* **1.** koʻpiklanadigan, qaynab, vijillab turadigan; **le feu pétille** vijillab turadigan mineral suv; **2.** chaqnagan, porlagan, zukko, yiltillagan, miltillagan; **avoir le regard pétillant de malice** koʻzlari ayyorlikdan yiltillagan boʻlmoq; **un esprit pétillant** zukko aql.

**pétillement** *nm* **1.** qaynab, vijillab turish; **2.** yiltillash, miltillash, jilolanish.

**pétiller** *vi* **1.** chirsillamoq, uchqun taratmoq; **le feu pétille** olov chirsillaydi; **2.** jimillamoq, jilolanmoq, tovlanmoq (*suyuqlik*); **le champagne pétille dans les coupes** shampan vinosi qadahlarda jilolanadi.

**pétiole** *nm* bargning bandi.

**petiot, ote** *adj, n fam* kichkintoy, mittivoy.

**petit[1], ite I.** *adj* **1.** kichik, past boʻyli (*jonli narsa*); **un homme très petit, mais qui n'est pas nain** juda past boʻyli odam, lekin mitti emas; *loc* **se faire tout petit** koʻzga chalinmaslikka harakat qilmoq; **quand j'étais petit** men kichikligimda, yoshligimda; **le petit frère, la petite sœur de qqn** biror kimsaning ukasi, singlisi; **2.** kichkina, kichikkina, jajji (*narsa*); **une petite maison** kichkina uy; **on a fait un petit tour** jinday aylanib keldik; **il a fait un petit somme** u jindak uxlab oldi; **le petit doigt** chinchaloq; **3.** kichik, arzimas, ozgina, andak; **je vous demande une petite minute** men sizning andak vaqtingizni olaman; **une petite somme** arzimas summa; **les petites et moyennes entreprises** kichik va oʻrta korxonalar; **4.** *fam* **comment va cette petite santé?** salomatlikchalari qalay? **un petit coup de rouge** qittay qizilidan; **des bons petits plats** lazzatli ovqatlar; **qu'est-ce qu'elle veut, la petite dame?** xonimcha nimani istaydilar? **quel petit crétin!** qanday tentakvoy! **ma petite maman** onaginam, ayaginam, oyijon; *loc fam* **son petit ami, sa petite amie** jazmani, oʻynashi; **5.** kichik, arzimas; **de petits inconvénients** arzimas noqulayliklar; **encore un petit effort!** yana jinday zoʻr beraylik! **le petit nom** ism; **6.** kichik, ahamiyatsiz, katta mavqega ega boʻlmagan; **les petits gens** kambagʻallar; **les petits commerçants** kichik savdogarlar; *n* **ce sont toujours les petits qui trinquent** doim kambagʻallar otishadi, ichishadi; **7.** arzimas, kichik, oʻrta-miyona, ahamiyatsiz, shunchaki, ikkinchi darajali; **les petits poètes** ikkinchi darajali shoirlar; **petits soins** e'tibor, mehribonlik; **II.** *n* **1.** bola, yosh bola; **le petit, ce petit** bola, bu bola; **les tout-petits** chaqaloqlar, jajjilar; **la cour des petits et celle des grands** yoshlar va kattalar hovlisi; **hé, petit! va porter ça à ta mère** he bola! manavini onangga olib borib ber; **2.** hayvon bolasi; **la chatte a fait ses petits** mushuk bola tugʻdi, bolaladi, tugʻdi; *fam* **son argent a fait des petits** uning puli tugʻdi (*foyda keltirdi*); **3.** bola, farzand, zurriyot; **les petites Durand** kichik duranlar (*Duranning qizlari*).

**petit[2]** *adv* **petit à petit** sekin-asta, oz-ozdan; **petit à petit il aménage sa maison** u oz-ozdan uyini tartibga solyapti; *prov* **petit à petit l'oiseau fait son nid** qimirlagan qir oshar; **2. en petit** kichik holda; **je voudrais la même chose, mais en tout petit** men xuddi shu narsani xohlar edim, lekin ozginasini.

**petit-beurre** *nm* pecheniy.

**petit-bourgeois, petite-bourgeoise** *n, adj* mayda burjua, mayda burjuaziyaga oid.

**petite-fille** *nf* qiz nevara; **ils ont quatre petites-filles et trois petits-fils** ularning toʻrtta qiz va uchta oʻgʻil nevaralari bor.

**petitement** *adv* **1.** kambagʻallik bilan, bechoragina; **être logé petitement** tor joyda yashamoq; **2.** *fig* **il vivait petitement de son travail** u oyligiga bir nav qilib yashardi; **3. se venger petitement** pastkashlarcha oʻch olmoq.

**petite-nièce** *nf* kichik amakivachcha, yoki kichik xolavachcha qiz (*jiyan yoki xolavachchaning qizi*).

**petitesse** *nf* **1.** kichiklik, pastlik; **la petitesse de ses mains, de sa taille** qoʻllarining kichikligi, boʻyining pastligi; **la petitesse de ses revenus** daromadining ozligi; **2.** kichikligi, ozligi, yetishmasligi; **petitesse d'esprit** aqlning kamligi, pastligi; **3.** pastkashlik, pastkashliklar; **les petitesses d'un grand homme** ulugʻ odamning pastkashliklari.

**petit-fils** *nm* nevara.

**petit-gris** *nm* **1.** sibir olmaxonining moʻynasi; **un manteau en petit-gris** sibir olmaxonining moʻynasidan qilingan palto; **2.** kulrang uzum shilliq qurti.

**pétition** *nf* ariza, arznoma, iltimosnoma; **faire signer une pétition contre un pollueur** atrof muhitni ifloslantirishga qarshi qoʻl qoʻydirmoq.

**pétitionnaire** *n* arizachi, arizaga qoʻl qoʻyuvchi odam.

**petit-lait** *nm* sut zardobi.

**petit-nègre** *nm* buzib gapirilgan fransuz tili.

**petit-neveu, petite-nièce** *n* kichik amakivachcha yoki kichik xolavachcha oʻgʻil yoki qiz.

**petits-enfants** *nm pl* nevaralar.

**petit-pois** *nm* koʻk noʻxat.

**petit-suisse** *nm* tvorogli pishloq.

**pétochard, arde** *adj, n fam* qoʻrqoq, yuraksiz.

**pétoche** *nf fam* qoʻrqmoq, dahshatga tushmoq; **avoir la pétoche** qoʻrqib ketmoq, yuragi chiqib ketmoq.

**pétoire** *nf fam* yomon miltiq.

**peton** *nm fam* oyoqcha; **l'enfant joue avec ses petits petons** bola oyoqlarini oʻynatyapti.

**pétoncle** *nm* tojli molluska.

**pétrel** *nm* boʻronqush.

**pétrifiant, ante** *adj* toshga aylantiruvchi; *fig* hayratda qoldiradigan, hayron qoldiradigan.

**pétrification** *nf* **1.** toshga aylanish; **2.** toshqotganlik.

**pétrifier I.** *vt* **1.** toshga aylantirmoq; **crâne pétrifié** toshqotgan kalla suyagi; **2.** tosh bilan qoplamoq; **concrétions pétrifiées** toshqotgan sizotlar (*skalaktit, stalagmitlar*); **3.** toshday, haykalday qotirib qoʻymoq; **cette nouvelle la pétrifia** bu yangilik uni haykalday qotirib qoʻydi; **être pétrifié de terreur** qoʻrquvdan qotib, dong qotib qolmoq; **II. se pétrifier** *vpr* toshga, mineralga aylanmoq; toshqotmoq.

**pétrin** *nm* **1.** xamirtogʻora; xamirqorgʻich; **2.** *fam* qiyin ahvol, mushkulot; **se fourrer dans le pétrin** botqoqqa, loyga botmoq; **quel pétrin!** qanday mushkulot!



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pétrir** *vt* **1.** qormoq, iylamoq; **le boulanger pétrit la pâte en l'aérant** novvoy xamirni shabadalatib qoryapti; **2.** g'ijimlamoq, ezmoq, ezg'ilamoq, mijig'lamoq; **il pétrissait son chapeau entre ses doigts** u shlapasini bormoqlari orasida ezg'ilar edi; **le masseur lui pétrit les mollets** massajchi uning boldirlarini ezg'ilayapti; **3.** *litt* yasamoq, shakl bermoq; **être pétri d'orgueil** g'ururga qorilgan bo'lmoq; **il est pétri de bonne volonté** u, uning turgan-bitgani yaxshilik, u yaxshilikdan yaratilgan.

**pétrissage** *nm* qorish, iylash; **pétrissage à main, mécanique** qo'lda, mashinada qorish.

**pétrochimie** *nf* neftexímiya.

**pétrochimique** *adj* neftexímiyaga oid, neftexímiya; **usine, installation pétrochimique** neftexímiya zavodi, korxonasi.

**pétrographie** *nf* petrografiya (*geologiyaning tog' jismlarini o'rganadigan bo'limi*).

**pétrole I.** *nm* **1.** neft; **2.** kerosin, yermoy; **II.** *adj inv* **bleu pétrole** ko'kimtir kulrang; **des vestes bleu pétrole** ko'kimtir kulrang kurtkalar.

**pétrolette** *nf vx* moped, motorli velosiped.

**pétrolier, ière I.** *nm* **1.** tanker, neft tashuvchi kema; **2.** neftchi; **II.** *adj* **1.** neftga oid, neft; **l'industrie pétrolière** neft sanoati; **2.** neft qidiruvchi; **géologue pétrolier** neft qidiruvchi geolog.

**pétrolifère** *adj* neftli, neftga boy; **région, gisement, champ pétrolifère** neftga boy hudud, kon, maydon.

**pétulance** *nf* dadillik, epchillik, sho'xlik, o'ynoqilik, chaqqonlik; **la pétulance des jeunes gens** yoshlarning sho'xligi.

**pétulant, ante** *adj* dadil, epchil, sho'x, o'ynoqi, chaqqon; **une joie pétulante** sho'x xursandchilik.

**pétunia** *nm* petunya (*gullari karnaysimon dekorativ o'simlik*); **de beaux pétunias** go'zal petunyalar.

**peu** *adv* **1.** oz, kam; kamgina, ozgina narsa; yetarli emas; **un peu de** ozgina, bir oz, jinday, qittak; **un peu de sel** ozgina tuz; *loc* **ce n'est pas peu dire** bu hazil gap emas; **éviter un ennui de peu** zerikishdan zo'rg'a qutulmoq; **à peu près** taxminan, yaqin; *fam* **très peu pour moi** mening chatog'im yo'q; **c'est peu, trop peu** bu kam, juda kam; **peu à peu** oz-ozdan, sekin-asta; **peu à peu le feu gagnait les étages** sekin-asta alanga etajlarni qoplab olardi; **en peu de temps** bir ozdan so'ng; **depuis peu, il y a peu** yaqinda, biroz oldin; kam odam, kamchilik; **2.** oz, kam, kam miqdorda; **cette lampe éclaire peu, très peu** bu chiroq yomon, juda yomon yoritadi **si peu que ce soit** oz bo'lsada; **un tant soit peu** anchagina; **tu me parais un tant soit peu susceptible** sen menga anchagina zehnli ko'rinasan; *loc prép* **pour peu que** ozgina, salgina; **pour peu qu'on le contrarie, il devient agressif** unga salgina qarshilik qilsang, u tajovuzkor bo'lib qoladi; **3. un peu** ozgina, jindak; **elle l'aime un peu** u uni ozgina sevadi; **un petit peu** ozgina, salgina, biroz; **il va un petit peu mieux** uning ahvoli biroz yaxshi; *litt* **quelque peu** anchagina; **il se sentait quelque peu malade** u o'zini anchagina kasal his qilardi; *fam* **un peu** iltimos! (*buyruqni amalga oshirish yoki tanbeh uchun*); **je vous demande un peu!** men sizdan iltimos qilaman! *iron* ortiqcha, ancha, juda; **c'est un peu fort** orttirib yubordingiz; **un peu beaucoup** juda ortiqcha; **peu!** hozir!

**peuchère** *intj* voy bo'y! bechora!

**peuh** *intj* qara-ya!, endi ko'ribmanmi!, ko'rmaganmidim! **peuh! ça m'est égal** endi ko'ribmanmi! menga bari bir.

**peuplade** *nf* qabila; **une peuplade d'Amazonie** Amazoniya qabilasi.

**peuple** *nm* **1.** xalq, millat, aholi; **relatif au peuple** xalqqa oid; **gouvernement du peuple** xalq hokimiyati; **le peuple en armes, en guerre** grajdanlar urushi, urush holatidagi xalq; **2.** oddiy kishilar, odamlar, oddiy xalq, omma; **un peuple en armes** grajdanlar urushi holatidagi xalq; **le peuple et la bourgeoisie** yo'qsillar va burjuaziya; *vx ou iron* **homme, femme, gens du peuple** avom erkak, ayol, odamlar; **elle est jolie, mais elle fait peuple** u chiroyli, lekin oddiy xalqning qilig'ini qiladi; **3.** odamlar, xaloyiq, xalq; **une place encombrée de peuple** odamlar bilan to'la maydon; *fam* **il y a du peuple** odam bor; *loc fam* **se ficher du peuple** odamlarga tupirmoq; **tu te fous du peuple** sen odamning ustidan kulyapsan; *litt* **un peuple de** juda ko'p, tumonat, bir to'da, hisobsiz; **s'entourer de tout un peuple d'admirateurs** tumonot muhlislari bilan o'ralmoq.

**peuplé, ée** *adj* odamlar yashaydigan, xalq joylashgan, aholisi bor (*zich, ko'p*).

**peuplement** *nm* **1.** ko'chib borib egallash, o'rnashish, joylashish; **2.** o'stirish, parvarish qilish, ko'paytirish (*hayvon*); **le peuplement d'un étang** hovuzga baliq qo'yish; **3.** aholining zichligi, oz-ko'pligi; **évolution du peuplement** aholi zichligining o'sishi.

**peupler I.** *vt* **1.** odamlar o'rnashtirmoq, joylashtirmoq, ko'chirib borib obod qilmoq; **2.** yashamoq, egallamoq, o'rnashmoq, joylashmoq; **les hommes qui peuplent la terre** yerda yashayotgan odamlar; **3.** ishg'ol qilmoq, egallamoq; **les étudiants qui peuplent les universités** universitetlarni egallagan talabalar; **II. se peupler** *vpr* aholi bilan to'lmoq, egallanmoq, ishg'ol etilmoq.

**peupleraie** *nf* terakzor.

**peuplier** *nm* **1.** terak; **peupliers blancs** oq teraklar; **peuplier tremble** tog'terak, ansol; **2.** terak (*yog'ochi*).

**peur** *nf* **1.** qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish; **la peur de la mort** o'lim vahimasi; **la peur de mourir** o'lib qolishdan qo'rqish; **2.** qo'rqib ketish, dahshatga tushish; **une peur bleue, intense** dahshatli, kuchli qo'rqinch; **3.** *loc* **avoir peur** qo'rqmoq; **faire peur** qo'rqitmoq; **tout lui fait peur** hamma narsa uni qo'rqitadi; **4. par peur de, de peur de** *loc prép* qo'rqinchdan, qo'rqqanidan; **il a menti de peur d'être puni** u jazolanishdan qo'rqqanidan yolg'on gapirdi; *loc prép* **de peur que, par peur que** deb qo'rqqanidan; **il a menti de peur qu'on (ne) le punisse** u jazolashmasin deb qo'rqqanidan, yolg'on gapirdi.

**peureusement** *adv* qo'rqib, qo'rqqanidan.

**peureux, euse** *adj* **1.** qo'rqoq, yuraksiz; **un enfant peureux** qo'rqoq bola; *n* **c'est un peureux** bu qo'rqoq; **2.** qo'rqqan, qo'rqib ketgan, yuragi tushib qolgan; **il alla se cacher dans un coin, tout peureux** butunlay qo'rqib ketgan holda, u bir burchakka borib yashirindi.

**peut-être** *adv* **1.** balki, ehtimol, shoyad, ajab emas; **ils ne viendront peut-être pas** balki ular kelmas; **je vais peut-être partir** balki men ketib qolaman.

**pèze** *nm sing fam* pul, aqcha.

**pff(t), pfut** *intj* befarqlikni, yoqtirmaslikni bildiradi; **pfft…! il en est bien incapable** he…! u bunga qodir emas.

**ph** kislotalilikning o'lchash birligi.

**phacochère** *nm* Afrika yovvoyi to'ng'izi.

**phagocyte** *nm* fagotsit (*yot zarralar va bakteriyalarni yutish hamda hazm qilish xususiyatiga ega bo'lgan hujayra*); **phagocytes mobiles** harakatchan fagotsitlar.

**phagocyter** *vt* **1.** fagotsitoz yordamida yemirib yubormoq; **2.** *fig* yutib va yemirib yubormoq; **ce groupe a été phagocyté par un grand parti** bu guruh katta bir qism tomonidan yutilib ketdi.

**phagocytose** *nf* fagotsitoz.

**phalange**[1] *nf* **1.** *vieilli* falanga (*yunonlarda piyoda askarlarning jips safga tizilgan ko'p qatorli jangovar tartibi*); *litt* armiya, jangovor qator; **2.** o'ta o'ng militaristik siyosiy guruh.

**phalange**[2] *nf* **1.** barmoq suyagi; **2.** barmoq bo'g'ini; **la seconde phalange de l'index** ko'rsatkich barmoqning ikkinchi bo'g'ini.

**phalanstère** *nm* **1.** falanster; **2.** shu guruh yashaydigan joy.

**phalène** *nf ou m* tungi kapalak.

**phallique** *adj* fallosga oid.

**phallocrate** *n* ayollarga past nazar bilan qarovchi odam.

**phallus** *nm inv* **1.** fallos, tarang holatdagi olat; **2. phallus impudique** qo'ziqorinning bir turi.

**phantasme** *nm voir* **fantasme**.

**pharamineux** *adj voir* **faramineux**.

**pharaon** *nm* fir'avn (*Qadimgi Misr podshohlarining nomi yoki unvoni*); **les momies des pharaons** fir'avnlar mumiyosi.

**pharaonique** *adj* fir'avnlarga xos, fir'avn.

**phare** *nm* mayoq, mash'al; **phare tournant** aylanuvchi mayoq; **2.** fara; **phares antibrouillard** tumanga qarshi fara; **faire des appels de phares** faralarni lippillatmoq (*belgi berish uchun*); **3.** faraning eng yaxshi yoritgan joyi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pharisien, ienne** *n* **1.** *vieilli* farisey (*qadimgi Iudeyada: boy tabaqalar manfaatini himoya qilgan, mutaassibligi va munofiqligi bilan ma'lum bo'lgan diniy-siyosiy partiyaning a'zosi va shu sektaning diniy jo'hid boshlig'i*); **les évangiles présentent les pharisiens comme responsables de la mort de Jésus** injil fariseylarni Isoning o'limi uchun aybdor deb hisoblaydilar; **2.** *litt péj* ikkiyuzlamachi, munofiq, riyokor.

**pharmaceutique** *adj* farmatsevt va farmatsevtikaga oid; farmatsevtik, farmatsevt(lar), farmatsevtika; **produit pharmaceutique** farmatsevtika mahsuloti.

**pharmacie** *nf* **1.** farmatsevtika, dorishunoslik (*dori tayyorlash, saqlash va bemorlarga berish haqidagi amaliy fanlar majmui*); **préparateur en pharmacie** dorishunos; **2.** apteka, dorixona; **médicament vendu en pharmacie** dorixonada sotilgan dori; **3.** aptechka; **pharmacie portative** ko'tarib yuriladigan aptechka.

**pharmacien, ienne** *n* farmatsevt, dori tayyorlovchi, aptekachi.

**pharmacologie** *nf* farmakologiya (*dorivor maddalarning organizmga ta'siri va ishlatilishini o'rganuvchi fan*).

**pharmacopée** *nf* farmakopeya, dorilar ro'yxati saqlanadigan daftar.

**pharyngien, ienne** *adj* tomoqqa, bo'g'izga oid; tomoq, bo'g'iz.

**pharyngite** *nf* faringit (*tomoq shilliq pardasining shilliqlanishi*).

**pharynx** *nm inv* tomoq, halqum, bo'g'iz.

**phase** *nf* **1.** bosqich, palla, davr; **les phases d'une maladie** kasallikning bosqichlari; **il énuméra les différentes phases de l'opération** u operatsiyaning turli bosqichlarini sanab berdi; **2.** faza, davr; **les phases de la lune** oy fazalari.

**phénicien, ienne** *adj, n* finikiyalik.

**phéniqué, ée** *adj* karbolkaga (*karbol kislotasiga*) oid; karbolkali; **eau phéniquée** karbolkali suv.

**phénix** *nm* **1.** feniks, qoqnus (*qadimgi ba'zi xalqlar mifologiyasida: yonib ketib, kuldan yana paydo bo'la oladigan afsonoviy qush; abadiy yangilanib turish ramzi*); **2.** *bot voir* **phœnix**.

**phénix²** *ou* **phœnix** *nm inv* uyda o'stiriladigan palma.

**phénol** *nm* **1.** *chim* fenol (*karbol kislotasi*); **le phénol est un antiseptique** fenol antiseptik vositadir; **2.** fenollar.

**phénoménal, ale, aux** *adj* kamdan-kam uchraydigan, nodir, noyob, ajoyib; g'oyat zo'r, nihoyatda tengsiz; **un acrobate phénoménal** nihoyatda tengsiz akrobat.

**phénomène** *nm* **1.** *phil* fenomen, hodisa; **étudier le phénomène des éclipses** oy tutilish hodisasini o'rganmoq; **phénomènes physiques et psychologiques** jismoniy va psixologik hodisalar; **2.** kuzatilgan voqea, g'alati yoki hayratli hodisa; **3.** favqulotda o'rganish ob'ekti, voqea, hodisa; **un article sur le phénomène de la violence** zo'rlash hodisasiga bag'ishlangan maqola.

**phénoménologie** *nf* fenomenologiya.

**philanthrope** *n* **1.** insonparvar odam; **2.** saxovatpesha (*muhtojlarga shafqatli, xayr-saxovat qiladigan kishi*); **je suis un commerçant, je ne suis pas un philanthrope!** men savdogarman, saxovatpesha emasman.

**philanthropie** *nf* **1.** insonparvarlik, odamiylik; **2.** beg'arazlik, xolislik.

**philanthropique** *adj* xayr-ehson qilish bidan shug'ullanadigan, filantropik; **organisation philanthropique** filantropik, xayr-ehson qilish bilan shug'ullanadigan jamiyat.

**philatélie** *nf* filateliya (*pochta markalarini kolleksiya uchun yig'ish*).

**philatélique** *adj* filateliya va filatelist(lar)ga oid; filatelistik, filateliya; filatelist(lar); **association philatélique** filatelistlar uyushmasi.

**philatéliste** *n* filatelist (*marka yig'ish bilan shug'ullanuvchi odam*).

**philharmonique** *adj* filarmoniyaga oid; filarmonik, filarmoniya; **orchestre philharmonique** filarmonik orkestr.

**philhellène** *adj, n* XIX asrda, Yunonistonning mustaqilligi uchun kurashuvchi.

**philistin** *nm litt* fikri tor, tor fikrli kishi; **il est un peu philistin** u biroz fikri tor odam.

**philo** *nf fam* falsafa.

**philologie** *nf* filologiya.

**philologique** *adj* filologiyaga oid, filologik, filologiya.

**philologue** *n* filolog (*filologiya mutaxassisi*).

**philosophale** *adj n* falsafaga oid, falsafiy, falsafa; **pierre philosophale** falsafiy tosh (*O'rta asr alximiklari tushunchalariga ko'ra, har qanday metallni oltinga aylantira oluvchi, har qanday kasalga davo bo'luvchi sirli modda*).

**philosophe I.** *n* **1.** faylasuf, filosof; **2.** XVIII asrda hur fikr tarafdorlari; **3.** dono, donishmand; **il vit en philosophe** u donolarcha yashaydi; **II.** *adj* faylasuf, dono, donishmand; **pourquoi se lamenter! il faut être un peu plus philosophe que cela!** nega g'am chekish kerak? bundan ko'ra ham ko'proq faylasuf bo'lish kerak!

**philosopher** *vi* faylasufona fikr yuritmoq, filosofiyaga oid mulohazalar bilan shugullanmoq, filosoflik qilmoq.

**philosophie** *nf* **1.** falsafa; **la philosophie et la science** falsafa va fan; **la philosophie de l'histoire** tarix falsafasi; **2.** falsafa, nazariya; **la philosophie critique de Kant** Kantning tanqidiy falsafasi; **3.** falsafa, mulohaza; **la philosophie orientale** sharq falsafasi; **4.** falsafa, fikr; donolik, donishmandlik, aqllilik; **supporter les revers de fortune avec philosophie** taqdirning bevafoligiga donolik bilan chidamoq.

**philosophique** *adj* **1.** falsafaga oid, falsafiy, falsafa, falsafa nazariyasi; **roman philosophique** falsafiy roman; **2.** chuqur o'ylangan, aql-idrok bilan qilingan, jiddiy; **un mépris philosophique de l'argent** pulga nisbatan jiddiy nafrat.

**philosophiquement** *adv* **1.** faylasuflarcha, faylasufona; **2.** donolarcha, donolik bilan; **accepter philosophiquement son sort** o'z taqdiriga donolarcha rozi bo'lmoq.

**philtre** *nm* sevgi, muhabbat sharbati; **le philtre que Tristan et Iseult ont bu** Tristan va Izolda ichgan sevgi sharbati.

**phlébite** *nf* flebit (*venalarning yallig'lanishi*).

**phlegmon** *nm* flegmona (*biriktiruvchi to'qimalarning yiringlab yallig'lanishi*); **phlegmon des doigts** milkak.

**phobie** *nf* **1.** fobiya, qo'rquv, qo'rqish, qo'rqinch; **obsessions et phobies** vasvasa va qo'rquv; **2.** qo'rquv, yoqtirmaslik, cho'chish; **il a la phobie des réunions familiales** u oilaviy yig'inlardan qo'rqadi.

**phobique I.** *adj* qo'rquvga oid, qo'rquv; **II.** *n méd* **les phobiques et les obsédés** qo'rquv kasaliga uchraganlar va vasvasa kasaliga uchraganlar.

**phœnix** *ou* **phénix** *nm bot* feniks, palma turi.

**phonème** *nm* fonema (*so'z, morfema va ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushi*); **phonèmes et graphèmes** fonemalar va grafemalar.

**phonéticien, ienne** *n* fonetist, fonetikashunos; fonetika mutaxassisi.

**phonétique I.** *adj* fonetikaga oid, fonetika, fonetik; **alphabet phonétique international (A.P.I.)** xalqaro fonetik alifbo; **transcription phonétique** fonetik transkripsiya; **II.** *nf* fonetika (*tilshunoslik fanining nutq tovushlarini o'rganuvchi bo'limi*); **phonétique descriptive** deskriptiv fonetika; **phonétique fonctionnelle** funksional fonetika, fonologiya.

**phonétiquement** *adv* fonetik yo'l bilan, fonetik; **texte transcrit phonétiquement** fonetik yo'l bilan yozilgan matn.

**phonographe** *nm* patefon.

**phonologie** *nf* fonologiya (*fonetikaning fonemalar sistemasini va ularning o'zgarishini o'rganadigan bo'limi*).

**phonologique** *adj* fonologiyaga oid; fonologik.

**phoque** *nf* **1.** tulen (*kurakoyoqlilar oilasiga mansub sut emizuvchi dengiz hayvoni*); *loc* **souffler comme un phoque** ho'kizday pishqirib nafas olmoq; **2.** tulen mo'ynasi; **manteau de phoque** tulen mo'ynasidan qilingan palto.

**phosphate** *nm* fosfat (*mineral modda, fosfor kislotasining tuzi*).

**phosphore** *nm* fosfor; **bombe (incendiaire) au phosphore** yondiruvchi bomba.

**phosphorer** *vi fam* aql bilan fikr yuritmoq, ishlamoq.

**phosphorescence** *nf* **1.** fosforning nur taratishi; **2.** ba'zi moddalarning qayta nur taratish xususiyati.

**phosphorescent, ente** *adj* nur taratuvchi; **cadran phosphorescent d'une montre** soatning nur taratuvchi, yonuvchi siferblati.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**photo I.** *nf* **1.** suratga olish, fotografiya; **2.** fotosurat, rasm; **II.** *adj inv* foto; **appareil photo** fotoapparat.

**photocomposer** *vt* fotografiya usulida (*rasmga olish yo'li bilan*) tuzilgan; **livre photocomposé** fotografiya usulida tuzilgan kitob.

**photocomposition** *nf* fotografiya usulida tuzish.

**photocopie** *nf* fotokopiya, fotoko'chirma, fotonusxa.

**photocopier** *vt* fotokopiya qilmoq, nusxa ko'chirmoq; **faire photocopier un diplôme** diplomni fotokopiya qildirmoq.

**photocopieur** *nm ou* **photocopieuse** *nf* fotonusxa ko'chiruvchi mashina.

**photo-électrique** *adj* **1.** fotoelektrik; **2.** fotoelement.

**photogénique** *adj* fotobop, suratbop; **un visage photogénique** suratbop qiyofa, yuz.

**photographe** *n* **1.** fotograf, fotosuratchi; **le photographe d'un journal** gazeta fotografi; **les grands photographes sont des artistes** katta fotograflar san'atchilardir; **2.** fotografiyaga taalluqli ishlar bilan shug'ullanuvchi odam; **studio de photographe** fotograf studiyasi.

**photographie** *nf* **1.** suratga olish (*texnikasi*); **2.** suratga olish, fotografiya; **3.** fotosurat, rasm; **faire, prendre une photo** rasmga tushirmoq, olmoq.

**photographier** *vt* suratga, rasmga tushirmoq, olmoq; **se faire photographier** rasmga, suratga tushmoq.

**photographique** *adj* fotografiyaga, rasmga olishga, tushirishga oid, fotografik; **technique photographique** fotografiya (*rasmga olish*) texnikasi.

**photograveur, euse** *n* fotogravyurachi.

**photogravure** *nf* fotogravyura (*metall plastinkaga tushirib bosilgan surat nusxasi*).

**photométrie** *nf* fotometriya (*optikaning yorug'lik kuchini o'lchash bilan shug'ullanuvchi bo'limi*).

**photon** *nm* foton (*yorug'lik zarrachasi, kvanti*).

**photopile** *nf* quyosh batareyasi.

**photosynthèse** *nf* fotosintez (*o'simliklarda yorug'lik ta'sirida anorganik moddalardan organik moddalar hosil bo'lish jarayoni*).

**phrase** *nf* **1.** ibora, jumla, gap; **phrase simple; complexe** sodda, qo'shma gap; **mélodie, intonation, ponctuation de la phrase** gapning ohangi, talaffuzi, yozilishi; **ordre et construction de la phrase** gapning tartibi va tuzilishi; **dire, prononcer une phrase** bir so'z aytmoq; **échanger quelques phrases** bir-ikki og'iz so'zlashmoq; **2.** *pl* balandparvoz, quruq gap; **faire des phrases** balandparvoz gaplar qilmoq; **sans phrases** balandparvoz gaplarsiz; **3.** *mus* fraza (*musiqaviy asarning tugal bir bo'lagi*); **phrase mélodique** melodik fraza.

**phrasé** *nm mus* fraza tuzish uslubi.

**phraséologie** *nf* **1.** til, til uslubi; **la phraséologie administrative** ma'muriyat tili; **2.** frazeologiya (*barqaror so'z birikmalari majmui*).

**phraser** *vt mus* aniq ifodalamoq, frazalamoq (*kuyning ayrim muhim joylarini aniq va ravshan ifoda etmoq*).

**phraseur, euse** *n* safsataboz, olibqochar, gapsotar, quruq odam; *adj* **il est un peu phraseur** u biroz safsataboz.

**phrygien, ienne** *adj* frigiyalik.

**phtisie** *nf* **1.** *vx* o'pka kasalligi, o'pka tuberkulyozi, sil, sil kasalligi; **2. phtisie galopante** tez avj oladigan sil kasalligi.

**phtisiologue** *n* ftiziator (*sil kasalligini davolovchi vrach*).

**phtisique I.** *adj vieilli* silga (*sil kasaliga yo'liqqan*), sil; **II.** *n* sil odam, sil kasal (*sil kasaliga uchragan odam*).

**phylloxéra** *n* filloksera, kuyakana, shira.

**physicien, ienne** *n* fizik (*fizika mutaxassisi, olimi*); **les physiciens et les chimistes** fiziklar va ximiklar; **une physicienne du noyau atomique** atom yadrosi bilan shug'ullanuvchi fizik ayol.

**physicochimique** *adj* fizik-ximik; fizik-kimyoviy; **les conditions physicochimiques de la vie, des phénomènes biologiques** hayotning fizik-kimyoviy sharoitlari, biologik hodisalar.

**physiologie** *nf* fiziologiya (*organizmning yashash faoliyati va uning funksiyalari haqidagi fan*); **physiologie végétale, animale, humaine** o'simliklar, jonivorlar, odam fiziologiyasi.

**physiologique** *adj* **1.** fiziologiyaga oid; fiziologik; fiziologiya; **2.** fiziologik, jismoniy; **l'état physiologique du malade** kasalning fiziologik, jismoniy holati.

**physiologiquement** *adv* fiziologik jihatdan, fiziologik tomondan.

**physiologiste** *n* fiziolog (*fiziologiya mutaxassisi*); **une physiologiste renommée** mashhur fiziolog.

**physionomie** *nf* **1.** yuz, bet, chehra; aft, bashara; qiyofa; **sa physionomie s'anima** uning chehrasi jonlandi; **jeux de physionomie** yuz imo-ishorasi; **2.** ko'rinish, qiyofa; **la physionomie de ce pays a changé** bu yurtning qiyofasi o'zgardi.

**physionomiste** *adj* fizionomist (*bir ko'rishda eslab qoladigan odam*); **vous ne le reconnaissez pas? vous n'êtes pas physionomiste** siz uni tanimaysizmi? siz fizionomist emas ekansiz.

**physique[1] I.** *adj* **1.** fizik, moddiy; **le monde physique** moddiy dunyo; **géographie physique et humaine** ijtimoiy va fizik geografiya; **2.** jismoniy; **je suis fatigué, c'est purement physique** men charchadim, haqiqiy jismonan; *loc* **éducation, culture physique** jismoniy tarbiya; **état physique** jismoniy holat; **troubles physiques** fiziologik o'zgarishlar; **souffrance physique** jismoniy azob; **dégoût, horreur physique** tabiiy jirkanish, qo'rqish; *fam* **c'est physique** bu tabiatan, o'zi shunday; **3.** jinsiy; **amour physique** jinsiy aloqa; **4.** fizik, tabiiy; **les sciences physiques** tabiiy fanlar; **5.** fizikaviy va jismoniy tomonlarga oid; **propriétés physiques et chimiques d'un corps** jismning fizikaviy va kimyoviy xossalari; **II.** *nm* **1.** odamning fizik, jismoniy tomoni; **au physique** jismonan, fizik tomondan; **il est brutal, au physique comme au moral** u ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan qo'pol; **2.** qiyofa, ko'rinish, yuz, chehra, aft, bashara; **il, elle a un physique agréable** uning chehrasi yoqimli; *loc* **avoir le physique de l'emploi** qiyofasiga kirib olmoq.

**physique[2]** *nf* fizika; **physique expérimentale** amaliy fizika; **physique atomique, nucléaire** atom, yadro fizikasi; **domaines de la physique** fizikaning sohalari; **physique de globe, des astres, de la vie** geofizika, astrofizika, biofizika.

**pi** *nm math* "pi" (π) soni.

**piaf** *nm fam* chumchuq, chittak.

**piaffant, ante** *adj* sabrsizlik qiluvchi, sabrsiz, shoshuvchi, depsinuvchi; **ils sont piaffants d'impatience** ular sabrsizlikdan depsinishyapti.

**piaffement** *nm* tuyoqlarini yerga urish, depsinish.

**piaffer** *vi* **1.** yer tepmoq, depsinmoq (*ot haqida*); **2.** depsinmoq, yer tepmoq (*odam*); **piaffer d'impatience** sabrsizlikdan depsinmoq.

**piaillement** *nm* **1.** chiyillash, chirqillash, chirillash, chip-chiplash; **2.** qiy-chuv; **les piaillements d'une bande d'enfants** bir to'da bolalarning qiy-chuvi.

**piailler** *vi fam* **1.** chiyillamoq, chirqillamoq, chip-chiplamoq (*qushlar*); **2.** chinqirmoq, chiyillamoq, chirillamoq, chinqirib yig'lamoq; **enfant, marmot qui piaille** chinqirib yig'layotgan bola, chaqaloq.

**piailleur, euse** *n, adj fam* chiyildoq, chinqiroq; **quel piailleur!** muncha chinqiroq ekan! **des mioches piailleurs** chinqiroq mittivoylar.

**pian** *nm* frambeziya; **le pian frappe de nombreux enfants d'Afrique noire** qora Afrikaning ko'pchilik bolalariga frambeziya tegdi.

**pianissimo** *adv mus* pianissimo (*juda sekin, past ovoz bilan*).

**pianiste** *n* pianinochi, pianino chaluvchi (*mutaxassis*); **elle est très bonne pianiste** u juda yaxshi pianinochi.

**piano[1]** *nm* pianino; **les touches, les pédales d'un piano** pianinoning klavishlari, pedallari; **piano droit** pianino; **piano à queue** royal; **ce vieux piano est désaccordé** bu eski pianino nosoz ekan; *fam* **casserole** shalog'i chiqqan pianino; **accorder un piano** pianinoni sozlamoq; **jouer du piano** pianino chalmoq; **piano mécanique** mexanik pianino; **piano à bretelles** akkordion; **piano électrique, électronique** sintetizator.

**piano[2]** *adv mus* **1.** piano (*sekin, ohista, past ovoz bilan*); **il faut jouer ce passage piano** bu parchani ohista chalish kerak; **2.** *fam* sekin, sekin-asta, ohista; **vas-y piano!** sekin-asta bor!

**pianotage** *nm* **1.** pianinoni bilar-bilmas chalish, ding'illatish, ting'illatish; **2.** biror narsani barmoqlari bilan nog'ora qilib chalish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pianoter** *vi* **1.** pianinoni bilar-bilmas chalmoq; **2.** biror narsani barmoqlari bilan nogʻora qilib chalmoq; **pianoter sur une table** stolni barmoqlari bilan nogʻora qilib chalmoq.

**piastre** *nf* **1.** *vx* tillo tanga; **2.** misr, livan, sudan, suriyada livrning yuzdan biri; **3.** *fam* Kanada dollari (*Kanadada*).

**piaule** *nf fam* uy, turar joy, xona, in; **rentrer dans sa piaule** oʻzining iniga qaytmoq.

**piaulement** *nm* **1.** (*kichik qushlar*) chirqillash, chiyillash, chiy-chiylash, chip-chiplpsh; **2.** qiy-chuv solish, chirqillash.

**piauler** *vi* **1.** (*mayda qushlar*) chirqillamoq, chiyillamoq, chiy-chiy qilmoq; **2. les enfants piaulaient et pleurnichaient** bolalar chirqillashar va burunlarini tortishar edi.

**P.I.B.** *nm inv* yalpi ichki mahsulot.

**pic**[1] *nm* koʻk qizilishton.

**pic**[2] *nm* choʻkich (*konchilarda*).

**pic**[3] *nm* choʻqqi, togʻ choʻqqisi; **l'ascension d'un pic** choʻqqiga chiqish, choʻqqini zabt etish; **des pics enneigés** qorli choʻqqilir; **à pic** *loc adv* **1.** vertikal, tik; **rochers qui s'élèvent à pic au-dessus de la mer** dengiz uzra tik koʻtarilib turgan qoya; *adj* **montagne à pic** tik togʻ; **un bateau qui coule à pic** tikkasiga choʻkib borayotgan kema; **2.** *loc fam* oʻz vaqtida, ayni vaqtida, ayni paytida; **vous arrivez à pic** siz ayni vaqtida keldingiz; **ça tombe à pic** bu ayni paytida boʻldi.

**picador** *nm* nayzador (*hoʻkiz urishida ishtirok etuvchi otliq nayzador*).

**picaillons** *nm pl fam* pul, aqcha; **donne-moi les picaillons** aqchadan ber.

**picaresque** *adj* **roman picaresque** makkorlik haqidagi roman.

**piccolo** *ou* **picolo** *nm* kichik nay, pikkalo.

**pichenette** *nf* chertki, chertish.

**pichet** *nm* tumshuqli kuvacha, koʻzacha, xumcha; **boire un pichet de vin** bir xumcha vino ichmoq.

**pickles** *nm pl* pikuli (*ziravorlab, sirkalab tayyorlangan mayda sabzavot*); **un bocal de pickles** bir bokal pikuli.

**pickpocket** *nm* kissavur, choʻntak oʻgʻrisi; **méfiez-vous des pickpockets** kissavurlardan ehtiyot boʻlinglar.

**pick-up** *nm inv anglic vx* adapter, proigrivatel; **il a vendu ses deux vieux pick-up pour acheter une chaîne** u tillo zanjir olish uchun, oʻzining ikkita eski proigrivatelini sotdi.

**picoler** *vi fam* ichkilikbozlik, aroqxoʻrlik qilmoq; **il s'est mis à picoler** u ichkilikka berilib ketdi.

**picoleur, euse** *n fam* ichkilikxoʻr, aroqxoʻr, alkash.

**picolo** *nm voir* **piccolo**.

**picorer I.** *vi* **1.** don, yemish qidirmoq (*qushlar*); **les poules qui picorent sur le fumier** goʻngning ustida don qidirayotgan tovuqlar; **2.** juda oz yemoq, choʻqilamoq; **II.** *vt* choʻqilamoq, choʻqilab yemoq; **des poussins qui picorent des miettes de pain** non ushoqlarini choʻqilayotgan joʻjalar.

**picot** *nm techn* gʻadir-budir, tishli qism, detal; **roue à picots** tishli gʻildirak.

**picotement** *nm* sanchish, qichishish; **éprouver des picotements dans la gorge** tomogʻi qichimoq.

**picoter** *vt* choʻqilamoq; sanchib-sanchib qoʻymoq, chimchilab-chimchilab qoʻymoq, achishtirmoq (*qushlar*); **la fumée picote les yeux** tutun koʻzni achishtiryapti.

**picotin** *nm* otga beriladigan bir oʻlcham suli.

**picrate** *nm fam* sifatsiz qizil vino; **il buvait ses deux litres de picrate par jour** u kuniga ikki litr sifatsiz qizil vinosini ichar edi.

**picrique** *adj* pikrin kislotasi.

**pictogramme** *nm* piktogramma (*piktografiyada ishlatilgan, biror jonzot yoki narsani ifodalagan ramziy rasm*).

**pictographique** *adj* piktografiyaga oid, piktografik; **écriture pictographique** piktografik yozuv.

**pictural, ale, aux** *adj* rassomchilikka oid, rassomchilik; **techniques picturales** rassochilik texnikalari.

**pie**[1] *nf* **1.** hakka, zagʻizgʻon; **la pie jacasse, jase** hakka shaqillayapti; **2.** mahmadona, laqma, ezma, koʻp gapiradigan, shaqildoq odam; **ta voisine, quelle pie!** qoʻshning, muncha shaqildoq ekan!

**pie**[2] *adj inv* chavkar, ola; **cheval, jument pie** chavkar ot, biya.

**pie**[3] *adj loc* **œuvre pie** xudoga yoqadigan, savobli ish.

**pièce**[1] *n* **1.** dona; **un maillot de bains deux-pièces** choʻmilish kiyimi; **une pièce de bétail** bir bosh qoramol; **2.** bir toʻp, toʻp, toy; **une pièce de soie** bir toy shoyi; **3.** boʻlak, parcha, qism; **pièce de terre** bir boʻlak ekin ekiladigan yer maydoni; **pièce d'eau** suv havzasi (*katta yoki kichik hovuz*); **pièce de vin** bir bochka vino; **pièce montée** figurali tort; **4. pièce (d'artillerie)** toʻp, zambarak; **5.** hujjat, qogʻoz; **pièces d'identité** shaxsni bildiruvchi hujjatlar; **pièce à conviction** ashyoviy dalil; **6.** qism, detal; **les pièces d'une machine** mashinaning qismlari; **pièces de rechange** butlovchi qismlar; **pièces détachées** zapas qism; **7.** yamoq; **mettre une pièce à un vêtement** ust-boshga yamoq solmoq; *loc* **être fait d'une seule pièce** yaxlit boʻlakdan qilingan boʻlmoq; **tout d'une pièce** butun, yaxlit boʻlakdan; **être tout d'une pièce** dangal, toʻgʻri boʻlmoq; **fait de pièces et de morceaux** olabayroq; **créer, forger inventer de toutes pièces** butunlay oʻylab topilgan, oʻzidan chiqqan; *loc* **faire pièce à qqn** birovga hazil qilmoq.

**pièce**[2] *nf archit* xona; **un appartement de quatre pièces** toʻrt xonali kvartira; *ellipt* **un deux-pièces cuisine** oshxonali, ikki xonali kvartira, xonadon.

**pièce**[3] *nf* tanga, chaqa; **des pièces d'or** tillo tangalar; **une pièce de cinq francs** besh frankli tanga; *fam* **donner la pièce à qqn** birovga choychaqa bermoq.

**pièce**[4] *nf* **1.** pyesa (*adabiy yoki musiqa asari*); **une pièce de vers** sheʼriy pyesa; **une pièce instrumentale** cholgʻu asboblari uchun yozilgan pyesa; **2.** pyesa (*sahna asari*); **pièce en cinq actes** besh koʻrinishli pyesa; **cette jeune troupe monte une pièce de Molière** bu yosh truppa Molyerning pyesasini sahnalashtiryapti.

**piécette** *nf* chaqa, mayda tanga.

**pied** *nm* **1.** oyoq (*oyoqning oshiqdan pastki qismi*); **doigts de pied** oyoq barmoqlari; **pied plat** yassi oyoqlik; **se fouler le pied** oyogʻini chiqarib olmoq; *loc* **être pieds nus, nu-pieds** oyoqyalang, yalangoyoq boʻlmoq; **passer une rivière à pied sec** daryodan oyogʻini hoʻl qilmay oʻtmoq; **de pied en cap** boshdan oyoq; **mettre pied à terre** tushmoq; **avoir un pied dans la tombe** bir oyogʻi yerda, bir oyogʻi goʻrda boʻlmoq; **coup de pied** tepki; **recevoir un coup de pied** tepki yemoq; *loc fam* **tu es bête comme tes pieds** oʻlgiday ahmoqsan; **j'ai joué comme un pied** men juda yomon chaldim; **marcher sur les pieds de qqn** birovga hurmatsizlik qilmoq; **casser les pieds (de, à qqn)** birovga mijgʻovlik qilmoq; **ça te fera les pieds** bu senga yaxshigina dars boʻladi; **mettre les pieds dans le plat** ishni pachavasini chiqarmoq; **je n'y ai jamais mis les pieds** men u yerga oyoq ham bosmaganman; **il s'est levé du pied gauche** u chap yoni bilan turibdi; **pieds et poings liés** oyoq-qoʻli bogʻlangan; **faire des pieds et des mains pour** + *inf* biror narsa qilish uchun kuyib pishmoq; **attendre qqn de pied ferme** biror kishini dadillik bilan kutmoq; **au pied levé** tayyorgarliksiz; **2.** *loc* (**sur, à, en**) **sur ses pieds, sur un pied** oyoqda, tik turib; **retomber sur ses pieds** qiyin ahvoldan manfaat bilan chiqib olmoq; **sur pied** oyoqda; **dès cinq heures, il est sur pied** soat beshdan beri, u oyoqda; **mettre sur pied une entreprise** korxonani oyoqqa turgʻizmoq; **à pied** piyoda; **allons-y à pied** piyoda ketdik; **course à pied** yugurish; **il a été mis à pied** u ishdan haydalgan, boʻshatilgan edi; **à pieds joints** juft oyoqlab; **en pied** bor boʻyicha; **un portrait en pied** bor boʻyicha chizilgan rasm; **aux pieds de qqn** birovning oldida (*egilib, bukilib*); **se jeter, tomber aux pieds de qqn** birovning oyogʻiga yiqilmoq, bosh urmoq, yolvormoq; **3.** *loc* **avoir pied** suvni boʻylaganda oyogʻi yerga tegib turmoqlik; **perdre pied** oyogʻi yerga yetmaslik; **lâcher pied** yon bermoq, chekinmoq; **4. avoir bon pied, bon œil** hali bardam boʻlmoq; **pied à pied** qadam-baqadam; **5.** oyoq, oyoq tomoni, poya, etak, tag, pastki qism; **le pied et la tête d'un lit** karavotning bosh va oyoq tomoni; **caler le pied d'une échelle** narvonning oyogʻini mahkam joylamoq; **le pied du mur** devorning tagi, pastki qismi; **la maison est au pied de la colline** uy tepalikning tagida, etagida; *typogr* **le pied d'une lettre** literaning pastki qismi, asosi; *loc* **être à pied du mur** burchakka qisib qoʻyilgan boʻlmoq, biror narsa qilishga majbur qilib qoʻyilgan boʻlmoq; **être au**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pied d'œuvre** ishning oldida bo'lmoq; **fruits vendus sur pied** daraxtning shoxida, terilmasdan burun sotilgan meva; **6.** tuyoq (*qassobxonalarda sotiladigan qismi*); **pieds de veau, de mouton, de porc** buzoq, qo'y, cho'chqa tuyog'i; **7.** band, dasta, shoxcha, poya; **pied de vigne** tok, tok zangi; **des pieds de salade** salatning bandlari; **8.** oyoq, poya; **un verre à pied** rumka; **pied de table** stolning oyog'i; *fig* **prendre son pied** o'rnashib olmoq; **9.** fut (*0,324 mga teng uzunlik o'lchovi*); *loc fig* **il aurait voulu être (à) cent pieds sous terre** u yer yorilmadiyu, yerga kirib ketmadi; *vx* **il tirait un nez d'un pied de long** u umidsizlikka tushgan va xijolat bo'lib qolgan edi; **10.** anglo-saksonlarda uzunlik o'lchovi; miliya (*0,3048 m*); aeronavtikada xalqaro balandlik o'lchovi; **l'avion vole à 10 000 pieds** samolyot 10 000 milya balandlikda uchmoqda; **11. au pied de la lettre** so'zma-so'z, aynan; **prendre son pied** maza, huzur qilmoq, rohatlanmoq; **quel pied!** maza, rohat! **c'est le pied** bu juda maza; **12. sur (le, un) pied** -day, darajasida; **être traité, reçu sur le pied de** -day, darajasida muomala qilinmoq, qabul qilinmoq; **sur un pied d'égalité** bir xil darajada, teng; **armée sur le pied de guerre** jangovor shtatdagi armiya; **au petit pied** qisqa, qulochkashlamay; **13. pied à coulisse** qalinlik va diametrni o'lchaydigan asbob; **14.** *poét* turoq; **les pieds d'un vers latin** lotin tilidagi she'rning turog'i.

**pied-à-terre** *nm inv* boshpana, qo'noq; vaqtincha yashaydigan, yo'l-yo'lakay tushib o'tadigan uy; **il a plusieurs pied-à-terre en province** uning qishloqlarda ko'p qo'nog'i bor.

**pied bot** *adj* maymoq.

**pied de nez** *nm* masxara qilmoq (*bosh barmog'ini burnining ustiga qo'yib, qolgan barmoqlarini yozib qilinadigan ishora*); **faire un pied de nez à qqn** biror kishini masxara qilmoq.

**pied-de-poule** *nm* shahmat shaklida to'qilgan mato.

**piédestal, aux** *nm* pyedestal, tagkursi, haykal o'rnatilgan supa; *loc fig* **mettre qqn sur un piédestal** biror kimsani ko'tar-ko'tar qilmoq, katta obro'-e'tibor ko'rsatmoq; **tomber de son piédestal** obro'-e'tiborini yo'qotmoq, mansabidan tushmoq.

**pied-noir** *n fam* jazoirlik fransuz.

**pied-plat** *nm vx* pastkash, razil, qabih, iflos, yaramas odam.

**piège** *nm* **1.** qopqon, tuzoq, to'r; **dresser, tendre un piège** qopqon, tuzoq, to'r qo'ymoq; **un renard pris au piège** qopqonga tushgan tulki; **2.** tuzoq, dom; **on lui a tendu un piège** unga tuzoq qo'yishdi; **il a été pris au piège** u domga ilingan edi; **il est tombé dans le piège** u tuzoqqa tushdi.

**piéger** *vt* **1.** qopqonga, to'rga tushirmoq; tuzoqqa ilintirmoq; **2.** *fam* **piéger qqn** biror kishini tuzoqqa, domiga ilintirmoq; **ils se sont fait piéger** ular o'zlarini tuzoqqa tutib berishdi; **voiture piégée** ichiga bomba o'rnatilgan mashina.

**pie-grièche** *nf* **1.** qarqunoq, olato'g'anoq; **2.** mijg'ov, janjalkash odam, xotin.

**pierraille** *nf* **1.** mayda uchma tosh, shag'al; **2.** toshqotishma (*shag'al va b; qotishmasidan iborat tog' jinsi*).

**pierre** *nf* **1.** tosh; **une collection de pierres** toshlar kolleksiyasi; **un bloc de pierre** xarsang tosh; **pierre de taille** sangtaroshlikda ishlatiladigan tosh; **escalier, cheminée de pierre, en pierre** toshdan qilingan zinapoya, kamin; *loc* **un cœur de pierre** tosh yurak, bag'ri tosh; **l'âge de pierre** tosh asri; **2.** tosh, xarsang; **un tas de pierres** tosh uyumi; **casseur de pierre** tosh chaqmoq; **casseur de pierres** tosh chaquvchi; **jeter des pierres à, sur qqn** birovga tosh otmoq; *loc* **malheureux comme les pierres** g'arib, notovon; **faire d'une pierre deux coups** bir tosh bilan ikki quyonni urmoq; **jeter la pierre à qqn** birovga tosh otmoq, birovni yomonlamoq; **3.** tosh (*biror narsa uchun xizmat qiladigan*); **une pierre à aiguiser** qayroq tosh; **pierre ponce** jilvirtosh, yo'ng'irtosh; **pierre de touche** sinash toshi; **une carrière de pierre** tosh koni; **tailleur de pierres** sangtarosh; **une maison en pierre de taille** yo'nilgan toshdan qurilgan uy; **construction en pierres sèches** loysiz, quruq toshdan terilgan qurilma; **4.** monolit, yaxlit tosh; **pierres levées** tosh maqbaralar; **inscription gravée sur une pierre tombale** qabr toshiga bitilgan yozuv; **5.** qimmatbaho toshlar; **pierre brute** ishlov berilmagan tosh; **pierre taillée** ishlov berilgan, qimmatbaho tosh; **pierres fines** qimmatbaho toshlar; **6.** tanadagi tosh; **maladie de la pierre** sanchiq, sanchib og'rish.

**pierreries** *nf pl* qimmatbaho toshlar; **une couronne sertie de pierreries** qimmatbaho toshlar qadalgan toj.

**pierreux, euse** *adj* **1.** toshli, toshloq; **chemin pierreux** toshloq yo'l; **le lit pierreux du ruisseau** jilg'aning toshloq o'zani; **2.** toshday, toshga o'xshash, tosh; **concrétion pierreuse** tosh qotgan qotishmalar.

**pierrot** *nm fam* chumchuq.

**pietà** *nf inv* o'lik Isoni tizzasida ushlab turgan Bibi Maryam haykali yoki rasmi.

**piétaille** *nf* **1.** piyodalar; **2.** *plais* piyodalar; kichik darajadagi askarlar.

**piété** *nf* **1.** xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik; **des livres, des actes de piété** diniy kitoblar, diniy marosimlar; **2.** *litt* **piété filiale** bolalik mehri, mehr-muhabbati.

**piétinement** *nm* **1.** yer tepish, depsinish; **2.** oldinga siljimaslik, bir joyda turib qolish; **3.** dukur-dukur, dukurlagan oyoq tovushi.

**piétiner I.** *vi* **1.** yer tepmoq, tepinmoq, depsinmoq; **un enfant qui piétine de colère** achchig'idan yer tepayotgan bola; **la foule piétinait sur les trottoirs** olomon trotuarlarda depsinib turar edi; **2.** oldinga siljimaslik, ilgari bosmaslik, bir joyda depsinib turmoq, rivojlanmaslik; **il a l'impression de piétiner, de perdre son temps** u bir joyda depsinib turganga, vaqtini bekorga ketgazayotganga o'xshaydi; **l'enquête piétine** so'rov oldinga siljimayapti; **3.** (*olomon, to'da*) dukur-dukur qilib yurmoq, yugurmoq, chopmoq; **II.** *vt* tepkilamoq, bosib ezmoq, payhon qilmoq; **il jeta la lettre et la piétina** u xatni yerga tashladi va uni bosib ezdi; **ils piétinent l'herbe** ular o'tni payhon qilishyapti; **2.** yanchmoq, bosib yo'q qilmoq, toptamoq, oyoq osti qilmoq; **dans son article, il piétine les traditions** o'z maqolasida u an'analarni oyoq osti qilyapti.

**piéton, onne I.** *n* piyoda, yayov yuruvchi; **les piétons marchent sur les trottoirs** piyodalar trotuarda yurishadi; **II.** *adj* piyodalar, yayovlar uchun; piyodalar, yayovlar; **une rue piétonne** piyodalar yo'li.

**piétonnier, ière** *adj* piyodalarga, yayovlarga mo'ljallangan; piyodalar, yayovlar; **des rues piétonnières** piyodalarga mo'ljallangan yo'llar.

**piètre** *adj litt* arzimaydigan, arzimas, nochor, ko'rimsiz, yomon, faqirona, g'aribona, kulgili; **c'est un piètre réconfort** bu arzimaydigan yordam; **il ferait piètre figure** u faqirona mavqega ega edi.

**piètrement** *adv* yomon, faqirona, g'aribona, nochorlarcha, kulgili; **nous avons été piètrement récompensés** biz nochorlarcha taqdirlangan edik.

**pieu[1]** *nm* qoziq; **les pieux d'une clôture** to'siqning qoziqlari.

**pieu[2]** *nm fam* o'rin, joy, o'rindiq; **au pieu! il est temps de dormir** o'rindiqqa! uxlash vaqti bo'ldi.

**pieusement** *adv* **1.** xudojo'ylik, dindorlik, taqvodorlik bilan; **2.** izzat-hurmat bilan, hurmat-ehtirom bilan; **elle conserve pieusement des souvenirs de sa mère** u onasini izzat-hurmat bilan xotirlaydi.

**pieuter (se)** *fam* o'rniga, joyiga yotmoq.

**pieuvre** *nf* **1.** ro'dapo, osminog (*dengiz hayvoni*); **les tentacules d'une pieuvre** ro'daponing paypaslagichlari; **2.** ushlaganini qo'yib yubormaydigan, yeb to'ymas odam.

**pieux, pieuse** *adj* **1.** xudojo'y, dindor, taqvodor; bu juda ham xudojo'y xotin; **2.** *litt* ezgu, yaxshi niyatli, foydali; **des soins pieux** ezgu g'amxo'rlik.

**pif[1]** *intj* **pif pif!** *ou* **pif paf!** taraq-turuq, qars-qurs, gurs, gup.

**pif[2]** *nm fam* burun.

**pifer** *ou* **piffer** *vt fam* boshdan kechirmoq; ko'rmoq, tortmoq, chekmoq; **je ne peux pas le pifer, le piffer, ce type-là** men buni, bu nusxani yoqtirmayman, ko'rsam jinim qo'zg'aydi (*jinim yoqtirmaydi*).

**pifomètre (au)** *loc adv fam* chamalab, his qilib, sezgi bilan, fahmlab; **j'ai choisi au pifomètre** men ko'z chama bilan tanladim.

**pige[1]** *nf* **1.** reyka (*qadimiy o'lchov asbobi va uslubi*); **2.** *fam* yosh; **il a bien quarante-cinq piges** u qirq yoshga to'ldi.

**pige[2]** *nf* harf terishda ishlab chiqarish normasi; **une journaliste payée à la pige** yozganiga qarab haq oladigan jurnalist.

**pige[3]** *nf* birovdan biror sohada o'tib ketmoq, uni orqada qoldirmoq, burnini yerga ishqab qo'ymoq; **pour le travail, il leur faisait la pige à tous** ish bo'yicha, u ularning hammasining burnini yerga ishqab qo'yar edi.

**pigeon[1]** *nm* kaptar (*voyaga yetgan erkagi*); **des pigeons roucoulaient** kaptarlar g'o'-g'ulashar edilar; **paris est envahi de pigeons** Parij kaptarlar tomonidan egallab olingan; **pigeon ramier** govkaptar; **pigeon voyageur** aloqa kaptari.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pigeon**[2] *nm fam* go'l, anqov, laqma odam; tentak, ahmoq; **elle a été le pigeon dans l'affaire** yumushda u anqov edi.

**pigeonnant, ante** *adj* dirkillagan, baland, chiroyli siynali, ko'krakli.

**pigeonne** *nf* kaptar (*urg'ochisi, modasi*).

**pigeonneau** *nm* kaptarning bolasi, yosh kaptar; **des pigeonneaux rôtis** qovurilgan yosh kaptar go'shti.

**pigeonner** *vt fam* ahmoq qilmoq, laqillatmoq, o'ynatmoq, firib bermoq; **elle s'est fait pigeonner** u o'zini ahmoq qildirib qo'ydi.

**pigeonnier** *nm* **1.** kaptarxona; **2.** *plais* bolaxonaga joylashgan kichik xona.

**piger** *vt fam* anglamoq, payqamoq, tushunmoq, yetmoq; **je n'ai rien pigé à ce livre** men bu kitobdan hech narsa anglamadim; **tu as pigé? pigé!** angladingmi, yetdimi? angladim, yetdi!

**pigiste** *n, adj* qilgan ishiga qarab haq oladigan kishi; **traducteur pigiste** qilgan tarjimasiga yarasha haq oladigan tarjimon.

**pigment** *nm* **1.** pigment; **2.** moybo'yoq; **peinture composée d'un diluant, d'une charge et de pigments** erituvchi, poroshok va moybo'yoqdan tashkil topgan bo'yoq.

**pigmentation** *nf* pigmentatsiya (*tirik organizm to'qimalarida pigment hosil bo'lishi*); **la pigmentation de la peau** teri pigmentatsiyasi.

**pigmenté, ée** *adj* pigmentlangan, bo'yalgan; **peau foncée, fortement pigmentée** qoramtir, kuchli pigmentlangan teri.

**pignocher** *vi fam* ishtahasiz yemoq; chimchilab, cho'qilab yemoq; **elle pignoche dans les plats** u ovqatni cho'qilab o'tiradi.

**pignon**[1] *nm* ikki yoqqa nishab tomning tepa qirrasi; **des maisons flamandes à pignons** nishab tomli flamand uylari; *loc* **avoir pignon sur rue** xususiy uy egasi bo'lmoq.

**pignon**[2] *nm* shesternya, tishli g'ildirak; **les pignons de la boîte de vitesse** tezlik qutichasining shesternyasi.

**pignon**[3] *nm* **1.** qarag'ay urug'i; **2. pin pignon** dengiz sohilida o'sadigan qarag'ay.

**pignouf** *nm fam péj* surbet, yuzsiz, orsiz, beadab, dag'al odam.

**pilaf** *nm* palov, osh.

**pilage** *nm* tuymoq; **le pilage du mil** tariq tuymoq.

**pilastre** *nm archit* pilyastra (*bir tomoni devordan chiqib turgan ustun yoki kolonna*); **cheminée à pilastres** pilyastirli kamin.

**pile**[1] *nf* **1.** ko'prik ustuni, ko'prik tiragichi; **les piles du pont** ko'prik ustunlari; **2.** taxlam, to'plam; **une pile d'assiettes, de bois, de livres, de torchons** tarelkalar, yog'och, kitoblar, lattalar taxlami; **mettre en pile** taxlamoq.

**pile**[2] *nf* **1.** batareya; **la pile d'une lampe de poche** cho'ntak lampasining batareyasi; **2.** *vx* **pile atomique** atom reaktori.

**pile**[3] *nf* tanganing orqa qismi, tersi; **pile ou face** o'ngimi tersi (*tortishuvli masalani hal qilishda tanga tashlash*); **tirer, choisir, jouer à pile ou face** tanga tashlamoq; **le côté pile** teskarisi.

**pile**[4] *nf fam* kaltak, ta'zir, sazo; **il lui a fichu une pile** u uni rosa kelishtirib soldi; **son équipe a reçu une de ces piles!** uning komandasi rosa ta'zirini edi.

**pile**[5] *adv* **il s'est arrêté pile** u taqqa to'xtadi; **ça tombe pile** bu ayni paytida bo'ldi; **on est arrivé pile pour le train de onze heures** soat o'ndagi poyezdga ayni vaqtida kelishdi.

**piler**[1] *vi* taqqa to'xtamoq; **il a pilé sur place** u o'rnida taqqa to'xtab qoldi.

**piler**[2] *vt* tuymoq, ezmoq, yanchmoq; **elle pilait du maïs** u makkajo'xori tuyardi; **j'ai envie de le piler tellement il m'exaspère** u mening jonimni juda ham chiqaryapti, uni tuygim bor; **2.** *fam* musht, shapaloq tushirmoq; do'pposlamoq, kaltaklamoq, urmoq; ta'zirini, adabini bermoq; **notre équipe s'est fait piler** bizning komanda ta'zirini yedi (*toza kaltaklandi*).

**pileux, euse** *adj* junga, qilga oid; jun; **le système pileux** jun qoplami.

**pilier** *nm* **1.** ustun, poya, tirgak; **les tambours de pierre d'un pilier** ustunning temir tamburlari; **les piliers d'un temple** ibodatxonaning ustunlari; **piliers de fer** temir ustunlar; **2.** *fig* ustun, suyanchiq, himoyachi; **les piliers du régime** tuzimning ustunlari; **3.** *péj ou plais* kanda qilmay, hech qolmay kelib turadigan odam, hamisha hozir, hoziru nozir, kunda shunda; **un pilier de bistrot** qovoqxonaning kunda shundasi.

**pillage** *nm* talash, talon, talon-toroj, talonchilik; **une ville livrée au pillage** talon-torojga topshirilgan shahar.

**pillard, arde I.** *n* talonchi, bosqinchi, o'g'ri, kafanduzd; **une bande de pillards affamés** och talonchilar to'dasi; **II.** *adj* talonchilikka qaratilgan, talonchilikdan iborat bo'lgan; talonchi, bosqinchi; **des soldats pillards** talonchi askarlar.

**piller** *vt* **1.** talamoq, talon-toroj qilmoq, bosqinchilik qilmoq; **ils prirent, pillèrent et rasèrent la ville** ular shaharni oldilar, taladilar va ship-shiydam qildilar; **des magasins pillés au cours d'une émeute** qo'zg'olon vaqtida talangan do'konlar; **2.** o'g'irlamoq, o'marmoq (*talash vaqtida*); **des objets pillés dans une église** cherkovdan o'marilgan narsalar; **3.** plagiat bilan shug'ullanmoq, o'g'irlamoq.

**pilleur, euse** *n* o'g'ri, talonchi, plagiatr; **un pilleur d'églises** cherkovlar talonchisi.

**pilon** *nm* **1.** kelisop, kelidasta, o'g'ir dastasi; **broyer de l'ail avec un pilon** kelisop bilan sarmsoq tuymoq; **marteau-pilon** to'qmoq; *loc* **mettre un livre au pilon** kitob bosmasini barbod qilmoq; **2.** yog'och oyoq; **3.** tovuq oyog'ining pastki qismi.

**pilonnage** *nm* bombardimon qilib yanchib, majaqlab tashlash; **le pilonnage d'une ville par l'aviation** aviatsiya yordamida shaharni yanchib tashlash.

**pilonner** *vt* **1.** kelisop bilan tuymoq, ezmoq, yanchmoq; **2.** bomba, snaryadlar ostida yanchib, majaqlab tashlamoq; **l'artillerie pilonnait les lignes ennemies** artileriya dushman qatorini yanchib tashladi.

**pilori** *nm* gunohkorni sazoyi qilish uchun bog'lab qo'yiladigan ustun; *loc* **mettre, clouer qqn au pilori** biror kishini sharmandai sharmisor, sazoyi qilmoq, sharmandasini, rasvosini chiqarmoq.

**pilosité** *nf* jun bosganlik, junlilik.

**pilotage** *nm* **1.** lotsman tomonidan kemalarga yo'l ko'rsatish; yo'l ko'rsatish san'ati; **le pilotage des navires dans un canal, un port** kemalarga lotsman tomonidan kanalda, portda yo'l ko'rsatish; **2.** boshqaruv (*uchish apparatlarini*); **poste de pilotage** uchishni boshqaruv posti; **pilotage automatique** avtomatik boshqaruv.

**pilote** *nf* **1.** lotsman; **bateau-pilote** lotsman kemasi; **2.** uchuvchi, haydovchi; **le pilote et le copilote d'un avion** samolyotning uchuvchisi va ikkinchi uchuvchisi; **pilote de ligne** grajdan aviatsiyasining uchuvchisi; **pilote d'essai** sinovchi uchuvchi; **3.** poyga mashinasining haydovchisi; **4.** yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi; **servir de pilote à qqn** biror kishiga yo'l boshlovchilik qilmoq; **5.** *fig* tajriba, sinov; **usine pilote** tajriba zavodi; **des boucheries pilotes** tajriba qushxonalari; **classe pilote** tajriba sinfi.

**piloter** *vt* **1.** boshqarmoq, haydamoq (*kema, samolyot*); **2.** yo'l boshlovchilik, yo'l ko'rsatuvchilik qilmoq; **je l'ai piloté dans Paris** men unga Parijda yo'l boshlovchilik qildim.

**pilotis** *nm inv* qoziqoyoqli asos; **bâtiment (construit) sur pilotis** qoziqoyoqli asosga o'rnatilgan, qurilan imorat.

**pilou** *nm* bumazey, paxmoq, paxmoq gazlama.

**pilule** *nf* **1.** hapdori; yumaloq dori; *loc fam* **avaler la pilule** tanbehlarga, haqoratlarga bardosh bermoq; tishni tishga qo'yib chidamoq; achchig'ini, zahrini yutmoq; **dorer la pilule à qqn** yaxshi gap bilan tuzlamoq (*o'yib olmoq*); xushlab turib mushtlamoq; andavalab gapirmoq; **2.** homilador bo'lishdan saqlaydigan dori; **elle prend la pilule** u homilador bo'lishdan saqlaydigan dori ichadi; **3.** *fam* **il a pris la pilule** u rosa kaltak yedi.

**pilum** *nf* og'ir to'qmoq (*rimlik legionerlarning quroli*).

**pimbêche** *nf* kalondimog', tantiq ayol yoki qiz; **c'est une petite pimbêche** bu tantiqcha; **elle est un peu pimbêche** u kalondimog'roq.

**piment** *nm* **1.** qalampir; **piment rouge** qizil qalampir; **piment doux** shirin qalampir, bulg'or qalampiri; **sauce au piment** qalampirli sous; **2.** jozibadorlik, dilkashlik; **ses plaisanteries, ses allusions ont mis du piment dans la conversation** uning hazillari, luqmalari suhbatga jozibadorlik kiritdi.

**pimenter** *vt* **1.** qalampir qo'shmoq, solmoq, surtmoq; **une cuisine très pimentée** juda ham ko'p qalampir qo'shadigan, ishlatadigan oshxona; **2.** o'ziga jalb qiluvchi, jozibali, yoqimli, dilkash qilmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pimpant, ante** *adj* bashang, yasangan, orasta, did bilan kiyingan; **une jeune fille pimpante** yasanib olgan qiz; **une pimpante petite ville** kichik orasta shahar.

**pin** *nm* qarag'ay; **pin sylvestre** oddiy qarag'ay; **pommes de pin** qarag'ay urug'i.

**pinacle** *nm* **1.** imoratning eng yuqori qismi; **2.** eng yuksak daraja, cho'qqi; **porter qqn au pinacle** biror kishini ko'klarga ko'tarmoq.

**pinacothèque** *nf* pinakoteka, rasmlar galereyasi (*Italiya, Germaniyada*).

**pinailler** *vi fam* mayda-chuydalarga yopishib olmoq, maydakashlik qilmoq.

**pinailleur, euse** *n* mayda-chuydalarga yopishib oladigan odam, maydakash.

**pinard** *nm fam* vino.

**pinasse** *nf* tagi yassi qayiq.

**pince** *nf* ombur, qisqich, pinset; **les branches, les mâchoires d'une pince** omburning dastalari, jag'lari; **pince coupante** o'tkir jag'li ombir; **pince à épiler** mo'ychinak; **pince à sucre** qandni maydalashda ishlatiladigan ombur; **pince à cheveux** soch qisqichi; **pince à linge** qisqich (*arqonga yoyilgan kirni qisib qo'yiladigan moslama*); **pince à feu** otashkurak; **2.** o'g'rilar lomchasi; **3.** panja, changal, qisqich (*qisqichbaqa, krab va shu kabilarda*); **les pinces d'un homard, d'un crabe** omar, krablarning qisqichi; **4.** *fam* **serrer la pince à qqn** biror kishining qo'lini qismoq; **aller à pinces** piyoda bormoq; **5.** bahiyalab tikilgan buklama.

**pincé, ée** *adj* **1.** yasama, zo'raki, zo'rma-zo'raki, balandparvoz, norozi; **elle est antipathique avec son air pincé** uning yasama afti uni istarasiz ko'rsatadi; **un sourire pincé** zo'raki kulgi; **2.** *konkret* nozik, chimchilab quyilgan, qisilgan; **son petit nez pincé** uning chimchilab qo'yilgan kichik burni; **bouche pincée** qisilgan lab; **3. instrument de musique à cordes pincées** torlari bosib chalinadigan musiqa asbobi (*gitara kabi*).

**pinceau** *nm* **1.** mo'yqalam, cho'tka; **pinceau de peintre** rassom mo'yqalami (*bo'yoqchi cho'tkasi*); **coup de pinceau** mo'yqalam tortib bo'yoq berish; **3.** *fam* oyoq.

**pincée** *nf* ozgina, bir chimdim, otim, damlam; **une pincée de sel** bir chimdim tuz; *fig* ozgina, andakkina, bir chimdimgina; **une pincée d'humour** bir chimdimgina hazil.

**pince-fesses** *nm inv fam* taklif qilinganlar o'zlarini beadab, tartibsiz tutadigan bal, bazm, qabul.

**pincement** *nm* **1.** chimchilash, chimdilash; **2. pincement au cœur** yurak sanchig'i; **3.** bosib chalish (*musiqa asbobining torlarini*).

**pince-monseigneur** *nf* o'g'rilar lomchasi.

**pince-nez** *nm inv* pensne (*ko'zoynakning bir turi*).

**pincer I.** *nm* **1.** chimchilamoq, chimdilamoq, o'ymalamoq; chimchimoq, chimdimoq; **sa sœur l'a pincé jusqu'au sang** singlisi uni qonaguday qilib chimchiladi; **pincer les cordes d'une guitare** gitaraning torlarini bosib chalmoq, ting'illatmoq; **2.** (*sovuq haqida*) achitmoq, chimchilamoq; *fam* **ça pince dur, ce matin1** bugun ertalabdan sovuq qattiq achityapti! **3.** qismoq, siqmoq; **pincer les lèvres** labini qismoq; **4.** *fam* tutmoq, tutib olmoq, qo'lga tushirmoq, qo'lga olmoq; **il s'est fait pincer cette nuit** u bugun tunda qo'lga tushdi; **être pincé** oshiq bo'lmoq; **en pincer pour qqn** oshiq bo'lmoq, ishqi tushmoq; **il en pince pour sa jolie voisine** uning ishqi chiroyli qo'shnisiga tushdi; **II.** *vpr* **elle s'est pincée en fermant la porte** eshikni yopayotib, u qo'lini qimchitib oldi.

**pince-sans-rire** *inv* **I.** *n* birovning ustidan kulishni, mazax qilishni yaxshi ko'radigan odam; mazaxchi; **II.** *adj* **ils, elles sont très pince-sans-rire** ular juda mazaxchi.

**pincette** *nf* **1.** qisqich, pinset; **2.** *pl* otashkurak; **il n'est pas à prendre avec des pincettes** juda iflos bo'lmoq; yomon kayfiyatda bo'lmoq.

**pinçon** *nm* chimdilangan joy, ko'kargan joy, ko'kariq.

**pineau** *nm* **1.** Luara vodiysida o'sadigan tok ko'chati, novdasi; **pineau rouge, blanc** qizil, oq tok ko'chati; **2.** pino (*vinoning bir turi*).

**pinède** *nf* qarag'ayzor; **l'odeur de résine des pinèdes** qarag'ayzor yelimining hidi.

**pingouin** *nm* pingvin.

**ping-pong** *nm* ping-pong, stol tennisi; **jouer au ping-pong** stol tennisi o'ynamoq.

**pingre** *n, adj* o'taketgan xasis, ziqna, qurumsoq, qoqbosh; **c'est un vieux pingre** bu qari ziqna odam; **elle est très pingre** u o'taketgan xasis.

**pingrerie** *nf* xasislik, ziqnalik, qurumsoqlik; **il est d'une pingrerie révoltante** uning odamni g'azablantiradigan darajada xasisligi bor.

**pinot** *nm* pino (*tokning bir turi*).

**pin-pon** *intj* vot-vut (*o't o'chiruvchi mashinaning ovozi*).

**pin's** *nm inv anglic* znachok.

**pinson** *nm* zyablik (*sayroqi qush*); *loc* **être gai comme un pinson** juda ham xushchaqchaq bo'lmoq.

**pintade** *nf* sesarka (*tovuqsimonlar turkumidagi parranda*); **des pintades rôties** qovurilgan sesarkalar.

**pintadeau** *nm* sesarkaning jo'jasi.

**pinte** *nf* **1.** pinta (*qadimiy o'lchov birligi, 0,93 l*); **2.** *loc* **se payer une pinte de bon sang** xursandchilik qilmoq; **3.** anglo-sakson o'lchov birligi (*0,568 l*).

**pinter** *fam* **I.** *vi* ko'p ichmoq; **il est complètement pinté** u g'irt mast; **II.** *vt* ichirmoq, majbur ichirmoq, ichirib mast qilmoq; **III. se pinter** *vpr* mast bo'lmoq.

**pin-up** *nf inv anglic* **1.** jozibali chiroyli qiz; **2.** biron joyga osib qo'yilgan yarim yalang'och qiz surati.

**pioche** *nf* **1.** kirka, cho'kich, dastaki so'qa; **pioche de terrassier** yer kovlovchining cho'kichi; **2.** *fam* **une tête de pioche** qaysar odam; **3.** dov, ganak, tikilgan pul (*qimorda*).

**piocher I.** *vt* **1.** cho'kich bilan kovlamoq; **il piochait la terre** u cho'kich bilan yer kovlar edi; **2.** *fam* zo'r berib, astoydil, bosh ko'tarmay ishlamoq, o'qimoq, o'rganmoq, yod olmoq; **je me mettais à piocher mon histoire** tarix darsimni bosh ko'tarmay o'rgana boshladim; **II.** *vi* **1.** kovlashtirmoq, titmoq, titkilamoq; **2.** *o'yin.* tortmoq, olmoq (*qarta, domino*); **j'ai perdu parce que j'ai dû piocher** men qarta tortishga majbur bo'ldim, shuning uchun ham yutqazib qo'ydim.

**piocheur, euse** *n fam* mehnatkash, zahmatkash, mehnatsevar.

**piolet** *nm* muzo'yar bolta (*alpinistlarda*).

**pion¹, pionne** *n fam arg* sinf murabbiysi, nazoratchi; **elle est sympa, la pionne!** yoqimtoy ekan, bu sinf murabbiysi!

**pion²** *nm* **1.** piyoda (*shahmat*); **la ligne des pions** piyodalar qatori; **2.** shashka; **3.** jeton (*turli o'yinlarda*).

**pioncer** *vi fam* tarashaday qotib uxlamoq.

**pionnier, ière** *n* **1.** pioner (*tekshirilmagan biror joyga birinchi bo'lib kelgan va o'rnashib qolgan kishi*); **2.** kashshof, kashfiyotchi, yangilik yaratuvchi, pioner.

**pioupiou** *nm fam vx* oddiy askar.

**pipe** *nf* trubka; **bourrer une pipe** trubkaga tamaki to'ldirmoq; **une pipe culottée** chekib bo'lingan trubka; **un fumeur de pipe** trubka chekuvchi; **fumer la, sa pipe** trubka chekmoq; **2.** *loc fam* **par tête de pipe** kalla boshiga; **casser sa pipe** o'lmoq; **se fendre la pipe** kulmoq; **nom d'une pipe!** so'kish; **3.** *fam* sigaret.

**pipeau** *nm* sibizg'a, burg'u; *fam* **du pipeau** arzimas ma'lumotlar.

**pipelet, ette** *n fam* konsyerj; **il est bavard comme une pipelette** u o'ta mahmadona.

**pipe-line** *nm anglic* nefteprovod, truboprovod; **des pipe-lines**.

**piper I.** *vi* **ne pas piper** miq etmaslik, bir so'z aytmaslik; **II.** *vt* **piper des dés, des cartes** oshiqda, qartada g'irromlik qilmoq; **les dés sont pipés** oshiqda g'irromlik qilingan, imkoniyatlar teng emas.

**pipérade** *nf* basklarning ko'pirtirilgan tuxumga pomidor va shirin qalampir qo'shib tayyorlanadigan ovqati.

**pipette** *nf* pipetka, tomizgich.

**pipi** *nm fam enf* tish, tishsha, siyish; **faire pipi** tishsha qilmoq, siymoq; **je vais faire pipi** men tishsha qilaman; **du pipi de chat** yomon ichimlik.

**pipistrelle** *nf* quloqlari kalta kichik ko'rshapalak.

**piquage** *nm* ko'hiyalash, ko'hiyalab tikish; **le piquage d'une veste,** kostumni tikayotib ko'hlash.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**piquant¹, ante I.** *adj* **1.** sanchiladigan, oʻtkir, tikanli; **2.** achchiq, oʻtkir, jizillatadigan, achitadigan, jiz-jiz uzib oladigan; **l'air était vif et piquant** havo sovuq va achitadigan edi; **sauce piquante** oʻtkir sous; **3.** *litt* jozibali, yoqimli, dilkash; **une petite brune piquante** jozibali kichkinagina qorasochli qiz; **la rencontre est piquante!** uchrashuv yoqimli! **II.** *nm* **le piquant de l'aventure** sarguzashtning mohiyati, qiziq joyi.

**piquant²** *nm* tikan, tikanak, nayza, igna (*oʻsimlik va hayvonlarda*); **les piquants des cactus, des oursins** kaktusning tikani, dengiz tipratikanining ignasi.

**pique¹** *nf* **1.** nayza; **les piques des révolutionnaires** revolutsiyachilar nayzasi; **2.** piching, achchiq, qattiq gap, zaharxanda; **envoyer des piques à qqn** birovga piching qilmoq; birovni gap bilan oʻyib, chaqib olmoq.

**pique²** *nm* qargʻa (*qartada*); **la dame de pique** qargʻaning motkasi, qargʻa motka; **j'ai encore du pique et du trèfle** menda hali qargʻa va damaning chilligi bor; *loc* **habillé, vêtu comme l'as de pique** pala-partish kiyingan.

**piqué¹, ée** *adj* sanchilgan, tikan kirgan; chaqilgan, talangan (*hasharotlarga*).

**piqué²** *nm* pike (*gʻijim qilib toʻqilgan bir xil mato*); **une robe en piqué de coton** paxtadan qilingan pike koʻylak.

**piqué³** *nm av* shoʻngʻish; shoʻngʻib uchish; **en piqué** shoʻngʻib, shoʻngʻib uchib; **bombardement en piqué** shoʻngʻib bombardimon qilish.

**piqué⁴, ée** *adj fam* esi past, tentak, jinni, dumbul; **il est un peu piqué, complètement piqué** u jinniroq, butunlay jinni.

**pique-assiette** *n inv* tekinxoʻr, yuvindixoʻr; **une bande de pique-assiette** tekinxoʻrlar toʻdasi.

**pique-feu** *nm inv* temir kosov.

**pique-nique** *nm* dala sayri; *pl* **des pique-niques**.

**pique-niquer** *vi* dala sayriga chiqmoq; **on a pique-niqué en forêt** oʻrmonga sayrga chiqildi.

**pique-niqueur, euse** *n* sayrchi.

**piquer¹ I.** *vt* **1.** sanchmoq, suqmoq, tiqmoq, uchli narsani biror narsaga sanchmoq; **piquer la peau, le doigt de qqn** birovning terisiga, qoʻliga sanchmoq; **il m'a piqué le doigt avec une épingle** mening qoʻlimga toʻgʻnogʻich sanchib oldi; *loc* **piquer des deux (éperons)** otini choptirib ketmoq, ot qoʻymoq; **2.** ukol qilmoq; *fam* emlamoq, chekmoq; **on l'a piqué contre la variole** uni chechakka qarshi emlashdi; **3.** chaqmoq (*hasharotlar, ilon*); **un scorpion l'a piqué** uni chayon chaqib oldi; **il a été piqué, il s'est fait piquer par une guêpe** uni chumak ari chaqib oldi; **4.** sanchib, ilib olmoq; **piquer sa viande avec sa fourchette** goʻshtni sanchqi bilan sanchib olmoq; **5.** biror narsani osib, ilib, mixlab, yopishtirib qoʻymoq; **6.** uch tomoni bilan sanchib, suqib qoʻymoq, qadamoq, taqmoq; **piquer une fleur dans sa boutonnière** petlitsasiga gul taqmoq; *fig* **piquer une tête** oʻzini tashlamoq, boshi bilan shoʻngʻimoq; **7.** bahiyalab tikmoq, mashinada bostirib tikmoq; **bâtir une robe avant de la piquer** mashinada bostirib tikishdan oldin koʻylakni koʻklab olmoq; **un couvre-lit piqué** sirmali oʻringa yopiladigan choyshab; **8.** ilma-teshik qilib yubormoq, tashlamoq; *loc fam* **ce n'est pas piqué des hannetons** *ou* **des vers** bu juda pishiq, puxta, mustahkam; choʻtir, dogʻ tushgan, bosgan; **un visage piqué de taches de rousseur** sepkil bosgan yuz; **glace, miroir piqué** dogʻ bosgan oyna, koʻzgu; **9.** achitmoq, achishtirmoq, lovullatmoq; **la fumée piquait les yeux, lui piquait les yeux** tutun koʻzni achishtirar edi, uning koʻzini achishtirar edi; **ça me pique** bu meni lovullatyapti; *fam* **de l'eau qui pique** gazli suv; **10.** qoʻzgʻamoq, qoʻzgʻatmoq, keltirmoq, uygʻotmoq, qichitmoq; **son attitude a piqué ma curiosité** uning munosabati menda qiziqish uygʻotdi; *loc* **piquer qqn au vif** qaltis, nozik joyidan ushlamoq; qattiq tegmoq, botmoq; **cette remarque, cette critique m'a piqué au vif** bu tanbeh, bu tanqid menga qattiq botdi; **11.** *fig* tutib olmoq, ushlab olmoq, qoʻlga tushirmoq; urib, ilib, oʻgʻirlab ketmoq; **on lui a piqué son portefeuille** uning karmonini ilib ketishdi; **II.** *vi* yiqilmoq, sanchilib tushmoq, shoʻngʻimoq; **un avion qui pique** sanchilib tushayotgan samolyot; **il piqua du nez** u yuzi bilan yiqildi; botmoq, shoʻngʻimoq; **le navire piquait de l'avant** kema old tomoni bilan shoʻngʻir edi; **III. se piquer** *vpr* **1.** sanchib, suqib olmoq (*oʻziga*); **elle s'est piquée en cousant** u tiqayotib oʻziga sanchib oldi; oʻziga oʻzi ukol qilmoq; **il se pique, il est morphinomane** u oʻziga oʻzi ukol qiladi, u morfiyga oʻrgangan bangi; **2.** ilma-teshik boʻlmoq; dogʻ bilan qoplanmoq; *fig* **vin qui se pique** achiyotgan vino; **3. (de)** daʼvo qilmoq, oʻzini qilib koʻrsatmoq, maqtanib yurmoq; **elle se pique de poésie, d'être poète** u shoirlikni davo qiladi.

**piquer²** *vt* **1.** *fam* toʻsatdan, kutilmaganda biror ishga kirishmoq, biror ish qilishga tushmoq; **piquer un cent mètres** kutilmaganda oyogʻini qoʻliga olib yugirmoq; **piquer un roupillon** uyquni urmoq; **piquer un fard** qizarib ketmoq; **piquer une crise** xurujga uchramoq.

**piquet¹** *nm* qoziq; **piquets de tente** chodirning qoziqlari; **attacher un cheval à un piquet** otni qoziqqa bogʻlamoq; **droit, raide, planté comme un piquet** qoqqan qoziqday qaqqayib turmoq; **2.** *loc* **mettre un élève au piquet** oʻquvchini burchakka turgʻazib qoʻymoq.

**piquet²** *nm* **piquet d'incendie** yongʻindan muhofaza qiluvchi soqchilar; **piquet de grève** piket (*qoʻriqchi zabastovkachilar guruhi*).

**piquet³** *vx* qarta oʻyinining bir turi; **jouer au piquet** chillikka, oʻyinga oʻynamoq.

**piqueter** *vt* **1.** dogʻ, magʻar bosib ketmoq; **miroir piqueté** dogʻ bosib ketgan koʻzgu.

**piquette¹** *nf* taxir, yomon vino.

**piquette²** *nf fam* kaltaklash, doʻpposlash, adabini berish; **on leur a flanqué une de ces piquettes!** ularni adabini berib qoʻyishdi!

**piqueur, euse I.** *n* **1.** ovni otda quvib boruvchi xizmatkor (*it solib ov qilishda*); **2.** tikuvchi; **3.** *nm* choʻkich yoki otboyka bolgʻasi bilan ishlaydigan ishchi; **II.** *adj* **1. insectes piqueurs** chaquvchi hasharotlar; **2. marteau piqueur** otboyka bolgʻasi.

**piqûre** *nf* **1.** biror narsa kirgan, sanchilgan yoki chaqqan joy; igna toʻgʻnogʻich kirgan joy; chivin chaqqan joy; qichitqi oʻtning chaqishini sezmoq; **2.** bahiyalash, bostirib tikish; **piqûre à la machine** mashinada bostirib tikish; **3.** dogʻ bosgan, sargʻaygan, qurt yegan joy; **piqûre de ver** qurt yegan joy; **4.** sanchish, ukol qilish; **je viens de lui faire sa piqûre** men unga hozirgina ukolini qilib qoʻydim.

**piranha** *nm* Janubiy Amerika daryolarida yashovchi kichik bir baliqning turi.

**piratage** *nm* dengizda qaroqchilik qilmoq, qaroqchilik qilmoq.

**pirate** *nm* **1.** dengiz qaroqchisi; **bateau pirate** qaroqchi kema; **2.** oʻgʻri, talonchi, bosqinchi; **3.** birovning ishlarini (*kassetta, turli yozuvlarni*) ularning roziligisiz oʻziniki qilib oluvchi kishi; **4.** yashirin, gʻayriqonuniy, bezori; **radio pirate, télévision pirate** radio bezori, televizor bezori; **5. pirate de l'air** havo qaroqchilari (*havo kemalarini olib qochuvchilar*).

**pirater** *vt* gʻayriqonuniy ravishda koʻchirib olmoq, oʻgʻirlab olmoq, qaroqchilik qilmoq; (*magnitofon yozuvlarini*); **un logiciel piraté** oʻgʻirlangan informatik dastur.

**piraterie** *nf* **1.** qaroqchilik, bosqinchilik; **2.** firibgarlik, tovlamachilik.

**pire I.** *adj* **1.** yomonroq; **devenir pire** yomonlashmoq; **le remède est pire que le mal** kasallikdan koʻra dori yomonroq; **je ne connais pas de pire désagrément** men bundan koʻra yomonroq tashvishni koʻrganim yoʻq; **il n'y a rien de pire** bundan koʻra yomonrogʻi boʻlmaydi; **2. le pire, la pire, les pires** eng yomoni, eng yomonlari; **3. les pires voyous** eng yomon xudobezorilar; **la meilleure et la pire des choses** narsalarning eng yaxshi va eng yomonlari; **II.** *nm* eng yomoni; **le pire de tout, c'est l'ennui** hammadan eng yomoni, zerikishdir; *loc* **époux unis pour le meilleur et pour le pire** hayotning eng yaxshi va eng yomon tomonlari uchun qovushgan er-xotinlar; **je m'attends au pire** men eng yomonini kutyapman; **craindre le pire** eng yomonidan qoʻrqmoq; **la politique du pire** eng ogʻir holatdan foydalanib qolish siyosati.

**pirogue** *nf* Afrika va Okeaniyada tagi suyri, uzun va tor, eshkak yoki yelkanda harakatlanuvchi qayiq.

**piroguier** *nm* shu kemaning haydovchisi.

**pirouette** *nf* **1.** bir nuqtada aylanish, charx urish; **pirouettes de danseur** raqqosning charx urishlari; **2.** *fig fam* toʻgʻri javobdan qochish, hazil-mutoyiba bilan javob berish, gapni aylantirish, gapni olib qochish; *loc fam* **répondre par des pirouettes** gapni aylantirmoq.

**pirouetter** *vi* bir nuqtada aylanmoq, bir nuqtada charx urmoq.

**pis¹** *nm inv* yelin, emchak (*hayvonlarda*); **le pis, les pis de la vache, de la chèvre** molning, echkining yelini, yelinlari.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pis**[2] **I.** *adv* yomonroq; **tant pis** battar bo'lsin; *loc* **aller de mal en pis** battarroq bo'lmoq; **II.** *adj litt* battarroq, yomonroq; eng yomon, eng bo'lmag'ur; **c'est bien pis** bu battarroq; *loc* **qui pis est** eng yomoni, eng battari; **il est paresseux ou, qui pis est, très bête** u dangasa yoki eng yomoni, juda ham ahmoq; **III.** *nm* bo'lmag'ur, yomon narsa; **dire pis que pendre de qqn** biror kishi haqida bo'lmag'ur narsalarni aytmoq, ig'vo, tuhmat, bo'hton tarqatmoq; *loc adv* **au pis aller** bundan ham battarroq bo'ladi deb.

**pis-aller** *nm inv* yaxshirog'i bo'lmaslik.

**pisciculteur** *nf* baliqchi, baliq yetishtiruvchi.

**pisciculture** *nf* baliqchilik, baliq yetishtirish.

**piscine** *nf* **1.** basseyn, sun'iy hovuz; **une piscine couverte** yopiq basseyn; **piscine olympique** olimpiya basseyni; **aller à la piscine** basseynga qatnamoq.

**pisé** *nm* paxsa; **des maisons en pisé** paxsa uylar.

**pissaladière** *nf* tuzlangan xamirning ustiga pomidor, tuzlangan baliq qo'shib tayyorlanadigan provansalliklarning ovqati.

**pisse** *vulg* siydik.

**pisse-froid** *nm inv fam* sovuq, muz, zerikarli odam.

**pissement** *nm* siyish; **pissement de sang** qon siyish.

**pissenlit** *nm* qoqi o't, momaqaymoq; momaqaymoqli salat; **manger les pissenlits par la racine** o'lgan bo'lmoq.

**pisser I.** *vi vulg* siymoq; *loc fam* **il pleut comme vache qui pisse** jala yog'yapti, chelaklab quyyapti; **ça l'a pris comme une envie de pisser** bu uning miyasiga birdan keldi; **laisser pisser le mérinos** qo'yib bermoq, kutmoq; **c'est comme si on pissait dans un violon** osmonga tupurganday, bekorchi ish qilganday; **II.** *vt fam* siydik bilan chiqarib yubormoq, siyib yubormoq; **pisser du sang** qon siymoq; **ce réservoir pisse l'eau de tous les côtés** suv bu rezervuarning hamma tomonidan oqib ketyapti.

**pisseur, euse** *n vulg* siyg'oq.

**pisseux, euse** *adj* **1.** *fam* siydik tekkan, siydikning hidi kelib turgan; **2.** sarg'aygan, sarg'ayib ketgan, rangi o'chgan, o'ngan; **des rideaux d'un blanc pisseux** rangi o'ngib ketgan oq pardalar.

**pissotière** *nf fam* umumiy hojatxona.

**pistache I.** *nf* pista; **glace à la pistache** pistali (*pista mag'zi solingan*) muzqaymoq; **II.** *adj inv* pista rang, pistaqi; **vert pistache** ko'k pistaqi; **des vestes pistache** pistaqi kostumlar.

**pistachier** *nm* pista daraxti.

**piste** *nf* **1.** iz; **brouiller les pistes** izini chalg'itmoq; **la police est sur sa piste** politsiya uning iziga tushdi; **2.** yo'lka, yo'l; **la piste d'un vélodrome** velodrom yo'lkasi; **3.** maydoncha; **la piste d'un cirque** sirk maydonchasi; **la piste de danse** raqs maydonchasi; **4.** so'qmoq, so'qmoq yo'l; **après ce village, il n'y a plus de macadam, c'est seulement de la piste** bu qishloqdan keyin, tosh yotqizilgan yo'l yo'q, faqat so'qmoq yo'l bor; **5.** yo'l, yo'lakcha; **piste cyclable** velosipedchilar yo'lakchasi; **piste cavalière** otliqlar yo'lakchasi; **piste de ski** chang'i yo'lakchasi; **6.** samolyotning uchish, qo'nish yo'lakchasi; **7.** magnitofon tasmasining yo'lakchasi; **magnétophone à quatre pistes** to'rt yo'lakchali magnitofon; **la piste sonore d'un film** filmning ovoz yo'lakchasi.

**pister** *vt* izidan bormoq, iziga tushmoq, iz quvmoq, kuzatmoq; **attention, on nous piste!** ehtiyot bo'ling, bizning izimizga tushishdi!

**pistil** *nm bot* urug'chi, onalik.

**pistole** *nf* Ispaniya, Italiyaning qadimiy oltin tangasi.

**pistolet**[1] *nm* **1.** pistolet, to'pponcha; **une paire de pistolets de duel** bir juft duel to'pponchalari; **le chargeur d'un pistolet automatique** avtomatik to'pponchaning oboymasi; **le parabellum est un pistolet** parabelum pistoletdir; **pistolet à bouchon, à air comprimé** o'yinchoq to'pponcha, qisilgan havoli to'pponcha; **2.** pulverizator, purkagich; **peinture au pistolet** purkagich bilan bo'yash.

**pistolet**[2] *nm fam* **un drôle de pistolet** g'alati nusxa, bashara.

**pistolet-mitrailleur** *nm* pistolet-pulemyot, avtomat; *pl* **des pistolets-mitrailleurs**.

**piston**[1] *nm* **1.** porshen; **les pistons et les cylindres d'un moteur à explosion** ichki yonish motorining porshen va silindrlari; **le piston d'une seringue** shprisning porsheni; **2.** *mus* piston, tugma (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining barmoq bilan bosib, ochib-yopib turiladigan tugmasi*); **cornet à pistons** kornet-a-pistone.

**piston**[2] *nm fam* homiylik, himoya, yoqlash, qo'llash, quvvatlash; **pour réussir, il faut avoir du piston** biror narsaga erishish uchun, qo'llab-quvvatlashga ega bo'lish kerak.

**pistonner** *vt* qo'llab-qo'ltiqlamoq, himoya qilmoq, homiylik qilmoq; **il s'est fait pistonner par le ministre** u vazir tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

**pistou** *nm* zaytun yog'iga ezib qo'shilgan rayhon va sarimsoqli sous.

**pitance** *nm péj* ozgina, nochor ovqat, yemak, tamaddi; **on leur servit une maigre pitance** ularga o'lmas ovqatini berishdi; **pour toute pitance, des pommes de terre bouillies** yemakka, bor-yo'g'i qaynatilgan kartoshka.

**pitchpin** *nm* yelimli qaragay; **une armoire en pitchpin** yelimli qarag'aydan qilingan javon.

**piteusement** *adv* ayanchli, achinarli ahvolda; **il a échoué piteusement** u achinarli ahvolda imtihondan yiqildi.

**piteux, euse** *adj iron* nochor, ko'rimsiz, bir nav, yomon, faqirona, g'aribona, arzimagan; **les résultats sont piteux** arzimagan natijalar; **en piteux état** nochor ahvolda.

**pithécanthrope** *nm* pitekantrop (*eng qadimgi zamonlarda yashagan maymunsimon odamning yer ostidan topilgan qoldig'i*).

**pithiviers** *nm inv* pirogning bir turi.

**pitié** *nf* **1.** rahm, shafqat; rahmdillik, ko'ngilchanglik; **éprouver de la pitié** rahmi kelmoq; **inspirer, exciter la pitié, faire pitié** rahmdillik qilmoq, rahmini keltirmoq; **il me fait pitié** unga rahmim keladi; **j'ai pitié de lui** meni unga rahmim kelyapti; **prenez-le en pitié** unga shafqat qiling; **par pitié, laissez-moi tranquille** shafqat qiling, iltimos, meni tinch qo'ying; **pitié!** shafqat qiling! **sans pitié** shafqatsizlik bilan, shafqatsizlarcha; **pas de pitié!** shafqat qilinmasin! **2.** takabburlik, o'zini katta olish, mensimaslik, kibr-havo; **un sourire de pitié** takabburona iljayish; **quelle pitié!** bechora!

**piton** *nm* **1.** qayrilma qoziq, ilgak, zanjir; **cadenas passant dans deux pitons** ikkita ilgakka o'tkazilgan qulf; **planter une tente avec des pitons** chodirni qayrilma qoziqlar yordamida o'rnatmoq; **2.** cho'qqi; **piton rocheux** qoyali cho'qqi.

**pitoyable** *adj* **1.** ayanchli, achinarli, kishini achintiradigan; nochor, ojiz; **après son accident, il était dans un état pitoyable** falokatdan keyin, u bir achinarli ahvolda edi; **2.** yomon, achinarli, nochor, ojiz; **sa réponse a été pitoyable** uning javobi nochor edi.

**pitoyablement** *adv* ayanchli ahvolda, achinarli holatda, ayanchli bir holda; **c'est pitoyablement rédigé** bu ayanchli bir holda yozilgan.

**pitre** *nm* qiyshang'i, maynavoz, masxaraboz; **quel pitre!** qanday maynavozchilik! **arrête de faire le pitre!** masxarabozchilik qilishni to'xtat!

**pitrerie** *nf* qiyshang'ilik, maynavozchilik, masxarabozlik; **faire des pitreries** masxarabozlik qilmoq.

**pittoresque I.** *adj* **1.** chiroyli, go'zal, yorqin, ifodali, ajoyib; **un quartier pittoresque** go'zal kvartal; **un personnage pittoresque** ajoyib obraz; **2.** obrazli, yorqin, ifodali, rang-barang bo'yoqlarda ifodalangan, chiroyli, go'zal; **des expressions, des détails pittoresques** yorqin iboralar, tafsilotlar; **II.** *nm* chiroylilik, yorqinlik, rangdorlik.

**pittoresquement** *adv* chiroyli, ifodali qilib; yorqin, mazmundor qilib; rang-barang, chiroyli, go'zal, ajoyib, yorqin.

**pivert** *nm* qizilishton.

**pivoine** *nf* sallagul, piongul; lavlagiday qizarib ketmoq, lavlagisi chiqib ketmoq; **elle devient rouge comme une pivoine** u lavlagiday qizarib ketdi.

**pivot** *nm* **1.** sterjen, o'q; **le pivot de la boussole** kompasning o'qi; **2.** o'q, asos, o'zak, negiz, asosiy, tub mohiyat, mag'iz; **il est le pivot de cette entreprise** u bu korxonaning asosiy o'qi; **3.** o'q, asos; **dent montée sur pivot** o'qqa o'rnatilgan tish.

**pivotant, ante** *adj* buriladigan, aylanadigan, aylanma; **fauteuil pivotant** aylanadigan kreslo.

**pivoter** *vi* o'z o'qida aylanmoq, aylanmoq, burilmoq; **il pivota sur ses talons** u tovonida aylandi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pixel** *nm* piksel (*ekrandagi har bir elektronik nuqta*); **la qualité d'une image est proportionnelle au nombre de pixels** ekranda ifodalanuvchi narsaning sifati pikselning soniga proporsianal.

**pizza** *nf* pitsa (*italyancha ovqat*).

**pizzaïolo** *nm* pitsa tayyorlovchi odam.

**pizzeria** *nf* pitsa tayyorlaniladigan restoran.

**pizzicato** *nm* torlarni bosib chalish; **les pizzicati (pizzicatos) des violons** g'ijjakning torlarini bosib chalish.

**P.J.** *nf inv fam* **(police judiciaire)** sud politsiyasi; **les inspecteurs de la P.J.** sud politsiyasi nazoratchilari.

**placage** *nm* **1.** devor sirtini qoplash; **2.** qoplama; **bois de placage** shpon, fanera; **placage de marbre** marmar qoplama.

**placard**[1] *nm* **1.** *vx* e'lon, afisha plakat, reklama; **un placard injurieux** bemaza afisha; **2.** e'lon (*matbuotda*); **placard publicitaire** gazetadagi e'lon reklama.

**placard**[2] *nm* devor javon, shkaf; **mettre des vêtements dans un placard** ust-boshni devor javonga qo'ymoq; **un placard-penderie** shfaner, ust-bosh osiladigan devor javon; *loc fig* **mettre (qqn, qqch) au placard** (*biror kimsani*) chetlashtirmoq, chetga chiqarib qo'ymoq, (*biror narsani*) chetga olib qo'ymoq, sandiqqa solib qo'ymoq.

**place** *nf* **1.** maydon; **une place rectangulaire** to'rtburchak maydon; *loc* **sur la place publique** jamoat joyida; **place forte** *ou ellipt* **place** qal'a, qo'rg'on; **le commandant d'armes d'une place** garnizon boshlig'i; *loc litt* **être maître de la place** o'ziga xon, o'ziga bek bo'lmoq; **2.** ishbilarmonlar davrasi (*shahardagi bankchilar, savdogarlar, ulgurji savdo qiluvchilar*); **sur la place de Paris** Parij ishbilarmonlari davrasi; **3.** joy, o'rin; **à la même place** o'sha joyda; **de place en place, par places** ayrim joylarda, u yer, bu yerda; **en place** joyida; **ne pas tenir en place** joyida tinch turmaslik; **en place** turgan joyda, o'sha joyda, o'rnida; **rester sur place** joyidan qo'zg'almaslik, o'rnida turib qolmoq; **du sur place** joyida qo'zg'almay turish; **cycliste qui fait du sur place** joyida qo'zg'almay turgan velosipedchi; **faire une enquête sur place** joyida so'rov, anketa o'tkazmoq; **manger sur place** turgan joyida ovqatlanmoq; **faites-moi une petite place près de vous** yoningizdan ozgina joy bering; **aller s'asseoir à sa place, à la place d'un absent** joyiga borib o'tirmoq, kelmaganning o'rniga borib o'tirmoq; **à vos places!** hamma joy-joyiga; **en place!** joyiga, joyida! *loc* **prendre place** o'tirmoq, joy olmoq; **faire place à qqn** birovni o'tkazib yubormoq, yo'l bermoq; **place!** po'sht!, o'tkazib yuboring!, yo'l bering! **4.** *sport* joy, o'rin; **à quelle place joue-t-il?** u qaysi joyda o'ynaydi? chap qanot hujumchisi; **5.** odam o'tirishiga mo'ljallangan joy, o'rin, o'rindiq; **louer, retenir, réserver sa place dans un train** poyezddan joy olib qo'ymoq, o'rinni tutib turmoq, oldindan o'ziga o'rin buyurib qo'ymoq; **payer demi-place, place entière** o'rinning yarim, to'la bahosini to'lamoq; *loc* **les places sont chères** raqobat kuchli, o'rinlar talash; **la place du mort** haydovchining yonidagi o'rindiq; **tente à deux places** ikki o'rinli, ikki kishili chodir; **places assises et debout** o'tirib, tik turib ketadigan joylar; **chercher une place pour se garer** avtomobilini qo'yish uchun joy qidirmoq; **6.** bo'sh yoki biror narsa egallab turgan joy; **gain de place** joydan yutish; **un meuble encombrant qui tient trop de place** ortiqcha joy egallab turgan beso'naqay mebel; **7.** joyi, o'rni; **changer la place des meubles** mebellarning o'rnini o'zgartirish; **la place des mots dans la phrase** gapda so'zlarning o'rni; **en place** joy-joyiga, o'z joyiga; **il faut tout remettre en place** hamma narsani o'z joyiga qayta qo'yish kerak; **mise en place** joy-joyiga qo'yish, o'z joyiga o'rnatish; **8.** o'z joyi, o'z o'rni; **avoir sa place au soleil** bu dunyoda hamma qatori o'rni bo'lmoq; *ellipt* **place aux jeunes!** o'rin yoshlarga! **il ne donnerait pas sa place pour un empire, pour tout l'or du monde** u o'z o'rnini podsholikka ham, butun dunyoning oltiniga ham bermagan bo'lardi; **se mettre à la place de qqn** o'zini birovning o'rniga qo'yib ko'rmoq; **à votre place, je refuserais** sizning o'rningizda, men rad qilgan bo'lardim; **9.** o'rin, joy, daraja; **être reçu dans les premières places** birinchi o'rinlarda qabul qilinmoq; *loc* **en bonne place** yaxshi o'rinda; **10.** xizmat, ish, vazifa, lavozim, mansab, amal; o'rin, joy; **une place de vendeuse** sotuvchining o'rni; **perdre sa place** ish joyini yo'qotmoq; **être en place** o'z o'rnini topmoq, o'z o'rniga mos tushmoq; **les gens en place** mansabdorlar, amaldorlar; **11.** o'rin, joy; **prendre la place de qqn** biror kishining o'rnini egallamoq; **laisser la place à qqn** o'rnini birovga qoldirmoq; **faire place à qqn, qqch** biror kishiga, biror narsaga o'z o'rnini bo'shatib bermoq; *loc* **à la place de** o'rniga; **employer un mot à la place d'un autre** bir so'zni boshqasi o'rnida ishlatmoq; **être à sa place** o'z o'rniga mos tushmoq; *loc* **remettre qqn à sa place** biror kishini o'z o'rniga o'tkazib qo'ymoq, tartibga chaqirmoq.

**placé, ée** *adj* **1.** qo'yilgan, joylashtirilgan, o'rnashtirilgan; **2.** *adv bilan* **personnage haut placé** yuqori mansabdor shaxs; **je suis bien placé pour le savoir** buni men bilmasdan, kim biladi; **c'est de la fierté mal placée** bu o'rinsiz g'urur.

**placebo** *nm* aldamchidori.

**placement** *nm* **1.** mablag'ni o'rinli joylash, o'rinli joylangan mablag'; **vous avez fait un bon placement** siz mablag'ingizni juda o'rinli joyladingiz; **2. agence, bureau de placement** ishga joylash birjasi.

**placenta** *nm* yo'ldosh; **expulsion du placenta en fin d'accouchement** tug'ishning oxirida yo'ldoshni olib tashlash.

**placentaire** *adj* yo'ldoshga oid, yo'ldoshli; **mammifères placentaires** yo'ldoshli sutemizuvchilar.

**placer**[1] **I.** *vt* **1.** joylashtirmoq; **l'ouvreuse de cinéma place les spectateurs** kinoteatrning bilet tekshiruvchi ayoli tomoshabinlarni joylashtiryapti; **2.** qo'ymoq, joylamoq, joylashtirmoq; **placer une pendule sur une cheminée** osma soatni kamin ustiga joylamoq; **placer les choses bien en ordre** narsalarni tartib bilan joylamoq; **placer sa voix** ovozini sozlamoq; **3.** ma'lum sharoitga bo'ysundirmoq, solmoq; **l'équipe placée sous mes ordres** mening buyrug'imga bo'ysundirilgan komanda; **4. (qqn)** biror kishini ishga joylashtirmoq; **placer un apprenti chez un boucher** qasobga shogirdlikka bermoq; **5.** ichiga joylamoq, ichida bo'lmoq; **placer le bonheur dans la sagesse** baxtni donolikka burkamoq; **6.** joylashtirmoq, ko'chirmoq; **les lieux où le metteur en scène a placé l'action de son film** rejisyor o'z filmining voqeasini joylashtirgan joylar; **7.** kiritmoq, qistirmoq; **placer une réflexion** mulohaza kiritmoq; **il n'a pas pu placer un seul mot** u bironta ham gap qistirolmadi; **8.** sotmoq, o'tkazmoq; **un représentant qui place des marchandises** mollarni o'tkazayotgan vakil; **9.** joylashtirmoq, qo'ymoq (*mablag'*); **placer son argent en fonds d'état** pulini davlat korxonasiga joylashtirmoq; **II. se placer** *vpr* **1.** joylashmoq, o'tirmoq; **placez-vous de face** qarshi tomonga joylashing; **2. se placer à un certain point de vue** biron-bir nuqtai nazar tomoniga o'tmoq; **3.** ishga kirmoq, ishga o'rnashmoq (*jumladan uy xizmatkori sifatida*).

**placer**[2] *nm anglic* oltin va qimmatbaho toshlar koni; **un placer de diamants** olmos koni; **les placers de Californie** Kaliforniya oltin konlari.

**placet** *nm vx* afv so'rab yozilgan xat.

**placette** *nf* maydoncha.

**placeur, euse** *nm* bilet tekshiruvchi, tomoshabinlarni joylashtiruvchi.

**placide** *adj* muloyim, xotirjam, vazmin, pinagini buzmaydigan; **il restait placide sous les injures** haqorat ostida ham u pinagini buzmay turardi.

**placidement** *adv* muloyimlik bilan, xotirjam, vazminlik bilan, pinagini buzmay; **il répondit placidement à toutes les attaques** hamma hujumlarga u xotirjamlik bilan javob berdi.

**placidité** *nf* muloyimlik, xotirjamlik, vazminlik, og'irlik.

**placier, ière** *n* gumashta, savdo vakili; **placier en librairie** kitob magazinining gumashtasi.

**plaf** *intj* shalop (*biror narsaning suvga tushganiga taqlid*).

**plafond** *nm* **1.** shift; **chambre basse de plafond** past shiftli xona; *loc* **avoir une araignée au plafond** miyasi aynigan, ahmoq bo'lmoq; **2.** samolyotning eng yuqori balandligi; **3.** eng yuqori nuqta, chegara, chek, cho'qqi; **prix plafond** bahoning eng yuqori cho'qqisi.

**plafonnement** *nm* eng yuqori cho'qqiga yetish.

**plafonner I.** *vt* shiftni suvamoq; **II.** *vi* **1.** o'zining eng yuqori balandligiga erishmoq (*samolyot*); **2.** yuqori cho'qqiga, chegaraga yetmoq; **salaires qui plafonnent** eng yuqori cho'qqiga chiqqan oylik.

**plafonnier** *nm* shiftga o'rnatilgan yoritgich; **le plafonnier de la voiture** avtomobil salonining yoritgichi.

**plage**[1] *nf* **1.** sohil; **plage de sable, de galets** qumloq, shag'alli sohil; **2.** plaj, cho'miladigan joy (*sohilda*); **plage publique, privée** ommaviy, xususiy plaj; **nous sommes allés à la plage nous baigner** biz plajga cho'milgani



www.ziyouz.com kutubxonasi

bordik; **3.** plaj yaqinidagi joy, shahar; **les casinos des plages à la mode** urf boʻlgan plajlarning qimorxonalari.

**plage**[2] *nf* **1. plage lumineuse** yoritilgan maydon; **2.** plastinkaning beti; **la première plage fait trois minutes** plastinkaning birinchi beti uch minut davom etadi; **2.** avtomobilning old yoki orqa tokchasi; **les haut-parleurs de l'autoradio sont encastrés dans la plage arrière** radiokarnaylar avtomobilning orqa tokchasiga oʻrnatilgan.

**plagiaire** *n* plagiator, adabiy oʻgʻri, koʻchirmachi.

**plagiat** *nm* plagiat, adabiy oʻgʻirlik, koʻchirmachilik; **ce chapitre est un plagiat** bu bob plagiat.

**plagier** *vt* plagiat, adabiy oʻgʻirlik, koʻchirmachilik qilmoq; plagiat, adabiy oʻgʻirlik, koʻchirmachilik bilan shugʻullanmoq; **plagier une œuvre** asardan koʻchirmachilik qilmoq.

**plaid**[1] *nm* katta, qalin jun roʻmol, shol roʻmol; **s'envelopper les jambes dans un plaid** oyogʻini qalin jun roʻmolga oʻrab olmoq.

**plaid**[2] *nm* Oʻrta asrlarda fiodal sudi.

**plaider I.** *vi* **1.** sudlashmoq; **plaider contre qqn** biror kishi bilan sudlashmoq, biror kishini sudga bermoq; **2.** himoya qilmoq; **l'avocat plaide pour son client** advokat oʻz mijozini himoya qilyapti; **3.** foydasiga, manfaatini himoya qilib gapirmoq; **il a plaidé en ta faveur auprès de tes parents** u ota-onangni oldida sening foydanga gapirdi; **sa sincérité plaide pour lui, plaide en sa faveur** uning samimiyligi uning foydasiga yuradi; **II.** *vt* **1.** sudda biror ishni himoya qilmoq; **l'avocat plaide la cause de l'accusé** advokat sudda sudlanuvchining ishini himoya qilyapti; **plaider la cause de qqn** sudda biror kishining manfaatini himoya qilib chiqmoq; **2.** dalil qilib koʻrsatmoq, dalil keltirmoq; **l'avocat a plaidé la légitime défense** advokat qonuniy oʻzini oʻzi himoyalashni dalil qilib koʻrsatdi; *ellipt* **plaider coupable, non coupable** oʻzini aybdor, aybsiz deb tan olmoq; *loc* **plaider le faux pour savoir le vrai** haqiqatni topish uchun yolgʻon ishlatmoq.

**plaideur, euse** *n* sudlashuvchi tomonlar; **les plaideurs d'un procès** ish yuzasidan sudlashuvchilar.

**plaidoirie** *nf* himoya qilish, suddagi himoya nutqi; **une longue plaidoirie** suddagi uzoq davom etgan himoya nutqi.

**plaidoyer** *nm* **1.** suddagi himoya nutqi; **2.** ashaddiy himoya, ashaddiy himoya qilish; **ce roman est un plaidoyer pour les opprimés** bu roman ezilganlar uchun ashaddiy himoya; **un plaidoyer en faveur des droits de l'homme** inson huquqlari manfaatlarini ashaddiy himoya qilish.

**plaie** *nf* **1.** yara; **plaie profonde** chuqur yara; **plaie mortelle** oʻlimga olib boradigan, xavfli yara; **les lèvres de la plaie** yaraning ogʻzi; **désinfecter, panser une plaie** yarani dezinfeksiya qilmoq, bogʻlamoq; **la plaie se cicatrise** yara bityapti, yara et olyapti; **2.** yara, jarohat, dard, alam, qaygʻu, hasrat; **les plaies du cœur** yurak jarohatlari; *loc* **retourner le fer, le couteau dans la plaie** yaraga tuz sepmoq; **porter le fer sur, dans la plaie** biror ishni zoʻrlik yoʻli bilan bitirmoq; **panser les plaies** zararni tiklamoq; **3. les sept plaies d'Égypte** yetti balo; **4.** *fam* **c'est une vraie plaie, quelle plaie!** bu haqiqiy azob, bir balo!

**plaignant, ante** *adj, n* sudda shikoyat qiluvchi; **la partie plaignante, le plaignant, dans un procès** biror ish yuzasidan shikoyat qiluvchi tomon, shikoyat qiluvchi.

**plain, plaine** *adj vx* tekis.

**plain-chant** *nm* Grigorian qoʻshigʻi (*rim katoliklarining diniy marosim qoʻshigʻi*).

**plaindre I.** *vt* **1.** rahmi kelmoq, achinmoq; **je te plains d'avoir tant de malheurs** men sening shuncha baxtsizliklar koʻrganingga achinaman; **être à plaindre** rahmi kelsa arzimoq; **il est plus à plaindre qu'à blâmer** u soʻkishdan koʻra koʻproq rahm-shafqat qilishga arziydi; **elle aime se faire plaindre** u oʻziga boshqalarning rahmi kelishini yaxshi koʻradi; **2.** *loc* **il ne plaint pas sa peine** u mehnatini ayamaydi; **II. se plaindre** *vpr* **1.** shikoyat qilmoq, zorlanmoq, nolimoq; **il ne se plaignait jamais** u hech qachon shikoyat qilmas edi; **elle se plaint de maux de tête** u bosh ogʻrigʻidan noliyapti; **2.** hasrat qilmoq, nolimoq, shikoyat qilmoq, arz qilmoq, zorlanmoq; **se plaindre de qqn** biror kishidan nolimoq; **se plaindre de son sort** oʻz taqdiridan nolimoq; **il se plaint sans cesse** u toʻxtovsiz noliydi; **se plaindre à qqn** biror kishiga shikoyat qilmoq; **j'irai me plaindre de cet employé au chef de service** men bu xizmatchining ustidan navbatchilik boshligʻiga shikoyat qilaman; **j'irai me plaindre de ce vol** men bu oʻgʻirlik yuzasidan arz qilaman.

**plaine** *nf* tekislik, tekis yer.

**plain-pied** *loc adv* teng, bir xil darajada; *loc* **être de plain-pied avec qqn** biror kishi bilan teng munosabatda boʻlmoq.

**plainte** *nf* **1.** ingrash, ixrash, voyvoylash; **les blessés poussaient des plaintes** yaradorlar ingrashar edi; **une plainte muette** ovoz chiqarmay ingrash; *fig* gʻuvillash, shuvillash; **la plainte du vent** shamolning gʻuvillashi; **2.** shikoyat, shikoyatnoma; **déposer une plainte contre qqn** biror kishining ustidan shikoyat yozmoq; **retirer sa plainte** shikoyatnomasini qaytarib olmoq; *loc* **porter plainte pour vol, contre qqn** oʻgʻirlik haqida, birovning ustidan shikoyatnoma bermoq.

**plaintif, ive** *adj* mungli, hazin; **une voix plaintive** mungli ovoz.

**plaintivement** *adv* mungli, hazin ohangda.

**plaire I.** *vi* **1. plaire à** birovga yoqmoq; **chercher à plaire à qqn** birovga yoqishni istamoq; **cet individu ne me plait pas du tout** bu odam menga umuman yoqmaydi; **2.** yoqib qolmoq, koʻngliga oʻtirib qolmoq; **elle lui plut, il l'épousa** u qiz unga yoqib qoldi, u unga uylandi; **3.** koʻngilni topmoq; **4.** yoqmoq, xush kelmoq, maʼqul boʻlmoq; **si ça vous plaît** agar bu sizga maʼqul boʻlsa; **5.** muvaffaqiyatli chiqmoq; **6.** *impers* **il… plaît** yoqmoq, yaxshi koʻrmoq, xohlamoq; **il me plaît de commander** menga buyruq berish yoqadi; **tant qu'il vous plaira** xohlaganingizcha; **s'il te plaît, s'il vous plaît** marhamat qilib, bemolol boʻlsa, xizmat boʻlmasa, iltimos; *vx* **plaît-il?** nima dedingiz? **7.** *litt* **plaise, plût à dieu, au ciel que** xudo xohlasa, xudo bersa; **II. se plaire** *vpr* **1.** oʻziga yoqmoq, oʻz-oʻziga maʼqul boʻlmoq; **2.** bir biriga yoqmoq; **3. (à)** yaxshi koʻrmoq, rohatlanmoq; **il se plaît au travail, à travailler** u mehnatdan, mehnat qilishdan rohatlanadi; **4.** huzur qilmoq, rohat qilmoq; **il se plaît beaucoup à la campagne** u qishloqda juda rohat qiladi; **je me plais avec (auprès de) toi** men sening oldingda huzur qilaman.

**plaisamment** *adv* **1.** yoqimli, koʻngilli; dilkashlik bilan; **causer plaisamment** dilkashlik bilan suhbatlashmoq; **2.** hazillashib, hazilona, hazil aralash; masxaraomiz, masxaralab; **une colère plaisamment simulée** hazil aralash yashiringan gʻazab.

**plaisance** *loc adj inv* **de plaisance** sayil-tomosha uchun xizmat qiladigan, sayil-tomosha; **un bateau de plaisance** sayil-tomosha kemasi.

**plaisancier** *nm* dengiz sayohatchisi, sayilchisi.

**plaisant, ante I.** *adj* **1.** yoqimli, yoqadigan, quvontiradigan; **ce n'est guère plaisant** bu judayam kulgili emas; **2.** nazokatli, xushmuomala, shirin soʻz; **c'est une femme plaisante** bu nazokatli ayol; **3.** *litt iron* gʻalati, kulgili, qiziq; **je vous trouve plaisant d'oser me dire cela à moi** sizning buni mening oʻzimga aytishga jurʼat qilishingiz menga gʻalati koʻrinyapti; **II.** *nm* **1.** *litt* **le plaisant de qqch** quvontiradigani, qiziqarlisi, ajoyibi; **2. un mauvais plaisant** qoʻpol, bemaʼni, bemaza hazilkash.

**plaisanter I.** *vi* **1.** hazillashmoq, hazil-mutoyiba qilmoq; **je ne suis pas d'humeur à plaisanter** men hazillashadigan holatda emasman; **2.** oʻynashmoq, hazillashmoq; **c'est un homme qui ne plaisante pas** bu hazilni bilmaydigan odam; **ne plaisantez pas avec cela** bu bilan oʻynashmang; **II.** *vt* tegishmoq, tegajogʻlik qilmoq, oʻynashmoq.

**plaisanterie** *nf* hazil; **savoir manier la plaisanterie** hazil qilishni bilmoq; **2.** hazil-mazax; **il ne comprend pas la plaisanterie** u hazil-mazaxni tushunmaydi; **3.** hazilakam ish; **ce sera pour lui une plaisanterie de battre ce record** bu rekorddan oʻzib ketish uning uchun hazilakam ish.

**plaisantin** *nm* hazilkash, qiziqchi; **vous êtes un petit plaisantin!** siz juda qiziqchi ekansizku!

**plaisir** *nm* **1.** rohat, huzur-halovat, mamnuniyat, lazzat; **le plaisir esthétique** estetik lazzat; **éprouver du plaisir à** huzur-halovat tuymoq; *iron* **je vous souhaite bien du plaisir** omadingizni bersin; **faire plaisir** xushnud etmoq, xursand, mamnun qilmoq, rohat, huzur bagʻishlamoq; **voulez-vous me faire le plaisir de dîner avec moi** men bilan tushlik qilib, meni xushnud etsangiz; **fais-moi le plaisir de te taire!** jim boʻlsangchi! (*doʻq-poʻpisa*); **avec plaisir** bajonidil, jon deb; **travailler avec plaisir** jon deb ishlamoq; **2.** shahvoniy lazzat; **3.** rohat, lazzat; **il prend un malin plaisir à nous embêter** u bizning jonimizni chiqarib rohatlanyapti; **le plaisir de qqch** biror narsadan



www.ziyouz.com kutubxonasi

taskin topish, huzur qilish; mamnuniyat; **le plaisir du devoir accompli** bajarilgan burchdan taskin topish; *loc* **prendre plaisir à** +*inf* biror ish qilishni yoqtirmoq; **il prend plaisir à travailler** u mehnat qilishni yoqtiradi; **ce sera un plaisir de les voir** ularni ko'rish katta bir xursandchilik bo'ladi; **au plaisir de vous revoir** yaxshi kunlarda ko'rishaylik; *ellipt fam* **au plaisir!** xayr, yaxshi boring! **4. pour le plaisir, pour son plaisir** o'zicha, bekordan-bekorga; **il ment pour le plaisir, par plaisir** u o'zicha, bekordan-bekorga yolg'on gapiradi; **5. les plaisirs** dunyo lazzatlari, ko'ngilxushlik; **c'est un plaisir coûteux** bu qimmatga tushadigan ko'ngilxushlik; **mener une vie de plaisirs** aysh-ishratda yashamoq, tarallabedod qilib yashamoq; **6. si c'est votre plaisir, si c'est votre bon plaisir** agar siz ma'qul ko'rsangiz, agar sizga ma'qul ko'rinsa; **le bon plaisir du roi** amri podsho vojib; **7. à plaisir** xohlagancha; **manger à plaisir** xohlagancha yemoq.

**plan[1], plane** *adj* tekis, yassi; **surface plane** tekis yuza; **géométrie plane** planimetriya (*geometriyaning tekisliklardagi shakllarni o'rganuvchi bo'limi*).

**plan[2]** *nm* **1.** tekislik, yassilik; **plan incliné** qiya tekislik; **plan d'eau** suvning sokin yuzi; **2.** *géom* tekislik; **plans sécants perpendiculaires** perpendikulyar kesishuvchi tekisliklar; **3.** turgan joyi yoki o'rni (*kimsa yoki narsaning boshqalarga nisbatan*); plan; tomon; **au premier plan** oldingi o'rinda, birinchi planda; *loc* **mettre qqch au premier plan** birinchi planga chiqarmoq, birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblamoq; **je les mets tous sur le même plan** men ularning hammasini bir xil ko'raman; **en arrière-plan** orqa planda; **sur le plan** jihatdan, tomondan; **sur le plan logique** mantiqiy jihatdan; **4.** tasvirlash masshtabi, plan; **gros plan de visage** yuzning yirik plandagi surati; **plan américain** tananing yarim surati; **plan séquence** ko'rinishning masshtabi.

**plan[3]** *nm* **1.** plan, chizma; **tracer un plan** planini chizmoq; **2.** plan, xarita; **plan de Paris** Parijning plani; **3.** plan, chizma, sxema; **plans et notices techniques d'un avion** samolyotning chizmalari va texnikoviy izohlari; **4.** plan, reja; tadbirlar sistemasi; **plan d'action** harakat rejasi; **exécuter un plan** planni amalga oshirmoq; **5.** biror narsa yozish, tuzish tartibi; fikrning mundarijasi; **plan d'une œuvre** asarning plani; **6.** planlashtirish, rejalashtirish; **plan économique** iqtisodiy planlashtirish; **les services du plan** davlat planlashtirish boshqarmasi.

**planant, ante** *adj fam* shirin xayol surdiradigan.

**planche[1]** *nf* **1.** taxta; *loc* **planche à dessin** rasm chizish taxtasi; **planche à laver, à repasser** kir yuvish, dazmollash taxtasi; **planche à pain** non taxta (*non kesadigan taxta*); *fam* oriq xotin; *loc* **entre quatre planches** tobutda; *loc* **planche de salut** oxirgi umid; **faire la planche** suvda chalqanchasiga yotmoq; **2.** *pl* sahna; **monter sur les planches** sahnaga chiqmoq; **3.** bosma qolip; **faire marcher la planche à billets** pul bosib chiqarmoq; **4.** estamp, bosma rasm; **les planches d'un livre** kitobdagi lavhalar; **5.** *fam* chang'i; **6. planche à roulettes** uchish uchun mo'ljallangan g'ildirakli taxtakach; **planche à voile** serfing (*suzish uchun mo'ljallangan machtali va yelkanli taxtakach*).

**planche[2]** *nf* pushta; **les planches de légumes** sabzavot pushtalari.

**planchéier** *vt* pol yotqizmoq.

**plancher[1]** *nm* **1.** pol, yer, uyning pastki qismi; **2.** pol; **plancher de sapin** archa pol; *loc fam* **débarrasser le plancher** quvib chiqilmoq; **le plancher des vaches** mustahkam yer; **3.** pastki chegara, pastki daraja; **prix plancher** minimal baho.

**plancher[2]** *vi maktab ibsi* imtihon, yoki sinovdan o'tmoq.

**planchette** *nf* taxtacha.

**planchiste** *n* serfingchi.

**plancton** *nm* plankton.

**plané, ée** *adj* **vol plané** havoda suzib yurish, parvoz qilish; *fam* **faire un vol plané** uchib tushmoq, qulab tushmoq.

**planer** *vi* **1.** havoda suzib yurmoq, parvoz qilmoq (*qush, samolyot, planyor*); **2.** *litt* yuqoridan nazar solmoq; **3.** chetdan nazar tashlamoq; **4.** xayol surmoq, shirin xayol og'ushida bo'lmoq; **5.** *narsa* havoda suzib yurmoq (*bug', tutun*); **5.** suzib yurmoq (*xavf-xatar*).

**planétaire** *adj* **1.** sayyora, planetaga oid; **2.** sayyora, yerga oid.

**planétarium** *nm* planetariy.

**planète** *nf* sayyora, planeta.

**planeur** *nm* planyor.

**planificateur, trice** *n, adj* planlashtiruvchi, rejalashtiruvchi.

**planification** *nf* planlashtirish, rejalashtirish.

**planifier** *vt* planlashtirmoq, rejalashtirmoq.

**planisphère** *nm* yer shari yassi holatda ifodalangan xarita.

**planning** *nm anglic* **1.** reja; **2. planning familial** oilani rejalashtirish.

**planque** *nf* **1.** *fam* maxfiy, pana joy; **2.** issiqqina joy, ishi yengil joy.

**planquer I.** *vt* yashirmoq, bekitmoq; **II. se planquer** *vpr* yashirinmoq, bekinmoq.

**plant** *nm* **1.** ko'chat; **repiquer de jeunes plants** yosh ko'chatlarni ko'chirib ekmoq.

**plantain[1]** *nm* bargizub, zubturum.

**plantain[2]** *nm* mevasi pishirib yeyiladigan banan daraxtining bir turi.

**plantation** *nf* **1.** ekish, o'tqazish; **la plantation des cheveux** sochning o'sish, joylashish uslubi; **2.** ekin; ekinzor, dala; plantatsiya.

**plante[1]** *nf* o'simlik; **plante grimpante, naine, rampante** chirmashib o'suvchi o'simliklar; **plantes grasses** kaktus; **plantes ornementales** gul; **plantes d'appartement, plantes vertes** uyda o'stiriladigan gullar.

**plante[2]** *nf* oyoqning kafti.

**planté, ée** *adj* **1. bien planté** qaddi-qomati kelishgan; **2.** qaqqayib, g'o'dayib turgan.

**planter I.** *vt* **1.** ekmoq; sepmoq; to'ldirib ekmoq, o'tqazmoq, ekib tashlamoq; **rue plantée d'arbres** atrofiga daraxt ekilgan ko'cha; **2.** botirmoq, qoqmoq, suqmoq; **planter des clous** mix qoqmoq; **être planté** biror holatda o'sgan bo'lmoq (*soch, soqol, jun*); **3.** o'rnatmoq, tikmoq; **planter une tente** chodir tikmoq; **planter les décors** dekoratsiya o'rnatmoq; **6. planter là** qoldirmoq, tashlab ketmoq; **II. se planter** *vpr* **1.** ekilmoq; **2.** turmoq; qo'qqayib, g'o'ddayib turmoq; **3.** *fam* botib qolmoq, to'siqqa uchramoq (*avtomobil va yo'lovchilar*); **la voiture s'est plantée dans le sable** avtomobil qumga botib qoldi; **4.** to'xtab, yurmay, ishlamay qolmoq; **l'ordinateur s'est planté** hisoblash mashinasi ishlamay qoldi; **5.** o'zining biror joyiga sanchib, suqib olmoq.

**planteur, euse** *n* plantatsiya egasi, xo'jayini.

**plantigrade** *adj* oyoq kaftlarida yuradigan (*odam, ayiq*).

**plantoir** *nm* ko'chat ekadigan qoziq.

**planton** *nm* **1.** aloqachi askar, soqchi; **2.** *fam* tik, oyoqda turish; **rester de planton une heure** bir soat tik turmoq.

**plantureusement** *adv* mo'llik, mo'l-ko'llik, seroblik bilan.

**plantureux, euse** *adj* **1.** mo'l, mo'l-ko'l, serob; mo'l-ko'l ovqat; **2.** to'ladan kelgan, jussali, to'la, barvasta.

**plaquage** *nm* **1.** qoplama tayyorlash **2.** *sport* raqibni oyog'idan tutish; **3.** *fam* tashlab ketish, orani uzish.

**plaque** *nf* **1.** plastina, yupqa taxtacha; **plaque de chocolat** bir bo'lak shokolad (*taxtacha shaklidagi*); **plaque de verglas** yax qatlami; **plaque tournante** chorraha, aylanish markazi; **Paris est la plaque tournante de la France** Parij Fransiyaning chorrahasi; **plaque sensible** fotoplastinka; **être à côté de la plaque** yanglishmoq, aybga aralashib qolmoq; **2.** belgi, raqam; **plaque d'identité** shaxsiy raqam; **plaque d'immatriculation** avtomobilning raqami; **3.** dog'; **des plaques rouges sur le visage** yuzdagi qizil dog'lar.

**plaqué** *nm* qimmatbaho metall qoplangan narsa; **plaqué or** oltin qoplangan narsa.

**plaquer** *vt* **1.** plastinka, taxtakach yopishtirmoq; **2.** silliqlamoq, tekis qilmoq; **plaquer ses cheveux, se plaquer les cheveux** sochini silliq qilmoq; **plaquer un accord** urib juft tovush chiqarmoq; **plaquer qqn contre, sur qqch** biror kishini biror kishi yoki narsa ustiga yiqitmoq; *sport* oyog'iga yopishib yiqitmoq; **3.** *fam* tashlab ketmoq; **elle a plaqué son mari** u yerini tashlab ketdi; **4.** zarhallamoq, tilla suvi yugurtirmoq; **des bijoux plaqués** tilla suvi yugurtirilgan taqinchoqlar.

**plaquette** *nf* **1.** taxtacha, plitka; **une plaquette de beurre** (*taxtacha shaklidagi*) bir bo'lak sariyog'; **2.** yupqa kitob.

**plasma** *nm* **1.** plazma; **2.** azon.

**plastic** *nm* portlagich, plastik bomba; **attentat au plastic** portlagich, plastik bomba qo'yish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**plasticage** *ou* **plastiquage** *nm* portlagich, plastik bomba qo‘yish.

**plasticité** *nf* egiluvchanlik, cho‘ziluvchanlik, qayishqoqlik; **la plasticité de la cire** mumning qayishqoqligi; **la plasticité du caractère de l'enfant** bola tabiatining egiluvchanligi.

**plastifier** *vt* egiluvchan, cho‘ziluvchan, qayishqoq qilmoq, plastik modda bilan qoplamoq.

**plastiquage** *nm voir* **plasticage**.

**plastique I.** *adj* **1.** plastikaga oid, plastik, plastika; **arts plastiques** plastika san'ati; **2.** plastik, silliq, nafis; **des gestes plastiques** nafis harakatlar; **3.** plastik, egiluvchan, cho‘ziluvchan, qayishqoq; plastmassa, polietilenga oid; **l'argile est plastique** loy qayishqoq; **seau en plastique** plastmassa chelak; **sac plastique** polietilen qop; **II.** *nm* plastmassa, qayishqoq, plastik modda; **III.** *nf* plastika (*hajmli shakllar yaratish san'ati*); gavda tuzilishi, bichim, qomat, sumbat; **les règles de la plastique** tasviriy san'at qoidalari.

**plastiquer** *vt* portlatmoq, plastik bomba qo‘ymoq; **plastiquer une maison** uyni portlatmoq.

**plastron** *nm* ba'zi kiyimlarning ko‘krak qismi.

**plastronner** *vi* **1.** gerdaymoq, kekaymoq; **2.** o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq, o‘zini ko‘rsatishga urinmoq; **plastronner pour la galerie** odamlarga o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq.

**plat[1], plate** *adj* **1.** tekis, yassi, yalpoq; **pays plat** tekis yurt; **poitrine plate** yassi ko‘krak **2.** yuza, sayoz, yapaloq; **assiette plate** yapaloq, sayoz idish; *loc adv* **à plat ventre** yuz tuban, muk, mukka tushib; **être à plat ventre devant qqn** birovning oldida ikki bukilib turmoq; **3.** yupqa, past; **avoir la bourse plate** hamyoni quppa-quruq, bo‘sh bo‘lmoq; **talons plats** past tovonlar; **à plat** yotqizib, keng tomoni bilan, yoni bilan; **mettre, remettre à plat** ko‘ndalangiga qo‘ymoq (*masalani*); **pneu à plat** dami chiqqan balon; *fam* **être à plat** holdan toygan bo‘lmoq, shalpayib qolmoq; **tomber à plat** chippakka chiqmoq, muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **4. rimes plates** juft qofiyalar; **5.** siyqa, bo‘lmag‘ur, bema'ni; xunuk; **style plat** siyqa uslub; **6.** xushomadgo‘y, laganbardor; **de plates excuses** pastkashona kechirim; **7. l'eau plate** gazsiz, gazlanmagan suv.

**plat[2]** *nm* **1.** biror narsaning yassi, tekis tomoni; **le plat de la main** qo‘lning kafti; **faire du vélo sur le plat** tekis yo‘l velosipedi bilan shug‘ullanmoq; **2.** qorni bilan suvga tushish; **faire un plat** qorni bilan suvga tushmoq; **3.** *fam* **faire du plat à qqn** xushomad qilmoq, pinjiga kirmoq, surkalmoq; **faire du plat à une femme**; **4.** kitobning muqovasi.

**plat[3]** *nm* **1.** patnis, lagan, katta chuqur tarelka; **des plats en porcelaines** chini laganchalar; **des œufs au plat, sur le plat** sarig‘i va oqini aralashtirmasdan pishirilgan tuxum; *loc* **mettre les pieds dans le plat** gapga ot solib yubormoq; **mettre les petits plats dans les grands** boplab siylamoq; **2.** ovqat, taom; **plats régionaux** mahalliy taomlar; **plat garni** sabzavot bilan tuzalgan go‘shtli yoki baliqli taom; **plat du jour** restoranda har kuni o‘zgarib turadigan ovqat; **plat de résistance** asosiy taom; **plat cuisiné** hafsala bilan pishirilgan ovqat; *fam* **faire tout un plat de qqch** arzimagan narsadan mojaro o‘ylab chiqarmoq.

**platane** *nm* **1.** chinor; *fam* **rentrer dans un platane** avtomobilda daraxtga borib urilmoq; **2. faux platane** oq zarang.

**plate** *nf* tagi yassi qayiq.

**plateau** *nm* **1.** patnis; **plateau repas** samolyot yoki oshxonalarda beriladigan ovqat; *loc* **apporter tout sur une plateau** patnisda keltirmoq, tayyorgina keltirmoq; **les plateaux d'une balance** tarozining pallalari; **plateau (d'un tourne-disque)** proigrivatel diskasi; **plateau de chargement** harakatlanuvchi platforma; **2.** yassi tog‘lik, plato; **plateau continental** kontinental plato; **3.** sahna; **le plateau d'un studio de cinéma** kinoga olish maydonchasi.

**plate-bande** *nf* jo‘yak, pushta, egat, marza; **une plate-bande de tulipes** bir jo‘yak lolalar; *loc fam* **marcher sur les plates-bandes de qqn** birovning tomorqasiga tosh otmoq, birovning ishiga aralashmoq.

**platée** *nf* bir tovoq.

**plate-forme** *nf* **1.** tekis, yassi yuza; **toit en plate-forme** tekis tom; **2.** maydoncha (*transport vositasining*); **3.** plato, yassi tog‘lik; **4.** *fig* platforma (*siyosiy maslak, dastur*).

**platement** *adv* siyqa, sayoz, bema'nilarcha.

**platine[1]** *nf* **platine d'un tourne-disque** proigrivatel diskasi.

**platine[2] I.** *nm* oqoltin, platina; **II.** *adj inv* oqish, oqimtir, platina rangidagi.

**platiné[1], ée** *adj* oqish, oqimtir (*sochga oid*).

**platiné[2], ée** *adj* **vis platiné** kontakt vinti, uzgich kontakti.

**platitude** *nf* **1.** siyqalik, sayozlik, bema'nilik; **2.** xushomadgo‘ylik, laganbardorlik.

**platonicien, ienne** *adj* platonchi, platon nazariyasiga ergashuvchi.

**platonique** *adj* **1.** ruhiy, ma'naviy sof; **amour platonique** ruhiy ishq, sof (*ma'naviy*) muhabbat; **2.** aniq bir maqsadi bo‘lmagan, mavhum; **une décision platonique et inapplicable** qo‘llab bo‘lmaydigan va mavhum qaror.

**plâtrage** *nm* suvash; suvoq.

**plâtras** *nm inv* **1.** suvoq bo‘laklari, parchalari; **2.** og‘ir, noaniq narsa; **avoir un plâtras sur l'estomac** oshqozoni to‘lib turmoq.

**plâtre** *nm* **1.** gips, ganch; **pierre à plâtre** gips; **statuette de plâtre** ganch haykalcha; *loc* **du plâtre** qayish, yetilmagan pishloq; *loc* **battre qqn comme plâtre** birovni urib ezib tashlamoq; **2. les plâtres** suvoq, suvoq ishlari; *loc* **essuyer les plâtres** ko‘chib kirib yangi uyni o‘zlashtirmoq, dastlabki qiyinchiliklarga uchramoq; **3.** gipsdan quyilgan narsa, gips quymasi; **4.** *méd* gips; **avoir une jambe dans le plâtre** oyog‘i gipsda bo‘lmoq.

**plâtrer I.** *vt* **1.** suvamoq, ganch, gips bilan suvamoq; **2.** *méd* gipslamoq, gipsga solmoq; **II. se plâtrer** *vpr fam* betiga upa chaplamoq.

**plâtrerie** *nf* **1.** gips zavodi; **2.** suvoqchilik, gips ishi.

**plâtreux, euse** *adj* **1.** suvalgan, gips bilan suvalgan; **2.** gips rangli oq; **3.** gipssimon, gipsga o‘xshagan; **fromage plâtreux** quruq, yetilmagan pishloq.

**plâtrier** *nm* suvoqchi, gips suvoqchisi; **plâtrier peintre** ganjchi usta.

**plâtrière** *nf* **1.** gips koni; **2.** gips xumdoni.

**plausible** *adj* haqiqatnoma, maqbul, qabul qilsa bo‘ladigan.

**play-back** *nm inv anglic* ovozni bir necha bor yozish; **chanter en play-back** fonogrammada ashula aytmoq.

**play-boy** *nm anglic* pleyboy, ayollarni yo‘ldan uruvchi yosh boyvachcha.

**plèbe** *nf hist* **1.** plebs; **2.** *péj litt* qora, avom xalq.

**plébéien, ienne** *adj* plebeylarga oid; plebeylar; **des goûts plébéiens** sodda, oddiy did.

**plébiscite** *nm* plebissit; **par voie de plébiscite** plebissit yo‘li bilan.

**plébisciter** *vt* **1.** plebissit yo‘li bilan ovoz bermoq; **1.** ko‘pchilik ovoz bilan qo‘llab-quvvatlamoq.

**pléiade** *nf* **1.** Hulkar (*Savr yulduz turkumida joylashgan tarqoq yulduzlar to‘dasi*); **2.** pleyada (*XVI asr yozuvchilari guruhi*); **3.** *litt* pleyada (*atoqli arboblar guruhi*).

**plein[1], pleine** *adj* **1.** to‘la, to‘liq, liq to‘la, limmo-lim; **plein à ras bords** limmo-lim, qirg‘og‘igacha to‘la; *loc* **une valise pleine à craquer** yorilib ketguday qilib to‘ldirilgan jamadon; **parler la bouche pleine** og‘zi to‘la gapirmoq; **avoir l'estomac plein** qorni to‘q bo‘lmoq; **plein comme une barrique** to‘yib ichgan; *fam* **un gros plein de soupe** meshqorin odam; **un plein panier de légumes** bir savat sabzavot; *loc* **saisir qqch à pleines mains** biror narsani mahkam ushlamoq; **sentir à plein nez** burunni yorib yubormoq; **2.** bo‘g‘oz (*hayvon haqida*); **3.** liq to‘la; **les autobus sont pleins** avtobuslar liq to‘la; **4.** to‘lgan, to‘lib-toshgan, cheksiz; **plein de** berilib ketmoq, boshi bilan sho‘ng‘ib ketmoq; **plein de soi-même** o‘ziga bino qo‘ymoq; **5.** *fam* boy-badavlat, farovon; **6.** semiz, to‘ladan kelgan, lo‘ppi, baqaloq; **des joues pleines** kulcha yuz; **7.** to‘la-to‘kis, mukammal, to‘lgan; **la pleine lune** to‘lin oy; **reliure pleine peau** to‘la teridan qilingan muqova; **un jour plein** to‘la bir kun; **travailler à plein temps, à temps plein** to‘la stavkada ishlamoq; **8.** to‘la, to‘liq, batamom; **plein succès** to‘la yutuq; **donner pleine satisfaction** ko‘ngliga to‘la taskin bermoq; *loc adv* **à plein, en plein** borligicha, astoydil, baralla, to‘la; **en plein(e)** ayni, avji, naq, rosa; **vivre en plein air** tashqarida yashamoq; **en pleine mer** ochiq dengizda; **se réveiller en pleine nuit** yarim tunda uyg‘onmoq; **visez en plein milieu** naq o‘rtasini mo‘ljallang; *fam loc adv* **en plein sur, en plein dans** ayni, naq, xuddi o‘ziga; **en plein dans le mille** naq mo‘ljalga urmoq; **la pleine mer** ochiq dengiz; **le plein air** ochiq havo; **plein de** to‘lib toshgan, g‘ij-g‘ij, to‘la; **un pré plein de fleurs** yaylov to‘la gul; **des yeux pleins de larmes** jiqqa



www.ziyouz.com kutubxonasi

yosh to'la ko'zlar; **les rues sont pleines de monde** ko'chalar odamlarga to'la; *fam* **tout plein de** juda ham, benihoyat, g'oyat.

**plein**[2] *nm* **1.** to'lalik, to'liqlik; mukammallik, to'la-to'kislik; **la lune était dans son plein** oy to'lin, to'lgan edi; **2.** avjida bo'lmoq, ayni pallasida bo'lmoq; **3. faire le plein de** to'ldirmoq, to'lg'izmoq, to'latmoq; **faire le plein (d'essence)** (*benzinga*) to'latmoq; **4.** to'lalik (*joyga nisbatan*); **les pleins et les vides** to'la va bo'sh joylar; **5.** yo'g'on yozuv.

**plein**[3] **I.** *prép* to'la, to'liq, liq, ko'p; *loc* **en avoir plein la bouche** biror kimsa yoki biror narsa og'zidan tushmaslik; *fam* **en avoir plein les bottes** yuraverib oyog'i uzulib tushay demoq; **en avoir plein le dos** yelkasining yag'iri chiqib ketmoq; **en mettre plein les yeux, la vue à qqn** birovning ko'zini qamashtirmoq; *fam* usti to'la, hamma joyi to'la; *loc adv fam* **plein de** juda ko'p, tumonot, liq, to'la; **il y avait plein de monde** tumonat odam bor edi; **II.** *adv fam* **tout plein** chunonam, g'oyat, o'lgiday; **c'est mignon tout plein** bu g'oyat yoqimtoy.

**pleinement** *adv* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila; **être pleinement responsable** to'la javobgar bo'lmoq.

**plein-emploi** *ou* **plein emploi** *nm sing* ish bilan to'la bandlik.

**plénière** *adj f* yalpi, umumiy; **assemblée plénière** umumiy majlis; **indulgence plénière** to'la indulgensiya.

**plénipotentiaire I.** *nm* muxtor vakil; **I.** *adj* muxtor; **ministre plénipotentiaire** maslahatchi vakil.

**plénitude** *nf litt* gullab-yashnash, ravnaq topish, yuksalish, yetuklik, kamolot, qirchillaganlik; **dans la plénitude de ses facultés** qobiliyatlarining yetuklik davrida.

**pléonasme** *nm ling* pleonazm.

**pléonastique** *adj ling* pleonazmga oid; pleonastik.

**pléthore** *nf litt* keragidan ortiqchalik, seroblik, mo'llik.

**pléthorique** *adj* ehtiyojidan, keragidan ortiq, ortiqcha.

**pleur** *nm* yig'i, yig'lash, ko'z yoshlari to'kish, ko'z yoshlari; **verser des pleurs** yig'lamoq, ko'z yoshlari to'kmoq; **être tout en pleurs** ho'ng-ho'ng yig'layotgan bo'lmoq.

**pleural, ale, aux** *adj* plevraga (*o'pka pardasiga*) oid; plevra.

**pleurard, arde** *adj* **1.** yig'loqi, yig'loq; **2.** g'amgin, mungli, hazin, ma'yus.

**pleurer I.** *vi* **1.** yig'lamoq, ko'z yoshi qilmoq; **avoir envie de pleurer** yig'lagisi kelmoq; **pleurer à chaudes larmes, comme un veau** ko'z yoshlari shashqator bo'lmoq; *loc* **c'est Jean qui pleure et Jean qui rit** uning qachon yig'lashini, qachon kulishini bilmaysan; **à pleurer, à faire pleurer** yig'laguday, odamni yig'isini keltirguday; **c'est triste à pleurer** odam juda xafa bo'lib ketasan; **3.** ko'zlari yoshlanmoq; **le vent me fait pleurer** shamolda ko'zlarim yoshlanyapti; **4.** o'ksigan bo'lmoq, yig'layotgan bo'lmoq, o'ksinmoq, yig'lamoq; **pleurer sur son sort** o'z taqdiridan o'ksinmoq; **5.** o'tinib, yolvorib, yig'lamsirab so'ramoq; **II.** *vt* **1.** achinmoq, o'kinmoq, ichi achishmoq; **pleurer sa jeunesse enfuie** o'tib ketgan yoshligiga achinmoq; **pleurer un enfant (mort)** (o'lgan) bolaga aza tutib yig'lamoq, ko'z yoshi to'kmoq; *fam* **pleurer misère** qashshoqlikdan o'kinmoq; **2.** *fam* **pleurer le pain qu'on mange** yegan noniga ichi achishmoq, xasis bo'lmoq; **3.** to'kmoq, oqizmoq (*ko'z yoshi*); **pleurer des larmes de joie** quvonch yoshlarini to'kmoq.

**pleurésie** *nf* plevrit, zotiljam.

**pleurétique I.** *adj* plevritga, zotiljamga oid; plevrit, zotiljam; **II.** *n* plevrit kasali bilan og'rigan odam, kasal.

**pleureur, euse** *adj* **1.** *vieilli* yig'loqi, g'ingshiq; mungli, hazin, ma'yus; **2.** novdalari yerga egilib, sollanib o'sadigan; **saule pleureur** majnuntol.

**pleureuse** *nf* yig'ichi, go'yanda (*azada aytib yig'lovchi, asosan, pulga yollanib yig'lab beruvchi ayol*).

**pleurnichard, arde** *adj voir* **pleurnicheur**.

**pleurnicher** *vi* hiqillamoq, hiqillab yig'lamoq.

**pleurnicherie** *nf* hiqillash, hiqillab yig'lash.

**pleurnicheur, euse** *ou* **pleurnichard, arde** *adj* yig'loqi, yig'loq, hiqillab yig'laydigan, g'ingshiq.

**pleutre** *nm* qo'rqoq, yuraksiz.

**pleutrerie** *nf* qo'rqoqlik, yuraksizlik.

**pleuvasser** *ou* **pleuvioter** *ou* **pleuvoter** *v impers* tomchilamoq, tomchilab, maydalab yog'moq.

**pleuviner** *v impers* maydalab, ezib yog'moq.

**pleuvoir I.** *v impers* **1.** yog'moq (*yomg'ir*); **il pleut légèrement** yomg'ir tomchilab turibdi; **il pleut à verse, à flots, à seaux, à torrents** yomg'ir sharros quyyapti, chelaklab quyyapti, jala quyyapti; *fam* **il pleut comme vache qui pisse** jala quyyapti; **ça pleut** yomg'ir yog'yapti; **2.** tushmoq; **il pleut de grosses gouttes** katta tomchilar tushyapti; *loc fam* **il ramasse de l'argent comme s'il en pleuvait** unga pul osmondan tushyaptimi; **II.** *vi* **1.** yog'ilmoq (*yomg'irday*); **les coups pleuvaient sur son dos** yelkasiga kaltaklar yog'ilar edi; **2.** to'rt tomondan, har tomondan yog'ilmoq; **les contraventions pleuvaient** jarimalar to'rt tomondan yog'ilar edi.

**plèvre** *nf* plevra, o'pka pardasi.

**plexiglas** *nm inv* pleksiglas, organik oyna; oynasimon plastmassa.

**plexus** *nm inv* tomirlar tutashgan joy, tomirlar bog'lami; *anat* **plexus solaire** quyosh o'rilmasi.

**pli** *nm* **1.** burma; **jupe à plis** burmali yubka; **2.** tax, qat, burma; **les plis des drapeaux** bayroqlarning taxlari; **un pli de terrain** yerning burmasi; **3.** buklangan joy, tax, chiziq; **faire le pli d'un pantalon** shimni dazmollamoq; **faux pli, pli** keraksiz, noo'rin tax; *loc fam* **cela ne fait (fera) pas un pli** buni izi ham qolmaydi; **4. mise en plis** sochni ukladka qilish, sochni jingalak qilish; **5.** *loc* **prendre un (le) pli** odatlanib qolmoq, odat orttirmoq; **6.** ajin, tirish; **7.** paket, konvert; **envoyer un message sous pli cacheté** berkitilgan paketda axborot jo'natmoq; **8.** bir yurishda olingan qarta(lar), yutuq qarta(lar).

**pliable** *adj* egiluvchan, egiladigan, egsa bo'ladigan.

**pliage** *nm* taxlash.

**pliant, ante I.** *adj* buklanadigan, yig'iladigan, yig'ma; **un lit pliant** yig'ma karavot; **II.** *nm* yig'ma kursi.

**plie** *nf* kambala, qalqonbaliq.

**plier I.** *vt* taxlamoq, yig'ishtirmoq; *fam* **plier ses affaires** narsalarini yig'ishtirmoq; **plier bagage** dov-dastakni yig'ishtirib jo'namoq, juftakni rostlamoq; **2.** egmoq, bukmoq; **être plié en deux par l'âge** yoshi bir yerga borib, ikki bukilib qolmoq; *fam* **être plié en deux (de rire)** kulaverib ichagi uzilmoq; **3.** buklamoq, yig'moq; **plier une chaise longue** uzun kursini buklamoq; **4.** odatlantirmoq, ko'niktirmoq, bukib olmoq; **II.** *vi* **1.** egilmoq, bukilmoq; **2.** egilmoq, bukilmoq; **rien ne le fit plier** hech narsa uni bukolmadi; **III. se plier** *vpr* bo'ysunmoq, bo'yin egmoq; **il faut se plier aux circonstances** sharoitga bo'ysunish kerak.

**plinthe** *nf* chaspak, plintus.

**plissage** *nm* plissirovka, dazmol urib qat-qat burma solish.

**plissé, ée I.** *adj* **1.** burmali; **jupe plissée** burmali yubka; **2.** ajin, tirish tushgan; **II.** *nm* burma; **le plissé d'une jupe** yubkaning burmasi.

**plissement** *nm* **1.** tirishtirish, chimirish; qovog'ini solish, xo'mrayish; **le plissement de son front** peshonasini tirishtirish; **un plissement d'yeux** qovoq solish; **2.** tog' burmalarini hosil qilish.

**plisser** *vt* **1.** burma solmoq; **plisser une jupe** yubkaga burma solmoq; **2.** g'ijim qilmoq, bujmaytirmoq; **plisser ses vêtements en dormant tout habillé** kiyingan holda yotib butun ust-boshini g'ijim qilmoq; **3.** tirishtirmoq, chimirmoq; qovog'ini solmoq, xo'mraymoq; **plisser les yeux** qovog'ini solmoq.

**pliure** *nf* egilgan yoki bukilgan joy; **à la pliure du bras** qo'lning bukilgan joyida.

**ploc I.** *intj* poq (*tushib singan narsaning ovoziga taqlid*); shalop (*suvga tushgan narsaga taqlid*); **II.** *nm* poqillash, shaloplash.

**ploiement** *nm litt* egish, bukish, buklash.

**plomb** *nm* **1.** qo'rg'oshin, qulom; **soldats de plomb** qo'rg'oshin, qalayi soldatchalar; **mine de plomb** grafit; **lourd comme du plomb** qo'rg'oshinday og'ir; *loc* **avoir du plomb dans l'estomac** oshqozonida tosh osilib turganday; **n'avoir pas de plomb dans la tête** yengiltak bo'lmoq; **ça lui mettra du plomb dans la tête** bu uning aqlini joyiga keltirib qo'yadi; **du plomb, en plomb** zil, zil-zambil; **avoir, se sentir des jambes en plomb** oyoqlari zil-zambil bo'lmoq; **sommeil de plomb** dong qotib uxlash, chuqur uyqu; **un soleil de plomb** lovullatayotgan quyosh; **2.** chuqurlikni o'lchash



www.ziyouz.com kutubxonasi

uchun foydalaniladigan uchiga qoʻrgʻoshin bogʻlangan arqon; **3.** sochma oʻq, pitra; **4.** qarmoqtosh; **5.** plomba; qoʻrgʻoshin tamgʻa; **6. plomb fusible** *ou ellipt* **plomb** probka, elektr quvvatining oshib ketishidan saqlagich; **les plombs ont sauté** probkalar kuyib qoldi; *loc fig fam* **péter les plombs** joni chiqmoq; jini qoʻzimoq; *loc adv* **à plomb** tik, tikkasiga; **fil à plomb** shoqul.

**plombage** *nm* plombalash, tishga plomba qoʻyish.

**plomber I.** *vt* **1.** qarmoqtosh osmoq; **essence plombée** qoʻrgʻoshinli benzin; **2.** plombalamoq, plomba, tamgʻa bosmoq, plomba bilan pechatlamoq, tamgʻalamoq; **3.** plombalamoq, plomba qoʻymoq; **II. se plomber** *vpr* murdadek oqarib ketmoq, rangi-qoʻti oʻchib ketmoq, boʻzarmoq; **sa peau se plombait** terisi boʻzarib ketgan edi.

**plomberie** *nf* **1.** qoʻrgʻoshin korxonasi; **2.** qoʻrgʻoshin bilan qoplash, vodoprovod, gazoprovod ishlari; **3.** vodoprovod, gazoprovod trubalari.

**plombier** *nm* vodoprovodchi slesar.

**plombières** *nm inv* plombir (*muzqaymoqning bir turi*).

**plonge** *nf* idish-tovoq yuvish (*restoranda*); **faire la plonge** idish-tovoq yuvmoq.

**plongeant, ante** *adj* tepadan, yukoridan pastga qaratilgan; yuqoridan pastga qaratilgan nazar; chuqur dekolte.

**plongée** *nf* **1.** botish, choʻkish; suv ostiga tushish; **sous-marin en plongée** suv ostiga tushgan suv osti kemasi; **2.** tepadan turib rasmga olish.

**plongeoir** *nm* tramplin; **sauter du deuxième plongeoir** ikkinchi tramplindan sakramoq.

**plongeon** *nm* **1.** shoʻngʻish, suvga sakrash; **faire un plongeon** shoʻngʻimoq; *loc* **faire le plongeon** mushkul, tang ahvolga tushib qolmoq; **faire le grand plongeon** oʻlmoq; **2.** *foot* toʻpga tashlanmoq.

**plonger I.** *vt* **1.** botirmoq, tiqmoq, suqmoq, pishmoq; **2.** sanchmoq, suqmoq; **plonger un poignard dans le cœur** yurakka xanjar sanchmoq; **3.** botirmoq, tiqmoq; **plante qui plonge ses racines dans le sol** yerga tomir otgan oʻsimlik; **plonger la main dans une boîte** qoʻlini qutiga tiqmoq; **plonger dans l'obscurité** qorongʻilikka shoʻngʻimoq, qorongʻilikka choʻmmoq; *loc* **plonger ses yeux, son regard dans** koʻz tikmoq, nigohini qaratmoq; **4.** botirmoq, solmoq; **plonger dans l'embarras** qiyin ahvolga solib qoʻymoq; **plonger dans la douleur** gʻamga botirmoq; **II.** *vi* **1.** suv ostiga tushmoq, shoʻngʻimoq; **un scaphandrier qui plonge** suv ostiga tushgan gʻavvos; **2.** suvga sakramoq, shoʻngʻimoq; **3.** botmoq, choʻmmoq, berilmoq; **plonger dans ses pensées** oʻz xayollariga botmoq; **4.** yaqqol koʻrmoq (*nigoh*); **de cette fenêtre, on plonge chez les voisins** bu derazadan qoʻshnilarniki yaqol koʻrinib turadi; **III. se plonger** *vpr* botmoq, shoʻngʻib ketmoq, chuqur berilmoq; **se plonger dans l'eau** suvga shoʻngʻimoq; **se plonger dans un livre** kitobga shoʻngʻib ketmoq.

**plongeur, euse** *n* **1.** gʻavvos, suv ostiga shoʻngʻuvchi; **2.** suvga sakrovchi, suvga shoʻngʻuvchi; **3.** idish-tovoq yuvuvchi (*restoranda*).

**plot** *nm* kontakt, qisqich.

**plouf** *intj* shalop.

**ploutocrate** *nm* plutokrat (*siyosatga ta'sir oʻtkazadigan puldor odam*).

**ploutocratie** *nf* plutokratiya.

**ployer I.** *vt litt* egmoq, bukmoq; **ployer les genoux** tizzalarini bukmoq; **II.** *vi* **1.** egilmoq, bukilmoq; **ses jambes ployaient sous lui** oyoqlari bukilib ketar edi; **2.** *litt* qaddi bukilib qolmoq, egilib, bukchayib qolmoq; **ployer sous le joug** tashvishdan qaddi bukilib qolmoq; **III. se ployer** *vpr* egilmoq, bukilmoq; **les herbes se ployaient au vent** oʻtlar shamolda egilar edi.

**plucher** *vi voir* **pelucher**.

**plucheux, euse** *adj voir* **pelucheux, euse**.

**pluie** *nf* yomgʻir; **pluie fine** mayda, maydalab yogʻayotgan yomgʻir; **pluie diluvienne, battante, torrentielle** sharros yogʻayotgan, urib yogʻayotgan yomgʻir, jala, sel; **recevoir la pluie** yomgʻirda qolmoq; **le temps est à la pluie** yomgʻir yogʻay deb turibdi; **jour de pluie** yomgʻirli kun; **la saison des pluies** yomgʻirlar fasli; **eau de pluie** yomgʻir suvi; *loc* **ennuyeux comme la pluie** oʻlgiday zerikarli; **après la pluie, le beau temps** oyning oʻn kuni qorongʻi boʻlsa, oʻn kuni yorugʻ; **faire la pluie et le beau temps** xohlasa bor, xohlasa yoʻq qiladigan boʻlmoq; **parler de la pluie et du beau temps** bir togʻdan, bir bogʻdan kelmoq; **en pluie** yomgʻir donachalariday; **sable qui retombe en pluie** yomgʻir donachalariday sochilib ketayotgan qum; **une pluie de pierres** tosh yomgʻiri; **une pluie de coups** kaltaklar yomgʻiri.

**plumage** *nm* pat, par.

**plumard** *ou abrév* **plume** *nm fam* oʻrin, joy, karavot; **aller au plumard** joylariga yotmoq; **au plume!** koʻrpaga!

**plume** *nf* **1.** pat, par; **gibier à plume et gibier à poil** ov parrandasi va ov hayvoni; *loc fam* **voler dans les plumes de qqn** birovning ustiga tashlanmoq; *fam* **perdre ses plumes** sochi tushib ketmoq; **y laisser, perdre des plumes** zarar koʻrmoq; **léger comme une plume** patday yengil; **se sentir léger comme une plume** xushchaqchaq boʻlmoq; *inv* **poids plume** yengil vaznli bokschi; **2.** pat, par (*bezak va boshqa maqsadda ishlatilgan*); **chapeau à plumes** pat qadalgan shlapa; **lit de plume** par toʻshak; *fam* **se mettre dans les plumes** koʻrpaga kirib yotmoq; **3.** pero (*yozuv quroli*); **plume d'oie** gʻoz patidan qilingan pero; **un stylo à plume** *ou* **un stylo plume** peroli avtoruchka; **4.** qalam; **vivre de sa plume** oʻz qalami evaziga yashamoq.

**plumeau** *nm* patdan qilingan supurgi.

**plumer** *vt* **1.** patlamoq, patini yulmoq; **2.** patini yulmoq, bor-yoʻgʻini olib qoʻymoq, shilmoq.

**plumet** *nm* jigʻa, ukpar.

**plumetis** *nm inv* toʻldirib gul solib tikilgan mato; **rideau de plumetis** tagdoʻzi parda.

**plumier** *nm vx* qalamdon.

**plumitif** *nm* **1.** *péj* byurokrat, devon amaldori; **2.** boʻlar-boʻlmas, noʻnoq yozuvchi.

**plupart I.** *nf* koʻp qismi, koʻp, koʻpchilik; **la plupart du temps** koʻp vaqt; **la plupart de** koʻpchilik; **la plupart des hommes** koʻpchilik odamlar; **dans la plupart des cas** koʻpchilik hollarda; *loc adv* **pour la plupart** koʻp qismi, koʻpchiligi; **les convives étaient, pour la plupart, des marchands** mehmonlarning koʻpchiligi savdogarlar edi; **II.** *pron* koʻpchilik; **la plupart s'en vont** koʻpchilik ketyapti.

**pluralisme** *nm* pluralizm.

**pluraliste** *adj* pluralizmga oid, pluralistik; **démocratie pluraliste** pluralistik demokratiya.

**pluralité** *nf* koʻplilik, turlilik; **la pluralité des opinions** fikrlarning turliligi.

**pluriel[1]** *nm gram* koʻplik son; **première personne du pluriel** birinchi shaxs koʻplik.

**pluriel[2], ielle** *adj* koʻp miqdordagi, koʻp, bir talay.

**plus[1]** *adv* **1.** koʻproq, ortiqcharoq; **plus grand** kattaroq; **plus souvent** tez-tez; **de plus près** yaqindan; **en plus** buning ustiga; **2. plus … que** -roq; **aimer qqch plus que tout** hammasidan koʻra biror narsani yaxshiroq koʻrmoq; **plus que jamais** har doimgidan ham koʻra; **plus qu'il ne faudrait** keragidan ham ortiqroq; **beaucoup plus** ancha koʻproq; **encore plus** yana koʻproq; **deux ans plus tôt, plus tard** ikki yil oldinroq, ikki yil keyinroq; **3. c'est d'autant plus cher qu'on en produit moins** qancha ozroq ishlab chiqarilsa, shuncha qimmatroq boʻladi; **4.** *loc* **plus ou moins** birmuncha, ozmi-koʻpmi, ma'lum darajada; **réussir plus ou moins bien** ozmi-koʻpmi erishmoq; **ni plus ni moins** koʻp ham emas, oz ham emas, ortiq ham emas, kam ham emas; **c'est du vol, ni plus ni moins** bu aynan oʻgʻirlik, bu borib turgan oʻgʻirlik; **5. de plus en plus** yana ham, yanada -roq; **aller de plus en plus vite** yana ham tezroq yurmoq; **on ne peut plus** bundan ortigʻining iloji yoʻq; **6.** koʻproq, ortiqroq miqdorda; **demander plus** ortiqroq soʻramoq; **il était plus de minuit** soat yarim tundan oshgan edi; **plus d'une fois** bir necha bor; **pour plus d'une raison** koʻp sabablarga koʻra; **7. plus de** koʻproq, ortiqroq; **elle avait plus de charme que de beauté** unda goʻzallikdan koʻra yoqimtoylik koʻproq edi; **8. de plus** yana, qoʻshimcha; **une fois de plus** yana bir marta; **une minute de plus** bir minut qoʻshimcha; **de plus, qui plus est** shu bilan birgalikda; **9. en plus** shuningday, birgalikda; *loc prép* **sans plus** ortiq emas, xalos; **elle est mignonne, sans plus** u dilbar xalos; **10.** *prov* **qui peut le plus peut le moins** katta ishni doʻndirgan, kichigini ham qoyillatadi; **11.** *conj* qoʻshuv, plus; **deux plus trois font, égalent cinq** ikki qoʻshilgan uch, beshga teng; **12.** noldan yuqorini bildiradi, plus; **13. la plus grande partie** eng koʻp qismi; **c'est le plus important** bu eng muhimi; **des plus** ayniqsa eng; **une situation des plus**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**embarrassantes** sharoitning ayniqsa eng hijolat qiladigani; **14. le plus de** eng ko'pi; **les gens qui ont rendu le plus de services** eng ko'p xizmat qilgan odamlar; **au plus, tout au plus** eng ortig'i, juda borsa; **cent francs au plus** juda borsa 100 frank; **15.** *nm inv* **un, des plus** afzalliklar, ustun tomonlar.

**plus²** *adv* faqat, atigi; **il ne reste plus que quelques jours** atigi bir necha kun qolyapti; **2. non plus** ham; **tu n'attends pas? moi non plus** kutmayapsanmi? men ham (*kutmayapman*); **3. ne … plus** yo'q, boshqa yo'q, endi yo'q; **il n'y en a plus** undan boshqa yo'q; **elle n'est plus** u endi yo'q (*o'ldi*); **il n'y a plus personne** hech kim yo'q; **sans plus** xalos, ortiq emas; **non plus** emas; **compter non plus par syllabes, mais par mots** bo'g'inlab emas, so'z bilan sanamoq; **plus un mot!** boshqa biror so'z demang! **plus jamais!** hechqachon!

**plusieurs I.** *adj* ko'pchilik, ko'p, bir necha; **plusieurs personnes sont venues** ko'pchilik kishilar keldi; **plusieurs fois** ko'p marta; **en plusieurs endroits** ko'p joylarda; **II.** *pron pl* **nous en avons plusieurs** ulardan bizda ko'p; ba'zi bir, ko'pchilik; **plusieurs sont venus** ko'pchilik keldi.

**plus-que-parfait** *nm gram* uzoq o'tgan zamon.

**plus-value** *nf* **1.** qo'shilgan, qo'shimcha daromad; **2.** *vx* qo'shimcha qiymat.

**plutonium** *nm* plutoniy.

**plutôt** *adv* **1.** ko'proq, ko'ra, yaxshisi; **cette épidémie frappe plutôt les personnes âgées** bu epidemiya ko'proq qarilarga tegyapti; **plutôt que de se plaindre, il ferait mieux de se soigner** oh-voh qilgandan ko'ra, davolansa yaxshiroq bo'lardi; **plutôt mourir!** yashisi o'lim! **plutôt moins que trop** benihoyadan ko'ra kamrog'i ham yaxshi; **ou plutôt** to'g'rirog'i, aniqrog'i; **elle a l'air méchant, ou plutôt revêche** u ko'rinishdan badjahl, to'g'rirog'i qovog'i soliq; **mais plutôt** balki; **ce n'est pas lui, mais plutôt elle qui en porte la responsabilité** bu kishi emas, balki bu ayol bunga ko'proq javobgardir; **2.** xiyla, ancha, xiylagina, yetarli darajada; **la vie est plutôt monotone** ancha zerikarli hayot.

**pluvial, ale, aux** *adj* yomg'irga oid, yomg'ir; **eaux pluviales** yomg'ir suvlari.

**pluvier** *nm* loyxo'rakning bir turi.

**pluvieux, euse** *adj* yomg'irli, seryomg'ir, yomg'ir, yog'ingarchilik ko'p bo'lgan; **temps pluvieux** yog'ingarchilikli ob-havo; **les jours pluvieux** yomg'irli kunlar; **pays pluvieux** seryomg'ir yurt.

**pluviomètre** *nm* yomg'irni, yog'ingarchilikni o'lchaydigan asbob.

**pluviosité** *nf* yomg'irlilik, seryomg'irlilik, yomg'ir yog'ish darajasi.

**P.M.E.** *nf inv abrév* **(Petites et moyennes entreprises)** kichik va o'rta ishlab chiqarish korxonasi.

**P.M.U.** *nm inv* **(Pari mutuel urbain)** shahar totalizatori.

**P.N.B.** *nm inv* **(Produit national brut)** yalpi milliy mahsulot.

**pneu** *nm* shina; **les pneus d'un vélo, d'une voiture** velosiped, avtomobil shinasi; **gonfler un pneu** shinani damlamoq, dam bermoq.

**pneumatique I.** *adj* **1.** pnevmatik; **marteau pneumatique** pnevmatik bolg'a; **2.** damlanadigan, damlama, dam beriladigan, puflanadigan; **canot pneumatique** damlama qayiq; **II.** *nm* pnevmatik pochta orqali jo'natilgan xat.

**pneumocoque** *nm* pnevmokokk.

**pneumonie** *nf* pnevmoniya, zotiljam.

**pneumothorax** *nm inv vx* pnevmotoraks.

**pochade** *nf* **1.** *litt* naridan-beri chizib olingan rasm, xomaki rasm, lavha; **2.** xomaki adabiy asar.

**pochard, arde** *n fam* piyonista, aroqxo'r.

**poche** *nf* **1.** cho'ntak, kissa; **la poche revolver d'un pantalon** shimning orqa cho'ntagi; **mettre qqch dans ses poches** biror narsani cho'ntakka solmoq, cho'ntakka urmoq; **mettre, avoir, garder les mains dans les poches** qo'lini cho'ntagiga solmoq; *loc* **les mains dans les poches** ikki qo'li cho'ntakda, ikki qo'lini cho'ntakka tiqib (*hech narsa qilmay*); **de poche** cho'ntakka sig'adigan, kichkina; **livre de poche** cho'ntakka sig'adigan kitob; **argent de poche** cho'ntak puli, mayda xarajatlar uchun ishlatiladigan pul; *loc* **se remplir les poches** cho'ntagini qappaytirmoq; **mettre la main à la poche** pul sarflamoq, to'lamoq; **payer de sa poche** o'z hamyonidan, yonidan, cho'ntagidan to'lamoq; *fam* **en être de sa poche** zarar ko'rmoq, yonidan to'lamoq; **connaître qqch, qqn comme sa poche** biror narsani, biror kishini besh qo'lday bilmoq; *fam* **n'avoir pas les yeux dans sa poche** ziyrak bo'lmoq, hamma narsaga nazar solib turmoq; **mettre qqn dans sa poche** qo'lga olmoq, o'z hukmronligiga, izmiga olmoq; *fam* **c'est dans la poche** ish pishdi; **2.** cho'zilib, osilib qolgan joy; **ce pantalon fait des poches aux genoux** bu shimning tizzalari osilib qolibdi; **poches sous les yeux** salqigan ko'zlar; **3.** konvert; **4.** cho'ntak, hamyon (*portfel, chamadon*); **cette valise a une poche extérieure** bu chamadonning tashqi cho'ntagi bor; **5.** xalta, sumka (*organlar*); **poche ventrale du kangourou femelle** urg'ochi kenguruning xaltasi; **6.** chuqur, o'yiq, kamgak, kamar; **une poche d'eau, de pétrole** suv va neft kamgaklari.

**pocher** *vt* **1. pocher un œil à qqn** birovni urib ko'zini ko'kartirmoq; **2.** dimlab pishirmoq; **pocher un poisson** baliqni dimlab pishirmoq; **des œufs pochés** dimlab pishirilgan tuxum (*po'chog'isiz*).

**pochette** *nf* **1.** xaltacha; **2.** ko'krak cho'ntakka solinadigan bezak ro'molcha.

**pochoir** *nm* trafaret, o'yma andoza, qolip; **un tissu imprimé au pochoir** o'yma andoza solingan gazmol.

**pochon** *nm* **1.** cho'ntakcha; **2.** qog'oz yoki polietilen xalta.

**podium** *nm* **1.** *sport* g'alaba shohsupasi; **les trois marches de podium** g'alaba shohsupasining uch pog'onasi; **2.** minbar, sahna (*biror transport vositasining ustiga o'rnatilgan*); **des podiums ambulants** sayyor sahnalar.

**podologie** *nf* podologiya.

**podologue** *n* oyoq kasalliklari shifokori.

**podzol** *nm* kul rang tuproq.

**poêle¹** *nm* pech, pechka.

**poêle²** *nf* tova; *loc* **tenir la queue de la poêle** ishni boshqarmoq, idora (*boshchilik*) qilmoq; ishga bosh, bosh-qosh bo'lmoq.

**poêle³** *nm* tobut yopinchig'i; **tenir les cordons du poêle** tobutning yopinchig'ining shokilasini tutib turmoq (*marhumga yaqinlik yoki hurmat belgisi*).

**poème** *nm* **1.** poema, doston; **un recueil de poèmes** poemalar to'plami; *loc fam iron* **c'est tout un poème** bu butunlay g'aroyib; **2. poème symphonique** simfonik poema.

**poésie** *nf* **1.** she'riyat, nazm, poeziya; **poésie lyrique** lirik she'riyat; **poésie épique** epik poeziya; **2.** she'r; **réciter une poésie** she'r aytmoq, she'r o'qimoq; **3.** nafosat, go'zallik, latofat; **4.** dilkashlik, jozibadorlik, lirik ruhiy holat; **il manque de poésie** jozibadorlik yetishmaydi.

**poète** *nm* **1.** shoir; **l'inspiration du poète** shoirning ilhomi; **cette femme est un grand poète** bu ayol katta shoira; *adj* **il est poète, elle est poète** u shoir, u shoira; **2.** usta, mohir, san'atkor; **ce romancier est un poète** bu romannavis yozuvchi san'atkor.

**poétesse** *nf* shoira.

**poétique¹** *adj* **1.** poeziyaga oid; poetik, she'riy, poeziya; **art poétique** poeziya san'ati; **2.** lirik; **une prose poétique** lirik nasr; **3.** shoirona, go'zal, nafis, jozibador; **un paysage très poétique** juda ham jozibador manzara.

**poétique²** *nf* poetika, poeziya nazariyasi; **la poétique d'Aristote** Aristotel poetikasi.

**poétiquement** *adv* poetik nuqtai nazardan.

**poétiser** *vt* shoirona tasvirlamoq, chiroyli qilib tasvirlamoq.

**pognon** *nm fam* pul, aqcha.

**pogrom** *nm hist* pogrom, qirg'in; pogrom qilish, qirg'in solish.

**poids** *nm inv* **1.** og'irlik, vazn; **d'un poids faible** yengil; **d'un grand poids** og'ir; **poids spécifique** solishtirma og'irlik; **2.** og'irlik, vazminlik; **le poids d'un fardeau** yukning og'irligi; **peser de tout son poids** bor og'irligini solmoq; yuk, vazn; **denrée qui se vend au poids ou à la pièce** kilolab yoki donalab sotiladigan tovar; **poids utile** bir transport vositasining ko'tara oladigan yuk og'irligi; **prendre, perdre du poids** semirmoq, ozmoq; **surcharge de poids** ortiqcha ortilgan yuk; **3.** *sport* vazn; **poids plume, poids moyen, lourd** eng yengil vazn, yengil, o'rta, og'ir vazn; **il ne fait pas le poids** u unga to'g'ri kelmaydi; **4.** qadoqtosh; **faire deux poids, deux mesures** ikki xil o'lchov bilan qaramoq, ikki xil yondoshmoq; **5.** *sport* ko'tariladigan anjomlar; shtanga, tosh; **poids et haltères** og'ir atletika; **le lancement du poids** yadro irg'itish; **6.** og'irlik, garanglik; **avoir un poids sur**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**l'estomac** me'daning og'irlashuvi; **7.** *fig* og'ir yuk, og'irlik, qiyinchilik; **un vieillard courbé sous le poids des années** yillar yuki ostida bukilib qolgan qariya; **poids mort** o'lik yuk; **8.** salmoq, ta'sir, nufuz, obro', e'tibor; **le poids d'un argument** dalilning asosliligi; **un homme de poids** nufuzli odam.

**poids lourd** *nm* og'ir yuk tashuvchi transport vositasi; *fig* salmoqli, ta'sirli, nufuzli, e'tiborli odam.

**poignant, ante** *adj* mashaqqatli, og'ir, azob beradigan, qiynaydigan; yurakka xanjarday sanchiladigan, yurakni ezadigan; **un souvenir poignant** og'ir xotira.

**poignard** *nm* xanjar, dudama; **frapper d'un coup de poignard, à coups de poignard** xanjar solmoq.

**poignarder** *vt* xanjar solmoq, pichoqlamoq, chavoqlamoq.

**poigne** *nf* **1.** ushlash, tutish, ushlab qolish; **avoir de la poigne** qattiq ushlamoq; **2.** epchillik, ishbilarmonlik, chaqqonlik; **un homme à poigne** ushlaganini kesib oladigan odam; **un gouvernement à poigne** ishbilarmon hukumat.

**poignée** *nf* **1.** siqim; **une poignée de sel** bir siqim tuz; **à poignée, par poignée** hovuchlab, ochiqqo'llilik bilan; **2.** bir siqim, bir hovuch, ozgina; **une poignée de mécontents** bir hovuch norozilar; **3.** tutqich, dasta, sop; **poignée d'épée** shpaganing dastasi; **une poignée de porte; la poignée d'une porte** eshikning tutqichi; **4. poignée de main** qo'l berib, qo'l siqib ko'rishish, qo'l siqishuv.

**poignet** *nm* **1.** bilak; *loc* **à la force du poignet** o'z bilak kuchiga tayanib, o'z kuchi bilan; **fortune acquise à la force du poignet** o'z bilak kuchi bilan orttirilgan boylik; **2.** yeng qaytarmasi, yeng manjeti.

**poil** *nm* **1.** jun, yung; **un chat qui perd ses poils** tulayotgan mushuk; **les poils d'une fourrure** mo'ynaning juni; **les poils d'une brosse** cho'tkaning juni; **gibier à poil** ov hayvonlari; *loc fam* **caresser qqn dans le sens du poil** ko'ngliga qaramoq, aytganini qilmoq; **bonnet à poil** paxmoq telpak; **2.** soch-soqol, tuk; **les poils du visage** soqol-mo'ylab, yuzdagi tuklar; *fam* **ne plus avoir un poil sur le caillou** boshida bir tuki ham bo'lmaslik, g'irt kal bo'lmoq; **ne plus avoir un poil de sec** shalabbo bo'lmoq, ivib ketmoq; **le poil, du poil** jun, tuk; **avoir du poil sur le corps** tanasini jun bosgan bo'lmoq; **3.** *loc fam* **avoir un poil dans la main** juda ham dangasa bo'lmoq; **tomber sur le poil de qqn** biron kishining ustiga tashlanmoq; **reprendre du poil de la bête** kuch-g'ayratini tiklamoq; **de tout poil (de tous poils)** turli toifadagi; **ils reçoivent des gens de tout poil** ular turli toifadagi odamlarni qabul qilishadi; *fam* **à poil** qip-yalang'och; **se mettre à poil** qip-yalang'och bo'lib yechinmoq; **être de bon, de mauvais poil** yaxshi, yomon kayfiyatda bo'lmoq; **4.** *bot* **poil à gratter** tukcha, tuk; **5.** tuk, pat; **les poils d'un tapis** gilamning tuklari; **6.** *fam* zarracha, zig'irday, tirnoqcha; **il n'a pas un poil de bon sens** unda zarracha ham aql yo'q; **à un poil près** arzimagan, ozgina narsani hisobga olmaganda; *loc adv fam* **au poil** haqiqatdan ham; **ça marche au poil!** haqiqatdan ham yuryapti! **au quart de poil** to'ppa-to'g'ri; *adj fam* **elle est au poil, ta copine** sening o'rtog'ing juda zo'r ekan; *intj* **au poil!** zo'r!

**poilant, ante** *adj fam* juda qiziq.

**poiler (se)** *vpr fam* xoxolab, qahqaha urib, qotib-qotib kulmoq.

**poilu[1], ue** *adj* jun bosgan; **il est poilu comme un singe** u maymunday jun bosgan.

**poilu[2]** *nm* 1914-1918-yillar urushi jangchisi.

**poinçon** *nm* **1.** bigiz; **poinçon de sellier** sarroj bigizi; **2.** shtempel, muhr, tamg'a, belgi.

**poinçonnage** *nm* **1.** tamg'a, muhr, belgi qo'yish; **poinçonnage de l'or** tilloni tamg'alash; **2.** shtempellash, shtempel qo'yish; **le poinçonnage des tickets** biletlarni shtempellash.

**poinçonner** *vt* **1.** tamg'a, muhr, belgi qo'ymoq; **2.** komposterlamoq, teshik-teshik belgi qo'ymoq.

**poinçonneur, euse** *n* **1.** kontrolyor, tekshiruvchi, nazoratchi; **2.** komposter.

**poinçonneuse** *nf* teshik teshadigan, kesib oladigan press.

**poindre** *litt* **I.** *vt* **1.** *vx* chaqmoq; **2.** yaralamoq, azob bermoq, qiynamoq; **l'angoisse le poignait** xavotir uni azoblayapti; **II.** *vi* paydo bo'lmoq, ko'rinmoq; **l'aube commence à poindre** tong otaboshladi.

**poing** *nm* musht; **revolver au poing** revolverni qo'lida qisib; **serrer le poing** mushtini qismoq, tugmoq; **donner des coups de poing à qqn** birovga musht tushirmoq, musht bilan urmoq, mushtlamoq; **dormir à poings fermés** dong qotib uxlamoq; **montrer le poing** musht ko'rsatmoq, musht do'laymoq; **faire le coup de poing** mushtlashmoq.

**point[1]** *nm* **1.** makon, joy, o'rin, nuqta; **aller d'un point à un autre** bir joydan ikkinchi joyga, bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga bormoq; **point de chute** tushish nuqtasi; **point de mire** mo'ljal, nishon; mo'ljalga olish nuqtasi; **point de repère** orientir; **point de départ** boshlanish, jo'nash nuqtasi; **point de non-retour** qaytmaslik nuqtasi; **les quatre points cardinaux** dunyo mamlakatlari; **point d'attache d'un bateau** kema qayd qilingan port; **c'est son point d'attache** bu uning muqim yashaydigan joyi; **point d'eau** suv manbai (*buloq, quduq*); **point culminant** eng yuqori, kulminatsion nuqta; **point de vue** ko'rinish, manzara; **point chaud** qizg'in jang ketayotgan, yoki muhim voqealar bo'layotgan joy; **c'est son point faible** bu uning bo'sh joyi; **point de côté** biqindagi sanchiq; **2.** *géom* nuqta, punkt; **les points A, B, C** A, B, C nuqtalari; **3.** kemaning turgan joyi, joylashgan nuqtasi; **faire, relever le point avec le sextant** kemaning joylashgan nuqtasini sekstant bilan aniqlamoq; *loc* **faire le point** o'z holatiga, sharoitga baho bermoq, hisob-kitob qilmoq; **4. point mort** turgan joyida, bir nuqtada; bir tarzda, o'zgarmasdan; **5. mettre au point** tuzatmoq, sozlamoq; **machine bien, mal mise au point** yaxshi, yomon sozlangan stanok; **mise au point** fotoapparatning rezkostini aniq to'g'rilash, moslash; yakun, xulosa yasash; umumiy miqdorini hisoblab chiqish; **ce projet demande une mise au point** bu reja aniqlik kiritishni talab qiladi; **être au point** meyorida sozlangan, tuzatilgan bo'lmoq; **cette machine n'est pas au point** bu stanok meyorida sozlangan emas; **6.** davomiylik; **à point, à point nommé** ayni paytida, juda vaqtida, zarur paytida; **sur le point de** tayyor turgan paytida, deb turgan paytida; **être sur le point de partir** jo'nashga tayyor turgan bo'lmoq; **le point du jour** tong yorisha boshlagan paytda; **7.** belgi, hisob belgisi; **8.** nuqta, xol, dog'; **un point lumineux à horizon** gorizontdagi yorug' nuqta; **9.** *sport* ochko; **compter les points** ochkolarni hisoblamoq; **marquer des points contre, sur qqn** ustun kelmoq; **victoire aux points** bokschining ochkolar hisobida g'alabasi; **10.** baho (*o'quvchiga beriladigan*); **douze points sur vingt** yigirmadan o'n ikki baho; **bon point** maqtov yorlig'i; **c'est un bon point en sa faveur** bu uning foydasiga; **11.** nuqta; **les points et les virgules** vergul va nuqtalar; **points de suspension** uch nuqta (...); **le(s) deux-point(s)** ikki nuqta (:); **point-virgule** nuqta vergul (;); **point d'exclamation** undov belgisi (!); **point d'interrogation** so'roq belgisi (?); **12.** harflarning ustidagi nuqta; *loc* **mettre les points sur les i** hech bir noaniq joyini qoldirmay to'la izohlamoq, gapni oxiriga yetkazmoq.

**point[2]** *nm* **1. à point, au point** holda, holatda, ahvolda; **au point où nous en sommes** bizning ahvolda; *loc adv* **à point** yetarli darajada, maqbul holatda; *loc adj inv* **mal en point** ahvoli yomon, yomon holatda, bir ahvolda, ahvoli og'ir, kasal; **elle est très mal en point** uning ahvoli juda og'ir; *vx* **être en bon point** to'la, to'ladan kelgan bo'lmoq; **2. le plus haut point** eng yuqorisi, cho'qqisi, uchi; **au plus haut point** eng yuqori, astoydil, juda ham, o'ta darajada; **à ce point** bu darajada, bunchalik; **à quel point** qanchalar, qay darajada; **à tel point** shunchalar, ko'p; **à un certain point, jusqu'à un certain point** ma'lum darajada, ma'lum darajagacha; **au point de** bu darajada; **à ce point, au point, à tel point que** shunchalar darajadaki; **3. point d'ébullition de l'eau** suvning qaynash nuqtasi, darajasi.

**point[3]** *nm* **1.** bo'lim, qism, band, joy; **les différents points d'une loi** qonunning turli bandlari; **2.** masala; **un point litigieux** tortishuvli masala; **sur ce point je ne suis pas d'accord** bu masalada men rozi emasman; **en tout point** butunlay; **de point en point** aynan, so'zma-so'z; **exécuter des ordres de point en point** buyruqni so'zma-so'z bajarmoq.

**point[4]** *nm* **1.** chokning, qaviqning bir yo'li (*bitta baxiyasi*); **bâtir à grands points** katta chok bilan tikmoq; **2.** chokni, baxiyani tikish uslubi.

**point[5]** *adv vx litt ou plais* **ne... point, ne... pas...** hech ham, sira ham, aslo, mutlaqo; **je n'irai point** men hech ham bormayman; **point du tout** sira, zinhor.

**pointage** *nm* **1.** belgilash; **le pointage du personnel à l'entrée d'une usine** xodimlarni zavodga kirishda belgilash; **2.** to'g'rilash, mo'ljalga olish; **le pointage d'un canon** to'pni to'g'rilash, nishonga olish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**point de vue** *nm* **1.** o'tirib tomosha qiladigan joy; **2.** manzara, go'zal ko'rinish; **3.** nuqtai-nazar, fikr, munosabat; **je partage votre point de vue** men sizning fikringizga qo'shilaman; *loc prép* **au (du) point de vue de** nuqtai nazardan; **du point de vue social** ijtimoiy nuqtai nazardan.

**pointe** *nf* **1.** o'tkir uch, uch; **la pointe d'un aiguille** ignaning uchi; **2.** uchliroq yoki yupqaroq chet, uch; **la pointe d'un paratonnerre** yashin qaytargichning uchi; **les pointes d'un col de chemise** ko'ylak yoqasining burchaklari; **en pointe** uchli, uchi o'tkir; **3.** oldingi qator, ilg'or; **la pointe d'une armée** armiyaning oldingi qatori; *loc* **être à la pointe du combat** kurashning oldingi qatorlarida bo'lmoq; **4. la pointe des pieds** oyoqning uchi; **marcher sans bruit, sur la pointe des pieds** shovqin qilmay oyog'ining uchida yurmoq; **5.** puant (*raqs*); **faire des pointes** puantda yurmoq (*oyoq uchida*); **6.** uchli narsa; **casque à pointe** uchli dubulg'a; **les pointes de fer d'une grille** temir panjaraning uchi; **7.** mix; **8. pointe sèche** *ou* **pointe** gravyura qalami; **9.** *méd* **pointe de feu** kuydirilgan joy (*davolash uslubi*); **10.** sanchib, chaqib oladigan so'z, gap; **11.** bir chimdim, ozgina, qittay, jinday miqdor; **une pointe d'ail** bir chimdim sarmsoq; **une pointe d'ironie** qittay kesatish; **12.** maksimal tezlik, biror narsaning avjiga chiqqan payti, tig'iz payt; **la vitesse de pointe d'une automobile** avtomobilning eng katta tezligi; **heures de pointe** transportda tig'izlik payti; **le métro est insupportable aux heures de pointe** tig'izlik paytida metroda yurish juda qiyin bo'lib ketadi.

**pointé, ée** *adj* **1.** nuqta qo'yilgan, belgi qo'yilgan, belgilangan; **2.** *mus* **note pointée** nuqta bilan belgilangan, mohiyati yarim barobar orttirilgan nota.

**pointer[1]** **I.** *vt* **1.** nuqta qo'ymoq, belgi qo'ymoq, belgilamoq; **2.** nazorat qilmoq, ishga kelib-ketishni belgilamoq; **II.** *vi* ro'yxatdan o'tmoq, qayd qildirmoq, yozilmoq.

**pointer[2]** **I.** *vt* **1.** tik qilmoq, ding qilmoq; **cheval qui pointe les oreilles** qulog'ini ding qilgan ot; **2.** *o'timsiz* yuqoriga qarab o'smoq, bo'y cho'zmoq; **des cyprès qui pointent vers le ciel** osmonga bo'y cho'zgan sarvlar; **3.** chiqmoq, chiqarmoq, ko'rinmoq; **les asperges pointent la tête hors de terre** sarsabil yerdan bosh ko'tarib qoldi; **4.** yo'naltirmoq, qaratmoq; **il pointait son index vers moi** u bosh barmog'ini menga qaratdi; **5.** qaratmoq, mo'ljalga to'g'rilamoq; **pointer un canon vers un objectif** to'pni mo'ljalga to'g'rilamoq; **6.** iloji boricha o'z soqqalarini mo'ljalga yaqinroq joylamoq; **II. se pointer** *vpr fam* kelmoq, qadam ranjida qilmoq, paydo bo'lmoq; **elle s'est pointée à trois heures** u soat uchda qadam ranjida qildi.

**pointer[3]** *nm* poynter (*ov itining bir turi*).

**pointeur[1], euse** **I.** *n* belgilovchi, tabelchi; **II.** *adj* **horloge pointeuse** ishchi yoki xodimning ishga kelgan, ketgan vaqtini belgilovchi avtomat mexanizm.

**pointeur[2], euse** *n* **1.** mo'ljalga, nishonga oluvchi; **2.** mo'ljalga olayotgan o'yinchi.

**pointillé** *nm* **1.** nuqtali chiziqlar yordamida chizilgan rasm, gravyura; **2.** nuqtali chiziq, punktir; **détacher suivant le pointillé** nuqtali chiziqdan yirtmoq.

**pointilleux, euse** *adj* injiq, serzarda, maydakash.

**pointillisme** *nm* puantilizm.

**pointilliste** *n ma adj* puantilist, puantilizmga oid, puantilizm.

**point mort** *nm techn* salt, quruq aylanish, yurğazish mexanizmi qo'shilmagan holat; *loc* **l'affaire est au point mort** ish o'rnidan quzg'almayapti, ish yurishmayapti.

**pointu, ue** *adj* **1.** uchli, uchi o'tkir; **clou pointu** o'tkir mix; **menton pointu** uchli iyak; **un caractère pointu** tegmanozik, jizzaki xarakter; **2.** o'tkir, chiyillagan, chiyildoq (*ovoz, tovush*); **parler sur un ton pointu** chiyillagan ohangda gapirmoq; **3.** murakkab, chigal; **une expérience très pointue** chigal tajriba.

**pointure** *nf* razmer, o'lchov; **quelle pointure chaussez-vous?** nechanchi oyoq kiyimi kiyasiz?

**poire** *nf* **1.** nok, nashvati, olmurut; nokdan qilingan spirtli ichimlik; *loc* **garder une poire pour la soif** qora kunga olib, saqlab qo'ymoq; *loc* **couper la poire en deux** foydayu zararni teng bo'lishmoq; o'zaro kelishmoq; **2.** noksimon, nok shaklidagi narsa; **3.** *fam* bet, bashara, turq; *fam* pishmagan oshqovoq; **tu es aussi poire que moi** sen ham menga o'xshagan pishmagan oshqovoq ekansan.

**poiré** *nm* nok sidri, nok vinosi.

**poireau** *nm* **1.** porey piyozi, porey piyoz; **soupe aux poireaux** porey piyoz sho'rva; **2.** *loc fam* **rester planté comme un poireau, faire le poireau** bir joyda qaqqayib kutmoq.

**poireauter** *vi fam* qaqqayib kutib turmoq.

**poirier** *nm* **1.** nok daraxti; **2.** nok yog'ochi; **meubles en poirier** nok yog'ochidan qilingan mebellar; **3.** *loc* **faire le poirier** boshida va qo'lida tik turmoq.

**pois** *nm* **1.** no'xat (*o'simligi va doni*); **pois à écosser** qo'zoqli no'xat; **petit pois** no'xat; **pois cassés** ikkiga bo'lingan no'xat; **pois chiche** no'xat; **pois de senteur** no'xatgul; *loc* **purée de pois** juda qalin tuman; **2.** mayda xol-xol gul (*gazmolda*).

**poison** *nm* **1.** zahar, og'u; **assassiner qqn par le poison** biror kishini zaharlab o'ldirmoq; **2.** *litt* zahri; **le poison de la calomnie** tuhmatning zahri; **3.** *fam* badhazm odam; aziyatli, ozorli narsa; **quel poison de retourner là-bas!** u yoqqa qaytib borish muncha ozorli!

**poissard, arde** **I.** *adj litt* dag'al, qo'pol, beadab, kurakda turmaydigan; **un argot poissard** beadab argo; **II.** *nf péj* manjalaqi.

**poisse** *nf fam* omadsizlik, ishi o'ngidan kelmaslik; **quelle poisse!** qanday omadsizlik! **porter la poisse** omadsizlik keltirmoq.

**poisser** *vt* **1.** kir, iflos qilmoq, bulg'amoq (*yopishqoq narsa bilan*); **se poisser les mains de confiture** qo'lini qiyomga bulg'amoq; **2.** *fam* qo'lga tushirmoq, qo'lga olmoq, ushlab olmoq; **on risque de se faire poisser** qo'lga tushib qolish mumkin.

**poisseux, euse** *adj* yopishqoq, yelimshak; **des papiers de bonbons poisseux** yopishqoq konfetning qog'ozi.

**poisson** *nm* baliq; *loc* **petit poisson deviendra grand** bo'ladigan, kelajagi bor narsa; **l'élevage des poissons** baliqchilik; **prendre, attraper des poissons** baliq tutmoq; **poisson volant** uchar baliq; **être heureux comme un poisson dans l'eau** o'z muhitida bo'lmoq; *fam* **engueuler qqn comme du poisson pourri** birovni haqorat qilmoq, so'kmoq; **finir en queue de poisson** natijasiz tugamoq; **faire une queue de poisson** lip etib oldingi avtomobildan o'tib olmoq.

**poissonnerie** *nf* baliq va dengiz mahsulotlari savdosi.

**poissonneux, euse** *adj* baliqqa boy, balig'i ko'p; **une rivière poissonneuse** baliqqa boy daryo.

**poissonnier, ière** *n* baliq va dengiz mahsulotlarini sotuvchi.

**poitrail, ails** *nm* **1.** ko'krak, to'sh (*otda*); **2.** *plais* to'sh, ko'krak (*odamga nisbatan*).

**poitrinaire** *n vx* o'pka kasal; sil kasal, sil kasaliga uchragan odam.

**poitrine** *nf* **1.** ko'krak, siyna, to'sh; **tour de poitrine** ko'krak kengligi; **respirer à pleine poitrine** chuqur nafas olmoq, ko'kragini to'ldirib nafas olmoq; **gonfler sa poitrine** ko'kragini to'ldirmoq; **fluxion de poitrine** pnevmoniya, o'pka shamollashi; **bomber la poitrine** ko'krak kermoq; **2.** ko'krak, siyna (*ayollarda*); **une poitrine forte** bo'liq ko'krak.

**poivre** *nm* **1.** murch; **poivre en grains** tuyilmagan murch; **poivre de Cayenne** achchiq qalampir qo'shilgan ziravor; **poivre d'âne** jambil; *loc adj* **poivre et sel** mosh-guruch, moshkichiri (*soch*).

**poivré, ée** *adj* **1.** murch qo'shilgan, murch solingan, murchli, achchiq; **2.** betakalluf, qo'pol, achchiq; **une plaisanterie poivrée** qo'pol hazil.

**poivrer** **I.** *vt* murch solmoq, murch qo'shmoq, murchlamoq, qalampir solmoq, qalampir qo'shmoq, qalampirlamoq; **II. se poivrer** *vpr fam* kayf bo'lmoq, mast bo'lmoq.

**poivrier** *nm* **1.** murch o'simligi; **2.** murchdon, qalampirdon.

**poivrière** *nf* burchaklardagi minora; **toit en poivrière** konussifat tom.

**poivron** *nm* bulg'or qalampiri.

**poivrot, ote** *n fam* aroqxo'r, ichkilikboz.

**poix** *nf inv vx* yelim, qatron, smola, shira.

**poker** *nm* poker; **jouer au poker** poker o'ynamoq; *loc* **un coup de poker** qaltis, xavfli, aldamchi harakat.

**polaire** *adj* **1.** qutbga oid, qutb; **l'étoile Polaire** *ou nf* **la Polaire** Qutb yulduzi; **cercle polaire** qutb doirasi; **climat polaire** qutb ob-havosi; **ours**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**polaire** oq ayiq; **expédition polaire** qutb ekspeditsiyasi; **2.** qarama-qarshi, bir-biriga zid; **coordonnées polaires** qarama-qarshi koordinatlar; **3.** *phys* musbat va manfiy zaryadlari bo'lgan.

**polaque** *n fam péj* polyak.

**polar** *nm fam* detektiv roman yoki film.

**polarisation** *nf phys* **1.** polyarizatsiya, qutublanish, qutublashish; **2.** bor kuchini, bor fikri-zikrini bir nuqtaga yig'ish.

**polariser** *vt* **1.** polyarizatsiya qilmoq, qutublamoq; qutblarga ajratmoq; **lumière polarisée** qutblangan yorug'lik nurlari; *fig* bir yerga, bir nuqtaga to'plamoq, bir narsaga qaratmoq, jalb etmoq, bermoq; **ces problèmes polarisent toutes leurs activités** bu masalalar ularning faoliyatlarini bir nuqtaga to'playapti.

**polarité** *nf* qarama-qarshi qutblarga egalik, ikki qutblilik; **la polarité d'un aimant** magnitning ikki qutbliligi.

**polder** *nm* batqog'i qochirilgan qirg'oq.

**pôle** *nm* **1.** qutb; **pôle arctique (pôle nord); antarctique, austral (pôle sud)** shimoliy, Janubiy qutb; **2. pôle céleste** olam qutblari; **3.** magnit qutblari; **4.** elektrod; **pôle positif, pôle négatif** musbat elektrod (*anod*), manfiy elektrod (*katod*); **5.** qarama-qarshi tomonlardan yoki hodisalardan har biri; **les deux pôles de l'opinion** fikrning har ikki qarama-qarshi tomonlari.

**polémique I.** *adj* munozarali, bahsli, tortishuvli; **un style polémique** munozarali uslub; **II.** *nf* munozara, bahs, tortishuv; **une polémique avec les journalistes** jurnalistlar bilan bahs.

**polémiquer** *vi* bahslashmoq, munozara qilmoq, masala talashmoq.

**polémiste** *n* munozarachi, bahschi.

**poli[1], ie** *adj* **1.** odobli, tarbiya ko'rgan, xushmuomala, nazokatli; *loc* **il est trop poli pour être honnête** andishali odam uchun u negadir ortiqcha xushmuomala; **2.** muloyim, silliq (*narsa*); **un refus poli** silliq rad javobi.

**poli[2], ie I.** *adj* silliq, sayqallangan, silliqlangan, yaraqlatilgan; **un caillou poli** silliq tosh; **II.** *nm* silliqlash, sayqallash, yaraqlatish; **donner un beau poli à un marbre** marmarni yaxshilab sayqallamoq.

**police[1]** *nf* **1.** politsiya; **police judiciaire** sud politsiyasi, jinoiy qidiruv politsiyasi; **police secrète** maxfiy politsiya; **polices parallèles** maxfiy politsiya xizmati; **inspecteur de police** politsiya inspektori; **agent de police** politsiya agenti; **police secours** navbatchi politsiya bo'limi (*Fransiyada*); **commissariat de police** politsiya komissariyati; **dénoncer qqn à la police** biror kishini politsiyaga topshirmoq, sotmoq; **se faire arrêter par la police** politsiya tomonidan qo'lga olinmoq; **la police de la circulation** yo'l nazorati politsiyasi.

**police[2]** *nf* polis; **souscrire à une police d'assurances** sug'urta polisiga yozilmoq.

**policer** *vt litt* madaniylashtirmoq, madaniyatli qilmoq, madaniyatga, sivilizatsiyaga erishtirmoq; **les sociétés les plus policiées** eng yuqori madaniyatga erishgan jamiyatlar.

**polichinelle** *nm* **1.** masxaraboz, qiziqchi; *loc* **c'est un secret de polichinelle** hammaga ma'lum, oshkor bo'lgan sir; **2.** tasqara.

**policier, ière I.** *adj* **1.** politsiyaga oid, politsiya; **chien policier** iskovich it; **2.** detektiv; **un roman policier** detektiv roman; **II.** *nm* politsiyachi, mirshab.

**policlinique** *nf* poliklinika.

**poliment** *adv* odob, xushmuomalalik bilan, muloyim, boadabona.

**poliomyélite** *nf méd* poliomiyelit.

**poliomyélitique I.** *adj* poliomiyelitga oid, poliomiyelit; **II.** *n* poliomiyelitga chalingan odam.

**polissage** *nm* oynaday silliqlash, sayqallash, sayqal berish; **le polissage du bois** yog'ochga sayqal berish.

**polir** *vt* **1.** oynaday silliqlamoq, sayqallamoq, sayqal bermoq; **se polir les ongles** tirnoqlarini egovlamoq; **2.** sayqallamoq, sayqal bermoq; **polir son style** o'z uslubini sayqallamoq.

**polissoir** *nm* tirnoq egovlagich.

**polisson, onne I.** *n* sho'x, to'polonchi, shumtaka; **II.** *adj* bebosh, yengiltak; behayoroq, axloqsizroq (*narsa*); **une chanson polissonne** yengiltak ashula; **des yeux polissons** behayoroq ko'zlar.

**polissonnerie** *nf* **1.** sho'xlik, o'yinqaroqlik, to'polonchilik; **2.** beadablik, odobsizlik, quyushqondan chiqib ketish.

**politesse** *nf* **1.** xushmuomalalik, muloyimlik, boadablik; odob, nazokat; **formules de politesse** odob qoidalari; *loc* **brûler la politesse à qqn** xayrlashmay to'satdan ketib qolish; **2.** navozish, nazokat, xushmuomalalik, iltifot, marhamat; **rendre une politesse à qqn** biror kishiga iltifot ko'rsatmoq; *pl iron* **se faire des politesses** bir biriga navozish, nazokat, iltifot ko'rsatmoq.

**politicien, ienne I.** *n* siyosatchi, siyosatdon, siyosiy arbob; **II.** *adj péj* siyosatboz(lar)ga va siyosatbozlikka oid; siyosatbozlikdan iborat bo'lgan; **la politique politicienne** siyosatbozlikdan iborat bo'lgan siyosat.

**politique[1] I.** *adj* **1.** siyosiy, siyosatga oid; siyosiy tuzum bilan bog'liq bo'lgan, davlat va huquq bilan bog'liq bo'lgan; **pouvoir politique** siyosiy hokimiyat; **les institutions politiques d'un état** davlatning siyosiy qonun-qoidalari; **un homme politique, une femme politique** siyosiy arbob; **2.** siyosiy kurashga oid; **la vie politique française** Fransiyaning siyosiy hayoti; **les procès politiques** siyosiy voqealar; **les partis politiques** siyosiy partiyalar; **3. unité politique** siyosiy davlat birligi; **géographie politique** siyosiy geografik birlik; **4.** *litt* ustamon, ustamonlik va ehtiyotlik bilan muomala qiladigan; **5. économie politique** siyosiy iqtisod; **II.** *nm* siyosatchi, siyosiy arbob; **un fin politique** o'tkir siyosatchi; **les grands politiques** ulkan siyosat arboblari; **le politique et le social** siyosat va ijtimoyot.

**politique[2]** *nf* **1.** siyosat yurgizish (*ichki, tashqi siyosat*); **la politique d'un parti** biror partiyaning siyosati; **2.** siyosat (*ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar*); **s'occuper, se mêler de politique** siyosat bilan shug'ullanmoq, siyosatga aralashmoq.

**politiquement** *adv* **1.** siyosiy tomondan, siyosiy jihatdan, siyosiy nuqtai nazardan; **pays unifié politiquement** siyosiy tomondan birlashgan mamlakat; **2.** ustamonlik bilan, nayrang bilan; **agir politiquement** ustamonlik bilan yo'l tutmoq.

**politisation** *nf* siyosiy tus berish; **la politisation des grèves** ish tashlashlarga siyosiy tus berish.

**politiser** *vt* siyosiy tus bermoq.

**polka** *nf* polka (*raqs*).

**pollen** *nm bot* chang, gul changi, gulchang; **allergie due aux pollens** allergiya gul changi tufayli.

**pollinique** *adj* gulchangiga oid; gulchang.

**pollinisateur, trice** *adj* changlatuvchi.

**pollinisation** *nf* changlatish.

**polliniser** *vt* changlatmoq.

**polluant, ante** *nm* ifloslantiruvchi modda.

**polluer** *vt* bulg'amoq, ifloslantirmoq, zaharlamoq; **eaux polluées** harom, bulg'angan suv; **air polluée** bulg'angan havo.

**pollueur, euse** *adj* ifloslantiruvchi, bulg'ovchi.

**pollution** *nf* **1.** ifloslantirish, bulg'ash, zaharlash; **2.** *physiol* **pollutions nocturnes** tungi ihtilom, bulg'anish, pollutsiya.

**polo[1]** *nm* chavgon, polo.

**polo[2]** *nm* tenniska.

**polochon** *nm fam* divan yostig'i.

**polonais, aise I.** *adj* Polshaga oid, Polsha; **II.** *n* **1.** polyak; **2.** *nm* polyak tili.

**polonaise** *nf* polonez (*raqs*).

**poltron, onne** *adj* qo'rqoq, yuraksiz.

**poltronnerie** *nf* qo'rqoqlik, yuraksizlik.

**polyamide** *nm* poliamid.

**polyandre** *adj* ko'p erli.

**polyandrie** *nf* poliandriya, ko'p erlilik.

**polychrome** *adj* polixrom, ko'p rangli, rang-barang.

**polychromie** *nf* polixromiya, ko'p ranglilik, rang-baranglik.

**polyclinique** *nf* poliklinika.

**polycopie** *nf* kopiyalab ko'paytirish.

**polycopié, ée** *adj n* **cours polycopier** kopiyalab ko'paytirilgan leksiya kursi.

**polycopier** *vt* kopiyalarni ko'paytirmoq.

**polycopieur** *nm* nusxa ko'chiruvchi apparat.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**polyculture** *nf* koʻp tarmoqli xoʻjalik.
**polyèdre** *nm* koʻpyoqlik.
**polyédrique** *adj* koʻp yoqli, koʻp qirrali.
**polyester** *nm* poliester.
**polyéthylène** *nm* polietilen.
**plygame I.** *adj* koʻp xotinli, koʻp nikohli; **II.** *n* koʻp xotinli odam.
**polygamie** *nf* koʻp xotinlilik, koʻp nikohlilik, poligamiya.
**polyglotte** *adj, n* poliglot (*koʻp tillarni biluvchi kishi*).
**poligonal, ale, aux** *adj* koʻp burchakli.
**polygone** *nm* **1.** koʻpburchaklik; **2.** *mil* poligon, mashq maydoni.
**polymère** *nm* polimer.
**polymérisation** *nf* polimerlash.
**polymériser** *vt* polimerlamoq.
**polymorphe** *adj biol chim* polimorf.
**polymorphisme** *nm* polimorfizm, koʻp shakllilik.
**polynévrite** *nf méd* polinevrit.
**polynôme** *nm math* koʻphad.
**polype**[1] *nm* polip.
**polype**[2] *nm* polip; shilliq parda yoki terida paydo boʻladigan oʻsimta, shish.
**polyphonie** *nf mus* polifoniya, koʻp ovozlilik.
**polyphonique** *adj mus* polifonik, koʻp ovozli.
**polysémie** *nf* polisemiya, koʻp maʼnolilik.
**polysémique** *adj* polisemantik, koʻp maʼnolilik.
**polystyrène** *nm* polistiren.
**polytechnicien, ienne** *n* politexnika maktabining oʻquvchisi.
**polytechnique** *adj* **1.** *vx* politexnizmga asoslangan, politexnik; **2.** politexnik; **école polytechnique** politexnika maktabi.
**polythéisme** *nm* politeizm, koʻp xudolilik.
**polythéiste** *adj* politeizmga oid; politeistik, koʻp xudoli.
**polyuréthanne** *ou* **polyuréthane** *nm* poliuretan.
**polyvalent, ente I.** *adj* **1.** *chim* koʻp valentli; **2.** koʻp maqsadli, koʻp qamrovli; **un professeur polyvalent** koʻp qamrovli oʻqituvchi; **II.** *nm* soliq nazoratchisi (*korxonalarni tekshirish boʻyicha*).
**pommade** *nf* maz, malham dori, moy, moy upa; *loc* **passer de la pommade à qqn** qoʻpollik bilan xushomad qilmoq.
**pommader I.** *vt plais péj* maz, moy surtmoq (*oʻzining yoki birovning sochiga*); **II. se pommader** *vpr* moy surtib olmoq, boʻyanmoq.
**pomme**[1] *nf* **1.** olma; **pomme de rainette, pomme à cidre** sidr, olma vinosi tayyorlanadigan olma; **eau-de-vie de pomme** olma arogʻi, kalvados; **pommes cuites** pishirilgan olma; *inv* **vert pomme** ochiq koʻk rang; *loc fam* **aux pommes** juda yaxshi, juda goʻzal, ajoyib; **tomber dans les pommes** hushidan ketmoq; *fam* **ma, sa pomme** men, u; *fam* ahmoq, tentak, oshqovoq; **cette pauvre pomme croit tout ce qu'on lui dit** bu shoʻrlik oshqovoq nima deyishsa ishonaveradi; **2. pomme d'Adam** qoʻshtomoq, kekirdak boʻrtigʻi, olmasi; **3.** qaragʻay gʻuddasi, soʻtasi; **pomme de chou** bir bosh karam; **4. pomme d'arrosoir, pomme de douche** gulchelak, dushning uchidagi toʻrsimon qismi.
**pomme**[2] *nf* kartoshka; **des pommes frites** qovurilgan kartoshka; **des pommes vapeur** bugʻda pishirilgan kartoshka.
**pommé, ée** *adj* bosh oʻraydigan; boshli; **un chou pommé** boshli karam.
**pommeau** *nm* dumaloq tutqa (*qilich, hassa*).
**pomme de terre** *nf* kartoshka (*mevasi va oʻsimligi*); **éplucher des pommes de terre** kartoshka archmoq; **pommes de terre à l'eau, sautées** qaynatilgan, yogʻda qovurilgan kartoshka; **pommes de terre en robe de chambre** *ou* **en robe des champs** kartoshka poʻstlogʻi bilan; **purée de pommes de terre** kartoshka pyuresi; **pommes de terre frites** qovurilgan kartoshka; **champ de pommes de terre** kartoshkazor, kartoshka dalasi.
**pommelé, ée** *adj* **1.** mayda bulutchalar bilan qoplangan (*osmon*); **2.** rang, tus (*asosan ot tusi haqida*); **cheval pommelé** chovkar ot.
**pomeler (se)** *vpr* mayda bulutlar bilan qoplanmoq (*osmon haqida*).
**pomette** *nf* yonoq, yonoq suyagi; **un visage aux pommettes saillantes** yonoq suyaklari boʻrtib chiqqan yuz.
**pommier** *nm* **1.** olma daraxti; **2. pommier du Japon, de Chine** pushti rangli gullari uchun ekiladigan olmaning ekzotik turi.
**pompage** *nm* nasos yordamida haydash; **les stations de pompage d'un pipe-line** neft quvurining haydash stansiyalari.
**pompe**[1] *nf* **1.** *litt* dabdaba, tantana, hashamat; **sous Louis XIV, la pompe de Versailles contrastait avec la misère du peuple** Lui XIV davrida Versal dabdabasi bilan xalqning qashshoqligi yaqqol koʻzga tashlanib turar edi; *loc* **en grande pompe** katta dabdaba, hasham, tantanovorlik bilan; **2. pompes funèbres** dafn (qilish) byurosi; **3.** *loc* **renoncer à Satan et à ses œuvres** shaytonga hay bermoq.
**pompe**[2] *nf* **1.** nasos; **pompe aspirante; foulante** soʻrib oladigan nasos; dam beradigan, haydaydigan nasos; **amorcer une pompe** nasosni ishga tushirmoq; **pompe à incendie** yongʻin nasosi; **bateau-pompe** oʻt oʻchiruvchi kema; **la pompe à essence d'un moteur** motorning benzonasosi; **2. pompe (à essence)** yonilgʻi quyish shoxobchasi; **3.** damlaydigan nasos; **pompe de bicyclette** velosiped nasosi; **4.** *fam* **avoir le, un coup de pompe** toʻsatdan, birdaniga boʻshashib ketmoq; **5.** *fam* **à toute pompe** oʻqday, yelday uchib; bor tezlikda; **je me tire à toute pompe** men oʻqday uchib chiqib ketdim; **6.** poyabzal; **7.** *fam* **soldat de deuxième pompe** oddiy askar.
**pomper** *vt* **1.** nasos yordamida tortmoq, haydamoq (*suyuqlik, havo*); **pomper de l'eau** suv tortmoq; **2.** soʻrmoq; **les moustiques pompent le sang** chivinlar qonni soʻradilar; **3.** *fam* ichmoq, tortmoq; **il pompe bien** u yaxshi tortadi; **4.** shimitmoq; **pompe la tache avec un buvard!** bosma bilan dogʻni shimit! **5.** *fam* koʻchirib olmoq; **il a encore pompé sur son voisin** u yana qoʻshnisidan koʻchirib oldi; **6.** *fam* holdan toydirmoq; **cet effort l'a pompé** bu ish uni holdan toydirdi.
**pompette** *adj fam* shirakayf, sarxush.
**pompeusement** *adv* balandparvozlik, dabdababozlik, serhashamlik bilan.
**pompeux, euse** *adj* balandparvoz, dabdabali, serhasham.
**pompier**[1] *nm* oʻt oʻchiruvchi; *loc fig* **jouer les pompiers de service** qozichilik qilmoq (*ikki kishini murosaga keltirmoq*).
**pompier**[2]**, ière** *adj* siyqa, boʻlmagʻur, bemaʼni; **un peintre pompier** boʻlmagʻur rassom; **ça fait terriblement pompier** bu oʻta bemaʼni.
**pompiste** *n* yonilgʻi quyuvchi.
**pompon** *nm* **1.** popuk; **bonnet à pompon rouge des marins** qizil popukli dengizchilar qalpogʻi; **2. avoir le pompon** ustun kelmoq, yengmoq; **c'est le pompon!** bu oxirgi chegara, nuqta; bundan ortigʻi boʻlmaydi!
**pomponner** *vt* bezatmoq, yasantirmoq, pardoz-andoz qilmoq.
**ponant** *nm vx ou litt* gʻarb; kun botish.
**ponçage** *nm* silliqlash, jilvirlash, sayqallash; **le ponçage du bois** yogʻochni sayqallash.
**ponce** *adj f* **pierre ponce** pemza, koʻpiktosh, jilvirtosh, yoʻngʻirtosh.
**ponceau** *adj inv* qip-qizil, toʻq qizil; lolarang.
**poncer** *vt* silliqlamoq, tarashlamoq, ishlov bermoq, jilvirlamoq; pardoz, jilo bermoq, sayqallamoq.
**ponseuse** *nf* silliqlovchi apparat.
**poncho** *nm* poncho (*indeyslarning ustki kiyimi*).
**poncif** *nm* hammaga maʼlum boʻlgan, siyqasi chiqqan namuna va bunga taqlid qilish, shablon.
**ponction** *nf méd* **1.** punksiya; **2.** chiqarish, ushlab qolish (*pul va boshqa narsalar*).
**ponctionner** *vt* punksiya qilmoq, teshmoq.
**ponctualité** *nf* juda aniqlik, oʻz vaqtida boʻlishlik, puxtalik.
**ponctuation** *nf* punktuatsiya; **signes de ponctuation** tinish belgilari.
**ponctuel**[1]**, elle** *adj* **1.** *vx* puxta, batartib; **2.** juda aniq, oʻz vaqtida keladigan; **un employé ponctuel** oʻz vaqtida keladigan xizmatchi.
**ponctuel**[2]**, elle** *adj* punktirga oid; nuqtali, punktir (*nuqta*).
**ponctuellement** *adv* juda aniq, oʻz vaqtida; **il va déjeuner toujours à midi et demi, ponctuellement** u doim aniq oʻn ikki yarimda tushlikka chiqadi.
**ponctuer** *vt* **1.** tinish belgilari qoʻymoq; taʼkidlamoq; eʼtiborni jalb qilmoq.
**pondérable** *adj* ogʻirlikka ega boʻlgan, vazmin, ogʻir, salmoqli.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pondéral, ale, aux** *adj* og'irlikka oid; kishi vazniga oid, vazn.

**pondération** *nf* og'irlik, vazminlik, bosiqlik.

**pondéré, ée** *adj* og'ir, vazmin, bosiq, og'ir-bosiq; **elle est énergique, mais pas assez pondérée** u serharakat, lekin og'ir-bosiq emas.

**pondérer** *vt litt* mutanosiblashtirmoq, tenglashtirmoq; **pondérer le pouvoir exécutif par un contrôl du parlement** parlament nazorati yordamida ijroya hokimiyatni mutanosiblashtirmoq; **forces pondérées** teng kuchlar.

**pondeur, euse** *nf* **1.** serpusht, ko'p tuxum qiladigan, tug'adigan parranda; ko'p bola tug'adigan ayol; **une bonne pondeuse** yaxshi tuxum qiladigan tovuq; **2.** *fam péj* yaratuvchi, yozuvchi, dunyoga keltiruvchi, tug'uvchi (*biror asarni*).

**pondre** *vt* **1.** tuxum qo'ymoq, tug'moq; **2.** *fam péj* yaratmoq, yozmoq, dunyoga keltirmoq, tug'moq; **il nous pond trois romans par an** u bizga yiliga uchta roman tug'ib beradi.

**poney** *nm* poni (*ot*).

**pongé** *nm* dag'al ipakdan qilingan yengil mato.

**pongiste** *n* stol tennisi o'yinchisi.

**pont**[1] *nm* **1.** ko'prik; **pont suspendu** osma ko'prik; **pont pour les piétons** piyodalar ko'prigi; **pont mobile, tournant, levant ou basculant** ko'tarma ko'prik; *loc* **il est solide comme le pont-neuf** qoyaday mustahkam; juda mustahkam; **il coulera (passera) de l'eau sous les ponts** hali ko'p suvlar oqib o'tadi; **couper, brûler les ponts** chekinish, orqaga qaytish yo'llarini kesib qo'ymoq; **2. ponts et chaussées** yo'l qurilishi tashkilotlari; **3. pont aux ânes** hammaga ravshan, oydin, oson masala; **4. faire un pont d'or à qqn** biror kishiga biror mansabni egallashi uchun katta mablag' berib turmoq, biror kishini qo'llab yubormoq; **5.** ko'prik (*avtomobil shassisining o'qlar o'rnatilgan qismi*); **pont arrière** orqa ko'prik; **6. faire le pont** ikki bayram orasida ishga chiqmaslik; **7. pont aérien** havo yo'li, havo aloqasi; **8.** platsdarm, oldingi marra.

**pont**[2] *nm* paluba, kema sahni; **navire à trois ponts** uch palubali kema; **pont d'envol** uchish palubasi; **tout le monde sur le pont!** hamma palubaga!

**pontage**[1] *nm* kema palubasi qurilishi.

**pontage**[2] *nm* qon tomirlarini tutashtirish; **pontage veineux, coronarien** vena, koronar tomirlarni tutashtirish.

**ponte**[1] *nf* **1.** tuxum qo'yish, tug'ish; **la ponte des poules** tovuqlarning tuxum qo'yishi, tug'ishi; **la ponte des œufs** tuxum qo'yish, tuxum tug'ish; **2.** bir tug'ishda qo'yilgan tuxumlar; **deux pontes par jour** bir kunda ikki marta tuxum tug'ish.

**ponte**[2] *nm qimorda* bankka pul tikib o'ynovchi (*qimorboz*).

**ponte**[3] *nm fam* nufuzli, obro'li, e'tiborli odam.

**ponter**[1] *vt* kemaga paluba o'rnatmoq.

**ponter**[2] **I.** *vi* bankchi odam bilan o'ynamoq (*qimorda*); **II.** *vt* bankka pul tikmoq; **ponter cinq mille francs** bankka besh ming frank tikmoq.

**ponter**[3] *vt* qon tomirlarini tutashtirmoq.

**pontife**[1] *nm* **1.** kohin; **2.** bosh kohin, yepiskop; **le souverain pontife** Rim papasi.

**pontife**[2] *nm fam iron* katta, mansabdor, zo'r odam.

**pontifiant, iante** *adj* balandparvoz; **un ton pontifiant** balandparvoz ohang.

**pontifical, ale, aux** *adj* Rim papasiga oid.

**pontificat** *nm* papalik; **cardinal élevé au pontificat** papalikkacha ko'tarilgan kardinal.

**pontifier** *vi* tantanavor gapirmoq, qat'iyat bilan aytmoq, demoq.

**pont-levis** *nm* ko'tarma ko'prik.

**ponton** *nm* **1.** ponton ko'prik; **2.** suzuvchi dok; **3.** qamoq uchun xizmat qiladigan eski harbiy kema.

**pontonnier** *nm* pontonchi harbiy xizmatchi.

**pool** *nm anglic* uyushma, birlashma; **des pools de traducteurs** tarjimonlar uyushmasi.

**pop** *adj inv anglic* pop san'atiga oid, pop; **musique pop** pop musiqa.

**pop art** *nm* pop san'ati (*zamonaviy rassomchilikning anglo-sakson maktabi*).

**pop-corn** *nm inv anglic* shirinlik qo'shilgan makka bodroq.

**pope** *nm* pop (*ruhoniy*).

**popeline** *nf* poplin (*o'rishi ipakdan, arqog'i jundan to'qilgan gazlama*); **chemise en popeline** poplin ko'ylak.

**popote I.** *nf* **1.** zobitlarning umumiy oshxonasi; **2.** *fam* pishiriq, pishiriq-kuydiriq; kuydiriq-pishiriq bilan shug'ullanmoq; **II.** *adj inv fam* uy ishlari bilan ortiqcha shug'ullanadigan odam, beka; **elles sont très popote** ular juda ham beka.

**popotin** *nm fam* dumba, odamning dumbasi, orqasi; **se manier le popotin** shoshilmoq, oshiqmoq.

**populace** *nf péj* qora xalq, oddiy, avom xalq.

**populacier, ière** *adj péj* qora xalqqa, oddiy, avom xalqqa oid.

**populaire** *adj* **1.** xalq, xalqdan kelib chiqadigan; **la volonté populaire** xalq xohishi; **un soulèvement populaire** xalq qo'zg'oloni; **démocraties populaires** xalq demokratiyasi; **front populaire** xalq fronti; **2.** xalqqa oid, xalq, milliy; **les traditions populaires** xalq an'analari; **art populaire** xalq san'ati; **mot, expression populaire** oddiy xalqda ishlatiladigan so'z, ibora; **3.** *odam* xalqchil, xalqqa yaqin; **un romancier populaire** xalqchil romannavis; **4.** ommaviy, xalq; **les milieux populaires** xalq ommasi; **bals populaires** ommaviy ballar; **5.** xalq orasida nomi chiqqan, mashhur, taniqli; **ce chanteur est plus populaire en Amérique qu'en France** bu ashulachi Fransiyadan ko'ra Amerikada mashhurroq.

**populairement** *adv* odiychasiga, oddiy xalqchasiga, oddiy xalq tilida.

**populariser** *vt* ommalashtirmoq, omma orasiga yoymoq.

**popularité** *nf* mashhurlik, nom taratganlik, taniqlilik, dongdorlik; **la popularité d'un chef d'état** davlat rahbarining mashhurliligi.

**population** *nf* **1.** aholi, xalq; **la population de la France** Fransiya aholisi; **recensement de la population** aholini ro'yxatga olish, aholi ro'yxati; **région à population dense** aholi zich joylashgan hududlar; **la population active** faol, mehnatkash aholi; **2.** muayyan joyda jam bo'lib yashash, tarqalganlik; **une population de chevreuils** bug'ularning tarqalganligi.

**populeux, euse** *adj* zich, zich yashaydigan, odam to'la; **les villes populeuses** aholi zich yashaydigan shaharlar; **des rues populeuses** odam to'la ko'chalar.

**populisme** *nm* xalqparvarlik.

**populiste** *adj* xalqparvar; **un écrivain populiste** xalqparvar yozuvchi.

**populo** *nm fam* **1.** xalq; **2.** omma, odam; **c'est plein de populo!** odam to'la!

**porc** *nm* **1.** cho'chqa; **gardien de porcs** cho'chqaboqar; **les soies du porc** cho'chqa juni; *loc* **il est gras, sale comme un porc** u cho'chqaday semiz, cho'chqaday iflos; **manger comme un porc** cho'chqaday, palidlik bilan yemoq; **c'est un vrai porc** bu haqiqiy to'ng'iz; **2.** cho'chqa go'shti; **un rôti de porc** qovurilgan cho'chqa go'shti; **graisse de porc** cho'chqa yog'i; **3.** oshlangan cho'chqa terisi; **une valise en porc** cho'chqa terisidan qilingan jomadon; **4. porc sauvage** to'ng'iz.

**porcelaine** *nf* **1.** chinni, farfor; **vaisselle en porcelaine, de porcelaine** chinni idish-tovoq; **2.** chinni idish; **casser une porcelaine** chinni idishni sindirib qo'ymoq; **3.** molluskaning bir turi.

**porcelainier, ière I.** *n* chinnisoz, chinni sotuvchi; **II.** *adj* **l'industrie porcelainière** chinnisozlik sanoati.

**porcelet** *nm* cho'chqa bolasi; **manger du porcelet rôti** qovurilgan cho'chqa bolasini yemoq.

**porc-épic** *nm* jayra; **dans le danger, le porc-épic se hérisse** xavfni sezganda jayra ignalarini hurpaytiradi; **c'est un véritable porc-épic** sirkasi suv ko'tarmas odam.

**porche** *nm* peshayvon, dahliz, eshik oldi, kiraverish, bo'sag'a; **le porche principal d'une cathédrale** cherkovning asosiy kiraverishi.

**porcher, ère** *n* cho'chqaboqar.

**porcherie** *nf* **1.** cho'chqaxona; **2.** iflos xona; **c'est une vraie porcherie, ici!** bu yer haqiqiy cho'chqaxona ekan!



www.ziyouz.com kutubxonasi

**porcin, ine I.** *adj* **1.** cho'chqaga oid, cho'chqa; **race porcine** cho'chqa zoti; **2.** cho'chqaga o'xshagan, cho'chqa; **des yeux porcins** cho'chqa ko'z; **II.** *nm pl zool* cho'chqasimonlar.

**pore** *nm* **1.** teshikchalar (*teridagi juda mayda teshikchalar*); *loc* **par tous les pores** butun vujudi bilan; **2.** kovakchalar; **les pores d'une plante** o'simlikdagi kovakchalar; **3.** g'ovakchalar.

**poreux, euse** *adj* g'ovak, serkovak.

**porion** *nm* shteyger (*kon ishini boshqaruvchi mutaxassis*).

**pornographie** *nf* pornografiya (*adabiyot va san'at asarlarida jinsiy hayotni behayolarcha tasvirlash; shunday asarlar*).

**pornographique** *adj* pornografik, pornografiya oid.

**porphyre** *nm* porfir (*qurilish materiali sifatida ishlatiladigan vulkanik tog' jinsi*).

**porridge** *nm anglic* suli bo'tqa.

**port**[1] *nm* **1.** port, bandargoh; **un port maritime, fluvial** dengiz, daryo porti; **port de commerce, de pêche, de guerre** savdo, baliqchilar porti; harbiy port; **port d'attache d'un bateau** kema ro'yxatda turadigan port; **port franc** bojxona tekshiruvisiz port; *loc* **arriver à bon port** manzilga eson-omon yetib kelmoq; **2.** *litt* boshpana, tinch joy; **3.** port shahri.

**port**[2] *nm* dovon (*Pireneyada*).

**port**[3] *nm* **1.** o'zi bilan olib yurish, taqib yurish; **port d'armes** qurol olib, taqib yurish; **autorisation de port** qurol olib yurishga, taqib yurishga ruxsatnoma; **2.** pochta orqali jo'natilgan narsalarning haqi, pochta haqi; **un colis expédié franc de port, franco de port** haqi to'langan otkritka; **port dû** haqi to'lanmagan pochta; **3.** gavdani, o'zini tutish; **un gracieux port de tête** boshning nazokat bilan o'rnashuvi.

**portable** *adj* **1.** (*kiyim*) kiysa, kiyib yursa bo'ladigan; **ce manteau est encore portable** bu hali kiysa bo'ladigan palto; **2.** portativ; qo'lda, yonda olib yuriladigan; **ordinateur portable, téléphone portable** portativ kompyuter, yonda olib yuriladigan telefon.

**portage** *nm* tashish.

**portail, ails** *nm* darvoza; **le porche et le portail d'une cathédrale** cherkovning kiraverishi va darvozasi.

**portant**[1]**, ante** *adj* **1.** ko'tarib, tutib turuvchi; **les murs portants d'un édifice** imoratni tutib turuvchi devorlari; **2. être bien, mal portant** sog', sog'lom, bo'lmoq; kasal, nosog'lom bo'lmoq; *n* **les bien portants** sog'lomlar.

**portant**[2] *nm* tirgak, poya, ustun.

**portatif, ive** *adj* portativ, ko'tarib olib yursa bo'ladigan, jajji.

**porte**[1] *nf* **1.** *vx* darvoza; **octroi payé aux portes** shaharga mol olib kirishda to'lanadigan boj; **l'ennemi est à nos portes** dushman ostonamizda (turibdi); **2.** eshik; **la grande porte du château** qal'aning katta eshigi; **porte palière** zinapoya maydoniga chiquvchi eshik; **porte d'entrée** kirish eshigi; **porte de secours** favqulod eshigi; **franchir, passer la porte** ostona hatlab o'tmoq; **sur le pas de sa porte** eshigining oldida, ostonasida, bo'sag'asida; *fig* **pas de porte** savdo ijarasi; *loc* **de porte en porte** eshikma-eshik; **faire du porte à porte** eshikma-eshik yurmoq; **ils habitent porte à porte** ular eshiklari ro'baro' yashashadi; **cela s'est passé à ma porte** bu mening eshigimning oldida sodir bo'ldi; **parler à qqn, recevoir qqn entre deux portes** birovga ostonadan gapirmoq, birovni ostonada qabul qilmoq; **mettre, jeter, flanquer, ficher qqn à la porte** birovni quvib solmoq, ko'chaga chiqarib qo'ymoq, uydan haydab chiqarmoq; **à la porte!** chiq! **être à la porte** uyga kirolmay, ko'chada qolmoq; **prendre la porte** chiqmoq, ketmoq; **entrer, passer par la grande porte** katta eshikdan kirib kelmoq; **entrer par la petite porte** orqa eshikdan kirmoq; **se ménager, se réserver, chercher une porte de sortie** chiqish yo'lini topmoq, tayyorlab qo'ymoq, qidirmoq; **porte à double battant** ikki tabaqali, qo'shtabaqa eshik; **porte coulissante en verre** oynali surma eshik; **porte vitrée** oynavand eshik; **poignée de porte** eshikning tutqichi; **les gonds et la serrure d'une porte** eshikning oshig'-moshig'i va qulfi; **porte grande ouverte, entrebâillée** lang ochiq eshik; **petite porte** darcha; **trouver porte close** eshiklari taqataq bekilgan bo'lmoq; **écouter aux portes** eshik orqasidan eshitmoq; *loc* **frapper à la bonne, à la mauvaise porte** o'rinli, egasini topib, noo'rin murojaat qilmoq; **ouvrir, fermer sa porte à qqn** birovga o'z eshigini ochmoq, eshigini yopib olmoq; **c'est la porte ouverte à tous les abus** hamma eshiklar ochiq; **la porte d'une armoire, d'un four** jovonning, pechkaning eshigi; **3.** dara; **4.** slalomda chang'ichi o'tadigan ikki qoziq orasi.

**porte**[2] *adj f* jigarga boruvchi vena tomiri.

**porte-à-faux** *nm inv* qimirlab qolgan, liqillab qolgan; **un mur en porte à faux** liqillab qolgan devor; **en porte à faux** beqaror, alg'ov-dalg'ov holda.

**porte-avions** *nm inv* avianosets.

**porte-bagages** *nm inv* bagajnik, yuk ortgich (*velosipedda, mototsiklda, avtomobilda*); narsalar solinadigan setka (*vagonda*).

**porte-bébé** *nm* bolalar o'rindig'i (*velosipedda, avtomobilda*).

**porte-billets** *nm inv* karmon, hamyon.

**porte-bonheur** *nm inv* tumor, baxt keltiruvchi narsa; **le trèfle à quatre feuilles, le fer à cheval sont des porte-bonheur** chillik, taqa baxt keltiruvchi narsa hisoblanadi.

**porte-bouteilles** *nm inv* shishalar tashiladigan yashik, quti.

**porte-cartes** *nm inv* karmon (*shaxsiy hujjatlarni solish uchun*).

**porte-cigarettes** *nm inv* portsigar, papiros quti.

**porte-clés** *nm inv* kalit taqiladigan halqa.

**porte-conteneurs** *nm inv* konteyner tashiydigan kema.

**porte-couteau** *nm* dasturxonni iflos qilmaslik uchun pichoq qo'yiladigan narsa.

**porte-documents** *nm inv* papka (*qog'oz solish uchun*).

**porte-drapeau** *nm* **1.** bayroqdor, tug'dor; **2.** bayroqdor, sardor, boshliq; **le porte-drapeau de l'insurrection était un tout jeune homme** qo'zg'olonning boshlig'i bir juda yosh yigitcha edi.

**portée**[1] *nf* tug'ish, bir vaqtda tug'ilgan hayvon bolalari; **les lapins d'une même portée** bir vaqtda tug'ilgan quyon bolalari.

**portée**[2] *nf* notaning besh chizig'i.

**portée**[3] *nf* **1.** yetadigan masofa; **la portée d'une carabine** karabinning o'qi yetadigan masofa; **un canon à longue portée** uzoqqa otadigan zambarak; **la portée d'une voix** bir chaqirim joy; **2.** *loc* **à (la) portée (de)** yetguday masofada, joyda; **il n'y avait personne à portée de voix** bir chaqirim masofada hech kim yo'q edi; **à portée de sa vue** ko'zi ilg'aguday joyda; **à portée de sa main** qo'l yetguday joyda; **à la portée de qqn** o'zi ololadigan, qo'li yetadigan joyda; **hors de (la) portée** yetmaydigan joyda; **être hors de portée de voix** ovoz yetmaydigan joyda bo'lmoq; **tenez ce produit hors de la portée des enfants** bu mahsulotni bolalar ololmaydigan joyda saqlang; **3. à (la) portée, hors de (la) portée de** imkoniyatiga to'g'ri keladigan, to'g'ri kelmaydigan; **ce plaisir est hors de ma portée** bu ko'ngil ochish menga to'g'ri kelmaydi; **spectacle à la portée de toutes les bourses** hammaning hamyoniga to'g'ri keladigan tomosha; **4.** aql darajasi, idrok; **cela passe la portée de son esprit** bunga uning idroki yetmaydi; **à la portée de** aqli yetadigan, tushunadigan; **la vulgarisation met la science à la portée de tous** fanning ommalashtirilishi uni hamma tushunadigan qilmoqda; **5.** muhimlik, ahamiyatlilik, zarurlik; **la portée d'une argument, d'une réflexion** dalilning, mulohazaning muhimligi; **il n'a pas mesuré la portée de ses paroles** u so'zlarini taroziga solib ko'rmadi.

**portefaix** *nm inv vx* hammol.

**portefeuille** *nm* **1.** karmon, hamyon; **portefeuille de cuir** charm hamyon; **mettre la main au portefeuille** to'lamoq; **avoir un portefeuille bien garni** boy bo'lmoq, hamyoni semiz bo'lmoq; **2.** vazirlik portfeli; **3.** davlat, birjaning qimmatbaho qog'ozlari.

**porte-greffe** *nm* payvandtag, payvand qo'yiladigan tup.

**porte-jarretelles** *nm inv* ayollarning paypog'ini tutib turadigan belbog'i.

**porte-malheur** *nm inv* baxtsizlik keltiruvchi narsa yoki odam.

**portemanteau** *nm* veshalka; *fam* **épaules en portemanteau** keng yelkali odam.

**porte-mine** *nm* avtomat qalam.

**porte-monnaie** *nm inv* karmon, hamyon; **faire appel au porte-monnaie de qqn** biror kishining olijanobligiga suyanmoq; **faire attention à son porte-monnaie** ehtiyot qilib, tejab sarflamoq.

**porte-parapluies** *nm inv* zontiglar qo'yiladigan moslama.

**porte-parole** *nm inv* jarchi, udaychi, xabarchi.

**porte-plume** *nm* ruchka.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**porter I.** *vt* **1.** ko'tarib turmoq, ko'tarib bormoq; **la mère porte son enfant dans ses bras** ona bolasini qo'lida ko'tarib boryapti; **porter une valise à la main** jomadonni qo'lda ko'tarib bormoq; **2.** tortmoq, ko'rmoq, chekmoq; **nous portons la responsabilité de nos fautes** biz o'z xatolarimizga javobgarmiz; **3.** tutib turmoq, ko'tarib turmoq (*narsa*); **ses jambes ne le portaient plus** oyoqlari uni ortiqcha tutib turolmasdi; **4.** bermoq, yetishtirmoq; **cet arbre porte les plus beaux fruits** bu daraxt eng ajoyib mevalarni beradi; **5.** qornida olib yurmoq, homilador, ikkiqat bo'lmoq; **les juments portent onze mois** biyalar o'n bir oy homilani qornida olib yuradilar; **6.** xush kurmoq, yoqtirmoq; *loc* **je ne le porte pas dans mon cœur** men uni yoqtirmayman, xush kurmayman; uni jinim suymaydi, u mening ko'nglimga o'tirmaydi; **7.** qo'ymoq (*soqol, mo'ylab, soch*); **porter la barbe** soqol qo'ymoq, soqolli bo'lmoq; **8.** taqmoq, osib yurmoq (*ko'z oynak, qurol*); kiymoq, kiyib yurmoq; **porter un costume bleu** havorang kostum kiymoq; **9.** nomlamoq, atamoq; nomida, familiyasida bo'lmoq; yurmoq; **10.** deb nomlanmoq, nomiga ega bo'lmoq; **quel nom porte ce village, cette rivière?** bu qishloqning, daryoning nomi nima? **la lettre porte la date du 20 mai** xat yigirmanchi mayda yozilgan deb belgi qo'yilgan; **11.** ko'tarib olib bormoq; eltmoq, olib borib qo'ymoq; **ils le portèrent sur le lit** ular uni karavotga olib borib yotqizdilar; **va lui porter ce paquet** unga bu paketni olib borib ber; **12.** tutib turmoq, tutmoq; biror holatda, vaziyatda saqlamoq; **porter le corps en avant** qaddini oldinda tutmoq; **porter la main sur qqn** biror kishiga qo'l ko'tarmoq; **13. porter atteinte à l'honneur, à la réputation de qqn** biror kimsaning or-nomusiga, obro'siga tegmoq; **porter témoignage** guvohlik bermoq; **porter plainte contre qqn** biror kishining ustidan sudga shikoyat qilmoq, sudga bermoq, arz qilmoq; **14.** yozib qo'ymoq, kiritib qo'ymoq; **porter une somme sur un registre** ma'lum summani ro'yxatga kiritib qo'ymoq; **se faire porter malade** o'zini kasal deb yozdirib qo'ymoq; **15. (à)** olib chiqmoq, ko'tarmoq (*yuqori, yuksak holatga*); **porter un homme au pouvoir** biror kishini hokimiyatga ko'tarmoq; **porter qqn aux nues** biror kishini ko'klarga ko'tarmoq; **16.** bildirmoq, bermoq, ko'rsatmoq (*his-tuyg'u, yordam*); **l'amitié que je lui porte** mening unga ko'rsatayotgan do'stligim; **cet événement lui porte ombrage** bu hodisa uning obro'siga putur yetkazadi; *prov* **la nuit porte conseil** kechasi yotib o'yla, ertalab turib so'yla; **porter un jugement sur qqn, qqch** biror kishi, narsa haqida o'z fikrini bildirmoq; **17. (qqn à qqch)** biror kishini biror narsaga olib kelmoq, yetaklamoq; **ce climat nous porte à l'apathie** bu holat bizni loqaydlikka olib keladi; **porter qqn à** *+inf* moyil qilmoq, ko'ndirmoq, majbur qilmoq; **tout (me) porte à croire que c'est faux** hamma narsa meni bu yolg'ondakam ekanligiga ishonishga majbur qiladi; **être porté à** *+inf* moyil qilingan, ko'ndirilgan, majbur qilingan bo'lmoq; **être porté sur qqch** moyilligi bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq; **être porté sur la boisson** ichkilikka moyil bo'lmoq; **II.** *vi* **1. (sur)** ustiga joylashmoq, ustida turmoq; **tout l'édifice porte sur ces colonnes** butun imorat shu ustunlarning ustida turadi; **l'accent porte sur la dernière syllabe** urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi; *fam* **cela me porte sur les nerfs** bu mening asabimga tegyapti; ustida bormoq, tegishli bo'lmoq; **une discussion qui porte sur des problèmes politiques** siyosiy masalalar ustida ketayotgan munozara; **2.** otmoq; **un canon qui porte loin** uzoqqa otadigan zambarak; **3.** mo'ljalga tegmoq; **le coup a porté juste** o'q mo'ljalga aniq tegdi; **une voix qui porte** uzoqqa yetadigan ovoz; **4.** foyda, naf, ta'sir, kor qilmoq; **vos observations ont porté** sizning tanqidlaringiz foyda qildi; **III. se porter** *vpr* **1. (bien, mal)** o'zini his qilmoq, sog'lig'i (yaxshi, yomon) bo'lmoq; **je me porte beaucoup mieux** men ancha yaxshiman; **2.** kiyilmoq; **les jupes se porteront plus courtes, plus longues cette année** bu yil yubkalar kalta, uzunroq kiyiladi; **cela se porte encore** bu hali ham kiyiladi; **3.** *litt* peshvoz chiqmoq, tomon yurmoq; **se porter à la rencontre de qqn** biror kishiga peshvoz chiqmoq; **4. (à)** borib yetmoq; **empêchez-le de se porter à cette extrémité** uni bu darajagacha yetib borishiga yo'l qo'ymanglar; **5.** o'zini biror holda ko'rsatmoq, o'zini biror holga solmoq; **se porter acquéreur** o'zini tamagir qilib ko'rsatmoq; **il se porte garant** u kafillik beryapti.

**porte-savon** *nm* sovun quti.

**porte-serviettes** *nm inv* sochiq ilgich.

**porte-voix** *nm inv* karnay (*ovozni kuchaytiruvchi*); **appeler avec un porte-voix** karnay orqali chaqirmoq; **mettre ses mains en porte-voix** qo'lini karnay qilmoq.

**porteur, euse I.** *n* **1.** tashuvchi, tarqatuvchi (*xat, telegramma*); **un porteur de télégrammes, de journaux** telegramma, gazeta tashuvchi; **2.** hammol, yuk tashuvchi (*vokzallarda*); **3.** olib yuruvchi, ko'tarib yuruvchi; **4.** egasi, sohib, saqlovchi, ko'rsatuvchi, beruvchi; **il était porteur de faux papiers** u soxta qog'ozlarning sohibi edi; **chèque au porteur, payable au porteur** ko'rsatuvchiga to'lanaveradigan chek; **5.** tashuvchi, tarqatuvchi; **le porteur d'une maladie contagieuse** yuqumli kasallikni tarqatuvchi; **être porteur de microbes** mikrob tashuvchi bo'lmoq; **II.** *adj* tutib turuvchi, tayanch; **mur porteur** tayanch devor; **fusée porteuse** eltuvchi raketa; **onde porteuse** ma'lumot tarqatuvchi to'lqin; **secteur porteur de l'économie** iqtisodni tutib turuvchi sektor.

**portier** *nm* darbon, qorovul; **le portier de l'hôtel** mehmonxona darboni.

**portière** *nf* **1.** eshik parda; **2.** avtomobil, poyezd eshigi.

**portillon** *nm* ko'cha eshigi, eshikcha; *loc fam* **ça se bouscule au portillon** *u* bidirlayapti, valdirayapti; **se bousculer au portillon** tashlanmoq, otilmoq, yopirilmoq, o'zini urmoq; **les candidats ne se bousculent pas** nomzodlar o'zlarini urmaydilar.

**portion** *nf* **1.** bo'lak, qism, kesim, ulish; **un portion de gâteau** bir bo'lak pirog; **sa portion de l'héritage** o'zining meros ulishi; **2.** parcha, bo'lak; **portion de terrain cultivé** bir parcha haydaladigan yer.

**portique** *nm* portik (*katta binoga tutashtirib solingan kolonnali peshayvon*), galereya; **2.** gimnastik snaryadlar osib qo'yiladigan to'sin.

**porto** *nm* portveyn (*vino*).

**portrait** *nm* **1.** portret, surat, rasm, tasvir, shakl; **faire le portrait de qqn** biror kishining rasmini chizmoq; **un portrait en pied** bor bo'yicha chizilgan rasm; **il est meilleur en paysage qu'en portrait** u rasmdagidan ko'ra aslida chiroyliroq; **2.** (*foto*) surat, rasm; *loc* **c'est (tout) le portrait de son père** u otasining xuddi o'zi, o'zginasi; *fam fig* **se faire abîmer le portrait** afti burishib, bujmayib qolmoq; **3.** tasvir, rasm (*og'zaki yoki yozma tasvirlangan*); **il m'a fait le portrait de ses voisins** u menga qo'shnilarini tasvirlab berdi.

**portraitiste** *n* portretchi, rassom.

**portraiturer** *vt iron* rasmini, suratini chizmoq, solmoq, tortmoq.

**port-salut** *nm inv* sigir sutidan qilingan pishloqning bir turi.

**portuaire** *adj* portga oid, port.

**portugais, aise I.** *adj* Portugaliyaga oid, Portugal; **les côtes portugaises** portugal qirg'oqlari; **II.** *n* **1.** portugal; **2.** *nm* portugal tili.

**portugaise** *nf* portugal ustritsasi; *loc fam* **avoir les portugaises ensablées** qulog'i og'ir bo'lmoq.

**portulan** *nm* bandargohlar va suv yo'llari tasvirlangan kitob.

**pose**[1] *nf* qo'yish, o'rnatish; **cérémonie de la pose de la première pierre d'un édifice** imoratga birinchi g'ishtni qo'yish marosimi; **pose d'une pièce de rechange** butlovchi qismni o'rnatish.

**pose**[2] *nf* **1.** qad-qomatning holati, qad-qomatni tutish, biror vaziyatda turish; **2.** savlat to'kish, quruq savlatlik, savlatga zo'r berish; **3.** viderjka (*surat olishda fotoapparat ob'ektivining ochiq turish vaqti*); **appareil faisant la pose et l'instantané** darhol va viderjka bilan suratga oladigan fotoapparat.

**posé, ée** *adj* og'ir-bosiq, vazmin, o'ylab ish qiluvchi, sermulohaza; **un homme posé** sermulohaza odam.

**posément** *adv* og'ir-bosiqlik, vazminlik bilan; **parler posément** vazminlik bilan gapirmoq.

**poser**[1] **I.** *vt* **1.** qo'ymoq; **il posa sa tête sur l'oreiller** u boshini yostiqqa qo'ydi; **elle posa son regard sur lui** u unga nazar soldi; **2.** joylashtirmoq, yozmoq; **poser des rideaux** pardalarni tutmoq; **quatorze, je pose quatre et je retiens un** o'n to'rt, to'rtni yozaman va bir dilda; **3.** joriy qilmoq, o'rnatmoq, amalga oshirmoq; **poser un principe** tartib joriy qilmoq; **ceci posé** bu qabul qilingan; **4.** bermoq, tashlamoq (*savol, masala*); **poser une question à qqn** biror kishiga savol bermoq; **se poser une question** o'z o'ziga savol bermoq; **cela pose un problème** bu muammo tug'diradi; **5. poser sa candidature** o'z nomzodini qo'ymoq; **6.** o'zini katta tuttirmoq, gerdaytirmoq, havolantirmoq, mag'rurlantirmoq; kattalik, kibr-havo, viqor, savlat bag'ishlamoq; **une maison comme ça, ça vous pose!** bunday uy sizga viqor bagishlaydi! **II. se poser** *vpr* **1.** o'tirmoq, qo'nmoq, to'xtamoq; **l'oiseau se pose sur une branche** qush shoxga qo'nyapti; **un avion qui se pose** qo'nayotgan samolyot; **son regard se posa sur nous** uning nigohi bizga



www.ziyouz.com kutubxonasi

tushdi; **2. se poser comme, en tant que** o‘zini … qilib ko‘rsatmoq; **se poser en** vazifasida, sifatida ish ko‘rmoq; **il se pose en chef** u o‘zini boshliq qilib ko‘rsatishga harakat qilyapti; **3.** qo‘yilmoq, o‘rnatilmoq; **les disques se posent verticalement** plastinkalar vertikal qo‘yiladi; **4.** qo‘yilmoq, kelib chiqmoq, tug‘ilmoq (*savol, masala*); **la question ne s'est pas encore posée** hali savol tug‘ilgani yo‘q.

**poser²** *vi* **1.** qo‘yilmoq, o‘rnatilmoq; **2.** gavdani ma’lum vaziyatda tutmoq, biror qiyofada turmoq; **le peintre la faisait poser pendant des heures** rassom uni bir necha soat davomida bir qiyofada turgizib qo‘ydi; **3.** o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq, o‘zini ko‘rsatmoq; **il pose pour la galerie, il veut se rendre intéressant** u hammaning oldida o‘zini ko‘z-ko‘z qilyapti, o‘zini kelishgan qilib ko‘rsatmoqchi; **4. poser à** o‘zini … qilib ko‘rsatishga harakat qilmoq; **il veut poser au justicier** u o‘zini adolat peshasi qilib ko‘rsatmoqchi.

**poseur, euse** *n* quruq savlat odam; **elle est un peu poseuse** u biroz quruqsavlat.

**positif, ive I.** *adj* **1.** ijobiy, ma’qul, ma’qullaydigan; **une réponse positive** ijobiy javob; **proposition positive** ma’qul taklif; **il n'est pas assez positif, il critique tout** u yetarlicha odil emas, u hammani tanqid qiladi; **2.** samarali, ijobiy; **cuti-réaction positive** ijobiy teri reaksiyasi; **3.** tasdiqlaydigan, isbotlaydigan, ta’kidlaydigan (*alkogol, giyohvandlik alomatlarini tasdiqlaydigan*); **contrôle, test positif** borligini tasdiqlaydigan nazorat, test; **4.** musbat; **nombres positifs** musbat sonlar; **température positive** iliq havo; **électricité positive** musbat elektr zaryadi; **charge positive** musbat zaryad; **épreuve positive** pozitiv; **5.** aniq, ravshan, dalillarga asoslangan, ishonchli; **un fait positif** ishonchli dalil; **il n'y a rien de positif dans son rapport** uning ma’ruzasida hech qanday dalil-isbot yo‘q; **6.** rejali, tadbirkor, tadbirli; **soyez plus positif, sinon votre projet n'aboutira pas** tadbirkorroq bo‘ling, aks holda rejangiz oxiriga yetmay qoladi; **II.** *nm* **1.** mulohazalik, aql bilan ish tutishlik; **il lui faut du positif** u aql bilan ish tutishi kerak; **2.** *phil* pozitivizm.

**position** *nf* **1.** o‘rin, joy, vaziyat, holat; **position horizontale, verticale** gorizontal, vertikal holat; **position stable, instable; forte, faible** tinch, notinch; mustahkam, bo‘sh vaziyat; **feu de position** belgi chirog‘i (*kema, samolyot, mashinalarda*); **2.** pozitsiya (*qo‘shinning jang paytida o‘rnashgan joyi*); **position stratégique** strategik pozitsiya; *loc* **guerre de position** pozitsion urush; **3.** holat, vaziat, poza, pozitsiya (*tananing*); **prendre une position, changer de position** bir holatga kirmoq, holatini o‘zgartirmoq; **la position assise, couchée** o‘tirgan, yotgan holat; **en position** biror holda, holatida, shaylangan holda; **on se mit en position de combat** ular jangga shaylandilar; **en position!** shaylaning! **4.** hol, holat, vaziyat; **une position critique, délicate** og‘ir, nozik vaziyat; *loc* **être en position de** *+inf* biror narsa qila olmoq; biror narsa qila olish holatida, darajasida bo‘lmoq; **5.** mavqe, martaba, ahvol, o‘rin, daraja; **occuper une position sociale assez importante** ancha muhim ijtimoiy mavqega ega bo‘lmoq; **un homme dans sa position ne peut pas se compromettre** martabali odam o‘zining obro‘sini to‘kmasligi kerak; **6.** nuqtai nazar, fikr; **quelle est sa position politique?** uning siyosiy nuqtai nazari qanday? **prendre position** o‘z fikrini, nuqtai nazarini bildirmoq; **rester sur ses positions** o‘z fikrida qolmoq; **7.** qo‘yilish; o‘rtaga qo‘yilish, tashlanish; **la position d'un problème** biror masalaning qo‘yilishi.

**positionnement** *nm* predlog, old ko‘makchi.

**positionner** *vt* joylashtirmoq, o‘rnashtirmoq; **positionner un curseur** kursorni joylashtirmoq.

**positivement** *adv* **1.** xuddi, naq, ayni, aniq; **je ne le sais pas positivement** men uni aniq bilmayman; **c'est positivement insupportable** bu ayni chidab bo‘lmaydigan narsa; **2.** musbat; **particules chargées positivement** musbat zaryadli zarrachalar.

**positivisme** *nm phil* pozitivizm.

**positiviste** *adj* pozitivizmga oid, pozitivist.

**posologie** *nf méd* dozalash, dozalarga bo‘lish.

**possédant, ante** *adj, n* mulkdor, amlakdor, boy, badavlat, davlatmand; **la classe possédante** mulkdorlar sinfi.

**possédé, ée** *adj, n* mubtalo, savdoyi, jinni; *loc* **se démener, jurer comme un possédé** jinniga o‘xshab o‘zini har yonga urmoq, so‘kinmoq.

**posséder I.** *vt* **1.** ega bo‘lmoq, bor bo‘lmoq; **il possède une fortune, une maison** u boylikka, uyga ega; uning boyligi, uyi bor; **ce pays possède des richesses naturelles** bu davlat tabiiy boyliklarga ega; **2.** egallamoq, foydalanishni yaxshi bilmoq, mohir bo‘lmoq, malakaga ega bo‘lmoq; **cet auteur possède parfaitement sa langue** bu muallif o‘z tilini ajoyib egallagan; **posséder une femme, un homme** biror ayol, erkak bilan jinsiy aloqada bo‘lmoq; **3.** *fam* aldamoq, ahmoq qilmoq, firib bermoq; **il nous a bien possédés!** u bizni boplab ahmoq qildi! *fam* **se faire posséder** o‘zini aldatib, ahmoq qildirib qo‘ymoq; firib yemoq; **4.** egallab, qamrab, chulg‘ab olmoq; **la jalousie le possède** uni rashk qamrab oldi; **5.** *litt* qo‘lga olmoq, bosmoq; **7.** egallab, chulg‘ab, qamrab olmoq (*xurofiy kuchlar*); **un démon le possédait** uni jin egallab olgan edi; **II. se posséder** *vpr* o‘zini qo‘lga olmoq, o‘zini bosmoq, o‘zini to‘xtatmoq; **il ne se possède plus de joie** xursandchilikdan u o‘zini butunlay bosolmay qoldi.

**possesseur** *nm* **1.** ega, sohib, xo‘jayin; **l'heureux possesseur de cette maison** bu uyning baxtli egasi; **2.** ega, sohib, biluvchi; **les possesseurs d'un secret** biror sirni biluvchi kishilar.

**possessif, ive** *gram* **I.** *adj* egalik; **adjectif possessif** egalik sifati; **pronom possessif** egalik olmoshi; **II.** *nm* egalik, egalik so‘z; **l'emploi du possessif** egalik so‘zning ishlatilishi.

**possession** *nf* **1.** ega bo‘lish, egalik qilish; **la possession d'une fortune** boylikka egalik qilish; **en (la, sa) possession** o‘z egaligida, o‘z qo‘lida; **avoir des biens en sa possession** boylikni o‘z qo‘lida saqlamoq; **être en la possession de qqn** birovga qarashli, tegishli bo‘lmoq; (*joy*) **prendre possession de** egallab olmoq; **prendre possession d'une chambre** xonani egallab olmoq; **2.** ishlata bilish, foydalana bilish; **la possession d'un métier** biror hunarni bilish; **la possession d'un instrument** biror asbobni ishlata bilish; **la possession d'une langue** tilni bilish; **3.** o‘z qo‘liga olish; **il reprit lentement possession de lui-même** u o‘zini sekin asta qo‘lga oldi; **être en possession de toutes ses facultés** yetti muchali sog‘ bo‘lmoq; **être en pleine possession de ses moyens** hamma narsasi joyida bo‘lmoq; **4.** jinnilik, savdoyilik; **5.** *gram* egalik; **6.** birovga qarashli narsa, birovning narsasi; **7.** *vx* qaram yer, o‘lka; **les possessions de la couronne britannique** britaniya qirolligiga qarashli yerlar.

**possibilité** *nf* **1.** mumkinlik, imkoniyat; **la possibilité d'une guerre** urishning mumkinligi; **2.** imkoniyat, yo‘l; **envisager toutes les possibilités** hamma imkoniyatlarni ko‘rib chiqmoq; **3.** imkon, iloj; **je viendrai, si j'en ai la possibilité** imkonim bo‘lsa kelaman; **4.** *pl* imkonlar, imkoniyatlar; **chacun doit payer selon ses possibilités** har kim o‘z imkoniyatlariga qarab to‘lashi kerak; **un enfant plein de possibilités** imkoniyatlarga to‘la bola.

**possible I.** *adj* **1.** bo‘lishi, yuz berishi mumkin bo‘lgan, joiz; **c'est tout à fait possible** bu albatta mumkin; **ce n'est pas possible autrement** bu boshqacha bo‘lishi mumkin emas; **venez demain si c'est possible** iloji bo‘lsa, ertaga keling; **est-ce possible? ce n'est pas possible!** bunday bo‘lishi mumkinmi? bunday bo‘lishi mumkin emas! *ellipt fam* **pas possible!** yo‘g‘e, bo‘lishi mumkin emas! **2.** iloji bo‘lgan; qancha iloji bo‘lsa, joiz bo‘lsa; **il a fait toutes les sottises possibles et imaginables** u aqlga sig‘maydigan va iloji bo‘lganki hamma ahmoqliklarni qildi; **le plus, le moins possible** iloji boricha ko‘proq, iloji boricha kamroq; **parlez le moins possible** iloji boricha kamroq gapiring; **3.** mumkinligi, bo‘lishi mumkinligi; **une aggravation possible de la maladie** kasalning og‘irlashishining mumkinligi; **irez-vous à la mer cette été? – possible** bu yil yozda dengizga borasizmi? – balki; **il est possible que** bo‘lsa kerak, bo‘lishi mumkin; **il est possible qu'il fasse froid cette nuit** bugun kechqurun sovuq bo‘lsa kerak; **4.** bo‘lg‘usi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan; **c'est un concurrent possible** bu bir bo‘lg‘usi davogar; **5.** *fam* mumkin, qo‘shilsa bo‘ladigan, chidab bo‘ladigan; **ces conditions de travail ne sont vraiment plus possibles** bu ish sharoitlari ortiqcha chidab bo‘lmaydigan darajada; **II.** *nm* **1.** mumkin bo‘lgan, iloji bo‘lgan, imkoni bo‘lgan narsa; **dans la mesure du possible** imkon darajasida; **faire tout son possible (pour)** bor imkoniyatini ishga solmoq; *loc adv* **au possible** juda, o‘ta, mumkin qadar; **il est gentil au possible** u o‘ta xushfel; **2.** qilsa, bajarsa bo‘ladigan, imkon darajasidagi; **les limites du possible** imkoniyat chegaralari; **3.** *pl* imkoniyatlar; iloji, imkoni bo‘lgan narsalar; iloji bor narsalar; **envisager tous les possibles** butun imkoniyatlarni ko‘rib chiqmoq.

**possiblement** *adv* ehtimol, balki, ajab emas.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**postage** *nm* **le postage du courrier** xatlarni pochta orqali jo'natish.

**postal, ale, aux** *adj* pochtaga oid, pochta; **service postal** pochta xizmati; **colis postal** pochta posilkasi.

**postdater** *vt* oldingi sana bilan belgilamoq.

**poste**[1] *nf* **1.** pochta, pochta bo'limi; **bureau de poste** pochta bo'limi; **employé des postes** pochta xizmatchisi; **un colis expédié par la poste** pochta orqali jo'natilgan posilka; **mettre une lettre à la poste** xatni pochtaga, pochta qutisiga tashlamoq; **poste restante** egasi so'rab oladigan xat yoki shunday xatlar olinadigan pochta bo'limi; **3.** manzil, ot almashtirish, choparlar manzili; **chevaux de poste** pochta otlari.

**poste**[2] *nm* **1.** post, kuzatish, nazorat qilish yoki boshqarish joyi; punkt, marra; **un poste avancé** oldingi marra; **poste de commandement** komandirning kuzatish marrasi; *loc* **être, rester à son poste** o'z postida, o'rnida, joyida bo'lmoq, qolmoq; *fam* **être solide au poste** o'z o'rnida, o'z vazifasida qattiy turmoq, sabot-ma'tonatli bo'lmoq; **2.** post, soqchi, soqchilar gruppasi; **relever un poste** soqchini almashtirmoq; **poste de police, poste de garde** politsiya, qoravul posti; **3. poste de police** *ou* **poste** politsiya mahkamasi; **conduire un manifestant au poste** namoyishchini politsiya mahkamasiga olib bormoq; **4.** o'rin, vazifa, lavozim, mansab; **poste de travail** ish o'rni; **professeur titulaire d'un poste** ma'lum lavozimdagi o'qituvchi; **poste vacant** bo'sh o'rin; **les postes de travail** ish o'rinlari; **5. des postes d'essence** yog' quyish shoxobchalari; **poste d'incendie** o't o'chirish bo'limi.

**poste**[3] *nm* apparat (*radio, televizor*); **ouvrir le poste** radio, televizorni qo'ymoq.

**posté, ée** *adj* smenali, smena; **travail posté** smenali ish.

**poster**[1] *vt* pochta orqali jo'natmoq.

**poster**[2] **I.** *vt* postga qo'ymoq; **poster des sentinelles** qo'riqchilarni postga qo'ymoq; **II. se poster** *vpr* joylashib olmoq (*kuzatish, nazorat qilish uchun*); **il était posté à l'entrée du village** u qishloqqa kiraverishga joylashib olgan edi.

**poster**[3] *nf anglic* katta afisha rasm.

**postérieur**[1]**, eure** *adj* **1.** *solishtirma* keyingi, so'nggi; kelgusi; **2.** orqadagi, keyingi, ketingi; orqa; **membres postérieurs et antérieurs** orqa va old a'zolar.

**postérieur**[2] *nm fam* dumba, orqa, ket; **tomber sur son postérieur** keti bilan yiqilmoq.

**postérieurement** *adv* keyin, so'ng, so'ngra.

**postériorité** *nf* keyinlik, so'nglik, orqasidan bo'lish.

**postérité** *nf* **1.** *litt* nasl, avlod, urug', bola-chaqa; **mourir sans postérité** nasl qoldirmay o'lib ketmoq; **2.** kelajak avlod; **travailler pour la postérité** kelajak avlod uchun ishlamoq.

**postface** *nf* so'ngso'z, xotima.

**posthume** *adj* **1.** otasining o'limidan so'ng tug'ilgan, yodgor; **enfant posthume** otasining o'limidan so'ng tug'ilgan bola; **2.** vafotidan keyingi; **décoration posthume** vafotidan so'ng berilgan mukofot.

**postiche I.** *adj* **1.** yasama, sun'iy, yolg'ondakam; **des cheveux postiches** yasama, ulama soch, parik; **2.** soxta, qalbaki; **des talents postiches** soxta iste'dod; **II.** *nm* ulama soch, parik.

**postier, ière** *n* pochta xodimi.

**postillon**[1] *nm vx* pochta aravakashi.

**postillon**[2] *nm* tupuk; **arrête de m'envoyer des postillons!** menga tupuk sachratib gapirishni bas qil!

**postillonner** *vi* tupuk sachratmoq (*gapirganda*); **il me postillonnait dans la figure** u mening yuzimga tupuk sachratib gapirar edi.

**postnatal, ale, als** *adj* tug'ilish, tug'uruqdan keyingi; **examens médicaux postnatals** tug'uruqdan keyingi tibbiy ko'rik.

**postopératoire** *adj méd* operatsiyadan keyingi.

**postposer** *vt ling* postpozitsiyaga qo'ymoq (*bir so'zni ikkinchi bir so'zdan keyin qo'ymoq*).

**postposition** *nf* **1.** postpozitsiya; **la postposition du sujet dans les phrases interrogatives** so'roq gaplarda eganing postpozitsiyada kelishi; **2.** ko'makchi (*so'ng ko'makchi*).

**post-scriptum** *nm inv* postskriptum (*yozib tamomlangan xat oxiriga yoziladigan qo'shimcha gap oldidan qo'yiladigan* **"p.s."** *ishorasi*).

**postsynchronisation** *nf* filmga ovoz berish; dublyaj.

**postsynchroniser** *vt* filmga ovoz bermoq; dublyaj qilmoq.

**postulant, ante** *n* nomzod (*biror o'ringa, ishga*).

**postulat** *nm* postulat (*isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, faraz*).

**postuler** *vt* **1.** qattiq turib so'ramoq, o'tinmoq, iltimos qilmoq; **2.** postulat sifatida biror narsa aytmoq (*faraz qilmoq, qoida bermoq*).

**posture** *nf* gavdaning turishi, vaziyati, holati, holi; **dans une posture comique** kulgili bir holatda; **2.** *loc* **être, se trouver en bonne, en mauvaise posture** qulay, noqulay ahvolda bo'lmoq, qolmoq.

**pot** *nm* **1.** xumcha, xurmacha, ko'za, xum, tuvak; **un pot de terre, de grès** sopol buyumlar; **pot à** biror narsa solish uchun mo'ljallangan idish; **pot à lait** sut ko'za; **pot à eau** suv ko'za; **pot de** ichida biror narsasi bo'lgan idish; **un pot de yaourt** bir xumcha qatiq; **pot (de fleurs)** gul tuvak; *loc* **c'est le pot de terre contre le pot de fer** bu fil bilan sichqonning kurashi, tengsiz kurash; **découvrir le pot aux roses** biror narsaning sirini ochmoq; **payer les pots cassés** biror narsaning tovonini to'lamoq; **être sourd comme un pot** qulog'i tim bitgan bo'lmoq; **2.** *vx* ovqat pishiriladigan ko'za, xum, qozon; **poule au pot** qaynatilgan tovuq go'shti; *loc fam* **en deux coups de cuiller à pot** birpasda, ko'z ochib yumguncha, tezda; **tourner autour du pot** gapni aylantirmoq, ezmalanmoq; **3.** tuvak; **mettre un enfant sur le, sur son pot** bolani tuvakka o'tqazmoq; **4.** bir qadah, stakan; **boire, prendre un pot** bir qadah ichmoq; *fam* ziyofat; **il organise un pot pour son départ de la société** u uyushmadan ketishi munosabati bilan ziyofat uyushtiryapti; **5. pot d'échappement** glushitel (*ovozni, shovqinni pasaytiradigan asbob, moslama*); *loc fam* **plein pot** tarrillatib, bor tezlikda; **6.** *qimor* dov, ganak, tikilgan pul; **7.** *vulg* ket, orqa; **8.** *fam* omad, iqbol, baxt; **un coup de pot** omad; **manque de pot!** omadsizlik! **j'ai eu du pot** omadim keldi.

**potable** *adj* **1.** ichimli, ichsa bo'ladigan; **eau non potable** ichib bo'lmaydigan suv; **2.** *fam* bo'laveradigan, ma'qul, yaxshi; **un travail potable** ma'qul ish.

**potache** *nm* kollej, litsey o'quvchisi.

**potage** *nm* sho'rva, suyuq osh; **un potage aux légumes** sabzavot sho'rva.

**potager, ère I.** *adj* polizga oid, polizchilik; **plantes potagères** poliz ekinlari; **un jardin potager** poliz; **culture potagère** polizchilik; **II.** *nm* poliz; poliz ekinlari ekilgan yer.

**potard** *nm fam vx* aptekachi, dorixonachi.

**potasse** *nf* ishqor, kaliy birikmasi.

**potasser** *vt fam* yotib olib tayyorlanmoq; **potasser un examen** imtihonga yotib olib tayyorlanmoq.

**potassique** *adj* kaliyli; **engrais potassiques** kaliyli o'g'itlar.

**potassium** *nm* kaliy; **cyanure de potassium** sianli kaliy.

**pot-au-feu** *inv* **I.** *nm* **1.** sabzavotlar bilan qo'shib qaynatib, sho'rvasi boshqa o'zi boshqa tortiladigan mol go'shti; **2.** shu ovqat uchun mo'ljallangan mol go'shti; **II.** *adj fam* **une personne pot-au-feu** xonanishin, uydan eshikka chiqmay o'tirishni yoqtiradigan odam.

**pot-de-vin** *nm* pora; **une affaire de pots-de-vin** janjal.

**pote** *n fam* qadrdon, qadrdon do'st, ulfat, jo'ra.

**poteau** *nm* **1.** ustun, tirgak; **des poteaux de bois, de béton** yog'och, beton ustunlar; **2.** ustun, stolba; **poteau indicateur** yo'l ko'rsatish stolbasi; **poteau télégraphique** telegraf ustunlari (*simyog'ochlari*); *chavandozlikda* **poteau d'arrivée** marra ustuni; **3. poteau (d'exécution)** jazo ustuni (*otiluvchi kishini bog'lab qo'yiladigan ustun*); **au poteau** otishga; **mettre, envoyer au poteau** otishga hukm qilmoq; **au poteau!** o'lim, otilsin, qatl qilinsin!

**potée** *nf* cho'chqa yoki mol go'shti qo'shib tayyorlangan sabzavot sho'rva; **potée aux choux** karam sho'rva.

**potelé, ée** *adj* lo'ppigina, do'ndiqqina, do'mpoqqina; **un bébé potelé** do'mpoqqina chaqaloq; **main potelée** lo'ppigina qo'l.

**potence** *nf* **1.** t shaklidagi yog'och qurilma; **2.** dor; *loc* **gibier de potence** dorga tortishga loyiq odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**potentat** *nm* **1.** hukmdor, podsho, mustabid, hokimi mutlaq; **2.** mustabid, zolim podsho.

**potentialité** *nf* **1.** imkoniylik, imkoniyatning borligi; **2.** imkoniyat, kuch-qudrat; **développer les potentialités des élèves** bolalarning imkoniyatlarini rivojlantirmoq.

**potentiel, elle I.** *adj* potensal, yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin boʻlgan; **solliciter les qualités potentielles de qqn** birovning yashirin sifatlarini qoʻzgatmoq; **énergie potentielle** potensial energiya; **II.** *nm* **1.** potensial; **potentiel électrique** elektr potensiali; **2.** potensial, kuch-qudrat; **le potentiel économique et militaire d'un pays** biror davlatning iqtisodiy va harbiy kuch-qudrati.

**poterie** *nf* **1.** kulolchilik; **2.** kulolchilik mahsulotlari; **façonner une poterie au tour** dastgohda sopol idish tayyorlamoq.

**poterne** *nf* maxfiy eshik.

**potiche** *nf* **1.** katta chinni vaza; **2.** *fam* qoʻlida hech qanday haq-huquqi yoʻq martabali odam, quruq savlat.

**potier, ière** *n* kulol; **tour, four de potier** kulol dastgohi, xumdoni.

**potin** *nm* **1.** *pl* gʻiybat, gap-soʻz; **faire des potins sur qqn** birovni gʻiybat qilmoq; **2.** *sing* shovqin-suron, qiy-chuv, gʻovur-gʻuvur, gʻavgʻo; **faire du potin, un potin du diable** shovqin-suron solmoq, qiyomat-qoyim koʻtarmoq.

**potiner** *vi* gʻiybat qilmoq.

**potion** *nf* suyuq dori, mikstura; **une potion magique** moʻjizakor dori.

**potiron** *nm* salla oshqovoq; **soupe au potiron** oshqovoq shoʻrva.

**pot-pourri** *nm* **1.** *mus* popurri (*yigʻma, terma kuy*); **2.** quritilgan turli gullar yigʻindisidan hosil qilingan aralashma; aralash-quralash.

**potron-minet** *nm litt* subhidam, erta tong; **se lever dès potron-minet** erta tongdan turmoq.

**pou** *nm* **1.** bit; **être couvert de poux** bit bosgan, bitlagan, bitliqi boʻlmoq; **chercher les poux** bit termoq; qoʻy biti; *loc fam* **être laid comme un pou** juda ham xunuk boʻlmoq; **chercher des poux dans (sur) la tête de qqn, à qqn** birovning jigʻiga tegmoq, birov bilan janjal chiqarmoq; **orgueilleux comme un pou** juda ham kekkaygan, xoʻrozday kekkaygan.

**pouah** *intj fam* tuf, tufu, tuf-e, tuf-a.

**poubelle** *nf* **1.** axlat qutisi; **j'ai jeté les restes à la poubelle** men qolganini axlat qutisiga tashladim; **2.** axlatxona.

**pouce** *nm* **1.** bosh barmoq; *loc* **mettre les pouces** rozi boʻlmoq; tan bermoq, boʻysunmoq; *fam* **manger un morceau sur le pouce** naridan-beri tik turib tamaddi qilib olmoq; **se tourner les pouces** bekor oʻtirmoq, yulduz sanamoq, it sugʻormoq; **donner le coup de pouce** ishga oxirgi qoʻlni solmoq, urmoq; **il a donner un coup de pouce à l'histoire** u haqiqatni biroz oʻzgartirdi; **pouce!** chiqding! (*bolalar oʻyinida*); **pouce cassé!** oʻyin buzuldi! **2.** oyoqning bosh barmogʻi; **3.** 2,54 smga teng anglo-sakson uzunlik oʻlchov birligi; 2,707 smga teng qadimiy uzunlik oʻlchov birligi; *loc* **ne pas reculer, bouger, avancer d'un pouce** bir enlik ham chekinmaslik, qimirlamaslik, ilgarilamaslik.

**pouding** *nm voir* **pudding**.

**poudrage** *nm* changlatib sepish, dorilash; **traitement chimique des cultures par poudrage** ekinlarni kimyoviy dorilash, ekinlarga kimyoviy dorilar sepish.

**poudre[1]** *nf* **1.** kukun, tolqon; **sucre en poudre** shakar tolqoni; **lait en poudre** quritilgan sut; *loc* **poudre de perlimpinpin** yasama, teppa dori; *loc* **jeter de la poudre aux yeux de qqn** firib bermoq, chalgʻitmoq, aldamoq, koʻzboʻyamachilik qilmoq; **2.** upa; **se mettre de la poudre** upa qoʻymoq; **3.** *vx* chang, gʻubor, gard; **réduire qqch en poudre** kulini koʻkka sovurmoq.

**poudre[2]** *nf* miltiqdori, porox; **mettre le feu aux poudres** gʻazabga oʻt qoʻymoq, jahlini lovullatib yubormoq, qazabni qoʻzgʻatuvchi ish boshlamoq; **il n'a pas inventé la poudre** aytarli, juda ham dono emas.

**poudrer I.** *vt* **1.** tolqon sepmoq, tolqon surtmoq (*ustiga*); **2.** upa qoʻymoq; **II. se poudrer** *vpr* oʻziga upa qoʻymoq; **une femme fardée, poudrée** boʻyangan, upa chaplagan xotin.

**poudrerie** *nf* qor boʻroni (*Kanadada*).

**poudreuse** *nf* **1.** yangi yoqqan qalin qor; **la poudreuse produit des avalanches** yangi yoqqan qalin qor koʻchki hosil qiladi; **2.** kukun, tolqon sepadigan asbob.

**poudreux, euse** *adj* mayda, kukunsimon, tolqonsimon; **neige poudreuse** yangi yoqqan qalin qor.

**poudrier** *nm* upa qutisi, upadon.

**poudrière** *nf* oʻq-dori sotiladigan magazin.

**poudroyer** *vi* **1.** *litt* changimoq, chang-toʻzon koʻtarmoq; **le chemin poudroie au passage d'une voiture** mashina oʻtganda koʻcha changiydi; **2.** yorugʻda kukunday yaltiramoq; **le sable poudroie** qum kukunday yaltiraydi; **3.** uchib yurgan chang zarralarini yaltiratmoq; **le soleil poudroie à travers les volets** quyosh darchalardan oʻtib, uchib yurgan chang zarralarini yaltiratadi.

**pouf[1]** *intj* gup, gurs, tap; **et pouf! le voilà qui s'étale par terre** gurs! mana u, yerda choʻzilib yotibdi; *nm* **faire pouf** yiqilish, gup etib yiqilish, qulash.

**pouf[2]** *nm* past, yumshoq, dumaloq kursi.

**pouffer** *vi* **pouffer de rire** xo-xolab kulib yubormoq.

**pouffiasse** *ou* **poufiasse** *nf vulg* semiz, isqirt, isliqi qiz yoki xotin; jalab.

**pouillerie** *nf* **1.** oʻta qashshoqlik, faqirlik; **2.** oʻta qashshoq, faqir joy, narsa.

**pouilles** *nf pl litt vx* **chanter pouilles à qqn** soʻkish, haqorat yogʻdirmoq; soʻkishga, haqoratga koʻmib yubormoq.

**pouilleux, euse** *adj* **1.** bit bosgan, bitliqi; **2.** bitliqi, oʻta qashshoq, gʻarib; **3.** qashshoq, faqir, gʻarib (*narsa*); **un cartier pouilleux** qashshoq mavze; **4.** shoʻrxok, kamhosil (*joy nomidan soʻng*).

**poulailler** *nm* **1.** tovuqxona, tovuq katagi; shu katakdagi tovuqlar; **le renard a égorgé tout le poulailler** tulki butun tovuqxonani boʻgʻib oʻldirdi; **2.** *fam* teatr zalida yuqori qavat, yuqori yarus; shu qavatda oʻtirgan tomoshabinlar; **le poulailler a sifflé la pièce** yuqori qavatdagilar pyesani hushtakka tutishdi.

**poulain** *nm* **1.** qulun, toychoq, toy; **2.** biror sohada yangi (*yosh, tajribasiz*) odam.

**poularde** *nf* semiz tovuq.

**poulbot** *nm* koʻcha bolasi, gavrosh.

**poule[1]** *nf* **1.** tovuq; **une poule qui picore** choʻqilayotgan tovuq; **le gloussement des poules** tovuqlarning qaqagʻlashi; **poule pondeuse** (tuxum) tugʻadigan tovuq; **œuf de poule** tovuq tuxumi; **les poules couvent dans le poulailler** tovuqlar tovuqxonada bola ochadilar; **ce soir nous mangerons de la poule au riz** bugun kechqurun guruchli tovuq yeymiz; *loc* **quand les poules auront des dents** tuyaning dumi yerga tekkanda; **tuer la poule aux œufs d'or** oʻzi oʻtirgan shoxni kesmoq; **se coucher, se lever comme (avec) les poules** tovuq qoʻnoqqa chiqmay yotmoq, tovuq qoʻnoqdan tushmay turmoq; **mère poule** bolalarini oʻz qanotining ostida saqlaydigan ona; **poule mouillée** boʻshang, shalpaygan, shalviragan odam; **il est un peu trop poule mouillée** u ortiqcha boʻshang; **2.** makiyon, moda; **poule faisane** tustovuqning modasi; **poule d'eau** gʻozqanjir; **3.** *fam* doʻmboqqinam, erkam; **viens, ma poule** kel, doʻmboqqinam; **4.** *fam* manjalaqi, buzuq, suyuqoyoq ayol; oʻynash; **il est avec sa poule** u oʻzining oʻynashi bilan.

**poule[2]** *nf* **1.** dov, ganak, tikilgan pul; **2.** saralash guruhi (*regbida*); **poule A, poule B** A, B saralash guruhlari.

**poulet[1]** *nm* **1.** joʻja; **2.** joʻja goʻshti; **poulet rôti** qovurilgan joʻja goʻshti; **manger du poulet** joʻja goʻshti yemoq; **3. mon (petit) poulet** doʻmbogʻim, erkam.

**poulet[2]** *nm* ishqiy maktub; *fam* xat; **j'ai reçu un poulet** men bitta xat oldim.

**poulet[3]** *nm fam* politsiyachi; **il s'est fait pincer par les poulets** u politsiyachilarning qoʻliga tushib qoldi.

**poulette** *nf* **1.** joʻja; **2.** *fam* yosh qiz, yosh juvon; **ma poulette** doʻmboqqinam.

**pouliche** *nf* yosh biya.

**poulie** *nf* **1.** chigʻir; **2.** shkiv; **poulie et courroie de ventilateur** avtomobil vintilyatorining shkivi va uzatma tasmasi.

**poulinière** *adj f* zotdor, nasldor; zot, nasl olinadigan; *nf* nasl olinadigan biya.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**poulpe** *nm* roʻdapo (*dengiz hayvoni*); **les tentacules du poulpe** roʻdaponing paypaslagichlari.

**pouls** *nm inv* tomir urishi, puls; **prendre le pouls (de qqn, à qqn)** tomir urishini sanamoq; **prendre le pouls de l'opinion** qoʻyniga qoʻl solib koʻrmoq; **tâter le pouls** tomir koʻrmoq.

**poumon** *nm* **1.** oʻpka; **poumon droit et gauche** oʻng va chap oʻpka; **maladies du poumon** oʻpka kasalliklari; **aspirer à pleins poumons** oʻpkasini, koʻkragini toʻldirib nafas olmoq; **chanter, crier à pleins poumons** ovozining boricha ashula aytmoq, qichqirmoq; **2. poumon artificiel, poumon d'acier** sun'iy nafas oldirish kamerasi; **3.** *fig* yurak, oʻpka; hayotiy, hayot uchun muhim boʻlgan a'zo; **cette région est le poumon économique du pays** bu hudud mamlakatning iqtisodiy yuragi.

**poupard I.** *nm* doʻmpoq, loʻppi yuzli chaqaloq; **II.** *adj* **un visage poupard** loʻppi yuz.

**poupe** *nf* kemaning quyrugʻi, keti; *loc fig* **avoir le vent en poupe** maqsadga erishish uchun qulay sharoitda boʻlmoq.

**poupée** *nf* qoʻgʻirchoq; **la petite fille joue à la poupée** qizcha qoʻgʻirchoq oʻynayapti; **avoir un visage de poupée** yuzlari loʻppi boʻlmoq; **jardin, maison de poupée** juda kichkina, jajji bogʻcha, uycha; **2.** *fam* qoʻgʻirchoqday, chaqmoqday qiz, bejirim ayol; **3.** bogʻlangan barmoq.

**poupin, ine** *adj* qoʻgʻirchoqnikiga oʻxshash, qip-qizil, loʻppi; **un visage poupin** loʻppi yuz.

**poupon** *nm* chaqaloq, goʻdak.

**pouponner** *vi* bolaga qaramoq; **elle adore pouponner** u bolalarga qarashni juda yaxshi koʻradi.

**pouponnière** *nf* bolalar bogʻchasi.

**pour I.** *conj* **1.** uchun, evaziga, oʻrniga; **je l'ai eu pour rien, pour une bouchée de pain** men buni arzimagan narsa evaziga, bir tishlam non evaziga oldim; *fam* **pour pas un rond** suv tekinga; **il en a été pour son argent, pour ses frais.** u ikki qoʻlini burniga tiqib qolaverdi; **prendre, dire un mot pour un autre** bir soʻzning oʻrniga boshqa birini olmoq, ishlatmoq; **elle l'a pris pour son frère.** u uni oʻzining akasi deb oʻylayapti; **dans un an, jour pour jour** bir yildan soʻng, kun-bakun; **elle lui ressemblait trait pour trait.** u unga aynan oʻxshaydi, u uning huddi oʻzi; **2. mourir pour mourir, autant que ce soit de mort subite.** oʻlmoq kerak, hattoki bu kutilmagan oʻlim boʻlsa ham; **3.** uchun, sifatida; **avoir la liberté pour principe** prinsip uchun ozodlikka ega boʻlmoq; **prendre pour époux** kuyovlikka olmoq; **avoir M. Durand pour professeur** janobi Duranni oʻziga oʻqituvchilikka olmoq; **il les a pour élèves** ular uning oʻquvchilari; **elle passe pour folle.** uni ahmoq deb hisoblashadi; **pour le moins** eng kamida, hech boʻlmaganda; *loc fam* **pour de bon** tufayli, sababli; *fam* **pour de vrai** haqiqatda, aslida; **4.** oʻrniga, uchun; **payer pour qqn** biror kishi uchun, oʻrniga toʻlamoq; **5.** *loc* **en tout et pour tout** faqatgina, yolgʻizgina; **6. pour moi, je pense que** men esa, men oʻylaymanki; **pour ma part** oʻz tomonimdan, men esa; **pour ce qui est de** -ga kelsak, -ga kelganda, -ning haqida; **pour un artiste, c'est un artiste!** mana sizga artist! **7.** biror kishiga kelganda, uchun; **elle est tout pour moi.** u mening bor-yoʻgʻim; **ce n'est un secret pour personne.** bu hech kim uchun sir emas; **8. partir pour le Japon** Yaponiyaga joʻnamoq; **les voyageurs pour Lyon** Lionga ketayotgan sayohatchilar; **9. c'est pour ce soir.** bu shu kecha uchun; **pour six mois** olti oyga; **pour le moment** shu zahotiyoq; **pour quand?** qachonga? **pour dans huit jours** bir haftaga; *fam* **alors c'est pour aujourd'hui ou pour demain?** xoʻsh bugunmi, ertagami? **pour une fois, pour cette fois je te pardonne** bir safar, bu safar men seni kechiraman; **pour le coup** bu safar; **10. c'est pour vous** bu sizga, siz uchun; **film pour adultes** kattalar uchun film; *ellipt fam* **c'est fait pour** bu shuning uchun ataylab qilingan; **médicament pour la grippe** gripga qarshi dori; **s'est pour son bien** bu oʻzining foydasi uchun; **pour le cas où** holda, -ga (-ka, -qa); nisbatan; **sa haine pour lui.** unga nafrati; **tant mieux, tant pis pour lui** oʻziga yaxshi, oʻziga yomon; **prier pour qqn** birov uchun duo qilmoq; **chacun pour soi** har kim oʻziga; **être pour** tarafdori boʻlmoq; **je suis pour cette décision.** men bu qaror tarafdoriman; **je suis pour** men tarafdorman; **11. pour** +*inf* biror narsa qilish uchun; **faire l'impossible pour réussir** erishish uchun iloji yoʻq narsani qilmoq; **travailler pour vivre** yashash uchun ishlamoq; **pour quoi faire?** nima qilish uchun? *loc fam* **ce n'est pas pour dire, mais il a du culot.** gap yoʻq, u haqiqatdan ham yuzsiz; **c'est pour rire** bu kulish uchun; **12. pour que** uchun; **il faudra du temps pour que cela réussisse.** bunga erishish uchun vaqt kerak; *iron* **c'est ça, laisse ton porte-monnaie sur la table pour qu'on te le vole!** xuddi shunday, karmoningni stol ustida qoldir, uni oʻgʻirlab ketishsin! **pour que … ne pas** masin deb; **il ferma les fenêtres pour que la chaleur ne sorte pas.** Issiq chiqib ketmasin deb, u derazalarni yopti; **13. pour son malheur, il a cédé.** oʻzining boshiga balo qilib u yon berdi; **pour réussir il a besoin d'être plus sûr de lui** muvaffaqiyat qozonish uchun u oʻziga yana ham ishonganroq boʻlishi kerak; **ce projet n'est pas pour me déplaire** bu reja menga yoqmasligi uchun emas; **14. assez trop … pour que** -sin deb, uchun, -sin uchun yetarli, ortiqcha; **j'ai assez insisté pour qu'il vienne.** men uni kelsin deb juda harakat qildim. **il faut, il suffit … pour que** uchun kerak, yetarli; **il suffit que j'en parle pour que ça n'arrive pas.** buning yuz bermasligi uchun mening bu haqda gapirishimning oʻziyoq kifoya; **15.** sababli, tufayli; **on l'admire pour ses qualités** uning yaxshi sifatlari uchun uni hurmat qiladilar; **il a été puni pour ses mensonges.** u yolgʻonchiligi uchun jazo olgan edi; **pour un oui, pour un non.** har qanday holda; **pour sa peine** oʻzining boshiga; **pour quoi? pour quelle raison?** nega? nima sababdan? **le magasin est fermé pour cause de maladie.** kasallik sababli magazin yopiq; **et pour cause!** yaqqol sabablarga koʻra! **16. il a été puni pour avoir menti.** aldaganligi uchun u jazolanadi; **17.** *litt* agar-ki, boʻlsa ham, qaramay; **pour intelligent qu'il soit, il ne réussira pas sans travail.** dono boʻlsa ham u mehnatsiz erisholmaydi; **pour peu que** ozgina, agar-ki ozgina boʻlsa; **pour autant que** imkoni, iloji boricha; **18. pour être riche, ils n'en sont pas plus heureux (en sont-ils plus heureux)** boy boʻlishlariga qaramay, ular bundan umuman baxtli emas; **II.** *nm inv* **passer, considérer le pour et le contre** yaxshi va yomon tomonlarini taroziga solib koʻrmoq, koʻrib chiqmoq.

**pourboire** *nm* choychaqa, choy puli.

**pourceau** *nm vx litt* choʻchqa, toʻngʻiz.

**pourcentage** *nm* **1.** protsent, foyda, daromad; **il touche un pourcentage sur la recette, dix pour cent je crois** u bir foyiz foyda oladi, yuzdan oʻn menimcha; **2.** foyiz.

**pourchasser I.** *vt* **1.** ta'qib qilmoq, iziga, payiga, ketiga tushmoq, ketidan quvmoq; **être pourchassé par la police** politsiya ketiga tushgan boʻlmoq; **2.** biror narsaning ketiga, payiga tushmoq; biror narsaga intilmoq; **il pourchasse les honneurs** u shon-sharafga intiladi; **II.** *vpr* **ils se sont pourchassés les uns les autres** ular bir birining payiga tushishgan.

**pourfendeur** *nm* kesib tashlovchi, kesib oluvchi, keskin tanqid qiluvchi.

**pourfendre** *vt* **1.** *vx* yorib tashlamoq, boʻlaklab tashlamoq; **2.** *litt ou plais* dushman ustiga shiddat bilan tashlanmoq, hamla, hujum qilmoq; chovut solmoq; **pourfendre ses adversaires** raqiblarining ustiga shiddat bilan tashlanmoq.

**pourlécher (se)** *vpr* yalanmoq, labini yalamoq.

**pourliche** *nf fam* choychaqa, choy puli.

**pourparlers** *nm pl* muzokara; **de longs pourparlers** uzoq muzokaralar; **être en pourparlers** muzokara olib bormoq.

**pourpoint** *nm* kamzul (*Oʻrta asrlarda*).

**pourpre I.** *nf* **1.** qimmatbaho toʻq qizil boʻyoq; **2.** *litt* toʻq qizil kiyim; (*ulugʻvorlik va dabdabalilik belgisi sifatida kiyilgan*); **3.** *litt* toʻq qizil, qip-qizil rang; **la pourpre de ses lèvres** lablarining qip-qizilligi, lablarining lalisi; **II.** *adj* toʻq qizil, qip-qizil, qirmizi; **velours pourpre** qirmizi duxoba.

**pourpré, ée** *adj litt* toʻq qizil, qip-qizil, argʻuvon.

**pourquoi**[1] **I.** *adv, conj* **1.** nega, nima maqsadda; **pourquoi partez-vous?** nega ketyapsiz? **pourquoi veux-tu que j'y aille?** nega sen mening u yerga borishimni xohlaysan? **pourquoi est-ce que vous la saluez?** nega siz unga salom berasiz? *fam* **pourquoi tu cris?** nega qichqirasan? **mais pourquoi crier?** nega qichqirish kerak axir? **pourquoi non?** nega yoʻq? **pourquoi pas?** nega boʻlmasin? **2.** nima uchun, qanday maqsadda; **je ne comprenais pas pourquoi je devais me taire** men nima uchun jim turishim kerakligini tushunmas edim; **je vous demande pourquoi vous riez** men sizning nima uchun kulayotganingizni soʻrayapman; **explique-moi pourquoi** nima uchunligini menga tushuntir; **3. voilà, voici pourquoi** mana shuning uchun; **c'est pourquoi** shuning uchun, shu sababdan; **II.** *nm inv* **1.** sabab, dalil; **il demandait le pourquoi de toute cette agitation** u bu hamma harakatning



www.ziyouz.com kutubxonasi

sababini so'rab turgan edi; **2.** nega, nima uchun; **les pourquoi des enfants** bolalarning nega, nima uchunlari.

**pourri, ie I.** *adj* **1.** chirigan, irigan, buzilgan; aynigan, sasigan, bijg'igan; palag'da; **une planche pourrie** chirigan taxta; (*oziq-ovqat*) **des fruits pourris** chirigan, sasigan, aynigan mevalar; **de la viande pourrie** sasigan, aynigan go'sht; **2.** maydalanib, uqalanib ketgan; **pierre pourrie** uqalanib ketgan tosh; **3.** sernam, rutubatli, seryomg'ir; **un climat pourri** rutubatli ob-havo; **un été pourri** seryomg'ir yoz; **4.** chirkin, buzuq, axloqsiz; **une société pourrie** chirkin jamiyat; *nm fam injur* **bande de pourris!** yaramaslar to'dasi! **5.** *fam* **pourri de** to'lib ketgan, bosib ketgan, vij-vij; **il est pourri de fric** unda aqcha to'lib yotibdi; **II.** *nm* chirik; chirib ishdan chiqqan narsa, chirindi; **enlever le pourri** chirigini olib tashlamoq; **une odeur de pourri** chirindi hidi.

**pourrir I.** *vi* **1.** chirimoq, irimoq, buzilmoq, sasimoq, aynimoq (*organik moddalar*); **ce bois pourri à l'umidité** bu yog'och namlikda chiriyapti; **2.** chirimoq, buzilmoq, aynimoq, razolatga tushmoq, tushkunlikka, inqirozga yuz tutmoq (*odam*); **on l'a laissé pourrir en prison** uni qamoqda chiritdilar; **laisser pourrir une grève** ish tashlashni inqirozga yuz tutkazmoq; **II.** *vt* **1.** chiritmoq, iritmoq, sasitmoq, aynitmoq; **la pluie a pourri le foin** yomg'ir poxolni chiritdi; **2.** aynitmoq, buzmoq (*bolani*); **sa mère finira par le pourrir** onasi uni oxiri buzadi; **III. se pourrir** *vpr* chirimoq, irimoq, sasimoq, aynimoq.

**pourrissant, ante** *adj* chiriyotgan, iriyotgan, sasiyotgan, ayniyotgan, buzilayotgan.

**pourrissement** *nm* inqirozga yuz tutish, razolatga tushish, buzilish.

**pourriture** *nf* **1.** chirindi, chirik; **une odeur de pourriture** chirindi hidi; **2.** chirik, chirkin muhit, nosog'lom qarash; **la pourriture de la société** jamiyatning chirkinligi; **3.** *injur* razil, palid, iflos; **quelle pourriture, ce type!** qanday iflos ekan bu nusxa!

**poursuite** *nf* **1.** quvish, orqasidan, ketidan quvib borish; quvg'in, ta'qib qilish; **la police s'est lancée à la poursuite du malfaiteur** politsiyachi jinoyatchini quvishga, ta'qib qilishga tushdi; **2.** quvish, orqasidan tushish; **la poursuite de l'argent, de la vérité** pulni, haqiqatni quvish; **3.** *dr* qonun tomonidan ta'qib, taqiq, jazolash; **défense de +*inf* sous peine de poursuite(s)** biror narsa qilish qonun tomonidan jazolanadi; **poursuites (judiciaires) contre qqn** biror kishiga qarshi jinoiy ish; **engager des poursuites** jinoiy ish qo'zg'atmoq; **4.** biror narsani davom ettirish; **la poursuite d'un travail** ishni davom ettirish.

**poursuivant, ante** *n* quvuvchi, ta'qib qiluvchi; **le voleur a échappé à ses poursuivants** o'g'ri o'zini ta'qib qiluvchilardan qochib ketdi.

**poursuivre I.** *vt* **1.** yetib olish uchun orqasidan bormoq; **1.** quvmoq, quvlamoq, ta'qib qilmoq; **la police poursuivait les terroristes** politsiya terroristlarni quvlab kelardi; **poursuivre les fugitifs** qochqinlarni ta'qib qilmoq; **2.** quvib qisib bormoq, quvib yurmoq; **il est poursuivi par ses créanciers** qarz berganlar uni quvib yurishibdi; **3.** sevgilisining orqasidan yugirib yurmoq (*unga erishish uchun*); *loc* **il la poursuit de ses assiduités** u uning ko'nglini olish uchun orqasidan yugirib yuribdi; **4. poursuivre qqn de** tinchlik bermaslik, quvlab yurmoq; **elle le poursuivait de sa colère** uning g'azabi unga tinchlik bermas edi; **5.** azoblamoq, qiynamoq; tinchitmaslik, orom bermaslik; **ces images lugubres me poursuivirent longtemps** bu g'amgin ko'rinishlar menga uzoq vaqt orom bermadi; **6.** ayblamoq, sudga bermoq; **je vous poursuivrai devant les tribunaux!** men sizni sudga beraman! **7.** ketidan quvmoq, quyarda-qo'ymay talab qilmoq; **poursuivre un intérêt particulier** o'z manfaatini ketidan quvmoq, o'z manfaatini o'ylamoq; **8.** davom ettirmoq; **poursuivre son voyage, son chemin** sayohatini, yo'lini davom ettirmoq; **il poursuit ses études** u o'qishlarini davom ettiryapti; **poursuivre un récit** hikoyani davom ettirmoq; **poursuivez, cela m'intéresse!** davom eting, bu meni qiziqtiradi! **II. se poursuivre** *vpr* davom etmoq; **la réunion se poursuivit jusqu'à l'aube** majlis tonggacha davom etdi.

**pourtant** *adv* biroq, ammo, lekin; -sa ham, -ga qaramasdan; **tout a l'air de bien se passer, pourtant je suis inquiet** hammasi yaxshi o'tganga o'xshasa ham, men xavotirdaman; **c'est pourtant bien simple** lekin bu juda oson; **elle est laide et pourtant quel charme!** u xunuk, ammo qanday joziba!

**pourtour** *nm* **1.** aylana doira; **2.** qirg'oq, chet, aylana, atrof; **le pourtour de la place était planté d'arbres** maydonning chetiga daraxtlar o'tqazilgan edi.

**pourvoi** *nm dr* **pourvoi en cassation** kassatsiya arizasi, shikoyat arizasi.

**pourvoir I.** *vt* **1. (à)** g'amxo'rlik qilmoq, g'amxo'rlik ko'rsatmoq, biror kimsa yoki narsaning g'amini yemoq, tashvishini tortmoq, tashvishini qilmoq; **pourvoir à l'entretien de la famille** oilaning tashvishini qilmoq; **pourvoir à un emploi** mansabga tayinlamoq; **il a été pourvu à tout** hamma narsaning g'ami yeb qo'yilgan edi; **2.** ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq; **son père l'a pourvu d'une recommandation** otasi uni tavsiyanoma bilan ta'minladi; **être pourvu, ue** ta'minlangan bo'lmoq, ega bo'lmoq; **le voilà bien pourvu** mana uning hamma narsasi bor; **3.** bermoq, ato etmoq; **la nature l'a pourvu de grandes qualités** tabiat unga ulkan fazilatlar ato etgan; **II. se pourvoir** *vpr* **1. (de)** g'amlamoq, g'amlab, hozirlab olmoq; **il faut se pourvoir de provisions pour le voyage** sayohatga oziq-ovqat g'amlab olish kerak; **2.** *dr* **se pourvoir** shikoyat qilmoq, shikoyat arizasini bermoq; **elle s'est pourvue en appel, puis en cassation** u apelyatsiyaga, so'ng kassatsiyaga shikoyat qildi.

**pourvoyeur, euse** *n* **1.** ta'minlovchi, yetkazib beruvchi; **pourvoyeur de drogue** giyohvand moddalarni yetkazib beruvchi; **2.** *mil* keltirib, yetkazib turuvchi, tashuvchi.

**pourvu[1], ue** *adj* ta'minlangan, berilgan.

**pourvu[2] que** *loc prép* **1.** agarki, -sa (-ganda) edi; **pourvu qu'il ait le nécessaire, il est content** unda zaruriy narsalar bo'lsa, u xursand bo'lgan bo'lar edi; **2.** umid qilmoq, umid bog'lamoq; **pourvu qu'on arrive à temps!** umid qilamizki, vaqtida kelishsin!, vaqtida kelishsinda!

**poussah** *nm* **1.** tekyotmas qo'g'irchoq (*yotqizib qo'ysa, o'zi turib ketadigan*); **2.** semiz, beso'naqay, beo'xshov odam.

**pousse[1]** *nf* o'sish; **une lotion pour la pousse des cheveux** sochni o'stiradigan loson.

**pousse[2]** *nf* nish, kurtak; **les jeunes pousses des arbres** daraxtlarning yosh kurtaklari.

**pousse-café** *nm inv* qahvadan so'ng ichiladigan kichik qadah; **deux cafés, deux pousse-café et un cigare** ikkita qahva, ikkita kichkina qadah va bitta sigara.

**poussée** *nf* **1.** itarish, siqish, qisish, siquv; **sous la poussé, la porte s'ouvrit** itarishdan, eshik ochilib ketdi; **la fusée s'élève grâce à la poussée de ses réacteurs** raketa reaktorlarining itarishidan ko'tariladi; **résister aux poussées de l'ennemie** dushmannning siquvlariga dosh bermoq; **2.** bosim, bosish kuchi; **la poussée d'une voûte sur les murs** arkning devorlarga bosish kuchi; **3.** urish, turtish, zarba; **4.** xuruj, xuruj qilish, tutish, tutib qolish; **une poussée de fièvre** isitmaning tutib qolishi.

**pousse-pousse** *nm inv* riksha arava (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, bir o'rinli, hammol itarib yuradigan arava*).

**pousser I.** *vt* **1.** itarmoq, surmoq, turtmoq; **pousser un meuble dans un coin, contre un mur** mebelni burchakka, devor qarshisiga surmoq; **pousser la porte** eshikni ochmoq; **on nous a poussés dehors** bizni eshikka haydab chiqarishdi; **pousser qqn avec le coude, du coude, du genou** birovni tirsagi, tizzasi bilan turtmoq (*ogohlantirish uchun*); **ne poussez pas!** itarmang!, turtmang! *loc fam* **faut pas pousser** juda ham orttirib yubormang; *loc adv fam* **à la va comme je te pousse** jinni-ketdi qilib, pala-partish, chala-chulpa, yumaloq-yassi, yumaloq-yostiq, yarim-yorti, naridan-beri, harom-xarish, yuzaki; **ce travail a été fait à la va comme je te pousse** bu ish jinni-ketdi qilib bajarilgan edi; **2.** haydab bormoq; **le berger pousse son troupeau devant lui** podachi podasini oldiga solib haydab borar edi; **c'est l'intérêt qui le pousse** manfaat uni haydab boradi; **poussé par l'intérêt** manfaat yo'liga kirib, manfaat tufayli; **3. pousser qqn, pousser qqn à** undamoq, yo'naltirmoq, majbur qilmoq; **pousser qqn à faire qqch** biror kishini biror narsa qilishga undamoq; **pousser un élève** o'quvchini ishlashga undamoq; **pousser à bout** sabr kosasini to'ldirmoq; **la contrariété le poussait à bout** to'sqinliklar uning sabr kosasini to'ldirardi; **4.** itarib, surib bormoq; **pousser un landau, un chariot** aravachani itarib bormoq; **pousser l'aiguille** tikmoq; **5.** yetkazmoq, olib bormoq; **il poussa ses recherches jusqu'au bout** u o'z izlanishlarini oxiriga yetkazdi; **il pousse la plaisanterie un peu trop loin** u hazilni orttirib yuboradi; **un amour poussé jusqu'à la**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**passion** ishqibozlikka aylantirilgan ishq; **6.** jadallashtirmoq, ildamlashtirmoq, qistovga olmoq; **pousser un travail** ishini jadallashtirmoq; **c'est un travail très poussé** bu juda ham ilgarilab, ildamlab ketgan ish; **7.** chiqarmoq (*tovush*); **il a poussé de grands cris** u qattiq qichqirib yubordi; *loc* **pousser les hauts cris** o'kirmoq, bo'kirmoq; **elle poussa un soupir** u uh tortdi; *fam* **un convive poussa la chansonnette** bir mehmon ashula boshladi; **8.** kuchanmoq (*bo'shanish uchun*); **II.** *vi* **1.** o'smoq, o'sib chiqmoq (*o'simlik*); **un bon champ où tout pousse** hamma narsa o'sadigan yaxshi yer; **faire pousser des légumes** sabzavot o'stirmoq (yetishtirmoq); **l'herbe commence à pousser** o't o'sib chiqaboshladi; **2.** o'smoq, ko'tarilmoq, qad ko'tarmoq (*shahar, qurilish*); **des villes qui poussent comme des champignons** qo'ziqorinlarday qad ko'tarayotgan shaharlar; **3.** o'smoq, katta bo'lmoq (*bola*); **il pousse, ce petit** bu kichkintoy o'syapti; **III. se pousser** *vpr* itarishmoq, turtishmoq, tiqilishmoq; **pousse-toi!** itarishib o't!

**poussette** *nf* **1.** bolalar aravachasi (*yig'iladigani*); **2.** *fam* mashinalarning bir-birining orqasidan sekin harakatlanishi.

**poussier** *nm* **1.** ko'mir kukuni; **2.** chang, to'pon.

**poussière** *nf* **1.** chang, to'zon; **la poussière des routes** ko'chalar changi; **un tourbillon de poussière** chang to'zoni; **2.** chang, g'ubor, gard; **ôter la poussière** changni artmoq; **tomber en poussière** kukunga aylanmoq; **3.** *litt* xok, jasad kuli; **4.** arzimas, arzimagan narsa; *fam* **cela m'a coûté deux cents francs et des poussières** bu menga ikki yuz frank va yana arzimas narsaga tushdi; **5. une poussière de** son-sanoqsiz, minlab, milyonlab; **la voie lactée est une poussière d'étoiles** somon yo'li son-sanoqsiz yulduzlardan iborat; **6.** chang, kukun; **poussière de charbon** ko'mir kukuni; **réduire en poussière** kukunga aylantirib yubormoq, *fig* tuyib tolqon qilib yubormoq, tolqonlab yubormoq, yer bilan yakson qilmoq, yo'q qilib yubormoq, kulini ko'kka sovurmoq.

**poussiéreux, euse** *adj* **1.** chang, chang bilan qoplangan, chang bosgan; **une chambre poussiéreuse** chang bosgan xona; **2.** chang bosganga o'xshash, bo'zargan, rangi o'chgan; **3.** eski; chang bosgan, mag'arlab ketgan; **cette administration poussiéreuse devrait être rénovée** bu chang bosgan boshqaruv tizimi yangilanishi kerak edi.

**poussif, ive** *adj* **1.** nafasi qisadigan, harsillab nafas oladigan; nafasi qisuvchi, harsillab nafas oluvchi; **un homme poussif** nafasi qisadigan odam; **2. une voiture poussive** notekis ishlayotgan avtomobil.

**poussin** *nm* jo'ja; *fam* **mon poussin** kichkintoyim, shirintoyim.

**poussoir** *nm* boshqarish tugmasi; **les poussoirs d'une montre** soatning qulog'lari.

**poutre** *nf* **1.** to'sin, xari; **la maîtresse poutre** xari; **il voit la paille dans l'œil du voisin et ne voit pas la poutre dans le sien** ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulibdi; **2.** brus.

**poutrelle** *nf* **1.** to'sincha; **2.** metall to'sin.

**pouvoir**[1] *vt* **1.** qila, bajara, amalga oshira olmoq, uddalamoq, uddasidan chiqmoq; eplamoq; **puis-je (est-ce que le peux) vous être utile?** sizga yordam bersam maylimi? **il ne peut pas parler** u gapirolmaydi; **je ne pourrai plus le faire** men buni butunlay qilolmayman; **qui peut savoir?** kim bilishi mumkin? **dire qu'il a pu faire une chose pareille!** u shunday ishni qildimi! *loc* **on ne peut mieux** bundan yaxshiroq bo'lmaydi; **on ne peut plus** yuqori darajada, bundan ortiqrog'i bo'lmaydi; **qu'est-ce que ça pourra bien lui faire?** unga bu nima ham qila olishi mumkin edi? **2.** biror narsa qilishga huquqlari, ruxsatlari bo'lmoq; **les élèves peuvent sortir** o'quvchilar chiqishlari mumkin; **si l'on peut dire** aytish joyiz bo'lsa; **3.** bo'lishi mumkin bo'lgan narsa haqida; **les malheurs qui peuvent nous arriver** biz bilan yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsizliklar; **4.** *litt* istakni bildiradi; **puissiez-vous venir demain!** ertaga kelolganingizda edi! **5. il peut, il pourra** balki, bo'lishi mumkin; **il peut y avoir, il ne peut pas y avoir la guerre** u yerda urush bo'lishi, bo'lmasligi mumkin; **il peut arriver** bo'lishi mumkinki; *loc* **avant que faire se peut** iloji, imkoni boricha; **il, cela se peut** bo'lishi mumkin, iloji bor; **il se peut que** -sa kerak, mumkin; **il se peut qu'il pleuve** yomg'ir yog'sa kerak; **cela ne se peut pas** buning bo'lishi mumkin emas; *fam* **ça se peut; je ne dis pas le contraire** bo'lishi mumkin, men rad qilayotganim yo'q; **ça se pourrait bien** xuddi shunday bo'lishi mumkin edi; **6.** qila olmoq, qo'lidan kelmoq; **résistez, si vous le pouvez** qarshilik qiling, agar qilolsangiz; **je fais ce que je peux, j'ai fait ce que j'ai pu** men qo'limdan keladiganini qilaman, men qo'limdan kelganini qildim; **on n'y peut rien** bu o'rinda hech narsa qilib bo'lmaydi; **qui peut le plus peut le moins** katta ishni bajargan kichigini ham do'ndiradi; **pouvoir (qqch) sur** katta ta'sirga ega bo'lmoq; *loc* **n'en pouvoir plus** madori qolmaslik, tinka-madori qurigan bo'lmoq; **je n'en peux plus, je m'en vais** tinka-madorim quridi, men ketaman; *litt* **n'en pouvoir mais** hech nima qilolmaslik, qo'lidan hech nima kelmaslik.

**pouvoir**[2] *nm* **1.** imkoniyat, layoqat, qobillik, qodirlik; **si j'avais le pouvoir de connaître l'avenir!** kelajakni bilish qobiliyatim bo'lganda edi; **cet élève possède un grand pouvoir de concentration** bu o'quvchi o'zining fikrini juda yaxshi jamlash qobiliyatiga ega; **pouvoir d'achat** sotib olish qobiliyati; **cela dépasse son pouvoir** bu uning sotib olish qobiliyatidan ustun; *pl* **des pouvoirs extraordinaires** g'ayritabiiy qobiliyatlar; **2.** haq, huquq, izm, ixtiyor, iqtidor, iroda; **avoir plein pouvoir, donner plein pouvoir** to'la huquqqa ega bo'lmoq, to'la huquq bermoq; **fondé de pouvoir** vakil qilingan, vakolatli; **avoir un pouvoir par-devant notaire** notariusdan vakolatnomasi bo'lmoq; **vérification des pouvoirs avant un vote** saylovdan oldin ishonch qog'ozlarini tekshirish; **3.** kuchi, quvvati; **pouvoir calorifique d'une tonne de pétrole** bir tonna neftning issiqlik quvvati; **4.** nufuz, e'tibor, obro'; **le pouvoir moral qu'il a sur nous** uning bizga ma'naviy nufuzi; **vous êtes en notre pouvoir** siz bizning hukmimizdasiz; **être, tomber au pouvoir de qqn** biror kishining hukmida, ixtiyorida bo'lmoq; qaramligiga, ixtiyoriga tushib qolmoq; **5.** hokimiyat; hukmronlik; hokimlik; saltanat; **le pouvoir suprême** oliy hokimiyat; **pouvoir supérieur** yuqori hokimiyat; **pouvoir absolu** mutloq hokimiyat; **prendre, avoir, détenir, perdre le pouvoir** hokimiyatni olmoq, hokimiyatga ega bo'lmoq; hokimiyatni tutib turmoq, yo'qotmoq; **être, se maintenir au pouvoir** hokimiyat tepasida bo'lmoq, turmoq; **pouvoir législatif** qonun chiqaruvchi organ; **pouvoir exécutif** ijroya hokimiyat; **pouvoir judiciaire** adliya; *loc* **le quatrième pouvoir** to'rtinchi hokimiyat (*ommaviy axborot vositalari*); **6.** *pl* hokimiyat tashkilotlari; **les pouvoirs publics** davlat tashkilotlari.

**pouzzolane** *nf* putsolan (*yengil, g'ovak vulqon toshi*).

**præsidium** *nm* prezidium.

**pragmatique** *adj* pragmatizmga asoslangan, pragmatik.

**pragmatisme** *nm* **1.** *phil* pragmatizm; (*ob'ektiv qonunlarni ochib bermasdan, fakat tashqi bog'lanish va izchillikka qarab baho beruvchi oqim*); **2.** izchililigina o'ylash.

**pragmatiste** *adj* **1.** pragmatizmga asoslangan, pragmatik; **2.** *n* pragmatist, pragmatizm tarafdori, pragmatik.

**praire** *nf* iste'mol qilinadigan molluska.

**prairie** *nf* **1.** o'tloq, yaylov, pichanzor; **2.** maysazor, ko'kalamzor; **3.** pampa (*G'arbiy Amerika va Kanada dashtlari*).

**praline** *nf* **1.** qand qo'shib tayyorlangan mag'iz; **2.** *fam* o'q.

**praliné, ée** *adj* qovurib qandda tayyorlangan; **amandes pralinées** qandda qovurib tayyorlangan mag'izlar; **le chocolat praliné** mag'izli shokolad.

**praticable**[1] *adj* **1.** o'tsa bo'ladigan, xavfsiz; mashinalar o'tsa bo'ladigan yo'l; **2.** qilsa, bajarsa, amalga oshirsa bo'ladigan; **un plan difficilement praticable** qiyinchilik bilan amalga oshirsa bo'ladigan reja.

**praticable**[2] *nm teatr* **1.** sahnaning haqiqiy bezagi; **2.** operator krani (*kino, televizor*).

**praticien, ienne** *n* **1.** amaliyotchi; nazariyachi va amaliyotchi; **2.** amaliyotchi vrach.

**pratiquant, ante** *adj, n* dinga, din udumlariga amal qiluvchi; **il est croyant mais peu pratiquant** u xudoga ishonuvchi, lekin dinga kam amal qiluvchi.

**pratique**[1] *nf* **1.** amaliyot, amal, tajriba; **après dix ans de pratique sur le terrain** yerdagi o'n yillik tajribadan so'ng; **dans la pratique** hayotda, amalda; **2.** tajriba, bilim; **je n'en ai pas la pratique** mening bu ishda tajribam yo'q; **en pratique** amaliyotga, amalga; **des décisions qu'il faut mettre en pratique** amalga oshirish kerak bo'lgan qarorlar; **3.** *litt* diniy marosim, rasm-rusm, udum; **la pratique religieuse** diniy marosim; **4.** odat, udum, rasm; **la vente à crédit est devenue une pratique courante** kreditga sotish kundalik odatga aylanib qoldi; **5.** xususiy ish (*vrach haqida*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pratique**[2] *adj* **1.** omilkor, ishbilarmon, tajribali; **ce garçon n'a aucun sens pratique** bu bolada hech qanday tajriba nishonasi yo'q; **une femme pratique** omilkor xotin; **2.** amaliy; **la connaissance pratique d'une langue** tilni amaliy bilish; **exercices, travaux pratiques** amaliy mashq, ishlar; **3.** oddiy, kundalik; **la vie pratique** kundalik hayot; **4.** qulay, amaliy jihatdan yaxshi, ixcham (*narsa, ish-harakat*); **un outil pratique** qulay asbob; **c'est, ce n'est pas pratique** bu qulay, qulay emas; **approchez-vous, ce sera plus pratique** yaqinroq keling, bu qulayroq bo'ladi.

**pratiquement** *adv* **1.** amaliyotda; **2.** amalda, aslida; **3.** haqiqatdan ham; **il est pratiquement incapable de se déplacer** u deyarli joyidan qo'zg'alolmaydi.

**pratiquer I.** *vt* **1.** amalga oshirmoq, shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq; **2.** foydalanmoq, shug'ullanmoq, ishlatmoq, ishga solmoq; **il pratique le chantage** u shantajdan foydalanadi; **3.** amalga oshirmoq, qilmoq, bajarmoq; **pratiquer une opération chirurgicale** xirurgik operatsiyani amalga oshirmoq; **4.** barpo qilmoq, ochmoq, qurmoq; **de nombreuses fenêtres étaient pratiquées dans les murs** devorlardan ko'p derazalar ochilgan edi; **5.** din bilan shug'ullanmoq, dindor bo'lmoq; **6.** *vx* qatnamoq, biror joyga borib turmoq; *litt* **c'est un auteur, un ouvrage que je pratique** bu men ko'p foydalanadigan, ishlatadigan muallif, asar; **II. se pratiquer** *vpr* amalda qo'llanilmoq, foydalanilmoq, qilinmoq; **comme cela se pratique en général** odatda shunday qilinganligi sababli.

**pré** *nm* **1.** yaylov, o'tloq; **acheter, vendre un pré** yaylov sotib olmoq, yaylov sotmoq; **mener les vaches au pré** mollarni yaylovga haydamoq; **à travers les prés et les champs** o'tloq va dalalar bo'ylab; **2.** *vx* **sur le pré** duel maydonida.

**préalable I.** *adj* **1.** oldin, avval, oldindan, ilgari; **cette décision demande une réflexion préalable** bu qaror oldindan o'ylab olishni talab qiladi; **préalable à** oldingi, oldin keladigan; **l'enquête préalable à une opération publicitaire** reklamani amalga oshirishdan oldingi so'rov; **2.** dastlabki, oldingi, avvalgi; **question préalable** taklifning dastlabki muhokamasi; **II.** *nm* dastlabki o'zaro kelishuv, shartlashuv; ahd, bitim; **être prêt à discuter sans préalable** dastlabki o'zaro shartlashuvsiz munozara yuritishga tayyor bo'lmoq; *loc adv* **au préalable** oldin, oldindan, avvaldan, oldinroq; **il faudrait l'en avertir au préalable** bu haqda oldindan ogohlantirib qo'yish kerak edi.

**préalablement** *adv* oldin, oldindan, avvaldan, oldinroq.

**préambule** *nm* **1.** kirish, muqaddima, so'z boshi, kirish so'zi; **un interminable préambule** uzundan-uzoq kirish so'zi; **2.** uzoqdan olib kelingan gap, shama, gapni olib qochish; **assez de préambules!** yetar gapni olib qochish! **il m'a demandé sans préambule ce que je venais faire ici** u mendan bu yerda nima qilib qo'yganligimni lo'nda qilib so'rab qo'yaqoldi.

**préau** *nm* maktab hovlisining tepasi yopiq qismi.

**préavis** *nm inv* oldindan ogohlantirish, ogohlantirish; **préavis de congé, de licenciement** ishdan bo'shash, ishdan bo'shatish haqidagi oldindan ogohlantirish; **le syndicat a déposé un préavis de grève** kasaba uyushmasi ish tashlash haqida ogohlantirish topshirdi.

**prébende** *nf* **1.** ruhoniyning tayinli daromadi; **2.** yengil daromad, oson non.

**précaire** *adj* **1.** omonat, beqaror, ishonchsiz, vaqtinchalik, tayinsiz, notayin, muqim bo'lmagan; **nous jouissons d'un bonheur précaire** biz omonat baxtdan zavqlanyapmiz; **sa santé est précaire** uning salomatligi zaif; **être dans une situation précaire** notayin bir sharoitda bo'lmoq; **emploi, travail précaire** muqim bo'lmagan ish; **2.** vaqtinchalik, omonat; **possession précaire, à titre précaire** omonat, omonatga tutib turish.

**précarisation** *nf* notayinlik, beqarorlik, omonatlik, muvvaqatlik, muqim emaslik; **la précarisation du travail** ishning beqarorligi.

**précariser** *vt* omonat, beqaror, vaqtincha, notayin, muvvaqat qilib qo'ymoq.

**précarité** *nf* omonatlik, beqarorlik, ishonchsizlik, notayinlik.

**précaution** *nf* **1.** ehtiyotkorlik, ehtiyot choralari; **prendre des précautions, ses précautions** ehtiyot choralarini ko'rmoq; **avec de grandes précautions** o'ta ehtiyotkorlik bilan; **2. agir avec précaution** ehtiyot bo'lib, ehtiyotkorlik bilan ish tutmoq; **sans précaution** ehtiyotsizlik bilan; **il s'exprime sans aucune précaution** u hech qanday ehtiyotsizlik bilan gapiradi.

**précautionner (se)** *vpr litt* o'zini biror narsadan ehtiyot qilmoq.

**précautionneusement** *adv* ehtiyotkorlik bilan, ehtiyot bo'lib.

**précautionneux, euse** *adj* ehtiyotkor, ehtiyotli; ehtiyotkorlik bilan, ketini o'ylab ish tutadigan.

**précédemment** *adv* oldin, ilgari, avval, burun; **comme nous l'avons dit précédemment** oldin aytganimizday.

**précédent, ente I.** *adj* oldingi, avvalgi, burungi; o'tgan; **le présent ouvrage s'oppose au précédent** bu asar oldingisiga qarama-qarshi; **le jour précédent** oldingi kuni; **relisez cette page et la précédente** bu betni va oldingisini qayta o'qing; **II.** *nm* pretsedent (*o'zidan keyin sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqealarga namuna, o'rnak bo'la oladigan voqea, hodisa*); **c'est un précédent dangereux** bu xavfli hodisa; **sans précédent** hech ko'rilmagan, misli yo'q, tengi yo'q, mislsiz; **c'est un événement sans précédent** bu mislsiz hodisa.

**précéder** *vt* **1.** oldin o'tmoq, ilgari bo'lmoq, oldin, ilgari yuz bermoq; **dans la semaine précédant mon arrivée, qui a précédé mon arrivée** mening kelishimdan oldin o'tgan hafta; **2.** biror narsadan oldin bo'lmoq, biror narsadan oldin berilmoq; **l'avant-propos qui précède cet ouvrage** bu asardan oldin keladigan kirish so'zi; **dans tout ce qui précède** hamma oldin kelganlarida; **sa mauvaise réputation l'avait précédé** uning yomon nomi o'zidan oldin tanilgan edi; **3.** yashab o'tmoq, oldin o'tmoq; **ceux qui nous ont précédés** bizdan oldin yashab o'tganlar; **4.** oldida, oldinda bormoq, bo'lmoq; **je vais vous précéder pour vous montrer le chemin** men sizga yo'lni ko'rsatish uchun oldinda boraman; **5.** biror joyga biror kimsadan yoki narsadan oldin kelmoq; **il ne m'a précédé que de cinq minutes** u mendan besh minutgina oldin keldi; **6.** biror kimsadan ilgarilab ketmoq, oldinlab ketmoq, oldiga o'tib ketmoq; **il l'a précédé dans cette voie** u bu yo'lda undan ilgarilab ketdi.

**précepte** *nm* **1.** ko'rsatma, yo'l-yo'riq, maslahat, vasiyat, nasihat, o'git; qoida, aqida; **les préceptes de la morale** odob qoidalari; **il suit les préceptes de son maître** u ustozining o'gitlariga amal qiladi; **2.** tavsiya, maslahat; **les préceptes de bonne cuisine** yaxshi oshxonaning tavsiyalari.

**précepteur, trice** *n* tarbiyachi, murabbiy, ustoz; **le précepteur d'un jeune prince** yosh shoxzodaning murabbiysi.

**préchauffer** *vt* qizdirmoq, oldindan qizdirib, isitib olmoq; **préchauffez le four pendant dix minutes** pechkani o'n minut qizdirib oling.

**prêche** *nm* **1.** va'z, xutba; **2.** *fam* va'z, zerikarli odob-axloqqa chaqiruvchi nutq.

**prêcher I.** *vt* **1.** o'rgatmoq, uqdirmoq, tushuntirmoq; **prêcher l'évangile** injilni o'rgatmoq; **prêcher le carême** ro'zani uqtirmoq; **2.** targ'ib, targ'ibot qilmoq, maqtamoq, madh qilmoq; **prêcher la haine** nafratni targ'ibot qilmoq; **ils prêchaient l'union des travailleurs** ular ishchilarning birlashuvini madh qilar edilar; **3.** *vt* undamoq, da'vat qilmoq, va'z aytmoq, ollohning so'zlarini o'rgatmoq; **prêcher les infidèles** g'ayridinlarni da'vat qilmoq; *fam* va'z aytmoq, qulog'iga tanbur chertmoq; **II.** *vi* voizlik, va'zxonlik qilmoq, va'z o'qimoq; xutba o'qimoq; **le curé a bien prêché** kyure yaxshi va'z aytdi.

**prêcheur, euse** *n, adj* **1. les frères prêcheurs** dominikanlik (*monax*); **2.** *péj* nasihatgo'y.

**prêchi-prêcha** *nm inv fam* bekorchi gap, safsata, vati-kuti; **il nous ennuie avec ses prêchi-prêcha** u o'zining safsatalari bilan bizning jonimizga tegdi.

**précieusement** *adv* ehtiyot qilib, ehtiyotkorlik bilan, avaylab; **conserver précieusement une lettre** xatni avaylab saqlab qo'ymoq.

**précieux**[1]**, euse** *adj* **1.** qimmatbaho, qimmat; **des bijoux précieux** qimmatbaho taqinchoqlar; **le métal précieux** qimmatbaho metall; **2.** juda qimmatli, aziz, bebaho; **les droits les plus précieux de l'homme** insonning eng qimmatli huquqlari; **mes amis sont ce que j'ai de plus précieux** mening eng qimmatbaho narsalarim, bu do'stlarimdir; **perdre un temps précieux** qimmatli vaqtni yo'qotmoq; **un précieux collaborateur** qimmatli hamkor.

**précieux**[2]**, euse I.** *nf* purist ayol, puristlarcha tarbiya ko'rgan ayol; **II.** *adj* puristlarga oid, puristcha; **la litterature précieuse** puristcha adabiyot.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**préciosité** *nf* **1.** purizimlik (*xulq-axloqda va tilda pokizalikka amal qilish*); **2.** til va uslubda noz-karashmalilik, ishvagarlilik, sernozlik.

**précipice** *nm* jar, jarlik; **une route en corniche au bord d'un précipice** jar yoqasidagi tog' yo'li.

**précipitamment** *adv* shoshilib, shoshgancha, shoshib, shoshib-pishib; **il est parti précipitement** u shoshib ketib qoldi.

**précipitation**[1] *nf* **1.** shoshilishlik, shoshqaloqlik, shoshma-shosharlik; **il faut décider sans précipitation** shoshqaloqlik qilmasdan hal qilish kerak; **ne confondez pas vitesse et précipitation** tezlik bilan shoshma-shosharlikni almashtirmang; **2.** shoshilish, oshiqish; **dans la précipitation du départ, il a oublié son passeport** ketish shoshilishida, u pasportini unutib qoldiribdi.

**précipitation**[2] *nf chim* **1.** cho'kindi, cho'kma, quyqa; **2.** yog'in, yog'in-sochin; **précipitations atmosphériques** havo yog'inlari (*qor, yomg'ir kabilar*).

**précipité**[1]**, ée** *adj* **1.** shoshilinch, tez, ildam, jadal; **il s'éloigna à pas précipités** u shoshilinch qadamlar bilan uzoqlashdi; **tout cela est bien précipité** buning hammasi juda shoshilinch.

**précipité**[2]**, ée** *nm chim* cho'kindi, cho'kma.

**précipiter**[1] **I.** *vt* **1.** *litt* yiqitmoq, qulatmoq (*pastlikka, chuqurlikka*); **il fut précipité dans le vide** u chuqurlikka qulatib yuborilgan edi; *fig* qulatmoq, yiqitmoq (*amaldan*); **2.** siqmoq, qismoq, surmoq; **ils ont été précipités contre la paroi** ular devorga qisib qo'yilgan edilar; **3.** tezlatmoq, tezlashtirmoq, shoshiltirmoq, ildamlashtirmoq, jadallashtirmoq; **précipiter ses pas, sa marche** qadamini, yurishini jadallashtirmoq; **précipiter son départ** ketishini tezlashtirmoq; **il ne faut rien précipiter** hech narsani shoshirmaslik kerak; **II. se précipiter** *vpr* **1.** tepadan pastga otilmoq, tashlanmoq, o'zini tashlamoq, otilmoq; **le torrent se précipite du haut de la falaise** oqim qoya tepasidan otilib tushyapti; **elle se leva et se précipita au-devant de sa mère** u o'rnidan turdi va onasining oldiga otildi; **2.** shoshmoq, oshiqmoq; **inutile de se précipiter** oshiqish befoyda! **3.** tezlashmoq (*narsa*); **les battements du cœur se précipitaient** yurakning urishi tezlashdi.

**précipiter**[2] **I.** *vt* cho'ktirmoq, cho'kindi hosil qildirmoq; **II.** *vi* cho'kma hosil qilmoq.

**précis**[1]**, ise** *adj* **1.** aniq, oydin, ravshan; **des idées précises** aniq-ravshan fikrlar; **renseignez-moi de façon précise** menga aniq qilib tushuntirib bering; **des faits précis** aniq dalillar; **2.** aniq, ma'lum, tayin; **des contours précis** aniq shakl; **un point précis sur la carte** xaritadagi aniq nuqta; **3.** intizomli, tartibli; **un homme précis** intizomli odam; **4.** (*kattalik, o'lchov*) roppa-rosa, naq, qoq, xuddi, rosa, to'ppa-to'g'ri; **à quatre heures et demie précises** roppa-rosa soat to'rt yarimda.

**précis**[2] *nm inv* qisqacha sharh, tafsilot (*umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot*); **composer un précis des événements** voqealarning qisqacha tafsilotini qilmoq; **2.** qisqacha kurs, darslik; **acheter un précis de géographie générale** umumiy geografiya qisqacha kursi sotib olmoq.

**précisément** *adv* **1.** aniqlik, ravshanlik bilan; aniqrog'i; **les blessés, les malades plus précisement** yaradorlar, aniqrog'i kasallar; **2.** *ellipt* xuddi o'zi, ayni shu (*javobda*); **c'est lui qui vous en a parlé? – précisement** sizga bu haqda gapirgan shumi? – xuddi o'zi; **3.** aynan; **c'est précisement pour cela que je viens vous voir** men aynan shuning uchun oldingizga keldim.

**préciser I.** *vt* aniqlamoq, oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq; **précisez votre idée** fikringizni oydinlashtiring; **il précisa certains points** u ba'zi joylarni ravshanlashtirdi; **précisez!** aniqroq gapiring! **le témoin de l'accident a précisé qu'il n'avait pas tout vu** baxtsiz hodisaning guvohi aniqlik kiritib, u hamma narsani to'la ko'rmaganligini aytdi; **II. se préciser** *vpr* aniqlashmoq, oydinlashmoq, ravshanlashmoq; **le danger se précise** xavf oydinlashyapti.

**précision** *nf* **1.** aniqlik, oydinlik, ravshanlik; **des renseignements d'une grande précision** juda aniq ma'lumotlar; **2.** aniqlik, ishonchlilik; **une précision mathématique** matematik aniqlik; **la précision d'un tir** mo'ljalning aniqligi; **3.** to'g'rilik, aniqlik; **la précision d'un calcul** hisobning to'g'riligi; **4.** *pl* aniqliklar, aniq ma'lumotlar; **demander des précisions sur tel ou tel point** u yoki bu joyi haqida aniq ma'lumotlar so'ramoq.

**précoce** *adj* **1.** ertapishar, ertaki, chillaki (*o'simliklar haqida*); **un pêcher précoce** ertapishar shaftoli; **2.** tezyetilar, tez katta bo'ladigan (*hayvonlar haqida*); **races précoces** tezyetilar zotlar; **3.** erta, erta boshlangan; **un automne précoce** erta tushgan, kirgan, kelgan kuz; **des rides précoces** erta tushgan ajinlar; **4.** muddatidan, vaqtidan oldin; vaqtli, erta; **un mariage précoce** erta uylanish; **5.** erta, barvaqt, vaqtidan ilgari (*katta bo'layotgan, yetilayotgan odam*); **un enfant très précoce** juda barvaqt katta bo'layotgan bola.

**précocement** *adv* erta, barvaqt, vaqtidan ilgari.

**précocité** *nf* **1.** ertapisharlik, ertakilik, chillakilik; **2.** ertalik, barvaqtlik, vaqtlilik.

**préconçu, ue** *adj* oldindan bichib-to'qilgan, xolis bo'lmagan, taxminlarga, farazlarga asoslangan; yanglish, xato; **il a trop d'idées préconçues** unda taxminlarga asoslangan fikrlar o'ta ko'p.

**préconiser** *vt* juda ham maqtamoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq (*uslub, dori*).

**précontraint, ainte** *adj* **béton précontraint** tarang tortilgan beton.

**précurseur I.** *nm* mushobir, bobo; **les précurseurs de la science moderne** zamonaviy fanlarning mushobiri; **II.** *adj m* darakchi, oldindan xabar beruvchi; alomat, nishona; **les signes précurseurs de l'orage** momaqaldiroq darakchisi.

**prédateur** *nm* yirtqich (*hayvon*); **la belette, la fouine sont des prédateurs** latcha, suvsar yirtqichdirlar.

**prédécéceur** *nm* **1.** birovdan oldin o'sha sohada, lavozimda, mansabda ishlagan odam, vazifadosh; **2.** *pl* o'tmishdosh, oldin o'tganlar.

**prédestination** *nf* **1.** taqdiri azal, qismat; **2.** *litt* oldindan belgilash, aniqlash, oldindan belgilanish, aniqlanish.

**prédestiné, ée** *adj* **1.** olloh tomonidan oldindan belgilangan; **2.** atalgan, belgilangan, mo'ljallangan, biror narsa uchun yaratilgan; **il était prédestiné à devenir artiste** u san'atkor bo'lish uchun yaratilgan edi.

**prédestiner** *vt* **1.** oldindan taqdirini, qismatini belgilab qo'ymoq, peshonasiga yozib qo'ymoq; **2.** oldindan belgilab qo'ymoq, oldindan aniqlab, tayinlab qo'ymoq; **rien ne le prédestinait à devenir médecin** hech narsa uning vrach bo'lishini oldindan belgilab quygani yo'q edi.

**prédétermination** *nf* oldindan belgilab, mo'ljallab, atab qo'yilganlik.

**prédéterminer** *vt* oldindan belgilab, mo'ljallab, tayinlab, atab qo'ymoq.

**prédicat** *nm* kesim; **le prédicat correspond en général au verbe** kesim odatda fe'lga to'g'ri keladi.

**prédicateur** *nm* voiz, va'zxon; xatib; **le prédicateur monte en chaire** voiz kafedraga chiqdi.

**prédication** *nm* **1.** voizlik, va'zxonlik qilish; xutba o'qish; **2.** *litt* targ'ib, targ'ibot qilish, tarqatish.

**prédiction** *nf* **1.** bashorat, karomat; **faire des prédictions** bashorat qilmoq; **2.** oldindan aytilgan narsa, fikr; **vos prédictions se sont réalisées** sizning aytganlaringiz amalga oshdi.

**prédilection** *nf* afzal, ortiq, yaxshi ko'rish; **la prédilection d'une mère pour un de ses enfants** onaning bolalaridan birini ortiq ko'rishi; **de prédilection** yaxshi ko'rgan, ma'qul ko'rgan; **c'est mon sport de prédilection** bu mening yaxshi ko'rgan sportim.

**prédire** *vt* **1.** oldindan aytib bermoq, bashorat, karomat qilmoq; **la voyante m'a prédit que je me marieurais à trente-deux ans** folbin menga o'ttiz to'rt yoshimda uylanishimni bashorat qildi; **2.** oldindan fikr bildirmoq, oldindan xabar bermoq (*muayyan ma'lumotlar asosida*); **on lui prédisait le plus brillant avenir** unga ajoyib kelajakni oldindan aytib berishardi; **je vous l'avait prédit!** men sizga buni odindan aytgan edim!

**prédisposer** *vt* moyil qilmoq, ko'nglini olmoq, biror narsaga mayl qilmoq, rag'batlantirmoq; **l'attitude de l'accusé ne prédisposait pas le tribunal à l'indulgence** sudlanuvchining axloqi sudni yumshata olmadi; **prédisposé à la paresse** dangasachilikka moyil.

**prédisposition** *nf* mayl, moyillik, qiziqish, qobiliyati borlik.

**prédominance** *nf* ustunlik, hukmronlik, ko'plik, ortiqlik; **la prédominance d'un groupe social** bir ijtimoiy guruhning hukmronligi.

**prédominant, ante** *adj* ustun, hukmron, ko'p, ortiq; **la théorie prédominante, de nos jours** bugungi bizning hukmron nazariyamiz.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**prédominer** *vi* koʻp boʻlmoq, ortiq boʻlmoq; ustun kelmoq; **ce qui prédomine en lui, c'est l'imagination** undagi ustun keladigan narsa, bu tasavvur etish.

**prééminence** *nf* ustunlik, afzallik, ortiqlik; **donner la prééminence à qqch** biror narsaga ustunlik bermoq.

**prééminent, ente** *adj litt* ustun, afzal, ortiq.

**préemption** *nf dr* birinchi boʻlib sotib olish huquqi; **le locataire bénéficie d'un droit de préemption sur le logement mis en vente** ijarachi sotuvga qoʻyilgan uyni birinchi boʻlib sotib olish huquqidan foydalanadi.

**préétabli, ie** *adj* oldindan belgilangan, oldindan oʻrnatilgan; **réaliser un plan préétabli** oldindan belgilangan rejani amalga oshirmoq.

**préexistant, ante** *adj* **(à qqch)** oldin oʻtgan, oldin boʻlgan.

**préexister** *vt* **(à qqch)** biror narsadan oldin oʻtmoq, ilgari boʻlmoq, oldin, ilgari yuz bermoq.

**préfabriqué, ée** *adj* **1.** yigʻma; **maison préfabriquée** yigʻma uy; *nm* **c'est du préfabriqué** bu yigʻma; **2.** *péj* oldindan toʻqilgan, uydirma; **une décision préfabriquée** oldindan toʻqilgan qaror.

**préface** *nf* kirish soʻzi, soʻzboshi, muqaddima; **préface de l'auteur à une nouvelle édition** yangi nashrga muallifning soʻzboshisi.

**préfacer** *vt* soʻzboshi yozmoq, muqaddima yozmoq; **écrivain qui préface le roman d'un jeune auteur** yosh yozuvchining romaniga soʻzboshi yozgan yozuvchi.

**préfacier, ière** *n* soʻzboshi, muqaddima, kirish soʻzi muallifi.

**préfectoral, ale, aux** *adj* prefektga oid, prefekt; **un arrêté préfectoral** prefekt qarori.

**préfecture** *nf* prefektura (*Fransiyada idora, prefektura joylashgan shahar*); **préfecture de police** politsiya prefekturasi.

**préférable** *adj* maʼqul, koʻngildagiday; afzal, ortiq, koʻngildagiday, yaxshi; **cette solution me paraît préférable, bien préférable à la première** bu toʻxtam menga maʼqul koʻrinadi, birinchisidan ancha maʼqul; **partez maintenant, c'est préférable** endi keting, bu maʼqulroq; **il est préférable qu'il n'ait rien su** uning hech narsa bilmagani maʼqul(roq); **il est préférable de rester** qolgan maʼqul(roq).

**préféré, ée** *adj, n* **1.** yaxshi koʻrgan, afzal koʻrgan, maʼqul koʻrgan; **c'est son disque préféré** bu uning yaxshi koʻrgan plastinkasi; **2.** *n* eng yaxshi koʻrilgan, hamma sevgan odam, sevgili, arzanda; **cet élève est son préféré** bu oʻquvchi uning eng yaxshi koʻrgan oʻquvchisi.

**préférence** *nf* **1.** afzal, maʼqul koʻrish; ortiq, yaxshi deb bilish; **les préférences de chacun** har birining maʼqul koʻrishi; **je n'ai pas de préférence** men uchun ortiqrogʻi yoʻq, menga bari bir; **accorder, donner la préférence à** afzal, maʼqul koʻrmoq; ortiq, yaxshi deb bilmoq; **par ordre de préférence** afzalligiga, maʼqulligiga; ortiq-kamligiga, yaxshi-yomonligiga qarab; *loc adv* **de préférence** koʻpincha, asosan; **je sors le matin, de préférence** men koʻchaga asosan ertalab chiqaman; *loc prép* **de préférence à, par préférence à qqch** koʻpincha, asosan; **2.** afzallik, maʼqullik, ortiqlik, yaxshilik; **avoir, obtenir la préférence sur qqch** biror kishidan ustun boʻlmoq, biror kishi ustidan afzallikka erishmoq.

**préférentiel, ielle** *adj* afzal, ortiq; maʼqul, koʻngildagiday; **tarif préférentiel** imtiyozli tarif; **vote préférentiel** roʻyxatdagi nomzodlar oʻrnini oʻzgartirish huquqiga ega boʻlgan saylov.

**préférentiellement** *adv* koʻpincha, asosan.

**préférer I.** *vt* afzal koʻrmoq, maʼqul koʻrmoq, ortiq deb bilmoq, yaxshi koʻrmoq, yoqtirmoq; **préférer une personne, une chose à une autre** bir kishini, bir narsani boshqasidan afzal koʻrmoq; **si tu préfères, si vous préférez** senga, sizga maʼqul boʻlsa; **préférer faire qqch** biror narsa qilishni yoqtirmoq, maʼqul koʻrmoq; **je préfère me taire** yaxshisi men jim boʻlaman; **faites comme vous préférez** maʼqulini, oʻzingizga yoqqanini qiling; **il préférait souffrir que d'être seul** u yolgʻiz boʻlishdan koʻra azob chekishni maʼqul koʻrardi; **II.** *vpr* **je me préfère avec les cheveux longs** uzun sochli boʻlish oʻzimga yoqadi.

**préfet** *nm* **1.** prefekt; politsiya prefekti (*Fransiyada*); **2.** ayrim diniy kollejlarda masʼul ruhoniy.

**préfète** *nf* prefektning xotini; **madame la préfète** prefekt xonim.

**préfiguration** *nf litt* boshqalardan oldin payqash, oldindan sezish, bilish, oldinroq bilib qolish.

**préfigurer** *vt* boshqalardan oldin payqamoq, boshqalardan oldin sezmoq, bilmoq, bilib qolmoq; **ces troubles préfigurauent les journées révolutionnaires** bu gʻalayonlar revolutsiya kunlarini oldindan bildirardi.

**préfixation** *nf* old qoʻshimcha vositasida soʻz yasash.

**préfixe** *nm* prefiks, old qoʻshimcha.

**préfixer** *vt* prefiks, oldqoʻshimcha ishlatmoq, (*old qoʻshimcha vositasida soʻz yasamoq*).

**prégnant, ante** *adj* boy, mazmunli, sermazmun, maʼnodar; **couleur prégnante** boy rang.

**préhenseur** *adj m* mahkam tutadigan, iladigan, ushlaydigan; **organe préhenseur** ushlaydigan organlar.

**préhensile** *adj* qattiq changallaydigan, mahkam tutadigan, mahkam ushlaydigan; **la trompe de l'éléphant est préhensile** filning xartumi mahkam tutadigan.

**préhension** *nf* qattiq changallash, tutish, ushlash.

**préhistoire** *nf* **1.** tarixdan ilgarigi, yozma tarix yuzaga kelmasdan oldin boʻlgan, tarixgacha boʻlan davr, qadimgi dunyo; **2.** ilk, boshlangʻich davr, ibtido; **la préhistoire de l'aviation, du cinéma** aviatsiya, kinoning ilk davri.

**préhistorien, ienne** *n* ibtidoiy davr, qadimgi dunyo tarixi boʻyicha mutaxassis.

**préhistorique** *adj* tarixdan ilgarigi, yozma tarix yuzaga kelmasdan oldin boʻlgan, totarixiy, tarixgacha boʻlgan, ibtidoiy; **les temps préhistoriques** ibtidoiy davrlar.

**préjudice** *nm* **1.** zarar, ziyon; **causer un préjudice à qqn** biror kishiga zarar yetkazmoq, ziyon keltirmoq; **au préjudice de qqn** biror kishining zarariga, ziyoniga; **2.** qaramay, qaramasdan, qarshi, xilof ravishda; **au préjudice de la vérité** haqiqatga xilof ravishda; *litt* **sans préjudice** zarar, ziyon yetkazmay; **sans préjudice des questions qui pourront être soulevées plus tard** keyinroq koʻtariladigan masalalarga ziyon yetkazmay.

**préjudiciable** *adj* zarar, ziyon keltiradigan, yetkazadigan; **un travail préjudiciable à la santé de qqn** kishining sogʻligiga zarar yetkazadigan ish.

**préjugé** *nf* **1.** xurofot, bidʼat, taassub; **les préjugés bourgeois** burjuaziya bidʼatlari; **2.** taxmin, faraz, gumon; **c'est un préjugé en se faveur** bu u toʻgʻrisida taxmin.

**préjuger** *vi litt ou dr* oldindan hal qilib, yechib qoʻymoq; oldindan qaror qilib qoʻymoq; **je ne peux pas préjuger de la décision** qaror haqida men oldindan biror narsa deyolmayman.

**prélasser (se)** *vpr* maza, huzur, gasht qilib dam olmoq; **se prélasser dans un doux farniente** bekorchilikdan huzur qilib yastanib yotmoq.

**prélat** *nm* prelat (*katolik va anglikan cherkovlarida: yuqori mansabga ega boʻlgan ruhoniy*).

**prélatin, ine** *adj* lotin sivilizatsiyasi, lotin tilidan oldin boʻlgan; **mot latin, italien, d'origine prélatine** lotin tilidan oldin kirgan lotin, italyan soʻzi.

**prélavage** *nm* oldingi, dastlabki yuvish; oldindan yuvish.

**prêle** *ou* **prèle** *nf bot* qirqboʻgʻin.

**prélèvement** *nm* olish, yigʻish, undirish; **payer des impôts par prélèvement automatique sur son compte en banque** soliqlarini bankdagi hisobidan avtomatik ravishda oʻtkazish yoʻli bilan toʻlamoq; **un prélèvement de sang** qon olish; **faire un prélèvement** analiz uchun olish (*aʼzo, toʻqima*).

**prélever** *vt* olmoq, bir qism olmoq, olib qoʻymoq, koʻtarmoq; **prélever un échantillon** namuna olmoq; **prélevez cette somme sur mon compte** bu summani mening hisobimdan koʻtaring.

**préliminaire** *adj* dastlabki, kirish; **discours préliminaire** kirish soʻzi (*kitob, maʼruzaga*).

**préliminaires** *nm pl* **1.** dastlabki muzokaralar; vaqtincha ahd; **les préliminaires de la paix** tinchlik haqidagi dastlabki muzokaralar; **2.** bosh qismi, boshlanishi; **abréger les préliminaires** bosh qismini qisqartirmoq.

**prélude** *nm* **1.** *mus* daromad, saraxbor; prelyudiya (*kichikroq musiqiy asar*); **les préludes de Chopin** Shopen preludiyalari; **3.** kirish, boshlanish, debocha; **ce n'est qu'un prélude (à)** bu (-ning) boshlanishi xolos.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**préluder** *vi* **1. (par)** biror boʻlakdan boshlamoq (*ashulani, kuyni*); **2. (à)** biror narsaning boshlanishi boʻlmoq; **les incidents qui ont préludé aux hostilités** dushmanliklarning boshlanishi boʻlgan mojarolar.

**prématuré, ée** *adj* **1.** bevaqt, vaqtsiz, bemahal; bu bevaqt qilingan harakat boʻlmasin deb qoʻrqaman; **2.** barvaqt, vaqtidan ilgari; barvaqt oʻlim; vaqtidan ilgari tugʻilgan bola.

**prématurément** *adv* barvaqt, vaqtidan ilgari; bemahal, bevaqt.

**préméditation** *nf* ataylab, atayin, joʻrttaga, qasddan; **meurtre avec préméditation** qasddan odam oʻldirish.

**préméditer** *vt* oʻylab qoʻymoq; niyat, qasd, yoki moʻljal qilmoq, koʻngliga tugmoq; **il avait prémédité sa fuite, de s'enfuir** u qochishni oʻylab qoʻygan edi; **c'est un crime prémédité** bu qasddan qilingan jinoyat.

**prémices** *nf pl* **1.** *vieilli* nishona, yerning ilk hosili; podadagi birinchi tugʻilganlar; **2.** *litt* boshlanishi, birinchi qadamlar, birinchi narsa, debocha, nishonalar; **les prémices de l'hiver** qishning birinchi nishonalari.

**prévisionnel, elle** *adj* planga oid; planli, planga asoslangan, hisob-kitob qilinadigan, yakunlanadigan, hisob-kitob; **le ministre a demandé une étude prévisionnelle** vazir hisob-kitob tadqiqotini so'radi.

**prévisionniste** *n* oldindan planlashtiruvchi, oldindan hisob-kitob qiluvchi (*iqtisodiy*).

**prévoir** *vt* **1.** oldindan ko'rmoq, payqamoq, sezmoq; **il faut prévoir le pire** bundan ham battarrog'ini oldindan ko'rmoq keraq; **on ne peut pas tout prévoir** hammasini oldindan ko'rib bo'lmaydi; **il était facile de prévoir qu'il échouerait** uning imtihondan yiqilishini oldindan payqash oson edi; **2.** ko'zda, nazarda tutmoq, nazarga olmoq; **les cas prévus par la loi** qonunda ko'zda tutilgan holatlar; **3.** mo'ljallamoq, rejalashtirmoq, ko'zda tutmoq; **l'état a prévu la construction de logement** davlat uylar qurishni rejalashtirdi; **tout était prévu** hammasi nazarda tutilgan edi; *ellipt* **l'opération s'est déroulée comme prévu** operatsiya rejalashtirilganiday amalga oshdi; **être prévu pour** uchun mo'ljallangan, nazarda tutilgan bo'lmoq.

**prévôt** *nm* **1.** sud, boshqaruv, siyosiy hokimiyat vakili, namoyandasi; **le prévôt des marchands** savdogarlar vakili; **2.** dala jandarmeriyasining ofitseri; **3.** qilichbozlik o'qituvchisining yordamchisi; **4.** qamoqxona nazoratchisi (*mahbuslarning o'zidan tayinlangan*).

**prévôté** *nf* dala jandarmeriyasi.

**prévoyance** *nf* oldindan ko'ra bilish, ehtiyotkorlik, tadbirkorlik; uzoqni ko'rishlik; **société de prévoyance** ijtimoiy muhofazadan mahrum jamiyat.

**prévoyant, ante** *adj* oldindan ko'ra biladigan, ehtiyotkor, tadbirkor; uzoqni ko'radigan; **une ménagère prévoyante** tadbirkor beka.

**prie-dieu** *nm inv* sig'inish vaqtida o'tiriladigan eshakcha.

**prier I.** *vi* ibodat qilmoq, sig'inmoq; duo qilmoq; **il priait avec ferveur** u qunt bilan ibodat qilardi; **prier pour les morts** o'tganlarni duo qilmoq; **II.** *vt* **1.** yolvormoq, o'tinmoq, yalinmoq; iltijo qilmoq; yolvorib, o'tinib so'ramoq; **prions le ciel qu'il nous aide** ollohga iltijo qilamizki, bizni qo'llab-quvvatlasin; **il le priait de passer chez lui** u undan unikiga kirib o'tishni o'tinib so'rardi; **se faire prier** yalintirmoq, yolvortirmoq, turib olmoq; **elle ne se fait pas prier** u yalintirib o'tirmadi; **sans se faire prier** mamnunlik, mamnunyat bilan; osongina, yo'q demay; **2.** so'ramoq, iltimos qilmoq, o'tinmoq; **je te prie, le vous prie, je vous en prie** sendan, sizdan iltimos qilaman; **vous êtes prié d'assister à** siz ishtirok etishga taklif qilinasiz; **dites-moi, je vous en prie, où est la mairie** iltimos, meriyaning qayerdaligini aytib yuborsangiz; **je peux entrer? je vous en prie** kirsam bo'ladimi? marhamat; **3.** *litt* taklif qilmoq, chaqirmoq; **il fut prié à déjeuner** u tushlikka taklif qilindi.

**prière** *nf* **1.** ibodat qilish, namoz o'qish, sig'inish; **être en prière** ibodat qilayotgan bo'lmoq; **2.** ibodat; namoz, duo; **faire, dire sa prière, des prières** ibodat qilmoq, duo o'qimoq; **les prières musulmanes** musulmon namozlari; **3.** iltijo, o'tinch, yolvorish, o'tinib (*yolvorib, xudoning zorini qilib*) so'rash; **il finit par céder à sa prière** u uning o'tinib so'rashlaridan so'ng, yon berdi; **c'est une prière que j'ai à vous faire** bu mening sizdan bir o'tinchim; **à la prière de qqn** biror kishining iltimosiga, o'tinchiga ko'ra; *ellipt* **prière de** so'raladi, iltimos qilinadi, iltimos.

**prieur, eure** *n* monastirning boshlig'i.

**prieuré** *nm* **1.** monastir; **2.** shu monastir cherkovi; **3.** monastir boshlig'ining uyi.

**prima donna** *nf inv* primadonna (*opera yoki operettada asosiy rollarni ijro etuvchi ayol*).

**primaire[1]** *adj* **1.** boshlang'ich, dastlabki, birinchi; **élections primaires** dastlabki saylovlar; **enseignement primaire** boshlang'ich tarbiya; **l'école primaire** boshlang'ich maktab; **2.** bosh, eng boshdagi, eng avvalgi, ilk; dastlabki; **couleurs primaires** asosiy ranglar; **ère primaire, le primaire** ilk asr; **3.** xomashyo ishlab chiqaradigan; **le secteur primaire** xomashyo ishlab chiqaradigan soha.

**primaire[2]** *adj* sodda, oddiy; primitiv.

**primat[1]** *nm* primas (*yuqori diniy mansab*).

**primat[2]** *nm litt* primat, birinchilik, ustunlik; birinchi darajadagi ahamiyat; **le primat de la pensée** ongning birinchiligi.

**primate** *nm* **1.** *zool* primatlar (*sutemizuvchilar sinfining eng yuqori turkumi odamlar, maymunlar*); **2.** *fam* qo'pol, farosatsiz, nodon odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**primatial, ale, aux** *adj* bosh, asosiy; **église primatiale** bosh cherkov.

**primauté** *nf* birinchilik, ustunlik; **la primauté de l'intelligence sur les sentiments** aqlning his-tuyg'udan ustunligi; **avoir la primauté sur** ustunlikka ega bo'lmoq.

**prime[1]** *adj* **1.** ilk, avval, bosh; **prime jeunesse** ilk yoshlik, yoshlikning boshi; **de prime abord** avvalo, boshdan; **2.** *math* birinchi (*harfdagi belgi*).

**prime[2]** *nf* **1.** to'lov; **elle vient de payer la prime d'assurance de sa moto** u yaqinda mototsiklining sug'urta to'lovini to'ladi; **2.** mukofot, rag'batlantirish; **prime de transport** transport haqi uchun beriladigan mablag'; **prime de fin d'année** o'n uchinchi (*yil oxirida rag'batlantiruvchi*) oylik; **prime à l'exportation** eksport uchun rag'batlantirish; *iron* rag'batlantirish, gij-gijlash; **c'est une prime à l'agression** bu tajovuzkorlikka gij-gijlash; **3.** xaridorga bepul qo'shib beriladigan narsa, rag'bat; *plais* **en prime** ustiga, kelishilganning ustiga; **4. faire prime** yuqori baholanmoq; ustun turmoq.

**primer[1]** *vt* mukofotlamoq, taqdirlamoq; **le jury du festival de Cannes a primé son film** Kan festivali hakamlar hay'ati uning filmini mukofotladi.

**primer[2]** *vi* birinchi o'rinda turmoq, birinchi bo'lmoq, ustun bo'lmoq (*narsa*); **chez lui, c'est l'intéligence qui prime** unda aql ustun turadi; *vt* ustun kelmoq; **il estime que la force prime le droit** u huquqdan ko'ra kuchning ustun kelishini xohlaydi.

**primerose** *nf* gulbaxmal, xatmigul.

**primesautier, ière** *adj* beixtiyor, soddadillik bilan, birinchi ehtirosga berilib biror narsani qilib, gapirib yuboradigan; **elle était gaie, primesautière** u xushchaqchaq va soddadil edi.

**primeur** *nf litt* boshi, oldi, birinchisi; **vous en aurez la primeur, je vous en réserve la primeur** siz birinchi bo'lasiz, men sizga oldini saqlab turipman.

**primeurs** *nf pl* ertaki sabzavot-mevalar.

**primevère** *nf* navro'zgul.

**primitif, ive I.** *adj* **1.** ibtidoiy, qadimgi; **l'homme primitif** ibtidoiy odam; **2.** dastlabki, oldingi, eng avvalgi; **dans sa forme primitive** o'zining dastlabki ko'rinishida; **cette étoffe a perdu sa couleur primitive** bu mato o'zining dastlabki rangini yo'qotdi; **3.** birlamchi, bosh, tub, asosiy; **le sens primitif d'un mot** so'zning tub ma'nosi; **temps primitifs d'un verbe** fe'lning tub zamonlari; **4.** rivojlanmagan, taraqqiy qilmagan, qoloq, primitiv; **les sociétés primitives** taraqqiy qilmagan jamiyatlar, xalqlar; **l'art primitif** primitiv san'at; **5.** oz ma'lumotli, ko'p narsani tushunmaydigan, sodda, go'l; dag'al, qo'pol; **il est un peu primitif** u biroz go'lroq; **II.** *nm* **1.** ibtidoiy jamiyat a'zosi, tubjoy xalq; **les primitifs d'Australie** Avstraliyaning tubjoy aholisi; **2.** qadimgi, oldingi (*G'arbiy Yevropa uyg'onish davridan oldingi rassom, skulptor*).

**primitivement** *adv* **1.** oldin, ilgari, avvalo; **2.** soddalik, oddiylik bilan.

**primo** *adv* avvalo, ilgari, oldin; birinchi o'rinda, birinchi navbatda.

**primo-infection** *nf méd* birlamchi infeksiya.

**primordial, ale, aux** *adj* asosiy, muhim, bosh; **son rôle a été primordial** uning vazifasi asosiy edi.

**prince** *nm* **1.** *litt* podshoh, shoh, qirol; hukmdor, hoqon, sulton; *loc* **le fait du prince** davlatni o'zbilarmonlik bilan boshqarish; **les princes qui nous gouvernent** boshliqlarimiz; **être bon prince** kengfe'lli, muruvvatli, oliyhimmat, olijanob bo'lmoq; **2.** shahzoda, knyaz; **le prince de Galles** Angliya qirolining katta o'g'li; *loc* **être vêtu, habillé comme un prince** shahzodalarcha kiyingan bo'lmoq; **3.** prins (*Fransiyada eng yuqori unvon*); **4.** hokim; **le prince de Monaco** Monako hokimi.

**prince de galles** *adj, nm inv* kostumbop katakli jun mato.

**princesse** *nf* **1.** podshohning xotini yoki qizi, malika; **2.** podshoh xotin, qirolicha, malika; **3.** *loc fam* **aux frais de la princesse** davlat yoki biror tashkilot hisobidan; **il fait un voyage aux frais de la princesse** u davlat hisobidan sayohat qilyapti.

**princier, ière** *adj* **1.** *litt* shohlikka, shahzodalikka, knyazlikka oid; **titre princier** shohlik darajasi, knyazlik unvoni; **2.** shohlarcha, shahzodalarcha, shohona; **un train de vie princier** shohlarcha, shahzodalarcha hayot kechirish, shohona hayot.

**princièrement** *adv* shohona, shohlarcha; **il nous a reçus princièrement** u bizni shohona qabul qildi.

**principal[1], ale, aux I.** *adj* **1.** bosh, asosiy, eng muhim; **il joue le rôle principal** u asosiy rolni o'ynaydi; *gram* **proposition principale** bosh gap; **2.** bosh, eng katta, boshchilik qiluvchi; **elle est la principale intéressée dans cette affaire** u bu ishda bosh manfaatdor; **commissaire principal** bosh komissar; **II.** *nm* eng asosiy, muhim narsa; eng muhimi; **le principal est de réussir** eng muhimi erishish.

**principal[2], aux** *nm* **1.** litsey direktori; **2.** notariusning bosh klerki.

**principalement** *adv* ayniqsa, birinchi navbatda, eng avval, avvalo; **elle en voulait principalement à son père** u birinchi navbatda otasidan xafa bo'lardi.

**principauté** *nf* knyazlik; **la principauté d'Andorre** Andorra knyazligi.

**principe** *nm* **1.** bosh, birinchi sabab, asosiy sabab; **dieu considéré comme le principe de l'univers** borliqning bosh sababchisi sifatida qaralgan xudo; **2.** asos, asl mohiyat; **remonter jusqu'au principe** asl mohiyatiga yetib bormoq; **deux qualités qui precèdent du même principe** bir asosdan chiqib keluvchi ikki hislat; **3.** asos, negiz (*aralashma, dori*); **4.** asos, qoida; **principe posé a priori** tajribaga asoslanmay ilgari surilgan qoida; **5.** asos, negiz (*fanda*); **apprendre les premiers principes d'une science** fanning boshlang'ich asoslarini o'rganmoq; **6.** asosiy qonun-qoida, prinsip; **ériger en principe que** prinsip darajasiga ko'tarmoqki; **partir d'un principe** biron qonun-qoidadan, prinsipdan kelib chiqmoq; *loc* **une déclaration de principe** muhim bayonot; **j'ai toujours eu pour principe de** mening doimiy nuqtayi nazarim bo'ldiki; *loc* **faire, demander qqch pour le principe** biror narsani prinsipal mulohazalardan kelib chiqib qilmoq, so'ramoq; **7.** *pl* axloq qoidalari, qarashlar, nuqtai nazar, prinsiplar; **manquer à ses principes** o'z prinsipiga qarshi ish qilmoq; **avoir des principes** o'z qarashlariga ega bo'lmoq; **une personne sans principes** prinsipsiz odam; *loc* **par principe** prinsipal mulohazalardan kelib chiqib; **il critique tout par principe** u hamma narsani prinsipal mulohazalardan kelib chiqib tanqid qiladi; **une hostilité de principe** umuman dushmanlik; **en principe** asosan, umuman olganda; **en principe, il est d'accord, mais il peut changer d'avis** umuman olganda, u rozi, lekin fikrini o'zgartirib olishi mumkin.

**printanier, ière** *adj* bahorgi, bahor; **un temps printanier** bahor havosi; **une tenue printanière** bahor tarovati.

**printemps** *nm* **1.** bahor, ko'klam; **un printemps précoce, tardif** erta, kech kelgan bahor; **2.** *litt* yoshlik bahori; **le printemps de la vie** hayotning bahori; **3.** *litt* yosh; **une jeune fille de seize printemps** o'n olti bahorni qarshilagan qiz.

**prioritaire** *adj* birinchi darajali, birinchi navbatdagi, imtiyozli; **les véhicules prioritaires** imtiyozli transport vositalari.

**priorité** *nf* **1.** birinchilik, birinchi o'rin; **il faut en discuter en priorité** buni birinchi o'rinda muhokama qilish kerak; **2.** ustunlik, birinchilik huquqi; **carte de priorité** navbatsiz olish varaqasi; **3.** ustunlik, eng muhimlik; **la qualité est notre priorité** sifat biz uchun eng ustun narsa.

**pris, prise** *adj* **1.** band, egallangan, egasi bor; **cette place est-elle prise?** bu joy bandmi? **il a toute sa semaine prise** uning butun haftasi band; **je suis pris toute la semaine** men butun hafta davomida bandman; **2.** *litt* **pris de vin** mast, kayf; **un individu pris de boisson** mast kimsa; **3.** kasal, kasallangan; **avoir la gorge prise** tomog'i shamollab qolgan bo'lmoq; **4.** qaddi-qomati kelishgan, xipcha, xushbichim; **elle a la taille bien prise** uning qaddi-qomati juda kelishgan; **5.** qattiqlashib, qotishib qolgan; quyulgan; **la crème est prise** qaymoq quyulib qoldi.

**prise[1]** *nf* **1.** usul, harakat (*kurashda*); **faire une prise de catch** amerikacha kurashish usulini qo'llamoq; *loc* **être aux prises** biron kishi bilan urushib qolgan bo'lmoq, kurashayotgan bo'lmoq; **se trouver aux prises avec des difficultés** qiyinchiliklar bilan kurashmoq; **mettre aux prises** to'qnashtirib qo'ymoq; **lâcher prise** qo'yib, bo'shatib yubormoq; **ce n'est pas le moment de lâcher prise!** quldan chiqarib yuborish payti emas! **2.** tutqich, ushlaydigan joy; **l'alpiniste cherchait une bonne prise** alpininist yaxshi bir tutqich joy qidirar edi; *loc* uchramoq, yo'liqmoq, duchor, mubtalo bo'lmoq; **son silence donne prise aux soupçons** uning sukut saqlashi gumon tug'diradi; **avoir prise sur** ta'sir o'tkazish, jilovlash, o'ziga bo'ysundirish; **ils sont si désinvoltes qu'on n'a pas prise sur eux** ular shunchalar hayosizki, ularni jilovlab bo'lmaydi; **3.** olish, qo'lga olish, egallab olish; **la prise de la Bastille** Bastiliyaning olininishi; **prise de corps**



www.ziyouz.com kutubxonasi

jinoyatchini qo'lga olish, qamoqqa olish; **prise d'armes** tantanali saflanish; **prise de vues** kinoga olish; **prise de son** ovoz yozish; **prise de sang** qon olish; **prise de médicament** ichiladigan dori miqdori, dozasi; bir ichim dori; **4.** o'lja, ov, ovlangan narsa, tutilgan baliq; **une belle prise** yaxshi o'lja; **5. prise de** saqlagich, o'tkazgich; **prise d'eau** suv saqlagich, suv o'tkazgich (*kran, truba, vanna*); **prise de courant** rozetka; **prise de téléphone** telefon rozetkasi; **6. prise de contact** aloqaga kirish; **prise de conscience** onglilikning oshishi; **prise de position** biror tarafni olish, biror tarafga o'tish; **prise en charge** javobgarlikni olish; **prise en considération** e'tiborga olish.

**prise²** *nf* bir chekim, bir otim.

**priser¹** *vt* tamaki hidlamoq.

**priser²** *vt litt* e'tiborga olmoq, yuqori baholamoq, hurmatlamoq.

**prismatique** *adj* **1.** prizmasimon, prizma shaklidagi, prizmatik; **2.** prizmali, prizma o'rnatilgan; **jumelles prismatiques** prizmali durbin; **3. couleurs prismatiques** kamalak rangli.

**prisme** *nm* **1.** *math* prizma (*ko'p qirrali figuraning bir turi*); **prisme triangulaire** uch qirrali prizma; **2.** *phys* prizma (*optik asbobning qismi*); **le prisme d'un appareil photo reflex** reflektorli fotoapparatning prizmasi; **voir à travers un prisme** biror narsa ta'siri ostida, biror narsa ta'siri bilan ko'rmoq.

**prison** *nf* **1.** qamoqxona, avaxta, turma; **être en prison** qamoqxonada bo'lmoq; **mettre qqn en prison** biron kishini qamamoq, qamoqqa tashlamoq; *loc fam* **aimable comme une porte de prison** to'nka, o'ta iltifotsiz odam; **2.** qamoq, tutqunlik, bandilik, qafas; **l'otage est resté un an dans sa prison** garovga olingan odam bir yil tutqunlikda bo'ldi; *loc* **vivre dans une prison dorée** oltin qafasda yashamoq; **3.** qamoq, qamoq jazosi; **condamné à cinq ans de prison** besh yil qamoqqa hukm qilingan.

**prisonnier, ière I.** *n* **1.** asir, mahbus, bandi, tutqun; **un camp de prisonniers** asirlar lageri; **il a été fait prisonnier** u asir qilib olingan edi; **échanger des prisonniers** asirlar ayriboshlamoq; *loc* **prisonniers de guerre** harbiy asirlar; **se constituer prisonnier** o'zini politsiyaga topshirmoq; **II.** *adj* tutqun, bandi, qul, asir; **il était prisonnier de ses préjugés** u o'z xurofotining bandiga aylanib qolgan edi.

**privatif¹, ive** *adj* **1.** *gram* inkorni bildiruvchi; **préfixes privatifs** inkorni bildiruvchi old qo'shimchalar; **2.** mahrum qiluvchi; **peine privative de liberté** ozodlikdan mahrum qilish.

**privatif², ive** *adj* maxsus, alohida; **appartement à louer, avec jardin privatif** uy ijaraga beriladi, alohida bog'i bilan.

**privation** *nf* **1.** mahrum qilish, mahrum etish; **la privation d'un bien** boylikdan mahrum qilish; **être condamné à la privation des droits civils** grajdanlik huquqidan mahrum qilishga mahkum etilgan bo'lmoq; **2.** *pl* muhtojlik, yetishmovchilik, yo'qchilik; **endurer les pires privations** o'ta yetishmovchilikda yashamoq; **elle menait une vie de privation** u muhtojlikda hayot kechirar edi.

**privatisation** *nf* xususiylashtirish; **la privatisation d'une chaîne de télévision publique** televizorning jamoat kanalini xususiylashtirmoq.

**privatiser** *vt* xususiylashtirmoq.

**privautés** *nf pl* o'ta betakalluflik, takallufsizlik, sarbastlik (*odatda ayolga nisbatan*); **prendre des privautés avec qqn** biror kishi bilan o'ta takallufsiz muomala qilmoq.

**privé, ée** *adj* **1.** xususiy, shaxsiy; **voie privée** xususiy yo'l; **propriété privée, entrée interdite** xususiy mulk, kirish taqiqlanadi; *loc adv* **en privé** shaxsan, yolg'iz o'ziga; **puis-je vous parler en privé?** yolg'iz o'zingiz bilan gaplashsam bo'ladimi? **2.** o'ziga, shaxsan o'zigagina taalluqli bo'lgan, shaxsiy; **des intérêts privés** shaxsiy manfaatlar; **sa vie privée ne regarde que lui** uning shaxsiy hayoti, uning o'zigagina taalluqli; **3.** xususiy shaxs, oddiy fuqaroga oid; **en tant que personne privée** oddiy fuqaro sifatida; **de source privée, on apprend que** xususiy manba'lardan ma'lum bo'lishicha; **4.** xususiy; davlatniki, jamoaniki bo'lmagan; **enseignement privé** xususiy ta'lim; **les entreprises privées** xususiy korxona, xususiy sektor; *nf fam* **dans le privé** xususiy sektorda; **5. détective privé, un privé** xususiy detektiv.

**priver I.** *vt* mahrum qilmoq, mahrum etmoq; **on l'a privé de ses droits** uni huquqlaridan mahrum qilishdi; **II. se priver** *vpr* o'zini o'zi mahrum qilmoq; **il se prive de tout** u o'zini o'zi hamma narsadan mahrum qiladi.

**privilège** *nm* **1.** imtiyoz, ustunlik huquqi; **les privilèges des nobles et du clergé sous l'ancien régime** dvoryan va ruhoniylarning eski davlat tuzumidagi imtiyozlari; **un privilège exorbitant** chegarasiz haq-huquq; **2.** foyda; **les privilèges de la fortune** boylikning keltiradigan foydasi; **3.** oliy ne'mat, berilgan ustunlik, qismat, taqdir; **la pensée est le privilège de l'espèce humaine** fikr insoniyatga berilgan oliy ne'mat; **j'ai eu le privilège de la rencontrer** omadim bor ekanki, men uni uchratdim.

**privilégié, ée** *adj* imtiyozli, imtiyozga ega bo'lgan; **créancier privilégié** boshqalarning oldida imtiyozga ega bo'lgan kreditor; **la classe privilégiée** imtiyozga ega bo'lgan sinf; **nous avons été privilégiés, nous avons eu un temps splendide** omadimiz bor ekan, vaqtimizni ajoyib o'tkazdik; **3.** *litt* boshqalariga qaraganda ma'qul, mos keladigan; **un lieu privilégié** ma'qul joy.

**privilégier** *vt* **1.** imtiyoz, yengillik bermoq; **le fisc privilégie les ménages qui ont trois enfants** davlat xazinasi uch bolali oilalarga imtiyoz beradi; **2.** ustunlik, imtiyoz bermoq; **on a tort de privilégier les mathématiques** matematikaga ustunlik berib, xato qilishadi.

**prix** *nm inv* **1.** baho, narx, haq; **le prix de** molning bahosi; **à quel prix est ce manteau?** bu paltoning narxi qancha? **payer le prix de qqch** biror narsaning haqini to'lamoq; **prix fixe, unique** tayin narx; **vendre à bas, à vil prix** arzon, arzimagan narxga sotmoq; **casser les prix** arzonlashtirmoq; **à prix cassés** arzonlashgan narxda; **le dernier prix** oxirgi baho; **un prix exorbitant** o'ta yuqori, baland baho; **ça coûte un prix fou** bu aql bovar qilmaydigan qimmat turadi; **prix d'ami** o'zaro kelishilgan baho; **prix de revient** tannarx; **hausse des prix** narx-navoning oshishi; **n'avoir pas de prix, être hors de prix** bahosi yo'q, juda qimmat bo'lmoq; **mettre à prix** bozorga solmoq; **mise à prix** boshlang'ich baho; **mettre à prix la tête de qqn** birovning boshiga mukofot e'lon qilmoq; **à prix d'or** tilloga teng narxda, otamning bahosida; **2.** narx, tovarga ilib qo'yiladigan baho ko'rsatkichi; **3.** *vx* **le prix du sang** qonning xuni; **4.** qiymat, narx, baho; **le prix du succès, de la réussite** muvaffaqiyatning, yutuqning qiymati; **il ne céderont à aucun prix** ular hech qanday narsa evaziga bermaydilar; **à tout prix** har qancha tursa hamnima bo'lsa ham; **au prix de** -ning evaziga; **5.** mukofot, sovrin; **le prix goncourt** Gonkur mukofoti; **prix d'excellence** rag'batlantiruvchi mukofot (*maktablarda, oltin medal*); **livre de prix** mukofotga berilgan kitob, kitob mukofot; **6.** laureat; **c'est un premier prix du conservatoire** bu konservatoriyaning birinchi laureati; **7.** mukofot, sovrin; **grand prix automobile** avtomobil bo'yicha Gran-Pri sovrini, mukofoti.

**pro** *n abrév fam* **professionnel, elle**.

**probabilité** *nf* **1.** yuz berishi, bo'lishi mumkinlik; **selon toute probabilité** bo'lishi mumkinligiga qaraganda; **2.** ehtimollik; **calcul des probabilités** ehtimollik nazariyasi.

**probable** *adj* **1.** bo'lishi, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan; **une hypothèse probable** bo'lishi mumkin bo'lgan faraziya, gipoteza; **2.** -sa kerak, mumkin bo'lgan; **la réussite probable de ses efforts** bu harakatlarning mumkin bo'lgan natijasi; *impers* **il est probable qu'il viendra, peu probable qu'il vienne** u kelsa kerak, uning kelishi dargumon.

**probablement** *adv* ehtimol, balki, aftidan; **c'est probablement ce qui va se produire** ehtimol bo'lishi kerak bo'lgan narsa shu bo'lsa kerak.

**probant, ante** *adj* ishonarli, asosli; **un argument probable** ishonarli dalil.

**probatoire** *adj* tekshiradigan, sinaydigan, tekshiruv, sinov; **examen, test** sinov imtihoni, testi.

**probe** *adj litt* sofdil, halol, pok, sodiq; **employé, serviteur probe** halol ishchi, xizmatchi.

**probité** *nf* sofdillik, halollik, poklik, to'g'rilik; **doutez-vous de ma probité?** mening sofdilligimga gumon qilasizmi?

**problématique I.** *adj* shubhali, dargumon, noaniq, uncha ishonib bo'lmaydigan; **la victoire est problématique** g'alaba dargumon; **II.** *nf* problematika, problemalar majmui.

**problème** *nm* **1.** masala; **poser, soulever un problème, un fau problème** biron bir masalani, noto'g'ri masalani qo'ymoq, ko'tarib chiqmoq; **résoudre un problème** masalani yechmoq; **c'est la clef du problème** bu masalaning kaliti, o'zagi; **énoncé, solution d'un problème** masalaning berilishi, yechimi; **faire un problème d'algèbre** algebradan masalani



www.ziyouz.com kutubxonasi

yechmoq, ishlamoq; **2.** muammo, chigal masala, qiyinchilik, problema; **les problèmes de la circulation** yo'l harakati muammosi; **le problème palestinien** palestin muammosi; *loc* **faire, poser problème** muammo tug'dirmoq; **un problème, des problèmes d'argent** pul muammosi, masalasi; *fam* **il n'y a pas de problème** bu qiyin emas, gap yo'q; **il est à l'âge où l'on a des problèmes** u qarib, miyasi aynib qolgan.

**procédé** *nm* **1.** muomala, birovga nisbatan o'zini tutish; **je n'ai pas apprécié ses procédés** uning muomalasi menga yoqmadi; *loc* **échange de bons procédés** o'zaro yaxshi muomala; **2.** uslub, yo'l, metod; **un procédé technique** texnik uslub; *péj* **cela sent le procédé** bundan sun'iylikning hidi kelyapti, yo'lini qilishyapti.

**procéder**[1] *vi litt* **procéder de** kelib chiqmoq, borib taqalmoq; **ces œuvres procèdent du même courant d'idées, de même veine** bu asarlar o'sha bir xil fikrlar oqimidan, o'sha vena tomiridan kelib chiqadi.

**procéder**[2] *vi* **1. procéder à** kirishmoq, qo'l urmoq, bajarmoq; **les constructeurs ont d'abord fait procéder à une étude géologique** quruvchilar avvalo geologik tekshiruvlar o'tkazishdi; **2.** ish, harakat qilmoq, ish ko'rmoq, ish tutmoq; **procédons par ordre** tartibga binoan ish tutaylik.

**procédure** *nf* **1.** bajariladigan ish tartibi; **procédure de divorce** ajralish tartibi; **2.** sud ishlari tartibi.

**procédurier, ière** *adj péj* ishkalbozlikdan, lo'ttibozlikdan iborat bo'lgan, ishkal, chatoq, ilmoqli.

**procès**[1] *nm inv* **1.** da'volashuv, sudlashish, tortishuv; **faire, intenter un procès à qqn** biron kishini sudga bermoq; **gagner, perdre un procès** sudda yutib chiqmoq, yutqazmoq; **2.** *fig* ta'qib, quvg'in qilmoq; doimiy tanqid ostiga olmoq; **3.** *loc* **sans autre forme de procès** betakalluflik bilan, tortinmay, iymonmay, to'g'ridan-to'g'ri; **on l'a renvoyé sans autre forme de procès** uni iymanib o'tirmay, qaytarib yuborishdi.

**procès**[2] *nm inv gram* fe'ldan anglatilgan ish-harakat.

**processeur** *nm inform* protsessor.

**procession** *nf* **1.** diniy marosim, tantanali diniy yurish; **2.** yurish, namoyish; **que de visite! une vraie procession** qancha tashrif! haqiqiy namoyishku.

**processus** *nm inv* jarayon, rivojlanish jarayoni, protsess; **un processus biologique, économique** biologik, iqtisodiy jarayon.

**procès-verbal, aux** *nm* **1.** protokol, akt; **rédiger, dresser un procès-verbal** protokol, akt tuzmoq; **avoir un procès-verbal pour excès de vitesse** tezlikni oshirganligi uchun protokol tuzilmoq; **2.** qaror, protokol.

**prochain**[1]**, aine** *adj* **1.** *vx* yaqin joydagi, yaqin o'rtadagi, yaqindagi, yaqin; **dans la forêt prochaine** yaqin o'rtadagi, qo'shni o'rmonda; **2.** yaqin fursatdagi, yaqin orada bo'lajak, yaqinda bo'ladigan; **j'irai à la prochaine occasion** men yaqin fursatda boraman; **un jour prochain, un prochain jour** yaqin kunda; **3.** yaqin fursatda bo'ladigan, kelayotgan, kelgusi; **la semaine prochaine** kelayotgan haftada; **la prochaine fois** kelgusi safar; *fam* **à la prochaine!** kelgusi safar ko'rishguncha! **je descends à la prochaine station** men keyingi bekatda tushaman; *fam* **vous descendez à la prochaine?** siz keyingisida tushasizmi?

**prochain**[2] *nm sing* yaqin kishi, qadrdon, o'z yaqinlari; **l'amour du prochain** yaqin kishiga bo'lgan muhabbat; **dire du mal de son prochain** o'z yaqinlari haqida yomon gap qilmoq.

**prochainement** *adv* yaqinda, tez orada, tezda; **je reviendrai prochainement** men yaqinda qaytib kelaman.

**proche I.** *adj* **1.** yaqin, yaqin joylashgan, yaqin joydagi, yonginasida; **la gare est proche, tout proche, toute proche de la ville** vokzal yaqin, juda yaqin, shaharning yonginasida; **2.** *litt* yaqin; yaqinda, tez orada, tez kunda bo'ladigan; **la fin est proche** nihoyasi yaqin; **3.** yaqin, shunga o'xshash; **mon opinion est proche de la vôtre** mening fikrim siznikiga yaqin; **4.** yaqin, qalin, qadrdon; **un ami très proche** qadrdon do'st; **un proche du ministre** vazirning yaqini; **5.** yaqin, qondosh, qarindosh; **un proche parent** yaqin qarindosh; **tous ses proches l'ont abandonné** uni hamma yaqin oshna-og'aynilari tashlab ketishdi; *loc adv* **de proche en proche** sekin-asta, bosqichma-bosqich, qadamba-qadam; **II.** *n pl* yaqinlar, yaqin qarindoshlar, yaqin oshna-og'aynilar.

**proclamation** *nf* **1.** tantanali suratda bildirish, e'lon qilish, hammaga bildirish; **la proclamation de la république** respublikani e'lon qilish; **2.** tashviqot maqsadida tarqatiladigan siyosiy mazmundagi varaqa.

**proclamer** *vt* **1.** tantanali suratda bildirmoq, e'lon qilmoq, hammaga bildirmoq; **proclamer le résultat d'un scrutin** saylov natijalarini e'lon qilmoq; **2.** hammaga bildirmoq, oshkor qilmoq, deb qichqirmoq; **l'accusé a proclamé son innocence** mahkum o'zining aybsiz ekanligini aytib qichqirdi.

**proconsul** *nm* **1.** *hist* prokonsul; **2.** xo'jayin, hukmdor, mustabid.

**procréateur, trice** *adj, n* dunyoga keltiruvchi, ota-ona.

**procréation** *nf* dunyoga keltirish, tug'ish.

**procréer** *vt litt* dunyoga keltirmoq, yaratmoq (*insonga nisbatan*).

**procurateur** *nm* prokurator, hokim (*qadimgi Rimda*).

**procuration** *nf* **1.** ishonch qog'ozi; vakolatnoma; **2. par procuration** vakoratnomaga asosan.

**procurer I.** *vt* **1.** bermoq, yetkazib bermoq, tug'dirmoq, yaratmoq; **il faut lui procurer un emploi** unga ish topib berish kerak; **2.** bermoq, baxsh etmoq, bag'ishlamoq, yetkazmoq; **le plaisir que nous procure la lecture** o'qish bizga baxsh etuvchi rohat; **II. se procurer** *vpr* topmoq; o'zi uchun topmoq, yaratmoq; **se procurer de l'argent** pul topmoq.

**procureur** *nm* **1.** vakolatnoma bo'yicha ish yurituvchi shaxs; **2. procureur de la république** sudning quyi bosqichidagi prokuror; **procureur général** kassatsion, apellyatsion suddagi prokuror.

**prodigalité** *nf* **1.** isrofgarchilik, behuda sarflash, sovurib yuborish; **2.** *pl* pulni sovurish, pulni bo'lar-bo'lmasga sarflash; **il s'est ruiné par ses prodigalités** pulni bo'lar-bo'lmasga sarflagani uchun, u inqirozga uchradi.

**prodige** *nm* **1.** mo'jiza, karomat; *loc* **tenir du prodige** rivoyatlardagiday, mo'jizaviy; **2.** mo'jiza, hayratga soladigan, ajoyib narsa; **vous avaiz fait des prodiges!** siz mo'jiza ko'rsatdingiz! **un, des prodige de** namunasi, mo'jizasi; **des prodiges de courages** jasurlik namunalari; **3.** ajoyib, g'aroyib odam, mo'jiza; **c'est un petit prodige** bu kichik bir mo'jiza; **un enfant prodige** g'oyat qobiliyatli, iste'dodli bola.

**prodigieusement** *adv* mo'jizakor, ajoyib, g'aroyib.

**prodigieux, euse** *adj* ajoyib, g'alati; mo'jizadek, mo'jizavor, hayratlanarli, hayratga soladigan; **un artiste, un talent prodigieux** mo'jizavor artist, qobiliyat.

**prodigue** *adj* **1.** isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; **un enfant prodigue** noqobil farzand; *prov* **à père avare, fils prodigue** xasis otaga, isrofgar o'g'il; **2. prodigue de** saxiy, qo'li ochiq; **il est prodigue de compliment** u xushomadliklarga saxiy.

**prodiguer I.** *vt* sovurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz, behuda sarflamoq, haddan ortiq sarflamoq; **les soins que sa mère lui a prodigués** unga onasining haddan ortiq sarflagan g'amxo'rliklari; **II. se prodiguer** *vpr* o'z mablag'ini, boyligini behuda sarf qilmoq, isrof qilmoq.

**prodrome** *nm* **1.** *litt* xabarchi, darakchi, jarchi; **les prodromes d'une guerre** urush darakchilari; **2.** *pl méd* kasallikning ilk, boshlang'ich belgilari.

**producteur, trice I.** *adj* ishlab chiqaruvchi, yetishtiruvchi, tayyorlovchi; **les forces productrices** ishlab chiqaruvchi kuchlar; **pays producteurs d'électricité** elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi mamlakatlar; **II.** *n* **1.** ishlab chiqaruvchi; **directement du producteur au consommateur** to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga; **2.** prodyuser.

**productif, ive** *adj* unumli, natija beradigan, foydali; **un travail productif** unumli mehnat.

**productivité** *nf* **1.** maqsadga muvofiqlik; mahsuldorlik; foydalilik; **la productivité d'un placement** kapitalni joylashning maqsadga muvofiqligi; **2.** unumdorlik; **accroître la productivité en remplaçant les ouvriers par des machines** ishchilarni mashinalar bilan almashtirib, unumdorlikni oshirish.

**production** *nf* **1.** ishlab chiqish, kelib chiqish; **il y a eu production de gaz carbonique** karbonik gaz ishlab chiqish yuz berdi; **2.** asar, ijod; **3.** ishlab chiqarish, tayyorlash, yetishtirish; **une production élevée** yuqori ishlab chiqarish; **la production annuelle de cette entreprise** bu korxonaning yillik ishlab chiqarishi; **les moyens de production** ishlab chiqarish vositalari; **les forces de production** ishlab chiqarish kuchlari; **4.** *kino* ishlab chiqarish.

**produire I.** *vt* **1.** keltirib chiqarmoq, tug'dirmoq, qilmoq; **cette nouvelle produisit sur lui une vive impression** bu yangilik unda qattiq taassurot



www.ziyouz.com kutubxonasi

tug'dirdi; **2.** ijod qilmoq, yaratmoq; **un romancier qui produit beaucoup** ko'p ijod qiladigan romannavis; **3.** yetishtirmoq, bermoq; **cet arbre produit de beaux fruits** bu daraxt ajoyib mevalar beradi; **4.** ishlab chiqarmoq, yetishtirmoq; **ce pays produit dix millions de tonnes d'acier par an** bu mamlakat yiliga o'n milyon tonna po'lat ishlab chiqaradi; **5.** ishlab chiqarmoq, tayyorlamoq (*kino*); **6.** ko'rsatmoq, taqdim qilmoq; **produire un certificat** dalolatnoma ko'rsatmoq; **II. se produire** *vpr* **1.** chiqmoq, ko'pchilik oldida ijro etmoq; **c'est la première fois qu'il se produit sur cette scène** u bu sahnada birinchi marta chiqyapti; **2.** yuz bermoq; **cela peut se produire** bu yuz berishi mumkin.

**produit** *nm* **1.** daromad, foyda; **vivre du produit de ses terres** yerining daromadi evaziga yashamoq; **produit brut** yalpi daromad; **produit net** sof daromad; **produit intérieur brut** ichki yalpi mahsulot; **produit national brut** milliy daromad; **2.** *math* ko'paytma (*ko'paytirish natijasi*); **3.** mahsulot, mahsul, natija; **les produits de la terre** yer mahsulotlari; **le produit de son imagination** o'z tasavvurining mahsuli; **4.** mahsulot, ishlab chiqarilgan narsa; **produit fabriqué** ishlab chiqarilgan mahsulot; **produits bruts, semi-finis, finis** xom, yarim ishlov berilgan, tayyor mahsulotlar; **produits pharmaceutiques, chimiques** farmatsevtika, kimyo mahsulotlari.

**proéminence** *nf litt* qavariq, bo'rtib chiqqan joy; qavariq, do'ng, do'mboq.

**proéminent, ente** *adj* qavariq, bo'rtib chiqqan; do'ng, do'mboq; **nez, front proéminent** bo'rtib chiqqan burun, do'ng peshona.

**prof** *n fam* o'qituvchi.

**profanateur, trice** *n, adj* harom qiluvchi, murdor, bulg'ovchi.

**profanation** *nf* tahqirlash, behurmat qilish, oyoqosti qilish, buzish, bulg'ash; **profanation de sépulture** qabrlarni tahqirlash.

**profane I.** *adj* **1.** *litt* dunyoviy; **2.** bexabar, bilmaydigan, bilimsiz, savodsiz, omi, johil; **je suis une profane en musique** men musiqada savodsizman; **II.** *n* **1.** dinsiz, bedin; xudosiz; **2.** *nm* **le profane et le sacré** dunyoviylik va ilohiylik.

**profaner** *vt* **1.** tahqir qilmoq, tahqirlamoq, behurmat qilmoq, oyoqosti qilmoq, buzmoq, bulg'amoq; **les vandales ont profané plusieures tombes** johillar ko'pchilik qabrlarni oyoqosti qilishdi; **c'est profaner les plus beaux sentiments** bu eng go'zal his-tuyg'ularni tahqirlashdir.

**proférer** *vt* baland ovoz bilan, baqirib-chaqirib, qattiq-qattiq aytmoq; **il partit en proférant des menaces, des injures** u qo'rqitish, so'kish so'zlarini baqirib-chaqirib ketdi.

**professer I.** *vt litt* baralla, bor ovozda, ochiqchasiga, hammaning oldida bildirmoq, aytmoq; **ils professaient envers leur maître la plus vive admiration** ular o'z ustozlariga bor ovozda tahsin aytar edilar; **II.** *vi vx* o'qituvchilik qilmoq, dars bermoq; **il professe dans un lycée parisien** u Parijning litseylaridan birida dars beradi.

**professeur** *n* o'qituvchi, muallim; **professeur de collège, de lycée** kollej, litsey o'qituvchisi; **elle est professeur d'anglais** u ingliz tili o'qituvchisi.

**profession**[1] *nf* **1.** *litt loc* **faire profession de** o'z fikr-mulohazasini bildirmoq, namoyish qilmoq; **2. profession de foi** maslak, nuqtai nazar, dunyoqarash.

**profession**[2] *nf* **1.** kasb, hunar; **quelle est votre profession?** kasbingiz nima? **2.** vazifa, kasb, daraja, amal; **les professions liberales** erkin kasblar; **embrasser, exercer une profession** biror vazifani bajarmoq; **3. de profession** professional, kasb qilib olgan; **un chanteur de profession** professional qo'shiqchi.

**professionalisme** *nm* prfessionallik, kasb qilib olganlik; **2.** ustalik, o'z kasbini yaxshi bilishlik.

**professionnel, elle I.** *adj* **1.** kasb-hunarga oid, kasbiy, kasb; **l'orientation professionnelle** kasb-hunarga yo'naltirish; **enseignement professionnelle** kasb-hunarga o'rgatish; **2.** professional, kasb qilib olgan; **sportif professionnel** professional sportchi; **II.** *n* mutaxasis, usta, o'z kasbini yaxshi biladigan odam; **c'est un vrai professionnel** bu haqiqiy usta.

**professionnellement** *adv* ustalarcha, ustalarga xos.

**profil** *nm* **1.** profil, yon tomon; yon tomondan ko'rinish; **dessiner le profil de qqn** biror kishining yon tomondan ko'rinishini chizmoq; **2.** perpendikulyar kesim, yon kesim (*imoratning yoki uning bir qismining*).

**profilé, ée I.** *adj* profillangan, ma'lum shaklga keltirilgan; **II.** *nm* ma'lum shakl berib ishlangan narsa; **profilés métaliques** ma'lum shakl berilgan metall buyumlar.

**profiler I.** *vt* yon tomonini aniq ko'rsatmoq; **II. se profiler** *vpr* **1.** aniq profilga, yon tomon ko'rinishiga ega bo'lmoq; **2.** aniq ko'rinib turmoq.

**profit** *nm* **1.** foyda, naf, manfaat; **il ne cherche que son profit** u o'zining manfaatinigina o'ylaydi; **avoir le profit de qqch** biror narsadan foyda ko'rmoq; **tirer profit de qqch** foyda olmoq; **mettre à profit** foydalanmoq, foydalanib qolmoq; **au profit de qqn, qqch** biror kishining, biror narsaning foydasiga; *fam* **faire du profit, beaucoup de profit** uzoq xizmat qilmoq; **2.** daromad; **salaires et profits** oylik va daromad.

**profitable** *adj* foydali, daromadli, manfaatli, nafi tegadigan; **cette leçon lui peut-être sera profitable** bu dars unga balki foydali bo'lar.

**profiter** *vt* **1. profiter de** foydalanib qolmoq; **il profite de l'occasion** u paytdan foydalanib qolyapti; **profiter de qqch, pour** biror narsadan biror narsa uchun foydalanib qolmoq; **il a profité de l'absence de gardes pour se sauver** u qochib qolish uchun qo'riqchilarning yo'qligidan foydalanib qoldi; **profiter de qqn** biror kishidan foydalanib qolmoq; **2.** *fam* o'smoq, to'lishmoq, kuchga to'lishmoq; **cet enfant a bien profité** bu bola yaxshi o'sibdi; **3. profiter à qqn** biror kishiga foyda keltirmoq, foydasi tegmoq, foydali bo'lmoq; **vos conseils nous ont bien profité** maslahatlaringizning bizga katta foydasi tegdi.

**profiteur, euse** *n péj* yulg'ich, olg'ir; **les profiteurs de guerre** urushdan foyda orttiruvchilar.

**profond, onde I.** *adj* **1.** chuqur, teran; **un puits profond, peu profond** chuqur, sayoz quduq; **profond de dix mètres** o'n metr chuqur; **racines profondes** teran tomirlar; *loc* **au plus profond de** eng tubida; **un fauteuil profond** chuqur kreslo; **des rides profondes** chuqur ajinlar; **2.** chuqur mazmunli, chuqur, jiddiy; **un regard profond** chuqur qarash; **3.** ancha o'tgan, biror yerga yetgan; **une nuit profonde** yarim tun; **4.** juda ham pastga ketgan, ilgarilab kirib ketgan, chuqur; **un forage profond** chuqur qazilgan quduq; **un profond salut** chuqur egilib salom berish; **5.** tubiga boradigan, yoki chiqadigan; **une aspiration profonde** chuqur nafas olish; **une voix profonde** yo'g'on ovoz; **6.** chuqur mazmunli, asosli; chuqur, teran; **c'st un esprit profond** bu teran aql; **7.** ichki, chuqur joylashgan; **la signification profonde d'une œuvre** asarning chuqur mazmuni; **8.** nihoyat darajadagi, kuchli, qattiq, chuqur, zo'r; **un profond silence** chuqur sukunat; **tomber dans un profond sommeil** chuqur uyquga ketmoq; **une profonde erreur** chuqur xato; **éprouver une joie profonde** chuqur xursandchilikni his qilmoq; **II.** *nm* chuqurlik, qa'r; **III.** *adv* chuqur; **creuser très profond** juda chuqur kovlamoq.

**profondément** *adv* chuqur; **creuser profondément la terre** yerni chuqur kovlamoq; **dormir profondément** chuqur uyquga ketmoq; **respirer profondément** chuqur nafas olmoq; **je l'aime profondément** men uni yuragimning to'ridan sevaman; **c'est profondément différent** bu tubdan boshqacha.

**profondeur** *nf* **1.** chuqurlik; **le bassin n'a pas une grande profondeur** hovuz unchalik chuqur emas; **le lac a une profondeur de trois mètres** ko'lning chuqurligi uch metr; **on voit le fond de l'eau à cinq mètres de profondeur** suvning tubi besh metr chuqurlikdan ko'rinadi; **mesurer la longueur, la largeur et la profondeur d'une boite à chaussures** poyabzal qutisining uzunligini, kengligini va chuqurligini o'lchamoq; **2.** chuqurlik, kuch; **la profondeur de son regard est troublante** qarashining chuqurligi kishini to'lqinlantiradi; **3.** chuqurlik, teranlik, daraja; **un homme qui a une grande profondeur d'esprit** teran fikrli odam; **c'est un film sans profondeur** bu sayoz film; **4.** chuqurlik, kuch, daraja; **il éprouve pour elle un sentiment d'une grande profondeur** uning unga ehtirosi kuchli; **il faut travailler en profondeur** chin dildan ishlamoq kerak; **5.** (*pl*) chuqur joy, qa'r, ichkari, tub; **les poissons des grandes profondeurs ont des formes étranges** chuqur joylarda bo'ladigan baliqlarning ko'rinishi g'alati; **ils se sont perdus dans les profondeurs de la forêt** ular o'rmonning qa'rida adashib qoldilar; **elle garde son secret dans les profondeurs de son cœur** u sirini yuragining tubida saqlaydi.

**profus, use** *adj litt* mo'l, serob, juda ko'p; **une lumière profuse** mo'l yorug'.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**profusion** *nf* mo'llik, mo'l-ko'lchilik, to'lib-toshkanlik, seroblik, ko'plik; **il y a une profusion de fleurs dans le jardin** bog'da gullar to'lib-toshib yotibdi; **la beauté du monde nous est donnée à profusion** dunyoning go'zalligi bizga ikki qo'llab berilgan.

**progéniture** *nf péj* bola, farzand; **ils sont venus avec leur nombreuse progéniture** ular ko'plab bola-chaqalari bilan kelishdi.

**programmateur, trice** *n* **1.** dastur tuzuvchi (*spektakl uchun*) **2.** *nm* dastur tuzuvchi moslama; **le programmateur d'une machine à laver** kir yuvish mashinasining dasturlashtiruvchi moslamasi.

**programmation** *nf* **1.** dasturlashtirish, dastur tuzish; **elle s'occupe de la programmation d'un festival de musique** u musiqa festivalining dasturini tuzish bilan shug'ullanayapti; **2.** dasturlashtirish, dastur tuzish (*moslama, kompyuter uchun*); **il fait de la programmation** u programma tuzadi.

**programme** *nm* **1.** dastur, programma; **un programme de télévision** televizor dasturi; **changement de programme** programmaning o'zgarishi; **le programme de la sixième** oltinchi sinf dasturi; **cet aureur fait partie du programme** bu avtor programmada bor; **2.** programma, reja; **les candidats aux élections exposent leur programme politique** saylov nomzodlari o'z rejalarini bayon qilishmoqda; **quel est ton programme pour demain?** ertaga rejalaring qanday? **3.** dastur, programma, oldindan berilgan topshiriq; **programme d'ordinateur** kompyuter dasturi; **le programme est enregistré dans la mémoire de l'ordinateur** programma kompyuterning xotirasiga yozilgan; **machine à laver à programme** programmali kir yuvish mashinasi.

**programmer** *vt* **1.** programmalashtirmoq, programmaga kiritmoq; **cette émission est programmé trop tard** bu eshittirish juda kechga programmalashtirilgan; **2.** programmalashtirmoq, programma kiritmoq; **l'informaticien programme l'ordinateur** informator kompyuterni programmalashtiradi; **on peut programmer l'arrosage automatique et la nourriture des bêtes** avtomatik sug'orish va hayvonlarga ovqat berishni programmalashtirish mumkin; **3.** programmalashtirmoq, oldindan reja tuzib qo'ymoq, rejalashtirib qo'ymoq; **nous avons déja programmé nos vacances por cet été** biz allaqachon bu yilgi yozgi ta'tilimizning rejasini tuzib qo'yganmiz.

**programmeur, euse** *n* programmachi, kompyuterlarga programma tuzuvchi.

**progrès** *nm inv* **1.** o'sish; yaxshi tomonga, ijobiy o'zgarish; **cet élève fait des progrès en français** bu o'quvchi fransuz tilidan ijobiy o'zgarishlar qilmoqda; **2.** o'sish, ortib borish, rivojlanish; **les progrès de la criminalité sont inquiétants** jinoyatchilikning o'sishi xavotirlidir; **les médecins n'arrivent pas à arrêter les progrès de la maladie** vrachlar kasalliklarning o'sishini to'xtatolmayaptilar; **3.** progress, taraqqiyot, rivojlanish, yuksalish; **il ne faut pas nier le progrès** taraqqiyotni inkor qilmaslik kerak; **4.** o'zgarish, o'sish, siljish; **cet élève est en progrès** bu bola o'zgaryapti.

**progresser** *vi* **1.** kuchaymoq, zo'raymoq; **le mal progresse** og'riq kuchaymoqda; *odam* o'smoq, ilgarilamoq; **cet élève a beaucoup progressé** bu bola ancha o'sdi; **2.** ilgarilamoq, olg'a siljimoq; **l'ennemi progresse** dushman ilgari siljimoqda.

**progressif, ive** *adj* **1.** progressiv, tobora o'sib, rivojlanib boradigan; **un développement progressif** tobora o'sib boradigan rivojlanish; **2.** tobora ko'payib, o'sib boradigan; **impôt progressif** tobora ko'payib boruvchi solig'.

**progression** *nf* **1.** progressiya (*ko'payib yoki kamayib ketuvchi sonlar qatori*); **progression arithmétique, géométrique** arifmetik, geometrik progressiya; **2.** ilgarilash, sekin-asta olg'a borish, olg'a siljish; **la lente progression des glaciers** muzliklarning sekin-asta ilgari siljishi; **3.** o'sib borish, rivojlanib borish.

**progressiste** *adj, n* progressiv, taraqqiyparvar, ilg'or; **parti progressiste** progressiv partiya.

**progressivement** *adv* asta-sekin, sekin-asta, tobora.

**prohibé, ée** *adj litt* taqiqlangan, man qilingan; **la douane a saisi des armes prohibées** bojxonachi taqiqlangan qurollarni ushlab qoldi.

**prohiber** *vt* taqiqlamoq, man qilmoq, ruxsat etmaslik.

**prohibitif, ive** *adj litt* **1.** taqiqlovchi, man qiluvchi; **des mesures prohibitives** taqiqlovchi choralar; **2. tarifs douaniers prohibitifs** o'ta yuqori bojxona tarifi; **l'opéra vend les meilleures places à un prix proihbitif** opera eng yaxshi joylarini o'ta yuqori bahoda sotadi.

**proie** *nf* **1.** o'lja; **la panthère se jette sur sa proie** qoplon o'z o'ljasiga tashlandi; **de proie** yirtqich; **l'aigle est un oiseau de proie** burgut yirtqich qush; *loc* **lâcher la proie pour l'ombre** ko'r-ko'rona ish qilmoq; **2.** o'lja, qurbon; **la vieille dame sans défense est une proie facile pour les voleurs** himoyasiz kampir o'g'rilar uchun oson o'lja; **être la proie de** qurboni, o'ljasi, yemishi bo'lmoq; **très vite, la forêt a été la proie des flammes** o'rmon bir zumda olovning yemishiga aylandi; **en proie à** qurboni bo'lmoq, yem bo'lmoq, biror narsa tufayli azob chekmoq; **il était en proie au désespoir** u umidsizlikka yem bo'lgan edi.

**projecteur** *nm* **1.** projektor; **2.** proyeksion apparat.

**projectile** *nm* irg'itiladigan, otiladigan, tashlanadigan narsa; **les obus et les bombes sont des projectiles** snaryadlar, bombalar otiladigan, tashlanadigan narsalar.

**projection** *nf* **1.** otilish, irg'ish; **l'éruption a commencé par une projection de cendres** vulqonning otilishi kulning otilib chiqishi bilan boshlandi; **2.** *pl* sachraydigan narsa; **fais attention aux projections de graisse quand tu fais des frites** kartoshka qovurayotganingda yog'ning sachrashidan ehtiyot bo'l; **3.** ko'rsatish, namoyish (*rasm, film*); **la conférence est suivie de la projection d'un film** konferensiya film namoyish etish bilan davom etdi.

**projectionniste** *n* kino ko'rsatuvchi, kinochi.

**projet** *nm* **1.** reja, plan, mo'ljal; **il veut réaliser son projet** u o'z rejasini amalga oshirmoqchi; **quels sont vos projets pour cet été** bu yilgi yozga planlaringiz qanday? **2.** loyiha, proyekt; **le gouvernement a fait un projet de loi** davlat qonun loyihasini tuzdi; **l'architecte présente un projet pour le nouveau musée** arxitektor yangi muzeyning proyektini taqdim qildi; **on nous a volé notre projet** bizning loyihamizni o'g'irlashdi.

**pojeter**[1] *vt* **1.** otmoq, irg'itmoq, itqitmoq, uloqtirmoq; **le volcan projette de la lave** vulqon lava otyapti; **l'explosion nous a projeté au sol** portlash bizni yerga uloqtirib yubordi; **2.** tashlamoq, tushirmoq, ko'rsatmoq (*soya*); **il projettera ses photos de vacances demain** u ta'tildagi rasmlarini ertaga ko'rsatadi; **sa silhouette est projetée sur le mur** uning soyasi devorga tushdi; **3. projeter un sentiment sur qqn** birovdan ko'rmoq, birovga taqamoq; **elle projette son angoisse sur ses enfants** u o'z g'am-g'ussalarini bolalaridan ko'ryapti.

**projeter**[1] *vt* mo'ljallamoq, rejalashtirmoq, planlashtirmoq; **je projette ce voyage depuis lontemps** men bu sayohatni ko'pdan beri rejalashtirib yuribman; **il projette de l'épouser** u uni uylantirishni mo'ljallab yuribdi.

**prolégomènes** *nm pl litt* kirish, debocha.

**prolétaire** *n* proletar; **notre parti lutte contre l'exploitation des prolétaires** bizning partiyamiz proletarlarni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurashadi.

**prolétariat** *nm* proletar sinfi, proletariat; **le prolétariat s'est développé avec l'industrie, au dix-neuvième siècle** proletariat ishlab chiqarish bilan birgalikda o'n to'qqizinchi asrda rivojlandi.

**prolétarien, ienne** *adj* proletarga oid; proletar; **la révolution prolétarienne** proletar revolutsiyasi.

**prolifération** *nf* **1.** ko'payish, tarqalish; **il faut désinfecter pour éviter la prolifération des microbes** mikroblarning ko'payishidan qutilish uchun dezinfeksiya qilish kerak; **2.** urchish, bolalash, ko'payish; **ce traitement arrête la prolifération des pucerons sur les plantes** bu ishlov shiraning o'simliklarda ko'payishini to'xtatadi.

**proliférer** *vi* **1.** ko'paymoq, tarqalmoq; **une algue microscopique a proliféré le rivage** qirg'oqlarda mikroskopik suv o'tlari ko'payib ketibdi; **2.** urchimoq, bolalamoq, ko'paymoq; **on voit proliférer les agences immobilières** ko'chmas mulk agentliklari bolalab ketdi.

**prolifique** *adj* **1.** tez ko'payadigan, tez bolalaydigan, tez urchiydigan; **les lapins sont prolifiques** quyonlar tez bolalaydi; **2.** sermahsul; **un romancier prolifique** sermahsul romannavis.

**prolixe** *adj litt* ortiqcha, keraksiz so'zlari ko'p, cho'zilib ketgan, ezma; **un orateur prolixe** ezma notiq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**prologue** *nm* prolog, muqaddima, debocha; **dans le prologue, le romancier évoque l'enfance du héros** muqaddimada romanchi qahramonning yoshligini esga oladi.

**prolongation** *nf* **1.** cho'zish, uzaytirish (*vaqtga nisbatan*); **il a obtenu une prolongation de congé** u ta'tilini cho'zishga erishdi; **2.** *sport* qo'shimcha vaqt.

**prolongement** *nm* **1.** davom ettirish, cho'zish, yetkazish, uzaytirish (*makonda*); **le prolongement de la route jusqu'à la ferme** yo'lni fermagacha yetkazish; **2. dans le prolongement de** bo'ylab, cho'zilgan tomonga qarab; **tendez les bras dans le prolongement du corps** qo'llaringizni tanangiz bo'ylab uzating; **3.** oqibat, natija; **cette affaire a eu des prolongements politiques** bu ish siyosiy oqibatga ega bo'ldi.

**prolonger I.** *vt* **1.** cho'zmoq, uzaytirmoq; **nous allons prolonger notre séjour** biz qishloqda bo'lishimizni cho'zamiz; **2.** davom ettirmoq, cho'zmoq, uzaytirmoq; **on a prolongé la route jusqu'à la mer** yo'lni dengizgacha uzaytirishdi; **3.** davomi bo'lmoq; **deux bâtiments prolongent les ailes du château** ikki imorat qasr qanotlarining davomidir; **II. se prolonger** *vpr* **1.** cho'zilmoq, davom etmoq; **la séance s'est prolongée jusqu'à minuit** majlis yarim kechagacha cho'zilib ketdi; **2.** cho'zilmoq, yetib bormoq; **le chemin se prolonge jusqu'à la plage** yo'l plajgacha cho'zilib boradi.

**promenade** *nf* **1.** sayr, aylanib kelish, tomosha; **faire une promenade à pied, en voiture** piyoda, mashinada sayr qilmoq; **2.** sayrgoh, sayr qilinadigan joy; **il y a une belle promenade devant la plage** plajning oldida go'zal bir sayrgoh bor.

**promener I.** *vt* **1.** sayr qildirmoq, aylantirmoq, tomosha qildirmoq; **nous promenons nos amis italiens dans Paris** biz italiyalik do'stlarimizni Parijda sayr qildiramiz; **il promène son chien matin et soir** u itini ertalab va kechqurun sayr qildiradi; **2.** olib borib-olib kelmoq, yugirtirmoq; **le pianiste promène ses doigts sur le clavier** pianinochi barmoqlarini klavishalar ustida yugurtirardi; **il promène son regard dans la salle** u zalga ko'z yugurtirdi; **3.** *fam* jo'natmoq, dumini tugmoq, kavushini to'g'rilab qo'ymoq, jo'natib qutulmoq; **j'ai envoyé promener ce raseur** bu xira odamni jo'natib qutildim; **II. se promener** *vpr* sayr qilmoq, aylanmoq, aylanib kelmoq; **je vais me promener un peu** men biroz aylanib kelaman.

**promeneur, euse** *n* sayrchi, piyoda sayr qiluvchi, piyoda; **il y a beaucoup de promeneurs le dimanche** yakshanba kuni sayr qiluvchilar juda ko'p.

**promesse** *nf* **1.** va'da, so'z; **il m'a fait une promesse** u menga va'da berdi; **elle tient toujours ses promesses** u doim va'dasiga vafo qiladi; **tu a manqué à ta promesse** sen va'dangga vafo qilmading, sen so'zingni ustidan chiqmading; **je te fais la promesse de venir** men senga kelishga so'z beraman; **ce sont des promesses en l'air** bu quruq va'da; **2.** ahdnoma, ahd; **nous avons signé une promesse de vente avec les propriétaires de la maison** biz uy egalari bilan uyni sotish haqidagi ahdnomaga qo'l qo'ydik; **3.** *pl* istiqbol, kelajak, umid; **ce jeune musicien a devant lui une carrière plaine de promesse** bu yosh muzikachining oldida istiqbolga to'la martaba turibdi.

**prometteur, euse** *adj* katta istiqbolga ega bo'lgan, istiqbolli, kelajagi porloq, umidli, bo'ladigan; **ce premier succès est prometteur** bu birinchi yutuq umidli.

**promettre I.** *vt* **1.** va'da qilmoq, va'da, so'z bermoq; **il a promis à son voisin de l'aider** u qo'shnisiga yordam berishga va'da berdi; **le propriétaire du chien perdu promet une belle récompense à la personne qui retrouvera l'animal** yo'qolgan itning egasi uni topgan kishiga yaxshi suyunchi va'da qiladi; **2.** ishontirmoq, ta'kidlamoq; **je te promets que tu le regretteras** men seni ishontirib aytamanki, sen bunga afsus qilasan; **3.** darak bermoq, bildirmoq, o'xshamoq; **ça ne promet rien de bon** bu hech qanday yaxshilikdan darak bermaydi; **4.** kelajagi porloq, umidli bo'lmoq; **c'était un enfant qui promettait beaucoup** bu kelajagi porloq bola edi; *fam* **ça promet!** battar bo'lyapti! **II. se promettre** *vpr* **1.** umid qilmoq, umid bog'lamoq, umidvor, ilinjida bo'lmoq, ko'z tutmoq, ishonmoq; **il n'a pas eu les satisfactions qu'ils étaient promises** u o'zi ko'zda tutgan ko'ngli to'lishga erishmadi; **2.** (**de**+*inf*) o'ziga maqsad qilib qo'ymoq, deb o'ziga va'da bermoq; **il se promit de ne plus recommencer** u o'ziga o'zi boshqa qaytarmaslikka va'da berdi; **3.** bir-biriga va'da bermoq, so'z bermoq; **les deux amies se sont promis de s'écrire souvent** ikki do'st bir-biriga tez-tez xat yozib turishishni va'da berishdi.

**promis, ise I.** *adj* **1. voici l'argent promis** mana va'da qilingan pul; *loc* **chose promise, chose due** va'daning ustidan chiqmoq kerak; **2. promis à** mo'ljallangan, atalgan, loyiq; yigitchaning kelajagi ajoyib; **II.** *n* unashib qo'yilgan qiz, yigit, qalliq; kuyov, kelin; **il est venu avec sa promise** u o'zining unashib qo'yilgan qallig'i bilan keldi.

**promiscuité** *nf* o'lganining kunidan qo'shnichilik qilish, qo'shnichilik qilishga majburlik, noiloj qo'shnichilik; **les prisonniers vivent dans la promiscuité** mahbuslar o'lganining kunidan qo'shnichilik qiladilar.

**promontoire** *nm géog* baland burun, dengizga bo'rtib chiqqan yer; **le phare se dresse sur un promontoire au-desus de la mer** moyoq dengiz uzra baland burun ustida qad ko'tarib turibdi.

**promoteur, trice** *n* tashabbuschi, tashabbuskor, boshlab beruvchi, sababchi; **il a été le promoteur de cette réforme** u bu reformaning tashabbuskori edi.

**promotion** *nf* **1.** martabaning, lavozimning, amalning oshishi; ko'tarilish; **il a eu une promotion** uning amali oshdi; **2.** bitiruvchilar gruppasi; **ces deux garçons sont des camarades de promotion** bu ikki bola birga bitiruvchi do'stlardir; (*ellipt fam*) **ils sont de la même promotion** ular bitta bitiruv guruhidan; **3. en promotion** arzon narxda sotilish; **un produit en promotion** arzon narxda sotiladigan mollar; **4.** qo'llab-quvvatlash; **la promotion de la recherche scientifique** ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash; **5. cette société fait de la promotion immobilière** bu uyushma imorat qurib sotish bilan shug'ullanadi.

**promotionnel** *adj* savdoni jadallashtiradigan, arzonlashtirilgan; **vente promotionnelle** arzonlashtirilgan savdo.

**promouvoir** *vt* **1.** martabasini, amalini, lavozimini oshirmoq; ko'tarmoq; **elle a été promue directrice des ventes** u savdo bo'limi lavozimiga ko'tarildi; **2.** qo'llab-quvvatlamoq, imkon bermoq, imkon tug'dirmoq, rag'batlantirmoq; **il faut promouvoir les exportations** eksportni qo'llab-quvvatlash kerak.

**prompt, prompte** *adj* **1.** *litt* chaqqon, epchil; **prompt à la colère** tegmanozik; **prompt à riposter** hozirjavob, topqir; **2.** tez sodir bo'ladigan; **je vous souhaite un prompt rétablissement** men sizga tez tuzalishni tilayman; **ciment prompt** tez qotadigan sement; **une prompte riposte** hozirjavoblik, topqirlik; **3.** *litt* tez, olov, shamol, shamolday tez (*odam*); **prompt comme la foudre** birdan portlab ketadigan, olovday lovullab ketadigan.

**promptitude** *nf litt* **1.** tezlik, ildamliq, jadallik; **je vous remercie de la promptitude de votre réponse** javobingizning tezligi uchun minnatdorchilik bildiraman (*tez javob berganligingiz uchun minnatdorchilik bildiraman*); **2.** chaqqon, epchil, hozirjavob.

**promulguer** *vt* qonun chiqarmoq, qonunni e'lon qilmoq; **une nouvelle loi vient d'être promulguée** yangi qonun chiqdi, yangi qonun e'lon qilindi.

**prôner** *vt* da'vat qilmoq, chaqirmoq; targ'ib qilmoq; **ils prônent la tolérance** ular sabr-toqatni targ'ib qiladilar.

**pronom** *nm gram* olmosh; **pronoms démonstratis, indéfinis, interrogatifs, personnels, possessifs, relatifs** ko'rsatish, noaniq, so'roq, kishilik, egalik, nisbiy olmoshlar.

**pronominal, ale, aux** *adj* **1.** olmoshga taalluqli, olmoshli; **locution pronominale** olmoshli ibora; **2. verbe pronominal** olmoshli fe'l; **verbe pronominal, réfléchi, réciproque, à sens passif** o'zlik, birgalik, majhul darajadagi olmoshli fe'l.

**prononcé, ée** *adj* yaqqol; yaqqol ko'zga tashlanadigan, ajralib turadigan, ko'rinib turadigan; **avoir les traits du visage très prononcés** yaqqol ajralib turadigan yuz tuzilishiga ega bo'lmoq; **un goût prononcé pour la musique** musiqani yaxshi ko'rishini yaqqol ko'rsatib turadigan did.

**prononcer I.** *vt* **1.** demoq, aytmoq; **elle ne pouvait prononcer un mot** u biror so'z ham aytolmas edi; **2.** talaffuz qilmoq; **3.** so'zlamoq, gapirmoq, aytmoq; **le maire prononça un discours** mer nutq so'zladi; **4.** e'lon qilmoq, o'qib eshittirmoq; **le tribunal a prononcé une lourde peine contre l'accusé** sud ayblanuvchiga og'ir jazo e'lon qildi; **II.** *vi* qaror qilmoq, qaror chiqarmoq, qaror qabul qilmoq; **III. se prononcer** *vpr* **1.** talaffuz qilinmoq; **ce**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**mot s'écrit comme il se prononce** bu so'z qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi; **2.** o'z fikrini bildirmoq, bir qarorga kelmoq; **se prononcer en faveur de qqn, pour, contre qqch** bir kishining foydasiga, bir kishini yoqlab, bir narsaga qarshi ovoz bermoq.

**pronociation** *nf* talaffuz qilinish, talaffuz; **corrigez la pronociation des "u"** "u" larning talaffuzini tuzating.

**pronostic** *nm* **1.** (*muayyan ma'lumotlar asosida oldindan aytilgan*) fikr, prognoz; **quel est le pronostic du médecin?** vrachning fikri qanday?

**pronostiquer** *vt* **1.** o'z fikrini bildirmoq (*vrachga nisbatan*); **2.** oldindan aytmoq, bashorat qilmoq; **les journaux avaient pronostiqué la victoire de ce boxeur** gazetalar bu boksyorning g'alabasini bashorat qilishgan edi.

**propagande** *nf* targ'ibot, tashviqot, agitatsiya; **les partis politiques font de la propagande avant les éléctions** saylovlardan oldin siyosiy partiyalar targ'ibot olib boradilar; **c'est de la propagande!** bu tashviqot!

**propagateur, trice** *n* tarqatuvchi, yoyuvchi; **les missionnaires sont les propagateurs de la foi** missionerlar dinni tarqatuvchilardir.

**propagation** *nf* tarqalish, yoyilish, ko'payish, kuchayish, rivojlanish; **la propagation de l'épidémie a été très rapide** epidemiya juda tez tarqaldi; **les pompiers ont empêché la propagation de l'incendie** o't o'chiruvchilar olovning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymadilar.

**propager** *vt* **I.** tarqatmoq, yoymoq; gazetalar yangilikni yoydilar; **II. se propager** *vpr* tarqalmoq, yoyilmoq; **l'incendie s'est propagé très vite** yong'in juda tez yoyildi; **la nouvelle s'est propagée dans toute la région** yangilik butun viloyatga tarqaldi.

**propane** *nm* propan.

**prophète, prophétesse** *n* **1.** payg'ambar; **Mahomet est le prophète des musulmans** Muhammad musulmonlar payg'ambari; **2.** bashorat qiluvchi, kelajakda bo'ladigan narsalarni aytib beruvchi, sohibkaromat; **je ne peux pas te dire ce qui va se passer, je ne suis pas prophète** men senga nima bo'lishini aytib berolmayman, men sohibkaromat emasman.

**prophétie** *nf* karomat, bashorat; **la voyante lui a fait des prophéties** folbin unga bashorat qildi.

**prophétique** *adj* bashoratli, bashorat qilib aytilgan, dohiyona; **il a prononcé des paroles prophétiques** u dohiyona so'zlar aytdi.

**prophétiser** *vt* **1.** payg'ambarlik qilmoq; **2.** avliyolik qilmoq, bashorat qilmoq, oldindan aytib bermoq.

**prophlaxie** *nf* oldini olish, profilaktika.

**propice** *adj* **1.** *litt* xayrixoh, iltifotli; **que le sort nous soit propice!** taqdir bizga iltifotli bo'lsin! **1.** qulay, muvofiq, mos keladigan; **elle a attendu le moment propice pour agir** u harakat qilish uchun qulay fursatni kutdi; **un climat propice à sa santé** uning sog'ligi uchun mos keladigan ob-havo.

**proportion I.** *nf* **1.** moslik, mos kelish, mutanosiblik; **il y a un manque de proportion entre ses jambes et son buste** uning oyoqlari va tanasi o'rtasida nomutanosiblik bor; **2.** nisbat, tenglik; **quelle est la proportion des filles et des garçons dans ta classe?** sening sinfingda o'g'il va qiz bolalarning nisbati qanday? **3. en proportion de** ga mos, mutanosib ravishda, -ga qarab, yarasha; **c'est peu de chose, en proportion du service qu'il vous avait rendu** uning sizga qilgan yaxshiligining oldida bu hech narsa emas; **sa punition est hors de proportion avec la faute qu'il a commise** uning jazosi uning qilgan aybiga qaraganda hech narsa emas; **II.** *pl* **1.** mutanosiblik, proporsiya; **pour bien dessiner, il faut respecter les proportions** yaxshi chizish uchun proporsiyaga e'tibor berish kerak; **2.** kattalik, hajm; **la pauvreté a pris des proportions considérables dans ce pays** bu yurtda kambag'allik sezilarli darajada oshib ketdi.

**proportionné, ée** *adj* **1. propotionné à** mos keladigan, mos tushadigan; yarasha; **la punition est proportionnée à la faute** jazo aybiga yarasha; **les impôts sont proportionnés aux revenus** soliq daromadga mos keladi; **2. bien proportionné** kelishgan, xushbichim, xushqad; qomati raso; **c'est un athlète qui a un corps bien proportionné** bu qomati raso atlet; **c'est une femme bien proportionnée** bu kelishgan ayol.

**proportionnel, elle** *adj* **1.** proporsional; **moyenne, grandeur proportionnelle** proporsional miqdorlar; **2.** mos, mutanosib, mos keladigan; **la taille des enfants est proportionnelle à leur âge** bolalarning bo'yi yoshiga mos keladi; **cette élection se fait au scrutin proportionnel** bu saylov teng vakillik asosida o'tadi.

**proportionnellement** *adv* proporsional, mos holda, moslab, nisbatan.

**propos**[1] *nm inv* **1.** *litt* maqsad, niyat, murod, muddao; **son propos est de** *+inf* uning maqsadi; **2.** so'z, gap; **il lui tint des propos blessants** u unga qattiq botadigan gaplar aytdi.

**propos**[2] *nm inv* **1.** to'g'risida, xususida, haqida; munosabati bilan; **je n'ai rien à ajouter à propos de cette affaire, à ce propos** bu ish xususida mening hech qanday qo'shadigan gapim yo'q; **à quel propos?** nima to'g'risida? **à propos de tout et de rien** o'rinli va o'rinsiz narsalar haqida; **il se met en colère à tout propos** uning bo'lar-bo'lmas narsalarga ham jahli chiqaveradi; **à propos, à ce propos** ha aytgancha, aytmoqchi, aytganday; **ah! à propos, je voudrais vous demander** ha aytgancha, men sizdan so'ramoqchi edim; **mal à propos** bemahal, bemavrid; noo'rin, o'rinsiz; **2. à propos** o'z vaqtida, joyida, mavridida, zarur paytda; o'rinli, o'rnida, jo'yali; **tu arrive à propos nous parlillons justement de toi** sen paytida kelding, biz aynan sen haqingda gaplashayotgan edik; **3. hors de propos** o'rinsiz, mavridsiz; **il est hors de propos de répondre** javob berish o'rinsiz.

**proposer I.** *vt* **1.** biror narsani biror kishiga taklif qilmoq, taqdim qilmoq; ilgari surmoq; **quel menu nous proposez-vous?** bizga qanday taomnoma taklif qilasiz? **on leur proposa un nouveau projet** ularga yangi bir reja taqdim qilishdi; **proposer une solution** biror yechimni ilgari surmoq; **proposer de partir** ketishni maslahat bermoq; **il a proposé que tu parte** u maslahat berdiki, sen ketsang; **il m'a proposé de l'argent** u menga pul taklif qildi; **2.** va'da bermoq, e'lon qilmoq; **proposer une prime de mille francs aux employés** xizmatchilarga ming frank mukofot va'da bermoq; **3.** nomzodini ko'rsatmoq, namzodini taklif qilmoq; **on l'a proposé pour ce poste** bu vazifaga uning nomzodini ko'rsatishdi; **II. se proposer** *vpr* **1.** o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoq, rejalashtirmoq; **il se sont proposé de visiter l'Espagne** ular Ispaniyaga borishni rejalashtirishdi; **2.** o'z xizmatini taklif qilmoq.

**proposition** *nf* **1.** taklif qilish, taklif, taqdim; **j'ai une proposition à te faire** mening senga bir taklifim bor; **accepter, rejeter une proposition** taklifni qabul qilmoq, rad qilmoq; **sur la proposition de jean** Janning taklifiga binoan; **sur proposition du gouvernement** hukumatning taklifiga binoan; **proposition de loi** qonun taqdimoti; **2. faire des propositions** uylanish haqida taklif qilmoq; **plusieurs fois, il m'a fait des propositions** ko'p marta u menga uylanish haqida taklif qildi; **3.** *gram* gap; **proposition principale, subordonnée, indépendante** bosh ergash, mustaqil gap.

**propre**[1] **I.** *adj* **1.** xususiy, o'ziga tegishli, qarashli bo'lgan, o'z, o'zining; **vous lui remettrez ces papiers en main propres** siz bu qog'ozlarni uning o'z qo'liga topshirasiz; **nom propre** atoqli ot; **propre à** xos, xos bo'lgan, odat bo'lgan; **un défaut propre la jeunesse** yoshlarga xos kamchilik; **2. il rentrera par ses propres moyens** u o'z vositalari yordamida qaytadi; **dans leur propre intérêt** o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida; **il l'a vu de ses propres yeux** u uni o'z ko'zi bilan ko'rdi; **ce sont ses propres mots** bu aynan uning so'zlari; **3.** loyiq, mos, mos keladigan, ayni, layoqatli, qobil; **le mot propre** mos so'z; **je le crois propre à remplir cet emploi** men uni bu ishni bajarishga layoqatli deb bilaman; **un propre-à-rien** noloyiq, noqodir, qo'lidan ish kelmaydigan, hech narsada yo'q odam; **II.** *nm* **1.** shaxsiy, qarashli, tegishli, o'z; **avoir un bien en propre** shaxsiy boylikka ega bo'lmoq; **2.** xoslik, o'ziga xoslik, tegishlilik; **c'est le propre du régime actuel** bu hozirgi tuzimga xos narsa; **3. au propre** o'z ma'nosida; **se dit au propre et au figuré** o'z va ko'chma ma'noda aytiladi.

**propre**[2] *adj* **1.** toza, ozoda, pokiza; **un hôtel modeste mais propre** kamtarona, lekin ozoda mehmonxona; **des draps bien propres** toza choyshablar; **avoir les mains propres** qo'llari toza bo'lmoq; **2.** pokiza, ozoda, orasta (*odam*); *loc* **propre comme un sou neuf** top-toza; **nous voilà propres!** mushkul ahvolga tushib qoldik! **3.** oq, toza nusxa; **une copie propre** toza nusxa; **recopier au propre** oqqa ko'chirmoq; **voilà du travail propre** mana meyoriga yetkazib qilingan ish; **4.** halol, sof (*odam*); **une affaire pas très propre** halol bo'lmagan ish; **c'est du propre!** bu bemazagarchilik!

**proprement**[1] *adv* o'z, o'zi; **le gouvernement affirme que c'est une affaire proprement française** hukumat ta'kidlaydiki, bu faqat



www.ziyouz.com kutubxonasi

fransuzlarninggina ishi; **2.** *litt* **à proprement parler** asl ma'noda, aslini olganda, aslini aytganda; **ce château est à proprement parler une grande maison** bu qasr aslini aytganda, katta uy; **proprement dit(e)** asl ma'noda, tub ma'noda, haqiqiy.

**proprement**[2] *adv* **1.** toza, ozoda, pokiza; **il était proprement vêtu** u ozoda kiyingan edi; **2.** meyorida, meyoriga yetkazib; **un travail proprement exécuté** meyoriga yetkazib qilingan ish; **3.** halol, halollik bilan; **il s'est conduit proprement dans cette affaire** u bu ishda halollik bilan ish tutdi.

**propreté** *nf* **1.** tozalik, ozodalik, pokizalik, orastalik; **ces trottoirs sont d'une grande propreté** bu trotuarlar top-toza; **manger avec propreté** pokizalik bilan ovqatlanmoq.

**propriétaire** *n* xo'jayin, ega, sohib; **la propriétaire d'une voiture** mashinaning egasi; **2.** mulkdor; **propriétaire terrien** yer egasi, pomeshik; **les grands, les petits propriétaires** katta va kichik mulkdorlar; **3.** uy sohibi, uyning egasi; **le locataire paie son loyer au propriétaire** ijarachi ijara haqini uy egasiga to'laydi.

**propriété** *nf* **1.** egalik, egalik huquqi; **propriété littéraire** adabiy egalik huquqi; **2.** mulk; **c'est la propriété de l'état** bu davlat mulki; **3.** mulk, yer-suv, uy-joy, bog'-rog'; **il habite une superbe propriété dans les environs de Paris** u Parij yaqinidagi ajoyib uy-joyida yashaydi; **4.** xususiyat, xossa; **l'eau a la propriété de bouillir à cent degrés** suv yuz gradusda qaynash xususiyatiga ega; **les propriétés de fer** temirning xossalari; **5.** moslik, to'g'ri, mos kelishlik.

**propulser** *vt* **1.** harakatlantirmoq, harakatga keltirmoq, olg'a surmoq; **l'avion est propulsé par des moteurs à réaction** samolyot reaktiv motorlar yordamida harakatga keltiriladi; **2. propulser qqn à un poste** biror kimsani biror amalga o'tqazmoq.

**propulsion** *nf* olg'a itarish, olg'a harakatlantirish, harakatlantirish; **sous-marin à propulsion nucléaire** atom suv osti kemasi.

**prorogation** *nf* muhlatini cho'zish, muddatini uzaytirish; **la prorogation du bail** ijaraning muddatini cho'zish.

**proroger** *vt* **1.** muhlatini cho'zmoq, muddatini uzaytirmoq; **proroger un passeport** pasport muddatini cho'zmoq; **2.** keyinga qoldirmoq, keyinga surmoq, kechiktirmoq; **proroger une assemblée** majlisni keyinga qoldirmoq.

**prosaïque** *adj* oddiy, sodda, odatdagi; **nous menons une vie prosaïque** biz oddiy hayot kechiramiz.

**proscrire** *vt* **1.** esk; surgun qilmoq, quvmoq; **2.** *litt* taqiqlamoq, taqiqlab qo'ymoq, man qilmoq; **il voudrait que l'on proscrive le tabac, l'alcool** u tabak, spirtli ichimliklarni man qilinishini xohlar edi.

**proscription** *nf* **1.** *vx* surgun qilish, quvg'in qilish; **2.** *litt* man qilish, taqiqlash, taqiqlab qo'yish.

**proscrit, ite** *adj, n* surgun qilingan, quvilgan, haydalgan; **des proscrits ont trouvé refuge dans ce pays** quvilganlar bu yurtdan boshpana topishdi.

**prose** *nf* **1.** proza, nasr; **2.** *fam* xat, yozuv, usul; **la prose administrative** administrativ stil; **j'ai lu sa prose** men uning xatini o'qidim; **sa prose me fatigue** uning nutqi meni charchatdi.

**prosélytisme** *nf* prozelitizm (*o'z dinini, o'z e'tiqodini yoyishga intilish*).

**prosodie** *nf* prosodiya (***1.*** *nutqda urg'uli va urg'usiz uzun va qisqa bo'g'inlarni talaffuz qilish sistemasi;* ***2.*** *she'rda bo'g'inlar nisbati; she'r tuzish; she'r tuzilishi*).

**prospecter** *vt* **1.** qidiruv ishlarini olib bormoq (*tabiiy boyliklarni topish maqsadida*); **2.** biror joyni foyda qidirib kezib chiqmoq; **nos agents commerciaux ont prospecté cette région** bizning savdo agentlarimiz bu hududni foyda qidirib kezib chiqishdi.

**prospection** *nf* **1.** tabiiy boyliklarni qidirish, qidiruv ishlari; **les compagnies pértrolières font de la prospection dans le désert et sous les mers** neft kompaniyalari cho'l va dengiz ostida qidiruv ishlarini olib borishmoqda; **2.** mijoz, klient qidirish.

**prospective** *nf* jamiyatning ertangi rivojini o'rganuvchi fan yig'indisi.

**prospectus** *nm inv* e'lon, reklama; **les prospectus d'un hôtel** mehmonxona reklamalari.

**prospère** *adj* gullab yashnagan, ravnaq topgan, gulday ochilgan; **une mine prospère** gulday ochilgan yuz, gulgun chehra; **région prospère** gullayotgan, obod hudud.

**prospérer** *vi* **1.** gullab yashnamoq, barq urmoq; **un terrain où prospèrent les mauvaiseses herbes** yovvoyi o'tlar barq urib o'sayotgan maydon; **2.** (*ish, korxona*) gullab yashnamoq, ravnaq topmoq, barq urmoq; **une entreprise qui prospère** gullab yashnayotgan korxona.

**prospérité** *nf* **1.** sihat-salomatlik, davlat, omad; **je vous souhaite bonheur et prospérité** men sizga baxt va omad tilayman; **2.** taraqqiy qilish, rivojlanish, ravnaq topish; gullash, yashnash; **une industrie en pleine prospérité** gullab yashnayotgan sanoat.

**prostate** *nf* prostata bezi.

**prostatite** *nf méd* prostatit, prostata bezining yallig'lanishi.

**prosterner (se)** *vpr* **1.** ta'zim qilmoq, bosh egmoq; **les fidèles se sont prosternés devant l'autel** muxlislar mehrob oldida chuqur ta'zim qilishdi; **2.** *fig* ikki bukilib ta'zim qilmoq, ikki bukilib turmoq, bosh egmoq; **pourquoi se prosterner devant le pouvoir?** nega zo'ravonlik oldida ikki bukilib turish kerak?

**prostitué, ée** *n* fohisha, buzuq, g'ar, jalab.

**prostituer I.** *vt* **1.** pulga sotmoq (*jinsiy aloqa uchun*), fohishalik bilan shug'ullanishga undamoq, qo'shmachilik qilmoq; **2.** *litt* yerga urmoq, xor qilmoq, xo'rlamoq, kamsitmoq, tahqirlamoq, qadr-qimmatini tushirmoq, ketkizmoq; **II. se prostituer** *vpr* **1.** o'zini pulga sotmoq, fohishalik, g'arlik, jalablik qilmoq; **2.** o'zini yerga urmoq, o'z qadr-qimmatini yo'qotmoq; xor bo'lmoq, isnodga qolmoq.

**prostitution** *nf* **1.** fohishalik, g'arlik, jalablik qilmoq; **maison de prostitution** fohishaxona; **2.** *litt* past ketish, tubanlik, sotqinlik, maslaksizlik.

**prostré, ée** *adj* tushkunlikka tushgan, ezilgan, xomush; **on l'a trouvé prostré dans un coin de sa chambre** uni xonaning bir burchagida xomush holda ko'rishdi.

**protagoniste** *nm* bosh rolni ijro etuvchi; **les protagonistes du drame** bosh qahramonlar.

**protecteur, trice I.** *n* **1.** himoyachi; **l'enfant battu a trouvé un protecteur** kaltak yegan bola himoyachi topdi; *iron loc* **le protecteur de la veuve et de l'orphelin** beva va yetimlarning himoyachisi; **2.** homiy; **II.** *adj* muhofaza qiluvchi, himoya qiluvchi, saqlovchi; **société protectrice des animaux** hayvonlarni muhofaza qiluvchi tashkilot.

**protection** *nf* **1.** himoya, muhofaza qilish; asrash, qo'riqlash, saqlash; **protection maternelle et infantile** onalik va bolalalikni muhofaza qilish; **prendre qqn sous sa protection** biror kishini o'z himoyasiga olmoq; **la protection de la nature** tabiatni muhofaza qilish; **2.** himoya vositasi; **c'est une bonne protection contre le froid** bu sovuqdan saqlovchi yaxshi vosita.

**protectorat** *nm* protektorat; **jusqu'en 1956 le Maroc était un protectorat français** 1956 yilgacha Marokko Fransiyaning protektorati edi.

**protégé, ée** *n* birovning himoyasi ostidagi odam; **c'est mon petit protégé** bu mening himoyam ostidagi bolakay.

**protéger** *vt* **1.** himoya qilmoq, muhofaza qilmoq, asramoq, saqlamoq; **il faut protéger les phoques des chasseurs** tulenlarni ovchilardan himoya qilish kerak; **que Dieu vous protège!** sizni xudoning o'zi asrasin! **2.** himoya qilmoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq (*narsa*); **ton imperméable te protègera de la pluie** plashing seni yomg'irdan saqlaydi; **des arbres qui nous protègent du vent** bizni shamoldan saqlaydigan daraxtlar; **3.** homiylik qilmoq; **Louis XIV a protégé les arts** Lui XIV san'atga homiylik qildi.

**protéine** *nf* protein; **le blanc d'œuf est très riche en protéines** tuxumning oqi proteinga juda boy.

**protestant, ante I.** *n* protestant mazhabidagi odam; **II.** *adj* prtestantlikka oid, protestant.

**protestantisme** *nm* potestantlik (*G'arbiy Yevropada XVI-asrdan boshlab katolitsizmdan ajralib chiqqan turli xiristian mazhablarining umumiy nomi*).

**protestation** *nf* **1.** izhor qilish, bildirish, namoyon qilish, ishontirish; **il me faisait des protestations d'amitié** u menga o'z do'stligini bildirar edi; **2.** norozilik, qarshilik, e'tiroz; **les mesures gouvernementales ont soulevé une tempête de protestations** hukumat chora-tadbirlari kuchli e'tiroz qo'zg'atdi.

**protester I.** *vt litt* **protester de** ta'kidlamoq, urg'ulamoq, hammaning oldida ochiq-oydin aytmoq; **l'accusé protestait de son innocence** sudlanuvchi o'zining aybsizligini ta'kidlar edi; **II.** *vi* e'tiroz, norozilik, qarshilik



www.ziyouz.com kutubxonasi

bildirmoq; **vous avez beau protester, cela ne changera rien** sizning e'tiroz bildirishingiz befoyda, bu hech narsani o'zgartirmaydi; **il a accepé sans protester** u qarshilik bildirmay rozi bo'ldi.

**protêt** *nm fin* protest, norozilik (*vekselni muddatida to'lamaganlikni rasmiy tasdiqlash*).

**prothèse** *nf* protez, yasama a'zo; **une prothèse dentaire** yasama tishlar; **sa jambe gauche est une prothèse** uning chap oyog'i protez.

**prothésiste** *n* protezchi, protez yasovchi mutaxassis.

**protiste** *nm* eng oddiy, sodda (*organizmlar*).

**protocolaire** *adj* **1.** protokolga oid, protokol; **2.** rasmiy; **le chef d'état étranger a fait une visite protocolaire au premier ministre** chet el davlatining boshlig'i bosh vazirga rasmiy tashrif buyurdi.

**protocole** *nm* **1.** qaror, protokol; **un protocole d'accord sur les salaires** ish haqi yuzasidan tuzilgan kelishuv qarori; **2.** odob-axloq normalari majmui, protokol; **chef du protocole** protokol bo'limining boshlig'i.

**protohistoire** *nf* insoniyatning kelib chiqish tarixi.

**proton** *nm* proton.

**prototype** *nm* **1.** birinchi nusxa, namuna; **les essais d'un prototype de voiture** avtomobilning birinchi nusxasini sinash; **2.** *litt* timsol; **c'est le prototype même de la bêtise** bu ahmoqlikning g'irt timsoli.

**protozoaire** *nm* bir hujayrali sodda organizmlar.

**protubérance** *nf* bo'rtma, bo'rtiq; shish, g'urra; o'sgan joy, tepalik.

**prou (peu ou)** *loc adv* ozmi-ko'pmi; **il est peu ou prou ruiné** u ozmi-ko'pmi sindi.

**proue** *nf* kemaning old qismi, kemaning tumshug'i; **le capitaine est à la proue du navire** kapitan kemaning tumshug'ida.

**prouesse** *nf litt* bahodirlik, qahramonlik, mardlik, jasorat; **l'aviateur a accompli des prouesses** uchuvchi jasorat ko'rsatdi.

**prouver** *vt* **1.** isbotlamoq, isbot qilmoq; **prouer que deux et deux font quatre** ikki karra ikki to'rt ekanligini isbotlamoq; **prouver son innocence** o'zining aybsizligini isbotlamoq; **prouvez-le!** buni isbotlang! **il est prouvé que** isbotlanganki; **2.** bildirmoq, ishontirmoq, isbotlamoq; **comment vous prouver ma reconnaissance?** sizga o'z minnatdorchiligimni qanday bildirsam ekan? **3.** (*ega narsa*) ko'rsatmoq, bildirmoq; **les derniers événement prouvent que la crise n'est pas terminée** oxirgi voqealar ko'rsatib turibdiki, inqiroz hali tugagani yo'q; **cela ne prouve rien** bu hech narsani bildirmaydi.

**provenance** *nf* kelib chiqish, asli, kelgan joy; **j'ignore la provenance de cette lettre** bu xatni qayerdan kelganini bilmayman; **un avion en provenance de Paris** Parijdan kelayotgan samolyot.

**provençal, ale, aux I.** *adj* Provansga oid, Provans; **la cuisine provençale** provans taomlari; **II.** *n* **1.** provansallik; **2.** *nm* provans tili; *loc adv* **à la provençale** provansalcha; **tomates à la provençale** provansalcha tomat.

**provenir** *vi* **1.** kelmoq (*narsa, mahsulot*); **ces oranges proviennent du Maroc** bu apelsinlar Marokodan keladi; **d'où provient cette lettre?** xat qayerdan kelibdi? **2.** kelib chiqmoq; **cette douleur provient du foie** bu og'riq jigardan kelyapti; **mot provenant du latin** lotin tilidan kelib chiqqan so'z; **les habitudes proviennent de l'éducation** odatlar tarbiyadan kelib chiqadi.

**proverbe** *nm* maqol; **passer en proverbe** maqol bo'lib qolmoq, maqolga aylanmoq.

**proverbial, iale, iaux** *adj* **1.** matalga oid, matal; **phrase proverbiale** matal gap; **locution proverbiale** matal iboralar; **2.** matalga aylangan, mataldayhammaga tanish; **il est d'une bonté proverbiale** u o'z ezguligi bilan mashhur.

**providence** *nf* **1.** ilohiy taqdir, tangri, iloh; **je m'en remets à la providence** o'zimni tangriga topshirdim; **ça a été une providence de trouver cet abri!** bu boshpanani topish tangrining bir irodasi bo'ldi!

**providentiel, elle** *adj* xudo yetkazgan, xudo yorlaqolgan; **ton arrivée est providentielle, tu vas pouvoir m'aider** seni xudo yetkazdi, sen menga yordam berasan; **il faudrait un homme providentiel pour sortir le pays du marasme** yurtni bu turg'unlikdan chiqarish uchun bir xudo yetkazgan odam kerak bo'ladi.

**province** *nf* **1.** provinsiya, viloyat; **les provinces françaises** Fransiyaning provinsiyalari; **2.** poytaxtdan uzoqdagi joy, qishloq; **vivre en province** qishloqda yashamoq.

**provincial, ale, aux I.** *adj* provinsiyaga, viloyatga oid, provinsiya, viloyat; **la vie provinciale** provinsiya hayoti; **II.** *n* provinsiyada, viloyatda yashovchi odam; **les provinciaux ont du mal à s'adapter à la vie parisienne** provinsiyaliklar Parij hayotiga o'rganishga qiynaladilar.

**proviseur** *nm* litsey direktori; **madame le proviseur** direktor xonim.

**provision** *nf* **1.** zapas, qo'r, g'amlab qo'yilgan narsa; **il a une grosse provision de bois pour l'hiver** qishga uning katta o'tin zaxirasi bor, u qishga ko'p o'tin g'amlab qo'ygan; **le navigateur fait provision d'eau douce** suzuvchi chuchuk suv g'amlab oldi; **2.** *pl* oziq-ovqat, qilingan bozor; **elle fait ses provisions chaque semaine au supermarché** u bozorni har shanba supermarketda qiladi; **3.** keyingi to'lov hisobiga qo'yiladigan pul; **chèque sans provision** qoplanmaydigan chek.

**provisoire** *adj* vaqtincha, muvaqqat, vaqtinchalik; **le dentiste m'a posé une prothèse provisoire** tish doktori menga vaqtincha yasama tish qo'yib qo'ydi; **gouvernement provisoire** muvaqqat hukumat; **on l'a mis en liberté provisoire** uni vaqtincha ozodlikda qoldirishdi.

**provisoirement** *adv* vaqtincha; **je me suis installé chez lui provisoirement** men unikiga vaqtincha joylashdim.

**provocant, ante** *adj* **1.** jig'iga, g'ashiga tegadigan; jig'ini, g'ashini keltiradigan; **il a une attitude provocante** uning odamning jig'iga tegadigan qilig'i bor; **2.** shahvatni qo'zg'aydigan; **c'est une femme provocante** bu shahvatni qo'zg'aydigan xotin.

**provocateur, trice** *n, adj* **1.** g'alamis, ig'vogar; fitnachi; vasvasaga soluvchi; **2.** provokator; **agent provocateur** provokator agent.

**provocation** *nf* **1.** ig'vogarlik, hoinona harakat, provokatsiya; **ne réponds pas, c'est de la provocation!** javob berma, bu provakatsiya! **2.** g'alamislik, ig'vo qilib fitna chiqarish, fitna; **les manifestants ont été mis en garde contre toute provocation** namoyishchilar har qanday fitnalardan ehtiyot qilingan edi.

**provoquer**[1] *vt* **1.** provokatsiya qilmoq, ig'vo qilib yomon ishga undamoq; jig'iga, achchig'iga tegmoq; jig'ini, achchig'ini keltirmoq; **provoquer qqn en duel** biror kishini duelga chaqirmoq; **arrête, ne le provoque pas** bo'ldi, uning jig'iga tegma; **2.** gijgijlamoq, fitna solmoq, g'alamislik qilmoq; vasvasaga solmoq.

**provoquer**[2] *vt* qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq, keltirmoq; **l'automobiliste imprudent a provoqué un accident** ehtiyotsiz haydovchi falokat keltirib chiqardi; **c'est une fuite de gaz qui a provoqué l'explosion** gazning chiqib ketishi bu portlashga sabab bo'ldi; **provoquer la colère** achchig'ni keltirmoq.

**proxénète** *n* qo'shmachi, dalla, sutenyor; **le proxénète fait travailler des prostituées** sutenyor fohishalarni ishlatadi.

**proximité** *nf* **1.** *litt* yaqinlik, yonidalik; **la proximité de la mer donne beaucoup de valeur** dengizning yaqinligi muhim ahamiyat kashf etadi; **2.** *loc adv* **à proximité** yaqinginasida, yonginasida, ikki qadamda; **il habite à proximité de la ville** u shaharning yonginasida yashaydi; *loc adv* **de proximité** yonma-yon, yonida, qo'l uzatsa yetguday joyda; **il y a beaucoup de commerces de proximité** bu kvartalda savdo shoxobchalari aholi uylariga yonma-yon joylashgan; **3.** yaqinlik, yaqinda sodir bo'lishlik; **il avait concience de la proximité** u xavfning yaqinligiga ishonar edi.

**prude** *adj* yasama, zo'raki iffatli, uyatchang; **elle est d'une pruderie ridicule** u odamni kulgisini keltiradigan zo'raki iffatli.

**prudemment** *adj* ehtiyotlik bilan, ehtiyot bo'lib; **elle a répondu prudemment** u ehtiyotlik bilan javob berdi.

**prudence** *nf* ehtiyotkorlik, ehtiyotkorlik bilan ish tutish; **annoncez-lui la nouvelle avec beaucoup de prudence** unga xabarni juda ehtiyotkorlik bilan bildiring; **je vais me faire vacciner par prudence** ehtiyot yuzasidan men o'zimni emlataman; *prov* **prudence est mère de sûreté** o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.

**prudent, ente** *adj* **1.** ehtiyotkor, ehtiyotkorlik bilan ish tutadigan; **soyez prudents, ne roulez pas trop vite** ehtiyot bo'ling, tez haydamang; **2.** ishonarli, ma'qul, ehtiyotkor; **ferme la porte à clé, c'est plus prudent**



www.ziyouz.com kutubxonasi

eshikni qulflab qo'y, bu ishonarliroq; **ce n'est pas très prudent de traverser en dehors des passages pour piétons** piyodalar o'tadigan joydan tashqarida yo'lni kesib o'tish ehtiyotsizlikdir.

**prud'homme** *nm dr* kelishtirish komissiyasining a'zosi, ekspert.

**prune I.** *nf* olxo'ri; **eau-de-vie de prune** olxo'ri arog'i; *loc fam* **pour des prunes** arzimagan narsa uchun; **je me suis dérangé pour des prunes** arzimagan narsa uchun ovora bo'ldim; **II.** *adj inv* to'q binafsha rang; **une robe prune** to'q binafsha rang ko'ylak.

**pruneau** *nm* **1.** olxo'ri qoqisi; *fam* qop-qora; **elle est noire comme un pruneau** u qoratappi; **2.** *fam* o'q, miltiqning o'qi.

**prunelle**[1] *nf* yovvoyi olxo'ri (*mevasi*).

**prunelle**[2] *nf* qorachiq, ko'z qorachig'i; **dans l'obscurité, les prunelles s'agrandissent** qorong'uda ko'z qorachig'i kengayadi; **il tient à sa voiture comme à la prunelle de ses yeux** u mashinasini ko'z qorachig'iday asraydi.

**prunellier** *nm* yovvoyi olxo'ri (*daraxti*).

**prunier** *nm* olxo'ri daraxti; *loc fam* **secouer qqn comme un prunier** biror kimsani qattiq silkitmoq.

**prunus** *nm inv* manzarali olxo'ri.

**prurit** *nm* **1.** *méd* kuchli qichima, qichish; **prurit allergique** alergik qichima; **2.** *litt péj* zo'r havas, tiyib bo'lmaydigan istak; **le prurit de la gloire** g'alabaga bo'lgan zo'r havas.

**prussien, ienne I.** *adj* Prussiyaga oid, Prussiya; **l'armée prussienne était très puissante** Prussiya armiyasi juda kuchli bo'lgan; **II.** *n* prussiyalik; **les Prussiens ont battu les Français en 1871** 1871 yili prussiyaliklar fransuzlarni yengishdi.

**prussique** *adj* **acide prussique** sianid kislota.

**prytanée** *nm* ofitser o'g'illarining o'rta maktabi.

**psalmodier I.** *vi* psalma kuylamoq; qiroat qilmoq; **II.** *vt* **1.** qiroat qilmoq; **psalmodier un verset du Coran** Qur'onning bir oyatini qiraot qilmoq; **2.** bir maromda o'qimoq, ming'irlamoq; **il psalmodiait des vers** u she'rlarni bir maromda o'qir edi.

**psaume** *nm* psalom (*psaltirdagi diniy qo'shiqlar*); **chanter des psaumes** psalom kuylamoq.

**pseudonyme** *nm* taxallus; **Stendhal, George Sand sont des pseudonymes célèbres** Stendal, Jorj Sand mashhur taxalluslardir.

**psitt** *intj* hey, hoy!

**psittacisme** *nm ling* psittatsizm; (*gapning ma'nosini tushunmay ko'r ko'rona qaytarish*).

**psoriasis** *nm inv* psoriaz, tangachasimon temiratki.

**psy** *n, adj inv* psixiatr, psixiatriya, psixologiya, psixanalist so'zlarining so'zlashuv tilidagi qisqartmasi.

**psychanalyse** *nf* psixoanaliz.

**psychanaliser** *vt* psixanaliz qilmoq.

**psychanaliste** *n* psixanaliz mutaxasisi, ruhshunos.

**psychanalitique** *adj* psixanalitik, psixanalitikaga oid.

**psychiatre** *n* ruhshunos, psixiatr.

**psychiatrie** *nf* ruhshunoslik, psixiatriya.

**psychiatrique** *adj* ruhshunoslikka, psixatriyaga oid, psixiatrik.

**psychique** *adj* ruhiy, psixik; **il souffre de troubles psychiques graves** u og'ir ruhiy kasallikdan azob chekyapti.

**psychologie** *nf* psixologiya.

**psychologique** *adj* psixologiyaga oid, psixologik.

**psychologiquement** *adv* psixologik nuqtai nazaridan.

**psychomoteur, trice** *adj* psixomotor; **troubles psychomoteurs de la parole** nutqdagi psixomotor o'zgarishlar.

**psychopathe** *n vx* psixopat, jinni, savdoyi, telba devona.

**psychopathologie** *nf* psixopatalogiya (*ruhiy kasalliklarni o'rganish va davolash haqidagi umumiy ta'limot*).

**psychophysialogie** *nm* psixofiziologiya.

**psychose** *nf* psixoz, ruhiy kasallik, jinnilik; **le délire est une manifestation de la psychose** vasvasa bu ruhiy kasallikning ko'rinishi.

**psychotechnique** *nf, adj* psixotexnika (*amaliy psixologiyaning kishilarni psixik jihatdan biror kasbga yaroqli ekanligini aniqlash metodlari bilan shug'ullanadigan bo'limi*); **examens psychotechniques** psixotexnik ko'rik.

**psychothérapie** *nf* psixoterapiya.

**puant, ante** *adj* **1.** sassiq, sasib qolgan, sasib ketgan, badbo'y, qo'lansa; **il faut jeter ces vieux fromages puants** bu sasib qolgan eski pishloqni tashlab yuborish kerak; **2.** *fig* yaramas, razil, qabih, murdor, yuzsiz, beti yo'q, sassiq; **ce type est vraiment très content de lui, il est puant** bu nusxa haqiqatdan ham o'zida yo'q xursand, u yaramas ekan.

**puanteur** *nf* sassiq, badbo'y, qo'lansa hid.

**pub**[1] *nm* spirtli ichimliklar sotiladigan joy.

**pub**[2] *nf fam* reklama; **j'ai vu cette pub à la télé** men bu reklamani televizorda ko'rdim.

**pubère** *adj* voyaga yetgan.

**puberté** *nf* voyaga yetganlik, jinsiy voyaga yetganlik.

**pubis** *nm inv anat* qov supachasi.

**public**[1]**, ique** *adj* **1.** ijtimoga, ommaga oid; xalq, ommaviy, ijtimoiy; **l'ordre public et la paix sociale** jamoat tartibi va ijtimoiy tinchlik; **la vie publique** ijtimoiy hayot; **l'intérêt public** xalq manfaati; **l'opinion publique** ommaning fikri; **les pouvoirs publics** davlat tashkilotlari; **ècole publique** dunyoviy maktab; **2.** ochiq, oshkor, ommaviy, ijtimoiy, jamoat; **les lieux publics** jamoat joylari; **réunion publique** ochiq majlis; *vx* **femme, fille publique** fohisha; **3.** ochiq, erkin, taqiqlanmagan; **scrutin public** ochiq ovoz berish; **4.** jamoaga, ijtimoga taalluqli; **la vie publique et la vie privée** ijtimoiy va shaxsiy hayot; **un homme publique** jamoat arbobi; **5.** ommaviy, hammaga tanish; **le scandale est devenu publique** mojaro ommaviy bo'lib ketdi.

**public**[2] *nm* **1.** omma, xalq; **le public est informé des décisions du gouvernement** omma hukumatning qaroridan ogoh etilgan; **le grand publuc** omma; **2.** muhlis; o'quvchi, tinglovchi, tomoshabin; **il a son public** uning o'z muhlislari bor; **3.** jamoa; qatnashchilar; **le public applaudissait** qatnashchilar qarsak chalishardi; **un bon public** ajoyib jamoa; **4. en public** *loc adv* xalq, omma oldida; hammaning oldida; **parler en public** hammaning oldida gapirmoq.

**publication** *nf* **1.** nashr etilish, bosib chiqarilish, chop etilish, chiqish; **dès la publication de son dernier roman** o'zining oxirgi romanining nashr etilishi bilanoq; **2.** e'lon qilish, bosib chiqarish, nashr etish, tarqatish; **la publication des résultats d'un examen** imtihon natijalarini e'lon qilish; **3.** nashr, bosma; **il est abonné à plusieurs publications scientifiques** u ko'plab ilmiy nashrlarga a'zo bo'lgan.

**publiciste** *n* **1.** *litt* jurnalist; **2.** reklamachi mutaxassis.

**publicitaire I.** *adj* reklamaga oid, reklama; **un film publicitaire** reklama film; **dessinateur publicitaire** reklamachi rassom; **II.** *n* reklama mutaxasisi.

**publicité** *nf* **1.** reklama, ovoza qilish, jar solib maqtash; **il travaille dans une agence de publicité** u reklama agentligida ishlaydi; **2.** e'lon, reklama; **j'ai vu cette publicité à la télévision** men bu reklamani televizorda ko'rdim; **3.** ochiqlik, oshkoralik; **donner une regrettable publicité à une affaire privée** shaxsiy ishga afsuslanarli oshkoralik bermoq.

**publier** *vt* **1.** bosib chiqarmoq, chop etmoq; **publier un article dans une revue** jurnalda maqola bosib chiqarmoq; **2.** e'lon qilmoq, bosib chiqarmoq; **le journal publie les résultats du concours** gazeta konkurs natijalarini e'lon qildi.

**publiquement** *adv* ochiqchasiga, oshkoro, baralla.

**puce**[1] *nf* **1.** burga; **être piqué, mordu par une puce** burgaga chaqilgan, talangan bo'lmoq; **2. mettre la puce à l'oreille à qqn** *loc fam* birovning ichiga g'ulg'ula solmoq; **secouer ses puces, se secouer les puces** pitirlab qolmoq; **le marché au puce** chayqov bozori; **3.** *fam* mittivoy, barmoqvoy, juda past bo'yli odam; **ça va, ma puce?** ishlar qalay, mittivoy? **4.** to'q qo'ng'ir-qizil rang.

**puce**[2] *nf* mikroprotsessor; **carte à puce** telefonda so'zlashuv kartochkasi.

**puceau** *nm, adj m fam* bola, bokira erkak.

**puceron** *nm* o'simlik biti, shira; *fam* juda kichkina bola, mittivoy.

**pucelle** *nf vx* qiz bola, qiz; *fam* bokira qiz; **la pucelle d'Orléans** Orlean qizi Janna d'Ark.

**pucelage** *nm fam* qizlik, bokiralik.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pudding** *ou* **pouding** *nm* pudding (*pirogning bir turi*).

**pudeur** *nf* **1.** iffat, nomus, uyat, ma'sumlik; **attentat à la pudeur** iffatga tegish, nomusga tajovuz; **2.** uyatchanglik, nomuslilik, ibolilik; **elle cachait son chagrin par pudeur** u uyatchangligidan o'z g'amini yashirar edi; **sans pudeur** uyatsizlarcha.

**pudique** *adj* **1.** iffatli, nomusli, ma'suma; **une femme pudique** ma'suma ayol; **2.** uyatchang, nomusli, iboli; **il a fait une allusion pudique à son amour de jeunesse** u o'zining yoshlikdagi sevgisiga uyatchang bir ishora qildi.

**pudicité** *nf litt* iffatlilik, nomuslilik, ma'sumlik.

**pudiquement** *adv* iffat bilan; **il détourne pudiquement le regard** u ibo bilan ko'zini oldi; **2.** yumshatish ma'nosida; **on dit pudiquement "une longue maladie" au lieu de "cancer"** "saraton" deyishning o'rniga yumshatish ma'nosida "uzoqqa cho'ziladigan kasallik" deyishadi.

**puer I.** *vi* sasimoq; sassiq, qo'lansa, badbo'y hid chiqarmoq; **ce chien pue** bu it sasiyapti; **pouah! ça pue, pfu!** sasib ketdi; **II.** *vt* sassiq, badbo'y, qo'lansa hid chiqarmoq; anqimoq; **il a encore bu, il pue l'alcool** u yana ichibdi, undan aroqning hidi anqiyapti.

**puériculture** *nf* go'dak bolalarga qarash, go'lak bolalar gigiyenasi.

**puéril, ile** *adj* bolalarga oid; bolalarga xos; bolalarcha; **des propos puérils** bolalarcha gap.

**puérilité** *nf* **1.** bolalik, go'daklik; **2.** bolalarcha xulq-atvor, bolalik, bachkanalik; **la puérilité de son comportement m'inquiète** uning bolalarcha qilig'i meni xavotirga solyapti.

**pugilat** *nm* mushtlashish; **la querelle s'est terminée en pugilat** janjal mushtlashish bilan tugadi.

**pugnace** *adj litt* urushqoq, urushishni yaxshi ko'radigan.

**puis** *adv* **1.** *litt* so'ng, so'ngra, keyin (*vaqtda*); **il a mangé du fromage, puis un fruit** u pishloq edi, so'ng meva; **2.** keyin, undan keyin, so'ng (*makonda*); **du bateau on aperçoit la côte, puis les plages, puis les maisons** kemadan qirg'oq ko'rinadi, undan keyin plajlar, so'ng uylar; **3. et puis** va keyin, va so'ngra, va nihoyat; **il m'a présenté son père, sa mère et puis ses frères et ses sœurs** u menga otasini, onasini va keyin aka-uka va opa-singillarini tanishtirdi; **4. et puis** qolaversa; **je n'ai pas le temps, et puis ça m'embête** mening vaqtim yo'q, qolaversa bu mening jonimga tegadi; **et puis** xo'sh? **et puis quoi?** xo'sh yana nima? **et puis après** xo'sh keyinchi?

**puisard** *nm* oqavalar tushib ketadigan o'ra, o'ra.

**puiser** *vt* **1.** botirib olmoq, cho'michlab olmoq; **puiser de l'eau à une source** buloqdan idishda suv olmoq; **2.** olmoq; **puiser dans son sac, dans son porte-monnaie** sumkasidan, hamyonidan olmoq; **3.** *fig* olmoq; **il a puisé ses exemples dans les auteurs classiques** u misollarini klassik avtorlardan olgan.

**puisque** *conj* **1.** chunki, negaki, shunday bo'lgach; **je viens, puisque tu insistes** men kelaman, negaki sen qattiq talab qilyapsan; **puisqu'il le faut, je viendrai** agarki kerak ekan, men kelaman; **2.** modomiki, agar; **mais puisque je te le dis, tu peux me croire** modomiki men buni senga aytayotgan ekanman, sen menga ishonsang bo'laveradi.

**puissament** *adv* **1.** o'ta, juda, ortiqcha, kuchli darajada; **ce pays est puissament armé** bu mamlakat o'ta kuchli darajada qurollangan; **2.** *iron* juda ham, nihoyatda, ortiq darajada, bag'oyat; **c'est puissament raisonné!** bu bag'oyat asosli!

**puissance** *nf* **1.** hukmronlik, hokimlik; **la puissances politique et économique** siyosiy va iqtisodiy hukmronlik; **2.** jismoniy kuch; kuch, qudrat; **la puissance de la parole** so'zning qudrati; **3.** kuchlanish; **la puissance électrique est mésurée en watts** elektr kuchlanishi vat bilan o'lchanadi; **4.** quvvat, ishlash kuchi; **la puissance d'un microscope** mikroskopning quvvati; **augmenter, diminuer la puissance de la radio** radioning ovozini balandlatmoq, pastlatmoq; **5.** *math* daraja; **dix puissance cinq** o'nning beshinchi darajasi; **6.** qudratli davlat; **les grandes puissances** ulkan qudratli davlatlar; *loc adj* **en puissance** mudrab yotgan, yashirin kuch-qudrat, imkoniyat.

**puissant** *adj* **1.** kuchli, qudratli, azimkor, ulkan, katta; **premier ministre est un personnage puissant** bosh vazir katta shaxs; **ces pays dépendent de leur puissant voisin** bu mamlakatlar o'zlarining qudratli qo'shnisiga tobe; **2.** kuchli ta'sir qiladigan, kuchli; **il a pris un somnifère puissant** u kuchli uxlatuvchi dori ichdi; **un sentiment puissant** chuqur tuyg'u; **3.** kuchli, baquvvat; **le boxeur a des muscles puissants** bokschining mushaklari baquvvat; **4.** kuchli, baquvvat, quvvatli, katta quvvatga ega bo'lgan (*mashina, motor*); **sa voiture a un moteur puissant** uning avtomobilining motori kuchli; **5.** baland, qattiq, quvvatli, katta quvvatga ega bo'lgan; **le phare a une lanterne très puissante** faraning chirog'i katta quvvatga ega.

**puits** *nm inv* **1.** quduq; **puiser, tirer de l'eau au puits** quduqdan suv olmoq; *loc fig* **un puits de science** ilm bulog'i; **2.** *techn* quduq, chuqur; **puits de mine** shaxta qudug'i; **le forage d'un puits de pétrole** neft qudug'ini qazish.

**pull-over** *ou* **pull** *nm* pulover.

**pulluler** *vi* g'ij-g'ij qaynamoq, to'lib-toshib yotmoq, g'ujgon urmoq; **les moustiques pullulent près de l'étang** hovuz bo'yida chivinlar g'ujgon urishyapti; **les fautes pullulent dans ce devoir** bu uy ishida xatolar to'lib-toshib yotibdi.

**pulmonaire** *adj* o'pkaga oid, o'pka; **la tuberculose est une maladie pulmonaire** tuberkuloz o'pka kasalligidir; **congestion pulmonaire** o'pka shamollashi; *n* o'pka kasal, o'pka kasalligi bilan og'rigan odam.

**pulpe** *nf* **1.** milk kungurasi; **la carie atteint la pulpe** kariyes milk kungurasini jarohatlaydi; **2.** et, go'sht (*mevalarda*).

**pulpeux, euse** *adj* etli, go'shtdor; **un fruit pulpeux** go'shtdor meva; *fig* **une belle fille pulpeuse** chiroyli do'ndiq, do'mboqqina qiz.

**pulsation** *nf* **1.** tomir, yurak urishi; tomir, yurak tepishi; **2.** *techn* pulsatsiya, tepib turish.

**pulsion** *nf* ichki turtki; biror ishga undovchi sabab; **il contrôle mal ses pulsions agressives** u o'zining tajovuzkorligini yaxshi jilovlay olmaydi.

**pulvérisateur** *nm* pulverizator, purkagich.

**pulvérisation** *nf* purkash, sepish, changitish; **la pulvérisation d'insecticide sur les plantes est efficaces contre les parasites** o'simliklarga zaharli dorilarni sepish zararli hasharotlarga qarshi kurashda foydalidir; **il se des pulvérisations dans le nez pour soigner son rhume** u tumovini davolash uchun burniga dori purkayapti.

**pulvériser** *vt* **1.** kukunga, tolqonga aylantirmoq; mayda-mayda, parcha-parcha, chil-chil qilmoq; **2.** sepmoq, purkamoq, changitmoq; **le jardinier pulvérise de l'insecticide sur les rosiers** bog'bon atirgullarga zaharli dori sepyapti; **3.** *fig* parcha-parcha qilib yubormoq; yo'qqa, puchga chiqarmoq; **il a pulverisé vos arguments** u sizning dalillaringizni yo'qqa chiqardi; **le champion olympique a puliverisé le record du monde** olimpiya chempioni oldingi jahon rekordini chilparchin qildi.

**puma** *nm* puma.

**punaise**[1] *nf* taxtakana, jo'lak, qandala; **une chambre sordide, pleine de punaises** iflos, taxtakanaga to'la xona.

**punaise**[2] *nf* knopka (*bosma mix, tugmacha mix*).

**punch**[1] *nm* punsh.

**punch**[2] *nm* **1.** qattiq zarba, qattiq urish (*bokschilarda*); **2.** jo'shqinlik, tezlik, shiddatlilik; shiddat, shitob; **il manque de punch** unga jo'shqinlik yetishmaydi.

**punir** *vt* **1.** jazo bermoq, jazolamoq, mahkum etmoq; **la justice punit les coupables** sud jinoyatchilarni jazolaydi; **être puni de prison** qamoq jazosiga mahkum etilmoq; **sa mère l'a puni d'avoir menti** onasi uni yolg'on gapirganligi uchun jazoladi; **2. être puni** jazolanmoq, jazosini olmoq; **il est bien puni de sa curiosité** u o'zining qiziquvchanligining jazosini oldi.

**punitif, ive** *adj* jazolashga oid, jazolash bilan bog'liq bo'lgan; jazolovchi; jazolash; **expédition punitive** jazolash ekspeditsiyasi; **faire une expédition punitive contre des rebelles** qo'zg'olonchilarga qarshi jazo ekspeditsiyasi uyushtirmoq.

**punition** *nf* **1.** jazo; **le professeur donne une punition aux élèves qui bavardent** o'qituvchi gaplashib o'tiradigan o'quvchilarga jazo beradi; **2.** jazo, ta'zir; **mon fils est en punition dans sa chambre** mening o'g'lim xonasida jazosini o'tayapti.

**pupille**[1] *n* vasiylikdagi bola; **pupille de la nation** davlat vasiyligidagi, qaramog'idagi bola.

**pupille**[2] *nf* ko'z qorachig'i.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pupitre** *nm* **1.** pyupitr (*nota va kitob quyadigan qiya moslama*); **2.** parta **3.** boshqaruv stoli.

**pur, pure I.** *adj* **1.** toza, sof, boshqa narsa aralashtirilmagan; **du vin pur** sof vino; **de l'or à l'état pur** sof holdagi oltin; *fig* **à l'état pur** haqiqiy, g'irt; **le plaisir pur** haqiqiy rohat; *loc adj* **confiture pur fruit** sof mevadan qilingan murabbo; **tissu pur laine** sof jundan qilingan gazmol; **cheval pur-sang** zotdor ot; **2.** toza, pokiza, bulg'anmagan, ifloslantirilmagan, ichimli, beg'ubor; **eau pure** toza, ichimli suv; **3.** sof, asl; **science pure** sof nazariy fan; **4.** butunlay, to'la, haqiqiy, g'irt; **ton ami est un pur imbécile** sening o'rtog'ing g'irt ahmoq; *loc adv* **en pure perte** bekorga, befoyda, behuda; **pur et simple** shartsiz, so'zsiz, jo'n, sodda; **5.** sof, toza, pok, beg'ubor; **un cœur pur** sof qalb; **ses intentions étaient pures** uning niyatlari toza edi; **il était pur de tout soupçon** u harqanday shubhadan yiroqda edi; **6.** bokira, pokiza; **une jeune fille pure** bokira qiz; **7.** mutanosib, kelishgan; **II.** *n* dindor, e'tiqodli odam.

**purée** *nf* pyure, bo'tqa (*qaynatib ezilgan sabzavot*); **une purée de pommes de terre** kartoshka pyuresi; *loc fig* **purée de pois** qalin tuman; **être dans la purée** sariq chaqasiz qolmoq, qashshoqlikda qolmoq.

**purement** *adj* yolg'iz, faqatgina, butunlay, g'irt; **elle a fait des études purement littéraire** u faqatgina adabiyot fanini o'rgandi; *loc* **purement et simplement** faqat, xolos; **il a purement et simplement menti** u aldab qo'ydi xolos.

**pureté** *nf* **1.** tozalik, yot narsaning aralashmaganligi; **une eau d'une grande pureté** juda ham toza, tiniq suv; **2.** soflik, musaffolik, tiniqlik; **ce diamant est d'une pureté absolue** bu mutlaqo sof dur; **la pureté de l'air des montagnes** tog' havosining musaffoligi; **la pureté de sa voix** ovozining tiniqligi; **3.** *litt* halollik, poklik, benuqsonlik; **la pureté d'une sainte** avliyoning pokligi; **4.** soflik, tozalik; **l'académie française veille à la pureté de la langue** Fransiya akademiyasi tilning sofligini nazorat qiladi.

**purgatif, ive I.** *adj* ich surgi, surgi; **II.** *nm* surgi dori; **il a pris un purgatif** u surgi dori ichdi.

**purgatoire** *nm relig* a'rof, arosat, mahshargoh (*katoliklar afsonalarida: jannatga kirishdan oldin o'lganlarning joni gunohdan poklanadigan joy*).

**purge** *nf* **1.** surgi, surgi dori; **prendre une purge** u surgi dori ichmoq; **2.** oqizib yuborish, chiqarib yuborish; **le robinet de purge du radiateur a une fuite** radiatorning oqizib yuborish krani teshilib qoldi; **3.** tozalash, qatag'on; **les grandes purges staliniennes** Stalin qatag'oni.

**purger I.** *vt* **1.** tozalamoq; ichidagi narsani to'kib, chiqarib yubormoq; **purger un radiateur** radiatorning suvini to'kmoq, ichini tozalamoq; **2.** *litt* tozalamoq, poklamoq; **il faut purger la société de tous ces profiteurs** jamiyatni bu hamma yulg'uchlardan tozalash kerak; **3.** belgilangan muddatni o'tamoq, ado qilmoq; **il est en prison, il purge une peine de cinq ans** u qamoqda, besh yillik muddatni o'tayapti; **II. se purger** *vpr* surgi dori ichmoq (*o'z ichini tozalamoq*).

**purifier** *vt* **1.** soflamoq, aralashmalardan tozalamoq, sof holga keltirmoq; **si tu ouvrais la fenêtre, ça purifierait l'air** agar oynani ochsang, bu havoni tozalagan bo'lardi; **2.** *litt* poklamoq, forig' qilmoq; **la souffrance l'avait purifié** kulfat uni poklagan edi; **3.** tilni, uslubni, soflamoq, tozalamoq, tuzatmoq.

**purisme** *nm* **1.** purizm (*tilni o'zgarmagan sof holda saqlashga urinish*); **2.** xulq-axloqni pokiza va qattiq saqlashga yuzaki urinish.

**puriste I.** *adj* purizmga oid, purist; **II.** *n* purist; **les puristes refusent de voir le langage évaluer** puristlar tilning rivojlaninshini ko'rishni xohlamaydilar.

**puritain, aine I.** *adj* puritanlarga oid, puritan; **il a reçu une éducation puritaine** u puritan tarbiyasini olgan; **II.** *n* puritan (*axloqiy qoidalarga juda ham qattiq amal qiladigan odam*).

**pur-sang** *nm inv* zotli, zotdor, nasldor ot.

**purulent, ente** *adj* yiringga, fasodga oid; yiringli, fasodli; yiring, fasod bog'lagan; **une plaie purulente** fasod bog'lagan yara.

**pus** *nm inv* yiring, fosad; **écoulement de pus** yiring oqish.

**pusillanime** *adj litt* qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz, sustkash; **il est pusillanime et n'ose rien entreprendre** u yuraksiz, hech narsaga kirisholmaydi.

**pustule** *nf* yallig'langan g'udda, bo'jama; husnbuzar; **il a des pustules sur le visage** uning yuzida husnbuzarlar bor.

**putain I.** *nf péj vulg* fohisha; manjalaqi, buzuq, suyuqoyoq ayol, jalab; **fils de putain** haromi; **II.** *intj fam* jalab, obbo, jin ursin; o'hho', voybo'y.

**putatif, ive** *adj* qonun tomonidan tan olingan; **enfant, père putatif** qonun tomonidan tan olingan bola, ota.

**putois** *nm inv* **1.** sassiqko'zan **2.** sassiqko'zan mo'ynasi.

**putréfaction** *nf* chirish; **un cadavre en état de putréfacation** tez chiriyotgan murda.

**putréfier I.** *vt* chiritmoq; **II. se putréfier** *vpr* chirimoq, irimoq; chirib, irib ketmoq.

**putride** *adj* aynigan, irigan, sasigan; **une odeur putride se dégage de la poubelle pleine** to'la ahlat yashig'idan sassigan hid kelardi.

**putsch** *nm* fitna (*bir to'da fitnachilarning davlat o'zgarishi qilish yo'lidagi avanturistik xurujlari va shunday yo'l bilan qilingan davlat to'ntarishi*); **un putsch contre-révolutionnaire** kontrrevolutsion fitna.

**puy** *nm* overndagi tog'.

**puzzle** *nm* bosh qotirma, jumboq, muammo; **l'enfant assemble une à une toutes les pièces du puzzle** bola bosh qotirmaning bo'laklarini birma bir yig'ib chiqyapti; **certains puzzles sont très difficiles à réaliser** ba'zi bir muammolarni yechish juda qiyin.

**pygmée** *n* **1.** pigmey (*Afrikada, Janubiy-sharqiy osiyoda va okianiyada yashaydigan past bo'yli qabilalar vakili*); **2.** past bo'yli, pakana odam; **3.** qo'lidan hech ish kelmaydigan zaif odam.

**pyjama** *nm* pijama (*ko'pincha, kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*); **elle n'aime que des pyjamas de soie** u faqat shoyi pijamalarni yaxshi ko'radi.

**pylône** *nm* **1.** katta gul ustun (*arka, peshtoq, gumbaz kabilarning ustuni*); **2.** stolba, simyog'och; **pylône électrique** elektr simyog'ochi.

**pylore** *nm anat* qorin bo'yni (*qorinning o'n ikki barmoqli ichakka o'tadigan joyi*).

**pyramidal, ale, aux** *nf* piramidasimon, pirpmida shaklidagi, piramidaga o'xshash, piramidal.

**pyramide** *nf* **1.** *hist* piramida, ehrom; **les pyramides de l'Egypte** Misr ehromlari; **2.** *math* piramida; **3.** piramida shaklida terib qo'yilgan narsa; **des pyramides de fruits et de légumes** meva va sabzavot piramidalari; **4.** tepa qismi torayib boruvchi statistik grafik; **la pyramide des âges, des salaires** yosh, oylik piramidasi.

**pyrex** *nm inv* o'tga chidamli oyna.

**pyrotechnie** *nf* portlovchi modda ishlab chiqaruvchi zavod.

**pyrrhonisme** *nm* pirronizm (*Pirron ta'limoti*).

**python** *nm* piton (*tropik mamlakatlarda bo'ladigan yirik bo'g'ma ilon*).

**pythonisse** *nf litt ou plais* folbin, romchi, bashoratgo'y, karomatchi.

# Q

**Q, q** fransuz alifbosining o'n yettinchi harfi.

**Q.I.** *nm inv voir* **quotient**.

**quadragénaire** *adj, n* 40-50 yoshlar orasidagi; **elle est quadragénaire** u 40-50 yoshlarda.

**quadrature** *nf* kvadratura (*yuzaning kvadrat birligi bilan ifodalangan kattaligi*); *loc* **la quadrature du cercle** aylananing kvadraturasi.

**quadriennal, ale, aux** *adj* **1.** to'rt yil davom etadigan; **2.** to'rt yilda bir bo'ladigan.

**quadrige** *nm* to'rt otli arava (*Qadimgi Rimda*).

**quadrilatère** *nm* to'rtburchak.

**quadrillage** *nm* **1.** bo'laklarga ajratilgan maydonning rasmi, joylashuvi; **2. le quadrillage d'une ville en insurrection** isyondagi shahar bo'linmalarining joylashishi.

**quadrille** *nm* kadril (*juft-juft bo'lib ijro etiladigan bal raqsi*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**quadriller** *vt* **1.** grafalamoq, kataklarga ajratmoq; **papier quadrillé** kataklarga ajratilgan varaq; **2.** alohida viloyatlarga bo'lib olmoq.

**quadrimoteur** *adj, nm* to'rt motorli samolyot.

**quadriréacteur** *adj, nm* to'rt reaktorli samolyot.

**quadrumane** *zool* **I.** *adj* to'rt qo'lli; **II.** *n* maymun.

**quadrupède I.** *adj* to'rt oyoqli, panjali; **II.** *n* to'rt oyoqli, panjali sut emizuvchi hayvon.

**quadruple I.** *adj* to'rt karra, hissa, marotaba; **une quadruple rangée de barbelés** to'rt qator tishli; **II.** *nm* to'rt marta ko'p miqdor; **huit est quadruple de deux** sakkiz ikkining to'rt karrasi.

**quadrupler I.** *vt* to'rtga ko'paytirmoq; **quadrupler la production** oziq-ovqatni to'rt marotaba ko'paytirmoq; **II.** *vi* to'rt marotaba oshmoq; **les prix ont quadruplé** narx-navo to'rt marotaba oshdi.

**quadruplés, ées** *n pl* to'rt egizak (*bir onadan tug'ilgan*).

**quai** *nm* **1.** kemalar to'xtaydigan joy; **quai de débarquement, d'embarqument** kemadan tushadigan, chiqadigan joy; **2.** sohil; **se promener sur les quais** sohilda sayr qilmoq; **3.** perron; **ticket de quai** perronga o'tish chiptasi.

**quaker, quakeresse** *n* kvaker (*nasroniylar diniy harakati a'zosi*).

**qualificatif, ive I.** *adj* asliy; **adjectif qualificatif** asliy sifat; **II.** *nm* sifatlovchi.

**qualification** *nf* **1.** baholash, sifatini aniqlash; **2.** mahoratini aniqlash; **3.** ixtisos, kasb mahoratini aniqlash; **qualification professionnelle** kasbiy mahorat.

**qualifié, ée** *adj* **1.** malakali, omilkor, bilimdon, mirishkor; **ouvrier qualifié** malakali ishchi; **2.** malakali, ustalik, epchillik; **vol qualifié** yuqori malaka talab qiladigan o'g'irlik.

**qualifier I.** *vt* **1.** baho bermoq, tavsiflamoq; **comment qualifier sa conduite? elle est inqualifiable!** uning qilig'ini qanday baholash kerak? u ta'rifga sig'maydi! **2.** yuqori bosqichga olib chiqmoq; **ce but a qualifié leur équipe pour le championnat** bu kiritilgan to'p ularning komandasini chempionatga olib chiqdi; **3.** ixtisos, malaka, mahorat bermoq; **II.** *vpr* **ils se sont qualifiés pour la finale** ular finalga chiqishdi.

**qualitatif, ive** *adj* sifatli, yaxshi.

**qualitativement** *adv* sifatli, sifat nuqtai nazaridan.

**qualité** *nf* **1.** sifat, daraja; **marchandise de bonne, de mauvaise qualité** yaxshi, yomon sifatli mahsulot; **2.** sifat; **un produit de qualité** sifatli mahsulot; **3.** fazilat, xislat; **elle a toutes les qualités** u barcha fazilatlarga ega; **4.** vakolat, sifat; **en sa qualité de chef du gouvernement** hukumat boshlig'i sifatida; **5. une personne de qualité** obro'li, aslzoda, tag-tugli kishi.

**quand I.** *prép* **1.** qachon, qachonki, hamono, paytda, vaqtda, zamonda; **quand je vous le disais!** hamono men sizga buni aytayotgan ekanman! **je n'aime pas quand vous criez** men sizning qichqiriqlaringizni yomon ko'raman; **2. quand l'un disait oui, l'autre disait non** biri xo'p deb turganda, boshqasi yo'q derdi; **3.** *litt* agar, gar, hattoki; **quand il l'aurait voulu, il ne l'aurait pas pu** agar u buni xohlagan taqdirda ham, u uni uddalay olmasdi; *loc adv* **quand même** har holda, lekin, shunday bo'lsa ham; **il l'aime quand même** har holda u uni sevadi; **II.** *adv* qachon, qay vaqtda, ba'zan, goh, gohida, qachon bo'lmasin, qachondir; **quand partez-vous?** qachon jo'nab ketasiz? **jusqu'à quand?** qachongacha? **c'est pour quand?** bu qachonga, bu qachon bo'ladi, qachonga mo'ljallangan? **alors, à quand le mariage? – je ne sais pas quand** shunday qilib, to'y qachon? – qachonligini bilmayman.

**quant à** *loc prép* **quant à vous, attendez ici** siz bo'lsa, shu yerda kuting.

**quant-à-soi** *nm sing* o'zini tuta bilish, vazminlik, og'irlik, sipolik, bosiqlik, tiyiqlik; **rester sur son quant-à-soi** sipolik saqlamoq, o'zini tiyib, tutib turmoq; **avec les gens que je ne connais pas, je reste sur mon quant-à-soi** men tanimagan odamlarning oldida o'zimni tiyib turaman.

**quanta** *nm pl* qism, bo'lak; kvant (*chiqarilishi yoki yutilishi mumkin bo'lgan eng oz, bo'linmas energiya miqdori*); **théorie des quantas** kvant nazariyasi.

**quantique** *adj* kvantga oid, kvant; **mécanique quantique** kvant mexanikasi (*elementar zarralar harakati va ularning o'zaro ta'siri haqidagi nazariya*).

**quantième** *nm* chislo, kun, sana.

**quantitatif, ive** *adj* songa, miqdorga oid; miqdoriy.

**quantitativement** *adv* miqdoriy, miqdor nuqtai nazaridan.

**quantité** *nf* **1.** son, miqdor; **en grande, en petite quantité** ko'p, oz miqdorda; **une, des quantité(s) de** to'p, to'da, birtalay, ko'p miqdorda, ko'pchilik; **une quantité de livres** birtalay kitoblar; **quantité de gens le pensent** ko'pchilik kishilar shunday beb o'ylashadi; **2.** miqdor, zarra, mayda bo'lak; *loc* **considérer qqn comme une quantité négligeable** biror kimsaga mensimay qaramoq; **3.** miqdor; **adverbes de quantité** miqdor ravishlari.

**quarantaine** *nf* **1.** qirqtacha, qirqlagan; **2.** qirq yosh; **3.** karantin; chilla; *loc* **mettre, laisser qqn en quarantaine** biror kimsani karantinga solmoq.

**quarante I.** *adj numér* qirq (*raqam*); **un trajet de quarante minute** qirq daqiqalik yo'l; **page quarante** qirqinchi bet; **II.** *nm* **j'habite au quarante** men qirqinchi uyda yashayman.

**quarantième** *adj* **1.** qirqinchi; **2.** qirqdan biri, qirqdan bir bo'lagi; **un quarantième** qirqdan biri.

**quart** *nm* **1.** to'rtdan bir, chorak; **chacun a reçu un quart de la succession** har biri merosning to'rtdan birini oldi; **un quart de vin** chorak litr vino; **un mauvais quart d'heure** og'ir, qiyin daqiqalar; **les trois quarts du temps** ko'p vaqt, har doim; **2.** vaxta, navbatchilik (*kemada*); **officier, matelot de quart** vaxtadagi, navbatchilikdagi zobit, dengizchi; **prendre le quart** vaxtada, soqchilikda bo'lmoq.

**quarte** *nf* kvarta (*diatonik gammaning to'rtinchi pardasi, shuningdek birinchi va to'rtinchi pardalar oralig'i*).

**quartette** *ou* **quartet** *nm* kvartet (*to'rt ijrochidan tashkil topgan ansambl*).

**quartier** *nm* **1.** to'rtdan bir qismi, bo'lagi; **un quartier de pomme** olmaning to'rtdan bir qismi, bo'lagi; **un quartier de bœuf** mol go'shtining bir qismi, to'rtdan bir qismi; **2.** oyning choragi; **premier, dernier quartier** oyning birinchi, so'nggi choragi; **3.** kvartal; mahalla; okrug; **le Quartier latin** Lotin kvartali; **cinéma de quartier** kvartal kinoteatri; **4.** *pl* **quartiers d'hiver** qishlov joyi (*qo'shinning*); **quartier général** armiya shtabi, bosh shtab; **avoir quartier libre** kazarmadan chiqish vakolatiga ega bo'lmoq; **ne pas faire de quartier** qirmoq, shafqat qilmaslik.

**quartier-maître** *nm* starshina (*dengiz flotida serjantga barobar unvon*); kvartirmeyster (*harbiy qismni qarorgohlarga joylashtirish va ta'minot ishlari bilan shug'ullanuvchi ofitser*).

**quartz** *nm* kvars; **une montre à quartz** kvars soat.

**quasi**[1] *adv* deyarli, qariyb; nazarimda, sal bo'lmasa; go'yo, go'yoki; bo'lishi mumkin, desa ham bo'ladigan; ko'rinishidan, aftidan, go'yo … dek, -ga o'xshaydi; **le raisin est quasi mûr** uzum qariyb pishibdi; **quasi-certitude, quasi-totalité** qariyb ishonish, amin bo'lish, qariyb hammasi.

**quasi**[2] *nm* buzoq sonining yuqori qismi, bo'lagi, son go'shti.

**quasiment** *adv fam* deyarli, qariyb; taxminan, birmuncha.

**quaternaire** *adj* **1.** to'rt bo'lakdan tashkil topgan; *chim* to'rtta har xil atomdan tashkil topgan (*molekula*); **2.** *géol* to'rtlamchi; **ère quaternaire** *ou nm* **le quaternaire** to'rtlamchi davr (*geologik era*).

**quatorze** *adj numér* o'n to'rt, o'n to'rtinchi.

**quatorzième** *adj numér* o'n to'rtinchi; **le quatorzième siècle** o'n to'rtinchi asr; **trois quatorzièmes** o'n to'rtdan uch.

**quatorzièmement** *adv* o'n to'rtinchi, o'n to'rtinchidan.

**quatrain** *nm* ruboiy, to'rtlik; **le premier quatrain d'un sonnet** sonetning birinchi to'rtligi.

**quatre I.** *adj numér inv* **1.** to'rt; **les quatre saisons** to'rt fasl; *loc* **se mettre en quatre** zo'r bermoq, kuyib-pishib urinmoq; o'lgan-tirilganiga qaramay harakat qilmoq; **manger comme quatre** bo'kib yemoq; **descendre un escalier quatre à quatre** zinapoyadan sakrab-sakrab, tez tushmoq; **ne pas aller par quatre chemins** maqsadga to'g'ridan to'g'ri o'tmoq; **2.** to'rtinchi; **Henri IV** Henri to'rtinchi; **page quatre** to'rtinchi bet; **II.** *nm inv* **1.** to'rt; **habiter au quatre** to'rtinchida yashamoq; **2.** qarta, domino va shunga o'xshash o'yinlarda to'rt soni.

**quatre-cent-vingt-et-un** *nm inv* shashqol o'yini.

**quatre-vingt** *adj numér* sakson; **âgé de quatre-vingts ans** sakson yoshli; **page quatre-vingt** saksoninchi sahifa.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**quatrième I.** *adj, n* to'rtinchi; **habiter au quatrième** to'rtinchi qavatda yashamoq; *loc* **en quatrième vitesse** juda tez; **II.** *nf* Fransiya kollejlarida to'rtinchi sinf.

**quatrièmement** *adv* to'rtinchidan.

**quatuor** *nm* kvartet (***1.*** *to'rt ovoz yoki to'rt soz uchun yozilgan muzika asari;* ***2.*** *to'rt ijrochidan (qo'shiqchi yoki sozandadan) iborat ansambl;* ***3.*** *to'rt kishidan iborat guruh*).

**que**[1] *conj* **1. nous pensons que la vie est bonne** biz hayotni go'zal deb o'ylaymiz; **2.** *loc prép* **à condition que** shartiga ko'ra, shartidagidek; **tu peux rester à condition que tu te taises** sen qolishing mumkin, faqat shu shart bilanki, sen jim turasan; **à mesure que** bo'lishiga, kelishiga qarab, -ga muvofiq; -gan sari; **afin que** maqsadiga ko'ra; **pousse-toi afin que je puisse m'asseoir** suril, men ham o'tirib olay; **dès que** hamono, bilan; **attendu que** sababli, boisdan, -gani uchun; **de façon que** shuning uchun, shu sababli, shunday bo'lgach; uchun, toki; **3. ne… que…** faqat; **je n'aime que toi** men faqat seni yaxshi ko'raman; **4. qu'il entre!** kirsin!

**que**[2] *adv* **1.** nima sababdan, nima uchun, nega; **que ne venez-vous?** nega kelmaysiz? **2.** qay tarzda, qanday qilib, qancha, qanday, qay darajagacha; **que de** qanchalik, qanday, qancha; **que de difficultés je prévois!** qancha qiyinchiliklarni ko'rayapman; **que c'est beau!** qanday go'zal!

**que**[3] **I.** *pron rel* **1. d'une femme inconnue, et que j'aime, et qui m'aime** men sevadigan va meni sevadigan notanish ayol; **2. le temps que l'on construise l'hôtel** mehmonxonani qurishayotgan vaqt; **voilà cinquante ans que nous habitons ici** mana ellik yildirki shu yerda yashayapmiz; **3. l'être que je serai après la mort** men o'lganimdan so'ng men aylanadigan mavjudot; **4.** *vx* **ce que, ce qui; coûte que coûte, advienne que pourra** nima bo'lsa bo'lsin; **II.** *pron intr* **1. que faire?** nima qilish kerak? **2. qu'est ceci? que deviens-tu?** ahvoling nima kechadi? **3. qu'y a-t-il? que se passe-t-il?** nima bo'layapti? **4. qu' est-ce que vous seriez devenu?** siz nima bo'lgan bo'lardingiz? **voyons, qu'est-ce qui vous prend?** xo'sh, sizga nima bo'ldi?

**québécois, oise I.** *adj* kvebeklik, kvebekcha; **II.** *n* **1.** kvebeklik; **2.** *nm* **le québécois** kvebek tili (*kvebekcha fransuz tili*).

**quel, quelle** *adj* **1.** qanday, qanaqa, nechuk, qaysi; qanday-a, qarang-a; **qelle est donc cette jeune fille?** qanaqa qiz o'zi bu? **quelle heure est-il?** soat necha bo'ldi? **il ne savait pas quelle route prendre** u qaysi ko'chaga yurishni bilmasdi; **2. quelle jolie maison!** qanday chiroyli uy**! quelle idée!** zo'r g'oya, zo'r fikr**! 3.** qaysi; **dire quelle était la plus belle des trois** uchovidan qaysi biri eng chiroyli ekanligini aytmoq; **d'un homme quel qu'il soit** kim bo'lsa ham.

**quelconque** *adj* **1.** qandaydir, qanday bo'lmasin; qanaqa bo'lsa ham; biror, birorta; **un quelconque individu** qandaydir bir shaxs, kishi; **pour une raison quelconque** biror bir sabab uchun; **2.** uncha ko'p bo'lmagan, ozgina; bir oz, andak; e'tiborsiz, ahamiyatsiz; **un homme quelconque** arzimas kishi, odam.

**quelque I.** *adj* **1. quelque… que** qanday bo'lsa ham; **quelque doute que tu aies, il te faudra une preuve** sening qandaydir shubhang bo'lsa ham, senga isbot kerak; **quelque méchants que soient les hommes** insonlar qanchalik johil bo'lmasalar ham; **2.** qandaydir; **il sera allé voir quelque ami** u qandaydir bir do'stini ko'rgani boradi; **depuis quelque temps** ma'lum bir vaqtdan beri; **3.** *pl fam* bir qancha, nechta; **j'ai vu quelques amis** men bir nechta do'stimni ko'rdim; **cent et quelques francs** yuz frankdan ortiqroq; **II.** *adv inv* taxminan, taqriban; qariyb, deyarli; birmuncha, yaqinida, atrofida; **un livre de quelque cent francs** yuz franklar atrofidagi kitob.

**quelque chose** *pron* biror narsa, nima bo'lsa ham; nimadir; nimalardir.

**quelquefois** *adv* bir necha bor, bir necha marta; ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda; onda sonda, ahyon-ahyonda; ora-sira, vaqti vaqti bilan; gohi-gohida; **il est quelquefois drôle** u ba'zida g'alati; **il est venu quelquefois** u bir necha bor keldi.

**quelqu'un, une, quelques-uns, unes** *pron indéf* **1.** *sing* kimdir, kim bo'lsa ham, birov, biror kishi, birortasi, allakim; **on dirait que quelqu'un joue du piano quelque part** go'yoki allakim qayerdadir pianino chalayapti; **il y a quelqu'un?** biror kimsa bormi? **ah, c'est quelqu'un!** a, bu kerakli odam**! 2.** *pl* ba'zi birlari, ba'zilari; ayrim kishilar; kimlardir; **quelques-uns des assistants se mirent à rire** qatnashchilardan kimlardir kula boshlashdi; **quelques-unes de ses poésies sont belles** she'rlarining ba'zilari chiroyli.

**quémander** *vt* tilanmoq; yalinib so'ramoq, yalinmoq; **il quémande sans cesse de l'agent** u to'xtovsiz pul tilanadi.

**quémandeur, euse** *n* tilanchi; yalinib so'rovchi, iltimoschi.

**qu'en-dira-t-on** *nm inv* mish-mish gap, oldi-qochdi gap; ovoza, duv-duv gap; mish-mish; boshqalarning fikri; **avoir peur du, se moquer du qu'en-dira-t-on** mish-mish gapdan qo'rqmoq, oldi-qochdi gaplarni pisand qilmaslik.

**quenelle** *nf* frikadelka.

**quenotte** *nf fam* sut tish.

**quenouille** *nf* duk, yig, urchuq.

**querelle** *nf* urush, janjal, nizo, dahanaki jang qilish; nifoq, tortishuv; **querelle de famille** oilaviy janjal, nizo, araz; *loc* **chercher querelle à qqn** biror kimga qarshi janjal, nizo qidirmoq.

**quereller I.** *vt* so'kmoq, urishmoq; koyimoq; tortishmoq; **II. se quereller** *vpr* janjallashmoq, so'kishmoq, urishmoq.

**querelleur, euse** *adj, n* janjalkash, tirnoq ostidan kir izlaydigan, injiq; **d'humeur querelleuse** tajovuzkor.

**quérir** *vt* **aller quérir qqn, qqch** biror kimni, narsani olib kelgani, qidirib bormoq.

**questeur** *nm* kvestor (*parlament uyushmasi byurosining parlamentdagi bahslarni tartibga solib turadigan a'zosi*).

**question** *nf* **1.** savol, so'rash; **poser une question à qqn** biror kimsaga savol bermoq; **2.** muammo; masala; ish, gap; **la question est difficile** masala qiyin edi; **les questions économiques, sociales** iqtisodiy, ijtimoiy masalalar; **c'est toute la question** asosiy masala o'shanda; **il n'y a pas de question** muammo yo'q; **il est question de** haqida, to'g'risida gap boradi; **3.** tergov, qiynoqqa solib so'roq qilish; **soumettre qqn à la question** birovni qiynoqqa solmoq, qiynab so'roq qilmoq.

**questionnaire** *nm* savollar turkumi, savolnoma, savollar varaqasi.

**questionner** *vt* savol-javob qilmoq, so'ramoq, savollar bermoq, savolga tutmoq; **questionner un candidat** nomzodga savollar bermoq, savolga tutmoq.

**quête**[1] *nf vx* xayr-ehson to'plash; **faire la quête dans une église** cherkovda xayr-ehson yig'moq, to'plamoq.

**quête**[2] *nf vx* **1.** qidiruv, qidirish, izlash, axtarish; **en quête de** biror kimsani, narsani qidirib; **il se met en quête d'un restaurant** u restoranni qidirishga tushdi.

**quêter I.** *vi* xayr-sadaqa yig'moq; **quêter à l'église, à domicile** cherkovda, uyda xayri-sadaqa yig'moq; **II.** *vt* tilanmoq, gadoychilik qilmoq, xiralik bilan so'ramoq.

**quêteur, euse** *n* xayr-sadaqa yig'ish xizmatidagi kishi, xayr-sadaqa yig'uvchi.

**quetsche** *nf* to'q binafsha rangli katta-katta uzunchoq olxo'ri; olxo'ri spirti, arog'i.

**queue** *nf* **1.** dum (*sut emizuvchi, sudralib yuruvchi hayvonlar, va parrandalarda*); **la queue d'un chat, d'un écureuil** mushukning, olmaxonning dumi; *loc* **rentrer la queue basse** ayanchli, nochor, ojiz qaytmoq; **tirer le diable par la queue** chor-nochor yashamoq, zo'rg'a yashamoq, kun ko'rmoq; **quand on parle du loup, on en voit la queue** bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi; **à la queue leu leu** orqama-orqa, izma-iz; **2.** *fam* erkaklar jinsiy a'zosi, olat; **3.** *loc* **finir en queue de poisson** to'satdan natijasiz tugallamoq, yakunlamoq; **queue-de-morue, de-pie** frak, frakning pastki uzun qismi; **queue de cheval** yasama soch; **4.** meva bandi; gul bandi, yaproq bandi; **queue de pomme, de melon, de cerise** olma, qovun, olcha bandi; **tisane de queues de cerises** gilos bandidan tayyorlangan dimlama; **queue de pâquerette, de tulipe** dastorgul va lola bandi; **5. queue de comète** kometaning dumi; **queue de la grande, de la petite ourse** Katta Ayiq, Kichik Ayiq yulduzlarining dumi; **la queue d'un avion** samolyotning dumi; **piano à queue** royal; **6. queue de billard** bilyard kiyi; **la queue d'une poêle** tovaning dastasi; **7.** oxirgi qatorlar, oxirgi kishilar; **la tête et la queue du cortège** kortejning boshi va oxiri; *fam* **être dans la queue de la classe** sinfning oxiri, qoloq bo'lmoq, sinfning dumi bo'lmoq; **8.** navbat, qator; **la queue pour les taxis** taksiga navbat; **faire la queue** navbatga turmoq; **9.**



www.ziyouz.com kutubxonasi

oxir, orqa; **les wagons de queue d'un train** poyezdning oxirgi vagonlari; **monter en queue** oxirgi vagonga o'tirmoq; **10.** *loc* **commencer par la queue** oxiridan boshlamoq; **sans queue ni tête** boshi keti yo'q, poyma-poy.

**queux** *nm* oshpaz; **maître queux** bosh oshpaz.

**qui** *pron* **1.** *rel ega ergash gapni bosh gapga bog'lashda ishlatiladi*: qaysiki, ya'ni; **prenez la rue qui monte** uy nomerlari oshib boradigan ko'chaga yuring; **ceux qui s'en vont** bular jo'nab ketayotganlar; **la voila qui arrive** u mana kelyapti; **voilà qui doit être très agréable** mana juda ham yoqimli bo'lishi kerak bo'lgan narsa; **2. embrassez qui vous voudrez** kimni xohlasangiz quching; **l'homme à qui j'ai parlé, de qui je vous parle** men gaplashgan, sizga gapirib berayotgan kishi; **3.** *intr* kim, kimni? **qui te l'a dit?** buni senga kim aytdi? **qui demandez-vous?** kimni so'rayapsiz? **de qui parlez-vous?** kim to'g'risida gapirayapsiz? **dis-moi qui tu fréquentes, et je te dirai qui tu es** sen kimning huzurida bo'lishingni menga ayt, sening kimligingni aytaman; **4. qui que tu sois, écoute-moi** kim bo'lsang ham menga quloq sol; **qui que ce soit** bu kim bo'lganda ham.

**quiche** *nf* dumaloq pirog (*qaymoq, tuxum va cho'chqa yog'i bilan tayyorlanadigan pirogning bir turi*); **quiche lorraine** lotaringiya pirogi.

**quiconque** *pron* **1.** *rel* kimki, kim, kimda-kim; **2.** *indéf* kimdir, birov, biror kishi, hech kim; **je n'en parlerai à quiconque** men bu haqda hech kimga gapirmayman.

**quidam** *nm plais* odam, shaxs; **qui est ce quidam?** bu odam kim? **des quidams** birovlar, odamlar.

**quiet, quiète** *adj* tinch; osoyishta, xotirjam, bexavotir; yuvosh, beozor, vazmin, og'ir.

**quiétude** *nf* **1.** ko'ngil joyidalik, tinchlik, xotirjamlik; **2.** *litt* xotirjamlik kayfiyati.

**quignon** *nm* nonning sirti, cheti; bo'lka nonning garbushkasi, sirti.

**quille[1]** *nf* **1.** *fam* kegli (*ma'lum tartibda qo'yilgan figuralarni shar yumalatib urib yiqitish o'yini*); **2.** *fam* oyoq; **3.** *fam* fohisha, buzuq, g'ar.

**quille[2]** *nf* kil (*kemaning ichki tomonida joylashgan o'q qismi*); **barque retournée, la quille en l'air** kema ag'darilgan, kil qismi havoda, osmonda.

**quille[3]** *nf arg mil* xizmatning tugashi; **vive la quille!** yashasin demobilizatsiya**!**

**quincaillerie** *nf* **1.** mayda-chuyda metall buyumlar; **2.** mayda-chuyda metall buyumlarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi sanoat, savdo; **3.** *fam inform* material, ma'lumot.

**quincaillier, ière** *n* mayda-chuyda metall buyumlarni sotish bilan shug'ullanuvchi kishi.

**quinconce** *nm* **1.** predmetlarning shahmat tartibida joylashuvi (*kvadratning to'rt burchagiga to'rtta va o'rtasiga bitta tartibida besh narsaning joylashuvi*); **2. plantation d'arbres en quinconce** daraxtlarni shahmat shaklida o'tqazish.

**quinine** *nf* xinin, xin (*bezgak dori*).

**quinquagénaire I.** *adj* ellik-oltmish yoshlar orasidagi; **II.** *n* ellik-oltmish yoshlar orasidagi odam.

**quinquennal, ale, aux 1.** besh yilda bir bo'ladigan; **élection quinquennale** besh yilda bir bo'ladigan saylov; **2.** besh yillik; **plan quinquennal** besh yillik plan, reja.

**quinquet** *nm* **1.** moychiroq, qora chiroq; **2.** *fam* ko'z; **ouvrir, fermer ses quinquets** ko'zini ochmoq, yummoq.

**quinquina** *nm* xinin daraxti, xinin nastoykasi.

**quintal, aux** *nm* sentner, yuz kilogramm.

**quinte[1]** *nf* **1.** *mus* kvinta (*diatonik gammaning beshinchi parda orasi*); **2.** bir xil rangdagi besh qartaning qator chiqishi.

**quinte[2]** *nf* **quinte (de toux)** yo'tal xuruji.

**quintessence** *nf* kvintessensiya, eng muhim joy, asosiy mohiyat, mag'iz.

**quintette** *nm* **1.** *mus* kvintet (*besh ovoz yoki besh soz uchun yozilgan muzika asari*); **2.** besh musiqachidan iborat jaz ansambli.

**quintuple I.** *adj* besh karra, marta, barobar ko'p; **nombre quintuple d'un autre** boshqasining besh barobar ko'p miqdori, soni; **II.** *nm* besh marta ko'p miqdor, son; **payer le quintuple** besh karra ko'p miqdorda to'lamoq.

**quintupler I.** *vt* besh karra, barobar to'lamoq; **rendre quintuple** besh karra ko'p qaytarib bermoq, to'lamoq, besh marta ko'paytirmoq; **II.** *vi* besh karra oshmoq; **les prix ont quintuplé** narx-navo besh marta oshdi.

**quintuplés, ées** *n pl* besh egizak (*bir onadan tug'ilgan*).

**quinzaine** *nf* **1.** o'n beshtacha; **2.** o'n besh kuncha, ikki haftacha; **dans une quinzaine** ikki haftachadan keyin.

**quinze I.** *adj numér* **1.** o'n besh; **quinze jours** ikki hafta; **quinze cents francs** bir yarim ming frank; **2.** o'n beshinchi; **Louis XV** Lui XV (*o'n beshinchi*); **le quinze août** o'n beshinchi avgust; **page quinze** o'n beshinchi bet; **II.** *nm* o'n beshinchi raqamdagi; **habiter (au) 15, rue de** ko'chasidagi o'n beshinchi uyda yashamoq; **2.** o'n besh ball; **elle a eu (un) 15 en histoire** u tarixdan 15 oldi; **3.** o'n besh o'yinchidan tashkil topgan komanda (*regbida*); **les internationaux du quinze de France** Fransiya terma komandasi (*regbi bo'yicha*).

**quinzième** *adj numér* **1.** o'n beshinchi; **le XVe arrondissement** o'n beshinchi okrug; **2.** o'n beshdan biri (*qismi, bo'lagi*); **neuf quinzièmes du capital (9/15)** jamg'armaning o'n beshdan to'qqizi.

**quinzièmement** *adv* o'n beshinchi o'rinda, o'n beshinchidan.

**quiproquo** *nm* anglashilmovchilik, adashish, yanglishish, chalkashtirish; **des quiproquos comiques** kulgili anglashilmovchiliklar.

**quittance** *nf* kvitansiya, patta; qayd qilish; tilxat.

**quitte** *adj* **1.** ora ochiq, qarzdan xorij bo'lgan, qarzi yo'q; **me voilà quitte envers lui** mana uning bilan oramiz ochiq, qarzdan qutuldim; **2.** xalos bo'lgan, qutulgan, ozod; **3. être quitte** qutulmoq, noqulay ahvoldan, sharoitdan qutulmoq; **j'en suis quitte à bon compte** undan osongina qutuldim; *loc* **en être quitte pour** qiyin va xavfli holatdan chiqmoq, qutulmoq; **quitte à +** *inf* qaramasdan; **quitte à attraper un rhum** shamollab qolish xavfiga qaramasdan; **4.** *loc* **jouer à quitte ou double** qarzdan butunlay qutulishga yoki ikki hissa ko'p bo'lishiga o'ynamoq.

**quitter I.** *vt* **1.** tashlab ketmoq, qoldirib ketmoq; **3.** ketmoq, tark etmoq (*narsa*); **cette pensée ne le quitte pas** bu o'y, fikr uni tark etmayapti; **4.** tashlab ketmoq, ketib qolmoq, boshqa yurtga ketib qolmoq, chiqmoq (*joyga nisbatan*); **le médecin lui interdit de quitter la chambre** vrach unga xonadan chiqishni taqiqladi; **5.** *loc* **ne pas quitter des yeux** ko'z uzmay qarab turmoq, tikilib turmoq; **ne quittez pas!** trubkani qo'ymang**! 6.** yechmoq, olmoq; **il ne quittait pas ses gants** u qo'lqopini yechmas edi; **7.** tashlab ketmoq, tark etmoq; **II. se quitter** *vpr* **ils viennent de se quitter** ular yaqinda ajralishdi.

**qui-vive I.** *intj* kim u? (*soqchining, patrulning chaqirig'i*); **halte-là, qui-vive?** to'xta, kim u? **II.** *loc adv* **sur le qui-vive** hushyor, tayyor, ogoh turish; **elle est sans arrêt sur le qui-vive** u har doim tayyor turadi.

**quoi** *pron* **1.** *rel* qaysi, qaysiki, nima; **voilà de quoi il s'agit** mana nima haqida gap ketayapti; **il fallut d'abord payer l'amende; après quoi on nous a laissé partir** avval jarima to'lash kerak bo'ldi; o'shandan keyin bizni qo'yib yuborishdi; **réfléchis bien; sans quoi tu vas te tromper** yaxshilab o'yla; aks holda yanglishasan; **faute de quoi** aks holda; **moyennant quoi** o'shaning evaziga; **il n'a pas de quoi vivre** uning yashashga hech vaqosi yo'q; **je vous remercie beaucoup. – il n'y a pas de quoi** sizga katta rahmat. – arzimaydi; **2.** *intr* nima, nima uchun, nega, nima sababdan, qanday? **je saurai à quoi m'en tenir** men nimaga suyanishni bilaman; **quoi faire?** nima qilish kerak; **à quoi penses-tu?** nima haqida o'ylayapsan? **3.** *fam* **quoi, qu'est-ce que tu dis?** nima, nimadan bilding? **de quoi?** nima?, nima deysan? **4.** *intj* **quoi! vous osez protester?** nima! siz e'tiroz bildirishga jur'at qilayapsizmi? **5. quoi que** nima bo'lsa; **quoi qu'il arrive** nima bo'lganda ham; **quoi qu'il en soit** qanday bo'lmasin.

**quoique** *prép* **1.** qaramay, garchi, -sa ham; **je lui confierai ce travail quoiqu'il soit bien jeune** garchi u yosh bo'lsa ham, men unga bu ishni ishonib topshiraman; **2.** shu qadar, -sa ham, xoh, yoki; **nous passons nos vacances à la montagne, quoiqu'aimant bien la mer** dengizni shu qadar yaxshi ko'raturib, biz ta'tilimizni tog'da o'tkazamiz.

**quolibet** *nm litt* birovdan kulish, masxara, mazax, mayna qilish, piching, istehzo; qiziq gap; qochirim, qochiriq; **l'acteur quitte la scène sous les quolibets du public** aktyor sahnani tomoshabinlarning kulgisi ostida tark etdi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**quorum** *nm* kvorum (*majlis, kengash va shu kabilarning qarorlari qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning ustav bo'yicha yetarli hisoblanadigan miqdori*).

**quota** *nm* kvota, norma, belgilangan miqdor; **quota d'immigration (aux Etats-Unis)** emigratsiya normasi, miqdori; **quotas d'importations, d'exportations** import, eksport miqdori, normasi; **quota de vente** sotish miqdori, normasi; **dans ce pays, les importations doivent respecter des quotas** bu yurtda import kvota normasiga amal qilishi kerak.

**quote-part** *nf* hissa, ulush; **payer, toucher sa quote-part** o'z hissasini to'lamoq, olmoq.

**quotidien, ienne I.** *adj* kundalik, har kungi, har kuni bo'ladigan; odatdagi, oddiy, doimiy; bir zayldagi; **son travail quotidien** kundalik ishi; *loc* **au quotidien** har kuni **II.** *nm* kundalik gazeta; **vous trouverez la nouvelle dans les quotidiens** siz yangilikni kundalik gazetalardan topasiz.

**quotidiennement** *adv* har kuni, doimo.

**quotient** *nm* **1.** *math* bo'linma; **2. quotient intellectuel (Q.I.)** intellektuallik, zakovat koeffitsienti (IK); **quotient électoral** deputatga saylanish huquqini beruvchi ovoz soni.

# R

**R, r** *nm* fransuz alifbosining o'n sakkizinchi harfi.

**rab** *nm fam* (*abrév* **rabiot**) qo'shimcha, qoldig'i, qolgani, ortiqchasi, belgilanganidan ortiqchasi; qo'shimcha xizmat vaqti; **il y a du rab de pommes de terre** kartoshkadan qo'shimcha bor; **faire du rab** qo'shimcha qilmoq; *loc* **en rab** ortiqcha, ortiq, keragidan ortiq.

**rabâchage** *nm* bir gapni chaynayverish, hadeb takrorlayverish; behuda, bekor, bo'lmag'ur gap, safsata; **ce qu'il raconte n'est que du rabâchage** u hikoya qilayotgan narsa bir gapni chaynayverishdan boshqa narsa emas.

**rabâcher** *vi, vt* bir gapni hadeb qaytaravermoq, takrorlayvermoq; **ces vieux bonshommes rabâchent** bu chollar bir narsani hadeb takrorlashaveradi; **il rabâche toujours les mêmes choses** u doim bir xil narsalarni takrorlayveradi; **rabâcher ses leçons** darslarini to'xtovsiz takrorlamoq, yodlamoq.

**rabâcheur, euse** *n* bir gapni takrorlayveradigan odam, safsataboz, mahmadona, laqma; mijg'ov.

**rabais** *nm* narxning tushishi, tushirilgan narx, arzonlashtirilgan narx; **la vendeuse m'a fait un rabais de cinquante euros** sotuvchi ayol menga ellik yevro tushirib berdi; *loc* **au rabais** arzon (*odatdagi narxdan arzon*); **vente au rabais** arzon narxda sotish.

**rabaissement** *nm* kamayish, ozayish, pasayish; narxning tushib ketishi, arzonlashishi.

**rabaisser I.** *vt* **1.** pasaytirmoq, tushirmoq, ozaytirmoq, kamaytirmoq, arzonlashtirmoq; **rabaisser les prétentions, l'orgueil de qqn** popugini pasaytirmoq, dimog'idan tushirmoq; **2.** *fig* pasaytirmoq, qadrini tushirmoq, kamaytirmoq; **rabaisser l'homme au niveau de l'animal** inson qadrini hayvon darajasiga tushirmoq, pasaytirmoq; **rabaisser les mérites de qqn** xizmatini kamsitmoq, yerga urmoq; **II. se rabaisser** *vpr* o'zini xo'rlamoq, kamsitmoq, yerga urmoq; past ketmoq, tubanlashmoq, pastkashlik qilmoq.

**rabattage** *nm* ovni ko'tarish (*ovchiga haydab, ko'tarib berish*).

**rabatteur, euse** *n* **1.** haydovchi (*ovlanadigan narsani hurkitib beruvchi*); **2.** *fig* xaridor, mijozni chaqirib beruvchi, vositachi, dallol (*savdo ishida*); dallol (*birja ishida*).

**rabattre I.** *vt* **1.** ushlab qolmoq, tutib, chegirib qolmoq; kamaytirmoq, pasaytirmoq, tushirmoq; **il n'a pas rabattu un centime de la somme demandée** u so'ralgan narxni bir santimga ham tushirmadi; *loc* **en rabattre** rozi bo'lmoq, yon bermoq, tan bermoq; **2.** tushirmoq, paslatmoq, bostirib kiymoq; **3.** yotqizmoq, yopishtirmoq, tushirmoq; **4.** haydamoq, yig'moq; **rabattre le gibier** ovni ko'tarmoq, yig'moq, to'plamoq, ovchi tomonga haydamoq; **II. se rabattre** *vpr* burilib ketmoq, boshqa tomonga o'girilib qolmoq; *fig* **se rabattre sur (qqn, qqch)** tashlanmoq, yopishib olmoq.

**rabattu, ue** *adj* tushirilgan, qayrilgan; **couture rabattue** ag'darma chok; **deux bœufs, les cornes longues et rabattues** shoxlari uzun va qayrilgan ikki buqa; **col rabattu** qaytarma yoqa.

**rabbin** *nm* ravvin (*yahudiylar ruhoniysi*).

**rabbinique** *adj* ravvinlarga oid; **la littérature rabbinique** ravvin adabiyoti; *ling* **hébreu rabbinique** qadimgi yahudiy tili; **école rabbinique** ravvinlar maktabi.

**rabelaisien, ienne** *adj* Rable ruhiyatiga oid; hazilkash; qiziqchi; hur, erkin, mustaqil; sho'x, o'ynoqi, xushchaqchaq.

**rabibochage** *nm* yarash, murosaga kelish.

**rabibocher I.** *vt fam* **1.** tuzatmoq (*naridan-beri, chala-chulpa, bir amallab, zo'rg'a*); **2.** murosaga keltirmoq, yarashtirmoq, kelishtirmoq; **II. se rabibocher** *vpr* yarashmoq, murosaga kelmoq, kelishmoq; **ils se sont rabibochés** ular yarashib olishdi.

**rabiot** *nm fam* **1.** oziq-ovqatning oshib qolgan qismi; qo'shimcha qilib bersa bo'ladigan, qo'shimcha ovqat; qo'shimcha bor; **2.** ish, xizmat vaqtidan tashqari vaqt; **faire du rabiot** ish vaqtidan tashqari ishlamoq.

**rabioter** *fam* **I.** *vi* ozgina qo'shimcha ishlab olmoq; **il cherche toujours à rabioter** u doim qo'shimcha ishlab olishga harakat qiladi; **II.** *vt* ishlab olmoq, ozgina foyda ko'rib qolmoq, o'ziniki qilib olmoq; **rabioter un jour de congé** bir kunlik otpuska ishlab olmoq.

**rabique** *adj* quturtiradigan; quturishga oid; **le virus rabique** qo'turish virusi.

**râble** *nm* bel qismi (*to'rt oyoqli hayvonlarda*); bel; *loc fam* **sur le râble** yelkada; **ils nous sont tombés sur le râble** ular bizga hujum qilishdi.

**râblé, ée** *adj* orqasi keng, beli yo'g'on.

**rabot** *nm* randa, o'roq randa; **le passage du rabot produit des copeaux** randalaganda payraxa chiqadi.

**rabotage** randalash, tekislash; ishlov berish (*randada*).

**raboteux, euse** *adj* **1.** o'nqir-cho'nqir, past-baland, o'ydim-chuqur; g'adir-budir, notekis; **plancher raboteux** g'adir-budir pol; **des terrains raboteux** o'ydim-chuqur yerlar; **2.** *fig litt* g'aliz uslub.

**rabougri, ie** *adj* **1.** bo'yi past, past bo'yli, pastak, pakana, mayda, qing'ir-qiyshiq, egri-bugri (*o'simlik*); **arbustes rabougris** pastak butalar; **2.** zaif, nimjon, darmonsiz, holsiz, oriq, so'lg'in; kasalmand, dardchil; bukilib, bukrayib, bukchayib qolgan (*odam*); **enfant rabougri** nimjon bola; **des vieillards tout rabougris** butunlay bukchayib qolgan qariyalar.

**rabougrir (se)** *vpr* pakana, bo'yi past bo'lib qolmoq; egri-bugri bo'lib qolmoq; **cet été, l'herbe s'est rabougrie** bu yozda o'tlarning bo'yi past bo'lib qoldi; *fig* madorsizlanmoq, darmonsizlanmoq, so'liy boshlamoq, zaiflashmoq; egilib, bukilib, bukchayib qolmoq.

**rabougrissement** *nm* pastak bo'lib qolish, egri-bugri bo'lib qolish; so'lg'in ko'rinish, zaif ko'rinish, egilib, bukchayib qolish.

**rabrouer** *vt* tartibga chaqirmoq, siltab tashlamoq, gapinini bo'lib qo'ymoq, urishib bermoq; **il rabroue toujours sa petite sœur** u singlisini doim siltab tashlaydi.

**racaille** *nf péj* past, quyi tabaqaga xos odam; qalang'i-qasang'ilar, yaramas, tuban, madaniyatsiz odamlar; **ne fréquente pas cette racaille** bu qalang'iga qo'shilma.

**raccommodage** *nm* yamash, yamoq solish, tuzatish, sozlash; **les pêcheurs font le raccommodage des filets** baliqchilar to'rni tuzatishyapti.

**raccommoder I.** *vt* **1.** *vx* yamamoq; sozlamoq, tuzatmoq, tikmoq; **peut-on raccommoder ces chaussettes trouées?** bu teshik paypoqlarni tiksa bo'ladimi? **2.** sozlamoq; naridan-beri tuzatmoq, yamamoq; yamoq solib tuzatmoq; **3.** *fam* yarashtirmoq, kelishtirmoq, murosaga keltirmoq; **raccommoder deux amis** ikki do'stni yarashtirmoq; **II. se raccommoder** *vpr* murosaga kelmoq, yarashmoq, kelishib olmoq; ko'nmoq; tuzatilmoq.

**raccommodeur, euse** *n vx* **1.** yamoqchi, tuzatuvchi (*ust-bosh*); baliq to'rini yamovchi, tuzatuvchi; **2.** qadoqchi; **un raccommodeur de porcelaine** chini idishlar qadaqchisi.

**raccompagner** *vt* kuzatib qo'ymoq, olib borib qo'ymoq; **elle s'est fait raccompagner en voiture** uni mashinada kuzatib qo'yishdi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**raccord** *nm* **1.** birlashtirish, biriktirish, tutashtirish; **faire un raccord** pardozini tuzatib olmoq; **2.** uloq, ulangan joy, chok (*filmda*); **3.** mufta, tutashtiruvchi moslama; **le plombier place un raccord entre deux tuyaux** gazchi ikki trubaga mufta o'rnatyapti.

**raccordement** *nm* ulash, yopishtirish, birlashtirish, tutashtirish; **voie de racccordement** bog'lovchi temir yo'l.

**raccorder I.** *vt* **1.** tutashtirmoq, ulamoq, bog'lamoq; ikki trubani tutashtirmoq; **II. se raccorder** *vpr* tutashmoq, borib qo'shilmoq; **la route se raccorde à l'autoroute dans quelques kilomètres** bir necha kilometrdan keyin yo'l avtomobil magistraliga tutashadi.

**raccourci** *nm* **1.** *loc* **en raccourci** qisqartirilgan, qisqa, qisqacha; **voici l'histoire en raccourci** mana qisqacha voqea; **2.** rakurs, ixchamlashtirilgan, qisqartirilgan; **3.** qisqa, kalta, yaqin yo'l; **prendre un raccourci** qisqa yo'lga yurmoq.

**raccourcir I.** *vt* qisqartirmoq, kalta qilmoq; **raccourcir une robe** ko'ylakni qisqartirmoq; **il faut raccourcir ce texte** bu matnni qisqartirish kerak; **II.** *vi* qisqarmoq, kalta bo'lib qolmoq; kirishmoq; **cette jupe a raccourci au lavage** bu yubka yuvilgandan keyin kirishib ketdi; **les robes raccourcissent cette année** bu yil kalta ko'ylaklar kiyilyapti.

**raccourcissement** *nm* qisqartirish, kaltaytirish; **raccourcissement d'un texte** matnni qisqartirish.

**raccroc (par)** *loc adv* kutilmaganda, to'satdan, tasodifan; o'zi kutmagan holda; **il a réussi par raccroc** u o'zi kutmagan holda muvaffaq bo'ldi.

**raccrocher I.** *vt* **1.** o'rniga, joyiga ilib qo'ymoq, osib qo'ymoq; **raccrocher un tableau** rasmni joyiga osib, ilib qo'ymoq; **raccrocher le combiné** telefon trubkasini ilib, qo'yib qo'ymoq; **il a raccroché** telefon trubkasini ilib qo'ydi; **2.** yana egallab olmoq, qayta egallab olmoq; **raccrocher une place, un emploi** o'z joyini, xizmatini, vazifasini qayta, yana egallab olmoq; **3.** yopishib olmoq, osilib olmoq, xiralik qilmoq; **raccrocher les clients** mijozlarga yopishib olmoq; **II. se raccrocher** *vpr* osilib olmoq, yopishib olmoq; **se raccrocher à une branche** biron shoxga osilib olmoq, ushlab olmoq; **se raccrocher à qqn** birovga yopishib, osilib olmoq.

**race** *nf* **1.** nasl, nasl-nasab, avlod; **la race des Capétiens** Kapetenlar avlodi; **les races futures** kelgusi avlod; **2.** toifa, tur; **être de la race de vainqueurs** g'oliblar toifasidan bo'lmoq; **c'est une race qui s'éteint** bu yo'qolib borayotgan toifadir; **3.** zot, nasl, tur; **les différentes races de chiens, de chats** itlar, mushuklarning turli zotlari; **races chevalines** ot zotlari; **de race** asl, toza zotli, zotdor; **animal de race pure** zotdor hayvon; **4.** irq, etnik guruh; **race blanche, jaune, noire** oq, sariq, qora irq; **croisement entre races** irqlar o'rtasidagi o'zaro chatishuv; **5.** irq, avlod, kelib chiqish; **6.** nasl-nasab, tag-tug; **avoir de la race** nasl-nasabli, tag-tugli bo'lmoq.

**racé, ée** *adj* **1.** zotdor, zotli, nasldor, zoti, nasli yaxshi; **un cheval racé** zotdor ot; **2.** nasl-nasabli, tag-tugli; yaxshi tarbiya ko'rgan; **une femme racée** nasl-nasabli ayol.

**rachat** *nm* qaytarib sotib olish; **le promoteur vend l'immeuble avec faculté de rachat** sotuvchi imoratni qaytarib sotib olish huquqi bilan sotyapti.

**racheter**[1] *vt* **1.** yana sotib olmoq, qaytarib sotib olmoq; **il faudra que je rachète du pain** yana non sotib olishim kerak bo'ladi; **2.** sotib olgan odamdan sotib olmoq; **3.** pul evaziga, evaz hisobiga qutqarib olmoq, ozod qilmoq; **racheter des prisonniers** mahbuslarni evaz hisobiga ozod qilmoq.

**racheter**[2] **I.** *vt* gunohini yuvmoq, o'zini oqlamoq; **il a racheté ses erreurs de jeunesse** u yoshlikdagi gunohlarini, xatolarini yuvdi; **ceci rachète cela** bunisi unisini yuvib ketyapti; **II. se racheter** *vpr* o'zini oqlamoq, o'z gunohini yuvmoq.

**rachidien, ienne** *adj* umurtqa, orqa miya; umurtqaga oid, orqa miyaga oid; **bulbe rachidien** uzunchoq, cho'zinchoq miya; **canal rachidien** orqa miya tomiri.

**rachitisme** *nm* raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*); **petit enfant atteint de rachitisme** raxit bilan og'rigan yosh bola.

**racial, iale, iaux** *adj* irqiy, irqqa oid; **la question, la politique raciale** irqiy masala, siyosat; **discrimination raciale et racisme** irqiy kamsitish va irqchilik; **conflits raciaux** irqiy mojarolar.

**racine** *nf* **1.** ildiz, tomir, o'q ildiz; ildizmeva; **racines comestibles** yesa bo'ladigan ildizmeva (*sabzi, qizilcha*); **prendre racine** bir joyda uzoq vaqt tik turib qolmoq; **te voilà enfin! je commençais à prendre racine!** va nihoyat mana kelding! men bir joyda turaverib, ildiz ota boshlagandim; **2.** ildizi, tubi, asosi, tagi; **les racines de l'orgueil** kibr, takabburlik, g'urur, dimog'dorlik ildizi, asosi; **détruire le mal à la racine** yomonlikni ildizi bilan yo'q qilmoq; **3.** tomir, ildiz; **4.** tub, tag, ildiz; **la racine du nez** burunning tagi, osti; **la racine d'une dent** tish ildizi; **la racine des cheveux** soch ildizi, tagi; **5.** *math* ildiz; **racine cubique d'un nombre n** n sonining kub ildizi; **extraire une racine** ildizini topmoq, ildiz chiqarmoq; **6.** so'z ildizi.

**racisme** *nm* **1.** irqchilik; **Ligue internationale contre le racisme et l'antisémitisme (L.I.C.R.A.)** Irqchilik va antisemitizmga qarshi xalqaro tashkilot; **2.** dushmanlik, zidlik, adovat; **racisme anti-jeune** yoshlarga qarshi dushmanlik.

**raciste** *n, adj* irqchi, irqchilik tarafdori; **politique raciste** irqchilik siyosati.

**racket** *nm anglic* reket (*zo'rlik bilan birovning pulini, narsasini olib qo'yish*).

**racketter** *vt anglic* reket bilan shug'ullanmoq, reket qilmoq; **mon fils s'est fait racketter en rentrant de l'école** mening o'g'lim maktabdan kelayotib reketga uchradi.

**raclage** *nm* qirib tozalash; **le raclage des peaux** terini qirib tozalash.

**raclement** *nm* qirish, qirganda chiqadigan ovoz; **un raclement de gorge** tomoq qirish.

**racler** *vt* **1.** qirmoq, qirtishlamoq, tarashlamoq; *loc fam* **racler les fonds de tiroires** bor-burdini yig'ishtirmoq; **se racler la gorge** tomoq qirmoq; **2.** qirib tashlamoq; **3.** qirmoq, yeb yubormoq; achitmoq, lovullatmoq, o'rtamoq; **ce vin racle le gosier** bu vino tomoqni o'rtaydi.

**raclette** *nf* eritilgan pishloqdan qilingan ta'om.

**raclure** *nf* qirindi, qirmoch.

**racolage** *nm* chorlash, chaqirish, yollash, odam olish; **faire du racolage pour un parti** partiyaga odam olish; **2.** odam chaqirish, xiralik qilib odam chorlash; **la prostituée fait du racolage dans la rue** fohisha ko'chada odam chaqiryapti.

**racoler** *vt* **1.** chorlamoq, chaqirmoq, yollamoq; **racoler des partisans, des clients** xohlovchilarni, mijozlarni chorlamoq; **2.** yopishib olib, xiralik qilib, osilib olib o'ziga mijoz chorlamoq, chaqirmoq (*fohishalar haqida*).

**racoleur, euse** *n, adj* chorlovchi, chaqiruvchi, yollovchi, odam oluvchi; **affiches racoleuse** chorlovchi afishalar.

**racontable** *adj* gapirsa, aytib bersa, hikoya qilib bersa bo'ladigan; **cela n'est guère racontable en public** bu ko'pchilik oldida hecham gapirib bo'lmaydigan narsa.

**racontar** *nm* gaplar, ovoza, mish-mishlar; **ce ne sont que des rancontars** bu faqat mish-mishlar xolos.

**raconter I.** *vt* **1.** hikoya qilib bermoq, aytib bermoq, gapirib bermoq; **raconter une histoire** bir voqeani aytib bermoq; **2.** demoq, valdiramoq, valaqlamoq; **je sais ce qu'on raconte** men nima deyishayotganlarini bilaman; **qu'est-ce que tu me racontes-là?** menga hadeb nimani valaqlayapsan; **II. se raconter** *vpr* o'zini ta'riflamoq, o'zi haqida gapirmoq; **se raconter avec complaisance** o'zi haqida rohatlanib gapirmoq; **cela ne se raconte pas** buning ta'rifi yo'q.

**racorni, ie** *adj* **1.** tarashaday qattiq, tarashasi chiqqan, bez bo'lib ketgan, qotgan; **il reste un morceau de viande tout racorni** tarashasi chiqqan bir bo'lak go'sht qolibdi; **2.** toshday, tosh, qotib ketgan, hissiz (*yurak*).

**racornir I.** *vt* qovjiratib yubormoq, tarashasini chiqarmoq; **la chaleur a racorni ce cuir** issiq bu terini qojiratib yubordi; **II.** *vpr* **la viande s'est racornie à la cuisson** pishirganda go'sht qayish, tarasha bo'lib qoldi.

**radar** *nm* radar, radiolokator; **sur les routes, la vitesse des véhicules peut être surveillée par radar** yo'llarda transport vositalarning tezligi radar yordamida nazorat qilinishi mumkin.

**rade** *nf* **1.** reyd (*bir tomoni dengizga tutashgan kemalar to'xtab turadigan qulay joy*); **2.** *loc fam* **en rade** qoldirilgan, tashlandiq holda, tashlab ketilgan holda; **laisser qqn, qqch en rade** biror kishini, narsani tashlab ketmoq, tashlab qo'ymoq; **le projet est resté en rade** reja tashlab qo'yilgan edi; **tomber en rade** to'xtab qolmoq, buzilib qolmoq.

**radeau** *nm* sol, parom; **les naufragés ont réussi à construire un radeau** kema halokatiga uchraganlar sol yasashga erishdilar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**radial, iale, iaux** *adj* nursimon, radial; **voie radiale** aylanma yo‘l.

**radiateur¹** *nm* isitish radiatori; **radiateur de chauffage central** markaziy isitish radiatori; **radiateur électrique** elektr isitish radiatori.

**radiateur²** *nm* radiator; **le radiateur de sa voiture fuit** uning mashinasining radiatori teshilib qolgan.

**radiation¹** *nf* ro‘yxatdan chiqarib tashlash, chizib tashlash; **si vous ne venez jamais aux réunions, vous risquez la radiation du club** siz agar majlisga butunlay kelmay qo‘ysangiz, siz klub ro‘yxatidan chiqarib tashlanishingiz mumkin.

**radiation²** *nf* radiatsiya, nur tarqatish; nurlanish; **les corps radioactifs émettent des radiations** radioaktiv jismlar nur tarqatadilar.

**radical¹, ale, aux I.** *adj* **1.** tub, qat’iy, keskin; **changement radical** tub, keskin o‘zgarish; **2.** tub va keskin chora-tadbirlar ko‘rish tarafdori; **prendre des mesures radicales** keskin chora-tadbirlar ko‘rish; **II.** *n* radikal (*qisman demokratik reformalar o‘tkazishni talab qiladigan so‘l partiyalar tarafdori*).

**radical²** *nm* **1.** *gram* negiz; **2.** *math* radikal (*ildiz chiqarish amalining ishorasi*); **3.** *chim* radikal (*bir kimyoviy birikmadan ikkinchi kimyoviy birikmaga o‘zgarmasdan o‘tadigan atomlar gruppasi*).

**radicalement** *adv* tubdan, to‘la; **des opinions radicalement opposées** tubdan farq qiladigan fikrlar; **il a été radicalement guéri** u to‘la tuzalib ketdi.

**radicaliser I.** *vt* qat’iylashtirmoq, keskinlashtirmoq; **ils ont radicalisé leur position** ular o‘z mavqelarini qat’iylashtirdilar; **II. se radicaliser** *vpr* qat’iylashmoq, keskinlashmoq; **le mécontentement se radicalise** norozilik keskinlashyapti.

**radier** *vt* ro‘yxatdan chiqarib, o‘chirib, chizib tashlamoq; **nous vous radierons peut-être** balki sizni ro‘yxatdan chiqarib yuborarmiz.

**radieux, radieuse** *adj* **1.** nurafshon, gulgun, nurli, nurga to‘la; **un soleil radieux** nurafshon quyosh; **2.** nur yog‘ilib turadigan, porloq, yorqin, chaqnoq (*odam*); **une jeune femme radieuse** nur yog‘ilib turgan juvon; **visage radieux** gulgun yuz.

**radin, ine** *adj fam* xasis, ziqna, qurumsoq.

**radio¹** *nf abrév* **radiodiffusion. écouter la radio** radio eshitmoq; **la maison de la radio** radio uyi (*Parijda*); *loc* **silence radio** e’tirozsiz; **2.** radiopryomnik; **il a deux radios** uning ikkita radiosi bor.

**radio²** *nm* radist, radioaloqachi; **le pilote et le radio** uchuvchi va radist.

**radio³** *nf* rentgenoskopiya; **passer à la radio** rentgenga tushmoq; **se faire faire une radio** rentgenogramma qildirmoq.

**radioactif, ive** *adj* radioaktiv; **éléments radioactifs, substances radioactives** radioaktiv elementlar, radioaktiv moddalar; **déchets radioactifs** radioaktiv chiqindilar; **retombées radioactives** radioaktiv zarralar yog‘ini.

**radioactivité** *nf* radioaktivlik; **radioactivité artificielle** sun’iy radioaktivlik.

**radiodiffusion** *nf* radioeshittirish; **programmes, chaînes de radiodiffusion** radioeshittirish programmalari, to‘lqinlari.

**radiodiffuser** *vt* radio orqali eshittirmoq; **radiodiffuser un concert** radio orqali konsert eshittirmoq.

**radiographier** *vt* rentgen suratini olmoq; **radiographier un malade, un organe** kasalning, biror a’zoning rentgen suratini olmoq.

**radioguidage** *nm* radio boshqaruv (*kema, samolyot kabilar*).

**radiologie** *nf* rentgenologiya; **le service de radiologie d’un hôpital** kasalxonaning rentgenologiya xizmati.

**radiologue** *n* rentgenolog.

**radiophonique** *adj* radioga oid, radio; **programmes radiophoniques** radio programmalari.

**radioreportage** *nm* radioreportaj.

**radioreporter** *n* radioreportyor.

**radioréveil** *nm* radiobudilnik; **j’ai programmé le radioréveil à 7 heures pour avoir les nouvelles du matin** ertalabki yangiliklarni eshitay deb, men radiobudilnikni soat 7ga qo‘ydim.

**radioscopie** *nf* rentgenoskopiya; **passer à la radioscopie** rentgenoskopiyadan o‘tmoq.

**radio-taxi** *nm* radiotaksi (*radio aloqasi bilan jihozlangan taksi*).

**radiotélégraphie** *nf* radiotelegrafiya.

**radiotélescope** *nm* radioteleskop.

**radiotélévisé, ée** *adj* radio va televidenie orqali beriladigan; **allocution radiotélévisée** radio va televidenie orqali beriladigan tabrik murojaati.

**radiothérapie** *nf* rentgenoterapiya.

**radis** *nm inv* **1.** rediska; **une botte de radis** bir bog‘ rediska; **2.** *loc fam* **n’avoir plus un radis** hemirisi ham, sariq chaqasi ham qolmaslik, bo‘lmaslik.

**radium** *nm* radiy; **le radium a été découvert par Pierre et Marie Curie** radiy Pyer va Mari Kyuri tomonidan kashf etilgan edi.

**radius** *nm* bilak suyagi.

**radja** *nm voir* **rajah**.

**radotage** *nm* bo‘lmag‘ur gaplarni gapirish, valdirash.

**radoter** *vi* ezmalanmoq, ezmalik qilmoq, laqillamoq, aljiramoq; **cesse donc de radoter!** ezmalik qilishni qo‘ysangchi!

**radoteur, euse** *n* ezma, laqma.

**radoucir I.** *vt* iliqroq, issiqroq qilmoq; yumshatmoq, mayinlashtirmoq, ilitmoq, isitmoq; **II. se radoucir** *vpr* ilimoq, isimoq, yumshamoq, mayinlashmoq; **sa colère tomba soudain et il se radoucit** uning achchig‘i birdan tushdi va u mayinlashib qoldi.

**radoucissement** *nm* ilish, yumshash (*havoga nisbatan*).

**rafale** *nf* **1.** shiddatli shamol; urib yog‘ish; **une rafale de pluie, de neige** yomg‘irning, qorning urib, bo‘ralab yog‘ishi; **le vent souffle par rafales, en rafales** shamol shiddat bilan esyapti; **2.** sidirg‘asiga otish, qatorasiga uzilgan o‘q; **une rafale de mitrailleuse** avtomatdan sidirg‘asiga otish; **tirer par courtes rafales** sidirg‘asiga qisqa-qisqa otmoq.

**raffermir I.** *vt* **1.** qotirmoq, qotirib qo‘ymoq, qattiq qilib qo‘ymoq; **la douche froide raffermit les tissus** sovuq dush to‘qimalarni taranglashtiradi; **2.** mustahkamlamoq, mahkamlamoq; **le gouvernement est sorti raffermi de la crise** hokimiyat inqirozdan mustahkamlanib chiqdi; **II. se raffermir** *vpr* **1.** qotmoq, qotishib qolmoq; **la pâte s’est raffermie** xamir qotib, qayzib qoldi; **2.** o‘zini tutib olmoq, dadillashmoq; **il parut hésiter, puis se raffermit** u ikkilanayotganday edi, so‘ng u o‘zini tutib oldi.

**raffermissement** *adv* **1.** qattiqlashmoq, qotishmoq; **2.** mustahkamlashish, mahkamlashish, o‘rnashish.

**raffinage** *nm* tozalash, oqlash, olish (*aralashmalardan*); **le raffinage du sucre** qand olish; **le raffinage du pétrole** neftni tozalash, qayta ishlash.

**raffiné, ée** *adj* nazokatli, latofatli, nozik, nafis; **élégance raffinée** nozik harakatlar; **une éducation raffinée** nafis tarbiya; **un homme raffiné** nozik didli odam.

**raffinement** *nm* **1.** nazokatlilik, latofatlilik, noziklik, nafislik, go‘zallik; **le raffinement de son langage, de ses manières** tilining, harakatlarining nafisligi.

**raffiner¹** *vt* tozalamoq, oqlamoq (*aralashmalardan*); **sucre raffiné** rafinad qand; **pétrole raffiné** tozalangan neft.

**raffiner²** *vi* **raffiner sur** mayda-chuyda tafsilotlarga berilmoq; **ne cherchons pas à raffiner** mayda-chuyda tafsilotlarga berilmaylik; **raffiner sur l’élégance** nozik harakatlarga berilmoq.

**raffinerie** *nf* **raffinerie de sucre** qand zavodi; **raffinerie de pétrole** neftni qayta ishlash zavodi.

**raffoler** *vi* telbalarcha sevmoq; ishqida devona bo‘lmoq; jon-dildan sevmoq, jonidan yaxshi ko‘rmoq; **elles raffolent toutes de lui** ularning hammasi uning ishqida devona.

**raffut** *nm fam* to‘s-to‘polon, shovqin-suron.

**rafistolage** *nm* naridan-beri tuzatish;.

**rafistoler** *vt fam* naridan-beri, bir nav qilib tuzatmoq; **j’ai rafistolé le robinet comme j’ai pu** men jo‘mrakni bir nav qilib, qo‘limdan kelgancha tuzatdim.

**rafle** *nf* to‘satdan qurshab olib qamoqqa olish; **être pris dans une rafle** to‘satdan qurshab olib qamaqqa olishda qo‘lga tushmoq.

**rafler** *vt* bosib olib ketmoq; **ils ont raflé tous les bijoux** ular hamma taqinchoqlarni bosib olib ketishdi.

**rafraîchi, ie** *adj* salqinlashtirilgan, sovutilgan.

**rafraîchir I.** *vt* **1.** salqinlashtirmoq, sovitmoq; **la pluie a rafraîchi l’atmosphère** yomg‘ir havoni salqinlatdi; **2.** chanqog‘ini qoldirmoq; **cette**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**boisson m'a rafraîchi** bu ichimlik mening chanqog'imni qoldirdi; **3.** yangilamoq, yuvib-taramoq; **rafraîchir les cheveux** sochini tekislatmoq; *fam* **je vais te rafraîchir la mémoire, les idées** men hozir sening aqlingni kiritib qo'yaman, esingga solib qo'yaman; **II.** *vi* sovimoq, muzday bo'lmoq; **mettre du vin, un melon à rafraîchir** vino, qovunni sovitishga qo'ymoq.

**rafraîchissant, ante** *adj* salqinlatuvchi, jonga rohat baxsh etuvchi, yoqimli; **une petite brise rafraîchissante** jonga rohat baxsh etuvchi mayin shabada; **boissons rafraîchissantes** salqin, yaxna ichimliklar.

**rafraîchissement** *nm* **1.** salqinlashish, sovuq tushishi; **2.** salqin, yaxna ichimlik; **prendre un rafraîchissement dans un café** kafeda salqin ichimlik ichmoq.

**ragaillardir** *vt* jonlantirmoq, jon kiritmoq; ruhlantirmoq, ko'nglini ko'tarmoq, dalda bermoq, tetiklantirmoq, g'ayratlantirmoq; **cette nouvelle nous a ragaillardis** bu yangilik bizga dalda berdi.

**rage[1]** *nf* **1.** quturish, g'azablanish, g'azabga minish, g'azabga olish; **être fou de rage** g'azabdan quturib ketmoq; **être, se mettre en rage** g'azab otiga minmoq; **2.** qattiq g'azab, qahr, achchiq, jahl, kek, xusumat; **3.** qattiq, chidab bo'lmas og'riq; **rage de dents** chidab bo'lmas tish og'rig'i; **faire rage** quturmoq, avjiga minmoq, zo'raymoq, kuchaygandan kuchaymoq; **la tempête faisait rage** bo'ron quturar edi; **l'incendie fait rage** yong'in quturyapti.

**rage[2]** *nf* quturish (*kasallik*); **vaccin contre la rage** quturishga qarshi vaksina.

**rager** *vi fam* quturtirmoq, g'azablantirmoq, jonini chiqarmoq; **cela me fait rager** bu mening jonimni chiqaryapti.

**rageur, euse** *adj* quturgan, g'azablangan, g'azabnok, darg'azab, qahrli, jahldor; **un enfant rageur** sho'rtumshuq bola; **ton rageur** darg'azab ohang.

**rageusement** *adv* quturib, jazavasi tutib, darg'azab bo'lib, tutoqib.

**ragot** *nm* g'iybat, yolg'on-yashiq, gap-so'z; **faire des ragots** g'iybat qilmoq.

**ragoût** *nm* ragu, jarkop; **ragoût de mouton** qo'y go'shtidan qilingan ragu.

**ragoûtant, ante** *adj inkor formada ishlatiladi* ishtahani keltiradigan, shirin, mazali, yoqimli; **un mets peu ragoûtant** bemaza ovqat; **une histoire peu ragoûtante** bemaza qissa.

**rai** *nm nm inv litt* nur, shu'la, yog'du; **un rai de lumière passe sous la porte** yorug'lik shu'lasi eshik ostidan o'tyapti.

**raid** *nm* reyd, bosqin, chopqin, hujum; **les ennemis ont effectué un raid aérien au-desus de la ville** dushmanlar shaharga havo hujumi uyushtirdilar.

**raide I.** *adj* **1.** bukilmas, egilmas, qotib qolgan; tarang, tik; **il a une jambe raide** uning bir oyog'i bukilmaydi; **ma sœur a des cheveux raides** mening singlimning sochlari tikka-tikka; **2.** g'o'daygan, beo'xshov, beso'naqay; **il est, il se tient raide comme un échalas, comme un piquet** u xodaday, xoda yutganday, tayoqday (*tayoq yutganday*) g'o'dayib turadi; **3.** tarang, tarang tortilgan; **une corde raide** tarang tortilgan arqon; *loc* **être sur la corde raide** jar yoqasida bo'lmoq; **4.** tik, tikka; tikka tushgan, tikka ko'tarilgan; **un escalier, une pente très raide** juda ham tik zinapoya, qiyalik; **5.** *fam* juda, juda ham, haddan tashqari, ortiq darajada (*narsa*); **elle est raide celle-là!** bunisi juda ortiqcha! **c'est un peu raide!** biroz oshirvordingiz! **II.** *adv vx* **1.** qattiq, keskin, birdan; yomon; **2.** tik, nishab; **un sentier qui grimpe raide** tik o'ralab chiqib ketgan so'qmoq; **3. raide mort** til tortmay, o'rnida o'lmoq; **elles sont tombées raides mortes** ular tappa tushib, til tortmay o'ldi.

**raideur** *nf* **1.** egiluvchanlikning yo'qligi, qotib qolganlik, bukilmaslik, qattiqlik, taranglik; **la blessure lui avait laissé une certaine raideur dans le bras** yaralangandan so'ng, uning qo'li biroz bukilmaydigan bo'lib qolgan; **2.** qaytmaslik, toymaslik, qat'iylik, muqimlik, ashaddiylik; **la raideur de ses principes** nuqtai-nazarlarining muqimligi.

**raidir I.** *vt* qotirmoq, taranglashtirmoq; **raidir ses muscles** mushaklarini taranglashtirmoq; **II. se raidir** *vpr* qattiq turmoq, yon bermaslik, chidamoq, qarshilik ko'rsatmoq; **se raidir contre la douleur** og'riqqa chidamoq.

**raidissement** *nm* taranglashtirish, qotirish; taranglashish.

**raie[1]** *nf* **1.** chiziq, shtrix, yo'l-yo'l chiziq; **de fines raies blanches** ingichka oq chiziq; **un tissu à raie** yo'l-yo'l gazmol; **2.** yorma, farq (*sochda*); **porter la raie au milieu** sochining o'rtasidan farq ochib yurmoq.

**raie[2]** *nf* skat (*dumi ingichka, yapaloq dengiz balig'i*).

**raifort** *nm* yerqalampir, xren.

**rail** *nm* **1.** rels, iz; **le train est sorti des rails** poyezd izdan chiqdi; *loc* **remettre sur les rails** to'g'ri yo'lga solib qo'ymoq; **2.** *sing* temir yo'l; **les ouvriers du rail** temir yo'l ishchilari.

**railler** *vt litt* kulmoq, masxara qilmoq, mazax, mayna qilmoq; **aimer (à) railler** mazax qilishni yaxshi ko'rmoq.

**raillerie** *nf* **1.** hazil, hazil-mutoyiba; **un ton de raillerie** hazil ohangida; **2.** birovdan kulish, masxara, mazax, mayna qilish, masxara, istehzo.

**rainure** *nf* ariqcha, ariqchasimon o'yiq, novcha, yoriq, paz; **les rainures du parquet** parketning ariqchalari; **panneau qui glisse dans des rainures** yoriqqa kiradigan taxta.

**raisin** *nm* uzum; **raisins secs (de corinthe, de malaga)** mayiz; **les raisins servent à faire du vin** uzum vino qilishda ishlatiladi.

**raisiné** *nm* uzum murabbosi.

**raison** *nf* **1.** aql, fahm, idrok, zehn, zakovat; **un choix conforme à la raison** oqilona tanlov; *loc* **l'âge de raison** hayotning ongli yillari; **ramener qqn à la raison** biror kishini aqlga chaqirmoq; **mettre qqn à la raison** aqlini, esini kiritib qo'ymoq; **un mariage de raison** hisob-kitob bilan uylanish; **2.** es, es-hush, aqli joyidalik; **perdre la raison** esini yo'qotmoq; **il n'a plus toute sa raison** uning es-hushi joyida emas; *loc* **plus que de raison** ortiqcha, meyoridan ortiqcha, aqlga to'g'ri kelmaydigan darajada; **il a bu plus que de raison** u aqlga to'g'ri kelmaydigan darajada ko'p ichibdi; **3.** hayotga aql ko'zi bilan, tiyran qarash; **avoir raison** haq bo'lmoq; **vous avez raison de dire** degan gapingiz haq; **donner raison à qqn** biror kishining haqligini tan olmoq, haqligiga qo'shilmoq; **je te donne raison sur ce point** bu fikrda sening haqliginga qo'shilaman; **4.** sabab, bois; *loc* **par, pour la raison** chunki; **je ne l'ai pas vu pour la (simple) raison que je me trouvais absent** men uni ko'rganim yo'q, chunki men yo'q edim; **pour quelle raison?** nima sababdan? **en raison de** sababli, tufayli; **se faire une raison** ko'nmoq, rozi bo'lmoq, tan bermoq; **s'il le faut, je me ferai une raison** agar shu kerak bo'lsa, men tan beraman; **5.** asos, sabab, maqsad; **avoir une raison d'espérer** niyat qilishga asosi bo'lmoq; **avoir de bonnes, de fortes raisons de croire, de penser que** haqida o'ylashga katta ishonchi bo'lmoq; **ce n'est pas une raison** bu sabab bo'lolmaydi; **il n'y a pas de raison** sabab yo'q; **raison de plus pour que** yana bir bor isbotki; *loc* (*sing*) **avec (juste) raison** to'g'risi, bori; **à plus forte raison** asosliyroq, ayniqsa, buning ustiga; **6.** *pl* dalil, dalil-isbot, asos; **se rendre aux raisons de qqn** biror kishining dalillariga ishonmoq; **avoir raison de qqn, qqch** g'olib chiqmoq, g'olib kelmoq, ustun kelmoq, qarshiligini yengmoq; **les excès ont eu raison de sa santé** suiiste'mol sog'ligidan ustun keldi; **la raison sociale d'une société** birlashmaning nomi; **7.** *math* nisbat, proporsiya; mutanosiblik; **la raison de la progression est 2 dans 1, 3, 5, 7, (+2)** 1, 3, 5, 7, (+2) sonlarida oshib borish nisbati 2ga teng; **en raison directe, inverse de** to'g'ri proporsiyada, teskari proporsiyada.

**raisonnable** *adj* **1.** ongli, aqli bor, idrokli, esli, esli-hushli, aqlli; **animal raisonnable** ongli hayvon, jonzot; **un enfant raisonnable** esli bola; **sois raisonnable!** o'ylab ish qilgin! **opinion raisonnable** dono fikr; **2.** o'rtacha, o'rta-miyona, evida, chidasa bo'ladigan; mo''tadil; **prix raisonnable** o'rta-miyona baho; **le vendeur a été très raisonnable** sotuvchi juda insofli ekan.

**raisonnablament** *adv* aql, aql-idrok bilan; insof bilan; **agir raisonnablement** aql bilan ish tutmoq; **c'est ce qu'on peut raisonnablement demander** bu insof bilan so'rasa bo'ladigan narsa.

**raisonné, ée** *adj* **1.** asoslangan, asosli, isbotlangan, o'ylab ko'rilgan, aqlga sig'adigan; **projet raisonné** asosli reja; **2.** izohli, sistemali; **méthode raisonnée de grammaire** grammatikani sistemali o'qitish metodi.

**raisonnement** *nm* **1.** aql, idrok, idrok qilish qobiliyati; **opinion fondée sur le raisonnement** aqlga asoslangan fikr; **2.** fikr, mulohaza, muhokama; o'y; **un raisonnement juste, faux** to'g'ri, noto'g'ri fikr.

**raisonner I.** *vi* **1.** fikr, mushohada yuritmoq; mushohada qilmoq, o'y surmoq; **raisonner sur des questions générales** umumiy masalalar ustida mushohada yuritmoq; **raisonner sur des détails** mayda-chuyda tafsilotlari haqida mushohada qilmoq; **2.** fikrlamoq, o'ylamoq; **raisonner faux, juste** noto'g'ri, to'g'ri fikrlamoq; **II.** *vt* tushuntirib ravshan, aniq qilmoq; anglatib qo'ymoq; sharhlamoq, izohlamoq; ishontirmoq, inontirmoq; to'la isbot qilmoq;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**III. se raisonner** *vpr* o'z o'zini ishontirmoq; **tâche de te raisonner** o'z o'zingni ishontirib ko'r; aqlga bo'ysunmoq.

**raisonneur, euse** *n, adj* safsataboz, ezma odam; tortishuvchan; **faire la raisonneuse** safsatabozlik qilmoq; **un insupportable raisonneur** o'taketgan safsataboz.

**rajah** *ou* **radja** *nm* roja (*Hindistondagi feodal hukmdor unvoni va shu unvonga ega shaxs*).

**rajeunir I.** *vt* **1.** yashartirmoq, yashartirib yubormoq; **2.** yashartirmoq, kamroq yosh bermoq; **vous me rajeunissez de cinq ans!** siz meni besh yoshga yashartirib yubordingiz! **3.** yashartirmoq, yosh ko'rsatmoq; **cette coiffure la rajeunit** bu turmak uni yashartirib yuboribdi; **4.** yangilamoq, yangisiga almashtirmoq; **rajeunir une instalation** uskunalarni yangilamoq; **5.** yoshroqlardan tashkil qilmoq; **rajeunir les cadres d'une entreprise** korxonaning xodimlarini yashartirmoq; **II.** *vi* yasharmoq, yosh ko'rinmoq; **elle a rajeuni de dix ans** u yasharibdi, o'n yoshga yasharibdi; **III. se rajeunir** *vpr* o'zini yashartirmoq, o'zini yosh ko'rsatmoq.

**rajeunissant, ante** *adj* yashartiruvchi; **suivre un traitement rajeunissant** yashartiruvchi muolajalarga amal qilmoq.

**rajeunissement** *nm* yashartirish.

**rajouter** *vt* **1.** qo'shmoq, solmoq; **rajouter du sel, du poivre** tuz, murch solmoq; **rajouter quelques détails** bir necha tafsilotlarni qo'shmoq; **2.** orttirmoq, bo'rttirmoq, qo'shib-chatimoq; **il faut toujours qu'il en rajoute!** u bunga doim qo'shib-chatimasa bo'lmaydi!

**rajuster I.** *vt* **1.** tartibga solmoq, tartibga keltirmoq, tuzatmoq, to'g'rilamoq; **rajuster ses lunettes (sur son nez)** ko'zoynagini (burnining ustida) to'g'rilamoq; **2.** tekshirib, solishtirib to'g'rilamoq, moslamoq; **rajuster les salaires** maoshni hayot darajasiga to'g'rilamoq; **II. se rajuster** *vpr* ust-boshini tartibga keltirmoq, tuzatmoq, to'g'rilamoq.

**rajustement** *nm* to'g'rilash, tuzatish, moslash.

**râle** *nm* **1.** xirillash, g'arg'ara; **les râles d'un agonisant** o'layotganning g'arg'arasi; **2.** o'pkadagi xirillash, xir-xir.

**ralenti, ie I.** *adj* sekin, asta, sekin-asta; **mouvement ralenti** sekin harakat; **II.** *nm* **1.** motorning eng sekin tezlikda ishlashi; **2.** sekinlashtirish (*kinoda*); *loc* **au ralenti** sekin-asta, shoshmasdan.

**ralentissement** *nm* sekinlashtirish; **le ralentissement d'un véhicule** transport vositasini sekinlashtirmoq.

**râler**[1] *vi* xirillamoq.

**râler**[2] *vi fam* po'ng'illamoq, to'ng'illamoq; **tu n'es jamait content, tu râle tout le temps!** sen hech qachon xursand bo'lmaysan, sen doim to'ng'illab yurasan!

**ralliement** *nm* **1.** yig'ilish, to'planish; **point de ralliement** yig'ilish joyi; **signe de ralliement** to'planish signali; **2.** birlashish, birlashuv, qo'shilish; birlashtirish; **nous contons sur votre ralliement à notre cause** bizning ishimizga qo'shilishingizga umid qilamiz.

**rallier I.** *vt* **1.** yig'moq, to'plamoq; **2.** birlashtirmoq, yig'moq; **il a rallié les indécis** u ikkilanuvchilarni yig'di; (*ega narsa*) **cette proposition a rallié tous les souffrages** bu taklif hamma ovozlarni birlashtirdi; **3.** qo'shilmoq, birlashmoq; **les opposants ont rallié à la majorité** qarshilar ko'pchilikka qo'shildi; **II. se rallier** *vpr* **1.** qaytadan birlashmoq; **les troupes se rallient** bo'linmalar qaytadan birlashyaptilar; **2.** kirmoq, qo'shilmoq; **se rallier à un parti** biror partiyaga kirmoq; **se rallier à l'avis de qqn** biror kishining fikriga qo'shilmoq.

**rallonge** *nf* **1.** qo'shimcha, kengaytirish uchun qo'yiladigan taxta; **table à rallonge** ikki yoqqa suriladigan, kengayadigan stol; **2.** elektr uzaytirgich; **la prise est trop loin, il faut une rallonge** razetka juda uzoq, uzaytirgich kerak; **3.** *fam* ustama, qo'shimcha haq; **les ouvriers ont obtenu une rallonge pour travaux dangereux** xavfli ish uchun ishchilar ustama haq olishga erishdilar.

**rallongement** *nm* uzaytirish, cho'zish.

**rallonger I.** *vt* uzaytirmoq, cho'zmoq; **rallonger une robe** ko'ylakni uzaytirmoq; **II.** *vi fam* cho'zilmoq, uzaymoq; **les jours rallongent, on veille plus tard** kunlar uzayib qoldi, ko'proq bedor bo'linadi; **si vous prenez ce chemin, ça vous rallonge de 5 km** agar siz bu yo'ldan borsangiz, yo'lingiz besh kilometrga uzayadi.

**rallumer I.** *vt* **1.** qaytadan yoqmoq, qaytadan olov oldirmoq, qaytadan yondirmoq; **rallumer sa cigarette** sigaretini qaytadan yondirmoq; **2.** qaytadan o't oldirmoq, qaytadan alangalatmoq, alanga oldirmoq; avj oldirmoq, zo'raytirmoq; **rallumer un conflit** ziddiyatni qaytadan alangalatmoq; **II. se rallumer** *vpr* qaytadan o't olmoq, qaytadan alangalanmoq, qaytadan alanga olmoq; **les haines se sont rallumées** nafrat qaytadan alanga oldi.

**rallye** *nm* ralli, avtopoyga; **les rallye sont souvent aussi éprouvants pour les hommes que pour les machines** ralli ko'pincha mashina kabi odamni ham sinovchidir.

**ramadan** *nm* ro'za; ramazon, ramazon oyi; **avant, pendant le ramadan** ramazon oyidan oldin, ramazon oyida; **faire le ramadan** ro'za tutmoq.

**ramage** *nm litt* qushlarning sayrashi, nolishi.

**ramassage** *nm* **1.** to'plash, yig'ish; **le ramassage du foin, des ordures ménagères** pichan to'plash, axlat yig'ish; **2.** yig'ish (*ishchi, o'quvchi kabilarni*); yig'ib keltirish; **en hiver, le car de ramassage scolaire est souvent retardé par la neige ou le verglas** qishda bolalarni yig'ib keluvchi avtobus ko'pincha qor yoki muzlama tufayli kech qoladi.

**ramassé, ée** *adj* **1.** chorpahil, kaltabaqay, miqti; **2.** qisqa, muxtasar; **style ramassé** muxtasar uslub.

**ramasser I.** *vt* **1.** g'ujanak qilmoq, yig'moq; **le chat se ramassa, puis bondit** mushuk g'ujanak bo'ldi va so'ng tashlandi; **2.** yig'moq, yig'ishtirmoq, to'plamoq; **ramasser les ordures** axlatni yig'ishtirmoq; **3.** *fam* tutmoq, qo'lga olmoq; **elle se fait ramasser par la police** u politsiya tomonidan qo'lga olindi; **4.** termoq, yig'moq, yig'ishtirmoq; **ramasser du bois, des marrons** o'tin, kashtan termoq; **5.** olmoq, termoq, yerdan ko'tarib olmoq; **ramasser un caillou** yerdan tosh olmoq; **on l'a ramassé ivre mort** uni o'lgiday mast holda topib olib ketishdi; **6.** kaltak yemoq, kasallikni ilashtirib olmoq; **il a ramassé une volée** u kaltak yedi; **II. se ramasser** *vpr fam* g'ujanak bo'lmoq; yiqiliboq o'rnidan turib ketmoq.

**ramasseur, euse** *n* **1.** olib kelib beruvchi; **un ramasseur de balles** to'pni olib kelib beruvchi (*tennisda*); **2.** olib kelib sotuvchi.

**ramassis** *nm* to'da, uyum; **un ramassis d'incapables et de paresseux** qobiliyatsiz va dangasalar to'dasi.

**ramdam** *nm fam* shovqin-suron, g'avg'o, qiy-chuv; **quel ramdam!** buncha qiy-chuv!

**rame**[1] *nf* eshkak; *loc fam* **ne pas en fiche une rame, une ramée** hech balo qilmay o'tirmoq.

**rame**[2] *nf* **1.** *vx* daraxt shoxi; **2.** tiragich, tirgovuch; **une rame de haricots** loviya tirgovuchi.

**rame**[3] *nf* **1.** 500 varaqli qog'oz taxi, dastasi, bog'lami; **2.** metro poyezdi; **la dernière rame vient de passer** oxirgi metro poyezdi hozirgina o'tib ketdi.

**rameau** *nm* novda; **branches et rameaux** shox va novdalar.

**ramée** *nf litt* daraxtning bargli shoxlari; **s'étendre sous la ramée** daraxt shoxlari ostida cho'zilmoq, yotmoq.

**ramener I.** *vt* **1.** qaytarib, qaytadan, yana olib kelmoq; **2.** olib borib qo'ymoq, olib borib bermoq, olib kelib bermoq; **je vais le ramener chez lui** men uni uyiga olib borib qo'yaman; **le mauvais temps le ramena à la maison** yomon havo uni uyga qaytardi; **3.** qaytarmoq; **ceci nous ramène à notre sujet** bu bizni mavzuyimizga qaytaradi; **on l'a ramené à la vie** uni hayotga qaytarishdi; **4.** qaytarmoq, o'rnatmoq; **des tentatives pour ramener la paix** tinchlik o'rnatishga harakat; **5.** olib kelmoq; **elle a ramené d'Allemagne un fiancé sympa** u Germaniyadan chiroyli kuyov olib keldi; **6.** ma'lum bir holatda joylamoq; tortmoq, yopmoq; **II. se ramener** *vpr* **1.** kelib, borib taqalmoq; **tout ça se ramène à une question d'argent** buning hammasi pul masalasiga borib taqaladi; **2.** kelmoq; **alors, tu te ramènes?** xo'sh, kelyapsanmi?

**ramer** *vi* eshkak eshmoq; *fam* og'ir mehnat qilmoq.

**rameur, euse** *n* eshkakchi.

**rameuter** *vt* hayajonga keltirmoq, alg'ov-dalg'ov qilmoq, oyoqqa turg'azmoq (*olomonni, xalqni*); **rameuter la foule** olomonni oyoqqa turg'azmoq.

**ramier** *nm* daraxtlarga uya quradigan katta yovvoyi kaptar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ramification** *nf* **1.** shoxlash; **la ramification d'un tronc d'arbre** daraxt tanasining shoxlashi; **2.** tarmoqlanish, tarmoqlarga bo'linish; **ramifications nerveuses** nervlarning tarmoqlanishi; **les ramifications d'une voie ferrée** temir yo'lning tarmoqlanishi; **3.** tarmoq, shu'ba, soha; **cette société a des ramifications à l'étranger** bu tashkilotning chet elda tarmoqlari bor.

**ramifier (se)** *vpr* **1.** shoxlamoq, shox otmoq; **2.** tarmoqlanmoq, tarmoqlarga bo'linib ketmoq; **les veines, les nerfes se ramifient** vena qon tomirlari, nervlar tarmoqlanadi; **3.** shoxobchalarga bo'linmoq; **une secte qui se ramifie** shoxobchalarga bo'lingan sekta.

**ramollir** *vt* yumshatmoq, muloyim qilmoq; **ramollir du beurre** sariyog'ni yumshatmoq.

**ramollissement** *nm* yumshash, yumshab qolish, yumshaganlik; *méd* **ramollissement cérébral** miyaning yumshab qolishi.

**ramonage** *nm* mo'rilarni tozalash.

**ramoner** *vt* mo'rilarni tozalamoq.

**ramoneur** *nm* mo'ri tozalovchi.

**rampant, ante** *adj* **1.** sudraluvchi, sudralib yuruvchi; **le sepent est un animal rampant** ilon sudralib yuruvchi jonivor; **2.** yer bag'irlab, chirmashib o'sadigan; **plantes rampantes** chirmashib o'sadigan o'simliklar; **3.** *péj* laganbardor, ikki bukilib kun ko'radigan, birovlarning oyog'iga yiqiladigan.

**rampe[1]** *nf* **1.** nishablik, o'r, qiyalik; qiya chiqish, tushish joyi; **monter une rampe** o'rga ko'tarilmoq; 2 *av* uchirish, start moslamasi; **la rampe de lancement d'une fusée** raketa uchirish moslamasi.

**rampe[2]** *nf* **1.** panjara, to'siq (*zina, ko'prik, sohil kabilarning yonida*); **tiens bien la rampe, l'escalier est glissant** panjarani yaxshi ushla, zinapoya sirg'onchiq; **2.** rampa (*sahna qirg'og'iga o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga tushadigan chiroqlar*); *fig* **sous les feux de la rampe** yorqin chiroqlar ostida, mashhurlik bilan; *loc* **ne pas passer la rampe** tomoshabinlarning ko'ngliga kirib bora olmaslik, taassurot qoldirolmaslik.

**ramper** *vi* **1.** sudralmoq, (*hayvon, odam*) o'rmalamoq; **le tigre rampe en épiant sa proie** yo'lbars o'z o'ljasini poylab o'rmalaydi; **2.** (*o'simlik*) yer bag'irlab, chirmashib o'smoq; **vigne, lierre qui rampe le long d'un mur** devor bo'ylab chirmashib o'sgan tok, pechak; **3.** *péj* o'ta laganbardorlik, xushomadgo'ylik qilmoq, jilpanglamoq; **ils rampent devant leur chef** ular boshlig'ining oldida jilpanglaydilar.

**ramure** *nf* **1.** *litt* bargli shoxlar; **2.** bug'u shoxlari.

**rancard** *nm* **1.** *arg* maxfiy ma'lumot; **2.** *fam* uchrashuv.

**rancarder I.** *vt pop* yashirincha ma'lumot bermoq, shipshitmoq; **II. se rancarder** *vpr* surishtirib bilmoq, o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olmoq; **je ne sais pas, je vais me rancarder** men bilmayman, surishtirib bilaman.

**rancart** *nm loc fam* **mettre au rancart** tashlab yubormoq, soqit bo'lmoq; **ces vieilles chaises sont bonnes à être mises au rancart** bu eski kursilarni tashlab yuborsa ham bo'ladi.

**rance I.** *adj* achigan, aynigan, hidlangan, taxir; **beurre rance** achigan sariyog'; **II.** *nm* **ce beurre sent le rance** sariyog'dan achigan hid kelyapti.

**rancir** *vi* achib, aynib qolmoq, hidlanmoq, taxir bo'lib qolmoq; **l'huile a ranci** yog' aynib qoldi.

**ranch** *nm* rancho (*amerikalik chorvadorning uy-joy xo'jaligi*).

**rancho ranch**.

**rancœur** *nf litt* adovat, gina, xusumat; **avoir de la rancœur contre qqn** biror kimsaga nisbatan adovati bo'lmoq; **oublier sa rancœur** ginasini unutmoq; **des rancœurs tenaces** qattiq gina.

**rançon** *nf* garov puli, evaz, haq; **payer une rançon** evaz to'lamoq; **la rançon de** jazosi, ta'ziri, haqi, ulushi; **c'est la rançon de la gloire** bu g'alabaning haqi.

**ranconner** *vt* evaz, haq, garov puli talab qilmoq; **des brigands rançonnent les voyageurs** talonchilar sayohatchilardan garov puli talab qilishyapti.

**rançonnement** *nm* tovlamachilik, garov puli so'rash, do'q-po'pisa qilib undirish.

**rancune** *nf* kek, adovat, xusumat; **j'ai de la rancune contre lui** mening unda adovatim bor; **garder rancune à qqn, de qqch** birovga nisbatan kek saqlamoq; *ellipt* **sans rancune!** gina-qudratni unutaylik!

**rancunier, ière** *adj* kekchi, adovat, xusumat saqlaydigan.

**randonnée** *nf* uzoq sayr; **une randonnée à bicyclette, en auto, à pied** velosipedda, mashinada, piyoda uzoq sayr; **faire de la randonnée** piyoda uzoq sayr qilmoq.

**rang** *nm* **1.** qator, saf, tizim; **collier à trois rangs de perles** uch tizimli dur marjon; **les rangs d'un cortège** kortej qatorlari; **se mettre en rang** safga turmoq, saflanmoq; **2.** saf (*askarlar safi*), qator; **sortir des rangs** safdan chiqmoq; **3.** *pl* tarkib, qator, saf(lar); **les rangs d'une armée** armiya saflari; **servir dans les rangs de tel régiment** ma'lum polk tarkibida xizmat qilmoq; **ils vont grossir les rangs des mécontents** ular norozilar safini kengaytirishmoqda; **nous l'avons admis dans nos rangs** biz uni o'z saflarimizga qo'shib oldik; **4.** o'rin, mavqe, qator; **livres classés par rang de taille** bo'y-bo'yiga qarab terilgan kitoblar; **avoir rang avant, après qqn** biror kishidan oldingi, keyingi o'rinda bo'lmoq; **se présenter par rang d'ancienneté, d'âge** stajiga, yoshiga qarab o'zini tanitmoq; **5.** daraja, amal, mansab, martaba, unvon, tabaqa; **le rang le plus bas, le plus haut** eng past, eng yuqori tabaqa; **un officier d'un certain rang** ma'lum unvondagi ofitser; **le rang social de qqn** biror kishining ijtimoiy darajasi; **garder, tenir son rang** o'z darajasini saqlamoq, tutib turmoq; *loc* **être du même rang** bir xil darajada, mavqeda bo'lmoq; **mettre sur le même rang** bir xil darajaga qo'ymoq; **6.** o'rin, qator; *loc* **mettre au rang de** qatoriga qo'shmoq.

**rangé, ée** *adj* **1. bataille rangée** yopiq qatordagi jang; **2.** og'ir, vazmin, bosiq bo'lib qolgan; o'zini tiyib olgan, aqli kirgan, quyilib qolgan; **un homme rangé** quyilib qolgan odam; **vie rangée** og'ir-bosiq hayot.

**rangée** *nf* qator, tizim; **une double rangée d'arbres** juft qator daraxtlar; **une rangée de fauteuils** kreslolar qatori.

**rangement** *nm* tartibga solish, tartibga keltirish, saranjom-sarishta qilish; **faire du rangement, des rangements** tartibga solmoq.

**ranger I.** *vt* **1.** o'z joyiga tartib bilan terib, taxlab, qo'yib qo'ymoq; **ranger ses affaires** narsalarini tartibga solib qo'ymoq; **mots rangés par ordre alphabétique** alifbo tartibi bo'yicha joylashtirilgan so'zlar; **2.** qatoriga, safiga qo'shmoq; **cet auteur est à ranger parmi les classiques** bu avtor klassiklar qatorida; **3.** chetga, yo'lning chetiga olib, qo'yib qo'ymoq; **ranger sa voiture sur le bas-côté** o'z mashinasini yo'lning yoqasiga to'xtatib qo'ymoq; **II. se ranger** *vpr* **1.** joylashmoq, o'tirmoq; **se ranger autour d'une table** stol atrofiga o'tirmoq; **2.** tizilmoq, qatorga turmoq; **rangez-vous par trois** uchtadan bo'lib qatorga turing! **3.** o'zini chetga olmoq, chetga chiqib turmoq; **le taxi se rangea contre le trottoir** taksi trotuar tomonga chiqib turdi; *loc* **se ranger du côté de qqn** biror kishining yonini olmoq, biror kishi tomonida bo'lmoq; **se ranger à l'avis de qqn** biror kishining fikriga qo'shilmoq; **4.** og'ir, vazmin, bosiq bo'lib qolmoq; o'zini tiyib olmoq, aqli kirmoq, quyilmoq; **elle a fini par se ranger** oxiri u o'zini tiyib oldi.

**ranimation** *nf méd* reanimatsiya.

**ranimer** *vt* **1.** o'ziga keltirmoq, jon kiritmoq, jon baxsh qilmoq, qaytadan tiriltirmoq, jonlantirmoq; **ranimer une personne évanouie** hushini yo'qotgan kishini o'ziga keltirmoq; **cet air vivifiant m'a ranimé** bu hayotbaxsh havo menga jon bag'ishladi; **2.** kuch bag'ishlamoq, dalda, madad bermoq, ruhlantirmoq, ruhini ko'tarmoq; **ce discours ranima les troupes** bu nutq qo'shinni ruhlantirdi; **ranimer l'ardeur de qqn** biror kishining g'ayratini jo'sh urdirmoq; **ranimer de vieilles rancunes** eski adovatlarni qo'zg'amoq.

**raout** *nm vieilli* raut, tantanali ziyofat, bayram.

**rapace I.** *nm* yirtqich qush; **rapaces diurnes, nocturnes** kunduzi, kechasi ov qiladigan yirtqich qushlar; **II.** *adj* ochko'z, yulg'ich, yirtqich, vahshiy; **un homme d'affaire rapace** ochko'z, noinsof ishbilarmon.

**rapacité** *nf* yirtqichlik, vahshiylik, yulg'ichlik, ochko'zlik.

**rapatrié, ée I.** *adj* repatriatsiya qilingan, o'z vataniga qaytarilgan; **un malade rapatrié** o'z vataniga qaytarilgan kasal; **II.** *n* repatriant (*repatriatsiya munosabati bilan vatanga qaytarilgan odam*).

**rapatriement** *nm* repatriatsiya (*asirlar, qochoqlar va ko'chirma bo'lganlarni o'z vataniga qaytarish*); **le rapatriement des prisonniers de guerre** harbiy asirlarni vataniga qaytarish.

**rapatrier** *vt* repatriatsiya qilmoq, o'z vataniga qaytarmoq.

**râpe** *nf* **1.** egov; **2.** qirg'ich; **une râpe à fromage** pishloq qirg'ich.

**râpé, ée** *adj* titilgan, sitilgan, ipi chiqib qolgan; **vêtement râpé** titilgan ust-bosh; *loc fam* **c'est râpé** tugadi, o'ldi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**râper** *vt* **1.** qirmoq, qirg‘ichdan o‘tkazmoq; **râper des carottes** sabzini qirmoq; **2.** egovlamoq, qirmoq; **râper une planche** taxtani qirmoq; **3.** qirib, tirnab ketmoq; **vin qui râpe la gorge** tomoqni qirib ketadigan vino.

**rapetassage** *nm* naridan beri tikib, yamab olish.

**rapetasser** *vt fam* naridan beri tikib, yamab olmoq; **rapetasser de vieux souliers** eski tuflini naridan beri tikib olmoq.

**rapetissement** *nm* kichrayish, kamayish; torayish, kirishish (*mato*).

**rapetisser I.** *vt* **1.** kichraytirmoq, kichraytirib, kichik qilib ko‘rsatmoq; toraymoq, kirishmoq (*mato*); **la distance rapetisse les objets** masofa narsalarni kichik qilib ko‘rsatadi; **2.** kamsitmoq, yerga urmoq, pasaytirmoq; **on a voulu rapetisser cet homme célèbre** bu mashhur odamni yerga urishga harakat qilishdi; **II.** *vi* kichraymoq, qisqarmoq, kirmoq; **on rapetisse avec l'âge** yosh o‘tgan sari odam kichrayadi; **mon pull a rapetissé au lavage** yuvgandan so‘ng mening puloverim kichrayib qoldi (*kirdi*).

**râpeux, euse** *adj* **1.** g‘adir-budir, dag‘al; **tissu râpeux** dag‘al mato; **2.** taxir, nordon; **un vin râpeux** nordon vino.

**rapiat, ate** *adj fam* xasis, ziqna, qurumsoq.

**rapide**[1] *adj* **1.** tez, ildam, jadal; **rapide comme une flèche** o‘qday tez; **train rapide** tezyurar poyezd; **2.** tez ishlaydigan, chaqqon; o‘tkir; **il est rapide dans son travail** u ishida chaqqon; **esprit rapide** ziyrak aql; **3.** jadal sur'at bilan ro‘y beradigan, jadal, tez (*xatti-harakat*); **allure, pas rapide** jadal xatti-harakat, qadam; **4.** tez, tezlik bilan, jadal bajariladigan; **un travail rapide mais soigné** tez lekin hafsala bilan qilingan ish; **guérison rapide** tez tuzalish; **méthode rapide** jadal uslub; **5.** tik, tikka; tikka ko‘tarilgan, tushgan; nishab; **pente rapide** tik qiyalik; **descente rapide** tik tushish.

**rapide**[2] *nm* **1.** nishablik; oqimning nishab joyi, tez oqim; **les rapides du Saint-Laurent** Sent-Lorenning nishab oqadigan joylari; **2.** tezyurar poyezd.

**rapidement** *adv* tez, tezlik, jadallik bilan, jadal, ildam, tezda, darrov, birpasda.

**rapidité** *nf* tezlik, chaqqonlik, ildamlik, jadallik; **la rapidité des mouvements de qqn** birovning chaqqon harakatlari; **rapidité d'ésprit** zehnning o‘tkirligi.

**rapiécage** *nm* yamash, yamoq solish; **rapiécer du linge, des chaussures** choyshablarga, oyoq kiyimlariga yamoq solmoq.

**rapiécer** *vt* yamamoq, yamoq solmoq; **rapiécer du linge, des chaussures** choyshabga, oyoq kiyimiga yamoq solmoq.

**rapière** *nf* rapira (*chor qirrali qadimiy qilich*); **un coup de rapière** rapira zarbi.

**rapine** *nf litt* o‘g‘irlik, talonchilik, bosqinchilik; **vivre de rapines** o‘g‘irlik evaziga yashamoq.

**rappel** *nm* **1.** chaqirish, chaqirib olish, taklif, chaqiriq; *pl* qarsaklar ostida sahnaga qayta chaqirish; **le rappel d'un exilé** surgun qilingannni chaqirib olish; **le rappel des réservistes** zaxiradagilarni chaqirish; *loc* **battre le rappel** to‘plamoq, chaqirmoq; **2.** chaqirish; **rappel à l'ordre** tartibga chaqirish; **rappel au calme** tinchlanishga chaqirish; **3.** qaytadan, boshqatdan, yangidan qilish; **injection de rappel** qayta ukol; **4.** eslatish, ogohlantirish (*biror narsaning haqini to‘lash uchun*); **toucher un rappel** ogohlantirish olmoq; **5.** eslatish, esga solish; **il rougi au rappel de cette aventure** bu hodisa esga olinganda, u qizarib ketdi.

**rappeler**[1] **I.** *vt* **1.** chaqirib olmoq; **on l'a rappelé auprès de sa mère malade** uni kasal onasining oldiga chaqirib olishdi; *loc* **Dieu l'a rappelé à lui** xudo uni o‘z oldiga chaqirib oldi, u vafot etdi; **2. (qqn à)** biror kishini biror holatga qaytarmoq, keltirmoq; **rappeler qqn à la vie, à lui** biror kishini hayotga qaytarmoq, o‘ziga keltirmoq; **elle s'est fait rappeler à l'ordre** u tartibga chaqirildi; **3.** eslamoq, xotirlamoq; **ne rappelons pas le passé** o‘tmishni eslamaylik; **4.** eslatmoq, esiga, xotiriga solmoq; **je te rappelle ta promesse de venir** men senga kelishing haqidagi va'dangni esingga solaman; **rappelle-moi à son bon souvenir** men haqimda eslatib qo‘y; **5.** esga solmoq, esga keltirmoq, eslatmoq; **ces lieux me rappellent mon enfance** bu joylar mening yoshligimni esga soladi; **cela ne te rappelle rien?** bu senga hech narsani eslatmaydimi? **II. se rappeler** *vpr* eslamoq, esga olmoq; xotirlamoq, xotirasiga keltirmoq; **je ne me rappelle plus rien** men hech narsani eslay olmayman.

**rappeler**[2] **I.** *vt* qaytadan telefon qilmoq, qaytadan telefonga chaqirmoq; **je te rappellerai plus tard** men senga keyinroq qayta telefon qilaman; **II. se rappeler** *vpr* telefonlashmoq; **on se rappelle ce soir** bugun kechqurun telefonlashamiz.

**rapliquer** *vi fam* kelmoq, kelib qolmoq, yetib kelmoq; **ils ont rappliqué à l'improviste** ular kutilmaganda kelib qolishdi.

**rapport**[1] *nm* daromad, foyda, kirim; **il vit du rapport de ses terres** u yerlaridan kelgan daromad evaziga yashaydi; **ce placement est de bon rapport** bu pul qo‘yish juda daromodli; *loc* **immeuble, maison de rapport** daromad ko‘riladigan imorat, uy (*ijaraga beriladigan*).

**rapport**[2] *nm* **1.** axborot, ma'lumot, xabar, hisobot, protokol, xulosa; **faire un rapport écrit, oral sur une question** biror masala yuzasidan yozma, og‘zaki ma'lumot bermoq; **rédiger un rapport** hisobot tuzmoq; **rapport confidentiel, secret** yashirin ma'lumot; **un rapport de police** politsiya protokoli.

**rapport**[3] *nm* **1.** aloqa, munosabat, rishta; **rapports de parenté** qarindoshlik rishtalari; **pouvons-nous établir un rapport entre ces deux faits?** bu ikki holat o‘rtasidagi aloqani aniqlay olamizmi? **avoir rapport à** taalluqli bo‘lmoq, aloqador bo‘lmoq; *loc prép* **par rapport à** -ga nisbatan, qaraganda; **considérons ces deux œuvres l'une par rapport à l'autre** bu ikki asarni bir biriga nisbatan ko‘rib chiqamiz; **sous le rapport de** nuqtai nazaridan; **étudier un projet sous le rapport de sa rentabilité** rejani daromadliligi nuqtai nazaridan o‘rganib chiqmoq; **sous tous (les) rapports** har jihatdan, hamma tomondan, har tomonlama; **une jeune fille très bien sous tous rapports** har tomonlama juda yaxshi qiz; **2.** o‘xshashlik, umumiylik, yaqinlik, qarindoshlik; **être sans rapport avec autre chose** boshqa narsalar bilan hech qanday o‘xshashligi bo‘lmaslik; **en rapport avec** mos keladigan, mos tushadigan; **il cherche une place en rapport avec ses goûts** u o‘z didiga mos keladigan joy qidiryapti; **3.** aloqa, bog‘liqlik, daxldorlik, taalluqlilik, tegishlilik, taalluq; **je ne vois pas le rapport** men bog‘liqlikni ko‘rmayapman; **4.** *math* nisbat; **nombres dans le rapport de cent contre un** yuzning birga nisbatidagi sonlar; **un bon rapport qualité-prix** sifat-narxning mos nisbati; **5.** munosabat, aloqa; **les rapports sociaux** ijtimoiy munosabatlar; **les rapports entre les états, entre les peuples** davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar; **6.** *pl* jinsiy aloqa.

**rapporter**[1] *vt* **1.** qaytarib olib kelmoq, qaytarib olib kelib qo‘ymoq; **rapporter ce qu'on a pris** olgan narsasini qaytarib olib kelib bermoq; **2.** olgach kelmoq, olakelmoq; **rapporte-moi la réponse dès que possible** iloji bo‘lishi bilanoq, menga javobni olakelgin; **3.** qo‘shib qo‘ymoq; **rapporter une poche, un morceau de tissu** bitta cho‘ntak, bir parcha mato qo‘shib qo‘ymoq; **rapporter un angle** burchakni o‘lchab, qog‘ozga tushirmoq; **4.** (*ega narsa*) foyda, daromad keltirmoq; **rapporter un revenu** foyda keltirmoq; **argent qui ne rapporte rien** hech qanday foyda keltirmaydigan pul; **ce métier me rapporte** bu kasb menga daromad keltiradi.

**rapporter**[2] *vt* **1.** aytmoq, demoq, qaytarmoq; **on m'a rapporté que** menga aytishdiki; **citer, rapporter un mot célèbre** bir mashhur ibora keltirmoq, aytmoq; **2.** aytib qo‘ymoq, yetkazib qo‘ymoq, chaqib qo‘ymoq, gap tashimoq.

**rapporter**[3] **I.** *vt* **(qqch à)** biror narsaga mantiqan bog‘lamoq; **on ne peut comprendre cet événement sans le rapporter à son époque** bu hodisani o‘z davriga bog‘lamay tushunib bo‘lmaydi; **II. se rapporter** *vpr* bog‘liq, taalluqli, aloqador, daxldor bo‘lmoq; mos kelmoq; **la réponse ne se rapporte pas à la question** javob savolga mos kelmaydi; **s'en rapporter à qqn** biror kishiga, uning fikriga havola qilmoq, biror kishiga ishonmoq; **je m'en rapporte à vous, à votre jugement** men sizga, sizning fikringizga havola qilaman.

**rapporter**[4] *vt* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq, orqaga surmoq, kechiktirmoq; **rapporter une décision, une mesure** qaror, chorani bekor qilmoq.

**rapporteur**[1] *nm* transportir (*burchak darajalarini o‘lchaydigan chizmachilik asbobi*).

**rapporteur**[2], **euse I.** *adj, n* chaqimchi, gap tashuvchi; **elle est rapporteuse** u chaqimchi; *n* **oh, le rapporteur!** o, bu chaqimchi! **II.** *nm* ma'lumot, axborot beruvchi; **désigner un rapporteur** axborot beruvchini tayinlamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**rapprendre** *vt voir* **réapprendre**.

**rapproché, ée** *adj* **1.** yaqin; *pl* bir biriga yaqin; **les yeux très rapprochés** ko'zlari bir-biriga juda yaqin joylashgan; **2.** birin-ketin; **il y eut deux coups de feu rapprochés** birin-ketin ikki o'q uzildi.

**rapprochement** *nm* **1.** yaqinlashish, yaqinlashuv; **le rapprochement de deux objets** ikki narsaning yaqinlashuvi; **2.** yarashish, yaqinlashish; **travailler au rapprochement de deux nations** ikki millatning yaqinlashuvi ustida ishlamoq; **3.** solishtirish, solishtirib ko'rish; **un rapprochement de mots** so'zlarni solishtirish.

**rapprocher I.** *vt* **1.** yaqinlashtirmoq, yaqin olib kelmoq, yaqin keltirmoq; **rapprocher les bords d'une plaie** yaraning chetlarini yaqinlashtirmoq; **jumelles qui rapprochent les objets** narsalarni yaqinlashtiradigan durbin; **2.** do'stlashtirmoq, inoqlashtirmoq, yaqinlashtirmoq; **le besoin rapproche les hommes** zarurat kishilarni yaqinlashtiradi; **3.** tafovutini yo'qotmoq, yaqinlashtirmoq, o'xshash qilmoq; **II. se rapprocher** *vpr* **1.** yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; **se rapprocher les uns des autres** bir birlariga yaqinlashmoq; **2.** do'stlashmoq, inoqlashmoq, yaqinlashmoq; **depuis quelque temps ils se sont rapprochés** birmuncha vaqtdan beri ular inoqlashib qolishdi; **3.** ilgarilamoq, yaqinlashmoq; **se rapprocher de son idéal** o'zining oliy maqsadi sari ilgarilamoq; **4. (de)** yaqin bo'lmoq, o'xshash bo'lmoq; **c'est ce qui se rapproche le plus de la vérité** bu haqiqatga eng yaqini.

**rapt** *nm* odam o'g'irlash, o'g'irlab ketish; **le rapt d'un enfant** bolani o'g'irlab ketish.

**raquette** *nf* **1.** raketka; **raquette de ping-pong** stol tennisining raketkasi; **2.** qorda yurgich (*qalin qorda yurish uchun oyoqqa bog'lanadigan moslama*).

**rare** *adj* **1.** noyob, kamyob, nodir, kamdan-kam uchraydigan; **objet rare** nodir narsa; **plantes, animaux rares** kamdan-kam uchraydigan, noyob o'simlik, hayvon; **2.** kamdan-kam bo'ladigan, istisno sifatida bo'ladigan, favqulodda; **une occasion rare** kamdan-kam uchraydigan imkoniyat; **vos visites se font rares** sizning tashrifingiz kamayib qoldi; **cela arrive, mais c'est rare** bu bo'lib turadi, lekin kamdan-kam; **un peintre d'un rare talent** noyob iste'dodli rassom; **3.** siyrak, yakkam-dukkam; **cheveux rares** siyrak soch; **herbe rare** yakkam-dukkam o'tlar.

**raréfaction** *nf* kamayib ketish, kamyob bo'lish; **la raréfaction des denrées en temps de guerre** urush vaqtida oziq-ovqatning kamayib ketishi.

**raréfier I.** *vt* siyraklashtirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq; **gaz raréfié** siyraklashtirilgan gaz; **II. se raréfier** *vpr* siyraklashmoq, kamaymoq, ozaymoq; **en altitude l'oxygène se raréfie** balandlikda kislorod siyraklashadi.

**rarement** *adv* kamdan-kam.

**rareté** *nf* **1.** noyoblik, kamyoblik, nodirlik, kamdan-kam uchrashlik; **un métal d'une grande rareté** o'ta nodir metall; **2.** kamdan-kam uchraydigan narsa, favqulodda hodisa.

**rarissime** *adj* o'ta noyob, o'ta kamyob, o'ta nodir, juda kamdan-kam uchraydigan; **ces papillons sont rarissimes** bu kapalaklar kamdan-kam uchraydi.

**ras, rase** *adj* **1.** qirilgan, tarashlangan; **tête rase** tarashlangan bosh; **cheveux ras** qirilgan soch; **animal à poil ras** kalta junli hayvonlar; **herbe rase** past o'sadigan o't; *loc* **en rase campagne** ochiq dalada; *loc adv* **ras, à rase** kalta; **cheveux coupés ras, à ras** kalta qilib qirqilgan soch; **pelouse tondue ras** kalta qirqilgan maysazor; **2.** to'la; **une cuillerée rase de sucre** bir qoshiq shakar; **à ras bord(s)** qirg'og'igacha to'ldirilgan, limmo-lim; **verre rempli à ras bord** limmo-lim stakan; *loc prép* **à ras, au ras de** baravar, teng, teng darajada; **au ras de l'eau, du sol** suv, yer baravar; **à ras de terre** tagidan, tomirigacha o'rilgan, kesilgan; *loc fam* **en avoir ras le bol** sabr kosasi to'lmoq; **j'en ai ras le bol de ses étourderies** bu bema'niliklardan sabr kosam to'ldi.

**rasage** *nm* qirish, tarashlash; soch-soqol olish.

**rasant, ante** *adj* zerikarli, jonga tegadigan, xit qiladigan.

**rascasse** *nf* baliq turi.

**rase-mottes** *nm inv av* **vol en rase-mottes** pastlab, yer bag'irlab uchish; **faire du rase-mottes** yer bag'irlab uchmoq.

**raser¹ I.** *vt* qirmoq, tarashlamoq, olmoq; **crême à raser** soqol olishda ishlatiladigan krem; **tu es mal rasé** sen soqolingni yomon olibsan; **II. se raser** *vpr* o'zining soqolini olmoq.

**raser² I.** *vt fam* zeriktirmoq, jonga tegmoq, xit qilmoq; **il nous rase avec ses histoires interminables** u o'zining uzundan-uzoq sarguzashtlari bilan jonimizga tegib ketdi; **II. se raser** *vpr* zerikmoq, xit bo'lmoq.

**raser³** *vt* yer bilan yakson qilmoq, vayron qilmoq; **raser une fortification** mudofaa inshootini yer bilan yakson qilmoq.

**raser⁴** *vt* juda yaqinidan, yopishib, tegay-tegay deb o'tmoq; **raser les murs pour n'être pas vu** ko'rinmaslik uchun devorga yopishib o'tmoq; **l'avion rase le sol** samolyot yerga tegay-tegay deb uchib boryapti.

**raseur, euse** *n, adj* jonga teguvchi, zeriktiruvchi, odamni xit qiladigan (*odam*).

**rasoir** *nm* ustara; **rasoir jetable** bir marta ishlatiladigan ustara; **rasoir électrique** elektr ustara.

**rassasiement** *nm litt* to'ydirish, to'yg'izish; qondirish.

**rassasier I.** *vt* **1.** to'ydirmoq, to'yg'izmoq; **un plat qui rassasie** to'yimli ovqat; **2.** *litt* to'ydirmoq; qondirmoq, qanoatlantirmoq; **rassasier sa vue d'un beau spectacle** ko'zini go'zal tomosha bilan to'ydirmoq; **je n'en suis pas rassasié** men bunga to'ymadim; **II. se rassasier** *vpr* to'ymoq; **je me rassasie vite** men tez to'yaman.

**rassemblement** *nm* **1.** yig'ish, to'plash; **2.** yig'ilish, to'planish; yig'in; **disperser un rassemblement** yig'inni tarqatib yubormoq; **3.** yig'ilish, to'planish uchun signal; **rassemblement!** to'planing! **4.** uyushma; **le rassemblement de la gauche** so'llar uyushmasi.

**rasseoir (se)** *vpr* qayta o'tirmoq; **elle s'est levée et s'est rassise aussitôt** u o'rnidan turdi va shu zahotiyoq qayta o'tirdi; **faire rassoir qqn** biror kishini qayta o'tirg'izmoq.

**rasséréner I.** *vt litt* tinchlantirmoq, oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq; **je me sens rasséréné par vos bonnes paroles** sizning yaxshi so'zlaringiz tufayli men o'zimni tinch his qilyapman; **II.** *vpr* **son visage s'est rasséréné** yuzi tinchlandi.

**rassir** *vi,* **se rassir** *vpr* suvi qochmoq, qotib qolmoq, qotmoq; **ce pain commence à rassir, à se rassir** bu nonning suvi qochib qolyapti.

**rassis¹, ise** *adj* suvi qochgan; **du pain rassis** suvi qochgan non.

**rassis², ise** *adj* og'ir-bosiq, esli-hushli, o'zini to'xtatib olgan; **un homme de sens rassis** esli-hushli odam.

**rassurant, ante** *adj* tinchlantiruvchi, ko'ngilni xotirjam qiluvchi; **reçevoir des nouvelles rassurantes** tinchlantiruvchi yangilik olmoq; **un individu peu rassurant** ishonib bo'lmaydigan, xavfli shaxs.

**rassurer I.** *vt* tinchlantirmoq, xotirjam qilmoq, ko'nglini joyiga keltirmoq; **le médecin l'a rassuré** vrach uni tinchlantirdi; **cela me rassure** bu meni xotirjam qiladi; **II. se rassurer** *vpr* xotiri jam bo'lmoq, tinchlanmoq; **rassure-toi, je ne te reproche rien** xotiring jam bo'lsin, men senga hech narsani ta'na qilmayman.

**rat¹** *nm* kalamush; **rat d'égout** kul rang kalamush; **jeune rat** kalamush bolasi; **rat musqué** muskus kalamushi, ondatra; *loc* **être fait comme un rat** qopqonga tushib qolmoq; *loc prov* **les rats quittent le navire** kalamushlar kemani tashlab qochishmoqda (*qo'rqoqlar xavf tug'ilishi bilanoq, qochib qolishga harakat qilishadi*); *péj* **face de rat** xunuk bashara, turq; **rat d'hôtel** mehmonxonalarda o'g'irlik bilan shug'ullanadigan ayol; **petit rat (de l'opéra)** balet maktabining o'quvchisi.

**rat²** *adj m* o'taketgan xasis, ziqna odam, qurumsoq, qoqbosh; **quel rat** muncha qurumsoq!

**rata** *nm vx* **1.** askarlarga beriladigan ragu; **2.** obiyovg'on.

**ratage** *nm* muvaffaqiyatsizlik, ulgurmaslik, qo'ldan chiqarish.

**rataplan** *intj* nog'oraning taraqa-truqi.

**ratatiné, ée** *adj* **1.** burushgan, tirishgan; **une pomme ratatinée** tirishgan olma; **2.** pachag'i chiqqan; **nous sommes sains et saufs, mais la voiture est complètement ratatinée** biz soppa-sog'miz, lekin mashinaning butunlay pachag'i chiqdi.

**ratatiner (se)** *vpr* bujmaymoq, burishmoq, tirishmoq; **la fleur se ratatine et meurt** gul bujmayadi va o'ladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ratatouille** *nf* **1.** *vx fam* obiyovg'on, yovg'on sho'rva; **2.** ovqat turi, dimlama; **ratatouille niçoise** sabzavot dimlama (*baqlajon, qovoqcha, pomidordan tayyorlanadi*).

**rate** *nf* qorajigar, taloq; *loc fam* **dilater la rate** kuldirmoq; **je me suis dilaté la rate** men rosa kuldim.

**raté, ée** *n* **1.** omadsiz, ishi yurishmagan odam; **ce n'est qu'un raté** bu bir omadsiz odam; **2.** *nm* notekis ishlash; **le moteur a des ratés** motor notekis ishlayapti.

**râteau** *nm* xaskash; **ramasser des feuilles avec un râteau** xaskash bilan barglarni yig'ishtirmoq; **ratisser une allée avec un râteau** aleyani xaskash bilan tozalamoq.

**râtelier[1]** *nm* oxur; **mettre de paille, du foin dans le râtelier** oxurga somon, pichan solmoq; *loc* **manger à tous les râteliers** ikki enani emmoq.

**râtelier[2]** *nm fam* sun'iy jag', yasama tishlar.

**rater I.** *vi* **1.** otilmay qolmoq, chaqib qolmoq; **un coup de fusil qui rate** otilmay qolgan o'q; **2.** buzilmoq, barbod, ishkal bo'lmoq, bo'lmay, amalga oshmay qolmoq; **l'affaire a raté** ish amalga oshmay qoldi; **II.** *vt* **1.** ko'zlangan maqsadga erisholmay qolmoq; **chasseur qui rate un lièvre** quyonni qochirib yuborgan ovchi; **j'ai raté la balle** men to'pni ushlay olmadim; **rater son train** poyezdga kech qolmoq; **rater qqn** biror kishini uchratolmay qolmoq; *fam* **je ne vais pas le rater!** men unga ko'rsatib qo'yaman! **rater une occasion** imkoniyatni boy bermoq; **il n'en rate pas une** u bema'nilik qilishdan to'xtamaydi; **2.** qo'ldan chiqarmoq, boy bermoq, biror narsaga erisholmay qolmoq; **rater son affaire** ishini boy bermoq; **rater son coup** nishonga tegiza olmaslik; **rater sa vie** hayoti yurishmaslik, hayotini besamar o'tkazmoq.

**ratiboiser** *vt fam* shilmoq, shilib olmoq, ship-shiydam qilmoq, yulib olmoq, talamoq, xonavayron qilmoq, xarob qilmoq, bor-yo'g'idan ayirmoq; **il est complètement ratiboisé** u butunlay xonavayron bo'ldi.

**ratière** *nf* kalamush qopqon.

**ratification** *nf* ratifikatsiya, ratifikatsiya qilish, tasdiqlash; ratifikatsiya qilinish, tasdiqlanish; **la ratification d'un traité** sulh shartnomasini ratifikatsiya qilish, sulh shartnomasining ratifikatsiya qilinishi.

**ratifier** *vt* **1.** ratifikatsiya qilmoq, tasdiqlamoq; **2.** *litt* tan olmoq, e'tirof qilmoq, tasdiqlamoq; **je ratifie tout ce qui vous a été promis de ma part** sizga bergan hamma va'dalarimni tan olaman.

**ratine** *nf* ratin (*jingalak tukli jun gazlama*); **un manteau de ratine** ratin palto, ratindan qilingan palto.

**ratiocination** *nf* donolik qilish; behuda, mavhum fikr yuritish.

**ratiociner** *vi litt* behudaga tortishmoq; behuda, mavhum fikr yuritmoq.

**ration** *nf* **1.** ratsion (*ma'lum muddatda beriladigan oziq-ovqat, yem-xashak miqdori*); **une maigre ration** nochor ratsion; **rations imposés en temps de gerre** urush davrida joriy qilingan ratsion; **2. ration alimentaire** tana uchun zarur bo'lgan bir kunlik oziq-ovqat normasi; **3.** doza, miqdor.

**rationalisation** *nf* omilkorlik, ratsionalizatsiya, ratsionallashtirish, ratsionalizatsiya qilish; oqilona tashkil qilish; **la rationalisation de la production** ishlab chiqarishni ratsionalizatsiya qilish.

**rationaliser** *vt* ratsionalizatsiya qilmoq, ratsionallashtirmoq, oqilona tashkil qilmoq; **rationaliser le travail, la production** ishni, ishlab chiqarishni ratsionallashtirmoq.

**rationalisme** *nm* **1.** ratsionalizm (*tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo'yadigan va aqlni bilishning birdan-bir manbai deb hisoblaydigan falsafiy oqim*); **2.** hayotga aql ko'zi bilan qarash, his-tuyg'uga berilmaslik, mulohazakorlik.

**rationaliste I.** *adj* **1.** omilkor, ratsionalizmga oid; ratsionalistik, ratsionalizm nuqtai nazaridan qaraladigan; **2.** aql-idrokka asoslangan; **II.** *n* **1.** ratsionalist, ratsionalizm tarafdori; **2.** hayotga aql ko'zi bilan qarovchi, mulohazakor.

**rationalité** *nf* **1.** aqlga, maqsadga muvofiqlik, to'g'rilik; **2.** *math* ratsionallik.

**rationnel, elle** *adj* **1.** aql-idrokka asoslangan, oqillik bilan, oqilona qilingan, ratsional; **l'activité rationnelle** aql-idrokka asoslangan faoliyat; **la pensée rationnelle** mulohazali fikr; **philosophie rationnelle** ratsional falsafa; **2.** oqilona, aqlga, maqsadga muvofiq, ma'qul, to'g'ri; **méthode rationnelle** ratsional metod; **procédons d'une manière rationnelle** oqilona ish qilaylik; **3.** *math* ratsional; **nombre rationnel** ratsional son.

**rationnellement** *adv* ratsional, oqilona, aqlga, maqsadga muvofiq; ma'qullik, to'g'rilik bilan; **agir rationnellement** oqilona ish tutmoq; **organiser rationnellement la production** ishlab chiqarishni ratsional tashkil qilmoq.

**rationnement** *nm* oziq-ovqatni belgilangan miqdorda tarqatish, kartochka tizimi.

**rationner** *vt* payok asosida, belgilangan miqdorda tarqatmoq; **rationner les vivres, l'eau potable, l'essence** oziq-ovqat, ichimli suv, yoqilg'ini chegaralab tarqatmoq.

**ratissage** *nm* xaskash bilan tozalash, xaskashlash.

**ratisser** *vt* **1.** xaskash bilan tozalamoq, xaskash bilan to'plamoq, xaskashlamoq; **ratisser une allée** alleyani xaskash bilan tozalamoq; **ratisser les feuilles mortes** xazonlarni xaskash bilan to'plamoq; **2.** *fam* **se faire ratisser au jeu** o'yinda shildirmoq, ship-shiydam bo'lmoq; **3.** tintib ko'rmoq, tintimoq (*armiya, politsiya*); **la police a ratissé tout le quartier** politsiya butun kvartalni tintib chiqdi.

**raton** *nm* **1.** kalamush bolasi; **2.** o'ljasini yuvib yeydigan yenot; **3.** *péj* mag'riblik.

**rattachement** *nm* qo'shib olish, qo'shib olinish; **le rattachement de l'Alsace-Lorraine à la France, de la Sarre à l'Allemagne** Alzas-Lorrenning Fransiyaga, Sarrning Germaniyaga qo'shib olinishi.

**rattacher I.** *vt* **1.** qayta bog'lamoq; **rattacher ses lacets, ses cheveux** bog'ichini, sochini qayta bog'lamoq; **2.** bog'lamoq, biriktirmoq; **rattacher un territoire à un état** biror teritoriyani biror mamlakatga biriktirmoq; **3.** bog'lamoq; **rattacher une œuvre à une certaine tendance** asarni ma'lum an'anaga bog'lamoq; **II. se rattacher** *vpr* bog'lanmoq; taalluqli, aloqador bo'lmoq; borib taqalmoq; **ce mouvement se rattache au romantisme** bu oqim romantizmga taalluqli.

**rattrapage** *nm* **cours de ratrappage** yetib olish uchun qo'shimcha dars.

**rattraper I.** *vt* **1.** qaytadan ushlab, tutib olmoq; qaytadan qo'lga tushirmoq; **2.** o'rnini to'ldirmoq, qoplamoq; **on ne peut pas rattraper le temps perdu** boy berilgan vaqtning o'rnini qoplab bo'lmaydi; **3. rattraper une imprudence, une erreur** ehtiyotsizlikni, xatoni tuzatib, to'g'rilab olmoq; **4.** yetib olmoq; **pars devant, je te rattraperai** oldinroq ketaver, men senga yetib olaman; **II. se rattraper** *vpr* **1. se rattraper à qqch** ushlab, osilib qolmoq; **elle s'est rattrapée à la branche** u shoxga osilib qoldi; **2.** yetkazib, to'ldirib, qoplab olmoq; **j'ai peu dormi hier, mais je compte bien me rattraper** men kecha oz uxladim, lekin men yetkazib olaman deb o'ylayman; **3.** o'zini to'xtatib qolmoq, o'zini ushlab qolmoq, o'zini o'nglab olmoq; **se rattraper à temps** vaqtida o'zini ushlab qolmoq.

**rature** *nf* bo'yash, chizib tashlash, qirib tozalash (*yozilganni*); **devoir couvert de ratures** bo'yab tashlangan uy vazifasi.

**raturer** *vt* chizib tashlamoq, o'chirib tashlamoq, bo'yamoq (*yozilganni*); **raturer un mot** so'zni chizib tashlamoq; **raturer un manuscrit** qo'lyozmani tuzatmoq.

**rauque** *adj* bo'g'iq, xirillagan (*ovoz*); **un cri rauque** bo'g'iq qichqiriq.

**ravage** *nm* **1.** vayronaga, xarobaga aylantirish; vayronagarchilik; **les ravages de la guerre** urush xarobalari; **2.** yakson, vayron qilish; **les ravages d'un incendie** olovning yakson qilishi; **la grêle a fait du ravage** do'l yakson qildi; *fam* **faire des ravages** ishqida kuydirmoq, yondirmoq.

**ravagé, ée** *adj* **1. visage ravagé** ozg'in, oriq, so'lg'in yuz; **2.** *fam* tentak, aqli past, ahmoq, jinni.

**ravager** *vt* **1.** yakson, yer bilan yakson qilmoq; xarobazorga aylantirmoq, kulini ko'kka sovurmoq, vayron qilmon, xonavayron qilmoq, qiron keltirmoq; **animaux qui ravagent les cultures** o'simliklarga qiron keltiradigan hayvonlar; **la guerre a ravagé la contrée** urush yurtni xonavayron qildi; **le feu ravage les forêts** olov o'rmonlarning kulini ko'kka sovuradi; **2.** xarob qilmoq, zarar, putur yetkazmoq; **toutes ces épreuves l'ont ravagé** hayotning bu sinovlari uni xarob qildi.

**ravageur, euse** *adj* **1.** qiron keltiradigan, zarar, putur yetkazadigan, vayron qiladigan, yakson qiladigan; **les insectes ravageurs du blé** bug'doyga qiron keltiradigan hasharotlar; **2.** xarob qiladigan, zarar, putur yetkazadigan; **passion ravageuse** xarob qiladigan ehtiros.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ravalement** *nm* tozalash, qirish, suvog'ini tushirish, ta'mirlash; **le ravalement des façades** peshtoqlarni ta'mirlash.

**ravaler**[1] *vt* tozalamoq, ta'mirlamoq, qirmoq, suvog'ini tushirmoq; **ravaler un mur** devorni ta'mirlamoq.

**ravaler**[2] **I.** *vt litt* kamsitmoq, yerga urmoq, xo'rlamoq, pasaytirmoq; **ravaler la dignité humaine** inson qadrini yerga urmoq; **se sentir ravalé au rang d'une bête** o'zini hayvon darajasiga tushirilganday his qilmoq; **II. se ravaler** *vpr* kamsitilmoq, yerga urilmoq, xo'rlanmoq, pasaytirilmoq.

**ravaler**[3] *vt* **1.** qayta yutmoq, og'zidagini yutmoq; **ravaler sa salive** so'lagini yutmoq; *loc* **faire ravaler à qqn ses paroles** biror kishini o'z so'zini qaytarib olishga majbur qilmoq; **2.** ichiga yutmoq, ko'rsatmaslik; **ravaler sa colère, son dégoût** g'azabini, nafratini ichiga yutmoq.

**rave** *nf* ildizmevali o'simliklar (*lavlagi, shalg'om kabilar*).

**ravi, ie** *adj* juda xursand, juda baxtli, zavqqa to'la; **elle est ravie de rencontrer des gens nouveaux** u yangi odamlarni uchratganidan juda xursand; **il la regarde d'un air ravi** u unga zavqqa to'la ko'zlari bilan qarab turibdi.

**ravigotant, ante** *adj fam* kuch baxsh etadigan, bardam qiladigan, dalda beradigan, tasalli beradigan, ruhlantiradigan.

**ravigote** *nf* o'tkir vinegret sous.

**ravigoter** *vt fam* kuch baxsh etmoq, bardam qilmoq, dalda bermoq, tasalli bermoq, ruhlantirmoq; **un air frais qui vous ravigote** sizni bardam qilayotgan sof havo; **se sentir tout ravigoté** o'zini butunlay kuchga to'lgan his qilmoq.

**ravin** *nm* jar, jarlik, chuqurlik.

**raviner** *vt* yuvib, o'yib ketmoq; **pluie qui ravine la pente d'une colline** tepalikning yonbag'rini o'yib ketayotgan yomg'ir; **visage raviné** chuqur ajin bosgan yuz.

**ravioli** *nm* chuchvara.

**ravir**[1] *vt* g'oyat zavqlantirmoq, maftun qilmoq, qoyil qoldirmoq; **ce spectacle m'a ravie** bu spektakl meni qoyil qoldirdi; *loc adv* **à ravir** g'oyatda, ajoyib; **sa coiffure lui va à ravir** uning turmagi o'ziga g'oyatda yarashibdi.

**ravir**[2] *vt litt* yulib olmoq, tortib olmoq, olib ketmoq, mahrum qilmoq.

**ravissant, ante** *adj* maftunkor, jozibali, dilbar, mastona, fusunkor, juda go'zal; **une robe ravissante** juda go'zal ko'ylak.

**ravissement** *nm* zavq-shavq; tahsin, tasanno; **il l'écoutait chanter avec ravissement** uning ashula aytishini zavq-shavq bilan eshitardi.

**ravisseur, euse** *n* odam o'g'risi, o'g'irlovchi, olibqochar; **elle a échappé à ses ravisseurs** u o'g'rilaridan qochib qutuldi.

**raviser (se)** *vpr* fikridan qaytmoq, fikrini o'zgartirmoq; **elle s'est ravisée au dernier moment** oxirgi daqiqalarda u o'z fikridan qaytdi.

**ravitaillement** *nm* **1.** ta'minlash; **2.** oziq-ovqat ta'minoti; **le ravitaillement des grandes villes** katta shaharlarning oziq-ovqat ta'minoti; *fam* **aller au ravitaillement** oziq-ovqat sotib olgani bormoq.

**ravitailler I.** *vt* ta'minlamoq, ta'min qilmoq, yetkazib bermoq; **ravitailler un avion en vol** samolyotni havoda zapravka qilmoq; **II. se ravitailler** *vpr* ta'minlanib, g'amlab olmoq; **nous nous sommes ravitaillés avant de partir en excursion** biz ekskursiyaga chiqishdan oldin oziq-ovqat g'amlab oldik.

**ravitailleur** *nm* **1.** tayyorlovchi (*oziq-ovqat, yoqilg'i, o'q-dori*); **2.** ta'minotchi; **3.** yonilg'ichi samolyot.

**raviver** *vt* **1.** alanga oldirmoq, yorqinlashtirmoq; **raviver le feu** o'tni alanga oldirmoq; **raviver les couleurs** ranglarni yorqinlashtirmoq; **2.** *litt* qayta jonlantirmoq, uyg'otmoq, qo'zg'atmoq; **raviver un souvenir** xotirani qayta jonlantirmoq; **raviver une douleur** og'riqni qayta qo'zg'atmoq; **raviver un espoir** ishonchni qayta uyg'otmoq.

**ravoir** *vt* (*faqat noaniq formada ishlatiladi*) **1.** qaytadan ega bo'lmoq; **il voulait bien ravoir son jouet** u o'zining qo'g'irchog'ini qayta olishni juda xohlardi; **2.** *fam* toza holga keltirmoq, tartibga keltirmoq.

**rayé, ée** *adj* **1.** yo'l-yo'l, ola-bula, olabayroq; **pantalon rayé** yo'l-yo'l shim; **papier rayé** yo'l-yo'l qog'oz; **2.** qirilgan, tirnalgan, sidirilgan joy; **disque rayé** tirnalgan plastinka; **3.** chizib, chiqarib tashlangan; **mot rayé** chiqarib tashlangan so'z.

**rayer** *vt* **1.** chizmoq, chiziq tortmoq; **le diamant raye le verre** olmos oynani chizadi; **2.** o'chirib, chizib tashlamoq; ro'yxatdan chiqarib tashlamoq; **rayer qqn d'un liste** biror kishini ro'yxatdan o'chirib tashlamoq; *loc* **rayer (un lieu) de la carte** (biror joyni) xaritadan o'chirib yubormoq, yo'q qilib yubormoq; **l'avalanche a failli rayer de la carte ce village de montagne** ko'chki bu tog' qishlog'ini xaritadan o'chirib yuboray dedi.

**rayon**[1] *nm* **1.** nur, yog'du, shu'la; **émettre, répandre des rayons** nur, yog'du, shu'la taratmoq, sochmoq; **2.** nur; **rayons réfractés, réfléchis** singan, qaytgan nurlar; **3.** *pl* nur(lar); **rayons infrarouges, ultraviolets** infraqizil ultrabinafsha nurlar; **rayons X** rentgen nurlari; **4.** nishon, alomat, uchqun; **un rayon d'espérance** umid uchquni; *loc* **un rayon de soleil** qalb quvonchi; **cet enfant est son rayon de soleil** bu bola uning qalb quvonchi.

**rayon**[2] *nm* **1.** kegay; **les rayons métaliques d'une roue de bicyclette** velosiped g'ildiragining metall kegaylari; **rues disposées en rayons** bir nuqtadan taralgan (*radial*) ko'chalar; **2.** radius; **le rayon est égal à la moitié du diamètre** diametrning yarmida radiuslar teng; *loc* **dans un rayon de** biror narsaning harakat qilish (*ta'sir ko'rsatish*) doirasida; **dans un rayon de dix, vingt kilomètres** o'n, yigirma kilometr doirasida; **rayon d'action** harakat qilish, ta'sir doirasi; **cette entreprise a étendu son rayon d'action** bu korxona o'z ta'sir doirasini kengaytirdi.

**rayon**[3] *nm* **1.** mumkatak (*asalari uyasi*); **2.** polka, taxtadan qilingan tokcha, taxta tokcha; **les rayons d'une bibliothèque** bibliotekaning polkalari; **3.** bo'lim, bo'lma; **le rayon (de la) parfumerie** atir-upo bo'limi; **chef de rayon** bo'lim boshlig'i; **4.** soha; **je regrette, ce n'est pas mon rayon** afsus, bu mening soham emas.

**rayonnage** *nm* stellaj, kitob polkasi.

**rayonnant, ante** *adj* **1.** nurlanishga oid; nurli; nurlanish; **chaleur rayonnante** nurli issiqlik; **2.** yonib, porlab, balqib turadigan, chaqnoq, porloq; **une beauté rayonnante** balqib turadigan go'zallik; **rayonnant de** porlab, yonib, chaqnab turgan.

**rayonnement** *nm* **1.** nur sochish, nur taratish, nurlanish; **le rayonnement solaire** quyoshning nur sochishi; **2.** porlash, gullash, gulgunlik, yashnash, barq urish; chaqnash.

**rayonner**[1] *vi* **1.** nur taratmoq, nur sochmoq; **2.** taralmoq; **la chaleur rayonne** issiqlik taralyapti; **3.** yonib, gul-gun yonib, porlab, balqib, chaqnab turmoq; **elle rayonnait de joie, de bonheur** u xursandchilikdan, baxtdan gul-gun yonib turar edi.

**rayonner**[2] *vi* **1.** bir nuqtadan taralmoq; tarqalmoq; **une place d'où rayonnent de grandes avenues** katta shohko'chalar taralgan maydon; **la douleur rayonne** og'riq tarqalyapti; **2.** tarqalishmoq; **nous rayonnons dans la région** biz viloyatga tarqalishdik.

**rayonne** *nf* sun'iy tekstil, sun'iy ipak.

**rayure** *nf* **1.** yo'l-yo'l chiziq; **étoffe à rayures** yo'l-yo'l gazmol; **rayures sur le pelage d'un animal** hayvonning ustidagi yo'l-yo'l chiziqlar; **2.** qirilgan, chizilgan, o'yilgan, urilgan joy; **rayures sur un meuble** mebelning ustidagi chizilgan joylar.

**raz de marée** *nm inv* yer qimirlashi yoki vulqondan kelib chiqadigan kuchli to'lqin; *fig* ag'dar-to'ntar qilish, tubdan o'zgartirish; **un raz de marée électoral** saylovdagi ag'dar-to'ntar.

**razzia** *nf* **1.** talonchilik bosqini, hujumi (*arab mamlakatlarida*); **2.** *fam* **faire une razzia sur** tashlanmoq, talamoq, ship-shiydom qilmoq; **on a fait une razzia sur le buffet** bufetni ship-shiydom qilishdi.

**razzier** *vt* talon-taroj qilmoq, bosib talamoq, talab ketmoq.

**ré** *nm inv mus* re.

**réabonnement** *nm* obunani qayta boshlash.

**réabonner I.** *vt* qaytadan obuna qilmoq; **II.** *vpr* **se réabonner à un journal** gazetaga qaytadan obuna bo'lmoq.

**réaccoutumer** *vt litt* **réhabituer**.

**réacteur** *nm* **1.** reaktiv dvigatel; **2. réacteur nucléaire** yadro, atom reaktori.

**réactif** *nm chim* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshirish uchun ishlatiladigan modda*).

**réaction**[1] *nf* **1.** qarshi ta'sir; **principe de l'égalité de l'action et de la réaction** harakatning tengligi va qarshi ta'sir qonuniyati; **avion à réaction**



www.ziyouz.com kutubxonasi

reaktiv samolyot; **2.** *chim* reaksiya; **l'acide entre en réaction avec le calcaire** kislota ohaktosh bilan reaksiyaga kirishadi; **réaction nucléaire** yadroviy reaksiya; **réaction en chaîne** zanjir reaksiya; *fig* boshqalarga ham oʻtadigan, oʻziga oʻxshash his-tuygʻu yoki xususiyat hosil qiladigan; **3.** *physiol biol* reaksiya, sezish, taʼsirlanish (*organizmning tashqi taʼsirga javobi*); **les réactions de défense de l'organisme** organizmning himoya reaksiyasi; **4.** javob, qarshi harakat; **agir en réaction contre, par réaction contre qqn, qqch** biror kimsaga, biror narsaga javob tariqasida harakat qilmoq; **5.** aks javob, fikr, munosabat, reaksiya; **la réaction de qqn à une catastrophe, à une injure** biror kishining biror falokatga, soʻkishga aks javobi; **réaction lente; vive, soudaine** sekin, tez, toʻsatdan aks javob; **être sans réaction** befarq boʻlmoq; **il a protesté? – non, aucune réaction** u qarshilik koʻrsatdimi? – yoʻq, hechqanday reaksiya boʻlmadi.

**réaction²** *nf péj* reaksiya (*ijtimoiy taraqqiyotga va ijobiy oʻzgarishlarga qattiq qarshilik koʻrsatish siyosati*); **les forces de la réaction** reaksion kuchlar; **à bas la réaction!** yoʻqolsin reaksiya!

**réactionnaire I.** *adj péj* reaksion; aksilinqlobiy, jaholatparast; **opinions réactionnaires** reaksion fikrlar; **écrivain réactionnaire** reaksion yozuvchi; **II.** *n* reaksioner, aksilinqilobchi, jaholatparast; **un vieux réactionnaire** qari aksilinqilobchi.

**réadaptation** *nf* qayta moslashuv, qaytish, oldingi odatiy holatga qaytish; **la réadaptation d'un soldat à la vie civile** askarning oddiy hayotga qayta moslashuvi.

**réadapter I.** *vt* qayta moslashtirmoq, qaytarmoq, oldingi odatiy holatga qaytarmoq; **II.** *vpr* **laissez-lui le temps de se réadapter** unga qayta moslashmoq uchun vaqt bering.

**réaffirmer** *vt* qayta tasdiqlamoq, qayta taʼkidlamoq.

**réagir** *vi* **1. (sur, contre)** qarshilik qilmoq, aks taʼsir koʻrsatmoq, qarshi harakat qilmoq; **l'organisme réagit contre les maladies infectieuses** organizm yuqumli kasalliklarga qarshilik qiladi; **2. (sur qqn, qqch)** biror kishiga, biror narsaga taʼsir qilmoq, etmoq, koʻrsatmoq, oʻtkazmoq; aks etmoq; **3. (contre)** qarshilik koʻrsatmoq; **réagir contre une mode, un usage** biror modaga, biror odatga qarshilik koʻrsatmoq; **ils essayèrent de réagir et de rétablir l'ordre** ular qarshilik koʻrsatishga va tartib oʻrnatishga harakat qilishdi; **réagis! ne te laisse pas abattre!** harakat qil! oʻzingni xarob qildirib qoʻyma! **4. (à)** aks taʼsir koʻrsatmoq, javob qaytarmoq; **il n'a pas réagi à notre provocation** u bizning igʻvomizga uchmadi; **réagir brutalement, violement** qoʻpollik, qurslik bilan javob qaytarmoq; **je ne sais pas comment je réagirais** men qanday qilib javob qaytarishimni ham bilmay qoldim.

**réajustement** *nm* toʻgʻrilash, tuzatish, moslash.

**réalisable** *adj* **1.** amalga oshirsa, bajarsa boʻladigan; mumkin boʻlgan; **projet réalisable** amalga oshirsa boʻladigan reja; **2.** pulga aylantirsa boʻladigan; **un héritage totalement réalisable** toʻla pulga aylantirsa boʻladigan meros.

**réalisateur, trice** *n* **1.** amalga oshiruvchi, bajaruvchi; **2.** sahnalashtiruvchi, rejissor.

**réalisation** *nf* **1.** amalga oshirish, bajarish; **2.** amalga oshirilgan, erishilgan narsa; yutuq; **3.** mol-mulkni pulga aylantirish; **4.** sahnalashtirish, filmga tushirish, yaratish (*filmni, televizor koʻrinishlarini, radio eshittirishlarini*).

**réaliser¹ I.** *vt* **1.** amalga oshirmoq, bajarmoq; **réaliser un projet** rejani amalga oshirmoq; **réaliser une ambition, un idéal** maqsadga, oliy maqsadga yetishmoq; **2.** oʻzida mujassamlashtirmoq; **3.** qilmoq; **réaliser un achat, une vente** xarid qilmoq, sotmoq; **réaliser un film** film yaratmoq; **4.** pulga aylantirmoq; **réaliser des biens** boyliklarni pulga aylantirmoq; **II. se réaliser** *vpr* amalga oshmoq, yuzaga, roʻyobga chiqmoq; bajarilmoq; ushalmoq; boʻlmoq; **ses prévisions se sont réalisées** uning bashoratlari amalga oshdi.

**réaliser²** *vt* tasavvur qilmoq, anglamoq, tushunib yetmoq, fahmlamoq; **je réalie soudain qu'il est trop tard** men birdan tushunib yetdimki, juda kech boʻlibdi; **tu réalises?** anglayapsanmi?

**réalisme** *nm* **1.** realizm; **réalisme et naturalisme** relizm va naturalizm; **2.** haqqoniylik; **faire preuve de réalisme** haqqoniylikni namoyon qilmoq.

**réaliste** *n, adj* **1.** realist, realizm tarafdori; **un écrivain, un peintre réaliste** realist yozuvchi, rassom; **un portrait réaliste** realistik portret; **2.** amaliyotchi, realist (*shart-sharoitlarni aniq hisobga oluvchi*); **un homme d'état réaliste** amaliyotchi davlat arbobi; **une analyse réaliste de la situation** sharoitning amaliy tafsili.

**réalité** *nf* **1.** reallik, haqiqiylik, chinlik, amaliylik, asoslilik; **douter de la réalité d'un fait** biror faktning haqiqiyligiga shubha qilmoq; **2.** reallik, bor narsa, voqelik, mavjud fakt; **la science cherche à connaître et à décrire la réalité** fan voqelikni bilish va uni taʼriflashga harakat qiladi; **3.** hayot, borliq; **le rêve et la réalité** orzu va hayot; **la réalité quotidienne** kundalik hayot; **la réalité dépasse la fiction** xayoliy narsa boshqa, hayot boshqa; **dans la réalité** asl hayotda; **dans la réalité, cela se passe aurtrement** asl hayotda bu boshqacha boʻladi; **en rélité** aslida, haqiqatda, haqiqatdan, rostdan, chindan; **4.** bor narsa, mavjud fakt; **les réalités de tous les jours** kundalik hayot; *loc* **prendre ses désirs pour des réalités** chuchvarani xom sanamoq.

**réanimation** *nf* reanimatsiya (*klinik oʻlim davrida organizmni tiriltirish, jonlantirish*).

**réanimer** *vt* jonlantirmoq, tiriltirmoq.

**réapparaître** *vi* qayta paydo boʻlmoq, qayta koʻrinmoq, qayta chiqmoq.

**réapparition** *nf* qayta paydo boʻlish, qayta koʻrinish, qayta chiqish.

**réapprendre** *ou* **rapprendre** *vt* qaytadan, boshqatdan, yangidan oʻrganmoq, oʻqimoq; **il faudra qu'il réapprenne sa leçon** u darsini qaytadan oʻrganishi kerak boʻladi.

**réapprovisionner** *vt* qaytadan zaxiralarni toʻldirmoq.

**réarmemet** *nm* qayta qurollanish; **la politique du réarmement** qayta qurollanish siyosati.

**réarmer** *vt* **1.** qayta oʻqlamoq; **recharger un fusil, un pistolet** miltiqni, toʻpponchani qayta oʻqlamoq; **2.** *vi* qayta qurollanmoq.

**réassort** *ou* **réassortiment** *nm* yangi mol, tovar, yangi assortiment, yangi xil mollar bilan toʻldirish, yangilash.

**réassortir** *vt* **1.** qaytadan tiklamoq, toʻldirmoq; **ils réassortissent leurs couverts** ular oʻzlarining ovqatlanish anjomlarini qaytadan toʻldirmoqdalar; **2.** yangi tovarlar bilan toʻldirmoq, yangilamoq.

**rébarbatif, ive** *adj* badjahl, qovogʻi soliq, yoqimsiz, sovuq; **il a un air rébarbatif** uning koʻrinishi sovuq; **2.** qiyin va zerikarli; **études, sujets rébarbatifs** qiyin va zerikarli oʻqish va mavzular.

**rebâtir** *vt* qayta qurmoq; **rebâtir une maison** uyni qayta qurmoq; **il voudrait rebâtir la société** u jamiyatni qayta qurishni xohlar edi.

**rebattre** *vt loc* **rebattre les oreilles à qqn de qqch** gapiraverib quloqni qomatga keltirmoq, javrayverib miyani qoqib qoʻlga bermoq; **il me rebat les oreilles de ses prouesses** u oʻzining qahramonliklari haqida gapiraverib, qulogʻimni qomatga keltiryapti.

**rebattu, ue** *adj* koʻp ishlatilgan, chaynalgan, siyqasi chiqqan; **c'est un sujet rebattu** bu siyqasi chiqqan mavzu.

**rebelle I.** *adj* **1. rebelle à** isyon koʻtargan, qarshi bosh koʻtargan, isyonchi, isyonkor; **troupes rebelles** isyonchi toʻdalar; **2. rebelle à** qarshilik qiladigan, qarshilik koʻrsatadigan, boʻysunmaydigan; **il est rebelle à tout effort** u hamma urinishlarga boʻysunmayapti; **il est rebelle aux mathématiques** u matematikaga uquvsiz; **mon estomac est rebelle à ce remède** mening oshqozonim bu dorini qabul qilmaydi; **fièvre rebelle** tushirib boʻlmaydigan issiqlik; **3.** boʻysunmas, oʻjar, qaysar; **mèches de cheveux rebelles** boʻysunmas kokillar; **II.** *n* isyonchi; **négocier avec des rebelles** isyonchilar bilan muzokara olib bormoq.

**rebeller (se)** *vpr* **1.** bosh koʻtarmoq, isyon koʻtarmoq, qoʻzgʻolon qilmoq; koʻtarilmoq; **la population s'est rebellée contre le dictateur** xalq diktatorga qarshi bosh koʻtardi; **2.** qarshi chiqmoq, qarshilik qilmoq.

**rébellion** *nf* **1.** isyon, gʻalayon, qoʻzgʻolon; **le gouvernement à maté durement la rébellion** hukumat gʻalayonni shafqatsizlarcha bostirdi; **2.** bosh tortish, boʻysunmaslik, boʻyin tovlash.

**rebiffer (se)** *vpr fam* sarkashlik, oʻjarlik, qaysarlik qilmoq; oʻjarligi, qaysarligi tutib turib olmoq; **le gosse, qu'on envoyait faire toutes les courses, s'est rebiffé** hamma topshiriqlarni bajarish uchun joʻnatilgan bola qaysarligi tutib turib oldi.

**reblochon** *nm* reblochon (*Savuada tayyorlanadigan pushloqning bir turi*).

**reboisement** *nm* qaytadan daraxtzorga, oʻrmonzorga aylantirish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**reboiser** *vt* qaytadan daraxtzorga, o'rmonzorga aylantirmoq.

**rebond** *nm* **1.** sakrash, irg'ish, sapchish; urilib qaytish; **les rebonds d'une balle** to'pning sakrashlari; **2.** keskin, katta o'zgarish, olg'a bosish, siljish; sakrash.

**rebondi, ie** *adj* dumaloq, lo'ppi, semiz; **joues rebondies** lo'ppi yuzlar.

**rebondir** *vi* **1.** sakramoq, irg'imoq, sapchib tushmoq; **la balle rebondissait sur le sol** to'p yerda sakrar edi; **rebondir très haut** juda baland sakramoq; **2.** olg'a bosmoq, ilgari siljimoq, bosmoq, o'zgarmoq; **les derniers témoignages pourraient faire rebondir l'affaire** oxirgi guvohliklar ishni ilgari siljitishi mumkin; **3.** yurishib ketmoq.

**rebondissement** *nm* **1.** sakrash, irg'ish, sapchish; **2.** olg'a bosish, ilgarilash, ilgari siljish, o'zgarish; **les rebondissements d'une affaire** ishning ilgari siljishi.

**rebord** *nm* turtib, bo'rtib chiqib turgan chet, qirg'oq; **le rebord d'une fenêtre** derazatokcha.

**reboucher** *vt* qaytadan bekitmoq, qaytadan tiqinini tiqmoq, qaytadan og'zini bekitib qo'ymoq; **reboucher le flacon après usage** foydalangandan keyin shishachaning tiqinini qayta tiqib qo'ymoq; **reboucher un trou** teshikni qayta bekitib qo'ymoq.

**rebours (à)** *loc adv* juniga qarama-qarshi yo'nalishda; teskarisiga, teskari; aksiga, tersiga; **tourner les pages d'un livre à rebours** kitobni teskarisiga varaqlamoq; **brosser une étoffe à rebours** matoni teskarisiga cho'tkalamoq; **caresser un chat à rebours** mushukni teskarisiga (*juniga qarama-qarshi*) silamoq; **prendre l'ennemi à rebours** dushmanga orqadan zarba bermoq; *loc* **compte à rebours** teskari hisob (*…4, 3, 2, 1, 0*); **faire tout à rebours** hamma narsani teskarisiga qilmoq; *loc prép* **à rebours de,** *vx* **au rebours de** qarshi, xilof ravishda; **il agit à rebours du bon sens** u aqlga xilof ravishda ish tutadi.

**rebouteux, euse** *n fam* siniqchi, chiqqan a'zolarni soluvchi.

**reboutonner** *vt* qaytadan tugmalamoq, qaytadan tugmalarini solmoq, qadamoq.

**rebrousse-poil** *loc adv* **à rebrousse-poil** teskarisiga, juniga qarama-qarshi; **caresser un chat à rebrousse-poil** mushukni teskarisiga (*juniga qarama-qarshi*) silamoq.

**rebrousser** *vt* **1.** teskari taramoq, teskari silamoq, teskarisiga yotqizmoq (*sochni, junni*); **rebrousser les poils d'un tapis** gilamning tukini teskarisiga silamoq; **2.** *loc* **rebrousser chemin** orqasiga qaytmoq; **la rue était barrée, il dut rebrousser chemin** yo'l to'siq edi, uning orqasiga qaytishiga to'g'ri keldi.

**rebuffade** *nf litt* qo'pol javob, yomon qabul qilish; ostonadan, eshikdan haydab solmoq.

**rébus** *nm* **1.** rebus, boshqotirma; **2.** jumboq, muammo, boshqotirma; **ta lettre est un vrai rébus!** sening yozuving haqiqiy jumboq!

**rebut** *nm* **1.** keraksiz narsa, lash-lush, latta-putta, eski-tuski; **le rebut du genre humain** odamgarchilikdan chiqqan kishilar, razillar, tuban kishilar, palidlar, ifloslar; **2.** *loc* **mettre qqch au rebut** biror narsani tashlab yubormoq (*undan qutulmoq*).

**rebutant, ante** *adj* jirkanch, yoqimsiz, iflos, sovuq; **aspect rebutant** sovuq bashara; **tâches rebutantes** jirkanch ishlar.

**rebuter** *vt* **1.** esankiratmoq, esankiratib, dovdiratib, gangitib qo'ymoq, sarosimaga tushirmoq; **ce travail me rebute** bu ish meni esankiratib qo'ydi; **2.** jirkantirmoq, nafrat uyg'otmoq; **la vulgarité de ses façons me rebute** uning odobsiz qiliqlari menda nafrat uyg'otadi.

**récalcitrant, ante** *adj, n* qaysar, o'jar, ters, injiq; tixir, sarkash, asov; **cheval récalcitrant** asov ot; **caracrère récalcitrant** qaysar tabiat.

**recaler** *vt fam* yiqitmoq, imtihondan o'tkazmaslik; **elle s'est fait recaler au bac** u bakalavrlik imtihonidan yiqildi; **il est recalé** u imtihondan yiqilgan.

**récapitulation** *nf* qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun.

**récapituler** *vt* xulosalamoq, yakunlamoq, yakun yasamoq; qisqacha bayon qilmoq, qisqacha aytib bermoq; qaytadan birma-bir ko'rib chiqmoq; **récapituler un exposé** bayonni xulosalamoq; **récapitulons les faits** yana bir bor dalillarni birma-bir ko'rib chiqaylik!

**recel** *nm* o'g'irlangan narsalarni bekitmoq, yashirmoq; **il est accusé de recel de bijoux** u o'g'irlangan taqinchoqlarni yashirganligi uchun javobgarlikka tortildi.

**receler** *vt* o'zida yashirmoq, o'z ichiga olmoq, o'zida mujassam qilmoq; **cet ouvrage recèle de grandes beautés** bu asar o'zida ulkan go'zallikni mujassam qilgan; **2.** bekitib saqlamoq, yashirmoq (*boshqalar tomonidan o'g'irlangan narsalarni*); **receler des objets volés** o'g'irlangan narsalarni yashirmoq.

**récemment** *adv* yaqinda, yaqindagina; hali, boya; yaqindan beri; **tout récement** yaqindagina.

**recensement** *nm* hisob, hisob-kitob; aholini ro'yxatga olish; **de quand date le dernier recensement en France?** oxirgi marta Fransiyada aholini qachon ro'yxatga olingan?

**recenser** *vt* hiso-kitob qilmoq, ro'yxatga olmoq; **recenser la population d'une commune** kommunaning aholisini ro'yhatga olmoq.

**récent, ente** *adj* yaqindagi, yaqinda bo'lib o'tgan, sodir bo'lgan, yuz bergan; yangi, eng so'nggi; **les événements récents** yaqinda bo'lib o'tgan voqealar.

**récépissé** *nm* tilxat.

**réceptacle** *nm* o'zida yig'uvchi, to'plovchi, jamlovchi; **la mer est le réceptacle des eaux fluviales** dengiz daryo suvlarini o'zida yig'uvchi hisoblanadi.

**récepteur**[1] *nm* to'lqinlarni qabul qiluvchi va tarqatuvchi apparat; **un récepteur de radio** radiopryomnik; **le récepteur du téléphone** telefon go'shagi; **décrocher le récepteur** go'shakni ko'tarmoq, olmoq.

**récepteur**[2]**, trice** *adj* qabul qiladigan, qabul qiluvchi; **antenne réceptrice** qabul qiladigan antenna.

**réceptif, ive** *adj* ta'sirlanuvchan; **réceptif à qqch** biror narsaga nisbatan ta'sirchan, beriluvchan, moyil; **les enfants sont particulièrement réceptifs à la suggestion** bolalar ishontirishga juda beriluvchan, tez ishonadigan bo'lishadi.

**réception** *nf* **1.** qabul qilish, qabul qilib olish, olish; **la réception d'une commande** buyurtma qabul qilish; **accuser réception d'un paquet** paket olganligini tasdiqlamoq; **2.** qabul qilish (*to'lqinlarni*); **3.** kutib olish, qabul qilish; **être chargé de la réception d'un ambassadeur, d'un chef d'état** elchini, davlat rahbarini kutib olishga mas'ul bo'lmoq; **faire à qqn une cordiale réception** biror kishini chin qalbdan kutib olmoq; **4.** keluvchilar kutib turadigan yoki qabul qilinadigan joy, qabulxona; **la réception d'un hôtel** mehmonxona qabulxonasi; **5.** qabul, bazm; **donner une grande réception** katta bazm bermoq; **6.** qabul, qabul marosimi; **la réception d'un écrivain à l'académie française** yozuvchini Fransiya akademiyasida qabul qilish marosimi; **discours de réception** kirish nutqi.

**réceptionner** *vt* qabul qilib olmoq; **réceptionner des marchandises** mollarni qabul qilib olmoq.

**réceptionniste** *n* qabulxona xodimi; **la réceptionniste va vous renseigner** qabulxona xodimi sizga ma'lumot beradi.

**réceptivité** *nf* **1.** ta'sirlanuvchanlik, bir narsani o'ziga tez olish, moyillik; **être en état de réceptivité** moyillik holatida bo'lmoq; **2.** beriluvchanlik, moyillik; **la réceptivité de l'organisme à une contagion** tananing yuqumli kasallikka beriluvchanligi.

**récession** *nf* inqirozga yuz tutish; inqiroz, tanazzul, tushkunlik.

**recette**[1] *nf* **1.** tushum, kirim, foyda, daromad; **la recette journalière d'un théâtre** teatrning bir kunlik tushumi; **toucher un pourcentage sur la recette** daromaddan ulush olmoq; *loc* **faire recette** katta muvaffaqiyatga erishmoq; **un film qui fait recette** katta muvaffaqiyatga erishayotgan film; **les recettes couvrent les dépenses** foyda xarajatni qoplaydi; **2.** kirim kassasi; **la recette des contributions directes** soliq to'lovlari kassasi.

**recette**[2] *nf* **1.** retsept, tayyorlash usuli; **donner la recette d'un gâteau** pirog retseptini bermoq; **un livre de recette (de cuisine)** retseptlar kitobi; **2.** usul, yo'l, andoza, qolip; **une recette infaillible pour réussir** erishish uchun aniq yo'l.

**recevable** *adj* qabul qilsa, rozi bo'lsa bo'ladigan, maqbul, ma'qul; **cette excuse n'est pas recevable** bu uzr qabul qilsa bo'ladigan emas.

**receveur, euse** *n* **1.** qabul qiluvchi, yig'uvchi (*pulni*); **receveur des contributions** soliq yig'uvchi; **le receveur des postes** pochta xodimi; **2.** konduktor (*shahar transportida*); **3.** qon oluvchi; **le donneur et le receveur** qon topshiruvchi (*donar*) va qon oluvchi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**recevoir I.** *vt* **1.** olmoq, ega bo'lmoq, qabul qilmoq; **elle a reçu un prix** u mukofot oldi; **nous ne recevons pas la cinquième chaîne** biz beshinchi kanalni olmaymiz; **recevoir un conseil** maslahat olmoq; **2.** biror ish-harakat ta'siri ostiga olinmoq; **recevoir des coups** kaltak yemoq; **recevoir des blessures** yarador bo'lmoq; **qu'est-ce qu'il a reçu!** unga nima bo'ldi! (*qanday kasalga duchor bo'ldi!*); **recevoir un affront, des injures** haqoratga, so'kishga uchramoq; **3.** biror holga solinmoq, uchramoq; **le projet initial a reçu quelques modifications** boshlang'ich reja ayrim o'zgartirishlarga uchradi; **4.** qabul qilmoq, kutib olmoq, kutmoq; **recevoir qqn à dîner, à sa table** biror kishini tushlikka, dasturxonga taklif qilmoq; **recevoir qqn**; **avec empressement** bajonudil kutib olmoq; **être bien, mal reçu** yaxshi, yomon kutib olingan bo'lmoq; mehmon, do'stlarni kutmoq; **ils reçoivent très peu** ularnikiga mehmon juda kam keladi; **5.** ruxsat, ijozat etmoq, yo'l qo'ymoq; **être reçu à un examen, un concours** imtihonga, konkursga qo'yilmoq; **6.** ko'nmoq, qabul qilmoq, rozi bo'lmoq; **recevoir les suggestions de qqn** biror kishining maslahatiga ko'nmoq; **recevoir des excuses** uzrni qabul qilmoq; **selon les usages reçus** qabul qilingan odat bo'yicha; **7.** sig'dira olmoq, qabul qilmoq; **ce salon peut recevoir plus de cinquante personnes** bu mehmonxona ellikdan ortiqroq odamni qabul qila oladi; **II. se recevoir** *vpr* **1.** mehmon kutmoq, mehmon qabul qilmoq; **ils se reçoivent beaucoup** ular juda ko'p mehmon kutishadi; **2.** *sport* yerga tushmoq (*sakrashdan so'ng*); **elle s'est reçue sur la jambe droite** u yerga o'ng oyog'i bilan tushdi.

**rechange** *nm* o'zgarish, o'zgartirish; *loc* **de rechange** ehtiyotdan olib qo'yilgan, ehtiyot, zapas; **pièces de rechange** ehtiyot qismlar; **roue de rechange** ehtiyot, zapas g'ildirak; **une solution de rechange** boshqacha qaror, vaziyatdan chiqishning boshqacha yo'li.

**réchapper** *vi* **réchapper de (***ayniqsa* **en réchapper)** qochib qutulmoq, qutulib qolmoq, eson-omon qolmoq; **ils en ont tous réchappé** ularning hammasi eson-omon chiqishdi; **pas un n'en est réchappé** birontasi ham qochib qutulolmadi.

**recharge** *nf* bittasining o'rniga almashtiriladigan narsa, ikkinchi o'q, ikkinchi o'qlash, ikkinchi sterjen (*sharikli ruchkaning*) va shu kabilar; **une recharge de stylo** avtoruchkaning zapas sterjeni.

**rechargeable** *adj* boshqasiga qayta almashtirsa bo'ladigan; **stylo à bille rechargeable** sterjenini qayta almashtirsa bo'ladigan sharikli ruchka.

**recharger** *vt* **1.** qayta yuklamoq, qayta yuk ortmoq; **2.** qayta o'qlamoq, qayta zaryadlamoq, yangisini qo'ymoq; **il rechargea son fusil** u miltig'ini qayta o'qladi.

**réchaud** *nm* ko'chma plitacha, pechkacha; **réchaud à alcool, à gaz** spirt, gaz plitacha.

**réchauffé** *nm* **1.** ilitma, ilitilgan ovqat; **2.** *fig* hammaga ayon, aniq, siyqasi chiqqan, narsa, voqea; **un gag qui sent le réchauffé** siyqasi chiqqan tomosha.

**réchauffement** *nm* isitish, isish, isinish; **le réchauffement de la température** havoning isishi.

**réchauffer I.** *vt* **1.** isitmoq, ilitmoq; qizitmoq, qizdirmoq; **réchauffer un potage** sho'rvani ilitmoq; **se réchauffer les mains** qo'lini isitmoq; **dîner réchauffé** ilitma ovqat; **la marche, ça réchauffe** piyoda yurish, bu odamni qizdiradi! **2.** ko'nglini ko'tarmoq, dalda bermoq, xursand qilmoq; **cela réchauffe le cœur** bu yurakka dalda beradi; **II. se réchauffer** *vpr* isimoq, isinmoq, isinib, isib olmoq; **la température commence à se réchauffer** havo isiy boshladi.

**rêche** *adj* g'adir-budur, dag'al; **une laine un peu rêche** biroz dag'al jun.

**recherche**[1] *nf* **1.** qidiruv, izlash; **les sauveteurs ont dû abandonner les recherches** qutqaruvchilar qidiruvni to'xtatishga majbur bo'ldilar; *loc* **être à la recherche de** qidirib, izlab yurmoq; **il est à la recherche d'un emploi** u ish qidirib yuribdi; **2.** izlash, izlanish; **la recherche de la vérité** haqiqatni izlash; **recherches scientifiques** ilmiy izlanishlar; **3.** ilmiy ish, tadqiqot; **goût pour la recherche** ilmiy ishga havas; **le centre national de la recherche scientifique** milliy ilmiy tekshirish markazi; **4.** orqasidan quvish, qidirish, izlash; **la recherche du bonheur, de la gloire** baxtning, g'alabaning orqasidan quvish.

**recherche**[2] *nf* nozik did, nazokatlilik; **elle s'habille avec recherche, avec une certaine recherche** u nozik did bilan kiyinadi.

**recherché**[1]**, ée** *adj* kam uchraydigan, noyob, nodir, favqulodda; **édition recherchée** nodir nashr; **un acteur très recherché** juda noyob aktyor.

**recherché**[2]**, ée** *adj* nozik didli, did bilan qilingan; **une mise recherchée** nozik did bilan qilingan kiyim.

**rechercher** *vt* **1.** izlamoq, qidirmoq; **il est recherché pour meurtre** u qotillik uchun qidirilmoqda; **rechercher un objet égaré, une lettre** yo'qolib qolgan narsani, xatni qidirmoq; **2.** topishga, bilishga harakat qilmoq; qidirmoq, izlamoq; **rechercher la cause d'un phénomène** kam uchraydigan hodisaning sababini qidirmoq; **rechercher comment, pourquoi** qanday qilib, negaligini bilishga harakat qilmoq; **3.** qaytarib olib ketmoq, olib ketmoq; **je te confie ma valise, je viendrai la rechercher ce soir** men senga jomadonimni ishonib qoldirib ketayapman, bugun kechqurun uni olib ketgani kelaman; **4.** ega, sazovor bo'lishga, qozonishga intilmoq, harakat qilmoq; **rechercher une faveur** birovning mehrini qozonishga harakat qilmoq.

**rechigner** *vi* qovog'ini solmoq, xo'mraymoq, biror ishni xohishsiz, o'lganining kunidan qilmoq; ming'irlamoq, to'ng'illamoq, vaysamoq; **rechigner à la besogne** ishdan qochmoq; **faire qqch en rechignant** biror ishni to'ng'illab qilmoq.

**rechute** *nf* qaytadan avj olish (*kasallikka nisbatan*); **faire, avoir une rechute** kasali qaytadan avj olmoq.

**rechuter** *vi* qaytadan avj olmoq (*kasallikka nisbatan*); **elle est retournée travailler trop tôt, et elle a rechuté** u ishga juda erta qaytdi, kasali qaytadan avj olib ketdi.

**récidive** *nf* **1.** takrorlanish, qaytarilish; **escroquerie avec récidive** takror firibgarlik; **en cas de récidive, vous serez sanctionné** takrorlangan taqdirda, siz jazolanasiz; **2.** qaytalanish, qayta qo'zish (*kasallikka nisbatan*).

**récidiver** *vi* **1.** jinoyatni takrorlamoq; **2.** qaytalanmoq, qayta qo'zimoq (*kasallikka nisbatan*).

**reflet** *nm* **1.** shu'la, tovlanish; **reflets métalliques** metallning tovlanishi; **cheveux à reflets roux** qizg'ish tovlanuvchi soch; **des reflets d'incendie** yong'inning shu'lasi; **2.** aks, tasvir; **le reflet d'un visage dans la vitre** yuzning oynadagi aksi; **3.** aks-sado, tasavvur; **l'écriture, reflet de la personnalité** shaxsning yozuvi, aks-sadosi; **il n'est plus que le reflet de lui-même** uning suratigina qoldi.

**refléter I.** *vt* **1.** qaytarmoq, aks ettirmoq; **ce miroir reflète les objets** bu ko'zgu narsalarni aks ettiryapti; **2.** aks ettirmoq, ifodalamoq, bildirmoq, ko'rsatmoq; **mes paroles ne reflètent pas mes sentiments** mening so'zlarim mening his-tuyg'ularimni ifodalamaydi; **son visage ne reflétait rien** yuzi hech narsani ifodalamas edi; **II. se refléter** *vpr* aks etmoq; **les nuages se reflétaient dans l'étang** bulutlar hovuzda aks etar edi; **la joie se reflétait sur son visage** uning yuzida xursandchilik aks etib turardi.

**refleurir** *vi* qayta gullamoq; **le rosier a refleuri** atirgul qayta gulladi.

**réflexe I.** *nm* **1.** refleks; **réflexe conditionné** shartli refleks; **2.** ta'sirlanish, ta'sirga tez javob berish, reaksiya; **avoir de bons réflexes en conduisant** mashina haydashda ta'sirlanishi, reaksiyasi yaxshi bo'lmoq; **manquer de réflexe** ta'sirlanishi bo'lmaslik; **II.** *adj* **mouvement réflexe** reflektiv, beixtiyor harakat.

**réflexion[1]** *nf* qaytish, aks etish; **la réflection de la lumière par un miroir** yorug'likning oynadan qaytishi; **la réflection des ondes sonores** ovoz to'lqinlarining qaytishi.

**réflexion[2]** *nf* **1.** o'ylash, fikr yuritish, mulohaza qilish; **accorde-moi une minute de réflexion** menga o'ylashga bir daqiqa vaqt ber; **il s'absorba dans ses réflexions** u chuqur o'yga toldi; *loc* **réflexion faite** o'ylab ko'rildi; **réflexion faite, je ne partirai pas aujourd'hui** o'ylab ko'rildi, men bugun ketmayman; **à la réflexion** yaxshilab o'ylab ko'rilsa; **à la réflexion, c'est peut-être mieux ainsi** yaxshilab o'ylab ko'rilsa, shundayligi yaxshiroqdir; **2.** aql, o'ylash; **affaire menée avec réflexion** aql bilan qilingan ish; **il a agi sans réflexion** u o'ylamay ish qildi; **3.** o'y, fikr, mulohaza; **recueil de réflexions** hikmatlar to'plami; **une réflexion désobligeante** salbiy fikr.

**refluer** *vi* **1.** orqaga, teskari oqmoq; qaytmoq (*suv, to'lqin haqida*); qochmoq (*qon, yosh haqida*); **l'eau reflue à marée descendante** dengiz qaytganda suv teskari oqadi; **2.** bostirib, yopirilib kelmoq (*olomon haqida*); **la foule refluait lentement** olomon sekin bostirib kelar edi.

**reflux** *nm inv* **1.** suvning, dengizning qaytishi; **le flux et le reflux de la mer** dengizning ko'tarilishi va qaytishi; **2.** chekinish, qaytish; **le reflux de la foule** olomonning chekinishi.

**refondre** *vt* qayta qilmoq, qayta ishlamoq; **dictionnaire refondu et mis à jour** qayta ishlangan va bosib chiqarilgan lug'at.

**réformable** *adj* isloh qilsa, qayta o'zgartirsa bo'ladigan; isloh qilinishi, qayta o'zgartirilishi kerak bo'lgan.

**réformateur, trice I.** *n* o'zgartiruvchi, qayta quruvchi, reformator; **un réformateur des mœurs** urf-odatlarni o'zgartiruvchi; **II.** *adj* o'zgartiruvchi, reformaga oid; **des mesures réformatrices** o'zgartiruvchi choralar.

**réforme[1]** *nf* reforma, isloh; isloh qilish; **réformes sociales** ijtimoiy islohotlar; **la réforme de l'orthographe** imlo islohoti.

**réforme[2]** *nf* kasalligi tufayli harbiy xizmatdan ozod qilish.

**réformer[1]** *vt* **1.** tubdan o'zgartirmoq, yaxshilamoq; **réformer la constitution** konstitutsiyani tubdan o'zgartirmoq; **2.** tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, barham bermoq; tugatmoq, bitirmoq; **réformer les abus** suiiste'mollarga barham bermoq.

**réformer[2]** *vt* harbiy xizmatdan ozod qilmoq (*sog'ligi yoki boshqa sabablar tufayli*).

**réformisme** *nm* reformizm (*ayrim reformalar o'tkazish yo'li bilan o'zgartirishlar qilish nazariyasi*).

**réformiste** *n* reformist, reformizm tarafdori; *adj* reformistga va reformizmga oid; reformistik, reformist, reformizm.

**refoulement** *nm* siqib, quvib chiqarish.

**refouler** *vt* **1.** siqib, quvib chiqarmoq; **refouler des envahisseurs** bosqinchilarni quvib chiqarmoq; **2.** bosmoq, tiymoq, yengmoq; ichiga yutmoq; **refouler ses larmes** ko'z yoshlarini tiymoq; **colère refoulée** ichga yutilgan g'azab.

**réfractaire I.** *adj* **1.** bo'ysunmaydigan, bo'yin egmaydigan; itoatsiz, itoat qilmaydigan; **être réfractaire à la loi** qonunga bo'ysunmaydigan bo'lmoq; **2.** o'tga chidamli; **brique réfractaire** o'tga chidamli g'isht; **II.** *n* bo'ysunmaydigan, bo'yin egmaydigan; itoatsiz, itoat qilmaydigan odam; biror narsadan yiroq odam.

**réfracter I.** *vt phys* sindirmoq, qaytarmoq, yo'nalishini o'zgartirmoq; **II. se réfracter** *vpr* sinmoq, qaytmoq, o'z yo'nalishini o'zgartirmoq; **lumière qui se réfracte** qaytgan yorug'lik.

**réfraction** *nf phys* sinish, yo'nalishini o'zgartirish; **angle de réfraction** sinish burchagi.

**refrain** *nm* **1.** naqarot; **reprenons le refrain en chœur** naqarotni xor bo'lib qaytaramiz; **2.** hadeb qaytarilaveradigan narsa; **avec lui, c'est toujours le même refrain** bu uning eski ashulasi; **changez de refrain!** plastinkani o'zgartiring!

**refréner** *ou* **réfréner I.** *vt* jilovlamoq, bo'ysundirmoq, qo'lga olmoq, tiymoq, bosmoq; **il refréna son envie** u ishtiyoqini tiydi; **II.** *vpr* **essaie de te refréner** o'zingni tiyishga harakat qil.

**réfrigérant, ante** *adj* **1.** sovituvchi; **mélange réfrigérant** sovituvchi aralashma; **2.** *fam* sovuq, muzday; **un accueil, un air réfrigérant** sovuq kutib olish, sovuq yuz.

**réfrigérateur** *nm* muzlatkich, xolodilnik, refrijerator; **dégivrer un réfrigérateur** muzlatkichni eritmoq, muzdan tushirmoq.

**réfrigération** *nf* sovitish, muzlatish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**réfrigérer** *vt* **1.** sovitmoq, muzlatmoq; **réfrigérer du poisson** baliqni muzlatmoq; **2.** *fam fig* muzlatib yubormoq, jon-jonidan o'tib ketmoq; **ses sarcasmes m'ont réfrigéré** uning pichinglari mening jon-jonimdan o'tib ketdi.

**refroidir I.** *vt* **1.** sovitmoq, muzlatmoq; **refroidir une substance au-dessous de zéro** biror narsani muzlatmoq; **pluies qui refroidissent l'atmosphère** atmosferani sovitadigan yomg'irlar; **2.** *fig* sovitmoq, ko'nglini qoldirmoq, ko'nglini sovitmoq, ixlosini qaytarmoq; hovridan tushirmoq; **son accueil nous a refroidis** uning kutib olishi bizning ko'nglimizni sovutdi; **II.** *vi* sovimoq, sovib qolmoq; **ton café refroidit** qahvang soviyapti; **III. se refroidir** *vpr* sovimoq, tushmoq, pasaymoq; sovqotmoq, shamollamoq; **le temps se refroidit** havo sovidi; **n'attends pas dehors, tu vas te refroidir** tashqarida kutma, sovqotib qolasan; **son zèle s'est bien refroidi** uning g'ayrati ancha pasaydi, so'ndi.

**refroidissement** *nm* **1.** sovish, tushish; **refroidissement de l'air** havoning sovishi; **2.** shamollash; **attraper un refroidissement** shamollab qolmoq; **3.** sovish, ko'ngil qolish; **le refroidissement d'une amitié** do'stlikning sovishi.

**refuge** *nm* **1.** boshpana, panoh; pana joy; **chercher refuge quelque part** biror joydan boshpana qidirmoq; **demender refuge à qqn** biror kishidan boshpana so'ramoq; **un refuge contre la détresse** musibatdan panoh; **2.** baland tog'larda alpinistlar boshpanasi.

**réfugié, ée** *adj, n* qochoq, qochqin.

**réfugier (se)** *vpr* boshpana topmoq, yashirinmoq, berkinmoq; **se réfugier à l'étranger** chet elda boshpana topmoq; **surprise par la pluie, elle s'est réfugiée sous un arbre** yomg'irda qolib, u daraxt ostiga yashirindi; *fig* murojaat qilmoq, biror narsaga sho'ng'imoq (*esdan chiqarish uchun*); **se réfugier dans le travail** ishga sho'ng'imoq.

**refus** *nm inv* rad qilish, rad javobi; bosh tovlash; **refus d'obéir, d'obéissance** bo'ysunishdan bosh tovlash; **se heurter à un refus** rad javobiga duch kelmoq; *loc fam* **ce n'est, c'est pas de refus** yo'q deyish yo'q (*bajonu-dil roziman*).

**refuser I.** *vt* **1.** rad qilmoq, rad javobi bermoq, yo'q demoq; **refuser une permission à un soldat, une augmentation à un ouvrier** soldatga ruxsatnoma berishni rad qilmoq, ishchiga ish haqini oshirishni rad qilmoq; **il ne se refuse rien!** u o'zidan hech narsani ayamaydi! **2.** tan olmaslik; **on ne peut lui refuser une certaine compétence** uning o'z sohasining ustasiligini tan olmay bo'lmaydi; **3.** (**de**+*inf*) bosh tortmoq, bo'yin tovlamoq, biror ish qilishga rozi bo'lmaslik; **refuser d'obéir** bo'ysuninishdan bosh tortmoq; **elle refuse de rconnaître ses torts** u o'z xatolarini tan olishdan bosh tortyapti; **4.** rozi bo'lmaslik, qabul qilmaslik, rad qilmoq; **refuser un cadeau** sovg'ani olmaslik; **refuser une invitation** taklifni qabul qilmaslik; **5.** qaytarmoq, qabul qilmaslik; **refuser une marchandise** molni qaytarmoq; **l'éditeur refuse ce manuscrit** noshir bu qo'lyozmani qaytardi; **6. la pièce marche bien, on refuse du monde** pyesa yaxshi ketyapti, odamlarni kiritishmayapti; **refuser un candidat** nomzodni qaytarmoq (*imtihondan yiqitmoq*); **il est refusé** u yiqildi; **II. se refuser** *vpr* **1. ça ne se refuse pas** bu narsa rad qilinmaydi; **2.** biror narsa qilishdan bosh tortmoq, rozi bo'lmaslik; **je me refuse à envisager cette solution** men bu qarorga baho berolmayman.

**réfutation** *nf* rad qilish, inkor qilish; **la réfutation d'un argumant** biror asosni inkor qilish.

**réfuter** *vt* rad qilmoq, inkor qilmoq, tan olmaslik; **réfuter une théorie, des objections** biror nazariyani, asosni inkor qilmoq; **réfuter un auteur** biror muallifni tan olmaslik.

**regagner** *vt* **1.** qayta topmoq, qayta ega bo'lmoq; **2.** qaytib kelmoq, qaytib bormoq; **regagner sa place** joyiga qaytib bormoq.

**regain** *nm* qaytish, qayta jonlanish; **regain de vie, d'activité** hayotning, faoliyatning qaytishi.

**régale, als** *nm* **1.** lazzatli, tansiq taom, xushxo'r ovqat; **cette glace est un régal** bu muzqaymoq lazzat; **2.** *fam* lazzat, rohat bag'ishlaydigan narsa; lazzat, rohat; **un régal pour les yeux** ko'zga rohat.

**régalade** *loc adv* **boire à la régalade** qadahni labiga tekkizmay ko'tarib ichmoq.

**régaler I.** *vt* mehmon qilmoq, siylamoq; **elles les a régalé d'un gateau** u ularni tort bilan siyladi; mehmon qilmoq, pulini to'lamoq; **profites-en, c'est moi qui régale** foydalanib qol, men mehmon qilaman; **II. se régaler** *vpr* rohat qilib, maza qilib yemoq; rohat, maza qilmoq; **je me régale!** maza qilib yeyapman! **quand j'entends cet air, je me régale** men bu ohangni eshitganimda, rohat qilaman.

**regard** *nm* **1.** qarash, boqish, nazar, nazzora, nigoh; ko'z; **parcourir, fouiller, suivre qqn, qqch du regard** kimnidir, nimanidir ko'zi bilan qarab chiqmoq, tintib chiqmoq, kuzatib turmoq; **dérober, soustraire aux regards** ko'zdan yashirmoq; **sa beauté attire tous les regards** uning go'zalligi hamma nigohlarni o'ziga tortadi; **le regard (de qqn)** ko'zi, nigohi, nazari; **son regard se posa sur moi** uning ko'zi menga tushdi; **regard doux, dur** mayin, qattiq qarash; **ils s'aimèrent au premier regard** ular bir ko'rishdayoq sevishib qolishdi; **un regard rapide, furtif, en coin** tez, yashirincha, ko'z qirida qarash; **lancer, jeter, porter un regard sur qqch** biror narsaga ko'z, nazar tashlamoq; **tourner ses regards vers qqch** nigohini biror narsaga qaratmoq; **échanger un regard avec qqn** biror kishi bilan ko'z urishtirib olmoq; **un regard complice** tushunuvchan qarash; **un regard étonné, inquiet** hayratlangan, hovotirli boqish; **un regard noir** yomon qarash; *fig* qarash, fikr; **un regard nouveau** yangicha qarash; *loc* **avoir (un) droit de regard sur** nazorat qilish huquqi; **il a un droit de regard sur la gestion de l'entreprise** u korxonani boshqarish ustidan nazorat qilish huquqiga ega; *loc prép* **au regard de** muvofiq, ko'ra; **être en règle au regard de la loi** qonun talablariga muvofiq bo'lmoq; **en regard de** qarama-qarshi o'laroq, qaraganda, nisbatan, solishtirilganda; **les résultats sont faibles en regard du travail** natijalar sarf qilingan mehnatga qaraganda oz; *loc adv* **en regard** oldida, qarshisida; **texte latin avec la traduction en regard** qarshisida lotincha matni berilgan tarjima; **2.** teshik, ochiq joy, tuynuk, tirqish.

**regardable** *adj* ko'rsa tomosha qilsa bo'ladigan, yaraydigan; **ce film, cette émission n'est pas regardable** bu film, bu ko'rsatuv ko'rishga yaramaydi.

**regardant, ante** *adj* ehtiyotkor, hisob-kitobli; yetti o'lchab bir kesadigan.

**regarder I.** *vt* **1.** qaramoq, boqmoq, nazar solmoq; **regarder sa montre** soatiga qaramoq; **regarder par la fenêtre** derazadan qaramoq; **regarde devant toi!** ko'zinga qara! **j'ai regardé partout** men hamma joyni qarab chiqdim; **regarder qqn avec attantion, insistance** birovga e'tibor bilan, tikilib qaramoq; **regarder qqn, qqch du coin de l'œil** biror kimsaga, narsaga ko'z qiri bilan qaramoq; **regarder qqn de travers** biror kishiga o'qrayib qaramoq; **2.** biror tomonga qaragan, qaratilgan bo'lmoq, qaramoq; **façade qui regarde vers le sud** janubga qaragan peshtoq; **3. il regardait la pluie tomber, tomber la pluie** u yomg'irning yog'ishiga qarab turardi; **4.** boqmoq, qaramoq; **regarder le danger en face** xavf-xatarga tik boqmoq; **regarder la vie par ses bons côtés** hayotga yaxshi tomonidan boqmoq; **il ne regarde que son intérêt** u o'z manfaatlarinigina ko'zlaydi; **regarder qqn, qqch comme** deb qaramoq, deb hisoblamoq; **on l'avait toujours regardée comme une incapable** unga doim layoqatsiz deb qarashar edi; **5.** taalluqli bo'lmoq, aloqasi bo'lmoq; **cela ne te regarde pas** ishing bo'lmasin (*bu sening ishing emas*); **mêle-toi de ce qui te regarde!** sen aralashma! ishingni qil! **II.** *vi* **regarder à qqch** o'ylab, taroziga solib ko'rmoq; hisob-kitob qilib chiqmoq; **ne regardez pas à la dépense** xarajatga qarab o'tirmang; **y regarder de près, y regarder à deux fois** obdan o'ylab, hisob-kitob qilib chiqmoq; **III. se regarder** *vpr* **1. se regarder dans la glace** o'zini ko'zguga solmoq; *loc* **il ne s'est pas regardé!** u oldin o'ziga boqsin! (*boshqalarning aybini ko'radi, lekin o'zinikini ko'rmaydi*); **2. ils ne peuvent pas se regarder sans rire** ular bir-birlariga kulmasdan qarasholmaydi.

**régate** *nf, souvent au pl* regata (*sport kemalarining an'anaviy poygasi*).

**régater** *vi* regata musobaqalarida qatnashmoq.

**régence** *nf* **1.** regentlik (*mamlakatni vaqtincha boshqarib turish, mamlakatga vaqtincha hokimlik qilish*); **exercer la régence pendant la minorité du roi** shohning voyaga yetmagan davrida regentlik qilib turmoq; **2.** regentlik davri, uslubi; **des meubles régence** regentlik davri mebellari.

**régénérateur, trice** *adj* tiklovchi, asl holiga keltiruvchi; **crème régénératrice** tiklovchi moyupa.

**régénérer** *vt* tiklamoq, asl holiga keltirmoq; **régénérer la société** jamiyatni tiklamoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**régent, ente** *n* **1.** regent, muvaqqat podsho, hokim; *adj* **la reine régente** podsholikni vaqtincha boshqarib turuvchi qirolicha; **2.** boshqaruvchi, boshliq; (*Fransiya bankining*) bosh kengash a'zosi.

**régenter** *vt* xo'jayinlik qilmoq, birovga buyruq bermoq; **il veut tout régenter** u hamma narsaga xo'jayinchilik qilishni xohlaydi.

**régicide I.** *n* **1.** podshoni o'ldiruvchi odam; **2.** *nm* podshoni o'ldirish; **II.** *adj* **la révolution régicide** poshoni o'ldirishni ko'zda tutuvchi inqilob.

**régie** *nf* **1.** jamoa korxonasi (*jamoa boshliqlari tomonidan boshqariladigan korxona*); **régie française des tabacs** fransuz tamaki jamoa korxonasi; **la Régie Autonome des Transports Parisiens (R.A.T.P.)** Parij Mustaqil Transport Jamoa Xo'jaligi.

**regimber** *vi;* qarshilik ko'rsatmoq, qarshilik qilib turib olmoq; **inutile de regimber** qarshilik ko'rsatish befoyda.

**régime**[1] *nm* **1.** davlat tuzumi, idora usuli, rejim; **l'ancien régime** eski tuzum (*qirollik*); **changement de régime** tuzumni o'zgartirish; **régime constitutionnel, parlementaire, présidentiel** konstitutsion, parlament, prezident tuzumi; **régime féodal, capitaliste, socialiste** feodal, kapitalistik, sotsialistik tuzum; **2.** tartib, tartib-qoida; tuzum; **régime dotal** sep (*uylanish*) tartib-qoidasi; **régime fiscal, douanier** soliq, bojxona tartibi.

**régime**[2] *nm* **1.** tartib, tartibot, rejim; **le régime d'entraînement d'un sportif** sportchining mashq qilish tartibi; **2.** parhez; **suivre, faire un régime pour maigrir** ozish uchun parhez qilmoq; **se mettre, être au régime** parhezda bo'lmoq; **régime sans sel** tuzsiz parhez; **régime sec** spirtli ichimliklar ichmaslik qonuni.

**régime**[3] *nm* ishlash tartibi, tarz; **le régime d'un moteur** motorning ishlash tarzi, zayli; **lancer le moteur à plein régime** motorni bor kuchiga ishlatmoq; *loc* **à plein régime** bor kuchi bilan.

**régime**[4] *nm* shingil, shoda, mevali shox; **faire mûrir un régime de bananes** banan shodasini pishgani qo'ymoq.

**régiment** *nm* **1.** polk; **un régiment d'infanterie, de chars** piyodalar, tankchilar polki; *fam* armiya; **partir pour le régiment** armiyaga ketmoq; **2.** to'da, to'p, to'da, guruh; **un régiment de gamins turbulents** to'polonchi bolalar to'dasi; **il y en a pour un régiment** bir polkka yetadi.

**région** *nf* **1.** oblast, viloyat, mintaqa, hudud, zona, doira, yurt, o'lka, okrug, tuman, nohiya; **région désertique** cho'l zonasi; **région à forte population** aholi zich joylashgan hudud; **dans nos régions** bizning yurtda, biz tarafda; **la région Rhône-Alpes** Rona-Alp okrugi; **région militaire, économique** harbiy, iqtisodiy okrug; **2.** tomon, taraf, yurt, o'lka; yoq, joy; **ils vont en vacances dans la région de Pau** ta'tilda ular Po tarafga boradilar; **habitez-vous (dans) la région** rayonda yashaysizmi? **3.** soha, bora, jabha; **les hautes régions de la philosophie** falsafaning yuqori sohalari; **4.** atrof, joy; **douleur dans la région du cœur** yurak atrofidagi og'riq.

**régional, ale, aux** *adj* mahalliy, shu joyga oid; **les parlers régionaux** mahalliy lahjalar; **coutumes régionales** mahalliy urf-odatlar; **Réseau Express Régional, le R.E.R.** Mahalliy Ekspress Poyezdlar Tarmog'i; **2.** millatlararo; **les accords régionaux de l'Europe des douze** o'n ikki Yevropa mamlakatlari millatlararo kelishuvi.

**régionalisme** *nm* mahalliylik, shu joyga xoslik; *ling* mahalliylik, shu joyga xoslik.

**régionaliste** *adj, n* mahalliylik tarafdori; **écrivain régionaliste** mahalliy yozuvchi.

**régir** *vt* **1.** *vx* boshqarmoq, idora qilmoq, yurgizmoq; **2.** ta'riflamoq, ta'rif bermoq, tavsiflamoq (*qonun-qoida*); **les lois qui régissent le mouvement des astres** yulduzlar harakatini ta'riflovchi qonunlar.

**régisseur, euse** *n* boshqaruvchi; *th* **le régisseur d'un théâtre** sahnalashtirish qismining boshqaruvchisi.

**registre**[1] *nm* ro'yxat daftar, qayd daftari; **inscrire sur, dans un registre** ro'yxat daftariga yozib qo'ymoq; **tenir un registre** ro'yxat daftari yuritmoq; **registres publics d'état civil** fuqarolik holatini qayd qilish daftari; **registre des réclamations** shikoyat daftari.

**registre**[2] *nm* **1.** ashulachining ovoz pardalari; **2.** asar, nutqning ruhi.

**réglable** *adj* **1.** rostlasa, to'g'rilasa, moslasa bo'ladigan; **sièges réglables** moslanadigan o'rindiqlar; **2.** to'lasa, to'g'rilasa bo'ladigan; **facture réglable à quatre-vingt dix jours** to'qson kun ichida to'lasa bo'ladigan hisob.

**réglage** *nm* tuzatish, sozlash, rostlash, to'g'rilash; **le réglage d'une machine** mexanizmni tuzatish; **le réglage du tire** otishmani nishonga to'g'rilab turish; **mauvais réglage du carburateur** karburatorni yomon sozlash.

**règle**[1] *nf* chizg'ich, jazval, lineyka; **règle à calcul** logarifmik lineyka.

**règle**[2] *nf* **1.** qonun, qoida, odat, tartib; **un ensemble de règle** qonun-qoidalar majmui; **adopter une règle de conduite** yurish-turish tartibini o'rnatmoq; **se faire une règle de** o'ziga odat qilib olmoq; *loc* **la règle, les règles de jeu** tartib-qoida; **établir, prescrir une règle** tartib-qoida o'rnatmoq; **observer la règle** tartib-qoidaga amal qilmoq; *loc* **selon les règles, dans les règles, dans les règles de l'art** qonun-qoidasi bo'yicha, asosida, san'ati bo'yicha; **plat cuisiné dans les règles de l'art** ovqat tayyorlash san'ati qonun-qoidalari asosida tayyorlangan ovqat; **en règle générale** umuman; **c'est la règle** bu qonun, odatda shunday bo'lishi kerak; **de règle** qoida, odat bo'yicha; **il est de règle qu'on fasse cela** odat bo'yicha shunday qilinadi; *loc adj* **en règle** qonun-qoidasiga, odatiga amal qilingan; **une bataille en règle** urush qonun-qoidasiga amal qilingan holda olib borilayotgan jang; **avoir ses papiers en règle** hujjatlari joyida bo'lmoq; **être, se mettre en règle avec** hamma tartib-qoidalarga amal qilmoq; **2.** *math* amal; **3.** *pl* oy ko'rish, hayz.

**réglé, ée** *adj* muntazam, tartibli, bir tekis, bir maromda; **une vie réglée** tartibli hayot.

**règlement** *nm* **1.** tartibga solish, yo'lga qo'yish, hal qilish, to'g'rilash; **le règlement d'un conflit** nizoni hal qilish; **2.** tegishli pulni to'lash, haq to'lash; **le règlement d'une dette** qarzni to'lash; **faire un règlement par chèque** chek orqali haq to'lash; **3.** buyruq, farmoyish, qaror, ko'rsatma; **règlement de police** politsiya ko'rsatmasi; **4.** qoida, tartib; **le règlement intérieur d'une association** birlashmaning ichki tartib qoidalari; **le règlement, c'est le règlement** qoida bu qoida; **enfreindre le règlement** qoidani buzmoq.

**réglementaire** *adj* belgilab qo'yilgan qoidaga mos, mos keladigan, risoladagiday; nizomda ko'rsatilgan; **ce certificat n'est pas réglementaire** ma'lumotnoma to'g'ri to'ldirilmagan; **la tenue réglementaire d'un soldat** askarning nizomda ko'rsatilgan ust-boshi.

**réglementation** *nf* **1.** aniq, qat'iy belgilash; **la réglementation des prix** narxni qat'iy belgilash; **2.** yo'lga qo'yish, tartibga solish, yaxshilash; **la réglementation du travail** mehnatni tartibga solish.

**réglementer** *vt* aniq, qat'iy belgilamoq; **réglementer le droit de grève** ish tashlash huquqini aniq belgilab qo'ymoq.

**régler I.** *vt* **1.** moslamoq; mos, muvofiq ravishda ish tutmoq; biror kishidan namuna olmoq; **je régle mon pas sur le vôtre** men qadamlarimni siznikiga moslayapman; **2.** belgilamoq, aniqlamoq; **régler les modalités d'une entrevue** uchrashuv xususiyatlarini belgilamoq; **3.** sozlamoq, tuzatmoq, to'g'rilamoq; **régler le débit d'un robinet** jo'mrakdan suv o'tishini sozlamoq; **régler sa montre** soatini to'g'rilamoq; **4.** hal qilmoq, yechmoq, tartibga keltirmoq, yo'lga qo'ymoq; **régler une question, un problème** masala, muammoni hal qilmoq; **régler une affaire** ishni yo'lga qo'ymoq; **5. régler un comte** hisobni to'lab qutulmoq; **régler sa note d'hôtel** mehmonxona haqini to'lamoq (*hisob-kitob qilmoq*); **réglez-vous par chèque?** chek bilan hisob-kitob qilasizmi? **il régle en espèces** u naqd pul bilan to'laydi; **régler le boucher, le boulanger** qassob, novvoy bilan hisob-kitob qilmoq; **II. se régler** *vpr* **1.** biror kishidan o'rnak olmoq; **2.** hal bo'lmoq, hal qilinmoq, yechilmoq; **l'affaire s'est réglée à l'amiable** ish do'stona hal qilindi.

**réglisse** *nf* qizilmiya, shirinmiya; **pâte de réglisse** qizilmiya xamiri; **bonbons à la réglisse** qizilmiya konfeti.

**régnant** *adj* podsholik, shohlik, hukmronlik qiluvchi; **le prince régnant** podsholik qiluvchi shahzoda; **famille régnante** hukmronlik qiluvchi oila.

**règne** *nm* **1.** podsholik, shohlik, hukmronlik; **sous le règne de Napoléon** Napoleon hukmronligida; **un long règne** uzoq hukmronlik; **2.** hukmronlik; **le règne de l'argent, des banquiers** pul, bankirlar hukmronligi; **règne minéral, végétal, animal** minerallar, o'simliklar, hayvonot dunyosi.

**régner** *vi* **1.** podsholik, shohlik, hukmronlik qilmoq; **régner (pendant) vingt ans** yigirma yil podsholik qilmoq; *loc* **diviser pour régner** bo'lib-bo'lib yuborib hukmronlik qilmoq; **2.** ustunlik, hukmronlik, xo'jayinchilik qilmoq; **il règne en maître dans la maison** u uyda xo'jayinchilik qiladi; **elle règne sur toute la maisonnée** u uydagilarning hammasining ustidan hukmronlik qiladi;



www.ziyouz.com kutubxonasi

**il voudrait faire régner la justice sur le monde** u dunyoda adolat hukmini oʻrnatishni xohlardi; **3.** hukm surmoq, oʻrnatilgan boʻlmoq; **le bon accord qui règne entre nous** bizning oramizda hukm surayotgan yaxshi kelishuvchilik; **faire régner l'ordre, le silence** tartib, tinchlikni oʻrnatmoq.

**regonfler** *vt* damlamoq, dam bermoq, shishirmoq; **regonfler un ballon, des pneus** toʻpga, kameraga dam bermoq; *fam* **regonfler qqn, le moral de qqn** birovning ruhini koʻtarmoq, ruhlantirmoq, qoʻllab-quvvatlamoq.

**regorger** *vi* **regorger de** toʻlib-toshib yotmoq; **région qui regorge de richesses** boylik toʻlib-toshib yotgan viloyat.

**régresser** *vi* ozaymoq, kamaymoq, pasaymoq, chekinmoq, orqaga ketmoq; **la douleur régressait enfin** nihoyat ogʻriq pasaydi; **cet enfant régresse, il recommence à mouiller son lit** bu bola orqaga ketdi, u yana toʻshagini hoʻl qilib qoʻyyapti.

**régressif, ive** *adj* teskari, keyinga qaytadigan.

**régression** *nf* ozayish, kamayish, pasayish, chekinish, orqaga ketish; **la mortalité infantile est en régression, en voie de régression** bolalar oʻlimi kamaymoqda, kamayish yoʻlida.

**regret** *nm* **1.** oʻkinish, oʻkinch, qaygʻu, dard-alam, motam; **le regret du pays natal** ona vatan oʻkinchi; **le regret du passé** oʻtgan narsa haqida oʻkinish; **2.** afsuslanish, afsus chekish, pushaymon boʻlish (*afsus-nadomat, pushaymon, armon*); **je n'ai qu'un regret, c'est d'avoir été si long à comprendre** men bir narsadangina afsuslanaman, meni juda kech tushunishdi; **le regret d'une faute, d'avoir commis une faute** xatodan, xatoga yoʻl quyganlikdan pushaymon boʻlmoq; **le regret de n'avoir pas réussi** muyassar boʻlolmaganlikdan afsus chekish; *loc adv* **à regret** istar-istamas, uncha xohlamay, xohlamay; **accepter à regret** istar-istamas rozi boʻlmoq; **à mon grand regret, j'ai dû partir** ming afsuski, mening ketishim kerak boʻlib qoldi; **3.** afsus; **j'ai le regret de ne pouvoir vous recevoir** men sizni qabul qilolmaganligimdan afsusdaman; **tous mes regrets** ming bor afsus; **nous sommes au regret de vous informer** afsus bilan sizga bildiramizki.

**regrettable** *adj* ranjitadigan, afsuslantiradigan, achintiradigan; achinarli, oʻkinchli; **un incident, une erreur regrettable** achinarli hodisa, xato; **des conséquences regrettables** achinarli oqibatlar; **il est regrettable que vous ne puissiez pas venir** kela olmasligingizdan juda afsusdaman.

**regretter** *vt* **1.** achinmoq, oʻkinmoq, qaygʻurmoq, qaygʻu chekmoq, afsuslanmoq, afsus chekmoq; **regretter le temps passé, sa jeunesse** oʻtgan umriga, yoshligiga achinmoq; **notre regretté confrère** bizning rahmatli birodarimiz; **2.** pushaymon boʻlmoq, pushaymon qilmoq, afsuslanmoq; **elle regrette d'être venue** u kelganiga pushaymon qilyapti; **je ne regrette rien** men hech narsaga afsuslanmayman; **tu le regretteras** sen hali pushaymon boʻlasan; **viens! tu ne le regretteras pas!** kel! afsuslanmaysan! **je regrette mon geste** men qiligʻimdan pushaymonman; **3.** afsuslanmoq, xafa boʻlmoq, dili ogʻrimoq, ranjimoq; **je regrette cette décision** bu qarordan men ranjidim; **regretter que (+subjonctif)** afsus, afsusda boʻlmoq; **je regrette qu'il ne soit pas venu** uning kelmaganligidan afsusdaman; **4. (de+*inf*)** biror narsa qilishdan achinmoq, afsuslanmoq; **je regrette de vous avoir fait attendre** men sizni kuttirib qoʻyganimdan afsusdaman; **je regrette** men afsusdaman, afsus, kechirasiz.

**regroupement** *nm* qaytadan, yangidan guruhlarga boʻlish; qayta guruhlash; qaytadan, yangidan guruhlarga boʻlinish.

**regrouper** *vt* **1.** qaytadan guruhlamoq, yangidan guruhlarga ajratmoq; **regrouper les membres d'un parti** partiya a'zolarini qaytadan guruhlarga boʻlmoq; **2.** yigʻmoq, toʻplamoq, birlashtirmoq; **regrouper les populations** xalqlarni birlashtirmoq; **parti qui regroupe tous les mécontents** hamma norozilarni toʻplayotgan partiya.

**régularisation** *nf* tartibga solish, hal qilish, yoʻlga qoʻyish; **statut, situation en voie de régularisation** tartibga tushayotgan nizom, vaziyat.

**régulariser** *vt* **1.** tartibga solmoq, yoʻlga qoʻymoq; **régulariser sa situation** oʻz ahvolini (*iqtisodiy, ma'muriy*) tartibga solmoq; **2.** tuzatmoq, sozlamoq, rostlamoq, tuzatmoq; **régulariser le fonctionnement d'un appareil** biron bir apparatning ishlashini sozlamoq; **régulariser le régime d'un fleuve** daryodagi suv oqimini rostlamoq.

**régularité** *nf* **1.** bir maromdalik, bir tekisdalik, bir tartibdalik, muntazamlik; **la régularité de son pas** qadamlarining bir maromdaligi; **2.** uygʻunlik; **la régularité d'une façade** peshtoqning uygʻunligi; **3.** qonun-qoidaga monandlik, moslik; **la régularité d'une élection** saylovlarning qonun-qoidaga mosligi.

**régulateur, trice I.** *adj* tartibga solib turuvchi, muvofiqlashtiruvchi; toʻgʻrilovchi, sozlovchi; **force régulatrice** tartibga solib turuvchi kuch; **le mécanisme régulateur d'une horloge** kurant soatini tartibga solib turuvchi mexanizm; **II.** *nm* regulyator (*biror mexanizmning ishlashini tartibga solib turuvchi asbob*); **régulateur de vitesse, de température** tezlik, issiqlik regulyatori.

**régulation** *nf* tartibga solish, boshqarish, regulirovka qilish; **la régularisation du trafic** transport qatnovini tartibga solish; **la régularisation des naissances** tugʻilishni tartibga solish; **régularisation thermique** issiqlikni boshqarish (*sut emizuvchilarning tanasida*).

**régulier, ière** *adj* **1.** toʻgʻri, qoidaga muvofiq keladigan, qonuniy, ruxsat etilgan; **verbes régulirs** toʻgʻri tuslanuvchi fe'llar; **coup régulier** ruxsat etilgan zarba; **2.** uygʻun, tartibli, mutanosib, kelishgan; **une façade aux formes régulieres** uygʻun formali peshtoq; **écriture régulière** chiroyli yozuv; **visage régulier** kelishgan yuz; **3.** muntazam, bir maromda, bir tekis (*harakat, hodisa*); **vitesse régulière** bir tekis tezlik; **rythme régulier** bir tekis ritm; **progrès réguliers** bir maromdagi rivojlanish; **visites, inspections régulières** muntazam tashrif, tekshiruv; **4.** doimiy, muntazam; **être en correspondance régulière avec qqn** biror kishi bilan muntazam yozishib turmoq; **un service régulier de cars** avtobuslarning doimiy xizmati; **5.** bir maromdagi, bir tekis, doimiy; **habitudes régulières** doimiy odat; **vie régulière** bir maromdagi hayot; **6.** qonuniy, tartib-intizomga oid; **clergé régulier et clergé séculier** qora ruhoniylar (*monaxlar*) va oq ruhoniylar (*poplar*); **7.** *mil* doimiy, muntazam; **armées régulières** muntazam armiya; **8.** tartibli, tartibga aniq rioya qiluvchi; **il est régulier dans son travail** u ishda tartibga rioya qiladi; **9.** tirishqoq, harakatchan; **élève régulier** tirishqoq oʻquvchi; **10.** *fam* intizomli, tartibli, batartib; **un homme très régulier en affaires** ishda juda intizomli odam.

**régulièrement** *adv* **1.** doimiy, muntazam; **fonctionnaire régulièrement nommé** muntazam tayinlanadigan xizmatchi; **2.** toʻgʻri, tartibli, birin-ketinlik bilan; **couche de terre répartie régulièrement** birin-ketinlik bilan joylashgan yer qatlami; **client qui vient très régulièrement** har doim keladigan mijoz; **3.** *fam* **régulièrement, c'est toi qui dois gagner** rostini aytganda, sen yutishing kerak.

**réhabilitation** *nf* oqlash, oqlanish, shon-sharafini tiklash.

**réhabiliter** *vt* **1.** oqlamoq, ilgarigi huquqlarini tiklamoq; **finalement, on réhabilita Dreyfus** oxir-oqibatda, Dreyfusni oqlashdi; **2.** shon-sharafini, obroʻ-e'tiborini tiklamoq; **sa conduite l'a réhabilité** uning yurish-turishlari uning obroʻ-e'tiborini tikladi; **3.** qayta tiklamoq, yaroqli holga keltirmoq; **immeuble ancien réhabilité** qayta tiklangan qadimiy imorat.

**réhabituer I.** *vt* odatini tiklamoq, qayta odatlantirmoq; **II. se réhabituer** *vpr* qayta odatlanmoq, oʻz odatiga qaytmoq; **elle s'est réhabituée à se lever tôt** u erta turish odatiga qaytdi.

**rehausser** *vt* **1.** oshirmoq, koʻtarmoq, balandroq qilmoq; **rehausser un mur** devorni balandroq koʻtarmoq; **il nous faut rehausser le prestige de l'équipe** biz jamoaning obroʻsini yanada oshirishimiz kerak; **2.** orttirmoq, kuchaytirmoq; **le fard rehausse l'éclat de son teint** yogʻupa uning rangining tiniqligini oshirdi; **rehaussé, ée de** koʻrkamlashtirilgan, bezatilgan; **habit rehaussé de broderies** kashta bilan bezatilgan kiyim; **3.** boʻrttirmoq; **portrait rehaussé de couleurs vives** yorqin ranglar bilan boʻrttirilgan portret.

**réimpression** *nf* qayta nashr, yangi nashr.

**réimprimer** *vt* qaytadan, yangidan nashr qilmoq; qayta bosmadan chiqarmoq.

**rein** *nm* **1.** *pl* bel; **coup de reins** belga kuch kelish; *fig* **avoir les reins solides** beli baquvvat boʻlmoq; **casser les reins à qqn** birovning amalga koʻtarilishining beliga tepmoq; **2.** buyrak; **rein droit, gauche** oʻng, chap buyrak; **une greffe du rein** buyrakni koʻchirib oʻtkazish; **rein artificiel** sun'iy buyrak.

**réincarnation** *nf* boshqacha shaklga kirish; **le cycle des réincarnations, dans la religion hindoue** hindular dinida boshqa bir shaklga kirish davri.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**réincarner (se)** *vpr relig* boshqacha shaklga, tanaga kirmoq; **se réincarner dans un animal** hayvon shakliga kirmoq.

**reine** *nf* **1.** qirolning, podshoning xotini; **la reine mère** qirolning, podshoning onasi; *plais* qaynona; **2.** qirol, podsho xotini, qirolicha, malika; **3.** farzin (*shahmat*); **4.** malika; **reine de beauté** go'zallar malikasi; **5.** ona ari.

**reinette** *nf* ranet, renet (*chuchuk olmaning bir navi*).

**réinstalation** *nf* qaytarib joyiga qo'yish, o'z lavozimiga qayta tiklash.

**réinstaller** *vt* qayta joyiga qo'ymoq, o'z lavozimiga qayta tiklamoq; **on l'a réinstallé dans ses fonctions** uni o'z vazifasiga qayta tiklashdi.

**réintégration** *vt* qayta tiklash (*o'z haq-huquqlarini, o'z vazifasiga*), qaytarish, qayta joyiga qo'yish.

**réintégrer** *vt* **1.** qaytmoq, qaytib kelmoq; **réintégrer son logis** o'z yashash joyiga qaytib kelmoq; **réintégrer le domicile conjugal** o'z turmushiga, o'z oilasiga qaytmoq; **2.** o'z o'rniga, o'z vazifasiga qayta tiklamoq; **réintégrer un fonctionnaire après une mise en congé** xizmatchini ishdan bo'shatilgandan so'ng qayta o'z vazifasiga tiklamoq.

**réitération** *nf* qaytarish, takrorlash; qayta-qayta takrorlash.

**réitérer** *vt* qaytaravermoq, takrorlayvermoq; qaytadan, yangidan boshlab yubormoq; **réitérer une promesse** bir va'dani takrorlayvermoq; **il avait juré de ne plus boire, mais il a réitéré** u boshqa ichmaslikka qasam ichgan edi, lekin qaytadan boshlab yubordi.

**rejaillir** *vi* **1.** otilib chiqmoq, tizillab chiqmoq; sachramoq (*suyuqlik*); **la boue rejaillissait sous les roues de la voiture** loy avtomobil g'idiraklarining ostidan otilib chiqar edi; **2.** sachramoq, tegmoq, yuqmoq; **sa honte a rejailli sur nous tous** u hammamizni uyatga qo'ydi.

**rejaillissement** *nm* **1.** sachrash; **2.** otilib chiqish; **3.** aks etish (*yorug'likka nisbatan*), yaraqlash, yarqirash.

**rejet**[1] *nm* novda, bachki, yangi o'sib chiqayotgan shox; **l'ensemble des rejets forment le taillis** yangi o'sib chiqayotgan bachkilar to'planib, yosh o'rmonzorni hosil qiladi.

**rejet**[2] *nm* **1.** chiqarib tashlash; **le rejet des matières fécales** axlatli narsalarni chiqarib tashlash; **2.** (*she'r*) bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish; **3.** qabul qilmaslik; rad, inkor qilish; **le rejet d'une requête** iltimosnomani rad qilish.

**rejoindre I.** *vt* **1.** qaytmoq, qaytib kelmoq; **rejoindre sa famille** o'z oilasiga qaytmoq; **2.** qaytmoq (*biror joyga*); **il est temps de rejoindre la maison** uyga qaytish vaqti bo'ldi; **3.** borib qo'shilmoq, kelib tutashmoq; **la rue rejoint le boulevard à cet endroit** yo'l bulvarga shu yerda kelib tutashadi; **4.** o'xshash kelmoq, bir xil tushmoq; **5.** yetib olmoq; **pars devant, je te rejoindrai** oldinroq ketaver, men senga yetib olaman; **II. se rejoindre** *vpr* bir yerga to'planmoq, yig'ilmoq, to'planishmoq; **nous devons nous rejoindre chez lui** biz unikida to'planishimiz kerak.

**réjouir I.** *vt* xursand, shod qilmoq, sevintirmoq, quvontirmoq; **choses qui réjouissent le cœur, le regard** yurakni, ko'zni quvontiradigan narsalar; **une mine réjouis** shodon, shodlikka to'la yuz; **II. se réjouir** *vpr* xursand, shod bo'lmoq, sevinmoq, quvonmoq; **se réjouir du malheur des autres** boshqalarning baxtsizligidan quvonmoq; **il n'y a pas lieu de se réjouir** xursand bo'ladigan joyi yo'q; **se réjouir à** shodlanmoq, zavqlanmoq, shod bo'lmoq, shodlikka to'lmoq; **je me réjouis à la pensée de vous revoir** sizni ko'rish xayolidan yuragim shodlikka to'ldi; **se réjouir de** o'zini baxtiyor his etmoq, quvonmoq; **je me réjouis de ton succès** sening yutuqlaringdan quvondim.

**réjouissance** *nf* **1.** o'yin-kulgi, xursandchilik, vaqtichog'lik, vaqtixushlik; **2.** *pl* tantanali bayram, tantanalar; **réjouissances publiques, officielles** ommaviy, rasmiy tantanalar.

**réjouissant, ante** *adj* xursand qiladigan, quvontiradigan, shodlantiradigan; kuldiradigan; **une nouvelle qui n'a rien de réjouissant** hech qanday quvontiradigan joyi yo'q yangilik; **eh bien, c'est réjouissant** juda yaxshi, bu juda kulgili!

**relâche**[1] *nm ou f* **1.** dam olish, nafasni rostlash, tinim, tin olish; *loc* **sans relâche** tinim bilmay, to'xtovsiz; **travailler sans relâche** tinim bilmay ishlamoq; **2.** yopiqlik, dam olish; **jour de relâche** dam olish kuni; **faire relâche** tomosha ko'rsatmaslik.

**relâche**[2] *nf mar* portga kirish, portda to'xtash, to'xtab o'tish; **notre bateau a fait relâche à Madère** bizning kemamiz Mader portida to'xtadi.

**relâcher**[1] **I.** *vt* **1.** bo'shatmoq, bo'shashtirmoq, bo'sh qo'ymoq; **relâcher son étreinte** quchog'ini bo'shatmoq; **relâcher ses muscles** mushaklarini bo'shashtirmoq; **2.** kamaytirmoq, bo'shashtirmoq; **relâcher son attention** e'tiborini bo'shashtirmoq; **3.** bo'shatmoq, qo'yib yubormoq; **relâcher un prisonnier** mahbusni qo'yib yubormoq; **II. se relâcher** *vpr* **1.** bo'shashmoq, kamaymoq; **les liens entre nous se sont relâchés avec les années** yillar o'tishi bilan bizning aloqalarimiz bo'shashib ketdi; **2.** bo'shashmoq, sovimoq; **la discipline s'est relâchée** intizom bo'shashib ketdi; **se relâcher dans son travail** ishdan ko'ngli sovib ketmoq.

**relâcher**[2] *vi mar* portga kirmoq, portda to'xtamoq, to'xtab o'tmoq; **le bateau dut relâcher à Brest** kema Brestda to'xtab o'tishi kerak edi.

**relais** *nm inv* **1.** *vx* charchagan otlarni almashtiradigan qarorgoh; **un relais de poste** pochta otlarini almashtiradigan qarorgoh; *zam.* katta yo'l bo'yidagi qarorgoh, mehmonxona; **2. course de relais** estafetali yugurish; **3.** smenali ish, smena; *loc* **prendre le relais de** smenani qabul qilmoq; **4.** oraliq, vositachi; **ville relais** oraliq shahar; **servir de relais dans une transaction** biror kelishuvda vositachilik qilmoq; **5.** rele; **un relais de télévision** televizor relesi.

**relance** *nf* qayta, yangidan yuksalish, rivojlanish, o'sish, taraqqiy etish, avj olish; kuchayish; **la relance de l'économie** iqtisodning qayta yuksalishi.

**relancer** *vt* **1.** qayta irg'itmoq, qaytarib irg'itmoq, otmoq; irg'itib yubormoq; **il me relança la balle** u menga to'pni qaytarib irg'itdi; **2.** ishga tushirib, yurgizib yubormoq; yuksaltirib, rivojlantirib yubormoq; **relancer un moteur** motorni yurgizib yubormoq; **relancer un projet** biror rejani qayta o'rtaga tashlamoq; **relancer l'économie du pays** mamlakat iqtisodini rivojlantirib yubormoq.

**relaps, apse** *adj relig* bid'atga oid, bid'at; **Jeanne d'Arc fut brûlée comme relapse** Janna d'Ark bid'atchi sifatida olovda yoqildi.

**relater** *vt litt* bayon, hikoya qilmoq; aytib bermoq; **les historiens relatent le fait, relatent que** tarixchilar bo'lgan hodisani bayon qiladilar, tarixchilar hikoya qiladilarki.

**relatif, ive** *adj* **1.** nisbiy; **toute connaissance est relative** har qanday bilim nisbiydir; **valeur relative** nisbiy qiymat; **tout est relatif** hamma narsa nisbiydir; **2.** qisman, to'la bo'lmagan, nisbatan; **il est d'une honnêteté relative** u nisbatan sofdil; **3.** taalluqli, aloqador, bog'liq, bog'langan; **positions relatives** o'zaro bog'liq nuqtai nazarlar; **document relatif à tel sujet, à telle période** biron bir mavzuga, davrga taalluqli hujjat; **4.** *gram* nisbiy; **pronom relatif** nisbiy olmosh; **adjectif relatif** nisbiy sifat; **proposition relative** aniqlovchi ergash gap.

**relation**[1] *nf* **1.** munosabat, aloqa; aloqadorlik, bog'liqlilik, taalluqlilik; **relation de cause à effet** sababning oqibatga munosabati; **étroite relation entre les diverses parties d'un tout** umumiylikning turli tomonlarini bir-biriga uzviy bog'liqligi; **en relation avec** bog'liq, bog'langan, aloqador; **ce que je dis est sans relation avec ce qui précède** mening aytayotganlarimning oldingilarga hech qanday aloqadorligi yo'q; **2.** *pl* o'zaro munosabat, aloqa (*odamlar orasida*); **les relations humaines** insoniy aloqalar; **relation d'amitié, relation amoureuses** do'stona, ishqiy munosabatlar; **nouer, avoir des relations avec qqn** biror kishi bilan aloqa bog'lamoq, aloqasi bo'lmoq; **bonnes, mauvaises relations** yaxshi, yomon munosabatlar; **cesser, interrompre ses relations avec qqn** biror kishi bilan aloqasini uzmoq; **relations épistolaires** yozma aloqalar (*yozishmalar*); *loc* **en relation** aloqada, munosabatda; **être, se mettre, rester en relation avec qqn** biror kishi bilan aloqada bo'lmoq, aloqaga kirishmoq, aloqada qolmoq; **3.** *pl* tanishlar, tanish-bilishlar; **obtenir un poste par relations** biror mansabga tanish-bilishlar orqali erishmoq; **4.** aloqalar, munosabatlar (*xalqaro, millatlararo*). **tension, détente dans les relations internationales** millatlararo aloqalarning taranglashuvi; **relations diplomatiques** diplomatik aloqalar; **relations culturelles entre pays** davlatlar o'rtasidagi madaniy aloqalar; **5.** o'zaro bog'liqlik, o'zaro aloqa; **l'étude des relations des êtres vivants avec leur milieu** atrof muhit bilan jonli mavjudot o'rtasidagi o'zaro bog'likligini o'rganish.

**relation**[2] *nf* hikoya, bayon, ta'rif; **la relation d'un voyage en Chine** Xitoyga qilingan sayohatning bayoni.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**relativement** *adv* **1.** nisbatan, deyarli, birmuncha, bir qadar; **c'est relativement rare** bu birmuncha noyob; **il est relativement honnête** u bir qadar sofdil; **2. relativement à** -ga nisbatan; **relativement au prix du quartier, ce n'est pas cher** kvartaldagi bahoga qaraganda bu qimmat emas.

**relativité** *nf* nisbiylik, nisbiyat; **la relativité du jugement humain** inson taffakurining nisbiyligi; **théorie de la relativité** nisbiylik nazariyasi.

**relax** *ou* **relax, relaxe** *anglic fam* **I.** *adj* tinch, osoyishta, xotirjam, bexavotir, beg'alva, huzurli, halovatli, orombaxsh; **une soirée plutôt relax(e)** orombaxsh kecha; **II.** *nf* yumshatish, bo'shashtirish, kuchsizlantirish; **III.** *nm* tinchlik, osoyishtalik, xotirjamlik, orom, halovat.

**relaxation** *nf* bo'shashtirish, yumshatish, kuchsizlantirish; *fam* orom, hordiq.

**relaxer I.** *vt* bo'shatmoq, qo'yib yubormoq, ozodlikka chiqarmoq; **II. se relaxer** *vpr anglic* orom olmoq, hordiq chiqarmoq, o'zini qo'yib yubormoq, o'zini bo'shashtirmoq (*mushaklarini, asablarini*).

**relayer I.** *vt* almashtirmoq, o'rnini olmoq; **quand tu seras fatigué de ramer, je te relaierai** sen eshkak eshib charchaganingda, men seni almashtiraman; **II. se relayer** *vpr* bir-birini almashtirmoq; **elles se sont relayées toute la nuit auprès du malade** ular butun tun kasalning boshida navbatma-navbat o'tirib chiqishdi.

**relecture** *nf* qayta o'qish, qayta o'qib chiqish.

**relégation** *nf* surgun, surgun qilish; **la relégation fut supprimée, en France, en 1970** Fransiyada surgun qilish 1970 yili bekor qilingan.

**reléguer** *vt* **1.** surgun qilmoq, jo'natib yubormoq; *narsa* olib borib qo'ymoq, yashirib qo'ymoq; **reléguer un objet au grenier** biror narsani omborxonaga yashirib qo'ymoq; **2.** *fig* keyingi o'ringa, orqaga surmoq; paslatmoq; **on l'a relégué dans une fonction subalterne** uni past ishga o'tkazishdi; **se sentir relégué au second plan** o'zini ikkinchi darajada qoldirilgan his qilmoq.

**relent** *nm* **1.** sassiq, anqigan, yomon hid; **des relents d'alcool** aroqning anqigan hidi; **2.** *fig* hid (*gumon*); **son histoire a des relents de racisme** uning sarguzashtlaridan irqchilik hidi kelyapti.

**relevé** *nm* ko'chirma, ro'yxat, vedomost; **le relevé des dépenses** xarajatlar ro'yxati.

**relèvement** *nm* **1.** qayta tiklash, yuksaltirish, ko'tarish; **2.** yuqoriga ko'tarish, balandlashtirish; **3.** ko'tarish, oshirish; **le relèvement des salaires** oylikni oshirish.

**relever I.** *vt* **1.** ko'tarmoq, o'rnidan turgizmoq, turgizmoq; turishga yordamlashmoq, tiklamoq; **un passant relève l'enfant qui est tombé sur le trottoir** yo'lovchi trotuarda yiqilib tushgan bolani turgizib qo'ydi; **le maçon a relevé le mur qui s'effondrait** g'isht teruvchi qulab tushgan devorni tikladi; **2.** tiklamoq, ko'tarmoq, yuksaltirmoq; **il nous faut relever le pays, l'économie** mamlakatni, iqtisodni yuksaltirishimiz kerak; **relever le moral de qqn** birovning kayfiyatini, ruhini ko'tarmoq; **3.** yig'moq, yig'ib olmoq; **professeur qui relève les cahiers** daftarlarni yig'ib olayotgan o'qituvchi; *loc* **relever le défi** chaqiriqni qabul qilmoq; **4.** ko'tarmoq; **relever la tête** boshini ko'tarmoq; **relever son col, ses jupes** yoqasini, ko'ylagini ko'tarmoq; **manches relevées** shimarilgan yenglar; **virage relevé** bir tomoni ko'tarilgan burilish; **5.** ko'tarmoq, oshirmoq, yuqoriroq darajaga yetkazmoq; **relever le niveau de vie, les salaires** hayot darajasini ko'tarmoq, ish haqini oshirmoq; **plaisanterie, film d'un niveau pas très relevé** saviyasi past hazil, film; **6.** *litt* yuksaklarga ko'tarmoq, yuksaltirmoq; **cet exploit le relève à ses propres yeux** bu jasorat uni o'z ko'zi oldida yuksaltiradi; **7.** mazasini, ta'mini oshirmoq; maza, ta'm bermoq; **relever une sauce** sousni achchiq qilmoq; **un plat relevé** ziravorlar qo'shilgan ovqat; **8.** *litt* qochirim, piching, bo'rttirish bilan boyitmoq; **relever un récit de (par des) détails piquants** hikoyani pichingli tafsilotlar bilan boyitmoq; **9.** qayd qilmoq, belgilamoq; **relever des erreurs, des fautes dans un texte** matnda xato va kamchiliklarni qayd qilmoq; **10.** e'tibor bermoq, javob qaytarmoq; **cette accusation ne mérite pas d'être relevée** bu ayblash javob qaytarishga ham arzimaydi; **je n'ai pas voulu relever l'allusion** men shamaga e'tibor ham berishni xohlamadim; **11.** yozib, belgilab, ko'chirib olmoq; **relever une adresse, une recette de cuisine** adresni, ovqat retseptini yozib, ko'chirib olmoq; **relever un compteur** hisoblagichdagi sonlarni ko'chirib, yozib olmoq; **12.** almashtirmoq; **relever une sentinelle** soqchini almashtirmoq; **13. relever qqn de** bo'shatmoq, o'zgartirmoq, o'rniga boshqasini qo'ymoq, almashtirmoq; **relever qqn de ses fonctions** biror kishini o'z vazifasidan bo'shatmoq; **II.** *vi* **1. (de)** tuzalmoq, turmoq, oyoqqa turmoq; **relever de maladie** kasaldan turmoq; **2.** qaram, tobe bo'lmoq, birovning izmida bo'lmoq; **les seigneurs relevaient directement du roi** hukmdorlar to'g'ridan-to'g'ri qirolga qaram edilar; **3.** bog'liq bo'lmoq; **une affaire qui relève du tribunal correctionnel** jinoyat sudiga bog'liq ish; **4.** sohasiga taalluqli bo'lmoq; **cette théorie relève de la pure fantaisie** bu sof fantaziya sohasiga taalluqli; **III. se relever** *vpr* **1.** turmoq, o'rnidan turmoq; **aider qqn à se relever** biror kishiga o'rnidan turishga yordam bermoq; **2.** *fig* oyoqqa turmoq, tiklanmoq, qaddini rostlamoq; **pays qui se relève** tiklanayotgan davlat; **je ne m'en relèverai jamais** men endi hech qachon tiklana olmasam kerak; **3.** yuqoriga ko'tarilmoq, ko'tarilmoq; **les coins de sa bouche se relèvent** lablarining burchaklari yuqoriga ko'tarildi.

**releveur, euse I.** *adj anat* ko'taruvchi; **le muscle releveur de la paupière** qovoqni ko'taradigan mushak; **II.** *n* hisobchi, hisoblarni yozib oluvchi; **le releveur des compteurs** hisoblagichdagi ko'rsatkichlarni yozib oluvchi.

**relief** *nm* **1.** bo'rtma, qavariq, relyef; **la paroi ne présentait aucun relief** yuzada hech qanday qavariqlik yo'q edi; **en relief** bo'rtgan, qavargan; **les caractères en relief du braille** ko'rlarning bo'rtma yozuvi; **2.** relyef, bo'rtma naqsh; **façade ornée de reliefs** bo'rtma naqsh bilan bezatilgan peshtoq; **3.** relyef (*yer yuzining tuzilishi, past-balandligi*); **le relief de la France** Fransiyaning relyefi; **4.** bo'rttirib ishlangan rasm; **sensation de relief** relyefni his qilish; **photographie, cinéma en relief** bo'rtma rasm, kino; stereokopik rasm, kino; **5.** yaqqol, aniq, ravshan, ochiq-oydin ko'rinib turadigan; **un style qui manque de relief** ravshanlik yetishmaydigan uslub.

**relier**[1] *vt* muqovalamoq, muqova qilmoq; **un livre relié en basane, en maroquin** kitobni saxtiyon terisidan muqovalamoq.

**rentrer I.** *vi* **1.** qaytib kirmoq, kirmoq; **je l'ai vu sortir, puis rentrer précipitemment dans la maison** men uni chiqib ketganini, so'ng shoshib qaytib uyga kirganini ko'rdim; **rentrer dans un magasin** magazinga kirmoq; **2.** uyiga qaytib kelmoq; **il vient de rentrer de voyage** u sayohatdan yaqinda qaytdi; **nous rentrerons tard** biz kech qaytamiz; **3.** o'z faoliyatini qayta boshlamoq, ishga qaytmoq; **les tribunaux, les lycées rentrent à telle date** sudlar, litseylar ushbu kuni ishga qaytadilar; **4.** *loc* **rentrer dans ses droits** o'z huquqiga kirmoq; **tout est rentré dans l'ordre** hamma narsa tartibga tushdi; **5.** *loc* **rentrer en soi-même** diqqat-e'tiborini, xayolini bir yerga to'plamoq, fikrni to'plab olmoq, cho'mmoq; **6.** kirib ketmoq, borib urilmoq; **sa voiture est rentrée dans un arbre** avtomobili daraxtga borib urildi; **rentrer dedants** qattiq urilib ketmoq; **faire rentrer qqch dans la tête (de qqn)** biror kishining boshiga biror narsani urib kiritmoq; **7.** kirmoq, botib ketmoq, kirib ketmoq; **le cou lui rentre dans les épaules** uning bo'yni yelkasiga kirib ketdi; *fig* **les jambes lui rentraient dans le corps** uning oyoqlari bukilib ketar edi (*charchoqdan*); **8.** kirmoq, tashkil qilmoq; **cela ne rentre pas dans mes attributions** bu mening vazifamga kirmaydi; **9.** kelib tushmoq (*pul*); **faire rentrer l'impôt** soliqning pullarini tushirmoq; **II.** *vt* **1.** ichiga kiritmoq, yig'ishtirib olmoq; **rentrer les foins** pichanni yig'ishtirib olmoq; **il a rentré sa voiture** u avtomobilini kiritib qo'ydi; **rentrer le ventre** qornini ichiga tortmoq; **2.** kiritmoq, yashirmoq; **rentrer sa chemise dans son pantalon** ko'ylagini shimining ichiga kiritmoq; **le chat rentre ses griffes** mushuk tirnoqlarini ichiga kiritdi; **rentrer ses larmes, sa rage** ko'z yoshlarini, g'azabini ichiga yutmoq.

**renversant, ante** *adj* ag'daradigan, qulatadigan; **une nouvelle renversante** odamni ag'daradigan yangilik.

**renverse (à la)** *loc adv* chalqancha, chalqanchasiga; **tomber à la renverse** chalqanchasiga yiqilmoq.

**renversé, ée** *adj* ag'darilgan, to'ntarilgan; **une image renversée** to'ntarilgan rasm; **c'est le monde renversé!** bu teskari dunyo! **meubles renversés** ag'darilgan mebellar; **2.** xafa, ta'bi xira, ko'ngli g'ash, dili xufton, yuragiga qil sig'maydigan.

**renversement** *nm* **1.** ag'darish, to'ntarish, ag'darib, to'ntarib yuborish; **2.** teskarisiga aylanish; **le renversement des alliances** aloqalarning teskarisiga aylanib ketishi; **on assiste au renversement de la situation** biz sharoitning chappasiga ketishida qatnashib turibmiz; **3.** ag'darish, to'ntarish, qulatish, yiqitish; **le renversement du régime** tuzimni ag'darish.

**renverser I.** *vt* **1.** to'ntarmoq, ag'darmoq; **renverser un seau** chelakni to'ntarmoq; **2.** teskarisiga aylantirmoq, teskari harakatlantirmoq; **renverser l'ordre des mots dans une phrase** gapda so'zlarning tartibini teskarisiga aylantirmoq; **renverser la vapeur** bug'ni teskarisiga yurgizmoq; **3.** ag'darib, yiqitib, qulatib yubormoq; **c'est une camionnette qui l'a renversé** uni yuk mashinasi ag'darib ketdi; **renverser une chaise** kursini ag'darib yubormoq; **renverser du vin sur la nappe** dasturxonga vinoni ag'darib, to'kib yubormoq; **4.** qulatmoq, ag'darmoq, yiqitmoq, buzib tashlamoq; **renverser tous les obstacles** hamma to'siqlarni qulatmoq; **5.** orqaga tashlamoq; **renverser la tête, la buste** boshini, qaddini orqaga tashlamoq; **6.** hayratga solmoq, hayratlantirmoq; **cela me renverse** bu meni hayratga soladi; **II. se renverser** *vpr* **1.** ag'darilmoq, to'ntarilmoq; **la barque s'est renversée** qayiq ag'darilib ketdi; **la bouteille s'est renversée** shisha ag'darilib ketdi; **2.** ag'anab, qulab, yiqilib tushmoq; **il se renversa sur son siège** u o'rindig'idan qulab tushdi.

**renvoi[1]** *nm* kekirik, kekirish.

**renvoi[2]** *nm* **1.** biror kishini kelgan joyiga qaytarib yuborish; **2.** ishdan bo'shatish, ishdan haydash; **3.** qaytarib yuborish (*jo'natuvchiga*); **le renvoi d'une lettre** xatni qaytarib yuborish; **4.** qaytarish, o'yinga kiritish; **le renvoi d'un ballon** to'pni qaytarish; **5.** keyingi bosqichga o'tkazish, jo'natish, uzatish; **renvoi aux assises** majlisga o'tkazish; **6.** dalil keltirish, izoh, snoska; **7.** keyinroqqa qoldirish; **le renvoi d'une décision à une date ultérieure** qarorni keyinroq kunga qoldirish.

**renvoyer** *vt* **1.** qaytarmoq, qaytarib yubormoq, kelgan joyiga qaytarib yubormoq; **il est guéri, vous pouvez le renvoyer en classe** u tuzalib qoldi, uni sinfiga qaytarsangiz bo'ladi; **elle désirait se reposer et elle a renvoyé tout le monde** u hordiq chiqarishni xohlardi va hammani qaytarib yubordi; **2.** ishdan bo'shatmoq, haydab yubormoq, quvib yubormoq; **renvoyer un employé** xizmatchini ishdan bo'shatmoq; **il a été renvoyé du lycée** u litseydan haydaldi; **3.** jo'natmoq, jo'natib yubormoq; **renvoyer un cadeau** sovg'a jo'natmoq; **je vous renvoie vos documents** men sizga hujjatlaringizni jo'natib yuborayapman; **4.** qaytarmoq; **renvoyer un ballon** to'pni qaytarmoq; **le mur a renvoyé la balle** to'p devorga urilib qaytdi; **5.** qaytarmoq, aks ettirmoq; **l'écho renvoyait les coups de tonnerre** momaqaldiroqning guldirashini aks sado qaytarar edi; **6.** jo'natmoq, qaratmoq, murojaat qilishini so'ramoq; **on m'a renvoyé à un autre service** meni boshqa bir tashkilotga jo'natishdi; **je renvoie le lecteur à mon précedent ouvrage** men o'quvchini mening oldingi asarimga murojaat qilishlarini so'rayman; **7.** kechiktirmoq, keyinroqqa qoldirmoq; **renvoyer une affaire à huitaine** ishni biror haftalarga qoldirmoq.

**réoccupation** *nf* qayta bosib olish; **la réoccupation d'un territoire par l'armée** biror hududni qo'shin yordamida qayta bosib olish.

**réoccuper** *vt* qayta bosib olmoq; **réoccuper un territoire** biror hududni qayta bosib olmoq.

**réorganisation** *nf* qayta(dan) tashkil etish, yangidan, yangicha tuzish; **la réorganisation d'une administration** boshqaruvni yangicha tuzish.

**réorganiser** *vt* qayta(dan) tashkil qilmoq, yangidan, yangicha tuzmoq; **réorganiser un service** xizmat sohasini yangicha tuzmoq.

**réouverture** *nf* qayta ochilish; **la réouverture d'un théâtre** teatrning qayta ochilishi.

**repaire** *nm* **1.** in, uya (*vahshiy hayvonlarning*); **2.** in, uya, makon; **un repaire de brigands** qaroqchilar uyasi.

**repaître I.** *vt litt* to'ydirmoq; **repaître ses yeux d'un spectacle** tomosha qilib to'ymaslik; **II. se repaître** *vpr* **1.** qornini to'yg'azmoq (*hayvon*); **2.** *litt* yashamoq, kun ko'rmoq; **ce tyran ne se repaît que de sang et de carnage** bu zolim hukmdor qon va qirg'in bilangina kun ko'radi; **se repaître d'illusions** xom xayol bilan yashamoq.

**répandre I.** *vt* **1.** to'kib yubormoq, ag'darib yubormoq; **répandre du vin sur une nappe** dasturxonga vino to'kib yubormoq; **répandre des larmes** ko'z yoshi to'kmoq; **2.** tarqatmoq, taratmoq, chiqarmoq; **répandre une odeur** hid taratmoq; **3.** *litt* tarqatmoq, ulashmoq; sochmoq, ekmoq (*urug'ni*); **répandre des bienfaits** ezgulik tarqatmoq; **répandre la joie, l'allégresse** xursandchilik, shodlik ulashmoq; **4.** yoymoq, tarqatmoq; **répandre une doctrine, une mode** nazariyani, modani yoymoq; **5.** tarqatmoq, oshkor qilmoq, yoymoq; **répandre une nouvelle, un bruit** yangilik, gap tarqatmoq; **II. se répandre** *vpr* **1.** tarqalmoq, yoyilmoq, taralmoq; **la fumée se répand dans la pièce** xonada tutun tarqaldi; *fig* **la consternation se répandit sur tous les visages** hammaning yuzini xavotirlik bosdi; **2.** tarqalmoq, yoyilmoq; egallamoq, o'rin olmoq; **l'épidémie risque de se répandre** epidemiyaning tarqalib ketish xavfi bor; **cet usage se répand peu à peu** bu odat sekin asta urf bo'lyapti; **le bruit s'est répandu qu'il avait disparu** u yo'qolib qolibdi degan gap tarqaldi; **3. se répandre (ou être répandu) dans la société**



www.ziyouz.com kutubxonasi

koʻpchilikning ichida yurmoq, koʻpchilikning ichida boʻlmoq; **3. (en)** rosa biror narsa qilmoq, rosa biror narsa qila ketmoq; **se répandre en louanges** rosa maqtamoq, maqtay ketmoq.

**répandu, ue** *adj* **1.** chochilgan, yoyilib yotgan, toʻzib yotgan; **2.** keng tarqalgan, keng yoyilgan; **un préjugé très répandu** keng tarqalgan notoʻgʻri fikr.

**reparaître** *vi* **1.** qayta koʻrinmoq, qayta namoyon boʻlmoq; **le soleil a reparu** quyosh qayta koʻrindi; **ne reparais jamais devant moi!** koʻzimga qayta koʻrinma! **2.** qayta koʻrinmoq, qayta namoyon boʻlmoq, qayta paydo boʻlmoq, qaytalanmoq; **ce caractère peut reparaître après plusieurs générations** bu feʼl-atvor bir necha avloddan keyin qayta namoyon boʻlishi mumkin.

**réparateur, trice I.** *n* usta, taʼmirlovchi; **un réparateur de télévisions** televizor ustasi; **II.** *adj* tiklaydigan, kuch beradigan, mustahkamlaydigan, asl holiga keltiradigan; **sommeil réparateur** kuchni tiklaydigan uyqu; **chirurgie réparatrice** asl holiga qaytaruvchi xirurgiya.

**réparation** *nf* **1.** tuzatish, sozlash, yamash, remont; **la réparation d'une montre** soatni tuzatish; **en réparation** remontda, ustada, tuzatishda; **l'ascenseur est en réparation** lift remontda; *pl* taʼmirlash; **il a fait de grosses réparations dans sa maison** u uyida katta taʼmirlash ishlarini qildi; **2.** bartaraf qilish, tuzatish; **la réparationd'une avarie, d'une panne** avariyani, buzilishni bartaraf qilish; **3. surface de réparation** jarima maydonchasi; **4.** reparatsiya, tovon; **réparations imposées à un pays vaincu** yengilgan davlatga solingan tovon.

**réparer** *vt* **1.** tuzatmoq, sozlamoq, yamamoq, remont qilmoq; **réparer un poste de radio, une bicyclette** radioni, velosipedni tuzatmoq; **donner ses chaussures à réparer** poyabzalini tuzatgani bermoq; **2.** tiklamoq, yaxshilamoq, oʻz holiga keltirmoq; **réparer ses forces, sa santé** kuchini, sogʻligini tiklamoq; **3.** taʼmirlamoq, tiklamoq, tuzatmoq, oʻrniga keltirmoq; **réparer un accroc** yulib olingan joyni tiklamoq; **réparer une perte** zararni tiklamoq; **réparer sa faute, ses torts** xatosini, kamchiliklarini tuzatmoq.

**reparler** *vi* biror kimsa yoki biror narsa haqida qayta gapirmoq; **nous aurons le temps d'en parler** bizning bu haqda gapirgani vaqtimiz boʻladi; *fam* **on en reparlera** biz bu haqda yana gaplashamiz, biz bu gapga yana qaytamiz.

**repartie** *nf* hozirjavob gap, luqma, gap qistirish; **il a de la repartie** u hozirjavob, u ogʻzingdan olib, yoqangga yopishtiradi.

**repartir**[1] *vi* **1.** qaytib ketmoq, kelgan joyiga ketmoq; **ils sont repartis le lendemain de leur arrivée** ular kelgan kunining ertasiga qaytib ketishdi; **2.** joʻnamoq, joʻnab ketmoq; **le train va repartir** poyezd hozir joʻnab ketadi; **3.** *fig* qayta …-dan boshlamoq; **nous avons dû repartir à, de zéro** bizning noldan qayta boshlashimizga toʻgʻri keldi; **4.** qayta, yangidan boshlanmoq, yana davom etmoq, tiklanmoq; **l'affaire repart bien** ish qaytadan yaxshi boshlandi.

**repartir**[2] *vi litt* oʻrnida javob bermoq, luqma tashlamoq, gap qistirmoq.

**répartir I.** *vt* **1.** taqsimlamoq, taqsim qilmoq, boʻlmoq, boʻlib chiqmoq, boʻlib bermoq; **répartir une somme, un travail entre plusieurs personnes** pulni, ishni koʻpchilik oʻrtasida boʻlib chiqmoq; **2.** joylashtirmoq, tarqatmoq; **répartir ses troupes** qoʻshinlarini joylashtirmoq; **3.** moʻljallamoq, boʻlmoq; **répartir un programme sur plusieurs années** rejani bir necha yilga moʻljallamoq; **4.** ajratmoq, boʻlmoq; **on a réparti les élèves en deux groupes de travail** oʻquvchilarni ikki ish gruhiga boʻlishdi; **II. se répartir** *vpr* boʻlinmoq, taqsimlanmoq; **les rôles se répartiront ainsi** rollar shu tariqa taqsimlanadi.

**répartition** *nf* **1.** taqsimlash, boʻlish, boʻlib berish; **procéder à répartition des emplacements** joylarni taqsimlashga kirishish; **la répartition de la richesse nationale** milliy boylikni taqsimlash; **2.** joylashtirish, rayonlashtirish; **la répartition géographique d'une espèce** bir turni geografik rayonlashtirish.

**repas** *nm inv* **1.** ovqat, taom; **faire un repas copieux, plantureux** moʻl-koʻl, toʻkin-sochin ovqat qilmoq; **repas léger** yengil ovqat, tamaddi; **préparer, servir le repas** ovqat tayyorlamoq, taom tortmoq; **2.** ovqatlanish, ovqat yeyish; ovqat; **prendre ses repas chez soi** uyda ovqatlanmoq; **faire trois repas par jour** kuniga uch marta ovqatlanmoq; **repas du matin, de midi, du soir** nonushta, tushlik, kechki ovqat; **3.** ovqat payti (*tushki yoki kechki*).

**repassage** *nm* dazmollash; **faire du repassage** dazmol qilmoq, dazmollamoq.

**repasser**[1] **I.** *vi* qayta oʻtmoq, qaytib oʻtmoq, yana oʻtmoq; **je repasserai à cet endroit demain** men ertaga bu yerdan yana oʻtaman; **je repasserai vous voir** men sizni koʻrgani kelaman; **il repasse devant la boutique, hésite, mais ne peut se décider à entrer** u doʻkonning oldidan u yoqdan bu yoqqa oʻtadi, ikkilanadi, lekin kirishga jurʼat qilolmaydi; **le film repasse** film qayta koʻrsatilyapti, qayta qoʻyilyapti, qayta ketyapti; *fig* **des souvenirs repassaient dans sa mémoire** xotiralar uning xayolidan birin-ketin oʻtardi; **II.** *vt* **1.** qayta kesib oʻtmoq; **repasser les monts, les mers** togʻlarni, dengizlarni qayta kesib oʻtmoq; **repasser un examen** imtihonni qayta topshirmoq; **2.** oʻtkazmoq, oʻtkazib yubormoq; uzatmoq, uzatib yubormoq; **repasse-moi le plat, le pain** ovqatni, nonni menga uzatib yubor; **repasser les événements de sa vie** hayotidagi voqealarni xayolidan oʻtkazmoq.

**repasser**[2] *vt* **1.** qayramoq, oʻtkirlamoq; **repasser des ciseaux** qaychini qayramoq; **2.** dazmollamoq; **repasser une chemise** koʻylakni dazmollamoq; **fer à repasser** dazmol.

**repasser**[3] *vt* qaytarmoq, takrorlamoq, qayta-qayta takrorlamoq; **repasser ses leçons** darslarini takrorlamoq; **repasser son rôle** oʻz rolini takrorlamoq.

**repasseuse** *nf* dazmollovchi ayol.

**repêchage** *nm* **1.** suvdan tutib, chiqarib olish; **le repêchage d'un noyé** gʻarq boʻlganni suvdan tutib olish; **2.** imtihondan yiqilgan, yetarli ball toʻplay olmagan odamni oʻtkazib yuborish; **examen, épreuve de repêchage** qayta imtihon, sinov (*imtihondan yiqilgan, yetarli ball toʻplay olmagan odamning qabul qilinishiga yordamlashish maqsadida oʻtkaziladigan*).

**repêcher** *vt* **1. repêcher un noyé** gʻarq boʻlganni suvdan tortib olmoq; **2.** *fam* qayta imtihon qilmoq; **repêcher un candidat** nomzodning umumiy bahosi yetishmasa ham qabul qilmoq.

**repenti, ie** *adj* tavba qilgan; **pécheur repenti** tavba qilgan gunohkor.

**repentir (se)** *vpr* **1.** tavba qilmoq, pushaymon boʻlmoq; **se repentir d'une faute, d'avoir commis une faute** gunohiga, qilgan gunohiga tavba qilmoq; **elle s'est repentie** u tavba qildi; **2.** afsuslanmoq, pushaymon boʻlmoq; **se repentir d'un acte** qilgan ishiga pushaymon boʻlmoq; **il s'en repentira** u hali qilmishiga pushaymon boʻladi.

**repérage** *nm* narsaning holatini, joyini, yoʻnalishini aniqlash; **le repérage des avions par radar** radar orqali samolyotning holatini aniqlash.

**répercussion** *nf* qaytish, aks; **la répercussion d'un son par l'écho** tovushning aks-sado orqali qaytishi.

**répercuter I.** *vt* qaytarmoq, aks ettirmoq; **les parois de la caverne répercutent le son** gʻor devorlari tovushni qaytaradi; **chant que l'écho répercute** sado aks ettirayotgan ashula; **II. se répercuter** *vpr* aks etmoq, ifodalanmoq, koʻrinmoq, namoyon boʻlmoq, oʻz ifodasini topmoq; **le coût des transports se répercute sur le pris des marchandises** transport bahosi mollarning narxida aks etadi.

**repère** *nm* **1.** belgi, kertma belgi, kertik; **tracer des repères sur des pièces de bois** daraxtlarda kertik qoldirmoq; **2. pont de repère, repère** reper.

**repérer** *vt* **1.** aniqlamoq; joylashgan, turgan joyini aniqlamoq, bilib olmoq; **repérer une emplacement, une batterie ennemie** biror narsaning, dushman toʻplarining joylashgan joyini aniqlamoq; **2.** *fam* aniqlamoq, topmoq, tanib qolmoq, koʻrib qolmoq; **se faire repérer** qoʻlga tushib qolmoq, oʻzini oshkor qilib qoʻymoq.

**répertoire** *nm* **1.** roʻyxat, katalog, maʼlumotnoma; **répertoire alphabétique** alfavit katalog; **répertoire d'adresses** adreslar roʻyxati; **2.** repertuar; **répertoire de la Comédie Française** Komedi Fransez teatrining repertuari; **répertoire d'un artiste** artistning repertuari.

**répertorier** *vt* roʻyxat tuzmoq, roʻyxatga kiritmoq, roʻyxatga yozib qoʻymoq.

**répéter I.** *vt* **1.** biror narsani qayta-qayta gapirmoq, takrorlamoq, qaytarmoq; **répéter toujours la même chose** doim bir narsani takrorlamoq; **je vous ai répété cent fois de ne pas toucher à cet appareil** men sizga bu apparatga tegmang deb, yuz marta qaytardim; **2.** qaytarmoq, takrorlamoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

(*biror kishi aytgan narsani*); **je ne fais que répéter ses paroles** men uning gapini qaytaryapman xolos; **répéter qqch mot pour mot** biror narsani so'zma-so'z qaytarmoq; **je vous confie un secret, ne le répétez pas** men sizga bir sirni ishonib aytaman, siz uni birovga aytmang; **il répète ce qu'il a entendu dire** u eshitgan narsasini qaytaraveradi; **3.** qaytarmoq, qayta boshlamoq; **répéter une expérience** sinovni qaytarmoq; **4.** takrorlamoq, qaytarmoq, repetitsiya qilmoq; **répéter un rôle** rolni takrorlamoq; **les comédiens sont en train de répéter** aktyorlar takrorlashyapti; **II. se répéter** *vpr* **1.** bir narsani qaytaravermoq; **2.** qaytarilmoq, takrorlanmoq; **que cet incident ne se répète pas!** bu hodisa boshqa qaytarilmasin!

**répétiteur, trice** *n* o'qituvchining yordamchisi.

**répétition** *nf* **1.** qaytarish, takrorlash; qaytarilish, takrorlanish; **la répétition d'un mot** so'zning qaytarilishi; **des répétitions inutiles** befoyda qaytarishlar; **armes à répétition** avtomat qurollar; **2.** repetitsiya, qaytarish, takrorlash; **la répétition d'un rôle** rolni takrorlash; **répétition générale** oxirgi, so'nggi repetitsiya; **3.** repetitor bilan o'tiladigan dars.

**repiquage** *nm* **1.** ko'chat qilish, ko'chirib o'tqazish, ko'chirib ekish; **le repiquage du riz** sholini ko'chat qilish; **2.** ko'chirish, ko'chirib yozish; **le repiquage d'un enregistrement ancien** eski yozuvni ko'chirish.

**repiquer[1]** *vt* **1.** ko'chat qilmoq, ko'chirib o'tqazmoq, ko'chirib ekmoq; **repiquer des salades** saladni ko'chat qilmoq; **2.** ko'chirmoq, ko'chirib yozmoq; **repiquer un disque, une cassette** diskni, kassetani ko'chirib yozmoq.

**repiquer[2]** *vi* **repiquer à** qayta boshlamoq, qaytmoq.

**répit** *nm* dam olish, nafasini rostlash, tinim, tin olish; **je n'ai pas un instant de répit** menda bir daqiqa ham tinim yo'q; **sans répit** to'xtovsiz, tinimsiz, tinim bilmay; **au-dessus de nos têtes, des avions passaient sans répit** bizning boshimiz uzra samolyotlar tinimsiz uchib o'tishar edi; **travailler sans répit** tinim bilmay ishlamoq.

**replanter** *vt* ko'chirib, qayta o'tqazmoq; qayta ekmoq.

**replâtrage** *nm fam* tuzatish, o'zgartish; mo'rt, nozik, vaqtincha yarashuv, kelishuv (*er-xotin o'rtasida*).

**replâtrer** *vt* **1.** qayta suvamoq, qayta tekislamoq; **replâtrer un mur, une fissure** devorni, yoriqni qayta suvamoq; **2.** *fam* naridan-beri, eplab-seplab, shunchaki, yuzaki tuzatmoq.

**replet, ète** *adj* to'ladan kelgan, to'la, semiz, lo'ppi; **une petite fille replète** to'ladan kelgan qizcha; **visage replet** lo'ppi yuz.

**repli[1]** *nm* **1.** tax, qat, burma; **les replis de rideaux de fenêtres** deraza pardasining burmalari; **les replis de l'intestin** ichak burushiqlari; **2.** tax, qat, to'ri, tubi; **les replis du cœur** qalbning tubida.

**repli[2]** *nm* chekinish, orqaga qaytish (*lashkar*); **repli stratégique** strategik chekinish.

**replier[1]** *vt* **1.** qayta taxlamoq, qayta buklamoq; **replier un journal** gazetani qayta taxlamoq; **2.** buklamoq, yig'ishtirmoq; **l'oiseau replie ses ailes** qush qanotlarini yig'ishtirdi; **il dort les jambes repliées** u oyoqlarini yig'ishtirib, g'ujanak bo'lib uxlayapti.

**replier[2]** **I.** *vt* orqaga chekintirmoq, orqaga olib ketmoq (*qo'shinni*); **II. se replier** *vpr* tartib bilan chekinmoq; **ordre aux troupes de se replier** qo'shinlarga tartib bilan chekinish haqidagi buyruq; **se replier sur soi-même** o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolmoq, uzlatga bormoq.

**réplique[1]** *nf* nusxa, ko'chirma; **les répliques romaines des statues grecques** grek haykalchalarining romancha nusxalari; **c'est une vivante réplique de son frère** bu akasining tirik nusxasi.

**réplique[2]** *nf* **1.** javob, e'tiroz, luqma; **des arguments sans réplique** e'tirozga o'rin qoldirmaydigan dalil-isbotlar; **obéissez sans réplique** gap-so'zsiz bo'ysuning; **2.** *teatr* replika; **oublier une réplique** replikani esidan chiqarib qo'ymoq; **3.** *loc* **donner la réplique à qqn** aktyorga rolni aytib, o'qib berib turmoq.

**répliquer** **I.** *vt* biror kishiga biror narsa deb javob qaytarmoq, bermoq, demoq, aytmoq, gap qistirmoq, luqma tashlamoq; **que pouvais-je lui répliquer?** unga nima ham deb javob qaytarardim? **je lui ai répliqué qu'il mentait** men unga yolg'on gapirayotganligini aytib, gap qistirdim; **II.** *vi* **1.** e'tiroz bildirmoq, qarshi chiqmoq; **répliquer à une critique** tanqidga e'tiroz bildirmoq; **2.** *vi* qo'pollik, dag'allik, qo'rslik bilan javob bermoq; qo'pol, dag'al, qo'rs javob bermoq; **je te défends de répliquer!** qo'rslik qilma! **3.** qarshi, munosib, loyiq zarba bermoq; javob qaytarmoq; **il a répliqué par un direct du gauche** u chap qo'li bilan to'g'ridan qarshi zarba berdi.

**replonger** **I.** *vt* botirmoq, tiqmoq, solmoq, cho'ktirmoq, g'arq qilmoq; **replonger qqch dans un liquide** biror narsani suyuqlikka qayta botirmoq; **replonger un pays dans l'anarchie** biror mamlakatni anarxiyaga qayta g'arq qilmoq; **II. se replonger** *vpr* qayta botmoq, tiqilmoq, solinmoq, g'arq bo'lmoq, cho'mmoq; **il s'est replongé dans sa lecture** u o'qishiga qayta g'arq bo'ldi.

**répondant, ante** *n* kafil, kafil bo'lgan kishi; **servir de répondant à qqn** biror kishiga kafillik qilmoq; *fam* **avoir du répondant** orqasida puli bo'lmoq.

**répondeur** *nm* javob beruvchi avtomat (*egasi yo'q vaqtida avtomatik ravishda javob beruvchi va ma'lumotni yozib oluvchi moslama*).

**répondre[1]** *vt* **1. (à qqn)** biror kishiga javob qaytarmoq, javob bermoq; **répondez-moi par oui ou par non** menga ha yoki yo'q deb javob bering; **répondez-moi franchement** menga ochiqchasiga javob bering; **répondre séchement, distraitement** quruq, parishonxotir javob qaytarmoq; **répondre par un sourire** istehzoli jilmayib, javob qaytarmoq; **il répond à son père** u otasiga javob qaytardi; **2. (à qqch)** biror narsaga javob bermoq; **répondre à une question, à une lettre** savolga, xatga javob bermoq, javob qaytarmoq; **répondre à des objection, à des attaques** e'tirozlarga, hujumlarga javob qaytarmoq; **3.** sado bermoq; **4.** javob bermoq, javob qaytarmoq (*biror chaqiriqqa*); **nous avons sonné, personne n'a répondu** biz qo'ng'iroqni chaldik, lekin hech kim javob bermadi; **répondre au nom de Jean** Jan deb chaqirsa javob bermoq; **5.** biror kishiga biror narsa deb javob bermoq; **et que répondrez-vous?** xo'p, unga nima deb javob berasiz? **il ne sait que répondre** u nima deb javob berishini bilmaydi; **répondre que, de**+ *inf* javob bermoq, demoq, aytmoq; **je vais lui répondre que je ne peux pas venir** men unga kelolmayman deb aytaman; **il m'a répondu de faire ce que je voulais** u menga nima xohlasam shuni qilaverishligimni aytdi.

**répondre[2]** *vt* **1.** muvofiq bo'lmoq, mos kelmoq; loyiq, munosib bo'lmoq; javob bermoq; **sa voix répondait à sa physionomie** uning ovozi uning yuziga munosib edi; **cette politique répond à un besoin** bu siyosat talabga mos keladi; **2.** javob bermoq, javob qaytarmoq, javob qilmoq; **répondre à la force par la force** zo'rlikka zo'rlik bilan javob bermoq; **répondre à un salut** salomga alik olmoq; **3.** tegishli, yarasha javob qaytarmoq; **l'rganisme répond aux excitations extérieures** organizm tashqi ta'sirlarga tegishli javob qaytaradi; **4.** kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, javobgarlikni o'z ustiga, bo'yniga olmoq; **je réponds de lui** men unga kafil bo'laman; **répondre de l'innocence de qqn** biror kishining aybsizligiga kafolat bermoq; **je ne réponds pas des dettes de ma femme** men xotinimning qarzlari uchun javobgarlikni o'z ustimga olmayman; **5.** kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq, javob bermoq; **je ne réponds de rien** men hech narsaga kafolat bermayman; *fam* **je vous en réponds** men sizning oldingizda bunga kafolat beraman; **je vous réponds que ça ne se passera pas comme cela!** men sizni ishontirib aytamanki, bu shunday o'tib ketmaydi!

**réponse** *nf* **1.** javob; **vous devez me donner, faire une réponse avant lundi** siz menga dushanbadan oldin javob berishiningiz kerak; **obtenir, recevoir une réponse** javob olmoq; **notre demande est resté sans réponse** bizning so'rovimiz javobsiz qoldi; **réponse affirmative, négative** ijobiy, salbiy javob; **en réponse à votre lettre du 20 mai** sizning 20 maydagi xatingizga javoban; *loc* **avoir réponse à tout** hamma narsaga javobi tayyor turmoq; **2.** javob, qo'yilgan savolga yechim; **noter les réponses d'un élève** o'quvchining javoblarini baholamoq; **3.** qarshi harakat, qarshi javob, qarshilik; **droit de réponse** gazetada javob berish huquqi; **4.** qarshi javob, qarshi zarba, e'tiroz, qarshilik; **ce sera ma réponse à ses manœuvres** bu uning qiliqlariga mening qarshi javobim bo'ladi; **5.** javob (*chaqiriqqa*); **j'ai sonné, mais pas de réponse** men qo'ng'iroq qildim, lekin javob yo'q; **6.** reaksiya, sezish, ta'sirlanish (*organizmning tashqi ta'sirga javobi*); **réponse musculaire** mushaklar reaksiyasi.

**report** *nm* **1.** kechiktirish, ko'chirish, qoldirish; **le report de la date d'ouverture du congrès** kengashning ochilishini boshqa kunga ko'chirish; **2.** ko'chirish, boshqa hujjatga ko'chirib yozish, ko'chirib olib o'tish.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**reportage** *nm* **1.** reportaj; **faire un reportage** reportaj qilmoq; **reportage télévisé** televizion reportaj; **2.** reportyorlik; **il a débuté dans le reportage** u ilk bor reportyorlik qildi.

**reporter[1]** *nm* reportyor, mahalliy muxbir; **des reporters photographes** fotoreportyorlar; **elle est reporter pour un magazine** u suratli jurnal reportyori.

**reporter[2] I.** *vt* **1.** qaytarib olib borib qo'ymoq; **je vais reporter la malle au grenier** men jomadonlarni omborxonaga olib borib qo'yaman; **2.** keyinroqqa (*boshqa kunga*) ko'chirmoq, kechiktirmoq, qoldirmoq, surmoq; **il a reporté son voyage** u sayohatini keyinroqqa qoldirdi; **la céromonie a été reportée** tantana boshqa kunga qoldirildi; **3.** ko'chirmoq, qaratmoq, o'tkazmoq; **reporter ses voix sur un autre candidat** o'z ovozlarini boshqa kandidatga bermoq; **II. se reporter** *vpr* **1.** xayolga, ko'z oldiga keltirmoq, xayoldan o'tkazmoq, eslamoq; xayolan qaytmoq; **il faut se reporter à l'époque pour bien comprendre cette œuvre** bu asarni yaxshiroq tushunish uchun o'sha davrni xayolan ko'z oldiga keltirmoq kerak; **2.** murojaat qilmoq, foydalanmoq; **se reporter au texte d'une loi** qarorning matniga murojaat qilmoq, asoslanmoq, suyanmoq.

**repos** *nm inv* **1.** dam olish, istirohat qilish, orom, hordiq; **prendre du repos** dam olmoq; **un jour de repos** dam olish kuni; **maison de repos** dam olish uyi; **2.** *mil* erkin! **garde à vous!... repos!** rostlan!... erkin! **3.** *loc* **en repos** tinchlik, osoyishtalik, orom; **ne pas pouvoir rester en repos** tinch o'tirolmaslik; **au repos** dam olayotgan, orom olayotgan; **animal au repos** orom olayotgan hayvon; **4.** orom, tinim, tinchlik; **ne pas pouvoir trouver le repos** tinim bilmaslik; **laisez-moi en repos** meni tinch qo'ying; **de tout repos** aniq, ishonchli, tayinli; **c'est une situation, un affaire de tout repos** bu ishonchli sharoit, ish; **ce n'est pas de tout repos** bu tayinli narsa emas; **5.** tinchlik, osoyishtalik, tanaffus, tin olish; **6.** *litt* orom; **le repos de la mort** o'lim oromi; **le repos éternel** abadiy orom.

**reposant, ante** *adj* dam oldiradigan, orom beradigan, hordiq chiqaradigan; **des vacances reposantes** hordiq chiqaradigan ta'tillar.

**reposé, ée** *adj* **1.** hordiq chiqargan, dam olgan, orom olgan, tetiklashgan; **visage reposé** tetiklashgan chehra; **2.** hormagan, tetik; *loc adv* **à tête reposée** bosh charchamasidan, kalla, miya joyidaligida; **prendre une décision à tête reposée** miya joyidaligida biror qaror qabul qilmoq.

**reposer[1] I.** *vi* **1.** *litt* hordiq chiqarmoq, orom olmoq, dam olmoq; **il ne dort pas, il repose** u uxlayotgani yo'q, u hordiq chiqaryapti; **tout reposait dans la ville** shaharda hamma narsa oromda edi; **2.** yotmoq, orom topmoq, dafn qilingan bo'lmoq, ko'milgan, qo'yilgan bo'lmoq; **ici... repose** bu yerda... yotibdi; **qu'il repose en paix!** qabrida tinchgina yotsin! **3. reposer sur** ustida turmoq, ustiga qo'yilgan, o'rnatilgan bo'lmoq; **la tour Eiffel repose sur quatre piliers** Eyfel minorasi to'rtta ustunga o'rnatilgan; **cette affirmation ne repose sur rien** bu ta'kidashning hech qanday asosi yo'q; **4. laisser reposer un liquide** suyuqlikni tindirmoq; **laisser reposer la pâte** xamirni tindirmoq; **II.** *vt* **1.** qo'ymoq; **reposer sa tête sur un oreiller** yostiqqa boshini qo'ymoq; **reposer sa tête sur l'épaule de qqn** boshini biror kishining yelkasiga qo'ymoq; **2.** dam oldirmoq, orom bermoq, hordig'ini chiqarmoq; **cette lumière douce repose la vue** bu mayin nur ko'zga orom beradi; **III. se reposer** *vpr* **1.** dam olmoq, orom olmoq, tin olmoq, nafasini rostlab olmoq; **laissez-moi un peu me reposer** biroz nafasimni rostlab olay; **2. laisser (se) reposer la terre** yerga dam berib qo'ymoq; **3. se reposer sur qqn** biror kishiga ishonmoq, suyanmoq; **il se repose entièrement sur moi** u menga to'la ishonadi.

**reposer[2]** *vt* **1.** qo'ymoq, qayta joyiga qo'ymoq, qayta qo'yib qo'ymoq; **il reposa à terre la caisse qu'il portait sur les épaules** u yelkasida ko'tarib ketayotgan qutini yerga qo'ydi; **il reposa son verre bruyammant** u stakanini taraqlatib qo'ydi; **reposez arme!** qurolni tashlang! **2.** qayta bermoq (*savol*).

**repoussant, ante** *adj* yoqimsiz, sovuq, jirkanch, iflos; **il est d'une laideur repoussante** u bir yoqimsiz xunuk odam; **il est repoussant de saleté** u jirkanch iflos; **un personnage laid, malpropre et repoussant** xunuk, nopok va jirkanch personaj.

**repoussé** *adj m* zarb qilish, bosish, o'yish usuli bilan tayyorlangan; **cuir repoussé** bosish usuli bilan tayyorlangan teri; **métal repoussé** zarb qilish usuli bilan tayyorlangan metall.

**repousser[1] I.** *vt* **1.** itarib yubormoq, turtib yubormoq, itarib, surib qo'ymoq, otib, irg'itib, itqitib yubormoq, uloqtirib tashlamoq, chekintirmoq, qaytarmoq, daf qilmoq; **il l'a repoussé d'une bourrade contre le mur** u bir musht bilan uni devorga qapishtirib qo'ydi; **repousser l'ennemi, les attaques** dushmanni surib tashlamoq, hujumlarni qaytarmoq; **2.** o'zidan qochirmoq, haydab yubormoq, qo'pollik bilan chetlatib qo'ymoq; **repousser qqn avec dédain** biror kishini mensimasdan qo'pollik bilan chetlatib qo'ymoq; **3.** chetga itarib, surib qo'ymoq; **repousser les objets qui encombrent la table** stolning ustini to'ldirib turgan narsalarni chetga surib qo'ymoq; **4.** rad qilmoq, qaytarmoq, qabul qilmaslik; **repousser les offres de qqn** biror kishining taklifini rad qilmoq; **5.** jirkantirmoq; **6.** kechiktirmoq, orqaroqqa, keyinroqqa surmoq, qoldirmoq; **voulez-vous que nous repoussions le rendez-vous?** uchrashuvimizni keyinroqqa qoldirishimizni xohlaysizmi? **II. se repousser** *vpr* itarishmoq, turtishmoq; **les corps électrisés s'attirent ou se repoussent** elektrlangan jismlar bir birini tortishadi yoki bir birini itarishadi.

**repousser[2]** *vi* qayta o'sib chiqmoq, qaytadan chiqmoq (*barg, soqol*).

**répréhensible** *adj* nomunosib, nojo'ya, beadabona, noloyiq, xunuk; **actes, conduites répréhensibles** nojo'ya ishlar, xatti-harakatlar.

**reprendre[1] I.** *vt* **1.** qayta olmoq, qayta qo'lga olmoq, olmoq; **reprendre sa (la) route** qayta yo'lga tushmoq; **reprendre courage** dadil bo'lmoq; *loc* **reprendre ses esprits** o'ziga, hushiga kelmoq, es-hushini yig'moq; **reprendre son souffle** nafasini rostlamoq; **reprendre haleine** bir dam tin olmoq; **2.** qaytarib olmoq, qayta qo'lga kiritmoq, qayta erishmoq; **il a repris sa liberté** u ozodligiga qayta erishdi; **reprendre ses forces** kuchga kirmoq; **3.** qaytarib olmoq; **cet article ne peut être ni échangé ni repris** bu mahsulot na almashtirib, na qaytarib olinmaydi; **le garagiste m'a repris ma vieille voiture** usta mening eski mashinamni sotib oldi; **4.** biror narsadan qayta, yana olmoq; **reprendre d'un plat** ovqatdan yana olmoq; **5.** qayta tutib, ushlab olmoq, qayta qo'lga tushirmoq; **le prisonniet évadé a été repris** qochgan mahbus qayta qo'lga tushdi; *loc* **on ne m'y reprendra plus** meni boshqa qo'lga tushirisholmaydi, aldasholmaydi; **que je ne vous y reprenne pas!** ikkinchi bor qo'limga tushmang (*po'pisa*); **6.** tutib, ushlab qolmoq, qaytalab qolmoq; **mon rhumatisme m'a repris** revmatizmim tutib qoldi; **7.** qaytadan, yangidan boshlamoq, yana davom ettirmoq, qayta kirishmoq; **reprendre un travail, la lutte** ishni, kurashni yangidan boshlamoq; **reprendre ses études** o'qishlarini yana davom ettirmoq; **8.** davom etmoq, qaytarmoq; **il reprit d'une voix sourde** u bo'g'iq ovozda davom etdi; **reprendre un refrain en chœur** naqarotni xor bo'lib qaytarmoq; **reprenons l'histoire depuis le début** voqeani boshidan qaytaraylik; **9.** qayta ko'rib chiqmoq, qayta tuzatib chiqmoq, qayta kirishmoq (*tuzatish uchun*); **reprendre un article** maqolani qayta ko'rib chiqmoq; **10.** davom ettirmoq, qayta tiklamoq, qayta qo'lga olmoq; **reprendre un programme** rejani qayta tiklamoq; **II.** *vi* **1.** tuzalmoq, sog'aymoq, o'ziga kelmoq, kuchga, kuch-quvvatga kirmoq; tiklanmoq, o'nglanmoq, oyoqqa turib olmoq, qaddini rostlamoq; **le petit a bien repris** kichkintoy anchagina o'ziga kelib qoldi; **les affaires reprennent** ishlar yurishib ketdi; **2.** qayta, yana boshlanmoq; **la pluie reprit de plus belle** yomg'ir yanayam kuchliroq yog'a boshladi; **III. se reprendre** *vpr* **1.** xatoni birdan eslamoq, payqamoq, sezmoq, birdan eslab, payqab, sezib oldini olmoq; **elle a dit une énormité, mais elle s'est vite reprise** u bir bema'ni narsa dedi, lekin u tezda xatosining oldini olib qoldi; **2.** qayta kirishmoq, qayta boshlamoq; **s'y reprendre à deux fois, à plusieurs fois** bu narsaga ikki, ko'p bor kirishmoq.

**reprendre[2]** *vt litt* koyimoq, urishmoq, tanbeh bermoq, aybga buyurmoq, qoralamoq, tanqid qilmoq; **il s'est souvent fait reprendre** u ko'pincha tanbehga uchraydi; **reprendre qqch** biror narsani qoralamoq, ayblamoq; **il n'y a rien à reprendre à sa conduite** uning yurish-turishida ayblaydigan narsa yo'q; **cela mérite d'être repris** bu tanqidga loyiq.

**représailles** *nf, pl* **1.** qatag'on, repressiya, jazo, jazo chorasi; *loc* **par, en représailles** jazo sifatida, jazo tariqasida; **2.** o'ch.

**représentant, ante** *n* **1.** vakil, vakolatli odam, deputat; **la mission d'un représentant** vakilning vazifasi; **le représentant d'un syndicat** kasaba uyushmasining vakolatli; **2.** muxtor vakil; **le représentant de la France** Fransiyaning muxtor vakili; **3.** kommivoyajyor, gumashta; **il est représentant de commerce** u savdo gumashtasi; **4.** namoyanda, namuna, nusxa; **l'un**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**des meilleurs représentants de l'école expressionniste** ekspressionizm maktabining eng yaxshi namoyandalaridan biri.

**représentatif, ive** *adj* **1.** ifodalovchi, ega bo'lgan, kasb etuvchi; **emblème représentatif d'une idée** biror g'oyani ifodalovchi nishon; **2.** vakillarga, vakillikka oid; vakillar; **assemblée représentative** vakillar yig'ilishi; **le système représentatif** parlament tizimi; **3.** aks, namoyon etuvchi, xos; **un garçon représentatif de la jeune génération** yosh avlodni aks ettiruvchi bola.

**représentation** *nf* **1.** tasvirlash, aks ettirish, ifodalash; **représentation réaliste, stylisée** realistik, uslubiy tasvirlash; **2.** *psychol* idrok, idrok qilish; tasavvur, tushuncha; **3.** spektakl, tomosha; **donner des représentations** tomosha ko'rsatmoq, spektakl qo'ymoq; **première représentation après la répétition générale** yakunlovchi repetitsiyadan so'ng birinchi tomosha; **4.** vakolat, vakillik; **allocation pour frais de représentation** vakillik xarajatlari uchun ajratilgan pul; **la représentation nationale** milliy vakillik; **5.** kommivoyojorlik, gumashtalik; **faire de la représentation** gumashtalik qilmoq.

**représenter I.** *vt* **1.** ifodalamoq, bildirmoq, ramzi, timsoli bo'lmoq; **le glaive représente la guerre** qilich urush ramzi; **la monnaie représent la valeur des biens** pul boylikning qadr-qimmat ramzidir; **2.** tasvirlamoq, ifodalamoq, chizmoq; **ce tableau représente des ruines** bu rasm vayronalarni tasvirlaydi; **3.** ta'riflab, chizib, tasvirlab bermoq; **représenter les faits dans toute leur complexité** bo'lgan voqealarni butun murakkabligida tasvirlab bermoq; **4.** ifodalamoq, tasavvurga keltirmoq, namoyon qilmoq, ko'z oldiga keltirmoq; **ce que représente un mot** so'z ifodalaydigan narsa; **5.** namunasi bo'lmoq, tashkil qilmoq, eslatmoq, ramzi bo'lmoq; **ce film représente un tournant dans l'histoire du cinéma** bu film kinochilikdagi burulishning namunasidir; **6.** ko'rsatmoq, qo'ymoq, ijro etmoq, o'ynamoq; **troupe qui représente une pièce** pyesa ko'rsatayotgan truppa; **7.** *litt* o'zining qadr-qimmatida, obro'-e'tiborida turmoq; **8.** vakili bo'lmoq; **il représente diverses compagnies d'assurances** u turli sug'urta kampaniyalarining vakili; **9.** qayta, yana ko'rsatmoq, tavsiya qilmoq; **le parti représente le même candidat** partiya o'sha nomzodni qayta ko'rsatyapti; **II. se représenter** *vpr* o'ziga tasavvur qilmoq, ko'z oldiga keltirmoq; **se représenter à un examen** imtihonni qayta topshirmoq; **représentez-vous ma surprise** mening hayratimni o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring; **si l'occasion se représente** agar yana imkoniyat bo'lib qolsa.

**répressif, ive** *adj* qatag'onga oid; repressiv, jazo; jazo tariqasida, jazolash uchun qo'llaniladigan.

**répression** *nm* **1.** qatag'on, repressiya, jazolash, jazo chorasini qo'llash; **la répression d'un crime** jinoyatni jazolash; **2.** bostirish; **police, troupes chargées de la répression** bostirish yuklatilgan politsiya, harbiy qism.

**réprimande** *nf* hayfsan, tanbeh, dakki, koyish; **faire une réprimande à un élève** o'quvchiga tanbeh bermoq.

**réprimander** *vt* tanbeh, dakki bermoq, koyimoq, urishmoq, hayfsan bermoq; **le maître le réprimanda sévèrement** o'qituvchi uni qattiq koyidi.

**réprimer** *vt* **1.** bo'ysundirmoq, qo'lga olmoq, tiymoq, bosmoq; jilovlamoq; **réprimer sa colère, son envie** g'azabini bosmoq, xohishini tiymoq; **2.** bostirmoq, ezib tashlamoq, yo'q qilib tashlamoq; **réprimer des abus** qonunbuzarchilikni yo'q qilib tashlamoq; **la révolte a été durement réprimée** isyon shafqatsizlarcha bostirildi; **réprimer une insurrection** qo'zg'olonni bostirmoq.

**repris de justice** *nm inv* retsidivist, ashaddiy jinoyatchi; **des repris de justice** ashaddiy jinoyatchilar.

**reprise**[1] *nf* **1.** olish, qaytarib olish; **2.** qaytadan qilish, qaytadan boshlash; **la reprise des hostilités** dushmanlikni qayta boshlash; **la reprise des cours** darslarning qayta boshlanishi; **reprise d'une pièce de théâtre** spektaklning qayta qo'yilishi; *loc* **à deux, trois, plusieurs reprises** ikki, uch, ko'p marta, ko'p bor; **3.** ajratilgan vaqt (*raund*); **combat en trois reprises** uch raundli jang; **4.** qayta, yana jonlanib ketish, yurishib ketish, yuksalish; **la reprise des affaires** ishlarning yana yurishib ketishi.

**reprise**[2] *nf* tikish, tuzatish, yamash; **faire des reprises à un pantalon** shimni tuzatish.

**repriser** *vt* tikmoq, tuzatmoq, yamamoq; **repriser des chaussettes** paypoqni tikmoq.

**réprobateur, trice** *adj* ayblovchi, qoralovchi, yomonlovchi, ta'nali; **regard réprobateur** qoralovchi qarash.

**réprobation** *nf* ayblash, qoralash, yomonlash, ta'na qilish; **encourir la réprobation de ses amis** do'stlarining ta'nasiga uchramoq.

**reproche** *nm* ta'na, gina, malomat, gina-qudrat, tanbeh, dakki, koyish; **faire des reproches à qqn** biror kishini malomat qilmoq; **il nous a adressé de vifs reproches** u bizni qattiq koyidi; **accabler (qqn) de reproches** biror kishini ta'nalar bilan joniga tegmoq; **sans reproche** benuqson, bekam-ko'st, qusursiz; **une vie sans reproche** bekam-ko'st hayot; **le chevalier sans peur et sans reproche** qo'rquv va ta'na bilmas ritsar.

**reprocher** *vt* ta'na qilmoq, yuziga solmoq, malomat qilmoq; gina qilmoq, o'pkalamoq, urishmoq, koyimoq, ayblamoq, tanbeh bermoq, dakki bermoq; **on lui reproche sa désinvolture** uning uyatsizligini malomat qilishadi; **je ne vous reproche rien** men sizdan o'pkalamayman; **elle lui reproche d'avoir laissé passer l'occasion** u uni paytni o'tkazib yuborganligini yuziga soladi; **se reprocher qqch** o'zini ayblamoq, o'zini koyimoq, o'zidan o'pkalamoq, o'zini urishmoq; **il n'a rien à se reprocher** u o'zini ayblaydigan hech narsa yo'q; **je me reproche d'avoir manqué de courage** jur'atsizligimdan men o'zimni o'zim koyiyman; **ce que je reproche à cette théorie, c'est sa banalité** men bu nazariyada ma'qul ko'rmaydigan narsa, uning siyqasi chiqqanligidir.

**reproducteur, trice** *adj* urchituvchi, bolalatuvchi, ko'paytiruvchi; urchitadigan, bolalatadigan, ko'paytiradigan; **organes reproducteurs** urchitadigan, ko'paytiradigan a'zolar.

**reproduction** *nf* **1.** urchish, bolalash, ko'payish; **reproduction asexuée** jinssiz ko'payish; **2.** xuddi o'ziday qaytarish, aks ettirish, tasvirlash, takrorlash; ko'chirish, ko'chirma; **la reproduction de l'image, du son** rasmni, ovozni xuddi o'ziday ko'chirish; **la reproduction de documents par la photocopie** kserokopiyada hujjatlarni ko'chirish; **procédés de reproduction** ko'chirish usullari; ajoyib ko'chirma; **3.** qayta bosib chiqarish, qayta nashr qilish; nusxa ko'chirish; **la reproduction d'un article dans un recueil** to'plamda maqolani qayta bosib chiqarish; **reproduction intérdite** qayta bosib chiqarish, nusxa ko'chirish taqiqlanadi.

**reproduire I.** *vt* **1.** xuddi o'ziday, asliday qaytarmoq, aks ettirmoq, tasvirlamoq, qanday bo'lsa shunday aytib bermoq; **un récit qui reproduit la réalité** haqiqatni aks ettiruvchi hikoya; **ce porteait ne reproduit pas l'impression que fait l'origine** bu portret aslidagi taassurotni aks ettirmaydi; **2.** qayta bosib chiqarmoq, qaytadan ko'chirib yozmoq, qayta nashr qilmoq, ko'paytirmoq; **reproduire un dessin, un texte à des milliers d'exemplaires** rasmni, matnni minglab nusxada ko'paytirmoq; **3.** xuddi o'ziday takrorlamoq, bermoq; **les objets qui reproduisent un modèle** asl nusxani xuddi o'ziday takrorlovchi narsalar; **II. se reproduire** *vpr* **1.** urchimoq, bolalamoq, ko'paymoq; **les insectes se reproduisent très rapidement** hasharotlar juda tez ko'payadi; **2.** qayta bo'lmoq, qaytarilmoq; **veillez à ce que cala ne se reproduise plus** ehtiyot bo'lingki, bu narsa boshqa qaytarilmasin.

**réprouvé, ée** *n* jamiyatdan ajratib, surib qo'yilgan, la'natga uchragan odam, yakkamohov; **vivre en réprouvé** yakkamohov bo'lib yashamoq.

**réprouver** *vt* **1.** yuz o'girmoq, rad qilmoq, inkor qilmoq, qoralamoq; chetga, oradan surib chiqarmoq; **ceux que la société réprouve** jamiyat inkor qilgan narsalar; **réprouver l'attitude de qqn** birovning yurish-turishini qoralamoq; **2.** la'natlamoq.

**reps** *nm* reps (*pishiq chiviq gazlama*).

**reptation** *nf* sudralib, o'rmalab yurish (*hayvon va sudraluvchilar haqida*).

**reptile** *nm* **1.** ilon; **2.** *pl* sudralib, o'rmalab yuruvchi hayvonlar; **les reptiles actuels sont sont des représentants d'un groupe d'animaux plus importants** hozirgi sudralib yuruvchi hayvonlar eng muhim jonivorlar guruhining vakillaridir.

**repu, ue** *adj* to'q, to'ygan, qorni to'q; **les fauves repus s'endormirent** qorni to'ygan yovvoyi hayvonlar uxlab qolishdi.

**républicain, aine I.** *n* respublika tarafdori, respublikachi; **des républicains convaincus** sodiq respublikachilar; **II.** *adj* respublikaga, jumhuriyatga oid; respublika, jumhuriyat; **un journal républicain interdit**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**dans une dictature** diktaturada taqiqlangan respublikachi gazeta; **constitution républicaine** respublika konstitutsiyasi.

**république** *nf* respublika, jumhuriyat; **république socialiste** sotsialistik respublika; **la République Populaire de Chine** Xitoy Xalq Demokratik Respublikasi.

**répudiation** *nf* xotinini haydab yuborish, taloq qilish, ajrashish.

**répudier** *vt* **1.** xotinini haydab yubormoq, taloq qilmoq, ajrashmoq; **2.** *litt* voz kechmoq, rad qilmoq, tan olmaslik; **répudier ses engagements** o'z majburiyatlarini tan olmaslik.

**répugnance** *nf* **1.** ko'ngli aynish, jirkanish; **il a une véritable répugnance pour le lait** uning sutdan ko'ngli ayniydi, uning sutni ko'rarga ko'zi yo'q; **2.** nafratlanish, jirkanish; **avoir une grande répugnance pour le mensonge** yolg'ondan o'ta nafratlanmoq; **3.** botinolmaslik, madori yetmaslik; **éprouver une invincible répugnance à faire, à dire qqch** biror narsa qilishga, deyishga yengib bo'lmas darajada botinolmaslik.

**répugnant, ante** *adj* **1.** ko'ngilni aynitadigan, jirkanch, xunuk, yoqimsiz; **une maison d'une saleté répugnante** ko'ngilni aynitadigan darajada iflos uy; **une laideur répugnante** yoqimsiz bashara; **il fait un travail répugnant** u xunuk ish qilyapti; **2.** jirkanch, yaramas, razil, qabih, murdor, iflos; **un individu répugnant** jirkanch shaxs.

**répugner I.** *vi* **1.** *litt* qarama qarshi bo'lmoq, zid bo'lmoq, inkor etmoq; **il ne répugnait pas à cette perspective** u bu istiqbolga zid emas edi; **2.** jirkantirmoq, nafratlantirmoq; **cette nouriture lui répugne** bu ovqat uni jirkantiradi; **ce type me répugne!** bu nusxa mening nafratimni qo'zg'aydi! **II.** *vt* ko'nglini aynitmoq, jirkantirmoq; **la puanteur répugnait tout le monde** bu sassiq hid hammaning ko'nglini aynitardi.

**répulsif, ive** *adj* ko'ngilni aynitadigan, jirkachli, yoqimsiz; **une odeur répulsive** badbo'y hid.

**répulsion** *nf* jirkanish, hazar, nafrat; **elle éprouve une répulsion irrésistible à l'égard des, pour les serpents** u o'zida ilonlarga nisbatan yengib bo'lmas jirkanch his etadi.

**réputation** *nf* **1.** obro', e'tibor, or-nomus; **nuire à la réputation de qqn** birovning obro'siga tajavvuz qilmoq; **perdre qqn de réputation** birovning obro'sini tushirmoq; **la réputation d'une femme** ayol kishining or-nomusi; **2.** shon, shuhrat, mashhurlik, dong, nom; **il doit soutenir sa réputation** u o'z nomini saqlashi kerak; **la réputation d'une entreprise** korxonaning shuhrati; **son dernier livre consacra sa réputation** uning oxirgi kitobi uning shuhratini oshirdi; **avoir bonne, mauvaise réputation** yaxshilik, yomonlik bilan dong chiqargan bo'lmoq; **3. réputation de** nom chiqarish, dong taratish; **on lui fait une réputation de tricheur** uni firibgarlikda nom chiqargan deyishadi.

**réputé, ée** *adj* obro'-e'tiborli, mashhur, taniqli, dong taratgan, shuhrat qozongan; **un vin réputé** mashhur vino; **une ville réputée pour ses musées** muzeylari orqali shuhrat qozongan shahar.

**réputer** *vt* **1.** *litt* deb hisoblamoq, deb qaramoq, deb bilmoq, deb tan olmoq; **on le répute excellent nageur** uni ajoyib suzuvchi deb tan olishadi; **des terre réputées incultes** ekin ekilmagan deb qaralgan yerlar; **il est réputé pour être intelligent** uni aqlli deb hisoblashadi.

**requérir** *vt* **1.** *litt* so'ramoq, tilamoq, talab qilmoq; **requérir l'aide de qqn** biror kishining yordamini so'ramoq; **2.** *dr* so'ramoq; **le procureur requiert la peine de mort pour l'accusé** prokuror sudlanuvchiga o'lim jazosi berilishini so'radi; **3.** *litt* muhtoj bo'lmoq, talab qilmoq; **ce travail requiert toute notre attention** bu ish bizning bor e'tiborimizga muhtoj; **la vendange requiert tous les bras** uzim uzish ko'p qo'lni talab qiladi.

**requête** *nf* **1.** *litt* talab, talabnoma, iltimos, iltimosnoma, so'rov, ariza; **adresser une requête à qqn** birovga talabnoma yo'llamoq; **requête pour obtenir une faveur** homiylik so'ralgan iltimosnoma; **à, sur la requête de** iltimosiga, so'roviga binoan; **2.** *dr* sud nomiga yozilgan iltimosnoma, ariza; **requête en cassation** kassatsion sud bo'limiga berilgan ariza.

**requiem** *nm inv* **1.** rekviyem (*katoliklar cherkovida o'qiladigan motam ibodati*); **2.** *mus* rekviyem, motam kuyi; **les requiem de Mozart** Motsartning motam kuyi.

**requin** *nm* **1.** nahang, akula; **le requin blanc est dangereux pour l'homme** oq akula inson uchun xavfli; **2.** ochko'z, beshafqat, yovuz odam; ajdaho, ajdar; **les requins de la finance** moliya nahanglari.

**requinquer I.** *vt fam* kuch bag'ishlamoq, kuchga kiritmoq; **ces vitamines vont te requinquer** bu vitaminlar seni kuchga kiritadi; **II. se requinquer** *vpr* kuchga kirib qolmoq, o'ziga kelib qolmoq, yaxshi bo'lib qolmoq.

**requis, ise I.** *adj* so'ralgan, talab qilingan; **satisfaire conditions requises** so'ralgan shartlarni qondirmoq; **avoir tout juste l'âge requis** aynan talab qilingan yoshda bo'lmoq; **II.** *nm* majburiy mehnatga tortilgan odam.

**réquisition** *nm* rekvizitsiya (*biror ijtimoiy sabab yuzasidan hokimiyatning biror kishini yoki mol-mulkni o'z ixtiyoriga olib qo'yishi*); **en temps de guerre, l'état peut faire la réquisition de véhicules** urush vaqtida davlat transport vositalarini rekvizitsiya qilishi mumkin.

**réquisitionner** *vt* **1.** rekvizitsiya qilmoq, olib qo'ymoq (*rekvizitsiya yo'li bilan o'z ixtiyoriga olmoq*); **les autorités ont réquisitionné des locaux pour les réfugiés** ma'murlar yashash joylarini qochqinlar uchun olib qo'yishdi; **2.** safarbar etmoq, otlantirmoq, chorlamoq; ishga solmoq, jalb qilmoq.

**réquisitoire** *nm* **1.** suddagi ayblov nutqi, ayblov; **le procureur a prononcé un violent réquisitoire** prokuror og'ir ayblov nutqi so'zladi; **2.** qoralovchi aybnoma; **un réquisitoire contre le racisme, la violence** irqchilikka, zo'ravonlikka qarshi qoralovchi aybnoma.

**rescapé, ée** *n* **1.** tirik qolgan, sog' qolgan, omon qolgan; **les rescapés d'un naufrage** kema halokatidan omon qolganlar; **2.** eson-omon, sog'-omon yetib kelgan kishi (*uzoq va og'ir sport musobaqasidan*); **les rescapés du Tour de France** Tur de Fransning oxirgi marrasiga eson-omon yetib kelgan sportchilar.

**rescousse** *loc adv* **venir à la rescousse** yordamga, madadga kelmoq; **il appela son grand frère à la rescousse** u akasini yordamga chaqirdi.

**réseau** *nm* **1.** to'r; **réseau de veines apparentes sous la peau** teri ostidan ko'rinib turgan vena tomirlirining tizimi; **2.** yo'l, aloqa tizimi; tarmoq, shoxobcha; **un réseau ferroviaire, routier** temir yo'l, yo'l tarmog'i, shoxobchasi; **le réseau téléphonique** telefon tarmog'i, shoxobchasi; **3.** biror tashkilotning o'zaro bog'langan qismlari; tarmoq, shoxobcha; **réseau commercial** savdo tarmog'i, savdo shoxobchalari; **réseau de télévision** televizor tarmog'i; **organiser un réseau d'espionnage, de résistance** ayg'oqchilik, qarshilik ko'rsatish shoxobchalarini tuzmoq; **4.** kompyuter tizimi, tarmog'i; **accès à un réseau** kompyuter tarmog'iga kirish, ulanish; **5.** *litt* bir-biriga chirmashib, bog'lanib ketgan narsa; to'r; **un réseau d'habitudes** bir-biriga chirmashib ketgan urf-odatlar.

**résection** *nf méd* rezeksiya (*biror a'zoni yoki uning bir qismini kesib tashlash*); **la résection de portion du côlon** yo'g'on ichakning ko'richakdan to'g'ri ichakkacha bo'lgan qismidan bir bo'lagini kesib tashlash.

**réséda** *nm* sayoqgul, oromgul, qalampirgul.

**réservation** *nf* oldindan band qilib, bronlab qo'yish.

**réserve**[1] *nf* **1.** o'zini tiyish, ehtiyotkorlik, ehtiyotkorlik bilan ish tutish; **les scientifiques ont fait de sérieuses réserves sur cette prétendue découverte** olimlar bu soxta kashfiyotga katta ehtiyotkorlik bilan qarashdi; *loc* **sous toutes réserves** to'g'riligiga kafolat bermay; **nouvelle donnée sous toutes réserves** to'g'riligiga kafolat berilmay aytilgan yangilik; **sous réserve de** bir sharti bilan; **j'accepte sous réserve de vérification** men tekshirib ko'rish sharti bilan rozi bo'laman; *loc adv* **sans réserve** so'zsiz, e'tirozsiz, shart qo'ymasdan; **il lui est dévoué sans réserve** u o'zini unga so'zsiz bag'ishlagan; **3.** qo'r, ehtiyot, zaxira, rezerv; to'plab, yig'ib qo'ygan narsa; **avoir des réserves de vivres, d'argent** yig'ib qo'ygan oziq-ovqat, puli bo'lmoq; **les réserves de graisse de l'organisme** organizmning yog' zaxirasi; **les réserves mondiales de pétrole** neftning dunyo zaxirasi; *loc* **mettre, tenir qqch en réserve** biror narsani ehtiyot uchun olib qo'ymoq, ushlab turmoq; **de réserve** g'amlab qo'yilgan, ehtiyotdan olib qo'yilgan; **vivres de réserve** g'amlab qo'yilgan oziq-ovqatlar; **4.** *pl* zaxiradagi harbiy qo'shinlar; *sing* zaxiradagi askar, zobit; **5.** qo'riqxona; **réserve zoologique** hayvonlar qo'riqxonasi; **6.** rezervatsiya (*Shimoliy Amerikada*); **visiter une réserve indienne** qizil tanlilar rezervatsiyasini borib ko'rmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**réserve**[2] *nf* oʻzini tuta bilish, vazminlik, ogʻirlik, sipolik, bosiqlik, ehtiyotkorlik; *loc* **se tenir sur la réserve** oʻzini tutib turmoq; **sa conduite manque de réserve** uning yurish-turishida sipolik yoʻq.

**réservé, ée** *adj* **1.** moʻljallangan, ajratilgan, atalgan, belgilangan; **rue réservée aux piétons** piyodalarga moʻljallangan yoʻl; **2.** olib, band qilib qoʻyilgan; **avoir une place réservée dans le train, une table réservée au restaurant** poyezdda band qilingan bir oʻrni, restoranda band qilingan bir stoli boʻlmoq; **3.** oʻzini tuta biladigan, vazmin, ogʻir, sipo, bosiq, ehtiyotkor; **un homme réservé** ogʻir-bosiq odam; **il est très réservé dans ses jugement** u oʻzining mulohazalarida juda vazmin.

**réserver I.** *vt* **1.** band qilib, olib, atab qoʻymoq (*biror kishi uchun, biror kishiga*); **on vous a réservé ce bureau** bu yozuv stolini siz uchun olib qoʻyishdi; **2.** olib qoʻymoq, saqlab qoʻymoq, asrab, gʻamlab, ehtiyot qilib qoʻymoq (*zaxiraga, keyinroq foydalanish, ishlatish uchun*); **réserver le meilleur pour la fin** eng yaxshisini oxiriga olib qoʻymoq; **réserver son jugement** oʻzining fikr-mulohazalarini asrab qoʻymoq; **3.** band qilib, egallab, bron qilib qoʻymoq; **il est prudent de réserver ses places dans le train** u poyezdda joy egallab qoʻyishda ehtiyotkor; **avez-vous pensé à réserver une table au restaurant?** restoranda stol band qilib qoʻyishni oʻyladingizmi? **4.** atab, tayyorlab qoʻymoq; **le sort, l'accueil qui nous est réservé** bizga tayyorlab qoʻyilgan taqdir, kutib olish; **cette soirée me réservait bien des surprises** bu kecha menga ajoyib kutilmagan sovgʻalar tayyorlab qoʻygan ekan; **II. se réserver** *vpr* **1.** kutib turmoq, saqlanib turmoq, oʻzini tiyib turmoq; **je préfère me réserver pour une meilleure occasion** maʼqulroq payt kelguncha men oʻzimni tiyib turaman; **2.** oʻzida qoldirmoq, oʻzida saqlamoq; **je me réserve le droit de refuser** rad qilish huquqini men oʻzimda qoldiraman; **se réserver de** *+inf* biror narsa qilish huquqini, imkoniyatini oʻzida qoldirmoq; **il se réserve de prendre les dispositions qui s'imposent** kerakli choralarni koʻrish huquqini u oʻzida qoldiradi.

**réserviste** *nm* rezervist (*zaxiradagi harbiy xizmatchi*); **rappel de réservistes** zaxiradagilarni harbiy xizmatga chaqirish.

**réservoir** *nm* **1.** suv ombori, hovuz; **2.** rezervuar, bak (*suyuqlik saqlanadigan idish*); **réservoir d'eau** suv rezervuari, sisternasi; **réservoir d'essence** benzin baki; **3.** manba, xazina; **ce pays est un inépuisable réservoir d'hommes** bu mamlakat bitmas-tuganmas odamlar xazinasi.

**résidence** *nf* **1.** manzilgoh, qarorgoh, manzil, oʻrnashgan, turgan, doimiy yashash joyi, makon; **changer de résidence** yashash joyini oʻzgartirmoq; **résidence principale** asosiy yashash joyi; **résidence secondaire** qishloq hovli; **2.** rezidensiya, saroy, qarorgoh; **une sontueuse résidence** hashamatli saroy; **3.** *dr* majburiy yashash joyi, badargʻa qilingan joy; **être assigné à résidence** nazorat ostida badargʻada yashashga majbur qilingan boʻlmoq.

**résident, ente** *n* **1.** bir davlatning chet elda yashaydigan fuqarosi; **les résidents espagnols en France** Fransiyada yashovchi Ispaniya fuqoralari; **2.** biror joyda doimiy yashovchi odam; **les résidents d'une cité universitaire** universitet shaharchasida doimiy yashovchilar.

**résidentiel, elle** *adj* yashash uchun belgilangan, moʻljallangan; odamlar yashaydigan, turar joy; **immeubles, quartiers résidentiels** turar joy binolari, mavzelari.

**résider** *vi* **1.** biror joyda yashamoq, biror joyga oʻrnashib qolmoq; biror joyga manzil, makon, qarorgoh qurmoq; **il réside actuellement en province** u hozirda qishloqda yashaydi; **2.** iborat boʻlmoq, tarkib topmoq, oʻz ichiga olmoq; **la difficulté réside en ceci** ishkallik mana shunda.

**résidu** *nm* chiqit, chiqindi, tashlandiq, axlat; **le goudron est un des résidus de la distillation du pétrole** gudron neftni qayta ishlagandan qolgan chiqit.

**résignation** *nf* taqdirga tan berish, royishlik, itoatkorlik, nolimaslik, zorlanmaslik; **tous supporter avec résignation** hamma narsaga taqdirga tan berib chidamoq.

**résigné, ée** *adj* taqdirga tan bergan, itoatkor, nolimaydigan, zorlanmaydigan; **il est résigné** u taqdirga tan bergan.

**résigner**[1] **(se)** *vpr* **(à)** koʻnmoq, koʻnikmoq, oʻrganib qolmoq; **je ne peux me résigner à son départ** men uning joʻnab ketishiga koʻnikolmayapman; taqdirga tan bermoq; **il faut se résigner, c'est la vie!** taqdirga tan berish kerak, bu hayot!

**résigner**[2] *vt litt* tark etmoq, voz kechmoq, bermoq.

**résiliation** *nf* bekor qilish, buzish, uzish; **la résiliation d'un contrat** bitimni bekor qilish.

**résilier** *vt* bekor qilmoq, buzmoq, uzmoq; **résilier un bail, un marché** ijara, savdo bitimini bekor qilmoq.

**résine** *nf* **1.** smola, yelim (*baʼzi oʻsimliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*); **résine du pin** qaragʻay yelimi; **2.** plastmassa; sunʼiy plastmassa tish.

**résineux, euse I.** *adj* **1.** yelimli, smolali; **arbres, bois résineux** yelimli daraxtlar, yogʻochlar; **2.** yelim, smolaga taalluqli; smola, yelim; **odeur résineuse** yelim hidi; **II.** *nm pl* yelimli oʻsimliklar; **les pins sont des résineux** qaragʻaylar yelimli oʻsimliklardir.

**résistance** *nf* **1.** *phys* qarshilik; **résistance d'un corps au choc** biror jismning urilishdagi qarshiligi; **la résistance de l'air** havo qarshiligi; **résistance mécanique** mexanik qarshilik; **résistance des matériaux** materiallar qarshiligi; **2.** qarshilik koʻrsata olish, chidash, bardosh berish qobiliyati, chidamlilik, bardoshlilik; **manquer de résistance, n'avoir aucune résistance** chidamlilik, bardoshlilikning yetishmasligi, butunlay boʻlmasligi; **la résistance au froid, à la chaleur des espèces animales** hayvon turlarining sovuqqa, isiqqa chidamliligi, bardoshliligi; **3.** qarshilik qilish, koʻrsatish; toʻsiq; **la résistance à l'oppression** zulmga qarshilik koʻrsatish; **il n'opposa aucune résistence** u hech qanday qarshilik koʻrsatmadi; **se heurter à une forte résistance** kuchli toʻsiqqa uchramoq; **4.** qarshilik koʻrsatish; **la Résistance** qarshilik koʻrsatish harakati (*Ikkinchi jahon urushi vaqtida Fransiyada fashistlar bosqinchiligi davrida*).

**résistant, ante I.** *adj* **1.** qarshilik koʻrsata oladigan, chidamli, bardoshli; juda chidamli, pishiq; **2.** chidamli, baquvvat; u juda chidamli; **II.** *n* qarshilik koʻrsatish harakatining aʼzosi.

**résister** *vi* **1.** chidamoq, bardosh, dosh bermoq, buzilmasdan butun turmoq; **quelques arbres ont résisté à la tempête** bir necha daraxtlar boʻronga bardosh berdi; **des couleurs qui résistent au lavage** yuvganda ketmaydigan ranglar; **2.** chidamoq, boʻsh kelmaslik, dosh bermoq; **résister à la fatigue, à la maladie** charchoqqa, kasallikka chidamoq; **elle a résisté à ce malheur** u bu baxtsizlikka chidadi; **3.** qarshilik koʻrsatmoq, qarshi chiqmoq, oʻzini himoya qilmoq; **il résista aux agents qui tentaient de l'empoigner** u uni tutib olishga uringan agentlarga qarshilik koʻrsatdi; **résister à des assauts répétés** qayta-qayta qilingan shiddatli hujumlarga bardosh bermoq; **4.** qarshi kurashmoq, qarshilik qilmoq, rad qilmoq; **résister à l'oppression** zulmga qarshi kurashmoq; **personne n'ose lui résister** hech kim unga qarshilik qilishga jurʼat etolmaydi; **5.** biror narsa oldida oʻzini tutib, tiyib, bosib, qoʻlga olib turolmoq; **je n'ai pas pu résister à l'envie de venir** men oʻzimni kelish xohishi oldida tiyib turolmadim.

**résolu, ue** *adj* qatʼiy, keskin, ikkilanmaydigan; **le directeur est un homme résolu** direktor qatʼiy odam.

**résolument** *adv* qatʼiylik, dadillik, keskinlik bilan; ikkilanmay; **s'opposer résolument à une décision** biror qarorga qatʼiylik bilan qarshilik qilmoq.

**résolution**[1] *nf* **1.** xulosa, fikr, qaror, toʻxtam; **prendre la résolution de** biror qaror qabul qilmoq; **bonne résolution** yaxshi xulosa; **ma résolution est prise** men bir toʻxtamga keldim; **2.** qaror, qatʼiyat, keskinlik; **elle resta imbranlable dans sa résolution** u oʻz qarorida qatʼiy qoldi; **3.** yechim, yechilish, javob; **la résolution d'une équation** tenglamaning yechimi.

**résolution**[2] *nf* boshqa narsaga aylanish, oʻzgarish; **résolution de l'eau en vapeur** suvning bugʻga aylanishi.

**résonance** *nf* **1.** jarang, aks sado, yaxshi eshitilishlik, jaranglash; **la résonance d'une voûte** gumbazning jaranglashi; **2.** *litt* aks sado, taassurot, taʼsir; **ce thème éveillait en moi des résonances profondes** bu mavzu menda chuqur taassurot uygʻotardi.

**résonner** *nf* **1.** aks sado bermoq, jaranglamoq; **la rue résonnait de cris d'enfants** koʻchadan bolalar qichqirigʻi eshitilib turardi; **2.** yangramoq, jaranglamoq, eshitilmoq, kelmoq; **cloche qui résonne** jaranglayotgan koʻngʻiroq; **des pas résonnaient sur la chaussée** koʻchadan oyoq tovushi kelar edi.

**résorber I.** *vt* **1.** *méd* soʻriltirib yubormoq; **2.** yoʻq qilib yubormoq, yeyishtirib yubormoq; **résorber un déficit** kamomadni toʻldirmoq; **II. se**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**résorber** *vpr* **1.** so'rilib ketmoq; **hématome qui se résorbe lentement** sekin asta so'rilib ketadigan g'urra; **2.** yeyishib ketmoq, kirishib ketmoq; **les excédents se sont résorbés** ortiqchalari yeyishib ketdi.

**résorption** *nf* **1.** so'rilib ketish, qaytish; **résorption d'un abcès** yaraning so'rilib ketishi; **2.** tugatish, bartaraf qilish, yo'qotish; **la résorption du chômage** ishsizlikni tugatish.

**résoudre**[1] **I.** *vt* **1.** yechmoq, hisoblab chiqarmoq, hal qilmoq; **résoudre un problème, une équation, une énigme** masalani, tenglamani, jumboqni yechmoq; **résoudre une difficulté** qiyinchilikni hal qilmoq; **2.** undamoq, majbur qilmoq, ko'ndirmoq; **être résolu(e) à** rozi bo'lmoq, ko'nmoq, qaror qilmoq, tayyor bo'lmoq; **il est résolu à partir** u ketishga qaror qildi; **il est résolu à tout** u hamma narsaga tayyor; **3.** ahd qilmoq, bel bog'lamoq; **je fais ce que j'ai résolu** men ahd qilgan narsamni bajaraman; **j'ai résolu de voyager** men sayohatga bel bog'ladim; **II. se résoudre** *vpr* **(à)** jur'at etmoq, botinmoq, qaror qilmoq; **il ne peut pas se résoudre à y renoncer** buni rad qilishga u jur'at etolmaydi.

**résoudre**[2] *vt* aylanmoq; bo'linib, parchalanib ketmoq; **brouillard qui se résout en pluie** yomg'irga aylanadigan tuman.

**respect** *nm* **1.** hurmat izzat, izzat-ikrom, ehtirom; **inspirer le respect** izzat-ikromda bo'lmoq; **témoigner du respect à qqn** biror kishiga o'z ehtiromini bildirmoq; **j'ai beaucoup de respect pour lui** men uni juda izzat qilaman; **manquer de respect à, envers, à l'égard de qqn** biror kishiga nisbatan hurmatsizlik qilmoq; **le respect de soi-même** o'z hurmatini bilish; **marques de respect** hurmat belgisi; *loc* **sauf votre respect, sauf le respect que je vous dois** hurmatsizlik deb hisoblamasangiz, aybga buyurmasangiz aytsam; **2.** izzat, izzat-ikrom, ehtirom; **le respect pour les morts, dû aux morts** o'lganlarga nisbatan izzat-ikrom, ehtirom; **3.** *pl* hurmat, hurmat-ehtirom (*odob yuzasidan*); **présenter ses respects à qqn** biror kishiga o'z hurmat-ehtiromini bildirmoq; **4.** hurmat qilish, amal qilish; **le respect de la parole donnée** bergan so'ziga amal qilish; *vieilli* **respect humain** odamlarning nazari, yuz-xotirchilik, andisha, rioya; **6. tenir qqn en respect** biror kishini o'ziga nisbatan hurmattda tutib turish (*kuch, qo'rqitish yo'li bilan*).

**respectable** *adj* **1.** hurmatga, ehtiromga, izzat-ikromga loyiq; **un homme respectable** hurmat-ehtiromga loyiq odam; **2.** ulkan, katta, ko'p, talay, ancha-muncha (*miqdor*); **une somme respectable** katta mablag'.

**respecter I.** *vt* **1.** hurmat, ehtirom, izzat qilmoq, ko'rsatmoq, e'zozlamoq; **respecter ses parents** ota-onasini hurmat qilmoq; **un chef qui sait se faire respecter** o'zini hurmat qildirishni biladigan boshliq; **respecter certaines valeurs** ayrim xususiyatlarni e'zozlamoq; **2.** hurmat, amal qilmoq; **respecter le sommeil de ses voisins** qo'shnilarining uyqusini buzmaslik; **II. se respecter** *vpr* o'z hurmatini bilmoq; *fam* **qui se respecte** o'z hurmatini biladigan.

**respectif, ive** *adj* o'zaro, ikki taraflama, ikki o'rtada bo'lgan, har ikki tomonga tegishli; **les droits respectifs des époux** er-xotinning o'zaro huquqlari; **la position respective des astres** osmon yoritgichlarining o'zaro joylashishi.

**respectueux, euse** *adj* **1.** hurmat, izzat qiladigan, siylaydigan; odobli; **ils sont respectueux envers leurs parents** ular ota-onalarini izzat-hurmat qiladilar; **2.** odob, hurmat yoki ehtiromni ifoydalaydigan; ehtiromli; **veuillez agréer mes sentiments respectueux** mening chuqur hurmat-ehtiromimni qabul qilgaysiz.

**respiration** *nf* **1.** nafas olish, nafas, dam; **respiration difficile** qiyin nafas olish; **retenir sa respiration** nafasini tutib turmoq; **2. respiration artificielle** sun'iy nafas olish; **respiration pulmonaire** o'pka orqali nafas olish.

**respiratoire** *adj* nafas olishga oid, nafas; **appareil respiratoire** nafas olish a'zolari; **les voies respiratoires** nafas yo'llari.

**respirer I.** *vi* **1.** nafas olmoq; **respirer par le nez par la bouche** burnidan, og'zidan nafas olmoq; **respirer avec difficulté** qiyinchilik bilan nafas olmoq; **les plantes respirent** o'simliklar nafas oladi; **2.** bir oz tin olmoq, nafasni rostlamoq; **laissez-moi respirer! ouf! on respire!** meni nafasimni rostlab olgani qo'ying! uf! bir oz tin oldima! **II.** *vt* **1.** ichiga tortmoq, simirmoq, hidlamoq; **on lui fit respirer de l'éther** unga efir hidlatishdi; **respirer profondement** chuqur nafas olmoq; **2.** ifodalamoq; **il respire la santé** uning yuzlaridan qon tomadi; **son visage respire d'intelligence** uning yuzidan donolik yog'ilib, balqib turadi.

**resplendir** *vi* yaraqlamoq, charaqlamoq, porlamoq, yorqin nur sochmoq, barq urib turmoq, balqmoq.

**resplendissant, ante** *adj* yorqin nur sochayotgan, porlagan, yaraqlagan, charaqlagan, balqigan; **église resplendissante d'or** oltindan yaraqlagan cherkov; **visage resplendissant de bonheur** baxtdan yal-yal yonayotgan yuz; **vous avez une mine resplendissante** yuzingizdan salomatlik barq urib turibdi.

**responsabilité** *nf* **1.** javobgarlik, mas'uliyat; **la responsabilité de l'employeur dans les accidents du travail** ish beruvchining ish vaqtidagi baxtsiz hodisalar uchun javobgarligi; **2.** javobgar bo'lish, oqibatini o'z zimmasiga olish; **accepter, assumer une responsabilité** javobgar bo'lmoq; **prendre la responsabilité de qqch** biror narsaning javobgarligini o'z zimmasiga olmoq; **décliner toute responsabilité** har qanday javobgarlikdan voz kechmoq; **3.** mas'uliyat; **le premier ministre a engagé la responsabilité du gouvernement** bosh vazir hokimiyat mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi.

**responsable** *adj* **1.** javobgar, mas'ul; vakolatli; **les experts jugeront si l'accusé est responsable** ayblanuvchining vakolatli yoki vakolatsizligini ekspertlar hal qiladi; **être responsable de qqn** biror kishi uchun javobgar bo'lmoq; **rendre qqn responsable de qqch** biror kishini biror narsaga mas'ul qilib tayinlamoq; **qui est responsable de cette plésanterie?** bu hazil kimdan chiqdi? **le gouvernement est responsable devant le parlement, en France** Fransiyada hukumat parlament oldida javobgar; **2.** asosli, mas'uliyatli, jiddiy, o'ylab qilingan; **soyez responsable** mas'uliyatli bo'ling; **attitude responsable** jiddiy munosabat.

**resquiller I.** *vi* transportda chiptasiz ketmoq; tomoshalarga chiptasiz kirmoq; **II.** *vt* egallab, o'ziniki qilib olmoq; **il a resquillé sa place** u uning joyini egallab oldi.

**ressaisir (se)** *vpr* o'zini qo'lga olmoq, o'zini bosib olmoq, o'zini tutib olmoq, es-hushini yig'ib olmoq, o'ziga kelmoq; **un instant affolé, il n'a pas tardé à se ressaisir** bir dam o'zini yo'qotib qo'ygandan so'ng, u darhol o'zini qo'lga oldi; **le boxeur s'est ressaisi au quatrième round** bokschi to'rtinchi raundda o'zini tutib oldi.

**ressasser** *vt* **1.** bir narsani qaytaravermoq, bir narsani ta'kidlayvermoq, eski narsani chaynayvermoq; **il ressasse ses difficultés, ses mécontentement** u o'zining muammolarini, noroziligini qaytaraveradi; **2.** bir narsani qaytaraverib, gapiraverib hammani zeriktirmoq; **ressasser les mêmes plaisanteries** bir xil hazilni qaytaraverib hammani zeriktirmoq.

**ressaut** *nm* bo'rtiq, bo'rtib chiqqan joy (*imoratning peshtoqida yoki tekis joyda*).

**ressemblance** *nf* o'xshashlik, bir xillik; **la ressemblance de deux objets, entre deux objets, d'un objet avec un autre** ikki narsaning bir xilligi, ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlik, bir narsaning ikkinchisiga o'xshashligi; **ils ont des ressemblances** ularning o'xshashliklari bor; **il y a une ressemblance frappante entre la mère et la fille** ona bilan qizning o'rtasida hayratlanarli o'xshashlik bor; **ce portraitiste cherche la ressemblance** bu rassom o'xshashlik qidiryapti.

**ressemblant, ante** *adj* o'xshash, o'xshagan, bir xil, bir xildagi; **un portrait très ressemblant** juda o'xshagan portret.

**ressembler I.** *vi* **1.** o'xshamoq; **un enfant qui ressemble à sa mère** onasiga o'xshaydigan bola; *fam* **dis-moi à quoi il ressemble** aytchi, uning aft-basharasi qanaqa; **elle resemble plus à son père qu'à sa mère** u onasidan ko'ra ko'proq otasiga o'xshaydi; *prov* **qui se ressemble s'assemble** o'xshatmasdan uchratmas, ko'r ko'rni qorong'ida topibdi; **2.** o'xshamoq, o'xshab ketmoq, bir xil bo'lmoq; **une roche blanche qui ressemble à du marbre** marmarga o'xshab ketadigan oq xarsang; **votre question ressemble étrangement à un défi** sizning savolingiz g'alati, u chaqiriqqa o'xshab ketadi; *loc* **cela ne ressemble à rien** buning o'xshashi yo'q; **II. se ressembler** *vpr* bir biriga o'xshamoq; **ils se ressemblent** ular bir biriga o'xshashadi; *loc* **se ressembler comme deux gouttes d'eau** bir biriga ikki tomchi suvday o'xshamoq; **ce portrait lui ressemble** bu portret unga o'xshaydi; **cela lui ressemble tout à fait** bu unga quyib qo'yganday o'xshaydi; **cela ne lui ressemble pas** bu unga o'xshamaydi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ressentiment** *nm* kek, adovat, gina saqlash, xusumat; **il garde un profond ressentiment des torts qu'on lui a faits** unga qilingan adolatsizlikka u chuqur adovat saqlab yuribdi.

**ressentir I.** *vt* **1.** *litt* his qilmoq, boshdan kechirmoq, totmoq, tatib ko'rmoq, chekmoq, tortmoq; **ressentir une injure, une privation** haqorat, muhtojlikni tatib ko'rmoq; **ressentir de la sympathie, de la colère pour, à l'égard de qqn** biror kishiga nisbatan mayli bo'lmoq, g'azablanmoq; **2.** his qilmoq, sezmoq; **ressentir la faim** ochlikni his qilmoq; **II. se ressentir** *vpr* sezilmoq, bilinmoq; sezilib, bilinib turmoq; **son travail se ressent de son humeur** ishi uning kayfiyatidan darak berib turibdi; **se ressentir d'une chute, d'une opération** yiqilganligi, opperatsiya qilinganligining asorati sezilib turibdi; **le pays se ressent de la crise** mamlakatda inqirozning asorati sezilib turibdi.

**resserre** *nf* omborcha, kichkina omborxona.

**resserrement** *nm* mustahkamlash, mahkamlash.

**resserrer I.** *vt* **1.** qisqartirmoq, toraytirmoq, kichraytirmoq, cheklamoq; **lotion astrigente qui resserre les pores** teri teshikchalarini toraytiradigan yuvuvchi losyon; **2.** siqmoq, mahkamlamoq, mustahkamlamoq qotirmoq; **resserrer un nœud, un boulon** tugunni, boltni qotirmoq; **ce malheur a resserré leurs liens** bu baxtsizlik ularning aloqalarini mustahkamladi; **II. se resserrer** *vpr* qisilmoq, siqilmoq, jipslashmoq; **l'étau se resserre** iskanja siqildi; **leurs relations se sont resserrées** ularning aloqalari jipslashdi.

**resservir I.** *vt* qaytadan tortmoq, qaytadan bermoq (*ovqat*); **II.** *vi* qayta xizmat qilmoq, qayta ishga yaramoq; **cela peut resservir** bu hali ishga yaraydi.

**ressort[1]** *nm* **1.** ressor, prujina; **ressort à boudins, à lames** spiralli, plastinkali ressor; **ressorts de sommier** prujinali to'shak; **2.** *litt* vosita, qurol; **les ressorts cachés de nos actes** bizning faoliyatlarimizning yashirin vositalari; **3.** *loc* **avoir du ressort** g'ayratli, faol bo'lmoq; **un être sans aucun ressort** lapashang, latta odam.

**ressort[2]** *nm* **1.** *loc* **en dernier ressort** nihoyat, oxiri, ahiyri, natijada, provardida; **en dernier ressort, il l'a emporté** provardida u uni olib ketdi; **2.** *loc* zimmasida bo'lgan, vazifasi bo'lgan, sohasi bo'lgan; **cette affaire est du ressort de la cour d'appel** bu ish apellatsion sudning vazifasi; **cela n'est pas de mon ressort** bu mening sohamga kirmaydi.

**ressortir[1] I.** *vt* qaytarib chiqarmoq, qayta olmoq; **il a ressorti ses vieux disques** u o'zining eski plastinkalarini qayta oldi; **II.** *vi* **1.** qaytib chiqmoq; **il ressortait de chez lui** u uyidan qaytib chiqdi; **la balle est ressortie par le cou** o'q bo'ynidan chiqib ketdi; **2.** ajralib turmoq, ajralib ko'rinmoq, ko'zga tashlanmoq; **la couleur ressort mieux sur ce fond** rang bu fonda yaxshiroq ajralib ko'rinadi; **faire ressortir qqch** ajratib ko'rsatmoq; **3.** kelib chiqmoq, natijasi bo'lmoq.

**ressortir[2]** *vi* **1.** sudda ko'rilishga tegishli bo'lmoq; **2.** tegishli, taalluqli bo'lmoq; **tout ce qui ressortit au théâtre** hamma teatrga qarashli bo'lgan narsalar.

**ressortissant, ante** *n* fuqaro, biror joylik kishi.

**ressource** *nf* **1.** imkoniyat, vosita, iloj, chora, tadbir, yo'l; **je n'ai d'autre ressource que de partir** mening jo'nab ketishdan boshqa choram qolmadi; **sans ressource** chorasiz, imkoniyatsiz, umidsiz, bedavo; **cette situation apparait sans ressource** bu holat chorasiz ko'rinadi; **2.** *pl* boylik, mablag', pul, davlat; **ses ressources sont modestes** uning boyligi kamtarona; **être sans ressources** mol-davlati bo'lmaslik; **les ressources de l'état** davlat mablag'i; **3.** boylik, imkoniyat, manba; **les ressources naturelles d'un pays** mamlakatning tabiiy boyliklari; **ressources humaines** inson omillari; **4.** imkoniyat, vosita; **il a dû faire appel à toutes les ressources de son talent** u o'z qobiliyatlarining hamma imkoniyatlarini ishga solishi kerak edi; *loc* **un homme de ressources** uddaburro odam; **il a de la ressource** uning imkoniyatlari bor; **les ressources d'une langue** tilning imkoniyatlari.

**ressouvenir (se)** *vpr* eslamoq, esga olmoq, xotirasiga keltirmoq, xotirlamoq; **elle s'est ressouvenue de cet épisode** u bu voqeani esga oldi.

**ressusciter I.** *vi* **1.** qayta tirilmoq, qayta jonlanmoq, qayta jon kirmoq; **2.** qayta tiklanmoq, qayta bunyod bo'lmoq, qayta tirilmoq; **pays qui ressuscite après une catastrophe** ofatdan so'ng qayta tiklangan mamlakat; **II.** *vt* **1.** qayta tiriltirmoq, qayta jon bag'ishlamoq; **2.** hayotga qaytarmoq, jonini saqlab qolmoq (*narsa*); **ce traitement l'a ressuscité** bu muolaja uning hayotini saqlab qoldi; **3.** xayolida qayta tiklamoq, qayta tiklamoq, qayta tug'iltirmoq; **ressusciter les héros du passé** o'tgan qahramonlarni xayolida qayta tiklamoq; **ressusciter un art, une mode** biror san'atni, modani qayta tiklamoq.

**restant[1]** *nm* qolgani, qolgan qismi; **je vous paierai le restant dans un mois** men sizga qolganini bir oydan keyin to'layman.

**restant[2], ante** *adj* **1.** qolgan; **les cent francs restants** qolgan yuz frank; **la seule personne resrante** yolg'iz qolgan kishi; **2. poste resrante** yo'qlab olinadigan (*xat*).

**restaurant** *nm* restoran; **les restaurants du cœur** xayriya restorani (*kambag'allarga bepul xizmat ko'rsatadigan restoran*).

**restaurateur[1], trice** *n* ta'mirlovchi, restavrator, qayta tiklovchi.

**restaurateur[2], trice** *n* restoranchi, restoran egasi.

**restauration[1]** *nf* **1.** ilgarigi, ag'darilgan siyosiy tuzumni qayta tiklash; **la restauration** restavratsiya davri; **2.** qayta tiklash, ta'mirlash, restavratsiya; **restauration d'une mosaïque romaine** rimliklar mazaikasini ta'mirlash.

**restauration[2]** *nf* restoranchilik.

**restaurer[1]** *vt* **1.** *litt* tiklamoq, qayta o'rnatmoq; **restaurer la liberté, la paix** ozodlik, tinchlikni tiklamoq; **2.** tiklamoq, asliga, asl holiga keltirmoq, ta'mirlamoq; **restaurer une cathédrale, une statue** ibodatxonani, haykalni ta'mirlamoq.

**restaurer[2] I.** *vt* ovqatlantirmoq, qornini to'yg'izmoq; **II. se restaurer** *vpr* ovqatlanmoq, tamaddi qilmoq, ovqatlanib olmoq.

**reste** *nm* **1.** qolgan qism, qaytim, qolgani; **le reste d'une somme d'argent** pulning qolgan qismi; **mettre le reste du lait dans un pot** sutning qolganini ko'zachaga quyib qo'ymoq; *loc* **partir sans demander son reste** ortiqcha gap-so'zsiz, o'ylab o'tirmay; **le reste de sa vie** umrining qolgan qismi; *loc adv* **le reste du temps** keyingi, boshqa safar; **2.** boshqalar, qolganlar; boshqa, qolgan odamlar; **vivre isolé du reste des hommes, du monde** boshqa odamlardan, xalqdan alohida yashamoq; **3.** qolgani; **le reste de l'ouvrage** ishning qolgani; **laissez-moi faire le reste** qolganini menga qo'yib bering; **4.** qolgani, boshqasi; **ne t'occupe pas du reste** qolgani bilan ishing bo'lmasin; **pour le reste, quand au reste** qolgani, boshqasi esa; *loc adv* **de reste** bekorchi, ortiqcha; **avoir de l'argent, du temps de reste** ortiqcha puli, bekorchi vaqti bo'lmoq; **en reste** qarzdor; **être, demeurer en reste** qarzdor bo'lmoq, bo'lib qolmoq; **au reste, du reste** lekin, ammo, biroq; qolaversa, buning ustiga; **elle vivait, du reste, très simplement** u hayot kechirar edi, ammo, juda oddiy; **5.** qoldiq, (*ortib*) qolgan qism, biror narsadan qolgani; **les restes d'une vieille cité, d'un repas** eski bir shaharning qoldiqlari, ovqatning qoldig'i; **6.** *litt* xok, jasad; **7.** *math* qoldiq; **onze divisé par trois laisse un reste de deux** o'n bir uchga bo'linsa ikki qoldiq qoladi.

**rester** *vi* **1.** biror joyda qolmoq, ma'lum bir vaqt bo'lmoq; **il est resté à Paris** u Parijda qoldi; **nous sommes resté là plus d'une heure** biz u yerda bir soatdan ortiqroq qoldik; **rester au lit, à table** to'shakda yotib qolmoq, dasturxon atrofida uzoq o'tirib qolmoq; **rester auprès de qqn** biror kishining oldida o'tirib qolmoq; *loc fam* **il a failli y rester** u yerda qolib ketishiga oz qoldi; **rester en chemin** yarim yo'lda qolib ketmoq; qolmoq; **je resterai (pour) garder la maison** men uyni qo'riqlagani qolaman; **restez donc dîner avec nous** biz bilan ovqatlangani qolsangiz-chi; **2.** qimirlamay turib qolmoq (*narsa*); **la voiture est restée au garage** avtomobil garajda qoldi; **l'arête est restée en travers de sa gorge** baliqning qiltirig'i uning tomog'iga tiqilib qoldi; *loc* **cela me reste sur l'estomac** bu oshqozonimda turib qoldi; **cela m'est resté sur le cœur** bu yuragimga o'rnashib qoldi; **cela doit rester entre nous** bu ikkimizning oramizda qolishi kerak; **3.** biror holatda qolmoq; **rester debout, sans bouger** tik, qimirlamay turib qolmoq; **elle resta un moment sans parler** u bir lahza so'zlay olmay turib qoldi; **rester dans l'ignorance** jaholat batqog'iga botib qolmoq; **elle resta seule à attendre** u yolg'iz kutib qoldi; **cela reste à prouver** buni hali isbotlash kerak bo'ladi; **elle est restée coincée dans l'ascenseur** u liftda tutilib qoldi; **rester immobile** qimirlamay qolmoq; **le magasin restera ouvert en août** magazin avgustda doim ochiq bo'ladi; **4.** abadiy qolmoq, qolmoq; **c'est une œuvre qui restera** bu abadiy qoladigan asar; *prov* **les paroles s'envolent, les écrits restent** so'z uchib ketadi, yozilgan narsa qoladi; **5. rester à qqn** biror kishiga qarashliligicha qolmoq, saqlanib qolmoq; **l'avantage est resté à nos troupes** ustunlik bizning qo'shinlarimizda qoldi; *impers* **il me reste du pain** hali menda



www.ziyouz.com kutubxonasi

nondan bor; **6. en rester à** kelib to‘xtamoq, -ga kelmoq; **où en es-tu resté de ta lecture?** o‘qishingda qayerga kelib to‘xtading? **en rester là** shu yerda to‘xtamoq, davom ettkizmaslik; **inutile de poursuivre, restons-en là** ta’qib qilish befoyda, shu yerda to‘xtaylik; **rester sur** saqlab qolmoq; **rester sur sa faim** qorni och bo‘yicha qolmoq; **rester sur une impression** taassurot ostida bo‘lmoq; **7.** biror narsadan biror parcha, bo‘lak, nishona, narsa qolmoq; **le seul bien qui me reste** menga qolgan yolg‘iz boylik; *impers* **il nous reste encore de quoi vivre** hali yashaguday narsamiz bor; **8. le plus dur reste à faire** eng og‘irini qilish qoldi; *impers* **il reste beaucoup à faire** hali qilinadigan ko‘p ish turibdi; **le temps qu'il me reste à vivre** mening umrimdan qolgan kunlarim; **il ne me reste plus qu'à vous remercier** mening sizga minnatdorchilik bildirishimgina qolyapti; **reste à trouver la meilleure solution** eng yaxshi yechimni topish qolyapti; **9. il reste que, il n'en reste pas moins que** shunday bo‘lsa-da, shunga qaramay; **il n'en reste pas moins que tu as été imprudent** shunga qaramay sen ehtiyot bo‘lmagansan.

**restituer** *vt* **1.** qaytarib bermoq, egasiga qaytarmoq; **il dut restituer les objets volés** o‘g‘irlangan narsalarni qaytarib berishiga to‘g‘ri keldi; **2.** qayta tiklamoq, asl holiga keltirmoq; **restituer un texte altéré, une inscription** buzilgan matnni, yozuvni o‘z holiga keltirmoq; **3.** bo‘shatib, qo‘yib, chiqarib yubormoq (*to‘planib qolgan narsani*); **énergie restituée par un système mécanique** mexanik yo‘l bilan chiqarib yuborilgan energiya.

**restitution** *nf* qayta tiklash, asl, o‘z holiga keltirish; **la restitution d'un monument disparu** yo‘qolib ketgan obidani qayta tiklash.

**restreindre I.** *vt* kichraytirmoq, ozaytirmoq, toraytirmoq, chegaralamoq; **restreindre ses dépenses** o‘zining sarf-xarajatlarini kamaytirmoq; **II. se restreindre** *vpr* toraymoq, kichraymoq, chegaralanmoq; **le champ de nos recherches se restreint** bizning izlanish maydonimiz torayyapti.

**restrein, einte** *adj* tor, chegaralangan, cheklangan, kichik, oz; **auditoire, personnel restreint** tor doiradagi tinglovchilar, kishilar.

**restrictif, ive** *adj* chegaralovchi, cheklaydigan; cheklash; **clause, condition restrictive** chegaralovchi shart, sharoitlar.

**restriction** *nf* **1.** qo‘shimcha shart, pisanda; sharh, izoh, eslatma; **il faut apporter des restrictions à ce principe** bu holatga qo‘shimcha shart kiritish kerak; **faire des restrictions** pisanda qilmoq; *loc adv* **sans restriction** chegaralanmagan holda, cheksiz; **je l'admire, sans restriction** men unga cheksiz qoyil qolaman; **restriction mentale** ikkiyoqlama izoh; **2.** cheklash, chegaralash; **restriction des nessances** tug‘ilishni cheklash; **3.** *pl* cheklanishlar, cheklanganliklar (*oziq-ovqatdan*); **les restrictions en temps de guerre** urush vaqtidagi cheklanishlar.

**restructurer** *vt* qayta qurmoq.

**restructuration** *nf* qayta qurish.

**résultat** *nm* **1.** oqibat, natija; **cela a eu un résultat heureux, désastreux** bu baxtli, falokatli oqibatga olib keldi; *fam* **elle a sauté par la fenêtre; résultat, elle s'est foulé la cheville** u derazadan sakradi; oqibat, oyog‘ini to‘pig‘idan chiqarib oldi; **2.** natija, samara, yakun; **le résultat d'une expérience** tajribaning natijasi; *pl* **exiger, obtenir des résultats** yaxshi natijalarni talab qilmoq, yaxshi natijalarga erishmoq; **3.** *math* natija, yechim; **le résultat d'une division** bo‘lishning natijasi; **4.** *pl* natijalari, natijasi; **affichage, proclamation des résultats** imtihon natijalarini e’lon qilish; **les résultats d'une élection** saylov natijalari; **résultat d'un match** futbol o‘yinining natijasi.

**résulter** *vi* **résulter de** kelib chiqmoq; **je ne sais ce qui en résultera** bilmadim natijasi qanday bo‘lar ekan; *impers* **il résulte de ceci que, il en est résulté que** bundan kelib chiqadiki, bundan kelib chiqdiki.

**résumé** *nm* qisqa hulosa, qisqa mazmun, yakun; **faire le résumé d'un livre** kitobning qisqa mazmunini yozmoq; **un résumé succinct** qisqa hulosa; *loc adv* **en résumé** xulosa qilib, qisqacha, qisqa, lo‘nda qilib; demak, qisqasi; **en résumé, tout le travail est à refaire** demak, hamma ish qayta qilinishi kerak; **en résumé, il est assez satisfait** xulosa qilib aytganda, uning ancha ko‘ngli to‘ldi.

**résumer I.** *vt* qisqacha, lo‘nda ifodalamoq, mujassamlamoq; **résumer un discours, la pensée d'un auteur** nutqni, yozuvchining fikrini qisqacha ifodalamoq; **je vais essayer de résumer la situation** men sharoitni qisqacha tushuntirishga harakat qilaman; **II. se résumer** *vpr* mujassamlanmoq, ifodalanmoq, xulosa qilmoq; **pour nous résumer** aytganlarimizni hulosa qilsak; **sa vie se résume à son travail** uning hayoti uning ishida mujassamlangan; **en lui se résume toute une époque** unda bir boshli asr mujassamlangan.

**résurgence** *nf* sizot, yer osti suvlari; **résurgences qui se forment au pied d'un plateau calcaire** ohak toshli yassi tog‘likning etagida hosil bo‘lgan sizot suvlar; *fig* yuzaga sizib chiqmoq; **la résurgence d'une idéologie** mafkuraning yuzaga sizib chiqishi.

**résurrection** *nf* **1.** qayta tirilish; **la résurrection du Christ** Isoning qayta tirilishi; **2.** qayta tiklanish, qayta yangilanish, qayta dunyoga kelish; **l'histoire conçue comme résurrection du passé** o‘tmishning qayta yangilanishi deb ta’savvur qilinadigan tarix.

**rétablir I.** *vt* **1.** tiklamoq, asliga, asli holiga keltirmoq, ta’mir qilmoq; **rétablir un texte dans son intégralité** matnni to‘laligicha tiklamoq; **rétablir les faits, la vérité on l'a rétabli dans son emploi, dans ses droits** dalillarni, haqiqatni tiklamoq; **2. rétablir qqn, qqch dans** o‘z o‘rniga qaytarmoq, tiklamoq; **on l'a rétabli dans son emploi, dans ses droits** uni o‘z vazifasiga tiklashdi, uning huquqlarini tiklashdi; **3.** qayta o‘rnatmoq, tiklamoq; **rétablir des communications** aloqalarni tiklamoq; **le contact est rétabli** aloqa qayta o‘rnatildi; **rétablir l'ordre** tartib o‘rnatmoq; **4.** sog‘ligini tiklamoq, tuzatmoq; **ce traitement le rétablira en peu de temps** bu muolaja uning sog‘ligini qisqa vaqtda tiklaydi; **II. se rétablir** *vpr* **1.** qayta o‘rnatilmoq, tiklanmoq; **le silence se rétablit** tinchlik o‘rnatilyapti; **2.** tuzalmoq, sog‘ligini tiklamoq; **malade qui se rétablit** tuzalayotgan kasal.

**rétablissement** *nm* **1.** tiklash; **le rétablissement des relations diplomatiques entre deux pays** ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni tiklash; **2.** sog‘liqni tiklash, tuzalish; **je fais des vœux pour votre prompt rétablissement** men sizning tezda tuzalib ketishingizni tilayman.

**rétamer** *vt* **1.** holdan toydirmoq; qattiq charchatmoq, tinka-madorini quritmoq; **vous m'avez rétamé** siz mening tinka-madorimni quritdingiz! **2.** terisini shilib olmoq, xonavayron qilmoq, pachaq qilmoq.

**rétameur, euse** *n* metall oqartiruvchi misgar, usta.

**retaper I.** *vt* to‘g‘rilamoq, tuzatmoq, asl holiga keltirmoq, tartibga, epaqaga keltirmoq; **retaper un lit** karavotni, to‘shakni tartibga keltirmoq; **retaper une vieille maison** eski uyni tuzatmoq; **II. se retaper** *vpr fam* o‘ziga kelib olmoq; sog‘aymoq, sog‘ayib ketmoq; tuzalmoq, tuzalib qolmoq; kuchga kirib ketmoq; **il a bien besoin de se retaper** u o‘ziga kelib olishi kerak!

**retard** *nm* **1.** kech qolish, kechikish, hayallash; **le retard d'un train** poyezdning kechikishi; **arriver, être en retard à un rendez-vous** uchrashuvga kech qolish, kelish; **un retard d'une heure, de dix minutes** bir soatga, o‘n minutga kech qolish; **avoir du retard, une heure de retard** kechikish, bir soatga kechikish; **retard dans un paiement** to‘lovda kechikish; **en retard sur qqn, qqch** biror kimsadan, biror narsadan ortda qolmoq; **je suis en retard sur lui** men undan ortda qolyapman; **2.** kechiktirish, orqaga surish, paysallash; **il s'est décidé après bien des retards** u ancha kechiktirishlardan so‘ng qaror qildi; **sans retard** kechiktirmay, kechikmay, orqaga surmay; **écrivez-lui sans retard** unga kechiktirmay xat yozing; **3.** orqada qolish, kechikish; **un pays en retard de cinquante ans** ellik yil orqada qolib ketgan davlat; **retard mental** aqlan zaiflik, orqada qolish; **un enfant en retard** zaif, rivojlanishda orqada qolgan bola.

**retardataire** *adj, n* **1.** kechikuvchi, kech qoluvchi; **les retardataires seront punis** kech qoluvchilar jazolanadi; **2.** zaif, rivojlanishda orqada qolgan, orqada qoluvchi; **enfants retardataires** orqada qoluvchi o‘quvchilar (*o‘qishda*).

**retardé, ée** *adj* zaif, orqada qolgan (*o‘qishda, rivojlanishda*); **un enfant retardé** orqada qolgan bola.

**retardement (à)** *loc adj* kechiktirilgan, sekinlatilgan, ma’lum vaqtda ishga tushadigan; kechiktirib, sekinlatib; **engin à retardement** ma’lum vaqtda ishga tushadigan mexanizm; **bombe à retardement** belgilangan muddatga borib portlaydigan bomba.

**retarder I.** *vt* **1.** kechiktirmoq, kech qoldirmoq; tutib qolmoq; **je ne veux pas vous retarder** men sizni kech qoldirmoqchi emasman; **cet incident m'a retardé** bu voqea meni tutib qoldi; **retarder qqn dans** biror narsadan, biror narsa qilishdan qoldirmoq; **ne le retardez pas dans son travail** uni ishdan qoldirmang; **retarder une montre** soatni orqaga surmoq; **2.** kechiktirmoq,



www.ziyouz.com kutubxonasi

orqaga surmoq; **retarder le départ de qqn** biror kishining ketishini orqaga surmoq; **II.** *vi* **1.** orqada qolmoq; **ma montre retarde de cinq minutes** soatim besh minut orqada qolyapti; **retarder sur son temps** zamondan orqada qolmoq; **2.** *fam* orqada qolmoq, bexabar qolmoq; **sa femme? vous retardez, il a divorcé l'an dernier** xotinimi? orqada qolibsiz, u o'tgan yili ajrashgan; **III. se retarder** *vpr* kechikmoq.

**retenir I.** *vt* **1.** ushlab, tutib qolmoq; **on lui retient dix pour cent de son salaire** uning ish haqidan o'n foyiz ushlab qolishadi; **2.** band qilmoq, tutib turmoq; **retenir une chambre dans un hôtel** mehmonxonada bir xonani band qilmoq; **3.** eslab qolmoq, esda saqlamoq; **retenez bien ce que je vais dire** men hozir sizga aytadigan narsani yaxshilab eslab qoling; **4.** e'tiborga olmoq; **nous regrettons de ne pouvoir retenir votre proposition** sizning taklifingizni e'tiborga ololmaganimizdan afsusdamiz; **5.** *math* eslab qolmoq, yodda saqlamoq; **je pose 4 et je retiens 3** men to'rtni yozaman va uchni yodda saqlayman; **6.** tutib, ushlab qolmoq; **il m'a retenu plus d'une heure** u meni bir soatdan ortiqroq tutib qoldi; **retenir qqn à dîner** biror kishini kechki ovqatga ushlab qolmoq; **je ne vous retiens pas, vous pouvez partir** men sizni tutib turganim yo'q, siz ketaversangiz bo'ladi; **retenir qqn prisonnier** kimnidir qamoqda tutmoq; **7.** e'tiborni tortmoq, o'ziga qaratmoq; **votre offre a retenu toute notre attention** sizning taklifingiz bizning e'tiborimizni tortdi; **8.** tutib, ushlab turmoq; **la corde qui retenait le chargement s'est rompue** yukni tutib turgan arqon uzilib ketdi; **9.** tutib, o'tkazmay, to'sib turmoq; **une écluse retient l'eau** shluz suvni to'sib turibdi; **10.** to'xtatib turmoq, tiymoq, ichiga yutmoq; **retenir son souffle** nafasini to'xtatib turmoq; **retenir un cri, une insulte** qichqirib, so'kib yuborishdan o'zini tiymoq; **retenir sa langue** tilini tiymoq; **11.** ushlab, tutib qolmoq; **retenir qqn par le bras** biror kishini qo'lidan ushlab qolmoq; **retenir un cheval** otning jilovini tortmoq; **12. retenir de** biror narsa qilishdan ushlab, tutib, qaytarib qolmoq; **retenir qqn de faire une bêtise** biror kishini ahmoqona ish qilishdan tutib qolmoq; **retenez-moi ou je fais un malheur!** meni ushlang yoki men bir falokat ish qilib qo'yaman! **13.** ushlab turmoq, tutib turmoq; ushlab qolmoq, tutib qolmoq; **je ne sais pas ce qui me retiens de te flanquer une gifle!** senga bir tarsaki tortib yuborishdan meni nima tutib turibdi, bilmadim; **II. se retenir** *vpr* **1. (à)** biror narsaga yopishib olmoq, biror narsani ushlab olmoq; **2.** o'zini tutib turmoq, o'zini qo'lga olmoq; **elle se retenait pour ne pas pleurer** yig'lab yubormaslik uchun u o'zini tutib turar edi.

**rétention** *nf méd* tutib turish; **rétention d'urine** siydikni tutib turish.

**retentir** *vi* **1.** jaranglamoq, yangramoq, ovoz, tovush chiqarmoq, chalinmoq (*ovoz*); **le timbre de l'entrée retentit** dahlizning qo'ng'irog'i jarangladi; **2.** guldiramoq, gumbirlamoq, qaldiramoq; **la salle retentissait d'aclamations** xona olqishlardan gumbirlardi; **3.** aks sado bermoq.

**retentissant, ante** *adj* **1.** jaranglagan, yangragan; jarangdor, baland, qattiq; **des voix retentissantes** baland ovozlar; **2.** ulkan, katta; yorqin; **la pièce a eu un succès retentissant** pyesa ulkan muvaffaqiyatga erishdi; **un échec retentissant** katta muvaffaqiyatsizlik.

**retentissement** *nm* **1.** *litt* jaranglash, yangrash; **2.** ta'sir, asar, iz; oqibat; aks sado; **ces mesures auront un retentissement sur la situation économique** bu choralar iqtisodiy ahvolda asar qoldiradi; **3.** shov-shuv; **ce manifeste a eu un grand retentissement** bu manifest katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

**retenue**[1] *nf* **1.** chegirib, ushlab qolingan pul; **les retenues pour la retraite, la sécurité sociale** nafaqa, ijtimoiy muhofaza uchun ushlab qolingan pul; **2.** yoddagi, esdagi son (*sonlarni qo'shish, ko'paytirish kabilarda*); **ton addition est fausse, tu as oublié la retenue** sening qo'shuving noto'g'ri, sen yoddagi sonni unutding; **3.** tutib, ushlab qolish (*jazo sifatida sinfda, darsdan so'ng*); **deux heures de retenues** ikki soat ushlab qolish; **4.** suvni to'plash, to'plangan suv; suv ombori; **éteblir une retenue d'eau sur une rivière, par un barrage** daryoda suv to'plash, to'g'on yordamida.

**retenue**[2] *nf* o'zini tuta bilish, vazminlik, og'irlik, bosiqlik; **il a beaucoup de retenue** u juda bosiq; **rire sans retenue** o'zini tuta olmay kulish, to'xtovsiz kulmoq.

**réticence** *nf* **1.** ataylab aytmay tashlab ketilgan narsa; oxirigacha aytmaslik, hammasini aytmaslik, uchini chiqarish; **il y a bien des réticences dans cette partie de ses mémoires** xotiralarining bu qismida ataylab tashlab ketilgan joylar ko'p; **parler sans réticence** qoldirmay, borinini aytmoq; **2.** ikkilanish, taraddudlanish, jur'atsizlik; **montrer une certaine réticence** birtalay jur'atsizlik ko'rsatmoq.

**réticent, ente** *adj* **1.** ataylab aytmay tashlab ketilgan, oxirigacha, ochiq aytilmagan; **être réticent** ochiq aytmaslik; **2.** ikkilangan, taraddudlangan, jur'atsiz; **il a donné son accord, mais je l'ai senti réticent** u rozichilik berdi, lekin men uning ikkilanayotganini sezdim.

**réticule**[1] *nm* optik asboblardagi setka.

**réticule**[2] *nm* ayollarning kichik sumkachasi.

**rétif, ive** *adj* **1.** qaysar, tixir, asov, qashshang (*miniladigan hayvonlar*); **un cheval rétif** tixir ot; **2.** qaysar, o'jar, ters, injiq; **enfant rétif** o'jar bola.

**retirée, ée** *adj* **1.** odamlardan uzoqda, yolg'iz, yakka, tanho, xilvatda; **vivre retiré** odamlardan uzoqda, xilvatda yashamoq; **vie retirée** odamlardan uzoqdagi, xilvatdagi hayot; **2.** chetdagi, yolg'iz, odamlardan uzoqdagi, xilvatdagi; **elle habite dans un quartier retiré** u chetdagi uyda yashaydi.

**retirer I.** *vt* **1.** olmoq, olib qo'ymoq; **on lui a retiré son permis** uning ruxsatnomasini olib qo'yishdi; **retirer sa selle à un cheval** otning egarini olib qo'ymoq; **2.** olib qo'ymoq, yechmoq; **retirer ses gants** qo'lqoplarini yechmoq; **retirer ses lunettes** ko'zoynagini olib qo'ymoq; **3.** chiqarib, tortib olmoq; **elle retira son fils du collège** u o'g'lini kollejdan chiqarib oldi; **retirer une casserole du feu** kastrulkani o'tdan olmoq; **4.** olmoq; **retirer de l'argent de la banque** bankdan pul olmoq; **retirer une valise de la consigne** chamadonni omonatxonadan olmoq; **5.** tortmoq, tortib olmoq; **retire tes doigts!** barmoqlaringni tort! **6.** qaytarib olmoq; **retirer sa candidature, une plainte** o'z nomzodini, da'vosini qaytarib olmoq; **je retire ce que j'ai dit** men aytganlarimni qaytarib olaman; **7.** o'zi uchun chiqarib olmoq, ega bo'lmoq; **retirer une bénéfice d'une affaire** biror ishdan foyda chiqarib olmoq; **je n'en ai retiré que des désagréments** bular menga faqat ko'ngilsizlik keltirdi; **II. se retirer** *vpr* **1.** ketish, chiqib ketish, o'zini olish; **il est temps de se retirer** ketish payti bo'ldi, ketish kerak; **2.** qaytmoq, asl holiga qaytmoq (*suyuqlik, gaz*); **la mer se retire** dengiz qaytyapti.

**retombée** *nf* **1. retombées radioactives** radioaktiv yomg'ir; **2.** oqibat, natija; **les retombées imprévisibles d'une découverte scientifique** ilmiy kashfiyotning kutilmagan oqibatlari.

**retomber** *vi* **1.** qayta yiqilmoq; **elle se releva, mais retomba aussitôt** u qayta turdi, lekin shu zohotiyoq qayta yiqildi; **le chat est retombé sur ses pattes** mushuk oyog'i bilan tushdi; **2.** qayta tushib qolmoq; **elle est retombée malade** u qayta kasal bo'lib qoldi; **retomber dans l'erreur** noto'g'ri yo'lga kirib qolmoq; **3.** qaytib tushmoq, tushmoq; **la fusée est retombée** raketa qaytib tushdi; **laisser tomber les bras** qo'llarini tushirmoq; **4.** osilib tushmoq, osilib turmoq; **ses cheveux retombent sur les épaules** sochlari yelkasiga tushadi; **5.** biror holatga tushib qolmoq; **renomber dans l'oubli** unutilmoq; **l'intérêt ne doit pas retomber** qiziqish tushib ketmasligi kerak; **6. (sur qqn)** yuklatilmoq, tushmoq; **c'est sur lui que retombent toutes les responsabilités** butun javobgarlik aynan uning zimmasiga yuklatiladi.

**retordre** *vt* **1.** yigirmoq; **2. donner du fil à retordre** tashvish tug'dirmoq, tashvish orttirmoq, og'ir muammoni qo'ymoq.

**rétorquer** *vt* **1.** *vx* e'tiroz, qarshi fikr bildirmoq, qarshi chiqmoq; **2.** asoslab javob qaytarmoq, bermoq; **on m'a rétorqué que je n'avait pas à me mêler de cette affaire** mening bu ishga aralashmasligim kerakligini asoslab javob berishdi.

**retors, orse** *adj* makkor, ayyor, mug'ombir; **des manières, des manœuvres retorses** makkorona, mug'ombirona qiliq, yo'l.

**rétortion** *nf* o'z dalilini o'ziga qarshi qaratish.

**retouche** *nf* **1.** retush, retushlash (*tush, bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini tuzatish*); **2.** qayta qilish, qayta tuzatish, qayta moslash, to'g'rilash, to'g'ri keltirish, bo'yash, jilo berish; **faire une retouche à une robe** ko'ylakni qayta tuzatish.

**retoucher** *vt* tuzatmoq, o'zgartirish kiritmoq; **il a retouché son tableau, son texte** u rasmiga, matniga o'zgartirish kiritdi, jilo, sayqal berdi.

**retour** *nm* **1.** qaytish, qaytib ketish; **il faut songer au retour** qaytib ketish haqida o'ylash kerak; **sans esprit de retour** qaytib ketishni xayoliga ham keltirmay; **être sur le chemin de retour** qaytish harakatida bo'lmoq; **l'aller**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**et le retour** borish-kelish; **prendre un (billet d') aller et retour** borish-kelishga bilet olmoq; **2.** qaytib kelish, qaytish; **depuis son retour, le ne l'ai plus vu** u qaytib kelgandan buyon, men uni boshqa ko'rmadim; *loc* **à mon retour** mening qaytib kelishimda; **au retour de** qaytib kelganda, qaytganda; **je vous verai à mon retour de vacances** men sizga ta'tildan qaytganimda uchrayman; **à son retour du service militaire** harbiy xizmatdan qaytganda; **être de retour** qaytib kelgan bo'lmoq; **quand il fut de retour chez lui** u uyiga qaytib kelganda; **retour de** (*biror joydan*) qaytgandan so'ng; **retour d'Amérique, j'ai changé de situation** Amerikadan qaytgandan so'ng, men sharoitni o'zgartirdim; **par retour (du courrier)** shu zahotgi pochta orqali; **répondre par retour du courrier** xatga shu zahotiyoq javob bermoq; **3.** qaytish, orqaga harakat; **retour offensif** qayta hujum; **retour offensif du froid** sovuq havoning qaytishi; **4.** qaytib ketish, tepib yuborish; **retour de manivelle** ruchkaning qaytib ketishi, mashinaning tepib yuborishi; **match retour** qayta uchrashuv (*sport komandalari haqida*); **effet, action, choc en retour** qayta ta'sir, aks-sado, qaytish; **5.** qaytarish, egasiga qaytarib jo'natib yuborish; **retour à l'envoyeur** jo'natuvchiga qaytarib yuborish; **retour à** oldingi, avvalgi holatiga qaytish; **le retour au calme** tinchlanish; **retour aux sources** manbalarga qaytish; **être sur le retour (de l'âge)** yoshi o'tib borayotgan bo'lmoq; **retour d'âge** klimakteriy yoshi; **retour en arrière** chekinish; **faire un retour en arrière dans un récit** hikoyada chekinish qilish; **retour sur soi-même** o'tgan hayotini sarhisob qilish; *loc* **par un juste retour des chose** adolat yuzasidan; **6.** qaytish, qaytib kelish, qayta o'rnatilish; qaytalanish, davomiylik; **le retour de la belle saison** go'zal faslning qaytishi; **le retour de la paix** tinchlikning o'rnatilishi; **retour régulier, périodique** davriy, takrorlanib turadigan; *loc* **l'éternel retour des évenements, des choses** voqiylik, narsalarning abadiyligi; **faire retour à** qaytarilish; **ces biens doivent faire retour à la communauté** bu boyliklar uyushmaga qaytarilishi kerak; *loc adv* **en retour** evaziga, o'rniga; **je lui ai rendu de nombreux services, en retour il m'a promis de m'aider** men unga ko'p xizmatlar qildim, u buning evaziga menga yordam berishni va'da qildi.

**retournement** *nm* **1.** qaytish (*fikridan, niyatidan*); **2.** o'zgarish, chappasiga ketish; **retournement de la situation** sharoitning o'zgarib qolishi.

**retourner I.** *vt* **1.** to'ntarmoq, ag'darmoq; **retourner un morceau de viande sur le gril** manqalning ustida go'sht bo'lagini ag'darmoq; **retourner la terre** yerni ag'darmoq, chopmoq; **retourner la salade** salatni aralashtirmoq; *fam* **il a retourner toute la maison** u butun uyni ag'dar-to'ntar qilib yubordi (*biror narsani topish uchun*); **retourner ses poches** cho'ntaklarini ag'darmoq; **retourner un vêtement** kiyimni ag'darmoq; *fam* **retourner qqn** biror kishini fikrini o'zgartirishga majbur qilmoq; **il a su retourner la situation en sa faveur** u sharoitni o'z foydasiga ag'dara oldi; **2.** aylantirmoq, o'zgartirmoq; **on peut retourner le proverbe** maqolni aylantirib aytish mumkin; **3.** qarshi qaratmoq; **on peut retourner l'argument contre vous** dalillarni sizning o'zingizga qarshi qaratishlari mumkin; **4.** qaytarmoq, qaytarib yubormoq; **retourner une marchandise** tovarni qaytarib yubormoq; **5.** *loc* **tourner et retourner une idée dans sa tête** bir fikrni miyasida qayta-qayta takrorlamoq; **6.** qattiq ta'sir qilmoq, hayajonlantirmoq; **cette nouvelle m'a retourné** bu yangilik meni hali ham hayajonlantirmoqda; **j'en suis encore toute retournée!** men bundan hali ham hayajondaman! **II.** *vi* **1.** qaytib ketmoq, qaytmoq; **retourner chez soi** uyiga qaytmoq; **retourner à son poste, à sa place** o'z vazifasiga, o'z o'rniga qaytmoq; **demain, je retourne travailler** ertaga, men ishga qaytaman; **2.** qaytib bormoq; **je retournerai à Venise cette année** bu yil men Venetsiyaga qaytib boraman; **3.** avvalgi holatiga qaytmoq; **retourner à la vie sauvage** yovvoyi hayotga qaytmoq; **retourner à son ancien métier** o'zining eski hunariga qaytmoq; **4.** *impers* **savoir de quoi il retourne** gapni qayoqqa burayotganligini bilmoq; **III. se retourner** *vpr* **1. s'en retourner** qaytib kelmoq; **s'en retourner chez soi** uyiga qaytib kelmoq; **s'en retourner comme on est venu** qanday kelgan bo'lsa, shunday qaytib ketmoq; **2.** ag'anamoq**. il se retournait dans son lit** u uxlay olmay to'shagida ag'anar edi; **la barque s'est retournée** qayiq ag'anab ketdi; **laissez-moi le temps de me retourner** menga sharoitga moslashgani vaqt bering; **3.** o'girilmoq, burilib qaramoq; **on se retournait sur son passage** u o'tganda burilib qarashardi; **il est parti sans se retourner** u orqasiga o'girilmay ketdi; **se retourner vers qqn pour lui parler** biror kishiga gapirish uchun o'girilmoq; **4. se retourner contre** qarshi kurashmoq; qarshi, teskari bo'lib qolmoq; **son associé s'est retourné contre lui** uning sherigi unga qarshi bo'lib qoldi; **ses procédés se retourneront contre elle** bu uslublar uning o'ziga qarshi qaratiladi.

**retracer** *vt* hikoya qilib bermoq, aytib bermoq, bayon qilmoq; **raconter la vie d'un grand homme** mashhur odamning hayotinini hikoya qilib bermoq.

**rétractation** *vt* **1.** *litt* tonish, inkor qilish, bo'yniga olmaslik; **il avait fait des aveux, mais sa rétractation est complète** u tan olgan edi, lekin to'la tonyapti.

**rétracter**[1] **I.** *vt litt* tonmoq, inkor qilmoq, bo'yniga olmaslik; **rétracter des propos calomnieux** ig'vo gaplardan tonmoq; **II.** *vpr* **après ses aveux, il s'est rétracté** u tan olishlaridan keyin, inkor qildi.

**rétracter**[2] **I.** *vt* ichiga tortib olmoq, yig'ib olmoq; **l'escargot rétracte ses cornes** shilliq qurt shoxlarini ichiga tortib oladi; **II. se rétracter** *vpr* ichiga tortilmoq, qisqarmoq, taranglashmoq; **le muscle s'est rétracté** mushak qisqardi.

**rétracteur** *adj* **muscle rétracteur** qisqaruvchi mushak.

**rétractile** *adj* **1.** hayvonlarning ichiga tortiladigan tirnoqlariga nisbatan; **2.** ichiga tortiladigan, yig'iladigan; **organes rétractiles** ichga tortuvchi a'zolar.

**rétraction** *nf* ichiga tortish, qisqarish, taranglashish; **rétraction musculaire** mushaklarning qisqarishi.

**retrait** *nm* **1.** orqaga qaytish, chiqib ketish; **retrait des eaux après une inondation** toshqindan so'ng, suvning qaytishi; **le retrait des troupes d'occupation** bosqinchi harbiy qismlarning chiqib ketishi; **il annonça son retrait de la compétition** u o'zining musobaqadan chiqqanligini ma'lum qildi; *loc* **en retrait** orqada, chetda; **maison construite en retrait** yo'ldan chetda qurilgan uy; **être, rester en retrait** orqada, bir chetda turmoq, qolmoq; **2.** qaytarib olish, olib qo'yish; **retrait des bagages de la consigne** yukini saqlov xonasidan (*qaytarib*) olish; **retrait du permis de conduire** haydov guvohnomasini olib qo'yish; **faire un retrait à la banque** bankdan pul olish.

**retraite**[1] *nf* chekinish; **battre en retraite** orqaga chekinmoq; **il a prudement battu en retraite** u ehtiyotlik bilan orqaga chekindi; **retraite aux flambeaux** mash'alali tungi parad.

**retraite**[2] *nf* **1.** chetlashish, o'zini olish; **une période de retraite forcée** majburiy chetlashish davri; **2.** nafaqa, istefo, pensiya; **prendre sa retraite** istefoga chiqmoq; **être à la retraite** istefoda bo'lmoq; **avoir l'âge de la (mise à) retraite** pensiya yoshida bo'lmoq; **toucher une retraite** pensiya olmoq; **3.** uzlat.

**retraité, ée** *adj, n* istefodagi, nafaqadagi, pensiyadagi, nafaqaxo'r; **un officier retraité** istefodagi zobit; **les petits retraités** oz miqdorda nafaqa oluvchilar.

**retranchement** *nm* harbiy to'siq, g'ov; **retranchements creusés** qazilgan g'ovlar; *loc* **attaquer, forcer, poursuivre, pousser qqn dans ses derniers retranchement** biror kishini devorga qisib qo'ymoq.

**retrancher I.** *vt* **1.** qisqartirib, olib tashlamoq; **retrancher certains détails, certains passages d'un texte** matnning ba'zi tafsilotlarini, qismlarini olib tashlamoq; **2.** bo'lib olmoq; olmoq, ko'tarmoq (*bir qism*); **retrancher mille francs d'une somme** bir miqdordagi puldan ming frank olmoq; **II. se retrancher** *vpr* biror to'siq bilan himoyalanmoq, o'zini biror g'ov bilan to'sib olmoq; **nos troupes se sont retranchées derrière le fleuve** bizning harbiy qismlarimiz daryoning orqasida mustahkamlanib oldilar; **se retrancher derrière l'autorité d'un chef, derrière le secret professionnel** biror boshliqning, kasbiy maxfiylikning orqasida jon saqlamoq.

**retransmettre** *vt* olib eshittirmoq, olib ko'rsatmoq; **retransmettre un discours à la télévision** nutqni televizorda olib eshittirmoq.

**retransmission** *nf* olib ko'rsatish, olib eshittirish; **la retansmission d'un match en direct** biror o'yinni to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatmoq.

**rétréci, ie** *adj* qisqa, qisqartirilgin; toraygan, tor; **route rétrécie** toraygan yo'l; **idées rétrécies, esprit rétréci** tor fikrlar, qisqa aql.

**rétrécir I.** *vt* **1.** toraytirmoq; **rétrécir une jupe** yubkani toraytirmoq; **2. son endoctrinement lui a rétréci l'esprit** uning nasihatlari uning aqlini tor qilib qo'ydi; **II.** *vi* toraymoq, qisqarmoq; **ce tissu rétrécit au lavage** bu mato



www.ziyouz.com kutubxonasi

yuvganda kiradi; **III. se rétrécir** *vpr* torayib bormoq; **passage qui va en se rétrécissant** torayib boradigan o'tish joyi.

**rétrécissement** *nm* torayish, qisqarish; torayib, qisqarib borish; **le rétrécissement d'un vêtement** kiyimning kirishi; **le rétrécissement d'une rue** yo'lning torayishi; **souffrir d'un rétrécissement de l'aorte** shotomirning torayishidan azoblanmoq.

**rétribuer** *vt* haq to'lamoq; **travail bien, mal rétribué** yaxshi, yomon haq to'lanadigan ish; **rétribuer qqn** birovning haqini to'lamoq.

**rétribution** *nf* haq, ish haqi, maosh, oylik, mukofot.

**rétro** *adj inv* qaytarilgan eski, o'tgan; **des modes retro** qaytarilgan eski modalar; **un amateur de rétro** eskiliklarning ishqibozi.

**retro** qayta, orqaga ma'nosini bildiruvchi ilmiy qism.

**rétroactif, ive** *adj* orqaga, o'tgan narsaga ta'sir qiladigan; **effet rétroactif** qayta ta'sir.

**rétroactivité** *nf* qayta ta'sir, qayta ta'sir ko'rsatish; **la rétroactivité d'une mesure** choraning qayta ta'siri.

**rétrocéder** *vt* egasiga qaytarib bermoq; **rétrocéder un don** tortiqni qaytarib bermoq.

**rétrocession** *nf* egasiga qaytarib berish; **rétrocession d'un droit** biror huquqni bergan odamga qaytarib berish.

**rétrogradation** *nf* amal, mansab, lavozimda pasaytirish.

**rétrograde** *adj* **1.** oldingi, birinchi holiga qaytuvchi; **mouvement rétrograde** birinchi holiga qaytuvchi harakat; **2.** qoloq, jaholatparast, teskarichi, orqada qolgan, reaksion; **une politique rétrograde** reaksion siyosat; **un esprit rétrograde** jaholatparast aql.

**rétrograder**[1] *vt* amal, mansab, lavozimda pasaytirmoq; **ce haut fonctionnaire a été rétrogradé** bu yuqori mansabdor shaxs lamozimida pasaytirildi.

**rétrograder**[2] *vi* **1.** orqaga qaytmoq, chekinmoq; **les troupes ont dû rétrograder** harbiy qismlar chekinishga majbur bo'lishdi; **2.** keyinga, orqaga ketmoq, inqirozga, tanazzulga yuz tutmoq; **une civilisation menacée de rétrograder** inqirozga uchrash xavfi bo'lgan sivilizatsiya; **3.** tezlikni pasaytirmoq, kichik tezlikka o'tmoq; **rétrograde avant le virage** burulishdan oldin tezlikni pasaytir!

**rétrospectif, ive** *adj* o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilingan; o'tmishni hisobga olgan holda qilinadigan; **l'examen rétrospectif des événements** voqiyliklarni o'tmishga nazar solgan holda o'rganish.

**rétrospective** *nf* rassomning shaxsiy ko'rgazmasi; filmlar namoyishi (*biror rejissor yoki aktyorning*); **rétrospective consacrée à l'œuvre d'un peintre** rassom asarlariga bag'ishlangan shaxsiy ko'rgazma.

**rétrospectivement** *adv* orqaga, o'tmishga nazar tashlab; **je suis indigné rétrospectivement quand j'y repense** o'tmishga nazar solganimda, men bu haqda o'ylab, xafa bo'lib ketaman.

**retroussé, ée** *adj* yuqoriga ko'tarilgan, shimarilgan; **manches retroussées** shimarilgan yenglar; **nez retroussé** qanqaygan burun.

**retrousser** *vt* yuqoriga ko'tarmoq, shimarmoq; **retrousser sa robe pour marcher dans l'eau** suvda yurish uchun ko'ylagini ko'tarmoq; **retroussons nos manches!** yenglarimizni shimaraylik! (*ishlash uchun*).

**retrouvailles** *nf pl* qayta uchrashuv, bir-birini qayta topish, visol; **il nous faut fêter nos retrouvailles** biz uchrashuvimizni nishonlashimiz kerak.

**retrouver I.** *vt* **1.** qayta, boshqa topmoq, uchratmoq; **c'est une occasion que tu ne retrouveras pas** bu qulay imkoniyat, sen bunaqasini boshqa topolmaysan; **2.** qayta topmoq, qayta kashf qilmoq; **retrouver un secret de fabrication** ishlab chiqarish sirini qayta kashf qilmoq; **3.** qayta, yana bir bor uchratmoq; **gare à vous si je vous retrouve ici** men sizni yana bir bor shu yerda uchratsam, o'zingizdan ko'ring; **4.** topmoq, uchratmoq, ko'rmoq; **ce mot se retrouve dans plusieurs langues** bu so'z ko'p tillarda uchraydi; **5.** qidirib topmoq, topib olmoq; **on a retrouvé les fugitifs** qochoqlarni topib olishdi; **on l'a retrouvé à demi mort** uni yarim o'lik holda topishdi; **(choses) retrouver une voiture volée** o'g'irlangan avtomobilni topib olmoq; *loc prov* **une chienne n'y retrouverait pas ses petits, une poule n'y retrouverait pas ses poussins** hammayoq ostin-ustin, it egasini, mushuk bekasini tanimaydi; **6.** topmoq (*yo'qotilgan holat, xususiyatga nisbatan*); **retrouver le sommeil** uyqusini topmoq; **7.** oldiga bormoq, borib ko'rmoq; **j'irai les retrouver là-bas à la fin du mois** oyning oxirida men u yerga uning oldiga boraman; **(avec un atribut) elle le retrouva grandi** u uni katta bo'lib qolibdi deb hisobladi; **II. se retrouver** *vpr* **1.** qayta, yana birga bo'lmoq, uchrashib qolmoq; **tiens! comme on se retrouve!** qaraya! yana uchrashib qolibmiz! **on se retrouvera!** hali yana uchrashamiz! (*do'q-po'pisa*); **2.** yo'lini qayta topib olmoq; **3.** qayta, yana oldingi joyida bo'lib qolmoq; **il se retrouva à son point de départ** u oldingi jo'nagan joyida bo'lib qoldi; **se retrouver seul, se retrouver sans travail** yolg'iz, ishsiz qolmoq.

**rétrovirus** *nm inv* spidga asos bo'ladigan virus oilasi.

**rétroviseur** *nm* orqani ko'rsatuvchi oyna; **rértoviseur intérieur, extérieur** orqani ko'rsatuvchi ichki, tashqi oyna.

**réunification** *nf* birlashtirish, qo'shish.

**réunifier** *vt* birlashtirmoq, qo'shib yubormoq; **réunifier un parti** partiyani birlashtirmoq.

**réunion** *nf* **1.** qo'shib olish, birlashtirish; **2.** yig'ish, to'plash; **la réunion de documents** hujjatlarni yig'ish; **3.** birlashish, jipslashish; **la réunion des hommes en groupes** odamlarning guruhlarga birlashishi; **4.** majlis, yig'ilish, yig'in; **participer à une réunion** majlisda qatnashmoq; **être en réunion** majlisda bo'lmoq; **le président est en réunion, il ne peut pas vous recevoir** prezident majlisda, u sizni qabul qila olmaydi; **réunion électorale** saylov yig'ini; **réunion politique** siyosiy yig'in, miting.

**réunir I.** *vt* **1.** yig'ib qo'ymoq, to'plamoq, jamlamoq, jamg'armoq; **réunir dans une vitrine des pièces de collection** vitrinaga kolleksiya namunalarini qo'ymoq; **réunir les fonds nécessaires à une entreprise** korxonaga zaruriy fondlarni jamg'armoq; **réunir des renseignements** ma'lumot to'plamoq; **2.** mujassamlamoq, mujassam qilmoq; **il réunit en lui d'étonnants contrastes** u o'zida hayratda qoldiradigan darajadagi qarama-qarshiliklarni mujassam qilgan; **3.** yig'moq, to'plamoq, jamul-jam qilmoq; **le destin qui les avait séparés, les a à nouveau réunis** ularni to'zg'itib yuborgan taqdir, ularni yana jamul-jam qildi; **II. se réunir** *vpr* **1.** yig'ilishmoq, to'planishmoq, birlashmoq, jipslashmoq; **états qui se réunissent en une fédération** bir itifoqqa birlashishgan davlatlar; **2.** to'planmoq, yig'ilmoq; **nous nous réunissons dans cette salle** biz bu zalga yig'ilamiz; **se réunir entre amis, avec des amis** do'stlar bilan yig'ilishmoq; **l'assemblée va se réunir** assambleya yig'iladi.

**réussi, ie** *adj* muvaffaqiyatli, muvaffaqiyat bilan tugagan, o'ngidan kelgan, omadli; **une œuvre très réussie** juda muvaffaqiyatli asar.

**réussir I.** *vi* **1.** muvaffaqiyatli chiqmoq, o'ngidan kelmoq; **l'affaire a réussi** ish o'ngidan keldi; **réussir à qqn** biror kishiga yoqmoq, ma'qul bo'lmoq, yarashmoq; **le climat de ce pays vous réussit bien** bu yurtning ob-havosi sizga yoqibdi; **ce mode de vie ne vous réussit pas** bunday yashash uslubi sizga yarashmaydi; **2.** muvaffaqiyatga erishmoq, omadi chopmoq; **il est convaincu qu'il va réussir où les autrs ont échoué** u ishonadiki, boshqalarning omadi chopmagan joyda, uning omadi chopadi; **réussir à (+ infinitif)** erishmoq, qila olmoq; **il n'a pas réussi à me convaincre** u meni ishontira olmadi; **réussir à un examen** imtihonni muvaffaqiyatli topshirmoq, imtihondan muvaffaqiyatli o'tmoq, imtihondan o'tmoq; **réussir dans les affaires** ishda muvaffaqiyatga erishmoq; **II.** *vt* erishmoq, muvaffaqiyat bilan erishmoq; yaxshi chiqmoq; **il réussit tout ce qu'il entreprend** u nimaga qo'l ursa, u unga muvaffaqiyat bilan erishadi; **réussir un plat** ovqati yaxshi chiqmoq.

**réussite** *nf* **1.** muvaffaqiyat; **la réussite d'une expérience** tajribaning muvaffaqiyati; **c'est une réussite** bu muvaffaqiyat; **2.** yutuq; **il est fier de sa réussite** u o'zining yutug'idan g'ururda; **une brillante réussite** ajoyib yutuq; **3.** pasyans (*qartada fol ochishning yoki o'yin ko'rsatishning bir turi*); **faire une réussite pour se distraire** o'zini ovintirish uchun fol ochmoq.

**revaloir** *vt* qaytarmoq (*yaxshilik, yomonlik bilan*), esiga solib qo'ymoq; **je te le revaudrai** men buni bir kuni sening esingga solib qo'yaman.

**revaloriser** *vt* **1.** qadrini oshirmoq, mustahkamlamoq (*pulning, oylikning qadrini*); **2.** qiziqishni yanada oshirmoq, qiziqtirmoq; **revaloriser une doctrine, une idée** biror ta'limot, g'oyaga qiziqishni yanada oshirmoq.

**revanchard, arde** *adj, n* revanshist, qasoschi, qasos, o'ch oladigan; **politique revancharde** revanshist siyosat.

**revanche** *nf* **1.** qasos, o'ch; **prendre sa revanche** o'chini olmoq; **2.** *sport* revansh; **la première manche, la revenche et la belle** birinchi tur, revansh,



www.ziyouz.com kutubxonasi

hal qiluvchi o'yin; **3.** *loc* o'rniga o'rin evaziga, sizdan ugina-bizdan bugina; **je t'aiderai, mais à charge de revanche** men senga yordam beraman, lekin sendan ugina-bizdan bugina; **4. en revanche** lekin, shunga qaramasdan, aksincha; **il y fait froid, mais en revanche c'est très vivifiant** u yerda sovuq, shunga qaramasdan bu juda tetiklashtiruvchi; **c'est un homme agréable, en revanche sa femme est assez renfermée** bu juda yoqimtoy odam, uning xotini aksincha, juda pismiq.

**rêvasser** *vi* xom xayol surmoq; **aimer à rêvasser** xom xayol surishni yaxshi ko'rmoq.

**rêve** *nm* **1.** tush, tush ko'rish; **rêve agréable** yaxshi tush; **rêve pénible** yomon tush; *loc* **diparaître, s'évanouir comme un rêve** tushda ko'rganday; *loc* **en rêve** tushda; **2.** orzu, niyat, xayol; **caresser, poursuivre un rêve** orzuga umid qilmoq; **rêves irréalisables, fous** amalga oshirib bo'lmaydigan, ahmoqona orzular; *loc* **la femme de ses rêves** xayolidagi ayol; **le rêve et la réalitée** xayol va voqiylik.

**revêche** *adj* sho'rtumshuq, to'ng.

**réveil[1]** *nm* **1.** uyg'onish, uyqudan turish; **elle a des réveils difficiles, pénibles** uning uyqudan uyg'onishi qiyin; **au réveil** uyqudan turishda; **sonner le réveil** turishga signal chalmoq; **2.** uyg'onish, jonlanish; **le réveil des nationalismes, après la seconde gerre mondiale** ikkinchi jahon urishidan so'ng, millatchilikning jonlanishi; **le réveil de la nature** tabiatning uyg'onishi; **le réveil d'un volcan éteint** o'chgan vulqonning uyg'onishi; **3.** o'ziga kelish, xayolini yig'ish; **n'ayez pas trop d'illusions, le réveil sera pénible** xom xayolga ko'p ham berilavermang, o'zingizga kelishingiz qiyin bo'ladi.

**réveil[1]** *nm* budilnik; **mettre son réveil à sept heures** budilnigini soat yettiga qo'ymoq.

**réveiller I.** *vt* **1.** uyg'otmoq, uyqudan turg'izmoq; **vous me réveillez à six heures** siz meni soat oltida uyg'otib qo'yasiz; *prov* **il ne faut pas réveiller le chat qui dort** arining uyasiga cho'p tiqmaslik kerak; *loc fam* **un bruit à réveiller les morts** quloqni qomatga keltiradigan shovqin; **2.** qo'zg'amoq, qo'zg'atmoq, tug'dirmoq; **réveiller qqn de sa torpeur** serrayib qotib qolgan kishini o'ziga keltirmoq; **réveiller une douleur, de vieux souvenirs** azobni, eski xotirani qo'zg'atmoq; **II. se réveiller** *vpr* **1.** uyg'onmoq, uyqudan turmoq; **se réveiller en sursaut** cho'chib uyg'onmoq; **2.** o'ziga kelmoq, ko'zini ochmoq; **allons, réveille-toi!** bo'ldi, ko'zingni och! **3.** namoyon bo'lmoq, tutib qolmoq, qo'zib qolmoq; **toute leur animosité s'est réveillée** ularning bor g'azabi qo'zib qoldi.

**réveillon** *nm* yangi yil dasturxoni; yangi yil.

**réveilloner** *vi* yangi yilni kutmoq.

**révélateur, trice I.** *nm* proyavitel (*fotosuratlarni chiqarishda ishlatiladigan dori*); **II.** *adj* fosh qiladigan, oshkor qiladigan, ochib tashlaydigan; **un silence révélateur** fosh qiluvchi sukut.

**révélation** *nf* **1.** fosh qilish, ochib tashlash, oshkor qilish; **le révélation d'un secret** sirni fosh qilish; **faire des révélations à la police** politsiyaga oshkor qilmoq; **2.** bilib qolish, kashf qilish, kutilmagan yangilik; **cela a été pour moi une véritable révélation** bu mening uchun haqiqiy kashfiyot edi; **3.** kashfiyot, yangi talant; **il a été la révélation de la saison musicale** u musiqa faslining kashfiyoti edi.

**révéler I.** *vt* **1.** oshkor qilmoq, ochib tashlamoq, fosh qilmoq; **il n'a pas encore révélé ses véritables intentions** u hali ham o'zining haqiqiy niyatlarini oshkor qilgani yo'q; **la presse vient de révéler que l'accusé est (était) innocent** matbuot yaqinda sudlanuvchining aybdor emas ekanligini oshkor qildi; **vérité révélée** oshkor, ayon, fosh bo'lgan haqiqat; **2.** ko'rsatib turmoq, namoyon qilmoq, ma'lum qilmoq, ayon qilmoq; **une démarche qui révèle de bons sentiments** yaxshi tuyg'ularni namoyon qiladigan xatti-harakat; **II. se révéler** *vpr* namoyon bo'lmoq, ko'rinib, bilinib qolmoq, ma'lum bo'lmoq, ayon bo'lmoq; **son talent s'est révélé cette année** uning qobiliyati bu yil namoyon bo'ldi.

**revenant, ante** **n. 1.** arvoh; **il croyait que la maison était hantée par des revenants** u uyga arvohlar kelib turishadi deb ishonar edi; **2.** uzoq vaqt yo'q bo'lib ketgan odam; **tiens, voilà un revenant!** qaraya, mana uzoq vaqt yo'q bo'lib ketgan odam!

**revendeur, euse** **n.** olibsotar; **les revendeurs et brocanteurs des marchés aux puces** chayqov bozorining olibsotarlari va eski-tuski narsalar sotuvchilari.

**revendicatif, ive** *adj* talab qiluvchi; **mouvement revendicatif** ish tashlash harakati.

**revendication** *nf* talab; norozilik; **les revendications ouvrières** ishchilarning talablari.

**revendiquer** *vt* **1.** talab qilmoq; **revendiquer sa part d'héritage** merosdan o'z ulushini talab qilmoq; **les syndicats revendiquent une augmentation de salaire** kasabachilar oylikning oshirilishini talab qilishmoqda; **2.** o'z bo'yniga, o'z zimmasiga olmoq; **revendiquer une responsabilité** javobgarlikni o'z bo'yniga olmoq; **une organisation terroriste revendique cet attentat** bu suyiqastni bir terroristik tashkilot o'z zimmasiga olyapti; **3.** da'vo, talab qilmoq; **parti qui revendique de nombreux militants** ko'p faollari borligini da'vo qilayotgan partiya.

**revendre** *vt* **1.** sotib yubormoq, olingan narsasini; **j'ai pu revendre ma voiture** avtomobilimni sotib yuborishga erishdim; **2.** *loc* **avoir qqch à revendre** to'lib-toshib yotmoq; **il a de l'esprit à revendre** uning aqli to'lib-toshib yotibdi.

**revenir** *vi* **1.** qaytib kelmoq, kirib o'tmoq; **le docteur promit de revenir le lendemain** doktor ertasiga qaytib kelishligini va'da berdi; **je reviendrai vous voir** men sizning oldingizga kirib o'taman; **2.** qayta paydo bo'lmoq, qayta uchramoq, qaytarilmoq, qaytalamoq; **un mot qui revient souvent dans la conversation** suhbatda tez-tez qaytariladigan so'z; **voilà le mauvais temps qui revient** yomon havo yana qaytyapti; **3.** qaytmoq, qaytib kelmoq; **revenir chez soi, à la maison** uyiga qaytib kelmoq; **je reviens dans une minute** men bir daqiqadan so'ng qaytib kelaman; *loc* **revenir sur ses pas** iziga qaytmoq; **4.** oldiga, yoniga qaytmoq; **il est revenu à sa femme** u xotinining yoniga qaytdi; **5. revenir aux anciennes méthodes** eski uslublarga qaytmoq; **nous y reviendrons** biz bunga yana qaytamiz; **6.** esiga tushmoq, esiga kelmoq; **ça me revient!** esimga tushdi! **7.** eshitilmoq, yetmoq, chalinmoq; **cela lui revient aux oreilles** bu uning qulog'iga yetti; **il me revient que** mening qulog'imga chalindiki; **8.** o'ziga, hushiga kelmoq; **elle est revenue à elle après un long évanouissemet** uzoq hushdan ketishdan so'ng u o'ziga keldi; **9.** tegmoq, berilmoq, taalluqli bo'lmoq; **la propriété doit lui revenir à sa majorité** mulkning ko'p qismi unga tegishi kerak; **cet honneur vous revient** bu shon-sharaf sizga taalluqli; *impers* **c'est à lui qu'il revient de** bu uning zimmasida; **10.** yoqmoq, ma'qul bo'lmoq; **il a une tête qui ne me revient pas** uning basharasi menga yoqmayapti; **11.** teng bo'lmoq, olib kelmoq; **cela revient au même** bu o'sha narsaning o'ziga kelib taqaladi; **cela revient à dire que** bu xuddi aytilganiday, boshqacha qilib aytganda; **12.** tushmoq; **le dîner m'est revenu à trois cents euros** kechki ovqat menga uch yuz yevroga tushdi; **13.** qaytmoq, qaytib kelmoq; **les enfants reviennent de l'école** bolalar maktabdan qaytishyapti; *loc* **il revient de loin** u narigi dunyodan qaytdi, uning o'lishiga oz qoldi; **14.** o'ziga kelmoq (*biror holatdan*); **revenir de son étonnement** hayratdan o'ziga kelmoq; **n'en pas revenir** hayratdan o'ziga kelolmaslik; **il n'en revient pas** u bundan o'ziga kelolmayapti; **j'en suis bien revenu!** mening bundan juda ko'nglim qoldi! **15.** yangidan, qaytadan qaytmoq; **ne revenons pas sur le passé** o'tgan narsaga qaytmaylik; **16.** qaytmoq, qaytarib olmoq (*so'z, va'da*); **revenir sur sa décision** qaroridan qaytmoq; **faire revenir un aliment** massalliqni qovurib olmoq; **faire revenir des oignons dans une cocotte** tovada piyozni qovurib olmoq.

**revenu** *nm* daromad, foyda, kirim; **revenu d'un capital** mablag'dan keladigan daromad; **impôt sur le revenu** daromad solig'i; **revenu national** milliy daromad; *pl* **les revenus de qqn** biror kishining mablag'i, puli; **les familles consacrent une part importante de leurs revenus à se loger** oilalar o'z mablag'larining katta qismini uy ijarasi uchun sarflaydilar.

**rêvé, ée** *adj* **1.** tushdagi, tushda ko'rilgan; **une image rêvée, mais très nette** tushdagi, lekin juda aniq narsa; **2.** orzu qilingan, ko'ngildagi; **c'est un endroit rêvé pour passer des vacances tranquilles** bu sokin ta'til o'tkazish uchun orzu qilingan joy.

**rêver I.** *vi* **1.** tush ko'rmoq; **je rêve rarement** men kamdan-kam tush ko'raman; *loc* **je me demande si je rêve** tushimmi, o'ngimmi? **on croit rêver** tush ko'rayotganday; **rêver de** tushiga kirmoq; **rêver d'une personne,**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**d'une chose** biror kishi, narsa tushiga kirmoq; **il en rêve la nuit** bu uning tushlariga kirib chiqadi; **2.** xayol, o'y surmoq; **un élève qui rêve au fond de la classe** sinfning to'rida xayol surib o'tirgan o'quvchi; **rêver à** orzu qilmoq, shirin xayol surmoq; **à quoi rêvez-vous?** nima haqida xayol suryapsiz? **je rêve aux vacances** men ta'til haqida shirin xayol suryapman; **on rêve, on fait des châteaux en Espagne** orzular qanotida uchishadi; **rêver de** orzu qilmoq; **la maison dont je rêve** men orzu qilgan uy; **II.** *vt* **1.** tushida ko'rmoq; **nous avons rêvé la même chose** biz tushimizda bir xil narsani ko'ribmiz; **j'ai rêvé que je m'envolais** men tushimda uchib yurgan emishman; **2.** *litt* orzu qilmoq, niyat qilmoq; **ce n'est pas la vie que j'avais rêvée** bu men orzu qilgan hayot emas.

**réverbération** *nf* aks; **être ébloui par la réverbération du soleil sur la neige** quyoshning qordagi aksidan ko'zi qamashgan bo'lmoq.

**réverbère** *nm* ko'cha chirog'i, fonar.

**réverbérer** *vt* qaytarmoq, aks ettirmoq; **le mur blanc réverbérait la chaleur** oq devor issiqlikni qaytarar edi.

**révérence**[1] *nf* reverans, tiz bukib ta'zim qilish; *loc fam* **tirer sa révérence à qqn** ta'zim bajo qilib ketmoq, jo'nab qolmoq.

**révérence**[2] *nf litt* chuqur ta'zim, hurmat-ehtirom; **s'adresser à qqn avec révérence** biror kishiga chuqur ehtirom bilan murojaat qilmoq.

**révérend, ende** *adj* **1.** hazratlari, buzrukvor (*ota va onaga nisbatan hurmat ma'nosida*); **la révérende mère** volidai muhtarama; **2.** avliyo (*diniy daraja*).

**révérer** *vt litt* izzatlamoq, hurmat-ehtirom ko'rsatmoq, e'zozlamoq, hurmatlamoq; **révérer les saints** avliyolarni hurmatlamoq.

**rêverie** *nf* **1.** xayol; **se laisser aller à la rêverie** xayolga berilmoq; **2.** xom xayol; **ces réveries ne meneront à rien** bu xom xayollar hech qayerga olib bormaydi.

**revers** *nm inv* **1.** teskari tomoni, teskarisi, orqa tomoni, astar; **le revers de la main** qo'lning orqa tomoni; *loc* **le revers de la médaille** biror ishning teskari, yomon tomoni; **le revers d'une manche** yengning astari; *loc* **prendre à revers** orqadan, yondan hujum qilmoq; **il prit les troupes ennemies à revers** u dushman harbiy qismlariga orqadan hujum qildi; *loc fig* **écarter d'un revers de main** nazar ham solmay, chetga surib qo'ymoq; **2.** chapdan urish (*tennisda*); **3.** omadsizlik, chappasidan ketish; **revers militaires** harbiy omadsizliklar; **revers de fortune** taqdirning bevafoligi, muvaffaqiyatsizlik.

**reverser** *vt* **1.** qayta, qaytarib quymoq; **2.** *fin* o'tkazmoq, qo'ymoq; **reverser un excédent sur un compte** ortiqcha pulni biror hisobga o'tkazmoq.

**réversible** *adj* **1.** orqaga qaytarsa bo'ladigan, teskari bursa bo'ladigan; **mouvement réversible** teskari bursa bo'ladigan harakat; **l'histoire n'est pas réversible** tarix orqaga qaytmaydi; **2.** o'ngi tersi yo'q, o'ngi tersini ham kiysa bo'laveradigan; **étoffe réversible** o'ngi tersi yo'q gazmol; **manteau réversible** o'ngi tersini ham kiysa bo'laveradigan palto.

**revêtement** *nm* qoplama, jild, to'shama; **le revêtement d'une paroi, d'une route** devorning, yo'lning qoplamasi.

**revêtir** *vt* **1.** yasantirmoq, yasantirib kiyintirmoq; **la chemise blanche dont on revêtait les pénitents** gunohiga tavba qilganlarga kiydiriladigan oq ko'ylak; **elle s'est revêtue de ses plus beaux habits** u eng chiroyli kiyimlarini kiyib, yasanib olibdi; **acteur revêtu de son costume de scène** sahna kiyimidagi aktyor; **être revêtu d'un pouvoir** biror huquq berilgan bo'lmoq; **2.** bermoq, ega qilmoq, topshirmoq; **revêtir qqn d'une dignité, d'une autorité** biror kishiga mansab, huquq bermoq; **3.** ta'min etmoq, qo'ymoq, qo'shmoq, ilova qilmoq; **revêtir un dossier des signatures prévues par la loi** hujjatlarni qonunda belgilangan qo'llar bilan ta'minlamoq; **4.** qoplamoq, bezamoq; **canapé revêtu de velours grenat** yoqut rangli duxoba qoplangan divan; **coupole revêtue de mosaïques** koshinkor gumbaz; **5.** kiyib olmoq; **revêtir l'uniforme** forma kiyib olmoq; **6.** ko'rinish olmoq, tus olmoq; **le conflit revêtait un caractère dangereux** janjal xavfli tus olar edi.

**rêveur, euse** *adj, n* xayolparast; **un enfant rêveur et distrait** xayolparast va parishonxotir bola; *loc* **cela me laisse rêveur** bu meni o'yga soldi.

**revient** *nm inv* **pris de revient** tannarx.

**revigorer** *vt* mustahkamlamoq, kuchaytirmoq, sog'aytirmoq, tetiklashtirmoq; **cette bonne douche m'a revigoré** bu yaxshi dush meni tetiklashtirdi.

**revirement** *nm* burilish, keskin o'zgarish; **un revirement d'opunion** fikrning keskin o'zgarishi; **les revirements d'un homme politique** siyosatchidagi keskin o'zgarishlar.

**réviser** *vt* **1.** qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; **réviser un traité, la constitution** bitimni, konstitutsiyani qayta ko'rib chiqmoq; **réviser sa leçon** uy vazifasini qaytarib chiqmoq, takrorlamoq; **2.** tuzatmoq, ko'rib chiqmoq; **réviser un moteur** motorni ko'rib chiqmoq.

**réviseur, euse** *n* **1.** revizor, tekshiruvchi; **2.** korrektor; **réviseur de traductions** tarjima korrektori.

**révision** *nf* **1.** qayta ko'rib chiqish; **préparer une révision de la constitution** konstitutsiyani qayta ko'rib chiqishga tayyorlamoq; **la révision d'un procès** sud ishni qayta ko'rib chiqish; **2.** tekshirish, ko'rib chiqish; **révision des listes électorale** saylov ro'yxatlarini tekshirib chiqish; **3.** nazoratdan o'tkazish; **procéder à la révision d'un véhicule** transport vositasini nazoratdan o'tkazishga kirishmoq; **4.** yana bir bor qaytarib chiqish (*imtihonga, yozma ishga tayyorlanish uchun*); **faire des révisions** o'tilgan programmani yana bir bor qaytarib chiqish.

**révisionnisme** *nm* revizionizm.

**révisionniste I.** *adj* revizionistlikka oid, revizionistlik; **les communistes orthodoxes les traitent de révisionnistes** e'tiqodli kommunistlar uni revizionistlikda ayblashyabdi; **II.** *n* revizionist.

**revisiter** *vt* boshqacha, o'zgacha, yangicha talqin qilmoq.

**revivre I.** *vi* **1.** qayta tirilmoq, qayta yashamoq; **il revit dans son fils** u o'g'lida qayta namoyon bo'ldi; **2.** jonlanmoq, tiklanmoq, hayotga qaytmoq, tirilmoq; **je commence à revivre depuis que j'ai reçu de ses nouvelles** men undan xabar topganimdan buyon, menga jon kirdi; **3. faire revivre** qayta jon baxsh etmoq, tiklamoq, qayta tiriltirmoq; **il a fait revivre la révolution française dans son livre, dans son film** u Fransiya revolutsiyasiga o'z asarida, filmida qayta jon baxsh etdi; **II.** *vt* qayta yashamoq, qayta o'z boshidan kechirmoq; **je ne veux pas revivre cette épreuve** bu sinovni yana bir bor boshimdan kechirishni xohlamayman.

**révocation** *nf* bekor qilish; qisqartirish, ishdan bo'shatish, lavozimidan ozod qilish; **la révocation de l'édit de Nantes** Nant qarorini bekor qilish; **la révocation d'un fonctionnaire** xizmatchini ishdan bo'shatish.

**revoir I.** *vt* **1.** qayta ko'rmoq, qayta uchratmoq; **je l'ai souvent revu depuis** men uni shundan beri tez-tez ko'rib turdim; **au plaisir de vous revoir** siz bilan qayta uchrashguncha! (*biror kishi bilan xayrlashuvda*); **au revoir** xayr; **dire au revoir** xayrlashmoq; **ce n'est qu'un au revoir et non un adieu** bu xayr xolos, alvido emas; **2.** qaytib ko'rmoq, qaytib kelmoq; **l'exilé n'a jamais revu sa patrie** surgun qilingan o'z vatanini boshqa qayta ko'rmadi; **3.** qayta borib ko'rmoq; **un film qu'on aimerait revoir** qayta borib ko'rsak, degan film; **4.** xayolan qayta ko'rmoq; **je revois les lieux de mon enfance** men yoshligimdagi joylarni xayolan qayta ko'raman; **5.** qayta ko'rib chiqmoq; **revoir un texte de près** biror matinni qaytadan yaxshilab ko'rib chiqmoq; **édition revue et corrigée** qayta ko'rib chiqilgan va tuzatilgan bosma; **6.** qayta takrorlab chiqmoq; **j'ai revu tout le programme** men butun programmani qayta ko'rib chiqdim; **II. se revoir** *vpr* qayta ko'rishmoq, uchrashmoq; **ils ne se sont jamais revus** ular hech qachon qayta uchrashmadilar.

**révoltant** *adj* kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan; g'azabni keltiradigan, yaramas, xunuk, uyatli; **une injustice révoltante** kishini g'azablantiradigan adolatsizlik; **des abus révoltants** xunuk suiiste'mol.

**révolte** *nm* qo'zg'olon, isyon, g'alayon, bosh ko'tarish; **une révolte de paysans** dehqonlar qo'zg'oloni; **inciter, pousser qqn à la révolte** biror kishini bosh ko'tarishga majbur qilmoq.

**révolté, ée** *adj* **1.** qo'zg'olonchi, isyonkor, g'alayonchi, bosh ko'targan; **des soldats révoltés** isyonchi askarlar; **adolescent révolté contre la société** jamiyatga qarshi bosh ko'targan o'smir; *n* **c'est un révolté** bu isyonchi; **2.** g'azablangan, g'azabnok, jahli chiqqan, achchiqlangan; **vous me voyez révolté!** g'azabim qaynab ketyapti!



www.ziyouz.com kutubxonasi

**révolter I.** *vt* g'azablantirmoq, g'azabini keltirmoq, qo'zg'atmoq, achchiqlantirmoq; **ces procédés me révoltent** bu qiliqlar mening g'azabimni keltiryapti; **II. se révolter** *vpr* isyon, qo'zg'olon, g'alayon, bosh ko'tarmoq, ko'tarilmoq; **le peuple s'est révolté contre le dictateur** xalq diktatorga qarshi isyon ko'tardi; **enfant qui se révolte contre ses parents** ota-onasiga qarshi bosh ko'targan bola; **toute sa nature se révoltait** butun borlig'i g'alayon qilardi.

**révolu, ue** *adj* bo'lib o'tgan, nihoyasiga yetgan, tugagan; **à l'âge de 18 ans révolus** 18 yosha to'lganda; **une époque révolue** o'tgan davr.

**révolution**[1] *nf* **1.** aylanish; **les révolutions de la terre** yerning aylanishi; **2.** o'z o'qi atrofida aylanish.

**révolution**[2] *nf* **1.** tubdan o'zgarish, tubdan o'zgartirish, revolutsiya; **une révolution morale, artistique** ma'naviy, artistik revolutsiya; **la révolution culturelle** madaniy revolutsiya; **2.** revolutsiya, inqilob; **la révolution française** Fransiya revolutsiyasi; **la victoire de la révolution sur la réaction** revolutsiyaning reaksiya ustidan g'alabasi.

**révolutionnaire I.** *adj* **1.** revolutsion, inqilobiy; **mouvement, parti révolutionnaire** revolutsion harakat, partiya; **les chants révolutionnaires** inqilobiy qo'shiqlar; **2.** tubdan o'zgartiruvchi, revolutsioner; **une théorie, une technique révolutionnaire** tubdan o'zgartiruvchi nazariya, texnika; **II.** *n* revolutsioner, inqilobchi; **les révolutionnaires ont pris le pouvoir** revolutsiyachilar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar.

**révolutionner** *vt* jumbushga keltirmoq, ostin-ustin qilmoq; **cette nouvelle a révolutionné le quartier** bu yangilik mavzeni jumbushga keltirdi; **2.** tub o'zgarish yasamoq, tubdan o'zgartirib yubormoq; **l'invention de la machine à vapeur a révolutionné l'industrie** bug' mashinasining o'ylab topilishi sanoatda tub o'zgarish yasadi.

**revolver** *nm* revolver, to'pponcha.

**révoquer** *vt* **1.** ishdan bo'shatmoq, lavozimidan tushirmoq; **2.** bekor qilmoq; **révoquer un testament** vasiyatnomani bekor qilmoq.

**revue**[1] *nf* **1.** ko'zdan kechirish, ko'rib chiqish, nazoratdan o'tkazish; **faire la revue de son matériel de camping** kemping jihozlarini ko'zdan kechirib chiqmoq; **la revue de la presse, une revue de presse** matbuot obzori; **2.** ko'rik, parad; **la revue du 14 juillet** 14 iyul paradi; **passer en revue** ko'rikdan o'tkazmoq; **le général passa le régiment en revue** general polkni ko'rikdan o'tkazdi; **passer en revue** ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; **nous avons passé en revue les divers problèmes** biz turli masalalarni ko'rib chiqdik; **3.** kundalik umumiy mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi.

**revue**[2] *nf* jurnal; **revue littéraire, scientifique** adabiy, ilmiy jurnal; **s'abonner à une revue** jurnalga obuna bo'lmoq.

**révulsé, ée** *adj* **yeux révulsés** baqraygan, chaqchaygan, olaygan ko'z; **visage révulsé** burishgan, tirishgan yuz.

**révulser** *vt* **1.** hayajonlantirmoq, qattiq ta'sir qilmoq; **ça me révulse** bu meni hayajonlantiryapti! **2.** tirishmoq, burishmoq (*yuz*), chaqchaymoq, baqraymoq, olaymoq (*ko'z*); **visage qui se révulse** burishgan yuz.

**rez-de-chaussée** *nm inv* birinchi qavat; **il habite au rez-de-chaussée** u birinchi qavatda yashaydi.

**rhabiller I.** *vt* qayta kiyintirmoq; **rhabiller un enfant** bolani qayta kiyintirmoq; **II. se rhabiller** *vpr* qayta kiyinmoq; **les baigneurs se rhabillaient** cho'miluvchilar qayta kiyinishardi.

**rhapsode** *nm* qadimgi Gretsiyada sayyor ashulachi.

**rhapsodie** *nm* rapsodiya; **les rhapsodies hongroises de Liszt** Litsning venger rapsodiyasi.

**rhéostat** *nm* reostat (*tok kuchlanishini rostlab, tartibga solib turadigan apparat*).

**rhésus** *nm inv* **1.** rezus (*maymunning bir turi*); **2.** rezus (*qondagi modda*).

**rhéteur** *nm* notiq; *péj* gapdon, mahmadona.

**rhétoricien, ienne** *n.* ritorika mutaxasisi.

**rhétorique** *nf* **1.** ritorika; qadimgi ritorika risolalari; **2.** *péj* dabdabali nutq.

**rhinocéros** *nm inv* karkidon.

**rhubarbe** *nf* ravoch; **confiture de rhubarbe** ravoch murobbosi.

**rhum** *nm* rom.

**rhumatisant, ante** *adj* bod, revmatizm bilan kasallangan; **viellard rhumatisant** revmatizm bilan kasallangan qariya.

**rhumatismal, ale, aux** *adj* bodga, revmatizmga oid, revmatik; **douleurs rhumatismales** revmatik og'riq.

**rhumatisme** *nm* bod, revmatizm.

**rhumatologie** *nf* revmatologiya.

**rhumatologue** *n.* revmatolog.

**rhume** *nm* tumov; **rhume de cerveau** tumov; **avoir, attraper un rhume, un gros rhume** tumov bo'lib qolmoq, qattiq tumov bo'lib qolmoq; **son rhume le fait éternuer** tumovi uni aksirtiryapti.

**riant, riante** *adj.* **1.** kulayotgan, xursand, xushchaqchaq; **visage riant** kulib turgan yuz, chehra; **2.** ko'zni quvontiradigan; **une campagne riante** ko'zni quvontiradigan qishloq.

**ribambelle** *nf* silsila, turnaqator; **une ribambelle d'enfants** turnaqator bolalar.

**ricaner** *vi* **1.** istehzoli, miyig'ida kulib qo'ymoq; iljaymoq; **l'individu me regarda d'un air féroce et se mit à ricaner** bu nusxa menga vahshiyona qaradi va miyig'ida kulishga tushdi; **2.** irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, hiringlamoq; **pour toute réponse, il se contenta de ricaner** javob o'rniga, u tirjayish bilan chegaralanar edi.

**richard, arde** *n fam péj* puldor, serpul, hamyoni katta; **un gros richard** katta puldor.

**riche I.** *adj* **1.** boy, badavlat, davlatmand, farovon; **ce sont des gens très riches** bular juda davlatmand odamlar; **faire un riche mariage** boy odam bilan turmush qurmoq; **les pays riches, industrialisés et les pays pauvres, en voie de développement** boy, industirlashtirilgan va kambag'al, rivojlanayotgan mamlakatlar; **2.** boy, hashamdor, hashamatli; to'kis; **de riches tapis** hashamdor gilam; **3. riche en** -ga boy, ko'p; **un aliment riche en vitamines** darmondoriga boy oziq-ovqat; **riche de** ko'p, to'la; **un livre riche d'enseignements** o'gitlarga boy kitob; **4.** mo'l, mo'l-ko'l, serob; boy; **un sol, une terre riche** serhosil yer; **langue riche** boy til; **une riche idée** ma'noga to'la fikr; **II.** *nm* boy, badavlat, davlatmand; *péj* **gosse de riche(s)** boyvachcha, boyning bolasi.

**richement** *adv* **1.** boyona, boy, to'q, to'kis, farovon, bekamu ko'st; **il a marié richement ses filles** u qizlarini boyona turmushga chiqardi; **2.** hasham bilan, boyona, boy; **richement vêtu** po'rim kiyingan.

**richesse** *nf* **1.** boylik, mol-mulk, dunyo, davlat; farovonlik; **vivre dans la richesse** farovonlikda yashamoq; **richesse en** -ga boylik, ko'plik; **la richesse de ce pays en pétrole** bu mamlakatning neftga boyligi; **2.** hashamat; hashamdorlik, hashamatlilik, boylik; **la richesse des tentures, du décor** jildning, bezakning boyligi; **3.** boylik, pul, bisot; **accumuler les richesses** bisot to'plamoq; **les richesses d'un musée** muzeyning bisoti; **la répartition des richesses** boylikni taqsimlash; **4.** boylik, rang-baranglik, seroblik, mo'llik, ko'plik; **les richesses d'un style architectural** arxitektura uslubining rang-barangligi.

**richissime** *adj.* o'ta boy.

**ricocher** *vi* sapchimoq, urilib qaytmoq; **la balle a dû ricocher sur le mur** to'p devorga urilib qaytdi.

**ricochet** *nm* sapchish, sakrash; **ramasser des cailloux pour faire des ricochets** suvda sakratish uchun tosh yig'ish; **par ricochet** sakrab-sakrab, sapchib-sapchib; bilvosita.

**ride** *nf* **1.** ajin, tirish; **visage sillonné de rides** chuqur ajinlar tushgan yuz; **2.** jimirlash, mavj urish, mavj.

**rideau** *nm* **1.** parda; **rideau de fenêtre** deraza pardasi; **fermer, ouvrir, écarter, tirer les rideaux** pardalarni yopmoq, ochmoq, tortib qo'ymoq; **rideau de fer** temir parda; *loc* **tirer le rideau sur qqch** biror narsa bilan shug'ullanmay, u haqda gapirmay qo'ymoq; bosdi-bosdi qilib yubormoq; **2.** teatr pardasi; **lever, baisser le rideau** pardani ko'tarmoq, tushirmoq.

**rider** *vt* **1.** ajin bostirmoq, so'litmoq; **2.** mavjlantirmoq, to'lqinlantirmoq; **la brise ridait l'eau, la surface du lac** shamol suvni, ko'lning yuzini mavjlantirar edi.

**ridicule I.** *adj* **1.** kulgili, bema'ni, beo'xshov; **une personne ridicule** kulgili odam; **cette mode est ridicule** bu moda beo'xshov; **un accoutrement ridicule** beo'xshov ust-bosh; **il serait ridicule de laisser passer une**



www.ziyouz.com kutubxonasi

**pareille occasion, qu'il ne saisisse pas l'occasion** shunday imkoniyatni o'tkazib yuborib, undan foydalanib qolmaslik bema'nilik bo'lar edi; **2.** kulgili, arzimas; **une somme, une quantité ridicule** arzimas summa, miqdor; **II.** *nm* **1.** kimnidir kulgi qilmoq; kalaka, masxara qilmoq; **2.** kulgi; **montrer les ridicules de qqn** kimningdir kulgili tomonlarini ochib tashlamoq; **se donner le ridicule de discuter sans rien savoir** hech narsani bilmay turib, tortishib kulgi bo'lmoq; **c'est le comble du ridicule** bu uni kulgiga qo'yadi; **avoir la peur du ridicule** kulgidan, kulgi bo'lishdan qo'rqmoq; *prov* **le ridicule tue** oriyat o'limdan qattiq.

**ridiculement** *adv* kulgili, bema'ni, beo'xshov, kulgili darajada; **être ridiculement accoutré** beo'xshov yasangan bo'lmoq; **salaire ridiculement bas** kulgili darajada past maosh.

**ridiculiser** *vt* kulgi qilmoq, ustidan kulmoq; kalaka, masxara qilmoq.

**rien I.** *pron idéf* **1.** hech narsa, hech nima; **il fut incapable de rien dire** u hech narsa deyishga qodir bo'lmadi; **a-t-on jamais rien vu de pareil** hech qachon bunday narsa ko'rilganmi? **2.** hech nima, hech narsa; **je n'ai rien vu** men hech narsa ko'rmadim; **je n'y comprends rien** bu yerda men hech narsa tushunmayman; **il n'y a rien à craindre** qo'rqadigan narsa yo'q; **il ne comprend rien de rien** u hech baloni tushunmaydi **cela ne fait rien** hechqisi yo'q, hech narsa qilmaydi; **ça ne sert à rien** buning hojati, foydasi yo'q; **ils ne s'entendent sur rien** ular hech narsaga kelishisha olmayapti; **rien que** faqatgina, -dan boshqa; **je n'ai rien que mon salaire** mening maoshdan boshqa hech narsam yo'q; **il n'y a de plus facile** bundan ko'ra osonroq narsa yo'q; **je n'ai rien trouvé qui vaille la peine** men biror arziguday narsa topmadim; **il n'y a rien que tu puisses faire** sen qilguday narsa yo'q; **n'avoir rien de** biror xususiyatga ega bo'lmaslik; **cela n'a rien d'impossible** bu ilojsiz narsa emas, buning iloji bor; **rien ne motive son absence** uning yo'qligini hech narsa oqlay olmaydi; **n'être rien** hech narsa, kim bo'lmaslik; **n'être rien en comparaison de qqn** u uning oldida hech kim emas; **elle n'est rien pour moi** u mening uchun hech kim emas; **ce n'est rien** bu hech narsa emas; **ce n'est pas rien** bu arzimas narsa emas; **il n'en est rien** bu umuman to'g'ri emas; *litt* **rien moins (que)** hech, sira, mutlaqo, aslo, butunlay …emas; **ce n'est rien moins que sûr** bu mutlaqo aniq emas; *loc adv* **en rien** hech narsadan; **sans gêner en rien son action** o'zining xatti-harakatida hech narsadan uyalmay; **ne … en rien** hech qanday, umuman; **cela ne nous touche en rien** buning bizga hech qanday daxli yo'q; **4.** hech narsa; **à quoi penses-tu? – à rien** nima haqida o'ylayapsan? – hech narsa haqida; **rien d'étonnant si l'affaire a raté, que l'affaire ait raté** agar ish yurishmagan bo'lsa, buning hech qanday hayratlanarli joyi yo'q; **rien à faire** iloji yo'q; **rien à faire pour faire démarrer ce moteur** bu matorni yurgizib yuborishning iloji yo'q; **je vous remercie – de rien** men sizdan minnatdorman – arzimaydi; **ce que nous faisons ou rien, c'est la même chose** biz qilsak ham, qilmasak ham bari bir; **rien de plus, rien de moins** ko'p ham emas, oz ham emas (*aynan*); **c'est mieux que rien** bu yo'qdan ko'ra harna; **c'est moins que rien** bu umuman hech narsa emas; **en moins de rien** hash-pash deguncha; **rien que** faqat, faqatgina; **c'est à moi, rien qu'à moi** bu faqat menga, faqatgina menga qarashli; **5.** narsa yoki miqdorning umuman yo'qligi; **se réduire à rien** yo'qqacha yetib bormoq; **pour rien** arzimagan, yo'q narsa uchun; **se déranger pour rien** yo'q narsa uchun bezovta bo'lmoq; **ce n'est pas pour rien que** besabab emaski; **je l'ai eu pour rien** men buni tekinga oldim; **c'est pour rien** bu arzimagan pulga; **de rien, de rien du tout** arzimas; **c'est deux, trois fois rien** arzimas narsa; *loc* **comme si de rien n'était** go'yoki hech narsa bo'lmaganday; **II.** *nm* **1.** arzimas narsa; **un rien l'amuse** arzimas narsa uni xursand qiladi; **au plur. perdre son temps à des riens** arzimagan narsalarga o'z vaqtini yo'qotmoq; **il se fait de la bile pour un rien** u arzimagan narsaga achchiqlanyapti; *fam* **comme un rien** hech gap emasday, osongina; **il saute 1,50 m comme un rien** u bir yarim metrdan osongina sakraydi; **2. un rien de** ozgina; **en reprenez-vous? – un rien** bundan ichasizmi? – ozgina; **en un rien de temps** ko'z ochib yumguncha; **un rien** *loc adv* ozgina, salgina; **c'est un rien trop grand** bu salgina kattaroq; **3.** *n inv* **un, une rien du tout** bir pulga qimmat odam; **ce sont des rien du tout** bular bir pulga qimmat odamlar; **III.** *adv fam* juda, o'ta; **c'est rien chouette ici!** bu yer juda zo'r ekan!

**rieur, rieuse I.** *n* kuluvchi, kulayotgan odam; *loc* **avoir, mettre les rieurs de son côté, avec soi** raqibini kulgili holatga solib qo'ymoq; **II.** *adj* kuladigan, kulgini yaxshi ko'radigan, kulib turadigan; **un enfant rieur** kulgini yaxshi ko'radigan bola; **yeux rieurs** kulib turadigan ko'zlar.

**rigide** *adj* **1.** tarang, qattiq, bukilmas; **armature rigide** tarang armatura; **livre à couvert rigide** qattiq muqavali kitob; **2.** sabotli, matonatli, bukilmas, ashaddiy, qat'iyatli, qaytmas, chekinmas; **un moraliste rigide** ashaddiy nasihatgo'y.

**rigidité** *nf* taranglik, qattiqlik, buklanmaslik, qotib qolganlik; **rigidité d'un papier** qog'ozning tarangligi; **rigidité des principes** qonunning qotib qolganligi.

**rigole** *nf* ariq, ariqcha; **la pluie forme une rigole** yomg'ir ariqcha hosil qilyapti.

**rigolade** *nf fam* hazil-mutoyiba, o'yin-kulgi, xursandchilik; **prendre qqch à la rigolade** biror narsani hazilga burmoq; **c'est une vaste rigolade** bu qattiq hazil.

**rigoler** *vi fam* xursandchilik, o'yin-kulgi, hazil-mutoyiba qilmoq; **on a bien rigolé** juda yaxshi xursandchilik qilishdi; **il ne faut pas rigoler avec ça** bu bilan o'ynashib bo'lmaydi.

**rigolo, ote I.** *adj* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat; **elle est rigolote** u alomat qiz; **II.** *n fam* qiziqchi, hazilkash.

**rigorisme** *nm* rigorizm (*axloqiy prinsiplarga, qoidalarga juda ham qattiq amal qilish, yopishib olish*).

**rigoriste** *n, adj* rigorist, rigorizm muhlisi; **attitude rigoriste** rigoristik qarash.

**rigouresement** *adv* qat'iyan, qat'iy, qattiq; **il est rigoureusement interdit de fumer** chekish qat'iyan taqiqlanadi; **2.** katta aniqlik bilan, juda aniq, to'ppa-to'g'ri, qat'iy; **c'est rigouresement exact** bu juda ham aniq; **il a respecté rigouresement les consignes** u qonun-qoidalarga qat'iy amal qildi.

**rigoureux, euse** *adj* **1.** qattiq, jiddiy; **une morale rigoureuse** qattiq axloq; **2.** qattiq, chidash qiyin; **un hiver rigoureux** qattiq qish; **3.** qattiq, mustahkam, qat'iy, aniq; **observation rigoureuse des consignes** qonun-qoidalarga qat'iy amal; **une rigoureuse neutralité** qat'iy neytralitet; **un raisonnement rigoureux** aniq xulosa; **être rigoureux dans une démonstration** bir asosda qat'iy turmoq.

**rigueur** *nf* **1.** qattiqlik, shafqatsizlik, og'irlik; **la rigueur de la répression** jazo chorasining og'irligi; **punir avec trop de rigueur** o'ta shafqatsizlik bilan jazolamoq; *loc* **tenir rigueur à qqn** birovga qattiq gina saqlamoq; *pl litt* **les rigueurs de l'hiver** qishning qattiqligi; **2.** aniqlik, to'pa-to'g'rilik, qat'iylik; **la rigueur d'un raisonnement** xulosaning aniqligi; **son exposé manque de rigueur** uning ma'ruzasida aniqlik yetishmaydi; **3. de rigueur** majburiy, zaruriy; **tenue de soirée de rigueur** bayram libosi majburiy; **4. à la rigueur** *loc adv* boshqa iloji topilmay qolganda; juda bo'lmaydigan bo'lsa, juda bo'lmasa; **on peut à la rigueur se passer de lui** juda bo'lmaydigan bo'lsa, usiz bir ilojini qilamiz.

**rillettes** *nf* mayda chopilib, yog'da qovurilgan go'sht.

**rime** *nm* **1.** qofiya; **rime féminine, masculine** oxirida tallafuz qilinadigan yoki qilinmaydigan e harfi bilan tugaydigan qofiya; **2. sans rime ni raison** hech qanday ma'nosiz; **ça n'a ni rime ni raison** buning hech qanday ma'nosi yo'q.

**rimé, ée** *adj* qofiyalangan.

**rimer I.** *vi* **1.** she'r yozmoq; **2.** qafiyalamoq, qofiya tuzmoq; *loc* **cela ne rime à rien** buning hech qanday ma'nosi yo'q; **II.** *vt* she'rga solmoq; **rimer une chanson** ashulani she'rga solmoq.

**rimeur, euse** *n.* qobiliyatsiz shoir.

**rimmel** *nm* kipriklarga surtiladigan bo'yoq, tush.

**rinçage** *nm* yuvish, chayqash, chayish; **le rinçage des verres** stakanlarni yuvish, chayish.

**rincer** *vt* **1.** idishni yuvmoq; **rincer des verres, des bouteilles** stakanlarni, shisha idishlarni yuvmoq; **2.** chayqamoq, chaymoq (*yuvilgan narsalarni*); **rincer du linge** kirni chayqamoq; **elle s'est rincé la bouche après s'être lavé les dents** u tishlarini yuvgandan so'ng, og'zini chaydi.

**rinçure** *nf* mag'zava, yuvundi.

**ring** *nm* ring; **monter sur le ring** ringga chiqmoq.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**ripaille** *nf fam* maishat, bazm, aysh-ishrat, ichkilikbozlik; **faire ripaille** maishat qilmoq.

**riper I.** *vt* surmoq, sirg'altirmoq; **riper la caisse** qutini surmoq; **II.** *vi* sirg'almoq, surilmoq; **l'outil a ripé** asbob sirg'alib ketdi; **faire riper une pierre** toshni surmoq.

**ripolin** *nm* emal bo'yoq.

**ripoliner** *vt* emal bo'yoq bilan qoplamoq.

**riposte** *nf* **1.** shu zahotiyoq berilgan javob; **être prompt à la riposte** hozirjavob bo'lmoq; **2.** qarshi zarba, qat'iy qarshilik; **une riposte foudroyante** qaqshatqich qarshi zarba.

**riposter** *vi* **1.** shu zahotiyoq javob qaytarmoq, o'rnida javobini bermoq; **il riposta qu'il n'en savait rien** u shu zahotiyoq bu haqda hech narsa bilmasligini aytib, javob qaytardi; **2.** qarshi zarba bermoq, javob bermoq; **riposter à coup de grenade** granata bilan javob bermoq.

**rire**[1] **I.** *vi* **1.** kulmoq; **se mettre à rire** kula boshlamoq; **rire aux éclats, à gorge déployée, aux larmes** qah-qah otib, xoxolab, ko'zidan yosh chiqquncha kulmoq; **rire comme une baleine, comme un bossu** dumalab, qah-qah otib kulmoq; **avoir toujours le mot pour rire** qiziqchi odam bo'lmoq; **il m'a bien fait rire** u meni juda kuldirdi; **avoir envie de rire** kulgisi qistamoq; **éclater, pouffer, se tordre de rire** xoxolab yubormoq, kulgidan ichagi uzilmoq, dumalab kulmoq; **c'est à mourie de rire** kulaverib o'lasan; **pleurer de rire** kulgidan yig'lamoq; **rire de** biror sababdan kulmoq; **nous avons bien ri de ces plaisanteries** biz bu hazillardan rossa kuldik; **il n'y a pas de quoi rire** buning kuladigan joyi yo'q; **2.** xursand bo'lmoq, kulmoq; *loc prov* **rira bien qui rira le dernier** oldin kulgan keyin qizarar; **elle ne pense qu'à rire** unga kulgi bo'lsa bas; **3.** kulmoq, hazillashmoq, o'ynashmoq; **vous voulez rire?** siz hazillashyapsizmi? **sans rire, est-ce que...?** behazil, … shundaymi? **4. rire de** kulgi, masxara, mazax qilmoq, mayna qilmoq, ustidan kulmoq; **faire rire de soi** o'zini kulgiga qo'ymoq; **vous me faites rire** siz mening kulgimni qistatyapsiz; **5.** *litt* kulib turmoq; **avoir les yeux qui rient** kulib turadigan ko'zlari bo'lmoq; **II. se rire** *vpr litt* **(de)** e'tibor, ahamiyat bermaslik, e'tiborsizlik bilan qaramoq; **elle s'est ri des difficultés** u qiyinchiliklarga e'tibor bermadi.

**rire**[2] *nm* kulgi, kulish; **un rire bruyant** qattiq kulgi; **un gros rire** qahqaha; **un rire bête** ahmaqona kulgi; **un rire moqueur** masxaraomiz kulgi; **avoir le fou rire** o'zini kulgidan to'xtata olmaslik; xoxolab, qahqaha otib kulib yubormoq; **un éclat de rire** gulduros kulgi, qahqaha; **rire nerveux, forcé, méchant** asabiy, zo'raki, istehzoli kulgi; **déclancher, attirer les rires** kulgini keltirmoq, qistatmoq.

**risée** *nf* kulgi, masxara; **être un objet de risée** kulgi bo'lmoq; **s'exposer à la risée du public** hammaning kulgisiga qolmoq; **être la risée de tous** hammaga kulgi bo'lmoq.

**risette** *nf* jilmayish, iljayish, tabassum (*ko'pincha bolalar haqida*); *pl fam* **faire des risettes et des courbettes aux gens** odamlarga iljayish va ikki bukilib ta'zim qilish.

**risible** *adj* kulgili; kulgini keltiradigan, qistatadigan; **il est risible** kulgili; **attitude risible** kulgini qistatadigan qiliq.

**risque** *nm* **1.** xavf, xavf-xatar, tahlika; **une entreprise pleine de risque** xavf-xatarga to'la ish; **c'est un risque à courir** bu o'zini xavf-xatarga qo'yish; *loc* **à vos risques et périls** tavakkaliga, tavakkal qilib; **rique de** xavfi; **un risque d'agravation** yomonlashish xavfi; **au risque de** xavf-xatarga qo'yib; **au risque de se tuer, il sauta dans le vide** o'zining jonini xatarga qo'yib, u o'zini tubsizlikka tashladi; *loc adj* **à risque** xavfli; **une grossesse à risques** xavfli semizlik; **à hauts risques** juda xavfli; **les risques d'incendie** yong'in xavfi; **assurance tous risques** turli ko'ngilsizliklardan sug'irta; **2.** tavakkal; **avoir le goût du risque** tavakkal qilishni yaxshi ko'rmoq; **prendre un, des risques** tavakkal qilmoq.

**risqué, ée** *adj* xavfli, xatarli, xavf-xatarga to'la; **démarche risquée** xavfli xatti-harakat; **cest trop risqué** bu juda ham xavfli; **plaisanteries risquées** o'rinsiz hazillar.

**risquer I.** *vt* xavf-xatarga qo'ymoq, tahlikaga solmoq; **risquer sa vie** o'z hayotini xavf-xatarga qo'ymoq; *loc* **risquer le paquet, le tout pour le tout** bor-yo'g'ini tikmoq; **risquer une somme considérable dans une affaire** biror ishga katta pul tikmoq; **risquer de l'argent à la roulette** ruletkaga pul tikmoq; *prov* **qui ne risque rien n'a rien** o'ychi o'yiga yetguncha, tavakkalchi uyiga yetibdi; **risquer gros** katta tikmoq; **2.** tavakkal qilmoq, qo'l urib ko'rmoq; **je veux bien risquer une démarche en ce sens** bu sohada men bir ishga qo'l urib ko'rmoqchiman; **3.** xavfi bo'lmoq, mumkin; **tu risque de tomber** sen yiqilib ketishing mumkin; **il risque de perdre son emploi** uning o'z ishini yo'qotib qo'yish xavfi bor; **le rôti risque de brûler** qovurma kuyib ketishi mumkin; **tu risque qu'il te voie** u seni ko'rib qolishi mumkin; **II. se risquer** *vpr* **1.** o'zini xavfga, xavf-xatarga qo'ymoq; **je ne me risquerai pas dans cette affaire** men bu ishda o'zimni xavfga qo'yolmayman; **2. (à qqch)** jur'at qilmoq, botinmoq; **je ne me risquerai pas à le contredire** men unga qarshi gapirishga botinolmayman; **je ne m'y risquerai pas** men bunga jur'at etolmayman.

**risque-tout** *n inv* qaytmas, taptortmas, o't-olov, dovyurak, baloyi azim; **c'est une risque-tout** bu bir baloyi azim.

**rissole** *nf* pirojka.

**rissoler** *vt* qizartirib qovurmoq.

**ristourne** *nf* narxni tushiribroq, kamaytiribroq, arzonroq qilib berish; **faire une ristourne à qqn** biror kishiga tushiribroq berish.

**ristourner** *vt* tushiribroq, kamaytiribroq, arzonroq qilib bermoq; bir qismini qaytarib bermoq.

**rite** *nm* **1.** marosim, rasm-rusum, udum; **rites secrets pratiqués chez certains peuples** ba'zi bir xalqlar tomonidan o'tkaziladigan maxfiy marosimlar; **rites funèbres** dafn marosimlari; **rites destinés à assurer le succès de la récolte** hosilning mo'l bo'lishi uchun mo'ljallangan rasm-rusum; **2.** odat, taomil; **les rites de la politesse** odab taomili; **c'est devenu un rite** bu odatga aylanib qoldi.

**rituel, elle I.** *adj* diniy marosimga, marosimga, rasm-rusumga, udumga oid; **chants rituels** rasm-rusumda aytiladigan ashulalar; **il faisait sa promenade rituelle** u odatiy sayrini qilar edi; **II.** *nm* **1.** trebnik (*pravaslavlarda treba ibodatiga oid oyatlar va qoidalar yozilgan kitob*); **2.** urf-odatlar, udumlar, rasm-rusumlar; **selon rituel** urf-odatga ko'ra.

**rituellement** *adv* **1.** urf-odatga, rasm-rusumga binoan; **animal abattu rituellement** urf-odatga binoan so'yilgan hayvon; **2.** o'zgarmas, doimiy.

**rivage** *nm* qirg'oq, sohil, suv bo'yi; **s'éloigner du rivage** qirg'oqdan uzoqlashmoq; **épaves rejetées sur le rivage** sohilga chiqarib tashlangan kema parchalari.

**rival, ale, aux I.** *n* **1.** raqib, raqobat qiluvchi; **il a évincé tous ses rivaux** u hamma raqiblarini siqib chiqardi; **2.** raqib, bahslasha oladigan, tenglasha oladigan odam; **n'avoir pas de rival en qqch** biror sohada tenglashadigan odami bo'lmaslik; **sans rival** tengi yo'q; **II.** *adj* raqobatdagi, raqobat qiluvchi; **nations rivales** raqobatdagi millatlar.

**rivaliser** *vi* raqobatda bo'lmoq, raqobat qilmoq, bahslashmoq, o'tib ketishga harakat qilmoq, kam bo'lmaslik; **il rivalise avec son frère** u akasidan o'tishga harakat qiladi; **rivaliser (avec qqn) d'élégance, de générosité** orastalikda, olijanoblikda biror kishidan kam bo'lmaslik.

**rivalité** *nf* raqobat, raqiblik, kurash, bahslashish, musobaqa; kundoshlik; **rivalité politique** siyosiy raqobat; **rivalité amoureuse** kundoshlik; **des rivalités d'intérêts** manfaatlar raqobati.

**rive** *nf* **1.** qirg'oq, sohil; **la rive droite et la rive gauche d'un fleuve, d'une rivière** daryoning o'ng, so'l qirg'og'i; **habiter rive gauche** chap qirg'oqda yashamoq; **2.** suv bo'yi, qirg'oq; **la maison est sur la rive du lac, près de la rive** uy ko'lning bo'yida, suv bo'yida.

**river** *vt* **1.** parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq; **river un clou, une pointe** mixni, biror uchli narsani parchinlamoq; *loc* **river son clou à qqn;** og'ziga urmoq, ovozini o'chirmoq, gapirtirmay qo'ymoq; **2.** parchinlab (*mixparchin bilan*) biriktirmoq, ulamoq, mahkamlamoq; **river deux plaques de tôle** taxtatunikani parchinlab biriktirmoq; **4.** bog'lab ulamoq, biriktirmoq; **on rivait les forçats à des chaînes** surgun qilinganlarni zanjirband qilishar edi; **5.** mahkam bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; **il est, il reste rivé à son travail** u o'z ishiga mahkam bog'lanib qolgan; **le regard rivé sur un objet** ko'zlari bir narsaga mixlanib qolgan.

**riverain, aine** *n.* **1.** suv bo'yida, yoqasida yashovchi odam; **2.** uy-joyi, yer-mulki yo'l yoqasida bo'lgan odam.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**rivet** *nm* mixparchin, chega; **assemblage, fixation par rivets** mixparchin bilan ulash, mahkamlash.

**riveter** *vt* mixparchin bilan bog'lash, mahkamlash.

**rivière** *nf* **1.** daryo (*boshqa bir daryoga quyiluvchi*); **cette rivière est l'affluent d'un fleuve** bu daryo boshqa bir daryoning irmog'i; **rivière navigable** kema qatnaydigan daryo; **poissons de rivière** daryo baliqlari; **2.** *sport* suv to'sig'i; **3.** daryo, oqim; **des rivières de sang** qon daryolari; **4. rivière de diamants** brilliant marjon.

**rixe** *nf* ur-yiqit, mushtlashish.

**riz** *nm inv* **1.** sholi; **chapeau en paille de riz** sholi poyasidan qilingan shlapa; **2.** guruch; **riz au lait** shirguruch; **gâteau de riz** guruchli pirojnoye.

**rizière** *nf* sholipoya.

**robe** *nf* **1.** ayollar ko'ylagi; **une robe longue, courte** uzun, qisqa ko'ylak; **robe de lainage, de soie** jundan, ipakdan qilingan ko'ylak; **robe de bale** balga kiyiladigan ko'ylak; **robe de mariée** kelinlik ko'ylagi; **2.** yosh bolalarning ko'ylagi; **la robe de baptême d'un bébé** chaqaloqning cho'qintirish ko'ylagi; **3.** libos, ust-bosh; **robe de magistrat, d'avocat** magistirlik, advokatlik libosi; **robe de chambre** uy kiyimi; **pommes de terre en robe de chambre** po'sti bilan pishirilgan kartoshka; **4.** rang, tus (*hayvonlarda*); **la robe d'une panthère** qoplonning rangi, tusi, terisi.

**robinet** *nm* jo'mrak, chumak; **robinet d'eau froide, d'eau chaude** sovuq, issiq suv jo'mragi; **robinet à gaz** gaz jo'mragi; **ouvrir, fermer un robinet** jo'mrakni ochmoq, yopmoq; *fam* **c'est un vrai robinet** u juda ham laqma.

**robot** *nm* **1.** robot; **avion-robot** uchuvchisiz samolyot; **2. portrait robot** robot-portret; **3.** odamsimon robotlar; **le personnage du robot dans les films d'enticipation** ilmiy-fantastik filmlardagi robot personaji; **4.** robot, avtomat odam.

**robotique** *nf* robotlashtirish; **introduire l'informatique et la robotique dans une usine** zavodga infarmatika va robotlashtirishni kiritish.

**robotiser** *vt* **1.** robotlashtirmoq; **chaîne de montage robotisée** robotlashtirilgan yig'uv tizimi; **2.** robotga aylantirmoq (*biror kishini*).

**robuste** *adj* **1.** baquvvat, kuchli, sog'lom, tetik, chidamli; **un homme robuste** baquvvat odam; **avoir une santé robuste** sog'lom bo'lmoq; **plante robuste** baquvvat o'simlik; **2.** kuchli, baquvvat (*narsa*); **un moteur robuste** baquvvat motor; **avoir une foi robuste** kuchli e'tiqodga ega bo'lmoq.

**roc** *nm* **1.** *litt* qoya; *loc* **un homme dur, ferme comme un roc** qoyaday mustahkam odam; **solide comme un roc** qoyaday mustahkam; **2.** qoyatosh, xarsang; **corniche taillée dans le roc** xarsangtoshlarni yo'nib ishlangan yo'l.

**rocade** *nf* rokada (*parallel yo'nalishda ketgan aloqa yo'li*).

**rocaille** *nf* **1.** toshloq; **2.** tosh, g'avak tosh, maydalangan tosh; **fontaine en rocaille** tosh fontan.

**rocailleux, euse** *adj* **1.** toshloq, tosh; shag'alli; **chemin rocailleux** tosh yo'l; **2.** dag'al, g'aliz; **un style rocailleux** g'aliz usul; **une voix rocailleuse** dag'al ovoz.

**rocambolesque** *adj* g'ayrioddi, ajib, g'alati; **aventures rocambolesques** g'ayrioddiy sarguzashtlar.

**roche** *nf* **1.** *litt* qoya; **des éboulis de roches** tog' jinsining parchasi; **2.** xarsang tosh (*qurilishda ishlatiladigan*); **un morceau un quartier de roche** xarsang tosh bo'lagi, palaxsasi; *loc* **eau de roche** zilol chashma suvi; **c'est clair comme de l'eau de roche** bu quyoshday ravshan; **3.** tog' jinsi; **étude des roches** tog' jinslarini o'rganish; **les roches de l'écorce terrestre** yer qobig'ining jinslari; **roches sédimentaires, volcaniques** cho'kindi, vulqon jinslari.

**rocher** *nm* **1.** qoyatosh, xarsangtosh; **les rochers de la forêt de Fontainbleau** Fontenblo o'rmonining xarsang toshlari; **2.** tik qoya; **à flanc de rocher** qoyaning yonbag'rida; **3.** *anat* chakka suyagining qattiq qismi.

**rocheux, euse** *adj* **1.** qoyali; **côte rocheuse** qoyali qirg'oq; **2.** toshli; **un fond rocheux** toshli tub.

**rock** *ou* **rock and roll** *nm* rok-n-roll.

**rocking-chair** *nm* tebranma kursi.

**rococo** *inv* **I.** *nm* rokoko uslubi; **le rococo a succédé au baroque** rokoko uslubi barokko uslubidan keyin keldi; **l'art rococo** rokoko san'ati; **II.** *adj* urfdan qolgan, eskirgan, kulgiliyroq.

**rodage** *nm* chiniqtirish, obkatka qilish; **voiture en rodage** obkatka qilinayotgan avtomobil.

**roder** *vt* **1.** chiniqtirmoq, obkatka qilmoq; **il n'a pas fini de roder sa voiture** u avtomobilini obkatka qilishni tugatmadi; **2.** *fam* meyoriga yetkazmoq, tugatmoq; **encore quelques jours pour roder le spectacle** spektaklni meyoriga yetkazish uchun yana bir necha kun kerak; **être rodé** qodir bo'lmoq (*biror ishni qilishga*), qo'lidan kelmoq, xabari bor bo'lmoq.

**rôder** *vi* **1.** o'ralashib, aylanishib, izg'ib yurmoq (*shubhali*); **voyou qui rôde dans une rue** ko'chada izg'ib yurgan firibgar; **2.** daydib, sandiroqlab, tentirab, yurmoq; darbadarlik qilmoq.

**rôdeur, euse** *n.* daydi, darbadar, betayin; **crime de rôdeur** daydining jinoyati.

**rodomontade** *nf* maqtanish, maqtanchoqlik, katta og'izlik, lof urish.

**rogatoire** *adj* **commission rogatoire** bir sud tashkilotining ikkinchi bir sud tashkilotining zimmasiga yuklashi.

**rogaton** *nm pl* sarqit, qolgan ovqat.

**rogner** *vt* **1.** qirg'oqlarini qirqmoq, qirqib tekislamoq; **le relieur a rogné les feuillets** muqovachi qog'ozlaning qirg'og'ini qirqib tekisladi; **rogner les griffes à un chat** mushukning tirnoqlarini qirqib tekislamoq; **2.** qisqartirmoq, kesmoq; **l'état va encore rogner leurs maigres bénéfices** hukumat ularning shunday ham kam daromadini yana qisqartirmoqchi; **3. rogner sur qqch** kesib tashlamoq, qisqartirmoq, kamaytirmoq; **rogner sur un budget** budjetni kesib tashlamoq.

**rognure** *nf* **1.** qiyqim, qiyqindi, qirqindi, rezgi; **des rognures de cuir** rezgi, qiyqindi charm; **2.** arzimas narsa, qiyqim.

**rognon** *nm* iste'mol uchun mo'ljallangan hayvon buyragi; **des rognons de mouton, de porc** qo'y, cho'chqa buyraklari.

**rogue** *adj litt* dimog'dor, kekkaygan, kalondimog', takabbur, takabburona; **un ton rogue** takabburona ohang.

**roi** *nm* **1.** qirol, podsho; **les rois et les reine** qirollar va qirolichalar; **les rois mages** sehrgar, jodugar, afsungar; **travailler pour le roi de prusse** tekinga ishlamoq; **2.** podsho, eng oldingi odam, do'kay; **l'homme a été appelé le roi de la création** odam mavjudotlarning podshosi deb tayinlangan edi; **les rois du pétrole** neft qirollari; **3.** shoh, podsho, zo'r; **le roi des animaux** hayvonlarning podshosi; *fam* **c'est le roi des imbéciles** bu ahmoqlarning ahmog'i; **4.** shoh (*shahmat*); **5.** korol (*qarta o'yinida*); **roi de carreau** g'ishtin korol.

**rôle** *nm* **1.** rol; **rôle tragique, comique** tragik, komik rol; **jouer, interpréter un rôle** rol o'ynamoq, ijro etmoq; **avoir le premier rôle** bosh rolni o'ynamoq; *loc adv* **à tour de rôle** navbat bilan, navbatma-navbat; **vous entrez à tour de rôle** sizlar navbat bilan kirasizlar; **ils veillaient le malade à tour de rôle** ular kasalga navbatma-navbat qarashardi; **2.** rol o'ynamoq, ahamiyatga ega bo'lmoq; **tenir son rôle** o'z rolini yaxshi bajarmoq; **3.** tutgan o'rin, ahamiyat, xizmat, vazifa, rol; **avoir, jouer un rôle important dans une affaire** biror ishda muhim o'rinni egallamoq, muhim rolni bajarmoq; **un rôle de premier plan** birinchi darajali vazifa; **le rôle du médecin de famille** oila vrachi vazifasi; **c'est, ce n'est pas mon rôle de** qilish mening vazifam emas; **le rôle du verbe dans la phrase** fe'lning gapdagi vazifasi; **4.** *dr* ko'rilishi kerak bo'lgan ishlar ro'yxati; ro'yxat; **être inscrit au rôle de la conscription** harbiyga chaqiruv ro'yxatiga kiritilgan bo'lmoq.

**romain, aine** **I.** *adj* qadimiy Rimga oid, Rim; **l'empire romain** Rim imperiyasi; **chiffre ronain** rim raqami; **II.** *n* **1.** rimliklar; *loc* **un travail de romain** mushkul ish; **2.** *nm* tik bosma harf; **imprimer un texte en romain** matnni tik bosma harflar bilan bosmoq.

**roman**[1] *nm* **1.** roman; **les nouvelles sont plus brèves que les romans** novellalar romonga nisbatan qisqaroq; **roman d'amour, d'aventurs** sevgi haqidagi, sarguzasht roman; **roman policier** detektiv roman; **roman fantastique, d'anticipation** fantastik, ilmiy-fantastik roman; **roman-fleuve** ko'p jildli roman; *loc* **cela n'arrive que dans les romans** bu faqat romanlardagina bo'ladi; **c'est tout un roman** bu butun boshli bir roman; **2.** romanchilik; **Balzac, créateur du roman réaliste** Balzak realistik romanchilikning asoschisidir; **le nouveau roman** yangi romanchilik; **les romans de chevalerie** G'arbiy Yevropada O'rta asrlarda ritsarlarning ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarini tasvirlaydigan adabiy asar.



www.ziyouz.com kutubxonasi

**roman[2], ane** *adj* **1.** roman; **la langue romane ou le roman** roman tili; **les langues romanes** roman tillari; **2.** roman (*uslub*).

**romance** *nf* romans.

**romancer** *vt* romanlashtirmoq, badiiylashtirmoq.

**romancier, ière** *n.* roman muallifi, romanchi.

**romanesque** *adj* **1.** romantik, xayolparast; **une passion romanesque** romantik ehtiros; **une personne romanesque** xayolparast shaxs; **2.** *litt* romantizmga oid; romantizm; **le récit romanesque** romantizmga oid hikoya.

**romanichel, elle** *n péj* ko'chmanchi lo'li.

**romantique** *adj* **1.** romantik, romantizmga oid; **la poésie romantique** romantik she'riyat; **2.** romantik; **un paysage, une beauté romantique** romantik manzara, chiroy; **3.** romantik, xayolparast, xayolparastlik, xayoliy; **une âme romantique** xayolparast qalb; **une histoire romantique** xayoliy voqea.

**romantisme** *nm* **1.** romantizm (*adabiyot va san'at oqimi*); **2.** xayolparastlik, borliqni ideallashtirish kayfiyati; **le romantisme de l'adolescence** o'smirlikning xayolparastliligi.

**rompre I.** *vt* **1.** *litt* sindirmoq, parchalamoq, uzmoq; **rompre le pain** nonni sindirmoq, ushatmoq; **les esclaves ont rompu leurs chaînes** qullar o'z kishanlarini parchalab tashladilar; **2.** buzmoq, buzib yubormoq; **la mer a rompu les digues** dengiz to'g'onlarni buzib yubordi; **3.** tarqalmoq, qatordan chiqmoq; **rompre les rangs** qatordan chiqmoq; **rompez!** tarqaling! **4.** buzmoq, to'xtatmoq, uzmoq; **rompre le jeûne** ro'zani buzmoq; **rompre le silence** tinchlikni buzmoq; **rompre l'équilibre** muvozanatni buzmoq; **rompre un charme** sehr-joduni yechmoq; **le charme est rompu** tilsim ochildi; **rompre les relations diplomatiques** diplomatik aloqalarni uzmoq; **rompre un traité, un marché** bitimni buzmoq; **rompre des fiançailles** nikohni buzmoq; **5. rompre qqn à un exercice** biror kishini biror kasbi-korga o'rgatmoq, ko'niktirmoq; **II.** *vi* **1.** *litt* uzilmoq; **la corde a rompu** arqon uzilib ketdi; **2.** aloqani uzmoq, aloqa qilmay qo'ymoq, orani ochiq qilmoq; **ils ont rompu** ular o'zaro aloqani uzishdi; **rompre avec qqch** biror narsaga amal qilmay qo'ymoq; **rompre avec des traditions** an'analarga amal qilmay qo'ymoq; **III. se rompre** *vpr litt* sinmoq, uzilmoq, parchalanmoq; **les attaches se sont rompues** bog'lab turgan narsalar uzilib ketdi.

**rompu, ue** *adj* **1.** holdan toygan, o'ta charchagan; **être rompu de fatigue** charchoqdan holdan toygan; **2.** *litt* **rompu à** usta, mohir; ustasi farang; **3.** *loc* **à bâtons rompus** telva-teskari, tartibsiz.

**ronce** *nf* **1.** maymunjon, parmanchak; **un buisson de ronces** maymunjonzor; **2.** tikanli shox, tikanli buta; **s'égratigner en passant dans des ronces** tikanli butazordan o'tayotib o'zini tirnab olmoq; **3.** butoq, daraxtning butoqli joyi; **meuble en ronce de noyer** daraxtning butoqli joyidan qilingan mebel.

**ronceraie** *nf* tashlandiq, butazor yer.

**ronchonnement** *nm* ming'irlash, ming'ir-ming'ir qilish, javrash, vaysash.

**ronchonner** *vi fam* ming'irlamoq, ming'ir-ming'ir qilmoq, javramoq, vaysamoq; **il est toujours en train de ronchonner** u doim ming'ir-ming'ir qilgani qilgan.

**rond, ronde I.** *adj* **1.** yumaloq, dumaloq, to'garak; **la terre est ronde** yer yumaloq; **une table ronde** yumaloq stol; **le balon rond** yumaloq to'p; **des yeux ronds** olaygan ko'zlar; **2.** bukilgan, bukchaygan, bukri; **tuiles rondes** bukilgan cherepitsa; **avoir le dos rond** beli bukri bo'lmoq; **3.** dum-dumaloq, lo'ppi, po'mpoq, do'mboq; **des joues rondes** lo'ppi yuzlar; **un petit bonhomme tout rond** do'mboqqina yigitcha; **4.** yaxlit, qoldiqsiz; roppa-rosa; **ça fait sept cents francs en chifres ronds** bu roppa-rosa yetti yuz frank bo'ladi; **5.** qatiyatli, aytganini qiladigan; **un homme rond en affaires** ishda qatiyatli odam; **6.** *fam* mast, kayf, kayfi taroq; **il était complètement rond** u g'irt mast edi; **II.** *adv* **tourner rond** bir maromda, birtekis ishlamoq, aylanmoq; **moteur qui tourne rond** bir maromda ishlayotgan motor; **ça ne tourne pas rond** bu birtekis ishlamayapti; **III.** *nm* **1.** doira, aylana; **tracer un rond** doira chizmoq; **faire des ronds dans l'eau** suvda doira yasamoq; doira; *loc adv* **en rond** aylana bo'lib; doira, aylana yasab; **s'asseoir en rond autour d'une table** stol atrofida doira bo'lib o'tirmoq; *loc* **tourner en rond** yurishmaslik, ilgari bosmaslik; **2.** chambarak, dumaloq narsa; **rond de serviette** sochiqlar solinadigan chambarak; **3.** dumaloq kesim; **quelques ronds de saucisson** bir necha bo'lak kolbasa; **4.** *fam* pul, aqcha, chaqa; **il n'a pas un rond** uning chaqasi ham yo'q.

**rond-de-cuir** *nm péj* byurokrat, qog'ozboz.

**ronde** *nf* **1.** *loc* **à la ronde** tevarak-atrofda, gir atrofda; davra bo'ylab, navbatma-navbat; **à dix lieues à la ronde** o'n chaqirim tevarak-atrofda; **servir à la ronde** davra bo'ylab xizmat qilmoq; **2.** ko'rib, aylanib, nazorat qilib chiqish; **faire une ronde** aylanib ko'rib chiqmoq; **la ronde d'un gardien de nuit** mirshobning kechki nazorati; **3.** doira bo'lib, ashula aytib o'yinga tushish, xorovod; **entrer dans la ronde** xorovodga qo'shilish; **ronde enfantine** bolalar xorovodi; **4.** yumaloq harf, yumaloq shrift.

**rondeau** *nm* rondo (*she'rning ayrim misralari ma'lum tartibda takrorlanadigan bir turi*); **les rondeaux de Charles d'Orléans** orleanlik Sharlga bag'ishlangan rondolar.

**rondelet, ette** *adj* dumaloqqina, semizgina, do'mboqqina, do'ndiqqina; **une femme rondelette** do'ndiqqina ayol; **une somme rondelette** kattagina pul, talaygina pul.

**rondelle** *nf* **1.** prokladka, qistirma, shayba; **rondelle en caoutchouc** rezina shayba; **2.** pallacha, tilimcha; **une rondelle de saucisson** bir palla kalbasa; **couper des carottes en rondelles** sabzini pallacha qilib kesmoq.

**rondement** *adv* **1.** epchillik bilan, chaqqon, epchil, tez, darrov; **une affaire rondement menée** epchillik bilan yuritilgan ish; **2.** qisqa, aniq, lo'nda, dangal, tikkasiga, ochiqchasiga, tortinmay; **parler rondement** dangal gapirmoq.

**rondeur** *nf* **1.** semizlik, to'lalik, po'mpoqlik, do'mboqlik; **la rondeur des bras** qo'llarning to'laligi; **2.** ochiqlik, tortinmaslik, dangallik, to'g'rilik; **il m'a répondu avec rondeur** u menga tortinmay javob berdi.

**rondin** *nm* **1.** g'o'la (*o'tin*); **2.** xoda; **une cabane en rondins** xodadan qilingan chayla.

**rondo** *nm mus* rondo (*asosiy tema ko'p marta takrorlanadigan musiqa asari*); **des rondos de Mozart** Motsartning rondolari.

**rondouillard, arde** *adj fam kinoya.* baqaloq, po'rdoq, semiz.

**Rond-point** *nm* aylana maydon, katta chorraha.

**ronéo** *nf* rotator (*qo'l yozma, hujjat, chizmalarni ko'paytiradigan maxsus apparat*).

**ronéotyper** *vt* rotatorda ko'paytirmoq.

**ronflant, ante** *adj fam* balandparvoz, dabdabali, hashamatli; **phrases ronflantes** balandparvoz gaplar; **titre ronflant** dabdabali unvon.

**ronflement** *nm* xurrak otish, xurrak; **des ronflements sonores** qattiq xurraklar; **2.** guvillash, vishillash, vashillash, pishillash; **le ronflement sourd du feu dans la cheminée** o'choqda olovning bo'g'iq guvillashi; **le ronflement du moteur** motorning guvillashi.

**ronfler** *vi* xurrak otmoq; guvillamoq, vishillamoq, vashillamoq, pishillamoq; **le poêle commence à ronfler** pechka guvillay boshladi.

**ronger** *vt* **1.** g'ajimoq, mujimoq, kemirmoq; **souris qui ronge du pain** nonni kemirayotgan sichqon; **le chien rongeait un os** it suyakni g'ajir edi; **se ronger les ongles** tirnoqlarini kemirmoq; **vers qui rongent le bois** yog'ochni kemirayotgan qurtlar; **être rongé par, de** tomonidan g'ajilgan, kemirilgan bo'lmoq; **le chevale rongeait son frein, son mors** ot sulug'ini chaynar edi; *loc* **ronger son frein** sabrsizlik qilmoq, depsinib turmoq; **2.** yemirmoq, kemirmoq, sekin asta buzmoq; **la rouille ronge le fer** zang temirni yemiradi; **cette pensée me ronge** bu fikr meni kemiryapti (*menga azob beryapti*); **le chagrin, le remord le ronge** g'am, tashvish uni azoblayapti; *fam* **se ronger (les sangs)** ich-etini yemoq.

**rongeur, euse I.** *adj* kemiruvchi; **II.** *nm pl* kemiruvchilar.

**ronron** *nm* **1.** *fam* guvillash, shovqin; **le ronron d'un moteur** motorning guvillashi; **2.** xurillash, xur-xur qilish; **faire ronron** xurillamoq (*mushukka nisbatan*); **le ronron de la vie quotidienne** turmushning kundalik ikir-chikirlari.

**ronronnement** *nm voir* **ronron**.

**ronronner** *vi* xurillamoq, xur-xur qilmoq; **le chat ronronne quand on le caresse** mushukni silaganda, u xur-xur qiladi.

**roquefort** *nm* rokfor (*pishloqning bir turi*).

**roquer** *vi* rokirovka qilmoq (*shahmat*).



www.ziyouz.com kutubxonasi

**roquette** *nf* raketa, reaktiv snaryad; **roquette antichar** tankka qarshi otiladigan raketa; **tube lence-roquettes** raketa otadigan moslama (*bazuka*).

**rosacées** *nf pl bot* atirguldoshlar.

**rosaire** *nm* **1.** tasbeh; **2.** ibodat, duo; **dire, réciter son rosaire** duosini o'qimoq, ibodatini qilmoq (*tasbeh o'girib*).

**rosâtre** *adj* qizg'ish.

**rosbif** *nm* rostbif (*molning biqin go'shtidan qilingan qovurma*).

**rose[1]** *nf* **1.** atirgul, qizilgul; **des roses rouges, blanches** qizil, oq atirgullar; **bouton de rose** atirgul g'unchasi; **rose sauvage** namatak, itburun; *loc* **être frais, fraîche comme une rose** gulday yashnab turgan bo'lmoq; **pas de roses sans épines** gul tikonsiz bo'lmas; **2. rose trémière** gulxayri; **3. rose des vents** muayan bir joyda esuvchi shamollar yo'nalishini ko'rsatadigan sxema yoki tasvir.

**rose[2] I.** *adj* **1.** pushti, och qizil, qizg'ish; **un robe rose** pushti ko'ylak; **son visage devenait tout rose** yuzi qip-qizil bo'lib ketgandi; *loc* **ce n'est pas rose** bu oson ish emas; **2.** qizil; **la vague rose** qizil to'lqin; **II.** *nm* pushti, och qizil, qizg'ish rang; **être habillé de rose** pushti rang kiyim kiygan bo'lmoq; **traditionnellement le rose est pour les filles, le bleu pour les garsons** an'ana bo'yicha pushti rang qizlar uchun, havo rang o'g'il bolalar uchun; **une écharpe d'un rose vif, pâle** ochiq, bo'g'iq pushti rangli sharf; **voir la vie en rose, voir tout en rose** olam ko'ziga guliston bo'lib ko'rinmoq.

**rosé, ée** *adj* och qizil, qizg'ish; *nm* **le rosé** qizg'ish vino.

**roseau** *nm* qamish; **des roseaux au bord d'un étang** hovuz bo'yidagi qamishlar.

**rosée** *nf* shudring, shabnam; **herbe humide de rosée** shudringdan nam o'tlar.

**roséole** *nf* rozeola; **roséole épidémique** qizilcha (*bolalar kasalligi*).

**roseraie** *nf* atirgulzor, gulzor.

**rosette** *nf* rozetka (*orden o'rnida taqib yuriladigan lenta, bant*).

**roseval, ale** *nf* pushti rang kartoshka.

**rosier** *nm* atirgul tupi; **rosier sauvage** namatak tupi; **les rosiers d'une roseraie** atirgulzorning atirgullari.

**rosière** *nf* solihaligi uchun atirgul chambaragini olgan qiz; **ce n'est pas une rosière** bu soliha qiz emas.

**rosir I.** *vi* qizarmoq; **son visage rosit de plaisir** uning yuzi xursanchilikdan qizardi; **II.** *vt* qizartirmoq; **le froid rosit les joues** sovuq yonoqlarni qizartirdi.

**rosse[1]** *nf vx* qirchang'i, dirdov ot.

**rosse[2] I.** *nf* zahar, battol odam; **ah! les rosses!** ha! battollar! **II.** *adj* qattiq, adolatsiz; **vous avez été rosse avec lui** siz unga qattiq muomala qildingiz.

**rossée** *nf fam* kaltak; **flanquer, recevoir une rossée** kaltaklamoq, kaltak yemoq.

**rosser** *vt* kaltaklamoq; **se faire rosser** kaltaklanmoq.

**rosserie** *nf* zahar, achchiq so'z; yovuzlik.

**rossignol[1]** *nm* bulbul.

**rossignol[2]** *nm* ochqich (*qulfni ochadigan moslama*).

**rossignol[3]** *nm fam* o'tmay qolgan tovar; **de vieux rossignols en solde** narxi arzonlashtirilgan sotuvdagi eski o'tmay qolgan tovar.

**rot** *nm fam* kekirish; **faire faire son rot à un bébé** chaqaloqni kekirtirmoq.

**rôt** *nm litt* **rôti. le fumet du rôt** qovurmaning tutuni.

**rotatif, ive** *adj* rotatsion, aylanuvchi; **foreuse** aylanuvchi parma.

**rotation** *nf* **1.** aylanish, aylanma harakat; **rotation de la terre** yerning aylanishi; **exécuter, faire une rotation** doira yasamoq, aylanmoq; **2.** almashtirish, almashtirib turish; **la rotation des équipes** komandalarni almashtirib turish; **3.** qatnov; **la rotation des avaions d'une ligne** bir yo'nalishdagi samolyot qatnovi; **4.** aylanish, yangilanib turish; **rotation d'une stock** tovar zaxirasining aylanishi; **5. rotation des culturse** ekinlarni almashlab ekish.

**rotative** *nm* rotatsion mashina; **les rotatives qui impriment les journaux** gazetalarni bosib chiqaradigan rotatsion mashinalar.

**roter** *vi fam* kekirmoq.

**rôti** *nm* qovurdoq, qovurma; **rôti de bœuf, de veau** mol, buzoq go'shti qovurdog'i.

**rotin[1]** *nm* palmaning bir turi; **meuble en rotin** palma barglaridan to'qilgan mebel.

**rotin[2]** *nm* chaqa, miri; **vous n'avez pas un rotin!** sariq chaqangiz ham yo'q!

**rôtir I.** *vt* olovda bevosita pishirmoq (*to'g'ridan-to'g'ri olovga tutib yoki grilda, pechkada*); **rôtir un canard** o'rdakni pechkada pishirmoq; **II.** *vi* pishmoq; **on rôtit ici** bu yerda jizg'anaging chiqib qoladi; **III. se rôtir** *vpr* qovurilmoq; **se rôtir au soleil** quyoshda kuymoq.

**rôtisserie** *nf* qovurma tayyorlaydigan restoran, qovurilgan go'sht sotadigan do'kon.

**rôtisseur, euse** *n* qovurma tayyorlaydigan, sotadigan odam.

**rôtissoire** *nf* go'sht qovuradigan tova.

**rotondité** *nf* **1.** *litt* dumaloqlik, yumaloqlik; **la rotondité d'un globe** sharning yumaloqligi; **2.** baqaloq, yum-yumaloq.

**rotor** *nm* **1.** rotor (*mashinalarning aylanadigan qismi*); **2.** vertolyotning matori va aylanadigan parraklari.

**rotule** *nf* tizza qopqog'i.

**roture** *nf litt* oddiy, avom xalqdan yetishib chiqqan intelligent.

**roturier, ière** *adj* oddiy xalqdan yetishib chiqqan.

**rouage** *nm* **1.** g'ildirakchalar; **les rouages d'une montre** soatning tishli g'ildirakchalari; **2.** uzviy qism, harakatlantiruvchi kuch; **les rouages de la machine sociale** ijtimoiy mashinani harakatlantiruvchi kuchlar; **les rouages de l'économie, du capitalisme** iqtisodni, kapitalizmni harakatlantiruvchi kuchlar.

**roublard, arde** *adj, n* o'z foydasiga jinni, ustakor, ayyor; **c'est un vieux roublard** bu qari tulki.

**roublardise** *nf* o'z fodasiga jinnilik, ustakorlik, ayyorlik.

**rouble** *nm* rubl (*ruslarning pul birligi*).

**roucoulement** *nm* g'uv-g'uvlash, g'urullash (*kaptar, qumri, musichalar*); **le roucoulement des tourterelles** musichalarning g'uv-g'uvlashi; **2.** gurunglashish, dilkashlik qilish, gangir-gungur gaplashish; **les roucoulements d'amoureux** sevishganglarning dilkashlik qilishlari.

**roucouler** *vi* **1.** g'uv-g'uvlamoq, g'urillamoq (*kaptar, qumri, musichalar*); **2.** gurunglashmoq, dilkashlik qilmoq, gangir-gungur gaplashmoq.

**roue** *nf* **1.** g'ildirak; **les roues d'une voiture, d'une bicyclette** avtomobilning, velosipedning g'ildiraklari; **véhicule à deux, quatre roues** ikki, to'rt g'ildirakli transport vositalari; **roues avant, arrière** oldingi, orqa g'ildiraklar; **roue de secours** ehtiyot g'ildirak; *fam* **virage sur les chapeaux de roue** bor tezlikda burilish; *loc* **pousser à la roue** qo'llab-quvvatlab yubormoq; **être la cinquième roue du carrosse** keraksiz narsa bo'lmoq; **2.** g'ildirak, parrak; chambarak, charx; shesternya; **roues dentées** tishli g'ildiraklar; **3. supplice de la roue** g'ildirakka bog'lab qo'yib jazolash; **faire la roue** yondamasiga o'mbaloq oshmoq; (*qush*) yoymoq, yozmoq; **paon qui fait la roue** dumini yozayotgan tovus.

**roué, ée I.** *n litt* yaramas, buzuq, o'z maqsadiga yetish uchun hech narsadan toymaydigan odam; **II.** *adj* yaramas, buzuq, hech narsadan, toymas.

**rouer** *vt vx* g'ildirakka bog'lab jazolamoq; *loc* **rouer qqn de coups** biror kishini yaxshilab do'pposlamoq.

**rouerie** *nf* muttahamlik, qalloblik, firibgarlik; aldamchilik; tovlamachilik.

**rouet** *nm vx* charx (*ip yigiradigan*).

**rouf** *nm mar* rubka (*kema polubasi ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy*).

**rouflaquettes** *nf pl* gajak, chakka soqol.

**rouge I.** *adj* **1.** qizil, alvon, qirmizi; **corriger un texte au crayon rouge** matnni qizil qalam bilan tuzatmoq; **le drapeau rouge** qizil, alvon bayroq; **vin rouge** qizil vino; **2.** qizil (*eng so'l; revolutsion*); **l'armée rouge** qizil armiya; **3.** qip-qizil, cho'g'day; **fer rouge** qip-qizil qilib qizdirilgan temir; **4. être rouge comme un coq, un coquelicot, une pivoine** xo'rozning tojisiday, loladay, anorday qizil; **être rouge de colère** g'azabdan qizarib-bo'zarib ketmoq; *adv* **se fâcher tout rouge** g'azabdan tutoqib ketmoq; **voir rouge** ko'zi qonga to'lmoq; **II.** *nm* **1.** qizil, alvon, qirmizi rang; **un rouge vif, foncé** och, to'q qizil rang; **2.** qizil rang; **rouge à lèvre** labga surtiladigan pomada; **3.** yuzning qizilligi; **le rouge lui montait aux joues, au front** uning yanoqlari anorday



www.ziyouz.com kutubxonasi

qizarib ketgan edi, u qulog'igacha qizarib ketgan edi; **être dans le rouge** *loc fig* qiyin ahvolga tushib qolmoq; **entreprise qui sort du rouge** qiyin ahvoldan chiqayotgan korxona.

**rougeâtre** *adj* qizg'ish.

**rougeaud, aude** *adj* qip-qizil; **une figure rougeaude** qip-qizil yuz.

**rouge-gorge** *nm* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*).

**rougeoiement** *nm* **on apercevait au loin le rougeoiment des torches** uzoqdan mash'alalarning qizil shu'lasi ko'rinar edi.

**rougeole** *nf* qizamiq.

**rougeoleux, euse** *adj* **un enfant rougeoleux** qizamiq toshgan bola.

**rougeoyer** *vi* qizarmoq, shafaq tusiga kirmoq, yolqinlanmoq; **incendie qui rougeoie dans la nuit** tunda yolqinlanayotgan olov.

**rougeur** *nf* **1.** yuzdagi qizillik, bo'riqish; **une brusque rougeur** birdan yuzga yugurgan qizillik; **2. rougeurs** teridagi qizil dog'lar.

**rougir I.** *vi* **1.** qizarmoq, qizil rangga kirmoq; **les écrevisses rougissent à la cuisson** qisqichbaqalar qovurganda qizaradi; **2.** qizarmoq, qizarib ketmoq (*odam*); **elle a rougi jusqu'aux oreilles** u qulog'igacha qizarib ketdi; **rougir de colère, de honte** g'azabdan, uyatdan qizarib ketmoq; **des yeux rougis** qizargan ko'zlar; **ces propos grivois la faisaient rougir** bu o'ynoqi so'zlar uni qizartirdi; **je n'ai pas à rougir de cela** meni bundan qizaradigan joyim yo'q; **II.** *vt* qizartirmoq, qizil rangga bo'yamoq; **rougir une barre de fer** temir brusni qizartirib qizdirmoq; **rougir son eau** suviga ozroq qizil vino qo'shib qizartirmoq.

**rougissant, ante** *adj* qizaruvchan, uyatchang; **un garçon timide et rougissant** tortinchoq va qizaruvchan, sal narsaga qizarib ketadigan, uyatchang bola.

**rouille** *nf* **1.** zang; **tache de rouille** zang dog'i; **couvert de rouille** zang bilan qoplangan; **rongé de rouille** zang yemirgan; **2.** o'simliklarning ayrim kasalliklarining nomi, zang kasali.

**rouiller I.** *vi ou* **se rouiller** *vpr* zanglamoq, zang bilan qoplanmoq; **ces outilles ont rouillé sous la pluie** bu asboblar yomg'irda zanglab ketdi; **la grille commence à se rouiller** panjara zanglay boshladi; **les gonds de la fenêtre sont tout rouillés** derazaning oshiq-moshig'i butunlay zanglab ketibdi; **un clou rouillé** zanglagan mix; *fig* **avoir les jambes rouillées** oyoqlari uyushgan bo'lmoq; **avoir la mémoire rouillée** xotirasi o'tmaslashgan bo'lmoq; **être rouillé** sustlashib ketgan bo'lmoq; **II.** *vt* **1.** zanglatmoq; **l'humidité rouille le fer** namlik temirni zanglatadi; **2.** *fig* zaiflashtirmoq, sustlashtirmoq, pasaytirmoq, o'tmaslashtirmoq; **la paresse rouille l'esprit** dangasachilik aqlni o'tmaslashtiradi.

**roulade** *nf* **1.** rulada (*ashulaning mohirona tez aytiladigan qismi*); **2.** o'mbaloq oshish.

**roulage** *nm* avtomobilda yuk tashish.

**roulant[1], ante** *adj* **1.** g'ildiraydigan, g'ildirakchali; **table roulante** g'ildirakchali stol; **matériel roulant** harakatdagi sostav (*parovoz va vagonlar*); **le personnel roulant** haydovchi xodimlar; **2.** harakatlanadigan, qo'zg'aladigan; **trottoir, escalier roulant** eskalator **3.** tekis, qulay yo'l; **4. feu roulant** to'xtovsiz yog'dirilayotgan o'q; **un feu roulant de questions** to'xtovsiz yog'dirilayotgan savollar.

**roulant[2], ante** *adj fam* juda kulgili, ichak uzadigan darajada kulgili, nihoyatda qiziq; **il est roulant** u nihoyatda qiziq odam; **ses histoires sont roulantes** bu ichak uzar voqealar.

**rouleau** *nm* **1.** g'altak, g'ildirak, o'ram, baraban, bobina; **rouleau de papier peint** gulqog'oz o'rami; **être au bout de son rouleau, du rouleau** gapi, puli, imkoniyati, kuch-quvvati tugamoq; **2.** o'rog'liq narsa; **3.** o'qloq, juva; **rouleau compresseur** katok (*yer tig'izlaydigan mashina*); **4.** bigudi.

**roulé, ée** *adj* **1.** o'ralgan, dumaloqlangan, qaytarilgan; **col roulé** qaytarma yoqa; **épaule roulée** suyaksiz o'rama go'sht; **2.** *fam* **bien roulé** qaddi-qomati kelishgan.

**roulement** *nm* **1.** aylanish, g'ildirash; **roulement à billes** sharikopodshipnik; **2.** taqir-tuqur, shaqir-shuqur, gumbur-gumbur (*harakatlanayotgan transportning ovozi*); **on entendait un roulement de chariots, de barriques** aravaning, bochkaning taraq-turuqi eshitilar edi; **3.** aylanish, aylanma harakat; **roulement d'yeux** ko'zlarning aylanishi; **4.** aylanish (*pul*); **le roulement des capitaux** kapitalning aylanishi; **fonds de roulement** aylanma fond; **5.** ish joyini o'zgartirish (*o'zaro bog'liq ishlarda navbat bilan borib kelib ishlash*); **ils travaillent par roulement** ular o'z joylarini o'zgartirib ishlaydilar.

**sang-froid** *nm sing* sovuqqonlik, vazminlik, og'irlik; **garder son sang-froid** vazminlik qilmoq, o'zini bosmoq; **il l'a tué de sang-froid** uni sovuqqonlik bilan o'ldirdi.

**sanglant, ante** *adj* **1.** qonga belangan; **glaive sanglant** qonga belangan shamshir; **2.** qonli, xunrezli, qirg'in; **une bataille sanglante** qonli jang; **3.** jon-jonidan o'tib ketadigan, o'ta qattiq; **des reproches sanglants** o'ta qattiq gina.

**sangle** *nf* tasma; **un lit de sangles** tasmalardan qilingan karavot.

**sanglier** *nm* to'ng'iz, yovvoyi cho'chqa.

**sanglot** *nm* ho'ngrab yig'lash, ho'ngrash, yig'i; **éclater en sanglots** ho'ngrab yig'lab yubormoq; **voix entrecoupée de sanglots** yig'idan tomog'iga tiqilib qolgan ovoz.

**sangloter** *vi* ho'ngrab yig'lamoq, ho'ngrab yubormoq; **sangloter désespérément** noilojlikdan ho'ngrab yig'lamoq; **sangloter de joie** xursandchilikdan ho'ngrab yubormoq.

**sang-mêlé** *n inv* metis.

**sangsue** *nf* **1.** zuluk; **les sangsues sucent le sang** zuluk qon so'radi; **2.** *fam* qonxo'r, zolim; **il est du genre sangsue** u qonxo'rlar turkumidan.

**sanguin, ine I.** *adj* qonga oid, qon; **les vaisseaux sanguins** qon tomirlari; **groupe sanguins** qon guruhi; **II.** *adj, n* **1.** serharakat, tez ta'sirlanadigan, xushchaqchaq; **c'est un sanguin** bu serharakat odam; **2.** sangvinik.

**sanguinaire** *adj* qonxo'r, zolim; **dictateur sanguinaire** qonxo'r diktator.

**sanguinolent, ente** *adj* qonga belangan, qonga bo'yalgan; **des pansements sanguinolents** qonga bo'yalgan bint.

**sanie** *nf* qonli sariqsuv, qon aralash patos.

**sanitaire I.** *adj* sanitariyaga oid; sanitariya; **service sanitaire** sanitariya xizmati; **II.** *nm* sanitariya uzeli, sanuzel, kir suvlar oqib ketadigan majmua.

**sans** *prép* **1.** -siz; yo'qlik, yetishmovchilik ma'nosini bildiradi; **j'irai sans toi** men sensiz boraman; **être sans argent** pulsiz bo'lmoq; **j'étais malade, sans quoi je serais venu** men kasal edim, aks holda kelgan bo'lardim; **sans cesse** to'xtovsiz; **sans exception** istisnosiz; **non sans peine** qiyinchilik bilan; **il partit sans dire un mot** u bir so'z ham aytmasdan ketib qoldi; *loc* **cela va sans dire** bu o'z-o'zidan ayon; **partons sans plus attendre** boshqa kutmasdan ketaveramiz; *loc conj* **sans que** boshqalarga ko'rinmasdan; **2.** *fam adv* **il avait son parapluie, il ne sort jamais sans** uning zontigi bor edi, u hechqachon usiz chiqmasdi.

**sans-abri** *n inv* boshpanasiz, uy-joysiz, daydi; **reloger les sans-abri** boshpanasizlarni joylashtirmoq.

**sans-cœur** *n, adj fam* bag'ri tosh, qahri qattiq, berahm, shafqatsiz.

**sanscrit, ite** *nm, adj voir* **sanskrit**.

**sans-culotte** *nm* san-kulot (*Fransiya revolutsiyasi vaqtida respublikachilarga berilgan nom*).

**sans-emploi** *n inv* ishsiz, bekorchi.

**sans-filiste** *n* **1.** radist; **2.** radiohavaskor.

**sans-gêne** *inv* **I.** *adj* tortinib o'tirmaydigan, takallufni bilmaydigan, takallufsiz, betakalluf, beandisha, gustoh, sur, beti qattiq; **II.** *nm* takallufsizlik, tortinmaslik, gustohlik, beandishalik.

**sans-le-sou** *n inv fam* pulsiz, hechvaqosi yo'q odam; kambag'al.

**sans-logis** *n inv* boshpanasiz, uy-joysiz.

**sans-papiers** *n inv* hujjatsiz, ruxsatnomasi yo'q odam; yashirin yashovchi odam.

**sans-souci** *adj inv* beg'am, beparvo.

**sans-travail** *n inv* ishsiz.

**sanskrit, ite** *ou* **sanscrit, ite I.** *nm* sanskrit tili; **II.** *adj* sanskritga oid, sanskrit.

**santal, als** *nm* sandal daraxti va uning yog'ochi.

**santé** *nf* sog'liq, sog'lomlik, tani sog'lik, salomatlik, hol-ahvol; **être plein de santé** soppa sog' bo'lmoq **elle n'a pas de santé** uning sog'lig'i yaxshi emas; **c'est mauvais pour la santé** bu sog'liq uchun zararli; **boire à la santé de qqn** biror kishining sog'ligi uchun ichmoq; **à ta santé!** sog'liging uchun! **jouir d'une bonne santé** salomatligi barq urmoq; **sa santé se rétablit** salomatligi yaxshilanyapti; **avoir une mauvaise santé** salomatligi yomon bo'lmoq, kasalmand bo'lmoq; **comment va la santé?** sog'liklar qalay? **maison de santé** dam olish uyi; **le ministère de la santé publique** sog'likni saqlash vazirligi.

**saoul, saoule** *adj voir* **soûl, soûle.**

**sapajou** *nm* kaputsin (*Janubiy Amerikada yashaydigan kengtumshuq maymun*).

**sape** *nf* **1.** biror imoratni yiqitish uchun uning tagidan kovlangan chuqur; **2.** tagini kovlash ishlari; **faire, mener un travail de sape** tagini kovlash ishlarini olib bormoq.

**saper I.** *vt* **1.** yiqitish uchun poydevorning tagini kovlamoq; **2.** birovga choh, chuqur qazimoq; **saper l'autorité des parents** ota-onasining obro'siga putur yetkazmoq; **II. se saper** *vpr fam* kiyinmoq.

**sapeur** *nm* sapyor.

**sapeur-pompier** *nm* o't o'chiruvchi.

**saphir** *nm* **1.** sapfir (*zangori yoki ko'kish yoqut*); **2.** elektrofon golovkasi.

**sapidité** *nf* ta'm, maza xususiyatlari.

**sapin** *nm* **1.** archa; **un sapin de Noël** yangi yil archasi; **2.** archa yog'ochi; *loc fam* **ça sent le sapin** u uzoqqa bormaydi, kuni bitibdi.

**sapinière** *nf* archazor.

**saponaire** *nf* saponariya, sovun daraxti.

**saponifier** *vt* sovunga aylantirish.

**saquer** *vt fam voir* **sacquer**.

**sarbacane** *nf* puflab o'q otiladigan naycha.

**sarcasme** *nf* achchiq kinoya, piching, istehzo.

**sarcastique** *adj* kinoyali, istehzoli; **un sourire sarcastique** istehzoli kulgi.

**sarclage** *nm* chopiq qilish; **sarclage à la houe** ketmon bilan chopiq qilish.

**sarcler** *vt* chopiq qilmoq; **sarcler un potager** polizni chopiq qilmoq.

**sarcome** *nm* sarkoma (*xavfli o'smaning bir turi*).

**sarcophage** *nm* sarqofa, sarkofag (*tobut turi*).

**sardine** *nf* sardina (*seldlarga mansub mayda baliq*); *loc* **être serrés comme des sardines** to'la, zich, tirband, tiqin.

**sardinier, ière I.** *adj* sardinaga oid, sardina; **bateau sardinier** *ou* **sardinier** *nm* sardina ovlaydigan kema; **II.** *n* sardina ovlaydigan baliqchi, sardina konserva zavodining ishchisi.

**sardonique** *adj* kinoyali, istehzoli, masxara qiluvchi, masxaraomiz; **rire sardonique** masxaraomiz kulgi.

**sari** *nm* sari (*hind ayollarining kiyimi*).

**sarment** *nm* tok novdasi; **faire un feu de sarments** tok novdasidan o'‍t yoqmoq.

**sarrasin[1], ine I.** *n* saratsin (*musulmon xalqlarining qadimgi nomi, musulmonlar*); **II** *adj* saratsinlarga oid, saratsin; **invasions sarrasines** saratsinlar bosqinchiliklari.

**sarrasin[2]** *nm* grechixa, marjumak (*g'alla ekinlarining bir turi, va uning doni*).

**sarrau** *nm* ishchi kamzul, ishchi xalat.

**sarriette** *nf* jambil.

**sas** *nm inv techn* **1.** elak, g'alvir, suzgich; **2.** shluzning ikki eshigi orasidagi havza, oraliq havza; **3** tambur, dahliz.

**sasser** *vt* **1.** elamoq; elakdan, g'alvirdan o'tkazmoq, suzmoq, suzib olmoq; **2.** shluzning oraliq havzasidan o'tkazmoq.

**sasseur** *nm* shopirgich mashina.

**satané, ée** *adj* haddan tashqari yomon, qattiq, mushkul; **avec ces satanés embouteillages, je suis arrivé en retard** bu yo'ldagi haddan tashqari tiqilinch tufayli, men kechikib keldim.

**satanique** *adj* **1.** iblisga, shaytonga oid, iblisga, shaytonga xos bo'lgan; iblis, shayton; **2.** iblisona, yovuz; **un rire satanique** yovuz kulgi.

**satelliser** *vt* orbitaga chiqarmoq; **une fusée porteuse satellisée** orbitaga chiqarilgan uchuruvchi raketa.

**satellite** *nm* **1.** yo'ldosh; **la lune est le satellite de la Terre** Oy Yerning yo'ldoshi; **satellite artificiel** sun'iy yo'ldosh; **émission de télévision par satellite** sun'iy yo'ldosh orqali beriladigan ko'rsatuv; **2.** yondosh qo'shni imorat; **3.** yo'ldosh, hamroh.

**satiété** *nm* juda to'yish, to'yib ketish, bo'kish; **l'excès amène la satiété** ortiqchalik bo'kishga olib keladi; **à satiété** bo'kkuncha; **répéter une chose à satiété** bir narsani qaytaraverib, to'ydirib yubormoq.

**satin** *nm* atlas; *fig* **une peau de satin** ipakday mayin teri.

**satiné, ée** *adj* silliq va mayin.

**satiner** *vt* yaltiratmoq, pardoz, jilo bermoq; kudunglamoq.

**satinette** *nf* satin; **pyjama en satinette** satin pijama.

**satire** *nf* **1.** satira, hajviya, satirik, hajviy asar; **les satires de Boileau** Bualoning hajviy asarlari; **2.** hajv, kulgi; **Proust a fait la satire de la société mondaine** Prust aristokratlar jamiyatini hajv qildi.

**satirique** *adj* hajviy, satirik; **des chansons satiriques** hajviy qo'shiqlar.

**satisfaction** *nf* **1.** qoniqish, qanoatlanish, ko'ngli to'lish; qoniqtirish qanoatlantirish, ko'nglini to'ldirish; **les grévistes ont obtenu satisfaction** ish tashlovchilar qoniqish hosil qilishdi; **2.** mamnun bo'lish, mamnuniyat, huzur-halovat, lazzat; **je constate avec satisfaction que** men mamnuniyat bilan ta'kidlaymanki; *loc* **donner satisfaction** qoniqtirmoq; **il donne toute satisfaction à son professeur** u uqituvchisini to'la qoniqtiryapti; **est-ce que ce nouveau projet vous donne satisfaction?** bu yangi loyiha sizni qoniqtiradimi? **3.** qoniqtirish, qanoatlantirish, ko'nglini to'ldirish; **la satisfaction d'un penchant** xohishni qanoatlantirish.

**satisfaire I.** *vt* qondirmoq, qanoatlantirmoq, qoniqtirmoq; **il a pu satisfaire ses créanciers** u o'zining kriditorlarini qanoatlantiroldi; **cet état de choses ne nous satisfait pas** ishlarning bu ahvoli bizni qanoatlantirmaydi; **satisfaire ses besoins** ehtiyojini qondirmoq; **II.** *vi* **(à)** ta'minlamoq, qondirmoq; javob bermoq, bajo keltirmoq; **vous devez satisfaire à vos engagements** siz va'dangizga vafo qilishingiz kerak; **le bâtiment prévu devra satisfaire à trois conditions** ko'zda tutilayotgan imorat uch shartga javob berishi kerak.

**satisfaisant, ante** *adj* qoniqarli, qoniqtiradigan; **des résultats satisfaisants** qoniqtiradigan natijalar.

**satisfait, aite** *adj* **1.** qoniqqan, qanoatlangan, qanoat hosil qilgan, mamnun bo'lgan; **il n'est jamais satisfait** u hechqachon mamnun bo'lmaydi; **2. satisfait de** rozi bo'lgan, ko'ngli to'lgan, qanoat hosil qilmoq; **être satisfait de son sort** o'z taqdiridan rozi bo'lmoq; **3.** amalga oshmoq, qanoatlantirilmoq; **son envie est enfin satisfaite** va nihoyat uning niyati amalga oshdi.

**satisfecit** *nm inv litt* maqtov qog'oz; **donner, recevoir des satisfecit** maqtov qog'ozi bermoq, olmoq.

**satrape** *nm* **1.** satrap viloyat hokimi (*qadimgi Eron va Midiyada*); **2.** *litt* haddan oshgan, zolim amaldor.

**saturation** *nf* to'yinganlik, to'yinish; **le point de saturation d'une solution chimique** biror kimyoviy aralashmaning to'yinish nuqtasi.

**saturé, ée** *adj* **1** to'yingan (*suyuqlik, aralashma*); **2.** to'la, liq, limmo-lim; **marché saturé (d'un produit)** (*mahsulotga*) to'la bozor; **le périphérique est saturé** osma yo'l liq to'la; **3. être saturé de qqch** biror narsadan to'ymoq, joniga tegmoq; **il est saturé de télévision** u televizordan to'ydi.

**saturer** *vt* to'ldirmoq, limmo-lim qilmoq, oshirib-toshirib yubormoq; **saturer le marché** bozorni to'ldirib yubormoq.

**satyre** *nm* **1.** *myth* satir (*yunon mifologiyasida: may va aysh-ishrat xudosining hamrohi*); **2.** fahshga, shahvatga berilgan odam, fohishaboz.

**sauce** *nf* sous, ziravor, qayla; **sauce blanche** saryog' va unli qayla; **viande en sauce** qaylali go'sht; *loc* **à quelle sauce serons nous mangés?** bizni qanday qilib ahmoq qilishar ekan? **mettre qqn à toutes les sauces** biror kishini turli ishlarda ishlatmoq; **allonger la sauce** matnni, ma'ruzani cho'zmoq, rezinani cho'zmoq.

**saucée** *nf fam* jala.

**saucer** *vt* idishning tagini artib yalamoq; *fam* **se faire saucer, être saucé** yomg'irda shalabbo bo'lmoq.

**saucière** *nf* sous idishi.

**saucisse** *nf* sosiska.

**saucisson** *nm* **1.** kolbasa; **une tranche, une rondelle de saucisson** bir kesim kolbasa; *loc fam* **être ficelé comme un saucisson** yomon, qopga tiqqanday kiyingan bo'lmoq; **2.** uzun dumaloq non.

**sauf[1], sauve** *adj* **sain et sauf** sog'-salomat, omon; **laisser la vie sauve à qqn** biror kishining hayotini saqlab qolmoq; **l'honneur est sauf** vijdon pokiza.

**sauf[2]** *prép* -dan tashqari; **tous, sauf lui, sauf un** undan, bittasidan tashqari hammasi; **sauf si** bo'lmasagina; **j'irai, sauf s'il pleut** men yomg'ir yog'masagina boraman; **sauf que** deb hisoblamasa; **c'est un bon film, sauf qu'il est trop long** bu yaxshi film, faqatgina u juda uzun; **sauf erreur de notre part** biz tomonimizdan qilingan xatolar bo'lmasa; *loc* **sauf le respect que je vous dois** aybga buyurmaysiz; *litt* **sauf à** + *inf* shu holdaki, shu shart bilanki; **il acceptera, sauf à s'en repentir plus tard** u rozi bo'ladi, lekin keyinchalik afsuslanib yuradi.

**sauge** *nm* mavrak, marmarak; **infusion de sauge** mavrak damlamasi.

**saugrenu, ue** *adj* bema'ni, bo'lmag'ur; **quelle idée saugrenue!** qanday bo'lmag'ur fikr!

**saule** *nm* tol, suvtol; **saule pleureur** majnuntol.

**saumâtre** *adj* **1. eau saumâtre** sho'r suv; **2.** *loc fam* **la trouver saumâtre** achchiq, zaharli, istehzoli deb bilmoq.

**saumon I.** *nm* losos (*go'shti qizil baliq*); **une tranche de saumon fumé** bir bo'lak dudlangan losos; **II.** *adj inv* och pushti rang; **des rideaux saumon** och pushti rang pardalar.

**saumoné, ée** *adj* **truite saumonée** taymen (*Sibir daryolaridagi yirtqich baliqlarning bir turi*); **2. rose saumoné** pushtiroq qizil rang.

**saumure** *nf* namakob, tuzli suv; **mettre des olives dans la saumure** zaytunlarni namakobga solmoq.

**sauna** *nf* sauna, bug'xona; **des saunas finlandais** fin saunasi.

**saunier, ère** *n* tuz tayyorlovchi, tuz chiqaruvchi, tuz koni ishchisi, mutaxassisi; **faux saunier** tuz bilan noqonuniy savdo qiladigan odam.

**saupoudrer** *vt* ustiga sepmoq; **saupoudrer qqch de sucre, de sel** biror narsaning ustiga shakar, tuz sepmoq.

**saur** *adj m* **hareng saur** tuzlangan selyodka.

**saurien** *nm* kaltakesaklar oilasi; **le lézard, l'orvet, le crocodile sont des sauriens** kaltakesak, oyoqsiz kaltakesak, timsohlar kaltakesaklar oilasidandir.

**saut** *nm* **1.** sakrash, irg'ish; **faire un saut par-dessus un obstacle** biror to'siqning ustidan sakrab o'tmoq; **faire du saut à la corde** arg'amchida sakramoq; **saut périlleux** salto, o'mbaloq oshish (*havoda*); **saut en hauteur, à la perche, en longueur**; **triple saut** balandlikka, langarcho'p bilan, uzunlikka sakrash; uch aylana salto; **saut de l'ange** suvga qaldirg'ochga o'xshab sakramoq; **saut en parachute** parashutda sakrash; *loc* **faire le saut** va nihoyat qaror qilmoq; *fam* **la grand saut** o'lim; **il a fait un grand saut** u o'lib qoldi; **il s'est levé d'un saut** u sakrab o'rnidan turdi; *loc* **au saut du lit** o'rindan, uyqudan turishda; **2.** kirib, bosh suqib, birrov o'tmoq; **faire un saut chez qqn** biror kishinikiga birrov kirib o'tmoq; **3.** sakrab, tashlab o'tib ketmoq.

**sauter I.** *vi* **1.** sakramoq, irg'imoq; **sauter haut** baland sakramoq; **sauter dans l'eau, dans le vide** suvga, bo'shliqqa sakramoq; **sauter à cloche pied** bir oyoqlab sakramoq; **il sautait de joie** u xursandchilikdan sakrar edi; *loc* **sauter au plafond** osmonga sakramoq; **2.** sakrab; **il a sauté (à bas) du lit** u karavotdan, o'rnidan sakrab turdi; **elle lui a sauté au cou** u uning bo'yniga tashlandi; **sauter sur qqn, lui sauter dessus** biror kishining ustiga tashlanmoq; *loc* **sauter aux yeux** ko'zga tashlanmoq, yaqqol ko'zga tashlanib turmoq; **la solution saute aux yeux** yechimi yaqqol ko'rinib turibdi; **3.** bir narsadan ikkinchi narsaga sakrab o'tib ketmoq; **l'auteur saute d'un sujet à un autre** muallif bir mavzudan ikkinch mavzuga sakrab o'tib ketadi; **4.** chiqib ketmoq; **attention, le bouchon va sauter** ehtiyot bo'ling, tiqin chiqib ketadi; **la chaîne du vélo saute tout le temps** velosipedning zanjiri doim chiqib ketadi; *fam* **et que ça saute!** bu tez amalga oshsin! **5.** portlamoq; **le navire a sauté sur une mine** kema minada portlab ketdi; **on fera sauter les ponts** ko'prikni portlatishib yuborishadi; **les plombs ont sauté** probka kuyib qoldi; *fam* **le directeur risque de sauter** direktor uchib ketadiganga, ishdan ketadiganga o'xshaydi; **se faire sauter la cervelle** o'zining miyasining qatig'ini chiqarmoq (*o'zini-o'zi otmoq*); **6.** qovurmoq; **II.** *vt* **1.** sakrab, irg'ib o'tmoq; **le cheval a bien sauté l'obstacle** ot to'siqdan yaxshi sakrab o'tdi; *loc* **sauter le pas** qaror qilmoq, bel bog'lamoq; **2.** tashlab ketmoq, qoldirmoq; **tu as sauté un mot** sen bir so'zni qoldirib ketding; **un bon élève qu'on a autorisé à sauter une classe** bir sinf sakrab o'tishga ruxsat etilgan a'lochi o'quvchi.

**sauterelle** *nf* **1.** chigirtka; **un nuage de sauterelles** chigirtkalar to'dasi, buluti; **2.** oriq, qotma odam.

**sauterie** *nf vx ou plais* sakrashish, o'yinga tushish.

**sauteur, euse I.** *n* **1.** sakrovchi; **un sauteur en longueur** uzunlikka sakrovchi; **2.** *nm fam vieilli* xotinboz, bevafo odam; **II.** *adj* sakrovchi; **les insectes sauteurs** sakrab yuruvchi hasharotlar.

**sauteuse** *nf* tova.

**sautillant, ante** *adj* sakrovchi, irg'ishlaydigan.

**sautillement** *nm* **le sautillement d'un moineau** chumchuqning sakra-sakrab yurishi.

**sautiller** *vi* sakrab-sakrab yurmoq; **boxeur qui sautille** sakrab-sakrab yurgan boksyor.

**sautoir**[1] *nm* bo'yinga osib yuriladigan marjon, tumor; **un sautoir de perles** marvarid marjon.

**sautoir**[2] *nm* sakrash maydoni.

**sauvage I.** *adj* **1.** yovvoyi; **on peut apprivoiser certains animaux sauvages** ayrim yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish mumkin; **canard sauvage** yovvoyi o'rdak; **fleurs sauvage** yovvoyi gullar; **2.** *vx pej* yovvoyi (*odam*); **les sauvages** Kanada indeyslari; **4.** odam yashamaydigan, yovvoyi, odam qadami yetmagan (*joy*); **île sauvage** kimsasiz orol; **5.** yovvoyi, odamovi, odamlarga qo'shilmaydigan; **cet enfant est très sauvage** bu bola juda odamovi; **6.** boshqarilmagan, nazoratsiz; **une grève sauvage** boshqarilmagan ish tashlash; **camping sauvage** nazoratsiz kemping; **des cris sauvages** vahshiyona qichqiriqlar; **II.** *n* vahshiy, yovvoyi odam; **faites attention, bande de sauvages!** ehtiyot bo'ling, vahshiylar to'dasi!

**sauvagement** *adv* yovvoyilarcha, vahshiyona; **frapper qqn sauvagement** biror kishini vahshiyona, shafqatsizlik bilan urmoq.

**sauvageon, onne** *n* **1.** tarbiya ko'rmagan, yovvoyi bola; **2.** *nm* yovvoyi daraxt (*payvandlash uchun mo'ljallangan*).

**sauvagerie** *nf* **1.** odamovilik, odamyovvoyilik; **sa sauvagerie l'isole de ses semblables** uning odamoviligi uni o'ziga o'xshaganlardan ajratib qo'ydi; **2.** yovvoyilik, vahshiylik; **l'agresseur l'a frappé avec sauvagerie** bosqinchi uni vahshiylarcha urdi.

**sauvagine** *nf* suvda suzuvchi yovvoyi qushlar; **chasse à la sauvagine** suzuvchi qushlar ovi.

**sauvegarde** *nf* **1.** himoya, muhofaza, mudofaa; **être sous la sauvegarde de la justice** sud himoyasida bo'lmoq; **travailler à la sauvegarde de la paix** tinchlikni saqlash uchun ishlamoq; **2.** himoya ishonch qog'ozi.

**sauvegarder** *vt* **1.** himoya, muhofaza, mudofaa qilmoq; ozodlikni muhofaza qilmoq; **2.** *inform* saqlab qo'ymoq; **sauvegarder un fichier** qaydni saqlab qo'ymoq, xotiraga olib qo'ymoq.

**sauve-qui-peut** *nm inv* **1.** qochib qol, joningni saqla; **des "sauve-qui-peut!" éclatent tout autour** har tomondan "qochib qol" degan qichqiriqlar yangray boshladi; **2.** sarosima, sarosimalik, vahima, hayajon, dahshat; **à l'annonce de l'incendie, ça a été le sauve-qui-peut général** yong'in e'lon qilinganda, hamma har tarafga qochaboshladi.

**sauver I.** *vt* **1.** qutqarmoq, qutqarib qolmoq, saqlab qolmoq; **il a pu sauver l'enfant qui se noyait** u cho'kayotgan bolani qutqarishga muyassar bo'ldi; **il est sauvé** u qutildi; **sauver qqn de** biror kishini biror narsadan qutqarmoq, saqlab qolmoq; **sauver qqn de la misère** biror kishini qashshoqlikdan saqlab qolmoq; **2.** saqlab qolmoq; **il m'a sauvé la vie** u mening hayotimni saqlab qoldi; *fam* **il a réussi à sauver sa peau** u jonini saqlab qolishga erishdi; **sauver les meubles** eng muhimini, eng asosiysini saqlab qolmoq; **les acteurs ont du mal à sauver la pièce** aktyorlar pyesani saqlab qolisholmadi; **sauver une entreprise de la faillite** biror korxonani sinishdan saqlab qolmoq; **II. se sauver** *vpr* **1.** qochib qolmoq; **il se sauva à toutes jambes** u oyog'ini qo'liga olib qochib qoldi; **2.** *fam* tezda jo'nab qolmoq; **sauve-toi vite, tu vas être en retard** tezroq jo'na, kech qolasan; **3.** qaynab toshib ketmoq (*sut*); **zut, le lait s'est sauvé!** qara, sut toshib ketdi!

**sauvetage** *nm* qutqarish; **le sauvetage des naufragés** cho'kayotganlarni qutqarish; **bateau de sauvetage** qutqaruv kemasi.

**sauveteur** *nm* qutqaruvchi, xaloskor; **l'équipe des sauveteurs** qutqaruvchilar guruhi.

**sauvette (à la)** *loc adv* shoshib, shoshib-pishib, apil-tapil, naridan-beri; **vendre à la sauvette** ko'cha savdogari (*ruxsatnomasiz savdo qiluvchi*); **ils l'ont jugé à la sauvette** uni naridan-beri sud qilishdi.

**sauveur** *nm* qutqaruvchi, xaloskor; **vous êtes mon sauveur!** siz mening xaloskorimsiz! **le sauveur de la patrie** vatan xaloskori.

**savane** *nf* savanna, tropik cho'l-biyobonlar; **les hautes herbes de la savane** savannaning baland o'tlari.

**savant, ante I.** *adj* **1.** bilimdon, bilimli, o'qimishli; **un savant professeur** bilimdon o'qituvchi; **il est très savant en la métier** u sohada juda bilimdon; **chien savant** o'rgatilgan it; **2.** ilmiy; **une édition savante** ilmiy nashiryot; **mot savant** ilmiy so'z; **3.** hamma ham tushunavermaydigan, ilmiy; **c'est trop savant pour moi** bu men uchun o'ta ilmiy; **4.** nozik, nafis; **II.** *nm* olim; **Marie Curie fut un grand savant** Mari Kyuri katta olima edi.

**savate** *nf* **1.** eski oyoq kiyimi; *loc fam* **traîner la savate** chorig'ini sudramoq, bazo'r hayot kechirmoq; **2.** *fam* beso'naqay, qo'pol odam; **3.** fransuzcha boks (*oyoq bilan ham tepsa bo'laveradigan*).

**savetier** *nm vx* etikdo'z.

**saveur** *nf* maza, ta'm, tot, lazzat; **une saveur agréable** yoqimli ta'm; **une viande sans saveur** bemaza go'sht; **la saveur de la nouveauté** yangilikning lazzati.

**savoir**[1] *vt* **1.** bilmoq, xabardor bo'lmoq; **je ne sais pas son nom** men uning ismini bilmayman; **il n'en sait rien** u bu haqda hech narsa bilmaydi; **faire savoir** bildirmoq, xabardor qilmoq; **je te ferai savoir la date de mon retour** men seni qaytish kunimdan xabardor qilaman; **avez-vous su la nouvelle?** yangilikni eshitdingizmi? **je le sais honnête** men uni vijdonli deb bilaman; **2.** bilmoq, sezmoq, his qilmoq, farqiga bormoq; **il ne sait plus ce qu'il dit** u o'zi nima deyotganining ham farqiga bormay qolgan edi; **il est poète sans le savoir** u o'zi sezmagan holda shoir; **je ne veux pas le savoir!** men buni eshitishni ham xohlamayman; **3.** bilmoq, ustasi bo'lmoq; **4.** bilmoq, xotirada saqlamoq, esda tutmoq; **il sait son rôle, sa leçon** uning roli, darsi esida bor; **savoir qqch par cœur** biror narsani yoddan bilmoq; **5.** *loc* **vous n'êtes pas sans savoir que** siz bilmay qolmagan bo'lsangiz

kerakki; **sachez que** bilingki; **et puis, tu sais, nous t'aimons** qolaversa, bilasan, biz seni yaxshi ko'ramiz; **à savoir** ya'ni; **nos cinq sens, à savoir: l'ouïe, la vue** bizning besh sezgimiz, yani: eshitish, ko'rish; **savoir si** ko'raylikchi, bilaylikchi; **savoir si ça va marcher!** ko'raylikchi bu bo'larmikan! **qui sait?** kim biladi?, balki; **il est on ne sait où** kim biladi u qayerda; **ne savoir que faire, quoi faire** nima qilishini bilmaslik; **ne savoir que devenir, où se mettre** nima qilarini, o'zini qayerga qo'yarini bilmaslik; **que je sache** menga ma'lum bo'lishicha, mening bilishimcha; **tu n'es pas venu au cours, que je sache** mening bilishimcha, sen darsga kelmapsan; **6.** biror narsa qilishni bilmoq; **il ne sait pas nager** u suzishni bilmaydi; **c'est qqn qui sait écouter** bu eshitishni biladigan odam; **7.** qila olmoq; **on ne saurait penser à tout** hamma haqida o'ylashning iloji yo'q.

**savoir²** *nm* bilish, bilishlik; bilim, ma'lumot; **le savoir d'une époque** biror bir davrni bilishlik; **l'étendue de son savoir** bilimining kengligi.

**savoir-faire** *nm inv* ustalik, bilishlik; o'z sohasining ustasi, bilimdoni bo'lishlik; **le savoir-faire d'un artisan** hunarmandning o'z sohasida ustaligi, mohirligi, mahorati.

**savoir-vivre** *nm inv* muomala, o'zini tutish, yurish-turish odoblarini yaxshi bilish; **manquer de savoir-vivre** beodob, tarbiyasiz bo'lmoq.

**savon** *nm* **1.** sovun; **le savon de toilette** iroqi sovun; **un savon à barbe** soqol olish uchun ishlatiladigan sovun; **2.** *loc fam* **passer un savon à qqn** biror kishining ta'zirini berib qo'ymoq.

**savonner** *vt* sovunlamoq, sovunlab yuvmoq; **savonner et rincer** sovunlab yuvmoq va chaymoq; **2.** *loc fam* **savonner la tête à qqn** biror kishining ta'zirini berib qo'ymoq, koyimoq.

**savonnerie** *nf* sovun zavodi, sovun ishlab chiqaradigan korxona.

**savonneux, euse** *adj* sovunli; **une eau savonneuse** sovunli suv.

**savourer** *vt* **1.** maza qilib yemoq, ichmoq; lazzatini, mazasini totmoq; maza, lazzat qilmoq, miriqmoq; **il savourait son cognac** u konyagini miriqib ichardi; **2.** maza qilmoq, lazzatlanmoq, zavqlanmoq, nash'asini surmoq o'ylaymanki, sen tomoshadan maza qilding.

**savoureux, euse** *adj* **1.** shirin, lazzatli, mazali; **des fruits savoureux** lazzatli mevalar; **2.** zavqli, nash'ali, lazzatli, ta'sirli, jonli; **une anecdote savoureuse** ta'sirli latifa.

**saxophone** *nm* saksofon.

**saynète** *nf* bir aktli, kichik hajviy pyesa.

**scabreux, euse** *adj* **1.** *litt* xavfli, og'ir, qiyin, nozik; **c'est un sujet scabreux** bu og'ir masala; **2.** beadab, behayo; **une histoire scabreuse** behayo voqea.

**scalaire** *adj math* skalyar kattalik (*har bir qiymati haqiqiy yoki kompleks son bo'lgan miqdor*).

**scalène** *adj géom* **triangle scalène** turli tomonli uchburchak; *anat* **muscles scalènes** narvonsimon mushaklar.

**scalp** *nm* skalp **1.** bosh terisini sochlari bilan shilib olish; **2.** skalp (*sochlari bilan shilib olingan bosh terisi*).

**scalpel** *nm chir* skalpel, tig'.

**scalper** *vt* skalp olmoq (*bosh terisini shilib olmoq*).

**scandale** *nm* **1.** g'azablanish, nafratlanish; qahr, g'azab, nafrat, norozilik; **sa tenue a provoqué un scandale** uning o'zini tutishi nafratni qo'zg'atdi; **au grand scandale de sa famille** oilasining qattiq qarshiligiga; **2.** janjal, mojaro, to'polon; **il a fait du scandale sur la voie publique** jamoat yo'lida u janjal qo'zidi; **si ça continue, je fais un scandale!** agar bu davom etsa, men to'polon ko'taraman; **3.** mojaro, janjal, mashmasha; **un scandale financier, politique** iqtisodiy, siyosiy mojaro; **4.** sharmandalik, uyat; **cette condamnation est un scandale!** bu hukm sharmandalik!

**scandaleux, euse** *adj* kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan; g'azabni keltiradigan, xunuk, yaramas; janjalli, mojaroli; **une conduite scandaleuse** kishini g'azablantiradigan qiliq; **le prix des loyers est scandaleux** ijara haqi g'azabni keltiradi.

**scandaliser** *vt* g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, achchig'ini, g'azabini keltirmoq; **son attitude a scandalisé tout le monde** uning munosabati hammani g'azablantirdi.

**scander** *vt* dona-dona qilib aytmoq, o'qimoq; **scander des alexandrins** g'azalni dona-dona qilib o'qimoq; **scander un slogan public** shiorni dona-dona qilib qichqirmoq.

**scandinave** *adj* Skandinaviyaga va skandinaviyaliklarga oid, Skandinaviya; **les pays scandinaves** Skandinav mamlakatlari.

**scanner¹** *nm anglic* **1.** *méd* skaner; **2.** *inform* skaner (*rasm yoki matnlarni kompyuterga o'tkazuvchi apparat*).

**scanner²** *vt anglic* skanerlamoq.

**scaphandre** *nm* skafandr; **le scaphandre des cosmonautes** kosmonavtlar skafandri.

**scaphandrier** *nm* g'avvos.

**scarabée** *nm* go'ng qo'ng'iz.

**scarifier** *vt med* tilmoq, yuzaki kesmoq.

**scarification** *nf* tilish, yuzaki kesish.

**scarlatine** *nf* skarlatina, qizilcha kasalligi.

**scarole** *nf* salatning bir turi.

**scatologique** *adj* qo'pol, o'rinsiz; **plaisanterie scatologique** qo'pol hazil.

**sceau** *nm* **1.** muhr, tamg'a; **mettre, apposer son sceau sur un document** biror hujjatga muhr bosmoq, qo'ymoq; **2.** *litt* asar, iz, belgi, nishon; **son récit est marqué du, au sceau de la foi** uning asarida rostgo'ylik nishonasi ko'rinib turibdi; *loc* **sous le sceau du secret** maxfiy, sir saqlanadigan.

**scélérat, ate** *n litt* yaramas, firibgar, jinoyatchi; *adj* **des lois scélérates** bo'lmag'ur qonunlar.

**scélératesse** *nf litt* yaramaslik, firibgarlik; jinoyat, yovuzlik; **commettre une scélératesse** yaramaslik qilmoq.

**sceller** *vt* **1.** muhirlamoq, tamg'alamoq, surg'uchlamoq; **le testament a été scellé** vasiyat surg'uchlangan edi; **2.** tasdiqlamoq, mustahkamlamoq; **sceller un pacte** bitimni mustahkamlamoq; **poignée de main qui scelle une réconsiliation** yarashuvni tasdiqlovchi qo'l qisishuv; **3.** bekitmoq, germetik bekitmoq; **sceller des boites de conserve** konserva bankalarini bekitmoq; **4.** mahkamlamoq, o'rnatmoq; urib, suvab yubormoq; **sceller un anneau dans un mur** gupchakni devorga o'rnatmoq.

**scénario** *nm;* ssenariy.

**scène** *nf* **1.** sahna; **l'ordre d'entrée en scène des acteurs** aktyorlarning sahnaga chiqish tartibi; **elle fait ses débuts sur la scène, sur scène** u aktyorlikni boshlayapti; **mettre en scène** sahnalashtirmoq **metteur en scène** rejissor, sahnalashtiruvchi; **mise en scène** sahnalashtirish; **adapter un texte pour la scène** biror matnni sahnaga moslashtirmoq; **mettre en scène un film** filmni ekranlashtirmoq; **la scène politique** siyosiy sahna; **2.** teatr, dramatik asar, sahna; **les vedettes de la scène et de l'écran** teatr va ekran yulduzlari; **3.** ko'rinish, manzara, dekoratsiya, sahna bezagi; **la scène représente une forêt** manzara o'rmonni ko'rsatadi; **4.** parda, ko'rinish; **acte trois, scène deux** uchinchi parda, ikkinchi ko'rinish; *loc* **jouer la grande scène** katta mashmasha ko'rsatmoq; **5.** ayrim voqea, epizod, parcha; **une scène de film** filmdan parcha; **6.** ko'rinish, manzara, voqea; **j'ai été témoin de la scène** men manzaraning shohidi bo'ldim; **7.** urish-janjal, mojaro, mashmasha; **une scène de ménage** oilaviy mojaro; **enfant qui fait des scènes** xarxasha qiladigan bola.

**scénique** *adj* sahnaga, teatrga oid; sahna, teatr.

**scepticisme** *nm* **1.** skeptitsizm (*haqiqatni, dunyoni bilish mumkinligiga shubha bilan qarovchi falsafiy oqim*); **2.** skeptiklik, har narsaga shubha bilan qarash; **il parle de notre influence avec scepticisme** u bizning ta'sirimiz haqida shubha bilan gapiradi.

**sceptique** **I.** *n* skeptik; **II.** *adj* **1.** skeptitsizmga oid; skeptitsizmga asoslangan, skeptitsizm ruhidagi; **2.** ishonmaydigan, har narsaga shubha, ishonchsizlik bilan qaraydigan.

**sceptre** *nm* saltanat hassasi; **le sceptre du roi** shohning saltanat hassasi; **2.** *litt* hukmronlik.

**schah** *ou* **chah** *nm* shoh.

**schéma** *nm* **1.** sxema, chizma, tarh; **le schéma d'un moteur** motorning chizmasi; **2.** sxema, umumiy plan; **voici en gros le schéma de l'opération** mana operatsianing umumiy plani.

**schématique** *adj* **1.** sxematik, sxema tarzida; **2.** sxematik, soddalashtirilgan, umumiy; **un compte rendu schématique de la situation** sharoitni soddalashtirilgan hisoboti.

**schématiser** *vt* **1.** sxematiklashtirmoq; **2.** sxematik ravishda, soddalashtirib bermoq, umumiy tarzda bayon qilmoq; **en schématisant, on peut dire que** sodda qilib aytish mumkinki.

**schéma** *nm* his qilish majmuasi; **les schémas de la pensée** fikrlash majmuasi.

**schilling** *nm* shilling (*Avstriyaning pul birligi*).

**schisme** *nm* ajralish, ajralib ketish, ixtilof; **un schisme politique** siyosiy ixtilof.

**schiste** *nm* qatlamli jins.

**schizophrène** *adj, n* shizofrenik, shizofren.

**schizophrénie** *nf* shizofreniya (*ruhiy kassallikning bir turi*).

**schnaps** *nm inv* aroq, shnaps.

**schuss** *nm inv* tik tushish (*chang'ida*).

**sciage** *nm* arralash, tilish, arra bilan kesish.

**sciatique I.** *adj anat* songa oid, son; **nerf sciatique** quymuch nervi; **II.** *nm* ishias (*quymich nervining yallig'lanishi*) **il a une sciatique** uning ishias kasalligi bor.

**scie** *nf* **1.** arra; **scie à bois, à métaux** yog'ch, metall kesadigan arra; **scie circulaire** yumaloq arra; **2. poisson-scie** arrabaliq; **3.** egov (*janjalkash, bezor qiladigan odam haqida*).

**sciemment** *adv* ataylab, bila turib; **il n'a pas pu faire cela sciemment** u buni bila turib qilolmas edi.

**science** *nf* **1.** *vieilli* bilim, ilm, ma'lumot; **sa science est étendue** uning bilimi keng; *loc* **c'est un puits de science** bu bilim koni; **2.** *litt* bilimdonlik, ishning ko'zini bilish; **3.** ilm, fan; **sciences exactes** ou **pures** aniq fanlar; **sciences appliquées** amaliy fanlar; **sciences expérimentales** eksperimental fanlar; **sciences naturelles** tabiiy fanlar; **les sciences humaines** gumanitar fanlar; **4.** *pl* tabiiy fanlar; **faculté des sciences** tabiiy fanlar fakulteti.

**science-fiction** *nf* ilmiy-fantastik; **un film de science-fiction** ilmiy-fantastik film.

**scientifique I.** *adj* **1.** ilmiy; **la recherche scientifique** ilmiy izlanishlar; **2.** ilmiy, aniq; **ce n'est pas une explication scientifique** bu ilmiy izoh emas; **II.** *n* olim, fan arbobi.

**scientifiquement** *adv* ilmiy, ilmiy asosda, ilmiy yo'l bilan; **phénomène étudié scientifiquement** ilmiy o'rganilgan hodisa.

**scier** *vt* **1.** arralamoq; **scier du bois** o'tin arralamoq, yog'och tilmoq; **2.** *vx* zeriktirib, ezib yubormoq, joniga tegmoq.

**scierie** *nf* yog'och arralash korxonasi.

**scieur** *nm* arrakash, arrachi; *loc* **scieur de long** yog'och, taxta tiluvchi.

**scinder** *vt* ajratmoq, bo'laklarga bo'lmoq, parchalamoq; **scinder un parti** partiyani parchalab tashlamoq.

**scintillant, ante I.** *adj* yaraqlovchi, yaltirovchi, miltillovchi; **lumière scintillante** miltillovchi yorug'lik; **II.** *nm* yangi yil archasiga osadigan yaltiroq narsalar.

**scintillation** *nf* miltillash, yarqirash, chaqnash, porlash.

**scintillement** *nm* yarqirash, nur taratish; **le scintillement des braises** cho'g'ning yaraqlashi.

**scintiller** *vi* chaqnamoq, porlamoq, yarqiramoq, yaltiramoq; **les étoiles scintillaient** yulduzlar chaqnardi; **diamants qui scintillent** yarqirab turgan marvaridlar.

**scission** *nf* parchalanish, ajralib ketish, bo'linib ketish; **le groupe qui a fait scission** ajralib ketgan guruh.

**scissiparité** *nf* oddiy parchalanish yo'li bilan ko'payish.

**scissure** *nf anat* teshik, yoriq.

**sciure** *nf* qipiq, qirindi; **l'odeur de la sciure** qipiq hidi.

**sclérose** *nf* **1.** *méd* skleroz; **2.** qotib qolganlik; **la sclérose des institutions** tartiblarning qotib qolganligi.

**sclérosé, ée** *adj* **1.** sklerozga chalingan; **des artères sclérosées** sklerozga chalingan arterialar; **2.** qotib qolgan; **économie sclérosée** qotib qolgan iqtisod.

**scléroser (se)** *vpr* **1.** qotib qolmoq, sklerozga uchramoq; **2.** qotib qolmoq, rivojlanmay qolmoq; **une bureaucratie qui se sclérose** qotib qolgan buyrokratiya.

**sclérotique** *nf* ko'zning oq pardasi.

**scolaire** *adj* **1.** maktabga, o'quvga oid; maktab; **établissement scolaire** ta'lim muassasasi; **programmes scolaires** maktab programmalari; **année scolaire** o'quv yili; **obligation scolaire** majburiy ta'lim; **âge scolaire** maktab yoshi; **2.** *pej* ko'r-ko'rona yo'l tutadigan, nomustaqil, bachkana, yuzaki; **cet exposé est trop scolaire** bu bayon o'ta yuzaki.

**scolarisation** *nf* maktabga tortish, maktabga jalb qilish, o'qitish.

**scolariser** *vt* maktabga tortmoq, maktabga jalb qilmoq, maktabda o'qitmoq; **enfants en âge d'être scolarisés** maktabga tortiladigan yoshdagi bolalar.

**scolarité** *nf* o'qish muddati, kurs; **certificat de scolarité** kursni tamomlaganlik haqida guvohnoma; **le gouvernement va-t-il prolonger la scolarité?** hukumat o'qish muddatini cho'zarmikan?

**scolastique I.** *nf* sxolastika; **II.** *adj* **1.** sxolastikaga oid, sxolastik, sxolastika; **2.** *litt* quruq safsatadan iborat bo'lgan, tagi puch, quruq; **esprit scolastique** tagi puch fikr.

**scoliose** *nf med* skolioz, umurtqaning yon tomonga qiyshayishi.

**scolopendre** *nf zool* skolopendra (*zaharli mingoyoq*).

**scoop** *nm anglic* shov-shuvli maqola; **un journaliste à l'affût des scoops** shov-shuvli maqola qidirib yuradigan jurnalist.

**scooter** *nm* motoroller.

**scorbut** *nm* singa, lavsha, zangila (*milk kasalligi*).

**scorbutique** *adj* singa, lavsha, zangila kasalligiga chalingan, kasallangan.

**score** *nm* hisob (*o'yinda*).

**scories** *nf pl* **1.** shlak, toshqol, qoldiq; **2. scories volcaniques** vulqon lavasi; **3.** chiqit **débarrasser un test de ses scories** testni chiqitlaridan tozalamoq.

**scorpion** *nm* chayon, gazanda.

**scotch** *nm* skotch **un rouleau de scotch** bir o'ram skotch.

**scotcher** *vt* skotchlamoq, skotch bilan yopishtirmoq **une photo scotchée au mur** devorga skotchlab yopishtirilgan rasm.

**scout, scoute** *adj* skaut, skautlarga oid; **réunion de scouts** skoutlar yig'ini; **la fraternité scoute** skoutlarcha birodarlik.

**scoutisme** *nm* skoutizm, skoutlar tashkiloti.

**scribe** *nm* xattot, mirzo, kotib; **les scribes égyptiens de l'antiquité** qadimiy Misr xattotlari.

**script** *nm* **1.** bosma harf; **écrire en script** bosma harf bilan yozmoq; **2.** ssenariy.

**scripte** *n* rejissor yordamchisi.

**scrofuleux, euse** *adj vx* shirinchaga oid, shirincha; shirinchaga moyil.

**scrupule** *nm* ikkilanish, tortinish, andisha, insof, vijdon; **un scrupule me retient** andisha meni tutib turibdi; **il n'a aucun scrupule** uning hech qanday insofi yo'q; **se faire des scrupules** vijdoni qiynalmoq.

**scrupuleusement** *adv* vijdon, insof bilan.

**scrupuleux, euse** *adj* **1.** vijdonli, insofli; **un homme d'affaires scrupuleux** insofli ishbilormon odam; **2.** g'oyat darajada aniq, sinchkovlik bilan qilingan, puxta, pishiq; **recherches scrupuleuses** sinchkovlik bilan qilingan tadqiqot; **3.** sinchkov, puxta; **un élève, un employé scrupuleux** sinchkov o'quvchi, xizmatchi.

**scrutateur, trice I.** *adj* sinovchan; **un regard scrutateur** sinovchan qarash; **II.** *n* ovozlarni hisoblovchi (*saylov vaqtida*).

**scruter** *vt* sinchkovlik bilan ko'rib chiqmoq, tekshirib chiqmoq; diqqat bilan qaramoq, diqqat bilan nazar solmoq, tikilib qaramoq; **scruter les intentions de qqn** biror kishining niyatini sinchkovlik bilan o'rganib chiqmoq; **scruter l'horizon** ufqqa diqqat bilan nazar solmoq.

**scrutin** *nm* **1.** ovoz berish, saylash; **2.** saylov, saylov jarayoni; **l'ouverture, la clôture d'un scrutin** saylovning ochilishi, bekilishi; **scrutin uninominal** nomma-nom saylov; **scrutin de liste** ro'yxat bo'yicha saylov; **scrutin proportionnel** teng vakillar saylovi; **scrutin majoritaire** ko'pchilik ovoz yo'li bilan saylov; **dépouiller le scrutin** ovozlarni hisoblamoq.

**sculpter** *vt* **1.** yo'nib, tarashlab haykal yasamoq; **sculpter un buste** byust yasamoq; **2.** tarashlamoq, yo'nmoq; tarashlab, yo'nib yasamoq; **sculpter de la pierre** toshdan tarashlamoq.

**sculpteur** *nm* haykaltarosh, skulptor.

**sculptural, ale, aux** *adj* **1.** haykaltaroshlik, skulpturaga oid, skulptura; **2.** klassik haykallardagiday; **une beauté sculpturale** klassik haykallardagiday go'zallik.

**sculpture** *nf* **1.** haykaltaroshlik, skulptura; **la sculpture grecque, romane** grek, roman skulpturasi; **faire de la sculpture sur bois** yog'ochdan haykal yasamoq; **2.** haykal, skulptura.

**S.D.F.** *n inv (abrév* **sans domicile fixe***)* doimiy yashash joyi yo'q, uysiz odam, daydi.

**se** *pron pers 3-shaxs o'zlik olmoshi*; **il se lave** u yuvinyapti; **elle s'est lavé les mains** u qo'llarini yuvdi; **ils se sont rencontrés** ular uchrashishdi; **cela ne se fait pas** bunday qilinmaydi; **comment se fait-il que?** qanday bo'ldiki?

**séance** *nf* **1.** yig'ilish, majlis; **les séances du parlement** parlament yig'ilishi; **être en séance** majlisda bo'lmoq; **la séance est levée** majlis tugadi, yopildi; *loc adv* **séance tenante** shu zahotiyoq, o'rnida, kechiktirmay; **2.** seans, muddat; **une séance de travail, de pose, de massage** bir seans, muddat ish, dam, massaj; **3.** seans, ko'rsatuv; **une séance de cinéma** kino seansi (*ko'rsatuvi*); **4.** tomosha, mojaro; **il nous a fait une de ces séances!** u bizga bu tomoshalardan birini ko'rsatdi!

**séant**[1] *nm loc* **se dresser, se mettre sur son séant** o'tirib olmoq, yotgan joyidan birdan o'tirib olmoq.

**séant, ante**[2] *adj litt* ma'qul, yaxshi, to'g'ri; **il n'est pas séant de quitter déjà la réunion** majlisdan endi chiqib ketish ma'qul emas.

**seau** *nm* chelak; **seau en plastique** plastmassa chelak; *loc fam* **il pleut à seaux** yomg'ir chelaklab yog'yapti.

**sébum** *nm* teri yog'i (*yog' bezining*).

**sec, sèche I.** *adj* **1.** quruq; **du bois sec** quruq o'tin; **un froid sec** quruq sovuq; **avoir la gorge sèche** suvsizlikdan tomog'i qaqrab ketmoq; *loc* **n'avoir plus un poil de sec** g'arq terga botmoq, qora terga botmoq, terlab pishmoq; **2.** quritilgan, qoqi; **raisins secs** mayiz; **légumes secs** qoqi, quruq mevalar; **3.** quruq, -siz; **toux sèche** quruq yo'tal; **panne sèche** qurbonsiz avaria; *loc* **regarder d'un œil sec** baqrayib qarab turmoq; **4.** oriq, ozg'in, qotma, qoqsuyak; **un petit vieillard tout sec** qoq suyak kichkina chol; *loc* **être sec comme un coup de trique** cho'pday oriq bo'lmoq; **5.** bo'g'iq, quruq, jarangsiz; **une voix sèche** bo'g'iq ovoz; **vin sec** musallas (*spirt qo'shilmagan vino*); **6.** quruq, sovuq, bag'ritosh, dag'al, pasmiy; **un cœur sec** tosh yurak; **répondre d'un ton sec** quruq, rasmiy javob bermoq; **7.** quruq, shirasiz; **un style un peu sec** biroz quruq stil; **II.** *nm* quruqlik, quruq joy; **mettre, tenir qqcn. au sec** biror narsani quruqqa qo'ymoq, quruqda saqlamoq; **à sec** quruq, suvsiz, qoq, qaqragan, qaqroq; *fam* qup-quruq, hemirisi yo'q, cho'ntagi quruq; **la rivière est à sec** daryo qurib qolgan; **ils sont à sec** ular qup-quruq; **III.** *adv* **1. boire (un vin, un alcool) sec** quruq o'zini ichmoq; **il boit sec** u qattiq, ko'p ichadi; **2.** gursillatib, guppillatib; **3.** *loc adv fam* **aussi sec** shu zahotiyoq, o'rnida, to'xtatmay.

**sécable** *adj* parchalanadigan, bo'linadigan, kesiladigan.

**sécant, ante I.** *adj géom* kesuvchi; **plan sécant** kesuvchi tekislik; **II.** *nf* kesuvchi chiziq.

**sécateur** *nm* gulqaychi, tokqaychi, sekator.

**sécession** *nf* ajralib chiqish; **faire sécession** ajratmoq, ajratib yubormoq.

**sécessionniste** *adj* ajralib chiqishga qaratilgan, ajralib chiqish, separatist; **mouvement sécessionniste** ajralib chiqish harakati.

**séchage** *nm* qurutish; **colle à séchage rapide** tez quriydigan kley.

**sèchement** *adv* **1.** gursillatib, qarsillatib, qattiq; **frapper sèchement la balle** to'pni qattiq tepmoq; **2.** quruqqina qilib, quruq; **il a répliqué sèchement** u quruqqina qilib gap qistirdi.

**sécher I.** *vt* **1.** quritmoq, qovjiratmoq, qaqratmoq; **le froid sèche la peau** sovuq terini qovjiratadi; **du poisson séché** qoqlangan baliq; **sécher ses larmes** ko'z yoshlarini quritmoq; **2.** *fam* qochmoq, bormaslik; **il sèche le cours pour aller au cinéma** kinoga borish uchun u darsdan qochyapti; **II.** *vi* **1.** qurimoq; **mettre du linge à sécher** kirni quritgani qo'ymoq; *loc* **sécher sur pied** ildizidan qurimoq (*o'simlik*); intizor bo'lmoq, toliqmoq, tinkasi qurimoq; **3.** *fam* yiqilmoq, o'tolmay qolmoq (*imtihondan*); **il a séché en histoire** u tarixdan o'tolmadi; **III.** *vpr* **se sécher les cheveux** sochlarini quritmoq; **sèche-toi vite!** tezda artin!

**sécheresse** *nf* **1.** qurg'oqchilik, qaqraganlik; **sécheresse d'un sol** yerning qaqraganligi; **un pays où sévit la sécheresse** qurg'oqchilik hukm surayotgan davlat; **2.** *litt* quruqlik, sovuqlik; **répondre avec sécheresse** quruqqina qilib javob bermoq; **3.** quruqlik, shirasizlik; **la sécheresse du style** uslubning quruqligi.

**séchoir** *nm* **1.** qurutish xonasi; **séchoir agricole** meva-cheva quritadigan joy; **2.** qurutish apparati; **séchoir à cheveux** soch qurutgich.

**second, onde I.** *adj* **1.** ikkinchi; **pour la seconde fois** ikkinchi marta; **en second lieu** ikkinchi o'rinda; **obtenir qqch de seconde main** tutilgan, eski narsani olmoq; **habiter au second étage** uchinchi qavatda yachamoq; **passer la seconde vitesse** ikkinchi o'quv bosqichiga o'tmoq; **enseignement du second degré** o'rta maktab ta'limi; **2.** ikkinchi, ikkinchi darajali, ikkinchi o'rindagi; **billet de seconde classe** ikkinchi klass (*vagoniga, o'riniga*) chipta; *loc adv* **en second** ikkinch, ikkinchi o'rinda; **passer en second** so'ng, ikkinchi bo'lib o'tmoq; **3.** ikkinchi, boshqa; **l'habitude est une seconde nature** odat ikkinchi ta'biat; **sans second, sans seconde** yolg'iz, tengi yo'q, o'xshashi yo'q; **II.** *nm* yordamchi, muovin, komandir yordamchisi.

**secondaire** *adj* **1.** ikkinchi darajali, arzimas; **la question est tout à fait secondaire** masala butunlay ikkinchi darajali; **2.** ikkinchi bosqich, ikkinchi; **l'enseignement secondaire** o'rta ta'lim; **3.** ikkinchi, keyingi; **les effets secondaires d'un médicament** dorining keyingi ta'siri.

**seconde**[1] *nf* **1.** ikkinchi sinf; **il est en seconde** u ikkinchi sinfda.

**seconde**[2] *nf* sekund, soniya; **je reviens dans un seconde** bir daqiqada qaytib kelaman; **une seconde!** bir daqiqa!

**secondement** *adv* ikkinchidan.

**seconder** *vt* **1.** ko'maklashmoq, yordamlashmoq, qo'llamoq, qo'llab-quvvatlamoq; **j'ai secondé ses démarches** men uning ishlarini qo'llab-quvvatladim.

**secouer** *vt* **1.** silkitmoq; tebratmoq, chayqatmoq; **secouer le flacon avant usage** foydalanishdan oldin shishani chayqatmoq; **secouer la salade** salatni aralashtirmoq; **la voiture nous secouait** avtomobil bizni chayqatardi; **2.** tebratmoq, qimirlatmoq, chayqamoq; **secouer la tête** bosh chayqamoq; **3.** qoqmoq, silkitmoq; **secoue la neige de ton manteau** paltongdan qorni qoqib tashla; *loc* **secouer le joug** zulumdan qutulmoq, zulumni parchalab tashlamoq; **4.** dilabgor qilmoq, qaddini bukmoq, ruhini tushirmoq, bukib qo'ymoq; **cette opération l'a beaucoup secoué** bu operatsiya uning kuch-quvvatini olib qo'ydi; *pronominalement* **se secouer** g'aflatdan uyg'onmoq, uyg'onmoq, qo'zg'almoq; **allons, secoue-toi!** bo'l, g'aflatdan uyg'on! qimirla!

**secourable** *adj litt* yorgam beradigan, yordam berishga tayyor; *loc* **prêter, tendre une main secourable** yordam qo'lini cho'zmoq.

**secourir** *vt* yordam bermoq, yordam ko'rsatmoq, qo'llab yubormoq, ko'maklashmoq, ko'mak berib yubormoq; **secourir un blessé** yaradorga yordam ko'rsatmoq; **secourir un ami dans la gêne** o'rtog'ini og'ir ahvolda qo'llab yubormoq.

**secourisme** *nm* birinchi yordam ko'rsatish; **il a le brevet de secourisme, il sait donner les premiers soins** uning birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha shahodatnomasi bor, u birinchi yordam ko'rsatishni biladi.

**secouriste** *n* yaradorlarga birinchi yordam ko'rsatish tashkilotining a'zosi.

**secours** *nm inv* **1.** yordam, ko'mak; **au secours!** yordam bering! **porter secours à qqn** biror kishiga ko'mak bermoq; **je vais à ton secours** men senga yordamga ketyapman; **2.** moddiy yordam; **associations de secours mutuel** o'zaro moddiy yordam uyushmalari; **envoyer des secours à des sinistrés** jabrlanganlarga moddiy yordam jo'natmoq; **3.** ko'mak, madad; **attendre les secours** madad kutmoq; **4.** tibbiy yordam; **premiers secours**

**aux noyés** cho'kayotganlarga birinchi yordam; **5.** suyanchiq; **tu m'as été d'un grand secours** sen menga katta suyanchiq bo'lding; **6.** ehtiyot, yordamchi *(choses)*; **sortie de secours** ehtiyot chiqish eshigi; **roue de secours** ehtiyot g'ildirak.

**secousse** *nf* **1.** silkinish, urish, zarba, turtish; **une violente secousse** qattiq silkinish; **prendre une secousse électrique** elektr toki urmoq; **secousse sismique, tellurique** yer silkinishi; **2.** ruhiy larza, iztirob; **ça a été pour lui une terrible secousse** bu uning uchun dahshatli iztirob bo'ldi; **3.** *loc* **par secousse** tartibsiz, vaqti-vaqti bilan.

**secret[1], ète** *adj* **1.** maxfiy, yashirin, sir tutiladigan; **un rendez-vous secret** yashirin uchrashuv; **des documents secrets** maxfiy hujjatlar; **documents très secrets** o'ta maxfiy hujjatlar; **police secrète** maxfiy politsiya; **un agent secret** maxfiy agent; **les services secrets** maxfiy xizmat; **2.** ko'ngilda saqlanadigan, sir tutiladigan, ko'ngildagi, yurakdagi, ichdagi; **3.** yashirin, berkitilgan, maxfiy; **un tiroir secret** yashirin g'aladon; **5.** *litt* ichimdan top; **un homme secret et silencieux** ichimdan top va kamsuqum odam.

**secret[2]** *nm* **1.** sir, maxfiy narsa, yashirin ish; **confier un secret à qqn** biror kishiga biror sirni ishonib aytmoq; **garder, trahir un secret** biror sirni saqlamoq, oshkor qilib qo'ymoq; **je n'ai pas de secret pour toi** mening sendan yashiradigan sirim yo'q; **c'est un secret** bu sir; *loc* **c'est un secret de polichinelle** hammaga ma'lum, hamma biladigan sir; **un secret d'État** davlat siri; **2. être dans le secret** sirdan xabardor bo'lmoq; **un secret de fabrication** ishlab chiqarishning siri; **secret professionnel** kasb siri; **3.** tushunib bo'lmaydigan, inson aqli yetmaydigan narsa; sir, siru-asror; **les secrets de la nature** tabiat sirlari; **dans le secret de son cœur** yuragining tubida; **4.** sir, sabab, bois; kalit; **trouver le secret de l'affaire** ishning kalitini topmoq; **5. en secret** yashirincha, hech kimga bildirmay; **il est venu en secret** u hech kimga bildirmay keldi; **6. mettre qqn au secret** biror kishini yolg'iz xonaga qamab qo'ymoq; **7.** sir, hiyla, sekret; **une serrure à secret** pinhoniy, yashirin, maxfiy qulf.

**secrétaire[1]** *n* **1.** kotib, siyosiy rahbar; **secrétaire d'État** davlat kotibi (*AQSh tashqi ishlari vaziri*); **secrétaire d'ambassade** elchixona kotibi; **le premier secrétaire** bosh kotib; **2.** kotib (*biror muassasa, tashkilotning tashkiliy va uni yuritish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini olib boruvchi shaxs*); **secrétaire général** bosh kotib; **secrétaire de rédaction** bosh redaktorning movini; **3.** sekretar, kotib, kotiba (*tashkilot yoki idoralarda yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi xodim, ish yurituvchi*); **une secrétaire de direction** boshqaruv kotibasi; **secrétaire médical** vrach asistenti.

**secrétaire[2]** *nm* sekreter (*yozuv stolining bir turi*).

**secrétariat** *nm* **1.** sekretarlik, kotiblik; **2.** kotibiyat, sekretariat; **adressez-vous au secrétariat** sekretariatga murojaat qiling.

**secrètement** *adv* **1.** yashirin, maxfiy pavishda, bekitib; **2.** *litt* yashiriqcha, bildirmay, sezdirmay, zimdan.

**sécréter** *vt* ajratmoq, ajratib chiqarmoq (*bezlarga nisbatan*).

**sécrétion** *nf* **1.** sekretsiya (*bezlarning shira ishlab chiqarishi, bezlargan sekret chiqishi*); **glandes à sécrétion interne, à sécrétion externe** ichki, tashqi sekretsiya bezlari; **2.** ajralib chiqqan mahsulot; **le lait, la sueur sont des sécrétions** sut, ter ajralib chiqqan mahsulotlardir.

**sectateur, trice** *n* tarafdor, ashaddiy muxlis.

**sectaire** *n, adj* fanatik, o'taketgan mutaassib.

**secte** *nf* sekta, mazhab, tariqat; **les membres d'une secte** sekta a'zolari.

**secteur** *nm* **1.** mudofaa, jang hududi, maydoni, chizig'i; **un secteur agité** notinch hudud; *fam* **il va falloir changer de secteur** joyni o'zgartirish kerak bo'ladi; **2.** okrug, rayon, bo'lim; **candidat aux élections dans le 5e secteur de Paris** Parijning 5-okrugidan saylovga nomzod; **3.** elektr tarmog'i, yoritish tarmog'i; **une panne de secteur** elektr tarmog'idagi halokat; **poste de radio branché sur le secteur** tarmoqqa ulangan radio; **4.** sektor, tarmoq; **secteur privé** xususiy tarmoq; **secteur public, nationalisé** jamoat sektori, nasionalizatsiya qilingan sektor; **secteur de cercle** doira sektori.

**section** *nf* **1.** bo'lim, shu'ba; **la section locale d'un parti** partiyaning mahalliy bo'limi; **2.** vzvod, harbiy bo'linma; **une section d'infanterie** piyoda qo'shinlar vzvodi; **section, halte!** vzvod, to'xta! **3.** seksiya, bo'lim, uchastka; **section de vote** saylov uchastkasi; **sections littéraire, scientifiques** adabiyot, aniq fanlar sinflari (*o'rta maktabda*); **4.** *géom* kesim; **les diverses sections du cube** kubning turli kesimlari; **5.** qirqim, kesilgan joy; **6.** kesish, bo'lish; **la section d'un tuyau** trubani kesish.

**sectionnement** *nm* bo'limlarga, qisimlarga bo'lish, kesish.

**sectionner** *vt* **1.** bo'limlarga, qisimlarga bo'lish; **2.** sharta kesib ketmoq; **il a eu un doigt sectionné par la machine** uning barmog'ini stanok kesib ketgan.

**séculaire** *adj* asriy; **traditions séculaires** asriy an'analar.

**séculier, ière I.** *adj* dunyoviy; **tribunaux séculiers** dunyoviy sudlar; **le clergé séculier** oq ruhoniylar (*poplar*); **II.** *nm* oq ruhoniy (*pop*).

**secundo** *adv* ikkinchidan.

**sécurité** *nf* **1.** xavfsizlik, bexavotirlik; **sentiment de sécurité** bexavotirlik hisi; **de sécurité** xavfsizlik; **ceinture de sécurité** xavfsizlik kamari; **2.** kafolat, xavfsizlik; **rechercher la sécurité matérielle, la sécurité de l'emploi** moddiy, ish bilan ta'minlanganlik kafolatini istamoq; **la sécurité nationale, internationale** milliy, xalqaro xavfsizlik; **Conseil de Sécurité** Xavfsizlik Kengashi; **sécurité publique** ijtimoiy xavfsizlik; **mesures de sécurité** xavfsizlik choralari; **3.** ta'minot; **sécurité sociale** ijtimoiy ta'minot; ijtimoiy sug'urta.

**sédatif, ive I.** *adj* tinchlantiruvchi; **propriétés sédatives** tinchlantiruvchi xususiyatlar; **II.** *nm* tinchlantiruvchi dori.

**sédentaire** *adj* muqim, bir yerdan jilmaydigan; o'troq; **une vie, un métier sédentaire** muqim, bir yerdan jilmaydigan hayot, kasb; **une population sédentaire** o'troq xalq.

**sédentariser** *vt* o'troqlashtirmoq; **des nomades sédentarisés** o'troqlashtirilgan ko'chmanchilar.

**sédiment** *nm* **1.** cho'kindi, quyqa, loyqa, quyqum, cho'kma; **sédiment urinaire** siydik cho'kindisi; **2.** *pl* cho'kindilar, suvosti cho'kindilari, cho'kindi qatlam; **les sédiments fluviaux** daryo cho'kindilari.

**sédimentaire** *adj* cho'kindilarga oid, cho'kindi; **roches sédimentaires** cho'kindi qoyalar.

**sédimentation** *nf* **1.** cho'kish, inish; **vitesse de sédimentation** eritrotsidlarning cho'kish reaksiasi; **2.** cho'kindi qatlamning hosil bo'lishi.

**séditieux, euse** *adj litt* isyonchi, isyon, g'alayon ko'taruvchi, isyonkor, isyonkorlik; **troupes séditieuses** isyonkor olomon.

**sédition** *nf litt* isyon, g'alayon.

**séducteur, trice** *n* **1.** yo'ldan uradigan odam, yo'ldan ozdiruvchi, rom, mahliyo etuvchi, vasvasa qiluvchi, avroqchi; **une grande séductrice** juda ham ko'ngilni sust ketkazuvchi ayol; **2.** *vx* yo'ldan uruvchi, shahvoniyatga boshlovchi.

**séduction** *nf* **1.** yo'ldan urish, yo'ldan ozdirish, yo'ldan urish, vasvasaga solish; **2.** havasni keltirish, maftunkorkik, jozibadorlik; **les séductions de la nouveauté** yangilikning havasni keltirishi.

**séduire** *vt* **1.** qiziqtirmoq, maftun qilmoq, shaydo qilmoq, yo'ldan ozdirmoq, vasvasa qilmoq; **elle séduit tous les hommes** u hamma erkaklarni vasvasaga soldi; **il séduisait même ses adversaires** u hattoki o'zining paqiblarini ham qiziqtirib qo'ygan edi; **2.** *vx* aldamoq, yo'ldan urmoq (*ayollarni*); **elle a été séduite est abandonnée avec son enfant** u aldangan va bolasi bilan tashlab ketilgan edi; **3.** maftun qilmoq, shaydo qilmoq, o'ziga tortmoq; **j'avoue que ses projets m'ont séduit** men tan olamanki, bu reja meni maftun qilib qo'ydi.

**séduisant, ante** *adj* **1.** maftun qiladigan, shaydo qiladigan, yo'ldan ozdiradigan, yo'ldan uradigan, vasvasaga soladigan; maftunkor, jozibali; **une femme très séduisante** juda ham o'ziga maftun qiladigan xotin; **un visage séduisant** maftunkor, jozibali chehra.

**segment** *nm* **1.** segment; **segment de droite** o'ng tomon segmenti; **2.** bo'g'im, segment; **les segments des membres des insectes** hasharotlarning bo'g'imlari; **3.** turli texnika qisimlari; **segments de piston** porshen gilzalari.

**segmentation** *nf* segmentlarga bo'lish, qisimlarga bo'lish, parshalash.

**segmenter** *vt* segmentlarga bo'lmoq, parchalamoq; **œuf fécondé qui se segmente** urug'lanib parchalangan urug'.

**ségrégation** *nf* segregatsia, ajratish (*irqiy va boshqa diskriminatsiya formalari*) **l'Afrique du Sud pratiquait la ségrégation raciale** Janubiy

Afrikada irqiy ajratishlarga yo'l qo'yilar edi; **ségrégation sociale, sexuelle** ijtimoiy, jinsiy ajratish.

**ségrégationniste** *adj, n* segregatsiyaga, ajratishga oid, segregatsiya tarafdori.

**séide** *nm* said, murid.

**seigle** *nm* javdar, javdari bug'doy; qora bug'doy (*o'simligi*); **pain de seigle** javdar non.

**seigneur** *nm* **1.** senyor; **le seigneur et ses vassaux** senyor va uning vassallari; *loc plais* **mon seigneur et maître** begim, xo'jayinim, erim; **à tout seigneur tout honneur** teng tengi bilan, tezak qopi bilan; *loc fig* **vivre en grand seigneur** boy-badavlat yashamoq, yegani oldida, yemagani ketida; **faire le grand seigneur** olijanoblik qilmoq; **2.** olloh, xudo; **le jour du Seigneur** yakshanba.

**seigneurial, ale, aux** *adj* **1.** zodagonlarga qarashli; **terres seigneuriales** zodagonga qarashli yer; **2.** *litt* shohona; **réception seigneuriale** shohona bazm.

**seigneurie** *nf* **1.** zodagonning haq-huquqlari va yer-suvi; **2.** senyor (*unvon, daraja*); **Votre, Sa seigneurie** janoblari.

**sein** *nm* **1.** ko'krak, ko'ks, siyna, bag'ir, to'sh; **serrer, presser qqn, qqch sur, contre son sein** biror kimsani, biror narsani ko'ksiga bosmoq; **2.** siyna, ko'krak, emchak (*ayollarda*); **donner le sein à un enfant** bolani emizmoq, bolaga ko'krak tutmoq; **3.** *litt* ona qorni; **dans le sein de sa mère** onasining qornida; **4.** *litt* bag'ir, ich; **le sein de la terre** yerning bag'rida; *loc* **au sein de** ichida, bag'rida; **chaque État garde son autonomie au sein de la fédération** har bir davlat ittifoq ichida o'z mustaqilligini saqlaydi.

**seing** *nm* imzo, qo'l; *loc* **seing privé** notarius tomonidan tasdiqlanmagan imzo; **des actes sous seing privé** notarius tomonidan tasdiqlanmagan hujjat.

**séisme** *nm* yer qimirlash, yer silkinish.

**seize I.** *adj* o'n olti; **elle a seize ans** u o'n olti yoshda; **la page seize** o'n oltinchi bet; **II.** *nm* **le seize du mois** oyning o'n oltinchisi; **il habite au seize** u o'n oltinchi uyda yashaydi.

**seizième I.** *adj* o'n oltinchi; **II.** *nm* o'n oltinchi qism, bo'lim.

**séjour** *nm* **1.** bo'lish, turish; **on leur a accordé le droit de passage, non de séjour** ularga o'tib ketishga ruxsat berishdi, turishga emas; **carte de séjour** biror joyda bo'lishga, turishga ruxsat beradigan hujjat; **salle de séjour** kundalik yashaydigan xona; **2.** *litt* joy, turar joy; **passer l'été dans un séjour agréable** yozni yoqimli bir joyda o'tkazmoq.

**séjourner** *vt* **1.** bo'lmoq, turmoq, ma'lum muddat yashamoq; **nous avons séjourné chez des amis, à l'hôtel** biz o'rtoqlarimiznikida, mehmonxonada turdik; **2.** turib qolmoq; **une cave où l'eau séjourne** suv turib qoladigan yerto'la.

**sel** *nm* **1.** tuz; **sel gemme** toshtuz; **sel marin** dengiz tuzi; **sel de table, sel fin** mayda osh tuzi; **sel de cuisine** osh tuzi; **2.** tub ma'no, mag'iz, mohiyat; **une plaisanterie pleine de sel** ma'nili hazil.

**sélect, ecte** *adj fam* tanlangan, saylangan, ajoyib; **une clientèle sélecte** sara mijozlar.

**sélecteur** *nm* **1.** perekluchatel; **un sélecteur d'ondes, de programmes** to'lqin, programma perekluchateli; **2.** tezlik darajasini o'zgartiruvchi asbob.

**sélectif, ive** *adj* tanlovchi, saralovchi; tanlash, saralash; **épreuve sélective** saralash imtihoni; **poste récepteur sélectif** o'zi tanlaydigan radio apparat.

**sélection** *nf* **1.** tanlov, saylash; **faire, opérer une sélection** tanlov o'tkazmoq; **sélection naturelle** tabiiy tanlov; **sélection artificielle** sun'iy tanlov; **2.** tanlangan, saylangan narsalar; **une sélection de films** tanlangan filmlar.

**sélectionné, ée** *adj* **1.** tanlangan, saylangan; **les joueurs sélectionnés de l'équipe de France** Fransiya terma komandasining o'yinchilari; **2.** tanlangan, saralangan, sara; **des graines sélectionnées** saralangan urug'lar.

**sélectionner** *vt* tanlamoq, saylamoq, saralamoq.

**sélectionneur, euse** *n* tanlovchi, saralovchi, saylovchi; **le sélectionneur d'une équipe de football** futbol komandasini saralovchi.

**sélectivité** *nf* radio apparatining to'lqinlarni ajratish, tutish qobiliyati.

**self-service** *nm anglic* erkin xizmat qiladigan magazin.

**selle**[1] *nf* **1.** egar; **cheval de selle** miniladigan ot; **se mettre en selle** egarga o'tirmoq, otga minmoq; *loc* **mettre qqn en selle** biror kishini biror ishda qo'llab yubormoq; **2.** velosiped, mototsikl egari.

**selle**[2] *nf* **1.** yozilish, ichni bo'shatish; **aller à la selle** yozilmoq, ichni bo'shatmoq; **2.** *pl* najas, axlat; **analyse de selles** axlat analizi.

**seller** *vt* egarlamoq, egar urmoq.

**sellerie** *nf* **1.** egar-jabduqchilik; **2.** egar-jabduq.

**sellette** *nf vx* jinoyat kursisi; *loc* **être sure la sellette** jinoyat kursisiga o'tirmoq.

**selon** *prép* biror narsaga muvofiq, binoan, ko'ra; biror narsa yuzasidan, bo'yicha; **faire qqch selon les règles** biror narsani qonunga ko'ra bajarmoq; **la Terre tourne autour du soleil selon une orbite elliptique** yer quyosh atrofida eliptik orbita bo'ylab harakat qiladi; **à chacun selon ses mérites** har kimning xizmatiga yarasha; **2.** sababli, tufayli, sababdan, bo'lgani uchun; **il a fait, selon moi, une bêtise** menimcha, u bo'lmag'ur bir ish qilib qo'ydi; **3.** qarab, bo'yicha, ko'ra; **c'est rapide ou lent, selon les cas** sharoitga qarab, bu tez yoki sekin bo'ladi; **son humeur change selon qu'il se sent admiré ou critiqué** maqtalishi yoki tanqid qilinishiga qarab, uning kayfiyati o'zgaradi; *fam* **c'est selon** sharoitga qarab, balki.

**semailles** *nf pl* ekish, sepish, sochish; ekin-tekin.

**semaine** *nf* **1.** hafta; **en début, en fin de semaine** haftaning boshida, oxirida; **à la semaine prochaine!** kelgusi haftagacha! **ce sera fini dans une semaine** bu bir haftadan keyin tugaydi; **2.** hafta ichi, hafta davomi; **la semaine de trente-cinq heures** o'ttiz besh soatlik hafta; **la semaine anglaise** besh ish kunilik hafta; **à la semaine** bir haftaga; **chambre louée à la semaine** bir haftaga ijaraga olingan xona; **être de semaine** bir hafta ishlamoq, bir hafta navbatchilik qilmoq; **3.** bir haftalik ish haqi.

**sémentique I.** *nf* semantika, semasiologiya; **I.** *adj* semantik, semasiologik; ma'noga oid.

**sémaphore** *nm* semafor.

**semblable I.** *adj* **1.** o'xshash, bir xil, bir xildagi; **une maison banale, semblable à beaucoup d'autres** boshqa ko'p uylarga o'xshash oddiy uy; **en semblable occasion** bunday hollarda; **2.** *pl* o'xshash, bir biriga o'xshash; **des goûts semblables** o'xshash didlar; **3.** *litt* bunday, shunday; **de semblables propos sont inadmissibles** bunday gaplar o'rinsiz; **II.** *nm* o'xshashlar, o'xshash odamlar; **vous et vos semblables** siz va sizga o'xshashlar; **il n'a pas son semblable pour raconter des blagues** qiziqchiliklarni gapirib berishda unga teng keladigani yo'q; **partager le sort de ses semblables** o'ziga o'xshaganlarning qismatiga sherik bo'lmoq.

**semblant** *nm litt* **faux semblant** ikkiyuzlamachilik, shunchaki, nomiga; **un semblant de** shunchaki, nomiga; **manifester un semblant d'intérêt** nomigagina qiziqish bildirmoq; *loc* **faire semblant de** o'zini biror kuyga, holga solmoq, mug'ombirlik qilmoq; **j'ai fait semblant d'avoir oublié** men o'zimni unutib qo'yganga soldim; **ne faire semblant de rien** sir boy bermaslik, bilintirmaslik; bilmaganga, ko'rmaganga solmoq.

**sembler I.** *vi* bo'lib ko'rinmoq, -ga o'xshamoq, -ga o'xshab ko'rinmoq, tuyulmoq; **les heures m'ont semblé longues** vaqt menga uzoq tuyuldi; **elle semble fatiguée** u charchganday ko'rinadi; **tu semble le regretter** sen unga achinayotganga o'xshaysan; **II.** *v impers* **il me semble inutile de revenir là-desus** menimcha bun mavzuga qaytishning hojati yo'q; **sembler bon** ma'qul ko'rinmoq; **venez quand bon vous semblera** sizga ma'qul bo'lganda keling; **il semble que** ehtimol, chamasi, shekilli; go'yo, aftidan; **il semble qu'il n'y a plus rien à faire** aftidan qiladigan boshqa ish qolmadi; **il semble qu'il n'y ait plus rien à faire** go'yoki qilgani boshqa ish qolmagan emish; **il me (te) semble que** nazarida tuyulmoq; go'yo, -dek ko'rinmoq, -day bo'lmoq; **il lui semblait connaître ce garçon** uning nazarida, u bu bolani taniganday tuyulardi.

**semelle** *nf* **1.** taglik, tagcharm; **des semelles de cuir, de caoutchouc** qayish, rezina tagcharm; **2.** patak; *loc* **ne pas quitter qqn d'une semelle** biror kishidan biror qadam ham ajramaslik.

**semence** *nf* **1.** urug', urug'lik; **trier des semences** urug'larni saralamoq; **2.** *vx* urug', tuxum, pusht, sperma.

**semer** *vt* **1.** sepmoq, sochmoq, ekmoq; **semer du blé** bug'doy sepmoq; *loc* **semer le bon grain** yaxshilik urug'ini sepmoq; *prov* **qui sème le vent recolte la tempête** nima eksang, shuni o'rasan; **2.** tarqatmoq, sochmoq; **semer des pétales de fleurs sur le passage de qqn** biror kishining yo'llariga gullar sochmoq; *fig* **semer la discorde** nizo urug'ini sochmoq; **3. (de)** qoplamoq, bosmoq; **une mer semée d'écueils** suv osti qoyalari bilan qoplangan dengiz; **4.** ortda qoldirmoq, uzoqlashmoq; **semer ses poursuivants, ses concurrents** ta'qibchilarini, raqiblarini ortda qoldirmoq.

**semestre** *nm* **1.** semestr, yarim yillik; **2.** yarim yilda to'lanadigan foyda yoki nafaqa.

**semeur, euse** *n* ekuvchi; urug' sepuvchi, sochuvchi; **un semeur de discorde** nizo urug'ini sochuvchi.

**semi-automatique** *adj* yarim avtomatik.

**semi-auxiliaire** *adj, nm* yarim mustaqil fe'l.

**semi-circulaire** *adj* yarim doira; **canaux semi-circulaires** yarim doira kanallar.

**semi-conducteur** *nm* yarim o'tkazgich.

**semi-consonne** *nf* yarim unli, yarim undosh.

**sémillant, ante** *adj litt* o'ynoqi, sho'x, tinchimaydigan, tinib-tinchimas; **une sémillante jeune personne** sho'x yigitcha.

**séminaire** *nm* **1.** seminariya; **2.** seminar.

**séminal, ale, aux** *adj* urug'likka oid, urug'lik; **canaux séminaux** urug' yo'llari.

**sémiologie** *nf* semiotika (*kasalliklar alomatlari haqidagi fan; belgilar nazariyasi haqidagi fan*); **la sémiologie du geste** imo-ishora semiotikasi.

**sémiotique** *nf, adj* semiotika, belgilar nazariyasi haqidagi fan.

**semis** *nm inv* **1.** ekish; **semis en lignes** qatorlab ekish; **2.** ekinlar yangi unib chiqqan maydon.

**sémite** *n* som, somiy, semit.

**sémitique** *adj* som, somiy, semitga oid; som, somiy, semit; **l'hébreu, l'arabe sont des langues sémitiques** ivrit, arab tillari somiy tillardir.

**semi-voyelle** *nf* yarim unli.

**semoir** *nm* seyalka, urug' ekgich.

**semonce** *nf* **1.** kemaga bayrog'ini ko'rsatish va to'xtash uchun beriladigan buyruq; **2.** hayfsan; tanbeh, dakki; **il a reçu une verte semonce** u tanbeh eshitdi.

**semoule** *nf* bug'doy yorma; **sucre semoule** shakar.

**sempiternel, elle** *adj* to'xtovsiz, tinimsiz, betinim, doimiy; **il nous ennuie avec ses sempiternelles récriminations** u tinimsiz tortishuvlari bilan bizning jonimizga tegib ketdi.

**sénat** *nm* senat; **le président du Sénat** senat raisi.

**sénateur** *nm* senator, senat a'zosi.

**sénescence** *nf* qarish, qarilik.

**sénile** *adj* qarilikka oid, qarilik; **tremblement sénile** qarilik qaltirog'i.

**sénilité** *nf* qarilik, qarish; **sénilité précoce** erta qarish.

**senior** *n, adj* **1.** yoshlar sportidan kattalar qatoriga o'tgan sportchi; **2.** yosh pensioner.

**sens**[1] *nm inv* **1.** sezgi; **les cinq sens traditionnels** an'anaviy besh sezgi; **reprendre (l'usage de) ses sens** hushiga kelmoq; **sixième sens** ichki his, intuitsiya; *loc* **tomber sous le sens** aniq bo'lmoq, ko'zga yaqqol ko'rinib turmoq; **elle a le sens du rythme** unda ritmni sezish hisi bor; **bon sens** aqli rasolik, eslilik; **un homme de bon sens** aqli raso, o'ylab ish qiladigan odam; **avoir du bon sens** aqli raso bo'lmoq; **manquer de bon sens** aqli kaltalik qilmoq; **ça n'a pas le sens commun** bu aqldan emas; **2.** fikr, his; **à mon sens** menimcha, mening fikrimcha; **en un sens** ma'lum nuqtai nazardan qaraganda; **3.** ma'no, mazmun; **le sens d'un texte** matnning mazmuni; **ce symbole a un sens profond** bu ramzning chuqur ma'nosi bor; **étude du sens** ma'noni o'rganish, semantika; **ce mot a plusieurs sens** bu so'zning ko'p ma'nosi bor; **sens propre, figuré** asl, ko'chma ma'no; **4.** ma'no, mazmun, maqsad; **ce qui donne un sens à la vie** hayotga mazmun bag'ishlovchi narsa.

**sens**[2] *nm inv* **1.** taraf, tomon, yoq, yo'nalish; **dans le sens de la longueur** uzunasiga; **retourner qqch dans tous les sens** biror narsani har tarafga aylantirmoq; **sens dessus dessous** ostin-ustun, tartibsiz; **sens devant derrière** teskarisiga, oldini orqaga qilib; **il a mis son pull sens devant derrière** u jemperini oldini orqasiga qaratib kiyib olibdi; **2.** yo'nalish, yoq; **voie à sens unique, à double sens** bir yoqlama, ikki yoqlama yo'l; **panneau de sens interdit** yo'nalishni taqiqlovchi belgi; **3.** yo'nalish, yo'l; **nous devons travailler dans le même sens** biz xuddi shu yo'nalishda ishlashimiz kerak; **le sens de l'histoire** tarix yo'nalishi.

**sensation** *nf* **1.** sezish, his qilish; sezgi, his, tuyg'u; **sensations auditives, olfactives** eshitish, hid bilish sezgilari; **éprouver une sensation de faim, de froid** ochlikni, sovuqni his qilmoq; **il avait la sensation d'être traqué** u o'zini ta'qib qilinayotganday, uni ta'qib qilishayotganday his qilardi; **aimer les sensations fortes** kuchli tuyg'ularni yoqtirmoq; **2.** sensatsiya, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan gap, shov-shuv, duv-duv gap bo'ladigan narsa; **son intervention a fait sensation** uning aralashuvi shov-shuvga sabab bo'ldi; *loc* **à sensation** sensatsion, shov-shuv, duv-duv gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan; **la presse à sensation** shov-shuvli xabarlarga o'ch matbuot.

**sensationnel, elle** *adj* **1.** sensatsion, shov-shuv, duv-duv gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan; **une nouvelle sensationnelle** duv-duv gap bo'ladigan yangilik; **2.** *fam* ajoyib, zo'r; **un acteur sensationnel** zo'r aktyor.

**sensé, ée** *adj* aqlli, mulohazali, muhokamali, o'ylab, aql bilan ish qiladigan; **des observations justes et sensées** o'rinli va aqlli tanbeh.

**sensibilisation** *nf* **1.** sezuvchan qilish, allergiya; **2.** qaratish, jalb qilish.

**sensibiliser** *vt* **1.** sezuvchan qilmoq; **2.** qaratmoq, jalb qilmoq; **l'opinion publique n'est pas encore sensibilisée à ce problème** jamoat fikri hali bunga qaratilgani yo'q.

**sensibilité** *nf* **1.** sezuvchanlik, ta'sirchanlik; **la sensibilité de la rétine** ko'z pardasining sezuvchanligi; **2.** his, tuyg'u, sezish, his qilish; **une vive sensibilité** kuchli tuyg'u; **un ouvrage plein de sensibilité** his-tuyg'uga to'la asar; **3.** sezuvchanlik, o'ta sezgirlik; **la sensibilité d'une balance** tarozining sezgirligi.

**sensible**[1] *adj* **1.** sezgir, sezuvchan, sezuvchi; **les êtres sensibles** sezuvchi mavjudotlar; **l'oreille n'est pas sensible à certains sons** quloq ba'zi bir ovozlarni eshitmaydi; **2.** tegsa og'riydigan, sezuvchan; **endroit sensible** tegsa og'riydigan joy; **le point sensible de qqn, qqch** biror kishi, narsaning bo'sh joyi; **il est sensible du foie** uning jigari zaif; **3.** ta'sirchan, beriluvchan, moyil; **c'est un enfant très sensible** bu juda ta'sirchan bola; **je suis sensible à vos attentions** sizning mehribonchiligingizdan g'oyat minnatdorman; **4.** sezuvchan, aniq; **balance très sensible** juda aniq tarozi; **pellicule sensible** sezuvchan plyonka.

**sensible**[2] *adj* **1.** sezadigan, sezish uchun xizmat qiladigan, sezuvchi; sezish; **2.** sezilarli, ko'zga tashlanadigan; **une baisse sensible des prix** narx-navoning sezilarli pasayishi; **3.** juda nozik.

**sensiblement** *adv* **1.** deyarli, qariyb; **nous étions sensiblement de la même taille** bizning bo'yimiz qariyb bir xilda edi; **2.** sezilarli, ma'lum darajada; ancha; **la situation s'est sensiblement améliorée** ahvol sezilarli darajada yaxshilandi.

**sensitif, ive I.** *adj* sezgir, sezuvchan; **nerfs sensitifs** sezuvchan nervlar; **II.** *n litt vx* o'ta ta'sirlanuvchan, beriluvchan; o'ziga tez oluvchan.

**sensitive** *nf* mimoza (*qo'l tegsa bargi yumiladigan o'simlik*).

**sensoriel, elle** *adj* sezgiga oid, sezish; **les organes sensoriels** sezgi a'zolari.

**sensualisme** *nm phil* sensualizm (*bilish nazariyasida sezgilarni bilishning asosiy manbai deb tan oluvchi yo'nalish*).

**sensualité** *nf* hissiyot, his-tuyg'u; **l'éveil de la sensualité** hissiyotni uyg'otish.

**sensuel, elle** *adj* **1.** his, tuyg'u qo'zg'atadigan, hissiy; **l'amour sensuel** hissiy sevgi; **2.** hirsni qo'zg'aydigan, hirsiy; **une bouche sensuelle** hirsni qo'zg'atadigan og'iz.

**sente** *nf* so'qmoq, yolg'izoyoq yo'l.

**sentence** *nf* **1.** hukm, qaror; **juge qui prononce, qui fait exécuter une sentence** hukm chiqaradigan, hukmni ijro etadigan sud; *fig* **alors docteur, quelle est votre sentence?** xo'sh doktor, sizning hukmingiz nima bo'ldi? qanday to'xtamga keldingiz? **2.** *litt* hikmatli gap, hikmat, pand-nasihat.

**sentencieux, ieuse** *adj* pand-nasihatli, ibratli, nasihatomuz, hikmatli; **un ton sentencieux** nasihatomuz ohang.

**senteur** *nf litt* muattar hid, xushbo'y is, bo'y; **les senteurs d'un soir d'été** yoz kechasining muattar hidlari.

**senti, ie** *adj litt* hissiyotga to'la, zo'r hissiyot, hayajon, samimiyat bilan aytilgan, samimiy; **une description sentie** hissiyotga to'la tasvir; **bien senti** chuqur hayajon, samimiyat bilan aytilgan, samimiy; **il a placé quelques mots bien sentis** u bir necha samimiy so'zlarni ishlatgan.

**sentier** *nm* so'qmoq, yo'lakcha; **sentiers de randonnée** sayr yo'lakchalari; *loc* **les sentiers battus** aniq chizib qo'yilgan, ma'lum yo'l; **s'écarter, s'éloigner des sentiers battus** aniq chizib qo'yilgan yo'ldan chetga chiqmoq, chetlashmoq.

**sentiment** *nm* **1.** his qilish, sezish, tushunish; **avoir le sentiment de sa force** o'z kuchini tushunib turmoq; **il éprouvait un sentiment de solitude** u o'zini yolg'iz his qilar edi; **2.** *litt* fikr, mulohaza; **c'est aussi mon sentiment** mening fikrim ham shunday; **3.** his, tuyg'u, ehtiros; **manifester, dissimuler ses sentiments** o'z tuyg'ularini izhor qilmoq, yashirmoq; **un sentiment partagé** o'zaro muhabbat; **recevez l'expression de mes sentiments respectueux, de mes sentiments les meilleurs** mening hurmat-ehtiromimni, eng yaxshi istaklarimni qabul qilgaysiz; **4.** ehtiros, his-tuyg'u; **le sentiment ne suffit pas!** ehtirosing o'zigina yetmaydi! **pas tant de sentiment!** ko'p ham ehtirosga berilavermang! *fam* **avoir qqn au sentiment** biror kishining rahmini keltirmoq; **elle a chanté avec beaucoup de sentiment** u zo'r ehtiros bilan kuyladi.

**sentimental, ale, aux** *adj* **1.** ishqqa oid, ishqiy; **sa vie sentimentale est assez agitée** uning ishqiy hayoti sarguzashtlarga boy; **2.** hissiyotga berilgan, ehtirosli; **un point de vue sentimental** hissiyotga berilgan nuqtai nazar; **3.** ortiq darajada hissiyotga beriladigan, hassos, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanadigan; **4.** sentimentalizm ruhidagi, sentimental; **des romances sentimentales** sentimentalizm ruhidagi romanslar.

**sentimentalité** *nf* hissiyotga beriluvchanlik, hassoslik, ko'ngli bo'shlik, ta'sirchanlik.

**sentinelle** *nf* qorovul, soqchi, navbatchi; **relever les sentinelles** soqchilarni almashtirmoq; **en sentinelle** qorovulda.

**sentir I.** *vt* **1.** sezmoq, his qilmoq; **je sens un courant d'air** men shabadani sezyapman; **il ne sentait pas la fatigue** u charchoqni his qilmas edi; *fam* **ne plus sentir ses jambes** charchoqdan oyog'ini sezmay qolmoq; **faire sentir** sezdirib, bildirib qo'ymoq; **il m'a fait sentir que j'étais de trop** u menga juda orttirib yuborganligimni sezdirib qo'ydi; **se faire sentir** sezilmoq, ko'rinmoq; **les effets se feront bientôt sentir** natijalari yaqinda ko'rinib qoladi; **2.** hidlamoq, iskamoq, hidlab ko'rmoq; **sens ce parfum!** bu atirni hidla! *loc fam* **ne pas pouvoir sentir qqn** biror kishini ko'rgani ko'zi yo'q bo'lmoq; **3.** oldindan sezmoq, oldindan bilmoq; his qilmoq, sezmoq; **il sentait le danger** u xavfni sezar edi; **4.** zavqlanmoq; **il sentait la beauté de cette musique** u bu musiqaning go'zalligidan zavqlanardi; **5.** ta'sirlanmoq; **il ne sent jamais rien** unga hech narsa ta'sir qilmaydi; **6.** hid taratmoq, hidi kelmoq, hidlanmoq, sasimoq; **cette pièce sent le renfermé** xona dimiqib ketibdi; **ces fleurs sentent bon** bu gullar anvoyi hid taratishyapti; **tu sens mauvais** sendan yomon hid kelyapti; **il sent des pieds** uning oyog'i sasiydi; **II. se sentir** *vpr* **1. ne pas se sentir de** o'zida yo'q bo'lmoq; **ils ne se sentent plus de joie** ular o'zida yo'q xursand; **2.** o'zini his qilmoq; **il se sentait mieux** u o'zini yaxshi his qilar edi.

**seoir** *vi vieilli, litt* **1.** yarashmoq, o'tirmoq, to'g'ri, mos kelmoq; **cette robe vous sied à merveille** bu ko'ylak sizga juda yarashadi; **2.** ma'qul bo'lmoq, to'g'ri kelmoq; **comme il sied**;, **comme il vous siéra** qanday ma'qul bo'lsa, sizga qanday ma'qul bo'lsa.

**sépale** *nm* kosachabarg, gulkosabarg.

**séparable** *adj* ajraladigan, bo'linadigan.

**séparation** *nf* **1.** ajratish, ajralish; **la séparation des éléments d'un mélange** aralashmadan elementlarni ajratish; **la séparation de l'Eglise et de l'État** cherkov va davlatning ajralishi; **2.** ajralish, qo'ydi-chiqdi; **leur séparation était pénible** ularning ajralishi og'ir edi; **séparation amiable** o'zaro rozichilik bilan ajralish; **3.** ajratgich, to'siq; **haie qui sert de séparation entre deux jardins** ikki bog' o'rtasida to'siq vazifasini bajaruvchi panjara.

**séparatiste** *n* separatist, separatizm tarafdori.

**séparément** *adv* alohida, ajralgan holda, yakka, tanho; **je les recevrai séparément** men ularni yakka-yakka qabul qilaman.

**séparer I.** *vt* **1.** ajratmoq, bo'lmoq; **séparer une chose d'une autre** biror narsani ikkinchisidan ajratmoq; **2.** ajratmoq, ajratib qo'ymoq, ayirmoq, oraga tushmoq; **on a dû la séparer de ses enfants** uni bolalaridan ayirib qo'yishga to'g'ri keldi; **on a séparé les combattants** urishayotganlarni ajratib qo'yishdi; **des époux séparés** ajrashgan er-xotinlar; **3.** ajratmoq, farqlamoq; **tu as tort de séparer théorie et pratique** sen nazariyani amaliyotdan ajratib xato qilasan; **4.** ajratmoq, ajratib turmoq; **la cloison qui sépare les deux pièces** ikki xonani ajratib turadigan pardadevor; **la politique nous a séparés** siyosat bizni ajratib yubordi; **II. se séparer** *vpr* **(de)** ajralmoq, ajralishmoq, boshqa-boshqa yashamoq; **elle s'est séparée de son marie** u eri bilan ajralishdi; **j'ai dû de me séparer de mon vélo** velosipedimdan ajralishimga to'g'ri keldi.

**sept I.** *adj numér* yetti; yettinchi; **les sept jours de la semaine** haftaning yetti kuni; **chapitre sept** yettinchi bob; **II.** *nm inv* **il habite sept** u yettinchi xonada yashaydi.

**septembre** *nm* sentabr.

**septennat** *nm* yetti yillik muddat; yetti yillik prezidentlik muddati.

**septentrional, ale, aux** *adj* shimoliy; **l'Europe septentrionale** shimoliy Yevropa.

**septicémie** *nf méd* sepsis.

**septième I.** *adj* yettinchi; **le septième art** kino; **II.** *n* **1.** yettinchi, yettinchi o'rindagi; **2.** *nf* yettinchi sinf.

**septièmement** *adv* yettinchidan.

**septique** *adj méd* septik (*sepsis natijasida sodir bo'ladigan*).

**septuagénaire** *adj, n* yetmish yoshlardagi; **un, une septuagénaire** yetmish yoshlardagi kishi, ayol.

**septuple** *adj* yetti karra, yetti bor.

**sépulcre** *nm* qabr; **des sépulcres blanchis** usti yaltiroq, ichi qaltiroq odamlar.

**sépulture** *nf* **1.** *litt* dafn qilish; **2.** dafn qilingan joy, qabr; **violation de sépulture** qabrni vayron qilish.

**séquelle** *nf pl* asorat, oqibat, natija; **cette chute lui a laissé des séquelles** bu yiqilish unda asorat qoldirdi; **les séquelles de la dévaluation** pulning qadrsizlanish oqibati.

**séquence** *nf* **1.** ko'rinish, epizod (*kino*); **2.** ketma-ketlik, birin-ketinlik, izchillik.

**séquentiel, ielle** *adj* izchillilik, ketma-ketlik, birin-ketinlik.

**séquestration** *nf* qamab qo'yish; **la séquestration des otages** garovdagilarni qamab qo'yish.

**séquestre** *nm* sekvestr, xatlash; **des biens mis sous séquestre** xatlab qo'yilgan mulk.

**séquestrer** *vt* qamab, berkitib qo'ymoq; **ils séquestrent leur fille** ular qizini qamab qo'yadilar; **les ravisseurs ont séquestré l'enfant une semaine** o'g'rilar bolani bir hafta berkitib qo'ydilar.

**séquoia** *nm bot* sekvoya.

**sérail, ails** *nm* **1.** saroy (*Sharqda hukmdorlarning saroyi*); **2.** haram.

**serein[1], eine** *adj* **1.** *litt* ochiq, tiniq, yorqin, sokin, oydin, porloq; **une nuit sereine** oydin kecha; **2.** xotirjam, tinch, osoyishta; **il reste serein devant la mort** u o'lim oldida xotirjam turibdi; **visage serein** xotirjam yuz.

**serein[2]** *nm litt* shudring, shabnam.

**sérénade** *nf* **1.** serenada (*ma'shuqaga atab aytilgan ishqiy qo'shiq*); **donner une sérénade à sa belle** o'z ma'shuqasiga atab serenada aytmoq; **2.** shu qo'shiq maqomida yozilgan musiqa asari.

**sérénissime** *adj* shavkatli; **altesse sérénissime** shavkatli oliy hazrat.

**sérénité** *nf* xotirjamlik, tichlik, og'ir-bosiqlik.

**séreux, euse I.** *adj* zardobga oid; zardobli; **liquide séreux** zardobli suyuqlik; **II.** *nf* zardob.

**serf** *nm* krepostnoy.

**sergent** *nm* **1. sergent de ville** politsiyachi; **2.** serjant; **sergent-chef** katta serjant.

**sériciculture** *nf* pillachilik.

**série** *nf* **1.** turkum, seriya, birtalay, bir necha, qator; **émission d'une série de timbres** markalar seriyasini chiqarish; **une série noire** qator falokatlar; **une série de questions** birtalay savollar; **2.** guruh, to'p, seriya; **film de série B** B seriyasidagi film; **voiture de série** ommaviy ishlab chiqariladigan avtomobil; **fabrication en série** ommaviy ishlab chiqarish; **hors série** ommaviy emas, alohida.

**sérier** *vt* tasniflamoq, qatorga tizmoq, seriyalarga bo'lmoq; **il faut sérier les questions** savollarni tasniflash kerak.

**sérieusement** *adv* **1.** jiddiylik bilan, jiddiy; **2.** jiddiy, rostdan, chindan; **tu dis ça sérieusement?** sen buni jiddiy aytyapsanmi? **3.** astoydil, qattiq, jiddiy; **il songe sérieusement à émigrer** u ko'chib ketish haqida asdoydil o'ylayapti; **4.** jiddiy, qattiq, og'ir; **il est sérieusement atteint** u og'ir shikastlangan.

**sérieux, euse I.** *adj* **1.** jiddiy, bama'ni, mulohazali; **un élève sérieux et appliqué** jiddiy va tirishqoq o'quvchi; **un travail sérieux** jiddiy ish; **2.** jiddiy, og'ir-bosiq, hazilni yoqtirmaydigan; *loc fam* **être sérieux comme un pape** juda ham jiddiy bo'lmoq; **3.** jiddiy, ishonarli, ishonchli, rost; **un renseignement sérieux** ishonarli ma'lumot; *fam* **ce n'est pas sérieux** bu rost emas, bu hazil; **4.** jiddiy, esli, bama'ni; **une jeune fille sérieuse** esli qiz; **5.** jiddiy, muhim, sezilarli; **revenons aux choses sérieuses** muhim ishlarga qaytaylik; **une sérieuse augmentation** sezilarli oshish; **la situation est sérieuse** sharoit nozik; **II.** *nm* **1.** jiddiylik; **j'avais de la peine à conserver mon sérieux** men o'zimning jiddiyligimni zo'rg'a tutib turdim; **2.** jiddiylik, mulohazalilik; **il manque de sérieux dans son travail** uning ishida mulohazalilik yetishmaydi; **prendre qqch en sérieux** biror narsani jiddiy qabul qilmoq; **prendre qqn au sérieux** biror kishini jiddiy odam deb hisoblamoq.

**serin** *nm* **1.** kanareyka; **2.** tentak, befahm, anqov.

**seriner** *vt* qaytarmoq, qayta-qayta aytmoq, uqdirmoq.

**seringa** *nm bot* bog' yosumani.

**seringue** *nf* shpris; **faire une piqûre à l'aide d'une seringue** shpris bilan ukol qilmoq.

**sérique** *adj* zardobga oid, zardobli, zardob.

**serment** *nf* **1.** qasam, qasamyod; **prêter serment** qasamyod qilmoq; **témoigner sous serment, sous la foi du serment** qasam ichib guvohlik bermoq; **serment professionnel** kasb qasami; **serment d'Hippocrate** Gippokrat qasami; **2.** ont, va'da, so'z; **je vous en fais le serment** men sizga va'da beraman; *loc* **des serments d'ivrogne** quriq va'da.

**sermon** *nm* **1.** *relig* va'z, xutba; **2.** *péj* va'z, pand, nasihat, o'git; **faire un sermon à qqn** birovning qulog'iga va'z aytmoq.

**sermonner** *vt* pand-nasihat qilmoq, o'git bermoq.

**sérosité** *nf* zardob.

**serpe** *nf* bog'dorchilik pichog'i, chopqi; *loc* **visage taillé à la serpe, à coups de serpe** suyaklari bo'rtib chiqqan, qo'pol yuz.

**serpent** *nm* **1.** ilon; **une morsure de serpent** ilon chaqishi; **serpent à lunettes** ko'zoynakli ilon; **serpent à sonnettes** shaqildoq ilon; **2.** makkor, yovuz odam, ilon, zahar; **une prudence, une ruse de serpent** ilonning ehtiyotkorligi, ayyorligi; **langue de serpent** tili zahar; **nourrir, réchauffer un serpent dans son sein** qo'ynida ilon asramoq.

**serpenter** *vi* egri-bugri, ilon izi bo'lib ketmoq; **le sentier serpente dans la campagne** so'qmoq qishloqda ilon izi bo'lib ketardi.

**serpentin** *nm* **1.** burama, spiral naycha; **2.** serpantin (*rang-barang qog'oz lenta*).

**serpillière** *nf* pol latta.

**serrage** *nm* siqish, qisish.

**serre** *nf* **1.** issiqxona, teplitsa; **effet de serre** issiqxona effekti (*yer sharining isib ketishi*); **2.** *pl* tirnoq, changal.

**serrer** *vt* **1.** qismoq, siqmoq; *loc* **serrer la main à qqn, de qqn** biror kishining qo'lini qismoq (*salomlashmoq*); **serrer qqn contre soi** biror kishini ko'kragiga bosmoq; **cela me serre le cœur** bu mening yuragimni siqyapti; **2.** jipslashtirmoq; **serrez les rangs!** saflarni jipslashtiring; **3.** yopmoq, qismoq, siqmoq; **serrer les lèvres** lablarini qismoq; **4.** toraytirmoq, siqmoq, qismoq; **serrez votre ceinture** kamaringizni qisib oling; **cette jupe me serre, me serre la taille** bu yubka qisyapti, belimni qisyapti; **5.** bekitmoq, yopmoq; *loc* **serrer la vis à qqn** biror kishining tanobini tortib qo'ymoq; **6.** itarmoq, qismoq, siqmoq; **serrer qqn de près** ta'qib qilmoq, iskanjaga olmoq; **ses concurrents le serraient de près** uning raqiblari uni ta'qib qilishardi; **serrer de près une question** biror masalani yaqindan muhokama qilmoq; **serrez à droite, à gauche** o'ngga, chapga oling (*mashinani*); **7.** olib, yig'ishtirib qo'ymoq.

**serre-tête** *nm inv* boshga bog'lanadigan band, peshonabog'.

**serrure** *nf* qulf; **la clef est dans la serrure** kalit qulfda.

**serrurerie** *nf* **1.** slesarlik ishi, slesarlik; chilangarlik; **2.** slesarlik mahsulotlari; **serrurerie d'art** temirdan yasalgan san'at asari.

**serrurier** *nm* slesar, chilangar.

**sertir** *vt* o'rnatmoq, solmoq; ko'z qo'ymoq, qadamoq; **rubis serti dans une monture en or** oltin gardishga o'rnatilgan yoqut; **serti de** qadama naqshli; **coffret serti de gemmes** qimmatbaho toshlar qadalgan quticha.

**sertissage** *nm* o'rnatish, solish, qadash, ko'z qo'yish.

**sérum** *nm* **1. sérum sanguin** qon zardobi; **2.** zardob (*qon va limfalardan tayyorlangan em dori*); **sérum antitétanique** qoqshol kasaliga qarshi zardob; **sérum physiologique** fiziologik eritma.

**servage** *nm* krepostnoylik; **l'abolition du servage** krepostnoylikni bekor qilish.

**servant** *nm* zambarakchi askar.

**servante** *nf* xizmatkor ayol.

**serveur, euse** *n* **1.** ofitsiant, ofitsiant ayol; **2.** oshiruvchi (*tennisda*); **3.** *nm inform* server.

**serviabilité** *nf* xizmatga tayyorlik.

**serviable** *adj* xizmatga tayyor, ishdan bo'yin tovlamaydigan.

**service[1]** *nm* **1.** xizmat, vazifa, ish; **assurer un service** biror vazifani bajarmoq; **pendant les heures de services** xizmat vaqtida; **être en service commandé** topshirilgan vazifani bajarayotgan bo'lmoq; **être de service** navbatchilik qilmoq; **le pompier de service** navbatchi o't o'chiruvchi; **le personnel d'ordre** tartib-intizomni nazorat qiluvchi xizmatchilar; **je suis à votre service** men xizmatingizga tayyorman; **qu'y a-t-il pour votre service?** xo'sh, xizmat, bizdan nima xizmat? **service national, service (militaire)** harbiy xizmat; **il a fait son service** u harbiy xizmatini o'tadi; **état de service** kishining harbiy darajasi; **2.** *relig* toat-ibodat, ibodat; **se consacrer au service de Dieux** o'zini olloh yo'liga bag'ishlamoq; **service divin** ibodat; **3.** xizmat, xizmat ko'rsatish; **être au service de qqn** biror kishining xizmatida bo'lmoq; **service rapide** tez xizmat ko'rsatish; **4.** xizmat qilish, xizmat ko'rsatish; **quant il reçoit, il fait lui-même le service** u mehmon qabul qilganda o'zi xizmat ko'rsatadi; **5.** ovqat; **premier, deuxième service** birinchi, ikkinchi ovqat; **6.** xizmat, yordam, ko'mak; **peux-tu me rendre un petit service?** menga ozgina yordam berib yubora olasanmi? **j'ai un service à te demander** mening sendan bitta iltimosim bor; **rendre un mauvais service à qqn** biror kishiga bema'ni xizmat ko'rsatmoq; **rendre service à qqn** biror kishiga xizmat qilmoq, foydali bo'lmoq; **7.** *pl* pulli xizmat, ish; **je vais être obligé de me priver de vos services** men sizning xizmatlaringizdan voz kechishga majbur bo'laman; *loc* **mettre qqch en service** biror narsani ishga tushirmoq; **appareil hors service** ishdan chiqqan apparat; *fam* **être hors service** holdan toymoq; **8.** uzatish, o'yinga kiritish (*tennisda, voleybolda*); **faute de service** uzatishdagi xato; **9.** tarqatish, egasiga yetkazib berish, xizmat ko'rsatish; **service de presse** nashrlarni jurnalistlarga bepul yetkazib berish; **10.** xizmat ko'rsatish, xizmat; **le service des postes** pochta xizmati; **11.** boshqarma, bo'lim; **chef de service** bo'lim boshlig'i; **le service de pédiatrie d'un hôpital** kasalxonaning bolalar bo'limi; **le service après-vente** sotuvdan keyingi ko'rsatiladigan xizmat.

**service[2]** *nm* **1.** serviz, to'plam (*yeyish, ichish uchun kerakli idish-tovoq*); **un service à café, à thé** qahva, choy servizi; **un service de porcelaine** chinni serviz; **2.** dasturxon, sochiqlar.

**serviette** *nm* **1.** sochiq, salfetka; **serviette de table, de toilette** dasturxonda ishlatiladigan sochiq; artinadigan sochiq; **serviette en papier** qozoz salfetka; **2.** portfel.

**servile** *adj* **1.** *hist* qullarga oid, qullarga xos, qul; **2.** qullarcha xushomadgo‘ylik bilan; hech so‘zsiz, bosh egib; **de serviles flatteries** qullarcha xushomadgo‘ylik; **3.** ko‘r-ko‘rona; **une servile imitation** ko‘r-ko‘rona taqlid.

**servilité** *nf* **1.** xushomadgo‘ylik, laganbardorlik; **2.** ko‘r-ko‘ronalik.

**servir**[1] **I.** *vt* **1.** xizmat qilmoq; **il a bien servi son pays, l'État** u vataniga, hukumatga yaxshi xizmat qildi; **servir** xizmat qilmoq (*askar*); **se faire servir** xizmatkori bo‘lmoq; *prov* **on n'est jamais si bien servi que par soi-même** o‘zingdan qolari yo‘q; **2.** xizmat ko‘rsatmoq, yedirib-ichirmoq, xizmat qilmoq; **servir qqn à table** dasturxonda kimgadir xizmat qilmoq; **servir un client** mijozga xizmat ko‘rsatmoq; **3.** xizmat qilmoq, yordam bermoq, qo‘llamoq, madad bermoq; **je vous ai servi, j'ai servi vos intérêts** men sizni qo‘lladim, men sizning manfaatingizni qo‘lladim; **sa discrétion l'a servi** uning og‘ir-bosiqligi unga qo‘l keldi; **4.** tortiq qilmoq, siylamoq, tortmoq, bermoq; **sers-moi à boire** menga ichimlik quyib yubor; **servir du melon en entré, comme entré** birinchiga qovun tortmoq; **à table! c'est servi!** dasturxonga! dasturxon tuzatildi! **on lui sert une petite rente** unga kichik bir renta in'om qilishdi; **à moi de servir** qartani tarqatish mening navbatim; **5.** ibodat qilmoq; **II. se servir** *vpr* olmoq, olib yemoq; **sers-toi en légumes, de légumes** sabzavotlardan ol, olib ye; **se servir chez un commerçant** odatda bir savdogardan savdo qilmoq.

**servir**[2] **I.** *vi* **1.** ishlamoq, ish bermoq, xizmat qilmoq; **cela peut vous servir à l'occasion** bu sizga payti kelganda ish berib qoladi; **2.** biror narsaga, biror maqsadga xizmat qilmoq; biror narsa biror maqsad uchun xizmat qilmoq; **à quoi sert cet instrument? il sert à ouvrir des bouteilles** bu asbob nimaga xizmat qiladi? u shishalarni ochish uchun xizmat qiladi; **ne pleure pas, cela ne sert à rien** yig‘lama, buning hech foydasi yo‘q; **3.** biror kishiga biror narsa qilish uchun xizmat qilmoq; **cette prime va me servir à payer mes dettes** bu mukofot menga qarzlarimni to‘lash uchun xizmat qiladi; **tu ne sers à rien, tu es inutile** sen hech narsaga yaramaysan, sen keraksizsan; **4. (de)** bo‘lib xizmat qilmoq, vazifasini o‘tamoq; **la petite pièce sert de débarras** kichik xona omborxona bo‘lib xizmat qiladi; **la personne qui lui sert de témoin** unga guvohlik qiladigan odam; **que cela te serve de leçon** bu senga saboq bo‘lsin; **II. se servir** *vpr* **(de)** foydalanmoq, ishlatmoq; **nous nous servons des machines les plus récentes** biz eng yangi mashinalardan foydalanamiz; **elle s'est servie de son expérience** u o‘zining tajribasidan foydalandi; *pej* **se servir de qqn** biror kishidan foydalanib qolmoq (*o‘z foydasi uchun*).

**serviteur** *nm* **1.** *litt* xizmatchi; **un fidèle serviteur d'État** davlatning sodiq xizmatchisi; **2.** *vx* xizmatkor, malay; *vx ou plais* **votre serviteur** sizning sodiq qulingiz.

**servitude** *nf* **1.** qullik, tobelik, qaramlik; **maintenir qqn dans la servitude** biror kishini qullikda tutmoq; **2.** bog‘liqlik, chegaralanganlik; **les servitudes d'un métier** kasbning bog‘liqliklari; **3.** *dr* servitut (*birovning mulkidan ma'lum maqsadda foydalanish huquqi*); **servitude d'écoulement des eaux** suv oqimlaridan foydalanish huquqi.

**servofrein** *nm* tormoz kuchaytigichi.

**servomécanisme** *nm* servomexanizm, nazorat mexanizmi.

**ses** *adj pl* o‘zining.

**sésame** *nm* kunjut; *loc* **sésame, ouvre-toi** sim-sim, och eshigingni.

**session** *nf* sessiya, yig‘ilish; **une session extraordinaire du parlement** parlamentning navbatdan tashqari majlisi; **session d'examens** imtihon sessiyasi.

**set** *nm anglic* o‘yin, set (*tennis, voleybolda*).

**setter** *nm* setter (*it zoti*).

**seuil** *nm* **1.** ostona, bo‘sag‘a; **la gardienne se tenait sur le seuil** qorovul xotin ostonada turar edi; **2.** arafa, boshlanish; **au seuil de** arafasida, bo‘sag‘asida, ostonasida, boshida; **au seuil de l'hiver** qish arafasida; **au seuil de la vieillesse** qarilik bo‘sag‘asida.

**seul, seule I.** *adj* **1.** yolg‘iz, bir o‘zi; **il vit seul** u yolg‘iz yashaydi; **parler tout seul** o‘ziga-o‘zi gapirmoq; **être seul avec qqn** biror kishi bilan yolg‘iz qolmoq; **il faut que je te parle seul, à seul** men sening o‘zingga aytishim kerak; **être tout seul au monde** dunyoda butunlay yolg‘iz bo‘lmoq; **2.** yolg‘iz, yakkayu-yagona; **il est seul de son espèce** u o‘z sohasida yakkayu-yagona; **3.** yolg‘iz, hamrohsiz; **il y avait à la table deux femmes seules** stolda ikkita hamrohsiz xotin o‘tirar edi; *loc* **faire cavalier seul** bir o‘zi harakat qilmoq; **4.** yolg‘iz, bitta, yagona; **c'est ma seule joie** bu mening yolg‘iz quvonchim; **il n'y avait plus une seule place** bir dona ham joy qolmagan edi; **c'est le seul avantage** bu yagona ustunlik; **II.** *adv* **1.** yolg‘iz, faqat; **lui seul en est capable** bunga faqat ugina qodir; **2.** yolg‘iz, bir o‘zi, boshqalarning yordamisiz; **je pourrais le faire seul, tout seul** buni men bir o‘zim qilolardim; **débrouille-toi toute seule!** o‘zing bir ilojini top! **cela ira tout seul** buning o‘zi ketaveradi; **III.** *n* bir kishi, bir narsa; **par la volonté d'un seul** bir kishining xohishi bilan; **un seul de ses livres m'a plu** uning kitoblaridan bittasi menga yoqdi; **tu n'es pas le seul à penser ainsi** bunday o‘ylaydigan bitta sen emas.

**seulement** *adv* **1.** faqat, yolg‘iz; **l'homme ne vit pas seulement de pain** odam faqat non bilangina yashamaydi; **si seulement il pouvait faire beau!** faqat havo ochiq bo‘lganda edi! **2.** hattoki; **sans avoir seulement le temps de dire un mot** bir og‘iz so‘z ham aytishga vaqti bo‘lmay; **3.** faqat, lekin; **c'est une bonne voiture, seulement elle coûte cher** bu yaxshi avtomobil, faqat u qimmat turadi.

**sève** *nf* **1.** suv (*daraxtning tanasidagi*); **la montée de la sève** daraxtning tanasiga suv yurishi; **2.** *litt* kuch-quvvat, qirchillama davr; **malgré son grand âge, il déborde de sève** yoshi bir joyga borib qolganiga qaramay, u kuch-quvvatga to‘la.

**sévère** *adj* **1.** qattiqqo‘l, talabchan; **des parents sévères** qattiqqo‘l ota-ona; **être sévère avec qqn, envers qqn** biror kishiga nisbatan qattiqqo‘l bo‘lmoq; **2.** qattiq, jiddiy; **adresser de sévères critiques à qqn** biror kishiga jiddiy tanqid qaratmoq; **des mesures sévères** jiddiy choralar; **2.** *litt* qat'iy, aniq, sovuq; **3.** og‘ir, qattiq, jiddiy; **une sévère défaite** og‘ir mag‘lubiyat; **la lutte sera sévère** jang og‘ir bo‘ladi.

**sévèrement** *adv* qattiqqo‘llik bilan, talabchanlik bilan, qattiq turib, qattiq; **punir, critiquer sévèrement** qattiq jazolamoq, tanqid qilmoq.

**sévérité** *nf* **1.** talabchanlik, qattiqqo‘llik; **2.** qattiqlik, jiddiylik.

**sévices** *nm pl* qo‘pollik, dag‘allik, qattiqlik, zo‘ravonlik; **exercer des sévices sur qqn** biror kishiga dag‘allik qilmoq; **se rendre coupable de sévices** zo‘ravonlikda ayblanmoq.

**sévir** *vi* **1.** qattiq jazolamoq; **les autorités sont décidées à sévir** boshliqlar qattiq jazolashga qaror qilishdi; **2.** quturmoq, avjiga minmoq, g‘oyat kuchaymoq; **l'épidémie sévissait depuis plusieurs mois** bir necha oydan buyon epidemiya avjiga mingan edi.

**sevrage** *nm* ko‘krakdan ajratish (*yosh bolani*).

**sevrer** *vt* ko‘krakdan ajratmoq, sutdan ajratmoq; *litt* **sevrer qqn de** biror kishini mahrum qilmoq; **une enfant sevrée de tendresse** mehrdan mahrum qilingan qizcha.

**sexagénaire** *adj, n* oltmish yoshlardagi, oltmish va yetmish yoshlar orasidagi.

**sexe** *nm* **1.** jins; **enfant de sexe masculin, féminin** erkak, ayol jinsidagi bola; **le sexe faible, le deuxième sexe, le beau sexe** ayollar, xotin-qizlar; **le sexe fort** erkaklar, erkak kishilar; **2.** seks (*jinsiy hayotga, shahvoniy munosabatlarga bog‘liq hamma narsa*); **3.** jinsiy a'zolar.

**sexologie** *nf* seksologiya (*jinsiy hayot haqidagi fan*).

**sexologue** *n* seksolog (*jinsiy hayot, shahvoniy munosabatlar bo‘yicha mutaxassis shifokor*).

**sextant** *nm* sekstant (*burchak o‘lchash asbobi*).

**sextuple** *adj* olti barobar.

**sextupler I.** *vt* olti barobar orttirmoq; **II.** *vi* olti barobar oshmoq.

**sexué, ée** *adj* **1.** jinsiy belgili, jinsiy belgisi bor; **les végétaux sont sexués** o‘simliklarning jinsiy begisi bor; **2.** jinsiy yo‘l bilan, jinsiy aloqa orqali; **la reproduction sexuée** jinsiy yo‘l bilan ko‘payish.

**sexuel, elle** *adj* **.** jinsga oid, jinsiy; **l'acte sexuel** jinsiy aloqa.

**sexualité** *nf* **1.** chatishish qobiliyati, chatishish; **la sexualité des plantes** o‘simliklarning chatishishi; **2.** jinsiy aloqa qobiliyati; **troubles de la sexualité** jinsiy aloqa qobiliyatining buzilishi.

**seyant, ante** *adj litt* yarashiqli, yarashgan; **une robe, une coiffure seyante** juda yarashiqli ko‘ylak, bosh kiyimi; **ce n'est pas très seyant** bu juda ham yarashiqli emas.

**shah** *nm voir* **schah**.

**shaker** *nm anglic* sheyker, kokteyl tayyorlaydigan idish.

**shampoing** *ou* **shampooing** *nm* **1.** bosh yuvish; **2.** shampun.

**shérif** *nm* sherif (*Angliyada ma'muriy amaldor va ayrim sud ishlarini olib boruvchi shaxs; AQShda politsiya zobiti*).

**shilling** *nm* shilling (*qadimiy Angliya pul birligi*).

**shoot** *nm anglic foot* darvozaga tepish.

**shooter** *vi foot* darvozaga tepmoq.

**shopping** *nm anglic* do'kon aylanish, do'kondan xarid qilish.

**short** *nm* short (*kalta shim*).

**show** *nm anglic* tomosha.

**showbiz** *nm fam abrév voir* **show-business**.

**show-business** *nm anglic* shou-biznes (*tomosha tashkil qilish*).

**si¹ I.** *conj* **1.** agar, agarda, bordiyu; modomiki; basharti, mabodo …sa; **si tu es libre, nous irons ensemble** agar sen bo'sh bo'lsang, biz birga boramiz; **si j'avais su, je ne serais pas venu** agar bilganimda, kelmagan bo'lar edim; **viendras-tu? si oui, préviens-moi à l'avance** borasanmi? agar borsang, meni oldindan ogohlantirib qo'y; **si on peut dire** agar aytish mumkin bo'lsa; **si je ne me trompe** adashmasam; **un des meilleurs, si ce n'est le meilleur** eng yaxshisi bo'lmagan taqdirda ham eng yaxshilaridan biri; **tout va bien, si ce n'est que j'ai un rhume** tumov bo'lib qolganimni hisoblamasa, hammasi yaxshi; **s'il revient te voir, c'est qu'il n'a pas de fierté** u sening oldingga qaytib kelar ekan, demak uning g'ururi yo'q; **je dois m'assurer si tout est fait** hamma narsaning qilinganligiga ishonch hosil qilishim kerak; **tu me diras si c'est lui** agar u bo'lsa, menga aytarsan; **2.** go'yoki, xuddi, -day; **il se conduit comme s'il était fou** u o'zini xuddi jinniday tutadi; **et si ça tourne mal?** agar bu yurishmay qolsachi? **si seulement, si au moins je pouvais me reposer!** hech bo'lmasa dam ololganimda edi! **s'il avait été plus prudent!** u ehtiyotkorroq bo'lganida edi! **II.** *nm inv loc* **avec des si, on mettrait Paris dans une bouteille** iloji yo'q narsani qilgan bo'lishardi; agarjonni magarjonga uylantirsang, koshki degan bola tug'iladi.

**si²** *adv* shu darajada, shunchalar, shuncha; **il est si bête!** u shunchalar ahmoqki! **ils ont si mal joué qu'ils ont été sifflés** ular shunchalar yomon ijro etishdiki, ularga hushtak chalishdi; *loc conj* **si bien que** oqibatda, natijada; **il n'est pas venu, si bien que la partie n'a pu avoir lieu** u kelmadi, oqibatda partiya o'ynalmadi; **il échouera, si malin qu'il soit** qancha ayyor bo'lmasin, u o'tolmaydi.

**si³** *nm inv mus* si (*musiqiy gammaning yettinchi notasi*).

**siamois, oise** *adj* **1.** Siamga oid, siamlik; **chat siamois** Siam mushugi; **2. frères siamois, sœurs siamoises** tutashib qolgan egizaklar; *fig* ajralmas do'st, kindigi bir.

**sibérien, enne** *adj* Sibirga oid, Sibir; **un froid sibérien** Sibir sovug'i.

**sibylle** *nf* oldindan aytib beruvchi, bashorat qiluvchi, bashoratgo'y, karomatchi ayol.

**sibyllin, ine** *adj litt* sirli, yashirin, jumboqli; **des propos sibyllins** jumboqli gaplar.

**sida** *nm* (*abrév* **Syndrome d'immunodéficience acquise**) SPID, OITS (*Orttirilgan immun tanqisligi sindromi*).

**sidatique** *adj, n* spidga uchragan, spid bilan og'rigan.

**side-car** *nm* mototsikl kajavasi.

**sidéen, enne** *adj, n* spidga uchragan, spid bilan og'rigan.

**sidéral, ale, aux** *adj* yulduzlarga oid, yulduz.

**sidérer** *vt fam* hayratga solmoq, hang-mang qilib qo'ymoq, og'zini ochib qo'ymoq; **cette nouvelle m'a sidéré** bu yangilik meni hang-mang qilib qo'ydi; **complètement sidéré** og'zi lang ochilib.

**sidérurgie** *nf* qora metallurgiya.

**sidérurgique** *adj* metallurgiyaga oid, metallurgiya; **usine sidérurgique** metallurgiya zavodi.

**sidologue** *n* spid bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

**siècle** *nm* **1.** asr, yuz yil; **le XXIᵉ siècle** XXI asr; **le Grand Siècle** Ulug' Asr (*Lui XIV asri*); *fam* **l'affaire, le contrat du siècle** asr ishi, bitimi; **cet arbre a été planté il y a un siècle** bu daraxt bir asr oldin ekilgan edi; **depuis des siècles** ko'p asrlardan beri, ko'p vaqtlardan beri.

**siège** *nm* **1.** manzilgoh, qarorgoh, manzil, o'rnashgan, turgan joy, makon; **le siège d'un parti** partiyaning manzilgohi; **2.** markaz, makon; **le siège d'un douleur** og'riqning makoni; **3.** qamal; **le siège devant une ville** shaharni qamal qilish; **état de siège** qamal holati; **lever le siège** qamalni bekor qilmoq; **4.** kursi, o'rindiq, stul, kreslo; **prends un siège** o'tir; **les sièges avants, arrière d'une automobile** avtomobilning old, orqa o'rindiqlari; **5.** o'rin, mandat (*saylovda*); **le parti a gagné vingt sièges à l'Assemblée** partiya Assableyada yigirmata o'rin yutib chiqdi; **6.** yurisdiksiya, sud qilish huquqi; **7.** orqa, odamning dumbasi; **bain de siège** o'tiriladigan vanna; **enfant qui se présente par le siège** orqasi bilan kelgan bola (*tug'ishda*).

**siéger** *vi* **1.** majlis qilmoq, kengash o'tkazmoq; **le juge siègera demain** sud ertaga majlis o'tkazadi; **2.** *litt* bo'lmoq, joylashmoq; **voilà où siège le mal** mana yomonlikning tomiri qayerda.

**sien, sienne I.** *adj litt* **il a fait siennes les idées de son chef** u boshlig'ining g'oyalarini o'ziniki qilib oldi; **II.** *pron* **je préfère mon vélo au sien** men o'zimning velosipedimni unikidan afzal ko'raman; **III.** *n* **1.** o'ziga qarashli, o'ziniki; **il a mis du sien** u o'zining hissasini qo'shdi (*pul, mehnat*); *fam* **faire des siennes** eski qilig'ini qilmoq, qovun tushirmoq; **2.** *nm pl* o'zinikilar, o'zining yaqinlari, ota-onasi; **elle est revenue parmi les siens** u o'zinikilarning orasiga qaytdi.

**sieste** *nf* tushlikdan keyingi dam olish, mizg'ib olish; **faire la sieste** tushlikdan keyin dam olib olmoq.

**sieur** *nm* janob (*rasmiy hujjatlarda*); *pej* **à en croire le sieur Un Tel** falonchi janobning gapiga qaraganda.

**sifflant, ante** *adj* chiyildoq, g'uvillagan, hushtaksimon ovoz chiqaradigan; **respiration sifflante** g'ijirlagan nafas olish; **consonne sifflante** sirg'aluvchi undosh.

**sifflement** *nm* **1.** hushtak chalish; **émettre un sifflement admiratif** qoyil qolganidan hushtak chalib yubormoq; **2.** hushtak, hushtak ovozi; **le sifflement des balles** o'qlarning chiyillashi, vizillashi.

**siffler I.** *vi* **1.** hushtak chalmoq, sayramoq, chiyillagan ovoz chiqarmoq; **sais-tu siffler?** hushtak chalishni bilasanmi? **asthmatique qui siffle en respirant** g'ijirlab nafas olayotgan astma kasali bor odam; **le loriot siffle** zarg'aldoq chiyillaydi; **2.** g'uvillamoq, shuvillamoq, g'izillamoq, chinqirmoq; **le vent sifflait** shamol g'uvillardi; **II.** *vt* **1.** hushtakda chalmoq; **siffler un petit air joyeux** biror sho'x kuyni hushtakda chalmoq; **2.** hushtak chalib chaqirmoq, hushtak chalib bildirmoq; **siffler son chien** itini hushtak chalib chaqirmoq; **l'arbitre a sifflé une faute** hakam qoida buzilganligini hushtak chalib bildirdi; **3.** hushtak chalmoq, hushtak chalib norozilik bildirmoq; **le pianiste s'est fait siffler** pianistga hushtak chalishdi; **4.** *fam* bir ko'tarishda ichmoq, otmoq, urmoq; **il a sifflé trois verres à la suite** u birin-ketin uch stakanni otib yubordi.

**sifflet** *nm* **1.** hushtak; **le sifflet de l'arbitre** hakamning hushtagi; **2.** hushtak ovozi, hushtak; **j'ai entendu des sifflets** men hushtak ovozlarini eshitdim; *loc fam* **couper le sifflet à qqn** og'ziga urmoq, ovozini o'chirmoq, gapirtirmay qo'ymoq; **ça m'a coupé le sifflet** bu meni gapirtirmay qo'ydi.

**siffleur, euse I.** *adj* hushtaksimon ovoz chiqaruvchi, chiyildoq; **merle siffleur** sayroqi qorayaloq; **II.** *nm* hushtakboz.

**siffloter** *vi* o'zicha biror kuyni hushtak chalib ijro etmoq.

**sigle** *nm* qisqartma so'z, abbreviatura (*bosh harflardan tuzilgan qisqartma so'z*).

**signal, aux** *nm* **1.** ishora, imo, belgi, signal; **à son signal, tout le monde se leva** uning ishorasi bilan hamma o'rnidan turdi; **donner le signal du départ** ketishga signal bermoq; **2.** signal, belgi; **signal d'alarme** trevoga signali; **signaux optiques, acoustiques** yorug'lik, tovush signallari; **signaux de chemin de fer** temir yo'l signallari; **le conducteur n'a pas respecté le signal** haydovchi yo'l qoidasiga amal qilmadi; **signaux routiers** yo'l ogohlantiruvchi belgilari.

**signalé, ée** *adj* katta, ulkan, muhim, ajoyib; **il m'a rendu un signalé service** u menga katta yordam ko'rsatdi.

**signalement** *nm* belgi, belgilarining ta'rifi; **son signalement a été donné à tous les postes frontières** uning belgilari hamma chegara postlariga berilgan edi.

**signaler I.** *vt* **1.** belgi bermoq, signal bermoq; **cycliste qui tend le bras pour signaler qu'il va tourner** burilish uchun belgi berayotgan velosipedchi; **le train est signalé** poyezdning vokzalga kirishiga signal berildi; **2.** belgi bermoq, signal bermoq, ogohlantirmoq, xabar bermoq; **rien à signaler** hech gap yo'q; **on a signalé leur présence à Paris** ularning Parijdaligi haqida ogohlantirishdi; **permettez-moi de vous signaler que** e'tiboringizga havola qilishga ijozat eting; **3.** aytib qo'ymoq, yetkazib qo'ymoq, xabardor qilib qo'ymoq; **la surveillante générale les a signalés au proviseur** bosh nazoratchi ularni litsey direktoriga aytib qo'ydi; **II. se signaler** *vpr* o'zini ko'rsatmoq, ajralib turmoq; **elle s'est signalée par son courage** u o'zining dadilligi bilan ajralib turadi.

**signalisation** *nf* belgi, ko'rsatkich, signalizatsiya; **feux de signalisation** ko'rsatkich chiroqlari.

**signaliser** *vt* belgi, ko'rsatkich, signalizatsiya o'rnatmoq; **signaliser une route** yo'lga belgi o'rnatmoq.

**signataire** *n* qo'l qo'yuvchi, imzo chekuvchi; **les signataires d'un pacte** bitimga imzo chekuvchilar.

**signature** *nf* **1.** imzo, qo'l; **apposer sa signature** qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq; **2.** imzo chekish, qo'l qo'yish, imzolash; **l'arrêté va être porté à la signature du ministre** qaror yaqinda vazirga qo'l qo'yish uchun olib kirilishi kerak.

**signe** *nm* **1.** belgi, alomat, nishon, aks; **un mot est un signe arbitraire de la chose signifiée** so'z ifodalangan narsaning erkin belgisigir; **signes extérieurs de richesse** ma'murlikning tashqi alomati; **donner des signes de fatigue, de nervosité** charchaganlik, jahli chiqqanlik alomatini bildirmoq; *loc* **ne pas donner signe de vie** tiriklik nishonasini bermaslik; **c'est bon signe** bu yaxshi alomat; **il est sorti, c'est signe qu'il va mieux** u chiqdi, bu uning tuzalayotganidan nishona; **son visage ne présente pas de signes particuliers** uning yuzida alohida belgilari yo'q; **un signe des temps** zamon taqozosi; **2.** imo, ishora, belgi; **communiquer par signes** imo-ishora bilan muloqotda bo'lmoq; **un signe de tête affirmatif, négatif** bosh bilan tasdiq, inkor ishorasi; **je te ferai signe** men senga belgi beraman; **en signe de** belgi, ishora sifatida; **agiter son mouchoir en signe d'adieux** xayrlashish belgisi sifatida ro'molchasini silkitmoq; **3.** harf, belgi, alomat; **le noir, signe de deuil** qora rang, motam belgisi; *math* **le signe "plus" (+), le signe "moins" (-)** "qo'shuv" (+), "ayiruv" (-) belgisi; **les mots sont des signes** so'zlar belgidir; **le signe de la croix** xoch belgisi; **faire le signe de (la) croix** cho'qinmoq; **4.** burj, zodiak belgilari; **être né sous le signe de Bélier, être du signe du Bélier** Qo'y burjida tug'ilgan bo'lmoq; *fam* **sous le signe de la bonne humeur** yaxshi kayfiyat ostida.

**signer[1]** *vt* qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq, imzolamoq; **signer un chèque** chekka qo'l qo'ymoq; **signer la paix** tinchlikka imzo chekmoq; **tableau signé X** X tomonidan imzo chekilgan, chizilgan rasm; **lettre non signée** dumaloq xat.

**signer[2] (se)** *vpr* cho'qinib olmoq.

**signet** *nm* xatcho'p.

**signifiant, ante I.** *adj* ifodalovchi, bildiruvchi; **II.** *nm ling* so'zning moddiy tomoni.

**significatif, ive** *adj* muhim, ahamiyatli; zarur; **une indication très significative** juda muhim ma'lumot.

**signification** *nf* **1.** ma'no, mazmun; **quelle est la signification de cette grimace?** bu aft burushtirishning ma'nosi nima? **les diverses significations d'un mot** so'zning turli ma'nolari; **2.** *dr* sud qaroridan xabardor qilish.

**signifié** *nm ling* so'zning ma'nosi, mazmuniy tomoni.

**signifier** *vt* **1.** bildirmoq, ifodalamoq (*narsa*); **je ne sais pas ce que signifie ce mot** men bilmayman, bu so'z nimani ifodalaydi; **ta conduite signifie que tu n'as pas confiance en moi** sening o'zingni tutishing menga ishonmasligingni bildiradi; **qu'est-ce que cela signifie?** bu nima degani, bu nimani bildiragi? **2.** bildirmoq, ma'lum qilmoq; *dr* e'lon qilmoq, bildirmoq, xabardor qilmoq; **il nous a signifié ses intentions** u o'zining niyatini bizga ma'lum qildi.

**silence** *nm* **1.** jimlik, jim turish, sukut, tinchlik; **garder le silence** jim turmoq; **en silence** jim turib; **faites silence!** jim bo'ling! *ellipt* **silence!** jim! **minute de silence** bir minut sukut saqlash; **2.** sukunat, sukut saqlash, indamaslik; **passer qqch sous silence** biror narsa haqida gapirmay o'tib ketmoq; **promets-moi un silence absolu** bu haqda hech qachon gapirmayman deb, va'da ber; **réduire qqn au silence** biror kishini jim qilib, gapirtirmay qo'ymoq; **3.** jimlik, jimjitlik, sukunat; **dans le silence de la nuit** tun sukunatida; **il régnait un silence de mort, un silence total** suv quyganday jimjitlik; **4.** *mus* pauza.

**silencieusement** *adv* jim, indamay, tinchgina.

**silencieux[1], euse** *adj* **1.** tinch, osoyishta, sokin, shovqinsiz; **rue silencieuse** osoyishta ko'cha; **moteur silencieux** shovqinsiz motor.

**silencieux[2]** *nm inv* **1.** glushitel (*motorning ovozini pasaytiruvchi moslama*); **2.** o'q otuvchi qurollarning ovozini pasaytiruvchi moslama.

**silex** *nm inv* chaqmoqtosh.

**silhouette** *nf* **1.** sharpa, ko'lanka, qora, g'ira-shira ko'ringan aksi; **la silhouette de la tour se découpe sur le ciel** havoda minoraning qorasi ko'rinib turibdi; **silhouette des arbres se reflète dans l'eau** daraxtlarning aksi suvda g'ira-shira ko'rinadi; **2.** tashqi ko'rinish, qiyofa; **sa silhouette est très jeune** uning tashqi ko'rinishi juda yosh.

**silicate** *nm chim* silikat.

**siliceux, euse** *nf* toshloq, toshi ko'p.

**silicium** *nm chim* kremniy.

**silicone** *nf chim* silikat.

**sillage** *nm* suvda kema qoldiradigan iz; *loc* **être, marcher dans le sillage de qqn** biror kishining izidan, orqasidan, yo'lidan bormoq.

**sillon** *nm* **1.** omoch izi, jo'yak; **2.** *pl poét* dalalar; **3.** chiziq, tirish, ajin; **menton creusé d'un sillon** chuqur ajin bosgan iyak.

**sillonner** *vt* **1.** yer haydamoq, jo'yak ochmoq; **front sillonné de rides** ajin tushgan peshona; **2.** kesib o'tmoq; **les éclairs sillonnaient le ciel** chaqmoq osmonni kesib o'tardi; **les routes qui sillonnent cette région** bu viloyatni kesib o'tadigan yo'llar.

**silo** *nm* o'ra, ombor; **des silos à fourrage** silos o'ralar; **des silos à blé** bardonlar, bug'doy omborlari.

**silure** *nm* laqqa baliq.

**simagrée** *nf pl* mug'ombirlik, ayyorlik, quvlik, riyokorlik, yasamalik, noz-istig'no; **elle s'est laissée prendre à tes simagrées** u sening mug'ombirligingga ilindi.

**simiens** *nm pl* maymunlar.

**simiesque** *adj litt* maymunnikiga o'xshash, maymunsifat, maymun; **un visage simiesque** maymunsifat bashara.

**similaire** *adj* turdagi, o'xshash; **nous n'avons plus ce produit, mais nous pouvons vous proposer quelque chose de similaire** bizda bu mahsulotdan boshqa yo'q, lekin sizga shu turdagi biror narsa taklif qilishimiz mumkin.

**similicuir** *nm* sun'iy charm.

**similitude** *nf* o'xshashlik, bir xillik.

**simoun** *nm* samum (*Osiyo va Afrika cho'llarida issiq va quruq shamol*).

**simple I.** *adj* **1.** ochiq ko'ngil, oq ko'ngil, sofdil, sodda; **un homme simple et rude** sodda va dag'al odam; **un cœur simple** ochiq ko'ngil odam; **2.** *pej* sodda, go'l; **il est un peu simple** u biroz go'lroq; **simple d'esprit** esi past, aqli zaif, kaltabin, uzoqni ko'rmaydigan; **3.** oddiy, sodda; **corps chimiques simples** oddiy kimyoviy moddalar; **les temps simples d'un verbe** fe'lning sodda zamonlari; **4.** oddiy, shunchaki, jo'n; **une simple formalité** oddiy rasmiyatchilik; **un simple soldat** oddiy askar; **5.** sodda, murakkab emas; **l'intrigue de se roman est simple** bu romandagi ishqiy sarguzashtlar murakkab emas; **6.** oddiy, sodda, oson, yengil; **il y a un moyen bien simple** buning juda oson yo'li bor; **c'est simple comme bonjour** bundan osoni yo'q; **ce n'est pas si simple** bu unchalik ham oson emas; *fam* **c'est bien simple** buning murakkab joyi yo'q; **c'est bien simple, il suffit d'aller tout droit** bu juda oson, to'g'ri borilsa bo'ldi; **7.** sodda, oddiy, odmi; **dans le plus simple appareil** qip-yalang'och; **une robe toute simple** odmigina ko'ylak; **le mariage a été très simple** to'y soddagina bo'ldi; **II.** *nm* dorivor o'simlik.

**simplement** *adv* **1.** sodda qilib, oddiy ravishda, takallufsiz; bemalol; **2.** shunchaki, shunday, tasodifan; **je voulais simplement te dire** men senga shunchaki aytmoqchi edim.

**simplet, ette** *adj* soddaroq, go'lroq, anqovroq, anoyiroq.

**simplicité** *nf* **1.** ochiq ko'ngillilik, soddadillik, sofdillik; soddalik; **répondre avec simplicité** sofdillik bilan javob bermoq; **2.** *litt* go'llik, soddalik, anqovlik, laqmalik; **je n'ai pas la simplicité de le croire** men bunga ishonadigan laqma emasman; **3.** soddalik, oddiylik, osonlik, odmilik; **problème d'une grande simplicité** juda oson masala; **la simplicité de sa toilette** libosining oddiyligi.

**simplification** *nf* soddalashtirish, osonlashtirish.

**simplifier** *vt* soddalashtirmoq, osonlashtirmoq; **cela simplifie la question** bu masalani osonlashtiradi; **cet appareil me simplifie la vie** bu apparat mening turmushimni osonlashtiradi; **simplifier une fraction** kasrni soddalashtirmoq.

**simpliste** *adj* o'ta soddalashtiruvchilarga, yuzakichilarga xos, o'ta soddalashtiriladigan, yuzakichilik bilan qilinadigan; **un raisonnement simpliste** o'ta yuzaki fikr.

**simulacre** *nm* o'xshaydigan narsa, sirtdan ko'rinish; **il n'y a eu qu'un simulacre de combat** urushga o'xshaydigan bir narsa bo'ldi.

**simulateur, trice** *n* **1.** o'zini yolg'ondan bir ko'yga soladigan odam, mug'ombir; **un habile simulateur** ustakor mug'ombir; **le médecin l'a prise pour une simulatrice** vrach uni yolg'ondakam kasal deb topti; **2.** *nm* taqlidchi, o'xshatuvchi; **un simulateur de vol** uchishga taqlid qiluvchi moslama.

**simulation** *nf* o'zini yolg'ondan biror ko'yga solish; mug'ombirlik, ayyorlik.

**simuler** *vt* o'zini biror ko'yga, holga solmoq, mug'ombirlik qilmoq; **simuler une vente** yolg'ondakam savdo qilmoq; **simuler un malaise** o'zini yomon his qilayotgan qilib ko'rsatmoq.

**simultané, ée** *adj* bir vaqtda, baravar sodir bo'ladigan, sinxron; **mouvements simultanés** baravar harakatlar; **interprétation, traduction simultanée** sinxron tarjima.

**simultanéité** *nf* bir vaqtdalik, baravar yuz berish.

**simultanément** *adv* bir vaqtda, baravar.

**sinanthrope** *nm* sinantrop.

**sinapisme** *nm* gorchichnik qo'yish, gorchichnik.

**sincère** *adj* **1.** samimiy, sofdil, ochiqko'ngil; chin qalbdan, yurakdan aytilgan, qilingan; **il s'est excusé et je le crois sincère** u kechirim so'radi, o'ylaymanki bu chin ko'ngildan; **2.** haqiqiy, asl, chin; **ami sincère** haqiqiy do'st; **amour sincère** chin sevgi; **ce n'est pas sincère** bu chin ko'ngildan emas; **mes sincères condoléances** men chuqur ta'ziya bildiraman.

**sincèrement** *adv* samimiy, chin yurakdan, qalbdan.

**sincérité** *nf* samimiyat, samimiylik, ochiq ko'ngillilik, sofdillik; **je vous le dis en toute sincérité** men sizga buni o'ta samimiyat bilan aytayapman.

**sinécure** *nf* serdaromad, yengil, oson ish; **tu as trouvé une sinécure avec cet emploi** sen bu yerda serdaromad ish topib olding; *fam* **ce n'est pas une sinécure** bu yengil-yelpi ish emas.

**sine die** *loc adv* noma'lum vaqtga; **le débat a été ajourné sine die** munozara noma'lum vaqtga qoldirilgan edi.

**sine qua non** *loc adj inv* zaruriy shart.

**singe** *nm* **1.** maymun; *prov* **on n'apprend pas à un vieux singe à faire la grimace** ayyor odamga ayyorlikni o'rgataman dema; *loc* **payer en monnaie de singe** birovning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq; **être malin comme un singe** tulkiday ayyor bo'lmoq; **faire le singe** qiliq qilmoq, qiyshanglamoq; **2.** xunuk, badbashara odam, maymun; **c'est un vieux singe** bu qari maymun; **3.** *fam* go'shtli konserva; **une boîte de singe** bir banka go'shtli konserva.

**singer** *vt* ko'r-ko'rona taqlid qilmoq; masxara qilmoq.

**singerie** *nf* maymuncha qiliq qilish, aft-basharasini burishtirish; **pas tant de singeries!** buncha maymuncha qiliq qilaverma!

**singulariser I.** *vt* ajratmoq, ajratib turmoq; **II. se singulariser** *vpr* ajralib turmoq.

**singulier, ière I.** *adj* g'alati, o'ziga xos, noyob, g'ayrioddiy; **une nature singulière** o'ziga xos tabiat; **combat singulier** duel; **II.** *nm gram* birlik.

**singulièrement** *adv* **1.** ko'p, ayniqsa, juda ham; **un cas singulièrement troublant** juda ham xavotirga soladigan hol; **2.** *litt* g'alati, o'ziga xos; **il se conduit singulièrement** u o'zini g'alati tutayapdi.

**sinistre**[1] *adj* **1.** dahshatli, vahimali, qo'rqinchli, xunuk; **des craquements sinistres** vahimali g'ijirlash; **une allure sinistre** vahimali ko'rinish; **une rue sinistre** vahimali ko'cha; **un sinistre individu** qo'rqinchli nusxa; **2.** zerikarli, tund, ma'yus, g'amgin; **la soirée a été sinistre** kecha zerikarli bo'ldi.

**sinistre**[2] *nm* **1.** baxtsiz hodisa, falokat, ofat; **le sinistre a fait de nombreuses victimes** ofat katta qurbonlar keltirdi; **2.** zarar, talafot; **évaluer le sinistre** keltirilgan zararni baholamoq.

**sinistré, ée** *adj, n* jabrlangan, jabr ko'rgan, zarar ko'rgan; **région sinistrée** jabr ko'rgan hudud; **les sinistrés sont aidés par la Croix-Rouge** jabrlanganlarga Qizil Yarim Oy jamiyati tomonidan yordam ko'rsatildi.

**sinologue** *n* xitoyshunos.

**sinon** *conj* **1.** demaganda; -dan tashqari, -dan boshqa; **il ne sentait rien, sinon une légère douleur** yengil og'riqni demaganda, u hech narsa sezmas edi; **qu'est-ce qu'on peut faire sinon accepter?** rozi bo'lishdan boshqa nima ham qila olardik? **2.** faqatgina, balki; **c'est une de mes passions, sinon la seule** bu mening qiziqishlarimdan biri, balki yagonasi; **3.** aks holda, bo'lmasa; **il n'a pas eu ta lettre, sinon il serait venu** u sening xatingni olmagan, aks holda u kelgan bo'lar edi.

**sinueux, euse** *adj* egri-bugri, ilang-bilang, ilon izi; **des ruelles étroites et sinueuses** tor va egri-bugri ko'chalar.

**sinuosité** *nf* egri-bugrilik, ilang-bilanglik, ilon izilik; **les sinuosités de la rivière** daryoning ilang-bilangligi.

**sinus**[1] *nm inv* **1.** biror narsaning ichi, biror narsaning ichidagi bo'shliq, kovak; **une douleur dentaire qui se propage dans les sinus** tish kavagida rivojlanayotgan og'riq; **2.** ba'zi bir qon tomirlarining bo'rtig'i.

**sinus**[2] *nm inv* sinus; **le sinus d'un angle** burchakning sinusi.

**sinusite** *nf* sinusit, kovaklarning, bo'shliqlarning yallig'lanishi.

**sinusoïde** *nf* sinusoida (*burchak o'zgarishi bilan uning sinuslari o'zgarishini ko'rsatuvchi egri chiziq*).

**sionisme** *nm* sionizm.

**sioniste I.** *adj* sionizmga oid, sionist; **II.** *n* sionist.

**sioux** *n inv, adj inv* siyo (*Shimoliy Amerika indeys qabilalaridan birining a'zosi*).

**siphon** *nm* **1.** sifon (*yuqoridagi idishdan pastroqdagi idishga suyuqlik o'tkazadigan bukik naycha; shunday naychali idish*); **2.** sifon (*gazli suv uchun*).

**siphonner** *vt* sifon yordamida biror suyuqlikni tortib olmoq, **siphonner un réservoir d'essence** bir bak benzinni sifon bilan tortib olmoq.

**sire** *nm* **1.** podishoh, shoh; *loc* **un triste sire** sho'rpeshona, bechora, sho'rlik; **2.** janob, olampanoh, taqsir, afandi.

**sirène**[1] *nf* **1.** sirena, rusalka (*boshi, tanasi ayol va baliq dumli afsonaviy mavjudot*); *loc* **écouter le chant des sirènes** ko'ngli sust ketmoq, so'ziga uchmoq; **2.** zinoga boshlovchi ayol, nozanin, pari, huriliqo.

**sirène**[2] *nf* sirena (*baland ovoz chiqaradigan maxsus asbob*), gudok; **sirène d'alarme** trevoga sirenasi; **la sirène d'une usine** zavod gudogi.

**sirop** *nm* sirop, sharbat; **sirop de groseille** smorodina sharbati; **sirop contre la toux** yo'talga qarshi o'simlik damlamasi.

**siroter** *vt fam* ho'plab-ho'plab, qultumlab ichmoq.

**sirupeux, euse** *adj* siropli, sharbatli, qiyomli, sirop, sharbat, qiyom.

**sis, sise** *adj dr* joylashgan; **un domaine sis à tel endroit** biror joyga joylashgan soha.

**sismique** *adj* seysmik, zilzila; **ondes sismiques** zilzila to'lqinlari; **secousse sismique** seysmik silkinish.

**sismographe** *nm* seysmograf (*yer qimirlashini yozib boradigan asbob*).

**site** *nm* **1.** manzara, landshaft; **2.** joy, shahar joylashgan joyning ko'rinishi; **site archéologique** arxeologik qazilmalar olib borilayotgan joy; **3.** *inform* sayt.

**sit-in** *nm inv anglic* o'tirib qilinadigan namoyish.

**sitôt** *adv* shu zahotiyoq, bilanoq; **sitôt après** keyinoq; **sitôt entré, il se coucha** kiriboq, u yotib oldi; **il ne reviendra pas de sitôt** u yaqin orada

qaytmaydi; *loc conj* **sitôt que** bilanoq, -dan keyinoq; **sitôt qu'il la vit, il sortit** uni koʻrishi bilanoq chiqdi.

**situation** *nf* **1.** kishining holi, ahvoli, sharoiti; hol, ahvol, vaziyat; **la situation est délicate** vaziyat nozik; **leur situation financière s'améliore** ularning moliyaviy ahvoli yaxshilanyapti; **situation de famille** oilaviy ahvol; *loc fam vx* **elle est dans une situation intéressante** u ikkiqat; **2.** mavqe, martaba, ahvol, oʻrin; **il a perdu sa situation** u oʻz mavqeini yoʻqotdi; **avoir une bonne, belle situation** ajoyib mavqega ega boʻlmoq; **3.** ijtimoiy sharoit, ahvol; **la situation est grave** ahvol ogʻir; **tentative du gouvernement pour dominer la situation** hukumatning sharoitni qoʻlga olish uchun qilgan harakati.

**située, ée** *adj* joylashgan, oʻrnashgan, boʻlgan; **maison bien située** yaxshi joylashgan uy.

**situer I.** *vt* joylamoq, joylashtirmoq; **l'auteur a situé l'action à Londres au XVIe siècle** muallif voqeani XVI asrdagi Londonga joylashtirdi; **on ne le situe pas bien** uning qanday davra odami ekanligini yaxshi bilishmaydi; **II. se situer** *vpr* joylashmoq, oʻrin olmoq; **avoir du mal à se situer par rapport à qqn, qqch** kimlarningdir orasida, qayerdadir oʻz oʻrnini topa olmaslik.

**six I.** *adj numér* **1.** olti; **dix fois six** oʻn koʻpaytirilgan olti; **2.** oltinchi; **page six** oltinchi bet; **Charles VI** Sharl VI; **II.** *nm inv* olti; **sa lettre est du six** oltinchidagi xati; **le six de trèfle** olti chillik (*qartada*).

**sixième I.** *adj numer* oltinchi; **le sixième jour** oltinchi kun; **II.** *n* **1.** *nf* oltinchi (*sinf*); **2.** *nm* oltinchi qism; **le sixième de la somme** summaning oltinchi qismi.

**sixièmement** *adv* oltinchidan.

**six-quatre-deux (à la)** *loc adv fam* naridan-beri, shosha-pisha **faire un travail à la six-quatre-deux** biror ishni naridan-beri qilmoq.

**sixte** *nf mus* sekstet (*olti ovoz yoki olti soz uchun yozilgan musiqa asari; olti kishilik ansambl*).

**skaï** *nm* sun'iy charm.

**skate-board** *nm* skeytbord (*gildirakchali taxtacha*).

**sketch** *nm* sketch (*kichik hajviy pyesa turi*).

**ski** *nm* changʻi; **aller en skis, à skis** changʻida bormoq; **faire du ski** changʻi sporti bilan shugʻullanmoq, changʻi uchmoq; **ski de fond** tekislikdagi changʻi; **ski de randonnée** togʻ changʻisi; **ski nautique** suv changʻisi.

**skier** *vi* changʻi uchmoq.

**skieur, euse** *n* changʻichi, changʻida uchuvchi.

**skiff** *nm* skif (*poyga qayiqlarining bir turi*).

**skinhead** *n anglic* zoʻravonlik, kuch ishlatish tarafdori.

**slalom** *nm sport* slalom; **descente en slalom** slalomdan tushish.

**slalomer** *vi* slalomdan tushish.

**slalomeur, euse** *n* slalomchi, slalom sporti bilan shugʻullanuvchi odam.

**slave** *adj, n* slavyanlarga oid, slavyan; **plusieurs langues slaves sont écrites en alphabet cyrillique** koʻpchilik slavyan tillari kiril alifbosida yoziladi.

**sleeping** *nm anglic vx* uxlab ketiladigan vagon.

**slip** *nm* plavki, trusik, avratpoʻsh; *fam* **se retrouver en slip** ship-shiydam boʻlmoq, bor-yoʻgʻidan ayrilmoq.

**slogan** *nm anglic* chaqiriq, shior; **lancer, répéter un slogan** chaqiriq tashlamoq, chaqiriqni qaytarmoq.

**slovaque I.** *adj* Slovakiyaga, slovaklarga oid, slovak; **les peuples tchèque et slovaque** chex va slovak xalqlari; **II.** *n* **1.** slovak; **2.** *nm* slovak tili.

**slovène I.** *adj* Sloveniyaga, slovenlarga oid, sloven; **Alpes slovènes** sloven Alpi; **II.** *n* **1.** sloven; **2.** *nm* sloven tili.

**smala** *nf* **1.** koʻch-koʻron; **2.** xotin-xalaj, bola-chaqa, uy ichi, urugʻ-aymoq; **il est venu avec toute sa smala** u butun xotin-xalaji bilan keldi.

**smash** *nm* smash *(tennisda).*

**S.M.I.C.** *nm inv abrév* **salaire minimum interprofessionnel de croissance** eng kam ish haqi; **être payé au S.M.I.C.** eng kam ish haqi olmoq.

**smocks** *nm pl anglic* oborka; burma; **robe à smocks** oborkali koʻylak.

**smoking** *nm anglic* smoking *(qora movutdan qilingan, qaytarma shoyi yoqali kostum).*

**snack-bar** *ou* **snack** *nm anglic* tezda tamaddi qilib olinadigan restoran.

**snif** *ou* **sniff** *intj* pishqirish, burnini tortish.

**snifer** *ou* **sniffer** *vt anglic* hidlamoq (*giyohvand moddalarni*); **snifer de la cocaïne** kokain hidlamoq.

**snob** *n, adj* snob, olifta (*aristokratik tartib-odatlarga koʻr-koʻrona ergashuvchi odam*); **un café snob** quruq oliftalar kafesi.

**snobisme** *nm* snobizm, snoblarga xos xulq-atvor, quruq oliftagarchilik.

**snowboard** *nm anglic* snovbord (*qor ustida yolgʻiz taxtada uchish sporti va shu taxta*); **faire du snowboard** snovbord bilan shugʻullanmoq.

**sobre** *adj* **1.** meyorida yeb-ichadigan, spirtli ichimlik ichmaydigan; **2.** ogʻir, bosiq, mulohozali, meyorni biladigan; **être sobre** ogʻir-bosiq boʻlmoq; **sobre en paroles** kamgap; **3.** sodda, oddiy, odmi, sipo (*narsa*); **vêtement de coupe sobre** sodda bichimli kiyim; **style sobre** oddiy uslub.

**sobrement** *adv* **1.** meyorida; **2.** ogʻir-bosiqlik bilan; **3.** soddalik, oddiylik, sipolik, odmilik bilan.

**sobriété** *nf* **1.** ogʻir-bosiqlik, yuvoshlik; **la sobriété d'un chameau** tuyaning yuvoshligi; **2.** sipolik, odmilik, soddalik, oddiylik; meyor; **la sobriété d'un décor** bezakning oddiyligi.

**sobriquet** *nm* laqab.

**soc** *nm* omochning tishi.

**sociabilité** *nf* kirishimlilik, dilkashlik.

**sociable** *adj* kirishimli, dilkash; **caractère sociable** kirishimli xulq-atvor.

**social, ale, aux** *adj* **1.** ijtimoiy, jamoatga qarashli, umumiy, birgalikdagi; **les rapports sociaux** ijtimoiy munosabatlar; **les sciences sociales** ijtimoiy fanlar; **les phénomènes sociaux** ijtimoiy hodisalar; **2.** ijtimoiy, sotsial; **les classes sociales** ijtimoiy sinflar; **l'échelle sociales** ijtimoiy tabaqa; **3.** ijtimoiy, sinfiy; **les questions sociales** ijtimoiy masalalar; **conflits sociaux** sinfiy nizolar; **4.** tijorat, savdoga oid, aksionerlik jamiatiga, firmaga oid; **siège social** savdo tashkilotining manzili.

**social-démocrate** *adj, n* sotsial-demokrat.

**socialement** *adv* ijtimoiy, jamoatchilik nuqtai nazaridan.

**socialisation** *nf* ijtimoiylashtirish, sotsiallashtirish, jamoatlashtirish.

**socialiser** *vt* ijtimoiylashtirmoq, sotsiallashtirmoq, umumiylashtirmoq, jamoat mulkiga aylantirmoq.

**socialisme** *nm* sotsializm.

**socialiste** *adj* sotsialistik; **un régime, un État socialiste** sotsialistik tuzim, sotsialistik davlat; **2.** sotsializmga oid, sotsialistik; **économie socialiste** sotsialistik iqtisod.

**sociétaire** *adj, n* a'zo, ishtirokchi; paychi.

**société** *nf* **1.** *litt* odamlar davrasi, ularning orasi, muhiti; **aimer la société** odamlar davrasini yaxshi koʻrmoq; **2.** yuqori tabaqa, zodagonlar guruhi; **la haute société** yuqori tabaqa, zodagonlar guruhi; **3.** jamoa; **les abeilles vivent en société** asalarilar jamoa boʻlib yashaydilar; **4.** jamiyat, tuzim, jamoa; **l'évolution de la société** jamiyat evolutsiyasi; **les sociétés primitives** ibtidoiy jamoalar; **les sociétés modernes** bugungi jamiyat; **5.** jamiyat, birlashma; **les sociétés savantes** olimlar jamiyati; **société de crédit** kredit uyushmasi; **société (commerciales)** savdo uyushmasi; **société par actions, société anonyme (S.A.)** aksionerlik jamiyati; **6.** ittifoq; **Société des Nations** Millatlar ittifoqi.

**sociologie** *nf* jamiyatshunoslik, sotsiologiya.

**sociologique** *adj* sotsiologiyaga oid, sotsiologik.

**sociologue** *n* jamiyatshunos, sotsiolog.

**socle** *nm* sokol, asos, poygevor; **le socle d'une colonne, d'un statue** ustunning, haykalning asosi.

**soda** *nm* gazli suv qoʻshilgan ichimlik; **des sodas à l'orange** gazli suv qoʻshilgan apelsin ichimligi.

**sodium** *nm* natriy; **chlorure de sodium** natriy xlor (*tuz*).

**sœur** *nf* **1.** opa-singil; opa, singil, egachi; **sœur aînée** opa; **sœur cadette** singil; **sœur de lait** emishgan opa-singillar; **théorie et pratique doivent être sœurs** nazariya bilan amaliyot qondosh boʻlishi kerak; **âme sœur** mahram; **elle n'a pas trouvé l'âme sœur** u oʻziga mahram topolmadi; **2.** monax ayol, rohiba.

**sœurette** *nf* singilcha, opacha.

**sofa** *nm* sofa (*keng yumshoq divan*).

**soi** *pron* **1.** o'zi, o'ziga, o'zida, o'zinikida; **pour réussir, il faut avoir confiance en soi** biror narsaga erishish uchun, o'ziga ishonch bo'lishi kerak; **comme on est bien chez soi!** o'z uyingda qanday yaxshi! **2.** o'zicha, o'z-o'zidan; **cela va de soi** bu o'z-o'zidan ma'lum; **soi-même** o'zi, xuddi o'zi; **ici, on fait tout soi-même** bu yerda hamma narsani har kim o'zi qiladi.

**soi-disant** *adj inv* **1.** deb ataladigan, yolg'ondakam, soxta; **une soi-disant comtesse** soxta grafinya; **cette soi-disant liberté est une illusion** bu ozodlik deb ataladigan narsa – xom xayol; **2.** *loc adv* go'yoki; **il est venu à Paris, soi-disant pour affaires** u Parijga go'yoki ish bilan kelgan.

**soie** *nf* **1.** ipak; **chemise de soie** ipakdan qilingan ko'ylak; **papier de soie** yaltiroq, nozik qog'oz, shohi qog'oz; **2.** dag'al jun; kalta qil; **un pinceau en soie de sanglier** to'ng'iz qilidan qilingan mo'yqalam.

**soierie** *nf* **1.** ipak matolar; **2.** ipak fabrikasi.

**soif** *nf* **1.** chanqoqlik, tashnalik, suvsash, cho'llash; **avoir soif** chanqamoq, suvsamoq, cho'llamoq; *fig* **jusqu'à plus soif** to'yib, og'zi-burnidan chiqquncha; **2.** ishtiyoq, tashnalik, orzumandlik; **la soif de connaître** bilishga tashnalik.

**soiffard, arde** *adj, n fam* ichkilikboz, aroqxo'r.

**soignant, ante** *adj* g'amxo'rlik qiluvchi, qarab turuvchi; **aide soignante** hamshira yordamchisi.

**soigner I.** *vt* **1.** xizmat ko'rsatmoq, g'amxo'rlik qilmoq, qaramoq; **il soigne ses outils** u asboblariga yaxshi qaraydi; **2.** yaxshilab ishlov bermoq, yaxshilab qaramoq; **il faut soigner les détails** tafsilotlariga yaxshilab ishlov berish kerak; **3.** davolamoq, qaramoq; **le médecin qui me soigne** meni davolayotgan, menga qarayotgan vrach; *fam* **il faut te faire soigner!** seni davolatish kerak! **II. se soigner** *vpr* o'ziga qaramoq; **elle devait se soigner davantage** u o'ziga yaxshiroq qarashi kerak edi; **soigne-toi bien** o'zingni yaxshilab davolat.

**soigneur** *nm* sportchilarning sog'ligi bilan shug'ullanuvchi kishi.

**soigneusement** *adv* diqqat bilan, puxtalik bilan, astoydil.

**soigneux, euse** *adj* **1.** diqqat bilan, puxta, astoydil, e'tibor bilan qilingan; **un travail peu soigneux** e'tiborsizlik bilan qilingan ish; **2.** serharakat, tirishqoq, serhafsala; **une élève très soigneuse** juda ham serhafsala o'quvchi qiz.

**soin** *nm* **1.** *litt* ish, tashvish, g'am yeyish; **son premier soin a été de me prévenir de son arrivée** uning birinchi tashvishi meni o'zining kelganligi haqida ogohlantirish bo'ldi; **avoir, prendre soin de** tashvishini qilmoq, g'amini yemoq, o'ylamoq; **on lui a confié le soin de la maison** unga uy tashvishlarini ishonib topshirishdi; **avoir, prendre soin de qqn, qqch** biror narsaning, biror kimsaning g'amini yemoq, tashvishini qilmoq, o'ylamoq; **2.** *pl* tashvish, g'am, g'amxo'rlik; **l'enfant a besoin des soins d'une mère** bola ona g'amxo'rligiga muhtoj; **les soins du ménage** oila tashvishlari; **aux bons soins de M. X.** janob X orqali berib qo'yish so'raladi; *loc* **être aux petits soins pour qqn** biror kishining ko'nglini topmoq; **3.** *pl* davolash, qarash; **le blessé a reçu les premiers soins** yarador birinchi yordamni oldi; **4.** puxtalik, tirishqoqlik, batartiblik; **le soin qu'il met, qu'il apporte à faire son travail** uning ishdagi batartibligi.

**soir** *nm* **1.** oqshom, kechqurun, kech; **le soir descend, tombe** kech kiryapti; **il fait frais le soir** kechqurunlari salqin bo'lyapti; **2.** kechki payt, kechqurun; **prendre un comprimé matin et soir** ertalab va kechqurun bittadan dori ichmoq; *loc* **être du soir** kechqurunlari ish qilmoq, kech yotmoq.

**soirée** *nf* **1.** kecha, oqshom; **les longues soirées d'hiver** qishning uzun oqshomlari; **2.** kecha; **tenue de soirée** kechaga kiyiladigan ust-bosh.

**soit I.** *conj* **1. soit… soit…** yoki… yoki; **soit avant, soit après** yoki oldin, yoki keyin; **2.** bo'lsin, deylik; **soit un triangle rectangle** to'g'ri burchakli uchburchak bo'lsin; **3.** ya'ni; **soixante secondes, soit une minute** oltmish soniya, ya'ni bir daqiqa; **II.** *adv* xo'p, mayli, xo'sh, deylik; **soit! et après?** xo'p! keyinchi? **eh bien soit!** yaxshi mayli!

**soixantaine** *nf* **1.** oltmishtacha; **une soixantaine d'invités** oltmishtacha mehmon; **2.** oltmish yosh, oltmish yoshlarda; **il a la soixantaine** u oltmish yoshlarda.

**soixante I.** *adj numér inv* oltmish; **il, elle a soixante ans** u oltmish yoshda; **page soixante** oltmishinchi bet; **II.** *nm* oltmish.

**soixante-dix** *adj numér inv* yetmish.

**soixante-dixième** *adj, n* yetmishinchi.

**soixantième** *adj, n* oltmishinchi.

**soja** *nm* soya.

**sol**[1] *nm* **1.** yer; **posé au sol** yerga qo'yilgan; **2.** yer, tuproq; **des sols argileux** sertuproq yer; **sol riche, pauvre** serhosil, oriq tuproq; **le sol lunaire** oy tuprog'i.

**sol**[2] *nm inv mus* sol (*musiqa gammasining beshinchi notasi*).

**solaire** *adj* **1.** quyoshga oid, quyosh; **heure solaire** quyosh vaqti; **énergie solaire** quyosh energiyasi; **cadran solaire** quyosh soati; **2.** quyoshga qarshi, quyosh; **crème solaire** quyoshga qarshi krem; **3.** *fig* quyosh nuriga o'xshash; **plexus solaire** quyosh o'rilmasi (*qorinda tutashgan vegetativ nervlar sistemasi*).

**soldat** *nm* **1.** askar, soldat, sarboz; **la tombe du Soldat inconnu** noma'lum soldat qabri; **2.** *litt* kurashchi, himoyachi; **les soldats de la foi** e'tiqod, imon kurashchilari; **3. soldats de plomb** qo'rg'oshin soldatchalar.

**soldatesque I.** *adj* askarlarga, soldatlarga oid, xos, soldatcha; **II.** *nf pej* soldatlar; **violences commises par la soldatesque** soldatlar tomonidan qilingan zo'ravonlik.

**solde**[1] *nf* maosh, oylik (*harbiylarniki*); *loc pej* **à la solde de qqn** yollangan bo'lmoq; **on l'accusait d'être à la solde de l'étranger** uni chet elga yollanganlikda ayblashardi.

**solde**[2] *nm* saldo, qoldiq; **solde créditeur, débiteur** kredirorlik, debitorlik qoldig'i; **en solde** narxi tushilgan, arzonlashtirilgan narxda; **acheter des bottes en solde** etiklarni arzonlashtirilgan narxda sotib olmoq *pl* narxi arzonlashtirilgan mollar.

**solder** *vt* **1.** qarzni uzmoq, hisob-kitob qilmoq; **solder un compte en banque** bank bilan hisob-kitob qilmoq; **2.** narxini tushirib, arzonlashtirib sotmoq.

**solécisme** *nm* soletsism (*sintaksisda xato ishlatish:* **je veux qu'il vienne** *o'rniga* **je veux qu'il vient**).

**soleil** *nm* **1.** quyosh, oftob, kun; **le lever, le coucher du soleil** quyoshning chiqishi, botishi; *prov* **le soleil brille pour tout le monde** quyosh hammaga bir xil yog'du sochadi (*har kimning baxtli bo'lishga haqqi bor*); **il fait soleil, du soleil** oftob charaqlab turibdi, havo ochiq; **les pays du soleil** quyoshli mamlakatlar; **se mettre au soleil** o'zini oftobga solmoq; **bain de soleil** quyosh vannasi; **des lunettes de soleil** qora ko'zoynak; **coup de soleil** oftob o'tish, oftob urish; *loc fam* **piquer un soleil** qip-qizarib ketmoq; **2. rayon de soleil** yorug'lik; **3.** *fig* kungaboqar.

**solennel, elle** *adj* tantanali, tantanavor; **un serment solennel** tantanavor qasamyod; **un ton solennel** tantanavor, dabdabali ohang.

**solennellement** *adv* tantanavor, tantana bilan.

**solennité** *nf* **1.** tantana, tantanavor bayram; **2.** tantanavorlik, dabdabalik.

**solfège** *nm mus* solfedjio (*notalar nomini aytib so'zsiz kuylash mashqi*).

**solidaire** *adj* **1.** birdam, hamfikr, fikrdosh, yakdil; **étudiants et professeurs ont été solidaires dans la lutte** kurashda talabalar va o'qituvchilar birdam bo'lishdi; **2.** uzviy bog'langan; **la bielle est solidaire du vilebrequin** shatun tirsakli val bilan uzviy bog'langan.

**solidairement** *adv* birdamlik, yakdillik bilan.

**solidariser (se)** *vpr* birdamlik, hamfikrlik bildirmoq, quvvatlamoq, fikriga, harakatiga qo'shilmoq; **se solidariser avec un collègue** hamkasbini quvvatlamoq.

**solidarité** *nf* **1.** birdamlik, hamfikrlik, fikirdoshlik, bir-birini qo'llash, quvvatlash; **faire appel à la solidarité internationale** xalqaro birdamlikka chaqirmoq; **2.** o'zaro bog'liqlik.

**solide**[1] **I.** *adj* qattiq; **l'état solide** qattiq holat **rendre solide** qotirmoq; **II.** *nm* qattiq jism; geometrik jism; **le prisme, le cube sont des solides** prizma, kub jismlardir.

**solide**[2] *adj* **1.** qattiq, mustahkam, pishiq; **des meubles solides** mustahkam mebellar; **être solide sur ses jambes** oyoqlarida mustahkam turmoq; **2.** mustahkam, ishonchli; **un amitié solide** mustahkam do'stlik; **3.** kuchli, baquvvat, mustahkam; **il est toujours solide, solide comme un roc**

u doim baquvvat, qoyaday mustahkam; **3.** *fam* yaxshi, kuchli, zo'r; **il a un solide appétit** uning ishtahasi zo'r.

**solidement** *adv* qattiq, pishiq, ishonchli.

**solidification** *nf* qotish.

**solidifier** *vt* qotirmoq.

**solidité** *nf* **1.** pishiqlik, mustahkamlik; **2.** ishonchlilik, mustahkamlik; **la solidité d'un raisonnement** asosning ishonchliligi.

**soliloque** *nm* o'z-o'zi bilan so'zlashish, monolog.

**soliloquer** *vi* o'z-o'zi bilan so'zlashmoq.

**soliste** *n* solist, yakka ijrochi (*yakkaxon ashulachi, yakka sozanda, yakka raqqosa*).

**solitaire I.** *adj* **1.** yolg'iz, tanho, yakka; **un voyageur solitaire** yolg'iz sayohatchi; **ver solitaire** solityor, tasmasimon gijja; **2.** yolg'izlikdagi, kimsasiz, g'aribona; **une enfance solitaire** yolg'izlikdagi bolalik; **3.** yakka, yolg'iz; chekka, xilvat; **c'est un endroit solitaire** bu xilvat joy; **II.** *n* yolg'iz kishi, yolg'izlikda yashovchi; **vivre en solitaire** yog'izlikda yashamoq.

**solitairement** *adv* yolg'iz, tanho; yolg'izlikda.

**solitude** *nf* **1.** yolg'izlik, yolg'iz yashash, tanholik; **la solitude lui pèse** yolg'izlik uni ezadi; **vivre dans la solitude** tanholikda yashamoq; **2.** *litt* xilvat, chekka joy; xilvatgoh.

**solive** *nf* to'sin; **solives en bois, en fer** yog'och, temir to'sin.

**solliciter** *vt* **1.** o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qaratmoq; **la publicité nous sollicite continuellement** reklama bizni doimo o'ziga qaratadi; **solliciter l'attention de qqn par des signes** imo-ishora bilan biror kishining e'tiborini o'ziga tortmoq; **2.** o'tinib so'ramoq, iltimos qilmoq; **solliciter qqn de faire qqch** biror kishidan biror ishni qilishni o'tinib so'ramoq; **3.** so'ramoq (*amaldordan*); **solliciter un emploi** ish so'ramoq.

**solliciteur, euse** *n* so'rovchi, iltimos qiluvchi.

**sollicitude** *nf* e'tibor, mehribonlik; **écouter qqn avec sollicitude** biror kishini e'tibor bilan eshitmoq.

**solo** *nm mus* solo (*yakka ovoz yoki yakka soz uchun yozilgan muzika asari va uning ijrosi*).

**solstice** *nm astr* quyosh turishi (*quyoshning ekvatordan eng uzoq – eng janubiy yoki eng shimoliy nuqta orqali o'tish payti*).

**solubiliser** *vt* eritmoq, eritmaga aylantirmoq.

**solubilité** *nf* erish, eritmaga aylanish xususiyati.

**soluble** *adj* **1.** eriydigan, erib ketadigan; **café soluble** eriydigan qahva; **2.** hal bo'ladigan, hal qilib, yechib bo'ladigan.

**soluté** *nm* **1.** eritma; **2.** suyuq dori.

**solution**[1] *nf* **1.** yechim, yechilish, javob; **je cherche la solution de ce problème** men bu masalaning yechimini qidiryapman; **2.** biror xulosaga, fikrga, qarorga, to'xtamga kelish; hal qilish, hal qilinish; **ce n'est pas une solution!** bu masalaning hal qilinishi emas! **la solution de la crise est en vue** inqirozning hal qilinishi ko'zga ko'rinib qoldi.

**solution**[2] *nf* **1.** erish, parchalanish; **solution à chaud** issiqda parchalanish; **2.** eritma, aralashma; **une solution saturée** to'yintirilgan eritma; **3. solution de continuité** uzilish; **sans solution de continuité** uzluksiz.

**solvabilité** *nf* to'lay olishlik, to'lashga imkoni borlik; **sa solvabilité est certaine** uning to'lay olishi aniq.

**solvable** *adj* to'lay oladigan, to'lashga qurbi yetadigan.

**solvant** *nm* erituvchi narsa, eritgich.

**somatique** *adj* somatik, jismoniy.

**sombre** *adj* **1.** qorong'i; **cette pièce est très sombre** bu xona juda qorong'i; **il fait sombre** qorong'i; **2.** qora, qoramtir, to'q; **une teinte sombre** to'q rang; **3.** g'amgin, ma'yus, xafa; xo'mraygan, badqovoq, qovog'i soliq; **son visage restait sombre** uning yuzi g'amgin edi; **4.** qora, yovuz, mash'um; **l'avenir est bien sombre** kelajak juda qorong'i, mavhum.

**sombrer** *vi* **1.** g'arq bo'lmoq, cho'kmoq; **2.** cho'mmoq, botmoq, g'arq bo'lmoq; **il a sombré dans un sommeil de plomb** u chuqur uyquga botdi.

**sombrero** *nm* sombrero (*soyavonli shlapa*).

**sommaire**[1] *adj* **1.** qisqa, qisqacha; **un exposé sommaire** qisqa bayon; **2.** to'g'ridan-to'g'ri, sud-so'roqsiz; **coup d'État suivi d'exécutions sommaires** sud-so'roqsiz qatllar bilan davom etgan davlat to'ntarishi; **3.** chegaralangan; **connaissances sommaires** chegaralangan bilim.

**sommaire**[2] *nm* **1.** qisqacha bayon; **2.** mundarija.

**sommairement** *adv* qisqacha, umumlashtirilgan holda.

**sommation** *nf* ogohlantirish; **après la troisième sommation, la sentinelle a tiré** uchinchi ogohlantirishdan so'ng, soqchi otdi.

**somme**[1] *nf* **1.** yig'indi; **faire la somme de plusieurs nombres** ko'p sonning yig'indisini topmoq; **2.** jami, hammasi, barchasi, majmui; **une somme d'efforts considérables** anchagina harakatning majmui; *loc adv* **en somme** umuman; **somme toute** natijada, qisqacha qilib aytganda; **3.** ma'lum miqdor pul, mablag', summa; **une grosse somme** katta mablag'; **4.** yakun, natija; **ce traité est une somme** bu risola yakundir.

**somme**[2] *nf* **bête de somme** yuk hayvoni.

**somme**[3] *nm* uyqu, pinak, mudroq; **faire un somme, un petit somme** bir oz mizg'ib olmoq.

**somme** *nm* uyqu; **faire un petit somme** mizg'ib olmoq; **je n'ai fait qu'un somme** men tun bo'yi qimir etmay uxladim.

**sommeil** *nm* **1.** uyqu; **dormir d'un sommeil profond, d'un sommeil de plomb** qattiq, chuqur, toshday qotib, dong qotib uxlamoq; **avoir le sommeil léger** hushyor uxlamoq; **privation de sommeil** uyqudan mahrum bo'lish, uyqusini yo'qotish, uyqusizlik; **qui provoque le sommeil** uyqu keltiruvchi, uxlatadigan; **sommeil provoqué** gipnoz; **maladie du sommeil** uyqu kasali; **le sommeil éternel, le dernier sommeil** abadiy uyqu, o'lim; **avoir sommeil** uyqusi kelmoq; **2. le sommeil hivernal de la marmotte** sug'urning qishki uyqusi; **3.** vaqtincha to'xtab qolish; **laisser une affaire en sommeil** biror ishni vaqtincha to'xtatib qo'ymoq.

**sommeiller** *vi* **1.** mudramoq; **2.** mudroq holda, faoliyatsiz bo'lmoq; **une passion qui sommeille** mudrab turgan ehtiros.

**sommer** *vt* talab qilmoq, ogohlantirmoq; **sommer qqn à comparaître devant la justice** biror kishini sudga borishligi haqida ogohlantirmoq; **sommer qqn de** biror kishidan talab qilmoq; **je l'ai sommer de répondre** men undan javob berishni talab qildim.

**sommet** *nm* **1.** tepa, yuqori, ust, uch, cho'qqi; **monter au sommet de la tour Eiffel** Effel minorasining uchiga chiqmoq; **l'air pur des sommets** cho'qqilarning sof havosi; **2.** eng yuqorisi, tepasi, uchi, cho'qqisi; **être au sommet de la gloire** shuhrat cho'qqisida bo'lmoq; **conférence au sommet** oliy darajadagi anjuman; **3.** oliy darajadagi uchrashuv, davlat rahbarlarining uchrashuvi; **4.** *géom* burchak uchi.

**sommier** *nm* **1.** karavotning prujinali qismi; **2.** ro'yxat daftari; **les sommiers de la police judiciaire** sud politsiyasining ro'yxati.

**sommité**[1] *nf bot* uchki qism, uch, tepa; **on utilise en tisane les sommités fleuries des plantes** damlamaga o'tlarning gullagan uchlarini ishlatishadi.

**sommité**[2] *nf* mash'al, yulduz; **les sommités de la science** fan yulduzlari.

**somnambule** *n, adj* lunatik, oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).

**somnambulisme** *nm* lunatiklik, oyparastlik.

**somnifère** *nm* uyqudori.

**somnolence** *nf* mudroqlik, uyquchilik.

**somnolent, ente** *adj* mudroq, uyquchi, uyqu bosgan.

**somnoler** *vi* mudramoq, mudroq, uyqu bosmoq.

**somptuaire** *adj* **1.** sarf-xarajatlarga oid, sarf; **loi somptuaire** ortiqcha, dabdabali xarajatlarga qarshi qonun; **2. dépenses somptuaires** ortiqcha, dabdabalar uchun qilinadigan xarajat.

**somptueux, euse** *adj* qimmatbaho, dabdabali, hashamatli, dang'illama, serhasham; **un somptueux cadeau** qimmatbaho sovg'a.

**somptuosité** *nf* dabdabalik, dang'illamalik, tantanavorlik, dabdaba, hasham, zeb-ziynat; **la somptuosité d'une fête** bayramning dabdabasi.

**son**[1]**, sa, ses** *adj poss* uning, o'zining; **c'est son parapluie** bu uning zontigi; **il fait ses études** u o'qiydi; **on n'est jamais content de son sort** odam o'z taqdiridan hech qachon mamnun bo'lmaydi.

**son**[2] *nm* tovush; **vitesse du son** tovush tezligi; **enregistrement, reproduction du son** ovoz yozish; **ingénieur du son** ovoz operatori.

**son**[3] *nm* kepak; **farine de son** kepakli un; **pain de son** kepak non; *loc* **taches de son** sepkil.

**sonar** *nm* gidrolokator.

**sonate** *nf* sonata.

**sondage** *nm* **1.** zondlash; **2.** zondlash, ta'naga zond kiritish; **3.** o'rganib, surishtirib chiqish (*fikrlarni*); **des sondages d'opinion** fikrlarni o'rganib chiqish.

**sonde** *nf* **1.** zond (*chuqurlikni, atmosferani o'rganadigan asbob*); **2.** zond (*ichki a'zolarni tekshirish yoki davolash uchun ishlatiladigan naysimon asbob, naycha*); **3.** yer qatlamlarini tekshirish uchun ishlatiladigan burg'i.

**sonder** *vt* **1.** zond bilan tekshirmoq, zondlamoq; **sonder les grands fonds** katta chuqurlikni zondlamoq; **sonder un malade** kasalni zond bilan tekshimoq; **2.** o'smoqchilab, surishtirib, tekshirib ko'rmoq; **sonder qqn** biror kishini o'smoqchilab ko'rmoq; **sonder l'opinion** fikrlarni surishtirib ko'rmoq.

**sondeur, euse** *n* fikrlarni o'rganuvchi, tekshiruvchi odam.

**songe** *nm litt* tush, tush ko'rish; *prov* **songes, mensonges** tushga nimalar kirmaydi, ko'ngil nimalarni tilamaydi.

**songer** *vi* **1.** *vx* orzu qilmoq; **2. (à)** mulohaza qilmoq, o'ylab ko'rmoq; **songez-y bien!** bu haqda yaxshilab o'ylab ko'ring! **il songe au mariage, à se marier** u uylanish haqida o'ylayapti; **il ne faut pas y songer** bu haqda orzu qilmay qo'yaqoling; **3.** o'ylamoq, e'tiborga olmoq; **avez-vous songé qu'il y un gros risque?** katta xavf borligi haqida o'ylab ko'rdingizmi?

**songerie** *nf litt* orzu, xayol.

**songeur, euse** *adj* xayolchan, o'ychan; **je te trouve bien songeuse** sen menga juda o'ychan ko'rinasan.

**sonnaille** *nf* qo'ng'iroqcha (*hayvonning bo'yniga osib qo'yilgan*).

**sonnant, ante** *adj* **1.** jaranglagan, jaranglaydigan, jarangdor; *loc* **espèces sonnantes et trébuchantes** jaraq-jaraq tangalar; **2.** roppa-rosa (*vaqt*); **à cinq heurs sonnantes** roppa-rosa beshda.

**sonné, ée** *adj* **1.** bong urgan, bo'lgan, o'tgan; **il est cinq heures sonnées** soat beshdan o'tdi; *loc* **il a soixante ans bien sonnés** u oltmishni urib qo'ydi; **2.** *fam* jinni, ahmoq; **il est complètement sonné** u g'irt ahmoq.

**sonner I.** *vi* **1.** jiringlamoq, jaranglamoq; **les cloches sonnent** qo'ng'iroqlar jaranglayapti; **le téléphone a sonné** telefon jiringladi; **trois heures sonnent** soat uchga bong uryapti; *loc* **sa dernière heure a sonné** uning paymonasi to'ldi; **2.** jaranglamoq, eshitilmoq, talaffuz qilinmoq; **une phrase qui sonne mal** yaxshi tuzilmagan gap; **3.** qo'ng'iroq chalmoq; **entrer sans sonner** qo'ng'iroqni chalmay kirmoq; **4. (de)** chalmoq (*puflab chalinadigan asboblar haqida*); **sonner de la trompette** truba chalmoq; **II.** *vt* **1.** chalmoq; **sonner les cloches** qo'ng'iroqlarni chalmoq; **2.** bildirmoq, urmoq; **on a sonné le tocsin** bong urishdi; **l'horloge a sonné onze heures** soat o'n birga bong urdi; **3.** chaqirmoq (*qo'ng'iroq chalib*); **sonner l'infirmière de garde** navbatchi hamshirani chaqirmoq.

**sonnerie** *nf* **1.** jiringlash, yangrash; **une sonnerie de clairon** trubaning yangrashi; **la sonnerie du téléphone** telefonning jiringlashi; **2.** qo'ng'iroq; **remonter la sonnerie d'un réveil** budilnikning qo'ng'irog'ini burab qo'ymoq; **sonnerie électrique** elektr qo'ng'iroq.

**sonnette** *nf* **1.** qo'ng'iroqcha; **donnez trois coups de sonnette** qo'ng'iroqni uch marta chaling; **2.** qo'ng'iroq ovozi; **je n'ai pas entendu la sonnette** men qo'ng'iroqni eshitmay qolibman.

**sonore** *adj* **1.** jarangli, jarangdor; **il parlait avec une voix sonore** u jarangdor ovozda gapirardi; **consonne sonore** jarangli undosh; **une salle trop sonore** o'ta jarangdor zal; **2.** ovozga oid, ovozli; **un film sonore** ovozli film.

**sonorisation** *nf* ovoz berish.

**sonoriser** *vt* **1.** jarangli qilmoq; **2.** ovoz bermoq (*ovozsiz filmlarga*).

**sonorité** *nf* jarangdorlik, yangroqlik, aks-sado berish; **cet instrument a une belle sonorité** bu asbobning ajoyib jarangdorligi bor; **cette salle de concert a une bonne sonorité** bu konsert zalining aks-sado berishi juda yaxshi.

**sophisme** *nm* sofizm; safsata.

**sophiste** *nm* **1.** sofist (*qadimda: retorika va falsafa o'qituvchisi*); **2.** sofist, sofizm tarafdori, safsataboz.

**sophistication** *nf* soxtalashtirish, safsatalashtirish.

**soprano I.** *nm* soprano (*ayollarning, o'smirlarning eng baland ovozi*); **II.** *n* soprano ovozi sohibi; *pl* **soprani** *ou* **sopranos**.

**sorbet** *nm* mevadan qilingan muzqaymoq.

**sorbier** *nm* ryabina, chetan daraxti.

**sorbonnard, arde** *n vieilli pej* Sarbonna talabasi, o'qituvchisi.

**sorcellerie** *nf* sehrgarlik, jodugarlik; **c'est de la sorcellerie** bu sehrgarlik.

**sorier, ière I.** *n* **1.** jodugar, sehrgar; **2.** *fam* **(vielle) sorcière** (qari) jodugar; *loc* **chasse aux sorcières** o'z muxoliflarini ta'qib qilish; **II.** *adj m fam* **ce n'est pas sorcier** buning g'aroyib joyi yo'q.

**sordide** *adj* **1.** jirkanch, yaramas, murdor, iflos, nopok; **des taudis sordides** iflos katalaklar; **2.** jirkanch, yaramas, razil, qabih, murdor; **une sordide affaire** qabih ish; **crime sordide** razil qotillik.

**sordidement** *adv* razillarcha, qabihona.

**sordidité** *nf litt* razillik, qabihlik, yaramaslik, ifloslik, jirkanchlik.

**sorgho** *nm bot* jo'xori.

**sornette** *nf pl* bema'ni, bo'lmag'ur, bekor gap, safsata, behuda gaplar; **débiter, raconter des sornettes** safsata sotmoq, bekorchi gaplarni gapirmoq.

**sort** *nm* **1.** taqdir, qismat; **les infirmités sont le sort de la vieillesse** kasallik qarilikning qismati; **2.** taqdir, taqdirning taqozosi, falakning gardishi, zamonaning zayli; **c'est un coup, une ironie du sort** bu taqdirning taqozosi, zamonaning zayli; **3.** taqdir, qismat, peshona, qur'a; **tirer au sort** qur'a tashlamoq; **le sort décidera** peshona hal qiladi; **le sort en est jeté** qur'a tashlandi; **4.** *loc* **jeter un sort à qqn** biron kishiga ko'zi tegmoq.

**sortant, ante** *adj* chiqadigan; **les numéros sortants** yutadigan sonlar; **le député sortant** vakolati tugagan deputat.

**sorte** *nf* tur, xil, nav; **il y a plusieurs sortes de problèmes** ko'p turli masalalar bor; **cette sorte de gens** bu xil odamlar; **une sorte de fraises** qulupnayning bir turi; **une sorte de** qandaydir, bir xil, bir turdagi; **c'était une sorte de vagabond** bu qandaydir daydi edi; *loc* **de la sorte** shunday, bunday, shu tarzda; **pourquoi ris-tu de la sorte?** sen nega bunday kulyapsan? **en quelque sorte** ma'lum darajada, agar ibora joyiz bo'lsa, go'yo; **tu a eu de la chance, en quelque sorte** ma'lum darajada, sening omading bor ekan; **de telle sorte que** shunday darajada, shunday uslubda; **il avait brouillé les pistes de telle sorte qu'on ne l'a jamais retrouvé** u izlarini shunday darajada yo'qotgan ediki, uni hech qachon topisholmadi; **de sorte que** natijada, shunday qilib; **j'étais en retard, de sorte que j'ai manqué le début du film** men kech qolgan edim, natijada filmning boshini o'tkazib yubordim; **faire en sorte que** shunday qilish kerakki; **fais en sorte que tout soit prêt demain** shunday qilginki, ertaga hamma narsa tayyor bo'lsin; **faire en sorte de** ilojini qilmoq; **fais en sorte d'être à l'heure** vaqtida bo'lishning ilojini qil.

**sortie** *nf* **1.** chiqish; **c'est l'heure de la sortie des élèves** o'quvchilarning maktabdan chiqish payti; **2.** panadan chiqib qo'qqisdan qilingan hujum; **les assiégés ont tenté une sortie** qamaldagilar yorib chiqishga harakat qilishdi; **sortie de bain** hammomdan keyin kiyiladigan xalat; **3.** chiqish (*nutq, gap, bayonot*); **elle est capable de n'importe quelle sortie devant les gens** u odamlar oldida harqanday chiqishga qodir; **4.** u yer-bu yerga borish, chiqish; **une sortie en ville** shaharga chiqish; **5.** chiqib ketish; **d'importantes sorties de devises** katta miqdordagi valutaning chiqib ketishi; **6.** chiqish, paydo bo'lish; **la sortie d'un nouveau modèle de voiture** yangi modeldagi avtomobilning chiqishi; **7.** xarajat, chiqim; **il y a plus de sorties que de rentrées ce mois** bu oyda kirimdan ko'ra chiqim ko'proq bo'ldi; **8.** chiqish, chiqish joyi; **les sorties de Paris sont encombrées le samedi** shanba kuni Parijdan chiqish yo'llari tiqilib qoladi.

**sortilège** *nm* sehrgarlik, jodugarlik; sehr, jodu.

**sortir**[1] **I.** *vi* **1.** chiqmoq; **sortez!** chiqing! **2.** tashqariga, sayrga shiqmoq; **ce n'est pas un temps pour sortir** bu sayrga chiqish payti emas; **il est sorti faire un tour** u aylanib kelgani chiqdi; **nous sortons beaucoup** biz tomoshalarga ko'p boramiz; **3.** chiqib ketmoq; **la rivière est sortie de son lit** daryo o'z o'zanidan chiqib ketdi; **la voiture est sortie de la route** avtomobil yo'ldan chiqib ketdi; **cela m'est sorti de la tête** bu mening esimdan chiqib qoldi; **4.** chiqmoq, paydo bo'lmoq; **les bourgeons sortent** kurtaklar chiqyapti; **ce film sort la semaine prochaine** bu film keyingi haftaga

chiqadi; **5.** chiqmoq (*o'yinda*); **un numéro qui n'est pas encore sorti** hali chiqmagan son; **6.** chiqmoq, biror joyni tark etmoq; **sortir, être sorti de table** dasturxondan turmoq; **sortir de prison** qamoqdan chiqmoq; **7.** chiqmoq, tugatmoq; **j'ai trop à faire, je n'en sors pas** qiladigan ishim juda ko'p, undan boshimni ko'tarolmayapman; **8.** qutulmoq, ozod bo'lmoq; **je sors à peine de maladie** men endigina kasaldan turdim; **nous ne sommes pas encore sortis d'affaire** biz hali ishdan qutulganimiz yo'q; **il n'est pas sorti de sa froideur coutumière** u o'zining odatiy sovuqligidan qutilgani yo'q; **9.** chetlashmoq, chetga chiqmoq; **tu sors du sujet** sen mavzudan chetga chiqib ketyapsan; **c'est une chose qui sort de l'ordinaire** bu g'ayri oddiy narsa; **10.** -dan chiqmoq; **des mots qui sortent du cœur** yurakdan chiqayotgan so'zlar; **je ne sais pas ce qui sortira de nos recherches** bilmadim, bizning tadqiqotimizdan nima chiqarkin; **11.** kelib chiqmoq, bo'lmoq; **il sort d'une bonne famille** u yaxshi oiladan chiqqan **d'où sort-il?** u qayerdan kelgan? **les ingénieurs sortent d'une grande école** muhandislar oliy maktabdan chiqishadi; **12.** tayyorlanmoq, chiqmoq; **des robes qui sortent de chez les grands couturiers** katta chevarlardan chiqadigan ko'ylaklar; **II.** *vt* **1.** olib chiqmoq, tashqariga olib chiqmoq; **je vais sortir les enfants** men bolalarni olib chiqaman; **il a sorti le chien** u itni tashqariga olib chiqdi; **as-tu sorti la voiture du garage?** avtomobilni garajdan olib chiqdingmi? **3.** *fam* chiqarib tashlamoq; **à la porte! sortez-le!** ko'chaga! uni chiqarib tashlanglar! **4.** tortib chiqarmoq, qutqarmoq; **il faut le sortir de là** uni bundan chiqarib olish kerak; **5.** bosib chiqarmoq; **éditeur qui sort un livre** kitob bosib chiqargan noshir; **6** *fam* hunar ko'rsatmoq; **qu'est-ce qu'il va encore nous sortir** u bizga yana qanday hunar ko'rsatar ekan? **III. s'en sortir** *vpr* qutulmoq, chiqib olmoq; **docteur, ai-je des chances de m'en sortir?** doktor, mening bundan qutulish imkoniyatim bormi?

**sortir**$^2$ *nm litt* **au sortir de** chiqishda; **au sortir du théâtre** teatrdan chiqishda.

**S.O.S.** *nm inv* (*abrév* **Save Our Soul**) SOS, falokat radiosignali; **envoyer, lancer un S.O.S.** SOS chaqirmoq, yordam so'ramoq.

**sosie** *nm* o'xshash; **c'est ton sosie** bu sening o'xshashing.

**sot, sotte** *adj, n* tentak, aqli past, ahmoq, jinni; **je ne suis pas assez sot pour lui en vouloir** men undan xafa bo'lgani shunchalar ahmoq emasman; **tu n'es qu'un sot** sen g'irt ahmoqsan; *litt* **rien de plus sot que cette réponse!** bu javobdan ko'ra ahmoqroq narsa yo'q!

**sottement** *adv* ahmoqlarcha, tentaklarcha, jinnilarcha.

**sottie** *ou* **sotie** *nf* soti (*O'rta asr satirik pyesasi*).

**sottise** *nf litt* **1.** ahmoqlik, tentaklik, jinnilik; **2.** bo'lmag'ur narsa; **dire des sottises** bo'lmag'ur narsalarni demoq; **3.** so'kish, haqoratli so'zlar; **il lui a dit des sottises** u unga haqoratli so'zlarni aytdi.

**sottisier** *nm* hazil, hazil gaplar to'plami.

**sou** *nm* **1.** su (*besh santim*); *loc* **amasser sou à sou, sou par sou** tiyinlab yig'moq, misqollab yig'moq; **dépenser jusqu'au dernier sou** oxirgi chaqasigacha sarflamoq; **n'avoir pas le sou** sariq chaqasi ham bo'lmaslik; **être sans le sou** pulsiz bo'lmoq; **un bijou de quatre sou** bir pulga qimmat narsa; **il n'a pas un sou de bon sens** uning tirnoqcha ham aqli yo'q; **2.** *fam pl* pul, aqcha; **il est près de ses sous** u ochko'z, ziqna.

**soubassement** *nm* fundament, asos.

**souche** *nf* **1.** to'nka; *loc* **être, rester comme une souche** qoqqan qoziqday; **dormir comme une souche** dong qotib uxlamoq; **2.** *loc* **faire souche** kelib chiqmoq; **de vieille souche** qadimiy oiladan; **mot de souche latine** lotin tilidan kelib chiqqan so'z.

**souci** *nm* g'am, tashvish, g'am yeyish, tashvishini qilish, o'ylash, iztirob; **se faire du souci** tashvish qilmoq; **être accablé de souci** g'amdan bukilib qolmoq; **il ne se fait pas de souci, aucun souci** u hech narsadan tashvish qilmaydi, uning hech qanday tashvishi yo'q; **sa santé est pour moi un souci continuel** uning sog'ligi men uchun doimiy tashvish.

**soucier (se)** *vpr* g'am chekmoq, tashvish qilmoq, g'am yemoq, iztirob chekmoq, o'ylamoq; **il s'en soucie comme de sa première chemise** u umuman tashvish chekmaydi, u taralla bedod.

**soucieux, euse** *adj* tashvishli, g'am, tashvish chekadigan, iztirobli; **un air soucieux** tashvishli ko'rinish; **soucieux de** tashvish qiladigan, g'am chekadigan, o'ylaydigan; **il est soucieux de notre bien-être** u bizning farovonligimiz haqida tashvish qiladi.

**soucoupe** *nf* **1.** likopcha, tarelkacha, taqsimcha; *loc* **faire des yeux comme des soucoupes** ko'zlarini piyoladay-piyoladay qilmoq; **2. soucoupe volante** uchar tarelka.

**soudage** *nm* payvandlash, kavsharlash.

**soudain, aine I.** *adj* kutilmagan, to'satdan bo'lgan; **une mort soudaine** kutilmagan o'lim; **II.** *adv* to'satdan, birdan, kutilmaganda; **soudain, il s'enfuit** birdan, u qochishga tushdi.

**soudainement** *adv* birdan, to'satdan, kutilmaganda.

**soudaineté** *nf* to'satdanlik, kutilmaganlik, birdanlik; **la soudaineté de sa riposte m'a laissé sans voix** uning javobining kutilmaganligi mening nafasimni ichimga tushirib yubordi.

**soudard** *nm litt* jangari, qo'pol odam.

**soude** *nf* **1. soude caustique** kaustik soda, o'yuvchi natriy; **2.** natriy, soda.

**souder** *vt* **1.** kavsharlamoq, qalaylamoq, payvandlamoq; **2.** yopishtirmoq, birlashtirmoq, jipslashtirmoq; **il faut souder ces divers groupes au sein d'une organisation** bu turli guruhlarni bir tashkilot atrofida jipslashtirish kerak.

**soudeur, euse** *n* payvandchi.

**soudoyer** *vt* pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq.

**soudure** *nf* **1.** kavshar (*kavsharlash uchun ishlatiladigan metall*); **2.** payvandlash, payvand; **soudure autogène** avtogen payvand; svarka; **soudure à chalumeau** gaz payvand; **3.** hosilni hosilga ulash.

**soufflage** *nm* puflab yasash (*oynasozlikda*).

**souffle** *nm* **1.** puflash, dam; **on le renverserait d'un souffle** uni bir puflashda yiqitib yuborish mumkin; **pour jouer de la trompette, il faut du souffle** karnay chalish uchun dami bo'lishi kerak; **2.** nafas, nafas olish; **jusqu'à son dernier souffle** oxirgi nafasi qolguncha; **retenir son souffle** nafasini to'xtatib turmoq; **une virtuosité à vous couper le souffle** yuksak mahorat sizni hayratga soldi; **avoir le souffle court** tezda yuragi og'ziga tiqilib qolmoq; **être à bout de souffle** holdan toygan bo'lmoq; **il a trouvé son second souffle** u endi ochildi; **3.** ilhom, ilhomlanish; **4.** shabada; **ces feuilles frémissent au moindre souffle** bu barglar salgina shabadada tebranadi; **5.** havo to'lqini; **effet de souffle d'un explosif** portlashning zarb to'lqini; **6.** *méd* shovqin; **avoir un souffle au cœur** yuragida shovqin bo'lmoq.

**soufflé, ée I.** *adj* **1.** ko'pchigan; **des pommes de terre soufflées** ko'pchigan kartoshka; **2.** hayratlangan, hayratda qolgan; **j'en ai été soufflé!** men bundan hayratda qolgan edim! **II.** *nm* sufle; **un soufflé au fromage** pishloq suflesi.

**souffler I.** *vi* **1.** puflamoq; **souffler sur ses mains, sur la soupe, dans une trompette** qo'lni, sho'rvani, karnayni puflamoq; **2.** harsillamoq, pishillamoq, pishqirmoq; **souffler comme un bœuf** buqaday pishqirmoq; **laissez-moi le temps de souffler** menga nafasimni rostlab olgani vaqt bering; **3.** esmoq; **le vent souffle** shamol esyapti; **II.** *vt* **1.** biror narsani puflamoq; **souffler un bougie** shamni puflab o'chirmoq; **2.** uchirib yubormoq; **maison soufflée par une explosion** portlash uchirib ketgan uy; **3.** puflab yasamoq; **verre soufflé** puflab yasalgan shisha; **4.** shivirlamoq; **souffler qqch à l'oreille de qqn** biror kishining qulog'iga biror narsani shivirlamoq; **5.** sekin aytib turmoq, aytib bermoq; shipshitmoq; **il a été puni parce qu'il a soufflé** u jazolangan edi, chunki u aytib turgan egi.

**soufflet** *nm litt* tarsaki, shapaloq.

**souffleter** *vt litt* **souffleter** tarsaki, shapaloq tushirmoq; **il l'a souffleté et ils se sont battus en duel** u unga tarsaki tushirdi va ular duelga chiqishdi.

**souffleur, euse** *n* **1.** suflyor; **2. souffleur de verre** shisha puflovchi, puflab shisha buyumlar yasovchi ishchi.

**souffrance** *nf* **1.** azob, azoblanish, azob chekish, dard, qiynoq; **2.** ruhiy qiynalish, azob-uqubat, kulfat, alam; **3. en souffrance** turib qolgan, egasi talab qilib, olmagan tovar.

**souffrant, ante** *adj* qiynaluvchi, azoblanuvchi, azob-uqubat chekuvchi, kasalmand.

**souffre-douleur** *nm inv* balogardon, boshqalarning gunohiga javobgar bo‘lib qolgan odam.

**souffreteux, euse** *adj* kasalmand, zaif, nimjon.

**souffrir I.** *vi* **1.** qiynalmoq, og‘rimoq, azoblanmoq; azob-uqubat chekmoq; **où souffrez-vous?** qayeringiz og‘riyapti? **ses rhumatismes le font souffrir** bod kasali uni azoblayapti; **nous avons beaucoup souffert du froid** biz sovuqdan juda azob chekdik; **j'ai souffert pour lui expliquer le problème** men unga masalani tushuntirguncha qiynalib ketdim; **2.** zarar ko‘rmoq, ziyon ko‘rmoq, jabrlanmoq; **pays qui souffre de la sécheresse** qurg‘oqchilikdan jabrlanayotgan mamlakat; **sa réputation en a souffert** bundan uning obro‘si zarar ko‘rdi; **II.** *vt* **1.** *litt* chidamoq, boshdan kechirmoq; **il ne peut pas souffrir la plaisanterie** u hazilga chidamaydi; *fam* **je ne peux pas souffrir ce type-là!** bu nusxani jinim suymaydi! **2.** *litt* imkon, imkoniyat bermoq, yo‘l qo‘ymoq; **une règle qui ne souffre aucune exception** hech qanday istisnoga yo‘l qo‘ymaydigan qoida; *loc* **souffrir le martyre, mille morts** qattiq azobga qolmoq, og‘ir kunlarga qolmoq.

**soufi, ie** *adj, n* mutasavvuf, sufiy.

**soufisme** *nm* tasavvuf, sufizm.

**soufre** *nm* oltingugurt, sulfat.

**soufrer** *vt* oltingugurt bilan ishlov bermoq.

**souhait** *nm* istak, tilak, xohish, niyat, orzu; **exprimer, former, faire des souhaits** istak bildirmoq, niyat qilmoq; **je souhaite que tout aille bien** men hammasi yaxshi bo‘lishini tilayman; **je vous souhaite bonne chance** men sizga omad tilayman; **souhaiter la bonne année** yangi yil istaklarini bildirmoq; **à souhait** *loc adv* juda soz, ko‘ngildagiday, risoladagiday; **tout marche à souhait** hammasi ko‘ngildagiday ketyapti.

**souhaitable** *adj* istalgan, tilangan, matlub, ma'qul, maqbul, kerak, joiz; **il a toutes les qualités souhaitables pour cet emploi** unda bu ish uchun hamma maqbul xislatlar bor.

**souiller** *vt litt* **1.** ifloslantirmoq, bulg‘amoq; **linge souillé** ifloslangan choyshab; **2.** harom qilmoq, murdor qilmoq, bulg‘amoq; **on tente de souiller sa mémoire** oning nomini bulg‘ashga harakat qilishadi.

**souillon** *nf litt* isqirt, irkit.

**souillure** *nf* **1.** *litt* kir, dog‘; **2.** dog‘, uyat, sharmandalik, isnod, tavqi la'nat.

**souk** *nm* **1.** bozor (*arab mamlakatlarida*); **2.** bozor (*tartibsiz joy*).

**soûl, soûle** *adj* mast, kayf, sarxush; **il était soûl comme un cochon** u cho‘chqaday mast edi; **je suis soûl de grand air** men sof havodan mastman; **tout mon, ton, son soûl** *loc adv* keragicha, to‘yib; **vous pouvez manger tout votre soûl** siz keragicha to‘yib yeyshingiz mumkin; **pleurer tout son soûl** to‘yib yig‘lamoq.

**soulagement** *nm* **1.** ovunchoq, ovunish, taskin; **il cherche dans les livres le soulagement et l'oubli** u kitobdan taskin va unutish izlayapti; **2.** tinchlanish, tinchlik, yengil tortish, yengillash; **pousser un soupir de soulagement** yengil nafas olmoq.

**soulager I.** *vt* **1.** yengillashtirmoq; yengillatmoq, vaznini kamaytirmoq; **soulager l'avant de la voiture** avtomobilning oldini yengillatmoq; **2.** tinchlantirmoq, yengillashtirmoq, yengil tortgizmoq, taskin bermoq; **ce remède a bien soulagé le malade** bu dori kasalni ancha yengil tortgizdi; **parlez, cela vous soulagera** gapiravering, bu sizni yengil tortgizadi; **soulager la peine, la douleur de qqn** biror kishining azobini, og‘rig‘ini yengillashtirmoq; **II. se soulager** *vpr fam* yengillab, yozilib olmoq.

**soûler** *vt* **1.** mast qilmoq, mast bo‘lguncha ichirmoq, to‘ydirib ichirmoq; **2.** *litt* sarhush, mast, kayf qilmoq; **on l'avait soûlé de beaux discours** uni go‘zal nutqlar bilan mast qilib qo‘yishgan edi; **3.** *fam* zerikmoq, jonga tegmoq, charchatmoq; **tu nous soûles de tes jérémiades!** sen arzu-doding bilan bizning jonimizga tegding!

**soûlerie** *nf fam* ichkilikbozlik, aroqxo‘rlik.

**soulèvement** *nm* **1.** ko‘tarilish, ko‘tarish; **un soulèvement de terre** yerning ustki qatlamining ko‘tarilishi; **2.** ko‘tarilish, qo‘zg‘olon.

**soulever I.** *vt* **1.** sal, andak ko‘tarmoq, ko‘tarib qo‘ymoq; **il soulevait de temps en temps le couvercle de la casserole** u vaqti-vaqti bilan kastrulning qopqog‘ini ko‘tarib qo‘yar edi; **j'ai soulevé le rideau** men pardani ko‘tarib qo‘ydim; **2.** ko‘tarmoq; **la voiture soulevait de la poussière** avtomobil chang ko‘tarar edi; **3.** qarshi ko‘tarmoq, qo‘zg‘atmoq, bosh ko‘targizmoq; **soulever le peuple contre un dictateur** xalqni diktatorga qarshi ko‘tarmoq; **4.** qo‘zg‘amoq, uyg‘otmoq, tug‘dirmoq, to‘lqinlantirmoq, jo‘shtirmoq; **son discours a soulevé l'enthousiasme** uning nutqi g‘ayratni oshirib yubordi; **5.** qo‘ymoq, ko‘tarmoq (*masala, savol*); **la question sera soulevée à la prochaine réunion** masala keyingi majlisda qo‘yiladi; **II. se soulever** *vpr* **1.** sal, andak ko‘tarilmoq; **2.** ko‘tarilmoq, qo‘zg‘almoq; bosh ko‘tarmoq, qo‘zg‘olon qilmoq.

**soulier** *nm* boshmoq, botinka; *loc* **être dans ses petits souliers** qiyin ahvolda bo‘lmoq, qolmoq.

**soulignage** *nm* satr ostidan chizish; satr ostidagi chiziq.

**souligner** *vt* **1.** tagiga chizmoq; **2.** *fig* ta'kidlamoq, uqdirib o‘tmoq; e'tiborni jalb qilmoq, diqqatni tortmoq; **l'auteur souligne l'importance de cet événement** muallif bu voqeaning muhimligini ta'kidlaydi.

**soulte** *nf* ustama pul (*pul almashtirish*).

**soumettre**[1] **I.** *vt* **1.** zabt etmoq, bosib olmoq, o‘ziga bo‘ysundirmoq; **2.** biror holga solmoq, uchratmoq; **les revenus soumis à l'impôt** soliqqa tortilgan foyda; **II. se soumettre** *vpr* bo‘ysunmoq, itoat qilmoq, tobe bo‘lmoq; **elle se soumet à tous ses caprices** u uning hamma injiqliklarini ko‘taradi.

**soumettre**[2] *vt* topshirmoq, taqdim qilmoq, oshirmoq, bermoq; **le maire a soumis le cas au préfet** mer ishni prefektga topshirdi.

**soumis, ise** *adj* itoatkor, itoatli, itoat qiladigan, bo‘ysunadigan.

**soumission**[1] *nf* **1.** tobelik, itoatkorlik, bo‘ysunish; **une soumission aveugle** ko‘r-ko‘rona tobelik; **2.** tobe bo‘lish, taslim bo‘lish, bosh egish; **faire acte de soumission** tobeligini bildirmoq; **les révoltés ont fait leur soumission** qo‘zg‘olonchilar taslim bo‘lishdi.

**soumission**[2] *nf* biror narsa yetkazib berish uchun talabnoma; ta'minlash, yetkazib berish, pudrat.

**soumissionner** *vt* pudratga bermoq, yetkazib bermoq.

**soupape** *nf* klapan; **soupape de sûreté, de sécurité** ehtiyot klapan.

**soupçon** *nm* **1.** gumon, shubha; **il est au dessus de tout soupçon** u har qanday shubhadan xoli; **je n'en ai pas le moindre soupçon** mening undan zig‘ircha ham gumonim yo‘q; **2.** tomchi, ushoq, tirnoqday narsa, ozgina narsa; **elle mettait un soupçon de rouge** u ozgina qizil pomada qo‘ygan edi.

**soupçonnable** *adj* shubhali, shubha tug‘diradigan.

**soupçonner** *vt* **1.** shubhalanmoq, gumon, shubha qilmoq, gumonsiramoq; **on le soupçonne de vol, d'avoir volé** uni o‘g‘irlikda, o‘g‘irlik qilganlikda gumon qilishmoqda; **2.** taxmin qilmoq, his qilmoq, oldindan sezmoq.

**soupçonneux, euse** *adj* shubhali, shubha tug‘diradigan, ishonarsiz; **air, regard soupçonneux** shubhali ko‘rinish, qarash.

**soupe** *nf* **1.** sho‘rva, qaynatma; **soupe à l'oignon, aux légumes** piyoz, sabzavot sho‘rva; *loc* **c'est une soupe au lait** bu sal narsaga "lov" etib ketadigan odam, bu tezda jahli chiqib ketadigan odam; **2.** askarlarning tushligi; **soupe populaire** bepul beriladigan ovqat (*kambag‘allarga*); **3.** *vx* sho‘rvaga bo‘ktirilgan yupqa kesim non; *loc* **être trempé comme une soupe** shalabbo bo‘lmoq, ivib ketmoq.

**soupente** *nf* mansarda, zinapoyaning ostki qismi; **il couche dans une soupente** u mansardada yotadi.

**souper**[1] *nm* kechki ovqat.

**souper**[2] **1.** kechki ovqatni yemoq; **2.** *fam* **j'en ai soupé** to‘yib ketdim, hiqildog‘imga keldi.

**soupeser** *vt* **1.** qo‘lida chamalab ko‘rmoq; **2.** chamalab, mo‘ljallab ko‘rmoq; **soupeser ses arguments** o‘z dalillarini chamalab ko‘rmoq.

**soupière** *nf* sho‘rva tortiladigan idish.

**soupir** *nm* uf tortish; xo‘rsinish; **pousser des soupirs, un profond soupir** uf tortmoq, chuqur uf tortmoq; **rendre le dernier soupir** nafasi chiqib ketmoq, o‘lmoq; **2.** *litt* oh-voh, oh chekish; **3.** *mus* chorak pauza.

**soupirant** *nm iron* oh-voh chekuvchilar, oshiqlar, shaydolar; **elle a tout un cortège de soupirants** uning bir talay shaydolari bor.

**soupirer I.** *vi* uf tortmoq, xo‘rsinmoq; *litt* **soupirer après, pour** qo‘msamoq, dardida oh-voh qilmoq; **II.** *vt* uf tortmoq, uf tortish bilan izhor qilmoq; **hélas! soupira-t-il** ola! uf tortdi u.

**souple** *adj* **1.** egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq, elastik; **un cuir souple** qayishqoq teri; **l'acier est plus souple que le fer** po'lat temirdan bukiluvchanroq; **2.** tez moslashuvchi, tadbirkor; uddaburo; epchil, usta; *fam* gapga ko'nadigan, ko'nuvchan, unovchan, ko'ngilchan; **il est très souple, il fermera les yeux** u juda ko'ngilchan, u ko'z yumib qo'yaqoladi.

**souplesse** *nf* **1.** egiluvchanlik, bukiluvchanlik, mayinlik, elastiklik; **2.** uddaburolik, epchillik, ustalik; **3.** moslashuvchanlik, tez o'zgaruvchanlik; **la souplesse d'une langue** tilning moslashuvchanligi.

**sourate** *nf* Qur'on surasi.

**source** *nf* **1.** buloq, chashma; **2.** bosh, suv boshi, manba, sarchashma; **le fleuve prend sa source à** daryo …–dan boshlanadi, daryo o'z suvini …-dan oladi; **2.** manba, asos; **la source d'une erreur** xatoning asosi; **une source de profit, de revenu** foydaning manbai; **source officielle** rasmiy manba; **3.** manba, kon, masdar; **source de chaleur** issiqlik manbai.

**sourcil** *nm* qosh; **froncer les sourcils** qoshini chimirmoq.

**sourciller** *vi* qoshini chimirmoq; **il a répondu sans sourciller** u kiprik qoqmay javob berdi.

**sourcilleux, euse** *adj* qattiq, jiddiy, og'ir; **un critique sourcilleux** qattiq tanqid.

**sourd[1], sourde** *adj, n* kar, qulog'i og'ir, garang; *loc* **sourd comme un pot** qulog'i tom bitgan; **les sourds et les muets** kar va soqovlar; *loc* **frapper, cogner, crier comme un sourd** bor kuchi bilan urmoq, turtmoq, qichqirmoq; **dialogue de sourds** bir-biriga gap bermay gapirish; *prov* **il n'est pire sourd que celui qui ne veut pas entendre** kar-soqov bo'lib olgandan yomoni yo'q; *litt* **sourd à** e'tiborsiz, loqayd, ishi yo'q, bepisand; **il reste sourd à nos appels** u bizning chaqirig'imizga loqayd qoldi.

**sourd[2], sourde** *adj* **1.** jarangsiz, bo'g'iq; **un bruit sourd** bo'g'iq ovoz; **consonne sourde** jarangsiz undosh; **2.** yashirin, noaniq, zimdan, ichdagi; **une douleur sourde** yashirin azob; **une lutte sourde** zimdan kurash.

**sourdement** *adv litt* **1.** bo'g'iq, jarangsiz; **2.** yashirincha, maxfiy suratda, zimdan, xufiya, bildirmay.

**sourd-muet, sourde-muette** *n, adj* kar-soqov, gung, gungalak; **la langue des sourds-muets** kar-soqovlar tili.

**sourdre** *vi litt* yerdan qaynab, otilib chiqmoq (*suv haqida*); paydo bo'lmoq, tug'ilmoq; **la tristesse qui sourdait en lui** unda tug'ilgan xafalik.

**sourire[1]** *vi* **1.** kulmoq, iljaymoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq; tirjaymoq; **sourire à qqn** biror kishiga jilmayib qo'ymoq, biror kishiga xayrixohlik bildirmoq; **cela fait sourire** bu odamning kulgisini qistatadi; **2.** kulib boqmoq, ma'qul bo'lmoq, yoqmoq; **ce projet ne me sourit guère** bu reja menga hech ham ma'qul bo'lmayapti; **enfin la chance lui a souri** oxiri unga omad kulib boqdi.

**sourire[2]** *nm* kulgu, iljayish, jilmayish, tabassum, tirjayish; **avoir le sourire** og'zi qulog'ida bo'lmoq.

**souris** *nf inv* **1.** sichqon; **2.** *fam* yosh qiz, yosh ayol; **souris d'hôtel** mehmonxona o'g'risi; **3.** *inform* sichqon; **appuyer sur le bouton de la souris** sichqonning tugmachasini bosmoq.

**sournois, oise** *adj, n* odamovi, damduz, birovdan sirini yashiradigan, ichimdan top, ikkiyuzlamachi, munofiq.

**sournoisement** *adv* zimdan, yashirincha, bildirmay.

**sournoiserie** *nf* damduzlik, sirini, ichidagini birovga aytmaslik.

**sous** *prép* **1.** ostida; **sous l'eau** suvning ostida; **2. une lettre sous enveloppe** konvertga solingan xat; **sous une forme, sous un nom** ma'lum bir ko'rinishda, biror nom ostida; **3. s'abriter sous un parapluie** zontikning ostiga kirib olmoq; **sous le feu de l'ennemi** dushman o'qlari ostida; **sous les yeux de tout le monde** hammaning ko'z oldida, ko'z o'ngida; **4. sous un régime capitaliste** kapitalistik tuzim ostida; **sous sa direction** uning rahbarligi ostida; **sous condition** shart bilan; **5.** hukmronligi davrida; **sous Louis XIV** Lui XIV hukmronligi davrida; **je vous répondrai sous huitaine** men sizga biror hafta ichida javob beraman; **sous peu** yaqinda, yaqin orada; **6.** biror narsa ta'siri ostida; **sous la pression des événements** voqealar ta'siri ostida.

**sous-** joylashish, subordinatsiya, bo'linish, ichki daraja va yetishmaslikni bildiruvchi prefiks.

**sous-alimenté, ée** *adj* to'yib yemagan, och.

**sous-chef** *nm* yordamchi, o'rinbosar; **des sous-chefs de bureau** idora boshlig'ining yordamchilari.

**sous commission** *nf* kichik komissiya.

**sous-cutané, ée** *adj* teri osti; **piqûre sous-cutanée** teri osti ukoli.

**sous-développé, ée** *adj* kam rivojlangan; **pays sous-développés** kam rivojlangan mamlakatlar.

**sous-directeur, trice** *n* direktor yordamchisi, direktorning muovini.

**sous-emploi** *nm* yarim ishsizlik.

**sous-entendre** *vt* nazarda tutmoq; **il est sous-entendu que** o'z-o'zidan ma'lumki.

**sous-entendu** *nm* nazarda tutilgan, ishora.

**sous-estimer** *vt* kam baho bermoq, nazar-pisand qilmaslik.

**sous-jacent, ente** *adj* quyi, pastki, tagida yotgan, yashirin; **la couche sous-jacente** takki qatlam.

**sous-lieutenant** *nm* kichik leytenant.

**sous-locataire** *n* qisman ijaraga berish huquqiga ega bo'lgan ijarachi.

**sous-location** *nf* ijaraga olish (*qisman ijaraga berish huquqi bilan*).

**sous-main** *nm inv* qog'oz qolib qo'yiladigan stol ashyosi; *loc* **en sous-main** yashirincha, yeng ichida.

**sous-marin, ine I.** *adj* suv osti; **la pêche sous-marine** suv osti baliq ovi; **II.** *nm* suv osti kemasi; **des sous-marins nucléaires** suv osti atom kemasi.

**sous-multiple** *adj, nm math* bo'luvchi.

**sous-officier** *nm* unter-ofitser.

**sous-ordre** *nm* qo'l ostidagi, unga bo'ysunuvchi odam.

**sous-payer** *vt* kam haq to'lamoq.

**sous-préfecture** *nf* suprefektura.

**sous-préfet** *nm* suprefekt.

**sous-production** *nf* kam ishlab chiqarish, yetarlicha ishlab chiqarmaslik.

**sous-produit** *nm* yordamchi, qo'shimcha mahsulot.

**sous-prolétariat** *nm* eng qashshoq tabaqa.

**soussigné, ée** *adj* quyida imzo chekuvchi.

**sous-sol** *nm* **1.** yer osti, yer osti boyliklari; **2.** yerto'la.

**sous-tendre** *vt* **1.** bog'lamoq, ulamoq, birlashtirmoq (*biror gumbazni, arkani*); **2.** asos bo'lib xizmat qilmoq.

**sous-titre** *nm* **1.** ikkinchi, qo'shimcha sarlavha; **2.** subtitr (*tag tarjima*).

**soustraction** *nf* **1.** ayirish, olish, chiqarib tashlash; **2.** olib, o'g'irlab qo'yish.

**soustraire I.** *vt* **1.** ayirmoq, olib tashlamoq; **2.** olib qo'ymoq, aldab o'g'irlab qo'ymoq; **3.** qutqarmoq, saqlab qolmoq, chalg'itmoq; **on a pu soustraire la vedette aux questions des journalistes** mashhur yulduzni jurnalistlarning savollaridan saqlab qolmoq; **II. se soustraire** *vpr* o'zini qutqarmoq, o'zini olib qochmoq, ozod bo'lmoq.

**sous-traitant** *nm* asosiy pudratchidan ijaraga oluvchi.

**sous-traiter** *vt* pudrat olmoq, bermoq.

**sous-vêtement** *nm* ichki kiyim.

**soutache** *nf* harbiy kiyim bezak tasmalari.

**soutane** *nf* sutana (*katolik ruhoniylarning uzun ustki kiyimi*); *loc* **prendre la soutane** ruhoniylikka kirmoq.

**soute** *nf* tryum, yuk bo'limi (*kema, samolyotlarda*).

**souteneur** *nm* qo'shmachi, sutenyor.

**soutenir I.** *vt* **1.** ushlab, tutib, tirab turmoq; **2.** tutib, ushlab, yiqitmay turmoq; **l'infirmière soutenait le blessé** hamshira yaradorni tutib turardi; **3.** kuchlantirish, quvvatlantirish; **on lui a fait une piqûre pour soutenir le cœur** uning yuragini quvvatlantirish uchun unga ukol qilishdi; **4.** qo'llab-quvvatlamoq, yordam, madad bermoq; **son amitié m'a soutenu dans cette épreuve** bu sinovda uning do'stligi menga yordam berdi; **5.** yoqlamoq, qo'llab-quvvatlamoq; **deux partis ont décidé de soutenir ce candidat** ikkita partiya bu nomzodni qo'llab-quvvatlashga qaror qildi; **6.** himoya qilmoq, yoqlamoq; **soutenir une thèse** dissertatsiyani himoya qilmoq; **je soutiens que** men ta'kidlaymanki, men ishontirib aytamanki; **7.** chidamoq, dosh bermoq; **soutenir le regard de qqn** biror kishining qarashiga dosh bermoq.

**soutenu, ue** *adj* **1. style soutenu** yuqori stil; **2.** izchil, doimiy, sabrli, mustahkam; **une attention soutenue** izchil e'tibor; **3.** bo'rttirilgan, e'tibor qaratilgan.

**souterrain, aine I.** *adj* **1.** yer osti; **un passage souterrain** yer osti o'tish yo'li; **essai nucléaire souterrain** yer osti yadro sinovlari; **2.** yashirin, mavhum; **une évolution souterraine** yashirin rivojlanish; **II.** *nm* yer osti yo'li, lahm; **les souterrains du château** qalaning yer osti yo'llari.

**soutien** *nm* **1.** yordam, qo'llab-quvvatlash, qo'llash; **notre parti apportera son soutien au gouvernement** bizning partiya hukumatga o'z yordamini ko'rsatadi; **2.** qo'llab-quvvatlovchi, yordam beruvchi; **soutien de famille** oilaning boquvchisi.

**soutien-gorge** *nm* siynaband.

**soutirer** *vt* **1.** quymoq, suzib olmoq (*tagidagi quyqasini qoldirib*); **2. soutirer de l'argent, des informations** pul, ma'lumotni sug'irib olmoq.

**souvenir[1] I. se souvenir** *vpr* **1.** eslamoq, esga olmoq, yodiga keltirmoq; xotirlamoq; **je m'en souviens** bu mening esimda bor; **faites m'en souvenir** buni menga eslating; **je m'en souviendrai!** bu esimdan chiqmaydi, hali ko'rasan, senga ko'rsatib qo'yaman! (*qo'rqitish, tahdid*); **se souvenir de qqn** biror kishini esdan chiqarmaslik, eslamoq; **2.** esdan chiqarmaslik, eslab yurmoq; **souvenez-vous de nos conventions, que vous me l'avez promis** kelishganimizni, bu haqda menga bergan va'dangizni eslang; **II.** *v impers litt* **il me souvient** esimda, xotirimda bor.

**souvenir[1]** *nm* **1.** esdalik, xotira, yodgorlik; **conserver, perdre le souvenir d'un événement** biror voqeani esda saqlamoq, esdan chiqarmoq; **cette maison éveille en moi bien des souvenirs** bu uy menda yaxshi xotiralarni uyg'otadi; **j'en garde un mauvais souvenir** bu haqda menda yomon xotira qoldi; **affectueux, meilleurs souvenirs** ajoyib, eng yaxshi xotiralar; **écrire ses souvenirs** esdaliklar yozmoq; **il y avait là quelques souvenirs d'un temps meilleur** u yerda eng yaxshi davrlardan ba'zi xotiralar bor edi; **2.** esdalik, sovg'a; **une boutique de souvenirs** sovg'alar do'koni.

**souvent** *adv* tez-tez, ko'p, ko'pincha, ko'p marta; **peu souvent** gohi-gohida, ba'zan; **assez souvent, souvent, très souvent** tez-tez, ko'pincha, ko'p hollarda; *loc* **plus souvent qu'à mon, qu'à son tour** hech qachon menda, unda bo'lmaydigan; *fam* **plus souvent!** albatta yo'q, hech qachon! **le plus ouvent** ko'p hollarda, umuman.

**souverain[1], aine** *adj* **1.** ustun, yuqori turadigan; **un remède souverain** ajoyib, boshqalardan ustun turadigan dori; **2.** mustaqil, erkin; **le peuple souverain** mustaqil xalq; *loc* **le souverain pontife** Rim papasi; **État souverain** mustaqil davlat; **3.** o'ta, yuqori darajada; **un souverain mépris** o'ta nafrat.

**souverain[2], aine** *n* podcho, qirol, hukmdor.

**souverainement** *adv* **1.** *litt* tanho, yakka o'zi, mutloq; **2.** o'ta, ortiqcha; **il était souverainement méprisant** u o'ta nafratlanarli edi.

**souveraineté** *nf* **1.** ustunlik, ustivorlik, yuqorilik; **la souveraineté du peuple, fondement de la démocratie** xalq ustivorligi, demokratiyaning poydevoridir; **2.** mustaqillik; **la souveraineté de la France dans une Europe unie** birlashgan Yevropada Fransiyaning mustaqilligi.

**soviet** *nm hist* sovet; **Soviet des Nationalités** Millatlar Soveti; **Soviet suprême** Oliy Sovet; *vx* **les Soviets** sovetlar, Sovet ittifoqi.

**soviétique I.** *adj* Sovet davlatiga, mamlakatiga oid, sovet(lar); **II.** *n* sovet kishisi, sovet.

**sovkhoze** *nm* sovxoz, davlat xo'jaligi.

**soyeux, euse I.** *adj* ipakday (*mayin, yaltiroq*); **II.** *nm* ipakchi fabrikant.

**spacieux, euse** *adj* keng, katta, sig'imli; **c'est assez spacieux pour trois personnes** bu uch kishi uchun yetarlicha keng.

**spadassin** *nm litt hist* yollanma qotil.

**spaghetti** *nm* spagetti, ingichka makaron.

**spahi** *nm* spohi (*fransuzlar tomonidan shimoliy Afrikada tashkil qilingan otliq armiyaning askari*).

**sparadrap** *nm* leykoplastir.

**spasme** *nm* spazma, tomir tortishish, tirishish, changak, akashak bo'lish.

**spasmodique** *adj* spazma natijasidagi, spazmatik, spazma; **des frissons spasmodiques** spazmatik qaltirash.

**spath** *nm* shpat (*silikatlar jinsiga mansub mineral*).

**spatial, ale, aux** *adj* **1.** samoviy, fazoga, makonga oid; makon, joy; **2.** koinotga, kosmosga oid, kosmik; **la fusée spatiale** Yevropa kosmik raketasi.

**spatule** *nf* shpatel (*kurakchasimon asbob*).

**speaker** *nm anglic vx* diktor, suxandon.

**spécial, ale, aux** *adj* **1.** maxsus, ixtisoslashtirilgan, alohida; **des connaissances spéciales** maxsus bilimlar; **ces malades étaient hospitalisés dans un pavillon spécial** bu kasallar alohida bo'limga yotqizilgan edi; **prendre des mesures spéciales** maxsus choralar ko'rmoq; *loc* **envoyé(e) spécial(e)** maxsus muxbir; **2.** o'ziga xos, alohida; *fam* **c'est un peu spécial** bu biroz g'alatiroq.

**spécialement** *adv* **1.** maxsus, alohida; **des salles spécialement équipées** maxsus jihozlangan zallar; **2.** o'ziga xos, o'zgacha, farqli, boshqacha; *fam* **il n'est pas spécialement beau** u juda chiroyli emas.

**spécialisation** *nf* ixtisoslashtirish, moslashtirish.

**spécialiser I.** *vt* biror ixtisos, soha bo'yicha tayyorlamoq, ixtisoslashtirmoq, mutaxassislashtirmoq; **II. se spécialiser** *vpr* ixtisoslashmoq, mutaxassislashmoq; **il s'est spécialisé dans la littérature médiévale** u O'rta asr adabiyoti bo'yicha ixtisoslashgan.

**spécialiste** *n* **1.** mutaxassis; **2.** maxsus soha shifokori.

**spécieux, euse** *adj litt* yolg'ondakam, ko'rinishdan to'g'riga, haqiqatga o'xshash; **sous un prétexte spécieux** yolg'ondakam bahona bilan.

**spécificité** *nf* o'ziga xoslik.

**spécifier** *vt* aniqlamoq, aniq belgilamoq; **vous n'avez pas spécifié la date** siz aniq kunni belgilamadingiz.

**spécifique** *adj* o'ziga xos, maxsus; **terme spécifique** maxsus termin; **remède spécifique** maxsus dori.

**spécifiquement** *adv* o'ziga xos, maxsus yo'l bilan.

**spécimen** *nm* **1.** namuna, nusxa; **2.** sinov reklama nusxasi.

**spectacle** *nm* **1.** ko'rinish, manzara; **la maison dévastée offrait un triste spectacle** ship-shiydam uy g'amgin manzara kashf qilar edi; *loc péj* **se donner en spectacle** o'zini ko'z-ko'z qilmoq; **2.** tomosha, spektakl; **l'industrie du spectacle** tomoshalar ko'rsatish.

**spectaculaire** *adj* ta'sirchan, hayratda qoldiradigan; **un exploit spectaculaire** hayratda qoldiradigan qahramonlik.

**spectateur, trice** *n* **1.** o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi, guvoh, shohid; **aucun des spectateurs du drame n'a voulu témoigner** fojiani o'z ko'zi bilan ko'rganlarning hech biri guvohlik berishni xohlamadi; **2.** tomoshabin (*kino, teatrda*).

**spectral, ale, aux[1]** *adj* xayoliy, xayoldagi, xayoliy ravishda, ko'zga ko'rinadigan.

**spectral, ale, aux[2]** *adj* spektrga oid, spektr; **raies spectrales** spektrning rangli chiziqlari.

**spectre[1]** *nm* **1.** arvoh, sharpa; **une pâleur de spectre** o'likning rangi; **2.** *litt* dahshat, qo'rqinch; **le spectre de la mort** o'lim dahshati.

**spectre[2]** *nm* spektr; **le spectre solaire obtenu à travers un prisme** prizma orqali olingan quyosh spektri.

**spectroscopie** *nf* spektroskopiya.

**spéculateur, trice** *n* chayqovchi, olibsotar.

**spéculatif, ive** *adj* chayqovchilik, olibsotarlikka oid, chayqovchi, olibsotar.

**spéculation** *nf* **1.** *litt* spekulyatsiya, tajribaga asoslanmagan, quruq muhokama; **2.** chayqovchilik, olibsotarlik, olib sotish.

**spéculer** *vi* **1.** *litt* havoyi, quruq muhokamaga berilmoq; **2.** olibsotarlik, chayqovchilik qilmoq, olibsotmoq; **spéculer en bourse** birjada olibsotarlik qilmoq; **spéculer sur qqch** biror narsaga umid bog'lamoq; biror narsani e'tiborga olmoq.

**spéculum** *nm* jarroh ko'zgusi.

**spéléologie** *nf* speleologiya, g'orlarni o'rganish.

**spéléologue** *n* speleolog.

**spencer** *nm* kalta kurtka.

**spermatozoïde** *nm* spermatozoid, pushti kamar, maniy.

**sperme** *nm* sperma, maniy.

**spermicide** *nm* homiladorlikka qarshi ishlatiladigan vosita; **crème spermicide** homiladorlikka qarshi ishlatiladigan krem.

**spermophile** *nm zool* yumronqoziq.

**sphère** *nf* **1.** shar, qubba, gumbaz, sfera; globus; **sphère céleste** osmon gumbazi; **la sphère terrestre** yer shari; **2.** *fig* soha, doira; **chacun travaille dans sa sphère** harkim o'z sohasida ishlaydi; **sphère d'action** faoliyat doirasi; **sphère d'influence** ta'sir doirasi.

**sphérique** *adj* shar, sfera shaklidagi, dumaloq, sharsimon.

**sphéroïde** *nm* sferoid (*qisiq shar shaklidagi geometrik jism*).

**sphinge** *nf* **1.** ayol-sfinks; **2.** sirli ayol.

**sphinx** *nm* **1.** sfinks (*qadimgi Misrda: odam boshli sher haykali; yunon afsonalarida: ko'kragidan yuqori qismi xotinlarga, tanasi sherga o'xshash qanotli maxluq*); **2.** g'alati (*alomat, tushunib bo'lmaydigan, jumboqnamo*) maxluq yoki kishi.

**spic** *nm bot* lavanda.

**spinal, ale, aux** *adj* umurtqaga oid; umurtqa.

**spirale** *nf* **1.** burama, aylanma, spiral, spiral shaklidagi; **escalier en spirale** burama zinapoya; **2.** to'xtovsiz ko'tarilib, oshib borish.

**spiritual, als** *nm voir* **negro-spiritual**.

**sujétion** *nf* **1** *litt* bo'ysunish, qaramlik, tobelik; **2.** og'ir, faoliyatni chegaralab qo'yuvchi hol, azob; **c'est une sujétion que de travailler si loin de chez moi** uyimdan uzoqda ishlash bir azob.

**sulfamide** *nm* sulfamid.

**sulfate** *nm* sulfat; **sulfate de cuivre** mis kuporosi, to'tiyo.

**sulfater** *vt* mis kuporosi bilan ishlov bermoq.

**sulfure** *nm* oltingugurt birikmasi.

**sulfuré, ée** *adj* oltingugurtga oid, oltingugurt.
**sulfurer** *vt* otingugurt bilan ishlov bermoq.
**sulfureux, euse** *adj* **1.** oltingugurtli, oltingugurt; **2.** *litt* do'zax, shayton hidi.
**sulfurique** *adj* **acide sulfurique** sulfat kislota.
**sultan** *nm* sulton.
**sultanat** *nm* **1.** sulton hokimiyati, sultonlik; **2.** sulton qo'l ostidagi davlat, saltanat.
**sultane** *nf* sultonning xotini.
**summum** *nm* eng cho'qqisi, eng yuqori darajasi.
**sumo** *nm* sumo (*yaponcha kurash uslubi*); shu kurash bilan shug'ullanuvchi sportchi.
**sunnite** *adj, n* sunniy.
**super**[1] *nm* yuqori sifatli benzin.
**super**[2] *adj inv fam* zo'r, a'lo, ajoyib, yuqori; **ce nouveau disque est vraiment super** bu yangi disk haqiqatdan ham zo'r ekan.
**superbe**[1] *nf litt* g'urur; **il n'a rien perdu de sa superbe** u o'z g'ururidan hech narsa yo'qotmadi.
**superbe**[2] *adj* ajoyib, go'zal; **la vue d'ici est superbe** bu yerdan ko'rinishe ajoyib.
**supercherie** *nf* aldov, firibgarlik, qalloblik; **découvrir la supercherie** firibgarlikni fosh qilmoq.
**superfétatoire** *adj* ortiqcha, o'rinsiz, keraksiz.
**superficie** *nf* yer maydoni, maydon, yer; yuz, yuza; **la superficie de la Terre** yerning maydoni.
**superficiel, elle** *adj* **1.** ustki, tashqi; **des brûlures superficielles sur la peau** teridagi ustki kuyish; **2.** yuzaki, shunchaki; sayoz; **une amabilité superficielle** yuzaki, shunchaki iltifot; **un esprit, un travail superficiel** yuzaki, sayoz fikr, ish.
**superficiellement** *adv* yuzaki, sayoz.
**superflu, ue** *adj* keraksiz, zarur bo'lmagan, ortiqcha, foydasiz; **ce sont des biens superflus** bu ortiqcha boylik; **ces explications sont superflues** bu izohlar ortiqcha; *impers* **il est superflu d'insister** majbur qilishning hojati yo'q; **les poils superflus** ortiqcha tuklar.
**supérieur, eure I.** *adj* **1.** yuqori, yuqorigi, tepadagi, ustki; **les étages supérieurs d'un immeuble** imoratning yuqorigi qavati; **la lèvre supérieure et la lèvre inférieure** ustki va pastki lab; **2.** oliy, bosh, ustun, eng yuqori; **son nouvel ouvrage est nettement supérieur aux précédents** uning yangi asari oldingisidan albatta ustun; **un homme supérieur à la situation** mansabi bo'yicha ustun odam; **les intérêts supérieurs du pays** yurt manfaatining ustunligi; **produit de qualité supérieure** oliy navli mahsulot; **3.** katta; **un nombre supérieur à 10** 10dan katta son; **4.** oliy, ilgarilab ketgan; **les animaux supérieurs** oliy hayvonlar (*umurtqalilar*); **les végétaux supérieurs** yuksak o'simliklar; **5.** oliy, yuqori, ustun, katta; **les classes dites supérieures de la société** jamiyatning yuqori sinfi deb ataluvchilar; **l'enseignement supérieur** oliy ma'lumot; **officiers supérieurs** katta zobitlar; **6.** o'zini katta olib qilingan, takabburona, kibrli, kibor; **un air, un sourire supérieur** takabburona ko'rinish, jilmayish; **II.** *nm* boshliq, rahbar; **il a consulté son supérieur** u o'z boshlig'idan so'radi.
**supérieurement** *adv* juda, juda ham, o'ta, yuqori darajada; **un garçon supérieurement intelligent** o'ta aqlli bola.
**supériorité** *nf* ustunlik, yuqorilik, ko'plik; **les ennemis s'étaient assuré la supériorité numérique** dushmanlar son jihatidan ustunlikni ta'minlab olgan edi.
**superlatif, ive I.** *adj* orttiruvchi, orttirma; **préfixes superlatifs** orttirma prefikslar; **II.** *nm gram* orttirma daraja.
**supermarché** *nm* savdo markazi, supermarket.
**superphosphate** *nm* superfosfat.
**superposable** *adj* ustiga tushadigan, mos keladigan.
**superposer** *vt* ustiga, ustma-ust qo'ymoq; **superposer une chose à une autre** bir narsani ikkinchisining ustiga qo'ymoq.
**superposition** *nf* ustiga, ustma-ust qo'yish; qatlamlashish.
**superproduction** *nf* katta mablag' sarflangan film, spektakl.
**supersonique** *adj* tovushdan tez; **avion supersonique** tovushdan tez uchar samolyot.
**superstitieux, euse** *adj* xurofiy, xurofotga berilgan, irim-sirimlarga ishonadigan, bid'atparast; **nous sommes treize à table, j'espère que vous n'êtes pas superstitieux** biz stolda o'n uch kishimiz, siz xurofotga ishonmaysiz, deb o'ylaymanki.
**superstition** *nf* **1.** xurofot, bid'at, irim-sirim; **2.** ishqibozlik, berilganlik, havas, ishtyoq, qiziqish, mayl.
**superstructure** *nf* ustki, yuqoridagi qurilma; **les superstructures d'une voie de chemin de fer** temir yo'l ustidagi yo'lning ustki qurilmalari.
**superviser** *vt* nazorat qilmoq, kuzatmoq.
**supervision** *nf* nazorat, kuzatish.
**supplanter** *vt* siqib chiqarmoq, o'rnini egallab olmoq; o'rnini bosmoq; **il cherche à supplanter son rival** u o'z raqibini siqib chiqarishga harakat qilyapti; **la télévision n'a pas supplanté le cinéma** televizor kinoning o'rnini bosgani yo'q.
**suppléer I.** *vt litt* almashtirmoq, o'rnini bosmoq; **suppléer le pétrole par l'énergie atomique** neft o'rnini atom energiyasi bilan almashtirmoq; **suppléer qqn** o'rnini bosmoq, o'rinbosarlik qilmoq; **II.** *vi* **(à)** o'rnini to'ldirmoq; **suppléer l'énergie nucléaire par l'énergie solaire** atom energiyasini quyosh energiyasi bilan to'ldirmoq; **la rapidité de ce joueur supplée à son manque de puissance** bu o'yinchining tezligi uning kuchsizligini bosib ketadi.
**supplément** *nm* **1.** qo'shimcha, yordamchi, ilova; **un supplément de salaire versé sous forme de prime** mukofot sifatida berilgan ish haqiga qo'shimcha; **le supplément d'un dictionnaire** lug'atga ilova; **2.** ustama, qo'shimcha pul; **pour prendre ce train vous devez payer un supplément** bu poyezdga o'tirish uchun ustama to'lashingiz kerak; **en supplément** qo'shimcha; **vin en supplément** qo'shimchali vino.
**supplémentaire** *adv* **1.** qo'shimcha; **demander des crédits supplémentaires** qo'shimcha kredit so'ramoq; **heures supplémentaires** qo'shimcha soat; **train supplémentaire** qo'shimcha poyezd; **2.** ortiqcha, ustiga-ustak; **c'est une charge supplémentaire** bu ortiqcha tashvish.
**supplétif, ive** *adj, n* yordamchi, qo'shimcha (*askar, harbiy qism*).
**suppliant, ante I.** *adj* yalinadigan, o'tinuvchi, yalinib-yolvoruvchi; **un regard suppliant** yalinib, ko'zlarini mo'ltillatib qarash; **II.** *n* yalinuvchi, o'tinib so'rovchi, yalinib-yolvoruvchi odam.
**supplication** *nf* o'tinib so'rash, yalinish, yolvorish, yalinib-yolvorish, munojot, iltijo; **il refuse d'entendre mes supplications** u mening yalinib-yolvorishlarimni eshitishdan bosh tortyapti.
**supplice** *nm* **1.** azoblab qatl qilish; **le supplice de la croix** xochga tortish; **supplice chinois** aql bavor qilmaydigan yo'l bilan qatl qilish; **le dernier supplice** oxirgi jazo, o'lim jazosi; **2.** jazo, azob, qiynoq, qiynoqqa solish; **ces visites sont pour moi un supplice** bu kelishlar men uchun bir azob; **être au supplice** azob-uqubatda qolmoq.
**supplicié, ée** *n* qatl qilingan yoki qiynoqqa mubtalo qilingan odam.
**supplicier** *vt* **1.** qatlga topshirmoq; **2.** *litt* azoblamoq, qiynoqqa solmoq, qiynamoq.
**supplier** *vt* yalinmoq, yolvormoq, o'tinmoq, o'tinib so'ramoq, iltijo qilmoq; **l'enfant suppliait son père de l'emmener au cinéma** bola otasidan uni kinoga olib borishini yalinib so'rardi; **je vous supplie de vous taire** men sizdan jim bo'lishingizni o'tinib so'rayman.
**supplique** *nf* afv so'rovi, arznoma.
**support** *nm* **1.** devor, asos, tirgovich, shtativ; **supports de charpente** poydevor; **2.** taglik, biror narsa joylashtiriladigan joy; **le support d'un dessin** rasmning tagligi; **support publicitaire** reklama joylashtirilgan joy (*afisha, televizor, radio*).
**supporter**[1] **I.** *vt* **1.** tutib turmoq; **les piliers supportent la voûte** ustunlar gumbazni tutib turibdi; **2.** ustiga, yelkasiga, zimmasiga tushmoq; **vous en supporterez les conséquences** buning oqibati zimmangizga tushadi; **3.** chidamoq, bardosh bermoq, toqat qilmoq; **les nombreuses épreuves qu'il a supportées dans sa vie** u hayotida dosh bergan ko'plab sinovlar; **il supporte mal la critique** u tanqidga toqat qilolmaydi; **je ne supporte pas qu'on me mente** meni aldashlariga toqat qilolmayman; **tu supportes bien**

**le froid?** sen sovuqqa yaxshi chidaysanmi? **4.** ko‘rarga ko‘zi yo‘q bo‘lmoq; **je ne peux pas supporter ce type-là** mening anovi nusxani ko‘rarga ko‘zim yo‘q; **II. se supporter** *vpr* bir-biriga toqat qilmoq.

**supporter**[1] *nm anglic* ishqiboz, muxlis; **les supporters de (l'équipe de) Saint-Étienne** Sent-Etyen komandasining muxlislari.

**supposer** *vt* **1.** faraz qilmoq, hisoblamoq, deb o‘ylamoq, ta’savvur qilmoq; **supposons le problème résolu** masalani hal bo‘ldi deb hisoblaymiz; **supposez que vous ayez un accident** ta’savvur qilingki, siz bir falokatga uchrab qoldingiz; **2.** taxmin qilmoq, o‘ylamoq; **je le suppose, mais je n'en suis pas sûr** men shunday deb o‘ylayman, lekin mening bunga ishonchim komil emas; **on supposait que vous étiez au courant** sizni xabardor deb o‘ylovdik; **3.** talab qilmoq; **cela suppose du courage** bu jasurlik talab qiladi; **4.** *dr* almashtirib qo‘ymoq, qalbakilashtirmoq; **un testament supposé** qalbakilashtirilgan vasiyatnoma.

**supposition** *nf* taxmin, faraz, gumon; **ce n'est qu'une supposition, mais cela me paraît probable** bu bir taxmin xolos, lekin bu menga bo‘lishi mumkinday ko‘rinyapti.

**suppôt** *nm* sherik, hamtovoq; **suppôt de Satan** shaytonning malayi.

**suppression** *nf* bekor qilish, qisqartirish, barham berish, mahrum qilish; **les suppressions des inégalités** tengsizlikka barham berish; **suppression d'emploi** ish joyini qisqartirish; **opérer des suppressions dans un texte** matnni qisqartirmoq.

**supprimer** *vt* **1.** olib tashlamoq, buzib tashlamoq, yo‘q qilmoq; **en supprimant cette cloison, on agrandirait la pièce** o‘rtadagi to‘siq olib tashlansa, xona katta bo‘lib qolar edi; **vous supprimez l'effet, vous ne supprimez pas la cause** siz oqibatni yo‘q qilyapsiz, siz sababni yo‘q qilmayapsiz; **l'avion supprime les distances** samolyot uzoqni yaqin qiladi; **2.** olib tashlamoq, qisqartirmoq; **un mot, un passage à supprimer** olib tashlanishi kerak bo‘lgan so‘z, bo‘lak; **3.** bekor qilmoq, olib tashlamoq (*qonun kabilarni*); **4.** yo‘q qilmoq, o‘ldirib yubormoq; **supprimer un témoin gênant** noma’qul guvohni yo‘q qilib yubormoq.

**suppuration** *nf* yiringlash, yiring chiqarish.

**suppurer** *vi* yiringlamoq, yiring oqmoq; **la plaie suppure** yaradan yiring oqyapti.

**supputation** *nf* **les supputations du turfiste** otchopardagi hoziru-nozirlarni chamalab ko‘rish.

**supputer** *vt* chamalab, hisob-kitob qilib ko‘rmoq; **supputer un bénéfice** ko‘riladigan foydani chamalab ko‘rmoq; **il supputait ses chances** u o‘z imkoniyatlarini chamalab ko‘rardi.

**supra** *adv* yuqoridagi, yuqorida aytilganday.

**supranational, ale, aux** *adj* millatlar ustidagi; **les pouvoirs supranationaux de l'Union européenne** Yevropa hamjamiyatining millatlar ustidagi hokimiyati.

**suprématie** *nf* ustunlik, birinchilik, hukmronlik.

**suprême**[1] *adj* **1.** oliy, eng yuqori, bosh; **le Soviet Suprême** Oliy Kengash; **le bien, le bonheur suprême** katta boylik, katta baxt; **au suprême degré** oliy darajada; **il a déployé une suprême habileté** u juda katta uddaburolik ko‘rsatdi; **2.** oxirgi, bor bisotidagi; **l'instant suprême** jon chiqar payti; **il fit un suprême effort** u oxirgi kuchini ishga soldi.

**suprême**[2] *nm* baliq yoki ov mahsulotidan qilingan ovqat.

**suprêmement** *adv* oliy, yuqori darajada, o‘ta darajada; **il restait suprêmement indifférent** u o‘ta darajada befarq turardi.

**sur**[1] *prép* **1.** ustida, ustiga; **poser un objet sur une table** biror narsani stolning ustiga qo‘ymoq; **sur terre et sur mer** yerda va dengizda; **monter sur une bicyclette** velosipedga minmoq; **la clé est sur la porte** kalit eshikda; **il portait sur lui un carnet** u o‘zi bilan daftarcha olib yurardi; **recevoir visite sur visite** tashrif ustiga tashrif kutmoq; **la plage s'étend sur huit kilomètres** plaj sakkiz kilometrga cho‘zilgan; **appuyer sur un bouton** tugmachani bosmoq; **recevoir un coup sur la tête** kallasiga musht yemoq; **tirer sur qqn** biror kishiga qaratib otmoq; **écrire sur un registre** ro‘yxatga yozmoq; **chercher sur une carte** xaritadan qidirmoq; **2. les ponts sur la Seine** Sena ustidagi ko‘priklar; **3.** ko‘pdan bir yoki birnechtasi; **deux ou trois cas sur cent** yuztadan ikki yoki uch holda; **4.** *yo‘nalish:* **sur votre droite** o‘ng tomoningizda; **5. juger les gens sur la mine** odamlarga ko‘rinishiga qarab baho bermoq; **discuter sur un problème** biror masala yuzasigan bahslashmoq; **sur cette matière, sur ce point** bu soha, bu fikr yuzasidan; **6.** orqasidanoq, -dan keyinoq; **coup sur coup** birin-ketin, ustma-ust; **sur ce** bu so‘zlardan so‘ng; **il nous a dit au revoir**; **sur ce, il est parti** u bizga xayr dedi; shundan so‘ng, u jo‘nab ketdi (*yaqinlashish*); **sur le soir** kechga tomon; **être sur le départ** ketish arafasida bo‘lmoq; **7. prendre l'avantage sur qqn** biror kishidan ustun kelmoq.

**sur**[2]**, sure** *adj* nordon.

**sûr, sûre** *adj* **1.** ishongan; **il est sûr de réussir** u muvaffaqiyat qozonishiga ishonadi; **être sûr de qqn** biror kishiga ishonmoq; **sûr de soi** o‘ziga ishonmoq; **2.** ishonchi komil bo‘lgan; **j'en suis sûr** bunga mening ishonchim komil; **elle est sûre que vous vous trompez** sizning adashayotganingizga uning ishonchi komil; **sûr de son fait** o‘z so‘zida qat’iy; **3.** xavfsiz, ishonarli; **le quartier n'est pas très sûr, la nuit** kvartal kechqurunlari unchalik xavfsiz emas; **ce sera plus sûr** bu ishonchliroq bo‘ladi; *loc* **en lieu sûr** ishonchli joyda; **le plus sûr est de** eng yaxshisi; **4.** ishonchli, ishonsa bo‘ladigan; **un ami sûr** ishonchli do‘st; **c'est le plus sûr moyen de réussir** erishishning eng ishonchli yo‘li; *loc* **à coup sûr** albatta, shubhasiz, muqarrar; **5.** aniq; **un goût très sûr** juda ham aniq did; **ce qui est sûr, c'est que je n'irai pas** aniq‘i shuki, men bormayman; **rien n'est moins sûr** bu dargumon; *loc adv* **bien sûr!** albatta!

**surabondamment** *adv* keragidan ortiqcha, ortig‘i, oshig‘i bilan.

**surabondance** *nf* keragidan ortiqchalik, to‘lib-toshganlik; **une abondance de détails** tafsilotlarning keragidan ortiqchaligi.

**surabondant, ante** *adj* keragidan ortiqcha, to‘lib-toshgan, mo‘l-ko‘l.

**surabonder** *vi* to‘lib-toshmoq, keragidan ham ortiqcha bo‘lmoq, mo‘l-ko‘l bo‘lmoq.

**suralimentation** *nf* kuchli ovqatlanmoq, ortiqcha to‘yib yeyish.

**suralimenter** *vt* kuchli, ko‘p ovqat berib boqmoq; **les personnes suralimentées risquent des maladies cardiaques** ko‘p ovqat yeyuvchi kishilarda yurak kasaligа uchrash xavfi bor.

**surcharge** *nf* **1.** ortiqcha, qo‘shimcha yuk; **le bateau avait pris des passagers, en surcharge** kema qo‘shimcha yo‘lovchilar olgan edi; **2.** biror yozuvning ustidan qo‘yilgan belgi, yozuv; **timbre-poste portant une surcharge** ustiga belgi qo‘yilgan pochta markasi.

**surcharger** *vt* **1.** ortiqcha yuk yuklamoq, meyoridan ortiqcha yuklamoq, ko‘p yuk ortmoq; **2.** qator ustiga tuzatish kiritmoq.

**surchauffe** *nf* o‘ta qizib ketish.

**surchauffer** *vt* o‘ta, ortiqcha qizdirish, ortiqcha isitish; **inutile de surchauffer la chambre!** xonani ortiqcha isitishning keragi yo‘q!

**surclasser** *vt* **1.** ustun bo‘lmoq, o‘tib ketmoq, oldinda bo‘lmoq; **cet athlète surclasse tous ses concurrents** bu atlet o‘zining hamma raqiblaridan oldinda; **2.** a’lo, ustun bo‘lmoq; **ce produit surclasse tous les autres** bu mahsulot boshqalarining hammasidan a’lo.

**surcomposé, ée** *adj gram* murakkab zamon.

**surcroît** *nm* qo‘shimcha; **un surcroît de précaution** qo‘shimcha ehtiyotkorlik; **pour surcroît de malheur** hamma baloning ustiga ustak; *litt* **de surcroît, par surcroît** buning ustiga, ustiga ustak, bundan tashqari.

**surdi-mutité** *nf* kar-soqovlik.

**surdité** *nf* karlik, qulog‘i og‘irlik, eshitmaslik.

**surdose** *nf* ortiqcha doza.

**surdoué, ée** *adj* o‘ta, juda qobiliyatli.

**surélévation** *nf* o‘ta, ortiqcha ko‘tarib, orttirib yuborilganlik.

**surélever** *vt* ustiga qurmoq, ko‘tarmoq; **on a surélevé d'un étage cette maison ancienne** bu qadimiy uyni bir qavatga ko‘tarishdi.

**sûrement** *adv* albatta, muqarrar, shubhasiz, ishonchli ravishda; **le tribunal va sûrement le condamner** sud uni shubhasiz jazoga hukm qiladi; **sûrement!** albatta! **sûrement pas!** albatta yo‘q! **il est sûrement malade** u shubhasiz kasal.

**surenchère** *nf* **1.** ustama narx, ustiga qo‘shilgan, qo‘shimcha narx; **2.** ortiqcha va’da, katta va’da; **la surenchère électorale** saylov oldi va’dalari.

**surenchérir** *vi* **1.** bahoni oshirib, ko‘tarib yubormoq; **2.** boshqalarga qaraganda ortiqroq va’da bermoq.

**surestimation** *nf* ortiqcha baho berish, ortiqcha baholash.

**surestimer** *vt* ortiqcha baho bermoq, ortiqcha baholamoq; **ne surestimez pas nos possibilités** bizning imkoniyatlarimizga ortiqcha baho bermang.

**sûreté** *nf* **1.** xavfsizlik, bexatarlik; *prov* **prudence est mère de sûreté** ehtiyotkorlik xavfsizlikning onasidir; ehtiyot bo'lganni Xudo asraydi; **pour plus de sûreté** yanada ishonchliroq bo'lishi uchun; **en sûreté** xavfsiz joyda; **de sûreté** ehtiyot uchun mo'ljallangan, ehtiyot; **un verrou de sûreté** ehtiyot tanba; **la sûreté publique** jamiyat xavfsizligi; **complot contre la sûreté de l'État** davlat xavfsizligiga qarshi fitna; **sûreté nationale** milliy xavfsizlik; **2. la Sûreté** qidiruv politsiyasi (*Fransiyada*); **3.** aniqlik, ishonarlilik; **la sûreté de son coup d'œil** uning ko'z chamasining aniqligi; **4.** *dr* kafolat; **donner des sûretés à qqn** biror kishiga kafolat bermoq.

**surexcitation** *nf* o'ta asabiylashish, hayajonlanish, to'lqinlanish.

**surexciter** *vt* o'ta bezovta qilmoq, asabiylashtirmoq, hayajonlantirmoq, qo'zg'amoq; **tous ces mystères surexcitaient la curiosité des gens** bu sirli narsalar odamlarning qiziqishini qo'zg'adi.

**surexploitation** *nf* o'ta, ortiqcha ekspluatatsiya qilish, o'ta ezib ishlatish.

**surexploiter** *vt* o'ta, ortiqcha ekspluatatsiya qilmoq, o'ta ezib ishlatmoq.

**surface** *nf* **1.** yuz, yuza, sirt, bet, ust; **la surface de l'eau** suvnung yuzasi; **poissons qui nagent en surface** yuzada suzib yurgan baliqlar; **faire surface** yuzaga suzib chiqmoq; **sous-marin qui fait surface** yuzaga suzib chiqqan suv osti kemasi; *fig* **refaire surface** qayta paydo bo'lmoq; **rester à la surface des choses** narsalarni yuzaki tushunmoq; **2.** maydon; **trente-cinq mètres carrés de surface** o'ttiz to'rt metr maydon; **3.** *géom* yuza; **calculez la surface du triangle** uchburchakning yuzasini o'lchang.

**surgeler** *vt* past temperaturada tez muzlatmoq.

**surgir** *vt* **1.** to'satdan, birdan, yarq etib paydo bo'lmoq; **l'avion surgit des nuages** samolyot bulutlar ortidan birdan paydo bo'ldi; **2.** to'satdan kelib chiqmoq, paydo bo'lmoq, tug'ilmoq; **les objections surgissaient de toutes parts** har tarafdan etirozlar to'satdan kelib chiqardi.

**surgissement** *nm* paydo bo'lish, kelib chiqish.

**surhumain, aine** *adj* odamning qo'lidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan, mislsiz; **un travail surhumain** odamning qo'lidan kelmaydigan ish.

**surir** *vi* nordon bo'lib, achib qolmoq; **du lait suri** achigan sut.

**surlendemain** *nm* indingi, ertadan keyingi kun.

**surmenage** *nm* o'ta charchash, holdan toyish.

**surmener** *vt* holdan toydirmoq, o'ta charchatmoq.

**surmontable** *adj* yengib, yengsa bo'ladigan, yengish mumkin bo'lgan.

**surmonter** *vt* **1.** ustiga, tepasiga joylashgan bo'lmoq; **la coupole qui surmonte le Panthéon, à Paris** Parijda, Panteonning ustidagi gumbaz; **2.** *fig* yengib o'tmoq, yengmoq; **surmonter tous les obstacles** hamma to'siqlarni yengib o'tmoq; **surmonter sa peur** qo'rquvini yengmoq.

**surnager** *vi* **1.** ustida suzib yurmoq; **une mouche morte surnageait dans son verre** o'lik pashsha uning stakanida suzib yurar edi; **2.** o'zini tutib qolmoq, ustida qolmoq.

**surnaturel, elle** *adj* **1.** g'ayritabiiy **2** g'ayrioddiy, g'aroyib aql bovar qilmaydigan, aqlga sig'maydigan; **une beauté surnaturelle** g'aroyib bir go'zallik.

**surnom** *nm* laqab.

**surnombre (en)** *loc adv* ortiqcha, meyoridan ortiq; **on a reproché au conducteur d'avoir pris des voyageurs en surnombre** haydovchiga sayohatchilarni meyoridan ortiqcha olganlikda ta'na qilishdi.

**surnommer** *vt* laqab qo'ymoq, laqab bermoq.

**suroît** *nm* **1.** janubi-g'arbiy shamol; **2.** dengizchi, baliqchilarning bosh kiyimi.

**surpasser I.** *vt* ustun, yuqori, baland bo'lmoq; **il surpasse son frère, tant en force qu'en souplesse** u ukasidan ham kuchda, ham epchillikda ustun; **II. se surpasser** *vpr* yaxshiroq qilmoq, oldingisidan ham o'tib ketmoq.

**surpeuplé, ée** *adj* aholi juda zich joylashgan, aholisi g'oyat ko'p; **région surpeuplée** aholisi juda zich joylashgan hudud.

**surpeuplement** *nm* zichligi, ko'payib ketganligi.

**surplomb** *nm* og'ib turgan; **en surplomb** osilib turgan; **une falaise en surplomb** osilib turgan qoya.

**surplomber I.** *vi* markazdan qochmoq, og'moq, qiyshaymoq; **mur qui surplombe** og'ib qolgan devor; **II.** *vt* osilib turmoq, bo'rtib chiqib turgan; **le viaduc surplombe le port** portning ustida osilib turgan teshik ko'prik.

**surplus** *nm inv* ortiqcha, qoldiq; *litt loc* **au surplus** lekin, ammo, biroq, shunday bo'lsa ham.

**surpopulation** *nf* aholining ortiqcha zichligi, ko'payib ketganligi.

**surprenant, ante** *adj* **1.** ajoyib, hayratlanarli, kishini hayron qoldiradigan; **une surprenante nouvelle** ajoyib yangilik.

**surprendre I.** *vt* **1.** ustiga kelib qolmoq, ustidan chiqib qolmoq, biror yerda (*holatda, ish ustida*) ushlab olmoq; **on les a surpris en train de fouiller dans l'armoire** ularning shkafni titishayotgani ustidan chiqib qolishdi; **tu as surpris mon secret** sen mening sirimni bilib qolding; **2.** to'satdan ro'baro' bo'lmoq, uchramoq; **l'orage nous a surpris** biz bo'ronga qoldik; **3.** hayron qoldirmoq, hayratda qoldirmoq, ajablantirmoq, tong qoldirmoq; **vous me surprenez, cela semble incroyable** siz meni tong qoldiryapsiz, bu aql bavor qilmaydigan narsaga o'xshaydi; **II. se surprendre** *vpr* o'zini biror narsa qilayotganligini ko'rib hayron, hayratda qolmoq; **je me suis surpris à le tutoyer** men uni senlayotganimdan hayron qoldim.

**surprise** *nf* **1.** kutilmaganlik, to'satdan, qo'qqisdan, birdan bo'lish; **vous avez obtenu mon accord par surprise** mening roziligimni kutilmaganda olib qoldingiz; **une grève surprise** to'satdan yuz bergan ish tashlash; **2.** ajablanish, hayron bo'lish, hayratda qolish; **une exclamation de surprise** hayratdan qichqirib yuborish; **à ma grande surprise, il m'a remercié** meni haron qoldirgan narsa, u menga minnatdorchilik bildirdi; **3.** hayratlantiradigan, kutilmagan narsa; **une mauvaise surprise l'attend** uni yomon bir kutilmagan narsa kutyapti; *loc* **créer la surprise** hayratlantirmoq, hayratga solmoq; **4.** kutilmagan sovg'a, surpriz; **il veut vous faire une surprise** u sizga kutilmagan sovg'a qilmoqchi.

**surprise-partie** *nf vieilli* o'yinga tushiladigan kecha, kecha.

**surproduction** *nf* ortiqcha ishlab chiqarish.

**surréalisme** *nm* surrealizme.

**surréaliste** *adj* **1.** surrealizmga oid, surrealistik, surrealist; **peintre surréaliste** surrealist rassom; **2.** g'alati, qiziq.

**surrénal, ale, aux** *adj* buyrak usti.

**sursaut** *nm* **1.** sakrab, sapchib, irg'ib tushish; **il a eu un sursaut en entendant frapper à la fenêtre** derazaning taqillashini eshitib, u sakrab tushdi; **se réveiller en sursaut** sapchib uyg'onmoq; **2.** to'satdan, birdan yuz bergan shiddatli, kuchli hodisa, voqea; **dans un dernier sursaut d'énergie** oxirgi kuchni to'plab.

**sursauter** *vi* sakrab, irg'ib, sapchib tushmoq.

**surseoir** *vt, vi* **(à)** kechiktirmoq, orqaga surmoq; **le juge surseoit à l'exécution de la peine** sud jazoni kechiktirdi.

**sursis** *nm inv* **1.** kechiktirish, orqaga surish; **trois ans de prison dont deux avec sursis** uch yil qamoq, shundan ikki yili shartli; **sursis (d'appel, d'incorporation)** harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish; **2.** nafas rostlagiday muddat, vaqt; **les vacances laissent un sursis au gouvernement** ta'til hukumatga nafas rostlagiday muddat qoldiradi.

**surtaxe** *nf* qo'shimcha soliq, qo'shimcha pul; **j'ai dû payer une surtaxe** qo'shimcha pul to'lashimga to'g'ri keldi.

**surtout**[1] *adv* ayniqsa; **surtout ne dites rien!** ayniqsa hech narsa demang! **il aime le sport, surtout le football** u sportni sevadi, ayniqsa futbolni; *fam* **surtout que** ayniqsa.

**surtout**[2] *nm* katta vaza.

**surveillance** *nf* nazorat, nazorat qilish, qarab turish; **être sous la surveillance de qqn** biror kishining nazorati ostida bo'lmoq; **sous haute surveillance** qattiq nazorat ostida **surveillance médicale** meditsina nazorati.

**surveillant, ante** *n* **1.** nazoratchi, qo'riqchi; **2.** nazoratchi, kuzatib turuvchi, qarab turuvchi; **surveillant d'internat** yotoqxona nazoratchisi.

**surveiller I.** *vt* **1.** nazorat qilmoq; **il nous surveille de près** u bizni qattiq nazorat qilyapti; **liberté surveillée** shartli qamoq jazosi; **2.** qarab, kuzatib, nazorat qilib turmoq; **3.** e'tibor bermoq, ehtiyot bo'lmoq; **elle surveille sa ligne** u o'ziga e'tibor beradi (*semirib ketishdan qo'rqadi*); **surveillez votre langue!** tilingizga qarab gapiring! **II. se surveiller** *vpr* o'ziga e'tibor bermoq;

**il ne se surveille pas assez quand il parle** u gapirayotganda nima deyotganiga uncha e'tibor bermaydi.

**survenir** *vi* to'satdan, kutilmaganda kelib, bo'lib qolmoq; **une grave crise est survenue** to'satdan kuchli xuruj tutib qoldi; **s'il survient un visiteur, dites que je ne suis pas là** agar biror kishi meni so'rab kelib qolsa, meni bu yerda yo'q deng.

**survie** *nf* **1.** u dunyodagi hayot; **2.** tirik qolish, yashab qolish.

**survivre I.** *vi* **(à) 1.** boshqalardan uzoqroq yashamoq; **il a survécu à tous les siens** u o'zinikilardan uzoqroq yashadi; **il a survécu à son époque, dont il reste un des derniers témoins vivants** u o'z davrini yashab o'tdi, u tirik guvohlarning oxirgilaridan biri; **2.** o'zidan keyin ham yashamoq; **l'ouvre d'art survit à son auteur** san'at asari muallifidan keyin ham yashaydi; **3.** biror narsadan keyin ham yashayvermoq; **il n'a pu survivre à la honte** u nomusdan o'ldi; **4.** omon qolmoq, tirik qolmoq; **il a survécu à la déportation** u quvg'indan omon qoldi; **5.** tirik qolmoq, omon qolmoq; **l'espoir de survivre** tirik qolish orzusi; **II. se survivre** *vpr* yashamoq, odamlarning xotirasida yashashni davom ettirmoq; **il se survit dans ses enfants** u bolalarida yashaydi.

**survol** *nm* ustidan uchib o'tish.

**survoler** *vt* **1.** ustidan uchib o'tmoq; **2.** yuzaki nazar tashlamoq, ko'z tashlamoq, ko'zdan kechirmoq; ko'rib chiqmoq; **il n'a fait que survoler la question** uning qilgan ishi faqat masalni yuzaki ko'rib chiqish bo'ldi.

**sus** *adv* **1.** *litt* **courir sus à qqn** biror kishiga hujum qilmoq; **sus à l'ennemi!** dushman ustiga, olg'a! **2. en sus de** *loc prép* ustiga, bundan tashqari.

**susceptibilité** *nf* ta'sirlanuvchanlik, beriluvchanlik; moyillik, bir narsani tez o'ziga oluvchanlik, tez xafa bo'lib qolish; **vous devez ménager sa susceptibilité** uning o'ziga tez oluvchanligiga ehtiyot bo'lishingiz kerak.

**susceptible**[1] *adj* **1.** bo'lishi mumkin, qilinishi mumkin; **cette phrase est susceptible de deux interprétations, d'être interprétée de deux façons** bu gap ikki xil talqin qilinishi mumkin; **2.** qodir, loyiq, mumkin bo'lgan; **des propositions susceptibles de vous intéresser** sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan taklif.

**susceptible**[2] *adj (personnes)* ta'sirlanuvchan, beriluvchan, o'ziga tez oluvchi, moyil.

**susciter** *vt litt* **1.** keltirib chiqarmoq, hosil qilmoq, orttirmoq; **on lui a suscité des ennuis, des adversaires** unga tashvish, raqib orttirishdi; **2.** uyg'otmoq, tug'dirmoq; **l'affaire suscitait un intérêt profond** ish katta qiziqish uyg'otdi.

**suscription** *nf* adres.

**suspect, ecte I.** *adj* shubhali, shubha tug'diradigan; **un individu suspect** shubhali shaxs; **un témoignage suspect** shubhali guvohlik; **II.** *n* shubhali shaxs, odam; **trois suspects ont été arrêtés** uchta shubhali shaxs qo'lga olingan edi; **suspect de** gumon, shubha qilinuvchi.

**suspendre**[1] *vt* **1.** bo'lmoq, to'xtatmoq, bo'lib, to'xtatib qo'ymoq; **on a dû suspendre la séance** majlisni to'xtatib turishga to'g'ri keldi; **2.** chegaralab, cheklab qo'ymoq; **les autorités ont suspendu certaines libertés, certains journaux** rahbariyat ba'zi bir erkinliklarni, gazetalarni cheklab qo'ydi; **suspendre qqn** biror kishini ishdan bo'shatmoq; **3.** keyinroqqa qoldirmoq, kechiktirmoq.

**suspendre**[2] **I.** *vt* osmoq, osib qo'ymoq; **suspendre un tableau au mur** rasmni devorga osib qo'ymoq; **II. se suspendre** *vpr* osilmoq; **il s'est suspendu au trapèze** u trapetsiyaga osildi.

**suspendu, ue** *adj* osilib turgan; **pont suspendu** osma ko'prik.

**suspens (en)** *loc adv* hal qilinmagan, oxirigacha yetkazilmagan, tugatilmagan, chala; **la question reste en suspens** masala chala qoldi.

**suspense** *nm anglic* toqatsizlik bilan kutish.

**suspension** *nf* **1.** kechiktirish, kechroqqa surish, vaqtincha to'xtatish; vaqtincha ishdan chetlashtirish; **point de suspension** ko'p nuqta; **2.** osib qo'yish; **en supension** muallaq (*suzib yurgan holda*); **3.** osma chiroq, lustra.

**suspicion** *nf litt* shubha, gumon; **un regard plein de suspicion** shubhaga to'la qarash.

**suspicieux, euse** *adj litt* shubhali, gumondor.

**sustentation** *nf* tutib turish, o'zini muvozanatda tutib turish.

**sustenter (se)** *vpr* ovqatlanmoq, yemoq.

**suture** *nf* chok; **on a fait au blessé une suture** yaradorga chok qo'yishdi.

**suzerain, aine** *n* qaram vassallar ustidan hukmron bo'lgan knyaz, gersog, qirol; hukmdor; **le suzerain devait protection et justice à ses vassaux** hukmdor o'z vassallarini himoya qilishi va adolat qilishi kerak.

**svastika** *ou* **swastika** *nm* **1.** Hindistonda diniy belgi; **2.** svastika (*natsislarning belgisi*).

**svelte** *adj* xushbichim, kelishgan; **une svelte jeune fille** kelishgan qiz; **une taille svelte** xushbichim qad-qomat.

**swastika** *nm voir* **svastika**.

**sweater** *nm* sviter.

**syllabe** *nf gram* bo'g'in; **il n'a pas prononcé une syllabe** u bir og'iz ham so'z aytmadi.

**syllabique** *adj* bo'g'inga oid, bo'g'in.

**syllogisme** *nm phil* sillogism (*ikki fikrdan uchunchi mantiqiy xulosa chiqarish*).

**sylvestre** *adj litt* o'rmonga oid, o'rmon.

**sylviculture** *nf* o'rmonchilik.

**symbiose** *nf biol* simbioz (*ikki xil organizmning muayan bir muhitda bir-biriga foyda yoki zarar keltirib birga yashashi*).

**symbole** *nm* **1.** simvol, ramz, belgi, ishora; **la colombe est le symbole de la paix** kaptar – tinchlik ramzi; **les mythes et les symboles populaires** xalq afsona va ramzlari; **2.** belgi; **O, symbole chimique d'oxygène** O, kislorodning belgisi; **3.** ramz; **elle est le symbole de la générosité** u olijanoblikning ramzi.

**symbolique** *adj* simvollar, ramzlar orqali ifodalangan, simvolik, ramziy; **un salaire symbolique** ramziy maosh.

**symboliquement** *adv* simvolik, ramziy, simvollar orqali.

**symboliser** *vr* simvol, ramziy ishora bo'lib xizmat qilmoq, ramzi bo'lmoq; **la balance symbolise la justice** tarozi adolat ramzidir.

**symbolisme** *nm* symvolizm.

**symboliste** *nm* simvolist, simvolizm tarafdori.

**symétrie** *nf* simmetriya.

**symétrique** *adj* simmetrik.

**symétriquement** *adv* simmetrik ravishda, simmetrik.

**sympathie** *nf* **1.** xush ko'rish, yaxshi ko'rish, yoqtirish, mayl; **la sympathie qui existe entre eux** ular o'rtasidagi bir-birini yoqtirish; **2.** xayrixohlik; **l'ai beaucoup de sympathie pour lui** mening unga juda katta xayrixohligim bor; **accueillir un projet avec sympathie** biror rejani xayrixohlik bilan kutib olmoq; **3.** hamdardlik, achinish; **croyez à toute ma sympathie** mening chuqur hamdardligimni qabul qiling.

**sympathique**[1] *adj* **1.** yoqimli, yoqimtoy, istarali, istarasi issiq; **je le trouve sympathique** uning istarasi issiq; **2.** *fam* chiroyligina, shiringina; **une plage sympathique** qulaygina plaj.

**sympathique**[2] *nm* simpatik nerv sistemasi.

**sympathiquement** *adv* xayrixohlik bilan; yoqtirish, moyillik bilan.

**sympathisant, ante** *n* tarafdor, ma'qullovchi.

**sympathiser** *vi* xush ko'rmoq, yaxshi ko'rmoq, yoqtirmoq; **nous avons tout de suite sympathisé** shu zahotiyoq biz bir-birimizni yoqtirib qoldik.

**symphonie** *nf* **1.** simfoniya, simfonik musiqa; **2.** *litt* uyg'unlik, ohangdoshlik, hamohanglik, simfoniya; **une symphonie de parfums** muattar hidlar uyg'unligi.

**symphonique** *adj* simfonik, simfoniya; **concert, musique symphonique** simfonik konsert, musiqa.

**symposium** *nm* simpozium, ilmiy kengash.

**symptomatique** *adj* simptomatik, darak beruvchi, xos; **une douleur symptomatique** kasallikka xos og'riq; **leur réaction a été symptomatique** ularning munosabati yashirin qoldi.

**symptôme** *nm* simptom, alomat, tashqi belgi.

**synagogue** *nf* sinagoga (*yahudiylar ibodatxonasi*).

**synchrone** *adj* sinxron (*bir vaqtda, baravar*) sodir bo'ladigan **mouvements synchrones** sinxron harakat.

**synchronique** *adj* sinxronik, sinxronlikka asoslangan, sinxron bo'lgan.

**synchronisation** *nf* sinxronizatsiya, sinxronlash, bir-biriga moslash.

**synchroniser** *vt* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq.

**synchronisme** *nm* sinxronizm, sinxronlik (*bir vaqtda va o'zaro mos ravishda sodir bo'lish*).

**syncope[1]** *nf* hushidan, o'zidan ketish, behush bo'lib qolish; **tomber en syncope** behush yiqilmoq.

**syncope[2]** *nf mus* sinkopa (*urg'uning kuchli qismdan kuchsiz qismga o'tishi*).

**syncrétisme** *nm* sinkretizm (*narsaning dastlabki, bir-biridan ajralmagan, qorishiq holati*).

**syndic** *nm* **1. syndic des gens de mer** dengiz ishlari idorasining xodimi; **2. syndic de faillite** inqirozga uchragan korxona bilan shug'ullanuvchi yordamchi sud.

**syndical, ale, aux** *adj* **1.** kasaba uyushmasiga oid; kasaba uyushmasi, profsoyuz.

**syndicalisme** *nm* sindikalizm.

**syndicaliste** *n* **1.** sindikalist, sindikalizm tarafdori; **2.** profsayuz arbobi.

**syndicat** *nm* **1.** profsayuz, kasaba uyushmasi; **2.** sindikat, uyushma.

**syndiqué, ée** *adj* profsayuz, kasaba uyushmasi a'zosi.

**syndrome** *nm med* sindrom (*biror kasallik uchun xarakterli alomatlar majmui*).

**synecdoque** *nf ling* sinekdoxa.

**synonyme I.** *adj* sinonimlarga oid, sinonimik, ma'nodosh; **II.** *nm* sinonim, ma'nodosh so'z.

**synonymie** *nf* sinonimiya, ma'nodoshlik.

**synonymique** *adj* sinonimlarga oid, sinonimik, ma'nodosh.

**synopsis** *nm inv* qisqacha adabiy ssenariy (*kino*).

**synoptique** *adj* sinoptik, yig'ma, to'plangan, hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan; **un tableau synoptique** sinoptik, yig'ma jadval.

**syntagme** *nm ling* sintagma.

**syntaxe** *nf ling* sintaksis.

**syntaxique** *adj ling* sintaksisga oid; sintaktik, sintaksis.

**synthèse** *nf* **1.** sintez (*olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish*); **2.** *chim* sodda kimyoviy birikma yoki elementlardan murakab birikmalar hosil qilish.

**synthétique** *adj* **1.** sintez usuliga asoslangan; **2.** *chim* sintetik, sintez yo'li bilan olingan; **3.** umumlashtiruvchi; murakkab, mujassam.

**synthétiquement** *adv* sintez, sintetik yo'l bilan olingan.

**synthétiser** *vt* **1.** sintezlamoq, sintez yo'li bilan tekshirmoq, umumlashtirmoq; **2.** *chim* sintezlamoq, sintez qilmoq, sintez yo'li bilan hosil qilmoq.

**synthétiseur** *nm* sintetizator (*musiqa asbobi*).

**syphilis** *nf inv* sifilis, zahm.

**syphilitique I.** *adj* sifilisga oid, sifilis; **II.** *n* sifilis bilan og'rigan odam.

**systématique** *adj* **1.** sistemali, tartibli, sistematik, batartib; **2.** sistemali ravishda, doimiy suratda, muntazam, **ce pays est victime d'une exploitation systématique** bu mamlakat muntazam foydalanishning qurboni bo'ldi.

**systématiquement** *adv* muntazam, sistemali ravishda, doimiy suratda.

**systématisation** *nf* sistematizatsiya, sistemalash, sistemaga, tartibga solish.

**système** *nm* **1.** sistema (*asosiy prinsiplar majmui*); **le système philosophique de Sartre** Sartrning falsafiy sistemasi; **2.** sistema, tartib, usul, yo'l; **le système de défense d'un accusé** mahkumning himoya tartibi; **le système D** ustalik, uddaburolik, epchillik; **3.** sistema, tuzum; **le système politique, social** siyosiy, ijtimoiy tuzum; **un système démocratique** demokratik tuzum; **le système scolaire d'un pays** biror mamlakatning maktab sistemasi; **4. esprit de système** sistemalik, doimiylik, tartiblilik; **5.** sistema, tarmoq, shoxobcha; **le système solaire** quyosh sistemasi; **le système grammatical du français** fransuz tilining grammatik qurilishi; **le système nerveux** asab tizimi; **6.** sistema, konstruksiya, tuzilish; **système d'exploitation d'un ordinateur** kompyuterni ishlatish sistemasi; **7.** sistema, yig'indi, majmui; **le système décimal, métrique** o'nlik, yuzlik sistemasi.

# T

**T, t** fransuz alifbosining yigirmanchi harfi.

**ta** *adj poss voir* **ton**.

**tabac[1]** *nm* tamaki; **tabac à fumer** moxorka; **tabac à priser** nos, nosvoy.

**tabac[2]** *nm* **passage à tabac** zo'ravonlik, o'zini himoya qila olmaydigan kishiga zulm o'tkazmoq.

**tabagie** *nf* tamaki hidi anqib turgan joy.

**tabatière** *nf* **1.** darcha; **2.** tamakidon.

**tabasser** *vt* do'pposlamoq.

**tabellion** *nm* notarius.

**table** *nf* **1.** stol; **table de ping-pong** tennis stoli; **2.** xontaxta; dasturxon; **desservir la table** dasturxonni yig'ishtirmoq; **mettre, dresser la table** dasturxonni bezamoq; **3. table ronde** dumaloq stol; davra suhbati.

**tableau** *nm* **1.** rasm, san'at asari, xolst; **2.** yozuv taxtasi; **3. tableau d'affichage** e'lonlar taxtasi, lavha, jadval; **4. tableau de bord** uchuv-nazorat asboblarining uchuvchi oldidagi majmuasi; **5. tableau de contrôle** o'lchov-nazorat asboblarining ko'rsatgichi; **6. tableau d'honneur** hurmat taxtasi; **7. tableau chronologique, synoptique** xronologik, sinoptik jadval; **8. tableau des conjugaisons** fe'llar tuslanishi jadvali; **9. tableau de chasse** turiga qarab terib qo'yilgan ov o'ljasi.

**tableautin** *nm* kichkina rasm, rasmcha.

**tabler** *vt* (**sur**) -ga asoslanib hisob-kitob qilmoq, -ga ishonib sanamoq.

**tablette** *nf* **1.** taxtakach, eski maktabda daftar o'rnida ichlatilgan; **2.** taxtacha; **tablette de chocolat** shokolad taxtachasi; javon tokchalarining taxtasi.

**tabletterie** *nf* **1.** yog'och, fil suyagi, suyak, sadaf, qattiq tosh va plastik ashyolardan qirqib, yig'ib, yopishtirib, qoliplab, o'yib, yo'nib nafis narsalar yasash; **2.** shatranj, shashqol va shashka taxtasi hamda g'ilof, qin, qutilar singari to'plamlar.

**tablier** *nm* **1.** peshband, peshgir, peshgirak, fartuk, etak (*paxta terish uchun*); **2.** himoya kiyimi; **3.** mayda sotuvchi.

**tabou** *nm, adj* taqiq, taqiqlangan, man qilingan, tabu.

**tabouret** *nm* kursi.

**tac** *nm* **1.** *onomat* quruq tovush; **2.** *loc* **répondre, riposter du tac au tac** og'zidan chiqmasdan yoqasiga yopishtirmoq.

**tache** *nf* **1.** dog'; **taches solaires** quyoshdagi dog'; **2.** nor.

**tâche** *nf* **1.** vazifa, burch, majburiyat, topshiriq, yumush; **2.** ibora; **à la tâche** ishbay ishchi, hunarmand.

**taché** *adj* dog'li.

**tacher** *vt, vi* dog' qilmoq, dog' qoldirmoq, bulg'amoq, bo'yamoq.

**tâcher** *vt* harakat qilmoq, urinmoq, tirishmoq.

**tâcheron** *nm* kunbay ishlovchi.

**tacheté, ée** *adj* ola, ola-bula, chipor, ola-chipor, xoldor (*it*), chavkar (*ot*).

**tacheter** *vt* dog' bilan qoplanmoq.

**tacheter** *nf* kichik dog'lar, mayda dog'lar.

**tachycardie** *nf méd* taxikardiya, yurakning doimiy tez urishi.

**tachygraphe** *nm techn* tezlikni o'lchab yozadigan asbob.

**tachymètre** *nm* mashina yoki motorning aylanish tezligini o'lchaydigan asbob.

**tacite** *adj* rasman aytilmagan, izhor etilmagan, faraz qilingan.

**tacitement** *adv* jimgina.

**taciturne** *adj, n* kamgap, kamsuqum, damduz, tumshaygan.

**tacot** *nm* yurmaydigan eski shaloq mashina.

**tact** *nm* **1.** andisha, odob, xulq, mulozimat; **2.** dilidagini, nazokatni anglash; **avoir du tact** mulozimatli bo'lmoq; **il lui a annoncé la nouvelle avec tact** u unga xabarni ehtiyotkorlik bilan yetqazdi.

**tactile** *adj* **1.** sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan (*mushuk mo'ylovi*); **2.** *inform* **écran tactile** sezuvchan ekran (*barmoqlarni tekkizish yo'li bilan komandalar beriladigan ekran*).

**tactique** *nf* **1.** jang paytida harbiy imkoniyatlarni g'alabaga yo'naltirish, harbiy san'at uslubi; **2.** turli imkoniyatlarni yig'ib natijaga erishish, reja; **la tactique parlementaire** parlament rejasi; **il va falloir changer de tactique** uslub, rejani o'zgartirish kerak.

**taffetas** *nm* tafta, sidirg'a qalin ipak mato.

**taie** *nm* **1.** yostiq jildi; **2.** ko'z olmasining dog'i.

**taillader** *vt* kesmoq, shilmoq; **il s'est tailladé le menton en se rasant** soqol olayotib u iyagini kesib, shilib oldi; **taillader sa table avec un canif** stolini qalamtarosh bilan qirqib, shilib tashlamoq.

**taille**[1] *nf* **1.** yo'nish, butash; **2.** qilich tig'i, keskir tomoni.

**taille**[2] *nf* **1.** bo'y, jussa, bichim; **un homme de petite taille** past bo'yli, kichik jussali odam; **2.** *loc* **à la taille de, de la taille de** mos; **il est de taille à se défendre** o'zini himoya qilishga qurbi yetadi; **3.** o'lcham, loyiqlik; **cette veste n'est pas à ma taille** bu kostum menga loyiq emas; **4.** juda katta, ulug'vor.

**taille**[3] *nf* bel; **entrer dans l'eau jusqu'à la taille** beligacha suvga kirmoq; **avoir la taille épaisse, fine** yo'g'on, xipcha belli; *loc* **taille de guêpe** mo'rcha miyon, nozik belli.

**taillé, ée** *adj* **1.** qomatli, kelbatli; **il est taillé en athlète** polvon qomatli, kelbatli, zabardast; **2.** *loc* **être taillé pour** -ga yaratilgan; **il est taillé pour faire une belle carrière** u amalga intilish uchun yaratilgan; **3.** qirqilgan, qisqartirilgan; **moustache taillée** qirqilgan, qisqartirilgan mo'ylov.

**taille-crayon** *ou* **taille-crayons** *nm* qalamtarosh, pakki.

**taille-douce** *nf* misga ishlangan qabariq gravyura, kandakorlik.

**tailler**[1] **I.** *vt* **1.** kesmoq, qirtishlamoq, yo'nmoq, tarashlamoq, butamoq, shakl bermoq; **2.** bichmoq; **II.** *vpr* **se tailler un franc succès** muvaffaqiyatga erishmoq.

**tailler**[2] **(se)** *vpr* ketmoq, qochmoq, g'oyib bo'lmoq; **taillons nous!** qochdik, quyon bo'ldik.

**tailleur** *nm* **1.** bichiqchi; **2. un tailleur** ayollar kostumi; **3. tailleur de pierre** toshtarosh, sangtarosh, tosh yo'nuvchi.

**tain** *nm* kuzgu orqasiga suriladigan metall qorishma.

**taire I.** *vt* **taire ses raisons** haqiqatni yashirmoq; **II. se taire** *vpr* jim bo'lmoq, sukut saqlamoq.

**talc** *nm* talk, upa.

**talé, ée** *adj* irigan, zaxalangan; **pêches talées** irigan shaftoli.

**talent** *nm* iste'dod, iqtidor, talant.

**talentueux, euse** *adj* iste'dodli, layoqatli, qobiliyatli, talantli, iqtidorli.

**talentueusement** *adv* mohirona, talant bilan.

**talion** *nm* qasos, qonga qon-jonga jon.

**talisman** *nm* tumor, ko'zmunchoq.

**taloche** *nf* **1.** shapati, shapaloq, shatta, kaft bilan urish; **2.** andava.

**talon**[1] *nm* **1.** tovon; **2.** poshna; **talons plats** past poshna; **talons hauts** baland poshna.

**talon**[2] *nm* non va pishloqning qotgan cheti.

**talonner** *vt* izma-iz yurmoq; **ses poursuivants le talonnent** izidan boryotganlar uni iskanjaga oldilar.

**talquer** *vt* upa surmoq, talk sepmoq.

**talus** *nm* marza, qiyalik, qala devorlari qiyaligi, solma.

**tamanoir** *nm* chumolixo'r.

**tamaris** *nm* yulg'un, jing'il.

**tambour** *nm* nog'ora, dovul, daf, doira; *techn* baraban.

**tambourin** *nm* shaqildoqli bask doirasi.

**tamis** *nm* elak, g'alvir, chosh g'alvir.

**tamiser** *vt* elamoq, g'alvirdan o'tkazmoq, choshlamoq.

**tampon** *nm* tiqin, tampon, siyohli tampon (*muhr uchun*).

**tamponner** *vt* **1.** muhrlamoq, muhr bosmoq; **2.** artib olmoq; **3.** to'qnashmoq, qattiq urilmoq (*avtomobil bir-biriga*).

**tandem** *nm* **1.** ikki o'rinli velosiped; **2.** ikki hamkor.

**tandis que** *loc conj* **1.** paytda, vaqtda, choqda; **ils sont arrivés tandis que je m'apprêtais à sortir** men chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda, ular kelib qolishdi; **2.** holbuki, vaholanki.

**tangible** *adj* haqiqiy, qo'l bilan ushlab bo'ladigan, inkor qilib bo'lmaydigan; **des preuves tangibles** inkor qilib bo'lmaydigan isbotlar.

**tango** *nm* tango, Argentina raqsi.

**tanière** *nm* in, uya.

**tank** *nm* tanka.

**tankiste** *nm* tankchi.

**tanner**[1] *vt* terini oshlamoq, iylamoq.

**tanner**[2] *vt* jonga tegmoq, boshini aylantirmoq.

**tannerie** *nf* ko'nchilik korxonasi.

**tanneur** *nm* ko'nchi.

**tant** *adv* **1.** shunchalar; **il souffre tant qu'il ne peut plus se lever** u shunchalar betobki, o'rnidan ortiq tura olmay qoldi; **2.** ko'p, bir necha, qanchalar; **3.** qancha, shuncha; **4. en tant que**; bo'lib, sifatida; **5. tant mieux** yanada yaxshi; **tant pis** battar bo'lsin.

**tante** *nf* **1.** amma; **2.** xola.

**tantine** *nf* **1.** ammajon; **2.** xolajon.

**tantinet** *nm, loc adv* **1.** bir tishlam, bir luqma, bir burda; **donnez-moi un tantinet de pain** bir tishlam, burda, luqma non bering; **2.** bir oz, ozgina, kamgina; **elle sont un tantinet ridicule** ular biroz g'alati.

**tantôt** *adv* **1.** tushdan, choshgohdan keyin; **venez prendre le thé tantôt** tushdan keyin choy ichgani keling; **2. tantôt…, tantôt…**; dam…, dam…; **3.** ba'zan; **tantôt elle pleure, tantôt elle rit** u ba'zan yig'laydi, ba'zan kuladi.

**taon** *nm* so'na.

**tapage** *nm* **1.** shovqin-suron, to'polon; **2.** g'alva; **on a fait beaucoup de tapage autour de ce divorce** bu qo'ydi-chiqdi to'g'risida ko'p g'alva ko'tarishdi.

**tapageur, euse** *adj* **1.** to'polonchi; **un enfant tapageur** to'polonchi bola; **2.** janjalkash; **3.** ko'zga tashlanadigan, yorqin.

**tapant, ante** *adj* roppa-rosa, naq; **à midi tapant** naq, roppa-rosa choshgohda.

**tapé, ée** *adj* **1.** o'ta pishgan; **2. bien tapé** yaxshi, vaqtida qilingan; **une réponse bien tapée** vaqtida, yaxshi berilgan javob; **3.** jinni, tentak, esi yo'q; **il est complètement tapé** u g'irt jinni.

**tape-à-l'œil** *adj* **1.** ko'zga tashlanadigan; **2.** usti yaltiroq, ichi qltiroq.

**tapée** *nf* bir talay, ko'p, tiqilib, bosilib yotibdi, mingta; **des ennuis, j'en ai des tapées** muammomi, menda tiqilib yotibdi.

**taper I.** *vt* **1.** urmoq, shapatilamoq; **2.** qoqmoq, taqqillatmoq; **3.** yozuv mashinasida yozmoq; **4.** qarz olmoq; **5.** musht tushirmoq; **6.** orqadan ig'vo qilmoq; **7.** asabga tegmoq; **8.** yoqib qolmoq, ko'zga tashlanmoq; **9.** tanqid qilmoq, ustidan chiqib qolmoq; **II. se taper** *vpr* **1.** mushtlashmoq; **2.** paqqos tushirmoq, yeb, ichib qo'ymoq; **elle se tape son litre de rouge** u bir litr qizil vinoni paqqos tushirdi.

**tapement** *nm* dupir-dupir.

**tapette**[1] *nf* gilam qoqqich, pashsha o'ldirgich.

**tapette**[2] *nf* o'ta sergap.

**tapeur, euse** *n* tez-tez qarz oluvchi.

**tapir (se)** *vpr* pismoq, biqinmoq, yashirinmoq.

**tapis** *nm* gilam; **tapis-brosse** poyandoz.

**tapisser** *vt* gul bosmoq, bezamoq, gul qog'oz yopishtirmoq.

**tapisserie** *nf* gul qoroz ishlab chiqarish va bosish san'ati.

**type** *nm* **1.** zot, siymo; **un type de beauté éternelle** boqiy go'zallik siymosi; **2.** irq, zot, nasab, **elle a le type nordique** u shimoliy zotdan, irqdan; **3.** tur, xil; **4.** haqiqiy inson; **5.** qandaydir kishi; **quel pauvre type!** voy bechora!
**typé, ée** *adj* xos; **un personnage bien typé** o'ziga xos inson, odam.
**typhique** *adj* ich terlamali.
**typhoïde** *adj, nf* ich terlama, tif.
**typhon** *nm* to'fon, Xitoy dengizi va Hind okeanidagi to'fonlar.
**typhus** *nm* ichterlama, tif.
**typique** *adj* xos; **un cas typique** o'ziga xos holat.
**typiquement** *adv* g'irt, xos bo'lgan; **un comportement typiquement anglaise** g'irt ingilizcha yurish-turish, ingilizcha yurish-turishga xos.
**typographe** *n* nashryotchi.
**typographie** *nf* bosmaxona, matbaa; bosib chiqarish, matbaachilik.
**typographique** *adj* nashriy.

**typologie** *nf* tipologiya, turlar tizimi; **une typologie des langues** tillar tipologiyasi.
**typologique** *adj* tipologik.
**tyran** *nm* **1.** qonxo'rlik, zolim podishoh, hukmron, johillik; **2.** qattiq qo'llik; **un tyran domestique** qattiq qo'l oila boshlig'i.
**tyrannie** *nf* **1.** zolim hukumat; **2.** zulm.
**tyrannique** *adj* zulmkor, qahrli.
**tyranniser** *vt* zulm o'tkazmoq, xo'rlamoq.
**tyrolienne** *nf* Tirol tog'liqlari ashulasi.
**tzigane** *n et adj voir* **tsigane**.

# U

**U, u** *nm* fransuz alifbosining yigirma birinchi harfi.
**ubiquité** *nf* hech narsadan, hech joydan qolmaslik, har yerda tayyorlik, hozir-nozirlik.
**ukase** *ou* **oukase** *nm* **1.** farmon *(hokimiyat oliy organining qonun kuchiga ega bo'lgan qarori)*; **2.** buyruq; ko'rsatma; namuna.
**ulcération** *nf* **1.** yara hosil bo'lishi, yara-chaqa, yarali kasallik.
**ulcère** *nm med* yara; **ulcère gastrique** oshqozon yarasi.
**ulcérer** *vt* **1.** *méd* yara qilib yubormoq, yara-chaqa bostirmoq; **2.** nozik joydan olmoq, ranjitmoq, izzat-nafsiga tegmoq, haqorat qilmoq.
**ulcéreux, euse** *adj* **1.** yaraga oid, yarali, yara; **2.** yara bilan qoplangan, yara bosgan.
**ultérieur, eure** *adj* bo'lajak, kelajakdagi, kelgusi.
**ultérieurement** *adv* keyin, keyinchalik; **nous parlerons de cette question ultérieurement** biz bu masala haqida keyin gaplashamiz.
**ultimatum** *nm* ultimatum, qat'iy, keskin talab; **adresser, envoyer un ultimatum** ultimatum jo'natmoq, ultimatum bilan murojaat etmoq.
**ultime** *adj* oxirgi, so'nggi; **faire une ultime tentative** so'nggi marta urinib ko'rmoq.
**ultra I.** *nm* o'ta reaksionyer, o'ta o'ngchi; **II.** *adj* o'ta reaksion.
**ultracourt, courte** *adj* ultraqisqa, o'ta, juda qisqa.
**ultramicroscope** *nm* ultramikroskop, o'ta kuchli optik mikroskop.
**ultramoderne** *adj* o'ta zamonaviy; **une architecture ultramoderne** o'ta zamonaviy me'morchilik.
**ultramontain, aine I.** *adj* **1.** Fransiyaga nisbatan tog'ning narigi tomonida yashovchi; **2.** Alp tog'larining narigi tomonidagi, Alp ortidagi; **II.** *n* ultramontan, katolik diniga sodiq.
**ultrasensible** *adj* o'ta sezuvchan, sezgir; **pellicule ultra-sensible** o'ta sezuvchan fotoplyonka.
**ultrason** *nm* ultratovush.
**ultraviolet, ette I.** *adj* ultrabinafsha; **rayons ultraviolets** ultrabinafsha nurlar; **II.** *nm* ultrabinafsha nurlar.
**ululer** *vi voir* **hululer.**
**un, une I.** *adj* **1.** bir; **un point** bir ochko, ball; **un à un** birma-bir, bittalab; **2.** birinchi; **page un** birinchi bet; **II.** *n* **1.** *nm* bir raqami; **2.** *nf* gazetaning birinchi beti; **un article à la une** (gazetaning) birinchi betidagi maqola; **3.** bir kishi, bir ayol, kimdir; **une qui était contente, c'était la petite x**ursand bo'lgan ayol, bu kenja qiz edi; **III.** *art indéf* (*pl* **des**) **1.** bir; **un livre** bir kitob; **j'attends un homme** men bir kishini kutyapman; **2.** biror, birorta; **donnez-moi un journal** menga birorta gazeta bering; **IV.** *pron indéf* bitta, bir; **l'un d'eux** ulardan biri.
**unanime** *adj* yakdillik bilan qabul qilingan, hamjihatlik bilan qilingan, umumiy.
**unanimement** *adv* yakdillik bilan, hamjihatlik bilan, bir yoqadan bosh chiqarib, bir ovozdan.
**unanimité** *nf* **1.** fikrlarning, xohishlarning birligi, hamfikrlik, bir fikrda bo'lish; **2.** yakdillik, birdamlik, hamjihatlik; **voter à l'unanimité** yakdillik bilan saylamoq, ovoz bermoq.
**uni, ie I.** *adj* **1.** birlashgan, birgalikdagi, qo'shma; **les États-Unis d'Amérique** Amerika Qo'shma Shtatlari; **Organisation des Nations Unies** Birlashgan Millatlar Tashkiloti; **2.** jipslashgan, qo'shilgan; **il se tenait les talons unis** u oyoqlarini jiplashtirib turardi; **3.** inoq, ahil; **une famille unie** ahil, inoq oila; **4.** bir rangdagi, bir xil rangli, bir xil tusli, sidirg'a (*rang*); **tissu uni** sidirg'a gazlama; **5.** bir xil, bir xildagi, bir zayldagi; **II.** *nm* bir xil rangdagi gazlama, sidirg'a mato.
**unicellulaire** *adj biol* bir hujayrali; **organismes unicellulaires** bir hujayrali organizmlar.
**unicité** yakkalik, yagonalik; yolg'izlik.
**unième** *adj numér* birinchi; **trente et unième** o'ttiz birinchi.
**unifier I.** *vt* **1.** birlashtirmoq, qo'shmoq; **unifier un pays** mamlakatni birlashtirmoq; **2.** bir shaklga keltirmoq, unifikatsiya qilmoq; **unifier les programmes scolaires** maktab dasturlarini bir shaklga keltirmoq; **II. s'unifier** *vpr* birlashmoq, qo'shilmoq.
**unificateur, trice** *adj* birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi.
**unification** *nf* **1.** birlashish, birlashuv, qo'shilish; **unification d'un pays** mamlakatning birlashuvi; **2.** birlashtirish, qo'shish.
**uniforme**[1] *adj* **1.** bir xil, o'xshash, teng, baravar; bir xil ko'rinishdagi; bir xil shakldagi; **des maisons uniformes** bir qolipdagi, bir xil, o'xshash uylar; **2.** *fig* doim bir xildagi, zayldagi; hamisha bir xil, o'zgarmaydigan, zerikarli; **une vie uniforme** bir zayldagi hayot, hayotning bir zaylda o'tishi; hamisha bir xil hayot; **3.** *phys math* tekis, bir xil; **le mouvement uniforme** tekis harakat.
**uniforme**[2] *nm* **1.** forma, rasmiy kiyim, formali kiyim; **en grand uniforme** bayram kiyimida; **2.** harbiy forma, kiyim.
**uniformément** *adv* bir xil, o'xshash, bir zaylda, bir tekis.
**uniformisation** *nf* bir xillik, o'xshashlik, bir qolipdalilik, bir taxlitdalik, unifikatsiya, standartlik.
**uniformiser** *vt* **1.** bir xil shaklga keltirmoq, o'xshash holatga keltirmoq; **uniformiser une teinte** rangni o'xshash holatga keltirmoq; **2.** bir xillashtirmoq, o'xshatmoq; **uniformiser les programmes** dasturlarni bir xillashtirmoq.
**uniformité** *nf* **1.** o'xshashlik, bir xillik; **uniformité d'un mouvement** harakatning o'xshashligi, bir xilligi; **2.** bir xillik, bir zayldalik, bir maromdalik.
**unijambiste I.** *adj* bir oyoqli, yakka oyoqli; **II.** *n* bir oyog'i yo'q, bir oyoqsiz odam, ayol.
**unilatéral, ale, aux** *adj* **1.** bir tomonlama, bir tomonga yo'naltirilgan; **stationnement unilatéral** yo'lning bir tomonida to'xtash; **2.** bir tomonlama, bir tomonga mas'uliyat yuklanishi; **contrat unilatéral** bir tomonlama shartnoma; **3.** bir tomonlama (*ikkinchi tomonning roziligisiz, ishtirokisiz amalga oshirilgan*); **décision unilatérale** bir tomonlama qaror qabul qilish.
**unilatéralement** *adv* bir tomonlama, faqat bir tomonning xohishi bilan.
**uniment** *adv* **1.** ochiq, oshkora, ro'yirost, dangal; **dire tout uniment** ro'yirost aytmoq; **2.** qiyinchiliksiz, silliq, beg'alva.
**union** *nf* **1.** qo'shilish, birlashish; jipslashish; **l'union des deux domaines** ikkita mulkning qo'shilishi; **l'union de la gauche** so'l kuchlarning jipslashuvi; **2.** ittifoq, ittifoqlik; inoqlik, hamjihatlik; yakdillik, birdamlik; murosa; **l'union des cœurs** yakdillik; **un esprit d'union** birdamlik ruhi; **l'union fait la force** kuch birlikda; **3.** nikoh, er-xotinlik; **4.** uyushma; birlashma; **union syndicale** kasaba uyushmasi.
**uniprix** *nm* univermag.
**unique** *adj* **1.** yolg'iz; yaka-yagona, birdan-bir, birgina; **un fils unique** yolg'iz, yagona o'g'il; **seul et unique** bittayu-bitta; **2.** yagona, umumiy, birlashgan; **un principe unique** yagona, umumiy prinsip; **3.** tengi, misli yo'q, mislsiz, birdan-bir, dunyoda yo'q, yagona, ajoyib; **une œuvre unique** tengi yo'q asar; **c'est un artiste unique** ajoyib artist.
**uniquement** *adv* **1.** birdan-bir, birgina, yagona; **2.** faqat, yolg'iz; **il désire uniquement réussir** u faqat muvaffaqiyatga erishishni istaydi.
**unir I.** *vt* **1.** qo'shmoq, birlashtirmoq; bog'lamoq; **unir une province à un pays** mamlakatga bir viloyatni qo'shib olmoq; **2.** uylanmoq, erga bermoq, nikohlamoq; **vous êtes unis par les liens du mariage** sizlar nikohdasiz,

sizlar er-xotinsiz; **3.** birlashtirmoq, bog'lamoq (*iqtisodiy, siyosiy jihatdan*); **unir deux Etats** ikki mamlakatni bog'lamoq, ittifoqchi qilmoq; **4.** bog'lamoq, birlashtirmoq, tutashtirmoq (*aloqa vositalari yordamida*); **ce tunnel unit la France et l'Italie** bu tunnel Fransiya va Italiyani birlashtiradi; **5.** birga qo'shmoq, birlashtirmoq, uyg'unlashtirmoq; qo'shib birga olib bormoq; **II. s'unir** *vpr* **1.** qo'shilmoq, birlashmoq; **2.** aralashtirib ketmoq, qo'shilib, birlashib ketmoq; birdamlik bildirmoq, qo'shilmoq, birlashmoq; quvvatlamoq; **s'unir contre l'envahisseur** bosqinchiga qarshi birlashmoq; **3.** to'g'ri, mos, muvofiq kelmoq, yopishib tushmoq, uyg'unlashmoq; **couleurs qui s'unissent harmonieusement** juda xil kelgan ranglar.

**unisexué, ée** *adj bot biol* bir jinsli.

**unisson** *nm* **1.** *mus* unison (*bir xil balandlikdagi bir necha ovozning o'zaro mosligi yoki ohangdoshligi*); **chanter à l'unisson** jo'r bo'lib ashula aytmoq; **2.** hamohanglik, totuvlik, hamjihatlik; **à l'unisson** jo'r bo'lib; mos ovozda; birgalikda.

**unitaire** *adj* **1.** *polit* unitar, qo'shma, birlashgan, bir butunlikni hosil qiladigan; **2.** donabay, donalab; **un prix unitaire** bir donasining bahosi.

**unité** *nf* **1.** bir, bir raqami, bir sonini ko'rsatuvchi raqam; **2.** birlik, bir xillik, o'xshashlik, umumiylik; **unité de vues dans le gouvernement** hukumatdagi qarashlarning birligi; **unité d'action** harakat birligi; **3.** hamjihatlik, birdamlik, birlik; **maintenir l'unité** birlikni, hamjihatlikni saqlab qolmoq; **4.** mustahkam birlik, birlashganlik, jipslashganlik, jipslik, birdamlik; yaxlitlik; **l'unité d'une œuvre** asarning yaxlitligi; **4.** element, butunning tarkibiy qismi; **5.** *mil* bo'linma, qism, otryad; **unité de combat** jangovar qism; **6.** *math* birlik; **mesure des unités** o'lchov birliklari; **7.** o'lcham, o'lchov birligi; **unité de longueur, de poids** uzunlik o'lchovi, og'irlik o'lchovi; **unité monétaire** pul birligi.

**univers** *nm* **1.** yer shari, yer yuzi, dunyo, jahon, olam; **2.** dunyodagi barcha odamlar, barcha, butun dunyo; **3.** soha, bora, jabha; **l'univers des connaissances humaines** gumanitar bilimlar sohasi; **4.** olamning, koinotning bir qismi, planeta; **5.** dunyo (*kishining ichki, ruhiy hayoti va u bilan bog'liq hodisalar majmui*); **c'est là tout mon univers** mening butun hayotim shunda mujassamlashgan.

**universalisation** *nf* **1.** umumlashish, ommalashish; **2.** yoyilish, tarqalish; tarqalib (yoyilib) ketish.

**universaliser** *vt* **1.** umumlashtirmoq; ommalashtirmoq, ommaviylashtirmoq; **2.** yoymoq, kengaytirmoq.

**universalité** *nf* **1.** umumiylik, ommaviylik, barchaga baravar taalluqlilik; **2.** har tomonlama bilimdonlik, haryoqlama ma'lumotga egalik; **l'universalité d'un auteur** muallifning har yoqlama ma'lumotga egaligi, ega ekanligi.

**universel, elle I.** *adj* **1.** umumiy, ommaviy, barchaga taalluqli; **l'avis universel** umumiy fikr; **2.** bilimdon, haryoqlama ma'lumotga ega; **3.** dunyo, jahon miqyosidagi; (butun) dunyo; (butun) jahon; olamshumul, jahonshumul; **l'histoire universelle** dunyo tarixi; **la loi de la gravitation universelle** dunyoning tortishish qonuni; **II.** *nm* umumiylik, umumiy hol; **l'universel et le particulier** umumiylik va xususiylik.

**universellement** *adv* dunyo, jahon miqiyosida; **une chose universellement connue** jahon miqiyosida tanilgan, jahonga tanilgan.

**universitaire I.** *adj* universitetga oid; universitet; **II.** *n* universitet o'qituvchisi.

**université** *nf* universitet; **entrer à l'université** universitetga kirmoq; **faire ses études à l'université** universitetda o'qimoq; **professeur des Universités** universitet professori.

**univocité** *nf* bir ma'nolilik.

**univoque** *adj* bir xil ma'noga ega bo'lgan, bir ma'noli.

**uppercut** *nm* pastdan berilgan zarba (*boksda*).

**uranium** *nm* uran; **atome d'uranium** uran atomi.

**urbain, aine** *adj* **1.** shaharga oid, shahar; **transports urbains** shahar transporti; **populations urbaines** shahar aholisi; **2.** xushmuomalali, ochiq yuz(li), ochiq ko'ngil(li).

**urbanisation** *nf* urbanizatsiya, shahar atrofidagi joylarni shahar qiyofasiga aylantirish; shaharlarning yiriklashuvi.

**urbaniser** *vt* shahar chekkasiga qo'shib olmoq; shaharga aylantirmoq.

**urbanisme** *nm* urbanizm; shaharsozlik, shahar qurilishi, shahar barpo etish, shahar binokorligi.

**urbaniste** *nm* shaharsoz, shahar quruvchi (*shahar qurilishi va uning tarhini tuzish bo'yicha mutaxassis-arxitektor*).

**urbanité** *nf* odoblilik, boadablik, nazokatlilik.

**urbi et orbi** *loc adv* barcha nasroniylarga papa tomonidan berilgan fotiha, duo.

**urée** *nf* mochevina, karbamid (*siydik tarkibida bo'ladigan kristall modda*).

**urémie** *nf méd* uremiya (*buyrak faoliyatining buzulishi tufayli paydo bo'ladigan kasallik-organizmning zaharlanishi*).

**urémique** *adj méd* uremiyaga oid, uremiya.

**uretère** *nm anat* siydik yo'li.

**urétral, ale** *adj* siydik chiqaradigan, chiqadigan; siydik, peshob.

**urètre** *nm anat* siydik chiqarish kanali.

**urgence** *nf* shoshilinch, zudlik, oshig'ichlik, qistalanglik, zud zarurlik; **l'urgence d'un travail** ishning oshig'ichligi, zudligi; **d'urgence** tez, tezda, tezlik, zudlik bilan, oshig'ich, shoshilinch, kechiktirmay, darhol.

**urgent, ente** *adj* oshig'ich, shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan; **des travaux urgents** shoshilinch ishlar.

**urger** *v impers* shoshilinch bo'lmoq; **ça urge!** ish shoshilinch!

**urinaire** *adj* siydikka, peshobga oid, siydik, peshob; **les voies urinaires** siydik yo'llari.

**urinal** *nm* tuvak (*hojat uchun*).

**urine** *nf* siydik, peshob.

**uriner** *vi* siymoq, yozilmoq, bo'shanmoq.

**urinoir** *nm* pissuar (*hojatxonada siydik oqib ketadigan chanoq*).

**urique** *adj* **acide urique** siydik kislotasi.

**urne** *nf* **1.** urna, kuydirilgan jasadning kuli saqlanadigan idish; **une urne funéraire** jasad kuli solingan urna; **2.** yon sirti yumaloq antik ko'zacha, guldon; dekorativ kuldon; **3.** urna, yashik, quti; **aller aux urnes** saylovga bormoq.

**urographie** *nf* urografiya, siydik yo'llarini rentgen apparatida suratga olish.

**urologie** *nf* urologiya.

**urticaire** *nf* eshak yemi (*kasallik*).

**us** *nm pl* rasm, urf-odat, udum; taomil; **les us et les coutumes** rasm-rusm(lar), urf-odat(lar).

**usage** *nm* **1.** qo'llanilish, ishlatilish; **l'usage d'un outil, d'un instrument** asbob, instrumentning ishlatilishi; **2.** qo'llash, qo'llanish; iste'molda bo'lmoq; **3.** *loc* **faire usage de** foydalanmoq, qo'llamoq, ishlatmoq, ishga solmoq; **faire usage de faux noms** qalbaki nomlardan foydalanmoq; **en usage** qo'llanilayotgan, iste'moldagi, iste'molda bo'lgan; **être en usage** iste'molda bo'lmoq; **mettre en usage** iste'molga kiritmoq; **entrer dans l'usage** iste'molga kirmoq; **avoir l'usage de** foydalanmoq; **4.** maqsad; vazifa; mo'ljal; **un couteau à plusieurs usages** turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan pichoq; **hors d'usage** yaroqsiz, ishdan chiqqan, ishga yaramaydigan; **à l'usage de** ishlatishga, foydalanishga mo'ljallangan, foydalanish, ishlatish uchun; **5.** til hodisalarining nutqda qo'llanilishi, iste'molda bo'lishi; **mot en usage** iste'moldagi so'z; **le bon usage de la langue** nutqning bexatoligi, to'g'riligi; **6.** odat, o'rganish; **un ancien usage qui se perd** yo'qolib borayotgan odat; **conforme aux usages** odatlarga mos keladigan; **les usages changent** odatlar o'zgarmoqda; **connaître les usages** o'zini qanday tutishni bilmoq.

**usagé, ée** *adj* tutilgan, kiyilgan, eski; **vêtements usagés** kiyilgan; eski kiyimlar.

**usager** *nm* iste'molchi; foydalanuvchi; xaridor (*ko'pincha alohida so'z bilan tarjima qilinadi*); **les usagers du métro** metro yo'lovchilari; **les usagers du téléphone** telefon abonentlari, telefondan foydalanuvchilar; **les usagers de la route** avtomobilchilar; **les usagers de la bibliothèque** kutubxonadan foydalanuvchilar, kitobxonlar.

**usant, ante** *adj* charchatadigan, holdan toydiradigan; mashaqqatli; kuch-quvvatni oladigan; **un travail usant** mashaqqatli ish.

**usé, ée** *adj* **1.** eskirgan, toʻzigan, yaroqsiz; eskirib ishdan chiqqan; **vêtement usé** eskirgan, toʻzigan kiyim; **2.** holdan toygan, behol; **elle est usée** u holdan toygan, kuch-quvvatdan qolgan; **3.** siyqasi chiqqan; koʻp ishlatilgan, chaynalgan; **un sujet usé** siyqasi chiqqan mavzu.

**user I.** *vt* **1.** foydalanmoq, ishlatmoq, qoʻllamoq; ishlatmoq, ishga solmoq; **user d'un droit** huquqdan foydalanmoq; **2.** *litt* **pourquoi en user ainsi avec moi?** nega men bilan bunday muomala qilmoqdalar? **3.** ishlatmoq, sarflamoq, sarf qilmoq; ketkizmoq; **user beaucoup d'électricité** koʻp elektroenergiya sarflamoq; **ce poêle use beaucoup de charbon** bu pech koʻp koʻmir talab qiladi; **2.** kiyaverib eskirtmoq, yirtmoq, toʻzitmoq, tamom qilmoq, kiyib toʻzdirmoq; **user ses chaussures** oyoq kiyimni eskirtmoq; **3.** charchatmoq, qattiq charchatmoq, holdan toydirmoq, tinkasini quritmoq; horitmoq, surobini toʻgʻrilamoq; **le travail l'a usé** mehnat uni horitdi, uning mehnatdan tinkasi quridi; **III. s'user** *vpr* **1.** kiyilib toʻzimoq, eskirmoq; yirtilmoq, toʻzmoq; **cette étoffe s'use vite** bu gazlama tez toʻziydi; **2.** boʻshashmoq, holdan toʻymoq, zaiflashmoq, kuchdan, kuch-quvvatdan qolib bormoq.

**usine** *nf* zavod; **une usine d'automobiles** avtomobil zavodi; **une usine électrique** elektr stantsiya; **usine pilote** ilgʻor korxona; tajriba zavodi.

**usinage** *nm* stanokda ishlov berish; mexanik ishlov berish; **usinage des métaux** metallga ishlov berish.

**usiner** *vt* **1.** ishlov bermoq (*xomashyo haqida*); **2.** zavodda tayyorlamoq, ishlab chiqarmoq; **usiner des pièces détachées** detal tayyorlamoq, detal ishlab chiqarmoq. **3.** *fam* ogʻir ishlarni bajarmoq.

**usinier, ière I.** *adj* zavodga oid zavod; sanoatga oid, sanoat; **II.** *nm* zavod egasi.

**usité, ée** *adj* ishlatiladigan, foydalaniladigan, qoʻllaniladigan; isteʼmoldagi; **un mot usité** isteʼmoldagi soʻz; **peu usité** kam qoʻllaniladigan.

**ustensile** *nm* instrument, asbob; **ustensiles de cuisine** oshxona anjomlari; idish-tovoqlar.

**usuel, elle I.** *adj* oddiy, odatdagi; odat boʻlib qolgan, isteʼmoldagi; **mots usuels** soʻzlashuv tili leksikasi; **II.** *nm* maʼlumot nashrlari (*ensiklopediya, lugʻat, katalog, bibliografiya kabilar*).

**usuellement** *adv* odatda.

**usufruit** *nm* birovlarning mol-mulkidan, mol-dunyosidan foydalanish huquqi; **avoir l'usufruit d'une maison** (begona) uydan foydalanish huquqiga ega boʻlmoq.

**usufruitier, ière** *n* begonalarning mol-mulkidan foydalanish huquqiga ega boʻlgan kishi.

**usuraire** *adj* sudxoʻrlikka, foydaxoʻrlikka oid, sudxoʻrlik, foydaxoʻrlik.

**usure**[1] *nf* **1.** yeyilish, yeyilib ketish; yirtilish; esarish, toʻzish; **l'usure des pneus** shinaning yeyilishi; **2.** kamayish, ozayish; yomonlashish, ogʻirlashish; **usure des forces** kuchning kamayishi; **usure de l'énergie** energiyaning ozayishi; **3.** eskirganlik, toʻziganlik; **l'usure rendait son costume tout luisant** kostumi eskirganlikdan butunlay yiltillab ketgan edi.

**usure**[2] *nf* sudxoʻrlik; **il pratique l'usure** u sudxoʻrlik bilan shugʻullanadi.

**usurier, ière** *n* sudxoʻr, foydaxoʻr.

**usurpateur, trice** *n* uzurpator (*hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxs*).

**usurpation** *nf* uzurpatsiya, tortib olish (*hokimiyatni yoki birovning huquqini qonunga xilof ravishda tortib olish*).

**usurper** *vt* uzurpatsiya, uzurpatorlik qilmoq, qonunga xilof ravishda tortib olmoq; **usurper un pouvoir** hokimiyatni zoʻrlik bilan tortib olmoq.

**ut** *nm mus* do.

**utérin, ine** *adj anat* bachadonga oid; bachadonda sodir boʻladigan.

**utérus** *nm anat* bachadon.

**utile I.** *adj* foydali, foyda keltiradigan; **un livre utile** foydali kitob; **utile à** foydali, foyda keltiradigan, foyda qiladigan; **une découverte utile à l'humanité** insoniyatga foyda keltiradigan kashfiyot; **en quoi puis-je vous être utile?** nima qilsam sizga foydam tegarkin? men bop xizmat bormi? **II.** *nm* foydali narsa; **joindre l'utile à l'agréable** foydali narsaning yoqimli boʻlishini ham hisobga olmoq.

**utilement** *adv* foydali tarzda; muvaffaqiyat bilan.

**utilisable** *adj* foydalansa boʻladigan; ishlatsa boʻladigan; yaroqli, yaraydigan, kerakli, foydali; **ce dictionnaire n'est pas utilisable** bu lugʻat foydalanishga yaroqsiz.

**utilisateur, trice** *n* foydalanuvchi, tasarruf qiluvchi.

**utilisation** *nf* foydalanish, ishlatish; ishlatilish.

**utiliser** *vt* foydalanmoq, ishlatmoq, ishga solmoq, qoʻllamoq; **utiliser un nouveau produit** yangi mahsulotdan foydalanmoq.

**utilitaire I.** *adj* **1.** *philos* utilitarizmga oid, utilitarizm; **2.** manfaatparast, foyda koʻrishga intiladigan; **3.** foydali, amaliy; **II.** *nm inform* dastur.

**utilité** *nf* **1.** foyda; manfaat, naf; **être d'une grande utilité** katta foyda keltirmoq; **2.** *pl* théâtre. ikkinchi darajali roʻl; **jouer les utilités** ikkinchi darajali rollarni oʻynamoq.

**utopie** *nf* **1.** *philos* utopiya (*ideal jamiyatning ilmga asoslanmagan tasviri, shuningdek jamiyatni qayta qurishning noreal planlaridan iborat asarlarning ifodasi yoki umumiy nomi*); **2.** xomxayol, amalga oshmaydigan, xayoliy orzu.

**utopique** *adj* utopiyaga oid, utopik, xayoliy, fanga asoslanmagan; amalga oshmaydigan; **il a des idées utopiques** uning gʻoyalari amalga oshmaydigan gʻoyalardir.

**utopiste** *nm* utopist, xayolparast, xomxayol odam.

# V

**V, v** *nm inv* fransuz alifbosining yigirma ikkinchi harfi; shu harf shakli; **en V** katta V harfi shaklida.

**V.** *abrév, symboles* **I.** *adj poss* siz; **V.E. (Votre Excellence)** Zoti oliy, janobi oliylari, hazrati oliylari; **II. V. (volume)** tom, jild; **III. V. (volt)** volt; **IV.** *adj, nm inv* rim raqamida besh.

**vacance** *nf* vakansiya, vakant joy, boʻsh joy, boʻsh xizmat oʻrni, boʻshlik.

**vacances** *nf pl* kanikul, taʼtil, otpuska, dam olish; **les grandes vacances** yozgi taʼtil; **partir en vacances** dam olishga joʻnab ketmoq.

**vacancier, ière** *n* dam oluvchi, taʼtildagi odam.

**vacant, ante** *adj* **1.** vakant, boʻsh, xoli, band boʻlmagan, egasiz (*joy, oʻrin, ish joyi*); **logement vacant** boʻsh uy; **poste vacant** boʻsh oʻrin, boʻsh ish joyi; **2.** *dr* egasiz; **biens vacants** egasiz mulk; **succession vacante** egasiz meros; **3.** *litt* shuursiz; **4.** pulsiz, bir tiyinsiz, bir mirisiz.

**vacarme** *nm* gʻala-gʻovur, gʻovur-gʻuvur, shovqin, shovqin-suron, shov-shuv, baqiriq-chaqiriq, qiy-chuv; **un vacarme assourdissant** quloqni qomatga keltiradigan, batang qiladigan shovqin-suron.

**vacataire** *n* maʼlum bir muddat mobaynida aniq bir vazifaga tayinlangan odam.

**vacation** *nf dr* **1.** mahkama tomonidan ishni koʻrib chiqish yoki belgilangan vazifani amalga oshirish uchun sarflangan vaqt; shu vazifa uchun toʻlanadigan haq; **2.** mahkamalarning taʼtili; **3.** kimoshdi savdo, auksion.

**vaccin** *nm* em, emdori, zardob; *fam* emlash; **vaccin antituberculeux (B.C.G.)** silga qarshi em (BSJ); **inoculation, injection d'un vaccin** em yuborish, emlash.

**vaccination** *nf* emlash.

**vacciner** *vt* **1.** emlamoq; **se faire vacciner contre la grippe** oʻzini grippga qarshi emlatmoq; **2.** *fam* qoʻriqlamoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq.

**vache I.** *nf* **1.** sigir, mol; mol goʻshti; sigir terisi, charmi; **vache à lait, vache laitière** sogʻin sigir; **la vache meugle, beugle** sigir maʼraydi; **maladie de la vache folle (encéphalite spongiforme)** oqsim, oqsil kasalligi; **une vache qui donne, qui frappe de la corne** suzongʻich sigir; **les vaches grasses** moʻl-koʻlchilik; **les vaches maigres** ocharchilik; qurgʻoqchilik; **vache à lait** sogʻin sigir, serdaromad joy; **le plancher des vaches** qattiq yer, quruqlik; **il pleut comme vache qui pisse** yomgʻir chelaklab quyganday yogʻmoqda; **parler français comme une vache espagnole** fransuz tilida juda yomon gapirmoq; **en vache** zimdan, sekingina, yeng ichida,

bildirmasdan; **une vache n'y trouverait pas son veau** it egasini, mushuk bekasini tanimaydi; **2.** *fig vx* juda semiz ayol; *pop vx* dangasa va lanj odam; **3.** *fam vieilli* politsiyachi, jandarm; **4.** *fam* qo'pol, jahldor, berahm odam; ablah, razil, muttaham odam; **II.** *adj fam* keskin, qo'pol, qattiq, dag'al, badjahl, zolim; razil, qabih, pastkash, noinsof; **il a été vache avec moi** u menga pastkashlik qildi; **III.** *intj* **la vache!** o, eh, o', o'hho'; obbo, jin ursin; **la vache! comme c'est beau** o'hho'! qanday go'zal!

**vachement** *adv* **1.** *vieilli* qo'pollik bilan, dag'allik bilan; qabihona, razilona, pastkashlik bilan; **2.** ko'p, juda, o'ta, rosa, juda soz, xo'p; hayratlanarli, hayratda qolarli.

**vacher, ère** *n* podachi, poda boquvchi, molchi, molboqar.

**vacherie** *nf* **1.** molxona; **2.** *fig fam* qabihlik, pastkashlik, razillik, insofsizlik; **dire des vacheries** iflos so'zlar aytmoq.

**vachette** *nf* tana, tanacha, g'unajin; g'unajin terisi, charmi.

**vacillant, ante** *adj* **1.** tebranib, chayqalib turgan, qaltiragan, titragan, qimirlab turadigan, tebranma, tebranuvchi, chayqaluvchi, liqildoq, omonat; **une démarche vacillante** lapanglab, chayqalib yurish; **2.** yiltiragan, miltillagan, jimirlagan, miltirab, yiltirab turgan, miltillab, yiltillab ko'ringan; **une flamme vacillante** yilt-yilt qilgan olov; **3.** ikkilanuvchi, jur'atsiz, beqaror, qat'iyatsiz; noaniq, betayin.

**vacillation** *nf voir* **vacillement**.

**vacillement** *nm* **1.** tebranish, chayqalish, titrash; **2.** yiltirash, yiltillash, miltirash, jimirlash; **3.** ikkilanish, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik, noaniqlik.

**vaciller** *vi* **1.** tebranmoq, chayqalmoq, titramoq, liqillamoq; **2.** miltiramoq, yiltiramoq, jimirlamoq, miltillamoq, yiltillamoq, yilt-yilt qilmoq, lipillamoq, lip-lip etmoq; **3.** *fig* ikkilanmoq, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik qilmoq, taraddudlanmoq; o'zgarib turmoq.

**vacuité** *nf* bo'shlik, xolilik; ma'nosizlik, quruqlik, behudalik, bemazalik, noaniqlik.

**vacuole** *nf* vakuola.

**vacuum** *nm* vakuum, bo'shliq.

**vade-mecum** *nm inv litt* vade-mekum, ma'lumotnoma, ko'rsatkich, yondaftar.

**vadrouille** *nf fam* sayr, tomosha; sandiroqlash, tentirash, sang'ish, sandiroqlab, sanqib, tentirab yurish.

**vadrouiller** *vi fam* aylanib yurmoq, sayr qilmoq, tomosha qilmoq; tentirab yurmoq, sanqimoq, sandiroqlamoq, sandiroqlab yurmoq, bekor yurmoq.

**va-et-vient** *nm inv* **1.** kemadan qirg'oqqa tortilgan arqon; **2.** bordi-keldi, u yoqdan-bu yoqqa yurish, harakat qilish, keldi-ketdi; **un café où il y a beaucoup de va-et-vient** keldi-ketdisi ko'p kafe; **3.** tebranish, chayqalish.

**vagabond, onde I.** *adj* **1.** *litt* ko'chmanchi, ko'chib yuradigan; daydi, sayoq, sang'ib yuruvchi, darbadar, sarson, sargardon, devona; **peuples vagabonds** ko'chmanchi xalqlar; **2.** *fig* beqaror, beorom, o'zgaruvchan, betayin, subutsiz, aynimachoq; **II.** *n* ko'chmanchi, sayohatchi, sayyoh, sarguzashttalab; daydi, darbadar, sayoq, sanqi, bekor daydib yuruvchi, bekorchi; **vagabond sans feu ni lieu** boshpanasiz daydi.

**vagabondage** *nm* ko'chmanchilik, ko'chib yurish, sarguzasht; daydilik, sayoqlik, sang'ish, darbadarlik, sargardonlik, bekorchilik.

**vagabonder** *vi* ko'chib yurmoq, daydimoq, sanqimoq, sayoq yurmoq, tentiramoq, izg'imoq, adashmoq, darbadarlik qilmoq.

**vagin** *nm* moylik, qin, ayollar jinsiy a'zosi.

**vaginal, ale, aux** *adj* moylik, qinga oid.

**vagir** *vi* qichqirmoq, big'illamoq (*yangi tug'ilgan chaqaloq; quyon, timsoh*).

**vagissant, ante** *adj* qichqirayotgan, big'illayotgan (*yangi tug'ilgan chaqaloq; quyon, timsoh*).

**vagissement** *nm* qichqiriq, yig'i, big'illash (*yangi tug'ilgan chaqaloq; quyon, timsoh*).

**vague**[1] *nf* **1.** to'lqin, mavj, dolg'a, po'rtana; **la crête des vagues** to'lqin qirrasi; **2.** harakat, to'lqin, mavj oqim; **vague de chaleur, de froid** issiq havo, sovuq havo oqimi; **la Nouvelle Vague** XX asrning 50-yillarida maydonga chiqqan yosh kinorejissorlar; **3.** to'lqinsimon yuza, narsa.

**vague**[2] **I.** *adj* bo'sh, ekinsiz; **terrain vague** bo'sh yotgan yer, noobod yer, xarobazor; **II.** *nm* bo'shliq.

**vague**[3] **I.** *adj* **1.** *vx* daydi, sayyor; *anat* **nerf vague** adashgan, sayyor nerv; **2.** noaniq, noma'lum, mujmal, mubham, zahar, betayin, chuchmal, dudmol, g'aliz; **réponse vague** mujmal javob; **3.** xira, g'ira-shira, qorong'i, noaniq; **4.** *péj* (*otdan oldin*) qandaydir, ahamiyatsiz, arzimaydigan, notayin; **II.** *nm* noaniqlik, mujmallik, mubhamlik, zaharlik, noma'lumlik, betayinlik; **vague à l'âme** g'amginlik, ma'yuslik, xafagarchilik, hazinlik.

**vaguelette** *nf* mavj, kichik to'lqin, jimir-jimir to'lqinlar.

**vaguement** *adv* **1.** noaniq, dudmol, mujmal, elas-elas, uzuq-yuluq; **2.** ozgina, biroz, bir qadar, sal, bir muncha.

**vaguemestre** *nm mil* pochta xizmati boshlig'i.

**vaillamment** *adv* **1.** botirlarcha, mardlarcha, qahramonlarcha, bahodirlarcha, mardona, shijoatkorona; **2.** matonat bilan, chidam bilan, sabot bilan.

**vaillance** *nf litt* **1.** botirlik, mardlik, jasurlik, qahramonlik, bahodirlik, dilovarlik, shijoat; **2.** matonatlilik, chidamlilik, sabotlilik.

**vaillant, ante** *adj* **1.** botir, mard, jasur, qahramon, bahodir, dilovar, shijoatli, shavkatli, sheryurak, arslon; **2.** matonatli, chidamli, sabotli, kuchli, bukilmas, yengilmas; **3.** bardam, tetik, g'ayratli, tiyrak; *loc* **il n'a pas un sou vaillant** cho'ntagida bir chaqasiyam yo'q, hemiriyam yo'q.

**vain, vaine** *adj* **1.** foydasiz, befoyda, bekor, behuda, zoye, natijasiz, bo'sh; **faire de vains efforts** behudaga urinmoq; *loc adv* **en vain** behudaga, bekorga, samarasiz, bejiz; **2.** mag'rur, manman, kekkaygan, maqtanchoq, bema'ni, takabbur, dimog'dor, o'ziga bino qo'ygan; **3.** ma'nosiz, tuzsiz, quruq, bema'ni, puch, asossiz, quruq; **un vain espoir** puch umid.

**vaincre** *vt* yengmoq, g'alaba qozonmoq, muvaffaqiyat qozonmoq, g'olib kelmoq, mag'lubiyatga uchratmoq, ustun kelmoq, yutmoq, bartaraf qilmoq, yo'q etmoq; **vaincre les difficultés** qiyinchiliklarni yengmoq; **vaincre sa colère** g'azabini bosmoq.

**vaincu, ue** *adj* yengilgan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan, mag'lub, mag'lubiyatga uchragan; **s'avouer vaincu** mag'lubiyatini tan olmoq, taslim bo'lmoq, bo'yin egmoq.

**vainement** *adv* behudaga, bekorga, samarasiz, foydasiz.

**vainqueur I.** *nm* g'olib, muzaffar, fotih, yenggan, yengib chiqqan; sovrindor; **vainqueur aux points** ochkolar bo'yicha g'olib; **vainqueur par K.-O.** nokaut bilan yenggan g'olib; **II.** *adj m* g'olib, g'olibona, zafarli; dabdabali, kekkaygan.

**vair** *nm vx* olmaxon mo'ynasi.

**vairon**[1] *nm* oqar suvlarda yashovchi kichik baliq turi.

**vairon**[2] *adj m* **yeux vairons** turli, har xil rangdagi ko'zlar.

**vaisseau** *nm* **1.** *vx* idish, idish-tovoq; **2.** *anat bot* tomir; **vaisseaux sanguins, lymphatiques** qon tomirlari, limfa yo'llari; **plantes à vaisseaux** naychali o'simliklar; **3.** *vieilli* kema; **vaisseau marchand** savdo kemasi; **le vaisseau du désert** sahro kemasi (*tuya*); **4.** *archit* nef, uzun, yo'laksimoq xona.

**vaisselier** *nm* idish-tovoq qo'yiladigan shkaf, javon.

**vaisselle** *nf* **1.** idish-tovoq, idish-oyoq, qozon-tovoq; **vaisselle plate** qimmatbaho idish-tovoqlar (*oltin, kumush*); **s'envoyer la vaisselle à la tête** qattiq janjallashmoq, shovqin-suron qilmoq; **2.** ovqat yeyilgan idish-tovoq; idish-tovoqlarni yuvish; **faire la vaisselle** idish-tovoqni yuvmoq; **eau de vaisselle** yuvundi; **liquide vaisselle** idish-tovoq yuvish vositasi (*suyuqlik*).

**val,** *pl* **vals** *ou* **vaux** *nm vx* vodiy; *loc* **par monts et par vaux** mamlakat osha, yurt osha; tog'u tosh kezib.

**valable** *adj* yaroqli, yaraydigan, kuchga ega bo'lgan, amaldagi, risoladagiday; ma'qul, maqbul, qabul qilsa bo'ladigan; **argument valable** asosli dalil; **il n'a donné aucun motif valable** birorta arzigulik sabab ko'rsata olmadi; *polit* **interlocuteur valable** muzokaralar olib borishi mumkin bo'lgan tomon; muzokaralar olib borish vakolatiga ega tomon.

**valablement** *adv* yaroqli ravishda, qonunga muvofiq ravishda, qonunan; to'g'ri, durust, foydali, ta'sirli ravishda.

**valdinguer** *vi fam* yiqilmoq, ag'darilmoq, qulamoq; **envoyer valdinguer qqch, qqn** otvormoq, irg'itmoq, tashlab yubormoq (*narsani*); haydab solmoq, quvlab chiqarmoq, dumini tugmoq (*odamni*).

**valence** *nf chim* valentlik (*ma'lum element atomining boshqa element atomi bilan birlashish yoki almashish qobiliyati*).

**valériane** *nf* kadio‘t, valeriana; shu o‘simlikning ildizi; **valériane officinale** dorivor kadio‘t, valeriana.

**valet** *nm* **1.** *vieilli* xizmatkor, malay, qarol, g‘ulom; mulozim, yollanma ishchi; **valet de ferme** batrak; **valet d'écurie** otboqar; **valet de chien, de meute** itboqar; *prov* **les bons maîtres font les bons valets** eshagiga yarasha tushovi; **2.** *vx* sayis, otboqar (*biror amlakdor xizmatidagi*); **3.** valet (*qarta o‘yini*); **valet de pique** valet qarg‘a; **4.** *fig* laganbardor, xushomadgo‘y, malay; **5. valet de nuit** kiyim ilgich.

**valétudinaire** *adj, n vieilli litt* kasalmand, dardchil, darmonsiz, so‘lg‘in.

**valeur** *nf* **1.** baho, narx, narx-navo, qiymat; **objet de grande valeur** qimmatbaho buyum; **Taxe à la Valeur Ajoutée (T.V.A.)** Qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS); **valeur intrinsèque, extrinsèque de la monnaie** pulning haqiqiy qiymati, ustiga yozib qo‘yilgan qiymati; **valeur vénale** sotib olish yoki sotish bahosi; **diminution de valeur** qadrsizlanish; **valeur déclarée** narxi, qiymati ko‘rsatilgan (*xat, jo‘natma*); **déterminer la valeur de qqch** baholamoq, qiymatini aniqlamoq; **mettre en valeur** foyqa olmoq; *fig* ta'kidlamoq, ajratib ko‘rsatmoq; **se mettre en valeur** o‘zini ko‘rsatmoq; **2.** valuta; aksiya, qimmatbaho qog‘oz, obligatsiya; **valeurs mobilières** qimmatbaho qog‘ozlar; **valeurs or** oltin valuta; **cote, cours d'une valeur** valuta kursi; **3.** ahamiyat, ma'no, mazmun; qadr-qimmat, fazilat, xislat, salohiyat; **attacher une grande valeur** katta ahamiyat bermoq; **de première valeur** katta ahamiyatga molik; **valeur nutritive** to‘yimlilik; **les valeurs morales** ma'naviy qadriyatlar; **homme de valeur** ajoyib xislatli kishi, fazilatli odam; **4.** jasorat, qahramonlik, jasurlik; **5.** *math* miqdor, qiymat; **6.** miqdor, sig‘im; **ajoutez la valeur d'une cuillère** bir qoshiqcha, bir qoshiqqa siqquncha, bir qoshiq miqdorida qo‘shing; **7.** *ling* ma'no; **valeur affective** *ling* stilistik bo‘yoq.

**valeureux, euse** *adj litt* jasur, botir, qahramon, shavkatli, shonli.

**validation** *nf* tasdiqlash, qonunlashtirish, rasmiylashtirish; haqiqiy, qonuniy deb topish, tan olish.

**valide** *adj* **1.** sog‘lom, bardam, baquvvat, tetik; ishga layoqatli, ishlay oladigan, mehnatga yaroqli, qo‘lidan ish keladigan; **2.** haqiqiy, qonuniy, yaroqli, yaraydigan, kuchga ega bo‘lgan, amaldagi; ma'qul, maqbul, qabul qilsa bo‘ladigan.

**valider** *vt* tasdiqlamoq, tasdiq etmoq, qonunlashtirmoq, rasmiylashtirmoq; qonuniy, haqiqiy deb topmoq, tan olmoq; **valider une élection** saylov natijalarini tasdiqlamoq.

**validité** *nf* yaroqlilik, haqiqiylik, qonuniylik; yaroqlilik muddati, amal qilish muddati; *méd* **validité mentale** o‘z xatti-harakatiga javob bera olish.

**valise** *nf* **1.** chamadon, chemodan, jomadon; **faire sa valise** yuklarini, yig‘ishtirmoq, tayyorlamoq, yo‘lga hozirlik ko‘rmoq; **(se) faire la valise** jo‘nab ketmoq; o‘lmoq; **con comme une valise (sans poignée)** g‘irt ahmoq, o‘taketgan anqov, ovsar, tentak; **2. valise diplomatique** diplomatik pochta; **3.** *pl fig fam* ko‘z tagidagi salqi, shish; **il a des valises sous les yeux** uning ko‘zlari salqigan.

**vallée** *nf* vodiy; soylik; **La vallée de Josaphat, du Cédron** Yoshafat vodiysi (*Injilga ko‘ra oxirzamonda o‘liklar qayta tiriladigan joy*)**; vallée de larmes, de misère** bu dunyo, o‘tkinchi dunyo; **2.** havza; **la vallée du Nil** Nil havzasi.

**vallon** *nm* kichik vodiy, pastlik, soylik, soy.

**vallonné, ée** *adj* pastlik va soyliklari ko‘p.

**vallonnement** *nm* past-balandlik, past-balandli joy.

**valoche** *nf fam* chamadon, chemodan, jomadon.

**valoir I.** *vi* **1.** arzimoq, lozim bo‘lmoq, munosib bo‘lmoq, sazovor bo‘lmoq, ahamiyatga molik bo‘lmoq; **cela vaut de l'argent** bu qimmatbaho narsa, bu ko‘p pul turadi; **je n'ai fait rien qui vaille** biror arziydigan narsa qilmadim; **valoir la peine de** -ga arzimoq; *fam* **cela ne vaut pas un zeste, un pet de lapin, un clou** bu sariq chaqaga ham arzimaydi, hech narsaga arzimaydi; **faire valoir son bien** o‘z mol-mulkidan foyda olmoq, chiqarmoq; **faire valoir ses droits** o‘z huquqlarini himoya qilmoq; **2.** to‘g‘ri, mos, loyiq kelmoq, yaramoq; **il vaut mieux, ça vaut mieux** yaxshiroq, maqsadga muvofiqroq; *prov* **mieux vaut tard que jamais** hechdan ko‘ra kech yaxshi; **vaille que vaille** tavakkal, nima bo‘lsa bo‘ldi, bo‘lganicha bo‘lar; **II.** *vt* teng bo‘lmoq; duchor, giriftor bo‘lmoq; bermoq, yo‘liqtirmoq, duchor qilmoq; **qu'est-ce qui nous vaut cet honneur?** bu dabdabalar evaziga nima qilishimiz kerak bo‘ladi? **III. se valoir** *vpr* bir-biriga arzimoq; bir xil ahamiyatga ega bo‘lmoq, teng bo‘lmoq; *fam* **ça se vaut** yaxshi ham emas, yomon ham emas, u ham emas, bu ham emas.

**valorisation** *nf* **1.** baholash, bahosini oshirish; baholarni sun'iy ravishda oshirish; **2.** qadr-qimmatini, qiymatini oshirish; **3.** chiqindilarni qayta ishlash.

**valoriser** *vt* **1.** baholamoq, narx qo‘ymoq; baholarni qayta ko‘rib chiqmoq; baholarni sun'iy ravishda oshirmoq; **2.** qiymatini, qadr-qimmatini oshirmoq; **3.** *math* o‘zgaruvchiga qiymat bermoq; **4.** chiqindilarni qayta ishlamoq.

**valse** *nf* **1.** vals (*raqs; kuy*); **2.** *fig fam* muntazam ravishda o‘zgarish, almashish, o‘rin almashish; bir joydan boshqa joyga o‘tkazish; **valse des ministres** vazirlarni almashtirish, bir vazirlikdan olib boshqasiga qo‘yish; **la valse des prix** narxlarning to‘xtovsiz o‘ynashi, oshishi.

**valser** *vi* **1.** valsga tushmoq; **2.** *fam* **faire valser l'argent** pulni bekorga sovurmoq; **envoyer valser qqn** ishdan haydamoq; **faire valser les prix** narxlarni muntazam o‘zgartirib turmoq.

**valseur, euse** *n* **1.** valsga tushuvchi, valsga tushishni biladigan odam; **2.** *nf pl vulg* yorg‘oq, moyak.

**valve** *nf* **1.** *bot* palla (*ikki pallali molluskalarda; mevalarda*); *anat* **valves cardiaques** yurak klapani tavaqalari; **2.** klapan, qopqoq, ventil; **3.** *pl* e'lonlar osib qo‘yiladigan doska (*Belgiyada*).

**valvule** *nf anat* klapan, qopqoq; **valvules auriculo-ventriculaires du cœur** bo‘lmacha-qorincha oraliq teshigi qopqoqlari, klapanlari.

**vamp** *nf* yo‘ldan ozdiruvchi, maftunkor ayol, falokat keltiruvchi ayol.

**vamper** *vt fam* yo‘ldan ozdirmoq, adashtirmoq, sehrlab qo‘ymoq, aqlini olib qo‘ymoq, moyil qilmoq (*erkaklarni*).

**vampire** *nm* **1.** vampir; **2.** *fig vieilli* qonxo‘r, zolim, yovuz; shafqatsiz qotil, vahshiy, yovuz; **3.** qon so‘ruvchi katta ko‘rshapalak, yorg‘anot.

**van**[1] *nm* kepchik, zag‘oma.

**van**[2] *nm* poygachi otlarni tashish uchun mo‘ljallangan yuk mashinasi.

**vandale** *n, adj* **1.** vandal, varvar (*qadimiy german qabilalari a'zosi*); **2.** *fig* madaniy yodgorliklarni xarob qiluvchi, buzg‘unchi, vahshiy, madaniyatsiz, johil, nodon.

**vandalisme** *nm* vandalizm, madaniy yodgorliklarni, san'at asarlarini vahshiylarcha xarob etish, yo‘q qilish, vahshiylik, yovvoyilik, madaniyatsizlik, buzg‘unchilik, johillik.

**vanille** *nf* vanil (*tropik meva*); shu meva tarkibidagi qandolatchilikda ishlatiluvchi xushbo‘y modda; **glace à la vanille** vanil qo‘shilgan muzqaymoq.

**vanillé, ée** *adj* vanilli, vanil qo‘shilgan; vanil hidi kelib turgan.

**vanillier** *nm* vanil (*tropik o‘simlik*).

**vanilline** *nf chim* vanilin (*vanil o‘rnida ishlatiladigan modda*).

**vanité** *nf* **1.** behudalik, bekorlik, foydasizlik; **2.** shuhratparastlik, manmanlik, g‘urur, mag‘rurlik, kekkayganlik, izzat-nafs, kibr, kibr-havo; **ménager la vanité de qqn** izzat-nafsiga qaramoq, rioya qilmoq; **faire, tirer vanité de qqch** maqtanmoq, g‘ururlanmoq, kibrlanmoq, manmanlik qilmoq; **sans vanité** maqtanmasdan, maqtanchoqlik qilmasdan.

**vaniteux, euse** *adj, n* shuhratparast, manman, kekkaygan, kibr-havoli, mag‘rur, maqtanchoq.

**vannage**[1] *nm* sovurish, shopirish, yelpish (*don, g‘alla*).

**vannage**[2] *nm* gidrotexnik inshootlarda yoki kanalizatsiyalarda suv oqishini tartibga solib turuvchi moslamalar tizimi (*qulfaklar, klapanlar*).

**vanne**[1] *nf* qulfak (*gidrotexnik inshootlarning harakatlanuvchi va o‘zidan suv o‘tkazmaydigan tarkibiy qismi*), surma qulfak, to‘g‘on qulfi, g‘ov, to‘siq; klapan; *loc fam* **ouvrir les vannes** yo‘l ochmoq, imkoniyat yaratmoq; og‘zi, chakagi tinmay gapirmoq; kredit bermoq.

**vanne**[2] *nf fam* haqorat, tahqir, hurmatsizlik, kamsitish, so‘kish; tanbeh, koyish; **lancer, envoyer des vannes à qqn** so‘kib bermoq, koyimoq, haqoratlamoq.

**vanné, ée** *adj* charchagan, horigan, toliqqan, tolgan, tinka-madori qurigan, sillasi qurigan.

**vanneau** *nm zool* **1.** qizqush, qizg‘ish (*balchiqchilar turkumiga mansub, jig‘ali botqoq qushi*); **2.** qanot patlari; yirtqich qushlarning qanotlaridagi katta patlar.

**vanner**[1] *vt* **1.** sovurmoq, yelpimoq, shopirmoq (*donni*); **vanner du blé** bug'doyni sovurmoq, tozalamoq; **2.** *fig* charchatmoq, toliqtirmoq, holdan toydirmoq, madorini, sillasini, tinkasini quritmoq; **je suis vanné** tinka-madorim qolmadi.

**vanner**[2] *vt* qulfak o'rnatmoq.

**vannerie** *nf* **1.** o'simliklar poyasi, tolalaridan har xil buyumlarni o'rish, to'qish (*savat, kursi va shu kabilar*); shu kasb; **2.** o'simliklar poyasi, tolalaridan o'rib, to'qib yasalgan buyumlar; shunday buyumlar bilan savdo qilish.

**vanneur, euse** *n* **1.** don sovuruvchi, tozalovchi odam; **2.** *nf* don sovuradigan mashina.

**vannier** *nm* o'simliklar poyasi, tolalaridan har xil buyumlar to'qiydigan odam.

**vannure** *nf* to'pon, chori, kepak.

**vantail, aux** *nm* tabaqa, tavaqa (*eshik, deraza*).

**vantard, arde** *adj, n* maqtanchoq, kerilmachoq, lofchi.

**vantardise** *nf* maqtanchoqlik, maqtanish, lof.

**vanter I.** *vt litt* maqtamoq, ta'riflamoq, ko'klarga ko'tarmoq; madh qilmoq; **vanter sa marchandise** molini maqtamoq; **II. se vanter** *vpr* maqtanmoq, chiranmoq, kerilmoq, ko'pirmoq, ko'z-ko'z qilmoq, lof urmoq; **il n'y a pas de quoi se vanter** buning maqtanadigan joyi yo'q.

**va-nu-pieds** *n inv* yalang'oyoq, daydi, juldirvoqi.

**vape** *nf* gangish, esankirash, esini yo'qotish, karaxtlik (*qattiq charchoq, spirtli ichimlik yoki narkotik ta'sirida*); *loc fam* **être dans les vapes** gangib, esankirab qolmoq, esini yo'qotmoq, karaxt bo'lib, garangsib qolmoq.

**vapeur**[1] *nf* **1.** bug', par; **machine à vapeur** bug' mashinasi; **bateau à vapeur** paroxod; **fer à vapeur** bug' purkaydigan dazmol; **à toute vapeur** jadal, shitob bilan; **bain de vapeur** bug' hammom, bug'xona; **pommes de terre à la vapeur (pommes vapeur)** bug'da pishirilgan kartoshka; **2.** hovur; **3.** tuman.

**vapeur**[2] *nm vieilli* paroxod.

**vaporeux, euse** *adj* **1.** bug'li; tumanli, tuman bosgan; **lointain vaporeux** chiziqlarning ajir-bujirligi, noaniqligi (*tasviriy san'atda*); **2.** yengil, mayin, muloyim.

**vaporisateur** *nm* purkagich, sepgich.

**vaporisation** *nf* **1.** bug'lanish, parlanish; **2.** bug'lash, bug'ga tutish; **3.** purkash, sepish.

**vaporiser I.** *vt* **1.** bug'ga aylantirmoq, bug'lantirmoq; **2.** purkamoq, sepmoq; **II. se vaporiser** *vpr* bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq; g'oyib bo'lmoq.

**vaquer I.** *vi* **1.** *vieilli* bo'sh bo'lmoq, egasiz bo'lmoq; **2.** ta'tilda, kanikulda bo'lmoq; **II.** *vt* shug'ullanmoq, mashg'ul bo'lmoq.

**varan** *nm* echkemar.

**varappe** *nf* tog'ga murakkab yo'l orqali chiqish, ko'tarilish (*alpinist*).

**varech** *nm* to'lqinlar qirg'oqqa chiqarib tashlagan va o'g'it sifatida ishlatiladigan dengiz o'tlari.

**vareuse** *nf* matroslar va baliqchilar kiyadigan korjoma; kurtka.

**variabilité** *nf* **1.** o'zgaruvchanlik, beqarorlik, turlanish; **variabilité du temps** havoning o'zgaruvchanligi, turlanishi; **2.** *biol* o'zgaruvchanlik.

**variable I.** *adj* o'zgaruvchi, o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, beqaror, turlanuvchi; tuturiqsiz, betayin; **temps variable** o'zgarib, aynib turadigan ob-havo; **grandeur variable** o'zgaruvchi miqdor; *gram* **mot variable** turlanuvchi so'z; **II.** *nf math* o'zgaruvchi.

**variante** *nf* **1.** variant, tur, xil, nusxa; **2.** *pl* turli ziravorlar.

**variation** *nf* **1.** o'zgarish; beqarorlik; *mar* **variation de l'aiguille du compas** kompas strelkasining chetga toyishi; **2.** *biol* tafovut, genetik o'zgarish, mutatsiya; **3.** *pl mus* variatsiya, tarona (*musiqa mavzuining turli shaklda ishlanishi*); **4.** *math* variatsiya; **calcul des variations** variatsion hisob.

**varice** *nf* vena qon tomirlarining varikoz kengayishi; **bas à varices** venalarning kengayishi kasalligida kiyiladigan elastik paypoq.

**varicelle** *nf* suvchechak.

**varié, ée** *adj* **1.** turli, turli-tuman, har xil, xilma-xil, rang-barang, boshqa-boshqa, serqirra, alvon; **terrain varié** past-baland yer, maydon; **l'écorce variée de la pastèque** tarvuzning ola-bula po'chog'i; **2.** *mus* variatsiyali.

**varier I.** *vt* o'zgartirmoq, xilma-xil, rang-barang qilmoq, turli tusga kiritmoq; *iron* **pour varier les plaisirs** ko'ngilsizlikdan boshi chiqmay qolmoq, ko'ngilsizlik ustiga ko'ngilsizlikka uchramoq; **II.** *vi* o'zgarmoq, turlanmoq; farqlanmoq, ajralib turmoq; **mot qui varie en genre et en nombre** rod va ko'plikda turlanadigan so'z; **les coutumes varient selon les lieux** bir yerning urf-odatlari boshqa yernikidan farqlanadi.

**variété** *nf* **1.** rang-baranglik, turli-tumanlik, har xillik, xilma-xillik; **2.** o'zgarish, beqarorlik; **3.** nav, sort, sinf, tur, shakl; **variétés de blés obtenues par hybridation** duragaylash bilan hosil qilingan bug'doy navlari; **4.** *pl* **variétés, spectacles de variétés** estrada konserti, estrada tomoshasi; **théâtre des variétés** estrada teatri; **chanteur de variété** estrada qo'shiqchisi.

**variole** *nf* chechak; **variole noire, hémorragique** qora chechak; **fausse variole** suvchechak; **vacciner contre la variole** chechakka qarshi emlamoq.

**varioleux, euse** *n, adj* chechak bilan og'rigan.

**variolique** *adj* chechak, chechakka oid; **éruption variolique** chechak toshmasi.

**variqueux, euse** *adj* vena qon tomirlarining varikoz kengayishiga oid; shu kasallik bilan og'rigan.

**varlope** *nf* randa, daroz randa.

**varloper** *vt* randalamoq, yo'nmoq, silliqlamoq, tekislamoq.

**vasculaire** *adj anat* qon tomir, qon tomirlari joylashgan, tomirli; **système vasculaire** qon tomir sistemasi; **pression vasculaire** qon bosim; **nævus vasculaire** tomirli xol; *bot* **tissu vasculaire** o'tkazuvchi to'qima**; plantes vasculaires** naychali o'simliklar.

**vascularisé, ée** *adj anat* qon tomirli.

**vase**[1] *nm* guldon, vaza; ko'za; idish; **vase de nuit** tuvak; **vivre en vase clos** odamovi bo'lib, odamlarga qo'shilmasdan yashamoq.

**vase**[2] *nf* loy, loyqa, balchiq.

**vasectomie** *nf chir* vazektomiya, urug' yo'lini kesish, kesib olib tashlash.

**vaseline** *nf* vazelin.

**vaseux, euse** *adj* **1.** loyqa, bo'tana, balchiqli; **étang à fond vaseux** balchiq hovuz; **2.** *fam* charchagan, toliqqan, horg'in, lanj, shalviragan, shalpaygan; **je me sens vaseux** o'zimni lanj his qilyapman; 3 noaniq, qorong'i, xira, mujmal; **raisonnement vaseux** chalkash, mujmal fikr, mulohaza; **4.** *fig vx* yaramas, jirkanch, murdor, iflos, razil, qabih, pastkash.

**vasistas** *nm* darcha, fortochka.

**vasoconstricteur** *adj, nm physiol méd* qon tomirlarini toraytiruvchi, qisqartiruvchi.

**vasodilatateur** *adj, nm physiol méd* qon tomirlarini kengaytiruvchi.

**vasomoteur, trice** *adj physiol méd* motor-harakatlantiruvchi; qon tomirlarini toraytiruvchi yoki kengaytiruvchi.

**vasouillard, arde** *adj fam* mujmal, noaniq, chigal, chalkash, dudmol, tushunib bo'lmaydigan; **une réponse vasouillarde** mujmal javob.

**vasouiller** *vi fam* **1.** gapni cho'zib, chaynab o'tirmoq, lattachaynarlik qilmoq, imillamoq, sustkashlik qilmoq; ikkilanmoq, qat'iyatsizlik qilmoq; **2.** oldinga siljimaslik, ishi yurishmaslik.

**vasque** *nf* **1.** kichik hovuz, basseyn; **vasque de marbre** marmar hovuz; **2.** odatda dasturxonni bezash uchun ishlatiladigan yassi, yoyiq qadah; shu shakldagi gultuvak.

**vassal, ale, aux I.** *n* vassal, qaram, bo'ysunuvchi odam; **II.** *adj* vassal, qaram, bo'ysunuvchi; **pays vassaux** vassal, bo'ysunuvchi davlatlar.

**vaste** *adj* **1.** keng, bepoyon, ko'lamli, ko'z ilg'amas, cheksiz; katta, ulkan; *fig* har tomonlama, har jihatdan; **un vaste empire** ulkan imperiya; **c'est un vaste problème** bu keng ko'lamli muammo; **2.** *anat* **muscles vastes** serbar, keng mushaklar.

**vaticination** *nf litt* payg'ambarlik, avliyolik, bashorat, karomat.

**vaticiner** *vi* payg'ambarlik qilmoq, avliyolik qilmoq, karomat, bashorat qilmoq.

**va-tout** *nm inv* gardkam, tavakkal, bor pulini dov tikish (*qarta o'yinida*); *loc* **jouer son va-tout** bor-budini tikmoq, tavakkal qilmoq.

**vaudeville** *nm* vodevil (*odatda ashula aytib o'ynaladigan kichik hajviy pyesa*); *vx* hajviy mavzudagi xalq qo'shig'i, lapar.

**vaudevilliste** *n* vodevilchi, vodevil yozuvchi.

**vaudou** *nm* vodu (*Antil negrlari orasida tarqalgan animistik e'tiqod*).

**vau-l'eau (à)** *loc adv* daryo oqimi bilan, oqim bo'ylab; **aller, s'en aller à vau-l'eau** muvaffaqiyatsizlikka, inqirozga, tanazzulga uchramoq, zavol topmoq, rasvo bo'lmoq, chippakka chiqmoq.

**vaurien, enne** *n* **1.** xumpar, shumtaka, bebosh, sho'x, sayoq, yaramas; **2.** shubhali shaxs; **3.** kichik yelkanli kema.

**vautour** *nm* **1.** *zool* tasqara; **vautour de l'Himalaya, vautour fauve** qumay; **vautour des agneaux** boltayutar; **vautour percnoptère** kal jo'rchi; **vautour moine** tasqara; **2.** *fig* ochko'z, yirtqich, o'limtik, o'laksaxo'r; sudxo'r.

**vautrer (se)** *vpr* **1.** yotmoq, ag'anamoq, cho'zilib, ag'anab, dumalab, yaslanib, uzala tushib yotmoq, yozilib, yalpayib o'tirmoq; **2.** *fig péj* berilmoq, botmoq, kirishib ketmoq, mukkasidan ketmoq; **se vautrer dans la concussion, dans l'ordure** poraxo'rlikka, axloqsizlikka berilmoq.

**va-vite (à la)** *loc adv* oshig'ich, naridan-beri, chala-chulpa, chala-chatti.

**veau** *nm* **1.** buzoq (*bir yoshgacha*); **veau sous la mère** onasini emayotgan buzoq; **veau marin** tulen; **tuer le veau gras** dabdabali ziyofat bermoq (*oilaviy shodiyona munosabati bilan*); **pleurer comme un veau** bo'kirib yig'lamoq, o'kramoq, ho'ngramoq; **le veau d'or** oltin, davlat, boylik, mol-mulk; **2.** buzoq go'shti; **3.** buzoq terisi, upuka, charm, ko'n; **botte en veau retourné** ag'darma upukadan tikildan etik, ag'darma etik; **4.** *fig fam* merov, tentak, ovsar, farosatsiz, bo'shang, laqma, ammamning buzog'i; yalqov, dangasa, tanbal; **5.** *fam* yomon poygachi ot; **6.** *fam* kamquvvat avtomobil.

**vécés** *nm pl fam* hojatxona, xalajoy.

**vecteur** *nm* **1.** *math* vektor; **rayon vecteur** radius vektor; **vecteur glissant** sirpanuvchi vektor; **vecteurs colinéaires** kollinear vektor; **2.** *méd* yuqtiruvchi, tashuvchi; **3.** *fig* tarqatuvchi, vositachi; ifodalovchi; **4.** yadro qurolini nishonga belgilangan joyga olib borib tashlaydigan uchish vositasi, bombardimonchi.

**vectoriel, ielle** *adj math* vektor; **calcul vectoriel** vektor hisob; **espace vectoriel** vektor maydon.

**vécu, ue I.** *adj* boshdan kechirgan, boshdan o'tkazgan; haqiqiy; **expérience vécue** hayotiy tajriba; **histoire vécue** haqiqatda bo'lgan voqea; **II.** *nm* boshdan kechirganlar, boshdan o'tkazganlar, hayotiy tajriba.

**véda** *nm* veda, vedalar (*Hindiston yozma adabiyotining qadimiy yodgorligi*).

**vedettariat** *nm* mashhurlik, yulduzlik, shon-shuhrat; mashhur odamlarga, yulduzlarga xos qiliqlar, xatti-harakatlar, qiyshanglash, tannozlik qilish, tantiqlik.

**vedette** *nf* **1.** *vx* soqchi, qorovul; **2.** soqchi kater, kema; **vedette lance-torpilles** torpeda otib hujum qiluvchi kater; **3.** yirik harflar bilan yozilgan qator (*gazetada, afishada*); **il a la vedette** uning nomi afishada yirik harflar bilan yozilgan (*ya'ni* u bosh rolni ijro etadi); **mot vedette** bosh so'z (*lug'atda*); **en vedette** ko'rinadigan joyda; yirik harflar bilan; yangi qatorda; **se mettre en vedette** o'zini ko'z-ko'z qilmoq; **ravir la vedette à qqn** siqib chiqarmoq; **4.** taniqli aktyor, aktrisa, yulduz, kinoyulduz; **la vedette du cinéma** kinoyulduz; **jouer les vedettes** gerdaymoq, kekkaymoq, kerilmoq; **5.** mashhur, atoqli shaxs, yulduz; **une vedette du football** futbol yulduzi, mashhur futbolchi.

**védique** *adj* veda, vedaga oid; **langue védique,** *nm* **le védique** Veda tili.

**végétal, ale, aux I.** *nm* o'simlik, giyoh; **végétaux inférieurs, supérieurs** tuban o'simliklar, yuksak o'simliklar; **II.** *adj* o'simlik, o'simliklar, o'simlikka oid; o'simliklardan qilingan, o'simliklardan tayyorlangan; **règne végétal** o'simliklar olami, nabotot; **tissus végétaux** o'simlik to'qimalari; **sol végétal** tuproqning unumdor qatlami; **aliments végétaux** o'simliklardan olingan oziq-ovqatlar; **huile végétale** o'simlik yog'i; **2.** islimi, gulli; **décors végétaux** islimi naqshlar.

**végétarien, ienne I.** *adj* go'shtsiz, etsiz, vegetarian; go'sht yemaydigan; **restaurant végétarien** etsiz ovqatlar pishiriladigan oshxona, vegetarian oshxona; **II.** *n* vegetarian, o'simlikxo'r odam.

**végétatif, ive** *adj* **1.** vegetativ; o'simlikka xos; **organes végétatifs** vegetativ organlar; **multiplication, reproduction végétative** vegetativ ko'payish; **2.** *physiol* vegetativ nerv sistemasi faoliyatiga oid; **3.** *fig* faoliyatsiz, harakatsiz, sust; **mener une vie végétative** bema'ni kun kechirmoq, foydasiz yashamoq.

**végétation** *nf* **1.** o'sish, o'sib chiqish, o'sib-unish, ko'karish, vegetatsiya; **2.** o'simliklar, nabotot; **3.** *méd* vegetatsiya, so'gal, teri va shilliq pardalarda paydo bo'ladigan so'galsimon o'smalar.

**végéter** *vi* **1.** *vx* yashamoq; **2.** o'smoq, unmoq, ko'karmoq; **3.** *fig* bema'ni kun kechirmoq, zerikarli hayot kechirmoq, foydasiz yashamoq; muhtojlikda kun kechirmoq, uchini-uchiga zo'rg'a yetkazmoq.

**véhémence** *nf* qiziqqonlik, ehtiros, to'lg'onish, qizg'inlik, g'ayrat, jo'shqinlik, shavq, shiddat.

**véhément, ente** *adj litt* kuchli, shiddatli, qizg'in, otashin, qattiq, jo'shqin, qaynoq, serg'ayrat, yuragida o'ti bor; tez, jahli tez, qiziqqon, serjahl, jahldor, jizzaki.

**véhiculaire** *adj* **langue véhiculaire** umumiy til, vositachi til, turli tillarda gaplashadigan odamlar o'zaro munosabatga kirishganda ishlatadigan, har tomon uchun tushunarli bo'lgan umumiy til.

**véhicule** *nm* **1.** barcha turdagi harakatlanish va transport vositalari: arava, velosiped, mototsikl, mashina, avtobus, tramvay, avtomobil, traktor, buldozer, poyezd, parovoz, vagon, tank, samolyot, vertolyot, kema va boshqalar; **véhicule utilitaire** yuk mashinasi; **2.** o'tkazuvchi; yuqtiruvchi, tashuvchi; eltuvchi; **3.** *fig* vositachi, tarqatuvchi; **4.** *rel* yo'nalish, mazhab (*buddizmda*); **le petit véhicule (Hinayana)** kichik arava, tor yo'l (Xinayana); **le grand véhicule (Mahayana)** katta arava, keng yo'l (Maxayana).

**véhiculer** *vt* **1.** tashimoq, olib bormoq, o'tkazmoq, olib o'tmoq; **2.** *fig* o'tkazmoq, bermoq, tashimoq.

**veille** *nf* **1.** bedorlik, uyqusizlik, hushyorlik, uyg'oq yotish; **à l'état de veille** o'ngda, haqiqatda; **2.** tungi qorovullik, tungi navbatchilik; **3.** arafa, bo'sag'a; **à la veille de** arafasida, oldida; *fam* **ce n'est pas demain la veille** bu hali-beri bo'lmaydi, amalga oshmaydi.

**veillée** *nf* **1.** kechqurun, oqshom (*kechki ovqat bilan uyquga ketish oralig'idagi vaqt*); shu vaqtni gap-gashtaklar, hangomalar bilan o'tkazish; **veillée d'armes** ritsarlik berilishi arafasida bedor o'tkaziladigan tun; og'ir sinovga, vazifaga ruhiy tayyorgarlik ko'rish; **2.** tunda uxlamasdan kasal qarab chiqish, tunni kasal *yoki* marhum oldida bedor o'tkazish; shunday o'tkazilgan tun.

**veiller I.** *vi* **1.** bedor bo'lmoq, uxlamay yotmoq, tunni uyqusiz o'tkazmoq; **veiller au chevet d'un malade** tuni bilan uxlamasdan bemorga qarab chiqmoq; **2.** tunda ishlamoq, navbatchilik qilmoq; **3.** hushyor, ogoh, sergak bo'lmoq; **4.** kechki ovqatdan keyin hangoma qilmoq; **II.** *vt* **1.** *vx* poylamoq; **2. veiller un malade** tuni bilan bemorga qarab chiqmoq; **veiller un mort** tunni marhum yotgan joyda o'tkazmoq; **3. veiller à qqch** g'amxo'rlik qilmoq, jon kuydirmoq; nazorat qilib turmoq, xabardor bo'lib turmoq; **veillez à ne pas être en retard** kechikmaslikka harakat qiling; **veiller sur soi-même** o'ziga qarab yurmoq, o'ziga e'tibor qilmoq.

**veilleur** *nm* qorovul, tungi qorovul; navbatchi askar; kuzatuvchi; **veilleur de nuit** tungi qorovul; mehmonxonada tungi navbatchi.

**veilleuse** *nf* **1.** tunchiroq, jinchiroq; avtomobil chirog'i; **mettre en veilleuse** sal pasaytirmoq (*chiroqni*); faoliyatni kamaytirmoq, pasaytirmoq; *fam* **mets-la en veilleuse** tinchlan, jim bo'l; **2.** pilik.

**veinard, arde** *adj, n* baxtiyor, baxtli, omadli, tolei baland.

**veine** *nf* **1.** vena, ko'ktomir; **veine faciale** yuz venasi; **veine porte** qopqa venasi; **s'ouvrir les veines** tomirini qirqmoq (*o'z joniga suiqasd qilish maqsadida*); **il n'a pas de sang dans les veines** yuraksiz, qo'rqoq; **2.** tomir (*yer po'stlog'ining birorta tog' jinsi bilan to'lgan yorig'i*); **3.** taram-taram yo'l, chiziq (*yog'och, marmar kabilarda*); **4.** tomir (*barglardagi*); **5.** ilhom, qobiliyat, iste'dod; **en veine de** moyil, beriluvchan; **en veine de plaisanterie** hazilga moyil; **6.** *fig* baxt, omad, muvaffaqiyat; **coup de veine** omad; **une veine de cocu, de pendu** favqulodda, kamdan-kam keladigan omad; **avoir de la veine** omadi kelmoq, tolei kelmoq; **se sentir en veine** dimog'i chog' bo'lmoq, yaxshi kayfiyatda bo'lmoq.

**veiné, ée** *adj* tomirli, bo'rtgan, tomirlari bo'rtgan; taram-taram, yo'l-yo'l.

**veineux, euse** *adj* **1.** vena qon tomirlariga oid, vena; **sang veineux** venoz qon; **2.** taram-taram, yo'l-yo'l chiziqli (*yog'och, marmar*).

**veinule** *nf* kichik vena tomiri; *bot* tomirlar (*barg*).

**vêlage** *nm* **1.** buzoqlash, sigirning tug'ishi; **2.** *géog* katta muz xarsangining ajralib chiqishi (*aysberg*).

**vélaire** *ling* **I.** *adj* tanglay; **II.** *nf* tanglay tovushi (*unli, undosh*).

**velcro** *nm* velkro, jarqildoq, yopishqoq bog'ich (*kiyim, tufli, sumka kabilarda yopish uchun ishlatiladigan moslama*).

**vêlement** *nm* buzoqlash, sigirning tug'ishi.

**vêler** *vi* bolalamoq, buzoqlamoq (*sigir*).

**vélin** *nm* **1.** o'lik tug'ilgan buzoq terisidan qilingan qog'oz, juda sifatli pergament; buzoq charmi, upuka; **manuscrit sur vélin** buzoq terisiga yozilgan qo'lyozma; **reliure de vélin** upuka muqova; **2. vélin, papier vélin** a'lo navli oppoq, yaltiroq qog'oz.

**véliplanchiste** *n* surfing bilan shug'ullanuvchi (*suv sporti*).

**velléité** *nf* niyat, havas, istak, mayl, ahd; urinish, harakat qilish; **une velléité de sourire** bilinar-bilinmas, sezilar-sazilmas tabassum.

**vélo** *nm* **1.** velosiped; **un vélo de course** poyga velosipedi; **à, en, sur son vélo** velosipedda; **2.** velosiped minish, haydash; **faire du vélo** velosiped haydamoq.

**véloce** *adj litt* chaqqon, tez, ildam, ravon, jadal.

**vélocipède** *nm iron* velosiped.

**vélocité** *nf* tezlik, chaqqonlik, ildamlik, jadallik, sur'at.

**vélodrome** *nm* velodrom, velopoyga o'tkaziladigan maydon; **Vélodrome d'hiver (Vel'd'hiv)** Qishki velodrom (*Parijda*).

**vélomoteur** *nm* velomotor, yengil mototsikl.

**velours** *nm* **1.** baxmal, duxoba, banot, barxit; **velours uni** sidirg'a baxmal; **velours côtelé** chiy duxoba; **fauteuil de, en velours** duxoba oromkursi; **2.** yumshoqlik, mayinlik; **faire patte de velours** o'zining qabih niyatini qalbaki muloyimlik ostida yashirmoq; **3.** so'zlarni bir-biriga noto'g'ri usulda qo'shib talaffuz qilish (**les chemins de fer [z] anglais**).

**velouté, ée I.** *adj* baxmal; yumshoq, mayin; **II.** *nm* yumshoqlik, mayinlik.

**velu, ue** *adj* tukli, sertuk, jun bosgan, serjun, baroq, o'siq; **poitrine velue** jundor ko'krak; **chenille velue** tukli qurt.

**vélum** *ou* **velum** *nm* katta soyabon, chodir, tent.

**velvet** *nm anglic* chiy duxoba.

**venaison** *nf* ovlangan yirik o'lja go'shti (*bug'u, kiyik, to'ng'iz kabi*); shu o'ljaning yog'i.

**vénal, ale, aux** *adj* **1.** sotiladigan, sotib olsa bo'ladigan, sotqin; **un homme vénal** o'z manfaati yo'lida iymonini ham sotadigan odam; **2.** sotib olinadigan, sotuvga qo'yilgan; *hist* **office vénal** sotiladigan mansab; **valeur vénale** bozor narxi.

**vénalité** *nf* **1.** sotqinlik; poraxo'rlik, korrupsiya; **2.** *hist* sotilish, sotuvga qo'yish (*mansab, amal*).

**venant, ante I.** *n* **1.** keluvchi; **les allants et les venants** kelib-ketuvchilar; **2.** *nm loc* **à tout venant** duch kelgan odamga, kimsaga, duch kelganga; **II.** *adj* keluvchi, keladigan.

**vendable** *adj* sotiladigan, sotuvga chiqariladigan, sotuvga qo'yiladigan; xaridorgir; **peu vendable** uncha yaxshi sotilmaydigan, o'tmaydigan, bozori chaqqon emas, kasod.

**vendange** *nf* **1.** uzum uzish; **faire la vendange** uzum uzmoq; **adieu paniers, vendanges sont faites** bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi; o'tgan ishga salavot; **2.** *pl* uzum uzish mavsumi; **3.** uzum hosili.

**vendanger I.** *vi* uzum uzmoq, hozil olmoq (*uzum*); uzum hosilini ezmoq (*sharob qilish uchun*); **II.** *vt* **1.** uzmoq (*uzumni*); **2.** xarob qilmoq, vayron qilmoq; **la grêle a tout vendangé** do'l hamma narsani vayron qildi; **3.** *arg* o'g'irlamoq.

**vendangeur, euse** *n* **1.** uzum uzuvchi; **2.** *nf* uzum uzish mashinasi; **3.** *nf* astra, qo'qongul.

**vendetta** *nf* xun, qasos, qonli o'ch, qonga qon bilan o'ch olish (*Korsikada*).

**vendeur, euse I.** *n* sotuvchi, do'konchi, savdogar, tijoratchi; **vendeur à la sauvette** yeng ichidan, yashirin suratda savdo qiluvchi, noqonuniy sotuvchi; **vendeuse ambulante** yurib savdo qiladigan, sayyor sotuvchi; **vendeur de fumée** maqtanchoq, chiranchoq; **II.** *adj* sotuvchi, maqtovchi, sotib olishga undovchi.

**vendre I.** *vt* **1.** sotmoq, pullamoq, o'tkazmoq; tijorat qilmoq, savdo qilmoq; **vendre cher** qimmat sotmoq; **vendre à perte** zarariga sotmoq; **à vendre** sotiladigan, sotiladi (*e'lonlarda*); **vendre chèrement sa vie** oxirigacha mardona qarshilik qilmoq, kurashmoq; **2.** sotmoq, xiyonat qilmoq, sotqinlik qilmoq; **II. se vendre** *vpr* **1.** sotilmoq, o'tmoq, xarid qilinmoq; **cela se vend comme des petits pains** bu narsa xaridorgir, buning bozori chaqqon; **2.** sotilmoq, xoinlik qilmoq.

**vendredi** *nm* juma, juma kuni; **Vendredi saint** Pasxa bayrami arafasidagi juma; *prov* **tel qui rit vendredi, dimanche pleurera** birovning ustidan kulmagin zinhor, sening ham ustingdan kuluvchilar bor.

**vendu, ue** *adj* **1.** sotilgan, sotib yuborilgan, o'tib ketgan; **2.** sotilgan, sotqin, xoin; *injur* razil, palid, yaramas, ablah, nobakor, pastkash.

**venelle** *nf* tor ko'cha, jin ko'cha.

**vénéneux, euse** *adj* zaharli, og'uli; zararli; **champignon vénéneux** zaharli qo'ziqorin.

**vénérable I.** *adj* hurmatli, muhtaram, izzatli, qadrli, ardoqli, hurmatga sazovor; **d'un âge vénérable** yoshi ulug', nuroniy yoshdagi; **II.** *n* taqvodor, ruhoniy.

**vénération** *nf* hurmat, ehtirom, izzat, ikrom, chuqur hurmat qilish, qadrlash, ardoqlash; sajda qilish, topinish, bosh egish.

**vénérer** *vt* hurmat, izzat qilmoq, qadrlamoq, ardoqlamoq, siylamoq, ulug'lamoq; ibodat qilmoq, sajda qilmoq, sig'inmoq.

**vénerie** *nf* **1.** it bilan ov qilish, shunday ov; **2.** ovchilar uyushmasi.

**vénérien, ienne I.** *adj* **1.** *vx* ishqiy, jinsiy; **acte vénérien** jinsiy aloqa; **2.** tanosil, venerik, tanosil kasalliklariga oid; tanosil kasalligiga uchragan; **maladies vénériennes** tanosil kasalliklari; **II.** *n* tanosil kasalligiga uchragan odam.

**venette** *nf vieilli* vahima, qo'rquv, xavotir, hadik, tashvish.

**veneur** *nm hist* biror zodagon huzurida xizmat qiluvchi ovchi; **grand veneur** shikorbegi, bosh ovchi.

**vengeance** *nf* qasos, o'ch, intiqom, qarimta, qasd, xun, kek; **soif de vengeance** qasos ishtiyoqida yongan; **tirer, prendre vengeance de** biror narsa uchun qasos olmoq, o'ch olmoq, qasdini olmoq.

**venger I.** *vt* qasos, o'ch, intiqom, qasd olmoq; **II. se venger** *vpr* qasos, o'ch olmoq, xun olmoq; **il se vengea du père sur le fils** u otaning qilgan ishi uchun o'g'ildan qasos oldi.

**vengeur, vengeresse** *n, adj* qasoskor, o'ch oluvchi, kekchi, jazolovchi.

**véniel, elle** *adj litt* kechirarli, kechirsa bo'ladigan, uzrli.

**venimeux, euse** *adj* **1.** zaharli, gazanda; **serpents venimeux** zaharli ilon; **2.** zahar, achchiq, og'uli, tili yomon, gap bilan uzib oladigan.

**venin 1.** zahar, og'u; **sérum contre les venins** ziddi zahar; **2.** jahl, zarda, zahar, g'azab, qahr; **jeter, cracher son venin** zahrini, g'azabini sochmoq.

**venir** *vi* **1.** kelmoq, yetib kelmoq; kelmoq (*transport vositasida*); suzib kelmoq; uchib kelmoq; **venir à pied** piyoda kelmoq; **venez me voir** kelib turing, menikiga keling; **vous venez mal à propos** bevaqt, bemavrid keldingiz; **venir en foule** yopirilmoq, yopirilib, to'dalashib kelmoq, gurillab kelavermoq; *fam* **je ne fais qu'aller et venir** zumda, darrov qaytaman, boramanu kelaman; **faire venir** chaqirmoq, chorlamoq, taklif qilmoq; olib kelishni buyurmoq; buyurtma qilmoq; **le mot ne vient pas** bu so'z tilimning uchida turibdi; **un jour viendra** hali bir kyn keladi, bir kun kelib; **je te vois venir (avec tes gros sabots)** ichingdagini bilib turibman, nima o'ylaganing ochiq-oydin ko'rinib turibdi; **2.** bormoq; yurmoq; **venir à la rencontre de** kutib olishga chiqmoq, qarshi olmoq, peshvoz chiqmoq; **3.** sodir bo'lmoq, ro'y bermoq; boshlanmoq, kelib chiqmoq; **l'heure est venue de réfléchir** o'ylab olish fursati yetdi; **4.** o'smoq, rivojlanmoq; **5.** *predlogli konstruksiyalarda:* **venir de** olib kelinmoq, yetib kelmoq; qolmoq, tegmoq, nasib bo'lmoq, meros bo'lib o'tmoq; chiqmoq, kelib chiqmoq, yuzaga kelmoq, sodir bo'lmoq; **venir à** kelmoq; bormoq, yetmoq, ko'tarilmoq, erishmoq, muvaffaqiyat qozonmoq; borib yetmoq; **venir au monde** tug'ilmoq, dunyoga kelmoq; **venir à maturité** voyaga yetmoq; **venir à bout** uddalamoq, eplamoq, bardosh bilan yengmoq; **venir à point** vaqtida kelmoq; mos, loyiq kelmoq; yetilmoq; **venir à ses fins,**

**à son but** maqsadiga yetishmoq, niyatini amalga oshirmoq; **venir après** ketidan, izidan bormoq, ergashmoq; **venir en dernier lieu** oxirgi oʻrinda boʻlmoq, bormoq; **venir en estafette** xabar bermoq, ogohlantirmoq; **à venir** kelajakdagi, oldindagi, kelasi; **les générations à venir** kelajak avlod; **en venir à la conclusion** xulosa chiqarmoq, xulosaga kelmoq; **en venir aux mains, aux coups** bir-biriga tashlanmoq, olishib ketmoq, doʻpposlashmoq; **d'où vient que, de là vient que** shuning uchun, shundan kelib chiqadiki, demak; **vouloir en venir à** biror tomonga yoki oʻzi istagan tomonga burmoq, olib kelmoq, shama qilmoq; **il faut en venir là** bunga barham berish kerak; **y venir** biror ahvolga borib yetmoq; qaror, ahd, jazm qilmoq; **venir à faire qqch** bexosdan, bilmasdan, beixtiyor qilmoq; *prov* **tout vient à point à qui sait attendre** sabrning tagi sariq oltin; **6. venir de +** *inf* (*passé immédiat*): **je viens de me lever** men endigina turdim; **II. s'en venir** *vpr vx* kelmoq.

**vénitien, ienne I.** *adj* venetsiancha, Venetsiyaga oid; **lanterne vénitienne** qogʻoz fonarcha; **II.** *n* venetsiyalik.

**vent** *nm* **1.** shamol, yel, bod, sabo; **vent debout, vent contraire** qarshidan esayotgan shamol; **vent arrière** hamroh shamol, orqadan esayotgan shamol; **vent aigre, vent carabiné** qattiq, achchiq shamol; **vent de terre** sohildan esayotgan shamol; **vent du large** dengizdan esayotgan shamol; **vent solaire** quyosh shamoli; **vent force six** olti balli shamol; **il y a du vent, il fait du vent** shamol esyapti; **il n'y a pas un souffle de vent** qilt etgan shamol yoʻq; **avoir le vent debout** shamolga qarshi yurmoq; **au vent** shamol yoʻnalishi boʻyicha; shamolga qaragan, shamol tomondagi; **à vent** shamol yordamida harakatga keladigan; **moulin à vent** shamol tegirmoni; **en coup de vent** juda tez, shiddat bilan; **aller, filer comme le vent** yeldek uchmoq, yel quvmoq; **quel bon vent vous amène?** qanday shamol uchirdi? **bon vent!** oq yoʻl! toʻrt tomoning qibla, xohlagan yeringga ketaver; **aller où le vent vous pousse** boshi oqqan yoqqa ketmoq; **aux quatre vents, à tous les vents** hamma yoqda, har tarafda; **des quatre vents** dunyoning hamma tomonlaridan, butun dunyodan; **il sent le vent** yer tagida ilon qimirlasa biladi, hamma narsadan xabardor; **contre vents et marées** hech narsaga qaramasdan; **faire du vent** gerdaymoq, kekkaymoq, kerilmoq; **sentir le vent du boulet** xavf-xatarni sezmoq; **selon le vent** vaziyatga, sharoitga qarab; **être dans le vent** zamondan orqada qolmaslik, modada boʻlish; **le vent est à l'optimisme** vaziyat yaxshi tomonga ketmoqda; **2.** havo; **en plein vent** ochiq havoda; **une plante de plein vent** ochiq havoda, dalada oʻsayotgan oʻsimlik; **le nez au vent** anqaygan, angraygan; **3.** ichakdagi gazlar, yel; **4.** hid (*ov hayvonlarining*); **prendre le vent, avoir le vent** hididan sezmoq, bilmoq; **5. instruments à vent** puflab chalinadigan musiqa asboblari.

**vente** *nf* sotuv, sotish, savdo, savdo-sotiq, sotish, oʻtkazish; **vente au comptant** naqd pulga sotish; **vente en gros** ulgurji, koʻtara savdo; **vente au détail** chakana savdo, donalab sotish; **vente aux enchères** kimoshdi savdosi; **vente à crédit** qarzga, nasiyaga sotish; **vente à la petite semaine** boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan nasiyaga sotish; **en vente** sotiladi, sotuvdagi; **mettre en vente** sotuvga qoʻymoq.

**venter** *v impers* yelmoq, esmoq (*shamol*); **il vente** shamol esyapti; *loc* **qu'il pleuve ou qu'il vente** nima boʻlishidan qatʼiy nazar, har qanday sharoitda.

**venteux, euse** *adj* shamolli, shamol esadigan.

**ventilateur** *nm* **1.** ventilyator; **2.** dam (*biror narsaning yonishida havo bilan taʼminlab turadigan asbob*).

**ventilation** *nf* **1.** shamollatish, ventilyatsiya, ventilyatsiyalash; **ventilation pulmonaire** oʻpkada havoning harakati, aylanishi; **ventilation par aspiration** havo bilan soʻrib olish, tortib olish; **2.** *fin* taqsimlash, boʻlish, taqsimot, taqsimlanish (*pulning*); **3.** yoʻriqnoma, yoʻllanma boʻyicha taqsimlash, taqsimlanish.

**ventiler** *vt* **1.** shamollatmoq, havoni tozalamoq, ventilyatsiya qilmoq; **2.** *méd* sunʼiy nafas oldirish; **3.** *fin* taqsimlamoq, boʻlmoq (*pulni*).

**ventouse** *nf* **1.** *méd* banka; **appliquer, poser des ventouses à un malade** bemorga banka qoʻymoq; **bruit de ventouse** shalop etgan ovoz, sas; **2.** *zool, bot* vantuz, soʻrgʻich; **ventouses de la pieuvre** roʻdapo soʻrgʻichlari.

**ventral, ale, aux** *adj* qoringa oid, qorin; **parachute ventral** qoringa osiladigan parashut.

**ventre** *nm* **1.** qorin, qursoq, ich, oshqozon, meʼda, qorincha, toʻsh; ich, ichki qism, qaʼr; **prendre du ventre** qorin qoʻymoq, solmoq; **avoir le ventre creux** ochiqmoq, qorni ochqamoq; **avoir le ventre plein** qornini toʻydirmoq, toʻymoq; **avoir du cœur au ventre** jasur, mard, dovyurak boʻlmoq; **à plat ventre** yuz tuban, muk tushib, yer tishlab, sudralib, emaklab, oʻrmalab; **être à plat ventre devant qqn** laganbardorlik, xushomadgoʻylik qilmoq, yaltoqlanmoq, jilpanglamoq; **courir ventre à terre** bor kuchi bilan, oyogʻini qoʻlga olib yugurmoq; **il a les yeux plus grands que le ventre** uning koʻzlari yeb qoʻygudek, uning koʻzlari och, suq; **faire mal au ventre à qqn** koʻnglini aynatmoq, ozdirmoq, jirkantirmoq; **manger à ventre déboutonné** haddan tashqari koʻp ovqat yemoq, ogʻzi-burnidan chiqquncha yemoq; *prov* **ventre affamé n'a point d'oreilles** och qoringa gap yuqmas; **2.** qavariqlik, doʻnglik, qavariq joy, qorin (*biror narsaning*); kema, samolyotning qorni.

**ventrée** *nf* moʻl-koʻl, serob ovqat, yegulik; **s'en flanquer une pleine ventrée** haddan tashqari koʻp ovqat yemoq, burnidan chiqquncha yemoq.

**ventricule** *nm anat* yurak qorinchasi; miya qorinchasi; *zool* **ventricule succenturié** jigʻildon (*qushlarda*).

**ventrière** *nf* qorinbogʻ, ayil.

**ventriloque** *adj, n* labini qimirlatmasdan gapira oladigan odam.

**ventripotent, ente** *adj* qorni katta, qorni chiqqan, meshqorin, qorindor.

**ventru, ue** *adj* **1.** qorni katta, qorni chiqqan, meshqorin, qorindor; **2.** qorni yumaloq, qorindor, doʻppaygan, dumaloq, shishgan.

**venu, ue I.** *adj* kelgan, boʻlgan, amalga oshgan, yuzaga kelgan; **la phrase la mieux venue** munosib, oʻngʻay gap; **venu d'une seule pièce** ularning tuprogʻi, xamiri bir joydan olingan; **venu à terme** vaqt-soati yetib tugʻilgan (*chaqaloq*); **être bien, mal venu** yaxshi, yomon qabul qilinmoq, kutib olinmoq; vaqtida, bemavrid kelmoq; **être mal venu de** bemavrid, oʻrinsiz harakat qilmoq; **II.** *n* **un nouveau venu** yangi, yaqinda kelgan; **le premier venu** birinchi uchragan odam.

**venue** *nf* **1.** kelish, yetib kelish, tashrif; **allées et venues** borib-kelish, qatnash; **2. arbre d'une belle venue** baland, tik, ravon oʻsgan daraxt; **tout d'une venue** toʻgʻri, ravon.

**vénus** *nf* **1.** goʻzal, barno ayol; **2.** Venera, goʻzallik maʼbudasi tasvirlangan sanʼat asari, haykal.

**vêpres** *nf pl* kechki ibodat (*nasroniylarda*).

**ver** *nm* qurt; chuvalchang; lichinka; gijja; **ver de terre** chuvalchang, yomgʻir chuvalchangi; **ver à soie** ipak qurti; **ver blanc** may qoʻngʻizi lichinkasi, buzoqboshi; **ver luisant** yonar qurt; **ver solitaire** soltiyor, lentasimon gijja; **nu comme un ver** qip-yalangʻoch; *loc fig* **tirer les vers du nez à qqn** oʻsmoqchilab bilib olmoq, gapirtirmoq; *fam* **tuer le ver** och qoringa bir piyola ichmoq (*aroq*).

**véracité** *nf* rostgoʻylik; haqqoniylik, haqqoniyat, rostlik, toʻgʻrilik; aniqlik, ishonchlilik.

**véranda** *nf* veranda, ayvon.

**verbal, ale, aux** *adj* **1.** ogʻzaki, dahanaki; soʻzli, soʻz bilan, soʻzga oid, soʻz bilan ifodalangan; **ordre verbal** ogʻzaki buyruq; **2.** *gram* feʼlga oid, feʼlli, feʼldan yasalgan.

**verbalement** *adv* ogʻzaki, soʻz bilan, dahanaki.

**verbalisation** *nf* protokol tuzish, qaror yozish; *psychol* ogʻzaki ifoda etish.

**verbaliser I.** *vi* qaror yozmoq, protokol tuzmoq; **II.** *vi, vt psychol* soʻz bilan ifodalamoq, bayon etmoq.

**verbalisme** *nm* mahmadonagarchilik, safsatabozlik, quruq gap talashish.

**verbe** *nm* **1.** *gram* feʼl; **verbe auxiliaire** yordamchi, koʻmakchi feʼl; **forme nominale du verbe** feʼlning noaniq shakli; **2.** *vx* soʻz, nutq; **3.** ohang, gapirish ohangi; *loc* **avoir le verbe haut** baland ovozda gapirmoq; manmanlik, kibr-havo, takabburlik bilan gapirmoq.

**verbeusement** *adv* sergaplik, ezmalik bilan.

**verbeux, euse** *adj* sergap, ezma, gapni choʻzadigan, vaysaqi; choʻzilib ketgan, uzun, uzundan-uzoq.

**verbiage** *nm* mahmadonalik, gap sotish, ezmalik, safsata, safsatabozlik, vaysash.

**verbosité** *nf* mahmadonalik, koʻp gapirish, ezmalik, safsatabozlik.

**verdâtre** *adj* koʻkimtir, koʻkish.

**verdeur** *nf* **1.** achchiqlik, nordonlik (*xom mevaning*); taxirlik (*yangi sharobning*); **2.** yoshlik g'ayrati, shijoati; **3.** betakalluflik, qo'pollik, qo'rslik, shartakilik (*nutqda, muomalada*).

**verdict** *nm* **1.** *dr* hukm, hukmnoma, ajrim; **rendre un verdict** hukm chiqarmoq; **verdict d'acquittement** oqlov hukmi; **verdict de culpabilité** ayblov hukmi; **2.** qaror, hukm.

**verdier** *nm* ko'k chumchuq.

**verdir I.** *vi* ko'k rangga kirmoq, ko'karmoq, yashil tusga kirmoq, o'smoq; ko'karmoq, bo'zarmoq, rangi o'chmoq (*qo'rquvdan*); **II.** *vt* yashilga, ko'kka bo'yamoq, ko'kartirmoq.

**verdissant, ante** *adj* ko'karayotgan, yashil tusga kirayotgan, unib-o'sayotgan.

**verdoiement** *nm* ko'karish, yashil tusga kirish (*o'simliklar*).

**verdoyant, ante** *adj* yashil, yam-yashil, ko'k, ko'm-ko'k; ko'karayotgan, yashil tusga kirayotgan.

**verdoyer** *vi* ko'karmoq, yashil tusga kirmoq, ko'm-ko'k bo'lmoq, sabza urmoq (*o'simliklar*).

**verdure** *nf* **1.** ko'kat, maysa, o't-o'lan, sabza, o'simliklar, barglar, chim; **vallée noyée dans la verdure** yashilga burkangan vodiy, yashil vodiy; **2.** yashil, sabza rang; **3.** rezavor, ko'kat, sabzavot.

**véreux, euse** *adj* **1.** qurtli, qurtlagan, qurt tushgan, qurtlab ketgan; **fruit véreux** qurtlagan meva; **2.** *fig* muttaham, noinsof, nokas, vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz, sotilgan; **3.** shubhali, shubha tug'diradigan, qorong'i.

**verge** *nf* **1.** tayoq, chiviq, savag'ich, xipchin, xivich, govron; *loc* **donner des verges pour se faire battre, fouetter** o'z boshiga o'zi balo orttirmoq; **2.** *techn* o'q, sterjen, tayoqcha (*ba'zi asboblardagi tayoqsimon qism*); **3.** uzunlik o'lchovi (*0,914 m*); **4.** erkak jinsiy a'zosi, olat (*odam va sut emizuvchilarda*).

**verger** *nm* bog', mevali bog', mevazor, bog'iston, ravza.

**vergeté, ée** *adj* yo'l-yo'l, chiziq-chiziq, ola-bula, olabayroq, chiviq.

**vergeture** *nf pl* yo'l-yo'l, chiziq (*terining haddan ortiq tortilishidan, masalan, homiladorlikdan keyin paydo bo'ladigan chandiqsimon chiziqlar*).

**verglacé, ée** *adj* muz, muzlagan, muz qoplagan, to'nglagan, yaxlagan, yaxmalak; **route verglacée** sirg'anchiq, sirpanchiq, muzlagan yo'l.

**verglas** *nm* yupqa muz qoplami, muz, yaxmalak.

**vergogne** *nf vx* or, nomus, uyat, sharm, hayo; *loc* **sans vergogne** uyatsiz, surbet, behayo, bezbet, odobsiz, yuzsiz, orsiz, beor, sulloh; uyalmasdan, or-nomus qilmay, sharmandalarcha, uyat-andisha qilib o'tirmasdan, surbetlarcha, sullohlarcha.

**vergue** *nf mar* kema machtalarida yelkan bog'lanadigan ko'ndalang yog'och.

**véridicité** *nf litt* haqqoniylik, haqqoniyat, rostlik, to'g'rilik; aniqlik, ishonchlilik.

**véridique** *adj* **1.** *litt* rostgo'y, to'g'riso'z; **2.** chin, rost, durust, to'g'ri, haqqoniy, haq, barhaq; haqiqatnamo, haqiqatga o'xshagan.

**véridiquement** *adv* rostgo'ylik, haqqoniylik, to'g'riso'zlik, aniqlik bilan.

**vérifiable** *adj* tekshiriladigan, tekshirib ko'riladigan, tekshirsa bo'ladigan.

**vérificateur, trice** *n* kontrolyor, tekshiruvchi, nazoratchi, taftishchi.

**vérification** *nf* nazorat, tekshirish, tekshirib chiqish, taftish; **vérification faite** tekshirish natijasida.

**vérifier** *vt* **1.** tekshirmoq, ko'rib chiqmoq, solishtirmoq, nazorat qilmoq, taftish etmoq, sinab ko'rmoq; **2.** tasdiqlamoq, ma'qullamoq, isbotlamoq.

**vérin** *nm techn* domkrat.

**vérisme** *nm* verizm (*kundalik hayot va ijtimoiy masalalarni yoritishga yo'naltirilgan, XIX asr oxirida paydo bo'lgan italyan adabiy maktabi*).

**véritable** *adj* haqiqiy, haqqoniy, chin, to'g'ri, chinakam, asl, toza, voqeiy, barhaq.

**véritablement** *adv* haqiqatda, haqiqatan, aslida; nahot.

**vérité** *nf* haqiqat, rostlik, to'g'rilik, chin, haq, haqqoniyat; **parcelle de vérité** haqiqat nishonasi; **c'est la pure vérité** bu ayni haqiqat; **fausser la vérité** haqiqatni buzib ko'rsatmoq, xaspo'shlamoq; **démêler la vérité** haqiqatning tagiga yetmoq; **dire à qqn ses quatre vérités** haqiqatni yuziga aytib tashlamoq; **à dire la vérité** to'g'risini aytganda; **en vérité** haqiqatan, chini bilan, darhaqiqat; **à la vérité** rostini aytganda.

**verjus** *nm* pishmagan, xom uzumdan tayyorlangan nordon sharbat; nordon vino.

**verlan** *nm* verlan (*so'z bo'g'inlari o'rnini almashtirib ishlatishga asoslangan jargon turi*).

**vermeil[1], eille** *adj* och qizil, alvon, shirmoy.

**vermeil[2]** *nm* oltin suvi yugurtirilgan qizg'ish rangdagi kumush.

**vermicelle** *nm* vermishel.

**vermiculaire** *adj* **1.** chuvalchangsimon; **appendice vermiculaire** ko'richakning chuvalchangsimon o'simtasi; **2.** *méd* **mouvement vermiculaire** oshqozon va ichaklarning to'lqinsimon kerilish yoki siqilish harakati.

**vermifuge I.** *adj* gijja tushiradigan, haydaydigan; **II.** *nm* gijja haydaydigan dori.

**vermillon** *nm* **1.** kinovar, qizil rangli mineral, simob sulfid; **2.** shu mineraldan tayyorlangan bo'yoq; **3.** oq qizil rang, alvon rang.

**vermine** *nf* **1.** parazit hasharotlar (*burga, kana kabi*); **2.** jirkanch, iflos odam.

**vermisseau** *nm* **1.** qurt, chuvalchang; **2.** uch pulga qimmat odam.

**vermivore** *adj zool* qurt-qumursqa bilan oziqlanadigan.

**vermoulu, ue** *adj* qurt tushgan, qurt yegan, chirik.

**vermoulure** *nf* qurt tushgan, qurt yegan, qurt chaqqan joy.

**vermouth** *ou* **vermout** *nm* vermut (*aperitiv sharob turi*).

**vernaculaire** *adj* mahalliy, yerlik, tub; **langue vernaculaire** mahalliy til, lahja.

**verni, ie I.** *adj* **1.** loklangan, sirli, sirlangan, sirkor; silliq, yaltiroq; **ongles vernis** lok qo'yilgan tirnoq; **2.** omadli, omadi yurishgan, peshonasi yaltiragan; **II.** *nm* amirkon, loklangan charm.

**vernir** *vt* sirlamoq, loklamoq, lok surtmoq, silliqlamoq, yaltiratmoq.

**vernis** *nm* **1.** lok, sir; **vernis gras** moyli lok; **mettre du vernis à ongles** tirnog'iga lok qo'ymoq; **vernis du Japon** lok daraxti, totim, sumax (*teri oshlash uchun ishlatiladigan o'simlik*); **2.** dabdaba, shukuh, jilo, sayqal, tashqi orastalik, usti yaltiroqlik; **vernis d'érudition** yuzaki, sayoz, yengil-yelpi bilim.

**vernissage** *nm* **1.** loklash, sirlash; **2.** vernisaj, ko'rgazmaning ochilishi.

**vernisser** *vt* sirlamoq.

**vérole** *nf* **1. petite vérole** chechak; **marqué de la petite vérole** cho'tir; **2.** *fam* zaxm, sifilis.

**vérolé, ée** *adj fam* **1.** zaxm bilan og'rigan; **2.** *inform* xatoli, xato tuzilgan; **programme vérolé** xatolari bo'lgan, xato tuzilgan dastur.

**véronal, als** *nm* veronal, uyqu dori.

**véronique** *nf bot* itgunafsha, itbinafsha.

**verrat** *nm agr* erkak cho'chqa (*urchitish uchun ishlatiladigan, nasldor*).

**verre** *nm* **1.** shisha, oyna; **verre dépoli** xira oyna; **verre fumé** qoraytirilgan oyna; **morceaux de verre** shisha sinig'i; **porter des verres** ko'zoynak taqmoq; **2.** shisha buyum, shisha; stakan, qadah, jom; shisha idish ichidagi ichimlik; spirtli ichimlik; **verre de lampe** chiroq shisha; **verre à vitres** deraza oynasi; **petit verre** rumka, qadah; **verre gradué** o'lchovli shisha idish; **lever son verre à la santé de qqn** birovni sog'ligi uchun qadah ko'tarmoq, qadah so'zini aytmoq, ichmoq; **vider son verre** qadahni bo'shatmoq, ichmoq; *prov* **qui casse les verres les paie** o'zing kesgan ugra osh, aynalib ich, chaynalib ich, o'zing pishirgan oshni aynalib ham ichasan, o'rgilib ham ichasan.

**verré, ée** *adj* shisha zarrasi bilan qoplangan; **papier verré** jilvir qog'oz, qum qog'oz.

**verrerie** *nf* **1.** shisha zavodi; shisha, shisha buyumlar ishlab chiqarish, shisha sanoati; shisha, shisha buyumlari savdosi; **2.** shisha idish, shisha mahsulotlari.

**verrier** *nm* shisha, shisha buyumlar yasovchi, shisha zavodi ishchisi; shisha idishlar sotuvchi, shisha sotuvchi.

**verrière** *nf* oynavand deraza; oyna pardevor, to'siq.

**verroterie** *nf* shishadan qilingan kichik buyumlar, shisha marjon, munchoq.

**verrou** *nm* **1.** tamba, lo'kidon, surma yopqich; **mettre le verrou** yopmoq, berkitmoq; **sous les verrous** qamoqda; **2.** *mil* zatvor (*otish qurolining qulflovchi mexanizmi*).

**verrouillage** *nm* qulflab qo'yish, berkitish; qurshab olish, muhosara; blokirovka.

**verrouiller I.** *vt* **1.** lo'kidon bilan qulflab berkitmoq; qulflab, berkitib qo'ymoq; yopib qo'ymoq; **verrouiller l'ordinateur** kompyuterni qulflab qo'ymoq, kompyuterga parol qo'ymoq; **2.** birovning ustidan qulflab qamab qo'ymoq; **II. se verrouiller** *vpr* uyda qamalib olmoq, bekinib olmoq, yashirin olmoq.

**verrue** *nf* **1.** so'gal; **2.** bo'qoq (*o'simliklarda*).

**verruqueux, euse** *adj* so'galli, so'gal bosgan; so'gal shaklidagi.

**vers¹** *prép* **1.** *yo'nalishni ifodalaydi* tomon, tomonga, tarafga, qarab, qarata, sari, -ga; **courir vers la maison** uyga, uy tomonga chopmoq; **2.** *vaqtni ifodalaydi* tomon, taxminan, -ga yaqin; **il est arrivé vers cinq heures** u soat beshlarga qarab keldi; **vers la fin** oxiri, pirovardida, nihoyat, natijada.

**vers²** *nm* she'r; misra; **vers blanc** oq she'r, qofiyasiz she'r; **en vers** she'rda, nazmda, she'riy uslubda yozilgan; **mettre en vers** she'riy shaklga keltirmoq; **faire des vers** she'r yozmoq, to'qimoq.

**versant** *nm* yonbag'ir, qiyalik, nishab.

**versatile** *adj* o'zgaruvchan, o'zgarib, turlanib, aynib turadigan, beqaror, qikrini tez o'zgartiradigan, og'ma; omonat.

**versatilité** *nf* o'zgaruvchanlik, beqarorlik, fikridan tez qaytish, og'malik, noustuvorlik.

**verse** *nf* **1. il pleut à verse** yomg'ir chelaklab quyganday yog'moqda, yomg'ir sharillab, shig'ab, sharros, shiddat bilan yog'ayotir; **2.** yotib, yiqilib, engashib qolish (*g'alla ekinlari yomg'ir, shamol, kasallik yoki boshqa ta'sirlar tufayli*).

**versé, ée** *adj litt* (**dans qqch**) bilimdon, mohir, usta, ustasi farang; xabardor.

**Verseau** *nm astron, astrol* Dalv; **elle est Verseau** u Dalv burjida tug'ilgan.

**versement** *nm* to'lash, to'lov, badal, pul o'tkazish; o'tkazilgan to'langan pul.

**verser I.** *vt* **1.** quymoq, to'kmoq, oqizmoq, ag'darmoq, solmoq, sepmoq, sochmoq; yiqitmoq, yotqizib ketmoq; **verser des larmes** ko'z yoshi qilmoq, to'kmoq, yig'lamoq; **verser le sang** qon to'kmoq, o'ldirmoq; **2.** to'ldirmoq, to'latib solmoq; **3.** to'lamoq, topshirmoq (*pul*); **verser des fonds** mablag', sarmoya kiritmoq; **verser une pension alimentaire** aliment, nafaqa to'lamoq; **4.** qo'shib qo'ymoq, ilova qilmoq; **verser au dossier** deloga tikib qo'ymoq; **5.** ag'darmoq, to'ntarmoq (*avtomobilni*); **II.** *vi* **1.** yiqilmoq, ag'darilmoq, to'ntarilmoq, ag'darilib ketmoq, qulamoq; **sa voiture a versé dans le fossé** mashinasi chuqurga qulab ketdi; **2.** yotib, yiqilib qolmoq (*ekinlar*); **3. verser dans** berilmoq, qiziqmoq, ishqiboz bo'lib qolmoq.

**verset** *nm* band; oyat; **versets du Coran** Qur'on oyatlari.

**verseur I.** *nm* quyuvchi, quyib turuvchi; ag'dargich; **II.** *adj m* solib, quyib turuvchi.

**verseuse** *nf* to'g'ri bandli, dastali qahva qaynatadigan idish.

**versificateur, trice** *nm* **1.** shoir, nozim; **2.** *péj* uquvsiz, no'noq, iste'dodsiz shoir, qofiyaboz.

**versification** *nf* she'r yozish, she'r qurilishi, she'riyat.

**versifier** *vt* she'r bilan ifodalamoq, nazmga solmoq.

**version** *nf* variant, versiya, nusxa; shakl; tarjima; sharh, izoh, talqin; **film en version originale (V.O.)** asl nusxadagi film (*dublaj, tarjima qilinmagan*).

**verso** *nm* bet, sahifa, varaqning orqa tomoni.

**versoir** *nm* ag'dargich (*plug tishining yerni ag'daruvchi qismi*).

**verste** *nf* chaqirim (*1,06 km ga teng masofa o'lchovi*).

**versus** *prép* -ga qarshi, teskari.

**vert, verte I.** *adj* **1.** ko'k, yashil, sabza; **le billet vert** dollar; **numéro vert** qo'ng'iroq qilganda pul to'lanmaydigan telefon raqamlari (*Fransiyada*); **2.** ho'l, yangi uzilgan, terilgan; **3.** xom, pishmagan, dumbul, g'o'r; ho'l; **bois vert** ho'l o'tin; **en dire, en raconter des vertes et des pas mûres** uydirma to'qimoq, lof urmoq, cho'pchak to'qimoq; uyatsiz, behayo narsalar to'g'risida gapirmoq, hikoya qilmoq; **4.** yosh, xom, dumbul, g'o'r, bo'z; **5.** tetik, bardam, dadil; **6.** sho'x, o'ynoqi, erkin; **6.** *vieilli* keskin, shiddatli, jiddiy, qattiq; **une verte réprimande** qattiq tanbeh; **langue verte** o'g'ri, jinoyatchi, bezori, muttahamlar tili, jargoni; **7.** qishloq, qishloqqa xos, qishloq xo'jaligiga oid; **8.** tabiatni, tevarak-atrofni muhofaza qiluvchi; **le parti vert** yashillar, tabiatni muhofaza qilish tarafdorlari partiyasi; **carburant vert** tevarak-atrofni ifloslamaydigan yoqilg'i; **II.** *nm* **1.** sabza, yashil, ko'k rang; **vert foncé** ko'm-ko'k, ko'kmak; **vert clair** bargikaram; **2.** ko'k o't, maysa; **mettre au vert** yaylovda boqmoq, ho'l o't bilan boqmoq; **se mettre au vert** shahar tashqarisida, qishloqda dam olmoq; **3.** *pl* yashillar, tabiatni muhofaza qilish tarafdorlari.

**vert-de-gris I.** *nm inv* zangor, mis oksid, mis gidroksikarbonat (*nam havoda mis yuzasini qoplovchi yashil rang zang*); **II.** *adj* ko'kimtir kul rang.

**vertébral, ale, aux** *adj* umurtqaga oid, umurtqa; **colonne, arc, corps vertébral** umurtqa pog'onasi, ravoqi, tanasi.

**vertèbre** *nf* umurtqa, umurtqa suyagi; **vertèbres cervicales, dorsales (thoraciques), lombaires, sacrées (coccygiennes)** bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza umurtqalari.

**vertébré, ée I.** *adj* umurtqali, umurtqasi bor; **II.** *nm pl zool* umurtqalilar.

**vertement** *adv* qattiq, shiddat bilan, kuchli; **tancer vertement** qattiq koyimoq, urishib bermoq.

**vertical, ale, aux I.** *adj* tik, vertikal, vertikal yo'nalishdagi, tik ko'tarilgan; **II.** *n* **1.** *nf* tik, vertikal chiziq; tik holat; **à la verticale** tik, tikkasiga; **2.** *nm astron* vertikal (*yulduzlarning zenitdan uzoqligini burchak hisobida o'lchaydigan asbob*).

**verticalement** *adv* tik, tip-tik, tikka, tikkasiga, vertikal yo'nalishda.

**verticalité** *nf* tiklik, tikkalik, vertikallik.

**vertige** *nm* bosh aylanish, gangish, esankirash; balandlikdan qo'rqish; **cela me donne, cause le vertige** bundan mening boshim aylanadi; **à donner le vertige** boshni aylantiradigan, esankiratadigan, hayratlantiradigan.

**vertigineux, euse** *adj* **1.** boshni aylantiradigan, gangitadigan, esankiratib qo'yadigan; **2.** katta, zo'r, ulkan, hayratda qoldiradigan.

**vertu** *nf* **1.** yaxshi fazilat, xislat, layoqat, hosiyat, odamgarchilik, ezgu ish; saxovat, himmat, fidokorlik; **2.** jasorat, botirlik, mardlik; **3.** *vieilli, plais* vafodorlik (*ayollar eriga nisbatan*); **femme de petite vertu** yengiloyoq, suyuqoyoq ayol; **4.** xossa, xususiyat, fazilat; **vertu curative** shifobaxsh xususiyat; **en vertu de** *loc prép* ko'ra, asosida, tufayli, sababli, boisdan.

**vertueusement** *adv* **1.** himmat, saxovat, yaxshilik bilan; **2.** *vieilli, plais* ibo, hayo, iffat, vafodorlik bilan.

**vertueux, euse** *adj* **1.** yaxshi fazilatli, saxovatli, himmatli; botir, jasur, mard; **2.** *vieilli, plais* vafodor, iboli, hayoli, iffatli (*ayol*); **3.** yaxshi, xayrli, ezgu, hosiyatli.

**vertugadin** *nm* **1.** *vieilli* ayollar yubkasi etagini qappaytirish uchun ichidan qo'yiladigan gardish; **2.** do'nglik shaklida o'tqazilgan chim, maysa.

**verve** *nf* ko'tarinki ruh, ilhom, zavq-shavq, jo'shqinlik; gapga ustalik, so'zamollik, zarofat.

**verveine** *nf* **1.** tizimgul; **verveine officinale** dorivor tizimgul; **verveine odorante** limono't; **2.** dorivor tizimgul damlamasi.

**vésical, ale, aux** *adj anat, méd* siydik pufagi, qovuqqa oid.

**vésicule** *nf* **1.** *anat* pufak; o't pufagi; **vésicule biliaire** o't pufagi, xaltasi; **2.** *méd* pufakcha, shish.

**vespasienne** *nf* hojatxona (*jamoat joylarida, erkaklar uchun*).

**vespéral, ale, aux I.** *nm* kechki ibodatlar matni yozilgan kitob; **II.** *adj* kechqurungi, kechki, oqshomgi.

**vessie** *nf* pufak; qovuq, siydik pufagi.

**vestale** *nf* pokiza, ibo-hayoli qiz, ayol.

**veste** *nf* kalta kamzul, kurtka, gimnastyorka; **retourner sa veste** fikrini, qarashlarini o'zgartirmoq; **ramasser, remporter, prendre une veste** muvaffaqiyatsizlikka, mag'lubiyatga uchramoq.

**vestiaire** *nm* garderob, ustki kiyimni qoldiradigan joy; yechinish xonasi, kiyim almashtiradigan joy; garderobda qoldirilgan kiyimlar; biror kishining kiyim-kechak, ust-boshlari.

**vestibule** *nm* **1.** vestibul, dahliz, dolon; **2.** *anat* quloq labirintining boshlanish qismi.

**vestige** *nm* iz, belgi, nishon, asorat, qoldiq; sarqit, salqit; **vestiges de la ville** shahar xarobalari.

**vestimentaire** *adj* kiyimga, kiyim-kechakka oid.

**veston** *nm* kostum, pidjak, kalta kamzul, kurtka.

**vêtement** *nm* **1.** kiyim, kiyim-kechak, kiyim-bosh, ust-bosh, ko'ylak, libos, sarpo, egin, engil, joma; **mettre ses vêtements** kiyinmoq, kiyimlarini kiymoq; **changer de vêtement** kiyimni almashtirmoq; **il travaille dans le vêtement** u kiyim-kechak sohasida ishlaydi; **2.** qobiq, niqob, qoplam, o'ram.

**vétéran** *nm* veteran, urush qatnashchisi; biror sohada ko'p xizmat qilgan tajribali kishi.

**vétérinaire I.** *adj* veterinariyaga, mol doktorligiga oid, veterinar; **II.** *nm* veterinar, mol doktori, baytar.

**vétille** *nf* mayda, arzimagan narsa, mayda-chuyda; ikir-chikir.

**vétilleux, euse** *adj* mayda, maydakash, maydagap, ezma, mijg'ov; tirg'iluvchi, tirnoq ostidan kir qidiruvchi.

**vêtir I.** *vt* kiyintirmoq, kiydirmoq; kiymoq; **II. se vêtir** *vpr* kiyinmoq.

**vétiver** *nm bot* buzoqchirg.

**veto** *nm inv* veto, taqiq, man etish, rad etish.

**vêtu, ée** *adj* kiyingan, kiygan; qoplangan; **vêtu de neuf** yangi kiyimlar kiygan.

**vétuste** *adj* eskirgan, to'zgan, pachaq, buzuq, shikastlangan, puturdan ketgan, nuragan, omonat, sharti ketib parti qolgan.

**veuf, veuve I.** *adj* beva, tul, xotini, eri o'lgan; *fam* yolg'iz (*vaqtincha*); **veuf de** biror narsadan ajragan, mahrum bo'lgan; **II.** *n* **1.** beva, tul; **veuve de guerre** eri urushda o'lgan ayol; **2.** *nf arg* gilyotina, bosh oladigan jodi; **épouser la veuve** jodida boshi olinmoq; *fam* **la veuve poignet** masturbatsiya.

**veule** *adj* **1.** bo'sh, bo'shang, landavur, shalviragan, lapashang; **2.** bo'sh, egiluvchan; uqalanib, uvalanib ketadigan (*tuproq*).

**veulerie** *nf* bo'shlik, bo'shanglik, landavurlik, bo'shashganlik, shalviraganlik, lapashanglik, irodasi sustlik, loqaydlik.

**veuvage** *nm* bevalik, tullik, yesirlik.

**vexant, ante** *adj* ko'ngil buzar, alam qiladigan, o'kinchli, o'ksitadigan, keskin, qattiq, kuchli, tahqirli, haqoratli, qattiq tegadigan, xo'rlaydigan, kamsitadigan, nafsoniyatiga tegadigan.

**vexation** *nf* jabr, zulm, xo'rlik, zo'ravonlik; xo'rlik, o'kinch, ranj, alam, haqorat, tahqir, so'kish, kamsitish, xo'rlash, yerga urish.

**vexatoire** *adj* jabrlaydigan, ezadigan, xo'rlovchi.

**vexer I.** *vt* **1.** jabrlamoq, zulm o'tkazmoq, ezmoq, azoblamoq; **2.** xafa qilmoq, ko'nglini buzmoq, o'ksitmoq, ozor bermoq, aziyat bermoq, ranjitmoq, ta'bini tirriq qilmoq; **II. se vexer** *vpr* ranjimoq, xafa bo'lmoq; g'azablanmoq.

**via** *prép* orqali, ichidan, ustidan (*yo'l haqida*); **aller de Paris à Alger via Marseille** Parijdan Jazoyirga Marsel orqali bormoq.

**viabilité[1]** *nf* yo'llarning yaxshi holati, mashinalar uchun qulayligi.

**viabilité[2]** *nf* hayotchanlik, yashovchanlik, yashash qobiliyati; hayotiylik.

**viable** *adj* hayotchan, yashovchan, yashab, rivojlanib keta oladigan; hayotiy, amalga oshirsa bo'ladigan, amalga oshadigan.

**viaduc** *nm* viaduk, uzun va katta ko'prik.

**viager, ère I.** *adj* umrbod, umr bo'yi, umrining oxirigacha; **revenu viager** umrining oxirigacha keladigan foyda; **à titre viager** umrbod; **II.** *nm* umrbod olinadigan daromad.

**viande** *nf* **1.** go'sht, et; **viande d'agneau** barra go'shti; **viande hachée** qiyma go'sht; **viande blanche** parranda, buzoq, cho'chqa, quyon go'shti; **viande noire** ov hayvonlari go'shti; **2.** *vx* ovqat, oziq, yegulik; **3.** *fam* tana, gavda; **amène ta viande** kel, bu yoqqa kel; **de la viande froide** losh, jonsiz gavda, murda.

**viatique** *nm* **1.** sayohat qilish uchun beriladigan pul, oziq-ovqat, xayriya; **2.** yordam, madad, ko'mak; **3.** nasroniylarda o'lim to'shagida yotgan odamga qilinadigan diniy marosimlardan biri.

**vibrant, ante I.** *adj* **1.** titroq, titragan, qaltiroq, qaltiragan; **2.** ta'sirchan, his-tuyg'uga tez beriladigan, tez hayajonlanadigan; **II.** *nf ling* titroq tovush (*undosh*).

**vibraphone** *nm* vibrafon (*musiqa asbobi*).

**vibrateur** *nm* vibrator.

**vibration** *nf* titroq, tebranish, titrash, zirillash, chayqalish, qaltirash, vibratsiya.

**vibratoire** *adj* tebranma, titroq; **mouvement vibratoire** tebranma harakat.

**vibrer** *vi* **1.** tebranmoq, titramoq, dirillamoq, zirillamoq; **2.** hayajonlanmoq, to'lqinlanmoq.

**vibreur** *nm* tebratgich, vibrator.

**vibrion** *nm* **1.** *biol* vergul shaklidagi bakteriya; **2.** *fam* tekturmas, sabrsiz, beqaror, tinmas odam.

**vibrionner** *vi fam* tinmasdan harakat qilmoq, bir joyda o'tirmaslik.

**vibromasseur** *nm* tebranish orqali massaj qiladigan apparat.

**vicaire** *nm* noyib; vikariy (*ruhoniy yordamchisi*); **vicaire de Dieu, de saint Pierre** Papa, Xudoning yerdagi noyibi.

**vice 1.** nuqson, kamchilik, ayb, qusur, xato, illat; **vice de conformation** jismoniy illat, xunuklik, badbasharalik; **pauvreté n'est pas vice** kambag'alik ayb emas; **2.** axloqsizlik, buzuqlik, fosiqlik, maraz.

**vice-** *préf* vitse, o'rinbosar.

**vicelard, arde** *adj, n fam* axloqsiz, buzuq, fosiq, maraz; makkor, ayyor, mug'ombir.

**vice-président, ente** *n* vitse-prezident, prezident o'rinbosari, rais o'rinbosari.

**vice-roi** *nm* monarxiya davlatiga qaram bo'lgan qirollik yoki provinsiya hukmdori.

**vice versa** *loc adv* aksincha, teskari, teskarisiga.

**vichy** *nm* katak yoki yo'l-yo'l ipgazlama turi.

**vicié, ée** *adj* **1.** ifloslangan, buzilgan, zararlangan, bulg'angan; **air vicié** ifloslangan havo; **2.** *dr* haqiqiy emas, noto'g'ri tuzilgan; **acte vicié** noto'g'ri tuzilgan hujjat.

**vicier** *vt* **1.** buzmoq, ifloslamoq, bulg'amoq, ishdan chiqarmoq, ziyon, shikast yetkazmoq; **2.** *dr* qonuniy kuchini yo'q qilmoq, bekor qilmoq, yaroqsiz qilmoq.

**vicieux, euse** *adj* **1.** axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq, fosiq, badaxloq, maraz; **2.** noto'g'ri, xato, nuqsonli, aybli, qusurli; **locution vicieuse** noto'g'ri qo'llaniladigan ibora; **balle vicieuse** *sport* noto'g'ri uzatilgan to'p (*raqibni aldash, chalkashtirish uchun, ataylabdan*); **3.** (*hayvonlar*) o'jar, qaysar, tixir, sarkash.

**vicinal, ale, aux** *adj* qishloqaro; **chemin vicinal** qishloqaro yo'l, qishloqlarni bir-biriga bog'lovchi yo'l.

**vicissitudes** *nf* **1.** *vx* o'zgarish, o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish, muvaqqatlik; **2.** *litt pl* tasodif, kutilmagan hol, hodisa; baxtsizlik.

**vicomte, esse** *n* vikont, vikontessa; vikont xotini.

**victime** *nf* qurbon, qurbonlik; qurbon bo'lgan, jabrlangan, jafo ko'rgan odam; **les victimes de la guerre** urush qurbonlari.

**victoire** *nf* g'alaba, zafar, muvaffaqiyat; **remporter une victoire** g'alaba qozonmoq; **victoire à la Pyrrhus** *loc* juda katta qiyinchiliklar evaziga erishilgan g'alaba.

**victoria** *nf* usti ochiq to'rt g'ildirakli izvosh, fayton.

**victorieusement** *adv* muzaffarona, g'olibona, viqor bilan.

**victorieux, euse** *adj* g'olib, yengib chiqqan, zafarli, muzaffar, viqorli.

**victuailles** *nf pl* oziq-ovqat zaxiralari.

**vidage** *nm* bo'shatish; *fam* haydash.

**vidange** *nf* **1.** bo'shatish, chiqarish; tozalash, axlat, oqava suvlar tashlanadigan chuqurni, hojatxonani tozalash, bo'shatish; **2.** axlat, najas; madaniy o'g'it; **3.** avtomobil moyini almashtirish; **4.** *pl* bo'sh shishalar.

**vidanger** *vt* bo'shatmoq, tozalamoq (*axlat, oqava suv chuqurlari, hojatxona*); moy almashtirmoq (*dvigatelda*).

**vidangeur** *nm* hojatxona chuqurlarini tozalovchi odam.

**vide I.** *adj* bo'sh, ichi bo'sh, ichida narsasi yo'q, quruq, po'k, puch, havosiz; xilvat, xoli; bekor; **rentrer les mains vides** quppa-quruq, bo'sh qo'l bilan, hech narsasiz qaytib kelmoq; **complètement vide** bo'm-bo'sh; **appartement vide** bo'sh, mebelsiz uy; **vide de sens** ma'nosiz; **II.** *nm* **1.** bo'shliq, bo'sh joy; vakuum, havosiz joy; bo'shlik; **à vide** *loc adv* bo'sh,

quruq, yuksiz, hech narsa ortmasdan; bekorga, behudaga, bekordan-bekorga, salt; **faire le vide autour de qqn** yolg'iz qoldirmoq, odamlardan ajratib qo'ymoq, yakkamoxov qilib qo'ymoq; **2.** ochiq joy, teshik, yoriq, tuynuk, tirqish.

**vidé, ée** *adj* **1.** ichak-chavog'i olib tashlangan, tozalangan; **2.** charchagan, tinkasi qurigan, holdan toygan; shuursiz, bo'm-bo'sh.

**vidéo I.** *adj* video, ovoz va tasvirlarni yozdirish va uzatish texnikasiga oid; **II.** *nf* video, videotexnika.

**vidéocassette** *nf* videokasseta.

**vide-ordures** *nm inv* axlat tashlash quvuri (*baland qavatli uylarda*).

**vide-poche** *nm* mayda-chuyda narsalarni solib qo'yadigan quticha (*cho'ntakda olib yuriladigan narsalar, to'g'nog'ich, uzuk kabilarni*); avtomobillar eshigining ichki tarafiga va o'rindiq orqasiga o'rnatilgan mayda-chuyda narsalar solib qo'yiladigan moslama.

**vider I.** *vt* **1.** bo'shatmoq, chiqarib, tortib olmoq, qoqib tushirmoq, tozalamoq, olib chiqmoq, chiqarib tashlamoq; **vider un étang** hovuzni quritmoq; **aller vider les ordures** axlat tashlab kelmoq; **vider son sac** yuragini bo'shatmoq, yuragini, dilini ochib-sochmoq; **vider les lieux** joyni tark etmoq, tashlab ketmoq; **vider les arçons** otdan yiqilmoq; esankirab qolmoq, dovdiramoq; **2.** ichak-chavog'ini olib tashlamoq, tozalamoq; **3.** *fam* charchatmoq, tinka-madorini quritmoq, holdan toydirmoq; **4.** hal qilmoq, tugatmoq, yechmoq; **5.** *fam* haydamoq, haydab solmoq, bo'shatmoq (*ishdan*); **le cheval a vidé son cavalier** ot chavandozni irg'itib yubordi; **II. se vider** *vpr* bo'shamoq, bo'shab qolmoq, huvillamoq, puchaymoq; quyilmoq.

**videur, euse** *n* biror narsani bo'shatuvchi, tozalovchi odam; restoran, mayxona, kabare kabi joylarda mastlarni, to'polon ko'targanlarni haydab chiqaruvchi xodim.

**viduité 1.** *dr* bevalik; **délai de viduité** idda (*fransuzlarda 300 kun*); **respecter le délai de viduité** idda saqlamoq; **2.** yolg'izlik; **3.** bo'shlik.

**vie** *nf* **1.** hayot, turmush, yashash, umr, umr-guzaronlik, tiriklik, tirikchilik, yashash; **vie conjugale** er-xotinlik; **au déclin de la vie** qarigan chog'da, bir oyog'i to'rda, bir oyog'i go'rda; **vie aisée** to'q, farovon, badavlat hayot tarzi; **la cherté de la vie** qimmatchilik, narxlarning balandligi; **question de vie et de mort** hayot-mamot masalasi; **femme de mauvaise vie** fohisha, yengiltak ayol; **lutte pour la vie** hayot-mamot jangi, hayot uchun kurash; **donner la vie à qqn** tug'moq, dunyoga keltirmoq; **sauver la vie à qqn** birovning hayotini saqlab qolmoq; **gagner sa vie** tirikchilik qilmoq, ishlab pul topmoq; **passer sa vie** hayot kechirmoq, umr o'tkazmoq; **perdre la vie** vafot etmoq; **ôter la vie à qqn** jonini olmoq, o'ldirmoq; *fam vx* **faire la vie** kunini aysh-ishrat qilib, kayfu-safoda o'tkazmoq; **en vie** hayot, tirik; **à vie** umrbod, umrlik, butun umrga; **jamais de la vie, de ma vie** (*bo'lishsiz gapda*) hech qachon, aslo, hech, umuman, hayotda; **à la vie et à la mort** umrbod, abadiy, toabad, umrining oxirigacha, so'nggi nafasigacha; **2.** hayot, hayot yo'li, tarjimai hol.

**vieil, vieille** *voir* **vieux**.

**vieillard** *nm* keksa, qari odam, qariya, bobo, boboy, chol, oqsoqol, mo'ysafid; **vieillard courbé** munkaygan chol.

**vieillerie** *nf* **1.** eski-tuski, lash-lush, eski narsa; **2.** eskicha fikrlar, qarashlar; **3.** *fam* qarilik.

**vieillesse** *nf* **1.** keksalik, qarilik, qarichilik; **2.** eskirish, eskilik, qo'hnalik, eskirganlik, to'ziganlik; **3.** qariyalar, keksalar.

**vieillir I.** *vi* **1.** qarimoq, qartaymoq, keksaymoq; **2.** eskirmoq, ishdan chiqmoq, to'zmoq, muomaladan chiqmoq; **mot qui vieillit** eskirgan so'z; **3.** vaqt o'tishi bilan o'ziga xos sifat, ta'mga ega bo'lmoq, sifati yaxshilanmoq, uzoq saqlanib yetilmoq (*sharob, pishloq kabi mahsulotlar*); **II.** *vt* qari qilib ko'rsatmoq, qaritmoq, keksaytirmoq.

**vieillissant, ante** *adj* qariyotgan, keksayayotgan; eskirayotgan, to'zayotgan.

**vieillissement** *nm* qarish, qartayish, keksayish; eskirish, to'zish, muomaladan, iste'moldan chiqish; yetilish (*sharob, pishloq kabi mahsulotlar haqida*).

**vieillot, otte** *adj* keksalarga xos bo'lgan, keksalarcha, qari; eskirgan, to'zigan; qarimsiq, qarinamo, qari odamlarga o'xshagan.

**viennois, oise I.** *adj* Vena shahriga oid; **II.** *n* venalik.

**viennoiserie** pishiriqlar, novvoylik mahsulotlari (*nondan tashqari: bulochka, teshikkulcha, shirinkulcha kabi*).

**vierge I.** *nf* **1.** bokira qiz, afifa; **2. la Vierge, la Sainte Vierge, la Vierge Marie** Bibi Maryam; Bibi Maryam tasvirlangan rasm; **3.** *astrol* Sunbula burji; **il est Vierge** u Sunbula burjida tug'ilgan; **II.** *adj* **1.** bokira, iffatli; **homme vierge** jinsiy aloqa qilib ko'rmagan erkak; **2.** pok, toza, sof, ishlatilmagan; **feuille vierge** oq qog'oz; **cassette vierge** yangi, yozilmagan, bo'sh kasseta; **laine vierge** tabiiy jun; **3.** qo'l tegmagan, odam oyog'i yetmagan; bo'z; **terre vierge** qo'riq, bo'z yer.

**vieux, vieil, vieille I.** *adj* **1.** qari, qarigan, keksa, keksaygan, munkaygan; **vieil homme** keksa odam, chol; **vieille femme** keksa ayol, kampir, qari xotin; **vieux garçon** qari bo'ydoq; **sur ses vieux jours** qarigan, keksaygan chog'ida; **se faire vieux** qarimoq, keksaymoq, qartaymoq; **plus vieux d'un an** bir yosh katta; **2.** eski, eskirgan, ko'hna, qadimiy; avvalgi, qadimgi, burungi, allaqachongi; **ma vieille voiture** odingi, eski mashinam; **le vieux monde** Eski dunyo (*Yevropa*); **c'est toujours le vieux problème** eski tos, eski hammom; **3.** ashaddiy, uchiga chiqqan, haqiqiy; **vieille crapule** borib turgan muttaham; **vieil ivrogne** ashaddiy, tuzalmas piyonista; **4.** turgan, uzoq saqlanib yetilgan; **vin vieux** eski, yaxshi yetilgan sharob; **II.** *adv* **s'habiller vieux** qarilarga o'xshab kiyingan; **III.** *n* **1.** qariya, chol, kampir, keksa; **un vieux de la vieille** *loc* Napoleon gvardiyasida xizmat qilgan qari askar; ko'pni ko'gan qariya; **2.** *fam* boboy, momoy, qariya, paxan (*ota-ona haqida*); do'stim, azizim, jo'ra.

**vif, vive I.** *adj* **1.** jonli, tirik, hayot; **plus mort que vif** taxtaday qotib qolgan, serrayib, angrayib qolgan; **brûlée vive** tiriklay o'tda kuydirilgan; **eau vive** buloq suvi; **air vif** salqin, musaffo havo; **plaie vive** yangi kesilgan, paydo bol'gan yara, jarohat; **2.** sho'x, tinib-tinchimas; serg'ayrat, chaqqon, qizg'in, bardam, serharakat, chopqir; **œil vif** chaqnoq, o'ynoqi ko'z; **marcher d'un pas vif** ildam qadam bosmoq; **3.** tez, serjahl, jahldor, jizzaki, qo'pol; **échanger des propos très vifs** bir-biridan qo'pol gaplarni ayamaslik, bir-birini haqoratlamoq; **4.** tiyrak, zehni o'tkir, aqlli, idrokli; **intelligence vive** o'tkir zehn; **5.** jonli, yorqin, qaynoq, chaqnoq, yarqiragan, ko'zni oladigan; kuchli, o'tkir; **couleurs vives** yorqin, ko'zni oladigan ranglar; **froid vif** qattiq sovuq, ayoz; **une vive douleur** qattiq, kuchli og'riq; **vifs reproches** qattiq ta'na, gina-kudurat, yozg'iriq; **vive discussion** qizg'in, jo'shqin munozara; **vive fusillade** shiddatli otishma; **II.** *nm* **1.** jonzot, jonli, tirik odam; **piquer au vif** nozik, qaltis yeridan ushlamoq, qattiq tegmoq; **plaie à vif** ochiq yara; **entrer dans le vif du sujet** masalaning mohiyatiga yetmoq; **peindre sur le vif** asliga qarab chizmoq; **2.** tirik yem, xo'rak (*baliq ovlashda*).

**vif-argent** *nm chim* simob; *fig* **c'est du vif-argent** u tinib-tinchimas, chaqqon odam.

**vigie** *nf* **1.** *mar* sayoz joy; sayoz joyni ko'rsatadigan suzgich; **2.** *vx mar* kuzatuvchi (*ochiq dengizni kuzatuvchi*); **3.** kuzatuv minorasi.

**vigilance** *nf* hushyorlik, sergaklik, ehtiyotkorlik, ogohlik; bedorlik, uyg'oqlik.

**vigilant, ante** *adj* hushyor, sergak, ogoh, ehtiyotkor, sezgir; bedor, uyg'oq.

**vigile[1]** *nf* biror katta bayram arafasi (*nasroniylarda*); shu tunda o'qiladigan ibodat.

**vigile[2]** *nm* tungi soqchi, posbon (*Qadimgi Rimda*); tungi qorovul.

**vigne** *nf* uzum, tok; uzumzor, tokzor; **cep de vigne** tok, tok tupi; **vigne vierge** yovvoyi uzum; **être dans les vignes (du Seigneur)** mast bo'lmoq; **travailler à la vigne du Seigneur** dinni qabul qilishga undamoq.

**vigneron, onne** *n* uzumchi, uzumchi bog'bon, uzum yetishtirib undan sharob tayyorlovchi bog'bon.

**vignette 1.** sarrasm, bezak, lavha, sarlavha, zarvaraq, xotima, gul (*kitob boshida, oxirida, kitob boblari boshi va oxirida qo'yiladigan bezak*); **2.** miniatura, rasmlarning bezakli hoshiyasi; **3.** rasm, illustratsiya (*kitob, jurnallardagi*); **4.** yorliq, etiketka.

**vignoble** *nm* tokzor, uzumzor.

**vigogne** *nf* vigon, vikunya (*lamalar urug'iga mansub Janubiy Amerikada yashovchi hayvon*); shu hayvon juni; shu jundan to'qilgan gazlama.

**vigoureusement** *adv* qattiq, mahkam, qizg'in, g'ayrat bilan; **frapper vigoureusement** qattiq taqillatmoq.

**vigoureux, euse** *adj* kuchli, baquvvat, quvvatli, qudratli, zo'r, azamat, tetik, zabardast, sog'lom, bardam; **action vigoureuse** jasorat.

**vigueur** *nf* **1.** kuch, quvvat, qudrat; **vigueur du style** uslubning o'tkirligi, jonliligi, ifodaliligi, kuchliligi; **2.** g'ayrat, shijoat, qat'iyat, qizg'inlik, jo'shqinlik, shavq, shiddat, ehtiros; **3.** ishlatish, qo'llanish, tatbiq etish; **lois en vigueur** amaldagi qonunlar; **entrer en vigueur** kuchga kirmoq, tadbiq etilmoq; **mettre en vigueur** harakatga keltirmoq, ishga solmoq, tadbiq etmoq.

**vil, vile** *adj* razil, yaramas, nokas, past, pastkash, jirkanch, qabih, fosiq, hez, hezalak, tuban, murdor, palid; **action vile** pastkashlik; **2.** *vx* arzimas, qadrsiz, qiymatsiz, past, ahamiyatsiz; **métal vil** past, aslmas, havoda oksidlanadigan metall; **à vil prix** suv tekinga, juda arzonga.

**vilain, aine I.** *adj* **1.** yaramas, iflos, juda yomon, nomard, razil, tuban, olchoq, o'sal; **vilain temps** yomon havo; **2.** uyatsiz, adabsiz, axloqsiz, yuzsiz, bo'lmag'ur, bemaza; **3.** yoqimsiz, xunuk, badbashara, ko'rimsiz, badburush; **II.** *n* ozod, erkin dehqon.

**vilainement** *adv* pastkashlik bilan, razilona, ifloslarcha; ko'rimsiz, yoqimsiz ravishda.

**vilebrequin** *nm* **1.** dastparma, parmadasta; **2.** tirsakli val.

**vilenie** *nf* yaramaslik, badbaxtlik, pastlik, pastkashlik, qabohat, tubanlik.

**vilipender** *vt* xo'rlamoq, kamsitmoq, yerga urmoq, haqoratlamoq, tahqirlamoq, obro'sini to'kmoq, balchiqqa qormoq.

**villa** *nm* villa, dala hovli, bog'li koshona, chorbog', qo'rg'on.

**village** *nm* qishloq, ovul; **village olympique** olimpiada qishlog'i (*olimpiada ishtirokchilari yashashi uchun qurilgan qishloqcha*).

**villageois, oise I.** *adj* qishloqqa oid, qishloq; **II.** *n* qishloqda yashovchi, qishloqlik, qishloqi.

**ville** *nf* **1.** shahar, qal'a; **la ville de Paris** Parij shahri; **ville satellite** yo'ldosh shahar; **ville d'eaux** kurort; **ville fortifiée** qal'a, qo'rg'on; **la vieille ville** eski shahar; **en ville, à la ville** shaharda; **par la ville** shahar bo'ylab; **toute la ville en parle** butun shahar (aholisi) shu haqda gapiryapti.

**villégiature** *nf* **1.** shahardan tashqarida, dachada, chorbog'da, kurort joylarda bo'lish, dam olish, hordiq chiqarish; **2.** kurort, dacha, chorbog', dam oladigan joy.

**villosité** *nf anat* qilcha (*ingichka ichakda hazm uchun xizmat qiladigan qilchalar*).

**vin** *nm* vino, sharob, may, musallas, boda, chog'ir; **vin du cru** mahalliy vino; **vin de table** xo'raki vino; **vin de dessert** dessert vino, shirin vino; **vin mousseux** ko'piradigan, vijillab turadigan vino; **grand vin** oliy navli vino, nomi chiqqan vinochilarning mahsuloti; **vin coupé** suv qo'shilgan vino; **sac à vin** ichkilikboz; **être entre deux vins** bir oz kayfi oshmoq; **quand le vin est tiré, il faut le boire** *prov* maydonga tushgan manglayini qashimas.

**vinaigre** *nm* sirka, uksus; **vinaigre de vin** uzum sirkasi; *loc fig* **tourner au vinaigre** yomon tus olmoq, yomon tomonga o'zgarmoq; *fam* **faire vinaigre** shoshilmoq.

**vinaigrer** *vt* sirka, uksus qo'shmoq, sirkalamoq, uksuslamoq.

**vinaigrette** *nf* **1.** sirka, yog', tuz solib tayyorlanadigan qayla, ziravor; **2.** ikki g'ildirakli arava.

**vinaigrier** *nm* **1.** sirka ishlab chiqaruvchi va sotuvchi odam; **2.** sirkadon, sirka solinadigan idish.

**vinasse** *nf* **1.** vino yoki boshqa spirtli ichimliklar qilganda chiqqan durda, quyqa; **2.** bemaza vino.

**vindicatif, ive** *adj* qasoskor, o'ch oluvchi, kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan.

**vindicte** *nf dr* jinoyatni jazolash.

**vineux, euse** *adj* qizil vino rangida; vino ta'mli; vinoga oid, vino; spirti ko'p.

**vingt I.** *adj* yigirma; yigirmanchi; **page vingt** yigirmanchi bet; **les années vingt** yigirmanchi yillar; **vingt-deux!** *fam* diqqat, ehtiyot bo'l! **vingt-quatre heures sur vingt-quatre** tanaffussiz, to'xtovsiz, tunu kun; **je vous l'ai dit vingt fois** men buni sizga shuncha aytdim, ming marta aytdim; **II.** *nm* yigirmanchi kun, yigirmanchi sana; yigirma (*raqam*); yigirma raqami bilan belgilangan narsa yoki shaxs; yigirmanchi razmer.

**vingtaine** *nf* yigirmatacha, yigirmalab, yigirmalagan, yigirmaga yaqin.

**vingtième** *adj* **I.** *adj* yigirmanchi; **II.** *n* yigirmadan bir hissa; **sept vingtièmes** yigirmadan yetti.

**vingtièmement** *adv* yigirmanchidan.

**vinicole** *adj* uzum yetishtirish va undan vino ishlab chiqarishga oid, vinochilik.

**vinification** *nf* vinochilik, vino ishlab chiqarish.

**vinyle** *nm chim* vinil (*bir valentli etilen radikal*).

**vioc** *adj fam, n pop voir* **vioque**.

**viol** *nm* **1.** zo'rlash, nomusiga tegish, nomusiga tajovuz qilish, tajovuz, zo'ravonlik; **2.** tahqirlash, behurmat qilish, oyoqosti qilish, buzish, bulg'ash (*biror joyni*).

**violacé, ée** *adj* binafsha, gunafsha rangli.

**violateur, trice** *n* **1.** buzg'unchi, buzuvchi, tartibbuzar; **2.** *vx* birovning nomusiga tajovuz qilgan odam.

**violation** *nf* **1.** buzish, rioya qilmaslik; **violation des correspondances** birovning xatini ochib ko'rish; **2.** bulg'ash, oyoqosti qilish, tahqirlash, behurmat qilish.

**viole** *nf mus* viola (*skripkasimon musiqa asbobi*).

**violemment** *adv* shiddat bilan, birdan, to'satdan, keskin ravishda.

**violence** *nf* **1.** zo'rlik, zo'ravonlk, kuch ishlatish, kuch qo'llash; **faire violence à** majburlamoq, zo'rlamoq; **avoir recours à, utiliser la violence, user de violence** kuch ishlatmoq; **film de violence** zo'ravonlik sahnalari ko'rsatilgan film; **2.** qahr, g'azab, g'azablanish, qiziqqonlik; **3.** shiddat, jadallik, tezlik, qizg'inlik, g'ayrat, shitob, quturish, qattiq jazava.

**violent, ente** *adj* **1.** kuchli, qattiq, shiddatli, jadal, zo'r, zo'ravon; qizg'in, jo'shqin, otashin; **passion violente** otashin muhabbat, ehtiros; **2.** darg'azab, qahrli, shafqatsiz; **3.** zo'ravonlik, zo'rlik bilan qilingan; majburiy; **mort violente** qatl, o'ldirish.

**violenter** *vt* **1.** majburlamoq, majbur qilmoq, kuch ishlatmoq; zo'rlamoq, nomusiga tegmoq; **2.** buzmoq; **violenter un texte** matnni noto'g'ri, buzib talqin qilmoq.

**violer** *vt* **1.** rioya, amal qilmaslik, buzmoq (*chegarani, qonunni*); **violer la loi** qonunni buzmoq; **violer sa promesse** va'daga vafo qilmaslik; **violer un secret** sirni oshkor qilmoq, ochib qo'ymoq; **2.** zo'rlamoq, nomusiga tegmoq, tajovuz qilmoq; **3.** bostirib kirmoq, zo'rlik bilan kirib olmoq; oyoqosti qilmoq, tahqirlamoq, bulg'amoq, harom qilmoq (*biror joyni*); **violer la porte de qqn** eshigini buzib kirmoq, bostirib kirmoq.

**violet, ette I.** *adj* binafsha; **devenir violet de colère** jahldan ko'karmoq; **II.** *nm* binafsha rang; **violet pâle** och binafsha, nafarmon, sapsar rang.

**violette** *nf* binafsha, gunafsha (*o'simlik va uning guli*); **bois de violette** palisandr (*issiq mamlakatlarda o'sadigan ba'zi daraxtlarning binafsha rangli pishiq yog'ochi*); **jouer les violettes** *loc fig* o'zini og'ir-bosiq, mo'min-qobil, sipo tutmoq.

**violeur** *nm* zo'rlik, zo'ravonlik qilgan odam; buzuvchi, buzg'unchi.

**violine I.** *adj* och binafsha, sapsar, nafarmon; qizg'ish binafsha; **II.** *nf vx* binafsha gulidan olinadigan ishqor; binafsharang bo'yoq.

**violon** *nm* **1.** skripka, g'ijjak; skripkachi, g'ijjakchi, skripka chaladigan sozanda; **violon d'Ingres** sevimli mashg'ulot, ermak, hobbi (*bo'sh vaqtda shug'ullanadigan*); **aller plus vite que les violons** shoshilmoq, shoshiltirmoq, qistovga olmoq; **payer les violons (du bal)** balda musiqa buyurtma qilmoq; boshqa birovning xarajatlari uchun pul to'lamoq; **2.** politsiya uchastkasidagi jinoyatchilarni vaqtincha saqlashga mo'ljallangan turma; **mettre au violon** turmaga tiqmoq; **3.** *mar* stol ustiga o'rnatiladigan maxsus teshiklari bor taglik (*dengiz notinch payti stakanlarni tutib turish uchun*).

**violoncelle** *nm* violonchel (*skripkasimon katta musiqa asbobi*); violonchel chaluvchi sozanda.

**violoncelliste** *n* violonchel chaluvchi sozanda.

**violoneux** *nm* qishloq skripkachisi, g'ijjakchisi; *fam* yomon skripkachi.

**violoniste** *n* skripkachi, g'ijjakchi, skripka chaladigan sozanda.

**vioque** *ou* **vioc I.** *adj fam* qari, keksa; **II.** *n pop* chol, kampir, qariya; *pl* qariyalar; ota-ona.

**viorne** *nf bot* bodrezak; ilono't, ilonpechak.

**vipère** *nf* **1.** qora ilon (*yapaloq boshli zaharli ilon*); **2.** ilon, yomon, yovuz, qabih odam.

**virage** *nm* burilish, aylanish, qayrilish; burilgan joy, muyilish, burilish; **virage en épingle à cheveux, virage dangereux** keskin, tik, xavfli burilish; **2.** burilish, keskin oʻzgarish; **prendre le virage** yangi shart-sharoitlarga, oʻzgarishlarga moslashmoq; **3.** *chim* indikator rangining oʻzgarishi.

**virago** *nf* erkaknamo, erkakshoda, shaddod, oʻktam ayol.

**viral, ale, aux** *adj* virusli, virus tufayli kelib chiqqan; **hépatite virale** virusli gepatit.

**virée** *nf fam* sayr, sayohat, tomosha.

**virelai** *nm* Oʻrta asrlarda keng tarqalgan sheʼr turi.

**virement** *nm* **1.** *mar* burilish; **2.** pul oʻtkazish; **paiement par virement** pul oʻtkazish yoʻli bilan toʻlash.

**virer I.** *vt* burmoq, aylantirmoq; **2.** oʻtkazmoq, bir hisobdan boshqasiga oʻtkazmoq (*pulni*); **3.** *fam* haydamoq, quvmoq, chiqarib yubormoq, haydab chiqarmoq (*odamni*); chiqarib, olib, uloqtirib tashlamoq, otib yubormoq, yoʻqotmoq (*narsani*); **il s'est fait virer** u ishdan haydaldi, uni ishdan haydab yuborishdi; **4.** *loc* **virer sa cuti** musbat reaksiya bermoq (*teri ostiga yuborilgan sinamadan keyin*); tubdan oʻzgarmoq, oʻz fikrlari va qarashlarini birdan oʻzgartirmoq, ulgʻaymoq; **II.** *vi* **1.** burilmoq, oʻgirilmoq, aylanmoq, buralmoq, yoʻnalishni oʻzgartirmoq; *loc fig vieilli* **faire tourner et virer qqn** oʻz nogʻorasiga oʻynatmoq; **virer à tout vent** hadeb oʻz fikrini, yurish-turishini oʻzgartiravermoq; **2.** *mar* yoʻnalishini oʻzgartirmoq; **3.** oʻzgarmoq (*rangi, sifati, taʼmi, koʻrinishi, xususiyati, xarakteri*); **virer à l'aigre** achimoq, achib qolmoq; **virer au rouge** qizarmoq.

**virevoltant, ante** *adj* turgan joyida aylanayotgan, chir, gir aylanayotgan.

**virevolte** *nf* **1.** yarim aylanish; **2.** oʻzgarish, burilish; fikrning keskin oʻzgarishi.

**virevolter** *vi* **1.** aylanmoq, birdan oʻz atrofida aylanmoq, chir aylanmoq; **2.** sandiroqlab, laqillab yurmoq, u yoqdan bu yoqqa borib kelmoq, tentiramoq.

**virginal, ale, aux** *adj* iffatli, bokira, maʼsum.

**virginité** *nf* iffat, bokiralik, maʼsumlik, nomus, qizlik; poklik, tozalik, soflik, pokdomonlik; **se refaire une virginité** iffatini, nomusini, pokdomonligini qaytarmoq; obroʻsini qayta tiklamoq.

**virgule** *nf* vergul; **entre (deux) virgules** vergul bilan ajratilgan; **sans y changer une virgule** bitta nuqtasini ham oʻzgartirmasdan, aynan (*matnni*).

**viril, ile** *adj* **1.** erkakcha, erkaklarga xos, erkaklarga mansub, erkaklarga taalluqli, erkak; **âge viril** balogʻat yoshi, yetilganlik (*erkaklarda*); **2.** hirsli, jinsiy talabni qondira oladigan, erkak; **3.** mard, botir, jasur, kuchli, dovyurak.

**virilement** *adv* mardlarcha, mardona, qahramonlarcha, botirlarcha, erkaklarcha.

**virilité** *nf* **1.** erlik, erkaklik; **avec virilité** erkakcha; **2.** jinsiy quvvat, ehtiros, hirs; **3.** mardlik, botirlik, jasurlik.

**virole** *nf* halqa (*baʼzi asboblarning dastasiga yorilib ketmasligi uchun qoʻyiladigan metall halqa*).

**virtualité** *nf* amalga oshishi, yuzaga chiqishi mumkinlik, imkoniyat, ehtimollik.

**virtuel, elle** *adj* ehtimol, imkoni bor, amalga oshishi, yuzaga chiqishi mumkin; xayoliy, faraz qilingan; virtual.

**virtuellement** *adv* taxminan, imkoni boricha, mumkin qadar; deyarli; amalda, aslida, haqiqatdan.

**virtuose** *n* yuksak iqtidor, mahorat egasi, oʻz ishiga mohir odam, usta.

**virtuosité** *nf* yuksak mahorat, iqtidor, mohirlik, ustalik, sanʼatkorlik.

**virulence** *nf* **1.** virulentlik, kasal yuqtirish, tarqatish xususiyati, zaharlilik; **2.** achchiqlik, zaharlik, yomonlik, yovuzlik.

**virulent, ente** *adj* **1.** *vx* yuquvchi, yuqadigan, yuqumli, virusli; **2.** battol, badjahl, qahrli, yovuz, badxoh, gʻazabnok, zaharli, achchiq.

**virus** *nm* **1.** virus, yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar, maraz; **virus du sida** SPID (OITS) virusi; **2.** *fig* ishqibozlik, ishtiyoq, mayl, havas; **3.** *inform* kompyuter virusi.

**vis** *nf* **1.** vint, murvat, burama mix; **vis femelle** gayka; **serrer, desserrer une vis** burama mixni, murvatni qotirmoq, boʻshatmoq; *loc fig* **serrer la vis à qqn** qattiqqoʻllik bilan, iskanjada tutmoq; **2.** vint, aylanma harakatni toʻgʻri chiziqli harakatga aylantirib beradigan moslama; **vis d'Archimède** Arximed vinti; **3. vis, escalier à vis** aylanma, burama zinapoya.

**visa** *nm* **1.** viza, ruxsatnoma; **2.** viza, boshliqning hujjat ustiga yozgan koʻrsatmasi, qayd belgisi; *fig* **donner son visa** maʼqullamoq, oʻz roziligini bermoq.

**visage** *nm* yuz, bet, chehra, chiroy, diydor, qiyofa, tus, aft, roʻy, bashara, kelbat, siymo; **plis du visage** ajin; **soins du visage** yuz parvarishi, kosmetika; **les traits du visage** yuz tuzilishi; **changer de visage** yuzi, koʻrinishi, rangi oʻzgarmoq; **un visage inconnu** notanish chehra, bashara (*odam*); **les deux visages de la justice** adolatning ikki qiyofasi; **faire monter le rouge au visage** uyaltirmoq, qizartirmoq; **faire bon visage** oʻzini xursand qilib koʻrsatmoq (*majburan, zoʻrma-zoʻraki*); **à visage découvert** ochiqchasiga, dangal, gapni aylantirib oʻtirmasdan, yuz-xotir qilib oʻtirmasdan; **un homme à deux visages** ikkiyuzlamachi, munofiq, riyokor odam.

**visagiste** *n* yuz pardozchisi, soch turmaklash, yuzga pardoz berish boʻyicha mutaxassis.

**vis-à-vis I.** *adv* yuzma-yuz, qarama-qarshi, roʻbaroʻ, roʻparama-roʻpara, yakkama-yakka; **II.** *loc prép* **vis-à-vis de** yuzma-yuz, qarama-qarshi, roʻparasida, oldida; -ga nisbatan, qaraganda; **III.** *nm* **1.** bir-biriga qarama-qarshi joylashish, oʻrnashish; **2.** roʻparada, qarshida oʻtirgan, turgan odam.

**viscéral, ale, aux** *adj* **1.** ichki aʼzolarga oid; **2.** chuqur, ichki, kuchli, qattiq, zoʻr; **une haine viscérale** gʻayrishuuriy nafrat.

**viscéralement** *adv* gʻayriixtiyoriy, gʻayrishuuriy ravishda, beixtiyor.

**viscère** *nm anat* **1.** ichki aʼzo; **2.** *pl* ich, ichak-chovoqlar, qorindagi ichki aʼzolar.

**viscosité** *nf* **1.** yopishqoqlik; shilimshiqlik; **2.** *phys* yopishqoqlik, qovushoqlik; **viscosité d'un fluide** oquvchan moddaning qovushoqlik xossasi.

**visée** *nf* **1.** koʻzlash, nishonga, moʻljalga olish; vizirlash; **2.** *fig* niyat, oʻy, fikr, maqsad, moʻljal, qasd, ahd.

**viser**[1] **I.** *vt* **1.** koʻzlamoq, moʻljallamoq, moʻljalga, nishonga olmoq, poylamoq; *fam* qaramoq, boqmoq; **viser qqn au cœur, aux jambes** yuragini, oyogʻini nishonga olmoq; **2.** *fig* xohlamoq, intilmoq, tilamoq, istamoq, orzu qilmoq; **3.** eʼtiborga olmoq, koʻz ostiga olmoq, nazarda tutmoq; **cette remarque vise tout le monde** bu tanbeh hammaga tegishli, aloqador; **II.** *vi* **1.** nazarini, nigohini, biror buyumni, qurolni koʻzlagan tomoniga, nishonga qaratmoq; **vise bien avant de tirer** otishdan oldin yaxshilab nishonga ol, nishonni toʻgʻrila; **viser haut** balandni koʻzlamoq, baland dorga osilmoq; **2.** biror narsani maqsad qilib olmoq, koʻzda tutmoq.

**viser**[2] *vt* viza bosmoq.

**viseur** *nm* **1.** nishonga, moʻljalga oluvchi; **2.** vizir, nishonga olish asbobi.

**visibilité** *nf* koʻrinish, koʻz ilgʻash, biror narsaning koʻrinishi.

**visible** *adj* **1.** koʻzga koʻrinadigan, koʻringan, koʻz ilgʻaydigan, koʻrsa boʻladigan; **visible au microscope** mikroskopda koʻrinadigan, koʻrsa boʻladigan; **2.** oshkor, ochiq-oydin, namoyon, sezilarli, koʻzga tashlanadigan, zohir, yaqqol koʻrinib turgan; **3. être visible** birovni qabul qila oladigan ahvolda boʻlmoq; birovga koʻrina oladigan ahvolda boʻlmoq; **attends une seconde, je ne suis pas visible** hozir birovga koʻrinadigan ahvolda emasman, bir oz kutib tur.

**visiblement** *adv* aftidan, koʻrinishidan, chamasi, shubhasiz, soʻzsiz.

**visière** *nf* **1.** dubulgʻa, kaska kabilarning yuzga tushirib qoʻyiladigan, yuzni himoya qiladigan qismi; **2.** soyabon, bosh kiyimining soya beradigan qismi; **mettre sa main en visière** qoʻlini soyabon qilmoq (*koʻz qamashmasligi uchun*); **3.** moʻljallagich, nishonga olgich (*oʻq otish qurollarida*).

**vision** *nf* **1.** koʻrish, koʻrish qobiliyati, koʻz; **2.** koʻrish, tasavvur, his qilish; **3.** koʻrinish, xayol, xayolot, xayolda koʻringan narsa, sharpa, arvoh; *fam* **avoir des visions** bemaʼni, boʻlmagʻur gap gapirmoq, ahmoqona gap qilmoq, aljimoq; **vision obsédante** miyaga oʻrnashib qolgan, chulgʻab olgan fikr, oʻy, xayol, vasvasa.

**visionnaire** *n* orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast, koʻziga har xil narsalar koʻrinadigan odam; kelajakni oldindan koʻra oladigan odam.

**visionner** *vt* ekranga tushirmoq, ekranda koʻrsatmoq (*film, diapozitiv, matn, rasm*).

**visionneuse** *nf* kineskop.

**Visitation** *nf relig* Bibi Maryamning Elizabetni ko'rishga borishi; shu voqeani nishonlovchi nasroniylarning bayrami.

**visite** *nf* **1.** tashrif, yo'qlash, qadam ranjida qilish, poyqadam, mehmonda bo'lish; safar, huzuriga borish, ko'rgani borish; **l'heure des visites** qabul vaqti (*kasalxona, qamoqxona, sanatoriy kabilarda odamlar o'z yaqinlarini kelib ko'rishi mumkin bo'lgan vaqt*); **recevoir des visites** keluvchilarni qabul qilmoq; mehmon kutmoq; *fam* **de la visite** mehmonlar, tashrif buyuruvchilar; **2.** shifokorning kasalni ko'rgani kelishi, borishi; shifokor ko'rigi; **visite médicale** tibbiy ko'rik; **3.** tomosha, sayohat, ekskursiya; **visite de la ville** shaharni tomosha qilish; **4.** tekshirish, taftish; **visite domiciliaire** uyni tintuv qilish; **visite de douane** bojxona tekshiruvi.

**visiter** *vt* **1.** ko'rishga, hol-ahvol so'rashga bormoq, kelmoq, borib, kelib ko'rmoq, safar qilmoq, tashrif buyurmoq, mehmonda bo'lmoq; ziyorat qilmoq; **2.** tomosha qilmoq, aylanmoq, aylanib, qarab, ko'rib chiqmoq; **faire visiter une maison** uyni ko'rsatmoq, tomosha qildirmoq; **3.** tekshirmoq, qidirmoq, tintimoq; **visiter les bagages** yuklarni tekshirmoq (*bojxonada*).

**visiteur, euse** *n* **1.** mehmon, yo'qlab kelgan, borgan odam, tashrif buyuruvchi, keluvchi; kelgindi; **2.** sayyoh, tomoshabin, turist; **3.** tekshiruvchi, nazoratchi.

**vison** *nm* norka, qorakuzan; norka, qorakuzan mo'ynasi; shu mo'ynadan tikilgan kiyim, palto.

**visqueux, euse** *adj* **1.** yopishqoq, yelimli, yelimshak; shilimshiq; **2.** *fig litt* sulloh, jirkanch, yaramas, razil, murdor, iflos.

**vissage** *nm* vint, murvat bilan qotirish, mahkamlash, burash.

**visser** *vt* **1.** buramoq, burab kiritmoq, tovlamoq; vintni burab kiritmoq, vint bilan mahkamlamoq; **2.** tanobini tortib qo'ymoq, popugini pasaytirib qo'ymoq.

**visualisation** *nf* **1.** ko'rinadigan qilish; biror harakat, fenomen natijalarining ko'zga tashlanishi; **2.** ma'lumotning ekranda ko'rinishi, berilishi.

**visualiser** *vt* **1.** ko'rinadigan qilmoq; **2.** *inform* ma'lumotni kompyuter ekranida ko'rsatmoq.

**visuel, elle** *adj* **1.** ko'rishga oid, ko'rish; **mémoire visuelle** ko'z, obraz xotirasi; **angle visuel** ko'rish burchagi; **perception visuelle** ko'rish sezgisi; **2.** vizual, ko'rish orqali qabul qilinadigan; ko'zga ko'rinadigan; **II.** *n* **1.** ko'rish sezgisi kuchli bo'lgan odam; **2.** *nm inform* ekran, displey.

**visuellement** *adv* ko'z bilan, ko'rish orqali.

**vital, ale, aux** *adj* **1.** yashashga, hayotga, tiriklikka oid; hayotiy; **2.** hayotda, turmushda bo'ladigan, kundalik; **3.** hayotiy, zaruriy, muhim; **problème vital** katta ahamiyatga ega masala.

**vitalité** *nf* yashash qobiliyati, yashay olish, yashovchanlik; hayotiylik, hayotiy kuch.

**vitamine** *nf* darmondori, vitamin.

**vitaminé, ée** *adj* darmondorili, vitaminli, darmondori, vitamin qo'shilgan.

**vite I.** *adj* tez, ildam, chaqqon, jadal; **le coureur le plus vite** eng chopqir poygachi, yuguruvchi; **II.** *adv* tez, tezdan, chaqqon, ildam, tezlik, epchillik, chaqqonlik, sur'at bilan; darrov, birpasda, zudlik bilan, darhol, bir zumda, tez orada; **travail fait trop vite** shoshma-shosharlik bilan qilingan ish; **plus vite** tezroq, darrov; **aller plus vite** tezroq yurmoq, tezlashmoq; **le plus vite possible** mumkin qadar tezroq; *loc adv fam* **vite fait** zumda, ko'z ochib yumguncha.

**vitellin, ine** *adj biol* tuxum sarig'iga oid, tuxum sarig'i.

**vitellus** *nm anat biol* tuxum sarig'i.

**vitesse** *nf* tezlik, jadallik, chaqqonlik, ildamlik, sur'at; **faire de la vitesse** tezlikni oshirmoq; *loc* **prendre qqn de vitesse** birovdan ilgarilab ketmoq, o'zib ketmoq, oldinroq tugatmoq (*biror ishni*); *loc fam* **en vitesse** darrov, darhol, bir zumda, tez, kechiktirmay; **en perte de vitesse** tezligini yo'qotayotgan; *fig* rivojlanmay qolgan, rivojlanishdan to'xtab qolgan, orqada qolayotgan; *loc fam* **en quatrième vitesse** juda tez.

**viticole** *adj* uzumchilik, uzumchilikka oid.

**viticulteur, trice** *n* uzumchi, uzumchi bog'bon, uzum yetishtirib undan sharob tayyorlovchi bog'bon.

**viticulture** *nf* tokchilik, uzumchilik, uzum yetishtirish.

**vitiligo** *nm* pes kasalligi, vitiligo.

**vitrage** *nm* **1.** oyna o'rnatish; **2.** deraza oynalari; oyna; **fenêtre à double vitrage** ikki qat oyna; **3. vitrage, rideau de vitrage** nafis to'rparda.

**vitrail, aux** *nm* vitraj (*surat solinadigan rangli oyna*).

**vitre** *nf* oyna; **baisser la vitre** mashina oynasini ochmoq; *loc fig* **casser les vitres** janjal qilmoq, jazavasi tutmoq.

**vitré, ée I.** *adj* **1.** shishaga o'xshash, shishasimon, shishaday tiniq; **corps vitré** shishasimon tana (*ko'zda*); **2.** oynali, oynavon, oyna solingan; **II.** *nm* shishasimon tana (*ko'zda*).

**vitrer** *vt* oynalamoq, oyna solmoq, qo'ymoq.

**vitrerie** *nf* **1.** oyna, shisha ishlab chiqarish; oyna, shisha mahsulotlari; **2.** binoni qurishda ishlatilgan barcha oyna, shishalar.

**vitreux, euse** *adj* suyultirilgan shishaga o'xshash; shisha, oynaga o'xshash, shishadan qilingan; **yeux vitreux** nursiz, xira ko'z.

**vitrier** *nm* oynachi, oyna soluvchi; oyna, shisha sotuvchi.

**vitrification** *nf* shishaga aylantirish; yaltiratish, jilo berish (*shaffof plastik modda qoplash orqali*).

**vitrifier** *vt* shishaga aylantirmoq; shaffof plastik modda bilan qoplamoq, yaltiratmoq.

**vitrine** *nf* vitrina, do'konning oynavand old tomoni va shu oyna ortidagi sotuvdagi mahsulotlar ko'rgazmaga qo'yilgan joy; vitrinaga qo'yilgan mahsulotlar; oynavand javon.

**vitriol** *nm chim* sulfat kislota tuzi; **huile de vitriol** *ou* **vitriol** kuporos; **vitriol bleu** mis kuporos, to'tiyo; **vitriol blanc, vert** rux, temir sulfat.

**vitrioler** *vt* **1.** sulfat kislota qo'shmoq, sulfat kislotaga bostirib qo'ymoq; sulfat kislota purkamoq; **2.** birovning betiga sulfat qislota sepmoq (*badbashara qilish uchun, qasddan*).

**vitupération** *nf* haqorat qilish, so'kinish, koyish.

**vitupérer** *vt* haqorat qilmoq, so'kmoq, koyimoq, tanbeh bermoq.

**vivable** *adj* chidasa, yashasa bo'ladigan, yashashga yaroqli.

**vivace**[1] *adj* **1.** yashovchan, uzoq yashay oladigan; **2.** *bot* ko'p yillik (*o'simlik*); **3.** *fig* chidamli, bardoshli, pishiq, mustahkam, mahkam, barqaror, turg'un.

**vivace**[2] *adj inv mus* vivache, juda tez, chaqqon.

**vivacité** *nf* **1.** jonlilik, chaqqonlik, epchillik, bardamlik, tiyraklik, jo'shqinlik, shijoat, sho'xlik, o'ynoqilik; zavq, zavq-shavq, qizg'inlik, ko'tarinki ruh; **2.** jahldorlik, jizzakilik, qiziqqonlik, tezlik, serjahllik.

**vivandière** *nf* o'tmishda qo'shin bilan birga yurib, askarlarga oziq-ovqat, ichimlik sotib yuradigan savdogar ayol.

**vivant, ante I.** *adj* **1.** hayot, tirik, jonli, yashayotgan, barhayot, zinda; **cadavre vivant** qoqsuyak odam, tirik murda; **2.** chaqqon, serharakat, serg'ayrat; **3.** xuddi tirikday, jonli; **II.** *n* **1.** tirik odam; jonli mavjudot; **rayer du nombre des vivants** narigi dunyoga, asfalasofinga jo'natmoq; **2.** *nm* **de son vivant** uning tirikligida.

**vivat I.** *intj vx* ura, yashasin; **II.** *nm* tabrik xitoblari, sharaflab aytilgan xitoblar.

**vive**[1] *nf* sohilga yaqin joylarda qumga ko'milib yotuvchi dengiz balig'i.

**vive**[2] *intj* yashasin.

**vivement** *adv* **1.** tez, tezlik bilan, jadal, ildam, darrov, darhol, epchillik, chaqqonlik, uddaburolik bilan; **2.** zo'r, g'oyat, juda, qattiq; **regretter vivement** qattiq afsuslanmoq; **3.** qo'pol, dag'allik, qo'rslik bilan.

**vivier** *nm* **1.** baliq boqiladigan hovuz, baliqchilik hovuzi; **2.** baliq ovlash kemasida ovlangan baliqlarni tirik saqlash uchun mo'ljallangan qurilma; **3.** *fig* mashhur odamlar, g'oyalar tug'ilishi, rivojlanishi uchun qulay joy.

**vivifiant, ante** *adj* kuch-quvvat beruvchi, ruhlantiruvchi, hayotbaxsh, jonlantiradigan, jon kirgizagigan, tiriltiradigan.

**vivifier** *vt* jonlantirmoq, jon kirgizmoq, kuch-quvvat bermoq, tetiklashtirmoq, kuch-g'ayrat bag'ishlamoq.

**vivipare** *adj, nm* tirik tug'uvchi, bola tug'uvchi; **les vivipares** tirik bola tug'uvchi, tuxum ochmay bolalaydigan hayvonlar.

**vivisection** *nf* viviseksiya (*tirik hayvonni yoki tirik hayvon organizmini yorib tekshirish*).

**vivoter** *vi* **1.** chor-nochor kun ko'rmoq, muhtojlikda kun kechirmoq, uchini-uchiga zo'rg'a yetkazmoq; **2.** amal-taqal qilib, zo'rg'a ishlab turmoq, mavjud bo'lmoq (*narsa*).

**vivre I.** *vi* yashamoq, hayot kechirmoq, umr surmoq, kun kechirmoq, tirikchilik qilmoq, mavjud bo'lmoq; **vivre de lait, de fruits** sut bilan, meva-cheva bilan ovqatlanmoq; **vivre de son travail** o'z mehnati bilan kun kechirmoq; **avoir de quoi vivre** to'q yashamoq, biror narsaga muhtoj bo'lmasdan yashamoq; *prov* **qui vivra, verra** omon bo'lsak, ko'ramiz; **vivre au crochet de qqn** birov hisobiga, birovning orqasidan kun ko'rmoq; **pas âme qui vive** biror tirik, qimirlagan jon yo'q, hech kim ko'rinmaydi; **vivre sur un grand pied** katta-katta yeb, g'arra-sharra sarf qilib yashamoq; **apprendre à vivre à qqn** aqlini kiritib qo'ymoq, ko'rsatib qo'ymoq; **2.** biror yerda yashamoq, istiqomat qilmoq, turmoq; **vivre de l'air du temps** muhtojlikda kun kechirmoq; **II.** *vt* boshdan kechirmoq, o'tkazmoq; **vivre des jours heureux** saodatli kunlarni boshdan o'tkazmoq.

**vivres** *nm pl* oziq-ovqat, g'amlab qo'yilan yeguliklar.

**vizir** *nm* vazir; **Grand vizir** Vaziri a'zam, Bosh vazir.

**vlan** *onomat* taraq, qars, qurs, gurs, shalop, sharaq.

**vocable** *nm* so'z, notanish so'z.

**vocabulaire** *nm* lug'at, so'zlik; biror matndagi tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati; so'z boyligi, lug'at boyligi; biror bir sohada qo'llaniladigan atamalar.

**vocal, ale, aux** *adj* ovozga, tovushga oid, ovozli, tovushli, ovoz, tovush chiqaradigan; **cordes vocales** tovush paychalari.

**vocalique** *adj ling* unli, unli tovushlarga oid; **système vocalique** unli tovushlar majmui; **harmonie vocalique** singarmonizm.

**vocalise** *nf* ovozga sayqal berish, ovozni voyaga yetkazish uchun mashq.

**vocaliser I.** *vt* unliga aylantirmoq; **II.** *vi* ovozni sozlamoq, ovozga sayqal berish uchun mashq qilmoq.

**vocatif** *nm ling* undash, atov kelishigi.

**vocation** *nf* moyillik, qiziqish, havas, rag'bat, mayl; **suivre sa vocation** o'z qiziqishi bo'yicha ketmoq, o'z qiziqishi, rag'bati bo'yicha ish qilmoq; **2.** vazifa, rol, ahamiyat; **avoir vocation à, pour** (+ *inf*) biror narsa qilish vakolatiga ega bo'lmoq, tayinlanmoq.

**vocifération** *nf* qichqiriq, hayqiriq, bo'kirik, darg'azab bo'lib baqirish, ayuhannos solish.

**vociférer** *vi vieilli* jahl bilan, darg'azab bo'lib baqirmoq, bo'kirmoq, hayqirmoq; ho'ngramoq.

**vodka** *nf* araq, aroq.

**vœu** *nm* **1.** ont, qasam, ahd, va'da; **vœux de religion, monastiques** uch ahd; **2.** intilish, iroda, erk, amr, qaror, hafsala; **3.** istak, xohish, niyat, tilak, orzu; **carte de vœux** tabriknoma; **faire un vœu** tilamoq.

**vogue** *nf* moda, urf; muvaffaqiyat; **être en vogue** moda, urf bo'lmoq.

**voguer** *vi* suzib bormoq, suzmoq, ilgarilamoq (*kema*); *loc fig* **vogue la galère** nima bo'lsa bo'ldi, bo'lgancha bo'lar, tavakkal.

**voici** *prép* mana, ana, mana bu yerda; **le voici** mana u; **voici venir la reine** mana malika kelyapti; **monsieur que voici** mana bu afandi.

**voie** *nf* **1.** yo'l; **voies ferrées** temir yo'llar; **route à trois, quatre voies** uch, to'rt bo'lakli yo'l; **la voie publique** jamoatchilik joylari, ko'cha, xiyobon, maydon, istirohat bog'lari; **par voie de mer, de terre** dengiz yo'li bilan, quruqlik orqali; **voie d'eau** teshik, yoriq, suv kirayotgan teshik; **détourner de la bonne voie** yo'ldan ozdirmoq, yomon yo'lga boshlamoq; **pays en voie de développement** rivojlanayotgan davlat; **2.** yo'l, usul, vosita, qurol, amal, tariqa; *dr* **voies de recours** shikoyat qilish, shikoyat arizasini berish usuli; **voie de fait** zo'ravonlik, boshqalarning haq-huquqlarini poymol etish; **3.** yo'l, so'qmoq, iz (*hayvonlarniki*); **4.** *anat* kanal, yo'l; **par voie buccale, orale** og'iz orqali, og'izdan; *anat* **voies respiratoires** nafas yo'llari.

**voilà** *prép* mana, ana; ana u yerda; **voilà!** mana, hozir! **me voilà** mana men keldim, mana men shu yerdaman; **le voilà qui vient** ana, u kelyapti; **voilà trois mois que** uch oydan beri, mana uch oy bo'ldi; **nous y voilà** ana xolos, nihoyat yetib keldik.

**voile**[1] *nm* **1.** parda, to'r, harir; **2.** yopqich, yopinchiq, jelak, chodir, ro'mol, hijob; *loc* **prendre le voile** dinga kirmoq (*ayollar*); **3.** qoplam, parda, niqob; **étendre, jeter, tirer un voile sur qqch** yashirmoq, yopmoq; unutib yubormoq; **4. voile du palais** yumshoq tanglay.

**voile**[2] *nf* **1.** yelkan; **mettre à la voile, mettre les voiles** yelkanlarni ko'tarmoq; **mettre toutes les voiles dehors** *fig* barcha choralarni ishlatmoq; *loc* **avoir le vent dans les voiles** oshig'i olchi bo'lmoq, ishlari besh bo'lmoq; *fam* **mettre les voiles** jo'nab qolmoq; **être, marcher à voile et à vapeur** jinsiy aloqalarda biseksual bo'lmoq; **à pleines voiles** shiddat bilan, sur'at bilan, jadal; **2.** yelkanli qayiq; yelkanli qayiq sporti; **faire de la voile** yelkanli qayiq sporti bilan shug'ullanmoq.

**voilé, ée** *adj* **1.** yopiq, yashirin, yopilgan, bekitilgan, o'ralgan, yashiringan, mavhum; **2.** ro'mol o'ragan, o'rangan, hijobga kirgan; **3.** bo'g'iq, past, xirillagan (*ovoz*).

**voiler**[1] **I.** *vt* **1.** o'ramoq, qoplamoq, yopqich bilan o'ramoq, parda bilan qoplamoq, pardalamoq, burkamoq; **2.** yopmoq, yashirmoq, bekitmoq, ko'zdan yashirmoq, to'smoq, xaspo'shlamoq; **3.** xiralashtirmoq, xiralashtirib qo'ymoq; qoplamoq, bosmoq; **II. se voiler** *vpr* **1.** o'ranmoq, ro'mol, hijob o'ramoq; *loc iron* **se voiler la face** yuzini burmoq, yuzini yashirmoq (*biror yoqimsiz, qo'rqinchli narsani ko'rmaslik uchun yoki uyatdan*); **2.** qoplanmoq, xiralashmoq, burkanmoq, ko'rinmay qolmoq; **le ciel se voile** osmonni bulut qopladi.

**voiler**[2] **I.** *vt mar* yelkan o'rnatmoq; **II. se voiler** *vpr* egilmoq, bukilmoq.

**voilette** *nf* ayollar shlapalariga tutiladigan yuzni berkitish uchun xizmat qiluvchi to'r, parda.

**voilier** *nm* **1.** yelkanli kema; **2.** yelkanchi usta; **3.** *zool* **grand voilier** albatros.

**voilure**[1] *nf* kemaning yelkanlari.

**voilure**[2] *nf* egiklik, bukiklik, egilganlik, bukilganlik.

**voir I.** *vt* **1.** ko'rmoq, qaramoq, razm solmoq; **voir de loin** uzoqdan ko'rmoq; *fig* oldindan ko'ra bilmoq; **voir du pays** sayohat qilmoq, dunyo kezmoq; **faire voir** ko'rsatmoq; **se faire voir** ko'rinmoq, paydo bo'lmoq; **voir le jour** tug'ilmoq, dunyoga kelmoq; paydo bo'lmoq; **voir la mort de près** o'lim bilan yuzma-yuz kelmoq, ajal bilan olishmoq; **en voir trente-six chandelles** ko'zlaridan o't chiqib, chaqnab ketmoq, ko'zining olovi chiqib ketmoq; **cela n'a rien à voir avec notre affaire** bu narsaning ishimizga hech qanday aloqasi yo'q; **il faut voir venir** kutib turish kerak; *loc fam* **je voudrais vous y voir** mening o'rnimda bo'lib qolsangiz ko'rardim, shunday ahvolga tushib qolsangiz ko'rardim; **y voir clair** tushunib, fahmlab, anglab olmoq; **voyez-moi ça** kerak emasmi, istamaysizmi; **voyons** ko'ramiz, qani; **mais voyons** nimalar deyapsiz, nahotki, yo'g'-ey; **attends voir!** *fam* shoshmay tur! **2.** ko'rmoq, tasavvur qilmoq, faraz qilmoq, ko'z oldiga keltirmoq; **je vois ça** tasavvur qilayapman; **je vous vois venir** nima demoqchi ekanligingizni fahmlayapman; *loc fam* **tu vois ça d'ici** bir tasavvur qilib ko'r; **3.** boshdan kechirmoq, boshga tushmoq, ko'rmoq; **j'en ai vu d'autres** bundan ham battarini ko'rganman; **en faire voir à qqn de toutes les couleurs** kunini ko'rsatmoq, adabini berib qo'ymoq, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq; **4.** uchratmoq, tashrif buyurmoq, borib ko'rmoq, ko'rgani bormoq; **voir un malade** kasal ko'rgani bormoq; kasalni tekshirmoq; **venez nous voir** biznikiga keling; *loc fam* **je l'ai assez vu** u jonimga tegdi, uning bilan ko'ishishni boshqa istamayman; **5.** ko'rmoq, ko'rib, o'rganib chiqmoq, tekshirmoq; **ceci est à voir** buni hali ko'rib chiqish kerak, bu haqda hali o'ylab ko'rish kerak; **6. voir à** o'ylamoq, qaramoq, g'amini yemoq, tashvishini qilmoq; *fam* **il faudrait voir à voir** hatto xayolingga ham keltirma, bu haqda o'ylab ham o'tirma; **II. se voir** *vpr* **1.** o'ziga qaramoq, o'zini ko'rmoq, o'zini oynaga solib qaramoq; **2.** ko'rishmoq, bir-biri bilan uchrashib turmoq; *loc fig* **ils ne peuvent pas se voir** ular bir-birini ko'risholmaydi, ular bir-biridan nafratlanishadi; **3.** ko'rinmoq, ko'rilmoq; **4.** uchramoq, uchrab turmoq, topilmoq; bo'lib turmoq, sodir bo'lmoq; **cela ne s'est jamais vu** bunday bo'lishi mumkin emas.

**voire** *adv* hatto, hattoki.

**voirie** *nf* **1.** y'ollar, ularning qurilishi va holatini nazorat qilish; yo'l xizmati; **2.** axlat, chiqindilarni chiqarib tashlash xizmati.

**voisin, ine I.** *adj* **1.** qo'shni, hamsoya; yaqin, yonma-yon, chegaradosh, o'zaro bog'langan; **2.** bir-biriga yaqin, o'xshash, bir xil, bir xildagi; **II.** *n* qo'shni, hamsoya.

**voisinage** *nm* qo'ni-qo'shnichilik, qo'shnichilik, yaqinlik, yonma-yonlik; qo'ni-qo'shni, hamsoyalar.

**voisiner** *vi* qo‘shnilar bilan yaqin bo‘lmoq, bordi-keldi qilmoq; **voisiner avec** qo‘shni bo‘lmoq, yonma-yon joylashmoq.

**voiture** *nf* **1.** arava, foytun, izvosh; **voiture d’enfant** bolalar aravachasi; **voiture à bras** qo‘l arava; **2.** avtomobil, avtomashina, mashina; **en voiture** mashinada; **accident de voiture** avtohalokat; **3.** vagon; **changer de voiture** boshqa vagonga o‘tmoq; *loc* **en voiture** vagonlarga, joylaringizni egallang, poyezd jo‘naydi.

**voiturer** *vt* tashimoq, qatnamoq (*transport vositasida*).

**voiturette** *nf* aravacha; kichkina mashina.

**voiturier I.** *nm* aravakash, izvoshchi; mehmonxonalarda mijoz mashinasi bilan shug‘ullanadigan xodim; **II.** *adj* transportga, avtomobilga oid.

**voix** *nf* **1.** ovoz, tovush, sas, un, sado; **à pleine voix** ovozining boricha, bor ovozi bilan, baralla; **à mi voix, à demi voix** past ovozda, sekin, pichirlab; **élever la voix** ovozini ko‘tarmoq, balandlatmoq; *fig* o‘dag‘aylamoq, baqirmoq, dag‘dag‘a qilmoq; **2.** hayvonlarning qichqirig‘i, ovozi; **la voix des oiseaux** qushlarning sayrashi; **donner de la voix** hurmoq; *fig* e’tiroz, norozilik bildirmoq qarshilik qilmoq; **3.** ovoz (*saylovda*); **voix délibérative** hal qiluvchi ovoz; **obtenir la majorité des voix** ko‘pchilik ovozni olmoq; **donner sa voix** ovoz bermoq; **4.** fikr, qarash; **la voix publique** jamoatchilik fikri; **5.** ichki nido, amr; **la voix de la conscience** vijdon amri; **6.** *gram* nisbat, daraja; **voix causative, voix factitive** orttirma nisbat; **voix passive** majhul nisbat; **voix réciproque** birgalik nisbat.

**vol**[1] *nm* **1.** uchish, parvoz, parvoz qilish; reys; **vols domestiques** mahaliy parvozlar, reyslar; **de haut vol** juda balandda uchadigan; *fig* katta ahamiyatga ega bo‘lgan, yuqori martabali, ta’sirli; **au vol** uchib ketayotganda, uchayotganda; *fig* tez, darrov, darhol; **prendre son vol** uchmoq, osmonga ko‘tarilmoq; *fig* ko‘tarilmoq, yuksalmoq, mavqeini yaxshilab olmoq; **2.** gala, to‘da, g‘uj, ko‘ch (*qushlar, hasharotlar*); **3.** ovchi qush, ov qushi, qush bilan ov qilish.

**vol**[2] *nm* **1.** o‘g‘irlik, o‘g‘irlash, tunash; **commettre un vol** o‘g‘irlik qilmoq; **2.** o‘g‘irlik, o‘g‘irlangan mol, narsa.

**volage** *adj* yengiltak, yengil, beburd, havoyi, betayin.

**volaille** *nf* **1.** uy parrandalari; uy parrandalari go‘shti; **élevage de la volaille** parrandachilik; **2.** *fam péj* xotinlar, qizlar, ayollar; *pop vx* yengiloyoq xotin.

**volailler, ère** *n* uy parrandalari sotuvchi.

**volant**[1]**, ante** *adj* **1.** uchuvchi, uchar, uchadigan; **objet volant non identifié (ovni)** noma’lum uchar jism (NUJ); **2.** yengil, hilpiragan, hilpirama, pirpiroq.

**volant**[2] *nm* **1.** rul, chambarak; **tenir le volant** rulda o‘tirmoq, mashinani boshqarmoq; **2.** shamol tegirmoni parragi, qanoti; **3.** badminton koptogi; **jouer au volant** badminton o‘ynamoq.

**volatil, ile** *adj* tez bug‘lanib ketadigan, uchib ketadigan, tez yo‘qoladigan, g‘oyib bo‘ladigan.

**volatile** *nm* **1.** *vieilli* qush; **2.** uy parrandalari.

**volatiliser I.** *vt* **1.** bug‘lantirmoq, bug‘ga, gazga aylantirmoq; **2.** yo‘q qilmoq, yo‘qqa chiqarmoq, barham bermoq; **II. se volatiliser** *vpr* **1.** bug‘lanmoq, bug‘ga aylanmoq; **2.** g‘oyib bo‘lmoq, yo‘qolmoq.

**volatilité** *nf* bug‘lanib, uchib ketish xususiyati, xossasi.

**vol-au-vent** *nm* volovan (*ichiga go‘sht yoki baliq go‘shti, qo‘ziqorin kabilar solib pishirilgan qatlama pirog*).

**volcan** *nm* **1.** vulqon, yonar tog‘; **volcan éteint, volcan en activité** so‘ngan vulqon, harakatdagi vulqon; **2.** *fig* muqarrar xavf, xatar.

**volcanique** *adj* **1.** vulqonli, vulqonga oid; **2.** shiddatli, g‘ayratli, shijoatli, toshqin, jadal, qizg‘in, otashin, jo‘shqin, qaynoq.

**volcanologie** *nf* vulqonshunoslik, vulqonlarni o‘rganish.

**volcanologue** *n* vulqonshunos.

**volée** *nf* **1.** uchish, parvoz qilish; **prendre sa volée** uchmoq, parvoz qilmoq, havoga ko‘tarilmoq; *fig* ozodlikka chiqmoq, xalos bo‘lmoq; **2.** gala, to‘da, tuyur, g‘uj, ko‘ch; 3; *fig* martaba, daraja, unvon, maqom; **de haute volée** oliymaqom; **4.** kaltak, ta’zir, sazo.

**voler**[1] *vi* **1.** uchmoq, parvoz qilmoq, havoga ko‘tarilmoq; *loc* **voler en éclats** chil-chil bo‘lmoq, mayda-mayda bo‘lmoq, portlamoq; **2.** *fig* uchmoq, yelmoq, yeldek uchmoq, talpinmoq; **voler au secours** yordamga shoshmoq, yugurmoq.

**voler**[2] *vt* o‘g‘irlamoq, tunamoq, o‘marmoq, talamoq, urmoq, shilmoq, o‘g‘irlik qilmoq, o‘zlashtirib olmoq; **qui vole un œuf vole un bœuf** *prov* o‘g‘irlikning boshi – bir tuxum, tuxum o‘g‘irlagan, tovuq ham o‘g‘irlar.

**volet** *nm* deraza yoki darcha eshigi; tavaqa; jaluzi.

**voleter** *vi* pirillab uchmoq, qanot qoqmoq, havoda aylanib uchmoq; hilpiramoq, hilpillamoq, pirpiramoq.

**voleur, euse** *n, adj* o‘g‘ri, olg‘ir, qo‘li egri; muttaham, firibgar, qallob, aldoqchi, tovlamachi, noinsof, nokas, g‘irrom; **voleur à la tire** kissavur; **voleur de grand chemin** qaroqchi, yo‘lto‘sar.

**volière** *nf* katta katak, qushxona, qushlarni saqlash uchun atrofi o‘ralgan katta maydon.

**volige** *nf* tomni shifer, cherepitsa kabilar bilan yopish uchun qator yoki katak-katak qilib qoqilgan taxtachalar.

**volitif, ive** *adj* irodaga oid, iroda.

**volition** *nf* iroda.

**volley-ball** *ou* **volley** *nm* voleybol.

**volleyeur, euse** *n* voleybol o‘ynovchi, voleybolchi.

**volontaire I.** *adj* **1.** ixtiyoriy, erkin, ozod, ko‘ngilli, talabgor; **engagé volontaire** ko‘ngilli askar; **2.** ataylabdan, jo‘rttaga, qasddan qilingan; **mort volontaire** o‘z joniga qasd qilish; **3.** irodali, qat’iyatli, qat’iy, matonatli; o‘jar, qaysar, o‘zboshimcha; **II.** *n* **1.** *nm* ko‘ngilli askar; **2.** *n* ko‘ngilli; talabgor, xohlovchi, tolib; **pas de volontaires?** talabgorlar bormi?

**volontairement** *adv* ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishi, ixtiyori bilan, ko‘ngillilarcha, erkin, bemalol, tortinmasdan, tap tortmay; atayin, ataylab, jo‘rttaga.

**volonté** *nf* iroda, istak, xohish, ixtiyor, amr, azm, erk, intilish, ishtiyoq, izm, ra’y, rag‘bat, taqozo, tob; **les gens de bonne volonté, les bonnes volontés** yaxshi niyatli kishilar; **dernières volontés** so‘nggi istak, vasiyat; **avoir de la volonté** irodali bo‘lmoq; **à volonté** xohlagancha, istagancha, miriqib, to‘yib, ko‘ngli tilagancha, tusagancha; *fam* **faire ses quatre volontés** ko‘ngli tusaganini qilmoq, hushiga nima kelsa, shuni qilmoq.

**volontiers** *adv* **1.** jon deb, jonu dil bilan, bajonudil, mamnuniyat bilan; **2.** tabiatan, odatda; **3.** osongina, yengillik bilan, qiyinchiliksiz.

**volt** *nm* volt (*elektr kuchlanishi o‘lchov birligi*).

**voltage** *nm* elektr tarmog‘ining kuchlanishi (*voltlar bilan ifodalangan*); biror uskuna ishlashi uchun zarur bo‘lgan elektr toki kuchlanishi miqdori.

**voltaire** *nm* suyanchig‘i baland va biroz yotib turadigan, chuqur kreslo, oromkursi.

**voltairien, ienne I.** *adj* Volterona, Volterga xos; **II.** *n* volterchi, Volter maslakdoshi.

**volte** *nf* **1.** *sport* otning bir davra aylanib chiqishi; **2.** *mar* yo‘nalishni o‘zgartirish.

**volte-face** *nf inv* aylanish, burilish; o‘z so‘zidan, fikridan qaytish, keskin o‘zgarish; **faire volte-face** turgan joyida aylanmoq; birdaniga o‘z fikrini o‘zgartirmoq.

**voltige** *nf* **1.** dorbozlik; chig‘iriqda o‘ynash, mashqlar ko‘rsatish; **2.** chavandozlik mashqlari; **3.** uchuvchilik san’ati, uchuvchilar havoda bajaradigan murakkab mashqlar.

**voltiger** *vi* **1.** uchmoq, parvoz qilmoq, parillamoq, pirillamoq, pirillab uchmoq, qanot qoqmoq; havoda aylanmoq; hilpiramoq, hilpillamoq, pirpiramoq; **2.** dorbozlik qilmoq; chavandozlik mashqlarini bajarmoq; **3.** *fig* bir guldan boshqasiga o‘tib yurmoq, yalla, taralla-bedod qilib yurmoq, yengiltaklik bilan hayot kechirmoq.

**voltigeur** *nm* **1.** dorboz; chavandoz; mohir uchuvchi; **2.** sigara turi; **3.** piyoda askar.

**voltmètre** *nm* voltmetr (*elektr toki kuchlanishini o‘lchaydigan asbob*).

**volubile** *adj* **1.** gapga chechan, so‘zamol, sergap, ko‘p gapiradigan; **2.** *bot* chirmashadigan; **plantes volubiles** chirmashadigan o‘simliklar.

**volubilis** *nm* chirmoviq, pechak.

**volubilité** *nf* gapga chechanlik, so‘zamollik, sergaplik; tez gapirish; **parler avec volubilité** bidirlab, labi labiga tegmay gapirmoq.

**volume** *nm* **1.** tom, jild; **2.** hajm, sig'im; **3.** miqdor, salmoq, ko'lam, miqyos; **le volume de la production** ishlab chiqarish salmog'i, hajmi; **4.** ovoz balandligi.

**volumineux, euse** *adj* hajmi katta, kattakon, salmoqli, salmoqdor, keng ko'lamli, ko'lamdor; katta, beso'naqay, bahaybat, qo'pol.

**volupté** *nf* **1.** hirs, shahvatparastlik, shahvat; **2.** lazzat, rohat, farog'at, huzur, halovat, zavq, orom, gasht.

**voluptueusement** *adv* rohat, farog'at bilan, huzur-halovat bilan, maza qilib, zavqlanib.

**voluptueux, euse I.** *adj* **1.** *vieilli* shahvatparast, hirsli; shahvoniy, shahvatli; **2.** lazzatli, yoqimli, huzur bag'ishlaydigan, rohatbaxsh, farog'atli; **3.** shahvoniy hisni, ishtiyoqni, hirsni qo'zg'atuvchi, hayajonlantiruvchi, qizdiruvchi; **II.** *n* shahvatparast, ishratparast, shahvoniy hisga, aysh-ishratga berilgan odam.

**volute** voluta (*o'rtasida ko'z ishlangan chulg'amsimon me'moriy bezak*); chulg'am, jingila, burama shaklidagi narsa; **en volute** voluta shaklida, jingalak, gajak, chulg'amsimon.

**vomer** *nm anat* burun bo'shlig'ining orqa qismini tashkil etuvchi suyak.

**vomi** *nm fam* qusuq.

**vomir** *vt* **1.** qusmoq, qayt qilmoq, qaytarmoq; **avoir envie de vomir** ko'ngli aynimoq, o'qchimoq, behuzur bo'lmoq; **2.** otmoq, otib chiqarmoq, burqiratmoq; **le volcan a vomi de la lave** vulqon lava otib chiqardi; **3.** yog'dirmoq (*la'nat, haqorat so'zlarini*); **vomir des injures** bo'ralatib so'kmoq, la'nat yog'dirmoq; **4.** nafratlanmoq, juda yomon ko'rmoq, jirkanmoq.

**vomissement** *nm* qusish, qayt qilish; qusuq; **vomissement de sang** qon qusish.

**vomissure** *nf* qusuq.

**vomitif, ive I.** *adj* **1.** qusdiradigan, qusdiruvchi, qayt qildiradigan; **2.** jirkanch, nafratlantiradigan, iflos, qabih, chirkin, badbashara, yoqimsiz, qo'lansa, bemaza, ko'ngilni aynitadigan, xunuk, murdor; **II.** *nm* qusdiradigan, qayt qildiradigan dori.

**vorace** *adj, n* **1.** ochko'z, yebto'ymas, sertomoq, mechkay, ochofat, badnafs, xo'ra, nafsi buzuq, yuho, suq; **il a un appétit vorace** ishtahasi karnay; **2.** *fig* ishtiyoqmand, hirsli, tashna, chanqoq; **3.** buzg'unchi, yemiruvchi, vayron qiluvchi; *agr* **plantes voraces** yerni ishdan chiqaradigan, yerning kuchini olib qo'yadigan o'simliklar.

**voracement** *adv* badnafslik, mechkaylik, ochko'zlik, suqlik, ochofatlik bilan, suqlanib, ochko'zlik qilib.

**voracité** *nf* **1.** ochko'zlik, to'ymaslik, yeb to'ymaslik, mechkaylik, ochofatlik, badnafslik, xo'ralik; **2.** *fig* ishtiyoq, havas, hirs.

**vortex** *nm* uyurma, quyun, girdob, girvat, girdibod.

**votant, ante** *n* ovoz beruvchi, ovoz berishda qatnashuvchi, ovoz berish huquqiga ega bol'gan shaxs.

**vote** *nm* ovoz, ovoz berish, saylov; **vote à main levée** qo'l ko'tarib ovoz berish; **vote secret** yashirin ovoz berish; **droit de vote** ovoz berish huquqi; **procéder au vote** ovozga qo'ymoq; **vote de confiance** ishonch bildirish.

**voter I.** *vi* ovoz berishda qatnashmoq; **II.** *vt* ovozga qo'ymoq; ovoz bermoq, saylamoq, ovoz berish yo'li bilan qabul qilmoq.

**votif, ive** *adj relig* nazr-niyoz qilib, atab berilgan, nazr qilingan.

**votre,** *pl* **vos** *adj poss* sizning, o'z, o'zingizning, sizlarning; **Votre Excellence** Siz janobi oliylari.

**vôtre** *pron poss, n* **le vôtre, la vôtre, les vôtres** sizniki, o'zingizniki, sizlarniki; **les vôtres** siznikilar, do'stu yorlaringiz, qarindosh-urug'laringiz.

**vouer I.** *vt* **1.** bag'ishlamoq, atamoq, nazr qilmoq, niyat qilmoq; **vouer son enfant à un saint** bolasini biror avliyoga nazr qilmoq; **2.** tantanali va'da bermoq; **3.** duchor, mahkum qilmoq; **un bâtiment voué à la démolition** buzib tashlash ko'zda tutilgan bino; **II. se vouer** *vpr* o'zini bag'ishlamoq, berilmoq; **homme qui se voue au théâtre** o'zini teatrga baxshida etgan inson.

**vouloir**[1] *vt* **1.** istamoq, xohlamoq, tusamoq, ixtiyor, azm etmoq, rag'bat qilmoq; **arrangez-vous comme vous voulez** bilganingizni qiling; **sans le vouloir** beixtiyor, g'ayri ixtiyoriy, ga'yrishuuriy ravishda; **vouloir du bien, du mal à qqn** yaxshilik, yomonlik tilamoq; **que tu le veuilles ou non** sen shuni istaysanmi, yo'qmi, baribir; **vouloir dire** ifoda etmoq, bildirmoq; **voulez-vous!** bas! **2.** talab qilmoq, so'ramoq, buyurmoq; **la loi veut** qonun talab qiladi; **3.** rozilik bermoq, rozi bo'lmoq, ruxsat bermoq; **je veux bien** men roziman; **voulez-vous!** ovozingizni o'chirasizmi yo yo'qmi? **4.** marhamat qilmoq, lozim topmoq, iltifot ko'rsatmoq; **veuillez** marhamat qilib, iltifot ko'rsatsangiz; **vous voudrez bien m'excuser** aybga buyurmaysiz, uzr; **5. en vouloir à qqn** jahli chiqmoq, birovdan xafa bo'lmoq, g'azablanmoq; birovga sovuq munosabatda bo'lmoq, kek saqlamoq; **en vouloir à qqch** botinmoq, ko'z olaytirmoq, qasd qilmoq; hasad qilmoq, suqlanmoq; **II. se vouloir** *vpr* istamoq, tilamoq; **s'en vouloir de** tavba qilmoq, pushaymon bo'lmoq, afsuslanmoq.

**vouloir**[2] *nm* iroda, istak, tilak, xohish, ixtiyor, mayl, azm, ishtiyoq, ra'y, rag'bat; **bon, mauvais vouloir** yaxshi, yomon niyat; **avec tout mon bon vouloir** chin dildan, chin ko'ngildan.

**voulu, ée** *adj* kerakli, zarur, istalgan, ixtiyoriy, maqbul, matlub; **c'est voulu** bu atayin, jo'rttaga, qasddan qilingan.

**vous** *pron pers* **1.** siz, sizlar (*ikkinchi shaxs ko'plik olmoshi*); **que Dieu vous aide** Xudo sizga quvvat bersin; **dire vous à qqn** sizlamoq, sizsiramoq; **si j'étais vous** sizning o'rningizda bo'lganimda; **s'il vous plaît** marhamat; **2.** *olmoshli fe'llarda:* **vous vous lavez** siz yuvinyapsiz.

**voussure** *nf archit* **1.** gumbaz, toq, ravoq kabilarning egilgan, bukilgan joyi; **2.** eshik, deraza tepasiga o'rnatilgan toq.

**voûte** *nf* **1.** gumbaz, qubba; egilgan, bukilgan joy; **en voûte** gumbazsimon, gumbaz shaklidagi; **voûte céleste** osmon, osmon gumbazi; **2.** *anat* **voûte palatine** qattiq tanglay.

**voûté, ée** *adj* **1.** gumbazli, qubbali; gumbazsimon, qubbasimon; **2.** bukik, bukri, egri, egilgan, bukilgan, bukchaygan, yelkasi chiqqan; **une vieille très voûtée** ikki bukilgan kampir.

**voûter I.** *vt* **1.** gumbaz bilan yopmoq, gumbaz o'rnatmoq; **2.** egmoq, bukmoq, qiyshaytirmoq; **l'âge l'a voûté** yillar uning qaddini bukdi; **II. se voûter** *vpr* egilmoq, bukilmoq, bukchaymoq; **il s'est voûté avec l'âge** qarib bukchayib qoldi.

**vouvoiement** *nm* sizsirash, sizlab gaplashish, sizlashish.

**vouvoyer** *vt* sizlab, sizsirab gapirmoq, sizlashmoq, sizsiramoq.

**vox populi** *nm inv litt* jamoat fikri, xalq ovozi.

**voyage** *nm* **1.** sayohat, safar, sayr, yo'l; **récit de voyage** sayohatnoma; **entreprendre, faire un voyage, être en voyage** sayohat qilmoq, safarga chiqmoq; **bon voyage** oq yo'l, safaringiz bexatar bo'lsin, yo'l bo'lsin; **faire le grand voyage** narigi dunyoga safar qilmoq, olamdan o'tmoq; **2.** qatnash; **un seul voyage suffira pour transporter ces meubles** bu mebellarni bir qatnashda tashiymiz; **3.** *fig* kayf (*narkotik moddalar ta'sirida*).

**voyager** *vi* **1.** sayohat, sayr qilmoq, safar etmoq, sayyohlik qilmoq, yurmoq, kezmoq; **voyager à pied** yayov kezmoq; **2.** tashilmoq, olib borilmoq; **fruit qui s'abîme en voyageant** tashishga noqulay meva, tez buziladigan, uzoqqa olib borish o'ng'aysiz bo'lgan meva.

**voyageur, euse I.** *adj* kezib yuruvchi, sayohat qilib yuruvchi, jahongashta, sayyor; uchib o'tadigan, ko'chmanchi; **pigeon voyageur** xat tashuvchi kaptar; **II.** *n* **1.** sayohatchi, sayyoh, turist, musofir, jahongashta; **2.** yo'lovchi, passajir.

**voyant, ante I.** *adj* **1.** ko'ra oladigan, ko'ruvchi, ko'zli, ko'zi ochiq; **2.** ko'zga tashlanadigan, ko'rinadigan, o'ziga tortadigan, chaqnoq, ravshan, ko'zni oladigan; **toilette voyante** ko'zni oladigan pardoz; **II.** *n* **1.** *vx* payg'ambar; **2.** oldindan ko'ruvchi, oldinda biluvchi, bashorat qiluvchi kishi, bashoratchi; folbin; **3.** ko'ra oladigan, ko'ruvchi, ko'zi ochiq odam; **4.** *nm* yorug'lik signali, chiroqli signal (*turli asbob-uskunalarda*); **voyant d'essence** yoqilg'i tugayotganida ogohlantiruvchi chiroq (*mashinalarda*); **5.** *nm* vizir (*géodeziyada*); **3.** *nm* ba'zi asboblar ichini ko'rish uchun o'rnatilgan shisha qism.

**voyelle** *nf* unli tovush; unli harf; **voyelles antérieures, postérieures** til oldi, til orqa unlilari.

**voyer** *nm vx* yo'l nazoratchisi, noziri.

**voyeur, euse** *n* **1.** *vieilli* tomoshabin, tekin tomoshalarni xush ko'ruvchi; **2.** panada turib, yashiringan holda shahvoniy sahnalarni kuzatish ishqibozi.

**voyou** *nm, adj* **1.** bezori, yaramas, o‘g‘ri; to‘polonchi, sho‘x, shum, xumpar, bebosh; **petit voyou** shumtaka; **2.** firibgar, tovlamachi, qallob, muttaham, razil, qabih, yaramas, ablah, nobakor, pastkash.

**vrac (en)** *loc adv* **1.** ustma-ust, qalashtirib, ayqash-uyqash, pala-partish, betartib holda, aralash-quralash; **2.** kilolab, o‘lchab, qadoqlanmagan holda; **acheter du thé en vrac** kiloli choy olmoq.

**vrai, vraie I.** *adj* **1.** rost, to‘g‘ri, aniq, durust, chin, haqiqiy, haqqoniy, haq, barhaq, bexato; **n'est-il pas vrai?** shunday emasmi? *fam* **c'est pas vrai!** bo‘lishi mumkin emas! behazil! bunisi endi oshiqcha, chidab bo‘lmaydi; **2.** *otdan oldin kelganda:* asl, haqiqiy, chin, chinakam; **de vraies perles** asl marvarid; **3.** *otdan oldin kelganda:* o‘taketgan, borib turgan, uchiga chiqqan, g‘oyat; **une vraie crapule** uchiga chiqqan tovlamachi; *loc fam* **vrai de vrai** chippa-chin; **4.** *vieilli* to‘g‘riso‘z, rostgo‘y, haqiqatgo‘y, samimiy; **II.** *nm* haqiqat, haqqoniyat, rostlik, to‘g‘rilik; **vous êtes dans le vrai** siz haqsiz; **à dire le vrai, à dire vrai, à vrai dire** rostini aytganda, gapning po‘stkallasini aytganda, aslini olganda; **au vrai** haqiqatan, darhaqiqat, darvoqe; *loc fam* **pour de vrai** haqiqatan, rostdan ham, haqiqatdan ham, chindan ham; **III.** *adv* haqiqatan, chindan, chini bilan; **jouer vrai** haqqoniy o‘ynamoq.

**vraiment** *adv* haqiqatan, haqiqatda, chindan, rostdan, haqiqatdan ham, chindan ham, aslida, shubhasiz, albatta, to‘g‘risi, rosti, gapning po‘stkallasini aytganda; **vraiment?** nahot, rostdanmi, chini bilanmi, rostdanmi, yo‘g‘-ey, yopiray; **pas vraiment** unchalik emas, u darajada emas.

**vraisemblable** *adj* haqiqatnamo, haqiqatga o‘xshagan, maqbul, qabul qilsa bo‘ladigan, ehtimol, yuz berishi, ro‘yobga chiqishi, amalga oshishi mumkin bo‘lgan, bo‘lishi ehtimol tutilgan.

**vraisemblablement** *adv* balki, ehtimol, chamasi, aftidan.

**vraisemblance** *nf* ehtimollik, ehtimol, haqiqatnamolik, haqiqatga o‘xshaganlik; **selon toute vraisemblance** shubhasiz.

**vrille** *nf* **1.** parma, dastparma; **2.** jingalak, gajak, chirmoviq (*o‘simliklarda*); **vrille de la vigne** tok gajagi; **3.** spiral, parmasimon, purjinasimon, burama chiziq; **escalier en vrille** burama, aylanma zina; **4.** samolyotning buralib, o‘z atrofida aylanib sho‘ng‘ishi (*halokat tufayli yoki havo mashqlari paytida*).

**vriller I.** *vt* parmalamoq, parmalab teshmoq; *fig* zirqiratmoq, sirqirab og‘ritmoq; **II.** *vi* **1.** o‘rilmoq, eshilmoq, chiyralmoq; buralmoq, o‘ralmoq; **2.** *av* buralib, o‘z atrofida aylanib sho‘ng‘imoq, ko‘tarilmoq (*samolyot*).

**vrombir** *vi* varillamoq, varanglamoq, tarillamoq, g‘uvillamoq, g‘o‘ng‘illamoq, g‘ing‘illamoq, vizillamoq, guvillamoq, guldiramoq; **le moteur vrombit** motor varillayapti.

**vrombissant, ante** *adj* varillayotgan, varanglayotgan, tarillayotgan, g‘uvillayotgan, g‘o‘ng‘illayotgan, g‘ing‘illayotgan, vizillayotgan, guvillayotgan, guldirayotgan.

**vrombissement** *nm* varillash, varanglash, tarillash, g‘uvillash, g‘o‘ng‘illash, g‘ing‘illash, vizillash, guvillash, guldirash; **le vrombissement du moteur** motorning guvillashi, tarillashi.

**vroum** *intj* varang, var-r-r, tar-r-r, g‘o‘ng, g‘o‘ng-g‘o‘ng (*tezligini oshirayotgan motor shovqini*).

**vs** *prép abrév voir* **versus**.

**vu[1], vue I.** *adj* ko‘ringan, ko‘rilgan; **c'est bien vu?,** *fam* **vu?** tushunarlimi?; **II.** *nm* ko‘rish, qarash, nigoh; **au vu, sur le vu de** ko‘rib, ko‘rib chiqib; **au vu et au su de tout le monde** ochiqchasiga, oshkora, hammaning ko‘z oldida, el nazarida, yashirmasdan.

**vu[2]** *prép* e'tiborga, inobatga, nazarga olgan holda, nazarda tutib, kelib chiqib; sababli, sababdan, bois, tufayli; **vu les circonstances, il vaut mieux attendre un peu** vaziyatdan kelib chiqib, biroz kutib turgan ma'qul.

**vue** *nf* **1.** ko‘rish; ko‘z; nazar, nigoh, qarash; **avoir une bonne vue** ko‘zi o‘tkir bo‘lmoq, yaxshi ko‘rmoq; **troubles de la vue** ko‘z nuqsonlari, ko‘rish bilan bog‘liq ko‘z kasalliklari; **vue basse, courte** yaqindan ko‘rish, uzoqdan ko‘rolmaslik; **jeter, porter la vue sur** ko‘z tashlamoq, qaramoq; **perdre la vue** ko‘zdan qolmoq, ko‘r bo‘lib qolmoq; **rendre la vue à qqn** ko‘rish qobiliyatini tiklamoq, qaytadan ko‘radigan qilmoq (*jarrohlik yo‘li bilan*); **perdre de vue** ko‘zdan uzoqlashmoq, ko‘rinmay qolmoq, ko‘zdan qochirmoq; **à perte de vue** ko‘z qamrab olguncha; **à portée de sa vue** ko‘z o‘ngida, ko‘z tushadigan joyda; **à première vue** bir qarashda, ko‘rishda; **je le connais de vue** bu odam menga ko‘z tanish; **dessin à vue** xomaki rasm; **à vue d'œil** ko‘z o‘ngida, ko‘z oldida; **en mettre plein la vue à qqn** esankiratib qo‘ymoq, lol qoldirmoq, hayratda qoldirmoq, hayron qoldirmoq, g‘oyat zavqlantirmoq, maftun qilmoq, qoyil qoldirmoq; **avoir qqch en vue** nazarda, ko‘zda tutmoq, e'tiborga olmoq; **2.** ko‘rinish, manzara; **en vue** ko‘rinishidan, tashqarisidan, rangidan; **un personnage en vue** atoqli, ko‘zga ko‘ringan odam; **3.** tasvir, rasm, surat; **4.** qarash, tasavvur, nazar, nuqtai nazar; **échange de vues** fikr almashish; **5.** maqsad, niyat, o‘y, qasd, ahd; reja, mo‘ljal; g‘araz; **en vue de** uchun, maqsadida, niyatida, qasdida; **avoir des vues sur qqn** ko‘z tutmoq, umid bog‘lamoq, mo‘ljallamoq; **avoir des vues sur qqch** ko‘z olaytirmoq.

**vulcanisation** *nf* vulkanizatsiya, kauchukni rezinkaga aylantirish.

**vulcaniser** *vt* vulkanizatsiya qilmoq.

**vulcanologie** *nf voir* **volcanologie**.

**vulgaire I.** *adj* **1.** oddiy, sodda, o‘rtacha, o‘rta-miyona, ko‘zga tushmaydigan, xashaki, chakana, do‘lvar, to‘pori, go‘l; basit; odatdagi, kundalik; mahalliy, jaydari; **le coton vulgaire** jaydari paxta; **2.** *ling* keng tarqalgan, sodda, og‘zaki, soddalashtirilgan; **latin vulgaire** og‘zaki lotin tili, avom tili; **nom vulgaire d'une plante** biror o‘simlikning xalq tilida nomlanishi; **3.** *péj* vulgar, odobdan tashqari, beadab, nazokatsiz, qo‘pol, dag‘al, koski; **mot vulgaire** qo‘pol, odobdan tashqari, uyatsiz so‘z; **4.** *otdan oldin kelganda:* allaqanday, qandaydir; **II.** *nm* **1.** *vieilli* avom, omma, xaloyiq; **2.** oddiylik, soddalik; qo‘pollik, qo‘rslik, dag‘allik; beo‘xshovlik, beso‘naqaylik; **3.** so‘zlashuv tili, og‘zaki til.

**vulgairement** *adv* **1.** *litt vieilli* odatda, so‘zlashuv tilida, xalqona; **2.** *péj* qo‘pollik, dag‘allik, qo‘rslik bilan; oddiy, sodda, beo‘xshovlik, beso‘naqaylik bilan, to‘porilarcha.

**vulgarisateur, trice** *n, adj* ommalashtiruvchi, omma orasida tarqatuvchi, yoyuvchi, soddalashtiruvchi, ilmiy-ommabop qiluvchi.

**vulgarisation** ommalashtirish, omma orasida tarqatish, soddalashtirish, ilmiy-ommabop qilish; **ouvrage de vulgarisation scientifique** ilmiy-ommabop asar.

**vulgariser** *vt* **1.** ommalashtirmoq, omma orasida tarqatmoq, yoymoq, soddalastirmoq, sodda tilda tushuntirmoq, ommabop qilmoq; urfga, odatga kiritmoq; **2.** qo‘pollashtirmoq, dag‘allashtirmoq, ma'nosini buzmoq.

**vulgarisme** *nm* vulgarizm, dag‘al, qo‘pol, odobdan tashqari, uyatsiz so‘z va iboralar.

**vulgarité** *nf* oddiylik, soddalik, go‘llik, to‘porilik; beadablik, qo‘pollik, qo‘rslik, dag‘allik; beo‘xshovlik, beso‘naqaylik.

**vulgate** *nf relig* Bibliyaning lotincha nusxasi (*tarjimasi*).

**vulnérabilité** *nf litt* bo‘shlik, mo‘rtlik, noziklik, zaiflik.

**vulnérable** *adj* darrov shikastlanadigan, bo‘sh, mo‘rt, nozik, zaif, nimjon.

**vulnéraire I.** *adj vx* shifobaxsh, davo bo‘ladigan, dorivor, yarani bitkazuvchi, jonlantiruvchi; **II.** *nm vx* yarani bitkazuvchi dori.

**vulvaire[1]** *nf bot* sassiq olabuta, sho‘ra.

**vulvaire[2]** *adj* ayollar tashqi jinsiy a'zosiga oid.

**vulve** *nf* tashqi jinsiy a'zolar, farj (*ayollar va urg‘ochi sut emizuvchilarda*).

# W

**W, w** *nm inv* fransuz alifbosining yigirma uchinchi harfi.

**wagon** *nm* vagon; **wagon de marchandises, wagon à bestiaux** tovar vagoni, yuk vagoni; **wagon de voyageurs** yo‘lovchi tashiydigan vagon; **cent wagons de blé** yuz vagon don.

**wagon-citerne** *nm* vagon-sisterna.

**wagon-lit** *nm* yotib ketish uchun mo‘ljallangan vagon.

**wagonnet** *nm* vagonetka.

**wagon-restaurant** *nm* vagon-restoran.

**wahhabisme** *nm* vahobiylik.

**wahhabite** *adj* vahobiy; **le Royaume wahhabite** Saudiya Arabistoni.

**wallon, onne I.** *adj* Vallonga oid, Vallon, valloniyalik; **II.** *n* **1.** valloniyalik; **2.** *nm* vallon tili.
**wapiti** *nm* vapiti, Kanada bug'usi.
**wassingue** *nf* pol artadigan latta, pol latta.
**water-closets** *nm inv voir* **W.-C.**
**water-polo** *nm* vaterpolo, suv polosi.
**waters** *nm pl* hojatxona.
**watt** *nm* vatt; **mille watts** ming vatt.
**W.-C.** *nm pl* hojatxona, tualet.
**week-end** *nm anglic* dam olish kunlari, shanba-yakshanba, shanba-bozor.
**western** *nm* vestern, kovboylar haqidagi film.
**wharf** *nm anglic* pristan.
**whisky** *nm* viski; **un whisky soda** gaz suvli viski.

# X

**X, x**[1] *nm inv* fransuz alifbosining yigirma to'rtinchi harfi.
**X, x**[2] **I.** *n inv* **1.** x, algebrada noma'lum son belgisi; noma'lum; **2. L'X** Politexnika instituti; **un X, une X** Politexnika instituti talabasi; **3.** *nm* X (*10 sonini bildiradigan rim raqami*); **II.** *adj* **un film classé X, un film X** behayo, uyatsiz tasvirlar ko'rsatiladigan, pornografik film.
**xénophile** *adj, n* xorijliklarga, xorijiy narsalarga yaxshi munosabatda bo'luvchi.
**xénophilie** *nf* xorijliklarga nisbatan samimiy munosabat.
**xénophobe** *adj, n* xorijliklarni, xorijiy narsalarni yoqtirmaydigan.
**xénophobie** *nf* xorijliklarga, xorijdan kelgan narsalarga nisabatan adovat, xusumat, ularni yoqtirmaslik.
**xérès** *nm* Jerez oq vinosi (*ispan*).
**xylène** *nm* benzoldan olingan yoqilg'i.
**xylographie** *nf* yog'och o'ymakorligi.
**xylophone** *nm* musiqa asbobi.

# Y

**Y, y**[1] *nm* fransuz alifbosining yigirma beshinchi harfi.
**y**[2] *nm inv* y (*algebrada ikkinchi noma'lum*).
**y**[3] **I.** *adv* **1.** bu yoqqa, bu yerga, bu tomonga, beri, u yoqqa, u tomonga; **j'y suis venu l'an dernier** men bu yerga o'tgan yili kelganman; **j'y vais** men u yoqqa ketayapman; **2.** bu yerda; shu yerda, bunda, shunda; u yerda, o'sha yerda, o'sha joyda, u joyda; **je suis à Paris, mon frère y est aussi** men Parijdaman, mening akam ham u yerda; **II.** *pron* u, bu; **j'y penserai** men bu haqda o'ylab ko'raman.
**yacht** *nm* yaxta (*sportda yoki sayohat uchun ishlatiladigan kichikroq kema*); **yacht de course** poyga yaxtasi.
**yachting** *nm* yelkanli qayiq sporti.
**yack** *ou* **yak** *nm* qo'tos, Tibet qo'tosi.
**yankee** *nm* yanki, amerikalik.
**yaourt** *nm* yogurt (*maxsus ferment qo'shib uvitilgan chuchuk qatiq*).
**yatagan** *nm* egri qilich, shamshir, turk shamshiri.
**yearling** *nm* toy, bir yoshga to'lgan zotdor ot bolasi.
**yeuse** *nf* doim yashil dub.
**yéti** *ou* **yeti** *nm* qor odam.
**yeux** *nm pl voir* **œil.**
**yé-yé I.** *n* ye-ye, 60-yillarda g'arbdan kirib kelgan musiqa uslubi shinavandasi bo'lgan yoshlar, shu uslubda kuylovchi xonanda; **II.** *adj* **chanson yé-yé** ye-ye uslubidagi qo'shiq.
**yiddish** *nm* iddish, yahudiy tili.
**yod** *nm ling* yot.
**yoga** *nm* yoga (*inson ruhiyati va fiziologiyasini boshqarish ta'limoti va metodi*).
**yogi** *nm* yoga bilan shug'ullanuvchi.
**yogourt** *nm voir* **yaourt**.
**yole** *nf mar* yalik (*ikki yoki to'rt eshkakli qayiq*).
**yougoslave** *adj* yugoslaviyaliklarga va Yugoslaviyaga oid.
**youpin, ine** *nm et f* yahudiy (*so'kish ma'nosida*).
**you-you** *nm* kichik qayiq.
**yo-yo** *nm inv* io-io (*o'yin*).
**ypérite** *nf* iprit (*tekkan yerni yara qiladigan va umuman zaharlaydigan rangsiz, moysimon gaz sifatida ishlatilgan zaharli modda*).
**ysopet** *ou* **isopet** *nm* masallar to'plami (*O'rta asrlarda*).

# Z

**Z, z** *nm inv* fransuz alifbosining yigirma oltinchi harfi; **de A à Z** boshdan-oyoq, butunlay.
**zabre** *nm* sassiqqo'ng'iz.
**zakouski** *nm* gazak; yengil ovqat.
**zamier** *nm bot* sago palmasi.
**zanni** *ou* **zani** *nm* masxaraboz, qiziqchi, mazaxchi (*venitsian komediyasida*).
**zanzibar** *ou* **zanzi** *nm* qimorning bir turi.
**zaouïa** *nf* xonaqoh; madrasa, diniy maktab (*Shimoliy Afrikada*).
**zapper** *vi anglic* televizor pulti yordamida kanallarni to'xtovsiz o'zgartirmoq, bir kanaldan boshqasiga o'tmoq.
**zazou** *n, adj* stilyaga.
**zèbre** *nm* **1.** zebra; *loc fam* **courir comme un zèbre** juda tez chopmoq, bor kuchi bilan yugurmoq, otkeldisiga chopmoq; **2.** *fam* g'alati odam.
**zébrer** *vt* yo'l-yo'l chiziq tortmoq, yasamoq, chizmoq.
**zébrure** *nf* yo'l-yo'l, taram-taram chiziq.
**zébu** *nm* zebu, o'rkachli buqa (*Osiyo va Afrikada yashovchi o'rkachli ho'kizsimon hayvon*).
**zélateur, trice** *n litt* ashaddiy muxlis, tarafdor; g'ayratmand.
**zèle** *nm* g'ayrat, ishtiyoq, jahd, jon-jahd, jonbozlik, shaxt, shavq, shasht, ixlos, sa'y-harakat; **travailler avec zèle** g'ayrat, shijoat bilan ishlamoq; **faire du zèle** zo'r bermoq; oshiqcha xatti-harakat qilmoq.
**zélé, ée** *adj* g'ayratli, g'ayratmand, serg'ayrat, shijoatli, tirishqoq, jonboz.
**zen** *nm* zen (*buddizmning Yaponiyadagi sektalaridan biri*).
**zénana** *nm* ichkari, haram (*hind musulmonlarida uyning ayollar uchun mo'ljallangan qismi*).
**zend** *nm vieilli* Zend, Zend-Avesto (*Avestoning o'rta fors tiliga qilingan tarjimasi va sharhi*).
**zénith** *nm* **1.** zenit (*osmonning kuzatuvchi boshi ustidan ko'ringan eng yuqori nuqtasi*); **2.** *fig* avj, cho'qqi, eng yuqori daraja; **le zénith de la gloire** shuhrat cho'qqisi.
**zéphyr** *nm* **1.** *poét* mayin shabada, nasim, sabo; **2.** yupqa va mayin ipgazlama.
**zeppelin** *nm* dirijabl.
**zéro** *nm* **1.** nol; **deux plus deux moins quatre, égale zéro** ikki qo'shuv ikkidan to'rtni olsak nolga teng; **gagner par trois buts à zéro** uchu nolga yengmoq; **avoir zéro sur vingt** yigirmadan nol baho olmoq; **2.** yo'qlik; arzimaslik, nochorlik; **il a le moral à zéro** kayfiyati yo'q; **pour moi, c'est**

**zéro** buning men uchun (bir chaqalik) ahamiyati yo'q; **un zéro** bo'lmag'ur, arzimas, nochor odam; **3.** *fam* hech qanday, hech bir, mutlaqo, aslo; **il a fait zéro faute à sa dictée** u diktantida birorta ha xato qilmadi; **ça m'a coûté zéro franc** bu menga suvtekinga tushdi; **recommencer tout à zéro** hammasini boshqatdan boshlamoq; **4.** nol, hisobning boshlang'ich nuqtasi; **dix degrés au-dessous de zéro** minus o'n daraja.

**zérotage** *nm* biror o'lchov asbobida nol nuqtani aniqlash (*termometr*).

**zeste** *nm* **1.** yong'oq mevasi ichidagi parda; **2.** sitrus (limon, apelsin) mevalarining po'chog'idan tayyorlangan ziravor.

**zêta** *nm* zeta (*grek alfavitining 6-harfi*).

**zététique** *adj* **analyse zététique** analitik uslub.

**zeugma** *ou* **zeugme** *nm* zevgma.

**zeuzère** *nf zool* arvohkapalak.

**zézaiement** *nm* tilini chuchuklantirib gapirish.

**zézayer** *vi* tilini chuchuklantirib gapirmoq (*j yoki sh o'rniga z talaffuz qilib*).

**zibeline** *nf* sobol, samur, suvsarning bir turi; shu hayvonning mo'ynasi; **manteau de zibeline** suvsar palto.

**zieuter** *ou* **zyeuter** *vt fam* ko'z qirini tashlamoq, nigoh tashlamoq, qaramoq.

**zig** *ou* **zigue** *nm fam* kimsa, nusxa, shaxs, odam; **un drôle de zigue** g'alati nusxa.

**zigoteau** *ou* **zigoto** *n* kimsa, nusxa, shaxs, odam.

**zigouiller** *vt fam* o'ldirmoq.

**zigue** *nm fam voir* **zig**.

**zigzag** *nm* zigzag, siniq chiziq; egri-bugri yo'l; **marcher en zigzag** gandiraklab yurmoq.

**zigzaguer** *vi* egri-bugri yo'ldan yurmoq; gandiraklamoq.

**zinc** *nm* **1.** rux; **alliages de zinc** ruxli qotishmalar; **2.** *fam* peshtaxta (*bar, kafe*); bar, kafe; **3.** *fam* samolyot.

**zincifère** *adj* ruxli, tarkibida rux moddasi bor.

**zingage** *nm* ruxlash, rux yugurtirish, rux bilan qoplash.

**zingaro** *nm* lo'li (*Italiyalik*).

**zinguer** *vt* ruxlamoq, rux yugurtirmoq, rux bilan qoplamoq.

**zinjanthrope** *nm* zinjantrop (*Tanzaniyadan topilgan avstralopitek*).

**zinnia** *nm* sinnia (*dekorativ o'simlik, gul*).

**zinzin I.** *nm* narsa, allanima; **II.** *adj inv* g'alati, esini yegan, jinni.

**zinzinuler** *vi* sayramoq (*chittak, tog'chumchuq*).

**zinzolin** *nm vieilli litt, adj inv* qizil-siyoh rang, baqlajon rang.

**zip** *nm anglic* molniya, zanjirsimon yopqich.

**zircon** *nm* sirkon, sirkoniy silikat.

**zirconium** *nm chim* sirkoniy.

**zizanie** *nf bot* mastak, begona o't; *fig* kelishmovchilik, janjal, g'avg'o, nifoq, nizo, adovat; **semer la zizanie** nifoq solmoq, nizo urug'ini sochmoq.

**zizi**[1] *nm* sariq chumchuq.

**zizi**[2] *nm fam* chuk, cho'choq, bulbulcha.

**zloty** *nm* zloti (*Polsha pul birligi*).

**zob** *nm vulg* olat.

**zodiacal, ale, aux** *adj* zodiakga oid, zodiak, burj; **signes zodiacaux** zodiak belgilari, o'n ikki burj.

**zodiaque** *nm* zodiak, burj.

**zoïle** *nm* hasadgo'y tanqidchi, hasadchi munaqqid, tuhmatchi, bo'htonchi.

**zombie** *ou* **zombi** *nm* arvoh, ruh; zombi; manqurt.

**zona** *nm méd* temiratki, o'rab oladigan temiratki, zona.

**zonage** *nm* zonalashtirish, rayonlashtirish, zonalarga taqsimlash.

**zonal, ale, aux** *adj* zonal, zonaga oid.

**zone** *nf* **1.** *géog* zona, mintaqa, doira; **zone tempérée** mo'tadil iqlimli mintaqa; **zone marécageuse** botqoqzor; **2.** zona, joy, makon, rayon; **la zone dollar** dollar amalda qo'llaniladigan joy; **poète de deuxième, de troisième zone** ikkinchi darajali, o'rtacha shoir; **3.** zona, katta shaharlarning yomon sharoitda tashlab qo'yilgan tevarak-atrof qismi; *loc fam* **c'est la zone** ahvol og'ir, ish chatoq.

**zoo** *nm* hayvonot bog'i, zoopark.

**zoogéographie** *nf* zoogeografiya (*hayvonlarning yer yuzida tarqalishini o'rganadigan fan*).

**zoolâtre** *adj, n* hayvonlarga sig'inuvchi, hayvonparast.

**zoolâtrie** *nf* hayvonlarga sig'inish, hayvonparastlik.

**zoologie** *nf* zoologiya, hayvonshunos (*hayvonlar olamini o'rganadigan fan*).

**zoologique** *adj* zoologik, zoologiyaga, hayvonlarga oid; **classification zoologique** hayvonlar tasnifi, klassifikatsiyasi; **jardin, parc zoologique** hayvonot bog'i.

**zoologiste** *n* zoolog, zoologiya mutaxassisi.

**zoom** *nm anglic* zum, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, kattalashtirish va kichiklashtirish; kattalashtirib va kichiklashtirib beradigan obyektiv (*fotoapparat*).

**zoomer** *vi* kattalashtirib yoki kichiklashtirib beradigan obyektiv bilan suratga olmoq.

**zoomorphisme** *nm* zoomorfizm, hayvonlarga topinish, hayvonparastlik.

**zoophilie** *nf* zoofiliya.

**zoophobie** *nf* ba'zi hayvonlardan qattiq qo'rqish.

**zootechnicien, ienne** *n* zootexnik, veterinar; chorvador.

**zootechnie** *nf* zootexnika.

**zootechnique** *adj* zootexnikaga oid.

**zoroastrien, ienne** *adj, n rel* zardushtiy.

**zoroastrisme** *nm relig* zardushtiylik.

**zozo** *nm fam* befahm, anqov, lavang, ovsar, devona, dovdir; kimsa, nusxa, shaxs.

**zozoter** *vi fam voire* **zézayer**.

**zut** *intj fam* obbo, jin ursin.

**zyeuter** *vt voir* **zieuter**.

**zygoma** *nm anat* yonoq suyagi.

**zygomatique** *adj* yonoqqa, yonoq suyagiga oid, yonoq; **os zygomatique** yonoq suyagi.

**zygote** *nm* urug'langan tuxum hujayra.

**zymotique** *adj* achishga, bijg'ishga oid, achish, bijg'ish tufayli kelib chiqadigan.